- Madaniyatning turli shakllari: milliy madaniyat(Har bir millatning o‘ziga xos madaniyati bo‘lib, uning tilidan, urf-odatlaridan, san’atidan iborat); mahalliy madaniyat(Mahalliy jamoalarning o‘ziga xos an’analari va urf-odatlarini o‘z ichiga oladi); global madaniyat(Globalizatsiya jarayonida turli millatlar o‘rtasida madaniy almashinuv yuz berib, global madaniyatni shakllantiradi).

- Zamonaviy madaniyat: Zamonaviy dunyoda texnologik rivojlanish, globalizatsiya va ijtimoiy o‘zgarishlar madaniyatni yangi shakllarga olib kelmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar va raqamli texnologiyalar odamlarning madaniy ifodalanishini o‘zgartirib, yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, madaniy xilma-xillikni saqlash va himoya qilish masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Madaniyat insoniyat hayotining ajralmas qismi bo‘lib, u bizning fikrlarimizni, his-tuyg‘ularimizni va harakatlarimizni shakllantiradi.

Transformatsiya masalalari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan tadqiqotchilarning fikrlariga tayansak, transformatsion yondashuv oqituvchisining chuqur o‘zgarishi, tafakkur darajasining yuksalishi va bilimni hayotiy kontekstda anglash orqali o‘zlashtirishini ta’minlaydi. Bu esa ta’lim jarayonining nafaqat kognitiv, balki effektiv va reflektiv jihatlarini ham qamrab olishini anglatadi.

Mazkur yondashuv o‘quv faoliyatida bo‘lajak mutaxasisning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, o‘z-o‘zini anglash, mustaqil qaror qabul qilish va kompleks muammolarni hal etishga tayyorlashda samarali hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, biz quyidagi mualliflik ta’rifini ilgari surganmiz: Transformatsion yondashuv – bu talabaning shaxsiy tajribasi, ehtiyojlari va atrof-muhit bilan uzviy bog‘liq holda bilimni qayta kashf etishi, uni chuqur anglab, hayotiy o‘zgarishlarga yo‘naltiruvchi o‘quv jarayonini tashkil etuvchi metodik yondashuvdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev. 2017—2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakat strategiyasi. 7 yanvar 2017 yil.

2. Sh.Mirziyoyev. Tanqidiy taxlil, qat’iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisdagi O‘zbekiston republikasi prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, № 11.

3. Abdullaev S. X. Pedagogik ergonomika va o‘qituvchi ergonomik madaniyatining tashkiliy asoslari //Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan). – 2020. – №. 8 (93). – S. 61-68.

4. Abdullaev S. X. O‘qituvchilarning ergonomik madaniyatini rivojlantirish muhitini tashkil etish tizimi va texnologiyasi //Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan). – 2021. – №. 9 (106). – S. 28-36.

5. Abdullayev S.X. Ergonomik yondashuv asosida bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchisi ergonomik kompetentligini takomillashtirish metodikasi //Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. – 2023. – №. 6. – C. 842-846. 24.

6. Butayeva G.B. Transformatsion yondashuv asosida bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarida grafik kompetentlikni rivojlantirish metodikasi // Kasb-hunar ta’limi. – Toshkent, 2024. №11. – B. 199-207.

7. Butayeva G.B.Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining grafik kompetentligini transformatsion yondashuv asosida rivojlantirishning samarali shakllari va interfaol metodlardan foydalanish .//“Maktabgacha va maktab ta’limi” Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga ixtisoslashgan ilmiy jurnal. –2025 №5 –B.347-349

IJTIMOIY ONG VA MA’NAVIYAT UYG‘UNLIGINING IJTIMOIY MUHITGA TA’SIRI

R.A.Tursunov
Namangan davlat pedagogika instituti Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy hodisalar va jarayonlarning fundamental birligi, dunyoqarash va jamiyat taraqqiyotining tadrijiy darajasini belgilab beruvchi ijtimoiy ong va qadriyatlar va yuksak ahloq birligini o‘zida mujassam etgan ma’naviyat uyg‘unligining ijtimoiuy muhitga ta’siri borasidagi fikr mulohazalar o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: globallashuv, strategiya, aura, islohot, ijtimoiy muhit, drayver, intellektual, pozitsiya

KIRISH

Insoniyat paydo bo‘lgan va o‘zaro ijtimoiy munosabatlarga kirishib, jamiyat finomenini hosil qilgan davrdan boshlab, ularda borliqni anglashga intilish, tadqiq va tahlil qilish ko‘nikmalari shakllana boshlagan. Borliqni ayni holatida anglash jarayonida, ong xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, o‘zaro bilim va ko‘nikmalar, dastlabki tushuncha va subyektiv xulosalar ham shakllana borgan. Bir hudud, bir til, bir ehtiyoj (ayrim jihatlarda), bir davr va makon ushbu ijtimoiy birlikda muayyan xususiyat, xususan, tafakkur, tushuncha va shu birlikka xos ijtimoiy ongni yuzaga keltiradi. Ongli va ijtimoiy munosabatlarga kirishish imkoniyatiga qodir bo‘lgan inson va kishilik jamiyatida o‘ziga xos hodisa va jarayonlar taraqqiyoti borliqqa bo‘lgan munosabatlarda namoyon bo‘lib kelgan. Jamoa shaklidan toki kishilik jamiyatiga qadar bo‘lgan davr va bugungi globallashgan kunda ham biz uchun anglashning asosi ong, xususan, ijtimoiy ong zaruriy va tabiiy jarayon vazifasini o‘taydi. Ijtimoiy ong bu tabiat, jamiyatning moddiy hayoti va butun ijtimoiy munosabatlar tizimi aks ettirilgan g‘oyalar, nazariyalar, qarashlar, his-tuyg‘ular, e’tiqodlar, odamlarning his-tuyg‘ulari hamda kayfiyatlari yig‘indisidir. Ijtimoiy ong borliqning vujudga kelishi bilan

birga shakllanadi va rivojlanadi, chunki ong ijtimoiy munosabatlar mahsulidir. Lekin jamiyatni uning asosiy elementlari, jumladan, ijtimoiy ong rivojlangandagina to‘laqonli jamiyat deyish mumkin.

Ijtimoiy ongni shakllanishi jamiyatdagi ijtimoiy jarayon va hodisalarga nisbatan subyektiv munosabatlar, ularning shakli va mohiyati jihatdan kvalifikatsiyalash uchun asos vazifasini o‘tab berdi. Shunday hodisa va xususiyatlardan yana biri bu ma’naviyadir. Ma’naviyat eng avvalo, har bir insonning ichki ruhiy olami, hayoti, dunyoqarashi, axloqiy va insoniy me’yorlarga amal qilishi, o‘zida insoniylik, bag‘rikenglik, to‘g‘rilik, adolat, xushmuomalalik, halollik, samimiylik, ahillik, daxldorlik, rostgo‘ylik, ma’rifat, totuvlik, jonkuyarlik, poklik va barcha insoniy fazilatlarni anglab yetish va uni amaliy jihatlarda namoyon qila olish, faqat insonlargagina xos bo‘lgan, inson shaxsi va uning hayotiy faoliyati davomida ilm izlash, ijtimoiy muhit hamda munosabatlar, ibrat tarbiyasi, oilaviy muhit, e’tiqod va ichki botiniy erkinlik va soflik asosida shakllanadigan insoniy harakter hisoblanadi. Ma’naviyat insonni har tomonlama tarbiyalovchi va ma’naviyatli inson esa jamiyatni tarbiyalovchi dastak hisoblanadi. Ma’naviyat ayni paytda botiniy tushuncha hisoblanadi va uning akssadosi bevosita zohiriy olamda aks etishi bilan o‘ziga xoslik kasb etadi. Ma’naviyat tushunchasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyati borasida fikr bildirar ekan, davlatimiz rahbari: “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz Yangi O‘zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya’ni, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy me’rosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyatga tayanamiz” deya ta’kidlagan edi.

ASOSIY QISM

Insoniyatning boshqa mavjudod va biologik hujayralardan ajratib turuvchi asosiy belgilaridan biri bu ong hisoblanadi. Ong - faqat insongagina xos bo‘lgan ob’ektiv voqelikni aks ettirishning eng yuqori shakli, uning dunyoga va o‘ziga bo‘lgan munosabati usuli bo‘lib, u insonning ob’ektiv dunyoni va o‘z borligini tushunishida faol ishtirok etadigan psixik jarayonlar birligidir. “Ong insonning ruhiy faolligining oliy darajasi va reallikni hissiy va fikriy obrazlar shaklida aks ettirishning oliy shaklidir”. Ong hissiy obrazlar, sezgi yoki tasvir bo‘lgan va shuning uchun ma’no va ma’noga ega bo‘lgan narsalar, xotirada muhrlangan sezgilar yig‘indisi sifatidagi bilim va oliy aqliy faoliyat, tafakkur va til natijasida yaratilgan umumlashmalardan iborat. Ong insonning voqelik va uni boshqarish bilan o‘zaro munosabatining maxsus shakli. Ongning munosabatlari va muayyan qatlam aurasi hamda mafkurasini ochib beruvchi shakli bu ijtimoiy ong hisoblanadei. Ijtimoiy ong bevosita tabiat, jamiyatning moddiy hayoti va butun ijtimoiy munosabatlari tizimi aks ettirilgan g‘oyalar, nazariyalar, qarashlar, his-tuyg‘ular, e’tiqodlar, odamlarning his-tuyg‘ulari hamda kayfiyatlari yig‘indisidir. Ijtimoiy ong borliqning vujudga kelishi bilan birga shakllanadi va rivojlanadi, chunki ong ijtimoiy munosabatlar mahsuldir. Lekin jamiyatni uning asosiy elementlari, jumladan, ijtimoiy ong rivojlangandagina to‘laqonli jamiyat deyish mumkin.

Insoniyat paydo bo‘lgan va o‘zaro ijtimoiy munosabatlarga kirishib, jamiyat finomenini hosil qilgan davrdan boshlab, ularda borliqni anglashga intilish, tadqiq va tahlil qilish ko‘nikmalari shakllana boshlagan deyish mumkin. Borliqni anglash jarayonida, ong xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, o‘zaro bilim va ko‘nikmalar, dastlabki tushuncha va subyektiv xulosalar ham shakllana borgan. Bir hudud, bir til, bir ehtiyoj (ayrim jihatlarda), bir davr va makon ushbu ijtimoiy birlikda muayyan xususiyat, xususan, tafakkur, tushuncha va shu birlikka xos ijtimoiy ongni yuzaga keltiradi. Ongli va ijtimoiy munosabatlarga kirishish imkoniyatiga qodir bo‘lgan inson va kishilik jamiyatida o‘ziga xos hodisa va jarayonlar taraqqiyoti borliqqa bo‘lgan munosabatlarda namoyon bo‘lib kelgan. Jamoa shaklidan toki kishilik jamiyatiga qadar bo‘lgan davr va bugungi globallashgan kunda ham bir uchun anglashning asosi ong, xususan, ijtimoiy ong zaruriy va tabiiy jarayon vazifasini o‘taydi.

Ijtimoiy ong jamiyatdagi odamlarning ijtimoiy hayotga, ularning ijtimoiy tuzilmalari, iqtisodiy va siyosiy holati, madaniy qadriyatlar va an’analariga oid umumiy tasavvurlari, fikrlari va his-tuyg‘ularining yig‘indisidir. Ijtimoiy ong tabiatni, jamiyatning moddiy hayotini va butun ijtimoiy munosabatlar tizimini aks ettiruvchi g‘oyalar, nazariyalar, qarashlar, his-tuyg‘ular, e’tiqodlar, odamlarning his-tuyg‘ulari, kayfiyatlari yig‘indisidir. “Ijtimoiy ong – individual ongning ko‘pligi, ular majmuyi, ijtimoiy subyektlar ongi va tafakkurini ifodalaydigan tushuncha”. Ijtimoiy ong ijtimoiy borliqning paydo bo‘lishi bilan birga shakllanadi va rivojlanadi, chunki ong faqat ijtimoiy munosabatlar mahsuli sifatida mavjud. 0Bu tushuncha, jamiyatning o‘ziga xos xususiyatlarini, uning rivojlanishini va o‘zgarishlarini anglashda muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy ong faqat bir odamning shaxsiy fikrlari yoki qarashlari emas, balki kengroq ijtimoiy guruhlar va butun jamiyatning umumiy fikrini aks ettiradi.

Ijtimoiy ongning shakllanishi va rivojlanishi ko‘plab omillar bilan belgilanadi, shu jumladan iqtisodiy, siyosiy, madaniy, axloqiy va tarixiy shart-sharoitlar. Ijtimoiy ong, odatda, jamiyatdagi me’yorlar,

qadriyatlar, qonunlar va an’analarga asoslanadi. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyatning ijtimoiy hayotining barcha sohalariga ta’sir qiladi.

Ijtimoiy ong faqat individual fikrlar va qarashlardan iborat emas, balki bu jamiyatning kollektiv fikrini aks ettiradi. Jamiyat a’zolari o‘rtasidagi muloqot, ularning ijtimoiy me’yorlarga bo‘lgan munosabati va o‘zaro aloqalari orqali ijtimoiy ong shakllanadi. Jamiyatda yashovchi har bir shaxs o‘ziga xos tarzda bu kollektiv ongni qabul qiladi va unga moslashadi. Ijtimoiy ongda mavjud qadriyatlar, g‘oyalar va qarashlar jamiyatdagi barcha a’zolar tomonidan paydo bo‘lib, tarqatiladi va o‘zgaradi.

Ijtimoiy ong davrlar davomida o‘zgarib boradi. Jamiyatlarning iqtisodiy, siyosiy, madaniy o‘zgarishlari ijtimoiy ongning rivojlanishiga ta’sir qiladi. Masalan, feodalizmdan kapitalizmga o‘tish, inqiloblar, siyosiy tizimlarning o‘zgarishi kabi jarayonlar ijtimoiy ongni yangilaydi. Bu o‘zgarishlar yangi g‘oyalar, qadriyatlar va qarashlarning shakllanishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, tarixiy jarayonlar ijtimoiy ongning shakllanishida mavjud ijtimoiy toifadagi odamlarning manfaatlari, urf-odatlari va intilishlari bilan bog‘liqdir.

Ijtimoiy ong, shuningdek, jamiyat a’zolarining dunyoqarashi va bilimlari bilan bog‘liqdir. Ijtimoiy ongda odamlarning jamiyatdagi o‘rni, ijtimoiy tuzilmalarga nisbatan his-tuyg‘ulari, shuningdek, dunyoni qanday tushunishi va qabul qilishi aks etadi. Jamiyatdagi har bir a’zo o‘z o‘rnini, qadriyatlarini va axloqiy me’yorlarini bilib, ular asosida ijtimoiy muhitda qanday faoliyat yuritishni anglaydi. Jamiyat a’zolarining qadriyatlar negizida o‘z ideallari ham shakllanib boradi, ya’ni “Orzu-intilishlarning oliy maqsadi. Keng ma’noda: u yoki bu narsa, hodisaning eng yaxshi, eng qadrli, eng mukammal holati” gavdalanib boradi. Bunga iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni tushunish, jamiyatning rivojlanishining muhim aspektlarini bilish kiradi.

XULOSA

Ijtimoiy ong jamiyatdagi qadriyatlar va me’yorlar bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi va bu qadriyatlar ijtimoiy ongda o‘z aksini topib, jamiyatning etikasini, axloqini va siyosiy qarashlarini shakllantiradi. Jamiyatda qabul qilingan qadriyatlar ijtimoiy ongni yo‘naltiradi va insonlarning hayotini, faoliyatini, qarorlarini ta’sir qiladi. Masalan, adolat, erkinlik, tenglik kabi qadriyatlar ijtimoiy ongda aks etadi va jamiyatda bu qadriyatlarning tarqalishi, qadriyatlar tizimining mustahkamlanishi ijtimoiy muhitning barqarorligini ta’minlaydi.

Ijtimoiy ong va ma’naviyat jamiyatning rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Ular insonlarning dunyoqarashi, axloqiy va estetik qadriyatlari, madaniy me’yorlari va ijtimoiy munosabatlarining shakllanishiga ta’sir qiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy ong va ma’naviyatning uyg‘unlik va ziddiyatli jihatlari jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar, siyosiy tizimlar, iqtisodiy muhit va madaniy an’analar o‘rtasida har doim o‘zaro qarama-qarshiliklar va nizolarni keltirib chiqaradi. Ushbu dissertatsiya ishida ijtimoiy ong va ma’naviyatning uyg‘unlik va ziddiyatli jihatlari, ularning jamiyatga ta’siri, va bu jarayonlarning kelajagi haqida keng tahlil keltirilgan. Ijtimoiy ong va ma’naviyatning uyg‘unlik jihatlari jamiyatda birlashish, ijtimoiy tartib va barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Jamiyatdagi axloqiy, estetik va diniy qadriyatlar, shuningdek, iqtisodiy va siyosiy tizimlarning uyg‘unligi ijtimoiy tizimning samarali ishlashini ta’minlaydi.

Jamiyatda ijtimoiy ongning uyg‘unligi siyosiy va iqtisodiy tizimlarning muvofiqligini ta’minlaydi hamda ijtimoiy qadriyatlar va me’yorlar mavjud tizimni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi, bu esa siyosiy barqarorlik va ijtimoiy hotirjamlikni saqlashga yordam beradi. Jamiyatning madaniy merosi va umumiy qadriyatlar tizimi, o‘ziga xos urf-odatlar va an’analar orqali jamiyatni birlashtiradi. Bu uyg‘unlik jamiyatda ijtimoiy aloqalar, hamkorlik va hurmatni mustahkamlaydi. Ijtimoiy ongning uyg‘unligi shuningdek, jamiyatdagi axloqiy me’yorlar va qadriyatlar orqali ham namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy ongning yuksalishi va ma’naviyatning boshqaruvchi rol o‘ynashi jamiyatda o‘zaro hurmat va hamjihatlikni ta’minlashga yordam beradi. Ijtimoiy ong va ma’naviyat uyg‘unligi sosializatsiya jarayonida ham o‘z ifodasini topadi. Yosh avlodlarning jamiyatga mos ravishda tarbiyalanishi va ma’naviy qadriyatlarni o‘zlashtirishi jamiyatdagi ijtimoiy normativlar va qadriyatlarni mustahkamlashga olib keladi. Biroq, ijtimoiy ong va ma’naviyatda mavjud ziddiyatlar jamiyatda inqilobiy o‘zgarishlar, ijtimoiy adolasizliklarga qarshi kurashlar va yangi qadriyatlar tizimining paydo bo‘lishiga turtki bo‘lishi mumkin. Jamiyatda boylik va resurslar taqsimoti o‘rtasidagi tengsizliklar, kambag‘allar va boylar o‘rtasida ajralishlar, o‘rta sinf va pastki sinf o‘rtasidagi farqlar ijtimoiy ongning ziddiyatli jihatlarini yuzaga keltiradi. Bunday ziddiyatlar ijtimoiy to‘qnashuvlar va ijtimoiy o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin. Madaniy va diniy qadriyatlar o‘rtasidagi farqlar, globalizatsiya jarayonida mavjud bo‘lgan milliy va universallik o‘rtasidagi ziddiyatlar, ijtimoiy ongning bo‘linishiga olib keladi. Bu holat jamiyatda madaniy inqirozlar, etnik va diniy to‘qnashuvlarga sabab bo‘lishi mumkin. Siyosiy tizimlar va hokimiyat o‘rtasidagi ideologik qarama-qarshiliklar jamiyatdagi ijtimoiy ongni

shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Siyosiy partiyalar, harakatlar va hokimiyatlar o‘rtasidagi ideologik kurashlar ijtimoiy ong va ma’naviyatning ziddiyatli tomonlarini yuzaga chiqaradi. Ijtimoiy ong va ma’naviyat o‘rtasidagi ziddiyatlarning yana bir ko‘rinishi shaxsiy va jamoaviy manfaatlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklardan kelib chiqadi. Shaxslarning individual erkinliklarini himoya qilish istagi, jamoaning umumiy manfaatlariga qarshi chiqishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. – Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. “O‘zbekiston”, Toshkent – 2022; 249-bet.
2. Qandarov B.M. Falsafa (o‘quv qo‘llanma) T:, “Yangi Chirchiq book” 2022. 402-bet
3. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. “Ma’naviyat:. Toshkent 2023;. 448-bet
4. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. I jilt, “Ma’naviyat”, Toshkent 2023; 431-bet.

TEXNOKRATIK PARADIGMANING TALABA SHAXSIGA TA’SIRI: IJTIMOIY FAOLLIK NUQTAI NAZARIDAN BAHOLASH

Sh.R.Sultanov
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: **shoxruhsultanov@mail.ru**
ORCID: https://orcid.org/0009-0009-2804-5263

Annotatsiya: Mazkur maqolada texnokratik ta’lim paradigmasining talaba shaxsiga ko‘rsatadigan ta’siri, xususan, ularning ijtimoiy faolligini oshirishdagi o‘rni keng qamrovda tahlil qilingan. Texnologik vositalar bilan boyitilgan ta’lim muhiti nafaqat talabalar bilimini chuqurlashtiradi, balki ularning tashabbuskorlik, ijtimoiy mas’uliyat, fuqarolik pozitsiyasi va liderlik sifatlarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, moddiy, ma’naviy, psixologik va pedagogik ta’sirlar orqali talaba shaxsining ijtimoiy faolligini rivojlantirish mexanizmlari batafsil ochib berilgan. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ijtimoiy faollikni baholash va rag‘batlantirishga qaratilgan ballar asosidagi yangi tizimning samarasi ham maqolada ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Texnokratik ta’lim, talaba shaxsi, ijtimoiy faollik, pedagogik baholash, texnologiya, yetakchilik.

Abstract: This article analyzes the impact of the technocratic educational paradigm on students' development, particularly in enhancing their social activity. The study emphasizes how technology-integrated learning environments shape not only academic competencies but also students’ civic responsibility, initiative, leadership skills, and psychological confidence. It explores the pedagogical, psychological, material, and moral influences of this paradigm in fostering socially active individuals. Moreover, the paper discusses the recently implemented merit-based scholarship and tuition allocation system in Uzbekistan as a motivating mechanism to increase student engagement and responsibility.

Keywords: Technocratic education, student personality, social activity, pedagogical evaluation, technology, leadership.

Аннотация: В данной статье анализируется влияние технократической образовательной парадигмы на личность студента, особенно в аспекте повышения его социальной активности. Технологически обогащённая образовательная среда способствует не только углублению знаний, но и формированию инициативности, социальной ответственности, гражданской позиции и лидерских качеств. В статье рассматриваются материальные, моральные, психологические и педагогические механизмы развития социальной активности студента. Также анализируется эффективность новой системы оценки и поощрения социальной активности студентов на основе баллов, внедрённой в системе высшего образования Узбекистана.

Ключевые слова: технократическое образование, личность студента, социальная активность, педагогическая оценка, технологии, лидерство.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – talaba shaxsini texnokratik tafakkur asosida shakllantirish bilan birga, ularning ijtimoiy faolligini ham samarali rivojlantirishdan iborat. Bugungi kunda texnologiyalar, innovatsiyalar va axborot resurslari ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, ular talabaning nafaqat kognitiv, balki

ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarini ham rivojlantirish imkonini beradi. Shu bois, texnokratik paradigma asosida qurilgan ta’lim modeli markazida inson kapitali, raqamli savodxonlik, kasbiy kompetensiyalar va fuqarolik mas’uliyatini uyg‘unlashtirgan ijtimoiy faol shaxs tayyorlash g‘oyasi yotadi.

Texnokratik paradigma ta’limda texnologiyalarni, innovatsion yondashuvlarni, axborot resurslarini va ilg‘or metodlarni jamlagan tizim sifatida talabaning kognitiv hamda ijtimoiy-emotsional rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu paradigma asosida talaba shaxsining faolligi faqat o‘quv jarayoni bilan cheklanmay, balki ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish, jamoaviy faoliyatga jalb qilinish, liderlik ko‘nikmalarini namoyon etish orqali yuzaga chiqadi. Bu esa talabaning shaxs sifatida jamiyatdagi o‘rni va mas’uliyatini mustahkamlaydi, uning ijtimoiy faolligini sezilarli darajada oshiradi.

Texnologik taraqqiyot bilan uyg‘unlashgan ta’lim vositalari – masalan, kengaytirilgan va virtual reallik (AR/VR), sun’iy intellekt, raqamli simulyatorlar va interaktiv platformalar – orqali talaba nafaqat bilimni o‘zlashtiradi, balki jamiyatda faol bo‘lishga tayyorlanadi. Bu jarayon talabaning psixologik o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi va uni yangi tashabbuslar ko‘rsatishga undaydi.

Talabalar axborotdan foydalanishni, yechimlar taklif qilishni o‘rganish orqali jamiyatda innovatsion fikrli ishtirokchilar sifatida shakllanadi. Bu shakllanishning mohiyati shundaki, talabalar o‘z fikr va takliflarini real muhitda inobatga olinadigan darajaga yetkazadilar, ya’ni ular o‘zgarishlarga faol ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu nuqtai nazardan, texnokratik ta’lim talabaning tanqidiy fikrlash va ijodiy yechim topish qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, texnokratik ta’lim muhitida joriy etilgan rag‘batlantiruvchi tizimlar, xususan, ijtimoiy faollikni o‘lchash va rivojlantirish vositasi sifatida ballar asosidagi baholash mexanizmlari muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-martdagi “Oliy ta’lim tashkilotlarida talabalarga grantlarni taqdim etish va qayta taqsimlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi VM-149-son Qarori bilan joriy etilgan yangi ballar asosidagi grant-kontrakt ajratish mexanizmi talabalarni o‘z faolligini oshirishga, intizomli va tashabbuskor bo‘lishga rag‘batlantirmoqda [1]. Bu mexanizm talabalarda raqobat ruhini uyg‘otib, ularning ijtimoiy va akademik faoliyatlarini muvozanatlashga yordam beradi.

Texnokratik tizim orqali nafaqat talabaning ilmiy va kasbiy o‘sishi, balki uning ijtimoiy-huquqiy ongi, fuqarolik mas’uliyati ham mustahkamlanadi. Shunday qilib, texnologik vositalar yordamida boyitilgan pedagogik jarayon ijtimoiy faollikni shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Raqamli platformalar yordamida amalga oshiriladigan jamoaviy loyihalar – startup, volontyorlik, tanlovlar – talabalar tashabbuskorligini ochib beradi va ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu loyihalar orqali talabalar o‘z salohiyatini jamiyatga ko‘rsatish va ijtimoiy foyda keltirish imkoniyatiga ega bo‘lib, shu orqali o‘z ichki motivatsiyasini mustahkamlaydi.

Yuqorida ta’kidlanganlarni umumlashtirar ekanmiz, texnokratik paradigma axborot texnologiyalari, interaktiv metodlar va raqamli platformalarga asoslangan ta’lim yondashuvi sifatida talabaning shaxsiy va fuqarolik salohiyatini shakllantirishga yo‘naltirilganligini ko‘ramiz. Shuningdek, texnologik bilimlarga ega bo‘lish bilan birga, talabalar jamiyat bilan faol bog‘lanishi, ijtimoiy mas’uliyatni his qilishi zarur. Agar bu bog‘lanish yetishmasa, texnik bilimlarning ta’siri kamayib, natijada ijtimoiy passivlik yuzaga kelishi mumkin.

O‘zbekistonlik olim Baxshullo Umarov ta’kidlaganidek, oliy ta’limda ijtimoiy faollikni oshirish tarbiyaviy ishlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, buni ta’minlash uchun tizimli va samarali metodik yondashuvlar zarur [2]. Umarovning fikricha, talabalarda ijtimoiy faollikni shakllantirishda tarbiyaviy muhitning o‘rni juda katta, chunki u nafaqat bilim berish, balki talabaning shaxsiyati va fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga yordam beradi.

Saidakbar Mutalov ijtimoiy faollikni rivojlantirishda ijtimoiy muhitning ahamiyatini alohida ta’kidlaydi. U oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy faollik muhitini yaratish orqali talabalar liderlik qobiliyatlarini shakllantirish mumkinligini ta’kidlab, bu jarayonni amaliyot misollar bilan dalillaydi [3]. Mutalovning tadqiqotida ijtimoiy muhit – talabalar uchun yaratilgan sharoit, qo‘llab-quvvatlash tizimlari va rag‘batlantirish mexanizmlari – ijtimoiy faollikni oshirishda muhim omil ekanligi isbotlanadi.

Dilrabo Mirzaxo‘jayeva o‘z izlanishlarida ijtimoiy faollikni shakllantiruvchi asosiy omillarni: motivatsiya, ishtirokchilik tajribasi va tashabbuskorlik sifatida ajratib ko‘rsatadi [4]. Uning tadqiqoti shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy faollik faqat tashqi ishtirok bilan cheklanmaydi, balki ichki motivatsiya va shaxsning o‘zini jamiyatga foydali deb hisoblashidan kelib chiqadi. Bu omillar texnokratik yondashuv bilan uyg‘unlashganda, talabaning faolligi ijtimoiy transformatsiyalarning faol subyekti sifatida shakllanadi.

Xorijiy tadqiqotlarda ham texnokratik ta’lim paradigmasining ijtimoiy faollikka ta’siri muhim mavzu sifatida o‘rganilmoqda. Jumladan, Sherazi va Khan (2025) o‘z maqolasida talabalar bilimini chuqurlashtirish va ularni faol ishtirokchilar sifatida shakllantirish uchun izlanishga asoslangan faoliyatlarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish muhimligini ta’kidlaydilar [5]. Ularning fikricha, bunday yondashuv talaba shaxsida yuqori darajadagi ko‘nikmalar –tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va jamoaviy hamkorlikni shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Xorijiy olimlar shuningdek, ta’limda texnologiyalarni faqat bilim berish vositasi sifatida emas, balki talabaning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish, uning liderlik salohiyatini oshirish va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish vositasi sifatida ko‘rishni taklif qiladilar. Bularning barchasi talabaning jamiyatdagi faol ishtirokchiga aylanishiga yordam beradi.

Raqamli platformalar orqali amalga oshiriladigan jamoaviy ijtimoiy loyihalar – masalan, ijtimoiy tashabbuslar, startup-loyihalar, volontyorlik faoliyati va tanlovlar – talabaning ijtimoiy ko‘nikmalarini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Bunday loyihalar talabalarga nafaqat o‘z salohiyatini amaliyotda sinab ko‘rish imkonini beradi, balki ularning ichki motivatsiyasini ham oshiradi. Shu bilan birga, ijtimoiy loyihalarda muvaffaqiyat qozonish talabalarga o‘ziga ishonch, mas’uliyat va yetakchilik sifatlarini yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Tajriba asosida isbotlanganidek, ijtimoiy loyihalar orqali ta’lim oluvchi yoshlarning faolligi oshib, ular jamiyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan shaxslar sifatida shakllanadi. Bu esa texnokratik paradigma asosida ta’lim berishning muhim natijalaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, texnokratik paradigmaning ta’limdagi qo‘llanilishi talabalar ijtimoiy faolligini oshirishga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu paradigma nafaqat talabalar bilim darajasini oshirishga, balki ularning shaxsiy, ijtimoiy va fuqarolik salohiyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Ijtimoiy faollik shunchaki tashqi faoliyat emas, balki shaxsiy o‘sish, kasbiy kamolot va fuqarolik pozitsiyasining muhim ko‘rsatkichi sifatida baholanadi.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida joriy etilgan ballar asosidagi grant-kontrakt taqsimoti mexanizmi talabalarni faollikni oshirishga va ijtimoiy mas’uliyatni his qilishga rag‘batlantiradi, bu esa ta’lim sifatini yanada yaxshilashga xizmat qiladi [6]. Shuningdek, ijtimoiy muhit va rag‘batlantirish tizimlari, raqamli texnologiyalar yordamida talabalarning liderlik va tashabbuskorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish muhimdir [7].

Kelajakda texnokratik ta’lim paradigmasini yanada rivojlantirish va unga ijtimoiy faollikni oshirish vositalarini kengaytirish oliy ta’lim sifatini yanada oshirishga xizmat qilishi mumkin. Bu jarayonda innovatsion yondashuvlar, ilg‘or texnologiyalar va pedagogik metodlarni joriy etish talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-martdagi “Oliy ta’lim tashkiotlarida talabalarga grantlarni taqdim etish va qayta taqsimlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi VM-149-son Qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 14.03.2025-y., 09/25/149/0238-son.
2. Umarov B. (2022). Oliy o‘quv yurtida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda ijtimoiy faollikni oshirishning pedagogik asoslari. Pedagogik mahorat, 2-son.
3. Mutalov S. (2023). Oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy faollik muhitini yaratish orqali talabalar liderlik qobiliyatini rivojlantirish. Pedagogik mahorat.
4. Mirzaxo‘jayeva D. (2023). Talabalarning ijtimoiy faolliklarini shakllantirish omillari, mezonlari. PEDAGOGS International Research Journal.
5. Ergasheva M. (2024). Improving Students' Social Activity Skills and Implementing it in Practice. EXCELLENCIA International Journal.
6. Raxmanova M.Q. (2021). O‘quvchilar ijtimoiy faolligini oshirish – ijtimoiy zaruriyat sifatida. Academic Research in Educational Sciences, Vol. 2, Issue 4.
7. Sherazi S.A., Khan F.M. (2025). Developing High Order Competencies in Students Through the Integration of Research-Oriented Activities. Journal of Asian Development Studies, Vol. 14, Issue 2.

INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA MUSIQA SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHDA MULTIMODAL YONDASHUVNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

A.M.O‘rmonjonov
Namangan davlat pedagogika instituti Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi Ilmiy tadqiqot ishlari muhandisi
Email: azizbekormonjonov2@gmail.com

Annotatsiya: ushbu ilmiy maqolada inklyuziv ta’lim sharoitida musiqa savodxonligini shakllantirishda multimodal yondashuvning pedagogik va metodik imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda multimodal yondashuvning ta’lim jarayonidagi didaktik funksiyalari, ayniqsa, eshitish, ko‘rish, kinestetik va vizual kanallar orqali bilimlarni qabul qilishdagi samaradorligi ilmiy asosda bayon etilgan. Maqolada musiqa ta’limi jarayonida turli sensor kanallarning uyg‘unligi, o‘ziga xos ehtiyojli o‘quvchilar uchun inklyuziv muhitda moslashtirilgan o‘quv uslublarining afzalliklari yoritilgan. Multimodal metodika orqali o‘quvchilarda musiqiy tafakkur, ritmik sezgi, nota savodxonligi va ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, tadqiqot davomida olingan empirik ma’lumotlar asosida multimodal yondashuvning o‘quvchilarning faolligi, motivatsiyasi va musiqiy idrokiga ijobiy ta’siri tahlil etilgan. Maqolada zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirilgan holda, musiqa savodxonligini rivojlantirishga doir samarali didaktik echimlar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: multimodal yondashuv, inklyuziv ta’lim, musiqa savodxonligi, pedagogik imkoniyatlar, didaktik modellar, musiqiy tafakkur, estetik idrok, ijodiy kompetensiya, o‘ziga xos ehtiyojlar, metodik integratsiya.

Аннотация: В данной научной статье проанализированы педагогические и методические возможности мультимодального подхода в формировании музыкальной грамотности в условиях инклюзивного образования. В исследовании научно обоснованы дидактические функции мультимодального подхода в учебном процессе, особенно его эффективность при восприятии знаний через слуховые, зрительные, кинестетические и визуальные каналы. В статье освещены преимущества адаптированных учебных методик для учащихся с особыми образовательными потребностями в инклюзивной среде. Показано, как с помощью мультимодальной методики формируются музыкальное мышление, ритмическое чувство, нотная грамотность и творческие компетенции учащихся. На основе эмпирических данных рассмотрено положительное влияние мультимодального подхода на активность, мотивацию и музыкальное восприятие учащихся. В статье представлены эффективные дидактические решения, направленные на развитие музыкальной грамотности в сочетании с современными педагогическими подходами.

Ключевые слова: мультимодальный подход, инклюзивное образование, музыкальная грамотность, педагогические возможности, дидактические модели, музыкальное мышление, эстетическое восприятие, творческая компетенция, особые образовательные потребности, методическая интеграция.

Annotation: This scientific article analyzes the pedagogical and methodological potential of the multimodal approach in developing musical literacy within inclusive education settings. The study scientifically substantiates the didactic functions of the multimodal approach in the educational process, particularly its effectiveness in facilitating knowledge acquisition through auditory, visual, kinesthetic, and graphic modalities. The article highlights the advantages of adapted instructional strategies for learners with special educational needs in an inclusive environment. It demonstrates how multimodal methods help foster students’ musical thinking, rhythmic perception, note literacy, and creative competencies. Based on empirical data, the study examines the positive impact of multimodal approaches on students' engagement, motivation, and musical perception. The article proposes effective didactic solutions aimed at enhancing musical literacy through integration with modern pedagogical approaches.

Keywords: multimodal approach, inclusive education, musical literacy, pedagogical potential, didactic models, musical thinking, aesthetic perception, creative competence, special educational needs, methodological integration.

KIRISH

Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uni ijtimoiy adolat, teng imkoniyatlar va raqamli innovatsiyalar asosida takomillashtirish O‘zbekiston Respublikasining ustuvor strategik maqsadlaridan biri hisoblanadi. Xususan, inklyuziv ta’limni rivojlantirish, imkoniyati cheklangan bolalar va o‘ziga xos ehtiyojlarga ega o‘quvchilarning ta’limga to‘laqonli integratsiyasini ta’minlash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Musiqa savodxonligi esa shaxsning estetik, emotsional va ijtimoiy jihatdan rivojlanishida muhim vosita bo‘lib, ta’limning barcha bosqichlarida, ayniqsa inklyuziv guruhlarda alohida yondashuvni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, multimodal yondashuv - ya’ni eshitish, ko‘rish, harakat, tasvir va boshqa sezgi tizimlarini birgalikda faollashtiruvchi pedagogik metodika - musiqa savodxonligini shakllantirishda

samarali usullardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Multimodal ta’lim sharoitida o‘quvchilarning kognitiv va affektiv faoliyatini uyg‘unlashtirish orqali ularning musiqiy idroki, ritmik sezuvchanligi va ijodiy salohiyatini kompleks rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, multimodal yondashuvni inklyuziv ta’limga integratsiyalash zamonaviy pedagogik innovatsiyalar bilan uyg‘unlashgan, shaxsga yo‘naltirilgan, konstruktivistik ta’lim paradigmasiga asoslanadi. Bu esa, o‘z navbatida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sohasidagi bir qator strategik qaror va farmonlarida o‘z aksini topgan.

Xususan, Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasi hamda “Ta’lim va tarbiya – inson hayotidagi eng muhim omil” nomli ma’ruzalarida [1] zamonaviy ta’lim tizimida ijtimoiy tenglik, individual yondashuv va har bir bolaning qobiliyatini rivojlantirish muhim yo‘nalish sifatida ta’kidlangan. Shuningdek, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida [2] inklyuziv ta’limni bosqichma-bosqich joriy etish, o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvi va kasbiy yo‘naltirilishini qo‘llab-quvvatlash zarurligi qayd etilgan.

Bundan tashqari, "Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida"gi Qonun (2021-yil) hamda "Inklyuziv ta’lim to‘g‘risida"gi qarorlarda [3] musiqiy-ta’limiy faoliyat orqali ijtimoiy moslashuv va shaxsiy o‘sishni rag‘batlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Davlat rahbarining 2023-yil sentabr oyidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida esa inklyuziv ta’limni rivojlantirishda zamonaviy metodikalar, xususan raqamli va audiovizual texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish muhim vazifa sifatida belgilandi [4].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Inklyuziv ta’lim sharoitida musiqa savodxonligini rivojlantirish muammosi so‘nggi yillarda pedagogika, defektologiya, musiqa ta’limi va psixologiya yo‘nalishlarida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda dolzarb mavzulardan biri sifatida keng o‘rganilmoqda. Ayniqsa, multimodal yondashuv asosida o‘quvchilarning musiqiy idroki va estetik sezuvchanligini shakllantirishga doir pedagogik va metodik qarashlar tobora kengayib bormoqda.

O‘zbekistonlik olimlar tomonidan mazkur yo‘nalishda bir qator nazariy-amaliy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, G.T. Kadirovning “Inklyuziv ta’lim sharoitida musiqiy savodxonlikni shakllantirish metodikasi” nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanmasida [5] o‘ziga xos ehtiyojli bolalar bilan musiqa darslarini tashkil etishda multimodal (audiovizual, kinestetik va verbal) vositalardan foydalanish samaradorligi yoritilgan. Muallif multimodal metodlarning musiqiy ritm, metrum, intonatsiya va dinamikani anglashda o‘quvchining sezgi asosida o‘rganish faoliyatini faollashtirishini asoslab beradi.

Shuningdek, M.R. Toirovaning “Maxsus ta’lim muassasalarida musiqa darslarini olib borish metodikasi” nomli tadqiqotida [6] o‘ziga xos ehtiyojli o‘quvchilar uchun diferensiallashtirilgan yondashuv, musiqiy terapiya elementlari va adaptiv musiqiy vositalardan foydalanish uslublari tahlil qilingan. Muallifa ko‘ra, multimodal yondashuv nafaqat musiqa savodxonligini, balki ijtimoiy-emosional kompetensiyalarni ham rivojlantirish imkonini beradi.

Xorijiy adabiyotlar tahlilida esa multimodal ta’limning ilmiy-nazariy asoslari keng yoritilgan. Jumladan, amerikalik pedagoglar A. Jensen va K. Snyder tomonidan tayyorlangan “Multimodal Learning for Inclusive Classrooms” nomli metodik qo‘llanmada [7] multimodal yondashuvning universal dizayn (UDL) tamoyillari bilan bog‘liqligi, har bir o‘quvchining o‘rganish uslublariga mos pedagogik strategiyalarni tanlash zarurligi asoslab berilgan. Mualliflar ayniqsa musiqiy darslarda ko‘rish, eshitish, harakat orqali o‘rgatishning ijobiy kognitiv va affektiv natijalarini qayd etadi.

Rossiyalik olim A.A. Nikitin tomonidan yozilgan “Инклюзивное музыкальное образование: Теория и практика” nomli darslikda [8] esa musiqiy ta’limda inklyuzivlik prinsiplarini amaliyotga tatbiq etish, moslashtirilgan o‘quv materiallari va multimodal vizualizatsiyalar orqali nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarda musiqiy savodxonlikni shakllantirish metodlari keng yoritilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodik yondashuvlar asosida shuni aytish mumkinki, inklyuziv ta’limda musiqa savodxonligini shakllantirishda multimodal yondashuv o‘quvchilarning emotsional-ixtiyoriy, kognitiv va ijodiy jihatlarini uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Bu esa, ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan holda loyihalash, estetik tarbiya va musiqiy tafakkurni rivojlantirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot davomida inklyuziv ta’lim sharoitida multimodal yondashuv asosida musiqa savodxonligini shakllantirishning samaradorligini baholash maqsadida eksperimental va nazorat

guruhlarida kuzatuv, so‘rovnoma, test va diagnostik mashg‘ulotlar o‘tkazildi. Natijalar pedagogik jarayonning tashkil etilish sifati, o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlari, darslardagi faollik darajasi va multimodal vositalarning ta’sir kuchi asosida tahlil qilindi.

Eksperimental guruhda multimodal yondashuv – ya’ni audiovizual, kinestetik, verbal, taktil va raqamli komponentlar uyg‘unligi asosida tashkil etilgan musiqa mashg‘ulotlari o‘quvchilarning musiqa savodxonligi, ritm sezuvchanligi, intonatsiya farqlash va emotsional-musiqiy idrokining sezilarli darajada oshishiga sabab bo‘ldi.

O‘tkazilgan pedagogik kuzatuvlar asosida quyidagi natijalar qayd etildi:

Multimodal metodikalar asosida o‘tkazilgan darslarda qatnashgan o‘quvchilarning musiqiy ifoda, nota o‘qish, ritmni his qilish kompetensiyalari 37–42% ga oshgan.

O‘quvchilarning musiqaga nisbatan qiziqishi va faollik ko‘rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan o‘rtacha 45% yuqoriligi bilan ajralib turgan.

O‘quvchilarning 84 foizi multimodal vositalar (tasvir, harakat, audio-video, raqamli ilovalar) orqali o‘rganilgan darslarni ko‘proq tushunarli, interaktiv va esda qolarli deb baholagan.

76 foiz o‘qituvchi multimodal yondashuvni qo‘llash orqali individual yondashuv, diferensial o‘qitish va inklyuziv muhitda emotsional moslashuv imkoniyati oshganini bildirgan.

Quyidagi jadvalda asosiy natijalar tahliliy tarzda umumlashtirganmiz:

1. Multimodal yondashuv asosida eksperimental guruhda kuzatilgan pedagogik natijalar

№	Ko‘rsatkich nomi	Eksperimental guruh (EG) (%)	Nazorat guruhi (NG) (%)	EG va NG o‘rtasidagi farq (%)	Izoh
1	Nota o‘qish va musiqiy savodxonlik darajasi	78%	42%	+36%	Multimodal yondashuvning idrok va tahlilni kuchaytirishdagi roli
2	Ritmik sezuvchanlik va emotsional ifoda	81%	49%	+32%	Audiovizual vositalarning ritmik ongni shakllantirishdagi ta’siri
3	Darslardagi ishtirok va qiziqish darajasi	88%	53%	+35%	Interaktiv metodlar orqali faollik oshgan
4	Multimodal metodlar ta’sirida mustaqil ijodiy ishlar	73%	41%	+32%	O‘quvchilarning ijtimoiy-musiqiy moslashuvi rivojlangan
5	Darslarni tushunish va esda saqlash darajasi	85%	48%	+37%	Kinestetik va taktil kanallarni jalb etish samarali bo‘lgan
6	O‘qituvchilarning metodik malakasi bo‘yicha ijobiy fikr	76%	52%	+24%	Innovatsion metodlarni amaliyotga joriy qilishga tayyorlik oshgan

Yuqoridagi natijalar shuni ko‘rsatadiki, multimodal yondashuv orqali o‘tkazilgan musiqa darslari nafaqat o‘quvchilarning musiqiy saviyasini oshirgan, balki ularning ijtimoiy-emotsional muvozanati, o‘ziga bo‘lgan ishonchi va kommunikativ ko‘nikmalarini ham rivojlantirgan. Ayniqsa, inklyuziv sinflarda bu yondashuv imkoniyati cheklangan bolalarning individuallashtirilgan o‘rganish uslubiga moslashishi uchun samarali vosita bo‘lib xizmat qilgan.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida ayrim muammoli jihatlar ham aniqlandi:

Ba’zi o‘quv muassasalarda multimodal vositalar (audio-video texnika, sensorli ekranlar, didaktik vositalar) yetarlicha emasligi kuzatildi.

O‘qituvchilarning multimodal yondashuv asosidagi metodik bilimlari barqaror emas; bu holat ularni qayta tayyorlash va malaka oshirish zaruratini yuzaga chiqardi.

O‘quv dasturlarida musiqa savodxonligini multimodal metodlar orqali rivojlantirishga doir maxsus modullar, o‘quv-metodik qo‘llanmalar yetarli emasligi aniqlangan.

Shu asosda quyidagi takliflar ilgari surildi:

Inklyuziv sinflar uchun multimodal metodlarga ixtisoslashtirilgan musika darsliklari va metodik paketlar ishlab chiqilishi zarur.

Musiqa o‘qituvchilari uchun kasbiy qayta tayyorlash kurslarida multimodal yondashuv alohida modul sifatida kiritilishi lozim.

O‘quv muassasalarida multimodal vositalar bilan jihozlash darajasini hududiy tenglik asosida qayta ko‘rib chiqish lozim.

XULOSA

Mazkur tadqiqot davomida inklyuziv ta’lim muhitida multimodal yondashuv orqali o‘quvchilarning musiqa savodxonligini shakllantirishga doir pedagogik imkoniyatlar tizimli tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, multimodal yondashuv – ya’ni eshitish, ko‘rish, harakat, vizualizatsiya, verbal va raqamli ta’sir mexanizmlarini birgalikda qo‘llash – o‘ziga xos ehtiyojli o‘quvchilarning musiqiy idroki, estetik sezuvchanligi va nutq-madaniy ko‘nikmalarini shakllantirishda yuqori samaradorlik kasb etadi.

Multimodal yondashuv inklyuziv ta’lim sharoitida musiqa savodxonligini rivojlantirishning zamonaviy, samarali va ijtimoiy-psixologik jihatdan asoslangan modeli sifatida qaraladi. U o‘quvchilarning idrok qilishdagi turli kanallarini faollashtirish orqali bilimlarni qabul qilish, qayta ishlash va ifodalash jarayonlarini osonlashtiradi.

Bu yondashuv inklyuziv ta’limda individual ehtiyojlarni hisobga olish, o‘quvchilarning ijtimoiy adaptatsiyasi, musiqiy savodxonligi va kreativ potensialini ochishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli, multimodal yondashuv asosidagi metodikalarni takomillashtirish va tizimlashtirish O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimini globallashuv jarayonida zamonaviy talablarga moslashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. “Ta’lim va tarbiya – inson hayotidagi eng muhim omil” mavzusidagi ma’ruza. 2021-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston – taraqqiyot va taraqqiyot strategiyasi” (2022–2026-yillar) [PF-60-sonli Farmon, 2022-yil 28-yanvar].
3. “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonun. Qonunchilik palatasi, 2021-yil 6-iyul.
4. Sh.M. Mirziyoyev. 2023-yilgi Oliy Majlisga Murojaatnoma. (2023-yil 20-sentabr).
5. Kadirov G.T. Inklyuziv ta’lim sharoitida musiqiy savodxonlikni shakllantirish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2022.
6. Toirova M.R. Maxsus ta’lim muassasalarida musiqa darslarini olib borish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2021.
7. Jensen A., Snyder K. Multimodal Learning for Inclusive Classrooms. – New York: Routledge, 2020.
8. Никитин А.А. Инклюзивное музыкальное образование: Теория и практика. – Москва: Просвещение, 2019.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ДОПОЛНЕННОЙ РЕАЛЬНОСТИ ДЛЯ УЛУЧШЕНИЯ РАЗГОВОРНЫХ НАВЫКОВ В ИНОСТРАННОМ ЯЗЫКЕ

М.К.Тошматова
Студентка Наманганского Государственного Педагогического Института

Аннотация. В статье рассматривается потенциал технологий дополненной реальности (Augmented Reality, AR) в развитии разговорных навыков при изучении иностранных языков. На основе систематического обзора научных публикаций за период 2015–2024 гг. анализируются методы интеграции AR в учебный процесс, включая использование голосового взаимодействия с виртуальными персонажами, контекстно-зависимые задания и ролевые сценарии в дополненной среде. Представлены результаты исследований, демонстрирующие положительное влияние AR на

беглость речи, расширение активного словаря, снижение коммуникативной тревожности и повышение мотивации обучающихся. Обсуждаются когнитивно-лингвистические механизмы, обеспечивающие эффективность AR-практик, а также технологические, методические и этические вызовы, связанные с их внедрением. Делается вывод о высокой перспективности дополненной реальности как инструмента формирования устной коммуникативной компетенции и намечаются направления дальнейших исследований, включая интеграцию AR с искусственным интеллектом для создания адаптивных языковых тренажёров.

Ключевые слова: дополненная реальность, AR, изучение иностранных языков, разговорные навыки, коммуникативная компетенция, иммерсивные технологии, цифровое обучение.

ВВЕДЕНИЕ

Формирование устной коммуникативной компетенции в процессе изучения иностранного языка является одной из наиболее сложных и многоаспектных задач лингводидактики. Современные исследования в области методики преподавания (Ellis, 2017; Richards & Schmidt, 2020) [1] свидетельствуют о том, что успешное развитие разговорных навыков требует интеграции лексико-грамматических знаний с автоматизированными речевыми действиями в условиях, максимально приближенных к реальным коммуникативным ситуациям. Однако традиционные учебные практики зачастую ограничиваются искусственными диалогами и ролевыми играми в классе, что приводит к дефициту аутентичной языковой практики. Этот дефицит особенно заметен в контексте обучения в средах с ограниченным доступом к носителям языка.

На этом фоне технологии дополненной реальности (Augmented Reality, AR) выступают как перспективное средство, способное восполнить разрыв между формальным обучением и реальной коммуникацией. Согласно исследованиям Billinghurst и Dunser (2012) [2], AR позволяет органично совмещать физическую и цифровую среду, создавая высокоиммерсивные образовательные сценарии. Такие сценарии, в свою очередь, способствуют формированию устойчивых речевых автоматизмов благодаря постоянному взаимодействию обучающегося с контекстно насыщенными стимулами. В отличие от полностью виртуальных сред, AR обеспечивает сохранение естественных сенсомоторных связей, что может благотворно влиять на когнитивную переработку речевого материала и ускорять переход от контролируемого к спонтанному порождению речи.

МЕТОДЫ

Для выявления педагогического потенциала AR в развитии разговорных навыков был проведён систематический обзор литературы по базам данных Scopus, Web of Science и ERIC за период 2015–2024 гг. [3] Критериями включения служили исследования, в которых AR применялась непосредственно для обучения устной речи или в комплексных программах развития коммуникативной компетенции. Также учитывались экспериментальные проекты с участием школьников, студентов и взрослых изучающих язык.

Среди проанализированных решений особое внимание уделялось приложениям, использующим распознавание и синтез речи для имитации общения с виртуальными персонажами в дополненной среде. Например, проект MondlyAR интегрирует голосовое взаимодействие с трёхмерными анимационными моделями, а система ARLingua использует геолокацию и распознавание объектов для создания контекстных диалогов в городской среде. Анализировались и педагогические сценарии, в которых обучающиеся выполняли ролевые задания, требующие устных ответов на стимулирующие реплики системы в реальном времени, при этом визуальные подсказки и речевые комментарии обеспечивали поддержку на начальных этапах, постепенно снижаясь по мере формирования навыка.

РЕЗУЛЬТАТЫ

Обзор показал, что использование AR приводит к статистически значимому увеличению времени активного устного взаимодействия ($p < 0,05$) по сравнению с традиционными методами. В исследовании Chen et al. (2021) студенты, обучавшиеся с использованием AR-приложений, продемонстрировали рост беглости речи на 23% и снижение количества коммуникативных пауз на 17% после восьминедельного курса. Аналогичные результаты получены в эксперименте Lee & Hwang (2020) [4], где AR-среда, имитирующая бытовые и профессиональные ситуации, привела к существенному улучшению навыков спонтанного говорения.

Кроме количественных показателей, фиксировались и качественные изменения: обучающиеся чаще использовали идиоматические выражения, точнее подбирали лексику в зависимости от контекста, реже прибегали к родному языку в случае затруднений. Дополненная реальность также способствовала снижению языковой тревожности, что согласуется с концепцией аффективного фильтра Крашена (Krashen, 1982) [5]: погружение в игровую, но реалистичную среду снижает психологическое давление и облегчает речевую активность.

ОБСУЖДЕНИЕ

Полученные данные подтверждают, что AR может служить эффективным инструментом формирования разговорных навыков благодаря сочетанию иммерсивности, контекстуализации и интерактивности. С педагогической точки зрения ключевым преимуществом является возможность моделирования аутентичных ситуаций, которые трудно или невозможно воспроизвести в традиционном классе. С точки зрения когнитивной психологии, интеграция сенсорных стимулов с речевыми задачами активирует дополнительные каналы переработки информации, что способствует лучшему закреплению языкового материала.

Однако внедрение AR сопряжено с рядом вызовов. Во-первых, это технологические ограничения: высокая стоимость оборудования, необходимость стабильного интернет-соединения и достаточной вычислительной мощности. Во-вторых, методические трудности — дефицит педагогов, способных грамотно интегрировать AR в учебный процесс, и нехватка стандартизированных учебных модулей. В-третьих, вопросы этического характера, связанные с обработкой персональных данных при использовании голосового распознавания и геолокации [6].

Перспективы развития данной области связаны с интеграцией AR и искусственного интеллекта, что позволит создавать адаптивные диалоговые системы, анализирующие речь обучающегося в реальном времени и предоставляющие персонализированную обратную связь. В долгосрочной перспективе возможно формирование полноценных «умных языковых сред», в которых обучающийся сможет вести разговоры с виртуальными и реальными собеседниками, находясь при этом в дополненной реальности, максимально приближенной к целевой культурно-языковой среде.

ВЫВОД

Проведённый анализ теоретических источников и эмпирических данных подтверждает, что технологии дополненной реальности обладают значительным потенциалом для повышения эффективности формирования разговорных навыков в процессе изучения иностранных языков. Интеграция AR в учебный процесс позволяет создавать иммерсивные, контекстно насыщенные условия, приближенные к аутентичной языковой среде, что способствует развитию беглости речи, расширению активного словаря, формированию устойчивых речевых автоматизмов и снижению уровня коммуникативной тревожности.

Положительное влияние AR обусловлено сочетанием мультимодального представления информации, интерактивного характера обучения и возможности безопасной языковой практики без страха совершить ошибку. Вместе с тем широкое внедрение данной технологии требует решения ряда проблем, связанных с техническими, методическими и этическими аспектами, а также подготовки педагогов к работе с AR-инструментами.

Перспективы дальнейших исследований связаны с разработкой адаптивных AR-платформ, интегрированных с искусственным интеллектом, способных анализировать речь обучающегося в реальном времени, формировать персонализированную обратную связь и обеспечивать непрерывное погружение в целевую культурно-языковую среду.

Использованная литература:

1. Billinghurst, M., & Dünser, A. (2012). Augmented Reality in the classroom. *Computer*, 45(7), 56–63.

2. Chen, C. M., Wang, J. Y., & Chen, Y. C. (2021). Effects of augmented reality learning environment on EFL learners’ speaking performance, anxiety, and motivation. *Computer Assisted Language Learning*, 34(7), 1–25.

3. Ellis, R. (2017). *The Study of Second Language Acquisition* (3rd ed.). Oxford University Press.

4. Krashen, S. D. (1982). *Principles and Practice in Second Language Acquisition*. Pergamon Press.

5. Lee, H., & Hwang, G. J. (2020). Effects of mobile-based AR English learning on EFL students’ learning performance and attitudes. *Interactive Learning Environments*, 28(5), 1–14.

6. Richards, J. C., & Schmidt, R. (2020). *Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics* (5th ed.). Routledge.
7. Azuma, R. T. (1997). A Survey of Augmented Reality. *Presence: Teleoperators and Virtual Environments*, 6(4), 355–385.
8. Kato, H., & Billinghurst, M. (1999). Marker Tracking and HMD Calibration for a Video-based Augmented Reality Conferencing System. *Proceedings of the 2nd IEEE and ACM International Workshop on Augmented Reality*, 85–94.

INTEGRATING FIGURATIVE PHRASAL VERBS INTO PROFESSIONAL DEVELOPMENT: ENHANCING EDUCATORS’ CREATIVITY AND LINGUISTIC COMPETENCE

N.A.Abdullayeva
Doctoral student of Fergana State University
Email**:** n.abduhalimova2455@gmail.com**,** https://orcid.org/0009-0002-5186-3351

Abstract: This thesis explores the integration of figurative phrasal verbs (FPVs) into professional development programs for educators. Drawing on cognitive linguistics and conceptual metaphor theory, it highlights the potential of FPVs to enhance teachers’ linguistic competence, intercultural awareness, and creative expression.

Аннотация: Данный тезис посвящен интеграции образных фразовых глаголов (ОФГ) в программы профессионального развития преподавателей. Основываясь на когнитивной лингвистике и теории концептуальной метафоры, исследование подчеркивает потенциал ОФГ в повышении языковой компетенции учителей, их межкультурной осведомленности и способности к творческому самовыражению.

Annotatsiya: Ushbu tezis o‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirish dasturlariga obrazli frazali fe’llarni (OFF) integratsiyalash masalasini o‘rganadi. Kognitiv lingvistika va konseptual metafora nazariyasiga asoslanib, OFF o‘qituvchilarning lingvistik kompetensiyasi, madaniyatlararo xabardorligi va ijodiy ifoda salohiyatini oshirishdagi imkoniyatlarini yoritadi.

Keywords: figurative phrasal verbs, teacher development, metaphor, cognitive linguistics, reflective practice, intercultural competence.

Ключевые слова: образные фразовые глаголы, профессиональное развитие учителей, метафора, когнитивная лингвистика, рефлексивная практика, межкультурная компетенция.

Kalit so‘zlar: obrazli frazali fe’llar, o‘qituvchilarni rivojlantirish, metafora, kognitiv lingvistika, reflektiv amaliyot, madaniyatlararo kompetensiya.

Teachers are required to foster critical and creative thinking in addition to imparting knowledge in today's educational environment. Professional development (PD) must change to give teachers cutting-edge language tools that improve their proficiency and inventiveness as education becomes more bilingual, multidisciplinary, and cognitively focused. The figurative phrasal verb (FPV), a metaphorical, frequently idiomatic term whose meaning goes beyond the sum of its components, is one such neglected instrument.

Conceptual metaphor theory, which maintains that human cognition is primarily metaphorical in nature, is the foundation of figurative phrasal verbs like boil over, bounce back, hammer out, and shut down [3]. These figurative phrasal verbs use colorful, and convey abstract activities, feelings, and complicated ideas. However, FPVs are rarely highlighted in teacher preparation programs despite their richness in cognition and communication because they are frequently seen as being too idiomatic or challenging for non-native speakers to understand.

However, when integrated intentionally into PD programs, FPVs can become powerful tools for professional reflection, classroom storytelling, and learner engagement. Teachers trained in using figurative expressions are more likely to enrich their lessons with metaphors, visualizations, and context-based explanations, thereby enhancing the linguistic and emotional appeal of instruction. As Lakoff and Johnson have argued, metaphors are not just literary flourishes — they structure the very way we think and act [4].

Professional development that incorporates FPVs can also contribute to educators’ self-awareness and reflective practice. In workshops that explored metaphorical language, teachers were encouraged to describe their professional experiences using FPVs. Expressions like ***juggle responsibilities, burn out,***

whip up enthusiasm, or bounce back from setbacks were not only understood but internalized as part of their professional narratives [5]. This process of *“living the metaphor”* enhances cognitive engagement and promotes deeper learning.

Additionally, using FPVs in professional development helps students develop language flexibility, which is an essential ability in multicultural and multilingual classrooms. Teachers are better able to analyze idiomatic input, explain subtleties, and assist students in understanding culturally ingrained meanings when they employ metaphorical verbs with confidence. Furthermore, figurative phrasal verbs are ideally suited for multimodal instruction and visualization. ***Light up, crack down, drum up, and melt down*** are examples of verbs that instantly create images in the mind that may be used with gestures, narration, or visual aids. By embracing FPVs, educators also develop creative confidence. Using metaphorical verbs allows for more expressive and emotionally resonant language, both in and outside the classroom. For instance, describing student progress as a process of breaking through or building up provides a more dynamic and humanized narrative than traditional academic vocabulary. This stylistic shift is particularly useful in student motivation, lesson planning, and professional communication.

Furthermore, metaphorical phrasal verbs function as gateways to intercultural competence, since many FPVs reflect shared embodied experiences (e.g., emotions as heat, work as pressure, communication as movement) [1]. Thus, mastering FPVs empowers educators to better navigate diverse communicative situations and interpret authentic materials more effectively.

In conclusion, new pathways for language enrichment, innovative pedagogy, and reflective instruction are made possible by including figurative phrasal verbs into teacher training and professional development. Instead of viewing figurative and idiomatic meanings of the language as a barrier, professional development programs ought to welcome it as a chance to enhance teachers' expressive variety, cultural fluency, and metaphorical understanding.

Used Literature:

1. Boers, F. (2013). Cognitive semantic ways of teaching figurative phrases: An assessment. Language Teaching Research, 17(3), 379–402.
2. Kövecses, Z. (2010). Metaphor: A Practical Introduction. Oxford University Press.
3. Kveselievich, I. S. (2020). Conceptual Metaphor and Phrasal Verbs in English. Philological Studies, 2, 87–91.
4. Lakoff, G., & Johnson, M. (2004). Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press.
5. Semenova, N. A. (2021). Metaphorical Thinking in Teacher Development. Journal of Pedagogical Innovation, 4, 54–60.
6. Thornbury, S. (2002). How to Teach Vocabulary. Pearson Education.

INTELLEKTUAL-FALSAFIY ROMANIDAGI ICHKI KECHIRMALAR

F.I.Qurbonova
Qarshi davlat texnika universiteti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi v/b. dotsent f.f.f.d.
e-mail: **feruzaq42@.gmail.uz**

Annotatsiya: Ushbu maqola badiiy asar kayfiyatining inson ruhiyatiga bevosita va bilvosita ta’siri badiiy mushohada teranligi hamda badiiy estetik salohiyatining ichki qonuniyati bir butunlikda uyg‘unlashib talqin etilishi yozuvchining yutug‘i hisoblanadi. Adib qahramon ruhiyatini tahlil qilar ekan, har bir personaj yashashdan maqsad va ma’no qidiradi. Olloh tomonidan buyurilgan farz va amallarni ikki dunyo mezonidan kelib chiqib baholaydi va baholi qudrat bajaradi, shunga ko‘ra romanda psixologik, falsafiy va ilohiy tushunchalar badiiy umumlashma mazmun kasb etadi.

Kalit so'zlar: umumbashariy qadriyatlar erk, adolat, odob-axloq, mehr-oqibat, darddoshlik, ma’rifatparvarlik.

Abstract: This article is an achievement of the writer, who interprets the direct and indirect impact of the mood of a work of art on the human psyche, the depth of artistic observation, and the internal law of artistic aesthetic potential in a unified whole. While analyzing the psyche of the hero, the writer seeks a purpose and meaning in life. He evaluates the duties and deeds commanded by God based on the criteria

of two worlds and performs the power of evaluation, accordingly, psychological, philosophical and divine concepts acquire artistic generalization in the novel.

Key words: Universal values are freedom, justice, morality, kindness, compassion, and enlightenment.

Annotatsiya: Статья – достижение писателя, осмысляющего в едином целом прямое и косвенное воздействие настроения художественного произведения на психику человека, глубину художественного наблюдения и внутреннюю закономерность эстетического потенциала искусства. Анализируя психику героя, писатель ищет цель и смысл жизни. Он оценивает заповеданные Богом обязанности и деяния, исходя из критериев двух миров, и осуществляет оценочную власть, соответственно, психологические, философские и божественные концепции обретают в романе художественное обобщение.

Klyuchovi slova: Универсальными ценностями являются свобода, справедливость, нравственность, доброта, сострадание и просвещение.

Badiiy adabiyot tarixiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida bir xil vazifani bajarib kelgan. U har qanday ijtimoiy-siyosiy tuzum, har bir jug‘rofiy hududda o‘sha xalqning ma’naviy-ruhiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilgan. Kishilardagi eng oliy umumbashariy qadriyatlar erk, adolat, odob-axloq, mehr-oqibat, darddoshlik, ma’rifatparvarlikni yoqlab, zulm, haqsizlik, jaholat va insonlik sha’niga nomunosib ochko‘zlik, zulm-zo‘ravonlik, xiyonat, qo‘rqoqlik, yolg‘on, kibr, maqtanchoqlikni qoralagan. Davr va jamiyat a’zolarining orzu-intilishlarini o‘zida aks ettirgan badiiy adabiyot zamon bilan hamnafas o‘z-o‘zini isloh qilib kelgan.

Chorak asr davomida tarix va inson munosabatlarini idrok va ifoda etish tamoyillari tamomila o‘zgardi. Badiiy haqiqat ijtimoiy-siyosiy hayot tasviridan ustun qo‘yilib, Arastu davridayoq tasdig‘ini topgan mavqeini egalladi. Endilikda, personaj aksariyat sho‘ro romanlarida kuzatilganidek, voqelikka ilova emas, balki o‘z o‘y-xayol va xatti-harakati bilan tirik inson sifatida xolis tasvirlana boshladi.

Xalqning ruhiy, ma’naviy talabini qondirishni o‘z oldiga maqsad qilgan badiiy adabiyot hayotni obrazli ifodalaganligi tufayli insonlar qalbiga yaqin. Shuning uchun ham xalqning ko‘ngliga tez yo‘l olgan. Xalq og‘zaki ijodidan tortib mumtoz asarlargacha va hozirda yaratilayotgan eng sara badiiy ijod namunalarining adabiy-estetik qimmati, xalq ma’naviy mulki sifatidagi nodir va noyobligi shu bilan izohlanadi.

Badiiy asarlarni tekshirishda germenevtik yondashuv usuliga o‘tilishi davr taqozosi sifatida yuzaga keldi. Insonlararo munosabatlar, ular o‘rtasidagi ziddiyat va qarama-qarshiliklar o‘rnini inson botiniga qaratilgan, o‘z-o‘zi bilan kurashayotgan, kamchilik va nuqsonlardan holi bo‘lmagan, o‘zini tanishga intilayotgan inson tasviri egalladi.

So‘zning ma’no nozikligi, ma’no qatlamlarini anglash nihoyatda murakkab ijodiy jarayon. Masalaning ayni jihatlariga Sharqning peshqadam alloma mutafakkirlari alohida diqqat qaratishgan. Mahmud Qoshg‘ariydan Alisher Navoiygacha va undan Fitratga qadar ijodkorlar badiiy matn tahlili, badiiyat, so‘zni idrok etish va his qilish, badiiy matn talqini va tahlilini badiiy ijodning zaruriy sharti hisoblaganlar.

Boshqacha aytganda, alohida shaxs borlig‘i ijtimoiy voqelikdan ko‘ra murakkabroq hodisa va uni tushunish va izohlash muhim ekani poetik idrok etila boshladi. Globallashuv davri shiddati ta’sirida o‘z milliy qiyofasidan ayrilib qolmaslikka intilayotgan kishilar ruhiy intellektual olami, tuyg‘ular dunyosini ko‘rsatishga ehtiyoj ortdi. Nuqul kitobxonga o‘rnak bo‘lish va unga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish missiyasini tashuvchi, ammo o‘z shaxsiy hayoti, insoniy tuyg‘u-kechinmalaridan mahrum trafaret adabiy qahramonlar inkor etildi.

“Boqiy darbadar” romani kompozitsiyasining uchinchi qismi “BOENG 787 DREAMLINER. Bo‘rondan yarim soat avval”, “Mutafakkirning vido maktubi”, “Bo‘rondan o‘n besh daqiqa avval”, “BOENG 787 DREAMLINER. Bo‘rondan o‘n daqiqa avval”, “Mezonul-avzon”, “Bo‘ron” shaklida sarlavhalangan olti bo‘lim-epizodni o‘z ichiga oladi. Ko‘rinib turibdiki, bu qism yarim soatlik zamon voqeligini tasvirlashga qaratilgan. Shuningdek, bu qism voqealari markazida dunyoni ostin-ustun qilgan global bo‘ron hodisasi turadi.

Ushbu epizodlar tizmasida, asosan, ikki qahramon haqida gap ketadi. Biri professor Ziyo, ikkinchisi jahondagi harbiy birlashmalar tomonidan o‘limga hukm qilingan klon-odam obrazlari. Bu qismda ham ikkinchi qismdagidek ikki zamon uyg‘unlashtirilib tasvirlanadi. Axborot-kommunikatsiya vositalari orqali joriy zamon, professor Ziyo assotsiativ xayollari orqali o‘tmish zamoni.

XX asr boshlarida yaratilgan ilk tarixiy va zamonaviy romanlar: “O‘tgan kunlar“ va “Sarob”da A. Qodiriy va A. Qahhor badiiy psixologizmga murojaat qilishgan bo‘lsa, asr so‘nggida yaratilgan qissa va romanlarda badiiy psixologizm milliy nasrning yetakchi tamoyillaridan biriga aylandi. Bu ikki romanda o‘z-o‘zini inkor etuvchi qarama-qarshi qutblarda bir vaqtning o‘zida harakatlanuvchi Insonning ichki olami, ruhiy dunyosi, aql va ko‘ngil o‘rtasidagi ayovsiz kurash, tasavvur-taxayyul-tafakkur butun murakkabligi aks etgan.

Inson faoliyat yuritar ekan, jamiyat bilan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, estetik, ma’naviy-axloqiy munosabatga kirishishga majbur. Inson yakka holda jamiyatdagi mavjud munosabatlarni o‘zgartira olmaydi, biroq u shaxs maqomiga ko‘tarila olgan bo‘lsa, jamiyat o‘z ta’sirini o‘tkaza oladi. X. Do‘stmuhammadning “Bozor” romani qahramoni Fozilbekda ramziy obraz “bozor”, ya’ni jamiyat va ommaga nisbatan keskin norozilik kayfiyati mavjud. Uning har bir bozor o‘rtasida qiroatxona bo‘lishi shart degan xulosasi va bu boradagi sa’y-harakatlarida ko‘pqatlamlilik mavjud. Fozilbek – ma’rifat tarafdori, u ma’rifat deganda o‘zini tanigan, ilohiy hukmlarga bo‘ysunadigan, islomiy aqidalarga amal qiladigan insonlarni va ular yashayotgan jamiyatni tushunadi. Ikkinchidan, Fozilbekning harakatlari jamiyatdagi umumiy ahvolni ko‘rsatishga xizmat qilgan. Bosh qahramon Fozilbek va unga yondosh harakatlanuvchi yordamchi obrazlar (Zar bobo, Egam bobo, otasi, akasi, Hodivoy, Sadriddin, Solih qori) orqali yozuvchi falsafiy konsepsiyasi va asar g‘oyasi ochib berilgan. Bosh qahramon va xarakter darajasiga ko‘tarilish uchun ikkilamchi obrazlar pillapoya vazifasini bajaradi. Ikkinchi darajali obrazlar ijodiy yoki salbiy bo‘lishidan qat’iy nazar tipiklashtirilgan, xarakter darajasiga o‘sib chiqqan bosh qahramonning real voqelikka bo‘lgan munosabatini oydinlashtiradi, uning ichki olamiga xos xususiyatlarni yuzaga chiqaradi.

Hozirgi o‘zbek romanchiligida ham yangi talqin vositalarining yuzaga kelishi adiblarimizning nafaqat adabiy ta’sir natijasida, balki jamiyatga xos tafakkurning badiiy talqin etilish qonuniyatida ham deb bilamiz.

XX asrda yaratilgan, adabiyot xazinasidan o‘ziga mos o‘rin olgan “O‘tgan kunlar” (A. Qodiriy), “Kecha va kunduz” (Cho‘lpon), “Navoiy” (Oybek), “Yulduzli tunlar” (P. Qodirov) singari tarixiy romanlar milliy adabiyotimizni dunyoga tanitgan bo‘lsa, yangi davr mustaqillik davri adabiyotini shaklan va mazmunan yangilayotgan Murod Muhammad Do‘stning “Lolazor”, T. Murodning “Otamdan qolgan dalalar”, X. Do‘stmuhammadning “Bozor”, L. Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” romanlari o‘zbek adabiyotining badiiy jihatdan xilma-xil asarlar bilan boyitdi.

Jadid adabiyoti yozuvchilari A. Qodiriy, Cho‘lpon ijodida shakllangan adabiy an’analar mustaqillik davri adabiyotida yangicha mazmun-mohiyat kasb etadi. Jahon adabiyotining shakl va mazmun jihatidan yangilagan asarlarga bo‘lgan qiziqishning kuchayishi, adabiy tajribalarning o‘zlashtirilish, ijodkor nigohining voqelikdan inson ruhiyatiga qaratilishi milliy nasrimiz tadrijiga olib keldi.

I.Sultonning “Ozod” romani o‘zining qator kompozitsion qurilishga xos belgilari, ayniqsa, syujet tarkibining tuzilishi bilan XX asrning ikkinchi yarimlarida yevropada vujudga kelgan postmodernizm adabiyoti namunalariga yaqin keladi. Shuning bilan birgalikda, bu postmodernistik asar milliy-ma’naviy tafakkurimiz, ming yillik mumtoz adabiyotimiz, sharqona etikamiz negiziga qurilganini ham e’tibordan chetda qoldirmasligimiz lozim.

Odatda, romanda xalq va qahramon psixologiyasi o‘rtasidagi munosabatlarni tasvirlash orqali ijtimoiy tuzum, davr, ma’naviy muhit, jamiyatda umuminsoniy va milliy qadriyatlarning qaror topishi aks ettiriladi.

Milliy istiqlol davri adabiy tanqidida T. Jo‘rayev, Y. Solijonov, A. Xolmurodov, D. To‘rayev kabi munaqqidlar roman, qissa va undagi badiiy psixologizm usulini turli aspektlarda tahlil etishgan. D. To‘rayev “O‘zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat muammosi” monografiyasida “dolzarb mavzu ham, turmush materiali ham, romandagi tabiat tasviri ham, qahramonlardagi o‘z kasb-koriga doir chuqur bilim bayoni ham – agar yetuk xarakterlar, davrning badiiy tiplari darajasida ko‘rinmas ekan, asarning umrboqiyligini ta’minlay olmaydi”,- deb yozadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Исажон Султон. Асарлар. II жилд. – Тошкент: Ғ. Ғулом. 2017.-Б. 197.
2. Исажон Султон. Боқий дарбадар. – Тошкент: Ғ. Ғулом. 2011.-Б. 87.
3. Норматов У. Умидбахш тамойиллар. -Т.: Маънавият, 2000.-Б. 109.
4. Mustaqillik davri adabiyoti. – T.: Nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.
5. To‘rayev D. O‘zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat muammosi. – T.: Universitet, 2001. –166 b.
6. Umurov H. Badiiy ijod asoslari.-Toshkent, 2001.-B. 119.

7. Umurov H. Adabiyot nazariyasi.-Toshkent: Sharq, 2002. -B. 256.
8. Xolmurodov A. Roman va ruhiyat. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1999.-B.94.

MULOQOTNI RIVOJLANTIRISHNING TARIXIY- TADRIJIY TARAQQIYOTI

D.J.Xamidova
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti 1-bosqich tayanch doktoranti
E-mail: **s12173023@gmail.ru**, Tel.: +998915543964
M.A.Fayziyev
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti pedagogika kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi
E-mail: **fma@rambler.ru**, Tel.:+998979180612

Annotatsiya: Mazkur maqolada insoniyat tarixida muloqotning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Muloqotning ilk shakllari — og‘zaki ifoda, g‘or rasmlari, ramzlar va yozuv orqali axborot uzatishning tarixiy asoslari yoritiladi. Shuningdek, muloqotning og‘zaki shakli orqali madaniy meros, tarixiy xotira va ijtimoiy tajribaning avloddan avlodga uzatilishi muhim omil sifatida ko‘rsatiladi. Maqolada pedagogik muloqotning tarbiyaviy, didaktik va psixologik jihatlari hamda ularning zamonaviy ta’lim tizimidagi ahamiyati ilmiy-nazariy manbalar asosida yoritilgan. Shu bilan birga, “yumshoq ko‘nikmalar”ning, xususan, muloqot madaniyatining shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyatdagi o‘rni ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Muloqot, og‘zaki nutq, tarixiy taraqqiyot, ramz, yozuv, madaniy meros, pedagogik muloqot, yumshoq ko‘nikmalar, didaktika, kommunikativ kompetensiya.

Insoniyat tarixida muloqotning shakllanishi nutqning kelib chiqishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u miloddan avvalgi 100 000-yillarda boshlangan deb taxmin qilinadi. Muloqot jarayonida belgilar va ramzlardan foydalanish esa taxminan 30 000 yil avval paydo bo‘lgan. Dastlabki og‘zaki nutq shakli mukammal bo‘lmagan bo‘lsa-da, aynan shu nomukammallik g‘oyalarni oddiy va tezkor tarzda tarqatish imkonini yaratdi. Bu esa, o‘z navbatida, muloqotning yangi shakllarining vujudga kelishiga, axborot almashinuvining kengayishiga va saqlanadigan ma’lumotlarning umrini uzaytirishga xizmat qildi.[1]

Muloqot vositasi sifatida yaratilgan eng qadimgi ramzlar yuqori paleolit davriga oid bo‘lib, ular g‘or rasmlari — qoyatosh san’atining ilk shakli sifatida namoyon bo‘lgan. Ma’lumki, eng qadimgi g‘or rasmlaridan biri Fransiyada joylashgan Chauvet g‘orida topilgan bo‘lib, u taxminan miloddan avvalgi 30 000 yilga taalluqlidir. Ushbu tasvirlar nafaqat estetik ifoda, balki ma’lumot uzatish vositasi bo‘lganligi bilan ajralib turadi. Tadqiqotlarga ko‘ra, insoniyat ilk taqvim tizimini taxminan 15 000 yil avval yaratgan bo‘lishi mumkin.

Chizma va yozuv o‘rtasidagi tarixiy va semantik bog‘liqlik tilshunoslik nuqtai nazaridan ham isbotlangan. Masalan, Qadimgi Misr va Qadimgi Yunonistonda chizma va yozuv tushunchalari va ularni ifodalovchi terminlar bir xil asosga ega bo‘lgan: misrliklarda “s-sh” (belgilash, yozish), yunonlarda esa “graphein” (yozmoq, chizmoq) fe’llari bilan ifodalangan. Bu esa dastlabki muloqot shakllari sifatida tasvir va yozuv o‘rtasidagi uzviy aloqani ko‘rsatadi.[2]

Og‘zaki muloqot insoniyat muloqotining dastlabki shakllaridan biri bo‘lib, og‘zaki hikoya qilish an’anasi qadimiy davrlarga borib taqaladi. Insonlar tafakkuri va tajribasini avloddan avlodga yetkazishda og‘zaki shakldagi ifoda muhim rol o‘ynagan. Muloqotning og‘zaki shaklda rivojlanishi tarixiy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u insoniyat jamiyatining turli bosqichlarida shakllanib va boyib borgan.

Og‘zaki tarix esa o‘tmish davrlarni boshidan kechirgan shaxslar va guruhlarning bevosita guvohliklarini to‘plash va saqlash usuli sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jarayon orqali tarixiy xotira, madaniy qadriyatlar, urf-odatlar va ijtimoiy tajriba avlodlar o‘rtasida uzviy ravishda uzatilgan. [3] Og‘zaki muloqot o‘zining murakkabligi bilan har doim muayyan davrdagi ijtimoiy, madaniy va tarixiy holatlarga bog‘liq holda shakllanib kelgan. U hech qachon faqatgina ma’lum bir soha yoki faoliyat turi bilan chegaralanmagan, balki global miqyosda insoniyatning umumiy muloqot an’anasi sifatida mavjud bo‘lgan va bugungi kunga qadar o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Og‘zaki muloqot nafaqat shaxslararo aloqa vositasi, balki jamiyatlarda madaniy merosni saqlash va uzatishning muhim vositasi sifatida ham xizmat qilgan. [4] Qadim zamonlarda odamlar muloqotning og‘zaki shakllaridan keng foydalanganlar. Xususan, ular she’r va qo‘shiq kuylash orqali o‘z fikrlarini ifoda etganlar. Odamlar jamoaviy yig‘inlar chog‘ida

hikoyalar, afsonalar va tarixiy voqealarni aytib berish orqali ma’naviy tajriba almashganlar. Bu jarayon og‘zaki ijodning keng rivojlanishiga zamin yaratgan.

Xususan, Hind-Yevropa madaniy mintaqasida yashagan og‘zaki ijodkorlar, ya’ni shoirlar, og‘zaki nutqni mohirlik bilan ifodalash qobiliyatiga ega bo‘lganliklari sababli “so‘z to‘quvchilari” (inglizcha: word-weavers) deb atalgan. Ular voqealarni esda saqlab, badiiy shaklda ifoda etish orqali tarixiy va madaniy merosni keyingi avlodlarga yetkazishda muhim rol o‘ynaganlar. [6] Ko‘chmanchi xalqlarning og‘zaki an’analari ham bo‘lgan, ular o‘z xalqi tarixini keyingi avlodga yetkazish uchun hikoya qilib berganlar.

Og‘zaki muloqot insonlar uchun o‘z fikr-mulohazalari, tarixiy xotiralari va madaniy an’analarini keng ommaga yetkazishning eng tabiiy va samarali usullaridan biri bo‘lib kelgan. Bu muloqot shakli insoniyat tarixida nafaqat aloqa vositasi, balki ijtimoiy xotirani saqlash va uzatishning muhim shakli sifatida shakllangan. Og‘zaki muloqot voqealarni texnik vositalar yordamida qayd etishdan ko‘ra, ularning inson ongidagi aks-sadosini, ya’ni xotiraviy va ma’naviy talqinini ifodalashga xizmat qilgan.[7]

Zamonaviy dunyoda hayotning turli sohalarida kechayotgan tub o‘zgarishlar va global muammolarning mushtarakligi ta’lim tizimida yangi yondashuvlar, prinsipial masalalarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa, insonlar va jamiyat taraqqiyoti uchun hayot davomida uzluksiz ta’lim olish zaruriyati kundan-kunga ortib bormoqda (Nevdax, 2015).

Qator ilmiy tadqiqotlarda (Attila & Enikő, 2018; Volger va boshq., 2018; Cronin & Cronin, 1992) ish beruvchilar uchun nafaqat oliy ta’lim muassasalarida egallanadigan «qattiq ko‘nikmalar» (hard skills), balki universitetdan tashqarida shakllanadigan qo‘shimcha fazilatlar – mas’uliyat, ijodkorlik, muloqot madaniyati kabi «yumshoq ko‘nikmalar» (soft skills) ham katta ahamiyat kasb etishi ta’kidlanadi.

Garvard universiteti va Stenford tadqiqot instituti tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, insonning kasbiy muvaffaqiyatida texnik (qattiq) ko‘nikmalarning ulushi bor-yo‘g‘i 15 foizni tashkil etsa, qolgan 85 foiz muvaffaqiyat «yumshoq ko‘nikmalar»ga bog‘liqdir (Madsen, 2018). Bu esa uzluksiz ta’lim, ayniqsa kattalar ta’limining faqat bilim emas, balki shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish vositasi sifatidagi rolini yanada kuchaytiradi.

A.N. Leontev[8] pedagogik muloqotning tarbiyaviy va didaktik ahamiyatini ta’riflar ekan, uni pedagogik jarayonning ajralmas va muhim komponenti sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, faol pedagogik muloqot — bu o‘qituvchi va umuman pedagogik jamoaning o‘quvchilarni o‘rganish va ularning shaxsiy xususiyatlarini anglash vositasi bo‘lib, o‘quv faoliyatining ijodiy tus olishi va o‘quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishi uchun qulay psixologik-emotsional muhitni shakllantiradi. Shuningdek, u o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida psixologik to‘siqlarning oldini oladi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik munosabatlarni muvofiqlashtirishda, o‘qituvchining pedagogik mahoratini samarali qo‘llashida muhim o‘rin tutadi.

Muloqot pedagogik faoliyatda nafaqat bilim berishning zamonaviy usullarini amalga oshirish, balki tarbiyaviy jarayonni ijtimoiy-pedagogik jihatdan samarali tashkil etish vositasi sifatida e’tirof etiladi. Ilg‘or pedagogik tajribalar, xususan A.S.Makarenko [9] va V.A.Suxomlinskiy [10] kabi taniqli mutafakkirlar faoliyatining tahlili asosida shuni ta’kidlash mumkinki, pedagogik ta’sirda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqot hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Muloqot pedagogik mahoratning asosi sifatida xizmat qiladi va ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda muhim o‘rin egallaydi.

Xulosa qilinsa, muloqot insoniyat taraqqiyotining ajralmas va asosiy omillaridan biri bo‘lib, u dastlab ramz va og‘zaki nutq orqali boshlangan, keyinchalik esa yozuv va madaniy ifoda shakllari orqali takomillashgan. Muloqot insoniyat xotirasi, tarixiy merosi va ijtimoiy tajribasining uzviy uzatilishiga xizmat qilgan. Bugungi kunda esa u nafaqat ijtimoiy hayotda, balki pedagogik faoliyatda ham o‘quvchilarni tarbiyalash, o‘qituvchining ta’sirchanligini oshirish va ta’lim samaradorligini ta’minlashda asosiy vosita sifatida maydonga chiqmoqda. Ayniqsa, shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishda muloqot madaniyatining o‘rni beqiyosdir.:

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Miyagawa, Shigeru; Ojima, Shiro; Berwick, Robert C.; Okanoya, Kazuo (2014). "The integration hypothesis of human language evolution and the nature of contemporary languages". Frontiers in Psychology 5:564. doi:10.3389/fpsyg.2014.00564. ISSN 1664-1078. PMC 4048833. PMID 24936195.

2. David Diringer, The Book Before Printing: Ancient, Medieval and Oriental, Courier Dover Publications, 1982, ISBN 0-486-24243-9, Google Print: p.27

3. Pooley, Jefferson. "Suggestion Theory Across the Disciplines: The History of Communication Research Before Communication Research". Journalism Mass Communication Monographs.

4. Panini, et al. Fiorini, R, et al. F (March–April 2015). "Oral communication: short history and some rules". Giornale Italiano di Nefrologia. **32** (2). PMID 26005935.
5. **https://ilmiybaza.uz/document/matn-va-nutq-madaniyati.**
6. Woodward, Roger (14 May 2014). The textualization of the Greek alphabet. Cambridge University Press. ISBN 9781107731905. OCLC 875096147.
7.search.credoreference.com https://search.credoreference.com/articles/Qm9va0FydGljbGU6NTg2NTQ=?aid=16682. Retrieved 2025-04-24.
8. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. - М.: Смысл, Академия, 2005. - 352 с .
9. Макаренко.А.С. Методика организации воспитательного процесса / Академия педагогических наук РСФСР. — Москва : Издательство Академии педагогических наук РСФСР, 1950. — 108 с .
10. Suxomlinskiy V.D. Bolalarga jonim fido. -T.: O‘qituvchi, 1984-254b.

UO‘T: 633.11; 631.5/8

KUZGI BUG‘DOYNI SUG‘ORISHNING DON OQSIL MIQDORIGA TA’SIRI

N.P.Karimov
Qarshi davlat texnika universiteti tayanch doktorant, tel: +998909437686

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida Qashqadaryo viloyatining sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida kuzgi bug‘doy navlarini yetishtirishda sug‘orish usullari va tartiblarining donning oqsil miqdoriga ta’siri bayon qilingan. 2022 yilda olingan natijalarga ko‘ra, don oqsil miqdorining yuqori ko‘rsatkichlari sug‘orish tartiblari bo‘yicha barcha sug‘orish usullarida ham sug‘orishdan oldingi tuproq namligi ChDNS 70-75-65 tartibda kuzatildi. Shuningdek, tadqiqotlarda sug‘orish usuli va tartiblarining ta’siri kuzgi bug‘doy navlari orasida ham farq kuzatilib, xorijdan keltirilgan navlar mahalliy sharoitda yaratilgan navlarga nisbatan ko‘p suv talab qilishi aniqlangan.
Kalit so‘zlar: och tusli bo‘z tuproqlar, tuproq namligi, kuzgi bug‘doy, don oqsil miqdori, ko‘rsatkich, agrotexnika, sug‘orish, sug‘orish usullari, sug‘orish tartiblari.
Аннотация. В данной исследовательской работе описано влияние способов и режимов орошения на содержание белка зерна при возделывании сортов озимой пшеницы в условиях орошаемых светлых сероземных почв Кашкадарьинской области. По результатам, полученным в 2022 году, высокие показатели содержания белка в зерне наблюдались при всех способах орошения с режимом орошения 70-75-65 от ППВ. Также в исследованиях наблюдались различия в влиянии способов и режимов орошения сортов озимой пшеницы, установлено, что сорты, завезенные из-за рубежа, требуют больше воды по сравнению с сортами, созданными в местных условиях.
Ключевые слова: светлые сероземы, влажность почвы, озимая пшеница, белковость зерна, показатели, агротехника, орошение, способы орошения, порядок орошения.
Abstract. In this study, the influence of irrigation methods and regimes on the protein content of winter wheat varieties under the conditions of irrigated light sierozem soils of the Kashkadarya region is described. According to the results obtained in 2022, high indicators of grain protein content were observed in all irrigation regimes with pre-irrigation soil moisture at an irrigation regime of 70-75-65 FC. Also, in the studies, differences in the influence of irrigation methods and regimes were observed between winter wheat varieties, and it was established that varieties imported from abroad require more water compared to varieties created in local conditions.
Keywords: light gray soils, soil moisture, winter wheat, grain protein content, indicator, agricultural technology, irrigation, irrigation methods, irrigation procedures.

Kirish. Bug‘doy dunyodagi mamlakatlarning ko‘pchiligida asosiy oziq-ovqat ekinidir. Dunyo aholisining yarmidan ko‘prog‘i uni iste’mol qiladi. Jahonda beshta qit’aning shimoliy qutb mintaqalaridan eng janubiy chegaralarigacha bug‘doy ekiladi. Oziq-ovqat ekini sifatida bug‘doy juda ko‘p tabiiy afzalliklarga ega. Uning doni to‘yimli, yuqori kalloriyaga ega, yaxshi saqlanadi, tashiladi hamda qayta ishlanib, yuqori sifatli mahsulotlar olinadi Bug‘doy unidan non yopish va konditer sanoatida yengil hazm bo‘ladigan turli mazali mahsulotlar tayyorlashda keng foydalaniladi Donidan yorma, makaron, vermishel va boshqa mahsulotlar tayyorlanadi.

O‘zbekistonga Rossiya va boshqa chet mamlakatlardan keltirilayotgan bug‘doylar respublikamizda yetishtirilayotgan bug‘doylarga nisbatan oqsil va kleykovinaning miqdori hamda sifati pastligi bilan farq qiladi. Ayniqsa, O‘zbekistonning lalmikor sharoitida o‘stirilgan bug‘doylar yuqori quyosh energiyasi va samarali harorat ta’sirida ko‘p va sifatli oqsil, kleykovina to‘playdi [4].

Kuzgi bug‘doy (Triticum aestivum L.) O‘zbekistonda eng muhim don ekinlaridan biri hisoblanadi. Aholining non va non mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, shuningdek, chorvachilik uchun yem-xashak bazasini ta’minlashda bug‘doy yetishtirish muhim ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda yurtimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, hosildorlikni oshirish maqsadida qishloq xo‘jaligida resurs tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish dolzarb vazifaga aylangan.

Bug‘doy yetishtirishda suv – eng muhim agrotexnik omillardan biri bo‘lib, uning yetarli va samarali ta’minlanishi hosil miqdori va sifati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Respublikamiz sharoitida, ayniqsa Qashqadaryo, Buxoro, Navoiy kabi suv taqchilligi kuzatiladigan hududlarda sug‘orish tizimlarini modernizatsiya qilish, suvni tejash imkonini beruvchi sug‘orish texnologiyalarini – xususan, yomg‘irlatib va tomchilatib sug‘orishni joriy etish orqali yer va suv resurslaridan samarali foydalanish imkoniyati mavjud [1], [2].

Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, an’anaviy ariqlar orqali sug‘orish usullarida 35–45% gacha suv yo‘qotilishi kuzatiladi. Bu esa nafaqat suvdan samarasiz foydalanishga, balki tuproqning sho‘rlanishi va strukturaviy buzilishiga ham olib keladi. Shu bois, ilmiy-tadqiqot ishlari suvni tejovchi sug‘orish usullarining tuproq namligi, agrotexnik ko‘rsatkichlar, o‘simlik o‘sishi va yakuniy hosildorlikka ta’sirini o‘rganishga qaratilmoqda [3].

Tadqiqot tahlili. Mazkur tadqiqot ishi Qashqadaryo viloyatining sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida amalga oshirildi. Tadqiqot hududida kuzgi bug‘doyning Tanya, Asr va Yaksart navlarini sug‘orish usullari va tartiblarini o‘rganish bo‘yicha 2022 yilda olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, kuzgi bug‘doy navlari donining oqsil miqdori o‘rtacha 14,9 % dan 18,9 gachani tashkil etdi (1-jadval).

Tadqiqot ishida kuzgi bug‘doyni egatlab sug‘orish usulida sug‘orishdan oldingi tuproq namligi ChDNS ga nisbatan 65-70-60% tartibda “Tanya” navida o‘rtacha 15,3 % , “Asr” navida 16,0 % hamda “Yaksart” navida 15,8 % ni tashkil etdi. Sug‘orishdan oldingi tuproq namligi ChDNS ga nisbatan 70-75-65% tartibda “Tanya” navida 16,8 % , “Asr” navida 18,9 % va “Yaksart” navida 18,1 % ni tashkil etdi. Sug‘orishdan oldingi tuproq namligi ChDNS ga nisbatan 75-80-70% tartibda “Tanya” navida o‘rtacha 15,8 % , “Asr” navida 17,0 % hamda “Yaksart” navida 1,7 % ekanligi aniqlandi.

1-jadval. Sug‘orishning kuzgi bug‘doy navlari donining oqsil miqdoriga ta’siri, % (2022y)

T/r	Sug‘orish usuli	Sug‘orish tartibi	Nav nomi	1-qaytariq	2-qaytariq	3-qaytariq	O‘rtacha
1	Egatlab (standart)	ChDNS 65-70-60	Tanya	15,4	14,8	15,6	15,3
2			Asr	16,7	15,5	15,9	16,0
3			Yaksart	15,2	16	16,3	15,8
4		ChDNS 70-75-65	Tanya	16,9	16,5	17	16,8
5			Asr	18,5	20,6	17,7	18,9
6			Yaksart	18	17,9	18,4	18,1
7		ChDNS 75-80-70	Tanya	16,1	15,7	15,6	15,8
8			Asr	16,6	17,4	17	17,0
9			Yaksart	16	17,4	16,7	16,7
10	Yomg‘irlatib	ChDNS 65-70-60	Tanya	15	14,9	14,7	14,9
11			Asr	16	15,3	14,7	15,3
12			Yaksart	16	14,8	14,8	15,2
13		ChDNS 70-75-65	Tanya	16,3	16,3	16	16,2
14			Asr	17,6	19	16,7	17,8
15			Yaksart	17,6	17,1	17,4	17,4
16		ChDNS 75-80-70	Tanya	15	14,5	15,9	15,1
17			Asr	15,9	17,1	15,7	16,2
18			Yaksart	16,1	15,7	16,1	16,0

Kuzgi bug‘doy navlarini yomg‘irlatib sug‘orish usulida sug‘orishdan oldingi tuproq namligi ChDNS ga nisbatan 65-70-60% tartibda “Tanya” navida o‘rtacha 14,9 % , “Asr” navida 15,3 % hamda “Yaksart”

navida 15,2 % ni tashkil etdi. Sug‘orishdan oldingi tuproq namligi ChDNS ga nisbatan 70-75-65% tartibda “Tanya” navida 16,2 % , “Asr” navida 17,8 % va “Yaksart” navida 17,4 % ni tashkil etdi. Sug‘orishdan oldingi tuproq namligi ChDNS ga nisbatan 75-80-70% tartibda “Tanya” navida o‘rtacha 15,1 % , “Asr” navida 16,2 % hamda “Yaksart” navida 16,0 % ekanligi aniqlandi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash kerakki, och tusli bo‘z tuproqlar sharoitida sug‘orish usullari bo‘yicha eng yuqori donining oqsil miqdori qiymati sug‘orish tartiblari bo‘yicha barcha sug‘orish usullarida ham sug‘orishdan oldingi turoq namligi ChDNS ga nisbatan 70-75-65% tartibda aniqlandi. Sug‘orish usullari va tartiblari ta’sirida kuzgi bug‘doy navlari donining oqsil miqdori o‘rtacha 14,9 % dan 18,9 gacha o‘zgarishi aniqlandi. Shuningdek, tadqiqotlarda sug‘orish usuli va tartiblarining ta’siri kuzgi bug‘doy navlari orasida ham farq kuzatilib, xorijdan keltirilgan navlar mahalliy sharoitda yaratilgan navlarga nisbatan ko‘p suv talab qilishi aniqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nishonov R.T., “Suv resurslaridan samarali foydalanishning ilmiy asoslari”. Tuproqshunoslik va ekinlar agrotexnikasi. 2021. №2, 30–35-betlar.

2. Rahimov A.X. va boshqalar. “Yomg‘irlatib sug‘orish tizimining bug‘doy agrotexnikasiga ta’siri”. Agrar fanlar axborotnomasi. 2022. №4, 25–31-betlar.

3. FAO, 2020. Water-saving technologies in irrigated agriculture of Central Asia. Rome: FAO Publishing.

4. Xalilov N.X., Bobomirzayev P.X. Kuzgi bug‘doyni o‘g‘itlash va sug‘orishning ilmiy asoslari. Monografiya. Toshkent. “Fan” nashriyoti. 2009. 5-6 betlar.

G‘O‘ZADA (GOSSYPIUM HIRSUTUM L.) TOLA SIFAT BELGILARINING GENETIK TADQIQOTLARIDA KO‘P OTA-ONALIK POPULYATSIYALARINI (MAGIC) QO‘LLASH SAMARADORLIGI

B.M.Gapparov
O‘simliklar genetik resurslari ilmiy tadqiqot instituti 1-bosqich doktorant
D.M.Arslanov
Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti kichik ilmiy xodim

Annotatsiya. Tola sifatiga bo‘lgan talablarning ortib borishi va g‘o‘za (Gossypium hirsutum L.) seleksiyasining an’anaviy usullarining cheklanganligi sharoitida ko‘p ota-onalik populyatsiyalari (MAGIC - Multi-parent Advanced Generation Inter-Cross) genetik tadqiqotlarning istiqbolli vositasiga aylanmoqda. Ushbu ishda tola sifatini belgilovchi murakkab miqdoriy xususiyatlarni, jumladan uzunlik, pishiqlik, tekislik va mikroneyrlarni o‘rganish uchun MAGIC yondashuvining asosiy afzalliklari ko‘rib chiqiladi. Zamonaviy tadqiqotlar tahlili asosida [Islam et al., 2016; Thyssen va boshqalar, 2019, 2023; Wang va boshqalar, 2022 va boshqalar] QTL xaritalash, noyob allellarni aniqlash va epistatik o‘zaro ta’sirlarni o‘rganishda MAGIC platformalarining yuqori samaradorligini ko‘rsatdi. MAGIC populyatsiyalaridan foydalanishning metodologik xususiyatlari va muvaffaqiyatli misollari, shuningdek, ularni marker bilan bog‘liq va genom seleksiyasi bilan integratsiya qilish istiqbollari muhokama qilinadi. Keltirilgan ma’lumotlar seleksiya jarayonini jadallashtirish va g‘o‘zada tola sifatini maqsadli yaxshilash uchun MAGIC yondashuvining ahamiyatini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar. G‘o‘za, MAGIC populyatsiyalari, tola sifati, QTL xaritalash, GWAS, epistaz, seleksiya, genetik xilma-xillik, SNP markerlari, markerlar bilan bog‘liq seleksiya.

Аннотация. В условиях растущих требований к качеству волокна и ограниченности традиционных методов селекции хлопчатника (Gossypium hirsutum L.), многородительские популяции (MAGIC — Multi-parent Advanced Generation Inter-Cross) становятся перспективным инструментом генетических исследований. В данной работе рассматриваются ключевые преимущества MAGIC-подхода для изучения сложных количественных признаков, определяющих качество волокна, включая длину, прочность, равномерность и микронаир. На основе анализа современных исследований [Islam et al., 2016; Thyssen et al., 2019, 2023; Wang et al., 2022 и др.] показана высокая эффективность MAGIC-платформ в QTL-картировании, выявлении редких аллелей и изучении эпистатических взаимодействий. Обсуждаются методологические особенности и успешные примеры использования MAGIC-популяций, а также перспективы их интеграции с

маркерно-ассоциированной и геномной селекцией. Представленные данные подтверждают значимость MAGIC-подхода для ускорения селекционного процесса и целенаправленного улучшения качества волокна у хлопчатника.

Ключевые слова. Хлопчатник, MAGIC-популяции, качество волокна, QTL-картирование, GWAS, эпистаз, селекция, генетическое разнообразие, SNP-маркеры, маркерно-ассоциированная селекция.

Abstract. Amid growing demands for fiber quality and the limitations of traditional breeding methods in cotton (Gossypium hirsutum L.), multi-parent populations (MAGIC — Multi-parent Advanced Generation Inter-Cross) represent a promising tool for genetic research. This study highlights the key advantages of the MAGIC approach for investigating complex quantitative traits that determine fiber quality, including fiber length, strength, uniformity, and micronaire. Based on a review of recent studies [Islam et al., 2016; Thyssen et al., 2019, 2023; Wang et al., 2022, among others], we demonstrate the high efficiency of MAGIC populations in precise QTL mapping, rare allele detection, and the analysis of epistatic interactions. Methodological considerations, successful case studies, and future prospects for integrating MAGIC with marker-assisted and genomic selection are also discussed. The evidence presented supports the significance of the MAGIC approach in accelerating breeding efforts and enabling targeted improvement of fiber quality in cotton.

Keywords. Cotton, MAGIC populations, fiber quality, QTL mapping, GWAS, epistasis, breeding, genetic diversity, SNP markers, marker-assisted selection

Kirish. G‘o‘za (Gossypium hirsutum L.) eng muhim tolali ekinlardan biri bo‘lib, jahon to‘qimachilik sanoati uchun 90% dan ortiq xomashyoni ta’minlaydi. Tolaning uzunligi, pishiqligi, mikroneyr ko‘rsatkichlari, bir tekisligi va mexanik ishlovga chidamliligi kabi xususiyatlarini yaxshilash zamonaviy seleksiyaning ustuvor vazifalaridan biridir. Bu ko‘rsatkichlarning oshishi mahsulotning tovar qiymatini oshirishga, texnologik xususiyatlarini yaxshilashga va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi.

Lekin bu belgilarning genetik jihatdan yaxshilanishi ularning poligenligi va muhit sharoitiga o‘ta sezgirligi tufayli qiyin kechadi. Ikki ota-ona shakllarini chatishtirishga asoslangan an’anaviy biparent populyatsiyalar miqdoriy belgilarni (QTL) xaritalashda cheklangan allel o‘zgaruvchanligi va past ajrata olish qobiliyatiga ega bo‘lib, bu ishonchli molekulyar markerlar va nomzod genlarni aniqlash samaradorligini pasaytiradi.

Shu munosabat bilan 4-16 ota-ona tizmalari o‘rtasida ko‘p bosqichli chatishtirishlar, keyinchalik randomizatsiya (ixtiyoriy chatishtirish) va o‘z-o‘zini changlatish asosida shakllanadigan ko‘p ota-onalik populyatsiyalari (MAGIC) alohida qiziqish uyg‘otadi. Bunday yondashuv yuqori rekombinatsion faollik, kengaytirilgan allel spektri va nisbiy gomozigotalikka erishish imkonini beradi, bu esa MAGIC platformalarini ham fundamental tadqiqotlar, ham amaliy seleksiya uchun kuchli vositaga aylantiradi.

Tadqiqotlarning hozirgi holati. MAGIC-populyatsiyalarning joriy etilishi g‘o‘zada murakkab miqdoriy belgilarni o‘rganishda yangi bosqichga turtki bo‘ldi. Bunday tadqiqotlardan birinchisi Islam va boshqalar (2016) tomonidan o‘tkazilgan GWAS tadqiqoti bo‘lib, unda MAGIC populyatsiyasi asosida tola uzunligi va pishiqligi bilan bog‘liq bo‘lgan GhRBB1_A07 geni aniqlangan. Mualliflar MAGIC platformalarining yuqori rekombinatsion o‘zgaruvchanligi muhimligini ta’kidlaydilar.

Thyssen va boshqalar (2019) tola belgilarining genetik arxitekturasini batafsil tahlil qilib, yangi QTLlarni aniqladi va epistatik o‘zaro ta’sirlarning rolini tasdiqladi. Keyingi tadqiqotlarda (Thyssen va boshqalar, 2023) epistaz tolalarning yong‘inga chidamliligi kabi yangi xususiyatlarning paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkinligi ko‘rsatilgan - bu an’anaviy selektsiyada erishib bo‘lmaydigan natijadir.

Wang va boshqalar (2022) tola uzunligi, pishiqligi va bir tekisligi bilan bog‘liq QTLni aniq xaritalash uchun yuqori zichlikdagi SNP markerlariga ega MAGIC platformasidan foydalangan. Ish seleksiya dasturlariga kiritish uchun asosiy nomzod genlarni lokalizatsiya qilish imkonini berdi.

Mohammed va boshqalar (2025) takomillashtirilgan GWAS usullaridan foydalangan holda tola xususiyatlarini tartibga soluvchi ilgari noma’lum bo‘lgan lokuslarni aniqladilar, bu esa molekulyar seleksiya vositalarini kengaytiradi.

Tola sifati yuqori bo‘lgan Gossypium barbadense o‘simligidan belgilarning introgressiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Fang va boshqalar (2023) tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, MAGIC platformalari G.hirsutum ning genetik yaxshilanishida introgressiv lokuslarni samarali kuzatish va ulardan foydalanish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi va natijalari. MAGIC populyatsiyalari bir qator metodologik afzalliklarga ega: rekombinatsiyaning yuqori darajasi, genetik xilma-xillikning boyligi, epistatik o‘zaro ta’sirlarni o‘rganish va aniq QTL xaritalash imkoniyati. Ko‘plab ota-ona shakllari o‘rtasidagi ko‘p siklli interkrosslar genomni kichik qismlarga bo‘lib, ajratib olish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi (Huang va boshqalar, 2015).

Maurer va boshqalar (2017) ma’lumotlariga ko‘ra, MAGIC platformalari alohida lokuslarning ta’sirini ham, murakkab genetik o‘zaro ta’sirlarni, shu jumladan epistazni ham o‘rganish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, ko‘p genlar ta’sirida shakllanadigan belgilar uchun muhimdir.

Bir qator ishlar [Islam va boshqalar, 2016; Thyssen va boshqalar, 2019; Wang va boshqalar, 2022] tola uzunligi va pishiqligi bilan bog‘liq QTLning barqaror identifikatsiyasini, shuningdek, asosiy nomzod genlarning lokalizatsiyasini tasdiqlaydi. Thyssen va boshqalar (2023) ishida faqat MAGIC usuli yordamida aniqlangan epistatik ta’sirlar tufayli yong‘inga chidamli fenotipning paydo bo‘lishining noyob holati tasvirlangan.

Sakkiz ota-onalik MAGIC populyatsiyasida SLAF-seq texnologiyasidan foydalanish [Huang va boshqalar, 2021] SNP markerlarining yuqori zichligiga erishish va biparent modellardan foydalanganda ilgari mavjud bo‘lmagan noyob allellarni aniqlash imkonini berdi.

Xulosa. MAGIC populyatsiyalari o‘zini g‘o‘za genetik tadqiqotlari va seleksiyasida, ayniqsa tola sifatini yaxshilashda samarali vosita sifatida namoyon etdi. Ular seleksiya siklini qisqartirish, QTL xaritalash aniqligini oshirish, foydali allellarni aniqlash va belgilarning murakkab genetik arxitekturasini o‘rganish imkonini beradi. Marker assotsiatsiyalangan seleksiya (MAS) va genom seleksiyasi usullari bilan magic-platformalarining integratsiyasi belgilarning bashorat qilingan yaxshilanishi va raqobatbardosh navlarni yaratish uchun keng istiqbollarni ochib beradi. Fundamental va amaliy salohiyatning uyg‘unligi tufayli MAGIC populyatsiyalari iqlim o‘zgarishi va global oziq-ovqat beqarorligi sharoitida zamonaviy seleksiyaning strategik muhim elementiga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Islam, M. S., Bibi, N., Altabella, T., et al. (2016). Genome-wide association study identifies GhRBB1_A07 as a candidate gene influencing fiber length and strength in cotton MAGIC population. Plant Journal, 86(3), 262-274. https://doi.org/10.1111/tpj.13101

2. Thyssen, G. N., Kresovich, S., McCarty, J. C., et al. (2019). Genetic architecture of fiber quality traits in cotton revealed by MAGIC populations. Crop Science, 59(4), 1410-1422. https://doi.org/10.2135/cropsci2018.11.0674

3. Wang, Z., Zhang, J., Yuan, L., et al. (2022). High-density SNP mapping and QTL analysis for fiber quality traits in cotton MAGIC populations. Frontiers in Plant Science, 13, 827329. https://doi.org/10.3389/fpls.2022.827329

4. Mohammed, A., Zhang, Y., Chen, G., et al. (2025). GWAS of fiber quality traits in cotton MAGIC populations reveals novel QTL and candidate genes. Theoretical and Applied Genetics, 138(3), 659-675. https://doi.org/10.1007/s00122-024-04535-3

5. Thyssen, G. N., McCarty, J. C., Kresovich, S., et al. (2023). Epistatic interactions enhance fiber properties in cotton MAGIC populations. Plant Biotechnology Journal, 21(2), 254-267. https://doi.org/10.1111/pbi.13956

6. Huang, X., Wei, X., Sang, T., et al. (2021). SLAF-seq technology enables high-resolution QTL mapping in an eight-parent MAGIC population of cotton. BMC Genomics, 22, 123. https://doi.org/10.1186/s12864-021-07443-6

7. Maurer, A., Draba, V., Hahn, V., et al. (2017). Harnessing genetic diversity in MAGIC populations for dissecting complex traits in plants. Theoretical and Applied Genetics, 130(1), 169-184. https://doi.org/10.1007/s00122-016-2786-6

8. Fang, L., Wang, X., Wu, J., et al. (2023). Introgression mapping of fiber quality loci from Gossypium barbadense into upland cotton using MAGIC populations. BMC Plant Biology, 23, 45.

G‘O‘ZANING FUZARIOZ VA VERTITSILLYOZ SO‘LISH KASALLIKLARIGA CHIDAMLILIGINING GENETIK ASOSLARI: MAGIC POPULYATSIYALARI VA GWASNING ROLI

D.M.Arslanov

Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti ilmiy xodim
B.M.Gapparov
O‘simliklar genetik resurslari ilmiy tadqiqot instituti 1-bosqich doktorant

Annotatsiya. Fuzarioz va vertitsillyoz so‘lish g‘o‘zaning (Gossypium hirsutum L.) eng xavfli kasalliklaridan biri bo‘lib, hosilning ko‘plab nobud bo‘lishiga va tola sifatining pasayishiga olib keladi. Iqlim o‘zgarishi va fungitsidlarni qo‘llashdagi cheklovlar sharoitida o‘simliklarning chidamliligini genetik jihatdan yaxshilash ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu ishda chidamlilik genlarini aniqlashning zamonaviy yondashuvlari, jumladan genom-assotsiativ tahlil (GWAS) usullari va ko‘p ota-onalik MAGIC populyatsiyalari tahlil qilingan. So‘nggi tadqiqotlar asosida immun javob va gormonal tartibga solish bilan bog‘liq asosiy QTL, nomzod genlar va signal yo‘llari ko‘rib chiqilmoqda. MAGIC platformalarining barqaror barqaror lokuslar va noyob allellarni aniqlashda yuqori samaradorligi ko‘rsatilgan [Ayyaz et al., 2025; Abdelraheem va boshqalar, 2021].. Shuningdek, g‘o‘za seleksiyasi dasturlari doirasida MAGIC va GWASni RNA-seq va CRISPR/Cas9 kabi boshqa usullar bilan integratsiya qilish istiqbollari belgilangan [Zhang va boshqalar, 2025].

Kalit so‘zlar. G‘o‘za, fuzarioz so‘lish, vertitsillyoz so‘lish, MAGIC populyatsiyalari, GWAS, kasalliklarga chidamlilik, QTL, PAMP, salitsil kislotasi, marker bilan bog‘liq seleksiya, CRISPR/Cas9.

Аннотация. Фузариозное и вертициллёзное увядание являются одними из наиболее разрушительных заболеваний хлопчатника (Gossypium hirsutum L.), вызывая значительные потери урожая и ухудшение качества волокна. В условиях климатических изменений и ограничений на применение фунгицидов приоритетом становится генетическое улучшение устойчивости растений. В данной работе проанализированы современные подходы к выявлению генов устойчивости, включая методы геном-ассоциативного анализа (GWAS) и многородительские MAGIC-популяции. На основе недавних исследований рассматриваются ключевые QTL, гены-кандидаты и сигнальные пути, связанные с иммунным ответом и гормональной регуляцией. Показана высокая эффективность MAGIC-платформ в обнаружении стабильных локусов устойчивости и редких аллелей [Ayyaz и др., 2025; Abdelraheem и др., 2021]. Также обозначены перспективы интеграции MAGIC и GWAS с другими методами, такими как RNA-seq и CRISPR/Cas9, в рамках селекционных программ хлопчатника [Zhang и др., 2025].

Ключевые слова. Хлопчатник, фузариозное увядание, вертициллёзное увядание, MAGIC-популяции, GWAS, устойчивость к болезням, QTL, PAMP, салициловая кислота, маркер-ассоциированная селекция, CRISPR/Cas9.

Abstract. Fusarium wilt and Verticillium wilt are among the most devastating diseases of cotton (Gossypium hirsutum L.), leading to significant yield losses and a decline in fiber quality. In the context of climate change and increasing restrictions on fungicide use, genetic improvement of plant resistance has become a key priority. This paper reviews current approaches to identifying resistance genes, including genome-wide association studies (GWAS) and multiparental MAGIC (Multi-parent Advanced Generation Inter-Cross) populations. Based on recent research, we discuss major QTLs, candidate genes, and signaling pathways involved in immune responses and hormonal regulation. The high efficiency of MAGIC platforms in detecting stable resistance loci and rare alleles is highlighted [Ayyaz et al., 2025; Abdelraheem et al., 2021]. We also outline the prospects of integrating MAGIC and GWAS with other technologies, such as RNA-seq and CRISPR/Cas9, in cotton breeding programs [Zhang et al., 2025].

Keywords. Cotton, Fusarium wilt, Verticillium wilt, MAGIC populations, GWAS, disease resistance, QTL, PAMP, salicylic acid, marker-assisted selection, CRISPR/Cas9

Kirish. Fuzarioz so‘lish (Fusarium oxysporum f. sp. vasinfectum, FOV) va vertitsillyoz so‘lish (Verticillium dahliae, VDW) g‘o‘zaning eng xavfli zamburug‘li kasalliklari qatoriga kiradi. Ular o‘simlikning ildiz va nay tizimlarini zararlab, suv va oziq moddalarning ksilema orqali o‘tishini buzadi, natijada o‘simliklarning sistemali so‘lishi va nobud bo‘lishiga olib keladi.

Global isish, stresslarning ko‘payishi va agroximikatlarga bo‘lgan ekologik talablarning kuchayishi sharoitida FOV va VDW ga chidamlilik seleksiyaning asosiy yo‘nalishiga aylanmoqda. Barqarorlikni genetik yaxshilash ekologik tozalik, tejamkorlik va natijaning uzoq muddatliligini birlashtirgan eng samarali strategiyadir.

GWAS va QTL xaritalash kabi zamonaviy genom yondashuvlari ko‘p ota-onalik MAGIC populyatsiyalaridan foydalanishda alohida ahamiyat kasb etadi [Ayyaz va boshqalar, 2025; Abdelraheem

va boshqalar, 2021]. Bunday populyatsiyalar yuqori genetik xilma-xillikka ega, rekombinatsiya bilan boyitilgan va yaxshilangan ajrata olish qobiliyatiga ega bo‘lib, bu chidamlilik genlarini, shu jumladan noyob allellarni ishonchli aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi g‘o‘zaning fuzarioz va vertitsillyoz so‘lish kasalliklariga chidamliligining genetik asoslari bo‘yicha zamonaviy ma’lumotlarni umumlashtirish, asosiy lokuslarni aniqlash va seleksiya strategiyalarini ishlab chiqishda MAGIC platformalari va GWASning rolini ta’kidlashdan iborat.

Asosiy tadqiqotlar va yutuqlar. So‘nggi yillarda FOV va VDWga chidamlilikning genetik determinantlarini aniqlashga bag‘ishlangan bir qator muhim ishlar nashr etilgan.

Zhu va boshqalar (2022) FOV4 irqiga chidamlilik bilan bog‘liq barqaror major QTL mavjudligini tasdiqlovchi meta-tahlil o‘tkazdilar. Ushbu lokus turli genetik fonlarda barqaror ekspressiyani namoyon qiladi, bu esa uni qimmatli seleksiya markeriga aylantiradi.

Ayyaz va boshqalar (2025) vertitsillyozga chidamlilikni QTL xaritalash uchun MAGIC populyatsiyasidan foydalangan. Yuqori rekombinatsiya qobiliyati va keng allel xilma-xilligi tufayli ilgari biparent populyatsiyalarda aniqlanmagan yangi barqaror QTL aniqlandi.

Zhang va boshqalar (2025), AINI va boshqalar (2022) va Palanga va boshqalar (2021) ishlari barqarorlikning molekulyar mexanizmlarini chuqurroq tushunishga yordam berdi. Mualliflar asosiy mexanizmlar PAMP-indutsirlangan immunitet (patogenlar bilan bog‘liq naqshlarni aniqlash) va salitsil kislotasi (SA), jasmon kislotasi (JA) va etilen (ET) ishtirokida gormonal vositachi himoya ekanligini ko‘rsatdilar. Ushbu signal yo‘llari transkripsion faollashtirishdan tortib fiziologik qayta qurishgacha bo‘lgan keng ko‘lamli himoya javoblarini tartibga soladi.

MAGIC platformalari va molekulyar vositalarning roli. MAGIC platformalari quyidagi afzalliklar orqali barqarorlikni o‘rganish imkoniyatlarini kengaytiradi:

Abdelraheem va boshqalar (2021) shuni ko‘rsatdiki, MAGIC populyatsiyalari bir vaqtning o‘zida patogenlarga, sho‘rlanishga va qurg‘oqchilikka chidamlilikni xaritalash imkonini beradi, bu esa atrof-muhitning murakkab sharoitlariga moslashish uchun muhimdir.

MAGIC platformalarida ko‘p bosqichli chatishtirishlar yuqori darajadagi rekombinatsiyaga olib keladi, bu esa QTL joylashuv aniqligini sezilarli darajada oshiradi va ham major, ham minor effektlarni anlashni osonlashtiradi [Ayyaz va boshqalar, 2025].

SNP va SSR-markerlar integratsiyasi markerlar bilan assotsiatsiyalangan seleksiyani (MAS) amaliyotga joriy etishni tezlashtiradi, bu esa tanlovning dastlabki bosqichlarida barqaror liniyalarni samarali tanlash imkonini beradi [Zhu va boshqalar, 2022].

Kelajak istiqbollari va integrativ yondashuvlar. G‘o‘zaning chidamli navlari seleksiyasini yanada rivojlantirish uchun turli genom texnologiyalarini birlashtirish zarur:

GWASning transkriptom tahlili (RNA-seq) bilan integratsiyasi batafsil tartibga soluvchi barqarorlik tarmoqlarini yaratish, asosiy signal kaskadlarini aniqlash va infeksiyaga javoban himoya genlarining faollashuv dinamikasini tushunish imkonini beradi [Zhang va boshqalar, 2025].

CRISPR/Cas9 yordamida genomni tahrirlash immun reaktivligi yuqori va barqaror immunitetga ega navlarni yaratish imkoniyatini ta’minlab, chidamlilik genlarini maqsadli ravishda o‘zgartirishga yo‘l ochadi [AINI va boshqalar, 2022].

Ushbu usullar MAGIC-platformalari bilan birgalikda zamonaviy agroekologik sharoitlarga moslashgan chidamli navlarni jadal seleksiya qilish uchun asos yaratadi.

Xulosa. Fuzarioz va vertitsillyoz so‘lish, ayniqsa iqlim beqarorligi va fungitsidlarni qo‘llash kamaygan sharoitda, barqaror paxta yetishtirish uchun jiddiy tahdid bo‘lib qolmoqda. Ushbu kasalliklarga chidamlilikni genetik jihatdan yaxshilash zamonaviy seleksiyaning strategik yo‘nalishiga aylanmoqda.

GWAS va QTL xaritalash usullari bilan birgalikda ko‘p ota-onalik MAGIC populyatsiyalaridan foydalanish chidamlilik genlarini aniqlash aniqligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Bunday populyatsiyalar keng genetik bazani, yuqori rekombinatsiya faolligini va ham major, ham minor lokuslarni, shu jumladan kam uchraydigan va epistatik o‘zaro ta’sir qiluvchi allellarni aniqlashni ta’minlaydi [Abdelraheem va boshqalar, 2021; Ayyaz va boshqalar, 2025].

Klassik yondashuvlarni RNA-seq va CRISPR/Cas9 usullari bilan to‘ldirish immun javobning tartibga soluvchi tarmoqlarini o‘rganishda va chidamlilik genlarini maqsadli tahrirlashda yangi ufqlarni ochadi.

Bu texnologiyalarning uyg‘unlashuvi chidamli, moslashuvchan, uzoq muddatli immunitetga ega va yuqori mahsuldor g‘o‘za navlarini yaratishga zamin yaratadi.

Shunday qilib, MAGIC-platformalar kelajakdagi seleksiya dasturlarining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib, zamonaviy agroekologik muammolar sharoitida patogenlarga bardosh bera oladigan genetik jihatdan chidamli g‘o‘za navlarini yaratishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zhu, X., Li, Y., Wang, J., et al. (2022). Meta-analysis identifies a major QTL conferring resistance to Fusarium oxysporum f. sp. vasinfectum race 4 in cotton. Plant Disease, 106(4), 1234-1243. https://doi.org/10.1094/PDIS-07-21-1298-RE

2. Ayyaz, M., Khan, M. A., Zhang, S., et al. (2025). QTL mapping of Verticillium wilt resistance in cotton using a multi-parent advanced generation intercross (MAGIC) population. Theoretical and Applied Genetics, 138(1), 57–72. https://doi.org/10.1007/s00122-024-04512-x

3. Zhang, H., Chen, L., Xu, Q., et al. (2025). Molecular mechanisms underlying cotton resistance to Fusarium and Verticillium wilt: Role of PAMP-triggered immunity and hormone signaling pathways. Frontiers in Plant Science, 16, 987654. https://doi.org/10.3389/fpls.2025.987654

4, AINI, S., Ahmad, Z., Malik, A. (2022). Hormonal regulation in cotton defense responses to fungal pathogens: Salicylic acid, jasmonic acid, and ethylene crosstalk. Plant Physiology and Biochemistry, 170, 79-89. https://doi.org/10.1016/j.plaphy.2021.12.005

5. Palanga, E., Smith, D., Thomas, J. (2021). PAMP-triggered immunity in cotton: Molecular insights into pathogen recognition and defense activation. Molecular Plant Pathology, 22(9), 1230-1242. https://doi.org/10.1111/mpp.13094

6. Abdelraheem, A., Khalafalla, M., Fahad, S. (2021). Application of MAGIC populations for simultaneous mapping of drought tolerance, salt tolerance, and disease resistance in cotton. Crop Science, 61(2), 765-778.

UO‘K:94(575.121) “1876/1917”

MIGRATSION GURUHLAR TARIXINI O‘RGANISHNING ILMIY-NAZARIY VA METODIK TAMOYILLARI (1876-1917 YY.)

M.B.Nazirov
Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi
nazirovmirjalol60@gmail.com +998911070307, ORCID 0000-0001-6877-5513

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot ishida 1876–1917-yillar davrida migratsion guruhlar tarixini o‘rganish jarayoni ilmiy-nazariy hamda metodik jihatdan tahlil qilinadi. Asarda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi tarkibidagi turli xalqlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va demografik omillar ta'sirida ko‘chib yurish holatlari hamda bu harakatlarning sabablari, shakllanish bosqichlari va oqibatlari ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqotda migratsiya tushunchasining tarixiy evolyutsiyasi, tarixiy-madaniy kontekstdagi o‘rni, va unga oid statistik hamda arxiv manbalari tahlil etilgan. Shuningdek, migratsion guruhlarni o‘rganishda qo‘llanilgan asosiy metodlar – tarixiy-tipologik, tarixiy-taqqosloviy, tizimli-yondashuv kabi ilmiy-uslubiy tamoyillar tahlil markazida bo‘ladi. Ushbu mavzu tarix fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, tarixiy jarayonlarning chuqur anglanishiga, millatlararo munosabatlar va jamiyatdagi demografik o‘zgarishlarning ilmiy baholanishiga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Aholi migratsiyasi, Tarixiy demografiya, Tub va tub bo‘lmagan aholi, Rossiya imperiyasi, Etnik tarkib, Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, Madaniy almashinuv, Mahalliy aholi, Demografik, o‘zgarishlar**.**

Аннотация: В данном исследовании анализируется процесс изучения истории миграционных групп в период с 1876 по 1917 годы с научно-теоретической и методологической точек зрения. В работе рассматриваются процессы переселения различных этнических групп в составе Российской империи в конце XIX — начале XX века, причины, этапы и последствия этих миграционных движений под влиянием социально-политических, экономических и демографических факторов. В исследовании рассматривается историческая эволюция понятия «миграция», его значение в историко-культурном контексте, а также анализируются статистические и архивные источники. Особое внимание уделяется основным научным и методологическим подходам, применяемым при изучении миграционных групп - таким как историко-типологический, историко-сравнительный и системный методы. Данная тема является одним из актуальных

направлений исторической науки, способствующим глубокому осмыслению исторических процессов, межнациональных отношений и научной оценке демографических изменений в обществе.

Ключевые слова: Миграция населения, Историческая демография, Коренное и некоренное население, Российская империя, Этнический состав, Социально-экономическое развитие, Культурный обмен, Местное население, Демографические изменения.

Annotation: This research analyzes the study of the history of migration groups during the period from 1876 to 1917 from a scientific-theoretical and methodological perspective. The work explores the processes of population movement among various ethnic groups within the Russian Empire in the late 19th and early 20th centuries, focusing on the social-political, economic, and demographic factors that influenced these migrations, as well as the causes, stages, and consequences of these movements. The study examines the historical evolution of the concept of migration, its role in the historical and cultural context, and analyzes statistical and archival sources related to it. Furthermore, it highlights the main scientific and methodological approaches used in studying migration groups, such as the historical-typological, historical-comparative, and system-based methods. This topic represents one of the most relevant areas of historical science, contributing to a deeper understanding of historical processes, interethnic relations, and the scientific assessment of demographic changes in society.

Keywords: Population migration, Historical demography, Indigenous and non-indigenous population, Russian Empire, Ethnic composition, Socio-economic development, Cultural exchange, Local population, Demographic changes

KIRISH**.** Turli mintaqalarda aholining migratsiyasi tarixiy jarayonlar tarkibida alohida o‘rin tutib, mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va demografik rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayonning mohiyati, avvalo, yashash joyini o‘zgartirish bilan bog‘liq bo‘lgan harakatlar majmuasi sifatida ta’riflanadigan migratsiya tushunchasining mazmuni bilan belgilanadi.

Aholi migratsiyasi ko‘p omilli va murakkab tarixiy-demografik hodisa bo‘lib, u o‘zaro bog‘langan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ekologik va madaniy faktorlar ta’sirida shakllanadi va rivojlanadi. Bu jarayonlar tarixiy demografiya fanining muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi. Chunki aniq, ilmiy asoslangan demografik ma’lumotlarsiz — ya’ni aholining soni, milliy tarkibi, yosh-jins tuzilmasi, hududiy joylashuvi haqidagi ma’lumotlarsiz — tarixiy rivojlanishning asosiy tendensiyalarini tahlil qilish, jamiyatda yuz bergan o‘zgarishlarni izchil tushuntirib berish imkoniyatidan mahrum bo‘linadi.

Migratsion jarayonlar orqali aholining hududiy qayta taqsimlanishi, yangi ijtimoiy guruhlarning shakllanishi, urbanizatsiya sur’atining o‘sishi, iqtisodiy resurslarning qayta taqsimoti va madaniyatlararo almashinuvlar ro‘y beradi. Shuningdek, bu jarayonlar orqali mintaqalarda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va demografik o‘zgarishlar aniqlanadi hamda ular tahlil qilinadi. Shu bois, migratsiyani faqat demografik harakat sifatida emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning tarkibiy qismi sifatida o‘rganish zaruratga aylanmoqda. Aholining harakatlanish sabablari, oqibatlari va yo‘nalishlarini chuqur tahlil etish, o‘z navbatida, mintaqaning tarixiy taraqqiyoti va zamonaviy holatining ilmiy asosda anglanishiga xizmat qiladi.

Darhaqiqat, XIX asrga kelib Yevropadagi bir qator mamlakatlar aholisining turli qatlamlarini ko‘chirish va yangi hududlarga joylashtirish bilan yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar shakllandi. Natijada yangi o‘zlashtirilgan hududlarda aholining etnik tarkibida o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bu turli hududlar o‘rtasidagi savdo va sanoatning o‘sishi, kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi, madaniy va ilmiy yuksalish davlatlarning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatdi.

Non-Indigenous atamasi Kembridj lug‘atida (Cambridge Dictionary) “dastlab u yerda yashagan odamlar uchun emas, balki bir joydan boshqa joyga ko‘chib o‘tgan odamlarga murojaat qilish uchun ishlatiladi”, deb ta’rif beriladi.[1]

Yana bir nufuzli sayt - Merriam-webster lug‘atida esa “mahalliy bo‘lmagan odam bilan bog‘liq, biron bir joyning eng qadimgi aholisiga tegishli bo‘lmagan yoki undan kelib chiqqan emas” deb ta’riflanadi.[2]

Ta’kidlash lozimki, ma’lum hududlarda tub joylik bo‘lmagan aholining mahalliy aholi bilan qarama-qarshiliklarini yuzaga keltirishini tabiiy jarayon sifatida qaraydiganlar ham mavjud. Ular fikricha, xuddi tabiat qonunlariga ko‘ra turli begona hududlarda tub joylik bo‘lmagan aholi vakillari moslashish jarayonlarida turli qarshiliklarga duch keladilar. Shu boisdan yashab qolish uchun ular turli to‘siqlarni

yengib o‘tishi kerak, deb uqtiradilar. Masalan, Nottingem universiteti o‘qituvchisi, iqtisodchi Brayan Deyvi (Brian Davey) esa tub joylik bo‘lmagan aholi ta’rifiga boshqacha nuqtai-nazardan yondashadi. Uning ta’kidlashicha “tub joylik bo‘lmagan xalqlar”, ma’lum joylarda inson va noinsoniy jamoalar (”ekotizimlar”) bilan bog‘liq bo‘lmagan odamlardir. "Yer" - bu"resurs" va obodonlashtirish yoki ishlab chiqarish joyiga aylangan hudud. Yer aniq odamlarga yoki jamoalarga tegishli bo‘lib, yerga egalik qilmaydigan odamlar yashash va ishlash uchun joyga pul to‘lashlari kerak.[3]

Shunday qilib, tub joylik bo‘lmagan xalqlar tom ma’noda "ko‘chirilgan" va "joylashtirilgan" ajdodlarning avlodlaridir. Tub bo‘lmagan xalqlarning aksariyati, shubhasiz, ular yashaydigan qishloq yoki shahar landshaftlari haqida yuzaki tushunchaga ega, ammo ular yashaydigan joylardagi ekotizim haqida hech narsa bilishmaydi.[4]

Rossiya imperiyasi bosib olishidan oldin ham hozirgi O‘zbekiston hududida tub joy aholisidan tashqari boshqa xalqlar vakillarining guruhlari yashagan. Ularning bir qismi o‘lkaga qadim zamonlarda kelib qolgan arablar, eroniylar, lo‘lilar, afg‘onlar bo‘lsa, boshqalari XX asr boshlarida ko‘chib kelgan etnoslarning vakillari edi. Mazkur xalqlar bir qismining etnogenezi va antropologik turi, moddiy madaniyati, an’analari bu mintaqadan olisda tarkib topgan edi[5] Shu boisdan azaliy shu hududda yahudiy, tatar, boshqird, hind, afg‘on, eroniylar, Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida ko‘plab migratsiyalar natijasida kelib joylashgan uyg‘ur, dungan, hind, eroniy, kavkaz xalqlari, Rossiyaning yevropa qismidan ko‘chirilgan dehqonlar, tijorat, sanoat va ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish maqsadida ko‘chib kelgan rus fuqarolari, yevropa yahudiylari, nemis, avstriyalik, itayan va boshqa g‘arbiy yevropaliklar, o‘lkani bosib olishda qatnashib, iste’foga chiqqanida keyin shu yerda doimiy yashab qolishga qaror qilgan sobiq harbiylar, Birinchi jahon urushida asirga olinib, keyinroq Turkistonga jo‘natilganlar kabi rang-barang millatlar tub bo‘lmagan aholining asosini tashkil qildilar. Turkiston hududi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinganidan keyin o‘zlarining hududi sifatida qaraganlari bois aholi milliy tarkibidagi o‘zgarishlarga tabiiy jarayon sifatida qaralgan. Asosiy e’tibor Turkiston general-gubernatorligi hududiga ko‘chirilgan yoki ko‘chib borgan rus fuqarolari taqdiriga qaratilgan edi.[6]

Ular rus Turkistonida hukumatning ma’muriy, sud va himoya funksiyalari, podsho hukumatining O‘rta Osiyodagi iqtisodiy siyosati, xususan, “Rus Turkistonida sanoat va agrar rivojlanish”, XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida Rossiya davlatining Markaziy Osiyodagi ijtimoiy siyosatida Rossiya rasmiylarining mintaqadagi sog‘liqni saqlash sohasidagi faoliyati, podsho hukumatining Rossiya Turkistonida ta’lim sohasidagi siyosati kabilarga e’tibor qaratadi. Jumladan, I.Volkovning Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoga ko‘chirish siyosatiga bag‘ishlangan bobida “Ko‘chirish rus Turkistonida sivilizatsiyalararo o‘zaro ta’sir kanali sifatida” ta’kidlanadi. Xulosalarda esa “Turkistonda o‘rnatilgan ma’muriy-sud modeli o‘zini oqladi, Rossiyaning harbiy-strategik rejalari mahalliy aholi manfaatlariga mos keldi. O‘rta Osiyoning Rossiyaga qo‘shilishi savdo-iqtisodiy aloqalar bo‘yicha qo‘shimcha imkoniyatlarni yaratdi va ular o‘rtasidagi sivilizatsiyaviy o‘zaro munosabatlarning konturini shakllantirdi” kabi fikrlarni ta’kidlaydi.[7]

XULOSA. Aholining migratsiyasi — tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy omillar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ko‘p qirrali va murakkab jarayondir. Turli mintaqalarda ro‘y bergan migratsion harakatlar mamlakatlarning tarixiy rivojlanishida muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘lib, ayniqsa XIX asr oxiri va XX asr boshlarida bu jarayonlar o‘zining eng faol bosqichiga yetdi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Rossiya imperiyasining siyosiy va harbiy ekspansiyasi natijasida Turkiston hududida aholi tarkibida keskin demografik va etnik o‘zgarishlar yuz berdi. Bu o‘zgarishlar mintaqada yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning shakllanishiga, kapitalistik ishlab chiqarishning rivojlanishiga, madaniy va sivilizatsiyaviy aloqalarning kengayishiga olib keldi. Shuningdek, tub va tub bo‘lmagan aholining o‘zaro munosabatlari, ijtimoiy pozitsiyalari va moslashuv jarayonlari murakkab sotsial muhitni yuzaga keltirdi.

“Non-Indigenous” (tub bo‘lmagan) aholining shakllanishi va faoliyati, ularning mintaqaviy ekotizimlar bilan aloqasi, ijtimoiy muhitga integratsiyalashuvi va mahalliy aholi bilan o‘zaro ta’siri zamonaviy tarixiy-demografik tahlil uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Brayan Deyvi kabi mutaxassislarning konseptual yondashuvlari bu boradagi tushunchalarni yanada kengaytiradi va migratsiyani faqat harakat emas, balki "jamiyat bilan tabiat o‘rtasidagi munosabat" sifatida ham ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Xususan, Rossiya imperiyasi tomonidan olib borilgan rejalashtirilgan ko‘chirish siyosati, yangi aholining ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmalarda tutgan o‘rni, Turkistondagi demografik muvozanatga va mahalliy jamiyat tarkibiga ta’sir ko‘rsatdi. Bunday migratsion siyosat — imperiya manfaatlari asosida

amalga oshirilgan bo‘lsa-da, u mintaqaning iqtisodiy faolligini oshirish, yangi texnologiyalar va ta’lim tizimining kirib kelishi, hamda madaniy almashinuvlar uchun sharoit yaratdi. Shunday qilib, migratsion jarayonlarni tahlil qilish, ularning sabablari, oqibatlari va davriy bosqichlarini o‘rganish nafaqat tarixiy jarayonlarni anglash, balki jamiyat taraqqiyotining murakkab tuzilmasini tushunish, demografik siyosatni shakllantirish va mintaqaviy barqarorlikni ta’minlashda ham muhim omil hisoblanadi. Bu borada tarixiy demografiya, sotsiologiya, iqtisodiyot va siyosatshunoslik fanlarining integratsiyalashgan yondashuvi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. NON-INDIGENOUS English meaning - //https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/non-indigenous.
2. Nonindigenous // Nonindigenous Definition & Meaning - Merriam-Webster
3. What Is a Non-Indigenous Person? By Brian Davey, originally published by Feasta // https://www.resilience.org/stories/2015-02-10/what-is-a-non-indigenous-person/
4. What Is a Non-Indigenous Person? By Brian Davey, originally published by Feasta // https://www.resilience.org/stories/2015-02-10/what-is-a-non-indigenous-person/
5. What Is a Non-Indigenous Person? By Brian Davey, originally published by Feasta // https://www.resilience.org/stories/2015-02-10/what-is-a-non-indigenous-person/
6. Муртазаева Р.Х. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва толерантлик /5А 120301 – Ўзбекистон тарихи мутахассислиги магистрантлари учун дарслик. – Тошкент, 2019. - Б.109.
7. Xaynazarov B.B. “Turkiston General-Gubernatorligidagi tub bo‘lmagan aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti” dissertatsiyasi (DSc) Toshkent: 2023-yil 217 bet.
8. Волков И.В. Исторические аспекты цивилизационной политики царской России в Средней Азии. Диссертация на соискание ученой степени доктора исторических наук. Мытищи, 2020.

METAKOGNITIV YONDASHUVLAR ORQALI MUSTAQIL O‘RGANISHNI RIVOJLANTIRISH

M.O‘.O‘ktamov
Shahrisabz davlat pedagogika instituti Matematika va ta’limda axborot texnologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi, **oktamovm03@mail.ru** (91) 322-10-03
E.O‘.Fayzullayeva
Shahrisabz davlat pedagogika instituti Matematika yo‘nalishi talabasi
fayzullayevaezoza312@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada metakognitiv yondashuvlarning mustaqil o‘rganish jarayoniga ta’siri chuqur tahlil qilinadi. Metakognitsiya – bu o‘z-o‘zini anglash va boshqarish qobiliyati bo‘lib, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning o‘z bilimlarini qanday o‘rganayotganini tushunishga va shu asosda strategiyalar tanlashga yordam beradi. Tadqiqotda metakognitiv yondashuvlarning samaradorligini aniqlash uchun eksperimental usullar, kuzatuvlar va so‘rovnomalar asosida ma’lumotlar yig‘ildi. Muhokamalar bo‘limida o‘quvchilarning o‘z o‘quv faoliyatiga nisbatan reflektiv yondashuvi va o‘zini baholash qobiliyatlari orqali mustaqil o‘rganishdagi yutuqlari ochib berildi. Maqola yakunida metakognitiv yondashuvlarni o‘quv dasturlariga integratsiyalash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ilgari suriladi.

Аннотация. В данной статье глубоко анализируется влияние метакогнитивных подходов на процесс самостоятельного обучения. Метакогниция — это способность к самопониманию и саморегуляции, которая помогает учащимся осознавать, как они усваивают знания, и на этой основе выбирать эффективные стратегии обучения. В исследовании для определения эффективности метакогнитивных подходов были использованы экспериментальные методы, наблюдения и анкетирование. В разделе обсуждений раскрыты успехи учащихся в самостоятельном обучении через развитие рефлексивного отношения к учебному процессу и способности к самооценке. В заключении статьи представлены практические рекомендации по интеграции метакогнитивных подходов в учебные программы.

Annotation. This article provides an in-depth analysis of the impact of metacognitive approaches on the process of independent learning. Metacognition refers to the ability of self-awareness and self-

regulation, which helps students understand how they acquire knowledge and choose effective learning strategies accordingly. The study employed experimental methods, observations, and surveys to evaluate the effectiveness of metacognitive approaches. The discussion section highlights students’ achievements in independent learning through reflective attitudes toward their educational activities and self-assessment skills. In conclusion, practical recommendations are proposed for integrating metacognitive approaches into educational curricula.

Kalit so‘zlar: Metakognitsiya, mustaqil o‘rganish, pedagogik yondashuvlar, refleksiya.

Ключевые слова: метакогниция, самостоятельное обучение, педагогические подходы, рефлексия.

Key words: metacognition, independent learning, pedagogical approaches, reflection.

Kirish. XXI asrda insoniyat oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri bu — bilim olish jarayonini ongli, samarali va doimiy shaklga keltirishdir. Ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar shaxsning mustaqil fikrlashi, muammolarni hal qila olishi va o‘z ta’limini o‘zi boshqara bilishiga urg‘u bermoqda. Bunday kompetensiyalarni shakllantirishda metakognitiv yondashuvlar muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Metakognitsiya — bu insonning o‘z bilimlari, fikrlash jarayonlari va o‘rganish faoliyati ustidan ongli nazorat olib borish qobiliyatidir. U o‘quvchining “men qanday o‘rganayapman?”, “qaysi usul menga eng mos?”, “xatoni qayerda qildim?” kabi savollarni o‘ziga berishi orqali o‘quv jarayonini chuqur anglashini ta’minlaydi. Aynan shu savollar o‘quvchini avvalgi an’anaviy yondashuvdan ajratib, o‘z-o‘zini anglaydigan va boshqaradigan shaxsga aylantiradi[9. (2025): 50-52].

Zamonaviy pedagogika nazariyalarida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillari keng yoyilmoqda. Bu yondashuvlarda o‘quvchining faolligi, o‘z bilimini o‘zi shakllantira olishi asosiy e’tiborga olinadi. Metakognitiv yondashuvlar esa bu jarayonning nazariy va amaliy poydevorini yaratadi. Xususan, ta’lim muhitida shunday vaziyatlar yuzaga keladiki, bunda o‘quvchining o‘z-o‘zini baholash, o‘zining fikrlash strategiyasini tanlash, noto‘g‘ri yondashuvni o‘zgartira olish qobiliyatlari o‘rganishning sifati va davomiyligini belgilaydi. Mustaqil o‘rganish esa inson hayoti davomida o‘zgarib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda o‘zini rivojlantirish, kasbiy jihatdan yangilanib borish va doimiy kompetensiyalarni egallash zaruriyatidan kelib chiqadi. Mustaqil o‘rganish qobiliyati esa shunchaki motivatsiyaga emas, balki ongli yondashuv, o‘zini tahlil qilish, natijani baholay olish va kerakli strategiyalarni qo‘llay olishga asoslanadi[18. (2024): 115-119].

Shu nuqtai nazardan qaralganda, metakognitiv yondashuvlar orqali mustaqil o‘rganishni shakllantirish nafaqat alohida metodik muammo, balki strategik ta’limiy vazifadir. Ushbu maqola metakognitsiya va mustaqil o‘rganish o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ilmiy asosda yoritish, ularning o‘quvchida qanday shakllanishini empirik misollar bilan ko‘rsatish hamda o‘quv jarayoniga samarali integratsiya qilish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili. Metakognitiv yondashuvlar va mustaqil o‘rganish tushunchalari zamonaviy pedagogikaning markaziy nazariyalaridan biriga aylanib bormoqda. Mazkur yondashuvlarning nazariy poydevori 1970-yillarga borib taqaladi. Amerikalik olim J.H. Flavell tomonidan 1976-yilda “metakognition” atamasi kiritilgan bo‘lib, u insonning o‘z bilim faoliyatini anglash va boshqarish qobiliyatini anglatadi. Flavell metakognitsiyani ikki asosiy tarkibiy qismga ajratgan: metakognitiv bilim (ya’ni, qanday o‘rganayotganimiz haqidagi bilim) va metakognitiv monitoring (ya’ni, o‘rganish jarayonini kuzatish va baholash).

Keyingi yillarda metakognitiv kompetensiyalarni chuqur o‘rganishga qaratilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar yuzaga keldi. Masalan, Schraw & Dennison (1994) tomonidan ishlab chiqilgan Metacognitive Awareness Inventory (MAI) metakognitiv bilimlar va tartibga solish strategiyalarini o‘lchashda muhim vosita sifatida taqdim etilgan. Mazkur vosita orqali o‘quvchilarning o‘z-o‘zini anglash darajasi va o‘rganishga ongli yondashuvi baholanadi. Ayniqsa, ushbu vosita yevropalik va osiyolik tadqiqotchilar tomonidan turli ta’lim muhitlarida moslashtirilgan holda muvaffaqiyatli qo‘llanilgan.

Zimmerman (2000) mustaqil o‘rganishni “o‘z-o‘zini boshqaruvchi o‘rganish” modeli orqali asoslab berdi. Uning fikricha, mustaqil o‘rganuvchi shaxs o‘zining o‘quv faoliyatini rejalashtiradi, amalga oshiradi va baholaydi. Bu uch bosqich ham metakognitiv jarayonlar bilan to‘la bog‘langan. Zimmerman metakognitiv yondashuvlarni o‘z-o‘zini monitoring qilish, xatolarni tahlil qilish va strategiyani moslashtirish orqali amalga oshirilishini ta’kidlaydi. Bundan tashqari, metakognitiv yondashuvlar o‘quvchilarning o‘z motivatsiyasini boshqarishida ham muhim rol o‘ynaydi. Boekaerts (1999) tomonidan ishlab chiqilgan uch o‘lchamli modelda motivatsiya, metakognitsiya va hissiy holat bir-biriga ta’sir qiluvchi


integrativ tizim sifatida talqin etiladi. Ya’ni, o‘quvchi o‘z bilimini nazorat qilishni o‘rgana boshlaganidan so‘ng u o‘z motivatsiyasini ham boshqara oladi.

Shuningdek, UNESCO (2020) tomonidan taqdim etilgan global ta’lim hisobotlarida XXI asr kompetensiyalaridan biri sifatida metakognitiv yondashuvlarga urg‘u berilgan. Hisobotda raqamli transformatsiya, pandemiya va masofaviy ta’lim sharoitida o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish va mustaqil o‘rganish kompetensiyalari asosiy zarurat sifatida qayd etilgan.

Yevropa Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan “Key Competences for Lifelong Learning” (2022) konsepsiyasida esa metakognitiv yondashuvlar — tanqidiy fikrlash, o‘zini anglash, o‘z-o‘zini baholash va moslashuvchan strategiyalarni o‘zlashtirishning asosi sifatida ko‘rsatilgan. Bu kompetensiyalarni shakllantirishda aynan metakognitiv yondashuvlar o‘z-o‘zini o‘rgatish, o‘zgaruvchan sharoitga moslashish va shaxsiy o‘sishni ta’minlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot metakognitiv yondashuvlarning o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish qobiliyatiga ta’sirini aniqlashga qaratildi.

Tadqiqotda uchta umumta’lim maktabining 9-sinfida tahsil olayotgan jami 90 nafar o‘quvchi ishtirok etdi. Eksperimental guruhda 45 nafar, nazorat guruhida esa 45 nafar o‘quvchi bo‘ldi. Tadqiqot 6 hafta davomida olib borildi. Bu davr mobaynida eksperimental guruh o‘quvchilari bilan metakognitiv strategiyalar asosida tuzilgan mashg‘ulotlar tashkil etildi. Har bir mashg‘ulotda o‘quvchilarga o‘rganish maqsadi aniq ifodalab berildi, o‘z-o‘zini baholash va monitoring qilishga doir savollar taqdim etildi, dars yakunida esa refleksiya topshiriqlari bajarildi. O‘quvchilar mavzuni o‘zlashtirishda o‘zlariga mos strategiyalarni tanlash, ularni baholash va kerak bo‘lsa o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘lishdi. Bu orqali rejalashtirish, kuzatish, baholash va tuzatish kabi metakognitiv faoliyat bosqichlari har bir mashg‘ulotda takrorlandi.



Muhokamalar. Tadqiqot natijalari metakognitiv yondashuvlar orqali mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishda sezilarli ijobiy o‘zgarishlarni namoyon etdi. O‘rganilayotgan talabalar guruhida qo‘llangan metakognitiv strategiyalar — rejalashtirish, kuzatib borish va o‘zini baholash — ularning o‘quv jarayoniga bo‘lgan faol ishtirokini oshirdi. Ayniqsa, o‘z-o‘zini nazorat qilish orqali talabalar o‘z bilim darajasini aniq baholay olishni o‘rgandilar bu esa ularning xatolar ustida ishlashiga imkon yaratdi. Metakognitiv yondashuvlar yordamida o‘quvchilarda bilim olishga nisbatan motivatsiya kuchaygan, ularda darsga tayyorgarlik ko‘rish odati shakllangan va o‘rganish jarayonidagi passivlik darajasi kamaygan. Shuningdek, bu yondashuvlar talabalarning o‘quv rejalarini tuzish, muammoli vazifalarni yechishda strategik yondashuv tanlash va yakuniy natijalarni mustaqil baholash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilgan. Shuni ta’kidlash lozimki, metakognitiv faoliyatning rivojlanishi faqatgina kognitiv darajada emas, balki psixologik jihatdan ham o‘quvchilarga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Talabalar o‘z ustida ishlashga nisbatan mas’uliyatliroq bo‘la boshladi bu esa ularning o‘rganishdagi davomiylikni saqlash va intizomni mustahkamlashga olib keldi.

Muhokamalarda aniqlangan yana bir jihat — metakognitiv strategiyalarning samaradorligi o‘qituvchining faol metodik yondashuvi bilan bevosita bog‘liqligidir. O‘qituvchi tomonidan berilgan aniq yo‘l-yo‘riqlar, fikrlashga undovchi savollar, refleksiya vaqtida beriladigan individual mulohazalar metakognitiv jarayonlarni faollashtiruvchi asosiy omil bo‘lib xizmat qilgan. Bundan tashqari, metakognitiv yondashuvlar raqamli ta’lim muhiti bilan uyg‘unlashganda samaradorlik yanada ortganligi kuzatildi. Ayniqsa, onlayn testlar, refleksiya jurnallari va o‘z-o‘zini baholash platformalari talabalarning mustaqil fikrlash darajasini oshirishda muhim rol o‘ynagan.

1-jadval. Metakognitiv strategiyalarni qo‘llash samaradorligi (tajriba guruhlari asosida)

№	Metakognitiv strategiya turi	Talabalar soni	Mustaqil o‘rganish ko‘rsatkichlari (%da)	O‘z-o‘zini baholashdagi o‘sish (%)	Muammo yechishdagi faollik (%)
1	Rejalashtirish	25	78%	65%	70%
2	Kuzatish (monitoring)	23	82%	68%	75%
3	Tahlil qilish va strategiyani o‘zgartirish	27	88%	72%	80%
4	O‘z-o‘zini refleksiya qilish	22	75%	70%	68%
5	Natijalarni baholash	20	80%	66%	73%

Xulosa va tavsiyalar. O‘rganish jarayonida metakognitiv yondashuvlar — ya’ni shaxsning o‘z fikrlash jarayonini anglash, nazorat qilish va boshqarishga qaratilgan strategiyalar — zamonaviy ta’limda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada olib borilgan tahlillar va tajriba asosida aniqlanishicha, metakognitiv strategiyalarni muntazam ravishda qo‘llagan talabalar mustaqil o‘rganishda ancha yuqori natijalarga erishmoqda. Ayniqsa, “rejalashtirish”, “kuzatish” va “o‘z-o‘zini baholash” kabi yondashuvlar talabalarni o‘z bilimlariga nisbatan ongli munosabatda bo‘lishga, muammolarni mustaqil hal etishga va o‘rganish jarayonini yanada samarali tashkil qilishga olib keladi.

Quyida tavsiyalar beridi. Metakognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha maxsus mashg‘ulotlar va treninglar o‘tkazish tavsiya etiladi. O‘quv dasturlariga metakognitiv yondashuv elementlarini integratsiyalash zarur. Masalan, har bir mavzu yakunida o‘z-o‘zini refleksiya qilish va muammolarni tahlil qilish topshiriqlari berilishi kerak. O‘qituvchilar uchun malaka oshirish kurslarida metakognitiv yondashuvlar bo‘yicha metodik bilimlar berilishi lozim. Zero, bu yondashuvlar pedagogik faoliyatda ham, o‘quvchilarning o‘zlashtirishida ham muhim rol o‘ynaydi. Oila va jamiyat tomonidan ham bolalarda mustaqil fikrlash va o‘z bilimini tahlil qilish madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdihakimov, Mirjalol. "IT SOHASIDA AXBOROT XAVFSIZLIGI." *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.5 (2025): 15-17.

2. Amirova, Zilola. "MATN BILAN ISHLASH DASTURLARI BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI." *Молодые ученые* 3.6 (2025): 32-34.

3. Arabboyev, O‘lmas. "SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA MUHANDISLIK ISHLARINI AVTOMATLASHTIRISH." *Молодые ученые* 3.6 (2025): 35-38.

4. Baratova, Nafisa. "BLOKCHEYN TEXNOLOGIYASINING IJTIMOIY TAMOYILLARI." *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.5 (2025): 18-20.

5. Bekmurodov, Nodirbek, and Asal Uralova. "O‘RTA SINFLARDAGI BOLALARGA INFORMATIKA O‘QITISHNING KREATIV G‘OYALARI." *Молодые ученые* 3.6 (2025): 39-41.

6. Berdimuhammadov, Iskandar. "MOBIL ILOVALAR ISHLAB CHIQISH." *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.5 (2025): 21-23.

7. Berdishukurova, Munisa. "DASTURLASH TILLARINING RIVOJLANISHI." *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.5 (2025): 24-26.

8. Boltayev, Farhod. "INTERNETDA ISHLASH ASOSLARI BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI." *Молодые ученые* 3.6 (2025): 46-49.

9. Boqiyeva, Farida, and Madadjon O‘ktamov. "MATEMATIKANI O‘QITISHDA MASALANING BAJARADIGAN FUNKSIYALARI." *Молодые ученые* 3.6 (2025): 50-52.

10. Boymurodova, Ozoda. "AXBOROT BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI." *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 4.5 (2025): 11-14.

11. Ernazarova, Lola. "WEB-SAHIFANI BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI." *Молодые ученые* 3.6 (2025): 53-55.

12. Eshonqulov, Muhammad. "WEB DASTURLASHDA ZAMONAVIY TEXNALOGIYALAR." *Молодые ученые* 3.6 (2025): 56-59.

13. Ibodov, Azizbek. "INFORMATIKA O‘QITISH METODIKASINI FAN SIFATIDA TARIXI." *Молодые ученые* 3.6 (2025): 14-16.
14. Jurayeva, Gulchehra. "DASTURLASH ASOSLARI O‘QITISH METODIKASI." *Молодые ученые* 3.6 (2025): 17-20.
15. Karimova, Iroda. "VIZUAL DASTURLASH TILIDA LOYIHALASH BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI." *Молодые ученые* 3.6 (2025): 21-24.
16. Madadjon, O‘ktamov. "Translation Problems and Literary Translation in Uzbek literature: research, problems and solution." *TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G ‘OYALAR* 1.7 (2025): 326-3AA31.
17. Mahmudova, Shohsanam. "ALGORITIMLASH ASOSLARI BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI." *Молодые ученые* 3.6 (2025): 25-28.
18. Toshpo‘lotova, Jasmina, and O‘ktamov Madadjon. "Boshlangich talim yo‘nalishi talabalarini informatika fanini o‘qitishda interaktiv usullardan foydalanish." *PEDAGOGS* 51 (2024): 115-119.

ПОДДЕРЖКА ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА, ОРИЕНТИРОВАННАЯ НА РАЗВИТИЕ: КОНЦЕПЦИЯ, МЕХАНИЗМЫ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ

Н.У.Турсунова
Старший преподователь униветситета University of Business and sciences
тел: +998 94 177 10 27

Аннотация. Развивающиеся экономики предоставляют широкие возможности для социально ориентированного предпринимательства, однако зачастую им не хватает ресурсов для его поддержки. Эта дилемма привела к формированию концепции «поддержки предпринимательства, ориентированной на развитие» (development-focused entrepreneurship support, DFES), которая, как правило, обеспечивается организациями развития из стран Глобального Севера и нацелена на предпринимателей с социальным воздействием, работающих в странах Глобального Юга. Мы показываем, что iDFESOs связывают поддержку предпринимательства с целями развития и тем самым включают предпринимателей в цепочки помощи развитию. Для достижения этой цели iDFESOs формируют три взаимосвязанные инфраструктуры поддержки: каналы индивидуальных ресурсов, потенциал местной экосистемы и транснациональные инфраструктуры.

Ключевые слова: предпринимательство, поддержка предпринимательства, международные организации DFES (iDFESOs), устойчивое развитие, инновационные стартапы, социальное воздействие, развивающиеся экономики, предпринимательские экосистемы, акселераторы, инкубаторы, трансформационная филантропия.

Введение. Стимулирование предпринимательских инноваций и содействие успеху инновационных стартапов являются предметом значительного исследовательского интереса. В последние десятилетия появились новые субъекты поддержки предпринимательства (entrepreneurship support, ES), включая университетские центры, бизнес-ангелов, акселераторы, инкубаторы и венчурные фонды. Эти организации оказывают поддержку инновационным стартапам путем финансирования, обучения, создания сетей контактов и предоставления пространства [1]. С учетом растущей роли предпринимательства в продвижении инноваций ученые и практики сходятся во мнении, что организации ES являются ключевыми посредниками в преобразовании новых идей в широко используемые решения.

Исследования в области ES в основном сосредоточены на развитых экономиках, где высококвалифицированные предприниматели разрабатывают новые технологии, продукты и услуги, а также получают ресурсы от организаций ES в рамках локальных экосистем, в которых они действуют. Однако предприниматели внедряют инновации и в различных других сферах, включая такие сложные области, как здравоохранение, образование и энергетика в развивающихся экономиках. Инновации в этих сферах, особенно в развивающихся странах, обладают значительным потенциалом для создания локальной экономической, социальной и экологической ценности в соответствии с целями устойчивого развития. Например, исследования показывают, что предпринимательские усилия по разработке и распространению энергоэффективных печей взамен

открытого огня сократили масштабы вырубки лесов и привели к более рациональному использованию энергии [2].

Тем не менее, развивающиеся страны зачастую характеризуются серьезными ресурсными и институциональными ограничениями, включая нехватку финансирования, низкий уровень технологического развития и отсутствие эффективной политической поддержки. Это создает значительные препятствия для предпринимателей, стремящихся получить критически важные ресурсы для трансформации идей в жизнеспособные бизнес-модели. Возникает дилемма: хотя спрос на инновации особенно высок в регионах, остро нуждающихся в решении социальных и экологических проблем, эти регионы часто плохо оснащены для эффективной поддержки тех, кто способен решать такие проблемы предпринимателей [3].

В данном исследовании мы утверждаем, что подобные организации поддержки являются ключевыми драйверами новой модели поддержки, которую мы называем «поддержкой предпринимательства, ориентированной на развитие» (development-focused entrepreneurship support, DFES), и которую мы намерены подробно рассмотреть в рамках данной статьи. Мы определяем DFES как совокупность практик поддержки, направленных на содействие процессу создания и повышению качества инновационных стартапов, уделяя особое внимание их способности оказывать положительное влияние на развитие при сохранении коммерческой успешности. Ранее начавшиеся исследования DFES в основном рассматривали этот феномен на локальном уровне, например через работу локальных технохабов с социальным эффектом. Однако деятельность таких локальных провайдеров нередко поддерживается и дополняется международными организациями DFES (iDFESOs), которые выступают посредниками, связывая предпринимателей и локальных провайдеров DFES с глобальными источниками финансирования через различные программы, мероприятия и другие инфраструктуры поддержки, одновременно интегрируя в процесс предпринимательской поддержки повестку устойчивого развития и социального воздействия.

Эти организации занимаются тем, что принято называть «лесами» (scaffolding), т.е. процессом создания социо-материальных инфраструктур, поддерживающих организационные и системные трансформации. Мы стремимся лучше понять, как функционируют такие организации, в частности, как они выстраивают инфраструктуры поддержки для продвижения предпринимательства с социальным воздействием. Наш исследовательский вопрос формулируется следующим образом: как международные организации DFES поддерживают предпринимателей в развивающихся странах и какие инфраструктуры они создают для содействия предпринимательству, ориентированному на социальный эффект?

Поддержка предпринимательства в развивающихся странах: дилемма спроса и предложения.

Развивающиеся экономики предоставляют множество возможностей для инноваций и предпринимательства, особенно в таких сферах, как энергетика, продовольственное обеспечение, образование, профессиональная подготовка, занятость и здравоохранение. Эти возможности во многом возникают из-за того, что ни государство, ни устоявшийся бизнес не обладают достаточной способностью обеспечивать подобные услуги. Например, исключение молодежи, проживающей в трущобах и сельских районах стран Африки к югу от Сахары, из системы формального обучения и трудоустройства побуждает предпринимателей заниматься «impact sourcing» — привлекать и обучать такую молодежь для работы в сфере бизнес-услуг. В целом, социально ориентированное предпринимательство рассматривается как одно из решений проблемы крайней бедности, поскольку внедрение новых товаров, услуг, рынков и методов может способствовать мобилизации финансовых ресурсов, созданию рабочих мест и стимулированию инноваций с положительным социальным, экономическим и экологическим эффектом.

Исследования показывают, что подобные возможности часто привлекают предпринимателей из диаспоры, возвращающихся на родину для запуска нового бизнеса, а также иностранных предпринимателей, создающих бизнес-модели для обслуживания рынков «основания пирамиды». Однако такие предприниматели часто сталкиваются с фундаментальной проблемой — отсутствием доступа к капиталу, технологиям и другим ресурсам, необходимым для запуска бизнес-идей. Например, в странах Африки к югу от Сахары местные государственные программы часто оказываются неэффективными в распределении финансирования, организации обучения или содействии масштабированию предпринимательских проектов.

Цель ES состоит в том, чтобы снабдить новые и молодые компании ценными ресурсами, повышающими их шансы на выживание и развитие. Поддержка ES предоставляется в форме финансового капитала, бизнес- и технологической экспертизы, а также доступа к рынкам. Организации ES, зачастую небольшие и гибкие, выполняют две ключевые функции: связывание (bridging) — соединяют предпринимателей с необходимыми ресурсами, и буферизацию (buffering) — защищают их от внешних угроз, предоставляя легитимность и социальный капитал. Такая поддержка решает фундаментальную проблему, заключающуюся в том, что предпринимательские возможности не являются напрямую «доступными» и требуют определённого уровня институционального сопровождения. ES, таким образом, институционально облегчает данный процесс [4].

Поставщики ES в основном ориентированы на коммерческое предпринимательство в развитых экономиках.

К ним относятся государственные агентства, центры предпринимательства, бизнес-инкубаторы, венчурные капиталисты, бизнес-ангелы, университеты и научные парки. Например, инкубаторы поддерживают новые компании в течение нескольких лет, тем самым защищая их от агрессивной конкурентной среды. Акселераторы предоставляют программы наставничества, обучения по принципу peer-to-peer и содействия в привлечении инвестиций. Часто такие организации находятся в одном месте и взаимосвязаны в рамках так называемых «предпринимательских экосистем», которые традиционно поддерживают коммерческих предпринимателей, действующих в этих экосистемах и ориентированных на локальные и региональные рынки.

В развивающихся экономиках, таких как страны Африки к югу от Сахары, ES развит гораздо слабее.

Некоторые исследователи даже утверждают, что институционализированная поддержка предпринимательства и инноваций является идеей «Глобального Севера», которая не имеет прямого применения к «Глобальному Югу». Считается, что основными механизмами поддержки предпринимательства в «Глобальном Юге» являются семейные и родственные сети. Тем не менее, существует свидетельство постепенного распространения институциональной поддержки ES в развивающихся странах, например, в виде техно- и инновационных хабов в странах Африки к югу от Сахары или акселераторов в Индии. Однако эффективная локальная поддержка — включая доступ к капиталу и обучению — часто отсутствует, что является одной из главных причин утечки мозгов. Даже если финансирование доступно, оно нередко распределяется не в пользу проектов с высоким потенциалом роста из-за коррупции и кумовства. Кроме того, за редкими исключениями, отсутствует поддержка масштабирования предпринимательских идей. Во многих развивающихся странах карьера предпринимателя не считается престижной по сравнению, например, с карьерой в государственном секторе, что дополнительно демотивирует предпринимателей от поиска возможностей [5].

Эти вызовы особенно усложняют деятельность предпринимателей, ориентированных на инновации в сфере развития. Исследования показывают, что привлечение капитала для проектов с социальным воздействием особенно затруднено в развивающихся экономиках. В результате предприниматели в развивающихся странах, особенно ориентированные на социальный эффект, вынуждены искать ресурсы и поддержку за пределами своих локальных экосистем и целевых рынков. На этом фоне формируется новое сообщество глобально распределённых провайдеров ES, включающее фонды, университетские центры и стипендиальные организации, обладающих потенциалом для поддержки предпринимателей в развивающихся странах. Эти структуры представляют собой новый тип того, что мы называем «поддержкой предпринимательства, ориентированной на развитие» (development-focused entrepreneurship support, DFES), свойства и механизмы появления которого рассматриваются далее.

Рост поддержки предпринимательства, ориентированной на развитие.

Мы определяем поддержку предпринимательства, ориентированную на развитие (development-focused entrepreneurship support, DFES) как совокупность практик, направленных на содействие процессу основания и повышению качества новых предприятий, особенно через продвижение их способности оказывать положительное влияние на развитие при одновременной коммерческой успешности. Рост DFES отмечается в ряде современных исследований. Так, Lall и др. (2020) указывают, что программы поддержки предпринимательства (ES) все больше ориентируются

на социальное воздействие и сосредотачиваются на маргинализированных секторах и регионах. Nicolopoulou (2014) отмечает, что от новых инновационных компаний все чаще ожидается решение социальных проблем, тогда как инициативы в сфере развития все активнее используют программы инкубаторов и акселераторов.

Примером DFES является организация Ashoka — так называемый «социальный акселератор», который предоставляет стипендии отобранным предпринимателям — Ashoka fellows — разрабатывающим решения в различных сферах развития, таких как образование, здравоохранение и борьба с бедностью. Ashoka работает более чем в 70 странах и ориентирована на поддержку социально значимых стартапов.

Таким образом, DFES все чаще обеспечивается, с одной стороны, «традиционными» организациями ES, такими как технологические хабы, которые объединяют классические функции по передаче знаний и развитию сотрудничества с повесткой устойчивого развития и социального воздействия. Важную роль в этом процессе играет распространение таких концепций, как «социальное воздействие» и «цели устойчивого развития» (SDGs). С другой стороны, DFES предоставляется организациями развития, которые ранее были сосредоточены на оказании помощи в развитии, передаче технологий и формировании потенциала. Среди них — многосторонние и двусторонние агентства, фонды, венчурные филантропические организации, а также университетские центры в странах с развивающейся экономикой, которые все чаще включают инкубаторы и акселераторы в свои инициативы по развитию.

Растущая связь между ES и международным развитием является ключевым фактором понимания появления DFES, особенно в контексте развивающихся регионов. Хотя распространение повестки социального воздействия в рамках ES уже частично изучено, растущая роль предпринимательства в международном развитии остается гораздо менее исследованной. Традиционно помощь в развитии рассматривалась как нисходящий процесс (top-down), при котором правительства богатых стран передавали технологии и экономические практики в бедные страны [6]. Однако эффективность таких подходов все чаще подвергалась сомнению, поскольку многие проекты развития не учитывали местные потребности или не достигали целевых групп. Один из недавних примеров — инициативы доноров по увеличению интернет-покрытия в странах Африки к югу от Сахары как универсального решения проблемы занятости.

В последние годы международные организации и агентства развития отошли от данного подхода, в том числе из-за бюджетных ограничений, начав вовлекать большее разнообразие участников в разработку и реализацию инициатив [7]. В этот процесс включаются не только НПО, но и компании, которые становятся партнерами, подрядчиками и получателями выгоды от программ развития. Со временем возникли так называемые «цепочки помощи» (aid chains) и транснациональные сети участников, состоящие из глобальных доноров, поддерживающих различные международные организации, которые, в свою очередь, сотрудничают с частными и государственными партнерами на национальном и местном уровнях.

В рамках этой общей тенденции в области развития произошел «предпринимательский поворот» — от нисходящей модели иностранной помощи к более восходящим (bottom-up) инициативам, продвигающим предпринимательские решения проблем развития. Иными словами, предпринимательство все чаще рассматривается организациями развития как инструмент эффективного внедрения инноваций «на местах», особенно в таких регионах, как Африка к югу от Сахары. В результате усилилось внимание к потенциалу предпринимателей в создании инноваций с высоким социально-экономическим эффектом. Более того, с ростом вовлеченности технологических предпринимателей в филантропию практики венчурного капитала были адаптированы к этой новой сфере, что привело к формированию так называемой трансформационной филантропии, поддерживающей стартапы в развивающихся странах с целью достижения значимого эффекта для развития.

Заключение. Проведенный анализ позволяет сделать вывод о том, что в условиях развивающихся экономик поддержка предпринимательства, ориентированная на развитие (DFES), приобретает стратегическое значение как инструмент решения социально-экономических и экологических проблем. В отличие от традиционных моделей поддержки предпринимательства, распространённых в развитых странах и сосредоточенных преимущественно на коммерческой успешности, DFES сочетает рыночные механизмы с целями устойчивого развития, обеспечивая создание ценности не только в экономическом, но и в социальном и экологическом измерениях.

Развивающиеся экономики сталкиваются с системными ограничениями — дефицитом капитала, технологий, квалифицированных кадров, эффективных институтов и политической поддержки. Эти барьеры осложняют реализацию инновационных идей на местном уровне и стимулируют поиск внешних источников ресурсов и знаний. В ответ на это возникает сообщество международных организаций DFES (iDFESOs), которые формируют многоуровневую инфраструктуру поддержки, включая каналы индивидуальных ресурсов, укрепление местных экосистем и создание транснациональных связей.

Особое значение имеет выявленная тенденция «предпринимательского поворота» в международном развитии, предполагающая переход от традиционных нисходящих подходов к более гибким и ориентированным на локальные потребности стратегиям. Предпринимательство рассматривается как важный драйвер инноваций и трансформационных изменений, особенно в таких сферах, как образование, здравоохранение, энергетика и борьба с бедностью.

Таким образом, DFES выступает не только как механизм институциональной поддержки предпринимателей, но и как элемент глобальных «цепочек помощи», связывающих локальные инициативы с международными ресурсами и опытом. В перспективе эффективное развитие DFES требует:

- Усиления синергии между локальными и международными организациями поддержки;
- Адаптации моделей акселераторов и инкубаторов к специфике развивающихся экономик;
- Снижения барьеров, связанных с коррупцией, неэффективным распределением средств и недостаточной ценностью предпринимательской карьеры в глазах общества;

Список использованной литературы:

1. Zahinde, C., & Su, Z. (2022). What is the impact of entrepreneurship education programs in developing countries? A systematic review and research agenda. Journal of Entrepreneurship Education, 25(2), 1–20.

2. Surana, K., Singh, A., & Sagar, A. D. (2020). Strengthening science, technology, and innovation-based incubators to help achieve Sustainable Development Goals: Lessons from India. arXiv.
Nagy, S., & Somosi, M. V. (2022). The relationship between social innovation and digital economy and society. arXiv.

3. Ndofirepi, T. M., & Steyn, R. (2023). An international study of early-stage entrepreneurship using Global Entrepreneurship Monitor data. Journal of Small Business and Enterprise Development, 30(7), 1329–1351.

4. Ardoteia, N., & Hafeez, K. (2019). Assessing the impact of social forces in international opportunity recognition: A case study of Brazilian technology firms. In M. Y. Haddoud, P. Jones, & A.-K. Onjewu (Eds.), International Entrepreneurship in Emerging Markets: Nature, Drivers, Barriers and Determinants (Contemporary Issues in Entrepreneurship Research, Vol. 10, pp. 51–79). Emerald Publishing.

5. Desa, G. (2012). Resource mobilization in international social entrepreneurship: Bricolage as a mechanism of institutional transformation. Entrepreneurship Theory and Practice, 36(?, 727–749).

6. Boudreaux, C. J. (2019). Entrepreneurship, institutions, and economic growth: Does the level of development matter? arXiv.Koh, F., & Cuervo-Cazurra, A. (2021). Innovative entrepreneurship in emerging and developing economies: The effects of entrepreneurial competencies and institutional voids. The Journal of Technology Transfer, 47, 1198–1223.

7. Costa, A. P., de Sousa, F. N., Moreira, A., & de Souza, D. N. (2020). International social ventures: A literature review and guidance for future research. Journal of International Entrepreneurship.

MATN YARATISH TEXNOLOGIYASI ORQALI TIL KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

D.Qodirberganova
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tili darslarida matn yaratish texnologiyasining o‘rni va ahamiyati atroflicha yoritilgan. Unda matn yaratish orqali til ko‘nikmalarini rivojlantirishning asosiy tamoyillari (grammatika, lug‘at, madaniyat, uslub, izchillik va tahrir) tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy ta’limda multimedia vositalarining matn yaratish jarayonidagi samaradorligi va ularni qo‘llash

uslubiy tavsiyalari nazariy hamda amaliy misollar bilan ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari o‘qitish samaradorligini oshirish va o‘quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: matn yaratish texnologiyasi, multimedia, grammatika, lug‘at, uslub, izchillik.

Аннотация: В данной статье всесторонне рассматриваются роль и значение технологии создания текста на уроках узбекского языка. Анализируются основные принципы развития языковых навыков посредством создания текста (грамматика, лексика, культура, стилистика, связность, редактирование). Также на теоретических и практических примерах показана эффективность использования мультимедийных средств в процессе создания текста в современном образовании и даны методические рекомендации по их использованию. Результаты исследования направлены на повышение эффективности обучения и формирование речевой культуры учащихся.

Ключевые слова: технология создания текста, мультимедиа, грамматика, лексика, стиль, последовательность.

Annotatsion: This article comprehensively discusses the role and importance of text creation technology in Uzbek language lessons. It analyzes the basic principles of developing language skills through text creation (grammar, vocabulary, culture, style, coherence, and editing). Also, the effectiveness of multimedia tools in the process of text creation in modern education and methodological recommendations for their use are shown with theoretical and practical examples. The results of the research are aimed at increasing the effectiveness of teaching and forming students' speech culture.

Keywords: text creation technology, multimedia, grammar, vocabulary, style, consistency.

Til ko‘nikmalarini rivojlantirish ta’lim jarayonining muhim vazifalaridan biri matn yaratish hisoblanadi, chunki til insonning fikrlash, muloqot qilish va ijodiy faoliyat ko‘rsatish vositasidir. Matn yaratish texnologiyasi bu o‘quvchilarga ma’lum mavzu yoki vazifa bo‘yicha o‘z fikrlarini tizimli, mantiqiy va ifodali tarzda yozma yoki og‘zaki shaklda shakllantirishni o‘rgatish metodikasi hisoblanadi. Ushbu texnologiya til ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi, chunki u nafaqat til bilimlarini mustahkamlaydi, balki fikrlash jarayonini, ijodkorlikni va mustaqil ish faoliyatini rag‘batlantiradi. Matn yaratish jarayonida o‘quvchilar quyidagi ko‘nikmalarni egallaydi: O‘zbek tili ham bundan mustasno emas va “Ona tili darslarida” matn yaratishni o‘rganish juda muhim bo‘lib, bir qancha yo‘l-yo‘riq va tamoyillarga rioya qilishni talab qiladi. Birinchi va eng asosiy tamoyil tilning sintaktik tuzilishini tushunishdir. Uni boshqaradigan grammatik qoidalar. Ushbu bilim o‘quvchiga tushunarli matn yaratish uchun grammatikaning standart qoidalariga rioya qilish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, qoidalarni bilish jumlalarni tuzishda xatolarni kamaytirishga yordam beradi va matnning uyg‘unligini ta'minlaydi. Zamon, kelishik qoidalari va so‘z tartibini to‘g‘ri qo‘llash aniqlik, izchillik va eng muhimi, tushunishni qo‘llab-quvvatlaydi. Shuning uchun o‘quvchilar o‘zbek tilining grammatik qoidalarini tushunishlari kerak. Ikkinchidan, o‘zbek tilida matn yaratishda lug‘atning qo‘llanilishi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Lug‘at mo‘ljallangan xabarning ma'nosini rivojlantirish uchun asosdir. Lug‘atning to‘g‘ri va to‘g‘ri qo‘llanilishi izchillikni qo‘llab-quvvatlaydi va so‘zlovchining ishonchliligini oshiradi. “Ona tili darslarida” mavzusida matn yaratish o‘quvchilarni o‘rganilayotgan mavzuga oid o‘zbek tili lug‘ati bilan tanishtirishni talab qiladi. Shunday qilib, o‘quvchilar umumiy tilda ham, ixtisoslashtirilgan texnik tilda ham keng miqyosli lug‘atni rivojlantirishlari kerak. Uchinchi tamoyil - mo‘ljallangan xabarning madaniyati, konteksti va ohangini tushunishdir. Matnga mos ohang va kontekstni qo‘llash maqsadli auditoriya tomonidan xabarni tushunish ehtimolini oshiradi. Hazil, ishontiruvchi til, kinoya va ohangning boshqa shakllaridan foydalanish matnning izchilligi va ravshanligini saqlab qolgan holda bahs yuritishga yordam beradi. To‘rtinchi tamoyil uslubni qo‘llash bilan bog‘liq. “Ona tili darslarida” matn yaratish nafaqat qo‘llanilgan so‘zlarga, balki bu so‘zlarning qanday taqdim etilishiga ham bog‘liq. Estetik jozibali matn yaratish o‘quvchilarning xabarni qabul qilish, qabul qilish va pirovardida tushunishini yaxshilaydi. Uslub takror, metafora, o‘xshatish va boshqa adabiy vositalar yordamida matnga chuqurroq va o‘zgacha ta’sir ko‘rsatadigan ritorik vositalar yordamida kuchaytiriladi. Beshinchi tamoyil – izchillik va ravshanlikning muhimligi. Hozirgi avlod katta hajmdagi ma'lumotlarga duchor bo‘lmoqda va xabarni aniq, aniq va tartibli etkazish juda muhimdir. Matndagi izchillik va ravshanlikni ta'minlash uchun matnni tashkil etishda asosiy tuzilmaga rioya qilish zarur. Kirish, asosiy va xulosaga ega bo‘lgan yaxshi tuzilgan matn matnni yanada tartibli va tushunarli qilishga yordam beradi. Oltinchi tamoyil - matnni topshirishdan oldin ko‘rib chiqish va tahrirlash muhimligi. Yozishdan keyin matnni ko‘rib chiqish muallifga matn tarkibi, grammatika va lug‘at qo‘llanilishini baholash imkonini beradi. Bundan tashqari, to‘g‘ri tahrir qilish izchillikni yaxshilaydi, har qanday chalg‘ituvchi gaplarning oldini oladi hamda grammatik va tipografik xatolarni tuzatishni

ta’minlaydi. Bu til, madaniyat, ohang, kontekst, uslub, izchillik, aniqlik va puxta tahrirni bilishni talab qiladi. Ushbu tamoyillarni o‘zlashtirish o‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini oshiradi, ravshanlikka yordam beradi va tushunarli xabarni etkazishni ta'minlaydi. Ma'no va ravshanlikni taklif qiluvchi samarali matnlarni yaratish vaqt va amaliyotni talab qiladigan mahoratdir.

Ona tili darslarida matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun quyidagi uslubiy tavsiyalarni ko‘rsatish mumkin. Bu sizga matningizni qaysi maqsad uchun yaratishingiz kerakligini tushunishga yordam beradi. Misol uchun, siz ona tili kursida o‘qituvchilik qilasiz va o‘quvchilarga qo‘llanish uchun matn yaratmoqchi bo‘lishingiz mumkin. Bu maqsadni tayinlaganingizda, matningizni qaysi maktab darajasi va qaysi tilda yozishingiz kerakligi haqida ham fikringiz bo‘lishi mumkin. Matn yaratishda qo‘llanishni aniqlash juda muhimdir. Bu sizga matningizni qaysi maqsad uchun yaratishingiz kerakligini tushunishga yordam beradi. Ona tili darslarida qo‘llanish qaysi mavzularni o‘rgatish uchun yaratilishi kerakligi haqida fikr sohibi bo‘lishingiz mumkin. Qo‘llanishni aniqlash sizga matn yaratish jarayonida kerakli bo‘lgan ma’lumotlarni qidirishda yordam beradi. Matn yaratishda strukturani yaratish juda muhimdir. Matningizni yaratishdan oldin, uni qanday tartibda yozishingiz kerakligini aniqlashingiz kerak. Misol uchun, matningizda boshqa insonlarga yordam berish uchun, matningizni qaysi qismga ajratish kerakligini aniqlashingiz kerak. Bunday turli qismga ajratish sizga matningizni tushunarliroq qilishga yordam beradi. Matnni tahrir qilish: Matningizni yaratishdan keyin, uni tahrir qilishni unutmang. Matn tahrir qilish sizning matningizni qayta ko‘rib chiqishda yordam beradi. Bunday qilish sizga matningizni tushunarliroq qilishga va uni keng aholiga tarqatishga yordam beradi. Matn yaratishda muhim narsa ko‘proq yozishdir. Bu sizga yozishni o‘rganishda va yozishni yaxshilashda yordam beradi. Matn yaratishda ko‘proq yozish sizning yozish ko‘nikmalarini yaxshilashga yordam beradi[1. 2020: T].

Zamonaviy dunyo jamiyat oldida zamonaviy talablarni qo‘yadi. Bunday jamiyatda o‘rta ta’lim maktablarining oldida zamonaviy bilimli, axborotni saralay oladigan, mediamadaniyati shakllangan, tanlangan vaziyatda mustaqil ravishda mas’uliyatli qarorlar qabul qila oladigan, ularning oqibatlarini bashorat qila oladigan, rivojlanayotgan mamlakat uchun mas’uliyat tuyg‘usiga ega avlodni tarbiyalash vazifasi turadi. Multimedia shaklidagi o‘quv materiallarining taqdimoti o‘qish vaqtini qisqartiradi. Yangi innovatsion axborot muhitida o‘quvchilar o‘quv jarayonida faol qatnashadilar, mustaqil fikrlashni o‘rganadilar, o‘z nuqtayi nazarlarini ilgari suradilar, real vaziyatlarni tahlil qiladilar. “Multimedia “inson-kompyuter” interaktiv (dialogik) muloqotning yangi, takomillashgan pog‘onasi bo‘lib, bunda foydalanuvchi juda keng va har tomonlama axborot oladi. Multimedia vositalari asosida o‘quvchi, talabalarga ta’lim berish va kadrlarni qayta tayyorlash hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir” Fikrlashning quyi bosqichlari (o‘qing, tushunganingizni gapirib bering, ko‘chirib oling kabi)dan fikrlashning yuqori bosqichlari (analiz, sintez qilish, kreativ fikrlash)ga chiqish multi- media vositalari orqali qulayroq amalga oshiriladi.

Multimediali ta’lim texnologiyasidan til sathining barcha sohalarini o‘qitishda, dars mashg‘ulotining yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, takrorlash, baholash, uyga vazifa berish bosqichlarida, qo‘shimcha mashg‘ulotlarda, to‘garak darslarida va nazorat darslarida foydalanish mumkin. Buni ayrim misollar yordamida ko‘rsatishga harakat qilamiz. Tajriba-sinov materiallarini tayyorlash uchun 9-sinf ona tili darsligida berilgan “Ko‘chirma gapli qo‘shma gap haqida ma’lumot” mavzusi- dagi 170-mashq asosida multimedia texnologiyasi yaratdik. Uni shartli ravishda matn mazmunidan kelib chiqib “Ovchi bilan Durroj” hikoyasi deyish mumkin. Unga pedagogik ishlov berildi. Pedagogik ishlov berish jarayonida o‘quv materialini oldingi (darslikda berilgan) shakldan ikkinchi (yangi) shaklga, o‘quv topshiriqlari tizimi shakliga olib kelindi. 170-mashq asosida 2 ta topshiriq shakllantirildi. 1-topshiriq: Videorolik namoyishiga diqqat bilan quloq soling. Ovchi hamda Durrojning aytgan gaplarini imkon boricha to‘la va to‘g‘ri shaklda daftaringizga yozib oling. O‘quvchilar ovchi va durrojning gaplarini videomaterialni ko‘rish jarayonida eslab qoladilar va yozib olishga harakat qiladilar. O‘z gaplari (muallif gapi)ni qatnashtirib, voqea asosida matn tuza- dilar va tinish belgilarini qo‘yib chiqadilar. Topshiriqni bajarish uchun 3 daqiqa vaqt ajratiladi va bu ekranning chetida ko‘rinib turadi. Ajratilgan vaqt tugagandan so‘ng, ekranda to‘liq matn namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi barcha o‘z bajargan ishini tekshirib ko‘rishi mumkinligini aytadi. O‘quvchilar matn tuzgandan so‘ng, yana e’tibor ekranga qaratildi va 170-mashqdagi matn bilan o‘zlari tuzgan matnni solishtirishdi. Mashq matni: Bir kuni durroj tuzoqqa tushib qoldi. U ovchiga yalinib dedi: “Sen meni qo‘yib yuborsang, barcha do‘stlarimni aldab kelib, tuzo- g‘ingga tushirib beraman”. Ovchi bu gapdan achchiqlanib dedi: “Yo‘q ovora bo‘lmay qo‘yaqol, men seni qo‘yib yubormayman. O‘z joningni qutqarmoq uchun do‘stlaringga xiyonat qilmoqchisan. Sofdil qushlardan ko‘ra xiyonatkor do‘stning o‘lgani yaxshi”. Ekranda yangi oyna ochilib matndagi gaplar yozilgan, ammo tinish belgilari qo‘yilmagan

holatda bo‘ladi. Har bir tinish belgisi alohida-alo- hida (masalan: oldin ko‘chirma gaplarning qo‘shtirnoqlari, keyin muallif-gapidan so‘ng keladigan ikki nuqtalar) “o‘ynab-o‘ynab” o‘z o‘rniga kelib joylashadi. Bu jarayonni o‘quvchi kuzatib boradi (Qarang: 3-rasm). 2-topshiriq videokeys shaklida yaratildi. “2-topshiriq” yozuvini usti- ga tugmachani bosganda, oyna ochiladi (Qarang: 4-rasm). Qani bolalar, savollarimizga javob izlab ko‘ringchi: 1. Sizningcha, ovchi to‘g‘ri yo‘l tutdimi? 2. Durrojning yana qanday chorasi bor edi? Bu o‘rinda o‘quvchi yana qayta videoni tomosha qilishi uchun im- koniyat beriladi. Ekrandagi tugmachani bosib, oldingi sahifaga qaytishi, videoni qayta sinchiklab ko‘rib chiqishi mumkin. O‘quvchi endi matn bilan yuzaki tanishib chiqmaydi. Faqat tinish belgilarining qaysi o‘rinlarda qo‘yilishi haqida o‘ylamaydi, balki u ovchi changalida qolgan durrojda qutulib ketishning qanday choralari borligi haqida ham bosh qotiradi, unga yordam berish yo‘llarini o‘ylaydi, fikrlaydi, favqulodda vaziyatlardan chiqish imkonlarini axtaradi. Tahlil va natijalar o‘quv jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish o‘rganilayotgan obyektlarning modellarini qurish, o‘quvchilarning faolligini oshirish, axborotning turli shakllaridan foydalanish: ovoz, tasvir, animatsiya, matn, katta hajmdagi ma’lumotlarni izlash, qayta ishlash, saqlash va boshqa im- koniyatlarini yaratib berdi. Bu ham o‘quvchiga bilim berish, ham ko‘nikma va malakalarini shakllantirish uchun uning ruhiyatiga va faoliyatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin ekanligini ko‘rsatadi. Mutaxassislar multimedia vositalaridan darsning deyarli barcha bosqichlarida samarali foydalanish mumkinligi haqidagi xulosalarni berishgan. Shunga tayangan holda aytish mumkinki, ona tili darslarida ham mazkur holat imkoniyat sifatida mavjud. Har bir sinf doirasida va har bir mavzu kesimini o‘z ichiga qamrab olgan multimedia majmualarini yaratish o‘qituvchi uchun qulaylik keltiradi.

Multimediali darslarda dasturiy ta’minot vositalari o‘qitishning an’anaviy texnologiyalarini to‘ldiradi. O‘quv ma’lumotlarini animatsiya va ovoz effektlari bilan jihozlangan diagrammalar, jadvallar, videoklip, audiomatnlar ko‘rinishidagi ko‘plab vizual tasvirlarni o‘quv jarayonining boshqa tarkibiy qismlari: maqsad, mazmun, o‘qitish usullari, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati bilan uzviy bog‘liq holatda bo‘lishini ta’minlash lozim. Multimediali pedagogik texnologiyalarni joriy etishda tilni o‘qi- tish nazariyasi va amaliyotida doimo mavjud bo‘lgan va vaqt sinovidan o‘tgan lingvodidaktik konstantalaro‘rtasidagi muvozanatni topish maq- sadga muvofiq. Multimediali darslarning ustuvor maqsadi o‘quv jarayonida zamonaviy axborotga boy muhitda o‘quvchilarning samarali mustaqil ijodiy faoliyat qobiliyatlarini rivojlantirishdir[2]. Shuni inobatga olgan holda, multimedia dasturini ishlab chiqishda o‘qituvchi nafaqat mavzudagi o‘quv vazifalarini, balki maqsadlari (o‘quv, tarbiyaviy, rivojlanish)ni ham belgilab oladi, qo‘shimcha ravishda axborot madaniyati tarkibiy qismlari (kerakli ma’lumotlarni tanlash qobiliyatini rivojlantirish, axborotni texnik qayta ishlashning yangi usullari bilan tanishish, axborotni kompyuterda qayta ishlash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish va h.k.)ni ham qamrab oladi. Ona tilini o‘qitishda multimedia mahsulotlari fan o‘qituvchisi tomonidan yoki fan o‘qituvchisi rahbarligida tayyorlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek tili darsliklari va metodik qo‘llanmalar, Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti nashrlari, 2015–2023 yillar.
2. Tursunov B. Matn tahlili va yaratish texnologiyalari. Toshkent: Fan va texnologiya (2020).

O‘ZBEKISTON MILLIY PARALIMPIYA QO‘MITASINING TASHQI HAMKORLIK ALOQALARI XUSUSIDA

Sh.R.Xamidova
Tarix instituti doktoranti, +998915960889

Annotatsiya: Mazkur maqolada parasport sohasini rivojlantirishda mamlakatimiz va xalqaro miqyosdagi hamkorlikning ahamiyati va hozirgi kunga qadar amalga oshirilgan aloqalarga to‘xtalib, imzolangan memorandum va shartnomalar xususida fikr yuritiladi. Ayniqsa, O‘zbekiston va Jahon

hamjamiyatining ikki tomonlama manfaatli hamkorliklari paralimpiya va parasportning amaliy va nazariy takomillashuvida muhim jarayon ekanligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Qo‘mita, federatsiya, delegatsiya, para velosport, memorandum, shartnoma, metodika, tajriba, malaka, DSP, Nanizm, kibersport.

Аннотация: В статье рассматривается значение отечественного и международного сотрудничества в развитии паралимпийского спорта, достигнутые успехи, подписанные меморандумы и соглашения. В частности, подчеркивается, что взаимовыгодное сотрудничество Узбекистана с мировым сообществом является важным процессом в практическом и теоретическом совершенствовании паралимпийского и паралимпийского спорта.

Ключевые слова: Оомита, федерация, делегация, паравелоспорт, меморандум, контракт, методология, опыт, квалификация, DSP, нанизм, киберспорт.

Annotation. This article discusses the importance of domestic and international cooperation in the development of the parasports sector, the achievements made so far, and the signed memorandums and agreements. In particular, it is emphasized that mutually beneficial cooperation between Uzbekistan and the world community is an important process in the practical and theoretical improvement of paralympic and parasports.

Keywords: Organization, federation, delegation, para cycling, memorandum, contract, methodology, experience, qualification, DSP, nanism, cybersports.

O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasi tashkil etilgandan buyon, o‘zbek parasportini rivojlantirishga doir muhim islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Xususan, qo‘mita tashqi aloqalar, o‘zaro hamkorlik va xorij mamlakatlari bilan tajriba almashinuv masalalariga alohida e’tibor qaratmoqda. Ayniqsa, bu jarayon so‘nggi yillarda yanada ildamladi. Boisi, paralimpiya sohasidagi tashqi aloqalar nafaqat rasmiy hamkorlik, balki, mahalliy parasportchilarimiz uchun o‘z iste’dodlarini namoyon qilish va yangi imkoniyalarga ega bo‘lish demakdir.

O‘zbekistonda paralimpiya sportini rivojlantirishga oid qabul qilingan qonun va qarorlarning ijrosi o‘laroq, O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasi avvalo, ichki hamkorlikka, so‘ngra tashqi aloqalarga e’tibor qaratdi. Jumladan, O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Yoshlari ishlari agentligi o‘rtasida 2022-yil 18-aprelda imzolangan “Jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslarni paralimpiya sport turlariga jalb qilish va mahallabay ishlash tizimini joriy etish to‘g‘risidagi”[1] memorandumni ta’kidlash joiz. Memorandumga muvofiq, jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslar o‘rtasida paralimpiya sport turlarini yanada ommalashtirish, parasport turlari bilan shug‘ullanuvchilar qamrovini oshirish, va bu borada mahallabay ishlash tizimini joriy qilish uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berishda manfatdorlikni hisobga olib, yuqoridagi yo‘nalishlarda har tomonlama hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadida bir nechta yo‘nalishlarda, hamkorlik munosabatlari kelishilgan.

Imzolangan memorandum 7 banddan iborat bo‘lib, birinchi bandi: jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslarni parasport turlari bilan shug‘ullanishlariga jalb qilish, ayniqsa tobora rivojlanib borayotgan “kibersport” turi bo‘yicha parasportchilarni shakllantirish va ularni professional daraja chiqarish, barcha turdagi sport ta’lim muassasalarida parasportchilar uchun maxsus bo‘limlarni tashkil qilish, hamda iqtidorga ega bo‘lgan jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslarni tanlab olish, saralash, ularni sport turlariga yo‘naltirish va oliy sport mahoratiga erishishini ta’minlash ko‘zda tutilgan. Shuningdek, yoshlar yetakchilari tomonidan o‘zlariga biriktirilgan mahallalardagi jismoniy imkoniyati cheklangan lekin sportga layoqatli shaxslarni aniqlash va doimiy faoliyatini yo‘lga qo‘yishga ko‘maklashish, ularning jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga yordam berish, muvaffaqiyatli harakat qilgan parasportchilarni rag‘batlantirish masalalariga to‘xtalgan. Mahallalarda sog‘lom sport muhitini yaratish va nogironligi bo‘lgan shaxslar o‘rtasida para yengil atletika, para dyuzdo, para badminton, 5*5 ko‘zi ojizlar futboli, parapaurlifting, para stol tennisi, para suzish hamda para velosport turlaridan sport musobaqalarini o‘tkazish rejalashtirilgan.

Aytish joizki, mahallalardagi bu kabi musobaqalar, o‘sha hududda mavjud imkoniyati cheklangan insonlar va sog‘lom insonlararo barqaror muhitni hosil qilishga xizmat qiladi. Musobaqa faollari va g‘oliblarining munosib taqdirlanishi esa, ularni yanada harakatga undaydi.

Yana bir muhim jihat, mahallalarda imkoniyati cheklangan insonlarning nafaqat parasportga jalb etish, balki, ularning kelajakda ma’lum kasb egallashlari uchun turli xil klub va to‘garaklarni ochish ham belgilangan.

Bu jarayonlarni barchasini amalga oshirish avvalida, O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasining hududiy bo‘linmalari tomonidan Tibbiy ijtimoiy ekspert komissiyalari bilan hamkorlikda mahallalardagi zaif ko‘ruvchilar, ko‘zi ojizlar, tayanch harakati shikastlanganlar, Amputatsiya, DSP va Nanizm kasalligiga chalinganlar ro‘xatini shakllantirish bosqichi kiritilgan.

Hujjatda, O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Yoshlari ishlari agentligi o‘rtasida kelajakdagi hamkorlik munosabatlari ham nazarda tutilgan bo‘lib, sport huquqi, sport fani, sport boshqaruvi kabi sport hamkorligini rivojlantirishni ma’qullash, paralimpiya harakatini takomillashtirishga oid ilg‘or tajribaga taalluqli axborotlar almashinuvini amalga oshirish, mazkur memorandum doirasida maxsus kurslar, seminarlar, konfrensiyalar konsultatsiya va uchrashuvlar shaklida amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

Har qanday o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilish zarurati paydo bo‘lsa, tomonlarning huquq va majburiyatlariga ta’sir etmaydi. Va ushbu memorandum imzolangan kundan boshlab uch yil muddatga, agarki, biror o‘zgartirish kiritilmasa, keyingi uch yilga ham amal qilishi belgilangan.[2]

Aniq vazifa va maqsadlar ko‘zlangan mazkur hujjat nafaqat rasmiy kelishuv, balki, uch yildan beri mahallalarda jismoniy imkoniy cheklangan va nogironligi bo‘lgan insonlar bilan shug‘ullanishda yo‘l xaritasi bo‘lib xizmat qilmoqda. 5 tashabbus miqyosidagi mahallalardagi parasport musobaqalarini ham fikrimiz isboti sifatida ko‘rsatish mumkin.

Bu kabi yana bir mahalliy hamkorlik aloqalaridan biri “O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasi va O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik to‘g‘risida”[3] gi memorandum shular jumlasidandir. Shartnoma yurtimizda imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslarga sport turlari bilan shug‘ullanishlarida zaruriy barcha shart-sharoitlarni yaratish, ularning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirokini ta’minlash va sohaga oid bir nechta qarorlarning ijrosini ta’minlash maqsadida o‘zaro manfaatli asosda tuzilgan. Hamda, O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti “Paralimpiya” fakultetining istiqbolli va iqtidorli talabalarini tanlash va tayyorlashning samarali tizimini yaratishni ham ko‘zda tutilgan. Har ikki tomon iqtidorli parasportchilarni saralab olish va ularning doimiy mashg‘ulotlarini o‘tkazish ishlarini tashkillashtirishni qo‘llab-quvvatlaydi. Professional va ilmiy-pedagogik salohiyatga ega kadrlarni tayyorlash, o‘quv-uslubiy, ilmiy va texnologik imkoniyatlardan to‘liq foydalanish, paralimpiya sohasidagi dolzarb masalalar yuzasidan hamkorlikni mustaxkamlash maqsadlari ham hujjatda o‘z aksini topgan.

Shartnoma bandlari bajarilishi doimiy ravishda kafedralar yig‘lishlarida muhokama qilib borilgan. Universitetning “Paralimpiya” fakulteti, Adaptativ jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari, prof-o‘qituvchilarning ilmiy va kasbiy tajribasidan foydalanib, parasportchilarni professional darajada tayyorlash, xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli qatnashishlari hamda vatanparvarlik, tarixiy xotira, millik g‘urur, o‘zlikni anglash tamoyillariga asoslanib tayyorgarlik ishlarini tashkil qiladi.

Ushbu shartnomaning asosiy negizi, O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasining O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida tahsil olayotgan iste’dodli parasportchilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bo‘lsa, universitet ham o‘z navbatida o‘zida mavjud mutaxassis kadrlari bilan hamkorlik aloqalariga hissa qo‘shishi mumkin bo‘ladi. Shartnoma 5 yilga amal qilinadi.

Memorandumda diqqatni tortuvchi yana bir jihat, bu – parasportning nazariy asoslarini mustaxkamlash, yangi tadqiqot ishlarini takomillashtirish, sohada nazariya va amaliyot uyg‘unligini hosil qilishdan iborat ekanligidir. Bu omil muhim hisoblanib, amaliy mashg‘ulotlar va trenerlardan bilim oluvchi parasportchilar, mashg‘ulotlardan tashqari paytda, parasport turlariga oid manba va kitoblarni mutolaa qilishi, tahlil va amaliyotga tadbiq etishi g‘alabani yanada yaqinlashtiradi.

O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasi so‘nggi yillarda tashqi aloqalarga ham alohida e’tibor qaratmoqda. Sababki, xalqaro miqyosdagi jahon tajribalaridan bahramand bo‘lish, O‘zbek parasportining dunyoda o‘z o‘rni borligini namoyon qilish va ikki tomonlama manfaatli shartnomalar imzolash maqsad qilingan. Ana shunday shartnomalardan biri, O‘zbekiston paralimpiya qo‘mitasi, Osiyo velosport konfederatsiyasi va O‘zbekiston velosporti federatsiyasi o‘rtasidagi hamkorlik memorandumidir. Shartnoma 2022-yil 24-martda imzolangan.[4] 10 ta moddadan iborat bo‘lib, bosh vazifalar: Para velosportni rivojlantirish, Para Osiyo chempionati va Para Osiyo o‘yinlari dasturiga para velosport turi sonini ko‘paytirish, o‘zro delegatsiyalar almashinuvni amalga oshirish, qo‘shimcha tadqiqotlar, konfrensiya, seminar va uchrashuvlar o‘tkazish, muntazam ravishda tomonlar o‘quv qo‘llanma, adabiyot va boshqa nashrlarni almashish masalalari belgilangan.

Shartnoma hujjati ikki tilda o‘zbek va ingliz tillarida Dushanbe shahrida tuzilib, rasman kuchga kirgan. Aytish mumkinki, ushbu hamkorlik paravelosportchilarimiz uchun muhim hisoblanib, tajriba va malaka almashish imkonini beradi. O‘zbek parasportini dunyoga tanitishga ximat qiladi.

O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasi va Koreya milliy sport universiteti o‘rtasida 2023-yil 9-fevralda muhim hamkorlik hujjati imzolangan.[5] Ikki davlat qonunchiligidan kelib chiqib, imzolangan ushbu hujjatdan ko‘zlangan maqsad – parasportni rivojlantirish, tadqiqot va loyihalar almashinuvini yo‘lga qo‘yish, bu jarayonlarda turli seminar va anjumanlar o‘tkazishdan iborat.

Bu kabi hamkorliklar hozirgi kunga qadar davom etmoqda. Jumladan, 2025-yil aprel oyida O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasi faoliyati bilan yaqindan tanishish va o‘zaro tajriba almashish maqsadida Koreya Paralimpiya qo‘mitasi prezidenti Jin Ovan Yung rahbarligidagi delegatsiya mamlakatimizga rasmiy tashrif bilan keldi.[6]

Sport vaziri Adham Ikramov, Osiyo paralimpiya qo‘mitasi vitse-prezidenti, O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasi raisi Muhtorxon Toshxo‘jayevlar ishtirokidagi yuqori darajada o‘tkazilgan uchrashuv anjumanida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan yurtimizda paralimpiya sport turlariga qaratilayotgan e’tibor yuqori samara berayotganligi va buning isboti o‘laroq, para atletlarimiz tomonidan xalqaro musobaqalardagi qo‘lga kiritilayotgan natijalar misolida e’tirof etildi. Shuningdek, hamkorlikni yanada mustaxkamlash maqsadida, O‘zbekiston va Janubiy Koreya davlati vakillari o‘rtasida ayangi memorandum imzolandi. Parasportda Koreya tajribasi ham e’tirof qilindi. Mutaxassislararo tajriba alamashinuv dasturlari ham muhokama qilingan.

2025-yil 9-aprelda Li Jonghak boshchiligida Janubiy Koreya karlar sport federatsiyasi delegatsiyasi Toshkentda bo‘lib, parasport, xususan, karlar sporti, ikki davlat orasidagi kelajak hamkorlik aloqalari muhokama qilingan.

Bundan tashqari, 2025-yil 13-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev rahbarligida olimpiya va paralimpiya harakati, ixtisoslashtirilgan va ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish hamda aholining jismoniy madaniyatini oshirishga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida berilgan topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasi rahbariyati Sankt-Peterburg shahrida joylashgan A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universitetida bo‘ldi.[7] Ma’lumki, parasport va paralimpiya tarixida Rossiya o‘z o‘rni va uzoq yillik malakasiga ega. Shu bois, ikki tomonlama hamkorlik manfaatli bo‘ldi. A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti bilan hamkorlik aloqalari xususida munozaralar o‘tkazildi. Para o‘qitish metodikasi urg‘u berildi. Shundan so‘ng, delegatsiyamiz, Sankt-Pterburgdagi Adaptativ jismoniy tarbiya va adaptativ sport markaziga tashrif buyurilib, parasportchilarga yaratilgan imkoniyatlar bilan tanishib chiqdilar.

2025-yil fevral oyida Polsha Milliy paralimpiya qo‘mitasi delegatsiyasi rasmiy tashrif bilan O‘zbekistonga keldi.[8] Delegatsiya a’zolari O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetiga tashrif buyurib, uchrashuv anjumanida qatnashdilar. Bosh maqsad – manfaatli hamkorlik aloqalarini doimiy yo‘lga qo‘yish demakdir.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda parasportni rivojlantirish yo‘lida, ko‘pgina ichki va tashqi hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilgan va bu harakatlar hozir ham davom etmoqda. O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasi bu harakatlarga mas’ul sifatida ko‘rsatilsa, aslida sohaga oid qabul qilinayotgan qonun va qarorlarning ijrosida barcha birdek harakat qilmog‘i zarur. Shundagina, jismoniy imkoniyati cheklagan va nogironligi bo‘gan shaxslarimiz, parasport turlariga qiziqishi ortib, muntazam shug‘ullanishlari, jahon musobaqalariga chiqishi, yuksak natijalarni qo‘lga kiritishi va xalqaro tajriba malakasiga ega bo‘ishlari mumkin. Va bu omillar, ularning hayotda o‘z o‘rnilarini topishga yordam berib, jamiyatimizda sog‘lom muhit shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar:

1. O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasining joriy arxivi. O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Yoshlari ishlari agentligi o‘rtasida “Jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslarni paralimpiya sport turlariga jalb qilish va mahallabay ishlash tizimini joriy etish to‘g‘risidagi” memorandum. 2022-yil 18-aprel. 1-3bb.

2. O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasining joriy arxivi. “O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasi va O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik to‘g‘risida”gi memorandum. 2022-yil. 20-aprel. 1-b.

3. O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasining joriy arxivi. O‘zbekiston paralimpiya qo‘mitasi, Osiyo velosport konfederatsiyasi va O‘zbekiston velosporti federatsiyasi o‘rtasidagi hamkorlik memorandum.

4. O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasining joriy arxivi. O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasi va Koreya milliy sport universiteti o‘rtasidagi hamkorlik memorandum.
5. ParalympicUz rasmiy sayti. 2025-yil aprel.
6. UzASA rasmiy sayti. 2025-yil, aprel.
7. ParalympicUz rasmiy sayti. 2025-yil mart.
8. ParalympicUz rasmiy sayti. 2025-yil fevral.

GLOBALLASHUV JARAYONIDA XALQARO MIGRATSIYA VA UNING FALSAFIY TALQINI

U.M.Paxriddinov
Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi, **umidjonaka6073@gmail.com**

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro migratsiyaning globallashuv jarayonidagi o‘rni va uning falsafiy talqini ko‘rib chiqiladi. Maqolada asosiy globallashuvning xususiyatlari va uning hajmi, tuzilishi va tendensiyalariga ta'siri qisqacha migratsiya oqimlarining falsafiy tahlili keltirilgan.
Kalit so‘zlar: globallashuv, xalqaro migratsiya, madaniy identitet
Аннотация: В данной статье рассматривается роль международной миграции в процессе глобализации и её философская интерпретация. В статье представлен философский анализ особенностей мейнстримовой глобализации и её влияния на масштабы, структуру и тенденции краткосрочных миграционных потоков.
Ключевые слова: глобализация, международная миграция, культурная идентичность
Abstract: This article examines the role of international migration in the process of globalization and its philosophical interpretation. The article presents a philosophical analysis of the features of mainstream globalization and its effects on size, structure and trends in brief migration flows.
Keywords: globalization, international migration, cultural identity

KIRISH. Globallashuv jarayoni zamonaviy dunyoning eng muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib, u iqtisodiy, madaniy, siyosiy va ijtimoiy sohalarda o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirmoqda. Ushbu jarayonning muhim komponentlaridan biri — xalqaro migratsiya. Xalqaro migratsiya — bu shaxslarning bir mamlakatdan boshqa mamlakatga ko‘chishi, bu esa turli iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ekologik omillar kabi sabablarga ko‘ra yuzaga keladi.

Jahon bankining “Globallashuv, o‘sish va qashshoqlik” (“Globalization, Growth and Poverty”) hisoboti [1.2008:B.56] buni ko‘rsatdiki mamlakatlar savdoni erkinlashtirish orqali integratsiyalashgan bozorlarni targ‘ib qilishga intilgan, bu ko‘p jihatdan bir qator migratsiyani liberallashtirishga qarshi siyosatlarni ishlab chiqdi. Biroq, hukumatlarning istamasligiga qaramay immigratsiya sohasidagi siyosatni liberallashtirish uchun yashaydigan shaxslar soni oshdi , bu ko‘rsatkich dunyo aholisining 3.3% ni tashkil qiladi. Mamlakatlar o‘rtasidagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarning o‘sishi osonlashdi. Borgan sari ko‘payib borayotgan shaxslar uchun migratsiya va diversifikatsiya mehnat uchun, ta'lim, oila va boshpana uchun vaqtinchalik migratsiya va doimiy migratsiya tobora ko‘proq rol o‘ynay boshladi [2. 2017:B.3].

Zamonaviy dunyoning globallashuvi sezilarli o‘sishni rag‘batlantirdi yaqin va uzoq joylarga migratsiya iqtisodiy omillarning bir necha omillari bilan qo‘llab-quvvatlanadi, ijtimoiy yoki ekologik tabiat yoki siyosiy beqarorlik va ba'zilarining rivojlanishi bilan murakkab, zamonaviy transport tizimlari va tarmoqlari osonroq, arzonroq va insoniyat tarixidagi boshqa daqiqalarga qaraganda shaxslarning tezroq harakatlanishi.

Xalqaro muhojirlar soni 2000-yil bilan solishtirganda 2015-yilda 244 millionga ortib 41% ga yetdi. Migratsiya hodisasi uchun xarakterli 20-asrning oxiri va uchinchi ming yillikning boshlarida o‘zgarish migratsiya oqimlarining tuzilishi, hajmi va tipologiyasida, ishchi kuchi talabi sifatida belgilangan mamlakatlarda ishchi kuchi bozoriga kelsak, ayniqsa yuqori malakali muhojirlar soni ortdi. Hatto migrantlar soni hajmi, xilma-xilligi, geografik kengayish, shuningdek xalqaro migratsiyaning umumiy murakkabligi globallashuv jarayonlarining ta'siri sifatida ortib borayotgan deb hisoblansa-da, bu fikr hali ham saqlanib qolmoqda uning eng katta qismi uchun tasdiqlanmagan [2. 2017:B.4].

Xalqaro migratsiyaning sabablari ko‘p qirrali va murakkabdir. Iqtisodiy omillar, masalan, ish o‘rinlari, yuqori maosh va yaxshiroq yashash sharoitlari qidirilishi, ko‘plab insonlarni o‘z vatanini tark

etishga majbur qiladi. Shuningdek, siyosiy va ijtimoiy omillar — urushlar, zulm, ta'qib va inson huquqlarining buzilishi ham migratsiyaning asosiy sabablari hisoblanadi.

Globallashuv jarayoni xalqaro migratsiyani yanada kuchaytiradi. Texnologik taraqqiyot, transport va aloqa vositalarining rivojlanishi insonlarga chet elga chiqish imkoniyatlarini kengaytirdi. Bunday sharoitda migratsiya nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki madaniy almashinuvni ham rag‘batlantiradi. Biroq, bu jarayon bir qator muammolarni ham keltirib chiqaradi: madaniy identitetning yo‘qolishi, ijtimoiy adolatsizliklar va muhojirlar o‘rtasida diskriminatsiya kabi masalalar dolzarb ahamiyatga ega. Bugungi kunda zamonamizning global muammolari deb ataluvchi muammolar haqida eshitmagan odamni uchratish qiyin. Bu muammolarga demografik, energetik, xom ashyo muammolari, urush va tinchlik muammosi, ekologiya va boshqalar kiradi. Albatta, ushbu muammolar ilgari ham mavjud edi, lekin faqat XX asrdagina ular global muammolarga aylandi.

Globallashuv milliy davlatlarning o‘zaro bog‘liqligini oshirdi, tovarlar, xizmatlar, g‘oyalar va milliy chegaralardan tashqaridagi odamlar oqimini tezlashtirdi. Xalqaro migratsiya globallashuvdan oldinroq bo‘lgan, ammo global davrda dunyo migratsiyasining tezligi, ko‘lami, murakkabligi va hajmi misli ko‘rilmagan bo‘lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu maqolada f.f.d.prof. Mariana Balanning migratsiya va globallashuvning rivojlanishi: muammolar va istiqbollar (PhD prof. Mariana B Migration and globalization: challenges and perspectives) maqolasidan qo‘shimcha manbaa sifatida foydalanildi [2. 2017].

Mazkur maqolada ilmiy bilishning tarixiylik, mantiqiylik, analiz va sintez va obyektivlik metodlaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Shu paytgacha olib borilgan tadqiqot ishlari va yozilgan maqolalarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, xalqaro migratsiya falsafiy nuqtai nazardan ko‘rilganda, bir nechta muhim masalalarni ko‘taradi:

1. Identitet va o‘zlik: migratsiya jarayonida insonlar o‘z identitetlarini saqlab qolish yoki yangi madaniyatga moslashish zaruriyatiga duch keladilar. Bu jarayon shaxsning o‘zligini qayta ko‘rib chiqishiga olib keladi.

2. Inson huquqlari: har bir insonning erkin harakatlanish huquqi mavjud. Biroq, migratsiya jarayonida ko‘plab muammolar yuzaga kelishi mumkin: muhojirlarning huquqlari buzilishi, ularning xavfsizligi va ijtimoiy integratsiyasi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda “Inson qadri uchun” degan ezgu g‘oyani to‘liq ro‘yobga chiqarish, inson huquq va erkinliklari sohasidagi xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish, davlat organlari faoliyatiga tizimli va bosqichma-bosqich joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Inson huquqlari va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish hamda qonun ustuvorligini ta’minlash, shuningdek, jamiyat va har bir fuqaro hayotiga ularni tatbiq etish Yangi O‘zbekistonning ichki va tashqi siyosatida markaziy o‘rinni egallab kelmoqda.

3. Global mas'uliyat: globallashuv jarayonida davlatlar va xalqaro tashkilotlar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish zarurati paydo bo‘ladi. Bu esa global mas'uliyatni oshiradi va har bir insonning farovonligini ta'minlashga qaratilgan siyosatlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Yangi texnologiyalar va aloqa vositalarini ishlab chiqish natijasida savodxonlik va ta’lim darajasi oshdi va ikkalasiga ham kirish imkoniyati yaxshilandi. Televizor va sun'iy yo‘ldoshlar, mobil telefonlar va Internet orqali 'global' ma'lumot an'anaviy shaxslarning yuqori umidlari va xabardorlik darajasiga emigratsiya mamlakatlar va boshqa mamlakatlardan, shuningdek. Shunday qilib, oxirgi o‘n yil davomida xalqaro migratsiya tezlashdi va nuqtai nazardan diversifikatsiya qilindi.

Shu nuqtai nazardan, Vertoves (2007) misli ko‘rilmagan darajasini ko‘rsatib uchun migrantlarning xilma-xilligi oshdi [3. 2007:B.1026]. Inson huquqlari va qadr-qimmati Falsafiy nuqtai nazardan, migratsiya inson huquqlari va shaxslarning qadr-qimmati to‘g‘risida savollar tug‘diradi. Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi har kim ta'qiblardan boshpana olish huquqiga ega ekanligini ta'kidlaydi. [4. 1948:B.14].

Ushbu tamoyil immigratsiyani cheklovchi siyosatga qarshi chiqadi va xalqlarning zaif aholini himoya qilish bo‘yicha axloqiy majburiyatini ta'kidlaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, xalqaro migratsiya globallashuv jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, u insoniyat tarixida muhim rol o‘ynamoqda. Bu jarayon ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lishi bilan birga, falsafiy jihatdan ham ko‘plab savollarni keltirib chiqaradi. Insonlarning erkin harakatlanishi, identitet va madaniy integratsiya masalalari zamonaviy dunyoda dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda.

Kelajakda xalqaro migratsiyani boshqarish va uning ijobiy natijalarini oshirish uchun global darajada hamkorlikni rivojlantirish zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. B., Mariana. Migration and globalization: challenges and perspectives // *Globalization – Economic, Social and Moral Implications*. – 7–8 April, 2017. – DOI: 10.5281/zenodo.581757.
2. Held D., McGrew A., Goldblatt D., Perraton J. Global Transformations: Politics, Economics and Culture. – Stanford: Stanford University Press, 1999. – URL: https://www.geog.mcgill.ca
3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. 1948-yil 10-dekabr, BMT Bosh Assambleyasining 217 A (III) sonli rezolyutsiyasi, 14-modda. – URL: https://www.un.org
4. Vertovec S. Super-Diversity and its Implications // *Ethnic and Racial Studies*. – 2007. – Vol. 30, No. 6. – P. 1024–1054. – URL: https://www.uio.no

UO‘K: 9 (100)

ANTIK PARFIYA DAVLATINING IQTISODIY-MADANIY HAYOTI VA BOSHQARUV TIZIMI TAHLILI

M.S.Suyarov
SamDU tarix fakulteti magistri
Email: **suyarovmahmud2@gmail.com**, Tel: +998 93 806 56 61, ORCID: 0009-0002-2187-1051

Annotatsiya: Ushbu maqolada miloddan avvalgi III asr oxiridan milodiy III asr boshlarigacha bo‘lgan davrda mavjud bo‘lgan, qadimiy antik-ellinistik davlatlardan biri hisoblangan Parfiya davlati tarixi atroflicha tahlil qilinadi. Ushbu ilmiy ish davlatning boshqaruv tizimi tarixi bilan birgalikda uning harbiy sohada qo‘lga kiritgan yutuqlari, iqtisodiy jihatdan nihoyatda muhim mintaqada joylashganligining mamlakat taraqqiyotidagi o‘rni, diniy hamda madaniy jihatdan o‘zida ham Sharq ham G‘arb madaniyati uyg‘unligini namoyon etganligi, jumladan haykaltaroshlik, tanga pul muomalasi va me’morchilik vositasida ushbu o‘ziga xos aralashuv jarayonining yaqqol namoyon bo‘lganligi jihatlarini batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: tanga, haykaltaroshlik, ellinizm, Rim, Salavkiylar, Sosoniylar, shahonshoh, zardushtiylik, satrap.

Аннотация: В данной статье всесторонне анализируется история Парфянского государства — одного из древних эллинистических государств, существовавшего с конца III века до н.э. до начала III века н.э. В научной работе рассматриваются не только история системы управления, но и военные достижения государства, его стратегическое расположение в экономически важном регионе и его роль в развитии страны. Особое внимание уделено религиозной и культурной жизни, в которой отчетливо проявляется синтез Восточной и Западной культур. Этот уникальный процесс смешения культур ярко выражен в скульптуре, монетном обращении и архитектуре.

Ключевые слова: монета, скульптура, эллинизм, Рим, Селевкиды, Сасаниды, шахиншах, зороастризм, сатрап.

Annotation: This article thoroughly analyzes the history of the Parthian state, one of the ancient Hellenistic states that existed from the late 3rd century BCE to the early 3rd century CE. This scientific work explores the state's administrative system along with its military achievements, the importance of its geographical location in a region of significant economic value, and the manifestation of both Eastern and Western cultural elements in its religious and cultural life. The blend of these cultures is clearly reflected in sculpture, coin circulation, and architecture, demonstrating a unique synthesis process.

Key words: coin, sculpture, Hellenism, Rome, Seleucids, Sasanians, king of kings, Zoroastrianism, satrap.

Kirish. Parfiya davlati miloddan avvalgi III asr o‘rtalaridan milodiy III asr birinchi choragi yakuniga qadar mavjud bo‘lgan antik-ellinistik davlatlardan biri hisoblanadi. Davlat hududlarining asosiy qismi hozirgi Eron davlatiga to‘g‘ri keladi. Biroq, davlat taraqqiy etgan vaqtlarda u o‘z ta’sirini g‘arbda qadimgi Mesopotamiya hamda sharqda O‘rta Osiyo mintaqasi davlatlariga o‘tkaza olgan. Davlatning muhim strategik joylashuvi ham davlat taraqqiyotidagi muhim omillardan biri hisoblanadi. Chunki, uning hududidan Sharqdan G‘arbga muhim savdo yo‘llari, jumladan Buyuk ipak yo‘li tarmoqlari o‘tgan. Aynan

ushbu omil keyinchalik davlatning Xitoy hamda Rim imperiyasi bilan o‘zaro aloqalarida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Savdo yo‘lining muhim bog‘lovchi qismini nazorat qilish esa davlatda ulkan moliyaviy daromad keltirgan. Arshak I rahbarligida Salavkiylar saltanatidan boshqa bir ellin davlati Yunon-Baqtriya bilan deyarli bir vaqtda mustaqillikka erishgan Parfiya davlati ham o‘zida boy ellinizm madaniyati yutuqlarini mujassamlashtirgan. Uning Rim imperiyasi bilan doimiy urushlari esa davlatning geosiyosiy roli bilan bog‘liq. Milodiy 224-yilda Sosoniylar davlati tomonidan barham berilgan davlat o‘zidan boy madaniy, ijtimoiy-siyosiy meros qoldirdiki, uning yutuqlarini keyinchalik tashkil topgan davlatlar o‘zlashtirdilar.

Adabiyotlar tahlili. Parfiya davlati tarixi, mamlakatdagi siyosiy va madaniy jarayonlar haqida ma’lumot beruvchi bir qator manbalar mavjud. Ular qatoriga Parfiya davlati joylashuvi, madaniy va siyosiy hayot haqida ma’lumot beruvchi Strabonning “Geografiya” asarini [9. 1964: C.486-487], Parfiyaning Rim bilan munosabatlarini yorituvchi Plutarxning “Paralel hayotlar” asari [8. C.433-442] ni, Rim va Parfiya o‘rtasidagi diplomatik aloqalar hamda to‘qnashuvlar tarixi o‘rin olgan Dio Kasssiyning “Rim tarixi” [5. 2011: C.107-112] asarlarini keltirishimiz mumkin. Shuningdek, mamlakatda me’morchilik, haykaltaroshlik va amaliy san’at jadal rivojlanganligi tufayli arxeologik manbalar ham davlatning iqtisodiy va ma’daniy hayotini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, Parfiya birinchi poytaxti hisoblanmish Nisoda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot-qidiruv ishlari natijasida ko‘plab haykalchalar, fil suyagidan yasalgan qadahlar va bir qancha tangalar topib o‘rganilgan. Hozirgi kunda esa ham yozma ham moddiy manbalarni o‘rganish natijasida bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ular qatoriga A. G. Bokshaninning “Rim va Parfiya” [2. 1966: C.22-39], N. K. Dibvoizning “Parfiyaning siyosiy tarixi” [4. 2008: C.23-28] asarlarini keltirishimiz mumkin. Ularda davlatning vujudga kelishi, rivojlanishi va qulashi sabablarini yoritadigan siyosiy ma’lumotlar bilan bir qatorda mamlakatda madaniyat, san’at rivoji bilan bog‘liq boy ma’lumotlar keltirilgan.

Ham Salavkiylar ham boshqa chegaradosh davlatlar bilan kurashda albatta parfiyaliklar qo‘shinlari g‘alabasining bir qator omillari mavjud edi. Jumladan, yengil qurollangan, tezkor otliq suvoriylar jangda g‘alabaga erishishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan. Harbiy harakatlar vaqtida hukmdorlar tomonidan “Parfiya otishmasi” nomli harbiy jang usuli qo‘llanilardi. Bunda, yolg‘ondan chekinayotgan tezkor otliq kamonchilar kutilmaganda ot ustida o‘tirgan holda bo‘lsalar-da, mohir mergan sifatida tayyorlanganliklari tufayli orqaga qaragan holda kamondan o‘q uza olar edilar. Ushbu favqulodda harakat tabiiyki, dushman harbiy kuchlarini sarosimaga solib qo‘yar hamda ularning katta talofat ko‘rishini ta’minlar edi. Ushbu jang usuli ilk o‘rta asrlarda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligini uning Sosoniylar davlati tomonidan faol o‘zlashtirilganligidan bilishimiz mumkin [1. 2010: P.1]. Davlat Mitridat I va Mitridat II hukmronliklari davrida o‘z taraqqiyotining cho‘qqisiga erishdi. Ular tomonidan qo‘llanilgan harbiy jang usullari esa o‘z davri va keyingi davr davlatlari harbiy qo‘shinlari uchun dasturulamal vazifasini o‘tab berdi. Xususan, Sosoniylar davlati harbiylari tomonidan Parfiya harbiy san’ati yutuqlari keng miqyosda o‘zlashtirildi.

Parfiya davlati boshqaruv shakliga ko‘ra mutloq monarxiya bo‘lib, davlatni cheklanmagan huquqqa ega bo‘lgan “shahonshoh” boshqargan. Diniy marosimlar, jumladan, zardushtiylik diniga oid urf-odatlar vositasida shohlarning shaxsiyati ilohiylashtirilgan. Bu omil o‘z navbatida ular hokimiyatining mustahkamlanishini ta’minlagan. Davlat ma’muriy tuzilishiga ko‘ra federativ davlat belgilariga ega bo‘lib, Salavkiylar davlati kabi bir qator satrapliklardan tarkib topgan. Ushbu satraplik tizimi hokimlari ayrim hollarda markaziy hokimiyatga bo‘ysunishni istamagan. Bunday hol davlat parokandaligiga olib kelib, davlatni zaiflashtirishtirgan omillarning eng asosiysi edi. Shuningdek, mamlakatda maslahat organi hisoblanmish “Oliy kengash” (Oqsaqollar kengashi) ham faoliyat yuritgan. U shartli ravishda 2 ta turli darajada siyosiy ta’sirga ega bo‘lgan guruhlar vakillaridan iborat bo‘lib, birinchi qismga podshoning qarindoshlari va yaqinlari, ikkinchiga esa mo‘tabar ruhoniylar hamda donishmandlar kiritilgan [10. 2005: C.334]. Uning tarkibiga kirgan amaldorlar davlat ahamiyatiga molik muhim qarorlarni qabul qilish oldidan hukmdorga o‘zlarining tavsiyalarini berish orqali davlat boshqaruvida ma’lum darajada ishtirok etganlar. Ular bilan bo‘lib o‘tgan muhokamadan so‘ng shoh o‘zining yakuniy qarorini chiqargan. Ushbu vakolatli organ tarkibiga nafaqat davlat hayotida muhim o‘rin tutgan nufuzli harbiy sarkardalar, balki bir qator obro‘ e’tiborli zodagonlar ham kiritilgan. Manbalarda keltirilishicha, ushbu kengashning eng asosiy ta’sir doirasi davlat valiahdini ta’yinlash ishlariga aralasha olganligi bilan belgilanadi.

Parfiya davlatining iqtisodiy hayoti boshqa o‘sha davrda mavjud bo‘lgan ellin davlatlar bilan ba’zi umumiylik jihatlariga ega edi. Hukmdorlar tomonidan zarb etilgan tangalar shohlarning tasvirlari bilan bir qatorda yunon tilida bitilgan turli mazmundagi yozuvlar bilan qoplangan. Bu esa davlatda yunon tili rasmiy til sifatida muomalada bo‘lganligidan dalolatdir. Tangalar asosan, kumushdan zarb etilib, zamonaviy

numizmatikada draxma hamda tetradraxma nomlari bilan yuritiladi. Miloddan avvalgi II asr oxirida vujudga kelgan Buyuk Ipak yo‘li ko‘plab davlatlar qatori Parfiyaning ham iqtisodiy ahvoliga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatgan. Osiyoning markaziy qismidagi o‘lkalarni o‘z tasarrufiga kiritgan Parfiya saltanati Xitoy va Hindiston kabi sharqiy davlatlarni O‘rta yer dengizi bo‘ylaridagi xalqlar bilan o‘zaro iqtisodiy aloqalarida muhim o‘rin tutuvchi, o‘zaro bog‘lovchi mintaqa hisoblangan. Parfiyalik savdogarlar har ikki tomon uchun savdo vositachilari vazifasini ham o‘tashgan. Davlatning keng o‘lkalarida dehqonchilik va chorvachilik, shaharlarda esa hunarmandchilik jadal ravishda taraqqiy etgan.

Parfiyada ham ellinizm madaniyati o‘ziga xos tarzda rivojlanib, yunon va fors madaniy elementlari o‘zaro uyg‘unlashuvi jarayoni sodir bo‘ladi. Dastlab hukmdorlar davlat ishlarini rasmiy til hisoblanmish yunon tilida olib borishga uringan bo‘lsalar-da, keyinchalik u o‘z o‘rnini qadimiy eroniy tiliga bo‘shatib berishga majbur bo‘ladi. Buning boisi shuki, davlat hududlarida yashayotgan yunon-makedon millatiga mansub kam sonli aholi va hukmron doiralar mahalliy aholi bilan jadal sintezlashuvga uchraydi hamda ularning madaniyati elimentlarini o‘z-o‘zidan qabul qilishga majbur bo‘ladilar. Mahalliy me’morchilikda ilgari ham mavjud bo‘lgan ayvonlar, gumbazli binolar qurish texnikasi yunonlarning shunga o‘xshash bunyodkorlik an’analari bilan yanada boyitilgan. Haykaltaroshlik ham rivojlangan bo‘lib, Niso shahrida o‘tkazilgan arxeologik qazishmalar natijasida bir qancha terrakota haykalchalar va fil suyagidan yasalgan ritonlar ya’ni qadahlar topilgan [7. 1959: C.43]. Ma’lumotlarga ko‘ra, ushbu idishlar diniy maqsadlarda ya’ni diniy marosimlarni amalga oshirish uchun ishlatilgan. Ushbu yuksak san’at namunalaridan tashqari, rassomchilik ham rivojlangan bo‘lib, qadimiy shaharlar qoldiqlaridan saroy va ibodatxonalar devorlariga chizilgan devoriy rasmlar topilgan. Ushbu tasvirlardagi asosiy obrazlar syujeti jang manzarasi hamda hukmdor tomonidan tashkil etilgan ov jarayoni hisoblanadi. Ushbu san’at rivojlanishining e’tiborli tomoni shundaki, u keyinchalik Parfiya davlatini tugatgan va uning vorisi bo‘lgan Sosoniylar davlatiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmagan. Xususan, ayvonli saroylar qurish an’anasi Sosoniylar davri me’morchilik namunalarida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Parfiyadagi diniy hayot masalasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, mamlakat bu borada o‘sha vaqtda O‘rta Osiyo hududida faoliyat olib borgan ellin davlatlar bilan bir qator umumiy jihatlarga ega ekanligi ko‘zga tashlanadi. Jumladan, aholining asosiy diniy e’tiqodi bu zardushtiylik bo‘lgan. Biroq, ellinizm ta’siri ostida yunon mifologiyasi va zardushtiylikning o‘ziga xos sintezi vujudga keladi. Xususan, Zevs va Appalon kabi yunon xudolari zardushtiylarning turli ma’budlariga qiyoslanadi hamda ularga ham sig‘inish boshlanadi [6. 2004: C.103]. O‘z navbatida zardushtiylikning ham G‘arb xalqlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatganligini ko‘rishimiz mumkin. Fikrimiz isboti o‘laroq, Rim imperiyasida zardushtiylikda quyosh xudosi hisoblangan Mitra sig‘inganliklari haqida ma’lumotlar saqlanib qolgan [3. 2019: C. 83-88]. Marg‘iyona tarixiy viloyati o‘rinidagi qadimiy shaharlar xarobalaridan esa yunon xudolarining haykallari, devoriy tasvirlari topilgan. Ibodatxonalar devorlariga tasvirlangan ushbu tasvirlarda ham zardushtiylik, ham yunon xudolarining, ba’zi o‘rinlarda esa, xatto birgalikda tasvirlaganliklarini ko‘rishimiz mumkin. Aynan shunday obidalarning topib o‘rganilishi ellinizm madaniyati taraqqiyotining yaqqol dalilidir.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashimiz mumkinki, Parfiya davlati o‘zidan ulkan madaniy, harbiy-siyosiy meros qoldirdi. Boshqa o‘sha davrda mavjud bo‘lgan ellinistik davlatlar bilan rivojlanishda birmuncha umumiylikka ega bo‘lsa-da, ba’zi o‘ziga xos jihatlari bilan jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shdi. Garchi ushbu davlatning asosiy shaharlar hozirgi Eron hududida joylashgan bo‘lsa-da, mamlakat o‘zining harbiy qudrati tufayli uning chegaralari ham sharqqa ham g‘arbga tomon kengayib, Mesopotamiya va O‘rta Osiyo xalqlari hayotiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsata olgan edi. Madaniy jarayonlarda yunon va fors san’ati, madaniyati o‘zaro sintezlashuvi jarayoni sodir bo‘ldi. Zardushtiylik o‘zining asosiy din mavqeyini saqlab qolsa-da, u qisman qadimgi davr yunon mifologiyasi bilan qorishib ketadi.

Davlatning asosan iqtisodiy hamda qisman siyosiy masalalar ko‘zlangan tashqi aloqalari Rim va Xitoy kabi qudratli davlatlar bilan o‘zaro diplomatik aloqalar o‘rnatilishiga olib keladi. Rim imperiyasi bilan munosabatlar birmuncha ziddiyatli bo‘lsa-da, bu omil o‘zaro madaniy almashinuv jarayonlari hamda tijoriy aloqalarning butunlay to‘xtab qolishiga olib kelmagan. Mamlakatning boshqaruv tizimi monarxiyaga asoslangan bo‘lsa-da, unda boshqa o‘sha davr davlatlarining ko‘pchiligida mavjud bo‘lmagan demokratik davlat ayrim elementlarini uchratishimiz mumkin. Fikrimiz isboti o‘laroq, muhokama organi sifatida Oqsaqollar kengashining mavjud bo‘lganligi hamda uning mamlakat siyosiy hayotiga faol ta’sir o‘tkaza olganligi manbalarda qayd etiladi. Davlatning zaiflashuvi hamda oxir-oqibat barham topishining sabablari uning uzoq yillar davomida tinimsiz ravishda turli davlatlar, jumladan Yunon-Baqtriya, Rim imperiyasi kabi mamlakatlar bilan olib borgan urush harakatlari bilan belgilanadi. Tabiiyki, doimiy faol

harbiy harakatlar Parfiya iqtisodiy hayotiga salbiy ravishda ta’sir o‘tkazadi. Bundan tashqari mahalliy zodagonlar va hukmdorlar o‘rtasidagi o‘zaro ziddiyatlar ham davlatni parokandalikka duchor qilgan omillardan sanaladi. Shu tariqa qariyb besh asr davomida mavjud bo‘lib turgan davlat o‘z o‘rnini ilk o‘rta asrlarning qudratli davlatlaridan biri bo‘lmish Sosoniylar davlatiga bo‘shatib beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rick Lippiett. The Parthian Shot. Newsletter of the British Horseback Archery Association // Issue 2, June 2010.
2. А. Г. Бокщанин. Парфия и Рим (Исследование о развитии международных отношений позднего периода истории античного мира) Издательство Московского Университета, 1966 г.
3. А. Ю. Челнокова. Митраистические памятники и иконография культа Митры в Римской империи. // Всеобщая история. Вестник МГПУ серия «Исторические науки», 2019.
4. Дибвойз Н. К. Политическая история Парфии // Пер. с англ., науч. ред. и библиографич. приложение В. П. Никонорова. — СПб. : Филологический факультет СПбГУ, (Историческая библиотека) 2008.
5. Кассий Дион Коккейан. Римская история. Книги LXIV-LXXX / пер. с дрсвнегреч. под ред. А. В. Махлаюка; комментарии и статья А. В. Махлаюка. — СПб. : Филологический факультет СПбГУ ; НесторИстория, 2011.
6. Колледж Малькольм. Парфяне. Последователи пророка Заратустры // Пер. с англ. Т.Л. Черезовой. - М.: ЗАО Центрпо-лиграф, лизаций). (Загадки древних цивилизаций, 2004.
7. Массон М.Е., Пугаченкова Г.А. Парфянские ритоны Нисы // Труды Южно-Туркменистанской археологической комплексной экспедиции. Т.IV. Издательство Академии наук Туркменской ССР Ашхабад. 1959.
8. Плутарх. Сравнительные жизнеописания. Никий и Красс. перевод Т.А. Миллер.
9. Страбон. География. Ленинградское отделение издательства «Наука» Ленинград, Менделеевская лин., д. 1. 1964 г.
10. Юстин Марк Юниан. Ю90 Эпитома сочинения Помпея Трога «Histsriae Philippicae» / Пер. с лат. А. А. Деконского, М. И. Рижского; Под ред. М. Е. Грабарь-Пассек; Комментарии К. В. Вержбицкого, М. М. Холода; Вст. ст.к. К. Зельина. СПб.: Изд-во С. Петерб. ун-та, 2005.

NEFTNI TUZSIZLANTIRISH VA DEEMULGATORLAR YORDAMIDA SUVSIZLANTIRISH

D.S.Boboyev
Toshkent kimyo texnologiya instituti tayanch doktarant
M.U.Karimov
Toshkent kimyo texnologiya ilmiy tadqiqot instituti, t.f.d.prof
boboyevdilshod298@gmail.com +99891 163-22-55

Annotatsiya: Maqolada namuna uchun olingan neft tarkibidagi suvning tabiati, ularning emulsiya holati va neftni samarali suvsizlantirishda deemulgatorlarning o‘rni yoritilgan. Shuningdek, deemulgatorlarning tasnifi, ish faoliyati mexanizmi hamda laboratoriya sharoitida o‘tkazilgan tajribalar asosida ularning samaradorligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Neft, Deemulgator, Emulsiya, Suv, Uglevodorod, PAN, NaOH.

Kirish. Neftni qayta ishlash zavodlariga keladigan neftlardagi suvning katta qismi 2-5 mkm diametrdagi suv tomchilaridan hosil bo‘lgan emulsiya ko‘rinishida bo‘ladi. Neftli muhitdan tomchi yuzasiga smolasimon moddalar, asfaltenlar, organik kislotalar va ularni neftda erigan tuzlari adsorbsiyalanadi. Shuningdek, qiyin suyuqlanadigan parafinlarni yuqori dispers zarralari neftga aralashgan bo‘ladi. Vaqt o‘tishi bilan adsorbsiya qavati qalinlashib, uning mexanik mustahkamligi ortadi va emulsiya susayishi kuzatiladi. Bu xolatni oldini olish maqsadida ko‘pgina konlarda neftga deemulgator qo‘shiladi. Deemulgatorlardan neftni suvsizlantirishni termokimyoviy va elektrokimyoviy usullarida foydalaniladi.

Neft tarkibidagi suv va unda erigan mineral tuzlarni ajratib olish jarayoni deminerallash deb ataladi va u demineralizatorlarda o‘tkaziladi. Neftni deminerallash uning korrozion aktivligini kamaytirishning asosiy usullaridan biri bo‘lib, xom-ashyo holidagi neft tarkibidagi mineral tuzlarni maksimal darajada ajratib olishdir.

Neft tarkibidagi mineral tuzlar ikki ko‘rinishda:

1. Uglevodorodlar bilan aralashgan kristallar;

2. Neft tarkibidagi suvda erigan tuzlarning emulsiyasi ko‘rinishida bo‘ladi.

Neft tarkibidagi mineral tuzlar erigan suv tomchisi (emulsiya) o‘lchami 1/10 mikron bo‘lib, u emulgator zarrachalari yordamida barqarorlashgan holatda bo‘ladi.

Neft tarkibidagi suv va unda erigan mineral tuzlarni tozlash uchun qo‘llaniladigan demineralizatorning ishlash prinstipi quyidagicha amalga oshiriladi.

1. Neft tarkibidagi tuzlarni suvda diffuziyalanishini ta’minlash. Buning uchun qaynoq suv bir necha joydan neft tarkibiga purkaladi va emulsiyalangan “neft-suv” aralashmasi demineralizatorga yuboriladi. Suvning umumiy miqdori 3-6 % ni tashkil etib, aralashtirgich yordamida aralashtirib turiladi.

2. Suv tomchilarini elektrokoalessensiyalash suvning neftdagi emulsiyasi uzluksiz neft fazasida suv tomchilarining tarqalishidan hosil bo‘lgan 1/9 mikron o‘lchamdagi zarrachalardan iborat. Bu zarrachalarni neft tarkibidan ajratish uchun gravitasion ta’sir tufayli yiriklashtirilib, suvni qatlam holiga o‘tkaziladi. Jarayonning muhim bosqichlaridan biri elektr maydoni ta’sirida tuzga to‘yingan suv tomchilarini elektrokoalessensiya yo‘li bilan yiriklashtirishdir.

Albatta yuqoridagi jarayonlar neftni birlamchi qayta ishlash jarayonlari bo‘lib, neft tarkibidagi suvni to‘liq ajratish imkoniyati juda past. Ushbu tuzsizlantirish va suvsizlantirish jarayonlaridan keyin ham neftning tarkibida juda kam miqdorda suv va suv holidagi emulsiya saqlanib qoladi. Bu emulsiyalar deemulgatorlar yordamida neft tarkibidan ajratib olinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Deemulgatorlar sirt faol moddalar bo‘lib, neft-suv aralashmasida deemulgatorning ta’siri odatda adsorbsiyalangan sirt faol moddalarning siljishiga asoslanadi. Bu mayda suv tomchilarining to‘planishiga va kattaroq tomchilarga birlashishiga imkon beruvchi interfaol plyonka holiga olib keladi. [1]. Deemulgatorlar sarfi har bir tonna neft uchun 0,002 -0,005 % (massa) oralig‘ida bo‘ladi.

Bugungi kunda neft kimyo sanoatida deemmulgatorlarning bir necha turlari ishlatiladi. Masalan emulgatorli qo‘shimchalar sifatida OP-10 etilen oksidi asosida tayyorlangan diproksomin, noionogenli SFM (sirt faol moddalar) qo‘llaniladi. So‘nggi yillarda neftni qayta ishlash qurilmalari neft emulsiyasini suvsizlantirishda K-1 markadagi yoki unga o‘xshash tavsifli boshqa markadagi deemulgator ishlatiladi [2].

Biz taklif etayotgan deemulgator poliakrilonitril asosida sintez qilingan deemulgator hisoblanadi. Poliakrilonitril (PAN) — bu muhim sintetik polimer bo‘lib, u akrilonitril (CH_2=CH–CN) monomerlarining radikal polimerlanishi orqali olinadi. PAN yuqori mexanik mustahkamlikka ega bo‘lsa-da, u asosan gidrofob (suvni itaruvchi) tabiatga ega. Ammo PANning kimyoviy strukturasi gidrofil guruhlarga aylantirilsa, u suv yutuvchi (absorber) yoki filtrlovchi materialga aylanishi mumkin.

Poliakrilonitrilning tuzilishi:

PAN zanjirida har bir takrorlanuvchi birlikda nitril (-CN) guruhi mavjud:

$[-CH_2–CH(CN)-]_n$

Nitril guruhi suv bilan kuchli o‘zaro ta’sirga kirishmaydi, shuning uchun PAN tolalari odatda suvni deyarli yutmaydi.

NaOH bilan gidroliz reaksiyasi

PAN ni ishqoriy muhitda, ya’ni natriy gidroksid (NaOH) eritmasida gidroliz qilinsa, u nitril guruhlarni amid yoki karboksil guruhlarga aylantiradi.

Qisman gidroliz (amid hosil bo‘lishi)

Nisbatan yumshoq sharoitda PAN nitril guruhi amidlarga aylanadi:

$–CH_2–CH(CN)– + H_2O \rightarrow –CH_2–CH(CONH_2)–$

To‘liq gidroliz (karboksil kislota hosil bo‘lishi)

Kuchli gidroliz (yuqori harorat va konsentratsiyada) natijasida amid guruhi karboksil guruhga aylanadi:

$–CH_2–CH(CONH_2)– + NaOH \rightarrow –CH_2–CH(COO^-Na^+)– + NH_3\uparrow$

Yoki protonlangan holda:

$–CH_2–CH(COOH)–$

Gidrofil xossaning ortishi

Ishlov berilgan PAN:

- Neft tarkibidagi suv tomchilarini o‘ziga tortadi.
- Shishadi ya’ni suv tomchilari kattalashadi.
- Yuzasida ionik yoki vodorod bog‘lar hosil qilinadi.

Tajriba sharoiti. 1-jadval

Parametr	Qiymat
NaOH konsentratsiyasi	0.1 – 1 M
Harorat	90–100°C
Vaqt	12-14soat
Muhit	Suvli ishqoriy muhit
Rangi	Och yashil, sarg‘ish

Reaksiya nazorat qilinmasa, PAN zanjiri parchalanib ketadi va ko‘pirib ketish ehtimoli juda yuqori, reaksiya yahshi ketishi uchun u doimiy aralashtirgich yordamida aralashtirib turiladi. Shuning uchun qisman gidroliz afzal.

Xulosa. PAN — aslida gidrofob polimer bo‘lishiga qaramay, NaOH bilan ishqoriy gidroliz qilinishi orqali gidrofil (suv yutuvchi) holatga o‘tkazilishi mumkin. Bu reaksiyada PAN tarkibidagi nitril guruhlari amid va karboksil guruhlarga aylanadi, natijada polimer suv bilan o‘zaro ta’sirga kirishadi. Ushbu xossaning ortishi PANning yangi texnologik va sanoat sohalarda qo‘llanishini kengaytiradi. Shuningdek biz olib borgan tajribalar natijasidan ham shuni kuzatish muminki PAN asosidagi deemulgatorlar neft tarkibidagi suvni kam miqdorda bo‘lsada kamaytiruvchi xususiyatga egadir. Tajribalar uchun namuna sifatida ”Kakaydi” neft konidan olingan neft tarkibidagi suvni yahshi ajrata olgani kuzatildi. Shuningdek PAN asosidagi deemulgatorlar boshqa suvni yashshi yutuvchi kimyoviy reagentlar bilan ishlov berish natijasida neft tarkibidagi suvni yuqori miqdorda yutish qobilyatini oshirish imkoniga ega ekanligiga xulosa qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.S.Boboyev. M.U. Karimov.F.S.Ismoilov “Neft tarkibidagi suvni deemulgatorlar yordamida ajratish usullari”,”Development of science” ilmiy jurnali. 2025.07.4-jild. **https://devos.uz/article.php?id=1454**

2. B.R.Rahimov, O.O. Hamroyev, “Turli deemulgatorlarning neft emulsiyasiga ta’siri va uning samaradorligini oshirish” “Science and Education" ilmiy jurnali. 2024-yil dekabr, 5-jild, 12-soni

3. O.B. Axmedova. Sh.S. Boltayev. Deemulgatorlar turlari, ularni tayyorlash usullari. Scientific progress. 2022-3-16 **http://sjifactor.com/passport.php?id=22257**

4. S.K.Yusupov,F.M.Yusupov,G'.M.Bekturdiev,G.R. Hakimova, I.L Latipova. ,,Maxalliy xom-ashyolar asosida deemulgatorlar sintezi’’, ,,Kimyo va kimyo texnologiyasi ilmiy-texnikaviy jurnali’’(2017)

5. A.R.Qurbanov. O.A.Solixova. M.A. Mirzaaxmadova. G.A. Boymatova. “Получение импортозамещающих деэмульгаторов на основе местного сырья”.Universum.(2019). **http://7universum.com/ru/tech/archive/item/6966**

6. Abduraxim Ochilov, Bobirjon Adizov. “Analysis of demulsifier production from sulfurized cottonseed oil and breakdown of water-oil emulsions” “The austrian journal of technical and natural sciences” Doi:10.29013/ajt-24-5.6-79-82

7. Abdulraheim Mahmoud Abdulraheim. “Green polymeric surface active agents for crude oil demulsification”. “Journal of Molecular Liquids”(2018).

TALABALARNI INTERFAOL METODLAR ASOSIDA TEXNOLOGIK KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Q.O.Allanazarov
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiya universiteti assistenti
E-mail: **quldosh0616@gmail.com**

Annotatsiya: Ushbu tezisda oliy ta'lim tizimida talabalarning texnologik kompetentsiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda interfaol metodlarning o‘rni va samaradorligi tadqiq etilgan. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida an'anaviy ta'lim metodlari talabalarda amaliy ko‘nikmalarni, tanqidiy fikrlashni va jamoada ishlash qobiliyatini to‘liq shakllantirish uchun yetarli emasligi asoslab berilgan. Tadqiqot doirasida "keys-stadi", "loyihaga asoslangan ta'lim" (PBL), "ag‘darilgan sinfxona" va "ishbilarmonlik o‘yinlari" kabi interfaol metodlarning o‘quv jarayoniga

integratsiyasi bo‘yicha o‘tkazilgan pedagogik eksperiment natijalari tahlil qilingan. Eksperiment natijalari shuni ko‘rsatdiki, interfaol metodlar qo‘llanilgan tajriba guruhidagi talabalarning texnologik bilimni o‘zlashtirish darajasi, dasturiy vositalardan foydalanish ko‘nikmalari va muammolarni yechish qobiliyati nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘lgan. Tezisda ushbu metodlarni amaliyotga joriy etish bo‘yicha metodik tavsiyalar va xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: texnologik kompetentsiya, interfaol metodlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar, keys-stadi, loyihaga asoslangan ta'lim, ag‘darilgan sinfxona, talaba, oliy ta'lim, kompetentli yondashuv.

Аннотация: В диссертационной работе исследуются роль и эффективность интерактивных методов в формировании и развитии технологических компетенций студентов системы высшего образования. Утверждается, что в современных условиях глобализации и цифровой трансформации традиционные методы обучения недостаточны для полноценного развития практических навыков, критического мышления и навыков командной работы у студентов. В исследовании анализируются результаты педагогического эксперимента по интеграции в образовательный процесс интерактивных методов, таких как «кейс-стади», «проектное обучение» (PBL), «перевернутый класс» и «деловые игры». Результаты эксперимента показали, что уровень освоения технологических знаний, навыков использования программных средств и навыков решения проблем у студентов экспериментальной группы, где применялись интерактивные методы, был существенно выше, чем в контрольной группе. В диссертационной работе представлены методические рекомендации и выводы по внедрению данных методов в практику.

Ключевые слова: технологическая компетентность, интерактивные методы, инновационные педагогические технологии, кейс-стади, проектное обучение, перевернутый класс, студент, высшее образование, компетентностный подход.

Abstract: This thesis studies the role and effectiveness of interactive methods in the formation and development of students' technological competencies in the higher education system. It is argued that in today's conditions of globalization and digital transformation, traditional educational methods are insufficient to fully develop practical skills, critical thinking, and teamwork skills in students. The study analyzes the results of a pedagogical experiment on the integration of interactive methods such as "case studies", "project-based learning" (PBL), "flipped classroom" and "business games" into the educational process. The results of the experiment showed that the level of mastery of technological knowledge, skills in using software tools, and problem-solving skills of students in the experimental group where interactive methods were used was significantly higher than in the control group. The thesis presents methodological recommendations and conclusions on the implementation of these methods in practice

Keywords: technological competence, interactive methods, innovative pedagogical technologies, case study, project-based learning, flipped classroom, student, higher education, competency-based approach.

Kirish: XXI asr — axborot texnologiyalari va raqamli iqtisodiyot asri sifatida tarixga kirmoqda. Bu davrda jamiyatning har bir jabhasida, ayniqsa, mehnat bozorida mutaxassislarga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarmoqda. Endilikda ish beruvchilar nafaqat nazariy bilimlarga ega, balki zamonaviy texnologiyalarni chuqur tushunadigan, ulardan amaliyotda samarali foydalana oladigan, nostandart vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila oladigan va jamoa bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lgan kadrlarni izlamoqda. Ushbu talablarga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlash esa bevosita ta'lim tizimi, xususan, oliy ta'lim oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O‘zbekiston — 2030" strategiyasida ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish, aholi va tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilangan. Bu strategiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun, avvalo, yuqori malakali, zamonaviy texnologik kompetentsiyalarga ega kadrlar zarur. Bu o‘rinda "texnologik kompetentsiya" tushunchasiga aniqlik kiritish lozim. Texnologik kompetentsiya — bu shaxsning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va boshqa texnologik vositalardan o‘z kasbiy faoliyatida duch keladigan muammolarni hal qilish, axborotni izlash, tahlil qilish, qayta ishlash, uzatish va yangi bilimlar yaratish maqsadida ongli ravishda va samarali foydalana olish qobiliyatidir. U nafaqat kompyuter savodxonligini, balki tanqidiy fikrlash, axborot madaniyati, raqamli etika va kiberxavfsizlik qoidalariga rioya qilish kabi jihatlarni ham o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, an'anaviy ta'lim metodlari — ma'ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlarning klassik ko‘rinishlari — ko‘p hollarda talabalarni passiv tinglovchi pozitsiyasida qoldiradi. Bunday yondashuv

nazariy bilimlarni berishda ma'lum bir samara bersa-da, talabalarda amaliy ko‘nikmalarni, kreativlikni, jamoada ishlash va muammolarni mustaqil hal etish kabi muhim "yumshoq ko‘nikmalar"ni (soft skills) rivojlantirishda oqsaydi. Natijada, bitiruvchilar real ish sharoitlariga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Ushbu muammoni hal etishning eng samarali yo‘llaridan biri — o‘quv jarayoniga interfaol metodlarni keng joriy etishdir. Interfaol metodlar ("inter" — o‘zaro, "act" — harakat) talaba va o‘qituvchining, shuningdek, talabalarning o‘zaro faol hamkorligiga asoslangan bo‘lib, ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini bilim olish va almashish jarayoniga jalb qiladi. "Keys-stadi", "loyihaga asoslangan ta'lim", "ag‘darilgan sinfxona", "aqliy hujum", "ishbilarmonlik o‘yinlari" kabi metodlar talabalarni shunchaki ma'lumotni yodlashga emas, balki uni tahlil qilishga, muhokama qilishga, real hayotiy vaziyatlarga tatbiq etishga va shu orqali o‘zlarining texnologik kompetentsiyalarini amalda mustahkamlashga undaydi.

Tadqiqotning maqsadi: Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning texnologik kompetentsiyalarini rivojlantirishda interfaol metodlarning samaradorligini nazariy va amaliy jihatdan asoslash hamda ularni o‘quv jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

1. "Texnologik kompetentsiya" tushunchasining mazmun-mohiyatini va uning tarkibiy qismlarini tahlil qilish.
2. Talabalarda texnologik kompetentsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy interfaol metodlarni o‘rganish va tizimlashtirish.
3. Tanlangan interfaol metodlarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish bo‘yicha pedagogik eksperiment o‘tkazish.
4. Eksperiment natijalarini statistik tahlil qilish va interfaol metodlarning samaradorligini baholash.
5. Olingan natijalar asosida oliy ta'limda interfaol metodlardan foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda texnologik kompetentsiyalarni rivojlantirish jarayoni kompleks interfaol metodlar majmuasi orqali tahlil qilinadi va ularning o‘zaro integratsiyasining samaradorligi aniq pedagogik eksperiment natijalari bilan isbotlanadi.

Metodologiya: Ushbu tadqiqotda belgilangan maqsad va vazifalarga erishish uchun nazariy va empirik metodlar majmuasidan foydalanildi. Tadqiqot bir necha bosqichda amalga oshirildi va har bir bosqichda muayyan metodlar qo‘llanildi.

1. Tadqiqot dizayni: Tadqiqotda kvazi-eksperimental dizayn qo‘llanildi. Ushbu dizayn doirasida ikkita guruh — tajriba guruhi va nazorat guruhi shakllantirildi. Nazorat guruhida darslar an'anaviy usulda (ma'ruza, seminar) olib borilgan bo‘lsa, tajriba guruhida o‘quv jarayoni interfaol metodlar ("keys-stadi", "loyihaga asoslangan ta'lim", "ag‘darilgan sinfxona") asosida tashkil etildi. Eksperiment boshida va oxirida ikkala guruhda ham talabalarning texnologik kompetentsiyalari darajasi maxsus ishlab chiqilgan vositalar yordamida o‘lchandi.

2. Tadqiqot ishtirokchilari: Tadqiqotga Toshkent axborot texnologiyalari universitetining "Dasturiy injiniring" yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan 2-bosqich talabalaridan jami 80 nafari jalb qilindi. Ular tasodifiy tanlov asosida ikkita guruhga ajratildi:

Tajriba guruhi (n=40): Ushbu guruhda "Dasturlash asoslari" va "Materiallar qarshiligi" fanlari interfaol metodlar yordamida o‘qitildi.

Nazorat guruhi (n=40): Ushbu guruhda yuqorida keltirilgan fanlar an'anaviy metodlar asosida o‘tildi.

Ikkala guruhning ham dastlabki bilim darajasi, yoshi va jinsi bo‘yicha tarkibi deyarli bir xil ekanligi ta'minlandi.

3. Tadqiqotda qo‘llanilgan interfaol metodlar:Tajriba guruhida quyidagi metodlar qo‘llanildi:

Keys-stadi talabalarga real hayotdan olingan yoki modellashtirilgan muammoli vaziyat (keys) taqdim etildi. Masalan, "kichik biznes uchun veb-sayt yaratishda duch kelinadigan texnik muammolar va ularning yechimlari". Talabalar kichik guruhlarda keysni tahlil qilib, o‘z yechimlarini taklif qilishdi va uni himoya qilishdi. Bu metod tanqidiy fikrlash va muammo yechish ko‘nikmalarini rivojlantirdi.

Loyihaga asoslangan ta'lim talabalar semester davomida muayyan bir texnologik loyiha ("mobil ilova prototipini yaratish", "aqlli uy tizimi modelini dasturlash") ustida jamoaviy tarzda ishladilar. Bu jarayon ularga rejalashtirish, vaqtni boshqarish, jamoada ishlash va amaliy dasturlash ko‘nikmalarini berdi.

Ag‘darilgan sinfxona: Nazariy materiallar (video-ma'ruzalar, maqolalar) talabalarga uyda mustaqil o‘rganish uchun oldindan berildi. Auditoriyadagi vaqt esa amaliy mashg‘ulotlar, muammolarni muhokama qilish va o‘qituvchi bilan individual ishlashga sarflandi. Bu metod talabalarning mas'uliyatini oshirdi va dars vaqtidan unumli foydalanish imkonini berdi.

4. Ma'lumot yig‘ish vositalari:

Kirish va chiqish testlari: Eksperimentdan oldin va keyin talabalarning texnologik kompetentsiyalarini baholash uchun maxsus testlar ishlab chiqildi. Testlar 3 blokdan iborat bo‘ldi:

a) Nazariy bilimlar (dasturlash tillari sintaksisi, algoritmlar);

b) Amaliy ko‘nikmalar (kod yozish, dasturiy vositalardan foydalanish bo‘yicha amaliy topshiriqlar);

c) Muammo yechish qobiliyati (nostandart masala yechimini topish).

So‘rovnoma: Tajriba guruhi talabalari o‘rtasida interfaol metodlarning qulayligi, qiziqarliligi va samaradorligi haqidagi fikrlarini o‘rganish uchun Likert shkalasi asosidagi so‘rovnoma o‘tkazildi.

Kuzatuv: Dars jarayonida talabalarning faolligi, o‘zaro muloqoti, muammolarga yondashuvi bevosita kuzatuv metodi orqali qayd etib borildi.

Fokus-guruh intervyusi: Tajriba yakunida tajriba guruhidan 8 nafar talaba bilan fokus-guruh suhbati o‘tkazilib, ularning interfaol metodlar haqidagi chuqur mulohazalari va takliflari o‘rganildi.

5. Ma'lumotlarni tahlil qilish: Olingan miqdoriy ma'lumotlar (test natijalari, so‘rovnoma ballari)

SPSS (Statistical Package for the Social Sciences) dasturi yordamida statistik tahlil qilindi. Guruhlar o‘rtasidagi farqning statistik ahamiyatini tekshirish uchun mustaqil t-testi (Independent Samples t-test) qo‘llanildi. Sifatli ma'lumotlar (kuzatuv qaydlari, intervyu transkriptlari) esa mavzuli tahlil (thematic analysis) metodi orqali kodlashtirilib, umumiy xulosalar chiqarildi.

Natijalar: O‘tkazilgan pedagogik eksperiment va ma'lumotlar tahlili natijasida talabalarning texnologik kompetentsiyalarini rivojlantirishda interfaol metodlarning yuqori samaradorligini tasdiqlovchi qator natijalar olindi. Natijalar miqdoriy va sifatli tahlillar asosida quyidagicha umumlashtirildi.

1. Kirish va chiqish testlari natijalarining qiyosiy tahlili

Eksperiment boshida o‘tkazilgan kirish testi (pre-test) natijalari tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasida texnologik kompetentsiyalar darajasida statistik jihatdan ahamiyatli farq yo‘qligini ko‘rsatdi ($p > 0.05$). Bu ikkala guruhning ham boshlang‘ich sharoiti bir xil bo‘lganligini tasdiqlaydi.

Semester yakunida o‘tkazilgan chiqish testi (post-test) natijalari esa guruhlar o‘rtasida sezilarli farqni namoyon qildi.

1-jadval. Chiqish testi natijalarining statistik tahlili

Kompetentsiya blogi	**Tajriba guruhi (O‘rtacha ball, 100 dan)**	**Nazorat guruhi (O‘rtacha ball, 100 dan)**	**O‘sish farqi**	**test (p-qiymati)**
Nazariy bilimlar	85.4	78.2	+7.2	$p < 0.05$
Amaliy ko‘nikmalar	82.1	65.5	+16.6	$p < 0.01$
Muammo yechish	79.5	58.0	+21.5	$p < 0.01$
Umumiy ko‘rsatkich	82.3	67.2	+15.1	$p < 0.01$

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, interfaol metodlar qo‘llanilgan tajriba guruhi barcha bloklar bo‘yicha nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori natijalarni qayd etgan. Ayniqsa, "Amaliy ko‘nikmalar" (farq +16.6 ball) va "Muammo yechish" (+21.5 ball) bloklaridagi farq juda katta. Bu shuni ko‘rsatadiki, keys-stadi va loyihaga asoslangan ta'lim kabi metodlar talabalarni nazariyani amaliyotga bog‘lashga va nostandart vaziyatlarda mustaqil yechim topishga samarali o‘rgatgan. Nazorat guruhida esa nazariy bilimlar nisbatan yaxshi o‘zlashtirilgan bo‘lsa-da, ularni amaliyotda qo‘llashda jiddiy qiyinchiliklar kuzatildi.

2. So‘rovnoma natijalari. Tajriba guruhi talabalari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma interfaol metodlarga nisbatan ijobiy munosabatni ko‘rsatdi.

Talabalarning 85% interfaol metodlar darslarni ancha qiziqarli va jonli qilganini ta'kidlagan. 90% talabalar loyiha ustida jamoaviy ishlash jarayoni ularning kommunikatsiya va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirganini bildirgan. 78% talabalar "ag‘darilgan sinfxona" metodi tufayli dars vaqtida o‘qituvchidan ko‘proq amaliy yordam olish imkoniga ega bo‘lganliklarini aytishgan. Faqat 5% talabalar bu metodlarga moslashishda dastlabki paytlarda qiyinchilikka duch kelganliklarini, ammo keyinchalik jarayonga ko‘nikib ketganliklarini qayd etishgan.

3. Sifatli tahlil natijalari (Kuzatuv va Fokus-guruh). Dars jarayonidagi kuzatuvlar shuni koʻrsatdiki, tajriba guruhidagi talabalar darslarda ancha faol boʻlishgan, savollar berishdan va oʻz fikrlarini bildirishdan choʻchishmagan. Nazorat guruhida esa asosan oʻqituvchi monologi kuzatilgan. Fokus-guruh intervyusida talabalar quyidagi fikrlarni bildirishdi: "Loyiha ustida ishlaganimizda, xato qilishdan qoʻrqmadik. Chunki bu oʻrganish jarayonining bir qismi ekanligini tushundik. Kitobdagi kodni koʻchirish boshqa, oʻzing noldan bir narsa yaratishing boshqa ekan." (Dilshod ismli talaba) "Keyslarni tahlil qilganimizda, bir muammoning bir nechta yechimi boʻlishi mumkinligini koʻrdik. Bu bizni qolipdan tashqarida fikrlashga oʻrgatdi." (Anisa ismli talaba) "Eng yoqqan tomoni — oʻqituvchi bizga tayyor javobni bermadi. U bizni toʻgʻri yoʻnaltirib turdi, lekin yechimni oʻzimiz topdik. Bu oʻzimizga boʻlgan ishonchni oshirdi." (Nodir ismli talaba) Ushbu natijalar interfaol metodlarning nafaqat texnik (hard skills), balki ijtimoiy-emotsional (soft skills) kompetentsiyalarni ham samarali rivojlantirishini isbotlaydi.

Muhokama: Olingan natijalar ushbu tadqiqotning boshida ilgari surilgan gipotezani — ya'ni, interfaol metodlar talabalarning texnologik kompetentsiyalarini rivojlantirishda an'anaviy metodlarga qaraganda ancha samarali ekanligini toʻliq tasdiqlaydi. Natijalarning tahlili bir nechta muhim jihatlarni muhokama qilish imkonini beradi. Birinchidan, interfaol metodlar "bilish" va "qila olish" oʻrtasidagi boʻshliqni toʻldiradi. An'anaviy ta'limda talabalar koʻpincha nazariy bilimlarni oʻzlashtiradilar, ammo ularni qanday va qayerda qoʻllashni bilmaydilar. Bizning tadqiqotimizda nazorat guruhi talabalari aynan shu muammoga duch kelishdi. Tajriba guruhida esa keys-stadi va loyihaga asoslangan ta'lim orqali talabalar nazariyani doimiy ravishda amaliyot bilan bogʻlab bordilar. Bu jarayon, J. Deweyning "oʻrganish — qilish orqali" (learning by doing) konsepsiyasiga toʻliq mos keladi. Talaba muammoni oʻzi yechganda, loyihani oʻzi yaratganda, olingan bilim shunchaki yodlangan ma'lumot boʻlib qolmay, balki uning shaxsiy tajribasiga, kompetentsiyasiga aylanadi. Ikkinchidan, interfaol metodlar oʻquv jarayonining markaziga oʻqituvchini emas, balki talabani qoʻyadi. "Agʻdarilgan sinfxona" metodi bunga yorqin misoldir. Oʻqituvchi "ma'lumot manbai" rolidan "yoʻnaltiruvchi, fasilitator" roliga oʻtadi. Bu esa talabalarda mustaqil oʻrganish, mas'uliyatni his qilish va axborotni oʻzi izlab topish koʻnikmalarini shakllantiradi. Bu koʻnikmalar uzluksiz ta'lim (lifelong learning) konsepsiyasi uchun poydevor boʻlib, tez oʻzgaruvchan texnologiyalar davrida mutaxassis uchun hayotiy zaruratdir. Uchinchidan, texnologik kompetentsiya faqat texnik koʻnikmalardan iborat emas. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, interfaol metodlar jamoada ishlash, muloqot qilish, tanqidiy fikrlash, kreativlik kabi "yumshoq koʻnikmalar"ni rivojlantirish uchun ham juda samarali vositadir. Loyiha ustida ishlayotgan talabalar oʻzaro vazifalarni taqsimlashni, kelishmovchiliklarni hal qilishni, bir-birining kuchli tomonlaridan foydalanishni oʻrganadilar. Bu koʻnikmalar real ish muhitida texnik bilimlardan kam boʻlmagan darajada muhimdir.

Tadqiqotning cheklovlari va kelajakdagi yoʻnalishlar: Albatta, ushbu tadqiqot ma'lum cheklovlarga ega. Birinchidan, tadqiqot faqat bitta oliy ta'lim muassasasining ikkita fani doirasida oʻtkazildi. Natijalarni boshqa yoʻnalishlar (masalan, gumanitar yoki iqtisodiy) va boshqa universitetlar uchun umumlashtirish uchun qoʻshimcha tadqiqotlar talab etiladi. Ikkinchidan, interfaol metodlarni qoʻllash oʻqituvchidan qoʻshimcha tayyorgarlik, vaqt va pedagogik mahorat talab etadi. Oʻqituvchilarning ushbu metodlarga tayyorligi va ularni qoʻllab-quvvatlash mexanizmlari alohida oʻrganilishi kerak boʻlgan mavzudir.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun virtual va toʻldirilgan reallik (VR/AR) texnologiyalarini interfaol metodlar bilan integratsiya qilishning samaradorligini oʻrganish istiqbolli yoʻnalish boʻlishi mumkin. Shuningdek, turli interfaol metodlarning talabalarning turli psixologik tiplariga ta'sirini oʻrganish ham ta'lim jarayonini yanada individuallashtirishga yordam beradi.

Xulosa va tavsiyalar: Oʻtkazilgan tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Interfaol metodlar ("keys-stadi", "loyihaga asoslangan ta'lim", "agʻdarilgan sinfxona") talabalarning texnologik kompetentsiyalarini, xususan, amaliy koʻnikmalar va muammo yechish qobiliyatini rivojlantirishda an'anaviy ta'lim metodlariga nisbatan sezilarli darajada yuqori samaradorlikka ega.
2. Ushbu metodlar talabalarning oʻquv jarayoniga boʻlgan qiziqishi va motivatsiyasini oshiradi, ularni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi.
3. Interfaol ta'lim muhiti nafaqat texnik ("hard skills"), balki tanqidiy fikrlash, kommunikatsiya va jamoada ishlash kabi "yumshoq koʻnikmalar"ni (soft skills) birgalikda rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

4. Interfaol metodlarni muvaffaqiyatli joriy etish o‘qituvchining rolini o‘zgartirishni, ya'ni uning "ma'ruzachi"dan "fasilitator" (yo‘naltiruvchi)ga aylanishini taqozo etadi. Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqqan holda, oliy ta'lim tizimida talabalarning texnologik kompetentsiyalarini rivojlantirish samaradorligini oshirish uchun quyidagi **tavsiyalar** ishlab chiqildi:

O‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish: Oliy ta'lim muassasalari o‘quv rejalarini va fan dasturlarini qayta ko‘rib chiqib, ularga interfaol metodlarni (kamida 30-40% hajmda) majburiy komponent sifatida kiritishlari lozim. O‘qituvchilar malakasini oshirish: Professor-o‘qituvchilar uchun interfaol metodlarni qo‘llash bo‘yicha maxsus treninglar, mahorat darslari va seminarlar tashkil etish, ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan tanishtirib borish zarur.

Moddiy-texnik bazani mustahkamlash: Auditoriyalarni interfaol doskalar, proyektorlar, kompyuterlar va tezkor internet bilan ta'minlash, loyiha ishlarini bajarish uchun maxsus laboratoriya va kovorking markazlari tashkil etish muhim.

Metodik ta'minotni yaratish: Har bir fan bo‘yicha interfaol metodlarni qo‘llashga oid metodik qo‘llanmalar, keyslar to‘plami, loyiha mavzulari bankini yaratish va ularni elektron ta'lim platformalariga joylashtirish maqsadga muvofiqdir.

Ish beruvchilar bilan hamkorlik: O‘quv jarayoniga real sektordan mutaxassislarni jalb qilish, ular ishtirokida keys-stadilar va mahorat darslari o‘tkazish, talabalarning ishlab chiqarish korxonalarida amaliy loyihalarni bajarishini tashkil etish bitiruvchilarning mehnat bozoriga moslashuvini osonlashtiradi. Xulosa qilib aytganda, interfaol metodlar shunchaki bir moda yoki trend emas, balki zamonaviy, raqobatbardosh va kreativ fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlashning zaruriy shartidir. Ularni ta'lim tizimiga keng va tizimli joriy etish O‘zbekistonning raqamli kelajagi uchun mustahkam poydevor yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni.
2. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, 2006. – 189 b.
3. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: Fan, 2007. – 145 b.
4. Dewey, J. (1938). “Experience and Education”. New York: Macmillan.
5. Prince, M. (2004). Does Active Learning Work? A Review of the Research. “Journal of Engineering Education”, 93(3), 223-231.
6. Freeman, S., et al. (2014). Active learning increases student performance in science, engineering, and mathematics. “Proceedings of the National Academy of Sciences”, 111(23), 8410-8415.
7. Savery, J. R. (2006). Overview of Problem-Based Learning: Definitions and Distinctions. “Interdisciplinary Journal of Problem-Based Learning”, 1(1).
8. Толипов Ў.Қ., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. – Т.: Фан, 2006. – 262 б.
9. Bergmann, J., & Sams, A. (2012). “Flip Your Classroom: Reach Every Student in Every Class Every Day”. International Society for Technology in Education (ISTE).
10. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan. dok. ... diss. – T., 2007. – 315 b.

POLIKARBOKSILATLI SUPERPLASTIFIKATOR QO’SHILGAN BETON QORISHMALARINI XOSSALARINI O’RGANISH

F.S.Ismailov
Toshkent Kimyo texnologiya ilmiy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodim t.f.f.d PhD
ismoilovferuz54@gmail.com +998912102555


Annotatsiya. Tadqiqotning maqsadi reologik xossalarga ega bo’lgan beton maxsulotlarini ishlab chiqish uchun polikarboksilat superplastifikatorini sintez qilishga qaratilgan. Shu maqsadda izopreniloksi polietilen glikol va akril kislota asosida sintez qilindi. Polikarboksilat superplastifikatori eritma radikal

polimerizatsiyasi orqali tayyorlandi. Sintez qilingan polikarboksilat superplastifikatorini turli miqdorlarda (0,2,0,4,0.6,0,8%) bo’lgan beton qorishmalar tayyorlandi. Sintez qilingan superplastifikatorlarning kimyoviy tuzilishi va ularning tarkibi IQ-spektr tahlillari bilan aniqlangan.

Hozirgi kunda qurilish sanoati juda tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Bu vaqtda xomashyo va energiya resurslaridan oqilona va samarali foydalanishga qo’yilgan talablar ham o’zgarib bormoqda. beton maxsulotlarini ishlab chiqarishda mustahkamligi, yaxshi joylashuvchanligi alohida o‘rin egallaydi. Ushbu muammoni samarali hal qilish maxsus kimyoviy qo‘shimchalardan keng foydalanishni talab qiladi. Superplastifikatorlarning yuqori samaradorligi, beton va armaturaga salbiy ta’sirlarning yo‘qligi, shuningdek, ularning mavjudligi va tan narxining arzonligi bilan bog‘liq. Superplastifikator qo‘shimchalari sirti faol xususiyatlarga ega bo‘lgan moddalar, ular beton qorishmalarning harakatchanligini yaxshilaydi va mustahkamligini oshiradi. Beton sanoati texnologiyasida superplastifikatorlardan foydalanib, beton qorishmasining o‘zgarmas harakatchanligini saqlab, suvga bo‘lgan talabni va g‘ovaklikni kamaytirish, betoning zichligi, mustaxkamligini oshirish. Bugungi kunda jahon bozorida juda ko‘p miqdordagi superplastifikator qo‘shimchalar mavjud bo‘lib, sement tarkibiga va betonga ta’siri ham tubdan farq qilishi mumkin. Dunyoda kompozitsion materiallarning, shu jumladan beton va beton qorishmalarning reologik, fizik-mexanik xususiyatlarini yaxshilash va tuzilishini tartibga solish uchun sintetik oligomerlarga asoslangan superplastifikatorlardan foydalaniladi [1.2023]. Suvda eruvchan makromolekulalardan beton qorishmalari uchun suv sarfini kamaytiradigan qo’shimchalar sifatida superplastifikatorlar tayyorlanadi [2-5.2020-2021-2023]. Superplastifikatorlarning kimyoviy funksional guruhlari va molekulyar tuzilishi, masalan, karboksil guruhlari, polimer zanjirlar va yon zanjirlarning uzunligi va zichligi, suvli eritma shaklda, sement qorishmalarining ishlash xususiyatlariga ijobiy ta’sir ko’rsatadi [6-10.2023-2024]. Polikarboksilat superplastifikatorlarining suvni kamaytiradigan va yoyiluvchi ta’siri molekulyar og’irlikni nazorat qilish va gidrofil fragmentlarning muvozanatini sozlash orqali o’zgartirilishi mumkin [11.2024]. ω - metoksipolietilen glikol (MPEG) kabi poliester asosidagi makromonomerlar va izopreniloksipolietilen glikol (TPEG) kabi poliester asosidagi makromonomerlar superplastifikatorlarni sintez qilishda keng tarqalgan makromonomer sifatida keng qo’llaniladi [12-15. 2014-2019]. Polikarboksilat to’yinmagan karboksilik kislota monomerlari, uzun zanjirli alkan makromerlari va boshqa xom ashyolardan sintez qilingan. Bu betonda yaxshi qo’llanilishi mumkin bo’lgan yuqori samarali sement dispersantidir. Poliakrboksilat molekulalari -COOH, -SO_3H, -NH_2 va -OH guruhlari kabi turli funktsional guruhlarni o’z ichiga oladi. Portland sementining gidratsiya mahsulotlari bu guruhlarning ularning sirtiga yopishishini keltirib chiqaradi, silikat zarralari orasidagi flokulyatsiya tuzilishini buzadi va natijada adsorbsion qatlam hosil bo’ladi. Qo’shilgan polikarboksilat superplastifikatori tomonidan kiritilgan fazoviy to’siq va elektrostatik repulsiya sement zarralarining suv-qattiq faollashtiruvchi interfeysidagi o’zaro ta’siriga sezilarli ta’sir ko’rsatadi. Polikarboksilat superplastifikatori zarralarining bir xil taqsimlanishi oqim va boshqa kimyoviy xususiyatlarni oshiradi [16-19. 2015-2023].

Sintez jarayonida akril kislota va vodorod peroksid, Izopreniloksipolietilen glikol (TPEG, molekulyar og’irligi 2400) merkaptan kislota (zanjir uzatish agenti sifatida), askarbin kislota, Hea (2-gidroksietil akrilat) va distillangan suvdan foydalanilgan. Barcha erituvchilar va moddalar qo’shimcha tozalashsiz ishlatilgan.

Superplastifikator sintez qilishda jarayon uch bosqichda olib borildi. AA-TPEG tipiga asoslangan radikal polimerizatsiya orqali sintez qilindi. Birinchi bosqich 50 g TPEG, va vodorod peroksid 0.35gr 100 ml distillangan suvda eritildi va mexanik aralashtirgichda doimiy aralashtirish kondensator bilan jihozlangan 500 ml uch bo’yinli tagi dumaloq kolbaga olib borildi. Haroratni 65°C ga ko’tarilgandan keyin, polimerizatsiya reaksiyasini boshlashda ikkinchi bosqich uchun kolbadagi aralashmaga merkaptan 0.29 gr, askarbin kislota 0.095gr va 8.75 gr suvga aralashtirib 2 soatda tomchilatib qo’shildi. Keyin polimerizatsiya reaksiyasi davomida uchinchi bosqichida akril kislota va HEAni suvga aralashtirib doimiy haroratni saqlab turgan holda, 3 soat davomida tomchilatib reaksiya aralashmasiga qo’shildi. Reaksiya tugagandan so’ng, reaksiya aralashmasi 70°C haroratda 48 soat davomida pechda quruq qoldiq massasi aniqlandi. Polikarboksilat superplastfikatorning yakuniy mahsuloti sifatida 30% li suvli eritma olinadi.



1-rasm. Polikarboksilat superplastifikatorini suvli eritmada radikal sopolimerizatsiya yo’li bilan tayyorlashning sxematik tasviri.

Ushbu tadqiqot ishida Gost 30515-2013 standart sement Namangan sement zavodidan sotib olindi. Ishlab chiqaruvchi tomonidan taqdim etilgan sementning kimyoviy tarkibi va fizik xususiyatlari 1va 2-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Sementning kimyoviy tarkibi

CaO	SiO_2	Al_2O_3	Fe_2O_3	SO_3	MgO	K_2O	TiO_2	Na_2O	Boshqa
61.64	22.29	5.22	4.2	2.4	1.68	0.47	0.26	0.21	0.22

2- jadval. Sementning mineralogik tarkibi

C_3S	C_2S	C_3A	C_4AF
59.38	15.55	7.29	11.59

Beton qorishmani tayyorlashda superplastifikator polikarboksilatning sement massa nisbati 0.2,0.4,0.6,0.8 va 1% ga teng olindi. Superplastifikator qo’shilmagan beton qorishmasi nazorat namunasi sifatida qabul qilindi. polikarboksilat superplastifikatorlarining har bir dozasi uchun aralash suv miqdori dastlabki kamayishi 200 ± 15 mm ga kelguncha o’zgartirildi. Odatda, qattiq materiallar 60 soniya davomida quruq aralashtiriladi, so’ngra o’lchalgan miqdorda suv bilan superplastifikatorni aralashtirib qo’shiladi. Aralashtirish jarayoni 6 daqiqa davom etadi. Tayyorlangan beton qorishmasini quyidagi suv sarfini kamayishi, konus cho’kmasi, cho’kishni ushlab turish, zichlik va dastlabki va yakuniy sozlash vaqti kabi tahlillar o’tkazildi. Beton masulotini mustaxkamlikni o’rganish uchun yangi beton qorishmalar namuna qoliplarga o’tkazildi va qolipga solingan beton qorishmasini yaxshi joylashishi uchun 2-3 daqiqa davomida tebranish stoliga joyalshtiriladi. GOST 1018032 ga ko’ra, ishlab chiqarilgan shakllar 24 soat davomida 20° C haroratda saqlanadi, keyin beton namunalari qoliplardan chiqariladi va 3, 7 va 28 kunlardagi mustaxkamliklari o’rganildi.

Suv iste’molining foizga kamayishi. Sintez qilingan polikarboksilat superplastifikatorining beton qorishmasida turli miqdorlarda suv sarfini kamaytirish foizlari ASTM C49438 asosida o’lchandi. Beton aqorishmalar uchun cho’kish qiymatlari 200 ± 15 mm oralig’ida nazorat qilindi. Superplastifikator qo’shilmagan beton qorishmasi va superplastifikatorlar qo’shilgan beton qorishmalari suv sarfi o’rtasidagi farq betonda tayyorlangan superplastifikatorning suvni kamaytirish foizini hisoblash uchun o’rganildi.

Foydalanilgan adabiyotar:

1. Ismoilov F.S, Karimov M.U., Djalilov A.T. Olingan superplastifkator va uning sement kompozitsiyalarining fizik-kimyoviy va fizik-mexanik xususiyatlariga ta;siri IQ- spektrlarini o’rganish. / scientific-texnical journal of FerPI. /ISSN 2181-7200. Farg’ona -2023. 94-99.

2.Sha, S., Wang, M., Shi, C. & Xiao, Y. Influence of the structures of polycarboxylate superplasticizer on its performance in cement-based materials-a review. *Constr. Build. Mater.* 233, 117257 (2020).

3.Yuan, Y. *et al.* Mathematical models of apparent viscosity as a function of water–cement binder ratio and superplasticizer in cement pastes. *Sci. Rep.* 13, 22301 (2023).

4.Sheikh Hassani, M., Torki, A., Asadollahfardi, G., Saghravani, S. F. & Shafaei, J. The effect of water to cement ratio and age on the mechanical properties of cement mortar and concrete made of micro nano bubbles without adding any admixtures. *Struct. Concr.* 22, E756–E768 (2021).

5.Sujitha, V. S., Ramesh, B. & Xavier, J. R. Effect of superabsorbent polymer hydrogels in the advancement of cementitious materials A review. *J. Polym. Environ.* 31, 2761–2778 (2023).

6. Zhang, K., Mezhov, A. & Schmidt, W. Effect of polycarboxylate superplasticizer in ordinary Portland cement and sulfate resistant cement. *J. Mater. Civ. Eng.* 35, 04023113 (2023).

7. Ma, R., Wang, Y., Li, H. & Bai, Y. Progress in the polycarboxylate superplasticizer and their structure-activity relationship—A review. *Mater. Today Commun.* 35, 105838 (2023).

8. Ezzat, M. *et al.* Novel concrete superplasticizers with sterically hindered amines as stabilizing pendant side chains. *Eur. Polym. J.*196, 112301 (2023).

9.Ma, Y. *et al.* Adsorption and dispersion capability of polycarboxylate-based superplasticizers: A review. *J. Sustain. Cem. Mater.* 11, 319–344 (2022).

10.Lai, G. *et al.* A mechanistic study on the effectiveness of star-like and comb-like polycarboxylate superplasticizers in cement pastes. *Cem. Concr. Res.* 175, 107389 (2024).

11. Xia, Y. *et al.* Synthesis and modification of polycarboxylate superplasticizers—A review. *Materials* 17, 1092 (2024).

12.Li, Y. *et al.* Study on dispersion, adsorption and flow retaining behaviors of cement mortars with TPEG-type polyether kind polycarboxylate superplasticizers. *Constr. Build. Mater.* 64, 324–332 (2014).

13.Li, S. *et al.* Synthesis and performance of a novel amphoteric polycarboxylate superplasticizer with hydrolysable ester group. *Coll. Surf. A Physicochem. Eng. Asp.* 564, 78–88 (2019).

14.Zhu, W. *et al.* Effect of a specific PCE superplasticizer on the initial dissolution and early hydration of Portland cement. *J. Build. Eng.* 46, 103786 (2022).

15.Yang, J., Li, G., Yang, W. & Guan, J. Effect of polycarboxylic grinding aid on cement chemistry and properties. *Polymers* 14, 3905 (2022).

16.Kwasny, J.; Sonebi, M.; Plasse, J.; Amziane, S. Influence of rheology on the quality of surface finish of cement-based mortars. Constr. Build. Mater. 2015, 89, 102–109. [CrossRef]

17. Liu, B.; Wang, L.G.; Pan, G.H.; Li, D.X. Dispersion of graphene oxide modified polycarboxylate superplasticizer in cement alkali solution for improving cement composites. J. Build. 2022, 57, 104860. [CrossRef]

18. Mardani-Aghabaglou, A.; Tuyan, M.; Yılmaz, G.; Arıöz, Ö.; Ramyar, K. Effect of different types of superplasticizer on fresh, rheological and strength properties of self-consolidating concrete. Constr. Build. Mater. 2013, 47, 1020–1025. [CrossRef]

19. Gao, Y.; Tian, W.; Li, Y.; Zhu, J.; Liao, M.; Xie, Y. Study on compatibility mechanism of plasticizer and asphalt based on molecular dynamics. Mater. Des. 2023, 228, 111827. [CrossRef].

20.IsmoilovF.S. //Piroliz moyi asosida beton qorishmalari uchun superplastifikatorlar olish texnologiyasini ishlab chiqish va ularni qo’llash. // Dissertatsiya. Toshkent 2023yil.

МАҲАЛЛИЙ БЮДЖЕТ ДАРОМАДЛАРИНИ ОШИРИШДА БЕВОСИТА СОЛИҚЛАР МАЪМУРИЯТЧИЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Д.А.Абдуллаев
PhD, Тошкент давлат иқтисодиёт университети мустақил изланувчиси,
e-mail: **dilmurod_a@list.ru**

Ҳозирги иқтисодий тебранишлар даврида мамлакат иқтисодиётининг рақобатбардошлигини ошириш борасида ҳудудларни аҳоли яшаши учун шароитларни яхшилаш ҳамда тадбиркорлик фаолиятини юритишга қулай муҳит яратиш асосида изчил ривожлантириш муҳим аҳамият касб этади. Ҳудудларда мазкур тадбирларни амалга ошириш уларнинг молиявий имкониятларига яъни даромадларига боғлиқдир. Бугунги кунда юртимизда ҳар бир ҳудуд ўзининг маҳаллий бюджетига эга бўлиб, унинг даромадларининг асосий қисми солиқлар ҳисобидан шаклланади. Бу борада бевосита солиқларни алоҳида қайд этиш лозим. Бевосита солиқлар таркибига қуйидаги солиқлар киради:

- *фойда солиғи;*
- *айланмадан олинадиган солиқ;*
- *жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи.*

Кейинги йилларда мамлакатимизда маҳаллий бюджет даромадларини ошириш ҳамда бу бўйича маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг ваколатларини кенгайтириш мақсадида бевосита солиқлар тушумини ҳудудлар бюджетига йўналтиришга қаратилган ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Хусусан, 2019 йил 1 январдан фойда солиғи ва жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи республика ва маҳаллий бюджетлар ўртасида тақсимланиши белгиланди.

Ҳудудлар бюджетини 2 турга яъни уларнинг маҳаллий бюджетлари ҳамда туман ва шаҳарлар бюджетига ажратиш мумкин. Бевосита солиқлар туман(шаҳар)лар бюджетларининг даромадларини шакллантирадиган муҳим манбалардан ҳисобланади. Амалдаги қонунчилик нормаларига мувофиқ бевосита солиқларнинг қуйидаги турлари туманлар ва шаҳарлар бюджетларига тўлиқ ҳажмда ўтказилади:

1) жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи

- декларация бўйича мол-мулкни ижарага беришдан олинадиган даромадлардан тўланадиган солиқ;

- якка тартибдаги тадбиркорлардан ундириладиган солиқ.

2) айланмадан олинадиган солиқ.

Шунингдек, бевосита солиқлар ҳудудларнинг маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришда ҳам асосий ўринни эгаллайди. Хусусан, фойда солиғи ва жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғидан тушган тушумлар белгиланган улушлар доирасида маҳаллий бюджетларга ўтказилади. Ҳозирда фойда солиғининг Навоий вилоятида 70 %и, Тошкент вилоятида 49 %и, Тошкент шаҳрида 12 %и, Қорақалпоғистон Республикаси ва қолган вилоятларда 100 %и маҳаллий бюджетларга йўналтирилади. Бунда шуни таъкидлаш лозимки, Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори билан тасдиқланадиган йирик солиқ тўловчилар яъни 79 та корхона ва тижорат банкларининг ҳамда норезидентлар томонидан тўланадиган фойда солиғи суммаси республика бюджетида қолади. Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғининг Навоий вилоятида 66 %и, Тошкент вилоятида 51 %и, Тошкент шаҳрида 12 %и, Қорақалпоғистон Республикаси ва қолган вилоятларда тўлиқ маҳаллий бюджетларга ўтказилади. Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи тушумларининг камида 50 фоизи (йирик солиқ тўловчилар тушумидан ташқари) туманлар ва шаҳарлар бюджетларига ўтказилиши лозим. Бундан ташқари, фойда солиғи ҳамда жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи бўйича белгиланган прогнознинг ошириб бажарилган қисмининг барчаси маҳаллий бюджетлар ихтиёрида қолади.

Республикамизнинг туман ва шаҳарлар бюджетларининг тушумини таъминлашда мол-мулкни ижара бериш даромадларидан декларация асосида тўланадиган даромад солиғи асосий манбалардан биридир. Декларация жисмоний шахсларнинг мол-мулкини бошқа жисмоний шахсга ижарага беришдан оладиган даромадлари бўйича тақдим этилади. Жисмоний шахсларнинг мол-мулкини юридик шахсга ижарага беришдан оладиган даромадларига эса тўлов манбаида солиқ солинади яъни корхона томонидан ҳисоблаб чиқарилиб, бюджетга ўтказиб берилади. Юртимизда сўнгги йилларда мол-мулкни ижарага бериш шартномаларини ҳисобга қўйиш тартибини соддалаштиришга қаратилган ўзгаришлар амалга оширилди. Жумладан, 2019 йил 1 январдан бошлаб кўчмас мулкни ижарага бериш ва текин фойдаланиш шартномаларини мажбурий нотариал тасдиқлаш талаби бекор қилиниб, кўчмас мулк ижара шартномаларини давлат солиқ хизмати органларида мажбурий ҳисобга қўйиш тартиби жорий қилинди. Дастлаб кўчмас мулк ижара шартномалари ижарага берувчининг доимий яшаш манзили ёки кўчмас мулк жойлашган жойдаги давлат солиқ хизмати органига электрон ва қоғоз шаклида ҳисобга қўйилди. Бундан ташқари, 2022 йил 1 сентябрдан транспорт воситасининг ижара шартномаларини давлат солиқ хизмати органлари электрон тарзда ҳисобга олиш тизими жорий этилди. Мамлакатимизда 2022 йилдан кўчмас мулкни ижарага бериш шартномаларини ҳисобга қўйиш фақат электрон шаклда амалга оширилиши белгиланди. Шунга асосан, ҳозирда жисмоний шахсларнинг мол-мулкни ижарага бериш шартномалари солиқ хизматлари ёки ягона интерактив давлат хизматлари портали орқали давлат солиқ хизмати органларининг “E-ijara” ахборот тизимида электрон тарзда ҳисобга қўйилади.

Жисмоний шахслар ўртасида тузилган кўчмас мулкни ижарага бериш шартномалари ва улар асосида ҳисобланган даромад солиғи суммасининг ўзгариши қуйидаги жадвалда таҳлил қилинган.

***1-жадвал. Жисмоний шахслар томонидан тузилиб, солиқ органларида ҳисобга қўйилган кўчмас мулк ижара шартномалари таҳили* млрд.сўм.**

№	Кўрсаткичлар	Йиллар			Фарқи	
		2022	2023	2024	+;-	%
1	Шартномалар сони	223 515	386 802	438 320	214 805	196,1
2	Мулк объектлари	172 497	250 880	264 646	92 149,0	153,4
3	Ижара суммаси	2 379,3	3 349,5	4 475,1	2 095,8	188,1
4	Ҳисобланган даромад солиғи	159,3	194,8	503,4	344,1	316,0

Юқоридаги жадвал маълумотларидан кўриниб турибдики, кўчмас мулкни ижарага бериш бўйича жисмоний шахслар ўртасида тузилган шартномалар сони 2022-2024 йилларда 233 515 тадан 438 320 тага яъни 214 805 тага кўпайган. Мазкур даврда ижарага берилган мулк объектлари сони эса 172 497 тадан 264 646 тага яъни 153,4 %га ошган. Шунингдек, жисмоний шахсларнинг кўчмас мулкни ижарага бериш бўйича даромади 2024 йилда 4 475,1 млрд.сўмни ташкил этиб, 2022 йилга нисбатан 2 095,8 млрд.сўмга ёки 188,1 %га кўпайган. Ҳисобланган даромад солиғи суммаси 2024 йилда 503,4 млрд.сўмни ташкил этган ҳолда 2022 йил билан таққослаганда 344,1 млрд.сўмга ёки 316,0 %га ошган. Бундан кўриниб турибдики, жисмоний шахсларнинг бошқа жисмоний шахсларга кўчмас мулкни ижарага бериш бўйича ижобий кўрсаткичларга эришилиб, солиқ суммаси ошиб бормоқда. Фикримизча, ушбу натижаларни кўчмас мулк ижарасини ҳисобга қўйиш маъмурчилигининг соддалашганлиги ва рақамлашганлиги, ижара тўловининг энг кам ставкалари ошганлиги билан изоҳлашимиз мумкин.

Жисмоний шахслар тасдиқланган кўчмас мулк шартномасини ҳисобга қўйишда ижарага олувчи, кўчмас мулкнинг ижарага берилган майдони ва муддати, бир ойлик ижара ҳақи ҳамда ижара тўловининг умумий суммаси каби маълумотларни киритади. Жисмоний шахсларнинг кўчмас мулк шартномаси солиқ органида ҳисобга қўйилганда уларга бу ҳақида QR-кодли гувоҳнома берилади. Ушбу гувоҳномада ҳам кўчмас мулкнинг ижарага берилган майдони, ижара муддати ва ижара тўлови маълумотлари кўрсатилади. Мазкур маълумотлар асосида жисмоний шахсларнинг шахсий ҳисобварағида даромад солиғи автоматик ҳисобланади. Кўчмас мулк шартномаси давлат солиқ хизмати органида ҳисобга қўйилиши билан бир вақтда жорий йил учун ҳисобланган даромад солиғини тўлаш ҳақидаги тўлов хабарномаси шаклланади ва солиқ тўловчига тақдим этилади.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, маҳаллий бюджет даромадини оширишда бевосита солиқлар муҳим аҳамиятга эга. Маҳаллий бюджет даромадларининг кўпайиши ҳудудларни янада ривожлантириш ва аҳоли турмуш даражасининг яхшиланишига хизмат қилади. Шу боис, ҳудудлар бюджетининг даромадини ошириш учун маҳаллий бюджетга йўналтириладиган бевосита солиқларни такомиллаштириш зарур. Фикримизча, маҳаллий бюджетлар даромади барқарорлигини таъминлаш учун бевосита солиқлар маъмуриятчилигини такомиллаштириш борасида қуйидаги чора-тадбирлар амалга оширилиши мақсадга мувофиқ:

1. Маҳаллий бюджетлар даромадларини ошириш учун Ўзбекистонда доимий муассаса орқали фаолиятни амалга оширувчи ва даромадларига тўлов манбаида солиқ солинадиган норезидентларнинг фойда солиғи ҳамда декларация асосида ундириладиган жисмоний шахслар даромад солиғи тушумини маҳаллий бюджетга йўналтириш;

2. Мамлакатимизда кўчмас мулк ижара шартномаларини солиқ хизмати органларида ҳисобга қўйиш тартиби ишлаб чиқилган. Транспорт воситаларини давлат солиқ хизмати органларида ҳисобга қўйиш белгиланган. Бироқ, транспорт воситаларини солиқ хизмати органларида ҳисобга қўйишнинг тартиби мавжуд эмас. Шундан келиб чиқиб, мол-мулкни ижарага бериш шартномаларини солиқ хизматида ҳисобга қўйишнинг умумий тартибини ишлаб чиқиш;

3. Амалдаги қонунчилик талабларига асосан жисмоний шахслар солиқ агентида солиқ солинмаган мол-мулкни ижарага беришдан олинган даромадлари бўйича жами йиллик даромад тўғрисидаги декларацияни солиқ органларига тақдим этиши лозим. Чунки, даромад солиғи декларация асосида ҳисоблаб чиқарилади. Бугунги кунда солиқ органларида ҳисобга қўйилган ижара шартномалар бўйича олинган даромадлардан ундириладиган даромад солиғи уларни ҳисобга қўйишда киритиладиган маълумотлар асосида солиқ тўловчиларнинг шахсий ҳисобварағида автоматик ҳисобланади. Мол-мулкни ижарага беришдан олинган даромадларга солиқ солиш маъмуриятчилигини соддалаштириш мақсадида солиқ хизмати органларида ҳисобга қўйилган

ижара шартномалари асосида ҳисобланган даромадлар бўйича декларация тақдим этиш амалиётини бекор қилиш;

4. Кўчмас мулкдан текин фойдаланиш шартномалари солиқ хизмати органларида ҳисобга қўйилади ҳамда мазкур турдаги шартномаларга мол-мулкни ижарага беришдан олинган даромадларга солиқ солишда қўлланиладиган ижара тўловининг энг кам ставкалари тадбиқ этилади. Шу боис, жисмоний шахслар ўртасида тузилган кўчмас мулкдан текин фойдаланиш шартномалари асосида ҳисобланадиган даромад солиғини туман ва шаҳарлар бюджетига йўналтириш юзасидан норматив ҳужжатларга ўзгартириш киритиш.

MAKTABGACHA VA KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA ANIZOMETROPIYA: XAVF OMILLARI VA OLDINI OLISH IMKONIYATLARI

N.S.Boxonova
Namangan davlat universiteti Anatomiya va fiziologiya kafedrasi tayanch doktoranti
E-mail: **nilufarboxonova@gmail.com**

Annotatsiya: Anizometropiya — bu ikki ko‘z orasidagi refraksion quvvatning farqlanishi bo‘lib, bolalarda ko‘rishning buzilishiga olib kelishi mumkin. Ushbu holatning 3–10 yosh oralig‘ida erta aniqlanishi va korreksiya qilinishi ambliopiya va strabizm kabi og‘ir asoratlarning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Tezisda anizometropiyaning etiologiyasi, klinik belgilari, tashxis usullari va profilaktika yo‘nalishlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: anizometropiya, bolalar, ambliopiya, refraksiya, tashxis, profilaktika, ko‘zoynak

Аннотация: Анизометропия — это различие в рефракции между двумя глазами, которое может привести к нарушению зрения у детей. Раннее выявление и коррекция анизометропии в возрасте от 3 до 10 лет играют важную роль в профилактике амблиопии и страбизма. В тезисе рассматриваются причины, клинические признаки, методы диагностики и подходы к профилактике анизометропии у детей.

Ключевые слова: анизометропия, дети, амблиопия, рефракция, диагностика, профилактика, очки

Annotation: Anisometropia is a condition characterized by a significant difference in refractive power between the two eyes, which can lead to visual impairment in children. Early detection and correction of anisometropia in children aged 3 to 10 is essential for preventing serious complications such as amblyopia and strabismus. This thesis analyzes the etiology, clinical manifestations, diagnostic methods, and preventive strategies related to anisometropia in childhood.

Keywords: anisometropia, children, amblyopia, refraction, diagnosis, prevention, eyeglasses

Kirish. Refraksiya — bu yorug‘lik nurlarining ko‘zga tushib, shox parda va gavhar orqali sinib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘r pardada tasvir hosil qilishi jarayonidir. Normal ko‘rishda yorug‘lik nurlari to‘r pardaga aniq fokuslanadi. Refraksiya xususiyatining normal bo‘lishi atrof-muhitdagi buyumlarning tiniq, ravshan ko‘rinishini ta’minlaydi.

Anizometropiya — bu ikki ko‘z orasidagi refraksion kuch (dioptr) farqli bo‘lib, u bolalarda ko‘rish tizimining muvozanatini buzadi va bir ko‘zda ko‘rish o‘tkirligining pasayishiga olib kelishi mumkin. Klinik jihatdan anizometropiya 1.0 dioptriya va undan ortiq farq bilan belgilanadi. Masalan, bitta ko‘zda -1.0 dioptriya, ikkinchisida -3.0 bo‘lishi. Bu farq natijasida bir ko‘zning tasviri ikkinchisidan farq qiladi. Bu holat ko‘pincha erta bolalik davrida shakllanadi, ammo ko‘pincha ota-onalar yoki pedagoglar tomonidan sezilmay qoladi.

Bola ko‘zining rivojlanishida anizometropiya eng xavfli refraksion buzilishlardan biri sanaladi, chunki u ambliopiya (bir ko‘zning ko‘rish o‘tkirligining funksional pasayishi), strabizm (g‘ilaylik), binokulyar ko‘rishning yo‘qolishi kabi murakkab asoratlarni keltirib chiqaradi. Bu esa bolaning maktabdagi o‘zlashtirishi, muvofiqlashtirish harakatlari, ijtimoiy faoliyati va psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, bolalarda anizometropiyani o‘z vaqtida aniqlash, oldini olish va davolash choralarini ishlab chiqish dolzarb muammo hisoblanadi

Anizometropiyaning sabablari. Bolalarda anizometropiyaning rivojlanishiga olib keladigan asosiy omillar quyidagilardir:

Irsiy moyillik — agar ota-onalardan biri yoki har ikkisi refraksion nuqsonlarga ega bo‘lsa, bolaning ham ko‘zida anizometropiya rivojlanish xavfi yuqori bo‘ladi [2. 2023:B.987].

Ko‘z olmasining simmetrik o‘smasligi — bolalik davrida ko‘z olmalari teng o‘smasligi mumkin, bu esa refraksion kuch farqiga olib keladi [1. 2012:B.378–385].

Ko‘p vaqtni yopiq makonda o‘tkazish va quyosh nuriga kam chiqish — tashqi muhitda ko‘p bo‘lmaslik ko‘zning tabiiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Erta yoshda gadjetlardan foydalanish, uzoq masofaga qaramaslik — bolalarda yaqin masofadagi ob'ektlarga qarashga ortiqcha yuklama bo‘ladi.

Prematurlik (muddatidan oldin tug‘ilish) — muddatidan oldin tug‘ilgan chaqaloqlarda ko‘zning to‘liq shakllanmasligi kuzatiladi, bu esa refraksion muvozanatga ta’sir qiladi [4.2023].

Anizometropiyaning belgilari. Ko‘p holatlarda anizometropiyani ota – onalar va pedagoglar sezmaydilar. Bola yillar davomida faqat bitta ko‘z bilan ko‘rganini o‘zi ham bilmasligi mumkin. Shu sababli, quyidagi belgilarni bor bolalarni tekshiruvdan o‘tkazish zarur:

Bir ko‘zni yopib qarash yoki ko‘proq ishlatish;
Ko‘zlarni qisib qarash yoki boshni qiyshaytirib qarash;
Ko‘zni tez-tez ishqalash, qizarish;
Ko‘zlar orasida muvofiqlikning buzilishi (strabizm holatlari);
Uzoqqa yoki yaqinroqqa qaraganda ko‘rishning xiralashuvi.
Rasm chizish, yozish yoki o‘qish vaqtida tez charchash;
O‘qish vaqtida matnni o‘tkazib yuborish, harflarni chalkashtirish;
Kitob yoki ekranlarga juda yaqin qarash;
Bosh og‘rig‘i va ko‘z zo‘riqishidan shikoyat qilish;
O‘qishga, darslarga e’tiborning sustligi yoki qiziqmaslik.

3–10 yosh oralig‘idagi bolalarda anizometropiya ko‘pincha yashirin kechadi va bola tomonidan shikoyatlar bildirilmasligi mumkin. Shu sababli, ushbu yoshdagi bolalarni muntazam oftalmologik ko‘rikdan o‘tkazish, vizual nuqsonlarni erta aniqlash va korreksiya qilish ambliopiyaning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Anizometropiyani oldini olish choralari. Anizometropiyani oldini olish uchun quyidagi profilaktik choralarni ko‘rish tavsiya etiladi:

Yiliga kamida bir marta oftalmologik tekshiruv — maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda muntazam ko‘z tekshiruvi majburiy bo‘lishi lozim.

Quyoshli ochiq makonlarda ko‘proq vaqt o‘tkazish — 2 soatdan kam bo‘lmagan vaqt (masalan, maktabdagi tanaffuslar, sport).

Gadjetlardan foydalanishni cheklash — ekran qarshisida o‘tkaziladigan vaqt yoshga mos bo‘lishi kerak.

Vizual gigiyena — o‘qish va yozishda yoritilgan muhit, oraliq dam olish qoidalariga rioya qilish.

Irsiy xavf guruhidagi bolalarni erta kuzatish — agar ota-onalarda miopiya yoki anizometropiya bo‘lsa, bola 3 yoshdan boshlab muntazam kuzatuvda bo‘lishi zarur.

O‘z vaqtida aniqlash va davolash. Anizometropiyani aniqlash uchun quyidagi metodlar qo‘llaniladi:

Sivtsev jadvali — maktab sharoitida oson tatbiq etiladigan asosiy vosita. Sivtsev jadvali yordamida har bir ko‘zning alohida ko‘rish o‘tkirligi aniqlanadi. Ko‘zlar o‘rtasidagi farq hisoblanadi. Agar 2 yoki undan ortiq qatorda farq bo‘lsa**,** anizometropiyadan shubhalanish kerak va mutaxassisga murojaat qilish zarur.

Avtorefraktometriya — refraksiyani (ko‘zning yorug‘likni sindirish qobiliyatini) aniqlash va miopiya, gipermetropiya va astigmatizm kabi anomaliyalarni aniqlash uchun ishlatiladigan kompyuter ko‘rish diagnostikasi usuli. Jarayon maxsus qurilma -**avtorefraktometr** yordamida amalga oshiriladi, bu esa bemorning faol ishtirokini talab qilmasdan, shox parda va ko‘zning boshqa sinishi vositalarining parametrlarini avtomatik ravishda o‘lchaydi, bu esa yuqori aniqlikni ta'minlaydi.

Anizometropiyani davolash choralari:

1. Ko‘zoynak yoki kontakt linzalar orqali ikkala ko‘zning refraksiyani tenglashtirish.

2. Agar bolada ambliopiya bo‘lsa okklyuziya terapiyasidan (ko‘zni yopish) foydalaniladi. Sog‘lom ko‘zga bint yoki maxsus yopqich qo‘yish orqali miyaning ambliopik ko‘zdan foydalanishga majbur qilinadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kuniga 2 soatlik yopish amaliyoti o‘rtacha ambliopiyani

davolashda uzoqroq muddatli yopishga teng natija beradi. Eng samarali natijalar 7 yoshgacha boshlangan davolashda erishiladi. 10 yoshdan keyin ambliopiyani to‘liq bartaraf etish qiyinlashadi [3.2018].

3. Ortoptik mashqlar — binokulyar ko‘rishni tiklash uchun ko‘z mushaklari faoliyatini yaxshilaydi.

4. Anizometropiya aniqlangan bola doimiy nazorat qilinishi lozim.

Xulosa. Anizometropiyaga chalingan bolalarda ko‘rish qobiliyatini tiklash va saqlashda erta tashxis va optik korreksiya muhim o‘rin tutadi. Biroq amaliyotda ko‘plab ota-onalar orasida quyidagi noto‘g‘ri fikr uchraydi: “Bola ko‘zoynak taqsa, ko‘zlari o‘rganib, dangasa bo‘lib qoladi.”Bu tushuncha ilmiy asosga ega emas. Aksincha, ko‘zoynak taqish — ko‘rishdagi nuqsonni tuzatish vositasi bo‘lib, bola ko‘zining normal rivojlanishiga yordam beradi. Agar ko‘zoynak taqilmasa, ko‘zdan miyaning ko‘rish markaziga to‘liq va aniq tasvir uzatilmaydi. Natijada, bola ko‘rishga ko‘proq qodir ko‘zidan foydalanib, ikkinchi ko‘zdan foydalanishni kamaytiradi. Bu holat uzoq davom etsa, dangasa ko‘z sindromi — ambliopiya rivojlanadi. Bu esa anizometropiyaning eng og‘ir asoratlaridan biridir.

Shu bois, ota-onalarga ushbu masalada to‘g‘ri tushuncha berish, bolaga ko‘zoynak taqishni odatlantirish va muntazam oftalmologik nazoratni ta’minlash zarur. Ko‘zoynak taqish — bu ko‘zni dangasa qilish emas, balki ko‘rish faoliyatini tiklash va mustahkamlash vositasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Deng L., Gwiazda J. Anisometropia in children from infancy to 15 years. Investigative Ophthalmology & Visual Science. 2012;53(1):378–385. URL: **https://iovs.arvojournals.org/article.aspx?articleid=2128234**

2. Lin H.-W. et al. Changes in anisometropia by age in children with hyperopia, myopia, and antimetropia. Scientific Reports. 2023;13(1):987. URL: **https://www.nature.com/articles/s41598-023-40831-0**

3. Фабрикантов О.Л., Матросова Ю.В. Анизометропия и анизометропическая амблиопия: литературный обзор. Офтальмохирургия, 2018. URL: **https://www.researchgate.net/publication/324012605**

4. Zhou Y. et al. Prevalence of anisometropia and its associated factors among Chinese students aged 7–19 years. Frontiers in Public Health. 2023. URL: **https://www.frontiersin.org/articles/10.3389/fpubh.2023.1190285/full.**

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI INNOVATSION KOMPETENTSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

E.R.Soliyev
Qo‘qon davlat pedagogika instituti Mustaqil tadqiqotchisi
esoliyev790@gmail.com tel:+998951518002

Anotatsiya: Butun dunyo miqyosida innovatsion kompitensiyalik modernizatsiyon fonda eng dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Xususan, Jahon Dunyo Ta’lim Assotsatsiyasi tomonidan ushbu kompitentlik, “global jamiyat pedagogikasiga mutlaqo dolzarblik baxsh etuvchi asosiy ilmiy yo‘nalishdir”, deya ta’riflaydi. Ushbu tezisda, Bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion kompetentsiyalarini shakllantirish haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: reflektiv amaliyot, PISA, STEAM, KOICA, ta’lim modellari, proksimal rivojlanish zonasi, sotsial-kultural kontekst.

Аннотация: Во всем мире модернизация инновационной компетентности становится наиболее актуальной проблемой на заднем плане. В частности, Всемирная ассоциация образования описывает эту компетенцию как «ключевую академическую дисциплину, которая абсолютно актуальна для педагогики глобального общества». В данной диссертации представлена информация о формировании инновационных компетенций будущих учителей.

Ключевые слова: рефлексивная практика, PISA, STEAM, KOICA, образовательные модели, зона ближайшего развития, социокультурный контекст.


Abstract: The modernization of innovative competences is becoming a pressing issue in the world. In particular, the World Education Association defines this competence as “a key scientific direction that is of great relevance to the pedagogy of a global society.” This thesis presents information on the formation of innovative competencies of future teachers.

Keywords: reflective practice, PISA, STEAM, KOICA, educational models, zone of proximal development, socio-cultural context.

KIRISH. Innovatsion kompetentlik, pedagogik kontekstda, o‘quv jarayonida sub'ektning (o‘qituvchi yoki o‘quvchining) yangi bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarni yaratish, qo‘llash hamda transformatsiya qilish qobiliyatini anglatadi. Bu kompetentlik kognitiv, metapoznaviy va affektiv komponentlarni o‘z ichiga oladi, bunda sub'ekt noan’anaviy yondashuvlar orqali ta’lim muammolarini tahlil qiladi, ijodiy echimlarni ishlab chiqadi va ularni amaliyotda sinovdan o‘tkazadi. Innovatsion kompetentlikni o‘lchash uchun ko‘p o‘lchovli modellar (masalan, PISA kompetentsiya ramkasi yoki 21-asr ko‘nikmalari bo‘yicha OECD mezonlari) qo‘llaniladi, bunda ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va kollaborativ muammoni hal qilish kabi indikatorlar markaziy o‘rin tutadi. Ushbu kompetentlik ta’lim paradigmalarining transformatsiyasida, xususan, konstruktivistik va kompetentsiyaga yo‘naltirilgan ta’lim modellarida muhim ahamiyatga ega.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI. Lev Semyonovich Vygotskiy (1896–1934), sotsiokultural rivojlanish nazariyasining asoschisi, innovatsion kompetentlikning kognitiv va sotsial asoslarini tushunishda muhim rol o‘ynadi. Uning “Proksimal rivojlanish zonasi” (Zone of Proximal Development, ZPD) kontseptsiyasi ta’lim jarayonida o‘quvchining mustaqil ravishda erisha oladigan bilim darajasidan tashqari, ijtimoiy yordam orqali erishiladigan potentsial rivojlanish darajasini belgilaydi. Benjamin Bloom tomonidan 1956-yilda ishlab chiqilgan “Taxonomy of Educational Objectives” asarida kognitiv mahoratlar olti darajaga bo‘linadi: bilim, tushunish, qo‘llash, tahlil, sintez va baholash. Donald Alan Schön (1930–1997) “reflektiv amaliyot” (reflective practice) kontseptsiyasi orqali innovatsion kompetentlikning metapoznaviy va amaliy jihatlarini o‘rgangan. Albert Bandura (1925–2021), ijtimoiy o‘rganish nazariyasi va “o‘z-o‘zini boshqarish” (self-efficacy) kontseptsiyasi bilan mashhur bo‘lib, innovatsion kompetentlikning affektiv va motivatsion jihatlarini o‘rgangan.

TADQIQOT METADOLOGIYASI. Innovatsion kompetentsiyalar ta’lim sohasida o‘qituvchining ijodiy muammolarni hal qilish, o‘quv jarayonini adaptiv loyihalash va ta’lim muhitida innovatsiyalarni joriy etish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Lev Vygotskiyning sotsiokultural nazariyasiga ko‘ra, innovatsion kompetentsiyalar sotsial mediatsiya orqali shakllanadi, bunda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi kollaborativ faoliyat proksimal rivojlanish zonasi doirasida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi. Vygotskiyning “Mind in Society” asarida ta’kidlanishicha, o‘qituvchilarning innovatsion kompetentsiyalari ularning o‘quvchilar bilan o‘zaro ta’sirida, xususan, dialogik o‘rganish va reflektiv muhokama orqali rivojlanadi. Bu jarayon bo‘lajak o‘qituvchilar uchun pedagogik tayyorgarlik dasturlarida sotsial-konstruktivistik yondashuvlarni qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.



1-rasm. L.Vyatgovskiy nazariyalarini rivojlangan pedagogika konteksida innovatsion kognitivlikka o‘tish bosqichlari.

Benjamin Bloomning taksonomiyasi innovatsion kompetentsiyalarni kognitiv rivojlanish nuqtai nazaridan tahlil qilishda muhim ramka taqdim etadi. Bloomning modelida “yaratish” (creating) eng yuqori kognitiv daraja sifatida belgilangan bo‘lib, bu bo‘lajak o‘qituvchilarning yangi o‘quv strategiyalari, metodlari va resurslarini ishlab chiqish qobiliyatini anglatadi. Bloomning “Developing Talent in Young People” asarida ta’kidlanishicha, o‘qituvchilarning innovatsion kompetentsiyalari ularning kognitiv mahoratlarini tizimli rivojlantirish orqali shakllanadi, bu esa pedagogik tayyorgarlik dasturlarida differensial va individual yondashuvlarni talab qiladi. Masalan, bo‘lajak o‘qituvchilar uchun loyiha asosidagi o‘quv (project-based learning) va muammoga yo‘naltirilgan ta’lim (problem-based learning) kabi

metodlar Bloom taksonomiyasining yuqori darajalariga mos keladi va innovatsion kompetentsiyalarni rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda 45,000 dan ortiq bo‘lajak va faol o‘qituvchilar malaka oshirish kurslarida ishtirok etdi. Ushbu kurslarning 60.5% masofaviy raqamli platformalar orqali tashkil etildi, bu esa o‘qituvchilarning AKT bo‘yicha ko‘nikmalarini oshirishga xizmat qildi. “Elektron hukumat” tizimi orqali integratsiyalashgan “mandat.uzbmb.uz” platformasi o‘qituvchilarning malaka oshirish jarayonini monitoring qilish va baholashda muhim vosita bo‘ldi. Ushbu platformada ro‘yxatdan o‘tgan o‘qituvchilarning 78.2% kurslarni muvaffaqiyatli yakunladi, bu 2023-yilga nisbatan 15.7% o‘sishni ko‘rsatadi. 2024-yilda umumta’lim maktablarida o‘qituvchilarning 93.4% oliy ma’lumotga ega bo‘lib, ulardan 70.1% raqamli savodxonlik bo‘yicha CEFR B1 darajasiga erishdi. Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun maxsus ishlab chiqilgan “Raqamli ta’lim” dasturi doirasida 12,500 nafar talaba Microsoft Office, Google Classroom va boshqa raqamli vositalardan foydalanish bo‘yicha sertifikat oldi. Ushbu dastur o‘qituvchilarning virtual ta’lim muhitida ishlash qobiliyatini oshirishga xizmat qildi. Statistik tahlillarga ko‘ra, ushbu dasturda ishtirok etgan talabalarning 85.6% o‘zlarining raqamli kompetentsiyalarini “yuqori” yoki “o‘rta” darajada baholagan.

XULOSA. Bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion kompetentsiyalarini shakllantirish O‘zbekiston ta’lim tizimining modernizatsiyasi va global ta’lim standartlariga integratsiyalashuvi uchun muhim omil hisoblanadi. Raqamli savodxonlik, metodik innovatsiyalar, tadqiqot va tahlil qobiliyatlari hamda ijtimoiy ko‘nikmalar kabi kompetentsiyalar o‘qituvchilarning zamonaviy ta’lim muhitida samarali faoliyat yuritishini ta’minlaydi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar, xalqaro hamkorlik va ilg‘or tajribalarni qo‘llash ushbu jarayonning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Biroq, hududiy resurslarning cheklanganligi va metodologik yondashuvlarning yetarli darajada standartlashtirilmaganligi kabi muammolar mavjud. Kelgusida ushbu muammolarni bartaraf etish va innovatsion kompetentsiyalarni shakllantirish jarayonini yanada takomillashtirish O‘zbekiston ta’lim tizimining global miqyosda yetakchi o‘rinlardan birini egallashiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Якиманская И.С. Личностно-ориентированное обучение в современной школе. – М: Сентябрь.
2. To’xtayeva Z.Sh. Umumkasbiy va ixtisoslik fanlari integratsiyasini ta’minlash metodikasi (yengil sanoat yo’nalishlari misolida) // Монография. – Бухоро: “Durdona” нашриёти, 2021.
3. Turdiqulov E.O. Hozirgi zamon tibbiy fanlari mazmunini va ularni integratsiyalab o‘qitish muammolari. Respublika ilmiy – amaliy konfrensiya – 2007.
4. Niyozov, A. (2021). Pedagogik faoliyatda ma’naviy-axloqiy qadriyatlar. Milliy tarbiya va ta’lim jurnali.
5. Karimova, D. (2021). Talabalarning masofaviy ta’limga moslashuvi. Oliy ta’limda innovatsiyalar.
6. Вербицкий А.А., Искандерова О.Ю. Компетенции: теоретико-практический подход. – Москва, 2015.
7. Qodirov H.Sh. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda bilim va ko‘nikmalarning o‘rni. – Toshkent, 2020.
8. Qo‘ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari: Dis. doktorlik (DSc)... avtoreferati – Toshkent: TDPU, 2019.
9. Winterton J., Delamare-Le D. Standards and Competencies in Professional Education. – Cambridge, 2010
10. Вербицкий А.А., Искандерова О.Ю. Компетенции: теоретико-практический подход. – Москва, 2015.

UDK: 911.3:316 (334.56)

FARG‘ONA VILOYATIDA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLISH MASALALARI

I.I.Muxitdinov
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti
1ilhomjonmuhitdinov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Farg‘ona viloyatida sodir etilayotgan jinoyatlar va unga ta’sir etuvchi omillar hamda jinoyatchilikni oldini olish masalalari tahlil qilingan. Jinoyatchilikning kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi iqtisodiy-ijtimoiy omillar tahlili qilinib, uning oldini olish chora tadbirlari ishlab

chiqilgan. Maqola natijalari jinoyatchilikning oldini olish choralarini ilmiy asosda shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: jinoyat, jinoyat ddinamikasi, talonchilik, o‘g‘rilik, bosqinchilik, profilaktika, jinoyatchilikning hududiy farqlari, jamiyat xavfsizligi.

Abstract. The article analyzes the crimes committed in the Ushba Fergana region and the issues of determining crime. An analysis of the economic and social production that caused the origin of crime, a measure to obtain its status is developed. The article is based on a scientific study of the causes of rapid crime.

Key words: crime, crime dynamics, robbery, theft, assault, prevention, regional differences in crime, public safety.

Kirish: Dunyo mamlakatlarining barchasiga birdek xavf soladigan muammolardan biri bu jinoyatchilik bo‘lib odamlartning tinchligi va xavfsizligi hududlardagi jinoyatchilik holatiga bevosita bog‘liq. Mamlakatimizda xam jinoyatchilikning oldini olish xamisha asosiy vazifalardan biri bo‘lib kelgan. Sababi so‘ngi yillarda jinoyatchilik holati yuqori darajada o‘sish bilan namoyaon bo‘lmoqda. Xususan Farg‘ona viloyatida ham 2021-2022 yillarda jinoyatchilik darajasi keskin oshib bordi va respublikada Toshkent shahridan keyin ikkinchi o‘ringa chiqdi[3]. Jinoyatlar tarkibida o‘g‘irlik, firibgarlik kabi mulkiy jinoyatlar yuqori ulushga ega ekani statistika ma’lumotlarida qayd etilgan[3].

Ushbu maqolada Farg‘ona viloyatidagi jinoyatchilikka sabab bo‘layotgan omillarni taqqoslash usuli orqali umumiy va xos xulosalarga kelish ko‘zda tutilgan. Tadqiqot natijalari asosida jinoyatchilikka sabab bo‘luvchi omillar tasnifi va Farg‘ona viloyati bo‘yicha taqqoslovchi tahlil keltiriladi va oldini olish masalalari yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Jinoyatchilikning yuzaga kelishiga sabab bo‘luvchi omillardan biri ma’naviy-axloqiy omildir, bu omil jamiyatda huquqiy ong va madaniyatning darjasiga, shaxsning ijtimoiylashuv darajasiga bog‘liq omillarni o‘z ichiga oladi. Oiladagi muhit, tarbiya, ta’lim sifati, ommaviy madaniyat ta’siri kabilar shular jumlasidandir. Masalan, oilaviy nizolar va zo‘ravonlik ko‘pincha spirtli ichimlik suiiste’moli bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayonda alkogol eng faol kriminogen omillardan biri sifatida qayd etiladi. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi bo‘yicha tadqiqotlar esa yoshlar tarbiyasida bo‘sh vaqtni samarali tashkil etmaslik, ta’lim-tarbiya muassasalarining yetarlicha nazoratni amalga oshira olmasligi kabi muammolar o‘smirlar o‘rtasida huquqbuzarliklar keltirib chiqarishini ko‘rsatmoqda. Demak, ma’naviy tarbiya va ta’lim tizimidagi nuqsonlar, ijtimoiy nazoratning sustligi jinoyatchilikning ma’lum bir qatlamida oshishiga olib keluvchi muhim omillardandir.

Ilmiy adabiyotlar tahlil qilinganda aholi zich joylashgan, yirik bozor va savdo markazlari mavjud hududlarda jinoyat sodir etilish ehtimoli yuqoriroq bo‘ladi [5]. Hudud infratuzilmasi ko‘chalarning yoritilganligi, videokuzatuvning mavjudligi ham mahalliy jinoyatchilik darajasiga ta’sir qiluvchi omillar sirasiga kiradi. Shuningdek, migratsion jarayonlar boshqa hududlardan kelgan aholi ulushi, ichki migratsiya darajasi ham kriminogen vaziyatga ta’sir ko‘rsatishi kuzatilmoqda [5]. Ushbu topilmalar zamonaviy geokriminologik yondashuvlar bilan hamohangdir: aholi zichligi yuqori va ijtimoiy muhit noturg‘un bo‘lgan shaharlarda jinoyatchilik darajasi odatda qishloq joylarga nisbatan yuqori bo‘lishi dunyo bo‘yicha ko‘p kuzatilgan hodisadir. Demografik omillardan yosh tarkibi ham ahamiyatlidir aholining yoshlar ulushi ko‘p bo‘lsa, jinoyatlarning nisbiy ko‘rsatkichi oshishi mumkin. Masalan, O‘zbekistonda yoshlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar soni yildan yilga ortib borayotgani qayd etilgan. Shu jihatdan, Farg‘ona viloyatida voyaga yetmaganlar va yoshlar ishtirokidagi jinoyatlar eng yuqori ko‘rsatkichga ega ekani ham demografik holatning kriminogen vaziyatga ta’sirini ko‘rsatadi 2023 yilda butun mamlakat bo‘yicha jinoyat sodir etgan 3599 nafar voyaga yetmaganning 700 nafari Farg‘ona viloyatiga to‘g‘ri kelib, bu eng yuqori hududiy ko‘rsatkich bo‘lgan.

Yuqoridagi ilmiy yondashuv va tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kriminogen vaziyat ko‘p qirrali omillar ta’sirida shakllanadi. Ushbu omillarni tizimli tasniflash uchun biz adabiyotlarda taklif etilgan sxemalardan foydalandik va ularni Farg‘ona viloyati sharoitiga moslashtirdik. Quyida metodologiya va olingan natijalar keltiriladi.

Metodologiya. Tadqiqot metodologiyasi sifatida adabiyotlar tahlili, statistik ma’lumotlar tahlili va taqqoslovchi mintaqaviy tahlil qo‘llanildi. Avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan taqdim etilgan Farg‘ona viloyatidagi jinoyatchilikka doir rasmiy ma’lumotlar o‘rganildi.

Natija va muhokama. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar: Ushbu toifaga aholi turmush darajasi va iqtisodiy holatini tavsiflovchi omillar kiradi. Xususan, ishsizlik darajasi, daromadlar darajasi va tengsizligi, qashshoqlik, bandlik imkoniyatlari, hududning iqtisodiy rivojlanish darajasi kabi ko‘rsatkichlar Farg‘ona viloyatidagi jinoyatchilikka bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Aholi zichligi yuqori bo‘lgan shaharlar jinoyatlar ko‘proq sodir bo‘ladigan hududlar sifatida ajralib turadi. Kichik hududda aholining zich joylashuvi ijtimoiy nazoratni murakkablashtiradi, bir kvadrat kilometrga ko‘p odam to‘g‘ri kelganda jinoyat sodir etishga “imkoniyatlar” ham ortadi. Huquqni muhofaza qilish organlari tahliliga ko‘ra, ayrim jinoyat turlarida (masalan, talonchilik yoki bezorilik) boshqa hududdan kelgan shaxslarning ulushi mavjudligi kuzatilmoqda. Farg‘ona viloyati chegaradosh mintaqa bo‘lib, uning hududi orqali xalqaro kontrabanda yo‘llari o‘tgan (masalan, qo‘shni davlatlardan tamaki va alkogol mahsulotlarining noqonuniy savdosi keng tarqalgan) – hukumat bu muammoni tan olib, aksiz tovarlar noqonuniy savdosiga qarshi choralar ko‘rgan. Vodiyning chegara hududlari orqali narkotik moddalar tranziti xavfi ham mavjudligi ma’lum (garchi qat’iy chegara nazorati tufayli O‘zbekistonda vaziyat ancha nazoratda). Demak, geosiyosiy joylashuv ham kriminogen holatga ta’sir ko‘rsatishi mumkin: Qirg‘izistonning O‘sh shahri misolida geografik yaqinlik va tog‘li chegaralarning ochiqligi kuchli narkotrafik oqimiga imkon berib, ushbu shaharda “giyohvandlik poytaxti” nomini orttirgan edi. Farg‘ona viloyati uchun bunday keskin holat xos bo‘lmasa-da, regionning chegara savdo va tranzit yo‘llarida joylashuvi ayrim transmilliy jinoyatlar uchun xavf tug‘dirishi ehtimoli doimo e’tiborda bo‘lishi lozim.

Farg‘ona viloyati aholisi asosan milliy an’analarga sodiq, diniy qadriyatlarga ega konservativ qatlamdan iborat. Bu jihatdan hududda ma’naviy muhit nisbatan barqaror deyish mumkin, ammo so‘nggi yillarda ro‘y berayotgan urbanizatsiya va globallashuv jarayonlari natijasida yoshlar orasida axloqiy qarashlar o‘zgarishi kuzatilmoqda. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining yuqoriligi aynan tarbiya va bo‘sh vaqt muammolari bilan bog‘liq degan xulosani beradi: statistik ma’lumotga ko‘ra, Farg‘onada jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarning ko‘pchiligi maktab yoki kollej o‘quvchilari bo‘lib, ularning band bo‘lmagan vaqti nazoratsiz qolgan. 2023 yilda jinoyat sodir etgan 3599 nafar voyaga yetmaganning 2730 nafari ayni paytda ta’lim olayotgan o‘quvchi-ekanligi va faqat 148 nafari ishsiz yoki o‘qimaydigan bo‘lgani ko‘rsatilgan. Bu shuni anglatadiki, faqat ta’lim bilan qamrab olish yetmay, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish zarur. Yoshlar sport va madaniy to‘garaklarga jalb etilmasa, ko‘chadagi noformal guruhlar ta’siriga tushib jinoyatga aralashib qolishi ehtimoli ortadi.

- Поддержка на всех этапах развития. Политики должны охватывать весь жизненный цикл стартапа: от фазы идеи и инкубации до масштабирования и выхода на международные рынки.
- Развитие исследовательской базы. Необходимо стимулировать академические исследования, направленные на изучение поведенческих особенностей, стратегий роста и факторов успеха инновационных стартапов, что позволит формировать более обоснованные и адаптивные меры государственной поддержки.

Заключение. В последние годы инновационные стартапы стали объектом повышенного внимания как со стороны исследователей, так и со стороны государственных органов, поскольку они играют ключевую роль в технологическом прогрессе, экономическом росте и структурных трансформациях общества. Несмотря на высокий уровень риска и частоту неудач, именно инновационные стартапы обладают потенциалом для создания новых рынков, рабочих мест и повышения конкурентоспособности экономики. Однако, как показал проведённый обзор, эффективность реализуемых политик остаётся ограниченной из-за отсутствия единого подхода к определению и поддержке таких компаний, а также из-за недостаточной эмпирической базы. Важным выводом является необходимость переосмысления текущих подходов к разработке и реализации политики в отношении инновационного предпринимательства. Поддержка стартапов должна опираться не только на количественные показатели их создания, но и на качественную оценку их потенциала, жизнеспособности и инновационности. Кроме того, необходим комплексный системный подход, учитывающий институциональную среду, инфраструктуру и предпринимательские экосистемы.

Список использованной литературы:

1. Autio, E., Nambisan, S., Thomas, L. D. W., & Wright, M. (2018). Digital affordances, spatial affordances, and the genesis of entrepreneurial ecosystems. Strategic Entrepreneurship Journal, 12(1), 72–95.
2. Block, J., Fisch, C., & van Praag, M. (2017). The Schumpeterian entrepreneur: A review of the empirical evidence on the antecedents, behavior and consequences of innovative entrepreneurship. Industry and Innovation, 24(1), 61–95.
3. Brown, R., Mawson, S., Lee, N., & Peterson, L. (2019). Start-ups, entrepreneurial ecosystems and policy: A critical review. European Planning Studies, 27(10), 1879–1890.
4. European Commission (2020). Startup Europe: Supporting innovative entrepreneurship in the digital age. Brussels: Directorate-General for Communications Networks, Content and Technology.
5. Lerner, J. (2009). Boulevard of Broken Dreams: Why Public Efforts to Boost Entrepreneurship and Venture Capital Have Failed—and What to Do About It. Princeton University Press.
6. Stam, E. (2015). Entrepreneurial ecosystems and regional policy: a sympathetic critique. European Planning Studies, 23(9), 1759–1769.
7. World Bank (2020). Doing Business 2020: Comparing Business Regulation in 190 Economies. Washington, DC: World Bank Group.
8. Mazzucato, M. (2013). The Entrepreneurial State: Debunking Public vs. Private Sector Myths. Anthem Press.
9. Mason, C., & Brown, R. (2014). Entrepreneurial ecosystems and growth-oriented entrepreneurship. OECD LEED Papers, No. 2014/01, OECD Publishing.

ESP KURSLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA GENERATIV AI VOSITALARINING O‘RNI (MULTIMODAL TEXNIKALARGA TAYANILGAN YONDASHUV ASOSIDA)

Z.A.Xabirova
Toshkent shahridagi Adju universiteti v.b.dotsent, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ESP (kasbiy yo‘nalishdagi ingliz tili) kurslarini takomillashtirishda generativ sun’iy intellekt vositalarining o‘rni va ularning multimodal texnikalarga asoslangan yondashuvi yoritilgan. Generativ AI vositalari (ChatGPT, DALL E, Canva, Grammarly, Synthesia va boshqalar) orqali tayyorlangan multimodal materiallar yordamida dars jarayonining interaktivligi, talaba motivatsiyasi va til ko‘nikmalarining rivojlanishiga qanday ta’sir qilishi tahlil qilingan. Shuningdek, real tajriba va so‘rovnoma asosida multimodal yondashuvning samaradorligi baholangan. Maqolada mavjud imkoniyatlar bilan birga cheklovlar ham ko‘rib chiqilib, kelgusi tadqiqotlar uchun amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: ESP, sun’iy intellekt, generativ AI, multimodal yondashuv, ingliz tili, texnologiyaga asoslangan ta’lim, ChatGPT, ESP darslari.

Kirish. XXI asrda ingliz tilini kasbiy maqsadlarda o‘rganish (ESP – English for Specific Purposes) yanada dolzarb bo‘lib bormoqda. Bozor talablariga mos holda til o‘rgatish, ayniqsa IT, tibbiyot, turizm, muhandislik kabi sohalarda til bilimini amaliy vazifalar bilan uyg‘unlashtirish talab etilmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, sun’iy intellekt (SI) va generativ texnologiyalar til o‘qitishda katta imkoniyatlar yaratmoqda. Sun’iy intellektning generativ tarmog‘iga kiruvchi vositalar – ChatGPT, DALL E, Sora, Grammarly, Canva, Synthesia va boshqalar – multimodal (ya’ni, matn, audio, video, grafik, interaktiv elementlar) asosda kontent yaratish imkonini bermoqda. Bunday imkoniyatlar ESP kurslarini dinamik, moslashuvchan va o‘rganuvchi markazida tashkil etishga yordam beradi. Ushbu maqolada ESP kurslarini takomillashtirishda generativ sun’iy intellekt vositalarining o‘rni va multimodal yondashuv asosidagi amaliy qo‘llanishi tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi. ESP nazariyasining yetuk tadqiqotchilari – Hutchinson va Waters (1987), Strevens (1988), Dudley-Evans va St John (1998) – ESPni ehtiyojga asoslangan ta’lim deb ta’riflagan. Bunda til faqat grammatika emas, balki kasbiy kontekstda qo‘llanadi. Keyinchalik texnologiya rivojlanishi bilan bir qatorda, multimodal ta’lim muhim o‘rin tuta boshladi (Kress & van Leeuwen, 2001). Sun’iy intellektning ta’limga kirib kelishi, xususan, generativ AI vositalarining ESPda qo‘llanishi haqidagi ilmiy tadqiqotlar (Luckin et al., 2016; Garcia & Gomez, 2023) shuni ko‘rsatadiki, multimodal resurslar talabalar motivatsiyasini oshiradi va til ko‘nikmalarini chuqurroq shakllantiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqola nazariy-tahliliy usulda yozilgan bo‘lib, quyidagi manbalarga asoslandi:

ESP o‘qitish bo‘yicha mavjud darsliklar va metodik qo‘llanmalar.

Sun’iy intellekt vositalari (ChatGPT, Grammarly, Canva, Synthesia) asosida yaratilgan multimodal materiallar.

Tajriba asosida ESP darslarida multimodal yondashuvlarning sinov natijalari (so‘rovnoma, kuzatuv).

Maqolada multimodal yondashuvning samaradorligi va generativ AI vositalarining ESPga ta’siri baholandi.

Natijalar. 1 Generativ AI vositalarining turlari va ESPdagi funksiyasi

Vosita	Vazifasi
ChatGPT	Matnlar yaratish, dialog simulyatsiyasi, o‘zlashtirish mashqlari
DALL E / Canva	Vizual kontent (infografika, diagramma) yaratish
Synthesia / Sora	Video darslar, subtitrli animatsion taqdimotlar yaratish
Grammarly / QuillBot	Matnni tahlil qilish, grammatikani tuzatish, tarjima

Ushbu vositalar yordamida o‘qituvchi darsga mos multimodal kontentni qisqa vaqt ichida tayyorlashi mumkin.

2. ESP darslarida multimodal materiallardan foydalanish namunasi

Kompaniya bilan suhbat (ESP: Business English):

Matn: ChatGPT yordamida mijoz bilan yozishma yaratish

Video: Synthesia orqali suhbat animatsiyasi
Infografika: Canva’da mahsulot taqdimoti
Audio: AI voiceover bilan kompaniya tanishtiruv fayli

3. O‘quvchilar faoliyatiga ta’siri

Tadqiqotda Toshkent shahridagi Ajou universitetining 46 nafar “Elektrotexnika va kompyuter muhandisligi” fakulteti talabalari ishtirok etdi. Ushbu talabalar 2025-yil bahorgi semestrda ESP (kasbiy yo‘nalishdagi ingliz tili) kelajakdagi sohalariga bog‘lab multimodal ko‘rinishda o‘qitildi. Semestr oxirida 46 nafar talabalar orasida multimodal yondashuvning samaradorligi baholash maqsadida so‘rovnoma o‘tkazildi.

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra (46 nafar ESP o‘quvchisi ishtirokida):

86% talabalar multimodal materiallarni an’anaviy darsliklarga qaraganda qiziqarli deb hisoblagan.

78% o‘quvchilar AI yordamida tayyorlangan topshiriqlar tilni tezroq o‘zlashtirishga yordam berganini bildirgan.

72% talabalar o‘z nutq va yozma ko‘nikmalari yaxshilanganini sezgan.

Muhokama. Tadqiqot natijalari generativ AI vositalarining ESP o‘qitishdagi afzalliklarini ko‘rsatadi. Ular o‘qituvchining yukini kamaytiradi, talabaning ishtirokini oshiradi va o‘rganishni shaxsiylashtiradi. Ayniqsa, multimodal kontentlar (video, audio, rasm, matn) til o‘rganishga ko‘p kanal orqali kirish imkonini beradi.

Biroq ba’zi muammolar ham mavjud:

Til o‘rgatuvchi AI vositalarning ayrimlari grammatik xatolarga yo‘l qo‘yishi mumkin.

Har bir multimodal vosita uchun texnik tayyorgarlik va vaqt kerak bo‘ladi.

Har doim ham o‘quvchilar mustaqil ravishda AI bilan ishlashni bilmaydi – bu borada yo‘l-yo‘riq kerak. Shunday bo‘lsa-da, o‘qituvchi ushbu vositalarni metodik yondashuv bilan integratsiya qilsa, ESP kurslari sezilarli darajada takomillashadi.

Xulosa. ESP o‘qitish jarayonida generativ sun’iy intellekt vositalarining integratsiyasi multimodal yondashuvni ta’minlash orqali ta’lim sifati va samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, ChatGPT, Synthesia, Canva kabi vositalar o‘rgatuvchi va o‘rganuvchi o‘rtasidagi interaktivlikni kuchaytiradi, til o‘rganishni kasbiy ehtiyojga moslashtiradi.

Kelgusida ESP darslarini:
shaxsiylashtirish,
avtomatlashtirish,
multimodal baholash vositalari bilan to‘ldirish orqali yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dudley-Evans, T., & St John, M. J. (1998). *Developments in English for Specific Purposes: A multi-disciplinary approach*. Cambridge University Press.

2. Garcia, C. G., & Gomez, I. F. (2023). *Science Dissemination Videos as Multimodal Supporting Resources for ESP*. Journal of Multimodal Learning.

3. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). *English for Specific Purposes: A learning-centered approach*. Cambridge University Press.

4. Kress, G., & van Leeuwen, T. (2001). *Multimodal Discourse: The modes and media of contemporary communication*. Arnold.

5. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. (2016). *Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education*. Pearson Education.

6. Strevens, P. (1988). *ESP after twenty years: A re-appraisal*. In M. Tickoo (Ed.), *ESP: State of the Art* (pp. 1–13). SEAMEO Regional Language Centre.

“ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ТОВАР ХОМ АШЁ БИРЖАСИ” АЖДА КУЗАТУВ КЕНГАШИНИНГ ҲОЛАТИНИ БАҲОЛАШ ВА УНГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ОМИЛЛАРНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ

Д.И.Наврузов
“Ўзбекистон республика товар хом ашё биржаси” АЖ Муборак газни қайта ишлаш заводи бош мутахассиси, Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби мустақил изланувчиси (PhD)
E-mail:navruzov6606@gmail.com, Телефон:+99893-240-66-06, orcid: 0009-0002-1573-6734

Аннотация:Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 29 март кунидаги “Корпоратив бошқарув тизими такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги 760-сонли қонуни ва Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 06 майдаги “Акциядорлик жамиятлари ва акциядорларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақидаги 370-сонли қонуни ижросини таъминлаш мақсадида корпоратив бошқарувда кузатув кенгашининг оширишга қаратилган.

Аннотация: Закон Республики Узбекистан от 29 марта 2022 года №760 «О внесении изменений и дополнений в некоторые законодательные документы Республики Узбекистан в связи с совершенствованием системы корпоративного управления» и 06.06.2014 года Республики Узбекистан В целях обеспечения реализации Закона №370 «О внесении изменений и дополнений в Закон Республики Узбекистан «О защите прав акционерных обществ и акционеров» от мая направлено на повышение надзорной совет в корпоративном управлении.

Abstract: Law No. 760 of the Republic of Uzbekistan dated March 29, 2022 "On Amendments and Additions to Certain Legislative Documents of the Republic of Uzbekistan in Connection with the Improvement of the Corporate Governance System" and 06/06/2014 of the Republic of Uzbekistan In order to ensure the implementation of the Law No. 370 on amendments and additions to the Law of the Republic of Uzbekistan "On Protection of the Rights of Joint-Stock Companies and Shareholders" of May, it is aimed at the increase of the supervisory board in corporate management.

Калит сўзлар: Корпоратив бошқарув, корпоратив бошқарув моделлари, агентлик муаммоси, акциядор, кузатув кенгаши, корпоратив назорат, инвестор, манфаатдор томонлар.

Ключевые слова:Корпоративное управление, модели корпоративного управления, агентская проблема, акционер, наблюдательный совет, корпоративный контроль, инвестор, заинтересованные стороны.

Keywords: Corporate governance, corporate governance models, agency problem, shareholder, supervisory board, corporate control, investor, stakeholders.

Кириш. Жахон тажрибасига кўра, корхонада самарали фаолиятнинг асосий омили сифатида корпоратив бошқарув тизимини жорий қилиниши бундай бошқарув кодексининг амалиёти билан бевосита боғлиқдир. Тахлилларга қараганда, дунё миқёсида 100 дан зиёд шундай хужжатлар мавжуд. Шу билан бирга, айрим мамлакатлар амалиётидан келиб чиққан холда унинг мукаммаллаштирилган, яни тахрирдагисини жорий этиш жарёнини кузатиш мумкин.

Мустақиллик йилларда мамлакатимизда хам бозор муносабатларининг таркибий қисми хисобланган корпоратив бошқарувга оид меъёрий-хуқуқий базани шакллантиришга катта эътибор берилди. Айниқса, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 24 апрелдаги “Акциядорлик жамиятида замонавий корпаратив бошқарув услубларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони ислохатларнинг ҳозирги босқичи талаблари асосида ушбу соҳадаги қонун хужжатларини халқаро меъёрларни инобатга олган холда янада такомиллаштиришга катта йўл очиб берди. Унга мувофиқ, Германия хамда бошқа ривожланган давлатларнинг муваффақиятли тажрибаси ўрганилиб, Корпоратив бошқарув кодекси ишлаб чиқилиб, тасдиқланди ва амалиётга киритилди.

Шуни алохида таъкидлаш жоизки, 1999 йил Иқтисодий хамкорлик ва ривожланиш ташкилоти корпоратив бошқарув Тамойилларининг имзоланиши Иқтисодий хамкорлик ва ривожланиш ташкилоти аъзолари мамалакатнинг бу борадаги тажрибаларини умумлаштиришга олиб келди. Тамойилларнинг ўзи эса-жумладан, ўтиш иқтисодиётига эга мамлакатлар учун андозалар ва йўл-йўриқлар потенциал моделли тўпламига айланди.

Компания интилиши лозим бўлган корпоратив бошқарув асосий кўрсатгичи кузатув кенгаши самарадорлиги хисобланади. Жахон банкининг таърифига кўра, самарали кузатув кенгашига хос бўлган жихатлар қуйидагилар хисобланади:

- Шаффофлик;
- Компания фаолияти хақида молиявий ва бошқа ахборотларни очиш;
- Менежмент фаолияти устидан ички назорат жараёнлари;
- Акциядорлар олдидаги мажбуриятини хис қилиш;
- Барча акциядорлар хуқуқларини химоя қилиш ва таъминлаш;

- Директорнинг компания стратегиясини белгилаш, бизнес-режалар тасдиқлаш, бошқа мухим қарорлар қабул қилиш, менежерлар тайинлаш, уларнинг фаолиятини назорат қилиш, зарур холларда менежерларни ишдан бўшатишда мустақиллиги.

Корпоратив бошқарув анъанавий концепциясига мувофиқ компания фаравонлигини ўсиши билан унинг акциядорлари фаравонлиги компания фаравонлигидан фарқ қилиши ва бу компания ва унинг акциядорлари турли мақсадларга эга бўлиши мумкинлиги билан боғлиқ эканлигини тан олади. Шу сабабли самарали кузатув кенгаши мақсадлари-кузатув кенгаши барча қатнашчиларининг манфаатлари тан олиш хисобланади.

Юқоридагиларни инобатга олиб “Ўзбекистон республика товар хом ашё биржаси” АЖда кузатув кенгаши вазифа ва функциялари масалари бўйича амалга оширилган ишлар ўрганилди.

«Ўзбекистон республика товар хом ашё биржаси» АЖда корпоратив бошқаруви масалалари бўйича низомлар ишлаб чиқилган ва жамиятда кузатув кенгаши аъзолари 9 кишидан иборат.

“Ўзбекистон республика товар хом ашё биржаси” АЖнинг кузатув кенгаши Низоми тасдиқланган бўлиб низомга асосан қуйидагилар белгилаб қўйилган:

- Умумий қоидалар
- Кузатув кенгашининг вазифалари ва ваколатлари
- Жамият кузатув кенгашининг таркиби ва унинг аъзоларини сайлаш тартиби
- Компания кузатув кенгашининг раиси;
- Кузатув кенгашининг котиби;
- Кузатув кенгашининг иш режаси;
- Кузатув кенгашининг мажлисларини чақириш;
- Кузатув кенгашининг мажлисларини ўтказиш тартиби;
- Сиртдан овоз бериш тартиби;
- Кузатув кенгашининг қарорларини расмийлаштириш тартиби;
- Кузатув кенгаши аъзоларининг ҳуқуқлари ва мажбуриятлари;
- Кузатув кенгаши аъзоларининг жавобгарлиги;
- Кузатув кенгашининг қўмиталари (ишчи гуруҳлари);
- Якуний қоидалар.

Маълумот учун: “Ўзбекистон республика товар хом ашё биржаси” АЖда корпоратив бошқарув тизимини баҳолаш “City Capital” МЧЖ томонидан ўтказилган ва 2024 йил якунлари бўйича юқори баллни ташкил этди.

Баҳолашдан мақсад «Ўзбекистон республика товар хом ашё биржаси» АЖ корпоратив бошқарув тизими бўйича мустақил объектив хулоса беришдан иборат. «Ўзбекистон республика товар хом ашё биржаси» АЖ корпоратив бошқарув тизимини баҳолаш натижаларига мувофиқ жамиятга 1175 балл белгиланди ҳамда “Юқори” баҳо берилиб, фоиз жадвалига (1-жадвал) мувофиқ 97,92% ташкил қилди. Шунингдек, жадвалга мувофиқ йўналишлар кесимида қуйидагича кўринишда баҳоланди:

«Ўзбекистон республика товар хом ашё биржаси» АЖ корпоратив бошқарув тизмини баҳолаш бўйича умумий жадвал. 1-жадвал

№	Йўналишлар	Саволлар сони	Эхтимолий баллар		Хақиқий баҳоси
			Минимум	Максимум	
1	Корпоратив бошқарув кодексини жорий қилишга тайёргарлик баҳолаш	13	-135	135	135
2	Корпоратив бошқарув кодекси тавсияларига амал қилишни баҳолаш	37	-360	360	360
3	Биржа ташкилий тузилмасини баҳолаш	3	-30	30	30
4	Конкурс танлови ўтказилишини баҳолаш	5	-45	45	25
5	Биржа хисоботларини БХХга аудитнинг халқаро	3	-50	50	50

	стандартларига мувофиқ ошкор қилинишини баҳолаш				
6	Бошқарувнинг замонавий тизимларини жорий этилишини баҳолаш (ISO, ERP, НИОКР ва б)	5	-55	55	55
7	Ахборот сиёсатини баҳолаш	4	-170	320	320
8	Молиявий натижаларни баҳолаш	4	-150	150	150
9	Бошқа йўналишларни баҳолаш	25	-205	55	50
Умумий баҳо:		**100**	**-1200**	**1200**	**1175**
Фоиз кўринишидаги якуний баҳо					**97,92%**

Шу билан бирга шуни қайд этиш лозимки, корпоратив бошқарув тизими самарадорлигини баҳолаш диагностикаси методологияси акциядорлик жамиятларида корпоратив бошқарув даражасини баҳолаш имконини бериши билан биргаликда акциядорлик жамиятларида корпоратив бошқарув тизимини аниқлашнинг тизимли ёндашувини шакллантиради.

“Ўзбекистон республика товар хом ашё биржаси” акциядорлик жамиятида кузатув кенгаши тизимида қуйидаги асосий муаммоларни ва муаммо ечимларини ажратиб кўрсатиш мумкин:

-кузатув кенгаши мажлисларида нафақат ўтган даврдаги иш натижалари, балки янги қарорлар, стратегиялар ва сиёсий қарашлар мухокама этилиши керак. Бу мажлис ўтказишга бошқача тус беришни тақоза этади: мажлисда асосий вақт стратегик янгиликлар ва ташкилий ўзгаришларга бағишланиши, ўзаро тортишувлар рағбатлантириши лозим. Масалан, хар бир масала бўйича мухолифларнинг олдиндан тайинлаб борилиши қарор қабул қилиш жараёнининг жонли ва аниқ тортишувлар остида ўтишини таъминлайди;

- кузатув кенгаши аъзоларининг акциядорлик жамияти махсулоти, мижозлар фикри, бозор шароити, мухим стратегик ва ташкилий масалалар хақидаги ахборотларни олиш имконятини ошириш зарур. Одатда, кузатув кенгаши аъзолари ишчи хужжатлар тўпламини деярли мажлис пайтида олишади. Агар кузатув кенгаши аъзоларининг акциядорлик жамияти фаолияти бўйича қарорлар қабул қилиш жараёнига фаолроқ иштирокини хозлар эканмиз, унда уларнинг жамият фаолиятига доир барча маълумотларни исталган вақтда олишига имконят яратиш керак. Кузатув кенгаши аъзолари эса, ўз навбатида, акциядорлик жамиятининг жорий ишлаб чиқариш фаолиятидан хабардор бўлишлари учун ишлаб чиқариш цехлари, дўконлар ёки хизмат шахобчалари мижозлар ва ишловчилар билан мулоқатда бўлишлари талаб этилади.

-кузатув кенгаши аъзолари мехнати ишга қараб рағбатлантирилиши керак. Кузатув кенгаши аъзолари мехнатига хақ тўлаш тизимини акциядорлик жамияти фаолияти натижаларига боғламай туриб, улардан корпоратив сиёсатини белгилаб берувчи ташаббусли ва мураккаб вазифани бажаришни талаб этиб бўлмайди. Кенгаш аъзолари мехнатига хақ тўлаш жамият акциялари курси ўзгаришига боғлиқ равишда амалга оширилиши лозим.

Бу масалани давлат миқёсида хам (масалан, ахборотни очиб беришга нисбатан қатьий талаблар белгилаши, корпоратив хулқ-атвор кодексининг қабул қилиниши), алохида компаниялар миқёсида хам (уларнинг ўз хулқ-атвор кодексларини қабул қилиши) хал этилади. Компаниянинг корпоратив хулқ-атвор ёки бошқарув кодексларини қабул қилишини акциядорлар хуқуқларини химоя қилишни яхшилаш, кузатув кенгаши самарадорлигини ошириш ва ахборотни очиш бўйича компания фаолияти кодексларига кўпроқ урғу берилиши туфайли компаниянинг ўзи учун хам, инвесторлар учун хам ижобий омил сифатида кўриб чиқиш зарур. Бунда “жамоавий” сифатида ишлашни режалаштирилган компанияларда ва “ёпиқ” жамият сифатида ишлаш истагида бўлган компанияларда ташкилотда кузатув кенгашини такомиллаштириш йўналишлари жиддий фарқ қилишини эътиборга олиш зарур.

Хулоса ва таклифлар. Ўзбекистонда фаолият юритаётган акциядорлик жамиятларида кузатув кенгашига қўйилган мақсадларга эриши учун хўжалик юритувчи субъектлар манфаатларини уйғунлаштириш, акциядорлик капиталидан фойдаланиш, турли манфаатдор шахсларнинг харакатларини самарали ташкил қилиш, мувофиқлаштириш ва назорат қилиш тизими хисобланади. Бундай вазифаларни хал этиш учун акциядорлик жамиятларида самарали кузатув

кенгаши тизимига ўтиш талаб этилади. Самарали кузатув кенгаши муносабатларини амалга ошириш корпоратив бошқарувнинг асосий органи сифатида кузатув кенгашининг асосий функциялари ва вазифаларини аниқ қилиб белгилаш, уларни жамиятнинг ривожланиш стратегиясини ишлаб чиқиш ва амалиётга оширишга йўналтирилиши лозим.

Кузатув кенгаши самарадорлигини ошириш учун хорижий кузатув кенгаш тажрибаларига асосланган холда хамда кенгаш ишини баҳолашни жорий этиш, қабул қилинган қонун ва меъёрий хужжатларни қайта кўриб чиқш зарур. Булар кузатув кенгаши механизмларини фаол ишлашига ва мавжуд қийинчиликларнинг олдини олишга олиб келади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Элмирзаев.С Замонавий корпоратив бошқарув. Тошкент ш: “Иқтисодий-Молия”, 2019 й
2. Суюнов Д.Х, Элмирзаев.С. Корпоратив бошқарув. Тошкент ш:2021й
3. Internation Finance Corporation US Deparment of Commerce. The Russia Corporate Govermance manual. In volumes. Moscow : Alpina Business Books. 2004 .1 volume,9p
4. https://ru.wikipedia.org/wiki/Жорпоративное_управление
5. www.sdtes.uz
6. http/biznes-daily uz/images/e_daily1.jpg
7. “Ўзбекистон республика товар хом ашё биржаси” АЖ корпоратив бошқарув тизимини баҳолаш натижалари chrome extension://efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/https://old.uzex.uz/files/upload
8. “Ўзбекнефтгаз” АЖ корпоратив бошқарув тизимини баҳолаш натижалари бўйича хулоса **https://webdev.ung.uz/media/allfiles/files/311b5502fdc640fdb1bae3c84d6a5e76.pdf**.

O‘ZBEK VA INGLIZ TOPISHMOQLARIDAGI O‘XSHATISHLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

M.A.Abduolimova
Farg‘ona davlat universiteti, tayanch doktorant
mumtozbegim9722@gmail.com +998911259322

Annotatsiya: Ushbu maqola Alisher Navoiyning “Devoni Foniy” asaridagi chistonlar va ingliz folkloriga oid topishmoqlardagi o‘xshatishlarning lingvokulturologik va kognitiv jihatlarini tahlil qilishga bag‘ishlanadi. Tadqiqotda o‘xshatishlar til va madaniyat o‘rtasidagi aloqani ochib berishda muhim vosita sifatida ko‘rib chiqiladi. Navoiy chistonlaridagi ramzlar va metaforalar o‘zbek xalqining tabiatga, hayot va o‘limga bo‘lgan falsafiy qarashlarini aks ettiradi. Ingliz topishmoqlari bilan taqqoslash orqali madaniy farqlar va lingvistik lakunalar aniqlanadi. Natijalar o‘xshatishlarning til o‘rganish, madaniyatlararo muloqot va kognitiv rivojlanishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: o‘xshatishlar, lingvokulturologiya, Alisher Navoiy, chistonlar, madaniy qadriyatlar, kognitiv tilshunoslik, madaniyatlararo muloqot.

Аннотация: Статья посвящена лингвокультурологическому анализу сравнений в загадках Алишера Навои из «Девани Фани» и англоязычных фольклорных загадках. Исследование рассматривает сравнения как важный инструмент, раскрывающий связь между языком и культурой. Символы и метафоры в загадках Навои отражают философские взгляды узбекского народа на природу, жизнь и смерть. Сравнительный анализ с английскими загадками выявляет культурные различия и лингвистические лакуны. Результаты подчеркивают значение сравнений в изучении языка, межкультурной коммуникации и когнитивном развитии.

Ключевые слова: сравнения, лингвокультурология, Алишер Навои, загадки, культурные ценности, когнитивная лингвистика, межкультурная коммуникация.

Abstract: This article is dedicated to the linguocultural and cognitive analysis of similes in Alisher Navoi’s riddles from “Devoni Foniy” and English folk riddles. The study considers similes as a crucial tool for revealing the connection between language and culture. Symbols and metaphors in Navoi’s riddles reflect the Uzbek people’s philosophical perspectives on nature, life, and death. A comparative analysis with English riddles identifies cultural differences and linguistic gaps. The findings highlight the significance of similes in language learning, intercultural communication, and cognitive development.

Keywords: similes, linguoculturology, Alisher Navoi, riddles, cultural values, cognitive linguistics, intercultural communication.

Kirish. Til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlik zamonaviy lingvokulturologiyaning asosiy tadqiqot ob’ektlaridan biridir. O‘xshatishlar tilning kommunikativ va estetik funksiyalarini birlashtirib, xalqning dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi [3. 1999: B. 3]. Alisher Navoiyning “Devoni Foniy” asaridagi chistonlar turkiy xalqlarning madaniy merosini aks ettiruvchi noyob manba sifatida til va madaniyat o‘zaro ta’sirini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu chistonlarda ishlatilgan o‘xshatishlar o‘zbek xalqining tabiatga, hayotga va ma’naviy qadriyatlariga bo‘lgan falsafiy qarashlarini ochib beradi.

Metodologiya. Tadqiqotda o‘zbek va ingliz topishmoqlari qiyosiy tahlil qilindi. Alisher Navoiyning “Devoni Foniy” asaridagi chistonlar asosiy tadqiqot materiali sifatida tanlandi. Ingliz topishmoqlari esa madaniyatlararo taqqoslash uchun ishlatildi. Quyidagi usullar qo‘llanildi:

Matn tahlili: Chistonlardagi o‘xshatishlarning lingvistik va ramziy tuzilishi o‘rganildi.

Madaniy tahlil: O‘xshatishlarda aks etgan madaniy qadriyatlar va ramzlar tahlil qilindi.

Kognitiv tahlil: O‘xshatishlarning inson ongiga ta’siri Sapir-Whorf nazariyasi asosida ko‘rib chiqildi [7. 1956: B. 213].

Tahlil uchun folklor to‘plamlari, adabiy manbalar va lingvistik ma’lumotlar bazalaridan foydalanildi. Tadqiqot fanlararo yondashuvga asoslanib, lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslik usullarini birlashtirdi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari o‘xshatishlarning til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib berishda muhim vosita ekanligini ko‘rsatdi. Navoiyning sham chistoni o‘zbek xalqining tabiat, hayot va o‘limga bo‘lgan falsafiy qarashlarini aks ettiradi:

Chist on naxle, ki bargash nest, ammo hast gul, Lek, on gulro buvad andar nazar andomu barg. Garcha nabvad abr, lekin abrson shud qatrarez, Qatra az vay chun judo, aftod bandad chun tagarg. Ham kushandu ham bimirad turfa bashad, lek on-k, Kushtanash nabvad zi qatlu murdanash nabvad zi marg.

Ingliz topishmoqlari esa ko‘proq mantiqiy zukkolik va individualistik tafakkurga asoslanadi [2. 2021: B. 130]. O‘xshatishlar til o‘rganishda madaniy kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tahlil. Navoiy chistonlarining lingvokulturologik jihati

Navoiyning chistonlari o‘zbek xalqining ma’naviy olamini va tabiatga bo‘lgan hurmatini aks ettiradi. Sham chistonidagi o‘xshatishlar quyidagi madaniy ramzlarni o‘z ichiga oladi:

Daraxt va gul: Daraxt o‘zbek madaniyatida uzoq umr va barqarorlik ramzi sifatida qaraladi. Gul esa go‘zallik va hayotning o‘tkinchiligini ifodalaydi [4. 2018: B. 45]. Chistonda bu ramzlar hayotning siklik tabiati va o‘zgaruvchanligini ta’kidlaydi.

Bulut va qatra: Yomg‘ir va bulutlar o‘zbek folklorida farovonlik va ilohiy rahmatni anglatadi. Chistonda bulutsiz qatralar hayotdagi noaniqlik va o‘zgarishlarni tasvirlaydi.

Hayot va o‘lim: “Ham kushandu ham bimirad” iborasi hayot va o‘limning bir-birini to‘ldiruvchi jarayonlar ekanligini ko‘rsatadi. Bu o‘zbek xalqining Islom falsafasi va turkiy an’analarga asoslangan qarashlarini aks ettiradi [5. 2020: B. 89].

Ushbu ramzlar o‘zbek xalqining tabiatga hurmat, hayotning o‘tkinchiligiga mulohaza va o‘limni falsafiy qabul qilish kabi qadriyatlarini ochib beradi.

Madaniyatlararo taqqoslash. O‘zbek va ingliz topishmoqlari o‘rtasidagi farqlar madaniy lakunalarni aniqlashga yordam berdi. O‘zbek chistonlari tabiat va ma’naviy qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lsa, ingliz topishmoqlari mantiqiy va hazilga asoslanadi [6. 2020: B. 67]. Masalan, ingliz topishmoqlaridagi “What has keys but can’t open locks?” (Javob: pianino) kabi savollar analitik fikrlashni talab qiladi. Bu farqlar xalqlarning dunyoqarashi va ijtimoiy qadriyatlaridagi tafovutlarni ko‘rsatadi.

O‘xshatishlarning ta’limdagi ahamiyati. O‘xshatishlar til o‘rganishda madaniy va lingvistik kompetensiyani rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Halliday ta’kidlaganidek, til orqali o‘xshatishlar o‘quvchilarning madaniy dunyoqarashini shakllantiradi [1. 1978: B. 39]. Navoiy chistonlari orqali o‘zbek tilini o‘rganuvchilar xalqning urf-odatlari, qadriyatlarini va falsafiy qarashlarini chuqurroq tushunadi.

Xulosa. Tadqiqot o‘xshatishlarning til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib berishda muhim vosita ekanligini ko‘rsatdi. Navoiy chistonlari o‘zbek xalqining tabiatga, hayotga va o‘limga bo‘lgan falsafiy qarashlarini aks ettiradi. O‘xshatishlar til o‘rganish, madaniyatlararo muloqot va kognitiv rivojlanishda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Halliday, M. A. K., *Language as social semiotic: The social interpretation of language and meaning*. –London:Edward Arnold. 1978, 256 p.
2. Kovács, M., Cultural reflections in linguistic structures. – Cham: Springer. 2021, 18 p. (Journal of Applied Linguistics, 34(2), pp. 123-140), **https://doi.org/10.1007/s10936-021-09789-4**.
3. Lakoff, G., & Johnson, M., *Philosophy in the flesh: The embodied mind and its challenge to Western thought*. – New York: Basic Books. 1999, 624 p.
4. Muminov, B., *O‘zbek va ingliz tillaridagi topishmoqlar: Lingvokulturologik tahlil*. – Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti, 2018, 120 b.
5. Shukurov, A., *O‘xshatishlar va ularning lingvistik tahlili*. –Toshkent: O‘zbekistan Respublikasi Fanlar Akademiyasi. 2020, 150 b.
6. Taylor, J. R., *Cognitive models in language and thought: Ideology, metaphors, and meanings*. – Cambridge: Cambridge University Press. 2020, 548 p.
7. Whorf, B. L., *Language, thought, and reality: Selected writings of Benjamin Lee Whorf*. – Cambridge:MA, MIT Press.1956, 278 p.

CLIL – ZAMONAVIY TEXNOLOGIYA SIFATIDA: TA’RIF VA TAHLIL

Z.R.Bekniyozova
O‘zbekiston Milliy universiteti Xorijiy til va adabiyoti kafedrasi tayanch doktoranti (+998974313722)

Bugungi XXI asr globallashuvi ta’lim sohasiga tubdan yangilanishlarni olib keldi. Xususan, xorijiy tillarni o‘qitishda an’anaviy metodlardan voz kechilib, kommunikativ yondashuvga asoslangan, fanga integratsiyalashgan metodlar keng joriy etila boshladi. Shunday yondashuvlardan biri bu – CLIL (Content and Language Integrated Learning) bo‘lib, u xorijiy tilni o‘qitishda fanni o‘zlashtirishni ham bir vaqtda amalga oshirishni nazarda tutadi.

CLIL texnologiyasi XX asrning oxirlarida til va mazmunni birgalikda o‘rgatish zaruratidan kelib chiqqan holda shakllangan. Mazkur yondashuv Yevropa Ittifoqining ko‘p tilli jamiyatida til o‘rgatishni takomillashtirish, ayniqsa, chet tilini o‘zlashtirishni funksional va kommunikativ kontekstda amalga oshirish ehtiyoji natijasida vujudga keldi. 1994-yilda CLIL atamasi birinchi marotaba David Marsh tomonidan ilgari surildi, keyinchalik bu konsepsiya Do Coyle, Philip Hood va Marsh tomonidan nazariy jihatdan asoslab berildi. Mualliflar CLIL texnologiyasini “bir vaqtning o‘zida fanni va chet tilini o‘rgatishga yo‘naltirilgan integratsiyalashgan pedagogik yondashuv” sifatida ta’riflaydi.

CLIL so‘zining ma’nosi – content bu “fan”, “soha”, “mavzu” bo‘lsa, language – “til”, intigratsion – “integratsiya, aloqadorlik”, learning – “o‘rganish” kabi inglizcha so‘zlarning bosh harflari qisqartmasidan hosil bo‘lgan tushunchani ifodalaydi.

CLIL texnologiyasi asosida o‘quvchilar nafaqat fan sohasidagi bilimlarni o‘zlashtiradilar, balki ularni xorijiy tilda amalga oshirishga harakat qiladilar. Bu texnologiya o‘ziga xos integratsiyaga ega: fan o‘quvchilarning intellektual rivojlanishi uchun imkon beradi, til esa ushbu fanga doir atamalar, tushunchalarni chuqurroq tushunish va kommunikatsiya qilish uchun vosita bo‘lib xizmat qiladi.

So‘ngi tadqiqotlarga ko‘ra, CLILtexnologiyasini qo‘llash o‘quvchilarning *kognitiv* rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Fan mazmunini xorijiy til yordamida o‘rganish, o‘quvchilarning diqqatni jamlash, tushunchalarni tez anglab olish va murakkab savollarni yechishda analitik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning yuqori darajadagi aqliy jarayonlariga (taxmin qilish, muammo yechish, mantiqiy fikrlash) hissa qo‘shadi.

Olimlar CLIL metodida ikki muhim asosga ajratib, uni quyidagicha izohlaydilar.

Mazmun (content): Ushbu metod orqali o‘quvchilar o‘zlashtirayotgan fan yoki mavzu.

Til (language): Ta’lim berilayotgan til (odatda chet tili) o‘quvchilar uchun o‘zlashtirayotgan fanning asosiy atamalarini o‘z ichiga oladi.

Lingvistik rivojlanish nuqtai nazaridan CLIL o‘quvchilarga chet tilini real kontekstda o‘zlashtirish imkonini beradi. Chet tilini gramatik qoidalarga asoslangan tarzda o‘rganishdan ko‘ra, mazmunli amaliy kontekstda foydalanish orqali til o‘zlashtirish tezroq hamda samaraliroq kechadi. Shuningdek, CLIL orqali o‘quvchilar tilni faqat aloqa vositasi sifatida emas, balki ilmiy - akademik sohalarda ham qo‘llashni o‘rganadilar.

CLILning shakllanishida Yevropa kengashi va Yevropa komissiyasi muhim rol o‘ynagan. Xususan, 1996-yildagi “Education and Training 2010” strategik hujjatlarida ko‘p tillilik va madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rsatildi, bu esa CLIL kabi integratsiyalashgan metodlarni targ‘ib qilishga turtki bo‘ldi. CLIL texnologiyasi, an’anaviy til o‘qitish yondashuvlaridan farqli ravishda, chet tilini an’anaviy holda emas, balki tabiiy kommunikativ kontekstda o‘rganishga zamin yaratdi.

Shu bois, CLIL texnologiyasi til va fan integratsiyasiga asoslangan holda o‘quvchilarning ko‘p funksiyali kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi, zamonaviy, nazariy va amaliy asoslari chuqur ishlangan pedagogik yondashuvdir. U o‘zining fleksibil (moslashuvchan) tabiati bilan turli tilli va madaniyatli o‘quv muhitlarida muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda.

Bundan tashqari, 1980-yillarda rivojlangan “Content-Based Instruction” (CBI) yondashuvi ham CLILga zamin yaratgan metodlardan biridir. CBIda til o‘rganish fanga bog‘langan holda olib boriladi, bu esa o‘quvchilarning kommunikativ va kognitiv kompetensiyalarini bir vaqtda rivojlantirishga xizmat qiladi. CLIL esa bu yondashuvni yanada kengaytirib, nafaqat til o‘rgatish, balki real fanlarni o‘rganish jarayonini ham chuqurlashtirishni maqsad qiladi.

CLIL fan va til integratsiyasini yanada tizimli, didaktik jihatdan chuqurroq yondashuv bilan birlashtirib, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Coyle, Hood va Marshning 2010-yildagi asarlari CLIL haqida chuqur ilmiy izoh berib, uning pedagogik yondashuv sifatidagi muhim jihatlarini ta’kidlab o‘tishdi. David Marsh CLIL texnologiyasining asoschilaridan biri bo‘lib, u til o‘rganish va fan o‘rganishni birlashtiruvchi innovatsion pedagogik texnologiya deb hisoblaydi. Uning fikricha, CLIL texnologiyasi talabalarning o‘z til ko‘nikmalarini rivojlantirishi, shu bilan birga akademik fanni chuqurroq o‘rganishiga yordam beradi. Marsh CLIL texnologiyasini nafaqat tilni o‘rganishdagi qobiliyatini oshirishi, balki kognitiv fikrlash orqali mutaxassislik fani bilan bog’langan ma’lumotlarni tezroq anglashiga yordam berishini ta’kidlagan.

Do Coyle, CLIL metodologiyasining rivojlanishiga kata hissa qo‘shgan olimlardan biri, bu usulni “innovatsion integratsiya” sifatida ta’riflaydi. U CLILda til va fanni teng muhim komponentlar sifatida ko‘rib, darslarda bu ikkisini birgalikda muvaffaqiyatli o‘rgatish uchun maxsus strategiyalar va resurslar zarurligini ta’kidlaydi. Coylening fikriga ko‘ra, CLIL texnologiyasi nafaqat tilni o‘rganishni rivojlantiradi, balki o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga va kompleks tushunchalarni o‘zlashtirishga undaydi.

Dalton-Puffer CLIL texnologiyasining ta’lim jarayonidagi lingvistik va pedagogik jihatlarini o‘rgangan olim. U o‘quvchilarning CLIL texnologiyasi orqali xorijiy tilda yuqori darajada muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishini ta’kidlaydi. Dalton-Pufferning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, CLIL texnologiyasida o‘quvchilar nafaqat til ko‘nikmalarini, balki tanqidiy fikrlash va kontseptual tushunchalarni o‘zlashtirish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Biroq, u CLIL texnologiyasining samaradorligi o‘qituvchilarning tayyorgarligiga va yondashuvning to‘g’ri amalga oshirilishiga bog’liq ekanligini ta’kidlaydi.

Xalqaro miqyosda CLIL texnologiyasi keng qo‘llanilmoqda. Yevropa Ittifoqi maml`akatlari, ayniqsa Ispaniya, Finlyandiya, Gollandiya, Germaniya va Italiyada CLIL davlat siyosati darajasida tatbiq etilgan. UNESCO va EU tomonidan ko‘p tillilikni rivojlantirish va til ta’limida teng imkoniyatlar yaratish yo‘lida CLIL tavsiya etilgan yondashuvlardan biridir.

O‘rganishi rejalashtirilayotgan mavzuni bir paytning o‘zida chet tili va o‘z ona tilisida o‘zlashtirish kabi qo‘sh maqsadlarni amalga oshiradi. CLILning maqsadi o‘quvchiga, talabaga, ya’ni ta’lim oluvchi shaxsga jamiyatda faol hamda o‘z o‘rniga ega bo‘lishiga yordam berishi bilan birgalikda, mavzuni, matnni, hikoyani, materialni, bir so‘z bilan aytganda, axborotni o‘z ona tilisida emas o‘zga tilda o‘rganish imkoniyatini berishdan iboratdir.

Yuqoridagi ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlardagi olimlarning nazariyalariga asoslangan holda aytish mumkinki, CLIL texnologiyasini bugungi globallashuv va ko‘p tillilik davrida ta’lim sohasida til va fanni birgalikda o‘qitishga yo‘naltirilgan yondashuvlar ichida katta e’tiborga sazovor bo‘lmoqda. Shu jumladan, fan va tilni integratsiyalashgan holda o‘qitish texnologiyasi xorijiy tilni o‘rganish bilan birgalikda fan sohasidagi bilimlarni chuqur o‘zlashtirish.

Zamonaviy ta’lim tizimida fan va tilni integratsiyalashgan holda o‘rgatish tamoyiliga asoslangan CLIL (Content and Language Integrated Learning) texnologiyasi yuqori samaradorlikka ega yondashuvlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu metod orqali ta’lim olgan o‘quvchilar nafaqat chet tilini o‘zlashtirishda sezilarli yutuqlarga erishadilar, balki fanga oid murakkab tushunchalarni ham chuqurroq anglaydilar. CLIL o‘quvchilarda predmetga nisbatan yanada yuqori

motivatsiya va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu yondashuv ularda kommunikativ kompetensiyani, madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

CLIL metodikasining eng muhim afzalliklaridan biri shundaki, u o‘quvchilarni global mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishlari uchun zarur bo‘lgan til va mazmuniy bilimlarni birgalikda egallash imkonini yaratadi. Bu esa, o‘z navbatida, ularning xalqaro darajadagi malakalarni shakllantirishlariga xizmat qiladi.

Shu asosda aytish mumkinki, CLIL yondashuvi chet tilini o‘qitishda samarali strategiyalardan biri bo‘lib, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish, o‘quvchilarni ko‘p tilli va ko‘p madaniyatli muhitda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan shaxs sifatida shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun CLIL metodikasini ta’lim jarayoniga tizimli va ilmiy asoslangan tarzda joriy etish dolzarb va istiqbolli yo‘nalishlardan biri sifatida qaralishi lozim.

Foydalanılgan adabıyotlar:

1. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge University Press.
2. Marsh, D. (1994). Bilingual Education & Content and Language Integrated Learning. International Association for Cross-cultural Communication, Language Teaching in the Member States of the European Union, University of Sorbonne.
3. Marsh, D. (2002). CLIL/EMILE – The European Dimension: Actions, Trends and Foresight Potential. Jyväskylä: University of Jyväskylä.
4. Dalton-Puffer, C. (2007). Discourse in Content and Language Integrated Learning (CLIL) Classrooms. John Benjamins Publishing.
5. Mehisto, P., Marsh, D., & Frigols, M. J. (2008). Uncovering CLIL: Content and Language Integrated Learning in Bilingual and Multilingual Education. Macmillan Education.
6. European Commission. (1996). White Paper on Education and Training – Teaching and Learning: Towards the Learning Society. Brussels.
7. Council of the European Union. (2004). Education and Training 2010 – The Success of the Lisbon Strategy Hinges on Urgent Reforms. Brussels.

ZOMIN TUMANI TA’LIM TIZIMI TARIXI (2012-2024 YILLAR)

D.I.To‘ychiyeva
QarDU doktoranti +998974371115

Annotatsiya. Mazkur maqolada Zomin tumanining 2012-2024 yillardagi maktabgacha, maktab va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’lim tizimi tarixi yoritilgan. Shuningdek, ushbu ta’lim bosqichlaridagi umumiy holat, yutuq va kamchiliklar haqida ham so‘z yuritilib, sohani rivojlantirishga oid respublika miqyosida qabul qilingan qonun va qarorlarning tumandagi ijrosi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Pedagog, bog‘cha, darslik, metodika, kompetentlik, malaka, olimpiada, kasb-hunar, inventar, axborot-texnologiya, rekonstruksiya, ma’naviy-marifiy tadbirlar.

Аннотация. В статье рассматривается история развития системы дошкольного, школьного и среднего профессионального образования Зааминского района за 2012–2024 годы. Рассматриваются общее состояние, достижения и недостатки данных образовательных ступеней, анализируется реализация указов и постановлений республиканского уровня, направленных на развитие отрасли в районе.

Ключевые слова: Воспитатель, детский сад, учебник, методика, компетентность, квалификация, олимпиада, профессия, изобретатель, информационные технологии, реконструкция, духовно-просветительские мероприятия.

Annotation. This article covers the history of the preschool, school and secondary vocational education system of the Zamin district in 2012-2024. It also discusses the general situation, achievements and shortcomings of these educational stages, and analyzes the implementation of decrees and resolutions adopted at the republican level regarding the development of the sector in the district.

Keywords: Teacher, kindergarten, textbook, methodology, competence, qualification, Olympiad, profession, inventor, information technology, reconstruction, spiritual and educational events.

Ta’lim-tarbiya masalalari har bir jamiyatning asosiy tarkibiy qismi, ijtimoiy va madaniy ko‘rsatkichi ham demakdir. Zomin tumanining maktabgacha va maktab ta’limi hamda o‘rta maxsus kasb-hunar bosqichining 2012-2024 yillardagi o‘ziga xos tarixi bo‘lib, tizimda ijobiy o‘zgarishlar bilan bir qatorda, yechimini kutayotgan muammolar ham bo‘lgan.

2012-yil tumanda jami 73 ta umumta’lim maktabi, 2ta ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktabi, 16 ta maktabgacha ta’lim muassasasi faoliyat ko‘rsatgan. Yil davomida o‘quvchilarning olgan bilimlarini tahlillash va munosiblarini rag‘batlantirish maqsadida, fanlardan, “Bilimlar bellashuvi” kabi yuqori saviyali musobaqalar o‘tkazilib kelingan. Maktab darsliklari va fanlarni chuqurroq o‘rganish va o‘quvchilarning ilmiy saviyasini oshirish maqsadida, 22 ta fan yo‘nalishi bo‘yicha tuman maktablarida, “Ustoz-shogird” tizimi tashkil qilingan.[1] O‘quvchilarning qiziqishlaridan kelib chiqib, fan o‘qituvchisiga biriktirilgan. Bundan, tashqari, pedagog kadrlarning doimiy tajriba va malakasini oshirish masalasi ustuvor ahamiyat kasb etgan. Jumladan, tuman umumta’lim maktablarida malaka oshirish rejalari tasdiqlanib, o‘quvchilar malaka oshirish kurslariga yuborilib, qaytgandan so‘ng olgan ilmiy va kasbiy metodikalari orqali mahorat darslarini o‘tgan.

2013-yil tuman ta’lim muassasalarida doimiy masalalardan tashqari, ma’naviy-marifiy jarayonlarga va bu tizimdagi amaliy ishlarga asosiy urg‘u qaratilgan. Bu bevosita, sifatli ta’lim bilan birga tarbiyaviy jihatlarning ham ustunligini ko‘rsatadi. Vatanparvarlik ruhidagi tadbirlar, salomatlikka targ‘ibot tadbirlari, milliylikka oid tadbirlar va boshqa shu kabi ma’naviy-marifiy tadbirlar shular jumlasidandir.

2014-2015 o‘quv yilida Zomin tumani umumta’lim maktablarida 9-sinfni bitirgan 2680 nafar bitiruvchilar ta’limning keyingi bosqichiga ya’ni kasb-hunar kollejlariga va akademik litseylarga jalb etilgan. Ushbu jarayonni amalga oshirishda xalq ta’limi bo‘limi tomonidan tumandagi mavjud 9 ta kasb-hunar kollejlari bilan hamkorlikda “Ochiq eshiklar kuni”, “Kasblar festivali”, “Otalar majlisi” va so‘rovnomalar tashkil qilingan.[2]

2016-yilda Zomin tumanidagi 65 ta maktablarga kompyuterlar o‘rnatilib, ular Ziyonet ta’lim tarmog‘iga ulangan. Bu esa, yoshlarga zamonaviy ta’lim olish, jumladan, axborot texnologiyalari bilan ishlash ko‘nikmalarini yaxshilashga sabab bo‘lgan. Bu paytda tuman maktablarida jami 525 nafar pedagog kadrlar yosh avlodga ta’lim-tarbiya bergan. O‘quvchilar jami 25692 nafarni tashkil qilgan bo‘lsa, shulardan 12728 nafarini qizlar tashkil qilgan.[3]

Zomin tumanida 2017-yilda 16 ta maktabgacha ta’lim muassasalari mavjud bo‘lib, ularga 1501 nafar bolalar jalb qilingan. Bog‘cha yoshidagi bolalarning 9.6 foizi maktabgacha ta’lim muassasalariga bormagan. Tumandagi 75 ta umumta’lim maktablarida jami 1194 ta darsliklar, shundan matematika, rus tili va adabiyoti, ingliz tili, tasviriy san’at va chizmachilik darsliklaridan 91 tadan, informatika, fizika, kimyo, tarix, geografiya va huquq darsliklaridan 75 tadan darsliklar yetishmovchiligi kuzatilgan.[4] Kamchiliklar ta’lim muassasalarining boshqa jabhalarida ham ko‘zga tashlangan. Masalan, O‘zbekiston “Adolat” SDPning Xalq deputatlari Zomin tuman Kengashidagi partiya guruhi tomonidan “Maktabgacha va umumta’lim maktablarida sinflardagi o‘quvchilar sonining sanitariya-gigiyena talablariga mosligi, umumiy tibbiy xizmatning ahvoli, majburiy dori-darmonlar bilan ta’minlanganlik holatlari yuzasidan” o‘rganishlar olib borilgan.[5] Unga ko‘ra, tumandagi jami 3 ta maktabgacha ta’lim muassasasi va 10 ta ta’lim maktablari o‘rganilgan. Unga muvofiq, hududiy poliklinika va QVP lar o‘rtasidagi masofa uzoq bo‘lganligi bois, tibbiyot xodimlari faqatgina ko‘rik belgilangan kun kela olar, vaholanki boshqa paytlarda, o‘quvchilardagi favqulotda bo‘ladigan ko‘ngilsiz holatlar (sinish, pay cho‘zilishi, yorilish, qon ketish yoki shunga o‘xshash boshqa)da birinchi yordam choralari ko‘rilmagan. Yoki, sinfxona hajmi, unda belgilangan o‘quvchilar soni me’yorda emasligi, bu esa, nafaqat, ta’lim sifatiga, balki, o‘quvchilarning sog‘ligiga ham zarar keltirishi aniqlangan. Xatto, ayrim maktablarda tibbiyot xonalarining mavjud emasligi, tibbiyot xodimi vazifasini esa, psixolog yoki boshqa mutaxassisga yuklatilganlik holatlari ham aniqlangan.

Belgilangan vazifalar doirasida qilingan ishlar, jumladan, maktabgacha ta’lim muassasalaridagi tarbiyalanuvchilarning tibbiy kartalari ham tekshirilib, har bir bola emlanganligi, maktablar toza ichimlik suv quvurlariga ulanganligi, oshxona va sport maydonlari faoliyati yaxshi ekanligi kuzatilgan.

Ta’lim tizimining navbatdagi bosqichi, ya’ni o‘rta-maxsus kasb-hunar ta’limi jarayonlarida ham yechimini kutgan masalalar ko‘p bo‘lgan. Chunki, bu yoshda, aynan yoshlar o‘smirlik paytida bo‘lib, ularda turli o‘zgarishlar ham kuzatilishi mumkin. Ammo, bu o‘zgarishlar salbiy voqea va holatlar ham bo‘lishi mumkin. Ma’lumotlarga ko‘ra, 2018-yilda Dashtobod transport kasb-hunar kollejining 2 nafar, 50-sonli maktabning 3 nafari, 5-sonli maktabning 1 nafar o‘quvchilari tomonidan jinoyatlar sodir etilgan. Yoki, tuman mutasaddilarining e’tiborini talab qiladigan yana bir masala, voyaga yetmaganlar orasida o‘z joniga qasd qilish holatlari uchraganligi ayanchlidir. Bu ko‘rsatkich 2018-yil 3 tani tashkil qilib, o‘tgan yilga

nisbatan 2 taga kamaygan. Xususan tumandagi 39-sonli maktabning 9-sinf o‘quvchisi oilasidagi moddiy yetishmovchilik sabab, o‘z joniga qasd qilgan vaqtda, onasi tomonidan qutqarib qolingan.[6] Bevosita, bu kabi holatlar umumta’lim maktablarida faoliyat ko‘rsatayotgan psixolog, ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari, sinf rahbarlari va eng avvalo oilada ota-onaning ma’suliyatini oshirmog‘i, o‘zaro hamkorlikda ishlashlari lozimligini ko‘rsatadi. Yuqoridagi holatlarning oldini olish maqsadida, tuman prokraturasi tashabbusi bilan, fuqarolar yig‘inlari va ta’lim maskanlarida profilaktik tadbirlar muntazam ravishda o‘tkazib kelinmoqda.

Yoshlar va ularning ta’lim olishi doim qo‘llab-quvvatlanib kelgan. Masalan, Zomin tumanidan Oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilingan, zominlik talabalardan 10 nafarining to‘lov-kontrakt mablag‘lari, homiylar tomonidan to‘lab berilgan. Bundan tashqari, Prizidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida 2019-yil 19-martda “Yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etishda madaniyat, san’at, sport, axborot texnologiyalari, kitob o‘qishga qiziqishni oshirish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusni amalga oshirish to‘g‘risida” o‘tkazilgan videoselektor majlisi bayonida berilgan topshiriqlarning ijrosini ta’minlash yuzasidan tumanda “Har bir rahbar o‘zi o‘qigan maktabiga kitob sovg‘a qilish” kitob aksiyasi bo‘lib o‘tgan va unda tuman rahbarlari faol ishtirok etganlar.[7] Bu tashabbus ham bevosita umumta’lim maktablari va rahbariyat xodimlarining hamkorlik munosabatlariga ijobiy misollarda biri bo‘lgan.

2019-yil Zomin tumani Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish uchun 8 mlrd mablag‘ ajratilgan bo‘lsa, umumiy o‘rta ta’lim uchun esa, 77 mlrd mablag‘ ajratilgan.[8]

Mazkur mablag‘lar ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini yaxshilashga, zaruriy ta’lim ashyolari bilan ta’minlashga, maktablarning ta’mir ishlari va o‘quv bazasini yaxshilashga oid xarajatlarga yo‘naltirilgan.

Biroq, tizimda hali ham muammolar mavjud bo‘lgan. Masalan, 2019-yilda, Quyonoqli va Surxonobod qishloqlaridagi 146 nafar o‘quvchi 8 km uzoqlikdagi Dashtobod shahar 65-sonli maktabga qatnab o‘qiyotganligi sababli, yangi maktab binosi ushbu qishloqlarda qurilishi lozim bo‘lgan. Zomin shaharchasi xalqa yo‘lida aholi soni ortib borayotganligi hamda ular 6 km uzoqlikdagi Xalqobod mahallasidagi 60-sonli maktabga qatnab borishlari, ushbu maktab esa, 940 o‘ringa mo‘ljallansa-da, amalda 1963 nafar o‘quvchini tashkil etib, bir partada 3 nafar o‘quvchi o‘tirishi ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi va xalqa yo‘lida yangi bitta maktab qurilishi talab etgan. Shuningdek, tumandagi 17 ta maktab ta’mirtalab ekanligi, 27 ta maktabda esa, sport zallari hanuzgacha mavjud emasligi aniqlangan. Tuman kesimidagi 62 ta maktabda esa, oshxona talablarga javob bermagan.[9] Bu esa, o‘quvchilarga noqulayliklar keltirib chiqargan. Yana bir og‘riqli kamchilik, mutaxassis o‘qituvchilarning yetishmaganligi bo‘lgan. Ayniqsa, chet tillari ixtisosligidagi kadrlar shular jumlasidandir. Bundan tashqari, ayrim maktablarda, o‘quv inventarlari, labaratoriya xonalari, kompyuter jihozlari va boshqa ta’lim uskunlarining yetishmovchiligi kuzatilgan.

Yuqoridagi masalalarni hal etish uchun, har yili tuman budjeti hisobidan mablag‘lar (2020-yil uchun 133 mlrd) ajratilib kelingan va mas’ullarga zaruriy topshiriqlar belgilab berilgan. Va bu vazifalarning amadagi ijrosi o‘laroq, ma’lum natijalar ham qayd etilgan. Masalan, tuman maktabgacha ta’lim muassasalariga 3 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan bolalarni qamrab olish bo‘yicha 2019-yilda erishilgan 66 foiz qamrov, 2020-yilda 75 foizga chiqgan bo‘lsa, 2021-yildan esa, 100 foizga chiqarilishi rejalashtirilgan. 2020-yilda Zomin tumanida, 111 ta shundan, 17 ta davlat, 88 ta oilaviy, 6 ta davlat-xususiy sherikchilik asosidagi bog‘chalar faoliyat ko‘rsatgan.[10] Keyingi yillarda ham maktabgacha ta’lim muassasalarining sonini, qamrovini va birinchi navbatda xizmat sifatini yaxshilashga e’tibor qaratilgan.

2019-2020 o‘quv yilida Zomin tumanidagi 11-sinflarni bitirgan 2509 nafar o‘quvchilarning 31 nafari “oltin”, 13 nafari “kumush” medal bilan bitirgan. Ammo, shunga qaramay, tuman miqyosida bitiruvchilarning oliy ta’limga kirish kontengenti hamon pastligicha qolgan. Kelgusi vazifalarni amalga oshirishda ushbu jihatga urg‘u berish, va OTM larda zominlik talabalar salmog‘ini oshirish, oliy ma’lumotli kadrlarni mahalliy tizimlarda ishlashga jalb etish kabilar bo‘lgan.

2020-yilda karantin qoidalarining e’lon qilinishi va barcha ta’lim muassasalari onlayn shaklga o‘tishda oldin, Zomindagi bog‘cha, maktab va kasb-hunar kollejlari ostonasida “filterlash” moslamalari o‘rnatilgan. Har bir insonning tana harorati o‘lchangan va keyin binoga kiritilgan. Karantin qoidalariga qat’iy amal qilingan. Keyinchalik, barcha ta’lim muassasalari onlayn ta’lim shakliga o‘tkazilgan. Bu jarayonda, ayniqsa, o‘qituvchilardan sifatli ta’lim berish talab qilingan.

Zomin tumani maktab bitiruvchilarining 2021-yilda ham oliy ta’limga kirish ko‘rsatchikchlari qoniqarsizligicha qolgan. Vaholanki, 2020-2021 o‘quv yilida 2362 nafar o‘quvchi maktabni

tamomlagan.[11] Shuningdek, fan olimpiadalardagi ishtiroklar soni va o‘rin olish ko‘rsatkichlari ham kamayib ketgan. Mazkur masalalar, ta’lim tizimining davom etayotgan muammolaridan bo‘lgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-fevraldagi “Xalq ta’limi tizimini isloh qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi F-22 sonli farmoyishi ijrosini ta’minlash maqsadida, Zomin tumanidagi maktablarda ta’lim sifat samaradorligini oshirish borasida amalga oshiriladigan ishlar bo‘yicha manzilli dastur ishlab chiqilgan.[12] Dasturga ko‘ra, pedagog kadrlar sifat tarkibini yaxshilash va maktablarda ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish yo‘nalishida: tuman maktablaridagi 130 nafar o‘rta-maxsus ma’lumotli o‘qituvchilarni bosqichma-bosqich oliy ma’lumotli bo‘lishi uchun o‘qishga yuborish, Jizzax davlat pedagogika institutining pedagogika yo‘nalishida tahsil olayotgan Zomin tumanidan 82 nafar bitiruvchilarni ishga qabul qilish, iqtidorli o‘quvchilar o‘rtasida o‘tkaziladigan fan olimpiadalari uchun shart-sharoitlarni yaxshilash, sport musobaqalarida g‘olib bo‘lgan iqtidorli yoshlarni tuman hokimi bilan uchrashuvlarini tashkil qilish, o‘qituvchilarning pedagogik mahorat va kasbiy ko‘nikmalarini oshirish maqsadida ularga muntazam metodik yordam ko‘rsatish, maktablarning issiqlik tizimini ta’mirlash, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil qilish, malaka toifasiga ega pedagoglar sonini oshirish kabi vazifalar belgilab berilgan.

2024-yilga kelib, Zomin tumanidagi maktab bitiruvchilarining oliy ta’limga kirish ko‘rsatkichlarida oshib, 43 foizga yetgan. Bundan 5-yil avval bilan taqqoslaganda, qamrov bor-yo‘g‘i 5-6 foiz bo‘lgan.[13] Bu natijani qayd etish uchun, tumandagi jami 76 ta maktab bitiruvchilariga tushuntirish ishlari olib borilganligi, qiziqishlaridan kelib chiqib, mutaxasislik fanlari kesimida yo‘nalishlar berilishi, shuningdek, chet tillarini o‘rganishda o‘quvchilar sonining ortishi, xalqaro va milliy sertifikatlardan yaxshi natijalarni qo‘lga kiritishlari ham zamin bo‘lib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Zomin tumanidagi ta’lim muassasalari yuqorida sanab o‘tilgan xronologik ketma-ket yillarda, soha mutasaddilari tomonidan asosiy e’tibor, olib borilgan yangi islohotlar, mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga va eng asosiysi, yosh avlodga ham sifatli ta’lim ham chiroyli tarbiya berishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Mustaqil yurt pedagoglari - sifatli ta’lim sari”//Sharq tonggi gazetasi. №32(7383). 2012-yil. 2-3bb.
2. “Yoshlarga davr talablari darajasida ta’lim berish, barkamol shaxsni tarbiyalash - bosh maqsadimiz”//Sharq tonggi gazetasi. 25(7497). 2-bet.
3. “O‘qituvchi - ertangi kun yaratuvchisi”//Sharq tonggi gazetasi.№26(7529). 2016-yil. 3-bet.
4. Xalq deputatlari Zomin tumani kengashining yigirma oltinchi sessiyasi hujjatlari. Zomin tumani hokimligi joriy arxiv materiallari. 74-bet.
5. Jizzax viloyati davlat arxivi. Fond-M-440, ro‘yxat-27, yig‘ma jild-2, 45-varaq.
6. Xalq deputatlari Zomin tumani kengashining qir ikkinchi sessiyasi hujjatlari. Zomin tumani hokimligi joriy arxiv materiallari. 2018-yil. 9-bet.
7. Xalq deputatlari Zomin tumani kengashining qirq yettinchi sessiyasi hujjatlari. Zomin tumani hokimligi joriy arxiv materiallari. 2019-yil. 5-bet.
8. Xalq deputatlari Zomin tumani kengashining qirq to‘qqizinchi sessiyasi hujjatlari. Zomin tumani hokimligi joriy arxiv materiallari. 2019-yil. 43-bet.
9. Xalq deputatlari Zomin tumani kengashining qirq uchinchi sessiyasi hujjatlari. Zomin tumani hokimligi joriy arxiv materiallari. 2019-yil. 5-bet.
10. Xalq deputatlari Zomin tumani kengashining o‘n beshinchi sessiyasi hujjatlari. Zomin tumani hokimligi joriy arxiv materiallari. 2020-yil. 19-bet.
11. Jizzax viloyati davlat arxivi. Fond-M-496, ro‘yxat-5, yig‘ma jild-14, 74-varaq.
12. Jizzax viloyati davlat arxivi. Fond-M-496, ro‘yxat-5, yig‘ma jild-18, 20-varaq
13. Dala yozuvlari. Zomin tumani maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi, bo‘lim boshlig‘i: Malikov Ilhom. 2025-yil.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARI PEDAGOGIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISH: TAJRIBA VA AMALIYOT

K.I.Otamirzayeva
Namangan davlat universiteti, 3-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari pedagogik mahoratini rivojlantirish: tajriba va amaliyot haqida so‘z boradi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik mahorati bir qancha omillarga, jumladan, ta’lim darajasi, o‘qitish tajribasi, doimiy kasbiy rivojlanish va mintaqaviy ta’lim siyosatiga qarab sezilarli darajada farqlanadi. Boshlang’ich sinf o’qituvchilarini maktabda rivojlantiruvchi ta’limni amalga oshirishga kasbiy tayyorlash nazariy-metodologik asoslarining yetarli ishlab chiqilmaganligi bunday tayyorlikni pedagoglar kasbiy mahorati darajasiga malakali talablar sifatida ilgari surish dalili bilan ziddiyatga kirishadi. Boshqa tarafdan, boshlang’ich ta’limda o’qitish holati tahlili boshlang’ich maktabda rivojlantiruvchi ta’limni amalga oshirishga nisbatan pedagogik otm bitiruvchilarining istalgan yuqori va deyarli yuqori quyi darajasi o’rtasidagi ziddiyatni ko’rsatadi.

Kalit so‘zlar: ta’lim darajasi, o‘qitish tajribasi, doimiy kasbiy rivojlanish, kompetensiya va inklyuzivlik, rivojlantiruvchi ta’lim, boshlang’ich ta’lim, passiv idrok, idrok qilish, faoliyatli yondashuv, mentorlik, sinfdagi kuzatuvlar.

Kirish. Bugungi kunga kelib ―Uchinchi renessans poydevorini yaratish g‘oyasi qanday maqsad muddaolarni ifodalaydi? degan savol ham ko‘pchilikni qiziqtira boshladi. Mamlakatimizda kechayotgan keng ko‘lamli jarayonlar bilan uzviy bog‘liq bunday dolzarb masalalar va ularning yechimlari mazmun mohiyatini to‘g‘ri anglash nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga xalqimiz taraqqiyoti uchun yanada keng imkoniyatlar va munosib hayot tarzini yaratish provardida esa jonajon vatanimiz – O‘zbekistonni eng rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqish sharafli va ayni paytda nihoyatda mas’uliyatli vazifa albatta.

Adabiyotlar tahlili. Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash bo‘lajak o‘qituvchining o‘z imkoniyatlari va qobiliyatlarini mustaqil tatbiq etish darajasida rivojlantiruvchi ta’limni ijodiy amalga oshirishga tayyorgarligini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan ta’lim olish integrativ jarayonlariga ega murakkab sotsial-pedagogik tizim sifatida tushuniladi. Kasbiy tayyorgarlik – butun shaxs xislati – kasbiy faoliyatda pedagogik vaziyatlarni hal etishda muayyan faollikka nisbatan ko‘rsatmalarni o‘z asosi qilib olib, kasbiy o‘z mavqeini topishda ifodalanadi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini boshlang‘ich sinf o‘quvchilari rivojlantiruvchi ta’limini amalga oshirish va ularning o‘quv faoliyatini shakllantirishga tayyorlash shartlari va imkoniyatlarini aniqlash, pedagogika oliy ta’lim muassasida bo‘lajak boshlang‘ich maktab mutaxassisini kasbiy nazariy va amaliy tayyorlash hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqola bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari pedagogik mahoratini rivojlantirish, tajriba va amaliyotlarnio‘rganadi va ularni samarali amalga oshirish uchun asosiy fikrlarni belgilaydi.

Tahlillar va natijalar. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida pedagogik mahoratni rivojlantirish o‘qituvchilar ta’limi dasturlarida muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Samarali pedagogika talabalarning muvaffaqiyati va faolligi uchun asos bo‘lib, o‘qituvchilarni tayyorlashga kompleks yondashuvni talab qiladi. Ushbu tajriba-sinov ishida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bo‘lajak o‘qituvchilari o‘rtasida pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishning metodologiyasi, amaliyoti va natijalari o‘rganiladi.

Maqsadlar. Ushbu eksperimental ishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Boshlang'ich sinf o‘qitish uchun zarur bo‘lgan asosiy pedagogik ko‘nikmalarni aniqlash.

Ushbu ko‘nikmalarni oshirishga qaratilgan o‘quv modullarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Ushbu modullarning samaradorligini turli baholash usullari orqali baholang.

Muvaffaqiyatli strategiyalarni o‘qituvchilar ta’limining standart o‘quv dasturlariga integratsiya qilish bo‘yicha tavsiyalar berish.

Metodologiya. Eksperimental ish bir o‘quv yili davomida o‘tkazildi, unda o‘qituvchilar tayyorlash dasturiga qabul qilingan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ishtirok etdi. Metodologiya quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oldi:

Ehtiyojlarni baholash: Muhim pedagogik ko‘nikmalarni aniqlash uchun tajribali o‘qituvchilar va ta’lim ekspertlari bilan dastlabki so‘rovlar va suhbatlar.

O‘quv modullarini ishlab chiqish: sinfni boshqarish, o‘qitish strategiyalari, talabalarni baholash va inklyuziv ta’lim kabi sohalarga yo‘naltirilgan maqsadli o‘quv modullarini yaratish.

Amalga oshirish: O‘quv modullari mavjud o‘quv rejasiga kiritilgan. ishtirokchilar seminarlar, amaliy o‘quv mashg‘ulotlari va reflektiv amaliyotlarda qatnashdilar.

Baholash: Trening samaradorligini baholash uchun ham sifat, ham miqdoriy usullar qo‘llanildi. Aralashuvdan oldingi va keyingi baholashlar, sinfdagi kuzatuvlar va ishtirokchilarning fikr-mulohazalari tahlil qilindi.

Asosiy pedagogik mahorat. Ehtiyojlarni baholash asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun quyidagi asosiy pedagogik ko‘nikmalar hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi:

Sinfni boshqarish: tartibli, hurmatli va samarali sinf muhitini saqlash usullari.

Ta’lim strategiyalari: Tarkibni samarali etkazib berishning turli usullari, jumladan, turli xil o‘rganish uslublariga mos keladigan tabaqalashtirilgan ko‘rsatmalar.

Talabalarni baholash: Talabalar taraqqiyotini baholash va konstruktiv fikr bildirish usullari.

Inklyuziv ta’lim: turli xil kelib chiqishi va ehtiyojlari bo‘lgan talabalarni qo‘llab-quvvatlaydigan inklyuziv sinfni yaratish strategiyalari.

Muloqot ko‘nikmalari: qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim hamjamiyatini rivojlantirish uchun talabalar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot qilish.

Amalga oshirish va tadbirlar. O‘quv modullari interaktiv va amaliy bo‘lib, quyidagi tadbirlarni o‘z ichiga olgan holda ishlab chiqilgan:

Seminarlar: Ishtirokchilar yangi o‘qitish strategiyalarini o‘rgangan va amaliyotda qo‘llagan interfaol mashg‘ulotlar.

Simulyatsiya qilingan o‘qitish: Ishtirokchilar uchun boshqariladigan, simulyatsiya qilingan sinf muhitida pedagogik ko‘nikmalarni qo‘llash imkoniyatlari.

Mentorlik: Yo‘l-yo‘riq va fikr-mulohazalar uchun ishtirokchilarni tajribali o‘qituvchilar bilan bog‘lash.

Reflektiv amaliyot: Ishtirokchilarni o‘z ta’lim tajribalari haqida fikr yuritishga va shaxsiy takomillashtirish rejalarini ishlab chiqishga undash.

Tengdoshlar bilan o‘qitish va fikr-mulohazalar: Strukturaviy o‘qitish sessiyalari, unda ishtirokchilar tengdoshlari oldida dars berishni mashq qiladilar, so‘ngra konstruktiv fikr-mulohaza sessiyalari. Bu qo‘llab-quvvatlovchi muhitda ularning mahoratini oshirishga yordam beradi.

Case Studies va muammolarni hal qilish mashg‘ulotlari: Haqiqiy dunyo ssenariylarini tahlil qilish va nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash uchun muammoni hal qilish faoliyati bilan shug‘ullanish.

O‘qitishda texnologiyadan foydalanish: O‘qitish va o‘rganish tajribasini yaxshilash uchun ta’lim texnologiyasini sinfga integratsiyalash bo‘yicha trening. Bunga darsni rejalashtirish, talabalarning faolligi va baholash uchun raqamli vositalardan foydalanish kiradi.

Ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, treningdan o‘tgan ishtirokchilar quyidagilarni ko‘rsatdilar:

Kengaytirilgan sinfni boshqarish ko‘nikmalari: Ishtirokchilar o‘quvchilarning yaxshi xulq-atvori va faolligini oshirishga olib keladigan tuzilgan va jozibador sinf muhitini yaratish qobiliyatini yaxshilashdi.

Takomillashtirilgan ta’lim texnikasi : Ishtirokchilar tomonidan qo‘llaniladigan o‘qitish strategiyalarining xilma-xilligi va samaradorligi sezilarli darajada yaxshilandi, natijada darslar yanada dinamik va interaktiv bo‘ldi.

Ko‘proq ishonch va moslashuvchanlik : Ishtirokchilar o‘zlarining ta’lim qobiliyatlariga ko‘proq ishonch hosil qilishlarini va talabalarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun o‘z usullarini moslashtirishga qodirligini bildirdilar.

Talabalarning ijobiy natijalari : O‘qitilgan o‘qituvchilar tomonidan boshqariladigan sinfxonalarda o‘quvchilarning faolligi, motivatsiyasi va o‘quv faoliyati yaxshilanganini ko‘rsatdi, bu sinfdagi baholash va talabalarning fikr-mulohazalari orqali kuzatildi.

Baholash va natijalar. O‘quv modullarining samaradorligi quyidagi yo‘llar bilan baholandi:

Aralashuvdan oldingi va keyingi baholashlar: Ishtirokchilarning pedagogik bilim va ko‘nikmalari aralashuvdan oldin va keyin standartlashtirilgan testlar va ish faoliyatini baholash yordamida o‘lchandi.

Sinfdagi kuzatuvlar: Kuzatuvchilar o‘rganilgan ko‘nikmalarni haqiqiy sinf sharoitida qo‘llashni baholadilar.

Ishtirokchilarning fikr-mulohazalari: So‘rovlar va fokus-guruhlar ishtirokchilarning treningning ularning o‘qitish qobiliyatlariga ta’siri haqidagi tasavvurlarini to‘pladi.

Uzunlamasına kuzatish: Treningning ularning o‘qitish amaliyoti va talabalar natijalariga uzoq muddatli ta’sirini baholash uchun vaqt o‘tishi bilan ishtirokchilarning taraqqiyotini kuzatish.

Nazorat guruhi bilan taqqoslash: Aralashuvning o‘ziga xos afzalliklarini baholash uchun maxsus tayyorgarlikdan o‘tmagan nazorat guruhi bilan o‘qitilgan kohortning ish faoliyatini taqqoslash.

Natijalar ishtirokchilarning pedagogik mahorati sezilarli darajada yaxshilanganini ko‘rsatdi. Sinfni boshqarish va o‘qitish strategiyalari eng sezilarli yaxshilanishlarni ko‘rsatdi, ishtirokchilar o‘zlarining ta’lim amaliyotlarida ko‘proq ishonch va samaradorlikni namoyish etishdi. Fikr-mulohazalar amaliy, amaliy tajribalarning ahamiyati va doimiy murabbiylikning muhimligini ta’kidladi.

Tavsiyalar. Natijalar asosida o‘qituvchilar malakasini oshirish dasturlari bo‘yicha quyidagi tavsiyalar taklif etiladi:

Amaliy mashg‘ulotlarning integratsiyasi: O‘qituvchilar ta’limining o‘quv dasturlarida amaliy amaliyot va real o‘qitish tajribasi uchun keng imkoniyatlar mavjudligini ta‘minlash.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish: bo‘lajak o‘qituvchilarga doimiy ravishda o‘z malakalarini oshirish uchun doimiy yordam va treninglar bilan ta’minlash.

Reflektiv amaliyotga e‘tibor: doimiy shaxsiy va kasbiy o‘sishni ta’minlash uchun o‘qituvchilarni rivojlantirishning asosiy komponenti sifatida reflektiv amaliyotni rag‘batlantirish.

Mentorlik dasturlari: Yo‘l-yo‘riq va qo‘llab-quvvatlash uchun yangi o‘qituvchilarni tajribali o‘qituvchilar bilan bog‘lash uchun rasmiy murabbiylik dasturlarini yarating.

O‘quv dasturlarini muntazam yangilash: Pedagogikada joriy ta’lim tadqiqotlari va paydo bo‘layotgan ilg‘or tajribalarni aks ettirish uchun o‘qituvchilar ta’limi bo‘yicha o‘quv dasturlarini doimiy ravishda yangilash.

Texnologiya integratsiyasi: bo‘lajak o‘qituvchilarning ta’limni yaxshilash va sinf boshqaruvini soddalashtirish uchun zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishda malakali bo‘lishini ta’minlash.

Hissiy va ijtimoiy ta‘limga e’tibor: o‘quvchilarning hissiy va ijtimoiy rivojlanishini rag‘batlantirish bo‘yicha treningni qo‘shish bu yaxlit ta‘lim yondashuvi uchun juda muhimdir. Madaniy kompetensiyalarni o‘rgatish: bo‘lajak o‘qituvchilarni sinfdagi madaniy xilma-xillikni samarali hal qilish va qabul qilish, barcha talabalar uchun inklyuziv va teng huquqli ta‘lim muhitini ta‘minlash uchun tayyorlash.

Xulosa. Tajriba ishida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik mahoratini shakllantirishda maqsadli o‘qitishning muhim ahamiyati ko‘rsatilgan. Amaliy, interaktiv ta’lim tajribalariga e’tibor qaratish va doimiy yordam ko‘rsatish orqali o‘qituvchilar ta’lim dasturlari bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘quvchilarning turli ehtiyojlarini qondirish va ijobiy ta’lim muhitini yaratish uchun yaxshiroq tayyorlashi mumkin. Ushbu strategiyalarni namunaviy o‘quv dasturlariga integratsiyalashuvi boshlang‘ich ta’limni doimiy ravishda takomillashtirish uchun zarurdir. Tajriba-sinov ishlari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini zarur pedagogik ko‘nikmalar bilan qurollantirishda har tomonlama, amaliy mashg‘ulotlarning muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlaydi. Amaliy tajriba, reflektiv amaliyot va uzluksiz kasbiy rivojlanishga e'tibor qaratgan holda, o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlari yangi o‘qituvchilarning tayyorgarligi va samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Ushbu topilmalarni standart o‘quv dasturlariga joriy etish nafaqat o‘qituvchilar sifatini yaxshilaydi, balki o‘quvchilar uchun ta’lim natijalarini yaxshilashga hissa qo‘shadi, boshlang‘ich ta’lim tizimini yanada dinamik, inklyuziv va samarali tashkil etadi. Ushbu tadqiqot o‘qituvchilar ta’limining davom etayotgan evolyutsiyasi muhimligini ta’kidlaydi. Yangi ta'lim muammolariga moslashish va innovatsion strategiyalardan foydalanish o‘qituvchilarning kelajak avlodlari yosh o‘quvchilarni samarali ilhomlantirish va o‘qitish uchun yaxshi tayyorgarlik ko‘rishlarini ta’minlaydi. Taqdim etilgan tavsiyalar o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlari bo’yicha ularning o‘qitish metodologiyasini takomillashtirish bo’yicha yo‘l xaritasini taklif qiladi va natijada kuchliroq va bardoshli ta’lim tizimiga olib keladi.

Adabiyotlar:

1. Darling-Hammond, L. (2010). The Flat World and Education: How America's Commitment to Equity Will Determine Our Future. Teachers College Press. 245-275.

2. Leithwood, K., & Seashore Louis, K. (2012). Leadership for Learning: How to Help Teachers Succeed. Jossey-Bass. 135-180.

3. Kraft, M. A., & Papay, J. P. (2014). How do Teacher Support and Evaluation Systems Improve Student Achievement? 200-230.

4. Liu, S., & Zhang, L. (2015). Teaching English to Young Learners in the Digital Age. Springer. 160-180.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH DARSLARIDA PIRLS TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

O‘.A.Olimjonova
Namangan davlat universiteti, Boshlang‘ich ta’limda ijtimoiy- gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi kafedrasi Ta’lim tarbiya nazariyasi va metodikasi boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi

2 -bosqich tayanch doktoranti

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish fanini o‘qitishning asosiy maqsadi milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini o‘qitish orqali o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shaklantirish hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko‘nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish, o‘quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o‘rgatish jarayonida olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o‘quvchilarning ma’naviyatini, dunyoqarashini kengaytirib, mustahkamlab borishdan iborat.

O‘qish savodxonligi tushunish va shaxs tomonidan qadrlanadigan yoki jamiyat tomonidan talab etiladigan barcha yozma til shakllaridan foydalana olish qobiliyatidir. Ma’lumki, o‘qish savodxonligi insonlarning o‘qishdan ko‘zlagan maqsadlari bilan bevosita bog‘liqdir. Masalaga yanada kengroq yondashadigan bo‘lsak, mazkur sabab yoki maqsadlarga zavqlanish uchun, shaxsiy qiziqish tufayli o‘rganish va jamiyatda ishtirok etish kabilar kiradi. Ko‘pgina yosh o‘quvchilar endigina o‘qishni boshlaganlarida asosan hikoyali matnlar (masalan, hikoyalar yoki suratli kitoblar) yoki o‘quvchilarga o‘zlarini o‘rab turgan dunyo haqida axborot beruvchi va savollariga javob beruvchi ma’lumotlarga boy matnlarni o‘qiydilar.

XXI asrga xos xalqaro baholash dasturlari asosida o‘quvchilar bilimini baholash, o‘qitish va ta’lim olishning zamonaviy usullaridan maqsadli foydalangan holda ularni yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishlarini ta’minlashga xizmat qiladi. O‘quvchilarni fikrlash chegarasidan tashqariga chiqishga, ijodiy, samarali va odobli fikrlashga undaydi. Binobarin, mazkur muammolarning har birini qamrab oluvchi mavzular, ko‘rsatmalar, sinfxona muhiti, baholash mexanizmi va texnik qo‘llanmalardan foydalanish kabi masalalarda turli xil yondashuvlarga asoslanilgan holda kafolatlangan natijani ta’minlash, ko‘zlangan maqsadga erishishni nazarda tutadi.

O‘quvchilar bilimini baholashda PIRLS tadqiqotlarining topshiriqlaridan foydalanish (“Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash” metodik qo‘llanmasi) va unda belgilangan baholash mezonlariga amal qilish ularda:

– o‘qish savodxonligining maqsadiga erishishda badiiy tajriba orttirish va axborot olish va undan foydalanish;

– ko‘p qirrali, murakkab vazifalarni amalga oshirishga o‘rganish;

– har bir muammo xususida chuqur fikrlash va o‘z bilimini oshirib borishni boshqara olish;

– o‘z tengdoshlari, o‘qituvchilar va mutaxassislar bilan chuqur mulohazani talab etuvchi muhim vazifalarni bajarishda hamkorlik qila olish;

– qarorlar qabul qilish, muammolarni hal etish va yangi fikrlar yaratishda texnologiyalardan foydalana olish kabi kompetensiyalarni shakllanishiga ko‘maklashadi.

Matnni tushunish jarayonida quyidagilarga erishiladi:

1. Matnni o‘qish asosida diqqatni jamlash va aniq ma’lumotlarni to‘plash.
2. Xulosa chiqara olish.
3. G‘oya va axborotlarni tahlil qilish va uyg‘unlashtirish.

Yuqoridagi imkoniyatlardan foydalanish natijasida matnni to‘liq tushunish, matn elementlarini baholash, g‘oyalar va axborotlarni tahlil qilish, muloqot qilish, ijodiylik va qiziquvchanlik, tanqidiy fikrlash va tizimli fikrlash, axborot va ommaviy o‘quv va kognitiv faoliyatning sinovdan o‘tgan mazmuni va turlarini yetarli darajada yoritish;

- xalqaro testlar mazmunining aksariyat ishtirokchi mamlakatlarda o‘rganilayotgan materialga maksimal darajada mos kelishi;
- testlarning o‘zaro aloqasini ta’minlash;
- tekshirilayotgan mazmunning matematika ta’limini rivojlantirish nuqtayi nazaridan ahamiyati;
- o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiqligi, test ishlab chiqilgan yutuqlarni baholash;
- ommaviy tadqiqotlar uchun talablarga muvofiqligi.
- 4- va 8-sinf o‘quvchilarining matematika fanidan baholash uchun test topshiriqlarini berishda belgilangan tildan foydalaniladi.
- axborot vositalaridan foydalanish, shaxslararo hamkorlik, muammolarni aniqlash, shaklga solish va yechimini topish, o‘z-o‘zini yo‘naltirish, ijtimoiy mas’uliyat kabi hayotiy ko‘nikmalar shakllana boradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil o‘qishga PIRLS baholash tizimini qo‘llash vositasida o‘rgatish darslarida ta’lim subyektlari faoliyatini modellashtirish tarkiban murakkab bo‘lib, o‘ziga xos metodik vazifalar, o‘quv topshiriqlari, o‘quv materiali, o‘qitish metodlarini qamrab oladi. Boshlang‘ich sinf

o‘quvchilarini mustaqil o‘qishga PIRLS baholash tizimini qo‘llash vositasida o‘rgatish darslarida ta’lim subyektlari faoliyatini modellashtirish jarayonida quyidagi metodik vazifalarni bajaradi:

o‘quvchilarni o‘quv materialini o‘rganishga tayyorlaydi;

o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalarini mustahkamlaydi, tizimga soladi;

o‘quvchilarning zaif o‘rinlarini aniqlaydi va to‘ldiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil o‘qishga PIRLS baholash tizimini qo‘llash vositasida o‘rgatish konsepsiyasining asosiy maqsadi zamonaviy ta’lim nazariyasi yutuqlariga asoslanishi kerak. O‘quvchilarni har tomonlama yetuk, komil inson qilib tarbiyalash maqsadi loyihaviy ta’lim tizimida ham asos bo‘lib qoladi. PIRLS baholash tizimini qo‘llashda zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o‘quvchilar ijodiy faolligini rivojlantirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga sohadagi yangiliklarni tadbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyida sinflar kesimida topshiriqlar tizimini keltiramiz: 1-sinf, 1-topshiriq

Alifbodagi 4, 7, 13, 18, 21, 24, 27-harflarning bosh hamda kichik shakllarini yozing va shu harflargaa oid uchtadan so‘z ayting.

2-topshiriq. Berilgan so‘zlar ichidan uy hayvonlarining nomini ajratib yozing.

Qo‘y, it, yo‘lbars, sigir, tulki, maymun, ayiq, buzoq, echki, sirtlon, bo‘ri, sher, chiyabo‘ri, ot.

3-topshiriq. Quyida berilgan so‘zlarning ma’nolarini izohlang.

Sur’at-surat, ta’na-tana, she’r-sher, sa’va-sava, da’vo-davo

4-topshiriq. “O‘qish” darsligida berilgan “Ibn Sino haqida rivoyat” matnidan avval kim?, keyin nima qildi? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni ajratib yozing.

2-sinf. 1-topshiriq. Quyida berilgan raqamlarda harflarning tartib raqami berilgan. Agar siz harflarning joylashgan o‘rnini to‘g‘ri topsangiz o‘zbek xalq maqoli kelib chiqadi.

12.4.7.13.1.19.-12.4.7.13.1.19.13.8.29 19.1.6.8. 17.14.7.1.19.

2-topshiriq. Tuman nomlarini alifbo tartibida yozing.

Parkent, Angren, Buvayda, Forish, Qorako‘l, Kattaqo‘rg‘on, Bo‘ka, Toshkent, Yakkasaroy, Chilonzor, Vobkent, Buxoro, Bog‘ot, Xatirchi, Paxtachi, Dang‘ara, Asaka, Romitan.

3-topshiriq. O‘zingiz bilgan shahar nomlaridan 5 tasining nomini yozing.

4-topshiriq. 8-mart bayrami bilan ona va opangizni tabriklash uchun tabriknoma yozing.

3-sinf, 1-topshiriq. A, Y, Q, K, R, B, J, E, U, V, P, Ch berilgan harflarni alifbo tartibida joylashtiring. Unli va undosh harflarni alohida guruhlarga ajratib yozing. Ularni talaffuz qilib, aytilishiga diqqat qiling.

2-topshiriq. “Biz sportni sevamiz” mavzusida matn tuzing. Matnda darak, so‘roq, undov gaplardan foydalaning.

3-topshiriq. Ov, sut, zar, bog‘ so‘zlariga o‘zakdosh so‘zlar tanlab yozing. Shu so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.

4-topshiriq. -chi, -la, -kor, -dosh, -li, -siz kabi so‘z yasovchi qo‘shimchalardan foydalanib yangi so‘zlar yasang. Ot yasovchi qo‘shimchalar qo‘shilgan so‘zlarni alohida guruhga ajratib yozing. So‘zlarning ma’nolariga diqqat qiling.

4-sinf. 1-topshiriq. “Navro‘z-bahor bayrami” mavzusida matn tuzing.

2-topshiriq. O‘zingiz yoqtirgan hikoyadan kim?, nima?, nima qildi?, nima qilyapti?, nechta? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni ajratib yozing.

3-topshiriq. “O‘qish” darsligida berilgan “Xarita” matnidan o‘zakdosh so‘zlarga misollar topib yozing.

4-topshiriq. Berilgan so‘roqlarga beshtadan mos so‘z o‘ylab yozing.

Kim?, Nima?, Qanday?, Nima qildi?, Necha?

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida pirls topshiriqlaridan foydalanish turli shakllarda ifodalanadi. Ta’lim mazmuning shakllari ta’rif, qoida, misol, mashq va hokazo ko’rinishda bo’lishi, uning tarkibi esa o’quv elementlaridan tarkib topadi. Buning uchun ta’lim talablarini aniqlash va shu talablar asosida uning ustuvor yo’nalishlarini izlanuvchi ta’lim, muammoli vaziyatlar yaratish va ta’limga texnologik yondashuv asosida tashkil etilishi o’quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil etishning samaradorligiga zamin tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni.

2. Hasanova Sabohat Komil qizi “O‘qish savodxonligi darslarida PIRLS hikoyalarini qo‘llash metodikasi”, “integrational conference on interdiscinlinary science’ 2024
3. Matchonov S., G‘ulomova X., Suyunov M., Boqiyeva H. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. –T.: Yangiyul poligraph service, 2008. –224 b.
4. Hasanova Sabohat Komil qizi «Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida PIRLS xalqaro baholash dasturini takomillashtirish» Zamonaviy Boshlang‘ich ta’lim innovatsiyalar, muammolar va rivojlantirish istiqbollari xalqaro ilmiyamaliy konferensiya. 2023
5. “PIRLS 2021 xalqaro solishtirma tadqiqoti doirasida o‘qish savodxonligini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari" nomli taqdimot. Kuznetsova Marina Ivanovna, Rossiya ta’lim akademiyasi Ta’limni rivojlantirish strategiyalari instituti Boshlang‘ich ta’lim markazi yetakchi ilmiy xodimi. e-mail: centeroko@mail.ru Veb-sayt **www.centeroko.ru**
6. Boltaeva Sh.T. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik asoslarini takomillashtirish. Samarqand, 2019. -168 b.
7. Bondar T.V. Osobennosti formirovaniya motivatsii ucheniya mladshix shkolnikovna osnove urovnevoy differentsiatsii obucheniya: avtoref. dis. kand. psixol. nauk: 19.00.07 / TV. Botstsar. -Krasnodar, KGU, 2000. -26 s.

NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA LUG‘AT BOYLIGINING AHAMIYATI

Z.A.Umarova
Namangan davlat pedagogika instituti 1-bosqich mustaqil tadqiqotchisi (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutq madaniyatini shakllantirishda lug‘at boyligining ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Lug‘atni rivojlantirish, nutqning tovush madaniyatini tarbi yalash, grammatik jihatdan to‘g‘rilikni shakllantirish ravon nutqni tuzish usullarini (gaplarni bog‘lovchilar, leksik takrorlashlar, sinonimlar yordamida bog‘lash vositalari; tavsiflash, bayon qilish, mulohaza yuritish tuzilmasi) o‘zlashtirish bilan uzviy bog‘liqdir.
Kalit so‘zlar: nutq madaniyati, lug‘at boyligi, sinonimlar, antonimlar, ko‘p ma’noli so‘zlar, leksik takrorlashlar, ravon nutqni tuzish usullari, lug‘at ishi.

KIRISH. Bolalar lug‘atini boyitish bir vaqtning o‘zida ularni atrofdagi borliq olam bilan tanishtirish bilan birgalikda olib boriladi. O‘qituvchi bolaga bir so‘zni ma‘lum qilish va uning ma‘nosini ochib berish bilan bir vaqtda uni nomi aytilayotgan narsa yoki hodisaga nisbatan to‘g‘ri munosabatda bo‘lishni o‘rgatadi. Bolalarni ular o‘z amaliyotida qiyinchilik bilan o‘zlashtiradigan, to‘satdan yoki umuman tanimaydigan, buzilgan shaklda talaffuz qiladigan so‘zlar bilan qurollantirish ancha pedagogik sa‘y-harakatlarni talab qiladi. Psixologiya, lingvistika, fiziologiyaga oid ma‘lumotlar turli yosh bosqichlaridagi bolalar uchun ana shunday so‘zlar doirasini aniqlashga yordam beradi. Bolalar lug‘atini boyitish bir vaqtning o‘zida ularni atrofdagi borliq olam bilan tanishtirish bilan birgalikda olib boriladi. O‘qituvchi bolaga bir so‘zni ma‘lum qilish va uning ma‘nosini ochib berish bilan bir vaqtda uni nomi aytilayotgan narsa yoki hodisaga nisbatan to‘g‘ri munosabatda bo‘lishni o‘rgatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Nutqiy rivojlanish jarayonini A.N.Leontev quyidagicha tavsiflaydi: “Nutqni rivojlantirish jarayoni bola lug‘atining va so‘zlarning assotsiatsiya asosida bog‘lanishining ortishida ifodalanadigan miq doriy o‘zgarishlar jarayoni emas, balki sifat jihatidan o‘zgarish ja rayonidir, zero, u fikrlash va ong rivojlanishi bilan ichki bog‘langan holda so‘zning barcha funksiyalari, tomonlari va aloqalarini qamrab oladigan haqiqiy rivojlanish jarayonidir”. XIX asrning o‘rtalaridan boshlab, nutq ontogenezi olimlarni qiziqtirib qoldi. K.D.Ushinskiy bolalarni ona tilida o‘qitishning zarurligini asoslab, bolalarga ona tilini dastlabki o‘qitish metodika sini ishlab chiqar ekan, bolalar tilni o‘zlashtirishlarining til bilan ta fakkurning o‘zaro munosabatlarini falsafiy jihatdan chuqur anglash, o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘qitishga asoslangan xususiyatlari va qo nuniyatlari borasida o‘z fikrlarini bildirdi.

Rossiya fanida nutq ontogenezi borasidagi tadqiqotlar L.S.Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasiga va A.N.Leontevning faoliyat nazariyasiga tayangan holda amalga oshirilgan. Natijada bolalar nutqining paydo bo‘lishi va rivojlanishi ularning atrofdagi odamlar bilan muloqot jarayonlarida ro‘y beradi,

degan qa rashlar tizimi shakllandi. Bunda bola kattalarning nutq namunalarini sust ravishda qabul qilib olmaydi, balki u nutqni umuminsoniy tajriba ning bir qismi sifatida faol o‘zlashtiradi.

A.A.Leontev L.S.Vigotskiy va A.N.Leontevning qoidalariga tayangan holda, asosiy faoliyat turi sifatida qaraydigan nutqiy faoliyat shakllanishi konsepsiyasini ishlab chiqdi. Uning qayd etishicha, bola nutqini rivojlantirish – bu eng avvalo, muloqot usullarini rivoj antirish bo‘lib, ularni o‘zlashtirish til qobiliyatini shakllantirishni talab qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ushbu maqola nutq madaniyatini shakllantirishda lug‘at boyligining ahamiyati tajriba va amaliyotlarni o‘rganadi va ularni samarali amalga oshirish uchun asosiy fikrlarni belgilaydi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR. Bolalar lug‘atini boyitish asosini bolaning til ongiga mavzuga oid so‘zlar, sinonimik qatorlar, antonimik juftliklar, ko‘p ma’noli so‘zlarni kiritish tashkil qiladi.

Bolalar bilan sinonimlar ustida ishlash (mazmuniga ko‘ra bir-biri ga yaqin so‘zlarni tanlash) mavzuga oid so‘zlar guruhlarini (harakat fe’llari: yurmoq, qadam tashlamoq, sudralmoq va h.k. yoki nutqni belgilovchi fe’llar: aytdi, so‘radi, javob berdi, qichqirdi va boshq.) o‘zlashtirishga oid ishlar bilan uyg‘unlashib ketishi lozim.

Antonimlar ustidagi ishlar (qarama-qarshi ma’noga ega bo‘lgan so‘zlar) bolalar bilan so‘z birikmalari va gaplar tuzishda amalga oshirilishi kerak. Pedagog bolalarga maqollarda, matallarda antonim larni topishni o‘rgatishi zarur. Ko‘p ma’noli so‘zlarda antonimlarni topish bolalarning so‘z haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi, uning mazmunini aniqlashtirishga yordam beradi. Qarama-qarshi ma’noga ega bo‘lgan so‘zlardan iborat so‘z birikmalarini tanlar ekan, bolalar so‘zlarning ko‘p ma’noliligini yanada chuqurroq tushunadilar (eski ko‘ylak – yirtilgan, eski do‘st – uzoq do‘st).

So‘zlarning ko‘p ma’noliligini maktabgacha yoshdagi bo lalarga ularga yaxshi tanish bo‘lgan aniq predmet ahamiyatiga ega bo‘lgan (ruchka, igna, yashin, gavdaning orqa tomoni, oyoq) so‘zlarda ko‘rsatish darkor. Ko‘p ma’noli so‘zlar ustidagi ishlar quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha olib borilishi mumkin: so‘zni ay tish, unga belgilar va harakatlar tanlash – so‘z birikmasini, so‘ngra gaplarni tuzish va oxir-oqibatda ko‘p ma’noli so‘zlardan ravon matnda foydalanish.

Lug‘at ishi jarayonida (va boshqa nutqiy vazifalarni hal etish ja rayonida) pedagog bolalarda nutqning aniqlik, to‘g‘rilik, ravonlik, ifodalilik kabi sifatlari amalga oshishiga erishishi zarur. Bolalarda f ikr bildirish uchun so‘zlovchining niyatini aniq aks ettiruvchi leksik vositalarni tanlab olish qobiliyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Bolalar bilan lug‘at ishlarini tashkil qilar ekan, pedagog quyidagi larni hisobga olishi lozim:

– leksikani tashkil etishning mavzuga asoslangan tamoyili;

– semantik jihati (bolani so‘z mazmuni bilan tanishtirish);

– so‘zlarni birlashtirishning assotsiativ metodi.

Leksika ishlarining barcha turlarini boshqa nutqiy vazifalar bilan o‘zaro bog‘liqlikda so‘zli o‘yinlar, mashqlar, ijodiy vazifalar shaklida o‘tkazish tavsiya etiladi. Leksik mazmundagi o‘yinlar va mashqlar – nutqning mazmun jihatini rivojlantirishning zarur sharti hisoblanadi. Ularda turli predmetlar va obyektlarni taqqoslash, turli umumiy xususiyatlar va funksiyalarni ajratish muhim ahamiyatga ega. Bunda real obyekt lar (o‘yinchoqlar, rasmlar, kiyimlar, mebel va h.k.) ham, xayoliy vaziyatlar (quvnoq va g‘amgin tulkichaning harakatlari, erta va kech kuz ob-havosi va h.k.) ham taqqoslanishi mumkin. Hikoya qilishdan oldingi lug‘at mashqlari bolalarning ravon nutqlarining aniq va obrazli so‘zlar hamda iboralar bilan boyitilishiga yordam beradi.

Lug‘atni rivojlantirish, nutqning tovush madaniyatini tarbi yalash, grammatik jihatdan to‘g‘rilikni shakllantirish ravon nutqni tuzish usullarini (gaplarni bog‘lovchilar, leksik takrorlashlar, si nonimlar yordamida bog‘lash vositalari; tavsiflash, bayon qilish, mulohaza yuritish tuzilmasi) o‘zlashtirish bilan uzviy bog‘liqdir. Turli funksiyalarni bajarish bilan bog‘liq dialogli muloqot negizida rivojlangan nutqning barcha tomonlari til ongining shakllanishiga bevosita bog‘liq bo‘ladi va ular buning uchun bolaning kattalar bilan muayyan shakldagi muloqotiga, to‘g‘rirog‘i, nafaqat tashqi olam va boshqa odamni bilishga qaratilgan muloqotga, balki til ning o‘zini, uning tuzilishi va faoliyatini anglab yetishga qaratilgan muloqotga muhtoj bo‘ladilar. Lug‘at ishlariga oid dasturlarni amalga oshirish mashg‘ulotlar tizimi orqali amalga oshiriladi. Bu tizim uch xil ko‘rinishdagi mashg‘ulotlardan tashkil topadi:

Lug‘at ishlari atrof-olamdagi doimo kengayib borayotgan narsalar va hodisalar doirasi bilan tanishtirish jarayonida amalga oshiriladigan mashg‘ulotlar (ekskursiya, narsalarni namoyish qilish va h.k.);

Lug‘at ishlari bolalarning atrofdagi narsalar va hodisalar haqidagi bilimlarini chuqurlashtirishga tayanadigan mashg‘ulotlar (sifatlar, xususiyatlar, o‘ziga xos jihatlari bilan tanishtirish);

Umumlashtirishlar jarayonida lug‘at ishining hal qiluvchi vazi fasi tushunchalarni shakllantirishdan iborat bo‘lgan mashg‘ulotlar. Nutqiy va lug‘atni rivojlantirishning bilish jarayonlarini rivoj lantirish bilan yagonaligi (qabul qilish, tasavvur qilish, fikrlash). Nutqiy va bilish faoliyatining aniq maqsadni ko‘zlagan holda tashkil etilishi, bilish faoliyatini tashkil etish uchun asos sifatida ko‘rgazmaviylikning mavjudligi.

Lug‘atni darsga olib kirish o‘zbek tili alifbosini o‘zlashtirishga doir katta tayyorgarlik ishi bilan boshlanadi. Bu vazifani bajarishga qaratilgan o‘yinlarga misol keltiramiz.**“Nima nimadan keyin?” o‘yini.** Bu o‘yinda bolalar hayvonlar rasmi tushirilgan kartochkalarni alifbo tartibida joylashtiradi. Masalan, birinchi o‘ringa ayiq rasmini (a harfiga), ikkinchi o‘ringa bo‘ri rasmini (b harfiga), uchinchi o‘ringa delfin rasmini (d harfiga) va hokazo tarzda qo‘yib chiqishadi. O‘yinning maqsadi: alifboni mustahkamlash, undan amaliy foydalanishni o‘rgatish.**“Kutubxonachining yordamchilari” o‘yini.** Jihozlar: kitob dastalari, harflar yozilgan kartochkalar. O‘yinning borishi: O‘qituvchi shunday deydi: “Bolalar, biz siz bilan yangi kutubxonadamiz. Kutubxonachiga kitoblarni to‘g‘ri va tez terib chiqishga yordam berishimiz kerak. Birinchi tokchada familiyasi A dan K gacha, ikkinchi tokchada L dan U gacha, uchinchi tokchada X dan Ch gacha bo‘lgan harflar bilan boshlanuvchi mualliflarning kitobi turadi. O‘quvchilar dastalardan kitoblarni ajratib, tokchalarga qo‘yib chiqadi. Bunday o‘yinlarni har bir darsda o‘tkazish mumkin. Lug‘at bilan tanishtirish uchun esa maxsus dars ajratish kerak. Imlo lug‘atidan lug‘at-ma’lumotnoma sifatida foydalanishni namoyish qiluvchi topshiriqlarga misol keltiramiz.

1-sinf. 1-topshiriq. Lug‘atdagi dastlabgi 10 ta so‘zni o‘qing, ular qaysi harf bilan boshlanadi? Oxirgi 10 ta so‘z qaysi harf bilan boshlanadi?

2-topshiriq. Maktab, oftob, ozod, umid so‘zlarining oxirida qaysi harf yozilishini lug‘atdan aniqlang.

3-topshiriq. Lug‘atdan tutuq belgisi qatnashgan 5 ta so‘z topib yozing.

4-topshiriq. (“Joy nomlarining bosh harf bilan yozilishi” mavzusini o‘rganishda) Lug‘atdagi ilovadan foydalanib, O‘zbekistonning 5 ta asosiy shahri va 5 ta asosiy daryosining nomini yozing.

2-sinfda imlo lug‘ati bilan ishlashga doir quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1-topshiriq. (“Ona tili” darsligidagi “Unli tovushlar va harflar” mavzusida beril-gan 20-mashqqa qo‘shimcha. Mashqda “Tushirib qoldirilgan a va o harflarini nuqtalar o‘rniga qo‘yib, so‘zlarni o‘qing” degan topshiriq berilgan. Mashqda quyidagi so‘zlar berilgan: S...bzi, b...dring, kar...m, q...vun, k...rt...shka, t...rvuz, sh...lg‘...m, h...nd...lak, l...vl...gi, q...v...q). Yozgan so‘zlaringizni lug‘atdan tekshiring.

2-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga i yoki u harfini qo‘yib, so‘zlarni yozing: bur...n, qur...q, qo‘r...q, sov...q, qul..pnay, mush..k, kum...sh, qum...rsqa, qorong‘..., kulg... Yozgan so‘zlari-ngizni lug‘atdan tekshiring.

3-topshiriq. Bolalar k(o\a)nsert, k(o\a)mbayn, k(o\a)lbasa, k(o\a)missiya so‘zlarida a yoki o harfi yozilishini lug‘atdan tekshirdi. Sobir ka- bilan boshlanadigan barcha so‘zni o‘qib chiqdi va bu so‘zlar lug‘atda yo‘q dedi. Nodir bir necha sahifani ag‘darib, to‘rtala so‘zni ham topdi. Nima uchun Sobir bu so‘zlarni topolmadi?

4-topshiriq. Lug‘at diktanti. (“Aytilishda tushib qoladigan undoshlar” mavzusiga) Baland, go‘sht, qand, payvand, g‘isht, tirband, dasht, farzand, taft, band. Yozgan so‘zlari-ngizni lug‘atdan tekshiring.

5-topshiriq. (“So‘z ichida ketma-ket kelgan bir xil undoshlar” mavzusiga) Nuqtalar o‘rniga zarur o‘rinda harf qo‘yib yozing. Yozgan so‘zlaringizni lug‘atdan tekshiring: Laq...a, chaq...a, baq...a, mal...a, tol...a, kos...a, has...a, mar...a, qar...i, pash...a, tesh...a.

XULOSA. Kuzatishlarimiz ko‘rsatadiki, hozirgi kunda boshlang‘ich va yuqori sinflardagi ona tili va adabiyot darslarida lug‘atlardan foydalanish darajasi juda past. Bunday hodisaning sabablaridan biri o‘quvchilarda bolalikdan lug‘atdan foydalanish ehtiyoji va ko‘nikmasi shakllantirilmaganligidir. Shuning uchun lug‘atlar bilan ishlashni boshlang‘ich sinfdan boshlash lozim.

O‘qituvchilar tajribasini o‘rganish natijasida ona tili darslarida lug‘at ishi yetakchi o‘rin egallamog‘i lozim degan xulosaga kelish mumkin. Bu ishning samaradorligi o‘qituvchining kasbiy mahoratiga bog‘liq. Yangi texnologiyalardan foydala-nish bolalarning darsga qiziqishini oshiradi. Lug‘at bilan ishlash esa ona tilini o‘rgatishdagi yangi texnologiyalardan biri madaniyatni o‘stirish texnologiyasidir. O‘quvchilarda lug‘atning barcha turidan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish lozim. Bu shubhasiz ularning madaniy va nutqiy saviyasini oshiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisida u yoki bu lug‘atga (muammoga bog‘liq ravishda) murojaat qilish odat tusiga kirsa, lingvistik masalalarni o‘z

oldiga qo‘yib, ularga ongli ravishda javob topishga tayyor bo‘lgan va bu ishni qila oladigan madaniyatli odamni tarbiyalashga asos yaratildi deb hisoblash mumkin.

Adabiyotlar:

1. Ушинский К.Д. Родное слово // Собр.соч. – М., 1949. Т. – С. 242–243
2. Леонтьев А.Н. Проблема деятельности в психологии. // Ж. Вопросы философии. – 1972. - № 9. С.95–108.
3. Ушинский К.Д. Родное слово. // Собр.соч. - М., 1949. Т. – С. 242–243
4. Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Педагогика, 1982. Т. 2.
5. Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. – М., 1969. С. 135.
6. Firuz Safarov, Nodira Xudoyberdiyeva, Nilufar Xolmurodova. O‘qish darslarida o‘quvchilar nutqini o‘stirish imkoniyatlari. Journal Pedagogs Vol. 2 No. 2 (2022). January. P. 275 – 277.

KASBIY O‘Z-O‘ZINI RIVOJLANTIRISH MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK AMALIYOTNING O‘RNI

M.F.Adasheva
Namangan davlat universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya:mazkur tezisda bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirish malakalarini shakllantirishda pedagogik amaliyotning tutgan o‘rni tahlil etilgan. Ilmiy ishda amaliyot jarayoni orqali talabalar nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalarga aylantirib borishlari, mustaqil fikrlash, muammoni hal etish, kasbiy refleksiya va tahlil qilish kabi ko‘nikmalari shakllanishi yoritilgan. Shuningdek, pedagogik amaliyotning mazmuni, bosqichlari va metodlari, uning kasbiy shakllanish jarayoniga ta’siri, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati tadqiq etilgan. Tadqiqotda kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirishni ta’minlashda amaliyotning samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar:kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirish, pedagogik amaliyot, bo‘lajak tarbiyachi, kasbiy kompetensiya, refleksiya, amaliy faoliyat, o‘quv-amaliy integratsiya, pedagogik texnologiyalar, o‘zini baholash, mutaxassislik tayyorgarligi

Аннотация:в данной тезисной работе проанализирована роль педагогической практики в формировании у будущих воспитателей навыков профессионального самосовершенствования. В научной работе освещается, как в процессе практики студенты превращают теоретические знания в практические навыки, развивают самостоятельное мышление, умение решать проблемы, профессиональную рефлексию и аналитические способности. Также исследуются содержание, этапы и методы педагогической практики, её влияние на процесс профессионального становления, а также значение современных педагогических технологий. В исследовании разработаны рекомендации по повышению эффективности практики в обеспечении профессионального самосовершенствования.

Ключевые слова:профессиональное самосовершенствование, педагогическая практика, будущий воспитатель, профессиональная компетентность, рефлексия, практическая деятельность, учебно-практическая интеграция, педагогические технологии, самооценка, профессиональная подготовкаю

Annotation:this thesis analyzes the role of pedagogical practice in developing professional self-development skills among future preschool teachers. The study highlights how, through the practice process, students transform theoretical knowledge into practical skills, develop independent thinking, problem-solving abilities, professional reflection, and analytical skills. It also explores the content, stages, and methods of pedagogical practice, its impact on professional formation, and the significance of modern pedagogical technologies. The research provides recommendations for enhancing the effectiveness of practice in ensuring professional self-development.

Keywords:professional self-development, pedagogical practice, future preschool teacher, professional competence, reflection, practical activity, academic-practical integration, pedagogical technologies, self-assessment, professional training

KIRISH**.** Mamlakatimizda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun[1. 2020:B.28.] hamda 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalar, pedagogik kadrlarning zamonaviy kompetensiyalar asosida shakllanishini ta’minlashni talab qilmoqda[2. 2022:B.10.]. Bu jarayonda bo‘lajak pedagog-kadrlarning kasbiy shakllanishiga xizmat qiluvchi asosiy bosqichlardan biri sifatida pedagogik amaliyot alohida o‘rin tutadi.

Maktabgacha ta’lim tizimining davlat dasturi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5117-sonli Qarorida ta’kidlanganidek, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sifatli pedagogik jarayonni tashkil etish uchun yuqori malakali tarbiyachilarni tayyorlash zarur[3. 2021:B.15.]. Bu esa nafaqat nazariy bilimlar, balki kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirish malakalari bilan boyitilgan, zamonaviy metodlarni amaliyotga tatbiq eta oladigan mutaxassislarni tayyorlashni dolzarb masalaga aylantiradi.

Pedagogik amaliyot – bu bo‘lajak tarbiyachi uchun sinov maydonidir. Aynan shu jarayonda talaba o‘zining kasbiy nuqtai nazarini, o‘qitish uslublarini, kommunikativ madaniyatini va eng asosiysi, o‘zini o‘zi rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojini aniqlay oladi. U real pedagogik muhitda mustaqil faoliyat yuritish, bolalar bilan ishlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, o‘z faoliyatini rejalashtirish va tahlil qilish kabi ko‘nikmalarni egallaydi.

Zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalar va o‘z-o‘zini baholash tizimlari keng joriy etilayotgani bois, bo‘lajak tarbiyachining kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirish malakalari amaliyot jarayonida puxta shakllanishi zarurati ortib bormoqda. Shu jihatdan, kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirishning metodik asoslarini, pedagogik amaliyotning mazmunini, shakl va vositalarini, zamonaviy yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish dolzarb ilmiy-metodik muammo sifatida qaralmoqda.

Mazkur tadqiqotda bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy jihatdan shakllantirishda pedagogik amaliyotning tutgan o‘rni, uning samaradorligini oshirish yo‘llari, shuningdek, kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan asoslab beriladi.

ASOSIY QISM**.** Bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida ularning kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirish malakalarini shakllantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ushbu malakalar, bir tomondan, zamonaviy ta’lim talablariga javob bera oladigan pedagog shaxsini shakllantirsa, boshqa tomondan, ularning pedagogik faoliyatida mustaqillik, tashabbuskorlik va innovatsion fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu jarayon, avvalo, ularning pedagogik amaliyotdagi faol ishtiroki orqali samarali yo‘lga qo‘yilishi mumkin.

1. Pedagogik amaliyotning mazmuni va bosqichlari

Pedagogik amaliyot – bu bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim o‘quv-amaliy bosqich hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta`lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlangan davlat ta’lim standartlarida pedagogik amaliyot o‘quv rejasining ajralmas qismi sifatida belgilangan[4. 2021:B.20.]. Pedagogik amaliyot quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi:

Tanishtiruv bosqichi – tarbiyachi faoliyatining umumiy mazmuni, muassasa ichki muhitini o‘rganish;

Kuzatuv va tahlil bosqichi – tarbiyaviy ishlarning shakl va uslublarini tahlil qilish;

Amaliy faoliyat bosqichi – mustaqil tarzda mashg‘ulotlar o‘tish, metodik materiallar tayyorlash;

Reflektiv baholash bosqichi – o‘z faoliyatini tahlil qilish, kamchilik va yutuqlarni aniqlash.

Mazkur bosqichlar orqali bo‘lajak tarbiyachi o‘z faoliyatini tahlil qilish, mustaqil rejalashtirish, pedagogik texnologiyalarni tanlash va moslashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

2. Kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirish malakasining mazmun

Kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirish – bu shaxsning o‘z kasbiy faoliyatida mustaqil o‘sishga, yangiliklarni izlashga, o‘z ustida ishlashga va doimiy ravishda malakasini oshirishga yo‘naltirilgan ichki ehtiyoji va faoliyatidir[5. 2019:B.144.]. Mazkur malaka quyidagilarni qamrab oladi:

O‘z-o‘zini tahlil qilish va baholash;

Shaxsiy refleksiya yuritish;

Yangi metod va yondashuvlarni o‘zlashtirish;

Kasbiy rivojlanish rejasini tuzish;

Axborot va raqamli texnologiyalardan foydalanish.

Pedagogik amaliyot bu jihatlarni hayotga tatbiq etishning qulay maydoni sifatida xizmat qiladi.

Talabalar o‘z faoliyatini bevosita bolalar jamoasida sinab ko‘rish, muammolarni hal etish va real pedagogik muhitda qaror qabul qilish orqali kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirishga kirishadilar.

3. Pedagogik amaliyotda zamonaviy texnologiyalar va metodik yondashuvlar

Zamonaviy ta’lim texnologiyalari – masalan, kuzatuv asosida baholash, portfoliolar, ko‘rgazmali kuzatish jurnallari, o‘zaro baholash, innovatsion mashg‘ulot modullari pedagogik amaliyot jarayoniga samarali tatbiq etilmoqda. Bu yondashuvlar orqali talabalarda:

Didaktik mustaqillik,

Kasbiy tafakkur,

Muloqot madaniyati,

Jarayonni modellashtirish qobiliyatlari shakllanadi.

Ayniqsa, maktabgacha ta’limda STEAM yondashuvi, loyihalash metodlari, integratsiyalashgan dars modullari kabi uslublar bo‘lajak tarbiyachilarning ilg‘or kasbiy malakalarini shakllantirishda sezilarli samara beradi[6. 2020:B.250.].

4. Ilg‘or tajriba va xorijiy yondashuvlar

Dunyo tajribasida, xususan, Finlyandiya, Janubiy Koreya, Singapur kabi davlatlarda pedagogik amaliyot bilan kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirish uzviy bog‘langan[7. 2021:B.150.]. Har bir amaliyotdan so‘ng talabaning mustaqil tahlili, o‘zini baholashi va shaxsiy rivojlanish rejasini tuzishi majburiy hisoblanadi.

O‘zbekistonda ham bu tajribani bosqichma-bosqich joriy etish, amaliyotni mentorlash tizimi bilan uyg‘unlashtirish, “talaba–ustoz–refleksiya” uchligini yo‘lga qo‘yish muhim sanaladi.

5. Amaliy takliflar va muammolar

Tadqiqot davomida quyidagi taklif va mulohazalar ilgari suriladi:

Amaliyotga chiqayotgan talabalarga kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirish bo‘yicha individual reja tuzdirish;

Har bir mashg‘ulotdan so‘ng reflektiv tahlil varaqalari bilan ishlash tizimini joriy etish;

Tarbiyachilarning o‘zini baholash me’zonlarini ishlab chiqish va raqamlashtirish;

Amaliyot bazalaridagi rahbar tarbiyachilar uchun mentorlik malaka oshirish kurslari tashkil etish;

Pedagogik amaliyotni raqamli portfoliolar asosida baholash tizimini yaratish.

XULOSA. Bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy shakllanishida pedagogik amaliyot hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Ushbu jarayon nafaqat nazariy bilimlarning amaliyotda mustahkamlanishini, balki kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirish malakalarining shakllanishini ham ta’minlaydi. Amaliyot davomida talabalar real pedagogik muhitda faoliyat yuritib, o‘zlarining didaktik, metodik, kommunikativ va refleksiv kompetensiyalarini sinovdan o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, pedagogik amaliyotni samarali tashkil etish orqali bo‘lajak tarbiyachilar:

o‘zini baholash va tahlil qilish ko‘nikmalarini egallaydi;

zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tadbiq etishni o‘rganadi;

mustaqil rejalashtirish va muammoni hal qilishga yo‘naltirilgan yondashuvni shakllantiradi;

kasbiy rivojlanish rejasini ishlab chiqish va unga amal qilish tajribasiga ega bo‘ladi.

Shuningdek, xorijiy tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, pedagogik amaliyot davomida refleksiya, mentorlik, raqamli portfoliolar va shaxsiy rivojlanish rejalari asosida olib borilgan ishlar talabaning kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirish darajasini sezilarli oshiradi. O‘zbekistonda ham bu yondashuvlarni bosqichma-bosqich joriy etish zaruriyati mavjud.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, pedagogik amaliyot – bu bo‘lajak tarbiyachining shaxsiy va kasbiy rivojlanishida kuchli transformatsion omil bo‘lib, u orqali pedagogik faoliyatga tayyorgarlikning real va chuqur asoslari yaratiladi. Mazkur yo‘nalishda metodik yondashuvlarni takomillashtirish, amaliyot jarayonini raqamlashtirish va individual rivojlanish monitoringini joriy etish esa kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirishni ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi[8. 2022:B.132.].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahrir). – Toshkent: Adolat, 2020. – 28 b.

2. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi – 2022–2026. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5117-son qarori. 2021-yil 16-aprel. “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. Pedagogik amaliyot bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma. – Toshkent: 2021.
5. Ashurova M. A., Xoliqova G‘.S. Kasbiy rivojlanish psixologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 144 b.
6. Saidahmedov N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: TDPU, 2020. – 250 b.
7. Юнеско. Глобальные педагогические практики: Финляндия, Южная Корея и Сингапур. UNESCO Education Series, 2021.
8. Bozorov A., Tursunov D. Kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirish asoslari. – Samarqand: Zarafshon, 2022. – 132 b.

UDK: 551.58:911.2

SIRDARYO VILOYATI SHIMOLIY HUDUDINING HAVO HARORATI VA YOG‘IN MIQDORI O‘ZGARISHINING GIDROMETEOROLOGIK TAHLILI

G‘.Z.Tovbayev
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: **gofurxperia@gmail.com** Tel: 97-278-08-92, ORCID: 0009-0009-3326-4292

Annotatsiya: Ushbu maqola Sirdaryo viloyatining 2006-2024-yillarda havo harorati va yog‘in miqdoridagi gidrometeorologik o‘zgarishlarni chuqur tahlil qiladi. Tadqiqot hududning iqlimiy xususiyatlarini o‘rganish, suv resurslarini boshqarish va qishloq xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etishga qaratilgan. Ma’lumotlar grafiklar va statistik usullar yordamida tahlil qilinib, haroratning asta-sekin o‘sishi, yog‘indagi katta tebranishlar va ularning geografik ta’sirlari aniqlangan.

Kalit so‘zlar: Sirdaryo viloyati, havo harorati, yog‘in miqdori, gidrometeorologiya, iqlim o‘zgarishi, suv resurslari, qishloq xo‘jaligi.

Аннотация: Эта статья проводит глубокий анализ гидрометеорологических изменений температуры воздуха и количества осадков в Сырдарьинской области за период с 2006 по 2024 годы. Исследование направлено на изучение климатических особенностей региона, управление водными ресурсами и предоставление данных, необходимых для сельского хозяйства. Данные анализируются с помощью графиков и статистических методов, что выявило постепенное повышение температуры, значительные колебания осадков и их географическое влияние.

Ключевые слова: Сырдарьинская область, температура воздуха, количество осадков, гидрометеорология, изменение климата, водные ресурсы, сельское хозяйство.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the hydrometeorological changes in air temperature and precipitation in the Syrdarya Region from 2006 to 2024. The study focuses on investigating the region's climatic characteristics, managing water resources, and providing data essential for agriculture. Data were analyzed using graphs and statistical methods, revealing a gradual increase in temperature, significant precipitation fluctuations, and their geographical impacts.

Keywords: Syrdarya Region, air temperature, precipitation, hydrometeorology, climate change, water resources, agriculture.

Kirish (Introduction). Mirzacho‘l tekisligida joylashgan Sirdaryo viloyati hamma tomonlari ochiq bo‘lib, faqat janubiy qismlari Turkiston va Nurota tog‘ tizmalari bilan o‘ralgan. Shu tufayli ham viloyat hududining iqlimiy sharoitlari o‘ziga xos xususiyatga ega. Qishda shimoldan sovuq havo massalari hech qanday to‘siqsiz tekislikka kirib keladi, yozda esa termik depressiya hukmrondir. Iyulning o‘rtacha harorati shimolda +26 – +27°C, janubda +30°C. Yanvarning o‘rtacha harorati shimolida −3 – −4°C, janubida esa 0,8–1,1°C. Atmosfera yog‘inlari o‘lkada o‘rtacha 252-363 mm ni tashkil qiladi, uning shimoli-g‘arbida 200 mm dan kam, markaziy qismida 200-300 mm, janubida tog‘ etaklarida – 300 mm dan ziyod yog‘in tushadi. Yog‘in ko‘proq bahorda (40%) va qishda (25-35%) yog‘adi. [1]

Sirdaryo shahri Sirdaryo viloyatining shimoliy qismida 40.81° sh.k., 68.68° shq.uz.da dengiz sathidan 264 m balandlikda alyuvial tekislikda joylashgan. Iqlimi mo‘tadil – ekstrakontinental. Yozi issiq, quruq, qishi sovuq va nisbatan quruq. Shu sababli yilning 4 fasli aniq namoyon bo‘lgan. Atmosfera yog‘inlarining yillik miqdori 300 – 330 mm ni tashkil etadi. Yog‘inning asosiy qismi bahor (38 %) va qish (40 %) fasliga to‘g‘ri keladi. Eng kam yog‘in yoz (4 %) ga to‘g‘ri keladi. Sirdaryo hududida eng ko‘p yillik


yog‘in 1969 – yilda 688 mm yog‘in yog‘gan bo‘lsa, oylar ichida 2022 – yilda mart oyida 206 mm yog‘in yog‘gan. Yillik eng kam yog‘in 1982 – yilda 84 mm, oylik eng kam yog‘in iyulda 1938 – 1939 – yillarga 0 mm ga to‘g‘ri keladi. [2]

O‘rtacha yillik havo harorati +14,1 – +15,7 °C ni tashkil etadi. Sirdaryo viloyatida yillik nisbatan eng yuqori harorat 2016 yilda +15,8 °C bo‘lgan bo‘lsa eng past yillik harorat 1972 yilda +11 °C ni tashkil etgan. Oylar o‘rtasida ham o‘rtacha havo haroratida ham farqlar katta. 2015 – yildan boshlab eng issiq oy iyul oyining o‘rtacha havo harorati +28,7 °C dan 2019 – yilda +30,2 °C, 2022 – yilda +29,1°C ga yetgan. Davrlar mobaynida esa ushbu oylarda +28 °C dan oshgan sanoqli yillar mavud (1944, 1983, 1997, 1998, 2000, 2005, 2007-2009, 2011-2013, 2015-2022). Eng sovuq harorat yanvar oyida kuzatilib o‘rtacha oylik havo harorati 0 – + 5 °C ni tashkil etadi. Lekin ayrim yillari shimoldan Voyeykov o‘qi orqali sovuq havo massalari ta’siri natijasida havo harorati manfiy darajada bir necha kun hududni qamrab oladi. Masalan, 1957 – yil yanvar oyida -6,9 °C, 1969 – yilda -10,0°C, 1971-1972 – yillarda -6,6 – -6,8 °C , 1977 – yilda -8,0 °C, 2008 – yilda -10,2 °C va 2023 – yilda -6,6 °C sovuq kuzatilgan. Oylar ichidagi sutalik havo haroratida ham farqlar katta bo‘lib, bu ham Sirdaryo viloyatining o‘ziga xos iqlim xususiyati belgilaydi. Sutkalik eng yuqori havo harorati 2005 – yilda iyul oyida +43,9 °C, lekin 1988 – yilda iyun oyida +44,6°C kuzatilgan. Sutkalik eng sovuq havo harorati 1984 – yil yanvar oyida -23,5°C, 2023 – yil yanvar oyida -27,2°C hamda 1974 – yil fevral oyida -29°C havo harorati qayd etilgan. [3]

Sirdaryo viloyati O‘zbekistonning markaziy qismida, taxminan 40° shimoliy kenglik va 68° sharqiy uzunlikda joylashgan geografik jihatdan muhim hududdir. Viloyat Sirdaryo daryosi bo‘yi bilan chegaralangan bo‘lib, uning iqlimiy sharoitlari qishloq xo‘jaligi, suv taqsimoti va ekotizim barqarorligi uchun hal qiluvchi rol o‘ynaydi. So‘nggi yillarda global iqlim o‘zgarishi natijasida hududda havo harorati va yog‘in miqdoridagi o‘zgarishlar sezilarli darajada kuzatilmoqda. Ushbu tadqiqot 2006-2024-yillarda yillik o‘rtacha havo harorati va yog‘in miqdorini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, maqsadi iqlimiy tendentsiyalarni aniqlash, ularning geografik ta’sirini baholash va hududning geoekologik holatini prognoz qilishdir. Tadqiqot natijalari suv boshqaruvi, qishloq xo‘jaligi rejalashtirishi va iqlimiy moslashuv strategiyalari uchun asosiy ma’lumotlar taqdim etadi. Shu bilan birga, hududning daryo yaqinidagi mikroiqlimiy xususiyatlari va ichki qismlardagi qurg‘oqchilik xavfi ham o‘rganishga arziydi.

O‘zbekistondagi iqlimiy o‘zgarishlar bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar mavjud bo‘lib, ular Sirdaryo viloyati uchun muhim ma’lumotni taqdim etadi. Masalan, regional iqlimning o‘rganilishi sohasida bir guruh olimlar O‘zbekistonning turli hududlarida haroratning o‘sish tendensiyasini aniqlagan, ayniqsa daryo havzalarida suv resurslariga ta’sirini ta’kidlagan[1]. Shu bilan birga, mahalliy suv resurslari va iqlimiy o‘zgarishlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur tahlil qiluvchi ishlar, ayniqsa Sirdaryo havzasidagi suv taqsimotining murakkabligini ko‘rsatgan. Ekologik ta’sirlar bo‘yicha esa, iqlim o‘zgarishi natijasida qurg‘oqchilik va suv tanqisligi xavfi haqida batafsil ma’lumotlar berilgan. Shu manbalarda meteorologik ma’lumotlarning uzun muddatli kuzatuvlari va ularning qishloq xo‘jaligiga ta’siri ko‘rib chiqilgan. Biroq, mavsumiy ta’sirlarni hisobga olgan holda mahalliy ma’lumotlar yetarli emas, bu esa hozirgi tadqiqotning yangi jihatini ta’minlaydi. Sirdaryo viloyatining maxsus iqlimiy xususiyatlari, masalan, daryo yaqinidagi namlik ta’siri va ichki hududlardagi qurg‘oqchilik xavfi yetarlicha o‘rganilmagan. Shu sababli, ushbu tadqiqot geografik va iqlimiy ma’lumotlarni birlashtirib, mahalliy iqlimiy tendentsiyalarni aniqlashga qaratilgan.

Metodlar (Methods). Tadqiqot uchun Sirdaryo viloyatidagi meteorologik stansiyalardan olingan 2008-2024-yillarga oid o‘rtacha yillik havo harorati va yog‘in miqdori ma’lumotlari ishlatildi. Harorat ma’lumotlari 2008-2024-yillarda 14,2 dan 16,2 °C gacha (1-rasm), yog‘in esa 213,5 dan 476,7 mm gacha o‘zgarib turgan (2-rasm).




1-rasm. Sirdaryo meteorologik stansiyasidagi o‘rtacha yillik havo haroratining o‘zgarish dinamikasi (2008-2024 yillar)

Izoh: ushbu chizma muallif tomonidan statistik ma’lumotlarni qayta ishlash natijasida chizilgan

Ma’lumotlar statistik dasturiy taminotlar yordamida grafiklarda ko‘rsatilib, o‘rtacha qiymatlar, standart og‘ish va regressiya tahlili orqali o‘rganildi. Tahlil jarayonida mavsumiy ta’sirlar, daryo yaqinidagi namlik darajasi va tog‘li hududlardan keladigan havo oqimlari kabi omillar ham o‘rganildi. Ushbu kompleks yondashuv iqlimiy o‘zgarishlarni aniqroq baholashga va geografik ta’sirlarni aniqlashtirishga yordam berdi.

Tadqiqot natijalari (Results). Harorat 2008-2024 yillarda o‘rtacha 15,2 ℃ ni tashkil etgan.2014-yilda harorat 13,7 ℃ ga pasaygan, 2013 va 2023-yilda maksimal 16,2 ℃ ga ko‘tarildi.

Bu eng yuqori ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, issiq yillarga va global isishga ishora qiladi. 2023-yilda yana 16,2 ℃ ga yetdi, ammo 2024-yilda 15,5 ℃ ga tushdi. Bunga asosiy sabablardan 2023-yilning bahor va kuz mavsumlarida bulutli kunlarning hamda yillik va mavsumiy yog‘in miqdorining me’yoridan kam bo‘lishi, havo haroratining ortishiga sabab bo‘lgan. Bulutlilik darajasi o‘rtacha 5,1 ballik shkalaga teng bo‘lsa, 2013 va 2023 yillarda 4,4 ballik shkala qayd etilgan. Bu esa quyosh nur indeksini pasayishiga olib keladi va albedoni ortishiga sabab bo‘ladi. Havo harorati iyul oyida o‘rtacha 28-29 atrofida bo‘lib, 2014-yilda 26,9℃ dan 2019-yilda maksimal 30,2℃ gacha ko‘tarilgan. Yanvar oyidagi o‘rtacha harorat 0-3℃ atrofida bo‘lib, minimal -10,2℃ (2012-yil) -6,6℃ (2023-yil) dan maksimal 4,2℃ (2019), 4,1 ℃ (2016) gacha o‘zgargan. Viloyatda eng maksimal harorat 40 darajad yuqori bo‘lib, 43℃ dan oshgan (2021-yilda 43,9℃ va 2019-yilda 43,2℃). Eng minimal harorat -15℃ dan past bo‘lib, xatto -25 ℃ dan past bo‘lgani kuzatilgan (2016-yilda -29℃, 2023-yilda -27,2 ℃) (1-rasm). Sirdaryo shahri mo‘tadil iqlim mintaqasida joylashsada yozgi vaqtda tropik, qishgi vaqtda oz bo‘lsada qutbyoniga hos bo‘lgan sovuq va quruq iqlim hukmronlik qiladi.



2-rasm. Sirdaryo meteorologik stansiyasidagi yillik yillik yog‘inning o‘zgarish dinamikasi (2008-2024 yillar)

Izoh: ushbu chizma muallif tomonidan statistik ma’lumotlarni qayta ishlash natijasida chizilgan

Yog‘in miqdori o‘rtacha 340 mm atrofida bo‘lib, minimum 2021-yilda 213,5 mm dan maksimum 2022-yilda 476,7 mm yog‘in yog‘gan. 2024-yilda esa 353,7 mm ga barqarorlashdi(2-rasm). Sirdaryo viloyati hududi asosan tog‘oldi tekislik hududidan iborat bo‘lganligi uchun yillik yog‘in miqdorining o‘zgarishiga asosan g‘arbiy shamollarning nam havoni hududga olib kirishi va Voyeykov o‘qi ta’sirida front chizig‘ining hosil bo‘lishidir.

Muhokama (Discussion). Haroratdagi o‘zgaruvchanlik global isish, mahalliy iqlimiy omillar va geografik joylashuvga bog‘liq bo‘lishi mumkin. 2013 va 2023-yillardagi yuqori haroratlar issiq yillarga, 2014-yildagi pasayish esa sovuq mavsumga va Sirdaryo yaqinidagi mikroiqlimga bog‘liq. Yog‘in miqdoridagi katta o‘zgarishlar (masalan, 2021 va 2022-yillar) suv manbalariga ta’sir qilib, qishloq xo‘jaligiga xavf tug‘dirishi mumkin, ayniqsa ichki hududlarda qurg‘oqchilik xavfi yuqori. Sirdaryo viloyatining daryo yaqinidagi joylashuvi yog‘in taqsimotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan, ammo ichki qismlarda suv taqsimoti muammolari mavjud. Umumiy tendentsiyalar iqlimiy nobarqarorlikni ko‘rsatadi va qishloq xo‘jaligi uchun moslashuv choralari zarur. Tadqiqotning cheklovlari – mavsumiy ma’lumotlar yetishmasligi va uzun muddatli prognozlarning cheklanganligi. Kelajakda mavsumiy tahlillar, iqlim modellari va mahalliy omillarni hisobga olgan tadqiqotlar zarur.

Xulosa (Conclusion). Sirdaryo viloyatida 2006-2024-yillarda havo harorati va yog‘in miqdori sezilarli o‘zgarishlarni ko‘rsatdi. Haroratda asta-sekin o‘sish, yog‘inda esa katta tebranishlar kuzatildi. Geografik taqsimot harorat va yog‘inning hududning turli qismlarida farq qilishini ko‘rsatdi, ayniqsa daryo yaqinidagi va ichki hududlar o‘rtasidagi farqlar muhim. Ushbu ma’lumotlar gidrometeorologik boshqaruvi, suv resurslarini rejalashtirish, qishloq xo‘jaligi uchun moslashuv strategiyalari va iqlimiy o‘zgarishlarga tayyorgarlik uchun muhim hisoblanadi. Kelajakda uzoq muddatli kuzatuvlar, mavsumiy tahlillar va kompleks yondashuvlar zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar (References):

1. P.Baratov, M.Mamatqulov, A.Rafiqov. O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi. Toshkent “O‘qituvchi” 2002-333b.

2.Tovbayev G. (2023). SIRDARYO VILOYATI IQLIMINING GEOGRAFIK - METEOROLOGIK TAHLILI. Экономика и социум, (6-2 (109)), 535-544.

3. **http://www.pogodaiklimat.ru/history/38583.htm** - Xalqaro Ob-havo va iqlim internet-tahlil rasmiy web-sayti.

PEDAGOG KADRLARNI INOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASHNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Sh.O.Aziboyev
Namangan viloyati pedagogik mahurat markazi direktori

Annotatsiya. Ushbu maqola zamonaviy ta'lim tizimida pedagog kadrlarni inovatsion faoliyatga tayyorlashning boshqaruv usullarini tadqiq etadi. Tadqiqot pedagogik xodimlarni rivojlantirishda an'anaviy yondashuvlardan zamonaviy, moslashuvchan va shaxsga yo‘naltirilgan metodlarga o‘tishning muhimligini ko‘rsatadi. Maqolada raqamli texnologiyalarning integratsiyasi, hamkorlik tarmoqlari, mentorliq dasturlari va professional o‘rganish jamoalarining roli tahlil qilinadi. Shuningdek, pedagog kadrlarni tayyorlash samaradorligini baholashning zamonaviy usullari va inovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash uchun zarur bo‘lgan tashkiliy sharoitlar ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalarida pedagog kadrlarni inovatsion faoliyatga tayyorlashda kompleks yondashuv zarurligini va doimiy professional rivojlanishni ta'minlash mexanizmlari muhimligi ta'kidlanadi.

Kalit so‘zlar: pedagog kadrlar, inovatsion faoliyat, professional rivojlanish, raqamli texnologiyalar, hamkorlik tarmoqlari, mentorliq, ta'lim sifati, zamonaviy boshqaruv usullari.

Аннотация. В статье рассматриваются методы управления подготовкой педагогических кадров к инновационной деятельности в современной системе образования. Показана важность перехода от традиционных подходов к современным, гибким и личностно-ориентированным методам в развитии педагогических кадров. Анализируется роль интеграции цифровых технологий,

сетей взаимодействия, программ наставничества и профессиональных образовательных сообществ. Также рассматриваются современные методы оценки эффективности подготовки педагогических кадров и организационные условия, необходимые для поддержки инновационной деятельности. Результаты исследования подчеркивают необходимость комплексного подхода к подготовке педагогических кадров к инновационной деятельности и важность механизмов обеспечения непрерывного профессионального развития.

Ключевые слова: педагогические кадры, инновационная деятельность, профессиональное развитие, цифровые технологии, сети взаимодействия, наставничество, качество образования, современные методы управления.

Abstract. This article examines the management methods of preparing pedagogical staff for innovative activities in the modern education system. The study shows the importance of moving from traditional approaches to modern, flexible and person-oriented methods in the development of pedagogical staff. The article analyzes the role of the integration of digital technologies, collaborative networks, mentoring programs and professional learning communities. It also considers modern methods of assessing the effectiveness of pedagogical staff training and the organizational conditions necessary to support innovative activities. The results of the study emphasize the need for an integrated approach to preparing pedagogical staff for innovative activities and the importance of mechanisms for ensuring continuous professional development.

Keywords: pedagogical staff, innovative activities, professional development, digital technologies, collaborative networks, mentoring, educational quality, modern management methods.

Kirish. Ta’lim manzarasi texnologik taraqqiyot, o‘zgaruvchan ijtimoiy ehtiyojlar va rivojlanayotgan pedagogik nazariyalar ta’sirida chuqur o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Ushbu dinamik sharoitda pedagogik kadrlarni tayyorlash va rivojlantirish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, bu esa an'anaviy malaka oshirish modellaridan tashqariga chiqadigan murakkab boshqaruv yondashuvlarini talab qiladi. Zamonaviy ta'lim muassasalari ularning muvaffaqiyati nafaqat standartlashtirilgan o‘quv dasturlarini amalga oshirishga, balki o‘qituvchilar tarkibining innovatsion fikrlash va moslashuvchan qobiliyatlarini rivojlantirishga bog‘liqligini tan oladilar. Pedagogik ta'limning zamonaviy boshqaruvi o‘qituvchilarning turli xil kelib chiqishi, tajribasi va kasbiy intilishlarini tan oladigan shaxsiylashtirilgan ta'lim yo‘llariga urg‘u beradi. Yagona o‘lchamdagi barcha yondashuvlarni amalga oshirish o‘rniga, samarali ta’limni boshqarish tizimlari endi individual rivojlanish traektoriyalarini yaratish uchun har tomonlama ehtiyojlarni baholash va malaka xaritasidan foydalanadi. Ushbu tizimlar innovatsiya shaxsiy tajriba, ijodiy fikrlash va qo‘llab-quvvatlovchi muhit kesishmasidan kelib chiqishini tan oladi, bu esa qat'iy va moslashuvchan o‘quv dasturlarini talab qiladi.[1. 2014:P.3-15]

Texnologiyaning integratsiyasi pedagogik ta'limning kontseptualizatsiyasi va amalga oshirilishini inqilob qildi. Raqamli platformalar an'anaviy seminar formatlaridan ancha uzoqqa cho‘zilgan uzluksiz o‘rganish imkoniyatlarini ta'minlaydi va o‘qituvchilar o‘z sinflarida amalga oshirishi kutilayotgan innovatsion o‘qitish usullarini aks ettiruvchi immersiv tajribalarni yaratadi. Virtual haqiqat simulyatsiyalari o‘qituvchilarga xavf-xatarsiz muhitda yangi metodologiyalarni qo‘llash imkonini beradi, sun'iy intellekt esa real vaqt rejimida fikr-mulohazalarni va individual ta'lim naqshlari va afzalliklariga javob beradigan moslashuvchan kontentni etkazib berishni ta'minlaydi.

Birgalikda o‘qitish tarmoqlari pedagogik xodimlar o‘rtasida innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashning kuchli mexanizmlari sifatida paydo bo‘ldi. Ushbu tarmoqlar institutsional chegaralardan oshib, o‘qituvchilarni geografik va madaniy bo‘linishlar bo‘ylab tajriba, qiyinchiliklar va kashfiyotlarni almashish uchun bog‘laydi. Bunday tarmoqlarni boshqarish murakkab muvofiqlashtirish strategiyalarini talab qiladi, bu avtonomiya bilan tuzilgan yo‘l-yo‘riqni muvozanatlashtiradi va hamkorlikdagi sa'y-harakatlar o‘qitish amaliyoti va talabalar natijalarini sezilarli yaxshilanishiga olib keladi.[2. 2009:P.46-53]

Mentorlik dasturlari an'anaviy ierarxik modellardan ta'lim jamoalari ichidagi turli kuchli tomonlardan foydalanadigan dinamik, ko‘p yo‘nalishli munosabatlarga aylandi. Zamonaviy boshqaruv yondashuvlari innovatsiyalar ko‘pincha istiqbollarning kutilmagan kombinatsiyasidan kelib chiqishini tan oladi, bu esa tajribali o‘qituvchilarni yangi o‘qituvchilar bilan, texnologiyani yaxshi biladigan shaxslarni pedagogik faxriylar va turli fanlar mutaxassislari bilan birlashtiradigan murabbiylik tuzilmalariga olib keladi. Ushbu munosabatlar doimiy takomillashtirish va ijodiy muammolarni hal qilish madaniyatini rivojlantirish bilan birga o‘rganish imkoniyatlarini maksimal darajada oshirish uchun ehtiyotkorlik bilan tartibga solinadi. [3. 2009:P.46-53]

Pedagogik ta’lim samaradorligini baholash va baholash tobora murakkablashib, oddiy qoniqish so‘rovlaridan tashqari, o‘qitish amaliyotidagi o‘zgarishlar, o‘quvchilarning faolligi va ta’lim natijalarini o‘rganuvchi keng qamrovli ta’sir tahlillariga o‘tdi. Zamonaviy boshqaruv tizimlari mashg‘ulotlar samaradorligining yaxlit suratlarini yaratish va dasturni doimiy ravishda takomillashtirishga rahbarlik qilish uchun sinfdagi kuzatuvlar, o‘quvchilarning fikr-mulohazalari, tengdoshlarni baholash va uzoq muddatli ish faoliyatini kuzatish kabi bir nechta ma'lumot manbalaridan foydalanadi.

Ta'lim muassasalaridagi professional o‘quv jamoalari innovatsion amaliyotlar uchun inkubator bo‘lib xizmat qiladi, o‘qituvchilar yangi yondashuvlar bilan tajriba o‘tkazishlari, o‘z tajribalari haqida fikr yuritishlari va metodologiyalarini takomillashtirishlari mumkin bo‘lgan tizimli muhitni ta'minlaydi. Ushbu jamoalarni boshqarish qo‘llab-quvvatlash va qiyinchilikning nozik muvozanatini talab qiladi, tavakkal qilish uchun psixologik xavfsizlikni yaratib, professional mukammallik uchun yuqori standartlarni saqlaydi. Harakat tadqiqotlari zamonaviy pedagogik tayyorgarlikning asosiga aylandi, o‘qituvchilarga o‘z amaliyotlarini tizimli ravishda tekshirish va samarali o‘qitish strategiyalari bo‘yicha kengroq bilimlar bazasiga hissa qo‘shish imkoniyatini beradi. O‘quv dasturlari endi tadqiqot savodxonligi va uslubiy qat'iylikni ta'kidlaydi, bu esa o‘qituvchilarga ta'lim tadqiqotining iste'molchisi va ishlab chiqaruvchisi bo‘lish imkonini beradi. Ushbu yondashuv pedagogik kadrlarni passiv ta'lim oluvchilardan ta'lim amaliyotining davom etayotgan evolyutsiyasining faol ishtirokchilariga aylantiradi. [4.2009:P.181-199]

Hissiy intellekt va farovonlikni samarali o‘qitishning muhim tarkibiy qismlari sifatida tan olish nafaqat texnik ko‘nikmalarga e'tibor qaratmasdan, balki butun shaxsga qaratilgan o‘quv dasturlariga olib keldi. Zamonaviy boshqaruv yondashuvlari innovatsion o‘qitish hissiy barqarorlikni, shaxslararo munosabatlarni va murakkab ijtimoiy dinamikani boshqarish qobiliyatini talab qilishini tan oladi. O‘quv dasturlari endi an'anaviy pedagogik tarkib bilan bir qatorda ongni saqlash amaliyotlari, stressni boshqarish usullari va hamkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Ta'lim muammolari yanada murakkab va o‘zaro bog‘liq bo‘lganligi sababli fanlararo ta'sir qilish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'limni boshqarish tizimlari endi turli fan yo‘nalishlari, sinf darajalari va ta'lim kontekstidagi o‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni osonlashtiradi va innovatsiyalar ko‘pincha turli istiqbollar va tajriba sohalari kesishmasida paydo bo‘lishini tan oladi. Ushbu fanlararo aloqalar o‘qituvchilarni o‘zlarining bevosita sohalaridan tashqarida fikrlashga va talabalarni o‘rganishga yanada yaxlit yondashuvlarni ishlab chiqishga chaqiradi.

Pedagogik tayyorgarlikdagi muvaffaqiyatni o‘lchash individual kompetentsiyani rivojlantirishdan tashqari kengayib, tizimli ta'sir va madaniy o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi. Zamonaviy boshqaruv yondashuvlari ta'lim tashabbuslarining institutsional muhitga, hamkorlik amaliyotiga va umumiy ta'lim samaradorligiga qanday ta'sir qilishini kuzatadi. Ushbu tizimli fikrlash yondashuvi individual mukammallikni innovatsiya, uzluksiz o‘rganish va moslashish qobiliyatini qadrlaydigan tashkiliy tuzilmalar va madaniyatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi kerakligini tan oladi. Ta’lim muassasalari o‘zgaruvchan jamiyat ehtiyojlari va texnologik imkoniyatlarga qarab rivojlanishda davom etar ekan, pedagogik kadrlar tayyorlashni boshqarish, shubhasiz, yangi yo‘nalish va yondashuvlarni ishlab chiqishda davom etadi. Eng samarali tizimlar asosiy ta'lim qadriyatlariga e'tibor qaratadigan va zamonaviy ta'limning doimiy o‘zgaruvchan landshaftida paydo bo‘ladigan muammolar va imkoniyatlarga moslashish uchun etarlicha moslashuvchan bo‘lgan tizimlar bo‘ladi. [5. 2011:P.915-945]

Xulosa. Zamonaviy ta'lim muassasalari o‘zgaruvchan ijtimoiy ehtiyojlar va texnologik imkoniyatlarga javob berishda rivojlanishda davom etar ekan, pedagogik xodimlarni tayyorlashni boshqarish, shubhasiz, yangi o‘lchamlar va yondashuvlarni rivojlantirishda davom etadi. Eng samarali tizimlar asosiy ta'lim qadriyatlariga e'tibor qaratishni saqlab qolgan holda, zamonaviy ta'limning doimo o‘zgaruvchan landshaftidagi yangi qiyinchiliklar va imkoniyatlarga moslashish uchun etarlicha moslashuvchan bo‘lgan tizimlar bo‘ladi. Pedagog kadrlarni inovatsion faoliyatga tayyorlashning zamonaviy usullari kompleks, ko‘p qirrali yondashuvni talab qiladi. Bu yondashuv shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olishi, texnologik imkoniyatlardan foydalanishi, hamkorlik madaniyatini rivojlantirishi va doimiy takomillashtirishni ta'minlashi zarur. Faqat bunday kompleks yondashuv orqali ta'lim tizimi haqiqatan ham innovatsion va samarali pedagoglarni tayyorlash va rivojlantirishga erishishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Avalos, B. Teacher professional development in Teaching and Teacher Education over ten years. Teaching and Teacher Education, 2011, -P.10-20.

2. Borko, H. Professional development and teacher learning: Mapping the terrain. Educational Researcher, 2014, -P.3-15.

3. Darling-Hammond, L., & Richardson, N. Teacher learning: What matters? Educational Leadership, 2009, -P.46-53.
4. Desimone, L. M. Improving impact studies of teachers' professional development: Toward better conceptualizations and measures. Educational Researcher, 2009, -P.181-199.
5. Garet, M. S., Porter, A. C., Desimone, L., Birman, B. F., & Yoon, K. S. What makes professional development effective? Results from a national sample of teachers. American Educational Research Journal, 2011, -P.915-945.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ СВЯЗНОЙ РЕЧИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Г.И.Каипова
Центр педагогического мастерства Наманганской области преподаватель кафедры социально-экономических наук и методики преподавания языков

Аннотация: Статья посвящена анализу современных методов развития связной речи учащихся начальной школы. Рассматриваются инновационные подходы к формированию речевых компетенций, включая интерактивные технологии, проектную деятельность и коммуникативные методики. Представлены практические рекомендации по внедрению современных методов в образовательный процесс.
Ключевые слова: связная речь, младшие школьники, речевое развитие, коммуникативные методы, педагогические технологии.
Annotatsiya: Maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarining izchil nutqini rivojlantirishning zamonaviy usullarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Nutq kompetensiyalarini shakllantirishning innovatsion yondashuvlari, jumladan, interaktiv texnologiyalar, loyiha faoliyati va aloqa usullari ko'rib chiqiladi. Ta’lim jarayoniga zamonaviy metodlarni joriy etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.
Kalit so'zlar: izchil nutq, boshlang'ich sinf o'quvchilari, nutqni rivojlantirish, muloqot usullari, pedagogik texnologiyalar.
Abstract: The article is devoted to the analysis of modern methods of developing coherent speech of primary school students. Innovative approaches to the formation of speech competencies are considered, including interactive technologies, project activities and communication methods. Practical recommendations for the implementation of modern methods in the educational process are presented.
Keywords: coherent speech, primary school students, speech development, communication methods, pedagogical technologies.

Введение. Развитие связной речи является одной из приоритетных задач начального образования, поскольку именно в этом возрасте закладываются основы коммуникативной компетентности личности. Современная педагогическая наука предлагает множество инновационных методов, направленных на формирование у младших школьников умений выражать свои мысли логично, последовательно и выразительно. Актуальность выбранной нами темы обусловлена необходимостью поиска эффективных способов развития речевых способностей детей в условиях цифровизации образования и изменяющихся социокультурных реалий. Традиционные методы работы с текстом требуют модернизации и дополнения современными технологиями обучения.

Связная речь представляет собой смысловое развернутое высказывание, обеспечивающее общение и взаимопонимание между людьми. В психолого-педагогической литературе выделяются два основных вида связной речи: диалогическая и монологическая, каждая из которых имеет свои особенности развития в младшем школьном возрасте. Теоретическую основу современных методов составляют концепции речевого развития Л.С. Выготского, А.А. Леонтьева, теория речевой деятельности А.Р. Лурии, а также современные исследования в области когнитивной лингвистики и психолингвистики. Эти подходы подчеркивают деятельностный характер речевого развития и необходимость создания мотивирующей речевой среды. Использование цифровых образовательных ресурсов открывает новые возможности для развития связной речи. Интерактивные презентации, образовательные игры и мультимедийные проекты позволяют создать увлекательную речевую среду, стимулирующую активность учащихся. Особую эффективность

показывают методы создания цифрового сторителлинга, когда дети создают собственные истории с использованием различных медиаформатов. Этот подход развивает не только речевые навыки, но и цифровую грамотность, креативность и критическое мышление.

Проектная деятельность. Метод проектов позволяет интегрировать развитие связной речи в содержательную деятельность, делая процесс обучения осмысленным и мотивированным. Младшие школьники с увлечением работают над созданием классных газет, подготовкой презентаций о родном крае, разработкой сценариев для школьных мероприятий. Проектная деятельность способствует формированию планирующей функции речи, умений аргументировать свою позицию, представлять результаты работы перед аудиторией. При этом развиваются как монологические, так и диалогические формы речи.

Коммуникативно-деятельностный подход. Современная методика акцентирует внимание на создании естественных речевых ситуаций, в которых дети испытывают потребность в общении. Ролевые игры, драматизация литературных произведений, организация дискуссий и дебатов создают условия для развития спонтанной связной речи. Эффективным является метод речевых портфолио, когда учащиеся собирают коллекцию своих речевых достижений: записи выступлений, творческие работы, отзывы о прочитанных книгах. Это способствует рефлексии речевого развития и формированию мотивации к совершенствованию речевых умений.

Методы визуализации. Использование графических организаторов, ментальных карт, схем и таблиц помогает младшим школьникам структурировать свои высказывания. Визуальные опоры особенно эффективны при обучении составлению описательных и повествовательных текстов. Метод создания комиксов и инфографики позволяет соединить вербальный и визуальный способы передачи информации, что соответствует особенностям восприятия современных детей и развивает многоканальную коммуникацию.

Метод "Story Cubes" (Кубики историй). Данная методика, разработанная британскими педагогами, предполагает использование специальных кубиков с изображениями для создания спонтанных рассказов. Дети бросают кубики и на основе выпавших картинок создают связные повествования, что развивает креативность и способность к импровизации в речи.

Технология "Digital Storytelling". Американские методисты активно применяют создание цифровых историй, где дети записывают собственные рассказы, дополняя их музыкой, изображениями и видео. Этот подход, впервые предложенный Джо Ламбертом в Центре цифрового повествования (Калифорния), показывает высокую эффективность в развитии как устной, так и письменной речи.

Метод "Philosophy for Children" (P4C). Разработанный американским философом Мэтью Липманом, этот подход предполагает проведение философских дискуссий с детьми, что значительно развивает аргументативную речь и критическое мышление. В Великобритании данный метод успешно адаптирован для начальной школы.

Таким образом, для успешного внедрения современных методов развития связной речи необходимо соблюдение следующих принципов:

-системность и последовательность. Работа по развитию речи должна проводиться регулярно и планомерно, с постепенным усложнением речевых задач:

-интеграция с другими предметами. Развитие связной речи эффективно происходит при изучении всех школьных дисциплин, что требует координации усилий педагогов.

-индивидуализация обучения. Необходимо учитывать индивидуальные особенности речевого развития каждого ребенка и предоставлять разноуровневые задания.

-создание мотивирующей среды. Важно обеспечить эмоционально положительную атмосферу, поощрять речевую активность детей и создавать ситуации успеха.

-Использование зарубежного опыта. Адаптация лучших международных практик с учетом специфики российской образовательной системы и культурных особенностей может значительно обогатить методический арсенал педагогов.

Заключение. Современные методы развития связной речи младших школьников характеризуются интеграцией традиционных и инновационных подходов, использованием цифровых технологий и созданием мотивирующей образовательной среды. Анализ зарубежного опыта показывает перспективность применения интерактивных методик, философских дискуссий и феноменального обучения для развития речевых компетенций.

Эффективность современных методов определяется их способностью активизировать речевую деятельность учащихся, развивать коммуникативную компетентность и формировать положительное отношение к речевому творчеству. Интеграция лучших мировых практик с учетом национальных образовательных традиций открывает новые возможности для совершенствования речевого развития младших школьников. Дальнейшие исследования должны быть направлены на изучение долгосрочных эффектов применения современных методов, разработку критериев оценки эффективности речевого развития и создание методических рекомендаций для педагогов-практиков.

Список литературы:

1. Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 2019.-256 с.-С.234.
2. Леонтьев А.А. Основы психолингвистики. – М.: Смысл, 2018.-167 с.-С.77.
3. Львов М.Р. Методика развития речи младших школьников. – М.: Просвещение, 2020.-134 с.-С.67.
4. Соловейчик М.С. Русский язык в начальных классах. Теория и практика обучения. – М.: ЛИНКА-ПРЕСС, 2019.- 189с.-С.56.
5. Andrews R. Teaching and Learning Argument. – London: Continuum, 2018.

BO‘LAJAK INGLIZ TILI MUTAXASSISLARINI O‘QISH KOMPETENSIYASI ORQALI BADIIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

G.Sh.Raximova
Ichki ishlar vazirligi Farg‘ona akademik litseyi o‘qituvchisi
gulshanoyqobuljonova@gmail.com https://orcid.org/0009-0005-9928-0747 99-997-32-41

Annotatsiya: Mazkur tezisda bo‘lajak ingliz tili mutaxassislarini tayyorlash jarayonida o‘qish kompetensiyasining ahamiyati va u orqali talabalarning badiiy dunyoqarashini shakllantirish imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqotda o‘qish kompetensiyasining tarkibiy qismlari, badiiy matnlarning lingvistik va madaniy boyligi, shuningdek, ularni o‘qitish jarayonida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan samarali metodik yondashuvlar nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, o‘qish kompetensiyasi orqali talabalarda tanqidiy fikrlash, madaniyatlararo kompetensiya va estetik didni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodlar taklif etilgan. Tadqiqot nazariy asosda olib borilgan bo‘lib, mahalliy va xorijiy manbalarga tayanilgan.

Аннотация: В данной диссертации рассматривается значение читательской компетентности в процессе подготовки будущих специалистов английского языка и возможности формирования художественного мировоззрения студентов посредством читательской компетентности. В исследовании теоретически анализируются компоненты читательской компетентности, лингвистическое и культурное богатство литературных текстов, а также эффективные методические подходы, которые могут быть использованы в процессе обучения. Также предлагаются методы, способствующие формированию критического мышления, межкультурной компетентности и эстетического вкуса у студентов посредством читательской компетентности. Исследование проводилось на теоретической основе с опорой на отечественные и зарубежные источники.

Abstract: This thesis highlights the importance of reading competence in the process of training future English language specialists and the opportunities for forming students' artistic horizon through it. The study theoretically analyzes the components of reading competence, the linguistic and cultural richness of literary texts, as well as effective methodological approaches that can be used in the process of teaching them. Also, methods are proposed that serve to form critical thinking, intercultural competence, and aesthetic taste in students through reading competence. The study was conducted on a theoretical basis and relied on local and foreign sources.

Kalit so‘zlar: o‘qish kompetensiyasi, ingliz tili mutaxassisi, badiiy dunyoqarash, adabiy matn, tanqidiy fikrlash, metodika, madaniyatlararo kompetensiya.

Ключевые слова: читательская компетентность, специалист по английскому языку, художественное кругозор, художественный текст, критическое мышление, методика, межкультурная компетентность.

Keywords: reading competence, English language specialist, artistic рщкшящт, literary text, critical thinking, methodology, intercultural competence.

Kirish. Zamonaviy ta’lim jarayonida chet tillarini o‘qitish nafaqat lingvistik bilimlarni singdirish, balki shaxsiy va madaniy kompetensiyalarni shakllantirish vazifasini ham o‘z zimmasiga olgan. Ayniqsa, ingliz tili mutaxassisi bo‘lishni xohlagan talabalar uchun o‘qish kompetensiyasi — ya’ni chet tilidagi matnlarni anglab, tahlil qila olish qobiliyati — ularning fikrlash doirasi va badiiy dunyoqarashini kengaytirishda asosiy vositalardan biridir. Ushbu tezisda bo‘lajak ingliz tili mutaxassislarining badiiy dunyoqarashini rivojlantirishda o‘qish kompetensiyasining o‘rni va uni rivojlantirishga doir samarali metodik yondashuvlar tahlil qilinadi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot nazariy yo‘nalishda olib borildi. Unda xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari (R. Day, M. Bamford, G‘. Madiyarov, Z. Abdurahmonova va boshqalar), shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sohasidagi qaror va farmonlari, CEFR (Umumyevropa til kompetensiyalari) talablari asos qilib olindi. Tahlil jarayonida ingliz adabiyotidan olingan badiiy matnlar, ularni o‘qish orqali talabada qanday kompetensiyalar shakllanishi mumkinligi ko‘rib chiqildi.

Natijalar. Tahlil natijalariga ko‘ra, ingliz tilida badiiy asarlarni o‘qish orqali talabalar quyidagi kompetensoyalarni rivojlantirib olishlari mumkin:

- fikrlar va g‘oyalarni taqqoslash ko‘nikmasi rivojlanadi.
- madaniyatlararo kompetensiya shakllanadi.
- tanqidiy fikrlash rivojlanadi.
- estetik did tarbiyalanadi.

Muhokama. O‘qish kompetensiyasini rivojlantirishda oddiy matnlar bilan cheklanmaslik, balki ingliz adabiyotining turli janr va uslublarini qamrab olgan matnlarni tanlash muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarga shunchaki tarjima qilish emas, balki matnni anglash, uning estetik va madaniy qatlamlarini tushunish, obrazlar tizimi va ularning ramziy mazmunini talqin qilish vazifalari qo‘yilishi lozim.

Xulosa. Bo‘lajak ingliz tili mutaxassislarini yetishtirishda o‘qish kompetensiyasini rivojlantirish — bu faqat lingvistik tayyorgarlik emas, balki shaxsning badiiy dunyoqarashi, madaniy saviyasi va estetik didini shakllantirish jarayonidir. To‘g‘ri tanlangan badiiy matnlar, samarali metodik yondashuvlar orqali talabalarni nafaqat chet tilida erkin fikr bildira oladigan, balki madaniy jihatdan boy va tahliliy fikrlovchi mutaxassis sifatida shakllantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Day, R., & Bamford, J. (2004). *Extensive Reading in the Second Language Classroom*. Cambridge University Press.
2. G‘. Madiyarov. (2022). *Chet tillarni o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuv*. Toshkent.
3. Abdurahmonova, Z. (2021). “Lingvistik kompetensiyani rivojlantirishda adabiy matnlarning o‘rni”. *Filologiya masalalari*, 3(12), 44-48.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ–4884-sonli qarori.
5. Council of Europe (2001). *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment (CEFR).

UDK: 631.41:631.445(575.1)

YOG‘INGARCHILIK BILAN YARIM TA’MINLANGAN LALMI TIPIK BO‘Z TUPROQLARNING AGROKIMYOVIY TARKIBI

U.Z.Usmanov
Tayanch doktoranti. e-mail: umidjonusmanov95@gmail.com
A.S.Muratkasimov
Lalmikor dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti q.x.f.f.d., katta ilmiy xodim.

Annotatsiya. Mazkur maqolada G‘allaorol tumani lalmikor tipik bo‘z tuproqlarning agrokimyoviy xususiyatlari o‘rganildi. Tadqiqot natijasida gumus va ozuqa moddalari (azot, fosfor, kaliy) yetishmasligi aniqlandi. Tuproq unumdorligini oshirish uchun o‘g‘itlash va meliorativ chora-tadbirlar zarurligi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: lalmi tipik bo‘z tuproqlar, agrokimyoviy xossalar, gumus, ozuqa moddalar, azot, fosfor, kaliy, o‘g‘itlash tizimi, tuproqning ozuqaviy rejimi, tuproqqa ishlov berish.

Аннотация. В данном исследовании рассматриваются агрохимические свойства богарных типичных серозёмов Галлааральского района. Анализ показал недостаточное содержание гумуса и основных питательных веществ, включая азот, фосфор и калий. На основе полученных данных подчёркивается необходимость применения соответствующих систем удобрения и мелиоративных мероприятий для повышения плодородия почвы и сельскохозяйственной продуктивности.

Ключевые слова: богарные типичные серозёмы, агрохимические свойства, гумус, питательные вещества, азот, фосфор, калий, система удобрения, питательный режим почвы, обработка почвы.

Abstract. This study examines the agrochemical properties of rainfed typical grey soils in the Gallaorol district. The analysis revealed a deficiency of humus and essential nutrients, including nitrogen, phosphorus, and potassium. Based on the findings, the study emphasizes the necessity of applying appropriate fertilization systems and reclamation measures to enhance soil fertility and agricultural productivity.

Keywords: rainfed typical grey soils, agrochemical properties, humus, nutrients, nitrogen, phosphorus, potassium, fertilization system, soil nutrient regime, soil management.

Kirish. Qishloq xo‘jaligi ekinlarining mahsuldorligi va sifatini oshirish uchun albatta tuproq unumdorligini tiklash va yaxshilash eng dolzarb hisoblanadi. Ma’lumki, hozirgi kunda lalmikor maydonlarda amalda qo‘llanilib kelingan uzoq muddatli almashlab ekishlar o‘rniga qisqa muddatli almashlab ekish tartibi tashkil etilmoqda. Tuproq unumdorligini oshirishda organik o‘g‘itlar, siderat ekinlardan unumli foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 24 iyundagi PQ-233 sonli “Iqlim o‘zgarishiga nisbatan barqaror agroekotizimni yaratish hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarning iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq xavflarga moslashuvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori 1-ilova 40.1 bandida “Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarning siderat ekinlarni ekish orqali tuproq unumdorligini oshirish bo‘yicha bilimlarini oshirish” bo‘yicha muhim strategik vazifalar belgilab berilgan. Shuning uchun ham lalmi hududlarda degradatsiyaga uchragan tuproqlarning agrofizikaviy va agrokimyoviy xossalarini yaxshilash, tabiiy namlikdan samarali foydalanish, tuproq unumdorligi va ekinlar hosildorligini oshirishga xizmat qiluvchi siderat ekinlarini o‘stirish, ularni tuproq unumdorligi va fizik xossalariga ta’sirini o‘raganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda respublikadagi lalmikor maydonlardan samarali foydalanishga to‘sqinlik qilib kelayotgan omillaridan biri tuproq unumdorligi pastligidir. Uzoq yillar davomida bu maydonlarda g‘alla ekinlarining yakka hukmronligi, bir yillik va ko‘p yillik dukkakli o‘simliklar hamda toza shudgor maydonlarining keskin kamayib ketishi, tuproqqa uzluksiz ravishda pluglar bilan 20-22 sm chuqurlikda ag‘darib haydash, organik va mineral o‘g‘itlardan, o‘simliklarni begona o‘tlar, turli kasallik va zararkunandalardan himoya qilish vositalaridan deyarli foydalanmaslik, eroziya darajasining ortishi bilan bu tuproqlarda organik moddalar (gumus), umumiy fosfor va yalpi kaliy miqdorining sezilarli darajada kamayganligi aniqlandi [1].

FAO ning ma’lumotlariga ko‘ra, qurg‘oqchil hududlarda, shu jumladan O‘zbekiston lalmikor yerlarida uchraydigan bo‘z tuproqlarning asosiy muammolari: sho‘rlanish, karbonatlarning ko‘pligi, organik moddalar yetishmovchiligi muhokama qilingan. FAO tomonidan ushbu muammolarni hal etish uchun agroekologik moslashuvchan yondashuvlar, barqaror o‘g‘itlash tizimlari, tuproq monitoringi va muqobil texnologiyalar tavsiya etilgan [3].

A.Karimov va Sh.Jo‘rayevlarning tadqiqotlarida O‘zbekistonning lalmikor hududlarida uchraydigan tipik bo‘z tuproqlarning agrofizik va agrokimyoviy holatini atroflicha tahlil qilganlar. Tadqiqotda gumus miqdori pastligi, azot va fosfor zaxiralari cheklanganligi tufayli bunday tuproqlarda ekinlar o‘sishi qiyin kechishi ta’kidlanadi. Shuningdek, tuproq unumdorligini oshirish uchun kompleks o‘g‘itlash va organik moddalardan foydalanish zarurligi qayd etilgan [4].

A.Xidirovning ilmiy tadqiqotlari tuproq unumdorligini biologik usullar orqali oshirishga qaratilgan. Biostimulyatorlar, mikroo‘g‘itlar va yashil o‘g‘itlash texnologiyalarining lalmikor tuproqlarda ijobiy ta’siri ko‘rsatilgani aniqlangan. Shuningdek, tuproq mikrobiologik faolligini tiklash orqali gumus qatlamini kuchaytirish masalalari muhim ilmiy xulosa sifatida ilgari surilgan [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotlarda dala tajribalari O‘zPITI olimlari tomonidan ishlab chiqilgan “Dala tajribalarini o‘tkazish bo‘yicha uslubiy qo‘llanmasi” [2], tuproq tahlillari Y.V.Arinushkinaning “Руководство по химическому анализу почв” [8], olingan natijalarning statistik tahlillari B.A.Dospexovning “Методика полевого опыта” uslubiy qo‘llanmalari [7] va barcha agrotexnologik tadbirlar Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan ishlab chiqilgan agrotavsiyalar asosida bajarildi.

Lalmikor maydonlarda siderat ekinlarning tuproq unumdorligi va fizik xossalariga ta’siri mavzusidagi dala – tajribaviy tadqiqot ishlari G‘allaorol tumani Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutining Markaziy tajriba xo‘jaligida olib borildi.

Tahlili va natijalar. Lalmi tipik bo‘z tuproqlar O‘rta Osiyo va boshqa quruq iqlim hududlarida keng tarqalgan. Ular asosan qurg‘oqchil iqlim sharoitida shakllangan bo‘lib, qishloq xo‘jaligi uchun muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda jami haydalib dehqonchilik qilinadigan lalmi yerlar 773,6 ming gektarni tashkil qilib, Jizzax viloyatida 229,4 ming gektarni, Qashqadaryo viloyatida 258,4 ming gektarni, Navoiy viloyatida 30,9 ming gektarni, Samarqand viloyatida 182,1 ming gektarni, Surxondaryo viloyatida 39,5 ming gektarni, Toshkent viloyatida 33,3 ming gektarni tashkil qiladi [5].




1-rasm. Haydaladigan lalmi yer

Tajriba tadqiqot hududi tuproqlarni dastlabki holati o‘rganish maqsadida asosiy tuproq kesmasi olindi. Ushbu lalmi tipik bo‘z tuproqlarida gumus miqdori va umumiy oziqa elementlari (azot, fosfor va kaliy) hamda tuproq muhit ko‘rsatgichlari aniqlandi. Tadqiqot olib borilgan lalmi tipik bo‘z tuproqlarda gumus miqdori haydov va haydov ostki qatlamlarida 1,549-1,181 % bo‘lib, gumus ko‘rsatgichi o‘rtacha, pastki qatlamlarda uning miqdori 1,101-0,896 % bo‘lgani holda kam ko‘rsatgichni tashkil etadi. Ushbu tuproqlarda C:N nisbati 8,0-10,2 bo‘lib, ularning gumusni azot bilan ta’minlanganlik darajasi o‘rtacha hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval. Lalmi tipik bo‘z tuproqlarning agrokimyoviy tarkibi, %

№ Kesma	Qatlam, sm	Gumus	N	C:N	P	K	pH
1	0-22 (A_1)	1,549	0,091	9,9	0,350	1,320	7,4
	22-40 (A_2)	1,181	0,080	8,6	0,230	1,007	7,0
	40-75 (B_1)	1,102	0,080	8,0	0,170	0,817	7,2
	75-140 (B_2)	0,937	0,059	9,2	0,120	0,621	7,1
	140-200 (C_1)	0,896	0,051	10,2	0,120	0,542	7,0

Umumiy oziqa elementlaridan tuproq profili bo‘ylab yuqoridan pastki qatlamlar tomon kamaygan holda umumiy azot miqdori - 0,051-0,091 %, fosfor miqdori qatlamlar bo‘yicha 0,120-0,350 % bo‘lib, yuqori ko‘rsatgichdadir. Umumiy kaliy miqdori profil bo‘yicha 0,542-1,320 % bo’lib, kam ko‘rsatgichga to‘g‘ri keladi. Ushbu tuproqlar muhit ko‘rsatgichi 7,0-7,4 oralig‘ida bo‘lib, neytral va kuchsiz ishqoriy muhit ekanligi aniqlandi.

Olingan kesmamizda gumus, ammoniy holdagi azot, umumiy holdagi fosfor, umumiy holdagi kaliy va ammiak holatdagi azot yuqori qatlamdan pastga qarab kamayishi kuzatildi.

Xulosa va takliflar. Lalmi tipik bo‘z tuproqlarning agrokimyoviy tahlili ularning organik moddalar va oziq elementlar jihatidan yetarli emasligini ko‘rsatdi. Jumladan, gumus miqdori A_1 qatlamda nisbatan yuqori (1,549%) bo‘lib, chuqurlashgan sari izchil kamayib boradi va C_1 qatlamda 0,896% ni tashkil etdi. Bu holat tuproqning organik moddalarga kambag‘alligini va bu maydonlarda tuproq unumdorligini oshirishda ilmiy asoslangan agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Umumiy ammoniy holdagi azot ham yuqoridan pastga qarab pasayadi (A_1: 0,0910% -C_1: 0,0510%), bu esa azotli o‘g‘itlarning o‘simliklarning vegetatsiya bosqichlarida tabaqalashtirgan holda qo‘llashni taqazo etadi. Fosfor miqdori ham shunga o‘xshash dinamikaga ega bo‘lib, o‘simliklar uchun mavjud shakllari kamligi tufayli qo‘shimcha fosforli o‘g‘itlar kiritilishi lozim.

Umuman olganda, bu tuproqlar gumus, azot va fosfor bo‘yicha kambag‘al, lekin kaliyga boy bo‘lib, ekinlar yetishtirish uchun shart-sharoit yaratadi. Biroq yuqori hosil olish uchun kompleks o‘g‘itlash va agrotexnik chora-tadbirlar shart hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.S.Muratkasimov Lalmi tipik bo‘z tuproqlarning hozirgi holati va ulardan samarali foydalanish yo‘llari (G‘allaorol tumani tuproqlari misolida): Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Tashkent, 2019. - S. 57-58 b.

2. Dala tajribalariini o‘tkazish uslublari // O‘zPITI, Toshkent, 2007, -B. 1-146.

3. FAO Soils Bulletin No. 79. (2001). Soil Fertility Management in Support of Food Security in Sub-Saharan Africa. – Rome: FAO. – 132 b.

4. Karimov A., Jo‘raev Sh. (2020). O‘zbekiston tuproqlari va ularning unumdorligi. – Toshkent: “Fan” nashriyoti. – 156 b.

5. R.A.Turayev, R.N.Sharopov. Lalmi yerlar monitoring // Monografiya. – Toshkent “Lesson Press” MChJ, 2023 y. 15 b.

6. Xidirov A. (2019). Biostimulyatorlarning lalmikor yerlar tuprog‘iga ta’siri. – “Qishloq xo‘jaligi va innovatsiya” jurnali, №4. – 60–66-b.

7. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта (с основами статистической обработки результатов исследований) Москва. Агропромиздат, 1985. -351 с.

8. Е.В.Аринушкина. Руководство по химическому анализу почв, Издательство Московского Университета, 1970 г. 137-218 с.

UDK: 633.1:631.811.98(575.1)

LALMIKOR MAYDONLARDA KUGI BOSHOQLI DON EKINLARINI ILDIZ VA BARG ORQALI OZIQLANTIRISH

A.S.Muratkasimov
Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti q.x.f.f.d., k.i.x
U.Z.Usmanov
Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktorant.
e-mail: **alisher.muratkasimov@gmail.com**

Annotatsiya. Ushbu maqolada Lalmikor dehqonchilik ilmiy tadqiqot institutining tipik lalmikor bo‘z tuproqlar sharoitida kuzgi bug‘doy “Baxmal-97” navini ildiz va barg orqali oziqlantirishda mineral o‘g‘itlar, pestitsid, gerbitsid va insektitsidlarni uyg‘unlashgan holda qo‘llashning resurstejamkor texnologiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha dala tajribalari natijalari bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: Lalmikor yerlar, tipik bo‘z tuproq, hosildorlik, namlik, almashlab ekish, organik va ma’danli o‘g‘itlar, ildiz orqali oziqlantirish, tuproqqa ishlov berish, agrotexnologiyalar, gumus, qo‘shimcha hosil, samaradorlik.

Аннотация. В статье представлены результаты полевых экспериментов, проведённых в условиях типичных богарных серозёмов в Научно-исследовательском институте богарного земледелия. Исследование направлено на разработку ресурсосберегающих технологий возделывания озимой пшеницы сорта “Бахмал-97” с интеграцией корневой и внекорневой

подкормки минеральными удобрениями, пестицидами, гербицидами и инсектицидами. Полученные данные подтверждают эффективность комплексного применения указанных средств для повышения урожайности в условиях богарного земледелия.

Ключевые слова: Богарные земли, типичные серозёмы, урожайность, влага, севооборот, органические и минеральные удобрения, корневая подкормка, обработка почвы, агротехнологии, гумус, дополнительный урожай, эффективность.

Abstract. This article presents the results of field experiments conducted under the conditions of typical rainfed grey soils at the Scientific Research Institute of Rainfed Agriculture. The study focuses on the development of resource-efficient technologies for the cultivation of the autumn wheat variety “Bakhmal-97,” by integrating root and foliar feeding with mineral fertilizers, pesticides, herbicides, and insecticides. The findings highlight the effectiveness of combining these inputs to enhance productivity under rainfed farming systems.

Keywords: Rainfed lands, typical grey soils, yield, moisture, crop rotation, organic and mineral fertilizers, root feeding, soil treatment, agrotechnologies, humus, additional yield, efficiency.

Kirish. Hozirgi paytda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida, shu jumladan lalmikor dehqonchilikda g‘alla, dukkakli va boshqa qishloq xo‘jalik ekinlarini yetishtirishda qo‘llaniladigan agrotexnologiyalar tuproq unumdorligidan, tabiiy namlikdan, texnika vositalaridan, o‘g‘itlar, o‘simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalaridan samarali va tejamli foydalangan holda ekologik toza eksportbop mahsulot olish hamda tuproq unumdorligini oshirishga xizmat qilishi lozim.

Respublikadagi barcha lalmikor maydonlarida boshoqli don, dukkakli va boshqa qishloq xo‘jalik ekinlaridan har qanday ob-havo sharoitlarida barqaror yuqori va sifatli hosil yetishtirish agrotexnologiyasida organik va mineral o‘g‘itlardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida qayd etilganidek, O‘zbekiston lalmikor dehqonchilik ilmiy tadqiqot institutida o‘tgan asrning 60-yillaridan boshlab lalmikor maydonlarning turli tuproq-iqlim sharoitlarida kuzgi boshoqli don va boshqa qishloq xo‘jalik ekinlarining organik va mineral o‘g‘itlarga talabchanligi o‘rganilgan bo‘lib, bu tajribalarning barchasida boshoqli don ekinlari asosan ildiz orqali oziqlantirilgan [1,2].

Respublikamizdagi barcha lalmikor mintaqalarda kuzgi boshoqli va boshqa ekinlar hosildorligini kamaytiradigan asosiy omillardan biri dastlabki o‘sish va rivojlanish bosqichlarida (tuplash va naychalash) tuproqqa azotli va fosforli oziqa moddalarning yetishmasligi hisoblanadi. So‘nggi 40-50 yil mobaynida Respublikaning barcha lalmikor maydonlarida ilmiy asoslangan g‘alla-shudgor almashlab ekish sxemalarining ishlab chiqarishga nihoyatda sustkashlik bilan joriy etilishi, g‘alla ekinlarining surunkasiga ekilishi, tuproqqa ishlov berish, organik va mineral o‘g‘itlarlardan kam va samarasiz foydalanishi va boshqa ko‘plab omillarga ko‘ra tuproq unumdorligi va uning strukturasi jiddiy tanazzulga uchramoqda. Bunday sharoitlarda lalmikor maydonlarda ekiladigan boshoqli don, dukkakli va boshqa ekinlarning o‘g‘itlarga bo‘lgan extiyoji yanada kuchaymoqda [3,4].

Tadqiqotning asosiy maqsadi, mineral o‘g‘itlarni qo‘llashning me’yorini, texnologiyasini takomillashtirish bilan birgalikda o‘simliklarni begona o‘tlar, kasallik va zararkunanda hasharotlardan himoya qilishda barg orqali oziqlantirish bilan bir vaqtning o‘zida kimyoviy preparatlarni uyg‘unlashgan holda qo‘llash hisobiga hosildorlikni oshirish hisoblanadi.

Ma’lumki, lalmikor yerlardan, tuproqdagi tabiiy namlikdan samarali foydalanishda, boshoqli don va boshqa qishloq xo‘jalik ekinlaridan barqaror yuqori va sifatli hosil yetishtirishda organik va mineral o‘g‘itlardan, kimyoviy preparatlardan samarali va tejamli foydalanishni ta’minlaydigan texnologiyalarni takomilashtirish dolzarb muammo va vazifalardan biri hisoblanadi.

Bu vazifa va muammolar ayniqsa iqlimning global o‘zgarishi, lalmikor maydonlarda tuproq unumdorligi pasayib ketgan hozirgi davrda yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida qayd etilgan fikr va mulohazalarga asoslangan holda Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutining lalmikor tipik bo‘z tuproqli markaziy tajriba xo‘jaligida “Baxmal-97” navining suspenziya purkash yo‘li bilan barg orqali oziqlantirishda mineral o‘g‘itlar hamda pestitsidlarni suspenziya tarzida birgalikda purkash samaradorligini o‘rganish maqsadida tajribalar olib borildi.

Tadqiqot ob’ekti va uslubiyati. Dala tajribalari Lalmikor dehqonchilik ilmiy tadqiqot institutining tipik lalmikor bo‘z tuproqli markaziy tajriba xo‘jaligida olib borildi. Tajriba dalasi tuproqlari o‘rtacha qumoqli, suv va shamol eroziyasiga o‘rtacha chalingan tipik bo‘z tuproq bo‘lib, ularning haydov qatlamida (0-20 sm) 0,55-0,88 % gumus, umumiy azot 0,18-0,20 %, fosfor 0,16-0,18 % va 1,6-1,8 % yalpi kaliy bo‘lib, tuproq muhiti (pH) 7,9-8,0 ni tashkil etadi.

Tajribada yumshoq bug‘doy yetishtirish bo‘yicha bajarilgan barcha agrotexnologik tadbirlar Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan ishlab chiqilgan agrotavsiyalar asosida bajarildi.

“Baxmal-97” navi ekilgan dala tajribalarida tuproqning namligi dinamikasi, o‘simlikning tup soni (1m^2 dagi), ularning biologik yashovchanligi, fenologik kuzatishlar, turli o‘sish va rivojlanish bosqichlarida o‘simliklarning ho‘l va quruq biomasa to‘plash dinamikasi, biometrik tahlillar va boshqalar o‘tkazildi.

Tadqiqot natijalari. “Baxmal-97” bug‘doy navining turli fazalarida xo‘l va quruq biomassa to‘plashini o‘rganish uchun bug‘doyning naychalash va boshoqlashda har m^2 da, 4 qaytariqda 10 tadan o‘simlik ildizi bilan birgalikda olindi. O‘simliklarning fiziologik tahlil natijalari quyidagilarni tashkil etdi.

Barg orqali oziqlantirish va kimyoviy preparatlar (gerbitsid, fungitsid, insektitsid)ni uyg‘unlashgan holda qo‘llash “Baxmal-97” navi biologik yashovchanligiga sezilarli ta’sir etdi.

Uch yillik ma’lumotlarga ko‘ra, tajribaning nazorat variantida o‘simlikning o‘rim-yig‘im paytidagi o‘rtacha 98,6 dona/m^2 ni, biologik yashovchanligi 65,5% ni tashkil etgan bo‘lsa, andoza variantda bu ko‘rsatkichlar 96,0 va 70,2% ni tashkil etdi. Tajribaning 3% li karbamid suspenziyasini naychalash bosqichida purkalgan variantda “Baxmal-97” navining tup soni 104 dona/m^2 ni, biologik yashovchanligi esa 72,7% ni tashkil etdi.

Olingan o‘rtacha ma’lumotlarga ko‘ra bug‘doyning tup soni va biologik yashovchanligi $P_{40}K_{40}$ fonida naychalash bosqichida 20 kg/ ga hisobida “Tayfun” gerbitsidi purkalgan variantda eng yuqori bo‘ldi, tegishlicha 149,8 va 67,1% ni tashkil etdi. Qolgan variantlarda bug‘doyning tup soni nazoratga nisbatan 6-10 donaga ko‘pligi, biologik yashovchanligining esa 5-7% ga yuqoriligi qayd etildi.

O‘tkazilgan tajribada an’anaviy texnologiya asosida ildiz orqali mineral o‘g‘itlar fonida turli konsentratsiyadagi mineral o‘g‘itlar begona o‘tlarga, kasalliklar va zararkunandalarga qarshi kimyoviy preparatlarni aralash holda suspenziya purkash natijalari quyidagilardan iborat.

“Baxmal-97” hosildorligi nazorat variantida o‘rtacha 10,0 s/ga ni, ildiz orqali berilgan $N_{40}P_{40}K_{40}$ o‘g‘itlar berilgan variantda nazoratga nisbatan olingan qo‘shimcha hosildorlik 3,3 s/ga ni tashkil etdi. Eng yuqori hosildorlik Fon+5% N_m +gerbitsid+gumimaks 4 l/ga naychalash fazasida qo‘llanilgan variantda 17,0 s/ga ni tashkil etdi.

1-jadval. Lalmikor maydonlarda ildiz va barg orqali oziqlantirish va kimyoviy preparatlarni uyg‘unlashgan holda qo‘llashning “Baxmal-97” navi hosildorligiga ta’siri

	Variantlar	O‘rtacha, s/ga	Nazoratga nisbatan	
			± s/ga	%
	Nazorat	10,0	-	100
	$R_{40}K_{40}$ N_{40}, $R_{40}K_{40}$– (fon) kuzda, N_{m40}- bahorda ildiz orqali	13,3	+3,3	133,3
	$R_{40}K_{40}$ + 3% li N_m- suspenziya- naychalash davrida	13,0	+3,0	130,0
	$R_{40}K_{40}$ + 5% li N_m- suspenziya- naychalash davrida	14,4	+4,4	144,0
	3%li Nm- naychalash	11,9	+1,9	119,0
	5%li Nm- naychalash	12,7	+2,7	127,0
	Fon + gerbitsid 20 g/ga - naychalash	14,9	+4,9	149,0
	Fon +3% Nm+ 20 g/ga gerbitsid naychalash	15,7	+5,7	157,0
	Fon + yer malxami 6 l/ga naychalash	14,6	+4,6	146,0
0	Fon +3% Nm + yer malxami 6 l/ga naychalash	15,9	+5,9	159,0
1	Fon +3% Nm +gerbitsid+gumimaks 4l/ga-naychalash	16,4	+6,4	164,0
2	Fon +5% Nm +gerbitsid+gumimaks 4l/ga-naychalash	17,0	+7,0	170,0

3	3%li NP naychalash+ gumimaks -+fungitsid-boshoqlash	14,0	+4,0	140,0
4	3%li NP naychalash + gumimaks +fungitsid-boshoqlash	14,5	+4,5	145,0
5	5% NR + gerbitsid-naychalash +5% NR fungitsid + insektitsid boshoqlash davrida	14,3	+4,3	143,0

Tajribaning nazorat variantida boshqa biometrik ko‘rsatkichlar ildiz va barg orqali oziqlantirish hamda kimyoviy preparatni uyg‘unlashgan holda qo‘llangan variantlarda sezilarli darajada yuqoriligi kuzatildi. Chunonchi, bug‘doyning mahsuldor poyalar soni nazoratga nisbatan ildiz va barg orqali oziqlantirilgan variantda 27 tadan to 117,7 dona gacha ko‘pligi, o‘simlikning bo‘yi 10-19,5 sm gacha balandligi, 1 ta boshoqdagi donning 0,06-0,33 gacha og‘irroqligi aniqlandi. 1000 ta don og‘irligi tajribaning nazorat variantida 25,7 g ni, ildiz va barg orqali oziqlantirilgan, kimyoviy preparatlarni aralash holda suspenziya purkalgan variantlarda esa 24,7-31,4 g ni tashkil etdi.

Xulosa qilib aytganda lalmikor maydonlarda kuzgi bug‘doyni oziqlantirishda mineral o‘g‘itlar va biologik faol preparatlarni uyg‘unlashgan holda qo‘llash texnologiyasi asosida yoqilg‘i moylash materiallari, ishchi kuchi, texnika xarajati kamayadi. Shuningdek, boshoqli don ekinlarini ildiz va barg orqali uyg‘unlashgan holda oziqlantirish gektariga 5-7 sentner qo‘shimcha hosil olish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umurzakov A.A., Muratkasimov A.S. Способы эффективного использования типичных сероземных почв на богарных землях. // Наука, производство, бизнес. – с. 191.

2. Xaydarov B.D., Muratkasimov A.S., Xalikulov D.X. Сравнительная эффективность различных схем зернопаропропашных севооборотов на богарных землях республики Узбекистан. // Всероссийской научно-практической конференции с международным участием, посвященной 85-летию основания Пермской ГСХА и 150-летию со дня рождения Д.Н.Прянишникова (Перм, 11-13 ноября 2015 года) Част 1. С. 140-142.

3. Yusupov X. O‘tmishdoshlar, tuproqqa ishlov berish texnologiyalari va ma’danli o‘g‘itlarning tuproq unumdorligiga ta’siri. //Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 10. – S. 96-101.

4. Yusupov X., Muratkasimov A., Usmanov U. Lalmikor tipik bo‘z tuproqlar sharoitida turli ma’danli o‘g‘itlarni qo‘llash samaradorligi //Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 10. – S. 102-106.

XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARINING O‘QUVCHILARDA BADIIY-ESTETIK QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDAGI PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

G. S.Kaxarova
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti Orcid ID 0009-0007-3159-8446

Annotatsiya: Maqolada xalq og‘zaki ijodi namunalari orqali o‘quvchilarda badiiy-estetik qobiliyatlarni shakllantirish imkoniyatlari ko‘rsatib beriladi, folklor vositalarining estetik idrok, his-tuyg‘u, did va ijodiy ifodani rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi, xalq ijodidan maqsadli foydalanish orqali san’at va go‘zallikka nisbatan ijobiy munosabat, badiiy-estetik dunyoqarash shakllanishi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, estetik tarbiya, badiiy-estetik qobiliyat, estetik idrok, his-tuyg‘u, estetik did, ijodiy ifoda, folklor vositalari, o‘quvchi shaxsi, milliy qadriyatlar.

Аннотация: В статье раскрываются возможности формирования художественно-эстетических способностей учащихся через образцы устного народного творчества. Анализируется роль фольклорных средств в развитии эстетического восприятия, чувств, вкуса и творческого самовыражения. Обосновано, что целенаправленное использование народного творчества способствует формированию положительного отношения к искусству и красоте, а также художественно-эстетического мировоззрения.

Ключевые слова: устное народное творчество, эстетическое воспитание, художественно-эстетические способности, эстетическое восприятие, чувства, эстетический вкус, творческое выражение, фольклорные средства, личность учащегося, национальные ценности.

Annotation: The article reveals the potential of developing students’ artistic and aesthetic abilities through examples of folk oral creativity, analyzes the role of folklore in shaping aesthetic perception, emotional sensitivity, taste, and creative expression, and substantiates that the purposeful use of folk art contributes to the formation of a positive attitude toward art and beauty, as well as the development of an artistic and aesthetic worldview.

Keywords: folk oral creativity, aesthetic education, artistic and aesthetic abilities, aesthetic perception, emotions, aesthetic taste, creative expression, folklore tools, student personality, national values

Xalq ogʻzaki ijodi vositasida oʻquvchilarning badiiy-estetik qobiliyatsi ularda san’at, tabiat va insoniy munosabatlardagi goʻzallikni qabul qilish, anglash va baholash qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan muhim pedagogik yoʻnalish hisoblanadi. Folklor xalq badiiy madaniyatining ajralmas qismi sifatida bola shaxsiyatiga kuchli estetik ta’sir koʻrsatadigan samarali vosita boʻlib xizmat qiladi. U avlodlar davomida xalq tomonidan toʻplangan ma’naviy-axloqiy va badiiy qadriyatlarni oʻzida mujassam etgan boʻlib, oʻquvchilarda estetik did, hissiy ta’sirchanlik, goʻzallik va an’analarga hurmat tuygʻusini shakllantiradi. Ertaklar, afsona va rivoyatlar, maqollar, qoʻshiqlar, marosimlar hamda xalq amaliyot san’ati vositasida bolalar xalq ijodi olamiga shoʻngʻiydi, ajdodlarimiz madaniyati, turmush tarzi va dunyoqarashi bilan tanishadi, badiiy tasavvurni rivojlantiradi va turli san’at turlari orqali oʻzini ifodalash istagini his etadi. Bu jarayonda estetik qobiliyat nafaqat xalq san’ati namunalarini oʻzlashtirishni, balki oʻquvchilarni bevosita ijodiy va badiiy faoliyatga jalb etishni ham oʻz ichiga oladi. Bu esa ularda axloqiy-estetik mezonlarni, ona Vatanga muhabbatni va milliy merosga hurmat tuygʻusini shakllantiradi.

Estetik qobiliyat tushunchasi F. Shiller falsafiy qarashlari asosida inson shaxsini har tomonlama uygʻun rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim gʻoya sifatida namoyon boʻladi. Shiller “Estetik qobiliyat xatlari” asarida inson tabiatini ikkita asosiy kuch – hissiy va aqliy tamoyillarining uygʻunligida koʻradi. Bu ikki qarama-qarshi kuchni muvozanatga keltiruvchi vosita sifatida u “oʻyin impulsi” tushunchasini ilgari suradi. Uning fikricha, inson chinakam inson boʻlishi uchun san’at orqali oʻzini erkin ifoda eta olishi zarur. Estetik qobiliyatning mazmuni shundaki, u insonni nafaqat sezgi va did bilan, balki axloqiy va aqliy jihatdan ham mukammallikka olib boruvchi vosita boʻlib xizmat qiladi. Shiller estetik qobiliyatni shaxsning ichki erkinligini roʻyobga chiqaruvchi mexanizm sifatida koʻradi, bu erkinlik esa insonda axloqiy tanlov qilish, oʻzini nazorat qilish va jamiyatda uygʻunlikka intilish imkonini beradi. U estetik qobiliyatning vazifasini ikki asosiy yoʻnalishda koʻrsatadi: birinchidan, hissiyotlar ustidan aqlning hokimligini ta’minlash orqali shaxsiy erkinlikni rivojlantirish; ikkinchidan, goʻzallik va san’at vositasida insonlarning ijtimoiy ongini shakllantirish, ularni ruhiy barkamollikka yetaklash. Shiller estetik qobiliyatni nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy taraqqiyotning garovi sifatida baholaydi. Uning “estetik davlat” haqidagi gʻoyasi shundan dalolat beradiki, jamiyatda chinakam erkinlik va tenglik faqat goʻzallik va estetik ong orqali qaror topadi. Bu qarashlar zamonaviy ta’lim va qobiliyat tizimi uchun muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular insonni faqat bilim bilan emas, balki did, axloq va ruhiy uygʻunlik asosida qobiliyatlash zarurligini asoslaydi.

Milliy qadriyatlarga tayangan holda estetik didni shakllantirish, oʻquvchilarning san’atni his etishi, goʻzallikni anglab baholashi va badiiy idrokini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq ogʻzaki ijodining ertak, maqol, qoʻshiq va marosim kabi shakllari orqali bolalar ajdodlarning ma’naviy merosi bilan tanishadi, ularning estetik qarashlari va goʻzallik haqidagi tasavvurlari bilan ichki bogʻliqlik hosil qilib, oʻquvchilarda milliy madaniyatga hurmat tuygʻusini kuchaytiradi, badiiy-estetik didni mustahkamlaydi hamda axloqiy fazilatlarni shakllantiradi. Estetik obrazlar orqali goʻzallikni qadrlash, uni hayotiy qadriyatlar bilan bogʻlash esa shaxsda milliy oʻzlikni anglashga va Vatanga mehr-muhabbat ruhini qobiliyatlashga xizmat qiladi. Estetik qobiliyat milliy qadriyatlarga tayanib, har tomonlama yetuk, didli va ma’naviy barkamol avlodni voyaga yetkazishning muhim omilidir.

Estetik qobiliyatlar oʻz-oʻzidan shakllanmaydi, balki maqsadli tarzda tashkil etilgan estetik tarbiya jarayonida yuzaga chiqadi. Estetik tarbiya nazariyasi ushbu qobiliyatlarning tarkibiy qismlarini ya`ni idrok, hissiyot, baholash, ehtiyoj va didni shakllantirishga qaratilgan boʻlib, ularning har biri bola shaxsining estetik rivojlanishida alohida oʻrin tutadi.

Estetik tarbiya shaxsning har tomonlama barkamol rivojlanishida muhim oʻrin egallaydi. Bu jarayon bolalarda nafaqat badiiy did va estetik qarashlarni shakllantiradi, balki ularning goʻzallikni anglash, his qilish, qadrlash va uni yaratishga boʻlgan ichki ehtiyojini uygʻotadi. Estetik munosabat bu tabiat, san’at, hayotiy voqelik va insonlar oʻrtasidagi goʻzallikka nisbatan hissiy-intellektual idrokning ifodasidir. Mazkur munosabat bolaning erta yoshdan shakllanishi zarur, chunki aynan shu davrda uning his-tuygʻulari, idroki, hayotiy qarashlari va badiiy-estetik tasavvurlari faol rivojlanadi. Estetik tarbiyaning nazariy asoslarida

san’atning markaziy o‘rni alohida ta’kidlanadi. Musiqa, tasviriy san’at, adabiyot, teatr va raqs kabi san’at turlari o‘ziga xos badiiy ifoda vositalari orqali bola qalbiga bevosita ta’sir etadi, unda hayotdagi go‘zallikni teran idrok etish, baholash va ifodalash qobiliyatini rivojlantiradi.

Estetik tarbiya jarayonida estetik idrok, his-tuyg‘u, baholash, mulohaza, ehtiyoj, did va ideal kabi psixologik va pedagogik kategoriyalar shakllanadi. Estetik idrok insonning go‘zallikni sezish va anglash qobiliyati sifatida qaraladi va bu orqali bola rang, shakl, tovush, harakat kabi san’at elementlarini sezishga o‘rganadi. Estetik his-tuyg‘u esa san’at asarlariga yoki voqelikdagi estetik hodisalarga bo‘lgan ichki javob, ya’ni zavq, hayrat, tasalli yoki norozilik holatlarini aks ettiradi. Ushbu tuyg‘ular takroriy tajriba asosida estetik ehtiyojga, ya’ni go‘zallikni his qilish va unga intilish zaruriyatiga aylanadi. Estetik baholash va mulohaza orqali esa o‘quvchi estetik hodisalarga asosli fikr bildiradi, ularni anglab, o‘z qarashlariga muvofiq tahlil qiladi. Estetik did esa shaxsda shakllanadigan barqaror badiiy mezondir. U san’at asarlarini ajratish, qiyoslash, haqiqiy san’atni soxta ko‘rinishlardan farqlash qobiliyatini ifodalaydi. Ayniqsa, o‘smirlik davrida bu jarayon muhim ahamiyatga ega, chunki bu davrda shaxsning badiiy qarashlari, didi va estetik ideallari faol shakllanadi. Estetik tarbiya bu davrda ongli ravishda tashkil etilishi, bolalarning yosh xususiyatlari va individual qiziqishlarini inobatga olgan holda amalga oshirilishi zarur. O‘quvchilarni turli badiiy faoliyatlarga - chizish, musiqa ijrosi, teatr o‘yinlari, hikoya tuzish kabi ijodiy jarayonlarga jalb etish orqali ularning go‘zallikka bo‘lgan qiziqishi va hissiy sezgirligini rivojlantirish mumkin. Estetik tarbiyaning asosiy maqsadi shundaki, bola faqat go‘zallikni idrok etuvchi emas, balki uni anglaydigan, qadrlaydigan va qayta yarata oladigan ijodkor shaxsga aylansin. Bu esa insonning ichki dunyosini boyitadi, u jamiyatda o‘z o‘rnini topadi va madaniyatli, badiiy faol, estetik qadriyatlarni yaratishga qodir shaxs sifatida shakllanadi.

Xalq og‘zaki ijodi namunalari o‘quvchilarda badiiy-estetik qobiliyatlarni shakllantirishning kuchli pedagogik vositasi bo‘lib, ular orqali bolalar san’at, tabiat va insoniy go‘zallikni anglash, his qilish va qadrlash qobiliyatini egallaydi. Estetik tarbiya jarayonida folklor vositalari nafaqat did va his-tuyg‘ularni, balki axloqiy-estetik qadriyatlarni, milliy madaniyatga hurmat va ijodiy ifoda ehtiyojini ham rivojlantiradi. Estetik idrok, ehtiyoj, baholash, mulohaza va ideal kabi tarkibiy qismlar psixologik-pedagogik jihatdan muvofiq tashkil etilganda, o‘quvchilar ongli estetik qarashlarga ega, go‘zallikni yarata oladigan, barkamol va madaniyatli shaxs sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19-mart kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishidagi “Yoshlarni ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish to‘g‘risida”gi ma’ruza. – URL: https://www.pv.uz/uz/news

2. Гасанова Ж. Т., Раджабов И. М. Изучение фольклора как условие эстетического воспитания школьников // Известия Дагестанского государственного педагогического университета. Психолого-педагогические науки. – 2013. – № 1. – С. 23–28.

3. Кандаева Н. А., Бачиева Э. Ю. Эстетическое воспитание младших школьников в процессе приобщения к культуре и искусству родного края // Известия Дагестанского государственного педагогического университета. Психолого-педагогические науки. – 2012. – № 3. – С. 45–60.

4. Mustafoyev B. Estetik tarbiya metodikasi: o‘quv qo‘llanma. – Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy, 2023. – 116 b. – ISBN 978-9910-9800-4-6.

5. O‘tayev A. X. Xalq og‘zaki ijodi tarixiy ildizlari // Inter education & global study. – 2024. – № 5. – B. 454–458.

RAQAMLI SAVODXONLIK VA RAQAMLI KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

G.S.Ibroximova
Qo‘qon universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim tizimida raqamlashtirish jarayonining o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatiga ta’siri tahlil qilingan. Raqamli savodxonlik va raqamli kompetensiyalarni shakllantirish pedagogik jarayonning ajralmas qismi sifatida ko‘rilib, AKT vositalaridan samarali foydalanish, interaktiv ta’lim muhitini yaratish hamda o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilishi ta’kidlangan. Raqamli kompetensiyaning tarkibiy qismlari, rivojlanish bosqichlari va pedagogik amaliyotdagi ahamiyatini ilmiy-nazariy asosda yoritilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli savodxonlik, raqamli kompetensiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, pedagogik faoliyat, interaktiv ta’lim, tanqidiy fikrlash, ijodiy tafakkur, ta’lim texnologiyalari, kasbiy rivojlanish, innovatsion yondashuv.

Аннотация: В данной статье проанализировано влияние процесса цифровизации на профессиональную деятельность педагогов в современной системе образования. Цифровая грамотность и формирование цифровых компетенций рассматриваются как неотъемлемая часть педагогического процесса. Отмечено, что эффективное использование ИКТ, создание интерактивной образовательной среды способствует развитию творческого и критического мышления учащихся. Структурные компоненты цифровой компетентности, этапы её развития и значение в педагогической практике освещены на научно-теоретическом уровне.

Ключевые слова: цифровая грамотность, цифровая компетентность, информационно-коммуникационные технологии, педагогическая деятельность, интерактивное обучение, критическое мышление, творческое мышление, образовательные технологии, профессиональное развитие, инновационный подход.

Abstract: This article analyzes the impact of the digitalization process on teachers' professional activities within the modern education system. Digital literacy and the development of digital competencies are considered integral parts of the pedagogical process. It is emphasized that effective use of ICT tools and the creation of an interactive learning environment contribute to the development of students' creative and critical thinking. The structural components of digital competence, its stages of development, and its significance in pedagogical practice are presented from a scientific and theoretical perspective.

Keywords: digital literacy, digital competence, information and communication technologies, pedagogical activity, interactive learning, critical thinking, creative thinking, educational technologies, professional development, innovative approach.

Hozirgi davrda jadal davom etayotgan raqamlashtirish jarayoni ta’lim tizimini tubdan o‘zgarishiga sabab bo‘ldi. O‘z amaliy faoliyatida raqamli ta’lim vositalaridan to‘g‘ri foydalana olishi XXI-asr o‘qituvchisining zarur amaliy ko‘nikmasiga aylandi. Virtual o‘quv xonalari, elektron darsliklar, multimedia taqdimotlari bularning barchasi ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Pedagoglar ushbu o‘zgarishlarga tayyor bo‘lishlari va dars jarayonida raqamli ta’lim vositalaridan unumli foydalanishlari zarur.Raqamli vositalar o‘qituvchilarga interaktiv darslar yaratish va o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini shakllantirish imkonini beradi. Shuningdek, ular o‘quvchi va o‘qituvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantiradi.Muvaffaqiyatli ta’limning eng muhim jihatlaridan biri bu o‘qituvchilarning raqamli savodxonligini rivojlantirishdir, chunki ular zamonaviy raqamli dunyoda samarali faoliyat olib boradigan yangi avlodni tarbiyalashga mas’uldirlar.

Biroq ayrim o‘qituvchilarda AKTdan foydalanish ko‘nikmalari yetarli darajada rivojlanmagan. Buning turlicha sabablari bo‘lishi mumkin boshlang‘ich bilimni yetishmasligi,foydalanishga qiziqishning yo‘qligi va hatto ba’zilarda yangiliklardan qo‘rqish borligini ko‘rsatishimiz mumkin.Ammo aynan shu texnologiyalar pedagoglarni quyidagi yo‘nalishlarda rivojlantirishi mumkin:

shaxsiy rivojlanishga qiziqish va motivatsiyani uyg‘otish

faollik va mustaqillik darajasini oshirish

o‘z faoliyatini tahlil qilish

hamkorlikdagi faoliyat va empatiya

“O‘qituvchining raqamli savodxonligi nima?”

Pedagogning raqamli savodxonligi ikki xil ko‘nikmalar guruhini o jamlaydi ya’ni:

Kompyuter savodxonligi

Axborot- kommunikatsiya texnologiyalari savodxonligi

Kompyuter savodxonligiga - kompyuterdan foydalanish bo‘yicha oddiy va maxsus texnik ko‘nikmalarni oz’ ichiga oladi

AKT savodxonligiga esa - xizmatlardan va madaniy takliflardan foydalanish bo‘yicha foydalanuvchi ko‘nikmalari to‘plami, axborot komponentini qabul qilish, tanlash, qayta ishlash, uzatish, yaratish va raqamli ma’lumotlarni ishlatish qobiliyati kiradi.

Raqamli savodxonlik o‘qituvchining raqamli kompetentsiyasining tarkibiy qismi sifatida ishonchli ma’lumotlarni ishonchsiz ma’lumotlardan ajratish, turli xil ma’lumotlar manbalaridan foydalanish, kompyuter va shunga o‘xshash qurilmalarda ishlash va ularni raqamli texnologiyalar sohasida qo‘llash imkoniyatlarini bilish, o‘z kasbiy faoliyatida innovatsion vositalarni qo‘llash qobiliyatini nazarda tutadi.

Uni quyidagi ko’rsatkichlar orqali aniqlashimiz mumkin: axborot savodxonligi, kompyuter savodxonligi, media savodxonligi.Ushbu qobiliyatlar pedagogik tajriba ortgani sayin takomillashib boradi.

I.A.Zimnyaya AKT kompetensiyasini axborotni bosma va yozma holda qabul qilsh, foydalanish vosita va usullarini takomillashtirish qobiliyati sifatida belgilaydi. U raqamli kompetentsiyalarni axborotni qayta ishlash va uzatish, shuningdek, Internet resurslari bilan ishlashda jaroyinidagi amaliy ko‘nikmalar bilan bog‘laydi.

N. G. Melnichuk AKT kompetensiyalarini bilimlar, ko‘nikmalar va malakalar to‘plami sifatida ta’riflaydi. Muallifning fikriga ko‘ra, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi o‘qituvchining noaniq sharoitlarda pedagogik masalalarni yechish uchun o‘z kasbiy faoliyatida bilim, ko‘nikma va malakalarni qo‘llashga tayyorligini anglatadi. Ushbu kompetensiyalar quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi: ta’lim maqsadlari uchun raqamli texnologiyalarni tahlil qilish va ulardan o‘quv jarayonida foydalanish, axborot-uslubiy resurslarni avtomatlashtirish maqsadida ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, uzatish, saqlash va yaratish bilan bog‘liq vazifalarni bajarish, AKT vositalari yordamida ta’lim jarayoni ishtirokchilari o‘rtasida axborot almashinuvini tashkil qilish, raqamli vositalardan foydalanib o‘quv jarayonini rejalashtirish va amalga oshirish, shuningdek, o‘quvchilarning bilimlarini baholash va nazorat qilish uchun axborot texnologiyalariga asoslangan usullarni ishlab chiqish va qo‘llash.

Raqamli kompetentsiya kontseptsiyasini rivojlantirishga R. J. Krumsvik katta hissa qo‘shgan. Ta’lim tizimida u bu mahoratni asosiy sifatida belgilaydi. Uning fikricha, “raqamli kompetentsiya” tushunchasi umumiy ma’noga ega va o‘qituvchiga nisbatan keng qo‘llaniladi. Shu nuqtayi nazardan, raqamli kompetentsiya o‘qituvchining AKT sohasidagi mahoratini tavsiflaydi. Raqamli kompetentsiya - bu o‘qituvchining o‘z kasbiy faoliyatida AKTdan mustaqil va mas’uliyatli foydalanishga tayyorligidir.

O‘qituvchilarning asosiy raqamli ko‘nikmalarga erishishlari uchun raqamlilashtirish jarayonlarining o‘qitish strategiyasiga ta’siriga alohida e’tibor berish kerak, bunda asosiy e’tibor o‘qitish sifati tarkibiy qismlariga qaratilgan. Amaldagi raqamli texnologiyalar shaffof bo‘lishi kerak. Kasbiy kontekstda o‘qitishni kompyuterlashtirishning axloqiy masalalarini ham ko‘rib chiqish muhimdir .Pedagogning raqamli kompetentsiyasining rivojlanishi to‘rt bosqichdan o‘tadi: kirishish, moslashish, tushunish va innovatsiya. Birinchi ikki bosqichda hozirda foydalanilayotgan texnologiyalar hamda AKTdan foydalangan holda o‘qitish va rivojlantirish masalalariga e’tibor qaratilgan . Tushunish bosqichiga yetgandan so‘ng, AKT amaliy faoliyat bilan birlashtiriladi. O‘qituvchining raqamli kompetentsiyasini rivojlantirishning so‘nggi bosqichi o‘quv jarayoniga innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy etish va pedagogik ishlarni takomillashtirish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Shunday qilib, pedagogik raqamli kompetentsiya AKTdan foydalangan holda pedagogik va didaktik innovatsiyalarni ishlab chiqish sifatida tavsiflanadi. Raqamli kompetentsiya zamonaviy raqamli texnologiyalar orqali pedagogik faoliyatni takomillashtirish bilan bog‘liqdir.

Zamonaviy o‘qituvchining raqamli kompetentsiyasining asosiy belgilari:

AKT sohasida funksional savodxonlikning yuqori darajasi;

ta’lim faoliyatidagi kasbiy muammolarni hal qilish uchun AKT vositalaridan ishonchli va oqilona foydalanish;

AKTni ta’lim sifatini rivojlantirishga qaratilgan ta’limdagi yangi paradigmaning asosi sifatida tushunish.

Pedagogik raqamli kompetentsiya pedagogik xodimlarning axborotga ega bo‘lishi va raqamli texnologiyalardan foydalanishi, o‘quv materiallarini, o‘qitish usullarini professional va mas’uliyatli tarzda tanlashi, o‘quv jarayonini tartibga solish, o‘quv jarayonini dasturlash, fikr-mulohazalarni bildirish va hokazolarni amalga oshirishi mumkin bo‘lgan juda muhim ko‘nikma va qobiliyatlarini belgilaydi

Pedagogik raqamli kompetentsiya nafaqat eski g‘oyalarning yangi pedagogik usullarigina emas bakli yoshlarning tafakkurini o‘zgartira oladigan mutlaqo yangi pedagogik nazariyalardir. Innovatsiyalarning joriy etilishi o‘quvchilar tomonidan ma’lumotlarni o‘zlashtirishni yaxshilaydi va ularning bilim olishga qiziqishini oshiradi.

Pedagogik raqamli kompetentsiyaga ega bo‘lgan o‘qituvchi uchun faqatgina raqamli vositalar haqida tushunchalarni bilishi yetarli emas. Pedagogik faoliyatda AKTni didaktik mahorat va ta`lim jarayoni talablariga asoslangan holda undan foydalana olishi zarurdir. Bundan tashqari, u muntazam ravishda talabalar bilan muloqotda bo‘lishi, ularga maqsadlariga erishish yo‘lida yordam ko‘rsatishi kerak.

Tahlillar natijasida shunday xulosa qilish mumkin, ta’lim faoliyatining sifatini oshirishning asosiy zamonaviy yo‘nalishi o‘qituvchlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) qo‘llash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir. Bu nafaqat raqamli vositalardan foydalanishning

texnik jihatlarini o‘zlashtirishni, balki interaktiv ta’lim materiallarini yaratish, masofaviy ta’limni tashkil etish hamda AKTni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish orqali uning samaradorligi va foydalanish qulayligini oshirish bo‘yicha kompetensiyalarni rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi. O‘qituvchilarni zamonaviy ta’lim platformalari, tahliliy vositalar va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda, bu esa o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish va o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish imkonini beradi. Shunday qilib, AKTni ta’lim amaliyotiga tizimli ravishda joriy etish nafaqat o‘qituvchilarning kasbiy saviyasini oshirishga, balki zamonaviy dunyo talablariga javob beradigan innovatsion, moslashuvchan va inklyuziv ta’lim muhitini yaratishga ham yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ–637-sonli Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 22-yanvardagi “Raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish sohasi uchun professional kadrlar tayyorlash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori PQ–17-son.

3. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu / ed. by Y. Punie. — Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. — 92 p. — (JRC Science for Policy Report. EUR 28775 EN). — ISBN 978-92-79-73494-6. — DOI: 10.2760/159770

4. Эльбиева Л. Р., Джабраилова Л. Х., Уруджева Н. У. Структура и содержание цифровых компетенций педагога как этико-педагогическая проблема // Журнал прикладных исследований. – 2022. – № 7(1). – С. 66–71. – DOI: 10.47576/2712-7516_2022_7_1_66.

5. Ibrokhimova G. S. Formation of key competencies of a teacher as a condition for improving the quality of education // Development of Pedagogical Technologies in Modern Sciences: Proceedings of the International Scientific-Online Conference. – 2024. – Issue 3, Part 1. – DOI: 10.5281/zenodo.15420978.

SUN’IY INTELLEKT LEKSIK-SEMANTIK TIZIMIDA TEZAURUSNING O‘RNI

G.G‘.Po‘latova
Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
e-mail: **gpulatova2409@gmail.com**

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun’iy intellekt tizimlarida tezauruslarning leksik-semantik poydevor sifatida tutgan o‘rni tahlil qilingan. Avvalo, tezaurus tushunchasining retrospektiv shakllanishi, uning ontologiyalar bilan aloqasi va zamonaviy sun’iy intellekt texnologiyalaridagi roli yoritilgan. Tadqiqot davomida tezaurus tuzilmasining asosiy komponentlari – leksik birliklar, semantik aloqalar (sinonimiya, antonimiya, giponimiya, gradatsiya) va sinsetlar tizimi bosqichma-bosqich tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada AIga mos tezaurus qurishda ishonchli korpus tanlash, semantik bog‘lanishlarni aniqlash, ma’no konnotatsiyalarini to‘g‘ri modellashtirish va tezaurusni doimiy yangilab borish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, tezaurus, leksik-semantik tizim, sinonimiya, antonimiya, giponimiya, sinset, konnotatsiya, ranglar semantikasi.*

Abstract. This article explores the role of thesauri as a lexical-semantic foundation in artificial intelligence (AI) systems. It first outlines the historical development of the thesaurus concept, its connection with ontologies, and its application in modern AI technologies. The study examines the key components of thesaurus structure, including lexical units, semantic relations (such as synonymy, antonymy, hyponymy, and gradation), and the organization of synsets. The paper emphasizes the importance of selecting a reliable corpus, identifying semantic connections, modeling connotative meanings accurately, and regularly updating the thesaurus to suit AI needs.

Keywords: *artificial intelligence, thesaurus, lexical-semantic system, synonymy, antonymy, hyponymy, synset, connotation, color semantics.*

KIRISH. Bugungi kunda sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarining rivojlanishi tilshunoslik faniga yangi yondashuvlarni olib kirmoqda. Ayniqsa, leksik-semantik tizimlarda tezauruslardan foydalanish til birliklari o‘rtasidagi semantik munosabatlarni tizimlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Sinonimiya, antonimiya, giponimiya, graduatsiya kabi aloqalarning modellashtirilishi sun’iy intellekt asosidagi

dasturlarning semantik chuqurligini oshirishga xizmat qiladi va turli AI modellar (chatbotlar, tarjimonlar, ma’lumot izlovchilar) murakkab leksik ma’nolarni ajratishda aynan tezarusga asoslangan yondashuvlardan foydalanmoqda. Bu esa matn mazmunini tahlil qilish, kontekstda ma’no ajratish va ma’lumot izlash kabi vazifalarning samarali bajarilishini ta’minlaydi.

O‘zbek tilida ham sun’iy intellektga moslashtirilgan leksik resurslarni yaratish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib, milliy tilimizda kompyuterlashtirilgan semantik model – tezaurus asosida til birliklarini qayta ishlash, AI dasturlarini lokal sharoitga moslashtirish uchun zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Tezaurus tushunchasi ilk bor 1852-yilda P.M.Roget tomonidan so‘zlarni alifbo bo‘yicha emas, balki ularning ma’noga qarab guruhlashi asosida vujudga keldi [1]. Keyingi yillarda Mortimer Taube “Uniterm” modelini takomillashtirib, har bir leksik birlikka hujjat raqamini biriktirish orqali avtomatlashtirilgan tezaurus yaratdi [2]. 1960-70-yillarda V.Foskett va Curras [3] kabi tadqiqotchilar tezaurusda sinonimik, antonimik va iyerarxik bog‘lanishlar muhim o‘rin tutishi zarurligini ta’kidladilar. UNESCO ham tezaurusni ma’lum bir soha uchun giperonim-giponim munosabatlarini o‘z ichiga olgan dinamik lug‘at sifatida belgilagan [4].

Zamonaviy adabiyotlarda tezaurus va ontologiya tushunchalari o‘rtasidagi chegarani aniqlashga katta e’tibor qaratilgan. Ba’zi mualliflar tezaurusni soddalashtirilgan ontologiya sifatida ko‘radi va yirik semantik tarmoqlar (masalan, WordNet) yuz minglab atamalarni o‘zaro konseptual bog‘lab berishini ta’kidlaydi. Lancaster esa tezaurus rivojini ikki asosiy yo‘nalish – amaliy indekslashga urg‘u beruvchi AQSH modeli va faceted tasniflashga tayanuvchi Yevropa modeliga taqsimlaydi [2].

Yaqin yillarda ko‘p tilli semantik leksik bazalar (SLD) yaratishda tezaurus tamoyillari asosiy o‘rin tutmoqda. P.Ch.Barrios va hamkasblari WordNetning *data.adj, data.noun, index.adj va index.noun* fayllarini fonetik, vizual hamda audio resurslar bilan birlashtirgan holda, matn tahlili orqali leksik birliklarni avtomatik ajratish va tarjima bosqichlarni tadqiq qildi [5]. Bunday yondashuv semantik bazani doimiy yangilab turish va murakkab g‘oyalarni modellashtirishda tezaurus usullaridan unumli foydalanishni ta’minlaydi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR. Sun’iy intellekt tizimlarida tezaurus yaratish nafaqat til birliklarini saqlovchi resurs sifatida, balki semantik tahlilning tayanch asoslaridan biri sifatida qaralmoqda. Tezaurus tuzilmasi orqali tilning ichki bog‘lanishlarini – so‘zlar orasidagi *sinonimiya, antonimiya, giponimiya, holat va atribut* munosabatlarini aniqlash, ularni tizimli ravishda aks ettirish imkoniyati yuzaga keladi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, tezaurus yaratishda, birinchi navbatda, ishonchli leksik asosni tanlash muhimdir. Til korpusi, mavjud lug‘atlar yoki boshqa leksik manbalar asosida so‘z birliklarini to‘plash va ularni semantik belgilash zarur. Bu bosqichda lemmalashtirish (barcha so‘z shakllarini ularning asosiy leksik ko‘rinishiga keltirish) orqali ortiqcha takroriyliklar bartaraf qilinadi.

Keyingi muhim qadam bu so‘zlar o‘rtasidagi semantik aloqalarni aniqlashdir. Sinonimlar, antonimlar, sabab-natija bog‘lanishlari, graduatsion munosabatlar va boshqa semantik bog‘lanishlar tahlil qilinadi. Bunday aloqalarni avtomatik aniqlash uchun bugungi kunda turli statistik va neyrolingvistik modellar, jumladan, *word embedding va transformer* texnologiyalari keng qo‘llanilmoqda.

Barcha semantik bog‘liqliklar aniqlangach, ular “sinset”lar – ma’no jihatdan o‘xshash so‘zlar to‘plamiga birlashtiriladi. Har bir sinset aniq iyerarxiyaga ega bo‘lishi, boshqa sinsetlar bilan giperonimik (umumlashtiruvchi) va giponimik (xususiylashtiruvchi) munosabatda turgan bo‘lishi kerak. Tahlil natijalari shuni ko‘rstadiki, har bir so‘z turkumi uchun iyerarxik munosabatlar turlicha bo‘ladi. Masalan, ot leksik birliklari sinonim, antonim, meronim, xolonim, partonim kabi munosabatlarga kirishsa, sifat so‘z turkumi sinonim, antonim, graduatsiya, kollokatsiya kabi munosabatlar asosiga tayanadi. Bu iyerarxik tuzilmalarni to‘g‘ri joylashtirish tilni chuqur anglash va mashina tomonidan samarali tahlil qilish imkonini beradi.

AI uchun ko‘p tilli tezauruslarni yaratish ham bugunning asosiy masalalaridan biridir. Tezaurus xalqaro NLP loyihalarida ishlatilishi uchun u xalqaro modellarga – WordNet tipidagi lug‘atlarga bog‘lanishi zarur. Bunda har bir sinset boshqa til sinseti bilan semantik jihatdan muvofiqlashtiriladi. Bu jarayonda tarjima aniqligi, madaniy moslik va ma’no darajalariga alohida e’tibor qaratilishi lozim. Shuningdek, tezaurusni baholash va yangilab borish juda muhim masalalardan biridir. Baholash jarayonida sinsetlar o‘rtasidagi semantik aniqlik, strukturaviy izchillik va tarmoq ichidagi bog‘lanishlar sifati tahlil qilinadi.

Tezaurusdan foydalanilayotgan NLP modellari *(chatbot, tarjima tizimi, matn tahlilchilari va boshqalar)* asosida ularning samaradorligi ham baholanadi. Yangi paydo bo‘lgan so‘zlar, iboralar, kontekstlar asosida tezaurus doimiy ravishda yangilanib borilishi kerak. Masalan, rang nomlari hozirgi zamonaviy tilda nafaqat fizikaviy belgini, balki ma’naviy, psixologik va ijtimoiy tushunchalarni ham

bildiradi [6]. Bu esa ularning tezaurusdagi semantik rolini murakkablashtiradi. Masalan, *“qora”* sifat leksemasi o‘zbek tilida faqatgina to‘q rangni emas, balki salbiy konnotatsiyadagi *“qora niyat”, “qora kun”, “qora ishlar”* kabi iboralarda holat va baholovchi ma’no yuklaydi [7]. Shu bilan birga, zamonaviy kontekstdagi *“Black Friday”* iborasi esa iqtisodiy faoliyat va chegirmalar bilan bog‘langan ijobiy emotsiyani bildiradi. Bu misol semantik tezaurusda *graduatsiya, polisemiya va konnotativ* tarmoqlarning alohida qatlamda aks ettirilishini talab qiladi.

“Ko‘k” sifati ham o‘zbek tilida har doim ham oddiy rangni anglatmaydi. U an’anaviy konteksda muqaddaslik, osmoniylik, tangri timsoli bilan bog‘liq bo‘lsa [8], zamonaviy nutqda *“ko‘k ekran”* (media), *“ko‘k chiroq”* (signal), hatto ayrim kontekstlarda *“gender identifikatsiyasi”* bilan bog‘liq ma’nolarni anglatadi. Bu esa har bir sinsetga faqatgina denotativ ma’no emas, balki kontekstga bog‘langan konnotativ ko‘rinishlar ham kiritilishi zarurligini ko‘rsatadi. Shunday qilib, rang nomlarining semantik dinamikasi sun’iy intellekt asosidagi tezauruslarda ma’no ko‘chishi, uslubiy yuklama va diskursiv kontekstni inobatga olgan holda tuzilishini taqozo qiladi [9]. Bu misollar yuqorida bayon etilgan semantik aloqalarni modellashtirishda qanchalik chuqur va ko‘p qatlamli yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. Quyida “qora” leksemasining tezaurusinini tahlil etamiz: *(1-jadval)*

№	Ma’no yo‘nalishi	Sinonim	Antonim	Semantik munosabat	Kontekstli misol	Konnotatsiya
1	Rang (asosiy denotativ)	to‘q, siyohrang	oq	Holat, fizik belgisi	Qora kiyim kiygan yigit kirib keldi.	Neytral
2	Salbiy holat	qora kun, qora niyat	oq kun, pok niyat	Baholovchi, metafora	Hayotimdagi eng qora kun edi.	Salbiy
3	Jinoyat, sirli faoliyat	qora ish, jinoyatli	halol ish	Holat, aks ettiruvchi kontekst	U qora ishlar bilan shug‘ullanar edi.	Salbiy
4	Iqtisodiy (global)	Black market, qora bozor	qonuniy savdo	Domen (iqtisod), diskurs	Qora bozorda narxlar tez o‘zgaradi.	Neytral/ salbiy
5	Madaniy/emotsional	qora xotira, qora tarix	yorqin xotira	Tarixiy baholovchi, assotsiativ	U xalqimiz tarixidagi qora kun sifatida eslanadi.	Salbiy
6	Yangi konnotatsiya (media)	Black Friday	-	Tijorat diskursi, madaniy ko‘chish	Black Friday chegirmalari boshlandi.	Ijobiy/ neytral
7	Etnosemantik	qoramag‘iz, qora terili	oq yuzli	Antropologik, rang-tus asosida	Qoramag‘iz bola chaqaloq edi.	Neytral/ obyektiv

1-jadval. “Qora” leksemasi tezaurusi.

“Qora” leksemasi o‘zbek tilida keng ko‘lamli semantik maydonga ega bo‘lib, u nafaqat asosiy rang nomi, balki metaforik, stilistik, emotsional, konnotativ va konseptual jihatdan ham boy ifoda vositasi sanaladi. Uning bu kabi zamonaviy kengayish imkoniyatlarini hisobga olgan holda yaratilgan tezauruslar sun’iy intellekt tizimlarining o‘zbek tilida aniq va izchil ishlashini ta’minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Xulosa qilib aytganda, tezaurus yaratish – bu faqat so‘zlarni bir joyga jamlash emas, balki ularning ichki bog‘liqligini anglab, sun’iy intellekt uchun haqiqiy semantik poydevor qurish demakdir. Mavjud til uchun mukammal ishlab chiqilgan tezaurus tilning chuqur ma’no qatlamlariga kirib boradi va AI tizimlarining kontekstual, izchil va aniq javoblar berish qobiliyatini oshiradi. Ayniqsa, ko‘p tilli tezauruslar sun’iy intellektni milliy tillar asosida mahalliylashtirish, madaniy xususiyatlarni hisobga olish va avtomatik tarjima, chatbot, matn tahlili kabi texnologiyalarni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Demak, tezaurusni qo‘lda yaratish nafaqat lingvistik tadqiqot, balki sun’iy intellekt qurilishining ajralmas qismidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rojet P. Roget’s Thesaurus of English Words and Phrases. – London: Longman, 1852. – P.437.
2. Moreira A. et al. “Thesaurus” and “Ontology”: a study of the definitions found in the computer and information science literature by means of an analytical-synthetic method. Knowledge Organization. – 2004. Vol. 31. № 4. – P. 231-244. – DOI: 10.5771/0943-7444-2004-4-231
3. Curras E. Tesauros: linguagens terminologicas, trans. Antonio Felipe Correa da Costa. Bra silia: Instituto Braseleiro de Informacao em Cien cia e Tecnologia. 1995.
4. UNESCO. Guidelines for the establishment and development of monolingual thesauri. Paris. 1973. **https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000047393**
5. Barrios P., Monticolo D. et al. Using AI to Help in the Semantic Lexical Database to Evaluate Ideas. International Multi-Conference on: Organization of Knowledge and Advanced Technologies (OCTA). – 2020. – P.1-11. – DOI: 10.1109/OCTA49274.2020.9151857
6. Vargas-Elizondo C. The role of linguistics in artificial intelligence. Revista de Filologia y Linguistica de la Universidad de Costa Rica. – 2020. – Vol.46, № 1. – P. 1-15.
7. Пардаев З. Ўзбек тилида сифатларнинг семантик-услубий хусусиятлари. Фил.фил.ном.дисс. Самарқанд – 2004. – Б.5.
8. Israilova S. “Ko‘k” leksemasining semantikasi va tezaurusi. Monografiya. Toshkent – 2023. – B.112.
9. **https://www.nature.com/articles/s41599-024-02889-7 10**
10. uzcorpus.uz.

MINTAQADA INNOVATSION EKOTIZIMNI TASHKIL ETISH TAMOYILLARI

S.Sh.Ramazanov
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti magistri

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqada innovatsion ekotizimni tashkil etish zaruriyati, mavjud shart-sharoitlari va imkoniyatlari, o‘ziga xos afzalliklari va ularni amalga oshirish tamoyillari yoritib berilgan. Shuningdek, mintaqada innovatsion ekotizimni tashkil etish tamoyillarini joriy qilish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan.

Аннотация. В статье рассматриваются необходимость, существующие условия и возможности, конкретные преимущества и принципы создания инновационной экосистемы в регионе. Разработаны предложения по внедрению принципов организации инновационной экосистемы в регионе.

Abstract. This article discusses the need for, existing conditions and opportunities for, specific advantages and principles for implementing an innovative ecosystem in the region. Also, proposals are developed for the introduction of the principles for organizing an innovative ecosystem in the region.

Kalit so‘zlar. Mintaqa, ekotizim, innovatsion ekotizim, tamoyil, innovatsiya.
Ключевые слова: Регион, экосистема, инновационная экосистема, принцип, инновации.
Key words. Region, ecosystem, innovative ecosystem, principle, innovation.

So‘nggi yillarda ekotizim kontseptsiyasiga bo‘lgan qiziqishning oshishi raqamli texnologiyalar ta’sirida o‘zgaruvchan raqobat muhitining yangi shakllarini izlab topish bilan bog‘liq bo‘lmoqda. Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish ekotizim sharoitida amalga oshiriladi. Ekotizimning bugungi yangi yo‘nalishi innovatsion ekotizim bo‘lib hisoblanadi. Ya’ni, innovatsion ekotizim turli tashkilotlar, muassasalar, tadqiqot markazlari, bizneslar, davlat va nodavlat sektor ishtirokchilari o‘zaro hamkorlik qiladigan, yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni yaratish, joriy qilish va tarqatish uchun yetarli shart-sharoit yaratadigan integral muhitni o‘z ichiga oladi. Ular tarkibidagi innovatsion tizim mintaqa sharoitida rivojlanib boradi. Xususan, mintaqaviy innovatsion ekotizim tarmoqlarning o‘zaro ta’sirini rivojlantirish, hamkorlik va biznes jarayonlari va jamiyatning raqamli o‘zgarishi sharoitida innovatsiyalar va ochiq bilimlardan foydalanish natijasida shakllanadi [2, 881-900 b.]. Mintaqada mazkur ekotizimni tashkil etish iqtisodiy o‘sishning barqarorligi va raqobatbardoshlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Bu borada mintaqaviy innovatsion ekotizimni shakllantirish va rivojlantirish klassik innovatsiya nazariyasi, mintaqaviy rivojlanish kontseptsiyasi va boshqa yo‘nalishlarga asoslangan uslubiy yondashuvlarni o‘rganishni o‘z ichiga oladi [1, 119 b]. Ular orqali mintaqaviy iqtisodiy tizimlarni boshqarish

samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga erishiladi. Shu bilan aholi farovonligini ta’minlashga qaratilgan asosiy tamoyillar, usullar va maxsus yondashuvlardan samarali foydalaniladi.

Mintaqada innovatsion ekotizimni tashkil etish uchun strategiya aniq belgilab olinadi. Shunga asosan, innovatsion strategiyani amalga oshirishdan maqsad ilg‘or texnologiyalar asosida iqtisodiyotni texnologik modernizatsiya qilish, uning raqobatbardoshligini oshirishni ta’minlab berish va ilmiy salohiyatni barqaror iqtisodiy o‘sishning eng muhim resurslaridan biriga aylantirib bera oladigan samarali innovatsiya ekotizimini qaror toptirish hisoblanadi [3, 28 b].

Innovatsion ekotizim tarkibida ekotizim alohida tarmoq sifatida qabul qilinadi. Chunki, ekotizim gorizontal bog‘langan va mustaqil ishtirokchilarning jamoaviy ravishdagi yangiliklari tarqaladigan tarmoq muhitidan tarkib topadi. Ekotizimlar xususiyati ularning o‘z-o‘zini tashkil etish va rivojlantirish qobiliyati bilan belgilanadi. Innovatsion ekotizimning shakllanishi esa innovatsion tizimlarni boshqarish uchun xos bo‘lgan tashqi ta’sir orqali tartibga solishdan ichki o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmiga o‘tishni nazarda tutadi. Bu esa tashqi muhitga yaxshiroq moslashishga imkon berib, transformatsiyaga o‘tish shart-sharoitlarini keltirib chiqaradi.

Innovatsion ekotizim ochiq innovatsiyalar va ishtirokchilar gorizontal o‘zaro ta’siri sharoitida mahalliy hududda shakllanadi va so‘ngra esa undan tashqariga chiqadi. Ilmiy-texnik rivojlanishning hozirgi bosqichida mahalliy hudud va innovatsiyalarni amalga oshiruvchilar sifatida texnopark, universitet, biznes g‘oyalar inkubatori tanlab olinadi. Ammo, klasterni mintaqaviy ekotizimga aylantirish uchun gorizontal aloqalarning rivojlangan tarmoq muhiti zarur bo‘ladi. Ana shulardan kelib chiqib, mintaqada innovatsion ekotizimni tashkil etish tamoyillari quyidagi yo‘nalishlardan iborat bo‘ladi:

Birinchi tamoyil innovatsion ekotizimni shakllantirishda muhitning ochiqligi va hamkorlikka asoslanadi. Ya’ni, unga asosan, mintaqadagi tadbirkorlar, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va davlat idoralari o‘rtasida yaqin aloqalar o‘rnatilishi kerak. Bu esa texnologiyalar almashinuvi va innovatsiyalarni tez joriy etish imkonini beradi.

Ikkinchi tamoyil sifatida inson kapitalining rivojlanishi alohida o‘rin tutadi. Unga ko‘ra, innovatsion ekotizimning asosiy sub’ekti bo‘lgan malakali mutaxassislar tayyorlash, doimiy o‘qish va malaka oshirish mexanizmlarini joriy qilish zarur. Bunday tadbirlar innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish va yangi mahsulotlarni yaratishga xizmat qiladi.

Uchinchi tamoyil sifatida moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishi va investitsiyalar jalb etilishiga asoslanadi. Unga asosan, mintaqada innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun davlat grantlari, xususiy venchur kapitali va bank kreditlari kabi turli vositalar mavjud bo‘lishi lozim. Shunga ko‘ra, investitsiya muhiti qanchalik eng qulay va shaffof bo‘lsa, yangi startaplar va texnologiya loyihalari tez rivojlanadi.

To‘rtinchi tamoyil sifatida innovatsion ekotizimda zamonaviy infratuzilmaning mavjudligidir. Unga yuqori tezlikdagi internet tarmog‘i, zamonaviy laboratoriyalar, texnoparklar va akseleratorlar kiradi. Shunga muvofiq, mintaqadagi tadbirkorlar va olimlar uchun zarur shart-sharoitlar yaratilsagina ularning innovatsiya yaratish jarayonlari tezlashadi va samaradorligi yanada oshadi.

Shuningdek, mintaqada innovatsion ekotizimni tashkil etish tamoyillaridan foydalanishda huquqiy va regulyator tizimining takomillashtirilishi ham muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Bu borada intellektual mulkni himoya qilish, innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash uchun qulay qonunchilik bazasi va soliq imtiyozlari bo‘lishi zarur. Bu orqali tadbirlar yangi g‘oyalarning bozorga chiqishini yengillashtiradi va tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantiradi.

Shuningdek, mintaqada innovatsion ekotizimni tashkil etish tamoyillari turli yo‘nalishlardan iborat bo‘lishi lozim. Xususan, mazkur tamoyillar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- hamkorlik va sheriklik: Innovatsiyalarni rivojlantirish uchun turli tashkilotlar (universitetlar, ilmiy-tadqiqot institutlari, korxonalar, davlat organlari va boshqalar) o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;
- resurslar bilan ta’minlash: Innovatsion faoliyatni moliyaviy, moddiy-texnikaviy va inson resurslari bilan ta’minlash;
- qulay muhit yaratish: Innovatsion faoliyatni rag‘batlantiruvchi qonunchilik, infratuzilma va madaniyatni shakllantirish;
- bozorga yo‘naltirilganlik: Innovatsiyalarni bozor talablariga moslashtirish va ularni tijoratlashtirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;
- ta’lim va kadrlar tayyorlash: Innovatsion faoliyat uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash;

- axborot almashinuvi: Innovatsion faoliyat haqida axborotni tarqatish va tajriba almashish uchun platformalar yaratish;

- riskni boshqarish: Innovatsion loyihalar risklarini baholash va ularni kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish;

- barqaror rivojlanish: Innovatsion faoliyatning ekologik va ijtimoiy oqibatlarini hisobga olish.

Shular bilan birgalikda, innovatsion ekotizimlar tabiiy tizim sifatida qaraladi. Kishilar ular faoliyat ko‘rsatadigan tizimdan xabardor bo‘ladilar va ekotizim xizmatlari barqarorligini oshirishga asoslanadi. Shu bois, ushbu tamoyillar ekologik va ijtimoiy ekotizimlarga keng qo‘llaniladi. Boshqa tamoyillar esa hududlardagi tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlashga samarali hissa qo‘shadi. Shunday ekan, mavjud tamoyillardan foydalanish mintaqalardagi ijtimoiy muammolarning oldini olish uchun zarur bo‘lib, bu borada quyidagi tamoyillar qo‘llaniladi.

- xilma-xillik va ortiqchalikni oldini olish. Ekologik ekotizimning rivojlanishi bir nechta turlarni talab qilganidek, innovatsion ekotizim ham bir nechta qo‘llab-quvvatlash variantlari va bozorga imkon qadar ko‘proq rivojlanish yo‘llarni izlab topishni talab qiladi.

- ulanishni boshqarish. Ulanish resurslar, turlar yoki ijtimoiy guruhlarning ekologik va ijtimoiy landshaft bo‘ylab tarqalishi, ko‘chishi yoki o‘zaro ta’sir qilish usuli va darajasini aks ettiradi.

- sekin o‘zgaruvchilar va mulohazalarni boshqarish. Ekotizimlarni qurish ma’lum vaqt talab etadi. Bu qisqa muddatli tanlash bosqichlari va bozor daromadlari bilan belgilanadigan tijorat tizimlariga zid bo‘ladi. Bu holarda ekologik taqqoslashlar dengiz sathining ko‘tarilishi yoki tuproq tarkibiga nisbatan hosildorlikni o‘lchash kabilarga asoslanadi.

- murakkab adaptiv tizimlarni tushunish. Murakkab adaptiv tizim noaniqlik bilan tavsiflanadi. Ushbu noaniqlikka individual javoblar birlashib, tizimning o‘zgaruvchan muhitga moslashishi ta’minlanadi. Natijaga, muvaffaqiyat tasodifiy va oldindan aytib bo‘lmaydigan bo‘lishi mumkin.

- o‘rganish va tajribalarni rag‘batlantirish. Jismoniy shaxslarning shaxsiy ta’limidan tashqari moslashuvchan mintaqani hamjamiyat sifatida o‘rganish va tajriba o‘tkazishga qodir bo‘lish kerak. Bunda muvaffaqiyat kafolatlanmaydi va bir nuqtada muvaffaqiyatsizlik muqarrar bo‘lishi mumkin. Jamiyat sifatida o‘rganish, muvaffaqiyatsizlik yoki buzilish sodir bo‘lganda birgalikda sodir bo‘ladigan omillarga asoslanadi.

- ishtirokni kengaytirish. Ishtirok etish mintaqa imkoniyatlarini o‘rganishga imkon berib, unda ishtirokchilar uchun qiymat yaratiladi. Unda ishtirok etishdan kelib chiqadigan natijalarga egalik qilish qiymati hisobga olinadi. Shaxslar, tashkilotlar va jamoat guruhlari yangi g‘oyalarda ishtirok etganda shaffoflik yaxshilanadi, boshqaruv rag‘batlantiriladi, g‘oyalar va qadriyatlar rivojlanadi.

- markaziy boshqaruv tizimlarini targ‘ib qilish. Bu holat turli miqyosdagi bir nechta boshqaruv organlari faoliyatini anglatadi. Boshqaruv qarorlarni qabul qilishda kelishilgan yondashuv sifatida hujjatlar, shaffoflik va hisobot kabilarni aks ettiradi. Bu orqali boshqaruv organlari tomonidan oqilona qaror qabul qilinadi.

Mazkur tamoyillar orqali qaror qabul qilish, investorlar tomonidan bitimlar oqimini aniqlash, boshqarish yoki universitetlar dasturlarni ishlab chiqishlari va tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash samarali amalga oshiriladi. Undan asosiy maqsad mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga yordam berish orqali innovatsion ekotizimga barqarorlikni o‘rnatishdan iborat bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, mintaqada innovatsion ekotizimni tashkil etish kompleks va hamkorlikka asoslangan jarayon bo‘lib qaraladi. Uning samarali faoliyati uchun ochiqlik, inson kapitali, moliyalashtirish, infratuzilma va huquqiy muhit kabi tamoyillarga mukammal tarzda rioya etilishi kerak. Faqat shu tarzdagina innovatsiyalar rivojlanib, mintaqaviy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va barqaror o‘sishi ta’minlanadi. Bu borada mintaqadagi innovatsion ekotizimni tashkil etishning aniq tamoyillari mintaqaning o‘ziga xos sharoitlari, maqsadlari va ustuvor vazifalariga bog‘liq bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Нурдинов Б.Х. Основные принципы формирования и развития региональной инновационной экосистемы. // «Вестник ТГУПБП», выпуск 4 (101), 2024. - с. 119.

2. Янченко Е.В. Региональная инновационная экосистема: оценка эффективности функционирования в условиях цифровизации. // Вопросы инновационной экономики, 2023. Т.13, №2. - с. 881-900.

3. Қодиров А.М., Ахмедиева А.Т. Халқаро рақобат ўсиши шароитида миллий инновация экотизимларининг шаклланиш йўналишлари. // Илм-фан ва инновацион ривожланиш, 2020, №4. - 28 б.

BO‘LAJAK MAGISTRLARNI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK QO‘LLAB-QUVVATLASHNING KOMPLEKS TEXNOLOGIYASI

X.T.Shokirov
Namangan davlat texnika universiteti, PhD
hasanboyshokirov6@gmail.com +998939139525

Annotatsiya: Ushbu maqolada texnika oliy ta’lim muassasalarining muhandislik yo‘nalishlarida tahsil olayotgan yosh magistrlarni pedagogik-psixologik qo‘llab-quvvatlashning kompleks texnologiyasi inobatga olingan. Maqolani yozishdan maqsad, pedagog tomonidan tarbiyalanayotgan bo‘lajak magistrlar sohani chuqur o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ya’ni pedagogik tomondan tayyorlash hamda sohani yetuk vakili sifatida kamol topishi uchun psixologik o‘rganishlar olib borilgan.

Kalit so‘zlar: Magistr, pedagogic-psixologik, texnologiya, metod, qo‘llab-quvvatlash, takomillashtirish, rivojlanish, monitoring, tahlil, pedagogik strategiya, ta’lim.

Аннотация: В данной статье учтена комплексная технология педагогико-психологической поддержки молодых магистрантов, обучающихся по инженерным направлениям в технических высших учебных заведениях. Цель написания статьи заключается в повышении интереса будущих магистрантов к глубокому изучению своей специальности посредством педагогической подготовки, а также в проведении психологических исследований, способствующих их становлению как квалифицированных специалистов в своей области.

Ключевые слова: Магистр, педагогико-психологический, технология, метод, поддержка, совершенствование, развитие, мониторинг, анализ, педагогическая стратегия, образование.

Abstract: This article takes into account a comprehensive technology for pedagogical and psychological support of young master's students studying engineering disciplines at higher technical education institutions. The purpose of writing the article is to increase the interest of future master's students in deeply studying their field under the guidance of a teacher, that is, to ensure their pedagogical preparation and to conduct psychological studies aimed at their development into highly qualified specialists in their field.

Keywords: Master, pedagogical-psychological, technology, method, support, improvement, development, monitoring, analysis, pedagogical strategy, education.

KIRISH. Mustaqillikka erishilgandan keyin nafaqat ijtimoiy-siyosiy hayotda, balki ta’lim-tarbiya jarayonida ham jiddiy o‘zgarishlar amalga oshirila boshlandi. Endilikda ta’lim amaliyotida tarbiyalanuvchilarga bilimlarni tayyor holda berishdan voz kechilib, shakllanib kelayotgan yosh avlodning ma’naviyatini sog‘lomlashtirish, ularni ijrochilikdan erkin ishtirokchi darajasiga ko‘tarishning yangi-yangi yo‘llari qidirilmoqda. O‘qitishning asosiy ashyolari bo‘lmish konsepsiya, ta’lim standartlari, dastur, darslik, metodik hamda o‘quv qo‘llanmalarni yangilash va takomillashtirish bilan birga talash kerak bo‘lgan sohaga qiziqishiga psixologik sog‘lom, aqlan barkamol, o‘z fikri hamda qarashlariga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash ustuvorlik kasb etmoqda.

Shu bilan birgalikda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF 60-son bilan “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning taraqqiyot strategiyasida to‘rtinchi ustuvor yo‘nalishi “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish”ning “46-maqsad: Oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta’lim sifatini oshirish”da aniq vazifalar belgilab berilgan.

Shu bois, magistrantlarning nafaqat kasbiy, balki psixologik va ijtimoiy jihatdan tayyor holatda shakllanishi pedagogik-psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

ASOSIY QISM

1. Kompleks texnologiyaning mazmuni

Pedagogik-psixologik qo‘llab-quvvatlashning kompleks texnologiyasi bu — magistrant shaxsining har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan tizimli, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan, integrallashgan pedagogik va psixologik chora-tadbirlar majmuidir. U quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

Diagnostik bosqich – magistrantlarning psixologik holati, ehtiyojlari va shaxsiy rivojlanish xususiyatlarini aniqlash;

Profilaktik chora-tadbirlar – stress, akademik yuklama, ijtimoiy moslashuv muammolarini oldini olishga qaratilgan mashg‘ulotlar;

Konsultativ xizmatlar – individual va guruhiy psixologik maslahatlar orqali muammolarni hal etish;

Treninglar va seminarlar – kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish, liderlik va o‘zini anglash bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar;

Monitoring va tahlil – qo‘llab-quvvatlash samaradorligini baholash va doimiy takomillashtirib borish.

2. Magistrlar bilan ishlashda psixologik yondashuv

Bo‘lajak magistrlar odatda yuqori intellektual yuklama, mustaqil ilmiy faoliyat va ijtimoiy-psixologik bosim ostida bo‘lishadi. Shu sababli ularga quyidagi psixologik yondashuvlar samarali hisoblanadi:

Kognitiv-behavioral yondashuv – salbiy fikrlashdan ijobiy ong shakllanishiga ko‘maklashish;

Humanistik yondashuv – shaxsni markazga qo‘ygan holda o‘z-o‘zini anglashga yordam berish;

Ko‘p bosqichli adaptatsion dasturlar – akademik va ijtimoiy muhitga tezroq moslashuvni ta’minlash.

3. Pedagogik strategiyalar

Pedagogik qo‘llab-quvvatlash quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Mentorlik tizimi – tajribali professor-o‘qituvchilar tomonidan magistrantlarga doimiy maslahat va yo‘llanmalar berish;

Reflektiv mashg‘ulotlar – magistrantlarning o‘z fikrlari va tajribalarini tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

Interaktiv o‘qitish metodlari – muammoli vaziyatlar, keys-stadiy va rolli o‘yinlar orqali kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish.

Xulosa. **Magistrantlarni** pedagogik-psixologik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks yondashuvlar ularning shaxsiy barqarorligini, ijtimoiy moslashuvchanligini va kasbiy yetukligini oshiradi. Ushbu texnologiya ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradi. Kelajakda bu yo‘nalishda ilmiy-amaliy tadqiqotlar, innovatsion metodlar va raqamli texnologiyalar asosida yondashuvlar yanada takomillashtirilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi. Lex.uz

2. Oliy ta’limda psixologik xizmatni rivojlantirish konsepsiyasi. – 2023.

3. Бондаревская Е.В. Педагогическая поддержка развития личности: Монография. – Ростов н/Д: Изд-во Рост. пед. ун-та, 2001. – 312 с.

4. Yunusova M.M. Innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida bakalavriat bosqichida talabalarning intellektual salohiyatini shakllantirish. – Toshkent: Fan, 2022. – 152 b.

5. Ergashev Sh.U. Raqamli muhitda muhandislik ta’limi: pedagogik yondashuvlar. – Namangan: Navoiy nashriyoti, 2021. – 128 b.

6. Downes S. Learning Networks and Connective Knowledge. – National Research Council Canada, 2007. – URL: https://www.downes.ca (дата обращениуа: 10.04.2025).

7. Xakimova N.E. Talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning metodologik asoslari // Pedagogika va psixologiya. – 2023. – №1(99). – B. 56–60.

8. Шокиров Х.Т., Абдуазизова В.В. Формирование интеллектуалного потенциала студентов инженерных специалностей в условиуах цифровой педагогики // “Xalqaro tajriba: Oliy ta’limni transformatsiya sharoitida zamonaviy muhandislik yo‘nalishida intellektual qobiliyatli kadrlar tayyorlash istiqbollari” mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari to‘plami. – Namangan, 29-aprel 2025 y. – B. 752-757.

9. Shokirov X.T., Abduazizova V.V. Modern Methods of Pedagogical Potential Development of Researchers in Technical Universities // “International Journal of Pedagogics”. Article doi :- **https://doi.org/10.37547/ijp/Volume05** Issue06-79. June 2025. – B. 293-296.

“RAQAMLI O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASINING IQTISODIY TAHLILI

I.N.Ismanov
Farg‘ona davlat texnika universiteti, iqtisod fanlari doktori, professor
D.I.Mo‘ydinjonova
Farg‘ona davlat texnika universiteti, ishlab chiqarishda boshqaruv fakulteti, raqamli iqtisodiyot yo‘nalishi talabasi **durdonaxon.studies@gmail.com**

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasining asosiy yo‘nalishlari iqtisodiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi — raqamli transformatsiya jarayonlarining O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti tarkibiy tuzilmasiga, yalpi ichki mahsulot (YaIM) o‘sish sur’atlariga, mehnat bozori dinamikasiga, soliq va byudjet daromadlariga, shuningdek, biznes muhitiga ko‘rsatayotgan real va prognozli ta’sirini aniqlashdan iborat.

Kalit so‘zlar: raqamli xizmatlar, elektron savdo, sun’iy intellekt, blockchain, FinTech, kiberxavfsizlik, axborot texnologiyalari, raqamli infratuzilma, elektron hukumat, raqamli savodxonlik, iqtisodiy samaradorlik, raqamli innovatsiyalar.

Аннотация: В данной научной статье анализируются основные направления стратегии "Цифровой Узбекистан - 2030" с экономической точки зрения. Основная цель статьи - определить реальное и прогнозируемое влияние процессов цифровой трансформации на структуру экономики Республики Узбекистан, темпы роста валового внутреннего продукта (ВВП), динамику рынка труда, налоговые и бюджетные доходы, а также бизнес-среду.

Ключевые слова: цифровые услуги, электронная торговля, искусственный интеллект, блокчейн, FinTech, кибербезопасность, информационные технологии, цифровая инфраструктура, электронное правительство, цифровая грамотность, экономическая эффективность, цифровые инновации.

Abstract: This scientific article analyzes the main directions of the "Digital Uzbekistan - 2030" strategy from an economic perspective. The primary aim of the article is to determine the actual and projected impacts of digital transformation processes on the structural composition of the economy of the Republic of Uzbekistan, the growth rates of gross domestic product (GDP), labor market dynamics, tax and budget revenues, as well as the business environment.

Keywords: digital services, e-commerce, artificial intelligence, blockchain, FinTech, cybersecurity, information technology, digital infrastructure, e-government, digital literacy, economic efficiency, digital innovations.

KIRISH. So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar taraqqiyoti global iqtisodiy muhitda tub o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. An’anaviy iqtisodiy modellarning o‘rnini innovatsion yechimlar egallamoqda, bu esa davlatlar oldiga yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda murakkab muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Raqamli iqtisodiyot — bu nafaqat texnologik yondashuv, balki iqtisodiyotni boshqarish, ishlab chiqarish samaradorligi, mehnat bozori va moliyaviy sektor faoliyatining tub mohiyatini qayta ko‘rib chiqishga undovchi tizimli jarayondir. O‘zbekiston ham bu global transformatsiyadan chetda qolmagan holda, raqamli rivojlanishni milliy strategik ustuvorlik darajasiga ko‘tardi. Ayniqsa, davlat xizmatlarini elektronlashtirish, iqtisodiyotning raqamli segmentini kengaytirish va raqamli infratuzilmani shakllantirishga qaratilgan islohotlar bu boradagi siyosiy irodani aks ettiradi. Raqamli transformatsiya iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasiga ta’sir ko‘rsatar ekan, u samaradorlik, shaffoflik va raqobatbardoshlik mezonlarini qayta belgilamoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — O‘zbekistonning raqamli transformatsiya strategiyasini iqtisodiy nuqtai nazardan tahlil qilish, mavjud imkoniyatlar va cheklovlarni aniqlash, shuningdek, iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni aniqlashtirishdir.

METODOLOGIYA. Mazkur tadqiqotda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasining iqtisodiy ta’sirini o‘rganish uchun tizimli tahlil va solishtirma iqtisodiy tahlil metodlariga tayangan holda yondashildi. Tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlar, davlat organlarining rasmiy statistik ma’lumotlari, hamda xalqaro tashkilotlar (Jahon banki, BMT, OECD) tomonidan e’lon qilingan ochiq ma’lumotlar tahlil qilindi. Birinchidan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasining mazmuni va bosqichlari tematik kontent tahlili orqali o‘rganildi. Ikkinchidan, raqamli iqtisodiyotning milliy iqtisodiyotga ko‘rsatayotgan bevosita va bilvosita ta’sirini aniqlash uchun indikatorlar asosida solishtirma tahlil amalga oshirildi. Bunda

iqtisodiyotning real sektori, xizmatlar sohasi va moliya tizimiga oid asosiy o‘zgarishlar kuzatildi. Shuningdek, xalqaro tajribani o‘rganish maqsadida ilg‘or davlatlarning (Estoniya, Janubiy Koreya, Singapur) raqamli transformatsiya siyosati va natijalari kontseptual tahlil qilindi. Kiberxavfsizlik masalasi esa strategik xavf tahlili (threat assessment) asosida baholandi, bunda mavjud tahdidlar va ularni bartaraf etish choralariga doir siyosiy va institutsional mexanizmlar ko‘rib chiqildi. Ushbu metodologik yondashuv tadqiqotda raqamli iqtisodiyotning milliy makrodinamikaga ta’sirini kompleks baholash imkonini berdi, shuningdek, mavjud muammolarni aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga zamin yaratdi.

NATIJALAR. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish borasidagi strategik yondashuvlar, xususan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturining izchil amalga oshirilishi, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasida muayyan o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Avvalo, raqamli xizmatlar sektori izchil o‘sib, umumiy iqtisodiy faoliyatda o‘z ulushini kengaytirmoqda, bu esa xizmatlar sohasi ichida axborot texnologiyalarining roli ortayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, elektron savdo maydonlari sonining oshishi va ularning faoliyat ko‘lami kengayishi natijasida kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun yangi bozor imkoniyatlari yuzaga chiqmoqda. Davlat xizmatlarining elektron shaklga o‘tkazilishi ma’muriy xarajatlarni kamaytirish, shaffoflikni oshirish va fuqarolar uchun iqtisodiy muhitni qulaylashtirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, yagona interaktiv xizmatlar portali orqali taqdim etilayotgan funksiyalar sonining oshib borayotgani bu boradagi islohotlarning amaliy samarasini ko‘rsatadi.

Shuningdek, raqamli infratuzilmaning hududlar kesimida kengaytirilayotgani, internet tarmog‘i va mobil aloqa texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida, respublika ichida texnologik tengsizlik darajasi sezilarli darajada kamaymoqda. Bu o‘zgarishlar nafaqat texnik imkoniyatlarni yaxshilamoqda, balki iqtisodiy faollikning regionlar bo‘yicha yanada barqaror taqsimlanishiga ham xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, strategik transformatsiyaning ajralmas qismi sifatida kiberxavfsizlik masalalariga davlat darajasida e’tibor kuchaytirilib, tegishli qonunchilik bazasi va institutsional mexanizmlar shakllantirilmoqda. Kiberxavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha qabul qilingan qarorlar va tuzilmalar mavjud raqamli tizimlarning barqaror ishlashini kafolatlashga xizmat qilmoqda. Ushbu yondashuvlar O‘zbekistonning xalqaro reytinglardagi o‘rnini ham yaxshilab, raqamli hukumat, xizmatlar sifati va texnologik moslashuvchanlik bo‘yicha ijobiy ko‘rsatkichlarga olib kelmoqda.

MUHOKAMA VA TAHLIL. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va kengayishi iqtisodiy jarayonlarning mazmun va shaklini o‘zgartirib, davlatning iqtisodiy boshqaruvdagi roli va uslublariga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, xizmatlar sektorida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish, resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy tranzaksiyalarni soddalashtirish mumkin bo‘layotgani kuzatilmoqda. Elektron xizmatlarning kengayishi davlat va fuqaro o‘rtasidagi muloqotni yengillashtirib, ma’lumot almashinuvini tezlashtirmoqda, bu esa mehnat unumdorligiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Biroq bu jarayon bir tomonlama ijobiy natijalar bilan chegaralanmaydi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi yangi turdagi iqtisodiy risklarni yuzaga keltirmoqda. Jumladan, raqamli tengsizlik, texnologik asoratlar, raqamli savodxonlik darajasining notekisligi va eng muhimi, kiberxavfsizlik tahdidlarining kuchayishi iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Yangi texnologiyalarga tayangan iqtisodiy muhitda, ayniqsa moliyaviy xizmatlar va davlat boshqaruvi tizimlarida kiberxavfsizlik darajasi etarli bo‘lmasa, bu ishonchning pasayishiga, tizimlardagi uzilishlarga va bevosita iqtisodiy yo‘qotishlarga olib keladi. Shuning uchun raqamli transformatsiyani iqtisodiy o‘sishning omili sifatida baholashda texnologik infratuzilmaning mavjudligi bilan bir qatorda, u bilan bog‘liq xavfsizlik siyosati va muhandislik yechimlari darajasi ham inobatga olinishi zarur.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyotning muvaffaqiyatli joriy etilishi ko‘p jihatdan davlat siyosatining uzviyligi, institutsional barqarorlik, malakali kadrlar tayyorlash, hamda fuqarolarning texnologik innovatsiyalarga tayyorligi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston tajribasi raqamli islohotlarning dastlabki bosqichida ijobiy natijalarga erishganini ko‘rsatadi, biroq bu yutuqlarni izchil va muvozanatli tarzda rivojlantirish uchun mavjud siyosatni texnologik xavfsizlik, malaka oshirish, raqamli inklyuzivlik va regulyatorlik mexanizmlari bilan mustahkamlash talab etiladi.

XULOSA. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va chuqurlashtirish yo‘nalishida olib borilayotgan siyosat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning sifat jihatdan yangi bosqichiga o‘tish uchun muhim zamin yaratmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan raqamli transformatsiya iqtisodiyotning asosiy segmentlariga, xususan xizmatlar sohasi, davlat boshqaruvi, va tadbirkorlik muhitiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli

xizmatlar ulushining oshishi, elektron savdoning kengayishi, ma’lumotlar infratuzilmasining mustahkamlanishi iqtisodiy faoliyatning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Biroq bu jarayon bilan birga kelayotgan tizimli muammolar — kiberxavfsizlik, raqamli tengsizlik, texnologik savodxonlik darajasining turlicha bo‘lishi — hali to‘liq yechim topmagan murakkab masalalar sifatida qolmoqda. Shuning uchun raqamli iqtisodiyot modelining barqaror va inklyuziv rivoji nafaqat texnik salohiyatga, balki institutsional mustahkamlik, strategik xavfsizlik yondashuvlari, va inson kapitalining sifatli shakllanishiga ham bevosita bog‘liq. Umuman olganda, O‘zbekiston raqamli transformatsiyaning dastlabki bosqichida muhim yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, ushbu islohotlarni izchil davom ettirish uchun iqtisodiy siyosatni texnologik xavfsizlik, ijtimoiy tenglik va innovatsion investitsiyalar bilan muvofiqlashtirish zarur. Faqatgina kompleks yondashuv va ilmiy asoslangan qarorlar orqali raqamli iqtisodiyot iqtisodiy o‘sishning strategik drayveriga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi. *Raqamli infratuzilma holati va istiqbollari*. Toshkent, ATKRV, 2023.

2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. *Cybercrime and the Economy: Emerging Threats and Strategic Responses*. Nyu-York, UNODC, 2022.

3. Davlat statistika qo‘mitasi. *O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari (yillik hisobot)*. Toshkent, DSQ, 2024.

4. Elektron hukumat loyihalari markazi. *My.gov.uz portali faoliyati bo‘yicha yillik hisobot*. Toshkent, EHLM, 2024.

5. Jahon banki. *World Development Report 2021: Data for Better Lives*. Vashington, World Bank Group, 2021.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. *PF-6079-sonli Farmon: “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida*. Toshkent, Prezident nashriyoti, 2020.

7. United Nations Department of Economic and Social Affairs. *United Nations E-Government Survey 2024: Government in the Digital Age*. Nyu-York, UN DESA, 2024.

METAFORA MAJOZIY MA’NONING BIR TURI SIFATIDA

S.M.Muminov
Farg‘ona davlat universiteti professori filologiya fanlari doktori,
M.Nishonboyeva
Farg‘ona davlat universiteti,

Annotatsiya: maqolada narsa-buyum, voqea va hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro o‘xshashlikka asoslangan ma'no ko‘chishi tufayli yuzaga keladigan metafora hodisasi, o‘zbek va ingliz tillarida qo‘llaniladigan metaforalarning o‘zaro o‘xshash va farqli tomonlari qiyosiy tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: til, nutq, narsa, buyum, o‘xshashlik, ko‘chim, metafora, ta’sirchanlik.

Annotation: The article draws on a comparative analysis of the metaphorical phenomenon, which occurs due to the mutual similarity between things or events. It focuses on comparision and contrasting usage of metaphors in Uzbek and English.

Keywords: language, speech, thing, object, similarity, metaphor, affectivity.

Аннотация: Статья опирается на сравнительный анализ метафорического феномена, который возникает из-за взаимного сходства между вещами или событиями. Она фокусируется на сравнении и контрастном использовании метафор в узбекском и английском языках.

Ключевые слова: язык, речь, вещь, предмет, подобие, метафора, аффективность.

Metafora (yunoncha metaphor – ko‘chirish) bir predmetning nomini unga aloqador bo‘lgan yoki bo‘lmagan boshqa bir narsa va hodisaga xos xususiyatlar asosida ma’no ko‘chishi hisoblanadi.

Kundalik hayotda metafora eng ko‘p murajaat qilinadigan ko‘chim turlaridan biridir. Suxbatdoshga turli voqea-hodisalar haqida ma’lumot berilayotganda, yoki fikr almashinilayotganda, jumlalar ta’sirli, obrazli va bo‘yoqdor bo‘lishi uchun aynan metaforadan foydalaniladi. Ushbu ko‘chim turi nafaqat og‘zaki nutqda balki, badiiy adabiyotda ham muhim o‘rin tutadi. Yozuvchi va shoirlar badiiy matn yozishda metafora orqali turli obyektlarni, narsa va hodisalarni, asar qahramonlarini g‘ayrioddiy usullar orqali

tasvirlaydilar, yoki konkretlashtirilgan, individuallashtirilgan,obrazli holda ko‘rsata oladilar. Manbalarda keltirilishicha, metafora antik davrda asosan ritorika sohasida ishlatilgan. Sababi, u nutqda ta’chirchanlik va bunyodkorlik vazifasini bajaradi.

Ilk bor metaforani ko‘chim turi sifatida qo‘llash qadimgi yunon davrlariga borib taqaladi. “Métafo” so‘zining o‘zi esa qadimgi yunon tilidan "majoziy ma’no" deb tarjima qilingan. Aristotel o‘z asarlarida qo‘llagan metaforalarni boshqa ko‘chim turlari: shaxslashtirish, sinekdoxa, oddiy taqqoslash yoki giperbola va assimilyatsiyadan farqlamagan. Va umumiy metafora deb atagan. Chunki, uning fikriga ko‘ra, barcha ko‘chim turlarida bir predmet ma’nosi ikkinchisiga ko‘chadi deb qaragan. Ularning vazifasi va qanday maqsadda ishlatilishiga ko‘ra, keyinchalik turli bo‘limlarga ajratib chiqildi.

XX asrning mashhur Boshqird adabiyotshunosi K.A. Axmedyanov o‘zining mashhur “Adabiyot nazariyasi” asarida obrazlarni qiyoslayotganda“...bunday qiyoslash ikki predmetning yashirin o‘xshashligiga asoslangan metafora deyiladi”, deb yozadi. Masalan, qozonning qulog‘i, tandirning og‘zi kabi metaforalarda quloq va og‘iz shakl o‘xshashligi, joylashuv o‘rniga ko‘ra ma’no ko‘chgani ushbu nazariyaga misol bo‘ladi.

Metaforalar turli kontekstlarda turli funktsiyalarni bajarishi mumkin. Masalan, she’riy matnlarda metaforlar estetik vazifani bajaradi. Metafora orqali matn chiroyli, badiiy, obrazli yaratiladi.

The widest prairies have electric fences,
For though old cattle know they must not stray
Young steers are always scenting purer water
Not here but anywhere. Beyond the wires
Katta dashtlarda ham elektr to‘siqlar bor,
Qari mollar yo‘lda adashmasligin bilsa ham
Yosh mollar doim toza suvni hidlar
Har yerda, xatto simdan tashqari bo‘lsa ham
Leads them to blunder up against the wires
Whose muscle-shredding violence gives no quarter.
Young steers become old cattle from that day,
Electric limits to their widest senses.
Mushaklari kuchlilar zo‘ravonlik qilib
Simlarga qarshi qo‘pollik qilar
Shundan keyin elektr cheklov
Ularni buzoqdan molga aylantirib qo‘yar.

Yuqorida Filipp Larkinga tegishli she’r kengaygan metaforaga misol bo‘luvchi, butun bir she’rning mazmuni metafora asosida yaratilganligiga yaqqol namunadir. Ya’ni, Katta dasht- hayot, elektron to‘siqlar- hayot qonun-qoidalari, qari molar- Yoshi katta, tajribali insonlar, yosh mollar, buzoq- yosh va tajribasizlar. She’rdagi obrazlar ferma va hayvonlar asosida qurilgan ammo ma’no butun bir insoniyatga tegishli. Ya’ni elektron to‘siqlar bilan qurshalgan keng dashtda(qonun muhofazasidagi bu dunyoda) qari mollar(tajribali insonlar) hech qachon chegarani buzishmaydi. Ammo yosh va tajribasizlar esa hayotiy chegaralarini bilishmaydi. Bu orqali yoshlar tajribali insonlardan o‘rnak olmog‘i kerak ekanligi ko‘rsatilmoqda.

Ilmiy matnlarda esa metaforalar kognitiv ma’noga ega bo‘ladi. Bu ma’lum, allaqachon tasvirlangan ob’ektlar haqidagi bilimlar orqali yangi tadqiqot ob’ektini tasvirlash, tushunishga yordam beradi.

Masalan, virusning inson hujayrasiga kirishi, bitta o‘rgimchakning to‘rga tushgan qushni o‘zlashtirish kabi juda nozir jarayon. Ushbu jumlada virusning hujayra ichiga kirish jarayonining murakkabligi va ehtoyotkorligini ifodalovchi metafora sifatida ishlatilgan.

Ushbu ilmiy kashfiyot yangi bilimlarni ochish uchun kalit bo‘lib xizmat qiladi va ilm-fan eshiklarini ochadi. Ushbu misolda “kalit” va “eshik” so‘zlari metafora hisoblanadi. Ular yangi bilimlarni kashf qilishni va ilmiy yutuqlarni yangiliklarga yo‘l ochuvchi kuch sifatida tasvirlamoqda.

Kundalik hayotda esa yanada bo‘yoqdor va ta’sirli, ba’zan fikrimizni bo‘rttirish uchun metaforalardan foydalaniladi. Masalan, bir insonning o‘lgudek ochman yoki oshqozonim karnay sunray chalmoqda” degan jumlasidan uning qorni juda ochligini bo‘rttitib ifodalayotganligini ko‘rish mumkin. “Yuzingizdan nur taralmoqda” yoki “yuzingizdan baxt ufirib turibdi” jumalalari “xursandmisiz?” yoki inson qalban mehribon va iliq ekanligini bo‘yoqdorroq tasvirlashga xizmat qilmoqda.

Ikki buyum yoki hodisa solishtirilayotgan paytda birining alomatlari yoki sifatlari boshqasiga ko‘chadi. Masalan, ingliz tilida mashxur iboralardan, Anvar, you are a lion. (Anvar shersan, sher). You are my angel (farishtamsiz) kabi birikmalarda so‘zlovchining nutqi yanada boy va tinglovchi uchun ta’sirli

ekanligini bilish mumkin. O‘zbek oilalarida farzandini erkalash uchun “To‘ychog‘im, arslonim, qo‘chqorim” kabi metaforlardan foydalaniladi. Quyidagi keltirilgan misolda, “Kecha tunda yomg‘ir chelaklab quydi”, esa juda ko‘p yomg‘ir yog‘di deyish o‘rniga chelaklab quyilgani ta’kidlanmoqda.

Metafora adabiy asarlarda ko‘p qo‘llanadi. Masalan, aksariyat ertaklarda “sher yurak qahramon”, “hayotim chirog‘i” kabi metaforalar ishlatilgan. Bu metaforalarning asosida esa xuddi o‘sha solishtirish: insonlarga hayvonlargagina xos bo‘lgan jasorat yoki jonsiz buyumning vazifasi butun bir inson uchun ishlatilmoqda va bu sifat metaforalar matnni bo‘yoqdor, ta’sirli ko‘rsatish va aniqlashitirish vazifalarini bajarmoqda.

Metafora har qanday matnni hissiyotli hamda boyroq qilishga zamin yaratuvchi uslubdir. O‘xshashlik asosida bir ob’ekt yoki hodisani boshqasi bilan yashirin taqqoslanar ekan, konteksdan ma’noni tushunib olish mumkin. Masalan, oy mahalliy aholi tilida "samoviy pishloq" deb ham yuritiladi, sababi pishloq sarg‘ish va kraterga o‘xshash teshiklar bilan qoplangan, dumaloq. Shu kabi jumlalarda metafora orqali bir ob’ekt yoki harakat xususiyatlarini boshqasiga o‘tkazish va bu iborani mustahkamlashga va uni yanada yorqinroq qilishga yordam beradi.

Barcha ko‘chim turlari kabi metaforalarning ham o‘ziga xos vazifalari mavjud. Agar ushbu metafora bo‘lmaganda, bildirilayotgan fikr ta’sirsiz, bo‘yoqsiz yoki oddiy bo‘lib qolgan bo‘lar edi. Aristotelning so‘zlariga ko‘ra, "uslubni olijanob va ulug‘vor qiladigan" metaforalardir. Uning qayd etishicha, yozuvchi uchun “ayniqsa metaforalarda mohir bo‘lish muhim, chunki buning o‘zini boshqalardan o‘zlashtirib bo‘lmaydi va bu qobiliyat iste’dod belgisidir”.

Aristotel shunday deydi – “Oddiy so‘zlardan biz faqatgina yangi ma’noni tushunishimiz mumkin. Metafora esa uni to‘liq tasirchan qilib tinglovchiga yetkazish yoki anglash uchun muhim ahamiyat kasb etadi”

Metafora, Aristotelning fikricha:

1) nutqimizni jonlatira oladi;

2) narsa va hodisalarga ko‘rinish hamda ravshanlik beradi;

3) bir iboraning hissiy mazmunini boshqasiga o‘tkazish orqali his-tuyg‘ularni boshqaradi;

4) tegishli nomi bo‘lmagan narsalarni ifodalaydi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, metafora nutqimizga rang berish, yangitdan yaratish ba’zan jonlantirish xususiyatiga ega ekan.

Narsa, hodisa, harakat hamda belgiga tegishli bo‘lgan so‘zning o‘zaro o‘xshashligi bo‘lgan yoki umuman bir-biriga zid tushunchalarga ega bo‘lgan boshqa tushunchalar uchun qo‘llanilishi, ya’ni keng ma’nodagi o‘xshashligi metafora hisoblanadi. Bunday holatda asos konkret, yoki abstrakt bo‘lishi mumkin.

Metafora tuzilishiga ko‘ra sodda va kengaygan turlarga, ishlatilish usuliga ko‘ra badiiy hamda lingvistik metaforalarga bo‘linadi. Tilshunoslikda ko‘p qo‘llaniladigan lingvistik metaforalarning ekspressiv xususiyati mavjud bo‘lmaganlarni atamalarda, ekspressivlik va ta’sirchanligi mavjud bo‘lgan metaforalarni badiiy matnlarda uchratamiz.

Metaforani chuqur o‘rganishga katta e’tibor o‘tgan asrlardan qaratilgan. Shu soha bo‘yicha ish olib borayotgan tilshunos olimlar metafora ko‘chim turiga ko‘plab ta’riflar berishda Arastu qarashlariga to‘xtaladilar. Ammo haligacha ushbu sohada turli qarashlar va chalkashliklar mavjud. Sababi metaforaning mohiyatiga bo‘lgan qarashlarlar bir xil bo‘lsada, o‘xsatishning metaforadagi o‘rni va mustaqil ko‘rinishlari borasidagi fikrlar ajralib ketadi.

Metafora qisqargan o‘xshatishdir. (A. Potebnya). Ya’ni o‘xshatishga xos bo‘lgan *kabi, xuddi, aynan, o‘xshamoq* kabi ko‘makchilar tushurilganda, metafora yuzaga keladi. Anora gul kabi go‘zal va nafis edi(o‘xshatish) // U go‘zal va nafis edi(metafora).

Demak, metafora hamda o‘xshatishga nisbatan qarash ikki xildir:

1. Metafora – qisqargan o‘xshatish, ya’ni ularning orasida farq faqat tashqi shakllanishida, so‘z qurilishidadir.

2. Metafora va o‘xshatish o‘zaro mazmuniy (ichki) shakllanuv jihatidan farq qiladi.

Sh. Rahmatullaev metafora ko‘chimining boshqa ko‘chim turlari bilan sinkretik ishlata olishi misollar bilan isbotlab bera olgan: metaforik-funksionallik, metaforik-metonimiya, metaforik-sinekdoxa va hokazo. *Samolyotning qanoti* metaforik birikmasida qush qanotiga nafaqat vazifa jihatidan, balki shaklan ham o‘xshaydi. Shuning uchun bu kabi holatlarni funksional-metaforik ko‘chirish desa bo‘ladi.

O‘tgan davr mobaynida, o‘zbek tilshunosligida komponent-semik tahlilga nisbatan e’tibor rivojlana boshlagach, metafora tabiatini o‘rganishga ana shu tahlil usullarini tadbiq etishga intilishlar yuzaga kela boshladi. Shu xil yo‘nalish namoyondalaridan biri Z. Tohirov metaforani leksema

sememasining pragmatik semasi sifatida baholaydi. Shuningdek, metafora va o‘xshatish orasidagi farqni (uslubda) shakldagina ko‘radi.

Metaforik munosabat deganda ma’lum bir sharoitda voqea va hodisani tasvirlashda ikki predmet va hodisa o‘rtasidagi umumiylikka asoslanadi va ularning umumiy xususiyatlari bir-biriga o‘tadi.

Masalan, Taniq ingliz yozuvchisi Uvilyam Shekispir ijodidan “All the world’s a stage, and all the men and women merely players. They have their exits and their entrances; And one man in his time plays many parts.” “Butun dunyo bu teatr. Barcha erkagu- ayol unda o‘z ro‘li o‘ynaydi. Har kimning o‘z kirishi va chiqishi bor. Va bir inson unda ko‘plab ro‘llarni o‘ynashi mumkin.” Jumlasi ham metaforaga yaqqol misol bo‘la oladi.

Ushbu nutqda ishlatilgan metafora obrazlilik va o`ta kuchli emotsiya ifodasi vazifasida ishlatilib, tinglovchi onggida jonli tasavvur yaratmoqda.

Kundalik faoliyatimizda juda ko‘p ishlatiladigan yovvoyi qushlar, uy parranda nomlari ham metaforik xususiyatga ega. Ba’zan qushlarga xos bo‘lgan salbiy harakatlar tuyg‘ular metaforik ma’noni ifodalashga xizmat qiladi. Natijada, so‘zning ma`nosida ekspressiv-emotsionalik xususiyati kuchayadi hamda badiiy ta`sirchanlik oshib boradi.

Masalan: - *Chiq. - Qayum kameraga ko`z solib, iziga qaytdi. - Yerda yotibsan. Senga ko`rpacha solib bergan, edim... E, qurib ket! Sig`sa ichingda! O`zing tuppa-tuzuk yigitsan!... E! Xamrohing qarg`a bo`lsa, yeganing axlat bo`ladi...*

Ushbu matnda qo‘llanilgan *qarg`a* so‘zida salbiy ma`no ifodasi mavjud bo`lib, hamrohining yomon ekanligiga ishora qilingan. Demak, bu o`rinda qahramonning tinglovchiga munosabatining salbiyligi ushbu metafora orqali ochilgan. Ayni paytda, so`zlovchining bu holatdan achinayotganligi, hamrohining o`ziga ham yomonlik olib kelayotganligini ta`kidlash ishorasi bor.

Metaforani o‘rganishda asosiy ma’no so‘zning asosiy leksik ma’nosiga beriladi. Lekin bu yerda ham ba’zi muammolar mavjud, chunki bu holatda biz predmetning pozitsiyasi, qo‘llanilishi va boshqa ismning umumiy ishi bilan birikishi uchun metafora sifatida ism haqida gapiramiz. Lekin metaforaning xarakterli vazifasi uning predmet shaklida ifodalanishini talab qiladi. «Metaforaning predikat pozitsiyasi bilan bog‘liq ekanligi haqidagi tezis har bir obrazli predikatning metafora ekanligini bildirmaydi. Predlogdagi metafora morfologik va leksik-semantik omillar tufayli cheklanishlarga duch keladi». Metaforaning sintaktik dizayni masalasi ham hal qilinmagan, uning murakkabligi bir xil til birligida bir necha troplarni birlashtirish imkoniyati bilan murakkablashadi. Demak, metafora giperbolik, metonimik bo‘lishi mumkin, shuningdek, bu o‘rinda metaforik qiyoslar, metaforik perifrazalar ham mavjud. Shuni ta’kidlash lozimki, metafora tilda haqiqiy semantik va sintaktik birlik sifatida mavjud. Shuning uchun quyida metafora belgilari haqida to‘xtalish mumkin:

Metafora – bu so‘zning qayta talqin qilingan ma’nosida ko‘rsatilgan narsa bilan o‘xshashlikka asoslangan obyektning xususiyatlari haqidagi bayondir. Bu yerda gipotetik spekulyatsiya va subyektiv tamoyil voqelik nuqtai nazaridan ustun turadi. Shu sababli metafora ongning malaka-baholash faoliyatida shunchalik keng qo‘llaniladi. Metafora texnikasi bilvosita nominatsiyaning asosiy usuli hisoblanadi. Bu tartiblilik reinterpretatsiyalangan ma’noda bilvosita nomlarni hosil qilishda ma’lumot nomining ma’nosi va detonatsiyasiga nisbatan ahamiyatli bo‘lgan xususiyatlar yangilanishini taqozo etadi. Bu ular uchun tegishli emas, yangi xususiyatlar uchun shart-sharoitlar yaratadi va shu tufayli obyekt xususiyatlari aralashish uchun yangi ma’no keskin rivojlantirish uchun allaqachon oldingi qiymati ko‘rsatilgan va mos yozuvlar nomi yangi tayinlangan «tomondan» tegishli xususiyatlarini birlashtiradi.

Til metaforasi obyektiv assotsiativ aloqalarga asoslangan bo‘lib, ular ma’lum bir til guruhining kundalik va amaliy tajribasi yoki uning madaniy va tarixiy bilimlari haqida ma’lumot beruvchi konnotativ xususiyatlarda aks etadi. Masalan: «dengiz» – suvning o‘lchab bo‘lmaydigan kengligidir, shuning uchun o‘lchab bo‘lmaydigan miqdorni dengiz deb atash mumkin. Metaforik ko‘chirishning sababi tilda ishlab chiqilgan hodisalarni strukturalashning mantiqiy va sintaktik sxemalari yoki dunyo strukturasida haqiqiy obyektlarning – ularning mavzuiy mantiqiy bog‘lanishlari bo‘lishi mumkin bo‘lgan ma’ruzachilarning til tajribasini aks ettiradi.

Til metaforasi bilan nutq metaforasi o‘rtasidagi asosiy farq, asosan, birinchisining odatdagi ishlatilishida so‘zga hamroh bo‘lgan ma’nolar asosida yaratilganligidir. Bundan tashqari, ular til tajribasini tashkil etadigan tilni ishlatish orqali ma’lum bir so‘zning semantik salohiyatiga beriladi. Bu tajriba o‘zlik va farqlari hamda muntazam moslik qoidalari bilan shakllangan leksik ma’nolar tizimi doirasidan tashqarida qoladi. Til metaforasi juda oson o‘chiriladi va u «oddiy» deb uning yorqin tasavvurini yo‘qotadi va uni motivatsiya tufayli ma’ruzachilarni osonlik bilan eslaydigan bo‘ladi. U formal predmetlar yoki

obyektlarning xususiyatlarini qayta talqin qilish tufayli chekli tarzda sintaktik strukturalar doirasiga mos keladi, yangi semantik va sintaktik xususiyatlarga ega bo‘ladi. Subyektiv omilning roli (lingvistik metaforalar uchun) obyektivlik bilan qarama-qarshi bo‘lib, ismlarning lingvistik ma’nosi va murojaatini, so‘zlarning kombinatsiyasini boshqaradigan semantik qoidalarni, qisman foydalanish normalarini, ularning xavfsizlik funksiyasini qayta ko‘rib chiqadi. Metaforaning lingvistik tabiati nutq zanjirida til shaklining reinterpretatsiyalangan ma’nosining reprezentativligini o‘rnatishda namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, Kundalik hayotimizda eng ko‘p qo‘llaydigan va dominantligi bilan boshqa ko‘chim turlaridan ajralib turuvchi ma’no ko‘chim turi bu metafora hisoblanadi. Sababi aynan metafora suhbat jarayonini qiziqarli va ta’sirli qilishga yoki bildirilayotgan fikrning obrazli va bo‘yoqdor bo‘lishiga xizmat qiladi. Metafora turli vaziyatlarda xilma-xil funksiya bajara olishi bilan so‘zlovchi va tinglovchiga bir muncha qulaylik yarata oladi. Ya’ni agar metafora bo‘lmasa, inson xotirasi yetmaydigan darajada yangi so‘zlar ishlab chiqarilaverar edi. Badiiy adabiyotda metaforlar estetik vazifani bajarsa, ilmiy matnlarda metaforalar kognitiv ma’noga ega bo‘ladi. Og‘zaki nutqda nafaqat komunikativlik vazifasini bajarsa, folklorshunoslikda so‘z o‘yini vazifasida ham qo‘llanilishi haqida ma’lumotlar keltirildi. Bundan ko‘rinib turibdiki, metaforaning tilshunoslikning obyekti sifatida qaralar ekan, uni badiiy matnlarda tashqari ilmiy, rasmiy, publitsistik matnlar misolida ham o‘rganilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Axmedyanov K.A. Teoriya adabiyoti. – Ufa, 1985 yil. 126-bet
2. **https://poemanalysis.com/best-poems**
3. **https://optolov.ru/uz/the-ceiling-in-the-bathroom/metafora-ee-raznovidnosti-i-izobrazitelno-vyrazitelnye-sredstva.html**
4. **https://optolov.ru/uz/the-ceiling-in-the-bathroom/metafora-ee-raznovidnosti-i-izobrazitelno-vyrazitelnye-sredstva.html**
5. [Вежбицкая. А. Сравнение-градатция-метафора // Теория метафоры.- Москва,1990.-С. 145.]
6. Турсунов У., Муҳторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т.: Ўзбекистон, 1992. – 399 б.
7. Тоҳиров З. Метафора лексема-сememасининг прагматик семаси. // Ўзбек тили ва адабиѐти. – 1983. - № 1. – Б. 74-77;
8. Тоҳиров З. Метафора сememаси прагматик семаси // Ўзбек тили ва адабиѐти. – 1984. № 4. – Б. 63-67.
9. (Sh.Xolmirzayev."Og`ir tosh ko`chsa", 134-bet).
10. Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений: Оценка. Событие. Факт. –М.: 1988. –С. 122.
11. Кубрякова Е.С. Части речи в ономасиологическом освещении. –М.: Наука, 1978. – С. 89.
12. Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений: Оценка. Событие. Факт. –М.: Наука, 1988. – С. 89.
13. Jose Ortega-y-Gasset. Las dos grandes metaforas. – En: Ortega-y-Gasset J. Pbras Completas. Tomo 2., Madrid, 1966. –P. 387-400.

UO‘K: 37.035:355.01

YOSHLARNI VATANPARVARLIK, MILLIY AN’ANA VA QADRIYATLARIMIZGA HURMAT RUHIDA TARBIYALASHNING IJTIMOIY-FALSAFIY JIHATLARI

O‘.M.Xamrakulov
Farg‘ona davlat universiteti
Email: **hamrakulovutlirzon@gmail.com** ORCID: 0009-0009-3582-8012

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy an’ana va qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy jihatlari tahlil etiladi. Shuningdek, milliy identifikatsiya, an’anaviy tarbiya tizimi va globallashuv ta’sirida yoshlarda Vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish mexanizmlari ochib beriladi.

Аннотация: В статье анализируются социально-философские аспекты воспитания молодёжи в духе преданности Родине, уважения к национальным традициям и ценностям.

Раскрываются механизмы формирования чувства патриотизма у молодёжи под влиянием национальной идентичности, традиционной системы образования и глобализации.

Annotation: The article analyzes the socio-philosophical aspects of educating young people in the spirit of devotion to the Motherland, respect for national traditions and values. It reveals the mechanisms of forming a sense of patriotism in young people under the influence of national identity, the traditional education system and globalization.

Kalit so‘zlar: Vatanparvarlik, milliy an’analar, qadriyatlar, yoshlar, falsafa, identifikatsiya, globallashuv, tarbiya.

Ключевые слова: Патриотизм, национальные традиции, ценности, молодёжь, философия, идентичность, глобализация, образование.

Key words: Patriotism, national traditions, values, youth, philosophy, identity, globalization, education.

Kirish. Bugungi kunda jahon miqyosida kechayotgan o‘zgarishlar, axborotlashgan jamiyat va global madaniyat ta’siri yoshlar ongiga bekishmagan holda ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sharoitda milliy an’ana va qadriyatlarni asrab-avaylash, Vatanga muhabbat ruhida yosh avlodni tarbiyalash – nafaqat oila va ta’lim muassasalarining, balki butun jamiyatning muhim vazifasi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarimiz va tarixiy an’analarimizni hisobga olmasdan turib, haqiqiy ma’naviyatli insonni shakllantirib bo‘lmaydi” (Mirziyoyev, 2021).

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Milliy an’ana va qadriyatlarning Vatanparvarlik tarbiyasidagi o‘rni. Milliy an’analar – avlodlar davomiyligi va milliy o‘zlikning asosiy poydevoridir. Bular qatorida ota-onani hurmat qilish, mehnatsevarlik, o‘z jamiyatiga fidoiylik, ota-bobolar xotirasini ulug‘lash kabi qadriyatlar yoshlarda Vatanparvarlik hissini uyg‘otadi. Jamiyatda milliy qadriyatlar o‘quv-tarbiya jarayoni orqali uzatiladi. Masalan, xalq og‘zaki ijodi, tarixiy qahramonlar haqidagi dostonlar, folklor orqali vatanga muhabbat va sadoqat hissi uqtiriladi. Har bir xalqning milliy an’analari va qadriyatlari uning ma’naviy asosini tashkil etadi. O‘zbekistonda mustaqillikdan so‘ng ma’naviy tiklanish jarayonida milliy qadriyatlarga bo‘lgan munosabat yanada chuqurlashdi. Bu jarayon, ayniqsa, yoshlarda Vatanga sadoqat, tarixiy xotira va fidoyilikni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy an’analarning tarbiyaviy funksiyasi. Milliy an’analar — bu avloddan avlodga o‘tib kelayotgan urf-odatlar, marosimlar, ma’naviy va moddiy madaniyat ko‘rinishlaridir. Ular tarbiyaning nozik mexanizmlaridan biri sifatida inson qalbida milliy faxr, Vatanga muhabbat, katta avlodga hurmat tuyg‘usini shakllantiradi. Masalan, “Mehmonchilik”, “Kattalarga ehtirom”, “Navro‘z bayrami” kabi an’analar orqali yoshlar bag‘rikenglik, ahillik va sadoqatni o‘rganadilar.

Qadriyatlar va Vatanparvarlik munosabati. Milliy qadriyatlar — xalqning hayotiy falsafasi, ma’naviy qadamlari, e’tiqodi va urf-odatlari asosida shakllangan barqaror qadrlar tizimidir. Ushbu qadriyatlar tarbiya orqali yoshlarda fidoyilik, tarixiy xotiraga hurmat, Vatan himoyasiga tayyorlik kabi tuyg‘ularni uyg‘otadi. Jumladan, Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy kabi buyuk ajdodlar hayoti va merosi bu borada muhim ma’naviy manba hisoblanadi.

Kunda milliy tarbiya va davlat siyosati. O‘zbekiston Respublikasida yoshlar tarbiyasiga, xususan, Vatanparvarlik ruhini singdirishga qaratilgan davlat siyosati izchil olib borilmoqda. “Yangi O‘zbekiston — yangi tarbiya” shiori asosida ta’lim muassasalarida milliy g‘oya, ma’naviyat va ma’rifat darslari orqali Vatanga sadoqat ruhi targ‘ib etilmoqda. Bunda milliy an’ana va qadriyatlar asosiy tarbiyaviy resurs sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xulosa. Milliy an’ana va qadriyatlar — yosh avlodni ma’nan boyitish, ularda Vatanga muhabbat va fidoyilik ruhini shakllantirishda beqiyos ahamiyatga egadir. Bu qadriyatlarni tarbiya jarayoniga maqsadli va tizimli ravishda integratsiya qilish Vatanparvarlik tarbiyasining samaradorligini oshiradi.

Ijtimoiy-falsafiy yondashuvda tarbiya tushunchasi. Falsafa nuqtai nazaridan tarbiya – insonning ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy shakllanish jarayonidir. Bu jarayonda shaxs nafaqat bilimga, balki ijtimoiy burchni his qilish, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayanadi. Ijtimoiy-falsafiy tahlillar yoshlarning Vatanga munosabatida quyidagi jihatlarni ochib beradi:

Ongida milliy o‘zlikni anglash; “Milliy o‘zlik” nima? Milliy o‘zlik — bu insonning o‘z millatiga xos bo‘lgan tarix, madaniyat, til, urf-odatlar, an’analar va qadriyatlar bilan ich-ichidan bog‘liqligini his etishi, shu narsalar orqali o‘zini boshqalardan farqli deb anglashi.

“Ongida anglash” nima degani? Bu — insonning falsafiy, intellektual va ma’naviy darajada u yoki bu tushunchani to‘liq idrok etishi, uning mazmunini shaxsiy qadriyat sifatida qabul qilishini anglatadi.

Birlashgan ma’noda: “Ongida milliy o‘zlikni anglash”

Bu ibora insonning: o‘zini o‘z millatining ajralmas bir qismi sifatida ko‘ra olishi, milliy merosga ehtirom va mas’uliyat tuyg‘usi bilan yondashishi, milliy qadriyatlarni ongli ravishda qabul qilishi va saqlashi, global dunyoda ham o‘zining milliy asoslarini yo‘qotmasligi, kabi holatlarni ifoda qiladi. Ahamiyati. “Ongida milliy o‘zlikni anglash” insonning: vatanparvar bo‘lishi, ma’naviy barkamollikka erishishi, madaniy merosni saqlash va rivojlantirishga hissa qo‘shishi, yosh avlodga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishi uchun juda muhim.

Vatanni ma’naviy boylik sifatida his qilish;

Vatanni ma’naviy qadriyat sifatida anglash:

Vatan — moddiy va ma’naviy birlik.

Ma’naviy boylik sifatida Vatan obrazining xalq ongidagi ifodasi.

Milliy o‘zlik, urf-odatlar, tarixiy xotiralar, din va madaniyatning Vatan ma’naviyatidagi o‘rni.

Ma’naviy tarbiyaning Vatanga bo‘lgan muhabbatdagi ahamiyati.

Oila, ta’lim tizimi, ommaviy axborot vositalari orqali vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish.

Yoshlarda vatanga sadoqat, iftixor va mas’uliyat tuyg‘usini tarbiyalashda ma’naviy merosdan foydalanish.

Ma’naviy boylik sifatida Vatanni his qilishning amaliy ko‘rinishlari:

Fidoyilik, faol fuqarolik pozitsiyasi, jamiyatda faol ishtirok etish.

Ijodiy va ma’rifiy faoliyat orqali Vatanga sadoqatni namoyon etish.

Mahalliy an’analar va milliy ramzlarni qadrlash.

Vatanni ma’naviy boylik sifatida his qilish — milliy o‘zlikni asrash va mustahkamlashning muhim sharti.

Bunday his etish tarbiya orqali shakllanadi va jamiyatning ma’naviy yuksalishiga xizmat qiladi. Tavsiyalar: ta’lim dasturlariga milliy va ma’naviy qadriyatlarga oid mavzularni yanada kengroq joriy etish. Tarixiy xotira va an’analarga tayanish.

Globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni saqlash zarurati. Globallashuv jarayoni, ayniqsa internet va ommaviy axborot vositalari orqali turli madaniy ta’sirlarni kuchaytirmoqda. Bunday vaziyatda yoshlarning milliy qadriyatlariga bo‘lgan munosabatini shakllantirishda uyg‘un yondashuv talab etiladi. Bunda:

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi; Globallashuv jarayonida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish jamiyat taraqqiyotining muhim omiliga aylanmoqda. Ta’lim tizimi bu jarayonda asosiy vosita hisoblanadi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar mohiyati:

Milliy qadriyatlar: milliy an’ana, til, urf-odat, tarixiy meros.

Umuminsoniy qadriyatlar: tinchlik, inson huquqlari, adolat, bag‘rikenglik, mehnatsevarlik.

Ularning bir-biriga zid emasligi, aksincha, uyg‘unligi jamiyatda barqarorlikni ta’minlaydi.

Ta’lim orqali qadriyatlarni singdirish:

Ma’naviy-axloqiy tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash.

Darsliklar va o‘quv materiallarida milliy qahramonlar, xalq og‘zaki ijodi, tarixiy shaxslar haqida ma’lumotlarning ko‘proq qamrab olinishi.

Milliy mazmundagi materiallar ulushini oshirish zarurati:

O‘quvchilarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish.

Butunjahon standartlarini hisobga olgan holda, milliylik asosida yetuk shaxs tarbiyalash.

Davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlariga milliy mazmunni chuqurroq singdirish.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi — ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi. Bu uyg‘unlikni ta’lim tizimi orqali ta’minlash, ayniqsa, milliy mazmundagi materiallar ulushini oshirish orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Ta’lim tizimida milliy mazmundagi materiallar ulushini oshirish; Yoshlar ishtirokida milliy bayramlar, tadbirlar o‘tkazish orqali hissiy tarbiyani kuchaytirish muhimdir.

Yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda ta’lim va tarbiyaning o‘rni

Ta’lim tizimi – yosh avlodni tarbiyalashdagi eng samarali mexanizmlardan biri. Maktab va oliy ta’lim muassasalaridagi ma’naviyat soatlari, “Milliy g‘oya”, “O‘zbek xalqi tarixi” kabi fanlar orqali yoshlarga milliy qadriyatlar uqtiriladi.

Shuningdek, maktabdan tashqari faoliyatlarda, xususan, “Yoshlar ittifoqi”, “Vatanparvar” tashkilotlari orqali vatanparvarlik tarbiyasi amalga oshiriladi.

Globallashuv va axborot xuruji avj olgan bugungi zamonda har bir davlat o‘zining milliy identifikatsiyasini mustahkamlashga intilmoqda. Ayniqsa, yosh avlod ongida milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya tizimini shakllantirish milliy xavfsizlik masalasi darajasiga ko‘tarilmoqda. Ta’lim tizimi bu borada asosiy mexanizm hisoblanadi. Unda milliy mazmunga ega materiallar ulushining yuqori bo‘lishi, mazmuniy jihatdan boy va zamonaviy talablarga mos bo‘lishi muhimdir.

Milliy mazmunli materiallarning ta’limdagi o‘rni.

Milliy mazmunli materiallar — bu xalqning tarixi, tili, adabiyoti, san’ati, urf-odatlari, an’analari va milliy ideallariga oid axborotni o‘z ichiga olgan ta’limiy resurslardir. Bunday materiallar:

Ta’limning tarbiyaviy funksiyasini kuchaytiradi;

Shaxsning milliy o‘zligini anglashini ta’minlaydi;

Yoshlarda Vatanga sadoqat, milliy iftixor va mas’uliyat tuyg‘usini yuzaga keltiradi.

Ta’lim dasturlarida milliy mazmunni tahlil qilish. Hozirda O‘zbekiston ta’lim tizimida milliy mazmunli materiallar ayrim fanlar (Tarix, Adabiyot, Mehnat ta’limi)da nisbatan ko‘proq qamrab olingan. Biroq, tabiiy fanlar, matematika, fizika va informatika kabi yo‘nalishlarda milliy voqeliklar, zamonaviy mahalliy olimlar yutuqlari haqidagi ma’lumotlar kam o‘rin olgan.

Milliy mazmunni oshirishning zarurligi

Milliy mazmunli materiallar ulushini oshirish:

Yosh avlodning ma’naviy immunitetini kuchaytiradi;

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtiradi;

Ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi;

Mahalliy mualliflar va tadqiqotchilar uchun ilmiy-ijodiy maydon yaratadi.

Milliy mazmunni ta’limga integratsiya qilish yo‘llari

Darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarini qayta ishlash: Ularda mahalliy voqelik, milliy qahramonlar, urf-odatlar, tarixiy misollar keng qamrab olinishi kerak.

Interaktiv o‘quv materiallari yaratish: Milliy mavzular asosida elektron platformalarda multimediyali resurslar tayyorlash.

O‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malaka oshirish: Ularni milliy qadriyatlar asosida ta’lim berish metodlariga o‘rgatish.

O‘quv jarayoniga mahalliy mutaxassislar, yozuvchilar, tarixchilarni jalb etish.

Mahalliy misollar va amaliyotlar. Masalan, Farg‘ona vodiysidagi maktablarda folklor, hunarmandchilik, milliy bayramlar va an’analar haqidagi ma’lumotlar alohida darslar va tadbirlarda yoritila boshlangan. Bu jarayonda mahalliy hikmatlar, afsona va rivoyatlar ham faol qo‘llanilmoqda. Bunday yutuqlarni respublika miqyosida umumlashtirish zarur.

NATIJA VA MUHOKAMA. Muammolar va to‘siqlar.

Mavjud darsliklarda milliy mazmunning kamligi;

Ta’lim tizimida standartlashgan (bir xil) yondashuvlarning ustunligi;

Malakali kadrlar yetishmasligi;

Elektron resurslar yetarlicha emasligi.

Milliy mazmunli ta’lim materiallarini ko‘paytirish — bu zamonaviy ta’lim tizimining faqat talabiga emas, balki milliy taraqqiyotning uzviy qismi sifatida ham qaralishi lozim. Ushbu maqsadda:

Barcha fanlar bo‘yicha darsliklarda milliy komponentni oshirish;

Milliy materiallarni o‘z ichiga olgan multimediya platformalarini yaratish;

Ta’lim muassasalarida "Milliy o‘zlik" yoki "Milliy ma’naviyat" degan alohida fanni joriy etish;

Ilmiy tadqiqotlarda milliy mazmundagi tahlillarni kuchaytirish lozim.

Yoshlarda Vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini shakllantirish – barqaror jamiyatning kafolatidir. Ushbu vazifa faqat ta’lim muassasalari bilan cheklanmay, oila, jamoatchilik va davlat siyosati darajasidagi hamkorlikni talab etadi. Ijtimoiy-falsafiy yondashuv esa bu jarayonni chuqur tahlil qilish, to‘g‘ri strategiyalarni belgilash imkonini beradi.

Xulosa: Yoshlarni vatanparvarlik va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash – bu nafaqat ta’lim muassasalari, balki jamiyatning har bir a’zosi zimmasidagi muqaddas burchdir. Ushbu jarayonda oilaning roli, ta’lim tizimidagi mazmunli islohotlar, ommaviy axborot vositalari va madaniyatning ta’siri, shuningdek, falsafiy yondashuvlar muhim o‘rin tutadi. Tarixiy merosimiz, milliy urf-odatlarimiz, diniy-ma’naviy qadriyatlarimizga hurmatni targ‘ib etish orqali biz komil, ongli va Vatanga sadoqatli avlodni

voyaga yetkazamiz. Bu esa, o‘z navbatida, barqaror va kuchli jamiyat poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев, Ш. М. (2021). Янги Ўзбекистон – янги ҳаёт, янги тараққиёт. Тошкент: Ўзбекистон.
2. Алишер Навоий номидаги ТДПУ (2022). Ўзбек миллий қадриятлари ва ёшлар тарбияси. Тошкент: Фан.
3. Karimov, I. A. (1997). Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat.
4. Saidov, A. X. (2019). Globallashuv sharoitida milliy qadriyatlar. Toshkent: Adabiyot.
5. UNESCO. (2020). Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. Paris: UNESCO Publishing.
6. Karimov, I. A. (1998). Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat.
7. Qodirov, A. (2022). Milliy g‘oya va zamonaviylik. O‘zbekistonda ta’lim va taraqqiyot, 3(2), 45–50.
8. Sharipova, M. (2021). Ta’limda milliy qadriyatlarning ahamiyati. Pedagogik izlanishlar, 4(1), 23–27.
9. Rasulov, F. (2023). Milliy o‘zlikni shakllantirishda tarix fanining roli. Ijtimoiy fanlar, 2(5), 67–71.
10. Xamrakulov O‘.M. (2025).Yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘ularini yuksaltirishning konseptual jihatlari, 95-100.
11. Xamrakulov O‘.M. (2025). Yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘ularini yuksaltirishda pragmatik yondoshuvlar, 110-115.
12. Xamrakulov O‘.M. (2025). Yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg‘ularini yuksaltirishda milliy qadriyatlarni o‘rni, 53-57.
13. Khamrakulov Utkirjon. (2025) Makhmudovich**Social And Philosophical Factors In Enhancing The Sense Of Patriotism Among Youth**, 1-8.
14. Khamrakulov Utkirjon. (2025) **Specific Features of Instilling Patriotic Feelings in Youth**, 443-447.
15. Xamrakulov O‘.M. (2025). **Yoshlarda Vatanparvarlik Tuyg‘Usini Yuksaltirishning Ijtimoiy-Falsafiy Omillari**, 263-264.
16. Хамракулов У. М. (2025). Социально-философские факторы укрепления чувства патриотизма у молодежи, 122-129.

UDK: 37.022 (37.02)

TIBBIYOT TA’LIMI TALABALARINING REFLEKSIV MADANIYAT KO‘NIKMALARINI BAHOLASH METODOLOGIYASI

N.O.Xaydarova
Farg‘ona davlat universiteti, tayanch doktorant
khaydarova_nigora@bk.com, T: +998 90 230 09 15, ORCID ID: 0009-0009-5789-3296

Annotatsiya: Ushbu tezisda tibbiy ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning refleksiv madaniyat ko‘nikmalarini baholash metodologiyasini ishlab chiqish va ilmiy asoslashga alohida e’tibor qaratilgan. Refleksiv madaniyatni shakllantirish kelajak tibbiyot mutaxassislarining kasbiy rivojlanishida muhim omil sifatida ta’kidlangan. Baholash metodologiyasi refleksiv tafakkur, tajribaviy o‘qitish va konstruktivistik ta’lim nazariyalarini integratsiya qilishga asoslangan bo‘lib, talabalarining kognitiv, xulq-atvoriy va qiymatga asoslangan faoliyatlarini har tomonlama baholash imkonini beradi. Tadqiqot doirasida mualliflik takliflari, baholash mezonlari va indikatorlari, shuningdek, diagnostika topshiriqlari namunalarini taklif etilgan. Talabalarning mustaqil tahlil qilish, guruhda muhokama olib borish va xulosalarga asoslangan qaror qabul qilish qobiliyati alohida e’tibor bilan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: refleksiv madaniyat, tibbiy ta’lim, baholash metodologiyasi, kasbiy tayyorgarlik, tahliliy tafakkur, ta’lim texnologiyalari.

Аннотация: В настоящем тезисе основное внимание уделено разработке и обоснованию методологии оценки навыков рефлексивной культуры студентов медицинского образования.

Отмечается актуальность формирования рефлексивной культуры как ключевого компонента профессионального становления будущего медицинского специалиста. Методология оценки основана на интеграции теорий рефлексивного мышления, опытного обучения и конструктивистского подхода, что позволяет всесторонне оценить когнитивные, поведенческие и ценностные аспекты рефлексии. В рамках исследования представлены авторские предложения по критериям и индикаторам оценки, а также примеры диагностических заданий. Подчёркивается значимость таких элементов, как самостоятельный анализ, групповая дискуссия и принятие решений на основе рефлексивного осмысления.

Ключевые слова: рефлексивная культура, медицинское образование, методология оценки, профессиональная подготовка, аналитическое мышление, образовательные технологии.

Annotation: This thesis focuses on the development and justification of a methodology for assessing reflective culture skills among students in medical education. The formation of reflective culture is emphasized as a key component of professional development for future healthcare professionals. The proposed assessment framework integrates theories of reflective thinking, experiential learning, and constructivist education, enabling a comprehensive evaluation of cognitive, behavioral, and value-based aspects of reflection. The paper presents original proposals for assessment criteria and indicators, along with examples of diagnostic tasks. Particular attention is given to students' ability for independent analysis, collaborative discussion, and decision-making grounded in reflective insight.

Keywords: reflective culture, medical education, assessment methodology, professional training, analytical thinking, educational technologies.

Kirish. Zamonaviy tibbiyot ta’limida bo‘lajak shifokorlarning nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarga, balki tahliliy tafakkur hamda refleksiv madaniyatga ega bo‘lishi talab etiladi. Refleksiv madaniyat shifokorning o‘z faoliyatini baholash, klinik qarorlarni tahlil qilish va tajribasidan xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa shifokorlik faoliyatining uzluksiz takomillashuvi hamda bemorlarga ko‘rsatiladigan xizmat sifatining oshishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Refleksiya va refleksiv madaniyatga oid tadqiqotlar xalqaro miqyosda keng o‘rganilgan bo‘lib, ko‘plab tadqiqotchilar refleksiyaning kasbiy rivojlanishdagi o‘rnini yoritib bergan. Xususan, tibbiyot ta’limida refleksiv yondashuvlar, refleksiya orqali o‘qitish metodlari va o‘qituvchilarning refleksiv kompetensiyasi bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan. Biroq, tibbiyot yo‘nalishi talabalarining refleksiv madaniyatini baholash metodologiyasi hanuzgacha chuqur tadqiq qilinmagan va bu jarayonni tizimli o‘rganish zarurati mavjud. Shu sababli ushbu maqolada tibbiyot ta’limi talabalarining refleksiv madaniyat ko‘nikmalarini aniqlash, baholash mezonlarini ishlab chiqish va samarali baholash usullarini taklif etishga e’tibor qaratiladi.

Refleksiv madaniyat va uning tibbiyot ta’limidagi ahamiyati bo‘yicha xalqaro miqyosda ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, D. A. Schön o‘zining The Reflective Practitioner asarida refleksiv amaliyotning kasbiy rivojlanishdagi o‘rnini batafsil yoritib bergan [1]. Shuningdek, J. Dewey refleksiya jarayonini ta’limning ajralmas qismi sifatida ta’kidlagan [2].

O‘zbekistonda ham ushbu yo‘nalishda bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, U. Mahmudovning Kasbiy pedagogik kompetensiyalar asarida pedagogik jarayonda refleksiv yondashuvning ahamiyati va uni shakllantirish usullari haqida so‘z yuritilgan [3]. Shuningdek, G. To‘xtasinovaning Refleksiv madaniyat va kasbiy rivojlanish asarida refleksiv madaniyatning nazariy asoslari va uni rivojlantirish metodlari tahlil qilingan [4].

Refleksiv madaniyat shaxsning o‘z faoliyatini tahlil qilish, xulosa chiqarish va kelgusida ushbu tajribalarni amaliyotda qo‘llash qobiliyatini ifodalaydi. Tibbiyot ta’limida bu ko‘nikma bo‘lajak shifokorlarning klinik qarorlar qabul qilishda, bemorlar bilan muloqotda va kasbiy o‘sishda muhim rol o‘ynaydi. Refleksiv madaniyatni rivojlantirish orqali talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyati, mas’uliyati va professional etikasini shakllantirish mumkin.

Refleksiv madaniyat ko‘nikmalarini baholash metodologiyasi. Refleksiv madaniyat ko‘nikmalarini baholash uchun turli metodlardan foydalanish mumkin. Eng samarali usullardan biri talabalarning o‘z-o‘zini tahlil qilishiga asoslangan yozma ishlarni tahlil qilishdir. Masalan, talabalarga klinik holatlar bo‘yicha esse yozdirish orqali ularning refleksiv fikrlash darajasini aniqlash mumkin. Shuningdek, maxsus tuzilgan so‘rovnomalar va testlar yordamida talabalarning refleksiv ko‘nikmalarini baholash amaliyoti mavjud .

Baholash natijalari talabalarning refleksiv madaniyat darajasini aniqlash va ularni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilashda muhim ahamiyatga ega. Agar natijalar kutilgan darajada bo‘lmasa, o‘quv jarayoniga qo‘shimcha refleksiv mashg‘ulotlar, seminarlar va amaliy treninglarni kiritish lozim. Shuningdek, o‘qituvchilar tomonidan talabalarga individual yondashuvni kuchaytirish, ularning refleksiv fikrlashini rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash orqali kuchaytirish mumkin.

Metod nomi	Ta’rif	Baholash obyekti	Qo‘llaniladigan texnikalar
Portfolio baholash	Talabalar o‘z ishlarini hujjatlashtirib, refleksiya yuritish orqali baholanadi.	Talabaning kasbiy rivojlanish jarayoni va mustaqil o‘z-o‘zini tahlil qilish qobiliyati.	Portfolio yaratish, hujjatlashtirish, yozma hisobotlar.
Refleksiv jurnal	Talabalar o‘z fikrlarini yozib borish orqali kasbiy rivojlanishini tahlil qiladi.	Talabaning refleksiya yuritish qobiliyati va o‘z faoliyatiga tanqidiy yondashuvi.	Jurnal yuritish, kundalik yozish, tahliliy yozuvlar.
Mushohadali holatlar tahlili (Case Study)	Talabalarga real tibbiy muammoli holatlar taqdim etilib, ularni refleksiya asosida baholash.	Talabaning muammolarni hal qilish ko‘nikmalari va kasbiy refleksiya darajasi.	Muammoli holatlarni muhokama qilish, guruhli va individual tahlil.
O‘z-o‘zini baholash va sheriklikda ishlash	Talabalar o‘z bilim va ko‘nikmalarini mustaqil va hamkasblar baholashi orqali o‘lchanadi.	Talabaning o‘zini tahlil qilish va baholash malakalari.	So‘rovnomalar, refleksiv baholash shakllari, anonim baholash.
Interaktiv refleksiv intervyu	O‘qituvchi va talabalar o‘rtasida refleksiv intervyular orqali baholash amalga oshiriladi.	Talabaning o‘z fikrlarini muloqot orqali ifoda qilish qobiliyati.	Ochiq intervyular, suhbatlar, tahliliy savollar orqali baholash.

1-jadval. Taklif etilayotgan refleksiv madaniyatni baholash metodlari.

Taklif etilayotgan baholash usullari tibbiyot ta’limida talabalar refleksiv madaniyatini rivojlantirish va o‘lchash jarayonini tizimli amalga oshirishga yo‘naltirilgan. Bu usullarning har biri o‘ziga xos baholash mexanizmlariga ega bo‘lib, tibbiyot ta’limi talabalarining o‘z-o‘zini tahlil qilish, kasbiy rivojlanish va refleksiv kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Portfel baholash usulida biz talabalar o‘zlarining kasbiy rivojlanish jarayonini hujjatlashtirib borishini taklif qilamiz. Talaba tomonidan bajarilgan topshiriqlar, tahliliy yozuvlar, klinik amaliyot bo‘yicha hisobotlar va o‘z-o‘zini baholash natijalari portfel shaklida to‘planadi. Bu usul refleksiv fikrlash darajasini real hujjatlar asosida tahlil qilish imkonini beradi va talabaga o‘zining o‘quv jarayonidagi o‘sishini kuzatish imkoniyatini taqdim etadi.

Refleksiv jurnal usulida biz talabalar tomonidan muntazam ravishda kasbiy faoliyatga oid tahliliy yozuvlarni yuritishni taklif qilamiz. Bu usulda talabalarning o‘z xatolarini anglash, ularni qayta ishlash va kelgusida takrorlamaslik bo‘yicha fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi. O‘qituvchilar jurnalni tahlil qilish orqali talabaning refleksiya darajasini baholaydi va unga mos ravishda konstruktiv fikrlar bildiradi.

Muammoli holatlar tahlili (Case Study) usuli bo‘yicha biz talabalarga real tibbiy vaziyatlarni tahlil qilishni taklif qilamiz. Bu usulda talabalar muammoli vaziyatni chuqur o‘rganib, bemorga qo‘yilgan tashxis, muolajalar va qarorlar ustida refleksiya yuritadi. Bu usul orqali kasbiy refleksiya va analitik fikrlashni baholash imkoniyati yaratiladi.

O‘z-o‘zini baholash va Peer Assessment usulida biz talabalar o‘z bilim va ko‘nikmalarini mustaqil hamda guruh ichida baholashlarini taklif qilamiz. Bu usul talabalarni o‘z bilimlarini tahlil qilishga va boshqalar bilan taqqoslashga o‘rgatadi. Anonim yoki ochiq baholash shakllari orqali talabalar o‘zlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Interaktiv refleksiv intervyu usulida biz o‘qituvchi va talaba o‘rtasida chuqur tahliliy suhbat o‘tkazishni taklif qilamiz. Bu usul talabaning refleksiv madaniyat darajasini chuqur tushunish va uning kasbiy rivojlanishini o‘lchash imkonini beradi. Intervyu jarayonida ochiq savollar orqali talaba o‘zining bilim, tajriba va qarorlarini tahlil qilib, ularni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini namoyon qiladi.

Shunday qilib, taklif etilayotgan baholash metodlari talabalarni refleksiya jarayoniga jalb qilish, ularning kasbiy rivojlanishini tizimli baholash va o‘z-o‘zini anglash ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Har bir metod o‘ziga xos yondashuvga ega bo‘lib, ularning kombinatsiyasi refleksiv madaniyatni rivojlantirish va o‘lchashda eng samarali natijalarni berishi mumkin.

Xulosa. Tibbiyot ta’limida refleksiv madaniyatni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u bo‘lajak shifokorlarning kasbiy rivojlanishiga, analitik fikrlash qobiliyatiga va o‘z faoliyatini tanqidiy baholash ko‘nikmalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, refleksiya jarayonini baholashning samarali metodlarini ishlab chiqish talabalar o‘quv jarayonining sifatini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Taklif etilgan baholash metodlari, jumladan, portfel baholash, refleksiv jurnal, muammoli holatlar tahlili, o‘z-o‘zini baholash va interaktiv refleksiv intervyu, talabalarni kasbiy refleksiya jarayoniga jalb qilish va ularning o‘z ustida ishlash qobiliyatini oshirishga qaratilgan. Ushbu yondashuvlar orqali talabalar o‘z tajribalarini chuqur anglash, o‘quv jarayonida faol ishtirok etish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Kelgusida bu metodlarning samaradorligini yanada chuqurroq o‘rganish, baholash jarayonlarini yanada aniqroq mezonlar asosida takomillashtirish va ularni amaliyotga kengroq tatbiq etish zarur. Shuningdek, tibbiyot ta’limida refleksiya asosida baholash tizimini yanada rivojlantirish uchun innovatsion yondashuvlarni joriy etish muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan dabiyotlar ro‘yxati:

1. D. A. Schön, *The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action*, Basic Books, 1983.
2. J. Dewey, *How We Think*, D.C. Heath & Co., 1910.
3. U. Mahmudov, *Kasbiy pedagogik kompetensiyalar*, Toshkent: Innovatsiya, 2019.
4. G. To‘xtasinova, *Refleksiv madaniyat va kasbiy rivojlantirish*, Toshkent: Ilm-Ziyo, 2021.
5. D. A. Kolb, *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development*, Pearson Education, 2015.
6. J. Bruner, *The Culture of Education*, Harvard University Press, 1996.
7. Sh. Shodmonov, *Oliy ta’limda pedagogik texnologiyalar*, Buxoro: Marifat, 2020.
8. M. Yusupov, *Tibbiyotda ta’lim metodologiyasi*, Samarqand: Fan va Taraqqiyot, 2022.

KIMYOVIY JARAYONLARNI RAQAMLI MODELLASHTIRISH

O.Qodirova
Andijon davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti kimyo yo‘nalish talabasi
E-mail: **tursunalykockarov@gmail.com**

Annotatsiya: Ushbu maqola kimyoviy jarayonlarni raqamli modellashtirishning zamonaviy usullari va ularning sanoat va ilmiy tadqiqotlarda qo'llanilishiga bag‘ishlangan. Maqolada kimyoviy jarayonlarning matematik modellari, raqamli simulyatsiya texnologiyalari va ularning afzalliklari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, modellashtirishning asosiy metodologiyalari, natijalari va kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi kimyoviy jarayonlarni optimallashtirish va xarajatlarni kamaytirishda raqamli modellashtirishning ahamiyatini ko'rsatishdir.

Kalit so'zlar: kimyoviy jarayonlar, raqamli modellashtirish, matematik modellar, simulyatsiya, optimallashtirish, sanoat ilovalari.

Аннотация: Статья посвящена современным методам численного моделирования химических процессов и их применению в промышленности и научных исследованиях. В статье рассматриваются математические модели химических процессов, технологии численного моделирования и их преимущества. Также анализируются основные методологии, результаты и направления развития моделирования. Цель исследования — показать важность численного моделирования для оптимизации химических процессов и снижения затрат.

Ключевые слова: химические процессы, численное моделирование, математические модели, имитация, оптимизация, промышленные приложения.

Annotation: This article is devoted to modern methods of numerical modeling of chemical processes and their application in industry and scientific research. The article reviews mathematical models of chemical processes, numerical simulation technologies and their advantages. Also, the main methodologies, results and future development directions of modeling are analyzed. The purpose of the study is to show the importance of numerical modeling in optimizing chemical processes and reducing costs.

Keywords: chemical processes, numerical modeling, mathematical models, simulation, optimization, industrial applications.

Kirish: Raqamli modellashtirish kimyoviy jarayonlarni virtual muhitda taqlid qilish uchun matematik va kompyuter algoritmlaridan foydalanadi. Bu jarayonlarning fizikaviy, kimyoviy va termodinamik xususiyatlarini aniq tasvirlashga asoslanadi. Bu jarayonlarning mohiyatini tushunish uchun bir nechta asosiy jihatlarni ko‘rib chiqish muhimdir. Matematik modellar kimyoviy jarayonlarni tahlil qilishning asosini tashkil qiladi. Ular jarayonlarni differensial tenglamalar, massa va energiya balansi, kimyoviy kinetika va termodinamik qonunlar orqali ifodalaydi. Masalan, kimyoviy reaktor ichidagi reaksiya tezligini hisoblash uchun Arrhenius tenglamasi ishlatiladi, bu esa harorat, bosim va moddalar konsentratsiyasi kabi omillarga bog‘liq ravishda jarayonni bashorat qilish imkonini beradi. Bu tenglamalar jarayonning har bir bosqichini, masalan, reaksiyaning boshlanishi, moddalar almashinishi yoki issiqlik o‘tkazuvchanligini aniq hisoblab, jarayonni virtual muhitda sinovdan o‘tkazishga yordam beradi [1. 2022:Y.45].

Simulyatsiya raqamli modellashtirishning eng muhim afzalliklaridan biridir. U jarayonlarni real dunyoda sinovdan o‘tkazmasdan oldin kompyuter muhitida sinab ko‘rish imkonini beradi. Bu nafaqat xarajatlarni kamaytiradi, balki xavfli yoki qimmat sinovlarning oldini oladi. Masalan, yangi kimyoviy moddaning sintezini laboratoriyada sinashdan oldin, uning xususiyatlari va reaksiya natijalari kompyuter simulyatsiyasi orqali oldindan bashorat qilinadi. Bu, ayniqsa, farmatsevtika sohasida yangi dori vositalarini ishlab chiqishda yoki neftni qayta ishlashda muhim ahamiyatga ega, chunki bu jarayonlar ko‘p vaqt va resurs talab qiladi. Ma’lumotlarga asoslangan yondashuv zamonaviy modellashtirishning muhim qismidir. Sanoatda sensorlar, IoT qurilmalari va avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida yig‘ilgan katta hajmdagi ma’lumotlar jarayonlarni yanada aniq modellashtirish imkonini beradi. Masalan, kimyoviy zavodda harorat, bosim va moddalar oqimini real vaqtda o‘lchaydigan sensorlar ma’lumotlarni uzluksiz ravishda yig‘adi. Bu ma’lumotlar modelni doimiy ravishda yangilab, uning aniqligini oshiradi va haqiqiy jarayonlarga moslashtiradi [2. 2020:S.123].

CFD (Computational Fluid Dynamics) suyuqliklar oqimi va issiqlik almashinuvini tahlil qilishda muhim vositadir. Bu metod kimyoviy reaktorlarning dizaynini optimallashtirishda keng qo‘llaniladi. Masalan, reaktor ichidagi moddalar aralashishi yoki gazlarning taqsimlanishi CFD yordamida aniq modellashtiriladi. Bu muhandislarga reaktorning samaradorligini oshirish yoki chiqindilarni kamaytirish uchun dizaynni yaxshilashga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili: Kimyoviy jarayonlarni modellashtirish bo'yicha so'nggi o'n yilliklardagi tadqiqotlar kimyoviy muhandislik va sanoat jarayonlarini optimallashtirishda muhim yutuqlarga erishdi. Bu sohada matematik modellar, sun'iy intellekt (AI) va boshqa ilg‘or texnologiyalardan foydalanish keng ommalashdi. Quyida ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari va ularning ahamiyati kengroq tushuntiriladi. Smith va boshqalar o'z tadqiqotlarida kimyoviy reaksiyalarni bashorat qilishda matematik modellar va sun'iy intellektga asoslangan yondashuvlarning muvaffaqiyatli qo'llanilishini ko'rsatgan. Matematik modellar kimyoviy jarayonlarning fizik-kimyoviy xususiyatlarini aniq ifodalash imkonini beradi, bu esa reaksiyalarning natijalarini oldindan taxmin qilishda muhim ahamiyatga ega. Sun'iy intellekt, xususan, mashinaviy o'rganish algoritmlari esa katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilib, murakkab kimyoviy jarayonlarda odatda sezilmaydigan naqshlarni aniqlashga yordam beradi. Bu yondashuv, masalan, reaksiya sharoitlarini optimallashtirish yoki mahsulot sifatini oshirishda samarali bo'lgan. Shu bilan birga, bunday modellar real sanoat sharoitlarida sinovdan o'tkazilganda yuqori aniqlik va ishonchlilik ko'rsatgan [3. 2020:X.33].

Jones tadqiqotida kimyoviy jarayonlarning dinamik modellarini ishlab chiqishda hisoblash suyuqlik dinamikasi (CFD) texnologiyalarining afzalliklariga e'tibor qaratgan. CFD texnologiyasi suyuqliklar, gazlar va ularning o'zaro ta'sirini modellashtirishda ishlatiladi, bu esa reaktorlar ichidagi jarayonlarni, masalan, issiqlik o'tkazuvchanligi, moddalar aralashuvi yoki turbulent oqimlarni aniq tahlil qilish imkonini beradi. Bu usul kimyoviy jarayonlarning samaradorligini oshirish, energiya sarfini kamaytirish va loyihalash jarayonlarini yaxshilashda katta ahamiyatga ega. Jonesning ishi CFDning nafaqat laboratoriya

sharoitlarida, balki sanoat miqyosida ham muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkinligini ta'kidlaydi. Kimyoviy jarayonlarni modellashtirish sohasida so'nggi yillarda sezilarli yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, real vaqtda ishlash va katta ma'lumotlar bilan ishlashdagi muammolar hali ham dolzarb masalalar sifatida qolmoqda. Ushbu yo'nalishdagi kelajakdagi tadqiqotlar ushbu cheklovlarni bartaraf etishga qaratilishi kutilmoqda [4. 2021:J.89].

Metodologiya: Matematik modellar kimyoviy jarayonlarni modellashtirishning asosini tashkil etadi. Bu modellar kimyoviy reaksiyalarning kinetikasi va termodinamikasi kabi fundamental printsiplarga asoslanadi. Kimyoviy reaksiyalarning kinetikasi reaksiya tezligi, reaksiyaga kirishuvchi moddalar va mahsulotlarning o'zaro ta'sirini tavsiflaydi, termodinamika esa jarayonning energiya o'zgarishlari, issiqlik almashinuvi va muvozanat sharoitlarini hisobga oladi. Ushbu modellar differensial tenglamalar tizimi sifatida tuziladi, chunki ular vaqt o'tishi bilan jarayonlarning o'zgarishini aniq ifodalay oladi. Bu tenglamalar jarayonning har bir bosqichini, masalan, moddalar konsentratsiyasining o'zgarishi yoki haroratning ta'sirini matematik jihatdan tasvirlaydi. Bu yondashuv modellashtirishning aniqligini oshiradi va real jarayonlarni bashorat qilishda ishonchli asos bo'lib xizmat qiladi. Simulyatsiya vositalari sifatida MATLAB va COMSOL Multiphysics kabi dasturiy ta'minotlardan foydalanilgan. MATLAB differensial tenglamalarni yechish, ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish va murakkab hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun keng qo'llaniladi. Uning moslashuvchanligi va kuchli matematik kutubxonalari kimyoviy jarayonlarning dinamikasini sinovdan o'tkazishda foydalidir. COMSOL Multiphysics esa ko'p fizikaviy jarayonlarni, masalan, suyuqlik oqimi, issiqlik o'tkazuvchanligi va kimyoviy reaksiyalarni birgalikda modellashtirish imkonini beradi. Bu dastur, ayniqsa, reaktorlar ichidagi murakkab fizik-kimyoviy jarayonlarni simulyatsiya qilishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu vositalar modellar sinovdan o'tkazilishi va optimallashtirilishi uchun real sharoitlarni taqlid qilish imkonini beradi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish bosqichida katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash uchun Python dasturlash tilida maxsus algoritmlar ishlab chiqilgan. Python o'zining ma'lumotlarni tahlil qilish va mashinaviy o'rganish kutubxonalari, masalan, Pandas, NumPy va Scikit-learn tufayli kimyoviy jarayonlardan olingan ma'lumotlarni samarali qayta ishlashda keng qo'llaniladi. Ushbu algoritmlar ma'lumotlarda yashirin naqshlarni aniqlash, jarayon parametrlarini optimallashtirish va modellar aniqligini oshirish uchun ishlatiladi. Masalan, katta hajmdagi tajriba ma'lumotlari yoki sanoat jarayonlaridan olingan ma'lumotlar tahlil qilinib, modellar real sharoitlarda qanchalik to'g‘ri ekanligini baholashda foydalaniladi. Bu jarayon, ayniqsa, murakkab va ko'p o'zgaruvchili kimyoviy tizimlarda muhimdir. Ushbu metodologiya kimyoviy jarayonlarni modellashtirishda matematik aniqlik, simulyatsiya vositalarining moslashuvchanligi, ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish va eksperimental tasdiqlashni birlashtiradi. Bu yondashuv nafaqat jarayonlarni aniq modellashtirish, balki ularni optimallashtirish va sanoatda samarali qo'llash imkonini beradi [5. 2022:B.56].

Natijalar: Kimyoviy reaksiyalarni raqamli modellashtirish jarayon samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkinligi aniqlandi. Bu yondashuv resurslardan foydalanishni optimallashtirish, energiya sarfini kamaytirish va ishlab chiqarish jarayonlarini yaxshilash orqali amalga oshiriladi. Masalan, modellar yordamida reaksiya sharoitlari (harorat, bosim, konsentratsiya) nozik sozlanib, jarayonning eng samarali parametrlari aniqlanadi. Bu nafaqat xarajatlarni kamaytiradi, balki atrof-muhitga ta'sirni ham minimallashtiradi, bu esa yashil kimyo va barqaror ishlab chiqarish tamoyillariga mos keladi. Ushbu yutuqlar, ayniqsa, kimyoviy sanoatda keng miqyosda qo'llanilganda sezilarli iqtisodiy va ekologik foyda keltiradi. MATLAB yordamida yaratilgan modellar real vaqtda jarayonlarni bashorat qilishda yuqori aniqlik ko'rsatdi. Bu modellar kimyoviy reaksiyalarning dinamikasini, ya'ni moddalar konsentratsiyasi, reaksiya tezligi va boshqa parametrlarni vaqt o'tishi bilan bashorat qilishga qodir. Yuqori aniqlik real vaqtda qaror qabul qilishda muhim ahamiyatga ega, chunki sanoat jarayonlarida tezkor va to'g‘ri bashoratlar jarayonni boshqarishni yaxshilaydi. Masalan, agar reaksiya sharoitlarida kutilmagan o'zgarishlar yuz bersa, model ushbu o'zgarishlarni oldindan sezib, optimal sozlamalarni taklif qilishi mumkin. MATLABning hisoblash quvvati va moslashuvchanligi ushbu modellar real sanoat sharoitlarida samarali ishlashini ta'minlaydi.

COMSOL Multiphysics yordamida olingan simulyatsiya natijalari jarayonning issiqlik va modda almashinuvi xususiyatlarini aniq tasvirlash imkonini berdi. COMSOL Multiphysics ko'p fizikaviy jarayonlarni, ya'ni issiqlik o'tkazuvchanligi, moddalar diffuziyasi va suyuqlik oqimlarini birgalikda modellashtirishga qodir. Bu vosita yordamida reaktorlar ichidagi murakkab jarayonlar, masalan, issiqlik taqsimoti yoki moddalar aralashuvi aniq tahlil qilinadi. Natijalar reaktor dizaynini yaxshilash, energiya samaradorligini oshirish va jarayonning barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Masalan,

simulyatsiyalar yordamida reaktor ichidagi issiqlikning notekis taqsimlanishi aniqlanib, uni bartaraf etish uchun muhandislik yechimlari ishlab chiqilishi mumkin. Tadqiqot natijalari raqamli modellashtirishning kimyoviy jarayonlarni optimallashtirish va bashorat qilishda katta salohiyatga ega ekanligini tasdiqladi. Ushbu yutuqlar jarayonlarning samaradorligini oshirish, real vaqtda aniq bashoratlar berish va murakkab fizik-kimyoviy xususiyatlarni tahlil qilish imkonini beradi, bu esa sanoatda innovatsion yechimlarni joriy etish uchun mustahkam asos yaratadi.

Muhokama: Raqamli modellashtirishning sanoatda keng qo'llanilishi mumkinligi tadqiqot natijalarida aniq ko'rsatildi. Bu yondashuv kimyoviy jarayonlarning samaradorligini oshirish, resurslarni tejash va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi. Masalan, modellar yordamida reaksiya sharoitlari optimallashtirilib, energiya sarfi yoki xom ashyo isrofi kamaytirilishi mumkin. Bundan tashqari, raqamli modellar reaktorlarning dizaynini yaxshilash, jarayonlarning barqarorligini ta'minlash va atrof-muhitga ta'sirni minimallashtirishda muhim rol o'ynaydi. Sanoat sharoitlarida bu modellar real vaqtda monitoring va boshqaruv tizimlariga integratsiyalashib, tezkor qaror qabul qilishni osonlashtiradi. Bu, ayniqsa, kimyoviy ishlab chiqarishning murakkab va yuqori xavfli jarayonlarida foydalidir, chunki u xatolar ehtimolini kamaytiradi va jarayonlarning aniqligini oshiradi. Biroq, modellashtirish jarayonida katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash muhim to'siqlardan biridir. Kimyoviy jarayonlardan olingan ma'lumotlar ko'pincha katta hajmga ega bo'lib, ularni samarali tahlil qilish va modellashtirishda ishlatish uchun ilg‘or hisoblash infratuzilmasi talab qilinadi. Ma'lumotlarni qayta ishlashda ularning sifati, to'liqligi va tezkor tahlil qilinishi muhim ahamiyatga ega. Masalan, sanoat jarayonlarida sensorlardan olingan ma'lumotlar shovqinli yoki yetarli darajada aniq bo'lmasligi mumkin, bu esa model aniqligiga ta'sir qiladi. Bundan tashqari, ma'lumotlarni saqlash va ularga tezkor kirish imkonini beruvchi tizimlar qurish ham katta resurslar talab qiladi. Bu muammo, ayniqsa, kichik yoki o'rta hajmdagi korxonalarda modellashtirishni joriy etishda jiddiy to'siq bo'lib xizmat qilishi mumkin. Raqamli modellashtirish kimyoviy sanoatda katta imkoniyatlar yaratadi, ammo katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va real vaqtda simulyatsiya qilishdagi cheklovlar hali ham dolzarb muammo sifatida qolmoqda. Sun'iy intellekt va mashinaviy o'rganish texnologiyalari ushbu muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynashi kutilmoqda, bu esa kelajakda yanada samarali va innovatsion modellashtirish yechimlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa: Raqamli modellashtirish kimyoviy jarayonlarni optimallashtirishda muhim vosita sifatida o'zini namoyon qildi. Bu texnologiya reaksiya sharoitlarini nozik sozlash, resurslardan samarali foydalanish va energiya sarfini kamaytirish imkonini beradi. Masalan, modellar yordamida jarayon parametrlarini oldindan sinovdan o'tkazish orqali ishlab chiqarish samaradorligi oshiriladi va xom ashyo isrofi kamaytiriladi. Bundan tashqari, raqamli modellar reaktorlarning dizaynini yaxshilash, jarayonlarning barqarorligini ta'minlash va atrof-muhitga ta'sirni minimallashtirishda katta ahamiyatga ega. Bu yondashuv kimyoviy sanoatda barqaror ishlab chiqarish tamoyillariga rioya qilish va iqtisodiy foyda olish uchun mustahkam asos yaratadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli modellashtirish nafaqat laboratoriya sharoitlarida, balki keng ko'lamli sanoat jarayonlarida ham muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin, bu esa uning universal va moslashuvchan texnologiya ekanligini tasdiqlaydi. Kelajakda real vaqtda modellashtirish uchun yuqori samarali hisoblash platformalarini joriy etish tavsiya etiladi. Real vaqtda modellashtirish sanoat jarayonlarini tezkor boshqarish va monitoring qilish uchun muhimdir, chunki u jarayonlarning dinamik o'zgarishlariga darhol javob berish imkonini beradi. Biroq, bunday modellashtirish murakkab hisob-kitoblarni talab qiladi, bu esa yuqori hisoblash quvvatiga ega platformalarni joriy etishni zarur qiladi. Masalan, bulutli hisoblash texnologiyalari yoki maxsus jihozlangan superkompyuterlar ushbu ehtiyojni qondirishi mumkin. Bu platformalar katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor qayta ishlash va murakkab simulyatsiyalarni real vaqtda amalga oshirish imkonini beradi. Natijada, sanoat korxonalari jarayonlarni yanada aniq va samarali boshqarishi, nosozliklarni oldindan bashorat qilishi va tezkor qarorlar qabul qilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, kimyoviy jarayonlarni raqamli modellashtirish sanoatda samaradorlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Kelajakda yuqori samarali hisoblash platformalarini joriy etish, sun'iy intellektni integratsiya qilish va arzon narxlardagi dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqish orqali ushbu texnologiyaning qo'llanilish sohasi yanada kengayadi. Bu takliflar nafaqat mavjud muammolarni bartaraf etishga, balki kimyoviy sanoatni yanada innovatsion va barqaror yo'nalishga olib chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Brown, T., et al. (2022). Optimization Algorithms for Chemical Processes. Chemical Engineering Science, 67(2), 56-78.

2.Jones, A. (2021). CFD Applications in Chemical Process Simulation. Industrial Chemistry Review, 12(4), 89-102.

3.Smith, J., & Johnson, R. (2020). *Mathematical Modeling of Chemical Processes*. Journal of Chemical Engineering, 45(3), 123-135.

4.Xolmirzayev, B.S. "Kimyoviy jarayonlarni boshqarishda raqamli ikkilik tizimlar", “Ilm-fan va ta’limning integratsiyasi” konferensiyasi, Samarqand, 2020, Davlat Universiteti, 33-40 betlar.

5.Yusupbekov, N.R., & Adilov, F.T. "Kimyoviy texnologik jarayonlarni raqamli modellashtirish va boshqaruv tizimlari", “Kimyoviy texnologiya va ekologiya” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi, Toshkent, 2022, Kimyo-Texnologiya Instituti, 45-52 betlar.

BOLALARDA NEVROZ KASALLIKLARINI KELIB CHIQISH SABABLARI VA ULARNING PROFILAKTIKASI

N.T.Rustamjonova
Namangan davlat pedagogika instituti Biologiya yo‘nalishi 2-kurs talabasi
Tel: +998 50 704 50 62; E-mail:rustamjonovanodira05@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalarda nevroz kasalliklarining kelib chiqishi, nevrozning asosiy sabablari, nevroz turlari, nevrozning belgilari hamda davolash chora tadbirlari to‘g‘risida ma’lumotlar bayon etilgan.

Аннотация: В данной статье изложена информация о происхождении неврозов у детей, основных причинах неврозов, видах неврозов, симптомах неврозов и лечебных мероприятиях.

Annotation: this article describes information on the origin of neurosis diseases in children, the main causes of neurosis, types of neurosis, symptoms of neurosis, as well as measures for treatment.

Kalit so‘zlar: isterika, distimik, obessiv-kompulsiv, ipoxondriya, 1,2, 3-yoshlarda asabiylik va injiqlik.

Ключевые слова: истерика, дистимия, обсессивно-компульсивное расстройство, ипохондрия, нервозность и капризность в возрасте 1,2, 3 лет.

Keywords: hysterics, dysthymic, obessive-compulsive, hypochondria, nervousness and whim in 1,2, 3.

«Nevroz» tushunchasi tibbiyotga 1776-yilda shotlandiyalik shifokor Uilyam Kallen tomonidan kiritilgan. Terminning mazmuni qayta-qayta boshqatdan ko‘rib chiqilgan, lekin hozirgacha uning umume’tirof qilingan ta’rifi yo‘q. Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, tibbiyot va biologiyada oliy asab faoliyatining turli funksional buzilishlari ham «nevroz» deb nomlanadi. Nevroz» termini hozirda Amerika Qo‘shma Shtatlarida professional psixiatrik hamjamiyat tomonidan ishlatilmaydi. Amerika psixik buzilishlar diagnostik va statistik qo‘llanmasining 1980-yilda DSM-III uchinchi nashridan boshlab «nevrozlar» bo‘limi bekor qilindi. Misol uchun, depressiv nevroz o‘rni **distimik buzilish**, obessiv-kompulsiv nevroz o‘rniga **obessiv-kompulsiv buzilish**, ipoxondrik nevroz o‘rniga **ipoxondriya** kiritildi. P. Pavlov o‘zining fiziologik ta’limoti doirasida nevrozni noadekvat kuch va tashqi qo‘zg‘atuvchilar ta’siri tufayli miya po‘stlog‘ida o‘ta zo‘riqish natijasida oliy nerv faoliyatining surunkali uzoq vaqt buzilishi deb belgilangan. XX asr boshlarida «nevroz» klinik atamasini nafaqat odamlarga, balki hayvonlarga nisbatan ham qo‘llash ko‘p bahs-munozaralarga olib keldi. Tug‘ilgandan boshlab, bola intuitiv ravishda atrofidagi dunyoda mustaqil ravishda munosabatlarni o‘rnatishni o‘rganadi. U kattalarni diqqat bilan kuzatib boradi va birinchi boshqaruv dastagini - yig‘lashni tezda o‘zlashtiradi va uch yoshida u kattalarni manipulyatsiya qilish san'atini deyarli mukammal egallaydi. Bolaning tug‘ilishidanoq, ota-onalar chaqaloqni qanday tarbiyalashlarini hal qilishlari kerak.


Ota-onalarning yosh bolalar bilan munosabatlarining ikkita eng keng tarqalgan modeli mavjud.

1-model - bola juda xam erka bo‘lib, uning istaklari va injiqliklari barcha oila a'zolarining etirozsiz bo‘ysunadi.

2-model - bolani ma'lum bir oila ierarxiyasiga o‘rgatish, u yerda oilaning sevimli a'zosi, lekin butun oila tomonidan ta'qib qilinadigan "rahbar" emas. Biz ikkinchi model haqida alohida gaplashamiz. Bolalarning asabiyliklari juda keng tarqalgan hodisa. Psixologlar bir yoshdan 5 yoshgacha bo‘lgan bolalarda isteriya chastotasini tahlil qilishdi. So‘rovlarga ko‘ra, isterika bolalarning 80 foizida sodir

bo‘lgan. Ba'zilar uchun ular oyiga 1-2 marta, boshqalari uchun kuniga bir necha marta sodir bo‘ladi. Vaqti-vaqti bilan, hatto eng xotirjam va do‘stona bola ham to‘satdan, hech qanday sababsiz, to‘plangan his-tuyg‘ularga, ishonchsizlikka va qo‘rquvga yo‘l qo‘yish uchun isterikaga tushib qolishi mumkin.

Bolalarning asabiylashish sabablari





-E'tiborni jalb qilish istagi,
-Bola va ota-onalar o‘rtasidagi manfaatlar to‘qnashuvi,
-Norozilik yoki o‘jarlik,
-O‘z his-tuyg‘ularingizni va istaklaringizni so‘z bilan ifoda eta olmaslik,
-O‘zingiz xohlagan narsaga erishish istagi,
-Boshqalarga taqlid qilish,
-Balanssiz psixotip,
Ota-onalar ko‘pincha quyidagi sabablar orqali bolada injiqlik va asabiylikni uyg‘otadilar:
-Xulq-atvordagi nomuvofiqlik
-Bola bilan munosabatlarda his-tuyg‘ularning yetishmasligi yoki zaif ifodasi
-Haddan tashqari jiddiylik
-Sevimli mashg‘ulotlarning uzilishi
-Kundalik rejimga rioya qilmaslik
-Bolaning shaxsiy maydoniga e'tibor bermaslik
Oddiy fiziologik sabablarni e'tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi
-Yomon tush
-Kasallik
-Ochlik
-Ortiqcha ish
-Yuqori hissiy yoki jismoniy stress

Alomatlar. Isterikaning bir qator o‘ziga xos belgilari bor, agar iloji bo‘lsa, uni oldini olish uchun isteriya boshlanishidan oldin tushunish yaxshi bo‘ladi: Ko‘pincha isteriya muayyan hodisalar yoki vaziyatlar tufayli yuzaga keladi. Masalan, uxlamaslik uchun injiqlik, buvisining tashrif buyurishi erkalik va hokazo. Isteriyadan oldin osongina o‘qiladigan prekursorlar mavjud - yig‘lash, xirillash, tez horlama, yuz terisining qizarishi, mushtlarni siqish. Isteriyaning o‘zi kuchli qichqiriq va yig‘lash, nafas olish qiyinlishuvi, ba'zida zo‘ravonlik bilan chayqalish va hatto o‘z-o‘ziga zarar yetkazish (tirnash, tishlash va hatto boshni yuzaga urish) bilan tavsiflanadi. Qoida tariqasida, isteriya 10-15 daqiqadan bir soatgacha uzoq davom etishi mumkin.

Bolada injiqlik va asabiylik bo‘lsa, nima qilish kerak? Avvalo, siz asabiylashish sababini tushunishingiz va iloji bo‘lsa, uni yo‘q qilishingiz kerak. Tantrum paytida bola o‘zini tashlab ketilgan yoki rad etilgan his qilmasligi kerak, lekin ayni paytda u kattalarni manipulyatsiya qilish urinishining muvaffaqiyatsizligini his qilishi kerak. Isteriya uchun tomoshabin kerak bo‘ladi va bola ongsiz ravishda "zaif bo‘g‘in" ni - uning talablarini qondirishi mumkin bo‘lgan narsani tanlaydi. Ota-onalar asabiylik(isterika) bilan kurashishni qanchalik tez o‘rgansa, farzandining kelajagi uchun shunchalik yaxshi g‘amxo‘rlik qiladi. Kichkintoy oilaga kelishidan oldin ham, favqulodda vaziyatda xatti-harakatlar bo‘yicha "tinchlik shartnomasi" shartlarini muhokama qilish kerak. Asabiylik va injiqlik paytida kattalar harakat qilmaydi yoki sabrsizlik yoki hayajonni ko‘rsatmaydi. Juda erta yoshda reaksiyaga kirishishning eng samarali usuli injiqlikga (isterikaga) e'tibor bermaslikdir. Bola "yo‘q" va "mumkin emas" so‘zlarini tushunishni o‘rganadi. Boshqa oila a'zolarining orqasida bolaning talablarini yashirincha qondiradigan "eng mehribon" kattalarning yo‘qligi. Jazo va baqirish muammoni hal qilishning yo‘li emas. Vaziyatni nazorat qilishni yo‘qotib qo‘ysangiz, yordam uchun yaxshi psixolog va mumkin bo‘lgan patologiyalarni istisno

qilish uchun nevrolog bilan bog‘lanishni unutmang. Har bir bola individualdir - siz diqqat bilan bolangiz uchun samarali bo‘lgan isteriyani to‘xtatish usullarini kuzatishingiz va izlashingiz kerak.

Bolaning bir yoki ikki yoshda asabiylik va injiqlik. Bola ko‘pincha allaqachon taniqli "yo‘q" va "mumkin emas" so‘zlariga qarshi norozilik bildiradi. Jang qilishning eng samarali vositasi chaqaloqni quchoqlash va suhbat, mehr va vaziyatni o‘zgartirish bilan vaziyatdan chalg‘itishdir. Agar u ishlamasa, injiqlikga e'tibor bermang - bolani ehtiyotkorlik bilan xavfsiz joyga (o‘yinchoq yoki beshik) joylashtiring va xonani tark eting. Qoidaga ko‘ra, bu yoshda bola bir necha kun ichida tezda "isteriya - men yolg‘iz qoldim" munosabatlarini o‘rganadi. Albatta, bu asab va irodani talab qiladi, lekin buni qanchalik tez qilsangiz, bola isteriyaning foydasizligini tezroq tushunadi. Bu bolalarning injiqliklariga qarshi samarali kurashish uchun eng qulay vaqt.

Bolaning 3 yoshda asabiylik va injiqlik. Bu yoshda bola allaqachon dunyoning kuchini sinab ko‘radigan shaxsdir. U allaqachon o‘z atrofidagi dunyo haqida o‘z rasmini shakllantirmoqda, lekin shu bilan birga u ko‘pincha isterikada chiqishni topadigan tajribalarini so‘z bilan ifodalay olmaydi. Bu yoshda tungi isteriya ham boshlanishi mumkin. Chaqaloq "uch yoshli inqiroz" ni boshidan kechirmoqda. U bilan muzokaralar olib borish, ma'lum bir jiddiylik va mehrni almashtirish vaqti keldi. Asosiysi, bola uni sevishi va e'tiborga olinishiga shubha qilmasligi kerak. Unga o‘z tanlovini qilish imkoniyatini bering, masalan, kiyimining rangini yoki shirinlik uchun meva pyuresi turini tanlashda. Unga aytingki, u allaqachon katta va aqlli va o‘zi to‘g‘ri qaror qabul qiladi. Agar siz isteriyani keltirib chiqaradigan hodisalarning naqshini tushunsangiz, bunday vaziyatlardan qochishga harakat qiling - boshqa faoliyat, o‘yinchoq yoki gazak taklif qiling. Savollar bering, u bilan boshdan kechirgan his-tuyg‘ulari va his-tuyg‘ulari haqida gapiring.

Bola 5 yoshda asabiylik va injiqlik. Bu yana bir yosh inqirozi davri. Kichkina odam allaqachon o‘zining shaxsiy maydoniga muhtoj, ba'zida bu yoshdagi bolalar ko‘proq o‘zini tuta bilishadi, endi o‘z his-tuyg‘ularini ota-onalari bilan muhokama qilishni xohlamaydilar va ba'zida ularning huquqlari va istaklari uchun qattiq kurashadilar. Shu bilan birga, ular ota-onalarning mehr-muhabbati va yordamiga juda muhtoj. Bu yoshda, isteriya vaqtida bolani qarovsiz qoldirishning iloji yo‘q - u o‘z ixtiyori bilan yoki o‘ylamasdan o‘ziga zarar yetkazishi mumkin. Agar isteriya vaqti-vaqti bilan takrorlansa, yordam uchun mutaxassislarga murojaat qilish tavsiya etiladi.Ba'zi psixologlar 5 yoshdan boshlab siz bolangiz bilan muammolarni batafsil tahlil qilishni boshlashingizni tavsiya qiladi, ularni 3 darajaga bo‘linadi - oson, o‘rta va murakkab. Muammo haqida o‘ylash zarurati ko‘pincha kurtakdagi isteriyani yo‘q qiladi."Yengil" muammoni tezda hal qilish mumkinligiga va umuman umidsizlikka arzimasligiga rozi bo‘ling. Qisqa mashqdan so‘ng, bolaning o‘zi oson muammolarni hal qilish algoritmini taklif qila boshlaydi."O‘rtacha" muammo odatda uning yechimini topish va amalga oshirish uchun biroz vaqt talab qiladi. Farzandingizni muammoni hal qilish usullarini siz bilan muhokama qilishga undash."Murakkab" muammo alohida e'tibor talab qiladi. Bolaga hayotda hamma narsa uning xohishiga ko‘ra sodir bo‘lmasligini tushuntirish kerak. Nima uchun bugungi kunda bu muammoni hal qilish mumkin emasligini va kelajakda uni hal qilish uchun nima qilish kerakligini tushuntiring. Farzandingizni hatto eng kichik muammolarni ham muvaffaqiyatli hal qilish va to‘g‘**ri mustaqil qarorlar qabul qilish uchun doimo mukofotlang.**

Xulosa. Har qanday nevroz zamirida biror sabab yotadi. Buni organizmning himoyasi yoki stressga reaksiyasi deb ham tushunish mumkin. Ko‘pincha ota-onalar «Bolam asabiy bo‘lib qoldi, tinchlantiruvchi dori yozib bering, doktor», deya murojaat qilishadi. Shunday vaziyatlarda men ularga: «Xo‘p, tinchlantiruvchi dori yozib berdim, uni bolangiz 1-2 oy qabul ham qildi. Lekin siz nevrozga olib keluvchi sababni topib, uni oila muhitidan yo‘qotmas ekansiz, bolangiz to‘liq tuzalmaydi», deb tushuntirishga harakat qilaman. Keyin savol-javob qilib, anamnez yig‘ishni boshlayman. Odatda ularning oilaviy muhitida albatta muammo chiqadi. Kamida ukasi dunyoga kelib, unga e’tibor ajratilmay qo‘yilgani oydinlashadi. Yoki noto‘liq, ya’ni ota-ona ajrashgan, shuningdek, ko‘p janjallashadigan oilalar ham shular sirasiga kiradi. Buni bugungi kunning dolzarb masalasi desak ham bo‘ladi. Hozirgi paytda kompyuter, turli gadjetlar bolaning eng yaqin do‘stiga aylanyapti. Lekin aslida bunday bo‘lmasligi kerak. Bilasiz, men bolalar shifoxonasida ishlayman va ish yuzasidan, ayniqsa, ertalabki tekshiruvga kirganimdayoq onalarning o‘z telefoniga tikilib yotganiga, bolalarning planshet o‘ynab o‘tirganiga guvoh bo‘laman. Demoqchi bo‘lganim, bu yerda onani chalg‘itadigan ishlar yo‘q. Ya’ni ovqat pishirish, uy tozalash yoki tirikchilik tashvishi deganlaridek… U deyarli butun vaqtini farzandiga ajratsa bo‘ladi. Biroq, ming afsuski, buning aksini kuzatamiz. Xo‘sh, qani o‘zaro muloqot, qani o‘zaro munosabat?! Aynan shu tariqa nafaqat oila a’zolari, balki ona bilan bola ham bir-biridan uzoqlashib ketaveradi. Natijada oiladan mehr-e’tibor ko‘rmagan farzandlar shirin so‘zlarga uchib (ayniqsa, qizlar), yo‘lidan adashadilar. Ona esa qachon, qayerda xatoga yo‘l qo‘yganini anglolmay ko‘ksiga urib qolaveradi. Ota-ona bilan farzand o‘rtasidagi

uzilish aslida sekin-asta rivojlanib boruvchi jarayon. Ya’ni borgan sari ingichkalashib, keyin birdan uziladi va aloqa yo‘qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.xabar.uz/uz/jamiyat/bolalar-nevropatologi-karantinda-alamingizni-bolalardan-olmang-ularni-nevrozga-griftor-qilasiz.
2.m.kun.uz/news/2019/09/05/nevroz-qanday-aniqlanadi-va-u-bilan-nima-qilish-kerak.
3.proza.uz/post/bolalarda-nevroz-kasalligi-uRdAr1FtkEWuVmqWXjnpJQ.

CURRENT ISSUES IN INCLUSIVE EDUCATION: CHALLENGES AND OPPORTUNITIES.

N.P.Yesbosinova
senior teacher of Uzbek and foreign languages department of the TITLI,
nesbosinova197916@gmail.com
G.A.Jubanova
an English teacher at secondary school 39, Nukus city,the Republic of Karakalpakstan,
gulsarajubanova@gmail.com (998)913037015

Abstract: Inclusive education aims to ensure that all learners, regardless of their physical, intellectual, social, emotional, linguistic, or other conditions, have equal access to quality education. In recent years, the importance of inclusive practices has gained momentum globally, yet significant challenges persist in implementation, especially in developing regions. This article discusses the core principles of inclusive education, identifies key challenges such as lack of teacher training, insufficient resources, and societal attitudes, and explores strategies for building more equitable and accessible learning environments.

Keywords: Inclusive education, equity, diversity, special needs, accessibility, teacher training, educational policy.

Introduction. Inclusive education is not merely an educational approach—it is a foundational principle of social justice and human rights. It is based on the belief that all children, regardless of their physical, intellectual, emotional, social, linguistic, or other conditions, have the right to quality education in mainstream schools, learning alongside their peers. This includes children with disabilities, from minority backgrounds, those who are marginalized due to poverty, gender, ethnicity, or language, and other vulnerable groups. The concept of inclusive education is strongly supported by international frameworks such as the **United Nations Convention on the Rights of Persons with Disabilities (CRPD**) and the **Sustainable Development Goal 4 (SDG4)**, which emphasizes inclusive, equitable and quality education for all and promotes lifelong learning opportunities. These global agendas have influenced national education policies worldwide, encouraging countries to move away from segregated special education systems toward inclusive practices. However, despite the existence of progressive policy frameworks, the practical realization of inclusive education remains a major challenge in many regions. Key obstacles include a lack of adequately trained teachers, limited access to teaching resources tailored to diverse learners, negative societal attitudes toward disability and diversity, and physical inaccessibility of school environments. In many educational systems, there is a significant gap between inclusive ideals and classroom realities. Moreover, inclusive education demands a shift not only in school infrastructure but also in mindset, pedagogy, and curriculum design. Teachers are expected to apply differentiated instruction methods, adopt inclusive assessments, and foster a classroom culture of empathy, cooperation, and respect for diversity. This transformation requires continuous professional development, administrative support, policy alignment, and community engagement. In this context, the exploration of the **challenges and opportunities in implementing inclusive education** is more relevant than ever. Understanding these factors is essential for creating educational systems that are not only academically effective but also socially just and responsive to the diverse needs of all learners.

1. Understanding Inclusive Education. Inclusive education is a holistic and rights-based approach to teaching and learning that goes far beyond the simple integration of students with disabilities into regular classrooms. It is rooted in the belief that every learner, regardless of their abilities, background, gender, language, culture, or socioeconomic status, has the right to quality education within a common learning

environment. It is about ensuring that all students feel valued, respected, and supported to reach their full academic and social potential. At its core, inclusive education requires transforming the education system at all levels—from policy and planning to classroom practices and school culture. This includes:

Adapting the curriculum so that it is flexible and accessible to learners with different abilities and learning preferences.

Modifying teaching methods to accommodate diverse learning styles through differentiated instruction, multi-sensory learning activities, and universal design for learning (UDL) frameworks.

Revising assessment strategies to ensure fair and equitable opportunities for all learners to demonstrate their knowledge and skills, including the use of formative assessments, alternative testing formats, and performance-based evaluation.

Creating inclusive learning environments where students not only learn but also feel a strong sense of belonging, safety, and community. This involves promoting positive peer relationships, combating discrimination and bullying, and fostering empathy and collaboration.

Inclusive education also embraces diversity as a source of enrichment rather than a challenge. By recognizing and valuing students’ individual differences, schools can promote a more tolerant, respectful, and cohesive society. This philosophy benefits all students, not only those with disabilities or special needs, by teaching essential life skills such as cooperation, empathy, and appreciation for diversity. Ultimately, inclusive education is not a one-time initiative but an ongoing process of identifying and removing barriers to learning and participation. It requires the collective effort of teachers, school leaders, policymakers, parents, and communities to create an equitable and empowering learning experience for everyone.

2. Major Challenges in Implementing Inclusive Education.

Lack of Teacher Preparation: Many educators feel unprepared to teach diverse learners, particularly those with special educational needs.

Inadequate Infrastructure: Schools may lack ramps, accessible restrooms, or assistive technologies.

Curriculum Rigidity: Standardized curricula often do not accommodate different learning styles and paces.

Negative Attitudes and Stereotypes: Societal beliefs about disability and ability can lead to exclusion or marginalization.

Limited Financial Resources: Budget constraints hinder inclusive reforms, especially in low-income areas

3. Strategies to Strengthen Inclusion.

Professional Development: Ongoing training for teachers on inclusive strategies, Universal Design for Learning (UDL), and differentiated instruction.

Policy Enforcement and Monitoring: Governments must ensure that inclusive policies are not only adopted but implemented with accountability.

Collaboration: Partnerships between schools, families, and community organizations can support inclusive initiatives.

Technological Integration: Use of assistive technologies can significantly enhance learning for students with disabilities.

Culturally Responsive Teaching: Recognizing and valuing students' cultural backgrounds helps create a supportive learning environment for all

Conclusion. Inclusive education is both a right and a necessary condition for achieving educational justice. While challenges remain, particularly in areas with limited resources, the movement toward inclusion continues to grow. With adequate support, training, and commitment, education systems can transform to meet the needs of all learners and promote a more just and inclusive society.

REFERENCES:

1. UNESCO. (2020). *Inclusion and Education: All Means All*. Paris: UNESCO.

2. Florian, L. (2014). *What counts as evidence of inclusive education?*. European Journal of Special Needs Education, 29(3), 286–294.

3. Ainscow, M., Booth, T., & Dyson, A. (2006). *Improving Schools, Developing Inclusion*. Routledge.

4. Slee, R. (2011). *The Irregular School: Exclusion, Schooling and Inclusive Education*. Routledge.

5. United Nations. (2015). *Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development*.

6. Yesbosinova N.P. The Lingua Spectrum. 3rd November, 2024. Using CLIL Technology in teaching English to non-philological students: ethodological approaches. **https://lingvospektr.uz/index.php/lngsp/article/view/162**.

“KOLLABORATIV MADANIYAT“ TUSHUNCHASINING PEDAGOGIK, IJTIMOIY VA PSIXOLOGIK JIHATDAN TAHLILI

G.M.Badalova
Andijon davlat pedagogika instituti, mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kollaborativ madaniyat tushunchasining pedagogik, ijtimoiy va psixologik jihatlari tahlil qilingan. Talabalar o‘rtasida hamkorlikni shakllantirish, jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va o‘zaro hurmatga asoslangan o‘quv muhitini yaratish yo‘llari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: hamkorlik madaniyati, jamoaviy ish, o‘zaro hurmat, ijtimoiy muhit, faol ishtirok, zamonaviy pedagogika, yaqin rivojlanish zonasi

Аннотация: В статье рассматриваются педагогические, социальные и психологические аспекты понятия «коллаборативная культура». Анализируются подходы к формированию сотрудничества среди студентов, развитию навыков коллективной работы и созданию учебной среды, основанной на взаимоуважении.

Ключевые слова: коллаборативная культура,совместная работа, взаимное уважение, социальная среда, активное участие, современная педагогика, зона ближайшего развития

Abstract: This article analyzes the pedagogical, social, and psychological dimensions of the concept of “collaborative culture.” It explores the development of students' teamwork skills, fostering mutual respect, and establishing a supportive educational environment.

Key words: collaborative culture, teamwork, mutual respect, social environment, active participation, modern pedagogy, zone of proximal development

Jahonda oliy ta’lim tizimi jadal o‘zgarayotgan bir vaqtda, talabalarning hamkorlikda ishlash madaniyatini rivojlantirish ta’lim strategiyalarining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, kollaborativ madaniyat - ya’ni jamoaviy fikrlash, qaror qabul qilishda ishtirok etish, o‘zaro hurmat va mas’uliyat asosida muloqot qilish qobiliyatlari - zamonaviy pedagogik ta’lim standartlarining ajralmas tarkibiy qismiga aylangan. Bu madaniyatni shakllantirish orqali talaba mustaqil fikrlovchi, jamoada ishlay oladigan, ijtimoiy-psixologik barqaror shaxs sifatida yetishadi.Pedagogik ta’lim jarayonida raqobat emas, balki hamkorlik tamoyillarini ilgari surish o‘qituvchilik kasbining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini chuqur anglashga olib keladi. Ushbu dissertatsiya pedagogika oliy ta’limi sharoitida kollaborativ madaniyatni rivojlantirishning nazariy asoslarini aniqlab, uni metodik jihatdan ta’minlash, jamoaviy faoliyatni kompetensiyaviy yondashuv orqali rivojlantirish yo‘llarini ilmiy asoslab beradi.

Kollaborativ madaniyat (hamkorlik madaniyati) – bu o‘quv muhitida talabalarning birgalikda ishlashga moyil tamoyillari, o‘zaro hurmat va jamoaviy mas’uliyat kabi qadriyatlar majmuasidir. Zamonaviy pedagogikada ta’lim jarayonini talaba faolligi va hamkorligiga asoslangan holda tashkil etish dolzarb masalaga aylandi[1. 2024:B.133]. Xususan, XXI asr kompetensiyalari tarkibida talabalar uchun kommunikativ va kollaborativ ko‘nikmalar alohida ahamiyat kasb etmoqda[2. 2006:B.14]. Bugungi ta’lim sohasidagi global tendensiyalar ta’lim sifatiga qo‘yilayotgan talablarni oshirdi – talabalarda mustaqil fikrlash bilan birga jamoa bo‘lib muammoni hal etish qobiliyatini ham shakllantirish zarurati tug‘ildi. Shu bois O‘zbekistonda ham ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, interfaol va hamkorlikka asoslangan usullarni joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Pedagogik yondashuvda kollaborativ madaniyat tushunchasi “hamkorlik pedagogikasi” g‘oyalari bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, mashhur pedagog S.L. Sinitsina[10. 2019:B.56]. tarbiya jarayonini pedagogdan o‘quvchiga bir tomonlama ta’sir emas, balki pedagog va o‘quvchi o‘rtasida ijobiy hamkorlik munosabatini qurish sifatida talqin qilgan edi. Xuddi shunday, sobiq Sovet pedagogikasida Sh.A. Amonashvili [7. 1990:B.256], V.F. Shatalov[11. 1987:B.192], S.N. Lisenkova[9. 1984:B.112] kabi olimlar ta’limda hamkorlik va kollaborativ ko‘nikmalarni rivojlantirish g‘oyalarini ilgari surganlar. Ular o‘quvchini tarbiya va ta’lim jarayonining faol sub’yekti sifatida ko‘rib, birgalikda ishlash orqali o‘rganish samaradorligini oshirishga intildilar.

Kollaborativ madaniyatli ta’lim muhiti quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi: talabalarning faol ishtiroki va hamma uchun ochiq munozara, g‘oyalarni erkin ifoda qilish imkoniyati, barcha a’zolar hissasining qadrlanishi va o‘zaro yordamga tayyorlik. Bunday muhitda o‘qituvchi “ma’ruza o‘quvchi”dan ko‘ra ko‘proq fasilitator (yo‘llaguvchi) rolini bajaradi – ya’ni talabalar o‘zlari yechim topishlari uchun yo‘l ko‘rsatib, muloqot va hamkorlikni rag‘batlantiradi. Natijada, talabalarda bir-birining fikrini tinglash, o‘z nuqtai nazarini himoya qila olish va jamoaviy qaror qabul qilish kabi kompetensiyalar shakllanadi. Pedagogik tadqiqotlar tasdiqlashicha, barcha talabalarning dars jarayoniga jalb qilinishi ularning kooperativ va kollaborativ ko‘nikmalarini shakllantirishga olib keladi, shuningdek, kichik guruhlardagi bahs-munozaralar mavzuga qiziqishni oshiradi. Talaba dars davomida yetakchi rolni bajarib ko‘rish, tengdoshlaridan o‘rganish va turli nuqtai nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘lsa, bu uning hamkorlik madaniyatini mustahkamlaydi. Demak, pedagogik nuqtai nazardan kollaborativ madaniyat – bu maxsus tashkiliy-pedagogik sharoit yaratilgandagina rivojlanadigan sifat bo‘lib, uning negizida ta’lim jarayonini demokratlashtirish, o‘qituvchi va talaba hamkorligini ta’minlash yotadi.

Kollaborativ madaniyatni ijtimoiy nuqtai nazardan tushuntirishda ta’lim guruhidagi ijtimoiy munosabatlar, rollar va me’yorlar tahlil qilinadi. Jamoaviy ta’lim jarayonida guruh a’zolari o‘rtasida ishtirokchilik va birdamlikka asoslangan ijtimoiy muhit shakllanadi. Bunday muhitda ishtirokchilarning barchasi o‘zini tinglangan va qadrlangan deb his qiladi[8. 2025: B.56]. Natijada talabalarda ijtimoiy hamkorlikka ijobiy motivatsiya shakllanib, ta’limga ishtiyoq ortadi. Guruh ichida o‘zaro ishonch va hurmat muhitining mavjudligi kollaborativ madaniyatning muhim ko‘rsatkichi bo‘lib, aynan ochiq va qo‘llab-quvvatlovchi atmosfera talabalarning erkin fikr bildirishiga imkon yaratadi. Bir guruh tadqiqotchilar hamkorlikka asoslangan o‘qitish jarayonida “inson bilimlari ijtimoiy o‘zaro ta’sir orqali kengayadi, ijodiy faollik rag‘batlantiriladi va ishonchli ta’lim muhiti shakllanadi[5. 2024:B.46] ”deb ta‘kidlaydilar.

Sotsiologiyada jamoa bo‘lib o‘qish jarayoni “kichik guruh dinamikasi” orqali tahlil qilinadi – unda guruhning har bir a’zosi muayyan rolni bajaradi, liderlik, murosa qilish, nizolarni hal etish kabi jarayonlar kechadi. Kollaborativ madaniyat yuqori bo‘lgan guruhlarda yetakchilik va mas’uliyat barcha a’zolar orasida taqsimlanadi, ya’ni har bir talaba nafaqat o‘z natijasi, balki butun guruh muvaffaqiyati uchun ham mas’uliyatni his qiladi. O‘zaro bog‘liq maqsad sari birgalikda intilish talabalarda jamoaviy liderlik sifatlarini ham rivojlantiradi.

Turli nuqtai nazarlarni hurmat qilish va baholamaslik ham ijtimoiy hamkorlik madaniyatining belgilaridan biridir. Misol uchun, interfaol mashg‘ulotlarda har qanday fikr bildirilar ekan, dastlab guruhda hech kim tanqid qilmaslik tamoyili joriy etilsa, talabalar bemalol o‘z g‘oyalarini taklif qilishadi. Bu esa guruhda fikrlarning erkin shakllanishiga va ijodkorlikning oshishiga xizmat qiladi. Shunday qilib, ijtimoiy nuqtai nazardan kollaborativ madaniyat – bu guruhda o‘zaro ishonch, hurmat, tenglik va hamjihatlik me’yorlarining qaror topganligi bo‘lib, u talabalarning keyingi jamoaviy faoliyatlarida ham namoyon bo‘ladi. Bunday madaniyatga ega talaba kelgusida hamkasblari bilan ham samarali ijodiy jamoa tuzib ishlay oladi, chunki oliy ta’lim davridayoq unda guruh bilan muloqot va hamkorlik ko‘nikmalari shakllangan bo‘ladi.

Psixologiya fanida hamkorlikdagi ta’lim shaxsning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishiga ko‘rsatadigan ta’siri orqali o‘rganiladi. L.S. Vygotskiyning sotsial-rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, o‘rganish avvalo ijtimoiy jarayon sifatida kechadi, ya’ni fikrlashning rivojlanishi yakka tartibdan jamoviylikka emas, balki aksincha, avval sotsial (jamoaviy) bosqichda, so‘ng shaxsiy bosqichda yuz beradi[6. 2001:B.3]. L. Vygotskiy ta’riflagan “yaqin rivojlanish zonasi” (YRZ) konsepsiyasida kichik guruhdagi hamkorlikning ahamiyati alohida qayd etiladi: talaba mustaqil eplay olmaydigan vazifani malakali tengdoshlar yoki ustoz ko‘magida bajarib, o‘z salohiyatining yangi darajasiga ko‘tariladi[3. 2024:B.12]. Demak, hamkorlik yaqin rivojlanish zonasi doirasidagi samarali o‘qishning ajralmas unsuri, chunki o‘quvchi o‘zgalarning muloqotiy ko‘magi bilan yanada ko‘proq narsani o‘rganadi. Boshqacha aytganda, L. Vygotskiy ta’limotida o‘qitish doimo rivojlanishdan oldinda boradi, va bu oraliqni to‘ldiruvchi vosita hamkorlikdir.

Psixologik tadqiqotlar ko‘rsatadiki, hamkorlikda o‘qish talabalarda mantiqiy fikrlash, muammo yechish va kreativ tafakkurni rivojlantiradi. Masalan, birgalikda muammoni tahlil qilish jarayonida talabalar turli yechim yo‘llarini topishga intiladi, shu bilan ijodiy fikrlash namoyon bo‘ladi. Guruhiy munozaralar talabalarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini oshiradi – ular turli qarashlarni solishtirib, o‘z dalillarini mustahkamlashni o‘rganadilar. Shuningdek, aqliy hujum (brainstorm) kabi usullar jamoada hech bir tanqidsiz erkin g‘oyalar yaratilishini ta’minlab, talabalarning ijodkorligi va o‘zgalarning fikrini diqqat bilan tinglash ko‘nikmasini mustahkamlaydi. Bunday psixologik jarayonlar natijasida talabalarda nafaqat

bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirish, balki jamoa bilan ishlashga ijobiy emosional munosabat ham shakllanadi.

Shu o‘rinda, hamkorlikdagi o‘qishning shaxs motivatsiyasiga ijobiy ta’sirini alohida ta’kidlash joiz. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, jamoaviy ta’limda talabalarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishi va o‘zlashtirishi individual o‘qishga qaraganda sezilarli darajada yuqori bo‘ladi[4. 2021:B.151]. O‘zaro rag‘bat va birgalikda muvaffaqiyatga erishish hissi talabalarga kuchli motivatsion turtki beradi. Biroq, psixologik jarayonda individual xususiyatlarni ham inobatga olish lozim: ba’zi tortinchoq yoki introvert talabalar uchun guruhda faol bo‘lish dastlab qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Shu sabab, tajribali o‘qituvchilar guruh ishining fleksibil (moslashuvchan) tuzilmasini tanlaydi – vazifalarni bajarishda har bir talabaning qobiliyati va uslubiga mos sharoit yaratishga harakat qiladi. Masalan, kichik guruhlarga bo‘lishda talabalar aralash qabiliyat va xarakterlarga ega bo‘lishi, rollarni almashtirib turish hamda zarur bo‘lsa individual ko‘rsatmalar berilishi maqsadga muvofiq.

Psixologik nuqtai nazardan kollaborativ madaniyat - bu shaxsning boshqa insanlar bilan hamkorlikda o‘qish davomida orttiradigan muomala ko‘nikmalari, empatiya, liderlik va o‘ziga ishonch kabi fazilatlarini qamrab oladi. Birgalikda ishlash jarayonida talabalarda sabr-toqat, stressga barqarorlik va moslashuvchanlik kabi shaxsiy sifatlar shakllanadi. Masalan, guruhda nizoli vaziyat ketsa, talabalar muammoni murosaga kelib hal qilishni o‘rganadi – bu ularning konfliktni boshqarish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Shu bois, kollaborativ madaniyatga ega bo‘lgan bitiruvchi kelgusida murakkab mehnat jamoalarida samarali ishlash salohiyatiga ega bo‘ladi.

Kollaborativ madaniyat tushunchasi zamonaviy ta’limning muhim mezonlaridan biri bo‘lib, u talabalarning o‘zaro hamkorligi, jamoaviy qaror qabul qilishi va bir-birini qo‘llab-quvvatlash madaniyatini anglatadi. Ushbu maqolada pedagogik, ijtimoiy va psixologik nuqtai nazardan mazkur madaniyatning shakllanishi, uning ta’lim samaradorligiga ta’siri chuqur tahlil qilinadi. Mualliflar fikriga ko‘ra, jamoaviy muhitda talabalarda mustaqil fikrlash, empatiya, liderlik va ijtimoiy mas’uliyat kabi sifatlar rivojlanadi. Ayniqsa, L.S. Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga asoslanib, hamkorlik orqali o‘quvchilarning bilim salohiyati oshiriladi. Psixologik jihatdan qaralganda, guruhda ishlash orqali talabalar stressga bardoshlilik, murosaga kelish va ijodkorlikni o‘zlashtiradi. Shu bois, pedagogik jarayonda interfaol metodlar, kichik guruhli mashg‘ulotlar va tengdoshlar o‘rtasidagi hamkorlik faoliyatlarini joriy etish dolzarb hisoblanadi. Kollaborativ madaniyat nafaqat ta’limdagi muvaffaqiyat omili, balki jamiyatda faol va mas’uliyatli shaxsni shakllantirishda ham muhim vositadir. Shu bois, bu madaniyatni rivojlantirish bugungi o‘zgaruvchan ta’lim tizimida ustuvor vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Aslanova N. X. O‘quvchilarda kollaborativ ko‘nikmalarni shakllantirish muammolari// Social Sciences & Humanities jurnali, 2024. -B. 133-136

2. Azizxo‘ayev N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat O‘quv qo‘llanma – T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. 2006. -B. 14.

3. Billings E., Walqui A. WestEdThe Zone of Proximal Development: An Affirmative Perspective in Teaching ELLs/MLLs// https://www.nysed.gov/sites/default/files/programs/bilingual-ed/zone_proximal_development.pdf

4. Comparison Of Individual and Collaborative Learning in Offline Teaching. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 3, 2021. 151-156. **https://zienjournals.com/index.php/jpip/article/view/515**

5. Turemuratova A., Tursunboyeva G., Yusupova K., Sultanova Z. Analysis of pedagogical and psychological mechanisms of developing collaborative skills of students based on a multi-vector approach. Современные подходы и новые исследования в современной науке, 3(14), 2024. -C.46–49.

6. Vygotsky L.S. The teacher must adopt the role of facilitator not content provider// **https://www.azquotes.com/author/18302-Lev_S_Vygotsky**

7. Амонашвили, Ш.А. Личностно-гуманная основа педагогического процесса. – М.: Педагогика, 1990. – 256 с.

8. Бектуров Т. М. Роль коллаборативного обучения в развитии социально-коммуникативных навыков студентов педагогических вузов // Эпоха науки, №42. 2025. -С. 56-62

9. Лисенкова С.Н. Методика ускоренного обучения грамоте. – М.: Знание, 1984. – 112 с.

10. Синицына Г.П. Стратегия обучения во взаимодействии: Коллаборативное обучение // Наука о человеке: гуманитарные исследования. – 2019. – №4. – С. 55–60.

11. Шаталов В.Ф. Точка опоры. – М.: Просвещение, 1987. – 192 с.

JAMIYAT VA SHAXS MUNOSABATLARINING MUTANOSIBLIGI SHARQ MUTAFFAKIRLARI NIGOHIDA

N.A.Ahmadjanova
Alfraganus Universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti
Sh.D.Yulchiyeva
Alfraganus universiteti “Pedagogika va psixologiya” yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada “shaxs” va “jamiyat” tushunchalari, ularning o‘zaro bog‘liqligi hamda jamiyatdagi o‘rni haqida, shaxsning shakllanishida jamiyatning o‘rni, ijtimoiy muhitning ta’siri haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Jamiyat, inson, kishi, jamoa, munosabat, shaxs, fan, tabiiy, ehtiyoj.

Аннотация: В данной статье говорится о понятиях «человек» и «общество», их взаимозависимости и месте в обществе, роли общества в формировании человека, влиянии социальной среды.

Ключевые слова: Общество, человек, личность, коллектив, взаимоотношения, личность, наука, естественное, потребность.

Abstract: This article talks about the concepts of “person” and “society”, their interdependence and place in society, the role of society in the formation of a person, the influence of the social environment.

Key words: Society, person, personality, team, relationships, personality, science, natural, need.

Inson shunday bir borliqki, tabiatda undan ulug‘ va mo“ tabar boshqa biron bir mavjudot yo‘q. Inson tabiat yaratgan ja ’mi mo‘jizalarning sultoni, jumlai jahon deb ataluvchi tabiatning gultojidir. U o‘z tanasi, jismining xususiyatlariga ko‘ra dunyodagi son-sanoqsiz narsalar kabi jismoniy, fizik jism sanaladi. Fiziologik xususiyatlari, kun kechirishi, ovqatlanishi, avlod qoldirishi va hokazolarga ko‘ra esa u erdagi jonivorlar, hayvonot dunyosi vakillaridan biri sanaladi. Ammo u fikrlashi, mehnat qilishi, yaratuvchiligiga ko‘ra esa alohida hilqat bo‘lib, ayni ana shu jihatlar uning odam, inson, shaxs deb atalishiga, ijtimoiy hodisa ekanligiga asos boladi. Insonni juda ko‘plab fanlar o‘rganadi. Jumladan uning jismoniy-fiziologik xususiyatlari biologiya, odam anatomiyasi va fiziologiyasi, genetika kabilar tomonidan, hatti-harakatlari axloqshunoslik, pedagogika, psixologiya va boshqa fanlar tomonidan tadqiq etiladi. Aslini olganda fanlarning barchasi u yoki bu darjada inson masalasini o‘z ichiga oladi. Shu ma’noda inson, uning tabiiy va ijtimoiy borlig‘i ko‘plab fanlarning o‘rganish mavzuini tashkil etadi. Insonni o‘rganishda uning tevarak-atrofidagi ijtimoiy hodisalarga yaxshilik, yomonlik, vijdon kabi axloqiy xususiyatlar nuqtai nazaridan yondoshish etika predmetining mavzuini tashkil etadi. Xuddi shularga nafosat, chiroylilik, xunuklik, ulug‘vorlik, fojealilik, kulgililik nuqtai nazaridan yondoshilsa estetik bilimlar hosil bo‘ladi.

Jamiyat mustaqil bo‘lgan, lekin nisbatan torroq, (ko‘pincha fanda "podsistema" deyiluvchi) kichikroq, ijtimoiy hayot solialari deb ataluvchi tizimlardan iborat. Jimladan, iqtisodiy (moddiy ishlab chiqarish jarayonidagi munosabatlar), ijtimoiy (guruhlar, tabaqalar, sinflarning munosabatlari), siyosiy (davlat tashkilotlari, siyosiy partiyalar faoliyati), ma’naviy (axloqiy, diniy, madaniy, falsafiy, ilmiy tizim va hokazo). Fikrimizcha, bularning har biri murakkab hodisa bo‘lib, o‘z navbatida yanada kichikroq, torroq elementlardan, qismlardan tashkil topadi. Shuning uchun har xil tadqiqotchilar jamiyatni har xil nuqtai nazardan: kimdir tashkilotlar sifatida, kimdir - ijtimoiy munosabatlar sifatida, kimdir -kishilar guruhlari sifatida, kimdir - ijtimoiy birliklar aloqadorligi sifatida o‘rganadilar.

Jamiyatning asosiy elementlaridan biri sifatida inson jamiyat hayotida qandaydir (masalan, mehnat, kasaba tashkiloti, etnik, diniy va shu kabi) jamoalarning a’zosi sifatida ishtirok etadi. Forobiyning inson va jamiyat haqidagi fikrlari uning "Fozil shahar aholisi" asarida keng bayon qilib berilgan. Uning fikricha "Aql va nafs insonning boshlang‘ichidir... ammo bu boshlang‘ichlar odamzotning shu tabiiy boshlang‘ichlar (ya’ni moddiy borliq) ta’siri ostida kamol topib, insonga aylanishi uchun kifoya qilmaydi, chunki inson insoniy kamolotga erishuvi uchun so‘zlash, ishlash (kasb-hunar)ga muhtojdir"[1].

Uning fikricha inson doimo kamolotga intiladi. "Lekin bu... quruq intilish bilangina cheklanib qolmasdan, balki tabiiy mavjudotdagi juda ko‘p predmetlardan foydalanish yo‘li bilan yoki shu tabiatda bo‘lgan juda ko‘p ishlarni amalga oshirish bilan qo‘lga kiritiladi... Bir kishining o‘zi yolg‘iz, birovning yoki ko‘pchilikning yordamisiz kamolotga erishuvi mumkin emas,- deydi Forobiy, - har bir insonning tug‘ma tabiatida va unga lozim bo‘lgan har qanday ish-harakat jarayonida boshqa bir inson yoki ko‘pchilik bilan munosabatda bo‘lish, o‘zaro aloqa qilish xususiyati bor, odamzot jinsidan bo‘lgan har qanday insonning

ahvoli shu, u har qanday kamolotga erishuvida boshqalarning ko‘maklashuvlariga va ular bilan birlashishga muhtoj yoki majburdir". Shunday qilib, inson o‘z ijtimoiy vazifalarini ado etish uchun boshqa kishilar bilan muloqotga muhtojdir.

Shuningdek, Forobiyning fozil jamoa qurish haqidagi ta’limotiga adolat g‘oyasi asos qilib olingan bo‘lib, unda adolat jamiyatdagi barcha kishilar uchun baxt-saodat eshiklarini ochib beruvchi, barcha uchun kerakli va foydali bo‘lgan buyuk ne’mat ekanlagi ta’kidlanadi. Uning yuzaga chiqishi uchun muayyan ijtimoiy shartsharoitlar, eng avvalo, yuksak axloqiy va ma’naviy asoslar ustiga qurilgan fozil jamoa bunyod etilmog‘i lozim. Fozil jamoada odamlar faqat sa’y-harakatlari, fazilatli ishlari, hamjihatlik va o‘zaro hamkorlik bilan baxtga erishadilar. Jamiyat hayotida hamkorlik, hamjihatlik, osoyishtalik va farovonlikning vujudga kelishi adolatdandir. Demak, adolat fozil hukmdor rahbarligidagi mukammal davlatchilik faoliyati natijasida yuzaga chiqadigan ezgu ishlar natijasidir [2].

Demak, Forobiyning fikricha, hamma uchun baxt-saodat eshiklarini ochish imkoniyatini vujudga keltirish fozil jamoaning o‘z oldiga qo‘ygan yuksak maqsadidir. Bu maqsadni amalga oshirish uchun donolik va aql-farosat bilan isli olib borish lozim. Fozil jamoaning boshqa nomukammal jamiyatlardan farqi shundaki, uning fuqarolari insonning hayotiga bog‘liq bo‘lgan fazilatli narsalarga erishish maqsadida bir-biriga ko‘maklashadilar, jamiyat hayotida o‘zaro ishonch, mehr-muhabbatni qaror topishiga olib keluvchi hatti-harakatlarni amalga oshiradilar. Chunki ularning maqsadi bitta - baxtga erishmoq. Shu bois fozil jamoaning mavjudligi - ijtimoiy adolatning qaror topganligining ifadasidir.

Shu o‘rinda, Beruniy jamiyatning vujudga kelishi asosida kishilarning moddiy ehtiyojlari turishini ta’kidlagan edi. "Inson unda ko‘plab ehtiyojlar mavjudligi, o‘zini himoya qilish usullarining kamligi va dushmanlarining ko‘pligi bois o‘ziga o‘xshash kishilar bilan o‘zaro ko‘maklashish hamda uni va boshqalarni ta’minlashga qodir ishlarni amalga oshirish uchun jamiyatga birlashishga majbur bo‘ladi". Beruniy asl insoniy xislatlar qatoriga muruvvatlilikni kiritadi. Muruvvatli kishi, uning fikricha yuksak madaniyatli, dono, bilimli, axloqiy etuk, ilg‘or dunyoqarashga ega insondir. Ana shunday kishilar boshqalarga yaxshi munosabatda bo‘ladilar, ortiqcha zebu-ziynatlarga intilmaydilar, dehqonchilikmi, hunarmandchilikmi, savdogarchilikmi bo‘lmasin, o‘z mehnati evaziga kun kechiradilar. Ular doimo sabr-toqatli, muloyim, qat’iy va sodda-oddiy kishilardir.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, Bobur boshqa mutafakkirlar kabi jamiyat haqida tugallangan ta’limot yaratgan emas. Ammo uning asarlarida, she’rlarida jamiyat, insonning jamiyatdagi o‘rni, davlat va fuqarolaming o‘zaro munosabatlari, davlatni boshqarish kabi masalalar haqida ilg‘or g‘oyalar, fikr-mulohazalar ko‘p uchraydi. Boburning bu fikrlari uning uzoq yillar davomida o‘z podshohligini tuzish, mustahkamlash, rivojlantirish tajribasiga tayangan holda aytilgani bilan qimmatlidir.

Navoiy "Saddi Iskandariy" va boshqa asarlarida shohni bog‘bonga, mamlakatni esa bog‘ga qiyoslaydi. Uning fikricha, agar bog‘bon oqil, mehnatsevar bo‘lsa, uning bog‘i gullab yashnaydi. Agar podshoh oqil, ma’rifatli, bilimdon, adolatparvar bo‘lsa, xalqini sevsa, unda mamlakat ham obod bo‘ladi. Aks holda u xarobaga aylanadi. Navoiy "Saddi Iskandariy"da ideal podsho obrazini yaratadi. Bu- Sharq xalqlari rivoyatlarida keng tarqalgan Iskandar Zulqarnayn obrazidir. Iskandar-yetuk olim, donishmand podsho, iste’dodli sardor va xalqparvar davlat arbobi - islohotchidir. Ayni paytda Iskandarda komil insonga xos xususiyatlar ham tasvirlanadi: u dili va niyati pok, saxovatli, kamtarin va muloyim shaxs; dono podsho va dunyo sirlarini bilishga qiziquvchi aql-zakovat egasidir. Navoiy bu obrazni yaratar ekan, o‘zining ezgu maqsadi - jamiyatni hikmat, adolat bilan boshqarish kerak, degan ijtimoiy g‘oyani ilgari suradi. Shu ma’noda "Saddi Iskandariy"da Navoiy insonparvarligiga xos siyosiy nazariya (ideal davlat qurish) va axloqiy nazariya (komil inson ta’limoti) bir-biriga uzviylashib ketgan [3].

Xulosa qilib aytganda, shaxs va jamiyat o‘zaro uzviy bog‘langan tushunchalardir. Shaxs jamiyatda shakllanadi, rivojlanadi. Bugungi kunda esa har bir shaxs jamiyat hayotida muhim ro‘l o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qozoqov S. Shaxs va jamiyat (AL va KHK o‘quvchilari uchun uslubiy qo‘llanma). Namangan-2017.
2. Xayrullayev M. M., O‘rta Osiyoda ilk uygonish davri madaniyati, T., 1994;
3. Alisher Navoiy. «Saddi Iskandariy. Yangi asr avlodi, 2009-yil.

A2 DARAJADAGI INGLIZ TILI O‘RGANUVCHILARIGA OG‘ZAKI NUTQ KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

G.N.Abdurasulova
NamDU stajyor-o‘qituvchi
Tel:+998995153880 Email:abdurasulovaguljahon2515@gmail.com

Annotatsiya: ushbu tezisda ingliz tilisi A2 darajadagi maktab o‘quvchilarida og‘zaki nutq kompetensiyalarini shakllantirishga yonaltirilgan samarali usullar keltirib o‘tilgan. Muloqotga asoslangan yondashuv (communicative teaching approach), obrazli mashg‘ulotlar, interaktiv o‘yinlar, hikoya aytish(storytelling) kabi yondashuvlar o‘quvchilarni ingliz tilida erkin va ravon gapirishini ta’minlaydi. Shuningdek, amaliy mashg‘ulotlar tilni real hayotda foydalanishga ko‘maklashishi tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: kommunikativ yondashuv, interaktiv metodlar, obrazli mashg‘ulotlar, og‘zaki nutq, amaliy mashg‘ulotlar, o‘z-o‘zini baholash.

Аннотация: в данном тезисе представлены эффективные методы формирования устной речевой компетенции у школьников уровня A2 по английскому языку. Подходы, основанные на общении (communicative teaching approach), образные занятия, интерактивные игры, а также рассказывание историй (storytelling) способствуют свободному и беглому говорению учащихся на английском языке. Кроме того, проанализировано, как практические занятия помогают использовать язык в реальной жизни.

Ключевые слова: коммуникативный подход, интерактивные методы, образные занятия, устная речь, практические занятия, самооценка.

Annotation: This thesis presents effective methods aimed at developing speaking competencies in school students at the A2 level of English. Approaches such as the communicative teaching approach, visual-based activities, interactive games, and storytelling help students speak English fluently and confidently. In addition, the role of practical activities in facilitating the use of language in real-life situations is analyzed.

Keywords: communicative approach, interactive methods, visual-based activities, speaking skills, practical activities, self-assessment.

Ingliz tili dars jarayonlarida interktiv usullardan foydalanish til ko‘nikmalarini shakllantirish bilan bir qatorda og‘zaki nutq kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. A2 darjadagi o‘quvchilarning og‘zaki nutq kompetensiyalarini rivojlantirishda interaktiv usullardan foydalanish o‘quvchilarda tilga bo‘lgan qiziqishini ortiradi. Interaktiv metodlar — bu o‘quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etadigan, ularning fikrlash, muloqot qilish va hamkorlik qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan o‘qitish uslublaridir. Bu metodlar o‘quvchilarni dars jarayoniga faol jalb qiladigan hamda hamkorlikka asoslangan bo‘lib, o‘rganilayotgan bilimni chuqurroq tushunishga va mustahkamlashga yordam beradi. Interaktiv usullar o‘quvchilarning tilni amaliy jarayonda faol foydalanishga ko‘maklashadi. Interaktiv usullarga rolli mashg‘ulotlar, hikoya aytish va debatlar kiradi. Rolli mashg‘ulotlarda o‘qituvchilar o‘quvchilarga turli rollarda muloqot qilishni mashq qilish imkoniyatini yaratadilar — ya’ni o‘quvchilarga biror muammo taqdim etiladi va ular bu muammoni hal qilish uchun ushbu metodni qo‘llaydilar. Bundan tashqari, rol o‘ynash usuli yakka o‘quvchilarga drama ichida biror obrazni ijro etishda ham qo‘llanilishi mumkin, shuningdek, o‘qituvchilar dialog matnlaridan ham foydalanishlari mumkin. Bu o‘quvchilarga o‘zlariga tegishli rollarni ijro etish orqali ingliz tilida og‘zaki nutqni mashq qilish imkonini beradi va ular omma oldida gapirishga ko‘proq jur’atli bo‘ladilar. Ushbu metodni amalga oshirish bosqichlari quyidagilardan iborat: muammoni tanlash,rollarni tanlash,rollarni sahnalashtirish bosqichini tayyorlash,kuzatuvchini tayyorlash,rollarni ijro etish bosqichi,munozara va baholash bosqichi,xulosa chiqarish.

Obrazli mashg‘ulotlar o‘quvchilarga kasbga oid vaziyatlarga o‘xshash faoliyatlarda ishtirok etish imkonini beradi va ushbu holatda o‘quvchilardan izgliz tilida suhbatlashish talab qilinadi. O‘quvchilarga rol o‘ynash mashg‘ulotlaridan qanday foydalanishni tushunishga yordam berish uchun bu mashg‘ulotlar **mazmunga yo‘naltirilgan, o‘quv maqsadlariga mos va haqiqiy hayotdagi holatlarga tegishli** bo‘lishi kerak. O‘quvchilarning yoshi va qiziqishi bo‘yicha mavzular tanlab olinishi lozim bo‘lib, usha mavzu yuzasidan turli obrazlar yaratilishi kerak. Har bir obraz mavzu yuzasidan dialoglar ingliz tilida olib borishi o‘quvchilarda mavzu yuzasidan lug‘at boyligining oshishiga hamda usha obraz bo‘yicha real hayotda foydalana olishiga yordam beradi. Og‘zaki nutq kompetensiyaning maqsadi ham tilni real hayotga tatbiq

etishdan iborat. Shu bilan birga, obrazli mashg‘ulotlar o‘quvchilarda **moslashuvchanlikni rivojlantiradi** va **turli vaziyatlarda samarali muloqot qilish** ko‘nikmasini ham mustahkamlaydi.

Hikoya qilish o‘quvchilarga fikrlarini tartibga solish, aniq gap tuzish va ravon so‘zlashni o‘rgatadi. Ular hikoya aytish jarayonida talaffuz, ohang (intonatsiya) va tezlikni tabiiy ravishda mashq qilishadi**.Shuningdek, h**ikoya qilish o‘quvchilarga o‘zlarini erkin va ijodiy tarzda ifoda etish imkonini beradi. Vaqt o‘tishi bilan bu, tortinchoq yoki jimjit o‘quvchilarning ko‘z o‘ngida so‘zlashlariga yordam beradi.Hikoya orqali o‘quvchilar yangi so‘zlar, iboralar va grammatik tuzilmalar bilan tanishadilar. Ular tilda tabiiy va kontekstga mos foydalanishni o‘rganadilar.Hikoya qilish o‘quvchilarning tasavvurini ishga soladi. Ular qahramonlar, joylar va voqealar yaratadilar, bu esa so‘zlashuv jarayonini yanada qiziqarli va zavqli qiladi.O‘quvchilar ma’lumotlarni mantiqiy tartibda tashkil qilishni, voqealar ketma-ketligini (boshlanishi, o‘rtasi, yakuni) tushunishni va bog‘lanishlarni yaratishni o‘rganadilar — bu esa samarali muloqot uchun muhim ko‘nikmalardir.Hikoyalar orqali o‘quvchilar turli hissiyotlar, holatlar va hatto madaniyatlar bilan tanishadilar. Bu ularda hamdardlik va keng fikrlashni rivojlantiradi.Odamlar faktlardan ko‘ra hikoyalarni yaxshiroq eslab qolishadi. Shuning uchun hikoya qilish til o‘rganishni mazmunli va esda qolarli qiladi.

Xulosa. A2 darajadagi ingliz tili o‘rganuvchilari uchun og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish – bu o‘quvchilarning kundalik muloqotda mustaqil va ishonchli so‘zlashlarini ta'minlashga qaratilgan muhim jarayondir. Ushbu bosqichda til o‘rganuvchilarning so‘z boyligi cheklangan bo‘lishi mumkin, shuning uchun darslarda rol o‘ynash, hikoya qilish, juftlikda va guruhda muloqot qilish kabi faol metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Interaktiv va kommunikativ yondashuvlar o‘quvchilarda muloqotga bo‘lgan ishtiyoqni oshirib, ularni haqiqiy hayotiy vaziyatlarda tilni qo‘llashga tayyorlaydi. Shuningdek, o‘quvchilarning talaffuz, grammatika va intonatsiya ustida ishlashi ham nutq ravonligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Demak, A2 darajadagi o‘rganuvchilar bilan ishlashda samarali metodik yondashuvlar orqali ularning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini izchil va bosqichma-bosqich rivojlantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G.I.Xamraeva. Yosh til o‘rganuvchilarni og‘zaki nutqini hikoya aytish orqali rivojlantirish.AMERICAN Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education Volume 02, Issue 04, 2024 ISSN (E): 2993-2769

2. M.B. Jumayeva, D. Naimov, M.U Shaymardanova.Methods of improving speaking skills of students in english classses.Science and innovation international scientific journal 2023.12-dekabr.UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337

3. Sh.Sh.Kosimova.Methods of teaching speaking to secondary school students in Uzbekistan.European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE) Volume 4 | Issue 03 | March-2024 ISSN: 2795-8612

4. Emad Abdelhalim Abdou Shalaby, Dr. Salah Al-Din Mohamed BadrPort Said Enhancing EFL Speaking Skills of Secondary School Students through Constructivist Learning Activities (CLAs) Program Journal of Educational Research (PSJER)2024, VOL. 3, Issue no. 1, 138-168.DOI: 10.21608/psjer.2023.243563.1023

5. Nabeela Hayat.Factors affecting Students’ English Speaking Skills at Secondary School Level.Social and science journal.

RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK DINAMIKASI

A.X.Po‘latov
Namangan davlat texnika universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mazmuni yoritib o‘tilgan. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlarda kichik biznesni rivojlanishi va unga oid ayrim iqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlili bayon etilgan hamda undagi ayrim muammolar ko‘rsatib o‘tilgan. rivojlangan mamlakatlar tajribasidan mamlakatimiz kichik biznes sohasini rivojlantirishda foydalanishi mumkin bo‘lgan qirralar ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: kichik tadbirkorlik, tadbirkorlik faoliyati, tadbirkorlik subyektlari , jahon tajribasi,

rivojlangan mamlakatlar, kichik biznes hissasi, kichik biznes soni, ayollar boshchiligida biznes.

Аннотация: В статье рассматривается содержание малого бизнеса и частного предпринимательства. Описывается развитие малого бизнеса в развитых странах, некоторые экономические показатели, связанные с ним, а также выявляются некоторые проблемы. Показаны аспекты, которые наша страна может использовать из опыта развитых стран в развитии сектора малого бизнеса.

Ключевые слова: малый бизнес, предпринимательская деятельность, хозяйствующие субъекты, мировой опыт, развитые страны, вклад малого бизнеса, количество малых предприятий, предпринимательство, возглавляемое женщинами.

Abstract: This article covers the content of small business and private entrepreneurship. It also describes the development of small business in developed countries and some economic indicators related to it, and identifies some problems in it. It shows the aspects that our country can use from the experience of developed countries in the development of the small business sector.

Keywords: small business, entrepreneurial activity, business entities, world experience, developed countries, the contribution of small business, the number of small businesses, women-led business.

Kirish. Bugungi kunda kichik tadbirkorlik sohasi iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri hisoblanib, aholi ehtiyojini qondirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va mahalliy xomashyodan samarali foydalanishda muhim o‘rin tutadi. Xususan, kichik biznes subyektlarining ushbu sohadagi ishtiroki nafaqat tayyor mahsulotlarining turlari va sifatini oshirish, balki mahsulotlarni qayta ishlash hamda ichki bozorni to‘ldirishda ham katta ahamiyatga ega.

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida ham kichik biznesning o‘rni katta. AQShda barcha bizneslarning 99,9% i, Yaponiyada 99,7 % i, Germaniyada 99,5 % i, Buyuk Britaniya va Janubiy Koreyada 99,9 % i kichik biznesga to‘g‘ri keladi.

O‘zbekistonda kichik biznesni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar natijasida ushbu sohada faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar soni tobora oshib bormoqda. Ushbu tendentsiya nafaqat ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish, balki innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda raqobatbardosh mahsulotlar tayyorlash imkonini ham beradi. Shu bois, iqtisodiyotda kichik biznesning o‘rni va ahamiyatini o‘rganish, uning muammolari va rivojlanish istiqbollarini tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Asosiy qism. Bozor iqtisodiyoti va raqobat sharoitida ishlab chiqarish sohasida kichik tadbirkorlik korxonalarining tashkiliy faoliyati muammolari ko‘p qirrali xususiyatga egadir. Chunki ularga o‘zgaruvchan tashqi muhit ta'sir qiladi. Bu sharoitda iste'molchilarga mahsulot yetkazib berish an'anaviy tashkiliy vazifalari yangi mazmunga ega bo‘ladi.

Mamlakatimiz olimlaridan N.U.Beknozov [3.2005:B.210-211], A.O‘lmasov [8.1995:B.192], Sh.Sh.Shodmonov [10.2007:B.136], U.V.G‘ofurov [10.2007:B.136], F.F.Mamatov [7.2008:B.13], H.P.Abulqosimov [1.2006:B.41-42], I.U.Ibragimov [4.2019:B.155], M.A.Bekmirzayev [2.2020:B.146] larning tadqiqotlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mazmun-mohiyati, uning rivojlanishi, qo‘llab-quvvatlash yo‘llari va rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari yoritib o‘tilgan.

Xorijiy davlat olimlaridan A.Smith [11.2007:B.1590], A.R.Turgot [17.1961:B.198], F.A.Walker [18.1960:B.143-153], A.Marshall [12.1993:B.415], J.B.Klark [14.2000:B.232], J.Shumpeter [19.1995:B.289], F.Knight [16.2003:B.360], D.MakKlelland [13.1969:B.409], P.F.Drusker [9.1985], R.Hisrish [6.1966], J.R.Sulley [5.2013:B.22-23] kabi iqtisodchilarning asarlarida tadbirkorlikning shakllanishi, mazmun-mohiyati, tashkil etish, biznes so‘zining mohiyati, xarajatlarni qisqartirish faoliyati ekanligi, qiymatga ega bo‘lgan ashyoni yaratish, biznesni iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli kabi masalalarni ko‘rib o‘tganlar.

Ma’lumki, *tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik)* – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Ma’lumki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning samarali faoliyat yuritishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. kichik biznesning rivojlanishi ko‘p jihatdan davlatning mazkur sektorni tartibga solish bo‘yicha olib boradigan siyosatiga bog‘liq.

Jahon tajribasi, rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning taraqqiy etishi uchun qulay makroiqtisodiy muhit yaratilishi bilan birga unga davlat tomonidan turli xil yordamlar

ko‘rsatishdan dalolat beradi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha jahon tajribasi boy va xilma xil bo‘lsa-da, ular bir-birlaridan ushbu jarayonni amalga oshirish mexanizmi, usul va vositalari jihatidan farq qiladi. Mazkur tajribani o‘rganish, uning ijobiy tomonlaridan mamlakatimizning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda samarali foydalanish iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirilayotgan bugungi kunda eng dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlashda mahalliy bozorning o‘ziga xos xususiyatlarini va tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xorijiy tajribadan foydalanish mumkin.

Janubiy Koreyadagi Koreya kreditlarni kafolatlash jamg‘armasi (KODIT) va Koreyaning ko‘k va Startaplar agentligi (KOSME), Yaponiyaning moliya korporatsiyasi, Qozog‘istondagi Damu jamg‘armasi, Turkiyaning KOSGEB tashkiloti va Kredit kafolat jamg‘armasi, Vengiriyaning Garantika jamg‘armasi, AQSh kichik biznes ma’muriyati (SBA) va bir qator davlatlarning o‘xshash tashkilotlar bilan strategik yo‘nalishlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash instrumentlarining qo‘llaniladi.

Keyingi yillarda kuzatuvlar va turli statistik ma’lumotlar ushbu davlatlar YaIMda kichik va o‘rta biznes yuqori ulushga ega va ularda tadbirkorlik faoliyati iqtisodiyotida muhim rol o‘ynaydi. AQShdagi kichik biznes ma’muriyati (SBA) erkin raqobatbardosh tadbirkorlikni saqlab qolish, shuningdek, mamlakatning umumiy iqtisodiyotini o‘stirish va mustahkamlash maqsadida kichik biznes manfaatlarini himoya qilish, maslahat berish, qo‘llab-quvvatlash va himoya qiluvchi davlat tashkiloti hisoblanadi.

Quyidagi jadval ma’lumotlari yordamida rivojlangan mamlakatlarda kichik biznesga oid bir qator ko‘rsatkichlar yoritib o‘tamiz.

1-jadval. Rivojlangan mamlakatlarda kichik biznesning ulushi

Davlat	Kichik bizneslar ulushi (%)	Bandlikdagi ulushi (%)	YaIMdagi hissasi (%)	Kichik bizneslar soni
AQSh	99.9%	46%	44%	33 mln
Germaniya	99.5%	58%	53%	3,5 mln
Yaponiya	99.7%	70%	52%	3,58 mln
Buyuk Britaniya	99.9%	60%	52%	5,5 mln
Janubiy Koreya	99.9%	87.9%	48%	8,0 mln

AQSh da yangi ish o‘rinlarining 60%dan ortig‘i so‘nggi 25 yilda kichik biznes hissasiga to‘g‘ri keladi. AQSh da kichik bizneslar nafaqat ish o‘rinlari yaratadi, balki iqtisodiy innovatsiyalar va yangi bozor segmentlarini ham yuzaga keltiradi. 2022-yildan 2024-yilgacha kichik bizneslar soni to‘liq ijtimoiy va iqtisodiy dinamikani aks ettirdi: biroz mo‘tadil o‘sishdan (2022–2023) keyin 2024-yilda sezilarli namoyon bo‘ldi. 2024-yildagi o‘sish tezligi — 4.5 % — so‘nggi besh yil ichida o‘rtacha o‘sishdan ancha yuqori. Kichik bizneslar AQSh iqtisodiyotida muhim rolь o‘ynashi davom etmoqda: ish o‘rinlari, iqtisodiy barqarorlik va yangi tadbirkorlik iste’dodini rag‘batlantirishda faol ishtirok etadi.

Buyuk Britaniyada SMEs (Small and Medium Enterprises) deb 250 nafargacha xodimga ega korxonalarni aytiladi. Ushbu biznes **2023-yilda umumiy xususiy sektor qiymatining yarmidan ko‘pini (52%) yaratgan.** Shuningdek, ular **barcha xususiy sektor ish o‘rinlarining 60%ini ta’minlaydi.**

Germaniya **3,5 milliondan ortiq kichik va o‘rta biznes (KMU – "kleine und mittlere Unternehmen") faoliyat yuritadi** [20.2023].Bu korxonalar **Germaniyadagi barcha bizneslarning 99,5%ini** tashkil etadi. Ularning katta qismi mikrobizneslar (10 nafargacha xodimga ega). **Band aholining 58%** ushbu korxonalarda ishlaydi. Kichik bizneslar Germaniyadagi innovatsiya, eksport va iqtisodiy barqarorlikning asosiy dvigateli hisoblanadi. **Ayol tadbirkorlar ulushi:** Germaniyada 2024-yilda ish boshlagan tadbirkorlarning taxminan 36%i ayollar hisoblanadi (585,000 yangi startap ichida 210,600 ta). **Startap ekotizimi:** umumiy startup tashkilotchilarining faqat 18,8% i ayollar boshchiligida bo‘lgan. **Moliyalashtirishdagi tafovut:** 2024-yilda ayol-jamoalari tomonidan tashkil etilgan startaplar faqat 1% moliyalashtirish hajmini olgan — €43 mln, erkak-jamoalari esa €6.2 mlrd jalb qilgan (ulush 79%)

Yaponiyada 3,58 milliondan ortiq kichik va o‘rta biznes (SMEs) faoliyat yuritadi [21.2022]. Bu — Yaponiyadagi barcha biznes subyektlarining 99.7%ini tashkil etadi. Ularda taxminan 70% ishchi kuchi band. Kichik bizneslar Yaponiya iqtisodiyotida asosiy rol o‘ynab, hududiy rivojlanish va mahalliy ish o‘rinlarini yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Janubiy Koreyada kichik va o‘rta bizneslar (SME) soni 8 milliondan ortiqni tashkil qiladi, bu mamlakatdagi barcha korxonalarning taxminan 99,9% ini tashkil etadi. Mikro korxonalar (eng kichik,

ko‘pincha yakka tartibdagi tadbirkorlar) — taxminan 7,66 million taga teng bo‘lib, kichik korxonalar — taxminan 262 ming tani tashkil etadi. Bu korxonalarda odatda kam sonli ishchi bo‘ladi va yillik daromadi 12 milliard vondan (KRW) kam bo‘ladi. O‘rta bizneslar — taxminan 124 ming taga teng.

Gender tengligiga alohida e’tibor berilyapgan hozirgi davrda rivojlangan mamlakatlarda ayollar boshchiligida biznes sohasi o‘ziga xos ko‘rsatkichlarni ifodlaydi.

2-jadval. Rivojlangan mamlakatlarda ayollar boshchiligidagi startaplar ulushiga oid ayrim ma’lumotlar

Mamlakat	Ayol boshchiligidagi startaplar ulushi	Moliyalashtirish statusi
AQSh	15%	Faqat 2% VC mablag‘i
Germaniya	10–11%	Ayol jamoalari ulushi — ~1%
Buyuk Britaniya	6%	2% equity, 9% unicornda
Janubiy Koreya	**11.4%**	$2 mlrd sarmoya, K-Startup GC
Yaponiya	8.4 %	VC sarmoyasining atigi 2.3%

Biroq rivojlangan mamlakatlarda ayollar boshchiligidagi startaplarni moliyalashtirish va bunga oid jarayonlarda muammolar mavjudki, ularga - Gender bias (bu odamlarning jinsiga qarab ularni kamsitish, potentsialini past baholash yoki adolatsiz munosabatda bo‘lish, ayol rahbarlar investorlar tomonidan kam ishonchli deb baholanishi mumkin, ayollar boshqargan startaplarga kam mablag‘ ajratilishi, yoki kam savol berilgan holda rad etilishi mumkin), egal muvozanatdagi qaror qabul qiluvchilar(qaror qabul qiladigan lavozimlarda ayol va erkaklar soni nisbatan teng bo‘lishi kerak, investorlar, hukumat organlari yoki kompaniya ra’bariyatida faqat erkaklar bo‘lsa, ular ayollarning biznes g‘oyalariga qiziqishsiz yoki bee’tibor bo‘lishi mumkin), moliyalashtirishdagi juda katta tafovut, kam patent - 20% ITdagi ayollar, ayollar uchun maxsus data mavjud emas (gender bo‘yicha statistik ma’lumotlar yig‘ilmaydi yoki alohida tahlil qilinmaydi) va gender stereotiplari (jamiyatda ayollar va erkaklar haqidagi an’anaviy, aksariyat hollarda noto‘g‘ri va cheklovchi tasavvurlar), ayol rahbarlikka ijtimoiy qaramlik va ma’lumotlar yetishmasligi kabilarni sanab o‘tishimiz mumkin.

Shu bilan birgalikda, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kichik biznesni rivojlantirishning bir qator afzalliklari mavjud bo‘lib, uni quyidagilarda ko‘rish mumkin: *ish o‘rinlarini yaratish* (kichik korxonalar, ayniqsa, chekka hududlarda va yirik kompaniyalar qiziqish bildirmaydigan sohalarda asosiy ish beruvchi hisoblanadi); i*qtisodiy o‘sish (k*ichik biznes YaIM o‘sishiga hissa qo‘shadi, raqobatni rag‘batlantiradi va bozorni mahsulot va xizmatlar bilan to‘ldiradi); i*nnovatsiyalar (*kichik korxonalar ko‘pincha yangi g‘oyalar va texnologiyalar manbai bo‘lib, bu umumiy iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shadi); i*jtimoiy integratsiya (*kichik biznes o‘zini o‘zi band qilish va ijtimoiy integratsiya imkoniyatlarini, ayniqsa, ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj aholi guruhlari uchun yaratadi); *bozor infratuzilmasini rivojlantirish (k*ichik biznes transport, aloqa va moliyaviy xizmatlar kabi infratuzilmani rivojlantirishga hissa qo‘shadi).

Xulosa va tavsiyalar. Rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes sohasi iqtisodiy o‘sishning muhim omili hisoblanadi. U ish o‘rinlari yaratishga, ishlab chiqarishni oshirishga va aholi turmush darajasini ko‘tarishga xizmat qiladi. Kichik biznes mehnat bozorining moslashuvchanligini ta’minlaydi, innovatsiyalar yaratadi hamda yirik korxonalar faoliyatini to‘ldirib boradi.

Rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash tajribasiga ko‘ra, barcha mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirishning aniq mexanizmi ishlab chiqilgan. Ushbu tajribalarni chuqur tahlil qilish asosida respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishi uchun qulay imkoniyatlarni vujudga keltiruvchi kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash mexanizmini yaratish bugungi kundagi dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimida ularning davlat buyurtmalarini bajarishda qatnashishi muhim o‘rin egallaydi. Shunday qilib, tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha jahon tajribasini umumlashtirish natijalari ulardan O‘zbekistonda quyidagi yo‘nalishlarda foydalanish mumkinligini ko‘rsatadi:

– monopoliyalarga qarshi qonunchilikning amaliy ahamiyatini oshirish, monopolistik tuzilmalarni kamaytirish hamda monopoliyaga oid qonunchilikni ijro etish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqishda;

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga qo‘llaniladigan soliq stavkalarini tartibga solish va soliq bo‘yicha imtiyozlar tizimini takomillashtirishda;

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishda;

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga boshqaruv, texnik va axborot yordamlarini ko‘rsatish mexanizmini takomillashtirish va rivojlantirishda va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abulqosimov H.P.Iqtisodiyotda inson omili: shakllanishi, amal qilishi va faollashuvi. Monografiya.-T.: Akademiya. 2006.-41-42-betlar.

2. Bekmirzayev M.A. Tadbirkorlik sub’ektlarini barqaror iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari. Iqtis.fan.bo‘y.fal.dok. (PhD)dis...-Namangan, 2020.-146.

3. Beknozov N. Iqtisodiyot nasariyasi .-T.: TDY nash ,2005. 300 bet.

4. Ibragimov I.U. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tadbirkorlik faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. (Namangan viloyati misolida). Iqtis.fan.bo‘y.fal.dok. (PhD) dis. -Toshkent., 2019. -155 b.

5. Jennifer R. Culley. **A Glossary of Political Economy Terms 2013176 Paul M. Johnson. A Glossary of Political Economy Terms. Auburn, AL: Auburn University Last visited February 2013. Gratis URL: www.auburn.edu/~johnspm/gloss/** // Reference Reviews. — 2013-06-07. — Т. 27, вып. 5. — С. 22–23. —**doi**:**10.1108/rr-02-2013-0039.**

6. Johann Heinrich von Thünen.- Von Thunen’s Isolated State (Pergamon, 1966)

7. Mamatov F.F. Kichik biznesning rivojlanish muammolariga sinergetik yondashuv asosida uni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish yo‘nalishlari.-T.: “Iqtisod-moliya”, 2008.-13-bet.

8. O‘lmasov A., Sharifxo‘jaev M. Iqtisodiyot nazariyasi Darslik.-T.:Mehnat, 1995.- 192-bet.

9. Peter Ferdinand Drucker. Innovation and Entrepreneurship.1985. The World Education Forum is a premium body comprising representatives of major organisations involved in education and related activities across the world. **http://www.google.com/url=t&rct**.

10. Shodmonov Sh.Sh., G‘ofurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi.Darslik.- T., 2007.-136-bet.

11. Адам Смит.«Исследование о природе и причинах богатства народов» (Adam Smith. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations). Под редакцией Автономова В.С., Ананьина О.И., Афанасьева В.С., ВасинойЛ.Л., Клюкина П.Н., Макашевой Н.А., Энтова Р.М. ООО «Издательство «Эксмо», 2007.-1590 с. **https://www.litres.ru/static/or4/view/or.**

12. Альфред Маршалл (Alfred Marshall) – Маршалл А. Принципы экономической науки. Т.I. / Пер. *с* англ. – М.*:* Издательская группа *«*Прогресс*»,* 1993. – 415 с.

13. Девид Макклеланд (David C. McClelland) - Мотивация экономического достижения. Авторы Дэвид К. Макклелланд и Дэвид Г. Винтер. Нью-Йорк и Лондон: Free Press-Collier-Macmillan, 1969. 409 с.

14. Джон Бейтс Кларк (John Bates Clark) – «Распределение богатства». Издательство **Гелиос АРВ**. Серия **Классики экономической науки - XX век**. 2000. Трактат по политической экономии.Дело.-232 с.

15. Кантильон Р. (Richard Cantillon) Эссе о природе торговли в общем плане. Ч. 1. Гл. 13 // Мировая экономическая мысль... Т. I. – 276 с.

16. Найт Ф. (Frank Hyneman Knight) - Найт Ф. Х. **Риск, неопределенность и прибыль** / Пер. с англ. — М.: **Дело**, 2003.— 360 с.

17. Тюрго А.Р. (Anne Robert Jacques Turgot) «Размышления о создании и распределении богатства. Ценность и деньги». «Избранные экономические произведения» - Москва: Соцэкгиз, 1961 - 198 с.

18. Френсис Уокер (Francis Amasa Walker) - Шпигель, Генри В. 1960.Фрэнсис А. Уокер. 143–153 с.

19. Шумпетер Й. Капитализм, социализм и демократия.-М.:Экономика.1995. -289 с.

20. **BMWK – Bundesministerium für Wirtschaft und Klimaschutz**, 2023.

21. SMRJ — Organization for Small & Medium Enterprises and Regional Innovation, Japan, 2022.

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA KICHIK BIZNESNI ROLI

A.X.Po‘latov
Namangan davlat texnika universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashda qishloq xo‘jaligidagi kichik biznes subyektlarining ahamiyati yoritib o‘tilgan. Shuningdek sohada yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari, ulushi, sohada yetishtirilayotgan mahsulotlar hajmi tahlil etilgan. Qishloq xo‘jaligi sohasida kichik biznes subyektlarini rivojlantirishdagi soha xususiyatiga xos ayrim muammolar ko‘rsatib o‘tilgan va tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: oziq-ovqat, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, kichik biznes subyektlari, tabiat qonunlari, yuqori malakali kadrlarga ehtiyoj, investitsiyalar, infrastrukturani rivojlantirish.

Аннотация: В статье рассматривается роль малого бизнеса в сельском хозяйстве в обеспечении населения качественными продуктами питания. Проанализированы количество вновь созданных малых предприятий в отрасли, их доля и объёмы производства продукции. Обозначены некоторые проблемы развития малого бизнеса в агропромышленном комплексе и разработаны соответствующие рекомендации.

Ключевые слова: продовольствие, сельскохозяйственная продукция, малый бизнес, законы природы, потребность в высококвалифицированных кадрах, инвестиции, развитие инфраструктуры.

Abstract: The article highlights the importance of small businesses in agriculture in providing the population with quality food products. It also analyzes the number of newly established small businesses in the sector, their share, and the volume of products grown in the sector. Some problems inherent in the development of small businesses in the agricultural sector are indicated and relevant recommendations are developed.

Keywords: food, agricultural products, small businesses, laws of nature, the need for highly qualified personnel, investments, infrastructure development.

Kirish. Oziq-ovqat xavfsizligi davlatning agrar va iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlaridan biridir. Shu ma’noda oziq-ovqat xavfsizligiga erishish doimiy jarayondir. Shu bilan birga, bunga erishish uchun ko‘pincha rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlari va qishloq xo‘jaligi siyosatini amalga oshirish mexanizmlari o‘zgaradi. Uzoq muddatli oziq-ovqat xavfsizligiga erishishning asosiy yo‘li qishloq xo‘jaligini keng miqyosda rivojlantirishdir. Bu rivojlanishga bevosita qishloq xo‘jaligida kichik biznes subyektlarini rivojlantirish orqali erishish mumkin.

Bu borada Prezidentimiz ta’kidlab o‘tganlaridek: “Iqlim o‘zgarishi va jahondagi murakkab vaziyat sababli oziq-ovqat xavfsizligi asosiy masalaga aylanmoqda. Jahonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining narxi oshishi kutilmoqda. Bunday vaziyatda, avvalo, aholi talabini qondirish hamda eksport imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish kerak”[1.2022].

Oziq-ovqat xavfsizligini masalasi barcha davlatlar qatori O‘zbekistonning ham mustaqilligi, ijtimoiy-iktisodiy va siyosiy barqarorligini ta’minlash garovi hisoblanadi. Yurtimizda bu muammo hamon o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Zero, ayni paytda oziq-ovqat mahcylotlapiga bo‘lgan talab oshyapti, aholi coni o‘sishi asnosida jon boshiga icte’mol ko‘paymoqda.


Demak, qishloq xo‘jaligi va sohadagi faoliyat ko‘rsatuvchi kichik biznes subyektlari rivojlanishidagi mavjud muammolarni bartaraf etish hamda rivojlantirish choralarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. Ma’lumki, O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning yetakchi tarmog‘i sanaladi. Unda 3,6 million kishi, ya’ni iqtisodiyotda band bo‘lganlarning 27 foizi ishlaydi. YaIMda tarmoq ulushi 32 foizga teng bo‘lsa, sohada foydalaniladigan yer maydonlari respublika hududining 45 foizini egallaydi. Hozirgi vaqtda 180 dan ortiq turdagi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari 80 dan ortiq mamlakatga eksport qilinayotgani diqqatga sazovor albatta.

2024-yil uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini 3,5 mlrd dollarga yetkazish rejalashtirilmoqda. Shundan meva-sabzavot 2,5 mlrd dollarga va boshqa oziq-ovqat mahsulot eksportini 1 mlrd dollarga yetkazish maqsad qilingan. Meva eksportini 45 foizga, sabzavotni – 50 foizga, poliz ekinlari eksportini – 36 foizga, uzumni – 2,2 barobarga va dukkakli mahsulotlar eksportini 32 foizga ko‘paytirish uchun choralar ko‘rilmoqda [3.2020.].

Binobarin, so‘nggi uch yilda mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifatini va eksport salohiyatini oshirishga bo‘lgan yondashuv mutlaqo o‘zgardi, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirildi [2.2024].

1-rasm. Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining 2024- yil 1- yanvar holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi.



Eng ko‘p kichik biznes subyektlari savdo tarmog‘ida (jami tashkil etilgan subyektlarning 39,9 %), sanoat sohasida (18,4 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (9,9 %) va qurilishda (4,5 %) tashkil etilgan. Demak, umumiy salohiyatda qishloq xo‘jalik sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni katta ulushni tashkil etmaydi. Bu sohada kichik biznes salohiyati yanada ko‘paytirish, uni hajmini oshirish lozimligini ko‘rsatmoqda. Bu bevosita sohadagi kichik biznes subyektlari tomonidan yetishtiriladigan mahsulotlar hajmiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir etadi.

Mamlakatimizda, qolaversa Namangan viloyatida amalga oshirilayotgan islohotlardan ma’lumki bugungi kunda halol tadbirkorlik subyektlari uchun dunyo bozorlari eshiklari keng ochilgan. Berilgan qator imkoniyat va imtiyozlardan oqilona foydalanib, o‘z faoliyatini qonuniy amalga oshirayotgan har qanday tadbirkorlik subyekti qonun himoyasidadir.

Namangan viloyatida soha doirasida ko‘plab ishlar amalga oshirilib kelinmoqda va ular o‘zining iqtisodiy natijalarini bermoqda. Jumladan, tashqi savdoni erkinlashtirish, tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishga qaratilgan choralar natijasida so‘ngi 6 yil davomida viloyatning eksporti hajmi 581,2 mln AQSh dollariga yetdi va 3 baravarga ko‘paydi.

Ushbu davr mobaynida viloyatda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash va tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar 6,8 mlrd dollar investitsiyalar o‘zlashtirish imkonini berdi. Natijada, viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 2 baravarga ko‘payib, 39,8 mingtaga yetdi va 234 mingga yaqin yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Biroq tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 2023-yilda viloyatda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va firmalar soni oldingi 2022-yilga nisbatan 906 taga kamaygan [4.2022-2023].

1-jadval. Hududlar bo‘yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar *(birlik)*

Hududlar	**2022- yil**	**2023- yil**
Viloyat bo‘yicha jami	**5 542**	**4636**
Namangan shahar	1 689	1211
Mingbuloq	236	322
Kosonsoy	267	261
Namangan	344	242
Norin	335	247
Pop	324	312
To‘raqo‘rg‘on	358	370
Uychi	353	283
Uchqo‘rg‘on	479	449
Chortoq	397	377

Chust	446	331
Yangiqoʻrgʻon	314	231

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar boʻyicha eng koʻp Namangan shahrida – 1211 ta, Uchqoʻrgʻon tumanida – 449 ta, Chortoq tumanida – 377 ta, Toʻraqoʻrgʻon, tumanida – 370 ta, Chust tumani – 331 ta, Mingbuloq tumanida – 322 ta, Pop tumani – 312 ta, Uychi tumani – 283 ta, Kosonsoy, Namangan, Norin tumanlarida bu koʻrsatkich oʻrta darajani tashkil etgan. Eng past koʻrsatkich Yangiqoʻrgʻon tumanida 231 tani tashkil etdi [4.2022-2023].

2023- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar boʻyicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng koʻp ulushi Namangan shahrida – 26,1 %, Uchqurgʻon tumanida – 9,7 %, Chortoq tumanida -8,1 %, Toʻraqoʻrgʻon tumanida – 8,0 %, Chust tumanida – 7,1 % Mingbuloq tumanida -6,9 %, Pop tumanida -6,7 %, Uychi tumanida – 6,1 % va tashkil etdi. 2023- yil yanvar- dekabr oylarida yalpi hududiy mahsulotning 72,8 % (2022- yil yanvar- dekabr oylarida 72,4 %) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

Kichik biznes subyektlari tomonidan 242,5 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 43,4 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, 578,2 mln. AQSh dollari (umumiy import hajmining 70,4 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

2023 yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq xoʻjaligi sohasida faoliyat koʻrsatayotgan barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan tirik vaznda 2 833,3 ming tonna goʻsht, 11 968,7 ming tonna sut, 8 487,5 mln. dona tuxum yetkazib berildi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan goʻsht hajmi oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 103,9 % ni, sogʻib olingan sut – 102,9 % ni, olingan tuxum – 104,4 % ni tashkil qildi [4.2022-2023].

2-jadval. **2023-yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik va parrandachilik mahsulotlari**

Mahsulot turlari	Barcha toifadagi xoʻjaliklar		shu jumladan:					
			fermer xoʻjaliklari		dehqon va tomorqa xoʻjaliklari		qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	ming tonna	oʻsish sur’ati % da	ming tonna	oʻsish sur’ati % da	ming tonna	oʻsish sur’ati % da	ming tonna	oʻsish sur’ati % da
Goʻsht (tirik vaznda)	2 833,3	103,9	179,0	105,1	2 406,6	102,0	247,7	126,6
Sut	11 968,7	102,9	706,7	112,2	11 104,7	102,2	157,3	116,0
Tuxum, mln. dona	8 487,5	104,4	1 329,8	111,0	4 912,8	102,2	2 244,9	105,6

2023 yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari toʻgʻrisidagi ma’lumotlarni xoʻjalik toifalari boʻyicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan goʻshtning umumiy hajmidan 6,3 % i fermer xoʻjaliklari hissasiga, 84,9 % i dehqon va tomorqa xoʻjaliklariga, 8,8 % i qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga toʻgʻri kelishini qayd etib oʻtish lozim.

Shunga mos ravishda sogʻib olingan sutning 5,9 % i fermer xoʻjaliklari, 92,8 % i dehqon va tomorqa xoʻjaliklari, 1,3 % i qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga toʻgʻri keldi.

Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, viloyat iqtisodiyotida kichik biznes subyektlarini rivojlanishi koʻrsatkichlarida ijobiy oʻzgarishlar bilan bir qatorda ayrim muammolar mavjud boʻlib, bu sohani samarali rivojlanishiga salbiy ta’sir koʻrsatadi. Jumladan mazkur muammolarga quyidagilarni koʻrsatib oʻtishimiz mumkin: tartibga solish nuqtai nazaridan, soliq tizimini tartibga solish va bank tizimini tartibga solish

masalalarini yanada kengroq tahlil etish zaruriyatini borligi; xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning asosiy to‘siqlari - kadrlar masalasi, investorlar uchun to‘liq ma’lumotlarni yo‘qligi; tadbirkorlik faoliyatidagi xorijiy investitsiyalardan foydalanishdagi muammolar - malakali xodimlarning yetishmovchiligi; investorlar uchun axborotlarni yo‘qligi; mahalliy hokimiyatning investitsiyalarni jalb qilishda past darajali qizishi; operatsiyalarni amalga oshirishning yuqori qiymati va murakkabligi; xom ashyoning cheklanganligi; haddan tashqari ierarxiya; mavjud iqtisodiy hududlarining zaif rivojlanishi va boshqa shu kabilar.

Shuningdek, qishloq xo‘jalik sohasida yetishtirilgan mahsulotlar hajmini oshib borishiga qaramay kichik biznes sohasini rivojlantirishga salbiy ta’sir etuvchi ayrim qishloq xo‘jaligi xususiyatiga xos muammolar mavjudki, ular o‘z yechimini topish uchun kerakli chora-tadbirlar ishlab chiqish lozim. Ushbu muammolarga - qishloq xo‘jaligi tabiat qonunlari amal qiluvchi soha bo‘lganligi uchun uning faoliyatiga kutilmagan tabiiy hodisalarning ta’sir etib turishi (qurg‘oqchilik, sel); ayrim hududlarda sho‘r, sifati past ekin maydonlarining ulushining sezilarliligi; yer unumdorligining pasayib borishi; sohani rivojlantirishda yuqori malakali kadrlarga ehtiyojni borligi; investitsiyalar yo‘naltirishdagi to‘siqlar; oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasi infrastrukturasini rivojlantirishga ehtiyojni mavjudligi va boshqa shu kabilar.

Xulosa va tavsiyalar. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni xulosa qilishimiz mumkinki, qishloq xo‘jaligi sohasida kichik biznes subyektlari salmog‘ini oshirish va uni rivojlantirish zaruriyatini keltirib chiqaruvchi asosiy omillar quyidagilar hisoblanadi: oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi, ularga bo‘lgan talab va taklif, joriy narxlar darajasi, oziq-ovqat mahsulotlarining iqtisodiy va jismoniy mavjudligi, oziq-ovqat zaxirasi, oziq-ovqat ta'minoti holati, aholi daromadlari, xalqaro mehnat taqsimoti, eksport va import tovarlar hajmi.

Shuningdek sohadagi muammolarni bartaraf etish va sohani rivojlantirish uchun quyidagilarni tavsiya etishimiz mumkin: kichik biznes subyektlari salmog‘ini oshirish uchun kerakli imkoniyatlarini yaratib berish hamda kengaytirish; aholida soha mahsulotlariga eng kerakli turlarini ishlab chiqish choralarini ishlab chiqish; qishloq xo‘jaligi sohasida bandlik va daromadlarni diversifikatsiya qilishning yangi yo‘llarini ishlab chiqish, bunda kichik bixnes subyektlarini ko‘paytirish va rivojlantirish imkoniyatlaridan keng foydalanish, sohani rivojlantirishda bozor va savdoni kengaytirish, tabiiy resurslarni asrash, mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash va boshqa shu kabilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M..Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning to‘rtdan bir qismini tashkil qiladigan muhim soha. **https://www.gazeta.uz/uz/2022/10/20/agro/**.

2. 2024 yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti $3,5 milliardga yetkaziladi. https://www.xabar.uz/mahalliy/2024-yilda-qishloq-xojaligi-mahsulotlari-eksporti-35mill.

3. Sharipov Q. Xalqaro formatdagi oziq-ovqat xavsizligini ta’minlashda bir-birini to‘ldirish hamkorligi. **https://yuz.uz/news/xalqaro-formatdagi-oziq-ovqat-xavsizligini-taminlashda-bir-birini-toldirish-hamkorligi**.

4. Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari. **https://www.namstat.uz/uz/?preview=1&option=com_dropfiles&format.**

XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARI KONTEKSTIDA TA’LIM SAMARADORLIGIGA TA’SIR QILUVCHI IJTIMOIY OMILLAR

A.M.Matkarimov
Oila va gender ilmiy tadqiqot instituti doktoranti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-Mail: **akramjon14@list.ru**

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta’lim tizimi samaradorligiga ta’sir qiluvchi asosiy ijtimoiy omillar, xususan, oilada ta’lim muhiti, ota-onalarning ta’limga munosabati va ularning faolligi xalqaro baholash tadqiqotlari doirasida tahlil etilgan. Muallif oilaviy muhitda shakllanadigan pedagogik sharoitlarning o‘quvchilarning ta’limdagi muvaffaqiyatiga qanday ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, zamonaviy ta’lim siyosatida ijtimoiy tengsizliklarni kamaytirish va ota-onalarning kompetentsiyasini rivojlantirish zaruriyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: xalqaro baholash, ta’lim samaradorligi, oilaviy muhit, ota-onalar faolligi, ijtimoiy omillar, kompetentsiya.

Аннотация: В статье рассматриваются ключевые социальные факторы, влияющие на эффективность образовательной системы, особенно в рамках международных оценочных исследований. Анализируется влияние образовательной среды в семье, отношения родителей к обучению и их активности. Автор подчеркивает важность педагогических условий в семье для успеха учащихся и обосновывает необходимость развития родительской компетентности и устранения социального неравенства в образовательной политике.

Ключевые слова: международные оценки, эффективность образования, семейная среда, активность родителей, социальные факторы, компетентность

Abstract: This article explores the major social factors affecting the effectiveness of the education system, particularly within the context of international assessment studies. It analyzes the role of the family educational environment, parents’ attitudes toward education, and their involvement. The author highlights how pedagogical conditions at home impact student success and argues for the importance of reducing educational inequality and enhancing parental competence in modern education policy.

Key words: international assessment, educational effectiveness, family environment, parental involvement, social factors, competence.

Ta’lim tizimi samaradorligini ta’minlash jamiyat taraqqiyotining muhim mezonlaridan biridir. Hozirgi globallashuv sharoitida ta’lim sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish, o‘quvchilarning tayanch kompetentsiyalarini rivojlantirish va ijtimoiy tenglikni ta’minlash dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, xalqaro baholash tadqiqotlari (PISA, TIMSS, PIRLS va h.k.) natijalari ta’limning nafaqat akademik, balki ijtimoiy jihatlarini ham baholashga xizmat qilmoqda. Ota-onalarning ta’limga munosabati, oiladagi tarbiyaviy muhit, jamiyatdagi resurslardan foydalanish imkoniyati va ta’limdagi ijtimoiy tengsizliklar chuqur ilmiy tahlilni taqozo etadi. Bu omillar o‘quvchilarning nafaqat bilim olish, balki real hayotga moslashish jarayoniga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ota-onalarning pedagogik kompetentsiyasini oshirish, maktab-oila hamkorligini kuchaytirish va ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda ta’lim siyosatini shakllantirish ta’lim sifatini yaxshilashning muhim vositasidir. O‘qituvchilarning kasbiy faoliyati samaradorligiga ijtimoiy omillarning ta’siri katta bo‘lib, maktablar va oila instituti o‘rtasidagi aloqalar hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ma’lumki, „Ta’lim to‘g‘risida“gi qonunning 3-bobida „…ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari - ta’lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta’lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari“ ekanligi ta’kidlab o‘tilgan. Shuningdek, mazkur qonun bilan ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar ham belgilab qo‘yilgan. Jumladan, ta’lim ustuvorligining tan olinishi; ta’lim sohasida kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi; ta’lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta’minlanishi; ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi; ta’limning uzluksizligi va izchilligi; insonning butun hayoti davomida ta’lim olishi kabi printsiplar ta’limning ijtimoiy-pedagogik jihatlarini o‘zida aks ettiradi. Shuningdek, Ta’lim to‘g‘risidagi 5-moddada „…jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, har kimga ta’lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi „ deb qayd etilgan [1].

Ota-onalarning o‘z farzandlarini qo‘llab-quvvatlashi hamda oiladagi ta’lim muhit va munosabatning rivojlanganligi pedagog faoliyatini samaradorligi hamda sinfda ijobiy o‘rganish muhitini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchining o‘z kasbidan roziligini qo‘llab-quvvatlash maktablarda yuqori malakali o‘qituvchilarni saqlab qolishning garovi hisoblanadi. Birgalikda ishlash va qo‘llab-quvvatlash hamda maktabdagi ijobiy ijtimoiy muhitni va kuchli yetakchilik mahorati kabi ijtimoiy omillar o‘qituvchilarning o‘z kasbidan qoniqishi va ularni ish joylarida saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega.

R. Sh. Axlidinov o‘z dissertatsion ishida maktab avvalambor ijtimoiy muassasa ekanligini ta’kidlab o‘tadi[2. 48]. Maktab boshqa ijtimoy tashkilotlar singari tashqi muhit bilan faol aloqadagi to‘laqonli murakkab tizim hisoblanadi (bunda tizimlarning ochiq tizim deb atashadi) [2. 52]. Maktab hudud, mintaqa va mamlakat ta’lim majmualaridan tarkib topgan yanada kengroq maorif tizimlari sirasiga kiradi. Shu vaqtning o‘zida maktab butun ijtimoiy tizimning bir qismi hisoblanadi va uning hayotiy faoliyati ko‘p darajada atrofdaan kelayotgan ta’sirlarga bog‘liq. Lekin maktabning tashqi muhit bilan aloqasi bir tomonlama bo‘lmasdan, balki ikki tomonlama bo‘lib, maktabda tashqi muhitga nisbtan erkin tanlash huquqi bor.

tashqi muhit o‘zgarishlari va talablari darasasida bo‘lishga harakat qilgan holdagi nofaol-ko‘nikuvchanlik holatida;

tashqi muhit o‘zgarishlarini hamda ijtimoy buyurtmani tahlil qilish va shu bilan real o‘zgarishlarni

oldindan ko‘ra bilish, faol-ko‘nikuvchanlik holatida;

muhitga o‘z ta’sirini o‘tkaza oladigan, ya’ni bir vaqtning o‘zida ko‘nikuvchan tizim tariqasida (muhitga nisbatan) va ko‘niktiruvchi tizim tariqasida (muhitni o‘zining ehtiyojlariga bo‘ysunduruvchi) bo‘lishi mumkin[2. 53].

Xalqaro baholash tadqiqotlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va inson kapitalini rivojlanganligining mavjud va zaruriy holatini umumta’lim muassasalari o‘quvchilarida tayanch kompetentsiyalarini shakllanganlik darajasi, ularning ta’lim olishining ijtimoiy-pedagogik jihatlariga bog‘lagan holda aniqlaydi. Tayanch kompetentsiyalar ijtimoiy me’yor sifatida ham talqin qilinishi mumkin bo‘lib, bu tushuncha o‘quvchining kundalik-amaliy faoliyatda mustaqil hayot kechirishi uchun lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakalarning umumlashmasini tavsif etadi. Pedagogik amaliyotda xalqaro tajribalarni milliy ta’lim tizimiga tadbiq etish samaradorligi jamiyatdagi ijtimoiy rivojlanish tendentsiyalari o‘rganilganligi hamda shu jihatlarni hisobga olgan holda ta’limdagi islohotlarni rejalashtirish bilan uzviy bog‘liq.

Jamiyatda oilalardagi tuzilmalar o‘zgarib bormoqda. Insonlarning iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy ehtiyojlari ham o‘zgarib bormoqda. Bu esa har bir insonning individual turmush kechirishiga sabab bo‘ladi. Hozirgi kunda avlodlar almashinuvi jarayoni tezlashmoqda va ularning fikrlash darajasi ham o‘zgarib bormoqda. Hozirgi maktab yoshidagi bolalar asosan Z va α gen avlodlariga to‘g‘ri keladi. Boshqa tarafdan maktablarning o‘quvchilarga ta’lim va tarbiya berishdagi funktsional vazifalari salmog‘i, ijtimoiy ma’suliyati yildan-yilga oshib bormoqda. Shuningdek, ta’lim tizimidagi xalqaro baholash tadqiqotlarining joriy etilishi jamiyatning yildan-yilga ta’lim va uning sifatiga talablari oshib borayotganinini ko‘rsatadi.

Tadqiqotlar oila va maktab hamkorligini mustahkamlash borasida ko‘plab muammolar mavjud ekanligini ko‘rsatadi [4; 266]. Muammoning eng asosiysi sifatida ota-onalar yoki o‘qituvchilarning hamkorlikka qiziqishi yo‘qligi bilan tavsiflanadi. Otterpohl und Wild [5; 295] o‘z tadqiqotlarida qat’iy xulosa sifatida, muvaffaqiyatli hamkorlik uchun aslida barcha ishtirokchilarning yagona „hamkorlik“ tushunchasiga ega bo‘lishi tushuniladi. Bunda ota-onalar, shuningdek maktab ma’muriyati, o‘qituvchilarning hamkorlik borasidagi tasavvurlari tubdan bir-biridan farq qiladi. Asosiy faoliyat sifatida darsdan tashqari tadbirlarda ishtirok etish, zarurat bo‘lganda tashkillashtiriladigan kam sonli suhbatlar oddiy sheriklik munosabatlari sifatida baholanishi mumkin. Bunda albatta kommunikativ muvafiqlashtirish jarayoni zarur bo‘lib, ota-ona va maktab hamkorligi aslida qanday bo‘lishi va amalga oshirilishi lozimligi muzokaralar orqali aniqlashtirib olinishi lozim [5; 293].

Ilmiy adabiyotlar tahlili xalqaro baholash tadqiqotlarining milliy ta’lim tizimiga tadbiq etishning pedagogik zarurati quyidagilarda ekanligini ko‘rsatadi: taqqoslash imkoniyati, ilg‘or tajribalar almashinuvi, islohatlarni tezlashtirish, ilmiy-empirik ma’lumotlarga ega bo‘lish, shaffoflik va mas’uliyatlilik.

Xalqaro baholash tadqiqotlarining vazifasi unda ishtirok etuvchi davlatlar, ta’limga mas’ul vazirlik va idoralarining oldida turgan quyidagi savollarga javob topishida zaruriy ma’lumotlar bilan ta’minlashdan iboratdir:

o‘quvchilar majburiy ta’lim so‘nggida demokratik jamiyatda faol fuqarolik rolini olishga etarli tayyorlanganmi?

o‘quvchilar o‘z g‘oya va tasavvurlarini tahlil qilish, asoslash va shular asosida muloqot qila olish ko‘nikmasiga egami?

o‘quvchilar hozirgi mehnat bozori talablari asosida maktabda ta’lim olayaptimi?

o‘quvchilar «butun hayot davomida o‘qish» kontseptsiyasi talablariga javob beradimi? [3;9].

Xalqaro baholash tadqiqotlari natijalari va ularning turli davlatlar misolidagi ilmiy tahlillari asosida o‘quvchilarning ijtimoiy kelib chiqishi ularning ta’limdagi muvaffaqiyati bilan chambarchas bog‘liqligini, milliy ta’lim tizimi samaradorlgi uning ijtimoiy jihatlarini hisobga olinishi va doimiy ravishda ta’lim tizimiga doir muammolar bilan birgalikda ijtimoiy masalalarni ham o‘rganib borishni taqozo etishini yaqqol ko‘rsatadi. Gap shundaki, ta’limdagi ijtimoiy tengsizlikning sabablari xilma-xil va murakkabd tushunchadir. Milliy ta’lim tizimi sohasiga doir ta’lim siyosati bu kabi ijtimoiy masalalarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega, ammo bu barcha ijtimoiy muammolarni hal qilinishida yagona yechim bo‘la olmaydi. Ta’limga doir ijtimoiy muammolar umumta’lim maktablarining jamiyatning boshqa institutlari bilan hamkorligi, o‘qituvchilarni tayyoqlash va malakasini oshirish, jamiyatdagi iqtisodiy resurslarni taqsimoti hamda ta’limni moliyalashtirish, ta’limning ahamiyatini qadriyatlar darajasiga kotarililganligi kabi masalalar bilan o‘rganish barobarida ijtimoiy masalalar hal bo‘lib boradi. Ta’lim sohasidagi vazirliklar, boshqarmalar ta’lim muammolarini barchasini hal qiluvchi yagona institut deb qaramaslik lozim bo‘ladi.

Ko‘plab pedagogik-empirik tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, oilalardagi ijtimoiylashish

o‘quvchilarning yutuqlariga ta’sir ko‘rsatadigan eng katta omillardan biri hisoblanadi. Oilaning ahamiyati umumta’lim maktablarining moddiy-texnik bazasi, o‘qituvchilar malakasi yaki maktablarning boshqaruv mustaqilligi kabi masalalardan ahamiyati kattaroq degan qat’iy xulosa qilinishiga asos bo‘ladi. Boshqa tadqiqotda yanada aniqroq xulosa qilivchi dalillar keltirilib o‘tiladi: tadqiqotga ko‘ra o‘quvchilarning akademik ko‘rsatkichlarning uchdan ikki qismi oilaviy omillarga bog‘liq va faqat uchdan bir qismigina maktab omillariga bog‘liq bo‘ladi. Mazkur ikki tadqiqot natijalari tahlili asosida jamoatchilikda “ideal” maktab tizimi haqidagi bahslarni, tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda muammoning kelib chiqish sabalari va oqibat bog‘liqligini oila instituti nuqtai nazaridan hal qilish zaruriyatini ko‘rsatib o‘tmoqda.

Gradient Boosting Machines (GBM) – Sequentially builds models to minimize forecasting error: GBMs are powerful ensemble methods that build decision trees in a sequential manner, where each new tree focuses on correcting the errors of the previous ones. This iterative boosting process allows the model to capture subtle patterns in the data, achieving high predictive accuracy, especially in structured datasets.

In general, machine learning algorithms operate through the following sequential workflow, which enables them to effectively learn from data and generate reliable economic forecasts:



In recent years, the application of machine learning (ML) in economic forecasting has been greatly facilitated by a rich ecosystem of programming languages, libraries, and development environments. Python has emerged as the dominant language due to its intuitive syntax and wide range of specialized packages, while R continues to be favored for its statistical modeling capabilities. Popular libraries like Scikit-learn offer a wide array of traditional ML algorithms – including linear regression, random forests, and support vector machines – making it easier to analyze structured economic data. For more advanced forecasting, gradient boosting frameworks such as XGBoost, LightGBM, and CatBoost are often preferred, as they are optimized for performance and accuracy in predictive tasks.

Time-series forecasting remains central to economic growth modeling, and tools such as statsmodels and pmdarima or Facebook’s Prophet provide accessible ways to model temporal dynamics. Meanwhile, libraries like Pandas and NumPy help preprocess and structure economic datasets efficiently, while visualization tools such as Matplotlib, Seaborn, and Plotly enable clear communication of trends and model results. Model validation and tuning are further enhanced with Scikit-learn’s built-in metrics and utilities like GridSearchCV. Altogether, these tools empower researchers and policymakers to build interpretable, data-driven forecasts that can guide decision-making in complex economic environments.

4. Results and Discussion. Our comparative overview suggests that machine learning models – especially ensemble-based approaches like Random Forests and Gradient Boosting – can capture the complex, often nonlinear patterns found in real-world economic data more effectively than traditional methods. These algorithms provide reliable forecasts even in the presence of multiple interacting variables and noisy data. While simpler models like linear regression serve as a useful starting point, advanced ML methods consistently deliver more precise results across various forecasting scenarios.

What makes machine learning especially valuable for economic forecasting is its flexibility. These models can learn directly from data without assuming a specific functional form, which is particularly useful when dealing with unpredictable economic shifts. With the availability of open-source tools like Python, Scikit-learn, and XGBoost, researchers and analysts today have the means to implement advanced models with relatively low barriers. As economies become more data-driven, the ability to quickly generate and adapt forecasts will become increasingly important – and machine learning is well-suited to meet that demand.

5. Conclusion. In summary, machine learning is not here to replace classical econometrics, but to complement and enhance it. By embracing these modern tools, economists and decision-makers can better anticipate economic changes, respond to uncertainty, and design more informed strategies. As this field

evolves, combining domain knowledge with data science will become key to producing truly impactful economic insights.

References:

1. Yoon, J. (2021). Forecasting of real GDP growth using machine learning models: Gradient boosting and random forest approach. *Computational Economics*, *57*(1), 247-265.

2. Hossain, A., Hossen, M., Hasan, M. M., & Sattar, A. (2021, February). GDP growth prediction of Bangladesh using machine learning algorithm. In *2021 Third International Conference on Intelligent Communication Technologies and Virtual Mobile Networks (ICICV)* (pp. 812-817). IEEE.

3. Alaminos, D., Salas, M. B., & Fernández-Gámez, M. A. (2022). Quantum computing and deep learning methods for GDP growth forecasting. *Computational Economics*, *59*(2), 803-829.

4. Naaz, S., Pandey, H., & Lakshmi, C. (2024, February). Forecasting gdp per capita using machine learning algorithms. In *2024 Second International Conference on Emerging Trends in Information Technology and Engineering (ICETITE)* (pp. 1-5). IEEE.

5. Akhmadkhon, A. (2025). THE ROLE OF GRADIENT BOOSTING MACHINES IN MODERN ECONOMIC ANALYSIS. *Universum: технические науки*, *6*(1 (130)), 11-14.

RAQAMLI TA’LIM SHAROITIDA O‘QITUVCHILARNING KASBIY RIVOJLANISHI: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI

S.A.Jamaldinov
Namangan viloyati Davlatobod tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limining Maktablar faoliyatini muvofiqlashtrish sho‘basi boshlig‘i – boshliq o‘rinbosari

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli ta’lim sharoitida O‘zbekiston Respublikasi o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishiga oid dolzarb masalalar yoritilgan. Davlat tomonidan ta’lim tizimini raqamlashtirishga doir qabul qilingan strategik hujjatlar, pedagog kadrlar malakasini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni, raqamli savodxonlik va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud muammolar va ularni hal etish bo‘yicha amaliy takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchi, kasbiy rivojlanish, raqamli ta’lim, raqamli kompetensiyalar, AKT, pedagogik texnologiyalar, O‘zbekiston ta’lim siyosati.

Аннотация. В данной статье освещаются актуальные вопросы профессионального развития учителей Республики Узбекистан в условиях цифрового образования. Анализируются стратегические документы, принятые государством по цифровизации системы образования, роль информационно-коммуникационных технологий в повышении квалификации педагогических кадров, механизмы развития цифровой грамотности и профессиональных компетенций. Также представлены существующие проблемы и практические предложения по их решению.

Ключевые слова: учитель, профессиональное развитие, цифровое образование, цифровые компетенции, ИКТ, педагогические технологии, образовательная политика Узбекистана.

Abstract. This article explores the pressing issues surrounding the professional development of teachers in the Republic of Uzbekistan in the context of digital education. It analyzes strategic documents adopted by the government to digitalize the education system, the role of information and communication technologies in teacher training, and the mechanisms for improving digital literacy and professional competencies. The article also outlines current challenges and provides practical recommendations for their resolution.

Keywords: teacher, professional development, digital education, digital competencies, ICT, pedagogical technologies, education policy of Uzbekistan.


Kirish. Zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalar ta’lim sohasini tubdan o‘zgartirmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli ta’limni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari ta’lim tizimiga yangi yondashuvlarni joriy etish zaruratini yuzaga keltirdi. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchining nafaqat an’anaviy pedagogik bilimlarga, balki raqamli savodxonlik, axborot-

kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, zamonaviy pedagogik platformalarda ishlash kabi kompetensiyalarga ega bo‘lishini talab qilmoqda. Shu bois, raqamli ta’lim sharoitida o‘qituvchiga qo‘yiladigan kasbiy talablarni aniqlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. Bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasi o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga yangicha talablar qo‘ymoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston – maktabdan boshlanadi” tamoyili doirasida 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Raqamli ta’lim milliy dasturi, “Maktabgacha va maktab ta’limini raqamlashtirish konsepsiyasi” hamda “O‘qituvchi maqomi to‘g‘risida”gi qonunlar bu borada muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, mamlakatimiz yetakchisi tomonidan “Raqamli o‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 5- oktyabrda imzolangaF 6079-sonli farmonda keltirilishicha, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonda 11 mingdan ortiq umumta’lim maktabida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilar soni 500 mingdan oshadi. Ularning ko‘pchiligi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishda yetarli tayyorgarlikka ega emas. Xalq ta’limi tizimida olib borilgan so‘rovnomalar natijasiga ko‘ra, aksariyat o‘qituvchilar interaktiv ta’lim vositalari, masofaviy darslar, raqamli platformalar (masalan, “edu.uz”, “kundalik.com”, “uzedu.uz”) bilan ishlashda qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Raqamli ta’lim muhitida o‘qituvchilar faqat fan o‘rgatuvchi emas, balki raqamli vositalardan foydalanib, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni shakllantiruvchi shaxsga aylanishi zarur. Bo‘lajak pedagoglar, ta’limning istalgan bo‘g‘ida faoliyat yuritishidan qat’iy nazar, bugunning yagona va birlamchi talabi bo‘lmish raqamli texnologiyalardan mukammal foydalana olishi, uning barcha vosirtalaridan yutuqlarni o‘zlashtirishi zarur. O‘qituvchi raqamli texnologiyalar bilan ishlashda o‘zini ishonchli his qilishi, ta’limdagi muammolarni hal qilishda raqamli echimlardan foydalana olishi kerak. Bu boradagi asosiy muammolar hususida quyidagi 1-rasm orqali ma’lumot taqdim etiladi. Unda bugungi kundagi izlanishlar, statistik ma’lumotlardan kelib chiqiladi.



1-rasm. Raqamli ta’limda bo‘lajak o‘qituvchilar duch kelayotgan asosiy muammolar

Ushbu vizual diagramma raqamli ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan asosiy muammolarni ketma-ketlikda aks ettiradi. Har bir bosqichda dolzarb kamchiliklar ko‘rsatilgan bo‘lib, ular quyidagicha:


Kasbiy o‘rganishdagi uzilishlar va eskirgan bilimlar – yangi pedagogik texnologiyalar bilan tanishmaslik, nazariy bilimlarning yangilanmasligi o‘qituvchini zamonaviy talablardan ortda qoldiradi.

Texnologiyalardan foydalanishdagi qiyinchiliklar – o‘qituvchilar raqamli qurilmalar, onlayn platformalar va elektron vositalarni qo‘llashda qiynalmoqda.

Raqamli savodxonlikning past darajasi – axborot izlash, tahlil qilish va uni ta’limda qo‘llash bo‘yicha zarur ko‘nikmalarning yetishmasligi kuzatiladi.

Shaxsiylashtirilgan ta’limga tayyor bo‘lmaslik – individual yondashuvni talab qiladigan raqamli ta’lim muhitiga moslasha olmaslik.

O‘qituvchilarning o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan past motivatsiyasi – doimiy o‘rganish, innovatsiyalarni o‘zlashtirishga bo‘lgan ichki ehtiyojning sustligi.



2-rasmBo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli tayyorgarlik darajalari hududlar bo‘yicha taqsimoti.

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, shahar hududidagi bo‘lajak o‘qituvchilarning **yuqori darajadagi raqamli tayyorgarligi** qishloqdagilarnikiga nisbatan ancha yuqori (42% ga nisbatan 18%). Aksincha, **past tayyorgarlik darajasi** qishloqlarda yuqoriroq (26%) bo‘lib, bu raqam shaharlarda atigi 11% ni tashkil etadi. Bu esa shahar va qishloq o‘rtasida raqamli savodxonlikda sezilarli tafovut borligini ko‘rsatadi.

1-jadval. Raqamli tayyorgarlik darajalari (foizda)

Hudud	**Yuqori daraja (%)**	**O‘rtacha daraja (%)**	**Past daraja (%)**
Shahar	42	47	11
Qishloq	18	56	26

Quyidagi jadvalda keltirilgan foizlar **bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli tayyorgarlik daraja**sini aniqlash uchun o‘tkazilgan **so‘rovnoma natijalariga** asoslangan. Jadvalda ko‘rsatilgan foizlar **uchta asosiy indikatorlar** bo‘yicha shakllantirilgan bo‘lib, har bir respondentning javoblariga qarab tayyorgarlik darajasi aniqlangan.

2-jadval. Pedagoglarning raqamli tayyorgarlik foizlari kategoriya mezonlari

Kategoriya	Tavsifi	Baholash mezoni
1. Raqamli vositalardan foydalanish	Kompyuter, planshet, interaktiv doska, smartfon, onlayn platformalardan (Zoom, Google Classroom, Teams) foydalanish darajasi.	Mustaqil ishlay oladi – yuqori Qo‘llanma bilan ishlaydi – o‘rtacha Umuman qiynaladi – past
2. Raqamli kontent yaratish	Prezentatsiya tayyorlash, video dars yozish, test va elektron dars materiallari ishlab chiqish ko‘nikmalari.	Mustaqil yaratadi – yuqori Qisman yordam bilan – o‘rtacha Bilmaydi – past
3. Raqamli savodxonlik va xavfsizlik	Ma’lumot izlash, tekshirish, raqamli etikaga amal qilish, axborot xavfsizligini bilish.	To‘liq xabardor – yuqori Qisman tushunchasi bor – o‘rtacha Bilimga ega emas – past

Jadvaldagi foizlar shakllanishi:

Har bir respondentga **har bir kategoriya bo‘yicha 3-5 ta savol** berilgan.

Har bir javob ballga aylantirilib, umumiy natija 100 ballik tizimda baholangan.

Yakuniy ball:

75–100 ball – **Yuqori daraja**

45–74 ball – **O‘rtacha daraja**

0–44 ball – **Past daraja**

Misol: agar respondent Zoom orqali dars o‘ta olsa, PowerPointda mustaqil prezentatsiya qilsa va shaxsiy ma’lumotni onlayn himoya qilish haqida tushunchaga ega bo‘lsa — u **yuqori darajadagi raqamli tayyorgarlikka** ega deb baholanadi.

Asosiy muammolar va yechimlar. Raqamli muhitda o‘qituvchining kasbiy rivojlanishini sekinlashtirayotgan bir qator muammolar mavjud:

AKT bilan ishlash bo‘yicha cheklangan bilim va ko‘nikmalar;

Tuman va chekka hududlarda internet infratuzilmasining past darajada rivojlanganligi;

Amaliy tajribaning kamligi va o‘qituvchining o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan motivatsiyasi pastligi;

Pedagogik malaka oshirish kurslarining nazariy va standartga yo‘naltirilganligi, individual ehtiyojlarni hisobga olmasligi;

Raqamli texnologiyalarni dars jarayoniga moslashtirishda metodik yondashuvlar yetishmasligi.

Raqamli texnologiyalarni o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga samarali integratsiya qilish uchun quyidagi chora-tadbirlarni taklif etish mumkin:

Malaka oshirish tizimini differensiallashtirish – pedagogning yoshi, tajribasi va mavjud kompetensiyasiga qarab kurslar taklif etish;

"Mahalliy metodik markazlar" faoliyatini kuchaytirish, ayniqsa tuman miqyosida raqamli metodika bo‘yicha trener-o‘qituvchilar tayyorlash;

"Raqamli pedagog" dasturini joriy etish – bu orqali o‘qituvchilarning raqamli savodxonligi, media-kompetensiyasi va AKT bo‘yicha sertifikatlash tizimi yo‘lga qo‘yiladi;

STEM, STEAM, Robototexnika kabi yo‘nalishlarda o‘qituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash;

Raqamli platformalarda ochiq o‘quv kurslar va darslar yaratish va ulardan foydalanishni kengaytirish.

Xulosa. O‘zbekistonda o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi endilikda faqat an’anaviy metodlarga emas, balki raqamli kompetensiyalar, moslashuvchan o‘quv modullari va texnologik tayyorgarlik darajasiga ham bevosita bog‘liq bo‘lib bormoqda. Ta’lim tizimini raqamlashtirish borasida davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar o‘qituvchilardan nafaqat yangiliklarga ochiqlikni, balki ularni samarali qo‘llay olishni, o‘z kasbiy faoliyatini shaxsiylashtirilgan, moslashuvchan va raqamli muhitda tashkil eta olishni ham talab qilmoqda. Bugungi kunda pedagoglar uchun zamonaviy raqamli texnologiyalarni puxta egallash, o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ta’limni shakllantira olish, o‘z faoliyatini tahlil qilish (refleksiya), doimiy kasbiy o‘sishga intilish asosiy kompetensiyalarga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, o‘qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish, metodik xizmatlarning joylardagi faoliyatini kuchaytirish, malaka oshirish kurslarini amaliyotga yaqinlashtirish va eng asosiysi, o‘qituvchining ichki motivatsiyasini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli transformatsiya jarayonida ta’lim muassasalari rahbarlari, metodistlar va soha mutaxassislari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, ta’limdagi tengsizliklar (ayniqsa, shahar va qishloq maktablari o‘rtasida)ni bartaraf etish yo‘lida kompleks yondashuv zarur. Bunda nafaqat texnik infratuzilmani yaxshilash, balki o‘qituvchilarning o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ichki ehtiyojini uyg‘otish, kasbiy faollikni rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish muhimdir. Kelajakda raqamli texnologiyalarni puxta egallagan, innovatsion fikrlovchi, refleksiv yondashuvga ega pedagoglar — ya’ni zamonaviy “raqamli pedagog” modeli — O‘zbekiston ta’lim sifatining asosiy kafolati bo‘lib xizmat qiladi. Bunday o‘qituvchilar nafaqat bilim beruvchi, balki ta’lim oluvchilarning raqamli davrga mos shaxs sifatida shakllanishida bosh yetakchi bo‘lishi shubhasizdir. Shu bois, raqamli ta’lim sharoitida o‘qituvchilar kasbiy rivojlanishini milliy ta’lim strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qarash dolzarb va istiqbolli yondashuv bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyottlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevraldagi PQ–133-sonli qarori “Raqamli ta’lim texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-iyundagi 373-sonli qarori “Pedagogik kadrlarning raqamli savodxonligini oshirish konsepsiyasi”.

3. Tursunova M.T. “Pedagogik innovatsiyalar va axborot texnologiyalari”, Toshkent, 2021.

4. Xamdamov X. “Ta’lim jarayonida raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish”. – Ilmiy-amaliy jurnal, 2023, №4.

5. UNESCO. (2021). Digital Learning and the Future of Education in Central Asia. Paris.

6. European Commission (2020). Digital Competence Framework for Educators (DigCompEdu). Luxembourg: Publications Office of the European Union.

SIROJIDDIN SAYYID DOSTONLARINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

G.I.Doshanova
Berdaq nomidagi QQDU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi f.f.f.d (PhD) dots.
guljaxandoshanov@gmail.com tel:913955376

REZYUMYE Maqolada S.Sayyid qalamiga mansub dostonlarda estetik ideal masalasining ifodalanishi, zamon va makon borasidagi dunyoqarashi, ajdodlarimiz xotirasi va ularga bo‘lgan hurmatining badiiy jihatdan o‘ziga xos tarzda bayon qilinishi tahlilga tortilgan.
Kalit so‘zlar: she’riyat,estetik tafakkur, faxriya, an’ana, badiiy tafakkur
REZYUME V statye govoritsya o vzglyadax poeta otnositelno vremeni i prostranstva, postijenii sush’nosti yego stixov, sozdanni’x na peresechenii allegoricheskogo, cherez yego xudojestvenno-esteticheskiye osobennosti, svoystvenni’e forme i soderjaniyu yego proizvedeniy.
Klyucheviye slova: stixi, esteticheskoye mishleniyie, ballada, traditsiya,faxriya,manzuma literaturnoye chut’yo.
ABSTRACT The article analyzes the expression of the aesthetic ideal in the poems of the creator, his worldview on time and space, the memory of our ancestors and the artistic expression of respect for them in a unique way.
Key words: poetry, aesthetic thought, verse, honor, tradition, faxriya, manzuma, artistic thgout

Badiiy so‘z san’ati taraqqiy etib boruvchi estetik hodisa sifatida tabiat, jamiyat, hayot va inson ruhiy olamining turli murakkab qatlamlariga kirib boradi. Adabiy jarayon esa ijtimoiy shartlilik, o‘zgaruvchan va turg‘un tamoyillar va adabiy an’analar zaminida rivojlanib boradi. Badiiy adabiyot tabiati uchun xos bu vazifani amalga oshirishda estetik ideal tamoyillari muhim ahamiyatga ega. Estetik ideal, uning tarkibiy qismi sanalgan estetik konsepsiya va nuqtai nazar, badiiy uslubi shakllangan ko‘pgina yozuvchilar qatorida, Sirojiddin Sayyid ijodiy faoliyatida ham betakror xislatlari bilan ko‘zga tashlanadi. Avvalo, ijodkor yaratgan barcha asarlar, jumladan, she’rlarida va dostonlarida estetik ideal mazmunan va mohiyatan tubdan o‘zgarganida, binobarin, an’anaviy realizm tamoyillari orqali namoyon bo‘lganida ko‘rinadi.

Adib she’riyatida va dostonlarida estetik idealini badiiy islohlar asosida qayta shakllantirdi, estetik ideal obrazlar xarakteri va ruhiyatida, tabiat tasvirida falsafiy, ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy muammmolar yechimiga tegishli maqsad va muddaolari, shuningdek, ezgulikni tarannum etuvchi konsepsiyasini obrazlar zimmasiga yuklash orqali so‘z san’atining yangicha qirralarini ochishga muvaffaq bo‘ldi. Ijodiy jarayon mohiyatining diqqatga loyiq evolyusion bosqichlarini umumlashtirib ifoda etuvchi muhim kategoriya bo‘lgan estetik ideal, uning muhim halqalari sanalgan estetik nuqtai nazar va konsepsiya Sirojiddin Sayyid ijodi mumtoz va milliy adabiyot, jahon adabiyoti rivojlantirgan tamoyillardan oziqlanib shakllanishiga turtki berib keldi. Estetik ideal, shuning bilan birga, uning mantiqiy asoslarini targ‘ib qiladigan kuch sifatida maydonga chiqadigan badiiy g‘oyalar tizimi alohida mohiyat kasb etishini ta’minladi, natijada yangicha badiiy-estetik shakl va mazmun kasb etayotgan adib ijodi o‘zgacha falsafiy me’yorlar doirasida, real voqelikni talqin qilish barobarida, noreal voqelik bilan ham aloqaga kirishdi, alal-oqibat bu holat, ya’ni olam va odam hayotiga xos yaxshilik va yomonlik, haqiqat va uydirma, adolat va nohaqlik, sadoqat va xiyonat, tantilik va nomardlik kabi estetik tushunchalarning noma’lum qirralarini kashf etish ko‘nikmasini zaruratga aylantirdi.

Badiiy so‘z san’atining badiiy-estetik tamoyillari bilan ijtimoiy hayot munosabatlari miqyosini belgilashda ikkinchi muhim uzviy jihatni e’tibordan soqit qilmaslik lozim. Gap shundaki, badiiy-estetik qonuniyatlar jamiyat hayotining turli ko‘rinishlariga to‘lasincha suyanib yashamaydi, hatto ular jamiyat taqozo etgan ijtimoiy tizimda bir qism ham bo‘lmasligi mumkin, ya’ni ular muayyan badiiy obraz namoyon etadigan badiiy-estetik va g‘oyaviy xususiyatlar mohiyatini ifodalagani sababligina ijtimoiy jabhalar bilan aloqaga kirishadi[3] va tegishli o‘rinlarda ijtimoiy hayot negiziga daxldor estetik elementlardan oziqlanish hamda o‘sha elementlar orqali muhim psixologik taranglik yaratishga moyil bo‘lishadi, psixologik taranglik esa, pafosni kuchaytirish bilan birga, hayotiy va badiiy haqiqat uzviyligini ta’minlaydi.

Adib estetik ideali, badiiy mahorati va individual uslubi bilan bir qatorda, aqlu idrok va tafakkur imkoniyatlarini doimiy ravishda uyg‘un qo‘llash, badiiy did va intellektual saviyani muntazam o‘stira borish orqali ham shakllanayotgani kuzatiladi. Adib turli falsafiy-ijtimoiy, badiiy-estetik va ijtimoiy kategoriyalarni o‘rganish-talqin qilish natijasida olam va odam birdamligining dialektik asoslarini anglaydi, teran tahlil va tavsif yordamida ro‘yobga chiqarilgan adabiy asos bilan falsafiy asos orasida estetik mutanosiblik o‘rnatadi, ehtiroslari oqimini tafakkurida sodir bo‘ladigan g‘alayonlar bilan uyg‘unlashtirib yuboradi, muhimi, e’tiqodi butun chinakam san’atkorning missiyasini shifokor burchiga o‘xshatadi, zero yozuvchi insonni, g‘oyaviy qarashlaridan kelib chiqib emas, avvalo, ezgu insonparvarlik g‘oyalaridan kelib chiqib o‘rganishi, tadqiq etishi, uning dardlarini baham ko‘rishi kerak,[4] degan nuqtai nazarni ilgari suradi, ayni paytda, bu nuqtai nazari, estetik ideali va konsepsiyasi bilan qo‘shilib, ijodiy izlanishlari yanada samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Bundan seziladiki, shoir, insonparvarlik xislatini estetik ideali markaziga qo‘ygan holda, bashariy g‘oyalarning tub ildizi va tub mag‘ziga yaqinlashadi, moddiy va ruhoniy dunyoda uzluksiz davom etadigan dialektik birliklar zamiridagi asosiy ma’no-mantiq nimadan iborat ekanini yanada teran anglashga erishadi, muhimi, bu tushuncha barcha sherlarida va liroepik asarlarida vatanparvarlik, ezgulik, adolat, e’tiqod, vijdon, fidoyilik, millatparvarlik, milliy iftixor kabi motivlarga asoslaydi.

Muhimi shundaki, adib estetik ideali “Xamsa hayratlari”, “Yuz oh, Zahriddin Muhammad Bobur” kabi asarlari qurilishida gavdalangan estetik konsepsiya, nuqtai nazar va badiiy g‘oyalarni, mustahkam halqalardan iborat zanjir taxlit, haqqoniyat va mutanosiblik, e’tiqod va go‘zallik, tarixiylik tizimida liro epik tasvirda birlashtiradi. Adib nuqtai nazariga xos sinchkovlik va bedorlik, badiiy-estetik mohiyatni ichkaridan yorituvchi omil vazifasini o‘taydi, dostonlar mag‘ziga singdirilgan ma’rfatparvarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik, ezgulik boqiy mulk ekanligini anglatuvchi tushunchalar zalvarli estetik ideal qiyofasiga kirgani sababli dilni larzaga soladi. Shoir qalamiga mansub quyidagi satrlarda biz ijodkor estetik tafakkurining nihoyatda boy va kengligini his qilamiz:

Qismat qattiq, alam bisyor, el g‘ofil,
Bu dunyoda bormibir dilxoh, Bobur?
Umri otda o‘tgan buyuk musofir,
Davlat nadir asli, nadir joh, Bobur,
Shoirligi shohligidun ulug‘roq,
Shohligi ham she’riday ogoh, Bobur.

dostonda o‘ziga xos ifoda yo‘sini, o‘zgacha uslub, shoh va shoir Bobur bobomizning ko‘ngil kechinma va iztiroblarini yoritib bera olganligi bilan diqqat va e’tiborga molikdir.

Darhaqiqat, shoir yaratgan dostonlar bugungi o‘zbek va jahon adabiyotida alohida badiiy-estetik mavqe egallaydi va shu orqali badiiy-estetik tarafakkurimiz ravnaqiga munosib hissa qo‘shgani, badiiy-estetik qirralarini ochishga sezilarli ta’sir o‘tkazgani ko‘zga tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.Quronov, S.Mamajanov, Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lugati. Toshkent, Akademnashr, -B.106.
2. Sirojiddin Sayyid. Vaqt haykali.Toshkent, G.Gulom: 2023.
3. Sirojiddin Sayyid. Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur.. -Toshkent: “Adabiyot”, 2023.

NAMANGAN SHAHRIDA 1995-2010-YILLAR DAVOMIDA ATMOSFERA HAVOSI IFLOSLANISHI HAMDA UNING TAHLILI

N.N.Toshturdiyev
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti Fizika fakulteti Gidrometeorologiya yo‘nalishi 4-bosqich talabasi , Tel: +998 88 910 42 46 Email: **nurbektoshturdiyev86@gmail.com**

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada Namangan shahrida 1995–2010-yillar davomida atmosfera havosining asosiy ifloslantiruvchi moddalari bo‘yicha tahlil berilgan. Xususan, chang zarralari, oltingugurt dioksidi, uglerod oksidi, azot dioksidi, azot oksidi, ammiak va fenol miqdorlari yillik kesimda tahlil qilinib, ularning o‘zgarish dinamikasi ochib berilgan. Kuzatilgan o‘zgarishlar sanoat rivoji, avtomobil transportining ko‘payishi va iqlimiy omillar bilan bog‘lanadi. Maqolada ushbu ifloslanish darajasining inson salomatligi va ekologik muhitga ta’siri ham baholangan.

Kalit so‘zlar: Namangan shahri, atmosfera havosi, chang zarralari, gazsimon ifloslantiruvchilar, ekologik xavf, sanoat, monitoring.

Аннотация: В данной научной статье представлен анализ загрязнения атмосферного воздуха в городе Наманган в период с 1995 по 2010 годы. Рассмотрены такие основные загрязнители, как взвешенные частицы, диоксид серы, оксид углерода, диоксид азота, оксид азота, аммиак и фенол. Приведена годовая динамика изменения концентраций и выявлены возможные причины — индустриализация, рост автомобильного транспорта и климатические факторы. Также дана оценка воздействия загрязнённого воздуха на здоровье населения и экологическую обстановку.

Ключевые слова: город Наманган, атмосферный воздух, загрязняющие вещества, экологическая опасность, мониторинг, промышленность.

Abstract: This scientific article analyzes the air pollution in Namangan city during the period of 1995 to 2010. Major air pollutants such as suspended particles, sulfur dioxide, carbon monoxide, nitrogen dioxide, nitrogen oxide, ammonia, and phenol are examined in terms of annual concentration trends. The study highlights the influence of industrial development, increased vehicular traffic, and climatic factors on air quality. The article also assesses the potential impact of these pollutants on public health and the local environment.

Keywords: Namangan city, air pollution, suspended particles, gaseous pollutants, ecological risk, industry, monitoring.

Kirish. Atmosfera havosi inson salomatligi, ekologik muvozanat va iqtisodiy faoliyat uchun bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi muhim tabiiy resursdir. U yer yuzida hayotiy muhitni barqaror saqlab turadi. Ammo so‘nggi o‘n yilliklarda atmosfera havosining ifloslanishi global muammolardan biriga aylangan. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, har yili millionlab insonlar aynan iflos havo sababli sog‘lig‘idan ayriladi yoki erta vafot etadi. Bu holat faqat yirik davlatlarga emas, balki O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarga ham taalluqlidir.

O‘zbekiston Respublikasining sharqiy hududida joylashgan Namangan shahri aholining zich joylashuvi, sanoat korxonalarining faoliyati, issiqlik energiyasi manbalarining ko‘pligi, avtotransport harakatining ortishi kabi omillar sababli ekologik bosim ostida qolmoqda. Ayniqsa, 1995–2010-yillar oralig‘i shahar sanoatining qayta tiklanish davriga to‘g‘ri kelib, ko‘plab korxonalar faoliyatini kengaytirdi, transport vositalarining soni ortdi, bu esa havo sifati ko‘rsatkichlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Atmosfera havosiga eng ko‘p ta’sir ko‘rsatuvchi omillar sifatida chang zarralari (PM), oltingugurt dioksidi (SO_2), uglerod oksidi (CO), azot oksidi (NO), azot dioksidi (NO_2), ammiak (NH_3) va fenol moddalari e’tiborni tortadi. Bu moddalar manbai sanoat chiqindilari, yoqilg‘i mahsulotlarining yonishi, qurilish va yo‘l infratuzilmasi, hamda tabiiy jarayonlar (masalan, shamollar, changli bo‘ronlar) bo‘lishi mumkin. 1995–2010-yillar oralig‘ida havodagi ushbu komponentlarning o‘zgarish dinamikasini o‘rganish nafaqat tarixiy tahlil uchun, balki bugungi kundagi ekologik xavflarni baholash va kelajak uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish nuqtayi nazaridan ham dolzarbdir. Ayrim mahalliy tadqiqotlar ushbu yillarda chang zarralari va gazsimon ifloslantiruvchilarning me’yordan oshib ketganini ko‘rsatgan [1].

Shu bois, mazkur maqolada Namangan shahrida 1995–2010-yillar davomida atmosfera havosining ifloslanish holati, asosiy ifloslantiruvchi moddalarning o‘zgarish sur’ati, ularning ekologik va sog‘liq uchun xavf darajasi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari amaliy jihatdan shahar ekologiyasini yaxshilash, monitoring tizimini takomillashtirish va profilaktik choralarni ishlab chiqish uchun xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Atmosfera havosining sifat ko‘rsatkichlarini o‘rganish bugungi ekologik xavfsizlik, atrof-muhitni muhofaza qilish va aholi salomatligi nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. So‘nggi o‘n yilliklarda bu borada O‘zbekistonda bir qancha ilmiy izlanishlar amalga oshirildi. Jumladan, Yusupov A.T. va Xudoyberganova D.S. tomonidan Toshkent shahri hamda Farg‘ona vodiysi shaharlarida atmosfera havosining holati, xususan, chang va gazsimon aralashmalar bo‘yicha statistik tahlillar olib borilgan. Ular bu ifloslantiruvchi moddalarni nafaqat ekologik xavf manbai, balki salomatlik uchun bevosita tahdid sifatida ko‘rsatgan [2].

Ekologik muammolar chuqur tahlil etilgan boshqa bir manbada — Raxmonov U.A. tomonidan sanoat markazlarida havoning ifloslanish darajasi, ifloslantiruvchi manbalar va ularga qarshi kurash usullari tizimlashtirilgan. Tadqiqotda ayniqsa chang zarralari, azot oksidlari va uglerod birikmalari havoda

me’yorlardan oshgan hollarda sog‘liq uchun xavf tug‘dirishini ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, monitoring tizimini kuchaytirish bo‘yicha tavsiyalar ilgari surilgan [3].

Ushbu maqolada esa avvalgi tadqiqotlardan farqli ravishda Namangan shahrida 1995–2010-yillar oralig‘ida atmosferaga chiqarilgan asosiy ifloslantiruvchi moddalar miqdori yillik kesimda tahlil qilinadi. Bu tahlil uchun O‘zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya xizmati markazi tomonidan e’lon qilingan yillik kuzatuv hisobotlari asosiy axborot manbasi sifatida tanlandi. Ushbu ma’lumotlar milliy monitoring tarmog‘i orqali aniqlangan o‘rtacha yillik ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi va mamlakatda atmosfera havosining umumiy sifati to‘g‘risida ishonchli ma’lumot beradi [4].

Tadqiqot davomida quyidagi asosiy ifloslantiruvchi moddalar bo‘yicha statistik tahlil o‘tkazildi:

Chang zarralari (PM)
Oltingugurt dioksidi (SO_2)
Uglerod oksidi (CO)
Azot dioksidi (NO_2)
Azot oksidi (NO)
Fenol
Ammiak (NH_3)

Tahlilda oddiy statistik usullar asosida yillik o‘rtacha konsentratsiyalar, maksimal va minimal qiymatlar aniqlanib, dinamik o‘zgarishlar grafik tarzda ifodalandi. Har bir modda uchun yillik o‘zgarish sur’ati, ularning o‘zaro aloqadorligi va tashqi ekologik omillar (masalan, sanoat yuklamasi, transport vositalari harakati, shamol yo‘nalishlari va boshqa meteorologik sharoitlar) hisobga olindi.

Shu tariqa, ushbu metodologik yondashuv Namangan shahrining ko‘p yillik ekologik vaziyatini obyektiv baholashga xizmat qiladi. Bunda mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili hamda real monitoring ma’lumotlariga asoslanilgan kombinatsiyalashgan yondashuv qo‘llanildi. Natijalari esa nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham muhimdir — u ekologik qarorlar qabul qilish, rejalashtirish va monitoring tizimlarini takomillashtirish uchun zarur asos bo‘lib xizmat qiladi.

Natijalar va muhokama. Atmosfera havosining ifloslanishi ekologik muammolar ichida eng dolzarblaridan biri hisoblanadi. Aholining salomatligiga bevosita ta’sir etuvchi muallaq zarralar, gazsimon moddalarning miqdori doimiy monitoring qilinishi lozim. Namangan shahri misolida 1995–2010-yillar davomida to‘plangan ma’lumotlar asosida asosiy ifloslantiruvchi moddalar darajasining o‘zgarish dinamikasi ko‘rib chiqildi. Ular orasida muallaq zarralar, oltingugurt dioksidi (SO_2), uglerod oksidi (CO), azot dioksidi (NO_2) va azot oksidi (NO) kabi komponentlar mavjud [5].

1-jadval. Namangan shahrida 1995–2010-yillar davomida atmosfera havosining ifloslanishi (o‘rtacha qiymatda, mg/m³)

T/r	Yil	Muallaq zarralar	Oltingugurt dioksidi	Uglerod oksidi	Azot dioksidi	Azot oksidi
1	1995	0.2	0.002	1	0.04	0.03
2	1996	0.2	0.001	1	0.03	0.03
3	1997	0.1	0.001	1	0.04	0.02
4	1998	0.1	0.001	1	0.03	0.02
5	1999	0.2	0.001	1	0.04	0.03
6	2000	0.3	0.001	2	0.04	-
7	2001	0.1	0.001	1	0.04	-
8	2002	0.1	0.001	1	0.03	-
9	2003	0.1	0.002	1	0.03	-
10	2004	0.1	0.002	1	0.03	
11	2005	0.1	0.001	1	0.03	
12	2006	0.1	0.002	1	0.02	
13	2007	0.1	0.002	1	0.02	
14	2008	0.1	0.002	1	0.02	
15	2009	0.1	0.002	1	0.02	
16	2010	0.1	0.002	1	0.02	

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 1995–2010-yillar oralig‘ida Namangan shahrida atmosfera havosining asosiy ifloslantiruvchi komponentlari orasida muallaq zarralarning konsentratsiyasi 1995–2000-yillarda nisbatan yuqori bo‘lgan. Xususan, 2000-yilda bu ko‘rsatkich 0.3 mg/m³ gacha ko‘tarilgan

bo‘lib, bu boshqa yillarga nisbatan eng yuqori qiymat hisoblanadi. Keyingi yillarda esa u sezilarli ravishda pasaygan va 0.1 mg/m³ atrofida barqarorlashgan. Bu holat sanoat korxonalarida tozalash inshootlarining modernizatsiyasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin [6].

Oltingugurt dioksidi (SO_2) miqdori davomiy davrda sezilarli darajada o‘zgarmagan, odatda 0.001–0.002 mg/m³ oralig‘ida saqlangan. Bu komponent asosan yoqilg‘i mahsulotlarining yoqilishi natijasida ajralib chiqadi. Uning yuqori konsentratsiyasi nafas yo‘llari kasalliklarini keltirib chiqarishi mumkin. Ayniqsa, 2003–2010-yillarda ushbu moddaning o‘rtacha darajasi 0.002 mg/m³ ni tashkil etgan va bu atmosfera sifati uchun xavotirli holat deb baholanishi mumkin [7].

Uglerod oksidi (CO) esa barcha yillarda 1 mg/m³ atrofida bo‘lgan, biroq 2000-yilda bu ko‘rsatkich 2 mg/m³ ga yetgan. Ushbu keskin ko‘tarilish ehtimolki, yoqilg‘i sarfi va avtomobillar sonining oshganligi bilan bog‘liqdir. Uglerod oksidining yuqori miqdori kislorod bilan bog‘lanish qobiliyatiga ega bo‘lgan gemoglobin bilan reaksiyaga kirishib, kislorod tanqisligiga olib kelishi mumkin [8].

Azot dioksidi (NO_2) va azot oksidi (NO) kabi azotli birikmalar asosan transport vositalari va sanoat faoliyati natijasida havoga chiqadi. NO_2 konsentratsiyasi 1995–1999-yillarda 0.03–0.04 mg/m³ atrofida bo‘lgan bo‘lsa, 2006–2010-yillarga kelib 0.02 mg/m³ darajasida kamaygan. Bu esa ekologik nazorat choralarining kuchayganidan dalolat beradi. NO bo‘yicha ma’lumotlar faqat dastlabki yillarda mavjud bo‘lib, 1995–1999-yillar oralig‘ida bu moddaning darajasi 0.02–0.03 mg/m³ oralig‘ida bo‘lgan [6].

Shuni ta’kidlash kerakki, ba’zi yillarda ma’lumotlarning to‘liq emasligi (masalan, azot oksidi bo‘yicha keyingi yillarda) monitoring imkoniyatlarining cheklanganligini ko‘rsatadi. Biroq mavjud ma’lumotlar asosida atmosfera havosidagi ifloslanish komponentlarining o‘zgarishi bo‘yicha muhim xulosalar chiqarish mumkin. Umuman olganda, 1995–2010-yillar davomida Namangan shahrida atmosfera havosining holati murakkab bo‘lgan. Ba’zi komponentlar bo‘yicha ifloslanish pasaygan bo‘lsa-da, boshqa moddalarning yuqoriligi ekologik barqarorlikka xavf tug‘dirgan. Bu holat, o‘z navbatida, sog‘liqni saqlash tizimi, ekologik nazorat va havo tozalash infratuzilmasini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa. 1995–2010-yillar davomida o‘rganilgan statistik ma’lumotlarga asoslanib aytish mumkinki, Namangan shahrida atmosfera havosining ifloslanish holati murakkab, ammo barqaror tus olgan. Muallaq zarralar, oltingugurt dioksidi, uglerod oksidi va azot oksidlarining miqdori ba’zi yillarda pasaygan bo‘lsa-da, ularning umumiy mavjudligi ekologik xavf darajasini ko‘rsatadi. Xususan, 2000-yilda uglerod oksidining keskin oshishi, oltingugurt dioksidining 2003–2010-yillar oralig‘ida ko‘payib borishi havoning ifloslanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan O‘rganilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, atmosfera havosining asosiy ifloslantiruvchilari doimiy monitoring va nazoratni talab qiladi. Shahar infratuzilmasining kengayishi, avtotransport vositalari sonining ortishi va ayrim yillarda sanoat faolligining kuchayishi bu ko‘rsatkichlarga bevosita ta’sir qilgan. Shu sababli, ekologik xavfsizlikni ta’minlash uchun aniq va samarali choralar ko‘rish zarur.

Shunga asoslanib quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Monitoring tizimini kuchaytirish – Shahar bo‘ylab havoni avtomatik o‘lchovchi stansiyalarni ko‘paytirish va ma’lumotlarni real vaqt rejimida kuzatish.

Transport chiqindilarini kamaytirish – Yoqilg‘i sifatini oshirish, texnik ko‘rikni kuchaytirish va ekologik toza transport vositalaridan foydalanish.

Sanoat chiqindilarini nazorat qilish – Korxonalarda tozalash inshootlarini modernizatsiya qilish va chiqindilarni me’yorlashtirish.

Aholi o‘rtasida ekologik madaniyatni oshirish – Ekologik tahdidlar haqida xabardorlikni kuchaytirish va yoshlar o‘rtasida tabiatga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish.

Yuqoridagi takliflar orqali Namangan shahrida ekologik holatni barqarorlashtirish, havoning sifatini yaxshilash va aholi salomatligini muhofaza qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] I. A. Karimov, Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch, Tashkent: Ma’naviyat, 2008, p. 176.

[2] A. A. Abduvohidov and S. Q. Qosimov, Atmosfera havosining ifloslanishi va uni muhofaza qilish, Tashkent: O‘zbekiston, 2016, p. 196.

[3] B. A. Kadirov and I. X. Ergashev, Ekologiya asoslari, Tashkent: Fan, 2002, p. 312.

[4] B. B. Berdikulov, Atmosfera havosi monitoringi va uni baholash, Tashkent: Ekosan, 2014, p. 224.

[5] N. T. Tojiyev and Z. T. Mahmudov, Ekologik xavfsizlik asoslari, Samarkand: SamDU, 2015, p. 180.

[6] State Committee for Ecology and Environmental Protection of the Republic of Uzbekistan, Annual reports on air pollution 1995–2010, Tashkent: Ekodavkom, various years.
[7] N. Raxmatullayev and I. Jo‘rayev, "O‘zbekiston shaharlarida ekologik muammolar", Geografiya va tabiiy resurslar, no. 4, pp. 32–36, 2009.
[8] A. Hamroyev and M. Tursunov, "Atmosfera havosining sog‘liq uchun xavfi", Tibbiyot va hayot, no. 2, pp. 45–49, 2011.

KREATIV YONDASHUVNING PEDAGOGIK ASOSLARI: ZAMONAVIY METODLAR, MUAMMOLI YONDASHUV, RAQAMLI VOSITALAR INTEGRATSIYASI

Z.I.Meliqo‘ziyeva
Qo‘qon davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur tezisda kreativ yondashuv asosida o‘qitishning zamonaviy metodlari, ularning magistrantlarning bilim va ko‘nikmalariga ta’siri tahlil qilinadi. Kreativ metodlarning auditoriya jarayoniga tatbiq etilishi magistrantlarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish va innovatsion yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu orqali ta’lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishiladi.

Kalit so‘zlar: kreativ yondashuv, ta’lim sifati, interfaol metodlar, o‘qitish texnologiyalari, innovatsiya**.**

Аннотация. В данной тезисной работе анализируются современные методы обучения на основе креативного подхода и их влияние на знания и навыки магистрантов. Применение креативных методов в учебном процессе способствует развитию у магистрантов самостоятельного мышления, способности решать проблемные ситуации и внедрять инновационный подход. Это, в свою очередь, способствует повышению качества образования и подготовке конкурентоспособных кадров.

Ключевые слова: креативный подход, качество образования, интерактивные методы, технологии обучения, инновации

Annotation. This thesis analyzes modern teaching methods based on a creative approach and their impact on the knowledge and skills of master's students. The application of creative methods in classroom activities fosters independent thinking, problem-solving abilities, and the development of innovative approaches among students. Ultimately, this contributes to improving the quality of education and preparing competitive specialists.

Keywords: creative approach, quality of education, interactive methods, teaching technologies, innovation**.**

Bugungi globallashuv davrida har bir sohada kreativ fikrlashga ega mutaxassislar talab etilmoqda. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli “2022–2026 yillarda Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni [1] hamda 2023-yil 7-fevraldagi PQ–57-sonli “Ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarni kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarida[2] ham o‘qitish jarayoniga yangicha, kreativ yondashuvni joriy etish muhimligi alohida ta’kidlangan. Kreativ yondashuv asosida o‘qitish metodlari ta’lim jarayoniga innovatsion ruh bag‘ishlab, an’anaviy yondashuvlardan farqli o‘laroq magistrantlarning shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Bu yondashuvning asosiy maqsadi – magistrantning bilim olishdagi faol ishtirokini ta’minlash, ularni mustaqil fikrlovchi, ijodiy, tashabbuskor va tanqidiy qaror qabul qiluvchi shaxs sifatida shakllantirishdir. Kreativ yondashuv pedagogik metodlarning yangicha tizimini yaratadi. Bu jarayonda o‘qituvchi faqatgina bilim beruvchi emas, balki yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, faoliyatga undovchi, jarayonni boshqaruvchi hamdir. Magistrantlar esa auditoriyada passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylanadi. O‘quv jarayoni o‘zaro fikr almashinuvi, muammolarni birgalikda hal qilish, mustaqil loyihalar ishlab chiqish kabi faol shakllarda olib boriladi.

Kreativ metodlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Loyihaviy uslub (Project-based learning) – bu uslub orqali magistrantlar muayyan mavzuda mustaqil yoki guruh bo‘lib tadqiqot olib boradi, loyiha tayyorlaydi va uni himoya qiladi. Bu metod shaxsiy mas’uliyat, ijodkorlik va rejalashtirish qobiliyatini rivojlantiradi.

2. “Miya hujumi” (Brainstorming) – bu metod orqali magistrantlardan muayyan mavzu bo‘yicha erkin g‘oyalar taklif qilinadi. Hech bir fikr rad etilmaydi, bu esa magistrantlarda o‘z fikrini ochiq bayon qilishga turtki beradi.

3. Konseptual xaritalar tuzish – mavzular orasidagi mantiqiy bog‘liqliklarni chizma orqali ko‘rsatish orqali magistrantlarning tizimli fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi.

4. Rolli o‘yinlar (Role-playing) – bu metod orqali magistrantlar ijtimoiy vaziyatlarni jonlantirib, real hayotdagi muammolarni hal qilishga o‘rganadilar. Masalan, “sud jarayoni”, “ilmiy bahs”, “matbuot anjumani” kabi sahna ko‘rinishlari.

5. Katta savollar asosida ta’lim (Big questions approach) – magistrantlar oldiga hayotiy dolzarb savollar qo‘yiladi. Ular javob izlash jarayonida yangi bilimlarni mustaqil o‘zlashtiradilar.

Ushbu metodlar magistrantlarda quyidagi kompetensiyalarni shakllantiradi:

• Tanqidiy fikrlash;
• Muammoga kreativ yondashish;
• Guruhda ishlash qobiliyati;
• Mustaqil qaror qabul qilish;
• Texnologiyalardan ongli foydalanish.

Kreativ yondashuvda o‘qituvchidan ham yangicha yondashuv, pedagogik mahorat, doimiy o‘zini rivojlantirish talab etiladi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, sun’iy intellekt va internet texnologiyalarining ta’limga kirib kelishi – kreativ metodlarni joriy etishni yanada dolzarb qilmoqda. Masalan, interaktiv platformalar (Kahoot, Quizizz), vizual taqdimotlar, animatsion videolar yordamida bilim berish orqali magistrantlarni auditoriyaga jalb qilish osonlashmoqda.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ham kreativ yondashuv bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Xususan, Prezident qarorlarida zamonaviy o‘qitish texnologiyalarini joriy etish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish va auditoriya jarayonini yangilash bo‘yicha aniq topshiriqlar belgilangan. Bu esa kelajakda ta’lim sifatini tubdan oshirish imkonini beradi.

Zamonaviy ta’lim jamiyat rivojining eng muhim omillaridan biri sifatida innovatsion yondashuvlarga asoslanmoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalari keng rivojlanayotgan, yosh avlodning dunyoqarashi va ehtiyojlari o‘zgarayotgan bir davrda an’anaviy ta’lim metodlari o‘z samarasini yo‘qotmoqda. Bugungi kunda ta’lim tizimi magistrantdan faqat tayyor bilimlarni qabul qiluvchi emas, balki mustaqil fikrlovchi, muammoga turli burchaklardan yondashuvchi, ijodiy qaror qabul qila oladigan shaxsni shakllantirishni talab qilmoqda. Shu bois, kreativ yondashuv asosida o‘qitish metodi dolzarb mavzuga aylanmoqda. “Kreativ yondashuv — bu ta’limda yangilik, noodatiy fikr va individual yondashuvni birlashtirgan metodlar tizimidir.”[3.2023:54B] Ushbu metodlar magistrantlarni faollikka chorlab, ular orasida erkin fikrlash, o‘z fikrini asoslash, turlicha g‘oyalarni ilgari surish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Auditoriya jarayonida kreativ yondashuvni qo‘llash magistrantlarning auditoriyaga bo‘lgan qiziqishini orttiradi, o‘z fikrini ochiq bayon qilish, muloqotda bo‘lish madaniyatini shakllantiradi. Bu esa nafaqat bilim sifatini, balki magistrantning umumiy intellektual salohiyatini oshiradi.

Kreativ fikrlashni rivojlantirish jarayoni biroz murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bo‘lishi mumkin. Lekin, buni samarali amalga oshirish uchun bir qator usullar mavjud. Zamonaviy ta’lim jarayonida magistrantlarning ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish — nafaqat ilmiy izlanishlarda muvaffaqiyatga erishish, balki mustaqil qaror qabul qilish, muammoga innovatsion yondashuv ko‘rsatish, yangicha metodlarni ishlab chiqish qobiliyatini rivojlantirish uchun muhim omildir. Quyida kreativ fikrlashni shakllantirishga xizmat qiluvchi asosiy usullar tahlil qilinadi.

Ta’lim jarayonida real hayotda uchraydigan yoki ilmiy izlanishlarda dolzarb bo‘lgan muammolarni muhokama qilish orqali magistrantlar mustaqil yechim topishga da’vat etiladi. “Agar shunday bo‘lsa-chi?”, “Nega aynan shu?” kabi savollar yordamida tanqidiy va ijodiy fikrlash faollashadi.

Divergent — ya’ni ko‘p yo‘nalishli fikrlash orqali magistrant bir muammoning bir nechta yechimlarini ishlab chiqishga harakat qiladi. Bu esa ijodiy fikrlashning eng muhim komponentlaridan biridir. Alternativ g‘oyalarni muhokama qilish, ularni tahlil qilish va baholash — ijodiy salohiyatni oshiradi.

Magistrantga turli tadqiqot metodlarini amaliy shaklda qo‘llash imkoniyatini berish ilmiy mantiqni rivojlantiradi. Annotatsiya yozish, tahliliy sharhlar tuzish, ilmiy maqola tarkibini ishlab chiqish mustaqil fikr ifodasini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

She’r yoki esse yozish, ilmiy maqolalarga kirish qismlarini yozish orqali magistrant o‘z ijodiy uslubini izlaydi. Shuningdek, mashhur olimlar uslubini taqlid qilish uslubiy parodiyalar orqali ular yangi ilmiy-nazariy yondashuvlarni shakllantirishi mumkin.

Magistrantlar o‘rtasida o‘tkaziladigan “brainstorming” sessiyalari, debatlar va ilmiy bahslar fikr almashish va asoslash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu jarayonda har bir ishtirokchi o‘z fikrini erkin ifodalab, uni mantiqiy dalillar bilan mustahkamlashga harakat qiladi.

Ilmiy va badiiy matnlarni tanqidiy tahlil qilish, metatekstlar yaratish, ya’ni asar asosida yangicha fikrlar hosil qilish, qahramonlar haqida muqobil sharhlar yozish ijodiy tafakkurning samarali ko‘rinishidir.

“Kreativ yondashuv — bu o‘qitish jarayonida magistrantlarning shaxsiy salohiyati, qiziqishlari va ijodiy imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiladigan metodlar tizimidir.”[4.2019:78B] Bunday yondashuv magistrantlarni mustaqil fikrlashga, noodatiy yo‘llar bilan muammo hal qilishga va hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga o‘rgatadi. Quyida kreativ o‘qitishning asosiy metodlari keltirilgan:

Muammoli ta’lim metodida o‘qituvchi ma’lumotni tayyor holda berib qo‘ymaydi, balki magistrantlarni izlanishga undovchi muammo vaziyatini yaratadi. Magistrantlar o‘z bilim va tajribasiga tayanib, muammoning yechimini izlashga harakat qilishadi. Bu esa ularda mustaqil fikrlash, analiz va sintez qilish qobiliyatlarini shakllantiradi.

Misol: “Ta’limda sun’iy intellektning tadbiq etilishi ommalashib borsa, kelajakda insoniyat qanday ta’lim oladi?” savoli asosida magistrantlar guruhlar bilan turli takliflar ishlab chiqadilar.

Aqliy hujum bu ijodiy g‘oyalarni tez va erkin tarzda ishlab chiqishga qaratilgan usul bo‘lib, guruhda o‘tkaziladi. Bu metodda magistrantlar berilgan muammoni hal qilish bo‘yicha fikrlar bildiradilar, g‘oyalar tanqid qilinmaydi, faqat jamlanadi. So‘ngra eng maqbul g‘oyalar tanlab olinadi.

Rol o‘ynash metodida magistrantlar turli ijtimoiy rollarni o‘zlashtirib, vaziyatni jonli ravishda sahnalashtiradilar. Bu usul orqali ularning nutq madaniyati, empatiya va muomala ko‘nikmalari rivojlanadi.

Misol: Auditoriyada “Ustoz va magistrantlar”, “Magistrantlar forumi”, “Ochiq mashg‘ulot” kabi sahna ko‘rinishlari orqali mavzular yoritiladi.

Kreativ yondashuv asosida o‘qitish — bugungi ta’lim tizimining eng muhim talablaridan biridir. Bunday yondashuv magistrantlarni faollikka, ijodiy fikrlashga, muammolarni mustaqil hal qilishga va hayotiy vaziyatlarga moslashishga o‘rgatadi. Muammoli ta’lim, aqliy hujum, rol o‘ynash, klaster, konseptual xarita kabi metodlar orqali o‘quv jarayoni jonlanadi, magistrantlar auditoriyada faol ishtirok etadilar, o‘z fikrini erkin bildirishadi, yangi g‘oyalarni ilgari surishadi. Shunday qilib, kreativ o‘qitish metodlaridan samarali foydalanish orqali biz nafaqat bilimli, balki mustaqil fikrlovchi, tashabbuskor va ijodiy qarashlarga ega bo‘lgan shaxsni tarbiyalaymiz. Bu esa zamonaviy jamiyat talablariga javob beruvchi kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

“Kreativ yondashuv — bu an’anaviy o‘qitish metodlaridan farqli ravishda, magistrantning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va tashabbuskorligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik metoddir.”[5.2020:146B] O‘qituvchilar bunday metodlar orqali magistrantlarga o‘quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylanish imkonini beradi. Bunga misol tariqasida loyihaviy ta’lim, rolli o‘yinlar, “miya hujumi”, klaster tuzish, konseptual xaritalar kabi metodlarni keltirish mumkin. Kreativ metodlar bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirish, tanqidiy fikrlash va innovatsion g‘oyalarni ilgari surishga xizmat qiladi. Ustoz magistrantlarni faollikka undaydi, ularning qiziqishlarini rag‘batlantiradi va shaxsiy yondashuv asosida bilim beradi.

Kreativ yondashuv asosida o‘qitish nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki magistrantlarning mustaqil fikrlash va muammoni hal etish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ushbu metodlar orqali ta’lim samaradorligini oshirish, ilg‘or tajribalarni o‘rganish va ularni milliy ta’lim tizimiga tatbiq etish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. O‘qituvchilarning ijodiy yondashuvi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishi orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar va qarorlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli Farmoni – “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-fevraldagi PQ–57-sonli qarori – “Ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarni kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”

3. Davlatov A. “Kreativ ta’lim: o‘quvchini faollashtirish yo‘llari”. // Pedagogik mahorat jurnali. №2. 2023.

4. G‘ofurov B. Ta’limda kreativ yondashuv: Nazariya va amaliyot. Samarqand: “Ilm Ziyo” nashriyoti. 2019.
5. Qodirova D. Pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlar. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti. 2020.

TALABALARDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH DARAJALARI VA UNI PEDAGOGIK TASHXISLASH XUSUSIYATLARI

A.X.Asqarov
Namangan davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchisi, **Abrorjonasqarov86@gmail.com**
N.F.Foziljonova
niholakhon06@gmail.com

Annotatsiya. Moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish muammosi nafaqat boshlang‘ich, asosiy va o‘rta ta’lim dasturlarini amalga oshirish talablaridan biri sifatida uni shakllantirish uchun shart-sharoitlarni yaratishni o‘z ichiga olgan yangi Davlat ta’lim standartlarini joriy etish tufayli, balki ta’lim sifatini oshirish zarurati tufayli ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ushbu maqolada aynan manashu dolzarb masalalarni bartaraf etish masalalari atroflicha ko‘rib chiqiladi.

Annotation. The problem of developing financial literacy remains relevant not only due to the introduction of new state educational standards, which include the creation of conditions for its formation as one of the requirements for the implementation of primary, basic and secondary educational programs, but also due to the need to improve the quality of Education. In this article, it is manashu who will consider the issues of elimination of current issues in detail

Annotatsiya. Problema razvitiya finansovoy gramotnosti ostaetsya aktualnoy ne tolko v svyazi s vvedeniem novыx gosudarstvennыx obrazovatelnыx standartov, kotorыe predusmatrivayut sozdanie usloviy dlya yee formirovaniya v kachestve odnogo iz trebovaniy k realizatsii nachalnыx, bazovыx i srednix obrazovatelnыx programm, no i v svyazi s neobxodimostyu povыsheniya kachestva obrazovaniya. V etoy state imenno manashu podrobno rassmotrit voprosы ustraneniya tekuщix nepoladok

Kalit so‘zlar. *Moliyaviy instrumentlar, Moliyavyi institutlar, Paretto qoidasi,*

Kirish. Hozirgi zamonaviy jamiyatda shaxsning moliyaviy savodxonligi — uning iqtisodiy mustahkamligi, shaxsiy budjetni to‘g‘ri boshqarishi, oqilona sarmoya kiritish va moliyaviy xavf-xatarlarni baholash qobiliyatini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Jahon miqyosida iqtisodiy bilim va ko‘nikmalarni keng targ‘ib etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, yosh avlod — talabalarning moliyaviy savodxonligini shakllantirish ularning shaxsiy va ijtimoiy hayotida barqaror qarorlar qabul qilishini ta’minlaydi.

Ushbu maqolada talabalarda moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish darajalari tahlil qilinadi hamda uni aniqlash va baholashdagi pedagogik tashxislash xususiyatlari yoritib beriladi. Maqolaning asosiy maqsadi — ta’lim jarayonida moliyaviy bilimlarni samarali shakllantirish va ularni to‘g‘ri baholashga qaratilgan ilmiy-nazariy hamda amaliy asoslarni ko‘rsatishdir.

Metodlar bo‘limi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13-apreldagi “Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6207-sonli Farmoniga asosan, umumta’lim maktablari o‘quvchilari hamda noiqtisodiy yo‘nalishdagi oliy ta’lim tashkilotlari talabalari uchun «Moliyaviy savodxonlik» o‘quv kursini fan sifatida joriy etish belgilandi. Ushbu fan doirasida talabalarga mablag‘larni to‘g‘ri boshqarish, oqilona moliyaviy qarorlar qabul qilish, jumladan moliyaviy instrumentlar bo‘yicha o‘qitish metodologiyasini ishlab chiqish hamda «Moliyaviy savodxonlik olimpiadalari»ni tashkil etish orqali o‘quv kursining samaradorligini baholash asosiy vazifa etib belgilandi.

Bizningcha, ta’lim sifatini oshirish vazifasi murakkab va o‘quv natijalarini baholashning mavjud tizimini tahlil qilish, standart talablariga muvofiqlik darajasini aniqlashning samarali shakllari va usullarini va uni baholash vositalarini tanlash nuqtai nazaridan nazariy tushunishni talab qiladi.

Aynan ilmiy pedagog tadqiqotchilardan A.F.Skiteva, L.G.Gorskayalarni fikricha, oliy o‘quv yurtlarida qo‘llaniladigan ta’lim (meta-mavzu, mavzu va shaxsiy) natijalarini baholashda tizimli faoliyat va kompetensiyaga asoslangan yondashuvlar asosan moliyaviy savodxonlikni baholash uchun ishlatiladigan diagnostika va o‘lchash vositalaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Shunday qilib,

moliyaviy savodxonlikni baholash metodologiyasini muvaffaqiyatli o‘zlashtirgan o‘qituvchi keyinchalik boshqa fan sohalarida samarali qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishini ta’kidlaydi.

Biroq, ilmiy adabiyotlarda turli toifadagi talabalarning moliyaviy savodxonligi darajasini baholashga turli xil yondashuvlar, shu jumladan o‘lchov materiallari tarkibi, turli xil baholash texnologiyalari va boshqalar keltirilgan.

Natijalar bo‘limi. Hozirda xalqaro tajribani tahlil qilish asosida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2020 yil 8-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VM-365-sonli qaroriga asosan, umumta’lim maktablarining yuqori sinflari (9-11 sinflar), litsey o‘quvchilari va kollej talablari, oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat talabalari orasida moliyaviy savodxonlik bo‘yicha har yili respublika olimpiadalarini o‘tkazish belgilandi. Bunda, olimpiadaning me’yoriy va uslubiy bazasini tayyorlash, o‘qituvchilarni tayyorlash, olimpiada chora-tadbirlari va nizomlarini tayyorlab har-bir bandini amalga oshirish vazifalari belgilandi.

Bizningcha, moliyaviy savodxonlik bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmualar alohida tematik bloklar va bo‘limlarda ishlab chiqilgan mualliflik nazorat va o‘lchash materiallarini o‘z ichiga olishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.


Chunki, talabalarga taqdim etiladigan topshiriqlar amaliyotga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularga muayyan hayotiy vaziyatga sho‘ng‘ish imkoniyatini beradi. Baholash materiallarining formati xilma-xil bo‘lib, ya’ni bunda test topshiriqlaridan to‘g‘ri javobni tanlashdan tortib, batafsil javob bilan amaliyotga yo‘naltirilgan topshiriqlar va vazifalarni tashkil qiladi.

Xususan, moliyaviy savodxonlikning mavzu yo‘nalishlari aniqlandi, uning asosiy tarkibiy qismlari ta’kidlandi jumladan, bilim va tushunish, ko‘nikma va xulq-atvor, shaxsiy xususiyatlar va munosabatlar shular sirasiga kirai. Ushbu ishlanmalar turli yoshdagi talabalar uchun o‘lchov materiallarining asosini tashkil etadi. Turli darajadagi musobaqalar doirasida talabalarning moliyaviy savodxonligi darajasini baholash vazifalari alohida qiziqish uyg‘otadi.

2025 yil 27-may kuni Namangan viloyatidagi 6 ta oliy ta’lim muassasalarining iqtisodiy va noiqtisodiy yo‘nalishi talabalari o‘rtasida Namangan davat universiteti va O‘zbekiston Respublikas Markaziy banki Namangan viloyat bosh boshqarmasi hamkorligi “Moliyaviy savodxonlik” olimpiadasi o‘tkazildi.

Jumladan, o‘tkazilgan olimpiada natijalariga ko‘ra, 1-shart bo‘yicha ijobiy natija ko‘rsatgan “Savodli sarmoyadorlar” jamoasi eng yuqori ball (18,5 ball / 92,5%) jamg‘arib, jamoa o‘zini nazariy va amaliy bilimlarga ega ekanligi, barcha yo‘nalishlarda muvozanatli bilimi borligini olimpiadada namoyon etdi.

Olimpiadada 1-shart bo‘yicha yuqori va o‘rta natija ko‘rsatgan jamoalar, “Futures” (77,5%) va “Amir Temur vorislari” (75%) jamoalari yaxshi bilimga ega, lekin ma’lum sohalarda rivojlanish uchun imkoniyatlarini ishga solish kerakligi, bu jamoalar, ayniqsa, moliyaviy institutlar yoki moliyaviy tushunchalar bo‘yicha ko‘proq amaliy mashg‘ulotlarga muhtoj ekanliklari olimpiada o‘z ifodasini topdi.



3.1.1-rasm “Moliyaviy savodxonlik” olimpiadasi natijalari dinamikasi.

Olimpiadada 1-shart bo‘yicha o‘rtacha natija ko‘rsatgan jamoalar “UBS Burgutlari” (70%) va “Sarmoya yo‘lboshchilari” (67,5%) asosiy tushunchalarni o‘zlashtirgan, lekin qonunchilik yoki institutsional bilimlarda ayrim kamchiliklar borligi aniqlandi. Bu jamoalarning natijalari ustidan maqsadli ish olib borish orqali 80%+ darajaga chiqish mumkin degan hulosalarga kelindi.


Olimpiadada 1-shart bo‘yicha natijalarini qoniqarli ko‘rsatgan jamoa “Uz Financiers” (65%) natijasi past emas, lekin boshqa jamoalarga nisbatan kamroq test savollariga javob berganliklari aniqlandi. Bundan hulosa qilamizki, jamoadagi umumiy bilimning yetarli darajada shakllanmaganligini, bilimlarni tizimlashtirishga ehtiyoj borligi aniqlandi.

Olimpiada ishtirokchilariga quyidagi pedagogik xulosalar va tavsiyalar berildi. Barcha jamoalar kamida 65% va undan yuqori natija ko‘rsatgan bu talabalarda moliyaviy savodxonlik shakllanganligini ko‘rsatadi. Jamoalar orasidagi farq 5,5 ball (27,5%) atrofida bo‘lib, bu jamoalar orasida raqobat muhiti shakllanganligini, lekin ayrimlar orasida bilim tarkibiyligi va chuqurligida farq borligini anglatdi.

2-shart bo‘yicha olimpiadada ijobiy natija ko‘rsatgan “Futures” jamoasi (90%) jamg‘arib, moliyaviy ko‘nikmalar bo‘yicha eng yuqori natijani qayd etgan. Bu jamoa a’zolarida moliyaviy jarayonlarni tushunish, rejalashtirish, tahlil qilish ko‘nikmalari yaxshi shakllanganligini ko‘rsataib, jamoa o‘zini nazariy va amaliy bilimlarga ega ekanligi, barcha yo‘nalishlarda muvozanatli bilimi borligini olimpiadada namoyon etdi. Natijalar (2.1.2-jadval) quyidagilarni tashkil qildi.

3.1.2-rasm. Moliyaviy ko‘nikmalarni baholash natijalari diagrammasi

Shunindek, “Savodli sarmoyadorlar” (78.8%) va “UBS Burgutlari” (77.5%) ham yuqori o‘rtacha ko‘rsatkichlar bilan yaxshi darajada baholangan. Bu jamoalar moliyaviy savodxonlik bo‘yicha ishonchli darajaga ega ekanligi natijalaridan ko‘rishimiz mumkin.



Olimpiadada o‘rtacha natijalar ko‘rsatgan, “Sarmoya yo‘lboshchilari” (70%) va “UZ Financiers” (67.5%) natijalarga erishdi lekin bu yetarlicha qoniqarli ko‘rsatkich, ammo ba’zi tushunchalar yoki amaliyotdagi noaniqliklar mavjudligi ham aniqlandi.

Qolaversa, past ko‘rsatkichga ega bo‘lgan “Amir Temur vorislari” jamoasida moliyaviy ko‘nikmalar (47.5%) past darajada ekanligini ko‘rsatdi. Bu natija ularda kelgusida moliyaviy tushunchalarni chuqur o‘zlashtirish zarurligini ko‘rsatdi.

Olimpiadada barcha jamoalarni 2-shart bo‘yicha pedagogik taxlili orqali quyidagi ma’lumotlarni kashf etildi.

Jumladan, barcha jamoalarning o‘quv jarayoni samaradorligi batafsil o‘rganildi. Natijada, “Futures” jamoasining (90%) natijasi ularga moliyaviy ko‘nikmalarni o‘rgatish jarayoni samarali bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Bu o‘qitish usuli va murabbiy mehnatining samaradorligidan dalolat beradi. O‘rta, yuqori va o‘rtacha ko‘rsatkichga ega jamoalar “Savodli sarmoyadorlar”, “UBS Burgutlari”, “Sarmoya yo‘lboshchilari” uchun moliyaviy o‘quv jarayoni yaxshi yo‘lga qo‘yilgan, biroq amaliyotga oid mashg‘ulotlar soni yetarli darajada tashkil etilmaganligi uchun jamoalarni 2-shart bo‘yicha topshiriqlarni bajarish yetarli darajada muammolarni paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi, buning uchun talabalarga amaliy moliyaviy mashg‘ulotlarni ko‘paytirilishi lozim bo‘ladi.

Jamoalarda metodik yetishmovchiliklar ham mavjudligi aniqlandi. Ya’ni “Amir Temur vorislari” jamoasining natijasi pedagogik nuqtai nazardan o‘qitish jarayonida metodik kamchiliklar yoki

talabalarning faolligi pastligini ko‘rsatdi. Kelgusida ushbu jamoaga keyslar, treninglar, simulyatsiyalardan ko‘proq foydalanish tavsiya etiladi.

Lekin jamoalarda vaziyatni chuqur tahlil qilishda qiyinchilik kuzatildi. Shunisi e’tiborliki, iqtisodiy yo‘nalishdagi jamoalarda ham hisoblash va tahlil chuqurligida kamchiliklar (asosiy bilimlarni avtomatizm darajasida o‘zlashtirmagan) mavjudligi aniqlandi.

Ilmiy pedagog tadqiqotchilardan A.F.Skiteva, L.G.Gorskayalarni fikricha, o‘qituvchi diagnostika ishlarini tashkil qilish modellaridan birini belgilaydi: shuningdek u ishning alohida qismlarini rejalashtirilgan jadval bo‘yicha avtonom ketma-ket bajarish yoki murakkab ish masalan, kurs oxirida topshiriqlarni yakuniy baholash uchun o‘quv jarayoniga kerakli materialni o‘z ichiga oladi va tegishli metodologiyani qo‘llaydi.


Moliyaviy savodxonlik bo‘yicha murakkab vazifalar talabalar tomonidan turli xil aqliy operatsiyalarni amalga oshirishni o‘z ichiga oladi, chunki har bir taklif qilingan vazifa moliyaviy muammolarni baholash, moliyaviy bilim va ko‘nikmalarni qo‘llash bilan moliyaviy kontekstda moliyaviy ma’lumotlarni aniqlashni talab qiladi. Shu maqsadda qo‘llanilgan turli texnologiyalarni tahlil qilib, case texnologiyasi eng katta samaradorlikka ega degan xulosaga kelishimiz mumkin bo‘ladi.

Ilmiy tadqiqotchilardan Ye.S.Polat, M.Yu.Buxarkina fikrlariga ko‘ra ta’limda case texnologiyasi an’anaviy ravishda "kasbiy faoliyatida real yoki simulyatsiya qilingan muammoli vaziyatni tahlil qilish va hal qilish asosida talabalarning bilimlari va shaxsiy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan interaktiv texnologiya"deb tushuniladi.

Bir tomondan, amaliy tadqiqotlar o‘quv jarayonini tashkil yetishga imkon beradi, talabalarning yangi fazilatlar va ko‘nikmalarni shakllantirish faoliyatini faollashtiradi, boshqa tomondan, ular moliyaviy savodxonlik darajasini tashxislash vositasi sifatida ishlatilishi mumkin. O‘qituvchi nafaqat yakuniy javobni "to‘g‘ri-noto‘g‘ri" pozitsiyasidan, balki fikrlash mantig‘ini, nostandart yechimlarni va turli xil axborot manbalari bilan ishlash qobiliyatini baholash imkoniyatiga yega bo‘ladi. Keys tadqiqotlari fanlararo xarakterga yega, shuning uchun ular talabalarning kompetensiyalarini shakllantirish darajasini samarali ochib beradi. Buni yaqqol namunasi sifatida quyidagi aniq ma’lumotlar asosida taxlil o‘tkazamiz.

Masalan, Moliyaviy savodxonlik olimpiadasida 3-shart Keys-stadini baholash sharti bo‘yicha natijalari taxlili shuni ko‘rsatmoqdaki, UZ Financiers, Savodli sarmoyadorlar va Sarmoya yo‘lboshchilari jamoalari olimpiada shartlarini yaxshi o‘zlashtirganini sababli (57,5%) natijaga erishganligini ko‘rsatadi. Jamoalarni har-birini taxlili ko‘rsatib o‘tilgan. Masalan, noiqtisodiy yo‘nalishdagi jamoalar (Amir Temur vorislari va Sarmoya yo‘lboshchilari) moliyaviy tahlil va qaror qabul qilishda yetarlicha ijodiy fikr yuritgan. Yechim taklif qilish va uni asoslash ko‘nikmalari deyarli barcha jamoalarda shakllangan. Biroq, jamoalarni

2.1.1-расм Жамоаларни молиявий саводхонлик барометри диаграммаси



rivojlantirish mumkin bo‘lgan jixatlari quyidagilardan kelib chiqib, taqdimot ko‘nikmalari (qarorni bayon qilish, muloqot) ayrim jamoalarda past darajada ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Muhokama bo‘limi. Lekin jamoalarda vaziyatni chuqur tahlil qilishda qiyinchilik kuzatildi. Shunisi e’tiborliki, iqtisodiy yo‘nalishdagi jamoalarda ham hisoblash va tahlil chuqurligida kamchiliklar (asosiy bilimlarni avtomatizm darajasida o‘zlashtirmagan) mavjudligi aniqlandi.

Yakuniy natijalar turli jihatlardan iborat bo‘ladiki, talabalar nazariy atamalarni bilish, xarajatlarni hisoblash uchun kredit kalkulatoridan foydalanish qobiliyati, ma’lumot bilan ishlash qobiliyati (kredit shartnomasini o‘qing), guruhda ishlashi, muloqot qobiliyatlari shakllanadi. Vazifa shaxsiy xususiyatlar va munosabatlarni aniqlashga imkon beradi. Bu orqali moliyaviy javobgarlikni tushunish, kredit imkoniyatlari va ehtiyojlarini o‘zaro bog‘lash tavsiya etiladi. Shunday qilib, case texnologiyasi "o‘quv maydonidan tashqariga chiqadigan kompetensiyalarni shakllantirish vositasi"ga aylanadi.

P.I.Tretyakovning fikricha, «Ta’lim olganlik darajasining tashxisi» nomli metodikasida talabalar uchun turli murakkablik darajasidagi mustaqil ishlarni bajarish ko‘nikmasini egallaganlikni namoyish qilish, bilish faoliyatidagi kamchiliklarni tuzatishga doir dasturlarni loyihalash imkoniyatini yaratish maqsadini nazarda tutadi.

Hulosa. Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda, bizning fikrimizcha, ta’lim jarayonida har bir talabaning o‘zi o‘zlashtirgan ilmiy bilimlar tizimida moliyaviy savodxonlikka ijodiy yondashuvning mohiyati va turli ko‘rinishlari, loyihalash madaniyati negizida aks etuvchi qobiliyatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlardan xabardor bo‘lishi, yanada aniqrog‘i farqlashi shaxsiy hayotida muayyan moliyaviy operatsiyalar, shartli belgilarni bir-biridan farqlay olishi lozim bo‘ladi.

Talaba o‘qtuvchi yordamida moliyaviy terminlarni yodda saqlashi, bajarilgan topshiriq, mashq, tayyorlangan loyiha taqdimoti mohiyati, ularni tayyorlash qoidalari, tartibi, nazariy tasdig‘ini ochib berishi izohlashi kerak bo‘ladi. Bundan tashqari talabalar moliyaviy ijodiy ishlarni tayyorlashda har bir harakat, hodisa o‘rtasidagi aloqa, o‘zaro bog‘liqlikni topa bilishi sabab va oqibatni ko‘rsata olishi zarur. Chunki, talaba o‘rgangan moliyaviy nazariy bilimlarini masalan, rasm, sxema chizish, jadval, krossvord, skanvord, rebus, diagrammalar va anagrammalar yaratish va o‘qituvchi tomonidan taklif etilgan topshiriqlarni yechimi borasidagi ko‘nikma, malakalarga egalikni imkon qadar to‘la amaliy xarakatlari orqali yorita olish lozim.

O‘qituvchi talabalarning faoliyati, ijodiy ishlarini baholash uchun metodikani qo‘llash avvalida ularning e’tiborlariga o‘zlashtirganlik darajasi va ularga qo‘yiladigan baho ko‘rsatkichlarini ifodalovchi quyidagi mezonlarni havola etishi lozim.

№	O‘zlashtirganlik darajasi	Baho
	Variant I: 1,2	“3”
	Variant II: 2,3,4	“4”
	Variant III: 4,5	“5”

Metodikaning afzalligi shundaki, unga ko‘ra talabalar bilim, ko‘nikma, malakalar (BKM)ning o‘zlashtirganlik darajasini ifodalovchi variantlar va baholar ko‘rsatkichlarini o‘zlari tanlashi mumkin. Bu degani, ularning o‘zlari o‘qituvchi tomonidan taklif etilayotgan topshiriqlarni ham mustaqil tanlaydi. O‘qituvchi talabalarning mustaqil tanloviga ko‘ra bajargan ishlarini baholab boradi. Uning bu boradagi harakati natijasi 3.1.5-jadvalda o‘z aksini topadi. Shunday qilib, zamonaviy sharoitda pedagogik diagnostika g‘oyalarini amaliyotda qo‘llash interaktiv va tarbiyaviy jarayonlarni ilmiy, metodik, tashkiliy, amaliy jihatdan to‘g‘ri tashkillashtirilishini ta’minlaydi.

Talabalar tomonidan bilim, ko‘nikma, malakalarning samarali o‘zlashtirilishi uchun sharoit yaratadi. Qolaversa, pedagogik jarayonda muayyan kamchiliklar ko‘zga tashlansa, ularni tezkor bartaraf etish, istiqbol vazifalarni oqilona belgilashga yordam beradi. Shu bilan birga, talabalarda moliyaviy savodxonlik rivojlantirishda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Talabaning ismi va familiyasi	Topshiriqlarning to‘liq va to‘g‘ri bajarilganligi					Hulosa
	O‘zlashtirganlik darajasi					
	Asosiy bilimlar (0-20 ball)	Asosiy ko‘nikmalar (0-20 ball)	O‘rta daraja (0-20 ball)	Ilg‘or ko‘nikmalar (0-20 ball)	Mutaxassis darajasi (0-20 ball)	

3.1.5-jadval. Talabalarni bajargan ishlarini baholash mexanizmi

1. Ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan fanlar bo‘yicha ijodiy topshiriqlarni shakllantirish mumkin bo‘lgan mavzularni aniqlash, aniqlangan mavzular bo‘yicha topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;

2. Ishlab chiqilgan ijodiy topshiriqlar tizimi bo‘yicha talabalarning faoliyatlarini tashkil etish uchun zarur pedagogik shart-sharoitni yaratish;

talabalar tomonidan tayyorlangan ijodiy mahsulotlarning didaktik va amaliy qiymatini xolis baholash;

orginal ishlanmalar, ijodiy mahsulotlarning metodik kengash va birlashmalar tomonidan munosib baholanishiga erishish orqali ularning ommalashtirilishini ta’minlash va buning natijasida moliyaviy savodxonlik fanining didaktik ta’minotini boyitishga muvaffaq bo‘linadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Polat Ye.S., Buxarkina M.Yu. Sovremennыe pedagogicheskie i informatsionnыe texnologii v sisteme obrazovaniya: uchebnoe posobie dlya studentov vыsshix uchebnыx zavedeniy. M.: Akademiya, 2010. 364 s.

2. G.Isomidinova, J.Singh, Determinants of financial literacy: a quantitative study among young students in Tashkent, Uzbekistan, Electronic Journal of Business & Management, 2:1, (2017) 61 – 7

3. Van Xorn Dj. K., Vaxovich D. M. Osnovы finansovogo menedjmenta. M.: ID «Vilyams», 2011. 992 s.

4. T.V.Fayberg Povыshenie finansovoy gramotnosti naseleniya: rossiyskiy opыt i vozmojnosti sotrudnichestva s Kitaem // Razvitie rossiysko-kitayskix otnosheniy: novaya mejdunarodnaya realnost. Materialы vtoroy mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii, posvyaщennoy 70-letiyu Pobedы vo Vtoroy mirovoy voyne: v 2 chastyax. 2016. 174-181. **https://docplayer.ru/46833264-Razvitie-rossiysko-kitayskih-otnosheniy-novaya-mezhdunarodnaya-realnost.html**

TALABALAR O`RTASIDA ONLAYN SARMOYA QILISH (INVESTITSIYA) KO`NIKMALARINI SHAKILLANTIRISH

O.N.Nasrullayev
omonulloxon0408@gmail.com
N.F.Foziljonova
niholakhon06@gmail.com
Namangan davlat universiteti, Iqtisodiyot fakulteti, Moliya sohasida boshqaruv yo`nalishi 2-bosqich talabalari

Annotatsiya. Raqamli iqtisodiyotning tez sur`atlar bilan rivojlanishi natijasida onlayn moliyaviy xizmatlarga, jumladan investitsiya vositalariga bo`lgan talab ortib bormoqda. Xususan, yoshlarda, ayniqsa talabalar orasida, moliyaviy mustaqillikka intilish va kapital jamg`arish istagi ortib borayotgan bir davrda, ularning investitsion savodxonligini oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Ushbu maqolada talabalar o`rtasida onlayn investitsiya qilish ko`nikmalarini shakllantirish zarurati, usullari, mavjud to`siqlar va rivojlantirish strategiyalari batafsil tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida talabalarning onlayn investitsiya platformalari – masalan, Fond birjalari (Stock Market apps), kriptovalyuta birjalari (Binance, Coinbase), qimmatli qog`ozlar va ETF`lar orqali sarmoya kiritish imkoniyatlari – haqida bilim darajasi, amaliy foydalanish ko`nikmalari, moliyaviy tavakkalchilikka munosabati o`rganildi.

Аннотация. В результате быстрого развития цифровой экономики растет спрос на онлайн-финансовые услуги, включая инвестиционные инструменты. В частности, в эпоху растущего стремления к финансовой независимости и стремления к накоплению капитала среди молодежи, особенно среди студентов, повышение их инвестиционной грамотности является актуальной задачей. В этой статье подробно анализируется необходимость, методы, существующие препятствия и стратегии развития навыков онлайн-инвестирования среди студентов. В ходе исследования изучался уровень знаний студентов об инвестиционных онлайн – платформах – например, о возможностях инвестирования через фондовые биржи (Stock Market apps),

криптовалютные биржи (Binance, Coinbase), ценные бумаги и ETF – навыки практического использования, отношение к финансовому риску.

Abstract. As a result of the rapid development of the digital economy, the demand for online financial services, including investment instruments, is increasing. In particular, it is an urgent task to increase their investment literacy in young people, especially among students, in a period of growing desire for financial independence and Capital Savings. This article will analyze in detail the need, methods, existing barriers and development strategies for the formation of online investment skills among students. In the course of the study, students learned about online investment platforms – for example, the possibility of investing through stock exchanges (Stock Market apps), cryptocurrency exchanges (Binance, Coinbase), Securities and ETFs – level of knowledge, practical use skills, attitude to financial risk.

Kalit so`zlar: raqamli texnologiyalar, investitsiya, aksiya, obligatsiya, kriptovalyuta, fond birja.

KIRISH. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida moliyaviy xizmatlarning ko`lami kengayib, ularning ko`pchiligi onlayn shaklga o`tdi. Xususan, moliyaviy savodxonlik, sarmoyadorlik va investitsion faoliyat sohalarida zamonaviy vosita va imkoniyatlardan foydalanish orqali har qanday fuqaro, shu jumladan talabalar ham moliyaviy barqarorlikka erishishlari mumkin bo`lmoqda. Onlayn investitsiya — bu mobil ilovalar, internet-brokerlar yoki raqamli platformalar orqali aksiyalar, obligatsiyalar, kriptovalyutalar, fondlar kabi moliyaviy aktivlarga real vaqt rejimida sarmoya kiritish jarayonidir.

Bugungi kunda talabalar orasida moliyaviy mustaqillikka intilish, passiv daromad manbalarini shakllantirish va sarmoyadorlikka qiziqish ortib bormoqda. Shu bilan birga, talabalarning aksariyatida moliyaviy savodxonlik darajasi past bo`lib, bu esa noto`g`ri qarorlar qabul qilishga, firibgarlik qurboniga aylanishga va investitsiya vositalaridan foydalanishda ehtiyotkorlik yetishmasligiga olib kelmoqda. Shuning uchun ham onlayn sarmoya qilish ko`nikmalarini shakllantirish, talabalarga investitsiyaning mohiyati, xavfi va foydasi haqida tizimli bilim berish dolzarb masalalardan biridir.

Metodlar. Ushbu ilmiy maqolada talabalar o`rtasida onlayn investitsiya qilishga bo`lgan qiziqish sabablari, mavjud muammolar, mavjud platformalar va xizmatlar, shuningdek, investitsiya ko`nikmalarini shakllantirish yo`llari chuqur o`rganiladi. Shu bilan birga, O`zbekistonda raqamli moliyaviy xizmatlarning rivojlanishi fonida talabalarning bu jarayonda tutgan o`rni va istiqbollari ham tahlil qilinadi.

Natijalar. Ushbu maqolani tadqiqot qilish jarayonida talabalar o`z mablag`larini katta qismini qanday turdagi moliyaviy aktivlarga investitsiya qilayotgani va qanday turdagi moliyaviy aktivlardan xabardorligi tahlil qilingan.


Ushbu jadvalda talabalar o`z mablag‘larini eng ko`p investitsiya qiladigan moliyaviy aktivlarning asosiy turlari, aktsiyalar va boshqalar tavsiflari bilan keltirilgan.

№	Moliyaviy aktiv turlari	Investitsiya qiluvchi talabalar ulushi (%)	Qisqacha ta`rif
1	Kriptovalyutalar (Bitcoin, Ethereum va boshqalar)	58%	Yuqori o`zgaruvchanlik, mobil ilovalar orqali foydalanish imkoniyati.
2	Aksiya (onlayn-brokerlar orqali)	41%	Asosan Robinhood, eToro va boshqalar orqali yirik IT kompaniyalariga investitsiyalar.
3	ETF (birja fondi)	22%	Kirish uchun past chegara va portfelni diversifikatsiya qilish yaxshi.
4	Davlat Obligatsiyalari	11%	Barqaror deb hisoblanadi, ammo yoshlar orasida kamroq mashhur.
5	Raqamli aktivlar (NFT tokenlar)	9%	Yangilik va tendentsiyalarga qiziqish, ko`pincha xavflarni chuqur tushunmasdan.
6	Tengdoshlarga asoslangan platformalar (P2P investitsiyalari)	7%	Raqamli platformalar orqali mikrokreditlash, lekin ko`p hollarda bu tartibga solinmagan bo`ladi.

7	Depozitlar va omonat hisobvaraqlari	18%	Ushbu aktiv asosan zaxira kapital sifatida ishlatiladi.

1 – rasm. Talabalar tomonidan eng ko`p investitsiya qilinayotgan moliyaviy aktivlarning asosiy turlari keltirilgan jadval.

(Muallif tomonidan ishlab chiqilgan)



2 – rasm. Talabalar tomonidan eng ko`p investitsiya qilinayotgan moliyaviy aktivlarning asosiy turlari keltirilgan diagramma.

(Muallif tomonidan ishlab chiqilgan)

Jadvalda va diagrammada keltirilgan ma`lumotlarni tahlil qilish talabalarning investitsiya imtiyozlarini kriptovalyutalar va texnologik aktsiyalar kabi xavfli, ammo potentsial yuqori daromadli aktivlarga nisbatan aniq siljish to`g`risida xulosa chiqarishga imkon beradi. Talabalar orasida eng ommabop kriptovalyutalar (58%) bo`lib, bu ularning mobil ilovalar orqali yuqori darajada mavjudligi, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda ommaviy yoritilishi bilan bog`liq. Biroq, bunday tanlov ko`pincha bozor xatarlari va tartibga solish mexanizmlarini chuqur tushunmaslik bilan bog`liq bo`lib, talabalar investitsiya qilish jarayonida o`z mablag`larini yoqotishmoqda, bunga asosiy sabab, bu yerdagi bozor qonuniyatlarini tushumasliklari sabab bo`lmoqda.

Qimmatli qog`ozlar ikkinchi o`rinni egallaydi (41%) — asosan Robinhood, eToro va Interactive Brokers kabi platformalar tufayli past to`lovlar va intuitiv interfeyslarni taklif qiladi, bu esa fond bozorini hatto yangi boshlovchilarga ham, o`z qulayligi bilan, o`ziga jalb qiladi qiladi.

ETF va obligatsiya investitsiyalar shuni ko`rsatadiki, talabalarning bir qismi uzoq muddatli barqarorlik va diversifikatsiyaga qaratilgan sarmoyaga o`z mablag`ini yo`naltiradi, ammo bunday investorlarning umumiy ulushi o`rtacha bo`ladi. Bu esa talabalarda tez va ko`proq "ajoyib" investitsiya mahsulotlarini afzal ko`radigan moliyaviy savodxonlikning etarli emasligini ko`rsatadi.

Raqamli aktivlarda (NFT va tokenlar) va P2P investitsiyalarida ishtirok etish, innovatsionligiga qaramay, yuqori xavf darajasi va investitsiyalarning kafolatlangan himoyasi yo`qligi bilan bog`liq. Biroq, yosh investorlarning ularga bo`lgan qiziqishi "raqamli o`ziga xoslik" istagi va zamonaviy tendentsiyalar mujassmligi uchun, investitsiya qilish qiziqishini ortirmoqda.

Depozitlar va omonat hisobvaraqlari mablag`larni saqlashning an`anaviy va eng kam xavfli usuli bo`lib qolmoqda, ammo ular kapitalni ko`paytirish vositasi sifatida emas, balki moliyaviy xavfsizlik yostig`i sifatida talabalar tomonidan ishlatilmoqda.

Shunday qilib, jadval moliyaviy ta`limning turli darajalari va qaror qabul qilishga ta`sir qiluvchi psixologik va texnologik omillar tufayli talabalarning investitsiya imtiyozlarining notekis taqsimlanishini ko`rsatmoqda.

XULOSA. Global iqtisodiy muhitning raqamlashtirilishi va moliyaviy texnologiyalarning keskin rivojlanishi sharoitida talabalar orasida onlayn sarmoya qilish ko`nikmalarini shakllantirish masalasi nihoyatda dolzarb bo`lib bormoqda. Tadqiqotlar shuni ko`rsatmoqdaki, yoshlar aynan raqamli investitsiya vositalariga — kriptovalyutalar, onlayn aksiyalar, ETF va raqamli aktivlarga — katta qiziqish bildirmoqda.

Bu tendensiya yoshlarning texnologiyaga yaqinligi, innovatsion muhitda ulg`aygani hamda an`anaviy moliyaviy institutlarga nisbatan ishonchsizlik bilan bog`liqdir. Shu bilan birga, talabalarning moliyaviy bilim darajasi investitsiya qarorlarini asoslab qabul qilish uchun yetarli emasligi kuzatilmoqda. Masalan, OECD (2022) hisobotida ko`rsatilishicha, yoshlar orasida moliyaviy savodxonlik darajasi past bo`lib, ularning 70% dan ortig`i investitsiya risklarini to`liq tushunmaydi. Bu esa ularni yuqori xavfli, ammo jozibador bo`lgan investitsiya vositalariga, xususan, kriptoaktivlarga haddan ortiq qiziqishga undaydi. Investitsion ko`nikmalarni rivojlantirish uchun universitetlarda moliyaviy savodxonlik darslarini joriy etish, real vaqtdagi virtual treninglar (simulyatorlar) va interaktiv platformalarni o`quv jarayoniga integratsiya qilish zarur. Masalan, Investopedia Simulator, TradingView, eToro Academy kabi vositalar talabalarni real bozor sharoitida xavfsiz tarzda o‘qitish imkonini beradi. Raqamli investitsiyaning psixologik jihatlari ham muhim omil bo`lib xizmat qiladi: talabalarda qisqa muddatli foydaga bo`lgan ehtiyoj, do‘stlarining investitsiyaga qiziqishi, va "tez boyish" illuziyasi qarorlar qabul qilishga kuchli ta`sir ko`rsatadi. Bu esa ularda uzoq muddatli investitsiya strategiyasini shakllantirishni murakkablashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, talabalar orasida onlayn sarmoya qilish ko`nikmalarini shakllantirish — bu faqat moliyaviy bilimlarni oshirish emas, balki raqamli iqtisodiy fikrlashni rivojlantirish, xavf-xatarni boshqarish madaniyatini shakllantirish, psixologik barqarorlikni ta`minlash, va global moliyaviy muhitga moslashishga tayyorlash demakdir. Bu jarayon tizimli yondashuv, davlat siyosati, oliy ta`lim muassasalari va texnologik platformalarning birgalikdagi harakati orqali amalga oshirilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Statista (2024). Crypto ownership among young investors worldwide. **https://www.statista.com/statistics/1330860/crypto-ownership-age-global**
2. eToro Student Investment Survey (2023). Trends in Student Stock Trading. **https://www.etoro.com/news-and-analysis/market-insights/student-investing-survey-2023**
3. Morningstar (2023). Why Millennials Prefer ETFs. **https://www.morningstar.com/articles/etfs-millennials**
4. OECD (2022). Youth and Bonds Market Participation. **https://www.oecd.org/finance/bond-markets-youth-participation.htm**
5. Harvard Business Review (2023). NFTs and Young Investors: A Psychological View. **https://hbr.org/2023/03/nfts-and-the-new-investor-class**
6. World Economic Forum (2023). P2P lending and youth financial behavior. **https://www.weforum.org/agenda/2023/06/p2p-lending-genz**
7. Bankrate (2023). Student Use of Savings Accounts and Emergency Funds. https://www.bankrate.com/banking/students-saving-statistics
8. Investopedia. Stock Simulator — **https://www.investopedia.com/simulator**
9. Harvard Business Review. Digital Trust and Financial Behavior — **https://hbr.org/2023/03/building-digital-trust**
10. Housel, Morgan. The Psychology of Money (2020). Harriman House Publishing.

MATNNI TUSHUNISH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISHDA NEYROPEDAGOGIK YONDASHUVNING AMALIY JIHATLARI

S.Q.Sotivoldiyeva
Turan International University Gumanitar fanlar va pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: **sarvinozsotivoldiyeva920@gmail.com**, https://orcid.org/0009-0000-8219-8628

Annotatsiya: Mazkur tezisda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matnni anglash va tushunish ko‘nikmalarini shakllantirishda neyropedagogik yondashuvning o‘rni va amaliy imkoniyatlari yoritilgan. Asosiy e’tibor o‘quvchining miya faoliyati, emotsional holati va idrok jarayonlarini inobatga olgan holda o‘qitish metodikasini shakllantirishga qaratilgan. Neyropedagogikaning asosiy tamoyillari va ularning o‘quvchilarning matnga bo‘lgan e’tiborini faollashtirish, tushunish darajasini oshirishdagi samaradorligi ilmiy asoslangan holda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: neyropedagogika, frontal korteks, wernicke markazi, broka markazi, Gippokamp, boshlang‘ich ta’lim, matnni tushunish, o‘quv jarayoni, kognitiv rivojlanish, idrok, faol o‘qitish, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv

Kirish. Bugungi ta’lim tizimida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni to‘liq tushunish, mantiqan tahlil qilish va mazmunli o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, axborot oqimi tezlashgan, diqqat bo‘linuvchanligi kuchaygan davrda o‘quvchilarning matnga nisbatan ongli va faol munosabatini shakllantirish zarurati ortmoqda. Shu nuqtai nazardan, neyropedagogika sohasidagi ilmiy yondashuvlar maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘qitish jarayonini takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar ochmoqda.

Neyropedagogika nafaqat o‘quvchilarning kognitiv holati, balki ularning emotsional, fiziologik va psixologik ehtiyojlarini hisobga olgan holda o‘qitishni tashkil etishni taklif qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, matn ustida ishlashda ularning faol ishtirokini ta’minlash, mustaqil fikrlashga undash va chuqur tushunishga yo‘naltirishga xizmat qiladi.

Matnni anglash bu – vizual idrok, e’tibor, ishchi xotira, tahlil, muallif pozitsiyasini aniqlash, asosiy g‘oyani ajratish kabi murakkab kognitiv jarayonlarni talab etadi. Ushbu faoliyatda quyidagi miya zonalari muhim rol o‘ynaydi:

- **Frontal korteks** – rejalashtirish, tahlil va xulosa chiqarish uchun javobgar;
- **Wernicke markazi** – leksik va semantik ma’nolarni tushunish;
- **Broka markazi** – og‘zaki ifodani shakllantirish;
- **Gippokamp** – xotirada saqlash va kontekstni anglash.


Neyropedagogik yondashuv ayni shu funksiyalarni faollashtirishga qaratilgan metodlarni taklif etadi.

Schulte jadvallari – bu psixologik test diqqatni qanday saqlay olish, uni tezda boshqa narsaga ko‘chira olish va u darajada e’tiborni yo‘qotmasdan ushlab turish qobiliyatini o‘lchashga xizmat qiladi. Ushbu test XX asrning 30-yillarida G.A.Shulte tomonidan ishlab chiqilgan. Asosan 5x5 o‘lchamdagi kataklarda (ba’zida 4x4 yoki 6x6 ham bo‘ladi) 1 dan 25 gacha bo‘lgan sonlar aralash holatda joylashtiriladi. Ishtirokchining vazifasi – shu sonlarni ketma-ketlikda, ya’ni 1 dan 25 gacha tartib bilan iloji boricha tezroq va xatolarsiz topish. Bu mashq orqali quyidagilar aniqlanadi:

- Diqqatning muayyan joyga qaratilganligi (intensivligi);
- Aqliy jarayonlarning qanday tezlikda sodir bo‘lishi;
- Ko‘z orqali sezish darajasi (vizual sezgirlik);
- Ishlayotgan xotira (ya’ni, vaqtinchalik eslab qolish) qobiliyati. (1-jadvalga qarang.)

1-jadval

1	3	15	19	17
14	6	2	9	21
8	14	24	16	4
12	13	21	20	25



Shuningdek, Schulte jadvallari nafaqat sinov sifatida, balki mashq sifatida ham qo‘llaniladi. O‘quvchilar uchun bu jadval o‘qish vaqtida matnni ko‘zdan tezda kechirish va shu bilan birga tushunish qobiliyatini rivojlantirishda foydali bo‘ladi. Ular vizual faoliyatni faollashtiradi, fikrlashni tezlashtiradi va umumiy diqqatni yaxshilaydi. Ushbu test orqali o‘quvchining diqqati qay darajada ekani tekshiriladi.

Bu kabi mashqlarni dars boshlanishida o’tkazilishi o’quvchilarni darsga yanada qiziqishiga xizmat qiladi. Quyida “Yerga chizilgan rasm” rivoyati asosida neyropedagogik mashqlar to’plamini keltirdik:

Yerga chizilgan rasm· (Rivoyat)

Sulton Husayn Boyqaro navkarlari bilan ovga yo‘l olibdi. Hirot shahridan chiqib, sayhonlikdan o‘tib ketayotganlarida oldindagi qo'riqchi navkarlar nogoh
to‘xtab qolishibdi. Ulardan biri yerga ishora qilib debdi:

- Oliyhazrat, bu suratni qarang!

Podshoh ot surib kelib, navkar ko'rsatgan joyga qarabdi. U yerda pahlavon Rustami dostonning surati aks ettirilgan edi. Hamma suratga tikilib qolibdi.

- Qanday nazokat ila chizilgan bu surat! Musavvirni topmoq kerak, - debdi Husayn Boyqaro.

Ovga chiqqanlar orasida Kamoliddin Behzodning ustozi Mavlono Mirak Naqqosh ham bor ekan.

- Oliyhazrat, - debdi u podshohga ta’zim qilib, - fikrimcha, bu suratni o‘n ikki yoshli Kamoliddin Behzod chizgan ko'rinadi. Undan boshqa biror mo'yqalam sohibi
bu kabi chizolmaydi.

- Kamoliddin Behzod... iste’dodli yigit ekan.

- Yaqinda Alisher Navoiy bu yigitchaning mashqlaridan ko‘p mamnun bo‘lib, o‘z suhbatiga chaqirdi. Menga odam jo‘natib, Kamoliddin Behzodni o‘z kutubxonasiga xizmatga olishni bildirdi, - dedi Mirak Naqqosh Alisher Navoiyga
minnatdor boqib.

- Do‘stim, xayrli ish qilibsiz. Saltanatimizda bu yosh iste’dod sohibi ulug‘ bir musavvir bo‘lib kamol topgay, - dedi Husayn Boyqaro do‘sti Alisherbekka.

...Saroy ahli yerga chizilgan suratni aylanib o‘tib, yo‘lga tushdilar.

O‘quvchilarni matnni ongli o‘qishga yo‘naltiruvchi topshiriqlar:

1. Matnni tushunganlik darajasini aniqlovchi savollar.

1) Sulton Husayn Boyqaro qayerga yo‘l olgan edi?
_____

2) Yerga qanday rasm chizilgan edi?
_____

3) Ushbu suratni kim chizgan deb taxmin qilindi?
_____

4) Behzodning iste’dodi haqida kim gapirdi?
_____

2. Mantiqiy ketma-ketlikni aniqlashga doir topshiriq. *Quyida matndan olingan jumlalar aralashtirib berilgan. Siz ularni voqealarning qanday sodir bo‘lganiga qarab to‘g‘ri tartibda raqamlab chiqing*

- Podshoh ot surib kelib, navkar ko‘rsatgan joyga qarabdi. ___
- Sulton Husayn Boyqaro navkarlari bilan ovga yo‘l olibdi. _1__
- Ovga chiqqanlar orasida Kamoliddin Behzodning ustozi Mavlono Mirak Naqqosh ham bor ekan. ___
- Oliyhazrat, bu suratni qarang! ___
- Hirot shahridan chiqib, sayhonlikdan o‘tib ketayotganlarida oldindagi qo'riqchi navkarlar nogoh to‘xtab qolishibdi. ___
- Saltanatimizda bu yosh iste’dod sohibi ulug‘ bir musavvir bo‘lib kamol topgay, - dedi Husayn Boyqaro do‘sti Alisherbekka. ____

3. Tahliliy savollar (tushunchalarni tahlil qilishga qaratilgan).

a) Nima uchun Husayn Boyqaro musavvirni topishni istadi, deb o‘ylaysiz?

_____

b) Mirak Naqqosh nega suratni Behzod chizgan deb o‘yladi?

_____

c) Ushbu rivoyatda Alisher Navoiyning qanday fazilati ko‘rsatilgan?

4. Asosiy g‘oyani aniqlash topshirig‘i

Sizningcha, rivoyat orqali qanday xulosa chiqarish mumkin? Quyidagilardan birini tanlang yoki o‘zingiz yozing:

A) Iste’dod har doim e’tirof etiladi
B) San’at insonni kamolga yetkazadi
C) Har bir podsho musavvir bo‘lishi kerak
D) ..... (o‘zingizning fikringiz)

5. So‘z boyligini oshirish uchun topshiriq. *Matndan quyidagi so‘zlarni ajrating va ularning ma’nosiga mos sinonim so‘z toping:*

- ✓ Musavvir _____
- ✓ Nazokat _____
- ✓ iste’dod _____
- ✓ mo‘yqalam sohibi _____
- ✓ ta’zim _____

Keyin ushbu so‘zlardan har biri bilan bir gap tuzing.

6. Matn asosida berilgan test savollarini diqqat bilan bajaring. *Har bir savol muayyan rangda ajratilgan. Sizdan talab qilinadi: javob mavjud bo‘lgan gap yoki iborani matndan toping va uni savol rangi bilan bo‘yang.*

1. *Sulton Husayn Boyqaro suratni ko‘rib nima dedi?*

A) Suratni yodlab oldi
B) Musavvirni topmoq kerak dedi
C) Behzodni jazoladi
D) Suratni o‘chirdi
To‘g‘ri javob: B

2. Behzod haqida kim ijobiy fikr bildirdi?

A) Sayhonlik
B) Podshoh
C) Mirak Naqqosh
D) Navkar
To‘g‘ri javob: C

3. Mirak Naqqosh kim edi?

A) Behzodning ustozidir
B) Navkarning do‘sti
C) Alisher Navoiyning o‘g‘li
D) Sayhonlikdagi qo‘riqchi
To‘g‘ri javob: A

4. Rivoyatga ko‘ra Behzod necha yoshda edi?

A) O‘n sakkiz yoshda
B) Yetti yoshda
C) O‘n besh yoshda
D) O‘n ikki yoshda
To‘g‘ri javob: D

Xulosa. Matnni tushunish ko‘nikmasini shakllantirishda neyropedagogik yondashuv o‘quvchining kognitiv xususiyatlarini chuqur tahlil qilishga, miya zonalari faoliyatini uyg‘unlashtirishga va individual o‘quv faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv natijasida o‘quvchilarda nafaqat texnik o‘qish, balki chuqur va ongli anglash ko‘nikmalari rivojlanadi. Shuning uchun bosqichma-bosqich neurofaol o‘qitish texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bugungi kun ta’limi uchun zaruratga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Schulte G.A. Die psychologische Struktur der Aufmerksamkeit. – Berlin: Urban & Schwarzenberg, 1937. – 112 s.
2. Xudoyberdiyeva M., Ortiqova D., Jo‘rayeva M. va boshq. O‘qish savodxonligi. 4-sinf. 4-qism. – Toshkent: “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi nashriyoti”, 2021. – 24–25-betlar.
3. Stuss D.T., Knight R.T. Principles of Frontal Lobe Function. – 2nd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2013. – P. 1–25, 112–135.
4. Immordino-Yang M.H., Damasio A. We Feel, Therefore We Learn: The Relevance of Affective and Social Neuroscience to Education // Mind, Brain, and Education. – 2007. – Vol. 1, No. 1. – P. 3–10.
5. Willingham D.T. Why don’t students like school? a cognitive scientist answers questions about how the mind works and what it means for the classroom. – San Francisco: Jossey-Bass, 2010. – P. 25–48.
6. Kandel E.R., Schwartz J.H., Jessell T.M. Principles of Neural Science. – 5th ed. – New York: McGraw-Hill, 2012. – P. 370–397; 604–610.
7. Zullayev M. Neyropedagogika asoslari. – Toshkent: Fan, 2020. – 160 b.

“DEVONU LUG‘OTIT TURK”: TARIXIYLIK VA ZAMONAVIYLIK UYG‘UNLASHGAN ASAR

B.A.Qo‘chqarov
Turan International University o‘qituvchisi

Annotatsiya.Ushbu maqolada Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari tarixiylik va zamonaviylik kontekstida tahlil qilinadi. Asarda uchraydigan maqollar tarixiy-madaniy ildizlari, semantik xususiyatlari va tarbiyaviy-ma’naviy mazmuni nuqtai nazaridan tahlil qilinib, ularning zamonaviy talim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati ochib beriladi. Maqola interdistsiplinar yondashuv asosida yozilgan bo‘lib, pedagogika, filologiya, tarix va axloqshunoslik fanlari metodlaridan foydalanilgan. “Devonu lug‘otit turk” asarining 1960-yilgi S. Mutallibov tarjimasi asosida olib borilgan tahlillar bugungi ta’lim tizimida milliy qadriyatlarni shakllantirishdagi amaliy imkoniyatlarni yoritadi.

Kalit so‘zlar: Mahmud Koshg‘ariy, maqollar, milliy qadriyatlar, axloqiy tarbiya, Devonu lug‘otit turk, zamonaviy talqin.

Аннотация.В данной статье рассматривается труд Махмуда Кашгари «Девону луготит турк» в контексте историзма и современности. На основе отобранных пословиц проведен анализ их культурно-исторического происхождения, семантических особенностей и воспитательной ценности. Особое внимание уделено их актуальности в современном образовательном процессе. Работа написана на основе междисциплинарного подхода с использованием методов педагогики, филологии, истории и этики. Анализ проведен по переводу С. Муталлибова 1960 года. Результаты подчеркивают практическое значение наследия Кашгари в формировании национальных ценностей в школьной среде.

Ключевые слова: Махмуд Кашгари, пословицы, национальные ценности, нравственное воспитание, Девону луготит турк, современная интерпретация.

Abstract.This article analyzes Mahmud Kashgari’s “Devonu lug‘otit turk” in the context of historical relevance and contemporary interpretation. Ten selected proverbs from the text are examined in terms of their cultural-historical background, semantic characteristics, and moral-pedagogical value. The study applies an interdisciplinary approach, drawing from pedagogy, philology, history, and ethics. Based on S. Mutallibov’s 1960 Uzbek translation, the findings emphasize the relevance of the work in developing national values in today’s education system.

Keywords: Mahmud Kashgari, proverbs, national values, moral education, Devonu lug‘otit turk, modern interpretation.

Kirish. O‘zbek xalqining qadimiy tarixiy merosi, til boyligi va milliy qadriyatlarining eng muhim manbalaridan biri — **Mahmud Koshg‘ariyning** XI asrda yozilgan **“Devonu lug‘otit turk”** asaridir. Bu

nodir ensiklopedik yodgorlik oʻz davrining tilshunoslik, etnografiya, xalq ogʻzaki ijodi, tarix va pedagogika sohalarini qamrab olgan bebaho manbadir. Ayniqsa, undagi maqollar, hikmatli soʻzlar va xalqona iboralar xalq tafakkuri, turmush tarzini yoritib berish bilan birga, bugungi kun yoshlari uchun ham teran tarbiyaviy ma'no kasb etadi.

Bugungi globallashuv va gʻoyaviy kurashlar sharoitida yoshlarda **milliy oʻzlikni anglash,** tarixiy-madaniy merosga hurmat, vatanga sadoqat, ma'naviy yetuklikni shakllantirish zarurati tobora ortib bormoqda. Bu borada qadimiy yozma manbalarni, jumladan, “Devonu lugʻotit turk”ni zamonaviy pedagogika nuqtai nazaridan oʻrganish dolzarb ilmiy-ijtimoiy vazifalardan biridir.

Shu jihatdan, “Devonu lugʻotit turk”dagi maqollar, hikmatlar nafaqat tilshunoslik, balki **axloqiy-ma’naviy tarbiya, pedagogik qadriyatlar, interfakultet oʻqituv metodikalari** uchun ham katta manba hisoblanadi. Ayniqsa, undagi **milliy pedagogik qadriyatlar xususidagi xalq** maqollari bugungi kun axloqiy va ijtimoiy muhitga hamohang falsafiy mazmunga ega

Metodologiya. Mazkur maqola **interdistsiplinar yondashuv** asosida, ya’ni **filologiya, tarix, pedagogika va axloqshunoslik** fanlari kesishmasida tayyorlandi. Asar asosida oʻquvchilarda milliy pedagogik qadriyatlarni rivojlantirishda quyidagi asosiy metodlar qoʻllanilishi mumkin:

- Tarixiy-komparativ metod – “Devonu lugʻotit turk”dagi maqollar tarixiy sharoit, madaniy kontekstda tahlil qilinsa yaxshi samara beradi;
- Pedagogik tahlil – maqollar orqali ifodalangan tarbiyaviy gʻoyalar zamonaviy oʻquv-tarbiyaviy jarayonga qanchalik mos kelishi baholaniladi;
- Diskursiv-lingvistik yondashuv – maqollar tarkibidagi til birliklari, fonetik va semantik xususiyatlar, konnotativ ma’no tahlil qilinishi orqali integrasiya vujudga keladi;
- Solishtirma metod – tarixiy matn va bugungi kun ijtimoiy-ma’naviy talqinlari oʻzaro qiyoslaniladi.

Oʻquvchilarda milliy pedagogik qadriyatlarni rivojlantirishning hozirgi kun nuqtai nazaridan asosiy manbasi sifatida Mahmud Koshgʻariyning "Devonu lugʻotit turk" asarining S. Mutallibov tomonidan 1960 yillarda oʻzbek tiliga tarjima qilingan 1-, 2- va 3-jildlaridan foydalanildi. Mazkur tarjima Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti tomonidan ilmiy tahrir asosida chop etilgan boʻlib, undagi turkiy maqollar asl matnga yaqin shaklda berilgan.

Shuningdek, quyidagi manbalar asosiy oʻrganish obyektlari boʻldi:

- 2018-yilgi 11-sinf “Adabiyot” darsligi (mualliflari: B.Toʻxliyev, B.Karimov va boshqalar),
- 2015, 2018 va 2021-yillarda tasdiqlangan adabiyot fani oʻquv dasturlari,
- Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining ma’naviy-ma’rifiy siyosatga oid nutqlari va qarorlari,

Shuningdek, maqolada milliy pedagogik qadriyatlarni oʻzida jamlagan maqollar tanlab olinib, ularning har biri tarixiy, semantik va tarbiyaviy nuqtai nazardan izchil tahlil etiladi.

Natijalar. Quyida "Devonu lugʻotit turk" asaridan tanlab olingan maqollar keltirilib, har biri tarixiy, axloqiy va zamonaviy nuqtai nazardan sharhlanadi. Maqollar tarjimasi S. Mutallibovning 1960-yilgi nashrlaridan (1–3 jild) olindi hamda 2018-yil “ Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi”nashriyoti tomonidan B.Toʻxliyev,B.Karimov muallifligi ostida nashr etilgan umumta’lim maktablarining 11-sinf Adabiyot darsligidan ham foydalanildi.

Erdam bashi-til[DLT,1-jild.B.93] Odob boshi-til. Tahlil: Ogʻzaki nutq madaniyati va soʻzning kuchi qadimdan muhim boʻlgan. Zamonaviy talqin: Nutq madaniyatiga oid bu maqol hozirgi ijtimoiy tarmoqdagi muomala, blogerlik etikasi, siyosiy va diniy chiqishlar kontekstida dolzarbligini yoʻqotmagan. Oʻquvchilarni soʻz mas’uliyatiga oʻrgatishda qoʻllanilishi mumkin.

Eštip ata-anaŋnïŋ
Sawlarïnï qadïrma.
Näŋ qop bulup, küwäzlik
Qïlnïp yana quturma. (Ota-onangning nasihatlarini eshit, gapingda ularning soʻzini qaytarma. Koʻp mol topsang, oʻzingdan oʻtib, quturma. Magʻrurlanib, fe'lingni buzma)
Ögrän anïŋ biligin,
Kündä aŋar baru,
Qutqïlïqïn tapïnğïl,
Qoðğïl küwäz naru. (Agar bilimdon kishiga yoʻliqsang, har kuni unga bor, yaxshi muomala bilan uning ilm-u hikmatlarini oʻrgan.Takabburlikni nari tashla)
Oğlum, ögüt alğïl, biligsizlig ketär,

Talqan kimniŋ bolsa, aŋar bekmäs, qatar. (Oʻgʻlim, oʻgit-kengashimni qulogʻingga ol, bilimsizlikni tashla. Kimning talqoni boʻlsa, shinniga yuradi. Shuningdek, aqlli kishi nasixatni qabul qiladi)

Bilgä erig eðgü tutup, sözin ešit,

Eeðämini ögränipän ïšqa sur-a. (Bilimli, aqlli kishilarga yaxshilik qilib, soʻzlarini tingla. Ilmu hunarini oʻrganib, amalga oshir) **Tahlil:** Bilimning qadri ulugʻlangan bu maqolda donishmandlik yorituvchi kuch sifatida qaraladi. **Zamonaviy talqin:** Ustoz soʻzining qadri, oʻqituvchining oʻrni, ilmning nuri haqida tarbiyaviy suhbatlar olib borishda muhim vosita.

Ciз [I t.125-b] – kattalarni hurmatlash uchun sen ma’nosida aytiladigan so‘z.Aslida uning ma’nosi sizlar ma’nosidadir.Kichiklarga sen deyiladi.O‘g‘uzlar buni teskarisini qo‘llaydilar.Bizning o‘zbeklarda kattani ham, kichikni ham siz deyishadi.Bundan tashqari, keksalarga, kattalarga hurmat kuchli.

O‘zingizdan yoshi katta qishilarga hurmatda va o‘zingizdan kichkinalarga mehribon bo‘ling.

Shunday qilganingizda, qarib-keksayganingda senga ham rahm qiladigan kishini uchratasan.Albatta, kichikning o‘zidan kattaning hurmatini qilishi va kattaning o‘zidan kichkinaga mehribonlik qilishi go‘zal axloqlardan.Kichikning o‘zidan kattaga hurmat qilishi va kattaning quyidagi nasihatlarga amal qilishi bilan bo‘ladi:

1.Avtobus, trolleybus yoki tramvayda o‘tirgan bo‘lsang va tik turishga ojiz kishini ko‘rsang, sendan darajasi past bo‘lsa ham o‘rningdan turib unga joy ber.

2.Sen taniydigan yoshi ulug‘ kishilarni uchratib qolsang, birinchi bo‘lib salom ber.

3.Akalaringni va sendan katta birodarlaringni hurmat qil. Shunda ular senga mehribon bo‘lishadi va seni yaxshi ko‘rishadi.Agar senga yaxshilik qilsalar, ularga rahmat aytishni unutma.

4.Agar uyda xizmatkorlar bo‘lsa, ularga yumshoq gapir, qo‘pol gapirma.Ularning avlodlarini so‘kma va ularni urma. Chunki ular ham senga o‘xshagan odam.

Qul savi qalmas, Qag‘il bag‘i yazilmas. Keksalar so‘zi, nasihati bekor ketmaydi, Tolning ho‘l novdasining bog‘i yozilmaydi. [11-sinf 66-b]

1. Yigʻach uchina yel tegir,

Koʻrkluk kishiga soʻz kelir. Daraxt uchiga shamol tegadi, Yaxshi odamga soʻz yetadi.[11-sinf 66-b]

7.Körklük tüni kürk bolmaz[DLT, 3-jild. – B. 132.]Chiroyli koʻrinish ichki goʻzallikni anglatmaydi.Tahlil: Bu maqol odamni tashqi emas, ichki fazilatlariga qarab baholash kerakligini uqtiradi.Zamonaviy talqin: Internetda “imij”, “selfi”lar ortidan quvgan avlodga chinakam axloqiy qadriyatlar haqida saboq.

Kelsa kishi etma angar kula,

Baqqil angar ezgulugung ag‘sin qula

(Senga kular yuzli bir kishi kelsa, sen uning yuziga issiq kul sochma, yaxshilik qil, yoqimli qiliq bilan hurmatla) (D.L.T. 216-b)

Kur oʻgʻli kuvaz boʻlur. Botir, mard kishining farzandi magʻrur boʻladi. [11-sinf 68-b]

Oiladagi muhit, xususan ota-onaning axloqiy tarbiyalari,bir-biriga,qoʻshnichilikka,mehnatkashlikka va boshqalarga boʻlgan farzandlari oldidagi namunalari oʻz farzandlarida ham vaqtiki kelib takrorlanadi.Ota-ona qanchalik haqiqatparvar,mard,birovlarga qoʻlidan kelganicha yordam beradigan,or-nomusli kishilar boʻlsa uning farzandlari ham oʻzlarida shuni jamlaydilar.Ushbu maqolda odamning nasl-nasabiga, ota-ona ta’siriga va ulardan olingan xulqiy odob-axloq va boshqa insoniy fazilatlarga urgʻu beriladi.

Qošnï-qonum ağïšqa,

Qïlğïl aŋar ağïrlïq,

Artut alïp anunğïl,

Eðgü tawar oğurluq. (Qo‘ni-qo‘shnilarga yaxshilik qil, ularni hurmatla. (Ulardan) biror sovg‘a olsang, (undan) yaxshiroq mukofot hozirla) [DLT, 1-jild. – B. 56**]Tahlil:** Bu maqol qadim turkiy xalqlardagi qo‘ni-qo‘shnichilik qadriyatining yuksak darajada bo‘lganini anglatadi.**Zamonaviy talqin:** Mahalla, fuqarolar yig‘ini, jamiyatda mehr-oqibat, jamoaviy hamjihatlikni rivojlantirish vositasi sifatida dolzarb.

Bu maqollar orqali Mahmud Koshg‘ariy turkiy xalqlarning axloqiy kodeksini, ijtimoiy munosabatlari asoslarini, rahbar, ustoz, qo‘shni, yosh, dono va yaramas odam obrazlarini aniq belgilab berganini ko‘rish mumkin.

Tahlil va muhokama.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan maqollar Mahmud Koshg‘ariy yaratgan “Devonu lug‘otit turk” asarining nafaqat tilshunoslik, balki pedagogik-axloqiy va ma’naviy-ma’rifiy jihatdan ham o‘ziga xos qadriyatlar tizimini aks ettirganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, maqollarda xalqning o‘zaro munosabati, jamiyatga munosabati, yetakchilik, adolat, rostgo‘ylik, bilim, aql, halollik, qo‘shnichilik, go‘zallik va burch kabi tushunchalar qadimdan muhim bo‘lganini ko‘ramiz.

Bu maqollar, bir tomondan, xalq tafakkurining siqiq ifodasi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ijtimoiy tarbiya vositasi sifatida xizmat qilgan. Masalan, “ Erdam bashi-til” degan maqolda nutq madaniyatiga urg‘u berilgan bo‘lsa, “ Talqan kimniŋ bolsa, aŋar bekmäs, qatar ” degan iborada bilimdonning so‘zi jamiyat uchun yo‘l ko‘rsatuvchi vosita sifatida baholangan.

Shu jihatdan, mazkur maqollar bugungi ta’lim-tarbiya tizimida ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. 2018-yilda chop etilgan 11-sinf “Adabiyot” darsligida bu asarga alohida bob ajratilgani bejiz emas. Unda Mahmud Koshg‘ariy hayoti, asari, hamda tanlab olingan maqollar tahlili bilan birga, o‘quvchilarda **“tilni qadrlash”, “do‘stlik”, “halollik”, “ilmga intilish”** kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi topshiriqlar ham berilgan.[1]

Qolaversa, 2015, 2018 va 2021-yillarda tasdiqlangan adabiyot fani o‘quv dasturlarida ham Mahmud Koshg‘ariy va "Devonu lug‘otit turk" asariga oid bilimlar **mazmuniy komponent sifatida** kiritilgan bo‘lib, quyidagi kompetensiyalar shakllanishiga xizmat qiladi:

- o‘quvchining **o‘z milliy ildizlarini anglash,**
- **xalq og‘zaki ijodiyoti asosida axloqiy mezonlarni shakllantirish,**
- **tarixiy matnlarni tahlil qilish,**
- **og‘zaki va yozma nutqni boyitish,**
- **konnotativ (ikkilamchi) ma’noni anglash,**
- **so‘zning ta’sir kuchini anglab yetish**.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, Mahmud Koshg‘ariy maqollarining **ko‘pchiligi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, balki zamonaviy pedagogik jarayonlar** (axloqiy tarbiya, ma’naviy-ma’rifiy mashg‘ulotlar, sinfdan tashqari tadbirlar) uchun **tayyor didaktik material** sifatida ishlatilmoqda. Masalan:

" Kelsa kishi etma angar kula,

Baqqil angar ezgulugung ag‘sin qula -11-sinfda o‘tkaziladigan “Tarbiya” darsida fazilatli inson timsolini tahlil qilishda;

" Qošnï-qonum ağïšqa, Qïlğïl aŋar ağïrlïq, Artut alïp anunğïl, Eðgü tawar oğurluq " — “Vatanparvarlik saboqlari”da ijtimoiy birdamlik haqida suhbatlarida;

"Ögü közin közü bolur" — “Aqliy rivojlanish” mashg‘ulotlarida fikrlash va tafakkur tarbiyasini tushuntirishda;

Ushbu maqollar asosida tuzilgan topshiriqlar, suhbatlar, bahs-munozaralar o‘quvchilarda **tanqidiy fikrlash, mustaqil baholash, etnik o‘zlikni anglash, tilga hurmat** kabi fazilatlarni shakllantiradi.

Xulosa va tavsiyalar. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari — turkiy tillarning ilk yozma yodgorligi bo‘lishi bilan birga, **xalqning hayot tarzi, ijtimoiy-madaniy qadriyatlari va axloqiy mezonlari**ni mujassam etgan betakror ma’naviy-ma’rifiy manbadir. Asardagi maqollar **til va tafakkur, ijtimoiy tartib, axloqiy qadriyatlar, xalq donishmandligi**ning o‘ta ixcham, ammo chuqur mazmunli ifodasidir. Yuqorida keltirilgan maqollar misolida ko‘rinadiki, Mahmud Koshg‘ariy o‘z zamonida xalqning **ijtimoiy hayotini tartibga soluvchi hikmatlar, shaxsiy fazilatlar va axloqiy normalarni mustahkamlovchi tamoyillar, rahbar va el, ustoz va shogird, qo‘shni va yurtdosh** kabi ijtimoiy rollar orasidagi rishtalarni mustahkamlovchi vositalarni shakllantirgan.

Zamonaviy sharoitda ushbu maqollar:

- **axloqiy-tarbiyaviy mashg‘ulotlarda,**
- **sinfdan tashqari faoliyatda,**
- **integratsiyalashgan darslarda,**
- **maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida,**
- **pedagogik trening va seminarlar**da faol foydalanilishi mumkin.

Shu asosda quyidagi **tavsiyalar**ni ilgari suramiz:

1. **Adabiyot va ona tili fanlari dasturlariga** “Devonu lug‘otit turk” asaridan tanlab olingan maqollar asosida **maxsus tahliliy mashg‘ulotlar** kiritilishi lozim.
2. Mahmud Koshg‘ariy asaridagi maqollar asosida **multimediya dars ishlanmalari, komikslar, pedagogik interaktiv vositalar** ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.
3. O‘quvchilar uchun “Koshg‘ariy maqollarida milliy fazilatlar” mavzusida **tanlovlar, insholar, munozaralar** tashkil etilishi zarur.
4. “Devonu lug‘otit turk” asarining zamonaviy tarjimalari bilan bir qatorda, **original matni va fonetik transkripsiyasi** asosida tayyorlangan **ma’naviy o‘quv qo‘llanmalar** tuzilishi lozim.
5. Asardagi maqollar zamonaviy kontekstda **komiks, illyustratsiya, sahna ko‘rinishi, ijtimoiy rolik** shaklida talqin qilinib, yoshlar orasida keng targ‘ib qilinishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, “Devonu lu**g‘**otit turk” — tarix va zamonaviylik orali**g‘**ida milliy **o‘**zlikni anglashga, axloqiy yetuklikni shakllantirishga xizmat qiluvchi nodir asardir. Uni yosh avlod qalbiga zamonaviy metodlar orqali yetkazish — pedagogik jamoatchilikning muhim vazifasidir.

Adabiyotlar:

1. Abdurahmonov F. “Devonu lug‘otit turk” asarining o‘rganilishi tarixidan// O‘zbek tili va adabiyoti.2009.N:6
2. Mahmud Koshg`ariy “Devonu lug`otit turk”. Uch tomlik.1-,2-,3-jild. Nashrga tayyorlovchi S. Mutallibov. O`ZFA nashr T.:, 1960
3. To‘xliyevB,Karimov B,Usmonova K .Adabiyot.O‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinf va o‘rta maxsus,kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik.I qism. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti.Toshkent-2018
4. Ma'naviyat yulduzlari. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.-T. 2001.-B.128
5. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vazirligi.Adabiyot fani bo‘yicha o‘quv dasturi (10–11-sinflar). – Toshkent, 2021. – 36 b.

КИЧИК БИЗНЕС ВА ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИНИНГ МОҲИЯТИ, ВАЗИФАЛАРИ ВА ИҚТИСОДИЁТДАГИ ЎРНИ

Х.О.Имомназаров
НамДТУ таянч докторанти

Аннотация: Мақола кичик бизнес ва тадбиркорликнинг моҳияти, вазифалари ва иқтисодиётдаши ўрнини очиб беришга йўналтирилган бўлиб, унда муаллифнинг янги илмий ёндашувлари шакллантирилган. Мақолада тадбиркорлик тушунчасининг моҳияти очиб берилган. Тадбиокрлик тушунчасини ёритишда Ғарбча ва шарқча қарашлар таҳлил этилган. Уларнинг жамиятдаги юксак вазифалари ва иқтисодиётда тутган ўринлари белгилаб берилган.

Калит сўзлар: кичик бизнес, тадбиркорлик, соҳибкорлик, манфаатдорлик, фойда олиш, ғарбча қарашлар, шарқча қарашлар.

Аннотация: Статья направлена на раскрытие сущности, задач и места малого бизнеса и предпринимательства в экономике, в рамках которой формируются новые научные подходы автора. В статье раскрывается сущность понятия предпринимательства. Анализируются западные и восточные взгляды на понятие предпринимательства. Определяются их высокие задачи в обществе и место в экономике.

Ключевые слова: малый бизнес, предпринимательство, корысть, прибыль, западные взгляды, восточные взгляды.

Abstract: The article is aimed at revealing the essence, tasks and place of small business and entrepreneurship in the economy, in which the author's new scientific approaches are formed. The article reveals the essence of the concept of entrepreneurship. Western and Eastern views are analyzed in

explaining the concept of entrepreneurship. Their high tasks in society and their place in the economy are determined.

Keywords: small business, entrepreneurship, entrepreneurship, self-interest, profit, Western views, Eastern views.

Ривожланган ва ривожланаётган мамлакатлар тажрибаси шундан далолат берадики, кичик бизнес ва тадбиркорлик субъектлари миллий иқтисодиётни барқарор ривожлантиришда муҳим ўрин тутади. Улар жамиятда иқтисодий фаолликни таъминловчи, янги иш ўринларини яратувчи, ички бозорда рақобат муҳитини кучайтирувчи, инновацияларни кенг жорий этувчи асосий куч ҳисобланади.

Илмий адабиётларда «тадбиркорлик» тушунчаси кенг қамровли бўлиб, у жисмоний ёки юридик шахс томонидан молиявий, моддий ва меҳнат ресурсларидан фойдаланган ҳолда муайян иқтисодий фойда олиш мақсадида амалга ошириладиган фаолият сифатида таърифланади. Ўзбекистон Республикасининг «Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида»ги Қонунига мувофиқ, «тадбиркорлик фаолияти (тадбиркорлик) тадбиркорлик фаолияти субъектлари томонидан қонунчиликка мувофиқ амалга ошириладиган, ўзи таваккал қилиб ва ўз мулкий жавобгарлиги остида даромад (фойда) олишга қаратилган ташаббускорлик фаолиятидир». Бошқача айтадиган бўлсак, тадбиркорлик – бу товарлар (ишлар, хизматлар)ни тайёрлаш ва реализация қилиш орқали даромад олишга қаратилган шахсларнинг мустақил ва ташаббускорона фаолиятидир.

Тадбиркорлик тушунчасининг моҳиятини тушунтиришда ғарбдаги кўп иқтисодчилар хусусан, Р.Кантильон, А.Смит, Д.Рикардо, Ж.Б.Сэй, Ж.Б.Кларк, В.Зомбарт, Ф.Х.Найт, Й.Шумпетер, А.Ф.Хайек, А.Маршалл, Т.Б.Веблен каби таниқли иқтисодчилар томонидан ўрганилган.

Шарқда ҳам тадбиркорликни ривожлантириш ва ушбу фаолиятни жамиятнинг ривожланишида алоҳида роли борлиги тадқиқ этилган. Хусусан, Абу Наср Форобий, Абу Райҳон Беруний, Абу Али ибн Сино, Усуф Хос Ҳожиб, Абул Қосим Махмуд Аз-Замахшарий, Ибн Халдун каби буюк мутафаккирларнинг асарларида тадбиркорлик, соҳибкорлик ва инсоннинг ташаббускорлик фазилатларига алоҳида урғу берилганки, айнан шундай ғоякор шахслар жамиятга катта фойда келтириши ва жамиятнинг фаровон яшашига олиб келишида катта хиссаси бўлишлигини алоҳида эътироф этишган. Шунингдек, А.Навоий, А.Темур, З.М.Бобур, Мирзо Улуғбек, Хусайин Бойқаро каби бошқарувчилар томонидан тадбиркор, соҳибкор, ҳунарманд, савдогар ва ўз касбини пухта эгаллаган инсонларга катта эътибор қаратилиб, улар ўз даврида катта ҳурмат билан эъзозланган. Чунки айнан шундай шахслар ўз замонасида буюк ишларни қилишга қодир бўлишган.

Ўзбекистонда кичик бизнес ва тадбиркорликнинг умумий жиҳатларини шакллантириш ва ривожлантириш бўйича С.С.Ғуломов, Ё.Абдуллаев, М.С.Қосимова, М.Р.Болтабоев, кабиларнинг ишларини қайд этиш мумкин. Кичик бизнес ва тадбиркорликни ривожлантиришдаги ижтимоий-иқтисодий муаммолар Х.П.Абулқосимов, Қ.Муфтайдинов, Б.К.Ғойибназаров, А.А.Қулматовларнинг тадқиқот ишларида ўрганилган.

Шунингдек, У.В.Гафуров ва О.А.Арипов диссертацияларида кичик бизнесни давлат томонидан тартибга солишнинг иқтисодий механизмларини такомиллаштириш ва ишбилармонлик муҳитини яхшилаш йўллари баён этилган.

Фикримизча, тадбиркорлик тушунчасини моҳияти қуйидаги унсурлар билан тушунтирилади (1-расм).

1. Тадбиркор бўлиш учун энг аввало янгилик яратиш керак.
2. Тадбиркор энг аввало фойда ва манфаатдорликка интилади. Шунинг учун унинг саъй-ҳаракатлари аксарият ҳолатларда ташаббускорона намоён бўлади.
3. Тадбиркор муайян мулкни (бировдан олиб бўлса ҳам) ўзлаштириб фаолиятини юритади.
4. Тадбиркор доим таваккалчиликка дуч келади. Шунинг учун таваккалчилик тадбиркорликнинг ажралмас қисмидир.
5. Тадбиркор қонун доирасида ўз фаолиятини олиб боришга интилади.



1-расм. Тадбиркорлик тушунчаси моҳиятини очиб берувчи унсурлар

Кичик бизнес эса тадбиркорлик субъектларининг бир қисми бўлиб, ишлаб чиқариш ҳажми, ходимлар сони ва айланма маблағлари каби кўрсаткичларга (мезонларга) қараб белгиланади. Мазкур (мезонлар) кўрсаткичлар ҳар бир давлатда турлича белгиланган бўлиб, Ўзбекистонда бу меъёрлар Вазирлар Маҳкамасининг тегишли қарорларида белгилаб қўйилган. Масалан, 2022 йилдаги меъёрларга кўра, ишлаб чиқариш соҳасида фаолият юритувчи кичик корхонадаги ишчилар сони 100 нафаргача бўлиши мумкин.

Кичик бизнес ва тадбиркорлик субъектларининг асосий вазифалари қуйидагилардан иборат:

– аҳолининг кенг қатламларини иқтисодий фаолликка жалб этиш;
– янги иш ўринларини яратиш ва камбағалликни камайтиришга ҳисса қўшиш;
– маҳаллий хомашё ва ресурслардан самарали фойдаланиш;
– бозорда товар ва хизматлар танловини кенгайтириш;
– инновацияларни жорий этиш ва рақобатбардош маҳсулотлар ишлаб чиқариш.

Ўзбекистон иқтисодиётида кичик бизнеснинг роли йилдан-йилга ошиб бормоқда. Масалан, 2023 йил якунига кўра, мамлакат ялпи ички маҳсулотининг (ЯИМ) 54,7 фоизи кичик бизнес ҳиссасига тўғри келган, шунингдек, аҳоли бандлигининг 75 фоизи шу соҳада таъминланган. Бундай натижалар ҳукуматнинг тадбиркорликни қўллаб-қувватлашга қаратилган мақсадли сиёсатининг натижасидир. Президент фармонлари ва қарорлари асосида кичик бизнес учун қулай солиқ сиёсати, имтиёзли кредитлар, давлат-хусусий шериклик механизмлари кенг жорий этилмоқда.

Кичик бизнес субъектларининг иқтисодиётдаги ўрнини янада аниқроқ ифода қилиш учун унинг вазифаларини жаҳон амалиёти мисолида кўриб чиқиш мумкин. Жумладан, Германия, Япония ва Жанубий Корея каби мамлакатларда кичик бизнес ЯИМнинг 60–70 фоизини ташкил этади ва мамлакат иқтисодий барқарорлигининг асосий манбаи ҳисобланади. Бундай юртларда кичик бизнес ва стартаплар учун илмий-технологик кластерлар, инновация марказлари, венчур маблағлар тизими фаол ишлайди.

Шундай қилиб, кичик бизнес ва тадбиркорлик субъектлари нафақат иқтисодий ривожланишни рағбатлантирувчи омил, балки ижтимоий барқарорлик, ҳудудий тенглик, рақобатбардошлик ва технологик янгиланишнинг муҳим драйвери сифатида фаолият юритмоқда. Улар фақат иқтисодий фойда эмас, балки ижтимоий самарадорлик ҳам яратиб, мамлакат тараққиётига кенг йўл очади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Абдуллаев Ё., Юлдашев Ш. Малый бизнес и предпринимательство: Учебник. –Т.: «Iiqtisod-Moliya», 2008. – 380 б.

2. Арипов О.А. Кичик бизнес ва тадбиокрлик. Дарслик. –Наманган. “Машраб” нашриёти. 2025. – 346 б.
3. Арипов О.А. Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни давлат томонидан тартибга солиш. Монография. –Т.: Фан, 2012. – 272 б.
4. Арипов О.А. Ўзбекистонда кичик бизнесни давлат томонидан тартибга солиш ва ишбилармонлик муҳитини ривожлантириш. Монография. –Т.: «Lesson Press», 2021. – 225 б.
5. Экономика предприятия (фирмы) /Под ред. О.И. Волкова, О.В. Девяткина. 3-е изд., перераб. и доп. –М.: Инфра-М, 2007. – 601 с.
6. Предпринимательство [Текст]: учебник для высш. учеб. заведений / М. Г. Лапуста. –М.: Инфра-М, 2012. – 608 с.

FOND BOZORINI RIVOJLANTIRISH ORQALI MAMLAKATGA INVESTITSIYA OQIMLARINI TA’MINLASH BO‘YICHA XORIJ TAJRIBALARI

A.M.Xidirnazarov
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Fond bozorini rivojlantirish bilan mamlakatga investitsiya oqimini oshirish bo‘yicha AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya, Turkiya va Singapur tajribalari tahlil qilindi. Har bir davlatda institutsional islohotlar, investorlarni himoya qilish tizimi va shaffoflik siyosatlari bo‘yicha qilingan tadbirlar ko‘rib chiqildi. Shu jumladan, Yaponiyada “Big Bang” islohotlari, Koreyada kapital bozori liberallashtirilishi, Turkiyada Borsa Istanbul tashkil etilishi va Singapurda xalqaro kompaniyalarni jalb etish bo‘yicha chora-tadbirlar o‘rganildi. O‘zbekistonda joriy etilishi mumkin bo‘lgan mexanizmlar sifatida xalqaro moliya standartlari, raqamli savdo platformalari, xususiylashtirish va investitsion imtiyozlar kiritildi. Xulosa sifatida, kuchli institutlar va bozor-do‘st investitsiya siyosati investitsiya oqimlarini ta’minlashda muhim ekanligi ta’kidlanadi.
Kalit so‘zlar: fond bozori, investitsiya oqimlari, bozorni rivojlantirish, investorlarni himoya, shafoflik.
Аннотация. Был проанализирован опыт США, Японии, Южной Кореи, Турции и Сингапура по увеличению притока инвестиций в страну посредством развития фондового рынка. Рассмотрены меры, принимаемые в каждой стране в области институциональных реформ, систем защиты инвесторов и политики прозрачности. В частности, были изучены реформы «Большого взрыва» в Японии, либерализация рынка капитала в Корее, создание Стамбульской фондовой биржи в Турции и меры по привлечению международных компаний в Сингапур. В качестве механизмов, которые могут быть реализованы в Узбекистане, были предложены международные финансовые стандарты, цифровые торговые платформы, приватизация и инвестиционные стимулы. В заключение подчеркивается важность сильных институтов и благоприятной для рынка инвестиционной политики для обеспечения притока инвестиций.
Ключевые слова: фондовый рынок, инвестиционные потоки, развитие рынка, защита инвесторов, прозрачность.
Abstracts. The experiences of the United States, Japan, South Korea, Turkey and Singapore in increasing investment flows to the country through the development of the stock market were analyzed. The measures taken in each country in terms of institutional reforms, investor protection systems and transparency policies were considered. In particular, the “Big Bang” reforms in Japan, the liberalization of the capital market in Korea, the establishment of Borsa Istanbul in Turkey and measures to attract international companies in Singapore were studied. International financial standards, digital trading platforms, privatization and investment incentives were introduced as mechanisms that could be implemented in Uzbekistan. In conclusion, it is emphasized that strong institutions and market-friendly investment policies are important in ensuring investment flows.
Keywords: stock market, investment flows, market development, investor protection, transparency.

Kirish. Fond bozorini rivojlantirish mamlakatga chet el investitsiyalarini jalb etishning muhim vositalaridan biridir. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, nisbatan rivojlangan va shaffof fond bozori tashqi

sarmoyani jalb qilishda muhim signal vazifasini o‘taydi: bunday bozor mamlakat hukumatlarining bozorni qo‘llab-quvvatlovchi siyosatini va barqaror iqtisodiy muhitni aks ettiradi [1]. Xalqaro ekspertlar chet el investitsiyalarini rag‘batlantirish bilan birga bozorni tartibga soluvchi siyosat va institutsional islohotlarni ham kuchaytirishni tavsiya qiladilar. Ya’ni, investitsiya oqimlarini ko‘paytirish uchun investorlarni himoya qilish va korporativ boshqaruv choralarini muvofiqlashtirish zarur [2]. Ushbu maslahatlar xorij tajribasida muhim o‘rin tutadi va quyida AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya, Turkiya hamda Singapur bozorlaridagi muhim mexanizmlar ko‘rib chiqiladi.

Asosiy qism. AQSh: AQSh fond bozori dunyoning eng yirik va rivojlangan bozori hisoblanadi. U yerda Securities Exchange Act (1934) qabul qilinganidan so‘ng moliyaviy bozorlar ustidan qat’iy nazorat mexanizmi yaratilgan; shu bilan birga, bozor qatnashchilari (birjalar, broker-dealerlar, to‘lov vositachilari) ro‘yxatdan o‘tish va muntazam hisobot taqdim etish majburiyatlariga ega bo‘ladi [3]. 2002-yilda Sarbanes–Oxley qonuni qabul qilinib, kompaniyalar faoliyatida oshkoralikni va ichki nazoratni mustahkamlash orqali investorlarning ishonchini tiklash maqsad qilingan [4]. 2012-yilda esa JOBS Act qonuni kichik biznes sub’yektlarini bozorga jalb qilish, IPO jarayonini yengillashtirish orqali iqtisodiyotning mavjud investitsiya kanalidan foydalanishini kengaytirishga yo‘naltirilgan [5].

Bundan tashqari, AQShda elektron savdo tizimlari (NYSE va NASDAQ kabi yirik birjalar) yuqori texnologiyalar asosida ishlaydi va barcha aksiyalar bo‘yicha ma’lumotlar real vaqtda ochiq taqdim etiladi, bu esa investorlar uchun xavfsiz va ishonchli muhit yaratadi. Bu tajribalar aksiyadorlik bozoriga ishonchni oshirib, chet el investitsiyalarini ko‘paytirishga xizmat qiladi. Yaponiya: Yaponiya moliya tizimini liberallashtirish bo‘yicha “Big Bang” islohoti (1997–1998) orqali bozorni ochiq tizimga aylantirishga urindi [6].

Bu islohotlar doirasida banklar, sug‘urta va birja sarmoyachilari xizmatlarini bir-biriga erkin taklif eta boshladi; almashinuv kurslari bo‘yicha monopoliya bekor qilindi va xalqaro pul operatsiyalari uchun cheklovlar olib tashlandi [7].

Natijada yapon fuqarolari jamg‘armalaridan chet el bozorlariga investitsiya kiritish imkoniyati oshdi. Masalan, dengiz fondida to‘plangan tahlil natijalariga ko‘ra, bu islohotlar yapon jamg‘armalarining investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish, sarmoya samaradorligini oshirishga xizmat qilishi kutilgan [8]. Shuningdek, “Tokyo Big Bang” doirasida milliy valyutadagi hisob-raqamlar ochiq qilingan, bu milliy kompaniyalarga ham forex bozorida faol bo‘lish imkonini berdi [9].

Яponiyada 2000-yillarda korporativ boshqaruvni takomillashtirish yo‘lga qo‘yilib, kompaniyalar moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlarga moslashtirdi. Bu chora-tadbirlar investorlarning ishonchini oshirdi va Yaponiyaning fond bozoriga chet el investorlarini jalb qilishga xizmat qildi. Janubiy Koreya: 1997–1998 yillardagi moliyaviy inqirozdan so‘ng Janubiy Koreyada katta moliyaviy islohotlar amalga oshirildi. Bosh vazir va moliya vazirligi buyruqlari asosida aksiyalar va obligatsiyalar bo‘yicha kapital bozorining xalqaro ochiqligi kengaytirildi. 1998-yil mart oyida Janubiy Koreya aksiyadorlik bozoridagi chet el investitsiyalari uchun barcha cheklovlarni bekor qildi, shu bilan birga KOSDAQ va KSE listigidagi kompaniyalarga investitsiya qilish erkinligi yaratildi [10]. Ushbu cheklovlarning bekor qilinishi natijasida xorijlik investorlar Koreya birjalarida faol qatnashishni boshladi. Masalan, 1990–yillarda bozor liberallashtirilgandan keyin chet el investorlarining joylashuvi KOSPI bozor qiymatining 30 foizini oshib ketdi [11].

Shuningdek, moliyaviy institutlar boshqaruvida ham islohotlar olib borilib, kichik aktsiyadorlar huquqlari himoyasi kuchaytirildi. Qisqasi, Janubiy Koreya davlat institutsiyalari investitsiya portfellarini ochiq qilish va korporativ boshqaruvni yaxshilash orqali fond bozoriga xalqaro kapital oqimini kengaytirdi. Turkiya: Turkiya 2000–2001 yillardagi moliyaviy inqirozdan so‘ng kapitallar bozorini tubdan qayta tashkil etishga kirishdi. Eng muhimi, 2012-yilda 6362-sonli Qonun qabul qilindi va 2013-yil aprelida Istanbul Fond Birjasi, Istanbul Oltin Birjasi va Izmir Paytiplar birjasi birlashtirilib “Borsa Istanbul” yagona milliy birjasi tashkil etildi [12].

Shu bilan birga, Tashqi davlat fuqarolari uchun oddiy registratsiya orqali investitsiya kiritish mexanizmi yaratildi. Bugungi kunda Turkiya fond bozori hajmi tez sur’atda o‘smoqda: masalan, 2009-yildan 2024-yilgacha bozor kapitallashuvi 351 mlrd. turk lirasi miqdoridan 10 trln. liraga (taxminan 339 mlrd. dollarga) yetdi [13].

Fond birjasida boshqaruv mas’uliyatini oshirish va oshkoralikni ta’minlash maqsadida Xususiy kompaniyalar uchun korporativ boshqaruv tamoyillari belgilangan. Turkiyaning Doing Business ko‘rsatgichiga ko‘ra, u yerda tranzaksiyalar shaffofligi indeksi 9,0 ga teng bo‘lib, AQShnikidan yuqori natija ko‘rsatadi (AQSh uchun 7,0).

Shu tariqa, Turkiya misolida ko‘rinib turibdiki, asosiy islohotlar – milliy birjaning modernizatsiyasi, qonunchilikni takomillashtirish va investorlarni himoya mexanizmlari – investitsiya oqimini oshirishga xizmat qilmoqda. Singapur: Singapur o‘zining strategik hududi va barqaror siyosati bilan moliya bozorida mintaqaviy markazga aylandi. Bu yerda qattiq tartibga solish (MAS – Moliyaviy Agentlik nazorati ostida) va yuqori darajadagi oshkoralik mavjud. Masalan, Singapur birjasi (SGX) o‘zida 300 ga yaqin xorijiy kompaniyalarni ro‘yxatdan o‘tkazgan, bular umumiy ro‘yxatga olingan kompaniyalarning ~40% ini tashkil etadi.

Bundan tashqari, Singapur hukumati xorijiy kompaniyalarni jalb qilish uchun bir nechta mexanizmlar yaratdi: riel hisob-kitoblar (birjalarda savdo qilish uchun CNY va boshqa valyutalarda operatsiya qilish imkoniyati), talabnomalar uchun yumshoqroq moliyaviy talablari kabi qulayliklar taqdim etildi

Korporativ boshqaruv kodeksi borligi ham investorlar ishonchini oshiradi; ro‘yxatga olingan kompaniyalar majburiy ravishda Boshqaruv tamoyillarini (Compliance or Explain) qo‘llab, shaffoflikni ta’minlaydi. Bularning barchasi birgalikda Singapurdagi fond bozorini xalqaro investorlar uchun jozibador qilmoqda.

Yuqoridagi xorijiy tajribalar asosida O‘zbekistonda ham investorlarni jalb etish uchun mos mexanizmlar ishlab chiqish mumkin. Jumladan, yurtimizda 2022-yilda qabul qilingan Yangi kapital bozorini rivojlantirish konsepsiyasi doirasida bozor infratuzilmasini modernizatsiya qilish, savdoni elektron platformalar orqali olib borish rejalashtirilgan edi [14].

Shuni e’tiborga olib, Toshkent birjasi va depozitarga investitsiyalarni real vaqtda aqlli tizimlar orqali boshqarish uchun blokcheyn kabi texnologiyalarni joriy etish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, ro‘yxatga olish talablari va kompaniyalar uchun korporativ boshqaruv standartlarini Belgrad prinsiplariga moslashtirish zarur. Analitiklar ta’kidicha, O‘zbekistonda hisob-kitoblarni to‘liq elektronlashtirish va xalqaro standartlarga (IFRS) mos moliyaviy hisobotni tatbiq etish orqali bozor shaffofligi va ishonchliligi oshirilishi mumkin [15].

Shuningdek, Janubiy Koreya tajribasiga o‘xshab, chet el investitsiyalari uchun bo‘limlarni ochish va cheklovlarni asta-sekin bekor qilish ijobiy natija beradi. 1998-yilda Janubiy Koreyada amalga oshirilganidek, O‘zbekistonda ham xorijiy kapitalni jalb etish oson va shaffof tartibda bo‘lishi lozim. Yana bir muhim tajriba – davlat mulkini bosqichma-bosqich xususiylashtirish va birjada sotish; masalan, ma’lum resurs kompaniyalarining aksiyalari IPO orqali sotilishi orqali mahalliy aksiyadorlik bozorini kengaytirish mumkin.

Bundan tashqari, Singapurdagi kabi moliyaviy imtiyozlar va investitsiya himoyasi mexanizmlarini kuchaytirish foydali: O‘zbekiston allaqachon dividendlar va foiz daromadlariga soliq imtiyozlari joriy etdi, “regulyator sandbox” yaratdi.

Bu kabi chora-tadbirlar nodavlat kapital oqimini ko‘paytirishi kutiladi. Yakunida, xorijiy tajribalar bilan uyg‘un holda, O‘zbekistonda kapitallar bozoriga oid qonunchilikni takomillashtirish, investorlarga keng huquqlar berish va bozor ishtirokchilariga to‘liq axborot ochiqligini ta’minlash muhim strategiya sifatida qaralishi lozim.

Qisqasi, AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya, Turkiya va Singapur tajribalari shuni ko‘rsatadiki, xalqaro investitsiya oqimini jalb etish uchun fond bozorini yuksak nazorat va shaffoflik asosida rivojlantirish zarur. Boshqa davlatlarda investorlarni himoya qilish mexanizmlari, korporativ boshqaruv kodeksi, texnologik yangiliklar va Qonun ustuvorligi bo‘yicha olib borilgan islohotlar bozorga sarmoya keltirdi. O‘zbekistonda ham fond bozorini modernizatsiya qilish, xalqaro standartlarni joriy etish va hukumat tomonidan kafolatlangan himoya siyosatini yo‘lga qo‘yish orqali investitsiya muhitini sezilarli darajada yaxshilash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Securities Exchange Act of 1934, 15 U.S.C. § 78a et seq. (1934).
2. U.S. Congress. (2002). Sarbanes–Oxley Act of 2002. Public Law 107-204.
3. U.S. Congress. (2012). Jumpstart Our Business Startups (JOBS) Act. Public Law 112-106.
4. Dolan, E. J., & Lindsey, D. (2012). Rynok: mikroekonomicheskaya model (V. Lukashevich, Ed.). Sankt-Peterburg: Pechatnyi dvor.
5. Ministry of Finance Japan. (1997). Japan’s Big Bang: The Financial System Reform. Government of Japan.
6. Bank of Japan. (1998). Tokyo Big Bang: Toward a New Financial System. Retrieved from www.boj.or.jp

7. Korea Financial Supervisory Service. (1998). Foreign Investment Deregulation Policy Report.
8. Korea Exchange (KRX). (2023). Capital Market Trends and Liberalization. www.krx.co.kr
9. Capital Markets Board of Turkey. (2012). Capital Markets Law No. 6362. Official Gazette of Turkey.
10. Borsa Istanbul. (2024). Annual Statistics Bulletin. Retrieved from www.borsaistanbul.com
11. Doing Business. (2020). Protecting Minority Investors Indicator: Turkey vs USA. World Bank Group.
12. Singapore Exchange (SGX). (2023). Market Overview and Listings Report. Retrieved from www.sgx.com
13. Monetary Authority of Singapore. (2023). Corporate Governance Code and Compliance Practices. www.mas.gov.sg
14. O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi. (2022). Kapital bozorini rivojlantirish konsepsiyasi–2030. Toshkent: Moliya nashriyoti.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori PQ-4992-son (2021 yil 11 fevral). “Kapital bozorini rivojlantirish strategiyasi”.

KORPORATIV BOSHQARUVNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Z.B.Aknazarova
Namangan davlat texnika universiteti “Menejment” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: Aknazarovazebinso @.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada korporativ boshqaruvning tashkiliy iqtisodiy mexanizmi tadqiq etilgan hamda uning yangi tushuncha sifatidagi mazmun-mohiyati tizimli yondashuv asosida yoritib berilgan. Tadqiqotda tizimli tahlil va kompleks konseptual yondashuv usullaridan foydalanib, muallif tomonidan nazariy-uslubiy ahamiyatga molik konseptual model hisoblangan korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi ishlab chiqilgan, uning elementlari aniqlanib, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati belgilangan. Tadqiqot natijalarining amaliy implikatsiyasi sifatida muallif tomonidan aksiyadorlik jamiyatida korporativ boshqaruv organlarining korporativ boshqaruv tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish uchun uning funsiyalari doirasida bajarishi lozim bo‘lgan vazifalari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: korporativ boshqaruv, korporativ boshqaruv mexanizmi, korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi, tashkiliyiqtisodiy mexanizm funksiyalari.

Аннотация: В данной статье рассматривается организационно-экономический механизм корпоративного управления и раскрывается его содержание как новое понятие, основанное на системном подходе. В ходе исследования, используя методы системного анализа и комплексного концептуального подхода, автором разработана организационно-экономическая модель корпоративного управления, которая рассматривается как концептуальная модель, имеющая теоретико-методологическое значение, выделены ее элементы, определены ее научная новизна и практическая значимость. В качестве практического применения результатов исследования автором предложены задачи, которые должны решать органы корпоративного управления акционерного общества в рамках своих функций по совершенствованию организационно-экономического механизма корпоративного управления.

Ключевые слова: корпоративное управление, механизм корпоративного управления, организационно-экономический механизм корпоративного управления, функции организационно-экономического механизма.

Abstract: This article examines the organizational and economic mechanism of corporate governance and reveals its content as a new concept based on a systems approach. In the course of the study, using the methods of systems analysis and an integrated conceptual approach, the author developed an organizational and economic model of corporate governance, which is considered as a conceptual model that has theoretical and methodological significance, highlights its elements, determines its scientific novelty and practical significance. As a practical application of the research results, the author proposes tasks that should be solved by the corporate governance bodies of a joint-stock company within the

framework of their functions to improve the organizational and economic mechanism of corporate governance.

Keywords: corporate governance, corporate governance mechanism, organizational and economic mechanism of corporate governance, functions of the organizational and economic mechanism.

Kirish. Mamlakatimizning mustaqilligi e’lon kilingan paytdan boshlab hamda bozor iqtisodiyotiga o‘tishi bilan davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayoni natijasida davlat mulki negizida yangi xo‘jalik sub’yektlari yaratildi, xususiy sektor yangi sur’atlar bilan rivojlanib, mulkdorlar sinfi shakllanib bordi, yirik korxonalar negizida ko‘plab aksiyadorlik jamiyatlari barpo etildi. Bu o‘z navbatida, korxonalarni samarali boshqarish vazifasini, korporativ boshqaruvning samarali mexanizmlarini joriy qilish va takomillashtirib borish masalalarini ilgari suradi. Korporativ boshqaruv - bu tashkilotning samarali ishlashini ta'minlash va rivojlanishini boshqarish jarayonidir. Uning asosiy vazifasi — tashkilotning iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy manfaatlarini muvofiqlashtirish, strategik maqsadlarga erishish uchun resurslarni boshqarishdir. Korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi ko'plab elementlardan iborat bo'lib, ularning har biri tashkilotning samarali ishlashini ta'minlashga xizmat qiladi. Bular quyidagilardan iborat:

- **Tashkiliy tuzilma**: Bu boshqaruv jarayonida mas'uliyat va vakolatlar taqsimotini o'z ichiga oladi. Tashkilot ichidagi bo'limlar va xodimlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar samarali boshqaruvga xizmat qiladi.
- **Iqtisodiy resurslarni boshqarish**: Korporatsiya faoliyatining muvaffaqiyatli bo'lishi uchun moliyaviy va moddiy resurslarni optimal boshqarish zarur. Bu jarayonning samarali amalga oshirilishi korporatsiyaning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi.
- **Strategik rejalashtirish**: Korporativ boshqaruvning muvaffaqiyati uchun uzoq muddatli strategik rejalashtirish juda muhimdir. Bu jarayon iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlil qilishni, shuningdek, bozorning o'zgaruvchan sharoitlariga moslashishni o'z ichiga oladi.
- **Axborot tizimlari va texnologiyalar**: Korporativ boshqaruvda zamonaviy axborot tizimlari va texnologiyalarning joriy etilishi muhim rol o'ynaydi. Bu tizimlar yordamida ma'lumotlar tezkor va samarali tarzda ishlanadi, bu esa qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi.

Korporativ boshqaruvning samarali ishlashiga xalaqit beruvchi bir qator muammolar mavjud. Ular quyidagilar:

- **Resurslarni notekis taqsimlash**:
- **Boshqaruvda shaffoflikning yetishmasligi**:
- **Xodimlar va menejment o'rtasidagi aloqaning sustligi**:
- **Bozor o'zgarishlariga moslashuvchanlikning pastligi**:

Resurslarni notekis taqsimlash — bu tashkilotda mavjud resurslarning (moliyaviy, inson resurslari, materiallar va texnologiyalar) bir bo'lim yoki jismoniy shaxslar o'rtasida teng va adolatli taqsimlanmasligi holatini anglatadi. Ushbu muammo korporativ boshqaruvda jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin, chunki resurslarni to'g'ri taqsimlamaslik tashkilotning umumiy samaradorligini pasaytiradi va ba'zi bo'limlar yoki xodimlarning imkoniyatlari cheklanadi.

Mamlakatimizdan yana bir boshqa muallif Sh.Kurbaniyazov [1] korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ta’riflashga uringan bo‘lib, uning fikricha, mazkur mexanizm kompleks elementlardan tarkib topib, boshqaruv munosabatlari samaradorligini oshirishga qaratilgan faoliyatdir. Biroq, fikrimizcha, ushbu ta’rif korporativ boshqaruv tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining mazmun-mohiyatini to‘la aks ettirmaydi, chunki, birinchidan, unda mexanizm qanday elementlardan tarkib topishi ko‘rsatilmagan, ikkinchidan, u boshqaruvning iqtisodiy mexanizmi samaradorligini oshirish nuqtai-nazaridan talqin etilmagan. Rossiyalik mualliflardan biri I.Shitkina [2] korporativ boshqaruv mexanizmlarini, mohiyatiga ko‘ra, korporativ nazoratni o‘rnatish vositalari, deb talqin etgan. Yana bir rossiyalik olim T.Pochekaylo [3] korporativ boshqaruv mexanizmini ikki jihatdan tushunadi: iqtisodiy va huquqiy jihatlardan. Iqtisodiy jihatdan, korporativ boshqaruv mexanizmi - boshqaruv tamoyillari, usullari va shakllari majmui bo‘lib, uning yordamida korporatsiya rahbariyati uning investisiya jozibadorligini oshirish, qiymatini kapitalizatsiya qilish, aksiyadorlik kapitalini samarali qo‘llash maqsadida iqtisodiy qonunlardan foydalanadi. **Ishonchning pasayishi**: Boshqaruvda shaffoflikning yetishmasligi tashkilot ichida ishonchni kamaytiradi. Xodimlar va manfaatdor tomonlar rahbariyatga nisbatan ishonchsizlikni his qilishadi, bu esa motivatsiya va samaradorlikning pasayishiga olib keladi.

- **Ichki nizolar va norozilikla**r: Shaffoflikning yo'qligi xodimlar o'rtasida noto'g'ri tushunchalar, adolatsizlik va noroziliklarga olib kelishi mumkin. Xodimlar o'zlarini e'tibordan chetda qolgan yoki noma'lum qarorlar asosida ishga solingan deb his qilishlari mumkin.
- **Xatolarga yo'l qo'yish**: Shaffof boshqaruv jarayonlari orqali xatolarni tezda aniqlash va tuzatish imkoniyati paydo bo'ladi. Biroq, shaffoflikning yetishmasligi xatolarni yashirishga olib keladi, bu esa kelajakda yanada jiddiy muammolarga olib kelishi mumkin.
- **Tashkilotning imiji va reputatsiyasining pasayishi**: Shaffoflikning yetishmasligi, ayniqsa, tashqi tomonlar bilan o'zaro aloqalar va kommunikatsiyalarni yomonlashtiradi. Tashkilotning imiji va obro'si pasayadi, chunki mijozlar, investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar tashkilotning faoliyatiga nisbatan ishonchsizlikni sezishadi.
- **Resurslarni samarali boshqarishning imkoni yo'qolishi**: Shaffof boshqaruv orqali resurslar taqsimlanishi va ishlatilishi haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'linadi. Shaffoflik yo'qligi esa resurslarni noto'g'ri taqsimlashga va samarali ishlatmaslikka olib keladi.

Xodimlar va menejment o'rtasidagi aloqalar tashkilotning samarali faoliyat yuritishi uchun muhim omillardan biridir. Bu aloqalar boshqaruvning muvaffaqiyatini ta'minlashda, jamoaning motivatsiyasini oshirishda va muammolarni tezkor hal qilishda o'z o'rniga ega. Xodimlar va menejment o'rtasidagi aloqaning sustligi esa tashkilotda bir qator salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Boshqaruvda bu muammo yuzaga kelganida, tashkilotning samaradorligi va barqarorligi tahdid ostida bo'lishi mumkin.

- Komunikatsiya kanallarining zaifligi: Ba'zi tashkilotlarda kommunikatsiya kanallari yaxshi ishlab chiqilmagan yoki samarali ishlamaydi. Bu holat xodimlar va menejment o'rtasidagi ma'lumot almashinuvi va fikr almashish jarayonini qiyinlashtiradi.
- Yuqori boshqaruvning past darajadagi qarorlar bilan shug'ullanishi: Menejment yuqori darajadagi qarorlarni qabul qilishda past darajadagi xodimlar bilan bevosita muloqot qilmasligi mumkin. Bu esa xodimlar o'z fikrlarini ifoda etishda yoki muammolarni ochib berishda qiyinchiliklarga duch kelishlariga olib keladi.
- Boshqaruvning autoritar uslubi: Menejmentning autoritar uslubi xodimlarning fikrlarini va mulohazalarini eshitishga ahamiyat bermaslikka olib keladi. Boshqaruvning bunday uslubi tashkilot ichida izolyatsiya va norozilikni kuchaytiradi.
- Xodimlar va menejment o'rtasida ishonchning yo'qligi: Agar rahbariyat xodimlar bilan ishonchli aloqalar o'rnatmagan bo'lsa, bu ular o'rtasidagi munosabatlar va kommunikatsiyani zaiflashtiradi. Xodimlar rahbariyatga ishonmasliklari va o'zlarini jamoaning bir qismi sifatida his qilmasliklari mumkin.
- Zamonaviy texnologiyalarni joriy etishning sustligi: Yangi texnologiyalar va raqamli platformalar yordamida samarali aloqalarni o'rnatish imkoniyatlari mavjud, ammo ba'zi tashkilotlarda ularning joriy etilishi sekin amalga oshiriladi. Bu esa xodimlar va menejment o'rtasidagi aloqalarni to'g'ri va tezkor amalga oshirishni qiyinlashtiradi.

Korporativ boshqaruvning bashkiliy-iqtisodiy mexanizmi —mahliliy jadval

Mexanizm turi	**Asosiy elementlar**	**Vazifasi**	**Amaliy misol**
Tashkiliy mexanizm	Boshqaruv tuzilmasi (kuzatuv kengashi, direktorlar kengashi)	Strategik va operativ boshqaruvni amalga oshirish	Direktorlar kengashi yangi loyiha uchun budjetni tasdiqlaydi
	Vakolatlar va javobgarlikni taqsimlash	Qarorlar kim tomonidan va qanday qabul qilinishini belgilash	Bo‘lim rahbarlari o‘z yo‘nalishlari uchun javobgardir
	Ichki nazorat tizimi	Noqonuniy yoki noto‘g‘ri qarorlarning oldini olish	Audit bo‘limi moliyaviy hisobotlarni tekshiradi
	Kompaniya nizomi va siyosati	Ichki tartib-qoidalarni belgilash va boshqaruvni tartibga solish	Kompaniya ustavi asosida umumiy yig‘ilishlar o‘tkaziladi

Xulosa va takliflar

Xodimlar va menejment o'rtasidagi aloqaning sustligi tashkilot ichida motivatsiyaning pasayishiga, qarorlar qabul qilishning sekinlashishiga va ichki nizolarning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Biroq, samarali kommunikatsiya va ochiq boshqaruv orqali bu muammo bartaraf etilishi mumkin. Xodimlar va

menejment o'rtasidagi o'zaro ishonch va samarali aloqalar tashkilotning umumiy muvaffaqiyatiga hissa qo'shadi. Shuning uchun, bunday aloqalarni mustahkamlash va rivojlantirish har bir tashkilot uchun muhim vazifadir.

Boshqaruvda shaffoflikning yetishmasligi tashkilotda ishonchsizlik, xatolar, va resurslarni samarali boshqarishning oldini olishi mumkin. Biroq, shaffof boshqaruv jarayonlari tashkilotning umumiy samaradorligini oshiradi, xodimlar va manfaatdor tomonlar o'rtasida ishonchni mustahkamlaydi va tashkilotning raqobatbardoshligini oshiradi. Shu bois, shaffof boshqaruvni ta'minlash — har bir tashkilot uchun zarur va muhim masala hisoblanadi.

Korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini samarali tashkil etish va takomillashtirish tashkilotning muvaffaqiyatli ishlashida muhim ahamiyatga ega. Resurslarni samarali boshqarish, shaffoflikni oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va xodimlar bilan samarali aloqani o'rnatish orqali korporatsiyalar o'zlarining iqtisodiy va strategik maqsadlariga erishishlari mumkin. Bu mexanizmning takomillashtirilishi, o'z navbatida, tashkilotning raqobatbardoshligini oshiradi va barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. №PF-4053, 18.11.2008 y. // “O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, 2008 yil, 47-son, 461-modda.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investorlarni jalb qilish borasidagi qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. №PQ-2454, 21.12.2015 y. // “O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, 2015 yil 28 dekabr, 51-son, 633modda.

3. Ashurov Z.A. Korporativ boshqaruv mexanizmi va uning O‘zbekistonda rivojlanishi. // “Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari” jurnali. – Toshkent, 2016. – №1. – B. 60-68.

4. Suyunov D.X. Korporativ boshqaruv mexanizmi: muammo va yechimlar. Monografiya. – T.: Akademiya, 2006. – 116 b.

5. Kurbaniyazov Sh. Korporativ boshqaruv samaradorligini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari. // “Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. №6, noyabr-dekabr, 2016 yil.

8. Шиткина И.С. Корпоративное право: учебник. – М.: Волтерс Клувер, 2008. – 648 с.

9. Почекайло Т.Н. Формирование организационно-экономического механизма корпортивного управления. Автореф. дис. ...канд. экон. наук. – Тюмень: Тюм.ГУ, 2006. – 22 с.

10. Долгопятова Т. Модели и механизмы корпоративного контроля в российской промышленности (опыт эмпирического исследования). // Вопросы экономики, 2001. - №5. – С.46-60.

11. Бушев А.Ю., Серяков А.В. О механизмах влияния корпоративного управления на репутацию компании. // «Корпоративное управление и инновационное развитие Севера: Вестник Научно-исследовательского центра корпоративного права, управления и венчурного инвестирования Сыктывкарского государственного университета», 2005. - №3. Электронный ресурс. URL: http://www.syktsu.rU/vestnik/2005/2005-3/9:htm.

12. Бурков В.Н., Агеев И.А., Баранчикова Е.А., Крюков С.В., Семенов П.И. Механизмы корпоративного управления. – М.: ИПУ РАН, 2004. – 109 с.

13. Зайнутдинов Ш.Н., Ашуров З.А. Корпоратив бошқарув. Ўқув қўлланма. –Т.: ТДИУ, 2010. -112 бет.

14. Веснин В.Р. Модели корпоративного управления: механизмы внешнего и внутреннего контроля фирмы. Электронный ресурс. URL: http://www.elitarium.ru/korporativnoe-upravlenie-kontrol-akcioner-menedzhersobstvennost-dejatelnost-informacija-jeffektivnost.

15. Denis D. and McConnell J. International Corporate Governance, ECGI Finance Working Paper, No.05/2003, Bruxelles: European Corporate Governance Institute.

BOSHQARUV USLUBLARIDA RAHBARLIK FAOLIYATINI OSHIRISHDA BOSHQARUV USLUBLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI ROLI VA XORIJ TAJRIBASI

Z.B.Aknazarova
Namangan davlat texnika universiteti “Menejment” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: Aknazarovazebinso @.uz

Annotatsiya. Boshqaruv uslublarida raqamli texnologiyalarning kelib chiqishi, hozirgi kundagi holati va boshqaruvda joriy etishning xorij tajribasi chuqur tahlil qilib o‘rganilgan. Boshqaruv uslublarida rahbarlik faoliyatini oshirishda Boshqaruv uslublarida raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari va uning afzalliklari ilmiy jahatdan tadbiq etilgan. Boshqaruvda Boshqaruv uslublarida raqamli texnologiyalarni qo‘llash va ularning samaradorligini baholash imkoniyatlari nazariy jihatidan yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Boshqaruv uslublarida raqamli texnologiya, boshqaruv, boshqaruv uslublari, samaradorlik, iqtisodiy samaradorlik, raqobat, xarajat.

Аннотация. Глубоко проанализированы и изучены происхождение, современное состояние и зарубежный опыт внедрения цифровых технологий в менеджмент. Научно обоснованы возможности использования цифровых технологий для повышения лидерских качеств в стилях управления и их преимущества. Теоретически освещены возможности использования цифровых технологий в менеджменте и оценка их эффективности.

Ключевые слова: цифровые технологии, менеджмент, стили управления, эффективность, экономическая эффективность, конкуренция, стоимость.

Kadrlar siyosatining xususiyatlari mikrodarajada bevosita korxona personalini boshqarish strategiyasini samarali rejalashtirishga bevosita bog‘liqdir.Personal boshqaruvi tizimini shakllantirish, umuman olganda, korporatsiyaning oliy boshqaruvi orqali yaratiladi.

Personalni boshqarish strategiyasi korxona strategiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Personalni boshqarish strategiyasi yondashuvidagi asosiy talqinlar 21-asrda strategik yondashuvlarda sodir bo‘lgan chuqur o‘zgarishlar aks etadi.

Bu davrgacha strategiyani markazlashtirish muvaffaqiyat garovi degan dunyoqarash ko‘pchilikka xos edi va bunday yondashuv ikkita g‘oyaga asoslanar edi. Birinchisi, korxonalarda yagona markaz bo‘lishi va u butun korxona strategiyasini qadamba-qadam ishlab chiqishga mas’ul bo‘lishi zarur. Ikkinchisi: risk (tavakkalchilik xavfi) manbalarini firmaga birlashgan holda yengish mumkin va bu xavf qanchalik katta bo‘lsa, uning boshqarilishi shunchalik markazlashgan bo‘lishi kerak. Bunday markaz sharoitida nazorat qiluvchi xarakterdagi uzviy aloqalar, strategik rejalashtirish va ishlab chiqarish ustidan nazorat o‘rtasida uzviy aloqalar talab qilinar edi. Bu ko‘p darajada funktsional printsip bo‘yicha tashkil qilingan ko‘p sonli iyerarxik tuzilmalarga ega yirik korxonalarning ko‘payishiga olib keldi.

“Strategik birliklar” o‘zlarining maxsus strategiyalarini va ularga mos xodimlarni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqa boshladilar. “Strategik birliklar” va markaz o‘rtasidagi bog‘lanish zaiflashdi, biroq markaz o‘zi mo‘ljallagan ishlab chiqarish rejalari bajarilishini nazorat qilish huquqini saqlab qoldi. Fombraun modeli (1984) strategiya, tarkib va kadrlarni boshqarish o‘rtasidagi bog‘lanishlarni yaxshi


tasvirlab beradi.

Bu modeldan kelib chiqadigan asosiy masala – korxona personalini boshqarish strategiyasini korxonaning umumiy strategiyasiga qanday bog‘lash ma’qul degan savolga javob topish. Tashqi muhitga eng qulay moslashishni (iqtisodiy holatga tez reaktsiya ko‘rsatish va h.k.) va shu bilan birga korxonaning barcha darajalarida kadrlar salohiyatini maksimallashtirishni ta’minlovchi sharoitlarni yaratishga qaratilganligidir.

Bu masalada strategik rejalashtirishning *klassik* va *zamonaviy* uslublariga aniqlik kiritish talab etiladi.

Klassik strategik rejalashtirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi: avval maqsad belgilanadi, so‘ng uni amalga oshirish uchun maqbul strategiya (yo‘l) izlanadi va pirovardida buning uchun zarur resurslar (vositalar) aniqlanadi.

Zamonaviy strategik rejalashtirish muntazam asosda biznesni va uni rejalashtirish imkoniyatlarini o‘rganishdir. Bunda birinchi o‘ringa yangi axborot texnologiyalari va moliya resurslari yordamida boshqariladigan alohida ishlab chiqarishning texnik vositalariga asoslangan yo‘llarni izlab topib chiqmoqda.



1–rasm. Strategik rejalashtirish bosqichlari.

Mavjud vaziyatni baholash va strategik muammolarga aniqlik kiritish zamonaviy strategik rejalashtirishda asosiy qadam hisoblanadi. Bu bosqichda quyidagi savollarga javob topish kerak:

— bozordagi o‘zgarishlar qanday namoyon bo‘lmoqda?

— korxonaning kuchli va kuchsiz tomonlari (umuman korxona, uning ishchanlik faolligi, foyda, bo‘limlar, guruhlar, sarmoya, mashina-uskunalar va ishlab chiqarishning boshqa vositalari) nimada?


— ishlab chiqarishni kengaytirish (korxona sotib olish, yangilarini ta’sis etish, mavjud ishchanlik faoliyatini intensifikatsiyalash) imkoniyatlari mavjudmi?

— bozor bugungi kunda qanday va kelajakda u qanaqa ko‘rinishda bo‘ladi?

Xodimlarni strategik rejalashtiriishing maqsadi mavjud mehnat resurslaridan samarali foydalanish hisobiga tashkilotning uzoq muddat davomida muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishi, raqobatbardoshligi, o‘sishi va taraqqiy etishi to‘g‘risidagi choradir.

Korxonaning ishchi kuchi ehtiyojiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar dinamikasini anglash korxona personalini prognoz qilishning asosi hisoblanadi. Bu prognoz xilma-xil bo‘lib uning eng oddiylaridan tortib juda murakkab, ko‘p omilli modellari ham mavjuddir.

Strategik rejalashtirish faoliyatining o‘zaro bog‘liq yo‘nalishi quyidagi rasmda mujassamlashgan.



2–rasm. Korxona personalini strategik rejalashtirish mexanizmi.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, korxonada personalni boshqarishda ayrim muammolar mavjuddir. Korxonada personalni boshqarishning asosiy muammolariga xodimlarning malakasining mos kelmasligi, xodimlarning yetishmasligi, motivatsiyasining pastligi, intizomsizlik, jamoadagi nizolar va samarasiz boshqaruv usullari kiradi. Bu muammolarni batafsilroq tavsiflashimiz mumkin:

- ko‘nikmalarning mos kelmasligi: xodimlar o‘zlariga yuklangan vazifalarni bajarish uchun zarur malaka, ko‘nikma yoki tajribaga ega bo‘lmasligi mumkin. Bu ish unumdorligi va sifatining pasayishiga olib kelishi mumkin;

- kadrlar yetishmasligi: personalning yetishmasligi, ayniqsa muhim sohalarda, biznes uchun jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu qolgan personalni ortiqcha yuklashga, aylanmani oshirishga va umumiy samaradorlikni kamaytirishga olib kelishi mumkin.

- past motivatsiya: personal o‘rtasida motivatsiyaning yetishmasligi past unumdorlik, mas'uliyatni o‘z zimmasiga olishni istamaslik va hatto ishlashni istamaslikda namoyon bo‘lishi mumkin. Past motivatsiyaning sabablari har xil bo‘lishi mumkin: past ish haqidan tortib toki martaba istiqbolining yetishmasligigacha.

Xulosa va tavsiyalar. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, har qanday tashkiliy tuzilmaning rivojlanib, ravnaq topishi pirovard natijada korxona xodimlarining malakaviy jihatdan rivojlanishiga bevosita aloqadordir. Darhaqiqat, chinakamiga iste’dodli, jonkuyar, yuqori malakali personalsiz aniq, puxta

o‘ylab tuzilgan strategik va moliyaviy rejalar hech qanday naf berolmasligi hech kimga sir emas.

Korxonalarda personalni boshqarishni strategik rejalashtirish samaradorligini oshirish bo‘yicha quyidagilarni tavsiya etamiz: korxona maqsadlari bilan uyg‘un kadr strategiyasini ishlab chiqish (personal siyosati korxonaning uzoq muddatli strategik maqsadlari bilan uyg‘unlashtirilishi lozim; har bir lavozim uchun aniq vazifalar va kutilgan natijalar belgilanishi kerak); mutaxassislar yetishmovchiligini aniqlash va kadrlar rezervini shakllantirish (mehnat bozori tahlili asosida kelgusida zarur bo‘ladigan mutaxassisliklar aniqlash; ixtisoslashgan kadrlar zaxirasi yaratilib, ularni rivojlantirish dasturlari tayyorlash); iqtidor va malakaga qarab personalni saralash tizimini yaratish (moddiy va nomoddiy rag‘batlantirish asosida samarali xodimlarni ushlab qolish siyosati olib borilishi; tanlov, baholash va tayinlash jarayonlari shaffof va natijaga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak); tizimli o‘qitish va malaka oshirish dasturlarini joriy etish (personalni doimiy ravishda qayta tayyorlash va malakasini oshirish – strategik jihatdan muhim omil; trening, seminar va amaliyotlar orqali kadrlarning bilim va ko‘nikmalarini doimiy yangilash kerak); kadrlar samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish (KPI (asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari) va boshqa baholash mezonlarini joriy qilish; samaradorlikka asoslangan baholash natijalari asosida mukofotlash va lavozimda ko‘tarish siyosati olib borilishi); innovatsion texnologiyalardan foydalanish(HR analytics (kadrlar tahlili), elektron kadrlar boshqaruvi va sun’iy intellekt yordamida qaror qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirish); mehnat muhitini yaxshilash va korporativ madaniyatni shakllantirish (xodimlar o‘rtasidagi ishonch, jamoaviylik va mas’uliyatni oshirishga qaratilgan dasturlar tayyorlash; korxona qadriyatlariga uyg‘un korporativ madaniyatni targ‘ib qilish); xodimlarning fikri va qoniqish darajasini muntazam o‘rganish (anonim so‘rovnomalar, suhbatlar yordamida xodimlar kayfiyati va takliflarini o‘rganish; bu ma’lumotlar asosida ish sharoitini yaxshilash bo‘yicha qarorlar qabul qilish).

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдураҳмонов Қ.Х., Холмўминов Ш.Р., Ҳайитов А.Б., Акбаров А..М. “Ходимларни бошқариш” – Тошкент. 2005 й. -198 б.
2. Бухалков М.И. Организация и нормирование труда: Учебник –Москва. “Инфра–М”, 2007 -340 с.
3. Герчикова Л. Менеджмент.–Т., 2001. -180 с.
4. Друкер П.Ф. Рынок: как войти в лидеры. Практика и принципы. –М.: Бук, 1992. –122 с.
5. Егоршин А.П. Управление персоналом. “Нижный Новгород”, НИМБ, 2001. -214 с.
6. Зайниддинов Ш.Т. Основы менеджмента. –Т., 1996. -268 с.
7. Кибанов А.Я. Основы управления персоналом: Учебник, –2–ое изд., перераб. и доп. – Москва. “ИНФРА–М”, 2007. -228 с.
8. Кибанов А.Я., Дуракова И.Б. Управление персоналом организации: / Отбор и оценка при найме, аттестация / Учебное пособие. Москва. “Экзамен”, 2003. -342 с.
9. Кокорев И.А. Управление персоналом в рамках концепции человеческого капитала. –Москва. РЭА, 2002. -420 с.
10. Котлер Ф. Маркетинг менеджмент. 11-е изд. –СПб.: Питер. 2005. –800 с.
11. Лапыгин Ю.Н. Стратегический менеджмент: учеб. пособие. –М.: Эксмо, 2010. –432
12. Макарова И.К. Управление персоналом: Схемы и комментарии. Москва. “Юриспруденция”, 2002. -164 с.
13. Мескон М., Альберт М., Хедоури Ф. Основы менеджмента. Пер.с англ. М.: Дело, 1995. -480 с.
14. Нарзикулов Н.Р., Муртазаев Б.Ч, Боқиева И.А. Инсон ресурслари иқтисодиёти: Ўқув қўлланма. –Тошкент. ТДИУ, 2005. -242 б.
15. Одегов Ю.Г. Упраачение персоналом в структурно–логических схемах. Москва. “Академический проект”, 2005. -154 с.
16. Портер Е. Майкл Конкурентная стратегия: Методика анализа отраслей и конкурентов: Пер. с англ. –М.: Альпина Бизнес Буне, 2005. –454 с.
17. Соколова М.И., Дементьева А.Г. Управление человеческими ресурсами: Учебник. –Москва. ТК Велби. “Проспект”, 2005. -128 с.
18. Федорова Н.В. Управление персоналом организации: Учебное пос./ Федорова Н.В.,Минченкова О.Ю. –Москва. КНОРУС, 2005. -145 с.
19. Шамхалов Ф. Основы теории государственного управления: Учебник для вузов. –Москва. ЗАО Издательство “Экономика”. 2003. -115 с.

20. Юлдашев Н.К., Болтабоев М.Р., Рихсимбоев О.К., Ғаниев Б.О. Стратегик менежмент. Ўқув қўлланма.- Т.: ТДИУ. 2003 й. -102 б.

KORXONALARDA XODIMLARNI BOSHQARISH MASALALARI

L.X.Ubaydullayev
Namangan davlat texnika universiteti “Menejment” kafedrasi dotsenti, i.f.n.
ubaydullayev1948@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada korxona xodimlarini boshqarish kontseptsiyasi asosida xodim shaxsiy rolining ortib borayotganligi bayon etilgan. Xodimlarni boshqarishga doir yangi xizmatlar odatda an’anaviy xizmatlar asosida tuzilishi ta’kidlangan. Shuningdek, xodimlarni boshqarish va uni takomillashtirish masalalari bo‘yicha tadqiqot olib borgan soha olimlarining yondashuvlari, xodimlarni boshqarish tizimining vazifalari hamda asosiy yo‘nalishlari ifodalangan. Xodimlarni boshqarish jarayoniga ta’sir etuvchi bir qator muammolar ko‘rsatib o‘tilgan va faoliyat samaradorligini oshirish uchun tegishli tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: xodimlarini boshqarish, shaxsiy omil, an’anaviy xizmatlar, kadrlar siyosati, ixtiloflarga barham berish, kadrlarni rejalashtirish va ta’minot, tanlash va ishga qabul qilish, kasbiy rivojlantirish, malaka oshirish, ish faoliyatini baholash, huquqiy masalalar, me’yoriy masalalar.

Аннотация: В статье рассматривается возрастающая роль сотрудника в концепции управления персоналом предприятия. Подчеркивается, что новые службы управления персоналом, как правило, строятся на базе традиционных служб. Представлены подходы учёных, проводивших исследования в области управления персоналом и его совершенствования, задачи и основные направления развития системы управления персоналом. Обозначен ряд проблем, влияющих на процесс управления персоналом, и даны соответствующие рекомендации по повышению эффективности деятельности.

Ключевые слова: управление персоналом, личностный фактор, традиционные службы, кадровая политика, разрешение конфликтов, планирование и обеспечение персоналом, подбор и найм персонала, профессиональное развитие, повышение квалификации, оценка деятельности, правовые вопросы, вопросы нормативного регулирования.

Abstract: The article describes the increasing role of the employee in the concept of personnel management of the enterprise. It is emphasized that new services for personnel management are usually built on the basis of traditional services. It also presents the approaches of scientists in the field who have conducted research on personnel management and its improvement, the tasks and main directions of the personnel management system. A number of problems affecting the personnel management process are indicated and relevant recommendations are given to increase the efficiency of activities.

Keywords: personnel management, personal factor, traditional services, personnel policy, conflict resolution, personnel planning and supply, selection and recruitment, professional development, advanced training, performance appraisal, legal issues, regulatory issues.

Kirish. Hozirgi vaqtda korxona va tashkilot xodimlarini boshqarish kontseptsiyasi asosida xodim shaxsiy rolining ortib borayotganligi, uning asosiy yo‘l–yo‘riqlarni bilishi, ularni shakllantira olishi, korxona va tashkilotlar oldida turgan vazifalarga muvofiq ravishda yo‘naltira bilishi tashkil etadi.

“2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” maqsadida “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” deb nomlanadi va bunda asosiy e’tibor ijtimoiy soha va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan. Ijtimoiy sohani rivojlantirish va inson kapitalini oshirish orqali O‘zbekiston yanada barqaror va farovon jamiyatga aylanishi ko‘zda tutilgan. Bu jarayonlarda, ayniqsa, yoshlarni, ayollarni va ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlarni qo‘llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratiladi” [1.2022].

Respublikamizdagi iqtisodiy va siyosiy tizimlarda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar har bir shaxs uchun, turmushi barqarorligi uchun katta imkoniyatlar tug‘diradi, shu bilan birgalikda amalda har bir kishining hayotiga ma’lum darajada noaniqlik kiritadi. Bunday vaziyatda xodimlarni boshqarish alohida ahamiyatga ega, chunki u shaxsning tashqi sharoitga moslashish, tashkilotdagi xodimni boshqarish tizimining tuzilishida shaxsiy omilni hisobga olish masalalarining butun majmuini amalga oshirish imkonini beradi.

Shuning uchun ham ma’naviyat va qadriyatlarning ustuvorligiga butunlay yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish zarur bo‘ladi. Korxona va tashkilot ichidagi asosiy jihat – xodimdir, tashkilotdan tashqarida esa mahsulot iste’molchilaridir. Ishlovchining ma’naviy ongini boshliqqa emas, balki tashabbuskorga tomon yuz burish zarur.

Xodimlarni boshqarishga doir yangi xizmatlar odatda an’anaviy xizmatlar: kadrlar bo‘limi, mehnatni tashkil etish va ish haqi bo‘limi, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi bo‘limi va hokazolar asosida tuziladi. Yangi xizmatlarning vazifasi korxona va tashkilotdagi kadrlar siyosatini amalga oshirishdan, mehnat salohiyatini boshqarish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirishdan iboratdir. Shu munosabatlar bilan bu xizmatlar o‘z vazifasi doirasini kengaytira boshlaydi va kadrlar masalasidan mehnat faoliyatini rag‘batlantirish tizimlarini ishlab chiqishga, kasbiy jihatdan ilgari siljishni boshqarishga, ixtiloflarga barham berishga, mehnat bozori va shu kabilarni o‘rganishga o‘tadi.

Asosiy qism. Xodimlarni boshqarish va uni takomillashtirish masalalari menejmentning eng zarur yo‘nalishlaridan biri sifatida izlanib kelinmoqda. Korxonalarda xodimlarni boshqarish bo‘yicha A.Maslou [3.1965:B.277], F.Gersberg [7.1959:B.157], V.Vrum[10.1964:B.260], D.Makgregor [6.1960:B.450], D.Mak Kleland [4.1953:B.384] kabi olimlarning asarlarida taqdim etilgan turli boshqaruv nazariyalar mavjud. O‘zbekistonda boshqaruv munosabatlari, rahbarlik usullari, ularni nazariy jihatlari mamlakatimiz iqtisodchi olimlari M.Sharifxo‘jayev [2.2000:B.552], Yo.Abdullayev[2.2000:B.552], S.S.G‘ulomov [13.2002:B.370], B.Yu.Xodiyev [11.2012:B.144], M.S.Qosimova [9.2011:B.336], Sh.N.Zaynutdinov [14.2014:B.270], N.Q.Yo‘ldoshev [12.2018:B.392], O.S.Kazakov [8.2021:B.378], B.N.Dedajanov [5.2022:B.580] ning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Yuqorida qayd etilgan ilmiy tadqiqot ishlarida xodimlarni boshqarishni nazariy asoslari, usul va vositalari tadqiq etilgan.

Har qanday korxona va tashkilotning samarali ishlashi uning resurslarini to‘g‘ri taqsimlashdan boshlanadi. Tashkilotlarning eng muhim manbalaridan biri uning xodimlaridir. Tashkilotning o‘lchami kattalashgani sayin, uning rahbariyati ushbu mexanizmning uzluksiz ishlashini ta'minlashda yanada murakkab vaziyatlarga duch kelishi mumkin. Bunday sharoitda, tashkilot to‘g‘ri tuzilishi va puxta ishlab chiqilgan xodimlarni boshqarish tizimiga ehtiyoj sezadi. Vakolatli boshqaruv, avvalo, xodimlarni boshqarish, tashkil etish va rejalashtirish jarayonlarini o‘z ichiga olgan tizimdir.

Har bir jamoa a'zosining salohiyatini amalga oshirish uchun tizimli yondashuv zarur bo‘lib, bu har qanday ishlab chiqarish jarayonlarining sifat va belgilangan muddatlarda bajarilishini ta'minlaydi.


Shu sababli, xodimlarni boshqarish tizimini yaratish va umuman boshqaruv strukturasi tuzishning asosiy maqsadlari kompaniyaning bozordagi pozitsiyasini mustahkamlash, mehnat unumdorligini oshirish va daromadni ko‘paytirishdir. Tashkilot xodimlari tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish, mijozlarga xizmat ko‘rsatish, resurslarni boshqarish, yangi mahsulotlar va texnologiyalarni ishlab chiqish, xatarlarni boshqarish va boshqa ko‘plab vazifalarni bajaradilar.

Tashkilotdagi xodimlarni boshqarish tuzilmasi, odatda, korxonaning siyosati, bozor xatti-harakatlari strategiyasi, umumiy faoliyatining tabiati va ishlab chiqarish hajmini belgilab beradi.

Xodimlarni boshqarish tizimi uz vazifalarini samarali va uz vaqtida bajarishi uchun tashkilotdagi barcha operatsiyalarni uz ichiga olishi zarur. Eng optimal yondashuv, xar bir funktsiyaning aloxida quyi tizimlar yordamida amalga oshirilishi va bu quyi tizimlar orasida doimiy aloqaning o‘rnatilgan bo‘lishidir.

O‘z vazifalarini samarali xamda uz vaqtida bajarish uchun xodimlarni boshqarish tizimi tashkilot xodimlari bilan ishlashga bog‘liq barcha operatsiyalarni o‘z ichiga olishi kerak. Eng optimal usuli, har bir funksiya alohida quyi tizim tomonidan amalga oshirilganda va quyi tizimlar to‘plami bir-biri bilan doimiy aloqada bo‘lganda.

Xodimlarni boshqarish tizimining vazifalari quyidagicha ifodalanadi:



1-rasm. Xodimlarni boshqarish tizimining vazifalari. Bunday holda, xodimlarni boshqarish tizimining tashkiliy tuzilishi tashkilotdagi xodimlarni boshqarishning mavjud quyi tizimlari va ular o‘rtasidagi aloqalarning kombinatsiyasi sifatida taqdim etiladi.

Korxonalarda xodimlarni boshqarishning asosiy yo‘nalishlarini quyida ko‘rib o‘tishimiz mumkin:

1. Kadrlarni rejalashtirish va ta’minot: korxona ehtiyojiga muvofiq kadrlar soni va ixtisosligi bo‘yicha rejalar tuzish; bozordagi mehnat resurslarini tahlil qilish; xodimlarni jalb qilish (rekruting) strategiyasini ishlab chiqish; bo‘sh ish o‘rinlari uchun e’lon berish va nomzodlarni saralash.

2. Tanlash va ishga qabul qilish: rezyume va arizalarni tahlil qilish; suhbatlar o‘tkazish (intervьyu); ishga qabul qilishda qonuniy va tashkiliy jarayonlarni ta’minlash; sinov muddatini tashkil etish.

3. Kasbiy rivojlantirish va malaka oshirish: xodimlarning malakasini oshirish uchun o‘quv seminarlari va kurslar tashkil etish; ta’lim va trening dasturlari ishlab chiqish; liderlik va boshqaruv qobiliyatini rivojlantirish.

4. Ish faoliyatini baholash: xodimlarning ish unumdorligini baholash (KPI, attestatsiya, baholash varaqalari); mukofotlash va rag‘batlantirish tizimini yaratish; qaror qabul qilishda ob’ektiv mezonlarga asoslanish.

5. Motivatsiya va rag‘batlantirish: maosh va bonus tizimini to‘g‘ri tashkil qilish; havas qozg‘atuvchi ijtimoiy paketlar (sug‘urta, dam olish, transport); manfaatdorlik asosida ish muhitini shakllantirish; ustuvor va samarali ish muhitini yaratish.

6. Xodimlar bilan munosabatlar va korporativ madaniyat: ish joyidagi munosabatlar, jamoa ichidagi aloqalarni tartibga solish; murojaatlar, shikoyatlar, nizolarni hal etish; korporativ qadriyatlar va etika qoidalarini joriy etish; xodimlar qoniqish darajasini aniqlash va yaxshilash.

7. Kadrlar harakati va manfaatdorlikni ta’minlash: xodimlarni lavozimda ko‘tarish, o‘rin almashtirish; rotatsiya va karera rejalashtirish; yosh kadrlar zaxirasini shakllantirish.

*8. Huquqiy va me’yoriy masalalar:m*ehnat qonunchiligiga rioya etish; ish shartnomalarini rasmiylashtirish; xodimlarni mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo‘yicha xabardor qilish.

9. Elektron HR tizimlar va tahlillar: kadrlar bo‘limida avtomatlashtirilgan dasturlar (HRM sistemalar)dan foydalanish; kadrlar harakati bo‘yicha tahlillar va hisobotlar tayyorlash; xodimlar ma’lumotlar bazasini yuritish.

Tashkiliy tuzilma endigina shakllantirilgan paytda inson resurslari bilan ishlab borasidagi bosh vazifa strategik g‘oyani amalga oshirishga xizmat qila oladigan salohiyatli xodimlarni topishdan iborat bo‘lib, bu vaqtda “salohiyatli” degan tushuncha aniq mazmun kasb etib ulgurmagan bo‘ladi. Muayyan vaqt o‘tib, tashkilot o‘z missiyasini, strategiyasini belgilab oladi. Bosh maqsad yo‘lida dastlabki qadamlar tashlanib, ilk yutuqlarga erishiladi. Maqsadlar va rejalar tobora aniqlashadi.

Xodim salohiyati xususida gap ketganida, asosan real vazifalarni bajarish uchun zarur bilim va malaka , qulay shart-sharoitlar, imkoniyatlar nazarda tutiladi. Biznes-reja qanchalik muvaffaqiyatli bajarilsa, xodimning malakaviy tayyorgarligiga nisbatan talab shunchalik yuksalib boraveradi.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, xodimlarni samarali boshqarish jarayoniga ta’sir etuvchi bir qator muammolar bo‘lib, ularni quyida sanab o‘tishimiz mumkin:

- intizomsizlik: mehnat intizomiga rioya qilmaslik, kechikish, ichki tartib qoidalarini buzish butun korxona ishiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin;
- jamoadagi nizolar: shaxslararo nizolar, raqobat, jamoaviy birdamlikning yo‘qligi salbiy ish muhitini keltirib chiqaradi, unumdorlikni pasaytirishi va ishdan bo‘shatilishiga olib kelishi mumkin;

-samarasiz boshqaruv: noto‘g‘ri tanlangan boshqaruv usullari, aniq maqsad va vazifalarning yo‘qligi, yetarli fikr-mulohazalar va malakasiz menejerlar - bularning barchasi xodimlar va butun korxona ishiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin;

- qo‘shimcha muammolar: kadrlar almashinuvi - yuqori kadrlar almashinuvi turli omillar, jumladan, past ish haqi, martaba istiqbolining yo‘qligi, yomon jamoa muhiti va samarasiz boshqaruv sabab bo‘lishi mumkin;

- yangi xodimlarni korxona faoliyatiga moslashtirishdagi qiyinchiliklar: yangi xodimlarni moslashtirishga yetarlicha e'tibor bermaslik ularning ishning birinchi oylarida kompaniyani tark etishiga olib kelishi mumkin;

- o‘qitish va rivojlanishning yetarli emasligi: xodimlarni o‘qitish va malakasini oshirish uchun mablag‘larning yetarli emasligi xodimlarning o‘z ishlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va bilimlarni rivojlantirmasligiga olib kelishi mumkin.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun kompaniyalar muntazam ravishda kadrlar tahlilini o‘tkazishlari, samarali rag‘batlantirish dasturlarini ishlab chiqishlari va amalga oshirishlari, xodimlarni o‘qitishlari, ijobiy ish muhitini yaratishlari va menejerlarni kasb doirasida rivojlantirishga e’tibor qaratishlari kerak.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun kompaniyalar muntazam ravishda kadrlar tahlilini o‘tkazishlari, samarali rag‘batlantirish dasturlarini ishlab chiqishlari va amalga oshirishlari, xodimlarni o‘qitishlari, ijobiy ish muhitini yaratishlari va menejerlarni rivojlantirishga e’tibor qaratishlari kerak.

Xulosa va takliflar. Tashkiliy tuzilma endigina shakllantirilgan paytda inson resurslari bilan ishlab borasidagi bosh vazifa strategik g‘oyani amalga oshirishga xizmat qila oladigan salohiyatli xodimlarni topishdan iborat bo‘lib, bu vaqtda “salohiyatli” degan tushuncha aniq mazmun kasb etib ulgurmagan bo‘ladi. Muayyan vaqt o‘tib, tashkilot o‘z missiyasini, strategiyasini belgilab oladi. Bosh maqsad yo‘lida dastlabki qadamlar tashlanib, ilk yutuqlarga erishiladi. Maqsadlar va rejalar tobora aniqlashadi. Xodim salohiyati xususida gap ketganida, asosan real vazifalarni bajarish uchun zarur bilim va malaka , qulay shart-sharoitlar, imkoniyatlar nazarda tutiladi.

Korxonalarda xodimlarni boshqarish samaradorligini oshirish uchun quyidagilarni tavsiya etamiz: korxona xodimlari salohiyatidan to‘laroq foydalanish; mehnat mazmunini xodimlarning shaxsiy qobiliyatlari va qiziqishlariga mosligini ta’minlash; xodimlarni bo‘shatishning salbiy oqibatlarini pasaytirish; personaldan shaxsiy qiziqishlari, qobiliyatlari va imkoniyatlariga mos holdafoydalnish; mehnatning insonparvarlik darajasini oshirish; xodimlarning shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash; karerani boshqarishda xodimlar va ma’muriyat maqsadlarining kelishuvchanligini ta’minlash; xodimlarda tashkilot ishiga aloqadorlik tuyg‘usini shakllantirish; mehnatni rag‘batlantirishning zamonaviy motivlashtirish tizimini shakllantirish; ishdan tashqari muloqot qilish uchun imkoniyat yaratish; xodimlarning maishiy sharoitlarini yaxshilash; tashkilotning tashqi muhitdagi o‘zgarishlardan kelib chiqqan holda o‘zining tuzilmalarini qayta tuzishga bo‘lgan qobiliyatlarini rivojlantirish; rahbarlik qarorlarini aniq ifodalagan maqsad va vazifalardan kelib chiqib qabul qilishlari uchun sharoitlar yaratish; ishlovchilarning huquqiy himoyalanishini ta’minlash va boshqa shu kabilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ–60-сонли "2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги Фармони. 2022 йил 28 январ. lex.uz
2. Шарифхўжаев М., Абдуллаев Ё.. Менежмент “100 саволга 100 жавоб”. 2000 й. Т.Меҳнат. 552-с.
3. Abraham H. Maslow. Maslow on Management. R. D. Irwin, 1965. P 277.
4. David C. McClelland, John W. Atkinson, Russell A. Clark, E. L. Lowell. The Achievement Motive. Appleton-Century-Crofts, **1953. P 384.**
5. Dedajanov B. N. (2022). Menejment. Darslik.–Toshkent.:“Fan ziyosi” nashriyoti, 580.
6. Douglas McGregor. The Human Side of Enterprise. McGraw-Hill, 1960-64.p 450.
7. Frederick Herzberg, Bernard Mausner, Barbara Bloch Snyderman. Wiley, New York, **1959. P 157.**

8. Kazakov O.S. Menejmentga kirish: Darslik.–T.: 2021.– 378 b.
9. Qosimova D.S..Menejment nazariyasi Toshkent: Tafakkur-bo‘stoni. 2011 йил.336 бет.
10. Victor H. Vroom. Work and Motivation. Yale SOM, 1964. P 260.
11. Xodiyev B.Yu., Karlibayeva R.X., Akramova N.I.. Korporativ boshqaruv.Cho‘lpon. T. 2012.144 b.
12. Yo‘ldoshev N.Q., Zaxidov G.E. Menejment. «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati».2018 y.392-b.
13. Ғуломов С.С..Менежмент асослари. Шарқ, Тошкент.2002 йил.370 бет.
14. Зайнутдинов Ш.Н. Менежмент.“IQTISODIYOT” нашриёти, Тошкент.2014 йил.270 бет.
15. Шарифхўжаев М., Абдуллаев Ё.. “Менежмент”. Дарслик.– Т.: Ўқитувчи, 2001 йил, 704 бет.

PR-MENEJER FAOLIYATINING ASOSIY VAZIFALARI

F.I.Ergasheva
Namangan davlat texnika universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, PhD

Annotatsiya: Maqolada jamoatchilik bilan aloqalar jarayonini boshqarish, bunda PR-menejeri asosiy o‘rinda turishi bayon etilgan. PR (public relations) -menejerning korxona yoki brendning ijobiy imijini yaratishdagi va saqlashdagi roli ko‘rsatib o‘tilgan. PR(public relations) -faoliyatini boshqarishda menejerlarning soha doirasida vazifalari ifodalangan. Zamonaviy sharoitda biznesning PR faoliyati boshqaruvida asosiy maqsadga erishish uchun ayrim tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: jamoatchilik bilan aloqalar, PR-menejer, PR-xodimlari, PR-texnologiyalari, PR-faoliyati, shaxsiy PR-menejeri, PR-konsepsiyasi, muzokaralar olib borish.

Аннотация: В статье рассматривается управление процессом связей с общественностью, в котором PR (public relations) -менеджер играет ключевую роль. Обозначена роль PR-менеджера в создании и поддержании позитивного имиджа предприятия или бренда. Описаны задачи менеджеров по управлению PR (public relations) –деятельностью в рамках отрасли. Даны рекомендации по достижению основной цели управления PR-деятельностью бизнеса в современных условиях.

Ключевые слова: связи с общественностью, PR-менеджер, PR-персонал, PR-технологии, PR-деятельность, персональный PR-менеджер, PR-концепция, переговоры.

Abstract: The article describes the management of the public relations process, in which the PR manager plays a key role. The role of the PR (public relations)manager in creating and maintaining a positive image of an enterprise or brand is indicated. The tasks of managers in managing PR (public relations) activities within the scope of the industry are expressed. Some recommendations are given to achieve the main goal of managing the PR activities of a business in modern conditions.

Keywords: public relations, PR manager, PR personnel, PR technologies, PR activities, personal PR manager, PR concept, negotiations.

Kirish. Iqtisodiy rivojlanishning muvaffaqiyati mahalliy biznesning xalqaro raqobatbardoshligini oshirishning yangi shakllari, usullari va vositalaridan foydalanishga bog‘liq. Bugungi kunda har qanday mamlakat biznesining ichki va tashqi bozorlari jahon iqtisodiy munosabatlarining ta’siri ostida bo‘lmoqda. Jahon bozorning yaratilishi, axborot rolining kuchayishi va bozor aloqalarining ahamiyati mahsulotlarni bozorlarda ilgari surish amaliyotining o‘zgarishiga olib keldi. Xo‘jalik yuritishning sanoat turi davrida reklama ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotishda potentsial iste’molchilarni xabardor qilishning asosiy vositasi bo‘lib xizmat qildi. Biznes iste’molchilarni xabardor qilishning muqobil vositalarini izlashga majbur.

Iste’molchini xabardor qilishga emas, balki mahsulotni o‘z uyida ishlatish zarurligi to‘g‘risida ishonchni shakllantirishga, u bilan doimiy aloqa tizimini yaratishga asoslangan yangi aloqa bozor texnologiyalarining ahamiyati ortib bormoqda.

Jamoatchilik bilan aloqalar ushbu faoliyat turlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan biznesda

mustaqil boshqaruv funktsiyasidir. Tadbirkorlik tuzilmalari tomonidan iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanish strategiyasini amalga oshirishda jamoatchilik bilan aloqalar uzoq muddatda biznesning ijobiy imidji va obro‘sini shakllantiradi.

Har qanday faoliyatda boshqaruv bo‘lgani kabi jamoatchilik bilan aloqalar jarayonida ham boshqaruv bo‘ladi. Agar biznesdagi PR-boshqaruvi haqida gapiradigan bo‘lsak, unda bu texnologiyalar kompaniyaning ijobiy imijini shakllantirish va saqlashni samarali boshqarish uchun ishlaydi. Bunday jarayonda PR-menejeri asosiy o‘rinda bo‘ladi.

Asosiy qism. PR-menejer – bu kompaniya uchun ijobiy jamoatchilik obro‘sini yaratuvchi, kompaniyaning ijobiy imijini (qiyofasini) rivojlantiruvchi va uni mijozlar, hamkorlar, hokimiyat va ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro aloqada ishlaydigan mutaxassis deb tushunish mumkin. Ba’zan bunday mutaxassislar “PR-xodimlari” ham deb ataladi.

PR-menejer korxona yoki brendning ijobiy imijini yaratadi va saqlaydi. Buning uchun u turli xil maqsadli auditoriya, shu jumladan mijozlar, sheriklar, investorlar, OAV, davlat idoralari va boshqalar bilan muloqot o‘rnatish va olib borish vazifalarini bajaradi.

Yirik tashkilotlarda bunday xodim ichki jamoatchilik o‘rtasidagi muloqot uchun ham javobgardir - bular korporativ madaniyatning tashuvchilari, ya’ni mavjud, sobiq va potentsial xodimlar, shuningdek ularning oilalari va qarindoshlari hisoblanadi. PR bo‘yicha mutaxassis korxonaning tuzilishi va oldiga qo‘yilgan vazifalariga qarab reklama, marketing bo‘limi yoki matbuot xizmatida faoliyat olib boradi [1.2023:B.78].


“Jamoatchilik bilan aloqalar” tushunchasi bizga AQShdan kirib kelgan. Birinchi jamoatchilik bilan aloqalar byurosi 1900-yilda Garvard universitetida tashkil etilgan. So‘ngra, “PR-xodimlari” tayyorlovchi old maktablar faoliyat boshladi. 1960-yil boshlarida, ba’zi tijorat tashkilotlarida “PR-menejer” lavozimi tashkil qilina boshlandi. Hozirgi kunga kelib, zamonaviy PR-xodimlari nafaqat tashkilotlarda, balki siyosat, shou-biznes, internet va media loyihalarida ham faoliyat olib bormoqdalar.

Ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda bir necha yil avval, bunday mutaxassisning vazifalari asosan press-relizlar bilan ishlashni o‘z ichiga olgan edi. Ammo biznes texnologiyalari rivojlanishi bilan hamma narsa tezda o‘zgardi va bugungi kunda PR-xodimlari korxonalar imijini shakllantirish uchun qattiq mehnat qilmoqdalar. Bundan tashqari, ular nafaqat tashqi muhitda, balki tashkilot ichida, uning xodimlari bilan ishlashda PR-texnologiyalaridan foydalanadilar.

PR-rahbariga mumkin bo‘lgan har qanday rasmiy unvon berilishi mumkin: “jamoat ishlari bo‘yicha direktor”dan “aloqa bo‘yicha menejer”gacha; ba’zan esa amalda ikki xil “reklama va PR-xodimi” kasblarini ham birlashtirish mumkin. Davlat organlarida qabul qilingan lavozimning avvalgi standart nomidan farqli o‘laroq, hozirgi kunda ushbu lavozim uchun eng g‘aroyib “jamoat bilan aloqalar bo‘yicha xodim” (public relations officer - PRO) kabi nomlanishlar paydo bo‘la boshladi. Umuman olganda, korporativ PR va biznesning ijtimoiy yo‘nalishini xodimlar uchun nashrlar yoki mahsulot yangiliklarini chiqarishning kundalik ishlaridan ajratishga urinishlar katta yoki oddiy nomlarning paydo bo‘lishiga olib keladi, deb aytish mumkin. Biroq, odatiy amerikacha yondashuv bo‘yicha jamoat ishlari va jamoatchilik bilan aloqalar o‘rtasidagi farqni ajratish sun’iy hisoblanadi. Ba’zida PR boshqa ishning bir qismiga o‘xshab ko‘rinadi, afsuski bunday hollarda u o‘z ahamiyatini yo‘qotib boradi.

Ayrim rivojlangan mamlakatlarda ba’zan kadrlar masalalari bo‘yicha rahbar muovini PR uchun javobgar hisoblanadi. Bu ichki aloqalar uchun to‘g‘ri bo‘lishi mumkin, ammo tashqi aloqalardan kelib chiqadigan talablarni qondira olmasligi mumkin. Ba’zi bir tashkilotlarda ushbu vazifani marketing xizmatlari menejeri amalga oshiradi, bunday jarayonda PR-vazifasi ikkinchi darajaga tushib qoladi[6.2008:B.13].

Umuman olganda, kompaniyada PR-faoliyati bilan shug‘ullanuvchi mutaxassisni PR-menejeri (public relations manager) deb ataladi. Agar PR-menejeri kompaniyaning direktorlar kengashi a’zosi bo‘lsa, uni PR-direktori (public relation director) deb ham atash mumkin. Bundan tashqari yanada kengroq atama mavjud bo‘lib, agar PR-masalalari bilan shug‘ullanadigan har qanday shaxsga, u qayerda (korxonaning o‘zida yoki konsalting firmasida) ishlamasin unga nisbatan PR-mutaxassis (public relations practioner (amaliyotchi) degan tushunchani qo‘llash mumkin.



1-rasm. Boshqaruv faoliyati.

Ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo‘yicha mutaxassis (uni PR-menejeri bilan adashtirmaslik kerak) bo‘lgan matbuot xodimi (press-officer) va PR-maslahatchisi (public relations consultant) lavozimlari ham mavjud[7.2006:B.38]. Menejer – bu *boshqaruv faoliyati* bilan professional tarzda shug‘ullanadigan, boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ularni amalga oshirish huquqiga ega bo‘lgan shaxs. Menejer ish faoliyatining maqsadi korxonaning barqaror raqobatbardoshligini ta’minlashdan iboratdir. U ushbu boshqaruv jarayonida quyidagi faoliyat sohalari bilan bevosita shug‘llanadi va PR qilish uchun asoslar tayyorlaydi.

PR-faoliyatini boshqarishda menejerlar soha doirasida o‘z oldilariga maqsad qo‘yadilar va ana shu maqsadga erishishda turli vazifalarni bajaradilar.

PR-menejerining ishi qisman marketolog bilan mos keladi: u mahsulot yoki brendni targ‘ib qiladi, lekin boshqa vositalardan foydalanadi. *Asosiy maqsad* - obro‘ni oshirish, mahsulot, kompaniya yoki shaxs atrofida ijobiy muhit va jamoalarni shakllantirish (yaratish).

PR-mutaxassisining maqsadi - barcha qamrab olingan maqsadli guruhlar vakillarida tashkilotning ijobiy imijini yaratish va qo‘llab-quvvatlashdir. Shunga asoslanib, ushbu maqsadga erishishga imkon beradigan asosiy vazifalarni aniqlash mumkin[2.2025:B.158].

Shuningdek, PR-faoliyatida shaxsiy PR-menejeri atamasi ham qo‘llaniladi. Shaxsiy PR-menejeri - bu shaxsiy brendini yaratmoqchi bo‘lgan odamning birinchi yordamchisidir. U targ‘ib qilish uchun javobgar shaxs hisoblanib, quyidagi vazifalarni bajaradi[3.2025:B.456]:

- jurnalistlar bilan muzokaralar olib borish;
- fotosessiyalarni tashkil qilish;
- chiqishlar tashkil etish va fikr yetakchilari bilan ishlash;
- ijtimoiy tarmoqlarni yuritish va boshqarishga yordam berish;
- blog postlarini yozish;
- ro‘yxatdagi elektron pochtalarga xatlarni yuborish.

PR-menejeri tashkilot va mijozlar, jurnalistlar, barcha darajadagi davlat organlari va jamoatchilik o‘rtasida o‘zaro tushunish hamda hamkorlikni ta’minlaydi. Ushbu murakkab jarayon bir nechta muhim vazifalarni o‘z ichiga oladi. *PR-menejerining keng qamrovdagi vazifalari* quyidagilardan iborat:

1. PR-konsepsiyasi, kommunikatsiya va reklama strategiyasini ishlab chiqish. Bu ichki va tashqi aloqa tamoyillarini tartibga soluvchi asosiy hujjatlar ustida ishlashni ham o‘z ichiga oladi.

2. PR-faoliyatining rejasi va prognozlarini tuzish. Rejalashtirilgan harakatlarni asoslash, ular qanday natijalarga olib kelishi va tashkilotning obro‘sini qanchalik yaxshilashini ko‘rsatish shart hisoblanadi. Bu yerda media va kontent rejalari muhim rol o‘ynaydi.

3. Rahbariyat bilan kelishgan holda PR-byudjetini shakllantirish va tasdiqlash. Afsuski, PR-xarajatlarini aniq hisoblab bo‘lmaydigan jarayon, chunki narxlar doimo o‘zgarib turadi, ba’zida esa yangi instrumentlar paydo bo‘lib turadi. Agar biron bir inqiroz bo‘lsa rejadan tashqari xarajatlardan qochib bo‘lmaydi.

4. OAV vakillari bilan o‘zaro munosabatlar. Jurnalistlar, muharrirlar, shuningdek, mustaqil faoliyat yurituvchi mualliflar va bloggerlar shular jumlasidandir. Agar kerak bo‘lsa, press-reliz yoki sharh tez va kechiktirmasdan chiqarilishi uchun ular bilan oldindan bog‘lanib, kelishuvlar olib borish kerak.

5. Axborot ta’minoti bilan ishlash, turli materiallarni nashr qilish yoki tarqatish uchun tayyorlash. PR-mutaxassisi ko‘pincha ijtimoiy tarmoqlarda va boshqa mavjud saytlarda e’lon qilingan kontentning tabiatini nazorat qiladi. Shunga ko‘ra, u SMM (*Social media marketing* - ijtimoiy tarmoqlarda marketing) menejeri, muharrir, kopirayter va dizayner bilan ishlaydi.

6. Nufuzli tadbirlar, aksiyalar, reklama va PR-kampaniyalarni tashkil etish. Bu jarayonda tadbirlarni o‘tkazish bo‘yicha mutaxassis jalb qilinishi mumkin. Ba’zi kompaniyalarda PR-menejeri pudratchilar va odamlarni o‘zi qidirish bilan shug‘ullanadi, lekin ba’zida u shunchaki jarayonni nazorat qiladi. Agar PR-menejeri kerakli odamlar bilan oldindan aloqa o‘rnatgan bo‘lsa, resurslarni topish va mutaxassislarni jalb qilish qiyin bo‘lmaydi. Korxona rahbariyati bilan suhbatlar uchun matbuot anjumanlarini tashkil etish.

7. Mahalliy aholi, davlat organlari va investorlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish. PR-menejer o‘z faoliyati jarayonida turli soha vakillari va maqsadli auditoriyalar bilan aloqa o‘rnatib, ularda shaxs, mahsulot (xizmat) va korxona imijini shakllantiradi va o‘zaro manfaatli asosda hamkorlikni tashkil etadi.

8. Amalga oshirilgan harakatlarning samaradorligini tahlil qilish. KPI (asosiy samaradorlik ko‘rsatkich)larni to‘plash va hisoblash, hisobotlar va diagramlarni ishlab chiqish. Bu ulkan, mashaqqatli shu bilan birga zerikarli lekin kerakli ish bo‘lib, ularsiz PR-mutaxassisi faoliyat samaradorligini ko‘rsata olmaydi.

9. Inqirozli vaziyatlarga professional darajada munosabat bildirish. Aynan PR-menejeri korxona inqirozning yuzaga kelishi va muammoni hal qilish haqida jamoatchilikni qanday xabardor qilishi yoki qilmasligini aniqlashi kerak. Ba’zan, korxona inqirozli vaziyatlarni hal qilish uchun alohida menejerni yollashlari mumkin, ammo bu kamdan-kam uchraydi, chunki malakali xodimni topish va yollash uchun katta moliyaviy mablag‘lar talab qilinadi.

10. Raqobatchilarning faoliyatini monitoring qilish. Bu jarayonni amalga oshirish kamida ikkita sababga ko‘ra zarur hisoblanadi. *Birinchisi*, agar raqobatchilar salbiy hodisaga tayyor bo‘lsa, buni darhol tushunish uchun kerak bo‘ladi. *Ikkinchisi* - benchmarking, ya’ni “izlanish va urinish” (Searching and trying) uchun kerak bo‘ladi. Agar ular biron bir qiziqarli narsani amalga oshirgan bo‘lsa, siz g‘oyani e’tiborga olishingiz, o‘z taklifingizni o‘ylab ko‘rishingiz va takomillashtirishingiz mumkin. Tabiiyki, PR-menejeri yuqoridagilarning hech birini yolg‘iz o‘zi bajarmaydi - unga har doim jamoa yordam berishi kerak.

PR-mutaxassisining yuqoridagilarning barchasini qanchalik samarali bajarishi, xodimlarning qanchalik to‘g‘ri tanlanganligi va ularning kompetentligiga mos vakolat berilgan yoki berilmaganligi ko‘rsatadi.

Shuningdek, biznesda PR subyektining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat[4.2024:B.358]:

1) jamoatchilik fikrini shakllantiradigan, ongni o‘zgartiradigan, maqsadli auditoriyadan shunday xatti-harakatlarga, ular erishmoqchi bo‘lgan tashkilotga erishadigan axborot tarkibining mazmunli asosini shakllantirish;

2) fuqarolarning ushbu guruhlari (qo‘llab-quvvatlash zarur bo‘lgan va ongiga ta’sir qilishi kerak bo‘lgan institutlar, tashkilotlar) uchun ma’lumotlar mazmuning ishonch kanallarini shakllantirish.

Bularning barchasi turli xil ijtimoiy muhitda sodir bo‘ladi, bu yerda barcha xilma-xil guruhlar uchun bir xil yondashuvni qo‘llash va yagona tarkibdan hamda kanallardan foydalanish mumkin emas. PR subyekti bularning barchasini xuddi shunday maqsadlarga erishmoqchi bo‘lgan va jamoatchilik ongini o‘z manfaatlariga javob beradigan, ular uchun eng qulay muhitni yaratadigan tarzda shakllantirishni xohlaydigan boshqa PR subyektlari bilan qarama-qarshilik sharoitida amalga oshiriladi[5.2025:B.352].

Ushbu muammolarni hal qilish uchun PR subyekti o‘zi turgan vaziyatni to‘g‘ri tasavvur qilishi, raqobatchilarning resurslari, qiziqishi va imkoniyatlarini tushunishi va aniq baholashi lozim.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, biznes sohasida PR ni samarali tashkil etishda biznesning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan boshqaruv va umumiy iqtisodiy ilmiy va amaliy tushunchalar sintezidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu hamkorlikning barcha subyektlari bilan barqaror institutsional ishlab chiqarish va sotish aloqasini shakllantirishga qaratilgan tadbirkorlik tuzilmasining raqobatbardosh kuchlarini kuchaytirishning innovatsion manbalarini topish bilan bog‘liq.

Zamonaviy sharoitda biznesning PR faoliyati maqsadiga erishish uchun quyidagilarni tavsiya etamiz: tadbirkorlik tuzilmalarining rivojlantirish strategiyasi va jamoatchilik bilan aloqalarning zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan samarali foydalanishi; biznesning raqobatbardoshligini oshirish uchun mahalliy tadbirkorlik tuzilmalari rahbarlari korporativ strategiyada samarali vositaning ahamiyatini hisobga olishi; biznesning ichki ijtimoiy aloqalarning asosiy vazifasi bo‘lib biznesning korporativ madaniyatini shakllantirish, strategiyasini shakllantirish va rivojlantirish; biznesning tashqi muhitida operatsion tizimning boshqaruv mustaqilligi ijtimoiy-axloqiy tamoyillar asosida qurilgan tadbirkorlik tuzilmasi bilan uzoq muddatli sheriklik munosabatlarini amalga oshirishga qaratilgan strategik vosita sifatida belgilashi; biznesni boshqarishda jamoa, iste’molchilar, aholi va mintaqaviy (munitsipal) hokimiyat organlari bilan jamoatchilik munosabatlarining shaffof tizimini yaratish; ijtimoiy manfaatlar, iste’molchilarning tadbirkorlik tuzilmalari faoliyatiga ta’siri, uni boshqarish tomonidan amalga oshiriladigan biznesni rivojlantirish strategiyasini shakllantirish va boshqa shu kabilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Dedajanov B.N., Ergasheva F.I. “PR-menejment”. Darslik. –Namangan.: «Usmon Nosir media» nashriyoti, 2023. – 665 b.
2. Ergasheva F.I. Jamoatchilik bilan aloqalarni boshqarish funktsiyalari va tamoyillari. “Сервис” илмий-амалий журнал. 2025 йил, 2-сон.156-162-бет.
3. Ergasheva F.I. Xorij mamlakatlarida PR: fan va faoliyat sifatida shakllanishi hamda rivojlanishi. Innovations in science and technologies : илмий-электрон журнали. Махсус сон. / Муассис: “Parallax IT Club” МЧЖ. – Тошкент, 2025. – Т. 2. – ISSN 3030-3451. 450-460-b.
4. Ergasheva F.I. Zamonaviy sharoitda biznesning PR faoliyati maqsadi. “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali. 2024-yil №9-son. 356-360-bet.
5. Ergasheva F.I. Zamonaviy sharoitda PR (jamoatchilik bilan aloqalar)ning mazmuni va ahamiyati. “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali. 2024-yil №10-son. 350-355-bet.
6. Бельских И.Е. Стратегия развития общественных связей Российского бизнеса в современных условиях. 08.00.05 - «Экономика и управление народным хозяйством: 10. Предпринимательство». Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. 2008. -50с.
7. Глебова И.С., Тарасова Ю.А. “Паблик рилейшнз в современном бизнесе”. - М.: 2006. – 119.

PR-MENEJER VAZIFALARINING ASOSIY KOMPONENTLARI

F.I.Ergasheva
Namangan davlat texnika universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy dunyoda PR menejerining ishini bajarishda uning vazifalarini to‘g‘ri tashkil etish dolzarbligi bayon etilgan. PR-menejer vazifalarining asosiy komponentlari, unga tegishli funktsiyalar ko‘rsatib o‘tilgan. PR-menejerning asosiy funktsiyalari. Shuningdek, PR menejeri ishidagi asosiy qiyinchiliklar va muammolar sanab o‘tilgan. U vazifalarini samarali bajarish uchun tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: PR menejer, asosiy komponent, tashkilot va uning siyosati, uchinchi shaxslardan fikr olish, kommunikatsiya muammolari, jamoatchilikni fikrini maksimal darajada shakllantirish, maqsadlarni shakllantirish, resurslarni baholash, ustuvorliklarni belgilash, PR-strategiyasini ishlab chiqish.

Аннотация: В данной статье рассматривается актуальность правильной организации задач PR-менеджера в современном мире. Указаны основные составляющие задач PR-менеджера, соответствующие им функции. Перечислены основные функции PR-менеджера. Также перечислены основные трудности и проблемы в работе PR-менеджера. Разработаны актуальные рекомендации для эффективного выполнения им своих задач.

Ключевые слова: PR-менеджер, основная составляющая, организация и её политика, получение мнений третьих лиц, коммуникационные проблемы, максимальное формирование общественного мнения, постановка целей, оценка ресурсов, расстановка приоритетов, разработка PR-стратегии.

Abstract: This article describes the relevance of the correct organization of the tasks of a PR

manager in the modern world. The main components of the tasks of a PR manager, their corresponding functions are indicated. The main functions of a PR manager. The main difficulties and problems in the work of a PR manager are also listed. Relevant recommendations are developed for the effective performance of his tasks.

Keywords: PR manager, main component, organization and its policy, obtaining opinions from third parties, communication problems, maximum formation of public opinion, goal setting, resource assessment, prioritization, development of a PR strategy.

Kirish. Zamonaviy dunyoda PR menejerining ishi juda dolzarbdir, chunki u tashkilot, brend yoki shaxsning obro‘sini shakllantirish va saqlashda asosiy rol o‘ynaydi. PR menejeri ijobiy imidj yaratish uchun ishlaydi, jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari va boshqa manfaatdor tomonlar bilan munosabatlarni boshqaradi va kompaniyaning strategik maqsadlariga erishishga yordam beradi.

PR menejeri ishining dolzarbligini ifodalaydigan ba’zi jihatlarga:obro‘ni shakllantirish va saqlash (PR menejeri mijozlar, hamkorlar va investorlarning ishonchi uchun muhim bo‘lgan tashkilotning ijobiy imidjini yaratish va mustahkamlash bilan shug‘ullanadi); inqiroz kommunikatsiyalarini boshqarish(inqiroz yuzaga kelgan taqdirda, PR menejeri aloqa strategiyalarini ishlab chiqish va ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro hamkorlik qilish orqali obro‘ga zararni minimallashtirishda asosiy rol o‘ynaydi); o‘mmaviy axborot vositalari va bloggerlar bilan o‘zaro munosabatlar (PR menejeri OAV va fikr yetakchilari bilan aloqalarni o‘rnatadi va qo‘llab-quvvatlaydi, tashkilot faoliyatini ijobiy yoritishni ta’minlaydi); tadbir va PR kampaniyasini tashkil etish (PR menejeri brendni ilgari surish va maqsadli auditoriya bilan aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan turli tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi) kabilarni sanab o‘tishimiz mumkin.

Shunday qilib, PR-menejer faoliyati o‘z obro‘sini mustahkamlash, yangi mijozlar va hamkorlarni jalb qilish, shuningdek, strategik maqsadlariga erishishga intiladigan har qanday tashkilot muvaffaqiyatli ishining ajralmas qismidir.

Asosiy qism. PR-menejer zimmasida ko‘pincha jamoada ma’lum bir muhitni shakllantirish mas’uliyati bo‘lib, u hammani umumiy g‘oya ostida birlashtiradi. Bu maxsus treninglar, bayramlar yoki turli xil tadbirlarni tashkil etish, veb-saytni yuritish yoki korporativ gazeta chiqarish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Ish beruvchilar o‘z kompaniyasining imijiga ishonish mumkin bo‘lgan mutaxassisni tanlashda, birinchi navbatda kerakli fazilatlarga ega bo‘lgan, bilim, ko‘nikma va malakasi rivojlangan nomzodlarga e’tibor beradilar.

PR-menejer vazifalari asosiy komponentlardan tashkil topadi.

PR-menejeri vazifasini to‘rtta asosiy komponenti mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat[1.2023:B.83]:

a) tashkilot va uning siyosati, mahsulotlari, xizmatlari va xodimlar faoliyatining tegishli imijini shakllantirish va saqlash;

b) uchinchi shaxslardan fikr olish va bu ma’lumotlarni korxona rahbariyatiga yetkazish;

c) kommunikatsiya muammolari, ularni mumkin bo‘lgan texnikalar yordamida hal qilish yo‘llari bo‘yicha rahbariyatga maslahat berish;

d) jamoatchilikni fikrini maksimal darajada shakllantirish va yetarli darajada bilimga ega bo‘lishi uchun, ularni korxona siyosati, faoliyati, mahsulotlari, xizmatlari va xodimlari haqida xabardor qilish.

Menejerlar maqsad va vazifalarida tegishli funktsiyalar alohida ahamiyatga ega. PR-menejerning asosiy funktsiyalari quyidagilardan iborat [2.2025:B.157]:

a) PR-faoliyati uchun maqsadlarni shakllantirish yoki vazifalarni aniqlash;

b) tadbirlarga sarflangan ish vaqti va boshqa resurslarni baholash;

s) jamoat guruhlarini tanlashga ta’sir ko‘rsatadigan ustuvorliklarni belgilash, mazkur guruhlarga kirishni ta’minlovchi ommaviy axborot vositalari, PR-tadbirlarini o‘tkazish vaqti, shuningdek, uskunalar kabi ishchi kuchi va boshqa resurslardan oqilona foydalanish;

d) mavjud mablag‘lar, xodimlar va jihozlarni hisobga olgan holda belgilangan maqsadlarni amalga oshirilishini aniqlash.

PR-menejeri korxona faoliyat ko‘rsatadigan sohada standart funktsiyalardan foydalanib, o‘z xizmat majburiyatlarini bajaradi. Ularga quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- tashkilot, uning mahsulotlari, xizmatlari va vakillarining imijini yaratish va qo‘llab-quvvatlash;

- PR-strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- korxonani rivojlantirish uchun vositalar va imkoniyatlarni baholash;
- rejalashtirilgan tadbirlar samaradorligini prognoz qilish;
- korxonaning imijini kuzatib borish;
- raqobat muhitini monitoring qilish va boshqa shu kabilar.

PR bo‘yicha mutaxassis tashqi muhit bilan o‘zaro ta’sir qilish uchun javobgardir, u kompaniya imijiga va uning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillarni baholaydi, tahlil qiladi va bashorat qiladi [4.2024:B.357]. Bu uni faqat ma’lum bir xizmat yoki mahsulotni targ‘ib qiluvchi reklama menejeridan farq qiladigan jarayon hisoblanadi [3.2025:B.454].

PR-menejerlari aoliyatlarini muvaffaqiyatli olib brishlari uchun tegishli kasbiy bilim va ko‘nikmalarga hamda, fazilatlarga ega bo‘lishlari lozim bo‘ladi.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, PR menejeri ishidagi asosiy qiyinchiliklar va muammolar borki, bu uning faoliyati vazifalarini to‘g‘ri va samarali bajarishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan, unga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: doimiy ravishda “qo‘lni pulsda ushlab turish” zarurati, stressning yuqori darajasi, tartibsiz ish vaqti va ish samaradorligini ko‘rsatishdagi qiyinchiliklar, doimiy monitoring va moslashish, PR-menejerlar nashrlarni doimiy ravishda kuzatib borishlari, yangiliklar va reklama usullarini izlashlari kerak (bu esa yuqori darajadagi hushyorlikni va o‘zgaruvchan sharoitlarga tezda moslashish qobiliyatini talab qiladi) [5.2024:B.353], yuqori darajadagi stress va mas’uliyat (PR menejerining ishi ko‘pincha qat'iy muddatlar, tanqidlar va ba’zan ziddiyatli vaziyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, bu mutaxassisdan yuqori stressga chidamli bo‘lishni va bosimga dosh bera olishni talab qiladi), noto‘g‘ri ish vaqti (muhim tadbirlar bo‘lib u tadbirlar jadvalga ega emas va PR menejerlari ko‘pincha, dam olish va bayram kunlarini o‘z ichiga olgan holda, ortiqcha ishlashga majbur bo‘lishadi), samaradorlikni o‘lchashdagi qiyinchiliklar (PR-menejerlarning erishgan darajasi, brend xabardorligi va his-tuyg‘ulari kabi natijalarini pul bilan o‘lchash har doim ham oson emas, bu ularning ishining qiymatini ko‘rsatishni qiyinlashtiradi), ishni “oson” deb qabul qilish (ko‘pchilik PRni tushunadi va maslahat bera oladi, deb hisoblaydi, bu esa mutaxassisga qiyinchilik tug‘dirishi mumkin), kommunikatsiya va soha bilan bog‘liq muammolar (muloqot ko‘nikmalarining yetishmasligi, yangi aloqalarni o‘rnatish va ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish qobiliyati ish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin), shaxsiy maydon bilan bog‘liq muammolar (ijtimoiy tarmoqlar asrida PR-mutaxassislarning shaxsiy akkauntlari e’tibor va tanqidga sabab bo‘lishi mumkin, bu esa ulardan ayniqsa ehtiyotkor bo‘lishni va shaxsiy va ommani farqlashni talab qiladi), ishning aniq chegaralarining yo‘qligi (ba’zida ishning bir qismi va shaxsiy nima haqida, ayniqsa, ijtimoiy media kontekstida chalkashliklar mavjud), qobiliyatlarning pastligi (ayrim hollarda, ayniqsa, sanoat korxonalarida sohaning o‘ziga xos xususiyatlarini tushunadigan va og‘ir sharoitlarda ishlashga qodir bo‘lgan mutaxassislar yetishmasligi mumkin).

Xulosa va tavsiyalar. PR menejeri faoliyatini samarali tashkil etish PR strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish, kommunikatsiyalarni boshqarish, ommaviy axborot vositalari bilan ishlash, tadbirlarni tashkil etish va natijalar monitoringini o‘z ichiga oladi. Asosiy vazifa kompaniya, brend yoki shaxsning ijobiy imidjini shakllantirish va qo‘llab-quvvatlashdir.

PR menejeri vazifalarini samarali bajarish uchun quyidagi asosiy jihatlarga e’tibor qilishni tavsiya etamiz: strategiyani rejalashtirish va ishlab chiqish (tahlil: maqsadli auditoriya, raqobatchilar va bozor holatini o‘rganish); maqsadni belgilash (PR faoliyatining aniq maqsad va vazifalarini belgilash); strategiya (kompleks chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish, jumladan, aloqa kanallarini tanlash, yangiliklar ilgaklarini shakllantirish, kontent yaratish va byudjetni aniqlash); byudjetlashtirish (turli PR tadbirlari uchun mablag‘larni taqsimlash); vaqt jadvali (vazifalarni bajarish uchun aniq jadvalni tuzish); kommunikatsiya boshqaruvi (ommaviy axborot vositalari bilan ishlash: jurnalistlar va muharrirlar bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yish va qo‘llab-quvvatlash, press-relizlar, intervyu va matbuot anjumanlarini tashkil etish); ijtimoiy tarmoqlarni boshqarish (korporativ hisoblarni boshqarish, kontent yaratish va nashr etish, obunachilar bilan muloqot qilish); kontent yaratish (turli kanallar uchun matnlarni ishlab chiqish (press-relizlar, maqolalar, ijtimoiy media postlari, ma’ruzachilar nutqlari)).

Shu bilan birgalikda PR-menejer salbiy vaziyatlarda rejalarni ishlab chiqish va obro‘ga oid xavflarni to‘g‘ri boshqarish, tadbirlarni samarali tashkillashtirish (taqdimotlar, konferentsiyalar, ko‘rgazmalar, seminarlar) maqsadlari, formati, joyi va vaqtini aniqlash, PR jarayonining barcha ishtirokchilarining muvofiqlashtirilgan ishini ta’minlash, ish natijalarining belgilangan talablar va standartlarga muvofiqligini tekshirish ko‘nikma va malakasiga ega bo‘lishi lozim.

Samarali PR-menejer tanqidiy fikrlashga, ijodkorlikka, muloqot qilish qobiliyatiga, tashkilotchilik

qobiliyatiga ega bo‘lishi hamda jamoada ishlay olishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Dedajanov B.N., Ergasheva F.I. “PR-menejment”. Darslik. –Namangan.: «Usmon Nosir media» nashriyoti, 2023. – 665 b.
2. Ergasheva F.I. Jamoatchilik bilan aloqalarni boshqarish funktsiyalari va tamoyillari. “Servis” ilmiy-amaliy jurnal. 2025 yil, 2-son.156-162-bet.
3. Ergasheva F.I. Xorij mamlakatlarida PR: fan va faoliyat sifatida shakllanishi hamda rivojlanishi. Innovations in science and technologies : ilmiy-elektron jurnali. Maxsus son. / Muassis: “Parallax IT Club” MCHJ. – Toshkent, 2025. – T. 2. – ISSN 3030-3451. 450-460-b.
4. Ergasheva F.I. Zamonaviy sharoitda biznesning PR faoliyati maqsadi. “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali. 2024-yil №9-son. 356-360-bet.
5. Ergasheva F.I. Zamonaviy sharoitda PR (jamoatchilik bilan aloqalar)ning mazmuni va ahamiyati. “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali. 2024-yil №10-son. 350-355-bet.

YOSH AVLOD TA’LIM-TARBIYASIDA AHMAD DONISH MEROSINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA ZAMONAVIY DIDAKTIK AHAMIYATI

L.I.Jamolova
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
i.l.jamolova@buxdu.uz. Tel:+99891446-09-64

Annotatsiya: Maqolada fan va madaniyatni yanada rivojlantirish bosqichlari, tamoyillari shuningdek yoshlarning kasb hamda hunar tanlashga nimalarga e’tibor berishi haqidagi ibratli pedagogik fikrlari haqidagi maslahat hamda tavsiyalari berilgan. Donishning eng mukammal asarlaridan biri sanalmish “Navodir ul-vaqoye” asaridagi “O‘g‘illarimga pand nasihat”, “Dunyo tarixi va uning qadimiyligi haqida”, ”Mamlakatni boshqarish va xalqni ma’rifatli qilish haqida risola” nomli hikoyatlaridan ayrim fikr-mulohazalar bayoni keltiriladi.

Kalit so‘zlar: “Ruh va uning tanaga munosabati”, tanosux mansabi, “Navodir ul-vaqoye”, odamgarchilik, Vatanparvarlik, juvonmardlik, podshoh tabibga o‘xshaydi, kishilarning javhari, askarning shijoatli va bahodir, tajribali, ziyrak hamda donishmand bo‘lishi, 3ta fasl, nosur yarasi.

Аннотация: В статье даются советы и рекомендации относительно этапов и принципов дальнейшего развития науки и культуры, а также поучительные педагогические идеи о том, на что следует обращать внимание молодёжи при выборе профессии и ремесла. Приводятся некоторые мысли и комментарии из рассказов «Совет моим сыновьям», «Об истории мира и её древности», «Трактат об управлении страной и просвещении народа» в произведении «Наводир ул-вакойе», которое считается одним из наиболее полных произведений Дониша.

Ключевые слова: «Душа и ее отношение к телу», позиция таносуха, «Наводир ул-вакойе», гуманность, патриотизм, молодежь, царь как врач, сущность людей, мужество и храбрость солдата, опыт, интеллект и мудрость, 3 сезона, гноящаяся рана.

O‘tgan asrda xalqimiz yaratgan moddiy boyliklar qanchalik mo‘l-ko‘l va salobatli bo‘lmasin, uning o‘zi boshqalarga mute edi, boyligi ham talon-taroj edi. Demak, xalqning ruhiyati ham bus-butun emas edi. Shunday murakkab sharoitda ijodkorlar goho hukmron mafkura ko‘rsatmalariga quloq solishga majbur bo‘lsalar, goho esa muttasil tashviqot ta’siri ostida o‘sha mafkuraning vakillariga ham aylangandilar. U davrlarda o‘z ona xalqiga “Xalqim” deya murojaat etish ham millatchilik hisoblanardi. Bunday misollarni, afsuski, ko‘plab keltirish mumkin.

Xalqimiz mustaqillikka erishgach, nainki olis moziy, balki yaqin o‘tmishdagi voqea-hodisalarga, jumladan badiiy asarlarga munosabat masalasi ham daf’atan maydonga chiqdi. G‘alvirni suvdan ko‘targanda esa, soxta g‘oyalarga xizmat qilgan asarlar o‘z- o‘zidan nazardan chetda qoldi. Xalqning o‘lmas ruhiyatini, qadriyatlarini, milliy o‘ziga xosligini va nihoyat, bebaho til boyligini mujassam eta olgan haqiqiy ijod namunalarigina yashashga haqli ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Zero Hamid Olimjon aytganidek;

O‘zing tashna etding, o‘zing suv tutding,
Qalbimdagi sahrom, daryomsan, xalqim!

Seni seva-seva men boyib ketdim,
Dunyo ichra topgan dunyomsam, xalqim! [351-b]

Bu go‘zal she’riyat haqida o‘ylaganimizda ko‘z oldimizdan betakror tashbihlar, latif tuyg‘ularga yo‘g‘rilgan quyma satrlar o‘ta boshlaydi. Shoirning Vatan mavzusida yozgan misralari doimiy hamrohimiz bo‘lib qoladi.

Modomiki, asosiy mezon borliqni yuksak san’at darajasida kuylay olish ekan, Ahmad Donishning otashin va to‘g‘ri so‘zli she’riyati ham o‘zining nozik va inju ruhi bilan, toza va beg‘ubor til boyligi bilan muhtasham nazm koshonasini bugungi kunda ham bezab turibdi.

Yusuf Xos hojibning “Qutadg‘u bilig”da bilim va bilimdonlik ham juda ulug‘lanadi. Shoir kishi ko‘nglini dengizga o‘xshatar ekan, bilimni shu dengiz tubidagi injuga qiyoslaydi. Agar shu inju dengiz tubidan chiqarilmas ekan, uning oddiy soy troshidan qanday farqi qoladi.

Aql-idrokli beglar o‘zlariga maslahatchi qilib bilimdon, donishmandlarni saylashi bejizga emas. Jahonda bilimdan qadrliroq hech narsa yo‘z. Bilimsizlik aslida kishi uchun haqoratdir. Hattoki bilimsiz odam to‘rga chiqib o‘tirsa unday to‘rni to‘r deb bo‘lmaydi. Uni poygakdan ham past deb bilish kerak. Ammo poygakda bilimdon kishi o‘tirsa, u joyni to‘rdan ham a’lo deb bilishi lozim.

Bilimsiz odam ko‘zi ko‘r kishiga o‘xshaydi. Uning qo‘lidan yetaklab yo‘l ko‘rsatish, ya’ni bilimga chorlash shart. Uquv-idrok zulmat tunidagi mash’aldir. Bilim kishini shu zulmatdan ozod qiladi. Bilimning qadri shu daraja balandki, u do‘zax o‘tidan ham kishini xalos qilishi mumkin.

Mening hikoyalarimda deydi, Donish hikmatli, kuchli ma’noga ega bo‘lgan so‘zlarni uchratar ekanlar, agar ular olim bo‘lsalar, hasad yuzasidan ularning ranglari o‘char edi; olim bo‘lmaganlari esa bu hikmatli so‘zlarni butunlay inkor qilar edilar. Chunki mening ust-boshim na olimga va na johilga o‘xshar edi. Ulamolar qatoriga kirish uchun o‘zimga oro beradigan salla va soqol-tarog‘im yo‘q. Johillar safiga o‘tish uchun esa belbog‘ bilan osgan pichog‘im yo‘q. Shuning uchun zamona ahlining qilgan ishlari, ularning harakatlari menga yoqmas edi.

Dunyo tirikchiligi mol bilandir; molni esa shohu gado hamma barobar topishi kerak. Bu esa bekor yurish yoki bekor qo‘yish bilan bitmaydi. Butun dunyo xalqining har qaysisi turli xil harakatda bo‘lsa hamki, ammo hammalarining maqsadlari mol topishdir. Bundan boshqa narsa emas. Chunki har kimning qiladigan kasbi kun kechirish uning qurgan alohida tuzog‘idir. Shunga ko‘ra, kasb qiluvchining ham alohida nomi bo‘ladi. Gohida sulton o‘zini mulk oluvchi atab xalqdan boj oladi; gohida o‘zini mulk egasi atab, yerdan xiroj talab qiladi. Tabib esa dori berib qadam haqqi olaman deydi. Til haqi, tarozi haqlari ham shunga qarab aytilgan so‘zlardir.

Nazm:
Bag‘ayir az mol kasro nist komi,
Va li har yak buvad binihoda nomi,
Niyozu hadya go‘yan dash faqiron,
Xiroju hadya go‘yan dash amiron.
G‘araz nomash baharjo dar miyonast,
Taroziy maxfilu naqliy bayonast.
Basad nomash agar xonand du nist
Chu niku bingariy g‘ayraz yaki nist.
Tarjimasi:
Mol topishdan boshqa ermas niyati,
O‘zlariga qo‘ysa ham har xil oti.
Niyozi hadya deb olgay faqirlar,
Xiroju boj deb aytgay amirlar.
G‘araz nomini turlik aylagaylar,
Va li undin hamma mol poylagaylar.
Ikki bo‘lmas agar yuz nom qo‘ysang,
O‘shal birdir agar yaxshi qarasang.[51]

Yana shunga o‘xshash podshoh qalam ahllari ustiga ham bir rais qo‘ysinki, har ishda ixtiyor uning qo‘lida bo‘lsin. Azaldan boshqa ishlarda podshohdan izi so‘ramasin. Har turlik ishlarga uning olimi bo‘lishi shartdir. Shuning bilan barobar shariatning hikmatlik hukmlariga ham yetuk bo‘lishi lozimdir. Agar bunday odam topilmas ekan, u choqda ikki rais qo‘yishga to‘g‘ri keladi. Biri shariat ustiga qo‘yilsa, ikkinchisi ilmiy xodimlar chiqarish, fatvo berish, mahzar hamda vasiqa xati hujjatlarini yozish tartiblarini o‘rgatish, meros mollarini vorislarga sha’riy yo‘l bilan taqsim qilish, nujum ilmining ta’limoti, sog‘liqni saqlash uchun

tibbiy madrasalar ochish, she’r ilmi (shoirlik), kitob chiqarish, hisob ilmi, handasa ilmi, husni xat ilmi, naqqoshlik va rassomlik kabilar bilan shug‘ullanadi.

Mamlakatda yashaydigan yomon odamlar nosur yarasiga o‘xshaydilar. Mamlakatning yaxshilari esa sog‘lom va salomat uzuvlar kabidir. Nosur yarasi ham bir uzuvdan ikkinchi sog‘lom yuqib o‘tganidek, yaxshilar ham yomonlar xulqini oladilar. Buning iloji esa, nosurning ilojidur. Shunga qiyos qilib, mamlakatda har bir ishning ortidan qarab, payqab yuradigan badoe rais kabi bir qorovul zarurdirki, kishilarning javharini tanib sultonga ko‘rsatib tursin, sulton ham bu haqda xudoga qarab ish qilsin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmad Donishning “Navodir ul-vaqoye” O‘zbekiston fanlar akademiyasi Filosofiya va huquq instituti 1964y (41-44 betlar)
2. Ahmad Donish. Navodir ul-vaqoe T.: Fan, 1964.- 51-55b.
3. Ahmad Donish. Risola yo muxtasare az tarixi saltanati xonadoni mang‘itiya. Dushanbe, 1992. - 94 b.
4. Yusuf Xos Hojib Ahmad Yugnakiy “Turkiy adabiyot durdonalari” O‘zb-Toshkent-2022-y. 8-9-bet
5.Hamid Olimjon Zulfiya “Turkiy adabiyot durdonalari” O‘zb-Toshkent-2022y.(4-351-b).
6. www.ziyonet.uz

ИСЛОМ ТАЪЛИМОТИ ВА ТАДБИРКОРЛИК

О.А.Арипов
Наманган давлат техника университети Иқтисодиёт кафедраси мудири и.ф.д., проф.
Б.Ғаниев
Наманган давлат техника университети таянч докторанти

Шарқ давлатларида феодал муносабатлар III-VIII асрларда шаклланди. Тадбиркорлик фаолиятига оид назарий қарашлар шу даврларда бошланган. Тадбиркор шахс ақл заковати билан жамиятга жуда катта фойда келтириши билан бир қаторда, улар меҳнат қилишнинг ҳалол йўлини танлашга мойиллиги бор шахслар бўлишган.

Шу боис, Ислом динида бизнесга ва тадбиркорлик фаолиятига ижобий қаралади. Пайғамбаримиз алайҳиссалом айтганларки, ризқнинг ўндан тўққиз қисми тижоратда, яъни ҳозирги тил билан айтганда, бизнесда. Агар мозийга назар ташласак, Пайғамбаримиз алайҳиссалом ҳам тижорат билан шуғулланганлар. Айрим манбаларда бозорчи (яъни, замонавий тилда – маркетолог) бўлганликлари ҳам қайд этилган.

Кўриниб турибдики, Ислом таълимотида ҳам жамиятнинг фаровон ривожланиши ва ўсишида пул муҳим аҳамиятга эга. Исломдаги 5 та асосий фарз амалларидан 4 таси пул ва моддият билан боғлиқлигини тасдиқлайдиган мисоллар келтириш мумкин. Масалан, намоз ўқиш учун кийим, масжид керак. Рўза тутиш учун таом сотиб олиш керак. Закот ва ҳаж эса тўғридан тўғри молиявий ҳолатга боғлангани сир эмас. Исломда асосий масала – пулни ҳалолдан топиш, пулни ҳалол нарсаларга ишлатиш ва ҳалол пулдан садақа улашиш.

Пайғамбаримиз алайҳиссалом бир хадисларида: «Мусулмон одам учун энг яхши ризқ — бу ўз қўли (касби) билан топган ризқидир» деганлар. Бу мулоҳазалардан англаш мумкинки, мусулмон одам иш билан машғул бўлиб, пул топишга тарғиб қилинган. Яна бир ҳадисда Пайғамбаримиз алайҳиссалом иккита одамга ҳавас қилиш мумкин, дейди: «Биринчиси, бой инсон. У бойлигини ҳалол йўлда топади ва ҳалол йўлда ишлатади…».

Демак, диний ёндашувлар асосида тушунтирадиган бўлсак, тадбиркор – бу тадбирли иш тутувчи инсонларни билдиради. Бошқача айтганда, ўзини бирон-бир тадбир билан банд этган инсон – тадбиркордир. Тадбиркор албатта бирон-бир касб-корни эгаллаган шахсдир.

Пайғамбаримиз Муҳаммад (с.а.в.) ҳам: «**Ҳар бир мусулмонга касб-хунарни эгаллаш фарздир»,** деб мархамат қилганлар. Чунки фақат фойдали ишлар билан шуғулланувчи шахсларгина жамиятнинг ривожланишига ижобий хисса қўша олади.

Абдуллоҳ ибни Умар (р.а)дан келган ривоятда Пайғамбаримиз (с.а.в) дедилар. «Инсонларнинг ичида Аллоҳ таолога энг севимлиси инсонларга кўпроқ нафи тегадиганидир. Амалларнинг ичида Аллоҳ таолога энг севимлиси мусулмоннинг қалбига хурсандлик киритиш ёки ундан бирор ташвишни кетказиш ёки унинг қарзини ёпиш ёки ундан

очликни қувишдир. Мен учун биродаримнинг хожатини чиқариш мақсадида у билан бирга юриш ушбу масжидда – яъни, Мадинаи мунаввардаги масжидда – бир ой эътикоф ўтиришдан кўра яхшироқдир. Ким жаҳлини тийса Аллоҳ таоло унинг айбини ёпади. Ким ўч олишга қодир бўла туриб ғазабини ютса Аллоҳ таоло Қиёмат куни унинг қалбини умидга тўлдиради. Ким биродари билан унинг хожатини чиқариш учун юрса ва уни уддаласа, Аллоҳ таола қадамлар тоядиган кунда унинг қадамини собит қилади. Дархақиқат ёмон хулқ худди сирка асални айнитганидек , амални бузади» (Имом Бухорий ривояти).

Ислом оламида тадбиркорликка жиддий эътибор берилган. Ислом таълимотида тадбиркорликни оммалаштирган касб-кор тижоратчиликдир. Ўзбек тилида ишлатиладиган «тижорат» сўзи арабчадан келиб чиққан бўлиб, араб луғатида олди-сотди маъносини англатади. Ўзбек тилининг изоҳли луғатида ҳам тижорат – савдогарлик, олди-сотди иши, савдо ишлари сифатида изоҳланади.

Меҳнатсевар халқимиз тадбиркорликка кирувчи касб-хунар, дўкондорлик, зироат ва тижорат каби касблар билан шуғулланиб, ҳалол йўллар орқали оиласини боқиб, рўзғор тебратган.

«У (Аллоҳ) сизларга Ерни хокисор (бўйсинувчи) қилиб қўйган зотдир. Бас, у (Ер)нинг ҳар томонида (саёхат, тижорат ёки дехқончилик қилиб) юраверингиз ва (Аллоҳнинг берган) ризқидан танаввул қилингиз! (Қиёмат куни) тирилиб чиқиш Унинг хузуригадир».

Адолат, инсоф ва иймон каби инсонга хос фазилатларга чуқурроқ эга бўлган тадбиркор шахслар айнан меҳнат қилишнинг эвазига келган даромадни қўп жиҳатдан маъқуллашган. Диний қарашларда ҳам меҳнат орқали топилган даромад ҳалол ҳисобланади. Муҳаммад (с.а.в.) Пайғамбаримиз даврида яратилган Муқаддас китоб бўлмиш, Қуръони Каримда «ҳалол ва покиза нафақа енглар, солиҳ ишлар бажаринглар» деб қайд этилади. Зеро, Исломий таълимотда меҳнат қилмай қўлга киритилган луқмани ҳаром деб ҳисобланади. Исломда ҳалол-пок бўлиб ризқ топишга изн берилган. Ҳалол ризқ қалбни, наслни пок сақлайди. Масалан, бизнесдан фойда кўрилса, у омонатчи ўртасида сармояга мутаносиб равишда тақсимланади. Аммо фойда кўрилмаса, банк ҳам, мижоз ҳам даромад олмайди.

«Савдо ҳалол бўлиши учун икки тарафнинг – ҳам сотувчининг, ҳам харидорнинг розилиги шартлиги ушбу оятда очиқ-ойдин айтиб қўйилган. Ушбу ҳақиқатга алоҳида эътибор бериш керак. Бировга нисбатан тазйиқ ишлатиб, унинг молини ўзи истамаган тарзда паст баҳога сотишга мажбурлаш энг катта ҳаромлардандир. Шунингдек, ўзининг нарсасини бошқага мажбурлаб сотиш энг катта ҳаромлардан бири бўлиб, бу борада мансабни, кучни ва бошқа чораларни ишга солиб, одамларни норози қилиб муомалага чорлаш энг катта гуноҳ ишлардан биридир...».

Шу тарзда Ислом таълимоти шакллана борган сари иқтисодий муносабатлар шариатга асослана бошлади. «Шариат томонидан фоизлар ундиришнинг тақиқлаш мақсадларига ёки мантиқий асослашга нисбатан турли томонлар турфа муносабат билдирганлар. Ислом ҳуқуқшунослигининг барча мувофиқ тамойиллари ва матнларини инобатга олиб шуни тасдиқлаш мумкинки, қатъий ҳисобланган ягона сабаб моддий бойликларнинг адолатли тақсимланишидир, чунки рибони тақиқлашда бойликларни бир гуруҳ кишиларнинг қўлида тўпланишининг олдини олиш кўзда тутилган...».

Ўша давр аҳли Пайғамбаримиз Муҳаммад (с.а.в.)га «бозорларимиздаги озиқ-овқат, мева ва сабзавот нархлари ошиб кетмоқда, нархларни чегараласак» деб таклиф билан чиқишганда, Пайғамбаримиз «бозор нархларини чегаралаб бўлмас» деб жавоб қайтарган эканлар ва бундай жараёнларни тартибга солиш кўпроқ тадбиркор, савдогар ва соҳибкорларни зиммасида эканлигини алоҳида қайд этганлар.

Ислом дини асосидаги иқтисодий муносабатларни осон тушуниб олишда қуй идаги атамалар ёрдам беради:

«Муробаҳа» – бу товар нархига устама қўйиладиган ва қўйилмайдиган ҳалол муддатли тўлов. Бунда Ислом банклари маҳсулот ва хизматларни харид қилиш ва кейин уларни муддатли тўловга сотиш билан шуғулланади.

«Мушорака» – битта ғоя ёки ишни биргаликда молиялаштириш. Жисмоний шахслар ва корхоналарнинг иштирок этишига рухсат берилади. Анъанавий иқтисодиётда ушбу схемани ҳиссали молиялаштириш деб аташади.

«Музораба» – сармоядор ўз маблағини келгусида бизнесни ривожлантиришга сарфланиши учун молиявий ташкилотга беради. Фойдани тақсимлаш шартлари олдиндан келишиб олинади.

Бу каби тушунчалар тижорат юритишдаги қоидаларни Исломга динига хос бажарилишини англатади.

Тадбиркор ҳар қандай бозор субъекти билан иқтисодий ва албатта манфаатли муносабат ўрнатишга интилади. Бундай муносабатлар тадбиркор томонидан адолатли, муросали доирада бўлиши тан олинган. Қуръони Каримда «...ўзаро ризолик билан бўлган савдо-сотиқ орқали мол-дунё касб қилингиз» деб қайд этилади. Тадбиркор ана шундай даъватни қўллаб-қувватловчи шахс ва шунинг учун ҳам иқтисодий муносабатлар доирасида ўзаро адолатли йўл тутишни афзал кўради.

Ҳозирги даврда АҚШ ва Япониядаги бизнес муҳитидан кўп нарсани ўрганиш мумкинлигини ҳис қилишимиз мумкин. Масалан, хорижда тадбиркорлар бизнес этикага риоя қилишади, мижозларнинг брендга бўлган садоқатини сақлаб қолиш учун жуда катта пуллар сарфлашади. Олувчи ва сотувчи ўртасидаги муносабатларга ҳалақит беришмайди. Ваҳоланки, бизнинг қадриятларимизда – Қуръон ва ҳадисда бу нарсалар ҳам айтилган. Мен Ислом тараққиёт банкида ишлаб Ўзбекистонга қайтганимдан кейин бу нарса устида ишладим. Ҳозирда «Бизнесда барака омиллари» номли тадбиркорларга амалий қўлланма тайёрлаганмиз.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Байдаулет Е.А. Исломий молия асослари. –Т.: «O ‘zbekiston» НМИУ, 2019. 14 бет.
2. Собир Сайҳон. Тижорат ва бир луқма ҳалол ош. −Т.: Нур, 1992. 6 бет.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти // www.ziyouz.com
4. Қуръони Карим (Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур). –Т.: Чўлпон, 1992.
5. https://muslimun.uz/islomda-tadbirkorlik-va-inson-manfaatlari/
6. https://m.kun.uz/news/2022/01/02/olchovlar-va-maqsadning-togriligi-hamda-halollik-biznesda-baraka-omillari-mavzusida-suhbat
7. https://uzlidep.uz/news-of-uzbekistan/2164
8. https://www.gazeta.uz/uz/2022/10/17/islamic-finance/

ТАДБИРКОРЛИК ВА КИЧИК БИЗНЕСНИНГ ИҚТИСОДИЁТДАГИ ЎРНИ ВА СТРАТЕГИК РОЛИНИ БАҲОЛАШ

С.Ғаниев
Наманган давлат техника университети Менежмент кафедраси ўқитувчиси

Аннотация: Мақолада тадбиркорлик ва кичик бизнеснинг иқтисодиётдаги ўрни очиб берилган. Кичик бизнеснинг стратегик роли баҳоланган. Миллий иқтисодиётни ривожлантиришдаги аҳамияти назарий жиҳатдан ёритилган.

Калит сўзлар: тадбиркорлик, кичик бизнес, миллий иқтисодиёт, стратегия, тармоқлар ривожи.

Аннотация: В статье раскрывается роль предпринимательства и малого бизнеса в экономике. Оценивается стратегическая роль малого бизнеса. Теоретически обосновывается его значение в развитии национальной экономики.

Ключевые слова: предпринимательство, малый бизнес, национальная экономика, стратегия, развитие отраслей.

Abstract: The article reveals the role of entrepreneurship and small business in the economy. The strategic role of small business is assessed. Its importance in the development of the national economy is theoretically substantiated.

Keywords: entrepreneurship, small business, national economy, strategy, development of industries.

Ҳар бир ривожланаётган мамлакатда тадбиркорлик ва кичик бизнес иқтисодий барқарорлик ва ижтимоий тараққиётни таъминловчи муҳим омиллардан бири сифатида намоён бўлмоқда. Энг ривожланган мамлакатларда тадбиркорлик ва кичик бизнеснинг иқтисодиётдаги аҳамияти мисли кўрилмаган даражада юқори белгиланади. Тадбиркорлик ва кичик бизнес субъектлари иқтисодиётдаги фаолият турларининг деярли барча соҳаларини қамраб олган ҳолда, иш ўринлари

яратиш, рақобат муҳитини шакллантириш, инновацияларни татбиқ қилиш ва ички бозорни товар ҳамда хизматлар билан таъминлашда муҳим ўрин тутади [3, 8, 9].

Тадбиркорлик ва кичик бизнес тушунчаси турли мамлакатларда турлича таърифланади. Ўзбекистон Республикасининг амалдаги қонунчилигида тадбиркорлик ва кичик бизнесга ходимлар сони, молиявий айланмаси ва фаолият йўналиши асосида таъриф берилади. Жумладан, “Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида”ги Қонунга мувофиқ, кичик бизнес субъектларига микрофирмалар, кичик корхоналар ва хусусий тадбиркорлар киради [1]. Улар учун белгиланган мезонларга кўра, ходимлар сони 100 нафардан ошмаслиги, молиявий айланма белгиланган чегарадан кам бўлиши керак.

Иқтисодий жиҳатдан қаралганда, тадбиркорлик ва кичик бизнеснинг мамлакат ЯИМдаги улуши муҳим кўрсаткичлардан бири ҳисобланади. Масалан, Ўзбекистонда 2023 йилда кичик бизнеснинг ЯИМдаги улуши 51,2 фоизни ташкил этди. 2025 йилнинг биринчи чорагида эса бу кўрсаткич 45,6 фоизга тенг бўлган. Бу кўрсаткичлар тадбиркорлик ва кичик бизнеснинг иқтисодий жараёнлардаги фаол иштирокини ва унинг аҳамиятини яққол кўрсатади [2].

Бандлик масаласида ҳам тадбиркорлик ва кичик бизнеснинг ўрни катта. Мамлакатда ишчи кучининг камида 70 фоиздан ортиғи айнан кичик тадбиркорлик субъектларида фаолият юритади. Бу эса тадбиркорлик ва кичик бизнесни ижтимоий барқарорликни таъминловчи стратегик восита сифатида эътироф этиш имконини беради.

Саноат, қурилиш, қишлоқ хўжалиги, савдо ва хизмат кўрсатиш соҳаларида кичик бизнес субъектлари орқали ишлаб чиқариш ҳажми йилдан-йилга ошиб бормоқда. Жумладан, 2024 йилда кичик бизнес саноат маҳсулотининг 31,5 фоизини, қурилиш соҳасида эса 76,5 фоизини ташкил этган. Қишлоқ хўжалигида бу кўрсаткич 95 фоизга етган бўлса, савдо ва хизмат кўрсатиш соҳаларида мос равишда 84 ва 57 фоизни ташкил этган [2]. Ушбу рақамлар кичик бизнеснинг соҳавий диверсификациядаги ролини намоён этади.

Солиқ тушумлари нуқтаи назаридан ҳам тадбиркорлик ва кичик бизнес аҳамиятли ҳисобланади. 2023 йилда мамлакат бўйича кичик бизнес субъектлари томонидан тўланган солиқлар умумий ҳисобда 9,3 трлн сўмни ташкил қилган. Бу мамлакат бюджети учун катта манба бўлиб, иқтисодий мустақилликни таъминлашда муҳим омилдир.

Жаҳон амалиётида ҳам тадбиркорлик ва кичик бизнеснинг стратегик аҳамияти кенг эътироф этилган. АҚШ, Германия, Япония каби ривожланган мамлакатларда тадбиркорлик ва кичик бизнес субъектлари ЯИМнинг 50-60 фоизини, бандликнинг эса 70-80 фоизини ташкил этади. БМТ, Жаҳон банки, Халқаро молия корпорацияси (IFC) ва бошқа халқаро ташкилотлар томонидан олиб борилган тадқиқотлар ҳам кичик бизнеснинг барқарор ўсишни таъминлашдаги ролини тасдиқлайди.

Ўзбекистонда 2017 йилдан бошлаб тадбиркорлик соҳасидаги ислоҳотлар янги босқичга кўтарилди. Президент Ш.М. Мирзиёев раҳбарлигида қабул қилинган Стратегик ривожланиш концепциялари ва миллий дастурлар орқали кичик бизнесни қўллаб-қувватлашга қаратилган чора-тадбирлар кучайтирилди. Жумладан, регулятив босимни камайтириш, молиявий ресурсларга етишимни енгиллаштириш, тадбиркорликни рақамлаштириш, ҳудудий бизнес инфратузилмасини яратиш орқали кичик бизнеснинг стратегик аҳамияти янада кучайтирилди.

Шу билан бирга, ушбу секторда мавжуд муаммолар ҳам етарли. Жумладан, кредит ресурсларига етишмовчилик, малака ва бизнес-билимларнинг пастлиги, технологик етишмовчилик, солиқ ва ҳисобот юкламаларининг оғирлиги ҳамда ҳудудий номутаносибликлар тадбиркорлик ва кичик бизнес субъектларининг тўлиқ салоҳиятини очиб беришда тўсиқ бўлмоқда.

Хулоса қилиб айтганда, тадбиркорлик ва кичик бизнес нафақат иқтисодий ўсишнинг локомотиви, балки мамлакатнинг узоқ муддатли стратегик ривожланишида ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Унинг иқтисодиётдаги улуши, бандликни таъминлашдаги ўрни, экспорт салоҳияти ва инновациявий жиҳатлари уни миллий тараққиёт дастурларининг ажралмас қисмига айлантирмоқда. Давлат сиёсатида тадбиркорлик ва кичик бизнесни янада қўллаб-қувватлаш ва унинг барқарор ўсишини таъминлаш бўйича комплекс чоралар кўрилиши лозим.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти қарори. “Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантиришни қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида”. ПҚ–357-сон. 17 август, 2022 йил.
2. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси расмий маълумотлари – https://stat.uz

3. Арипов О.А. Кичик бизнес ва тадбиокрлик. Дарслик. –Наманган. “Машраб” нашриёти. 2025. – 346 б.
4. Арипов О.А. Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни давлат томонидан тартибга солиш. Монография. –Т.: Фан, 2012. – 272 б.
5. Арипов О.А. Ўзбекистонда кичик бизнесни давлат томонидан тартибга солиш ва ишбилармонлик муҳитини ривожлантириш. Монография. –Т.: «Lesson Press», 2021. – 225 б.
6. Mintzberg, H. (1994). The Rise and Fall of Strategic Planning. New York: Free Press.
7. Drucker, P. (1985). Innovation and Entrepreneurship. New York: Harper & Row.
8. Fayol, H. (1916). General and Industrial Management. London: Pitman Publishing.
9. Тўраев, Н.А., Ҳамидов, Ж.Ш. (2021). Тадбиркорлик фаолияти ва кичик бизнесни бошқариш. – Тошкент: “Иқтисодиёт” нашриёти.
10. Хайдаров, С.К. (2022). Стратегик менежмент: назария ва амалиёт. – Т.: Iqtisod–Moliya.
11. Улуғмуродов, С. (2020). Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ривожланиш тенденциялари. – Журнал: "Иқтисодиёт ва таълим", №3.
12. Barney, J. B., & Hesterly, W. S. (2019). Strategic Management and Competitive Advantage. Pearson Education.
13. Stevenson, H. H., & Jarillo, J. C. (1990). A Paradigm of Entrepreneurship: Entrepreneurial Management. Strategic Management Journal.

SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA TA’LIM SIFATINI OSHIRISH

A.M.Turg‘unov
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM t.f.n., professor, Kompyuter tizimlari kafedrasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining zamonaviy ta’lim tizimidagi roli tahlil qilinadi. Shaxsiylashtirilgan yondashuv, moslashuvchan o‘qitish tizimlari, baholashning avtomatlashtirilgan shakllari hamda ta’lim jarayonlarini boshqarishda sun’iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda mavjud ilmiy manbalar va amaliy tajriba asosida xulosalar beriladi. Natijalar sun’iy intellekt vositalarining o‘quvchilarning bilim olishdagi faolligini oshirishi, o‘qituvchilar faoliyatini yengillashtirishi va umumiy ta’lim sifatini yaxshilashiga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, ta'lim sifati, shaxsiylashtirilgan ta'lim, adaptiv o'qitish, raqamli transformatsiya, ta'lim texnologiyalari

Аннотация. В данной статье рассматривается роль технологий искусственного интеллекта в современной системе образования. Анализируются возможности применения ИИ для персонализированного подхода, адаптивного обучения, автоматизированных форм оценивания и управления образовательными процессами. Исследование основывается на существующих научных источниках и практическом опыте. Результаты показывают, что использование ИИ способствует повышению активности учащихся, облегчению работы преподавателей и улучшению общего качества образования

Ключевые слова: искусственный интеллект, качество образования, персонализированное обучение, адаптивное обучение, цифровая трансформация, образовательные технологии

Abstract. This article analyzes the role of artificial intelligence technologies in the modern education system. It explores the potential of AI for personalized learning, adaptive teaching systems, automated assessment methods, and the management of educational processes. The study is based on existing scientific sources and practical experience. The findings show that AI tools enhance student engagement, ease teachers’ workload, and contribute to improving the overall quality of education.

Keywords: artificial intelligence, quality of education, personalized learning, adaptive teaching, digital transformation, educational technologies

Kirish. XXI asrning ikkinchi choragi butun dunyoda ta’lim sohasining tubdan o‘zgarishi bilan ajralib turadi. Axborot texnologiyalarining, ayniqsa sun’iy intellekt tizimlarining jadal rivojlanishi o‘quv jarayonlarini qayta ko‘rib chiqishni, an’anaviy uslublarni modernizatsiya qilishni va ta’lim sifati hamda

samaradorligini oshirishga qaratilgan yangicha yondashuvlarni talab etmoqda [1.2022:B.181]. Sun’iy intellekt nafaqat texnik vosita, balki pedagogik hamroh sifatida ham ta’lim tizimida o‘z o‘rnini topmoqda [2.2020:B.75264]. Halqaro nufuzli manbalarda jop etilgan tadqiqotlar va izlanishlarning keng qamrovli tahliliga ko‘ra, ta’lim muassasalari rahbariyati o‘quv jarayonida sifatli pedagogik xizmatlarni ta’minlash uchun sun’iy intellekt va mashinali o‘qitish texnologiyalaridan foydalanishni rag‘batlantirishi lozim [3. 2021:B.1895]. O’rganishlar natijasi ta’limda sun’iy intellektni quyidagi bir qator afzalliklarni ko’rsatib bermoqda [4.2020:B.100001].:

ta’lim jarayonini talabaning individual xususiyatlariga moslashtirish;

tezkor individual javoblarni taqdim etish, baholash usullarini ishlab chiqish va o‘zlashtirish darajasini bashorat qilish

Olib borilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt asosidagi shaxsiylashtirilgan ta’lim talabalarni kuchliroq rag‘batlantiradi va ularning akademik ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilaydi [5.2023:B.1]. Bunday tizimlar o‘quvchilarning xatti-harakatlarini tahlil qilish va o‘quv materiallarini real vaqt tizimida taqdim etish uchun murakkab algoritmlardan foydalanishlarini ko’rsatmoqda.

Sun’iy intellektning ta’limdagi ta’siri keng o‘rganilib borilmoqda. Natijada ta’lim muassasalarida o‘qitish va talabalarni o‘rganish jarayonlarini takomillashtirish imkoniyatlariga alohida e’tibor qaratilmoqda [6.2023:B.1].

So‘nggi yillarda ushbu sohada sezilarli yutuqlarga erishildi va ko‘plab ilmiy izlanishlar shaxsiylashtirilgan ta’lim yo‘nalishlari, real vaqtda monitoring qilish, natijalarga asoslangan baholash tizimlari yaratish masallariga qaratildi.

1. Sun’iy intellektning ta’limdagi asosiy imkoniyatlari

Bugungi kunda sun’iy intellekt asosidagi tizimlar yordamida o‘quv jarayonlarini samarali boshqarish, o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga mos kontentni yetkazish va ularning bilim darajasini tahlil qilish imkoniyatlari kengayib bormoqda.

Talabalarni o’qitishda shaxsiy yondashuv zamonaviy pedagogikaning eng muhim tendensiyalaridan biri hisoblanadi [7.2021:B.1]. Sun’iy intellekt texnologiyalari har bir o‘quvchining individual hususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini yangi ufqlarini ochib bermoqda.

Avtomatlashtirilgan intellektual ta’lim tizimlari o‘quvchilarning bilim darajasi, o‘qishga bo‘lgan qiziqishlari va kognitiv ko‘nikmalarini tahlil qilib, ularga mos keluvchi individual o‘quv resurslarini taklif etadi [8.2016:B.1]. Bu tizimlar quyidagi elementlardan iborat:

Ekspert bilimlar moduli — fan sohasi bo‘yicha keng qamrovli bilimlarni saqlaydi;

O‘quvchi modeli — har bir o‘quvchining tayyorgarlik darajasi va o‘qish xususiyatlarini qayd etadi;

Pedagogik modul — ta’lim metodikasini belgilaydi:

Interfeys moduli — foydalanuvchi bilan o‘zaro aloqani ta’minlaydi:

Bu borada shaxsiylashtirilgan o‘quv platformalari, adaptiv ta’lim tizimlari va avtomatik baholash vositalari o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

2. Adaptiv ta’lim tizimlari

Sun’iy intellekt asosidagi adaptiv o‘qitish tizimlari o‘quvchining real vaqtdagi faoliyati va o‘zlashtirish darajasiga qarab o‘quv materialini avtomatik ravishda moslashtiradi [9.2021:B. 100020]. Bunday tizimlar o‘quvchining har bir qadamini tahlil qilib, individual yondashuv asosida murakkablik darajasi, taqdim etish uslubi va tempni belgilaydi. Ushbu tizimlarning asosiy xususiyatlari quyidagilarda o’z aksini topgan:

Uzluksiz monitoring – o‘quvchining har bir harakatini kuzatib boradi va uning yutuqlarini baholaydi;

Moslashuvchan kontent taqdimoti – o‘quvchining ehtiyojlariga qarab o‘quv materiallarini tanlaydi;

Zaif tomonlarni aniqlash – o‘zlashtirishda qiyinchilik tug‘dirayotgan mavzularni aniqlaydi va qo‘shimcha topshiriqlarni taklif etadi;

YUqoridagilardan kelib chiqqan holda, agar o‘quvchi biror mavzuda qiynalayotgan bo‘lsa, tizim bu holatni aniqlab, unga qo‘shimcha resurslar yoki mashqlar taklif etadi. Bu esa o‘quvchi bilimidagi bo‘shliqlarni o‘z vaqtida to‘ldirishga imkon beradi.

3. Avtomatik baholash tizimlari

An’anaviy baholash tizimlari ko‘p vaqt va inson resurslarini talab qilgan bo‘lsa, SI yordamida ishlab chiqilgan avtomatik baholash tizimlari ushbu jarayonni tezkor, aniq va xolis tarzda amalga oshiradi [10.2019:B.1].

Bu tizimlar quyidagicha ishlaydi:

- Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) yordamida insho va ochiq savollarni tahlil qilib, ularni mazmunan baholaydi;
- Kompyuter ko‘rishi (Computer Vision) orqali amaliy topshiriqlarni avtomatik baholaydi;
- Mashina o‘rganish algoritmlari yordamida o‘quvchining kelgusi bahosini prognozlaydi.

Bu yondashuvlar nafaqat o‘qituvchilar yukini yengillashtiradi, balki baholashda subyektivlik xavfini ham kamaytiradi.

4. Ta’limda SI integratsiyasi

Sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayonining turli bosqichlariga chuqur integratsiyalashmoqda:

- Dars davomida: Interaktiv doskalar, sun’iy intellekt yordamchilari (chatbotlar), virtual laboratoriyalar;
- Mustaqil o‘rganishda: Mobil ilovalar, gamifikatsiya elementlari, adaptiv platformalar
- Ma’muriy boshqaruvda: O‘quvchilar reytingini monitoring qilish, auditoriya va resurslarni optimallashtirish.

Bu esa o’z navbatida SI texnologiyalarini o'qituvchilarning professional faoliyatini quyidagi yo'nalishlarda qo'llab-quvvatlashga olib keladi [11.2016:B.582]:

O'quv dasturi talablariga mos ravishda o'quv rejalarini tuzish;

Har bir o'quvchining rivojlanish dinamikasini kuzatib borish;

Qiyin vaziyatlarda o'qituvchilarga tavsiyalar berish;

Ko’rsatib o’tilgan texnologiyalar ta’lim sifatini oshiribgina qolmay, uning ommaviyligi va qulayligini ham ta’minlaydi.

5. Texnik va ijtimoiy muammolar

SI texnologiyalarini ta’lim tizimiga joriy qilishda bir qator muammolar mavjud:

- Yuqori texnik talablar: Kuchli serverlar, barqaror internet, xavfsizlik protokollari;
- O‘qituvchilarning qarshiligi [5.2023:B.1]:

Yangi tizimlarni o‘zlashtirishga nisbatan psixologik tayyorlik pastligi;

Moliyaviy cheklovlar: Xususiy maktablar va davlat muassasalarining imkoniyatlari bir xil emas.

Sanab o’tilgan muammolarni yechish uchun uzluksiz malaka treninglar, hukumat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va xalqaro tajribalarni joriy etish masallariga alohoda e’tiborni qaratish lozim.

6. Kelajak istiqbollari

Sun’iy intellekt yordamida yaratilayotgan yangi avlod ta’lim tizimlari quyidagi yo‘nalishlarda rivojlanmoqda:

- Mikrota’lim va aralash formatlar: qisqa, maqsadli kurslar va onlayn-offlayn kombinatsiyalari;
- Til to‘siqlarini yengib o‘tuvchi real vaqtda tarjima qilish imkoniyatlari;
- Virtual hamkorlik va xalqaro platformalar orqali umumjahon ta’lim tarmog‘ining shakllanishi.

Bu esa har bir o‘quvchiga joyidan qat’i nazar, masofadan turib sifatli bilim olish imkonini yaratadi [13.2023:B.47], [14.2016:B.701].

Xulosa. Bugungi kunda sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlanishi ta'lim sifatini oshirishda misli ko’rilmagan imkoniyatlarni yaratib bermoqda [2.2020:B.75264]. Izlanish natijalari shuni ko'rsatdiki, SI maqsadli va to'g'ri qo'llanilganda ta'lim jarayonlarini sezilarli darajada yaxshilash imkoniyatlari yaratiladi.

SIni ta’lim tizimida qo’llashda asosiy yutuqlar quyidagilarda o’zini aksini topadi [15.2023:B.100134]:

- Shaxsiylashtirilgan ta'lim imkoniyatlarining kengayishi
- O'qituvchilar ish samaradorligining oshishi
- Baholash jarayonlarining ob'ektivlashishi
- Ta'lim resurslaridan samarali foydalanish

Shu bilan birga, qator qiyinchiliklar ham mavjud:

- Yuqori texnik va moliyaviy talablar
- O'qituvchilarni qayta tayyorlash zarurati
- Ma'lumotlar xavfsizligi masalalari
- Ijtimoiy-psixologik muammolar

SI texnologiyalarining rivojlanish istiqbollari kelajakda ta'lim sohasida ularni roli va o’rni yanada kuchayib borishini ko’rsatmoqda. Bu jarayonning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun barcha manfaatdor tomonlarning - davlat, ta'lim muassasalari, o'qituvchilar va talabalarning – hamkorligini talab qiladi.

SI texnologiyalarini ta'limga joriy etish - bu shunchaki texnik yangilanish emas, balki ta'lim paradigmasining tubdan o'zgarishga qaratilgan real qadamlardir. Bu o'zgarish ehtiyotkorlik bilan, ilmiy asoslangan yondashuv asosida amalga oshirilishi lozim, deb hisoblayman.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Ahmad, S.F., Alam, M.M., Rahmat, M.K., Mubarik, M.S., & Hyder, S.I. (2022). Academic performance and behavioral outcomes of artificial intelligence-supported learning: A systematic review and meta-analysis. *Computers & Education*, 181, 104448.
2. Chen, L., Chen, P., & Lin, Z. (2020). Artificial intelligence in education: A review. *IEEE Access*, 8, 75264-75278.
3. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2021). Artificial intelligence in education: Promises and implications for teaching and learning. *Educational Technology Research and Development*, 69(4), 1895-1916.
4. Hwang, G.J., Xie, H., Wah, B.W., & Gašević, D. (2020). Vision, challenges, roles and research issues of artificial intelligence in education. *Computers and Education: Artificial Intelligence*, 1, 100001.
5. Karsenti, T. (2023). Artificial intelligence in education: The urgent need to prepare teachers for tomorrow's schools. *Formation et profession*, 31(1), 1-15.
6. Kumar, A., & Sharma, K. (2023). Systematic literature review of machine learning and artificial intelligence in education. *Smart Learning Environments*, 10(1), 1-25.
7. Li, H., Flanagan, B., Konomi, S., & Ogata, H. (2021). Measuring behaviors and identifying indicators of self-regulation in computer-supported collaborative learning. *Research and Practice in Technology Enhanced Learning*, 16(1), 1-20.
8. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L.B. (2016). Intelligence unleashed: An argument for AI in education. *Pearson Education*.
9. Ouyang, F., & Jiao, P. (2021). Artificial intelligence in education: The three paradigms. *Computers and Education: Artificial Intelligence*, 2, 100020.
10. Pedro, F., Subosa, M., Rivas, A., & Valverde, P. (2019). Artificial intelligence in education: Challenges and opportunities for sustainable development. *UNESCO*.
11. Roll, I., & Wylie, R. (2016). Evolution and revolution in artificial intelligence in education. *International Journal of Artificial Intelligence in Education*, 26(2), 582-599.
12. Seldon, A., & Abidoye, O. (2018). The fourth education revolution: Will artificial intelligence liberate or infantilise humanity? *University of Buckingham Press*.
13. Tan, Y., Xu, C., Chen, S., & Liu, J. (2023). A comprehensive review of artificial intelligence applications in modern education systems. *Journal of Educational Technology Development and Exchange*, 16(1), 47-68.
14. Timms, M.J. (2016). Letting artificial intelligence in education out of the box: Educational cobots and smart classrooms. *International Journal of Artificial Intelligence in Education*, 26(2), 701-712.
15. Wang, T., Lund, B.D., Marengo, A., Pagano, A., Mannuru, N.R., Teel, Z.A., & Pange, J. (2023). Artificial intelligence in educational technology: A systematic review of empirical studies published between 2011 and 2021. *Computers and Education: Artificial Intelligence*, 4, 100134.

KASB-HUNAR VA O‘RTA MAXSUS TA’LIMDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI: YANGI IJTIMOIY-FALSAFIY MODEL

O.G‘.Qo‘chqarov
Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi
e-mail: oykuchkarov@mail.ru +998902318401

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda kasb-hunar va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga zamonaviy texnologiyalarni kiritish jarayoni ijtimoiy va falsafiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqiladi. Raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va interaktiv o‘quv muhitlari ta’lim mazmuni va jamiyat ongiga qanday ta’sir qilayotgani tahlil qilinadi. Ta’lim faqat bilim emas, balki shaxsni tarbiyalash va uni jamiyatga moslashtirish vositasi sifatida qayta ko‘rib chiqilishi kerakligi asoslab beriladi. Yangi yondashuvda texnologiyalar insonning o‘zini anglashiga, ijtimoiy mas’uliyatni his qilishiga va kasbiy yo‘nalishini topishiga yordam berishi zarurligi ta’kidlanadi.

Аннотация В данной статье рассматривается процесс внедрения современных технологий в систему профессионального и среднего специального образования Узбекистана с социальной и философской точек зрения. Анализируется влияние цифровых технологий, искусственного интеллекта и интерактивной образовательной среды на содержание образования и общественное сознание. Обосновывается необходимость переосмысления образования не только как передачи знаний, но и как средства воспитания личности и её адаптации в обществе. Подчёркивается, что в новой парадигме технологии должны способствовать самопознанию, формированию социальной ответственности и профессиональной ориентации личности.

Abstract This article examines the process of introducing modern technologies into the vocational and secondary specialized education system in Uzbekistan from a social and philosophical perspective. It analyzes the impact of digital technologies, artificial intelligence, and interactive learning environments on the content of education and public consciousness. The article argues for the need to rethink education not only as the transmission of knowledge, but also as a means of shaping personality and adapting individuals to society. It emphasizes that in the new approach, technologies should help individuals develop self-awareness, a sense of social responsibility, and professional orientation.

Kalit so‘zlar: kasb-hunar ta’limi, o‘rta maxsus ta’lim, raqamlashtirish, ijtimoiy ong, sun’iy intellekt, ta’lim falsafasi, shaxsiy identifikatsiya, jamiyatga moslashuv, texnologiya va madaniyat, kasbiy o‘zlik.

Ключевые слова: профессиональное образование, среднее специальное образование, цифровизация, общественное сознание, искусственный интеллект, философия образования, личностная идентификация, социальная адаптация, технологии и культура, профессиональная идентичность.

Keywords: Vocational education, secondary specialized education, digitalization, social consciousness, artificial intelligence, philosophy of education, personal identification, social adaptation, technology and culture, professional identity.

KIRISH. Zamonaviy jamiyatda ta’lim tizimi faqat bilim berish vositasi sifatida emas, balki insonning intellektual, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi murakkab va keng qamrovli tizim sifatida qaralmoqda. Bugungi kunda ta’limning roli nafaqat shaxsning shaxsiy salohiyatini oshirishda, balki jamiyatning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida ham muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, O‘zbekistonda bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirish maqsadida kasb-hunar va o‘rta maxsus ta’lim sohasini zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyalash muhim vazifaga aylangan. Bu jarayon o‘z ichiga nafaqat yangi texnik va metodik yondashuvlarni, balki ta’limning ijtimoiy-falsafiy konsepsiyasini ham oladi [1].

Zamonaviy ta’lim tizimida innovatsiyalar va texnologiyalar, xususan, raqamli ta’lim platformalari, sun’iy intellekt, gamifikatsiya, virtual va kengaytirilgan reallik kabi yondashuvlar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda [13]. Shuningdek, globallashuv sharoitida uzluksiz ta’lim va informal yondashuvlarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish, o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim vosita bo‘lmoqda. O‘zbekiston ta’lim tizimida ta’lim va ishlab chiqarishni integratsiyalash orqali sifatli kadrlar tayyorlash, shuningdek, ta’limni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish zamonaviy taraqqiyot talablariga javob beruvchi asosiy yo‘nalishlardan biridir [4].

Mazkur holat ta’limga nisbatan ijtimoiy-falsafiy yondashuvni chuqurlashtirishni taqozo etadi. Ta’lim inson kapitalining shakllanishi bilan birga, uning ma’naviy, madaniy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi lozim. Bu kontekstda ilgari surilayotgan yangi ijtimoiy-falsafiy model besh asosiy yo‘nalish bo‘yicha tizimlashtirilgan bo‘lib, har biri ta’limning zamonaviy transformatsiyasida muhim rol o‘ynaydi:

Nazariy bilimlar – bu komponent an’anaviy bilim berish vazifasini o‘z ichiga olsa-da, bugungi kunda u yangi ko‘nikmalarni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan tizimli tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Fundamental fanlar, kasbiy nazariya va analitik fikrlash asoslari bu yo‘nalishning asosiy tarkibiy qismlaridir. Ayniqsa, fanlararo integratsiya orqali bilimlar orasidagi bog‘liqlikni anglash zamonaviy tafakkur shakllanishini ta’minlaydi [6].

Amaliy ko‘nikmalar – ushbu yo‘nalish nazariy bilimlarning real ishlab chiqarish sharoitida qo‘llanilishini ta’minlaydi.

Axloqiy qadriyatlar – zamonaviy texnologik taraqqiyot sharoitida inson axloqiy orientirlarini yo‘qotmasligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim jarayonida halollik, mehnatsevarlik, jamoaga hurmat, ekologik ong va fuqarolik mas’uliyati kabi qadriyatlar shakllanishi zarur.

Metabilim (self-management) – bu yo‘nalish zamonaviy ta’limdagi eng innovatsion tushunchalardan biri bo‘lib, shaxsning o‘zini anglash, o‘z faoliyatini rejalashtirish, tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish kabi yuqori darajadagi kognitiv ko‘nikmalarni qamrab oladi. Bu esa, doimiy o‘zgarib borayotgan mehnat bozori talablariga moslashishda muhim omil hisoblanadi [13].

Ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi – ushbu yo‘nalish dual ta’lim modeli, modulli o‘quv dasturlar va ish joyidagi o‘qitish texnologiyalari orqali ta’lim va ishlab chiqarish tizimlari o‘rtasidagi real bog‘liqlikni ta’minlaydi.

Yangi ijtimoiy-falsafiy modelning zarurati, bir tomondan, raqamli transformatsiya va Industry 4.0 kabi global tendensiyalarga moslashish zaruratidan kelib chiqsa, boshqa tomondan, insoniy kapitalni har tomonlama rivojlantirish ehtiyoji bilan bog‘liq. Bu model kasb-hunar va o‘rta maxsus ta’lim tizimida insonni murakkab ijtimoiy-iqtisodiy muhitda faol va mas’uliyatli sub’ekt sifatida tayyorlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, jamiyatning barqaror taraqqiyoti uchun intellektual, axloqiy va mehnat resurslarini uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi [8].

Shunday qilib, ta’lim tizimining zamonaviylashtirilishi va texnologiyalar bilan integratsiyalashuvi nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida raqobatbardosh kadrlar bazasini yaratishda muhim ahamiyatga ega. Bu esa o‘z navbatida, O‘zbekistonning global iqtisodiy maydondagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Kasb-hunar va o‘rta maxsus ta’lim tizimida zamonaviy texnologiyalarning integratsiyasi bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida dolzarb mavzulardan biridir. So‘nggi yillarda ushbu yo‘nalishda bir qator ilmiy tadqiqotlar, strategik hujjatlar va konsepsiyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning asosiy e’tibori o‘quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, pedagogik yondashuvlarni modernizatsiya qilish va mehnat bozorining talablariga javob bera oladigan mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan.

Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ–4884-son qarorida kasb-hunar ta’limi tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish masalasi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. UNESCO, OECD kabi xalqaro tashkilotlarning ta’lim bo‘yicha hisobotlarida esa zamonaviy texnologiyalarni ta’lim tizimiga integratsiyalash orqali individual yondashuv, masofaviy ta’lim, simulyatsion treninglar, sun’iy intellekt asosidagi o‘quv modellarining ahamiyati alohida ta’kidlangan.

Akademik adabiyotlarda bu masalaga falsafiy va ijtimoiy yondshuvlar orqali ham yoritilgan. M. Vebber, A. Toffler, Z. Bauman kabi zamonaviy sotsiolog va faylasuflarning ishlarida texnologik jarayonlar inson ijtimoiyligini qanday o‘zgartirayotgani, ta’lim va kasb tanlashga bo‘lgan motivatsiyani qanday shakllantirayotgani haqida konseptual qarashlar mavjud [5;6;7]. Mahalliy olimlar, xususan Sh. To‘xtayev, A. Qurbonov, N. Eshonqulova kabi tadqiqotchilar ham kasb-hunar ta’limining transformatsiyasi va raqamli o‘quv muhiti yuzasidan muhim fikrlar bildirgan [9;10;11].

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, mavjud adabiyotlar zamonaviy texnologiyalarning amaliy ta’limga integratsiyasi bilan bog‘liq muammolarni tizimli yoritadi, biroq ularning ijtimoiy-falsafiy jihatlari - ya’ni texnologik ta’lim modelining jamiyatda ong, mehnat etikasiga, shaxsiy identifikatsiyaga ta’siri yetarli darajada chuqur o‘rganilmagan. Bu esa yangi ijtimoiy-falsafiy model asosida izlanish olib borish zaruratini tug‘diradi.

NATIJA VA MUHOKAMA. Bugungi kasbiy ta’lim - bu endi faqat mutaxassis yetishtirish tizimi emas. U katta o‘zgarishlar ostonasida turibdi. Raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, avtomatlashtirish jarayonlari asta-sekinlik bilan emas, balki juda tezlikda hayotimizga kirib kelmoqda. Shu holatning o‘ziyoq ta’lim tizimining oddiy “o‘quv dasturi ishlab chiqish” masalasi emasligini, balki yanada chuqurroq - ijtimoiy va falsafiy masalaga aylanayotganini ko‘rsatadi.

O‘quvchi endi faqat bilim olishni emas, balki o‘sha bilimni amalda ishlata olishni xohlaydi. Talaba - sinfda o‘tiribgina emas, balki real hayotga tayyor bo‘lishni istaydi. Bu esa o‘qituvchi, metodist va butun ta’lim tizimi oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo‘yadi. Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari juda keng - ammo ularni o‘zlashtirishda, avvalo, inson omili - o‘qituvchining roli, o‘quvchining qiziqishi, jamiyatdagi qadriyatlar muhim bo‘lib qolaveradi.

Qizig‘i shundaki, texnologiya taraqqiyoti bilan inson omilining ahamiyati kamayayotgani yo‘q - aksincha, u yanada markazga chiqmoqda. Har qanday avtomatlashtirish, har qanday algoritm baribir oxir-

oqibat inson qarori bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli, biz texnologiyani o‘rganayotganimizda, unga xizmat qiladigan emas, balki undan oqilona foydalana oladigan, fikrlovchi, muammoni ko‘ra oladigan va hal eta oladigan insonlarni tayyorlashni ko‘zda tutishimiz kerak [10].

Yana bir muhim jihat - zamonaviy kasbiy ta’limda nazariya va amaliyotning uyg‘unlashuvi. Ilgari bu ikkisi alohida edi: darsda o‘qilgan narsa ish joyida foyda bermas edi. Hozir esa ta’lim shunday bo‘lishi kerakki, o‘quvchi ertaga real ishga chiqqanda o‘zini yo‘qotib qo‘ymasin. Bu esa ta’lim mazmunini ishlab chiqarish ehtiyojlariga yaqinlashtirish, ko‘nikmaga tayangan yondashuvni kuchaytirishni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy texnologiyalarni kasbiy ta’limga kiritish - bu shunchaki kompyuter o‘rnatish, internetni ulash emas. Bu – butun ta’lim falsafasini qayta ko‘rib chiqish, o‘qituvchi va o‘quvchining rolini yangilash, hamda eng asosiysi - ta’limni inson hayoti va mehnatidagi haqiqiy ehtiyojlar bilan bog‘lash deganidir. Bu yo‘l murakkab, lekin to‘g‘ri yo‘l.

XULOSA. Kasb-hunar va o‘rta maxsus ta’limni zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyalash – bu nafaqat texnik yoki metodik yangilanish, balki ijtimoiy-falsafiy qarashlarning evolyutsiyasidir. Bu yondashuv orqali ta’lim jarayoni insonni har tomonlama kamol topgan, mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy mas’uliyatga ega shaxs sifatida tarbiyalaydi. O‘zbekistonning raqamli transformatsiyasi sharoitida bu model strategik ahamiyat kasb etadi va mamlakat intellektual salohiyatining asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu tahlillar asosida bir qator aniq takliflar ilgari surildi. Ularning asosiy maqsadi – professional ta’limni zamonaviy hayot va bozor talablariga mos ravishda isloh qilish, bu sohada chinakam sifat va samaradorlikka erishishdir.

Tavsiyalar quyidagilardan iborat:

Avvalo, ta’limga zamonaviy texnologiyalarni – axborot-kommunikasiya vositalarini, raqamli loyihalarni joriy qilish shart. Bugungi dunyoda texnologiyasiz ta’lim – yuraksiz tanaga o‘xshaydi.

Ijtimoiy sheriklik – ya’ni, ta’lim tizimi va ish beruvchilar, nodavlat tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish lozim. Faqat davlat emas, jamiyatning o‘zi ham bu jarayonga tortilishi kerak. Ta’lim mazmuni tubdan yangilanishi, zamon ruhiga mos professional pedagoglar tayyorlanishi zarur. Ularning malakasini muntazam oshirib borish – bu sifat kafolati.

Har bir o‘quvchining individual ehtiyojlariga mos yondashuv joriy qilinishi kerak. Yagona qolipdan chiqarilgan darslar emas, shaxsga qaratilgan ta’lim ustuvor bo‘lishi shart. Ta’lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil qilish, uni boshqarishda zamonaviy yondoshuvlar va texnologiyalarni qo‘llash zarur.

Axborot-kommunikasiya texnologiyalari, xorijiy tillar, IT yo‘nalishlari kabi bozorda talab yuqori bo‘lgan kasblar bo‘yicha yirik kompaniyalarni o‘quv jarayoniga jalb etish foydali bo‘ladi. Dars usullarining o‘zgartiriluvchan va moslashuvchan bo‘lishi – hozirgi yoshlar tafakkuri uchun nihoyatda muhim jihat.

Professional ta’lim sifatini baholash, bu borada jamoatchilik nazoratini yo‘lga qo‘yish kerak. Hududlarda esa kasb va malaka sertifikatlari beruvchi integratsiyalashgan markazlar ko‘paytirilishi zarur.

Yuqoridagi takliflar hayotga tatbiq etilsa, professional ta’limdagi mavjud muammolar bosqichma-bosqich yechimini topadi. Buning natijasida esa – axloqan yetuk, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy dunyoda o‘z o‘rnini topa oladigan, raqobatbardosh mutaxassislar yetishib chiqadi. Shunday yoshlar esa har qanday jamiyatning tayanchi, ertangi kunining kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ–4884-son qarori "Kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" // *Respublika axborotnomasi*. – T.: 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim sohasini raqamlashtirish strategiyasi, 2021–2025 yillar. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasi, 2021.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-avgustdagi "Kasb-hunar maktablari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida"gi qarori // *Respublika qonun hujjatlari to‘plami*. – 2022. – №17.
4. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri). – T.: Adolat, 2020. – 32 b.
5. Toffler A. The Third Wave. – New York: William Morrow and Company, 1980. – 537 p.
6. Bauman Z. Liquid Modernity. – Cambridge: Polity Press, 2000. – 228 p.
7. Weber M. Protestant Ethics and the Spirit of Capitalism. – London: Unwin University Books, 1978. – 292 p.
8. Freire P. Pedagogy of the Oppressed. – New York: Continuum, 1970. – 183 p.

9. To‘xtayev Sh. Kasb-hunar ta’limida axborot texnologiyalarining ijtimoiy-falsafiy talqini // *Falsafa va hayot*. – 2022. – №3. – B. 44–50.
10. Qurbonov A. Zamonaviy ta’limda raqamlashtirish va shaxsiyat omili // *Ijtimoiy-gumanitar fanlar jurnali*. – 2021. – №2. – B. 17–23.
11. Eshonqulova N. Ta’limda innovatsion texnologiyalar: ijtimoiy muammolar va imkoniyatlar // *O‘zbekiston falsafiy merosi to‘plami*. – Toshkent: Fan, 2020. – B. 112–119.

NAZARIY VA AMALIY TAJRIBALAR YORDAMIDA METAKOGNITIV FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH

M.I.O‘rinboyev
Andijon davlat pedagogika instituti, vb.dotsenti.
E-mail: muhammadzohirorinboyev20@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fizika fanini o‘qitishda o’quvchilarning o’z-o’zini baholash va tushunchalarini mustaqil ravishda nazorat qilish qobiliyatlari rivojlantirishni nazariy va amaliy tajribalar yordamida hal etish vazifalari tahlil qilingan.
Kalit so‘zlar: o’z-o’zini baholash, nazorat qilish, metakognitsiya, metakognitiv jarayonlar, interaktiv elementlar, so‘rovnomalar va intervyular.
Abstract: This article analyzes the tasks of developing students' self-assessment and independent control of their understanding skills in teaching physics in general secondary schools using theoretical and practical experiments.
Keywords: self-assessment, control, metacognition, metacognitive processes, interactive elements, questionnaires and interviews.
Аннотация: В статье анализируются задачи развития самооценки и самостоятельного контроля понимания учащимися при обучении физике в общеобразовательных школах с использованием теоретического и практического эксперимента.
Ключевые слова: самооценка, контроль, метакогниция, метакогнитивные процессы, интерактивные элементы, анкетирование и интервью.

Kirish. Hozirgi zamon ta’lim tizimida o’quvchilarning o’z-o’zini baholash va tushunchalarini mustaqil ravishda nazorat qilish qobiliyatlari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Metakognitiv ko’nikmalar, o’quvchilarning o’rganish faoliyatida o’zlarining bilimlarini qanday qo’llay olishlarini tushunishlariga yordam beradi. Fizika kabi murakkab fanlarni o’qitishda bu ko’nikmalar ayniqsa zarur, chunki bu fan tajriba va nazariy tushunchalarni o’z ichiga oladi va o’quvchilarning mustaqil fikrlashini talab qiladi.

Mamlakatimizda ta’lim tizimiga qaratilgan e’tibor, tub islohotlar, o’qitishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari va moddiy-texnik bazasini yaratish, malakali kadrlar bilan ta’minlash, xalqaro ilg’or tajribalardan keng foydalanish bo’yicha olib borilayotgan amaliy ishlar natijasida o’quv faoliyatiga innovatsion ta’lim texnologiyalarini keng joriy qilishga erishildi. Shuningdek, fizika fanining metakognitiv faoliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan o’qitish usullarini amaliyotga joriy qilish zaruriyati sezilmoqda. Bu esa umumiy ta’lim maktablarida fizika fanini o’qitishda o’quvchilarning metakognitiv ko’nikmalarini takomillashtirishga bo’lgan ehtiyojni yanada oshiradi.

Metakognitsiya — bu o‘z bilimlarini anglash va o‘quv jarayonida samarali rivojlanishni ta’minlash atamasi bo‘lib, psixologiya va pedagogika sohalarida keng tadqiq etilgan. Ushbu atama o‘quvchilarning o‘z bilim tajribasi, nazorat va tanqidiy faoliyatini yaxshilashga xizmat qiladi. John Flavell va Ann Brown kabi olimlarning metakognitsiya bo‘yicha ishlari mavjud bo‘lib, Flavell metakognitsiyani “o‘z fikrlash faoliyatini boshqarish va nazorat qilish” deb ta’riflaydi va uni metakognitiv bilim va metakognitiv nazorat strategiyalariga ajratadi. Ann Brown esa metakognitiv strategiyalar o‘quvchilarga murakkab muammolarni mustaqil hal qilishda yordam berishini va bu qobiliyatlarni o‘qituvchilar tomonidan qasddan o‘rgatilishi kerakligini ta’kidlaydi. Shu asosda, metakognitsiya o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish qobiliyatini rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi [1. 2024:B.299].


Metakognitiv jarayonlar va fizika fanini o'qitish, o'quvchilarning o'rganish jarayonlarini chuqurroq tushunishga va samarali boshqarishga yordam beruvchi innovatsion yondashuv hisoblanadi. Bu yondashuv

o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatlarini oshiradi. Metakognitsiya o'quvchilarning o'z bilimlarini monitoring qilish, nazorat qilish va baholash qobiliyatini rivojlantiradi, bu esa ta'lim jarayonini samarali va qiziqarli qiladi.

An’anaviy darslarning ayrim cheklovlari fizika o‘qitishida yaqqol seziladi. Masalan, o‘qituvchi elektromagnetizm mavzusini ma’ruza shaklida taqdim etadi. U Maxvell tenglamalari va elektromagnet to‘lqinlarning xususiyatlarini tushuntiradi. Biroq, o‘quvchilar bu tenglamalarni qanday qo‘llashni yoki ularning amaliy ahamiyatini tushunish uchun laboratoriya tajribalari o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘lmaydilar. Shu sababli, o‘quvchilar mavzuni faqat eshitib yozib olishlari mumkin, lekin tenglamalarning qanday ishlashini muhokama qilish yoki tajribalar orqali kuzatish imkoniyatidan mahrum bo‘ladilar [2. 2024:B.240].

Interaktiv metodlar o‘quvchilarni faol ishtirok etishga rag‘batlantirish uchun mo‘ljallangan ta’lim usullari hisoblanadi. Bu metodlar o‘quvchilarning darsda faqat tinglovchi sifatida emas, balki faol ishtirokchi sifatida qatnashishini ta’minlaydi. Interaktiv metodlar turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin, jumladan, savol-javob sessiyalari, muhokamalar, guruh ishlari va rolli o‘yinlar. Ushbu metodlar o‘quvchilarning tushunish darajasini oshirishda juda samarali, chunki ular o‘quvchilarni muammolarni hal qilishga, fikrlashga va yangi bilimlarni kashf etishga faol jalb qiladi.

An’anaviy darslarning takomillashtirilishi ta’lim samaradorligini oshirish va o‘quvchilarning chuqurroq tushunishlarini ta’minlash maqsadida amalga oshiriladi. Zamonaviy ta’lim metodologiyalari bilan an’anaviy darslarni birlashtirish o‘quvchilarning faol ishtirokini rag‘batlantiradi va ularning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu yondashuv o‘qituvchilarga mavzuni yanada samarali taqdim etish va o‘quvchilarning mavzuni chuqurroq tushunishlariga yordam beradi. Misol uchun, so‘rovnomalar va intervyular orqali o‘quvchilarning fizika faniga bo‘lgan qiziqish darajasini o‘rganish o‘quvchilarning fan haqidagi umumiy fikrlari, qiyinchiliklari va o‘rganish motivatsiyalarini aniqlash imkonini beradi. Bu faoliyat o‘qituvchilarga darslarni qanday qilib yanada samarali va qiziqarli qilish mumkinligi haqida muhim ma’lumotlar taqdim etadi.



1. rasm. Fizika o’qitishida an’anaviy darslarni takomillashtirish

An’anaviy darslarni takomillashtirishning bir necha usullari mavjud:

1. Interaktiv elementlarni kiritish: Dars davomida o‘qituvchi o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undashi mumkin, masalan, savol-javob sessiyalari orqali. Bu sessiyalar o‘quvchilarga o‘z fikrlarini ifoda etish va dars materialini chuqurroq tushunishga imkon beradi.
2. Muammoli yondashuvni qo‘llash: O‘qituvchi mavzuga oid muammolarni hal qilishga taklif qilishi mumkin. Bu yondashuv o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga va nazariy bilimlarni amaliy muammolarni hal qilishda qo‘llashga undaydi.
3. Mustaqil o‘rganish vazifalarini berish: O‘quvchilarga mavzuni mustaqil o‘rganish uchun vazifalar berish orqali ularning o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalari rivojlanadi va o‘rganish faoliyati samarador bo‘ladi.
4. Laboratoriya tajribalarini o‘tkazish: Nazariy bilimlarni amalda qo‘llash uchun laboratoriya tajribalari muhim ahamiyatga ega. Bu tajribalar o‘quvchilarga nazariy bilimlarning amaliyotdagi qo‘llanilishini ko‘rsatadi va ularning tushunchalarini mustahkamlashga yordam beradi.

Masalan, fizika o‘qituvchisi sinfda o‘quvchilarning fizikaga bo‘lgan qiziqishini oshirish maqsadida so‘rovnomalar tuzadi va o‘quvchilardan fizikaga bo‘lgan qiziqish darajasini, fan o‘rganishdagi qiyinchiliklarni va mavzular bo‘yicha ularning fikrlarini so‘raydi.

So‘rovnoma tuzilishi:

Qiziqish darajasi: O‘quvchilardan fizikaga qanchalik qiziqishlari haqida so‘raladi. Masalan, “Fizika siz uchun qanchalik qiziq?” deb so‘raladi va javob variantlari “Juda qiziq”, “Bir oz qiziq” va “Qiziq emas” shaklida beriladi.

Umumiy fikrlar: O‘quvchilardan fizika fanini qanday baholashlari so‘raladi. Masalan, “Fizikani o‘rganish sizga qanday hissiyotlar bag‘ishlaydi?” degan savol berilib, javob variantlari “Hayajonli”, “Qiyin” va “Zerikarli” tarzida taqdim etilishi mumkin.

Ushbu savollar va mumkin bo‘lgan javob variantlari yordamida o‘quvchilarning fizika faniga bo‘lgan qiziqish darajasi va umumiy fikrlari aniqlanadi. Shu tarzda olingan natijalar o‘qituvchilarga o‘quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olib, darslarni qiziqarli va samarali tashkil etishda yordam beradi(1-jadvalga qarang).

1-jadval. Fikrlarini aniqlash uchun foydalaniladigan savollar va javoblar

Savollar	Javob variantlari
Fizika siz uchun qanchalik qiziq?	Juda qiziq
	Bir oz qiziq
	Qiziq emas
Fizikani o’rganish sizga qanday hissiyotlar bag’ishlaydi?	Hayajonli
	Qiyin
	Zerikarli

Ushbu jadval orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarning fizika faniga bo‘lgan qiziqish darajasini va fan haqidagi umumiy hissiyotlarini osonlik bilan tahlil qilishlari mumkin. Ushbu ma’lumotlar o‘quvchilarning motivatsiyasini tushunishda va darslarni yanada samarali rejalashtirishda yordam beradi.

Qiyinchiliklar-o‘quvchilardan fizika fanini o‘rganishda duch kelayotgan qiyinchiliklari haqida so‘raladi. Masalan, "Siz uchun fizikada eng qiyin bo‘lgan mavzu qaysi?" degan savol beriladi va javob uchun mavzular ro‘yxati keltiriladi. Bu orqali o‘qituvchi qaysi mavzular o‘quvchilar uchun murakkabroq ekanini aniqlay oladi.

Motivatsiya-o‘quvchilardan fizika fanini o‘rganish motivatsiyalari haqida so‘raladi. Masalan, "Fizikani o‘rganishni davom ettirishga nima motivatsiya beradi?" degan savol beriladi va javob variantlari quyidagicha taqdim etiladi: "Universitetga kirish", "Kelajakdagi kasbim uchun zarur", "Shunchaki qiziq" kabi. Bu orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarning fizika faniga bo‘lgan qiziqish va maqsadlarini yaxshiroq tushunib olishlari mumkin.

Quyida "Qiyinchiliklar" va "Motivatsiya" bo‘limlari bo‘yicha o‘quvchilarga beriladigan savollar va mumkin bo‘lgan javob variantlarini o‘z ichiga olgan jadval keltirilgan (2-jadvalga qaralsin).

2-jadval. **"Qiyinchiliklar" va "Motivatsiya" bo‘limlari bo‘yicha o‘quvchilarga beriladigan savollar va mumkin bo‘lgan javob variantlari**

Savollar	Javob Variantlari
Siz uchun fizikada eng qiyin bo’lgan mavzu qaysi?	Kinematika
	Dinamika
	Elektr va magnetizm
	Termodinamika
	Atom va yadro fizikasi
Fizika o’rganishni davom ettirishga nima motivatsiya beradi?	Universitetga kirish
	Kelajakdagi kasbim uchun zarur
	Shunchaki qiziq

Ushbu jadval yordamida o‘qituvchilar o‘quvchilarning fizika fanidagi qiyinchiliklarini va o‘rganish motivatsiyalarini aniqroq tushunishlari mumkin. Bu ma’lumotlar asosida o‘qituvchilar darslarni yanada samarali tashkil etish va o‘quvchilarni qiziqtirish choralari ko‘rishlari mumkin.

Intervyu olish jarayoni o‘qituvchiga har bir o‘quvchining fikrlarini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. O‘qituvchi o‘quvchilarni individual suhbatlarga chorlab, ularning fizika faniga bo‘lgan qiziqishlarini, duch kelgan qiyinchiliklarini va motivatsiyalarini batafsil muhokama qiladi. Suhbat davomida o‘qituvchi o‘quvchilarning javoblarini yozib oladi va keyinchalik bu ma’lumotlarni

umumlashtirib, darslarini yanada samarali qilish yo‘llarini ishlab chiqadi. Intervyular orqali o‘quvchilarning fizika faniga bo‘lgan munosabatlari va qiziqishlari haqida batafsil ma’lumot olish mumkin bo‘ladi. Shunday qilib, har bir o‘quvchining qiziqishlarini, qiyinchiliklarini va motivatsiyalarini aniqroq bilish o‘qituvchiga darslarni yanada samarali rejalashtirish imkonini beradi.

3-jadvalda fizika fani bo‘yicha intervyu misollari keltirilgan bo‘lib, unda har bir bosqich uchun tavsiyalar va misollar mavjud.

3-jadval. Fizika fani bo‘yicha intervyu misollari va har bir bosqich uchun tavsiyalar mazmuni

Savollar	Maqsad	Fizika fani bo’yicha misollar
Fizika siz uchun qanchalik qiziqarli?	O’quvchining fan haqidagi umumiy qiziqishini o’lchash	O’quvchi kinematikani juda qiziqarli deb hisoblaydi, chunki u harakatni o’rganishni yaxshi ko’radi.
Qaysi fizika mavzusida eng ko’p qiyinchilikka duch keldingiz?	O’quvchining qiyin topgan mavzularini phetaniqlash	O’quvchi elektr maydoni mavzusida qiyinchilikka duch kelgan, chunki bu mavzu unga murakkab tuyulgan.
Fizika o’rganishda qanday motivatsiyalaringiz bor?	O’quvchining fan o’rganishdagi asosiy motivatsiyalarini aniqlash	O’quvchi fizika fanini chuqurroq o’rganishni istaydi, chunki u kelajakda muhandis bo’lishni orzu qiladi.

Ushbu sxema va jadval yordamida o‘qituvchi har bir o‘quvchining fizika faniga bo‘lgan munosabatini aniqroq tushunib, darslarni shu asosda tashkil etishi mumkin. Bu esa o‘quvchilarning fizika bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Nazariy Asoslar

Metakognitsiya ikki asosiy komponentdan iborat: metakognitiv bilim va metakognitiv monitoring. Metakognitiv bilim o'z-o'zini boshqarish strategiyalari va usullarini o'z ichiga oladi. Metakognitiv monitoring esa o'quvchining o'z bilimlarini baholash va nazorat qilish jarayonini ifodalaydi[3. 2001:B.906].

Bilish jarayonlari, o'z-o'zini tartibga solish, refleksiya. O'quvchilar metakognitiv jarayonlar orqali o'z o'rganish jarayonlarini kuzatadi, tushunmagan joylarini aniqlaydi va ularni yaxshilash uchun strategiyalar ishlab chiqadi.

Ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlar. An'anaviy ta'limda o'qituvchi asosiy bilim manbai hisoblanadi va o'quvchilar passiv tinglovchilar sifatida ishtirok etadi.

Flipped classroom, interaktiv darslar, simulyatsiyalar. Innovatsion yondashuvlar o'quvchilarni dars jarayonida faol ishtirok etishga undaydi va ularning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi[4. 2011:B.351].

Amaliy Tajribalar

O'quvchilar uyda video darslar orqali nazariy bilimlarni o'zlashtiradi. Masalan, “Nyutonning qonunlari” mavzusida o'quvchilar YouTube yoki boshqa ta'lim platformalaridan video darslarni tomosha qiladi. Bu videolar har bir qonunni real hayotdagi misollar bilan tushuntiradi[5. 2017: B.59].

Dars vaqtida laboratoriya ishlari, guruhli muhokamalar o'tkaziladi. Masalan, “Kuch va harakat qonunlari” mavzusida o'quvchilar dinamik platforma yordamida turli kuchlar ta'sirida jismlarning harakatini o'rganishadi. Bu jarayonda o'quvchilar nazariy bilimlarini amaliyotda mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'quvchilar o'z bilimlarini monitoring qiladi va o'zlashtirish darajasini baholaydi. Masalan, o'quvchilar har bir darsdan so'ng o'z bilimlarini test savollari yoki amaliy masalalar yordamida sinab ko'radi va natijalarini baholaydi[6.2011:B.3].

Natijalar

O‘quvchilar faolligi: Dars jarayonida o'quvchilar faol ishtirok etadi. Metakognitiv yondashuvlar o'quvchilarni dars jarayonida faol bo'lishga undaydi va ular o'zlarini o'rganish jarayonida ishtirokchi sifatida his qilishadi.

Bilimlarning chuqurlashuvi: Nazariy bilimlar amaliyotda mustahkamlanadi. O'quvchilar nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlaydi va bu bilimlar uzoq muddatli xotirada saqlanib qoladi.

Mustaqil o‘rganish: O'quvchilar mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Metakognitiv jarayonlar o'quvchilarning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi va ular o'zlarini o'qitish jarayonida samarali boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xulosa. Metakognitiv jarayonlar va fizika o'qitishning integratsiyasi o'quvchilar bilim olish jarayonini samarali qiladi. Ushbu yondashuv nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlaydi, balki o'quvchilarning o'z-o'zini monitoring qilish va tartibga solish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Kelajakda metakognitiv strategiyalarni boshqa fanlarga qo'llash va ularning samaradorligini yanada chuqurroq o'rganish muhimdir. Shu bilan birga, ushbu yondashuvni takomillashtirish uchun yangi texnologiyalar va metodlarni kiritish zarur.

Adabiyotlar

1. M.I.O‘rinboyev. O‘quvchilarning fizika fani haqidagi fikrlari, motivatsiyasi va darslarda qo‘llaniladigan metakognitiv usullar. // BuxDPIning INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY Ilmiy-nazariy va metodik jurnali. Buxoro 2024, №5, b. 299-309.
2. M.I.O‘rinboyev. Flipped classroom approach in teaching physics: effectiveness analysis. // International Journal of European Research Output. ISSN: 2053-3578 I.F. 9.1, Vol.3 No.6 June (2024), p. 240-248.
3. Flavell, J. H “Metacognition and Cognitive Monitoring: A New Area of Cognitive–Developmental Inquiry”. American Psychologist, 34(10), 906-911.
4. Schraw, G., & Moshman, D. “Metacognitive Theories”. Educational Psychology Review, 7(4), 351-371.
5. Zohar, A., & Ben David, A. “Explicit Teaching of Metastrategic Knowledge in Authentic Classroom Situations”. Metacognition and Learning, 3(1), 59-82.
6. White, B. Y., & Frederiksen, J. R. "Inquiry, Modeling, and Metacognition: Making Science Accessible to All Students." Cognition and Instruction, 16(1), 3-118.

O‘ZBEKISTONDA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI

A.N.Eshmuratova
TDIU magistranti
ay_nurqizi@mail.ru +998900266425

Kirish. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Jumladan, ichki turizm bozorini shakllantirish, mahalliy aholini yurtimizning boy tabiiy, tarixiy va madaniy merosi bilan tanishtirish orqali fuqarolarda milliy qadriyatlar va tarixga hurmat tuyg‘usini kuchaytirish ustuvor maqsad sifatida belgilandi. Prezidentimizning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar ichki turizm infratuzilmasini yaxshilash, xizmatlar sifatini oshirish hamda hududlararo turistik almashinuvni kuchaytirishga qaratilgan [4].

Shunga qaramay, ichki turizmning to‘laqonli rivojlanishiga ayrim infratuzilmaviy, tashkiliy va marketing muammolari to‘sqinlik qilmoqda. Ushbu tadqiqot ichki turizm holatini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsatishga qaratilgan.

Natijalar. O‘zbekistonda ichki turizm yo‘nalishlari asosan quyidagi turlarga ajraladi: tarixiy shaharlarga sayohatlar, ziyoratgohlar, dam olish maskanlari va ekoturizm zonalari. Har bir yo‘nalish o‘ziga xos tabiiy, tarixiy-madaniy va diniy boyliklarga asoslangan bo‘lib, turli yoshdagi va ehtiyojdagi sayyohlar talabiga xizmat qiladi.

1. Tarixiy shaharlarga yo‘nalishlar. O‘zbekistonning Buxoro, Samarqand, Xiva, Shahrisabz, Termiz kabi shaharlari nafaqat xorijiy, balki ichki turistlar uchun ham tarixiy-madaniy sayohatlarning eng muhim markazlaridandir. Ushbu shaharlarda joylashgan tarixiy obidalar – Registon majmuasi, Shohi Zinda, Buxorodagi Ark qal’asi, Poyi Kalon, Ichan-Qal’a, Hazrati Imom majmuasi va boshqa obyektlar YuNESKOning Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan [5]. Mahalliy sayyohlar, ayniqsa o‘quvchilar, talaba-yoshlar, oila a’zolari bilan ushbu tarixiy shaharlarga har yili yozgi va bahorgi mavsumlarda guruh-guruh bo‘lib sayohat qilishadi. Bu yo‘nalishlar madaniy-ma’rifiy turizm sifatida ichki turizmda yetakchi o‘rinni

egallaydi. Lekin mavjud infratuzilma, jumladan, yo‘lovchi tashish xizmatlari, arzon turar joylar, gidlar yetishmasligi kabi omillar ichki sayohatlarni to‘laqonli tashkil qilishga ba’zan to‘sqinlik qiladi.

2. Ziyoratgohlarga sayohatlar. O‘zbekiston hududida joylashgan ko‘plab muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlar ichki turizmning ziyorat turizmi yo‘nalishini shakllantiradi. Bular qatoriga quyidagilar kiradi:

- Buxorodagi Bahouddin Naqshband maqbarasi
- Samarqanddagi Imom al-Buxoriy majmuasi
- Termizdagi Hakim at-Termiziy ziyoratgohi
- Toshkentdagi Zangiota va Shohruhiyya maqbaralari
- Qashqadaryodagi Langar ota majmuasi
- Farg‘ona vodiysidagi Shahrixon ota va Avliyo ota maqbaralari va boshqalar.

Ziyoratgohlar asosan dindor aholining, nuroniylar va oila a’zolarining e’tiborida bo‘lib, nafaqat diniy ibodat uchun, balki ma’naviy poklanish, madaniy qadriyatlar bilan tanishish uchun ham muhim hisoblanadi. Afsuski, bu ziyoratgohlarga olib boruvchi yo‘llarning sifatsizligi, axborot nuqtalarining kamligi, to‘liq xizmatlar (restoran, sanitariya, avtostoyanka) yo‘qligi ayrim noqulayliklarni yuzaga keltiradi.

3. Dam olish maskanlari. Ichki turizmning yana bir muhim yo‘nalishi – dam olish va sog‘lomlashtirish turizmi bo‘lib, bu soha ham tobora ommalashib bormoqda. Aholi orasida yozgi va qishki ta’til vaqtlarida oilaviy dam olish joylariga bo‘lgan talab yuqori. O‘zbekistondagi mashhur dam olish maskanlari quyidagilar:

Charvak, Chimyon, Bildirsoy, Amirsoy, Chinorkent v.h.k. – tog‘-chang‘i, yozgi suzish va sport turlari uchun;

Sangardak, Oqtosh, Zomin v.h.k. – tabiiy havo, tog‘li muhit, sanatoriy va kurort xizmatlari hamda sog‘lomlashtirish maqsadlarida;

Bu yo‘nalishlar asosan o‘rta yoshdagi aholiga va ijtimoiy toifa (budjet tashkiloti xodimlari, nafaqaxo‘rlar)ga mo‘ljallangan. Shu bilan birga, sanatoriylar infratuzilmasi va servis xizmatlari zamonaviy standartlarga to‘liq javob bermasligi ayrim hollarda sayyohlar oqimini kamaytiradi. Shu bois dam olish maskanlarida raqamlashtirish, xizmat sifati va narx siyosatini muvofiqlashtirish dolzarb hisoblanadi. Aholining ichki turizmga bo‘lgan qiziqishi yildan-yilga ortib bormoqda, ammo bu ehtiyoj doimiy ravishda qondirilmayapti. Ko‘plab viloyatlarda turistik infratuzilma yaxshi rivojlanmagan: mehmonxonalar soni kam, yo‘llar sifatsiz, xizmat ko‘rsatish darajasi past.

Turistik infratuzilma ichki turizm rivoji uchun asosiy omillardan biridir. Ammo respublikaning ko‘plab hududlarida bu boradagi rivojlanish sust bo‘lib, turistik oqimni qabul qilish va sifatli xizmat ko‘rsatish imkoniyati cheklangan.

1. Mehmonxonalar sonining yetishmasligi

2024-yil Turizm qo‘mitasi hisobotiga ko‘ra, O‘zbekistonda jami 2400 dan ortiq turizm sub’ektlari faoliyat yuritmoqda [1]. Shulardan 1700 dan ortig‘i mehmonxona va turar joy xizmatlarini ko‘rsatadi. Ammo ularning 60 foizdan ortig‘i Toshkent shahri, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi yirik turizm markazlarida joylashgan.

Hudud	Mehmonxonalar soni (2024)	Aholiga nisbatan (100 ming kishi uchun)
Toshkent shahri	490	45
Samarqand vil.	210	23
Buxoro vil.	185	29
Qashqadaryo vil.	75	9
Surxondaryo vil.	58	7
Sirdaryo vil.	43	11

Bu ko‘rsatkichlar hududlar bo‘yicha mehmonxona joylarining yetarli darajada taqsimlanmaganini ko‘rsatadi. Ko‘plab viloyatlarda kichik mehmon uylari mavjud bo‘lsa-da, ularning ko‘pchiligi sanitariya, xavfsizlik va xizmat sifati bo‘yicha xalqaro standartlarga javob bermaydi [2].

2. Transport va yo‘llar sifati

Ichki turizmga xizmat qiluvchi transport infratuzilmasi, ayniqsa viloyat va tuman yo‘llarining sifati ko‘plab hududlarda talabga javob bermaydi. 2023-yilda Transport vazirligi va Turizm qo‘mitasining hamkorlikdagi monitoringi natijalariga ko‘ra: Sayyohlar tashrif buyuradigan 100 ta asosiy yo‘nalishdan 47 tasida yo‘l qoplamasi yomon, belgilar yetishmaydi yoki xavfsizlik choralari ko‘rilmagan [3]. Masalan,

Boysun – Darband yo‘li (Surxondaryo viloyati), Zaamin – G‘allaorol yo‘li (Jizzax viloyati), Baxmal – Sarmishsoy yo‘li (Navoiy viloyati) ekoturizm nuqtalariga olib boradi, ammo yo‘l sifati past, jamoat transporti mavjud emas. Ushbu muammolar natijasida mahalliy aholining o‘z hududlaridagi diqqatga sazovor joylarga yetib borishi qiyinlashmoqda, sayyohlar oqimi esa pasaymoqda.

Munozara

Ichki turizmni rivojlantirishda mahalliy aholi ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Mavjud muammolar – yuqori narxlar, past xizmat sifati, reklama va axborot tanqisligi, logistika muammolari – aholining ichki turizmga bo‘lgan ishonchini pasaytiradi. Shu bois ichki turizmni rivojlantirishda quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratish zarur:

- Hududiy turizm klasterlarini yaratish orqali har bir viloyatning o‘ziga xos turistik brendini shakllantirish;
- Ijtimoiy reklama va raqamli marketing vositalari orqali ichki turizmni ommalashtirish;
- Arzon, mavsumiy va oilaviy yo‘nalishlarni ishlab chiqish orqali turizmni ommaviylashtirish;
- Kadrlar tayyorlash va xizmat madaniyatini oshirish orqali xizmatlar sifatini yaxshilash.

Xulosa. Hududiy tengsizlik, infratuzilma yetishmovchiligi va xizmatlar sifati bo‘yicha mavjud tafovutlar ichki turizmni to‘liq rivojlantirishga to‘sqinlik qilmoqda. Shuning uchun har bir viloyat uchun hududiy infratuzilma rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish, kadrlar tayyorlash tizimini mahalliy turizm ehtiyojlariga moslashtirish, shuningdek xizmatlar sifatini baholash milliy tizimini joriy etish zarur bo‘lib qolmoqda. Ichki turizm O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy barqarorlik va milliy madaniyatni targ‘ib qilishning muhim omilidir. Uning rivoji nafaqat davlat budjetiga qo‘shimcha daromad keltiradi, balki aholining madaniy saviyasini ham oshiradi. Shuning uchun ichki turizmni rivojlantirish – bu butun mamlakat miqyosidagi kompleks yondashuvni talab qiluvchi strategik vazifadir.

Xulosa qilib aytganda, ichki turizm yo‘nalishlarining har biri o‘ziga xos imkoniyatlar bilan birga ayrim muammolarni ham o‘z ichiga oladi. Shu bois, har bir yo‘nalishda hududiy ixtisoslashuvni rivojlantirish, zamonaviy turizm infratuzilmasini yaratish, aholiga qulay va arzon xizmatlar ko‘rsatish hamda mahalliy aholini turizmda faol ishtirok etishga jalb qilish ichki turizmni rivojlantirishning asosiy omillari bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar ro‘yhati

1. Davlat statistika qo‘mitasi. (2024). O‘zbekiston Respublikasida turizm xizmatlari statistik tahlili. Toshkent: Statqo‘m nashriyoti.
2. O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi. (2024). 2023–2024 yillardagi turistik infratuzilma holati bo‘yicha hisobot. Rasmiy vebsayt: www.tourism.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi. (2023). Viloyatlardagi turistik yo‘nalishlar infratuzilmasi tahlili bo‘yicha yakuniy hisobot. Toshkent: Transport vazirligi matbuoti.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2022). Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida PF–60-sonli Farmon, 28-yanvar. https://lex.uz/docs/5841065
6. UNESCO World Heritage Centre. (2024). World Heritage List: Uzbekistan. Rasmiy sayt: https://whc.unesco.org/en/statesparties/uz.

IKKI MADANIYATDA XIYONAT OBRAZLARI, MUNOSABATLAR, OQIBATLARI; JAMIYATNING QADRIYATLARGA MUNOSABATI

N.S.Qosimova
Jizzax davlat pedagogika universiteti o’qituvchisi,
qosimovan561@gmail.com

O‘zbek hikoya, qissa va romanlarida sadoqat va xiyonat, yolg‘izlik motivi alohida o‘ringa ega. Faqatgina bu motiv o‘zbek adiblari ijodida ko‘pincha biror rahbar xodimning sho‘rolar mafkurasiga berilib, o‘z xalqiga etkazgan zulm-zo‘ravonligi natijasida ularning g‘azabiga uchrashi va suyangan tuzumi qulagach yoki ishdan bo‘shatib yuborilgach yolg‘izlikka giriftor bo‘lishini tasvirlash uchun qo‘llangan. Ularning yolg‘izlanish sabablari ichki va tashqi monologlari orqali ochib berilgan.

Ayrim qahramonlarning esa yaqinlari o‘limiga sababchi bo‘lgan tuzumdan, hamyurtlaridan noroziligi yoki o‘zining insonlar bilan muloqotga kirishish qobiliyatining pastligi, ilmga yoxud dinga mukkasidan ketib, atrofidagilarni unutib qo‘yishi, oilasi va do‘stlari bilan kelishmovchilikka borishi yolg‘izlanishiga omil bo‘lgani badiiy ifoda etilgan.

Vatanparvarlik O‘zbek adabiyotida sadoqatning yuqori shakli sifatida ko‘rsatiladi. Vatanga, xalqqa va milliy qadriyatlarga sodiqlik qahramonlarning asosiy fazilatlaridan biri sifatida tasvirlanadi. Xiyonat qahramonlarning ichki mojarolari va ruhiy azoblari orqali chuqur tahlil qilinadi, bu esa xiyonatning inson qalbiga qanday ta’sir qilishi haqida o‘ylashga undaydi.

O‘zbek adabiyotida sadoqat va xiyonat ko‘pincha tarixiy voqealar va milliy kurashlar doirasida tasvirlanadi, bu tushunchalar milliy mustaqillik va ozodlik uchun kurash jarayonida muhim o‘rin tutadi.

Sadoqat – fidoyilik, vafodorlik, ishonch va axloqiy majburiyat timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Xiyonat esa ishonchga xiyonat qilish, axloqiy prinsiplardan chekinish va jamiyat tamoyillarini buzish bilan bog‘liq. Har ikki madaniyatda bu tushunchalar faqat shaxsiy emas, balki jamiyat, davlat va ma’naviy qadriyatlarga bo‘lgan munosabat mezonlari sifatida ko‘riladi.

Lingvistik jihatdan sadoqat va xiyonat atamalari har ikki tilda boy sinonimlar va iboraviy birliklarga ega bo‘lib, ular madaniyatga xos ma'no rang-barangligini ifodalaydi.O‘zbek tilida “vafodorlik”, “sadoqat”, “matonat”, “qilichdek sodiq” kabi tasviriy ifodalar keng qo‘llanilsa, ingliz tilida “loyalty”, “faithfulness”, “betrayal”, “treason” kabi tushunchalar psixologik va ijtimoiy ma’nolarni mujassam etadi. Bunda madaniy mentalitetning tilga ta’siri yaqqol seziladi.

Har ikki adabiyotda sadoqat va xiyonat obrazlari ko‘pincha qarama-qarshi ruhiy holatlar va ijtimoiy kurashlarning markaziy dramatik mezoniga aylanadi. Bir obrazda sadoqat va xiyonatning uyg‘unlashuvi ham mavjud: masalan, Fitrat dramalarida iymonli xoin, Hemingwayda esa xiyonatni majburiy qaror sifatida bajargan qahramonlar mavjud. Bu holatlar tushunchalarning mutlaq emasligini ko‘rsatadi.

Har ikki madaniyatda xiyonat obrazlari ayol va erkak orasidagi munosabatlar asosida aks ettirilgan bo‘lsa-da, ularning sabablari va oqibatlari jamiyatning qadriyatlarga munosabati bilan belgilanadi.O‘zbek adabiyotida ayol xiyonati ko‘proq qoralansa, erk xiyonati ko‘proq tushunishga urinish bilan tasvirlanadi. Amerika adabiyotida esa genderga bog‘liq ajratishdan ko‘ra, shaxsiy psixologik sabablar muhim rol o‘ynaydi.

“Sadoqat” va “Xiyonat” tushunchalari universal bo‘lishiga qaramay, har bir millat va adabiy an’anada ular madaniy, tarixiy, diniy va lingvistik jihatdan o‘ziga xos tarzda talqin qilinadi**.**Shu sababli bu tushunchalarning lingvomadaniy o‘rganilishi madaniyatlararo muloqot, adabiy tarjima va xalqaro gumanitar aloqalarni chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduazizov A.A. O sostavnix chastyax kognitivnoy lingvistiki // Xorijiy filologiya. – 2007. – №3. – S. 5-6.

2. Angelova M.M. Zamonaviy madaniy tilshunoslikda "kontsepsiya" / M.M. Angelova // Ingliz tilshunosligi va lingvodidaktikasining dolzarb muammolari. Ilmiy ishlar to‘plami. 3-son. – M., 2004. – S. 3-10.

3. Ашурова Д.У. Преспективы научных исследований в свете новых направлений лингвистики // Филология масалалари. – 2004. – № 4.

4. Гумбольдт В. О различии строения человеческих языков и его влиянии на духовное развитие человечества// Избр. труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984. – 400 с.

5. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab... // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. – № 5. – B. 3-16.

6. Yusupov U.K. Ma'no, tushuncha, konsept va lingvokulturema atamalari xususida// Stilistika tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlarida. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –T., 2011. B. 3-12.

7. Карасик В. И. Тилда маданий доминантлар // тил шахсияти: маданий тушунчалар. – Волгоград-Архангелск, 1996. – П. 3-16

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA INGLIZ TILIGA QIZIQISHNI RIVOJLANTIRISH: DIDAKTIK VA METODIK YONDASHUVLAR

S.A.Bozorboyev
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali Pedagogika va tillarni o‘qitish fakulteti, 4-bosqich talabasi. sirojiddinbozorboyev44@gmail.com

Annotatsiya Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ingliz tiliga qiziqishlarini shakllantirishda didaktik va metodik yondashuvlarning ro’li yoritilgan. Chet tilini erta bosqichda o‘rgatishda o‘yin, vizual materiallar, motivatsion usullar va yoshga mos metodlar orqali samaradorlikka erishish mumkinligi ilmiy asosda izohlangan. Shuningdek, mahalliy va xorijiy tajriba asosida tavsiyalar keltirilgan.

Аннотация В данной статье освещается роль дидактических и методических подходов в формировании интереса к английскому языку у учеников начальных классов. Обоснована эффективность использования игровых методик, визуальных материалов и мотивационных стратегий с учетом возрастных особенностей учащихся. Приведены рекомендации на основе местного и зарубежного опыта.

Abstract In this article, the role of didactic and methodological approaches in developing interest in the English language among primary school pupils is examined. It is scientifically explained that early foreign language teaching can be effective through the use of games, visual materials, motivational techniques, and age-appropriate methods. Additionally, recommendations are provided based on both local and international educational practices.

Kirish. Bugungi kunda ingliz tilini erta yoshdan boshlab o‘rgatish zamonaviy ta’lim tizimida muhim o‘rin egallamoqda. Til o‘rganishga qiziqish — muvaffaqiyatli o‘zlashtirishning kalitidir. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun darsning didaktik qurilishi va metodik taqdimoti ularning tildagi faol ishtirokiga bevosita ta’sir qiladi . Didaktik qurilish — bu dars mazmunining, metodlarining, vositalarining va o‘quvchilarning yoshiga mos bo‘lgan bosqichma-bosqich taqdimotidir.

Didaktik asoslar va yoshga mos yondashuv

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida dars mazmunining psixologik va pedagogik asoslarini hisobga olish nihoyatda muhimdir. Jean Piaget nazariyasiga ko‘ra, 7–10 yoshli bolalar konkret-operatsion bosqichda bo‘ladilar, Bu esa ularning fikrlashi ko‘proq real voqelik, vizual ko‘rsatmalar va jismoniy harakatlar orqali shakllanishini anglatadi (Piaget, 1972). Ular hali mavhum tushunchalarni to‘liq anglab yeta olmaydi, balki tajriba, ko‘rish, eshitish va bajarish orqali o‘rganishga moyildir.

Shuning uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ingliz tili darslarini tashkil etishda quyidagi didaktik yondashuvlar asosida harakat qilish zarur:

Rasm va harakatlarga boy darslar;:

-Tasvirlar;

- Diagrammalar;

-Kartochkalar;

-Piktogrammala va harakatli o‘yinlar orqali tushuncha berish orqali bolalarda eslab qolish va tushunish darajasi ortadi.

Multimedia vositalaridan foydalanish:

- Video darslar;

- interaktiv taqdimotlar;

-audio materiallar;

animatsiyalar va mobil ilovalar o‘quvchilarning e’tiborini tortadi va ularning motivatsiyasini oshiradi Qisqa va sodda tushunchalar asosida ta’lim: Grammar yoki leksika materiallari ortiqcha nazariyasiz, qisqa jumlalar va real holatlar asosida, eslab qolishga yordam beradigan kontekstda taqdim etilishi lozim. Bu ham o’z navbatida o’quvchining til o’rganishga bo’lgan ishtiyoqini oshiradi.

Harakat bilan bog‘liq topshiriqlar:

"Total Physical Response" (TPR) metodikasi orqali berilgan topshiriqlar (masalan, "Stand up", "Point to the door", "Clap your hands") bolalarning tilni tana harakati bilan bog‘lab o‘rganishiga yordam beradi.

O‘yinlar va rolli mashqlar: Dars jarayonida dramatizatsiya, rolli o‘yinlar, dialoglar, savol-javob o‘yinlari orqali o‘quvchilar faol va erkin qatnashishga undaladi.Yoshga mos metodik yondashuvda o‘quvchilarning individual qiziqishlari, bilish darajasi va ijtimoiy-emosional holati ham hisobga olinishi kerak. Ustozning vazifasi — o‘quv muhitini bolalar uchun qulay va ilhomlantiruvchi qilishdir.

Motivatsiyani shakllantirish omillari. O‘quvchilar muvaffaqiyatga erishganini his qilganda, ularning ichki motivatsiyasi ortadi. Rag‘batlantirish, tanish mavzularni tanlash, interaktiv topshiriqlar bu borada muhim omillardir (Harmer, 2007). Shuningdek, o‘qituvchining shaxsiy namuna ko‘rsatishi, mehribonlik va do‘stona muhit yaratishi dars samaradorligini oshiradi.

Xorijiy va mahalliy tajriba asosidagi tavsiyalar O‘zbekiston ta’lim tizimida 1-sinfdan boshlab ingliz tili kiritilgan. Biroq quyidagi amaliy tavsiyalar samaradorlikni oshiradi:

1.Darsda har 10 daqiqada faol harakat ;

2.Guruhlarda ishlash va rolli o‘yinlar;

3.O‘quvchilar ismlarini ishlatib individual yondashuv,

4.Raqamli ilovalar va videodarslardan foydalanish.

Xulosa. Ingliz tilini boshlang‘ich sinflarda o‘qitishda didaktik va metodik yondashuvlar uyg‘unlashgan holda qo‘llansa, o‘quvchilarda chet tiliga bo‘lgan qiziqish barqaror rivojlanadi. Ayniqsa, dars jarayonida o‘yin usullari, vizual materiallar va motivatsion elementlardan foydalanish bolalarning faol ishtirokini oshirib, til o‘rganishni tabiiy va qiziqarli jarayonga aylantiradi. Bu usullar o‘quvchilarning yoshiga mos ravishda tanlansa, ularning tilga bo‘lgan ijobiy munosabatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Cameron, L. (2001). Teaching Languages to Young Learners. Cambridge University Press.
2. Harmer, J. (2007). The Practice of English Language Teaching. Pearson Education.
3. Dörnyei, Z. (2001). Motivational Strategies in the Language Classroom. Cambridge University Press.
4. Piaget, J. (1972). The Psychology of the Child. Basic Books.

PRETSEDENT NOMLARNING SHOIR ASARLARIDA INTERTEKSTUALLIK YARATILISHIDAGI O‘RNI

N.M.Topiljonova
Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada intertekstual hodisa sifatida qaralaydigan til birliklari – pretsedent birliklar haqida umumiy nazariy ma’lumotlar bayon etilgan. Ularning adabiy matnda intertekstuallikni shakllantirishdagi roli yoritilgan. Maqolada Abdulla Oripov ijodida uchraydigan pretsedent nomlar tahlil qilinib, ular orqali adabiy matnning semantik qatlamlari chuqurlashuvi va poetik konnotatsiyalar boyishi ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, shoir asarlarida pretsedent birliklar intertekstual bog‘liqlik vositasi sifatida xizmat qilishi hamda muallifning badiiy-estetik niyatini ifoda etishda muhim funksional yuklama kasb etishi asoslangan.

Kalit so‘zlar: intertekstuallik, pretsedent nom, paratekstuallik, metatekstuallik, gipotekstuallik, arxitekstuallik

Аннотация: В данной статье представлены общие теоретические сведения о языковых единицах - прецедентных единицах, рассматриваемых как интертекстуальные явления. Освещена их роль в формировании интертекстуальности в литературном тексте. В статье анализируются прецедентные имена, встречающиеся в творчестве Абдуллы Арипова, и через них показано углубление семантических слоев литературного текста и обогащение поэтических коннотаций. Также обосновано, что прецедентные единицы в произведениях поэта служат средством интертекстуальной связи и играют важную функциональную нагрузку в выражении художественно-эстетического замысла автора.

Ключевые слова: интертекстуальность, прецедентное имя, паратекстуальность, метатекстуальность, гипотекстуальность, архитектуальность.

Abstract: This article presents general theoretical information about precedent units - language units considered as intertextual phenomena. Their role in forming intertextuality in literary texts is highlighted. The article analyzes precedent names found in the works of Abdulla Oripov, demonstrating

how they deepen the semantic layers of the literary text and enrich poetic connotations. It is also substantiated that precedent units in the poet's works serve as a means of intertextual connection and carry an important functional load in expressing the author's artistic and aesthetic intention.

Keywords: intertextuality, precedent name, paratextuality, metatextuality, hypotextuality, architextuality

Intertekstuallik – bu bir matnning boshqa matn(lar) bilan aloqasi, undagi mazmun, shakl yoki uslubiy jihatlarning boshqa matnlar orqali aniqlanishidir. Intertekstuallik adabiyotshunoslikda matnlararo bog‘lanishlarni ifodalovchi muhim kategoriya hisoblanadi. Ushbu tushuncha orqali muallif boshqa matnlar bilan qanday muloqotda bo‘lishini, ma’no qatlamlari qanday shakllanishini tahlil qilish mumkin. Pretsedent birliklar, xususan, pretsedent nomlar esa bu jarayonda asosiy vositalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Abdulla Oripov ijodida esa bunday nomlar vositasida diniy, tarixiy, adabiy va milliy konnotatsiyalar yaratilib, intertekstuallik kuchaytiriladi. Intertekstuallik — bu bir matn ichida boshqa matnlarning izlari, unsurlari yoki konnotatsiyalarining mavjud bo‘lishini anglatadi. Bu tushuncha matnning mustaqil va yopiq emasligini, balki boshqa matnlar bilan muloqotda, kontekstual aloqada ekanligini bildiradi.

Intertekstuallik — bu matnning boshqa matnlar bilan o‘zaro aloqadorligini ifodalovchi lingvistik va madaniy hodisadir. Ushbu tushuncha dastlab fransuz olimi Yuliya Kristeva tomonidan 1966-yilda ilmiy muomalaga kiritilgan. Kristevaning fikricha, har qanday matn boshqa matnlar bilan doimiy muloqotda bo‘ladi va o‘z ma’nosini aynan shu munosabat orqali hosil qiladi. [Kristeva.1966:B.53]

Mixail Baxtin intertekstuallikning ildizlarini o‘zining dialogizm va polifoniya haqidagi qarashlarida bayon qiladi. Baxtin so‘z va matnlarning hech qachon yolg‘iz emasligini, ular doimo boshqa nutqiy voqealarga munosabat sifatida yuzaga kelishini ta’kidlaydi. Olimning ta’kidlashicha, har bir matn va har bir so‘z dialogik tabiatga ega bo‘lib, u o‘tmishda aytilgan, hozirgi aytilayotgan va kelajakda aytilajak so‘zlar bilan muloqotdadir.[Baxtin.1963:B.98]

Roland Bart esa “Muallifning o‘limi” maqolasida matnni yaratuvchidan uzib, o‘quvchini asosiy interpretator sifatida ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, matn o‘z-o‘zidan mavjud bo‘lib, u boshqa matnlar va madaniy kontekst bilan o‘zaro aloqadorlikda yashaydi. [Barthes.1963:B.5-6]

Intertekstuallikning turlari adabiy matnlar orasidagi murakkab aloqalarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bu turlar ilk bor Jerar Jenett tomonidan tizimli holda o‘rganilgan va “transtekstuallik” atamasi bilan ifodalangan. [Genette.1982:B.80]

1.Intertekstuallik — bu matnning boshqa matndan bevosita iqtibos, ishora, reministsensiya yoki alluziya orqali foydalanishidir. Bu holatda matnlar orasidagi aloqadorlik aniq ko‘rinadi. Masalan, diniy matnlardan iqtiboslar, tarixiy shaxslar nomlari yoki mashhur adabiy obrazlarga murojaat qilish.

Abdulla Oripovning ko‘plab she’rlarida diniy, tarixiy va adabiy manbalardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtibos yoki ishoralar mavjud. Masalan, “Odam Ato” she’rida Qur’oni Karimdagi odamzod yaratilishi haqidagi voqeaga murojaat etiladi:

Juda-juda qadim zamon
Yuz berib bir xatomiz,
Arshdan ketgan Momo Havo
Hamda Odam Atomiz. [Oripov.2010:98]

2.Paratekstuallik — bu matn atrofidagi barcha “yo‘ldosh” elementlarni o‘z ichiga oladi: muqova, sarlavha, muallif so‘zi, eslatmalar va izohlar. Bu elementlar matnni qanday qabul qilishni belgilaydi. Shoirning she’rlari sarlavhalari, izohlari va turli kirish so‘zlari paratekstual element sifatida xizmat qiladi. Masalan, “Saylanma” to‘plamidagi “O‘zbekiston – Vatanim manim” she’ri milliy g‘urur kontekstida sarlavhasi orqali yo‘naladi.

3. Metatekstuallik — bu bir matnning boshqa matn haqida bergan sharhi yoki izohidir. Ko‘pincha tanqidiy maqolalar, ilmiy tahlillar, adabiy esse va boshqa reflektiv janrlar ushbu turga mansub bo‘ladi. Oripovning ayrim she’rlari boshqa adabiy asarlar yoki shoirlar ijodiga izoh, fikr bildiruvchi xarakterga ega. Masalan, Alisher Navoiy, Erkin Vohidovga bag‘ishlangan she’rlari orqali Oripov ularning poetikasiga munosabat bildiradi.

4. Gipotekstuallik — bu matnning boshqa matnga asoslanib, uni qayta ishlash (parodiya, pastish, travestiya) orqali yaratilgan shaklidir. Masalan, klassik asar asosida zamonaviy parodiya yoki ironik variant yozilishi. Shoir klassik asarlar motivlarini zamonaviy shaklda qayta ishlab, o‘z she’riyati uchun manba sifatida ishlatadi. Masalan, “Sabog‘im bor” she’rida xalq maqollari va ertaklardagi g‘oyalar zamonaviy talqinda ifoda etiladi.

5. Arxitekstuallik — bu matnning janr, uslub, mavzu va adabiy an’analarga bog‘liqligini ifodalaydi. Bu matnning umumiy adabiy tizimga qanday mansub ekanligini ko‘rsatadi (masalan, roman janri, lirika, epopeya va boshqalar). Abdulla Oripov asarlari lirik, falsafiy, satirik janrlarga mansub bo‘lib, ularning har biri ma’lum adabiy an’ana va janr doirasiga kiradi. Masalan, “Inson” dostonida epik janr va falsafiy-fikriy yo‘nalish uyg‘unlashgan. Pretsedent nomlar - o‘quvchi yoki auditoriya tomonidan tanilgan, umumiy madaniy xotirada mavjud bo‘lgan shaxslar, hodisalar yoki atamalardir. Ular matnda ishlatilganda avtomatik tarzda boshqa kontekstlar va matnlar bilan bog‘lanadi. Chudinov, Karaulov, Krasnyx kabi olimlar bu birliklarning intertekstuallikdagi o‘rnini alohida ta’kidlaydi. Bu nomlar milliy-madaniy kodlar vositasi bo‘lib, ularning qo‘llanishi orqali muallif o‘z g‘oyasini chuqur va ko‘p qatlamli qilib yetkazadi.

Abdulla Oripov o‘z asarlarida pretsedent nomlar orqali tarix, din, adabiyot va milliy g‘ururni uyg‘unlashtiradi. Bu nomlar o‘quvchi xotirasida tayyor konnotatsiyalarni faollashtiradi, shoir esa u orqali g‘oyaviy-estetik pozitsiyasini mustahkamlaydi. Masalan, 'Sohibqiron' deganda o‘quvchi nafaqat Amir Temur obrazini, balki uning tarixiy merosini ham eslaydi. Bu esa matnning ma’no qatlamlarini chuqurlashtiradi.

Quyidagi she’rlar asosida pretsedent nomlarning intertekstuallik yaratishdagi o‘rni ko‘rinadi:

- “O‘zbegim”: Temur, Alpomish, Jaloliddin kabi tarixiy shaxslar orqali milliy faxr.
- “Sadoqat”: Iso, Muhammad (sav) nomlari orqali sadoqat va din mohiyati.
- “Sohibqiron”: Amir Temur obrazini yuksak darajada ulug‘lash.
- “Jannat”: Diniy tushunchalar orqali ruhiy poklik va onaga bo‘lgan ehtirom.
- “Istiqlol qo‘shig‘i”: Milliy qadriyatlar va istiqlol g‘oyasi uyg‘unligida pretsedent nomlar ishlatilgan.

Pretsedent nomlar – bu til va madaniyat vakillari tomonidan ilgari eshitilgan, o‘qilgan, ko‘rilgan yoki umumiy madaniy xotirada muhim o‘rin tutgan shaxslar, joy nomlari, asarlar yoki voqealardir. Ular muayyan xalq, millat yoki madaniyatning kollektiv ongida mustahkam joy olgan bo‘lib, yangi matnlarda tez-tez ishlatiladi. V. N. Telia pretsedent nomlarni madaniy-ma’naviy konnotatsiyaga ega bo‘lgan birliklar deb ta’riflagan.

Intertekstuallik – bu bir matnning boshqa matn(lar) bilan aloqasi, undagi mazmun, shakl yoki uslubiy jihatlarning boshqa matnlar orqali aniqlanishidir.

Pretsedent nomlar – intertekstuallikning asosi sifati o‘z mohiyatiga ko‘ra, intertekstual signal vazifasini bajaradi. Ular yordamida muallif matnni boshqa madaniy yoki adabiy kontekst bilan bog‘laydi, o‘quvchining bilim va tajribasiga tayangan holda chuqurroq ma’no hosil qiladi. Masalan: “Odam Ato”, “Farhod va Shirin”, “Shiroq”, “Navro‘z”, “Temur” kabi nomlar intertekstuallikni yuzaga keltiradi.

Pretsedent nomlar intertekstuallikda qanday ishlaydi?

a) Alluziya (ishora): nomni eslatish orqali kontekstga ishora qilish.

Masalan: “Majnunday devona yurarman yo‘llarda” — Majnun obrazi orqali sevgi va iztirob motivi uzatiladi.

b) Iqtibos (sitata): boshqa matndan to‘g‘ridan-to‘g‘ri keltirish.

Masalan: “Birovka qilma ravo, o‘zingga ravo bo‘lmas.”

c) Reministsensiya (yodga olish): matn ichida boshqa matnning struktura yoki mazmuni eslatiladi.

Masalan: “Nega Sirdaryo jilg‘asidan Farhod izlab qoldim?”

Pretsedent nomlarning funksiyalari:

- Semantik boyitish
- Madaniy kodlash
- Estetik-bezatish
- Emotsional ta’sir

Pretsedent nomlar – bu intertekstual aloqaning eng faol elementlaridan biridir. Ular muallifga tarixiy, madaniy, diniy, adabiy yoki siyosiy kontekstlar bilan aloqadorlik o‘rnatish imkonini beradi. Ayniqsa, Abdulla Oripov kabi shoir ijodida bu nomlar o‘zbek xalqining tarixiy-madaniy xotirasini poeziya orqali ifodalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Abdulla Oripov asarlarida pretsedent nomlar orqali intertekstuallikni yaratish – bu shoirning madaniy, diniy, adabiy va milliy xotira bilan uzviy aloqada ekanligini ko‘rsatadi. Ular orqali shoir o‘zbek xalqining tarixiy va ma’naviy boyligini aks ettirib, poetik matnning chuqur mazmunini shakllantiradi. Pretsedent nomlar shoir ijodida muloqot vositasi, estetik va g‘oyaviy qurol sifatida xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, intertekstuallikning har bir turi matnlararo bog‘liqlikning alohida ko‘rinishini ifodalaydi. Bu turlarni aniqlash orqali matnni chuqurroq tahlil qilish va uni keng madaniy kontekstda talqin etish

imkoniyati tug‘iladi. Abdulla Oripov ijodida intertekstuallikning barcha turlarini kuzatish mumkin. U diniy, tarixiy va madaniy manbalarni mohirona ishlatgan holda, o‘z asarlarining semantik qatlamini boyitgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baxtin. M. M. *Problemy poetiki Dostoevskogo* [Problems of Dostoevsky’s Poetics]. Moskva: Xudozhestvennaya literatura.1963
2. Barthes. R. *The Death of the Author*. *Aspen Magazine*, 1967. no. 5–6
3. Genette, G. *Palimpsests: Literature in the Second Degree*. (Trans. Channa Newman & Claude Doubinsky). Lincoln: University of Nebraska Press. 1982.
4. Kristeva. Y. *Word, Dialogue and Novel*. In T. Moi (Ed.), *The Kristeva Reader*. Oxford: Blackwell, 1966
5. Oripov A. Quyosh bekati:she’rlar, maqolalar, suhbatlar, tarjimalar. T. – 2010
6. Телия В.Н. Культурные концепты и язык. — М.: Языки славянской культуры, 2000.

СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ФОНЕТИЧЕСКИХ ИГР И ТРАДИЦИОННЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ ФОНЕТИКЕ В КОНТЕКСТЕ РАЗВИТИЯ КОГНИТИВНЫХ НАВЫКОВ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

А.М.Дедаханов
Turan International University Преподаватель кафедры филологии
Наманган, Узбекистан abdumalikdedahanov216@gmail.com

Аннотация: В этом исследовании оценивается эффективность использования фонетических игр в процессе обучения фонетике по сравнению с традиционными методами в начальных классах. Эксперимент был проведен среди 960 учащихся в трёх регионах Узбекистана: Андижан, Фергана и Наманган. Учащиеся были разделены на экспериментальную и контрольную группы. Результаты показали значительное улучшение в знании фонетики у учащихся, обучающихся с помощью фонетических игр, по сравнению с теми, кто продолжал обучение по традиционной программе. Фонетические игры не только способствовали повышению высоких показателей, но и улучшили мотивацию и вовлеченность учащихся к изучаемому языку.

Ключевые слова: фонетические игры, фонетика, мотивация, обучение, когнитивная деятельность, экспериментальное исследование.

Annotatsion: This study evaluates the effectiveness of using phonetic games in the process of teaching phonetics compared to traditional methods in elementary grades. The experiment was conducted among 960 pupils in three regions of Uzbekistan: Andijan, Fergana and Namangan. Students were divided into experimental and control groups. The results showed a significant improvement in knowledge of phonetics in students learning through phonetic games compared to those continuing through the traditional curriculum. Phonetic games not only contributed to high performance, but also improved motivation and student engagement in the language studied.

Keywords: phonetic games, phonetics, motivation, teaching, cognitive activity, experimental study.

Введение: В контексте изучения русского языка в начальных классах особую роль приобретают инновационные подходы, среди которых фонетические игры занимают значительное место. Настоящая статья посвящена сравнительному анализу фонетических игр и традиционных методов обучения фонетике. Цель исследования — оценить эффективность каждого из подходов в контексте формирования когнитивной деятельности, что представляет собой ключевую задачу современного образовательного процесса. Проблема выбора методик обучения в школе становится особенно актуальной в свете последних образовательных реформ, направленных на развитие не только знаний, но и умений, а также навыков самостоятельной познавательной деятельности. Фонетика как одна из фундаментальных дисциплин в изучении языка требует от педагогов особого подхода, который бы способствовал активному вовлечению учащихся в учебный процесс и стимулированию их интереса к предмету. Игровые технологии, включая фонетические игры, как

считают многие эксперты, могут способствовать лучшему усвоению материала за счет создания мотивационной и интерактивной учебной среды. Такие технологии позволяют учащимся активно экспериментировать с звуками, словами и ритмами, что способствует глубокому пониманию материала и развитию критического мышления, учитывание традиционных методов также имеют свои преимущества, включая структурированность, последовательность и систематичность, что является немаловажным для формирования строгой научной картины мира у младших школьников. Методология данного исследования включает анализ научной литературы по теме, наблюдения за учебным процессом в начальных классах, а также анкетирование и интервьюирование учителей и учащихся.

Важной составляющей исследования станет анализ педагогических случаев, которые демонстрируют конкретные ситуации из практики применения различных методов обучения фонетике. Цель такого анализа — выявить потенциальные возможности и ограничения каждого из методов, а также определить условия и факторы, которые способствуют или, наоборот, препятствуют успешному формированию когнитивной деятельности у учащихся начальных классов.

Материалы. Изучение проводилось в течение учебного года в трех школах, где применялись как традиционные методы обучения, так и методы, основанные на использовании фонетических игр. Для анализа были выбраны классы, где обучение проводилось полностью на русском языке. В качестве основных материалов исследования были использованы учебные программы по русскому языку для начальных классов, методические пособия для учителей, а также разработанные и адаптированные фонетические игры, направленные на изучение звуков, слоговой структуры слов и ударений. Дополнительные материалы включали видеозаписи уроков, интервью с учителями и обратную связь от родителей, что позволило собрать комплексные данные о динамике учебного процесса и вовлеченности учащихся.

Методы. Исследование было разделено на три основные фазы: подготовительную, основную и аналитическую. В подготовительной фазе проводился сбор и анализ научной литературы по применению фонетических игр в образовательном процессе, а также традиционных методов обучения фонетике. Основная фаза включала наблюдения за учебным процессом, проведение экспериментов и сбор данных. Наблюдения проводились регулярно, что позволяло отслеживать изменения в уровне знаний и умений учащихся, их мотивацию и интерес к изучаемому предмету. В каждом классе были выбраны контрольные и экспериментальные группы, что дало возможность провести сравнительный анализ эффективности различных обучающих подходов. В экспериментальных классах использовались фонетические игры как основной метод обучения. Игры включали различные виды деятельности, направленные на развитие фонетического слуха, умения различать и воспроизводить звуки, ударения и ритм русского языка, а контрольные классы продолжали заниматься по традиционной программе.

Для сбора данных использовались анкеты, интервью с учителями и учащимися, анализ учебных достижений по результатам тестирования и наблюдения за учебным процессом. Все собранные данные систематизировались и анализировались с помощью качественных и количественных методов исследования.

Результаты. Экспериментальное исследование было проведено среди учащихся пятых классов в трёх различных регионах: Андижане, Фергане и Намангане. Всего в экспериментальную группу было включено около 960 учеников, которые проходили обучение с использованием фонетических игр как основного метода изучения фонетики. Для оценки уровня знаний учащихся использовались стандартизированные тесты, которые проводились до и после экспериментального обучения. Результаты показали значительное улучшение в знании фонетики у учащихся экспериментальной группы по сравнению с контрольной группой, которая продолжала обучение по традиционной методике.

- Улучшение знаний по фонетике: По шкале от 0 до 100 баллов средний балл до начала эксперимента составлял 40 баллов, после эксперимента средний балл увеличился до 65 баллов.

- Сравнение с экспериментальной группой: В экспериментальной группе средний балл улучшился лишь с 43 до 50 баллов за аналогичный период.

Анкетирование учащихся показало повышение мотивации и интереса к изучению русского языка. Около 85% учеников экспериментальной группы отметили, что фонетические игры сделали процесс обучения более интересным и понятным: - уровень интереса к изучению языка: В

экспериментальной группе уровень интереса учащихся увеличился с 60% до 90%, тогда как в контрольной группе этот показатель остался примерно на одном уровне — 62% до и 64% после эксперимента; - самооценка учащихся: Учащиеся экспериментальной группы также отметили повышение уверенности в своих знаниях и умениях, что, по их словам, способствовало лучшему усвоению материала.

Учителя, принимавшие участие в эксперименте, подтвердили наблюдения улучшения как знаний, так и мотивации у учащихся. Учителя отметили, что уровень дисциплины и концентрации внимания во время уроков значительно повысился, что также способствовало более эффективному обучению.

Выводы. Результаты эксперимента показали, что интеграция фонетических игр в процесс обучения фонетике в начальных классах значительно повышает не только уровень знаний учащихся, но и их мотивацию, интерес к предмету и общую учебную активность.

Результаты проведенного исследования подчеркивают значительные преимущества использования фонетических игр в процессе обучения фонетике у учащихся начальных классов по сравнению с традиционными методами. Эффективность фонетических игр, как показали результаты, выражается не только в повышении уровня знаний учащихся, но и в улучшении их мотивации и вовлеченности в учебный процесс.

Мотивация является ключевым фактором успешного образования, и как показали данные, фонетические игры значительно увеличивают интерес учащихся к предмету. Это можно объяснить тем, что игровой подход уменьшает эмоциональное напряжение, часто сопровождающее процесс обучения, и делает процесс изучения более динамичным и интерактивным. Учащиеся чувствуют себя более комфортно и свободно, что способствует лучшему усвоению материала и развитию навыков самостоятельной работы. Анализ результатов тестирования показал, что учащиеся экспериментальной группы значительно улучшили свои знания в области фонетики. Это подтверждает гипотезу о том, что фонетические игры способствуют более глубокому и осмысленному усвоению звуковой структуры языка. Возможно, это связано с тем, что игры позволяют учащимся экспериментировать и исследовать языковые явления в более контролируемой и менее стрессовой среде, что, в свою очередь, улучшает когнитивное восприятие и запоминание информации.

Список литературы

1. Brown, A. "Interactive Methods in Language Teaching: New Perspectives" // Modern Language Journal, 2022. — Vol. 106, No. 2. — Pp. 202-218.

2. Дедаханов, А.М. Формирование познавательных универсальных учебных действий учащихся начальных классов при обучении родному языку// ORIENSS. 2022. № Special Issue 4-2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/formirovanie-poznavatelnyh-universalnyh-uchebnyh-deystviy-uchaschihsya-nachalnyh-klassov-pri-obuchenii-rodnomu-yazyku.

3. Дедаханов Абдумалик Муталлиевич Формирования когнитивных действий у учащихся начальных классов при обучении русскому языку // ReFocus. 2022. №3. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/formirovaniya-kognitivnyh-deystviy-u-uchaschihsya-nachalnyh-klassov-pri-obuchenii-russkomu-yazyku

4. Иванов В.В. "Инновации в начальном образовании: опыт использования фонетических игр". Москва: Издательство "Просвещение", 2022. С. 112-130.

5. Козлова С.Н. "Использование игровых технологий в начальной школе". Педагогический журнал, 2019, № 4(2), стр. 120-131.

6. Кузнецова А.Н. "Мотивация как фактор успеха в обучении". Вестник педагогических наук, 2021, № 3, стр. 34-40.

7. Медведева И.К. "Игровые методы в обучении: эффективность и перспективы". Журнал "Современное образование", 2019, № 2, стр. 58-65.

8. Павлова М.С. "Социальные навыки в школьном образовании". Журнал "Новая школа", 2022, № 1, стр. 44-50.

9. Петрова Е.Г. "Геймификация в образовании: от теории к практике". Журнал современных образовательных технологий, 2022, № 6(3), стр. 44-56.

10. Харитонова Е.П. "Функциональное мышление в начальной школе: развитие через игру". Педагогический журнал, 2020, № 4, стр. 110-116.

11. Улухужаев Н.З. Фонетические упражнения на уроках русского языка начальных классов: метод.пособие / Улухужаев Н.З. – Наманган, 2021. – 94 с.

QADAMJOYLAR VA ZIYORATGOHLARDAN EKOLOGIK MAQSADLARDA FOYDALANISH

Sh.X.Turdiboyeva
FarDU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada qadamjoylar va ziyoratgohlarning ekologik ahamiyati hamda ularni atrof-muhitni muhofaza qilishda samarali foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Tarixiy-geografik manbalar asosida Farg‘ona vodiysidagi muqaddas joylarning diniy va ekologik funksiyalarini ochib berilgan. Ziyoratgohlar nafaqat ma’naviy maskan, balki o‘ziga xos “biosfera qo‘riqxonalari” sifatida muhim ekologik rol o‘ynagani misollar bilan ko‘rsatib berilgan. Tabiatni asrashdagi diniy-huquqiy an’analar, tog‘-tekislik geojuftligining suv ta’minotidagi roli hamda ekotizimlarni muhofaza qilishdagi qadimiy urf-odatlar haqida batafsil ma’lumotlar berilgan.

Аннотация: В статье рассматривается экологическое значение мест паломничества и святилищ, а также возможности их эффективного использования в охране окружающей среды. На основе историко-географических источников раскрываются религиозные и экологические функции святых мест Ферганской долины. Приведены примеры, показывающие, что места паломничества играют важную экологическую роль не только как духовные объекты, но и как уникальные «биосферные резерваты». Подробно рассматриваются религиозные и правовые традиции в охране природы, роль горно-равнинной геопары в водоснабжении, а также древние обычаи в защите экосистем.

Annotation: This article highlights the ecological significance of pilgrimage sites and shrines and the possibilities of their effective use in environmental protection. Based on historical and geographical sources, the religious and ecological functions of sacred places in the Fergana Valley are revealed. Examples show that pilgrimage sites play an important ecological role not only as spiritual places, but also as unique “biosphere reserves”. Detailed information is provided on religious and legal traditions in nature conservation, the role of the mountain-plain geopair in water supply, and ancient customs in protecting ecosystems.

Kalit so‘zlar: Qadamjoy, ziyoratgoh, ekologiya, diniy-madaniy meros, etnoekologiya, tabiatni muhofaza qilish, suv resurslari, diniy ekologik madaniyat, qo‘riqxona.

Ключевые слова: место паломничества, экология, религиозное и культурное наследие, этноэкология, охрана природы, водные ресурсы, религиозная и экологическая культура, заповедник

Keywords pilgrimage site, ecology, religious and cultural heritage, ethnoecology, nature conservation, water resources, religious and ecological culture, reserve.

Insoniyat ma’naviy madaniyatining tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan diniy dunyoqarashda ham tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan qator jihatlar uchraydi. Dunyodagi deyarli barcha dinlarda mavjud bo‘lgan ekologik qarashlar haqidagi batafsil ma’lumotlar V.I.Kozlov (2005), S.M.Myagkov (2001), V.L.Ogudin (2000), R.Ya Rassudova (1985) va boshqalarning tadqiqotlarida bayon etilgan. Dinning ekologik funksiyasi ancha murakkab bo‘lib, u dinning dunyoqarashini shakllantiruvchi va tartibga soluvchi funksiyalarini birikuvidan tarkib topadi. Uning faoliyat doirasiga u yoki bu diniy yo‘nalish tomonidan tashkil etilgan dunyoni muqaddaslashtirilgan tasvirini atrof-muhit bilan munosabati hamda insonlarning mazkur muqaddas joylarga bo‘lgan ahloqiy munosabatlarini xulq-atvor qoidalarida saqlanib qolishi kiradi. Bunday yondashuvda diniy muqaddas ekologiya haqida fikr yuritish mumkinligi V.L.Ogudin (2000) tomonidan ta’kidlanadi.

Dinning ekologik funksiyasini o‘rganishda ilohiyot va ekologiya oralig‘ida shakllanib borayotgan ekoteologiya yo‘nalishi alohida o‘rin tutadi. *Ekoteologiya*- (Din ekologiyasi) yo‘nalishini asoschisi shved tarixchisi O.Xultkrans ta’rifi bilan aytganda, yo‘nalishning vazifasi atrof-muhitni dinga bo‘ladigan bevosita ta’sirini o‘rganishdir. Biroq, bugungi tushunchalar bo‘yicha, atrof-muhitning dinga ta’siri yoki aksincha dinning atrof-muhitga ko‘rsatadigan ta’sirini o‘rganishni bir fan oldiga vazifa qilib qo‘yish u qadar to‘g‘ri emas. Bunday bir tomonlama ta’sirni o‘rganishdan ko‘ra, bu ikki sohaning o‘zaro aloqasini o‘rganish maqsadga muvofiq ekanligi tadqiqotchilar tomonidan e’tirof etilmoqda. Jumladan, bugungi kunda tabiiy muhitning dinga va dinning tabiiy muhitga ta’sirini o‘rganish vazifasi fanlar o‘rtasida aniq taqsimlandi. M.Byuttnerning ta’kidlashicha, *«... ekolog atrof muhitning dinga ta’sir darajasini o‘rgansa, geograf bunga qarama-qarshi masalani – dinning atrof-muhitga ta’sir darajasini o‘rganadi*». Biroq, V.A.Ogudinning

«Din ekologiyasi atrof-muhit bilan dinning bir-biriga ta’sirini emas balki ularning o‘zaro aloqasini o‘rganadi» degan fikri bugungi kundagi tadqiqotlarga ko‘proq mos tushadi. (Ogudin, 2000, 23 b).

Muqaddas joylarni asrab avaylash, boshqa tabiat ne’matlariga nisbatan tejamkorlik bilan munosabatda bo‘lish kabi diniy o‘gitlardan amalda foydalanishning ijobiy tomonlari haqida ma’lumot beriladi. Bunda islom dinidagi tabiat ne’matlariga bo‘ladigan munosabat, aziz va muqaddas joylar, ziyoratgohlar va ularning diniy-ekologik funksiyasi haqida to‘plangan ma’lumotlarning etnoekologik jihatlariga tushuntirish beriladi.

Tabiatdan foydalanish bo‘yicha insoniyatning an’analari uzoq ming yillar davomida shakllangan. XX-asrga kelib, atrof-muhitga nisbatan “ekologik xulq- atvor” tushunchalari o‘rniga tabiatni muhofaza qilish va resurslardan samarali foydalanish g‘oyalari keng yoyila boshladi. Afsuski, bugungi kunda ham atrof- muhitdagi o‘zgarishlarni nazorat qilish va ekologik ong asosida tartibga solish yetarli darajada amalga oshirilmayapti. Bu esa “inson – tabiat” tizimini saqlashda jiddiy xavf tug‘dirishda davom etmoqda.

Farg‘ona viloyatida geografik omillar ta’sirida shakllangan tarixiy-madaniy ob’yektlar, odatda, diniy, etnoekologik ahamiyatga ham ega. Rus sayyohi V.P.Nalivkinning ma’lumotlariga ko‘ra (1886y), Farg‘ona vodiysida XVI asrdan boshlab diniy-madaniy ob’yektlar joylashgan yerlar salmog‘i ortib borgan. Muqaddas joylar ziyoratgoh vazifasini bajarish bilan birga tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishda muhim ahamiyat kasb etgan. Tabiatdagi noyob yaratmalarni muqaddaslashtirish orqali kishilar o‘ziga xos tarzda ekologik muvozanatni saqlab turishga erishganlar [1.2014:B.340, 4. 1876: B.216].

Aholi sonining ortib, dehqonchilik maydonlarining kengayishi kuzatilgan, jamoa mulki bo‘lgan hududlarda daraxtlar ko‘plab kesilgan. Oqibatda, VIII-IX asrlarda daryo rejimining o‘zgarishi, suv toshqinlari ko‘plab kuzatilgan. O‘z-o‘zidan kishilar bu salbiy jarayonlarning sababini o‘rganganlar va unga qarshi qaratilgan chora-tadbirlarni qidira boshlaganlar. Birinchi navbatda tabiatning buzilgan unsurlarini, ya’ni o‘rmonlarni tiklashga harakat qilingan. O‘z o‘lkasining gullab yashnashini o‘ylagan hukmdorlar esa avvalo, tog‘li hududlar tabiatini asrab «qo‘riqxonalar» tashkil etgan deya xulosa qilish mumkin. Bunday o‘ziga xos «qo‘riqxona»lar, muqaddas ziyoratgohlar va qadamjolar ko‘rinishida vodiydagi eng ko‘p ziyoratchilarni o‘ziga chorlashi bilan ajralib turgan. Bu esa o‘z navbatida butun vodiyda suv taminotini yaxshilab, etnoekologik muvozanatni saqlashga yordam bergan [1.2014:B.340, 3.2019:].

Tog‘li hududlar tabiatini saqlashda aholi diniy-huquqiy usullardan ham foydalangan. Somoniylar davrida (IX-X asr) Farg‘ona vodiysi daryolarining boshlanish joylarida muqaddas ziyoratgohlar paydo bo‘lgan. Bunday o‘ziga xos «qo‘riqxona» larda daraxt kesish, hayvonot dunyosiga zarar yetkazish, ayrim joylarda yerlarni haydash ta’qiqlangan. Aholining anchagina qismi daryoning quyi qismidagi dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchilar tomonidan olib kelingan xayr-ehson, nazr-niyoz hisobiga yashagan va tabiatga ortiqcha aralashishga ehtiyoj sezmagan.

O‘zbek, tojik, qirg‘iz millatiga mansub aholi chorvachilik, lalmikor dehqonchilik, tog‘ o‘rmonlarida bog‘bonlik, muqaddas ziyoratgohlarda posbonlik qilishdan tashqari yana bir vazifani bajarganlar. Daryolarning tog‘ va adirliklaridan tekislikka chiqish joyidagi qishloqlar aholisi daryo suvini tartibga solish va sel xavfidan daryoning quyi qismidagi aholini xabardor qilib turish vazifasini ham bajargan [1.2014:B.340,].

Yer fondidan foydalanishni tashkil etishda tog‘ bilan tekislik o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik, modda va energiya almashinuvi jarayoni ya’ni «tog‘-tekislik» geojuftligi to‘la hisobga olingan. Tog‘li hududlarning suv va namlikni saqlab, daryo rejimini tartibga solishdagi ekologik funksiyasiga alohida e’tibor qaratilgan. Mazkur hududlarda tabiatni muhofaza qilish va rekreatsiya maqsadlari uchun (muqaddas ziyoratgohlar, qadamjolar ko‘rinishida) ajratilgan. Tabiatni asrashda diniy-huquqiy odatlar va rasm-rusumlardan keng foydalanilgan. Konus yoyilmalarining yuqori qismida suv taqsimlash inshoatlari qurilgan bo‘lib, u yerlar suv xo‘jaligini yuritish, ariqlarga suvni navbatlab berish vazifasini bajaruvchi qurilmalarni o‘rnatish (suv yer fondi) uchun ajratilgan. Yer fondining bunday taqsimlash hudud tabiiy imkoniyatlaridan to‘la foydalanishni ta’minlash orqali ishlab chiqarish xarajatlari ortib ketishining oldini olgan, yerdan iqtisodiy jihatdan unumli foydalanishni ta’minlagan.

Qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashmagan qishloqlar vodiyda ko‘p uchramasada, aralash vazifani bajaruvchi turlar keng tarqalgan. Farg‘ona vodiysi atrofidagi tog‘lardan boshlanadigan daryolarning yuqori qismidagi qishloqlar «muqaddas ziyoratgohlar» vazifasini bajaradi. U qishloqlarning toponimida islom diniga taalluqli bo‘lgan aziz avliyolar, payg‘ambarlar nomlari ko‘pchilikni tashkil etadi. qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashmagan ikkinchi qishloqlar guruhi tarkibida bozor va karvon so‘zlari ko‘p qatnashadi. Bunday qishloqlar aholisi ko‘proq savdogarlik bilan mashg‘uldir [1.2014:B.340,].

Farg‘ona vodiysi atrofidagi daryo havzalarida 250 dan ortiq «muqaddas ziyoratgoh»lar va qadamjolar borligini ko‘rish mumkin. Bunday muqaddas ziyoratgohlar «kichik biosfera qo‘riqxona»larini eslatadi. Keyingi yillardagi kuzatishlarda bunday joylarda Farg‘ona vodiysida kishilarning ta’siri natijasida yo‘q bo‘lib ketgan hayvon va o‘simlik turlari ham uchramoqda. Jumladan, janubiy Farg‘onadagi Go‘zal ota ziyoratgohida (Qatronboshtog‘ tizmasining shimoliy yonbag‘rida) diniy muhofaza tufayli Jannat xashoratxo‘ri (*Terpsiphone paradisi*), Obshir ota sharsharasi hududida esa binafsharang qush (*Myophonus caerulus*) uchramoqda. Bundan tashqari ziyoratgohlardagi o‘simlik va hayvonot dunyosiga bo‘ladigan hayrixoh munosabat baliqlarni (Chashma, Satkak, Arsif ziyoratgohlarida), qushlarni (Kaptarli mozor), ayrim suv o‘tlarini (Chodak) tabiiy holda saqlanib qolishi va ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda [2.2021: B.286].

Shohimardonsoy tizimida bu rayonda ham diniy e’tiqod bo‘yicha 7 ta muqaddas ziyoratgoh aniq ajratilib, ular haqidagi afsonaviy dunyoqarash shakllantirilgan. Bu ziyoratgohlarga Xonqiz, Chimyon, Arsif, Fayziobod, Yormazor, Satkak, Nayman qishloqlarida joylashgan alohida buloqlarga ega bo‘lgan ziyoratgohlarni kiritish mumkin [5.1985: B.96, 2. 2021: B.286].

Bunday ziyoratgohlarda suvning musaffoligi, turli rel’yef shakllarini (qoya, tosh, g‘orlarni) hamda o‘simlik dunyosi vakillarini tabiiy holda saqlanib kelayotganligi diniy ekologik madaniyatning bu hududlardagi ta’siri namunasidir. Jamiyatimiz vakillarining ziyorat madaniyatini, diniy obod-ahloq qoidalariga og‘ishmay amal qilishlari ekologik xavf xatarni oldini olishdagi eng muhim vosita sifatida qaralmog‘i lozim [2. 2021: B.286].

Ma’naviy madaniyatimizning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan diniy dunyoqarashda ham tabiatni muhofaza qilish bilan bog‘liq bo‘lgan qator jihatlar uchraydi. Birinchi navbatda bular diniy tomondan ulug‘langan, muqaddaslashtirilgan hududlar misolida ko‘rinadi. Bunday hududlarni tadqiq etishning geografik jihatdan maqbul bo‘lgan ikkita yo‘nalishini belgilab olish maqsadga muvofiqdir. Birinchi yo‘nalish, O‘rta Osiyoning quruq iqlimi sharoitida bevosita suvliklar bilan bog‘liq bo‘lgan diniy e’tiqodning ko‘rinishlaridir.

Bunday maskanlarning vujudga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy va hududiy jihatlari A.Abdulxamidov (1990), Yu.Ahmadaliyev (2014), tomonidan batafsil tushuntirib berilgan. XIV-XV asrlardan boshlab Farg‘ona vodiysining yarim ko‘chmanchi hayot kechiruvchi aholisining katta qismi o‘troq hayot kechirish tarziga o‘tdi. Natijada vodiyning atrofini o‘rab turgan adir va tog‘liklarning o‘zlashtirish kengaydi. Bu hududlarda qadimdan mavjud bo‘lgan “o‘rmon-bog‘lar”ning hududi keskin qisqarib, sug‘oriladigan ekin yerlarning maydoni kengaydi.

Oqibatda tog‘li hududlarda tuproq eroziyasining kuchayishi va daryolar rejimini o‘zgarishi yuz berdi. O‘rmon hududlar bilan haydaladigan ekin yerlarning namlini tutib turishi o‘rtasidagi farq ancha keskin bo‘lib, yoz oylarida to‘lib oquvchi daryolarning katta qismi bahor oylarida to‘lib oqishga, toshqin va sellarning bir necha barobar ko‘p bo‘lishiga olib keldi. Ayniqsa Farg‘ona vodiysidagi gidrologik rejimiga ko‘ra muz-qor va qor-muz suvlaridan to‘yinuvchi to‘lin suv davri bahor yoz oylariga to‘g‘ri keluvchi daryolarda keskin o‘zgarishlar yuzaga kelgan.

Daryolar to‘linsuv (половедье) va toshqin (паводок) davrlarining bahor oylariga surilishi yozgi kamsuvlik davrni (mejen) yoz oylarida kuzatilishi yuz bergan. Buning oqibatida qurg‘oqchilik, sug‘orib dehqonchilik qilinadigan maydonlarda qaxatchilik va ocharchilik boshlangan. Bu holat kishilarni uzoq vaqt mulohaza qilishga, tabiatning qaysi unsurida keskin o‘zgarishlar yuz berganligini bilishga undagan va kishilar tog‘li hududlarni keskin o‘zlashtirilishi bunday qiyinchiliklarga sabab bo‘layotganligini bilganlar. Har qanday usul va vositalar yordamida tabiatning buzulgan unsurlarini tuzatishga kirishilgan. Muqaddas kitiblarda Avesto, Quroni-Karim, Xadisu-shariflardagi tabiatga bo‘lgan oqilona munosabatni ma’qullovchi fikrlardan namunalar keltirilgan. Tabiatdagi har qanday noqulaylik, qurg‘oqchilik, qaxatchilik, sel va toshqinlarning bo‘lishi Allohning bandalarini jazolash yo‘lidagi harakati deb baholangan.

Bundan tashqari daryolarning suv yig‘adigan havzalarini imkon boricha o‘zlashtirmaslikka, undagi tabiat ne’matlarini asrab-avaylashga, o‘ziga xos “qo‘riqxona”lar yaratishga kirishilgan. Har bir daryoga yagona tabiiy tizim sifatida qaralib, uning boshlanishidan quyilish joyigacha bo‘lgan hududlarda yagona ijtimoiy-iqtisodiy tizim yaratilgan. Daryolarning yuqori qismi muqaddas ziyoratgohlar sifatida himoyaga olingan. U hududlarda yerni haydash, daraxtni kesish, hayvonot dunyosini nobut qilish qattiq qoralangan va ta’qiqlangan.

Quyida Shohimardonsoy daryosining suv yig‘adigan havzasida va uning o‘zani bo‘ylab yuzaga kelgan muqaddas ziyoratgoh va qadamjoylarning xaritasi kelitirilgan. Xaritadan ko‘rinib turibdiki bunday

“qo‘riqxona”larning 80 foizidan ko‘prog‘i daryo havzasining suvi yig‘iladigan tog‘li hududlarda joylashgandir.

Ushbu pog‘onada Qo‘qon vohasining rivojlanishida asosiy omillardan biri bo‘lgan suv resurslari shakllanadi. So‘x daryosi Oloy-Turkiston va Zarafshon tizmalari tutashgan Matchoh dovoni atrofidan boshlanadi. Balandligi 3850 m. bo‘lgan mazkur hududda daryoni to‘yintiruvchi asosiy muzliklar joylashgan. Bu o‘ziga xos xususiyat So‘x, Isfara daryolarini vodiyning boshqa daryolariga o‘xshab may, iyun oylarida emas, balki iyul, avgustda to‘lib oqishiga sabab bo‘ladi.

Gidrogeologik jihatdan ushbu pog‘onada yer osti suvlari shakllanadi. Oqimning yaxshiligi bu yerda erigan tuzlarning (xloridli, sulfatli, gidrokarbonatli) quyiga ketishini ta’minlaydi. Yerdan foydalanishda hududning Qo‘qon vohasini suv bilan ta’minlashdagi gidrogeologik holati hisobga olingan. Tog‘ bilan tekislik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, modda va energiya almashinuvi jarayoni, ya’ni «tog‘-tekislik» geojuftligi (Alibekov, 1990) yerdan foydalanishning tabiiy-tashkiliy tipida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Avvalo bu hudud, orografik to‘siqlarga qaramasdan, alohida iqtisodiy makon sifatida shakllangan va bu yerda yagona ma’muriy-boshqaruv hamda iqtisodiy aloqalar tizimi mavjud bo‘lgan.

Qo‘qon vohasida sug‘orib dehqonchilik qilish rivojlanmagan davrda ushbu pog‘onadagi aholi bir - birlari bilan gorizontal aloqalar orqali ko‘proq bog‘langan. Z.M.Bobur zamonida bu pog‘onadagi So‘x, Hushyor, Vorux kabi qishloqlar Isfara viloyati tarkibiga kirgan (Jalilov, 2006, Ahmadaliyev, 2007). Qo‘qon vohasi o‘zlashtirilishi bilan daryo yo‘nalishi bo‘yicha aloqalar tiklangan, tog‘ qishloqlari va tekislik hududidagi aholi o‘rtasida o‘ziga xos mehnat taqsimoti va mol ayriboshlash yo‘lga qo‘yilgan. Ma’muriy bo‘linishda ham o‘zgarish bo‘lgan, ya’ni butun So‘x daryosi tizimida yagona boshqaruv yo‘lga qo‘yilgan.

Tog‘li hududlarda yashovchi aholiga, ushbu hududning daryo suvi miqdori va rejimini saqlash funksiyasi yuklatilgan. Hududning asosiy qismi yaylov bo‘lib, So‘x tarixiy-geografik rayonining atigi 0,8 foizi sug‘orib dehqonchilik qilishga ajratilgan (Obzor..., 1889).

Suv eroziyasiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida daryo vodiylarida sholi, boshqa hududlarda kuzgi bug‘doy, kartoshka, sabzi kabi ildiz mevali ekinlar va 80 turdagi daraxtlar ekilgan. Boshqa mahsulotlar xalq ehtiyojini qondirish uchun tekislikdan keltirilgan. So‘x, Chorku qishloqlarida dushanba, payshanba kunlari, ishlovchi 70 ta savdo rastasiga ega bo‘lgan, chorva bilan ham savdo o‘tkaziladigan bozor bo‘lgan (Obzor..., 1889).

Oloy, Turkiston tizmalarining vodiyni suv bilan ta’minlashdagi ekologik funksiyasi o‘sha davrlardan boshlab tushunib kelingan. Bu hududlarda o‘ziga xos «qo‘riqxona»lar davlat va mahalliy aholi tomonidan tashkil etilgan. Yozma manbalardan «Vorux kitoblari»da dastlabki «qo‘riqxona» ochish haqidagi farmon saqlanib qolgan. Qoyaga o‘yib yozilgan ushbu bitiklar Isfara hukmdori Abul Fozil Abbos Arslon Taginning farmonidir. Unda aytilishicha, hukmdor 1041 yildan boshlab Vorux va uning atrofidagi mevazor o‘rmonlaru, o‘tloqlar joylashgan hududlarni o‘z tasarrufiga oladi va qo‘riq joyga aylantiradi.

Qo‘qon xonligi davrida ham ko‘plab, avvallari jamoa mulki bo‘lgan tog‘li xushmanzara joylar xon mulkiga aylantirilib, u yerda «qo‘riqxona» tashkil etilganligi ma’lum. Sho‘ro davridagi adabiyotlarda hukmdorlarning bu harakatiga salbiy baho berilib, «Hukmdorlar so‘lim go‘shalarni xalqdan o‘zlari uchun asraganlar» deb yozilgan. Biroq, bunday qo‘riqhonalarning tashkil etilishini boshqacha izohlash ham mumkin.

Shu davrga kelib arab geograflari va V.Nalivkin (1886) asarlarida aytilgan, adirlar zonasigacha tushib kelgan «O‘rmon-bog‘lar»ning maydoni keskin qisqara borgan. Aholi sonining ortib, sug‘orma dehqonchilik maydonlarining kengayishi kuzatilgan, jamoa mulki bo‘lgan hududlarda daraxtlar ko‘plab kesilgan. Oqibatda, VIII-IX asrlarda daryo rejimining o‘zgarishi, suv toshqinlari ko‘plab kuzatilgan. O‘z-o‘zidan kishilar bu salbiy jarayonlarning sababini o‘rganganlar va unga qarshi qaratilgan chora-tadbirlarni qidira boshlaganlar. Birinchi navbatda tabiatning buzilgan unsurlarini, ya’ni o‘rmonlarni tiklashga harakat qilingan. O‘z o‘lkasining gullab yashnashini o‘ylagan hukmdorlar esa avvalo, tog‘li hududlar tabiatini asrab «qo‘riqxonalar» tashkil etgan deya xulosa qilish mumkin

Tog‘li hududlar tabiatini saqlashda aholi diniy-huquqiy usullardan ham foydalangan. Somoniylar davrida (IX-X asr) Farg‘ona vodiysi daryolarining boshlanish joylarida muqaddas ziyoratgohlar paydo bo‘lgan. R.Ya.Rassudova vodiyda 7 ta qadamjoyni alohida ajratib ko‘rsatadi (1985). O‘rganilayotgan pog‘onada bunday o‘ziga xos «qo‘riqxona» larda daraxt kesish, hayvonot dunyosiga zarar yetkazish, ayrim joylarda yerlarni haydash ta’qiqlangan. Aholining anchagina qismi daryoning quyi qismidagi dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchilar tomonidan olib kelingan xayr-ehson, nazr-niyoz hisobiga yashagan va tabiatga ortiqcha aralashishga ehtiyoj sezmagan. Vodiyning atrofidagi daryo havzalarida 400 dan ortiq “muqaddas ziyoratgoh”lar va qadamjoylar borligini ko‘rish mumkin.

Hududda uzoq tarixiy davr davomida shu mintaqadigina etnoekologik madaniyat shakllangan bo‘lib, unda to‘plangan ko‘nikma, malaka va tajribalar tabiat bilan uyg‘un aloqadorlikka asoslanadi. Mintaqamizda yashovchi xalqlarning tabiatdan foydalanish madaniyati bir necha ming yillar davomida vaqt sinoviga bardosh berib, tabiatdagi ko‘p yillik fenologik kuzatishlar, sinovlar va yangilanishlar evaziga vujudga kelgan.

Qadamjoylar va ziyoratgohlar diniy va madaniy merosning bir bo‘lagi bo‘lishi bilan birga, ekologik barqarorlik va tabiiy boyliklarni asrashda ham muhim o‘rin tutadi. Ularni ekologik maqsadlarda to‘g‘ri yo‘naltirish orqali nafaqat tabiatni asraymiz, balki inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanatni saqlagan holda, kelajak avlodga sog‘lom muhit qoldiramiz. Shu bois, ziyoratgohlarni ekologik qadriyatlar bilan uyg‘un holda boshqarish — dolzarb va istiqbolli yo‘nalishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Аҳмадалиев Ю.И. Ер ресурсларидан фойдаланиш геоэкологияси. -Т.: “Фан ва технологиялар” нашриёти, 2014. -340 б.
2. Аҳмадалиев Ю.И. Этноэкология // Ўқув қўлланма – Ф.: 2021. -286 б.
3. Комилова Н.Ў. Этноэкологик маданиятнинг географик жиҳатлари (Фарғона водийси мисолида). Геог. фан. бўй. фалсафа док. ...диссертацияси. – Т., 2019.
4. Наливкин В.П. Краткая история Кокандского ханства. – Казан, 1876.- 216с.
5. Рассудова Р.Я., Культовые объекты Ферганы как источник по истории орошаемого земледелия. // Сов.Этнография. -Москва, 1985.№4 - С.96-104.

TA’LIM – TABIAT BAG‘RIDA: EKO-PEDAGOGIKANING ZAMONAVIY QADAMLARI

M.B.Baxtiyorova
Tadqiqotchi, magistr

Annotatsiya Mazkur maqolada eko-pedagogikaning mazmuni, maqsadi va zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘rni tahlil qilingan. Bolalarning ekologik ongini shakllantirish, tabiatga mehr uyg‘otish, barqaror rivojlanishga hissa qo‘shishdagi o‘qituvchi va tarbiyachilarning roli ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, ochiq havoda dars o‘tkazish va O‘zbekistondagi amaliy tajribalar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Eko-pedagogika, ekologik ong, ochiq darslar, barqaror rivojlanish, ta’lim, bolalar rivoji.

Abstract This article analyzes the content, purpose and role of eco-pedagogy in the modern education system. The role of teachers and educators in forming children's ecological awareness, instilling love for nature, and contributing to sustainable development is considered. Information is also provided about conducting outdoor classes and practical experiences in Uzbekistan.

Keywords: Eco-pedagogy, ecological awareness, open classes, sustainable development, education, child development.

Аннотация В статье анализируются содержание, цели и роль экопедагогики в современной системе образования. Рассматривается роль педагогов и воспитателей в формировании экологического сознания детей, привитии любви к природе и содействии устойчивому развитию. Также представлена информация о проведении занятий на свежем воздухе и практических занятий в Узбекистане.

Ключевые слова: Экопедагогика, экологическое сознание, открытые уроки, устойчивое развитие, образование, развитие ребенка.

Zamonaviy ta’lim jarayonida faqat fanlarni o‘qitish emas, balki bola shaxsining har tomonlama yetuk, mas’uliyatli va tabiatga mehribon inson bo‘lib shakllanishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan eko-pedagogika - ya’ni ta’limni tabiat bilan uyg‘unlashtirgan holda olib borish g‘oyasi jahon ta’lim tizimlarida dolzarb mavzuga aylangan[3.2025:B.211]. Eko-pedagogika orqali o‘quvchilar ekologik muammolarni anglaydi, tabiatni asrashga ongli yondashadi, o‘z atrof-muhitiga nisbatan e’tiborli va g‘amxo‘r bo‘lib ulg‘ayadi.

Bolalarga ekologik tarbiya berishda o'zi yashaydigan muhitni ko'kalamzorlashtirish, mevali va manzarali daraxtlar ekish, xonaki o'simliklar parvarishlash, uy hayvonlariga ozor bermaslik, ko'cha va xiyobonlarda, bog' va dam olish hududlarida ozodalikka rioya qilish qoidalariga amal qilishga o'rgatish

muhim ahamiyatga ega. Ekologik madaniyat avvalo oiladan, ta'lim-tarbiya maskanidan boshlanadi. Ekologik dunyoqarashni shakllantirishning negizi oiladagi tarbiyaga bevosita bog'liqdir [5.2024:B.595].

Eko-pedagogika tushunchasidan oldin ekologiya haqida fikrlarimizni aniqlashtirib olishimiz lozim . Ekologiya (grekcha «oikos» - yashash, joy, makon, logos – ta’limot - umumiy tarzda u organizmlarning yashash joyi, makoni degan ma’noni anglatadi. Ekologiya fani tirik organizmlarnnig ma’lum bir muhitda yashash qonuniyatlarini, ya’ni organizmlarning o‘zaro va ularni o‘rab turgan atrof-muhit bilan bog'liq bo‘lgan hayot tarzini o‘rganadi. Ekologiya so‘zi tirik mavjudotlar, shu jumladan, odamning yashash sharoiti va tashqi muhit bilan o'zaro munosabatini bildiradi [6.2013:B.98].

Eko-pedagogika – bu ta’lim jarayonini inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlik tamoyili asosida tashkil etishdir[3.2025:B.218]. Bu yondashuvning asosiy maqsadi bolalarda ekologik ongni shakllantirish, barqaror rivojlanishga hissa qo‘shuvchi fuqarolik tuyg‘ularini rivojlantirishdir. Eko-pedagogikada inson tabiatning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Shuning uchun bolani yoshligidan tabiatga yaqinlashtirish, uni his qilishga, anglashga va asrashga o‘rgatish zarur hisoblanadi. Xo’sh, bolalarni qaysi yoshdan tabiat bilan tanishtirish yoki uni his qildirish muhim deb hisoblash mumkin. Ilmiy adabiyotlar maktabgacha ta’lim[6.2013:B.103] dan boshlanishini ta’kidlasa-da, ammo bizning kuzatishlarimiz va rivojlangan davlatlar tajribalaridan kelib chiqib, eko-pedagogikani oiladan boshlash lozim degan qarorga kelmoqdamiz. Chunki bola tug’ilganidan uch yoshigacha uyda – ota-ona qaramog’ida voyaga yetadi va eng ko’p bilimni u uyda oladi.


Skandinaviya, Germaniya va Buyuk Britaniyada keng tarqalgan **“Forest school”** — ya’ni “O‘rmon maktablari” modeli bolalarni ochiq tabiat qo‘ynida o‘qitishga asoslangan[1]. Bu modelga ko‘ra, o‘quvchilar ko‘p vaqtini o‘rmon, park yoki tabiat qo‘ynida o‘tkazadi. Darslar amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi: daraxt ekish, barglarni kuzatish, qushlarni tinglash, yer osti hayvonotini o‘rganish va h.k. Bu bilan bolalar tabiiy fanlarni ham nazariy, ham amaliy jarayonlarini bir vaqtda o’rganadi va tegishli xulosalar chiqaradi.





Bu yondashuv o‘quvchilarning:
- ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi,
- jamoa bo’lish, tafakkur qilish, tabiatni anglashga yordam beradi,
- diqqat, sabr-toqat va mushohada qilish qobiliyatini oshiradi,
- sog‘lom hayot tarzini targ‘ib qiladi,
- atrof-muhitni asrab-avaylashni o’rganadi. [1]

Biz eko-pedagogikani rivojlantirishning amaliy jarayonlarini mukammal bo’lmasa-da, sodda va oddiy yechimlarini ko’rsatib o’tmoqchimiz. Bu o’qituvchi va tarbiyachilarning ta’limida sifat samaradorligini oshirishiga xizmat qilishiga umid bog’laymiz. Demak:



Bola dunyoga kelgandan to 3 yoshigacha eko-pedagogik bilim olishi mumkinmi? Albatta! Keling, birma-bir ko’rib chiqamiz, bitta gul misolida:


1. Bola – 0-3 yosh: tug’ilgan vaqtidan tabiat bilan tanishtirish boshlanadi, masalan, quyoshda nurini olishi, sayrga chiqishi, suvda cho’milishi, turli manzarali va rangli o’yinchoqlarni osib qo’yilishi kabi. 4 oylikdan boshlab esa gul va uning barglari tanishtiriladi: ushlab ko’rish, rangga diqqat qaratish, hidi tuyish, barglarini his qilish yo’lish kabi.

2. Tarbiyalanuvchi – 3-7 yosh: bu davrda endi tarbiyachilar tomonidan gulning turlari, ranglari, shakllari, yaxshi va yomon tomonlari haqida ma’lumotlar beriladi va MTT hovlisidagig gullar tanishtiriladi. Xonada, hovlida va dalada o’sadigan gullar haqida ham ma’lumot bersa bo’ladi. Bu davrda ma’lumotlar o’yin tarzida berilishi, gulning barglaridan kreativ narsalar yasash, yopishtirish kabi jarayonlarni olib boorish mumkin.

3. **O’quvchi – 7-18 yosh:** bu davrda esa o’qituvchi gullarning oilalari, uning kelib chiqishi, tabiatdagi o’rni, insonlarga foyda yoki zararlari haqida ma’lumot beradi va gulbog’larga sayrlar tashkil etadi. Bunda ham ayrim sinflarda o’qituvchi darslarni o’yin tarzida olib borishi, bolalarga tajriba o’tkazishi uchun topshiriqlari berishi mumkin.


4. **Shaxs – 18-22 yosh:** agar shu davrga qadar bilimlar tizimliligi mustahkam berilib kelingan bo’lsa, endi bu shaxs erkin va mustaqil fikrlagan holda tabiatni tabiiy ravishda asrash kerakligini tushunib yetadi va o’zi mustaqil tarzda eko faolga aylanadi. Unga kimningdir tabiatni asra degan chaqirishi muhim bo’lmaydi, u o’zidan bilib bu ishlarni bajara oladi.

5. **Inson – 22 va umri so’ngiga qadar:** bu davrga kelib esa inson ustozlik yoki liderlik qobiliyatlari bilan boshqalarga ham o’rgatishi, tabia tuchun qandaydir eko-g’oyalarni o’ylab topishimi mumkin.



Ya’ni biz aytmoqchimizki, ta’limda tizimlilik juda muhim va o’qituvchi, tarbiyachilarning, ota-onaning roli juda kattadir. Chunki bolalar kattalarga taqlid qilar ekan, ular uchun har birimiz o’qituvchimiz. Tabiatni asrashni o’rgatish uchun barchamizda eko-pedagogik bilimlar bo’lishi va unga amal qilishimiz lozim. Ekologik madaniyat – bu shaxsning tabiatga nisbatan ongli, mas’uliyatli munosabati, ekologik bilim, ko‘nikma va qadriyatlar majmuasidir. [4.2020:B.38]

Keyingi davrda pedagogika nazariyasi va amaliyotiga «ekologik ta’lim», «ekologik tarbiya», «ekologik ong», «ekologik faoliyat», «ekologik mas’uliyat», «ekologik e’tiqod», «ekologik ma’rifat», «ekologik madaniyat» va boshqa bir qator atamalar va ular bilan bog‘liq tushunchalar kirib keldi[6.2013:B.114]. Bu tushunchalar o’z navbatida ekologik tarbiya vositalarini ham yuzaga keldirdi. Jumladan, yurtimiz maktabgacha ta’lim tashkilotlari, maktablar va boshqa o’quv yurtlarida quyidagi eko-tarbiyaviy vositalar keng qo‘llanilmoqda:



Tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, ochiq havoda bo‘ladigan mashg‘ulotlar bolalarda kuzatuvchanlik, ijodkorlik va tabiatga mehr kabi xislatlarni mustahkamlaydi.

Bolalarni yoshligidan ona Vatanga, atrof muhitga muhabbat ruhida tarbiyalash maktabgacha ta'lim pedagogikasi oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu bois, maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni oshirishda ta'lim-tarbiya jarayonini amaliyot bilan bog'lab tashkil etish yuqori samara beradi[5.2024:B.595].

Bugungi kunda respublikamizda «Yashil maktab», «Yashil bog‘cha» tashabbuslari eko-pedagogikaning milliy ko‘rinishidir. Shu bilan birga, ta’lim dasturlariga ekologik fanlar, chiqindilarni saralash madaniyati, suv va elektrni tejash kabi mavzular kiritilishi lozim. O‘qituvchilar uchun ekologik pedagogika bo‘yicha maxsus kurslar tashkil etish ham zarur. Bundan tashqari, eko-pedagogika tizimli yo’lga qo’yish juda muhim deb hisoblaymiz. «Beshikdan qabrgacha ilm izla» [8.2014:B.18] deganlari kabi

eko-pedagogika eng avval oiladan boshlanishi, bola MTT ga eng mayda elementlarni uyda bilib kelib, bu yerda sal kattaroq bilimlari olishi, maktabda uni to’ldirishi, oliy o’quv yurtida tadqiqotlar olib bora oladigan darajada bo’lishi lozim. Bu borada ustozlarning – ota-ona, MTT tarbiyachisi, maktab o’qituvchilarining o’rni beqiyosdir.

Eko-pedagogika - bu zamonaviy, insonparvar va barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi ta’lim yo‘nalishidir. Bolalarni tabiat bilan yaqinlashtirish orqali biz nafaqat bilimli, balki atrof-muhitga e’tiborli, yuragida mehr va g‘amxo‘rlik bilan ulg‘ayadigan shaxslarni tarbiyalaymiz. Har bir pedagog o‘z faoliyatida ekologik tarbiyani e’tiborsiz qoldirmasligi kerak. Bu — kelajak avlod va Yer sayyorasi oldidagi burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Forest School Association – https://www.forestschoolassociation.org
2. Global ekologik muammolar, cho’llashish va oziq-ovqat xavfsizligi. Xalqaro ilmiy amaliy anjuman. Mayeriallar to’plami. 2025-yil, 24-may, 20-bet.
3. Mavluda Abduraimova Anvarbek qizi. Talabalarda ekologik madaniyatni oshirish metodikasini takomillashtirish pedagogika fani misolida. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. 43-son_2-to’plam_Aprel-2025. 233-bet.
4. Muftaydinov Q. X. – Ekologiya. 2020, Toshkent, 38-bet
5. Rahmonova Zarnigor Abduqahhorovna. Maktabgacha yosh bolalarda ekologik madaniyat asoslarini shakllantirish // «Maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarini rivojlantirish: amaliyot va xorijiy tajriba» respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 2024-yil 23-24-may. 595-bet.
6. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. Toshkent – 2013. 98-120-bet
7. UNESCO. “Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives”. – 2017.
8. O’zbek xalq maqollari. Toshkent 2014, 18-bet

YUZGA TAHDID SOLUVCHI HARAKATLARDA IJTIMOIY OMILLARNI QAYTA BAHOLASH USULLARI

M.Z.Yuldosheva
Filologiya fanllari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) IIV Namangan akademik litseyi o‘qituvchisi,
NamDPI mustaqil izlanuvchisi (DSc)

Annotatsiya. Ushbu maqolada G.Braun va S.Levinson tomonidan ilgari surilgan xushmuomalalik nazariyasi doirasida yuzga tahdid soluvchi harakatlarning (Face Threatening Acts – FTA) og‘irligini belgilovchi asosiy ijtimoiy o‘zgaruvchilar — ijtimoiy masofa (D – Distance), ijtimoiy kuch (P – Power) va iltimosning og‘irlik darajasi (R – Rank of imposition) — so‘zlovchi tomonidan strategik tarzda qayta baholanishi (re-rank qilinishi) sotsiopragmatik jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada bu o‘zgaruvchilar so‘zlovchi tomonidan qanday manipulyatsiya qilinishi, kommunikativ tahdidni yumshatish yoki yuzni saqlab qolish maqsadida qanday qayta talqin qilinishi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: yuzga tahdid soluvchi harakat (FTA), ijtimoiy masofa (D), ijtimoiy kuch (P), og‘irlik darajasi (R), re-rank strategiyasi, xushmuomalalik nazariyasi, sotsiopragmatika, kommunikativ tahdid, strategik manipulyatsiya.

Аннотация. В данной статье с социопрагматической точки зрения анализируется стратегическая переоценка (переранжирование) говорящим основных социальных переменных, определяющих степень тяжести актов, угрожающих лицу (Face Threatening Acts – FTA), в рамках теории вежливости, предложенной Г. Брауном и С. Левинсоном. Основными такими переменными являются социальная дистанция (D – Distance), социальная власть (P – Power) и степень обременительности просьбы (R – Rank of imposition). В статье раскрываются способы манипуляции этими переменными со стороны говорящего, а также то, как они переоцениваются с целью смягчения коммуникативной угрозы или сохранения лица собеседника.

Ключевые слова: акт, угрожающий лицу (FTA), социальная дистанция (D), социальная власть (P), степень обременительности (R), стратегия переоценки (re-rank), теория вежливости, социопрагматика, коммуникативная угроза, стратегическая манипуляция.

Abstract. This article presents a sociopragmatic analysis of how the main social variables determining the weight of face-threatening acts (FTAs), as proposed in the politeness theory by G. Brown

and S. Levinson — namely social distance (D), power (P), and the rank of imposition (R) — are strategically re-evaluated (re-ranked) by the speaker. The study explores how these variables can be manipulated and reinterpreted by the speaker in order to mitigate communicative threats or to preserve face.

Keywords: face-threatening act (FTA), social distance (D), power (P), rank of imposition (R), re-ranking strategy, politeness theory, sociopragmatics, communicative threat, strategic manipulation.

Zamonaviy pragmatika fanida til vositalarining ijtimoiy muomala jarayonida qanday ishlatilishini o‘rganish masalasi alohida e’tiborga loyiqdir. Ayniqsa, muloqotda yuzaga keladigan tahdidli vaziyatlarni anglash va tahlil qilishda G.Braun va S.Levinson tomonidan ishlab chiqilgan xushmuomalalik nazariyasi (Politeness Theory) muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, insonlar o‘zaro muloqotda yuzga tahdid soluvchi harakatlar (Face Threatening Acts – FTA) orqali bir-birining ijtimoiy obro‘siga putur yetkazishi mumkin. Bunday holatlarda gapiruvchilar tahdid kuchini kamaytirish yoki muloqotni yumshatish uchun turli xil til strategiyalarini qo‘llaydilar.

Xushmuomalalik nazariyasining markaziy formulasi bo‘yicha har qanday FTA og‘irligi uch asosiy ijtimoiy o‘zgaruvchi – ijtimoiy masofa (D – Distance), ijtimoiy kuch (P – Power) va harakat og‘irligi (R – Rank of imposition) – yig‘indisiga asoslanadi. Har bir FTA bu omillar ta’sirida shakllanadi va so‘zlovchiushbu o‘zgaruvchilarni o‘z maqsadida qayta baholash (re-rank) orqali muloqotdagi tahdid darajasini nazorat qilishi mumkin. Aynan shu jihati bilan re-rank strategiyasi FTAlarni sotsiopragmatik tahlil qilishda alohida ilmiy ahamiyatga ega.

G.Braun va S.Levinson tomonidan ilgari surilgan xushmuomalalik nazariyasida yuzga tahdid soluvchi harakatlar (FTA – Face Threatening Acts) so‘zlovchi(S) va tinglovchi(T) o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar asosida baholanadi. Tadqiqotchilarning fikricha, har qanday FTAning og‘irlik darajasi uchta ijtimoiy omil — ijtimoiy masofa (D – Distance), ijtimoiy kuch (P – Power) va iltimosning og‘irlik darajasi (R – Rank of imposition) — asosida aniqlanadi. Ular ushbu uch o‘zgaruvchini quyidagi formula orqali ifodalaganlar: $W = D + P + R$, bunda W – FTA og‘irligi deganidir [1,1987:B.76-77].

Ushbu formulada har bir o‘zgaruvchi o‘zaro mustaqil bo‘lsa-da, real muloqotda ular bir-biriga aralashib ketadi. Harakatning qaysi komponenti tahdidni kuchaytirayotgani har doim ham aniq ko‘rinmaydi. Aynan mana shu noaniqlik, gapiruvchiga FTA tahdidini kamaytirish uchun ularni strategik tarzda qayta baholash (re-rank) imkonini beradi. Bu esa yuzga yetadigan zarar miqdorini nazorat qilishda samarali kommunikativ vositaga aylanadi.

Qayta baholash (re-rank) – bu gapiruvchining FTAning og‘irlik darajasini pasaytirish maqsadida D, P yoki R omillaridan birini yoki bir nechtasini sun’iy ravishda pastroq ko‘rsatish orqali o‘zining istalgan kommunikativ natijaga erishishga urinishi sifatida talqin qilinadi. Braun va Levinson bunday strategiyani aynan FTA og‘irligini shakllantiruvchi o‘zgaruvchilar noaniq bo‘lgan kontekstlarda qo‘llanilishini ta’kidlaydilar [1,1987: B.228].

Masalan, so‘zlovchi – ya’ni iltimos og‘irligini pastroq ko‘rsatish orqali tinglovchining rad etish ehtimolini kamaytirishga urinadi. U quyidagi kabi so‘zlar bilan murojaat qiladi: *“Hey, aka, mashinangizni bir kunga olib tursam bo‘ladimi?”*

Bu so‘rov modomiki moddiy vosita so‘ralayotgan bo‘lsa-da, S uni oddiy va zararsiz iltimos sifatida ko‘rsatmoqda. Bu holatda S R omilini re-rank qilgan, ya’ni og‘irligini manipulatsiya orqali pasaytirgan bo‘ladi. U bu orqali D (yaqinlik) va P (tenglik) omillarini ham nazarda tutgan bo‘lishi mumkin. Bu Braun va Levinson tomonidan ijobiy xushmuomalalik doirasidagi *“optimistik soddalashtirish”* deb baholanadi.

Xuddi shunday, ijtimoiy masofa – D omilining qayta baholanishi ham re-rank strategiyasining bir ko‘rinishidir. So‘zlovchio‘zini manzildorga yaqin inson sifatida tutib, o‘z iltimosini o‘rinli ko‘rsatishga urinadi. Bu odatda: “*Biz anchadan beri tanishmiz-ku, shuning uchun sizga bemalol murojaat qildim,”* kabi iboralar orqali amalga oshiriladi. Bu yerda D omili aslida yuqori bo‘lishi mumkin, ammo S uni sun’iy ravishda kamaytirgan va bu orqali FTA tahdidini yumshatgan.

Yana bir muhim jihat – *ijtimoiy kuch (P) omilining qayta baholanishi*. So‘zlovchi o‘zining ustunligini asoslab, buyruq yoki ko‘rsatma orqali bald-on-record FTA ni amalga oshiradi: *“Sen bu ishni ertaga qilishga majbursan!”.* Bevosita strategiya [2,2023:B.14] (bald on record) – muloqotda so‘zlovchining kommunikativ niyatini aniq va to‘g‘ridan to‘g‘ri aks ettirishga xizmat qiladi. Bu strategiya, odatda, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy tahdid (FTA) ta’sirini minimallashtirishga qaratilgan har qanday qo‘shimcha til birliklari yoki usullarsiz amalga oshiriladi. Bevosita strategiya ko‘pincha buyruq yoki talab shaklida qo‘llaniladi va bu shaklda foydalanilganida yuzaga keladigan ijtimoiy tahdid minimal

darajada saqlanadi, chunki so‘zlovchi tomonidan hech qanday tuzatmalar kiritilmaydi. Xushmuomalalikning nol darajasi sifatida ham baholanashi mumkin [3,2025: B.27].

Holmes va Stubbe bunday nutqiy hatti-harakatlarni kuch pozitsiyasiga tayanilgan tahdid deb baholaydi va uni muomala ierarxiyasini belgilovchi pragmatik vosita sifatida ko‘rsatadi[4,2015: B.145-146]. Bu strategiya tinglovchining ijtimoiy kuchini pasaytiradi va gapiruvchining pozitsiyasini mustahkamlaydi.

Kalpeper ushbu qayta baholash strategiyalarining sotsiopragmatik natijasini izohlar ekan, bunday ekspluatatsiya muloqot tarixida saqlanib qolishini va D yoki P o‘zgaruvchilarning kelgusida yangicha baholanishiga olib kelishini ta’kidlaydi[5, 2011:B.137], ya’ni bugun kuch orqali bosim o‘tkazilgan bo‘lsa, ertaga bu kuch kommunikativ normalikka aylanadi.

Shunday qilib, re-rank strategiyasi nafaqat tahdidni yumshatish, balki ijtimoiy pozitsiyani qayta belgilash, ijtimoiy rol va munosabatlarni yangidan qurish imkonini beradi. FTA og‘irligini aniqlashda faqat grammatika yoki so‘z tanlovi emas, balki *kontekstdagi ijtimoiy omillarni strategik boshqarish* asosiy rol o‘ynaydi. Bu esa sotsiopragmatikaning yadro tushunchalaridan biriga aylanadi.

Yuzga tahdid soluvchi harakatlarni kuchsizlantirishga qaratilgan re-rank strategiyasi, ya’ni D, P va R omillarini qayta baholash usuli, nafaqat buyrug‘u-iltimoslarda, balki takliflar, hazillar va ritual haqoratlar orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Bu holatda so‘zlovchio‘zining ijtimoiy niyatini yashirish yoki yumshatish uchun tahdidli harakatni boshqacha talqinda ifodalaydi. Ayniqsa, bu bald-on-record strategiyasining ichki variantlari orqali amalga oshadi[1,1987: B.92-93].

Masalan, oddiy buyrug‘- u iltimoslar ko‘pincha o‘zgaruvchilardan biri — R (og‘irlik) orqali FTA tahdid darajasiga ega bo‘ladi. So‘zlovchiesa bu tahdidni kamaytirish uchun taklifni so‘rov deb emas, tinglovchining xohishi deb ko‘rsatadi. Bunda u re-rank strategiyasini R → D yoki R → P yo‘nalishida amalga oshiradi. Bu holatda tinglovchining ehtiyojlari gapiruvchining ehtiyojlaridek talqin qilinadi. Masalan: “*Yur-chi, uyga kiraylik, sen ham charchagandirsan axir”* Bu yerda real vaziyatda mezbon uyga kirishni xohlaydi, lekin o‘z iltimosini mehmonning xohishi sifatida ko‘rsatib, so‘rovni taklifga aylantirgan. Shunday qilib, R omili qayta talqin qilingan va tahdid darajasi pasaygan.

Braun va Levinson (1987) xushmuomalalik nazariyasi doirasida taklif (offer) va so‘rov (request) nutq aktlarini yuzga tahdid soluvchi harakatlar (FTA) sifatida talqin qiladilar. Ular fikricha, lekin nuyqiy vaziyatga qarab taklif qilish, odatda, so‘rovga nisbatan kamroq tahdidli bo‘lib, tinglovchiga majburiyat yuklamasdan, unga manfaat keltiruvchi harakat sifatida qabul qilinadi. Shu bois so‘zlovchi ko‘pincha kommunikativ tahdidni kamaytirish maqsadida aynan taklif shaklini tanlab, FTAning og‘irlik darajasini yumshatishga intiladi[1, 1987: B.229].

Yana bir kuzatiladigan re-rank holati yaqinlik (intimacy) va on-record strategiyalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat bilan bog‘liq. Ya’ni yaqin munosabatlarda ochiq iltimoslar, hazillar yoki hatto haqoratlar ham kamroq tahdidli deb qabul qilinadi. Bu hodisa ayniqsa ritual haqoratlar (ritualized insults) orqali ko‘zga tashlanadi[6,1977: B.131]. So‘zlovchiyaqin insoniga shunday deydi: *“Hoy dangasa, yana uxlayapsanmi?”* Bu kabi ifodalar aslida tahdidli ko‘rinishi mumkin, ammo ular yaqinlikni ko‘rsatuvchi ijtimoiy belgilar sifatida qabul qilinadi. Bu jarayonda D omili past baholanadi, va re-rank strategiyasi yordamida tahdid emas, balki solidarlik (birdamlik) ifodalanadi [5,2011: B.137).

Bundan tashqari, ba’zida haqoratlar auditoriya oldida aytiladi. Bunday holatda tinglovchi (T) aslida haqoratga uchraganini sezsa ham, bu ifoda auditoriya uchun “hazil” bo‘lib ko‘ringani sababli unga jiddiy javob bera olmaydi. *Ya’ni, haqorat hazilga aylanadi, tahdid esa yumshatiladi.* Bu esa FTA tahdidining ijtimoiy baholanishi qanday kontekstga tushganiga bog‘liq.

Shuningdek, katta iltimoslarni (ya’ni R yuqori bo‘lgan holatlarni) hazilga o‘xshatib ifodalash orqali ham D va R o‘rtasidagi re-rank amalga oshiriladi. Adresant ulkan talabni shunchaki yengil so‘zlar bilan aytadi: *“Yangi mashinangizni bir hafta minib turay, jiddiy qabul qilmang, hazillashyapman albatta…”*Bu kabi nutqiy harakatda so‘rov haqiqiymi yoki hazilmi — bu aniq emas. Karikaturaga o‘xshagan uslub orqali so‘zlovchio‘zining haqiqiy niyatini yashiradi. Holatning qanday talqin qilinishini esa T o‘zi hal qiladi. Agar tinglovchi yaqinlik sezsa, bu hazil sifatida qabul qilinadi; aks holda bu katta iltimos deb baholanadi. Natijada, bu muloqotda D va R qiymatlari qayta belgilanadi[4,2015: B.148-149].

Shunday qilib, D, P va R omillarini qayta baholashga asoslangan strategiyalar tahlili FTAlar bilan bog‘liq sotsiopragmatik jarayonlarni chuqurroq anglash imkonini beradi. Bu esa nafaqat tilshunoslik nazariyasi uchun, balki adabiy matnlar, kundalik muloqot va institutsional diskurslar tahlili uchun ham muhim metodologik asos yaratadi. Kelgusidagi tadqiqotlar mazkur strategiyalarning milliy madaniyatlar

kontekstida o‘ziga xos shakllanishi va qabul qilinish mexanizmlarini chuqurroq yoritishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Brown P. & Levinson S. C. *Politeness: Some Universals in Language Usage*. Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – Pp. 360.

2. Xolova B. Ingliz va o‘zbek badiiy asarlarida xushmuomalalik kategoriyasining lingvomadaniy va sotsiopragmatik xususiyatlari. – Buxoro: Kamolot, 2023. – B. 14.

3.Yuldosheva M. Z. Xushmuomalalik nazariyasining sotsiopragmatik tadqiqi (Tohir Malik asarlari misolida). – Namangan: Iste’dod ziyo press, 2025. – B.27.

4.Holmes J., & Stubbe, M. *Power and Politeness in the Workplace: A Sociolinguistic Analysis*. London: Routledge, 2015. – Pp. 148–149.

5.Culpeper J. *Impoliteness: Using Language to Cause Offence*. Cambridge: Cambridge University Press, 2011. – Pp. 308.

6. Flynn Ch. P. Insult and Society: Patterns of Comparative Interaction. – New York: Associated Faculty Press, Inc., 1977. – 131 p.

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA AYLANMA MABLAG'LARNI SAMARALI MOLIYALASHTIRISH USULLARI VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI

B.X.Qo‘chqarov
Mustaqil izlanuvchi, Namangan Davlat Texnika Universiteti
email: bahtiyorkuchkarov85@gmail.com

Annotatsiya Ushbu maqola kichik biznes subyektlarida aylanma mablag'larni samarali moliyalashtirish usullarini va ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini tahlil qilingan. Maqolada aylanma mablag'larning manbalari va moliyalashtirish usullari, jumladan bank kreditlari, tijorat kreditlari, faktoring va lizing haqida keng qamrovli ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, zamonaviy moliyalashtirish usullari va ularning afzalliklari ham tahlil qilinadi. Kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash uchun takliflar berilgan. Ushbu tadqiqot kichik biznesning barqaror rivojlanishi va iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, aylanma mablag'lar, moliyalashtirish usullari, iqtisodiy samaradorlik, bank kreditlari, tijorat kreditlari, faktoring, lizing.

Аннотация В данной статье анализируются методы эффективного финансирования оборотных средств в малом бизнесе и их влияние на экономическую эффективность. В статье представлены обширные сведения о источниках оборотных средств и методах финансирования, включая банковские кредиты, коммерческие кредиты, факторинг и лизинг. Также рассматриваются современные методы финансирования и их преимущества. Предложены рекомендации по поддержке субъектов малого бизнеса. Данное исследование способствует стабильному развитию малого бизнеса и экономическому росту.

Ключевые слова: малый бизнес, оборотные средства, методы финансирования, экономическая эффективность, банковские кредиты, коммерческие кредиты, факторинг, лизинг.

Annotation This article analyzes the methods of effective financing of working capital in small businesses and their impact on economic efficiency. It provides comprehensive information on the sources of working capital and financing methods, including bank loans, trade credits, factoring, and leasing. Additionally, modern financing methods and their advantages are discussed. Recommendations for supporting small business entities are also presented. This research contributes to the stable development of small businesses and economic growth.

Keywords: small business, working capital, financing methods, economic efficiency, bank loans, trade credits, factoring, leasing.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes subyektlari milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ish o'rinlari yaratish, innovatsiyalarni rivojlantirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Biroq, kichik biznes korxonalarining barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlash uchun aylanma mablag'larni samarali moliyalashtirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.[1.2009:B.96]

Aylanma mablag'lar korxonaning joriy faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni o'z ichiga oladi va korxonaning likvidligi, to'lov qobiliyati hamda moliyaviy barqarorligini belgilaydi.[2.2008:B.48] Kichik biznes subyektlarida aylanma mablag'larning etishmasligi yoki noto'g'ri boshqarilishi natijasida korxonalar moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelishi, ishlab chiqarish hajmlarini qisqartirishi va hatto faoliyatini to'xtatishi mumkin.[4.2021:B.79]

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Davlat tomonidan kichik biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, aylanma mablag'larni moliyalashtirish masalasi hali ham dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.[3.2005:B.102]

Shu sababli, kichik biznes subyektlarida aylanma mablag'larni samarali moliyalashtirish usullarini o‘rganish, ularning afzallik va kamchiliklarini tahlil qilish hamda iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini baholash nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Aylanma mablag'lar korxonaning joriy faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni anglatadi.[7.2021:B.65] Ular korxonaning normal ishlab chiqarish jarayonini davom ettirish, xodimlar maoshini to'lash, kredit majburiyatlarini bajarish va boshqa joriy xarajatlarni qoplash uchun ishlatiladi.

Aylanma mablag'lar tarkibiga quyidagilar kiradi: pul mablag'lari, qisqa muddatli investitsiyalar, debitorlik qarzlari, tovar-moddiy boyliklar zaxiralari va boshqa joriy aktivlar. Ularning manbalarini ichki va tashqi manbalar deb tasniflash mumkin.[6.2016:B.68]

Ichki manbalar korxonaning o'z resurslari hisoblanadi va ularga foyda, amortizatsiya ajratmalari, ustav kapitali va boshqa o'z mablag'lari kiradi. Tashqi manbalar esa qarzli mablag'larni o'z ichiga oladi va ular bank kreditlari, tijorat kreditlari, kreditorlik qarzlari va boshqa qarz mablag'laridan iborat.

Kichik biznes korxonalarining aylanma mablag'larni moliyalashtirish jarayonida duch keladigan asosiy muammolari quyidagilar: moliyaviy hisobotlarning etarli darajada shakllanmaganligı, garovga qo'yish uchun zarur aktivlarning yetishmasligi, yuqori foiz stavkalari va murakkab bank jarayonlari. Bu omillar kichik biznes subyektlarining tashqi moliyalashtirish manbalariga kirishini cheklaydi.

Moliyalashtirish usullari va ularning tasnifi

Aylanma mablag'larni moliyalashtirish usullari turli mezonlar asosida tasniflanishi mumkin. Moliyalashtirish manbalariga ko'ra ichki va tashqi moliyalashtirish turlariga bo'linadi. Vaqt me'yori bo'yicha qisqa muddatli va o'rta muddatli moliyalashtirish usullariga ajratiladi.

Ichki moliyalashtirish usullari korxonaning o'z mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi. Bularga foyda, amortizatsiya ajratmalari, ustav kapitalini oshirish va boshqa ichki manbalar kiradi. Tashqi moliyalashtirish usullari esa qarzli mablag'lar hisobiga amalga oshiriladi va ularga bank kreditlari, tijorat kreditlari, faktoring va boshqa usullar kiradi.[5.2012:B.94]

Moliyalashtirish usullari va ularning tahlili

Bank kreditlari

Bank kreditlari kichik biznes subyektlari uchun aylanma mablag'larni moliyalashtirish usullaridan eng keng tarqalganidir. Ular qisqa muddatli va uzoq muddatli bo'lishi mumkin. Bank kreditlarining asosiy afzalliklari shundaki, ular nisbatan katta miqdorda mablag' olish imkoniyatini beradi va korxonaning egalarining boshqaruv huquqlariga ta'sir qilmaydi.

Biroq, bank kreditlarining kamchiliklari ham mavjud. Ular qatori yuqori foiz stavkalari, qattiq garov talablari, murakkab hujjat tayyorlash jarayoni va bank tomonidan qo'yiladigan turli shartlar kiradi. Shu bilan birga, kichik biznes subyektlari uchun kredit olish jarayoni ko'pincha murakkabroq bo'ladi, chunki ular moliyaviy hisobotlarning etarli darajada

shakllanmaganligi va garov sifatida qo'yish uchun zarur aktivlarning yetishmasligi muammolari bilan duch keladi.[9.1993:B.70]

Tijorat kreditlari

Tijorat kreditlari yetkazib beruvchilar tomonidan xaridorga tovarlar yoki xizmatlar uchun berilgan kechiktirilgan to'lov shaklida amalga oshiriladi. Bu usulning asosiy afzalligi shundaki u oddiy va tez amalga oshiriladi hamda qo'shimcha garov talab qilmaydi.

Tijorat kreditlari kichik biznes subyektlari uchun juda foydali bo'lib, ayniqsa, dastlabki ishni boshlash bosqichida va mavsumiy o'zgarishlar davrida muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, kommersiya kreditlarining muddati odatda qisqa bo'ladi va ular faqat aniq bir yetkazib beruvchi bilan bog'liq operatsiyalar uchun ishlatiladi.

Faktoring

Faktoring korxonaning debitorlik qarzlarini faktoring kompaniyasiga sotish orqali aylanma mablag'larni olish usulidir. Bu usul kichik biznes subyektlari uchun nisbatan yangi bo'lib, ularga tez va samarali moliyalashtirish imkoniyatini beradi.

Faktoringning asosiy afzalliklari quyidagilar: tez moliyalashtirish, debitorlik qarzlarini yig'ish masalalaridan qutilish, moliyaviy oqimlarni yaxshilash. Kamchiliklari esa faktoring xizmatlari uchun to'lanadigan komissiya va korxonaning mijozlari bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqasining yo'qolishi.

Lizing

Lizing korxonaga zarur bo'lgan asosiy vositalar va jihozlarni sotib olmasdan, ijaraga olish imkoniyatini beradi. Garchi lizing to'g'ridan-to'g'ri aylanma mablag'larni moliyalashtirish usuli bo'lmasa ham u korxonaning moliyaviy resurslarini aylanma mablag'larga yo'naltirish imkoniyatini beradi.

Lizingning afzalliklari qatori: katta moliyaviy xarajatlarsiz zarur jihozlarni olish imkoniyati, soliq imtiyozlari, moslashuvchan to'lov shartlari kiradi. Kamchiliklari esa: uzoq muddatli moliyaviy majburiyatlar, jihozning egasi bo'lmaslik, ba'zi holatlarda yuqori umumiy xarajatlar.

Zamonaviy moliyalashtirish usullari

Zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi natijasida kichik biznes subyektlari uchun yangi moliyalashtirish usullari paydo bo'ldi. Bularga **peer-to-peer lending**, **onlayn kredit platformalari**, **blokcheyn texnologiyalari**ga asoslangan moliyalashtirish usullari kiradi.[8.2021:B.57]

Bu usullarning asosiy afzalligi shundaki, ular an'anaviy bank tizimiga qaraganda tezroq va kamroq hujjat bilan moliyalashtirish imkoniyatini beradi. Biroq, ular hali ham rivojlanish bosqichida bo'lib, barqarorlik va ishonchlilik jihatidan ba'zi muammolarga ega.

Iqtisodiy samaradorlikka ta'siri

Aylanma mablag'larni samarali moliyalashtirish kichik biznes subyektlarining moliyaviy ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Likvidlik ko'rsatkichlari yaxshilanishi, to'lov qobiliyatining oshishi va moliyaviy barqarorlikning ta'minlanishi asosiy natijalardandir.

Aylanma mablag'larning etarli darajada ta'minlanishi korxonaning joriy majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish imkoniyatini beradi, bu esa uning moliyaviy obro'sini oshiradi va kelajakda moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, optimal moliyalashtirish tuzilmasi korxonaning kapital qiymatini kamaytiradi va rentabellikni oshiradi.

Aylanma mablag'larning yetarli darajada ta'minlanishi korxonaning ishlab chiqarish faoliyatini uzluksiz davom ettirish imkoniyatini beradi. Xom ashyo va materiallarni o'z vaqtida sotib olish, ishlab chiqarish jarayonini to'xtatmaslik, buyurtmalarni o'z vaqtida bajarish mumkin bo'ladi.

Bu esa o'z navbatida korxonaning ishlab chiqarish hajmini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va mijozlar talabini to'la qondirishga yordam beradi. Natijada korxonaning bozordagi mavqei mustahkamlanadi va raqobatbardoshlik darajasi oshadi.

Aylanma mablag'larning samarali moliyalashtirilishi xodimlar maoshini o'z vaqtida to'lash, ularga qo'shimcha rag'batlantirish choralarini qo'llash imkoniyatini beradi. Bu esa xodimlarning mehnatga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi va mehnat unumdorligini

yaxshilaydi.

Shu bilan birga, korxonaning moliyaviy barqarorligi xodimlar uchun ish joyining barqarorligini ta'minlaydi, bu esa kadrlar almashinuvini kamaytiradi va mutaxassis xodimlarni korxonada saqlab qolishga yordam beradi.

Aylanma mablag'larning etarli darajada ta'minlanishi korxonaga yangi texnologiyalarni joriy etish, mahsulot assortimentini kengaytirish va sifatni yaxshilash uchun qo'shimcha resurslarni ajratish imkoniyatini beradi. Bu esa korxonaning innovatsion faoliyatini rag'batlantiradi va uning uzoq muddatli rivojlanishiga yordam beradi.

Kichik biznes subyektlarida aylanma mablag'larning samarali moliyalashtirilishi makroiqtisodiy darajada ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Kichik biznes sektorining barqaror rivojlanishi ish o'rinlari yaratilishiga, soliq tushumlari oshishiga va umumiy iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi.

Shu bilan birga, kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligi banking sektorining barqarorligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi, chunki ular bank kreditlari portfelining muhim qismini tashkil qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes subyektlarida aylanma mablag'larni samarali moliyalashtirish masalasi dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Amalga oshirilgan tahlil natijalariga ko'ra, kichik biznes korxonalari turli moliyalashtirish usullaridan foydalanishi mumkin bo'lsa-da, har bir usulning o'ziga xos afzallik va kamchiliklari mavjud.

Bank kreditlari eng keng tarqalgan usul bo'lib, katta miqdorda mablag' olish imkoniyatini beradi, biroq yuqori foiz stavkalari va qattiq garov talablari muammolarini keltirib chiqaradi. Tijorat kreditlari oddiy va tez amalga oshiriladi, biroq muddati qisqa va cheklangan. Faktoring tez moliyalashtirish imkoniyatini beradi, biroq yuqori komissiya to'lanadi. Lizing esa moliyaviy resurslarni aylanma mablag'larga yo'naltirish imkoniyatini beradi.

Aylanma mablag'larning samarali moliyalashtirilishi kichik biznes subyektlarining moliyaviy ko'rsatkichlarini yaxshilaydi, ishlab chiqarish faoliyatini barqarorlashtiradi, mehnat unumdorligini oshiradi va innovatsion faoliyatni rag'batlantiradi. Makroiqtisodiy darajada esa ish o'rinlari yaratilishi va umumiy iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi.

Kichik biznes subyektlarida aylanma mablag'larni samarali moliyalashtirish uchun quyidagi takliflar amaliy ahamiyat kasb etadi:

1) davlat tomonidan kichik biznes subyektlari uchun kafolat fondlarini yaratish va rivojlantirish zarur. Bu fondlar kichik biznes korxonalarining bank kreditlari olishida garov muammosini hal qilishga yordam beradi.

2) kichik biznes subyektlari uchun maxsus moliyalashtirish institutlarini yaratish va rivojlantirish kerak. Bu institutlar kichik biznes korxonalarining ehtiyojlariga moslashtirilgan moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni taklif qilishi mumkin.

3) zamonaviy moliyalashtirish usullarini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash zarur. Peer-to-peer lending, onlayn kredit platformalari va boshqa innovatsion moliyalashtirish usullarini tartibga solish va rivojlantirish kichik biznes subyektlariga yangi imkoniyatlar yaratadi.

4) kichik biznes subyektlari rahbarlarining moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirish kerak. Bu korxonalarning moliyaviy boshqaruv sifatini yaxshilash va to'g'ri moliyalashtirish usullarini tanlashga yordam beradi.

5) kichik biznes subyektlari uchun soliq imtiyozlari va rag'batlantirish choralarini kengaytirish zarur. Bu korxonalarning ichki moliyalashtirish imkoniyatlarini oshiradi va tashqi moliyalashtirish ehtiyojini kamaytiradi.

6) kichik biznes subyektlari o'rtasida kooperatsiya va hamkorlikni rivojlantirish zarur. Korxonalarning birlashib moliyaviy resurslarni samarali ishlatishi va bir-birini qo'llab-quvvatlashi mumkin.

7) kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy ma'lumotlar bazasini yaratish va rivojlantirish kerak. Bu ma'lumotlar bazasi korxonalarning moliyaviy ahvolini baholash va ularning moliyalashtirish ehtiyojlarini aniqlashga yordam beradi.

8) kichik biznes subyektlari uchun konsalting va maslahat xizmatlarini rivojlantirish zarur. Bu xizmatlar korxonalarga optimal moliyalashtirish usullarini tanlash va moliyaviy boshqaruvni yaxshilashda yordam beradi.

Ushbu takliflarning amalga oshirilishi kichik biznes subyektlarida aylanma mablag'larni samarali moliyalashtirish masalasini hal qilishga va ularning iqtisodiy samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bu esa o'z navbatida milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga muhim hissa qo'shadi.

Adabiyotlar/References:

1. Бучик Т.А.(2009) “Оборотный капитал и его влияние на финансовую устойчивость предприятия”.-Гомель юбилейная научно-практическая конференция 2009, 28-31с.
2. Бурханов А. Санот корхоналарида молиявий барқарорликни таъминлаш омиллари//Бозор, пул ва кредит. – Тошкент, 2008. –№6. Б. 33-36
3. Voxobov A., Ibroximov A., Ishonqulov N., “Moliyaviy va boshqaruv taxlili”. – Toshkent: “Sharq” Nashriyot – matbaa AK, 2005y.
4. Гараев И.И. Особенности управления основным капиталом предприятия. Modern Science.2021. № 1-2. С. 41-42.
5. Косой А.М. Платежный оборот: исследование и рекомендации. Монография. – М.: КНОРУС, 2012. - 296 с.
6. Орехов С.А. Управление основным капиталом предприятия. Молодеж и наука. 2016. № 4.С. 156 б.
7. Пешкова Е.П., Мамбетова А.А. (2013) “Влияние структуры оборотных средств на показатели финансового состояния организации”.-Вестник Таганрогского института управления и экономики №2/2013, 19-21с.
8. Brigham, E.F., Houston, J.F. (2021). Fundamentals of Financial Management (15th ed.). Cengage Learning.
9. Pagano M. Financial Markets and Growth//European Economic Review. 1993. Vol. 37, № 2-3.

DEBITOR QARZLARNING KICHIK BIZNES RENTABELLIGI VA IQTISODIY FAOLIYATIGA TA'SIRINI KOMPLEKS BAHOLASH

B.X.Qo‘chqarov
Namangan Davlat Texnika Universiteti email: bahtiyorkuchkarov85@gmail.com

Annotatsiya Ushbu maqola debitor qarzlarining kichik biznes rentabelligi va iqtisodiy faoliyatiga ta'sirini kompleks baholashga bag'ishlangan. Debitor qarzlarining moliyaviy resurslarni boshqarishda ahamiyatini va ularning likvidlikka, rentabellikka va moliyaviy barqarorlikka ta'sirini tahlil qiladi. Maqolada debitor qarzlarining turlari, ularning ijobiy va salbiy ta'sirlari, shuningdek, samarali boshqarish usullari va tavsiyalari keltirilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, debitor qarzlarini to'g'ri boshqarish kichik biznesning muvaffaqiyatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: debitor qarzlari, kichik biznes, rentabellik, iqtisodiy faoliyat, moliyaviy barqarorlik, likvidlik, kredit siyosati, boshqarish usullari

Аннотация В данной статье рассматривается комплексная оценка влияния дебиторской задолженности на рентабельность и экономическую деятельность малого бизнеса. Анализируется значимость дебиторской задолженности в управлении финансовыми ресурсами, а также ее влияние на ликвидность, рентабельность и финансовую стабильность. В статье представлены виды дебиторской задолженности, их положительные и отрицательные последствия, а также эффективные методы управления и рекомендации. Результаты исследования показывают, что правильное управление дебиторской задолженностью имеет важное значение для обеспечения успеха малого бизнеса.

Ключевые слова: дебиторская задолженность, малый бизнес, рентабельность, экономическая деятельность, финансовая стабильность, ликвидность, кредитная политика, методы управления.

Annotation This article focuses on the comprehensive assessment of the impact of accounts receivable on the profitability and economic activity of small businesses. It analyzes the significance of accounts receivable in managing financial resources and their influence on liquidity, profitability, and financial stability. The article presents the types of accounts receivable, their positive and negative effects,

as well as effective management methods and recommendations. The research results indicate that proper management of accounts receivable is crucial for ensuring the success of small businesses.

Keywords: accounts receivable, small business, profitability, economic activity, financial stability, liquidity, credit policy, management methods.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes subyektlari mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Kichik korxonalarning muvaffaqiyatli faoliyati ko'p jihatdan ularning moliyaviy resurslarini samarali boshqarishi, jumladan debitor qarzlarini to'g'ri tashkil etishiga bog'liq.[1.2022:B.80] Debitor qarzlari korxonaning aylanma mablag'larining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ularning optimal darajada ushlab turilishi korxonaning likvidligi, rentabelligi va umumiy moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.[2.2003:B.35]

Debitor qarzlari - bu korxona tomonidan yetkazib berilgan mahsulot, ko'rsatilgan xizmatlar yoki berilgan qarzlar uchun uchinchi shaxslardan olinadigan mablag'lardir. Kichik biznes uchun debitor qarzlarining optimal boshqaruvi ayniqsa muhim, chunki ular moliyaviy imkoniyatlari cheklangan va likvidlik tanqisligi katta xavf tug'diradi.[3.2019:B.145]

Debitor qarzlari korxona faoliyatining tabiiy natijasi bo'lib, tovar-pul munosabatlarining zaruriy elementi hisoblanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda debitor qarzlari turli jihatdan tasniflanadi:

Muddati bo'yicha debitor qarzlari qisqa muddatli (bir yilgacha) va uzoq muddatli (bir yildan ortiq) turlarga bo'linadi. Kelib chiqish manbaiga ko'ra ular tijorat debitor qarzlari (mahsulot yetkazib berish uchun) va boshqa debitor qarzlari (avanslar, xodimlar bilan hisob-kitoblar va hokazo) kabi turlarga ajratiladi. To'lanish ehtimoli bo'yicha normal debitor qarzlari, shubhali debitor qarzlari va umidsiz debitor qarzlari mavjud.[4.2005:B.49]

Debitor qarzlarining paydo bo'lishi korxonaning kreditli savdo siyosati bilan bog'liq. Bu siyosat mijozlarni jalb qilish va savdo hajmini oshirish maqsadida qo'llaniladi, lekin ayni paytda moliyaviy risklar tug'diradi.

Kichik biznes korxonalarida debitor qarzlari qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchidan, moliyaviy imkoniyatlarning cheklanganiligi. Kichik korxonalar katta korxonalarga nisbatan kamroq moliyaviy resurslarga ega bo'lib, debitor qarzlarining kechikishi ularning likvidligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.[5.2021:B.77]

Ikkinchidan, mijozlar bazasining cheklanganiligi. Kichik korxonalar odatda cheklangan mijozlar doirasiga ega bo'lib, bitta yirik mijozning to'lovni kechiktirishi umumiy moliyaviy holatga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchidan, kredit siyosatining soddaligi. Kichik korxonalarda ko'pincha professional kredit menejeri bo'lmaydi va debitor qarzlarini boshqarish sodda usullar bilan amalga oshiriladi.

To'rtinchidan, hisob-kitob tizimining nokamolligi. Ko'pchilik kichik korxonalarda debitor qarzlarini kuzatish va tahlil qilish tizimi yetarlicha rivojlanmagan.

Debitor qarzlari kichik biznes rentabelligiga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Ijobiy ta'sirlar orasida savdo hajmining oshishi hisobiga daromadlarning o'sishi, mijozlar bazasining kengayishi, bozordagi raqobatbardoshlikning oshishi va mahsulot aylanuvchanligi koeffitsientining yaxshilanishi kiradi.[6.2004:B.64]

Salbiy ta'sirlar esa mablag'larning aylanma jarayondan chiqarib olinishi, qo'shimcha xarajatlarning paydo bo'lishi (inkasso, sud xarajatlari), umidsiz qarzlar hisobiga yo'qotishlar va inflyatsiya ta'sirida qarzlarning real qiymatining pasayishi shaklida namoyon bo'ladi.[7.2016:B.102]

Rentabellik ko'rsatkichlariga ta'sirni quyidagi formulalar orqali ifodalash mumkin. Aktivlar rentabelligi ROA sof foyda va jami aktivlar nisbati orqali hisoblanadi. Debitor qarzlarining oshishi aktivlar summasi va aylanuvchanligi koeffitsientiga ta'sir ko'rsatib, natijada ROA ko'rsatkichini o'zgartiradi.

Aktivlar rentabelligi (ROA):

ROA = (Sof foyda / Jami aktivlar) × 100%

Sotuv rentabelligi ROS esa sof foyda va sotuv hajmi nisbati orqali aniqlanadi. Kreditli savdo orqali sotuv hajmi oshsa ham, qo'shimcha xarajatlar va yo'qotishlar sof foydaga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Sotuv rentabelligi (ROS):

ROS = (Sof foyda / Sotuv hajmi) × 100%

Debitor qarzlarining likvidlikka ta'siri ayniqsa muhim, chunki kichik korxonalar odatda pul mablag'lari tanqisligini boshdan kechiradi. Joriy likvidlik koeffitsienti aylanma aktivlar va qisqa muddatli

majburiyatlar nisbati orqali hisoblanadi. Debitor qarzlarining o'sishi aylanma aktivlarni oshiradi, lekin ularning likvid emas ekanligi hisobga olinishi kerak.[8.2019:B.59]

Tezkor likvidlik koeffitsienti aylanma aktivlardan zaxiralar va debitor qarzlarini ayirib, qisqa muddatli majburiyatlarga bo'lish orqali aniqlanadi. Bu ko'rsatkich debitor qarzlarining likvidlik darajasiga salbiy ta'sirini aniqroq ko'rsatadi.

Shuningdek debitor qarzlari korxonaning pul oqimlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir operatsion pul oqimining kechikishi, investitsiya imkoniyatlarining cheklanishi, qarz majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish qiyinliklari va ishchi kapitalni moliyalashda muammolar shaklida namoyon bo'ladi.

Pul oqimi tsiklini quyidagicha ifodalash mumkin: pul tsikli zaxiralar aylanish davri va debitor qarzlar aylanish davrining yig'indisidan kreditor qarzlar aylanish davrini ayirish orqali hisoblanadi.[9.2019:B.91]

Samarali debitor qarzlarini boshqarish uchun kichik korxonalar kredit siyosati elementlarini ishlab chiqishi kerak. Mijozlarni baholash mezonlari orasida moliyaviy ahvoli tahlili, kredit tarixi tekshiruvi, bozordagi obro'si va faoliyat davri hamda to'lov qobiliyatini baholash kiradi.

Kredit shartlarini belgilash jarayonida to'lov mudadatlari (odatda 30, 60, 90 kun), kredit limitlari mijoz turiga qarab, chegirmalar va jarima siyosati hamda kafolat talablari hisobga olinadi.

Risk darajasiga qarab mijozlarni kategoriyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Past riskli mijozlarga keng imtiyozlar berilsa, o'rta riskli mijozlar uchun standart shartlar qo'llaniladi. Yuqori riskli mijozlar uchun esa qattiq shartlar yoki naqd to'lov talab qilinadi.

Debitor qarzlarini monitoring va nazorat qilish

Muddat tahlili debitor qarzlarini muddat bo'yicha guruhlash va har bir guruh uchun to'lanish ehtimolini baholashga asoslangan usul hisoblanadi. 0-30 kun oralig'idagi qarzlar uchun 98-99% to'lanish ehtimoli, 31-60 kun uchun 85-90%, 61-90 kun uchun 70-80% va 90 kundan ortiq qarzlar uchun 30-50% to'lanish ehtimoli belgilanadi.[10.2008:B.81]

Aylanish koeffitsientlarini hisoblashda debitor qarzlar aylanish koeffitsienti yillik sotuv va o'rtacha debitor qarzlar nisbati orqali aniqlanadi. Aylanish davri kunlarda 365 ni aylanish koeffitsientiga bo'lish orqali hisoblanadi.

ABC tahlili mijozlarni qarz summasi bo'yicha guruhlash usuli hisoblanadi. A guruhi eng yirik qarzlarni (70-80% summani tashkil etadi), B guruhi o'rta qarzlarni (15-20% summani tashkil etadi) va C guruhi kichik qarzlarni (5-10% summani tashkil etadi) o'z ichiga oladi.

Debitor qarzdorliklarni samarali boshqarish uchun quyidagi tasir choralarini qo‘llash tavsiya etiladi:

1 jadval. Debitor qarzdorlarga ta’sir qilish usullari

Muddat, kunlar	**Ta’sir etish usullari**	**Ta’sirning foydalilik koeffitsienti, %**	
		Ma’suliyatli qarzdor	**Ma’suliyatsiz qarzdor**
0-30	Og‘zaki eslatmalar	10-20	0.1-2
30-60	Yozma eslatmalar	15-30	0.1-2
60-90	Da’vo arizasi berish	20-40	5-15
90-120	Sud qarorini ijro etish	30-50	10-20
120-150	Jarima, penya (miqdoriga qarab)	50-60	20-30
150-180	Garov (likvidliligiga qarab)	80-90	70-80
180-365	Etkazib berishni to‘htatish	10-30	5-20

Bundan kelib chiqadiki, birinchi navbatda, qisqa muddatli debitorlik qarzlarini undirish yoki kamaytirish siyosatiga e’tibor qaratish lozim, chunki bu modda naqd pul tushumlari tarkibida katta o‘rinni egallaydi. Boshqacha aytganda, qisqa muddatli debitorlik qarzlarining o‘sishi va ularni to‘lashning kechikishi tadbirkorning samarali faoliyatining buzilishiga olib keladi. Majburiyatlarni o‘z vaqtida to‘lash muammosini hal qilish uchun qarzdorlarga turli usullardan foydalangan holda ta’sir ko‘rsatish kerak.

Ma’lumki, qarzdorlar ma’suliyatli va mas’suliyatsiz turlarga bo‘linib, ularga ta’sir ko‘rsatishning eng samarali usullari garovdan foydalanish (ta’sir darajasi 80-90 foiz) va qarzni o‘z vaqtida to‘lamaganlik uchun jarima (50-60 foiz) undirishdir. Ushbu usullarning kamchiliklari qarzdorga haqiqiy ta’sir qilish va qarzni qaytarish o‘rtasidagi uzoq muddatdir; ba’zi hollarda, bu muddat taxminan olti oy bo‘lishi mumkin. Shuni ta’kidlash kerakki, bunday usullardan foydalanish juda istalmagan, chunki bu salbiy oqibatlarga olib kelishi yoki ushbu sohadagi raqobat tufayli mijozlarni yo‘qotishi mumkin.

To'lovlarni tezlashtirish usullari

Rag'batlantirish choralari orasida muddatidan oldin to'lash uchun chegirmalar, muntazam to'lovchilar uchun maxsus shartlar hamda sadoqat dasturlari va bonuslar kiradi.

Texnologik yechimlar elektron to'lov tizimlaridan foydalanish, mobil to'lov ilovalarini joriy etish va avtomatik eslatma tizimlarini o'rnatishni o'z ichiga oladi.

Inkasso faoliyati telefon orqali eslatishlar, yozma ogohlantirishlar, shaxsiy uchrashuvlar va huquqiy choralar ko'rishdan iborat.

Riskni kamaytirish usullari

Sug'urta xizmatlaridan foydalanish, jumladan kredit sug'urtasi xizmatlaridan foydalanish va eksport operatsiyalari uchun siyosiy risk sug'irtasi muhim hisoblanadi.

Faktoring va forfeyting debitor qarzlarini moliyaviy institutlarga sotish, tezkor pul oqimi ta'minlash va risklarni uchinchi tomonga o'tkazish imkoniyatlarini beradi.

Bank kafolatlari mijozlardan bank kafolati talab qilish va akkreditivlar orqali hisob-kitob o'tkazish shaklida amalga oshiriladi.

Xulosa va takliflar

Debitor qarzlarning kichik biznes rentabelligiga ta'siri bo'yicha o'tkazilgan tahlil quyidagi xulosalarni beradi. Birinchidan, debitor qarzlari kichik biznes faoliyatining uzajmaydigan qismi bo'lib, ularning optimal darajada ushlab turilishi korxonaning moliyaviy samaradorligini oshiradi. Ikkinchidan, debitor qarzlarining ortiqcha o'sishi likvidlik muammolariga olib keladi va korxonaning moliyaviy barqarorligini buzadi. Uchinchidan, samarali kredit siyosati va debitor qarzlarini boshqarish tizimi korxonaning raqobatbardoshligini oshiradi va risklarni kamaytiradi. To'rtinchidan, zamonaviy texnologiyalar va moliyaviy vositalardan foydalanish debitor qarzlarni boshqarishning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Amaliy tavsiyalar orasida kredit siyosatini takomillashtirish muhim o'rin tutadi. Har bir kichik korxona o'z faoliyat sohasiga mos keladigan kredit siyosatini ishlab chiqishi va muntazam yangilab borishi kerak. Monitoring tizimini joriy etish debitor qarzlarini doimiy kuzatib borish va tahlil qilish uchun oddiy lekin samarali tizimlarni o'rnatishni talab qiladi.

Diversifikatsiya mijozlar bazasini kengaytirish va bitta mijozga bog'liqlikni kamaytirish jihatidan muhim hisoblanadi. Professional tayyorgarlik kichik biznes rahbarlari va xodimlarini debitor qarzlarni boshqarish bo'yicha o'qitishni nazarda tutadi. Texnologik yangilanish zamonaviy dasturiy ta'minot va to'lov tizimlaridan foydalanish orqali samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

Istiqbolda tadqiq etish yo'nalishlari raqamli texnologiyalarning debitor qarzlarni boshqarishga ta'siri, mikromoliya institutlari bilan hamkorlik imkoniyatlari, sektoriy xususiyatlarni hisobga olgan kredit siyosati modellari va sun'iy intellekt hamda big data texnologiyalarining qo'llanilishini o'z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, debitor qarzlarni samarali boshqarish kichik biznes muvaffaqiyatining muhim omillaridan biri bo'lib, bu sohada kompleks yondashuv va zamonaviy usullardan foydalanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati (references):

1. Алкаиси Т. Современние источники формирования капитала в сфере малого бизнеса. // Студенческий вестник. 2022.. № 5-4 (197). С. 36-37.

2. Akramov E.A. Korxonalarning moliyaviy holati tahlili. - T.: Moliya, 2003. – B. 35-85.

3. Бикметова З. М. Основние направления обеспечения финансовой безопасности предприятия // Актуалние вопроси современной экономики. 2019. № 6 (1). С. 363-370.

4. Voxobov A., Ibroximov A., Ishonqulov N., “Moliyaviy va boshqaruv taxlili”. – Toshkent: “Sharq” Nashriyot – matbaa AK, 2005y.

5. Гараев И.И. Особенности управления основним капиталом предприятия. Modern Science.2021. № 1-2. S. 41-42.

6. Maxmudov E.X., “Korxona iqtisodiyoti”. – Toshkent: “O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti”, 2004 y.

7. Орехов С.А. Управление основним капиталом предприятия. Молодеж и наука. 2016. № 4.С. 156.

8. Pardaev M.Q., Isroilov B.I. Moliyaviy tahlil: (Uslubiy ko‘rgazmalar va tavsiyalar). - T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2019. – B. 197.

9. Разинков П.И., Максимова А.Д. Ключевие направления эффективного управления капиталом предприятия. “Теория: педагогика, экономика, право”. 2021. № 4(5). С. 135-141.

10. Qosimov X.Q., Aslanova D.X., Ergashev R.E., “Korxona iqtisodiyoti” o‘quv qo‘llanma. Samarqand, SamDU nashri 2008y.

“O‘ZMILLIYBANK” AJDA MIJOZLARNING KREDITGA LAYOQATLILIGI DARAJASINI OSHIRISHDA SSUDA OPERATSIYALARI TAHLILI

Q.A.Jumaniyazov
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi mustaqil izlanuvchisi,
e-mail:kuvanchbek.j@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada “O‘zmilliybank” AJda mijozlarning kreditga layoqatliligi darajasini oshirish zaruriyati, o‘ziga xos xususiyatlari, mavjud imkoniyatlari va uni amalga oshirishda ssuda operatsiyalari tahlili amalga oshirilgan.

Аннотация. В статье анализируется необходимость повышения кредитоспособности клиентов в Национальном банке Узбекистана, её особенности, существующие возможности и кредитные операции в её реализации.

Abstract. This article analyzes the need to increase the creditworthiness of clients in the National Bank of Uzbekistan, its specific features, existing opportunities and loan operations in its implementation.

Kalit so‘zlar. “O‘zmilliybank” AJ, mijoz, kredit, kreditga layoqatlik darajasi, ssuda, ssuda operatsiyalari, tahlil.

Ключевые слова. Национальный банк Узбекистана, клиент, кредит, кредитоспособность, ссуда, ссудные операции, анализ.

Key words. National Bank of Uzbekistan, client, loan, creditworthiness, loan, loan operations, analysis.

Ma’lumki, qarz oluvchilarning kreditga layoqatliligini tahlil qilishda banklar potentsial qarz oluvchi o‘z majburiyatlarini o‘z vaqtida va belgilangan miqdorda bajara olishi masalalarni hal qilishi talab etiladi. Birinchi holatda bu korxonaning moliyaviy holatini tahlil qilish bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ikkinchisida esa huquqiy xususiyatga ega bo‘ladi va korxona rahbarining shaxsiy fazilatlarini aks ettiradi. Unda ko‘rsatkichlarning tarkibi va mazmuni kreditga layoqatlilik tushunchasidan kelib chiqadi. Ular qarz va barcha mablag‘larni birgalikda joylashtirish va ulardan foydalanish samaradorligi nuqtai nazaridan moliyaviy-iqtisodiy holatni aks ettirishi, qarz oluvchining oldindan belgilangan muddatlarda to‘lovlarni amalga oshirish va kreditlarni qaytarish qobiliyati va tayyorligini baholashi kerak bo‘ladi. Bu borada kreditga layoqatliligi darajasi, ya’ni, qarz oluvchining kreditni qaytarish qobiliyatini oshirishda ssuda operatsiyalari tahlili muhim ahamiyat kasb etadi.

Banklarda mijozlarning kreditga layoqatliligi darajasini oshirishda ssuda operatsiyalari bevosita kredit harakatlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Ya’ni, bu borada kredit tarixi ma’lumotlariga asoslanib, banklar mijozning joriy kredit yukini yoki to‘lanmagan kreditlar mavjudligini tekshiradilar [2, 86-b]. Ushbu kredit bilan bog‘liq hisob-kitoblardagi farqlarni o‘z vaqtida baholab borish talab etiladi. Jumladan, kredit skoring modeli va ekspertning subyektiv bahosi o‘rtasidagi muhim farq shundaki, ballarni baholash bankning oldingi qarzdorlarining kredit tarixining matematik va statistik tahliliga asoslanib, risklarni obyektiv baholash tizimini nazarda tutadi [1, 57-b]. Banklarda kredit qobiliyatini baholash uchun ssuda operatsiyalari tahlili amalga oshiriladi. Unga asosan, mijozning kredit qobiliyatini baholashning oxirgi bosqichi to‘lov qobiliyatining moliyaviy ko‘rsatkichlarini baholashga asoslanadi [4]. Shu orqali kreditlash operatsiyasi ssuda operatsiyalari shaklida mijozlarning kreditga layoqatliligi darajasini oshirishga qaratiladi. Bu borada banklarda ko‘p daromad keltiruvchi operatsiyalarning asosiysi kreditlash operatsiyasini tashkil etadi [3, 37-b]. Yuqoridagilardan kelib chiqib, mijozlarning kreditga layoqatliligi darajasini oshirishda ssuda operatsiyalari tahlilini amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bu “O‘zmilliybank” AJda ssuda operatsiyalari tahlili bank tomonidan berilgan kreditlar yoki ssudalar samaradorligi, xavfi va qaytarilish holatini o‘rganish, tahlil qilish jarayonini aks ettiradi. Asosiysi, kredit portfeli sifati va mijozning moliyaviy holatini baholashga imkon beradi.

“O‘zmilliybank” AJda mijozlarning kreditga layoqatliligi darajasini oshirishda ssuda operatsiyalari tahlilini amalga oshirishning maqsadi kredit oluvchining moliyaviy barqarorligini aniqlash, qarzlarni o‘z vaqtida qaytarish darajasini tahlil qilish, kredit xavflarini kamaytirish, kredit portfelini sog‘lomlashtirish va kreditni to‘liq va o‘z vaqtida qaytarish imkoniyatini oshirishdan iborat bo‘ladi. “O‘zmilliybank” AJda mijozlarning kreditga layoqatliligi darajasini oshirishda ssuda operatsiyalarining quyidagi asosiy ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi:

- to‘lov intizomi. Bu mijozning ssudani vaqtida va to‘liq qaytarishini aks ettiradi;

- kredit portfeli sifati. Bu muammoli, kechikkan va umidsiz qarzlar ulushi hajmini ko‘rsatadi;
- kreditning maqsadli ishlatilishi. Bu holat kredit mablag‘larining rejalashtirilgan faoliyatga sarflanishini belgilaydi;
- qaytgan ssudalar ulushi. Unga asosan berilgan ssudalarning qaytganini asoslaydi;
- rezervlar hajmi. Bu orqali tavakkal ssudalar uchun ajratilgan zaxira mablag‘lari hajmi belgilanadi.

Mazkur bankda mijozlarning kreditga layoqatliligi darajasini oshirishda ssuda operatsiyalarining tahlil uslublari tahlil turidan kelib chiqib belgilanadi. Ya’ni, gorizontal (vaqt bo‘yicha) tahlilda ssuda portfeli va kreditlar sifatining o‘zgarishi o‘rganilsa-da, vertikal (strukturaviy) tahlilda esa kredit portfelini umumiy hajmi aniqlanadi. Ushbu ko‘rsatkichlar asosida kreditlashtirishni amalga oshirish mumkin.

Fikrimizcha, “O‘zmilliybank” AJda mijozlarning kreditga layoqatliligi darajasini oshirishda ssuda va kreditlarni ma’lumotlar mavjudligiga qarab tahlil qilish uchun turli usullardan foydalaniladi. Bu keng ko‘lamli moliyaviy ma’lumotlarni regressiya tahlili yordamida tahlil qilish mumkin. Biroq, unchalik batafsil bo‘lmagan ishlash ma’lumotlarini trend tahlili yordamida tahlil qilish mumkin. Regressiya va trend tahlili oylik yoki haftalik ma’lumotlarni talab qiladi. Kamroq batafsil ishlash ma’lumotlarini o‘rtacha oylik huquqbuzarlik yoki o‘rtacha kunlar soni kabi oddiy choralar yordamida tahlil qilish mumkin bo‘ladi.

“O‘zmilliybank” AJda mijozlarning kreditga layoqatliligi darajasini oshirishda ssuda operatsiyalari ssuda qoldiqlarining o‘zgarishlar dinamikasini aks ettiradi. Bu ko‘rsatkichlar hisobdan chiqarilgan kreditlar nisbati bilan belgilanadi (1-jadval).

1-jadval. “O‘zmilliybank” AJda ssuda qoldiqlarining o‘zgarishlar dinamikasi, mln. so‘mda

№	Bo‘lim nomlari	2024-yil 1-yanvar holatiga	% da
O‘zbekiston Respublikasi milliy banki bo‘yicha		1554148,4	87,4
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘limi	3387,4	0,2
2	Andijon viloyati bo‘limi	24176,8	1,4
3	Buxoro viloyati bo‘limi	4972,4	0,3
4	Jizzax viloyati bo‘limi	19366,1	1,1
5	Qashqadaryo viloyati bo‘limi	4464,9	0,3
6	Navoiy viloyati bo‘limi	2797,8	0,2
7	Namangan viloyati bo‘limi	24623,9	1,4
8	Samarqand viloyati bo‘limi	17246,0	1,0
9	Surxondaryo viloyati bo‘limi	4980,6	0,3
10	Sirdaryo viloyati bo‘limi	22035,5	1,2
11	Toshkent viloyati bo‘limi	11080,3	0,6
12	Farg‘ona viloyati bo‘limi	13021,0	0,7
13	Xorazm viloyati bo‘limi	3023,2	0,2
14	Toshkent shahri bo‘limi	68094,1	3,8
	Jami	**1777418,3**	100,0

Mazkur jadvalga asosan, 2024-yil 1-yanvar holatiga mamlakatimiza bo‘yicha jami ssuda qoldiqlari hajmi 1777418,3 mln. so‘mni tashkil etdi. O‘zbekiston Respublikasi milliy banki bo‘yicha esa 1554148,4 mln. so‘m yoki 87,4 foizni tashkil etadi. Hududlar bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘limida 3387,4 mln. so‘mni (0,2 %), Andijon viloyati bo‘limida 24176,8 mln. so‘mni (1,4 %), Buxoro viloyati bo‘limida 4972,4 mln. so‘mni (0,3 %), Jizzax viloyati bo‘limida 19366,1 mln. so‘mni (1,1 %), Qashqadaryo viloyati bo‘limida 4464,9 mln. so‘mni (0,3 %), Navoiy viloyati bo‘limida 2797,8 mln. so‘mni (0,2 %), Namangan viloyati bo‘limida 24623,9 mln. so‘mni (1,4 %), Samarqand viloyati bo‘limida 17246,0 mln. so‘mni (1,0 %), Surxondaryo viloyati bo‘limida 4980,6 mln. so‘mni (0,3 %), Sirdaryo viloyati bo‘limida 22035,5 mln. so‘mni (1,2 %), Toshkent viloyati bo‘limida 11080,3 mln. so‘mni (0,6 %) Farg‘ona viloyati bo‘limida 13021,0 mln. so‘mni (0,7 %), Xorazm viloyati bo‘limida 3023,2 mln. so‘mni (0,2 %), Toshkent shahri bo‘limida 68094,1 mln. so‘mni (3,8 %) tashkil etadi. “O‘zmilliybank” AJda mijozlarning kreditga layoqatliligi darajasini oshirish orqali kredit xavfi kamaytirilib, muammoli mijozlar oldindan aniqlanadi. Moliyaviy barqarorlikni ta’minlanib, sog‘lom kredit portfel orqali bank foydasi hajmi oshadi. Shular bilan birga, yangi kreditlarni ishonch bilan berish imkonini yaratiladi. Bu esa

yaxshi natijalarga erishgan mijozlar uchun qo‘yilgan shartlar yanada yengillashib, regulyator talablari bajariladi.

Xulosa shuki, “O‘zmilliybank” AJda mijozlarning kreditga layoqatliligi darajasini oshirishda kredit samaradorligini tahlil qilish orqali vaqt o‘tishi bilan kreditning moliyaviy holati va samaradorligini tahlil qilish jarayonini aks ettiradi. Bu esa kredit bilan bog‘liq har qanday muammolarni aniqlashga imkon beradi. Qarz oluvchiga esa kredit berishni davom ettirish yoki garovga qo‘yish yoki boshqa vositalarni qo‘llash to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun ishlatiladi. Bu borada asosiy e’tibor “O‘zmilliybank” AJda kreditga layoqatlilikni oshirishda asosiy vosita sifatida bankning kredit strategiyasini shakllantirishga qaratiladi. Uning ssuda operatsiyalari tahlili nazorat vositasi bo‘lib qaraladi. Bu borada kreditga layoqatlilik qarz mablag‘larini to‘lash qobiliyatining o‘lchovi bo‘lib ham hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мальцев Э.В. Скоринговые системы в кредитовании физических лиц. // Банковский ритейл, 2018, №1. - С. 86.

2. Бровкина Н.Е. Рынок банковского обслуживания физических лиц: тенденции и перспективы развития: учеб. пособие. - М.: КНОРУС, 2014. - с. 57.

3. https://depozit.uz/news/banklar-oz-mijozlarining-kreditga-layoqatliligini-qanday-baholaydi

4. Pardayeva Z.A., Sharipova Sh.A. Tijorat banklarida kreditlashni tashkil etish tartibi va takomillashtirish yo’llari. // “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy-elektron jurnali, Volume2, I son, 2023. - 37 b.

ILM-FANDA “DISKURS” TUSHUNCHASI VA UNING NAZARIY AHAMIYATI

D.D.Agzamova
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

Annotatsiya Maqolada ilmiy adabiyotlardagi “diskurs” tushunchasining olimlar tomonidan talqini, kelib chiqish tarixi va qo‘llash doiralari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: diskurs, termin, muloqot, nutq, janr, matn.

Аннотация В статье рассматривается трактовка учеными понятия “дискурс” в научной литературе, история его возникновения и сферы применения.

Ключевые слова: дискурс, термин, коммуникация, речь, жанр, текст.

Abstract The article examines scientists' interpretation of the concept of “discourse" in the scientific literature, the history of its origin and scope of application.

Keywords: discourse, term, communication, speech, genre, text.

Bugungi kunda tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biri sifatida “diskurs” muammosi alohida e’tibor bilan qaralmoqda. Diskurs polisemantik xususiyatga ega bo‘lib, turli fan va sohalar kesimida keng qo‘llanilishi uning har xil ma’nolarga egaligini kasb etadi. Diskursning yana bir xususiyati uning tilshunoslik, psixologiya, tarix, sotsiologiya va etnografiya fanlarining chorrahasida paydo bo‘lishidadir.

Leksikografik adabiyotlarda “diskurs” termini (lotincha *discursus* – birlamchi: yugurish, oldinga va orqaga yugurish, sayr, keyinchalik: mulohaza, sabab, bahs, suhbat ma’nolarida) gumanitar fanlar kesimida ishlatiladigan polisemantik termin tarzida izohlanadi.

Boshqa adabiyotlarda diskurs: a) ekstralingvistik (pragmatik, ijtimoiy-madaniy va psixologik) omillar uyg‘unligida bog‘langan matn; b) voqea-hodisa aspektida olingan matn; d) insonlarning muloqotlari va kognitiv jarayonlarida ishtirok etuvchi komponent, aniq ijtimoiy harakatga yo‘naltirilgan nutq kabi tushunchalar mavjud. [1. 2002: B.136-137]

Yuqoridagi ikki tushunchalarda matn terminining o‘zaro aloqadorligini ko‘rib chiqish joiz. Rus olimi D.E.Rozental diskurs terminiga yozuvda yoki nashrda qo‘llaniladigan nutq turi sifatida qaraydi. Xuddi shunday qarashni keyinchalik Shtern ham davom ettirgan. Ular diskursning qo‘llanish doirasini aynan yozma nutq bilan chegaralagan.

Diskurs to‘g‘risida zamonaviy qarashlar antik davr ritorikasida paydo bo‘lgan. XX asrning 60-yillari o‘rtalariga kelib mustaqil sohaga aylanishni boshlagan. Bu hodisa janrlar o‘rtasidagi chegaralarni olib tashlanishiga va ko‘plab terminlarning qo‘llanilishidan chiqib ketishiga sabab bo‘ldi.

Lingvistik termin sifatida E.Byuissans. Z.Xerris, F.de Sossyur diskursni og‘zaki nutq bilan tenglashtiradi. Fransuz olimi E.Benvenist so‘zlovchiga tayinlangan pragmatik koordinatalariga bog‘langan muloqot jarayonidagi ifodalarni diskurs deb ataydi. J. Derrida esa diskursni *“O‘quvchi va yozuvchilarning tajribasida matnning jonli ongli tasviri”* deb izohlaydi. [2. 2015: B. 17]

M. Fuko boshchiligidagi fransuz maktabi diskursni ayni bir davr yoki aniq ijtimoiy-siyosiy guruhga tegishli bo‘lgan ifodalar turi sifatida tushunadi va bu tushuncha “kommunistik diskurs” nomi bilan qo‘llanadi.

Rus olimi L.S.Grigoryeva diskurs qo‘llanilish doirasini uchta asosiy sinfga ajratadi:

1. Diskurs og‘zaki muloqotning bir turi, muloqot jarayoniga kiritilgan nutq sifatida tasavvur qilinadi;
2. M. Fuko va boshqa fransuz strukturalistlariga borib taqaladigan publitsistikada foydalaniladigan nutq;
3. Generativ grammatika tarkibiga diskursiv tushuncha elementlarini kiritishga harakat qilayotgan rasmiy tilshunoslikda ishlatiladigan nutq.

L.S.Grigoryeva diskursni muloqotning lingvistik birligi deb atab, o‘zaro ijtimoiy ta’sir doirasidagi tipik holatlar, o‘zaro ijtimoiy ta’sir doirasidagi ishtirokchilar, ijtimoiy norma va konvensiyalar hamda madaniy tasavvur va shakllarni o‘z ichiga oladi. [3. 2007: B. 6]

Bu borada o‘z ilmiy izlanishlarini diskurs nazariyasi asoslari bo‘yicha: T. van Deyk, M. Fuko, Yu. Xabermas, J. Gi, N. Ferklaf, M. Yunga, N.D. Arutyunova, V.Z. Demyankova, A.A. Kibrik, V.I. Karasik, B.I. Tyup olib borgan.

O‘zbek tilshunosligida asosan nutq madaniyatiga doir muammolar, axborot vositalari tili hamda qiyosiy tilshunoslik bo‘yicha tilshunoslik rivojiga ulkan hissa qo‘shib, ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Bu borada A.Boboyeva, A.Rustamov, K.Yusupov, Sh.Rahmatullayev, D.B. Buranov, G.X. Bakiyeva, M.Jusopov, J.A. Yakubov, D.M. Teshaboyeva, D.U. Ashurova, X.B. Samigova, S.A. Muhammedov, A. Abdusaidov, I.E. Toshaliyev, R.Abdusattorov, S.D. Sa’dullayev, I. Azimova, Sh. Abduraimova, G.I. Ergasheva, M. Isroil, N. Qodirovning ishlari diqqatga sazovor. [4. 2023: B.27]

Diskurs semiotik xarakterga ega ijtimoiy hayot mahsullari, turli xil xulq-atvor turlarini ko‘rsatuvchi janrlarni belgilab beradigan ijtimoiy doiraning asosiy qismini tashkil etadi. Masalan, kundalik muloqot, turli tip tashkilotlaridagi uchrashuvlar, siyosiy va boshqa xildagi intervyular, adabiyotlar reportaji va h.k. Yuqoridagi qarashlarni jamlagan holda: “Diskurs – ijtimoiy hayotning har xil ko‘rinishdagi holatlari”, - deb ta’kidlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Лингвистический энциклопедический словарь / под ред. В.Н. Ярцевой. - М.: Большая Российская энциклопедия, 2002. - С. 136.
2. И.В. Ашинова, Гламурный дискурс: лингвокультурологический и прагматический аспекты: на материале русского и французского языков: автореферат дис. ... доктора филологических наук: 10.02.20 / Ашинова Ирина Викторовна; [Место защиты: Дагестан. гос. пед. ун-т]. - Махачкала, 2015. - 42 с.
3. Григорьева В.С. Дискурс как элемент коммуникативного процесса: прагмалингвистический и когнитивный аспекты: монография. Тамбов: Изд- во Тамб. гос. техн, ун-та, 2007. - 288 с.
4. Холбобоева Азиза Шербобоевна. "ЛИСОНИЙ ВОСИТАЛАРНИНГ РЕКЛАМА ДИСКУРСИДАГИ ЎРИНИ (ИЛМИЙ МАНБАЛАР ШАРҲИ)" Современное образование (Узбекистан), no. 6 (127), 2023, pp. 26-34. doi:10.34920/SO/VOL_2023_ISSUE_6_4
5. https://search.rsl.ru/ru/record/01005569526
6. https://cyberleninka.ru/article/n/diskurs-glem-kultury

КРИТИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ КАК ФАКТОР РЕЧЕВОГО РАЗВИТИЯ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА В МНОГОЯЗЫЧНОЙ СРЕДЕ

Г.З.Собирова
Докторант, Наманганский государственный университет
e-mail: gulibarnosobirova2205@gmail.com

Аннотация В данной статье исследуется влияние критического мышления на речевое развитие на уроках русского языка в многоязычной среде. В современном образовании формирование навыков критического мышления имеет важное значение для развития речевой деятельности учащихся. В статье рассматриваются теоретические основы критического мышления, особенности многоязычной среды, педагогические методы и практические рекомендации. Цель статьи — содействовать совершенствованию речевых навыков учащихся через развитие критического мышления на уроках русского языка.

Ключевые слова: критическое мышление, русский язык, речевое развитие, многоязычная среда, педагогические методы, речевая деятельность, лингводидактика, интерактивные методы

Abstract This article examines the impact of critical thinking on speech development in Russian language classes within a multilingual environment. In contemporary education, the formation of critical thinking skills is of paramount importance for developing students' speech activities. The article discusses the theoretical foundations of critical thinking, characteristics of multilingual environments, pedagogical methods, and practical recommendations. The purpose of the article is to contribute to the improvement of students' speech skills through the development of critical thinking in Russian language classes.

Keywords: critical thinking, Russian language, speech development, multilingual environment, pedagogical methods, speech activity, linguodidactics, interactive methods

Annotatsiya. Mazkur maqolada tanqidiy fikrlashning ko‘p tilli muhitda rus tili darslarida nutqiy rivojlanishga ta’siri o‘rganilgan. Zamonaviy ta’limda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Maqolada tanqidiy fikrlashning nazariy asoslari, ko‘p tilli muhitning xususiyatlari, pedagogik metodlar va amaliy tavsiyalar to‘g‘risida so‘z yuritilgan. Maqolaning maqsadi-rus tili darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish orqali o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini takomillashtirishga yordam berishdir.

Kalit so‘zlar: tanqidiy fikrlash, rus tili, nutqiy rivojlanish, ko‘p tilli muhit, pedagogik metodlar, nutqiy faoliyat, lingvodidaktika, interaktiv usullar

Введение В современном мире, характеризующемся информационными технологиями и процессами глобализации, процессы изучения и преподавания языка требуют новых подходов. Развитие речевой деятельности учащихся, живущих в многоязычной среде, является одной из актуальных проблем педагогики и лингводидактики. В этой связи особую важность приобретает обеспечение речевого развития на уроках русского языка через формирование навыков критического мышления.[1.2009:C.85]

Критическое мышление — это способность анализировать, оценивать, синтезировать информацию и делать выводы. Оно играет важную роль не только в усвоении знаний, но и в их практическом применении.[2.2016:C.46] В многоязычной среде этот процесс становится еще более сложным, поскольку учащиеся сталкиваются с необходимостью навигации между несколькими языковыми системами и учета специфических особенностей каждого языка.

Формирование речевых навыков через развитие критического мышления на уроках русского языка является актуальной педагогической задачей. Такой подход помогает учащимся не только изучать язык, но и расширять возможности понимания мира и выражения своих мыслей через него. Поэтому исследование данной темы

отвечает требованиям современной системы образования и имеет практическое значение.[3.2001:C.142]

Теоретические основы критического мышления

Концепция критического мышления получила широкое распространение в педагогике и психологии во второй половине XX века. Исследования таких ученых, как Бенджамин Блум, Ричард Пол, Линда Элдер, внесли вклад в определение основных компонентов критического мышления. Под критическим мышлением следует понимать, прежде всего, процесс не пассивного восприятия информации, а ее анализа, оценки и формулирования самостоятельных выводов.[4.2003:C.81]

С точки зрения лингводидактики критическое мышление имеет особое значение в процессе изучения языка. Оно дает учащимся возможность не механически заучивать языковой материал, а понимать его внутренние закономерности и творчески его применять. Через критическое мышление учащиеся осознают связи между единицами различных уровней языка и овладевают навыками выбора языковых средств в соответствии с речевой ситуацией.

Психолингвистические исследования показывают, что критическое мышление проявляется во всех видах речевой деятельности. В аудировании оно выражается в оценке достоверности информации, в говорении — в обосновании и аргументации своих мыслей.[5.2014:C.106] В чтении критическое мышление проявляется через анализ содержания текста и позиции автора, а в письме — в форме глубокого изучения темы и сопоставления различных источников.

Исследования в области когнитивной лингвистики показывают тесную связь критического мышления с языковым сознанием. Согласно теории концептуальной метафоры, человеческое мышление носит преимущественно метафорический характер и осуществляется через перенос понятий из одной сферы в другую. Критическое мышление дает возможность осознанно контролировать этот процесс и сопоставлять различные концептуальные схемы.[6.2001:C.6]

Основными характеристиками критического мышления являются: объективность, логичность, системность, рефлексивность и творчество. Эти характеристики проявляются в речевой деятельности в различных формах и служат развитию коммуникативной компетенции учащихся.

Особенности и вызовы многоязычной среды

Многоязычная среда–это лингвистическая ситуация, характеризующаяся одновременным существованием и функциональным использованием нескольких языков. В Узбекистане такая среда отмечается одновременным присутствием узбекского, русского, английского и других языков. Это состояние может оказывать как положительное, так и отрицательное влияние на процесс изучения языка.[7.2021:C.47]

Среди положительных аспектов многоязычной среды можно отметить эффект лингвистической синергии, возникающий в результате взаимодействия языков. Учащиеся получают возможность переносить навыки, освоенные в одном языке, на другой язык. Кроме того, появляется возможность более глубокого понимания общих закономерностей языка через сопоставление различных языковых систем.

Однако в многоязычной среде существует и ряд вызовов. Интерференция языков, то есть негативное влияние одного языка на систему другого языка, может приводить к возникновению ошибок у учащихся. Кроме того, различный социальный статус и сферы применения языков также могут влиять на мотивацию учащихся.

Психолингвистические исследования показывают, что среди учащихся, живущих в многоязычной среде, широко распространено явление переключения кодов (code-switching). Этот процесс создает как возможности, так и трудности для критического мышления. С одной стороны, появляется возможность сопоставления понятий, выраженных на разных языках, с другой стороны, смешение языков может нанести ущерб точности мышления.[9.2016:C.80]

При развитии критического мышления в многоязычной среде необходимо также учитывать культурный фактор. Каждый язык имеет свой культурный контекст и отражает специфические способы мышления. Например, традиции образности и

метафоричности в узбекском языке могут отличаться от русских. Учет этого обстоятельства в педагогическом процессе важен для эффективного развития навыков критического мышления учащихся.

Методы развития критического мышления на уроках русского языка

Для развития критического мышления на уроках русского языка можно использовать различные педагогические технологии и методы. Интерактивные методы обладают особой эффективностью в этом отношении. Такие приемы, как дискуссия, дебаты, кейс-стади, побуждают учащихся к размышлению и стимулируют их речевую деятельность.[8.2013:С.130]

Техника вопросов и ответов является основным средством развития критического мышления. Вопросы, основанные на таксономии Блума, побуждают учащихся к когнитивной деятельности различных уровней. Система, начинающаяся с вопросов уровня запоминания и понимания и переходящая к вопросам уровня анализа, синтеза и оценивания, последовательно развивает мыслительные навыки учащихся.

Особое значение имеет развитие критического мышления в процессе работы с текстом. Такие виды деятельности, как анализ текста с различных точек зрения, определение позиции автора, оценка силы аргументов, развивают аналитические навыки учащихся. При этом через выражение отношения к тексту и обоснование своего мнения совершенствуются и речевые навыки.[10.2005:С.150]

Проектный метод является эффективным средством гармонизации критического мышления и речевого развития. В процессе проведения исследования по определенной теме, изучения различных источников, сопоставления информации и формулирования выводов учащиеся развивают как критическое мышление, так и речевые навыки.

Творческое письмо вносит особый вклад в развитие критического мышления. Письмо в таких жанрах, как эссе, статья, рецензия, учит учащихся самостоятельно мыслить, обосновывать свое мнение и правильно его выражать. При этом критическое мышление и речевая деятельность органически связываются.

Ролевые игры и симуляции дают учащимся возможность понимать различные точки зрения и выражать их. Эти виды деятельности наряду с развитием навыков эмпатии также укрепляют объективность критического мышления.

Механизмы воздействия на речевое развитие

Влияние критического мышления на речевое развитие представляет собой сложный и многогранный процесс. Это воздействие осуществляется через различные механизмы и охватывает все компоненты речевой деятельности.

На лексическом уровне критическое мышление приводит к расширению словарного запаса и углублению семантических полей лексических единиц. Учащиеся овладевают навыками анализа различных лексических средств для выражения определенного понятия и выбора наиболее подходящего. Критический подход в работе с синонимами, антонимами, омонимами способствует осознанному усвоению семантических и стилистических особенностей этих лексических единиц.[11.2000:С.64]

На грамматическом уровне критическое мышление способствует пониманию системности языка. Учащиеся осознают логические основы грамматических форм, а не заучивают их механически. Например, при изучении употребления времен глагола критический подход приводит к глубокому пониманию связи этой грамматической категории с временем и зависимости от контекста.

На синтаксическом уровне критическое мышление служит усвоению логических основ структуры предложения. Учащиеся овладевают навыками эффективного использования различных синтаксических конструкций через анализ их роли и места в выражении смысла. В процессе построения сложных предложений критическое мышление помогает правильно выражать логические связи.

На текстовом уровне роль критического мышления проявляется еще более отчетливо. В процессе создания текста учащиеся осознанно размышляют о его структуре, логической последовательности и когерентности. Критический подход способствует установлению связей между различными частями текста и обеспечению логического развития.

На прагматическом уровне критическое мышление приводит к целенаправленному выбору языковых средств для эффективного осуществления коммуникативной цели. Учащиеся овладевают навыками выбора речевых стратегий с учетом коммуникативной ситуации, особенностей собеседника и собственных целей.

Практические рекомендации и выводы

Для совершенствования речевых навыков через развитие критического мышления на уроках русского языка в многоязычной среде можно дать ряд практических рекомендаций.

Во-первых, при составлении плана урока необходимо обращать внимание на последовательное развитие различных компонентов критического мышления. На каждом уроке следует создавать возможности для осуществления таких мыслительных операций, как анализ, синтез, оценивание. Для этого требуется гармонизация различных видов деятельности и их адаптация к целям критического мышления.

Во-вторых, при выборе учебных материалов целесообразно отдавать предпочтение аутентичным текстам и актуальным темам. Материалы, вызывающие интерес учащихся и побуждающие их к размышлению, вносят больший вклад в развитие критического мышления.

В-третьих, необходимо построить систему оценивания с учетом навыков критического мышления. Следует отдавать предпочтение заданиям, требующим творческой и аналитической деятельности, а не традиционным репродуктивным тестовым заданиям.

В-четвертых, необходимо уделить особое внимание вопросу подготовки учителей. Учителя должны не только усвоить теоретические основы критического мышления, но и овладеть навыками его практического применения. Для этого можно организовывать регулярные курсы повышения квалификации и методические семинары.

В-пятых, необходимо эффективно использовать возможности многоязычной среды. Можно ускорить развитие критического мышления, используя такие методы, как сопоставление языков, контрастивный анализ, межязыковой перенос.

В заключение следует отметить, что роль критического мышления как фактора речевого развития на уроках русского языка в многоязычной среде чрезвычайно важна. Оно способствует не только повышению уровня знания языка учащимися, но и их общему интеллектуальному развитию. Эффективное применение данного подхода необходимо для достижения современных образовательных целей и подготовки конкурентоспособных кадров.

В будущем актуальными задачами являются проведение дополнительных исследований в этой области, обобщение практического опыта и разработка новых методических решений. Кроме того, важным направлением является изучение новых возможностей развития критического мышления в связи с развитием цифровых технологий.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Бутенко А.В., Ходос Е.А. Критическое мышление: метод, теория, практика: Учеб.-метод. пособие. М.: - Мирос, 2009.
2. Выготский Л.С. Мышление и речь.-М.:Лабиринт, 2012.
3. Жан Пиаже: теория, эксперименты, дискуссия. Под ред. Л.Ф.Обуховой и Г.В. Бурменской.- Изд.Академика, 2001.- ИСБН 5-8297-0093-Х.
4. Загашев И.О. Критическое мышление: технология развития. М.:– Санкт-Петербург, Альянс-Дельта, 2003. -284 с.
5. Канеман Д., Думай медленно… Решай быстро. Д. Канеман. – Москва : АСТ, 2014. – 331 с. – ISBN 978-5-17-080053-7.
6. Махмутов М.И., Интеллектуальный потенциал россиян: причины и следствия / Георессурсы. – 2001. – № 34 (7). – С. 6-7.
7. Мезенцева С. В. Приёмы (технологии) критического мышления. Вестник науки. – 2021. – № 4 (37). – С. 47-50.

8. Муштавинская, И. В. Технология развития критического мышления на уроке и в системе подготовки учителя : учебно-методическое пособие. – Санкт-Петербург : КАРО, 2013. – 140 с. – ISBN 978-5- 9925-0903-8.
9. Раимбекова, Г. К. Использование технологии развития критического мышления через чтение и письмо на уроках русского языка и литературы. European research. 2016. – С. 84-86.
10. Селевко Г.К. Энциклопедия образовательных технологий / Г.К.Селевко. – Москва: Народное образование, 2005. – 535 с.
11. Халперн, Д. Психология критического мышления. М.:– Санкт-Петербург: Питер, 2000. – 512 с. – ISBN 5-314-00122-5.

UO‘T (UDK): 633.11; 631.52

QATTIQ BUG‘DOY (*TRITICUM DURUM*) NAV VA TIZMALARINI ISSIQLIKKA CHIDAMLILIGI BO‘YICHA BAHOLASH NATIJALARI.

D.X.Xalikulov
Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti Laboratoriya mudiri

Annotatsiya. Ushbu maqolada Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti sharoitida qattiq bug'doyning 14 nav va tizmalarining issiqlikka chidamliligi bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari keltirilgan. Tadqiqotlar natijasida Mingchinor, №2012/7 (Melyanopus-29), №2012/77, Mikki-3 nav va tizmalari yuqori haroratga chidamli ekanligi aniqlangan.

Аннотация. В данной статье представлены результаты исследований по жароустойчивости 14 сортов и линий твердой пшеницы, проведенных в условиях Научно-исследовательского института богарного земледелия. В результате исследований сорта и линии Мингчинор, №2012/7 (Мелянопус-29), №2012/77, Микки-3 были оценены как высокоустойчивые к высоким температурам.

Abstract. This article presents the results of studies on the heat resistance of 14 durum wheat varieties and lines conducted at the Scientific Research Institute of Rainfed Agriculture. As a result of the research, Mingchinor, No.2012/7 (Melyanopus-29), No.2012/77, and Mikki-3 varieties and lines were evaluated as highly resistant to high temperatures.

Kalit so‘zlar. qattiq bug‘doy, issiqlikka chidamlilik, morfofiziologik ko'rsatkichlar, oqsil koagulyatsiyasi.

Ключовой слова. твердая пшеница, жароустойчивость, морфофизиологические показатели, коагуляция белка.

Key words. durum wheat, heat resistance, morpho-physiological indicators, protein coagulation.

Kirish. Qattiq bug‘doy eng muhim donli ekinlardan biri bo‘lib, dunyo bo‘yicha qariyib 17 mln gektardan ortiq maydonda 38,1 mln tonna qattiq bug‘doy doni etishtiriladi. Kanada, Italiya, Turkiya, AQSH, Qozog‘iston, Suriya, Jazoir, Fransiya, Morokko, Gretsiya, Ispaniya, Tunis qattiq bug‘doy etishtirish bo‘yicha dunyoning etakchi davlatlari hisoblanadi [1. 2019:FAO.Stat.]. Respublikamiz oziq-ovqat sanoati uchun bir yilda 400 ming tonnadan ortiq qattiq bug‘doy doni talab etiladi [2. 2016:B.5]. Qattiq bug‘doy doni bir qator texnologik xususiyatlarga ega bo‘lib, unidan yuqori sifatli yorma, makaron va bir qancha qandolat mahsulotlari tayyorlanadi. Donida oqsil miqdorining ko‘pligi va kleykovina sifatining a’lo darajada bo‘lishi qattiq bug‘doy unidan tayyorlangan mahsulotlarning sifatli va to‘yimli bo‘lishini ta’minlaydi. Hozirgi kunda qattiq bug‘doy seleksiyasi yo‘nalishida don sifati yuqori bo‘lgan, qimmatli xo‘jalik belgilariga ega, tashqi muhitning noqulay omillariga chidamli boshlang‘ich manbalarini tanlab olish va ularni seleksiya jarayoniga jalb etish orqali qattiq bug‘doyning yangi navlarini yaratishga katta e’tibor qaratilmoqda. Shularni inobatga olib seleksiyada qattiq bug‘doyning bir qancha qimmatli xo‘jalik belgilariga ega, don hosildorligi va sifat ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan yangi navlarini yaratish bo‘yicha olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tadqiqotni amalga oshirish uslubi. Dala tajribalari 2019-2021 Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti markaziy tajriba xo‘jaligining sug‘oriladigan maydonlar tajriba dalasida o‘tkazildi. Raqobat nav sinash maydonida qattiq bug‘doyning 14 ta nav va tizmalarining morfo-fiziologik ko‘rsatkichlari bo‘yicha issiqlikka chidamliligi laboratoriya sharoitida o‘rganilib, baholandi. Issiqlikka

chidamlilik N.I.Kojushka (1987) va Genkel (1950) uslubida aniqlandi. Bunda, morfo-fiziologik belgilari bo`yicha bayroqcha bargining egilish burchagi, barg sathi, yuqori bo‘g‘in oralig‘i va pastki bo‘g‘in oralig‘ini o`lchash orqali aniqlandi. Genkel usuli bo`yicha 2 g barg chinni xovonchada maydalanadi. So‘ng 25 ml distellangan suv solib aralashtiriladi. Hosil bo‘lgan eritma filtirlanib elektr isitgichda oqsilning ivib qolishi darajasigacha qizdiriladi. Bu usul orqali nav va tizmalarning barglardagi suvda eruvchan oqsilning ivish harorati ya’ni oqsil koagulyatsiyasi aniqlandi.

Olingan natijalar tahlili. Statistik ma’lumotlarga qaraganda so‘nggi vaqtlarda dunyoda vaqti-vaqti bilan bo‘layotgan issiqlik boshoqli don ekinlarining 30% maydondagi hosildorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda (FAO, 2010). Qattiq bug‘doyning issiqqa chidash qobiliyati o‘simlik tanasidagi suvning keskin kamayib ketishiga sabab bo‘ladigan omillarga qarshi bardosh bera olishiga ko‘proq bog‘liqdir.

Iqlimning global isishi natijasida haroratning 1°C ga ortishi bug‘doy yetishtirishni 4,1% dan 6,4%gacha kamaytirishi kutilmoqda [3. 2016:B.1130-1136].

Qattiq bug‘doyning boshoqdagi donining shakllanishda ko‘plab omillar ta’sir qiladi. Masalan, harorat: harorat yuqori bo‘lib namlik yetishmasa zaif don hosil bo‘ladi, mos ravishda 1000 dona don og‘irligi pasayadi [4. 2018:B.40-44].

Qishloq xo‘jaligi ekinlaridan olinadigan hosil o‘simlikda kechadigan fotosintez jarayoniga bog‘liq. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, 90-95% hosil bargdagi fotosintezning faolligiga bog‘liq. Ilmiy manbalarda keltirilishicha qattiq bug‘doyning barg sathi bilan hosildorligi o‘rtasida ijobiy korrelyativ bog‘liqlik kuchli (r=0,95-0,98) dan o‘rtacha (r= 0,45-0,56) gacha bo‘ladi [5. 2001:B.54-56].


Biroq barg sathining katta bo‘lishi o‘simlikning issiqlikka va qurg‘oqchilikka chidamliligini kamaytiradi. Qurg‘ochilikka chidamli navlarda don to‘lish davrida bargini ko‘p to‘kmaydi. Bu vaqtda asosan yuqorigi ikkita barg hisobiga assimilyatsiya jarayoni kechadi. Bu issiqlikka va qurg‘oqchilikka chidamli navlarni tanlashda barglarning ko‘proq vaqt yashil qolishiga e’tibor berilishini talab qiladi [6. 1981:B.7-18].

Qattiq bug‘doyning bayroqcha bargining egilish burchagi qanchalik qisqa bo‘lsa, barg sathi kichik bo‘lsa, yuqori bo‘g‘in oralig‘ining uzun va pastki bo‘g‘in oralig‘ining qisqa bo‘lishi uning issiqlikka va qurg‘oqchilikka chidamliligining muhim morfologik belgilaridan hisoblanadi.

Raqobat nav sinash maydonida o‘rganilgan 14 ta qattiq bug‘doy nav va tizmalarinining laboratoriya sharoitida morfo-fiziologik ko‘rsatkichlari aniqlanganda quyidagi natijalar kuzatildi. Bayroqcha bargining egilish burchagi o‘rtacha 10,0 gradusdan 19,4 gradusgacha, andoza “Makuz-3” navida 15,8 gradus bo‘lganligi aniqlandi. Andoza navga nisbatan Mingchinor, №2012/7 (Melyanopus-29), №2012/77, Azeghar-3, Mikki-3, Agat Donsk nav va tizmalarining bayroqcha bargning egilish burchagi 2,2-5,8 gradus kichik ekanligi kuzatildi.

Nav va tizmalarning bayroqcha bargning eni va uzunligi qisqaligi jihatidan tahlillar olib borilganda eni 1,4 sm dan 1,6 sm gacha, uzunligi 20 sm dan 26,2 sm gacha bo‘lganligi aniqlandi. Bu ko‘rsatkichlar bo‘yicha andoza “Makuz-3” navida bayroqcha bargning eni 1,6 sm, uzunligi 24,3 sm bo‘lganligi kuzatildi. Bayroqcha bargning eni Mingchinor, Istiqbolli, Azeghar-3, Mikki-3, ICAMOR TA04 nav va tizmalarida andoza navga nisbatan 0,2 sm qisqa, uzunligi jihatidan № 2012/7, № 2012/77, Azeghar-3, Mikki-3, Kurant, Agat Donsk, Kristella nav va tizmalarida andoza “Makuz-3” naviga nisbatan 1,3-4,3 sm kalta bo‘lganligi aniqlandi.

Qattiq bug‘doy nav va tizmalarining yuqori bo‘g‘in oralig‘i 31,1 sm dan 41,1 sm gacha, pastki bo‘g‘in oralig‘i 4,6 sm dan 5,3 sm gacha bo‘lganligi aniqlandi. Andoza “Makuz-3” navida yuqori bo‘g‘in oralig‘i 34,4 sm, pastki bo‘g‘in oralig‘i 5,1 sm bo‘lganligi kuzatildi. yuqori bo‘g‘in oralig‘ining uzunligi jihatidan andoza navga nisbatan № 586, № 2012/7 (Melyanopus-29), № 2012/77, Mikki-3, ICAMOR TA04, Kurant, Agat Donsk, Kristella nav va tizmalarida 2,0-6,7 sm uzun bo‘lganligi, pastki bo‘g‘in oralig‘i Mingchinor navida 0,5 sm qisqa bo‘lganligi aniqlandi (1-rasm).



1-rasm. Nav va tizmalarning issiqlikka chidamliligining laboratoriya tahlillari.

Iqlim qurg‘oqchil kelgan yillari qattiq bug‘doyning issiqlikka chidamliligi nisbatan nam yillarga qaraganda yuqori bo‘ladi. Shunisi qiziqki, suvda eriydigan oqsillarning issiqlikka chidamliligi va koagulyatsion harorati vegitatsiya davrida hujayra shirasining konsentratsiyasiga qaraganda ko‘proq doimiylik bilan tavsiflanadi [7. 1972:B.25-37].

Nav va tizmalarining boshoqlash davrida issiqlikka chidamlilik darajasi laboratoriya sharoitida P.A.Genkel (1950) usuli bo`yicha aniqlandi. O‘tkazilgan laboratoriya tahlil natijalariga ko‘ra nav va tizmalrning barglardagi suvda eruvchan oqsilning ivish harorati o‘rtacha 58,7°C dan 61,0°C gachani tashkil etdi. Andoza “Makuz-3” navining oqsil koagulyatsiya 59,5°C ni tashkil etgan bo‘lsa, Mingchinor, № 2012/7 (Melyanopus-29), № 2012/77, Mikki-3, Kurant nav va tizmalining oqsil koagulyatsiyasi andoza navga nisbatan 1,0-1,5°C yuqori ekanligi aniqlandi (1-rasm). Olingan tahlilar natijasiga ko‘ra yuqori harorat ta’sirida qattiq bug‘doy nav va tizmalari to‘qimalarida oqsilning parchalanish jarayoni o‘rtacha 58,7-61,0°C da sodir bo‘ldi.

Xulosa. Raqobat nav sinash maydonidagi nav va tizmalarning issiqlikka chidamlilik darajasi kompleks tahlillar (morfologik belgilari va oqsil koagulyatsiyasi) natijasiga ko‘ra Mingchinor, №2012/7 (Melyanopus-29), №2012/77, Mikki-3 nav va tizmalari yuqori baholandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://www.mdpi.com/2073-4395/10/3/432. 2019.
2. O.A.Amanov “Respublikaning janubiy mintaqalari sharoitiga mos, serhosil va don sifati yuqori bo‘lgan yumshoq va qattiq bug‘doy navlarini yaratish” mavzusidagi q/x fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiyasi. Toshkent, 2016. B.5.
3. Liu, B.; Asseng, S.; Müller, C.; Ewert, F.; Elliott, J.; Lobell, D.B.; Martre, P.; Ruane, A.C.; Wallach, D.; Jones, J.W.; et al. Similar Estimates of Temperature Impacts on Global Wheat Yield by Three Independent Methods. Nat. Clim. Chang. 2016, 6, 1130–1136.
4. Ложкин А.Г. Перспективы возделывания сортов яровой твердой пшеницы в условиях лесостепной зоны Чувашской Республики //Вестник Башкирского государственного аграрного университета. – 2018. – №. 2. – С. 40-44.
5. Джубатырова С. О формировании листовой поверхности у твердой пшеницы в условиях Западного Казахстана / С. Джубатырова // Селекция и семеноводство. – 2001. – № 1-2. – С. 54-56.
6. Лыфенко С.Ф. Сортовые различия озимой пшеницы по площади листового аппарата и их связь с элементами продуктивности / С.Ф. Лыфенко, П.В. Дальничук, Н.И. Ериняк // Репродуктивный процесс и урожайность полевых культур : сб. науч. тр. – Одесса, 1981. – С. 7-18.
7. Аманов М.А. Устойчивость некоторых сортов пшеницы к термическому фактору // Вопросы биологии, селекции, семеноводства и агротехники зерновых, зерновых культур. Труды.-Вып. 8. -Ташкент, 1972. -С. 25–37.

INTERAKTIV O`QITISH ORQALI MOLIYAVIY BILIMLARNI O`ZLASHTIRISH: TAJRIBA VA NATIJALAR

O.N.Nasrullayev
Namangan davlat universiteti, Iqtisodiyot fakulteti Moliya sohasida boshqaruv yo`nalishi 2- bosqich talabasi E-mail: omonulloxon0408@gmail.com

Annotatsiya. Moliya savodxonligi har bir fuqaroning iqtisodiy hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu bilimlar nafaqat shaxsiy budjetni boshqarish, balki umumiy moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda ham asosiy vositadir. So‘nggi yillarda ta’lim tizimida interaktiv usullar orqali moliyaviy bilimlarni o‘qitish amaliyoti kengayib bormoqda. Mazkur maqolada interaktiv o‘qitish uslublari orqali talabalarda moliyaviy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish bo‘yicha olib borilgan tajriba va uning natijalari tahlil etiladi.

Аннотация. Финансовая грамотность играет важную роль в экономической жизни каждого гражданина, эти знания являются основным инструментом не только в управлении личным бюджетом, но и в обеспечении общей финансовой стабильности. В последние годы практика обучения финансовым знаниям с помощью интерактивных методов в системе образования расширилась. В данной статье будет проанализирован опыт и его результаты по формированию финансовых знаний и навыков у студентов с помощью интерактивных методов обучения.

Abstract. Financial literacy is important in the economic life of every citizen, and this knowledge is the main tool not only in managing the personal budget, but also in ensuring general financial stability. In recent years, the practice of teaching financial knowledge through interactive methods has been expanding in the educational system. This article analyzes the experience and its results on the formation of financial knowledge and skills in students through interactive teaching methods.

**Kalit so`zlar:** moliyaviy savodxonlik, interaktiv o`qitish, moliyaviy ta`lim, onlayn o`quv platformalari, ta`lim samaradorligi, interfaol usullar, o`qitish metodikasi.

KIRISH. XXI asrda moliyaviy savodxonlik har bir fuqaroning hayotiy ehtiyoji darajasiga ko‘tarildi. Globalizatsiya, raqamli texnologiyalar taraqqiyoti va moliyaviy mahsulotlarning ko‘payishi shaxsiy moliya boshqaruvi, tejash, investitsiya va byudjet tuzish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarning har bir inson uchun muhimligini oshirdi. Ayniqsa, yoshlar, xususan talabalarning moliyaviy savodxonligi darajasi ularning kelajakdagi iqtisodiy farovonligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy bilimlarni innovatsion va interaktiv metodlar asosida o‘qitish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Interaktiv ta’lim — bu o‘qitish jarayonini passiv tinglovdan faol ishtirokchilikka o‘zgartirishga yo‘naltirilgan zamonaviy pedagogik yondashuv bo‘lib, unda talabalarning mustaqil fikrlashi, muammolarni hal qilish ko‘nikmasi, qaror qabul qilish va real moliyaviy vaziyatlarda yo‘l tutish qobiliyatlari shakllanadi. Moliya sohasida bu yondashuv yanada muhimdir, chunki real hayotdagi moliyaviy qarorlar ko‘p hollarda interaktiv va tanlovlarga boy sharoitda yuz beradi. So‘nggi yillarda dunyoning ko‘plab rivojlangan davlatlarida maktab va universitet darajasida moliyaviy savodxonlik darslari joriy etilib, bunda interaktiv vositalar (mobil ilovalar, o‘yinlar, simulyatsiyalar) faol qo‘llanilmoqda. Masalan, OECD tomonidan 2020-yilda o‘tkazilgan tadqiqotda yoshlarning moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishda interaktiv o‘qitish uslublari an’anaviy ma’ruzalarga nisbatan ancha samarali ekani qayd etilgan. O‘zbekistonda ham bu borada bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2022-yildan boshlab Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan talabalarda moliyaviy savodxonlikni oshirish bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlar ishlab chiqilmoqda. Unda raqamli platformalar, onlayn testlar, virtual treninglar asosidagi interaktiv yondashuvlar taklif etilgan.

Ushbu maqolada interaktiv o‘qitish metodlaridan foydalangan holda talabalarning moliyaviy bilimlarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash bo‘yicha olib borilgan tajriba asosida tahlillar keltiriladi. Eksperimental usul orqali o‘tkazilgan darslar natijalari, o‘zgarish dinamikasi, talabalarning fikr-mulohazalari va baholash mezonlari asosida interaktiv ta’limning moliyaviy savodxonlikka ta’siri o‘rganiladi. Maqola yakunida amaliy tavsiyalar ham keltirib o‘tiladi.

Metodlar. Maqolada shuningdek, zamonaviy interaktiv vositalardan – Kahoot, Mentimeter, Google Classroom, Quizizz, Miro kabi platformalarning afzalliklari va amaliy qo‘llanilishi muhokama qilinadi. Shuningdek, ta’lim jarayonida yuzaga keladigan muammolar – internet tezligi, qurilma yetishmovchiligi, o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi yetishmasligi ham tahlil qilingan.

Natijalar. Tadqiqot doirasida interaktiv o‘qitishning talabalar moliyaviy savodxonligiga ta’siri o‘rganildi. Eksperimental o‘quv jarayoni Toshkentdagi yirik iqtisodiy oliy ta’lim muassasalaridan birida o‘tkazildi. Unda 100 nafar 3-kurs iqtisodiyot yo‘nalishi talabasi ishtirok etdi. Ishtirokchilar ikki guruhga bo‘linib, birinchi guruhda an’anaviy ma’ruza usuli, ikkinchi (tajriba) guruhda esa interaktiv ta’lim metodlari (simulyatsiya, muammoli vaziyatlar, raqamli ilovalar orqali testlar va guruhiy muhokamalar) asosida darslar o‘tkazildi.

Tajriba 6 hafta davom etgan bo‘lib, uning natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:


1. Bilim darajasidagi o‘zgarishlar:

Moliyaviy bilimlar bo‘yicha dastlabki va yakuniy testlar orqali talabalar bilim darajasi o‘lchandi. Quyidagi yo‘nalishlarda sezilarli yuksalishlar qayd etildi:

Moliyaviy bilim yo‘nalishi	O‘qitishdan oldin (%)	O‘qitishdan keyin (%)
Byudjet tuzish	48%	82%
Tejash va jamg‘arish	52%	85%
Kredit tushunchasi	39%	74%
Investitsiya asoslari	35%	70%
Raqamli to‘lov vositalari	60%	90%
Moliyaviy rejalashtirish	42%	78%

1-rasm. Moliyaviy bilimlar bo‘yicha dastlabki va yakuniy testlar orqali talabalar bilim darajasining jadvaldagi ko`rinishi.

(Muallif tomonidan ishlab chiqilgan)



2-rasm. Moliyaviy bilimlar bo‘yicha dastlabki va yakuniy testlar orqali talabalar bilim darajasining diagrammadagi ko`rinishi.

(Muallif tomonidan ishlab chiqilgan)

Ushbu keltirilgan jadval va diagrammada moliyaviy bilimlarning oltita muhim yo‘nalishi bo‘yicha talabalarning o‘zlashtirish darajasi interaktiv o‘qitishdan **oldingi** va **keyingi** holatlarda solishtirilgan.

➢ **Budjet tuzish:** Talabalarning dastlabki bilim darajasi atigi **48%** ni tashkil qilgan bo‘lsa, interaktiv mashg‘ulotlardan so‘ng bu ko‘rsatkich **82%** ga yetdi. Bu o‘zgarish moliyaviy rejalashtirishga doir amaliy mashqlar va topshiriqlarning samarali bo‘lganini ko‘rsatadi.

➢ **Tejash va jamg‘arish:** Boshlang‘ich bilim darajasi **52%** edi. Dars davomida real hayotiy misollar va interaktiv topshiriqlar orqali bu ko‘rsatkich **85%** ga ko‘tarilgan. Bu talabalar orasida moliyaviy intizom va maqsadli jamg‘arishga bo‘lgan tushuncha kuchayganini anglatadi.

➢ **Kredit tushunchasi:** Kredit va qarz masalalari bo‘yicha dastlabki bilimlar ancha past bo‘lib, atigi **39%** ni tashkil qilgan. Darslar davomida kredit shartlari, foiz stavkalari, kredit tarixining ahamiyati interaktiv tarzda tushuntirilgach, bilim darajasi **74%** ga oshgan.

➢ **Investitsiya asoslari:** Eng past ko‘rsatkich – **35%** – ushbu yo‘nalishga to‘g‘ri kelgan. Interaktiv simulyatsiyalar, qimmatli qog‘ozlar haqidagi o‘yinlar orqali ushbu bilimlar **70%** darajasigacha ko‘tarilgan. Bu moliyaviy risk va foyda tushunchalarini o‘zlashtirish darajasining oshganini bildiradi.

➢ **Raqamli to‘lov vositalari:** Bu yo‘nalishda talabalar avvaldan ham nisbatan yuqori bilimga ega bo‘lgan (**60%**), ammo interaktiv metodlardan keyin bu ko‘rsatkich **90%** ga yetgan. Bu esa raqamli moliyaviy texnologiyalarni (Payme, Click, UzumPay kabi) darsda tahlil qilish samaradorligini ko‘rsatadi.

➢ **Moliyaviy rejalashtirish:** Boshlang‘ich darajasi **42%** bo‘lgan bu yo‘nalishda talabalar interaktiv muammoli vaziyatlar asosida o‘rgatildi. Natijada bilim darajasi **78%** ga yetdi.

Jadval va diagrammada barcha yo‘nalishlar bo‘yicha kamida **30–40%** darajasida o‘sish kuzatilgan bo‘lib, bu interaktiv ta’lim metodlari (simulyatsiya, testlar, muhokamalar, raqamli ilovalar) samaradorligini yaqqol tasdiqlaydi. Ayniqsa, real hayotiy moliyaviy vaziyatlarni amaliy o‘rganish, guruhiy ishlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalari talabalarning bilimlarini chuqurlashtirishga xizmat qilgan.

2. Subyektiv baholash natijalari:

Tajriba yakunida talabalar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazildi (asos: OECD, 2020):

- **92%** talaba interaktiv o‘qitishni an’anaviy darslardan samaraliroq deb hisoblagan;
- **87%** talaba o‘z moliyaviy bilim darajasi oshganini bildirgan;
- **75%** talaba shaxsiy moliyaviy xatti-harakatlarida (rejali xarajat, tejash, byudjet nazorati) ijobiy o‘zgarishlar bo‘lganini qayd etgan;
- **68%** talaba o‘quv jarayonida foydalanilgan raqamli ilovalar (Kahoot, Quizizz, Menti) darslarni yanada qiziqarli qilganini ta’kidlagan.

3. Pedagogik kuzatishlar:

O‘qituvchilar interaktiv metodlar talabalarning faolligini, savol-javoblardagi ishtirokini va mustaqil fikrlash darajasini oshirganini tasdiqladi. Guruhda savollarga javob berish ko‘rsatkichlari 40% dan 85% gacha oshgan. Simulyatsiya asosida moliyaviy qarorlar qabul qilish mashg‘ulotlarida talabalar o‘zaro bahs olib borish, real hayotga yaqin misollar orqali moliyaviy tahlil qilishni o‘rgandilar.

4. Umumiy tahlil:

Yuqorida jadval va diagrammadagi natijalar interaktiv o‘qitish uslublarining talabalar uchun moliyaviy bilimlarni nafaqat tushunish, balki amalda qo‘llash nuqtai nazaridan ham samarali ekanini ko‘rsatdi. O`qitish tizmida bu yondashuv o‘quv jarayonini faol, amaliy va zamonaviy vositalar orqali tashkil etishga imkon berdi.

XULOSA.

Moliya savodxonligini oshirish bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida har bir yosh fuqaroning, xususan talabalarning iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy faolligi uchun zaruriy shartga aylanmoqda. O‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, **interaktiv o‘qitish metodlari** – simulyatsiyalar, muammoli vaziyatlar, guruhiy mashg‘ulotlar, testlar va raqamli platformalar orqali o‘quv jarayonini tashkil etish – moliyaviy bilimlarni o‘zlashtirishda yuqori samaradorlikka ega. Mazkur yondashuv, o‘z-o‘zidan, ta’lim sifatini oshirishga, talabalarni faol o‘quvchi sifatida shakllantirishga, ularni bozor iqtisodiyotining moliyaviy muhitiga tayyorlashga xizmat qiladi.

Bu tadqiqotda, ayniqsa, IRENA (International Renewable Energy Agency) va IEA (International Energy Agency) kabi nufuzli xalqaro tashkilotlarning ma’lumotlari asosiy manba sifatida ishlatiladi. Ushbu tashkilotlar qayta tiklanuvchi energiya sohasida dunyodagi eng to‘liq va ishonchli ma’lumotlarni taqdim etadi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmonlari va qarorlari, shuningdek, Energetika vazirligining rasmiy saytlaridagi ma’lumotlar ham tahlilga kiritildi. Ushbu kompleks yondashuv quyosh va shamol energetikasining hozirgi holati va istiqbollarini har tomonlama baholash imkonini beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish global miqyosda jadal sur’atlar bilan o‘sib bormoqda. Xususan, quyosh va shamol energetikasi bu jarayonning yetakchilari hisoblanadi. Texnologiyalarning rivojlanishi va xarajatlarning pasayishi ushbu energiya turlarining raqobatbardoshligini oshirmoqda.

Quyosh energetikasi: So‘nggi o‘n yillikda quyosh panellarining narxi sezilarli darajada pasaydi, bu esa ularning keng qo‘llanilishiga zamin yaratdi. 2023-yil oxiriga kelib, global miqyosda o‘rnatilgan quyosh elektr stansiyalarining umumiy quvvati 1,4 Tvtga yetdi. Bu tendensiya kelgusi yillarda ham davom etishi kutilmoqda. O‘zbekiston quyosh energiyasi salohiyati bo‘yicha dunyodagi yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi, yiliga 320 kundan ortiq quyoshli kunlar mavjudligi bu fikrni tasdiqlaydi. Mamlakatda quyosh energiyasini rivojlantirish bo‘yicha qator loyihalar amalga oshirilmoqda.

Jadval 1. Global miqyosda quyosh energetikasining o‘sishi (2020-2024, GW)

Yil	O‘rnatilgan quvvat (GW)	Yillik o‘sish (%)
2020	760	22
2021	940	24
2022	1180	25.5
2023	1400	18.6
2024*	1650	17.8

Izoh: 2024-yil ma’lumotlari taxminiydir.

Shamol energetikasi: Shamol energetikasi ham dunyoda eng tez rivojlanayotgan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan biridir. Dengizdagi shamol elektr stansiyalarining (offshore wind farms) rivojlanishi bilan yanada yuqori quvvatlar hosil qilish imkoniyatlari kengaymoqda. 2023-yilda global shamol energetikasining umumiy quvvati 1 Tvtga yaqinlashdi. O‘zbekistonda shamol energetikasini rivojlantirish salohiyati ham yuqori bo‘lib, ayniqsa, Navoiy viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlarida shamol tezligi shamol turbinalarini o‘rnatish uchun juda qulaydir.

Jadval 2: Global miqyosda shamol energetikasining o‘sishi (2020-2024, GW)

Yil	O‘rnatilgan quvvat (GW)	Yillik o‘sish (%)
2020	743	18.1
2021	837	12.6
2022	920	9.9
2023	1000	8.7
2024*	1090	9.0

Izoh: 2024-yil ma’lumotlari taxminiydir.

O‘zbekistondagi vaziyat: O‘zbekiston 2030-yilga qadar elektr energiyasining 25%ini qayta tiklanuvchi manbalardan olishni maqsad qilgan. Ushbu maqsadga erishish uchun bir qator yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Misol uchun, Navoiy viloyatida BAAning Masdar kompaniyasi tomonidan qurilgan quyosh elektr stansiyasi (100 MVt), shuningdek, yana bir qator yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari loyihalari boshlangan. Bu loyihalar mamlakatning energiya mustaqilligini oshirish, uglerod chiqindilarini kamaytirish va iqtisodiyotni "yashillashtirish"ga xizmat qiladi.

XULOSA. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari, xususan, quyosh va shamol energetikasi global energetika tizimining kelajagi hisoblanadi. Ularning jadal rivojlanishi, texnologik yutuqlar va xarajatlarning pasayishi bu energiya turlarini an’anaviy qazilma yoqilg‘ilar bilan raqobatbardosh qilmoqda. Quyosh panellari va shamol turbinalari samaradorligining oshishi, shuningdek, energiya saqlash texnologiyalarining takomillashuvi qayta tiklanuvchi energiya tizimlarining ishonchliligini ta’minlaydi. Ayniqsa, global miqyosda iqlim o‘zgarishi muammosining tobora dolzarb bo‘lib borishi, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishga erishish uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish zarurligini yanada oshirmoqda.

O‘zbekiston geografik joylashuvi va iqlim sharoiti tufayli quyosh va shamol energetikasini rivojlantirish uchun ulkan salohiyatga ega. Mamlakatimizda ushbu sohani rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati, investitsiya loyihalari va xalqaro hamkorlik doirasida amalga oshirilayotgan ishlar energiya xavfsizligini ta’minlash, iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash va atrof-muhitga ijobiy ta’sir ko‘rsatishda muhim rol o‘ynaydi. 2030-yilgacha elektr energiyasining katta qismini qayta tiklanuvchi manbalardan olish maqsad qilinishi, O‘zbekistonning "yashil" iqtisodiyotga o‘tish yo‘lidagi qat’iy qadamlaridan dalolat beradi. Biroq, ushbu jarayonda energiya tizimini modernizatsiya qilish, infratuzilmani rivojlantirish, kadrlar salohiyatini oshirish va xalqaro ilg‘or tajribalarni o‘rganish kabi masalalarga ham alohida e’tibor qaratish lozim. Kelajakda energiya saqlash texnologiyalarining rivojlanishi, aqlli tarmoqlarning (smart grids) joriy etilishi va qayta tiklanuvchi energiya manbalarining energosistemaga integratsiyasi O‘zbekistonning barqaror energetika kelajagini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. IEA (International Energy Agency) — Renewable Energy Market Update 2023. — Parij: IEA Publications, 2023, bet. 45-78.
2. IRENA (International Renewable Energy Agency) — Renewable Power Generation Costs in 2022. — Abu Dabi: IRENA, 2023, bet. 20-35.

3. IRENA (International Renewable Energy Agency) — Renewable Energy Statistics 2024. — Abu Dabi: IRENA, 2024, bet. 15-28.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-avgustdagi "Energetika sohasini isloh qilish va barqaror rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4830-son Qarori.
5. World Wind Energy Association (WWEA) — World Wind Energy Report 2023. — Bonn: WWEA, 2024, bet. 50-65.
6. BP Statistical Review of World Energy 2024. — London: BP plc, 2024, bet. 30-40.

XI ASRDA SAMARALI O‘QITUVCHINING XUSUSIYATLARI VA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

N.A.Shakarova
59-umumiy o‘rta ta’lim maktabi matematika fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada XI asrda o‘qituvchilik kasbining mazmunan o‘zgarishi, zamonaviy ta’lim talablariga mos holda o‘qituvchidan kutib olinadigan kompetensiyalar va ilg‘or pedagogik yondashuvlar tahlil qilingan. An’anaviy o‘qituvchi modeli bilan zamonaviy yondashuvlar o‘rtasidagi farqlar ko‘rsatilib, tanqidiy fikrlash, raqamli savodxonlik, empatiya va moslashuvchanlik kabi fazilatlarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, konstruktivizm, ko‘p intellekt nazariyasi, hamkorlikda o‘qitish va raqamli pedagogika kabi zamonaviy metodlar muhokama qilingan. Maqola o‘qituvchilik faoliyatining yangi bosqichga ko‘tarilishi uchun zarur bo‘lgan nazariy va amaliy ko‘nikmalarni belgilashga qaratilgan.

Abstract: This article analyzes the transformation of the teaching profession in the 21st century, the competencies expected from teachers in accordance with modern educational requirements, and advanced pedagogical approaches. It highlights the differences between the traditional teacher model and modern approaches, emphasizing the importance of qualities such as critical thinking, digital literacy, empathy, and adaptability. In addition, contemporary methods such as constructivism, multiple intelligences theory, collaborative teaching, and digital pedagogy are discussed. The article aims to identify the theoretical and practical skills necessary for elevating the teaching profession to a new level.

Аннотация: В данной статье проанализированы изменения содержания профессии учителя в XXI веке, компетенции, ожидаемые от педагогов в соответствии с современными требованиями образования, а также передовые педагогические подходы. Показаны различия между традиционной моделью учителя и современными подходами, подчёркивается важность таких качеств, как критическое мышление, цифровая грамотность, эмпатия и гибкость. Также рассматриваются современные методы, такие как конструктивизм, теория множественного интеллекта, совместное обучение и цифровая педагогика. Статья направлена на определение теоретических и практических навыков, необходимых для вывода педагогической деятельности на новый уровень.

Kalit so‘zlar: Samarali o‘qituvchi, XI asr ta’limi, pedagogik yondashuvlar, konstruktivizm, raqamli pedagogika, ko‘p intellekt nazariyasi, hamkorlikda o‘qitish, tanqidiy fikrlash, o‘quvchi markazli ta’lim, kasbiy kompetensiyalar.

Keywords: Effective teacher, 21st-century education, pedagogical approaches, constructivism, digital pedagogy, multiple intelligences theory, collaborative teaching, critical thinking, learner-centered education, professional competencies.

Ключевые слова: Эффективный учитель, образование XXI века, педагогические подходы, конструктивизм, цифровая педагогика, теория множественного интеллекта, обучение в сотрудничестве, критическое мышление, обучение, ориентированное на ученика, профессиональные компетенции.

XI asr — bu bilimga erishish osonlashgan, texnologiyalar ta’lim jarayonlariga chuqur integratsiyalashgan davrdir. Ushbu davrda o‘qituvchilardan faqat bilim beruvchi emas, balki yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, o‘quv jarayonining tashkilotchisi sifatida ham faol bo‘lishi talab qilinadi. Mazkur maqolada zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida samarali o‘qituvchining asosiy fazilatlari tahlil qilinadi. Ta’lim tizimidagi tezkor o‘zgarishlar o‘qituvchilarning roli va pedagogik qarashlarini qayta ko‘rib chiqishni talab

qilmoqda. Endilikda o‘qituvchi sinfdagi yagona bilim manbai emas, balki o‘quvchining shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi o‘rganish hamkoriga aylangan.

O‘qituvchilik rolining o‘zgarishi. An’anaviy o‘qituvchi modeli bilim beruvchi, nazorat qiluvchi bo‘lgan bo‘lsa, zamonaviy modelda o‘qituvchi — yo‘l ko‘rsatuvchi, o‘quvchini markazga qo‘yuvchi yondashuv tarafdoridir. Bu o‘zgarish konstruktivistik (ya’ni, tuzilmaviy) yondashuvlar bilan mustahkamlanadi.

XI asr o‘qituvchisida bo‘lishi lozim bo‘lgan fazilatlar:

Tanqidiy fikrlash qobiliyati
Hamdardlik va samarali muloqot ko‘nikmalari
Texnologik savodxonlik
O‘quvchi markazli yondashuvni qo‘llash
Doimiy kasbiy rivojlanishga ochiqlik

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar. Konstruktivizm (tuzilmaviy yondashuv): O‘quvchining bilimni o‘z tajribasi orqali shakllantirishini qo‘llab-quvvatlaydi. Ko‘p intellekt nazariyasi (Howard Gardner): Har bir insonning o‘ziga xos o‘rganish uslubi mavjudligini ta’kidlaydi.

Hamkorlikda o‘qitish. O‘quvchilarning birgalikda ishlash orqali o‘rganishini rag‘batlantiradi.

Raqamli pedagogika. Ta’limda texnologiyalardan samarali foydalanishni o‘z ichiga oladi.

O‘qituvchilik rolining evolyutsiyasi

An’anaviy model: An’anaviy ta’limda o‘qituvchi bilim beruvchi, buyruq beruvchi va baholovchi sifatida ko‘rilgan. Sinfda faollik ko‘proq o‘qituvchiga tegishli bo‘lgan, o‘quvchi esa passiv eshituvchi edi.

Zamonaviy model: Zamonaviy ta’lim jarayonlarida o‘qituvchi — motivator, muammo yechuvchi, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘quvchi markazda turadi va ta’lim shaxsiylashtirilgan bo‘lishi kerak. O‘qituvchi esa o‘quvchining o‘z-o‘zini anglash va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

XI asr o‘qituvchisining asosiy kompetensiyalari

Raqamli savodxonlik: O‘qituvchi zamonaviy texnologiyalarni — masalan, onlayn platformalar, sun’iy intellekt vositalari, interaktiv dasturlar — o‘z darslarida qo‘llay olishi kerak. Albatta! Quyida raqamli savodxonlik (digital literacy) haqida tushunarli va ilmiy asosda yozilgan ma’lumotni taqdim etaman. Raqamli savodxonlik — bu insonning raqamli texnologiyalar, axborot va kommunikatsiya vositalaridan oqilona, samarali va xavfsiz tarzda foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lishidir. Yoki qisqacha aytganda: “Axborotni topa olish, tushuna olish, tanqidiy tahlil qilish va raqamli muhitda ongli harakat qilish qobiliyati.” Internet orqali kerakli ma’lumotlarni topish, ishonchliligini aniqlash, feyk (soxta) yangiliklarni ajrata olish.

Ta’limda raqamli savodxonlik nima uchun muhim? - O‘quvchilar va o‘qituvchilar zamonaviy texnologiyalar orqali bilim olish imkoniga ega bo‘ladilar. Mustaqil o‘rganish va onlayn resurslardan samarali foydalanish shakllanadi. Axborot tanlash, baholash va undan foydalanish madaniyati rivojlanadi. Raqamli muhitda kritik fikrlash va ijodiy yondashuv kuchayadi.

Hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish: Bugungi o‘quvchi ertangi mehnat bozoriga tayyorlanmoqda. O‘qituvchi tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, muammo yechish va ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirishga e’tibor qaratadi.

Madaniyatlararo kompetensiya: Global dunyoda o‘qituvchi turli madaniyatlar, tillar va qadriyatlarni tushunishga va hurmat qilishga o‘rgatishi kerak.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarning afzalliklari

Konstruktivizm. O‘quvchilar bilimni tayyor shaklda emas, balki o‘z tajribasi orqali o‘zlashtiradi. O‘qituvchi esa ularning fikrlashiga turtki bo‘ladi. Misol: amaliy loyihalar, muammo asosida o‘rganish. Samarali o‘qituvchilik faqat bilim berish emas, balki o‘quvchining salohiyatini ochib berish va unga yo‘l ko‘rsatishdir. XI asr talablariga javob beradigan o‘qituvchi — pedagogik jihatdan yetuk, innovatsiyalarga ochiq va o‘quvchini o‘quv jarayonining markaziga qo‘ya oladigan bo‘lishi lozim. Buning uchun astoydil harakat qilmoq kerak. Rivojlanish uchun ozida doimo kuch va shijoat topish zarur va shart.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vygotsky, L. S. (1978). “Jamiyatda aql”.
2. Gardner, H. (1983). “Aqlning ramkalari: Ko‘p intellekt nazariyasi”.
3. “Ta’limda yangi yondashuvlar” jurnali, 2023.
4. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, 2024 yil o‘qituvchi kompetensiyalari hisobotidan.

INKLYUZIV TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

M.M.Adashaliyeva
Namangan davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. Inklyuziv ta’lim – bu barcha bolalar, shu jumladan nogironligi va o‘ziga xos maxsus ehtiyojlari bor bolalar uchun bir xilda sifatli ta’lim olish imkoniyatini ta’minlovchi ta’lim tizimidir. Bu maqolada inklyuziv ta’limning ahamiyati, joriy etish usullari, dunyo va O‘zbekistondagi ijobiy tajribalar, inklyuziv muhitni yaratishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari haqida bayon qilingan. Mamlakatimizda inklyuziv ta’limni rivojlantirish borasida amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, nogironlik, ta’lim sifati, pedagogik texnologiyalar, ijtimoiy inklyuziya, hamkorlik, istiqbol.

Аннотация: Инклюзивное образование — это система образования, которая обеспечивает равный доступ к качественному образованию для всех детей, включая детей с ограниченными возможностями и особыми потребностями. В статье рассматриваются значение инклюзивного образования, методы его реализации, положительный опыт в мире и Узбекистане, проблемы в создании инклюзивной среды и пути их преодоления. Разработаны практические предложения и рекомендации по развитию инклюзивного образования в нашей стране.

Ключевые слова: инклюзивное образование, инвалидность, качество образования, педагогические технологии, социальная инклюзия, сотрудничество, перспектива.

Abstract: Inclusive education is an education system that provides equal access to quality education for all children, including children with disabilities and special needs. The article discusses the importance of inclusive education, methods of its implementation, positive experience in the world and Uzbekistan, problems in creating an inclusive environment and ways to overcome them. Practical proposals and recommendations for the development of inclusive education in our country have been developed.

Keywords: inclusive education, disability, quality of education, pedagogical technologies, social inclusion, cooperation, perspective.

Ma’lumki, inklyuziv ta’lim – bu barcha bolalar, shu jumladan nogironligi bo‘lgan bolalarni o‘quv jarayoniga teng xuquqli ishtirokchi sifatida jalb etiladigan ta’lim tizimidir. Bu konsepsiya jamiyatda inklyuziya (qamrov) va tenglik prinsiplariga asoslanib, barcha uchun samarali o‘qish imkoniyatlarini yaratishni ko‘zda tutadi.

Inklyuziv ta’limning asosiy maqsadi – har bir farzandga uning individual ehtiyojlariga mos kelishini hisobga olgan holda sifatli ta’lim olish imkoniyatini ta’minlashdir. Bu nafaqat nogironlikka ega bo‘lgan bolalar, balki barcha talabgorlar uchun sifatli ta’lim berishni kafolatlaydi.

Inklyuziv ta’limning eng asosiy afzalliklari:

- ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish, ya’ni nogiron bolalarning jamiyatdagi faol ishtirokini oshirish;
- psixologik natijaga erishish, ya’ni bunda bolalar o‘rtasida hurmat va o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish;
- huquqiy jihatdan inson huquqlari va tenglik prinsiplariga rioya etish kabilardan iborat.

Inklyuziv ta’lim haqida gap ketganda uning asosiy tushuncha va tamoyillariga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq. Xususan, inklyuziv ta’limda quyidagi asosiy tushunchalar ko‘p uchraydi:

- teng imkoniyat – har bir farzand o‘z qobiliyati va ehtiyojiga ko‘ra teng huquqli ta’lim olishi kerak.
- barchaga hurmat, teng huquqlilik – nogironligi, millati, tili, jinsi va iqtisodiy ahvolidan qat’iy nazar, barcha bolalar bir xil huquqlarga ega.
- moslashuvchan ta’lim muhiti – maxsus adaptatsiyalar (masalan, panduslar, til yordamchilari, individual dasturlar) bilan barcha uchun qulay sharoit yaratish.
- ijtimoiy integratsiya – nogiron bolalarning boshqalar bilan teng munosabatlarini rivojlantirish.
- hamkorlik – ota-onalar, soha mutaxassislari (logoped, psixolog, defektolog), o‘qituvchilar va jamiyatning boshqa a’zolarining birgalikdagi faoliyati.
- individual yondashuv – har bir bolaning o‘ziga xos ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olib, ularga moslashtirilgan o‘quv dasturi ishlab chiqiladi.
- moddiy-texnik ta’minot – maktablar inklyuziv ta’lim uchun zarur bo‘lgan infratuzilma, maxsus o‘quv vositalari (brayl alifbosi, audio-ko‘rsatmalar) bilan ta’minlanishi kerak va boshqalar.

XXI asrda inklyuziv ta’limning ahamiyati tobora ortib bormoqda, chunki bu faqat nogironlar emas, balki barcha o‘quvchilar uchun yaxshiroq ta’lim olish va ijtimoiy munosabatlarni shakllantiradi.

Bugungi kunda jahondagi juda ko‘plab mamlkatlarda inklyuziv ta’lim tizimini joriy qilish va rivojlantirish borasida katta amaliy tajribalar mavjud. Xususan, Italiya, Norvegiya, Shvetsiya kabi mamlakatlar alohida ehtiyojli bolalarni umumta’lim muassasalariga to‘liq integratsiyalab, maxsus korreksion maktablarning yopilishiga erishdilar. Biroq, maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim tizimi sharoitiga qabul qilgan davlatlar jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi kamchiliklarni korreksiyalash va kompensatsiyalashga yo‘natgirilgan qo‘shimcha ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish mas’uliyatidan ozod etilmaydi. Shuningdek, AQSh, Buyuk Britaniya, Xitoy, Hindiston, Avstriya, Germaniya, Rossiya, Belarus, Litva, Latviya, Daniya kabi bir qator mamlakatlarda ham inklyuziv ta’limni tashkil qilish va rivojlantirishda o‘ziga xos tajribalar shakllangan.

Bugungi kunda mamlakatimizda ham inklyuziv ta’limni rivojlantirishga juda katta e’tibor qaratilmoqda. Bu borada mustahkam poydevor yaratilib, uning me’yoriy-huquqiy asoslari shakllantirildi.

Eng avvalo ta’kidlash joizki, mamlakatimizda bolalarni ijtimoiy himoya qilish, jismoniy imkoniyatlari cheklangan shaxslarga ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish tizimi mukammal ishlab chiqildi. Shuningdek, Respublikamizda inklyuziv ta’limni rivojlantirish borasida mustahkam huquqiy asoslar yaratildi hamda mavjud qonun-hujjatlari takomillashtirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi va 2020-yil 15-oktabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni va 2020-yil 13-oktyabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-son Qarorlarining qabul qilinishi mamlakatimizda inklyuziv ta’limni yangi bosqichga olib chiqish uchun dastururlamal bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi [1].

Biroq, uni joriy qilish va rivojlantirishda ayrim muammolar ham uchramoqda. Inklyuziv ta’limni rivojlantirishdagi asosiy muammolarga maktablarning moddiy-texnik jihatdan tayyor emasligi, ya’ni nogiron bolalar uchun maxsus jihozlar, liftlar, panduslar yo‘qligi, inklyuziv ta’lim uchun maxsus tayyorgarlikka ega malakali o‘qituvchilarning kamligi, adabiyotlarning yetishmasligi kabilarni keltirish mumkin [2].

Istiqbolda inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha bugungi kunda respublikamizda juda ko‘plab olimlar, magistrantlar, yosh iqtidorlar faol ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Doktorlik va magistrlik dissertatsiyalari himoya qilinmoqda. Kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlari bajarilmoqda. Maxsus va inklyuziv ta’lim bo‘yicha darslik, o‘quv qo‘llanmalar, monografiyalar, risolalar va uslubiy qo‘llanmalar yaratilmoqda va nashr qilinmoqda.

Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalaridan kelib chiqib, mamlakatimizda kelgusida inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha asosiy yo‘nalishlar sifatida quyidagilar taklif berilmoqda:

1. Eng asosiy masala, ta’lim muassasalarini, ya’ni maktablarni mazkur jarayonga to‘liq moslashtirish lozim. Maktablarni panduslar, liftlar, audio va brayl jihozlari bilan ta’minlash hamda ularni to‘g‘ri va qulay joylashtirish.

2. Inklyuziv ta’lim bo‘yicha pedagoglarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning muntazam malaka oshirib borishlarini ta’minlash, ya’ni bir so‘z bilan aytganda o‘qituvchilarni maxsus tayyorlash kerak bo‘ladi. Chunki, inklyuziv ta’limning muvaffaqiyati o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligiga bog‘liq. Bunda: psixologo-pedagogik malakalarni oshirish, nogironlikka ega bo‘lgan bolalar bilan ishlash bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish ko‘nikmalarini rivojlantirish va xalqaro tajribalarni o‘rganish va ulardan keng foydalanish zarur.

3. Ota-onalar bilan samarali ishlash tizimini yo‘lga qo‘yish, ularga inklyuziv ta’limning mohiyati va ahamiyatini to‘g‘ri tushuntirish zarur. Ular orqali inklyuziv ta’limning ustuvor darajada rivoj topishi uchun jamiyatdagi qarashlarning o‘zgarishiga erishish lozim. Ota-onalar va jamiyatning inklyuziyaga bo‘lgan e’tiborini yaxshilash, jamiyatda nogironlarning ijtimoiy faolligini ko‘rsatib berish muhim hisoblanadi.

4. Inklyuziv ta’limni rivojlantirishda raqamli ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish kerak. Bunda: onlayn ta’lim platformalari, onlayn darslar, nogironlar uchun moslashtirilgan turli o‘quv dasturlaridan unumli foydalanish lozim. Inklyuziv ta’limda yangi texnologik innovatsiyalardan samarali foydalanish inklyuziv ta’limni yanada qulay va samarali qilish imkoniyatini beradi. Sun’iy intellekt va adaptiv dasturlar orqali nogiron bolalar uchun moslashtirilgan o‘quv materiallarini yaratish lozim.

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, inklyuziv ta’lim bu jamiyatning insonparvarlik prinsiplariga asoslangan kelajakda sifatli ta’lim olishning muhim qismidir. Uning rivojlanishi texnologik yangiliklarning joriy qilinishi, malakali mutaxassislar tayyorlash va ijtimoiy ongni o‘zgartirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Inklyuziv ta’limning keng joriy etilishi natijasida barcha bolalar uchun teng imkoniyatlar asosida sifatli ta’lim olish imkoniyati paydo bo‘ladi. Inklyuziv ta’limning kelajakda yanada rivojlanishi uchun davlat, jamiyat va xalqaro tashkilotlarning o‘zaro hamkorligi juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-son Qarori.
2. UNESCO (2019). Inclusive education: policy and practices.

DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA QISHLOQ XO‘JALIGINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH PARAMETRLARINI MUVOFIQLASHTIRISH

M.A.Bekmirzayev
Namangan davlat texnika universiteti O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i, PhD, dotsent

Annotatsiya. Davlat iqtisodiy xavfsizligi – bu milliy iqtisodiyotning barqarorligi, mustaqilligi va raqobatbardoshligini ta’minlash uchun asosiy mezonlardan biridir. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash masalasi ham iqtisodiy xavfsizlikning ajralmas qismi hisoblanadi. Mazkur maqolada qishloq xo‘jaligining iqtisodiy xavfsizlikka ta’siri, uni barqaror rivojlantirishning dolzarb masalalari va yechimlari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: davlat, iqtisodiy xavfsizlik, oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq xo‘jaligi, barqarorlik, raqobatbardosh, mahsulot.

Аннотация: Экономическая безопасность государства является одним из основных критериев обеспечения стабильности, независимости и конкурентоспособности национальной экономики. Вопросы сельскохозяйственного производства и обеспечения продовольственной безопасности страны также являются неотъемлемой частью экономической безопасности. В статье рассматривается влияние сельского хозяйства на экономическую безопасность, актуальные проблемы и пути решения для его устойчивого развития.

Ключевые слова: государство, экономическая безопасность, продовольственная безопасность, сельское хозяйство, устойчивость, конкурентоспособность, продукт.

Abstract: The economic security of the state is one of the main criteria for ensuring stability, independence and competitiveness of the national economy. Issues of agricultural production and ensuring food security of the country are also an integral part of economic security. The article examines the impact of agriculture on economic security, current problems and solutions for its sustainable development.

Keywords: state, economic security, food security, agriculture, sustainability, competitiveness, product.

Ma’lumki, qishloq xo‘jaligi – bu oziq-ovqat ta’minotining asosi, aholi uchun sifatli mahsulotlar yetkazib beruvchi asosiy manbadir. Shu bilan bir qatorda keng istemol mahsulotlari ishlab chiqaruvchi sanoatning bir qancha tarmoqlari uchun xom ashyo manbai hisoblanadi. Ayniqsa, mamlakatimizda aholining katta qismi qishloq joylarida istiqomat qilishini inobatga olsak, aholi bandligini ta’minlash borasida yangi va qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratishning ham muhim manbai bo‘lib xizmat qiladi. Qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishi milliy iqtisodiyotning barqarorligi, oziq-ovqat xavfsizligi va qishloq joylarida turmush sifatini oshirish uchun asos hisoblanadi.

Oziq-ovqat xavfsizligi milliy xavfsizlikning ajralmas qismi hisoblanadi. Oziq-ovqat xavfsizligi – bu har bir insonning sog‘lig‘i va hayoti uchun xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlariga doimiy ravishda erishish huquqidir. O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda ayrim muammolar ham mavjud bo‘lib, ularning bartaraf etilishi davlat, ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilarning birgalikdagi sa’y-harakatlarini talab etadi. O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash borasida ham mamlakat miqyosida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2025-yil 3-fevralda imzolangan O‘zbekiston Respublikasining “Oziq-ovqat xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonuni ham fikrimizning yaqqilisbotidir. Mazkur

qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2024-yil 18-oktabrda qabul qilingan bo‘lib, Senat tomonidan 2025-yil 23-yanvarda ma’qullandi [1].

O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligining hozirgi ahvoliga nazar tashlanganda, aholining oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlanish darajasi, mahsulot sifati va xavfsizligini nazorat qilish tizimi hamda xalqaro standartlarga mosligi eng asosiy mezonlar hisoblanadi. O‘zbekiston aholisining tez sur’atlarda o‘sib borishi, ekologik vaziyat, global iqlim o‘zgarishlari, suv resurslarining cheklanganligi, yerlarning sho‘rlanishi va qishloq xo‘jaligi texnologiyalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda joriy etilmasligi oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda ayrim muammolarni keltirib chiqarmoqda va tarmoqda samaradorlikning pasayishiga sabab bo‘lmoqda.

Bu borada eng asosiy muammolar sifatida oziq-ovqat xavfsizligiga doir qonun-hujjatlarining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi va xalqaro standartlarga moslashtirishda ayrim kamchiliklarning yuzaga kelishi, mavjud laboratoriyalarning zamonaviy jihozlar bilan yetarli darajada to‘liq ta’minlanmaganligi, oziq-ovqat xavfsizligi haqida ma’lumotlarning etishmovchiligi, himoya vositalarini ishlatish madaniyatining pastligi, sohada malakali mutaxassislar tayyorlash tizimidagi kamchiliklar, ayrim ishlab chiqaruvchilarning o‘z ishiga bo‘lgan mas’uliyasizligi, amaldagi me’yorlarga va talablarga rioya qilmaslik holatlari, mahsulot sifati va xavfsizlik standartlarini buzish kabilarni keltirish mumkin. Shu sababli, qishloq xo‘jaligi parametrlarini muvofiqlashtirish va eng ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash zarur bo‘ladi [2, 3].

Qishloq xo‘jaligi rivojlanishini muvofiqlashtirish parametrlari haqida so‘z borganda yangi agrotexnologiyalar, sug‘orish tizimlari, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash, iqlim o‘zgarishlariga moslashish hamda iqtisodiy samaradorlik kabi omillar tahlil qilinadi. Qishloq xo‘jaligida zamonaviy usullar (AI, GIS-texnologiyalari, an’anaviy va innovasion usullarni integratsiyalash) va ularning samaradorligiga baho beriladi.

Eng avvalo, qishloq xo‘jaligi parametrlari va ularni muvofiqlashtirish jarayonida agroekologik sharoitlarni hisobga olish, iqlim va topografik sharoitlarga mos ekinlarni tanlash, qurg‘oqchilikka chidamli navlarni yaratish masalalariga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, sug‘orish tizimlarini optimallashtirish, ya’ni bunda aqlli sug‘orish (precision irrigation) tizimlarini joriy etish hamda suv sarfini kamaytiruvchi sug‘orish usullaridan (tomchilatib sug‘orish, yomg‘irlatib sug‘orish, keng qamrovli yomg‘irlatib sug‘orish, “sprinkler” tizimi, mobil yomg‘irlatib sug‘orish, diskret sug‘orish usuli va boshqalar) foydalanish zarur.

Uchinchidan, texnologik innovatsiyalardan samarali foydalanish, xususan, dronlar va AI asosidagi monitoring tizimlari, GIS-texnologiyalari va ma’lumotlar tahlili orqali yer resurslarini samarali baholash kerak. Qishloq xo‘jaligiga ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, xususan an’anaviy usullar o‘rniga gidroponika va vertikal yetishtirish usullarini qo‘llashga ixtisoslashgan agrotexnologiyalardan samarali foydalanish, tarmoqda ekinlar monitoringi va hosildorligini oshirishda sun’iy intellektni qo‘llash va ma’lumotlar tahlilidan foydalanish, mehnatning samaradorligini oshirishda mexanizatsiya va robotizatsiya kabilar muhim ahamiyatga ega.

To‘rtinchidan, iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini ta’minlashga alohida urg‘u qaratgan holda, qishloq xo‘jalik mahsulotlarining qiymat zanjirini kengaytirish (mahsulotlarni qayta ishlash, eksportni rag‘batlantirish), fermer va qishloq xo‘jaligi sohasi tadbirkorlari uchun moliyaviy imtiyozlar va subsidiyalarni ko‘paytirish lozim. Barcha davrlarda ham va barcha mamlakatlarda ham qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash eng ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib kelgan. Qishloq xo‘jaligiga investisiyalarni ko‘proq jalb qilish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida subsidiyalar va kreditlar hajmini ko‘paytirish, soliq imtiyozlarini joriy qilish mazkur yo‘nalishdagi muhim bosqichlar sanaladi.

Beshinchidan, tarmoqda ilmiy-tadqiqot ishlarini jadallashtirish, eksperimental tadqiqotlarni kuchaytirish lozim. Jumladan, agroyekosistemalarning iqlimga reaksiyasini baholash, yangi o‘g‘itlar va sug‘orish usullarining natijadorligini o‘rganish muhim.

Oltinchidan, xalqaro tajribalarni o‘rganish va ularni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlarini (masalan, Niderlandiyada kichik maydonlarda yuksak hosildorlikka erishish tajribasi, Hindistonda agroyekologiya va organik dehqonchilikni rivojlantirish tajribasi, Okeaniya mintaqalarining chorvachilikni rivojlantirish bo‘yicha tajribalari, Germaniya, Daniya, Ispaniya, Isroil kabi mamlakatlarning sug‘orish va vertikal dehqonchilik tajribasi, AIR (Agro-industriya park) larning joriy etilishi kabilar) baholash lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, kelgusida qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishning asosiy yo‘naltirishlari sifatida quyidagilarni taklif qilish mumkin:

- me’yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda qonunlarni qayta ko‘rib chiqish, qonun buzilishlariga qarshi jazo sanksiyalarini kuchaytirish;
- mavjud infratuzilmani yaxshilash, suv ta’minloti tizimlari, logistika va transport ta’minoti masalalarini ijobiy hal etish;
- xalqaro hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish, tajriba almashish va eksport bozorlarini kengaytirish;
- qishloq xo‘jaligining barcha tarmoqlari uchun zarur malakali mutaxassislar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini muntazam oshirib borish;
- agrar tarmoqda ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish, ilmiy-tadqiqot institutlari faoliyatini yanada rivojlantirish, bunda yangi ertapishar va serhosil navlarni yaratish, zamonaviy preparatlar va pestisidlarni ishlab chiqish, qishloq xo‘jaligi mashinasozligini rivojlantirish kabi yo‘nalishlarni qo‘llab-quvvatlash;
- fermer xo‘jaliklari, tomorqa yer egalari va agrobiznesni qo‘llab-quvvatlash orqali xususiy sektorning ishtirokini kuchaytirish;
- ishlab chiqaruvchilarning mas’uliyatni yanada oshirish, zamonaviy laboratoriyalarni joriy etish, mahsulotlar sertifikatsiya jarayonlarini yanada kuchli nazorat qilish;
- ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali ma’lumotlar berib borishni kuchaytirish, ilg‘or tajribali firma va kompaniyalar faoliyatini yoritib borish.

Keltirib o‘tilgan yo‘nalishlardagi masalalarning ijobiy hal qilinishi nafaqat qishloq xo‘jaligining rivojlanishiga, balki butun milliy iqtisodiyotning xavfsizligi va barqarorligi uchun asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash – bu keng qamrovli muammo bo‘lib, uning yechimi faqat davlat, ishbilarmonlar va jamiyatning birgalikdagi muvaffaqiyatli sa’y-harakatlarining majmuidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Oziq-ovqat xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni. 2025-yil.
2. FAO va WHO tomonidan oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha tavsiyalar.
3. FAO (2023). Sustainable Agriculture and Climate Resilience.

UDK: 528.8:631.4:91

O‘SIMLIK VEGETATSIYASINI LANDSAT YORDAMIDA MASOFADAN ZONDLASH VA FOYDALANISH

G‘.Z.Tovbayev
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti E-mail: gofurxperia@gmail.com Tel: 97-278-08-92

Annotatsiya: Ushbu maqola NASA va USGS tomonidan boshqariladigan Landsat dasturining Landsat 4, Landsat 5, Landsat 7 va Landsat 8 sun’iy yo‘ldoshlarini va ularning NDVI hisoblashda qo‘llanilishini o‘rganadi. Har bir yo‘ldoshning sensorlari, spektral kanallari va fazoviy o‘lchamlari tahlil qilinadi. NDVI hisoblash jarayoni, uning qo‘llanilishi va Landsat 7ning SLC-off muammosi kabi cheklovlar muhokama qilinadi. Maqola o‘simliklar monitoringi, qishloq xo‘jaligi va ekologik tadqiqotlarda Landsat ma’lumotlarining ahamiyatini ta’kidlaydi. Adabiyotlar ro‘yxati va kalit so‘zlar maqolaning ilmiy asosini mustahkamlaydi.

Kalit so‘zlar: Landsat, NDVI, USGS, sun’iy yo‘ldosh, o‘simlik monitoringi, masofadan zondlash, Thematic Mapper, Operational Land Imager, qishloq xo‘jaligi, ekologiya.

Kirish. Landsat dasturi — NASA va AQSh Geologik Xizmati (USGS) tomonidan boshqariladigan, Yer sathini masofadan turib zondlash uchun mo‘ljallangan sun’iy yo‘ldoshlar seriyasi [1]. 1972-yilda Landsat 1 ishga tushirilganidan beri bu dastur o‘simliklar qoplamini, qishloq xo‘jaligi holatini, suv resurslarini va ekologik o‘zgarishlarni kuzatishda muhim vosita bo‘lib kelmoqda [2]. Ushbu maqolada Landsat 4, Landsat 5, Landsat 7 va Landsat 8 yo‘ldoshlari va ulardan NDVI hisoblashda foydalanish haqida so‘z yuritamiz.

Landsat yo‘ldoshlari. Landsat yo‘ldoshlari Yer sathini turli spektral diapazonlarda, ya’ni ko‘rinadigan yorug‘lik, yaqin infraqizil (NIR) va qisqa to‘lqinli infraqizil (SWIR) sohalarda tasvirga oladi [3]. Bu ma’lumotlar o‘simliklar salomatligini, erni qoplash turini va ekologik jarayonlarni tahlil qilishda keng qo‘llaniladi. Quyida har bir yo‘ldoshning asosiy xususiyatlari keltirilgan:

Landsat 4

- **Ishga tushirilgan yili**: 1982
- **Asosiy sensor**: Thematic Mapper (TM)
- **Spektral kanallar**: 7 ta kanal (ko‘rinadigan, NIR, SWIR va termal diapazonlar)
- **Fazoviy o‘lchamlari**: 30 m (ko‘p spektrli), 120 m (termal)
- **Xususiyatlari**: Landsat 4 o‘zidan oldingi yo‘ldoshlarga nisbatan yaxshilangan spektral va fazoviy o‘lchamlarga ega edi. Thematic Mapper sensori o‘simliklar va tuproqni tahlil qilishda muhim yutuq bo‘ldi [4].

Landsat 5

- **Ishga tushirilgan yili**: 1984
- **Asosiy sensor**: Thematic Mapper (TM)
- **Spektral kanallar**: Landsat 4 bilan bir xil (7 kanal)
- **Fazoviy o‘lchamlari**: 30 m (ko‘p spektrli), 120 m (termal)
- **Xususiyatlari**: Landsat 5 o‘zining uzoq umr ko‘rishi (deyarli 30 yil ishlashi) bilan mashhur. U o‘simliklar monitoringi va iqlim o‘zgarishlarini tahlil qilishda keng qo‘llanildi [5].

Landsat 7

- **Ishga tushirilgan yili**: 1999
- **Asosiy sensor**: Enhanced Thematic Mapper Plus (ETM+)
- **Spektral kanallar**: 8 ta kanal (pankromatik kanal qo‘shildi, 15 m o‘lchamli)
- **Fazoviy o‘lchamlari**: 30 m (ko‘p spektrli), 15 m (pankromatik), 60 m (termal)
- **Xususiyatlari**: ETM+ sensori yuqori aniqlikdagi pankromatik kanalni taqdim etdi, ammo 2003-yilda skaner liniyasining nosozligi (SLC-off) tufayli ma’lumotlarda bo‘shliqlar paydo bo‘ldi [6]. Shu sababli, NDVI hisoblashda ma’lumotlarni qayta ishlash talab qilinadi.

Landsat 8

- **Ishga tushirilgan yili**: 2013
- **Asosiy sensorlar**: Operational Land Imager (OLI) va Thermal Infrared Sensor (TIRS)
- **Spektral kanallar**: 11 ta kanal (yangi qirg‘oqbo‘yi aerosoli va cirrus bulutlari kanallari qo‘shildi)
- **Fazoviy o‘lchamlari**: 30 m (ko‘p spektrli), 15 m (pankromatik), 100 m (termal)
- **Xususiyatlari**: Landsat 8 yuqori radiometrik aniqlik (12-bit) va qo‘shimcha kanallar bilan o‘simliklar monitoringini yanada samarali qiladi. OLI sensori NDVI hisoblash uchun optimal ma’lumotlar beradi [7].

NDVI nima? NDVI (Normalized Difference Vegetation Index) o‘simliklar salomatligini va zichligini baholash uchun ishlatiladigan indeksdir. U o‘simliklarning yorug‘likni yutish (qizil diapazon) va aks ettirish (yaqin infraqizil diapazon) xususiyatlariga asoslanadi [8]. NDVI quyidagi formula yordamida hisoblanadi: $$NDVI = \frac{NIR-RED}{NIR+RED}$$

Bu yerda:

- **NIR**: Yaqin infraqizil kanalning aks ettirish qiymati
- **RED**: Qizil kanalning aks ettirish qiymati

NDVI qiymatlari -1 dan +1 gacha o‘zgaradi:

- **Yuqori NDVI (0.6–1)**: Sog‘lom, zich o‘simliklar
- **O‘rtacha NDVI (0.2–0.6)**: O‘rtacha o‘simlik qoplamlari
- **Past NDVI (0–0.2)**: Tuproq, suv yoki o‘simliksiz hududlar
- **Salbiy (-) NDVI**: Suv yuzalari, bulutlar va qattiq qoplamali yo’l to’shamalari

Landsat ma’lumotlaridan ndvi hisoblash. Landsat yo‘ldoshlarining ko‘p spektrli ma’lumotlari NDVI hisoblash uchun ideal, chunki ular qizil (RED) va yaqin infraqizil (NIR) kanallarni o‘z ichiga oladi [9]. Quyida har bir yo‘ldosh uchun NDVI hisoblashda ishlatiladigan kanallar keltirilgan:

- **Landsat 4 va 5 (TM)**:
  - Qizil (RED): 3-band (0.63–0.69 µm)
  - NIR: 4-band (0.76–0.90 µm)
- **Landsat 7 (ETM+)**:
  - Qizil (RED): 3-band (0.63–0.69 µm)
  - NIR: 4-band (0.77–0.90 µm)
- **Landsat 8 (OLI)**:

- Qizil (RED): 4-band (0.64–0.67 µm)
- NIR: 5-band (0.85–0.88 µm)

NDVI hisoblash jarayoni:

1. **Ma’lumotlarni yuklash**: USGS EarthExplorer yoki Google Earth Engine kabi platformalardan Landsat tasvirlarini oling [10].
2. **Atmosferani tuzatish**: Bulutlar va atmosfer ta’sirini kamaytirish uchun radiometrik tuzatishlar qo‘llaniladi.
3. **Kanallarni tanlash**: Qizil va NIR kanallarni ajratib oling.
4. **NDVI hisoblash**: Yuqoridagi formula yordamida NDVI xaritasi tuziladi.
5. **Tahlil va vizualizatsiya**: NDVI qiymatlari o‘simliklar zichligini ko‘rsatish uchun rangli xaritalarga aylantiriladi.

Landsat 7ning SLC-off muammosi

Landsat 7 ma’lumotlarida skaner nosozligi tufayli tasvirlarda chiziqli bo‘shliqlar mavjud [6]. Bu NDVI xaritalarida noaniqliklarga olib kelishi mumkin. Buni bartaraf etish uchun:

- Bo‘shliqlarni to‘ldirish algoritmlari (masalan, Landsat 8 ma’lumotlari bilan integratsiya).
- Bir nechta tasvirlarni birlashtirish (temporal compositing).

NDVIning qo‘llanilishi

Landsat ma’lumotlaridan olingan NDVI quyidagi sohalarda qo‘llaniladi:

- **Qishloq xo‘jaligi**: Ekinlar hosildorligini oshirish va suvga bo‘lgan ehtiyojni baholash [11].
- **Ekologiya**: O‘rmonlarning kesilishi va qurg‘oqchilikni monitoring qilish.
- **Iqlim o‘zgarishi**: O‘simlik qoplamining uzoq muddatli o‘zgarishlarini tahlil qilish [12].
- **Shahar rejalashtirish**: Yashil hududlarni boshqarish.

Xulosa. Landsat 4, 5, 7 va 8 yo‘ldoshlari o‘simliklar monitoringi va NDVI hisoblashda muhim vositalardir. Har bir yo‘ldoshning o‘ziga xos sensorlari va fazoviy o‘lchamlari tufayli ular turli davrlarda olingan ma’lumotlarni taqqoslash imkonini beradi. Landsat 8 zamonaviy OLI sensori tufayli yuqori aniqlik va kengroq spektral imkoniyatlarni taqdim etadi, ammo eski yo‘ldoshlar (Landsat 4, 5 va 7) uzoq muddatli tahlillar uchun muhim ma’lumotlar bazasini ta’minlaydi [13]. NDVI hisoblash orqali o‘simliklar salomatligini baholash, qishloq xo‘jaligi va ekologik tadqiqotlarda muhim yutuqlarga erishish mumkin.

Adabiyotlar

[1] Loveland, T. R., & Dwyer, J. L. (2012). Landsat: Building a strong future. *Remote Sensing of Environment*, 122, 22–29.

[2] Wulder, M. A., et al. (2019). Current status of Landsat program, science, and applications. *Remote Sensing of Environment*, 225, 127–147.

[3] Roy, D. P., et al. (2014). Landsat-8: Science and product vision for terrestrial global change research. *Remote Sensing of Environment*, 145, 154–172.

[4] Markham, B. L., & Helder, D. L. (2012). Forty-year calibrated record of earth-reflected radiance from Landsat: A review. *Remote Sensing of Environment*, 122, 30–40.

[5] Chander, G., et al. (2009). Summary of current radiometric calibration coefficients for Landsat MSS, TM, ETM+, and EO-1 ALI sensors. *Remote Sensing of Environment*, 113(5), 893–903.

[6] Chen, J., et al. (2011). Gap filling of Landsat 7 SLC-off images using a multiple regression method. *International Journal of Remote Sensing*, 32(24), 8653–8671.

[7] Vermote, E., et al. (2016). Preliminary analysis of the performance of the Landsat 8/OLI land surface reflectance product. *Remote Sensing of Environment*, 185, 46–56.

[8] Tucker, C. J. (1979). Red and photographic infrared linear combinations for monitoring vegetation. *Remote Sensing of Environment*, 8(2), 127–150.

[9] Rouse, J. W., et al. (1974). Monitoring vegetation systems in the Great Plains with ERTS. *Third Earth Resources Technology Satellite-1 Symposium*, NASA SP-351, 301–317.

[10] Gorelick, N., et al. (2017). Google Earth Engine: Planetary-scale geospatial analysis for everyone. *Remote Sensing of Environment*, 202, 18–27.

[11] Thenkabail, P. S., et al. (2004). Global irrigated area mapping using Landsat ETM+ and MODIS data. *Photogrammetric Engineering & Remote Sensing*, 70(10), 1175–1187.

[12] Myneni, R. B., et al. (1997). Increased plant growth in the northern high latitudes from 1981 to 1991. *Nature*, 386(6626), 698–702.

[13] Zhu, Z., et al. (2017). Benefits of the free and open Landsat data policy. *Remote Sensing of Environment*, 202, 1–7.

УЎТ: 631.674:631.559:633/635

ЛАЛМИКОР МАЙДОНЛАРДА ЁМҒИР ВА КИЧИК СЕЛ СУВЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИБ ДОН ВА ДУККАКЛИ ЭКИНЛАР ЕТИШТИРИШ

Б.Д.Хайдаров
Лалмикор деҳқончилик илмий тадқиқот институти катта илмий ходим PhD
ORCID:0009-0000-4069-5909.
А.С.Муратқосимов
Лалмикор деҳқончилик илмий тадқиқот институти катта илмий ходим PhD
ORCID: 0000-0002-2161-6766.

Аннотация. Республикамиз лалмикор майдонлари тупроқ-иқлим шароити турли-туманлиги, амалга оширилаётган агротехник тадбирлар тизимининг ўзига хос характерга эга эканлиги ва дунёнинг бошқа суғорилмайдиган қурғоқчилик минтақалари деҳқончилик тизимидан кескин фарқ қилиши билан ажралиб туради. Бугунги кунда сув ресурслари йилдан-йилга камайиб бораётганлиги қишлоқ хўжалиги ривожланган давлатларда мавжуд сув ресурсларидан самарали фойдаланиш, экинлардан юқори ва сифатли ҳосил етиштириш имкониятини берадиган суғориш усуллари ва технологиялари ишлаб чиқилиб амалиётга кенг жорий этилмоқда.

Аннотация. Почвенно-климатические условия богарных земель нашей республики отличаются разнообразием, а применяемая система агротехнических мероприятий обладает своей специфической особенностью, что резко отличает её от земледельческих систем в других засушливых, неорошаемых регионах мира. В настоящее время, когда водные ресурсы с каждым годом сокращаются, в странах с развитым сельским хозяйством активно разрабатываются и внедряются в практику методы и технологии орошения, обеспечивающие эффективное использование имеющихся водных ресурсов и получение высокого и качественного урожая.

Annotation. The soil and climatic conditions of the rainfed lands of our republic are diverse, and the applied system of agrotechnical measures has its own specific features, which clearly distinguish it from the farming systems in other arid, non-irrigated regions of the world. Currently, as water resources are decreasing year by year, countries with developed agriculture are actively developing and widely introducing irrigation methods and technologies that ensure the efficient use of available water resources and allow for the production of high and quality yields.

Калит сўзлар. Лалми майдонлар, типик бўз тупроқ, алмашлаб экиш, кузги буғдой, нўхат, гумус, NPK, ҳаракатчан озиқа моддалар, тупроқ унумдорлиги, намлик, ёмғир ва кичик сел сувлари, қўшимча ҳосил, иқтисодий самарадорлик.

Ключевые слова. Богарные земли, типичная сероземная почва, севооборот, озимая пшеница, нут, гумус, NPK, подвижные питательные вещества, плодородие почвы, влага, дождевая и талая вода, дополнительный урожай, экономическая эффективность.

Keywords: Rainfed lands, typical sierozem soil, crop rotation, winter wheat, chickpea, humus, NPK, mobile nutrients, soil fertility, moisture, rainwater and meltwater, additional yield, economic efficiency.

Кириш. Бугунги кунда дунёда «қишлоқ хўжалик экинлари етиштириладиган ер майдонлари 1,6 млрд. гектарга тенг бўлиб, шундан 1,3 млрд. гектари лалми ерлар ҳисобланади ва уларда қишлоқ хўжалик маҳсулотларининг 60% етиштирилади. Лалмикор майдонларда ёмғир ва сел сувларини қайта тақсимлаш орқали қишлоқ хўжалик экинлари учун сувга бўлган талабни назорат қилиш, самарсиз сув ресурсларидан фойдаланиб экинлар ҳосилдорлигини ошириш муҳим аҳамият касб этади.

Қишлоқ хўжалигини юқори босқичга кўтаришда мавжуд ресурслардан оқилона фойдаланиш, экинларни парваришлашнинг илмий асосланган, ресурстежамкор, такомиллашган агротехнологияларини жорий этиш, кам маблағ сарфлаб юқори ва сифатли ҳосил етиштириш шу куннинг муҳим вазифаларидан биридир. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 10 июлдаги ПФ-6024-сон “Ўзбекистон Республикаси сув хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ҳамда 2024 йил 7 майдаги ПФ-74-сон “Сув хўжалигида замонавий бошқарув тизимини жорий қилиш ва ривожлантиришнинг устивор йўналишларини белгилаш тўғрисида”ги фармонларида қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариш соҳасига

янги замонавий инновацион сув тежамкор технологияларни ишлаб чиқиш ва жорий қилиш устивор вазифалар сифатида белгиланган.

Шунингдек сув ресурслари йилдан йилга қисқариб бораётганлиги шароитида сув ресурсларидан самарали фойдаланиш, экинлардан юқори ва сифатли ҳосил етиштириш имкониятини берадиган суғориш усуллари ва технологиялари ишлаб чиқилмоқда ҳамда амалиётга кенг жорий этилмоқда. Шунингдек Республикамизда сувсиз тоғолди ва тоғли лалмикор майдонларда табиий ёмғир ва кичик сел сувларини йилнинг новегетация даврида йиғиш, сақлаш ва вегетация даврида суғоришга йўналтириш ҳамда дон ва дукакли экинларини етиштиришда юқори ҳосил олишга қаратилган янги ресурстежамкор технологияларни ишлаб чиқишга қаратилган илмий-тадқиқот ишлари олиб бориш ҳамда ушбу илмий асосланган технологияни республикамизнинг лалмикор майдонлари жорий қилиш орқали озиқ овқат таъминотини яхшиланишга имкон яратилади.

Лалмикор ерларда сув ресурсларидан оқилона фойдаланиш бўйича дала тажриба-тадқиқотлари олиб бориш ва лалмикор ҳудудларда ҳам кафолатланган, юқори ва сифатли ҳосил етиштириш имкониятини яратиш долзарб ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 18 июндаги ПФ-5742-сон, ҳамда 2019 йил 23 октябрдаги ПФ-5853-сон Фармонларида «...суғориладиган ва лалми ерлар, тоғ ва тоғолди ҳамда чўл-яйлов ҳудудларининг тупроқ унумдорлигини ошириш, сув ва бошқа табиий ресурслардан самарали фойдаланиш бўйича илмий тадқиқотлар олиб бориш, ер ва сув ресурслари, ўрмон фондидан оқилона фойдаланишни назарда тутувчи табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш тизимини такомиллаштириш, ер ва сув ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш, лалми ерлардан фойдаланишнинг илмий асосланган самарали технологияларини ишлаб чиқиш ва жорий этиш» га оид илмий тадқиқот лойиҳалари танловини ташкил этишга алоҳида аҳамият бериш кўрсатилган.


Ўзбекистон лалмикор минтақалар тупроқ-иқлим шароитида ёмғир ва кичик сел сувларини жамғариш, ўсимликлар вегетацияси давомида ёмғирлатиб суғориш, ўсимликни сувга бўлган талабини қондириш, тупроқнинг сув-физик хусусиятларини яхшилаш, намлик ҳисобига тупроқда ижобий озуқа балансини шакллантириш, дон ва дуккакли экинларни ёмғирлатиб суғориш муддати ва меъёрини аниқлаш, ёмғирлатиб суғориш режимини ишлаб чиқиш илмий ва амалий жиҳатдан муҳим аҳамиятга эга долзарб масала ҳисобланади.

Тажрибалар Лалмикор деҳқончилик илмий-тадқиқот институтида лалмикор типик бўз тупроқлари шароитида олиб борилди.

Лалмикор деҳқончилик илмий-тадқиқот институтида С.М. Маманиёзов [4; 17-б], П.И.Федотов [5; 159-с], М.Ю. Юнусов [7; 18-с] ва бошқаларнинг маълумотларига кўра, типик лалмикор бўз тупроқли қўриқ ерларда 1,84-2,24 % (0-20 см), пастки қатламларда эса 0,22-0,81 % гумус мавжуд (20-100 см). Унинг миқдори ҳайдаладиган майдонларда тегишлича 1,30-1,35 ва 0,36-0,82 % ни ташкил этган. Бу маълумотлардан кўриниб турибдики, ўзлаштирилмаган қўриқ ерларда гумус миқдори юқори бўлиб, ҳайдов ости қатламларда кескин пасайиб борса, ҳайдаладиган майдонларда эса унинг миқдори пастки қатламларда аста-секин камайиб боради.

Г.А.Лавронов маълумотларига асосан, Республикадаги жами лалмикор ерларнинг 60 % дан ортиқроғини ташкил этадиган нам билан ярим таъминланган қир-адирлик минтақада йиллик ёғингарчилик миқдори ўртача 325 миллиметрни, ўртача ойлик ҳарорат 11,6ºС ни, ҳавонинг ўртача ойлик нисбий намлиги эса 43 % ни ташкил этган [3; 479-с]

Тажрибанинг 2024-2025 к/х йиллари **б**ошоқли дон экинларининг ўсиб-ривожланиши учун қулай келмади. Ғалла февраль ойи 2-декадасида экилди. Экиш униб чиқиш даврида ҳаво ҳарорати ўртача 2,8 °С ни ташкил этди, бу униб чиқиши учун мўътадил бщлмасада, ғалла февраль ойи охирида униб чиқди.




1-расм. Тажриба ўтказиладиган йилларда ўртача ойлик ёғин миқдори. (Ғаллаорол АГМС маълумоти, 2022-2025 йиллар)

2025 йил баҳорда март ойида 64,8 мм. ёғин ёғди, ҳаво ҳарорати 8,5°С бўлиб, ўртача кўп йиллик меъёрдан 0,8 °С юқори, ҳавонинг нисбий намлиги 68 фоизни ташкил этди. Шунинг учун буғдой ўсиб-ривожланиши секин бўлди. Апрель ойида 27,1 мм. ёғин ёғди бу ўртача кўп йилликдан 33,9 мм. камдир. Май ойида эса 11,9 мм. ёғин ёғди, бу ўртача кўп йилликдан 27,9 мм. кам бўлди. Ғалланинг бошоқлаш фазасида, тупроқдаги 1 метр қатламда, намлик 17-31 фоизни, ҳавонинг нисбий намлиги 45 %, ҳаво ҳарорати +22,5°С ни ташкил этди. Дон тўлишиш пайтида ҳавонинг нисбий намлиги 45 %, ҳаво ҳарорати ўртача 24,6 °С бўлди.

Тажрибада олиб борилган фенологик кузатишлар тупроққа ишлов бериш усули, чуқурлиги қизил дон буғдой навининг фенологик ўсиш ва ривожланишига сезиларли таъсир этганлигини кўрсатди.

Қуйидаги маълумотларидан кўриниб турибдики, тажрибанинг назорат вариантида, кузги буғдой P_{40} + N_{40} + суспензия билан ишлов берилганда, кузги буғдой P_{40} + N_{40} + суспензия+ май ойида ёмғирлатиб суғориш билан ишланган вариантларда буғдойнинг униб чиқишида деярли фарқ кузатилмади. Бу вариантлар ўртасидаги фарқ туплаш фазасидан бошланиб буғдойнинг тўлиқ пишиб етилиш давригача давом этди. Вегетация давринг узунлиги ўғитсиз вариантда (назорат) 155 кунни, кузги буғдой P_{40} + N_{40} + суспензия билан ишлов берилганда 157-159 кунни ташкил этди, кузги буғдой P_{40} + N_{40} + суспензия+ май ойида ёмғирлатиб суғориш билан ишланганда вариантда буғдой вегетацияси 162 кунни ташкил этди.2-расм.



Вегетациянинг охирига келиб, буғдойнинг тўлиқ пишиши даврида кузги буғдой P_{40} + N_{40} + суспензия+ май ойида ёмғирлатиб суғориш билан ишланганда вариантда назорат ўғитсиз вариантига нисбатан 5-7 кун кечроқ кузатилди. Юқорида таъкидланганидек, лалмикор ерларнинг ёғин-сочин билан кам таъминланган текислик ва қир-адирлик минтақаларида кузги ғалла экинлари вегетациянинг биринчи ярмида тупроқда намлик етарли бўлса, иккинчи ярми, яъни гуллаш айниқса дон тўплаш даврида тупроқ намлиги камайган даврга тўғри келади. Айнан шу

даврга келиб туп сони қалин бўлган майдонларда ўсимлик томонидан транспирация натижасида кўплаб намлик сарф бўлади. Бу эса доннинг пуч, майда бўлишига олиб келади.

Б.М.Холиқов, Ф.Б.Намозов тупроқ ҳажм массаси ўсимликнинг ўсиб ривожланиши учун катта аҳамиятга эга, яхши донодорликка эга тупроқларда ҳажм массаси мақбул ҳолатдагина ҳосилдорлик юқори бўлади. Тупроқ мақбул ҳажм массасида ўсимлик яхши ривожланиши ва юқори ҳосил олишга эришишини таъкидлаганлар [6; 73-б].

Шунингдек, сўнгги йилларда лалмикор майдонларда деҳқончилик маданиятининг паст даражага тушишига бу ерлардан олинадиган ҳосилдорликнинг тўлиғича вегетация даврида юзага келадиган об-ҳаво шароитларга боғлиқлиги ҳам сабаб бўлмоқда. Ёғингарчилик миқдори кўп йиллик ўртача меъёр атрофида ва ундан кўпроқ бўлган йилларда кузги бошоқли дон экинлари ҳосилдорлиги гектарига ўртача 8-10 центнерни, нисбатан кам бўлган йилларда эса 3-4 центнерни ташкил этмоқда [8;9;10; 314-318-б, 325-б, 428-б].

Тажриба ўтказилган йилларда тупроқ намлиги қисқа ротацияли ғалла-дуккакли дон алмашлаб экиш тизимида ўсимликнинг туплаш, найчалаш, бошоқлаш ва доннинг тўлиқ пишиш даврларида 0-100 см чуқурликкача аниқланди. Тупроқ намлиги термостат усулида намуналарни 6 соат давомида 105^0 С ҳароратда қуритиш орқали аниқланди.

ХУЛОСАЛАР

1. Ярим таъминланган қир-адирлик минтақада бошоқли дон экинларини минерал ўғитлар билан озиқлантирилишини қўллаш ғалла-банд шудгор алмашлаб экиш тизимида яхши самара беради.

2. Атмосфера ёғин-сочинларидан самарали фойдаланиш мақсадида лалмикор майдонларда ёмғир ва кичик сел сувларини жамғариш орқали бошоқли ва дуккакли дон экинларини май ойида бир марта ёмғирлатиб суғориш самарали натижа беради.

Фойдаланилган адабиётлар

1 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 10 июлдаги ПФ-6024-сон “Ўзбекистон Республикаси сув хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги фармони.

2 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 7 майдаги ПФ-74-сон “Сув хўжалигида замонавий бошқарув тизимини жорий қилиш ва ривожлантиришнинг устивор йўналишларини белгилаш тўғрисида”ги фармони.

3 Лавронов Г.А. Богарное земледелие в Узбекистане. // Т. «Узбекистан» 1979.- С 479.

4 Маманиёзов С.М. Водно-физические свойства и водной режим почв районов богарного земледелия Узбекистана. // Авторефарат кандидатской диссертации. Ташкент, 1968.-С.17.

5 Федотов П.И. Влияние времени основной вспашки чистого пара на физические свойство почвы и урожай пшеницы в условиях равнинно холмистой (полуобеспеченной) богары Узбекистана. // Диссертация на соискание ученый степени кандидата с/х наук. Галляарал. 1971.-С 159.

6 Халиқов Б.М., Намозов.Ф.Б. Алмашлаб экишнинг илмий асослари. // Тошкент “Ноширлик ёғдуси” 2016.-Б 73.

7 Юнусов М.Ю. Агрохимические свойства типичных богарных сероземов и пищевой режим пшеницы по различным предшественникам. // Диссертация на соискание ученой степени кандидата с/х наук. Галляарал, 1973.

8 Юсупов Х. Биологик хусусиятлари турлича бўлган буғдой намуналари-нинг суғориш тартиботи ва озиқлантириш меъёри ва тартиботига таъсирчан-лиги. // Ўзбекистонда буғдой селекцияси ва уруғчилиги ва етиштириш технологиясига бағишланган 1-миллий конференция материаллари тўплами. Т.,2004.-Б 314-318

9 Юсупов Ҳ., Мураткасимов А., Нишонов Ж. Лалмикор майдонларда тупроқдаги табиий намликдан самарали фойдаланишнинг агротехнологик омиллари // Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудларида бошоқли дон экинлари селекцияси, уруғчилиги ва етиштириш агротехнологияларининг ҳолати ва ривожланиш истиқболлари мавзусидаги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами. Қарши 2018.-Б.325.

10 Юсупов Х., Холматов М. Суғориладиган майдонларда кузги ғалла экинларини бегона ўтлар, касаллик ва зараркунандаларга қарши кимёвий препаратларни уйғунлашган холда қўллаш самарадорлиги.
// Ўзбекистонда буғдой селекцияси ва уруғчилиги ва етиштириш технологиясига бағишланган 1-миллий конференция материаллари тўплами. Т., 2004.-Б 428.

SAVDO INQIROZINI OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARI

Sh.D.Farxodova
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” ta’lim yo‘nalishi 231-JIXIM guruhi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada savdo inqirozini oldini olish zaruriyati, mavjud imkoniyatlari, o‘ziga xos xususiyatlari va uni amalga oshirish chora-tadbirlari yoritilgan. Shuningdek, savdo inqirozini oldini olish yuzasidan xulosa va takliflar ochib berilgan.

Аннотация. В статье рассматривается необходимость предотвращения торговых кризисов, их современные возможности, особенности и меры по их реализации. Также представлены выводы и предложения по предотвращению торговых кризисов.

Abstract. This article discusses the need to prevent trade crises, their current capabilities, specific features, and measures to implement them. It also presents conclusions and proposals for preventing trade crises.

Kalit so‘zlar. Savdo, savdo inqirozi, xalqaro savdo, chora-tadbir, korxona.

Ключевые слова: Торговля, торговые кризисы, международная торговля, меры, предпринимательство.

Key words. Trade, trade crises, international trade, measures, enterprise.

Savdo faoliyatini samarali rivojlantirish uchun u bilan bog‘liq inqirozlarni oldini olishni talab etiladi. Bu esa ushbu inqirozlarni oldini olishga qaratilgan vositalardan foydalanishga bog‘liq bo‘ladi. Chunki, inqirozdan oldingi vositalarni aniqlash uchun ko‘rib chiqilayotgan vositalar qatoriga inqiroz diagnostikasi yondashuviga asoslangan parametrik bo‘lmagan baholash usuli va ekonometrik yondashuvlar kiradi [1, 985-b]. Ushbu yondashuvlar savdo holatini tadqiq qilishni taqozo qiladi. Shunday ekan, savdo sohasidagi inqiroz holatlarining oldini olish iqtisodiy barqarorlik va rivojlanishni ta’minlash uchun zarur bo‘ladi. Bu borada inqirozlarning asosiy sabablari bo‘lib, moliyaviy notinchlik, bozorni tushunishdagi kamchiliklar, qonunchilikka rioya qilmaslik, ta’minot zanjiridagi muammolar, mijozlar talablarini inobatga olmaslik va kadrlar salohiyatining pastligi bo‘lib hisoblanadi. Shularga asosan, inqirozlar oldini olish turg‘unlik shartlarini o‘z vaqtida tahlil qilishni va inqirozni boshqarish choralarini ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi [3]. Savdo inqirozini oldini olishda ko‘proq xalqaro savdodagi muammolar va ularga oid chora-tadbirlar e’tiborga olinadi. Xalqaro savdo uchun qisqa muddatda eng muhim xavflardan biri chuqurlashib borayotgan moliyaviy inqiroz xavfi bo‘lib qolmoqda [2, 81-b]. Shu bois, mazkur muammolarni bartaraf etishga qaratilgan quyidagi yo‘nalishlardagi tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarur.

birinchidan, korxonalar moliyaviy barqarorlikka erishishlari, mablag‘larini oqilona taqsimlashlari, qarz yukini nazorat qilishlari va soliq majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarishlari kerak.

ikkinchidan, bozor sharoitlari va iste’molchi talablari doimiy tahlil qilinadigan bo‘lishi lozim. Bu esa kelajakdagi muammolarni oldindan aniqlash imkonini beradi. Bu holatda qonunchilikka to‘liq rioya qilish, zarur litsenziyalar va ruxsatnomalarni o‘z vaqtida olish zarur bo‘ladi.

uchinchidan, ta’minot zanjirini samarali tashkil etish, mahsulotlarni o‘z vaqtida va sifatli yetkazib berish hamda ta’minotchilar bilan yaxshi hamkorlikni yo‘lga qo‘yish zarur. Ya’ni, mijozlar bilan ishlashda ularning talab va takliflarini inobatga olish hamda mahsulot va xizmatlarning raqobatbardoshligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Bu holatlarda xodimlar malakalari va kasbiy salohiyatini oshirishga ham e’tibor qaratilishi kerak.

Shuningdek, savdo inqirozini oldini olish uchun yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni keng joriy qilish, elektron savdo platformalarini rivojlantirish savdo faoliyatini zamonaviylashtirish va samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi. Ammo, bu holatda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, davlat tomonidan ko‘rsatiladigan imtiyoz va qo‘llab-quvvatlash choralaridan foydalanish talab etiladi. Asosiysi, savdo inqirozini oldini olish quyidagi asosiy maqsadlarga ega bo‘ladi:

- moliyaviy barqarorlikni saqlab qolish: Kompaniyaning to‘lov qobiliyatini saqlash va moliyaviy majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarish;
- bankrotlikdan saqlanish: Korxonaning bankrot bo‘lishi ehtimolini kamaytirish;
- operatsion samaradorlikni oshirish: Xarajatlarni kamaytirish va daromadlarni oshirish orqali korxona samaradorligini oshirish;

- menejment sifatini yaxshilash: Savdo-sotiq faoliyatini boshqarish va moliyaviy rejalashtirish tizimini yaxshilash;
- bozordagi pozitsiyani saqlab qolish: Raqobatchilik muhitida korxonaning bozordagi pozitsiyasini saqlab qolish va kuchaytirish.

Fikrimizcha, savdo inqirozini oldini olish chora-tadbirlariga quyidagi yo‘nalishlar kiradi:

- moliyaviy tahlil: Kompaniyaning moliyaviy holatini (daromadlar, xarajatlar, aktivlar va passivlar) chuqur tahlil qilish, moliyaviy qiyinchiliklarni aniqlash va xavflarni baholash;
- strategik rejalashtirish: Bozor sharoitlarini, raqobatchilik muhitini va korxona imkoniyatlarini hisobga olgan holda uzoq muddatli va qisqa muddatli savdo strategiyasini ishlab chiqish;
- xarajatlarni qisqartirish: Xarajatlarni optimallashtirish va saqlab qolish, zarurat bo‘lganda xarajatlarni qisqartirish choralarini ko‘rish (ijara, marketing xarajatlari, shtat qisqartirilishi va boshqalar) ;
- daromadlarni oshirish: Savdo hajmini, mahsulot sifatini va xizmat ko‘rsatish darajasini oshirish orqali daromadlarni ko‘paytirish choralarini ko‘rish;
- pul oqimlarini boshqarish: Pul oqimlarini nazorat qilish va naqd pul yetishmovchiligining oldini olish;
- qarzlarni qayta tiklash yoki qayta moliyalashtirish: Mavjud qarzlarni yaxshiroq shartlar bilan qayta tiklash yoki qayta moliyalashtirish;
- aktivlarni sotish: Moliyaviy qiyinchiliklarni yengish uchun aktivlarni sotish;
- yangi investorlarni jalb qilish: Korxonaga moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun yangi investorlarni jalb qilish;
- menejment faoliyatini yaxshilash: Savdo-sotiq faoliyatini samarali boshqarish uchun menejment tizimini yaxshilash, tarkibiy o‘zgarishlar kiritish va yangi kadrlarni jalb qilish;
- shartnomalar va qarzlarni qayta ko‘rib chiqish: Mavjud shartnomalarni va qarzlarni qayta ko‘rib chiqish, ularni qayta ko‘rib chiqish va korxona manfaatlariga muvofiqlashtirish;
- moliyaviy ma’lumotlarni shaffofligi: Moliyaviy ma’lumotlarning shaffofligini ta’minlash va investorlar va kreditorlarga hisobot berish.

Darhaqiqat, savdo inqirozini oldini olish chora-tadbirlari turli yo‘nalishlarda bo‘lishi mumkin. Bu borada asosiy chora-tadbirlar ro‘yxati quyidagilarga asoslanadi:

1) Moliyaviy barqarorlikni ta’minlash:
- korxona va tadbirkorlik subyektlari moliyaviy resurslarini oqilona boshqarish;
- qarz yukini nazorat qilish va kamaytirish;
- soliq va boshqa majburiyatlarni o‘z vaqtida bajarish.

2) Bozorni tahlil qilish va prognozlash:
- bozor sharoitlarini doimiy ravishda o‘rganish;
- savdo tendensiyalari va iste’molchilar talablarini aniqlash;
- potensial muammolarni oldindan ko‘rib chiqish.

3) Qonunchilik va normalarga rioya qilish:
- savdo faoliyatini tartibga soluvchi qonun va normalarga to‘liq amal qilish;
- litsenziyalar va ruxsatnomalarni o‘z vaqtida olish.

4) Ishlab chiqarish va ta’minot zanjirini samarali tashkil etish:
- mahsulotlarni o‘z vaqtida va sifatli yetkazib berish;
- ta’minotchilar bilan yaxshi hamkorlik o‘rnatish.

5) Iste’molchilar bilan ishlash va marketing:
- mijozlar talab va takliflarini tushunish;
- mahsulot va xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish;
- mijozlar bilan muloqotni mustahkamlash.

6) Ta’lim va kadrlar salohiyatini oshirish:
- xodimlar malakalari va bilimlarini doimiy ravishda yangilab borish;
- savdo sohasida professional mutaxassislarni tayyorlash.

7) Texnik va innovatsion imkoniyatlarni joriy etish:
- yangi texnologiyalardan foydalanish;
- elektron savdo va onlayn marketingni rivojlantirish.

8) Hukumat va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlikni mustahkamlash:
- mujassamlashtirilgan davlat dasturlari va grantlardan foydalanish;
- qo‘shimcha imtiyoz va qo‘llab-quvvatlash choralari.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, savdo inqirozini oldini olish korxona moliyaviy qiyinchiliklari va bankrotlikka olib kelishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarini oldini olishga qaratiladi. Mazkur choralar ko‘pincha korxonaning savdo-sotiq faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratiladi. Savdo inqirozining oldini olish uchun moliyaviy, bozor, kadrlar va texnologiyalar sohasida birgalikda tizimli va maqsadli ishlar olib borilishi lozim. Bu chora-tadbirlar orqali mamlakatimizda savdo sohasi barqaror rivojlanib, iqtisodiy o‘sishga salmoqli hissa qo‘shiladi. Bu borada savdo inqirozini oldini olish choralari korxona vaziyatiga qarab farq qiladi. Bu choralarning samarali bo‘lishi uchun ularni kompleks ravishda amalga oshirish, moliyaviy tahlil va strategiyaga asoslanish hamda menejment va xodimlarning ishtiroki talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Екимова Н.А. Индикаторы раннего предупреждения кризисов: в поисках новых подходов. // Вестник УрФУ. Серия экономика и управление, 2017, Том16, №6. - с. 985.
2. Обойн М. Международная торговля в период глобального экономического кризиса. // Вестник СПбГУ., Сер.5., 2012, Вып.3. - с. 81.
3. https://journal.sovcombank.ru/sberezheniya/chto-takoe-ekonomicheskii-krizis.

ГИДРОДИНАМИКА ВИХРЕВОГО СКРУББЕРА С ПОДАЧЕЙ НЕСКОЛЬКИХ ФАЗ

С.У Ганиева
соискатель (НавГГТУ г. Навои, Узбекистан)
Ф.Турсунова
(магистр технических наук ТГТУ)

Annotation. Investigation of the intensification of the purification of gases from solid particles using the hydrodynamic effect of centrifugal forces. Development of the design of an effective vortex dust collector, introduction of its production and industrial testing. Experimental studies are presented to determine the efficiency of dust capture in a vortex scrubber with a tangential swirl of gas and liquid flow. Their results are given for various operating parameters. With an increase in the dust concentration, the efficiency of the vortex apparatus also increases. With an increase in the axial flow velocity in the vortex scrubber, the efficiency of dust collection increases significantly due to an increase in the centrifugal force and the separation factor, which are proportional to the second degree of the average flow rate of the gas flow. At the same time, with an increase in the size of dust particles, the efficiency of dust collection increases. From the point of view of the efficiency of dust collection of the vortex apparatus, the optimal operating modes of the developed vortex scrubber are established.

Keywords: vortex apparatus, swirler, twist coefficient, gas velocity.

Аннотация. Цель работы исследование интенсификации очистки газов от твёрдых частиц с использованием вихревого пылеуловителя разработанной конструкции и проведение промышленных испытаний. Приведены результаты экспериментальных исследований по определению эффективности пылеулавливания в вихревом аппарате с тангенциальной завихрителем потока газа и жидкости при различных режимных параметрах. Установлено, что при увеличении концентрации пыли повышается и эффективность работы аппарата. В вихревом аппарате эффективность пылеулавливания существенно повышается при увеличении осевой скорости потока. Такая картина обусловлена повышением центробежной силы и фактора разделения, которые пропорциональны второй степени средней расходной скорости потока газа. Эффективность пылеулавливания повышается также при росте размеров частиц пыли. Установлены оптимальные режимы работы разработанного вихревого аппарата, с точки зрения эффективности пылеулавливания.

Ключевые слова: вихревой аппарат, завихритель, коэффициент крутки, скорость газа

Annotatsiya: Markazdan qochma kuchlarning gidrodinamik ta'siridan foydalangan holda gazlarni qattiq zarrachalardan tozalashni jadallashtirishni tadbiq qilish. Samarali uyurmali chang tutgichning konstruktsiyasini ishlab chiqish, uni ishlab chiqarishda qo‘llash va sanoat sinovlarini o‘tkazish. Ishchi parametrlari har xil bo’lganida gaz va suyuqlik oqimini tangensial aylantiruvchi uyurmali apparatda chang tutish samaradorligini aniqlash bo’yicha eksperimental tadqiqot natijalari keltirilgan. Changning konsentratsiyasi oshganida apparatning samaradorligi ko’tarilishi aniqlangan. Uyurmali apparatda

oqimning o’q tezligi oshganida chang tutish samaradorligi miqdoran oshib ketadi. Bunday ko’rinish markazdan qochma kuchlarining va oqim gazining o’rtacha sarf tezligining ikkinchi darajasiga proporsional bo’lgan ajratma faktorning ko’tarilishi bilan shartlanadi. Shuningdek chang tutish samaradorligi chang zarrachalarining o’lchamlari o’sib borishida ham oshib boradi. Uyurmali apparatning chang tutish samaradorligi nuqtai nazaridan ishlab chiqilgan uyurmali apparatning optimal ishlash rejimlari aniqlangan.

Kalit so'zlar: uyurmali apparat, aylantirgich, aylanish koeffitsiyenti, gazning tezligi.

Проблема очистки газовых отходов от газообразных и дисперсных примесей в промышленности становятся глобальным. Газы такие как двуокиси углерода, метана, азотистых соединений, высокодисперсных частиц и других примесей, вызывающих парниковый эффект могут отрицательно влиять на здоровье человечество [1].

Аппараты, в которых происходит непосредственное соприкосновение жидкой и газовой фаз широко применяются в химической, нефте- и газоперерабатывающих, горнодобывающих, энергетических и других отраслях экономики страны [2, 3].

Использование вихревых аппаратов методом мокрой очистке для очистки газов от твердых примесей в химической, нефтяной, строительной и других отраслях промышленности получили широкое распространения. То, есть механическая очистка, которая направлена на задержание твердых крупных частиц пыли. В основе лежит взаимодействии газового потока с жидкостью (водой) и последующее их осаждения.

Улавливание пыли пленками жидкости характеризуется контактом газа и жидкости на границе двух сред без перемешивания. Захват твердых частиц тонкими пленками жидкости происходит на поверхностях конструктивных элементов. Аппараты мокрой очистки надежны в использовании. Они имеют продуманную конструкцию, которая компактно располагается на любом производстве. Степень очистки воздуха доходит до 99,9%.

При непосредственном контакте газовой смеси с жидкой фазой происходят не только процесс очистки от твердых частиц, но и тепло- и массообменный процессы.

Подобные аппараты работают в системах «газ-жидкость-твердое тело» в различных комбинациях двух агрегатных состояний веществ [4, 5].

Целью данной работы является определение гидравлического сопротивления вихревого мокрого скруббера с тангенциальным завихрителем и параллельным вводом жидкой и газовой фаз.

В целях изучения гидравлического сопротивления вихревого мокрого циклона при улавливании твердой фазы из состава запыленного газа спроектирован экспериментальная установка с вводом обеих фаз через один тангенциальный завихритель.

Одним из важных этапов при проектировании экспериментального вихревого циклона являлось выбор эффективной конструкции завихрителя, обеспечивающий максимальную турбулентность при относительно низком гидравлическом сопротивлении.

В связи с этим изучено влияние конструкции параллельного ввода обеих фаз через один завихритель на общее гидравлическое сопротивление вихревого аппарата и структуру потоков в цилиндрической камере.

Экспериментальная установка по изучению гидродинамики вихревого аппарата состоит из аппарата с тангенциальным завихрителем, обеспечивающий ввод газовой и жидкой фаз в верхнюю часть цилиндрического корпуса, турбогазодувки с системой измерения расхода, температуры газовой фазы и байпасной линией, а также устройства для ввода твердых частиц, насоса для подачи жидкой фазы с системой измерения расхода и температуры жидкости.

В целях максимальной турбулизации вводимых потоков вращающейся по спирали вниз тангенциальная подача газа и жидкости производилась в параллельном токе. Температура воздуха соответствовали температуре окружающей среды, а воды - температуре в системе водоподачи. В качестве газовой фазы использован атмосферный воздух, а жидкой фазы - вода.

Диаметр стеклянного корпуса вихревого аппарата 0,078 м, высота 1,5 м. Прозрачность стеклянного корпуса позволит визуально наблюдать за структурой газожидкостного потока в цилиндрической камере.

В исследованиях с металлическим корпусом для эффективного отвода налипших на стенках твердых частиц в емкость, на внутренней стенке сделаны плавно очерченные спиральные канавки. На выходе из нижней части аппарата газовой и жидкой фаз для сбора жидкой фазы с твердыми

частицами установлена емкость объемом 0,1 м3. Движение газовой и жидкой фаз параллельный ток и оба движутся сверху вниз.

Причем, в поток газовой фазы под углом 30° вводится жидкая фаза с более высокой скоростью в целях создания высокотурбулизированного потока. Далее двухфазный поток приобретает вращательное движение и устремляется по спирали в нижнюю часть аппарата.

Нижняя часть аппарата имеет небольшой участок внезапного расширения, который служит устройством для гашения скорости газожидкостного потока перед его выходом из аппарата. Жидкая фаза с твердыми частицами собирается в емкость, а газовая фаза содержащая мелкодисперсные капли жидкости отводится из нижней части аппарата и выбрасывается в окружающую среду.

Исследования по гидравлическому сопротивлению вихревого скруббера от скорости потока запыленного газа показали, что функция $\Delta P=f(w)$ имеет восходящий характер во всем диапазоне скоростей, в качестве объекта переработки использовали фракции кварцевого песка с диаметром частиц 45, 63, 125 и 250 мкм. (рис.1).

При соотношении жидкой L фазы к газовой G фазе равной L/G=l:l значение гидравлического сопротивления $\Delta P=23$ Па при скорости 3 м/с, при w=10 м/с величина $\Delta P=90$ Па, при w=15 м/с величина $\Delta P=180$ Па и соответственно при w=23 м/с $-\Delta P=236$ Па.

Аналогичный рост гидравлического сопротивления наблюдается и при других значениях соотношения L/G. Разница только в численных значениях, которые увеличиваются с ростом соотношения до L/G=l:8.

Общеизвестно, что ввод фаз через тангенциальный завихритель создает центробежные силы как для газовой, так и жидкой фаз, а, сле довательно, приводит к росту движущей силы процесса вихревой очистки, что способствует интенсификации разделения газовой неоднородной системы. Выявлено, что вихревые аппараты с тангенциальными завихрителями обеспечивающие закрученный поток смеси «газ-жидкость» обладают существенными преимуществами при сопоставлении с гидроциклонами с осевым потоком.

Экспериментальные данные по гидравлическому сопротивлению вихревого гидроциклона с параллельным вводом обеих фаз через один завихритель показали хорошую корреляцию с опытными данными других исследователей. Следует отметить, что численные значения гидравлического сопротивления намного меньше, чем у аппаратов с двумя и четырьмя завихрителями.

Коэффициент полезного действия вихревых контактных аппаратов зависит как от интенсивности турбулентности потоков, так и от гидравлического сопротивления мокрого циклона, который определяет энергетические затраты на прокачку газовой и жидкой фаз. Подобные вихревые аппараты обеспечивает высокую степень очистки [6] газовой неоднородной системы относительно при низких гидравлических сопротивлениях.

ЛИТЕРАТУРА

[1. Рамочная конвенция ООН об изменении климата. - FCCC/INFORMAL/84 - 30 с.]

[2. Карев А.Н., Тюрин М.П. Эффективность использования аппа ратов мокрой очистки выбросов газов в промышленности // «Есте ственные и технические науки», 202Е- №9 - с. 19-25.]

[3. Юсупбеков Н.Р, Закиров С.Г., Нурмухамедов Х.С. Кимёвий технология асосий жараен ва курилмалари. (Назария. Хисоб. Лойиха). -2023. - 607 6.]

[4. Сажин Б.С, Белоусов А.С. Гидродинамические характеристи ки двухфазных течений в вихревых устройствах // Вестник МГТУ - М.: МГТУ им. А.Н. Косыгина. 2007. - С. 93-97.]

[5. Санакулов К.С., Бахронов Х.Ш., Ахматов А.А. Новые вихре вые аппараты для решения экологических проблем в металлургии. Межд. науч.-техн.конференции, Минск-Солигорск, БГТУ, 2019. - С. 101-107. https://elib.belstu.by/handle/123456789/30537.]

[6. Ганиева С.И., Шералиева О.А., Нурмухамедов Х.С., Нигмаджанов С.К. Влияние конструктивных параметров аппарата на эффективность мокрой очистки запыленного газа / Сб. трудов 1-ой межд. конф. РАСЕ-2024, Т: ТХТИ. - С.41-45.]

IJTIMOIY TARMOQLAR MARKETINGDAN FOYDALANISH SHART-SHAROITLARI VA TAMOYILLARI

D.A.Salayeva
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti, e-mail.
dilrabo_s@urdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlar marketingdan foydalanish shart-sharoitlari, tamoyillari tushunchalari, ularning tutgan o‘rni, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, o‘ziga xos xususiyatlari, mavjud imkoniyatlari va obyektiv zaruriyati muhokama qilinadi.

Аннотация. В статье рассматриваются понятия условий, принципов использования социальных сетей в маркетинге, их роль, социально-экономическое значение, особенности, существующие возможности и объективная необходимость.

Abstract. This article discusses the concepts of the conditions, principles of using social networks in marketing, their role, socio-economic significance, specific features, existing opportunities and objective necessity.

Kalit so‘zlar. Tarmoq, ijtimoiy tarmoqlar, marketing, ijtimoiy tarmoqlar marketingi, shart-sharoit, omil va tamoyil.

Ключевые слова. Сеть, социальные сети, маркетинг, маркетинг в социальных сетях, условия, факторы и принципы.

Key words. Network, social networks, marketing, social network marketing, conditions, factors and principles.

Ijtimoiy tarmoqlar marketingdan foydalanish turli shart-sharoitlar, omillar va tamoyillarga asoslanadi. Ushbu unsurlarning har birini alohida izohlab o‘tamiz.

Ijtimoiy tarmoqlar marketingdan foydalanish shart-sharoitlari ijtimoiy tarmoqlar orqali marketing faoliyatini samarali olib borish uchun zarur bo‘lgan asosiy omillar va talablar majmuasi hisoblanadi. Bu borada asosiy maqsad doimiy aloqada bo‘lish va onlayn dunyoda raqobatbardosh bo‘lish orqali ijtimoiy tarmoqlardan vosita sifatida foydalanish lozim [4]. Ular eng samarali marketing platformalaridan biri bo‘lib qoladi. Ularning imkoniyatlari o‘sishda davom etadi. Ko‘p sonli internet foydalanuvchilari ijtimoiy tarmoqlardan asosiy ma’lumot manbalaridan biri sifatida foydalanishlari hisobga olinadi. Har bir ko‘rinish farq qiladigan bo‘lsa, ijtimoiy media ko‘rinishini yaratishda ba’zi yangi taktikalar ko‘rib chiqiladi. Bu holatda yo‘nalishni yangilash kabi qadamlar uzoq muddatli foyda keltirishi va sotuvga sezilarli turtki berishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilar soni, kontent tarqalish tezligi va auditoriyani tahlil qilish imkoniyatlari bo‘yicha bizneslar uchun noyob imkoniyatlar yaratadi [3, 43-b.]. Biznesni targ‘ib qilish va mahsulot va xizmatlarni sotish uchun ijtimoiy media platformalaridan foydalanish ajoyib g‘oya bo‘lib qaraladi. Mijozlarni to‘g‘ri nishonga olish va ularning his-tuyg‘ulariga murojaat qiladigan tarkib yaratish lozim. Ta’sischilar va xodimlar jalb qilinadi. Xabarlarda vizual effektlardan foydalanilib, barcha tadbirlar samaradorligini kuzatib boriladi. Tez moslashish uchun so‘nggi tendensiyalardan xabardor bo‘lish talab etiladi. Ushbu shartlarga amal qilish orqali sotishni ko‘paytirish va biznesni rivojlantirish yo‘lida ish olib boriladi. Ijtimoiy tarmoqlar marketingdan foydalanish shart-sharoitlari veb-saytlarga xos bo‘ladi. Unga asosan, veb-saytlar soni ko‘p bo‘lgani uchun ularning barchasida hozir bo‘lish va faol bo‘lish mumkin emas. Shu bois, turli veb-saytlarni o‘rganish va kompaniya yoki jismoniy shaxslar haqida maqsadlarga erishishda imkon beradiganlarini topish kerak bo‘ladi [2, 17-b.].

Ijtimoiy tarmoqlar marketingidan foydalanish tamoyillari ijtimoiy tarmoqlarda marketing faoliyatini samarali va barqaror amalga oshirish uchun amal qilinadigan asosiy prinsip va yo‘riqnomalar kabilardan tarkib topadi. Bu borada ijtimoiy media marketingi sohasida internet texnologiyasining rivojlanishi bilan belgilanadigan asosiy afzalliklar va kamchiliklar aniqlanadi. Ijtimoiy media o‘z xabarlarini maqsadli bozorlariga yetkazish uchun barcha vositalarni sinab ko‘radigan sotuvchilar uchun zamonaviy vosita bo‘lib hisoblanadi. O‘z firmasiga asoslangan vositaning ko‘pgina afzalliklari va kamchiliklari mavjud bo‘lib, ko‘pgina kompaniyalar undan to‘g‘ri foydalanish yo‘lini izlab topishga intiladilar. O‘rtacha biznes egalari yoki marketologlar undagi xavf va muammolarni to‘liq tushunmaydilar. Bu soha shunchalik yangiki, ya’ni o‘z xizmatlarini onlayn tarzda taklif qiladigan ijtimoiy tarmoqlar - mutaxassislari malakasini baholash qiyin bo‘ladi. Unga asosan, kompaniya ijtimoiy media marketingi sohasiga qadam qo‘yishdan oldin ular ijtimoiy media amaliyotlari bo‘yicha to‘liq tadqiqotlarni yakunlashlari kerak [1]. Bu borada tashkilot ijtimoiy media

marketingi sohasida omon qolish uchun ijtimoiy mediadan samarali vosita sifatida foydalanishning asosiy tamoyillari va taktikasini o‘zlashtirishi kerak. Natijada, kompaniya yoki tashkilotning asosiy maqsadlari mijozlarni jalb qilish, kompaniya obro‘ini himoya qilish, mijozlarga sifatli mahsulot va xizmatlarni taqdim etish va mijozlarning ehtiyojlarini qondirish ta’minlanadi.

Shuningdek, ijtimoiy marketing kompaniyaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri moddiy foyda keltirmaydigan, ammo uning obro’sini mustahkamlaydigan va raqobatchilardan ajralib turadigan ijtimoiy foydali faoliyat bo‘lib qaraladi. Bu holatda kompaniyalar quyidagi muammolarni hal qilishlari zarur bo‘ladi [5]:

- atrof-muhitni muhofaza qilish;
- ijtimoiy adolatga erishish;
- aholining himoyalanmagan qatlamlariga yordam berish;
- uysiz hayvonlarga yordam berish;
- ta’lim va xalq ta’limini amalga oshirish.

Shularga asosan. ijtimoiy marketing jamiyatdagi kerakli o‘zgarishlar va maqsadli auditoriya ehtiyojlari o‘rtasida ko‘prik qurish qobiliyatini aks ettiradi. Shulardan kelib chiqib, marketingning har qanday turi singari quyidagi o‘z tamoyillariga asoslanadi va ijtimoiy muammolarni hal qilishda gumanistik yondashuv qo‘llaniladi [6]:

- auditoriyani tushunish. Birinchi tamoyil maqsadli auditoriyani chuqur tushunishdir. Marketolog o‘zining "mijozlari"ni bilishi kerak. Ularga ehtiyojlar, qo‘rquvlar va orzular kiradi. Undagi tadqiqot va so‘rovnomalar jamiyat ruhiga qarashga va kishilarni tushunishga yordam beradigan vositalar bo‘lib qaraladi.

- qiymat yaratish. Ijtimoiy marketing jamiyat uchun qiymat yaratishga asoslangan. Ekologiya, sog‘liq, tenglik bilan bog‘liq dasturlar ma’lumot berishi va ilhomlantirishi kerak. Marketolog g‘oyani haqiqatga aylantiradi va o‘zgarish har kimning hayotini qanday boyitishi mumkinligini ko‘rsatadi.

- hissiy aloqa. Kishilar his-tuyg‘ularga asoslangan qarorlar qabul qilishadi va ijtimoiy marketing bundan mustasno emas. Og‘riq va quvonchni boshqaradigan hikoyalar yurakka ta’sir qiladi. Masalan, chekishga qarshi tadbirni namunasi bo‘lishi mumkin. Bu holatda quruq statistika o‘rniga giyohvandlikdan xalos bo‘lgan va o‘zgargan kishilarning haqiqiy hikoyalari ko‘rsatiladi. Bu qiziqishni va samimiy javobni yaratadi.

- ishtirok etish va ishtirok etish. Tomoshabinlarni faol jalb qilish o‘zgarish uchun sabab bo‘lib qaraladi. O‘zining ahamiyatini his qiladigan kishi tinglashni va harakat qilishni boshlaydi. Ijtimoiy marketing kishilarni birlashtiradi va har bir ishtirokchiga yanada mazmunli maqsadga hissa qo‘shishga imkon beradi.

- o‘lchanadigan natijalar. Ijtimoiy marketing samaradorlikni baholashning aniq tizimini talab qiladi. Bu "yoqtirishlar" soni va xatti-harakatlardagi haqiqiy o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin. Bu esa chekish darajasining pasayishi yoki qayta ishlashning ahamiyati haqidagi ongning oshishini anglatadi. Muvaffaqiyatlarni o‘lchash orqali qanchalik uzoqqa borishni va keyingi qadamlarni tushunish mumkin.

- axloq va mas’uliyat. Ushbu ro‘yxatni yakunlab, axloq qoidalari e’tiborga olinadi. Ijtimoiy marketing g‘oyani ilgari surishning bir usuli va katta mas’uliyat bo‘lib qaraladi. Har bir loyiha halol, shaffof va hurmatli bo‘lishi kerak. Axloq ishonchning asosi sifatida ishonchsiz o‘zgarish mumkin emas.

- ijtimoiy o‘zgarishlarning kuchli oqimiga birlashtirilgan individual harakatlar dunyoni yaxshi tomonga o‘zgartirishga qodir bo‘ladi.

Darhaqiqat, ijtimoiy marketing zamonaviy jamiyatda muhim rol o‘ynab, dolzarb muammolarni hal qilishda va kishilar hayotini yaxshilashga imkon beradi. U an’anaviy marketingning eng yaxshi amaliyotlarini ijtimoiy sohaning maqsad va vazifalari bilan birlashtirib, mazmunli ijtimoiy o‘zgarishlarga hissa qo‘shadigan sinergiya yaratadi.

Shulardan kelib chiqib, samarali ijtimoiy media marketing shartlari, usullari va tamoyillarini ishlab chiqish uchun quyidagi qadamlarni bajarish kerak:

1-qadam. Maqsadlarni aniqlash. Ijtimoiy media marketingi bilan erishish yo‘nalishini aniqlash lozim. Bu brend xabardorligini oshiradi, veb-sayt trafigini oshiradi, potentsial mijozlarni jalb qiladi yoki sotishni ko‘paytiradi. Strategiyani shunga mos ravishda shakllantirish uchun maqsadlarni aniq belgilash lozim. Uning tarkibiga samarali ijtimoiy media strategiyalariga mahsulot yoki xizmatlarni targ‘ib qilish, maqsadli reklama tadbirlarini o‘tkazish va eksklyuziv bitimlar va chegirmalar taklif qilish kiradi.

2-qadam: Maqsadli auditoriyani aniqlash. Maqsadli auditoriyani tushunish uchun chuqur tadqiqotlar o‘tkazish lozim. Buning uchun yosh, jins, joylashuv, qiziqishlar, xatti-harakatlar va xarid qilish odatlari

kabi omillar ko‘rib chiqiladi. Mavjud auditoriya haqida ma’lumot to‘plash uchun ijtimoiy tarmoqlarda mavjud bo‘lgan tahlil vositalaridan foydalaniladi. Maqsadli auditoriyadan to‘g‘ridan-to‘g‘ri fikr-mulohaza olish uchun onlayn so‘rov vositalaridan foydalanish yoki ijtimoiy media kanallari orqali auditoriyani so‘rash mumkin. Ulardan afzalliklari, muammoli nuqtalari, ehtiyojlari va mahsulotlar yoki xizmatlar uchun umidlari haqida so‘raladi.

3-qadam: Platformani tanlash. Mavjud turli ijtimoiy media platformalarini tahlil qilish lozim va maqsadli auditoriya va biznes maqsadlariga mos keladiganlarni tanlash lozim. Bu borada Facebook, Instagram, Tvitter, LinkedIn va YouTube mashhur variantlardan biri sifatida ularning har biri o‘ziga xos imtiyozlar va foydalanuvchi demografiyasiga ega bo‘ladi.

4-qadam: Raqobatchilarni tahlil qilish. Muvaffaqiyatli foydalanayotgan platformalar haqida tasavvurga ega bo‘lish uchun raqobatchilarning ijtimoiy media mavjudligini o‘rganish kerak. Ushbu tahlil sanoat tendentsiyalarini aniqlashga, kontent tushunchalarini aniqlashga, maqsadli auditoriya afzalliklarini tushunishga va ishlashini baholashga imkon beradi.

5-qadam: Kontent rejasini tuzish. Brending ovozi, qadriyatlari va maqsadlariga mos keladigan kontent rejasini tuzish kerak. Maqolalar, rasmlar, videolar yoki infografika kabi yaratadigan tarkib turlarini ko‘rsatish talab etilib, xabarlar vaqtini aniqlash lozim.

6-qadam: Qiziqarli tarkib yaratish. Tinglovchilar uchun qimmatli bo‘lgan ta’lim, ko‘ngilochar yoki ilhomlantiruvchi kontent yaratish lozim. Izdoshlar bilan hikoyalar va ularning e’tiborini jalb qiladigan va diqqatni jalb qiladigan video va fotosuratlarni jalb qilish orqali bog‘lanishga e’tibor qaratish kerak.

7-qadam: Kuchli onlayn hamjamiyatni yaratish. Sharhlar, xabarlar va eslatmalarga bir zumda javob berish orqali tinglovchilar bilan faol muloqot qilish kerak. Brend atrofida hamjamiyat tuyg‘usini yaratish uchun suhbatlar rag‘batlantiriladi, savollar beriladi va fikr-mulohazalar qidiriladi.

8-qadam: Ta’sirchilar bilan hamkorlik qilish. Ko‘proq kishilarga murojaat qilish uchun sohadagi ta’sir ko‘rsatuvchilar yoki mutaxassislar bilan hamkorlik qilishni o‘ylab ko‘rish kerak. Maqsadli bozorga mos keladigan auditoriyasi bo‘lgan kishilar qidiriladi. Ular bilan ishlash imkoniyatlarni kengaytirish va yangi potentsial mijozlarni izlab topishga yordam beradi.

9-qadam: Asosiy ko‘rsatkichlarni belgilash. Ijtimoiy media marketing maqsadiga mos keladigan asosiy ishlash ko‘rsatkichlarini (KPI) aniqlanadi va ularni tahlil vositalari yordamida doimiy ravishda kuzatib boriladi. Erishish, jalb qilish, bosish tezligi va konvertatsiya qilish kabi asosiy ishlash ko‘rsatkichlari strategiya samaradorligi to‘g‘risida qimmatli ma’lumot beradi.

10-qadam: Strategik optimallashtirish uchun ma’lumotlarni tahlil qilish. Ijtimoiy media tadbirlardan to‘plangan ma’lumotlarni tahlil qilish va strategiyani optimallashtirish uchun ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish kerak bo‘ladi. Brend uchun eng samarali yondashuvni topish uchun turli tarkib shakllarini, nashr jadvallarini va auditoriyani ko‘rib chiqish kerak.

Xulosa shuki, raqamli muhitda rivojlanmoqchi bo‘lgan kompaniyalar uchun puxta o‘ylangan ijtimoiy media marketing strategiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy tarmoqlar reklama vositasi va munosabatlarni o‘rnatish va maqsadli auditoriya bilan chuqurroq muloqot qilish uchun platforma bo‘lib qaraladi. Bu holatda ijtimoiy media marketing imkoniyatlaridan foydalaniladi hamda o‘sish va muvaffaqiyat uchun yangi imkoniyatlar kashf etiladi. Shunday qilib, ijtimoiy marketing ijtimoiy foydali harakatlar orqali kompaniyani targ‘ib qilishga asoslanadi. Bu tovar xabardorligini oshiradi, sotishni ko‘paytirish va sodiq mijozlarni jalb qilishga imkon beradi. Shunga asosan, ijtimoiy marketingning homiylik, mablag‘ yig‘ish va sotishni rag‘batlantirish kabi shakllaridan foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Adilova D. Toward Understanding Social Media Marketing's Possitive And Negative Sides From Literature Review Perspective. // IOSR Journal of Business and Management, e-ISSN: 2278-487X, p-ISSN: 2319-7668. Volume 19, Issue 2. Ver. III (Feb. 2017). - p. 73.

2. Xolmirzayeva G., Ilxomjonov A. Ijtimoiy tarmoqlarda innovatsion marketing texnologiyalari. // Journal of marketing, business and management, Volume3, Issue11 (April), ISSN: 2181-3000. - 43 b.

3. Social Media Marketing: Social Media Marketing Fundamentals, eMarketing Institute. - Copenhagen, 2018. - p. 17.

4. https://www.ranktracker.com/uk/blog/upgrading-your-social-media-marketing-strategy-for-2023/

5. https://www.calltouch.ru/blog/chto-takoe-soczialnyj-marketing-i-kak-ego-primenyat/

6. https://zaochnik-com.com/spravochnik/marketing/vidi-marketinga/print-sipy-i-funktsii-sotsialnogo-marketinga/.

LISHAYNIKLARNING KIMYOVIY TARKIBI VA ISHLATILISH SOHALARI

G.I.Qoraboyeva
Farg‘ona davlat universiteti Tayanch doktoranti gulnozaqoraboyeva309@gmail.com
I.J.Jalolov
Farg‘ona davlat universiteti Kimyo fanlari doktori, professor i_jalolov1974@mail.ru

Annotatsiya. Lishayniklar - o‘ziga xos simbioz organizmlar bo‘lib, ular asosan zamburug‘ va yosunlardan tashkil topgan. Ular o‘zining noyob ikkilamchi metabolitlari bilan ajralib turadi. Bunday metabolitlar orasida usnik kislotasi, pulvin kislotasi, atranorin, fumarprotosetrarik kislota kabi biologik faol moddalar mavjud. Lishayniklardan olingan ushbu birikmalar antibakterial, antifungal, antiviral, antioksidant va yallig‘lanishga qarshi xususiyatlarga ega bo‘lib, farmatsevtika, kosmetologiya, oziq-ovqat sanoati va ekologik monitoringda keng qo‘llaniladi. Mazkur maqolada lishayniklarning kimyoviy tarkibi, asosiy metabolitlari va ularning amaliy qo‘llanilish sohasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Lishaynik, ikkilamchi metabolit, usnik kislotasi, biofaollik, farmatsevtika, antibakterial ta’sir, ekologiya.

Аннотация. Лишайники - это уникальные симбиотические организмы, состоящие из грибов и водорослей. Они синтезируют множество биологически активных вторичных метаболитов, таких как усниновая кислота, пульвиновая кислота, атранорин и фумарпротосетрариевая кислота. Эти соединения проявляют широкий спектр биологической активности: антибактериальную, противогрибковую, противовирусную, антиоксидантную и противовоспалительную. Благодаря этим свойствам лишайники находят применение в фармацевтике, косметологии, пищевой промышленности и экологическом мониторинге. В статье рассматриваются химический состав лишайников, их основные метаболиты и сферы применения.

Ключевые слова: Лишайники, вторичные метаболиты, усниновая кислота, биологическая активность, фармацевтика, антибактериальный эффект, экология.

Abstract. Lichens are unique symbiotic organisms composed primarily of fungi and algae. They are notable for producing diverse secondary metabolites such as usnic acid, pulvinic acid, atranorin, and fumarprotocetraric acid. These compounds exhibit significant antibacterial, antifungal, antiviral, antioxidant, and anti-inflammatory properties. Due to these bioactivities, lichen-derived substances are widely used in pharmaceuticals, cosmetics, the food industry, and environmental monitoring. This paper provides an overview of the chemical composition of lichens, their main metabolites, and their practical applications.


Keywords: Lichen, secondary metabolites, usnic acid, bioactivity, pharmaceuticals, antibacterial activity, ecology.

KIRISH. Zamburug‘lar va suv o‘tlarining simbiontlari bo‘lgan lishayniklar o‘zlarining mo‘l manbalari, katta zahiralari va past ishlab chiqarish xarajatlari tufayli keng e’tiborni tortdi. Lixenan (b-1,3-1,4-glyukan) lishaynikdan olingan chiziqli polisakkarid bo‘lib, lishaynikdagi umumiy uglevodlarning taxminan 62% ni tashkil qiladi, ammo lishayniklarning suvdagi yuqori yopishqoqligi past foydalanishga olib keladi [1. 2008:B.15-19]. Zamburug'lar lishaynik talli tuzilishini quradi, sherigini mikobiont deb atash mumkin. Fotobiont qism zamburug‘ rivojlanishi uchun fotosintez (shakarlar, aminokislotalar, karotinoidlar va kraxmal) birlamchi metabolitlarni ishlab chiqaradi va bu o‘z navbatida suvsizlanishdan himoya qilish uchun suv o‘tlariga sirt beradi. Zamburug‘ va suv o‘tlari o‘zaro munosabatda bo‘lib, ular birgalikda ekologik sharoitlar bilan kurashishga qodir, lekin ularning hech biri o‘zi yolg‘iz yashay olmaydi.

Ushbu maqolaning maqsadi - lishayniklarning kimyoviy tarkibini o‘rganish, ulardan ajratib olingan birlamchi va ikkilamchi metabolitlarni tahlil qilish, shuningdek, bu birikmalarning tibbiyot, farmatsiya va boshqa sohalardagi amaliy qo‘llanilishini yoritishdan iborat. Maqola orqali lishayniklarning ekologik va farmakologik ahamiyatini tushunish hamda ularni tabiiy mahsulotlar manbai sifatida tadqiq qilish imkoniyatlarini ko‘rsatish ko‘zda tutilgan.

Ilgari lishayniklar *Bacillus, Pseudomonas, E. coli, Streptococcus, Staphylococcus, Enterococcus* va *Mycobacterium* kabi ko‘plab bakteriyalarga qarshi inhibitiv faollikka ega ekanligi aniqlangan [2. 2002:B.72-77]. *Usnea ghattensis* lishayniginin metanol ekstrakti *Bacillus licheniformis, B. megaterium, B. subtilis* va *S. aureusga* qarshi samarali ekanligi ko‘rsatilgan. U uzoq vaqt davomida sil kasalligini, nafas olish muammolarini, diareya, tomoq va og'iz bo‘shlig'i infektsiyalarini, shuningdek, oshqozon va

oshqozon-ichak kasalliklarini va hatto grippni davolash uchun ishlatilgan. Islandiya va Germaniyada olib borilgan tadqiqotlar natijasida lishaynik ekstrakti bo‘lgan kapsulalar va planshetlar yaratilgan, ular hozirda ichak tutilishi, oshqozon yarasi, osteoartrit va astmatik kasalliklarni davolashda qo‘llaniladi [3. 2007:B.254-257].



1-rasm. Stiktik va norstiktik kislota

Lishayniklar asosiy metabolitlarga (lipidlar, oqsillar va uglevodlar) qo‘shimcha ravishda farmakologik ahamiyatga ega bo‘lgan noyob ikkilamchi metabolitlarni ishlab chiqaradi, ularning aksariyati poliketidlar guruhidan fenolik kislotalar, masalan, depsidlar. Ular tizimli quvvatni ta'minlash va hujayra metabolizmini tartibga solishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Birlamchi metabolitlarga xlorofil, ß-karotin, suv o‘tlari xromoforlari, ksantofillar, gemitsellyuloza, disaxaridlar, aminokislotalar, lixenin, xitin, polialkogol, izolichenin va boshqalar kabi pigmentlar kiradi [4. 2004.B.54-56]. Ikkilamchi metabolitlar faqat mikobiont tomonidan ishlab chiqarilgan birikmalar bo‘lib, ular asosan lishaynikning yuqori po‘stlog‘ida kristallar shaklida to‘planadi [5. 2001:B.124-127]. Lishayniklar turli xil kimyoviy tuzilishga ega bo‘lgan monosiklik fenollar, depsidlar (giroforik kislota), depsidonlar (stiktik va norstiktik kislota), ksantonlar va terpenoidlarni o‘z ichiga olgan turli xil ikkilamchi metabolitlarni o‘z ichiga olganligi bilan mashhur. Ushbu birikmalar saratonga qarshi, antifungal, antibiotik va antibakterial kabi turli xil biologik faollikni namoyish etadi (1-rasm). Arktika hayvonlarining sabzavot ozuqa resurslarining katta qismini tashkil etuvchi lishayniklar atranorin, protoketrarik va fumaroproketrarik kislotalar [6. 2008:B.153-172] kabi ikkilamchi metabolitlarning keng spektrga, shuningdek, mikroblarga qarshi va antifungal xususiyatlarga ega va ular odamlar va hayvonlar uchun toksikdir [7. 1982:B.185-192]. Lishayniklar, fotobiont sherigi, mikobiont sherigi va bakteriyalar jamoalari o‘rtasidagi simbiotik organizmlar bir necha asrdan beri tibbiy maqsadlarda foydalanilmoqda. Buyrak, nafas olish va jigar infektsiyalarini davolash uchun, shuningdek, antiseptik sifatida ishlatilib kelinmoqda [8. 2011:B.1-20]. Lishayniklarning an’anaviy tibbiyotda qo‘llanilishi ular tarkibida zamburug‘ qism (mikobiont) yoki bakteriyalar jamoasi tomonidan ishlab chiqarilgan va gifalarning yuqori yuzasida kristallar shaklida to‘plangan noyob va xilma-xil bioaktiv molekulalarni o‘z ichiga olganligi bilan oqlanadi.

Ko‘pgina tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, lishaynik birikmalari turli xil antibiotiklar faoliyatida apoptozni keltirib chiqaradi; ular, masalan, sil va ichak infektsiyalari bilan kurashishda yordam beradigan keng ko‘lamli antibiotik xususiyatlariga ega. Lishayniklar ko‘plab mamlakatlarning an’anaviy tibbiyotida muhim dori sifatida ishlatilgan. Lishayniklarning biologik faoliyatiga qiziqishning ortishi natijasida ko‘plab nashr etilgan sharh maqolalari paydo bo‘ldi. Aksariyat ishlar lishayniklarning xom ekstraktining biologik faolligiga taalluqlidir, ulardan ba’zilari *Hypogymnia physodes* ekstraktlari bilan bog’liq bo‘lsa, ba’zilarida esa lishayniklarning biologik faolligi qayd etilgan. In vitro tajribalari shuni ko‘rsatdiki, usnik kislota ko‘plab inson saraton hujayralarining o‘sishini inhibe qilishi mumkin. Biroq, jigar bilan zaharliligi va usnik kislota suvida past eruvchanligi saraton kasalligini davolashda qo‘llanilishini cheklaydi [9. 2007:B.24].

Xulosa. Lishayniklar tarkibida mavjud bo‘lgan ko‘plab ikkilamchi metabolitlar ularning biologik faolligini belgilovchi asosiy omillardandir. Ayniqsa usnik kislotasi, atranorin, fumarprotosetrarik va boshqa organik kislotalar antibakterial, antifungal, antioksidant va yallig‘lanishga qarshi samarasi bilan ajralib turadi. Bu xususiyatlar lishayniklarni farmatsevtika, kosmetologiya, oziq-ovqat saqlash texnologiyalari hamda ekologik monitoring tizimlarida istiqbolli tabiiy manbaga aylantirmoqda. Shuningdek, lishayniklar ekologik toza biosignalizator sifatida ham katta ahamiyatga ega. Ularning tarkibiy metabolitlari havo ifloslanishiga sezgir bo‘lib, ekologik muhitning holatini baholashda muhim vosita hisoblanadi. Ularni mikroorganizmlarga qarshi tabiiy antibiotiklar sifatida o‘rganish esa antibiotiklarga chidamli shtammlarga qarshi kurashda yangi echimlar topishga yordam beradi. Shu bois, lishayniklar kimyosi nafaqat fundamental biologiya va kimyo fanlari uchun, balki amaliy tibbiyot, farmatsiya va atrof-muhit muhofazasi sohalari uchun ham dolzarb tadqiqot yo‘nalishi bo‘lib qolmoqda. Kelgusida ushbu organizmlardan ajratib

olinadigan yangi biofaol moddalarni chuqur o‘rganish, ularning molekulyar ta’sir mexanizmlarini aniqlash va amaliyotga joriy etish ilmiy-innovatsion yutuqlar sari yo‘l ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Knudsen, K., & Werth, S. (2008). Lichens of the Granite Mountains, Sweeney Granite Mountain Desert Research Center, Southwestern Mojave Desert,San,Bernardino,County, California. ***Evansia 25***(1), 15-19
2. Nash, T. H., Ryan, B. D., Gries, C., & Bungartz, F. (Eds.). (2002). ***Lichen flora of the greater Sonoran Desert region***. (Vol 1). Tempe, AZ: Lichens. Pp: 72-77.
3. Nash, T. H., Ryan, B. D., Diederich, P., Gries, C., & Bungartz, F. (Eds.) (2007). ***Lichen flora of the greater Sonoran Desert region***. (Vol 2). Pp: 254-257
4. Nash, T. H., Gries, C., & Bungartz, F. (Eds.) (2004). ***Lichen flora of the greater,Sonoran Desert region***. (Vol 3). Tempe, AZ: Lichens Unlimited, Arizona State University. Pp: 54-56
5. Orange, A., James, P., & White, F. (2001). ***Microchemical methods for the identification of lichens.*** British Lichen Society, England. Pp: 124-127
6. Osborn, J, Lachniet, M., & Saines, M. (2008). Interpretation of Pleistocene glaciation in the Spring Mountains of Nevada: Pros and cons. GSA Field Guide 11: Field guide to plutons, volcanoes, faults, reefs, dinosaurs, and possible glaciation in selected areas of Arizona, California, and Nevada, 153-172. Retrieved on 9/13/08
7. Rushforth, S. R., St. Clair, L. L., Brotherson, J. D., & Nebeker, G. T. (1982). Lichen community structure in Zion National Park. ***The Bryologist 85***(2): 185-192
8. Shrestha, G. & St. Clair., L. L. (2011). A comparison of the lichen floras of four locations in the intermountain western US.***North American Fungi 6***(8). Pp: 1-20
9. St. Clair, L. L., St. Clair, S. B., & Porter, L. D. (2007). Establishment and review of the lichen air quality biomonitoring program and baseline for the Spring,Mountains,National Recreation Area, Humboldt-Toiyabe National Forest, Nevada. ***USDA Forest Service Technical Report***. 24 pages.

FIZIKA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING KOGNITIV FAOLLIGINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

A.U.Alimov
Samarqand Davlat pedagogika instituti “Fizika” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: asadullaalimov0@gmail.com Tel: + 998 93 963 72 64

Annotatsiya: Ushbu maqolada fizika darslarida o‘quvchilarning kognitiv faolligini oshirishning samarali pedagogik usullari yoritiladi. Faollashtiruvchi texnologiyalar, interaktiv metodlar va muammoli vaziyatlar orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Bu yondashuvlar ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: kognitiv faollik, refleksiya, metakognitiv, sinkveyn, insert.

Аннотация: В данной статье рассматриваются эффективные педагогические методы повышения познавательной активности учащихся на уроках физики. Рассматриваются пути формирования у учащихся самостоятельного мышления, анализа и научного мировоззрения посредством активизирующих технологий, интерактивных методов и проблемных ситуаций. Эти подходы служат повышению качества образования.

Ключевые слова: когнитивная активность, рефлексия, метакогнитивный, синквейн, инсерт.

Abstract: This article highlights effective pedagogical methods for enhancing students' cognitive activity in physics lessons. The paper examines ways to develop independent thinking, analytical skills, and a scientific worldview in students through activating technologies, interactive methods, and problem-based scenarios. These approaches aim to improve the quality of education.

Keywords: cognitive activity, reflection, metacognitive, cinquain, insert.

Fizika fani orqali o‘quvchilar muhim ilmiy tushunchalar — harakat, kuch, energiya, to‘lqinlar, elektromagnitlik, atom va yadroviy jarayonlar bilan tanishadilar. Bu tushunchalar real hayotdagi muammolarni hal qilishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, fizika boshqa fanlar bilan,

xususan matematika, kimyo, biologiya, texnologiya fanlari bilan uzviy bog‘langan. Bu fanlararo integratsiya o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi va kompleks fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.Fizika darslarida kognitiv yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rag‘batlantiradi. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, fizika fanini chuqur o‘rganayotgan o‘quvchilar mantiqiy, tanqidiy va tizimli fikrlashga ega bo‘ladi [1. 2019: B.232]. Ayniqsa tajriba va laboratoriya mashg‘ulotlari orqali o‘quvchilar real obyektlar va hodisalarni o‘z ko‘zi bilan kuzatadi, xulosalar chiqaradi va ilmiy faoliyatga yaqinlashadi.Zamonaviy ta’lim tizimida fizika fanining ahamiyati STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi doirasida ham ko‘paymoqda. Bu yondashuv fizikani amaliyot va innovatsiyalar bilan bog‘lashga xizmat qiladi. Masalan, robototexnika, elektrotexnika va dasturlash yo‘nalishlarida fizik bilimlar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuningdek, fizika ta’limi orqali o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish ham mumkin [2.2020:B.240].

Energiya manbalarining tejamkor ishlatilishi, radiatsion xavfsizlik, iqlim o‘zgarishlari kabi masalalar o‘quv dasturlarida fizika bilan uzviy bog‘liq. Bu esa o‘quvchilarning atrof-muhitga ongli munosabatini rivojlantirishga xizmat qiladi.Bundan tashqari, fizika fanining rivoji mamlakatlar raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ilm-fan va texnologiyaga tayangan davlatlar barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlay oladi. Masalan, Yaponiya, Germaniya, AQSh kabi ilg‘or mamlakatlarda fizika ta’limiga katta e’tibor beriladi, bu esa ularning texnologik yetakchiligiga sabab bo‘lmoqda.Fizika fanini o‘qitish jarayonida didaktik materiallardan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalar va test tizimlaridan foydalanish o‘quv jarayonini yanada samarali qiladi. Bu esa o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirish, ular orasida fanga qiziqishni kuchaytirish va yuqori natijalarga erishishni ta’minlaydi [3.2021: B.174].

Zamonaviy pedagogika va psixologiyada o‘quvchilar yoki talabalarning bilim olish jarayonidagi faolligi muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, kognitiv (aqliy) faollik tushunchasi bugungi ta'lim tizimida asosiy nazariy va amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Kognitiv faollik shaxsning bilimlarni anglab olish, ularni tahlil qilish, yangi vaziyatlarda qo‘llashga tayyor bo‘lishiga oid faoliyatidir. Bu tushuncha psixologik va pedagogik nazariyalarda turlicha yondashuvlar asosida yoritilgan bo‘lib, uning asoslari asosan kognitiv psixologiya, konstruktivizm va faoliyat nazariyasiga tayanadi.

Kognitiv psixologiya XX asrning 50–60-yillarida behaviorizmga (xulq-atvor psixologiyasi) javoban vujudga kelgan bo‘lib, inson ongini, bilish faoliyatini, idrok, e’tibor, xotira, tafakkur va muammoli fikrlash jarayonlarini o‘rganishga qaratilgan. Ushbu yondashuvning asoschilaridan biri Jerom Bruner hisoblanadi. Unga ko‘ra, o‘quvchilar yangi bilimlarni faqat tayyor holatda emas, balki ularni mustaqil izlanish, muammoni hal etish orqali o‘zlashtirishlari kerak. Bruner "konstruktiv yondashuv" tarafdori sifatida ta’lim jarayonida o‘quvchining kognitiv faolligini oshirish uchun interaktiv metodlarga, savol-javoblarga, muammoli vaziyatlarga alohida urg‘u beradi [4.2019: B.182]

Konstruktivistik ta’lim nazariyasida o‘quvchi bilimni o‘z tajribasi asosida quradi, uni shunchaki o‘zlashtirmaydi, balki yaratadi. Shuning uchun bu nazariyada o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quv faoliyatini tashkil qiluvchi va yo‘naltiruvchi rolini bajaradi. Kognitiv faollikni oshirish uchun interaktiv metodlar, muammoli vazifalar, loyiha ishlari, munozaralar, rolli o‘yinlar samarali vosita sifatida qo‘llaniladi. Har bir o‘quvchi bilimga o‘z fikri, tajribasi orqali yondashadi. Shu boisdan ham kognitiv faollikni qo‘llab-quvvatlaydigan muhit yaratish, o‘quvchilarni faol izlanishga, mustaqil fikrlashga undash ta’lim samaradorligini oshiradi.

Kognitiv faollikning shakllanish bosqichlari

O‘quvchilarda kognitiv faollikni shakllantirish bosqichma-bosqich amalga oshadi [5,6]:

1. Qiziqish uyg‘otish – mavzuga nisbatan ichki ehtiyoj hosil qilish.
2. Axborotni idrok etish – bilimlarni anglash, savollar tug‘ilishi.
3. Tahlil qilish va izlanish – axborotni qiyoslash, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash.
4. Mustaqil xulosa chiqarish – o‘z fikrini asoslash.
5. Bilimni yangi holatlarda qo‘llash – kognitiv yondashuvning eng yuqori bosqichi.

Kognitiv faollikni rivojlantirish usullari

Zamonaviy ta’limda quyidagi usullar kognitiv faollikni rivojlantirishda samaralidir:

- Muammoli vazifalarni yechish.
- Savol-javoblar asosida dars o‘tkazish.
- Munozarali topshiriqlar.
- Klasterlar, "Aqliy hujum", "Sinkveyn", "Insert", "Fishbone" kabi texnologiyalar.
- Axborot texnologiyalaridan foydalanish.

Shuningdek, o‘qituvchining savol berish mahorati, muloqot madaniyati va o‘quvchini faollashtirishga qaratilgan pedagogik pozitsiyasi ham muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning bilim olish jarayonida faol ishtirokini ta'minlash, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib bormoqda. Ayniqsa, fizika kabi aniq fanlarni o‘rganishda o‘quvchilarning kognitiv (bilish) faolligini oshirish – bu nafaqat ularning bilim saviyasini oshiradi, balki mustaqil muammolarni hal qilish, izlanish va ilmiy tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [7.2020: B.188].

Kognitiv faollik — bu o‘quvchining axborotni idrok etish, qayta ishlash, tahlil qilish, umumlashtirish, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash va amaliyotga tatbiq eta olish faoliyatidir. Kognitiv faollikni oshirish deganda o‘quvchining bilim olishga bo‘lgan ichki ehtiyojini, mustaqil izlanishga bo‘lgan qiziqishini rag‘batlantirish, uni ijodiy va tanqidiy fikrlashga yo‘naltirish tushuniladi.

Fizika fanining o‘ziga xos xususiyati shundaki, bu fan tabiat qonuniyatlarini o‘rganishga, real hayotdagi hodisalar orasidagi bog‘liqlikni anglashga yordam beradi. Ammo fizika ko‘plab formulalar, qonunlar va tushunchalarni o‘z ichiga olgani uchun o‘quvchilarda uni o‘zlashtirishda qiyinchiliklar tug‘ilishi mumkin. Shu sababli, o‘qituvchi darsda o‘quvchilarning kognitiv faolligini oshiruvchi metodlardan foydalansa, bu fanni o‘rganishga bo‘lgan munosabat ijobiy tomonga o‘zgaradi [8.2021: B.150].

Xulosa qilib aytganda, fizika fani ta’limda muhim o‘rin egallaydi. U faqat ilmiy bilimlar manbai bo‘lib qolmay, balki o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantiruvchi, hayotga tayyorlovchi, texnologik tafakkurni shakllantiruvchi kuchli pedagogik vosita hisoblanadi. Fizika ta’limining tizimli va innovatsion asosda olib borilishi, zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga javob beruvchi kompetensiyalarga ega yosh avlodni shakllantirishda beqiyos rol o‘ynaydi.Fizika darslarida kognitiv faollikni oshirishning amaliy natijalari dars samaradorligini oshirishda juda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularning tafakkur va ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda fan bo‘yicha ko‘rsatkichlarni yaxshilaydi. Shuning uchun ta’lim jarayonida kognitiv faollikni oshiruvchi metodlarni joriy etish zarurati dolzarb bo‘lib qolmoqda. Fizika darslarida kognitiv faollikni oshirish — bu zamonaviy ta'limning muhim talabidir. O‘quvchilarni bilishga qiziqtirish, ularni faol izlanishga yo‘naltirish orqali nafaqat ularning bilim saviyasi, balki tafakkur doirasi, hayotga bo‘lgan ilmiy yondashuvi shakllanadi. Shu maqsadda zamonaviy pedagogik metodlar, raqamli texnologiyalar va interfaol yondashuvlardan foydalanish fizika fanining sifatli o‘zlashtirilishiga xizmat qiladi. Kognitiv faollikni rivojlantirish ta’lim samaradorligini oshirish, mustaqil fikrlovchi, bilimli, tashabbuskor shaxsni tarbiyalashda asosiy omillardan biridir. Uning nazariy asoslarini chuqur o‘rganish va amaliyotga tadbiq etish orqali har bir o‘quvchining ichki imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish mumkin. Shu boisdan kognitiv yondashuv bugungi ta’lim islohotlarida, yangi metodik tizimlarda, o‘qituvchi malakasini oshirish dasturlarida asosiy tamoyil sifatida qaralmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Зайнитдинов, Ш. З. Теория и методика преподавания физики: Учебное пособие / Ш. З. Зайнитдинов. – Ташкент: Университет, 2019. – 232 с.
2. Azizxo‘jayev A.A. “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat”. – Toshkent: Fan va texnologiya, 240 –bet. 2020.
3. Xaydarov R.S. “Fizika ta’limida innovatsion metodlar”. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 174-b. 2021.
4. Shodmonov Sh.Sh. “O‘quvchilarda kognitiv ko‘nikmalarni shakllantirish metodikasi”. – Samarqand, 2019.
5. Hasanov B.H. “Zamonaviy dars va pedagogik innovatsiyalar”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2022.
6. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). *A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives*. – New York: Longman.
7. Абдулаев, А. А. Современные подходы к обучению физике в средней школе / А. А. Абдулаев. – Ташкент: Фан, 2020. – 188 с.
8. Нуритдинов, И. И. Физика ва инновацион таълим технологиялари / И. И. Нуритдинов. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2021. – 150 б.

BO’LAJAK FILOLOG O’QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Sh.O.Maxkamova
Namangan davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak filolog o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish masalasi dolzarb pedagogik muammo sifatida ilmiy tahlil etiladi. Kompetensiya tushunchasining mazmuni, uning tarkibiy qismlari, rivojlantirishga xizmat qiluvchi va halal beruvchi pedagogik texnologiyalar, ayniqsa teatr pedagogikasi vositalarining o‘rni yoritiladi. Xorijiy va mahalliy tajriba asosida amaliy tavsiyalar beriladi.

Annotation This article analyzes the mechanisms of developing professional competencies of future philology teachers through theater pedagogy. It emphasizes the importance of practical skills, communicative culture, methodological reflection, and modern pedagogical technologies. The research highlights integrative and innovative approaches to forming analytical and aesthetic thinking in the context of higher pedagogical education.

Аннотация В статье анализируются механизмы развития профессиональных компетенций будущих учителей-филологов с использованием театральной педагогики. Подчеркивается значимость практических навыков, коммуникативной культуры, методологической рефлексии и современных педагогических технологий. Исследование акцентирует внимание на интегративных и инновационных подходах к формированию аналитического и эстетического мышления в условиях высшего педагогического образования.

Kalit so‘zlar: kasbiy kompetensiya, filolog o‘qituvchi, teatr pedagogikasi, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar

Key words: Professional competence, philology teacher, theater pedagogy, methodological reflection, integrative approach, aesthetic thinking.

Ключевые слова: Профессиональная компетенция, учитель-филолог, театральная педагогика, методическая рефлексия, интегративный подход, эстетическое мышление.

Kirish. Zamonaviy ta’limda o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi ta’lim sifati va samaradorligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Ayniqsa, filologik yo‘nalishda tahsil olayotgan talabalar uchun bu kompetensiyalar chuqur nazariy bilim, til va adabiyotga estetik munosabat, ijodiy yondashuv, kommunikativ madaniyatni o‘z ichiga oladi. Shu boisdan bo‘lajak filolog o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish hozirgi davrda dolzarb pedagogik muammo sifatida qaralmoqda, chunki bugungi kunning zamonaviy yoshlarini zamon talabida o’qitish, rivojlantirish uchun, avvalo, pedagog o’qituvchilar o’zlari shunga munosib bo’lishlari zarur. Bu borada rivojlanayotgan davltlar qatorida yurtimizda ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Kundan kunga darslarni qiziqarli va foydali bo’lishi uchun yangi metod va kreativ usullarni joriy qilinishi ham bunga yaqqol misol bo’la oladi.

Kasbiy kompetensiya deganda o‘qituvchining o‘z faoliyatida zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka, psixologik va pedagogik xususiyatlar majmuasi tushuniladi. Bugungi kunda ta’limda kommunikativ yondashuv, integrativ metod, tanqidiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirish kompetensiyalarning ajralmas tarkibiy qismiga aylangan. Teatr pedagogikasi bu jarayonda ayniqsa ahamiyatlidir. U orqali talabalar sahna nutqi, tanqidiy fikrlash, emotsional ifoda, jamoaviy ishlash, badiiy-estetik anglash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bu metod orqali til, adabiyot va madaniyatni bir butun holda idrok etish imkoniyati kuchayadi. Kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda an’anaviy yondashuvlar yetarli emas. Bugungi kunda zamonaviy yosh avlodning diqqatini dars jarayoniga mutloq jalb qilib olish oson bo’lmay qoldi. Buning uchun pedagoglardan juda katta mahorat, bilim, ko’nikma, malaka hamda ijodkorlik kompetensiyalari talab etiladi.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanildi: Nazariy tahlil, taqqoslama metod (xorijiy tajriba bilan), empirik kuzatuv va so‘rovnoma usullari. Ob'ekt sifatida filologiya yo‘nalishidagi 3-4 bosqich talabalar olindi. Tadqiqot predmeti - kasbiy kompetensiyaning shakllanish darajasi va rivojlanish mexanizmlari.

Natijalar Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak filolog o‘qituvchilarida quyidagi kompetensiyalar yetarli shakllanmagan:

Integrativ tafakkur yetishmasligi, ya’ni o’quvchilarga ta’lim va tarbiya berishda turli fanlararo aloqani chuqur va samarali yo’lga qo’ya olmaslik;

Ijtimoiy-kommunikativ kompetensiya – o’quvchilar bilan aloqani mustahkam yo’lga qo’ya olmaslik;

Metodik moslashuvchanlik, bir yoki bir nechta metod bilan chegaralanib qolish, yangiliklarga ochiq emaslik yoxud izlanishdan qochish;

Dramatik ifoda va estetik did, rollarga kirisha olmaslik, artistizmning yo’qligi, obrazga ko’cha olishdan uyalish

Darslar nazariy yo‘nalgan, amaliy va teatr elementlariga asoslangan mashg‘ulotlar kam, faqatgina ma’ruza va konspektlar bilan chegaralanib qolgan holda an’anaviy usulda dars tashkillash.

Munozara. Kasbiy kompetensiyaning rivojlanmasligi natijasida filolog o‘qituvchilari zamonaviy darslarga tayyor emasligi kuzatilmoqda. Xorijiy tajriba (Finlyandiya, Koreya, Turkiya, Rossiya)da teatrlashtirilgan metodlar orqali o‘qituvchi nutqi, estetik dunyoqarashi, tafakkuri va ijodiy salohiyati kengaytiriladi. Bugungi kunda O’zbekistonda ham filologiya yo’nalishida tahsil olayotgan bo’lajak pedagok talabalarning o’quv dasturlariga dramaturgiya darslarining kiritilishi hamda ko’plab maktab, talim muassasalarida teatr to’garaklarining tashkil etilishining kengayib borishi ham bu yo’nalishga ahamiyat berilayotganidan darak beradi. Chunki ular kelajakda o’quvchilardagi kreativ dunyoqarashni rivojlantirishda, avvalo, o’zlari bunga har jihatdan tayyor kadr bo’lib yetishishi zarur. Kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda an’anaviy yondashuvlar yetarli emas. Hozirgi kunda o‘quvchilarda faqat bilim emas, balki ularni qo‘llay olish ko‘nikmasi, kommunikativ madaniyat, reflektiv fikrlash, jamoaviy hamkorlik kabi ko‘nikmalar talab etilmoqda, negaki guvohi bo’lib turganimizdek zamon, internet va ijtimoiy tarmoqlar, sun’iy intellektning cheksiz imkoniyatlari hozirgi davrning yosh o’quvchilarini tobora o’ziga bog’lab olmoqda. Shu sababdan oddiy va an’anaviy darslar bundan buyog’iga o’z ahamiyati va qiziqarlilogini yo’qotishi ayni haqiqat. Teatr pedagogikasi aynan shunday multifunksional kompetensiyalarni shakllantirishda beqiyos vositadir. Dastlab bu yondashuv estetik tarbiya sifatida ko‘rilgan bo‘lsa, hozirgi bosqichda u ta’limning metodologik negiziga aylangan. Chunki sahnalashtirish orqali o‘qituvchi o‘zining nutqiy madaniyatini, hissiy ifoda qobiliyatini, muammoli vaziyatlarda moslashuvchan yechim topish qobiliyatini shakllantiradi. Teatr elementlari bilan o‘tilgan darslar o‘quvchilarning tilga, adabiyotga, hayotiy vaziyatlarga bo‘lgan munosabatini ijobiy o‘zgartiradi. Teatrlashgan darslarni bevosita real hayotning bir maketi desak bo’ladi, sababi rol ijro etayotgan o’quvchilar tabiiyki ana shu ruhiy holatga tushadi va o’z tanasida o’sha jarayonni his qila oladi. Bu esa o’z navbatida yoshlarni ijtimoiy hayotga oson ko’niktiradi, mustaqil shaxs sifatida tarbiyalaydi.

Xulosa. Bugungi kunda oliy pedagogik ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan bo‘lajak filolog o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish — zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, kasbiy kompetensiya faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki amaliy ko‘nikmalar, kommunikativ madaniyat, ijodiy yondashuv, axloqiy-estetik qadriyatlar bilan ham uzviy bog‘liqdir.

Maqolada ko‘rib chiqilgan teatr pedagogikasi, innovatsion yondashuvlar, integrativ metodlar — barchasi kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, filologiya sohasida bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik refleksiyasi, sahna nutqi, analitik fikrlash, badiiy-estetik tafakkur kabi ko‘nikmalarni shakllantirish uchun zamonaviy texnologiyalar samarali yechimdir.

Shu bois, kasbiy kompetensiyani rivojlantirishni dolzarb pedagogik muammo sifatida o‘rganish nafaqat ilmiy-amaliy, balki ijtimoiy-pedagogik zaruratga aylangan. Kelgusida bu boradagi izlanishlar amaliyotga chuqur integratsiyalashgan, real ta’lim vaziyatlarida sinovdan o‘tkazilgan tizimli tavsiyalar asosida olib borilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2021.
2. Abduraxmonov Q.X. Pedagogik kompetensiya asoslari. – Toshkent: “IQTISOD-MOLIYA”, 2020.
3. To‘xtasinov Sh.S., Teshaboyev I. Kasbiy ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: “Iqtisodiyot va moliya”, 2022.
4. Jalolov J.J. Ta’limda integratsiyalashgan yondashuvlar. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.

5. Maxkamova Sh.O. Teatr pedagogikasi vositasi orqali bo‘lajak filolog o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmi // Ilmiy maqola. – Namangan: NDPI, 2025.
6. UNESCO. Teacher Competency Standards Framework for Southeast Asia. – SEAMEO INNOTECH, 2018.
7. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. – New York: Teachers College Press, 2016.
8. Shulman L.S. Knowledge and Teaching: Foundations of the New Reform // Harvard Educational Review. – 1987.
9. Egamberdiyeva D.A. Til o‘qitish metodikasi. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2023.
10. Richards J.C. & Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: CUP, 2014.

ABDURAUF FITRATNING MA’NAVIY-FALSAFIY MEROSINI O‘QUV JARAYONIGA INTEGRATSIYALASH TAMOYILLARI

Y.Y.Isomiddinov
Samarqand davlat pedagogika instituti PhD, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdurauf Fitratning ma’naviy-falsafiy qarashlarini zamonaviy pedagogik jarayonga integratsiyalash masalasi tahlil qilinadi. Fitrat merosining ta’lim-tarbiya mazmunini boyitishdagi ahamiyati yoritiladi.
Kalit so‘zlar: Abdurauf Fitrat, ma’naviy-falsafiy meros, integratsiya, ta’lim jarayoni, pedagogik tamoyillar.
Аннотация: В данной статье рассматривается проблема интеграции духовно-философского наследия Абдурауфа Фитрата в современный педагогический процесс. Освещается значение его наследия в обогащении содержания образования и воспитания.
Ключевые слова: Абдурауф Фитрат, духовно-философское наследие, интеграция, образовательный процесс, педагогические принципы.
Abstract: This article analyzes the integration of Abdurauf Fitrat’s spiritual-philosophical heritage into the modern educational process. The significance of Fitrat’s legacy in enriching the content of education and upbringing is highlighted.
Keywords: Abdurauf Fitrat, spiritual-philosophical heritage, integration, educational process, pedagogical principles.

Abdurauf Fitrat – o‘zbek milliy uyg‘onish harakatining yirik namoyandalaridan biri, ma’rifatparvar, olim va adib sifatida o‘zining chuqur falsafiy qarashlari bilan tanilgan. Fitratning asarlari zamonaviy o‘quv jarayoniga nafaqat adabiy, balki ma’naviy-ma’rifiy jihatdan ham boylik olib kiradi. Uning merosini ta’lim jarayoniga integratsiyalash zamonaviy pedagogikaning muhim vazifalaridan biridir [1. 2008:B.12].

Fitratning ma’naviy merosi quyidagi asosiy tushunchalarga tayangan: insonparvarlik, ijtimoiy adolat, milliy ong, tafakkur erkinligi, ma’rifatparvarlik. U o‘zining "Munozara", "Oq Bilak" va boshqa asarlarida shaxsning axloqiy kamoloti, erkin fikrlash, ilmga intilish kabi g‘oyalarni ilgari surdi [2. 1990:B.27]. Fitrat ta’lim orqali jamiyatni yangilashga chaqirdi.

Bugungi globallashuv davrida ta’lim tizimi nafaqat bilim beruvchi, balki ma’naviy yetuk, milliy qadriyat va vatanparvarlik tuyg‘ulari bilan qurollangan yoshlarni tarbiyalovchi muhim ijtimoiy institut sifatida maydonga chiqmoqda. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ta’lim islohotlari doirasida o‘quv jarayonini boyitish, uni milliy va ma’naviy meros bilan uyg‘unlashtirish dolzarb masalalardan biri sifatida ko‘rilmoqda.

Ma’naviy-falsafiy merosni ta’lim jarayoniga integratsiyalash bugungi kunda ikki asosiy ehtiyojdan kelib chiqadi: birinchidan, milliy o‘zlikni anglash va yuksaltirish ehtiyoji, ikkinchidan, zamonaviy yosh avlodni global xatarlar qarshisida ma’naviy immunitet bilan ta’minlash zarurati. Zotan, o‘z tarixiy ildizlariga tayanmagan, o‘ziga xos ma’naviy-mafkuraviy asosga ega bo‘lmagan har qanday ta’lim tizimi o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarga erisha olmaydi. [3. 2002:B.144].

O‘zbekiston Respublikasining 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida ham yoshlarning ma’naviy kamoloti, ularning vatanparvarlik va fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash, milliy g‘oyani singdirish ta’lim tizimining ustuvor vazifalari qatorida belgilangan. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quv dasturlariga milliy meros vakillarining — Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi jadid ma’rifatparvarlarining asarlarini, g‘oyalarini ilmiy-pedagogik asosda kiritish zaruratini tug‘diradi.

Ma’naviy-falsafiy merosni integratsiyalashdan asosiy maqsad — nafaqat tarixiy bilim berish, balki yosh avlod ongida milliy g‘urur, mustaqil fikrlash, tarixiy mas’uliyat, insonparvarlik va jamiyat oldidagi burch tuyg‘usini shakllantirishdir. Ayniqsa, Abdurauf Fitratning ma’naviy-falsafiy qarashlari orqali bu maqsadga erishish imkoniyati yuqori. Chunki Fitrat asarlarida yoshlarga qaratilgan ijtimoiy-falsafiy qarashlar, ma’naviy tarbiya masalalari, ilm-fan va tafakkur erkinligi keng yoritilgan.

Ma’naviy-falsafiy merosni zamonaviy ta’lim jarayoniga integratsiyalash dolzarb nazariy va amaliy masalalardan biridir. Bugungi globallashuv va madaniy identitetni saqlab qolish sharoitida milliy merosni yosh avlod ongiga singdirish nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-falsafiy vazifa sifatida ham qaralmoqda. Bu borada o‘zbek ma’naviyatining yirik namoyandalaridan biri, jadidchilik harakati yetakchisi, ma’rifatparvar olim Abdurauf Fitratning merosi muhim o‘rin tutadi.

Integratsiyalash so‘zi lotincha “integrare” – “birlashtirish”, “to‘liq holga keltirish” degan ma’noni bildiradi. Ta’lim jarayonida esa bu turli g‘oyalar, qadriyatlar, bilimlar va ko‘nikmalarning yagona tizimga birlashtirilishi, ular orqali o‘quvchining ma’naviy, axloqiy va intellektual rivojlanishiga erishishni anglatadi. Shu nuqtai nazardan, Fitratning ilmiy-falsafiy qarashlari pedagogik jarayonning kontseptual asosiga aylanishi mumkin.

Integratsiya bu – ikkita yoki undan ortiq tizimlar, g‘oyalar yoki yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi orqali yangi, samarali ta’limiy modelni shakllantirishdir. Falsafiy yondashuvda esa bu birlikni, yaxlitlikni anglatadi.

Ma’naviy-falsafiy merosni o‘quv jarayoniga integratsiyalash quyidagi asosiy tamoyillar asosida amalga oshiriladi: tarixiylik, ilmiylik, tizimlilik, integrativlik, amalga yo‘naltirilganlik, yoshga moslik, faollik va ijodiylik.

Ma’naviy-falsafiy merosni o‘quv jarayoniga integratsiyalash bugungi kunda ta’lim jarayonining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon orqali yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ularning ma’naviy dunyosini boyitish va vatanparvarlik ruhida kamol toptirish mumkin.

Integratsiyalashning yana bir zaruriy jihati — ta’lim jarayonini nazariy bilimlar bilan cheklab qo‘ymaslik, balki uni hayotiy amaliyot bilan bog‘lash, fanga asoslangan, ammo milliy qadriyatlarga suyanadigan innovatsion modelga aylantirishdir. Shu nuqtai nazardan qaralganda, Fitratning “Millatni saodatga eltuvchi yagona yo‘l – ilm, ma’rifat va tafakkurdir” degan fikri zamonaviy pedagogika konsepsiyasi bilan mushtarakdir. [4. 2006:B.176].

Shuningdek, hozirgi davrda globallashuv, g‘oyaviy xurujlar, madaniy ekspansiya jarayonlari kuchayib borayotgan bir sharoitda, yoshlarning ongini mustahkamlash, ularda tanqidiy fikrlash va ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirish uchun milliy-falsafiy manbalarga murojaat qilish, ularni ta’lim tizimi orqali avlodlar ongiga singdirish strategik ahamiyatga egadir.

Shu bois, ma’naviy-falsafiy merosni ta’lim jarayoniga integratsiyalash — nafaqat ilmiy, balki siyosiy, madaniy va axloqiy ehtiyojga ham aylandi. Bu borada Fitratning g‘oyalari, uning o‘quvchi-yoshlar uchun yozilgan asarlari, pedagogik qarashlari, milliy uyg‘onish va istiqlol g‘oyalari zamonaviy o‘quv dasturlariga integratsiyalash uchun boy manba bo‘lib xizmat qiladi. [5. 2010:B.132].

Abdurauf Fitratning ma’naviy-falsafiy merosi zamonaviy ta’limda muhim tarbiyaviy manba sifatida xizmat qilishi mumkin. Uning qarashlarini o‘quv jarayoniga integratsiyalash orqali yosh avlodda erkin fikrlovchi, milliy qadriyatlarga sodiq, ma’naviy yetuk shaxsni shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimov B. Abdurauf Fitrat – XX asr o‘zbek adabiyotining zabardast namoyandasi. – Toshkent: Fan, 2008. – 192 b.
2. Fitrat A. Munozara. – Toshkent: Fan, 1990. – 84 b.
3. Quronov D. Jadidlar merosi va bugungi ma’naviyat. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002. – 144 b.
4. Azizxo‘jaeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2006. – 176 b.
5. Umarov A. Jadid pedagogikasining shakllanishi va rivoji. – Toshkent: TDPU, 2010. – 132 b.

TURKIY TILSHUNOSLIK TABIATI: TARJIMA MADANIYATINING ZAMONAVIY ISTIQBOLLARI

B.R.Abdulloyeva
Oliy Majlis Senat huzuridagi Yoshlar parlamenti faollari jamoasi àzosi

Annotatsiya Mazkur maqolada turkiy tillar oilasiga mansub tillarning lingvistik xususiyatlari, ularning tarixiy va madaniy yaqinligi kontekstida tarjima madaniyatining zamonaviy talqini tahlil etilgan. Turkiy tilshunoslik doirasida tarjima faoliyatining metodologik asoslari, til va madaniyat uyg‘unligining lingvokulturologik jihatlari ochib beriladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan til siyosati bo‘yicha hujjatlar, turkiy davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik doirasidagi tashabbuslar, tarjimonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan amaliy yo‘nalishlar yoritilgan. Muallif tomonidan mavjud muammolar hamda istiqbolli takliflar bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: turkiy tillar, tarjima madaniyati, tilshunoslik, lingvokulturologiya, tarjimashunoslik, interkultural kompetensiya, madaniy kontekst, til siyosati, turkiy hamkorlik.

Аннотация В данной статье проанализирована современная трактовка переводческой культуры в контексте лингвистических особенностей тюркских языков, их исторической и культурной близости. В рамках тюркского языкознания раскрываются методологические основы переводческой деятельности, лингвокультурные аспекты взаимодействия языка и культуры. Также освещаются принятые в Республике Узбекистан документы по языковой политике, инициативы в рамках сотрудничества между тюркскими государствами, а также практические направления по развитию переводческой культуры. Автором изложены актуальные проблемы и перспективные предложения в данной области.

Ключевые слова: тюркские языки, переводческая культура, языкознание, лингвокультурология, переводоведение, интеркультурная компетенция, культурный контекст, языковая политика, тюркское сотрудничество.

Annotation This article analyzes the modern interpretation of translation culture in the context of the linguistic characteristics of Turkic languages and their historical and cultural proximity. It highlights the methodological foundations of translation activity within the scope of Turkic linguistics and the linguocultural aspects of the interaction between language and culture. The article also explores legal documents adopted in the Republic of Uzbekistan concerning language policy, initiatives within the framework of cooperation among Turkic states, and practical directions for the development of translation culture. The author outlines existing challenges and proposes forward-looking recommendations.

Keywords: Turkic languages, translation culture, linguistics, linguoculturology, translation studies, intercultural competence, cultural context, language policy, Turkic cooperation.

Bugungi globallashuv davrida madaniyatlararo muloqotning chuqurlashuvi, xalqaro hamkorlikning kengayishi va axborot almashinuvi jarayonlarining jadallashuvi tarjima faoliyatiga bo‘lgan ehtiyojni misli ko‘rilmagan darajada oshirmoqda. Ayniqsa, turkiy tillar oilasi vakillari bo‘lmish xalqlarning madaniy yaqinligi, tarixiy ildizlarining mushtarakligi va til o‘xshashliklari ushbu sohada turkiy tilshunoslik va tarjima madaniyati o‘rtasidagi aloqalarni yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda.

Turkiy tillar doirasidagi tarjima madaniyati masalalari bugungi kunda nafaqat filologik va lingvistik tadqiqotlar, balki siyosiy, iqtisodiy va madaniy siyosatning ajralmas bo‘lagiga aylangan. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi tomonidan keyingi yillarda turkiy xalqlar bilan hamkorlikni mustahkamlash, yagona madaniy-ma’naviy merosni asrash va rivojlantirishga doir ko‘plab muhim qarorlar qabul qilinmoqda. Jumladan, Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida O‘zbekistonning faol ishtiroki, shuningdek, 2022-yil 14-iyuldagi “O‘zbek tilining xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–327-sonli Qaror, tarjima faoliyatini rivojlantirishda muhim dastak bo‘lib xizmat qilmoqda.[1.2022]

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-maydagi “O‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni (PF–6019) ham tarjimonlik madaniyatining institutsional asoslarini yaratishda muhim rol o‘ynamoqda.[2.2020] Bu esa, o‘z navbatida, turkiy tillar asosida amalga oshirilayotgan tarjimalar sifati va mazmuniy chuqurligini ta’minlash, madaniy merosni to‘g‘ri aks ettirish va tilshunoslikning amaliy yo‘nalishlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada turkiy tilshunoslikning tabiati va zamonaviy

tarjima madaniyatining o‘zaro bog‘liqligi, tarjima jarayonlarida yuzaga kelayotgan lingvokulturologik muammolar hamda ularning yechimiga oid istiqbolli yo‘nalishlar tahlil qilinadi.

Turkiy tillar va ularning lingvistik xususiyatlari, ayniqsa, o‘zaro o‘xshashlik va tafovutlar, tarixiy taraqqiyot yo‘llari va fonetik-morfologik tizimlari haqida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu borada G. Do‘stmuhammad, M. Jo‘rayev, A. Mahmudov, N. Zohidov, A. Madvaliev singari o‘zbek tilshunoslari tomonidan yozilgan ilmiy asarlar, shuningdek, turkiy tillar qiyosiy tipologiyasiga oid O. A. Mudrak, E. R. Tenishev, A. M. Shcherbak kabi xorijiy olimlar izlanishlari muhim ahamiyat kasb etadi.[3,4,9]

Tarjima madaniyati masalalariga doir izlanishlar esa keyingi yillarda yanada faollashdi. Ayniqsa, tarjimada milliy madaniyat, mentalitet, til sathlaridagi o‘ziga xosliklarning ifodalanishi bilan bog‘liq muammolar tahliliga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar, monografiyalar soni ortib bormoqda. O‘zbekistonda M. Kurbonov, Sh. Jo‘raev, R. Mamatov, G. Sodiqova, M. Mirzaeva kabi olimlar tomonidan tarjima nazariyasi, tarjimon kompetensiyasi, ekvivalentlik, interkultural kommunikatsiya kabi yo‘nalishlar chuqur tadqiq etilgan.[5,7,8]

Biroq aynan turkiy tillararo tarjima madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari, turkiy tillar asosida shakllanayotgan zamonaviy tarjima texnologiyalari, shuningdek, madaniyatlararo tafakkur va tarjima strategiyalarining uyg‘unlashuvi kabi muammolar hali to‘liq o‘rganilmagan. Bu mavzuning kompleks yondashuv asosida o‘rganilishi, ayniqsa, tilshunoslik, madaniyatshunoslik va tarjimashunoslik sohalarining kesishgan nuqtalarida tahlil qilinishi ilmiy va amaliy jihatdan dolzarbdir.

Turkiy tillar — oltoy tillar oilasiga mansub bo‘lib, Markaziy Osiyo, Kavkaz, Volga bo‘yi, Sibir va Sharqiy Yevropa hududlarida yashovchi xalqlarning ona tillaridir. Ular fonetik, leksik, grammatik jihatdan mushtarak xususiyatlarga ega. Bu tillar o‘rtasidagi ichki tipologik yaqinlik turkiy tilshunoslikni alohida filologik yo‘nalishga aylantirgan.

Turkiy tilshunoslikda quyidagi asosiy yo‘nalishlar ajratiladi:

- tarixiy-qiyosiy tilshunoslik (masalan, qadimgi turkiy yodgorliklar tili asosida);
- zamonaviy strukturaviy-lisoniy tadqiqotlar;
- funksional-stilistik tadqiqotlar;
- tillararo aloqalar va til ta’siri masalalari.

Bugungi kunda turkiy tillararo integratsiya, yagona leksik bazani shakllantirish, yozma va og‘zaki muloqotni soddalashtirish, o‘zaro tarjima imkoniyatlarini kengaytirish kabi masalalar dolzarb ilmiy yo‘nalishlarga aylangan.

Tarjima madaniyati — bu nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, sotsiolingvistika va kommunikatsiya nazariyalari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab ko‘p qatlamli hodisadir. Zamonaviy tarjimashunoslik tarjimani faqat lingvistik jarayon sifatida emas, balki madaniy, kontekstual va ijtimoiy faoliyat sifatida ham talqin etadi.

Tarjima madaniyatining asosiy komponentlari quyidagilardan iborat:

- ✓ madaniy kontekstni saqlab qolish;
- ✓ lingvokulturologik ekvivalentlikni ta’minlash;
- ✓ milliy mentalitet va qadriyatlarni to‘g‘ri yetkazish;
- ✓ til o‘ziga xosliklarini buzmasdan ma’no transferini amalga oshirish.

Zamonaviy tarjima madaniyatida interkultural kompetensiya, kognitiv yondashuv, diskursiv tarjima, postkolonial tarjima nazariyasi kabi yangi yondashuvlar muhim o‘rin tutadi.

Turkiy xalqlar o‘rtasidagi siyosiy va madaniy yaqinlashuv, Turkiy davlatlar tashkiloti, Turk akademiyasi, Turksoi kabi xalqaro institutlar faoliyati natijasida turkiy tillararo tarjima faoliyati jadallashmoqda. Bu esa quyidagi masalalarni ilmiy tahlil qilishni talab qiladi:

- ▪ yagona til korpuslari va lug‘at bazalarini yaratish;
- ▪ terminologik uyg‘unlik va ekvivalentlik muammolari;
- ▪ tarjima me’yorlarini standartlashtirish;
- ▪ tarjimonlar tayyorlash tizimini takomillashtirish.

Shu nuqtai nazardan, turkiy tillar asosidagi tarjima madaniyatining rivoji faqat tilshunoslik emas, balki siyosiy va madaniy integratsiya, axborot almashinuvi va ta’lim sohasidagi hamkorlik uchun ham zaruriy ilmiy asosdir.

O‘rganishlar natijasida quyidagicha takliflar ishlab chiqildi:

Turkiy tillararo tarjima sohasida yagona terminologik bazani ishlab chiqish va bu borada umumturkiy lug‘at tuzishni yo‘lga qo‘yish zarur.

Tarjima sohasida ixtisoslashgan tarjimon kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish, xususan, turkiy tillar doirasida faoliyat yurituvchi tarjimonlar uchun maxsus o‘quv dasturlarini yaratish lozim.

Turkiy tillar asosida milliy va umumturkiy elektron tarjima platformalarini yaratish (masalan, o‘zbek–turk, ozarbayjon–qirg‘iz, qozoq–turkman tarjimalar uchun avtomatlashtirilgan tizimlar).

Tarjimada milliy madaniyat va mentalitetni ifodalovchi birliklarning to‘g‘ri berilishini ta’minlovchi metodik tavsiyalar ishlab chiqilishi kerak.

Turkiy davlatlar tashkiloti, TURKSOY, TURKPA kabi xalqaro tuzilmalar bilan hamkorlikda tarjima bo‘yicha qo‘shma ilmiy loyihalarni amalga oshirish, xususan, tarixiy-adabiy yodgorliklar tarjimasini muvofiqlashtirish lozim.

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida “turkiy tarjimashunoslik” yo‘nalishini joriy etish, shu orqali tilshunoslik va tarjimashunoslikning integratsiyalashgan rivojlanishiga zamin yaratish.

Turkiy tillararo aloqalarning kuchayishi, madaniyatlararo muloqotning kengayishi va xalqaro hamkorlikning rivojlanishi fonida turkiy tilshunoslik va tarjima madaniyati o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi muhim yo‘nalishlarga aylanmoqda. Tarjimashunoslikning zamonaviy konsepsiyalari til va madaniyat uyg‘unligini ta’minlashda, milliy o‘zlikni boshqa tillarda to‘g‘ri aks ettirishda katta ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekistonning turkiy davlatlar bilan hamkorlikni mustahkamlash borasidagi siyosiy qarorlari, ayniqsa, tarjimaga oid strategik yondashuvlarni ishlab chiqish va xalqaro loyihalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan tashabbuslar ushbu mavzuni dolzarb va istiqbolli ilmiy yo‘nalish sifatida belgilaydi.

Bugungi kunda tarjima madaniyatini rivojlantirishda lingvistik ekvivalentlik, madaniy kontekstni saqlash, interkultural kompetensiyani oshirish kabi muhim jihatlar nazariy va amaliy asosda chuqur o‘rganilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. O‘zbek tilining xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. Qaror №PQ–327, 14.07.2022 // Lex.uz.
2. Президент Республики Узбекистан. О концепции развития узбекского языка и совершенствования языковой политики. Указ №PF–6019 от 20.05.2020 // Национальная база данных законодательства, 21.05.2020.
3. Мадвалиев А. Современный узбекский язык: морфология. — Ташкент: Фан, 2006. — 326 с.
4. Do‘stmuhammad G. Turk tillari tarixiy qiyosiy grammatikasi. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2012. — 288 b.
5. Kurbonov M. Tarjima nazariyasi asoslari. — Toshkent: Ilm Ziyo, 2015. — 204 b.
6. Mirzaeva M. Tarjimashunoslik asoslari: nazariya va amaliyot. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. — 180 b.
7. Mudrak O. A. Классификация тюркских языков. — Москва: Восточная литература, 2003. — 251 с.
8. Щербак А. М. Введение в изучение тюркских языков. — Ленинград: Наука, 1971. — 216 с.
9. Türk Dili Konuşan Ülkeler İşbirliği Konseyi. Resmi belgeler to‘plami. — İstanbul, 2021.
10. Tenishev E. R. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. — Москва: Наука, 1984. — 312 с.

XOSIYAT RUSTAMOVANING ELLIPSISDAN FOYDALANISH MAHORATI

X.Xudoyberdiyeva
Namangan davlat universiteti doktoranti Email:xudoyberdiyevaxurininsa@gmail.com

Annotatsiya: maqolada Xosiyat Rustamova she’rlarida qo‘llangan ellipsis va ritorik so‘roq lingvostilistik yondashuv asosida tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: inversiya, ellipsis, takror, qisqartmalar, sukut, ritorik so‘roq.

Annotation: This article analyzes the use of ellipsis, silence, and rhetorical questions in the poetry of Xosiyat Rustamova from a linguostylistic perspective.

Keywords: inversion, ellipsis, repetition, abbreviation, silence, rhetorical question.

Аннотация: В статье с лингвостилистической точки зрения проанализированы такие поэтические средства, как эллипсис, пауза (молчание) и риторический вопрос, использованные в стихах Хосият Рустамовой.

Ключевые слова: инверсия, эллипсис, повтор, сокращения, пауза, риторический вопрос

O‘zbek adabiyotida XXI asr ijodkorlari orasida o‘ziga xos uslubi, poetik obrazlar tizimi va sintaktik vositalardan foydalanish usullari bilan ajralib turuvchi ijodkorlardan biri Xosiyat Rustamovadir. Uning she’riyatida milliy qadriyatlar, ruhiy kechinmalar, tabiat manzaralari hamda ayol qalbining nozik tuyg‘ulari poetik sintaksis vositalarda o‘z ifodasini topgan.

Ma’lumki, poetik sintaksis, adabiy matnning nafaqat grammatik qurilishini, balki estetik ta’sirchanlik darajasini ham belgilaydi. Badiiy matn estetik butunlik sifatida benihoya serqatlam hodisa hisoblanadi. Unda ifodalangan asosiy g‘oya mazmunni tushunish, anglash ancha qiyin va murakkab ijodiy jarayondir. Har qanday matnning mazmunini tushunish uchun til leksikasi va grammatikasini, badiiy matnning o‘ziga xos lisoniy poetik qonuniyatlarini ham bilish lozim bo‘ladi. Bu esa o‘z o‘rnida badiiy matnga lingvostilistik yondashuvni talab qiladi.

Badiiy nutqda ko‘p uchraydigan poetik sintaksis vositalardan biri ellipsisdir. Ellipsis (yunoncha. Elleipsis – tushish, tushurilish) – nutq unsurlarini tushib qolishi. Ellipsisda biron bir bo‘lak, ba’zan morfologik ko‘rsatgich, ba’zan esa fonetik birlik ma’lum bir sababga ko‘ra tushirib qoldiraladi. Tushirilgan birlik garchi tuzilishi jihatdan mavjud bo‘lmasa-da, mantiqiy jihatdan ma’lum bo‘ladi. Demak, tushirilgan birlik matnga o‘ziga xos badiiylik bera oladi.

Shoira Xosiyat Rustamova lirikasida ham ellipsisning o‘ziga xos beqiyos o‘rni mavud:

Burchakdagi nimqorong‘u uy,
Har kun tinglab chiqar ***Motsartni****,* [“Pianino g‘amgin…” Devor 76-b]

“Har kun tinglab chiqar Motsartni” satrida “kim?” degan savol ochiq qoladi. Bunda sub’ekt, ya’ni bu harakatni bajarayotgan shaxs tushirib qoldirilgan. Bu klassik sintaktik ellipsisdir. ***“Burchakdagi nimqorong‘u uy”*** jumlasi orqali inson obrazi va uning ruhiy holati gavdalantirilgan. Bu metonimiya va poetik metaforadir. “Nimqorong‘u” – bu faqat qorong’ulikni emas, balki ichki tushkunlik, yolg‘izlik, yoki ruhiy iztirobni ham ifodalaydi. “Motsartni tinglab chiqar” – bu obrazda estetik did, ichki dunyo, yolg‘izlikni go‘zallik bilan bartaraf qilish istagi mujassam ekanligi aks ettirilgan. Ellipsis – aynan sub’ektni yashirib, o‘quvchiga o‘z dunyosini solishtirish imkonini beradi. Har kim bu “burchakdagi uy”da o‘zini ko‘rishi mumkinligi anglashiladi.

Tayyorlab qo‘yganman qo‘ying qo‘shiqni,
Shatunov *deysizmi yo* ***Pugacho‘va****.* [“Eshik qulflangan” Devor 81-b]

Ushbu she’riy parchada ellipsis ikkinchi misrada ifodalangan. “Shatunov deysizmi yo Pugacho‘va” bu yerda to‘liq gap “(Siz) Shatunov deysizmi, yo Pugacho‘va deysizmi?” shaklida aks ettirilishi kerak edi. Bunda o‘quvchi (yoki suhbatdosh) bilan savol-javob shaklidagi dialog paydo bo‘ladi. Bu she’rga jonlilik va tabiiylik bag‘ishlaydi. Shatunov va Pugacho‘va rus estradasining mashhur yulduzlari bo‘lib, ular nomlarini qo‘llash orqali muallif o‘z zamonasini ifodalaydi.

Xavf-xatar.
Ajal ***bor.***
Xavotir.
Vahm.
Qisqarib bormoqda yo‘llar…[“O, qancha zug‘umlar…” Devor 126-b]

Ushbu misralar minimalizm uslubida yozilgan, ammo mazmunan filosofik va emotsionallikka ega. Har bir satr ellipsis orqali ifodalangan mazmunli bo‘laklardan iborat. Fragmentarlik (parchalilik) uslubi tushkunlik, psixologik notinchlik, ichki tarqoqlikni ifodalashga xizmat qilgan. Har bir satr fikrlarning to‘liq emasligi, muallifning ruhiy holatini ifoda etadi.

Satrlar quyidagicha ketma-ketlikda o‘sib boradi:

Satr	**Emotsional daraja**
Xavf-xatar	Tashqi tahdid
Ajal bor	Haqiqat, yakun
Xavotir	Ichki holat
Vahm	Ruhiy og‘irlik
Qisqarib yo‘llar…	Umidsizlik, falokat

Bu intensivlikning oshib borishi va chuqur ruhiy o‘zgarish jarayonining yorqin ifodasidir. ***“Qisqarib bormoqda yo‘llar…”*** misrasida uch nuqta ***ellipsisning grafik ifodasi*** sifatida xizmat qiladi. Bu satrda hayot tugayotganini bildiradi, yoki hali aytilmagan qo‘rquv, noma’lum kelajak ifodalanadi.

Xosiyat Rustamova she’riyatida ellipsis – muhim lingvostilistik vosita sifatida namoyon bo‘lgan. Shoira ushbu uslubiy figura orqali matnda ifoda ixchamligi, emotsional intensivlik va poetik soddalikni ta’minlaydi. Ellipsis yordamida muallif aytilmagan, lekin seziladigan ma’no qatlamlarini yuzaga chiqaradi, bu esa o‘quvchini she’rning ichki mazmunini anglash, uni to‘ldirish va talqin qilishga jalb etadi.

Lingvostilistik nuqtayi nazardan, ellipsis shoiraning poetik nutqida sukut, ichki kechinma va fikrning uzviy oqimini ifodalash vositasi sifatida xizmat qilgan. Ayniqsa, lirik holatlarni ifodalashda ellipsis muallifning ruhiy holatini bevosita yetkazadi, zero u ko‘pincha aytilmaslik orqali ko‘proq ma’no uzatishga intiladi. Demak, Xosiyat Rustamova she’rlarida ellipsis estetik ixchamlik, emotsional boylik va individual uslubning muhim ko‘rsatkichlaridan biri sifatida lingvostilistik jihatdan matnning semantik va emotsional qatlamlarini boyitish vazifani bajargan.

Xosiyat Rustamova o‘z ijodida javob talab qilmaydigan, tasdiq va inkor mazmunga ega bo‘lgan ritorik so‘roq gaplarni mahorat bilan qo‘llagan:

Yana umid qilsa bolarmi tongdan,
Bu elda qachondir yorishgaymi ko‘k?!
Nega quyosh kabi socholmayman cho‘g‘?
Men yana necha yil shunday yotgayman,
Nahot, uyg‘onmoqqa yuragim ham yo‘q?!

[“Yana umid qilsa bo‘larmi tongdan” Rido 34-b]

Abstract. The article analyzes the current state of the mechanism for transferring state property to management based on public-private partnerships, examines the experience of foreign countries, and develops proposals and recommendations for improving the mechanism of transferring state property to management through public-private partnerships (PPP).

Ключевые слова: государственно-частное партнерство (ГЧП), частный партнер, стратегия, договор, лизинг, модель, зарубежный опыт, инвестиция, кооперация, оптимизация, совершенствование, предложения, модернизация.

Kalit so‘zlar: davlat-xususiy sherikchilik (DXSH), xususiy hamkor, strategiya, shartnoma, lizing, model, xorijiy tajriba, investitsiya, hamkorlik, optimallashtirish, takomillashtirish, takliflar, modernizatsiyalash.

Key words: public-private partnerships (PPP), private partner, strategy, contract, leasing, model, foreign experience, investment, cooperation, optimization, improvement, proposals, modernization.

В силу исторических особенностей развития и географического положения Республики Узбекистан развитие государственного экономического сектора обладает рядом специфических характеристик и ограничений. Интенсивное развитие предприятий и организаций в сфере оказания государственных услуг определяет уровень социально-экономического развития страны, материально-технические возможности в области обеспечения благосостояния населения и государственных гарантий. Это придает стратегическое значение задаче развития государственной собственности и повышения эффективности ее использования. Необходимость содержания государственного имущества в требуемых объемах и надлежащем функциональном состоянии требует тщательно разработанной стратегии формирования и управления государственными активами. Эта стратегия включает в себя реализацию множества инвестиционных проектов по модернизации и инновационному обновлению объектов государственной собственности.

Практика показывает, что в настоящее время реализация крупных инвестиционных проектов в различных сферах экономического, логистического и инфраструктурного оборота государственных активов сталкивается с проблемой нехватки бюджетных средств и недостаточной гибкости системы управления ими.

Поэтому поиск и обоснование следующего становится актуальной необходимостью:

- альтернативные источники финансирования;
- альтернативные механизмы обеспечения эффективности использования государственных активов.

Из-за ограниченных инвестиционных и управленческих возможностей государство все чаще вынуждено обращаться к частному сектору в поисках возможного партнерства, при котором финансирование создания и предоставления важных социальных услуг осуществляется частными партнерами. Сотрудничество государственных и частных бизнес-ресурсов может принимать различные формы. Одним из современных альтернативных методов ускорения развития объектов государственной собственности в условиях дефицита бюджетов различных уровней является применение механизма государственно-частного партнерства (ГЧП).

В Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах подчеркивается, что государственно-частное партнерство является одним из основных направлений реформирования системы государственного управления, поскольку оно способствует повышению эффективности взаимовыгодного сотрудничества, направленного на реализацию задач общественно-политического и социально-экономического развития страны [1].

Кроме того, в своем Послании Олий Мажлису в январе 2020 года Президент Узбекистана подчеркнул важность и необходимость открытия доступа частному сектору в ранее «закрытые» монопольные отрасли на основе изучения международного опыта с целью создания благоприятных условий для формирования здоровой конкурентной среды.

В соответствии с действующим законодательством (Закон Республики Узбекистан «О государственно-частном партнерстве» от 10.05.2019 г. № ЗРУ-537) государственно-частное партнерство - это юридически оформленное на определенный срок сотрудничество государственного партнера и частного партнера, основанное на объединении их ресурсов для реализации проекта государственно-частного партнерства [2]. При этом государство предоставляет свои ресурсы для проекта ГЧП.

Если условиями договора ГЧП предусмотрено поэтапное приобретение и передача государственного актива частному партнеру, то это также является одним из эффективных способов управления государственным имуществом, направленным на приватизацию с эффективной передачей государственной собственности частному владельцу.

В мировой экономике государственно-частное партнерство в настоящее время признано одним из наиболее эффективных способов управления имуществом и обеспечения сотрудничества государственного и частного секторов. По данным Всемирного банка, в 2023 году только для развития образования в 44 странах мира было заключено 154 договора ГЧП на общую сумму 36 миллиардов 432 миллиона долларов.

В мире государственно-частное партнерство применяется уже несколько десятилетий и постоянно совершенствуется.

В Великобритании ежегодно подписывается до 80 новых соглашений. По данным британского правительства, такие проекты обеспечивают 17-процентную экономию для бюджета страны [3].

Среди европейских стран по количеству сделок ГЧП, несомненно, лидирует Великобритания. На её экономику приходится 49,9% всех сделок. Доля Великобритании в общей стоимости сделок в рамках государственно-частного партнерства составляет 37,3%. По общей стоимости сделок ГЧП следующее место занимает Италия - 25,95%, однако по количеству сделок Италия уступает Испании, Франции и Нидерландам. На третьем месте находится Турция, где стоимость сделок в рамках ГЧП в общем объеме составила 12,4%. По объему и количеству заключенных контрактов рынок Великобритании превосходит все остальные рынки Европы: общая стоимость сделок там достигла 3 300 000 000 евро [4].

Анализ, основанный на опыте зарубежных стран, показывает, что практический опыт, накопленный за годы реализации проектов на основе механизмов ГЧП, имеет высокую ценность для его более эффективного применения. Этот опыт способствует повышению бюджетной эффективности, особенно в странах с развивающимся рынком, в том числе в Узбекистане.

В последние годы в Республике Узбекистан большое внимание уделяется развитию передачи государственного имущества в управление на основе государственно-частного партнерства (ГЧП).

В 2024 году были подписаны соглашения по 129 проектам государственно-частного партнерства на сумму 8,9 млрд долларов США с местными и иностранными инвесторами в различных секторах экономики [5].

Сформирован и утвержден перечень крупных инфраструктурных проектов, которые будут реализованы на основе принципов государственно-частного партнерства до 2030 года. На сегодняшний день начата работа по 39 из 63 проектов.

Общая стоимость малых проектов в регионах в рамках всех проектов государственно-частного партнерства, подписанных в 2024 году, составила 33 миллиона долларов США.

Значительные изменения произошли и в направлении институционального развития сферы. В частности, создан проектный офис "Центр проектов государственно-частного партнерства," который будет содействовать реализации проектов ГЧП на сумму 30 млрд долларов до 2030 года. Разработаны меры по переподготовке и повышению квалификации специалистов в сфере ГЧП.

В течение года в рамках презентаций (road show), проведенных в Южной Корее, Турции и странах Персидского залива, потенциальные иностранные инвесторы были ознакомлены с перспективными проектами ГЧП.

Вместе с тем, в рамках ежегодных встреч Группы Всемирного банка и Международного валютного фонда (МВФ) состоялся обмен мнениями с представителями Всемирного банка по проектам, реализуемым на основе программ государственно-частного партнерства.

В целях дальнейшего совершенствования всех этапов реализации проектов ГЧП, а также ведения и мониторинга реестра проектов будет запущена электронная платформа проектов ГЧП. Для совершенствования механизма передачи государственного имущества в управление на основе государственно-частного партнерства (ГЧП) и широкого вовлечения предпринимателей в этот процесс целесообразно осуществить следующее:

1. Необходимо усилить принципы прозрачности и подотчетности при реализации процедур передачи государственного имущества;

2. Обеспечить объективную, профессиональную и независимую оценку передаваемого государственного имущества;

3. Сформировать систему комплексной антикоррупционной поддержки процессов реализации проектов государственно-частного партнерства;

4. Сформировать устойчивую систему профессионального развития и институционального укрепления кадрового потенциала государственных органов в сфере ГЧП.

Исходя из вышеизложенного, можно сделать вывод, что государственно-частное партнерство - это взаимовыгодные отношения государства с частным сектором в рамках действующего законодательства, основанные на распределении различных экономических, политических, социальных, культурных и других рисков и угроз, исходя из долгосрочных стратегических задач и целей государства, для строительства социально-экономически и, при необходимости, политически значимых объектов для населения или предоставления соответствующих социальных услуг.

Список использованной литературы:

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 07.02.2017 г. № УП-4947 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан».

2. Закон Республики Узбекистан от 10.05.2019 г. № ЗРУ-537 «О государственно-частном партнерстве».

3. Антошкиева Т.М. TERRA ECONOMICUS 2013 Том 11 № 3 Часть 3.

4. Антошкиева Т.М. TERRA ECONOMICUS 2013 Том 11 № 3 Часть 3.

5. Подготовлено на основе данных Министерства экономики и финансов Республики Узбекистан [Электронный ресурс]. URL: https://www.imv.uz/oz/news/category/yangiliklar/2024yilda-davlatxususiy-sheriklik-sohasida-amalga-oshirilgan-ishlar-va-erishilgan-natijalar-hamda-2025yilgi-rejalar-togrisida-malumot..

DAVLAT AKTIVLARNING HISOBINI YURITISH TIZIMIDAGI BA’ZI MUAMMOLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH BO‘YICHA TAKLIFLAR

B.Sh.Usmanov
kichik ilmiy xodim O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Xususiylashtirish va davlat aktivlarini boshqarish muammolarini tadqiq etish markazi G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent filiali, raqamli biznes/iqtisodiyot yo‘nalishi 2-kurs magistranti (97) 739-66-60; e-mail: taxn_1993@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda davlat aktivlarini hisobga olish tizimida mavjud bo‘lgan ayrim tizimli muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish va hisobini yuritish jarayonlarini takomillashtirish bo‘yicha amaliy takliflar ilgari surilgan. Bundan tashqari, davlat mulkini samarali boshqarish va hisobga olish tizimini zamonaviy talablar asosida qayta tashkil etish, raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan hisobot tizimlarini joriy etish, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, shuningdek, mas’ul idoralar o‘rtasidagi axborot almashinuvini yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar bayon etilgan.

Аннотация. В статье анализируются некоторые системные проблемы, существующие в системе учета государственных активов в Узбекистане, и выдвигаются практические предложения по их устранению и совершенствованию процессов учета. Кроме того, представлены рекомендации по реорганизации системы эффективного управления и учета государственного имущества на основе современных требований, внедрению цифровых технологий и автоматизированных систем отчетности, совершенствованию нормативно-правовой базы, а также улучшению обмена информацией между ответственными ведомствами.

Abstract. The article analyzes certain systemic issues present in Uzbekistan's state asset accounting system and proposes practical solutions for addressing these problems and improving accounting processes. Furthermore, it offers recommendations on reorganizing the system of effective management and accounting of state property in line with modern requirements, implementing digital technologies and automated reporting systems, enhancing the regulatory framework, as well as improving information exchange between responsible agencies.

Kalit so‘zlar: davlat aktivlari, hisobini yuritish, tizim, tahlil, takomillashtirish, optimallashtirish, takliflar, modernizatsiyalash.

Ключевые слова: государственные активы, ведение учета, система, анализ, совершенствование, оптимизация, предложения, модернизация.

Key words: state assets, accounting, system, analysis, improvement, optimization, proposals, modernization.

Davlat aktivlari har qanday mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Ular davlatning ajralmas qismi, xo‘jalik munosabatlari tizimidagi tayanch bo‘g‘ini hisoblanadi. Ular noyob xususiyatlarga ega bo‘lib, bular yordamida jamiyatning asosiy ehtiyojlari deyarli cheksiz qondiriladi va iqtisodiyot milliy iqtisodiy manfaatlarga mos ravishda faoliyat yuritadi. Aynan ular orqali murakkab makroiqtisodiy muammolar hal etiladi, yirik investitsiya dasturlari amalga oshiriladi, milliy kapitalni uzluksiz takror ishlab chiqarish jarayoni uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

Davlat mulkini nazorat qilishning asosiy elementlaridan biri davlat aktivlarini hisobini yuritish mexanizmi hisoblanadi, chunki ushbu mexanizm orqali davlat aktivlari bilan ishlash jarayonlari va yakuniy ko‘rsatkichlariga qo‘yiladigan yangilangan me’yoriy talablar asosida boshqaruv qarorlari natijalarini nazorat qilish va kuzatib borishni samarali amalga oshirishni ta’minlaydi. Shu nuqtayi nazardan, davlat aktivlari hisobini yuritish tizimini tahlil qilish va uni takomillashtirish yo‘llarini o‘rganish muhim amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb tadqiqot yo‘nalishi hisoblanadi.

Mulkni hisobga olish tartibini takomillashtirish boshqaruv qarorlarini qabul qilish, mintaqaviy, munitsipal iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni rejalashtirish uchun u haqidagi ma’lumotlarning dolzarbligi va ishonchliligini oshiradi. Xo‘jalik muomalasiga jalb etilgan yoki jalb etishga tayyorlanayotgan mol-mulk to‘g‘risidagi ma’lumotlarning ochiqligini ta’minlash potensial xaridorlar va ijarachilarning unga bo‘lgan qiziqishini rag‘batlantiradi va pirovard natijada hududlarning investitsion jozibadorligini oshiradi.

“Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida”gi Qonunning 48-moddasida [1] davlat mulki reestri yagona markazlashtirilgan elektron axborot ma’lumotlar bazasi shaklida yuritilishi, davlat mulki reestrini shakllantirishda Davaktiv agentligi tegishli tashkilotlarning davlat mulki to‘g‘risidagi dastlabki ma’lumotlaridan foydalanishi belgilangan.

Davlat aktivlarini hisobga olish holatini tahlil qilishda quyidagi muammolarni aniqlashga hamda ularni hal etish bo‘yicha takliflarni shakllantirishga imkon berdi:

1. Davlat mulkini ro‘yxatga oluvchi tashkilotlardan birlamchi ma’lumotlar olinganda, ular to‘g‘risida ma’lumotlar qonunchilikka muvofiqlashtirilmagan yoki yangilanmagan holatlar mavjud. Xususan:

- yuqori turuvchi organning nomi noto‘g‘ri yozilgani yoki isloh kilingandan so‘ng eski nomi qolib ketganligi;
- davlat muassasalarning yuqori turuvchisi nodavlat tashkilotlari hisoblanganligi;
- davlat muassasalarning tarkibida nodavlat notijorat tashkilotlari mavjudligi;
- davlat tashkilotining STIRi qo‘yilmaganligi;
- barcha davlat ko‘chmas mulk obyektlariga Kadastr hujjatlari to‘liq qilinmaganligi;
- davlat ko‘chmas mulk obyektlarining boshqa tashkilotlarga o‘tganda uning Kadastr organlarida qayta ro‘yxatdan o‘tkazilmasligi.

Natijada ro‘yxatga oluvchi tegishli davlat organlarida noto‘g‘ri ma’lumotlar shakllanishi va bu ma’lumotlar Davaktiv agentligiga taqdim etilishi holatlari kuzatilmoqda.

Shu bilan birga davlat mulki bo‘yicha dastlabki ma’lumotlarni taqdim etuvchi organlarning ma’lumotlarida kamchilik va tafovutlar mavjudligi sababli, davlat mulki reestri to‘liq shakllanmaydi.

Taklif:

– davlat aktivlarini hisobini yuritish tizimida integratsiyalashtirish tizimini faollashtirish, ya’ni bugungi kunda ma’lumot beruvchi tashkilotlar, Davlat soliq qo‘mitasi (1 mlndan ortiq yuridik shaxslar ro‘yxati), Milliy statistika agentligi (700-800 mingta yuridik shaxslar ro‘yxati) va Adliya vazirligi (1 mln atrofida yuridik shaxslar ro‘yxati) o‘zaro kelishilgan holda hisobotlarni tizimlashtirilgan holda Davaktiv agentligiga taqdim qilishlari kerak;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 8-maydagi “Davlat mulki obyektlarining hisobini yuritish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 273-son Qarori [2] bilan tasdiqlangan “Davlat mulki obyektlari hisobini yuritish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablari asosida ishlarni bir me’yorda tashkillashtirish lozim.

2. Davlat mulki reestrini yuritishda yagona markazlashtirilgan elektron axborot tizimi to‘liq raqamlashtirilmagan:

– davlat mulki bo‘yicha dastlabki ma’lumotlarni taqdim etuvchi idoralarning ma’lumotlari real vaqt rejimida Davlat aktivlari agentligiga taqdim etilmaydi, ya’ni hisobot beruvchi tashkilotlar tomonidan ma’lumotlarni onlayn tizimda taqdim etilmaydi va shu sababli kunlik ma’lumotlarni yangilab borish imkoni mavjud emas;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi PQ-101-son Qarori [3] 1-bandida “Davlat mulki” axborot tizimiga integratsiya qilinadigan vazirlik va idoralarning axborot tizimlari ro‘yxati 5-ilovaga muvofiq tasdiqlangan, lekin bugungi kunda idoralararo integratsiya ishlari to‘liq shakllanmagan;

Buning natijasida, davlat mulki obyektlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni “Internet” tarmog‘ida keng ommaga oshkor etilmasligiga olib kelinmoqda.

Taklif: Davlat mulklarini hisobga olish va reestrini yuritish, ular to‘g‘risidagi ma’lumotlarni “Internet” tarmog‘ida to‘liq joylashtirish lozim.

Bunday takliflar berishdan asosiy maqsad, ijro etuvchi hokimiyat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining mulkiy munosabatlar sohasidagi, shu jumladan kichik va o‘rta biznes subyektlarini mulkiy qo‘llab-quvvatlash sohasidagi faoliyatini takomillashtirish uchun imkoniyat yaratadi.

Shuningdek, xorijiy tajribalardan kelib chiqqan holda davlat aktivlarini hisobga olish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha ravishda yana quyidagilar taklif qilinadi:

1. Ro‘yxatga oluvchi davlat organlarida davlat mulkiga tegishli ma’lumotlarni qonunchilik hujjatlariga moslashtirish va ular to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tegishli barcha davlat organlaridagi ma’lumotlar bilan birxillashtirish;

2. Respublika va munitsipal mulk reestrlarini elektron shaklda to‘liq yuritish;

3. Davlat mulkini bir xil hisobini yuritishda normativ-huquqiy hujjatlarga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;

4. Davlat (munitsipal) mulkini hisobini va reestrini yuritishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatda faqat reestrda hisobga olingan mol-mulkka nisbatan bitimlar tuzish yoki ma’qullash imkoniyatini belgilash;

5. O‘zbekiston Respublikasi hududida davlat ko‘chmas mulkni (shu jumladan yer uchastkalarini), ko‘char mulkni hisobga olish va reestrdagi ma’lumotlarni yangilash bo‘yicha yagona talablarni qo‘llash;

6. Ko‘chmas mulk obyektining cheklovlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ko‘chmas mulk obyektining reestrda hisobga olingan har bir qismi bo‘yicha alohida kiritish;

Mazkur taklif etilayotgan chora-tadbirlar respublikaning amaldagi qonunchiligi qoidalarini va har bir mintaqada hamda uning hududida joylashgan munitsipal tuzilmalarning moliya, kadrlar va boshqa resurslarini rejalashtirishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, davlat aktivlarini hisobga olish va boshqarish jarayonlarining tizimli va muvofiq holda olib borilishini ta’minlaydi. Takliflar mahalliy darajada qarorlar qabul qilishda aniqlik va shaffoflikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish, aktivlar samaradorligini baholash va monitoring qilish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Natijada, davlat va mahalliy boshqaruv organlari o‘rtasida hamkorlik kuchayadi, boshqaruv sifati oshadi va fuqarolarning ishonchi mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 9-martdagi “Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida”gi 821-son Qonuni https://lex.uz/docs/6401697.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 8-maydagi “Davlat mulki obyektlarining hisobini yuritish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 273-son Qarori https://lex.uz/uz/docs/4807558.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi PQ–101-son Qarori https://lex.uz/uz/docs/6417153.

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA DISKURSNING O‘RGANILISHI

A.N.Azimov
Anidjon davlat universiteti Mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikda diskurs tushunchasining o‘rganilishiga oid nazariy va metodologik yondashuvlar tahlil qilindi. Diskursga berilgan turli ta’riflar, uning lingvistik, pragmatik, kognitiv va sotsiokommunikativ jihatlari hamda nutqiy faoliyatni tadqiq etishdagi ahamiyatini

yoritish hamda tilshunos olimlarning diskurs haqidagi ilmiy qarashlari solishtirilib, ushbu tushunchaning zamonaviy tilshunoslikdagi tadqiqot obyekti sifatida shakllanish bosqichlarini ko‘rsatib berishga harakat qilindi. Maqolada diskursni o‘rganishning asosiy paradigmalari va uning turlarga ajratilishidagi yondashuvlar tahlil qilinib, zamonaviy nutqiy muloqotni chuqurroq anglashdagi nazariy ahamiyati yoritib berildi.

Kalit so‘zlar: diskurs, zamonaviy tilshunoslik, nutqiy muloqot, pragmatika, kognitiv lingvistika, sotsiokommunikativ yondashuv, nutqiy faoliyat, diskursiv tahlil, lingvistik paradigma.

Аннотация: В данной статье проанализированы теоретические и методологические подходы к изучению понятия дискурса в современном языкознании. Освещены различные определения дискурса, его лингвистические, прагматические, когнитивные и социокоммуникативные аспекты, а также значение дискурса в исследовании речевой деятельности. Сопоставлены научные взгляды лингвистов на дискурс и предпринята попытка показать этапы формирования этого понятия как объекта исследования в современном языкознании. В статье рассмотрены основные парадигмы изучения дискурса и подходы к его классификации, выявлена теоретическая значимость дискурса для более глубокого понимания современной речевой коммуникации.

Ключевые слова: дискурс, современное языкознание, речевая коммуникация, прагматика, когнитивная лингвистика, социокоммуникативный подход, речевая деятельность, дискурсивный анализ, лингвистическая парадигма.

Abstract: This article analyzes the theoretical and methodological approaches to the study of the concept of discourse in modern linguistics. Various definitions of discourse, its linguistic, pragmatic, cognitive, and sociocommunicative aspects, as well as its significance in the investigation of speech activity, are examined. The scientific views of linguists on discourse are compared, and an attempt is made to outline the stages of its formation as a research object in contemporary linguistics. The article also discusses the main paradigms of discourse studies and approaches to its classification, highlighting the theoretical importance of discourse for a deeper understanding of modern verbal communication.

Keywords: discourse, modern linguistics, speech communication, pragmatics, cognitive linguistics, sociocommunicative approach, speech activity, discourse analysis, linguistic paradigm.


Hozirgi zamonaviy tilshunoslikning yangi yo‘nalishlari hisoblangan pragmatik va kognitiv tilshunoslikning tadqiqot va tahlil jarayonida diskurs masalasi eng dolzarb va hali to‘liq yakuniga yetmagan mavzu hisoblanadi. Jahon miqiyosida ko‘plab tilshunos olimlar diskursni tahlil qilishga turli jihatdan yondashganlar, ammo mazkur yo‘nalishda ko‘plab tadqiqot va izlanishlar olib borilganiga qaramay, hozirgi vaqtga qadar diskursning aniq ta’rifi to‘la shakllantirilmagan. Tilshunoslik ensiklopedik lug‘atida diskurs so‘ziga quyidagicha ta’rif berilgan: (fr. “discours” - nutq) – bog‘langan matn bo‘lib, u ekstorlingisvistik omillar bilan birga namoyon bo‘lib, maqsadga yo‘naltirilgan, voqelik doirasida qaralgan matndir. Rus tilishunos olimlaridan T.Vasilyevnaning “Tilshunoslik atamalari lug‘ati”da ham mazkur so‘zga quyidagicha ta’rif berilgan: (fr. discours – nutq, mulohaza yuritish) – har qanday kommunikativ maqsadga yo‘nalitirilgan yozma ifoda, matn deb ta’riflangan. [6. 2005: B.72]. Keltirib o‘tilgan ikki ta’rifda diskursning matnga aloqadorligi, uning kommunikatsiya jarayonida muhim o‘rin tutishini anglashimiz mumkin. Globallashuv jarayonida kommunikatsiya makonining yanada kengayib borishi diskursning ham yangi turlarini paydo bo‘lishiga va bu sohasigi tadqiqotlarning jadallik bilan rivojlanib borishini taqazo qilmoqda. Hozirgi vaqtda tilshunoslik ilmida *“diskurs”* tushunchasining ma’nosini aniqlash sezilarli darajada murakkablik tug‘dirmoqda. Bunga sabab sifatida tilshunos olimlar diskursning – *tilshunoslik, adabiyotshunoslik, etnografiya, sotsiologiya, falsafa, psixologiya* kabi bir qator sohalar tutashgan nuqtada shakllanganligini e’tirof etmoqdalar.

Diskurs tushunchasi dastlab tilshunoslik doirasida paydo bo‘lgan. Mazkur sohada birinchilardan bo‘lib fransuz tilshunos olimi E.Benvenist fransuz tilshunosligida *“discours”* so‘zini – individga xos nutq, ya’ni gapiruvchi shaxsning nuqtayi nazaridan qaralgan nutqi deya ta’rif bergan. [1.1974: B. 164]. Diskurs haqidagi ta’limotlarning vujudga kelishi tilshunoslik fanida yangi bosqichni boshlab berishga xizmat qildi hamda diskursning lingvistik tavsifini ishlab chiqish va uni amaliyotga tadbiq etishni dolzarb mavzuga aylantirdi. Amerikalik mashhur tilshunoslardan biri Z.Harrisning izohiga ko‘ra diskurs – bu gaplar zanjiri hamda uzluksiz bayonotdir. [10. 1952: B.16.]. Olimning firkiga ko‘ra diskriptiv tilshunoslik tomonidan taklif etilgan gaplarni tahlil qilish metodlarini diskursga nisbatan ham tadbiq etish mumkin. Olim 1950-yilda “Discourse analysis” (diskurs tahlili) nomli maqolasida diskursni tahlil qilish metodlarini taklif etgan.

Mazkur tadqiqot usulida olim madaniyat va til orasida munosabatlarni ochib berishga harakat qilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Tilshunoslikda diskurs odatda *matn, kommunikatiuv vaziyat, monolog, dialog, nutq, nutqiy faoliyat* kabi bir qator tushunchalar bilan ifodalanadi. Mazkur tushunchalar bir tomondan diskursning qaysi turdagi hodisalarga aloqador ekanligini tushuntirishga xizmat qilsa, masalaning ikkinchi tomoni bu tushunchalarning bir biriga identik (o‘xshash) ekanligi haqida noto‘g‘ri xulosa chiqarishga ham sabab bo‘lishi mumkin. Ishimiz avvalida, tilshunoslik ilmida diskurs yuzasidan ko‘plab tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lsada, lekin uning aniq, hamma uchun tushunarli bo‘lgan izohi yakunlamagan deb aytib o‘tdik. Buning asosiy sababi tadqiqotchilar tomonidan diskursni o‘rganish jarayoni turli yondashuvlar asosida olib borilganligi bilan belgilanadi. Mazkur yondashuvlarda diskurs tushunchasini aniqlashtiirsh va unga yaqin bo‘lgan tushunchalarni farqlash, unga oid yondashuvlarni aniqlash *(“diskurs – matn”* hamda *“dikurs – nutq”* munosabatini yoritishga doir ishlar) va uning asosiy belgilarini konkret belgilab olishdan iboratdir.

Tadqiqotchilar tomonidan diskursni izohlashga taklif etilgan ta’riflarni umumlashitirib quyidagi ikki asosiy yondashuv ajratiladi.



Diskurs tahliliga oid mazkur ikki yondashuvning yuzaga kelishida tadqiqotchi olimlar tomonidan diskursni bir tomondan komminikatsiya jarayonida faol qo‘llaniluvchi nutq va nutqiy faoliyat bilan bog‘langanligi bo‘lsa, ikkinchi tomondan uni strukturaviy jihatdan yaxlitlik asosida gaplar ketma ketligidan tuzilgan yakunlangan matn sifatida e’tirof etish nuqtayi nazaridan kelib chiqqan. Diskurs nazariyasi mustaqil tadqiqot sohasi sifatida o‘tgan asrning 60-yillariga kelib rivojlana boshladi. Bu davrda olimlar tomonidan diskurs tilning ajralmas bo‘lagi hisoblanib, uni matnlar asosida tadqiq qilish ishlarining natijadasi struktur-matniy yondashuv yuzaga keldi. V.G.Borbotko diskurs atamasini quyidagicha izohlagan: diskurs – bu matndir, ammo u tilning kommunikativ birligi hisoblangan gaplarning ma’no jihatdan uzviy yagona tuzilmaga birlashishi hamda doimiy ravishda semantik bog‘liqlik asosida yagona butunlik sifatida qabul qilish mumkin. [2. 1981: B. 112].Ko‘plab tadqiqotchilar qatorida I.Bellert ham diksurni bog‘langan matn deb hisoblaydi hamda unga unga intuitsiyaviy ta’rif beradi. “Diskurs – bu S1,..., Sn S_1, ..., S_n S1,..., Sn kabi gaplar izchilligi bo‘lib, mazkur qatorda har bir S_i gapning semantik talqiniga bog‘liq”. [3. 1978: B.172.]. Mazkur ta’rifda diskursdagi gaplarning talqini uchun undan oldingi konteks vaziyatini bilish zarurligini aglash qiyin emas. Bu yondashuvda diskurs mantiqiy-semantik nuqtayi nazardan ko‘rib o‘tiladi. So‘zlovchi tomonidan aytilayotgan har qanday bayonotning semantik talqini – shu bayonotning ifodalanishi natijasida kelib chiqadigan xulosalar majmui sifatida baholanadi.

I.N.Gorelov va K.F.Sedovlar ham diskursni tahlil qilishda uning real vaziyatdagi kommunikativ yo‘nalganligini ta’kidlab, uning til egalarining o‘zaro ijtimoiy-kummunikativ vaziyatidagi aloqasi sifatida qabul qilishni maqbul variant deb hisoblaydilar. Bu olimlar diskurs hodisasini quyidagicha izohlaydi: “Diskurs – bu jamiyatda insonlar tomonidan amalda bo‘lgan jonli nutqning bir bo‘lagi hamda uning barcha kognitiv va ijtimoiy-madaniy o‘ziga xos xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan nutqiy hodisadir”. [4. 2001: B. 304].

V.I.Karasik diskurni ta’riflashda sotsiolingvistik nuqtayi nazardan borib, quyidagi fikrlarni ta’kidlaydi: “Diskurs – bu jamiyatdagi insonlar orasidagi muloqot shakli bo‘lib, unga insonlar mansub bo‘lgan ijtimoiy guruh, yoki muayyan nutqiy xatti-harakat vaziyati nuqtayi nazaridan qaraladi”. [7. 2004: B.390.]. Olimning sotsiolingvistik tadqiqotlari yakunida diskurs faol qo‘llanuvchu siyosiy, ma’muriy, huquqiy, harbiy, diniy, tibbiy, sport, reklama, ilmiy, ommaviy axborot diskursi kabi bir qancha turlarni misol tariqasida keltirib o‘tgan. Zamonaviy diskurs nazariyasiga oid tadqiqotlarda bu hodisani tushunishga oid keng va tor yondashuvlar ham uchrab turishini qayd etishimi joiz. Amsterdam universiteti professori, diskurs tahliliga bag‘ishlangan 32ta kitob va 200dan ortiq maqolalar muallifi hisoblangan T.A.van Deyk diskursni keng va tor ma’nolar orqali tahlil qilib izohlashga harakat qilgan. Olimning qayd etishicha “keng ma’noda diskurs – nutq ishtirokchilari bo‘lgan so‘zlovchi va tinglovchi orasida muayyan makon va zamonda kechadigan kommunikativ hodisadir. Bu jarayon og‘zaki, yozma, verbal va noverbal holatda

kuzatilishi mumkin. Masalan, jamiyatda do‘stlar orasidagi samimiy suhbat, shifokor va bemorning muloqoti, gazeta, kitob o‘qish va boshqalar. Tor ma’noda esa, faqat verbal komponentlar – “matn” yoki “dialog” (suhbat) nazarda tutiladi. Bu holda diskurs tushunchasi kommunkativ harakatning yakunlangan yoki davom etayotgan mahsuli sifatida talqin qilinadi”. [5. 1989: B.310.]. T.A.van Deyk diskursni kommunikativ hodisa yoki kommunikativ akt sifatida izohlash kerakligini ta’kidlab, diskurs tahlili doirasiga pragmatik kontekst tushunchasini olib kiradi. Bu orqali esa diskursni tahlil qilish jarayonida jonli nutqning ma’nosini anglash uchun zarur bo‘lgan elementlarini aniqlashtirish oson bo‘ladi.

Yuqorida diskurs atamasining izohlashga qaratilgan ikki yondashuv vakillarining mazkur atama xususida bildirib o‘tgan nazariy fikrlarini ko‘rib o‘tdik. Strukturaviy-matniy yondashuv asosida tadqiqot olib borgan olimlarning nazariy fikrlari asosida *diskurs matn* sifatida talqin etiladi. Uning lingivistik tuzulishi, matn tarkibida ishitirok etuvchi birliklarning qanday bog‘langanligi, tema-rema munosabati, matnga xos bo‘lgan birliklar orqali tahlil qilinishi anglashiladi. Mazkur yo‘nalishning asosiy g‘oyasi sifatida diskurs bu oddiy so‘zlashuv emas, u mazmun asosida yaxlitlagan matndir hamda uni tahlil qilish uchun, avvalo, matn tarkibidagi strukturaviy aloqalar tizimini aniqlashni ko‘rsatishimiz mumkin. Bundan tashqari matn tarkibidagi gaplar (sodda va qo‘shma gaplar) va ularning o‘zaro aloqasi munosabati (sintagmatik va ierarxik munosabatlar), matnning tarkibiy tuzilishi (kirish, asosiy qism, xulosa), matn tarkibida til birliklarining qanday vazifa bajarayotganligi (olmoshlar, fe’llarning shaxs-son, zamon kategoriyalari va ularningfunksional vazifasi kabilar), matnda mazmuniy izchillik masalasi (har bir jumla mantiqiy oqimda shakllanishi va ular bir-birini to‘ldirish masalasi), matnning mavzuviy jihatdan shakllanishi (mavzuning yoritilish darajasi, firkning nima haqida ekanligi, yangi informatsiyaning shakllanishi kabilar) bularning hammasi matnning kompozitsion tuzilish modeli hisoblanib, aynan shu masalalar strukturaviy-matniy yondashuv asosda taqdiq qilinib matnni diskursga tenglashtirishda asosiy jihat sifatida qaralgan. Zero, rus tilshunos olimi, Yu.S.Stepanovning quyidagi fikri: “diskurs bu til ichidagi tildir, ammo u tilning lug‘atida, grammatikasida emas, matnlarda mavjud bo‘la oladi. Shu bilan birga bu matnlar o‘ziga xos leksika, semantika va grammatikasi ega bo‘lishi zarur”. [9. 1998: B. 443]. Yana bir rus tilshunos olimi Yu. E. Proxorov olimning fikrlarini umumlashtirib, bir tomondan “diskurs – bu matn (matning tarkibiy qismi) matn esa diskursdir (diskursning tarkibiy qismi), ikkinchi tomondan esa diskurs – bu yaxlit asar” deb ta’rif bergan. [8. 2006: B. 27-28]. Strukturaviy-matniy yondashuv asosida diskurni matnning ichki tuzuvchi elemantlari orasidagi aloqalarini tahlilga tortish orqali uni lingivistik tahlilga yaqinlashtirib, *sintaktik, semantik, pragmatik* aloqalarning ko‘rsatib berishga xoslaydi.

Yuqorida tilshunoslik ilmida tadqiqot ishlari olib borgan olimlarning nazariy firklarini o‘rganib, diskurs masalasida quyidagi xulosalarni anglashmiz mumkin. Bizning fikrimizcha diskurs – bu oddiy matn yoki gaplar yig‘indisi emas. U til yordami yuzaga keladigan va aniq ma’no, ijtimoiy holat, kontekst bilan bog‘langan kommunikativ hodisa bo‘lib, muloqot jarayoni ishtirokchilarining maqsadlari, ijtimoy rolini inobatga olgan holda shaxslarning psixologiyasini aks ettirish imkoniga ega. Diskursning tabiatiga kognitivik belgisi ham xos bo‘lib, u o‘zida ma’lum bilimlarni uzatish va yangi bilimlarni yarata olish xususiyati mavjud ekanligi yaqqol ko‘rinadi. Semantik va grammatiik jihatdan o‘zaro bog‘langan ifodalar ketma-ketligi diskursni shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur ketma-ketlik nutqiy faoliyat ta’sirda turli ekstralingvistik omillar ta’sirida yangi mazmun kashf qiladi. Gap bu doimo til birligi hisoblanadi. Matn esa grammatik va mazmun ketma-ketligida bir nechta gaplardan tashkil topgan sintaktik butunlik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Бенвенист Э. Общая линвистика – М.: Прогресс, 1974. – 446 с.
2. Борботько В. Г. Элементы теории дискурса. – Грозный: Изд-во Чечено-Ингуш. гос. ун-та, 1981. – 112 с.
3. Беллерт И. Об одном условии связности текста // Новое в зарубежной лингвистике, вып. VIII. Лингвистика текста. – М., Прогресс, 1978. – С. 172–207.
4. Горелов И. Н., Седов К. Ф. Основы психолингвистики. – М.: Лабиринт, 2001. – С. 304.
5.Дейк Т. А. ван. Язык. Познание. Коммуникация. – М.: Прогресс, 1989. – 310 с.
6. Жеребило Татьяна Васильевна. Словарь лингвистических терминов. – Назран Издательство ООО Пилигрим. 2005 – С. 72.
7. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – М.: Гнозис, 2004. – 390 с
8. Прохоров Ю.Е. Действительность. Текст. Дискурс: Учеб. пособ. – 2-е изд., испр. – М., 2006. С. 178
9.Степанов Ю.С. Язык и метод. К современной философии языка. – М., 1998. С. 443
10. Harris Z. Discourse analysis. Reprints. “Papers on Formal Linguistics”. – The Hague, 1952. – P.214.

DINIY DISKURSNING MULOQOT SHAKLLARI SISTEMASIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

A.N.Azimov
Anidjon davlat universiteti Mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada diniy diskursning muloqot shakllari sistemasidagi o‘rni va ahamiyati ilmiy-lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilinib, diniy diskursning asosiy xususiyatlari, uning nutqiy janrlar tizimidagi mavqeyi, kommunikativ vazifalari hamda boshqa nutqiy shakllar bilan o‘zaro aloqadorligi ko‘rsatib berildi. Shuningdek, diniy diskursning axloqiy-ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishdagi roli, jamiyatdagi nutqiy madaniyatni rivojlantirishga qo‘shgan hissasi va muloqot jarayonida inson ongiga ta’sir etish imkoniyatlari tahlil qilindi. Maqolada diniy diskursni kommunikativ jarayonning muhim tarkibiy qismi sifatida chuqurroq anglashga va uning lingvistik, pragmatik hamda sotsiokommunikativ jihatlarini yoritib berishga harakat qilindi.

Kalit so‘zlar: diniy diskurs, muloqot shakllari, nutqiy janr, kommunikativ jarayon, diniy nutq, axloqiy-ma’naviy qadriyatlar, sotsiokommunikativ yondashuv, pragmatik tahlil.

Аннотация: В данной статье проанализированы место и значение религиозного дискурса в системе форм коммуникации с научно-лингвистической точки зрения. Освещены основные характеристики религиозного дискурса, его положение в системе речевых жанров, коммуникативные функции, а также взаимосвязь с другими формами речевой деятельности. Кроме того, рассматривается роль религиозного дискурса в формировании духовно-нравственных ценностей, его вклад в развитие речевой культуры общества и возможности воздействия на сознание человека в процессе коммуникации. В статье предпринята попытка более глубокого осмысления религиозного дискурса как важной составляющей коммуникативного процесса, а также раскрытия его лингвистических, прагматических и социокоммуникативных аспектов.

Ключевые слова: религиозный дискурс, формы коммуникации, речевой жанр, коммуникативный процесс, религиозная речь, духовно-нравственные ценности, социокоммуникативный подход, прагматический анализ.

Abstract: This article examines the place and significance of religious discourse within the system of communication forms from a scientific-linguistic perspective. It highlights the main characteristics of religious discourse, its position within the system of speech genres, its communicative functions, and its interrelation with other forms of verbal activity. Furthermore, the role of religious discourse in shaping moral and spiritual values, its contribution to the development of societal speech culture, and its potential influence on human consciousness during communication are analyzed. The article seeks to provide a deeper understanding of religious discourse as an essential component of the communicative process and to explore its linguistic, pragmatic, and sociocommunicative aspects.

Keywords: religious discourse, forms of communication, speech genre, communicative process, religious speech, moral and spiritual values, sociocommunicative approach, pragmatic analysis.

XX asr jahon tilshunosligining eng katta yutuqlaridan biri yangi antroposentrik nazariyaning vujudga kelishi bo‘ldi. Tilshunoslikda antroposentrik burilishning yuzaga kelishi strukturalizmning tilni tadqiq etishning “o‘zida va o‘zi uchun” tamoyilini chetga surib, asosiy e’tiborini shaxs omiliga qaratdi. Antoroposentik nazariyada tilga oid bo‘lgan tadqiqotlar markaziga til egasi bo‘lgan inson omilining qo‘yilishi tilshunoslikning kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, sotsiolingvistika, lingvokultrologiya, pragmalingvistika, sud lingvistikasi, teolingvistika kabi yangi sohalarda ko‘plab tadqiqotlar uchun keng imkoniyatlar ochib berganligininng guvohi bo‘lamiz. Mazkur yangi yo‘nalishlar orasida teolingvistika o‘zining *diniy uslub, diniy matnlar, diniy janrlar, diniy diskurs masalasi* kabi dolzarb bo‘lgan tadqiqot obyektlariga ega ekanligi bilan diqqatga sazovordir. Tilshunos olima N.Ismoilovaning e’tirof etishicha: “teolingvistikaning alohida yo‘nalish sifatida shakllanishi uning tavsifiy tadrijidagi bir qator tilshunos olimlarning turlicha nazariy qarashlari va turlicha amaliy izlanishlari bilan bog‘liq holdagi taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgani bilan izohlanadi. Zamonaviy tilshunoslikda qator jabhalarga doir turli masalalarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning ortishi diniy nutq (matn)ning atroflicha o‘rganilishiga, teolingvistikani turfa xil dinlarga oid ilmiy-falsafiy qarashlar bilan keng ko‘lam kasb etishiga sabab bo‘lmoqda”. [Nodira 2023: B.5.]. Tilshunoslik ilmida teolingvistika va uning nazariy tadqiqiga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Dastlab mazkur atama Devid Crystalning *“Tilshunoslik va fonetika lug‘ati”da* qayd etilgan bo‘lib, olim mazkur atamaga quyidagicha izoh bergan: “teolingvistika – til va diniy tafakkur va amaliyot

o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish vazifasini bajaradi”. [crystal. 2008: B.484.]. Teolingvistika yo‘nalishida keng va samarali tadqiqot ishlari olib borgan va haqli ravishda tilshunoslar tomonidan mazkur yo‘nalishning otasi deb e’tirof etiluvchi Jan-Per vann Noppen teolingvistika atamasiga quyidagicha ta’rif beradi: “Teolingvistika inson tomonidan aytilayotgan so‘zning Xudoga nisbatan qanday tartibda ishlatilishini hamda tilning diniy vaziyatlarda qanday vazifalarni bajarashini tasvirlab berishga xizmat qiladi”. [Jdanova. 2011: B.12-17]. 2008-yilda Ch.Lapich hamda A.K.Gadomskiylar muharrirligida nashrga tayyorlangan *“Teolingvistika bo‘yicha xrestomatiya”da* “nemis tilshunos olimi A.Wagner 1999-yilda Kassel shahrida bo‘lib o‘tgan lingvistik kollokviumda teolingvistikaga oid maqolasi bilan ishtirok etib, mazkur sohaning dolzabr ekanligini ta’kidlab, teolingvistika diniy mavzudagi bayonotlarni o‘rganish hamda ularni tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilishi, diniy marosimga oid suhbat matnlari tarkibidagi arxaik iboralar va ularning sintaktik tuzilishini o‘rganishni taklif qilganligi”ni qayd etib o‘tadilar. [lapich. 2008: B.7]. O‘tgan asarning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikda jadallik bilan rivojlanib borgan diskurs haqidagi nazariy qarashlar teolingvistika sohasini ham chetlab o‘tmadi. Tadqiqotchilar tomonidan diskursni tahlil qilishga doir kommunikativ-nutqiy yondashuv tahlili bevosita tilning jamiyatdagi faoliyatini keng tahlil qilish imkonini yarata boshladi. Rus olimi I.V. Karasik kommunikatsiya jarayonida nutqni (haqiqiy muloqot vaziyatidagi matnni) sotsiolingvistik jihatdan tahlil qilish jamiyatda shakllanib kelayotgan ta’lim, tibbiyot, armiya, sud-huquq tizimi, siyosat, tijorat, sport kabi institutlarni hisobga olishni talab qilishini aytib o‘tgan. [karasik 2002: B.302]. Darhaqiqat, mazkur institutlar doirasida amalda bo‘lgan muloqot jarayonini tashkil etish, uning ishtirokchilarining maqomi, roli, muloqot vaziyati, maqsadi bir biridan farq qilishi tabiiy holatdir. Olim diskursiv tahlilga sotsiolingvistik nuqtayi nazardan yondashib, jamiyatda faoliyat yuritayotgan ijtimoiy-madaniy institutlarni *siyosiy diskurs, pedagogik diskurs, diniy diskurs, tibbiy diskurs, reklama diskursi, harbiy diksurs* kabi institutsional jihatdan alohida o‘rganishni maqsadga muvofiq ekanligini ta’kidlaydi. Bizning fikrimizcha, til va din munosabatini o‘rganuvchi teolingvistik tadqiqotlar markazida diniy diskurs masalasini ham tahlil qilish dolzarb bo‘lgan sohalardan biridir.

I.I. Posovetsning tabiricha, diniy diskurs – insonlarning diniy dunyoqarashi, fikrlari va qadriyatlarini matn vositasida ko‘rsatib beruvchi vositadir”. [posovets. 2010: B. 443]. Yuqorida tilshunos olimlar tomonidan diniy diskursga berilgan ta’riflarning umumiy negizida insonning buyuk yartuvchi Allohga bo‘lgan ishonchi, e’tiqodi asosida diniy matnlar va qadriyatlar asosida shakllanuvchi kommunikativ hodisa haqida so‘z borayotganligi aniqlashadi. Demak, diniy diskurs – til va nutq vositasida shakllanadigan hamda ishonch, e’tiqod va muayyan diniy qadriyatlar tizimiga tayanuvchi, murakkab kommunikativ-madaniy hodisa bo‘lib, u diniy janrlarda ro‘yobga chiqadi. Diniy diskursning asosida jamiyatda a’zolari tomonidan e’tiqot qilinayotgan din, diniy dunyoqarash, diniy matnlar, diniy marosimlar, qadriyatlar turishi uni muloqot jarayonida boshqa institut diskurslaridan farqalanishiga asosiy sabab bo‘lib xizmat qiladi. Jamiyatda yuzaga kelayotgan har bir ijtimoiy institutning muloqot jarayoni ishtirokchilari yaqqol ko‘zga tashlanadigan bo‘lib, *tibbiy diskursda (shifokor – bemor), siyosiy diskursda (siyosatchi – xalq), pedagogik diskursda (o‘qituvchi – talaba), harbiy diskursda (general - askar)* bu ishirokchilarning muloqot jarayonidagi rollari aniq belgilangandir. Diniy diskursdagi muloqot jarayonida uning ishtirokchilari (ulamolar, imomlar, imom-xatiblar va e’tiqodli mo‘min insonlar) orasida yaratgan ulug‘ zot Alloh taalo doimo mavjud bo‘lib, uning borligi ishonch va e’tiqod orqali shakllandi. Yaratgan Alloh taaloga nisbatan iymon-e’tiqodning har vaqt inson qalbida bo‘lishi, hamda u bilan bevosita muloqotga kirishish diniy diskursning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Jamiyatda insonlar orasida yuzaga keladigan muloqot jarayonida diniy diskursning o‘ziga xos bo‘lgan vazifalari ham mavjud bo‘lib, rus tilshunosi Ye. V. Bobriyevani diniy diskursning vazifalari haqida fikr yuritib, uni umumiy va xususiy diskursiv funksiyalar sifatida tahlil o‘rganishni taklif qiladi. Umumiy funksiyalar qatorida diniy diskursning *reprezentativ, kommunikativ, apellyativ, ekspressiv va informatik funksiyalari* mavjudligini ta’kidlaydi. Bundan tashqari diniy diskursning o‘ziga xos bo‘lgan xususiy funksiyalari ham borki, ular jamiyat hayotini tartibga solish, jamiyat a‘zolari o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash (birodarlik, diniy bag‘rikenglik, diniy birdamlik), shaxsning ichki dunyosini tartibga solish (ruhiy poklanish, ma’naviy ulg‘ayish)ga xizmat qilishga xoslangan bo‘ladi. [bobriyeva. 2007: B.10]

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, diniy diskurs – bu insonning e’tiqodini mustahkamlash, ruhiy xotirjamlik, ma’naviy yetuklik sari yetaklovchi kommunikativ hodisa bo‘lib, ayni bir vaqtning o‘zida muloqot ishtirokchilari o‘rtasidagi munosbatlarni ham tartibga solishga xizmat qiluvchi vositadir. Uni tadqiq qilish zamonaviy tilshunoslikning sotsiolingvistika, madaniyatshunosilik, psixolingvistika, teolingvistika sohalari kesishgan nuqtada yuzaga keladi. Diniy diskursni ilmiy jihatdan o‘rganish orqali

tilshunoslikda til va dinning o‘zaro munosabatini kengroq planda tahlil qilish mumkin. Diniy diskursda til oddiy muloqot vositasi sifatida emas, balki yaratgan Alloh taalo tomonidan vahiy qilib yuborilgan muqaddas matnlarni yetkazuvchi vazifani bajaradi. Diniy diskursni belgilovchi eng muhim omillardan biri hisoblangan jamiyatda qaror topgan diniy qadriyatlarni tahlil qilish orqali insonlarning dunyoqarashi va diniy tafakkuri qay darajada ekanligini aniqlash imkoniyati yuzaga keladi. Jamiyat a’zolari ongida diniy tushunchlarning to‘g‘ri ma’noda aks etishga erishish hozirgi globallashuv zamonida millatlarning o‘zligiga, ma’naviyatiga putur yetkazishga qaratilgan turli xil radikal g‘oyalarga qarshi tura olish immunitetini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari sotsiologik va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan diniy diskurs ijtimoiy hayotdagi axloqiy normalar (halollik, kamtarinlik, oila muqaddasligi, ota-onani e’zozlash, mehnatsevarlik va boshq.), insonlarning xulq-atvorlari (insonni o‘zligini anglash, yaxshi xulqlar va fazilatlarni egallash), ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda ham muhim o‘rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Бобриева Е.В. Религиозный дискурс: ценности, жанры, стратегии (на материале православного вероучения): Автореф. дисс. … д-ра философ. наук. – Волгоград, 2007. – С.10
2. Жданова И.В. Семантико-структурная и функциональная специфика заглавий богословско-религиозного жанра // Молодой ученый, 2011. – № 3. – Т.2. – С.12-17.
3. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. Монография. – Волгоград: Перемена, 2002. – С. 302.
4. Посовец И.И. Религиозный дискурс и его характеристики. Белорусский государственный университет. 2019. – С. 443
5. Ч. Лапич, А. К. Гадомский. Хрестоматия теолингвистики. – Симферополь:Универсум, 2008. – С. 7.
6. Ismoilova N.U. Qur’oni karim tafsiridagi o‘xshatishlarning lingvistik xususiyatlari (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Tafsiri Hilol” asari misolida): Filol.fan.b.f.d. …diss. – Andijon, 2023. – B.5.
7.Crystal D. A. Dictionary of Linguistics and Phonetics.6thedition. –Oxford: Blackwell, 2008. – 484 p.

KICHIK BIZNESDA MAHSULOTLARNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ORQALI RIVOJLANTIRISH

F.R.Rustambekova
Namangan Davlat Texnika Universiteti Iqtisodiyot kafedrasi assistenti
feruzarustambekova3@gmail.com Orcid: 0009-0007-8165-1903

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik biznesni rivojlantirishda mahsulot diversifikatsiyasining o‘rni va ahamiyati keng yoritilgan. Diversifikatsiya biznes barqarorligini ta’minlash, raqobatbardoshlikni oshirish va daromad manbalarini kengaytirish vositasi sifatida tahlil qilinadi. Maqolada diversifikatsiyaning asosiy turlari, ularning afzalliklari, qo‘llash usullari va muvaffaqiyat omillari batafsil bayon etilgan. Shu bilan birga, real misollar asosida kichik biznes uchun samarali strategiyalar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Mahsulot diversifikatsiyasi, kichik biznes, raqobatbardoshlik, strategik rivojlanish, risklarni boshqarish

Аннотация: В данной статье подробно рассматривается роль и значение диверсификации продукции в развитии малого бизнеса. Диверсификация анализируется как инструмент обеспечения устойчивости бизнеса, повышения конкурентоспособности и расширения источников дохода. В статье подробно рассматриваются основные виды диверсификации, их преимущества, методы применения и факторы успеха. Кроме того, рассматриваются эффективные стратегии для малого бизнеса на основе реальных примеров.

Ключевые слова: малый бизнес, частное предпринимательство, экспорт, промышленность, самозанятость, сервис, рыночная инфраструктура.

Annotation: This article comprehensively explores the role and significance of product diversification in small business development. Diversification is analyzed as a tool to ensure business stability, enhance competitiveness, and expand revenue sources. The article provides a detailed examination

of the main types of diversification, their advantages, implementation methods, and success factors. Additionally, effective strategies for small businesses are discussed based on real-world examples.

Keywords: Product diversification, small business, competitiveness, strategic development, risk management

KIRISH. Bugungi globallashgan iqtisodiy muhitda kichik biznes subyektlari oldida doimiy ravishda yangi chaqiriqlar paydo bo‘lib turadi. Raqobatning kuchayishi, texnologik rivojlanish, iste’molchilarning ehtiyojlari va talablarining o‘zgarishi sababli tadbirkorlar yangi strategiyalar ishlab chiqishlari zarur. Shu nuqtayi nazardan, mahsulotlarni diversifikatsiya qilish biznesni rivojlantirish va barqarorlashtirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Mahsulot diversifikatsiyasi tadbirkorlarga biznes xavf-xatarlarini kamaytirish, bozorda mustahkam o‘rin egallash va yangi mijozlar segmentlarini jalb qilish imkonini beradi. Rivojlangan mamlakatlarda diversifikatsiya kichik biznesning asosiy rivojlanish yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, biznesning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlaydi.

Mahsulot diversifikatsiyasi kichik biznes egalariga bozorda mustahkam o‘rin egallash va mijozlar talabiga moslashish imkoniyatini beradi. Biroq, ushbu strategiyani amalga oshirishda talab va taklifni chuqur o‘rganish, raqobatbardoshlikni ta’minlash va resurslardan samarali foydalanish muhim hisoblanadi. Shu sababli, maqolada kichik biznesni mahsulot diversifikatsiyasi orqali rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar, muvaffaqiyatli tajribalar va samarali strategiyalar tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. Ushbu mavzuga oid adabiyotlar turli mahalliy va horijiy olimlar tomonidan turli amaliy ishlarni o`z ichiga oladi. Mahalliy olimlarimizdan I.Rustamov ushbu tadqiqot kichik biznesga sarmoya kiritishning mamlakatimiz hududiy rivojlanishiga ta'sirini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda kichik biznesning iqtisodiy o‘sishdagi o‘rni, hududiy iqtisodiyotdagi ahamiyati va sarmoya kiritishning samaradorligi tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor kichik biznes sub'ektlariga davlat tomonidan ko‘rsatiladigan qo‘llab-quvvatlash choralari, kredit va subsidiyalar, soliq imtiyozlari kabi omillarni o‘rganishga qaratiladi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, unda kichik biznesni rivojlantirish bo‘yicha samarali strategiyalar va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari hududiy siyosatni takomillashtirish, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash va tadbirkorlik muhitini yaxshilash uchun foydalaniladi. Shuningdek, tadqiqot hududiy investitsiya loyihalarini rejalashtirishda va amalga oshirishda yordam beradigan amaliy uslubiy ko‘rsatmalarni ham o‘z ichiga oladi. Mazkur tadqiqot kichik biznesga sarmoya kiritish orqali hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini jadallashtirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholining turmush darajasini oshirish imkoniyatlarini ko‘rsatib beradi. Shu bilan birga, mamlakatimizning barcha hududlarida kichik biznesning rivojlanishi uchun teng sharoitlar yaratish va investitsion muhitni yaxshilash bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi.

NATIJAVIY TAHLIL. Mamlakatimizda kichik biznesni rivojlantirish bo‘yicha to‘plangan tajribalar shuni ko‘rsatadiki, korxonalarning raqobatdoshlik darajasini oshirish ularning o‘z faoliyatlari davomida kengayib, yiriklashib borishini taqozo etadi. Lekin, kichik biznes sub’ektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash maqsadida belgilangan imtiyoz va yengiliklarga ega bo‘lish imkonini beruvchi korxonalarning miqdoriy chegaralari ayrim hollarda ushbu jarayonlarga to‘sqinlik qilishi mumkin. O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasining yuksalishi, kichik biznes sub’ektlari uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar natijasida iqtisodiy salohiyati ortgan ko‘plab korxonalar mazkur imtiyozlardan foydalanishni davom ettirish maqsadida o‘z xodimlari sonini belgilangan miqdoriy chegara doirasida saqlab qolishga harakat qilmoqdalar. Bu esa, ularning yiriklashish jarayoniga to‘sqinlik qilmoqda.O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes sub’ektlari rivojlanishi mustaqillikka erishilgan davrdan boshlab hozirgi kungacha ma’lum bosqichlarni bosib o’tdi. Salkam 30 yil davomida kichik biznes sub’ektlari rivojlanishi borasida bir qator me’yoriy hujjatlar, huquqiy asoslar yaratildi. Bu borada amalga oshirilgan ishlar negizida kichik biznes sub’ektlari rivojlanish bosqichlarini tasniflab chiqdik.

ASOSIY QISM. 2025-yil yakunlari bo`yicha tahlil qiladigan bo`lsak, Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari soni har 1000 aholiga nisbatan 8,3 birlikni tashkil etib,bu ko`rsatkich 2024- yilga nisbatan 1,3 birlikka nisbatan kamaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko`rsatkich Mingbuloq tumanida 11,6 birlik CHust tumanida 9,6 birlik , CHortoq tumanida 9,5 birlik , Namangan shahrida 9,0 birlik kuzatildi. Kichik biznes korhonalarida diversifikatsiya muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Mahsulot diversifikatsiyasining mohiyati va ahamiyati

Mahsulot diversifikatsiyasi – bu biznesning o‘z mahsulot va xizmatlarini kengaytirish orqali bozor talablariga moslashishi va yangi daromad manbalarini yaratish strategiyasidir. Kichik biznes uchun diversifikatsiya quyidagi asosiy foydalarni ta’minlaydi;

Risklarni kamaytirish – Agar kompaniya faqat bitta mahsulotga tayanadigan bo‘lsa, bozor o‘zgarishlari katta xavf tug‘diradi. Diversifikatsiya esa biznesning bir sohaga bog‘lanib qolmasligiga yordam beradi.

Mijozlar bazasini kengaytirish – Yangi mahsulot yoki xizmatlarni taqdim etish orqali korxona turli segmentlarga chiqishi mumkin.

Raqobatbardoshlikni oshirish – Yangi mahsulot yoki xizmatlar kompaniyani bozorda yanada kuchli raqobatchiga aylantiradi.

Bozor talablariga moslashuvchanlik – Iste’molchilarning ehtiyojlari o‘zgarishi mumkin, va diversifikatsiya biznesni moslashuvchan qiladi.

2. Diversifikatsiyaning asosiy turlari

Diversifikatsiya turli shakllarda bo‘lishi mumkin. Uning asosiy turlari quyidagilardir:

Gorizontal diversifikatsiya – Kompaniya o‘z faoliyatiga yaqin yangi mahsulot yoki xizmatlarni ishlab chiqaradi. Masalan, sut mahsulotlari ishlab chiqaruvchisi yogurt ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishi.

Vertikal diversifikatsiya – Ishlab chiqarish zanjirining boshqa bosqichlariga o‘tish. Masalan, meva sharbatlari ishlab chiqaruvchi kompaniya o‘z bog‘larida meva yetishtirishni boshlaydi.

Konglomerativ diversifikatsiya – Mutlaqo yangi sohalarga kirish. Masalan, kiyim-kechak ishlab chiqaruvchi kompaniya elektronika bozoriga kirishi.

3. Kichik biznes uchun diversifikatsiya strategiyalari

Diversifikatsiya biznes uchun foydali bo‘lishiga qaramay, u bilan bog‘liq qiyinchiliklar ham mavjud:

Diversifikatsiyaning asosiy afzalliklari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Bozor ulushini oshirish – Turli xil mahsulotlar ishlab chiqarish orqali har xil iste’molchi guruhlariga murojaat qilish.

2. Tavakkalchilikni kamaytirish – Faqat bitta mahsulotga qaram bo‘lmaslik, bozordagi o‘zgarishlarga moslashuvchanlikni oshirish.

3. Brend obro‘sini mustahkamlash – Yangi va sifatli mahsulotlar orqali iste’molchilar ishonchini qozonish.

4. Moliyaviy barqarorlik – Bir nechta daromad manbalari mavjudligi tufayli biznesning barqarorligini oshirish.javob berishini ta’minlash.

Biznes-reja: Sut va sut mahsulotlarini diversifikatsiya qilish.

1. Loyiha tavsifi:

Bu loyiha kichik biznes doirasida sut mahsulotlarini diversifikatsiya qilishga qaratilgan.

Asosiy maqsad – bozorda raqobatbardoshlikni oshirish, iste’molchilar talabiga mos yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish va daromad manbalarini kengaytirish.

Asosiy mahsulotlar:

1. Oddiy sut (paketlangan), qatiq,yogurt (tabiiy, mevali),pishloq (qattiq va yumshoq turlari),sariyog‘,krem,qaymoq,laktozasiz sut va mahsulotlar.

2. Bozor tahlili:

Maqsadli auditoriya: Sog‘lom turmush tarziga e’tibor beruvchi mijozlar, bolalar, keksalar, sportchilar va laktozaga sezgir iste’molchilar.

Raqobatchilar: Yirik sut ishlab chiqaruvchilar, mahalliy dehqon bozorlaridagi raqiblar.

Tendensiyalar: Organik va tabiiy sut mahsulotlariga talab ortib bormoqda.

3. Diversifikatsiya strategiyasi:

Mahsulot liniyasini kengaytirish: Yogurtning turli xil turlari (laktozasiz, tabiiy, mevali), premium pishloq va sariyog‘ ishlab chiqarish.

Brendni mustahkamlash: Yangi qadoqlash, ekologik toza mahsulotlar taqdim etish.

Marketing strategiyasi: Raqamli marketing, ijtimoiy tarmoqlarda targ‘ibot, supermarketlar bilan hamkorlik.

4. Moliyaviy tahlil:


Investitsiya talablari:

1.Uskunalar: $50,000,xomashyo (sut, meva, qo‘shimchalar): $10,000,marketing: $5,000,Ish haqi va kommunal xizmatlar: $15,000,Jami investitsiya: $80,000

Kutilayotgan daromad (yillik):
1. Sut mahsulotlarining umumiy sotuv hajmi: $200,000
2. Foyda: $50,000



1. Investitsiya taqsimoti – Uskunalar eng katta sarmoya talab qiluvchi qism (62.5%), undan keyin ish haqi va kommunal xizmatlar (18.75%), xomashyo (12.5%) va marketing (6.25%) keladi.



2. Yillik sotuv va foyda – Umumiy daromad $200,000, foyda esa $50,000 ni tashkil etadi.

XULOSA

Mahsulot diversifikatsiyasi kichik biznesni rivojlantirish va barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. U nafaqat daromad manbalarini ko‘paytiradi, balki biznesning bozor talablariga moslashuvchanligini ham oshiradi. Diversifikatsiyaning muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun tadbirkorlar bozor tadqiqotlariga asoslangan strategiyalarni ishlab chiqishi, innovatsiyalarni joriy qilishi va samarali boshqaruv tizimini shakllantirishi lozim.

Sut va sut mahsulotlarini diversifikatsiya qilish kichik biznesning barqaror rivojlanishi uchun muhim strategiyalardan biri hisoblanadi. Bozordagi raqobat kuchayib borayotgan hozirgi kunda iste’molchilarning ehtiyojlariga moslashish, mahsulot turlarini kengaytirish va sifatni oshirish korxonaning uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Ushbu loyiha orqali asosiy maqsad – nafaqat an’anaviy sut mahsulotlarini ishlab chiqarish, balki zamonaviy va talab yuqori bo‘lgan mahsulotlar, masalan, laktozasiz sut, tabiiy yogurtlar, qattiq va yumshoq pishloqlar kabi assortimentni kengaytirishdir.

Moliya tahliliga ko‘ra, ushbu loyiha amalga oshirilishi uchun taxminan $80,000 investitsiya talab qilinadi va yillik daromad $200,000 ga yetishi mumkin. Bu kichik biznes uchun yaxshi natija bo‘lib, diversifikatsiya strategiyasining samaradorligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kotler, F. (2003). "Marketing Management". Pearson Education. https://openlibrary.org/books/OL24213430M/Marketing_management?utm_source=chatgpt.com

2. Porter, M. (1985). "Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance". Free Press. https://resource.1st.ir/PortalImageDb/ScientificContent/182225f9-188a-4f24-ad2a-05b1d8944668/Competitive%20Advantage.pdf
3. Ulrich, D., & Smallwood, N. (2004). "Capitalizing on Capabilities". Harvard Business Review. https://hbr.org/2004/06/capitalizing-on-capabilities
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmonlari (2020-2023) – Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish strategiyalari. https://president.uz/uz/documents
5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi (2023). "Sut mahsulotlari bozorining rivojlanish tendensiyalari". https://stat.uz
6. FAO (BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti) (2022). "Global Dairy Market Trends"..

MAMLAKATNING STRATEGIK RIVOJLANISH DASTURLARINI ISHLAB CHIQISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH (XALQARO TAJRIBALAR ASOSIDA, TA’LIM SOHASI MISOLIDA)

M.B.Quronboyeva
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi
Ilmiy rahbar: J.J.**Qurbonov**
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti, Professor v.b., PhD.

Annotatsiya Ushbu tezisda mamlakatning strategik rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish metodologiyasini takomillashtirish masalasi xalqaro tajribalar asosida tahlil qilinadi. Xususan, ta’lim sohasi misolida strategik rejalashtirish, indikatorlar tizimi va monitoring mexanizmlari o‘rganiladi. AQSh, Finlandiya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlarning tajribalari tahlil qilinib, O‘zbekiston sharoitiga mos metodologik takliflar ishlab chiqiladi. Natijada, strategik rivojlanish dasturlarini samarali rejalashtirish va boshqarishga qaratilgan yangi yondashuvlar taklif etiladi.
Kalit so‘zlar: strategik rivojlanish, metodologiya, ta’lim sohasi, xalqaro tajriba, indikatorlar tizimi, monitoring, davlat dasturlari, rejalashtirish, innovatsion yondashuv.
Аннотация В данной работе рассматриваются вопросы совершенствования методологии разработки стратегических программ развития страны на основе международного опыта. В частности, анализируются системы стратегического планирования, индикаторов и мониторинга на примере сферы образования. Разработаны предложения, адаптированные для условий Узбекистана, на основе передового опыта США, Финляндии и Южной Кореи. Результаты направлены на создание методологической базы для эффективного управления и устойчивого развития системы образования.
Ключевые слова: стратегическое развитие, методология, сфера образования, международный опыт, мониторинг, система индикаторов.
Abstract This thesis explores the improvement of methodologies for developing national strategic development programs based on international experiences. It focuses on the education sector, examining strategic planning systems, indicator frameworks, and monitoring mechanisms. The study presents adapted methodological proposals for Uzbekistan, drawing from best practices in countries such as the USA, Finland, and South Korea. The outcomes contribute to the methodological foundation for effective governance and sustainable development in the education system.
Keywords: strategic development, methodology, education sector, international experience, monitoring, indicator system.

Bugungi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan sharoitda har bir davlat o‘zining strategik rivojlanish konsepsiyasini takomillashtirish zaruratiga duch kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi ham barcha sohalarda, ayniqsa, ta’lim tizimida strategik rivojlanishga asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqishga katta e’tibor qaratmoqda. Ushbu tezisda mamlakatning strategik rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish metodologiyasini xalqaro tajribalar asosida qayta ko‘rib chiqish zarurati asoslanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun strategik rivojlanish dasturlari — milliy siyosatning yuragi

hisoblanadi. Ayniqsa, ta’lim sohasi uchun bunday dasturlar nafaqat inson kapitalini rivojlantiradi, balki iqtisodiy o‘sishni ham ta’minlaydi.

Tadqiqot davomida AQSh, Janubiy Koreya va Finlandiyaning ta’lim sohasida qo‘llanilayotgan strategik rejalashtirish yondashuvlari tahlil qilindi. Ushbu davlatlarda strategik rejalashtirishda ilmiy asoslangan indikatorlar tizimi, monitoring va baholash mexanizmlarining aniq ishlashi, real natijadorlikni ta’minlayotgani kuzatildi. O‘zbekistonda mavjud dasturlar ko‘proq maqsadli yo‘nalishlarga ega bo‘lsa-da, ularning baholash tizimi va monitoring mexanizmlari sust ishlayotgani sezilmoqda.

Tezis doirasida O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun mos va milliy sharoitlarga moslashtirilgan strategik rejalashtirishning yangi usullarini ishlab chiqish zarurligi ta’kidlanadi. Mazkur usullar quyidagilarni o‘z ichiga olishi lozim: aniqlangan indikatorlar asosida monitoring tizimi, natijadorlikka asoslangan baholash usullari, tashqi va ichki omillarni hisobga olgan tahliliy metodologiya.

Xulosa qilib aytganda, strategik rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda xalqaro tajribalarni mahalliy sharoitlarga moslashtirish, mavjud metodologiyani takomillashtirish va milliy tizim uchun ilmiy asoslangan strategik yondashuvlarni joriy etish zarur. Bu esa O‘zbekistonda ta’lim sifatini oshirishga, zamonaviy kadrlar tayyorlashga va ta’lim tizimining global raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bryson, J.M. (2018). Strategic Planning for Public and Nonprofit Organizations. 5th ed. San Francisco: Jossey-Bass.

2. UNESCO. (2021). Strategic planning in education: Guidelines and tools. Paris: UNESCO Institute for Statistics.

3. Jalolov, J. (2019). Strategik rejalashtirish va uning O‘zbekistondagi amaliy tajribalari. “Iqtisodiyot va ta’lim” jurnali, 3(2), 45–52.

O‘ZBEK TILIDAGI MATNLAR KOREFERENSIYASINI NEYRON MODEL YORDAMIDA AVTOMATIK ANIQLASH

Sh.A.Abdisalomova
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda end-to-end yondashuv asosidagi neyron tarmoqlar yordamida o‘zbekcha matnlarda koreferensiyani avtomatik aniqlash masalasi tahlil qilinadi. Unda end-to-end arxitekturasining imkoniyatlari, ishlash prinsipi tavsiflangan, shuningdek, modelning asosiy komponentlari – spanlarni aniqlash va antesedentlar orasidagi ehtimolliklarni baholash mexanizmlari izchil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: koreferensiya, model, span, vektor, arxitektura, UzCoref, matn.

Аннотация. В данной тезисной работе анализируется проблема разрешения кореференции в узбекских текстах с использованием нейронных сетей на основе end-to-end подхода. Описываются возможности end-to-end архитектуры, принцип работы и последовательно рассматриваются основные компоненты модели – механизмы определения спанов и оценки кандидатов между антецедентами.

Ключевые слова: кореференция, модель, спан, вектор, архитектура, UzCoref, текст.


Annotation. This thesis analyzes the problem of coreference resolution in Uzbek texts using neural networks based on an end-to-end approach. It describes the capabilities and working principles of the end-to-end architecture, as well as provides a detailed explanation of the model’s main components – mechanisms for span detection and evaluating the probabilities between antecedents.

Keywords: coreference, model, span, vector, architecture, UzCoref, text.

Biror so‘z yoki ifodaning boshqa bir so‘z yoki ifodani nazarda tutishi koreferensiya hodisasi hisoblanib, ushbu hodisa nafaqat tabiiy til semantikasi va kontekstini tushunishda, balki kompyuter lingvistikasida ham muhim ahamiyat kasb etadi [1. 2025:B.450]. Koreferensiyani avtomatik aniqlash tabiiy tilni qayta ishlash jarayonidagi eng murakkab va zaruriy bosqichdir.

Neyron modellarning yuzaga kelishi koreferensiyani avtomatik aniqlash jarayonini soddalashtirdi. O‘zbekcha matnlarda koreferensiyani avtomatik aniqlash tizimi – UzCorefni yaratishda zamonaviy spanga asoslangan **end-to-end** arxitekturasidan foydalanildi [4]. End-to-end yondashuvi dastlab Lee tomonidan

taklif etilgan [5. 2017:B.190], so‘ngra uning BERT, SpanBERT, RoBERTa asosidagi versiyalari yaratilgan [6. 2020:B.65] [3. 2021:B.7670]. An’anaviy yondashuvlardan farqli ravishda, end-to-end modeli butun koreferensiya jarayonini yagona arxitektura doirasida amalga oshiradi. End-to-end yondashuvi tilga xos qoidalarsiz ishlay olishi va kontekst asosida koreferensiya muammosini bartaraf etishi bilan ajralib turadi. Unda matndagi har bir so‘z juftligi potensial referent sifatida baholanadi va neyron tarmoq yordamida ularning semantik bog‘liqligi o‘rganiladi. Ya’ni model birinchi bosqichda matndagi barcha mumkin bo‘lgan eslatma (ot, otli birikma va olmosh) segmentlarini nomzod sifatida ko‘rib chiqadi, so‘ngra ularning har bir juftligi orasidagi koreferensiya ehtimolini hisoblaydi. Bunda yuqorida ta’kidlangan qo‘shimcha xususiyatlar (tokenlarning morfologik belgilari, obyekt turi, sintaktik bog‘lanishlar) eslatmalarning vektorlariga qo‘shiladi. Modelning neyron tarmog‘i BERTning ko‘p tilli versiyasi (mBERT yoki XLM-R) orqali tokenlar kontekstual vektorlarini oladi, keyin har bir eslatma uchun uning boshi va oxiridagi tokenlari hamda o‘rtasidagi ifodadan agregat vektor hosil qiladi. So‘ngra har bir eslatma juftligi uchun neyron tarmoq yoki o‘xshashlik funksiyasi orqali ularning bir zanjirga tegishli yoki yo‘qligi klassifikatsiya qilinadi. Modelning umumiy tasviri 1-rasmda keltirilgan:



1-rasm. UzCoref modelining spanga asoslangan end-to-end arxitekturasi

Zamonaviy spanga asoslangan end-to-end koreferensiya modelida eslatma sifatida ishlatiladigan spanlarni aniqlash jarayoni ikki bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqich: *Mumkin bo‘lgan spanlarni generatsiya qilish.* Bu bosqichda model matndagi barcha mumkin bo‘lgan spanlarni (segmentlarni) sistematik tarzda shakllantiradi. Har bir span matndagi ketma-ket keluvchi tokenlar juftligi bilan belgilanadi (i-tokendan j-tokengacha, bunda $j \geq i$). Amalda span uzunligiga cheklovlar o‘rnatiladi (maksimum 10 tokenli spanlar olinadi). Bu bosqich natijasida juda katta hajmdagi span nomzodlari hosil bo‘ladi:

$$\boldsymbol{S = \{(i,j) \mid 1 \leq i \leq j \leq i + L, \quad L \leq 10\}}$$

Bu yerda,

$\boldsymbol{S}$ – *nomzod spanlar to‘plami;*

$\boldsymbol{i, j}$ – *spaningn boshi va oxirini bildiruvchi token indekslari;*

$\boldsymbol{L}$ – *maksimal span uzunligi.*

2-bosqich: *Spanlarni baholash.* Har bir shakllangan span uchun vektor hosilasi olinadi. Bunda span vektori quyidagicha hisoblanadi:

$$\boldsymbol{e_{(i,j)} = [h_i; h_j; \phi(i,j)]}$$

Bu yerda,

$\boldsymbol{h_i, h_j}$ – *spanning boshi va oxiridagi tokenlarning transformer model (masalan, RoBERTa) orqali olinadigan kontekstual vektorlari;*

$\boldsymbol{\phi(i,j)}$ – *span ichidagi tokenlarning o‘rtacha agregatsiya vektori.*

Ushbu vektor asosida spanning eslatma bo‘lish ehtimolini ifodalovchi ball hisoblanadi:

$$\boldsymbol{s(i,j) = FFNN_{mention}(e_{(i,j)})}$$

Bu yerda,

$\boldsymbol{FFNN_{mention}}$ – *eslatmani aniqlovchi neyron tarmoq qatlami.*

Eslatma ehtimolligi yuqori bo‘lgan spanlar saqlanadi, past bo‘lganlari esa chiqarib yuboriladi.

UzCoref modelining spanga asoslangan end-to-end arxitekturasi 5-qadamdan iborat:

1-qadam: *Matnni kontekstual vektorga o‘tkazish.* Model dastlab matndagi har bir token uchun transformer model (RoBERTa yoki uning ko‘p tilli varianti XLM-RoBERTa) yordamida tokenlarning chuqur kontekstual vektorlarini oladi [2. 2025:B.58]:

$$[h_1, h_2, \dots, h_n] = RoBERTa([t_1, t_2, \dots, t_n])$$

Bu yerda,

$[\boldsymbol{h_1}, \boldsymbol{h_2}, \dots, \boldsymbol{h_n}]$ – *berilgan matndagi tokenlar;*
$[\boldsymbol{t_1}, \boldsymbol{t_2}, \dots, \boldsymbol{t_n}]$ – *kontekstual vektorlar.*

2-qadam: *Mumkin bo‘lgan spanlarni shakllantirish.* Model yuqorida aytib o‘tilganidek, barcha mumkin bo‘lgan spanlarni shakllantirib, span uchun vektorlarni oladi:

$$\boldsymbol{e_{(i,j)}} = [\boldsymbol{h_i}; \boldsymbol{h_j}; \boldsymbol{\phi(i,j)}]$$

3-qadam: *Eslatmalarni baholash.* Har bir nomzod span uchun uning eslatma bo‘lish ehtimolligi hisoblanadi va eslatma bo‘lish ehtimoli yuqori bo‘lgan spanlar tanlab oladi:

$$\boldsymbol{m(i,j)} = \boldsymbol{\delta(FFNN_{mention}(e_{(i,j)}))}$$

Bu yerda,

$\boldsymbol{\delta}$ – *sigmoid aktivatsiya funksiyasi.*

4-qadam: *Koreferensiya juftlarini aniqlash.* Eslatma sifatida aniqlangan spanlarning har bir juftligi uchun (span (i, j) va span (k, l)) koreferensiya ehtimolini hisoblanadi:

$$\boldsymbol{c\big((i,j),(k,l)\big) = \delta(FFNN_{pair}([e_{(i,j)}; e_{(k,l)}; e_{(i,j)} \odot e_{(k,l)}; \phi(i,j,k,l)])}$$

Bu yerda,

$\odot$ – *vektorlar elementlarining ko‘paytmasi;*
$\boldsymbol{\phi(i,j,k,l)}$ – *qo‘shimcha lingvistik belgilar (masofa, sintaktik munosabatlar).*

5-qadam: *Zanjirlarni klasterlash.* Koreferensiyani baholash natijalaridan foydalangan holda spanlar o‘rtasidagi bog‘lanishlar hosil qilinadi va zanjirlar klasterlarga birlashtiriladi. Agar $\boldsymbol{c\big((i,j),(k,l)\big)}$ qiymati yuqori bo‘lsa, bu spanlar bitta koreferensiya zanjiriga birlashtiriladi.

Shunday qilib, model matndan spanlarni aniqlashdan boshlab, koreferensiya zanjirlarini shakllantirishgacha bo‘lgan jarayonni yagona (end-to-end) neyron tarmoq ichida amalga oshiradi. Ushbu spanga asoslangan end-to-end arxitektura UzCoref modelida koreferensiyani hal etish uchun juda samarali bo‘lib, ayniqsa o‘zbek tili kabi kam tadqiq qilingan tillarda yuqori aniqlik va moslashuvchanlikni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdisalomova Sh. O‘zbek tilidagi matnlar koreferensiyasini avtomatik aniqlash tizimining lingvistik ta’minotini shakllantirish xususida. / “Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar” V xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Vol. 1, № 1, Toshkent, 2025, B.449-457.

2. Abdisalomova Sh. RoBERTa modelining o‘zbek tilidagi matnlar koreferensiyasini avtomatik aniqlash jarayoniga tatbiqi. / “Kompyuter lingvistikasi: muammo va yechimlar” nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Toshkent, 2025, B.53-59.

3. Dobrovolskii V. Word-Level Coreference Resolution. / Proceedings of the 2021 Conference on Empirical Methods in Natural Language Processing, 2021, pp. 7670–7675.

4. https://uzcoref.uz/

5. Lee K., He L., Lewis M. & Zettlemoyer L. End-to-end Neural Coreference Resolution. / *Proceedings of the 2017 Conference on Empirical Methods in Natural Language Processing*, Copenhagen, Denmark, 2017, pp.188–197, DOI: 10.18653/v1/D17-1018 , URL: https://aclanthology.org/D17-1018/

6. Mandar Joshi, Danqi Chen, Yinhan Liu, Daniel S. Weld, Luke Zettlemoyer, and Omer Levy. SpanBERT: Improving Pre-training by Representing and Predicting Spans. / *Transactions of the Association for Computational Linguistics*, Cambridge, MA, 2020, pp. 64–77.

RAQAMLI TADBIRKORLIK: O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR UCHUN ONLAYN BIZNES IMKONIYATLARI

I.A.Baxromova
Alfraganus University Iqtisodiyot fakulteti Iqtisodiyot yo’nalishi 1-kurs talabasi
baxromovaindira@gmail.com
G.A.G’ulomova
Alfraganus University Iqtisodiyot fakulteti Iqtisodiyot yo’nalishi 1-kurs talabasi

Anotatsiya Ushbu maqolada raqamli tadbirkorlikning O‘zbekistondagi yoshlar uchun imkoniyatlari yoritiladi. Internet va axborot texnologiyalarining kengayishi, elektron tijorat va ijtimoiy tarmoqlarning ommaviylashuvi onlayn biznesni boshlashni soddalashtirdi. Maqolada mavjud imkoniyatlar, duch

kelinayotgan muammolar, davlat dasturlari va muvaffaqiyatli yosh tadbirkorlar tajribasi tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli savodxonlik va onlayn platformalardan samarali foydalanishning ahamiyati muhokama qilinadi.

Аннотация В данной статье рассматриваются возможности цифрового предпринимательства для молодежи в Узбекистане. Расширение интернета и информационных технологий, массовое распространение электронной коммерции и социальных сетей упростили начало онлайн-бизнеса. В статье анализируются доступные возможности, существующие проблемы, государственные программы и опыт успешных молодых предпринимателей. Также обсуждается важность цифровой грамотности и эффективного использования онлайн-платформ.

Abstract This article explores the opportunities of digital entrepreneurship for young people in Uzbekistan. The expansion of the internet and information technologies, along with the widespread adoption of e-commerce and social media, has simplified the process of starting an online business. The article analyzes available opportunities, existing challenges, government programs, and the experiences of successful young entrepreneurs. It also discusses the importance of digital literacy and the effective use of online platforms.

Kalit so‘zlar: Raqamli tadbirkorlik, onlayn biznes, yoshlar, O‘zbekiston, elektron tijorat, raqamli iqtisodiyot, startap, ijtimoiy tarmoqlar, innovatsiya.

Ключевые слова: Цифровое предпринимательство, онлайн-бизнес, молодежь, Узбекистан, электронная коммерция, цифровая экономика, стартап, социальные сети, инновации.

Keywords: Digital entrepreneurship, online business, youth, Uzbekistan, e-commerce, digital economy, startup, social media, innovation.

KIRISH: XXI asrda raqamli texnologiyalar hayotimizning deyarli barcha jabhalariga kirib keldi. Ayniqsa, pandemiya davridan so‘ng onlayn xizmatlar va elektron savdo jadal sur’atlarda rivojlandi. O‘zbekiston ham bu yo‘nalishda orqada qolmayapti: yoshlar orasida internet orqali daromad topish, shaxsiy brend yaratish, ijtimoiy tarmoqlarda mahsulot yoki xizmatlar sotish kabi faoliyatlar keng tarqalmoqda. Raqamli tadbirkorlik nafaqat daromad manbai, balki ijodkorlik, iqtisodiy mustaqillik va global bozorga chiqish imkoniyatidir. Bu maqolada aynan O‘zbekistondagi yoshlar uchun mavjud bo‘lgan onlayn biznes imkoniyatlari va ularni amalga oshirish sharoitlari tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI So‘nggi yillarda raqamli tadbirkorlik bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar va amaliy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha 2020–2030 yillarga mo‘ljallangan davlat strategiyalari, "Raqamli O‘zbekiston – 2030" konsepsiyasi, "IT-Park" faoliyati, elektron tijoratni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qonunchilik hujjatlari muhim manba sifatida o‘rganildi.

Shuningdek, Jahon banki, BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP), Osiyo Taraqqiyot Banki (ADB) kabi xalqaro tashkilotlarning O‘zbekiston yoshlarining bandligi va raqamli ko‘nikmalari haqidagi hisobotlari raqamli tadbirkorlik muhitini chuqur tahlil qilishda qo‘l keldi.

O‘zbek va rus tillarida chop etilgan quyidagi maqolalar tahlilga jalb qilindi:

- "Raqamli iqtisodiyot sharoitida yoshlar startaplari va ularni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari" (Iqtisodiyot va Ta’lim jurnali, 2023)
- "Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda IT-Park imkoniyatlari" (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy ishlari, 2022)
- "Цифровое предпринимательство в странах СНГ: проблемы и перспективы" (Экономика и Бизнес, Россия, 2021)

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yoshlar orasida raqamli tadbirkorlikka qiziqish ortib bormoqda, biroq infratuzilma, moliyaviy savodxonlik va raqamli ko‘nikmalar yetishmasligi hali ham asosiy to‘siqlardan biri bo‘lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ushbu maqolani tayyorlashda kompleks yondashuvga asoslangan bir nechta ilmiy metodlardan foydalanildi. Maqola mavzusi – O‘zbekistonda yoshlar uchun raqamli tadbirkorlik imkoniyatlarini aniqlash va tahlil qilish bo‘lgani sababli, tadqiqotda quyidagi uslublar qo‘llanildi:

1. **Tahliliy-uslubiy yondashuv.** Maqolada O‘zbekiston va xalqaro miqyosda raqamli tadbirkorlik, yoshlar bandligi, elektron tijorat, startap ekotizimi va axborot texnologiyalari sohalariga oid mavjud ilmiy maqolalar, hukumat qarorlari, strategik dasturlar va xalqaro tashkilotlar hisobotlari o‘rganildi.

2. **Statistik tahlil.** O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, IT Park Uzbekistan, UNDP, Jahon banki va boshqa ochiq manbalardan olingan statistik ma’lumotlar asosida yoshlarning raqamli iqtisodiyotdagi faolligi, onlayn biznes turlari va ularning rivojlanish dinamikasi tahlil qilindi.
3. **Empirik kuzatuv va kontent tahlil.** Ijtimoiy tarmoqlar, elektron tijorat platformalari (Telegram, Instagram, Facebook, OLX, ZoodMall, Uzum Market) orqali faoliyat yuritayotgan yosh tadbirkorlarning biznes modellariga kuzatuv asosida baho berildi. Shuningdek, O‘zbekistonda muvaffaqiyatli bo‘lgan bir nechta startap loyihalar tahlil qilindi.
4. **Taqqoslama yondashuv.** O‘zbekiston raqamli tadbirkorlik muhiti Markaziy Osiyo mamlakatlari va ayrim rivojlanayotgan davlatlar (Hindiston, Indoneziya, Gruziya) tajribasi bilan solishtirildi. Bu esa O‘zbekistondagi imkoniyat va cheklovlarni aniqlashda yordam berdi.

Ushbu metodologik yondashuvlar yordamida maqolada nafaqat mavjud vaziyat tahlili, balki raqamli tadbirkorlik rivoji uchun takliflar ham shakllantirildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. O‘zbekistonda raqamli tadbirkorlik so‘nggi yillarda sezilarli darajada rivojlanmoqda. Xususan, pandemiyadan so‘ng elektron tijorat, ijtimoiy tarmoqlarda savdo, onlayn xizmatlar ko‘rsatish (masalan, SMM, grafik dizayn, onlayn repetitorlik) bozoriga yoshlar faol kirib kelmoqda. **Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilda IT Park rezidentlari soni 1 500 dan oshdi**, ularning katta qismini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etadi.

Shuningdek, **Uzum Market**, **ZoodMall**, **OLX** kabi platformalarda faoliyat yuritayotgan minglab yoshlar o‘z mahsulot va xizmatlarini sotmoqda. 2023-yilgi UNDP hisobotiga ko‘ra, **O‘zbekistondagi yoshlarning 42% dan ortig‘i qo‘shimcha daromad olish manbai sifatida onlayn faoliyat bilan shug‘ullanayotganini bildirgan.**

Muhokamada aniqlangan asosiy imkoniyatlar quyidagilar:


- Internet texnologiyalarining keng ommalashuvi va arzon mobil internet mavjudligi;
- Ijtimoiy tarmoqlarning marketing vositasi sifatida samarali ishlashi;
- Onlayn to‘lov tizimlarining qulaylashuvi;
- Davlat tomonidan yoshlar startaplarini qo‘llab-quvvatlash dasturlari (masalan, “Yoshlar daftari” orqali subsidiyalar, kreditlar, grantlar).

Biroq quyidagi to‘siqlar ham mavjud:

- Ko‘pchilik yoshlarda **raqamli savodxonlik va biznes ko‘nikmalarining pastligi**;
- Ingliz tili va IT bilimlari yetarli bo‘lmagani sababli xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatining cheklangani;
- Moliyaviy resurslar va ishonchli sheriklar yetishmasligi;
- Ba’zi hududlarda internet infratuzilmasining sustligi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli tadbirkorlik yoshlar uchun nafaqat daromad manbai, balki o‘zini oqlash, innovatsion fikrlash, mustaqil faoliyat yuritish va global bozorga chiqish imkoniyatidir. Shu sababli bu yo‘nalishda tizimli yondashuv, ta’lim va texnologik qo‘llab-quvvatlash dolzarb hisoblanadi.

Quyidagi diagrammada 2020–2024 yillar oralig‘ida O‘zbekistonda onlayn biznes bilan shug‘ullanuvchi yosh tadbirkorlar soni va IT Park rezidentlari orasida yoshlar sonining o‘sish dinamikasi aks ettirilgan. Statistik ma’lumotlar asosida raqamli tadbirkorlik sohasining yildan-yilga kengayib borayotganini ko‘rish mumkin.



XULOSA VA TAKLIFLAR. O‘zbekistonda raqamli tadbirkorlik yoshlar uchun katta iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlar ochmoqda. So‘nggi yillarda internet infratuzilmasining rivojlanishi, ijtimoiy tarmoqlarning keng ommalashuvi va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlovchi dasturlarning yaratilishi bu

sohaning jadal rivojlanishiga zamin yaratdi. Maqolada o‘rganilgan statistik ma’lumotlar, tahlillar va amaliy kuzatuvlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- Yoshlar orasida onlayn biznesga bo‘lgan qiziqish ortmoqda va bu iqtisodiyotning yangi segmentiga aylanmoqda;
- Elektron tijorat, ijtimoiy tarmoqlar orqali savdo, frilans xizmatlari eng ommaviy yo‘nalishlar bo‘lib bormoqda;
- IT Park, Yoshlar ishlari agentligi va boshqa tuzilmalar tomonidan yaratilgan sharoitlar ijobiy samara bermoqda;
- Shu bilan birga, raqamli savodxonlik, moliyaviy bilimlar va marketing ko‘nikmalarining yetishmasligi ko‘plab yoshlar uchun to‘siq bo‘lmoqda.

Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Raqamli savodxonlik bo‘yicha treninglar va kurslar sonini oshirish, ayniqsa chekka hududlardagi yoshlarga yo‘naltirilgan bepul dasturlarni kengaytirish;
2. IT, SMM, e-commerce kabi zamonaviy kasblar bo‘yicha ta’lim beruvchi platformalarni davlat tomonidan subsidiyalash;
3. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida raqamli tadbirkorlik asoslari fani joriy etilishi;
4. Yoshlar startaplarini qo‘llab-quvvatlash uchun grant, imtiyozli kredit va soliq yengilliklari tizimini soddalashtirish;
5. Yoshlarning xalqaro bozorlarga chiqishi uchun ingliz tili va eksportga yo‘naltirilgan biznes bo‘yicha maslahat xizmatlarini tashkil qilish.

Raqamli tadbirkorlik yoshlar uchun zamonaviy iqtisodiy erkinlik, ijodkorlik va mustaqil faoliyat yuritish imkoniyatidir. Shu sababli, bu sohani rivojlantirish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikning ham muhim omilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi qarori, 2020-yil.*
2. *IT Park Uzbekistan rasmiy sayti: https://it-park.uz (2024-yilgi statistika ma’lumotlari).*
3. *Jahon banki (World Bank). “Digital Economy for Central Asia” – 2023-yilgi tahliliy hisobot.*
4. *UNDP Uzbekistan. “Youth Digital Inclusion and Employment in Uzbekistan”, 2023.*
5. *“Raqamli iqtisodiyot sharoitida yoshlar startaplari va ularni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari”, Iqtisodiyot va Ta’lim jurnali, 2023-yil, №1.*
6. *“Цифровое предпринимательство в странах СНГ: проблемы и перспективы”, Экономика и Бизнес, Россия, 2021.*
7. *O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi: https://stat.uz*
8. *Alimov B. “Yoshlar tadbirkorligining rivojlanishiga axborot texnologiyalarining ta’siri”, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy ishlari to‘plami, 2022.*
9. *Ziyayeva D. “E-commerce orqali bandlik imkoniyatlari”,* Yosh olimlar konferensiyasi materiallari, *2023.*

УЎТ: 633.11 : 631.52

ЎЗБЕКИСТОНДА ЛАЛМИ ЕРЛАРГА МОС ЮМШОҚ БУҒДОЙНИНГ ЯНГИ НАВЛАРНИ ЯРАТИШДА СЕЛЕКЦИЯ НАТИЖАЛАРИ

М.А.Жўраев
қишлоқ хўжалиги фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), катта илмий ходим, Лалмикор деҳқончилик илмий-тадқиқот институти

Аннотация. Республиканинг лалмикор майдонларида иқлим ва об-ҳаво шароитларининг стресс омилларига чидамли юмшоқ буғдой навларини яратиш бўйича Лалмикор деҳқончилик илмий тадқиқот институтида илмий тадқиқотлар олиб борилган. Тадқиқотлар давомида юмшоқ буғдойнинг иқлим ўзгаришларига мослашувчи, аномал иссиқлик ва қурғоқчиликка чидамли ултра эртапишар, ўсув даври қисқа бўлган, тупроқ намлигидан интенсив самарали фойдаланадиган баҳори ва икки фаслли нав ва янги тизмалари баҳоланган.

Буғдой тизмаларининг униб чиқиш-тўлиқ пишиш фазаси аниқланиб, андоза Тезпишар навига нисбатан 2-3 кун эртапишар тизмалар ажратиб олинди. Тезпишар навида умумий ўсув даври 108 кунни ташкил қилган бўлса, нав тизмаларида бунга нисбатан эртапишар янги нав тизмалари танлаб олинди. Шунингдек, тадқиқот натижаларига кўра, СП-1/602/2021 (Эритроспермум), СП-1/744/2021 (албидум) янги нав тизмалари юқори қимматбаҳо хўжалик белги ва хусусиятларига эгалиги аниқланган.

Калит сўзлар. Юмшоқ буғдой, нав, тизма, қурғоқчиликка, иссиқликка, чидамлилик,, ўсув даври, иқлим ўзгариши, эртапишар, ўсиш, ривожланиш, бошланғич манба, танлаш.

Аннотация. На результаты исследований были оценены ультраскороспелые сорта и новые линии мягкой пшеницы, адаптирующиеся к изменению климата, устойчивые к аномальной жаре и засухе, с коротким вегетационным периодом, интенсивно и эффективно использующие влагу почвы.

Определены фазы прорастания-полного созревания линий пшеницы и выделены линии на 2-3 дня раньше, чем у стандартного сорта Тезпишар. Также по результатам исследований установлено, что новые сортовые линии СП-1/602/2021 (eritrospermumum), СП-1/744/2021 (albidum) обладают высокими хозяйственно-ценными признаками и свойствами.

Ключевые слова. Мягкая пшеница, сорт, линия, засухоустойчивость, жароустойчивость, вегетационный период, изменение климата, скороспелость, рост, развитие, исходный материал, отбор.

Annotation. In the context of ongoing global climate change, scientific research is being conducted at the Research Institute of Irrigated Agriculture on the creation of bread wheat varieties resistant to stress factors of climatic and weather conditions in the irrigated lands of the republic. During the research, new varieties and lines of spring and two-season bread wheat adapted to climate change, resistant to abnormal heat and drought, ultra-early ripening, with a short growing season, intensive and efficient use of soil moisture, were evaluated.

The emergence-complete ripening phase of wheat lines was determined, and lines were isolated 2-3 days earlier than the standard variety Tezpishar. In the early-ripening variety, the total growing season was 108 days, and new early-ripening varietal lines were selected. Also, according to the research results, new lines SP-1/602/2021 (Eritrospermum), SP-1/744/2021 (albidum) selected as high economically valuable traits and properties.

Keywords. Bread wheat, variety, line, drought resistance, heat resistance, vegetation period, climate change, early maturity, growth, development, source material, selection.

Кириш. Бугунги кунда иқлимнинг глобал исиши натижасида лалмикор майдонларда қишлоқ хўжалик экинлари, шу жумладан, юмшоқ буғдой экинининг ўсиш ва ривожланиш даврларининг энг муҳим босқичларида гуллаш-сут-мум пишиш фазасида ҳаво ҳароратининг кескин кўтарилиши, ҳаво нисбий намлигининг пасайиши натижасида ўсимликларда физиологик ва биокимёвий жараёнлар секинлашиши кузатилмоқда. Бунинг натижасида буғдой дони ҳосилдорлиги ҳамда сифат кўрсаткичларининг пасайишига олиб келмоқда.

Иқлим ўзгариши ўсимликлар маҳсулдорлик элементларига қаттиқ таъсири кузатилмоқда, бу эса экстремал об-ҳаво шароитлари ва абиотик, яъни қурғоқчилик ва иссиқлик стресси кучайиши билан озиқ-овқат хавфсизлигига таҳдид солади, бу эса қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришдаги йўқотишларга олиб келади. [1]. Умуман олганда, ўртача ҳароратнинг 2,0 °C га кўтарилиши бошоқли дон ишлаб чиқаришнинг 20-40% дан кўпроқ қисқаришига олиб келиши мумкинлиги тахмин қилинган [2]. Сўнгги бу тенденция келгусида тез-тез учрайдиган қуруқ ҳаво билан бирга кучайиши кутилмоқда. Иқлим ўзгариши маълумотларига кўра маккажўхори ва буғдой экинлари энг кўп зарар кўриши таъкидлаб ўтилган, ҳосилдорликнинг кескин пасайиши маккажўхорда 20-43% ва буғдойида 25-50% гача ни ташкил қилади [3]. Юқори ҳарорат ўсимликларни ўсиши учун чекловчи омил бўлиб, пировардида дон сифати ва буғдой ҳосилининг маҳсулдорлигига таъсир қилади [4]. Иссиқлик стресси буғдой етиштиришда асосий чекловчи омилга айланди, чунки буғдой иссиқлик стрессига жуда сезгир, айниқса репродуктив ва эрта дон тўплаш босқичларида кузатилади [5].

Иссиқликка чидамлилик полиген хусусиятдир, иссиқликка чидамли ўсимликларни танлашнинг тўғридан-тўғри усули мавжуд эмас, аммо баъзи хусусиятлар, масалан, мембрананинг термал барқарорлиги ўсимликларнинг иссиқликка чидамлилигининг самарали кўрсаткичлари бўлиб ҳисобланади ва уларни мунтазам равишда етиштиришда фойдаланиш мумкин [6].

Қурғоқчиликка чидамли ўсимликларда боғланган сувнинг кўп бўлиши натижасида уларнинг таркибидаги оқсил иссиқ шароитда тезда коагуляцияга учрамайди. Бу ўсимликларнинг нафас олиш пайтида кўплаб органик кислоталар ҳосил бўлади. Бу кислоталар аммиак билан реакцияга киришиб

аспарагин, глутамин каби аминокислоталар ҳосил бўлади. Натижада аммиак нейтраллашиб унинг зарарли таъсири камаяди [7].

Иссиқликка чидамлилик ўсимликнинг стресс шароитида нормал ўсиш ва ривожланиши ҳосил бериш қобилияти сифатида аниқланади. Антиоксидантлардан ҳимояланиш, иссиқлик таъсирида оқсилларини ҳосил қилиш ва яшил рангни сақлаш буғдойнинг иссиқликка чидамлилигининг асосий механизмлари ҳисобланади [8].

Республикада 280 минг гектардан ортиқ лалми ерларда экилаётган буғдой навлари сўнгги йилларда кузатилаётган глобал иқлим ўзгаришлари таъсиридан зарарланиши кузатилмоқда, масалан, 2025 йил апрел-май ойларида кучли қурғоқчилик ҳамда юқори ҳарорат буғдойда дон шаклланиши ва тўлишиш фазасида рўй бериши ўсимликларнинг ўсиши ва ривожланишига салбий таъсир кўрсатди. Натижада, лалми ерларда буғдой дон ҳосилдорлиги ва сифатининг сезиларли паст бўлишига олиб келди.

Илмий тадқиқотлар натижасида қимматбаҳо хўжалик белги ва хусусиятларига эга буғдой навлари йиллар давомида иқлим ўзгаришлари, ташқи муҳитнинг ноқулай шароитлари ва касалликлар таъсирида ўзининг белги ва хусусиятларини йўқотиб бориши аниқланган. Янги навларни яратиш ишларини узлуксиз давом эттириш, нав алмаштиришни йиллар бўйича босқичма-босқич олиб бориш юқори ҳосилдорликни таъминлаши исботланган. Шунинг учун эртапишар, дон тўлишиш фазаси қисқа кунларда ўтадиган ултраэртапишар юмшоқ буғдой навларини яратиш лалми ерларда дон ҳосилдорлигининг ошишини ҳамда турли йилларда рўй берадиган аномал иссиқлик ва қурғоқчилик каби ноқулай об-ҳаво шароитларида ҳам барқарор дон ҳосилдорлигини таъминлайди.

Материал ва методлар. Лалми ерлар учун дон сифати ва нонбоплиги юқори бўлган юмшоқ буғдой навларини яратиш бўйича илмий тадқиқотлар 2024 йилда Лалмикор деҳқончилик илмий-тадқиқот институтининг Марказий тажриба хўжалиги майдонларида ўтказилди. Тадқиқотларда Рақобатли нав синаш майдонида 30 та нав ва янги тизмалар 4 қайтариқда экилиб, қимматли хўжалик белги ва хусусиятлари бўйича баҳоланиб борилди. Ўсимликларнинг униб чиқиши ҳолати, туплаш, бошоқлаш ва мум пишиш, тўлиқ пишиш кунлари, касалликларга чидамлилиги, ўсимлик бўйи ва бошқа морфологик белгилари баҳоланди.

Барча агротехник тадбирлар СЕҒДЎИТИ Ғаллаорол филиали томонидан 2004 йилда ишлаб чиқилган тавсия ва услублар асосида, фенологик кузатувлар, дала ва лаборатория шароитида турли кўрсаткичлар бўйича баҳолашлар, таҳлиллар Қишлоқ хўжалик экинлари навларини синаш Давлат комиссияси ва Бутуниттифоқ ўсимликшунослик институтида ишлаб чиқилган услубий қўлланмалар асосида олиб борилди.

Буғдой нав намуна ва тизмаларининг занг касалликлари билан касалланиш даражаси Халқаро СЭФ классификатори Triticum авлоди бўйича ишлаб чиқилган услуб ва ICARDA халқаро илмий марказида (1996 йил) ишлаб чиқилган шкала бўйича баҳоланди, статистик таҳлил қилиш Gen Stat (ANOVA) дастури бўйича амалга оширилди.

Натижалар ва уларнинг таҳлили. Тадқиқотларда юмшоқ буғдойнинг униб чиқишдан кейинги ўсимликлар ҳолати 1-5 балл тизимида баҳоланганда андоза Тезпишар нави 4 балл, Нўшкент, Бахмал-97, Тагоб, Зартепа, Eritrospermum-2020, КСИ-2020/16 КП-2016/58, Сп-1/448/2021, Сп-1-382/2021 (earlyripe) каби 10 та янги нав ва тизмаларда ўсимликлар ривожланиши ва ўсиши даражаси 5 балл билан белгиланди.

Янги нав ва тизмаларда тупланиш 15-18 март кунларига тўғри келиб, тупланиш кунлари бўйича 1-4 кун фарқ қилганлиги аниқланди. Эртапишар нав ва тизмаларда тупланиш бошқа тизмаларга қараганда 4 кун олдин бўлиши аниқланди. Бундан ташқари, ушбу питомникда нав ва тизмаларда бошоқлаш куни аниқланиб, “Тезпишар” андоза нави 02 май куни бошоқлаган бўлса, янги яратилган буғдой нав ва тизмаларидан “Eritrospermum-2020” янги тизмаси 24 апрел куни, яъни Тезпишар навидан 12 кун олдин, Тагоб янги нави 30 апрел куни бўлиб, 4 кун олдин бошоқлаганлиги кузатилди.

Шунингдек, тажрибаларда ўрганилган СП-1/448/2021, СП-1-382/2021 (earlyripe) янги нав тизмалари 1-2 кун олдин бошоқлаганлиги аниқланиб, “Тезпишар” навига нисбатан эрта бошоқлаганлиги сабабли эртапишар шаклида танлаб олинди. Буғдой тизмаларининг тўлиқ пишиш фазаси аниқланиб, андоза Тезпишар навига нисбатан тенг ёки 2-3 кун олдин пишиб етилган тизмалар ажратиб олинди.

Жадвал.

Рақобатли нав синаш питомнигида юмшоқ буғдой янги нав тизмаларининг ўсув даври, кун, ой (Ғаллаорол 2025).

№	Намуналар номи	Униб чиқиши	Униб чиқишни баҳолаш, (1-5 балл)	Тўплаш	Бошоқлаш	Мум пишиш	Тўлиқ пишиш	Униб чиқиш-пишиш, кун
1.	Тезпишар (ст)	17.02.25	4	15.03.	02.05.	01.06.	05.06.	108
2.	Нўшкент	17.02.25	5	13.03.	05.05.	03.06.	07.06.	110
3.	Грекум-2023	17.02.25	3	18.03.	14.05.	10.06.	13.06.	116
4.	Эритроспермум-2020	17.02.25	5	12.03.	**24.04.**	24.05.	28.05.	100
5.	КСИ-2020/16 кп-2016/58	17.02.25	5	15.03.	10.05.	02.06.	07.06.	110
6.	КСИ-10/2023	17.02.25	4	15.03.	07.05.	01.06.	07.06.	110
7.	ПСИ-2020/9	17.02.25	4	15.03.	07.05.	01.06.	07.06.	110
8.	КСИ-17/2023	17.02.25	5	15.03.	02.05.	02.06.	08.06.	111
9.	отб-21/2022-сп1-835/2021	17.02.25	4	15.03.	12.05.	06.06.	11.06.	114
10.	отб-25/2022-сп1-909/2021	17.02.25	4	15.03.	11.05.	06.06.	11.06.	114
11.	Тагоб (Сп-1/447/2021)	17.02.25	5	12.03.	30.04.	28.05.	03.06.	106
12.	Зартепа	17.02.25	5	18.03.	11.05.	09.06.	12.06.	115
13.	Сп-1/448/2021	17.02.25	5	15.03.	01.05.	28.05.	03.06.	106
14.	Сп-1/602/2021	17.02.25	4	15.03.	02.05.	28.05.	03.06.	106
15.	Сп-1/744/2021	17.02.25	4	15.03.	02.05.	28.05.	03.06.	106
16.	Сп-1/872/2021	17.02.25	3	15.03.	02.05.	01.06.	05.06.	108
17.	Сп-1-907/2021 (sogood)	17.02.25	4+	15.03.	14.05.	08.06.	12.05.	115
18.	Сп-1-382/2021 earlyripe)	17.02.25	5	13.03.	01.05.	28.05.	04.06.	107

Тезпишар навида умумий ўсув даври 108 кунни ташкил қилган бўлса, андозага нисбатан эрта пишган янги нав тизмалари танлаб олинди.

Юқорида таъкидланганидек, лалмикор майдонларда юмшоқ буғдой селекциясида энг муҳим йўналишлардан бири ўсимлик бўйи ҳисобланади. Тадқиқотларда Рақобатли нав синаш майдонида ўрганилган юмшоқ буғдой нав ва тизмаларида ўсимлик бўйи таҳлил қилинди. Тезпишар навининг ўсимлик бўйи рақобат нав синаш тажриба майдонида ўртача 96 см бўлган бўлса, андозага нисбатан узун бўйли янги нав тизмалари аниқланди. Андоза навга нисбатан баланд бўйли отб-21/2021-СП-1-835/2021, СП-1/744/2021, СП-1-907/2021 (sogood) каби янги нав ва тизмалари шулар жумласидан ҳисобланади.

Бу йилги қуруқ ва иссиқ об-ҳаво шароитида буғдой ўсимлигида хавфли ҳисобланган занг касалликлари спораларининг кенг тарқалмаганлиги кузатилиб, баъзи эртапишар янги нав ва тизмаларда 5-20% гача сариқ занг касаллиги билан зарарланиши аниқланди. Андоза Тезпишар навида 10%, ултраэртапишар Эритроспермум-2020 янги навида 20% сариқ занг юбилан зараланганлиги белгиланди. Қўнғир занг касаллиги ривожланиши учун ноқулай шароит бўлганлиги сабабли дала шароитида пайдо бўлмаганлиги кузатилди.

Тадқиқотлар давомида буғдой тизмаларида дон шаклланиши баҳоланганда нав ва тизмаларда дон тўлишиши даврида рўй берган юқори ҳаво ҳарорати дон шаклланиши ва тўлишишга кучли салбий таъсир этганлиги аниқланди. Барча нав ва тизмаларда дон визуал кўриниши 0-5 балл тизимида баҳоланди. Натижада, қурғоқчилик ва иссиқликка юқори чидамли ҳисобланган андоза Тезпишар навида дон кўриниши 4 баллга эга бўлган бўлса, андоза навга нисбатан ҳам юқори чидамли бўлган янги нав тизмалари аниқланди. Нўшкент, Грекум-2023, Тагоб, КСИ-10/2023, СП-

1/602/2021**,** СП-1/744/2021 каби нав намуна ва янги тизмаларда дон шаклланиши тез, Тезпишар нави донига нисбатан ялтироқ, дон чуқурчаси тўлиқ, қаттиқ, унсимонлиги паст бўлганлиги аниқланди.

Дастлабки тадқиқот натижаларига кўра, Рақобатли нав синаш питомнигида ўрганилган СП-1/602/2021 *(эритроспермумум),* СП-1/744/2021 *(албидум)* янги нав тизмалари қимматбаҳо хўжалик белги ва хусусиятларига кўра, 2024-2025 йилларда иқлим ўзгаришларининг салбий таъсирларига чидамли бўлганлиги сабабли, юқори кўрсаткичларга эга бўлган янги нав сифатида танлаб олинди.

Хулоса. Ушбу тадқиқот натижалари республиканинг лалмикор минтақаларида экиш учун юмшоқ буғдойнинг глобал иқлим ўзгаришларига мослашувчан, эртапишар, аномал иссиқлик ва қурғоқчиликка чидамли, дони ҳамда технологик сифат кўрсаткичлари юқори бўлган навларини яратишда юмшоқ буғдойнинг эртапишар, тупроқ намлигидан унумли ва қисқа муддатларда фойдаланадиган, дон тўлиши даври 20-25 кунда ўтадиган нав намуналари ва тизмаларидан бошланғич манбалар сифатида фойдаланиш самарали эканлигини кўрсатади.

Ултраэртапишар, иссиқликка чидамли ҳамда қурғоқчиликдан зарарланмайдиган, касалликларга чидамли янги нав ва тизмалар яратишда қадимги маҳаллий нав намуналаридан (landrace) фойдаланиш юқори самарали бўлиши аниқланди.

Фойдаланилган адабиётлар

1.Andyerson, R., Bayyer, P. E., and Edwards, D. (2020). Climate change and the needfor agricultural adaptation. Curr. Opin. Plant Biol. 56, 197–202. Doi: 10.1016/j.pbi. 2019.12.006.

2.Fatima, Z., Ahmed, M., Hussain, M., Abbas, G., Ul-Allah, S., Ahmad, S., et al. (2020). The fingyerprints of climate warming on cyereal crops phenology and adaptation options. Sci. Rep. 10:4891. Doi: 10.1038/s41598-020-74740-3.

3.Mereu, V., Gallo, A., Trabucco, A., Carboni, G., and Spano, D. (2021). Modeling high-resolution climate change impacts on wheat and maize in Italy. Clim. Risk. Manage. 33:100339. doi: 10.1016/j.crm.2021.100339).

4.Iqbal M., Iqbal N., Yasmeen F., Hussain M.,.Ejaz M, Shah M.. Impacts of Heat Stress on Wheat: A Critical Review. Advances in Crop Science and Technology. qbal et al., Adv Crop Sci Tech 5:1–2017.– P. 2–9.

5.Asseng S., I. Foster, N.C. Turner. The impact of temperature variability on wheat yields. Glob. Change Biol., 17–(2011. P. 997-1012.

6.Acuñagalindo M.A., R.E. Mason N.K., Subramanian D.B. Meta-analysis of wheat QTL regions associated with adaptation to drought and heat stress. // Crop Sci., 55 –2015, – pp. 477-492.

7.Хўжаев Ф.Х. Ўсимликлар физилогияси. Дарслик. –Тошкент, 2004. «Меҳнат», – Б.198.

8. Poudel P.B., M,R,Poudel. Heat Stress Effects and Tolerance in Wheat: A Review. Journal of Biology and Today's World. (9): –2020–P. 5-9.

METHODS OF FORMING EMOTIONAL INTELLIGENCE IN THE LESSON PROCESS

Y.Duvlayeva
Tashkent University of Applied Sciences, Faculty of Pedagogy and Psychology 3rd year student

Abstract. Today, great attention is paid not only to intellectual, but also to emotional development in the educational process. The topic “Methods of forming emotional intelligence in the lesson process” is aimed at this direction and includes methods and approaches that help students understand and manage their own emotions, understand the emotions of others, and develop social interaction skills. This process uses methods based on role-playing exercises, reflection, group work, emotional cards, and problem situations. Also, the teacher's empathy, open communication, and the creation of a positive environment play an important role in the formation of emotional intelligence. Through these methods, students develop mutual respect, responsibility, self-expression, and problem-solving skills. This approach serves to improve the general psychological health and social activity of students.

Keywords: emotional intelligence, lesson process, empathy, reflection, emotional education, social skills, emotional development, students' emotions, the role of the teacher, communication culture.

In the 21st century, the tendency to achieve success based on interpersonal relationships, emotional stability and social awareness is increasing. Therefore, today, in the educational process, there is a need to

pay attention not only to imparting knowledge, but also to the emotional development of students. Emotional intelligence is a person's ability to understand and manage their own emotions, understand the emotions of others and establish social relationships correctly. This article discusses the methods of forming students' emotional intelligence in school lessons, their effectiveness and practical significance.

The problem of understanding and expressing emotions is very relevant in modern society. The study of the phenomenon of emotional intelligence attracts the attention of scientists from the basic sciences and the applied fields of psychology, pedagogy and management. The study of the new concept is intended to analyze the specific features of its development at a certain age, its manifestation in professional activity and its impact on the success and development of the individual. It is known that the inhibition of emotions leads to their withdrawal from consciousness, in turn, the inability to psychologically process emotions can cause a variety of negative consequences, from psychosomatic diseases to deviant and delinquent behavior, since emotional problems with a specific power are manifested in people with a reduced level of self-control. Emotional intelligence is the ability of a person to understand emotions, to access them and to manage them in a way that helps to think, to understand emotions and what they mean, and, accordingly, to help them grow emotionally and intellectually. Emotional intelligence allows us to understand the emotions experienced by other people through their verbal and non-verbal behavior, to distinguish between the manifestations of people's emotions, to determine the origin and cause of emotions, the degree of their usefulness in a given situation. It also helps to solve problems and achieve their goals in life and work. People with developed emotional intelligence have the ability to negotiate with other people, make decisions and correctly respond to negative situations. People with developed emotional intelligence respond to reasons, not actions or feelings. This helps him to correctly perceive criticism, understand other people and respond to them adequately.

To understand the essence of the concept of emotional intelligence and its structure, we will analyze the original meaning of the word "mind" and its various signs. "Mind" is understood as a cognitive property associated with information processing. The encyclopedia defines intelligence as the ability to think, the ability to abstract knowledge and includes functions such as comparison, abstraction, the formation of concepts, judgments, conclusions. In general, emotional intelligence is described as the ability to recognize, understand and manage one's own and others' emotions.[1.2023:B.332] Psychologists usually divide emotional intelligence into four categories. The first is the ability to clearly communicate with others, to set one's own goals correctly, to actively listen, to influence and inspire, to work in a team or lead it, and to resolve conflicts. The second is the ability to feel empathy and comfort in a large group of people: the ability to feel the emotional signals of others, regardless of whether they are extroverted or introverted. The third sign is knowing your weaknesses and strengths, as well as a good understanding of the impact of personal emotions on life. And the last is the ability to manage emotions, limit their destructive effect on oneself, fulfill one's obligations, maintain long-term relationships and adapt to the environment. Emotional intelligence alone is able to hold a person back, but in combination with deep knowledge and strong motivation, it gives the best results in a career. Self-regulation, the ability to listen and put yourself in the shoes of another, the ability to manage moods complement practical skills in all areas where communication is necessary. Emotional intelligence is closely related to motivation and proactive behavior—the ability to respond appropriately to change, bring people together (not divide them), advocate for the interests of others, delegate authority, and inspire confidence in others to do the best they can.

Emotional intelligence is typically defined by four traits:

1. Self-regulation - You can control impulsive emotions and behavior, manage your emotions in healthy ways, take initiative, fulfill commitments, and adapt to changing circumstances.

2. Self-awareness - You recognize your emotions and how they affect your thoughts and actions. You know your strengths and weaknesses, and you are confident in yourself.

3. Social awareness - You have empathy. You can understand other people's feelings, needs, and concerns, pick up on emotional cues, feel socially comfortable, and recognize power dynamics in a group or organization.

4. Relationship Management - You know how to develop and maintain good relationships, communicate clearly, inspire and influence others, work well in a team, and manage conflict.

Emotional intelligence is a set of abilities that includes:

• identifying and expressing emotions;
• regulating emotions;
• using emotional information in thinking and action.

The concept of emotional intelligence was first described by American scientists Peter Salovey and John Mayer, and psychologist Daniel Goleman, who widely promoted this field, divided it into the following components:

1. Understanding one's own emotions (self-awareness);
2. Managing emotions (self-management);
3. Motivation (internal motivation);
4. Empathy (understanding others);
5. Social skills (communication, teamwork, problem solving).[2. 2018:B.115,116]

The development of emotional intelligence in the education system serves to form students as psychologically healthy, socially adaptable, socially active and stable individuals.

The formation of emotional intelligence depends on the teacher's methodological approach, the climate in the lesson and individual work with students. The following are the main methods that can be used during the lesson:

At the end of the lesson or after a specific activity, encouraging students to engage in emotional self-analysis through questions such as “How did you feel today?”, “What was your favorite moment?”, “What would you like to change?” develops emotional intelligence.

Students express their state through colorful cards or applications. This method is especially effective in younger grades.

Empathy and emotional control skills are formed through scenario-based scenes, discussions, and consideration of real-life social situations.

Through group activities, students develop social skills such as communication, compromise, and listening to others. Changing roles in a group is important for the development of emotional intelligence.

Activities such as drawing, listening to music, and writing stories serve to express and manage emotional states. This is especially important for students who have difficulty expressing emotions verbally.

The teacher should be open, sincere, understanding and supportive. Constructive feedback should be given rather than negative criticism.

The teacher's personal emotional culture plays a decisive role in the formation of emotional intelligence. He or she is an example for students not only with knowledge, but also with kindness, patience, and the ability to listen. The teacher must create an environment that meets the criteria of emotional intelligence, have an individual approach, and use positive communication methods.

Practical examples

1. In primary grades, an "emotional map" can be used to determine the emotional state of students at the beginning of each lesson.

2. In higher grades, problem situations are discussed in groups based on controversial topics and different emotional approaches are studied.

3. In science lessons, the emotional decisions of historical figures and the emotional experiences of heroes in literature can serve the development of emotional intelligence.[3.2020:B.117,130]

At school or at work. High emotional intelligence can help you navigate social challenges in the workplace, lead and motivate others, and excel in your career. In fact, many companies now rate emotional intelligence as just as important as technical ability when it comes to evaluating key candidates, and use emotional intelligence testing before hiring. Your physical health. If you can’t manage your emotions, you probably can’t manage stress either. This can lead to serious health problems. Uncontrolled stress can raise blood pressure, suppress your immune system, increase your risk of heart attack and stroke, contribute to infertility, and accelerate the aging process. The first step to improving your emotional intelligence is to learn how to manage stress.

Your mental health. Uncontrolled emotions and stress can also affect your mental health, making you more vulnerable to anxiety and depression. If you can’t understand, feel comfortable with, or manage your emotions, you’ll also struggle to build strong relationships. This, in turn, can make you feel lonely and exacerbate any mental health issues you may have. Your relationships. By understanding your emotions and knowing how to manage them, you’ll be better able to express how you feel and understand the feelings of others. This will allow you to communicate more effectively and build stronger relationships, both at work and in your personal life.

Your social intelligence. Being in tune with your emotions serves a social purpose that connects you to other people and the world around you. Social intelligence allows you to distinguish friend from foe, gauge another person’s interest in you, reduce stress, balance your nervous system through social

interaction, and feel loved and happy. Below, we'll look at four key skills to build emotional intelligence and improve your emotional intelligence. The skills that make up emotional intelligence can be learned at any time. But it's important to remember that there's a difference between simply learning about emotional intelligence and applying that knowledge to your life. Just because you know you should do something doesn't mean you'll do it, especially when you're under stress, which can overwhelm your best intentions. To permanently change your behavior with ways to cope under pressure, you need to learn how to manage stress in the present moment and in your relationships, to become emotionally aware.

The key skills to building emotional intelligence and improving your ability to manage your emotions and connect with others are:

1. Self-Management
2. Self-Awareness
3. Social Awareness
4. Relationship Management[5. 2024:B.452,458]

The number one skill in building emotional intelligence is self-management. To practice emotional intelligence, you need to be able to use your emotions to make constructive decisions about your actions. When you're under too much stress, you can lose control of your emotions and your ability to act thoughtfully and appropriately. Think about a time when stress took over you. Is it easy to think clearly or make rational decisions? Probably not. When you're under too much stress, your ability to accurately and accurately assess your emotions—your own and others' emotions—is impaired. Emotions are important information that tells you about yourself and others, but when we are faced with stress that takes us out of our comfort zone, we cannot control ourselves. With the ability to manage stress and be emotionally present, you can learn to receive information that upsets you without letting your thoughts and feelings control you. You can control impulsive feelings and actions, manage your emotions in healthy ways, take initiative, fulfill obligations, and adapt to changing circumstances.

In conclusion, popular practice and best practices show that achieving high performance in a child is currently associated with the development of emotional intelligence. And the example of parents is an important condition for the development of a child's emotional intelligence, as it is perceived by children as a standard for methods of emotional communication, expression, and management of emotional states. In other words, the most important condition for enriching children's emotional intelligence is interpersonal communication between a child and an adult, which includes emotional states and emotional situations. Therefore, for the child's development, parents need to pay great attention to the types of activities carried out together with children. The formation of emotional intelligence in the lesson process not only improves the psychological state of students, but also helps them grow up as successful, self-confident and socially active individuals in society. The emotional level of the teacher and the methodological approach to the lesson are the main factors in this process. By introducing elements of emotional education in each lesson, the quality of education and the personal development of the student can be significantly improved.

References

1. Avezov O.R. Ekstremal vaziyatlarda psixologik xizmat Darslik,”KAMOLOT” nashriyoti, 2023 yil. 332 bet.

2. Андреева И.Н. Эмоциональный интеллект как предиктор академической успеваемости / И.Н. Андреева // Университетское образование: опыт ты -сячелетия, проблемы, перспективы развития: тез. докл. II междунар. конгр., Минск, 14 - 16 мая 2008 г.: в 2 т.; отв. ред. Р.С. Пионова-Минск: МГЛУ, 2018. - Т. 2. - С. 115 - 116.

3. Ермолаева-Томина Л.Б. Исследование факторов, детерминирую-щих индивидуальные различия в проявлении творческой активности// Психология творчества: общая, дифференциальная, прикладная. Под ред. Я.Л. Пономарева. − М., 2020. − С. 117-130.

4. Nishonova Z.T. , Alimova G.K., Turg‘unboyeva A.G‘., Asranboeva M.X. “Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi” Toshkent-2017 y

5. Olimjonovna, R. Z. Emotsional intellekt bolajak mutaxassislarning muhim xususiyati sifatida. innovation in the modern education system, 2024. 5(41), 452-458.

6. Olimjonova, Z. B. Q. Maktabgacha Ta'lim Yoshidagi Bolalar Emotsional Sohasi Psixofiziologiyasining Asosiy Xususiyatlari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022. 2(5), 311-315.

7. Якубова, Г. А., & Олимжонова, З. Б. К. Мактабгача Ёшдаги Болаларнинг Психофизиологик Ривожланиши. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2022. 2(5), 681-689.

MARKAZIY OSIYODA TARQALGAN *EREMURUS REGELII* TURINING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI VA EKOLOGIK MOSLASHUVI

Sh.F.Umaraliyeva
Namangan davlat universiteti, Biologiya ta’lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi
Email: shodiyonaumaraliyeva738@gmail.com, Tel: +9989938910413

Annotatsiya Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda, xususan O‘zbekiston, Tojikiston va Qozog‘iston hududlarida tabiiy holda uchraydigan *Eremurus regelii* turining morfologik va ekologik xususiyatlari ilmiy tahlil qilinadi. O‘simlikning ildiz, poya, barg, gul va meva tuzilishi tafsilotlari, yashash muhiti, tarqalish areali va muhofaza holati keng yoritilgan. Tur biologik xilma-xillikni saqlashdagi ahamiyati, fitogeografik va dorivorlik salohiyati nuqtai nazaridan ham tahlil qilinadi[1].

Kalit so‘zlar: *Eremurus regelii*, morfologiya, Markaziy Osiyo florasi, endemik tur, ekologik moslashuv, muhofaza, tog‘-o‘tloq ekotizimi.

Annotation The morphological and environmental characteristics of the *Eremumurus Regelii*, which are in Central Asia, in particular in Central Asia, in Central Asia, in Central Asia. Details of the root, stem, leaves, flowering and fruit structure of the plant are widely covered by the details, the habitat, spread range and protection. Tour analyzes the importance of biodiversity, phytogenographic and medicinal potential [1].

Keywords: *Eremumurus Regelii*, morphology, Central Asia flora, endemical and environmental adaptation, protection, mining ecosystem.

Kirish Markaziy Osiyo hududi geologik jihatdan murakkab tuzilishga ega bo‘lib, o‘ziga xos iqlim, tuproq va relef sharoitlari tufayli ko‘plab noyob va endemik o‘simlik turlariga boy[2]. Ushbu floristik boyliklar orasida *Eremurus regelii* V.B. turining o‘rni alohida[4]. Bu tur *Liliopsida* sinfiga, *Asphodelaceae* oilasiga mansub bo‘lib, manzarali va bioekologik ahamiyatga ega[5]. Uning tabiiy areali Pomir-Olay, G‘arbiy Tyan-Shan va Zarafshon tizmalari bilan chegaralangan. Shu bilan birga, bu tur antropogen bosim va iqlim o‘zgarishlari ta’sirida kamayib bormoqda[6]. Maqolaning asosiy maqsadi – *Eremurus regelii* turining morfologik belgilarini, ekologik moslashuv mexanizmlarini va Markaziy Osiyo flora tizimidagi o‘rnini ilmiy asosda tahlil qilishdir[7].

Material va metodlar/ Tadqiqot 2023–2025 yillar oralig‘ida Namangan, Jizzax va So‘g‘d viloyatlaridagi tog‘ etaklarida amalga oshirildi. Quyidagi metodlar asosida ishlov berildi:

Fenologik kuzatuvlar: Vegetatsiya davrida har oy o‘simliklarning barg chiqarishi, gullashi va mevasi yozib olindi.

Morfo-anatomiya tahlili: Barg, gul va ildizpoya mikrotom kesimlari mikroskop ostida o‘rganildi.

GPS orqali koordinatalash: Har bir populyatsiya aniqlik bilan kartaga kiritildi. Gerbariy namunalar tayyorlandi va TASH fondiga topshirildi.

Natijalar. Tashqi morfologik belgilariga ko’ra: Ildizpoyalari - yer ostida joylashgan, go‘shtdor, yassi, har tomonga yo‘nalgan yon ildizlarga ega. Diametri 6–10 sm, tuproqdagi suvni saqlab qolish xususiyatiga ega bo‘lib, poyasi - bitta markaziy poyadan iborat, to‘g‘ri, balandligi 120–160 sm gacha, silliq, yengil mum qoplamli. Barglari - asosan rozet, ensiz-yumaloq shaklda, uzunligi 40–60 sm, eni 2–4 sm. Barg rangi ko‘kimtir-yashil. Gullari - shingilsimon to‘pgulda joylashgan, har biri 5–7 mm kattalikda, yulduzsimon, to‘q sariq yoki och jigar rangda.

Eremurus regelii tarqalish geografiyasi quyidagicha: turning asosiy areali Pomir-Olay tizmasi (Tojikiston), G‘arbiy Tyan-Shan (O‘zbekiston, Qozog‘iston), Zarafshon tizmasi hamda Chatqol tizmasida qayd etilgan. UShbu tur tarqalish arealiga ko‘ra, sho‘r va toshloq yerlarda keng tarqalgan.

Muhokama. *Eremurus regelii* o‘zining morfologik va ekologik xususiyatlari bilan boshqa *Eremurus* turlaridan ajralib turadi. Uning go‘shtdor ildizpoyasi qurg‘oqchil sharoitlarda suvni saqlab qolish imkonini beradi, bu esa iqlim o‘zgarishlariga barqarorlikni ta’minlaydi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu tur baland tog‘ yonbag‘irlari va etaklaridagi muayyan ekologik tor zonalarni afzal ko‘radi. Shu bois uning populyatsiyasi tabiiy sharoitning eng kichik o‘zgarishiga nisbatan juda sezuvchan.

Afsuski, oxirgi yillarda chorvachilik bosimi, yo‘l qurilishi va yovvoyi o‘simliklarni noqonuniy terib olish bu turning kamayishiga sabab bo‘lmoqda.

Xulosa. *Eremurus regelii* — Markaziy Osiyoning cho‘l-tog‘ ekotizimlarida o‘suvchi, ekologik va taksonomik jihatdan muhim bo‘lgan endemik o‘simlik turidir. Uning morfologik tuzilishi — qisqa va go‘shtdor ildizpoya, uzun, shingilsimon to‘pgul, lentasimon barglar va qanotli urug‘lar bilan ajralib turadi.

Bu xususiyatlar o‘simlikning yarim cho‘l va tog‘ etaklaridagi ekstremal sharoitlarda hayot kechirishiga moslashganligini ko‘rsatadi. Uning suvni tejovchi morfologik moslanmalari (qalin kutikula, go‘shtdor rizoma, qisqa vegetatsiya davri) ekologik barqarorlikni ta’minlaydi. Shu boisdan, *Eremurus regelii* nafaqat floristik diversifikatsiya nuqtai nazaridan, balki cho‘l landshaftlarining barqarorligida indikator rolini ham o‘ynaydi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu tur hozirgi kunda son jihatidan kamayib bormoqda va antropogen bosim (yaylovlarning kengayishi, yo‘llar qurilishi, o‘simlik yig‘ilishi) oqibatida populyatsiyalar parchalanmoqda. Shu sababli: Genetik diversitetni saqlash maqsadida in-situ muhofaza (tabiiy muhitda) bilan birga ex-situ (botanika bog‘lari, urug‘ banklari) strategiyalari ishlab chiqilishi zarur; Uning biologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish orqali bog‘dorchilik, landshaft dizayni va ekologik ta’lim sohalarida amaliy tatbiq etish imkoniyatlari kengaytirilishi mumkin;

Eremurus regelii ekologik indikator sifatida monitoring dasturlariga kiritilishi, cho‘l va tog‘ ekotizimlarining degradatsiyasini oldindan aniqlashga xizmat qiladi.

Bu o‘simlikni saqlab qolish — Markaziy Osiyo florasining noyob, genetik jihatdan qimmatli elementini kelajak avlodlarga yetkazish deganidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kamelin, R.V. (1990). Florogeneticheskie osnovy rasprostraneniya vysshikh rasteniy v Sredney Azii. Leningrad: Nauka.
2. Tojibaev, K.Sh., Beshko, N.Yu., Khassanov, F.O. (2018). Checklist of vascular plants of Uzbekistan. Komarovia, 15: 1–435.
3. Sharipova, Z.T. (2007). Biologicheskoe raznoobrazie flory Uzbekistana. Tashkent: Fan.
4. Sennikov, A.N. (2012). Taxonomic notes on Central Asian Eremurus species (Asphodelaceae). Nordic Journal of Botany, 30(3), 234–240.
5. Shomurodov, M.A., Tojibaev, K.Sh. (2019). Eremurus turlarining ekologik va morfologik tavsifi. O‘zMU Biologiya fakulteti ilmiy axboroti, 2(51), 70–76.
6. Qodirova, M.R. (2020). Cho‘l o‘simliklarining moslanish mexanizmlari. O‘zR FA Botanika instituti to‘plami, 15(1), 122–128.
7. Mavlanova, R.F. (1986). Biologicheskoe raznoobrazie i botanicheskie issledovaniya v Sredney Azii. Tashkent: Fan.
8. Chopra, R.N., Nayar, S.L., Chopra, I.C. (1956). Glossary of Indian Medicinal Plants. CSIR, New Delhi.
9. Ibragimov, A.A. (2002). Markaziy Osiyo cho‘l o‘simliklarining fenologiyasi. O‘zbekiston FA Matbuoti.
10. Takhtajan, A.L. (1986). Floristic Regions of the World. University of California Press.
11. Abdullayev, K.N. (1975). Flora i rastitelnost Sredney Azii. Tashkent: Fan.
12. Wendelbo, P. (1959). New and little-known species of Eremurus. Botaniska Notiser, 112, 325–342.
13. FAO (2001). Global Strategy for Plant Conservation. Rome: FAO.
14. UNESCO MAB Program (2016). Conservation of Dryland Biodiversity in Central Asia. Paris: UNESCO.

O‘ZBEK TILINING LEKSIK SATHIDA PLEONAZM: SEMANTIK VA STILISTIK TAHLIL

A.ShTursunov
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktaranti

Annotatsiya. Maqolada pleonazm hodisasining leksik sathda namoyon bo‘lishi, semantik xususiyatlari va stilistik vazifalari yoritiladi. Pleonazm tilning tejamlilik tamoyiliga zid bo‘lsa-da, stilistik va semantik boylikni ta’minlashda muhim o‘rin egallashi ta’kidlanadi.

Аннотация. В статье рассматриваются проявления плеоназма на лексическом уровне, его семантические особенности и стилистические функции. Подчеркивается, что, хотя плеоназм

противоречит принципу экономии языка, он играет важную роль в обеспечении стилистического и семантического богатства языка.

Annotation. The article discusses the manifestation of pleonasm at the lexical level, its semantic features and stylistic functions. It is emphasized that, although pleonasm contradicts the principle of economy of language, it plays an important role in ensuring stylistic and semantic richness.

Kalit so‘zlar: leksik sath, pleonazm, leksik pleonazm, stilistik funksiya, semantik takror, sinonimik munosabat.

Ключевые слова: лексический уровень, плеоназм, лексический плеоназм, стилистическая функция, семантический повтор, синонимические отношения.

Keywords: lexical level, pleonasm, lexical pleonasm, stylistic function, semantic repetition, synonymous relationship.

Tilning leksik sathida so‘zlarning ma’no tuzilishi, ularning semantik guruhlarga bo‘linishi va nutqda qo‘llanilish xususiyatlari tekshiriladi. Tilning leksik tizimi so‘zlarning ma’no jihatidan bir-biriga bog‘liqligi, sinonimiya, antonimiya, omonimiya kabi munosabatlarni o‘z ichiga oladi. Leksik sath so‘zlarning quyidagi jihatlarini tahlil qilishda muhim:

- Ma’no turlari: so‘zning asosiy (denotativ) va qo‘shimcha (konnotativ) ma’nolari.
- Semantik guruhlar: sinonimlar, antonimlar, omonimlar, paronimlar va boshqalar.
- Qo‘llanilish doirasi: so‘zning kundalik nutqda, ilmiy, adabiy yoki boshqa kontekstlarda ishlatilishi.

Tilshunos olim A.Hojiyevning qayd etishicha, ***“Pleonazm*** (<yun. *pleonasmos* – ortiqchalik) nutqda bir-biriga yaqin ma’noli yoki deyarli bir xil ma’noli birliklarning (ortiqcha holatda) qo‘llanishi, bir ma’lumotning bir necha marta ifodalanishidir” [9. 1985: Б.69].

Pleonazm hodisasini o‘zbek tilshunosligida ilk marta monografik tarzda tadqiq etgan olim N.Mahkamovning izohlashicha, “Pleonazm – bir xil yoki sinonimik ifoda vositalarining, ya’ni til birliklarining semantik jihatdan takror holda bo‘lishidir” [7. 1988: Б.7].

G‘arb tilshunoslaridan J.Lakoff va M.Johnson esa pleonazmni “metaforik va poetik tilning ajralmas qismi” [2. 2003] deb hisoblaydilar. Ularning “Metaphors We Live By” asarida pleonazm tilning kognitiv funksiyalarini ochib beruvchi vosita sifatida ko‘rsatiladi.

“Agar sinonim yoki semantik jihatdan yaqin bo‘lgan so‘zlar leksik birlik sifatida birikib, o‘zaro aniqlovchi-aniqlanmish munosabatida bo‘lsa, ular **leksik pleonazm** hisoblanadi” [4. 1988: C.59]. Masalan, *bepul sovg‘a, ko‘ppak it, dekorativ bezak, yashirin sir, do‘stimning birodari*.

Leksik pleonazm, asosan, sinonimik munosabatdagi leksemalar, ya’ni til birliklarining semantik jihatdan takrorlanishi asosida yuzaga keladi. Bu hodisa nutq konstruktsiyalarida sinonim leksemalarining kontakt (yonma-yon) yoki distansiya (masofaviy) joylashuvidan hosil bo‘ladi. So‘z takroridan qochish va, ayniqsa, badiiy asarlarda g‘oyaviy-estetik mazmunni yanada to‘liqroq ochib berish maqsadida leksik pleonazm keng qo‘llaniladi.

Nutqning barcha shakllarida sinonimlarning imkoniyatlari katta, chunki sinonimik qatordagi so‘zlar ijobiy yoki salbiy munosabatni ifodalashi, stilistik xoslanishi hamda ma’noviy bo‘yoqdagi darajasi bo‘yicha bir-biridan farq qiladi. Ifodaning soddaligi, aniqligi yoki fikriy murakkablikka yo‘l qo‘ymaslik uchun sinonimlarni o‘z o‘rnida va o‘rinli ishlatish talab etiladi.

A.Pardayev “O‘zbek tili yordamchi so‘z turkumlarining lisoniy tizimdagi o‘rni va lingvopragmatik tahlili” nomli doktorlik dissertatsiyasida [8. 2017: Б.23]. pleonazm hodisasini quyidagicha izohlaydi: “Pleonazm hodisasi tilning barcha sathlarida, shu jumladan, yordamchi so‘zlarda ham uchraydi va bu so‘zlovchi maqsadini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Natijada nutqda turli-tuman pragmatik, hosila ma’nolar yuzaga keladi. Nutq jarayonida yordamchi so‘zlar pleonazmida o‘ziga xoslik yonma-yon qo‘llanilgan ikki yordamchi so‘zdan biri o‘z birlamchi vazifasida, ikkinchisi esa o‘sha yordamchining birlamchi vazifasiga yondosh bo‘lgan ikkilamchi vazifasi bilan kelib, uning birlamchi vazifasini kuchaytirishiga xizmat qilishidan iborat ekanligi tavsiflanadi. *Men baho bermoqchi emasman, uka. Ammo-lekin hayotni ortiqcha rasmiylashtirib yuboryapmiz* (A.Muxtor). Bu matnda zidlov ↔ ta’kid munosabati (*ammo* yordamchisining birlamchi vazifasi) *lekin* yordamchisining ikkilamchi vazifasi bilan kuchaytirilmoqda”.

R.Yusupova “Tejamlilik va ortiqchalikning lingvopoetik xususiyatlari” nomli dissertatsiyasida leksik pleonazm hosidasini shunday izohlaydi: “Agar sinonim yoki semantik jihatdan yaqin bo‘lgan so‘zlar o‘zaro biriksa yoki konstruksiyaning turli o‘rinlarida ketma-ket qo‘llansa, leksik ortiqchalik hisoblanadi: *do‘stimning birodari, chet elga eksport qilish, badavlat korchalon, interval oralig‘i, mayda mikroblar* kabi.

Bunday ortiqchaliklar ko‘pincha qaytariqlarning oldini olish, qo‘shimcha ma’noni yuzaga chiqarish, o‘zlashma so‘zning ma’nosini to‘laroq ochish kabi vazifalar natijasida vujudga keladi” [10. 2021: Б.64].

D.Yo‘ldosheva “XXI asr o‘zbek dramaturgiyasida tavtologiya va pleonazmning lingvopragmatik, lingvokognitiv tahlili” [3. 2025: B.20] nomli tadqiqotida quyidagi misol orqali leksik pleonazmni izohlaydi: Bu deyman, o‘zbeklar ham **biznes, tadbirkorlik**ning sirini bilib olibdilarmi***? (Q.Norqobil “Quyoshni sen uyg‘otasan”) misolida*** biznes ***va*** tadbirkorlik ***so‘zlari sinonimligiga ko‘ra leksik pleonazmni yuzaga keltirgan.***

Leksik pleonazm tilshunoslikda semantik ortiqchalik sifatida qaraladi, ya’ni bir xil ma’noni ifodalovchi so‘zlar yoki iboralarning birgalikda qo‘llanilishidir. Leksik pleonazm so‘zlarning ma’no jihatidan bir-biriga yaqinligi yoki sinonimik munosabatlari orqali yuzaga keladi. Masalan, o‘zbek tilida *“yashirin sir”* yoki *“oq yorug‘lik”* kabi iboralar leksik pleonazmga misol bo‘ladi, chunki bu iboralarda so‘zlar bir-birining ma’nosini takrorlaydi yoki kuchaytiradi.

O‘zbek tilining leksik sathida pleonazm quyidagi xususiyatlar bilan ko‘zga tashlanadi:

Sinonimik juftliklar: O‘zbek tilida sinonimlarning birgalikda ishlatilishi keng tarqalgan bo‘lib, bu pleonazmning asosiy shakllaridan biridir.

So‘z yasalishi va pleonazm: O‘zbek tilida so‘z yasalishida qo‘shimchalar yordamida yuzaga kelgan so‘zlar pleonastik holatlar hosil qilishi mumkin.

Dialektal va adabiy leksika: O‘zbek tilining dialektal yoki adabiy qatlamlarida pleonazm ko‘pincha stilistik maqsadlarda ishlatiladi. Shevalarda so‘zlarni pleonastik qo‘llash adabiy tildagiga nisbatan ko‘proq uchraydi, chunki shevalarda nutq jarayonida ortiqcha so‘zlar, qo‘shimchalar beixtiyor ishlatilib ketiladi. Masalan, Toshhovuz shevasida: *Итингиз янә тағин тишләмәсин* (itingiz tag‘in tishlab olmasin). Bu gapdagi *yana* so‘zi ortiqcha ishlatilgan. *Мәшәрип тьртьм индамади* gapida *тьртьм* so‘zi aslida indamadi so‘zining sinonimidir. U indamaslikni, umuman, un, ovoz chiqarmaslik ma’nolarni bildiradi. Indamadi so‘zida ham shu ma’no bor.

Bunday qaraganda, ushbu ortiqcha so‘zlar ma’nosi atroflicha izohlanmasa, ma’noni kuchaytirish, o‘zi bilan yonma-yon kelgan so‘zni izohlashga xizmat qilayotgandek ko‘rinadi. Masalan, *Энг йахшы эзгу тиләкләр тилиман*. Aslida *yaxshi* va *ezgu* so‘zlarining ma’nolari bir-biriga yaqin.

Bunga o‘xshash misollarni shevada yana ko‘plab uchratish mumkin: *Salom noma xat* gapida *noma* so‘zi ortiqcha.

Ba’zan boshqa tildan o‘zlashgan so‘zlarning shevadagi xuddi shunday ma’nodagi so‘z bilan takror ishlatilganini ko‘rishimiz mumkin**:** *at konik*. Bu yerdagi *konik* asli konyuk, ya’ni otxona ma’nosiga ega.

O‘zlashma so‘zlar bilan pleonazm: Zamonaviy o‘zbek tilida o‘zlashma so‘zlar bilan bog‘liq pleonazmlarni ham ko‘plab uchratishimiz mumkin. Masalan, “*maxfiy sir, bepul sovg‘a, ko‘ppak it, dekorativ bezak, ko‘rgazmaga qo‘yilgan eksponat, informatsion xabarlar, interval oralig‘i”* kabi. Bunday tavtologik xarakterdagi pleonazmlar, ko‘pincha, boshqa tillardan qabul qilingan so‘zning ma’nosini anglamaslik yoki hisobga olmaslik natijasida, unga shu so‘zning o‘zbekcha sinonimini kontakt holda qo‘llash tufayli vujudga keladi” [7. 1988: Б.11].

Yuqoridagi misollarda leksik pleonazmning vujudga kelish sabablarini N.Mahkamov quyidagicha izohlaydi: “Har doim ham o‘zlashgan so‘z va uning o‘zbekcha sinonimini kontakt holda qo‘llash pleonazmni vujudga keltirmaydi. O‘zbek tilida shunday birikmalar bor-ki, ularga formal qaraganimizdagina pleonastik qo‘llanishga o‘xshaydi (ko‘pincha bunday holat arab va fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar doirasida uchraydi). Masalan: *bosh-oyoq sarpo* (tojik tilida sar – bosh, po – oyoq), *xarsangtosh* (sang – tosh), *laxm go‘sht* (arabcha laxm – go‘sht), *pulsirot ko‘prigi* (pul – ko‘prik) kabi. Bu birikmalarda aynan bir so‘zning takrorlanayotgani ma’lum. Lekin bu o‘zlashma so‘zlar o‘zbek tilida o‘z ma’nosida anglashilmaydi. Ular semantikasida ma’no siljishi ro‘y bergan. Chunonchi, bosh-oyoq sarpo deganda biz biror kishiga in’om etiladigan ust-boshlarni, xarsangtosh deganda katta toshni, laxm go‘shtda suyaksiz go‘sht ma’nolarini anglaymiz. Demak, bunday qo‘llanishlar asliga ko‘ra takror bo‘lsa ham, bugungi kunda ular pleonastik qo‘llanish hisoblanmaydi” [7. 1988: Б.11]. Olimning fikrlarini tasdiqlagan holda, leksik pleonazmlarni aniqlashda hamda uning stilistik va ekpressiv-emotsional funksiyalarini belgilashda leksemaning semantik taraqqiyotidagi o‘zgarishlarga alohida e’tibor berish lozim deb hisoblaymiz.

Pleonazmning leksik sathdagi funksiyalari. Leksik sathda pleonazm o‘zbek tilshunosligida tilning ekspressiv va kommunikativ imkoniyatlarini boyituvchi muhim hodisa sifatida o‘rganiladi.

Ta’kidlovchi funksiya: Pleonazmning ta’kidlovchi funksiyasi tilning ekspressivlik darajasini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Nazariy jihatdan, pleonazm semantik takror orqali ma’noni kuchaytiradi va

eshituvchi yoki o‘quvchining e’tiborini jalb etadi. O‘zbek tilshunosligida bu funksiya R.Qo‘ng‘urov [6. 1980]ning ishlarida kengroq yoritilgan bo‘lib, pleonazm tilning o‘ta aniqlikka intilish natijasida yuzaga kelishi va nutqda ta’sirchanlikni ta’minlashi ta’kidlanadi.

Stilistik funksiya: Stilistik funksiya pleonazmning badiiy va uslubiy vosita sifatidagi rolini ifodalaydi. Ilmiy nuqtayi nazardan, pleonazm nutqda ritm, musiqaviylik va estetik ta’sirni yaratadi, bu esa tilning stilistik imkoniyatlarini kengaytiradi. O‘zbek tilshunosligida pleonazm stilistik hodisa sifatida o‘rganilib, uning sintaktik va leksik turlarida uslubiy vazifa bajarishi ta’kidlanadi. Masalan, I.R.Galperin [5. 1980] va D.U.Ashurova [1. 2016] kabi tilshunoslarning ishlarida pleonazm metafora, simila va boshqa stilistik qurilmalar bilan bog‘liq holda stilistik ekspressiyani ta’minlashi ko‘rsatilgan. O‘zbek adabiy tilida pleonazm neologizmlar va sinonimlar orqali stilistik xilma-xillikni ta’minlaydi. Masalan, “*Qorong‘i tun”* – “qorong‘i” so‘zi *“tun”*ning tabiiy xususiyatini takrorlab, poetik ta’sir yaratadi, *“Qari chol”* – stilistik kuchaytirish orqali tasviriy ifoda hosil qiladi, o‘zbek she’riyatida keng qo‘llaniladi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlab o‘tish joizki, o‘zbek tilining leksik sathida pleonazm hodisasi tilshunoslikning semantik va stilistik qatlamlarida muhim o‘rin tutuvchi kompleks jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Tahlil natijasida pleonazmning ta’kidlovchi funksiyasi nutqda ma’noni kuchaytirish va emotsional ta’sirni oshirishda, stilistik funksiyasi esa ritmik-estetik boylik yaratishda asosiy rol o‘ynashi aniqlandi. Leksik sathida pleonazm hodisasini faqat ortiqchalikka asoslangan ifoda shakli sifatida emas, balki nutqning kommunikativ, emotsional va ekspressiv xususiyatlarini belgilovchi vosita sifatida o‘rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Shu boisdan, leksik pleonazmlarning tabiati, qo‘llanish konteksti va stilistik funksiyalarini izchil o‘rganish tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ashurova D.U., Galiyeva M.R. Stylistics of Literary Text. – Tashkent: Turon-Iqbol, 2016
2. Lakoff, J., & Johnson, M. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, 2003.
3. Yo‘ldosheva D. XXI asr o‘zbek dramaturgiyasida tavtologiya va pleonazmning lingvopragmatik, lingvokognitiv tahlili: Filol.fan.b.fals.dok. ...diss.avtoref. – Samarqand, 2025.
4. Аджибекова Г.Д. Место плеоназмов в системе средств языковой избыточности (на материале современного казахского языка) // Советская тюркология, 1982.
5. Гальперин И.Р. Очерки по стилистике английского языка. – Москва, 1958.
6. Қўнғуров Р. Субектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари – Тошкент: Фан, 1980.
7. Маҳкамов Н. Адабий норма ва плеоназм. – Тошкент: Фан, 1988.
8. Пардаев А.Б. Ўзбек тили ёрдамчи сўз туркумларининг лисоний тизимдаги ўрни ва лингвопрагматик таҳлили. Филол.фан. д-ри...дисс.автореф – Тошкент, 2017.
9. Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985.
10. Юсупова Р. “Тежамлилик ва ортиқчаликнинг лингвопоетик хусусиятлари” филология фанлари доктори (DSc) дисс. – Навоий, 2021.

FLIPPED LEARNING (TESKARI O‘QITISH) TEXNOLOGIYASI MOHIYATI VA TA’LIM JARAYONIDAGI O‘RNI

A.A.Ibragimov
pedagogika fanlari doktori, dots.
L.K.Hamidova
SamDU 2-bosqich doktoranti laylohamidova1991@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada teskari o‘qitish texnologiyasining mohiyati va uning ta’lim jarayonidagi o‘rni yoritilgan bo‘lib, o‘qituvchilarga qanday yangi imkoniyatlar yaratishini tahlil qilamiz.

Kalit so‘zlar: Teskari o‘qitish (Flipped Learning) texnologiyasi, an’anaviy o‘qitish, mustaqil ta’lim, videodars

Аннотация: В статье рассматривается суть технологии перевёрнутого обучения и её роль в образовательном процессе, а также анализируются новые возможности, которые она открывает для учителей.

Ключевые слова: технология перевёрнутого обучения, традиционное обучение, самостоятельное обучение, видеоуроки

Abstract: This article discusses the essence of flipped learning technology and its role in the educational process, and analyzes what new opportunities it creates for teachers.

Keywords: Flipped Learning technology, traditional teaching, independent learning, video lessons

Kirish. “Flipped Learning” texnologiyasi qisqa tarixga ega bo‘lib, ushbu strategiyani ishlab chiqish 1993-yilda boshlangan bo‘lib, unda maktabdan tashqarida kognitiv faoliyatni faollashtirish uchun ta’lim maydonini teskari aylantirish texnologiyasi taklif qilingan. Bu g‘oya o‘zaro ta’lim konsepsiyasi rivojlanishiga muhim hissa qo‘shgan Erik Mazur asarlarida ishlab chiqilgan. Bu esa ta’lim paradigmasining ta’siridan ko‘ra samaraliroq ekanligini ko‘rsatdi. E.Mazur tomonidan taqdim etilgan bu texnologiya axborot texnologiyalari va maxsus tanlangan dasturlardan foydalanish bo‘lib, ular o‘qituvchi tomonidan yangi materiallarni tushuntirish, uyda ma’ruza materiallarini o‘quvchilar uchun qulay bo‘lgan sur’atda qayta-qayta takrorlash imkonini beradi.

Xuddi shu g‘oya 2007-yilda Woodland Park High School (Vashington) kimyo o‘qituvchilari Jonatan Bergman va Aron Sams tomonidan ishlatilgan. Bunda talabalar o‘zlari uchun qulay bo‘lgan vaqtda ma’ruzalarning audio matnlarini mustaqil o‘rgangan bu esa taklif etilgan yondashuvni rivojlantirish va eksperimental sinovdan o‘tkazish uchun turtki bo‘ldi. Asosiy o‘quv materiallarini mustaqil o‘zlashtirish audiovizual didaktik vositalardan foydalanish asosida uyda amalga oshiriladi. Yangi bilim va ko‘nikmalarni amalda mustahkamlash o‘qituvchi rahbarligida auditoriyada ko‘pchilik tomonidan qo‘llab quvvatlanadi. Ushbu texnologiya uyda nazariy materiallarni shaxsiy templardan foydalangan xolda qulay vaqtda o‘rganishga imkon beradi. Auditoriya darslarida zarur ko‘nikmalar ishlab chiqiladi, tezkor o‘zgarishlar kiritiladi, mustaqil ish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar muhokama qilinadi.

Teskari sinf (ingl. *Flipped classroom)* — bu an’anaviy darsning aksi bo‘lib, o‘quvchilar nazariy materialni **uyda mustaqil o‘zlashtiradi**, darsda esa **amaliyot, tahlil, muhokama** orqali chuqurroq o‘rganish amalga oshiriladi. Bu yondashuv o‘quvchini faol ishtirokchi sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi.

Teskari sinf modeli (Flipped Classroom) – ta’lim jarayonining yangi yondashuvi bo‘lib, unda an’anaviy o‘qitish metodlari o‘zgartiriladi. Bu modelda o‘quvchilar uyda nazariy ma’lumotlarni o‘rganadilar va darsda o‘rganilgan materialni amaliyotga tatbiq etish, tahlil qilish, muhokama qilish va qo‘shimcha bilimlarni o‘zlashtirish uchun vaqt ajratiladi.

Teskari o‘qitish modelining mohiyati- teskari o‘qitish modeli o‘qituvchining darsdagi roli va o‘quvchining o‘rganish jarayonidagi o‘rni haqida yangi yondashuvni taklif etadi. Bu modelda:

1. ***Nazariy materialni uyda o‘rganish***-o‘quvchilar uyda, masalan, video darslar, maqolalar, interaktiv resurslar va boshqa onlayn materiallar orqali yangi mavzularni o‘rganadilar. Bu ularga o‘z vaqtida va o‘z sur'atida o‘rganishga imkoniyat yaratadi.

2. ***Darsda amaliyot va muhokama***-darsda esa o‘quvchilar yangi o‘rganilgan materialni amaliyotga tatbiq etishadi. O‘qituvchi darsda o‘quvchilarni yo‘naltiradi, ularning savollariga javob beradi va guruh ishlarini boshqaradi. O‘quvchilar guruhlarda ishlash, muhokama qilish, topshiriqlarni bajarish va yangi bilimlarni qo‘llash orqali o‘rganish jarayonini chuqurlashtiradilar.

O‘quvchilarning faolligi-teskari o‘qitish modelida o‘quvchilar darsda faqat passiv tinglovchilar emas, balki o‘rganish jarayonida faollashadilar. Ular darsda amaliy topshiriqlarni bajarish, guruh muhokamalarida ishtirok etish, baholashda qatnashish orqali o‘z bilimlarini mustahkamlashadi.

An’anaviy va teskari o‘qitish o‘rtasidagi farq

An’anaviy dars	Teskari dars
Nazariya darsda, uyga mashq beriladi	Nazariya uyda, darsda amaliyot bajariladi.
O‘qituvchi markazda	O‘quvchi markazda.
Passiv eshitish	Faol ishtirok, tahlil, fikr almashish.
Bir xil sur’at	Har kim o‘z sur’atida o‘rganadi.

Teskari o‘qitish modeli bosqichlari-teskari sinf (Flipped Classroom) sub-modelidan foydalanishda talabalar an’anaviy uy vazifasi o‘rniga saytdan tashqarida onlayn ta’limda qatnashadigan kurs yoki fan, so‘ngra yuzma-yuz, professor-o‘qituvchilar rahbarligidagi amaliyot yoki loyihalar uchun oliy ta’lim muassasasiga boradi. Tarkib va o‘qitishning birlamchi yetkazib berilishi onlayn bo‘lib, bu “Flipped Classroom”ni tungi vaqtda onlayn uy vazifasini bajarayotgan talabalardan ajratib turadi. Teskari sinfda o‘qitishga an’anaviy yondashuv teskari bo‘ladi. Dars vaqtida yangi mazmunni yetkazish va

amaliyot uchun uy vazifasini berish o‘rniga, o‘quv materiallari talabalarga dars boshlanishidan oldin taqdim etiladi. Bu talabalarga mazmun bilan o‘z tezligida tanishish imkonini berib, ko‘proq interaktiv va qiziqarli mashg‘ulotlar uchun qimmatli dars vaqtini bo‘shatadi. Darslarni teskari sinfda o‘tkazish jarayoni bir necha asosiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi

1. **Tayyorlov bosqichi**– o‘qituvchi videodarslar, slaydlar, maqolalar tayyorlaydi va o‘quvchilarga yuboradi.
2. **Mustaqil o‘zlashtirish** – o‘quvchilar uyda mazmunni o‘rganadi (onlayn platformalar orqali).
3. **Darsdagi faoliyat** – savol-javob, muammo yechish, loyiha va guruhli ishlar orqali chuqurlashtirish.
4. **Refleksiya va baholash** – yakuniy tahlil, fikr almashish va oraliq baholash.

Teskari o‘qitishda o‘qituvchi va o‘quvchi roli

O‘qituvchi	O‘quvchi
Rivojlantiruvchi muhit yaratadi	Mustaqil tayyorlanadi.
Faoliyatni boshqaradi	Savollar beradi, fikr bildiradi.
Resurslarni ishlab chiqadi	Tashabbus ko‘rsatadi, hamkorlikda ishlaydi.

Foydalaniladigan texnologik vositalar

- **Video darslar**: YouTube, Loom, Khan Academy.
- **Ta’lim platformalari**: Google Classroom, Moodle, Edmodo.
- **Interaktiv vositalar**: Kahoot, Mentimeter, Quizizz.
- **Muloqot vositalari**: Zoom, Teams, Telegram guruhlari.

Amaliy misollar: dars jarayonining tashkil etilishi

Misol: Biologiya darsi – “Inson yurak tuzilishi”

- Uyga vazifa: Yurak tuzilishi haqida video ko‘rish + infografika o‘rganish.
- Darsda: Guruhda yurak modellarini tahlil qilish, interaktiv savollar, amaliy topshiriqlar bajarish.
- Baholash: Test, viktorina, savol-javob.

Afzalliklari va pedagogik samaradorligi

Afzallik	Izoh
Faollik oshadi	O‘quvchilar ko‘proq savol beradi, muhokama qiladi.
Mustaqil o‘rganish	Har kim o‘z sur’atida o‘zlashtiradi.
Dars mazmuni chuqurlashadi	Vaqt asosan tahlil va muammoga sarflanadi.
Texnologiyalardan foydalaniladi	AKT ko‘nikmalari rivojlanadi.

Teskari o‘qitish modelining afzalliklari.

1. ***O‘quvchilarga o‘z-o‘zini boshqarish imkoniyati*** - o‘quvchilar o‘zlarining o‘rganish vaqtini va usulini tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu modelda o‘quvchilar o‘zlarining o‘rganish jarayonlarini o‘zlariga qulay bo‘lgan tarzda tashkil etishlari mumkin.
2. ***Faollashgan darslar*** - darsda o‘quvchilar ko‘proq faoliyatlar bilan shug‘ullanishadi. Bu ular uchun yanada samarali o‘rganish imkoniyatlarini yaratadi. O‘quvchilar darsda o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llash orqali aniq natijalarga erishadilar.
3. ***O‘qituvchining roli*** - o‘qituvchi nafaqat materialni taqdim etuvchi, balki o‘quvchilarning faoliyatini boshqaruvchi va yo‘naltiruvchi bo‘ladi. O‘qituvchi darsda individual yondashuvni ta’minlab, o‘quvchilarga individual yordam beradi.
4. ***Interfaollik va muhokama*** - o‘quvchilar darsda ko‘proq muloqotda bo‘lishadi. Ular o‘z fikrlarini ifodalashadi, guruhlarda ishlashadi va materialni tahlil qilishadi. Bu ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.
5. ***Mustahkamlash va takrorlash***- uyda o‘rganilgan material darsda amaliyot orqali mustahkamlanadi. Bu o‘quvchilar uchun yanada samarali o‘rganish imkoniyatini yaratadi.

Teskari o‘qitish modelining kamchiliklari.

1. ***Texnologik muammolar***- o‘quvchilarda internetga kirish, kompyuter yoki mobil qurilmalardan foydalanish imkoniyati bo‘lmasligi mumkin. Bu modelning samarali ishlashi uchun barcha o‘quvchilarning texnik vositalarga ega bo‘lishi muhim.

2. ***O‘quvchilarning mustaqillik darajasi*** -o‘quvchilar o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lishlari kerak. Barcha o‘quvchilar mustaqil o‘rganish jarayonini samarali boshqarishga tayyor bo‘lmasligi mumkin.

3. ***O‘qituvchilarning tayyorligi*** - o‘qituvchilar yangi metodologiyani o‘zlashtirish va onlayn resurslar yaratish uchun qo‘shimcha vaqt va kuch sarflashlari kerak. Ba’zi o‘qituvchilar uchun bu modelni joriy etish murakkab bo‘lishi mumkin.

Teskari o‘qitish modelini samarali joriy etish uchun quyidagi tavsiyalar mavjud.

1. ***Texnologiya va resurslarni ta’minlash***- o‘quvchilar va o‘qituvchilarni kerakli texnik vositalar bilan ta’minlash, onlayn ta’lim platformalaridan foydalanish imkoniyatini yaratish.

2. ***O‘quvchilarga yordam ko‘rsatish***- o‘qituvchi o‘quvchilarga uyda o‘rganish jarayonida yordam beradi, masalan, video darslar, qo‘llanmalar, forumlar va savol-javob sessiyalarini tashkil etish.

3. ***O‘qituvchilarni tayyorlash***- o‘qituvchilarni teskari o‘qitish modeli bo‘yicha tayyorlash, yangi metodologiya va texnologiyalarni joriy etishga yordam berish.

4. ***Interfaol faoliyatlar yaratish***- darsda interfaol faoliyatlar, guruh ishlari, vazifalar va testlar yordamida o‘quvchilarning faolligini oshirish.

Xulosa. *Teskari o‘qitish modeli*- ta’limda innovatsion yondashuvni ta’minlaydi, o‘quvchilarni mustaqil o‘rganishga undaydi va darsda faollikni oshiradi. Ushbu modelning muvaffaqiyatli ishlashi uchun texnologiyalar, o‘qituvchilarning tayyorligi va o‘quvchilarning mustaqilligi muhim omillardir. Bu model o‘quvchilarning o‘rganish samaradorligini oshiradi va o‘qituvchining rolini yangi darajaga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Холмиров Б. Ўқув жараёнини тескари синф (flipped classroom) технологияси асосида такомиллаштириш/ методик қўлланма/ – Т.: “Етакчи нашриёти”, 2024. – 32 б.

2. Янченко И.В. Смешанное обучение в вузе: от теории к практике//Современные проблемы науки и образования – 2016. – №5 ISSN 2070-7428

3. Shukshina T.I. [et. al] Practice-Oriented Teachers’ Training: Innovative Approach // International Journal of Environmental and Science Education. 2016. Vol. 11. No. 16. P. 9125 9135. URL: http://www.ijese.net/makale/1152

4. Castro, R. (2019). Blended learning in higher education: Trends and capabilities. Education and Information Technologies, 24(4), 2523-2546.

5. Bergmann J., Sams A. Flip your classroom: reach every student in every class every day. USA : International Society for Technology in Education, 2012. 120 p.

SUN’IY INTELLEKT: RIVOJLANISH BOSQICHLARI, QO‘LLANILISH SOHALARI VA KELAJAKDAKI IMKONIYATLAR

S.R.Ochilova
Qarshi davlat texnika universiteti Katta o’qituvchisi *E-mail: sojida.ochilova28@gmail.com*
B.B.Aktamova
Qarshi davlat texnika universiteti 2-bosqich talabasi *E-mail: aktamovabegoyim8@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining zamonaviy jamiyatdagi o‘rni va roli chuqur tahlil qilingan. SI’ning nazariy asoslari, rivojlanish bosqichlari hamda amaliy qo‘llanilishi — tibbiyot, ta’lim, sanoat, transport va kiberxavfsizlik kabi sohalardagi real misollar orqali yoritib berilgan. Tadqiqotda metodologik yondashuvlar asosida SI’ning samaradorligi, afzalliklari va mavjud muammolari o‘rganilgan. Ayniqsa, uning ijtimoiy va huquqiy jihatlari, axloqiy xavotirlari hamda kelajakdagi imkoniyatlari alohida tahlil qilingan. Maqola yakunida esa SI’ni barqaror va mas’uliyatli rivojlantirishga oid takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, Mashinaviy o‘rganish, Neyron tarmoqlar, Avtomatlashtirish, Raqamli texnologiyalar, Kelajak texnologiyalari.

KIRISH. XXI asr texnologik taraqqiyotining eng inqilobiy hodisalaridan biri bu — sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishidir. Inson tafakkuri, qaror qabul qilish, muammoni yechish va o‘rganish kabi kognitiv jarayonlarini texnik qurilmalar orqali taqlid qilish g‘oyasi uzoq yillar mobaynida

nazariy fikrlardan amaliy yechimlargacha o‘sib bordi. Bugungi kunda SI nafaqat ilmiy sohada, balki kundalik hayotda, iqtisodiyotda, ijtimoiy xizmatlarda, hatto huquqiy va siyosiy tizimlarda ham faol qo‘llanilmoqda. Sun’iy intellekt mobil ilovalar, ovozli yordamchilar, tavsiya tizimlari, sog‘liqni saqlashda kasalliklarni aniqlash, transportda avtonom boshqaruv kabi misollarda keng tatbiq topmoqda. Sun’iy intellekt tushunchasi o‘z ichiga turli texnologiyalarni oladi: mashinaviy o‘rganish, chuqur o‘rganish, neyron tarmoqlar, tabiiy tilni qayta ishlash, kompyuterli ko‘rish va boshqalar. Bu texnologiyalar bugungi kunda katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlash, murakkab qarorlar qabul qilish, tahdidlarni oldindan aniqlash va inson ishtirokini kamaytirgan holda avtomatlashtirilgan tizimlar yaratishga xizmat qilmoqda. Shu sababli, SI texnologiyalarining ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish bilan birga, ularning amaliy tatbiqi va ijtimoiy ta’sirini chuqur tahlil qilish zaruratga aylangan. Mazkur maqolada sun’iy intellektni o‘rganish uchun nazariy, tizimli, empirik va holatni o‘rganish (case-study) metodlari uyg‘unlashtirildi. Dastlab, Alan Tyuring, Norvig va Russell kabi yetuk SI nazariyotchilarining asarlari asosida sun’iy intellektning shakllanish bosqichlari tahlil qilindi. Shundan so‘ng, SI’ning sog‘liqni saqlash, ta’lim, sanoat, transport va kiberxavfsizlik kabi asosiy amaliy sohalardagi joriy holati va rivojlanish dinamikasi o‘rganildi. McKinsey, PwC, Statista va boshqa xalqaro tashkilotlar hisobotlariga asoslangan statistik tahlillar orqali SI texnologiyalarining iqtisodiy samaradorligi baholandi. Jumladan, McKinsey Global Institute tadqiqotiga ko‘ra, SI 2030-yilgacha global YIMga 13 trln AQSH dollari miqdorida hissa qo‘shishi kutilmoqda. Shuningdek, SWOT-tahlil asosida sun’iy intellektning kuchli va zaif tomonlari, kelajakdagi imkoniyatlari hamda xavf-xatarlari tahlil qilindi. Kuchli tomonlar sifatida yuqori ishlov berish tezligi, avtomatlashtirish qulayligi va yirik ma’lumotlar bilan ishlash qobiliyati ta’kidlandi. Zaif tomonlariga esa algoritmik xatoliklar, shaffoflik muammosi (black-box effekt) va texnologik beqarorlik kiradi. Kelajakdagi imkoniyatlar qatorida esa tibbiy diagnostika, ekologik monitoring, individual ta’lim tizimlari va intellektual robototexnikaning rivojlanishi qayd etildi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt noto‘g‘ri boshqarilsa, ish o‘rinlarining qisqarishi, shaxsiy hayot daxlsizligining buzilishi va algoritmik diskriminatsiya kabi xavf-xatarlar yuzaga chiqishi mumkin. Holat tahlili metodidan foydalangan holda IBM Watson Health, Google DeepMind (AlphaFold), Tesla, Duolingo kabi ilg‘or loyihalar misolida sun’iy intellektning amaliy natijalari va foydalari o‘rganildi. Bu misollar SI’ning sog‘liqni saqlashda kasalliklarni aniqlash, ta’limda o‘quvchilar ehtiyojiga moslashish, transportda xavfsiz harakatni ta’minlash va sanoatda ishlab chiqarishni optimallashtirish kabi yo‘nalishlarda katta muvaffaqiyatlarga erishayotganini ko‘rsatadi. Yuqoridagi barcha tahlillar va metodologik yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt insoniyat taraqqiyotining muhim omiliga aylanib bormoqda. Biroq bu jarayon bir vaqtning o‘zida ehtiyotkorlik, axloqiy mas’uliyat, texnologik savodxonlik va huquqiy asoslarni ham talab qiladi. Shu bois, SI’ni rivojlantirishda nafaqat texnik innovatsiyalar, balki ijtimoiy, madaniy va etik yondashuvlar ham muhim o‘rin tutadi. Tadqiqot davomida sun’iy intellekt texnologiyalarini chuqur o‘rganish uchun turli metodologik yondashuvlar uyg‘unlashtirildi. Avvalo, sun’iy intellekt tushunchasining nazariy asoslari aniqlanib, Alan Tyuring, Norvig va Russell kabi olimlarning qarashlari asosida SI texnologiyalarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari o‘rganildi. Shuningdek, mashinaviy o‘rganish, chuqur o‘rganish, neyron tarmoqlar, tabiiy tilni qayta ishlash va kompyuterli ko‘rish kabi zamonaviy yo‘nalishlar alohida tahlil qilindi. Ushbu komponentlarning har biri o‘z vazifasiga ega bo‘lib, SI tizimlarining amaliyotdagi qo‘llanilish samaradorligini belgilab beradi. Tahlilning keyingi bosqichida sun’iy intellekt texnologiyalarining turli sohalarda qanday tatbiq qilinayotgani tizimli yondashuv orqali tahlil qilindi. Sog‘liqni saqlash sohasida tibbiy tasvirlarni tahlil qilish, kasalliklarni erta aniqlash va robot-hirurgiya singari imkoniyatlar SI yordamida kengaymoqda. IBM Watson Health va DeepMind Health kabi ilg‘or loyihalar bu borada sezilarli natijalarga erishgan. Ta’lim sohasida esa sun’iy intellekt asosidagi moslashuvchan o‘quv tizimlari, avtomatik baholash vositalari va shaxsiylashtirilgan ta’lim platformalari o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ravishda xizmat qilmoqda. Sanoat sohasida ishlab chiqarish liniyalarini avtomatlashtirish, texnik xizmat ko‘rsatishni prognozlash, nosozliklarni oldindan aniqlash SI texnologiyalarining ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishdagi o‘rnini ko‘rsatadi. Transportda avtonom boshqaruv tizimlari (masalan, Tesla), logistika va yuk tashish tizimlarida yo‘nalishlarni optimallashtirish kabi amaliy yechimlar esa SI’ning real vaqtda samaradorligini isbotlaydi. Kiberxavfsizlik sohasida tahdidlarni aniqlovchi tizimlar, foydalanuvchi xatti-harakatini tahlil qiluvchi vositalar axborot muhofazasini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Empirik tahlillar asosida xalqaro tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlardan ham foydalanildi. Masalan, McKinsey Global Institute tadqiqotlariga ko‘ra, sun’iy intellekt texnologiyalari 2030-yilgacha global yalpi ichki mahsulotga 13 trillion AQSH dollari miqdorida hissa qo‘shishi mumkin. PwC hisob-kitoblariga ko‘ra, Yevropa davlatlarida sanoat unumdorligi SI tufayli 20–25 foizga oshadi. Statista

ma’lumotlariga qaraganda esa 2024-yil oxirigacha SI xizmatlariga bo‘lgan global sarmoya 500 milliard dollardan oshishi kutilmoqda. Bu statistik ko‘rsatkichlar texnologiyaning iqtisodiy salohiyatini aniq namoyon qiladi. Bundan tashqari, SWOT-tahlil orqali sun’iy intellekt texnologiyalarining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va xavf-xatarlari tahlil qilindi. Kuchli jihatlar sifatida hisoblash quvvatining yuqoriligi, real vaqt rejimida ishlash, avtomatlashtirish orqali inson mehnatini yengillashtirish kabi omillar ajralib turadi. Zaif tomonlariga esa yuqori xarajatlar, algoritmik shaffoflikning yetishmasligi, ma’lumotlarga bog‘liqlik kiradi. Kelajakda SI texnologiyalari tibbiy diagnostika, ekologik monitoring, intellektual ta’lim tizimlari kabi yangi sohalarda keng qo‘llanishi mumkin. Shu bilan birga, ish o‘rinlarining qisqarishi, algoritmik kamsitish, shaxsiy hayot daxlsizligiga tahdidlar kabi salbiy omillar ham mavjud bo‘lib, ularni bartaraf etish uchun huquqiy va axloqiy yondashuvlar zarurdir. Tadqiqot jarayonida holatni o‘rganish yondashuvi asosida bir nechta yirik loyihalar o‘rganildi. Masalan, IBM Watson Health tibbiyotda diagnostika sifatini oshirishga xizmat qilmoqda, Google AlphaFold oqsil molekulalarining strukturasini aniqlashda inqilobiy burilish yasadi, Tesla kompaniyasining avtonom boshqaruv tizimi esa transport xavfsizligida muhim bosqich hisoblanadi. Duolingo kabi platformalarda esa o‘quvchilarning bilim darajasiga qarab sun’iy intellekt yordamida moslashuvchan mashqlar taklif qilinmoqda. Yuqoridagi metodologik yondashuvlar asosida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalari jamiyat taraqqiyotining asosiy drayveriga aylanmoqda. Ular inson faoliyatini yengillashtirish, aniqlik va tezlikni oshirish, iqtisodiy samaradorlikni kuchaytirish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, bu texnologiyalarni ehtiyotkorlik bilan joriy etish, axloqiy va ijtimoiy muvozanatni saqlash, shuningdek, ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

XULOSA. Sun’iy intellekt bugungi globallashgan va raqamlashtirilgan jamiyatda strategik texnologiyalardan biriga aylangan. Ushbu tadqiqot davomida aniqlanishicha, SI nafaqat inson faoliyatini avtomatlashtirish va tezlashtirishda, balki murakkab muammolarni hal qilish, tahlil qilish va prognozlash imkonini ham taqdim etmoqda. Misol uchun, tibbiyotda kasalliklarni erta aniqlash, ta’limda individual yondashuv asosida o‘quv dasturlarini shakllantirish, sanoatda esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda SI texnologiyalari muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, tahlillar shuni ko‘rsatdiki, SI'ning rivojlanishi bilan bog‘liq axloqiy, ijtimoiy va huquqiy muammolar ham mavjud. Masalan, algoritmik xatoliklar, ma’lumotlar maxfiyligi, ish o‘rinlarining qisqarishi, diskriminatsiya xavfi kabi masalalar global darajada muhokama qilinmoqda. Shu sababli, SI'ni joriy etishda faqat texnik emas, balki inson manfaatlari va huquqlarini e’tiborga oluvchi yondashuv zarur..

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Russell, S., & Norvig, P. *Artificial Intelligence: A Modern Approach*. Pearson, 2021.
2. Turing, A.M. "Computing Machinery and Intelligence." *Mind*, 1950.
3. McKinsey Global Institute. *Artificial Intelligence Report*, 2023.
4. PwC. *AI and the Future of Work*, 2022.
5. Statista. *AI Market Size Forecast*, 2024.
6. IBM Watson Health — https://www.ibm.com/watson-health
7. DeepMind. *AlphaFold Project*, 2023.
8. Tesla Autopilot Overview — https://www.tesla.com/autopilot

O‘ZBEK VA TURK TILIDA BARQAROR BIRIKMALARNING QIYOSIY TAHLILI

D.K.Toshboeva
Ankara Hacı Bayram Veli Universiteti 2-bosqich magistratura talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda turk va o‘zbek tillaridagi barqaror birikmalar o‘rganilgan hamda ularning qiyosiy va tavsifiy metod yordamida tahlili amalga oshirilgan. Tadqiqotda ibora, maqol va qolip so‘zlar solishtirilib, ikki til o‘rtasidagi o‘xshashliklar va farqlar aniqlangan. Asosiy manba sifatida, turk tilini o‘rganish uchun mo‘ljallangan darsliklardan barqaror birikmalar to‘plami tanlab olinib, ular o‘zbek tilidagi ekvivalentlari bilan qiyoslangan. Natijalar ikki tilning barqaror birikmalari orasida madaniy va lingvistik jihatdan sezilarli o‘zaro ta’sirlar va farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Ushbu tadqiqot, turk tilini o‘rganayotganlar uchun barqaror birikmalarni chuqurroq tushunishga hamda ikki tilning o‘zaro ta’sirini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Barqoror birikmalar, Ibora, Maqol, So‘z-gaplar.

Аннотация: В данном тезисе изучены устойчивые словосочетания в турецком и узбекском языках с использованием сравнительного и описательного методов анализа. В исследовании сопоставлены идиомы, пословицы, шаблонные и устойчивые выражения, выявлены сходства и различия между двумя языками. В качестве основного материала был выбран корпус устойчивых словосочетаний из учебников, предназначенных для изучающих турецкий язык, которые были сопоставлены с эквивалентами в узбекском языке. Результаты показали существенное культурное и лингвистическое взаимовлияние и различия между устойчивыми словосочетаниями двух языков. Данное исследование способствует более глубокому пониманию устойчивых выражений для изучающих турецкий язык и выявлению межъязыковых связей.

Ключевые слова: Устойчивые выражения, Фразеологизм, Выражение, Пословица Словосочетания, Фразеологические единицы.

Abstract: This thesis examines stable expressions in the Turkish and Uzbek languages using comparative and descriptive methods of analysis. The study compares idioms, proverbs, fixed phrases, and formulaic expressions, identifying similarities and differences between the two languages. The primary material consists of a collection of stable expressions selected from textbooks designed for learners of Turkish, which were compared with their equivalents in Uzbek. The findings reveal significant cultural and linguistic interactions as well as differences between the stable expressions of the two languages. This research contributes to a deeper understanding of stable expressions for learners of Turkish and highlights the interlinguistic relationships between the two languages.

Keywords: Set expressions, Fixed expressions, Idiom, Phrase Proverb Phrases, Word combinations.

Tillarning lug‘at boyligi turli birliklardan tashkil topadi. Bu birliklarni ba’zan mustaqil tanlab gaplar tuza olamiz, ba’zan esa xotiramizda qolip holatida saqlangan birliklarni [2. 2008:B. 4] qo‘llaymiz. Bu qoliplashgan so‘zlar turg‘un birikmalar yoki barqaror birikmalar deb yuritiladi. Biz bu tadqiqodimizda “barqaror birkma” atamasini qo‘llashni afzal ko‘rdik. Barqaror birikmalar tilda umumiy hodisa hisoblanadi. Ya’ni bu ifodalar dunyodagi barcha tilda mavjud. Tildagi barqaror birikmalar xalqning tafakkuri, tarixiy tajribasi va axloqiy qadryatlarini aks ettiradi. Shuning uchun ham ularni o‘rganish va tahlil qilish nafaqat lingvistika, balki sotsiokulturologik nuqtai nazardan ham muhim ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqotda turk tilini o‘rganish uchun qo‘llaniladigan 4 dars kitobidagi ibora, maqol, ve qolip so‘zlar o‘rganilib o‘zbek va turk tillaridagi ma’no jihatdan qiyosiy tahlil qilindi hamda ularning o‘xshash va farqli tomonlari o‘rganildi. O‘zbek va turk tillari Oltoy til guruhiga mansub bo‘lsa-da, har birining gramatik jihatdan o‘ziga xos semantik, morfologik ve stilistik xususiyatlari mavjuddir.Tadqiqotda tavsifiy va qiyosiy metod qo‘llanildi. Bu metodlarning tanlanishidan maqsad barqaror birikmalarni izohlash va ikki tildagi xususiyatlarini taqqoslashdir.


Barqaror birikmalarning eng muhim mushtarak xususiyati bir nechta so‘zning birikib bir ma’no bildiradigan birlikka aylanishidir. Biroq bu birikmalar turli tillarda turlicha tasnif qilinadi. Turk tilidagi barqaror birikmalarni Go‘kdayi 1. maqol, 2. ibora, 3. ikkilama (juft-takror so‘zlar), 4. qo‘shma so‘zlar, 5. qolip so‘zlar (so‘z gaplar) shaklida, Taberog‘lu esa 1. iboralar, 2. vecize (hikmatli so‘z), 3. maqollar, 4. ikkilama (juft-takror so‘zlar), 5. duolar, 6. qarg‘ishlar, 7. hadislar, 8. Qur’on oyatlari kabi guruhlarga ajratadi. O‘zbek tilida barqaror birikmalarga 1. maqol, 2-ibora, 3-hikmatli so‘z kiradi. Bu birliklardan nutqda ko‘p uchraydiganlarini ya’ni ibora, maqol va so‘z gaplarni ikki tildagi o‘xshash va farqli tomonlarini ko‘rib o‘tamiz.

Rahmatullayev iboralarni “Odatda haqiqiy ma’nosidan tashqarida qo‘llaniladigan, ifodani yanada go‘zal va ta’sirli qiluvchi, jamiyat tomonidan umumiy tarzda qabul qilingan barqaror ifodalardir.” deb izohlaydi [5. 1970:B. 161]. Iboralar haqida bildirilgan fikrlar bir-biriga o‘xshashdir. O‘zbekcha va turkchada qo‘llanilishi va vazifalarida ham aytarli farq kuzatilmaydi. Faqat turk tilshunosligida barqaror birikmalar mavzusida muhim kitoblari bilan tanilgan O‘mer Asim Aksoy 1953 yildagi ilmiy ishlarida ba’zi bir so‘zdan iborat gittikçe (borgan sari), dog‘rusu (to‘g‘risini aytganda) va yana bir nechta so‘zni ibora sifatida tilga oladi. Mashhur tilshunoslardan yana biri Dog‘an Aksanda ham shunday firkrlarni uchratamiz. Ammo keyingi davrda yozilgan ishlarda bu qarashdan voz kechilganini ko‘rishimiz mumkin [6. 2008:B. 21]. Har ikki tilda ham iboralar nutqning ko‘rki va til boyligining belgisi sifatida qo‘llaniladi. Iboralarni ikki tilda ishlatilishiga e’tibor bersak, ularning bir-biriga o‘xshash hatto bir xil ko‘rinishda bo‘la turib tamoman farqli ma’nolarni bildiradiganlari ham uchraydi.

Maqollar bir jamiyatning dunyoqarashini, yashash sharoitini va ifoda boyligini aks ettirish bilan birgalikda bir tilda nasldan naslga meros bo‘lib o‘tadigan ma’noli ifodalardir [1. 2020:B. 33]. Turk

dunyosida XI asrning eng muhim asari sifatida bilingan “Devon-u lug‘otit turk” da turkiy tillarda hozirgacha qo‘llanilgan bir qancha barqaror birikmalar uchraydi. Ulardan biri *“Tag tagka kavushmas, kishi kishiye kavushur.”* maqolidir. Bu maqol turk tilida “*Dağ dağa kavuşmaz, insan insana kavuşur.*” o‘zbek tilida esa *“Tog‘ tog‘ bilan qovushmas, odam odam bilan qovushar.”* shaklida qo‘llaniladi. Sinanning ta’kidlashicha, tarix davomida turli mintaqalarda yashagan bo‘lishlariga qaramasdan, turkiy xalqlarning maqollarida namoyon bo‘ladigan umumiy tafakkur tarzlari aslida ularning bir xil ijtimoiy psixologiyani baham ko‘rganliklarini ko‘rsatadi. Maqollar vaqt o‘tishi bilan sayqallanib ma’no jihatdan boyib boradi va ularni yaratgan xalqning asrlar davomidagi hayoti va an’analarini aks ettiradi. Shu sababli maqollarning tarixiy ildizlarini aniqlash va ularning o‘rtaga chiqarish chuqur tarixiy bilimni talab qiladi.

Kundalik hayotda salomlashish, xayrlashish va xabarlashish kabi holatlarda qo‘llaniladigan, og‘zaki muloqotda keng qo‘llanilib, xalqning madaniyatida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan so‘zlar turk tilida qolip so‘zlar deyiladi. O‘zbek tilida esa bu kabi ifodalar so‘z-gaplar deb yuritiladi. Uydan chiqayotganda aytiladigan “yaxshi qoling”, ovqatlanyotganda dasturxon atrofidagilar uchun aytiladigan “yoqimli ishtaha” va bu kabi til birliklari gap bo‘laklariga ajratilmasdan jumla holida qabul qilinadi. Bu ifodalar barcha tillarda qo‘llaniladi. O‘zbek va turk tili qardosh til bo‘lsa ham shakl jihatdan o‘xshash qolip so‘zlar (so‘z-gaplar) kam uchraydi. Asosan, din sababli arabchadan tilimizga kirgan “Assalom-u alaykum”, “Olloh asrasin”, “tovba” va shu kabi so‘zlar ikki tilda ham shakl, ham ma’no tomondan o‘xshashdir. Quyidagi grafikda qiyoslangan barqaror birikmalarning ma’no jihatdan o‘xshashligi berilgan.



Tahlil qilingan 4 kitobda jami 645 iboradan 577 tasining o‘zbek tilida ham ibora shakli bor. 83 ta maqol o‘rganildi va ulardan 65 tasining o’zbek tilida ham maqol sifatida qo‘llanilishi aniqlandi. Qolip so’zlar shakl jihatdan farq qilsa da, grafikda ayni ma’noda qo’llaniladigan ifodalar soni yuqori chiqganini ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dog‘an Aksan. (2020). Her Yönüyle Dil. (7.baskı). TDK Yay.
2. Hurriyat Gökdayı. (2008). Türkçede Kalıp Sözler. Bilig, (44), 89-110.
3. To’ra Mirzayev va bshq. (2005). *O'zbek xalq maqollari* (1. baskı). Sharq.
4. Nejmiddin Öner. (2013). Dil üzerine. (2.Baskı). Divan kitap.
5. Shavkat Rahmatullayev. (1970). Nutqimiz ko‘rki. Fan.
6. Ahmet Turan Sinan. (2008). Deyim kavramı üzerine notlar-I. *Fırat Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi*, *18*(2), 91-98.

СОЛИҚ ИМТИЁЗЛАРИ ОРҚАЛИ ЧЎЛ ҲУДУДЛАРИДА ИҚТИСОДИЙ ЎСИШ

А.А.Акбаров
Тошкент давлат иқтисодиёт университети Мустақил тадқиқотчи
email: a.akmalxon.a@gmail.com ORCID:0009-0004-2876-4333 *+998974016836*

Аннотация: Мақолада Ўзбекистонда чўл ҳудудларида туризмни ривожлантиришнинг иқтисодий имкониятлари ва солиқ имтиёзларининг таъсири халқаро тажриба асосида таҳлил қилинган. БАА ва Марокаш каби давлатлардаги махсус туристик зоналар, фойда солиғидан озод қилиш мамлакат иқтисодиётига қандай ижобий таъсир кўрсатгани ўрганилган.

Калит сўзлар:

туризм, чўл ҳудудлари, солиқ имтиёзлари, халқаро тажриба, инфратузилма

Аннотация: В статье проанализированы экономические возможности развития туризма в пустынных регионах Узбекистана и влияние налоговых льгот на этот процесс на основе международного опыта. Изучено, как создание специальных туристических зон и освобождение от налога на прибыль в таких странах, как ОАЭ и Марокко, положительно сказалось на их экономике.

Ключевые слова: туризм, пустынные регионы, налоговые льготы, международный опыт, инфраструктура

Abstract: The article analyzes the economic opportunities for developing tourism in the desert regions of Uzbekistan and the impact of tax incentives based on international experience. It explores how the establishment of special tourism zones and exemption from profit tax in countries such as the UAE and Morocco has positively influenced their national economies.

Keywords: tourism, desert regions, tax incentives, international experience, infrastructure

КИРИШ. Хизматлар соҳасининг асосий бўғини сифатида туризм глобал иқтисодиётда муҳим ўрин тутади. У иқтисодий ривожланишнинг асосий драйверларидан бири бўлиб, янги иш ўринларини яратиш, инвестицияларни жалб қилиш ва давлат бюджетига солиқ тушумларини ошириш орқали мамлакатлар фаровонлигига бевосита ҳисса қўшади. Ўзбекистоннинг географик хусусиятлари, хусусан, мамлакат ҳудудининг 70 фоиздан ортиқ қисми иссиқ чўллардан иборатлиги (қишда совуқ бўлиши билан бирга) туризм соҳаси учун ҳам муайян чекловларни, ҳам ноёб имкониятларни яратади. Бу ҳолат, ўз навбатида, туризмнинг мавсумий хусусиятларини белгилаб беради [1. Солиев А.С ва бошқ. Минтақавий иқтисодиёт. - Т., Университет, 2003. Б.71.].

Мамлакат туризм соҳасини диверсификация қилиш ва минтақавий иқтисодиётни мустаҳкамлаш учун чўл ҳудудларида рекреацион туризмни ривожлантириш долзарб йўналишлардан биридир. Чўл ҳудудларининг кенглиги ва мавсумий ҳарорат ўзгаришлари дастлаб туризм ривожланиши учун табиий тўсиқ сифатида қаралса-да, Яқин Шарқ мамлакатлари, хусусан, Бирлашган Араб Амирликлари (БАА) ва Марокаш тажрибаси шуни кўрсатадики, чўлнинг ўзи ноёб туристик маҳсулотга айлантирилиши мумкин. Бу, мавсумий характерни камайтириш ва йил давомида сайёҳларни жалб қилиш учун стратегик йўналиш бўлиб хизмат қилиши мумкин, масалан, қишки чўл туризми, астрономик туризм ёки саргузашт туризми каби йўналишларни ривожлантириш орқали. Шу муносабат билан, чўл ҳудудларида туризмни ривожлантиришга қаратилган солиқ имтиёзлари бўйича хорижий тажрибани ўрганиш ва Ўзбекистондаги мавжуд вазиятни таҳлил қилиш мақсадга мувофиқдир.

МАВЗУГА ОИД АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ. Чўл туризмини ривожлантириш ва солиқ имтиёзлари самарадорлигини баҳолашда халқаро олимларнинг ишлари таҳлил қилинди.

Бошқа тармоқларга нисбатан туризм тез капитал айланувчи, иш ўринлари яратиш қобилияти юқори, валюта тушумини таъминловчи тармоқ сифатида таърифланади. Жаҳон банки маълумотларига кўра, ҳар бир 1 млн. долларлик инвестиция хизматлар соҳасида, хусусан, туризмда саноат ва қишлоқ хўжалигига қараганда икки баробар кўпроқ иш ўрни яратади [2. World Bank. Tourism for Development: 20 Reasons Sustainable Tourism Counts for Development, 2020, p.15].

Инвестицион муҳитга таъсир этувчи омиллардан бири сифатида **солиқ юки ва имтиёзлар** кўрсатилади. Тадқиқотлар кўрсатмоқдаки, туристик соҳадаги солиқ имтиёзлари нафақат фаолиятни қўллаб-қувватлайди, балки янги иштирокчиларни бозорга жалб қилади [3. Morisset, J. & Pirnia, N. How Tax Policy and Incentives Affect Investment, 2000. p.11]

Чўл ҳудудлари туризмнинг махсус формаси – экстремал, астрономик, этно-экологик туризм учун қулай платформа ҳисобланади. Бу йўналишда БАА, Австралия, АҚШнинг Аризона ва Невада штатлари тажрибаси кенг ўрганилган. Уларда чўллар фақат “ландшафт” эмас, балки туристик иқтисодий кластерлар сифатида ишлатилган [4. Hall, C. M. Tourism in the Middle East: Continuity, Change and Transformation. 2010, p.88].

ТАДҚИҚОТ МЕТОДОЛОГИЯСИ. Ўрганиш жараёнида таҳлил, статистик маълумотларни солиштириш ва таққослаш усулидан фойдаланилган. Шу билан бирга, илмий мушохада, қиёсий таҳлил усулларидан фойдаланилган.

ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР МУҲОКАМАСИ. Яқин Шарқ мамлакатлари чўл ҳудудларидан сайёҳлик мақсадида муваффақиятли фойдаланиб келмоқда. Бу борада БАА ва Марокашнинг тажрибаси алоҳида эътиборга лойиқ.

Дубайнинг жаҳон туризм марказига айланишида унинг эркин зона модели ҳал қилувчи роль ўйнади. Бу модель нафақат молиявий рағбатлантириш, балки соддалаштирилган бюрократия, ривожланган инфратузилма ва халқаро бизнес учун қулай муҳитни ҳам ўз ичига олади. Дубайда 0% фойда солиғи жорий этилган бўлиб, 2023 йилдан бошлаб фақат йирик компаниялар учун 9% солиқ жорий қилинган бўлса-да, бу ҳали ҳам жуда паст кўрсаткич ҳисобланади. Шунингдек, жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи мавжуд эмас, яъни корхона ишчилари иш ҳақи ёки дивидендлар учун солиқ тўламайди. Бундай солиқ сиёсати инвесторлар ва ишчилар учун жуда жозибадор муҳит яратди.

Туризм Дубай ва умуман БАА иқтисодиётидаги энг муҳим соҳалардан биридир. 2000 йилда туризм сектори ялпи ички маҳсулотнинг атиги 4,2 фоизини ташкил этган бўлса, 2019 йилда бу кўрсаткич тахминан 12 фоизга, 2022 йилда эса 14,4 фоизга етган. Бу кўрсаткичлар туризмнинг мамлакат иқтисодиётига қўшаётган ҳиссасининг доимий равишда ошиб бораётганини кўрсатади. World Travel & Tourist Council маълумотларига кўра, 2021 йилда БААда туризм секторидан тушган даромаднинг 57 фоизи Дубай ҳиссасига тўғри келган. 2023 йилда Дубайдаги сайёҳлар сони 18 миллиондан ошган. Бу натижалар солиқ имтиёзларининг шунчаки бир омил эмас, балки кенгроқ институционал ва сиёсий рамканинг бир қисми бўлиб, туризм соҳасида глобал марказни яратганлигини тасдиқлайди.

Дубайнинг юқори сифатли ва қиммат туризм хизматларига эътибор қаратиши, ҳатто сайёҳлар сони бўйича бошқа жойлар билан рақобатлашмаса ҳам, сезиларли даромад келтириши мумкинлигини кўрсатади. Бу ҳолат, Ўзбекистоннинг чўл туризмини ривожлантиришда нафақат оммавий туризмга, балки премиум сегментга ҳам эътибор қаратиш стратегиясини қўллаб-қувватлайди, чунки чўл туризми кўпинча саргузашт ва эксклюзив тажрибаларни изловчи сайёҳларни жалб қилади [5. БААнинг туризм бўйича очиқ портали https://www.visitdubai.com/ru/travel-trade/ (мурожаат қилинган сана 30.06.2025)].

Марокашда туризм ялпи ички маҳсулотнинг 7,5 фоизини ташкил этади ва унинг билвосита таъсирини ҳисобга олган ҳолда 12 фоизга етади [6. Институт Ближнего Востока расмий саҳифаси, http://www.iimes.ru/?p=26223 (мурожаат қилинган сана 30.06.2025)].

Бу қироллик иқтисодиётида фосфат ва фосфат маҳсулотларини қазиб олиш, ишлаб чиқариш ва экспортидан кейинги иккинчи муҳим тармоқдир. Марокашга 2024 йилда 17,4 миллион сайёҳ ташриф буюрган, бу ўтган йилга нисбатан 20 фоизга ўсишни англатади [7. Atalayar axborot agentligining rasmiy sahifasi https://www.atalayar.com/en/articulo/economy-and-business/morocco-breaks-its-tourism-record-with-174-million-visitors-in-2024/20250112190121209742.html (мурожаат қилинган сана 30.06.2025)].

Марокашда туризм соҳасида янги ташкил қилинган корхоналар 5 йил давомида фойда солиғидан озод қилинади. Шунингдек, 2015 йил 1 январдан 2022 йил 31 декабргача ташкил этилган корхоналар учун ойлик маоши 10 000 дирҳам *(918 АҚШ долл.)* ёки ундан кам бўлган 10 нафаргача ходимлар учун 2026 йил 1 январга қадар имтиёзлардан фойдаланиш ҳуқуқи берилган. Марокаш тажрибаси, айниқса, янги ташкил этилган корхоналарга берилган 5 йиллик фойда солиғидан озод қилиш ва иш ҳақи бўйича имтиёзлар, туризм соҳасида янги бизнес субъектларини шакллантириш ва уларнинг дастлабки ривожланиш босқичида молиявий юкини камайтиришга қаратилганлигини кўрсатади. Бу, Ўзбекистоннинг чўл ҳудудларида туризм инфратузилмасини қуриш ва хизмат кўрсатишни бошлаш учун кичик ва ўрта тадбиркорликни рағбатлантиришда самарали бўлиши мумкин [8. “ИА Красная Весна” axborot agentligining rasmiy sahifasi - https://rossaprimavera.ru/news/afd1e1eb (мурожаат қилинган сана 30.06.2025)].

Туризмни ривожлантириш афзалликларига чет эл капитали оқимининг ялпи ички махсулотнинг ошиши, янги иш жойларининг яратилиши, инвестициялар, шу жумладан, чет эл инвестицияларининг жалб килиниши, бюджетига солиқ тушумларининг ошиши киради.

1-жадвалдаги маълумотларни умумий таҳлил қилганда, иккита асосий даврни ажратиб кўрсатиш мумкин [9. Статистика агентлиги ва Солиқ қўмитасининг очиқ портал маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси].

2020-2021 йиллар *(Пандемия Таъсири)* COVID-19 пандемияси сабабли чегараларнинг ёпилиши натижасида 2020 йилда хорижий туристлар сони 2019 йилга нисбатан 77,6% га, туризм хизматлари экспорти эса 80,5% га кескин камайган. 2022-2023 йиллар *(Тикланиш даври)* 2022 йилдан бошлаб соҳада жуда тез тикланиш кузатилган. Айниқса, 2023 йилга келиб аксарият кўрсаткичлар пандемиядан олдинги 2019 йил даражасига нафақат етиб, балки ундан ошиб ҳам

кетган. Бу, ўз навбатида, ҳукумат томонидан соҳани қўллаб-қувватлаш учун кўрилган чора-тадбирлар, жумладан, солиқ имтиёзлари самара берганидан далолат беради.

2019 йилда 6,7 млн кишини ташкил этган бўлса, 2023 йилда 6,6 млн кишига етиб, деярли тўлиқ тикланди. Туризм хизматлари экспорти 2019 йилда 1 313,0 млн АҚШ долларини ташкил этган бўлса, 2022 йилда бу кўрсаткич 1 609 млн АҚШ долларига, 2023 йилда эса 2 143,0 млн АҚШ долларига етган. 2023 йилда туристлар сони 2019 йилга нисбатан бироз камроқ бўлишига қарамай, улардан олинган даромад 63% га ошган. Ушбу ҳолатни, туризм инфратузилманинг ривожланиши ва Ўзбекистоннинг юқори даромадли сайёҳлар учун жозибадорлиги ортганини, қимматроқ ва сифатли хизматлар таклиф этила бошланганини билдиради.

Пандемияга қарамай, меҳмонхоналар сони 2019 йилдаги 1 051 тадан 2023 йилда 1 387 тагача, яъни 32%га ўсган. Бу инвесторларнинг соҳа келажагига ишончи юқорилигини ва давлат томонидан яратилган шароитлар *(жумладан, солиқ имтиёзлари)* янги бизнес субъектларининг очилишига туртки бўлганини кўрсатади.

Санатория-курорт муассасалари 2021 йилда кескин пасайишни бошдан кечирган *(328 та),* лекин 2023 йилга келиб 591 тага етиб, нафақат тикланган, балки 2019 йилга нисбатан 16%га ўсган. Бу ички ва тиббий туризмга бўлган эътиборнинг кучайганини кўрсатмоқда. Жойлаштириш ўринлари сони 2019 йилдаги 46,7 мингдан 2023 йилда 69,7 минггача *(49%га)* ошган. Бу инфратузилманинг сифат жиҳатдан ҳам, сон жиҳатдан ҳам ўсганини англатади. Дам олиш ташкилотларидаги жойлар сонида тескари тенденция кузатилмоқда. 2019 йилдаги 33,5 минг ўрин 2023 йилда 16,9 минггача *(49,5%га)* камайган.

1-жадвал. 2019 – 2023 йилларда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳаси кўрсаткичлари

Т/р	Кўрсаткичлар	Йиллар				
		2019	2020	2021	2022	2023
1	Ўзбекистонга ташриф буюрган тутилган хорижий туристлар сони (минг киши)	6,7	1,5	1,9	5,2	6,6
2	Туризм хизматларининг экспорти (млн. АҚШ доллари)	1313	255,8	422,1	1609,8	2143,1
4	Меҳмонхоналар ва шу каби жойлаштириш воситалари сони (дона)	1051	1156	1085	1167	1387
5	Санатория-курорт муассасалари ва дам олиш ташкилотлари объектлари сони	509	494	328	405	591
6	Жойлаштириш воситаларидаги ўринлари сони (минг)	46,7	50,4	43,5	59,3	69,7
7	Дам олиш ташкилотлари ва туристик базаларида жойлар сони (минг)	33,5	29,6	27,3	24,5	16,9
8	Фойдаланилган солиқ имтиёзлари (млрд.сўм)	120,8	84,5	136,6	176,0	290,0

2019 йилда соҳада фойдаланилган солиқ имтиёзлари миқдори 120,8 млрд сўмни ташкил этган. Инқирозли 2020 йилда бу кўрсаткич *(фаолият ҳажмининг камайиши ҳисобига)* 84,5 млрд сўмга тушган. 2022 йилда 176,0 млрд сўмга, 2023 йилда эса 290,0 млрд сўмга етган. 2019 йилдан 2023 йилгача солиқ имтиёзларидан фойдаланиш ҳажми 2,4 баробарга ошган. Буни туризм экспортининг 2019 йилдаги 1 313,0 млн АҚШ долларидан 2023 йилда 2 143,0 млн АҚШ долларигача, яъни 1,6 баробарга ўсиши билан бевосита боғлаш мумкин. Бу икки кўрсаткич ўртасидаги кучли ижобий корреляция солиқ имтиёзларининг соҳа ривожланиши учун кучли рағбатлантирувчи омил бўлганини исботлайди.

Қисқача жадвал бўйича қуйидагича хулоса қилишимиз мумкинки, солиқ имтиёзлари тадбиркорларнинг ихтиёрида кўпроқ маблағ қолдириб, уни бизнесни кенгайтириш, хизматлар сифатини ошириш ва янги иш ўринлари яратишга йўналтириш имконини берган, инқироз даврида корхоналарнинг "сувда қолишига" ва банкротликка учрамаслигига ёрдам берган ва соҳага янги инвесторларни жалб қилишда муҳим рол ўйнаган.

Ўзбекистонда чўл туризмини ривожлантириш мамлакат иқтисодиёти учун янги даромад манбаи бўлиб хизмат қилиши мумкин. Бунда хорижий тажрибадан олинган сабоқлар ва миллий туризм секторининг сўнгги йиллардаги динамикаси муҳим аҳамиятга эга.

ХУЛОСА ВА ТАВСИЯЛАР. Ўзбекистоннинг чўл ҳудудларида туризмни ривожлантириш мамлакат иқтисодиёти учун янги ва муҳим даромад манбаи бўлиб хизмат қилиш учун катта салоҳиятга эга. Халқаро тажриба, хусусан, БАА ва Марокаш мисоллари, солиқ имтиёзлари ва комплекс сиёсатнинг туризм ривожланишидаги ҳал қилувчи ролини яққол тасдиқлайди.

Ушбу таҳлил асосида Ўзбекистонда чўл туризмини янада ривожлантириш ва солиқ имтиёзлари сиёсатини такомиллаштириш бўйича қуйидаги тавсиялар ишлаб чиқилди:

Чўл туризми инфратузилмасини ривожлантиришга қаратилган 2030 йил 1 январгача бўлган муддатда қуйидаги солиқ имтиёзларини жорий этиш:

- чўл ҳудудларида туристик хизматларни кўрсатувчи курорт зоналарини *(тоифали меҳмонхоналар, SPA-меҳмонхоналар, санаторий ва пансионатлар)* ташкил қилган тадбиркорлик субъектлари фойда солиғини ва юридик шахслардан олинадиган ер солиғини ушбу солиқлар бўйича белгиланган солиқ ставкаларига нисбатан 50 фоизга камайтирилган солиқ ставкалари бўйича тўлаши;

- чўл ҳудудларида тематик хиёбонларни ташкил қилган юридик шахслар тематик хиёбонлар юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқни ва юридик шахслардан олинадиган ер солиғини ушбу солиқлар бўйича белгиланган солиқ ставкаларига нисбатан 50 фоизга камайтирилган солиқ ставкалари бўйича тўлаши.

Маҳаллий аҳолини туризм соҳасига жалб қилиш ва уларнинг малакасини оширишга қаратилган корхоналар учун иш ҳақи бўйича имтиёзлар (*Марокаш тажрибаси каби)* жорий этиш.

Ушбу тавсияларнинг амалга оширилиши Ўзбекистонда чўл туризмининг барқарор ва комплекс ривожланишига хизмат қилиб, мамлакатнинг умумий туризм салоҳиятини оширишга ва минтақавий иқтисодиётни мустаҳкамлашга муҳим ҳисса қўшади.

O‘ZBEKISTONDA TASHKEL QILINGAN QO‘RIQXONALARI VA ULARDA KO‘PAYTIRILAYOTGAN NOYOB UMURTQALI HAYVONLAR

O.O.Hasanov
O‘zbekiston-Finlandiya Pedagogika Instituti Tabiiy fanlar fakulteti biologiya yunalishi talabasi

Kalit so‘zlar: qo‘riqxona,umurtqali hayvonlar,sutemizuvchilar, qushlar,baliqlar,muhofaza,Buxoro bug‘usi,Qizil kitob.

Keywords: nature reserve, vertebrate animals, mammals, birds, fish, conservation, Bukhara deer, Red Book.

Ключевые слова: заповедник, позвоночные животные, млекопитающие, птицы, рыбы, охрана, бухарский олень, Красная книга.

Annotatsiya.O‘zbekistonda tashkil etilgan qo‘riqxonalarning faoli yati hamda ular orqali noyob hayvon turlarini saqlashga qaratilgan choralarning mazmuni yoritilgan.Qo‘riqxonalar tabiiy muhitni asrash va hayvonot dunyosini muhofaza qilishda muhim ahamiyat kasb etishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Annotation. The activities of nature reserves established in Uzbekistan and the measures aimed at preserving rare animal species through them are highlighted. The significant role of nature reserves in protecting the natural environment and conserving wildlife is emphasized.

Аннотация. Освещена деятельность заповедников, созданных в Узбекистане, а также суть мер, направленных на сохранение редких видов животных через эти заповедники. Показано важное значение заповедников в охране природной среды и защите животного мира.

Kirish.O‘zbekistonning geografik joylashuvi va iqlimiy sharoiti mam-lakatimizda noyob va yo‘qolib borayotgan umurtqali hayvon turlarining mavjud-ligiga zamin yaratgan. Tabiiy boyliklarni asrab-avaylash va hayvonot dunyosining biologik xilma-xilligini saqlab qolish maqsadida bir qator qo‘riq-xonalar tashkil etilgan.

Asosiy qisim. Bugungi kunga kelib O‘zbekistonda 8ta davlat qo‘riqxonasi faoliyat yuritmoqda. O‘zbekiston davlat qo‘riqxonalari tabiatni muhofaza qilishning eng muhim shakllaridan biri bo‘lib, ularning asosiy vazifasi noyob va yo‘qolib borayotgan o‘simlik hamda hayvon turlarini, tabiiy landshaftlarni asrab-avaylashdir. Qo‘riqxonalar inson faoliyatining salbiy ta’siridan holi bo‘lgan hududlar hisoblanib, u yerda har qanday xo‘jalik faoliyati taqiqlanadi. Bu joylar ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish, ekologik

barqarorlikni saqlash va biologik xilma-xillikni asrash maqsadida tashkil etilgan.Qo‘riqxonalarda olib boriladigan sun’iy ko‘pay tirish va monitoring ishlari orqali tabiatdagi o‘zgarishlar o‘rganiladi, kamyob turlarni saqlab qolish strategiyalari ishlab chiqiladi.Masalan: Buxoro bug‘usi sun’iy ko‘paytirish orqali Qizilqum va Zarafshon qo‘riq xonalarida muvaffaqiyatli ko‘paytirilmoqda. 2021-yilda “Baday-to‘qay” dan 4 bosh Buxoro bug‘usi “Xorazm” milliy tabiat bog‘iga ko‘chirildi va hozirda ularni iqlimlashtirish ishlari davom etmoqda.

Jayron populyatsiyasini tiklash bo‘yicha Buxoro ixtisoslashgan pitomnigi faoliyat yuritmoqda. 1977-yildan boshlab jayronlar ko‘pay tirilib, ularning soni 1225 taga yetdi va reja asosida qo‘shni hududlarga tarqatildi. Monitoring usullari sifatida qo‘riqxonalarda fotoqopqonlar, GPS kuzatuv tizimlari, genetik tahlillar va dron yordamida kuzatuv kabi zamonaviy usullar qo‘llanilmoqda. Shuningdek, bu hududlar ekologik ta’lim va targ‘ibot ishlari uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. [3,2022]. Asosiy qo‘riqxonalar va ular haqida ma’lumot:

Qizilqum davlat qo'riqxonasi 1971- yili Qizilqum o'rmon xo'jaligi negizida qumli-to'qayzorlar ekologik tizimini, u yerda mavjud bo’lgan biologik xilma-xillikni saqlab qolish maqsadida tashkil etilgan bolib, uning yer maydoni 10311 gektardan iborat.Qo'riqxona hayvonot olamiga juda boy, qiziqarli va xilma-xildir. So'ngi hisob-kitoblarga ko'ra, qo'riqxona hududida 358 turdagi umurtqalilar oilasiga kiruvchi hayvonot olami mavjud bo'lib, shulardan 25 turdagi baliqlar, 29 turdagi sudralib yuruvchilar, 266 turdagi qushlar, 36 turdagi sut emizuvchilar borligi aniqlangan. 45tur hayvon O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan .[4,2024]

Qo'riqxonada ikki turdagi Amudaryo va Xiva qirg'ovullari istiqomat qiladi. Bu yerda Xalqaro va O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitob"iga kiritilgan sut emizuvchilardan Buxoro bug’usi va jayron, qushlardan - pelikan, kichik karavayka, marrmay churrak, yo'rg'a tuvaloq, uzundumli suv burguti, baliqiardan - kichik amudaryo kurrakburuni, katta amudaryo kurrakburuni uchraydi.Bulardan tashqari O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kirgan kichik ko'k qarqara, qoshiq burun, oq va qora laylaklarni ham uchratish mumkin.[2,2023]

"Kitob” davlat qo‘riqxonasi Zarafshon tizma tog‘larining g‘arbiy qismida 1979-yilda tashkil etilgan. Bu yerda yurtimizdagi noyob o‘simlik va hayvonlar muhofaza qilinadi. 4 ming gektarlik hududida sutemizuvchi larning 21 turi, sudralib yuruvchilarning 14 turi, suvda va quruqlikda yashovchilarning 2 turi, baliqlarning esa 3 turi mavjud.Ushbu qo‘riq xonada hududimizda kam uchraydiga ko‘k qush (Myophonus caerules Scop)ni uchratishimiz mumkin.[7,2024]

Zomin davlat qòriqxonasi Respublikamizdagi eng qadiymiy qòriqxonalardan biri bòlib Sut emizuvchilarning 37 turi, sudralib yuruvchilarning 8 tur va baliq-larning 1 turi tavsiflangan. Qo'riqxona hududida O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan turkiston silovsini, oq tirnoqli ayiq, arhar, bars, bo'ri, bo'rsiq, tulki, jayra, to‘ng‘iz kabi hayvonlar yashaydi.[4,2024]

Zarafshon davlat Qo‘riqxonasi 1975-yilda Samarqand vilo-yatida tashkil etilgan.Maydoni 2518 gektar bo‘lib, Jomboy va Bulung‘ur tumanlari hududini qamrab oladi.18 xildagi baliq, 2 xil suvda va quruqda ya-shovchi jonivorlar, 8 xildagi sudralib yuruvchilar, 207 xildan ortiq qush va 24 xildagi sutemizuvchidan iborat.Bo‘ri jayron turli suv qushlarini uchratish mumkin.Qo‘riqxonada Buxoro bug‘usini ko ‘paytirish choralari ko‘rilmoqda.[4,2024]

Nurota qo’riqxonasi 1973 yil tashkil etilgan va o’zining amaliy faoliyatini 1975 yildan boshlagan.Umurtqali hayvonlar sirasidan joy olgan 1 turdagi baliq, 1 turdagi amfibiya, 21 turdagi reptiliya, 196 turdagi qushlar (shu jumladan 103 tur in quradigan) va 34 turdagi sut emizuvchilar bilan namoyon bo’ladi. Ulardan 3 turi reptiliyalar, 10 turi in quradigan, 8 turi uchib utuvchi qushlar, 4 turi sut emizuvchilar O’zbekiston “Qizil kitobi”ga kiritilgan.[2,2023]

Surxon davlat qòriqxonasi 1971- yil xalqaro va O'zbekiston Respublikasining "Qizil kitobi"dan o'rin olgan Buxoro bug'usi (Xongul)ni vodiy-to'qayzorlarida saqlab qolish maqsadida tashkil etilgan. Hayvonot olami xilma-xil: 60 turdagi sutemizuvchilar, 290 turdagi qushlar Surxon davlat qo'riqxonasida istiqomat qiladi. Bulardan Buxoro qo'yi, Marxur, jayron, Turkiston silovsini, echkiemar, kapcha ilon, Turkiston oq laylagi, qora laylak, burgut, boltayutar, oq boshli qumoy, tasqara, ilonburgut va mallabosh lochinlar xalqaro va O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitob"iga kiritilgandir.[2,2023]

Hisor davlat qo‘riqxonasi Qashqadaryo viloyatida joylashgan. U O'zbekiston qo‘riqxonalari orasida eng kattasi hisoblanadi, uning maydoni 80,9 ming gektarga teng.Hisor davlat qo‘riqxonasi 1983-yilda Qizilsuy tog'-o'rmon qo‘riqxonasi Miraka bilan birlashishi natijasida paydo bo'lgan. Bu yerda O'rta Osiyo kobrasi, qor barsi va boshqa hayvonlar qo'riqlanadi.[6].

Chotqol qo‘riqxonasi 1947 yilda tashkil qilingan va Toshkent viloyati hu-dudida joylashgan.Qo‘riqxona Chotqol tog‘ tizmasining g‘arbiy qismida joylashgan. Qo‘riqxona hududida tog‘ qo‘yi, yovoyi cho‘chqa(qobon),turkuston silovsini, ko‘k sug‘ur, garnatsoy, relikt yumronqoziq, qor barsi(ibris),kabi hayvonlar muhofazaga olingan. [1,175b,2018]

Xulosa.O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan qo‘riqxonalar biologik xilma xillikni, xususan, noyob umurtqali hayvon turlarini muhofaza qilishda muhim ekologik va ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu muassasalar tabiiy ekotizimlarning barqarorligini ta’minlash, ilmiy tadqiqotlar olib bor ish va ekologik madaniyatni shakllantirishda muhim rol o‘ynamoqda. Tavsiyalar: Qo‘riqlanadigan hududlar maydonini kengaytirish va ularni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash; – Ilmiy tadqiqot va monitoring ishlarini tizimlashtirish;Aholi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida ekologik tarbiya viy ishlarni kuchaytirish.

Foydalanilgan adabyotlar.

1. Biologiya darsligi (11-sinf). (2018). Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi.
2. Gotrip.uz. (2023). *O‘zbekiston qo‘riqxonalari haqida umumiy sharh*. gotrip.uz.
3. Lex.uz. (2022). *O‘zbekiston Respublikasi Qo‘riqlanadigan hududlar to‘g‘risidagi qonun*. Lex.uz rasmiy hujjatlar bazasi.
4. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi. (2024). *O‘zbekiston davlat qo‘riq xonalari to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plami*. eco.gov.uz.
5. Qizil kitob (O‘zbekiston Respublikasi). (2019). Toshkent: Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi.
6. Qodirov, S., & Xamidov, N. (2020). *O‘zbekistonning ekologik muhofaza qilinadigan hududlari*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
7. Sharifmurodov, K., Madjidova, D., & Umarkulova, F. (2024). *Kitob davlat geologik qo‘riqxonasi faunasi*. Ilmiy maqola.
8. Xoldarov, X. (2021). *O‘zbekiston qo‘riqxonalari va ularning ekologik ahamiyati*. *Oriental Journal of Environmental Studies*, 603–606.

VATANPARVARLIK QADRIYATLARINI SHAKLLANTIRISHGA OID XORIJIY TAJRIBALAR

J.N.Seitkasimov
Nukus davlat pedagogika instituti 3-bosqich tayanch doktaranti

Annotatsiya: Mamlakatlar o‘rtasidagi madaniy, tarixiy va geografik farqlarga qaramay, ularning barchasi yoshlarda ham, umuman jamiyatda ham vatanparvarlikni tarbiyalashda o‘xshash muammolarga duch kelmoqda. Boshqa mamlakatlarning yuzaga keladigan muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish usullarining qo‘llanilishini o‘rganish o‘z fuqarolarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning milliy strategiyasini ishlab chiqishga, o‘z amaliyotini yuqori samaradorlik ko‘rsatkichlariga olib kelib, dunyodagi o‘zgarishlarga moslashuvchan tarzda javob berishga yordam berishi mumkin.

Аннотация: Несмотря на культурные, исторические и географические различия между странами, все они сталкиваются со схожими проблемами в воспитании патриотизма у молодежи и в обществе в целом. Изучение применения методов успешного решения возникающих проблем других стран может помочь разработать национальную стратегию воспитания своих граждан в духе патриотизма, доведения ее практики до высоких показателей эффективности, гибкого реагирования на изменения в мире.

Annotation: Despite the cultural, historical and geographical differences between countries, they all face similar problems in raising patriotism in youth and in society as a whole. Studying the application of methods for successfully solving emerging problems in other countries can help develop a national strategy for raising citizens in the spirit of patriotism, bringing its practice to high efficiency rates, and flexible response to changes in the world.

Kalit so'zlar: Vatan, vatanparvar, vatanparvarlik, davlat, jamiyat, shaxs.
Ключевые слова: Родина, патриот, патриотизм, государство, общество, личность.
Key words: Homeland, patriot, patriotism, country, society, personality.

Mamlakatlar o‘rtasidagi madaniy, tarixiy va geografik farqlarga qaramay, ularning barchasi yoshlarda ham, umuman jamiyatda ham vatanparvarlikni tarbiyalashda o‘xshash muammolarga duch kelmoqda. Boshqa mamlakatlarning yuzaga keladigan muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish usullarining qo‘llanilishini o‘rganish o‘z fuqarolarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning milliy strategiyasini ishlab chiqishga, o‘z amaliyotini yuqori samaradorlik ko‘rsatkichlariga olib kelib, dunyodagi o‘zgarishlarga moslashuvchan tarzda javob berishga yordam berishi mumkin.

Vatanparvarlik tarbiyasining xalqaro tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlariga qiziqish ayniqsa kuchaydi. Davr talabi, yangi ijtimoiy va siyosiy talab aksariyat mamlakatlarni nafaqat o‘z fuqarolarida o‘z mamlakati bilan faxrlanish va unga muhabbat tuyg‘usini tarbiyalashga, balki uni boshqa mamlakatlar va xalqlar manfaatlarini hisobga olmagan holda himoya qilish zarurligiga qaratilgan dasturlarni joriy etish va takomillashtirishga majbur qildi.

Zamonaviy dunyoning asosiy mamlakatlaridan bo‘lgan AQSH, Xitoy, Rossiya mamlakatlarining vatanparvarlik tarbiyasi tajribasiga murojaat qilamiz.

Vatanparvarlikni tarbiyalash bo‘yicha AQSh tajribasi O‘zbekiston nazariyasi va amaliyoti uchun quyidagi sabablarga ko‘ra foydalidir: a) mamlakatlarimizning ko‘p madaniyatliligi jihatidan o‘xshashligi, bu esa «turli millat, konfessiya va madaniyat vakillarini yagona davlat fuqarolari sifatida tarbiyalash va o‘qitish muammosini dolzarblashtiradi» [1, B. 59-62]; b) o‘quvchi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo‘yicha yetarlicha boy pedagogik tajribaning mavjudligi. Bugungi kunda AQShning dunyodagi o‘rni ancha ziddiyatli. Bir tomondan, AQSh davlati xalqaro va harbiy mojarolarni keltirib chiqarib, «jahon jandarmi»ning yetakchi mavqeini egallashga intilmoqda. Boshqa tomondan, Amerika Qo‘shma Shtatlari o‘z fuqarolarining ravnaqi va farovonligini ta’minlaydigan dunyodagi eng yirik iqtisodiyotlardan biridir. Xalqning bu ishonchi, o‘zining noyobligi va yengilmasligiga ishonchi nimaga asoslanadi? Avvalo, bu yuksak tuyg‘ular zamirida fuqarolarning vatanparvarligi yotadi. Ko‘pchilik Amerika vatanparvarligi noyob hodisa ekanligini ta’kidlaydi. Amerikaliklarning vatanparvarligi etnik, milliy yoki til asosiga ega emas. Amerika vatanparvarligining mohiyati «Novus Ordo Seclorum»da (so‘zma-so‘z «Yangi asrlar tartibi») - Amerika demokratik qadriyatlarining ustunligiga ishonchdir. U kelajakka qaratilgan, o‘tmishdan ideal izlamaydi.

AQShda doimiy ravishda o‘tkaziladigan ijtimoiy so‘rovlar shuni ko‘rsatadiki, amerikaliklarning taxminan to‘rtdan uch qismi o‘z mamlakati bilan faxrlanadi [2, B. URL://https:// www.statista.com/topics/2482/patriotism-in-the-us/]. Amerikaliklarning taxminan yarmi o‘z uyini milliy bayroq bilan bezatadi, haydovchilarning 15-20 foizi avtomobilga Amerika bayrog‘ini o‘rnatadi. AQShda vatanparvarlik namoyishlarini hokimiyat organlari emas, balki dunyoning aksariyat mamlakatlaridan farqli o‘laroq, amerikaliklarning o‘zlari uyushtirmoqda. Bunday tadbirlarda ishtirok etish ixtiyoriydir, shunga qaramay, AQShda ular yetarlicha mashhur bo‘lib, o‘nlab va yuz minglab ishtirokchilarni to‘playdi.

Vatanparvarlikning markaziy g‘oyalari erkinlik, tenglik va adolat tamoyillari hisoblanadi. Amerikalik faylasuf M.Adlerning ta’kidlashicha, aynan «... jamiyatimiz hayoti ana shu uch g‘oya asosiga quriladi. Ular insoniyat hozirda erishishga intilayotgan va kelajakda o‘z avlodlariga yetkazmoqchi bo‘lgan g‘oyalarni ifodalaydi» [3, B. 22]. Vatanparvar shaxsning xarakter xislatlari mardlik, mas’uliyat, ta’sischilar oldida minnatdorlik, umumiy manfaati yo‘lida fidoyilikdir. Amerika xalqining o‘z-o‘zini anglashi adolatning alohida shakli sifatida Amerika milliy g‘oyasining o‘ziga xosligini nazarda tutadi, bu esa hal qiluvchi qarorlar qabul qilish jarayonida amerikalik bo‘lmagan boshqa odamlarning fikrini hisobga olmaslikka imkon beradi.

Birinchi sinfdan boshlab, darslar boshlanishidan oldin, amerikalik o‘quvchilar har kuni bayroqqa sodiqlik qasamyodini qabul qilishadi. Qasamyod qisqa va lo‘nda jaranglaydi: «Men Amerika Qo‘shma Shtatlari bayrog‘iga va u ramzi bo‘lgan Respublikaga sodiq qolishga, Xudo qo‘l ostidagi yagona, bo‘linmas, hamma uchun erkin va adolatli Millatga qasamyod qilaman». Biroq, AQShda tez-tez uchraydiganidek, bunday amaliyot keng tarqalmagan. Ba’zi shtatlarda Qasamyod umuman aytilmaydi, ba’zi hollarda oyiga bir marta, ba’zi maktablarda uni faqat boshlang‘ich sinf o‘quvchilari aytishadi.

Vatanparvarlikni tarbiyalashda AQSH oliy o‘quv yurtlariga alohida o‘rin ajratilgan. AQShda 1350 dan ortiq mahalliy kollejlar va 2000 ga yaqin kollej va universitetlar mavjud. Xususiy ta’lim muassasalari soni jami ta’lim muassasalarining 65 foizini tashkil etadi. Amerika oliy ta’lim tizimi o‘quv dasturlari, o‘rganiladigan kurslar va fanlarning sezilarli darajada xilma-xilligi bilan ajralib turadi, muhim iqtisodiy, ijtimoiy va mafkuraviy funksiyalarni, shu jumladan o‘quvchi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni amalga oshiradigan yagona ijtimoiy institutni tashkil etadi.

AQShda vatanparvarlik tarbiyasi quyidagi qonun hujjatlari bilan mustahkamlangan mamlakat ta’lim siyosatining yetakchi yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan fuqarolik tarbiyasi kabi yo‘nalish doirasida olib boriladi: «Milliy va ijtimoiy xizmat to‘g‘risidagi qonun» (1990); «Demokratiya uchun ta’lim to‘g‘risidagi qonun» (2001) va boshqalar.

AQShda vatanparvarlikning asosiy tarkibiy qismlarini ko‘rib chiqamiz.

1. AQSH Konstitutsiyasi bo‘yicha axloq va erkinliklarni amalga oshirish. Bu komponent AQShda vatanparvarlikning asosini tashkil etadi. V.Kovalevskiy: «Amerikaliklar o‘z huquqlarini amalga oshirishni juda vatanparvarlik deb biladilar. Bu siyosatni o‘zgartirish uchun hokimiyatni ochiqchasiga tanqid qilish va boshqa fuqarolarni umumiy muammolarni hal qilishga safarbar qilish imkonini beradi». Bunday huquqni AQSH fuqarolariga so‘z, matbuot, yig‘ilishlar, diniy e’tiqod erkinligi huquqlarini cheklashi mumkin bo‘lgan qonunlar qabul qilinishiga yo‘l qo‘ymaydigan 1791-yilda qabul qilingan Konstitutsiyaga kiritilgan birinchi tuzatish ta’minlaydi.

2. Barcha amerikaliklar tomonidan qadrlanadigan va tan olinadigan davlat ramzlari (madhiya va bayroq). AQSH madhiyasi «The Star-Spangled Banner» (Yulduzli-chiziqli bayroq) bo‘lib, 1812-yilda inglizlar Mak-Genri qal’asini qamal qilish paytida Amerika bayrog‘i sharafiga yozilgan va faqat 1931-yilda davlatning rasmiy madhiyasi sifatida tan olingan. Madhiya an’anaviy ravishda muhim jamoat va sport tadbirlarida ijro etiladi. U ko‘pincha jonli ijro etilib, lahzaning tantanavorligini oshiradi. Ko‘pchilik amerikaliklar madhiya so‘zlarini bilishadi va uni ijro etish paytida qo‘shilib kuylashadi [4, B. 229]. Har bir shtat o‘z bayrog‘iga ega va aholi uni ko‘pincha milliy bayroq yoniga osib qo‘yadi. Kongressmenlar va senatorlar har doim o‘z ofislarida AQSH bayrog‘i yonida o‘z shtatlarining bayrog‘ini qo‘yib qo‘yadilar, bu ularning o‘z saylovchilari manfaatlariga sodiqligini ta’kidlaydi.

Keyingi asosiy ramzlardan biri AQSH gerbi bo‘lib, unda oq boshli burgut qanotlarini yozib turibdi. Gerb 1782-yilning yozida qabul qilingan bo‘lib, unda chizilgan tasvir millatning buyuk intilishlari, mustaqilligi va yaxshi kelajakka bo‘lgan umidining ramzidir. A. I. Soljenitsin amerikaliklarning vatanparvarligiga shunday baho beradi: «... Qo‘shma Shtatlarda vatanparvarlik yuksak darajada turadi. Nafaqat hech kim undan uyalmaydi, balki Amerika o‘z vatanparvarligi bilan nafas oladi, u bilan faxrlanadi - va turli xalq guruhlari unda birlashadi. Amerikaning har bir maktab sinfida milliy bayroq osilgan va ko‘plab maktablarda unga sodiqlik so‘zlari aytiladi» [5, B. 153].

Shuni ta’kidlash kerakki, Amerika vatanparvarligi bu mamlakatga yangi hayot izlab kelgan millionlab amerikalik fuqarolarni, turli mamlakatlardan kelgan muhojirlarni birlashtiruvchi fermentdir. Agar vatanparvarlik tarbiyasining puxta o‘ylangan va samarali dasturi bo‘lmaganida, muhojirlar mamlakati parchalanib ketgan va buyuk davlatlardan biriga aylana olmagan bo‘lardi. Amerika vatanparvarligi milliy, etnik yoki til asosiga ega emasligi e’lon qilinadi. AQShda barcha millat vakillari yashaydi. Amerikaliklar uchun boshqa madaniyatlar bilan o‘zaro ta’sir qilish imkoniyati qimmatlidir. Ko‘plab xorijliklar tahsil olayotgan ta’lim muassasalarida xalqaro kunlar va haftaliklar o‘tkazilib, unda xohlovchilar o‘zlarining milliy liboslarini namoyish etishlari va madaniy an’analari haqida so‘zlab berishlari mumkin. Boshqa xalqlarning sog‘lom vatanparvarligi amerikaliklarda hurmat uyg‘otadi.

«Xalqqa xizmat qil!»

Zamonaviy dunyoda AQSH bilan bir qatorda asosiy iqtisodiy va geosiyosiy o‘yinchi sifatida Xitoy alohida rol o‘ynaydi. Har bir xitoylik nafaqat mamlakatning, balki shahar va qishloqning, hatto o‘zi tug‘ilgan uyning ham vatanparvaridir. U o‘z mamlakati, provinsiyasi, posyolkasining hududi qandayligini, unda qancha aholi yashashini biladi. Bo‘linmas Xitoy g‘oyasi XIX asr oxirida konfutsiychilar asarlarining ommalashuvi va Kan Yu-vey tomonidan shakllantirilgan Dutun konsepsiyasi («buyuk birlik va tenglik» g‘oyasi) yordamida dunyoqarashda mustahkam ildiz otdi. Tayvanni yoki hozirda Yaponiya yurisdiksiyasi ostida bo‘lgan bir qator orollarni qaytarib olishning iloji yo‘qligi xitoylik uchun shaxsiy fojia sifatida qabul qilinadi, Gonkong va Makaoning qo‘shilishi esa oilaviy bayram, shaxsiy bayram sifatida nishonlanadi. Xitoylik uchun asosiy qadriyatlar - bu uning Vatani, ona tili, oilasi va o‘z o‘chog‘idir.

Bularning barchasi butun Xitoy pedagogikasining bosh g‘oyasi bo‘lgan vatanparvarlik tarbiyasi bilan bog‘liq. O‘tgan asrning 80-yillaridayoq Xitoy matbuoti materiallarida «vatanparvarlik xitoy millatining eng yaxshi an’anasi va eng yuksak axloqiy fazilati» ekanligi qayd etilib, vatan tarixini o‘rganish «vatanparvarlik tarbiyasining bir shakli» deb e’lon qilingan edi. Shu bilan birga, «Jahon tarixiga oid kitoblarni o‘rganishda ulardan foydalanish, agar ularda chet elga sig‘inish bo‘lmagan holattagina, o‘zini oqlashi» ta’kidlangan [6, B. 134-144]. Xitoyning hamma narsasini targ‘ib qilish va chet elning hamma narsasini taqiqlash jarayoni hozir ham to‘xtamayapti va tarbiyaning boshqa barcha turlari faqat vatanparvarlik prizmasi orqali ko‘rib chiqilmoqda. 1989-yilda Tanyanmen maydonida yuzlab norozilik namoyishlari ishtirokchilarining halok

bo‘lishi bilan bog‘liq dramatik voqealar Xitoy vatanparvarligiga sezilarli turtki berdi. Shundan so‘ng Xitoy kommunistlari vatanparvarlik ruhini mustahkamlashga e’tibor qaratish zarurligini tushundilar. Xitoy maktablarida o‘quvchilarga Xitoy eng buyuk kashfiyotlarga sabab bo‘lgan qadimiy sivilizatsiya ekanligi tushuntirila boshlandi. Zamonaviy Xitoy davlati mafkurasida o‘zlikni anglash va mamlakat bilan faxrlanish darajasini oshirish uchun an’anaviy qadriyatlar ajralmas ravishda qo‘llanilganligini ko‘rishimiz mumkin. Xuddi shunday, qadimgi Xitoy kosmografiyasining «dunyoning to‘rt tomoni» varvarlari bilan o‘ralgan O‘rta podsholik haqidagi g‘oyasi, Osmon osti imperiyasining rolini uyg‘unlashtirgan holda, mamlakat o‘z tarixi davomida dushmanlar va nonko‘r qo‘shnilar halqasida bo‘lganligi haqidagi g‘oyaga aylandi.

Maktabning rasmiy davlat siyosatini joriy etish o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida talabalarni tayyorlash doirasida axloqiy tarbiya bo‘yicha maxsus dastur ishlab chiqilgan bo‘lib, u ko‘plab bo‘limlarni, jumladan, vatanparvarlik tarbiyasi, Xitoy ruhini tarbiyalash, Xitoy tarixi, an’analari va madaniyatini o‘rganishga oid bo‘limni o‘z ichiga oladi.

Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning fikricha, uzluksiz, besh ming yildan ortiq sivilizatsiya tarixiga ega bo‘lgan Xitoy millati o‘zining keng qamrovli va chuqur madaniyatini yaratdi, insoniyat sivilizatsiyasi rivojiga o‘zining so‘nmas hissasini qo‘shdi. «Bizning o‘tmishimiz va bugunimiz bizning ideallarimiz va e’tiqodlarimiz mushtarakligi bilan sug‘orilgan, biz ularga qat’iy amal qilamiz» [7, B. 59-63]. Shuni ta’kidlash kerakki, turli vositalardan foydalangan holda, Xitoy universitetlari komsomol ittifoqlari bilan birgalikda milliy bayramlar va tarixiy sanalarni nishonlash paytida vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha turli ma’ruzalar va tadbirlar o‘tkazadilar, jumladan, Xitoy Yangi yili, Xitoy yoshlari kuni, Xitoy Xalq Respublikasi Ta’lim kuni va XXR Ta’lim kuni.

«Internet resurslari orqali vatanparvarlik tarbiyasi Xitoy ijtimoiy tarmog‘ining o‘zaro ta’siri sharoitida talabalarning vatanparvarlik mavzusiga bo‘lgan qiziqishini rivojlantiradi. Internet, jumladan, Wechat, Weibo, QQ tarqalishi sharoitida ixtisoslashtirilgan saytlar va forumlar yaratish xitoylik talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning juda samarali vositasi hisoblanadi» [8, B. 73-75].

Muallifning fikricha, internet tarmog‘idagi «Vatanparvarlik filmlari oyligi», «Onlayn volontyor», «Nankin qirg‘inida halok bo‘lganlar xotirasi» kabi tadbirlar talabalarda tarixga hurmat tuyg‘usini shakllantiradi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga o‘z hissasini qo‘shadi. Xitoy maktablarida axloqiy-g‘oyaviy va siyosiy tarbiya berish maqsadida qo‘shiq, musiqa kabi darslardan keng foydalaniladi. XXR Davlat ta’lim qo‘mitasi 100 ga yaqin turli qo‘shiq va musiqa asarlarini o‘rganishni tavsiya qiladi, jumladan: Mamlakat madhiyasi, «Vatan haqida», «Birlik kuchdir», «Kompartiyasiz Xitoy yo‘q» va boshqalar. XXR Davlat ta’lim qo‘mitasining Axloqiy tarbiya boshqarmasi «Davlat bayrog‘ini ko‘tarish marosimi va axloqiy-vatanparvarlik tarbiyasi» nomli uslubiy qo‘llanmani nashr etdi va mamlakatning barcha maktablariga foydalanish uchun tavsiya etdi [9, B. 92-98] . Vatanparvarlik tarbiyasi markazlarida mamlakatning ko‘p asrlik tarixi, xitoy xalqining dushmanlarga qarshi qahramonona kurash olib borgan shonli yo‘li, xitoy millatining yuksak madaniyati har tomonlama aks ettirilgan. Yangi format, mazmunning boyligi, ko‘rgazmali taqdimot Markazlarni vatanparvarlik tarbiyasining tobora muhim platformasi va ajralmas qismiga aylantirmoqda. Barcha darajadagi va turdagi ta’lim muassasalari sinf (auditoriya) devorlaridagi o‘quv faoliyatini ta’lim oluvchilarning vatanparvarlik tarbiyasi markazlarida bo‘lish davridagi darsdan tashqari amaliy faoliyati bilan uyg‘unlashtirishga intiladi. Tarix, madaniyat, san’at va boshqa xilma-xil materiallar bilan tanishish yoshlarga vatanparvarlikning chuqur ma’nosini turli nuqtai nazardan tushunishga yordam beradi va ularda hissiy kechinmalarni namoyon etishga undaydi.

Rossiyada vatanparvarlik tarbiyasi tajribasi

1991-yilda SSSR parchalanganidan so‘ng, yangi Rossiyada o‘ylanmagan liberal islohotlar, shu jumladan ta’lim tizimida ham boshlandi. "Shok terapiyasi" usuli bilan bozor munosabatlariga o‘tish boshlangach, ko‘plab ta’lim muassasalari inqiroz holatiga tushib qoldi. Ta’limning tarbiyaviy komponenti ikkinchi darajaga surib qo‘yildi, ta’lim bozorda xizmat sifatida taklif etila boshlandi. O‘sha 1990-yillar sharoitida vatanparvarlik tarbiyasi shunchaki unutilgan edi.

2000-yillarning boshidan Rossiyada vatanparvarlik qadriyatlarini singdirish, Rossiyaning harbiy o‘tmishini ulug‘lash va Vatanga muhabbat asosida aholining vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish va vatanparvarlik madaniyatini rivojlantirish muammosiga jamiyat qiziqishining qayta tiklanishi kuzatilmoqda. Bugungi kunda vatanparvarlik tarbiyasi davlat ichki siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bundan tashqari, Rossiya jamiyatida milliy g‘oya va milliy manfaatlar atrofida birlashish uchun ongli ehtiyoj mavjud bo‘lib, vatanparvarlik va fuqarolikni rivojlantirish milliy xavfsizlikning muhim strategik ustuvor yo‘nalishiga aylanmoqda. Davlat muassasalari va fuqarolik jamiyati institutlariga ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni targ‘ib qilish, mamlakat tarixini buzib ko‘rsatishdan

himoya qilish, yosh avlodni Rossiya davlatining madaniyati va an’analari bilan tanishtirish bo‘yicha vatanparvarlik tarbiyasi siyosati ta’lim tizimiga kiritilgan. Siyosiy kun tartibida vatanparvarlik tarbiyasining roli tobora ko‘proq birinchi o‘ringa chiqmoqda. Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V. V. Putin vatanparvarlik g‘oyasini jamiyatning siyosiy, ma’naviy va madaniy hayotini birlashtiradigan milliy g‘oya sifatida taklif qilgan: «...vatanparvarlik Rossiya jamiyatining eng muhim qadriyatlaridan biri va mamlakat davlatchiligining asosiy tarkibiy qismidir». Ushbu yondashuv rasmiy doktrinada 2015-yil 30-dekabrdagi «2016-2020-yillarda Rossiya Federatsiyasi fuqarolarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash» davlat dasturida mustahkamlangan. Rossiya Federatsiyasi Prezidentining 2020-yil 21-iyuldagi «Rossiya Federatsiyasini 2030-yilgacha rivojlantirishning milliy maqsadlari to‘g‘risida»gi 474-sonli Farmonida Rossiya Federatsiyasi xalqlarining ma’naviy-axloqiy qadriyatlari, tarixiy va milliy-madaniy an’analari asosida barkamol va ijtimoiy mas’uliyatli shaxsni tarbiyalash masalalari diqqat markazida turadi.

Vatanparvarlik mazmuniga ko‘plab tarkibiy qismlar kiradi: fuqarolik identlik, milliy va ijtimoiy birlik, mamlakat taqdiriga daxldorlik hissi, harbiy jasoratlar va qahramonlarni ulug‘lash va boshqalar. Shu munosabat bilan vatanparvarlik tarbiyasi tizimi ta’lim-tarbiya va ma’rifiy faoliyat asosiga qurilishi lozim. Vatanparvarlik tarbiyasi davlat siyosatining muhim yo‘nalishi sifatida davlat hokimiyati organlari, fuqarolik jamiyati, oilaning fuqarolarda Vatanga muhabbat va hurmat, o‘z mamlakatiga mas’uliyatli munosabatni shakllantirish bo‘yicha tizimli va maqsadli faoliyatiga asoslanishi kerak. Uni oilaga, ona yurtiga, o‘z xalqi tarixi va madaniyatiga, o‘z Vataniga nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantirish sifatida tushunish lozim [12, B. 14-16] Ushbu sohadagi davlat siyosati federal va mintaqaviy darajadagi davlat hokimiyati organlarining vatanparvarlik tarbiyasi asoslarini shakllantirish bo‘yicha qonun ijodkorligi faoliyati, vatanparvarlik tarbiyasining idoraviy dasturlarini ishlab chiqish va ushbu sohadagi ish yo‘nalishlarini kelishilgan holda rivojlantirishni muvofiqlashtirish bo‘yicha faoliyati bilan tavsiflanadi. Vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish davlat siyosati tizimiga quyidagilar kiradi: Rossiya Federatsiyasi Prezidenti, Federal Majlis, Hukumat, federal ijro etuvchi hokimiyat organlari, Rossiya Federatsiyasi subyektlarining hokimiyat organlari va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari. Vatanparvarlik tarbiyasi sohasidagi davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda ishtirok etuvchi fuqarolik jamiyati institutlari: siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari va harakatlari, diniy tashkilotlar va boshqalar bilan hamkorlik davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi [13, B. 34-44].

Inson qalbida millat, Vatan, ajdodlar ruhi oldidagi burch va tuyg‘ular qanchalik chuqur joy olgan bo‘lsa, mahdudlik o‘rniga milliy g‘oyalar vujudga keladi. Mana shunday fazilatlarga ega insonlarda kurashchanlik, tashabbuskorlik, o‘z o‘zini anglash, millat, Vatan sha’ni va manfaatini himoya qilishdek muqaddas tuyg‘ular shakllanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati | список литературы | references

1. Бессарабова И. С. Поликультурное образование в России и США: к постановке проблемы // Современные проблемы науки и образования. 2008. № 5. С. 59–62. 59-bet
2. Statista. Patriotism in the U. S. — Statistics & Facts» [Электронный ресурс]. URL://https:// www.statista.com/topics/2482/patriotism-in-the-us/ (дата обращения: 18.05.2025).
3. Адлер М. Шесть великих идей. М.: МИФ, 2015. 22-bet
4. Borger J. We are still all Americans // Patriotism, Democracy, and Common Sense: Restoring America’s Promise at Home and Abroad. Rowman & Littlefeld Publishers, 2005. 239-b.
5. Solzhenitsyn A. I. Russia in a collapse. M. : Russian way, 2006. 208 p. 153-bet
6. Калашник Л. С. «Великая четверка» —[Электронный ресурс] // Электронный периодический научный журнал «Sci-Article.ru». 2014. № 10. С. 134–144. URL: http://sci-article.ru/stat.php?i=1402594605 (дата обращения: 20.05.2025).
7. Васильева Н.Б. Патриотическое воспитание студентов в вузах КНР // European Research / XX Международная научно-практическая конференция «European Research: Innovation in Scince, Education and Technology» (Лондон, Великобритания, 28–29 сентября 2016). Иваново : Олимп, 2016. С. 59–63.
8. Се Илинь, Коврижных О. А. Об опытах патриотического воспитания студентов в Китае // Социально-политические и культурные проблемы современности: сборник научных трудов по материалам I Международной научно-практической конференции 31 мая 2016 г. Нижний Новгород: НОО «Профессиональная наука», 2016. С. 73–75. 75-bet.
9. Клепиков В.З. Современный Китай: вопросы воспитания // Педагогика. 2000. № 5. С. 92– 98. 96-bet.
10. Ёлкин С. М., Косова А. А. О содержании понятий «патриотизм» и «патриотическое воспитание» // Вестник Новгородского государственного университета. – 2017. – № 1.– С. 14–16. С.15
11. Сковиков А. К. Взаимодействие гражданского общества с органами государственной власти в формировании патриотизма // PolitBook. – 2017. – № 3. – С. 34–44. 35-b.

MINTAQADA INVESTITSIYA FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH JARAYONINI MODELLASHTIRISH (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)

F.Inamov
Namangan davlat texnika universiteti doktoranti
+998 91 755 5200 fred.inamov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mintaqada investitsiya faoliyatini faollashtirish jarayonini modellashtirish uslubiy yondashuvlari tahlil qilinadi. Investitsiya faolligining oshishi hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish choralari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, investitsiya jarayonining ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik samaradorligi tahlil qilinib, mintaqaviy iqtisodiyotda investitsiya muhitini yaxshilashning asosiy yo‘nalishlari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: investitsiya faolligi, mintaqaviy iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy samaradorlik, ekologik muhit.

Аннотация В данной статье анализируются методологические подходы к моделированию процесса активизации инвестиционной деятельности в регионе. Рассматривается влияние роста инвестиционной активности на устойчивое экономическое развитие территорий, существующие проблемы и меры по их устранению. Кроме того, проводится анализ социальной, экономической и экологической эффективности инвестиционного процесса, а также предлагаются основные направления по улучшению инвестиционного климата в региональной экономике.

Ключевые слова: инвестиционная активность, региональная экономика, устойчивое развитие, экономическая эффективность, социальная эффективность, экологическая среда.

Annotation: This article analyzes methodological approaches to modeling the process of enhancing investment activity in the region. It examines the impact of increased investment activity on the sustainable economic development of territories, identifies existing challenges, and proposes measures to address them. Furthermore, the social, economic, and environmental efficiency of the investment process is analyzed, and key directions for improving the investment climate in regional economies are suggested.

Keywords: investment activity, regional economy, sustainable development, economic efficiency, social efficiency, environmental environment.

Kirish. O‘zbekistonning iqtisodiy modernizatsiya bosqichiga o‘tgan hozirgi davrida mintaqaviy investitsiya faoliyatining faollashtirilishi barqaror rivojlanish va ijtimoiy-iqtisodiy tenglikni ta’minlashda hal qiluvchi omillardan biriga aylangan. Namangan viloyati misolida olib borilgan tadqiqotlar investitsion muhitning kompleks bahosi va omillarni modellashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa mintaqaviy tafovutlar, sarmoya oqimining notekis taqsimlanishi, mahalliy infratuzilmaning rivojlanish darajasi kabi masalalarni chuqur tahlil qilishni talab etadi. Maqolaning maqsadi — Namangan viloyati misolida investitsiya faoliyatini faollashtiruvchi omillarni aniqlash va ularning investitsiya oqimiga ta’sirini ekonometrik modellashtirish orqali baholashdir. Mazkur yondashuv hududiy investitsion siyosatni takomillashtirish uchun zarur bo‘lgan ilmiy asoslarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Asosiy qism. So‘nggi yillarda investitsiya faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha turli xil yondashuvlar shakllanmoqda. Xalqaro miqyosda barqaror rivojlanish vazifalariga muvofiq investitsiya siyosatini shakllantirish tendensiyasi kuzatilmoqda. L. Fedulovning fikricha, ijtimoiy va ekologik investitsiyalarning faollashuvi global miqyosda kuzatilmoqda. Shu bilan birga, Yu. Makogon investitsiya faoliyatini ekologiya, iqtisodiy modernizatsiya va ijtimoiy dasturlarni rivojlantirish bilan bog‘laydi. O.V. Chernikovaning ta’kidlashicha, investitsiya jarayoni qanchalik faol bo‘lsa, iqtisodiy rivojlanish shunchalik tez amalga oshiriladi.

Shuningdek, mintaqaviy iqtisodiyot sohasida olib borilgan tadqiqotlar investitsiyalarning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Investitsion iqlimni yaxshilash uchun davlat tomonidan turli soliq imtiyozlari, subvensiyalar va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish muhim Tadqiqotda 2010–2024 yillar oralig‘ida Namangan viloyatining iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Dastlabki bosqichda investitsion faollikni belgilovchi 11 ta omil guruhi ajratildi: yalpi hududiy mahsulot, demografik holat, mehnat bozori, tadbirkorlik faoliyati, qurilish, transport va aloqa, tashqi va ichki savdo, ta’lim, fan va innovatsiyalar. Har bir guruhga tegishli ko‘rsatkichlar normalashtirilib, standartlashtirish formulalari yordamida integral baholash ko‘rsatkichi hisoblab chiqildi.

Korrelyatsiya tahlili orqali omillar o‘zaro bog‘liqlik darajasiga ko‘ra baholandi. Ko‘p omilli regressiya modeli EViews dasturida tuzildi. Shahar aholisi ulushi (X1), uy-joylarni foydalanishga topshirish (X2) va ulgurji savdo korxonalarining aylanmasi (X3) asosiy ta’sirchan omillar sifatida tanlandi.

Model: LnY = -2.25LnX1 + 1.08LnX2 + 0.2LnX3 + 27.1

Ushbu model investitsiyalarning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan hajmiga ta’sirini miqdoriy baholashga imkon beradi.

Hozirgi bosqichda investitsiya faoliyati ham investor, ham butun jamiyat ehtiyojlarini qondirish nuqtai nazaridan tobora ko‘proq ko‘rib chiqilmoqda. Investorning maqsadi qo‘yilgan resurslardan, xususan, daromaddan maksimal foyda olishdir. Zamonaviy investitsiya nazariyalarida asosiy e’tibor ularning samaradorligi va ijtimoiy foydali natijalarga qaratilgan bo‘ladi. Iqtisodiy yo‘naltirilgan investitsiyalar investitsiya faoliyatini amalga oshirishdan iqtisodiy samaradorlikka, ya’ni qiymatda ifodalangan foydali natijaga erishishga qaratilgan. Iqtisodiy yo‘naltirilgan investitsiyalar natijalari nafaqat foyda, balki ishlab chiqarish hajmini oshirish, modernizatsiyani rag‘batlantirish, bozor raqobati darajasini oshirish, to‘lov balansiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish, investitsiya infratuzilmasini rivojlantirish va boshqa omillarni ham o‘z ichiga oladi.

Baholash natijalari shuni ko‘rsatadiki, Namangan viloyati respublika hududlari orasida yuqori investitsion muhit integral bahosiga ega. Qurilish va savdo infratuzilmasi investitsiya jalb qilishda yetakchi omillar sifatida belgilandi. Modelda R-kvadrat (R^2) qiymati 0.99 dan oshdi, bu esa tanlangan omillarning yuqori darajada izohlovchi kuchga ega ekanligini anglatadi.

MAPE = 0.94% va TIC = 0.005 bo‘lib, prognoz natijalarning aniqligi yuqori ekanligi tasdiqlandi. Shahar aholisi ulushining ortishi esa salbiy ta’sirga ega bo‘lib, bu holat urbanizatsiyaning investitsion faollikka to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qilayotganini ko‘rsatadi.

Bu esa shaharsozlik siyosatini qayta ko‘rib chiqish zarurligini bildiradi. Investitsiya faolligini faollashtirishda birlamchi omillarni aniqlash asosida amalga oshirilgan regressiya modeli mamlakatimizda mintaqaviy investitsiya siyosatini rejalashtirishda qo‘llanilishi mumkin. Model Namangan viloyati misolida tuzilgan bo‘lsa-da, boshqa hududlar uchun ham moslashtirilgan ko‘rsatkichlar orqali tadbiq etilishi mumkin.

Shahar aholisining ortishi kapital qo‘yilmalarning samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Boshqa tomondan, qurilish va savdo sohalarining faollashuvi investitsion oqimni keskin rag‘batlantiradi. Bu natijalar ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda sektorlararo muvozanatni yaratish zaruriyatini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, modelda foydalanilgan ko‘rsatkichlar orasida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar aniqlangan va bu natijalarning amaliyotda qo‘llanishi mumkinligini bildiradi.

Xulosa. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, Namangan viloyatining investitsiya muhiti yuqori darajada bo‘lib, bu holat jalb qilingan investitsiyalar hajmini oshirish uchun muqobil imkoniyatlar yaratadi. Quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Qurilish va savdo infratuzilmasiga sarmoyalarni ko‘paytirish;
- Shaharsozlik va urbanizatsiya siyosatini investitsion manfaatdorlik asosida muvofiqlashtirish;
- Mahalliy boshqaruv organlarining investitsiya jarayonlaridagi rolini kuchaytirish;
- Mintaqaviy farqlarni kamaytirishga qaratilgan, statistik jihatdan asoslangan manzilli chora-tadbirlar qabul qilish. Ushbu chora-tadbirlar Namangan viloyatining investitsion salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi va uni barqaror mintaqaviy rivojlanish modeli sifatida shakllantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fedulov L. Xalqaro investitsiya faoliyatining rivojlanish tendensiyalari. Moskva, 2020.
2. Makogon Yu. Global investitsiya jarayonlari va ularning ekologik omillari. Kiyev, 2019.
3. Chernikova O.V. Mintaqaviy investitsion siyosat. Sankt-Peterburg, 2021.
4. Smith A. Regional Economic Development and Investment Strategies. London, 2022.
5. Johnson M. Foreign Direct Investment Trends in Emerging Markets. New York, 2023.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida” 01.03.2002-y. Qonuni. https://lex.uz/docs/-22525.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” 26.04.1996 yildagi 223-I-son Qonuni. https://lex.uz/docs/-6567

“PADARKUSH” DRAMASIDAGI ANTROPONIMLARNING LINGVOKONGNITIV TAHLILI

Z.J.Davronova
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
2-kurs tayanch-doktorant

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiy qalamiga mansub "Padarkush" dramasidagi antroponimlarning tahlili amalga oshiriladi. Lingvokognitiv yondashuv asosida ismlarning ichki semantik tuzilmasi, konnotativ yuklamalari, mental tasavvurlar va u orqali jamiyat tafakkuridagi stereotiplar yoritiladi. Asardagi obraz bilan ism o‘rtasidagi semantik nomuvofiqlik, ya’ni kognitiv dissonans orqali muallifning ideologik niyati, ijtimoiy tanqidiy pozitsiyasi ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *antroponim, kognitiv tahlil, semantika, konnotatsiya, dissonans, adabiy obraz, jamiyat tafakkuri.*

Аннотация: *В данной статье проводится анализ антропонимов в драме Махмудходжи Бехбуди "Падаркуш." На основе лингвокогнитивного подхода раскрывается внутренняя семантическая структура имен, их коннотативные нагрузки, ментальные представления и через них стереотипы в общественном мышлении. Посредством семантического несоответствия между образом и именем в произведении, то есть когнитивного диссонанса, выявляется идеологический замысел автора, его социально-критическая позиция.*

Ключевые слова: *антропоним, когнитивный анализ, семантика, коннотация, диссонанс, литературный образ, общественное мышление.*

Abstract: *This article analyzes the anthroponyms in the drama "Padarkush" by Mahmudkhoja Behbudiy. Employing a linguocognitive approach, it explores the internal semantic structure of names, their connotative loadings, mental representations, and the societal stereotypes they reflect. The semantic incongruity between characters and their names in the work, specifically cognitive dissonance, unveils the author's ideological intention and socially critical position.*

Keywords: *anthroponym, cognitive analysis, semantics, connotation, dissonance, literary character, social cognition.*

Badiiy adabiyotda antroponimlar (shaxs ismlari) oddiy nomlash vositasi emas, balki semantik, madaniy va ijtimoiy yuklamalarga ega bo‘lgan lingvistik birlik sifatida qaraladi.

Jadidlarning adabiy, ilmiy, siyosiy, pedagogika sohalarida xizmatlari, xususan, ona tiliga bo‘lgan munosabati madaniyatimiz tarixida alohida o‘rin egallaydi. Ular deyarli barcha asarlarida o‘zlarining til haqidagi qarashlarini ilgari surganlar, ona tilini rivojlantirish, uning boyligini va go‘zalligini, sofligini saqlab qolish g‘oyasini targ‘ib qilganlar. Jadidlar amaliy faoliyati bilan o‘zbek onomastikasi, xususan, antroponimlar taraqqiyotida ham muhim o‘rin tutganlar. Jadid namoyandalari milliy ismlarga hurmat bilan yondashuvni, avvalo, o‘z taxalluslari, nisbalaridan boshlaganlar. O‘zlariga milliy qadriyatlarimizga mutanosib keladigan taxalluslarni tanlashgan va qahramonlarini ham o‘zbekcha ismlar bilan nomlashgan. Shu orqali o‘zbekcha milliy ismlarning saqlanib qolishi va omma orasida keng yoyilishiga katta hissa qo‘shishgan. [Davronova 2024:B.104]

Ayniqsa, o‘zbek dramaturgiyasining dastlabki namunalarida mualliflar shaxs ismlarini obrazlar xarakteri, ideologik qarashlari va muayyan ijtimoiy muammolarni yoritish vositasi sifatida ataylab tanlaydilar. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” dramasidagi bosh obrazlardan biri — Toshmurod — ismi orqaligina emas, balki u orqali shakllangan mental model, ijtimoiy tanqid, va tragik obraz mezoni sifatida ham e’tiborga molikdir.

Adabiy matnlardagi antroponimlar — bu oddiy shaxs nomlari emas, balki semantik va ideologik yuklama tashuvchi belgilar sifatida qaralishi kerak. Ayniqsa, ilk o‘zbek dramaturgiyasi namunalarida bu jihatlar juda muhim rol o‘ynaydi.

"Padarkush" asari o‘zbek adabiyotida ilk ijtimoiy fojiaviy drama hisoblanadi. Unda jaholat, savodsizlik va diniy aqidaparastlik tufayli o‘z otasini o‘ldirgan farzandning fojiasi yoritiladi. Asar qahramonlarini nomlashda ikki xil yondashuvni kuzatish mumkin:

1. Qahramonlar ism bilan nomlanadi. Masalan: Toshmurod, Davlat, Liza, Nor…
2. Qahramonlar ism bilan nomlanmaydi. Masalan: Boy, Domulla, Ziyoli…

Toshmurod obrazi va uning ismi o‘rtasidagi semantik ziddiyat mavjud

“Toshmurod” ismi ikki komponentdan tashkil topgan:

Tosh. — o‘zbek tilida “qattiq jism”, “sovuqlik”, “barqarorlik” belgisi; ko‘chma ma’noda: qat’iyat, hissizlik, qonuniylik kabi ma’nolarni anglatadi.

Tosh. *o‘*- joni toshdek mustahkam bo‘lsin, ya’ni yashasin, tursin. [Begmatov 2016: B.421].

Murod. *a* - “istak”, “maqsad”, “orzu” Murod maqsadli, orzu qilingan, qo‘msalgan bola. [Begmatov 2016: B. 256].

Toshmurod *o‘*- toshdek mustahkam (umri uzoq) bo‘lib, murodiga yetsin tursin. [Begmatov 2016: B. 422].

Demak, ism lug‘aviy jihatdan “qat’iy maqsad”, “qotma orzu”, “sindirilmas niyat” kabi ijobiy konnotatsiyalarga ega.

Bunday tuzilish o‘zbek ismlarida keng uchraydi: To‘xtamurod, O‘rinqul, Toshboy — ularning barchasida ijtimoiy funksional yuklama mavjud: ota-onaning farzandga bo‘lgan niyat va idealini belgilaydi.

Toshmurod – adabiy obraz va ism o‘rtasidagi semantik ziddiyat

“Padarkush” dramasida Toshmurod — padarkushlik (ota o‘ldirish) jinoyatini sodir etgan tragik qahramon. U o‘z otasi boyni jaholat, ilmsizlik, noto‘g‘ri tarbiya va atrofdagi ilmsiz do‘stlar tufayli o‘ldiradi. Mazkur obraz: zamon ruhidan orqada qolgan yigit ekanligini asardagi domulla va Ziyoli obrazlari nutqidan ham bilish mumkin sifatida namoyon bo‘ladi. *Masalan, Agarda bularni otasi o'qutsa edi, bu jinoyat va padarkushlik alardan sodir bo'lmas va bular ichkilikni bo‘yla ichmasdi, xun beg'ayri haqqin qilmas edi.* [Behbudiy *2009:B.50].*


Bu badbaxtlik va musibatga sabab jaholat va nodonlik-dir, bema'nilik va tarbiyasizlikdir. Uyingizni nodonlik buzdi. O'g'lungizni beilmlik [Behbudiy 2009:B.49].

Toshmurod ismining ma’nosi Bu holat Toshmurod ismidagi “qattiq iroda” va “murod” ma’nolari bilan zidlik hosil qiladi. U o‘z orzusi yoki maqsadi uchun emas, bilimsizlik va jaholat sabab jinoyatga qo‘l uradi. Shu nuqtada kognitiv dissonans yuzaga keladi — ya’ni ismdagi ijobiy semantika bilan obrazdagi fojeaviy mohiyat qarama-qarshi keladi.

Kognitiv dissonans (lotincha:*cognitio* "bilim" va *dissonantia* "nomutanosiblik", "tartibsizlik", "uyg'unlikning yo‘qligi") - shaxsning ongida qarama-qarshi tushunchalar: g‘oyalar, e’tiqodlar, qadriyatlar yoki hissiy reaksiyalar to‘qnashuvi natijasida yuzaga kelgan ruhiy noqulaylik holati. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Kognitiv_dissonans]

Kognitiv dissonans – inson ongida qarama-qarshi bilim, e’tiqod yoki fikrlarning to‘qnashuvi natijasida yuzaga keladigan psixologik noqulaylik holatidir. Bu tushuncha dastlab amerikalik psixolog Leon Festinger (Festinger, 1957) tomonidan ilgari surilgan. Kognitiv dissonans nafaqat psixologiyada, balki tilshunoslik sohasida ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki til –inson tafakkuri va ichki dunyosini ifodalovchi asosiy vosita hisoblanadi.

Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan, antroponimlar inson ongida ma’lum stereotiplarni faollashtiradi. “Toshmurod” ismini eshitgan o‘zbek ona tili sohibida odatda quyidagi mental model shakllanadi:



Ammo badiiy matnda bu model parokanda qilinadi. Toshmurod ismiga mos inson emas — u murosasiz va qattiqqo‘l bo‘lsa-da, bu fazilatlar yuksak maqsad emas, fojeaviy xatoga olib keladi.

Muallif bu ziddiyat orqali o‘quvchida tanqidiy tafakkur uyg‘otmoqchi: Tashqi ko‘rinishdagi kuch, ismning salobati — bu hali insoniylik mezoni emas ekanligini uqtirmoqchi.

Toshmurod obrazining ismi drammada faqat shaxs belgilovi emas, balki ideologik vosita bo‘lib xizmat qiladi:

Simvoliklik – Toshmurod “toshdek” qotib qolgan, fikrga yopiqlik, “murodsiz orzu” timsolidir.

Shunday qilib, ism – obraz – voqelik uchligi orasidagi nomuvofiqlik — asarning asosiy dramatik kuchlaridan biridir.

Behbudiyning "Padarkush" drammasida ba’zi qahramonlarga nom berilmagan. Bunda ijodkor qahramonlarni Boy, Ziyoli, Domlula deb atashidan maqsad jamiyatda aynan shunaqa obrazlarni ko‘pligi Boyga o‘xshagan o‘qimagan, jaholat botqog‘iga botgan, shaxslar shu davrda ko‘p ekanligini ramziy ifodachisi sifatida gavdalantiradi. Shuning uchun ham bosh qahramonga ism qo‘yilmaydi. Boy obrazi orqali butun jamiyatdagi boylar nazarda tutilgan.

Toshmurod antroponimi “Padarkush” drammasida ijtimoiy-tarbiyaviy tanqidiy yuklama bilan berilgan. Ismdagi kuch va ijobiy semantikalar obrazdagi fojeaviy mohiyat bilan zidlikka kirishadi. Bu esa lingvokognitiv dissonansni yuzaga keltiradi. Behbudiy bunday ziddiyatni ataylab yaratgan bo‘lib, u o‘z davr yoshlarini tafakkurga, tanqidiy qarashga va bilimga da’vat etadi. Antroponim bu yerda shunchaki ism emas, balki semantik va ideologik metaforadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бегматов Э. Ўзбек исмлари изоҳи.Ўзбекистон миллий энсклопедияси. – Тошкент, 2016 – 608 Б
2. Бегматов Э. Исмларнинг сирли олами. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014
3. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. Toshkent: Ma’naviyat, 2009 – 280 B.
4. A Theory of Cognitive Dissonance by Leon Festinger (30-Jun-1957. – 290B.
5. Davronova Z Jadidlarning antroponimlar rivojiga qo‘shgan hissasi. “JADID MA’RIFATPARVARLARINING O‘ZBEK ADABIY TILI RIVOJIDAGI O‘RNI” anjumani MATERIALLARI 2024-yil 29-may
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Kognitiv_dissonans..

АҲОЛИ ДАРОМАДЛАРИНИ ОШИРИШДА САНОАТНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ (ЖИЗЗАХ ШАҲРИ МИСОЛИДА)

К.Холмуродов
мустақил изланувчи

Аннотация: Ушбу мақолада сўнгги йилларда иқтисодиёт соҳасидаги олиб борилган кенг кўламли ислоҳотлар, иқтисодиётимизни янада ривожлантириш борасида тадбиркорликни ривожлантиришга оид бир қатор долзарб вазифалар, хусусан, бу борада саноат соҳасини янада ривожлантиришга оид таҳлилий маълумотлар Жиззах шаҳри мисолида берилади.

Аннотация: В данной статье дается аналитическая информация о масштабных реформах, проводимых в экономической сфере за последние годы, ряде актуальных задач, связанных с развитием предпринимательства в контексте дальнейшего развития нашей экономики, в частности, дальнейшего развития промышленной сферы в этом плане на примере города Джизака.

Abstract: This article provides analytical information on the large-scale reforms carried out in the economic sphere in recent years, a number of urgent tasks related to the development of entrepreneurship in the context of the further development of our economy, in particular, the further development of the industrial sector in this regard, using the example of the city of Jizzakh.

Калит сўзлар: Иқтисодиёт, саноат, аҳоли даромадлари, тадбиркорлик ташаббусларини қўллаб-қувватлаш.

Ключевые слова: Экономика, промышленность, доходы населения, поддержка предпринимательских инициатив.

Key words: Economy, industry, population income, support of business initiatives.

Муҳтарам Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг Янги Ўзбекистон стратегияси китобида “Энг катта бойлик – бу ақл-заковат ва илм, энг катта мерос-бу яхши тарбия,энг катта қашшоқлик – бу билимсизликдир!” деб қайт этиб ўтилгани ҳам бежизга эмас. Хар қандай соҳасини ривожи ва тараққиёти ҳам илмий ёндашувларга асосланиб ташкил этилса юқори самара бериши шубҳасиздир.Тараққиётга эришиш учун ҳам рақамли билимлар ва замонавий ахборот технологияларини эгаллашимиз шарт ва зарур. Бизга маълумки ,янги Ўзбекистон

модернизациялашган иқтисодиётга таянади. Бундай иқтисодиётни шакллантириш учун ундаги давлат иштирокини камайтириш, хусусий мулк ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва унинг ролини янада кучайтириш, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик ривожини рағбатлантиришга қаратилган институционал ва таркибий ислоҳотларни давом эттириш зарур.

Шу ўринда маҳаллаларда ташкил этилган “Маҳалла еттилиги” ва унинг бир бўғини сифатида ташкил этилган маҳаллада тадбиркорликни ривожлантириш, аҳоли бандлигини таъминлаш ва камбағалликни қисқартириш масалалари бўйича ҳоким ёрдамчиси, солиқ инспектори лавозимлари ташкил этилганлиги ҳам илмий ёндашувлар ва узоқни кўра билиш сиёсатининг бир мисоли бўлиб хизмат қилади.

Ушбу тизимлар орқали фуқароларнинг тадбиркорлик ташаббусларини қўллаб-қувватлаш, даромадларини ошириш, бандликни таъминлаш ва пировардида “Камбағалликдан фаровонлик сари” дастури ижросини тўлақонли амалга ошириш учун ҳам замин бўлиб хизмат қилмоқда. Белгиланган бир қанча муҳим стратегиялар натижасида 2030 йилга қадар муносиб ҳақ тўланадиган 10 миллионта янги иш ўринларини яратиш, камбағалликни бартараф этиш, ишсизлик даражасини 2030 йилда 5,2 фоизга, инфляцияни эса 15,2 фоиздан 4,3 фоизга пасайтиришга эришишимиз ҳам устувор вазифаларимиздан бири ҳисобланади.

Аҳоли даромадларини оширишнинг молиявий механизмини такомиллаштириш борасида шуни алоҳида таъкидлаб ўтишимиз лозимки, барча йўналишлар қатори саноат соҳасига ҳам алоҳида эътибор қаратишимиз лозим.

Саноат маҳсулоти ишлаб чиқариш ҳажми – корхона томонидан ишлаб чиқарилган тайёр маҳсулотлар, ярим тайёр, четга сотишга мўлжалланган, ўзининг носаноат бўлинмаларига ва капитал қурилишга мўлжалланган маҳсулотлар ҳажмини ўз ичига олади. Ишлаб чиқарилиши ҳисобот даврида тугалланмаган узоқ муддатли маҳсулотларни ишлаб чиқариш бўйича ишлар, саноат тусидаги ишлар (хизматлар).

Саноат ишлаб чиқаришда ўзгариш индекслари – солиштирма даврларда маҳсулотлар (ишлар, хизматлар) физик ҳажмининг ўзгаришини тавсифловчи нисбий кўрсаткичдир. Истеъмол моллари – асосан шахсий истеъмол ёки фойда олиш билан боғлиқ бўлмаган бошқа мақсадларда фойдаланадиган саноат маҳсулотлари.Истеъмол моллари ишлаб чиқариш ҳажми амалдаги нархларда (ҚҚС ва акцизлар бундан мустасно) ҳисоблаб чиқилади.

Натура кўринишида саноат ишлаб чиқариш ҳажми – бошқа корхоналарга жўнатиш учун ёки ишлаб чиқаришга мўлжалланган маҳсулотларни, шу жумладан корхонанинг саноат эҳтиёжлари учун сарфланган маҳсулотларни ўз ичига олади, яъни ялпи маҳсулот.

Тоғ-кон саноати ва очиқ конларни ишлаш – табиатда қаттиқ жинслар шаклида учрайдиган (кўмир, руда), суюқ ҳолатда учрайдиган (нефть) ёки газсимон ҳолатда учрайдиган (табиий газ) фойдали қазилмаларни қазиб олишни ўз ичига олади.

Ишлаб чиқарадиган саноат – янги маҳсулот чиқариш мақсадида модда ёки компонентларни, материалларни физик ёки кимёвий қайта ишлашни, гарчи ишлаб чиқаришнинг маълум тури учун бирдан-бир тўлиқ меъзон ҳисобланмаса ҳам, ўз ичига олади.

Электр, газ, буғ билан таъминлаш ва ҳавони кондициялаш – электр энергиясини,табиий газни, буғни, иссиқ сувни ва шу кабиларни доимий тармоқлар – кабеллар, қувурлар, сув қувурлари орқали етказиб бериш билан боғлиқ фаолиятни ўз ичига олади.

Сув билан таъминлаш, канализация тизими, чиқиндиларни йиғиш ва утилизация қилиш – қаттиқ ва суюқ, саноат ва маиший, шунингдек, заҳарланган чиқиндиларнинг барча турларига ишлов бериш (йиғиш, қайта ишлаш ва йўқотиш) ни ўз ичига олади.

Жиззах вилоятида жами 01.01.2025 йил ҳолатига 5 101 нафар саноат корхоналари фаолият олиб бораётган бўлса, шундан 1 403 нафарини ташкил этиб, Жиззах шаҳри вилоятдаги энг юқори саноатлашган худуд ҳисобланади.


Шулардан келиб чиқиб саноат корхоналарини Жиззах шаҳри мисолида таҳлил қилиб чиқамиз.

Sanoat ishlab chigarishining asosiy tarmoqlari hajmi
(yanvar-dekabr, mlrd so‘m)

	2023-yil	2024-yil
Jami	**4 076,2**	**5 706,1**
Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	30,2	53,5
Ishlab chiqaradigan sanoat	3 700,4	5 169,6
Sanoatning boshqa tarmoqlari	345,6	483,0

Маълумотларга асосан 2024 йилнинг январь-декабрь ойларида Жиззах шаҳрида фаолият кўрсатаётган саноат корхоналари томонидан 5 706,1 млрд сўмлик саноат маҳсулотлари ишлаб чиқарилди ва ўтган йилнинг мос даврига нисбатан физик ҳажм индекси 106,1 % ни ташкил этди.

Sanoat ishlab chigarishining asosiy tarmoglari hajmidagi ulushi
(2024 yil yanvar-dekabr,% da)



2024- йил январь-декабрь ойларида шаҳар бўйича аҳоли жон бошига саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажми 28 838,9 минг сўмни ташкил этиб, ўтган йилнинг мос даврига нисбатан 103,9 % ни ташкил этди.

Jizzax shahrining eksport tarkibidagi tovar va xizmatlar ulushi
(2024- yil yanvar-dekabr, % da)



2024 йилнинг январь-декабрь ойларида кичик бизнес субъектлари томонидан ишлаб чиқарилган саноат маҳсулотлари ҳажми 2 400,3 млрд сўм бўлиб, унинг жами саноат ишлаб чиқаришидаги улуши 42,1 % ни ташкил этган бўлса, 2024 йилнинг январь-декабрь ойларида қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги маҳсулот (хизмат) ларининг умумий ҳажми 470,1 млрд сўмни ёки 2023 йилнинг мос даврига нисбатан 103,9 % ни, шу жумладан, деҳқончилик ва чорвачилик, овчилик ва ушбу соҳаларда кўрсатилган хизматлар 426,8 млрд сўмни (104,0 %), ўрмон хўжалиги 43,1 млрд сўмни (103,1 %), балиқчилик хўжалиги 0,2 млрд сўмни (117,6 %) ташкил қилди. Вилоят қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги таркибида шаҳар улуши 1,6 % ни ташкил этди.

Хўжаликлар тоифалари бўйича таҳлиллар, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари умумий ҳажмининг 92,9 % ни деҳқон ва томорқа хўжаликларига, 0,7 % ни фермер хўжаликларига, 6,4 % ни қишлоқ хўжалиги фаолиятини амалга оширувчи ташкилотларга тўғри келишини шунингдек, 2024 йилнинг январь-декабрь ойларида чорвачилик маҳсулотларини ишлаб чиқариш ҳажми 316,8 млрд сўмни ёки 2023 йилнинг шу даврига нисбатан 105,7 % ни ташкил қилди. Ишлаб чиқарилган қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг умумий улуши 75,1 % ни ташкил этгани кўришимиз мумкин.

Жиззах вилояти мисолида юқоридаги таҳлиллардан кўриниб турибдике, фуқароларнинг камбағаллик даражасини қисқартириш, уларни муносиб иш ўринлари билан таъминлаш, аҳоли даромадларини оширишнинг молиявий механизмини такомиллаштириш ва бу борада саноатни ривожлантиришга ҳам алоҳида эътибор қаратиб ушбу соҳага инновацион технологияларни жалб қилиш устувор вазифалардан биридир. Ушбу йўналишда аниқ чора-тадбирлар ишлаб чиқиб амалиётга жорий этиш муҳим аҳамиятга эгадир.

Фойдаланилган адабиётлар :

Ш.Мирзиёев-Янги Ўзбекистон стратегияси.
2021 йил. ISBN 9789943699236
Ш.Мирзиёев - “Ўзбекистон – 2030” стратегияси. ПФ-158-сон 11.09.2023
Jizzax shahrining ijtimoiy-iqtisodiy holati axborotnomasi- 2024-YIL YANVAR–DEKABR

МИЛЛИЙ ЮКСАЛИШ ЖАРАЁНИ ВА ЁШЛАР ИЖТИМОИЙ ФАОЛЛИГИ

Ориф Шукуров
Мустақил изланувчи

Аннотатция: Мақолада Миллий юксалиш жараёни, миллий юксалиш феномени, бу жараёнларда ёшлар ижтимоий фаоллиги, ёшларнинг ижтимоий фаоллигининг энг муҳим хусусиятлари юзасидан маълумотлар берилади.

Аннотация: В статье дается информация о процессе национального роста, феномене национального роста, социальной активности молодежи в этих процессах, а также важнейших особенностях социальной активности молодежи.

Abstract: The article provides information on the process of national growth, the phenomenon of national growth, the social activity of youth in these processes, and the most important features of youth social activity.

Калит сўзлар: Миллий юксалиш,ёшлар, ижтимоий фаоллик, ижтимоий-маънавий шарт-шароитлар, глобаллашув.

Ключевые слова: Национальный рост, молодежь, социальная активность, социально-духовные условия, глобализация.

Key words: National growth, youth, social activity, socio-spiritual conditions, globalization.

Миллий юксалиш халқнинг туб манфаатларини ифодалаб, унинг йиллар давомида орзу қилиб келган фаровонликка интилиш кайфиятларини ўзида мужассам этиб, замонавий жамиятнинг ободлик тамойилларига асосланганлиги билан ўзига хос характер касб этади. Миллий юксалиш жараёни ижтимоий давлат тамойилларига тўла мос келиб, жамият ҳаётининг барча соҳаларини қамраб олади. Мазкур жараён фуқароларнинг тенгҳуқуқлиги, қонун устиворлиги, давлатнинг доимий равишда халқ манфаати учун истиқболли дастурлар тузиши ва уни ижро этишига қаратилган хати-ҳаракатларини ўз ичига олади. Шунингдек, халқ билан давлат ўртасидаги мулоқотнинг туб моҳиятини белгилаб, жамиятда демократик тараққиёт тамойилларини ўзида акс эттиради.

Мазкур феномен халқнинг хоҳиш-иродаси, демократик ва фуқаролик жамияти қуриш ва уни юксалтириш майллари, умумий тараққиёт сари сафарбарлик хусусиятларини ўз ичига олади. Миллий юксалиш фалсафий тушунча бўлиб, у ўзбек халқининг миллий такомили жараёнларини ўз ичига олади. Олимларнинг фикрича, “юксалиш тушунчасига миллий ибораси қўшиб ишлатилганида, кўп ҳолларда, муайян халқ ёки бирон бир давлат тараққиётининг ўзига хос хусусиятлари асосида ривожланаётгани ҳам англатилади. Миллий юксалиш тушунчаси аниқ бир халқ ёки мамлакатнинг миллий ўзлиги, ўзига мос тараққиёт тамойилларини яхлит намоён қилади. Миллий юксалишга асосланган жамият нафақат миллий доирада, балки жаҳон жамоатчилиги билан мулоқотга киришиш жараёнларини ҳам ўз ичига олиб, мамлакатни дунё саҳнасида ўзига хос имиджини ошишига хизмат қилади.

Бизнинг фикримизча, миллий юксалиш феномени Ўзбекистон жамиятининг инсонпарвар давлатга айлантириш ҳақидаги сиёсий, ҳуқуқий, фалсафий, илмий, демографик, тарихий қарашлар йиғиндиси бўлиб, ижтимоий тараққиёт тамойилларини ўзда мужаасам этадиган, тарихий такомил

босқичига эга умумдавлат воқелиги ҳисобланиб, халқимизни келажак истиқболга юксак ишонч, фуқаролик масъулияти ва ижтимоий маданиятга эга бўлиш руҳида тарбияловчи ғоявий феномен ҳисобланади. Миллий юксалиш жараёнларининг амалда намоён бўлиши жамият барқарорлиги, жамиятдаги турли гуруҳларни ўзаро консенсус ва муроса асосида бирлаштириб, уларни умумманфаатлар тизими ривожига, мамлакат тараққиёти учун хизматга сафарбар қилишдан иборат бўлади.

Миллий юксалишнинг динамик ўзгаришлар ва ривожланиш босқичлари жараёни билан узвий боғлиқликдаги қонуниятлари мавжуддир. Миллий юксалиш жараёнини билан боғлиқ мазкур қонуниятлар: динамик ривожланиш, ўзгарувчанлик, барқарорлик, беқарорлик, узвийлик, сензитивлик, кумулятивлик, дивергентлик кабилардир. Бу қонуниятлар ичида:

- сензитивлик тушунчаси миллий тараққиёт жараёнида эндоген таъсирларнинг мавжудлиги ва уларга муносабат жараёнлари ифода этилади.

- кумулятивликда эса, тараққиётнинг ўтган давр хусусиятлари билан кейинги давр моҳиятининг ўзаро боғлиқликда мавжуд бўлиши тушунилади.

- дивергентликда тараққиёт жараёнларининг турли-туманлиги, унда жамиятнинг танлови мавжудлиги ва мазкур танлов асосида ўз ривожланиш йўлини аниқлаш мақсадлари ётади.

Ёшлар ижтимоий фаоллиги борасида гап кетганда уларнинг интеллектуал ва инновацион билимлар асосида шаклланганлик даражаси, амалдаги социумда мавжуд бўлган ижтимоий-маънавий шарт-шароитлар тизимини барқарор амалиёти даражалари билан детерминантлигини қайд этиш зарур. Мазкур жараённи ҳисобга олиб шуни таъкидлаш лозимки, ҳозирги миллий юксалишга асосланган стратегик ривожланиш даврида ёшларнинг ижтимоий ва бошқа турдаги фаолликларини юксалтириш, унинг амалдаги глобал ўзгаришлар давридаги аҳамиятини таҳлил этиш зарурияти юзага келади.

Демократик қадриятлар асосида қурилган ижтимоий тузумда ёшларнинг ижтимоий маданияти ва дунёқараши социомаданий жараёнларни такомиллаштиришда ҳал қилувчи аҳамият касб этади.

Ёшларнинг ижтимоий фаоллигининг энг муҳим хусусиятларидан бири шуки, у ҳар қандай шароитда ёки ҳар қандай белгиланган маконда жамиятнинг миллий манфаатларига хизмат қилади. Шундай экан, мазкур фаоллик даражаларини сусайтириш ёки умуман йўқ қилишга қаратилган турли туман салбий омиллар ва таҳдидлар барибир мавжуд бўлади. Глобаллашув шароитида ёшларнинг маънавий бегоналашув кайфиятларига қарши курашиб бориш ҳам уларнинг миллий манфаатлар учун курашидаги фаолликни кучайтиради.

Бундай шароитда ҳар бир рационал фикрлайдиган, ижтимоий тафаккурга эга ёшларнинг вазифаси – ўз миллатининг рақобатбардошлигини кўтаришга кўмаклашиш, бунинг учун давлатнинг фаол сиёсати, тадбиркорликка асосланган иқтисодиёти, маънавияти ва маданиятида салмоқли ютуқлари учун курашишдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

Қуронов М. Миллий тарбия ва ёшлар.2016

Норбўтаев И., Расулов А. Ўзбек миллий жамиятида “Миллий юксалиш” тушунчасининг ижтимоий-фалсафий таҳлили ва намоён бўлиш хусусиятлари. Central Asian research journal for interdisciplinary studies (CARJIS), volume 1, ISSUE 4 | 2021.

Холмирзаев Н. Ижтимоий фаоллик ва унинг даражалари. Scientific progress. Volume 2, 2021. –P. 1545. www.scientific progress.uz.

Жиззах вилоят “Истиқбол” Минтақавий тадқиқот маркази материаллари. ЖДПУ, 2024.

VILLIAM ERSKIN – “TARIXI RASHIDIY” TARJIMONI

B.U.Abdullayeva
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti, Impuls tibbiyot instituti o‘qituvchisi
bdullayevabarno789@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Mirzo Muhammad Haydar tomonidan yozilgan “Tarixi Rashidiy” asarining ingliz tiliga tarjima qilinishi, xususan Villiam Erskin tomonidan amalga oshirilgan tarjima tarixi, murakkabliklari va ilmiy qiymati tahlil qilinadi. Tarjima qilingan matnlar bilan qo‘lyozmalar o‘rtasidagi

farqlar ochib beriladi, boshqa G‘arb olimlari tomonidan amalga oshirilgan tarjima tajribalari bilan qiyosiy yondashuv asosida baholanadi. Asarning Bobur hayoti va faoliyatini yoritishdagi o‘rni, shuningdek O‘rta Osiyo tarixi uchun tutgan mavqei ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: *Tarixi Rashidiy, Villiam Erskin, Mirzo Haydar, tarjima, qo‘lyozma, Bobur, Sharqshunoslik, G‘arb tadqiqotlari*

Abstract: This article analyzes the English translation of “Tarikh-i Rashidi,” written by Mirza Muhammad Haidar, with a particular focus on the translation carried out by William Erskine. It explores the historical background, complexities, and academic value of Erskine’s work. The article examines the differences between the translated texts and original manuscripts, and evaluates Erskine’s translation in comparison with other Western scholars’ approaches. The importance of the work in shedding light on Babur’s life and its significance for the history of Central Asia is also discussed.

Keywords: *Tarikh-i Rashidi, William Erskine, Mirza Haidar, translation, manuscript, Babur, Oriental studies, Western research*

Аннотация: В данной статье рассматривается перевод на английский язык произведения Мирзы Мухаммада Хайдара «Тарихи Рашидий», в особенности перевод, выполненный Вильямом Эрскином. Анализируются история перевода, его сложности и научная ценность. Выявляются различия между переводными текстами и рукописями, а также проводится сравнительный анализ с другими переводами западных учёных. Отмечается значение произведения в изучении жизни Бабура и его место в истории Средней Азии.

Ключевые слова: *Тарихи Рашидий, Вильям Эрскин, Мирза Хайдар, перевод, рукопись, Бабур, востоковедение, западные исследования*

Kirish. Muhammad Haydar Mirzoning tarixiy asari “Tarixi Rashidiy” chig‘atoy xonlari tarixi, Sohibqiron Amir Temurning Mo‘g‘ilistonga besh karra zafarli yurishi asosan Bobur va Humoyun hukmronlik qilgan davrda Markaziy Osiyo va Hindistondagi voqealar bayon qilingan. “Tarixi Rashidiy” asarida Bobur hayoti va faoliyatiga o‘n bob ajratilgan. Asarning muhim jihatlaridan biri unda “Boburnoma”dagi uzilishlari mos davrlar voqealari muayyan darajada aks ettirilganidir. Xususan, Boburning Shoh Ismoil bilan o‘zaro xarbiy yordam to‘g‘risida bitim tuzgani, Samarqandni uchinchi marta egallashi, ammo Ko‘li Malik jangida mag‘lubiyatga uchrab, Hisor orqali yana Qobulga qaytishi mufassal bayon etilgan. Hisordagi mo‘g‘ullar isyoni sababli Bobur yana xavfli vaziyatga tushib qolishi, ammo isyonni muvaffaqiyat bilan bostirishi Sulton Saidxon va Muhammad Haydar Mirzoning Qobulga Bobur huzuriga najot izlab borishi va Bobur tomonidan yaxshi kutib olinishi kabi voqealar aks ettirilgan.

“Tarixiy Rashidiy”da Bobur dono siyosatchi, qat’iyatli lashkarboshi, jasur jangchi, qarindosh urug‘larni e’zozlab, ularga oliyjanoblik bilan munosabatda bo‘lgan siymo sifatida gavdalantirilgan[1.2017:B.443].

Metodologiya. Birinchi bor “Tarixi Rashidiy”ni inglizcha tarjimasiga qo‘l urilganga qadar boshqa tarjimonlar, shorihlar, tarixchilar tomonidan allaqachon bu noyob asardan parchalar uning qo‘lyozmalaridan namunalar xalqni qo‘liga yetib borishga ulgurgan edi. Kitobni nodirligi qimmati o‘ta muhim bo‘lishiga qaramay, hali Yevropa tillariga to‘lik tarjima qilishga kirishilmagandi. “Boburnoma” tarjimasini chop qilinganiga 15 yil to‘lganidan keyin, yana o‘sha tolmas sharqshunos olim V.Erskin, asliyatga yaqin bo‘lgan tarjimani dunyoga keltirishga muvaffaq bo‘ldi. Eng yomon tomoni, Britaniya muzeyidan “Tarixi Rashidiy”ni qo‘lyozmasini qo‘lga kiritilmaguncha, V.Erskin tarjimasi chop qilinmadi va nihoyat u qaytadan 1840 yillarda qo‘lga olib ko‘rib chiqqandan keyin, tarjimani hoshiyasidagi ma’lumotlarga qaraganda 1841 yil 4 yanvarlarda tugatildi. Bu nodir qo‘lyozma, ya’ni V.Erskin foydalangan qo‘lyozma, Britaniya muzeyida add.26612 raqami ostida hozirgi kunda ham saqlanadi. U 221 sahifadan iborat bo‘lib “Tarixi Rashidiy”ni katta qismini o‘z ichiga olgan, asliyat hisoblanadi.

Natijalar. Olib borgan tadqiqot ishlari shuni ko‘rsatadiki, tarjima xarakter va uslub jihatdan qo‘lyozmadan katta farq qiladi. Tarjimon asarni ayrim joylarini to‘liq joziba bilan o‘girgan bo‘lsa, ayrim joylarda katta parchalarni, ba’zan, butun sahifalarni, tashlab ketgan, ba’zan sahifani qisqa mazmunini bergan yoki qisqartirishga harakat qilgan, yoki sarlavhalarni o‘zini berib, muallifni nomidan yozgan joylari ham uchraydi. Eng yomoni deb ta’kidlaganimiz-kitobni ko‘p joyida katta sahifalarni tushirib qoldirish ko‘p.

Shunday bo‘lishiga qaramay, katta qiyinchiliklar bilan “Tarixi Rashidiy”ni tarjimasi dunyoga kelgan. Bu tarjima Mirzo Haydar tarixini yoritishga manba bo‘la oladimi-yo‘qmi aytish qiyin va “Boburnoma”day go‘zal tarjimani yaratgan olim, nega bunday maqsadni o‘z oldiga qo‘yganiga ishonmaysan. Lekin, Erskin janoblari “Tarixi Rashidiy” tarjimasini nashr qilib, unga ingliz libosin

kiydirgunga qadar, Britaniya muzeyida saqlanayotgan qo‘lyozma bilan bog‘liq holatlar ro‘y berdi. 1854 yilga kelib uni birinchi-ikkinchi jildlarini tarjima qilib tugatish borasida urinishlar kuchaydi. Birinchi galda “Tarixi Rashidiy”dagi mo‘g‘ul xonlarini saltanati bilan bog‘liq tarixiy joylarni tarjimasiga, ya’ni to‘liq fasl yoki parchalarga, mo‘g‘ul xonlarini qo‘lyozmada keltirilgan to‘liq ma’lumotlarni, hatti-harakatlari aks etgan joylarni saqlashga urinish kuchaydi. Ikkinchidan, “Tarixi Rashidiy” ikki qismdan tashkil topib qolmasdangina, qo‘lyozmalarni ko‘pchilik qismi so‘zma-so‘z transkripsiya qilingani ma’lum bo‘lib qoldi, ayniqsa, muallif so‘zboshi qismida ta’kidlaganday, u Mirzo Haydar ko‘rgan bilganlari, eshitganlarini, mo‘g‘ullar haqida yetarli bilishga, ma’lumotga ega ekanligini ham qayd etadi.

Muhokama. Shu bois, V.Erskin tarjimasini so‘zboshi qismidagi muhim joylar, mo‘g‘ullar tarixini bayon qiluvchi, Mirzo Haydar, o‘z oldiga maqsad qilib olgani, M.Haydar boshqa na biron bir Osiyolik muallif masalani bu darajada qo‘ya olmasligini ham inkor etib bo‘lmaydi.

Uchinchi muhim sabab, “Tarixi Rashidiy” ko‘plab parcha-parcha holda, fragmentlarni tarjma qilinishi hamdir. Yana bir muhim ma’lumot, bizga qo‘lyozma hujjatlari orasida Lutamad Xonning “Iqbolnomai Jaxongir” asari bo‘lib, u Hindiston tarixini yoritishda asosiy vosita bo‘lib hisoblanishi ham edi.

Bu V.Erskinni o‘z ishiga naqadar puxta yondoshgani ko‘plab Sharqshunoslar orasida ham unga teng keladigani, asliyatni chuqur o‘rgangan, Hindiston tarixini biladigan mutaxassis yo‘qligidan ham dalolat berardi. Tarjimani birinchi va ikkinchi qismi, so‘zboshi borasida H.Hovortning ishlari ham asliyatlikda teng kelolmasdi. H.Hovort o‘zining “Mo‘g‘ullar tarixi” risolasida O‘rta Osiyodagi qabilalar haqida ko‘plab manba to‘plagani, Mo‘g‘ul xonlarini shajarasini yaratgani, Osiyo tarixi bo‘yicha o‘ta qiziqarli ma’lumotlar to‘plagani bilan diqqatga sazovordir. Ammo Erskin davridagiday, to‘liqliq O‘rta Osiyo tarixi, jo‘g‘rofiyasi, etnografiyasi bo‘yicha ma’lumot bera oladimi yo‘qmi aytish qiyin. Shubxa yo‘qki Mo‘g‘ullar tarixi, deyarli “Tarixi Rashidiy”ni asosiy qismini egallagan; Shunga qaramay keyingi 50 yil ichida bu borada ko‘plab yangi ma’lumotlar yuzaga keldi, tarjima so‘nggi yangiliklar, topilmalar bilan boyitildi. Erskindan tashqari, “Tarixi Rashidiy” forsiy asliyatdan o‘girgan olim V.X.Belu edi. 1873 yili doktor Belu janob D.Forsut bilan hamkorlikda Qashqarga safar qiladi, va o‘zining safari to‘g‘risida bergan hisobotida Sharqiy Turkiston tarixi haqida ma’lumotlarni, Mirzo Haydarning qo‘lyozmalaridan foydalanib kiritadi. Doktor Belu o‘z oldiga “Tarixi Rashidiy”ni tarjima qilishni maqsad qilib qo‘ymaydi, aksincha, uni qo‘shimchalar bilan to‘ldirishga harakat qiladi. Shu bois, uni yozgan tarixiy ishi M.Haydarni ishlarini to‘ldirish deyish ham mumkin, chunki ayrim o‘rinlarda ayrim mayda-chuyda detallarni ham o‘z ichiga olgan, shu bois Erskin foydalangan Britaniya muzeyidagi qo‘lyozmani hattoki so‘zboshisiga ham to‘g‘ri kelmaydi. Lekin ayrim hollarda, joy nomlari, jo‘g‘rofiy ko‘rsatkichlar anchagina qimmatli, bebaho manba deyish mumkin. Yana shunga o‘xshash, janob R.V.Sho ham Yorkand va Qashqarga qilgan safari chog‘ida, “Tarixi Rashidiy”ni ayrim fasllarini tarjima qiladi va 1876 yili “Geograflar jamiyati” jurnalida chop qiladi. Bu ma’lumotlar garchand tarix bilan bog‘liq bo‘lmasa-da, Sharqiy Turkiston, uning janubi, janubiy g‘arbi qismlaridan qo‘shni nohiyalar haqida yaxshi ma’lumotlar beradi. Ular Mirzo Haydar asarini to‘ldirishda muhim manba hisoblanadi. “Tarixi Rashidiy”ni muhim qismlarini to‘ldirishda yana bir manba bu “Hindiston tarixi” asari deyish mumkin. Bu asar 1540 yil voqealarini Kanauj jangini, Shershoh haqidagi ma’lumotlarni boyitishda xizmat qiladi. Mazkur asarni Rossiyada ham professor Grigorev tomonidan o‘rganilib, Ritterning “Erdkunde” to‘plamida chop qilingani, va yana boshqa sharqshunos olimlari o‘rgangani ma’lum. Lekin olmon hamda farang olimlari bu ishga kam qo‘l urganliklari aniq. “Tarixi Rashidiy”ni qo‘lyozmalarining Yevropa mamlakatlarida kam o‘rganilgan yoki kam uchraydi deb bo‘lmaydi. Uni har bir Osiyo davlatida uchratish mumkin. Birgina Angliyaning o‘zida, Britaniya muzeyida uchta nusxasi mavjud: Biri Kembrijda professor Kavelni ixtiyorida bo‘lsa, qolganlari shaxsiy kishilar qo‘lidadir.

Xulosa. “Tarixi Rashidiy” XVII-XIX asrlarda bir necha marta Muhammadsodiq Qo‘shg‘ariy, Xoja Muhammadsharif va Muhammadniyoz Abdulg‘afur tomonidan turkiy tilga tarjima qilingan. Asar ko‘plab G‘arb olimlari tomonidan o‘rganilgan. V.Erskin “Temur, Bobur va Humoyun hukmronligi davridagi Hindiston tarixi” (London, 1854), G.M.Elliot “Hindiston-hind tarixchilari nigohida” (Kal’kutta,1953), E.D.Ross “Rossiya Turkistoni – Osiyo yuragi. Markaziy Osiyo xonliklarining umumiy tarixi” (London,1899), qisqasi markaziy osiyo xonlari tarixining XV-XVI asrlarga doir davriga bag‘ishlangan har bir tadqiqot uchun “Tarixi Rashidiy” muhim manbalardan biri bo‘lib xizmat qilgan.

“Tarixi Rashidiy” ning 1996 yil A.O‘rinboyev, L.Epifanova va R.Jamilovalar rus tilidagi izohli tarjimasi amalga oshirilgan(T.,”Fan”,1996). AQSHda V.Tekston esa asarning ilmiy nashrini tayyorlab, chop ettirgan (Harvard, 1996). 2004 yil Tehronda, Urumchida 2007 yil uyg‘ur tilida, 2010 yil “Sharq”

nashriyotida V.Rahmonov va Ya.Egamovaning o‘zbek tiliga tarjimasi, “O‘zbekiston” nashriyotida esa Hoja Muhammadsharif tarjimasi chop etildi.

Xulosa qilib aytganda, “Tarixi Rashidiy”da mo‘g‘ullar davlati, Chig‘atoy xonligi va XVI asrdagi Movarounnahr, Kashg‘ar, Hindiston voqealari bayon etiladi. Bobur haqida ko‘plab bevosita va bilvosita ma’lumotlar bor. Asarning ahamiyati shundaki, Bobur va uning avlodlariga oid tarixiy voqealar tafsilotini to‘ldiradi. Boburning diniy-falsafiy qarashlari shaxsiy fazilatlari va siyosiy harakatlarini ko‘rsatishda muhim Mirzo Haydar “Tarixiy Rashidiy” asarining muqaddimasida quyidagicha bayon etiladi: “Bu kitobda men o‘z ko‘zim bilan ko‘rgan voqealarini, eshitgan hikoyalarni va ishonchli manbalardan olgan ma’lumotlarni jamladim. Maqsadim – kelajak avlodlarga ibrat bo‘ladigan tarixiy voqealarni yetkazishdir”.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Z.M.Bobur ensiklopediyasi. ”Sharq” nashriyoti – matbaa aksionerlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2017, 443-bet.
2. Mirzo Haydar Ayoziy. Tarixi rashidiy. Nashrga tayyorlovchilar: S.A.Azimjonova, A.O‘rinboyev, O.X.Jalilova- Toshkent, 1999, 709-bet.
3. V.Erskin. Temur, Bobur va Humoyun hukmronligi davridagi Hindiston tarixi. London, 1854 yil(ingliz tilida).
4. G.M.Elliot. Hindiston-hind tarixchilari nigohida.Kal’kutta, 1953 (ingliz tilida).
5. E.D.Ross “Rossiya Turkistoni – Osiyo yuragi. Markaziy Osiyo xonliklarining umumiy tarixi”. London, 1899 (ingliz tilida).
6. V.Tekston. Tarixi Rashidiy. Ilmiy nashr, Harvard, 1996 (ingliz tilida).
7. Tarixi Rashidiy. Nashrga tayyorlovchilar: V.Rahmonov, Ya.Egamova. Toshkent, 2010, “Sharq” nashriyoti.
8. Erskine, W. A History of the Moghul Empire from the Death of Aurungzeb to the Overthrow of the Mahratta Power. London: Longman, Brown, Green, and Longmans, 1858.
9. Mirza Muhammad Haidar Dughlat. Tarikh-i-Rashidi. Translated by N. Elias and edited by E. Denison Ross. London: Sampson Low, Marston and Co., 1895.
10. Бобур-наме: Мемуары Захир-ад-дин Бабура / Пер. с чагатайского А. Б. Халидова. – Ташкент: Фан, 1989.
11. Barthold, V.V. Turkestan Down to the Mongol Invasion. Trans. H. Minorsky. London: Luzac & Co., 1928.
12. Dale, S. F. The Garden of the Eight Paradises: Babur and the Culture of Empire in Central Asia, Afghanistan and India (1483–1530). Leiden: Brill, 2004.
13. Beveridge, A. S. Babur-Nama: Memoirs of Babur, Prince and Emperor. London: Luzac & Co., 1922.
14. Sela, R. The Legendary Biographies of Tamerlane: Islam and Heroic Apocrypha in Central Asia. Cambridge: Cambridge University Press, 2011.
15. Subtelny, M. E. “Centralizing Reform and Its Opponents in the Late Timurid Period.” Iran, Vol. 34 (1996): pp. 123–151.

ТРАНСФОРМАЦИЯ ПОЛИТИКИ ЗАНЯТОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ

А.А.Абдумухтаров
Научный соискатель Ташкентского филиала РЭУ им. Г.В. Плеханова
Кафедра «Экономика труда и управление»

Аннотация. В статье рассматривается трансформация политики занятости в Узбекистане в условиях цифровой экономики и инновационного развития. Освещены изменения на рынке труда под влиянием цифровых технологий, включая автоматизацию, искусственный интеллект и цифровые платформы. Подчеркивается значение развития человеческого капитала, цифровых навыков и адаптации системы образования к новым требованиям. Приведены меры, принимаемые в Узбекистане, и международный опыт в области цифровизации трудовых процессов и занятости.

Ключевые слова. Цифровая трансформация, политика занятости, человеческий капитал, цифровые навыки, инновационное развитие, цифровые платформы, искусственный интеллект

Политика занятости приобретает новое содержание в условиях стремительного развития цифровых технологий и перехода к инновационной модели экономики. Современные технологические тренды, включая автоматизацию, внедрение искусственного интеллекта и развитие цифровых платформ, кардинально трансформируют рынок труда, создавая новые формы занятости, профессии и модели трудовых отношений. Эти изменения формируют принципиально иные требования к квалификационному составу рабочей силы, смещая акценты с выполнения рутинных операций на развитие гибких навыков, цифровой грамотности и способности к непрерывному обучению.

Изменения в структуре занятости сопровождаются неравномерной адаптацией институциональных механизмов регулирования рынка труда и социальной защиты. Традиционные подходы не всегда успевают реагировать на быстрое появление новых форм занятости, таких как платформенная, гибкая и дистанционная работа. В связи с этим возрастает потребность в формировании новых подходов к поддержке занятости, включая легализацию нестандартных форм труда, развитие механизмов переквалификации и адаптации к цифровой среде, особенно для уязвимых категорий населения – женщин, молодёжи, лиц с ограниченными возможностями и работников с низким уровнем образования.

В условиях цифровой трансформации возрастает стратегическое значение человеческого капитала как главного ресурса устойчивого и инклюзивного экономического роста. Эффективная политика занятости требует координированного взаимодействия между государственными органами, бизнесом и образовательными учреждениями. Такая кооперация должна быть направлена на создание гибкой системы подготовки кадров, основанной на мониторинге рынка труда, прогнозировании потребности в новых компетенциях и оперативной адаптации программ обучения. В этом контексте особую значимость приобретают цифровые инструменты профессиональной ориентации, платформы прогнозирования занятости и внедрение информационных систем сопровождения карьеры.

Узбекистан в последние годы предпринимает активные шаги по трансформации политики занятости в соответствии с вызовами цифровой эпохи. Согласно Постановлению Президента Республики Узбекистан № УП–223 от 20 декабря 2024 года, одной из стратегических целей является обеспечение устойчивого экономического роста, создание новых рабочих мест и снижение уровня бедности путём цифровизации экономики и комплексного регионального развития. В документе подчёркивается необходимость развития цифровых навыков, модернизации образовательных программ и расширения инфраструктуры цифрового обучения.

Формирование цифровых компетенций становится обязательным условием повышения конкурентоспособности рабочей силы в Узбекистане. Государственные инициативы по внедрению ИКТ в образовательный процесс, развитие системы непрерывного профессионального образования и реализация программ по обучению населения основам цифровой экономики служат важными инструментами достижения целевых показателей. Согласно прогнозам, к 2025 году ожидается рост валового регионального продукта (ВРП) по регионам от 5,5% до 6,8% и снижение уровня безработицы до 5,0% в среднем по республике, что невозможно без комплексного подхода к развитию человеческого капитала и цифровой грамотности населения.

Международный опыт подтверждает, что страны, последовательно реализующие стратегии цифровизации трудовых ресурсов и образования, добиваются устойчивого снижения безработицы, роста занятости и повышения доходов населения. Эти примеры подтверждают необходимость ускоренного внедрения цифровых решений в систему занятости, с фокусом на адаптацию к новым условиям труда и стимулирование инклюзивного роста.

Таким образом, политика занятости в Узбекистане находится на этапе трансформации, обусловленной переходом к цифровой экономике. Комплексный подход, включающий модернизацию нормативно-правовой базы, развитие цифровой инфраструктуры, инвестиции в человеческий капитал и укрепление межсекторального партнёрства, позволит выстроить современную и устойчивую систему занятости, способную эффективно реагировать на вызовы XXI века.

В условиях стремительного развития цифровых технологий и перехода к инновационной модели экономики особое значение приобретает формирование цифровых компетенций в сфере предпринимательства. Согласно Указу Президента Республики Узбекистан № УП-223 от 20 декабря 2024 года, усиливается роль местных хокимиятов, на которые возложена задача организации

проектных офисов, ориентированных на реализацию драйверных инициатив и вовлечение населения в предпринимательскую деятельность на основе современных цифровых решений [1. 2024].

Цифровые навыки становятся ключевым условием повышения валового регионального продукта, привлечения инвестиций и расширения доступа на новые рынки посредством цифровых платформ. Развитие цифровой грамотности предпринимателей способствует более эффективной интеграции в цифровую экономику, открывая возможности для электронной коммерции, дистанционного бизнеса и международных партнёрств [2. 2023].

Международная практика свидетельствует о высокой эффективности цифровизации как инструмента повышения производительности труда, снижения безработицы и адаптации населения к новым требованиям рынка. Согласно докладу Всемирного банка за 2024 год, повышение цифровой грамотности населения на 10,0% способствует росту ВВП на 1,5–2,5% [3. 2024]. Примером служит Сингапур, где интеграция цифровых технологий в образование и рынок труда позволила снизить уровень безработицы до рекордных 2,3–4,2% [4. 2024].

В Узбекистане трансформация занятости через развитие цифровых компетенций становится стратегическим направлением государственной политики. Указ № УП-223 подчёркивает необходимость региональной цифровизации, поддержки инновационного предпринимательства и формирования инфраструктуры для внедрения цифровых решений. Ожидается, что уровень безработицы по республике снизится до 5,0%, а уровень бедности – до 6,0% к 2025 году [1. 2024].

Развитие цифровых навыков требует кардинального пересмотра подходов к образованию и профессиональной подготовке. Необходимо внедрение таких компетенций, как анализ данных, цифровое проектирование, программирование и кибербезопасность в учебные программы всех уровней. Финляндия демонстрирует успешный пример: цифровые компетенции включены в школьную программу с раннего возраста, что обеспечило уровень цифровой грамотности населения на уровне 90,0% [5. 2023].

Параллельно развивается цифровизация государственного управления и предпринимательства. Согласно опыту Южной Кореи и Израиля, цифровые платформы и электронная коммерция не только повышают производительность, но и способствуют созданию новых рабочих мест в ИТ-секторе. В Узбекистане аналогичные процессы запущены с реализацией платформы «samaradorlik.uz», способствующей прозрачности и вовлечению населения в цифровое предпринимательство [6].

Анализ международных исследований показывает, что цифровизация образования приводит к росту цифровой грамотности населения на 25,0–35,0% [5. 2023]. Кроме того, отчёты Всемирного экономического форума подчёркивают, что внедрение цифровых навыков повышает производительность труда на 20,0–30,0%, снижая временные и организационные издержки [7. 2023].

Пример Южной Кореи демонстрирует, что цифровые платформы для малого и среднего бизнеса позволили увеличить занятость в электронной коммерции и ИТ на 40,0–50,0%. По данным Азиатского банка развития, это обеспечило рост валового регионального продукта на 6,0–7,0% [8. 2023]. Учитывая сходные стартовые условия, аналогичные эффекты прогнозируются и для Узбекистана при последовательной реализации цифровых стратегий.

Внедрение цифровых государственных услуг также способствует снижению уровня коррупции и повышению удовлетворённости населения. По данным Transparency International и Европейской комиссии, цифровизация государственных сервисов снижает коррупционные риски на 20,0–30,0% [9. 2023]. В странах Скандинавии цифровые платформы обеспечивают уровень удовлетворённости населения госуслугами на уровне 85,0–90,0%, что также достижимо для Узбекистана при полномасштабном внедрении аналогичных подходов [10. 2023].

Таблица 1. Развития цифровых компетенций и их влияния на экономику и занятость в Узбекистане

Ключевой элемент цифровизации	Описание и научное обоснование	Ожидаемые эффекты и цифровые данные
Цифровое образование	Внедрение цифровых навыков на всех уровнях образования (опыт Финляндии).	Рост цифровой грамотности населения на 25,0-35,0% к 2030 году, повышение производительности труда на 20-30,0%.

Развитие цифрового предпринимательства	Создание цифровых платформ для малого и среднего бизнеса (опыт Южной Кореи).	Увеличение числа занятых в сфере электронной коммерции и ИТ на 40,0-50,0%, рост регионального ВРП на 6,0-7,0%.
Цифровизация государственных услуг	Введение электронной отчётности и взаимодействия с населением (опыт Европы).	Снижение уровня коррупции на 20,0-30,0%, повышение удовлетворённости населения государственными услугами до 85,0-90,0%.
Программы переподготовки кадров	Создание программ по переподготовке и повышению квалификации в сфере цифровых технологий (опыт Сингапура, Германии).	Снижение структурной безработицы на 15,0-20,0%, повышение мобильности рабочей силы и улучшение её конкурентоспособности.
Аналитика и управление на основе данных	Внедрение цифровой аналитики и управления big data на уровне госуправления и бизнеса (опыт США, Великобритании).	Повышение эффективности управленческих решений на 25,0-30,0%, снижение затрат предприятий на 10,0-15,0%.

Программы цифровой переподготовки кадров, реализуемые в Германии и Сингапуре, способствовали снижению структурной безработицы на 15,0–20,0% и увеличению мобильности трудовых ресурсов. По данным Международной организации труда, такие меры способствуют быстрой адаптации кадров к требованиям цифровой экономики [11. 2023].

Наконец, внедрение big data и аналитики в систему государственного и корпоративного управления подтверждает свою эффективность: согласно исследованиям McKinsey и Gartner, использование цифровой аналитики позволяет увеличить точность управленческих решений на 25,0–30% и снизить издержки на 10,0–15,0% [12. 2023]. Эти технологии открывают новые горизонты для Узбекистана в части цифрового управления экономикой и повышения её конкурентоспособности.

Таким образом, развитие цифровых навыков и формирование новых компетенций выступают неотъемлемыми условиями успешной трансформации политики занятости в Узбекистане, обеспечивая устойчивый экономический рост и социальную стабильность. Использование международного опыта и научно обоснованной стратегии цифровизации позволит существенно повысить конкурентоспособность узбекского рынка труда и создать долгосрочные предпосылки для инновационного развития страны.

Список использованной литературы

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 20.12.2024 г. № УП-223 «О мерах по цифровой трансформации регионов и развитию цифровых навыков населения». – URL: https://president.uz
2. OECD. The Digital Transformation of SMEs. – 2023. – URL: https://www.oecd.org
3. World Bank. Digital Development Report 2024. – URL: https://www.worldbank.org
4. Singapore Ministry of Manpower. Labour Market Report 2024. – URL: https://www.mom.gov.sg
5. Finnish National Agency for Education. Digital Competency in Schools. – 2023. – URL: https://www.oph.fi
6. Платформа samaradorlik.uz – Официальный сайт Министерства экономики и финансов Республики Узбекистан. – URL: https://samaradorlik.uz
7. World Economic Forum. Future of Jobs Report 2023. – URL: https://www.weforum.org
8. Asian Development Bank. Digital Economy and Regional Development. – 2023. – URL: https://www.adb.org
9. Transparency International. Corruption Perceptions Index Report. – 2023. – URL: https://www.transparency.org
10. European Commission. E-Government Benchmark 2023. – URL: https://digital-strategy.ec.europa.eu
11. ILO. Reskilling for Digital Economy: Global Practices. – 2023. – URL: https://www.ilo.org
12. McKinsey & Company. Unlocking the Value of Data in Government. – 2023; Gartner. State of Data-Driven Decision Making. – 2023. – URL: https://www.mckinsey.com; https://www.gartner.com

TA’LIM TIZIMINING INSON KAPITALI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIGA TA’SIRI

T.N.Azimov
TDIU ilmiy izlanuvchisi «Inson resurslarini boshqarish» kafedrasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta’lim tizimining inson kapitali shakllanishi va rivojlanishidagi o‘rni kompleks tarzda tahlil qilinadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida yangi kompetensiyalarni shakllantirish, yoshlar demografik dividendini to‘liq ro‘yobga chiqarish, maktabgacha ta’limning erta bosqichlariga sarmoya kiritish orqali inson resurslarining raqobatbardoshligini oshirish masalalari yoritiladi. Shuningdek, O‘zbekistonda ta’lim islohotlari natijalari va mavjud muammolar – infratuzilma, pedagog kadrlar salohiyati, qamrov tengsizligi hamda ota-onalarning ishtiroki bilan bog‘liq jihatlar tahlil qilinadi. Inson kapitali sifatini oshirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar va strategik takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar. Inson kapitali, ta’lim tizimi, raqamli iqtisodiyot, maktabgacha ta’lim, demografik dividend, ta’lim islohotlari, pedagog kadrlar, infratuzilma.

Аннотация. В статье проводится всесторонний анализ влияния системы образования на формирование и развитие человеческого капитала в условиях цифровой экономики. Рассматриваются вопросы формирования новых компетенций, максимального использования демографического дивиденда, инвестирования в дошкольное образование для повышения конкурентоспособности человеческих ресурсов. Особое внимание уделяется результатам образовательных реформ в Узбекистане и существующим проблемам: неравномерность охвата, нехватка квалифицированных кадров, инфраструктурные ограничения и слабая вовлеченность родителей. Предложены приоритетные направления для повышения качества человеческого капитала.

Ключевые слова. Человеческий капитал, система образования, цифровая экономика, дошкольное образование, демографический дивиденд, образовательные реформы, педагогические кадры, инфраструктура.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the role of the education system in the formation and development of human capital in the context of a digital economy. It highlights the need for new competencies, the effective use of demographic dividends, and the importance of early investment in preschool education to enhance the competitiveness of human resources. The study discusses educational reforms in Uzbekistan, identifies key challenges such as coverage disparities, teacher qualification gaps, infrastructural weaknesses, and low parental involvement. Strategic recommendations are proposed to improve the quality of human capital.

Keywords. Human capital, education system, digital economy, preschool education, demographic dividend, educational reforms, teaching staff, infrastructure.

Рақамли иқтисодиётнинг жадал ривожланиши меҳнат бозорида мутлақо янги ва сифат жиҳатдан юқори бўлган компетенцияларни талаб этмоқда. Бу жараёнда таълим тизими энди фақат билим бериш вазифаси билан чекланиб қолмай, балки яратилаётган билимларни иқтисодий қийматга айлантирувчи стратегик механизм сифатида майдонга чиқмоқда. Инновацион технологиялар, сунъий интеллект платформалари ва рақамли экотизимнинг кенгайиши таълимнинг мазмуни, усуллари ва инфратузилмасини тубдан янгилаш заруратини кун тартибига қўймоқда. Акс ҳолда, инсон ресурсларининг рақобатбардошлиги пасайиши, меҳнат унумдорлигининг сўлашиши ва иқтисодий ўсиш суръатларининг секинлашиши хавфи юзага келиши мумкин. [8. 2023]

Ёшлар улушининг юқорилиги демографик дивиденд сифатида иқтисодий ривожланиш учун катта имкониятлар тақдим этади. Бироқ бу имконият фақат юқори малакали ва мослашувчан инсон капитали орқали тўлиқ рўёбга чиқиши мумкин. Жаҳон банки, ОЭСР ва бошқа халқаро ташкилотлар таҳлилларига кўра, таълим сифатининг ўсиши ва ялпи ички маҳсулотнинг ўсиш суръатлари ўртасида барқарор ижобий боғлиқлик мавжуд. [11. 2023] Шу сабабли, миллий таълим тизимини трансформация қилиш - фақат секторлараро вазифа эмас, балки ижтимоий фаровонликни ошириш ва узоқ муддатли макроиқтисодий барқарорликни таъминлаш воситасидир.

Таълимнинг камбағалликни қисқартириш, ижтимоий тенгликни таъминлаш ва гендер дисбалансини юмшатишдаги ўрни ҳам беқиёс. Қизлар ва ижтимоий ҳимояга муҳтож аҳоли қатламларининг таълимга тенг даражада киришини таъминлаш, инсон капиталининг тўлиқ сафарбар этилишига хизмат қилади. Бу эса янги ғоялар, технологиялар ва ижтимоий ташаббуслар

орқали миллий инноватсион экотизимни бойитади. [10. 2023]

Давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири сифатида таълим тизимига стратегик сармоя киритиш орқали рақобатбардош инсон капиталини шакллантириш масаласи белгиланган. Рақамли кўникмаларни ривожлантириш, STEAM таълимни кенг жорий этиш, ҳамда умрбод таълим (lifelong learning) тамойилларини амалга ошириш орқали инсон ресурсларининг самарадорлиги юқори даражага кўтарилади. Бунинг натижасида Ўзбекистоннинг глобал бозордаги рақобатбардошлиги кучаяди, иқтисодий ўсишнинг сифат кўрсаткичлари эса яхшиланади. [7. 2022]

Ўзбекистонда амалга оширилаётган ижтимоий сиёсат доирасида инсон капиталини шакллантиришга йўналтирилаётган инвестициялар аҳамиятли ўринни эгаллайди. Хусусан, таълим ва илм-фанни ислоҳ қилиш, уларни замонавий талабларга мослаштириш орқали ёшларни креатив ва инноватсион фикрлайдиган мутахассислар сифатида тайёрлаш - мамлакат келажаги кафолатидир. Бугунги кунда мамлакат аҳолисининг тахминан 60,0%ини 30 ёшгача бўлган ёшлар ташкил этади. [1. 2024] Бу ҳолат Жанубий Кореянинг 1960–1980-йиллардаги демографик вазиятини эслатади. Ўшанда давлат ёшлар таълими ва соғлиғига катта бюджет маблағларини йўналтириб, кейинчалик ушбу сармоядан демографик дивиденд шаклида иқтисодий фойда кўрган.

2000–2025 йиллар давомида Ўзбекистон аҳолиси 24 487,7 минг кишидан 37 520,8 минг кишигача, яъни 1,7 баробарга кўпайди. [2. 2024] Бу ўсиш мамлакатда мавжуд инсон капиталини тўлиқ сафарбар этиш, ялпи ички маҳсулотни узоқ муддатда барқарор ошириш ва аҳоли фаровонлигини яхшилаш имконини тақдим этади.

Эрта ёшдан бошлаб таълим бериш инсон капиталини шакллантиришда ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Тадқиқотлар шуни кўрсатмоқдаки, мактабгача таълимга киритилган сармоялар келгусида умумий ва касбий таълимнинг самарадорлигига бевосита таъсир кўрсатади. Бироқ ўтиш даврида мактабгача таълим деярли эътибордан четда қолган эди. Хусусан, чекка ҳудудларда болалар боғчалари йўқолиб кетган, мактабгача таълим сиёсат даражасида кўрилмаган эди.


Сўнгги йилларда мазкур соҳада сезиларли ислоҳотлар амалга оширилди. Республика миқёсида замонавий мактабгача таълим муассасалари қурилиб, уч ёшдан олти ёшгача бўлган болаларни таълим-тарбия жараёнига кенг қамраб олишга эришилди. Охирги тўрт йилда болаларни мактабгача таълим билан қамраб олиш даражаси 2,5 баробар ошиб, 70,0%га етказилди. [3. 2024] Бу натижа давлат томонидан ажратилаётган имтиёз ва молиявий қўллаб-қувватлашнинг самараси сифатида баҳоланади. Шунингдек, хусусий ва оилавий боғчалар сони ҳам ортиб бормоқда. Яқин йилларда ушбу кўрсаткични 80,0%га етказиш режалаштирилган бўлиб, бу инсон капиталини ривожлантиришга давлат миқёсидаги муносабатнинг яққол тасдиғидир.

Ёш авлодга йўналтирилган ҳар қандай сармоя куни келиб минг ҳисса бўлиб қайтиши амалий исботини топган. Жумладан, мактабгача та'лимга қаратилган э'тибор мамлакат иқтисоди учун нафлилигини изоҳлаш мақсадида, 2010 йилда Мичиганда олиб борилган тадқиқот натижасини мисол қилиб келтиришимиз ўринлидир. Бу тадқиқотда ишлаб чиқилган мактабгача та'лим дастурларидан бирининг самарадорлиги ўрганилганда сарфланган ҳар бир доллар жамиятга 7 доллардан 12 долларгача фойда бўлиб қайтиши аниқланган.

Ўзбекистонда ҳам сўнгги йилларда мактабгача таълим тизимида муҳим ўзгаришлар юз берди. Хусусан, 3-6 ёшли болаларнинг мактабгача таълим ташкилоти билан қамраб олиниши 2016 йилда 23,8%дан 2023 йилда 71,1%гача ўсди (1-расм).

Ёш авлодга йўналтирилган ҳар қандай сармоя, узоқ муддатли истиқболда жамият учун юксак иқтисодий ва ижтимоий фойда келтириши мумкинлиги халқаро ва миллий амалиётда ўз исботини топган. Жумладан, 2010 йилда АҚШнинг Мичиган штатида мактабгача таълим дастурлари самарадорлиги юзасидан ўтказилган тадқиқот натижаларига кўра, ушбу дастурларга йўналтирилган ҳар бир 1 доллар жамиятга 7–12 доллар миқдорида фойда сифатида қайтгани аниқланган. Бу натижа мактабгача таълимга киритилаётган инвестицияларнинг юқори қайтимлилигини кўрсатади ва уни иқтисодий самарадорлик нуқтаи назаридан асослаб беради. [9. 2010]

Ўзбекистонда ҳам сўнгги йилларда мактабгача таълим тизимида сезиларли ўзгаришлар кузатилмоқда. Хусусан, 3–6 ёшли болаларнинг мактабгача таълим ташкилотлари билан қамраб олиниши 2016 йилдаги 23,8%дан 2023 йилда 71,1%гача ошган. Бу ўзгаришлар мактабгача таълим соҳасида амалга оширилган ислоҳотлар самараси сифатида баҳоланиши мумкин. Шу билан бирга, соҳада ҳал этилиши лозим бўлган қатор тизимли муаммолар ҳам мавжудлигича қолмоқда.



1-расм. Ўзбекистонда 1-3 ёшли ва 3-6 ёшли болаларнинг мактабгача таълим ташкилоти билан қамраб олиниши, % [3. 2024]

Аввало, мактабгача таълим билан қамраб олиш даражаси ҳали ҳам етарли эмас. Айниқса, қишлоқ ҳудудларида бу кўрсаткич шаҳарларга нисбатан анча паст. Ҳозирги кунда 3–6 ёшли болалар орасида мактабгача таълим билан қамраб олиш даражаси 71,1 %ни ташкил этса, 1–6 ёшли болаларда бу кўрсаткич 33,4%га тенг. Бундан келиб чиқадики, қамраб олинган болаларнинг асосий қисмини 5–6 ёшлилар ташкил этмоқда, 2–3 ёшли болалар эса ҳали ҳам таълим тизимида кам қамраб олинган ҳолда қолмоқда. [4. 2023]

Иккинчи муҳим муаммо - педагогик кадрлар малакасининг паст даражада сақланиб қолаётганидир. 2017–2022 йилларда олий маълумотли педагогларнинг улуши 21,6 %дан 33,8 %гача ўсган бўлса-да, бу ҳали ҳам етарли кўрсаткич эмас. Бундан ташқари, давлат мактабгача таълим ташкилотларида 1 нафар педагогик ходимга ўртача 11,05 нафар тарбияланувчи тўғри келмоқда. Бу эса таълим сифатига салбий таъсир кўрсатиши мумкин. [6. 2022]

Учинчи муаммо - мактабгача таълим муассасаларидаги гуруҳларнинг юқори даражада юкланганлигидир. Пойтахт ва йирик шаҳарлардаги муассасаларда болалар сони меъёрга нисбатан 1,5–2 баробарга кўп эканлиги кузатилади. Тўртинчи жиҳат — моддий-техника базасининг етарлича ривожланмаганлиги. 2017–2022 йилларда 438 та янги мактабгача таълим муассасаси қурилган ва 2 064 та муассаса реконструкция қилинган. Фақатгина 2022 йилнинг ўзида 42 716 ўринга мўлжалланган янги муассасалар фаолият бошлаган. Шу билан бирга, мавжуд муассасаларнинг тахминан 20,0%и капитал таъмирга муҳтожлигича қолмоқда. [5. 2023]

Бешинчи муаммо - ота-оналарнинг мактабгача таълимнинг бола шахсини шакллантиришдаги ўрнига етарли даражада баҳо бермаётганлигидир. Бу ҳолатнинг юзага келишида юқорида келтирилган инфратузилмавий ва ташкилий камчиликлар ҳам рол ўйнамоқда. Охирги масала - қишлоқ ҳудудларида мактабгача таълим муассасаларининг сони ва сифати бўйича катта фарқ мавжуд. Аҳолининг ярми қишлоқларда яшашини ва туғилиш даражасининг юқорилигини инобатга олсак, бу камчиликлар таълимдаги регионал тенгсизликни кучайтириши мумкин.

Болаларнинг эрта ривожланишига қаратилган мактабгача таълимга сармоя киритиш келажакда умумий таълим ва касбий таълимда юқори натижаларга олиб келиши, инсон капиталининг сифатли шаклланишига туртки бўлиши аниқ. Шунинг учун ривожланган давлатлар бу босқичга катта эътибор қаратишмоқда ва болаларни эрта ёшдан мактабгача таълим тизимига жалб қилишни стратегик устуворлик сифатида кўрмоқдалар.

Мактаб таълими ҳам инсон капиталининг шаклланишида ҳал қилувчи аҳамият касб этади. Сўнгги йилларда Янги Ўзбекистонда ушбу соҳага ҳам катта эътибор қаратилмоқда. 2017 йилдан бошлаб мамлакатда 11 йиллик таълим тизими жорий қилинди. Тараққиёт стратегиясидаги тўртинчи устувор йўналиш ҳамда “Инсон қадри учун – 100 та мақсад” дастурида белгиланган 18 та вазифа мактаб таълими билан бевосита боғлиқдир.

2024 йил 28 январь куни бўлиб ўтган Президент раҳбарлигидаги видео-селектор йиғилишида мактаб таълимида пойдеворни бугундан мустаҳкамлаш, ислоҳотларни кечиктирмаслик, барча ресурсларни сафарбар этиш зарурлиги таъкидланди. Жорий йилнинг ўзида 527 та мактабни қуриш ва реконструкция қилиш учун 2,5 трлн сўм, дарсликларни янгилаш учун эса 605 млрд сўм ажратилиши режалаштирилгани мазкур соҳадаги ислоҳотлар кўламининг кенглигидан далолат беради.

Юқоридаги таҳлиллар таълим тизимининг инсон капитали шаклланиши ва иқтисодий тараққиётдаги ҳал қилувчи ролини аниқ намоён этмоқда. Айниқса, рақамли иқтисодиёт шароитида рақобатбардошликни таъминлаш, меҳнат бозорида сифатли кадрлар тайёрлаш ва ижтимоий барқарорликни сақлашда таълимнинг барча босқичлари – мактабгача таълимдан то умрбод таълимгача бўлган тизимнинг мустаҳкамлиги муҳим аҳамият касб этади. Бу борада сўнгги йилларда Ўзбекистонда амалга оширилган ислоҳотлар ижобий натижалар бермоқда: мактабгача таълим билан қамраб олиш даражаси сезиларли даражада ўсди, янги муассасалар барпо этилди, хусусий сектор фаоллашди. Бироқ, таҳлиллар мактабгача таълим тизимида ҳали ечимини кутаётган қатор муаммолар мавжудлигини кўрсатмоқда. Жумладан, қамров ҳудудлар ўртасида нотенг бўлиб қолмоқда, ёш болалар, айниқса 1–3 ёшлилар таълимдан четда қолмоқда, кадрлар малакаси етарли даражада эмас, таълим муассасаларида юклама юқори, моддий-техника базаси барқарор ривожланмаяпти, ҳамда ота-оналар онгли иштирокини таъминлашда самарали механизмлар ҳали шаклланмаган. Бу муаммолар инсон капитали сифатига салбий таъсир кўрсатади ва таълимга йўналтирилган сармоянинг тўлиқ қайтимини чеклаб қўйиши мумкин. Шу сабабли, инсон капитали ривожида таълимнинг ролини кучайтириш учун бир нечта йўналишлар устувор аҳамиятга эга. Биринчидан, қишлоқ ва кам таъминланган ҳудудларда мактабгача таълим муассасаларини кенгайтириш ва уларни замонавий инфратузилма билан таъминлаш орқали ҳудудлараро тенгликка эришиш зарур. Иккинчидан, педагог кадрлар салоҳиятини ошириш, уларни қайта тайёрлаш ва малака ошириш тизимини рақамли технологиялар асосида янгилаш лозим. Учинчидан, таълим муассасаларидаги гуруҳлар юкламасини нормаллаштириш, тарбия жараёни сифатини таъминлаш учун нормативларни қайта кўриб чиқиш муҳим. Тўртинчидан, ота-оналар ўртасида таълимнинг аҳамиятига оид маърифий ишларни кучайтириш, уларнинг фаол иштирокини таъминлашга қаратилган дастурлар ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқ.

Умуман олганда, таълим тизимига йўналтирилаётган сармоя инсон капитали сифати орқали мамлакатнинг узоқ муддатли иқтисодий ўсишини таъминлашда муҳим стратегик ресурсдир. Шу боис, таълим ислоҳотларининг изчиллиги, давлат-хусусий шериклик механизмларини ривожлантириш, рақамли ва инновацион ечимларни таълим соҳасига татбиқ этиш жараёнлари давомий ва тизимли тарзда амалга оширилиши зарур. Бундай ёндашув таълимни фақат ижтимоий соҳа эмас, балки макроиқтисодий барқарорлик ва миллий рақобатбардошликни таъминловчи стратегик соҳа сифатида қарашни тақозо этади.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати

1. ДСМР Ўзбекистон Республикаси. Аҳолининг ёш тузилиши бўйича маълумотлар. – 2024. – URL: https://stat.u
2. ДСМР Ўзбекистон Республикаси. Демографик йиллик ҳисобот. – 2024. – URL: https://stat.uz
3. Ўзбекистон Республикаси Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги. Ривожланиш дастурлари. – 2024. – URL: https://president.uz
4. Ўзбекистон Республикаси Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги. Таълим статистикаси. – 2023. – URL: https://president.uz
5. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги. Давлат бюджетидан молиялаштирилган таълим объектлари ҳисоботи. – 2023.
6. ЮНИСЕФ ва Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги. Мактабгача таълим муассасаларида кадрлар салоҳияти таҳлили. – 2022.
7. IMF. Investing in Education and Skills for Inclusive Growth. – 2022. – URL: https://www.imf.org
8. OECD. The Future of Education and Skills 2030. – 2023. – URL: https://www.oecd.org
9. Schweinhart L. J. et al. The HighScope Perry Preschool Study Through Age 40: Summary, Conclusions, and Frequently Asked Questions. – Ypsilanti, Michigan, 2010.
10. UNDP. Human Development Report 2023: Inequality and Education. – 2023. – URL: https://www.undp.org
11. World Bank. Human Capital Project: Global Framework. – 2023. – URL: https://www.worldbank.org

ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВОЙ СРЕДЫ НА ФОРМИРОВАНИЕ УСТОЙЧИВЫХ МЕХАНИЗМОВ УПРАВЛЕНИЯ МСБ

Ф.Т.Зокирова
Научный соискатель Ташкентского государственного экономического университета

Аннотация. В статье рассматривается влияние цифровой среды на формирование устойчивых механизмов управления малым и средним бизнесом (МСБ). Цифровизация способствует повышению операционной эффективности, снижению транзакционных издержек и расширению доступа к финансовым и информационным ресурсам. В Узбекистане в рамках стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030» наблюдается активная институциональная поддержка цифровых инициатив, рост экспортной активности МСБ и улучшение доступности электронных государственных услуг. Однако сохраняются проблемы цифрового неравенства, недостатка ИТ-кадров и ограниченного доступа к инфраструктуре. Проведённый анализ подтвердил наличие статистически значимой связи между уровнем цифровой зрелости МСБ и их экономическими результатами.

Ключевые слова. Цифровая трансформация, малый и средний бизнес, механизмы управления, цифровая экономика, ИТ-инфраструктура, цифровое неравенство.

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli muhitning kichik va o‘rta biznes (KOB) boshqaruv mexanizmlariga ta’siri tahlil qilingan. Raqamlashtirish tufayli KOB subyektlari operatsion samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va moliyaviy hamda ma’lumot resurslariga kirishni kengaytirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Ayniqsa, O‘zbekistonda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida davlat tomonidan raqamli tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash, KOB subyektlarini eksport faoliyatiga jalb etish va davlat xizmatlaridan raqamli foydalanishni kengaytirish bo‘yicha ijobiy tendensiyalar mavjud. Shu bilan birga, tahlil natijalari raqamli tengsizlik, internet infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi va malakali IT-kadrlar taqchilligi kabi muammolarni ham ko‘rsatdi. Tadqiqotda shuningdek, raqamli transformatsiya darajasi bilan iqtisodiy samaradorlik o‘rtasidagi statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlik aniqlangan.

Kalit so‘zlar. Raqamli transformatsiya, kichik va o‘rta biznes, boshqaruv mexanizmlari, raqamli iqtisodiyot, IT infratuzilma, raqamli tengsizlik.

Abstract. This paper analyzes the impact of the digital environment on the development of sustainable management mechanisms for small and medium-sized enterprises (SMEs). Digitalization enhances operational efficiency, reduces transaction costs, and expands access to financial and information resources. In Uzbekistan, under the "Digital Uzbekistan – 2030" strategy, there is a growing institutional support for digital initiatives, increased SME involvement in exports, and improved access to digital public services. However, challenges such as digital inequality, a shortage of skilled IT personnel, and limited infrastructure access persist. The study confirms a statistically significant correlation between digital maturity and economic performance of SMEs.

Keywords. Digital transformation, small and medium-sized enterprises, management mechanisms, digital economy, IT infrastructure, digital divide.

Развитие цифровой экономики и её влияние на трансформацию механизмов управления малым и средним бизнесом (МСБ) приобретает стратегическое значение как на глобальном уровне, так и в Узбекистане. Согласно данным международных аналитических организаций, цифровая экономика в 2024 году уже формирует около 15,5 % мирового валового внутреннего продукта (ВВП), при этом темпы её роста в 2,5 раза опережают темпы роста мировой экономики в целом. [4. 2024]

Для МСБ цифровизация становится краеугольным фактором устойчивости и конкурентоспособности. Исследования Организации экономического сотрудничества и развития (OECD) показывают, что в период пандемии COVID-19 до 70,0 % предприятий малого и среднего бизнеса усилили использование цифровых решений, включая облачные сервисы, CRM-платформы, инструменты аналитики и онлайн-коммерции. [7. 2023] Более того, значительная часть этих изменений приобрела долгосрочный характер и трансформировалась в устойчивые цифровые бизнес-модели.

Интеграция цифровых процессов позволяет повысить операционную эффективность, снизить

транзакционные издержки и увеличить прозрачность процессов. Согласно исследованиям Deloitte и SpringerOpen, доступ МСБ к цифровым финансовым сервисам, в том числе платформам цифрового кредитования, усиливает производственные результаты и снижает барьеры к финансированию. [3. 2023] Технологии Big Data, интернет вещей (IoT), блокчейн и ESG-ориентированные решения играют решающую роль в устойчивом развитии бизнеса и его участии в глобальных цепочках поставок.

Цифровая трансформация оказывает влияние также и на маркетинговые стратегии МСБ. Компании получают возможность расширить свою клиентскую базу, выйти на международные рынки и адаптировать предложения под нужды целевой аудитории за счёт автоматизированной аналитики и цифровых каналов продвижения. [5. 2023] Однако сохраняются и вызовы – высокая стоимость внедрения цифровых решений, ограниченный доступ к квалифицированным ИТ-специалистам и уязвимость к киберугрозам остаются основными барьерами, особенно в развивающихся экономиках.

В Узбекистане цифровая экономика пока составляет около 2,2 % ВВП, что существенно ниже, чем в развитых странах (например, в Великобритании – 12,4 %, в Южной Корее – 6,9 %). [8. 2024] Тем не менее, государство предпринимает активные шаги по ускорению цифровой трансформации. Стратегия «Цифровой Узбекистан – 2030» охватывает развитие ИТ-инфраструктуры, человеческого капитала и экспортного потенциала цифровых услуг. В рамках этой стратегии в мае 2025 года запущен Международный центр цифровых технологий, ориентированный на поддержку стартапов и цифровых решений в реальном секторе экономики.

В последние годы цифровизация стала краеугольным элементом социально-экономических реформ в Узбекистане. Президент Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёев неоднократно подчёркивал приоритетное значение цифровых технологий для развития малого и среднего бизнеса (МСБ), повышения прозрачности управления и расширения экспортного потенциала национальной экономики.

В ходе встречи с представителями предпринимательского сообщества Президент Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёев подчеркнул: «Поддержка предпринимательства - наш стратегический путь», отметив, что доля МСБ в ВВП уже превысила 53,0%, а в системе занятости охватывает порядка 74,0% трудоспособного населения, а также обозначил ключевые направления развития этого сектора, включая повышение экспортного участия, стандартизацию продукции, расширение логистических возможностей и активное включение МСБ в реализацию крупных инфраструктурных проектов. [1. 2025]

Совместный проект с Всемирным банком – Digital Inclusion Project – предполагает создание 25 000 новых рабочих мест в ИТ-сфере, причём не менее 50,0 % из них предназначены для женщин. Одновременно реализуются масштабные программы подготовки и переподготовки кадров в цифровой сфере. [9. 2024]

Значительную роль в цифровизации МСБ играет IT Park Uzbekistan, предоставляющий акселерационные программы, льготное налогообложение, доступ к облачной инфраструктуре и образовательные инициативы. Развитая экосистема цифровых сервисов позволяет предпринимателям интегрироваться в глобальные цепочки стоимости, внедрять электронный документооборот и использовать государственные услуги онлайн. Так, в 2024 году через Единый портал интерактивных государственных услуг (ЕПИГУ) юридическими лицами было подано 212 728 заявок по внешнеэкономическим контрактам.

Таким образом, на глобальном уровне влияние цифровой среды на устойчивость управления МСБ проявляется в росте производительности, улучшении экологических и управленческих показателей, а также расширении рыночных возможностей. В Узбекистане, несмотря на относительную начальную стадию цифровой трансформации (2,0–3,0% ВВП), наблюдается системная институциональная поддержка цифровизации, способствующая формированию устойчивых моделей управления МСБ и их интеграции в мировую цифровую экономику.

В условиях стратегической приоритизации цифровизации, закреплённой в национальной стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030», малые и средние предприятия (МСБ) рассматриваются как ключевая платформа устойчивого экономического роста и технологической модернизации экономики. Значимым индикатором прогресса служит рост вклада ИКТ-сектора в ВВП: в 2022 году доля валовой добавленной стоимости ИКТ превысила показатели 2018 года, достигнув почти 2,0 %, тогда как экспорт ИКТ-услуг составил свыше 300 млн долларов США, значительно опередив

экспорт ИКТ-товаров. [6. 2023]

Таким образом, анализ данных показывает, что рост цен на углерод неизбежен, и к этому необходимо готовиться заранее. Если регулирование будет реализовано сбалансированно, оно не только обеспечит переход Узбекистана к углеродно-нейтральной экономике, но и создаст новые возможности для инвестиций, технологического развития и укрепления международной конкурентоспособности.

Список использованной литературы

1. Налоговый кодекс Республики Узбекистан № ЗРУ 1071 от 30.12.2019 (включает изменения на 16.06.2025). Источник: Lex.uz https://www.lex.uz/acts/4674893
2. Указ Президента Республики Узбекистан № ЗРУ-539 от 21.05.2019 "О Законе Республики Узбекистан «О применении возобновляемых источников энергии»". Источник: https://lex.uz/docs/4346835
3. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-220 от 09.09.2022 "О дополнительных мерах по внедрению энергосберегающих технологий и развитию возобновляемых источников энергии малой мощности", вступил в силу 10.09.2022. Источник: Lex.uz https://lex.uz/docs/6189043
4. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-436 от 02.12.2022 "О мерах по повышению эффективности реформ, направленных на переход Республики Узбекистан на «зеленую» экономику до 2030 года". Источник: Lex.uz https://lex.uz/docs/6303233
5. Waste.ru. Налоговая политика в области экологии в странах ОЭСР // Waste.ru. URL: https://www.waste.ru/modules/section/item.php?itemid=342
6. Reuters. Какие новые налоги могут помочь в борьбе с изменением климата? // Reuters, 19 ноября 2024. URL: https://www.reuters.com/sustainability/sustainable-finance-reporting/what-new-taxes-could-help-raise-money-fight-climate-change-2024-11-19/..

АНАЛИЗ ОРГАНИЗАЦИИ ТРУДА СОТРУДНИКОВ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ

М.А.Юсупова
Научный соискатель Ташкентского филиала РЭУ им. Г.В. Плеханова
Кафедра «Экономика труда и управление»

Аннотация. В статье представлен комплексный анализ особенностей организации труда в коммерческих банках Республики Узбекистан в условиях ускоренной цифровой трансформации. В период с 2018 по 2024 годы численность персонала увеличилась на 12,0%, что связано с расширением филиальной сети и ростом цифровых услуг. Существенные изменения произошли в структуре занятости: доля IT-специалистов выросла с 12,0% до 17,0%, а доля сотрудников, прошедших переподготовку, достигла 40,0% в 2024 году. Работа подчёркивает стратегическое значение инвестиций в человеческий капитал и предлагает меры по внедрению KPI, цифровых платформ оценки персонала и развитию гибких форм занятости в ответ на вызовы цифровой экономики.

Ключевые слова. Коммерческие банки, организация труда, цифровизация, человеческий капитал, переподготовка, IT-специалисты, KPI, банковская реформа.

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot O‘zbekiston Respublikasidagi tijorat banklarida mehnatni tashkil etishning asosiy xususiyatlari va ularning o‘zgaruvchan tashqi iqtisodiy sharoitlarga moslashuvchanligiga bag‘ishlangan. Bank tizimidagi raqamli transformatsiya, filiallar tarmog‘ining kengayishi, xizmatlar ko‘lamining ortishi va kadrlar salohiyatiga bo‘lgan talabning oshishi tufayli 2018–2024 yillarda bank xodimlari soni 12,0 foizga oshgan. Ayniqsa, IT mutaxassislar ulushining 12,0% dan 17,0% gacha ko‘tarilgani mehnat tuzilmasining o‘zgarishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, qayta tayyorlangan xodimlar ulushi 25,0% dan 40,0% gacha oshgani kadrlar siyosatining sifat jihatdan rivojlanayotganini anglatadi.

Tadqiqot asosida xodimlar samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish, KPI va raqamli platformalarni keng joriy etish taklif etiladi.

Kalit so‘zlar. Tijorat banklari, mehnatni tashkil etish, raqamli transformatsiya, inson kapitali, qayta tayyorlash, IT mutaxassislar, KPI, bank islohotlari.

Abstract. This paper presents a comprehensive analysis of labor organization in commercial banks of Uzbekistan amid accelerated digital transformation. Between 2018 and 2024, the number of bank employees increased by 12.0% due to branch expansion and the development of digital services. Notable changes occurred in employment structure: the share of IT specialists rose from 12.0% to 17.0%, while the proportion of retrained personnel reached 40.0% in 2024. The study emphasizes the strategic importance of investing in human capital and recommends the implementation of KPIs, digital personnel assessment systems, and the promotion of flexible employment forms to meet the challenges of the digital economy.

Keywords. Commercial banks, labor organization, digital transformation, human capital, retraining, IT specialists, KPIs, banking reform.

Анализ организации труда сотрудников коммерческих банков приобретает особую значимость в условиях ускоренного развития финансового сектора Республики Узбекистан. Проведение масштабных экономических реформ, направленных на либерализацию банковской системы, интеграцию цифровых технологий и повышение конкурентоспособности финансовых учреждений, обусловливает необходимость трансформации традиционных подходов к управлению трудовыми ресурсами. В условиях усиленной конкуренции и цифровизации эффективность организации труда становится важнейшим фактором устойчивости и успешности банковской деятельности. [3. 2023]

Организация труда в коммерческих банках Узбекистана напрямую влияет на производительность, качество обслуживания клиентов и адаптивность к изменениям внешней среды. Повышение требований к скорости обработки операций, распространение дистанционных каналов обслуживания и внедрение искусственного интеллекта обуславливают необходимость пересмотра моделей занятости, структуры рабочих мест и функций персонала. [4. 2023] В этих условиях особую актуальность приобретают вопросы оптимизации трудовых процессов, улучшения условий труда, развития профессиональных компетенций и эффективного распределения функциональной нагрузки.

Как отметил Президент Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёев одним из приоритетов обозначено развитие человеческого капитала в банковской системе, как основного ресурса повышения эффективности и доверия со стороны клиентов. Кроме того, важное значение имеет международное сотрудничество: в партнёрстве с Программой развития ООН и другими международными институтами реализуются образовательные и технические проекты, нацеленные на адаптацию национальной банковской инфраструктуры к требованиям глобальной цифровой экономики. [1. 2025]

Настоящее исследование посвящено комплексному анализу ключевых характеристик организации труда в коммерческих банках Узбекистана за последние пять лет. В качестве эмпирической базы использовались официальные статистические данные Центрального банка Республики Узбекистан, а также отраслевые отчёты и экспертные обзоры. Анализ охватывает такие параметры, как численность персонала, структура занятости, уровень квалификации сотрудников, динамика кадровых изменений и масштабы переподготовки специалистов. [2. 2023]

Согласно данным Центрального банка, в период с 2018 по 2024 гг. численность сотрудников коммерческих банков страны увеличилась на 12,0%, что свидетельствует о расширении масштабов банковской деятельности и возросшем спросе на квалифицированный персонал. Данный рост объясняется несколькими факторами. Во-первых, активное расширение филиальной сети, открытие новых отделений и развитие продуктовой линейки потребовали увеличения штата. Во-вторых, значительный объём инвестиций был направлен на цифровизацию, что обусловило потребность в привлечении специалистов в области информационных технологий, бизнес-анализа и управления проектами.

Анализ динамики показал, что наиболее выраженный прирост численности сотрудников наблюдался в 2019 году - на 6,0% по сравнению с предыдущим периодом. Это совпало с активной фазой внедрения реформ, инициированных в рамках стратегии развития банковской системы. Начиная с 2020 года, рост численности носит более умеренный характер, однако сопровождается

качественными изменениями в структуре занятости и повышением уровня подготовки кадров.

Особое внимание в банковской системе Узбекистана уделяется развитию компетенций и переподготовке сотрудников. Так, доля работников, прошедших профессиональное обучение и повышение квалификации, возросла с 25,0% в 2018 году до 40,0% в 2024 году. Это указывает на стратегическую ориентацию банков на формирование адаптивного и высококвалифицированного кадрового потенциала, способного эффективно функционировать в условиях цифровой трансформации и усложняющихся клиентских запросов.

Современные вызовы, такие как переход на гибкие формы занятости, удалённый формат работы, автоматизация фронт- и бэк-офисных операций, требуют от банков системной перестройки процессов управления трудовыми ресурсами. Помимо этого, необходимо формирование цифровой культуры, обучение сотрудников работе с новыми цифровыми платформами и внедрение систем оценки эффективности персонала на основе KPI и моделей компетенций.

В 2019 году доля сотрудников, прошедших профессиональную переподготовку, составляла 28,0%. Этот период можно охарактеризовать как начальный этап формирования целостной системы обучения в банковском секторе. Повышение этого показателя до 30,0% в 2020 году обусловлено активным внедрением цифровых технологий, потребовавшим от сотрудников освоения новых цифровых инструментов и изменения подходов к выполнению служебных обязанностей.

2021 год ознаменовался дальнейшим ростом – до 34,0%, что отражает усиление процессов цифровой трансформации и внедрение новых финансовых продуктов, сопровождающихся усложнением операционной деятельности банков. Эти изменения способствовали интенсификации программ повышения квалификации, ориентированных на развитие цифровых и аналитических компетенций.

Несмотря на сохраняющееся воздействие пандемии COVID-19, в 2022 году наблюдается дальнейший рост доли сотрудников, прошедших переподготовку, до 37,0%. Данный факт свидетельствует о высокой устойчивости банков к внешним шокам и подтверждает приоритетность инвестиций в человеческий капитал, рассматриваемый как ключевой фактор обеспечения адаптивности и инновационности организации.

В 2024 году показатель переподготовки персонала достиг 40,0%, что отражает зрелость и системность подхода банков к развитию кадрового потенциала. Стремление к поддержанию конкурентных преимуществ на фоне усиления глобальной цифровизации банковского сектора побуждает коммерческие банки к расширению масштабов образовательных инициатив, внедрению адаптивных обучающих платформ, а также формированию внутренней среды, способствующей постоянному профессиональному росту сотрудников.

Таким образом, наблюдаемая положительная динамика свидетельствует о формировании устойчивой траектории развития системы корпоративного обучения в банковской сфере, что соответствует требованиям современной цифровой экономики и глобальным трендам управления персоналом.

Структура занятости сотрудников коммерческих банков является важным индикатором трансформации институциональной среды в условиях цифровизации и модернизации финансового сектора. Она отражает как сохранение традиционных направлений банковской деятельности, таких как кредитование и обслуживание физических лиц, так и усиление роли новых функциональных блоков, связанных с информационными технологиями, кибербезопасностью и аналитикой. В условиях ускоряющегося внедрения цифровых решений именно структура занятости позволяет выявить стратегические приоритеты банков в области управления персоналом и определить направления их адаптации к вызовам времени.

По данным Центрального банка Республики Узбекистан, в период с 2019 по 2024 годы в структуре занятости сотрудников коммерческих банков страны наблюдаются значительные изменения, обусловленные как внутренними институциональными реформами, так и внешними факторами цифровой трансформации. Одним из наиболее показательных трендов стало увеличение доли IT-специалистов с 12,0% в 2019 году до 17,0% в 2024 году. Данная динамика свидетельствует о возрастающей потребности в кадрах, обладающих компетенциями в сфере цифровых платформ, автоматизированных систем управления, кибербезопасности и анализа больших данных. Таким образом, развитие кадрового потенциала в направлении информационных технологий становится одним из ключевых условий обеспечения конкурентоспособности и устойчивости банковских институтов.

В то же время доля специалистов по кредитованию сохранялась на стабильно высоком уровне – около 30,0% в течение всего рассматриваемого периода. Это подчеркивает, что, несмотря на внедрение финтех-решений, кредитные операции остаются ядром банковской деятельности и требуют значительных ресурсов в виде квалифицированных специалистов, обладающих как финансовыми, так и коммуникационными навыками.

Структура занятости также демонстрирует стабильность в части руководящего состава и специалистов по работе с физическими лицами. Их доля оставалась практически неизменной, что свидетельствует о сформировавшейся системе управления и устойчивом спросе на фронт-офисные и управленческие компетенции. Подобная устойчивость указывает на зрелость организационной структуры банков и сбалансированность кадровой политики в условиях изменения внешней среды.

Одновременно наблюдается сокращение доли так называемых "прочих" сотрудников – с 12,0% в 2019 году до 8,0% в 2024 году. Это, вероятно, связано с автоматизацией вспомогательных и рутинных операций, оптимизацией процессов внутреннего администрирования и переходом на цифровые каналы обслуживания.

Рассматриваемые изменения происходят на фоне масштабных институциональных реформ, закреплённых в Стратегии развития банковской системы Республики Узбекистан на 2020–2025 годы, утверждённой Указом Президента №УП–5992 от 12 мая 2020 года. Данная стратегия предусматривает приватизацию государственных банков, привлечение стратегических инвесторов, внедрение современных механизмов корпоративного управления и развитие цифровых решений. В совокупности эти меры направлены на формирование устойчивой, клиентоориентированной и технологически развитой банковской системы, что отражается и на кадровом составе банковских учреждений.

В условиях стремительного реформирования банковской системы Республики Узбекистан вопросы организации труда становятся неотъемлемым элементом стратегического управления. Проведённый анализ показал, что в период с 2018 по 2024 годы численность сотрудников коммерческих банков увеличилась на 12,0%, что обусловлено расширением филиальной сети, запуском новых продуктов и активной цифровизацией. Существенный прирост персонала был зафиксирован в 2019 году – на 6,0% по сравнению с предыдущим годом, что совпало с началом реализации стратегии развития банковской системы.

Цифровая трансформация повлияла не только на количественные, но и на качественные характеристики кадровой политики. Доля IT-специалистов в структуре занятости выросла с 12,0% в 2019 году до 17,0% в 2024 году, что отражает рост потребности в кадрах, обладающих компетенциями в сфере кибербезопасности, цифровых платформ и аналитики данных. Одновременно сохраняется высокая доля специалистов по кредитованию – около 30,0% на протяжении всего периода, что подтверждает ключевую роль кредитных операций в деятельности коммерческих банков.

Параллельно возрастает значимость профессионального обучения. Доля сотрудников, прошедших переподготовку, увеличилась с 25,0% в 2018 году до 40,0% в 2024 году. Ежегодный прирост составил от 2,0 до 4,0 процентных пунктов, что демонстрирует системную работу банков по укреплению кадрового потенциала. Особенно показательно, что даже в условиях глобальной нестабильности в 2022 году (на фоне пандемии) доля прошедших обучение выросла до 37,0%, что указывает на устойчивую приверженность инвестициям в человеческий капитал.

Также наблюдается сокращение доли «прочих» сотрудников с 12,0% в 2019 году до 8,0% в 2023 году, что подтверждает эффект автоматизации рутинных операций и перехода к более эффективным организационным структурам. Эти изменения происходят на фоне реализации Указа Президента №УП–5992 от 12 мая 2020 года, в котором поставлены задачи по модернизации банковской системы, включая цифровизацию, приватизацию и внедрение корпоративных стандартов управления.

Таким образом, проведённое исследование позволяет сделать вывод о комплексной трансформации трудовых процессов в банковской системе Узбекистана. В условиях усиления цифровизации и глобальной конкуренции банки демонстрируют высокий уровень адаптивности, развивая кадровый потенциал и внедряя современные модели управления трудом. Для дальнейшего совершенствования предлагается активизировать использование KPI и цифровых платформ оценки эффективности персонала, расширить сотрудничество с образовательными учреждениями и международными организациями в подготовке кадров, а также стимулировать развитие гибких

форм занятости, соответствующих вызовам цифровой экономики.

Список использованной литературы

1. Мирзиёев Ш.М. Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на заседании Совета иностранных инвесторов. 11.06.2025 https://president.uz/ru/lists/view/8213
2. Центральный банк Республики Узбекистан. Обзор банковской системы. – 2023. – URL: https://cbu.uz
3. McKinsey & Company. Future of work in financial services. – 2023. – URL: https://www.mckinsey.com
4. World Bank. Uzbekistan Financial Sector Reform Report. – 2023. – URL: https://www.worldbank.org

BADIIY ASARLARDA QO'LLANILGAN DIALEKTIZMLAR: TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK UCHUN MUHIMMI

S.A.Usmonova
Qo’qon davlat universiteti Filologiya fakulteti dotsenti
D.Q.Sotiboldiyev
Qo‘qon davlat universiteti Filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada asarlarda qo’llanilgan shevaga xos so’zlar bo’yicha ta’rif berilgan berilgan, dialektizm namunalari sifatida iste’dodli ijodkor Fozil Farhodning asarlaridan misollar keltirilgan.
Kalit so’zlar: Usmon Azim, Eshqobil Shukur, Fozil Farhod, dialektizm, xalq shevalari, badiiy asar.

O’zbek xalq shevalarini o’rganish badiiy asarlar tilini to’liq va keng o’zlashtirish uchun katta ahamiyatga ega. Yozuvchilar o’z asarlarini yaratar ekanlar shevalarda mavjud bo’lgan shakl va atamalardan keng foydalanadilar. Bu esa asar qahramonlari uchun o’ziga xos xarakter va til yaratish, ularning ichki tabiatini ochib berishda salmoqli va asosiy o’rin tutadi. Ba’zi vaqtlarda mualliflarning o’z nutqida ham sheva materiallari uchraydi. [7, 36-37] O’zbekiston xalq shoiri Usmon Azim mashhur bir she’rini quyidagi talqinda o’qigan:

Jovmir jovdi moyda-moydalab,
Moyda-moyda bo’ldi juragim.
Tong otquncha qoyta-qoytalab
Suyasangma deya so’radim. [2]

Taniqli shoir Eshqobil Shukur nutqida kuzatishimiz mumkin: “Otamning men qo’llarini hich qachan mnday mlaym bo’b turg’anini ko’rmaganman. Hamisha, hamisha otamning mana shu yerlarida shuncha-shuncha qovariq bo’lardi… Televizorda e’lon qlardi. Masalan, falon bir odam vafot etti deb. Shu otam o’tirgan joyida birdaniga yelkalari bulkullay boshlardi, yig’lardi. Men aytardimki, kattaroq bo’g’animda xuddi menam aqlli bo’b qog’anday “Ota nmaga yig’layapsiz”. Endi meni noshutligimni qarang. U bu tonimasang’iz, bilmasang’iz disam, e, bolam, odam o’ldiku dedilar. Shuni (y)eshitdikku biz dedilar. [1]

Ma’lum bir zaminda yashovchi aholining turmushi, urf odati, mashg’uloti tabiat manzarasi, yer sathi kabilarni izohlash muallif mahalliy kishilarning nutqi uchun xos bo’lgan so’z va iboralardan foydalanmasdan iloji yo’q. [7, 36-37] Asarning tili shevaga xos so’zlar bilan go’zallashadi. Agar yozuvchi bir sheva vakilining nutqini ataylab adabiy tilda yozadigan bo’lsa, asar qimmatini yo’qotadi.

Xalq og’zaki ijodining yetuk namunasi hisoblangan “Alpomish” dostinini adabiy til variantiga solib o’qisak, asar asarligini yo’qotadi. “Tilima”, “elina” kabi so’zlarda “tilimga”, “elinga” so’zlari ishlatilsa, asarning xalqonaligi buziladi:

Ko’rar ko’zim, quloq solgin tilima,
Davron surib yurgin Boysin elinga,
Borib kelding, bolam, qalmoq elina,
Talab qilma dushmanlar mazgilina. [6, 208]

Mahalliy lahja va shevalar xususiyatlarini yaxshi bilgan shoir, dramaturg va yozuvchilar asar qahramonining bilim saviyasi, madaniyat darajasi, uning adabiy tilda yaxshi gaplasha bilishi yoki uni yetarli bilmasligi, qaysi shevada gapirishi, mashg’uloti kabilar to’g’risida uzundan-uzoq tushuntirishlar va

izohlar berish yo’li tasvirlab o’tirmasdan, shu umumiy xususiyatlarning hammasini bir xususiyat orqali ya’ni peersonaj tlida qo’llaniladigan sheva orqali ochib berishi mumkin. [7, 37] Qo’chqor Norqobil o’zining “Ko’zlaringni ko’rgani keldim” deb nomlangan hikoyasida xorazmlik yigit obrazini asarga kiritadi va obraz jonli chiqishi uchun personaj nutqi xorazm shevasida beriladi: M: Shu paytgacha yonimda miq etmay ketayotgan, biroq aminmanki, o‘zini beparvolikka solib jamiki gap so‘zlarni jon qulog‘i bilan tinglab o‘tirgan beso‘naqay yigitni tirsagim bilan turtdim. Yigit menga o‘girilib qaradi.

— Novo deysiz?

— Isming nima?

— Odamboy.

— Xorazmdanmisan?

— Hovvo.

— Odamboy, uka. Iltimos, choy damlab kel. Yurtingga mehmonlar borayapti-yu, sen uyqusirab o‘tiribsan...

Odamboy tushmagur ham quvgina ekan, gapi shu bo‘ldi:

— Choy bo‘lsa choy-da. Lekin memonlar kofe ichajakka o‘xshaydi. Yoshulli, men sizni donib duruppan. Siz televizorda chiqasiz. Yozuvchisiz. Lekin memonlar donishmadi. Qisinmang. Moskvaning televizorida chiqsangiz donishar balki… [4]

Iqbol Mirzoning “Bonu” romanida ham xorazm shevasi vakili nutqidan quyidagilar keltiriladi: Xorazm shevasi: M: Hozir ina kasal bo‘bkalasan, keyin sani isha omidila, bitta ko‘na tilfonni dab bina yonib guyavarasan? – deb urisha ketdi. [3, 179]. M: Mang‘layi kara, sani yashulli axsham ishdan aldi, anuv bala sotgan ayal ishi bo‘yincha uni sudga chaqirmishla, “Man neyerdagi odamla uchun sudda tik turadigan kishimanmi?” deb jini korishib, biza bakirdi. Novvoyxonang iyasigayam bizim go‘zimizcha tilpon etib, ungayam uqtirdi. Manimcha, u ishdanam ayrilding, bichara. O‘zim bilan apkitiyin dasam, ikki xana uyda yeti kishi turamiz. Xo‘jayin dim iplas adam, kunda bashimizi saniydi... To‘xta, bir ayol bor adi Dilbar digan, go‘rsang, bama’niga o‘xshiydi, namozxon. Manda rakami bo‘lsa gerak. Bo‘ldi-e, mizillama!” deb telefon tita ketdi. [3, 226– 227]

Dialektizm — umumtilga emas, balki shu umumtilning mahalliy ko‘rinishari bo‘lgan dialektlarga xos hodisa; shunga ko‘ra bular odatda biror dialektning vakillari nutqida ishlatilib, ko‘pincha boshqa dialektlarning vakillariga, shuningdek adabiy tilga ham xos bo‘lmaydi. [10, 88] Badiiy adabiyotda shevaga oid fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarning aks etishi dialektizm deyiladi. Bunda shevadagi qaysi yarusning aks ettirilishiga qarab dialektizmlar ham fonetik dialektizm, morfologik dialektizm va leksik dialektizm turlariga ega bo’ladi. [11, 76] Izlanishlarimiz natijasida, Fozil Farhodning asarlarida uchraydigan quyidagi leksik dialektizmlar orqali, ijodkorning dialektizmlardan mahorat bilan foydalana olganini O‘zbek tilining izohli lug‘atiga tayangan holda isbotlashga harakat qilamiz. Leksik dialektizm shevaga oid so‘zlarning badiiy asarlarda qo‘llanishidir. [11, 76]

Fozil Farhod (Jabborov) 1985- yil 26- avgustda Surxondaryo viloyati Qumqo‘rg‘on tumani Arslonboyli mahallasi Bo‘yrabob qishlog‘ida tug‘ilgan. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining jurnalistika fakultetida bakalavr bosiqchini 2010- yil, magistr bosqichini 2014- yili tamomlagan. “Maktub”, “Ko‘klam kuyi” nomli nasriy kitoblari chop etilgan. [5, 5]

M: Shunday kunlar boshlanajak damlarda biror ishga qo‘l urgim kelmas: yer ag‘darsam, ketmonning dastasi sinar, bog‘dan xurmo uzsam, **satilning** baldog‘i uzilib tushardi. [Bechoraning chorasi] O‘zbek tilining izohli lug‘atida satil so‘zi - (a. paqir; kovsh) shv. 1 Chelak, paqir. 2 Sirlangan kastryulka. [3- jild, 2020: 459] Hikoyada satil so‘zi sheva so‘zini ifodalagan.

M: Supa ustida kechki ovqat uchun **enam** piyoz to‘g‘rab o‘tirar, singlim o‘choq boshida qozon tagiga o‘tin qalardi. [Bechoraning chorasi]

M: Tegirmonga ukam olib ketar don,

Tandiriga **enam** o‘tin soladi.

Otam pechka yoqar — uyga kirar jon,

Singlim shoxdan xurmo terib oladi. [9, 112] O‘TILda ena so‘zi — shv, ona. [5- jild, 2020: 38]

M: Birozdan so‘ng uni qizi Zarifa uchun olganini, buni ko‘rib u qanchalar xursand bo‘lishini va achom-achom qilib, yuzlaridan **muchchi** olishini o‘ylab shu qadar sevindiki, quvonchi ichiga sig‘madi. [Miqnotis O‘TILda muchchi —shv, o‘pich, bo‘sa. [2- jild, 2020: 657]

M: Yig‘lama, jon singlim, boychechak,

Ro‘molchang ho‘l bo‘ldi ko‘zyoshdan.

Senchalik yig‘lamas kelinchak,

Ulgi ol charog‘on quyoshdan. [9, 109] O‘TILda ulgi, ulgu — shv. kam qo‘ll. o‘rganishga, taqlid qilishga loyiq narsa, ish-faoliyat, harakat; ibrat, o‘rnak, namuna. [4- jild, 2020: 277]

M: U qiz kunda besh mahal
Holimdan xabar olar.
Ukol qilsa, **uchammas,**
Yuragim og‘rib qolar. [9, 84] o‘TILda ucha so‘zi — shv, yelka, yelkaning orqa tomoni. [4- jild, 2020: 306]

M: Ba’zan qo‘lin yelpana qilib,
Tinglar suvning shovurlarini.
Barin sarob ekanin bilib,
Qumga bossar **bovurlarini.** [9, 99] O‘TILda bovur so‘zi — shv. folk. 1 Bag‘ir, jigar; dil, ko‘ngil. [1- jild, 2020: 293]

M: Qulog‘ingiz yaqin tuting, sizginaga aytay sir,
Men xalqimning bolasiman, Vatanimning **uliman!**
Ne desangiz deyavering, endi menga baribir,
Ha, men Vatan maddohiman, O‘zbekiston quliman! [9, 5] O‘TILda ul so‘zi — shv, o‘g‘il. [4- jild, 2020: 276].

M: Tarixni yashirib bo‘lmagay axir,
Hech biri **ko‘kaydan** ketmagay o‘chib.
O‘tmishim - og‘rig‘im bunchalar taxir,
Yuragim qinidan ketyapti ko‘chib. [9, 6] O‘TILda ko‘kay so‘zi — shv, ko‘ngil, dil. [2- jild, 2020: 450]

M: Dada, bugun menam bo‘lganman dada,
Ichimdagi darding bari o‘lganday.
O‘g‘lim dada deydi, qizim der **ada,**
Yo‘qotganlarimning o‘rni to‘lganday. [9, 16] O‘TILda ada — shv, ayn. Ota 1. [1- jild, 2020: 38]

M: Ko‘z oldimda o‘g‘limning fe’li
Bobosining fe’liga o‘xshar.
Umr bug‘doy - tuyadi **keli**,
Talqon bo‘lsak, ruhimiz bo‘shar. [9, 19] O‘TILda keli so‘zi — shv, o‘g‘ir. [2- jild, 2020: 345] O‘g‘ir so‘zining ma’nosi izohli lug‘atda quyidagicha keladi — o‘rtasida qo‘l bilan tutadigan teshigi bor dasta hamda donni urib tuyish, ezib maydalash uchun ishlatiladigan ichi o‘yiq g‘o‘ladan iborat ro‘zg‘or buyumi; keli. [5- jild, 2020: 193]

M: Hayotning o‘ziyam urchiqqa **mengzar,**
Chig‘irday alanar, to‘xtamaydi hech.
Birov shon orttirar, kimdir tanga-zar,
Allakimlar baxtga kech qoladi, kech. [9, 30] O‘TILda mengzamoq so‘zi — shv, o‘xshamoq, o‘xshatmoq. [2- jild, 2020: 579]

M: Bir kun daraxt shoxidan
Yiqilib, sindi qo‘lim.
Tez yordam **moshinida**
Shaharga tushdi yo‘lim. [9, 84] O‘TILda moshin so‘zi — shv, mashina. [2- jild, 2020: 619]

Badiiy adabiyot tili xalq (millat) tili boyliklarining qayta ishlangan ko‘rinishidir. Shu jarayonda badiiy so‘z ustalarining voqea yoki qahramon sarguzashtlari o‘tadigan shevaga murojaat qilishlari e’tirof etib kelinadi. Adabiyotda mahalliy kolorit degan tushuncha bor. Bu esa adiblarga mahalliy kechinmalarni ifodalashda sheva xususiyatlaridan keng foydalanishga imkoniyat beradi. [11, 76] Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, yozuvchi va shoirlar o’z asarlarida dialektizm namunalaridan foydalanish orqali nafaqat ma’lum bir hududga mansub sheva vakilini ko’rsatib berishga harakat qiladi, balki asarning xalqonaligini, go’zalligini ta’minlab beradi, bu uchun ham dialektizmlar muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eshqobil Shukur. Uyga qaytib. Madaniyat va ma’rifat telekanali. 25.05.2025. 13:22
2. **https://t.me/AsanovEldar**

3. Iqbol Mirzo “Bonu” Sharq nashriyot–matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent – 2020.
4. Qo’chqor Norqobil. Ko’zlaringni ko’rgani keldim. Hikoya. https://www.ziyouz.com
5. Ziyouz.uz/ozbek nasri/fozil-jabborov.
6. Алпомиш. Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони. «Шарқ» нашриёт-матбаа концерни Бош таҳририяти Тошкент —1998.
7. Ражабов Назар. Ўзбек шевашунослиги педагогика институтлариининг ўзбек тили ва адабиёти университетларнинг филология факультетлари талабалари учун дарслик. Тошкент “Ўкитувчи” 1996.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. —Тошкент: “Ўзбекистон миллий енциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, I, II, III, IV, V жилдлар. 2020.
9. Фозил Фарҳод. Автопортрет. Шеърлар. — Тошкент, 2024.
10. Rahmatullayev Shavkat. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. —Toshkent : “Universitet” 2006.
11. Ashirboyev Samixon. O‘zbek dialektologiyasi. Darslik. —Toshkent: “Navro‘z” nashriyoti, 2016.

KO’MAKCHI FE’LLI SO’Z QO’SHILMASI MAVZUSINI O’QITISHDA KOGNITIV-PRAGMATIK YONDASHUV

U.M.Hamroyev
Alisher Navoiy nomidagi o’zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchi, xalq ta’limi a’lochisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ona tili o’qitish metodikasining maqsad va vazifalari, ona tili darslarida o‘quvchilarga kognitiv-pragmatik yondashuv asosida o’qitish, nutqiy ko‘nikma, nutqiy malaka nutqiy kompetensiya komponentlarining lingvodidaktik asoslanishini o‘rgatish, og‘zaki va yozma savodxonlikni o‘stirish, ijodiy, ilmiy va kreativ fikrlash hamda o‘quvchilarning tafakkur qilish qobiliyatini takomillashtirish bo‘yicha tilshunos, metodist olimlar hamda psixologlarning ilmiy qarashlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ona tili ta’limi,og‘zaki va yozma savodxonlik, ko’makchi fe’lli so’z qo’shilmasi mavzusini o’qitishda kognitiv pragmatik yondashuv asosida o’qitish turli o’qitish nutqiy ko‘nikma, nutqiy kompetensiya, ta’limiy topshiriqlari, ilg‘or texnologiyalar, kreativ yondashuv, ijodiy tafakkur, turli jadvallar, matn tustida ustida ishlash.

Аннотация: В данной статье рассматриваются цели и задачи методики преподавания родного языка, а также обоснована необходимость обучения учащихся на уроках родного языка с позиций когнитивно-прагматического подхода. Анализируются лингводидактические основы формирования речевых умений, навыков и компонентов речевой компетенции, направленных на развитие устной и письменной грамотности, а также формирование креативного, научного и творческого мышления. Особое внимание уделено развитию способности учащихся к когнитивному осмыслению языковых единиц. В статье представлены научные взгляды лингвистов, методистов и психологов по данным вопросам.

Ключевые слова: обучение родному языку, устная и письменная грамотность, когнитивно-прагматический подход в преподавании темы «словосочетания с вспомогательными глаголами», речевые умения, речевая компетенция, учебные задания, инновационные технологии, креативный подход, творческое мышление, работа с текстом, использование различных таблиц.

Annotation

This article analyzes the goals and objectives of the methodology of teaching the mother tongue. It explores the application of the cognitive-pragmatic approach in teaching students during native language lessons, particularly in the development of speech skills, abilities, and the components of communicative competence based on linguodidactic foundations. Special attention is paid to improving oral and written literacy, fostering creative, scientific, and critical thinking, as well as enhancing students’ cognitive abilities. The scientific perspectives of linguists, methodologists, and psychologists regarding these aspects are thoroughly examined.

Keywords: mother tongue education, oral and written literacy, cognitive-pragmatic approach in teaching the topic of auxiliary verb combinations, various teaching methods, speech skills, communicative competence, educational tasks, advanced technologies, creative approach, creative thinking, various tables, text-based activities.

Bugungi kunda yangi O‘zbekistonni barpo etish va uchinchi Renessans poydevorini yaratishda yosh avlodga chuqur bilim berish, ularni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalash kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu jarayon ona tili o‘qituvchilaridan o‘zlarining har bir o‘tiladigan darsini ilg‘or zamonaviy metodlar va grammatik mashqlar, nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar orqali tashkil etishi orqali o‘qitishning samarali yechimlarini topish va nazariy va amalai dalillar asosida xulosalash bilan o‘zaro chambarchas bog‘liqdir.

Ona tili o‘qitishning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarda adabiy til me’yorlariga amal qilgan holda mustaqil tafakkur qilish, kreativ va ijodiy fikrlash qobiliyatini o‘stirish hamda o‘zining fikrini ham og‘zaki, ham yozma shakllarda aniq, sermazmun, tushunarli, savodli tarzda ifodalashni o‘rgatishdan iborat. Shu bois ona tili darslarida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini o‘quv topshiriqlari asosida rivojlantirishga e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Ona tili darslarining sifat va samaradorligini oshirishda nutqiy kompetentsiyalarning o‘ziga xos o‘rni muhim hisoblanib, uni rivojlantirishda qator omillarning o‘rni ahamiyatli. Nutqiy kompetensiyalar rivojlantirishdagi asosiy omillardan biri o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq. Nutq turlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega. “Og‘zaki nutq, odatda, bevosita nutq jarayonini tashkil etadi. Yozma nutqda esa muayyan masofaning bo‘lishi nazarga olinadi. Shunga ko‘ra ularning izchilligi, to‘liq yoki noto‘liqligi ham har xil bo‘lishi tabiiy”. Har bir o‘quvchida, avvalo, og‘zaki nutq rivojlanib borishi mumkin, biroq og‘zaki nutqidagi fikrini, qarashini ifodalayotganida yozma nutq me’yorlariga amal qilishi hamda ikkala nutq shaklida ham fikrlar bayonining ketma-ketligi, izchilligi nazardan chetda qolmasligi kerak.

O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqida mantiq, mazmun va ma’no bo‘lishi bo‘yicha ko‘nikmalar ona tili darslarida shakllantiriladi. Binobarin, ulug‘ alloma Abu Nasr Forobiy grammatika va mantiqning ahamiyati haqida quyidagicha fikr bildiradi: “Grammatika odamlar nutqini to‘g‘rilagani kabi – u shuning uchun ham vujudga kelgandir, – mantiq ilmi ham xato kelib chiqishi mumkin bo‘lgan tafakkurni to‘g‘ri yo‘ldan olib borishi uchun aqlni to‘g‘rilab turadi”. O‘quvchilar o‘z nutqida mantiqan mushohada yuritib, mulohaza bildirishlari maqsadga muvofiq. Shu bois ular o‘zining xotirasidagi so‘z zaxirasini o‘z nutqi orqali harakatga keltiradi.

Nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda N.Bekniyazova so‘z boyligini oshirish uchun so‘zlash jarayoni bo‘lishi zarurligini dalillash ucnun quyidagi fikr-mulohazalarni keltiradi: “Ruhshunos olim V.Penfild odam bosh miya po‘stlogining chap yarim sharida joylashgan nutqiy faoliyat bilan bog‘liq markaz va zonalar haqida fikr yuritar ekan, nutq uchun zarur harakatlarni tartibga soladigan Brok zonasiga e’tiborini qaratadi. Brok zonasi esa buyumlarni atash markazi bilan ko‘p marotaba bog‘lanmas ekan, o‘rganilayotgan so‘zlarni nutqda qo‘llash uchun bu zonada zarur dinamik stereotiplar hosil bo‘lmaydi degan xulosaga keladi... So‘zlash jarayonidagina sifatlarning ma’nosi va vazifasiga (funksiyasiga) ko‘ra xotiraga tushirish va tanlash operatsiyalari hamda amallari bajariladiki, ayni shu operatsiya va amallar dinamik stereotipning shakllanishini ta’minlaydi”. Demak, so‘zlash uchun o‘quvchi miyasida so‘zlarning ma’nolari va ularning dinamik ko‘rsatkichlari o‘sib borishi hamda nutqda qo‘llanib borishi nutqiy faoliyatga aylanishi nazarda tutiladi.

6-sinf ona tili darsligida ko’makchi fe’llar mavzusini o’qitish uchun maxsus soatlar ajratilgan. O’quvchilarni ko‘makchi fe’l mavzusini o‘qitishda bir muncha qiyinchiliklarga duch kelinadi. Negaki ko‘makchi fe’lni so’z birikmasiidan, qo‘shma fe’ldan farqli tomomlari turli xildagi misollar, topshiriqlar, mashqlar orqali tushuntirish o’quvchlarning mavzuni o’zlashtirishi oson kechadi. Ko‘makchi fe’l so’z qo’shilmasi (KFSQ) hamisha yetakchi fe’l bilangina qo‘llanadi. Shuning uchun ham ko‘makchi fe’lni mustaqil qo‘llanuvchi fe’llardan faqlash usullarini mashqlar, va matn tahlilari bilan o‘rgatilishi o’quvchining lingvistik kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Quyida berilgan fe’llarni *o‘chirmoq* fe’liga bog‘lab yozing. Ularni o‘zaro taqqoslang, ma’nolarida qanday farqni sezdingiz? (134-bet)

Fe’l	Yetakchi	Bog’lovchi vosita	KFSQ	Ifodalangan ma’no
Boshlamoq	O . ch .ir m	-a	O’chira boshlamoq	Harakatning boshlanishi

Chiqmoq		-b (-ib)	O’chirib chiqdi	Harakatning to’la tagallanganlik
Tashlamoq		-b (-ib)	O’chirib tashlamoq	Harakatning tez va oson bajarilganligi
Ko’rmoq		-b (-ib)	O’chirib ko’rmoq	Harakat bajarishga imkoniyat
Turmoq		-b (-ib)	O’chirib turmoq	Harakat davomiyligi
Qo’ymoq		-b (-ib)	O’chirib qo’ymoq	harakatning tez va oson bajarilishi

Ushbu jadval asosida o‘quvchida ko’makchi fe’lli so’z qo’shilmasi takibida keluvchi ravishdoshning -b (-ib), -a (-ay) shaklarining qo’shilishi, yekchi va ko’makchi fe’lning o’rni, uning ma’nolari haqidagi grammatik bilimlar bilan birga kognitiv o’chirmoq fe’liga boshlamoq, chiqmoq, tashlamoq, ko‘rmoq, turmoq, qo‘ymoq o’z mustaqil ma’nosini yo’qotgan ko’makchi fe’llarning matndan aylashiladigan ma’nosini idrok etishi, ongli ravishda o’z tafakkuri bilimi natijasida nutqoiy vaziyatga olib kirish orqali mazmunini tushunish, kontekstda (matn yoki muloqot jarayonida) ko’makchi fe’llar orqali namoyon etilgan fikrni anglab, o’z vaqtida tasavvur olami bilan baholay olish, ijtimoiy-nutqiy maqsadni ilg‘ash ko‘nikmalari shakllanadi. Bu esa o’quvchining nutqiy kompetensiyasi va matn bilan ishlash malakalarini rivojlantiradi.

Darslikda ko‘makchi fe’lning ma’nolari mavzu bayonidagi “Kim ko‘proq aybdor?” matnida ajratib ko‘rsatilgan gaplarni namunadagidek yozing. Gaplar mazmunida qanday o‘zgarish bo‘lganini izohlang.[Ona tili 6-sinf 2022] qolgan misollar shu manbadan olingan. (138-bet)

Ko’makchi fe’l	Mustaqil fe’l
Eskirib qolgan qurilmalarda yong‘in kelib chiqishi xavfi ko‘p bo‘ladi. Ular elektr tokini keragidan ko‘p ishlatib yuboradi.	Eskirib qolgan qurilmalarda yong‘in kelib chiqishi xavfi ko‘p bo‘ladi. Ular elektr tokini keragidan ko‘p ishlatadi.
Sababi elektr simlari bunday kuchlanishni ko‘tara olmay, qizib ketadi va yong‘in chiqishiga sabab bo‘ladi.	Sababi elektr simlari bunday kuchlanishni ko‘tara olmay, qiziydi va yong‘in chiqishiga sabab bo‘ladi.
Ikkinchi holat – dazmolni o‘chirishni unutib qo‘yish.	Ikkinchi holat – dazmolni o‘chirishni unutish.
Odatda qarovsiz qolgan qozondagi suyuqlik qaynab toshib ketadi va olovni o‘chirib qo‘yadi.	Odatda qarovsiz qolgan qozondagi suyuqlik qaynab toshib ketadi va olovni o‘chiradi.
So‘ng gaz butun oshxona bo‘ylab tarqala boshlaydi.	So‘ng gaz butun oshxona bo‘ylab tarqaladi.

Mazkur topshiriqning berilishi mavzu uchun juda ham o‘rinlidir. Bizningcha, topshiriqdagi KFSQ va Mustaqil fe’lning taqqoslash orqali berilishi maqsadga muvofiqdir. Ko‘makchi fe’llar qoidasining to‘liq tushunilishini ta’minlaydigan fe’llar bilan boyitilsa, yanada maqsadliroq bo‘lar edi.

O‘quvchilar topshiriq shartlarini o‘qituvchilari bilan bajarishar ekan, ularda yetakchi fe’llarning ko‘makchi fe’llar yordamida qo‘llash orqali yuzaga chiqayotgan turli ma’no nozikliklarini, ma’no tovlanishlarini his etadilar hamda mavzuni to‘laqonli o‘zlashtirishlariga erishiladi. Ko‘makchi fe’llar o‘zgarishi bilan ifodadagi ma’no o‘zgarishlarini o‘qituvchi tomonidan to‘ldirilishi, sharhlanib borilishi esa darsning yanada mustahkamlanishini ta’minlaydi.

Darslikda keltirilgan topshiriq shartining bajarilishi quyidagicha bo‘lishi ko‘zda tutilgan: *tarqala boshlaydi*.– harakatning boshlanishi; ishlatib yuboradi harakatning tez va oson bajarilishi; qizib ketadi -; *harakatning davomiyligini*; unutib qo‘yish – harakatning yakunlanganligi o‘chirib qo‘yadi- harakatning yakunlanganligi kabi ma’nolarini ifodab kelayotganligi haqidagina fikr yuritiladi. Bu o‘rinda topshiriq bajariladi, biroq o‘quvchilarning mazkur mavzuni tushunishlari mavhumligicha qolishi kuzatiladi. Darslikda mavzu qoidasida keltirilayotgan harakatning boshlanishi, harakatning bajarishga imkoniyat, harakatning davomiyligi, harakatning tez va oson bajarilishi, harakatning to‘la yakunlanganligi haqida batafsil tushunchalarga ongli ravishda ega bo’lishadi. Ushbu topshiriq polifunksional fe’l birliklarining qanday vazifada qo‘llanilayotganini kontekstdan aniqlay olishni kognitiv tahlil qilishga asoslanadi. Chunki bir fe’l birinchi holatda denotativ (asosiy) ma’no beradi, ikkinchisida esa ko‘makchi bo‘lib, harakatning tarzini, imkoniyat, davomiyligini yoki bosqichini bildiradi.

Bu – semantic shift (ma’no o‘zgarishi), illokutsion kuchni anglash, va grammatik kategoriyaning nutqiy moslashuvini o‘rgatadi.

“Fe’llarning o‘z ma’nosi va ko‘makchi vazifada kontekstga mos ravishda ishlatilishini tahlil qilish orqali o‘quvchilar harakat va holat o‘rtasidagi semantik tafovutni tushunib, pragmatik ifoda vositalarini ongli tanlash kompetensiyasiga ega bo‘ladilar. Bu esa kognitiv tafakkur, pragmatik sezgirlik va til vositalaridan erkin foydalanish salohiyatini rivojlantiradi.

-a/-y, -(i)b bilan tugagan fe’llardan keyin kelib, o’zining mustaqil ma’nolarini yo’qotgan fe’llar ko‘makchi fe’llar hisoblanadi: ayta olmoq, ko‘rib qolmoq. Ular asosiy fe’ldan anglashilgan harakat-holatga turli (boshlanish, davomiylik, tugallanish, to‘satdan yuz berish, imkoniyat, tez va oson bajarish, birov uchun bajarish…) yordamchi ma’nolarni qo‘shadi. Yetakchi va ko‘makchi fe’llar birikuvi dan hosil bo‘lgan birlik bitta so‘z sanaladi. Masalan, aytib yubormoq so‘zi. Bunda yubormoq ko’makchi fe’li aytmoq harakatining kutilmaganda ro’y berganini ifodalashga xizmat qilmoqda. Boshlamoq, olmoq, bermoq, yubormoq, turmoq, chiqmoq, ko‘rmoq kabi qator fe’llar ko‘makchi fe’l bo‘lib kela oladi. Boshlamoq so‘zi ko‘makchi fe’l vazifasida ham o‘z ma’nosini saqlaydi.

Ko‘makchi fe’llarni semantik guruhlarga ajratish jadvali:(139-bet)

Harakatning bajarilish tarzini ifodalovchi ko‘makchi fe’llar	Harakatning bajarilish bosqichini ifodalovchi ko‘makchi fe’llar
Yubormoq	Boshlamoq
Olmoq	Yotmoq
Tashlamoq	Yurmoq
qo‘ymoq	Turmoq
	Chiqmoq

Sinf o’quvchilarini ikki guruhga bo’lgan holda ularga berilgan fe’llardan KFSQ hosil qilish vazifasi topshiriladi. Ta’lim oluvchilarning bunday topshiriqlar bajarishi orqali ularda so’zlarning bir-biriga bog’lanishi orqali KFSQ hosil qilish ko’nikmasi rivojlantiriladi.

Birinchi guruh	Ikkinchi guruh
Aytib yubormoq	Kuylay boshlamoq
Ayta olmoq	Uxlab yotmoq
Aytib tashlamoq	O’qib yurmoq
Aytib qo’ymoq	O’qib turmoq
	O’qib chiqmoq

Darslikning uyga vazifa ruknida quyidagicha keltirilgan: Berilgan yetakchi va ko‘makchi fe’llar ishtirokida so‘z qo‘shilmalari tuzing va ularni gap ichida keltiring. Gap mazmunida qanday o‘zgarish bo‘layotganini izohlang. *Ko’rmoq va yozmoq fe’llarining ishlatilish o‘rinlariga va ma’nolariga diqqat qiling. (138-bet)*

Ko‘rmoq	boshlamoq
	yotmoq
	chiqmoq

Yozmoq	tashlamoq
	olmoq
	turmoq

O’quvchilar mashq sharini o’qib o’z tafakkuri va idroki orqali so’zlarni bir biriga bog'lab ular orasidagi ma’noni harakatga keltirib, qanday ma’noda kelayotganini kontekstda yuzaga chiqarishadi. O’quvchilar tomonidan tuzilgan gaplardan ba’zi namunalar:

1) Dostonjon ukasi bilan “Bolajon” telekanali orqali namoyish etiladigan “Zukko bolajon” ko’rsatuvini ko’ra boshladi. (harakatning boshlanishi)

2) Salima yozgi ta’tilda “Yosh kitobxon” tanloviga qatnashish uchun tayyorgarlik ko’rib yotibdi. (harakat davomiyligi)

3) O’qituvchi o’quvchilarning yozgan insholarini kechasi bilan ko’rib chiqdi. (harakatning tugallanganligi)

4) O’quvchilar “yong’in xavsizligi qoidalari” mavzusidagi esseni yozib tashladilar. (harakatning tez va oson bajarilishi)

5) Sohibaxonning o’qiyotgan asari haqida bemalol erkin mavzudagi inshoni yoza oladi. (harakatning bajara olish imkoniyati)

6) Muhriddin darsdan bo’sh vaqtlarida ingliz va o’zbek tillarida esse yozib turdi. (harakat davomiyligi)

O’quvchilarda quyidagicha kognitiv bilim shakllanadi. O’’quvchining o’zi quyidagi ta’rifni ishlab chiqarishi kerakligi nazarda tutiladi. Ravishdoshning -a//-y shakliga qo‘shiluvchi boshlamoq ko‘makchi fe’li harakatning boshlanishi, olmoq ko‘makchi fe’li esa harakatni bajarishga imkoniyat mavjudligi ma’nosini ifodalashi haqidagi bilimlar hosil bo’ladi. Yotmoq, yurmoq, turmoq ko‘makchi fe’llari ravishdoshning -(i)b shakliga qo‘shilib, harakatning davomiyligini bildiradi. Yubormoq, tashlamoq, qo‘ymoq ko‘makchi fe’llari harakatning tez va oson bajarilishini ifodalaydi. Chiqmoq ko‘makchi fe’li harakatning to‘la yakunlanganini bildiradi. O’quvchilarda mustaqil gap tuzish nafaqat grammatik bilimlarni amalda gap tuzish orqali mustahkamlashning eng asosiy vositasidir. Chunki tilning grammatik shakllarini, uning ma’lum qoidalarini tushunish orqali o’quvchilarda fikrlash, mulohaza qilish, idrok etish kishilar orasida o’zaro muloqot qila olish malakalarini rivojlantiruvchi kognitiv-pragmatik asosga ega faoliyatdir. Bu jarayon o‘quvchilarni lingvistik birliklarning ma’no qirralari, konnotativ tus (so’z ma’nolariga o’z ma’nosidan tashqari qo’shimcha ma’nolarning yuklanishi), biror gap aytilganda, u faqat mazmun emas, balki muayyan niyat, maqsad, strategiyani ham anglatadi va kommunikativ o‘ringa mos stilistik vositalarni ongli ravishda tanlab ishlatishga o‘rgatadi. Ushbu topshiriq orqali ko’makchi fe’llarning barcha ma’nolari aks etgan. Daraslikda ko’makchi fe’llar ularning ma’nolari haqida umumiy ta’rif berilgan,. Darslikda kognitiv-pragmatik kompetensiyani rivojlantirishga doir topshiriqlar berilgan darslikdagi topshiriqlar o’quvchilarning yosh xususiyatlari ihisobga olingan holda tuzilgan. O‘quvchilar qoidani mustaqil ravishda ongi ravishda hosil qilish orqali, hosil qilingan qoidaga muvofiq keluvchi topshiriqlarni bajarish orqali mavzuni mukammal tushunadilar. Mazkur mavzuning qoidaga muvofiq misollarni matndan mustaqil ravishda topa olish ko’nikamalari shakllanadi.

Bilim — bu inson tafakkuri mahsuli bo‘lgan mantiqiy, kognitiv va ijtimoiy mazmunga ega axborotlar tizimi bo‘lib, u shaxsning real voqelikni anglash, u bilan muloqotda bo‘lish va faoliyat olib borish imkonini yaratadi.

Ko‘**nikma** — bu bilim asosida shakllanadigan turli topshiriq va mashqlar orqali takomillashadigan faoliyat turi bo‘lib, u shaxsning amaliy faoliyatga tayyorligi va o‘zlashtirgan bilimni nutqiy vaziyat jarayonida to‘g‘ri qo‘llay olish salohiyatini rivojlantiradi.

Malaka — bu o‘zlashtirilgan bilim va shakllangan ko‘nikmalar asosida takroriy faoliyat orqali avtomatlashtirilgan, barqaror, ongli va ixtiyoriy tarzda amalga oshiriladigan harakatlar tizimi bo‘lib, shaxsning mustaqil va sifatli faoliyat yuritish salohiyatini ta’minlaydi.

Kompetensiya — bu shaxsning kognitiv, nutqiy, ijtimoiy , psixologik va madaniy tarkibiy qismlarga asoslangan, o‘z bilim, ko‘nikma va malaka, orttirilgan tajribasini muayyan kontekstda ongli va samarali qo‘llay olish layoqatidir. Matn ustida ishlashda o’quvchilarda shakllanuvchi bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar quyidagi jadvalda aks ettiriladi:

Tur	Tavsifi	Misol bilan izoh
Bilim	Ko‘makchi fe’llarning ta’rifi o’ziga xos ma’no turlari, vazifasi, matndagi asosiy vazifasi haqidagi nazariy tushunchalarga ega bo’lishi nazardsa tutiladi.	Boshlamoq ko‘makchi fe’li harakatning boshlanishi, olmoq ko‘makchi fe’li esa harakatni bajarishga imkoniyat mavjudligi ma’nosini, yotmoq, yurmoq, turmoq ko‘makchi harakatning davomiyligini, yubormoq, tashlamoq, qo‘ymoq ko‘makchi fe’llari harakatning tez va oson bajarilishini, chiqmoq ko‘makchi fe’li harakatning to‘la yakunlanganini bildiradi.
Ko‘nikma	Matndan ko‘makchi fe’lni ajrata olish, semantic vazifasi qanday ma’noda qo’llanganlik semasini tushunish va anglash	“U gapira boshladi.” → *“boshladi” – harakat boshlanish bosqichini bildiradi*
Malaka	Turli xil uslubga mansub bo’lgan asosan badiiy, publitsistik, ilmiy matnlardan ko‘makchi fe’llarni aniqlab, ularning kontekstual ma’nolarini sharhlay olish	“Kitob o‘qib turdi” → *doimiylik; odat tusidagi harakat*

Kompetensiya	Nutqiy faoliyatda ko‘makchi fe’llar orqali harakatning mazmuniy-psixologik xususiyatini ongli ravishda so’z va uning ma’nolarini tushunish va uni erkin va mustaqil tanlash va nutqiy jarayonda ishlatish kompetensiyalarni rivojlantirish.	O‘quvchi “yurmoq, turmoq” va “olmoq” va boshqa ko’makchi fe’llarining stilistik-funktsional farqini sezadi olish kompetensiyalarini r

Ko‘makchi fe’llarni matndan ajratib olish faoliyati – bu o‘quvchining morfologik analiz, nutqiy tafakkur, kontekstli tahlil, hamda lingvopragmatik sezuvchanlik kompetensiyalarini shakllantiruvchi muhim jarayondir. Bu jarayon orqali o‘quvchi harakatning bajarilish bosqichi, davomiyligi va maqsadga yo‘naltirilganligini anglaydi va ularni matnda idrok eta oladi.

Demak, ko’makchi fe’llar mavzusi orqali o‘quvchilarda leksik birliklar, ko’makchi fe’l vazifasida qo’llanuvchi so’zlarning o’zaro bog’lanishi, uning ma’nolari nutqiy faoliyatda amaliy tomonlama qo‘llashni o‘rgatilishi va ulardan nutqiy faoliyatda unumli foydalana olishi o’quvchilarda mushohada yuritish jarayoni uchun asos vazifasini bajaradi. Shunday ekan, ularning ijodiy va mantiqiy fikrlashini belgilangan me’yorlar amal qilishni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Тўхлиев Б., Шамсиева М., Зиёдова Т. Ўзбек тили ўқитиш методикаси. – Т.:Янги аср авлоди, 2009.
2. Mahmudov N. v. b. Ona tili. O‘rta ta’lim muassasalarining 11- sinfi va kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilari uchun darslik. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.
3. Бекниязова Н. Таълим қорақалпок тилида олиб бориладиган мактабларнинг бошланғич синфларида ўқувчилар сўз бойлигини ошириш: Номзод. дисс. автореферати. - Т., 1998.
4. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa’dullo Quronov, Shokir Tursun, Nilufar Hakimova, Mansur Siddiqov Ona tili 6-sinf darslik. Toshkent 2022.
5. N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, D. Nabiyeva.— ona tili 6-sinf darslik T.: «Tasvir» nashriyot uyi. 2017.

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA BLENDED LEARNING TEXNOLOGIYASINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Sh.A.Pakirdinova
Farg‘ona davlat universiteti,katta o’qituvchi sharofatpakirdinova@gmail.com+998905849779
ORCID ID 0000-0002-2398-0633

Annotatsiya Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida blended learning (aralash ta’lim) texnologiysining mohiyati, rivojlanish tarixi va amaliy qo‘llanilishi yoritilgan. Unda an’anaviy va raqamli ta’lim integratsiyasi bo‘yicha jahon hamda mahalliy tajribalar tahlil qilinadi, aralash ta’limning sof an’anaviy yoki to‘liq onlayn ta’limdan ustun jihatlari ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, blended learning sharoitida o‘qituvchining o‘zgarayotgan roli darsni rejalashtirish, yetakchilik qilish, motivatsiya berish va individual yordam ko‘rsatish kabi qobiliyatlar zarurligi ta’kidlanadi. Model doirasida seminar, loyiha, vebinar, murabbiylik, ishbilarmonlik o‘yinlari kabi turli metodlardan foydalanish imkoniyatlari keltiriladi. Xulosa sifatida blended learning zamonaviy oliy ta’lim uchun moslashuvchanlik, individuallashtirish va sifat ko‘rsatkichlarini oshirishga xizmat qiluvchi muhim yondashuv ekani qayd etiladi.

Kalit so’zlar: Blended learning, o‘qituvchi tayyorlash, kasbiy kompetensiya, raqamli texnologiyalar, o‘qitish metodlari, kasbiy rivojlanish, ta’lim moslashuvchanligi.

Annotation This article examines the concept, development, and application of blended learning technology in the preparation of future teachers, with a focus on enhancing their professional and pedagogical competencies. It discusses the global and local trends in integrating traditional and digital learning, highlighting the advantages of blended learning over purely traditional or online methods. The study emphasizes the changing role of the teacher in blended environments, requiring advanced skills in planning, leadership, motivation, and individual support. It also outlines various teaching methods and activities applicable within this model, including seminars, projects, webinars, coaching, and simulations.

The paper concludes that blended learning offers flexibility, personalization, and improved educational outcomes, making it a vital approach for modern higher education.

Keywords: blended learning, teacher training, professional competence, digital technologies, higher education, teaching methods, professional development, educational flexibility

Аннотация В статье рассматриваются концепция, история развития и практическое применение технологий смешанного обучения (blended learning) в подготовке будущих педагогов с целью повышения их профессиональных и педагогических компетенций. Анализируются мировые и отечественные тенденции интеграции традиционного и цифрового образования, а также преимущества смешанного обучения по сравнению с исключительно традиционными или полностью онлайн-форматами. Отдельное внимание уделено изменяющейся роли преподавателя в условиях blended learning, включая планирование занятий, лидерство, мотивацию и индивидуальную поддержку студентов. Приводятся примеры применяемых методов и форм обучения семинары, проекты, вебинары, наставничество, деловые игры и др. В заключение подчеркивается, что смешанное обучение обеспечивает гибкость, индивидуализацию и повышение качества образования, являясь важным подходом для современного высшего образования.

Ключевые слова: смешанное обучение, подготовка учителей, педагогическая компетентность, цифровые технологии, высшее образование, методы преподавания, профессиональное развитие, гибкость обучения

So‘ngi yillarda yurtimizda bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoni va pedagogik faoliyatini oshirish borasida anchagina tajribalar orttirildi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy va pedagogik maxoratlarini takomillashtirish hamda ko‘nikmalarini yanada rivojlantirish texnologiyalari xorijiy davlatlar pedagog olimlari tomonidan salmoqli izlanishlar olib borildi. Shuningdek, jahon hamjamiyatidagi rivojlanishga integratsiyalashish va ijtimoiy-madaniy jarayonlarning omalashuvi sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi chet tillarni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda. Shu nuqtai nazardan, oliy ta’lim muassasalarida xalqaro ma’lumot almashinuvi tizimini, ta’limni individuallashtirish va differensiyalash imkoniyatlarini yaratish, shuningdek, ingliz tilini o‘rganish jarayonida talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Talabalarning bilishga bo‘lgan ehtiyojlari, qiziqishlari va qobiliyatlariga qarab, o‘qitish mazmuni, tashkiliy shakllari, metodlarining xilma-xil va rangbarang bo‘lishi ta’limning barcha bosqichlarida muhim ahamiyat kasb etadi, ayniqsa, bo‘lajak mutaxassislar, shu jumladan, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy pedagogik tayyorlash bosqichida juda dolzarb hisoblanadi. Aynan shu sababli ham, ta’limning zamonaviy yangi sifatiga erishishning zaruriy sharti bu oliy ta’lim muassasalarida o‘qitishning yangidan-yangi shakllarini joriy etish, o‘qitishning moslashuvchan tizimini shakllantirish, uzluksiz ta’lim olishni ta’minlashdir. Bu ta'limni amalga oshirishda blended learning texnologiyasi muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotimizda blended learning haqida kengroq ma'lumot berishga joiz deb o'yladik. Aralash ta’lim tushunchasi va uning asosiy tamoyillari dastlab 1960-yillarda korporativ ta’lim va oliy ta’lim muhitlarida turli xil o‘qitish uslublari va vositalarini integratsiyalash orqali qo‘llanila boshlangan. Bu davrda o‘quv jarayonlarida an’anaviy yuzma-yuz ta’lim bilan yangi texnologiyalarni, xususan multimedia va telekommunikatsiya vositalarini qo‘shib, samaradorligini oshirishga e’tibor qaratilgan. Ammo, "aralash ta’lim" atamasi rasman ilk marotaba 1990-yilda Amerika Interfaol O‘quv Markazi (Interactive learning centers of America - ILCA) tomonidan internet asosidagi dasturiy ta’minotlarni ishlab chiqish va joriy etish jarayonida foydalanilgan. Bu voqea an’anaviy o‘qitish shakllarini zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan birlashtirib, yangi pedagogik yondashuvning shakllanishiga olib keldi. Natijada ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish samaradorligini oshiruvchi innovatsion metodologiya shakllandi va rivojlandi. Hozirgi kunda aralash ta’lim metodologiyasi oliy ta’lim muassasalari, korporativ treninglar va umumta’lim maktablarida keng qo‘llanilib, global ta’lim tendensiyalarining muhim qismiga aylangan. Yana bir afzallik taraflaridan biri bu talabalarning bilim darajasi ko‘rsatkichlari orqali guruhlarga ajratishda yordam beradi, bu esa talabalrning natijalaridan kelib chiqib qo‘shimcha tushuntirishlar yoki amaliy topshiriqlar berishga imkon yaratadi. Blended learningda amalga oshirilayotgan sharoit o‘qituvchilardan kasbiy mahorat darajasiga yuqori talablarni qo‘yadi. Bunday o‘qitish modeli orqali o‘qituvchining vazifasi o‘zgaradi, ya’ni uni an’anaviy o‘qitish jarayonidan mutlaqo o‘zgacha bo‘lgan ta’lim tizimidan foydalnish imkoniyatini yaratadi. Bu esa ma’lumotlar bazalari bilan ishlashga va talabalarga individual yordam ko‘rsatishga yo‘naltiradi. O‘qituvchining o‘qitish jarayonidagi vazifalari

darsni rejalashtirish va mavzu bo‘yicha ma’lumotlarni qidirib, taxrirlab so‘ng taqdim etishdan tortib, o‘quvchilarning samarali bilim olishlari uchun motivatsiya berish, o‘quv jarayonini rag‘batlantirish va murakkab vaziyatlarda soddalashtirish kabi muammolarni hal qilish darajasigacha kengayib boradi. Bu esa o‘qituvchidan muntazam ravishda mustaqil bilim olishi va olgan bilimlarini tobora kengaytirishini talab etadi. O‘qituvchining o‘quvchilarni vazifalarini baholash, tahlil qilish va ma’lumotlarni to‘plash; rejalashtirish jarayonida har bir talaba uchun individual, guruhlar va butun auditoriya uchun ma’lumotlar bazalaridan foydalanish; tayyorgarlik va o‘zlashtirish darajalari turlicha bo‘lgan talabalarning ishini boshqarish uchun standartlashtirilgan testlar va boshqa baholash variantlaridan foydalanish kiradi. AQSh Federal Ta’lim Departamentining topshirig‘i bilan Stenford universiteti mutaxassislari tomonidan mingdan ortiq empirik tadqiqotlar tahlil qilinib, an’anaviy, onlayn va aralash ta’lim shakllari o‘zaro taqqoslandi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, 1996-yildan 2008-yilgacha bo‘lgan davrda onlayn ta’lim an’anaviy ta’lim shakliga nisbatan sezilarli darajada ustunlik ko‘rsatmadi. Shu bilan birga, aralash ta’lim shakli butunlay onlayn ta’limga qaraganda samaraliroq ekanligi ilmiy asosda isbotlandi. Bu natijalar aralash ta’limning ilmiy-pedagogik jihatdan rivojlanishini rag‘batlantirib, uning mavqeini yanada mustahkamlashga xizmat qildi.

Blended learning tizimida o‘qituvchidan talab qilinadigan yana bir muhim qobiliyat bu yetakchilikdir. Talabalarning notanish muhitga moslashishlariga yordam berish maqsadida, o‘qituvchi o‘quv jarayonini modellashtirib, talabalarga samarali o‘rganishlari uchun kerakli bo‘lgan ma’lumotlarni topish yoki berilgan savollarga javob berishni o‘rgatishi lozim. Shuningdek, blended learning o‘qituvchidan muayyan topshiriq yoki loyihani bajarish uchun zarur bo‘lgan turli o‘quv faoliyatlarni boshqarishni bilishini talab qiladi. Talabalarning yangi muhitga ko‘nikishlarida o‘qituvchining roli beqiyosdir. Ayniqsa, oliy ta’lim bosqichiga endigina qadam qo‘ygan talabalar ko‘pincha o‘zlarini notanish, murakkab va yangi talablar qo‘yiladigan muhitda topadilar. Bunday vaziyatda o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki yo‘lko‘rsatuvchi, yo‘naltiruvchi va motivatsiya beruvchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘qituvchi o‘quv faoliyatining har xil turlarini boshqarishni bilishi orqali talabaga muayyan topshiriq yoki loyihani bajarishda zarur bo‘lgan imkoniyatni yaratadi. Blended learning modelida o‘qituvchi talabalarga nafaqat o‘rgatiladigan ma’lumotlarni oddiygina qilib yetkazib beradi, balki mavjud ma’lumotlarni yangi sharoit va vaziyatlarga tatbiq etadi, natijada talabalarda moslashtirish ko‘nikmalarini shakllantirishda xam ko‘maklashadi. O‘qituvchining yana bir asosiy vazifasidan biri bu ma’lumotlarni to‘g‘ri talqin qilish va tahlil etishdan iborat bo‘lsa, talabalarning vazifasi esa sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, to‘plangan ma’lumotlarni birlashtirish va ularni aniq vaziyatlarda qo‘llash orqali olingan bilimlarni namoyish etishdan iborat. Demak, blended learning modeli o‘qituvchidan nafaqat davomiy ravishda kasbiy rivojlanishini va takomillashishini talab qiladi balki talabalarni mustaqil o‘qish va erkin ta’lim olish, bilim va ko‘nikmalarni egallashga o‘rgatishda mavjud strategiyalarni samarali o‘zgartirish bilan ham bog‘liqdir. Zamonaviy texnologiyalarni tadbiq etish orqali o‘qituvchi talabalarning individual ehtiyojlarini tushunishi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etishi ham mumkin. Ushbu ma’lumotlarning tahlil etilishi o‘qituvchi talabalar tomonidan olingan bilimlarni qo‘llab-quvvatlash , mustahkamlash va chuqurlashtirish uchun zarur dasturni ishlab chiqishiga imkon beradi.

Shunday qilib, blended learning texnologiyasi konsepsiyasini shu bilan birga uning maqsadlari va ta’kidlangan afzalliklarini hisobga olgan holda, aytish joizki, o‘qitishning ushbu texnologiyasi ta’lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiluvchi o‘quv va texnologik resurslarni jalb qilgan holda o‘qitishni moslashuvchanlik asosda tashkil etishga zamin yaratadi. Blended learning jarayonida talabalarning pedagogik kompetentligini takomillahstirishda foydalaniladigan turli ta’lim tadbirlari va o‘quv faoliyati quyida keltirilgan turli metodlar yordamida joriy etiladi: offline seminar (konferensiya), taqdimotlarrni o‘tkazish, rotatsiya, amaliy mashg‘ulot; loyihalar ustida ishlash, keyslar bilan ishlash, trening, mustaqil ish, seminar, stajirovka yoki ishlab chiqarish amaliyoti, tyutorlik, loyihalarida ishtirok etish, loyihaviy-tahliliy sessiya; loyihalarni individual himoya qilish, loyihalarni guruhda himoya qilish, imtihon, vebinar, videokonferensiya, murabbiylik, video ma’ruza, virtual maslahat, nazorat ishlarini bajarish, virtual tyutorial, couching, ishbilarmonlik o‘yini, konsultatsiya, leksiya, qaytar aloqalar, laboratoriya ishlari, master-klass, ta’lim ekspeditsiyasi, ta’lim musobaqasi va boshqalar. Blended learning modeli orqali talabalar o‘zining pedagogik kompetentligini rivojlantirish davomida: jamoaviy; guruhiy; individual kabi turli xil ta’lim shakllaridan foydalanishi o‘quv jarayoni sifatini oshiradi va samarali natijalar beradi. Shu o‘rinda ingliz olimi A.Millerning ta’kidlashicha, axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tadbiq qilmasdan, o‘qituvchining samarali faoliyatini tasavvur qilish juda qiyin. Internet bizga taqdim etadigan yana bir muhim manbalardian biri bu o‘qituvchiga turli xil vazifalarni ishlab chiqish va mavzuga bo‘lgan

kognitiv qiziqishni rivojlantirish bilan birgalikda didaktika asosiy vazifalaridan biri bo‘lgan o‘quv jarayonida talabalar faol prinsipini amalga oshirishga imkon berishdan iboratdir.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Azizova.L.N. Формирование готовности студентов политехнического колледжа к использованию технологий мультимедиа. Современные проблемы науки и образования.- №2, 2012 г. - Режим доступа: http://www.science-education.rU/pdf/2012/2/183.pdf

2. C. J. Bonk & C. R. Graham (2006), Handbook of blended learning: Global Perspectives, local designs (pp. 3-21).

3. Pakirdinova, S. A. (2024). Blended learning texnologiyasining nazariy asoslari va uning ta'lim jarayonida ahamiyati. FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific Journal of the Fergana State University, 30(6), 223–227. https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol30_iss6_2t/a48

4. Miller A. Blended Learning: Strategies for Engagement. Edutopia. Herff Jones Nystrom, 2012. pp. 125-128.

INTEGRATING BLENDED LEARNING AND FLIPPED CLASSROOM APPROACHES IN HIGHER EDUCATION

Sh.A.Pakirdinova
Farg‘ona davlat universiteti,katta o’qituvchi sharofatpakirdinova@gmail.com+998905849779
ORCID ID 0000-0002-2398-0633

Annotatsiya Blended Learning va Flipped Classroom yondashuvlari zamonaviy ta’limda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada mazkur metodlarning rivojlanish tarixi, turli ta’lim bosqichlarida qo‘llanishi, talaba natijalari va muvaffaqiyati bo‘yicha tadqiqotlar tahlil qilinadi. Shuningdek, baholash usullari va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari yoritiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ushbu yondashuvlar talabalarning faolligini oshirish, differensial yondashuvni qo‘llash hamda mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, texnologik infratuzilma va o‘qituvchi tayyorgarligi kabi qiyinchiliklar ham mavjud.

Kalit so‘zlar: Blended Learning, Flipped Classroom, o‘qitish metodlari, talaba natijalari, baholash, faol ta’lim, ta’lim texnologiyalari, oliy ta’lim

Аннотация Подходы Blended Learning и Flipped Classroom играют все более важную роль в современном образовании. В статье рассматривается история развития данных методов, их применение на различных уровнях образования, а также результаты исследований, касающиеся успеваемости студентов. Анализируются методы оценивания и перспективы дальнейшего внедрения в педагогическую практику. Отмечается, что оба подхода способствуют повышению вовлеченности студентов, поддерживают дифференцированный подход и развивают навыки самостоятельного обучения, но требуют наличия соответствующей технологической базы и подготовки преподавателей.

Ключевые слова: Blended Learning, Flipped Classroom, методы обучения, результаты студентов, оценивание, активное обучение, образовательные технологии, высшее образование.

Annotation Blended Learning and Flipped Classroom approaches have become increasingly significant in contemporary education. This article examines the historical development of these methods, their application across different educational levels, and research findings on their impact on student performance. It also analyzes assessment methods and explores future prospects for their integration in teaching practice. The study highlights that both approaches enhance student engagement, support differentiated instruction, and foster independent learning, while also presenting challenges related to technology access and teacher readiness.

Keywords: Blended Learning, Flipped Classroom, teaching methods, student performance, assessment, active learning, educational technology, higher education

Introduction. The education sector has been experiencing a significant transformation over the last few decades, largely due to advancements in technology and shifts in pedagogical strategies [3,21].

Traditional lecture-based teaching methods, while still relevant, are increasingly being supplemented and, in some cases, replaced by innovative approaches like Blended Learning and the Flipped Classroom model [2,32]. These methodologies integrate digital tools and student centered learning techniques, which allow for greater flexibility and enhanced engagement in the learning process. Blended Learning is an instructional approach that combines face-to-face classroom instruction with online learning components, offering students a more flexible and self-paced learning environment. This model has gained widespread adoption across various educational levels, from primary education to higher education and corporate training. Research suggests that Blended Learning can improve student performance by allowing them to revisit materials at their own pace while still benefiting from teacher-guided interactions during in-person sessions [4,19]. On the other hand, the Flipped Classroom model inverts the traditional teaching paradigm. Instead of introducing new material during class time, students engage with instructional content—such as recorded lectures, reading assignments, or interactive modules— before attending in-person classes [5,54]. Class time is then utilized for discussions, problem solving, group projects, and other interactive activities that reinforce learning. Additionally, emerging technologies have been instrumental in refining these models. This shift encourages deeper understanding and active participation among students, as they come to class prepared to engage in higher-order thinking exercises.

The History of Blended Learning and Flipped Classroom Blended learning emerged as a response to technological advancements in education, combining face-to-face teaching with online components. The flipped classroom model, introduced in the early 2000s, shifts traditional lectures outside the classroom, allowing in-class time for active learning. Early Developments Blended learning can be traced back to the late 20th century when educational institutions started incorporating computer-based learning materials. By the early 2000s, universities began implementing online platforms to supplement traditional lectures.

Evolution of Flipped Classroom the concept of the flipped classroom was popularized by Jonathan Bergmann and Aaron Sams, who developed video-based instruction methods that allowed students to review materials before attending in-person sessions[1,88].

Application in different educational levels blended learning and flipped classroom methods are applied in various educational settings, including:

- Enhances student engagement through multimedia learning.
- Provides personalized learning paths.
- Supports differentiated instruction for students with various learning needs.
- Enables interactive and gamified learning experiences.
- Encourages independent thinking and responsibility in young learners.
- Integrates modern digital tools such as AI-based learning platforms, gamification, and virtual reality environments.
- Allows teachers to track student progress through learning management systems (LMS) and adapt teaching strategies accordingly.
- Reduces the burden of homework by allowing in-class application of learned concepts.
- Facilitates deeper understanding through active in-class discussions.
- Encourages collaborative problem-solving.
- Reduces lecture time in favor of interactive workshops.
- Supports hybrid learning models, allowing students to blend online coursework with physical classroom interaction.
- Provides a cost-effective solution for universities to accommodate larger student
- Enhances the development of independent research skills through online resource libraries and discussion forums.
- Promotes international collaboration, allowing students from different parts of the world to participate in joint courses through digital platforms.
- Prepares students for real-world problem-solving by incorporating case studies, simulations, and group projects.
- Allows professionals to balance work and education.
- Improves efficiency in corporate learning environments by combining theoretical content with practical training exercises.
- Encourages skill-based learning with real-time feedback and performance **Conclusion**

The evolution of educational methodologies such as Blended Learning and the Flipped Classroom demonstrates a significant shift toward more student-centered and technology integrated learning

experiences. These models have proven effective in enhancing student engagement, improving retention rates, and fostering deeper understanding of course material. Blended Learning provides a flexible and adaptable framework that accommodates different learning styles, while the Flipped Classroom promotes active participation and critical thinking. Research findings support the efficacy of these approaches in improving academic outcomes, with students demonstrating higher levels of motivation, self-discipline, and collaborative skills. However, despite their advantages, these models also present challenges, such as the need for substantial technological infrastructure, teacher training, and the development of high-quality digital content. Additionally, student success in these environments often depends on self-motivation and the ability to manage independent learning effectively. Looking ahead, the integration of emerging technologies such as artificial intelligence, virtual reality, and adaptive learning platforms will likely further enhance these methodologies. As educational institutions continue to refine and expand the implementation of Blended Learning and Flipped Classroom techniques, the future of education will increasingly prioritize personalized, interactive, and technology-enhanced learning experiences.

References

1. Anderson, T., & Reed, M. (2022). Technology-Enhanced Learning in Higher Education. Oxford: Academic Press.
2. Brown, A. (2020). Blended Learning Strategies in Higher Education. London: Academic Press.
3. Johnson, M. (2021). Innovative Teaching Methods for the 21st Century. New York: Education Publishers.
4. Johnson, M., & Smith, L. (2019). Flipped Classroom Innovations. New York: Education Publishers.
5. Smith, R., et al. (2018). Hybrid Learning Models: Research and Application. Cambridge: Learning Science Press.
6. Taylor, R. (2021). Assessing Student Success in Hybrid Learning Environments. Cambridge: Learning Science Press.
7. Pakirdinova, S. A. (2024). Comparative analysis of online and traditional classroom learning. FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific Journal of the Fergana State University, 30(6), 231–234. https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol30_iss6_2t/a49

SEMANTICS OF SPECIAL LEXIS OF EMERGENCY SITUATIONS

M.Y.Badalbayeva
Associate professor of the Academy of the Ministry of Emergency Situations
e-mail: maloxatbadalbayeva79@gmail.com

Annotation. This article explores the specialized vocabulary used in emergency situations, focusing on the semantic structures and cognitive properties of this lexis. It highlights the importance of precise terminology for effective communication among emergency responders and stakeholders. Employing qualitative semantic analysis framed by cognitive linguistics and frame semantics, the study reveals the semantic complexity, polysemy, metaphorical usage, and etymological origins of emergency terms. Findings underscore the dynamic, interdisciplinary nature of emergency lexis and the critical role semantic standardization plays in improving crisis communication. This research contributes to linguistics and emergency management by offering a comprehensive semantic account and suggesting directions for future terminological standardization efforts.

Keywords: emergency terminology, semantics, special lexis, cognitive linguistics, frame semantics, communication, crisis management

Аннотация. В данной статье рассматривается специализированный словарный запас, используемый в чрезвычайных ситуациях, с акцентом на семантические структуры и когнитивные свойства этой лексики. Подчеркивается важность точной терминологии для эффективного взаимодействия между спасателями и другими участниками чрезвычайных событий. Используя качественный семантический анализ в рамках когнитивной лингвистики и теории фреймов, исследование выявляет семантическую сложность, полисемию, метафоричность и этимологические корни терминов, связанных с чрезвычайными ситуациями. Результаты подчеркивают динамичный, междисциплинарный характер данной лексики и критическую роль семантической стандартизации в улучшении коммуникации в кризисных ситуациях. Это исследование вносит вклад в лингвистику

и управление чрезвычайными ситуациями, предоставляя содержательный семантический анализ и намекая на направления для дальнейшей стандартизации терминологии.

Ключевые слова: терминология чрезвычайных ситуаций, семантика, специальная лексика, когнитивная лингвистика, теория фреймов, коммуникация, антикризисное управление

Annotatsiya. Ushbu maqolada favqulodda vaziyatlarda ishlatiladigan maxsus lug‘at o‘ziga xosligi, uning semantik tuzilmalari va kognitiv xususiyatlari o‘rganiladi. Favqulodda vaziyatlarda qatnashuvchi javob beruvchilar va boshqa manfaatdor tomonlar o‘rtasida samarali muloqot uchun aniqlikdagi terminologiyaning ahamiyati ta’kidlanadi. Kognitiv lingvistika va freymlik semantikasi doirasida amalga oshirilgan sifatli semantik tahlil yordamida ushbu leksikaning semantik murakkabligi, polisemiya, metaforik qo‘llanilishi va etimologik manbalari aniqlanadi. Tadqiqot natijalari favqulodda vaziyatlar lug‘atining dinamik, ko‘p fanli tabiatini va inqirozli muloqotni yaxshilashda semantik standartlashtirishning muhim rolini ko‘rsatadi. Ushbu ish lingvistika va favqulodda vaziyatlarni boshqarish sohasiga keng qamrovli semantik tahlil taqdim etib, kelajakda terminologiyani standartlashtirish bo‘yicha yo‘nalishlar taklif qiladi.

Kalit so‘zlar: favqulodda vaziyatlar terminologiyasi, semantika, maxsus leksika, kognitiv lingvistika, freymlik semantika, muloqot, favqulodda vaziyatlarni boshqarish

Introduction. The specialized lexis used in emergency situations plays a critical role in effective communication among responders, authorities, and affected populations. This lexis, often characterized by specific semantic properties, helps convey precise meanings that guide actions and decisions during crises. Understanding the semantics of emergency terminology is essential, especially given the interdisciplinary and international nature of emergency management, which includes medical, technical, and linguistic dimensions *[2. 2025: p.337]*.

Despite its importance, the semantic complexity, polysemy, and metaphorical layers of emergency-related vocabulary remain underexplored *[1. 2016: p.1191]*. This study aims to analyze the semantic structure and cognitive properties of special lexis used in emergency contexts, focusing on how these terms contribute to clear and effective communication during crises.

Methods. The study employed a qualitative semantic analysis of emergency-related terminology collected from diverse sources including news reports, emergency management documents, and linguistic corpora. This approach aligns with prior efforts to develop terminological resources for crisis vocabulary *[6. 2015: p.137]*. The lexical items were categorized into semantic groups based on their meaning components (semes) and functional usage. Cognitive linguistic theory and frame semantics were used as theoretical frameworks to analyze the meaning structures and implicit frames evoked by these terms *[7. 2024: p.318]*. Cross-linguistic borrowings and etymological origins were also examined to understand their international and cultural dimensions. Additionally, metaphorical language within emergency medical terminology was identified and its communicative function assessed.

Results. Our analysis revealed that emergency special lexis exhibits distinctive semantic features:

- Terms are often composed of unique semes that align with specific emergency phases (e.g., pre-disaster, post-emergency).
- The vocabulary contains numerous polysemous words and metaphorical expressions that do not hinder but rather facilitate professional communication (e.g., “key sign,” “stuck heel sign”) in medical contexts.
- Emergency terminology shows strong etymological influences from Greek and Latin, and incorporates loanwords from diverse languages (e.g., Japanese “tsunami”), reflecting the global nature of emergencies *[3. 2022: p.123]*.
- Semantic groups include actors, events, actions, responsibilities, and resources, which form the conceptual backbone of emergency plans and communication. The semantic groups identified also parallel categories used in other semantic layering approaches for emergency plans, such as actors, events, actions, responsibilities, and resources *[3. 2022: p.147]*.
- Frame semantics helps explain how standardization of term meanings (with flexible framing) can mitigate misunderstandings during crises and improve collaboration among stakeholders.
- The vocabulary is dynamic, evolving with scientific advances and situational needs, which requires continuous semantic and cognitive analysis to maintain clarity.

Discussion. The semantic analysis of emergency special lexis demonstrates that these terms carry dense cognitive and functional meanings crucial for effective crisis management communications. The

integration of metaphorical language and polysemy reflects the adaptive nature of emergency terminology but also highlights the challenge of semantic standardization across different languages and cultures. Applying frame semantics can support better framing and shared understanding of terms, addressing the current problems caused by inconsistent or ambiguous definitions *[7. 2024: p.319]*. This semantic clarity is particularly important in multi-agency and international contexts where clear communication can directly impact emergency outcomes. The dynamic evolution of emergency lexis points to a need for continuous multidisciplinary collaboration and standardized semantic frameworks to effectively assist training, risk communication, and real-time information dissemination *[1. 2016: p.1194;* 6. 2015: p.135*]*.

Moreover, the semantic standardization of emergency management language enhances interoperability among agencies especially in multinational disaster responses, reducing confusion and facilitating coordinated action *[2. 2025: p.339*; *7. 2024: p.316]*. This aligns with research highlighting the complexity of terminology overlaps in emergency contexts and the importance of clear semantic distinctions *[1. 2016: p.1192]*.

In addition, the adoption of consistent semantic frameworks facilitates interoperability among agencies and countries during multinational disaster responses. This is essential given the increasing frequency of global emergencies involving complex coordination. The study’s findings align with research emphasizing the role of cognitive linguistics in terminology standardization and crisis communication protocols *[5. 1987: p.483; 4. 1982: p.128]*. Furthermore, the dynamic evolution of emergency lexis points to a need for ongoing multidisciplinary collaboration between linguists, emergency practitioners, and policymakers to maintain and update terminological resources.

Future research should focus on developing comprehensive semantic databases and standardized lexicons to assist training, risk communication, and information dissemination in emergencies. Digital platforms integrating semantic metadata could improve real-time understanding during crises. Lastly, awareness of cultural and linguistic variations remains critical for effective international cooperation and public communication in emergencies.

This article synthesizes insights from linguistics, cognitive semantics, and emergency management studies to provide a comprehensive semantic account of emergency special lexis.

Reference

1. Al-Dahash, H., Thayaparan, M., & Kulatunga, U. Understanding the terminologies: disaster, crisis and emergency. International Journal of Disaster Risk Reduction. 2016.

2. Badalbaeva, M. Y. Translation of the terminology of emergency situations into Uzbek and its role in teaching **(doi.org/10.5281/zenodo.14979267)**. Selection of the International Scientific and Practical Conference “Prospects of teaching english for professional purposes in non-philological higher education institutions: problems and solutions”. TIIAME.NRU. 2025.

3. Cossentino, M., Guastella, D., Lopes, S., Sabatucci, L., & Tripiciano, M. Linguistic and semantic layers for emergency plans. Information and Applications. 2022.

4. Fillmore, C. J. Frame semantics. In L. R. Waugh & M. Monville-Burston (Eds.), Linguistics in the Morning Calm. Hanshin Publishing Co. 1982.

5. Lakoff, G. Women, fire, and dangerous things: What categories reveal about the mind. University of Chicago Press. 1987.

6. Temnikova, I., Castillo, C., & Vieweg, S. EMTerms 1.0: A terminological resource for crisis tweets. Proceedings of the ISCRAM. Conference – Kristiansand, May 24-27 Palen, Büscher, Comes & Hughes, eds. 2015.

7. Yolanda McDonald., Amu Podraza. The Standardization of Emergency Management Language: A Qualitative Approach to the Lack of Standard Definitions for Emergency Management Terms. 2024.

BO‘LAJAK YO‘L MUHANDISLARINI KOMMUNIKATIV KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

A.O.Muxammadjonov
NamDU, tayanch doktorant e-mail: alijon19920929@gmail.com, +998 (95) 010 75 92,
ORCID: 0009-0000-9279-6138

Annotatsiya: *mazkur maqolada bo‘lajak yo‘l muhandislarini tayyorlash jarayonida* kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishda raqamli ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Bugungi kunda yo‘l sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash nafaqat texnik bilimlarni, balki jamoaviy muloqot, jamoaviy ish, axborotni aniq va tushunarli ifodalash kabi kommunikativ ko‘nikmalarni ham talab qilmoqda. Tadqiqot natijalari, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini zamonaviy talablar asosida rivojlantirishda raqamli ta’lim texnologiyalarining dolzarbligini ko‘rsatadi.

Аннотация: в данной статье рассматриваются вопросы эффективного использования цифровых образовательных технологий в процессе подготовки будущих инженеров-дорожников с целью формирования и развития их коммуникативных навыков. В современных условиях подготовка квалифицированных специалистов в дорожной сфере требует не только технических знаний, но и таких коммуникативных умений, как командное общение, коллективная работа, умение ясно и понятно выражать информацию. Результаты исследования подтверждают актуальность применения цифровых образовательных технологий для совершенствования профессиональной подготовки будущих специалистов в соответствии с современными требованиями.

Annotation: this article addresses the effective use of digital educational technologies in the process of developing and enhancing communicative skills among future road engineers. in today's context, the training of qualified specialists in the road sector requires not only technical knowledge but also communicative competencies such as teamwork, the ability to clearly and concisely express information, and professional interaction skills. the research findings highlight the relevance of applying digital educational technologies to improve the professional training of future specialists in accordance with modern requirements.

Kalit so‘zlar: kommunikativ ko‘nikma, raqamli ta’lim texnologiyalar, “RoadEngineering” ta’lim platformasi, izohli lug‘at, interfaol o‘qitish usullari, raqamli platformalar.

Ключевые слова: коммуникативный навык, цифровые образовательные технологии, образовательная платформа “roadengineering”, толковый словарь, интерактивные методы обучения, цифровые платформы.

Keywords: communicative skill, digital educational technologies, “RoadEngineering” educational platform, glossary, interactive teaching methods, digital platforms.

Kirish. Zamonaviy texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan bugungi davrda ta’lim tizimiga yangicha yondashuvlar joriy etilishi taqozo etmoqda. Ayniqsa, yo‘l muhandisligi sohasida malakali va keng dunyoqarashga ega o‘z sohasining mutaxassislarini tayyorlashda nafaqat muloqot ko‘nikmalari, balki kasbiy bilim va ko‘nikmalarini ham shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimiz yetakchisi tomonidan yosh, raqobatbardosh kadrlarni yetishtirishda ta’lim sohasiga qaratayotgan e’tiborlari, bu sohada uzoqni ko‘zlab qabul qilinayotgan qaror, farmonlar zamonaviy ta’limni raqamlashtirishda katta ahamiyat ega bo‘lmoqda. Xususan, 2020-yil 5-oktyabrda qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6079 – sonli[1] farmonida ta’lim sohasini 2030-yilga qadar to‘liq raqamli texnologiyalar bilan ta’minlash, mavjud o‘quv adabiyotlarini to‘liq electron versiyalarini yaratish, o‘quvchi-talabalar qo‘shimcha individual qobilyatlarini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida “Texnopark” lar faoliyatini viloyat markazidan tashqari tuman markazlarida ham tashkil etish belgilab qo‘yildi. Shuningdek Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2024-yil 14-oktyabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PQ-358 – sonli[2] qarorida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha aholining bilim va ko‘nikmalarini oshirib borish, malakali kadrlar tayyorlash, xodimlar malakasini oshirish, ushbu jarayonga xorijiy mutaxassislarni jalb qilish hamda

o‘qituvchi va professorlarning bilim va malakalarini oshirish, ilmiy-amaliy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirishni rag‘batlantirish bo‘yicha huquqiy asoslarni takomillashtirish kabi ta’lim sohasiga oid bir qator maqsadlar belgilandi. Shu kabi qaror va farmonlar asosida ta’lim rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqish orqali salohiyatli kadrlar yetishtirish hukumatimiz bosh maqsadi ekan yana bir bor namoyon bo‘lmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. So‘nggi yillarda raqamli ta’lim texnologiyalarining o‘quv jarayoniga joriy etilishi bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Masalan mamlakatimiz olimlaridan B.S.Abdullayeva, O.S.Abdullayeva, O.Azizov, U.Sh.Begimqulov, G.Mamutova, G‘.M.Nizamov, N.O.Saidova, R.Xudaykulov[3,4,5] va boshqalar professor-o‘qituvchi va talabalarning kasbiy ko‘nikmalarini raqamli texnologiyalar orqali shakllantirish va rivojlantirishga doir ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan bo‘lsa, MDH mamlakatlari olimlaridan V.Baydenko, N.Klimenko, A.Markova, D.A.Maxotina, G.K. Selevko, V.A. Slastenin va E.Zeerlar[4,5,6] ta’lim jarayonida talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga doir amaliy ishlar bilan shug‘ullangan.

Yo‘l muhandisligi sohasida esa raqamli platformalardan — xususan, “RoadEngineering”, AutoCAD, IndorCAD, InfraWorks, BIM texnologiyalari orqali nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar bilan bog‘lab o‘qitish haqida xalqaro va mahalliy tadqiqotlar mavjud. Shuningdek, kommunikativ ko‘nikmalarni texnik fanlar doirasida rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab amaliy tavsiyalar ilgari surilgan. Ammo aynan raqamli ta’lim texnologiyalar yordamida yo‘l muhandislari uchun kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish masalasi hanuz to‘liq yoritilmagan va tadqiqotlar uchun dolzarb hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotda ta’lim texnologiyalari va pedagogika fanlari bo‘yicha sifatli tahlil usullari asos qilib olindi. Ish jarayonida quyidagi ilmiy yondashuvlar qo‘llanildi: tizimli va kompetensiyaviy.
Bu yondashuvlar quyidagi tadqiqot metodlari orqali

- Ilmiy-nazariy tahlil – mavjud adabiyotlar va ilg‘or tajribalarni tahlil qilish;
- Amaliy kuzatuv - ta’lim jarayonidagi real vaziyatlarni monitoring qilish;
- So‘rovnoma va testlar - talabalar kommunikativ ko‘nikmalarining holatini aniqlash va baholash
- Tajriba-sinov ishlari - raqamli ta’lim texnologiyalarini joriy etish samaradorligini aniqlash maqsadida eksperimentlar o‘tkazish.

Shuningdek, yo‘l muhandis talabalarning amaliy kasbiy ko‘nikmalarini rivojlanganlik darajasini aniqlashda tajriba va nazorat guruh talabalari bilimlarini taqqoslashda “Yo‘l muhandisligi” ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun yaratgan izohli lug‘atdan foydalanib “Tushunchalar tahlili” nomli interfaol ta’lim metodi orqali aniqlangan.

Natija va muhokamalar. Tadqiqot doirasida bo‘lajak yo‘l muhandislarining kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda raqamli ta’lim texnologiyalarining ta’siri chuqur o‘rganildi. Tadqiqot davomida an’anaviy o‘quv usullari bilan talabalar kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalar asosida tajriba-sinov ishlari olib borildi[7]. Tajribalar quyidagi olib borilgan noan’anaviy darslar solishtirildi va quyidagi asosiy natijalar olindi:

1. Raqamli texnologiyalar orqali o‘qitish kommunikativ faollikni oshiradi. Virtual sinflar, forumlar, vebinarlar va interaktiv taqdimotlar orqali talabalar o‘z fikrlarini ifoda etish, muhokamalarda ishtirok etish va kasbiy nutq madaniyatini rivojlantirishga keng imkoniyat oldilar.
2. Kommunikativ ko‘nikmalarni mustahkamlovchi platformalar samaradorligi yuqori bo‘ldi. “Zoom”, “Google Meet”, “Moodle”, “Padlet” va boshqa raqamli vositalar yordamida olib borilgan mashg‘ulotlarda talabalar o‘zaro fikr almashish, guruhli ishlash va loyiha asosida muloqot qilishni faol o‘zlashtirishdi[8].
3. Talabalarning ishtirok darajasi va motivatsiyasi ortdi. Interaktiv texnologiyalar vositasida tashkil etilgan topshiriqlar (masalan, rol o‘ynash, onlayn prezentatsiyalar, jamoaviy muhokamalar) orqali talabalar faolligi an’anaviy metodlarga nisbatan sezilarli oshdi[4].
4. Raqamli ta’lim kommunikativ xatoliklarni tez aniqlash va tuzatish imkonini berdi. Onlayn platformalarda yozma va og‘zaki chiqishlar yozib olinib, ularni tahlil qilish orqali o‘qituvchi va talaba o‘rtasida samarali teskari aloqa yo‘lga qo‘yildi. Bu esa kommunikativ ko‘nikmalarni tezroq rivojlantirishga xizmat qildi[6].
5. Muloqot madaniyatida sifat o‘zgarishlari kuzatildi. Raqamli muhitda o‘zaro hurmat, nutq etikasi, texnik atamalarni to‘g‘ri ishlatish, professional uslubda fikr bildirish kabi jihatlar yaxshilandi.

Xulosa. Yo‘l muhandisligi bo‘yicha yetuk mutaxassislar tayyorlashda texnik bilimlar bilan bir qatorda kommunikativ ko‘nikmalar ham zaruriy shartdir. Raqamli ta’lim texnologiyalaridan maqsadli va zamonaviy foydalanish bu boradagi bo‘shliqlarni to‘ldirishga xizmat qiladi. O‘zbekistonda bu jarayonni tizimli tarzda yo‘lga qo‘yish muhandislik ta’limining sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish imkonini beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrda qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6079 – sonli farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PQ-358 – sonli qarori
3. Abdullayeva O.S., Muxammadjonov A.O. (2024). Talabalarda raqamli texnologiyalar asosida kommunikativ ko’nikmalarni rivojlantirish . *NamDU, Ilmiy Axborotnomasi, 3-son*, 836-841.
4. Abdullayeva O.S., Muxammadjonov A.O. (2024). Yo‘l muhandislarini raqamli texnologiyalar asosida o‘qitshni takomillashtirish . *“FARG‘ONA VODIYSIDA XAVFSIZ HARAKATLANISHNI TAHMINLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR” XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENTSIYA* (стр. 622-625). Namangan : Namangan muhandislik-qurilish instituti.
5. Abdullayeva O.S., Muxammadjonov A.O. (2024). Методические аспекты выбора и применения цифровых инструментов для образовательных учреждений . *NamDU, Ilmiy Axborotnomasi, 11-son*, 881-884.
6. Abdullayeva O.S., Muxammadjonov A.O. (2024). Развитие коммуникативных навыков у студентов на основе цифровых технологий . *INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION*, 127-136.
7. Abdullayeva O.S., Muxammadjonov A.O. (2024). Технологические основы применения интеллектуальной системы в организации учебно-методической, научно-исследовательской и управленческой деятельности кафедры. *NamDU, Ilmiy Axborotnomasi, 7-son*, 628-632.
8. Abdullayeva O.S., Muxammadjonov A.O. (2025). Raqamli texnologiyalarni ta’lim dasturlariga integratsiyalash . *NamDU, Ilmiy Axborotnomasi, 3-son*, 954-958.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA XAVOTIRLANISH HOLATLARINING PSIXODIAGNOSTIKASI VA KORREKSIYASI

Sh.J.Shaikimanova
Innovatsion texnologiyalar universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi assistent o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik maktab yoshi davridagi o'quvchilarning xavotirlanish holatlari,ularning individual psixologik xususiyatlari, ushbu yoshdagi bolalar bilan psixodiagnostik va korrektsion ishlar olib borilishi haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so’zlar; Kichik maktab yosh davri, xavotirlanish, motib, moslashish, talim-tarbiya, psixodiagnostika, korrektsiya.

Аннотация. В данной статье рассматриваются состояния тревожности у учащихся младшего школьного возраста, их индивидуальные психологические особенности, а также проводится психодиагностическая и коррекционная работа с детьми этого возраста.

Ключевые слова: Младший школьный возраст, тревожность, мотивация, адаптация, воспитание, психодиагностика, коррекция.

Annotation. This article provides information on anxiety states in primary school students, their individual psychological characteristics, and psychodiagnostic and correctional work with children of this age.

Keywords: Primary school age, anxiety, motivation, adaptation, education, psychodiagnostics, correction.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda psixologik holatlarning shakllanishi, jumladan, xabotirlanish holatlari, o‘quvchilarning muvaffaqiyatlariga, o‘zini tutishiga va jamiyatda faoliyat ko‘rsatishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Xabotirlanishning diagnostikasi va korreksiyasi muhim pedagogik va psixologik masalalardan biridir.

Bola dunyo yuzini korishi bilan dunyodagi ayirim narsa va hodisalarni sezishi yoki onglashi mumkin. Bola maktab ostonasiga qadam qo`yishi bilan yangi hayot faoliyatiga, yangi muhit sharoitiga kirib keladi. Bu davrdan boshlab bola faoliyatining mazmuni ham, tevarak-atrofidagi narsalarga munosabat ham o`zgaradi. Endi u o`quvchi degan sharafli nomga ega, uning muayyan vazifalari va o`quvchilik burchi bor.

Bola o`z hayotida yangi davr boshlanganligini anglaydi, o`qish ma`suliyati uning xatti-harakatlariga, yurish-turishiga, hulq-atvoriga katta ta`sir ko`rsatadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar shaxsi rivojlanishiga ularning atrofidagi odamlar, ota-onasi va ayniqsa o’qituvchi bilan bo’ladigan munosabati katta ta’sir ko’rsatadi.

"Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, yosh avlodni mustaqil fikrlaydigan, intellektual va ma’naviy jihatdan yetuk qilib tarbiyalash, ularni dunyoda o‘z tengdoshlari bilan har sohada teng raqobat qila oladigan shaxslar qilib voyaga yetkazish uchun davlat va jamiyat barcha imkoniyatlarni ishga solmoqda. Maktab yoshiga yetgan bolalar uchun ularning bir-birlariga va atrofdagilarga bo‘lgan munosabatlari tubdan o‘zgaradi. Ilgari ota-ona, tengdoshlar yoki tarbiyachi bilan bo‘lgan aloqalar endi o‘qituvchi va sinf rahbari bilan muloqotga o‘rin beradi. Bu davr bolalarda mas’uliyat hissi shakllanishi bilan ahamiyatlidir"-deb atab otgan edi.[1]

Kichik maktab davri 6-7 yoshdan 9-10 yoshgacha davom etadi. Uning psixikasi bilim olishga yetadigan darajada rivojlanip boradi.

Kichik maktab yoshidagi bolaning muhim xususiyatlaridan biri, unda o’ziga xos ehtiyojlarning mavjudligidir. Bu ehtiyojlar o’z mohiyatiga ko’ra faqat muayyan bilim, ko’nikma va malakalarni egallashga qaratilmay, balki o’quvchilik istagini aks ettirishdan ham iboratdir. SHu ehtiyojlar asosida bolaning o’z portfeliga, shaxsiy o’quv qurollariga, dars tayyorlash stoliga, kitob qo’yish javoniga ega bo’lish, kattalardek har kuni maktabga borish istagi yotadi. Ana shu ehtiyoj bola shaxsining shakllanishida, shuningdek uning ijtimoiylashuvida katta ahamiyatga ega hisoblanadi.Bu davrda bola, fan asoslarini o’rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyor bo’ladi. Fiziologlarning fikriga ko’ra, 7 yoshga kelib bolaning katta miya yarim sharlari ma’lum darajada rivojlangan bo’ladi. Lekin bu yoshda inson miyasining psixik faoliyatni rejalashtirish, boshqarish, nazorat qilish kabi murakkab shakllariga javob beradigan maxsus bo’limlari hali to’liq shakllanib bo’lmagan bóladi.

Kirish. XXI asrda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan zamonaviy jamiyatning deyarli barcha tarmoqlarida axborot-kommunikatsiya vositalarining ta‘siri sezilarli darajada kuchayib bormoqda. Bunday sharoitda ta’lim sohasida ham chuqur transformatsiyalar ro‘y bermoqda – an’anaviy o‘qitish uslublaridan raqamli ta‘lim metodlariga bosqichma-bosqich o‘tish jarayoni amalga oshirilmoqda. Ta’lim jarayonida axborot texnologiyalarini joriy etish va o‘rgatish masalasi bugungi kunda nafaqat pedagogik jihatdan, balki ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan ham muhim strategik yo‘nalish sifatida e‘tirof etilmoqda.

Mamlakatimizda “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida ta‘lim sohasini raqamlashtirish va IT sohasida malakali kadrlar tayyorlash ustuvor yo‘nalishlardan biri etib belgilangan. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ta‘limda axborot texnologiyalarini o‘rgatishning ilmiy asoslangan kontsepsiyasi va samarali tamoyillarini ishlab chiqish zarur.

Ta‘limda axborot texnologiyalarini o‘rgatishning kontseptsiya va tamoyillari zamonaviy pedagogikaning eng muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, raqamli jamiyatda yashash va faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarni shakllantirish maqsadida ishlab chiqilgan. Ushbu soha ta‘lim jarayonida axborot texnologiyalarining samarali integratsiyasini ta'minlash uchun nazariy asoslar va amaliy yondashuvlarni belgilaydi, shu bilan birga o‘quvchilarning raqamli savodxonligini rivojlantirish va ularni axborot jamiyatida faol ishtirok etishga tayyorlash vazifasini bajaradi.

Axborot texnologiyalarini o‘rgatishning asosiy kontseptsiyasi o‘quvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish atrofida shakllanadi va bu jarayon texnik ko‘nikmalardan boshlab ijodiy hamda tanqidiy fikrlashgacha bo‘lgan keng spektrni qamrab oladi. Kontseptsiyaning markaziy g‘oyasi shundan iboratki, axborot texnologiyalari alohida fan sifatida emas, balki barcha ta‘lim sohalarini o‘zaro bog‘lovchi va fanlararo aloqalarni mustahkamlash vositasi sifatida qaraladi. Bu interdissiplinar yondashuv bilimlarning kompleks xarakterini ta‘minlaydi va o‘quvchilarning dunyoqarashini kenglaytirishga xizmat qiladi.

Kontseptual asoslarning muhim qismi konstruktivistik ta‘lim paradigmasini qo‘llashdan iborat bo‘lib, bu yondashuv o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi va ular tomonidan bilimlarni mustaqil qurish jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi. Texnologiyalar bu jarayonda asosiy vosita vazifasini bajaradi va o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rag‘batlantiradi, shu orqali ularning o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi va bilimlarni chuqur o‘zlashtirishlariga yordam beradi.

Ushbu kontseptual asoslar ustida qurilgan ta'lim jarayonida bir qator muhim tamoyillar amal qiladi va ular bir-birini to'ldirib, yaxlit tizimni tashkil etadi. Bosqichlilik tamoyili axborot texnologiyalarini o'rgatishda talabalarning yosh xususiyatlari, oldingi bilim va ko'nikmalari hamda individual rivojlanish sur'atlarini hisobga olgan holda elementar ko'nikmalardan boshlab yuqori darajadagi analitik faoliyatgacha bo'lgan uzluksiz va muvozanatli rivojlanishni ta'minlaydi. Bu tamoyil amaliyotga yo'naltirilganlik tamoyili bilan chambarchas bog'liq bo'lib, nazariy bilimlarni real hayot vazifalarini hal qilishda qo'llash imkoniyatini yaratadi va o'quvchilarning bilimlarning amaliy ahamiyatini anglab etishlariga yordam beradi.

Hamkorlikda o'rganish tamoyili o'quvchilar o'rtasida hamkorlik muhitini yaratish va jamoaviy loyihalar orqali axborot texnologiyalari ko'nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi, bu esa ijtimoiy ko'nikmalarni ham parallel ravishda rivojlantiradi va kelajakdagi professional faoliyatga tayyorlaydi. Ushbu tamoyil xavfsizlik va axloqiy masalalar tamoyili bilan o'zaro ta'sirlashib, raqamli muhitda xavfsiz va mas'uliyatli ish olib borishning ahamiyatini ta'kidlaydi, kibertexavsizlik, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va raqamli fuqarolik ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Moslashuvchanlik va innovatsiyaga ochiqlik tamoyili tez o'zgarib turuvchi texnologik muhitga moslashish qobiliyatini rivojlantirish va yangi texnologiyalarni o'zlashtirishga tayyorgarlik ko'rishni nazarda tutadi, bu esa umr bo'yi o'rganish konsepsiyasini qo'llab-quvvatlaydi va o'quvchilarni doimiy professional rivojlanishga tayyorlaydi. Barcha bu tamoyillar o'zaro bog'liq holda ishlab, o'quvchilarning axborot texnologiyalari sohasidagi kompetensiyalarini kompleks va barqaror rivojlantirishni ta'minlaydi, natijada ular zamonaviy axborot jamiyatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga to'liq tayyor holga keladi va raqamli dunyoning barcha imkoniyatlaridan samarali foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Ta'limda axborot texnologiyalarini o'rgatishning nazariy asoslari bir nechta pedagogik va psixologik nazariyalarga tayanadi. Konstruktivistik ta'lim nazariyasiga ko'ra, o'quvchilar bilimni passiv qabul qiluvchi emas, balki faol quruvchi hisoblanadi. Bu nazariya IT ta'limida ayniqsa muhim, chunki texnologiyalarni o'rganish amaliy faoliyat va tajriba orqali amalga oshiriladi. Ta'limda axborot texnologiyalarini o'rgatishning konsepsiya va tamoyillari zamonaviy ta'lim tizimining muhim qismi bo'lib, bir necha asosiy yo'nalishlarga asoslanadi.

Asosiy konsepsiya sifatida integratsiyalashgan yondashuv qo'llaniladi, ya'ni axborot texnologiyalari alohida fan sifatida emas, balki barcha ta'lim jarayonlariga singdirilgan holda o'rgatiladi. Bu orqali o'quvchilar texnologiyani amaliy vazifalarni yechishda qo'llashni o'rganadilar. Raqamli savodxonlik konsepsiyasi ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u o'quvchilarda nafaqat texnik ko'nikmalar, balki axborotni tanqidiy baholash, raqamli xavfsizlik va axloqiy foydalanish tamoyillarini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Ta'lim jarayonida bosqichma-bosqich o'rgatish tamoyili qo'llaniladi, bu oddiy dasturlardan murakkab tizimlargacha ketma-ket o'tishni nazarda tutadi. Masalan, matn muharrirlaridan boshlab, ma'lumotlar bazasi va dasturlashgacha yo'l olish. Amaliyotga yo'naltirilganlik tamoyili nazariy bilimlarni darhol amalda qo'llash imkoniyatini beradi, o'quvchilar real loyihalar ustida ishlab, o'z mahsulotlarini yaratdilar.

Hamkorlikda o'rganish tamoyili guruh ishlarida texnologiyadan foydalanish, masofaviy hamkorlik va birgalikda muammolarni yechish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Differensiatsiya tamoyili har bir o'quvchining individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga moslashtirilgan ta'lim berishni, turli darajadagi topshiriqlar taklif qilishni nazarda tutadi. Xavfsizlik va axloq tamoyili internet xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va raqamli axloq qoidalarini o'rgatishni ta'limning ajralmas qismi sifatida belgilaydi.

Bu tamoyillar majmui asosida o'quvchilar zamonaviy raqamli dunyoda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishadi va texnologiyalarni to'g'ri, samarali hamda mas'uliyat bilan ishlatishni o'rganadilar.

L.S. Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi IT ta'limida hamkorlikdagi o'rganish va mentorlik dasturlarining ahamiyatini ta'kidlaydi. "Yaqin rivojlanish zonasi" kontsepsiyasi o'quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda IT ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishda qo'llaniladi.

Konnektivizm nazariyasi, G. Siemens tomonidan ishlab chiqilgan, raqamli asrdagi o'rganishning yangi paradigmasini taklif etadi. Bu nazariyaga ko'ra, bilim tarmoqlarda joylashgan va o'rganish jarayoni aloqalarni o'rnatish va qo'llab-quvvatlashdan iborat. IT ta'limida bu yondashuv online hamjamiyatlar, professional tarmoqlar va ochiq manbali loyihalarda ishtirok etish orqali amalga oshiriladi.

IT ta'limining zamonaviy kontsepsiyasi “Computational Thinking” (hisoblash fikrlashi) tushunchasiga asoslanadi. J. Wing tomonidan 2006-yilda taklif etilgan bu kontsepsiya to'rt asosiy komponentni o'z ichiga oladi: dekompozitsiya (murakkab masalalarni kichik qismlarga bo'lish), pattern recognition (naqshlarni tanib olish), abstraktsiya (muhim xususiyatlarni ajratib olish) va algoritmlar (qadam-baqadam yechim yo'llarini ishlab chiqish).

STEAM ta'limi (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvi IT ta'limini boshqa fanlar bilan integratsiyalashtirishni nazarda tutadi. Bu yondashuv o'quvchilarda kompleks muammolarni yechish ko'nikmalarini rivojlantiradi va real hayot masalalariga texnologik yechimlar topishga yo'naltiradi.

Digital Citizenship (raqamli fuqarolik) kontsepsiyasi o'quvchilarda nafaqat texnik ko'nikmalar, balki raqamli muhitda mas'uliyatli va xavfsiz ishlash madaniyatini ham shakllantiradi. Bu axborot xavfsizligi, raqamli adab, intellektual mulk huquqlari kabi muhim masalalarni o'z ichiga oladi.

IT ta'limi yagona pedagogik tizim sifatida tashkil etilishi lozim. Bu tamoyil vertikal va gorizontal integratsiyani nazarda tutadi. Vertikal integratsiya maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlarda IT kompetensiyalarining uzluksiz rivojlantirilishini anglatadi. Gorizontal integratsiya esa IT ta'limini boshqa fanlar va hayotiy faoliyat sohalari bilan bog'lashni nazarda tutadi. Tizimli yondashuv doirasida ta'lim maqsadlari, mazmuni, metodlari va baholash tizimlari o'rtasida mantiqiy bog'liqlik ta'minlanishi kerak. Har bir ta'lim bosqichi keyingisiga tayyorlovchi va uni to'ldiruvchi vazifani bajarishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalari. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 256 b.
2. Begimqulov U.Sh. Axborot texnologiyalari va ta'lim. – Toshkent: Fan, 2019. – 312 b.
3. Qosimov A.A. Elektron ta'lim muhiti va uning imkoniyatlari. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2020. – 189 b.
4. Abdullayev A.M., Hasanov A.A. Ta'limda raqamli texnologiyalarning ahamiyati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – 245 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2020.
6. Роберт И.В. Теория и методика информатизации образования (психолого-педагогический и технологический аспекты). – М.: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2014. – 398 с.
7. Захарова И.Г. Информационные технологии в образовании: Учеб. пособие. – М.: Академия, 2013. – 192 с.
8. Полат Е.С., Бухаркина М.Ю. Современные педагогические и информационные технологии в системе образования. – М.: Академия, 2010. – 368 с.
9. Трайнев В.А., Трайнев И.В. Информационные коммуникационные педагогические технологии. – М.: Дашков и К, 2009. – 280 с.
10. Андреев А.А. Введение в дистанционное обучение. – М.: ВУ, 1997. – 85 с.
11. Mishra, P., & Koehler, M. J. Technological pedagogical content knowledge: A framework for teacher knowledge. // Teachers college record, 2006. – Vol. 108(6). – P. 1017-1054.
12. Clark, R. C., & Mayer, R. E. E-learning and the science of instruction: Proven guidelines for consumers and designers of multimedia learning. – John Wiley & Sons, 2016. – 528 p.
13. Prensky, M. Digital natives, digital immigrants. // On the horizon, 2001. – Vol. 9(5). – P. 1-6.
14. Garrison, D. R., & Kanuka, H. Blended learning: Uncovering its transformative potential in higher education. // The internet and higher education, 2004. – Vol. 7(2). – P. 95-105.
15. Siemens, G. Connectivism: A learning theory for the digital age. // International journal of instructional technology and distance learning, 2005. – Vol. 2(1). – P. 3-10.

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

A.A.Umarov
Osh davlat universiteti

Kirish. XXI asr axborot jamiyatining rivojlanishi va raqamli texnologiyalarning kundalik hayotimizga chuqur kirib borishi boshlang'ich ta'lim tizimida yangi talablar va imkoniyatlar yaratmoqda. Bugungi kunda bolalar go'dakligidanoq turli raqamli qurilmalar va axborot manbalari bilan aloqada bo'lishadi, ammo ularning axborot kompetentligi ko'pincha spontan va tartibsiz rivojlanadi. Shu sababli, boshlang'ich ta'limda axborot kompetentligini maqsadli va tizimli ravishda rivojlantirish zarurati paydo bo'lmoqda.

Axborot kompetentligi deganda shaxsning turli axborot manbalaridan zarur ma'lumotlarni qidirish, topish, tahlil qilish, tanqidiy baholash va o'z maqsadlari uchun samarali foydalanish qobiliyatlari majmui tushuniladi. Boshlang'ich ta'lim darajasida bu kompetentlik o'quvchilarning kelajakdagi ta'lim va kasbiy faoliyatlarida muvaffaqiyat qozonishlari uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Biroq, an'anaviy ta'lim usullari bu yangi talablarga to'liq javob bera olmaydi, chunki ular asosan o'qituvchi tomonidan tayyorlangan ma'lumotlarni qabul qilish va eslab qolishga qaratilgan.

Tadqiqot maqsadi. Zamonaviy boshlang'ich ta'limda axborot kompetentligini rivojlantirishning eng muhim muammolaridan biri shundaki, o'quvchilar ko'pincha axborot manbalarini tanqidiy baholay olmaydilar. Ular internetdagi istalgan ma'lumotga ishonishga moyil bo'lib, noto'g'ri yoki chalg'ituvchi axborotlarni aniqlashda qiyinchilik boshdan kechirishadi. Shuningdek, raqamli vositalardan foydalanish ko'nikmalari ham yetarli darajada rivojlanmagan, bu esa o'quvchilarning axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi.

Material va usullar. Ushbu muammolarni hal qilish uchun innovatsion yondashuvlar qo'llash zarur. Birinchi navbatda, gamifikatsiya usuli o'quvchilarning axborot kompetentligini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv axborot qidirish va tahlil qilish jarayonlarini qiziqarli o'yin shaklida tashkil etishga imkon beradi. Masalan, o'quvchilar “axborot detektivi” o'yinida turli manbalardan ma'lumot to'plab, ularning ishonchliligini tekshirish vazifasini bajarishadi. Bunday yondashuv o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va axborot bilan ishlash jarayonini zavqli qiladi.

Loyiha asosidagi ta'lim ham axborot kompetentligini rivojlantirishning samarali usullaridan biri hisoblanadi. Bu metodika o'quvchilarni real hayotiy muammolarni hal qilish jarayonida axborot to'plash, tahlil qilish va natijalarni taqdim etish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Masalan, o'quvchilar o'z shahar yoki tumani haqida multimediya loyiha tayyorlash jarayonida turli manbalardan ma'lumot to'plash, ularni taqqoslash va eng ishonchli ma'lumotlarni tanlash ko'nikmalarini o'zlashtirishadi.

Aralash ta'lim (blended learning) yondashuvining qo'llanilishi ham juda muhimdir. Bu usul an'anaviy dars shaklini raqamli ta'lim vositalari bilan birlashtiradi va har bir o'quvchining individual ehtiyojlariga mos ta'lim traektoriyasini yaratishga imkon beradi. O'quvchilar bir vaqtning o'zida kitob, elektron resurslar, interaktiv dasturlar va multimedia materiallar bilan ishlashni o'rganadilar, bu esa ularning axborot manbalarini diversifikatsiya qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Mikro-ta'lim metodikasi ham katta ahamiyatga ega. Bu yondashuv axborotni kichik, o'zlashtirish oson bo'lgan qismlarga bo'lish va qisqa muddat ichida aniq ko'nikmalarni o'rgatishga asoslangan. Masalan, o'quvchilar har bir darsda axborot kompetentligining alohida bir jihatini - internetda xavfsiz qidiruv, manbalarning ishonchliligini tekshirish, ma'lumotlarni taqqoslash kabi ko'nikmalarni o'zlashtirishadi.

Tanqidiy fikrlash metodikasining qo'llanilishi axborot kompetentligini rivojlantirishning eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Bu yondashuv o'quvchilarni axborot manbalarini baholash mezonlarini o'rgatish, noto'g'ri va chalg'ituvchi axborotlarni aniqlash ko'nikmalarini rivojlantirish va dalillar asosida xulosa chiqarish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan. O'quvchilar turli manbalardan olingan ma'lumotlarni solishtirish, qarama-qarshi nuqtai nazarlarni tahlil qilish va o'z xulosalarini asoslash ko'nikmalarini o'zlashtirishadi.

Tadqiqot natijalari. Ushbu innovatsion yondashuvlarning samaradorligi bir necha darajada baholanadi. Bilim darajasida o'quvchilar axborot turlari va manbalarini farqlash, raqamli vositalardan foydalanish asoslarini bilish, axborot xavfsizligi qoidalarini tushunish ko'nikmalarini o'zlashtirishadi. Ko'nikma darajasida esa axborot qidirish va saralash, raqamli kontentni yaratish, axborot manbalarini tanqidiy baholash qobiliyatlari rivojlanadi. Malaka darajasida o'quvchilar mustaqil axborot loyihalarini amalga oshirish, raqamli muhitda samarali muloqot qilish va axborot texnologiyalarini turli fanlar bo'yicha qo'llash imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu innovatsion yondashuvlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborot kompetentligini rivojlantirishda sezilarli natijalar beradi. O'quvchilar nafaqat texnik ko'nikmalarni o'zlashtirishadi, balki axborot bilan ishlashda mas'uliyatli va tanqidiy yondashuvni ham shakllantiradilar. Bu esa ularning kelajakdagi ta'lim bosqichlarida va hayotda muvaffaqiyat qozonishlari uchun mustahkam zamin yaratadi.

Shu bilan birga, ushbu yondashuvlarning samarali amalga oshirilishi uchun bir qator shartlar zarur. Birinchi navbatda, o'qituvchilarning zamonaviy axborot texnologiyalari bo'yicha bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Ikkinchidan, maktablarda zarur texnik jihozlar va barqaror internet ulanishi ta'minlanishi muhim. Uchinchidan, ota-onalar bilan hamkorlikda axborot xavfsizligi masalalarini hal qilish va bolalarning raqamli muhitdagi faoliyatini nazorat qilish zarur.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'limda axborot kompetentligini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lib, o'quvchilarni XXI asr talablariga mos ravishda tayyorlaydi. Ushbu yondashuvlar to'g'ri qo'llanilganda, o'quvchilar nafaqat texnik ko'nikmalarni o'zlashtirishadi, balki axborot jamiyatida faol va mas'uliyatli fuqaro bo'lib yetishishadi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizning raqamli rivojlanish strategiyasini amalga oshirishga muhim hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abulxanova-Slavskaya K.A. Shaxsning faoliyatdagi o'rni. – M.: Nauka, 2021. – 268 b.
2. Ahmedov B.A. Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalarini qo'llash metodikasi. – T.: O'qituvchi, 2023. – 156 b.
3. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, 2022. – 340 b.

4. Begmatov E.M. Raqamli ta'lim muhitida o'qituvchi kompetentligi. – T.: Fan, 2023. – 198 b.
5. Goziev E.G. Kognitiv psixologiya. – T.: O'qituvchi, 2021. – 280 b.
6. Jumayev M.E. Boshlang'ich ta'limda innovatsion yondashuvlar. – T.: Turon-Iqbol, 2022. – 224 b.
7. Karimov I.A. Axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2023. – 176 b.
8. Musayeva D.A. Boshlang'ich sinflarda raqamli ta'lim. – T.: Ma'naviyat, 2022. – 190 b.
9. Qo'chqorov U.Q. Pedagogik innovatsiyalar nazariyasi va amaliyoti. – T.: TDPU, 2023. – 312 b.
10. Ro'ziyev A.A. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. – T.: O'qituvchi, 2021. – 245 b.
11. Solieva M.Q. Axborot kompetentligini shakllantirish yo'llari. – T.: Extremum Press, 2023. – 168 b.
12. Tursunov O.T. Boshlang'ich ta'limda loyiha faoliyati. – T.: Navruz, 2022. – 134 b.
13. Xolmatova Z.Z. Raqamli ta'lim resurslari va ulardan foydalanish. – T.: Akademnashr, 2023. – 216 b.
14. Yo'ldoshev J.G. Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. – T.: Fan, 2022. – 298 b.
15. Zakirova G.X. Boshlang'ich sinflarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish. – T.: Sharq, 2023. – 152 b.
16. Anderson, L.W. & Krathwohl, D.R. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing. – Boston: Allyn & Bacon, 2022. – 352 p.
17. Bates, A.W. Technology, e-Learning and Distance Education. – London: Routledge, 2023. – 298 p.
18. Bloom, B.S. Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longman, 2021. – 236 p.
19. Clark, R.C. & Mayer, R.E. E-Learning and the Science of Instruction. – San Francisco: Pfeiffer, 2022. – 414 p.
20. Garrison, D.R. & Vaughan, N.D. Blended Learning in Higher Education. – San Francisco: Jossey-Bass, 2023. – 272 p.
21. Kapp, K.M. The Gamification of Learning and Instruction. – San Francisco: Pfeiffer, 2021. – 336 p.
22. Prensky, M. Digital Game-Based Learning. – New York: McGraw-Hill, 2022. – 442 p.
23. Siemens, G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. – Educational Technology, 2023. – Vol. 45, No. 2. – P. 3-10.
24. Vygotsky, L.S. Mind in Society: Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 2021. – 186 p.
25. Wiggins, G. & McTighe, J. Understanding by Design. – Alexandria: ASCD, 2023. – 384 p.

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA GASTRONOMIK TURIZMGA OID TERMINLARINI TARJIMA QILISH MASALALARI

M.A.Yuldashev
Namangan davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o’zbek tillarida gastronomik turizm terminlarini tarjima qilish muammolari atroflicha yoritib berilgan. Shuningdek, turizm terminologiyasi ham o‘zbek terminologik tizimida alohida o‘rin egallaydi, biroq bu terminologik tizim hali nazariy jihatdan tadqiq etilmagan. O‘tgan asrda turli sohalarga oid terminlar o‘zbek tiliga rus tili orqali Yevropa tillaridan o‘zlashgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet tillaridan o‘zlashmoqda. Ma’lumki, xalqaro terminlarda yunon va lotin tiliga taalluqli termin elementlar ko‘p kuzatiladi. Shu bois ingliz va o’zbek tillarida gastronomik turizm terminlarini tarjima qilish muammolari va muqobil variantlari berilgan.
Kalit so’zlar: Gastronomik turizm, oshxona turizmi, Agroturizm, Shahar gastronimik turizmi, “culinary tourism” – “pazandalik turizmi”, “food tourism” – “oziq ovqat turizmi”, “gastronomic tourism” – “gastronomik turizm”.

Hozirgi vaqtda, dunyoning ko’p mamlakatlarida, gastronomik turizm rivojlangan. Fransiya va Bolgariya davlatlarida uzumchilik va vinochilik sohasi, Gollandiya, Shveytsariya va Italiya davlatlarida pishloqchilik faoliyati, Germaniya, Avstriya, Belgiya, Chexiya davlatlarida esa pivochilikga ixtisoslashgan kabi sayohat turlarini o’z ichiga oladi.

Gastronomik turizm, yoki **oshxona turizmi**, asosiy turlaridan biri bo‘lib, asosiy maqsadi, sayyohlarning ma’lum bir mamlakatga, sayohat qilishi asnosida, o‘sha davlatning milliy oshxonasi va ovqatlanish madaniyati bilan ham, yaqindan tanishishidir. Gastronomik sayyoh, birinchi navbatda, madaniyatning ajralmas qismi hisoblangan, milliy va an’anaviy taomlarni, tayyorlash jarayoni, dasturxonga tortish usullari, ovqatlanish tartibi va pozitsiyalarini, ko‘rish va bilish barobarida, sayohat qilayotgan davlatining, tarixini, iqtisodiyotini, davlat siyosati hamda mahalliy aholining e’tiqodlarini o‘rganadi.

Gastronomik turizm, odatda ikki turga bo‘linadi:

1. **Agroturizm**, dala (qishloq) gastronomik turizmi; Sayohat qilinayotgan davlatning, ekologik toza mahsulotlari (meva va sabzavotlar, poliz mahsulotlari, uzumchilik) ni, hosilini yig’ish yoki qadoqlashni o’z ko’zi bilan ko’rish va mahsulotlarni ta’tib ko’rish tushuniladi.
2. **Shahar gastronimik turizmi**, mahalliy mahsulotlarni qayta ishlaydigan va ishlab chiqaradigan korxonalar, milliy taomlar tayyorlaydigan ovqatlanish shaxobchalarida, oziq-ovqat do’konlariga va boshqa ob’yektlarga, tashrif buyurib, ularni o’rganish va ta’tib ko’rishni o’z ichiga oladi.

Gastronomik sayyohlar kimlar: odatiy sayyohlikdan zerikkan sayyoh, ovqatlanish ratsioniga o’zgartirish kiritayotgan sayyoh, gurmanlar (oziq-ovqatlarni baholovchi va ta’tib ko’ruvchilar), kasb-kori gastronomiya bilan bog’liq mutaxassislar (restoratorlar, oshpazlar, umumiy ovqatlanish korxonalari xodimlari), sayyohlik agentlari (sayyohlik turlari tashkil qilishlari uchun, milliy taomlarni o’rganadilar).
Gastronomik turizm iborasi mahsus adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi “culinary tourism” – “pazandalik turizmi”, “food tourism” – “oziq ovqat turizmi”, “gastronomic tourism” – “gastronomik turizm”.

Gastronomik turizm O’zbekistonda ham yuksak darajada rivojlangan. O’zbekistonga gastronomik turizm sayyohlariga sizga butun yil davomida unutilmas ta’mga ega bo'lgan an'anaviy taomlar bilan tanishtiriladi va tayyorlanish jarayonlari bilan ham o’rtoqlashiladi.

MDH mamlakatlari bo’ylab eng ommabop gastronomik turizm mamlakatlari reytingida O'zbekiston beshinchi o'rinni egalladi. Mehmon kutib olish borasida o’zbeklarga teng keladigani yo'q. Choy ichish urf odati turistlarni lol qoldirgan odatlardan biridir. Ko’k choyni uch marta choynakka qayta quyib to'rtinchisini mehmonga uzatishadi. O’zbeklar issiq ob-havoda ham, har bir taomdan so’ng issiq ko’k choy ichishni hush ko'rishadi. Mehmonga choydan uzatgandang so’ng nonni sindirib mehmon oldiga qo'yishadi. Non o’zbeklar uchun eng oliy ne'mat hisoblanadi. Turistlarni lol qoldiradigan yana bir narsa non turlari. O’zbekistonning har bir shahri o’zining noni bilan mashhur. Masalan: Samarqand noni, Qo’qon patiri, Zomin qozon patiri, Buxoro noni va patiri. Osh butun dunyoga tanilgan o’zbek milliy taomlaridan biridir. Osh rus tilida plov ingliz tilida esa pilaf deyiladi. O’zbek oshxonasining yana bir mashhur taomlaridan biri tuxumbarak, asosan Buxoro hamda Xorazm viloyatlarida pishiriladi. Qo'y go'shtini xush ko'ruvchilar uchun xalim taomi juda mashxur.

Birinchi bor “culinary tourism” – “pazandalik turizmi” iborasini 1998 yilda Ogayo shtatidagi Bowling Green universiteti dotsenti L.Long “insonlar boshqa madaniyatlarni ularning mahalliy taomlari orqali anglashadi” degan g'oyani targ’ib qilishda muomalaga kiritgan.

Erik Vulf Xalqaro oziq-ovqat turizm tashkiloti boshlig’i “Gastronomik turizm bu - butun dunyo bo’ylab o'ziga xos, unitilmas, noyob taomlar va ichimliklarni izlash va rohatlanish”dir degan. Ekzotik ta’mni izlab butun bir dunyoni sayohat qilish shartmas, o'z shahrida ham gastronomik tur uyushtirish mumkin.

Gastronomik turizm - bu mamlakatniing uning ta’m va didga bo’lgan afzalliklari, an’analari orqali tushunish va his qilish, shuningdek, ovqatlanish madaniyati bilan tanishish imkoniyatidir. Turizmning bu turi o‘z sayohatiga yangi, g‘ayrioddiy narsalarni olib kelmoqchi bo‘lgan, iste’mol qilayotgan taomlari orqali mamlakat va xalq madaniyatini ko‘rish va his qilishni istagan turistlar uchun mos keladi. Gastronomik turizm – tashrif buyuruvchi uchun noyob taom yoki mahsulotni tatib ko‘rish maqsadida mahalliy oshxonaning o‘ziga xos xususiyatlari, pazandalik an’analari bilan tanishish maqsadida mamlakatlar va qit’alar bo‘ylab sayohatdir. Biroq, xizmat sifatida gastronomiya sayohati shunchaki sayohat emas, chunki u an'anaviy mahalliy taomlarni tatib ko'rish uchun puxta o'ylangan tadbirlar majmuidir. Shuningdek, dunyoning boshqa hech bir joyida uchramaydigan alohida ingredientlardan iborat ta’mlar jamlamasidir. Mari del Piarning ta’kidlashicha ko'pgina sayyohlar uchun oziq-ovqat va ichimliklarni ta’tib ko'rish yangi

yo'nalishlarga tashrif buyurishning asosiy sabablaridan biridir. Mamlakatning gastronomiyasi uning madaniyatining ko'rinishidir, mahalliy oziq-ovqat bozorlari mintaqaning madaniy va turizm tajribasining muhim elementlari sifatida tan olinadi, uning mahalliy o'ziga xosligini u yerda sotiladigan mahsulotlardan bilish mumkin. Shunday qilib, mahalliy oziq ovqat ishlab chiqarish va turizm o'rtasidagi bog'liqlik turizm sektorida tobora ko’proq e’tirof etilmoqda va bu esa mahalliy oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Turizmda pazandachilik turizmi kabi sohasi keng tarqalmoqda, uning maqsadi turli xalqlarning oshxonalari bilan tanishishdir. Shu bilan birga, ularga pishirish yoki iste’mol qilish ham qiziqish uyg'otadi. Bularning barchasi oziq-ovqat nafaqat biologik ehtiyojlarni qondirish usuli, balki madaniy hodisa sifatida ham ko'rib chiqilishidan dalolat beradi. Gastronom sohasida taomlarning obro‘-e’tibori, mavjudligi haqidagi ma’lum me’yorlar, g‘oyalar va ko‘pchilik tomonidan tan olingan amaliyotlar mavjud. Biroq, bu me'yor va g'oyalarni shakllantirish va tarjima qilish usullari hali o'rganilmagan. Ovqatlanishga oid kitoblar hamda restoran qo'llanmalari gastronomik turizmda biznes yuritishning usuli bu adabiyotlarni reklama qilish va sotishdir. Bu yangi mahsulot yaratadi va bular ko`p hollarda mintaqaning xalqaro madaniy doirada tanilishiga xizmat qiladi. Restoran yo'riqnomalari, shuningdek, oshxona kitoblari (odatiy taomlarni tayyorlashda) milliy taomlarni tanitishning eng samarali yo`li hisoblanadi. Har bir millat va elatning o’ziga xos urf-odatlari hamda shu urf-odatlariga mos milliy taomlari mavjud. Milliy taomlar ma’lum millatga mansub ravishda nomlanadi. Biroq taomlar borasida shunday atamalar mavjudki, ularni boshqa tilga tarjima qilishning imkoni yo’q. Demak biz o’lkamizga tashrif buyurayotgan sayyohlarga o’zimizning milliy taomlarimizni qay yo’sinda tushuntirib berishimiz bizning tarjima mahoratimizga bog’liq. Ushbu holatda biz atamalarning leksik xususiyatlariga e’tibor qaratishimiz maqsadga muvofiq. O’zbek urf-odatiga ko’ra ovqatlanish doim dasturxon atrofida bo’ladi. Inglizlar esa stol atrofida ovqatlanishadi. Demak ularda dasturxon tushunchasi mavjud emas. Masalan: « Qani dasturxonga marhamat atrofida kabi jumlarlarni tarjima qilshda inglizlarning odatiga binoan stol yoki stol atrofida deb tarjima qilish kerak. Yoki dasturxon ustida jumlasini ingliz tiliga a table (stolda) deb tarjima qilinadi. O'zbek milliy taomilari dunyoga mashhur. Jumladan palov (osh), ingliz tilida ham plov bu qo'y go'shti va sabzi bilan qovurilgan guruch hisoblanadi. Birgina O‘zbekistonda uning yuz xil retsepti mavjud. No`xat palov, mayiz palov, behi palov, sarimsoqli palov kabi turlari mavjud. Har joyda uning pishirilishi har xil. Masalan Buxoroda guruch yog‘da qovurilmaydi, qaynatiladi. Biz har kuni bozorlar oshxonalarida (faqat tushda) palovni ko`ramiz, oilalarda esa payshanba va har bir maxsus bayramlarda, marosimlarda , to‘y, hayit bayrmalarida pishiriladi. Dasturxonga katta idishlarda keltiriladi va odamlar qoshiqda yoki qo'lda yeyishni afzal ko`radiganlari ham bor. O'zbekistonning yana bir asosiy taomi – cho`g`da pishgan go`sht (shashlik) yoki kabob ham deyiladi. Ingliz tilida esa kebab (sixda tortilgan go`sht) deb tarjima qilinadi. Odatda go'sht va yog'ning har xil bo'laklaridan iborat bo`ladi. Bunda qo'y go'shti, eng keng tarqalgan, mol go'shti, qo'zichoq yoki tovuq go`shtlari sixda tortiladi. Shashlik qo’y jigaridan yoki qo'yning dumi yog'idan (dolma) tayyorlanishi mumkin. Shashliklarni faqat erkaklar pishiradi. Ular doimo sirka ichida xom piyoz, ba’zan esa ma’lum miqdorda arpabodiyon urug`i ham qo`shiladi. Undan tashqari ayrim hududlarda beshbarmaq nomli taom mavjud. Ingliz tilida so`zma-so`z tarjima qilsak five fingers (besh barmoq) ammo bu taomning barmoqqa umuman aloqasi yo`q. Qozoq ko'chmanchilarining (shuningdek, qirg'izlarning) o'ziga xos qaynatilgan qo'y yoki mol go'shti va jigar bo'laklaridan tayyorlangan, kartoshka, piyoz va makaron aralashmasidan tashkil topgan. Chuchvara. Ingliz tilida meaty dough deb tarjima qilinadi. Xamirdan tayyorlanadigan va xamir mahsus shakllarda kesilib, ichi go`sht piyoz aralashamasi bilan to’ldiriladigan mahsulot. Vegetarianlar uchun tavsiya etilmaydigan, ammo Markaziy Osiyoda juda mashhur taom hisoblanadi. Qo’yning boshi va oyoqlari yurak, o’pka va buyraklar bilan tayyorlanadi va katta laganga solib tortiladi. Xonim ingliz tiliga rolled manty deb tarjima qilamiz. Qovoq, go`sht, maydalangan piyoz va turli ziravorlar bilan to'ldirilgan kichik, shuningdek, turli shakllarda ham bezatlishi mumkin. Juda mazali va ta’mi juda yoqimli. O`zbek restoranlarida buyurtma bilan pishiriladigan taom hisoblanadi. Lagman. Ingliz tilida noodles ammo o`zbek taomidan keskin farq qiladi. Lag'mon - bu turli xil usullarda pishirilishi mumkin bo'lgan qalin makaron: qovurilgan yoki sabzavot va bir necha bo'lak go'sht aralashmasi bilan qaynatiladi. Manti inglizchada manty. Yana bir uyg’urlarning o’ziga xos taomi. Bu bug'da pishirilgan va qo'y va piyoz bilan to'ldirilgan katta bo`lakdan iborat xamirli taom. Somsa, inglizchada samsa. Go'sht va piyoz bilan to'ldirilgan rulonchalar, gohida dumaloq, ba'zan, qovurilgan yoki tandirda pishiriladi. Tuxum barak. Ingliz tiliga “Egg barak” deb tarjima qilinadi ammo fransuzlarning quymog`idan farq qiladigan o`ziga xos tuxumli quymoq. bilan yakun topamiz. Bu ta'sirni muvozanatlash uchun tuzlangan piyozni talab qiling. Sumalak – bu bahorda pishiriladigan o`ziga xos taom bo`lib so‘z tom ma’noda “son-sanoqsiz farishtalar”degan ma’noni anglatadi.

Shuningdek, sho’rvani “fried shurpa”deb tarjima qilinadi. Moshho’rdani “Moshkhurda” deya tarjima qilinadi

Ingliz tiliga “many angels” deb tarjima qilinadi. Shunday qilib o`zbek tilidagi ayrim gastronom turizimiga xos atamalrning tarjima jarayoni bir muncha murakkablikni keltirib chiqaradi ya`ni ulani so’zma so’z tarjima qilib bo`lmaydi hamda ularni faqat ma’nolariga yondashibgina tarjima qilish mumkin.

Turizm terminologiyasi ham o‘zbek terminologik tizimida alohida o‘rin egallaydi, biroq bu terminologik tizim hali nazariy jihatdan tadqiq etilmagan. O‘tgan asrda turli sohalarga oid terminlar o‘zbek tiliga rus tili orqali Yevropa tillaridan o‘zlashgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet tillaridan o‘zlashmoqda. Ma’lumki, xalqaro terminlarda yunon va lotin tiliga taalluqli termin elementlar ko‘p kuzatiladi. Turizm terminlarida termin elementlar mavjudligini tekshirish ham nazariy masalardan biri hisoblanadi. Rus tilshunosligida turizm terminologiyasi bo‘yicha bir qator tadqiqotlar olib borilganini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, E.T. Belan, V.L. Vinogradova tomonidan dissertatsiyalar himoya qilingan. Shuningdek, turizm terminologiyasiga bo‘yicha ilmiy kuzatishlar olib borilgan. Terminlar sinonimiyasi ma'lum fan va sohalarning to‘xtovsiz rivojlanishi, yangi-yangi tushunchalarning, binobarin, terminlarning paydo bo‘lishi mahsulidir. Biroq ilmiy uslubda, fanda terminlarning aniqligiga ehtiyoj kuchli bo‘lgani sababli terminlar dubletligidan qochish uchun tabiiy intilish sezilib turadi. Shunga ko‘ra terminologiyaga bag‘ishlangan barcha adabiyotlarda terminlar sinonimiyasi terminologiyaning jiddiy nuqsoni deb ko‘rsatiladi. Rus terminologiyasi tarixi bilan maxsus shug‘ullangan L.L.Kutina shunday deb yozadi: “Ilmiy terminologiya sohasida keng tarqalgan sinonimiya hodisasi terminologik sistemalar amal qilishining ilk davri, ularning shakllanish davri uchun xarakterlidir”.1 Biroq sinonimlik faqat terminologik sistemalarning dastlabki rivojlanish bosqichigagina xos bo‘lib, hozirda bu holat terminologiyada yo‘q deb o‘ylamaslik kerak. Masalan, ingliz tilida administrator (adminstator) termini bilan bir paytda xuddi u ifodalagan ma’noni ifodalovchi receptionist termini qo‘llanadi. Receptionist o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z tarjima qilinganda “qabul qiluvchi” degan ma’noni anglatadi (o‘zbek tilida bu terminning administrator varianti iste’molda faol qo‘llanadi). Bu kabi holatga bir qancha namunalarni keltirish mumkin: stewardess, cabin girl – stuardessa; second class, economy class – ikkinchi klass; accomadation, room – xona;. Turizmning bir qancha turlari mavjudligi “turizm” tarkibli terminlarning ham mavjud bo‘lishini o‘z-o‘zidan taqozo qiladi: bolalar turizmi, ekstremal turizm, gastronomik turizm, harbiy turizm, havaskorlik turizmi, ichki turizm, ijtimoiy turizm, individual turizm, karvon turizmi, kongress turizmi, madaniy turizm, milliy turizm, muzey turizmi, nikoh turizmi, reklama turizmi, sanoat turizmi, sarguzashtli turizm, sog‘lomlashtirish turizmi, tog‘ turizmim, kichik turizm zonalari kabi. “Tur”, “nomer”, “klass” terminlari ishtirokida yuzaga kelgan maxsus leksik birliklar, asosan, turistik xizmat ko‘rsatish sohasida faol iste’molda bo‘lgan terminlardir: tur militsiyasi, tur paket, tur tashkilotchisi, tur yo‘llanma; bir o‘rinli nomer, ikki o‘rinli nomer. Turizm terminologiyasi ochiq xarakterda bo‘lib, takibining tez boyishi bilan boshqa terminologik tizimlardan farq qiladi. Jahon tishunosligida turizm terminologiyasi bo‘yicha qiyosiy xarakterdagi ilmiy tadqiqot ishlarining olib borilganligi ularda ushbu soha terminologiyasi ma’lum ma’noda tartibga solinganligi, yangi paydo bo‘layotgan tushunchalarni nomlashda ma’lum tamoyillar ishab chiqilganidan dalolat beradi. O‘zbek tilida mavjud turistik terminlarni tartibga solish, termin tanlash va uni muomalaga kiritish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish soha oldidagi muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmatullayev Sh. “Hozirgi o'zbek adabiy tili” - Toshkent: O'qituvchi, 2006
2. Komilov N. “Tarjima nazariyasi” - Toshkent: Fan, 2005
3. Salomov G'. “ Til va tarjima muammolari”- Toshkent: Akademnashr, 2010
4. Nematov H. “O'zbek tilining leksikologiyasi”- Toshkent: O'qituvchi, 2008
5. Begmatov E. “O'zbek tilshunosligining asosiy masalalari” - Toshkent: Fan, 2007
6. Baker, M. “In Other Words: A Coursebook on Translation” - London: Routledge, 2018
7. Newmark, P. “A Textbook of Translation”- London: Prentice Hall, 1988
8. Venuti, L. “The Translation Studies Reader” - London: Routledge, 2012
9. Nida, E.A. “Toward a Science of Translating”- Leiden: Brill, 1964
10. Catford, J.C. “A Linguistic Theory of Translation” - Oxford: Oxford University Press, 1965
11. Hall, C.M. & Sharples, L. “Food and Wine Festivals and Events Around the World”- Oxford: Butterworth-Heinemann, 2008
12. Long, L.M. “Culinary Tourism” - Lexington: University Press of Kentucky, 2004
13. Ignatov, E. & Smith, S. “Segmenting Canadian Culinary Tourists” - Current Issues in Tourism, 2006
14. Cohen, E. & Avieli, N. “Food in Tourism: Attraction and Impediment”- Annals of Tourism Research, 2004
15. Cabré, M.T. “Terminology: Theory, Methods and Applications” - Amsterdam: John Benjamins, 1999

YAPONIYANING «HOZON» KONSEPSIYASI ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDA EKOLOGIK ONGNI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZBEKISTONGA TATBIQ ETISH

H.O.Orolova
Nurobod tuman 7-MTT mudirasi orolovahilola@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yaponiyaning maktabgacha ta’lim tizimidagi “Hozon” konsepsiyasi va uning asosiy tarkibiy tamoyillari — bolani tabiat bilan uyg‘unlikda tarbiyalash, mustaqillik, ekologik ong, “mimamoru” kabi qator tashunchalarni atroflicha tahlil qilinadi. Yapon pedagogik tajribasi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy ko‘nikmalarni ertaroq shakllantirishga qaratilgan usullar yoritiladi. Shuningdek, bu yondashuvning O‘zbekiston sharoitida qanday qo‘llanilishi mumkinligi, mavjud bog‘cha muhitida qay jihatlari tatbiq etilishi mumkinligi haqida ilmiy-nazariy asoslar va amaliy takliflar beriladi. Maqolada O‘zbekiston ta’lim tizimini yanada takomillashtirish maqsadida innovatsion, ekotarbiya yo‘nalishidagi yondashuvlar muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar. Hozon konsepsiyasi, maktabgacha ta’lim, ekologik ong, mimamoru tamoyili, Yapon pedagogikasi, barqaror rivojlanish, O‘zbekiston ta’lim tizimi, ekotarbiya.

Аннотация. В данной статье всесторонне анализируется концепция «Хозон» в системе дошкольного образования Японии и её ключевые составляющие принципы — воспитание ребёнка в гармонии с природой, развитие самостоятельности, экологическое сознание, а также такие понятия, как «мимамору». Освещаются методы, направленные на раннее формирование жизненных навыков у детей дошкольного возраста на основе японского педагогического опыта. Также представлены теоретические обоснования и практические предложения по применению данного подхода в условиях Узбекистана, с акцентом на то, какие его аспекты могут быть реализованы в существующей системе детских садов. В статье обсуждаются инновационные и эколого-воспитательные подходы, направленные на дальнейшее совершенствование системы образования Узбекистана.

Ключевые слова. концепция Хозон, дошкольное образование, экологическое сознание, принцип мимамору, японская педагогика, устойчивое развитие, система образования Узбекистана, эколого-воспитательный подход.

Abstract. This article provides a detailed analysis of the “Hozon” concept in Japan’s preschool education system and its key principles — raising a child in harmony with nature, fostering independence, environmental awareness, and notions such as “mimamoru.” Methods aimed at developing life skills in preschool children at an early stage based on Japanese pedagogical experience are highlighted. The article also offers theoretical foundations and practical recommendations on how this approach can be applied in the context of Uzbekistan, and which aspects can be implemented in the existing preschool environment. Furthermore, innovative and eco-educational approaches aimed at improving Uzbekistan’s education system are discussed.

Keywords. Hozon concept, preschool education, environmental awareness, mimamoru principle, Japanese pedagogy, sustainable development, Uzbekistan’s education system, eco-education.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida maktabgacha ta’lim tizimida insoniyatning qadriyatlari, ekologik ong va hayotga tayyorlov masalalari jahon miqyosida dolzarb mavzulardan biriga aylangan. Jumladan, Yaponiya Respublikasi tomonidan ishlab chiqilgan “Hozon” (保存) konsepsiyasi maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik ongli, mas’uliyatli va mustaqil shaxs sifatida tarbiyalashga qaratilgan innovatsion yondashuv sifatida xalqaro e’tirofga sazovor bo‘lmoqda.

Mazkur konsepsiya ilk bor XX asrning o‘rtalaridan boshlab Yapon pedagogikasida, xususan, maktabgacha ta’lim muassasalarining ichki falsafasida shakllana boshlagan bo‘lib, u Sozo Kurahashi (1882–1955) tomonidan ilgari surilgan “mimamoru” – ya’ni bolani kuzatish, ammo uning ichki tabiiy rivojlanishiga xalaqit bermaslik tamoyiliga asoslanadi [9. 2023:R]. Bu pedagogik qarashlar Friedrich Froebelning bola markazli ta’lim falsafasi bilan uyg‘unlashib, yapon jamiyatida mustaqillik, tabiiy resurslarni qadrlash, soddalik va ijtimoiy mas’uliyatni tarbiyalovchi tizimga aylandi [2. 2024:H.477-496].

Konsepsiya dastlab mahalliy maktabgacha ta’lim muassasalarining ichki nizomlari, faoliyat reglamentlari va o‘qituvchilarning amaliy mashg‘ulotlarida sezilarli bo‘lib ko‘zga tashlangan. Biroq 1990-yillardan boshlab Yaponiyada ta’lim siyosatini isloh qilish harakatlari bilan bu yondashuv milliy darajadagi normativ asoslarga kiritila boshlandi. Xususan, Yaponiya Ta’lim, madaniyat, sport, fan va texnologiya

vazirligi (MEXT) tomonidan ishlab chiqilgan maktabgacha ta’lim bo‘yicha 2008-yilgi yangilangan dasturlarda “hozon” tamoyillariga tayangan ekologik tarbiya, jamoaviy o‘zaro munosabatlar va ijtimoiy moslashuvni rivojlantirishga alohida urg‘u berildi [3. 2008:MEXT.14-15].

Bugungi kunda “Hozon” konsepsiyasi Yaponiyaning ko‘pgina “hoikuen” (davlat bog‘chalari) va “youchien” (xususiy yoki yarim-xususiy bog‘chalar) tizimida keng qo‘llanilmoqda. U nafaqat bolalarni tabiatga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi, balki ularning kundalik faoliyatiga — ovqatlanish, kiyinish, tozalik va o‘zaro yordam ko‘rsatish kabi hayotiy jihatlarni kiritadi. Shu bilan birga, bu yondashuv global ekologik muammolar fonida yosh avlodga mas’uliyat hissini singdirish vositasiga aylanmoqda [10. 20224:Sh.7].

Maktabgacha yosh — insonning psixofiziologik, axloqiy va intellektual asoslari shakllanadigan eng muhim davr hisoblanadi. Shunday ekan, Yaponiya ta’lim tizimi bu bosqichda bola bilan ishlashda atrof-muhitni birlamchi o‘qituvchi sifatida ko‘radi. “Hozon” konsepsiyasi orqali bolalar o‘yin, kuzatuv va bevosita faoliyat orqali o‘z bilimlarini mustaqil shakllantiradi. Bu yondashuv bolada faqat atrofga emas, o‘zining xatti-harakatlariga ham e’tiborli bo‘lishni talab qiladi [1. 2023: F. 13-20].

Yaponiyaning maktabgacha ta’lim muassasalarida “hozon” tamoyillari faqat tabiatni asrashga qaratilgan emas, balki bolalarda ijtimoiy ongni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu degani – bola faqat daraxtni sug‘orishni emas, balki uni sug‘ormasa nima bo‘lishini ham anglaydi; ovqatni oxirigacha yeyishni emas, balki nega uni isrof qilmaslik kerakligini tushunadi [6. 2021:NIER. 20-33]. Bu tarzdagi ta’limning eng muhim jihati — bolani ahloqiy qaror qabul qilishga o‘rgatishdir.

“Hoikuen”larda bu yondashuv bolalarning kundalik jadvalidan joy olgan: tonggi navbatchilik, bog‘ ishlari, umumiy ishlarni bajarish (tozalash, suv quyish, taxta artish), ovqatdan oldin va keyin e’tiborli harakatlar kabi elementlar ta’limning uzviy qismidir. Bu orqali tarbiyachilar bolaning o‘ziga xizmat qilishi, jamoaga yordam berishi va o‘z xatti-harakatlariga ongli yondashishini shakllantirishadi [7. 2024:O].

Konsepsiya ayniqsa so‘nggi yillarda — ekologik krizis, atrof-muhit ifloslanishi, oziq-ovqat tanqisligi kabi global muammolar fonida yana-da dolzarb tus oldi. Shu sababli, Yaponiya hukumati uni nafaqat bolalar bog‘chalarida, balki boshlang‘ich ta’lim dasturlarida ham keng miqyosda joriy etmoqda. Bu orqali yosh avlodga hayotiy qadriyatlar, mas’uliyat va ekologik ongni kichik yoshdanoq singdirish yo‘lga qo‘yilmoqda.

Shu tarzda, “Hozon” konsepsiyasi nafaqat maktabgacha ta’limning pedagogik modeli sifatida, balki milliy madaniyat va ekologik ongni uzviy tutuvchi ijtimoiy yondashuv sifatida ham qaralmoqda. Bu modelning xalqaro miqyosda ham e’tirof etilishi, ayniqsa, barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) doirasida uni boshqa mamlakatlar, jumladan, O‘zbekiston tajribasiga tadbiq qilishni muhim ahamiyatga ega qiladi [[4. 2020: MEXT. 78-85].].

Asosiy qism. “Hozon” — bu oddiygina «asrash», «saqlash» degan ma’noni anglatadigan yaponcha so‘z bo‘lsa-da, uning maktabgacha ta’limdagi falsafasi bundan ancha chuqurroqdir. Bu tushuncha orqali bola nafaqat tabiatga, balki o‘z harakatiga, o‘z xarajatiga, va hatto o‘z nafsiga ham nisbatan ehtiyotkorlikka o‘rgatiladi. Yaponiyada bola ilk yoshidan boshlab narsalarning “qadrini bilish”ga da’vat etiladi. Bu esa, mening fikrimcha, zamonaviy pedagogikadagi eng dolzarb masalalardan biri — axloqiy ongni ongli ravishda shakllantirishga xizmat qiladi.

Tarbiyada “hozon”ning asosiy maqsadi — bolada o‘ziga va atrofga bo‘lgan mas’uliyat hissini uyg‘otishdir. Bu tamoyil orqali bola shunchaki qoidalar asosida emas, balki o‘z ichki qadriyatlari asosida to‘g‘ri xulqni tanlaydi. Bolalar masalan, bargni yulmaslikni shunchaki “taqiqlangan” deb emas, “bu hayotiy zanjirga zarar yetkazadi” deb tushunadi. Bu nuqtayi nazar Vygotskiy, Montessori va Fromm kabi olimlarning “tushunishga asoslangan axloqiy rivojlanish” haqidagi qarashlariga juda yaqin turadi [5. 1995:M.].

Bundan tashqari, “Hozon” orqali bola real muhitda o‘z bilimini qo‘llaydi: o‘simliklar bilan ishlash, suvni tejash, o‘yinchoqlarni asrash, ovqatni isrof qilmaslik kabi amaliy yondashuvlar orqali u hayotiy kompetensiyalarni egallaydi. Aynan mana shu jihati uni maktabgacha ta’limda nazariy bilimga asoslangan yondashuvlardan ajratib turadi. Ta’lim bolani “harakatga o‘rgatadi”, balki undan ham muhimrog‘i – uni “fikrlashga” undaydi. Tabiiyki, aynan shu holat bolani passiv iste’molchi emas, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Tarbiyaning ijtimoiy natijalari haqida gap ketganda, “Hozon” bolani nafaqat ekologik ongli shaxs sifatida, balki ijtimoiy faolligi yuqori inson sifatida tayyorlaydi. Yapon bog‘chalaridagi navbatchilik, o‘zgalarga yordam berish, jamoaviy tozalash ishlari, ovqatni birgalikda tayyorlash va taomdan oldingi va keyingi xatti-harakatlar bolaning ijtimoiy intellektini kuchli tarzda rivojlantiradi. U o‘z o‘rnini va

boshqalarning huquqini tan oladi, empatiya ko‘rsatishni, biror ish uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olishni o‘rganadi. Bular esa maktabgacha davr uchun katta yutuq hisoblanadi.

Shuningdek, hozon yondashuvi boladagi ichki tartib va mustaqillikni kuchaytiradi. Bu xususiyatlar, masalan, bolani doim nazorat ostida ushlashga o‘rganib qolgan ayrim pedagogik tizimlarga qarama-qarshi. Yapon modelida bola o‘zi xato qilishiga, xatodan o‘rganishiga ruxsat beriladi. Ustozning roli bu yerda nazoratchi emas, balki kuzatuvchi va yo‘lko‘rsatuvchidir. Bu yondashuv Piagetsning kognitiv rivojlanish nazariyasiga hamohang bo‘lib, bolaning faol subyekt sifatida rivojlanishini ta’minlaydi [8. 2000:P.15-24].

Mening nazarimda, bunday yondashuv bolaning ruhiy salomatligi uchun ham muhimdir. Chunki hozon orqali bola harakatiga ongli yondashadi va o‘z qadr-qimmatini his etadi. Bu esa uni haddan ortiq musobaqalashish, zo‘ravonlik va boshqalarga nisbatan indifferentlikdan uzoqlashtiradi. Shunday qilib, “hozon” — bu faqat “yashil o‘ylash” emas, balki insoniylikni bolalikdan boshlab mustahkamlovchi tizimdir.

O‘zbekistonning iqlimiy, madaniy va ijtimoiy sharoitlari Yaponiya bilan to‘liq mos emasligi tabiiy, biroq “Hozon”ning asosiy mohiyatini — ya’ni resurslarni qadrlash, ijtimoiy mas’uliyat va ekologik ongni bolalikdan shakllantirish g‘oyasini mahalliy sharoitda ham moslashtirish mumkin. Bizda xalq orasida allaqachon mavjud bo‘lgan “isrofgarchilik yomon”, “nonni yerga tashlama”, “daraxt ek — savob ol” kabi qadriyatlar aynan shu konsepsiya bilan uyg‘unlashadi.

Meningcha, bu yondashuvni sinov tariqasida maktabgacha ta’lim muassasalarida kichik loyihalar shaklida joriy qilish mumkin: masalan, har bir guruh o‘z gulini parvarishlashi, o‘z ishtahasi va ovqatni qadrlashi, tartib va navbatchilikni o‘zaro muhokama qilish asosida tashkil etilishi mumkin. Bunday oddiy harakatlar orqali bolada tabiatga va odamlarga bo‘lgan mas’uliyatni qadamlab singdirish mumkin.

Agar bunga nazariy asos kerak bo‘lsa, bu holatni UNESCOning 2030-yil barqaror rivojlanish maqsadlari bilan bog‘lash mumkin — xususan, SDG 4.7 bandida aynan ekologik savodxonlik, global fuqarolik va ijtimoiy ongni rivojlantirish vazifasi ko‘rsatilgan [11. 2017: UNESCO]. Demak, “Hozon” O‘zbekiston ta’limi uchun ham milliy g‘oyalar va xalqaro talablarga uyg‘un zamonaviy model bo‘lishi mumkin. Muammo shundaki, bizda maktabgacha ta’lim ko‘proq intizom va nazoratga qaratilgan. “Hozon” esa o‘rgatadi emas, tarbiya beradi, bu esa farq qiladi.

Ehtimol, hozon konsepsiyasini milliy dasturlar bilan uyg‘unlashtirib, innovatsion-pedagogik tajribalar sifatida joriy qilish orqali biz nafaqat ekologik ongli, balki axloqan sog‘lom avlodni tarbiyalaymiz. Bu esa nafaqat maktabgacha ta’lim, balki butun jamiyatni barqarorlik sari yetaklaydi.

Hozirda global miqyosda moliyaviy savodxonligi past ayollarning ulushi ancha yuqori bo'lgan doimiy gender tafovut ham mavjud. Masalan, Allianz tadqiqotiga ko'ra, ayollar moliyaviy savodxonlik darajasini baholaydigan to'qqizta savoldan 3,7 tasiga aniq javob bergan, erkaklar esa 4,5 ta to'g'ri javob bergan. Binobarin, erkaklar odatda yuqori moliyaviy savodxonlik toifasidagi ayollardan ko'proqni tashkil etadi. Biroq, dunyoda bitta mamlakatda "ijobiy" gender farqi bor, ya’ni Germaniyada erkaklar(10%)ga qaraganda ko'proq ayollar (22%) yuqori moliyaviy savodxonlik toifasiga ega hisoblanadi.

2-rasm Allianz tadqiqoti natijalari *(Muallif tomonidan ishlab chiqilgan)*

Global miqyosda moliyaviy savodxonlik yoshga qarab ortadi. Baby Boomers (**o'rtasida tug'ilgan 1946 yil va 1964 yillar**) yuqori moliyaviy savodxonligi yuqori konsentratsiyasi bor (21%) boshqalardan ko'ra (o'rtacha 15%) bo‘lib, Generation-Z yosh avlodlarga nisbatan ayniqsa (**yilda tug'ilgan 1997-2021 yillar**) – 6%, va Millennials (**yilda tug'ilgan 1981-1996 yillar**) – 11%ni tashkil etadi.

AQShda kattalarning atigi 57% moliyaviy savodli hisoblanib, bu moliyaviy bilimlardagi avlodlar nomutanosibligi tufayli o'n yil avvalgiga nisbatan 19% pasayganligini ko‘rsatmoqda.

Hozirgi kunda, har to'rt amerikalikdan uchtasi moliyaviy ahvolidan xavotirda. Pul eng keng



tarqalgan tashvish manbaidir. Hozirda iqtisodiy tashvishi o'sib borayotgan inflyatsiya, yaqinlashib kelayotgan retsessiya va osmonga ko'tarilgan qarz bilan doimo yuqori 77% amerikaliklar moliyaviy xavotirda yashaydi. Ayollar, yoshlar va rangli odamlar muammoga nomutanosib ta'sir ko'rsatmoqda.

Osiyo va oq amerikaliklar 6 ta moliyaviy savodxonlik savollariga 3,2 tasiga 53.3% to'g'ri javob bergan bo‘lsa, Ispaniyalik amerikaliklar oltita savolga 2,6 tasi (43,3%)ga, qora tanli amerikaliklar esa 6 tasidan 2,3 tasiga (38,3%) to'g'ri javob berishgan. Amerikaliklar moliyaviy savodxonlikning etishmasligi tufayli har yili $1,819 yo'qotadi. Moliyaviy bilim etishmasligi, sababli 15% amerikaliklar 2022 yilda $10,000, 2023 yilda esa 38% kamida yo'qolgan $500 bilan aziyat chekmoqda.

Amerika Qo'shma Shtatlardagi 254 million kattalarga murojaat qilinganda, moliyaviy savodsizlik amerikaliklarga yiliga 436 milliard dollardan ko'proq zarar keltiradi. Bu nafaqat amerikaliklarning moliyasiga, balki butun iqtisodiyotga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. To'liq vaqtda ishlashiga qaramay, amerikalik oilalarning 35% asosiy ehtiyojlarni qondira olmaydi. Brandeis universiteti tadqiqotlari shuni ko'rsatmoqdaki, Qo'shma Shtatlardagi ishlaydigan oilalarning uchdan bir qismi uy-joy, oziq-ovqat, transport, tibbiy yordam va boshqa uy xarajatlarini moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan miqdorni to'lay olmaydi. Ishlayotgan qora tanli va ispan oilalari 50% dan ortig'i iqtisodiy vaziyati yomonroq sezilarli darajada ehtiyojlarini qondira olmaydi.

Amerikaliklar kredit karta qarzdorlik miqdori $ 986 milliardni tashkil etadi. 2023 yil May oyida e'lon qilingan Nyu-York Federal rezerv bankining ma'lumotlariga ko'ra, AQSh iste'molchilarining kredit karta qarzlari ko'tarilib, 1 trlnni tashkil qildi. Bu 2022 yildan 17% ga oshgan va rekord darajada yuqori

ko‘rsatkichni tashkil etdi. Moliyaviy ekspertlarning fikriga ko'ra, hozirda qarz qisman to'planib bormoqda, chunki doimiy ravishda yuqori inflyatsiya iste'molchilarni oylik xarajatlarni moliyalashtirish uchun kredit kartalariga tayanishga to‘g’ri kelmoqda.

Xulosa. Moliyaviy savodxonlik zamonaviy iqtisodiyotda aholi farovonligining muhim omilidir. O'zbekiston uchun xorijiy tajribalarni o'rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish orqali bu sohada sezilarli yutuqlarga erishish mumkin.

2025 yilda raqamli ta'lim vositalari va yangi tashabbuslar yordamida moliyaviy savodxonlikni oshirish aholining iqtisodiy barqarorligiga xizmat qiladi. Tavsiya sifatida, maktablarda moliyaviy ta'limni joriy qilish, raqamli platformalarni kengaytirish va ayollarga alohida e'tibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ш.Шодмонов, Тежамкорликнинг умумиқтисодий категория сифатидаги мазмуни ва ундан амалда фойдаланиш, Иқтисод ва молия, 2017, 3,
2. И.С.Винникова, Е.А.Кузнецова, А.Е.Терехина, Зарубежный опыт повышения финансовой грамотности населения, Инновационная экономика: перспективы развития и совершенствования, №2 (36), 2019
3. О.В.Степнова, И.Ю.Старчикова, Финансовая грамотность студентов технических вузов: анализ мнений и перспективы развития, Международный электронный научный журнал, pnojournal.wordpress.com/archive21/21-01/
4. И.С.Винникова, Е.А.Кузнецова, Ю.Г.Шутова, Д.С.Стародубова, Педагогические особенности формирования финансовой грамотности у студентов экономических направлений подготовки, Интернет-журнал «Мир науки» 2016, Том 4, номер 6, http://mir-nauki.com
5. Д.А.Жилюк, Новые подходы к повышению финансовой грамотности студентов неэкономических специальностей, Финансы, денежное обращение и кредит, Экономические науки, 6(151), 2017
6. Международный ежегодник по технологии образования и обучения, 1978/79. Лондон, Нью-Йорк, 1978
7. Н.И. Хасанхонова, Иқтисодий тафаккурнинг таркибий қисмлари, “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 4, июль-август, 2015 йил
8. Н.Умарова “Шарқ мутафаккирларининг иқтисодий ижтимоийлашув ҳақидаги қарашлари”, volume2| issue11|2021 Scientific Library of Uzbekistan, www.ares.uz
9. А.Г.Худокормов, А.Ю.Ставнийчук, Новые исследования современной экономической мысли, Научные исследования экономического факультета. Электронный журнал. 2022. Том 14. Выпуск 2 (44)
10. Бляхман Л.С. “Перестройка экономического мышления”. – Издателства политика литературы, 1990 - Economics - 270 pages

GASTRONOMIK TURIZM SANOATINING RIVOJLANISHI

M.A.Yuldashev
Namangan davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o’zbek tillarida gastronomik turizm terminlarini tarjima qilish muammolari atroflicha yoritib berilgan. Shuningdek, turizm terminologiyasi ham o‘zbek terminologik tizimida alohida o‘rin egallaydi, biroq bu terminologik tizim hali nazariy jihatdan tadqiq etilmagan. O‘tgan asrda turli sohalarga oid terminlar o‘zbek tiliga rus tili orqali Yevropa tillaridan o‘zlashgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet tillaridan o‘zlashmoqda. Ma’lumki, xalqaro terminlarda yunon va lotin tiliga taalluqli termin elementlar ko‘p kuzatiladi. Shu bois ingliz va o’zbek tillarida gastronomik turizm terminlarini tarjima qilish muammolari va muqobil variantlari berilgan.

Kalit so’zlar: Gastronomik turizm, oshxona turizmi, Agroturizm, Shahar gastronimik turizmi, “culinary tourism” – “pazandalik turizmi”, “food tourism” – “oziq ovqat turizmi”, “gastronomic tourism” – “gastronomik turizm”.

Kirish. Turizmning tarixi XX asr boshlariga borib taqaladi. Dastlab 1815 yilda Angliyadan Fransiyaga uyushgan sayyohlik tashkil etilgan. Turizmning asoschisi hisoblanmish ingliz ruhoniysi Tomas

Kuk 1843-yilda 1-temir yo‘l sayyohligini tashkil qildi. Shundan so‘ng u o‘zining xususiy turistik korxonasini tuzdi va 1866-yilda dastlabki sayyohlik guruxlari AQShga jo‘natildi. Sharqda arab sayyohi Ibn Battuta 21 yoshida sayohatini boshlab, deyarli barcha Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlarini piyoda kezib chiqdi.

Movarounnahrda ilk sayyohlarning safarlari Amir Temur va Temuriylar davrida faollashgan. Amir Temur fransuz qiroli Karl VI va ingliz qiroli Genrix IV bilan doimiy aloqada bo‘lgan. Uning elchisi 1403-yili Parijga kelgan. Ispaniyalik Klavixoning "Buyuk Temurning hayoti va faoliyati" kitobida Movarounnahrdagi ijtimoiy hayot va sayyoxlarning Temur davlatiga intilishi aks etgan.

Hozirgi davrda Turizm dunyoning juda ko‘p mamlakatlarida ommaviy tus olgan. Odatda, Turizm turizm tashkilotlari orqali turizm marshrutlari bo‘yicha uyushtiriladi. Turizmning juda ko‘p turlari va shakllari mavjud (*ichki, xalqaro, havaskorlik turizmi, uyushgan turizm, yaqin joyga sayohat, uzoqqa sayohat, bilim saviyasini kengaytirish maqsadidagi turizm, toqqa chiqish, suv turizmi, avtoturizm, piyoda yuriladigan turizm, sport turizmi va boshqalar*).

Ma’lumki ***turizm*** (fransuzcha: our — sayr, sayohat), sayyohlik — sayohat (safar) qilish; faol dam olish turlaridan biri. Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog‘lomlashtirish, ma’rifiy, kasbiyamaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda uzog‘i bilan 1 yil muddatga jo‘nab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi.

O‘zbekistonda turizm sohasiga rahbarlikni *"O‘zbekturizm"* milliy kompaniyasi (27-iyul, 1992-yilda tuzilgan) olib boradi. Kompaniyaning asosiy vazifasi turizm infrastrukturasini rivojlantirish, chet el sarmoyasini jalb qilib zamonaviy turistik komplekslarni barpo etish, yangi turistik yo‘nalishlarni ishlab chiqish, xizmatlar doirasini kengaitirish va boshqalardan iborat.

"O‘zbekturizm" milliy kompaniyasi sayohat qilish turiga qarab quyidagi turistik yo‘nalishlarni ishlab chiqqan: klassik yo‘nalish (Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent; Toshkent, Samarqand, BuxoroShahrisabz, Toshkent). Bu yo‘nalish eng qad. yodgorliklar va boshqa tarixiymadaniy obidalarga tashrif bilan bog‘liq; ekologik turizm yo‘nalishi (Chimyon, Chorvoq dam olish va davolanish oromgohi, Zomin qo‘riqxonasi, Buxoro viloyatidagi qo‘riqxonalar). Bu yo‘nalish alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar va sayyohlar uchun ekologik jihatdan qulay g‘amda foydali hisoblanadigan joylarga tashrif bilan bog‘liq; arxeologik turizm yo‘nalishi (Qoraqalpog‘iston, Surxondaryo, Samarqand hududdari bo‘ylab). Bu yo‘nalish O‘zbekistonning eng qad. topilmalari va arxeologik qazishmalar olib borilayotgan joylari bilan tanishishni maqsad qilib qo‘yadi; ekstre mal turizm yo‘nalishi (Chimyon, Farg‘ona vodiysi, Orol bo‘yi, Buxoro, Navoiy viloyati hududlari bo‘ylab); liniy turizm yo‘nalishi (Toshkent, Samarqand, Buxoro, Toshkent) — mamlakatimizdagi tarixiy diniy obidalarni ziyorat qilish bilan bog‘liq.

Turizm sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish, turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish, shuningdek, turistlar va turistik faoliyat sub’yektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining "Turizm to‘g‘risida"gi qonuni qabul qilingan (20-avgust 1999). Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "2005-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat dasturi to‘g‘risida"gi farmoni (15-aprel 1999) sohani rivojlantirishda muhim omil bo‘ldi.

Turizm tashkilotlarini takomillashtirish hamda kichik va o‘rta turistik korxonalarning xizmat ko‘rsatish bozorini faollashtirish, shuningdek, xorijiy sarmoyani turizm sohasiga jalb kilish maqsadida 1998-yilda O‘zbekiston Respublikasi hukumati qarori bilan Toshkentda "Xususiy sayyoxlik tashkilotlari uyushmasi" tashkil etildi. O‘zbekiston 1993-yilda o‘z safiga 120 dan ortiq mamlakatni birlashtirgan Jahon turistik tashkiloti (WTO; 1975-yilda tuzilgan)ga a’zo bo‘ldi. 2021-yil aprel oyida Dog‘istonda O‘zbekistonning ziyorat turizm salohiyati taqdimoti o‘tkazildi. Bosh vazir o‘rinbosari, Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi raisi Aziz Abduhakimov topshirig‘i bilan Dog‘istonda «Imomlar yurtiga sayohat» yo‘nalishidagi targ‘ibot ishlari boshlangan.

Gastronomik turizm, yoki ***oshxona turizmi***, turizmning asosiy turlaridan biri bo‘lib, asosiy maqsadi, sayyohlarning ma’lum bir mamlakatga, sayohat qilishi asnosida, o‘sha davlatning milliy oshxonasi va ovqatlanish madaniyati bilan ham, yaqindan tanishishidir. Gastronomik sayyoh, birinchi navbatda, madaniyatning ajralmas qismi hisoblangan, milliy va an’anaviy taomlarni, tayyorlash jarayoni, dasturxonga tortish usullari, ovqatlanish tartibi va pozitsiyalarini, ko‘rish va bilish barobarida, sayohat qilayotgan davlatining, tarixini, iqtisodiyotini, davlat siyosati hamda mahalliy aholining e’tiqodlarini o‘rganadi.

Barchamizga ma’lumki, ***pazandachilik (culinary, gastronomic) turizmi*** - bu kashfiyot uchun diqqatga sazovor joy va turizm uchun maqsad sifatida oziq-ovqatga e'tibor. Oziq-ovqat har doim sayyohlar

uchun mehmondo'stlik xizmatlarining bir qismi bo'lgan bo'lsa-da, 1990-yillarning oxirigacha turizm sanoati tomonidan ta'kidlanmagan.

Pazandachilik madaniyati yaqin vaqtgacha e'tibordan chetda qolgan soha bo'lib kelgan. Biroq, oshpazlik madaniyati har doim eng uzoq saqlanib qolgan madaniyat va an'analarning bir qismi. Boshqacha qilib aytganda, jamiyatning turli xil o'ziga xosliklari birlashadigan oshxonalar milliy tuyg'ular esa kundalik turmush tarzi, diniy e'tiqodlari, odatlari, an'ana va urf-odatlari ko'zgusi sifatida eng ko'p his etiladi. ning o'zgarishlari jamiyatlarda ovqatlanish uslubi va ijtimoiy ovqatlanish qiymatining oshishi turizm faoliyatidagi harakatlarning sabablaridan biri bo'ldi.

Gastronomiya turizmi asosiy bo'lib qoldi va sayyohlik yo'nalishi jozibadorligining tez o'sib borayotgan tarkibiy qismiga aylandi.

Gastronomik turizmni ishlab chiquvchilar tomonidan pazandachilik madaniyati yaqin vaqtgacha e'tibordan chetda qolgan soha bo'lib kelgan. Biroq, oshpazlik madaniyati har doim eng uzoq saqlanib qolgan va madaniyat va an'analarning bir qismi, boshqacha qilib aytganda, jamiyatning turli xil o'ziga xosliklari birlashadigan oshxonalar milliy tuyg'ular ning o'zgarishlari esa kundalik turmush tarzi, diniy e'tiqodlari, odatlari, an'ana va urf-odatlari ko'zgusi sifatida eng ko'p his etiladi. Jamiyatlarda ovqatlanish uslubi va ijtimoiy ovqatlanish qiymatining oshishi turizm faoliyatidagi harakatlarning sabablaridan biri bo'ldi.

Gastronomiya turizmi asosiy bo'lib qoldi va sayyohlik yo'nalishi jozibadorligining tez o'sib borayotgan tarkibiy qismiga aylandi. Yaqin o'tkan yillarda **Gastronomiya** turizmining marketing imkoniyatlari bunga ahamiyat bergan mamlakatlar tomonidan rivojlantirilmoqda. Turistlarning yo'nalishlar va joylashtirish vositalarida mahalliy lazzatlarni his qilish istagi gastronomiya turizmini rivojlantirish uchun zamin tayyorladi. Gastronomiya turizmining ahamiyatini anglagan turizm korxonalari tomonidan berilgan mahalliy va xorijiy sayyohlar o'z ob'ektlarida gastronomik omillarni namoyish etdilar. Shuning uchun gastronomiya, turizm va turizmologiya bilan bog'liq barcha fondlar va fuqarolik jamiyati tashkilotlari bilan kelishilgan holda boshqarilishi kerak..

Sayyoh yangi madaniy tajribaga ega bo'lish uchun biron bir hududga tashrif buyurishni xohlashi mumkin yoki u mahalliy taomlar va o'sha hududga tegishli turli xil ta'mlarni tatib ko'rishni xohlaydi. Oqibatda, hozirda o‘sha hududning mahalliy taomlarini tatib ko‘rish, ishlab chiqarish bosqichlarini kuzatish va faqat o‘sha hududda mavjud bo‘lgan xomashyodan tayyorlangan mahalliy taomni tatib ko‘rish kabi sabablar bugungi kunda sayyohlarga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy sabablardan bo‘la boshladi. Tashrif buyuradigan joylar uchun imtiyozlar, bundan tashqari, bu mintaqalar resurslarining barqarorligiga, shuningdek, oziq-ovqat madaniyati ustuvor bo'lgan mintaqalarda tuzilishi mumkin bo'lgan muqobil turizm ob'ektlariga yordam beradi (Yuncu, 2010). Endi gastronomiya sayyohlar yo‘nalish tanlashda ularni jalb qilishda hal qiluvchi omil sifatida qaralmoqda. Gastronomik turizm o'z-o'zidan quyosh va dengiz yo'nalishlariga muqobil turizm turiga aylanishi mumkin va u ushbu yo'nalishlarni qo'llab-quvvatlovchi faoliyat sifatida ham xizmat qilishi mumkin (Shenoy, 2005; Kivela & Crotts, 2006; Ulusoy, 2008).

Gastronomiya “Gastronomiya” so‘zi yunoncha “gaster” (oshqozon) va “nomas” (qonun) so‘zlarini qo‘shish natijasida hosil bo‘lgan. Biroq, faqat lug'at ma'nosini emas, balki uning lug'at ma'nosidan tashqarida nimani anglatishini va qamrab olgan narsalarni izohlash foydaliroq va muhimroqdir (Altinel, 2014). Garchi ***“gastronomiya”*** ko‘p manbalarda yeb-ichish san’ati sifatida ta’riflangan bo‘lsa-da, aslida u kimyo, adabiyot, biologiya, geologiya, tarix, musiqa, falsafa va boshqa fanlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan san’at va fanning o‘zaro bog‘liq sohasidir. psixologiya, sotsiologiya, tibbiyot, ovqatlanish va qishloq xo'jaligi (Kivela & Crotts, 2006). Demak, oziq-ovqat va ichimliklar o'rtasidagi aloqani o'rnatish orqali mintaqaviy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydigan gastronomik turizm va mahalliy o'ziga xoslik va madaniyatni mustahkamlaydi, shuningdek, moliyaviy sharoit yanada faol bo'lishi kerak. Shuningdek, bu tarixiy-madaniy merosni asrab-avaylash, keyingi avlodlar va uning doimiyligini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Acar, M.S., (1996). Qassob hayvon go'shti va tovuq go'shtidan tayyorlangan doner kaboblarining mikrobiologik sifatini qiyosiy tekshirish, Istanbul universiteti, Sog'liqni saqlash fanlari Oliy maktabi, Sog'liqni saqlash bo'limi, PhD dissertatsiyasi, Istanbul.

2.Aqgol, Y., (2012). Gastronomiya turizmi va Turkiyaga tashrif buyurgan chet ellik sayyohlarning gastronomiya tajribalarini baholash, Mersin universiteti, Ijtimoiy fanlar instituti, Turizm va mehmonxona xo'jaligi bo'limi, magistrlik dissertatsiyasi, Mersin.

3.Akgoz, E., (2003). Turk kechalarining turizm muassasalarida turk madaniyatini targ‘ib qilishga qo‘shgan hissasi, Selchuk universiteti Ijtimoiy fanlar instituti Jamoatchilik bilan aloqalar va targ‘ibot bo‘limi, magistrlik dissertatsiyasi, Konya.

4. Akman, M., (1998). Chet ellik sayyohlarning turk oshxonasidan kutishlari, foydalari va turk oshxonasining turizmga qo‘shgan hissasi mavzusida bir tadqiqot, Anqara Universiteti, Fan va Texnologiya Instituti, Uy iqtisodiyoti bo‘limi, Doktorlik dissertatsiyasi, Anqara.

5.Alonso, A.D., Liu, Y., (2011). Mahalliy gastronomiya va sharob bilan turmush qurish imkoniyati; Baxtli orollar ishi, Xalqaro mehmondo'stlikni boshqarish jurnali, 30, 974-981.

6.Oltinel, H., (2014). Menyu boshqaruvi va menyuni rejalashtirish, Detay nashriyoti, Anqara.

7. Arslon, O., (2010). Xorijiy sayyohlarning oziq-ovqat va ichimliklar korxonalari, xodimlari va turk oshxonasi haqidagi fikrlarini baholash: Alaniya misoli, Gazi University, Institute of Educational Sciences, Department of Tourism Management, MA Thesis, Ankara.

6.Charters, S., Knight, J.A., 2002. Who is the wine tourist? Tourism Management, 23(1); 311-319.

7.Caglı, I.B., (2012). Turkiye'de Yerel Kulturun Turizm Odaklı Kalkınmadaki Rolu: Gastronomi Turizmi Ornegi, İstanbul Technical University, Institute of Science and Technology, Department of Urban and Region Planning, Region Planning, MA Thesis, İstanbul.

8.Calıskan, O., (2013). Destinasyon rekabetciligi ve seyahat motivasyonu bakımından gastronomik kimlik, Journal of Tourism and Gastronomy Studies, 1(2); 39-51.

9.Demir, C., (2011). Mutfak Turizminin Destinasyon Pazarlamasındaki Onemi, Gazi University, Institute of Educational Sciences, Departrment of Tourism Management, MA Thesis, Ankara.

10. Eren, D., (2011). Alternatif Bir Turizm Cesidi Olarak Mutfak Turizminin Degerlendirilmesine İliskin Sektor Temsilcilerinin Goruslerinin İncelenmesi Uzerine Bir Arastırma, Duzce University, Institute of Social Sciences, Department of Tourism and Hotel Management, MA Thesis, Duzce.

11.Hall, M., Mitchell, R., (2005). Gastronomic tourism: comparing food and wine tourism experiences, İcinde M. Novelli (Editor), Niche Tourism, Contemporary Issues, Trendsand Cases, ss. 89-100.

12.Hamlacıbası, F.U., (2008). Yiyecek Turizmi ve Yiyecek Turizmi Acısından Bozcaada’nın Kaynakları, Canakkale Onsekiz Mart University, Institute of Social Sciences, Department of Tourism Management, MA Thesis, Canakkale.

INGLIZ VA O’ZBEK TILLARIDA ANATEM AKTINING BEVOSITA VA BILVOSITA FAOLLASHUVI

N.Sh.Xasanova
SamDChTI ingliz tili fani o’qituvchisi

Anotatsiya Ushbu maqolada nutqiy aktlar nazariyasining tilshunoslikka kirib kelishi va uning tadqiqi rivojiga hissa qo‘shgan olimlar faoliyati haqida ma’lumot beriladi. Xususan, so‘zlovchining nutqiy aktlarni ifodalashda qo‘llaydigan usullari — bevosita va bilvosita nutqiy aktlar o‘rtasidagi farq dastlab nazariy yondashuvlar asosida yoritiladi. Keyingi bosqichda esa anatem aktining bevosita va bilvosita shakllari ingliz hamda o‘zbek tilidagi badiiy asarlardan olingan misollar orqali tahlil qilinadi. Maqola nutqiy aktlarning yashirin ma’no ifodalashdagi rolini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so’zlar: nutqiy aktlar, bevosita, bilvosita, anatem birliklar, yashirin ma’no

Аннотация В данной статье рассматривается внедрение теории речевых актов в лингвистику, а также вклад ученых в развитие этой области исследований. Особое внимание уделяется различиям между прямыми и косвенными речевыми актами, которые сначала анализируются на основе научных взглядов, а затем иллюстрируются примерами из художественных произведений на английском и узбекском языках. В частности, рассматриваются способы выражения анафемных актов в прямой и косвенной форме. Работа направлена на раскрытие роли речевых актов в передаче скрытого смысла.

Ключевые слова: речевые акты, прямые, косвенные, анатемные единицы, скрытый смысл

Abstract This article explores the introduction of speech act theory into linguistics and highlights the contributions of scholars to the development of this field. It focuses on the distinction between direct and indirect speech acts, initially examined through theoretical perspectives and later illustrated with examples from literary works in English and Uzbek. Special attention is given to the use of anathem acts

in both direct and indirect forms. The study aims to reveal the role of speech acts in conveying implicit meaning.

Keywords: speech acts, direct, indirect, anathem units, implicit meaning

Nutqiy aktlar ma’lum bir maqsadni ifodalash uchun xizmat qiladi. So’zlovchi o’z maqsadi va kommunikativ niyatidan kelib chiqib, bevosita yoki bilvosita nutqiy aktlardan foydalanadi. Bilvosita nutqiy aktlar turli vositalar yordamida yashirin ma’no ifodalagani uchun ularning tinglovchiga ta`siri ham sezilarli bo’lishi kuzatiladi.

Nutqiy aktlar tasnifi, ularning ifodalanish usullari haqida bir qancha tilshunos olimlar izlanishlarlar olib borishgan. Nutqiy akt nazariyasi tilshunoslikka J.Ostin tomonidan kiritilgan bo’lsa, keyinchalik bu konsepsiya J.Syorl tomonidan o’rganildi, kamchiliklar aniqlanib, o’zgartirish hamda yangiliklar kiritildi. Nutqiy aktlar tadqiqi rivojiga rus olimlari V.B.Zabavnikov, A.A.Leontev, A.N.Baranov, G.Y.Kreydlin, I.N.Gorelov, S.A.Suxix, o’zbek olimlari M.Hakimov, Sh,Safarov, M.Qurbonovalar o’z izlanishlari bilan katta hissa qo’shganlar. [Qobilova N.S.2024:B.127] Quyida bevosita va bilvosita nutqiy aktlar haqida ba’zi tilshunos olimlarning tavsifi keltiriladi.

B.Bahr tomonidan nashr etilgan (2024) Intro to Semantics and Pragmatics asarida muallif nutqiy aktlarga ta`rif berar ekan, bevosita va bilvosita nutqiy aktlarni shunday izohlaydi: “Nutqiy aktlar faqatgina so’zlar emas – ular suhbatni shakllantiradigan aktlar hamdir. Bevosita nutqiy aktlar aynan nima nazarda tutilganini ko’rsatadi, bilvosita nutqiy aktlar esa yuzadan yashiringan qo’shimcha ma’noga ham ega bo’ladi”.[Bahr B.2024]

Bevosita nutqiy aktlar so’zlovchining niyatini aniq va tushunarli izohlaydi. Masalan, “Derazani yoping.” gapida faqat bir ma’no – buyruq ma’nosi yaqqol va bevosita ifodalangan.

Bilvosita nutqiy aktlar so’zlovchining maqsadini aniq ifodalamaydi, maqsad kinoya, metafora, sarkazm, iboralar va boshqa vositalar orqali yashirin izohlangan bo’ladi. Umumiy bilimlar, ijtimoiy me’yorlar, va vaziyat omillari so’zlovchining yashirin ma’noni tushunishiga yordam beradi. Bilvosita nutqiy aktlarning o’z ma’nosidan tashqari qo’shimcha ma’nosi ham mavjud bo’ladi. Masalan: “Can you read aloud?” gapida qobiliyati haqida so’ralishdan tashqari talab ma’nosi ham anglashiladi. “Xona juda isib ketdi.” gapida mavjud kontekstda so’zlovchi va tinglovchiga tushunarli bo’lgan ma’no - derazani ochishni yoki isitish tizimini o’chirishni so’rash tushuniladi. Bilvosita nutqiy aktga yana qu’yidagi misolni keltirish mumkin: so’zlovchi qo’lida changyutgichni tutgan holda tinglovchining ismini aytib murojaat qilishining o’zi kifoya, bunda so’zlovchining maqsadi kontekst orqali namoyon bo’ladi yoki kishi qo’lidagi changyutgichni ko’rib, “Men o’zim” deyish ham kontekstda xonani tozalashga va’da berish aktini ko’rsatadi. P.Kroeger (2018) “Analyzing meaning – an introduction to semantics and pragmatics” kitobida bilvosita nutqiy aktning ifodalanishini quyidagi misol yordamida tushuntirib beradi: Nigeriyalik professor Ozidi Bariki do’sti bilan bo’lgan suhbatni tasvirlaydi: “I love your left hand.” (do’stining chap qo’lida bir stakan choy bor) deyishi bilan do’sti chap qo’lidagi stakanni o’ng qo’liga oladi. Shundan so’ng professor “I love your right hand” deydi va do’sti jilmayib singlisiga professorning choy xohlayotganini aytadi[Kroeger P.R.2018]. Bu misolda keltirilgan nutqiy akt maqsadini tushunish uchun kontekstning ahamiyati nihoyatda muhim ekanligini ko’rish mumkin.

Anatem nutqiy akti ham bevosita yoki bilvosita ifodalanishi mumkin, bunda anatem birliklar tinglovchiga yoki narsa-buyum, hodisalarga qarata to’g’ridan-to’g’ri, ekspressivlik bo’yoqdorligi yashirin bo’lmagan, kamaytirilmagan holda yo’naltiriladi, bilvosita ifodalanish esa ularning negativ xususiyatini kamaytirib, yashirin tarzda qo’llanilishini nazarda tutadi.

Quyidagi misollarda ingliz va o’zbek tillaridagi anatem birliklarning bevosita izohlanishiga badiiy adabiyotlardan misollar keltirib o’tilgan:

- Baribir Ataullo muallimning ta’siridan qutulolmayapsan, asalim. Bu gaplarni o’sha go’ringda to’ng’iz qopgur o’rgatgan. Bizga haromxo’r deb laqab qo’ygan ham o’sha. Dadangga aytaman, tilingga chipqon chiqqurni mahalladan ko’chirtirib yuboradi. [To’xtaboyev. X.2020.B:37]
- Tez yordam chaqiringlar, - dedi oyim biz ayvonga to’shab bergan o’ringa cho’zilib. – g’alati bo’lib ketyapman… Ko’zing mo’ltiramay o’lgur, o’z bolam-a, bir og’iz so’zini ayadi-ya… ([o’xtaboyev. X.2020.B:50]

Oyim polga o’tirib qoldi. O’tirgan joyida xuddi xamir qorayotgandek to’shakni g’ijimlab, xudoyo senlarga ona bo’lmay o’lay, xudoyo zargarga qiz bo’lmay o’lay, o’lgan otam emizik o’rniga og`zimga tilla solib so’rdirmay o’lsin, qalbimga oltin ishqini solganlarga la`nat, ruhimga boylik vahimasini solganlarga la`nat deb shikoyat qila boshladi. [To’xtaboyev. X.2020.B:57]

Dadam, turgan gap, qiynalyapti hozir. Qanday qilsam yordamim tegadi?.. Yo’q, la’nat bo’lsin o’sha boyliklarga! Mayli, hammasini olishsin, faqat dadajonim bilan oyijonimni tinch qo’yishsa bas. [To’xtaboyev. X.2020.B:103]

- O’g’riboshi aslida mana shu arvohning o’zi, - dedi oyim xuddi o’ziga o’zi gapirayotgandek, - dadangni poraga o’rgatgan ham, qalloblikka boshlagan ham mana shu ko’zing o’yilgur bo’ladi. Birovni qo’li bilan pora olishadi, birovning qo’li bilan o’g’irlik qilishadi, qoch-qochga kelganda o’zlarini bir chekkaga olib turaverishadi. Xudoyo uying kuyib, kultepada o’tirgurlar. [To’xtaboyev. X.2020.B:107]

Barno xolam yana vaysashga tushdi. Endi oyim uyoqda qolib, dadamni qarg`ashga o’tdi. Dunyoda qancha qarg’ish bo’lsa, hammasini bilarkan.

- Ochopat qishloqi, besh panjangni o’g’zingga tiqmay o’l, pismiq. Bolalaringni o’ylamabsan-da. Oz-ozdan yesang, ko’p yeysan, deb nasihat qilganlariga o’laymi. O’zlari esa oshaganda kirsovundek qilib oshar ekanlar. Hu, badnafs bo’lmay o’l, pora olgan qo’llaring go’rda chirisin.
- Xolajon, - dedim chiday olmay yer tepinib , - bas qiling.
- Nimani bas qilay?
- Dadamni qarg`ayapsiz-ku.
- Dadangni emas, aptekamiz mudirini qarg`ayapman. Ko’zingni qarg`alar cho’qigur hech birimizga kun bermay qo’ydi. Xudoning bergan kuni sotuvchilardan o’n so’mu, tayyorlovchilardan besh so’mdan oladi-ya. Uying kuygur, shuncha pulni nima qilar ekan. Xudoyo topgan puling yil oshingga buyursin. [To’xtaboyev. X.2020.B:128]
- "Damnation," muttered Frankie mouse, "all that fuss over two pounds of Earthling brain." He scuttled round and about, his pink eyes flashing, his fine white coat bristling with static. [Ad ams D.2002.B:161]
- "Well, so am I alive, aren't I?" retaliated Arthur, haggard with adventure and anger. His eyebrows were leaping up and down as if they wanted to punch each other.
- "You damn nearly weren't,"exploded Ford. [Adams D.2002.B:483]
- Scarcely pausing for breath, Vroomfondel shouted, "We don't demand solid facts! What we demand
- is a total absence of solid facts. I demand that I may or may not be Vroomfondel!"
- "But who the devil are you?" exclaimed an outraged Fook.
- "We," said Majikthise, "are Philosophers."
- "Though we may not be," saidVroomfondel waving a warning finger at the programmers. [Adams D.2002.B:138]

"Vogon Constructor Fleets. Here is what to do if you want to get a lift from a Vogon: forget it. They are one of the most unpleasant races in the Galaxy ´ not actually evil, but bad tempered, bureaucratic, officious and callous. They wouldn't even lift a finger to save their own grandmothers from the Ravenous Bugblatter Beast of Traal without orders signed in triplicate, sent in, sent back, queried, lost, found, subjected to public inquiry, lost again, and finally buried in soft peat and recycled as firelighters." [Adams D.2002.B:47]

Anatem birliklarning bilvosita ifodalanishi esa badiiy adabiyotlarda quyidagicha keltirilgan:

Chinoq muallim tishlari orasida gapirgandek bo’ldi.

- Bu ahvolda men ishlay olmayman.
- Unda ariza yozishingizga to’g’ri keladi.
- Yozmagan nomard!
- Qo’l qo’ymagan ham nomard! [To’xtaboyev. X.2020.B:16]

Bu misolda “nomardsan” deb tog’ridan to’g’ri aytilmagan, suhbat jarayoni va kontekstdan suhbatdoshlarning bir-birlarini shu tarzda haqorat qilishlari ma’lum qilinmoqda.

Axir u seni tinch qo’ymayapti-ku. Sen orqali bizni ham oromimizni buzyapti. He kitob jinnisi bo’lmay ketlaring. Dadang kitobdagi hayot ko’chaga to’g’ri kelmaydi, deb necha bor aytdi. Kitob yozganlar ham pul uchun yozadi. [To’xtaboyev. X.2020.B:37]

Bu misolda esa anatem birlik ona tomonidan farzandiga aytilgan, salbiy bo’yoqdorligi juda ham kam bo’lgan, ko’proq koyish ma’nosida qo’llanilgan.

- Bularda pul ko’p. militsiya kambag’alni qamaydi. Puli ko’pdan qo’rqishadi.
- Lekin qo’li ochiq odamlar edi-da.
- Sadaqa ulashuvchilar desangiz-chi.

- To’g’ri aytasiz, mahallaning og’zini yopish uchun hayru-xudoyilar ham qilib turishardi.

Oyijonim sha`niga aytilayotgan gaplar qulog’imga kirardi-yu, ta’siri yo’qdek edi. Boshqa paytda “Sadaqa ulashuvchilar” deganlarini eshitsam yoqasidan olgan bo’lardim. [To’xtaboyev. X.2020.B:37]

Bu misolda esa “sadaqa ulashuvchilar” kinoya tarzida qo’llanilgan, aslida bu birlik harakat egalarining faqat o’z manfaatlarini o’ylagan holda, mansab egalariga bergan poralarini nazarda tutgan.

Someone from the dead planet was talking to them.

“Computer!” shouted Zaphod.

“Hi, there!”

“What the photon is it?”

“Oh, just five-million-year old tape that`s being broadcast at us.” [Adams D.2002.B:102]

"Zaphod," said Ford, "whilst you're still capable of speech, would you care to tell me what the photon happened? Where have you been? Where have we been? Small matter, but I'd like it cleared up." [Adams D.2002.B: 247]

Bu misollardagi kelajak odamlari va o’zga sayyoraliklar tomonidan ishlatilgan photon so’zi “hell” so’zi o’rnida qo’llanilib, “jin ursin”, “la’nati” degan ma`nolarni bermoqda.

“If Jim doesn't kill me,' she said to herself, 'before he takes a second look at me, he'll say I look like a Coney Island chorus girl. But what could I do - oh! What could I do with a dollar and eighty-seven cents?” [Henry O.1995.B:3]

Bu ibora odatda 1900–1930 yillarda Coney Islanddagi musiqiy ko‘ngilochar joylarda ishlagan, raqsga tushuvchi va kuylovchi yosh ayollarga nisbatan ishlatilgan. Asarda ishlatilgan birlik esa sochini sevgilisiga sovg’a olish uchun kestirib sotgan qizning o’ziga bergan bahosi kinoya tarzida keltirilgan.

Xulosa o’rnida aytish mumkinki, anatem nutqiy aktlar ham boshqa nutqiy akt turlari singari bevosita va bilvosita ifodalanishi va turlicha kommunikativ maqsadlarni ifodalashi mumkin. Bevosita nutqiy aktlarning odatda salbiy emotivlik darajasi yuqori bo’lishi kuzatilgan bo’lsa, bilvosita nutqiy aktlar salbiy emotivlik darajasini kinoya, metafora singari bir qancha vositalar orqali yumshatib, kamaytirib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adams D. (2002) – The Ultimate Hitchhiker`s Guide to the Galaxy
2. Henry O. (1995) – 100 selected stories. Wordsworth editions Limited
3. Kroeger P.R. (2018) - Analyzing meaning: an Introduction to Semantics and Pragmatics. Berlin. Language Science Press
4. Qobilova N.S.(2024)– Nutqiy aktlarning namoyon bo’lish usullari. Xorazm Ma’mun akademiyasi
5. To’xtaboyev X.(2020) – Mungli ko’zlar. Toshkent. Yangi asr avlodi
6. **https://library.fiveable.me/introduction-semantics-pragmatics/unit-9/direct-indirect-speech-acts/study-guide/v03L7CQJXB2NCi44**

KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARIDA KOMPETENSIYAVIY YONDOSHUV ASOSIDA O’QITISH

Sh.J.Kamolov
Shveysariyaning “O’zbekistonda kasbiy ta’lim islohotini qo’llab-quvvatlash” loyihasining O’qitish samaradorligini oshirish bo’yicha bosh eksperti
E-mail: shuhrat.kamolov@helvetas.org Tel: (97) 230 77 72

Annotatsiya Ushbu maqola O'zbekiston kasbiy ta’lim tashkilotlarida o’quv jarayonini tashkil etishda vaziyatli yondashuvni amaliyotga tadbiq etinshing afzalliklari va xususiyatlari, talabalarning o'quv jarayonida faol ishtirokini ta'minlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va o'qitish samaradorligini baholash uslubiyotlari ko'rib chiqiladi. Amaliyot davomida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mashg’ulotlar jarayonida vaziyatli yondashuvdan foydalanish o’qituvchilarning darslarga qiziqishini ortishi va umuman kasbiy ta'lim sifatini sezilarli yahshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so’zlar: kasbiy ta’lim, vaziyatli o’qitish, kompetensiya, AVIVA, kognitiv shogirdlik, simmetrik pedagogika.

Аннотация Данная статья посвящена вопросам использования ситуационного подхода в организации учебного процесса в профессиональных образовательных учреждениях Узбекистана.

В статье рассматриваются преимущества и особенности данного подхода, обеспечивающего активное участие студентов и преподавателей в учебном процессе, формирование практических навыков и методологии оценки эффективности обучения. Исследования, проведённые в ходе практики, показывают, что применение ситуационного подхода на занятиях способствует повышению интереса студентов к урокам, глубокому усвоению необходимых знаний и навыков, а также значительному улучшению качества профессионального образования в целом.

Ключевые слова: профессиональное образование, ситуационное обучение, компетенция, AVIVA, когнитивное наставничество, симметричная педагогика.

Abstact This article focuses on the use of the situational approach in the learning process in vocational educational institutions of Uzbekistan. It examines the advantages and features of this approach, which ensures the active participation of students and teachers in the learning process, the development of practical skills, and methodologies for evaluating learning effectiveness. Practical research demonstrates that the application of the situational approach in lessons enhances student interest, promotes a deeper understanding of essential knowledge and skills, and significantly improves the overall quality of vocational education.

Keywords: vocational education, situational learning, competence, AVIVA, cognitive apprenticeship, symmetric pedagogy.

Asosiy qism Hozirgi vaqtda O‘zbekiston kasbiy ta’lim tashkilotlari ta’lim jarayonlarida amaliy mashg‘ulotlarga katta e’tibor berilmoqda [1]. Biroq, o’quv jarayonining jarayonning aksariyat qismi hali ham nazariy mashg‘ulotlar orqali amalga oshirilmoqda.

Shveytsariya tajribasi misolida vaziyatli yondashuvning o’quv jarayoniga tatbiqi, uning afzalliklari va pedagogik samaradorligi tahlil etilgan [2]. Xususan, AVIVA va kognitiv shogirdlik kabi yondashuvlar asosida o’qitish orqali talabalarda mustaqil fikrlash, jamoaviy ishlash va muammolarni hal etish qobiliyatlari rivojlanishiga erishish mumkinligi qayd etilgan. Ushbu modelda talabalarning faol ishtirokini ta’minlash, ularning diqqati va qiziqishini oshirishga qaratilgan bosqichli yondashuv muhim o’rin tutadi.

Vasiyatli yondashuv ikki asosiy uslubdan iborat:

1. AVIVA usuli – bu mashg‘ulotni bosqichma-bosqich tashkil etish bo‘lib, quyidagilar kiradi:
   - Diqqatni jalb qilish (Arrival).
   - Avvalgi bilimlarni faollashtirish (Verification).
   - Yangi ma’lumot berish (Information).
   - Turli yondashuvlarni qo‘llash (Application).
   - Baholash (Assessment).

2. Kognitiv shogirdlik – talabalarni butun mashg‘ulot davomida pedagog tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi va ularning mustaqil rivojlanishini rag‘batlantirish. Bu o’z ichiga mashg’ulot jarayonida Modellash (Modeling), Mentorlik (Mentoring, coaching), Qo’llab-quvvatlash (Scaffolding), Artikulyatsiya (Articulation), Refleksiya (Reflection) va Tadqiqot (Exploration) kabi bosqichlarni oladi.

Shuningdek, o’quv jarayonida simmetrik pedagogika [3] kabi yondashuvdan foydalanish orqali o’qituvchi va talaba o’rtasidagi o’zaro hurmat, hamkorlik va ishonch asosidagi munosabatlar ta’lim samaradorligiga ijobiy ta’sir ko’rsatishi xalqaro miqyosda tan olinmoqda. Bu yondashuvlar asosida o’qituvchilarni qayta tayyorlash, ularning pedagogik mahoratini oshirish va metodik qo’llanmalar bilan ta’minlash ta’lim sifatini oshirishda zarur choralardan biri sifatida belgilangan.

Shveytsariya, Germaniya va Avstriya kabi davlatlarda kasbiy ta’limning 70-80 foizi ish o’rnidagi amaliyotga asoslangan bo’lib [4], O’zbekistonda ham ana shu tajribani joriy etish orqali kasbiy ta’limni yangi bosqichga olib chiqish imkoniyati mavjud.

Xulosa:

Kelajakda vaziyatli o‘qitish yondashuvini kengroq tatbiq etish maqsadida pedagoglarni tayyorlovchi kurslar tashkil etilishi, yangi o‘quv dasturlari ishlab chiqilishi va tizimli tarzda o‘quv jarayoniga joriy qilinishi zarurligini ta'kidlash mumkin. Ushbu yondashuvning tatbiq etilishi talabalarning professional kompetentligiga jiddiy hissa qo‘shadi va ularning mehnat bozori ehtiyojlariga javob beradigan raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 11 dekabrdagi “Professional ta’limda kredit-modul tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 648-sonli Qarori.

2. Basics of Didactic. A textbook for master teachers and master instructors in VET. Compiled of different didactic books for (VET)-teaching of hep publishers. Completed by SFIVET (Emanuel A. Wüthrich). Bern, 2012.
3. Mindful VET – a holistic concept for contemporary VET. A concept written and aggregated by Emanuel Andreas Wüthrich, Senior Advisor, Senior Lecturer International, SFUVET.
4. Dual VET in Austria, Germany, Liechtenstein, and Switzerland. Comparative expert study. DC dVET. https://www.dcdualvet.org/.

MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDA SO’FIYLIK TA’LIMOTINING VUJUDGA KELISHI VA TARQALISHI

Sh.B.Kamolov
Namangan davlat pedagogika insitituti Tarix yo’nalishi 2 – bosqich talabasi
E – mail. Shahzodkamolov024@gmail.com Tel. 97 670 84 19

Annotatsiya: Ushbu maqolada Tasavvuf - So’fiylik talimotining Markaziy Osiyo Mintaqasida vujudga kelishi, tarqalishi va rivojlanishi yoritilgan bo’lib. Unda Tasavvuf – So’fiylikning vujudga kelishi ham bayon etilgan.

Kalit so’zlar: So’fiy, Al - Hanafiya, “Kubroviya’’, Abdurahmon Jomiy, “Dalil al – Oshiqin”,Shayx Hudoydotd Vali, Jahriy Zikir, Zulfiqor Ahmad Naqshbandiy**.**

TASAVVUF – SO’FIYLIKNING KELIB CHIQISHI. Tasavvuf musulmonlarning shaxsiy amaliyoti sifatida Islomning dastlabki kunlaridanoq mavjud bo‘lgan. Karl V. Ernstning fikricha, tasavvufning dastlabki namoyandalari Payg’ambarimiz Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallamning o‘zi va uning sahobalaridir. Muhammad alayhissalomga bay’at qilish bilan sahobalar o‘zlarini Allohga xizmat qilishga bag‘ishlagan edilar.

(Ey Muhammad), senga bay’at berganlar, albatta, Allohga bay’at qilmoqdalar. Allohning qo‘li ularning qo‘llari ustidadir. Kimki ahdini buzsa, faqat o‘ziga zarar yetkazadi va kim Allohga bergan ahdiga vafo qilsa, unga ulug‘ ajr ato etur. - Qur’on tarjimasi, 48:10

O‘rta asrlarning so‘nggi tasavvufchisi, fors shoiri Abdurahmon Jomiyning so‘zlariga ko‘ra, Abdulloh ibn Muhammad ibn al-Hanafiya (vafoti 716 y.) birinchi bo‘lib ,,so‘fiy” deb atalgan. Tarixan, so‘fiylar ko‘pincha tariqa deb nomlanuvchi ,,tartiblar”ga mansub bo‘lgan ulug‘ ustoz valiy atrofida tuzilgan jamoatlar, ular o‘z ta’limotlarini Islom payg‘ambari Muhammad sollallohu alayhi vasallamga qadar bo‘lgan ketma-ket o‘qituvchilar zanjiri orqali kuzatib boradilar. Hadisi sharifda tafsilot qilinganidek, ular ehsonga intiladilar: ,,Ehson – Allohga go‘yo Uni ko‘rayotgandek ibodat qilishingdir, agar sen uni ko‘rmasang, u seni ko‘rib turuvchidir”. So‘fiylar Muhammad Mustafo sallallohu alayhi vasallamni al-Inson al-Komil, mutlaq haqiqat sifatlarini ifodalovchi komil inson deb biladilar va uni o‘zlarining yakuniy ruhiy yo‘lboshchisi deb bilishadi. XI asrdan Islom taqvosida Abdulqodir Jiloniy, G‘azzoliy va Sulton Salohiddin kabi Islomning eng ko‘zga ko‘ringan himoyachilarining so‘fiylik bilan bog‘liqligi tarixan isbotlangan. Islom sivilizatsiyasining yuksalishi Islomda so‘fiylik falsafasining tarqalishi bilan mos keladi. Tasavvufning tarqalishi Islom dinining tarqalishida, yaxlit Islom madaniyatlarini yaratishda, ayniqsa, Afrika va Osiyoda hal qiluvchi omil hisoblangan. Xoja Ahmad Yassaviy, Rumiy kabi so‘fiy shoir va faylasuflar Islom madaniyatining Anadolu (hozirgi Kichik Osiyo), O‘rta Osiyo va Janubiy Osiyoda tarqalishini ancha kuchaytiradilar.[1.B - 296]

SO’FIYLIKNING O’RTA OSIYOGA TA’SIRI. So'fiylik nafaqat diniy va ma'naviy harakat sifatida, balki ijtimoiy-madaniy jarayonlarda ham chuqur iz qoldirgan. So'fiylik O'rta Osiyo xalqlarining ma'naviy va axloqiy negizlarini mustahkamlashda muhim rol o'ynagan. Zuhd, taqvo, axloqiy poklik, tavozelik kabi qadriyatlar so'fiylik tarbiyasining markaziy o'rinlaridan bo'lib, bu qadriyatlar o'zbek xalqining dunyoqarashida va kundalik hayotida ham o'z aksini topgan.

So'fiylik ta'limotlaridagi asosiy g'oyalardan biri komil insonni tarbiyalashdir. Bu g'oya odamlarni nafaqat ma'naviy rivojlanishga, balki jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlashga ham chorlagan. Bu o'z navbatida, o'zbek xalq madaniyatida kamolotga intilish, inson qadrini yuksak darajada qadrlash kabi g'oyalarni targ'ib qilgan. So'fiylik ko'plab madaniy va diniy an'analar bilan integratsiyalashgan holda

taraqqiy etgan. O'rta Osiyodagi so'fiylik yo'nalishlari mahalliy urf-odatlar va qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holda, mintaqada yagona diniy-axloqiy madaniyatni shakllantirishga hissa qo'shgan. Bunda

Xoja Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband kabi so'fiylar yo'nalishlari muhim o'rin tutgan. So'fiylik ta'limotlari ijtimoiy adolat, birdamlik, insonparvarlik g'oyalarini jamiyatga singdirgan. Bu g'oyalar O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy fikrida ham muhim ahamiyat kasb etgan. So'fiylar jamiyatda birdamlik va ijtimoiy adolatni ta'minlash uchun faol ishtirok etganlar. So'fiylikning rivojlanishi o'zbek xalq madaniyatining turli jabhalariga, xususan, musiqa va adabiyotga kuchli ta'sir ko'rsatgan. So'fiylar tomonidan ijro etiladigan musiqiy asarlar va adabiy asarlardagi so'fiyona g'oyalar o'zbek xalqining ma'naviy merosi bo'lib qolgan.[2. B - 20]

Zamonaviy davrda so‘fiylik tariqatlarining nisbatan kamayishi, salafiylar va vahobiylar hujumlariga qaramay, so‘fiylik Islom olamida, ayniqsa, sunniy Islomning neotraditionalcha tarmog‘ida muhim rol o‘ynashda davom etdi.

MARKAZIY OSIYODA TARIQATLARNING PAYDO BO’LISHI VA TARQALISHI. Movarounnahrning turli o’lkalarida tasavvufning turli tariqatlari paydo bo’ladi.Turkistonda XII asrda Yassaviya, XII asr oxirida Xorazmda Kubroviya, XIV asrda Buxoroda Naqshbandiya va boshqa tariqatlar vujudga keldi.

Ahmad Yassaviy. Movarounnahrda keng yoyilgan tasavvuf-Yassaviya tariqati bo’lib, unga Ahmad Yassaviy asos solgan . Tariqatning asoslari Yassaviyning mashxur ’’Hikmat’’ asarida bayon etiladi. Ahmad Yassaviyning fikricha, shariatsiz tariqat, tariqatsiz ma’rifat, ma’rifatsiz haqiqat bo’la olmaydi.ularning har biri ikkinchsini to’ldiradi va takomillashtiradi. Yassaviya tariqatining asosida kamolotga uzlat va tarkidunyochilik orqali yetishish g’oyasi olg’a suriladi.Unga faqat bu dunyo rohati va farog’atidan voz kechib uzlatda toat va ibodat yo’lida zahmat chekib, mashaqqatli mehnat qila olgan kishigina yetib boradi. Xullas,Yassaviya tariqatida mashaqqatli mehnat va aziyat shariat yo’lida bo’lmog’i hamda tarkidunyochilik targ’ib etilsada, inson zoti sharif darajasida ulug’lanadi. Insonning har qanday mol dunyodan ustun turishi ta’kidlanadi.

Zikrin tamom qilib o’tdim devonaga,
Haqdin o’zga hich so’zlamay begonaga,
Sham’in izlab shogird kirdim parvonaga,
Kuyib - yonib, axgar bo’lib uchtum ma’no.

Yassaviylikning tarqalishi.

Yassaviylik tariqati ba’zi manbalarda ko‘chmanchilar va turkiy qavmlar o‘rtasida tarqalgani haqida ma’lumotlar beriladi. Ammo tarixiy ma’lumotlar tahliliga e’tibor qaratsak, Yassaviylik tariqati Markaziy Osiyodagi fors-tojik tilli aholi o‘rtasida, Turkiya, Kavkaz va Bolqonda ham tarqalganini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu targ‘ibotlarda Xoja Ahmad Yassaviyning mashhur shogirdlari va keyingi asrlardagi davomchilarining xizmatlari katta hisoblanadi. Jumladan, Mansur Ota, Said Ota, Sulaymon Boqirg‘oniy (Hakim Ota), Sadr Ota, So‘fiy Muhammad Donishmand Zarnuqiy, Bobo Mochin, Zangi Ota, Amir Ali Hakim, Luqmon Parranda, Imom Marg‘oziy, Hasan Bulg‘oriy Abdumalik Ota, Xoji Bektosh Vali, Toj Xoj, Uzun Xasan Ota, Sayyid Ota, Ismoil Ota, Ishoq Xoja, Ayman Bobo, Shayx Ali Ota, Mavdud Bobo, Badr Ota, Xalil Ota, Qusam Shayh, Shayx Xudoydod Vali kabi allomalarning [3:17] Yassaviya tariqatini yanada takomillashtirish, Markaziy Osiyo va dunyo bo‘ylab tarqalishidagi ilmiy-ma’rifiy faoliyatini alohida ta’kidlab o‘tishimiz zarur.

Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvuf ta’limotining buyuk siymolaridan yana biri Najmiddin Kubro (1145- 1221) edi.U Xorazmda ’’Kubroviya’’tariqatiga asos soladi. Yassaviya tariqatidan farqli o’laroq, Kubroviya tariqati tarkidunyochilikni rad etadi. Kamolot yo’lida olib boriladigan mashaqqatli mehnat jarayonida bu dunyo noz-ne’matlaridan bahramand bo’lishning joizligi g’oyasi ilgari suriladi. Kubroviya tariqatida xalqqa va vatanga bo’lgan muhabbat nihoyatda kuchli bo’lib, har qanday og’ir damlarda ham omma bilan birga bo’lish, Vatanni mudofaa qilish va uning mustaqilligi uchun kurashga da’vat etiladi.

Kubroviylikning tarqalishi. Kubroviylik tariqati o’z o’rnida Naqshbandiya va Mavlaviya tariqatlariga ham ta’sir qilgan. U asosan O’rta Osiyo, Rossiya, Eron mamlakatlarida keng tarqalgan. Kubroviya tariqatida chordoma qurib, jahriy zikir majlislari tuziladi. Kubroviyadan mashhur quydagi shahobchalar ajralib chiqqan: Firdavsi, bahoiyya, xilvatiya, rukniya, nuriya, nurbaxshiya, hamadoniya, barzanjiya kabi shahobchalar ajralib chiqqandir.[4]

Xoja Bohouddin Naqshband. Tasavvuf XIV asrda Naqshbandiya tariqatida yanada rivoj topadi.Unga Bahouddin Naqshband asos soldi. U 1318-yilda Buxoro yaqinida Qasri Hinduvon matolarga naqsh bosuvchi hunarmand oilasida dunyoga keladi. Yoshligida ta’lim olish bilan bir qatorda kimxob

matoga gul bosishni puxta o’rganib, Ota kasbi naqqqoshlikni egallagan. Xoja Bahouddin ’’Hayotnoma’’ va ’’Dalil al-oshiqin’’ nomli asarlar yozib o’z tariqatini yaratadi. Naqshbandiya tariqati Movarounnahr, Xuroson, va Xorazmda keng tarqaladi.Naqshbandiya tariqati insonlarni halol va pok bo’lishga, o’z mehnati bilan kun kechirishga, muhtojlarga xayr ehson berishga, sofdil va kamtar bo’lishga chaqiradi. Uning ’’Dil ba yor-u dast ba kor’’ (‘‘Ko’ngil Allohda bo’lsinu, qo’l mehnat bilan band bo’lsin’’) degan hikmati Naqshbandiya tariqatining hayotiy mohiyatini ifodalaydi. U tarkidunyochilikni rad etib, mehnatsevarlik, odillik va bilimdonliklikni targ’ib etadi. Naqshbandiya ta’limoti taraqqiyotiga keyingi asrlarda Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Xoja Ahror kabi buyuk allomalar katta hissa qo’shadilar. Movarounnahrda (O’rta Osiyo miqntaqasi) so’fiylik Islom tarixining ilk davrlarida shakllana boshlagan. Bu Islomdagi tasavvufiy harakatni ifodalaydi, ichki ruhiy tajriba va Allohga yaqinlikni izlashga urg’u beradi. Movarounnahrdagi So’fiylik O’rta Osiyo musulmonlari orasida, ayniqsa, o’rta asrlardagi Islom sulolalari va ilm markazlarining ta’siri davrida keng tarqaldi. Movarounnahr O’rta Osiyoda so’fiylikning yoyilishida muhim markaz bo’lib xizmat qilgan. Movarounnhrdagi tasavvufning ma’naviy mafkuraviy jihatlari botiniy ilmga urg’u berish, tafakkur, ma’naviy sirlarni anglash ilohiy birlashishga intilishni o’z ichiga oladi.

So’fiylik mintaqada adabiyot, san’at va maorif rivojiga ham hissa qo’shgan. Movarounnahrdagi So’fiylikning mafkuraviy tarixi turli so’fiylik tariqatlari, ularning yetakchilari (shayxlari) va ular ta’limotining dindorlar orasida tarqalishi bilan bog’liq. Bu hududdagi So’fiylik Islomning boshqa oqimlari bilan ham o’zaro aloqada bo’lib, o’ziga xos an’ana va amaliyotlarni shakllantirgan.[5.B.179]

Naqshbandiylikning tarqalishi. Naqshbandiya tariqati Kichik Osiyo va Kavkazda, Qurdistonda, Afg’onistonda, Eron, Pokiston va Hindistonda, Turkiyada keng tarqala bordi. Hozirda ko’pgina musulmon mamlakatlarda bu tariqat juda katta mavqega ega. Hatto Pokistoning Lahor shahrida ham Naqshbandiya tariqatining Jahon markazi mavjud.

1982 – yilning yozida ana shu Naqshbandiya markazining rahbari, mazkur tariqatning hozirgi ulug’ pirlaridan biri, Pokistonning yirik jamoad arbobi va diniy ulamosi Zulfiqor Ahmad Naqshbandiy yurtimizga tashrif buyurib: “Ishonchim komilki, naqshbandiya daraxtning soyasi butun dunyoni tutadi”, degan so’zlarni aytdi.

Turkiyaning sobiq Prezidenti marhum Turg’ut O’zol ham “Men ham hazrati Naqshbandning yo’lidaman, Ota – Bobolarim ham mana shu yo’lda shu sulukda” ekanligini aytib o’tadi. Bundayin ta’limotlarni dunyo ahli tan olishi hamda unga amal qilishi, ergashishi, va bu ta’limotlar hali hanuzgacha saqlanib qolinganligi uning mazmun mohiyati chuqur ma’noga ega ekanligidan dalolat beradi.[6]

Xulosa. Yuqoridagi tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quydagilardan shuni xulosa qilish mumkinki;

- Tasavvuf – So’fiylik darajasiga chiqqan va Komillik darajasiga chiqqan Payg’ambarimiz Muhammad Mustafo (s.a.v.) bo’lgan. Unga sahobalar ergashgan;
- Zuhd, taqvo, axloqiy – poklik, tavozilek So’fiylik ta’limotining markazida bo’lib, bu qadryatlar o’zbek xalqining dunyoqarashida va kundalik hayotida o’z aksini topgan;
- Markaziy Osiyo Mintaqasidagi So’fiylik ta’limoti ana shu hududta vujudga keldi, rivojlandi va boshqa o’lkalarga ham tarqaldi, o’z o’rni va ahamyatini hanuzgacha saqlab turibdi hamda o’zining boshqa mamlakatlarida Jahon markazlariga ham ega ekanligi bunga yaqqol namunadir.
- Umumiy xulosa qilib aytkanda Markaziy Osiyodagi So’fiylik ta’limoti Inson qadrini ulug’lash, Vatanga muhabbat, “Qo’lining mehnatda bo’lsinu, qalbing Alloh zikri il aband bo’lisin” degan ulug’ shiorlarni ham ilgari suradi va o’ziga ergashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Barbara Daly Metcalf. *Islamic revival in British India: Deoband, 1860–1900*. Princeton, NJ: Princeton University Press, 1982 — 264–296-bet. ISBN 978-0-19-566049-4.
2 Hoji Bektoshi Valiy. Maqolot. – T:Istiqbol. B – 20.
3 *Абдураҳмон Гўзал. Яссавий “Фақрнома”си. – Т.: “Навруз”, 2014. – Б. 17.*
4 Азизиддин Насафий. Зубдатул ҳақойиқ. Н.Комилов таржимаси.. https://m.facebook.com/groups/398490023689394/permalink/884779928393732/?mibe xtid=Nif5oz.
5 Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." Theoretical & Applied Science 2 (2016): 175-179.
6. https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tarix/naqshbandiya-tariqati.

KUCHKINCHIXON DAVRIDA PUL ISLOHOTI: MOVAROUNNAHR BOZORLARIDA MUOMALADAGI PUL INQIROZ VA BARQARORLIKKA YO‘L

B.N.Sirojov
O’zbekiston Milliy Universiteti 2-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada XVI asr boshlarida Movarounnahrda yuzaga kelgan pul inqirozi va Kuchkinchixon (1511–1530) tomonidan amalga oshirilgan pul islohoti tarixiy-iqtisodiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Eski fuluslarning muomaladan chiqarilishi, markaziy zarbxonalar tizimi, va yangi mis tangalarning muomalaga kiritilishi asosida savdo-sotiq va fiskal barqarorlikni tiklash jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, islohotlarning jamiyatning turli qatlamlariga ta’siri ham o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Kuchkinchixon, fulus, pul islohoti, zarbxona, Movarounnahr, XVI asr, iqtisodiy tarix

Аннотация: В статье рассматриваются причины и ход денежной реформы Кучкинчихона в начале XVI века в Мавераннахре. Особое внимание уделено изъятию старых фулусов, централизации монетных дворов и введению новых медных монет. Также проанализировано влияние реформ на торговлю, налогообложение и социальные слои общества.

Ключевые слова: Кучкинчихон, фулусы, денежная реформа, монетный двор, Мавераннахр, XVI век, экономическая история

Abstract: This article analyzes the monetary reform carried out by Kuchkinchikhan (1511–1530) in early 16th-century Movarounnahr. It focuses on the withdrawal of depreciated copper coins (fulus), centralization of minting practices, and the issuance of standardized coins. The study also explores the reform's impact on trade, taxation, and social groups.

Keywords: Kuchkinchikhan, fulus, monetary reform, mint, Movarounnahr, 16th century, economic history

Kirish: XVI asr boshlarida Movarounnahr hududida yuzaga kelgan siyosiy beqarorlik, Timuriylar sulolasining tanazzulga yuz tutishi va Shayboniylar hukmronligining o‘rnatilishi mamlakatda faqat siyosiy emas, iqtisodiy muhitda ham tub o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Ayniqsa, pul muomalasi tizimi jiddiy inqirozga uchradi — mis tangalarning haddan ziyod muomalaga chiqarilishi, ularning og‘irlik va sifatdagi nomutanosibligi, zarbxonalar ustidan nazoratning yo‘qligi iqtisodiy hayotni izdan chiqardi [3. 1984:B.66].

Bu holat savdo-sotiqdagi ishonchning yo‘qolishiga, narxlar beqarorligiga, va nihoyat davlat moliyaviy siyosatining izdan chiqishiga olib keldi [8. 1990:B.112]. Aynan shunday tarixiy vaziyatda Kuchkinchixon (1511–1530) tomonidan amalga oshirilgan pul islohotlari tarixiy-iqtisodiy jihatdan alohida tahlilga loyiq bo‘lgan muhim voqealikdir [9. 2001:B.122].

Muammoning ilmiy qo‘yilishi: Movarounnahrda pul tizimining inqirozi va Kuchkinchixon tomonidan amalga oshirilgan islohotlar masalasi o‘zbek tarixshunosligida alohida o‘rganilgan, biroq bu jarayonlarning hududiy tafovutlari, jamiyatning turli qatlamlariga bo‘lgan ta’siri va islohotlarning real iqtisodiy natijalari hali to‘liq ochib berilmagan [4. 2023:B.167]. Shu sababli ushbu tezis:

1) Kuchkinchixon davrida mavjud bo‘lgan fulus tangalarning muammolarini
2) Pul qadrsizlanishining bozorlar va aholiga ta’sirini
3) Zarbxona siyosati orqali markaziylashtirish harakatlarini
4) Islohotlarning qisqa va o‘rta muddatli iqtisodiy natijalarini o‘rganishni maqsad qiladi.

Tadqiqot jarayonida birlamchi tarixiy manbalar (Sharafnoma, Samariya, vaqfnomalar), zamonaviy tarixiy-nazariy tahlillar (Davlatxoja Dovud, Kamyshev, Muqimova) asosiy vosita sifatida foydalaniladi [8. 1973:B.66].

Manbashunoslik va metodologiya:

Birlamchi manbalar: Movarounnahrdagi XVI asr boshlaridagi siyosiy va iqtisodiy holatni o‘rganishda Hofiz Tanish al-Buxoriyning Sharafnoma-yi shohiy asari muhim ahamiyatga ega. Ushbu manbada Kuchkinchixon davrining siyosiy jarayonlari, islohotlar oldidan yuzaga kelgan tanglik holati kontekstual ravishda bayon etiladi [9. 2001:B.122].

Abu Tohirxoja Samarqandiyning Samariya asari Buxoro va Samarqanddagi bozor muomalasining beqarorligi, fuluslar qadrsizlanishi va savdo-sotiqdagi qiyinchiliklar haqida dalillarni taqdim etadi [2. 1993:B.125]. Bu manba orqali bozor ishtirokchilarining kayfiyati, narxlar tizimidagi o‘zgarishlar, tangalarga nisbatan ishonch holati kabi omillarni tahlil qilish mumkin.

Vaqfnomalar va moliyaviy hujjatlar esa bevosita iqtisodiy faoliyatga doir statistik ko‘rsatkichlarni aniqlashda yordam beradi [1. 1977:B.41].

Zamonaviy tarixiy tahlillar: Davlatxoja Dovudning Denejnoe obrashchenie v Bukhare i Samarkande asari eng muhim numizmatik manba bo‘lib, unda tangalarning og‘irligi, tarkibi, zarbxona joylari va islohot bosqichlari keltiriladi [1. 1984:B.58]. Kamyshevning Monetnoe delo v Sredney Azii asari esa mintaqadagi tangabozlik an’analarini tizimli ko‘rsatadi [5. 1959:B.84].

R.G. Muqminovaning tadqiqotlari orqali esa fulus tangalarning qadrsizlanishi va islohotlarning jamiyatdagi past va o‘rta qatlamlarga qanday ta’sir qilgani ko‘rinadi [7. 1973:B.66].

Metodologik yondashuv: Tadqiqot tarixiy-tahliliy va qiyosiy usullarga asoslangan. Pul islohotlari Shayboniylar davridagi va boshqa mintaqalar (Usmonlilar, Safaviylar) bilan qiyoslangan [10. 2012:B.115].

Tadqiqot natijalari: XVI asr boshida Movarounnahr bozorlarida pul muomalasi izdan chiqqan edi. Fulus tangalarning haddan ortiq ko‘payib ketishi, ularning og‘irlik va metall tarkibining pastligi bozorlarda qadrsizlik va ishonchsizlikka olib kelgan [3. 1984:B.66]. Samariyada bu holat aniq tasvirlanib, savdogarlarning ayrim tangalarni rad etishi va faqat ma’lum zarbxonalarda zarb qilingan tangalarni qabul qilgani qayd etilgan [2. 1993:B.125].

Kuchkinchixon bu inqirozni bartaraf etish maqsadida keng ko‘lamli pul islohotini amalga oshirdi. Islohot uch asosiy yo‘nalishda olib borildi [4. 2023:B.147]:

I. Eski fuluslarni muomaladan chiqarish – qadrsiz, og‘irligi past va nomutanosib tangalarning to‘planib olib qo‘yilishi;

II. Davlat zarbxonalarini markazlashtirish – Buxoro, Samarqand va Termizda yagona nazorat ostida faoliyat yurituvchi zarbxonalar tashkil etildi;

III. Yangi tangalarni muomalaga chiqarish – Qur’on oyatlari, hukmdor nomi va shajarasi tushirilgan, og‘irligi standartlashtirilgan mis tangalar zarb qilindi.

Kamyshevning numizmatik tahliliga ko‘ra, yangi tangalar og‘irligi 4.5–5.2 gramm atrofida bo‘lgan, bu esa oldingi fuluslarga nisbatan ancha og‘irroq va ishonchliroq bo‘lgan [5. 1959:B.96]. Sharafnoma-yi shohiyda bu tangalarning yuzasida “Kuchkinchi Bahodurxon ibn Sulton Mahmudxon” degan laqab bilan Qur’on oyatlari tushirilgani bayon etilgan [9. 2001:B.139].

1515 yildan keyingi vaqfnomalarda ko‘chmas mulk oldi-sotdisi, soliqlar va hadyalar yangi tangalar asosida amalga oshirilganligi qayd etilgan [1. 1977:B.41]. Bu esa pul muomalasining barqarorlashayotganidan darak beradi.

Biroq bu natijalar barcha hududlarda bir xil ko‘rinishda emas edi. Masalan, Xorazm, Andijon, Qo‘qon singari chekka viloyatlarda qadrsiz fuluslar hali uzoq yillar davomida muomalada qolgan. Masharipovning qaydiga ko‘ra, 1525 yilda ham Xorazmda ko‘plab hunarmandlar va dehqonlar eski fuluslardan foydalanishda davom etganlar [6. 2022:B.174].

Ijtimoiy jihatdan islohot eng ko‘p past qatlam vakillariga ta’sir qildi. Muqminovaning tadqiqotlarida ko‘rsatilishicha, ular kunlik mehnat evaziga to‘lanadigan haqni qadrsiz fuluslarda olgan va bu ularning xarid imkoniyatini jiddiy kamaytirgan [7. 1973:B.66].

Xulosa: Kuchkinchixon tomonidan amalga oshirilgan pul islohoti XVI asr boshlarida Movarounnahr iqtisodiy muhitidagi tanglikka davlat darajasida berilgan qat’iy javob bo‘ldi. Eski fuluslarning muomaladan chiqarilishi, zarbxonalarning markazlashtirilishi va ishonchli yangi tangalarning joriy qilinishi qisqa muddatda:

A. savdo-sotiqning jonlanishiga,

B. narxlar barqarorligiga,

C. davlat g‘aznasiga tushum ortishiga olib keldi.

Biroq bu natijalar asosan markaziy shaharlarda — Buxoro, Samarqand va Termizda yaqqol ko‘rindi. Chekka hududlarda esa fulus muammosi uzoq davom etdi. Ijtimoiy jihatdan esa islohotlar jamiyatning past qatlamlariga og‘riqli ta’sir qildi.

Shu bois, Kuchkinchixon islohotlari tarixda davlat suverenitetini tiklash, diniy va siyosiy qonuniylikni mustahkamlash hamda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash yo‘lidagi muhim bosqich sifatida qayd etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1977. – 41 с.

2. Абу Тоҳирхожа Самарқандий. Самария. – Тошкент: Фан, 1993. – 101, 125, 130, 135, 140 б.

3. Давлатходжа Довуд. Денежное обращение в Бухаре и Самарканде. – Ташкент: Фан, 1984. – 34, 55, 58, 66, 88 с.
4. Зиёдулла Муқимов. Шайбонийлар давлати ва ҳуқуқи. – Тошкент: Муҳаррир, 2023. – 147, 167 b.
5. Камышев Н.А. Монетное дело в Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1959. – 84, 96 с.
6. Озод Машарипов. Хоразмнома. 2-китоб. – Тошкент: Юксалиш, 2022. – 174 б.
7. Р.Г. Муқминова. Ўзбекистон шаҳарларида аҳолининг ижтимоий таркиби. – Тошкент: Фан, 1973. – 66 с.
8. Р.Р. Алимова. Ўрта асрларда Марказий Осиё иқтисодиёти. – Тошкент: Фан, 1990. – 112 с.
9. Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Шарафнома-йи шоҳий. – Тошкент: Фан, 2001. – 122, 139 б.
10. Safevî–Özbek Siyasi İlişkileri. – Ankara: Türk Tarih Kurumu, 2012. – 115, 127 s.

TALABALARNING LOYIHAVIY ISHLARINI BAHOLASHDA ANIMATSION VIZUALIZATSIYADAN FOYDALANISH BO‘YICHA TAJRIBA NATIJALARI

A.X.Niyozmetov
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti tayanch doktaranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning loyihaviy ishlarini baholash jarayonida animatsion vizualizatsiyadan foydalanish bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba natijalari tahlil qilinadi. Animatsion vizualizatsiya usullari loyiha materiallarini tushunarli, interfaol va vizual jihatdan boy shaklda namoyish qilish imkonini beradi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ushbu yondashuv talabalarning fazoviy tasavvuri, ijodiy tafakkuri va loyiha ishlarini mustaqil bajarish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Kalit so‘zlar: animatsion vizualizatsiya, muhandislik grafikasi, loyiha ishlarini baholash, fazoviy tafakkur, interfaol o‘qitish.

Kirish. Bugungi kunda muhandislik grafikasi va texnik chizmachilik yo‘nalishlarida talabalarning loyihaviy ishlarini samarali baholash jarayonida animatsion vizualizatsiyadan foydalanishning ahamiyati tobora ortib bormoqda. An’anaviy baholash usullari asosan statik chizmalar va loyihaviy hisobotlarni tahlil qilish bilan cheklanadi. Ammo murakkab fazoviy obyektlar, konstruktiv yechimlar va ularning fazodagi o‘zaro aloqalarini to‘liq anglash ko‘pincha statik ko‘rinishlar bilan chegaralanib qoladi. Shu bois, animatsion vizualizatsiya texnologiyalarini baholash jarayoniga joriy etish nafaqat obyektning fazoviy tuzilishini aniqroq tushunishga, balki talabaning dizayn qarorlarini chuqurroq tahlil qilishga ham imkon beradi. Animatsion vizualizatsiyadan foydalanishning yana bir muhim afzalligi shundaki, u loyiha ishlarini obyektiv baholash jarayonini yanada shaffof qiladi. Har bir detalning harakati, o‘zaro mosligi va konstruktiv mantiqi vizual tarzda namoyish etiladi, bu esa o‘qituvchi va ekspert komissiyaga ishning sifatini tez va samarali aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, talaba o‘z ishining kuchli va zaif tomonlarini animatsiya orqali aniq ko‘ra oladi va ularni takomillashtirish bo‘yicha mustaqil xulosa chiqaradi.

Animatsion baholash jarayoni talabalarning fazoviy tafakkuri va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Chunki loyiha ishini animatsiya shaklida tayyorlash, uni sahnalashtirish va vizual modellashtirish talabaning 2D chizmalardan 3D fazoviy obyektlarni tasavvur qilish qobiliyatini kuchaytiradi. Bu esa ularning kelgusidagi kasbiy faoliyatida murakkab loyihalarni samarali rejalashtirish va ishlab chiqishga tayyorlaydi. Shuningdek, animatsion vizualizatsiya o‘quv jarayonini interfaol shaklga keltiradi. Talabalar o‘z loyihalarini nafaqat taqdim etadi, balki uni dinamik modellashtirish orqali himoya qiladi, auditoriya esa real vaqt rejimida loyiha ustida fikr yuritish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Natijada, baholash jarayoni nafaqat nazorat va tahlil, balki o‘qitishning samarali vositasiga aylanadi.

Adabiyotlar tahlili

So‘nggi yillarda oliy ta’limda raqamli texnologiyalardan, jumladan animatsion vizualizatsiyadan foydalanish bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. L.N. Anisimova [2] ta’kidlaganidek, talabalarning kasbiy va grafik kompetensiyalarini rivojlantirishda kompyuter grafikasining animatsion va interfaol imkoniyatlari muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, D. Xenning [3] chiziqli bo‘lmagan tuzilmalar va interfaol modellashtirish tizimlarining mustaqil bilim olishdagi samaradorligini alohida e’tirof etadi. Shu

nuqtai nazardan, talabalarning loyihaviy ishlarini baholashda animatsion vizualizatsiyadan foydalanish pedagogik jarayonni soddalashtiradi, talabalarda motivatsiya va ijodiy yondashuvni kuchaytiradi. Ilg‘or oliy ta’lim muassasalari bu uslubni SmartGraph Approach, VR/AR texnologiyalari hamda sun’iy intellektga asoslangan baholash tizimlari bilan integratsiya qilish yo‘lida ish olib bormoqda.

Mayer, R. E. (2009). Multimedia Learning. Cambridge University Press. Tahlil: Mayerning multimediali ta’lim nazariyasi (Cognitive Theory of Multimedia Learning) talabalarda bilimlarni samarali o‘zlashtirishda vizual va audial ma’lumotlarni integratsiyalashning ahamiyatini asoslaydi. Uning tadqiqotlariga ko‘ra, animatsiya va interaktiv vizualizatsiya yordamida murakkab jarayonlarni tushuntirish talabalarning fazoviy tafakkurini sezilarli darajada rivojlantiradi. Muhandislik grafikasi fanida loyihaviy ishlarni baholashda animatsion vizualizatsiyani qo‘llash Mayer nazariyasi bilan uyg‘un bo‘lib, talabaning bilimni mustahkamlash va o‘z ishini tahlil qilish qobiliyatini oshiradi. Azlina, N., & Halim, N. D. (2018). Animation as an Effective Tool in Engineering Education. Journal of Technical Education, 30(2), 55-64. Tahlil: Ushbu maqolada mualliflar animatsiya va 3D vizualizatsiyaning muhandislik fanlarida, xususan, texnik chizmachilik va mexanik modellashtirish jarayonlarida samaradorligini tahlil qiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, an’anaviy baholash usullari bilan solishtirganda, animatsion yondashuv talabalarning dizayn qarorlarini aniq ko‘rsatish va obyektiv baholash imkonini beradi. Shuningdek, animatsion vizualizatsiya talabalarning loyiha himoyasi jarayonida ham interfaol ta’lim muhiti yaratadi. Kim, S., & Olivetti, E. (2021). Visual and Interactive Feedback in Engineering Project Assessment. Computers & Education, 168, 104203. Tahlil: Ushbu ilmiy maqola muhandislik va arxitektura yo‘nalishidagi talabalar loyihalarini baholashda interaktiv vizualizatsiya va animatsion tahlilning o‘rnini yoritadi. Mualliflar tajriba asosida aniqlashganidek, animatsion baholash usuli talabalarning o‘z ishiga tanqidiy yondashish qobiliyatini kuchaytiradi, ijodiy qarorlarni tezroq ishlab chiqishga yordam beradi va baholash jarayonini shaffof qiladi. Bu yondashuv ayniqsa, murakkab konstruktiv elementlarni o‘z ichiga olgan loyihalarda samarali hisoblanadi. Абдуллаев, Х. Х. (2022). Muhandislik grafikasi fanida raqamli animatsion texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlari. Oliy ta’lim va innovatsiyalar jurnali, 5(3), 112-120. Tahlil: Mazkur maqolada O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida muhandislik grafikasi fanini o‘qitishda raqamli animatsion resurslardan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari yoritilgan. Muallifning fikriga ko‘ra, animatsion vizualizatsiya talabaning fazoviy tasavvurini rivojlantirish bilan birga, loyiha ishlarini obyektiv va aniq baholashga yordam beradi. Shuningdek, maqolada talabalarni loyiha ishlariga yo‘naltirish, ularni mustaqil fikrlash va dizayn qarorlarini asoslashga o‘rgatish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi:

Mazkur ilmiy-tadqiqot ishida muhandislik grafikasi va texnik chizmachilik fanlarida talabalarning loyihaviy ishlarini baholash jarayonida animatsion vizualizatsiyadan foydalanishning samaradorligi o‘rganildi. Tadqiqot metodikasi uch bosqichli eksperimental yondashuv asosida tashkil etildi va quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oldi:

1-bosqich: An’anaviy baholash usulini qo‘llash

Ushbu bosqichda talabalarning loyihaviy ishlari an’anaviy usulda baholandi. Baholash jarayoni quyidagi mezonlar asosida olib borildi:

Chizma sifati va aniqligi – talabaning GOST va O‘zDSt me’yorlariga rioya qilganlik darajasi;

Izohli yozuvlar – loyihaning funksional yechimi, ishlatilgan konstruktiv elementlar va texnik parametrlar haqida izohlar to‘liq va mantiqli ekanligi;

Fazoviy tasavvur – chizmalar bo‘yicha loyiha obyektini fazoda tasavvur qilish qobiliyati.

Bu bosqichda talabalar asosan qog‘oz shaklidagi loyihalar, A3-A1 formatdagi chizmalar va oddiy 2D izohli sxemalar bilan ishladilar. Baholashda 10 ballik tizim qo‘llandi. Ushbu usulda baholangan talabalar nazorat guruhi sifatida belgilandi.

2-bosqich: Animatsion vizualizatsiya orqali baholash

Ikkinchi bosqichda tajriba guruhidagi talabalarning loyihaviy ishlari 2D va 3D animatsion vizualizatsiya asosida baholandi. Ushbu jarayonning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Model yaratish va vizualizatsiya:

Talabalar dastlab o‘z loyihalarini Autodesk Revit, AutoCAD va 3ds Max kabi grafik dasturlarda modellashtirdilar.

Keyinchalik, murakkab fazoviy shakllar va konstruktsiyalarni Blender va Unreal Engine muhitida animatsion vizualizatsiya qilindi.

Animatsion baholash mezonlari:

Loyiha obyektining to‘liq 3D modellashtirilganligi;

Konstruktiv elementlarning fazoviy o‘zaro aloqasi va animatsion tushuntirilishi;
Talabaning ijodiy yondashuvi va vizual ifodalash aniqligi.
Interfaol taqdimot va baholash:
Talabalar o‘z loyihalarini animatsion shaklda taqdim etib, obyektning har bir qismini fazoda aylantirish, kesimlarni ko‘rsatish va funksional ishini animatsion tarzda tushuntirish imkoniga ega bo‘ldilar.

Baholash jarayoni interfaol bo‘lib, talabalar ham o‘zaro loyihalarni tahlil qildilar. Ushbu bosqichda baholashning asosiy e’tibori talabaning fazoviy tafakkuri, dizayn qarorlarini asoslay olish qobiliyati va vizual ifodalash darajasiga qaratildi.
3-bosqich: Natijalarni qiyosiy tahlil qilish
Tajribaning yakuniy bosqichida an’anaviy va animatsion vizualizatsiya usullari natijalari qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida 120 nafar talaba ishtirok etdi:
60 nafar talaba – an’anaviy baholash guruhida (nazorat guruhi);
60 nafar talaba – animatsion vizualizatsiya asosidagi baholash guruhida (tajriba guruhi).
Tahlil jarayonida quyidagi ko‘rsatkichlar hisobga olindi:
Fazoviy tafakkur rivojlanish darajasi – loyihani fazoda tahlil qilish va modellashtirish ko‘nikmalari;
Ijodiy va loyiha asosidagi yondashuv – original g‘oyalar ishlab chiqish va ularni vizual ifodalash sifati;
Motivatsiya va ishtirok faolligi – loyiha taqdimotida faol qatnashish, tashabbuskorlik va o‘z fikrini asoslash qobiliyati.
Natijada, animatsion vizualizatsiya asosida baholangan talabalarda fazoviy tafakkur ko‘rsatkichlari 30–35% ga yuqori, loyiha taqdimotidagi faollik va ijodiy yondashuv esa 40% ga oshgani kuzatildi. Bu esa, animatsion baholash usulining samaradorligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.
Tajriba natijalari
O‘tkazilgan tajribalar natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:
1. Animatsion vizualizatsiya asosida baholangan guruh talabalari loyihaviy ishlarni 20-25% tezroq va sifatliroq bajardi.
2. Fazoviy tafakkur ko‘rsatkichlari 1,3 baravarga oshdi.
3. Talabalar motivatsiyasi va loyihaviy fikrlash darajasi sezilarli darajada yaxshilandi.
Natijalar shuni ko‘rsatdiki, animatsion vizualizatsiya o‘quv jarayonini nafaqat samarali, balki interfaol va ijodiy muhitga aylantiradi. Bu metodika ayniqsa murakkab fazoviy loyihalarni tushuntirish va baholashda yuqori natija beradi.
Xulosa:
O‘tkazilgan tadqiqot va tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalarning loyihaviy ishlarini baholash jarayonida animatsion vizualizatsiyadan foydalanish nafaqat baholashning samaradorligini oshiradi, balki o‘quv jarayonini innovatsion va interfaol shaklga keltiradi. Ushbu metodika muhandislik grafikasi va texnik chizmachilik fanlarining asosiy didaktik maqsadlariga to‘liq mos keladi hamda quyidagi natijalarni ta’minlaydi:
Talabalarning fazoviy tafakkurini rivojlantirish:
Animatsion vizualizatsiya talabalarga murakkab 2D va 3D obyektlarni fazoda to‘liq anglash imkonini beradi;
Konstruktiv elementlarning o‘zaro aloqasi va funksional ishlashini interfaol modellashtirish orqali tushunish osonlashadi.
Mustaqil ta’lim va ijodiy yondashuvni kuchaytirish:
Talabalar loyiha ishlarini animatsion shaklda taqdim etish jarayonida mustaqil izlanish, dasturiy modellashtirish va animatsiya tayyorlash ko‘nikmalarini o‘zlashtiradi;
Loyiha himoyasi jarayonida ijodiy yondashuv va loyiha g‘oyasini to‘liq asoslab bera olish qobiliyati shakllanadi.
Kasbiy kompetensiyalarni oshirish:
Animatsion vizualizatsiya talabalarda loyiha taqdimoti, muhandislik dizayni va grafik dasturlar bilan ishlash bo‘yicha zamonaviy kompetensiyalarni rivojlantiradi;
Bu metodika real ishlab chiqarish va loyiha amaliyotida talab qilinadigan multidisiplinar ko‘nikmalarni mustahkamlaydi.
Baholash jarayonining obyektivligi va motivatsiyani oshirish:

Loyiha ishlarini animatsion vizualizatsiya orqali baholash jarayonida o‘qituvchi obyektni to‘liq va aniq tahlil qila oladi, bu esa baholashning obyektivligini oshiradi;

Animatsion taqdimot jarayoni talabalarda motivatsiya va ishtirok faolligini sezilarli darajada kuchaytiradi.

Kelgusida ushbu metodikani VR (Virtual Reality), AR (Augmented Reality) hamda sun’iy intellekt asosidagi grafik tizimlar bilan integratsiya qilish talabalarning immersiv (sho‘ng‘ishli) tajribasini ta’minlaydi. Natijada, muhandislik grafikasi va texnik chizmachilik fanlarini o‘qitish yanada interfaol, vizual boy va kasbiy ehtiyojlarga mos holga keladi. Ushbu yondashuv kelajakda ta’limning raqamli transformatsiyasi jarayonida yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3775-son qarori. 2018 yil 5 iyun.
2. Anisimova L.N. Innovatsion yondashuvlar asosida grafik tayyorgarlikni rivojlantirish. – Moskva, 2020.
3. Xenning D. Interactive Learning Systems and Non-linear Education Structures. – London, 2019.
4. Qodirov A. Muhandislik grafikasi va raqamli ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: TDYU, 2022.
5. SmartGraph Approach: Visualization in Engineering Education. – IEEE Conference Paper, 2021.

MUHANDISLIK GRAFIKASI FANINI O‘QITISHDA ANIMATSION ELEKTRON RESURSLARDAN FOYDALANISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI

A.X.Niyozmetov
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti tayanch doktaranti

Annotatsiya: Maqolada muhandislik grafikasi fanini o‘qitishda animatsion elektron ta’lim resurslaridan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari yoritilgan. Talabalarda fazoviy tasavvur, mustaqil fikrlash va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda 3D-modellashtirish, animatsion vizualizatsiya va interaktiv elektron resurslarning samaradorligi ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: muhandislik grafikasi, animatsion elektron resurslar, fazoviy tasavvur, interaktiv o‘qitish, 3D-modellashtirish, pedagogik texnologiya.

Kirish. Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, talabalarning mustaqil o‘qish va ijodiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son qarorida oliy ta’lim muassasalarida o‘quv mashg‘ulotlarini talabalarni innovatsion fikrlashga yo‘naltiradigan, interfaol uslublar va zamonaviy o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish asosida tashkil etish zarurligi ta’kidlangan [1].

Muhandislik grafikasi fanining o‘ziga xosligi shundaki, u talabalarda fazoviy tasavvur, texnik va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu fan talabalardan turli geometrik shakllar, detallar va konstruksiyalarning fazoviy xususiyatlarini tahlil qilish, ularni modellashtirish va grafik ifodalash malakasini talab qiladi. Mazkur jarayonning samarali tashkil etilishi o‘quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini mustahkamlashga, balki ularning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik tajriba shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy o‘qitish uslublarini animatsion elektron ta’lim resurslari bilan uyg‘unlashtirish yuqori natijalar beradi. Chunki statik rasmlar yoki oddiy grafik chizmalar talabada to‘liq fazoviy tasavvur hosil qilishi qiyin bo‘lishi mumkin, shu bois dinamik vizualizatsiya, interaktiv modellashtirish va animatsiya jarayoni o‘quv materialini chuqurroq idrok etishga yordam beradi.

Animatsion elektron resurslardan foydalanishning eng muhim afzalliklari quyidagilardan iborat:

2D va 3D tasavvurni rivojlantirish: Talaba ob’ektning fazoda qanday joylashishini, uning proyeksiyalari va qirqimlarini yaxlit ko‘ra oladi.

Grafik obyektlarning fazoviy aloqalarini tushunish: Animatsiya detallar o‘rtasidagi bog‘liqlikni, ularning yig‘ilishi yoki harakatlanishini bosqichma-bosqich ko‘rsatib beradi.

Amaliyotga yo‘naltirilgan o‘qitish: Talabalar mustaqil ravishda grafik topshiriqlarni bajarish jarayonida animatsion modellar bilan ishlash orqali fazoviy tafakkurini mustahkamlaydi.

O‘quv motivatsiyasini oshirish: Interfaol animatsiyalar talabaning fanga bo‘lgan qiziqishini orttiradi va mustaqil izlanishga undaydi.

Natijada, animatsion elektron ta’lim resurslari bilan boyitilgan o‘qitish jarayoni nafaqat nazariy bilimlarni samarali o‘zlashtirishga, balki talabaning fazoviy tafakkuri va texnik kreativligini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, muhandislik grafikasi fanida zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish va ularni didaktik jihatdan to‘g‘ri qo‘llash ta’lim sifati va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Adabiyotlar tahlili

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda animatsion elektron resurslardan foydalanish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, L.N. Anisimova talabalarning grafik tayyorgarligini oshirish uchun kompyuter texnologiyalari va interaktiv ma’ruzalardan foydalanish muhimligini alohida ta’kidlaydi [2]. Unga ko‘ra, mustaqil ta’lim va animatsion vizualizatsiya uyg‘unlashganda talabalar ijodiy fikrlashga ko‘proq moyil bo‘ladi.

D. Xenning tadqiqotlarida [3] chiziqli bo‘lmagan o‘quv modellarining ustunligi ko‘rsatib berilgan. Xususan, Help tizimi va interaktiv animatsion dasturlar talabaning individual ta’lim traektoriyasini yaratishga yordam beradi. Bu yondashuv o‘quvchini tayyor bilimlarni yodlashdan ko‘ra, mustaqil bilim olish va uni amalda qo‘llashga undaydi. Jonson va Lyuis (2020) o‘z ishlarida muhandislik ta’limida 3D-modellashtirish, VR (Virtual Reality) va animatsion simulyatsiyalarning talabalarda fazoviy tasavvur va loyihaviy tafakkurni rivojlantirishdagi o‘rnini tahlil qilgan [4]. Ularning natijalariga ko‘ra, vizual interaktiv ta’lim resurslari o‘quv jarayonini 1,5 baravar samaraliroq qiladi. O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda muhandislik grafikasi faniga Blender, AutoCAD, Revit, va Unreal Engine dasturlarini joriy etish bo‘yicha tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon, ayniqsa, SmartGraph Approach metodikasi bilan uyg‘unlashtirilganda yuqori natija beradi [5].

Muhandislik grafikasida animatsion elektron resurslardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari:

Muhandislik grafikasi fanida animatsion elektron resurslarni qo‘llashning ilmiy-uslubiy asoslari quyidagi jihatlar bilan izohlanadi:

1. Didaktik asos:

- Animatsion vizualizatsiya talabaning idrok qilish tezligini oshiradi, murakkab grafik obyektlarni bosqichma-bosqich tushunishga yordam beradi;
- O‘qitishning vizual va kinestetik kanallarini bir vaqtda faollashtiradi.

2. Metodik asos:

- O‘quv jarayoni modellashtirish, transformatsiya va animatsiya bosqichlariga bo‘linadi;
- Talaba mustaqil va nazorat ostida ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladi;
-Animatsion topshiriqlar loyiha ishlariga integratsiya qilinadi.

3. Psixologik-pedagogik asos:

- Talabalarda fazoviy tasavvur, mantiqiy va ijodiy fikrlash rivojlanadi;
- Animatsion topshiriqlar talabaning kognitiv faolligini oshiradi;
- O‘quv jarayoni motivatsion va interfaol shaklga ega bo‘ladi.

4. Texnologik asos:

- AutoCAD, Blender, SolidWorks kabi 3D dasturlar animatsion modellashtirish imkonini beradi;
- Unreal Engine yoki Unity platformalarida tayyor modellarni animatsion taqdim etish mumkin;
- Elektron resurslar Learning Management System (Moodle, Google Classroom) orqali masofaviy ta’limga integratsiya qilinadi.

Xulosa. Muhandislik grafikasi fanida animatsion elektron resurslardan foydalanish talabalarning fazoviy tafakkurini rivojlantirish, mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini shakllantirish va kasbiy kompetensiyalarini oshirishda muhim didaktik ahamiyatga ega. Zamonaviy o‘qitish jarayonida animatsion va interfaol resurslardan foydalanish o‘quv faoliyatining samaradorligini oshirib, talabalarda mustaqil va ijodiy fikrlashni shakllantirish imkonini beradi.

Ilmiy-uslubiy nuqtai nazardan bunday yondashuv quyidagi afzalliklarni ta’minlaydi:

Murakkab grafik obyektlarni tushunishni tezlashtirish.

Animatsion modellashtirish orqali fazoviy ob’ektlarning tuzilishi, qismlarining o‘zaro bog‘liqligi va harakatlanish ketma-ketligi vizual tarzda ko‘rsatib beriladi. Bu esa talabalarga proyeksiyalar, qirqimlar va konstruktsion elementlarning fazodagi joylashuvini tez va aniq idrok etish imkonini beradi.

Ijodiy va loyiha asosidagi fikrlashni rivojlantirish.

Dinamik vizualizatsiyalar va animatsiyalar talabalarda ijodiy yondashuvni kuchaytiradi, ularni o‘z loyihalarida mustaqil yechimlar topishga undaydi. Bu jarayon muhandislik grafikasi fanining amaliy ahamiyatini kuchaytirib, talabani kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlaydi.

O‘quv jarayonini interfaol va motivatsion shaklga keltirish.

Animatsion elektron resurslar, interfaol mashqlar va vizual modellar talabalarda fanga bo‘lgan qiziqishni oshiradi, o‘qituvchi va talaba o‘rtasida samarali muloqotni ta’minlaydi hamda o‘quv jarayonini ko‘proq ishtirokchi va faollashtirilgan shaklga keltiradi.

Nazariy bilimlarni amaliy modellashtirish orqali mustahkamlash.

Animatsion darsliklar va modellashtirish dasturlari talabalarga nazariy bilimlarni real grafik muhitda sinab ko‘rish imkonini beradi. Natijada, o‘quvchilar bilimlarni nafaqat o‘zlashtiradi, balki ularni amaliyotda mustahkamlashga erishadi.

Kelgusida ushbu metodikani SmartGraph Approach, VR/AR texnologiyalari, sun’iy intellekt asosidagi vizualizatsiya tizimlari bilan integratsiya qilish muhandislik grafikasi ta’limining sifatini sezilarli darajada oshiradi. Virtual va kengaytirilgan reallik muhitida talaba grafik ob’ektlarni real hajmda va barcha burchaklarda ko‘rish, ularni o‘zgartirish va modellashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Sun’iy intellekt bilan uyg‘unlashtirilgan tizimlar esa talabalarning xatolarini aniqlab, ularga shaxsiy ta’lim traektoriyasini taklif qilishi mumkin. Shunday qilib, muhandislik grafikasi fanida animatsion elektron resurslardan foydalanish, ularni interfaol texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish va yangi raqamli yechimlar bilan integratsiya qilish kelajakda ta’lim samaradorligini oshirishning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son qarori.
2. Anisimova L.N. Innovatsion pedagogik texnologiyalar va grafik tayyorgarlik. – Moskva, 2017.
3. Henning D. Non-linear Learning Structures in Engineering Education. – Berlin: Springer, 2019.
4. Johnson M., Lewis R. 3D Modeling and Animation in Engineering Education. – New York: Routledge, 2020.
5. Niyozmetova V.A. SmartGraph Approach metodikasining muhandislik grafikasi ta’limidagi o‘rni. – Toshkent, 2024.

FARG‘ONA VODIYSIDA TARQALGAN DIATOM SUVO‘TLARINING O‘RGANILISH TARIXI

H.A.Valiyeva
Namangan davlat universiteti, magistr
X.E.Ergasheva
Namangan davlat universiteti, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysida tarqalgan diatom suvo‘tlarining o‘rganilish tarixi haqida ma’lumotlar berildi. Diatom suvo‘tlari bo‘limi turlarining xilma-xilligi va tarqalishi jihatidan boshqa suvo‘tlari ichida yetakchi o‘rinda turadi. Ularning vakillari chuchuk suv va dengizlarda, ayniqsa dengiz tubidagi loyqada, suv o‘simliklari va toshlar, nam va boshqa joylarda o‘sadi. Hayvonlarga oziq bo‘ladi. chuchuk va sho‘r suvlardan tashqari tuproqda, namlanib turadigan qoyatoshlarda, suv sachratqilarida, ham keng tarqalgan.

Kalit so’zlar: Diatom, kokkoid, Qayroqqum, Chortoqsoy, Bacillariophyta

Abstract: In this article, information was provided with information on the history of study of alternations of the diotomic past in the Fergana valley. The Diversity and other altitude of diotomic past species leader in terms of diversity and spread. Their representatives grow in the fresh water and seas especially muddy, plants, stones, humid and other places. They will be Food for animals. Apart from in fresh and salted water, they were widespread in demanded rocks, waters.


Keywords: Diatom, coccoid, Kairakkum, Chartoksoy, Bacillariophyta

Аннотация: В статье приводятся сведения об истории изучения диатомовых водорослей, широко распространенных в Ферганской долине. Отдел диатомовых водорослей занимает ведущее место среди других водорослей по видовому разнообразию и распространению. Их представители произрастают в пресных водах и морях, особенно в иле морского дна, на водных растениях и камнях, во влажных и других местах. Они служат пищей для животных. Помимо пресной и соленой воды, они также широко распространены в почве, на влажных камнях, в брызгах воды.

Ключевые слова: Диатомовые водоросли, кокковидные водоросли, Кайраккум, Чартоксой, Диатомовые водоросли

Kalit so’zlar: Diatom, kokkoid, Qayroqqum, Chortoqsoy, Bacillariophyta.

Hozirgi kunda dunyoda, dolzarb muammolardan biri - bioxilma-xillikni saqlash, uning kamayib borishi bilan bog'liq bo'lgan muammolarni yechimini topish va mavjud holatni barqaror rivojlanish asosi sifatida saqlab qolish hisoblanadi. Yurtimizda bioxilma-xillikni saqlab qolish quruqlikda o'sadigan yuksak o'simliklardan tashqari suvda o‘sadigan tuban o‘simliklarni ham e’tibordan chetda qoldirmaslik zarur bo‘lib , buning uchun yuqori darajada tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda. Diatom suvo‘tlari bugungi kunda eng muhim suv mikroorganizmlari qatoriga kiradi: ular dengiz va chuchuk suv ekotizimlaridagi planktonda ham, cho'kindilarda ham juda ko'p va ular fotosintetik bo'lganligi sababli dengiz organizmlari uchun muhim oziq-ovqat manbai hisoblanadi. Ba'zilari hatto tuproqda yoki nam moxlarda ham bo'lishi mumkin. Bundan tashqari diatom suvo'tlar bioindikator vazifasini ham bajaradi. Markaziy Osiyoning yarim qurg‘oqchil mintaqalari daryolarining ekologik sharoiti (yuqori loyqalik, antropogen ta’sir, tartibga solinadigan suv iste'moli, ekinlarni sug'orish uchun drenaj kanallari) suv o'tlarining rivojlanishi uchun noqulaydir[4].



1-rasm.Chortoq suv ombori

Diatom suvo'tlari bir hujayrali, koloniya hosil qilgan, mikroskopda ko'rsa bo‘ladigan, sariq yoki biroz qo'ng'ir, faqat kokkoid tuzilmali hisoblanadi. Hujayrasi qumtosh moddadan tashkil topgan, qattiq shaffof sovut bilan qoplangan bo'lib, o'lchamlari 4 mkm dan to 2 ming mkm gacha boradi. Bu bo‘lim suvo'tlari 25 ming turlarni birlashtiradi. Suvo't hujayrasining shakli diatom suvo'tlari sistematikasining asosi hisoblanadi. Suvo't 2 qism - epiteka va gipotekadan iborat. Epiteka biroz yirikroq, u gipotekani qopqoqdek qoplab turadi. Epiteka yassi, yoki biroz qavariq gipovalva va epivalva va uni atrofidan o'rab turadigan gardish - epitsingulldan iborat. Gipoteka ham epitekaga o'xshab gipoval'va va aylanma gipotsingulldan iborat. Sovutning shakli turlicha, u epiteka va gipoteka pallaning tuzilishi bilan belgilanadi[5].

Bugungi kungacha Farg‘ona vodiysida olib borilgan asosiy tadqiqot ishlarini 3 yo’nalishga bo’lish mumkin;O‘simliklar qoplamini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar .

Floristik yo‘nalishdagi tadqiqotlar .

Tuban o‘simliklar bo‘yicha tadqiqotlar .

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda algologiya fanini rivojlantirish, suv o‘tlari florasining biologik xilma-xilligiga antropogen omillarning ta’sirini o‘rganish, suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan amaliy foydalanishga katta e’tibor qaratilmoqda [3]. Suvo’tlarni o’rganish bo’yicha O‘zbekstonda dastlabki tadqiqotlar o'tgan asrning 60-80-yillarida Musaev (1960), Muzafarov(1965),Ergashev(1974) lar tomonidan olib borilgan bo‘lib, suv havzalaridagi suvo‘tlarni bioekologiyasi, tur tarkibi keng yoritib berilgan. O‘zbekistonning turli tabiiy suv havzalarining suv o‘tlari florasi asosan Xabibullaev, Xalilov(1978), Ergashev(1979) lar tomonidan o’rganilgan. O‘rta Osiyoning sun’iy suv havzalari — suv omborlarida Xalilov (1976), Temirov(1995) tomonidan keng ko’lamli tadqiotlar amalga oshirilgan. O‘zbekistonda suv havzalarining suv o‘tlari florasini inventarizatsiya qilish bo‘yicha ishlarning tiklanishi bilan bog‘liq (Temirov, 1995; Alimjonova, 2005). Suv o'tlarining taksonomik xilma-xilligidagi mavsumiy o'zgarishlar suv havzalarining algoflorasini o'rganishda katta ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda Farg‘ona vodiysi hududida tuban o‘simliklar (suvo‘tlari) ustida bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari bajarildi. Y.Sh.G‘afforov o‘z tadqiqotlarida birinchi marta Namangan viloyatining yuksak o‘simliklarida tarqalgan mikromitsetlarning turlar tarkibini aniqlagan, hamda taksonomik tahlilini amalga oshirgan. Shuningdek, mikromitsetlarning morfo-biologik, ekologik va xo‘jayin o‘simliklarga moslashish xususiyatlarini, tik mintaqalar va fasllar bo‘yicha rivojlanish qonuniyatlarini o‘rgangan [1]. M.M. Iminovaning Farg‘ona

vodiysi makromitsetlarning (O‘zbekiston Respublikasi hududidagi) mavzusidagi tadqiqot ishida Farg‘ona vodiysidagi makromitsetlarning tur tarkibini aniqlash, ularni taksonomik tahlil qilish, bioekologik xususiyatlarini va tarqalish qonuniyatlarini o‘rganish asosiy maqsad sifatida belgilangan [2].

X.E. Ergasheva Farg‘ona vodiysi suv omborlari ya’ni Andijon suv omboridan 418 tur, Eskiyer suv omboridan 267 tur va Karkidon suv omboridan 186 turni qayd etib, Andijon suv ombori algoflorasi tarkibida O‘zbekiston algoflorasi uchun ilk bor 10 ta yangi turni aniqlagan. Suv omborlarida suvo‘tlarining turlar soni jihatidan eng ko‘p uchrashi yozda 346 tur, shundan Bacillariophyta bo’limiga 78 ta tur, jami turlarni 22.5 % ini, bahorda 306 tur, shundan Bacillariophyta bo’limiga 95 ta tur, jami turlarni 31% ini, kuzda 301 tur shundan Bacillariophyta bo’limiga 94 ta tur, jami turlarni 31.3 % ini, qishda esa jami 73 tur shundan Bacillariophyta bo’limidan 28 ta tur qayd qilingna bo’lib umumiy turlarni 38.4 foizini tashkil qilganligini ko’rish mumkin[7].

Navbatdagi tadqiqot ishi M.P. Yuldashevaning “Shohimardonsoy-Marg‘ilonsoy algoflorasi” mavzusidagi tadqiqoti bo‘lib Shohimardonsoy-Marg‘ilonsoy algoflorasi turlar tarkibini aniqlash va suvining ekologiya-sanitariya holatini baholashda indikator-saprob turlarning ahamiyatini asoslashga qaratilgan .

Ishning ilmiy jihatidan ahamiyatli tomoni shundaki, ilk marta daryo algoflorasi turlar tarkibining oqim bo‘ylab tarqalishi aniqlangan va daryoning yuqori, o‘rta va quyi oqimlar algoflorasi qiyosiy o‘rganilgan[6].

Tuproq suv o‘tlari bo‘yicha Farg‘ona vodiysidagi ilk tadqiqot ishi O.G‘. Xusanovaga tegishli bo‘lib, tadqiqotchi shimoliy Farg‘ona tik mintaqalari tuproq yuza qatlamlarida tuproq suvo‘tlarining tarqalish xususiyatlarini o‘rgangan[8].

Y.A.To’xtaboyeva tomonidan olib borilgan tadqiqot ishida Farg‘ona vodiysi asosiy tip tuproqlarining algoflorasi o‘rganilgan . Ushbu tadqiqot ishida 159 tur va tur xillari (6 bo‘lim , 9 ta sinf , 19 tartib, 45 oila , 66 turkum) aniqlangan [6].

Mamasoliyev S.T tomonidan “Shahar ekosistemalarining tuproq suvo‘tlari (Andijon shahri misolida)” mavzusidagi tadqiqoti Andijon shahar ekosistemalarining tuproqlarida tarqalgan suvo‘tlar tarkibini aniqlash asosida hududning ekologik holatini baholashga qaratilgan. Tadqiqotchi tomonidan Andijon shahri tuproqlarida tarqalgan suvo‘tlar algoflorasining turlar tarkibini aniqlangan, ularning taksonomik tahlilini amalga oshirilgan[3]. Farg’ona vodiysida amalga oshirilgan suvo’tlarni o’rganish malum hududlarda amalga oshirilgan bo’lib Sirdaryo, Katta Namangan kanali hamda Chortoq suv omborlarida yetarli tadqiqotlar o’tkazilmagan. Chortoq suv ombori - Namangan viloyatida Chortoqsoy daryosi o‘zanida qurilgan suv ombori. Daryo suvini mavsumiy tartibga soladi. 1-navbati 1975-yilda qurib tamomlangan. To‘liq hajmi 30 mln. m^3, to‘g‘oni balandligi 37 m, maksimal suv o‘tkazish imkoniyati 50 m^3/sek. Namangan viloyatidagi Chortoq, Uchqo‘rg‘on tumanlaridagi ekinzorlarning suv ta’minotini yaxshilash imkoniyatini beradi (1-rasm). Ushbu hududlarni floristik tarkibi to‘liq aniqlanmagan . Shuning uchun hozirgi kunda ushbu hududlarda tadqiqot ishlari amalga oshirib kelinmoqda. Hududda bahor,yoz,kuz,qish mavsumlarida o’rganish ishlari amalga oshirilmoqda.

Xulosa. Hozirgi kunda suvo’tlar ekosistemaning asosiy bo’gini hisoblanib suv tarkibini kislorod bilan boyitishdan tashqari, suv hayvonlari uchun ham asosiy oqsilli ozuqa hisoblanadi. Suvo‘tlar ichida diatom suvo’tlari keng tarqalgan bo’lib, odatda o'rganish uchun boshqa suvo’tlari orasida eng qiyinlaridan biri hisoblanadi. Chunki bu diatomlar boshqa suv o'tlari orasida eng nozik ko'rsatkichlarga egadir. Shuning uchun ushbu suvo’tlarni organish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'afforov Y.Sh. Namangan viloyati qon tomir o'simliklarining mikromitsetalari: Konventsiya. Biologiya fanlari dissertatsiyasi. – Toshkent, 2005 – 21 b.

2. Iminova M.M. Farg‘ona vodiysi makromitsetlari: Biol. fan. nom. diss. avtoreferati. – Toshkent, 2009. – 20 b.

3. Mamasoliyev S.T. Shahar ekosistemalarining tuproq suvo‘tlari (Andijon shahri misolida). Biol. fan. bo‘yicha falsafa (PhD) doktori diss. ... avtoreferati. Namangan, 2019.44 b.

4. Qulmatov, R.; Opp, C.; Groll, M.; Qulmatova, D. Transchegaraviy Zarafshon daryosining suv sifatini baholash. O'zbekiston hududi. J. Suv resurslari. Prot. 2013:B.5, 17–26.

5. Sh.J.Tojiboyev, N.Qarshiboyeva. Mikologiya, algologiya . Jizzax-2024:B.97

6. To‘xtaboyeva Y.A. Farg‘ona vodiysi asosiy tip tuproqlarining algoflorasi. Biol. fan. bo‘yicha falsafa (PhD) doktori diss. .avtoreferati. Namangan, 2019.44 b.

7. X.E.Ergasheva. Andijon suv ombori (O‘zbekiston Respublikasi) algofloralari turlar tarkibidagi mavsumli o‘zgarishlar. ISSN 2413-5984 (Onlayn). Algologiya. 2017, 27(2);B.180—189

8. Xusanova O.G‘. Shimoliy farg‘ona vodiysi tik mintaqalari tuproq yuza qatlamlarida tuproq suvo‘tlarining tarqalish xususiyatlari. Biol. fan. bo‘yicha falsafa (PhD) doktori diss. ... avtoreferati. – Toshkent. 2019. – 20 b.

9. Yuldasheva M. Shohimardonsoy-Marg‘ilonsoy algoflorasi. Biol. fan. bo‘yicha falsafa (PhD) doktori diss. avtoreferati.. Namangan, 2020. 44 b.

O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA SHEKSPIR MEROSINI O‘RGANISH AN’ANALARI

Sh.R.Maxamadjonova
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
“New Fergana school” xususiy maktabi o‘qituvchisi

Annotatsiya Ushbu tezisda o‘zbek adabiyotshunosligida Uilyam Shekspir ijodiy merosining o‘rganilishi, uning asarlarining tarjima qilinishi va o‘rganilishi bilan bog‘liq an’analar tadqiq etiladi. Shekspir ijodining o‘zbek adabiyotiga ta’siri, o‘zbek olimlari tomonidan bu sohada olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlil qilinadi. Shuningdek, Shekspir asarlari tarjimalarining o‘ziga xos xususiyatlari, xususan, Cho‘lpon, G‘afur G‘ulom, Maqsud Shayxzoda kabi ijodkorlarning tarjima mahorati ko‘rib chiqiladi. So‘nggi yillarda Jamol Kamolning bevosita ingliz tilidan qilgan tarjimalari alohida e’tiborga olinadi. Tadqiqotda Shekspir asarlarining o‘zbek milliy madaniyati va adabiy tafakkuri bilan uyg‘unlashuvi masalalari ham tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Shekspir, o‘zbek adabiyotshunosligi, tarjima, teatr, an’ana, adabiy ta’sir, retsepsiya, Cho‘lpon, Jamol Kamol, sahna talqini.

Аннотация В данном тезисе исследуются традиции изучения творческого наследия Уильяма Шекспира в узбекском литературоведении, связанные с переводом и постановкой его произведений. Анализируется влияние творчества Шекспира на узбекскую литературу и театральное искусство, а также научные изыскания узбекских ученых в этой области. Рассматриваются особенности переводов произведений Шекспира, в частности, переводческое мастерство таких творцов, как Чулпан, Гафур Гулям, Максуд Шайхзаде. Особое внимание уделяется переводам Джамала Камала, выполненным непосредственно с английского языка. В исследовании также анализируются вопросы гармонизации произведений Шекспира с узбекской национальной культурой и литературным мышлением.

Ключевые слова: Шекспир, узбекское литературоведение, перевод, театр, традиция, литературное влияние, рецепция, Чулпан, Джамал Камал, сценическая интерпретация.

Abstract This thesis examines the traditions of studying the creative heritage of William Shakespeare in Uzbek literary criticism, focusing on the translation and staging of his works. The influence of Shakespeare's creativity on Uzbek literature and theater art, as well as the scientific research of Uzbek scholars in this field, are analyzed. The peculiarities of the translations of Shakespeare's works are considered, in particular, the translation skills of such creators as Cholpon, Gafur Gulam, and Maqsud Shaykhzada. Special attention is paid to the translations of Jamol Kamol, made directly from the English language. The study also analyzes the issues of harmonizing Shakespeare's works with Uzbek national culture and literary thinking.

Keywords: Shakespeare, Uzbek literary criticism, translation, theater, tradition, literary influence, reception, Cholpon, Jamol Kamol, stage interpretation.

Kirish. Jahon adabiyotining eng yorqin siymolaridan biri, buyuk ingliz dramaturgi Uilyam Shekspir ijodiy merosi asrlar osha o‘zining badiiy-estetik qimmatini yo‘qotmay, dunyo xalqlari ma’naviy mulkining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Uning asarlari turli tillarga tarjima qilinib, jahon teatrlari sahnalarida qayta-qayta jonlanmoqda va adabiyotshunoslikning turli yo‘nalishlarida chuqur tadqiq etilmoqda. O‘zbekistonda ham Shekspir ijodiga bo‘lgan qiziqish uzoq va boy tarixga ega bo‘lib, bu borada o‘ziga xos tarjima, sahna va tadqiqot an’analari shakllangan.

O‘zbek adabiyoti va madaniyatining Shekspir ijodi bilan tanishuvi XX asrning boshlariga to‘g‘ri keladi va bu jarayon bir necha muhim bosqichlarni bosib o‘tdi. Dastlab jadid ma’rifatparvarlari tomonidan

namoyon bo‘lgan qiziqish keyinchalik professional tarjimonlik maktabining shakllanishi, o‘zbek teatr san’atining yuksalishi va adabiyotshunoslikda shekspirshunoslikning alohida yo‘nalish sifatida rivojlanishiga zamin yaratdi. Ushbu tezisda o‘zbek adabiyotshunosligida Shekspir merosini o‘rganish an’analarini tizimli tahlil qilish, uning asosiy yo‘nalishlari, yutuqlari va kelajakdagi vazifalarini belgilash maqsad qilingan. Tadqiqotning dolzarbligi o‘zbek-ingliz adabiy aloqalarining yangi bosqichida Shekspir ijodining o‘rganilishini qayta baholash, tarjima amaliyotidagi zamonaviy yondashuvlarni tahlil qilish va o‘zbek shekspirshunosligining jahon adabiyotshunosligidagi o‘rnini belgilash zarurati bilan izohlanadi.

O‘zbekistonda Shekspir ijodining retsepsiyasi, avvalo, uning asarlarini tarjima qilish bilan chambarchas bog‘liqdir. Tarjima jarayoni o‘zbek adabiyotiga yangi g‘oyalar, obrazlar va badiiy shakllarning kirib kelishiga xizmat qildi. Bu jarayonni shartli ravishda ikki katta davrga ajratish mumkin: bilvosita (asosan, rus tili orqali) tarjimalar davri va bevosita (ingliz tilidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri) tarjimalar davri.

O‘zbekistonda Shekspir asarlarini tarjima qilish tarixi 1930-yillardan boshlanadi.[10. 2006:B.8] Bu davrda o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalari Shekspir dramaturgiyasiga murojaat qildilar. Jadid adabiyotining yetakchi vakillaridan biri Abdulhamid Cho‘lponning 1934-yilda "Hamlet" tragediyasini rus tilidan o‘zbek tiliga qilgan tarjimasi bu boradagi ilk va eng yorqin tajribalardan biridir. Cho‘lpon tarjimasi nafaqat Shekspir dahosini o‘zbek kitobxoniga tanitdi, balki o‘zbek adabiy tilining imkoniyatlarini kengaytirdi va tarjima san’atining shoh asari sifatida e’tirof etildi. U Kanshinning nasriy tarjimasiga asoslangan bo‘lsa-da, Shekspirga xos ehtiroslar bo‘roni, fikr teranligi va she’riy parvozni yuksak mahorat bilan ifodalab bera olgan.[12. 2009:B.5]

Cho‘lpon boshlab bergan bu an’anani keyinchalik G‘afur G‘ulom ("Otello", "Qirol Lir"), Maqsud Shayxzoda ("Hamlet", "Romeo va Julyetta", sonetlar), Uyg‘un, Yashin, Turob To‘la, Qudrat Mirmuhamedov kabi atoqli shoir va yozuvchilar davom ettirdilar.[12. 2009:B.4] Ular asosan rus tilidagi tarjimalarga tayangan holda ish ko‘rgan bo‘lsalar-da, asarning ruhiyatini, g‘oyaviy-falsafiy mazmunini, qahramonlarining murakkab ichki dunyosini saqlab qolishga intilganlar. Maqsud Shayxzodaning 1948-yilda amalga oshirgan "Hamlet" tarjimasi Cho‘lpon tarjimasidan keyingi eng mashhur o‘girish bo‘lib, u ham o‘zbek kitobxonlari orasida keng tarqalgan.[5. 2019:B.12] G‘ofur G‘ulomning "Otello" tarjimasi ham o‘zining serjilo tili, obrazlarning yorqinligi bilan ajralib turadi. Ushbu tarjimalar o‘zbek adabiyoti va teatrining rivojida muhim bosqich bo‘ldi, milliy adabiyotni jahon adabiyoti durdonalari bilan boyitdi.[4. 2014:B.15]

XX asrning so‘nggi choragidan boshlab o‘zbek tarjimashunosligida yangi davr boshlandi. Bu davr Shekspir asarlarini bevosita asl nusxadan, ya’ni ingliz tilidan o‘girish bilan xarakterlanadi. Bu borada O‘zbekiston xalq shoiri Jamol Kamolning xizmatlari beqiyosdir. U Shekspirning o‘nlab pyesalarini, jumladan "Hamlet" (1991), "Otello", "Qirol Lir", "Makbet" kabi shoh asarlarini hamda bir qancha sonetlarini ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qildi. Jamol Kamol tarjimalarining asosiy afzalligi shundaki, u asl nusxaning nafaqat mazmun-mohiyatini, balki uning she’riy ohangini, ritmini, obrazlar tizimi va tilining o‘ziga xos xususiyatlarini imkon qadar to‘liqroq saqlashga erishgan. Uning tarjimalari o‘zbek shekspirshunosligida yangi sahifa ochdi va avvalgi bilvosita tarjimalar bilan qiyosiy o‘rganish uchun boy material berdi.[12. 2009:B.3] Olim Muhammadjon Xolbekov ta’kidlaganidek, Jamol Kamol tarjimalari Shekspir asarlarining o‘zbek tilidagi nashrlarida adibning ism-sharifini “Uilyam Shekspir” tarzida to‘g‘ri qo‘llash an’anasini ham boshlab berdi.[12. 2009:B.3] Uning mehnati bilan Shekspirning uch jildlik asarlar to‘plami nashr etildi, bu mustaqillik davri o‘zbek adabiyotining muhim voqealaridan biri bo‘ldi.

Shekspir asarlarining tarjima qilinishi bir qatorda, uning ijodini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganishga ham katta e’tibor qaratildi. O‘zbek adabiyotshunosligida Shekspir ijodiga bag‘ishlangan qator monografiyalar, risolalar va ilmiy maqolalar yaratildi. Bu sohadagi dastlabki izlanishlar asosan Shekspir asarlari tarjimalari tahlili va sahna talqinlariga bag‘ishlangan bo‘lsa, keyinchalik chuqurroq, qiyosiy-tipologik tadqiqotlar paydo bo‘ldi. O‘zbek olimlari Shekspir dramaturgiyasining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, uning jahon adabiyotidagi o‘rni, obrazlar tizimi, Renessans davri gumanistik g‘oyalarining asarlaridagi aksi kabi masalalarni tadqiq etdilar. Bu borada adabiyotshunos olim Sanjar Sodiqovning ilmiy faoliyatini alohida ta’kidlash lozim.[10. 2006:B.9] Uning tadqiqotlarida Shekspir ijodining o‘zbek adabiyotiga ta’siri, tarjima muammolari va qiyosiy adabiyotshunoslik masalalari chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, boshqa olimlar tomonidan Shekspir va Alisher Navoiy ijodini qiyosiy o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar ham mavjud.[10. 2006:B.10] Bunday tadqiqotlarda Sharq va G‘arb Uyg‘onish davri adabiyotining umumiyliklari va o‘ziga xosliklari, muhabbat, adolat, inson taqdiri kabi abadiy mavzularning ikki buyuk daho ijodidagi talqini qiyoslanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o‘zbek adabiyotshunosligida Shekspir merosini o‘rganish bo‘yicha qariyb bir asrlik boy va serqirra an’ana shakllangan. Bu an’ana bir nechta asosiy yo‘nalishlarda izchil rivojlanib kelmoqda. Cho‘lpon, G‘afur G‘ulom, Maqsud Shayxzoda kabi ulkan tarjimonlar tomonidan rus tili orqali boshlab berilgan an’ana, keyinchalik Jamol Kamolning bevosita ingliz tilidan qilgan tarjimalari bilan yangi, yuksak bosqichga ko‘tarildi. Bu tarjimalar o‘zbek adabiy tilini boyitdi va milliy adabiyotni jahon adabiy jarayonlariga yaqinlashtirdi. O‘zbek olimlari ham Shekspir ijodini turli jihatlardan – tarjimashunoslik, teatrshunoslik, qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganib, salmoqli ilmiy asarlar yaratdilar. Sharq va G‘arb adabiyoti o‘rtasidagi tipologik umumiyliklarni tadqiq etishga qaratilgan izlanishlar alohida ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Bugungi kunda o‘zbek shekspirshunosligi o‘z rivojining yangi bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Shekspir asarlarini zamonaviy adabiyotshunoslik metodologiyalari asosida chuqurroq o‘rganish, uning ijodini yangicha talqin qilish, bevosita tarjimalar sonini yanada ko‘paytirish va ularning sifatini oshirish kelajakdagi muhim vazifalardan hisoblanadi. Bu esa o‘zbek madaniyatining jahon ma’naviyati xazinasiga qo‘shgan va qo‘shayotgan hissasini yanada yaqqolroq namoyon etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. *Frontline Social Sciences and History Journal*. (2024). Reflections on the analysis of Shakespeare's works translations in Uzbekistan.
2. *inLibrary*. (2025). Stylistic features of Shakespeare's tragedies and their reflection in Uzbek translations.
3. *inLibrary*. (2025). The role of cultural context in translating Shakespeare's dramas into Uzbek.
4. Ismatova, Y. (2014). *Shekspirning "Otello" tragediyasi asliyatdan tarjimasi tahlili (Jamol Kamolov tarjimalari asosida)*. Samarqand davlat chet tillar instituti.
5. "Jahon adabiyotshunosligida Uillyam Shekspir tragediyalarining talqini". (2021). *Universal Publishings*.
6. Karimov, N. (2020). Uilyam Shekspir (1564-1616). *Teletype*.
7. Komilov, N. (1996). *Tasavvuf. Birinchi kitob*. Toshkent: Yozuvchi.
8. "O‘zbek adabiyoti". Maqola. – *Vikipediya*.
9. *ResearchGate*. (2023). Shakespeare in Uzbekistan. Comments to Uzbek translations of Shakespeare's sonnets.
10. Sodiqov, S. (2006). *Yangi o‘zbek adabiyoti tarixi*. Toshkent.
11. Sodiqov, S. (2008). *Roman va tanqid*. Toshkent.
12. Xolbekov, M. (2009). Shekspir bepoyon. *Ziyouz.com*.
13. Shekspir, U. (1983). *Tanlangan asarlar. 5 jildlik*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.
14. Shekspir, U. (2007). *Saylanma. 3 jildlik*. (J. Kamol tarjimasi). Toshkent: "Fan" nashriyoti.
15. Sharafiddinov, O. (1990). Cho‘lpon — tarjimon. *Ziyouz.com*.
16. Yusupova, S. Sh. (2023). Shekspirning asar qahramoni sifatida o'zbek adabiyotidagi talqini. *Science and Education*.

XOREOGRAFIYANING PAYDO BO‘LISHI VA MUSIQALI TEATRDAGI O‘RNI

L.Fazliyeva
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
mustaqil izlanuvchisi Laylo Fazliyeva

Annotatsiya: Ushbu maqolada xoreografiyaning tarixi va rivojlanishi, uning spektakldagi o‘rini muximligi haqida so‘z boradi. Spektakldagi raqs orqali jozibasi bilan tomoshabinni o‘ziga tortadi va vizual ta’sir ko‘rsatadi. Xoreografiya nafaqat raqs harakatlaridan iborat, balki u musiqali teatrining vizual kompozitsiyasini ham tashkil qiladi. Bunda spektaklning umumiy qiyofasini yaratadi raqs orqali sahnani to‘ldirib, uni rang-barang va jonli qilib ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: raqs, harakat, sahna, spektakl, musiqa, xoreografiya, teatr, tarix, ijro, san’at, tomoshabin, qahramon.

Abstract: This article talks about the history and development of choreography, the importance of its place in the performance. Through the dance in the performance, it attracts the audience with its charm and makes a visual impact. Choreography consists not only of dance movements, but also forms the visual composition of musical theater. It creates the overall image of the performance by filling the stage with dance, making it colorful and lively.

Keywords: dance, movement, stage, performance, music, choreography, theater, history, performance, art, audience, character.

Annotatsiya: V dannoy statye govoritsya ob istorii i razvitii xoreografii, znachenii yeye mesta v spektakle. Cherez tanets v spektakle on privlekayet zriteley svoim ocharovaniyem i proizvodit vizualnoye vozdeystviye. Xoreografiya sostoit ne tolko iz tansevalnix dvijeniy, no i obrazuet vizualnuyu kompozitsiyu muzikalnogo teatra. On sozdayet obshiy obraz spektaklya, napolnyaya ssenu tansem, delaya yeye krasochnoy i jivoy.

Klyucheviye slova: tanets, dvijeniye, ssena, spektakl, muzika, xoreografiya, teatr, istoriya, spektakl, iskusstvo, publika, personaj.

Xoreografiya musiqali teatrning ajralmas qismidir va uning san’at va madaniyatni boyitishdagi ahamiyati katta. Xoreografiyaning tarixi va rivojlanishi u qachon paydo bo‘lgan degan savolga javob izlaymiz. Xoreografiya san’atning bir qismi bo‘lib, uning kelib chiqishi qadimgi zamonlarga borib taqaladi. Qadimiy sivilizatsiyalarda, xususan, Misr, Gretsiya va Hindistonda xoreografiyaning asoslari yaratilgan. Ushbu joylarda odamlar diniy marosimlar, bayramlar va saltanatlarda raqs san’atidan foydalanganlar. Xoreografiyani davrlar misolida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak uni uch qismga bo‘lib o‘rganish mumkin.

Qadimgi davrlarda xoreografiya

- Misr: Misrda raqslar diniy marosimlarda ahamiyat kasb etgan va ular xudolarga ibodat qilish maqsadida ijro etilgan. Misrda raqslar xudolarga ibodat qilish va diniy marosimlarda katta ahamiyatga ega bo‘lgan.
- Gretsiya: Gretsiyada raqslar teatr pyesalarida va sport musobaqalarida ko‘p qo‘llanilgan.
- Hindiston: Hindistonda raqs san’ati qadimdan mahalliy an’analarning bir qismi bo‘lib, u turli madaniy bayramlarda muhim o‘rin tutgan.

Renessans davrida xoreografiya. Renessans davrida xoreografiya Yevropa madaniyatida katta ahamiyat kasb etgan. Italyan va Fransuz saroylarida aristokratlar o‘rtasida raqs mahorati yuqori baholangan va zamonaviy xoreografiyaning asoslari aynan shu davrda yaratilgan.

Zamonaviy xoreografiya. Hozirgi kunda xoreografiya san’ati turli yo‘nalishlarda rivojlanib, musiqali teatrlar, balet va zamonaviy raqslarda keng qo‘llanilmoqda. Xoreografiya faqatgina teatr san’ati emas, balki jismoniy harakat orqali inson his-tuyg‘ularini ifoda etishning muhim vositasidir.

Xoregrafiyada mashxur ijodkorlarning o‘rni ham muhim hisoblanadi. Misol uchun Jorj Balanchin zamonaviy baletning eng mashhur xoreograflaridan biri hisoblanadi. U Nyu-York shahridagi Balet maktabini asos solgan va Nyu-York shahridagi Balet truppasiga rahbarlik qilgan. Uning neoklassik uslubi va musiqa bilan harakatlarni uyg‘unlashtirish mahorati uning asarlarini ajoyib qilib ko‘rsatadi. Bob Foss esa jaz raqsining eng ta’sirli xoreograflaridan biri hisoblanadi. Uning o‘ziga xos raqs uslubi dunyo bo‘ylab raqs studiyalarida qo‘llaniladi. U to‘rtta Akademiya mukofotiga nomzod bo‘lgan va "Kabare" filmi uchun rejissyorlik mukofotini olgan. Marius Petipa klassik baletning eng mashhur xoreograflaridan biri hisoblanadi. Uning "Aqqalar ko‘li", "Shelkunchik" va "Uyqudagi go‘zal" kabi asarlari dunyo bo‘ylab mashhurdir. Uning ijodiy mahorati va texnik aniqligi balet san’atini yangi darajaga olib chiqdi.

Musiqali teatrda xoreografiyaning roli. Xoreografiyaning spektakldagi ahamiyati va uning vizual effekti muhim hisoblanadi. Xoreografiya orqali g‘oyani yetkazish va obrazlarni yaratish zarur. Bunda raqs ijro etuvchi musiqani eshitadi va unga mos ravishda hatti-harakatga kirishadi. Raqsda qahramonlarning ichki dunyosi va his-tuyg‘ularini jismoniy harakat orqali ifoda etish orqali tomoshabinga ta’sir etadi. Xoreografiya spektaklda muxim o‘rin tutadi, chunki u tomoshabinni jozibasi bilan o‘ziga tortadi va vizual ta’sir ko‘rsatadi. Xoreografiya nafaqat raqs harakatlaridan iborat, balki u musiqali teatrining vizual kompozitsiyasini ham tashkil qiladi. Bunda Spektaklning umumiy qiyofasini yaratadi raqs orqali sahnani to‘ldirib, uni rang-barang va jonli qilib ko‘rsatadi. Raqqos yoki raqqosa harakat va dinamikani qo‘shish natijasida qahramonlarning harakatlarida dinamika yaratib, tomoshabinning diqqatini ushlab turadi. Emotsional ta’sirni kuchaytirish orqali esa xoreografiya yanada his-tuyg‘ularni chuqurroq yetkazishga yordam beradi va spektaklning emotsional ta’sirini kuchaytiradi.

Xoreografiya spektaklda musiqa orqali mazmunni, voqeani yetkazishda muhim rol o‘ynaydi, chunki u qahramonlarning harakatlari va raqslari orqali hikoyani tushuntirishga yordam beradi.

Harakat orqali hikoyani aytish: Har bir harakat va harakatlar to‘plami hikoyaning ma’lum bir qismini yoki voqealarni tasvirlaydi.

Qahramonlarning xususiyatlarini ko‘rsatish: Xoreografiya qahramonlarning xarakterlari va ularning rivojlanishini ifoda qilish uchun qo‘llaniladi.

Qarshilik va hamkorlik yaratish: Raqslar orqali qahramonlar o‘rtasidagi munosabatlar va ziddiyatlar ko‘rsatilishi mumkin.

Xoreografiya qahramonlarning ichki dunyosi va his-tuyg‘ularini ifoda etishning muhim vositasidir. Bu his-tuyg‘ularni jismoniy ifoda qilish, qahramonlarning harakatlari ularning his-tuyg‘ularini va holatlarini aniq ko‘rsatish, psixologik holatni ko‘rsatish, xoreografiya orqali qahramonlarning ichki kayfiyatlari va psixologik holatlari tasvirlash.

Xoreograflarning spektakllar yaratish jarayonidagi ba’zi bir muammolarni ham ta’kidlab o‘tish lozim. Ushbu jarayonda

1. Konsepsiya va mavzusi tanlanishi, rejalashtirilishi va spektaklning umumiy mavzusi tanlanishi zarur.
2. Har qanday spektaklga mos musiqani tanlash yoki maxsus musiqa yaratish kerak.
3. Raqqoslar tanlovi va ular bilan repetitsiya o‘tkazish muhim.
4. Sahna dizayni, dekoratsiyalar va liboslarni tayyorlash.

Xoreograflarning spektakllar yaratish jarayoni murakkab va ijodiylik talab etadi, shu bilan birga turli qiyinchiliklarga duch kelinadi. Lekin, natijada kelib chiqqan spektakl har doim ham mehnat va ijodning mevasi bo‘lib qoladi.

- Konsepsiya va g‘oyalar: Xoreograflar avval spektaklning umumiy konsepsiyasini va g‘oyalarini ishlab chiqadilar. Bu jarayonda ular turli manbalardan ilhom oladilar.
- Harakatlarni yaratish: Xoreograflar turli harakatlar va raqslar to‘plamlarini yaratish uchun turli texnika va uslublardan foydalanadilar.
- Repetitsiyalar: Xoreograflar raqschilar bilan birgalikda harakatlarni takrorlab, ularni takomillashtiradilar va spektaklning umumiy ko‘rinishini yaratishga harakat qiladilar.
- Musiqa va kostyumlar: Xoreograflar musiqa va kostyumlarni tanlab, ularni harakatlar bilan uyg‘unlashtiradilar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki spektakllarda raqsning o‘rni muhimligi, musiqali asarlarda raqsdagi xatti-harakat orqali mazmunni tomoshabiga yetkazish talabiga ahamiyat berish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navruzovna I. U. A perfect interpretation of the king and the poet on the musical theater stage //European Journal of Arts. – 2023. – №. 4. – С. 20-23.
2. Рақс нафис санъат тарихига бир назар. Р.Айтмирзаева. 2022 йил март. Oriental art and culture. Мақола.
3. ИБРАГИМОВА У. ТАРИХИЙ ШАХС ОБРАЗИНИ ЯРАТИШДА ТИЛ ВА НУТҚНИНГ АҲАМИЯТИ //Journal of Culture and Art. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 53-59.
4. Ибрагимова У. ЖОНЛИ СЎЗНИНГ САҲНАВИЙ ИФОДАВИЙЛИГИ //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2019. – №. 5.
5. Ибрагимова У. ЎЗБЕК МУСИҚАЛИ ДРАМАЛАРИДА САҲНА НУТҚИ МАСАЛАЛАРИНИНГ ТАЛҚИН ЭТИЛИШИ //Oriental Art and Culture. – 2024. – Т. 5. – №. 1. – С. 428-435.

KO‘PTILLILIKNING KOGNITIV JIHATLARI: PLURILINGVIZM VA MULTILINGVIZM O‘ZARO FARQI

Z.G.Qodirova
O‘zbekiston Milliy univertsiteti
Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ko‘ptillilikning kognitiv jihatlari tizimli ravishda tahlil etildi hamda plurilingvizm va multilingvizm tushunchalari o‘rtasidagi asosiy farqlarga to‘xtalingan.

Ko‘ptillilikning tafakkur, metalingvistik ong, muammolarni hal qilish qobiliyati va boshqa kognitiv jarayonlardagi ta’siri tahlil etilgan. Shuningdek, multikompetensiya, produktiv va reseptiv til ko‘nikmalari, lingua receptiva kabi atamalar asosida ko‘ptillilikning individual va ijtimoiy-lingvistik darajada namoyon bo‘lish shakllari tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: *ko‘ptillilik, bilingvizm, plurilingvizm, multilingvizm, kognitiv rivojlanish, multikompetensiya, metalingvistik ong, lingua receptive.*

Annotation. This article systematically analyzes the cognitive aspects of multilingualism and highlights the main differences between the concepts of plurilingualism and multilingualism. The impact of multilingualism on thinking, metalinguistic awareness, problem-solving skills, and other cognitive processes is analyzed. Also, the forms of manifestation of multilingualism at the individual and sociolinguistic levels are analyzed based on such terms as multicompetence, productive and receptive language skills, and lingua receptive.

Key words: *multilingualism, bilingualism, plurilingualism, multilingualism, cognitive development, multicompetence, metalinguistic awareness, lingua receptive.*

Аннотация. В данной статье систематически анализируются когнитивные аспекты многоязычия и выделяются основные различия между концепциями плюрилингвизма и мультилингвизма. Анализируется влияние мультилингвизма на мышление, металингвистическое восприятие, навыки решения проблем и другие когнитивные процессы. Анализируются формы проявления мультилингвизма на индивидуальном и социолингвистическом уровнях, используя такие термины, как мультикомпетентность, продуктивные и рецептивные языковые навыки и лингворецептив.

Ключевые слова: *мультилингвизм, билингвизм, плюрилингвизм, мультилингвизм, когнитивное развитие, мультикомпетентность, металингвистическое восприятие, лингворецептив.*

Bugungi kunda dunyo miqyosida yagona til so‘zlovchilaridan ko‘ra bir nechta tilda so‘zlasha oladigan insonlar soni ancha ko‘pdir. Bu holat globalizatsiya, migratsiya, texnologik taraqqiyot hamda madaniy aloqalarning kuchayishi natijasida yuzaga kelgan.


Bilingvizmga doir dastlabki ta’riflar keng ko‘lamli bo‘lmasdan, asosan monolingval (yagona tilga asoslangan) yondashuvlarga tayangan. Ushbu yondashuvga ko‘ra, shaxs bilingviz deb e’tirof etilishi uchun ikki tilni ona tiliga teng darajada mukammal egallagan bo‘lishi lozim, deb hisoblangan. Ammo shaxsni ikkinchi tilda ona tiliga teng darajada bilimga ega ekanligini aniqlash nihoyatda mushkul. Vaqt o‘tishi bilan bilingviz shaxsga oid ta’riflar ancha kengayib bordi. Jumladan, hozirda birinchi tildan boshqa tilda to‘rt ko‘nikmadan (so‘zlashish, tinglab tushunish, o‘qish va yozish) kamida bittasiga ega bo‘lgan har qanday shaxs yoki ikki va undan ortiq tilni nazorat qila oladigan har kim bilingviz hisoblanishi mumkin. Qolaversa, bilingvizmni aniq tarixiy, siyosiy va iqtisodiy kontekstlarda baholash lozim [Cook V., Bassetti B. 2010, 608]. 1980-yillarning oxiriga kelib, ilmiy adabiyotlarda bilingval shaxsni ikki alohida va mustaqil til kompetensiyalarining oddiy yig‘indisidan iborat emas, balki o‘ziga xos kognitiv va funksional birlik sifatida talqin etishga oid yondashuvlar shakllana boshladi. F.Grosjean ta’kidlaganide [Grosjean F. 2010, 250], bilingvizlarning til ko‘nikmalarini monolingval mezonlar asosida baholash noto‘g‘ri. Bunday monolingval asosdagi qarashlar bir nechta noto‘g‘ri tushunchalarning tarqalishiga olib keldi. F.Grosjean shuni ham qayd etadiki, bilingvizlar har ikki tilda barcha mavzular bo‘yicha bir xil darajada ravon gapira olmaydi, bilingvizlar har bir tilni turli maqsadlarda, turli suhbatdoshlar bilan, hayotlarining turli sohalarida qo‘llaydilar. Shu sababli, tilga bo‘lgan ehtiyoj va u ishlatiladigan soha asosida til bilish darajalari farqlanishi mumkin. Demak, bilingvizmni aniqlashda “ikkala tilda teng ravonlik” mezoniga emas, balki, Nega bilingvizlar bu tillarga muhtoj? Ular bu tillarni qanday qayta ishlaydi, tartiblaydi, o‘ylaydi? kabi savollarga e’tibor qaratish zarur.

Ko‘p tillilik ikki yoki undan ortiq tilni bilish emas, balki ularni turli kontekstlarda, madaniyatlararo muloqotda samarali tarzda qo‘llay olish qobiliyatidir [Edwards J. 2019, 135-162]. Jahonning ko‘plab mintaqalarida, xususan, Afrika, Osiyo va Yevropa davlatlarida ko‘p tillilik tabiiy hayot tarzining bir qismiga aylangan. Masalan, Hindiston, Nigeriya yoki Shvetsariya kabi davlatlarda, shuningdek, O‘zbekistonning ayrim hududlarida ham insonlar kundalik hayotda ikki yoki undan ortiq tildan foydalanadilar. Tillararo moslashuvchanlik shaxslar uchun nafaqat ijtimoiy va madaniy jihatdan, balki iqtisodiy imkoniyatlar nuqtayi nazaridan ham muhim afzalliklarni taqdim etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ko‘p tillilik nafaqat kommunikativ kompetensiyani oshiradi, balki kognitiv rivojlanish,

kreativlik va muammolarni hal qilish qobiliyatini ham yaxshilaydi [De Bot K. A. 2019, 3-18]. Shuningdek, tillarni o‘rganish jarayoni insonni boshqa madaniyatlarga nisbatan ochiqlik, bag‘rikenglik va empatiya bilan yondashishga undaydi. Ko‘p tillilik juda keng tarqalgan bo‘lib, mavjud tillar soni mustaqil davlatlar sonidan ancha ko‘p. Qolaversa, ko‘p tillilik migratsiya bilan bog‘liq, chunki muhojirlar o‘z ona tillari bilan birga yashayotgan mamlakatlarining tillarini ham biladilar. Shuningdek, globallashuv jarayoni ingliz tilining dunyo miqyosida boshqa tillarga nisbatan kengroq tarqalishiga sabab bo‘ldi hamda uni xalqaro muloqotda umumiy aloqa vositasi *lingua franca* sifatida qo‘llanishini ta’minlamoqda.

Ko‘p tillilik (multilingvizm) tilshunoslikda ijtimoiy-lingvistik hodisa sifatida izohlanadi. Bu tushuncha, ma’lum bir hududda yoki jamiyatda shaxslar yoki til jamoalari tomonidan bir nechta tillarning egallanishi, ulardan foydalanish yoki ularni erkin qo‘llay olish holatini anglatadi. Ko‘p tillilik faqat til bilish darajasi emas, balki tilga bo‘lgan ehtiyoj, ijtimoiy kontekst va kommunikativ vaziyat bilan ham bog‘liq bo‘lgan murakkab ijtimoiy-lingvistik jarayondir. Ayrim manbalarda individual ko‘p tillilikni ifodalash uchun *“plurilingualism”* (plurilingvizm) termini qo‘llaniladi. Biroq ilmiy adabiyotlarda ko‘proq tarqalgan va keng qo‘llaniladigan termin bu *“multilingualism”* (multilingvizm) bo‘lib, u nafaqat individual (mikro), balki ijtimoiy (makro) miqyosdagi ko‘p tillilik holatlarini ham qamrab oladi.

1-chizma. Plurilingvizm va multilingvizm farqlanishi



V. Kook bilingvizmga nisbatan dinamik yondashuvni ilgari suradi. Unga ko‘ra, bir inson ongida bir nechta tillarning mavjudligi faqat lingvistik doira bilan cheklanib qolmay, balki kognitiv faoliyatga ham ta’sir ko‘rsatadi [Cook V., Bassetti B. 2010, 608]. Ya’ni, bir nechta tildan faol foydalanadigan shaxsda “ko‘plik kompetensiyasi” (multicompetence) shakllanadi. Bu kompetensiya grammatik va leksik kategoriyalarning qabul qilinishi va qayta ishlanish usullariga, ayniqsa, tipologik jihatdan farq qiluvchi tillarda sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, bilingviz shaxs obyektlarni tasniflash yoki ranglarni ajratishda har ikki tilda ham monolingviz foydalanuvchilardan farq qilishi mumkin.

Zamonaviy tilshunoslikda ko‘p tillilik (multilingvizm) atamasi odatda ikki yoki undan ortiq tillarni o‘zlashtirishni ifodalash uchun keng qo‘llaniladi. Shu nuqtayi nazardan, bilingvizm (ikki tillilik) ko‘p tillilikning eng sodda va keng tarqalgan shakli sifatida qaraladi. Ya’ni, ko‘p tillilik umumiy kontsepsiya bo‘lib, uning ichida bilingvizm, trilingvizm (uch tillilik) kabi aniqroq shakllar mavjud.

Ilmiy adabiyotlarda uchinchi va undan ortiq tillarni o‘zlashtirish jarayoni alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganiladi, chunki bu holat ikki tillilik (bilingvizm)dan farqli ravishda yanada murakkab psixolingvistik, sotsiolingvistik hamda metodologik omillar bilan tavsiflanadi. Masalan, D.Gabrys-Barker o‘z tadqiqotlarida [Gabrys-Barker D. 2019, 208] trilingviz shaxslar tomonidan tilni egallash strategiyalari, tillararo interferensiya, kompetensiya darajalari va motivatsiyaning o‘zgaruvchan tabiati kabi omillarga alohida urg‘u beradi. Uchinchi tilni o‘zlashtirish ko‘pincha birinchi va ikkinchi tillar bilan murakkab o‘zaro ta’sirda shakllanadi va bu jarayonda kognitiv moslashuvchanlik muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ko‘p tillilikni o‘rganishda ijtimoiy-madaniy muhit, tilga bo‘lgan ehtiyoj va tillararo kompetensiya muvozanati kabi jihatlar asosiy tadqiqot obyektlariga aylangan. Bu holatlar ikki tillilikdan ko‘ra ko‘proq murakkablikni taqozo etadi va shuning uchun ko‘p tillilik alohida fenomen sifatida o‘rganiladi.

Ko‘p tillilik nafaqat til soni va kompetensiya darajasi, balki boshqa bir qator omillar, jumladan yosh faktori bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Yosh omili til o‘zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslar *simultal* (bir vaqtning o‘zida) va *sekvensial* (ketma-ket) ko‘p tillilikni farqlaydilar. Simultal ko‘p tillilikda bola bir necha tilni erta yoshda bir vaqtda o‘zlashtiradi, sekvensialda esa ularni ketma-ket ya’ni vaqt o‘tishi bilan, turli kontekstlarda egallaydi. S.Munoz va D.Singleton ta’kidlaganidek [Munoz S., Singleton D. 2019, 111-127], “yosh” atamasi turli ma’nolarda qo‘llanilishi mumkin. Biologik yosh (ya’ni odamning yoshi) yoki boshlang‘ich til ta’siri boshlangan yosh (ya’ni shaxs yangi til bilan ilk marta qanday yoshda tanishganligi) bo‘lishi mumkin. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, yosh omili har doim ham til o‘zlashtirish jarayonida mustaqil holatda emas, balki ijtimoiy, ta’limiy va madaniy kontekstlar bilan o‘zaro ta’sirda bo‘ladi. Masalan, bir tilni bolalikda o‘rganish yangi madaniyatga oson moslashuvni ta’minlashi mumkin, biroq bu doim ham yuqori kompetensiyaga olib kelavermaydi. Shuningdek, ko‘p tillilikni baholovchi boshqa muhim o‘lchovlarga quyidagilar kiradi:

Tillarning ishlatilish chastotasi – ya’ni, shaxs turli tillardan kundalik hayotda qanchalik tez-tez foydalanadi.

Ijtimoiy maqom – bu tilning jamiyatdagi nufuzi, rasmiy maqomi, ta’limda yoki ommaviy axborotda qo‘llanilish darajasidir.

Til tipologiyasi – tillar o‘rtasidagi grammatik, fonologik va leksik o‘xshashliklar yoki farqlarning mavjudligi.

J.Festman, aynan shu omillar ko‘p tillilikning individual va ijtimoiy darajadagi namoyon bo‘lish shakllarini belgilab berishini ta’kidlagan [Festman J. 2019, 113-130]. Demak, ko‘p tillilik murakkab, ko‘p o‘lchovli va ijtimoiy-lingvistik hodisa sifatida tushunilishi zarur.

Ko‘p tillilik tahlil qiluvchi muhim o‘lchovlardan biri *produktiv* (ishlab chiqaruvchi) va *reseptiv* (qabul qiluvchi) til ko‘nikmalari o‘rtasidagi farqdir. Til kompetensiyasining bu ikki turi tillardan foydalanishning turli daraja va shakllarini ifodalaydi. Produktiv kompetensiya – bu shaxs tildan faol tarzda, ya’ni og‘zaki yoki yozma nutq orqali ifoda etish qobiliyatidir. Reseptiv kompetensiya esa tilni tushunishga, ya’ni eshitilgan yoki o‘qilgan axborotni anglashga asoslanadi. So‘nggi yillarda tilshunoslikda *lingua receptiva* deb ataluvchi terminga alohida e’tibor qaratilmoqda [ten Thije, J. D., Rehbein, J., Verschik, A. 2017, 356]. Bu atama tilshunoslikda so‘zlashuvchilarning o‘zaro bir-birini tushunishga asoslangan muloqot shaklini anglatadi. Suhbatdoshlarning har biri o‘z ona tilida so‘zlasalar-da bir-birini tushuna oladilar. Bu holatda ular o‘z ona tilidan produktiv, boshqa tildan esa reseptiv darajada foydalanadilar. Lingua receptiva ayniqsa Skandinaviya mamlakatlarida (Shvetsiya, Daniya va Norvegiya) amaliy asosga ega. Mazkur hududlarda yashovchi fuqarolar o‘z tillarining o‘zaro o‘xshashligi sababli, turli tillarda muloqot olib borishga qodir. Masalan, daniyalik shaxs o‘z tilida so‘zlaydi, lekin norvegiyalik suhbatdoshi uni tushunadi va javobni o‘z tilida beradi. Bu ko‘p tillilikning funksional modeli bo‘lib, mintaqaviy til siyosati, madaniy yaqinlik va kommunikativ ehtiyojlar bilan bevosita bog‘liqdir. Shuningdek, produktiv va reseptiv ko‘nikmalar o‘rtasidagi tafovut ko‘p tillilikni tushunishda nafaqat lingvistik, balki sotsiolingvistik va psixolingvistik yondashuvlarni ham talab qiladi. *Lingua receptiva* til xilma-xilligini qo‘llab-quvvatlaydi, chunki bu holatda suhbatdoshlar faqat boshqalarning tilini tushunishlari kifoya qiladi va u tilda faol so‘zlashi nazarda tutilmaydi.

1960-yillargacha tilshunoslik va psixologiya sohalarida ko‘p tillilik, xususan bilingvizm (ikki tillilik), ko‘pincha salbiy baholangan. Ilmiy hamjamiyatda keng tarqalgan fikrga ko‘ra: *bir nechta tilni egallash bolaning kognitiv rivojiga – ayniqsa aql-zakovat va tilga oid qobiliyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi*, degan qarash mavjud edi. Ayniqsa, bu fikrlar og‘zaki so‘zlash qobiliyati, so‘z boyligi va akademik test natijalari orqali asoslantirilgan. O‘sha davrda o‘tkazilgan tadqiqotlarning ko‘pchiligi shuni ko‘rsatadiki: ko‘p tilli bolalar, ayniqsa muhojir yoki ozchilik tillarida so‘zlashuvchi maktab o‘quvchilari, bir tilli tengdoshlariga nisbatan pastroq natijalar ko‘rsatgan. Biroq keyingi ilmiy tahlillar ushbu xulosalarning ko‘pi metodologik jihatdan ishonchsiz bo‘lganini aniqladi.

Jumladan, *Sotsiolingvistik konteks e’tiborga olinmagan.* Tadqiqotlarda ishtirok etgan ko‘p tilli bolalarning birinchi tillari (masalan, mahalliy yoki muhojir tillar) ko‘pincha ijtimoiy jihatdan quyi maqomga ega bo‘lgan. Bu esa ularning o‘z tillarida erkin va mustahkam bilim olishiga, shu jumladan maktab tizimida ularga barobar sharoitlar yaratishga to‘sqinlik qilgan.

Ta’lim muhiti teng bo‘lmagan. Ko‘p tilli bolalarning maktabda foydalanadigan ikkinchi tili (odatda dominant til – masalan, ingliz, fransuz, rus va boshqalar) ularning asosiy muloqot tili bo‘lmagan. Shu sababli ular ta’lim olgan tilda o‘z fikrlarini to‘liq ifoda eta olmagan, bu esa test natijalariga salbiy ta’sir qilgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar hisobga olinmagan. Ko‘p tilli ishtirokchilarning aksariyati past ijtimoiy-iqtisodiy qatlamga mansub bo‘lib, ularning ta’lim resurslari, oila tomonidan berilgan ko‘mak va psixologik tayyorgarligi bir tilli o‘rta sinf vakillariga nisbatan ancha past bo‘lgan. Bu esa yuqori natijalarga erishishga ta’sir etgan.

Qiyoslash mezonlar noto‘g‘ri tanlangan. Tadqiqotlarda ko‘p tilli bolalarning test natijalari ko‘pincha bir tilli bolalar bilan bevosita qiyoslangan. Ammo bu taqqoslashlar ko‘pincha tillar, madaniyatlar, bilim olish shart-sharoitlari va shaxsiy tajribalarning farqliligi inobatga olinmagan.

1970-yillarga kelib bilingvizmga oid ilmiy qarashlarda tub burilish yuz berdi va ko‘p tillilik haqidagi ilgari mavjud bo‘lgan salbiy fikrlar asta-sekinlik bilan inkor etila boshlandi. Mazkur davrda olib borilgan tadqiqotlar, ayniqsa E.Peal va V.Lambertning tadqiqotlarida [Peal E., Lambert V.E. 1962, 1-23], ko‘p tillilikning kognitiv rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini asoslab berdi. Ular o‘z tadqiqotlarida nafaqat ko‘p tillilikning ijtimoiy va madaniy kontekstlarini batafsil o‘rganib chiqishdi, balki ijtimoiy-iqtisodiy farqlarni nazorat qilish uchun to‘g‘ri metodologiyani qo‘lladilar. E.Peal va V.Lambertning tadqiqotlari ko‘rsatdiki, ko‘p tillilik individning kognitiv moslashuvchanligini oshiradi, ya’ni u turli vaziyatlarda va yangi sharoitlarda tez va samarali javob bera oladi. Shuningdek, bilingvizlar metalingvistik ongga ega bo‘lib, til strukturalarini yaxshiroq anglash va tilda qo‘llaniladigan qoidalarni ongli ravishda tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu metalingvistik ong ko‘p tilli shaxslarning til va muloqot jarayonlariga yanada aniq yondashuvini ta’minlaydi. Bundan tashqari, ko‘p tillilik bilan shug‘ullanuvchilar muammolarni hal qilishda yuqori darajada kreativlik va moslashuvchanlik ko‘rsatadilar. Ular ikki yoki undan ortiq til tizimini boshqarish orqali diqqatni yo‘naltirish, e’tibor almashinish, va kognitiv nazorat kabi funksiyalarni rivojlantiradi. Shu sababli, bilingvizm nafaqat til bilish darajasining oshishi, balki kognitiv jarayonlarning yaxshilanishiga ham olib keladi. Bugungi kunda ko‘pgina tadqiqotchilar E.Peal va V.Lambertning ishlarini asos qilib olib, ko‘p tillilikni inson aqliy rivojida muhim omil deb hisoblaydilar va uning ijtimoiy, madaniy hamda kognitiv afzalliklarini yanada samarali o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda.

Bugungi kunda ko‘plab zamonaviy tadqiqotlarda ko‘p tillilikga salbiy hodisa sifatida qarash inkor etildi, aksincha kognitiv afzalliklar, ijodkorlik, e’tiborni boshqarish, kodlararo almashish, va hatto yoshga oid ong pasayishini sekinlashtirishda ham ijobiy rol o‘ynashi asoslandi. Mazkur yondashuvning asoslanishida muhim bosqichlardan biri E.Peal va V.Lambert tomonidan 1962-yilda olib borilgan tadqiqot hisoblanadi. Tadqiqotchilar Kanada maktablarida ikki tilli va bir tilli bolalar o‘rtasidagi kognitiv farqlarni sinchkovlik bilan o‘rgandilar. Ular o‘z izlanishlarida avvalgi tadqiqotlardan farqli ravishda ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, madaniy muhit va ta’lim imkoniyatlari kabi omillarni nazorat qilish orqali metodologik jihatdan ancha to‘g‘ri yondashuvni qo‘lladilar. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ikki tilli bolalar kognitiv qobiliyatga oid bir qator og‘zaki (verbal) va og‘zaki bo‘lmagan (noverbal) testlarda bir tilli tengdoshlariga nisbatan yuqori natijalar ko‘rsatishgan. Bu esa ko‘p tillilikni “bilimga to‘sqinlik qiluvchi omil” emas, balki, aksincha, kognitiv faoliyatni faollashtiruvchi resurs sifatida baholash zamin yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Cook V., Bassetti B. (eds.). Language and Bilingual Cognition. – New York: Psychology Press, 2010. – 608 p.
2. De Bot, K. A History of Applied Linguistics: From 1980 to the Present. – New York: Routledge, 2019. – 214 p.
3. Edwards, J. Multilingualism: Understanding Linguistic Diversity. – 2nd ed. – London: Bloomsbury Academic, 2019. – 312 p.
4. Festman J. Individual differences in multilingual development // In: Jessner-Schmid U., Kramsch C. (eds.) The Multilingual Challenge. – Berlin: De Gruyter Mouton, 2019. – P. 113–130.
5. Gabrys-Barker D. Multilingual Matters: Third Language Acquisition and Its Linguistic, Cognitive and Educational Aspects. – Bristol: Multilingual Matters, 2019. – 208 p.
6. Grosjean, F. Bilingualism: An Introduction / Françoise Grosjean. — 2010. — Cambridge, MA: Harvard University Press. — 250 p.
7. Li, W. (2018) ‘Translanguaging as a practical theory of language’, *Applied Linguistics*, 39: 9–30.
8. Munoz C., Singleton D. Exploring the second language learning potential of the young learner // Annual Review of Applied Linguistics. – 2019. – Vol. 39. – P. 111–127.
9. Peal, E., Lambert, W.E. The relation of bilingualism to intelligence // Psychological Monographs: General and Applied. — 1962. — Vol. 76, № 27. — P. 1–23.
10. ten Thije, J. D., Rehbein, J., Verschik, A. (Eds.). Receptive Multilingualism: Linguistic analyses, language policies and didactic concepts. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2017. – 356 p.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA INTEGRATSIYALASHGAN DARSLARNI LOYIHALASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

D.A.Qodirova
FarDU Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Ushbu maqolada fanlararo aloqadorlikni ta'minlaydigan darslarni samarali tashkil eta oladigan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash masalalari o‘rganilgan. Integratsiyalashgan yondashuv asosida dars loyihalash bo‘yicha nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar va reflektiv tahlil usullari tahlil qilingan. Pedagogik ta’lim yo‘nalishidagi talabalarni dars loyihalashga tayyorlashda innovatsion metodlarni qo‘llash samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Kalit so‘zlar: integratsiyalashgan ta’lim, fanlararo bog‘liqlik, dars loyihalash, pedagogik ko‘nikma, didaktik tizim, boshlang‘ich sinf, kompetensiyaviy yondashuv, o‘quv mazmuni uyg‘unligi, innovatsion dars modeli, o‘qituvchi tayyorgarligi.

Integratsiyalashgan darslarning asosiy mohiyati – bilimlarni ko‘p yo‘nalishli va tizimli yondashuv orqali taqdim etishdir. An’anaviy darslar bir fan doirasida, qat’iy chegaralarda olib borilsa, integratsiyalashgan yondashuvda o‘quvchi mavzuni turli fanlar bilan bog‘lab, kengroq, chuqurroq va hayotga yaqinroq anglaydi. Masalan, tabiatshunoslik darsida suv aylanishi haqidagi mavzu o‘rganilsa, unga bog‘liq ravishda matematika darsida hajm va o‘lchamlar hisobi, tasviriy san’at darsida suv manzaralarini yaratish, ona tili darsida esa suv haqidagi ertak yoki she’r yozish topshirig‘i orqali bog‘liqlik hosil qilinadi. Bu esa o‘quvchida mavzuni bir butun holatda idrok qilishga yordam beradi. Zamonaviy ta’limning asosiy maqsadi – o‘quvchini bilimlarni yodlab olishga emas, balki ularni tushunib, o‘z hayotida qo‘llay olishga o‘rgatishdir. Integratsiyalashgan darslar bu maqsadga xizmat qiluvchi eng muhim vositalardan biri bo‘lib, o‘quvchilarda fanlararo tafakkurni, tizimli yondashuvni va kompleks fikrlashni shakllantiradi. Ayniqsa, bu yondashuv shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim falsafasiga to‘la mos keladi.

Bundan tashqari, integratsiyalashgan darslar o‘quvchining o‘quvga nisbatan ichki motivatsiyasini oshiradi. U mavzuni faqat kitobdagi ma’lumot sifatida emas, balki turli sohalar bilan bog‘laydi, hayotiy misollarni ko‘radi va bu orqali o‘z bilimini boyitadi. O‘quvchi o‘z bilimlari orasidagi bog‘liqlikni anglab borar ekan, u bilim olish jarayonidan zavqlanadi va fikrlashga yanada faolroq kirishadi.

Integratsiyalashgan darslar o‘qituvchidan ham yangi yondashuv, keng tafakkur va puxta rejalashtirishni talab qiladi. Chunki darsni samarali tashkil etish uchun turli fanlar mazmunini uyg‘unlashtirish, mos metod va vositalarni tanlash, o‘quvchilar uchun qiziqarli hamda samarali bo‘lgan faoliyat turlarini ishlab chiqish kerak bo‘ladi. Bu jarayon o‘qituvchining kasbiy o‘sishini, innovatsion yondashuvga tayyorligini va ijodiy salohiyatini ham rivojlantiradi. Integratsiyalashgan darslar zamonaviy ta’limning ajralmas elementi bo‘lib, o‘quv jarayonining mazmunini chuqurlashtiradi, fanlararo bog‘liqlikni mustahkamlaydi, o‘quvchilarda kompleks dunyoqarashni shakllantiradi. Bu yondashuv orqali bilimlar sun’iy bo‘linishdan holi bo‘ladi va ta’lim haqiqiy hayotga yaqinlashadi.

Boshlang‘ich ta’lim – bu nafaqat o‘quvchilarga elementar bilimlar beriladigan bosqich, balki ularda tafakkur asoslari, dunyoqarash, o‘rganishga bo‘lgan munosabat shakllanadigan muhim davrdir. Shu sababli bu bosqichda qo‘llaniladigan pedagogik yondashuvlar nafaqat bilim darajasini, balki shaxsiy rivojlanish, fikrlash uslubi va o‘quvchining o‘zini anglash darajasini belgilaydi. Fanlararo yondashuv esa boshlang‘ich ta’limda o‘quvchining o‘rganish jarayonini mazmunli, yaxlit va hayotiy qilishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik yo‘nalish hisoblanadi.

Fanlararo yondashuv deganda bir necha fanlar o‘rtasida mazmun, faoliyat yoki metod jihatidan bog‘liqlik o‘rnatilgan holda ta’lim berish tushuniladi. Bu yondashuv o‘quvchilarni turli fanlar bo‘yicha mustaqil bilim egallashga emas, balki bu bilimlarni o‘zaro bog‘lab, bir butun shaklda qabul qilishga o‘rgatadi. Masalan, “Yoz fasli” mavzusi ona tili, atrof-muhit, matematika, rasm va texnologiya fanlarida turli burchaklardan yoritilishi mumkin. Bunday darslar bolalarning fikrini bir yo‘nalishda to‘plab, mavzuni har tomonlama anglashga yordam beradi.

Boshlang‘ich ta’limda fanlararo yondashuvning joriy etilishi nafaqat o‘quv dasturlarini boyitadi, balki o‘quvchilarni hayotga tayyorlovchi kompleks bilimlar tizimi bilan ta’minlaydi. Ushbu yondashuv boshlang‘ich sinfda darsni jonli, qiziqarli va mazmunli tashkil etish uchun qulay poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi ta’limda o‘qituvchidan shunchaki bilim beruvchi emas, balki o‘quv jarayonini puxta rejalashtiruvchi, shaxsiy yondashuvga asoslangan metodlarni tanlovchi va darsni natijador tashkil etuvchi

mutaxassis bo‘lish talab qilinmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida dars loyihalash ko‘nikmalarini shakllantirish — ularning kasbiy tayyorgarligidagi eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi.

Integratsiyalashgan ta’lim yondashuvi zamonaviy pedagogik konsepsiyalarning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ushbu darslarni muvaffaqiyatli loyihalash uchun nafaqat bir nechta fanlarni birlashtirish, balki ularni yagona mantiqiy zanjirga solish, o‘quvchilarda chuqur tushuncha hosil qilishga xizmat qiladigan metod va texnologiyalarni tanlash zarur. Metodik yondashuv va texnologiyalar tanlovi darsning umumiy maqsadiga, fanlararo mazmunning mohiyatiga va o‘quvchilarning qobiliyat darajasiga bevosita bog‘liq.

Integratsiyalashgan darslarni loyihalashda faqat fanlararo bog‘liqlik emas, balki har bir metod va texnologiyaning o‘quvchilarda qanday tafakkur, qiziqish va faoliyatni rag‘batlantirishi asos qilib olinadi. Bu esa dars mazmunini jonli, tizimli va hayotiy qiladi. Integratsiyalashgan darslarni samarali tashkil etish o‘qituvchidan puxta metodik tayyorgarlik, fanlararo bog‘liqlikni chuqur tahlil qilish, innovatsion yondashuvlarni amaliyotga joriy etish ko‘nikmasini talab qiladi. Darsni nafaqat rejalashtirish, balki uni didaktik jihatdan mantiqiy, o‘quvchi uchun qiziqarli va rivojlantiruvchi shaklda qurish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimova, V. (2008). Oila psixologiyasi. Fan va texnologiya, 18-19.
2. Qabilova E. The role of Azerbaijan classical music in forming the virtue of internationality in students //International journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2023. – T. 12. – №. 02. – C. 27-29.
3. Śliwerski, B. (2020). Pedagogika holistyczna. Problemy Wczesnej Edukacji, 16(2 (49)), 7-20.

INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ORQALI HAMSHIRALARDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

U.Sh.Ibodova
Osiyo xalqaro universiteti tayanch doktaranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy hamshiralik ta’limida kreativ fikrlash kompetensiyasini shakllantirish muammosi va uni hal qilish yo‘llari tahlil qilingan. Sog‘liqni saqlash tizimida hamshiralik amaliyotining murakkablashib borayotgani, klinik qaror qabul qilishda ijodiy yondashuv va muammolarni kreativ hal qilish ko‘nikmalarining dolzarbligi asoslab berilgan. Maqolada kreativ fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarning samarali metodlari, mashg‘ulot shakllari va baholash uslublari tizimli yoritilgan. Xususan, interfaol muhokamalar, kreativ loyihalar ishlab chiqish va reflektiv tahlil kabi faol metodlar hamshiralarning kasbiy kreativligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: hamshiralik ta’limi, kreativ fikrlash, innovatsion pedagogik texnologiyalar, simulyatsiya, gamifikatsiya, problema asosida o‘qitish, dizayn fikrlash.

Аннотация. В данной статье проанализированы проблемы формирования компетенции креативного мышления в современном сестринском образовании и пути их решения. Обоснована актуальность развития творческого подхода и навыков креативного решения проблем при принятии клинических решений в условиях усложнения практической деятельности медицинских сестер в системе здравоохранения. В статье системно освещены эффективные методы педагогических технологий, формы занятий и способы оценки, направленные на развитие компетенции креативного мышления. В частности, подчеркивается важность активных методов, таких как моделирование реальных клинических ситуаций, интерактивные обсуждения, разработка креативных проектов и рефлексивный анализ, в повышении профессиональной креативности медицинских сестер.

Ключевые слова: сестринское образование, креативное мышление, инновационные педагогические технологии, симуляция, геймификация, проблемно-ориентированное обучение, дизайн-мышление.

Annotation. This article analyzes the challenges of developing creative thinking competence in modern nursing education and explores effective solutions to address them. The increasing complexity of nursing practice within healthcare systems necessitates the cultivation of creative approaches and problem-solving skills in clinical decision-making. The article systematically highlights effective methods of

pedagogical technologies, forms of training sessions, and assessment techniques aimed at enhancing creative thinking competence. Special emphasis is placed on active learning methods such as simulation of real clinical situations, interactive discussions, development of creative projects, and reflective analysis, which play a crucial role in fostering professional creativity among nurses.

Keywords: nursing education, creative thinking, innovative pedagogical technologies, simulation, gamification, problem-based learning, design thinking.

Kirish. Hozirgi axborot va texnologiyalar rivojlangan davrda innovatsiyalar zaruratga aylangan. Sog‘liqni saqlash xizmatlari texnologiya va innovatsiyalardan keng foydalanadigan, tezkor rivojlanish bilan ajralib turadigan kasbiy guruhlarni o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, hamshiralar sog‘liqni saqlash xizmatlarida yetakchi kasbiy guruh sifatida alohida o‘rin tutadi. Malakali hamshiralarni tayyorlashda samarali hamshiralik ta’limi nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Sog‘liqni saqlash sohasidagi innovatsiyalar ta’lim jarayonida ham tub o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Innovatsiya va kreativ fikrlash XXI asr ko‘nikmalari sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, ularni hamshiralik ta’limi o‘quv dasturlariga integratsiya qilish zarurati yuzaga kelgan. XXI asr ko‘nikmalari paradigmasi oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini samaraliroq tashkil etish, talabalarni innovatsion fikrlashga yo‘naltirish va ularni raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlash zarurligini ta’kidlaydi.

Sog‘liqni saqlash tizimi jadal rivojlanib borayotgan bugungi davrda hamshiralik ta’limida kreativlikni shakllantirish talabalarni tanqidiy fikrlash, murakkab muammolarni hal qilish va dinamik klinik muhitlarga moslashishga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hamshiralik bo‘yicha pedagoglar talabalarda kreativlikni rivojlantirishda yetakchi rolni o‘ynaydilar, chunki aynan ular talabalarni real hayotiy muammolarga innovatsion va dalillarga asoslangan yechimlarni qo‘llash qobiliyatini shakllantiradilar. Kreativlikni rivojlantiruvchi xatti-harakatlar – bu talabalarda qiziqish, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va innovatsion fikrlashni rag‘batlantiradigan maqsadli pedagogik strategiyalar majmuasidir [6. 2025:B.2-5].

Hamshiralik amaliyoti endilikda an’anaviy chegaralardan chiqib, robototexnika, virtual haqiqat, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar kabi ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish orqali parvarish sifati va operatsion samaradorlikni oshirishga qaratilgan. Hamshiralarning sohani tark etishiga sabab bo‘layotgan muammolarni hal qilish va innovatsion texnologiyalarni qamrab olish orqali yanada kuchli va barqaror hamshiralik kadrlar bazasini shakllantirish, jamiyatning o‘zgarib borayotgan sog‘liqni saqlash ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi.

Biroq, hamshiralik ta’limi tizimi hali ham an’anaviy, reproduktiv o‘qitish metodlaridan to‘liq voz kechmagan. Bu esa talabalarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muammolar yuzaga keltirmoqda.

Asosiy qism. Hamshiralik inson salomatligi uchun muhim bo‘lgan kasb sifatida ta’riflanadi va u to‘rtta asosiy ustun - klinik amaliyot, ta’lim, tadqiqot va yetakchilikka tayangan holda shakllanadi. Biroq, hamshiralik bu nafaqat amaliyot va bilim, balki kuzatuvchanlik ko‘nikmalarini rivojlantirish, reflektiv amaliyot va empatiyani shakllantirishni ham o‘z ichiga oladi. Hamshiralik bu ba’zan spontant harakatlardir, masalan, hamshiralar turli xil vaziyatlarga duch keladilar, boshqa insonlarga umid yoki taskin so‘zlar aytishlari, tezlik bilan qaror qabul qilishlari va ba’zan bemorga yordamni to‘liq o‘zlari berishlari, qaysi dori va uni qancha dozada berish kabi vazifalarni ham o‘zlari bajarishlariga to‘g‘ri keladi. Bu paytda esa kreativlik xususiyati hamshiralar uchun eng muhim qobiliyat bo‘lib xizmat qiladi.

Kreativ fikrlash - bu yangi va innovatsion g‘oyalar, yechimlar yoki yondashuvlarni ishlab chiqishni o‘z ichiga oladigan jarayon bo‘lib, u turli sohalarda qo‘llanilishi mumkin. Ushbu jarayon mavjud bilim va g‘oyalarni original tuzilmalarga aylantirish, mavjud taxminlarni shubha ostiga olish va original yechimlar ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi. Kreativ fikrlashning ikki muhim elementi - bu innovatsiya va foydalilikdir [2.2025:B.2-5].

Bugungi kunda sog‘liqni saqlash ta’limi jadal raqamlashtirilayotgan bir davrda, hamshiralik yo‘nalishidagi talabalarning o‘z kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida kreativ fikrlash qobiliyatini saqlab qolishi ularning kasbiy rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion xatti-harakat hamshiralik ta’limida mukammallikning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi . Ushbu tushuncha innovatsiya jarayonining butun siklini qamrab oladi: g‘oya yaratish, baholash, qo‘llab-quvvatlovni olish va amalga oshirish. Ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali hamshiralik ta’limi kasbiy sohada ijobiy o‘zgarishlar kiritish va kreativlik hamda tashabbus orqali bemor parvarishini yaxshilay oladigan mutaxassislarni tayyorlaydi. Innovatsion xatti-harakatlarni namoyon

qiladigan hamshiralar innovatsion texnologiyalarni qabul qilishga nisbatan ijobiy munosabat shakllantirishga moyil bo‘ladi [5.2025.B:25]. Kreativ muammolarni hal qilish jarayonida ushbu sog‘liqni saqlash mutaxassislari uzluksiz takomillashtirish madaniyatini rivojlantiradi, bu esa nafaqat umumiy parvarish sifatini oshiradi, balki tashkilotning samaradorligini ham yaxshilaydi. [5.2025.B:35].

G. Altmiller va L. Hopkins-Pepe o‘z maqolalarida texnologiya orqali ta’limda sifat va xavfsizlik kompetensiyalarini qanday rivojlantirishni tahlil qilishgan. Pandemiya davridagi texnologiyalarning roli video platformalari, QR-kodlar orqali "just-in-time" treninglar va virtual simulyatsiya texnologiyalari foydalanishning samaralari ko‘rsatib o‘tilgan. Gamifikatsiya, o‘yinlarga asoslangan o‘qitish, virtual va interaktiv simulyatsiyalar yordamida o‘quvchilarni jalb qilish va bilimlarni mustahkamlash (retention) yaxshi natija ko‘rsatgani ta’kidlangan [4.2022.B:8].

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, innovatsion pedagogik texnologiyalar o‘qituvchining faqat bilim beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi, motivator va hamkor sifatidagi rolini kuchaytiradi. Bu esa talabalar o‘rtasida mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni yechishda kreativ yondashuv va klinik qarorlar qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirish imkonini beradi deydi Ayla Hedekci o‘zining maqolasida. U yana qo‘shimcha tarzda kreativ fikrlashni rivojlantirishda TPACK modeli (Technological Pedagogical Content Knowledge), STEAM-ta’lim, va DI (Differentiated Instruction) metodlarining samaradorligi ilmiy asoslangan holda yoritib bergan. Shuningdek, hamshiralik ta’limida tanqidiy fikrlash, lateral fikrlash, divergent va konvergent tafakkurni uyg‘unlashtirish orqali kreativ yondashuvlarni rivojlantirish mexanizmlari batafsil tahlil qilgan [1.2025.B:10].

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda hamshiralik ta’limida kreativlikni rivojlantiradigan metodlar va usullarni qo‘llash hozirgi kunda muhim o‘rin tutadi. Bunday metodlar talabalarda faqat kreativlikni shakllantiribgina qolmay, balki dars jarayonida berilayotgan bilimlarni o‘zlashtirishni ham osonlashtiradi. Kase-metod (Case-study method), SCAMPER metodi (S-substitute, C-combine, A-adapt, M-modify, P-put to other uses, E-eliminate, R-reverse), Dizayn fikrlash (Design Thinking), Problema asosida o‘qitish (Problem-Based Learning - PBL) Simulyatsion o‘qitish (Simulation-Based Learning), Gamifikatsiya (Gamification) kabi pedagogic metodlar hozirda ta’limning turli bosqichlarda va rivojlangan davlatlarda qo‘llanib kelinmoqda.

So‘nggi yillarda gamifikatsiya - o‘yin elementlarini qo‘llash orqali ta’limda rivojlanib borayotgan paradigma sifatida shakllanib, o‘yin dizayni, o‘yin elementlari va ta’lim strategiyalarini birlashtirish orqali o‘quvchilarning motivatsiyasi va natijadorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Eng ko‘p gamifikatsiya qilingan professional sohalardan biri bo‘lgan sog‘liqni saqlash ta’limida, akademik muvaffaqiyat bevosita bemorlarning sog‘lig‘i bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, gamifikatsiya o‘rganuvchilar va amaliyotchilar orasida klinik tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun istiqbolli vosita sifatida tan olinmoqda [3.2025.B:2-4].

Gamifikatsiya - bu o‘yin asosidagi usullar va jarayonlarni ta’lim yoki trening muhitida qo‘llash bo‘lib, o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini oshirish orqali ixtiyoriy o‘quv faoliyatlarini rag‘batlantirishni maqsad qiladi. Ta’limda bu yondashuv ballar, darajalar, nishonlar, reytinglar va syujet chiziqlari kabi o‘yin elementlarini o‘quv jarayoniga integratsiyalash orqali uni raqobatbardosh, murakkab va qiziqarli qilishni anglatadi.

Tadqiqotlar gamifikatsiyaning o‘quvchilarning jalb etilishi va motivatsiyasini oshirishini, bu esa ta’lim jarayonini boshlashda va bilimlarni eslab qolishda muhim ekanligini ko‘rsatmoqda. Masalan, gamifikatsiya sog‘liqni saqlash ta’limida bilimlarni egallash, klinik ko‘nikmalarni rivojlantirish va professional kompetensiyalarni oshirish vositasi sifatida qo‘llanilmoqda.

Bu metod dars davomida talabalarni diqqatini saqlab turish, motivatsiyasini oshirish va bilimlarni o‘yin tarzda yetkazish orqali talabalarini zerikib qolishini oldini oladi. Bundan tashqari bu metod tarkibidagi topshiriqlar Talabani har tomonlama fikrlashga kreativlikka chorlaydi. Gamifikatsiya tarkibidagi elementlar 1-jadvalda o‘z aksini topgan.

Xulosa. Hamshiralik ta’limida kreativ fikrlash va innovatsion yondashuvni shakllantirish bugungi kunda muhim pedagogik vazifalardan biridir. An’anaviy dars metodlari talabalarda muammolarni ijodiy hal qilish, noodatiy fikrlash va bemorga individual yondashish kompetensiyalarini yetarli darajada rivojlantira olmaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, gamifikatsiyalashgan o‘quv mashg‘ulotlari klinik tafakkurdan tashqari, kreativ kompetensiyalarni shakllantirish uchun ham samarali pedagogik vosita bo‘lib hisoblanadi. Bu uslubni amaliyotga keng joriy qilish orqali hamshiralik talabalari zamonaviy sog‘liqni saqlash muhitida

o‘zini erkin his qiladigan, ijodkor, muammolarga noodatiy yondashuv ko‘nikmalariga ega bo‘lgan mutaxassislar sifatida shakllanishlariga imkon yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ayla Hedekci “Innovation, Curiosity, Exploration, and Critical Thinking Dispositions of Nursing Students Who Have and Have Not Taken an Innovative Thinking Course” 2025 Apr 29;27(2):e70127. doi: 10.1111/nhs.70127 b-3-5.
2. Ferhat Onur Agaoglu, Murat Bas, Sinan Tarsuslu, Lokman Onur Ekinci & Nihat Bugra Agaoglu The mediating digital literacy and the moderating role of academic support in the relationship between artificial intelligence usage and creative thinking in nursing students 02 May 2025 Agaoglu et al. BMC Nursing (2025) 24:484 https://doi.org/10.1186/s12912-025-03128-3 B-2.
3. Ferya Celik , Recep Turan , Hicran BektasNurse The effect of game-based interventions on the nursing students' level of knowledge: A systematic review and meta-analysis of randomized controlled trials Education Today Volume 151, August 2025, 106746 B-2-4.
4. Gerry Altmiller, Loraine Hopkins Pepe, “In fluence o f Technology in Supporting Quality and Safety in Nursing Education” 2022 December 57(4):551–562 B-3-7.
5. Jiayi Zhu, Shuai Yuan, Lihui Pu, Ruben Martin-Payo, Liqin Wei, Mengying Qiu and Fengying Zhang “Nursing postgraduates’ innovative behaviour, influencing factors and educational requirements: a national cross-sectional study” BMC Medical Education (2025) 25:89 B-2.
6. Ibodova Umida Shuhrattillo qizi “Bo‘lajak hamshiralarni kreativ komptensiyasini rivojlantirishda didaktik yondashuvlar va raqamli ta’lim” "Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnali 178 6(23)2025.

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING KASBIY PEDAGOGIK KOMPETENSIYALARINI INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH

Z.Xatamova
O‘zbekiston davlat jahon tillar universiteti +998 99 851 0747 xatamova91@internet.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada innovatsion ta’lim texnologiyalari orqali bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini rivojlantirish jarayoni tahlil qilingan. Unda raqamli ta’lim platformalari, interaktiv metodlar, gamifikatsiya yondashuvlari va zamonaviy didaktik usullarni amaliyotga joriy etish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, ingliz tili o‘qituvchilarining lingvistik va pedagogik kompetensiyalarini shakllantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining roli keng ko‘lamda ochib berilgan. Tadqiqot natijalari sifatida innovatsion texnologiyalarni samarali qo‘llash orqali o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishning samarali yo‘nalishlari tavsiya qilingan.

Kalit so‘zlar: innovatsion ta’lim texnologiyalari, ingliz tili o‘qituvchilari, kasbiy mahorat, raqamli ta’lim, interaktiv metodlar, gamifikatsiya, lingvistik kompetensiya, pedagogik yondashuv.

Аннотация: В статье анализируется процесс развития профессиональных навыков будущих учителей английского языка посредством инновационных образовательных технологий. В нем освещаются возможности внедрения цифровых обучающих платформ, интерактивных методов, игровых подходов и современных дидактических методов. Широко обсуждается также роль информационно-коммуникационных технологий в развитии лингвистических и педагогических компетенций учителей английского языка. По результатам исследования рекомендованы эффективные пути повышения профессионального мастерства педагогов за счет эффективного использования инновационных технологий.

Ключевые слова: инновационные образовательные технологии, преподаватели английского языка, профессиональные навыки, цифровое образование, интерактивные методы, геймификация, языковая компетентность, педагогический подход.

Abstract: This article analyzes the process of developing the professional skills of future English teachers through innovative educational technologies. It highlights the possibilities of implementing digital educational platforms, interactive methods, gamification approaches and modern didactic methods in practice. It also broadly reveals the role of information and communication technologies in the formation of linguistic and pedagogical competencies of English teachers. As a result of the research, effective

directions for improving the professional skills of teachers through the effective use of innovative technologies are recommended.

Keywords: innovative educational technologies, English teachers, professional skills, digital education, interactive methods, gamification, linguistic competence, pedagogical approach.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi insoniyat oldida turgan murakkab muammolarni hal qilishda poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. Globalizatsiya jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va xalqaro hamkorlikning kuchayishi ta’lim tizimida yangi, innovatsion yondashuvlarni joriy etishni talab qilmoqda. Ayniqsa, ingliz tili ta’limida innovatsion texnologiyalardan foydalanish nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini ham sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘taradi.

Bugungi kunda dunyoda ingliz tilining xalqaro muloqot vositasi sifatidagi ahamiyati ortib bormoqda. Statistika shuni ko‘rsatadiki, 2023-yilda dunyo bo‘yicha 1,5 milliarddan ortiq inson ingliz tilida gaplashgan yoki uni ikkinchi til sifatida o‘rgangan. O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan talab sezilarli darajada ortdi. 2022-yilda mamlakatda umumta’lim maktablarida 10 mingdan ortiq ingliz tili o‘qituvchilari faoliyat yuritgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich har yili o‘sishda davom etmoqda. Shu bilan birga, ta’lim sifatini oshirish maqsadida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘quv jarayoniga keng joriy etish zarurati ham kuchaymoqda.

Maqolada innovatsion ta’lim texnologiyalari orqali bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini rivojlantirishning dolzarb masalalari, zamonaviy yondashuvlar va istiqbollari tahlil qilinadi. Xususan, raqamli platformalar va interaktiv metodlardan foydalanishning pedagogik samaradorligi ilmiy asosda ochib beriladi.

Metodologiya:

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning samaradorligini aniqlash va uni ta’lim jarayonida qo‘llash uchun zamonaviy tadqiqot metodlari va usullari tanlandi. Bu jarayon ta’lim jarayonini tashkil etishning nazariy, amaliy va empirik jihatlarini qamrab oluvchi yaxlit yondashuvni talab qiladi. Avvalo, tadqiqotning nazariy asoslarini ishlab chiqishda innovatsion ta’lim texnologiyalarining mohiyatini, ularning ta’lim tizimidagi o‘rnini o‘rganishga qaratilgan ilmiy adabiyotlar va ilg‘or tajribalardan foydalanildi. Jumladan, raqamli platformalar va interaktiv usullar bo‘yicha mavjud ilmiy izlanishlar tahlil qilindi. Bu ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faolligini oshirish va o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan usullarni aniqlash imkonini berdi.

Ikkinchi bosqichda, tadqiqotda tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba Toshkent va Xorazm viloyatlaridagi bir qator pedagogik universitetlar bazasida tashkil etilib, unda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari ishtirok etdi. Mazkur bosqichda innovatsion metodlar asosida tashkil etilgan darslar va an’anaviy darslar o‘rtasidagi samaradorlik solishtirildi. Tajriba davomida raqamli texnologiyalardan foydalanish, masalan, virtual sinflar va gamifikatsiya vositalari orqali o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishga alohida e’tibor qaratildi.

Uchinchi bosqichda, tadqiqot natijalari sifat va miqdor ko‘rsatkichlari asosida tahlil qilindi. Bu jarayonda so‘rovnomalar, suhbatlar va kuzatishlar o‘tkazildi, shuningdek, o‘quvchilar va o‘qituvchilarning fikrlari va mulohazalari yig‘ildi. Natijalar raqamli texnologiyalar yordamida ma’lumotlarni tahlil qilishga imkon beruvchi maxsus dasturlar orqali qayta ishlanib, grafik va diagrammalar shaklida aks ettirildi.


Shu bilan birga, tadqiqotda kompleks yondashuv qo‘llanilib, lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning ta’siri alohida o‘rganildi. Mazkur metodologik yondashuv, nafaqat o‘qituvchining kasbiy malakasini oshirish, balki ularning ta’lim jarayonida ijodiy yondashuvlarini shakllantirish imkoniyatini ham namoyish etdi. Natijada, innovatsion texnologiyalarning bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashda pedagogik jarayonning ajralmas qismi ekanligi va uning samaradorligini ta’minlaydigan omil sifatida muhim ahamiyatga ega ekanligi isbotlandi.

Muhokama:

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish bugungi ta’lim tizimining dolzarb masalalaridan biridir. Ushbu yondashuv o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, o‘qituvchilarning didaktik va lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ammo ushbu texnologiyalarning qo‘llanilishi faqat ularni texnik jihatdan o‘zlashtirish bilangina cheklanmaydi. Bu jarayon o‘qituvchidan ijodiy va reflektiv yondashuv, shuningdek, o‘quvchilar ehtiyojlarini hisobga olgan holda metodik yondashuvni talab qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion texnologiyalarning samaradorligi ko‘p jihatdan ular qaysi kontekstda va qanday uslubda qo‘llanilishiga bog‘liq. Misol uchun, gamifikatsiya elementlari (raqobat ruhini uyg‘otuvchi o‘yin metodlari) talabalarning o‘qishga qiziqishini oshirsa-da, noto‘g‘ri tashkil etilgan ta’lim jarayonida bu vositalar talabalarning maqsadsiz va yuzaki faoliyatiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, o‘qituvchilar ushbu texnologiyalarning imkoniyatlarini puxta o‘rganib, ulardan pedagogik maqsadlarga muvofiq foydalanishni o‘rganishlari lozim.

Shu bilan birga, ta’lim mazmunini raqamlashtirish talabalarning mustaqil o‘qish kompetensiyalarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, **Lingvistik va kommunikativ yondashuvlar** asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar orqali talabalar o‘rgangan bilimlarini real hayotda qo‘llashni o‘rganadilar. Ammo bunday jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o‘qituvchilar nafaqat texnik vositalar bilan ishlashni, balki talabalarning psixologik xususiyatlari va individual ehtiyojlarini ham chuqur tahlil qilishlari zarur.



1-rasm. Innovatsion ta’lim texnologiyalari vositasida kasbiy mahoratini rivojlantirishning pedagogik modeli

Innovatsion texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish ta’limning zamonaviy talablariga javob beradigan kasbiy malakali ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ammo bu jarayon kompleks yondashuvni, texnik va metodik salohiyatni uyg‘unlashtirishni talab qiladi. Muhimi, o‘qituvchi innovatsion texnologiyalarni vosita sifatida ko‘rib, ularni ta’lim maqsadlari yo‘lida samarali ishlatishni o‘rganishi kerak.

Raqamli platformalar, masalan, **Moodle**, **Google Classroom**, va **Edmodo**, nafaqat o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro aloqani mustahkamlaydi, balki o‘qituvchiga ta’limni moslashtirish imkonini beradi. Ushbu platformalar yordamida o‘quv materiallari elektron formatda taqdim etilib, talabalar o‘z qobiliyatlariga mos ravishda materiallarni qayta ko‘rib chiqishlari mumkin. Bu, ayniqsa, mustaqil ta’limni rivojlantirish uchun juda muhim. Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘z darslarini mazkur platformalarda tashkil etishni o‘rganishlari, ulardan samarali foydalanish uchun texnologik savodxonliklarini oshirishlari kerak.

Interaktiv metodlar ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, ular talabalarning fikr yuritish, tahlil qilish va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, **"Think-Pair-Share"** texnikasi talabalarni o‘z fikrlarini avval mustaqil shakllantirishga, keyin esa ular bilan jamoada bo‘lishishga o‘rgatadi. Shuningdek, **klasterlash** va **Venn diagrammalari** kabi texnikalar mavzuni chuqurroq o‘rganish va o‘quvchilarni tahliliy fikrlashga jalb qilishda samarali vositalar hisoblanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilar darslarini interaktiv usullarga asoslangan holda tashkil etish orqali o‘z pedagogik mahoratini rivojlantirishi mumkin.

O‘yin elementlaridan foydalanish talabalarning o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va bilim olishni yanada qiziqarli qiladi. **Gamifikatsiya** nafaqat talabalarning faolligini oshiradi, balki raqobatbardosh muhitni shakllantirib, ularning individual qobiliyatlarini rivojlantiradi. Masalan, **Quizlet**, **Wordwall**, va **Kahoot** kabi platformalardan foydalanish orqali o‘quvchilarga ingliz tilini o‘rgatishda lug‘at boyligini oshirish va grammatikani o‘rganishni qiziqarli shaklda tashkil qilish mumkin. Shuning uchun bo‘lajak o‘qituvchilar gamifikatsiya elementlaridan foydalanishni o‘rganishlari zarur.

Xulosa. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, raqamli ta’lim platformalari, gamifikatsiya yondashuvlari va interaktiv metodlar o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida samarali aloqa o‘rnatish,

bilimlarni kengroq va chuqurroq o‘zlashtirish uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ammo bu vositalardan samarali foydalanish uchun o‘qituvchining texnologik va didaktik salohiyati yuqori bo‘lishi zarur. Innovatsion yondashuvlar faqat ularni texnik jihatdan o‘zlashtirish bilangina cheklanmay, balki o‘qituvchilarning o‘quvchilar ehtiyojlarini to‘g‘ri aniqlashi va ularga individual yondashuvni ta’minlashi bilan muvaffaqiyatli bo‘ladi. Ta’kidlash kerakki, innovatsion texnologiyalarni qo‘llashda muayyan cheklovlar, masalan, texnik imkoniyatlarning yetishmasligi yoki o‘qituvchilarning raqamli savodxonlik darajasining pastligi kabi omillar mavjud. Bu holatlarni bartaraf etish uchun ta’lim tizimiga doimiy ravishda investitsiya kiritish, o‘qituvchilarni malaka oshirish kurslari bilan ta’minlash va raqamli infratuzilmani rivojlantirish zarurati mavjud.

Kelajakda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashda innovatsion texnologiyalardan kengroq foydalanish orqali ular global ta’lim standartlariga mos ravishda raqobatbardosh kadrlar bo‘lishlari ta’minlanadi. Muhimi, bu texnologiyalar vosita ekanligini, asosiy maqsad esa sifatli ta’limni yo‘lga qo‘yish ekanligini unutmaslik lozim. Shuning uchun o‘qituvchining kasbiy mahoratini shakllantirish va rivojlantirishda o‘quv jarayonini texnologiyalar bilan to‘ldirish emas, balki pedagogik maqsadlarga muvofiq foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion ta’lim texnologiyalari o‘qituvchining kasbiy mahoratini oshirishda kuchli vosita hisoblanadi. Ammo bu jarayon muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun o‘qituvchi texnologiyani maqsadga muvofiq qo‘llash, talabalarning ehtiyojlarini hisobga olish va ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan metodikani ishlab chiqishi zarur. Shu tariqa, ta’lim sifatini oshirish orqali jamiyatda yuqori malakali, zamonaviy fikrlaydigan ingliz tili o‘qituvchilarini shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). *A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives*. New York: Longman.
2. Dewey, J. (1916). *Democracy and Education*. New York: Macmillan.
3. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). *Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge*. Teachers College Record, 108(6), 1017–1054.
4. Nunan, D. (2015). *Teaching English to Speakers of Other Languages: An Introduction*. New York: Routledge.
5. Saidov, A. M. (2022). *Ta’limning raqamli transformatsiyasi: imkoniyatlar va muammolar*. O‘zbek Milliy Ensiklopediyasi, Toshkent.
6. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge: Harvard University Press.

DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS THROUGH INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES

Sh.Khatamov
Wise school, Tashkent Tel: 998560747 xatamovsh0747@mail.ru

Annotation: This article analyzes the process of developing the professional competence of future English language teachers through innovative educational technologies. It highlights the integration of digital learning platforms, interactive methods, gamification approaches, and modern didactic strategies into practical teacher training. The study also explores the broad role of information and communication technologies (ICT) in shaping linguistic and pedagogical competencies among English language teacher trainees. As a result of the research, effective directions are proposed for enhancing teachers’ professional skills through the efficient use of innovative technologies.

Keywords: innovative educational technologies, English language teachers, professional competence, digital learning, interactive methods, gamification, linguistic competence, pedagogical approach.

Introduction. The modern education system serves as a foundation for addressing the complex challenges facing humanity. The processes of globalization, the rapid advancement of information technologies, and the intensification of international cooperation necessitate the adoption of new,

innovative approaches in education. In particular, the use of innovative technologies in English language teaching not only enhances the effectiveness of the learning process but also qualitatively elevates the professional competence of future teachers.

Today, the importance of the English language as a means of international communication continues to grow. Statistics indicate that in 2023, over 1.5 billion people worldwide spoke English or learned it as a second language. In Uzbekistan, too, the demand for English language learning has significantly increased in recent years. In 2022, more than 10,000 English teachers were employed in general education schools across the country, and this figure continues to rise annually. At the same time, the need to integrate information and communication technologies (ICT) into the learning process has become more urgent in order to improve the quality of education.

Currently, the use of digital technologies to organize interactive lessons, incorporate gamification elements that engage students, and deliver learning materials through digital platforms plays an important role in strengthening teacher-student interaction. Innovative approaches not only simplify the knowledge acquisition process for learners but also positively impact teachers by improving their professional competence and methodological skills.

This article examines the pressing issues, modern approaches, and prospects of developing the professional competence of future English language teachers through innovative educational technologies. Specifically, it explores the pedagogical effectiveness of using digital platforms and interactive methods, based on scientific analysis.

Methodology. To assess the effectiveness of innovative technologies in developing the professional competence of future English language teachers, modern research methods and tools were employed. This process required an integrated approach encompassing the theoretical, practical, and empirical aspects of educational organization.

Firstly, in developing the theoretical foundations of the research, scientific literature and advanced practices were reviewed to understand the essence of innovative educational technologies and their role in the education system. In particular, scientific studies on digital platforms and interactive methods were analyzed, allowing the identification of approaches necessary to increase student engagement and improve teachers’ pedagogical competence.

In the second stage, experimental work was conducted. The experiment was carried out at several pedagogical universities in Tashkent and Khorezm regions, involving future English language teachers. During this phase, the effectiveness of lessons based on innovative methods was compared with traditional instruction. Special attention was given to the use of digital technologies such as virtual classrooms and gamification tools to enhance student motivation.

In the third stage, the research findings were analyzed using both qualitative and quantitative indicators. Surveys, interviews, and observations were conducted, and feedback from both students and teachers was collected. The results were processed using digital analysis tools and presented in the form of graphs and diagrams.

Moreover, a comprehensive approach was applied in the study, with a specific focus on the role of innovative technologies in developing linguistic competencies. This methodological framework demonstrated not only the enhancement of teachers’ professional qualifications but also their capacity to apply creative strategies in the learning process. As a result, it was proven that innovative technologies are an integral part of teacher training in English language education and a critical factor in ensuring the effectiveness of the pedagogical process.

Discussion. The integration of innovative technologies into the development of future English language teachers’ professional competence has become one of the most pressing issues in today’s education system. This approach creates ample opportunities to enhance the effectiveness of the learning process and to develop teachers’ didactic and linguistic competencies. However, the implementation of such technologies cannot be limited to their technical adoption alone. The process requires a reflective and creative approach from the teacher, as well as a methodological orientation that is responsive to the specific needs of learners.

Research findings indicate that the effectiveness of innovative technologies largely depends on the context and manner in which they are applied. For instance, gamification elements—game-based strategies that stimulate competition—can significantly increase students’ engagement. Yet, if improperly implemented, such tools may lead to unstructured and superficial learning activities. Therefore, educators

must develop a deep understanding of these technologies and learn to apply them in alignment with pedagogical objectives.

The discussion also highlights that the use of interactive teaching methods and digital platforms can enhance communication between teachers and students. Digital learning platforms allow for the interactive presentation of materials, foster continuous engagement with learners, and support personalized instruction. However, one of the key prerequisites for their effective use is improving the technological literacy of teachers themselves.

On the other hand, the application of digital technologies faces certain limitations. For example, the lack of high-speed internet access and modern technical equipment in some educational institutions poses significant challenges. This situation underscores the need for greater investment in the education sector to support the widespread implementation of innovative approaches.

Furthermore, the digitalization of educational content plays a crucial role in shaping students’ independent learning competencies. Instructional activities designed around linguistic and communicative approaches help learners apply acquired knowledge in real-life contexts. However, to ensure the success of such practices, teachers must not only master the technical tools but also deeply analyze students’ psychological characteristics and individual learning needs.

Conclusion. The findings of this study reveal that digital learning platforms, gamification strategies, and interactive methods serve as crucial tools for fostering effective communication between teachers and students and for promoting deeper and broader knowledge acquisition. However, to utilize these tools effectively, teachers must possess a high level of both technological and didactic competence. The success of innovative approaches depends not only on technical proficiency but also on the teacher’s ability to accurately assess student needs and provide individualized support.

It is important to note that certain limitations hinder the widespread implementation of innovative technologies—namely, inadequate technical infrastructure and insufficient digital literacy among educators. Addressing these challenges requires consistent investment in the education system, continuous professional development opportunities for teachers, and the expansion of digital infrastructure.

Looking ahead, a broader application of innovative technologies in the training of future English language teachers will ensure the preparation of competitive professionals in line with global educational standards. Nevertheless, it is essential to remember that these technologies are merely tools; the ultimate goal remains the delivery of high-quality education. Therefore, the integration of technologies into the learning process must be aligned with pedagogical objectives rather than used as an end in themselves.

In conclusion, innovative educational technologies are powerful instruments for enhancing the professional competence of teachers. Yet, their effective use depends on the teacher’s ability to apply them purposefully, address learners’ needs, and develop methods that foster creativity and engagement. In this way, the quality of education can be improved, creating a generation of highly qualified, forward-thinking English language educators capable of meeting the demands of modern society.

Literature:

6. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). *A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives*. New York: Longman.

7. Dewey, J. (1916). *Democracy and Education*. New York: Macmillan.

8. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). *Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge*. Teachers College Record, 108(6), 1017–1054.

9. Nunan, D. (2015). *Teaching English to Speakers of Other Languages: An Introduction*. New York: Routledge.

10. Saidov, A. M. (2022). *Ta’limning raqamli transformatsiyasi: imkoniyatlar va muammolar*. O‘zbek Milliy Ensiklopediyasi, Toshkent.

6. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge: Harvard University Press.

ЮСУФ САККОКИЙНИНГ “МИФТОҲУ-Л-УЛУМ” АСАРИ ШАРҲЛАРИ ТАВСИФИ

Б.Х.Исмоилов
Ўзбекистон Миллий университетитаянч докторанти
boburismoilov589@gmail.com//+998933033544

Аннотация. Ушбу мақолада Юсуф Саккокийнинг “Мифтаҳу-л-улум” асарида баён этилган “илтифот” бадиий санъати таҳлил қилинади. Муаллиф мазкур санъатнинг моҳияти, турлари ва маъноий услубдаги ўрнини очиб беради. Мақолада “илтифот” санъатининг наҳвий ва маънавий жиҳатлари, унинг ўқувчи диққатини жалб этишдаги аҳамияти кўрсатилади. Саккокийнинг баён услуби ва мисоллар асосида таҳлил қилиб, анъанавий ва назарий қарашлар ёритиб берилади. Мазкур таҳлил орқали илтифот санъатининг араб балоғат илмидаги аҳамияти ва ўрни намоён қилинади.

Калит сўзлар: Юсуф Саккокий, Мифтаҳу-л-улум, илтифот санъати, балоғат илми, маъноий илми, услуб, бадиий ифода

Annotation. This article analyzes how the rhetorical figure iltifat (grammatical and stylistic shift) is addressed in the section on semantics (ma‘ani) in Yusuf al-Sakkakiy’s work Miftaḥ al-ulum. The linguistic and terminological definitions of iltifat, its aesthetic and semantic functions, and its various forms are examined. Practical applications of this figure are illustrated through examples from the text. The author highlights how iltifat brings vitality and rhythmic variation to the expression. The article also refers to Talkhiṣ al-Miftaḥ and other classical commentaries. As a result, the connection between the theoretical basis and practical usage of iltifat is revealed. This analysis contributes significantly to understanding the rhetorical principles within Miftaḥ al-ulum.

Keywords: Yusuf al-Sakkakiy, Miftaḥ al-ulum, stylistic shift (iltifat), rhetoric, ilm al-maʿaniy, style, artistic expression

Аннотация. В данной статье анализируется, как в разделе семантики (ма‘аний) труда Юсуфа ас-Саккакий «Мифтах аль-улюм» раскрыт стилистический приём ильтифат (грамматическое и стилистическое переключение). Рассматриваются лексическое и терминологическое значения этого приёма, его художественная и смысловая функция, формы и разновидности. Приводятся конкретные примеры использования ильтифата в тексте. Автор показывает, как этот приём придаёт выразительности и живости высказыванию. В статье также использованы сведения из «Талхис аль-Мифтах» и других комментариев. В результате выявляется связь между теоретическими основами и практическим применением ильтифата. Этот анализ важен для понимания риторических взглядов в «Мифтах аль-улюм».

Ключевые слова: Юсуф ас-Саккаки, Мифтах аль-Улюм, илтифат, риторика, илм аль-маани, стиль, художественное выражение

Абу Яъқуб Юсуф Саккокий “Мифтоҳу-л-улум” асарининг ёзилиши филология фанида муҳим янгилик бўлди ва мадрасаларда дарслик сифатида ўқитила бошланди. Асарнинг машҳур бўлишига сабаб унда ҳарфларнинг талаффузи, ёзиш қоидалари, сўз тузилиши, ясалиши, жумла қурилиши, гапни қўллаш ўринлари ва усуллари, гапни безаб қўллаш, шеърий шаклда қўллаш, унинг вазни каби таълимотларнинг мавжудлиги эди. Асар катта шуҳрат қозониб, ундан кўплаб нусхалар кўчирилди, шарҳлар, изоҳлар, ҳошиялар ёзилди, ёдлаш осон бўлиши учун назмий шарҳлар битилди. Натижада асарга ёзилган шарҳ ва изоҳлар ҳам машҳур бўлди. Бугунги кунда “Мифтоҳу-л-улум” асари, унинг шарҳлари ва изоҳларининг қўлёзмалари дунёнинг кўплаб кутубхоналарида сақланмоқда. Юртимизда ҳам асарга ёзилган шарҳларнинг кўплаб қўлёзма нусхалари мавжуд. ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмалар фондида “Мифтоҳу-л-улум”га ёзилган қуйидаги шарҳларнинг қўлёзмалари сақланмоқда:

6016 рақамли қўлёзма – “Мифтоҳу-л-улум” асарининг учинчи қисмига ёзилган машҳур шарҳ; унинг муаллифи Али ибн Муҳаммад ибн Али Шариф Ҳасаний Журжоний (740–816/1339–1413). Мазкур шарҳ “Мифтоҳ шарҳи” деб аталиб, илмий доираларда “Ал-мисбаҳ фи шарҳи Мифтоҳ” номи билан танилган. Қўлёзма 160 варақдан иборат бўлиб, насх ёзувида, араб тилида, ҳар бир саҳифаси 23 қатордан ташкил топган.

Асарнинг мундарижаси қўлёзманинг бош қисмида келтирилган бўлиб, саҳифа рақамлари қизил сиёҳда белгиланган. Муаллиф Аллоҳга ҳамд ва Пайғамбар Муҳаммад (с.а.в.)га саловат айтгандан сўнг мазкур шарҳ “Мифтоҳу-л-улум” асарининг учинчи қисмига бағишлангани, ундаги

маънавий ва илмий ҳикматлар хазинасини очишни мақсад қилганини таъкидлайди.[6016 рақамли қўлёзма: 1б саҳифа] Журжоний “Мифтоҳу-л-улум” асаридан олинган иқтибосларни “Мусанниф айтди”, “айтди” ёки “унинг гапи” каби ифода воситалари орқали келтирган. Шарҳ бошида Журжоний “Мифтоҳу-л-улум” асарининг уч қисмдан иборат эканини таъкидлайди. [6016 рақамли қўлёзма: 1б саҳифа]

Шарҳ охиригача тўлиқ эмаслигини 160 варақкача мавжуд қисмидан, шу варақдаги “унга” пойгиридан, қўлёзма аслида 238 варақ эканини ва “Сўзни гўзал ифодалаш илми” билан тугалланганлигини мундарижадан билиб олиш мумкин. Бу қўлёзманинг мавжуд қисмида ёзилган сана, ким томонидан кўчирилганлиги ҳақида маълумот учрамайди. Бу маълумотлар шарҳнинг охирида тушиб қолган қисмида берилган бўлиши мумкин. Ушбу қўлёзманинг бошқа бир нусхаси юқорида тилга олинган фондда 5831 рақами билан сақланади. Ундаги сатрлар сони 25, мундарижа кўрсатилмаган. Бу қўлёзма тўлиқ бўлиб, кўчирилган санаси 803 ҳижрий йил шаввол ойида эканлиги форс тилида қайд этилган. Лекин хаттотнинг исми келтирилмаган. Мазкур қўлёзманинг бошқа нусхаси 8397 рақамда сақланади, аввалгисидан сатрлар сони 16 та эканлиги билан фарқ қилади. Шарҳ насх хатида араб тилида ёзилган, китоб ўлчами 18х25. Қўлёзма тўлиқ эмас, 158 варағи сақланиб қолган.

5628 рақамли қўёзма шарҳи “Мифтоҳу-л-улум” асарининг учинчи қисмига ёзилган шарҳ. Шарҳ муаллифи Саъдиддин Масъуд Умар ибн ат-Тафтазоний (1322-1390) бўлиб, шарҳ номи “Шарҳи Мифтоҳу-л-улум” ёки “Мутаввал” деб номланган. Шарҳда “Мифтоҳу-л-улум” асари муаллифининг тўлиқ исми қайд этилган. Саккокийни бошқалар каби “диннинг чироғи” деб эмас, “маънолар илми чироғи” деб сифатлага.[5628 рақамли қўлёзма: 1а саҳифа] Шарҳ 1-варақдан 179-варақкача сақланган бўлиб, ёзилган сана, хаттот исми, мундарижа келтирилмаган. Шарҳ ҳажман катта бўлиб, ҳар саҳифада 27 сатрдан ёзилган. Айнан ушбу шарҳнинг яна бир нусхаси шу фондда 6418 рақамда сақланади. Лекин 5628 рақамли қўлёзманинг нисбатан тўлиқроқ нусхаси ҳисобланади. Мазкур қўлёзманинг 235 варағи сақланган. Ушбу шарҳ ҳам охирига етиб келмаган. Шарҳ кўчирилган сана, хаттот исмлари келтирилмаган. Эҳтимол, мазкур маълумотлар шарҳнинг охирида тушиб қолган қисмида қайд этилган бўлиши мумкин. 9035 рақамли қўлёзма ҳам Саъдиддин Тафтазонийга тегишли бўлиб, “Шарҳ “Мифтоҳу-л-улум” деб номланган. Қўлёзмада саҳифаларида сатрлар сони 21, саҳифалар охирида пойгир изчил қўйилган. Мазкур қўлёзманинг боши сақланмаган бўлса-да, қолган қисми охиригача сақланган. Саккокийга ишора қилувчи сўзлар “унинг сўзи” билан берилган. Мазкур сўз қизил сиёҳ билан ажратилган. Шарҳнинг охирги саҳифасида “ҳамма варақлар 292” қизил рангда ёзилган. Шарҳнинг мазкур саҳифасида “заиф банда Аҳмад ибн Иброҳим Бакбазорий қўлида якунланди” жумласи келтирилган.[9035 рақамли қўлёзма: 269б саҳифа] Тугалланган сана, аср намози вақти, шанба куни, Зулқаъда ойи, 882 ҳижрий йил тўлиқ келтирилган.

Саъдиддин Тафтазонийнинг балоғат илмига оид бир неча асарлари бўлиб, улардан бири “Ал-Мухтасар шарҳи Талхису-л-мифтоҳ” асаридир. У Хатиб Қазвинийнинг “Мифтоҳу-л-улум” асарига ёзилган “Талхису-л-мифтоҳ” асарининг шарҳи дейилса-да, аслида “Мифтоҳу-л-улум” асарини шарҳлайди. Бу асар ҳам балоғат илмида машҳур ва мўътабар китоблардан ҳисобланади. У мўғул амирларидан Маҳмуд Жони Бекхонга бағишланган.

“Мифтоҳу-л-улум” асарига ёзилган яна бир машҳур шарҳлардан бири “Уқуду-л-жуман фи ’илми-л-маъони ва-л-баён” (“Маоний ва баён илмларининг марварид маржонлари”) асари бўлиб, унинг муаллифи Абдураҳмон ибн Аби Бакр (Жалолиддин) Суютийдир (1445-1505). Асар ФА Шарқшунослик институти қўлёзмалар фондида 356 рақам билан асосий фондда сақланади. Бу шарҳ манзума тарзида ҳар бир саҳифага 4 қатордан араб тилида насх хатида ёзилган. Қўлёзма тўлиқ ҳолда сақланган, ўлчами 18х26 мм, 719 варақдан иборат. Китобнинг баъзи варақлари сарғайган ва йиртилган, баъзиларига жиддий шикаст етган.

Қўлёзмада балоғатга оид муқаддима 46а саҳифада келади. Ҳар бир саҳифада 4 қаторда катта қилиб шеърий шаклда қофияси аа-бб шаклда ёзилиб, унинг четига изоҳлар ёзилган.

67-саҳифадан биринчи фан деб сарлавҳа қўйилган ва илми маоний бошланган. 76-саҳифадан 1 боб, исноди хабарийнинг ҳолатлари (дарак гапнинг ҳолатлари) мавзуси, 101-саҳифадан 2 боб муснад илайҳининг ҳолатлари (эганинг ҳолатлари) мавзуси, 122-саҳифадан 2 боб таркибига кирувчи накра (ноаниқлик) мавзуси, 126-саҳифада васф, 129-саҳифада таъкид, 130-саҳифада бадал, 131-саҳифада атф, 133-саҳифада тақдим, 157-саҳифада таъхир мавзулари бошланган.

178-саҳифада 3 боб аҳволу-л-муснад (кесимнинг ҳолатлари) мавзуси, 184-а саҳифадан 3 боб таркибидаги муснадни зикр қилиш, 185-саҳифада муснаднинг феъл бўлиши, 187-саҳифадан

муснаднинг феъл билан қайд этилиши, 188-саҳифадан шарт билан қайд этилиши, 202-саҳифадан муснаднинг ноаниқ бўлиши, 203-саҳифадан хосланиши, 204-саҳифадан тарк этилиши ва аниқ бўлиши, 209-саҳифадан тақдим (олдин) ва таъхир (кейин) мавзулари бошланади.

213- саҳифадан янги 4 боб аҳвол мутааллиқотул феъл (феълнинг вазифа шаклларига оид ҳолатлар) мавзуси, 236-саҳифадан 5 боб қаср мавзуси, 263- саҳифадан 6 боб иншо мавзуси, 299-саҳифадан 7-боб фасл ва васл мавзуси, 355-саҳифадан 8-боб ийжоз-итноб ва мусовот мавзулари бошланади.

415-саҳифадан иккинчи фан (илм) Баён илми бошланади. 450-б саҳифадан бу фан таркибига кирувчи ташбиҳ мавзуси, 486-саҳифадан мажоз ва ҳақиқат мавзуси, 559-саҳифадан киноя мавзулари бошланади.

574-саҳифадан 3-фан – Бадиъ илми берилган. Асарнинг охирида Абу Тоййиб, Жарир, Абу Ашжаъ, Абу Тамом, Саламулҳосирнинг сўзлари ва фикрлари келтирилади. Ушбу асар ёзилиш тартибига кўра Қазвинийнинг “Талхису-л-мифтоҳ” асари каби ёзилган.

ЎзР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмалар фондида сақланаётган “Мифтоҳу-л-улум” асарига ёзилган шарҳлардан яна бири “Талхису-л-мифтоҳ” асаридир. Қўлёзма 3806 рақамда Ҳамид Сулаймон фонди қўлёзмалар бўлимида сақланади. Китоб 213 варақдан иборат, ҳар саҳифа 17 қатордан, насталиқ хатида араб тилида ёзилган, ўлчами 15x25,5. Асар 2- саҳифадан басмала, ҳамд ва наът билан бошланади, шу саҳифада унинг муаллифи Масъуд ибн Умар Саъд Насроний экани ёзилган.[3806 рақамли қўлёзма: 2а саҳифа] Қўлёзма Муҳаммад ибн Муҳаммад аш-Шоший томонидан кўчирилган, кўчирилган вақти ҳақида маълумот ёзилмаган.

“Мифтоҳу-л-улум” асарининг балоғат илмига бағишланган учинчи бўлими машҳур бўлганидан уни халққа қисқа ва лўнда қилиб етқизиб беришга эҳтиёж ортиши натижасида унга Жалолиддин Муҳаммад ибн Абдураҳмон Қазвиний (вафоти 1339) томонидан талхис (қисқа шарҳ) ёзилган ва бу шарҳ ҳам жуда машҳур бўлган. Қазвиний давригача Саккокийнинг “Мифтоҳу-л-улум” китоби балоғат илмидаги энг мўътабар ва машҳур китоб бўлган бўлса, Хатиб Қазвинийнинг ушбу “Талхису-л-мифтоҳ” шарҳи ёзилгандан сўнг у қисқа ва тили осон тушунарли бўлгани учун машҳур китобга айланди. Бу асарнинг ЎзР ФА Шарқшунослик институти асосий фондида 45 та қўлёзмаси сақланади. Шулардан энг тўлиғи 7256 рақамги манбадир. Қўлёзма 150 варақдан иборат ва 7 қатордан қилиб, насталиқ хатида араб тилида ёзилган, жигар рангли қаттиқ картон билан қопланган, ўлчами: 10,5x13.5, 1-саҳифада 3 бодом шаклида ўйма нақш бор, қоғозлари оч сариқ, тўқ сариқ, кўк, яшил, жигар рангда. Асар тўлиқ шаклда ва яхши сақланган. Китоб юзида ўйма нақш, ичида “Шариф Муҳаммад кутубхонаси, 1211 йил” деб ёзилган. Китобнинг ёзилган жойи ва йили, кўчирилган йили ёзилмаган. У котиб Муҳаммад Олимхон томонидан кўчирилган.

7256 рақамда сақланадиган бу китоб картотекада 148 варақ деб ёзилган, лекин китоб батафсил кўриб чиқилганда эса 164 варақ бўлгани аниқланди. Асосий матн 8-саҳифада бошланиб, 160-саҳифада тугайди, яъни 150 варақ экани аниқланди. Матн 8-саҳифадан басмала билан бошланади. Аллоҳга ҳамд пайғамбарга, оиласига ва асҳобларига саловат айтилиб бошланади. Тўртинчи қатордан “амма баъд” деб балоғат илми ва унинг сирлари ҳақида кириш сўзлар қайд этилган. 8-саҳифада “Мифтоҳу-л-улум”нинг учинчи қисми балоғатга доир машҳур китобларнинг фойдалиси эканини таъкидлайди. Унинг тартибланиши энг мувофиқ, тугал ҳамда қоидаларни энг аниқ тасниф этган китоб деб таърифлайди. Шунинг билан бирга у баъзи бир бўш ўринлар, ортиқча тафсилотлар ҳамда айрим қусурлардан холи эмаслиги, изоҳ ва муқайядлаштиришга муҳтож масалалар борлигини қайд этади. Унга етарли мисол ва далиллар киритиб, “Талхису-л-мифтоҳ” номли бир мухтасар битганини ёзади. 9-а саҳифада “китобнинг номини “Талхису-л мифтоҳ” деб номладим ва унинг манфаатли бўлиши ва у билан манфаат олмоқликни Аллоҳдан сўрайман” дейилади.[3806 рақамли қўлёзма: 9а саҳифа] 9-саҳифадан қизил ёзувда фасоҳат муқаддимаси деб фасоҳатнинг таърифи берилган. Ушбу саҳифадан матн четига ҳошияга изоҳлар ёзиб бошланган. 13-саҳифадан биринчи фасл деб маоний илми бошланган. 14-саҳифадан биринчи боб деб, дарак гапнинг ҳолатлари мавзуси бошланган.

20-саҳифадан 2-боб деб муснад илайҳи(эга)нинг ҳолатлари мавзусига киришган. Саккокийнинг фикрини келтирганда қизил ёзувда “Саккокий айтди” дейилган. 39-саҳифадан муснад(кесим)нинг ҳолатлари мавзуга кирилган. 48-б саҳифадан феълнинг мутааллиқотлари мавзуси, 54-саҳифадан қаср мавзуси, 60-саҳифадан 6-боб, 70-саҳифадан 7-боб фасл ва васл, 85-саҳифадан 8-боб ийжоз-итноб ва мусовот мавзулари, 97-саҳифадан эса иккинчи фан-баён илми, 127-

саҳифадан учинчи фан илми бадиъ бошланган ва асар 150-саҳифада тугатилиб, шу саҳифада хотима ёзилган.

Муаллиф бу асарда Саккокийнинг қарашларини қайтадан синчиклаб ўрганади ва унинг ютуқлари ва камчиликларини айтади, баъзи жойларда унинг фикрларини қўлласа, баъзи жойда унга раддиялар беради. Қазвинийнинг мазкур асари балоғат илмини ўрганишда ўқувчига бошқа китобларга эҳтиёж қолдирмайдиган даражага етди. Ундан кейин яратилган балоғатга оид барча китоблар Қазвиний назарий қарашларининг қайсидир жиҳатини янада осонроқ тушунтириш, изоҳлаш, шарҳлаш, тўлдириш билан кифояланадиган бўлди. Шуларни назарда тутган Доктор Ёсин Айюбий ҳозиргача Қазвиний асарлари негизида юзга яқин китоб яратилганини санаб ўтган.

Foydalanilgan adabiyotlat ro’yxati

1. Ан-Наийму-л-кабир. Арабча-ўзбекча луғат. -Н.: Наманган нашриёти, 2014. –Б.805.
2. Салимахон Рустамий. “Балоғат илмида лингвистик назариялар ва тил ҳодисаларининг ёритилиши монографияси”.-Т:. “Наврўз” нашриёти, 2017. Б.170
3. Журжоний, Али ибн Муҳаммад ибн Али Шариф Ҳасаний. Ал-Мисбаҳ фи шарҳи Мифтоҳ. Қўлёзма. Тошкент: Ўзбекистон Фанлар Академияси Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди, №6016, 160-б.
4. Саъдиддин Масъуд Умар ибн ат-Тафтазоний. Мутаввал. Қўлёзма. Тошкент: Ўзбекистон Фанлар Академияси Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди, №5628, 179-б.
5. Абдураҳмон ибн Аби Бакр (Жалолиддин) Суютий. Уқуду-л-жуман фи ’илми-л-маъони ва-л-баён. Қўлёзма. Тошкент: Ўзбекистон Фанлар Академияси Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди, №356, 719-б.
6. Абдураҳмон Қазвиний. Талхису-л-мифтоҳ. Қўлёзма. Тошкент: Ўзбекистон Фанлар Академияси Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди, №7256, 160-б.
7. Абу Яъқуб Юсуф Саккокий. “Мифтоҳу-л-улум” дару-л кутубил илмийя. – Байрут. 1987. -621

UDK 633.853.483

LALMIKOR MAYDONLARDA XANTAL EKININING YUQORI MOY CHIQIMIGA EGA NAVLARI

L.B.Mavlanov
Mustaqil tadqiqotchi, Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti
B.S.Kushmatov
Laboratoriya mudiri, Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti Baxmal ilmiy-tajriba stansiyasi

Annotatsiya Ushbu tadqiqotda lalmikor sharoitda yetishtirilgan xantal (*Sinapis alba L.*) navlarining moy chiqimi Soxlet usuli yordamida baholandi. 5/2019 (Baxmal-70) navining moy miqdori eng yuqori (38,15%) bo‘lib, sanoat miqyosida yetishtirish uchun istiqbolli deb topildi. Tadqiqot natijalari mahalliy moy sanoatini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi mahsuldorligini oshirish va agroekologik barqarorlikni ta’minlashda amaliy ahamiyatga ega.

Аннотация. В данном исследовании масличный выход сортов горчицы (Sinapis alba L.), выращенных в условиях богарного земледелия, оценивался с помощью метода Сокслета. Сорт 5/2019 (Бахмал-70) обладал самым высоким содержанием масла (38,15%) и признан перспективным для выращивания в промышленных масштабах. Результаты исследования имеют практическое значение в развитии местной маслобойной промышленности, повышении продуктивности сельского хозяйства и обеспечении агроэкологической устойчивости.

Abstract. In this study, the oil yield of mustard (Sinapis alba L.) varieties grown in rainfed conditions was assessed using the Soxhlet method. The 5/2019 (Bakhmal-70) variety had the highest oil content (38.15%) and was considered promising for industrial cultivation. The research results are of practical importance for the development of the domestic oil industry, increasing agricultural productivity, and ensuring agroecological sustainability.

Kalit so‘zlar Xantal, lalmikor dehqonchilik, moy chiqimi, nav tanlovi, soxlet, samaradorlik.

Ключевые слова. Горчица, богарное земледелие, выход масла, выбор сорта, сохлет, эффективность.

Keywords. Mustard, dryland farming, oil yield, variety selection, quality, Soxhlet, efficiency.

Kirish. O‘zbekistonning tog‘oldi, qir-adir va tekislik hududlarida joylashgan lalmikor maydonlar - sug‘orilmaydigan, faqat tabiiy yog‘ingarchilikka tayanadigan dehqonchilik zonalari hisoblanadi. Bunday sharoitda ekin tanlovi juda muhim bo‘lib, qurg‘oqchilikka chidamli, qisqa vegetatsiya davriga ega va iqtisodiy jihatdan foydali ekinlar ustunlikka ega. Shular qatorida oq xantal (*Sinapis alba L.*, Brassicaceae oilasi) ekini alohida o‘rin tutadi.

Xantal - moyli ekin bo‘lib, uning urug‘laridan 35-41% gacha oziq-ovqat va texnik moy olinadi. Bu ekin lalmikor sharoitda barqaror hosil berishi, begona o‘tlarni bostirishi, tuproq strukturasini yaxshilashi hamda entomofauna uchun muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, lalmikor maydonlarda yuqori moy chiqimiga ega navlarni tanlash agroiqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi [2. 2025 B 103-107].

Mahalliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Qarshiboyev H.K. lalmikor maydonlar uchun nav tanlashda vegetatsiya muddati, moy miqdori va agroiqlim sharoitiga moslashuvchanlikni asosiy mezonlar sifatida belgilaydi [2. 2025 B 103-107]. Agroinspeksiya.uz portalida lalmikor maydonlarga ekilishi belgilangan navlar, ularning agrotexnik xususiyatlari va hosildorlikka ta’sir etuvchi omillar batafsil tahlil qilingan. Ushbu ma’lumotlar lalmi sharoitda ekin tanlashda amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, agroiqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi [5. 2020].

Jahon miqyosida olib borilgan tadqiqotlar ham xantal ekinining moy chiqimini oshirishda agrotexnik tadbirlar va nav tanlovi muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Masalan, Hindistonda o‘tkazilgan dala tajribalarida sulfatli o‘g‘itlar bilan bargga ishlov berish xantal urug‘ining moy miqdorini 39,8% gacha oshirganligi aniqlangan [1. 2025 B 111-115]. Shuningdek, noarganik va organik o‘g‘itlar qo‘llanilishi xantalning noarganik hosildorligini sezilarli darajada oshirgan [3. 2021 B 75-79].

AgEcon Search tomonidan taqdim etilgan tahlillarda esa yaxshilangan xantal navlari Hindistonning Indo-Gang daryosi vodiysida moyli ekinlar hosildorligini 42% gacha oshirganligi va bu navlar qurg‘oqchil hududlarda ham barqaror hosil berishini ko‘rsatadi [4. 2023 B 218-222]. Bu esa xantalni barqaror qishloq xo‘jaligi uchun muhim ekin sifatida belgilaydi.

Ushbu mahalliy va jahon adabiyotlar asosida aytish mumkinki, lalmikor sharoitda xantal ekinining yuqori moy chiqimiga ega navlarini tanlash mahalliy moy sanoatini rivojlantirishga, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot maqsadi va metodikasi. Tajribalar 2021-2024- yillarda Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti Baxmal ilmiy-tajriba stansiyasida olib borildi. Tadqiqot davomida olingan urug‘lardagi moy chiqimini aniqlash Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutida olib borildi. Moy chiqimini aniqlash uchun Soxhlet ekstraktsiyasi usuli qo‘llanildi. Bu usul urug‘ tarkibidagi moyni organik erituvchi yordamida ajratib olishga asoslangan bo‘lib, yuqori aniqlik va takrorlanuvchanlikka ega.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot davomida lalmikor sharoitda 10 ta xantal navlari sinovdan o‘tkazildi. Har bir navdan 10 gramm urug‘ namunasi Soxlet usuli orqali tahlil qilindi. Moy miqdori aniqlanib, foiz ko‘rinishida baholandi.

1-jadval. Xantal ekini navlarining moy chiqimi ko`rsatgichlari

T/r	Nav namunalar nomi	Moy miqdori (g)	Foizda
1	Nika(st)	3,7303	37,303
2	Bravo	3,4038	34,038
3	Kristal	3,4733	34,733
4	Bella	3,7295	37,295
5	1/2019	3,6273	36,273
6	2/2019	3,4817	34,817
7	3/2019	3,6182	36,182
8	4/2019	3,2984	32,984
9	5/2019 (Baxmal-70)	3,8154	38,154
10	6/2019	3,6231	36,231

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, eng yuqori moy chiqimi 5/2019 (Baxmal-70) navida kuzatildi - 38,15%, bu ko‘rsatkich standart nav (Nika) bilan solishtirilganda 0,85% yuqori. Bu nav lalmikor sharoitda eng samarali moy yig‘uvchi nav sifatida ajralib turadi.

Bella navining moy chiqimi 37,29% bo‘lib, u ham standart nav bilan deyarli teng natija ko‘rsatdi. 1/2019, 3/2019 va 6/2019 navlari esa 36% dan ortiq moy chiqimi bilan barqaror natijalar berdi.

Bravo, Kristal, 2/2019 navlari moy yig‘ish qobiliyati bo‘yicha standartdan pastroq natija ko‘rsatdi (34-34,8% oralig‘ida). Ayniqsa, 4/2019 navining moy chiqimi 32,98% bo‘lib, bu eng past ko‘rsatkich hisoblanadi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari lalmikor sharoitda xantal ekinining moy yig‘ish qobiliyati navga bog‘liq holda sezilarli darajada farqlanishini ko‘rsatdi. Soxhlet ekstraktsiyasi usuli orqali aniqlangan moy miqdori asosida quyidagi ilmiy xulosalar chiqarildi:

1. 5/2019 (Baxmal-70) navining moy chiqimi 38,15% bo‘lib, bu ko‘rsatkich standart nav (Nika) bilan solishtirilganda eng yuqori natija hisoblanadi. Ushbu nav lalmikor sharoitda sanoat miqyosida yetishtirish uchun istiqbolli deb baholandi.
2. Bella, 1/2019, 3/2019 va 6/2019 navlari moy yig‘ish qobiliyati bo‘yicha barqaror va yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, seleksiya va agrotexnik jihatdan tavsiya etilishi mumkin.
3. Bravo, Kristal, 2/2019 navlari moy chiqimi bo‘yicha standartdan pastroq natija ko‘rsatdi. Bu navlar bo‘yicha qo‘shimcha agrobiologik baholash va seleksiya ishlari olib borilishi zarur.
4. 4/2019 navining moy chiqimi 32,98% bo‘lib, bu eng past ko‘rsatkich hisoblanadi. Mazkur nav lalmikor sharoitda moyli ekin sifatida yetishtirish uchun cheklovli tavsiyalar bilan baholanishi lozim.

Umuman olganda, tadqiqot lalmikor maydonlarda xantal ekinining nav tanlovi moy chiqimini sezilarli darajada belgilashini isbotladi. Yuqori moy yig‘ish qobiliyatiga ega navlarni tanlash orqali mahalliy moy sanoatini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi mahsuldorligini oshirish va agroekologik barqarorlikni ta’minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Maurya, P., Umesha, C., Dowson, J. Studies on oil contents and oil yield of mustard following foliar application of sulphur and micronutrients. Agronomy Journals. 2025 P. 111-115

2.Qarshiboyev, H.K., Nematillayeva, G.I. Oq xantal (Sinapis alba) o‘simligini Sirdaryo viloyatida resurs tejamkor usulda yetishtirish texnologiyasi. Tadqiqotlar Jahon Ilmiy-Metodik Jurnali, 6 2025, b. 103-107.

3.Chavan, N.R., Ghotmukale, A.K., Karpe, P.J.Growth and yield attributes of mustard influenced by nutrient sources. The Pharma Innovation Journal. 2021. P. 75-79

4.Sharma, A.K., et al. Economic Impact of Improved Mustard Varieties: Agricultural Sustainability in Indo-Gangetic Plains. AgEcon Search. 2023. P.218-222

5.Agroinspeksiya.uz Lalmikor maydonlarga ekilishi belgilangan navlar, ularning tavsifi va agrotexnik tadbirlar. Agroinspeksiya.uz. 2020.

TOPISHMOQLARNING FUNKSIONAL TABIATI FUNCTIONAL NATURE OF PUZZLES

G.O.Malikova
10.00.01- O‘zbek tili kafedrasi mustaqil izlanuvchisi ziyodullamalikov1@gmail.com +998 94 786 95 95

Annotatsiya. Topishmoqlar folklorning eng qaidmiy va ommabop janri hisoblanib, unda insoniyatni o‘rab turgan tabiat, borliq, jamiyat, undagi o‘zgarishlar, yangiliklar, xullas, kishilarning o‘tmishi va buguni bilan bog‘liq barcha real holarlat, voqealar, predmetlar o‘z aksini topadi. Shuning uchun ham uning zimmasida tarbiyaviy, kreativlik, psixologik va ijtimoiy kabi juda ko‘plab funksiyalari mavjud. Topishmoqlar yosh-u qariga birdek yoqimli va foydali janr sanaladi.

Kalit so`zlar: topishmoq, tarbiyaviy funksiyasi, axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, ijtimoiy tafakkur, mantiqiy fikrlash, psixologik funksiyasi, motivatsiya, kommunikatsiya, kooperatsiya, kreativ fikrlash.

Аннотация. Загадки считаются самым древним и популярным жанром фольклора, в котором отражаются все реальные ситуации, события, предметы, связанные с природой, существованием, обществом, переменами, новостями, сводками, прошлым и настоящим людей. Именно поэтому он выполняет множество образовательных, творческих, психологических и социальных функций. Загадки — веселый и полезный жанр, который понравится как детям, так и людям старшего возраста.

Ключевые слова: загадка, воспитательная функция, нравственное воспитание, эстетическое воспитание, социальное мышление, логическое мышление, психологическая функция, мотивация, общение, сотрудничество, творческое мышление.

Annotation. Riddles are considered the most ancient and popular genre of folklore, reflecting all the real situations, events, and objects surrounding humanity, nature, existence, society, changes in it, news, in short, people's past and present. That is why it has many functions, such as educational, creative, psychological, and social. Riddles are considered a genre that is equally enjoyable and useful for young and old.

Keywords: riddle, educational function, moral education, aesthetic education, social thinking, logical thinking, psychological function, motivation, communication, cooperation, creative thinking.

Topishmoqlar – bu asrlar davomida xalq ogʻzaki ijodining ajralmas qismi boʻlib, ular turli zamonlarda va madaniyatlarda oʻziga xos oʻrin tutgan. Topishmoqlar nafaqat oʻyin-kulgi vositasi sifatida, balki ma'naviy va ijtimoiy tarbiya, fikrlash va mantiqiy xulosalar chiqarish jarayonida ham katta ahamiyatga ega. Ularning funksional tabiati, ya'ni qanday va qaysi maqsadlarda ishlatilishi, ularni juda qiziqarli va koʻp qirrali fenomenga aylantiradi. Shu oʻrinda Z.Husainovaning quyidagi fikrlarini keltirib oʻtish lozimdir: “ Topishmoqlarning qadim zamonlardagi ijtimoiy funksiyasi va formasi shu vaqtgacha ilmiy asosda yetarlicha ochilmagan. Bu boradagi fikrlar ba’zi etnografik qarashlar asosida shakllangan”. [1.,13] Biz ham quyida topishmoqlarning ayrim funksiyalariga toʻxtalib oʻtdik:

1. ***Topishmoqlarning tarbiyaviy funksiyasi.*** Topishmoqlar odatda ijtimoiy va ma'naviy tarbiya vositasi sifatida ishlatiladi. Har bir topishmoqning oʻzida axloqiy, estetik va madaniy jihatlar mavjud. Bejizga M.Abdurahimov: “ Topishmoqlar bolalar uchun tarbiya maktabidir,” – demagan. [2.,2] Ularning tarbiyaviy funksiyasini quyidagi asosiy yoʻnalishlarga boʻlishimiz mumkin:

- *Axloqiy tarbiya*: Topishmoqlar orqali xalq oʻzining axloqiy qadriyatlarini, yaxshi va yomonni ajratishni, toʻgʻri qarorlar qabul qilishni, va mas'uliyatni oʻrgatgan holda ularda ijtimoiy me'yorlar, xulq-atvor va axloqiy qarashlar oʻz aksini topadi.
- *Estetik tarbiya*: Topishmoqlar koʻpincha goʻzal va chuqur tasvirlarni oʻz ichiga oladi. Ular san'atni, tabiatni va insonning ichki dunyosini anglashga yordam beradi. Topishmoqlar orqali bolalar va yoshlar soʻz san'atini qadrlashni, tasavvur qilishni va madaniy merosga boʻlgan hurmatni oʻrganadilar.
- *Badiiy va ijtimoiy tafakkur*: Topishmoqlar ijtimoiy hayotdagi hodisalar va turmush tarzini tasvirlash orqali odamlarni muammolarni hal qilishga, yangi gʻoyalar va yechimlar topishga undaydi. Bu, albatta, ijtimoiy rivojlanishga yordam beradi.

2. Topishmoqlarning fikrni rivojlantirishdagi funksiyasi. Topishmoqlar koʻplab mantiqiy va analitik vazifalarni bajarish orqali fikrlash jarayonini kuchaytiradi. Ular quyidagi jihatlarni rivojlantiradi:

- *Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish****:*** Topishmoqlarni yechishda qat'iy mantiqiy yondashuv kerak. Ular murakkab vazifalarni osonlashtirish va mantiqiy fikrlashni kuchaytirishga yordam beradi. Topishmoqning javobi koʻpincha qiyin va koʻp oʻylashni talab qiladi, bu esa aqliy qobiliyatlarni oshiradi. Masalan, «Birinchi kishi koʻrinmaydi, ikkinchisi koʻrinadi, uchinchisi esa faqat rangi bilan tanilgan. Kimlar?» – javobi «Doʻstlar».
- *Yaratuvchanlik va tasavvur qilish*: Topishmoqni yechish uchun koʻplab ijodiy yondashuvlar, yangi tasavvurlar va mulohazalar talab qilinadi. Topishmoqni hal qilish jarayonida bolalar va yoshlar oʻzlarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar, bu esa oʻz navbatida mantiqni, yangi gʻoyalar yaratishni ham kuchaytiradi.
- *Muammoni hal qilish qobiliyatini oshirish*: Topishmoqlar muammoli vaziyatlarda oʻrinli oʻylashni va natijaga tez erishishni oʻrgatadi. Mantiqiy izlanishlar va izchil fikrlarni talab qiladigan topishmoqlarni hal qilish, shaxsiy hayotda va ishda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur boʻlgan qobiliyatlarni rivojlantiradi.

3. Topishmoqlarning psixologik funksiyasi. Topishmoqlarning ushbu vazifasi ularning shaxsiyatni shakllantirish va psixologik holatni yaxshilashda namoyon boʻladi. Bu funksiyaning asosiy jihatlari quyidagicha:

- *Insonni qiziqtirish va motivatsiya qilish*: Topishmoqlar odamni fikrlashga, yangi narsalarni oʻrganishga va bilimni kengaytirishga undaydi. Bu oʻz navbatida motivatsiya va oʻzini rivojlantirishga olib keladi. Topishmoqni yechish nafaqat shaxsiy intellektual yuksalishni ta'minlaydi, balki boshqalarga qarshi kurashishga boʻlgan intilishni ham kuchaytiradi.

- *Stressni kamaytirish*: O‘yin sifatida ishlatiladigan topishmoqlar odamlarni stressdan chalg‘itadi va kayfiyatni yaxshilaydi. Biror topishmoqni yechish jarayonida inson vaqtni o‘tkazib, o‘zining ichki dunyosini diqqatga olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu, ayniqsa, bolalar va yoshlarda psixologik farovonlikni oshiradi.
- *O‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish*: Topishmoq javobini topishda muvaffaqiyatga erishish shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Javobni topganingizda inson o‘zini qoniqarli va qulay his qiladi, bu esa beixtiyor uning psixologik holatini yaxshilaydi.

4. Topishmoqlarning ijtimoiy funksiyasi. Topishmoqlar ijtimoiy hayotda ham o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ularning ijtimoiy vazifalarini quyidagicha izohlashimiz mumkin:

- *Kommunikatsiya vositasi sifatida*: Ular ko‘pincha odamlar o‘rtasida muloqot qilish uchun ishlatiladi va ijtimoiy aloqalarni o‘rnatishga yordam beradi, o‘z navbatida, jamoa ruhini kuchaytiradi.
- *Madaniy va an'anaviy bog‘lanish*: Topishmoqlar xalqning madaniy merosi, tarixiy xotirasi va an'analari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganligi uchun madaniyatni saqlash va undan avlodlarga yetkazish vositasi sifatida xizmat qiladi.
- *Hamkorlik va guruh ishlari*: Topishmoqlarni guruhda hal qilish kooperatsiya, jamoa ishlari va birgalikda qaror qabul qilishni rag‘batlantiradi. Bu esa o‘z navbatida ijtimoiy hamkorlikning rivojlanishiga yordam beradi.

Yuqorida ko‘rib o‘tilganidek, topishmoqlarning funksional tabiati juda xilma-xildir va ular ko‘plab sohalarda: tarbiya, fikrlash, psixologik holat, ijtimoiy aloqalar va madaniyatda muhim rol o‘ynaydi. Ular nafaqat aqlli o‘yinlar, balki insonni rivojlantirish, bilim olish va o‘zini anglash jarayonida zarur vositalardir. Topishmoqlar nafaqat o‘yin-kulgi, balki ta'lim jarayonida ham muhim rol o‘ynaydi. Ular o‘quvchilarda mantiqiy va analitik fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi, tilni boyitadi, yangi so‘zlar va iboralar o‘rganiladi va ta’kidlanganidek, kreativlikni rivojlantiradi.

Topishmoqlar, avvalo, mantiqiy mushohada yuritish, analitik fikrlash, muammoga ijodiy yondashish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ular ta’lim jarayonida, ayniqsa boshlang‘ich sinflarda, til o‘rgatish va so‘z boyligini kengaytirish vositasi sifatida keng qo‘llaniladi. Shuningdek, topishmoqlar orqali o‘quvchilar yangi so‘z va iboralarni o‘zlashtiradi, xalqona obrazlar va timsollar orqali milliy tafakkur shakllanadi. Ularning estetik va didaktik qiymati aynan shu jihatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Shu bois, topishmoqlarni nafaqat o‘yin-kulgi elementi, balki ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan madaniy fenomen sifatida o‘rganish zarur. Ular insonning o‘zini anglash, fikrlash faoliyatini shakllantirish va madaniy aloqalarni avloddan avlodga yetkazish jarayonida faol ishtirok etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Husainova Z. O‘zbek topishmoqlari. – Toshken; O‘zbekiston SSR “Fan” nashriyoti, 1966.
2. Abdurahimov M. O‘zbek xaql topishmoqlari. – www.ziyouz.com, 2008

KOMPYUTER LINGVISTIKSIDA LINGVISTIK TA’MINOT MASALASI

O.X.Raimjonov
FarDU akademik litseyi o‘qituvchisi bekraimjonov@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kompyuter lingvistikasida keng qo‘llanilib kelinayotgan dasturiy hamda lingvistik ta’minot masalasi ta’minotiga tahlil qilingan.*

Аннотация. В статье анализируется проблема программного и лингвистического обеспечения, широко используемого в компьютерной лингвистике.

Abstract. The article analyzes the problem of software and linguistic support, widely used in computer linguistics.

Kalit so‘zlar: kompyuter lingvistikasi, dasturiy ta’minot, lingvistik ta’minot.

Ключевые слова: компьютерная лингвистика, программное обеспечение, лингвистическое обеспечение.

Key words: *computer linguistics, software,* linguistic support.

Kompyuter lingvistikasi — bu tilshunoslik va informatsion texnologiyalar tutashgan zamonaviy fan yo‘nalishi bo‘lib, tabiiy tilni avtomatik tarzda qayta ishlash va tahlil qilishni o‘z oldiga maqsad qilib

qo‘yadi. Ushbu sohaga oid tadqiqotlar, ayniqsa sun’iy intellekt, avtomatik tarjima, nutqni tanish va generatsiya qilish, o‘quv lug‘atlari va intellektual til texnologiyalarining rivojlanishi bilan bevosita bog‘liqdir. Bu jarayonda kompyuter lingvistikasi tizimlarining samaradorligi ikki asosiy komponent — lingvistik ta’minot va dasturiy ta’minotning uyg‘unligiga tayanadi.

Kompyuter lingvistikasi rivoji, avvalo, bu sohadagi lingvistik ta’minot, texnik va dasturiy ta’minotga bevosita bog‘liq. Ayniqsa, lingvistik ta’minot — ya’ni leksik, grammatik, semantik, statistik resurslar, korpuslar va lug‘atlar, ta’limiy va amaliy dasturlarni yaratishda asosiy poydevor hisoblanadi. Har qanday avtomatlashtirilgan til tizimining samaradorligi foydalanilgan ta’minotning mukammalligi, aniqligi va moslashuvchanligiga bog‘liq.

Lingvistik ta’minot deganda, tilning strukturaviy va semantik xususiyatlarini aks ettiruvchi leksik, grammatik, sintaktik, semantik va pragmatik resurslar tushuniladi. Masalan, morfologik analizatorlar, korpuslar, tezauruslar va elektron lug‘atlar bu turdagi ta’minotga kiradi. Z.Xolmanovaning kompyuter lingvistikasiga: “Kompyuter lingvistikasi − kompyuter uchun mo‘ljallangan lingvistik ta’minot *[5. 2020:B.7]”*, − deya bergan ta’rifiga asoslanadigan bo‘lsak, tilshunoslikning kompyuter texnaolgiyalari bilan bog‘langan holda yangi bir fan sohasini shakllanishiga zamin yaratkan birlik sifatida «lingvistik ta’minotni» ko‘rishimiz mumkin. Lingvistik ta’minot bizning nuqtayi nazarimizga ko‘ra bu komputerda tilshunoslikka oid ma’lum bir turdagi lingvistik birliklarning bazasi vazifani bajarish uchun ishlab chiqilgan vositadir.

Tabiiy tilda kompyuter bilan muloqot qilishni ta’minlashga yordam beradigan dasturlar (lingvistik protsessorlar) tabiiy tildagi matnlarni analiz va sintez qiluvchi dasturlardir. Uning uch asosiy tarkibiy qismi mavjud:

1. Lingvistik(tabiiy tillarning formal modeli, lug‘at, grammatika, lingvistik jadvallar, qoidalar);
2. Matematik-algoritmik (formal til translyatori, matnni qayta ishlovchi algoritmlar);
3. Dasturiy ta’minot.

N.Abdurahmonovaning «Kompyuter lingvistikasi» darsligida lingvistik ta’minot tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: «Lingvistik ma’lumotlar bazasi (ta’minoti) deyilganda, tilga oid barcha ma’lumotlar tushuniladi». Til tuzilishi hamda matnni analiz va sintez qilishning aniq vazifalariga asosan lingvistik ta’minotida quyidagilarning mavjud bo‘lishi talab qilinadi: matn − leksik asos −leksemashakl − so‘z birikmasi − sintaktik gap strukturalari. Tarjimadan avvalgi tahlil jarayonida uch asosiy ierarxik bosqich amalga oshiriladi: matn-jumla-leksema shakl. Bunda leksemashakl keng ma’noda matndan olingan istalgan segment birlik sifatida qaraladi. Gap va so‘z birikmalarining barcha strukturaviy hamda boshqa xususiyatlari leksema shakl tushunchasida ifodalanadi *[4. 2018: B.31]*.

Yuqoridagilardan kelib chiqib lingvistik ta’minot kompyurer lingvistikasi va tilni o‘zaro uzviy bog‘liqligini ta’minlab beruvchi lingvistik bilimlar bazasi hisoblanadi deyishimiz mumkin. Lingvistik resurslarni (ma’lumotlarni) analiz qilish va ularni boshqarish uchun bir nechta bosqichli tizim yaratiladi. Bu esa dasturiy va lingvistik ta’minotning uzviy bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

Dasturiy ta’minot esa ushbu resurslar asosida til birliklarini qayta ishlovchi algoritmlar, modullar va foydalanuvchi interfeyslarini ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi. Dasturiy ta’minot yoki Software bu komputerda ma’lum bir turdagi vazifani bajarish uchun ishlab chiqilgan vositadir*[6]* deb qarash mumkin. Kompyuter lingvistikasi tizimlarining ikkinchi asosiy komponenti bo‘lmish dasturiy ta’minot bo‘lmas ekan biz komputer va shu kabi texnologiyalarni “quruq temir” deyishimiz mumkin bo‘lar edi.

Bu ikki turdagi ta’minot o‘zaro bevosita bog‘liq**:** dasturiy tizimlar faqat lingvistik bazalarning to‘liqligi va sifati asosidagina ishlay oladi, ayni vaqtda lingvistik resurslar dasturiy amalga oshirilmasa, amaliy ahamiyat kasb eta olmaydi. Masalan, avtomatik tarjima tizimi uchun kerakli grammatika qoidalari va so‘z birikmalari bazasi mavjud bo‘lmasa, u qanchalik ilg‘or algoritmlar asosida yaratilmasin, sifatli natija bera olmaydi.

Lingvistik ta’minot ishlab chiqish o‘z navbatida kompyuter lug‘atlari bilan bog‘liq hisoblanadi. Bu esa kompyuter lug‘atlarini leksikografiya bilan bog‘liq tomonini ko‘rib chiqishni talab etadi. Leksikografiya bo‘limida lug‘atlar, ularni tuzish yo‘llari va tamoyillari o‘rganiladi. Avtomatizatsiya ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga kirib kelishi natijasida lug‘atlarni elektron holatda yaratish imkoniyati yuzaga keldi. «Kompyuter yordamida lug‘atlar bilan ishlashning optimallashuvi natijasida kompyuter leksikografiyasi yo‘nalishi shakllandi.

Kompyuter lug‘atlari, asosan, matnlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish uchun qo‘llaniladigan lug‘atlardir. Lug‘atlar va elektron kitoblar bir-biri bilan juda bog‘liq bo‘lib, - yaqinda kompyuter lug‘ati kerakli so‘zni mustaqil ravishda qidirish, topish va ovoz berishni o‘rgandi. Ba’zan chet eldagi do‘stingizdan

elektron pochta xabarini yoki texnika bo‘yicha har qanday ko‘rsatmalarni tarjima qilishda boshqa oila a’zolari uchun foydali bo‘ladi.

Zamonaviy lug‘atlar xuddi shu printsip asosida qurilgan. Hozirgi vaqtda yuzlab tillar (ingliz-rus, nemis-fransuz va boshqalar) o‘rtasida tarjima qilish uchun minglab lug‘atlar mavjud va ularning har biri o‘n minglab so‘zlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Qog‘oz versiyasida lug‘at yuzlab sahifalardan iborat qalin kitob bo‘lib, unda to‘g‘ri so‘zni qidirish juda mashaqqatli jarayondir.

Kompyuter lug‘atlari yuz minglab so‘z va iboralarning turli tillarga tarjimalarini o‘z ichiga olishi va foydalanuvchiga qo‘shimcha funktsiyalarni taqdim etishi mumkin:

1) foydalanuvchiga tillar va tarjima yo‘nalishini tanlash imkonini beruvchi ko‘p tilli kompyuter lug‘atlari mavjud (masalan, inglizcha-ruscha, ispancha-ruscha va boshqalar);

2) kompyuter lug‘atlarida ko‘p qo‘llaniladigan so‘zlarning asosiy lug‘atidan tashqari, bilim sohalari (texnologiya, tibbiyot, informatika va boshqalar) bo‘yicha o‘nlab maxsus lug‘atlar bo‘lishi mumkin;

3) kompyuter lug‘atlari lug‘at yozuvlarini tezkor qidirishni ta’minlaydi: «tez yozish», so‘zni kiritish jarayonida o‘xshash so‘zlar ro‘yxati paydo bo‘lganda; xatcho‘plar orqali tez-tez ishlatiladigan so‘zlarga kirish; iboralarni kiritish qobiliyati va boshqalar;

4) kompyuter lug‘atlari multimedia bo‘lishi mumkin, ya’ni foydalanuvchiga ma’ruzachilar, ona tilida so‘zlashuvchilar tomonidan ijro etilgan so‘zlarni tinglash imkoniyatini beradi;

5) internetdagi onlayn kompyuter lug‘atlari tematik lug‘at va tarjima yo‘nalishini tanlash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, kompyuter lingvistikasi jarayonlarida lingvistik va dasturiy ta’minotning o‘zaro integratsiyasi, ularning muvofiqlashtirilgan holda yaratilishi va qo‘llanilishi ayni dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. **Kompyuter lingvistikasida ta’minot masalasi** bugungi kunda nafaqat texnologik, balki lingvistik yondashuvni ham talab qiluvchi dolzarb masalalardan biridir. O‘zbek tilida yaratilgan dasturlar, korpuslar, avtomatik tahlil vositalari son jihatdan ortib borayotgan bo‘lsa-da, ular uchun sifatli va keng qamrovli ta’minot bazasining shakllantirilishi hali ham muhim vazifa bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo‘nalishlari. – Andijon, 2006.
2. Po‘latov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent, 2007.
3. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2011.
4. Abdurahmonova N. Mashina tarjimasining lingvistik ta’minoti Akademnashr, Toshkent – 2018.31-bet.
5. Xolmanova Z.T. Kompyuter lingvistikasi; «Asian Book House» nashriyoti. Toshkent – 2020. 7-bet.
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Dasturiy_ta’minot.

ХЎЖАЛИК ЖАМИЯТЛАРИДА МЕНЕЖМЕНТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

А.Р.Валижонов
Давлат активларини бошқариш агентлиги Тадқиқотлар маркази и.ф.н., катта илмий ходим

Аннотация: мақолада хўжалик жамиятлари, яъни акциядорлик жамиятлари ва масъулияти чекланган жамиятларда менежментни, шу жумладан хўжалик жамиятлари ироия органлари фаолиятини ташкил этиш масалалари ва ҳуқуқий асослари тадқиқ этилган. Мақола доирасида ўтказилган таҳлил асосида хўжалик жамиятларида менежментни ривожлантириш бўйича таклифлар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: менежмент, бошқарув, хўжалик жамияти, ижроия органи, кузатув кенгаши, умумий йиғилиш, бизнес-режа, стратегия.

Abstract: the article examines the issues and legal foundations of organizing management in business entities, i.e., joint-stock companies and limited liability companies, including the activities of executive bodies of business entities. Based on the analysis conducted within the framework of the article, proposals for the development of management in business entities have been developed.

Keywords: management, governance, business entity, executive body, supervisory board, general meeting, business plan, strategy.

Аннотация: в статье исследуются вопросы и правовые основы организации менеджмента в хозяйственных обществах, то есть в акционерных обществах и обществах с ограниченной ответственностью, включая деятельность исполнительных органов хозяйственных обществ. На основе анализа, проведенного в рамках статьи, разработаны предложения по развитию менеджмента в хозяйственных обществах.

Ключевые слова: менеджмент, управление, хозяйственное общество, исполнительный орган, наблюдательный совет, общее собрание, бизнес-план, стратегия.

Хўжалик жамиятлари, яъни масъулияти чекланган жамиятлар ва акциядорлик жамиятлари юридик шахсларнинг кенг тарқалган шакли бўлиб иқтисодиётнинг барча тармоқларида фаолият олиб борадилар. Масъулияти чекланган жамиятлар шаклида асосан кичик ва ўрта корхоналар ташкил этилган бўлса, йирик корхоналар эса акциядорлик жамиятлари шаклида ўз фаолиятини олиб борадилар.

Хўжалик жамиятларида замонавий менежментни ташкил этиш улар фаолиятининг самарадорлигини оширишга хизмат қилади. Хўжалик жамиятлари улушдорлари (акциядорлари) жамиятни бошқаришни ёлланма менежерларга топшириш ҳуқуқига эга бўладилар.

Менежмент тушунчасига иқтисодий адабиётларда кўплаб таърифлар келтирилган. Менежмент (инг. management) - ишлаб чиқаришни бошқариш; ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш ва фойдани кўпайтириш мақсадида ишлаб чиқаришни бошқариш тамойиллари, усуллари, воситалари ва шакллари мажмуи [1.2002:Б.469].

Замонавий менежмент бозор иқтисодиёти шароитларида фаолият юритувчи фирмалар, корхоналар, ташкилотларни бошқаришнинг вужудга келган тизими сифатида уларнинг ишлаб чиқариш – хўжалик фаолиятини самарали ривожланиши ва фаолият юритиши учун зарур шароитлар яратилишини кўзда тутади. Менежмент (инглизча, “Management” – бошқармоқ, идора қилмоқ, ташкил қилмоқ) – бу: - ишлаб чиқариш, тижоратни бошқариш бўйича маълум мақсадларни кўзловчи амалий фаолият; - бошқарув назарияси фани бошқарув тамойиллари, усуллари, воситалари ва шаклларининг мажмуаси; - мамлакатимизнинг ҳозирги замон амалиётида корхона, акциядорлик жамиятининг раҳбарлик қилувчи таркибидир [2.2018:Б.34].

Хўжалик жамиятларида бошқарувни, шу жумладан менежментни ташкил қилиш қилиш Ўзбекистон Республикасининг “Акциядорлик жамиятлари ва акциядорларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги ва “Масъулияти чекланган жамиятлар тўғрисида”ги қонунларига асосан амалга оширлади. Акциядорларнинг умумий йиғилиши, кузатув кенгаши ва ижроия органи акциядорлик жамиятининг бошқарув органларидир. Демак, акциядорлик жамиятларида бошқарув тизими асосан уч поғоналик ҳисобланади. Масъулияи чекланган жамиятларда бошқарув асосан икки поғоналик, яъни иштирокчилар умумий йиғилиши ва ижрочи органдан иборат бўлади. Шу билан бирга масъулияти чекланган жамиятининг уставида бошқарувнинг яна бир органи, яъни кузатув кенгаши тузилиши назарда тутилиши мумкин. Бундай ҳолларда масъулияти чекланган жамиятларда бошқарув уч поғоналик бўлади.

Хўжалик жамиятларининг иштирокчилари (акциядорлари) ва кузатув кенгаши йиғилишлари вақти-вақти билан ўтказилиши сабабли уларнинг доимий фаолият кўрсатувчи ижроия органи жамиятни бошқаришда муҳим ўрин тутади. Хўжалик жамиятларида менежмент функциялари асосан ижроия органи томонидан амалга оширилади. Жамиятнинг кундалик фаолиятига раҳбарлик қилиш ваколати жамиятнинг уставида белгиланадиган директор ёки жамият бошқаруви томонидан амалга оширилади. Агар жамиятнинг кундалик фаолиятига раҳбарлик бошқарув томонидан амалга ошириладиган бўлса, жамият уставида бошқарув раҳбарининг (бошқарув раисининг) ваколати ҳам белгиланган бўлиши лозим.

Хўжалик жамияти умумий йиғилишининг қарорига кўра жамият ижроия органининг ваколатлари шартнома бўйича тижорат ташкилотига (ишончли бошқарувчига) берилиши мумкин. Тузиладиган шартноманинг шартлари, агар жамият уставида ўзгача қоида назарда тутилмаган бўлса, жамият кузатув кенгаши томонидан тасдиқланади.

Жамият ижроия органининг ваколатига жамиятнинг кундалик фаолиятига раҳбарлик қилишга доир барча масалалар киради, акциядорлар умумий йиғилишининг ёки жамият кузатув кенгашининг ваколат доирасига киритилган масалалар бундан мустасно. Жамиятнинг ижроия

органи хўжалик жамияти умумий йиғилишининг ва жамият кузатув кенгашининг қарорлари бажарилишини ташкил этади. Жамиятнинг директори (бошқарув раиси) жамият номидан ишончномасиз иш юритади, шу жумладан унинг манфаатларини ифодалайди, жамият номидан битимлар тузади, жамиятнинг филиали ёки ваколатхонаси раҳбарини тайинлайди, штатларни тасдиқлайди, жамиятнинг барча ходимлари бажариши мажбурий бўлган буйруқлар чиқаради ва кўрсатмалар беради.

Жамиятнинг ижроия органларини тузиш ҳамда уларнинг ваколатларини муддатидан илгари тугатиш, агар жамият уставида ушбу масалаларни ҳал этиш жамият кузатув кенгашининг ваколат доирасига киритилмаган бўлса, иштрокчилар (акциядорлар) умумий йиғилишининг қарорига кўра амалга оширилади. Акциядорлик жамияти уставига мувофиқ ёки акциядорлар умумий йиғилишининг ёхуд жамият кузатув кенгашининг қарорига кўра жамият директорини ёки бошқарув аъзоларини тайинлаш, қоида тариқасида, чет эллик менежерлар иштирок этиши мумкин бўлган танлов бўйича саралаш асосида амалга оширилади.

Хўжалик жамиятларида коллегиал ижроия органи, яъни бошқарув ҳам тузилиши мумкин. Жамиятнинг бошқаруви жамият устави асосида иш юритади. Жамиятнинг бошқаруви мажлисларини ўтказишни бошқарув раиси ташкил этади, у жамият номидан барча ҳужжатларни ҳамда жамият бошқаруви мажлиси баённомаларини имзолайди, жамиятнинг бошқаруви ўз ваколат доирасида қабул қилган қарорларга мувофиқ жамият номидан ишончномасиз иш юритади.

Хулоса сифатида шуни таъкидлаш мумкинки бугунги кунда мамлакатимизда хўжалик жамиятларида менежмент ва ижроия органи фаолиятини амалга оширишнинг ташкилий ва ҳуқуқий асослари яратилган.

Хўжалик жамиятларида менежментни ривожлантириш учун қуйидагиларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ:

хўжалик жамиятларида стратегик режалаштиришнинг илмий-услубий асосларини ривожлантириш, шу жумладан хўжалик жамиятни ўрта муддатга ва узоқ муддатга ривожлантиришнинг аниқ муддатлари белгиланган стратегиясини ишлаб чиқиш бўйича тегишли давлат бошқарув органлари томонидан услубий тавсияларни тайёрлаш;

хўжалик жамиятлари ижроия органининг ташкилий тузилмасини замонавий менежментнинг вазифаларига мос равишда шакллантириш;

коллегиал ижроия органи аъзоларининг ваколатлари, мажбуриятлари ва жавобгарлигини қонунчилик ҳужжатларида аниқ белгилаш;

хўжалик жамиятларида бошқарув тизимини рақамлаштириш, ижроия органи ходимлари малакасини мунтазам равишда ошириб бориш ва бу масалаларни амалга ошириш ҳамда молиялаштириш чора-тадбирларини хўжалик жамиятларининг бизнес-режаларида акс эттириш.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Большой экономический словарь / Под ред. А. Н. Азрилияна. 5-е изд. доп и перераб. — М.: Институт новой экономики, 2002. С. 469.
2. Н.Қ. Йўлдошев, Г.Э. Захидов. Менежмент (дарслик) ТДИУ, 2018. 399б.

AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA "AYOLLAR SANOAT ZONASI"NI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI

M.I.Rahimova
University of business and science nodavlat oliy ta’lim muass.asasi v.b. dotsenti, i.f.f.d (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda “Ayollar sanoat zonasi”ni tashkil etish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda gender tengligini ta’minlash, ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish va ularni tadbirkorlikka jalb etish orqali barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishga erishish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, xorijiy tajriba asosida bunday zonalarni samarali tashkil etishning huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlari asoslab berilgan.

Kalit so’zlar: Ayollar tadbirkorligi, ayollar sanoat zonasi, gender tengligi, iqtisodiy faollik, bandlik imkoniyatlari, ish o‘rinlari yaratish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, infratuzilma, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, soliq imtiyozlari, kasbiy tayyorgarlik, investitsiya jalb etish, xususiy sektor ishtiroki, eksport salohiyati.

Аннотация: В статье анализируются возможности организации «Женской промышленной зоны» в развитии женского предпринимательства. В исследовании рассматриваются возможности достижения устойчивого социально-экономического роста за счёт обеспечения гендерного равенства, повышения экономической активности женщин и вовлечения их в предпринимательскую деятельность. Обосновываются правовые, организационные и экономические механизмы эффективной организации таких зон с учётом зарубежного опыта.

Ключевые слова: женское предпринимательство, женская промышленная зона, гендерное равенство, экономическая активность, возможности трудоустройства, создание рабочих мест, организационно-экономический механизм, инфраструктура, финансовая поддержка, налоговые льготы, профессиональная подготовка, привлечение инвестиций, участие частного сектора, экспортный потенциал.

Annotation: This article analyzes the possibilities of organizing a "Women's Industrial Zone" in the development of women's entrepreneurship. The study examines the possibilities of achieving sustainable socio-economic growth by ensuring gender equality, increasing women's economic activity, and involving them in entrepreneurship. It also substantiates the legal, organizational, and economic mechanisms for the effective organization of such zones based on foreign experience.

Key words: women's entrepreneurship, women's industrial zone, gender equality, economic activity, employment opportunities, job creation, organizational and economic mechanism, infrastructure, financial support, tax incentives, vocational training, investment attraction, private sector participation, export potential.

Bugungi kunda jahon miqyosida gender tengligini ta’minlash, ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish va ularni tadbirkorlik jarayonlariga keng jalb etish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayollar tadbirkorligi nafaqat oilalarning iqtisodiy barqarorligini ta’minlash, balki mamlakatning umumiy iqtisodiy o‘sishiga ham katta hissa qo‘shadi. O‘zbekistonda ham bu yo‘nalishda qator islohotlar amalga oshirilmoqda, jumladan, ayollar tadbirkorligini rag‘batlantirish, ularga moliyaviy, huquqiy va infratuzilmaviy yordam ko‘rsatish bo‘yicha turli dasturlar joriy etilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, “ayollar sanoat zonasi”ni tashkil etish g‘oyasi ayollar uchun mos ishlab chiqarish muhitini yaratish, ularning tadbirkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish, bandlikni oshirish va innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqotda ayollar sanoat zonalarini tashkil etishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari, mavjud imkoniyatlar va rivojlanish istiqbollari atroflicha tahlil etiladi[1].

Aholining iqtisodiy faol qatlamini to‘liq rivojlantirishda va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda ayollarning tadbirkorlik salohiyatini yuzaga chiqarish muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, ayollar tadbirkorligini institutsional va infratuzilmaviy qo‘llab-quvvatlash, xususan, ayollar sanoat zonalarini tashkil etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Birinchidan, ayollar sanoat zonasini tashkil etish zarurati mamlakatda ayollar o‘rtasida ishsizlik darajasining yuqoriligi, ularning mehnat bozoridagi imkoniyatlari cheklangani va tadbirkorlik faoliyatida to‘siqlarga duch kelayotgani bilan bog‘liq. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ayollar tadbirkorlikka kirishishda moliyaviy resurslarga yetishmovchilik, infratuzilmaning yetarli emasligi va kasbiy tayyorgarlikning yetishmasligi kabi muammolarga duch kelishmoqda[2].

Ikkinchidan, ayollar sanoat zonasi - bu ayollar uchun mos ishlab chiqarish muhiti, samarali xizmatlar tizimi va resurslardan teng foydalanish imkoniyatlarini yaratuvchi maxsus hudud sifatida xizmat qiladi. Bunday zonalarda kadrlar tayyorlash markazlari, bolalar bog‘chalari, huquqiy va moliyaviy maslahat markazlari tashkil etilishi ayollarning iqtisodiy faolligini oshirishga hissa qo‘shadi.

Uchinchidan, mazkur zonalar ayollar mehnati asosida tashkil etiladigan lokal klasterlarni shakllantirish, qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish, eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hamda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash imkonini beradi. Bu esa hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga va ayollarning turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi[3].

To‘rtinchidan, xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, ayollar uchun maxsus sanoat zonalari tashkil etilgan davlatlarda (Hindiston, Turkiya, Bangladesh, Ruanda va boshqalar) gender inklyuziya darajasi, ayollar ishbilarmonligi va ish o‘rinlari soni sezilarli darajada oshgan.

Shu bois, O‘zbekistonda ham ayollar sanoat zonalarini tashkil etish orqali ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularni qo‘llab-quvvatlash, mamlakatning umumiy iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishda muhim strategik natijalarga erishish mumkin bo‘ladi.

Ayollar sanoat zonasini tashkil etish bo‘yicha jahon tajribasi bugungi kunda qator davlatlar tomonidan ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish, tadbirkorlikda ishtirokini kengaytirish va gender inklyuziyani ta’minlash maqsadida keng qo‘llanilmoqda. Quyida bu boradagi eng namunali xalqaro tajribalar keltiriladi.

Hindistonda "Mahila Coir Industrial Estate" loyihasi ayollar uchun maxsus tashkil etilgan ilk sanoat zonasidir. U Kerala shtatida tashkil etilgan bo‘lib, asosiy maqsad ayollarni kokos tolasini qayta ishlash sohasiga jalb qilish va ularga biznes yuritish imkoniyatlarini yaratish. Bu yerda ayollarga uskunalar, ish joyi, uquv-mashg‘ulotlar va moliyaviy yordam ko‘rsatilgan. Natijada minglab ayollar o‘z xususiy faoliyatini yo‘lga qo‘ygan[4].

Turkiyada kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish agentligi KOSGEB tomonidan ayollar uchun maxsus "Ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash dasturi" ishlab chiqilgan. Ushbu dastur doirasida ayollar uchun ishlab chiqarish klasterlari tashkil etilib, ularga soliq imtiyozlari, grantlar, mutaxassis maslahatlari va startap faoliyati uchun himoya mexanizmlari taklif etiladi[5].

Bangladeshdagi to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida (RMG) maxsus Gender Inclusive Industrial Parklar tashkil etilgan bo‘lib, ular ayollar mehnatining salmoqli qismiga tayangan. Bu yerda ayollar uchun ish va yashash sharoiti, bolalar bog‘chalari, tibbiy xizmat, huquqiy yordam nuqtalari tashkil etilgan. Bu tajriba xalqaro tashkilotlar (ILO, UN Women) tomonidan yuqori baholangan[6].

Afrikadagi Ruanda davlatida tashkil etilgan Women’s Opportunity Industrial Center ayollarga malaka oshirish, kichik biznes yuritishni o‘rgatish, hunarmandchilikni rivojlantirishga qaratilgan. Bu markaz ayollarni o‘z biznesini yo‘lga qo‘yishga tayyorlash bilan birga, ularga zarur infratuzilma, yuridik maslahat va marketing ko‘nikmalari ham taqdim etadi.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, ayollar sanoat zonasini tashkil etish faqat ish joyi yaratish emas, balki ayollarni iqtisodiy jarayonlarga integratsiya qilish, ularning imkoniyatlarini rivojlantirish va jamiyatda teng ishtirokini ta’minlash kabi keng qamrovli maqsadlarga erishishda muhim vosita hisoblanadi. O‘zbekistonda ham ushbu tajribalarni hisobga olgan holda, mahalliy sharoitga moslashtirilgan ayollar sanoat zonalarini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Ayollar sanoat zonasini tashkil etish imkoniyatlari O‘zbekistonning bir qator sharoit va resurslariga tayanadi. Jumladan, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun belgilangan hududlarda, ayniqsa, ayollar bandligi past bo‘lgan tuman va shaharlarda yer maydonlari ajratish imkoni mavjud. Erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va klasterlar tarkibida ayollar uchun alohida sektorlar ajratish mumkin. Shuningdek, “Ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash milliy dasturi”, YeTITI, UNDP, UN Women kabi tashkilotlarning grantlari va texnik yordamlari mavjdu bo‘lib, mahalliy kadrlar va resurslar ham mavjud[7].

Ayollar sanoat zonasini tashkil etish quyidagi bosqichlar asosida amalga oshiriladi:

1.Tashabbuskor tashkilot aniqlanadi. Bunday tashabbus viloyat hokimliklari, Savdo-sanoat palatasi, xotin-qizlar qo‘mitasi yoki xususiy sektor tomonidan ko‘tarilishi mumkin.

2.Hudud va infratuzilmani tanlanadi. Ishlab chiqarishga mos keladigan, zarur infratuzilmaga ega bo‘lgan hudud aniqlanadi. Yer maydoni ajratiladi va loyiha bo‘yicha texnik-iqtisodiy asoslar (TIA) ishlab chiqiladi.

3.Huquqiy va tashkiliy rasmiylashtirish. Zona yuridik shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Unga maxsus maqom (masalan, “ayollar sanoat parki” yoki “ayollar mikroindustrial zonasi”) berilishi mumkin.

4.Loyiha rejasi va boshqaruv tizimi shakllantiriladi. Zonada faoliyat yurituvchi korxonalar uchun shartlar, ijara mexanizmi, soliq imtiyozlari, xizmat ko‘rsatuvchi markazlar (bolalar bog‘chasi, uquv markazi, moliyaviy va yuridik maslahat punktlari) rejalashtiriladi[8].

5.Ayol tadbirkorlarni tanlash va joylashtirish. Mahalliy ayol tadbirkorlar, yoshlar, kasanachilar tanlov asosida tanlanadi. Ularning biznes-rejalari va salohiyati baholanadi.

6.Moliyaviy va texnik ko‘mak ko‘rsatiladi. Tijorat banklari, xalqaro tashkilotlar va mahalliy dasturlar orqali subsidiya, imtiyozli kredit va grantlar ajratiladi.

7.Monitoring va samaradorlik baholash tizimi joriy etiladi. Ayollar sanoat zonasi faoliyati doimiy monitoring qilinadi, ish o‘rinlari, ishlab chiqarish hajmi va ijtimoiy ta’sir ko‘rsatkichlari asosida baholanadi[9].

Umuman olganda ayollar sanoat zonasini tashkil etish, ayollarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish, gender tengligini ta’minlash va hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishning samarali vositasidir. Tegishli huquqiy-tashkiliy tartiblar va davlat-xususiy sheriklik asosida bu kabi zonalarni amalga oshirish mumkin bo‘lib, ular ayollar uchun xavfsiz, qulay va samarali ishbilarmonlik muhitini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ayollar tadbirkorligini barqaror rivojlantirishda ayollar sanoat zonalarini tashkil etish samarali instrumentlardan biri hisoblanadi. Bunday zonalar ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish, ularni qonuniy va infratuzilmaviy muhitda tadbirkorlikka keng jalb qilish, hududiy rivojlanishni rag‘batlantirish hamda gender tengligiga erishishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Jahon tajribasi bu kabi platformalarning ijobiy ta’sirini namoyon etgan bo‘lsa, mahalliy sharoitda ham bu yo‘nalishni amalga oshirish uchun yetarli huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy asoslar mavjud[10].

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Ayollar sanoat zonasini yaratish uchun huquqiy asoslar ishlab chiqish lozim. “Ayollar sanoat zonasi” tushunchasini normativ-huquqiy hujjatlarga kiritish va uning maqomini belgilash bo‘yicha maxsus qarorlar qabul qilinishi zarur.

2. Hududiy loyihalarni amalga oshirish. Aholisi zich, ayollar o‘rtasida ishsizlik darajasi yuqori bo‘lgan viloyat va tumanlarda ayollar sanoat zonasini tajriba sifatida joriy etish maqsadga muvofiq.

3.Imtiyozli shart-sharoitlar yaratish. Ayollar sanoat zonasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlarga soliq imtiyozlari, imtiyozli kreditlar, subsidiya va grantlar ajratish mexanizmini ishlab chiqish.

4.Maxsus infratuzilma va xizmatlar tizimi yaratish. Bolalar bog‘chasi, o‘quv-mashg‘ulot markazlari, yuridik va buxgalterlik xizmatlari kabi yordamchi infratuzilmalar tashkil etilishi ayollar uchun qulay sharoit yaratadi.

5.Ayol tadbirkorlar uchun malakali kadrlar tayyorlash. Sanoat zonasiga jalb etiladigan ayollar uchun biznes-rejalash, marketing, moliya va boshqaruv sohalarida o‘quv kurslari tashkil etish taklif etiladi.

6.Xalqaro sheriklikni rivojlantirish. UN Women, GIZ, USAID, ILO kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda texnik yordam va moliyaviy resurslarni jalb qilish maqsadga muvofiq.

7.Natijadorlikni baholash tizimini joriy etish. Ayollar sanoat zonasi samaradorligini baholash uchun KPI ko‘rsatkichlar asosida monitoring va tahlil mexanizmi yo‘lga qo‘yilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, ayollar sanoat zonalarini tashkil etish - gender inklyuziyasi, tadbirkorlik muhitini diversifikatsiya qilish va hududiy iqtisodiy rivojlanishga erishishda strategik muhim vositadir. Bunday zonalar ayollar uchun maxsus sharoitlar yaratish, ularning ishbilarmonlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish va mahalliy xomashyo asosida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish imkonini beradi.

Jahon tajribasi va mahalliy ehtiyojlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda ham bunday zonalarni joriy etish orqali ayollar bandligini oshirish, ishsizlikni kamaytirish, eksport salohiyatini kuchaytirish va iqtisodiyotda ayollar ulushini kengaytirish mumkin. Eng muhimi, ayollar sanoat zonasi — bu iqtisodiy resurslardan teng foydalanishni ta’minlash, inklyuziv iqtisodiyot sari qadam tashlash va mamlakatda barqaror ijtimoiy rivojlanishga hissa qo‘shishning muhim modeli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 7 martdagi PQ–122-son “Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida ”gi qarori.

2. UN Women. Women’s Empowerment and Economic Inclusion through Industrial Zones: Global Best Practices. New York: United Nations Publications. 2021.

3. ILO. Gender and Industrial Policy: How Special Economic Zones can Foster Women’s Employment. Geneva: International Labour Organization. 2020.

4. Mahila Coir Industrial Estate – Kerala State Coir Corporation. 2021. Annual Report. – Trivandrum, India.

5. Turkiye KOSGEB Agency. Women Entrepreneurship Support Program Annual Report. Ankara, Turkey. 2021.

6. Asian Development Bank (ADB). Creating Inclusive Industrial Policies: Focus on Gender Integration. Manila, Philippines. 2022.

7. GIZ Uzbekistan. Promoting Female Entrepreneurship in Uzbekistan: Policy Recommendations and Pilot Initiatives. Tashkent 2023.

8. Rajabov Sh.Sh., Xidirov A.A. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda institutsional islohotlar. // “Iqtisodiy taraqqiyot va islohotlar” jurnali. – 2023. – №2. – B. 35–42.

9. Karimova Z.H. Ayollar tadbirkorligida infratuzilmani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari. // “Iqtisodiyot va ta’lim” jurnali. – 2022. – №4. – B. 27–31.

10. World Bank. Women Entrepreneurs and the Role of Industrial Zones in Emerging Economies. Washington D.C.: World Bank Group. 2021.

PERSEPTIV FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHDA PSIXOLOGIK OMILLAR VA METODIK YONDASHUVLAR: BOSHLANG‘ICH TA’LIM KONTEKSTIDA

K.I.Tursunboyeva
Andijon davlat Pedagogika instituti 2-bosqich tayanch doktoranti
Email:kamola.tursunboyeva@mail.ru Tel:+998916717124

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida perseptiv qobiliyatni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari yoritilgan. Bolalarning atrof-muhitni idrok etish, sezish va tushunish jarayonlari ularning o‘qish, yozish, muloqot va fikrlash faoliyatiga qanday ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilingan. Shuningdek, qiyoslash metodining ahamiyati, idrok jarayonining bosqichlari va L.S. Vygotskiy nazariyasi asosida idrok va tafakkurning o‘zaro aloqadorligi ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: perseptiv qobiliyat, boshlang‘ich ta’lim, idrok, psixologik xususiyatlar, qiyoslash metodi, Vygotskiy nazariyasi

Аннотация: В статье рассматриваются психологические особенности развития перцептивных способностей у учащихся начальных классов. Анализируется влияние процессов восприятия, ощущения и осмысления окружающей среды на развитие навыков чтения, письма, общения и мышления у детей. Также освещается значение метода сравнения, этапы формирования восприятия и взаимосвязь восприятия и мышления на основе теории Л.С. Выготского.

Ключевые слова: перцептивные способности, начальное образование, восприятие, психологические особенности, метод сравнения, теория Выготского

Abstract: This article explores the psychological characteristics of developing perceptual abilities in primary school students. It analyzes how perception, sensation, and understanding of the environment influence children’s reading, writing, communication, and thinking skills. The paper also highlights the importance of the comparison method, stages of perceptual development, and the interrelation between perception and thinking based on L.S. Vygotsky’s theory.

Keywords: perceptual ability, primary education, perception, psychological characteristics, comparison method, Vygotsky’s theory

Kirish. Hozirgi zamonaviy ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixologik va intellektual rivojlanishini chuqur tahlil qilish hamda ularni samarali qo‘llab-quvvatlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o‘quvchilarning perseptiv qobiliyatlari – ya’ni tashqi muhitdan kelayotgan axborotni sezgi organlari orqali qabul qilish, uni idrok etish, qayta ishlash va xulosalash ko‘nikmalarini shakllantirish ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Psixolog olimlar, xususan L.S. Vygotskiy, D.B. Elkonin, P.Ya. Galperin va boshqalarning tadqiqotlarida idrok va tafakkur jarayonining o‘zaro bog‘liqligi, ularning rivojlanish bosqichlari chuqur tahlil qilingan. Boshlang‘ich ta’lim davrida idrok etish qobiliyatining rivojlanishi o‘quvchilarning diqqat, xotira, tafakkur, nutq va muloqot ko‘nikmalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu boisdan ham ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining perseptiv qobiliyatlarini rivojlantirishda psixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda samarali metodik yondoshuvlar ishlab chiqish masalasi yoritilgan.

Asosiy qism. Boshlang’ich sinf o’quvchilarida perseptiv qobiliyatni rivojlantirishning psixologik xususiyati – bu, atrof-muhitni idrok etish, sezish va tushunish qobiliyatidir. U vizual, eshitish, taktil (teginish), kinestetik (harakat) hamda boshqa sezgi organlari orqali amalga oshiriladi. Boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalar uchun perseptiv qobiliyat muhim bo‘lib, ularning o‘qish, yozish, hisoblash, ijodiy fikrlash va muloqot qilish jarayonlarida katta ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘zining rivojlanish bosqichida bo‘lib, quyidagi **psixologik xususiyatlar**ga ega:

Idrok jarayonining to’liq shakllanmaganligi – bolalar narsalarni butunligi bilan emas, balki tafsilotlariga e’tibor qaratib idrok qilishi mumkin. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari idrok jarayoni hali to‘liq shakllanmaganligi sababli, ular atrof-muhitni kattalar kabi izchil va tizimli tarzda qabul qila olmaydi. Bu yoshda bolalar asosan konkret (aniq) obrazlarga tayanib fikrlaydi va narsalarni butunligicha emas, balki ularning alohida tafsilotlariga e’tibor qaratib idrok qiladi. Masalan, bola yangi bir ob’yekt yoki rasmni ko‘rganida, u birinchi navbatda uning rangiga, shakliga yoki ayrim detallarga e’tibor berishi mumkin, lekin bu elementlarning o‘zaro bog‘liqligini va butun kompozitsiyani to‘liq tushunishi qiyin bo‘lishi mumkin.

Agar unga itning rasmini ko‘rsatsangiz, u butun hayvonni emas, balki faqat quloqlari, ko‘zlari yoki dumiga e’tibor qaratishi mumkin.

Shuningdek, boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalar idrok qilayotgan ob’yektlarning muhim xususiyatlari bilan ikkilamchi xususiyatlarini farqlashda ham qiyinchiliklarga duch keladi. Ular uchun katta, yorqin yoki harakatlanuvchi predmetlar muhimroq bo‘lib tuyuladi, shuning uchun ham ularning diqqat markazi tez-tez o‘zgarib turadi. Bu esa o‘quv jarayonida diqqatni jamlash va materialni yaxlit qabul qilish qobiliyatining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarida idrok (perseptiv) jarayonini rivojlantirish uchun quyidagi maxsus metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi ta’kidlanadi:

Qiyoslash – bolaga turli obyektlarni taqqoslash orqali ularning umumiy va farqli jihatlarini aniqlashga yordam berish. Bu usul orqali bolalar atrof-muhitdagi obyektlarning o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlashga o‘rganadilar. Qiyoslash jarayoni bolalarning kuzatuvchanligini oshirish, fikrlashni rivojlantirish va idrok jarayonini yanada puxtalashtirishga xizmat qiladi.

Mashhur psixolog L.S.Vigotskiy to’g’ri ko’rsatib o’tganidek, idrok va xotira maktab ta’limi boshlanishi oldidan anchagina taraqqiyot yo’lini bosib o’tgan bo’ladi, kichik maktab yoshidagi davrda esa intellekt (aql) jadal taraqqiy etadi. Tafakkurning rivojlanishi idrok va xotirani sifat jihatdan qayta o’zgarishga, ularni ixtiyoriy va boshqariladigan jarayonga aylanishga olib keladi.

Boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalar hali abstrakt tafakkurga to‘liq ega emasligi sababli, ularning idrok jarayoni asosan vizual (ko‘rish), taktil (teginish) va boshqa sezgi organlari orqali shakllanadi. Shuning uchun ular qiyoslashni ko‘proq tashqi belgilarga asoslanib amalga oshiradi. Ular predmetlarning shakli, rangi, kattaligi yoki boshqa sezilarli jihatlarini taqqoslab, umumiylik va farqlarni ajrata boshlaydilar. Vaqt o‘tishi bilan bu qobiliyat chuqurlashib, ular ob’yektlarning funksional yoki mantiqiy jihatdan o‘xshash va farqli tomonlarini ham tushuna boshlaydilar. O’quvchi qiyoslash orqali quyidagi sifatlarini rivojlantirishga erishadi:

– tafakkur va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi, bola qiyoslash orqali ob’yektlarning o‘zaro bog‘liqligini tushunadi va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi;

– idrokning yaxlitligini shakllantiradi, bola narsalarni faqat alohida xususiyatlari bilan emas, balki umumiy tizimda ko‘rishni o‘rganadi;

– e’tibor va diqqatni oshiradi, bolalar o‘xshash va farqli jihatlarni topish jarayonida diqqatni jamlashni o‘rganadilar;

– xotirani mustahkamlaydi, oldindan o‘rganilgan bilimlarni yangi ma’lumotlar bilan solishtirish orqali mustahkamlaydi;

– til va nutq rivojiga hissa qo‘shadi, bola o‘z fikrlarini asoslab tushuntirish va o‘z so‘z boyligini kengaytirishga intiladi.

Xulosa. Boshlang‘ich ta’lim davrida o‘quvchilarning perseptiv qobiliyatlarini rivojlantirish o‘ziga xos yondashuv va metodikani talab qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, amaliy mashg‘ulotlar, interaktiv o‘yinlar, multimediali vositalar, guruhiy ishlar va refleksiya elementlari orqali o‘quvchilarning idrok qilish qobiliyati, diqqat, tafakkur va nutq ko‘nikmalari ancha faollashadi. Shu bilan birga, individual yondashuv va rivojlanishning psixologik bosqichlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Ta’lim jarayonida ushbu omillarni inobatga olib, idrok faoliyatini tizimli tarzda shakllantirish va rivojlantirish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ijodiy yondashuv kompetensiyalarini kuchaytirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. — М.: Педагогика, 1991.
2. Гальперин П.Я. Введение в психологию. — М.: Академический проект, 2002.
3. Эльконин Д.Б. Психология обучения младшего школьника. — М.: Просвещение, 1974.
4. Сафаров Ш.Т. Boshlang‘ich ta’limda psixologik jarayonlarni rivojlantirish. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
5. Nazarova M.X. Pedagogik psixologiya. — Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
6. Vygotsky, L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
7. Woolfolk, A. (2020). Educational Psychology (14th ed.). Pearson.
8. Anderson, J.R. (2000). Cognitive Psychology and Its Implications. Worth Publishers.

IJOD MAKTABLARI O’QUVCHILARINING BADIIY-IJODIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Sh.M.Nurmatova
Ixtisoslashtirilgan ta`lim muassasalari tasarrufidagi Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktabi direktori

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijod maktabi o‘quvchilarining matn yaratish kompetensiyalarini oshirishda integrativ yondashuvning ahamiyati va o’quvchilarining badiiy-ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari haqida ma`lumotlar berilgan.

Tayanch so‘z va iboralar: Bolalar, hissiy intellekt, rivojlanish, ta’lim-tarbiya, tizim, kreativlik, bilim, ko`nikma, malaka.

Bugungi kunda o’quvchilarning tanqidiy fikrlash, axbarotni mustaqil izlash, topish, tahlil qilish ,muammolarni hal qilish va aniqlash, ijodiy yechimlarni ishlab chiqish va yechimlarni amaliyotga tatbiq etish, kerakli vaqtda kerakli bilimlarni mustaqil olish va malakalarni rivojlantirish zamonaviy ta’limning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Hozirgi vaqtda ijodiy jarayon o’quvchidan bilim, ko’nikma, malaka, tajriba va iste’dod bilan birga, shijoat, chidam, aniqlikni talab qiladi. O’quvchilarning kuchli bilim olishi, ruhiy va jismoniy jihatdan yetuk shaxslar bo’lib, ulg’ayishini ta’minlash ularning qobiliyat va iqtidorini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, intelektual salohiyatini yuzaga chiqarish, ular qalbi ongi va shuurida vatanga sadoqat va fidoyilik tuyg’ularini rivojlantirish ziyolilar oldiga katta mas’uliyat yuklaydi. Ajdodlari buyuk yurtning avlodlari ham buyuk bo’lishi kerak.

O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish- pedagogik muammo sifatida ekanligini tahlil qilar ekanmiz, O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma‘naviy- axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlovchi, yuksak malaka tajribasiga ega kadrlarni tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 28- yanvardagi PF-60-son Farmoni asosida “2022-2030- yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilinganligi ayni mazkur muammolarni bartaraf etishga qaratilganligini e‘tirof etish mumkin. Umumiy o’rta ta‘lim tizimida o’quvchilarningijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish borasidagi muammolar bugung kunning dolzarb muammosi hisoblanadi. Shuning uchun, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunda mustaqil fikrlaydigan, yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimi aks ettirilgan.

Zamonaviy ta’limning mohiyatini ochib berish, pedagog faoliyatini keng qamrovli yoritish. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy mahorat va darsga ijodiy yondoshib, unda o‘qitishning yangi shakl usullarini qo‘llash. Ta’lim o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo‘lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma’lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o‘qituvchi o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini mashg‘ulotlar vositasida o‘quvchilarga yetkazadi, o‘quvchilar esa uni o‘zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘ladi. O‘rganish jarayonida o‘quvchilar o‘zlashtirishning turli ko‘rinishlaridan foydalanishadi, ya’ni o‘zlashtirilayotgan ma’lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o‘ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarlarning dars paytidagi hamkorligi, o‘quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta’lim va tarbiya masalalari hal etiladi. Ta’limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta’lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo‘lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta’limning maqsadi imkoniyatlaridan to‘g‘ri, aniq, o‘rinli foydalanish ko‘nikma va alakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g‘oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma’naviy boyitishdan iboratligi ta’kidlangan. Ta’limiy maqsad asosida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, og‘zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy afakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma’naviy, g‘oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o‘rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo‘ladi. Ulug‘ donishmandlardan biri «kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o‘qit», degan ekan. Yurtimizda ta’lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma’noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma’noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o‘zgarish bo‘ldi, desak xato bo‘lmaydi. Prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayg‘urib, yurtimizning barcha farzandlari – mening farzandlarim, ular bizlardan ko‘ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo‘lishlari kerak, degan g‘oyasi zamirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko‘rsatadi. Ma’lumki,

ta’limda ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o‘quv mashg‘ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo‘llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda ijodiy qobiliyatni shakllantirishga, ilmiyijodiy izlanishlarga yo‘llaydigan, bilishga oid ilmiy faoliyatni tashkil etish shakl va metodlaridan foydalanish o‘z samarasini berdi. Bu borada ijodiy faoliyatni rivojlantirish darslariga dialog-darslar munozara, bahs, suhbatlar, fantaziya, izlanish darslari, muammolar qo‘yish va ularni yechish darslari; ishtirokchilik darslari, modellashtirish, badiiy texnik ijodkorlik, ijod qilish, kichik kashfiyotlar yaratish, insholar yozish, solnomalar tuzish, ishbop o‘yinlardan, innovatsion metodlardan foydalanish kabilar eng samarali bo‘ldi. ta’lim jarayonida dars shakllarining o‘yin usullari sifatida o‘qitishning ma’lum bir paytida o‘tkaziladi. O‘qituvchi va o‘quvchi talabaning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tamonning asosiy maqsadi aniq: natijaga erishishga qaratilgan, bunda o‘quvchi –talabalarning bilim saviyasi,guruh xarakteri,sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun balkim kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo‘ladi, bular o‘qituvchi va o‘quvchi-talabaga bog‘liq.Shu bilan bir qatorda o‘qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o‘qituvchi o‘quv predmetining o‘ziga xos tamonini, joy va sharoitni, TSO ni, eng asosiysi, o‘quvchining imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda o‘quvchi talabani ta’limning markaziga olib chiqishi kerak. O‘qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit xolatda ko‘ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo‘lajak dars jarayonini loyihalashtirib olishi zarur. Bunda o‘qituvchiga u tomonidan bo‘lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olishi katta axamiyatga egadir. Chunki darsning texnologik xaritasi xar bir mavzu, xar bir dars uchun o‘qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan,o‘quvchi talabalarning imkoniyati va extiyojidan kelib chiqqan xolda tuziladi. O‘qituvchi tomonidan o‘zi o‘qiyotgan fanning har bir mavzusi, har bir dars mashg‘uloti bo‘yicha tuzilgan yuqoridagi kabi texnologik karta unga fani, predmetini yaxlit xolda tasavvur etib yondashishga, tushunishiga, yaxlit o‘quv jarayonining boshlanishi, maqsadidan tarqatib, erishiladigan natijasiga ko‘ra olishiga yordm beradi. Ayniqsa texnologik kartani o‘quvchi talabaning imkoniyati, ehtiyojidan kelib chiqqa xolda tuzilishi uni shaxs sifatida ta’limning markaziga olib chiqishga olib keladi. Bu esa o‘qitishning samaradorligini oshirishga imkon yaratadi. O‘qitish jarayonida o‘quvchi talabalarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo‘llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, Izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, ma’suliyatni sezish, ilmiy tadqiqod ishlarini olib borish, tahlil qilish ilmiy adabiyotlardan unimli foydalanishga, eng asosiysi, o‘qishga, fanga, pedogogka va o‘zi tanlagan kasbiga bo‘lgan qiziqishlarni kuchaytiradi. Bunday natijaga erishish amaliyotda o‘quv jarayonida innovotsion va axborot texnologiyalarini qo‘llashni taqoza etadi. Ular juda xilma-xildir. Biz ulardan bazilari xaqida to‘xtalib o‘tamiz va ularni o‘tkazish tartibi xaqida qo‘llama beramiz. Ushbu metodik qo‘llanmada keltirilgan zamonaviy metodlar, yoki o‘qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar o‘quvchilarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, yetuk mutaxassis bo‘lishlariga hamdaMutaxassisga kerakli bo‘lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Biz quyida o‘qitish jarayonida qo‘llash mumkin bo‘lgan metodlardan foydalanib o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantiramiz. Ularninng mavzuni tez va oson tushinishiga sababchi bo‘lamiz. “Tarmoqlar” metodi o‘quvchi talabani mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o‘rgatishga qaratilgan.“3x4” metodi- o‘quvchi talabalarni erkin fikrlashi, keng doirada turli g‘oyalarni bera olishi, ta’lim jarayonida yakka, kichik guruh xolda tahlil etib, xulosa chiqara olishi, ta’rif bera olishiga qaratilgan. Boshlang‘ich ta’limda o‘yin ijodiy faoliyatning bir shaklidir. Bunda o‘kuvchi ijtimoiy va moddiy borliqni bilish hamda anglash asosida emotsional - xissiy, intellektual-axloqiy rivojlanadi. O‘yinlar, ularning inson taraqqiyotidagi o‘rni haqida psixologiya, etnografiya, madaniyat, pedagogika fanlarida bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan. XIX asrning oxirida nemis olimi K.Gross o‘yinlarni tizimli o‘rganishga harakat qilgan bo‘lsa, nemis psixologi K.Byuller o‘yinlarni «qoniqish hosil qiluvchi» faoliyat sifatida tadqiq etadi. L.S.Vigotskiy, A.N.Leontyevlar fikricha, o‘yinlarni nazariy jixatdan ijtimoy tabiatiga ko‘ra ma’lum faoliyatiga yo‘naltirilganligi bilan bog‘lab, tadqiq etgan bo‘lsalar, D.B.Elkonin shaxs xulqini boshqarishni tarkib toptirib, uni takomillashtiruvchi faoliyat sifatida talqin etadilar. Lekin o‘yinlarni yagona va eng muhim asosiy xususiyati uning ta’limdagi axamiyatliligidir. O‘yinlarda bolaning xulqi erkin shakllanadi va ijtimoiylashadi. O‘yinlarning eng muhim jihati uning ikki tamonlama xarakterga egaligi bo‘lib, uning dramatik san’atga ham mosligidir. Bir

tamondan o‘yin ishtirokchilari uni amalgam oshirishda muayyan nostandart vazifalar bilan bog‘liq xaqiqiy faoliyatni bajarsalar, ikkinchi tamondan esa o‘yinlar bu faoliyatning aksariyat paytlarida ma’suliyatni his etgan holda haqiqiy vaziyatlardan chetga chiquvchi shartli xususiyat ham kasb etadilar. Demak, o‘yinlarning ikki tomonlama vazifani bajarishi uning rivojlanuvchi natijaga ega bo‘lishiga sabab bo‘ladi. O‘yin faoliyati elimentlaridan ta’lim jarayonida keng foydalaniladi. Ular ishbop oyinlar, dedaktik o‘yinlar, rolli o‘yinlar, kompyuter o‘yinlari shular jumlasidandir. Ishbop o‘yinlar kasb faoliyati predmeti yoki ijtimoiy mazmunini qaytadan yaratish shakli bo‘lib, amaliyotning ana shu turiga xos munosabatlar tizimini modellashtirishdir. Ishbop o‘yinlarni o‘tkazishda uning qatnashuvchilari faoliyatini maxsus (o‘yin tarzida) imitatsiya modelida rivojlantirishdan iboratdir. O‘yinlarning xarakteriga ko‘ra o‘quv jarayoni o‘yinlari tadqiqotchilik o‘yinlari, boshqaruv va attestatsiyaga doir o‘yinlar turiga bo‘linadi. O‘quv jarayoniga doir o‘yinlar o‘quv predmetlar bo‘yicha istiqbolda kasbiy faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish va shaxsni maqsadga muvofiq shakllantirishga shart-sharoitlar yaratadi. Ana shu shart-sharoitlar natijasida olingan yangi bilimlar kelgusi kasbiy faoliyatni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. M.N. Muminova, M.A. Maksumova «Kasbiy etika va etiket», uslubiy qo’llanma, T.,2006.
2. N.M.Zakirova. O‘quvchilarda kreativlikni shakllantirish mazmuni va usullari. Academik reaserch in educational science. Volume 1. Issue 3. 2020.
3. Ortiqov O. R. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida mafkuraviy immunitetni rivojlantirish texnologiyalari (oliy ta’lim mussasalari misolida) //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 1130- 1135.
4. Ne’matova G. Ijodiy tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi va o‘quvchining mustaqil faoliyati. – T.: RTM, 2001. –24 b.
5. Husanboyeva Q.P. Oliy ta’lim muassasalarida davlat tilini o‘qitish bilan bog‘liq muammolar va ularning yechimi. Texnika oliy o‘quv yurtlarida o‘zbek va xorijiy tillarni o‘qitishning dolzarb masalalari (Nazariya, metodika, texnologiya). Respublika ilmiy- amaliy konferensiya materiallari. T.2020. 5-b.
6. Nishonova Z. Mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik asoslari. Psix. fan. dok. ... diss. avtoreferati. –T., 2005. – 38 b.
7. Baltayeva A.T. Designing lessons aimed at teaching students to critically evaluate the personality of the heroes of the work of fiction. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. P.947-952.
8. Boltayeva SH. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish. // Xalq ta’limi, 2004,№ .-34-34 betlar.
9. Pedagogik enseklapediya II;184 b

O‘QITUVCHI KASBIGA QO‘YILADIGAN TALABLARNING INNOVATSION TA’LIM RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI

G.Q.Madmarova
Tel-914898188

Annotatsiya: Ta’limda raqamlashtirish, interaktiv texnologiyalar, ijodiy yondashuv va zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish o‘qituvchining kasbiy salohiyatiga bo‘lgan ehtiyojni oshirmoqda. Shu munosabat bilan mazkur maqolada innovatsion ta’lim tizimining rivojlanishi sharoitida o‘qituvchilik kasbiga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, uzluksiz o‘rganish va moslashuvchanlik kabi jihatlar muhim omil sifatida yoritilgan. Innovatsion yondashuvlar asosida pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: innovatsion ta’lim, o‘qituvchi kasbi, zamonaviy talablar, raqamli pedagogika, kompetensiya, pedagogik innovatsiya, uzluksiz ta’lim, moslashuvchanlik, kasbiy rivojlanish, interaktiv metodlar.

Zamonaviy davrda ta’lim tizimi keskin o‘zgarishlar va yangilanishlar bosqichiga kirgan. Globallashuv, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, raqamli transformatsiya jarayonlari o‘qituvchi

kasbining mazmun-mohiyatini tubdan yangilashni taqozo qilmoqda. Innovatsion yondashuvlar asosida ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda o‘qituvchining roli hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu bois, bugungi kunda o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki tarbiyachi, motivator, ijodkor va o‘rganishga qodir shaxs sifatida qaralmoqda.

Innovatsion ta’lim – bu yangicha yondashuvlarga asoslangan, ta’lim oluvchining fikrlash qobiliyati, ijodiy salohiyati va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi tizimdir. Bunday tizimda quyidagi jihatlar ustuvor bo‘ladi:

- raqamli vositalardan faol foydalanish;
- ta’lim jarayonining interaktiv va integratsiyalashgan bo‘lishi;
- shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv;
- uzluksiz va masofaviy ta’lim shakllarining kengayishi.

Bunday yondashuvlar natijasida ta’lim jarayonining sifati va samaradorligi ortadi. O‘quvchilar mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish, jamoada ishlash kabi hayotiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishadi. Ayniqsa, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv orqali har bir o‘quvchining individual qobiliyatlarini ochib berish va rivojlantirish imkoniyati yaratiladi. Innovatsion ta’limda o‘qituvchi avvalgidek faqat bilim beruvchi emas, balki o‘rgatuvchi, yo‘l ko‘rsatuvchi, motivator va innovator sifatida namoyon bo‘ladi. U o‘quvchilarni faollikka undaydi, ularning qiziqishlarini rag‘batlantiradi va zamonaviy metodlar orqali o‘qitish jarayonini samarali tashkil etadi. Bu esa ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Shuningdek, innovatsion yondashuvlar o‘qituvchidan doimiy ravishda yangiliklarni o‘rganishni, o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilishni va zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanishni talab etadi. Demak, innovatsion ta’lim — bu o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikka asoslangan, doimiy rivojlanish va o‘sishga yo‘naltirilgan tizimdir. Shunday sharoitda o‘qituvchining roli, funksiyasi va kasbiy kompetensiyalari yangidan ko‘rib chiqilmoqda.

Innovatsion ta’lim davrida o‘qituvchidan quyidagi asosiy sifatlar talab etiladi:

- **Raqamli savodxonlik**: O‘qituvchi zamonaviy texnologiyalarni puxta bilishi, onlayn platformalar bilan ishlay olishi lozim.
- **Ijodkorlik**: Har bir darsni yangicha formatda, o‘quvchining qiziqishi va ehtiyojidan kelib chiqib tashkil eta olish.
- **Tahlil va tanqidiy fikrlash**: O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, muammoni hal etishga o‘rgatish uchun o‘qituvchining o‘zi ham tahliliy yondasha olishi zarur.
- **Moslashuvchanlik**: Ta’lim sharoitlarining tez-tez o‘zgarishiga moslasha olish, yangi metodlarni o‘zlashtirishga tayyor bo‘lish.
- **Uzluksiz o‘zini rivojlantirish**: Kasbiy malaka oshirish, yangi pedagogik texnologiyalar bilan tanishib borish.

Bugungi kundagi pedagog quyidagi kompetensiyalarni o‘zida mujassamlashtirishi kerak:

- **Pedagogik kompetensiya** – o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, tarbiyaviy ishlarni olib borish.
- **Axborot-kommunikatsion kompetensiya** – zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash.
- **Ijtimoiy va kommunikativ kompetensiya** – jamoa bilan ishlash, o‘quvchilar va ota-onalar bilan samarali muloqot olib borish.
- **Metodologik kompetensiya** – fanlarni chuqur bilish, zamonaviy metodlarni qo‘llay olish.

Innovatsion o‘qituvchini shakllantirish quyidagi vositalar orqali amalga oshiriladi:

- doimiy malaka oshirish kurslari va seminarlar;
- o‘zini o‘zi rivojlantirish — kitob o‘qish, onlayn kurslarda qatnashish;
- tajriba almashish — ochiq darslar, ustoz-shogird an’analari;
- fan va texnologiyalar integratsiyasi asosida yangiliklarni amaliyotga joriy etish.

Zamonaviy jamiyatda ta’lim tizimining raqobatbardoshligi, asosan, o‘qituvchi shaxsiga, uning kasbiy malakasi va yangilikka ochiqligiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Innovatsion ta’lim davrida o‘qituvchidan talab qilinayotgan kompetensiyalar faqatgina an’anaviy bilimlarni yetkazish bilan cheklanmaydi. Aksincha, pedagog har tomonlama yetuk, texnologiyalarni egallagan, ijodiy yondasha oladigan va o‘z ustida doimiy ishlovchi shaxs bo‘lishi zarur. Innovatsion ta’lim muhitida o‘qituvchi o‘quvchilarning bilim olish jarayonida faol ishtirokini ta’minlaydigan, ularda mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv, muammolarni hal qilish kabi kompetensiyalarni shakllantira oladigan kuchli shaxs sifatida

namoyon bo‘ladi. Bunday ta’lim modeli doirasida o‘qituvchi o‘zining kasbiy faoliyatini tahlil qiladi, yangiliklarga tez moslashadi va har bir o‘quvchiga individual yondashuvni amalga oshira oladi. Shuningdek, uzluksiz ta’lim konsepsiyasi o‘qituvchining doimiy ravishda o‘z bilim va ko‘nikmalarini oshirib borishini zaruratga aylantirmoqda. Shu boisdan, zamonaviy o‘qituvchiga nafaqat raqamli savodxonlik, balki pedagogik psixologiya, kommunikativ madaniyat va zamonaviy didaktik yondashuvlarni chuqur egallash talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion ta’lim rivojida o‘qituvchining o‘rni va roli o‘ta muhimdir. Ta’lim sifatining oshishi, o‘quvchilarning shaxsiy va kasbiy rivoji bevosita o‘qituvchining zamonaviy talablarga javob bera oladigan darajada yetukligiga bog‘liq. Shu bois, innovatsion fikrlovchi, texnologiyalarni samarali qo‘llay oladigan, o‘z ustida ishlovchi va pedagogik mahoratini doimiy oshirib boruvchi o‘qituvchilarni tayyorlash dolzarb vazifa bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedova Z.X. O‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda innovatsion yondashuv. // “Pedagogik mahorat” ilmiy-metodik jurnali, 2022, №4. – B. 58–62.

2. Dilshoda Jalilova Ural qizi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o’qituvchilarida axborot kompetentligini rivojlantirish masalasining ahamiyati. raqamli texnologiyalar davrida tillarni intensiv o‘qitishning psixologik- pedagogik jihatlari respublika ilmiy-amaliy anjumani. 2023-yil 2-iyun (https://doi.org/10.5281/zenodo.7993607)

3. Dilshoda Jalilova. Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi tarkibiy qismlarining mazmun-mohiyati.«O‘ZBEKISTONDA ILM-FANNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI" xalqaro ilmiy-amaliy anjumani 2022-yil 30-noyabr. 839-842-betlar. (https://doi.org/10.5281/zenodo.7377842)

4. Fullan, M. The New Meaning of Educational Change. – New York: Teachers College Press, 2016. – 336 p.

5. Jalilova D. Ta’lim jarayonlarining samaradorligini oshirish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati. "Sifatli ta'lim - taraggivot povdevori» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to'plami / / Toshkent, 2023-yil 20-aprel. 282-286-betlar.

6. Jalilova Dilshoda Ural qizi, Poyonova Qandiya, Abdimurodova Maftuna, Nahalboyeva Iroda. Uchinchi renessans sharoitida pedagogik ta’lim sohasida raqamli texnologiyalar. International scientific and practical conference “Economics, management and digital innovation in education: modern trends and approaches” March 13, 2024. https://doi.org/10.5281/zenodo.10805927

7. Nazarova M., Xo‘jayev N. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: Fan va texnologiya, 2020. – 204 b.

8. Mishra, P., & Koehler, M. J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. // Teachers College Record, 2006, Vol. 108(6), pp. 1017–1054.

EDUCATING RURAL EDUCATION LEADERS FOR AI IN STEM: CHALLENGES AND PATHWAYS

G.Khamidullaeva
Graduate student of MA TESOL at Webster University in Tashkent

Abstract: The rapid evolution of Artificial Intelligence (AI), especially generative tools like ChatGPT and DALL·E, is reshaping education. While urban schools often adopt these technologies swiftly, rural schools face more complex barriers. This article highlights how rural educational leaders play a pivotal role in integrating AI into K-12 STEM education despite infrastructure gaps, limited professional development, and ethical concerns.

Keywords: Artificial Intelligence (AI), Educational Leadership, Rural Education, STEM Education, Professional Development, Digital Divide, Infrastructure, Ethical AI Use, Generative AI, Innovation Adoption, Strategic Leadership in Action.

Rural educational leaders are not just managing schools—they are becoming innovation architects. The study highlights several concrete strategies leaders are using to bridge the AI gap. First, many are forming partnerships with ed-tech firms and local government to secure funding for internet infrastructure

and modern devices. For instance, one superintendent negotiated discounted hardware packages through a regional consortium, ensuring all teachers received AI-capable laptops. Second, professional development is shifting from one-off workshops to sustainable, peer-driven models. In one district, a "train-the-trainer" program was launched, where selected tech-savvy teachers received intensive AI training, then mentored colleagues through classroom pilots. This decentralized model built trust and reduced resistance, especially among teachers unfamiliar with AI.

Third, leaders are creating innovation-friendly cultures by framing AI as a classroom assistant—not a threat. Teachers are encouraged to experiment with tools like ChatGPT for generating quiz questions or summarizing student responses. Mistakes are treated as learning moments, not tech failures. According to the focus group findings, schools that embraced this mindset saw higher rates of teacher engagement and quicker AI adoption. Moreover, community engagement emerged as a subtle but vital strategy. In small towns where skepticism of new tech runs deep, leaders hosted open forums to explain AI’s role in education and listen to parents’ concerns. This transparency helped dispel fears about surveillance or job displacement and allowed leaders to shape AI policies that reflected community values.

These real-world cases underscore that strategic, adaptive leadership—not just funding—determines the success of AI integration in rural STEM education. Without visionary leaders willing to take risks and build local capacity, even the best technology will remain unused.

Why Rural AI Integration Matters. AI tools can personalize learning, ease administrative workloads, and enable real-time feedback—potentially revolutionizing rural STEM classrooms. Yet rural schools commonly lack the bandwidth, hardware, and training to capitalize on these benefits. Leaders must act as both innovators and advocates, fostering a culture that embraces AI while overcoming unique rural limitations like geographic isolation, tight budgets, and community skepticism.

Major Challenges

Three core barriers hinder AI adoption in rural STEM education:

1. Infrastructure Deficiencies – Many rural schools lack reliable internet and up-to-date devices needed for AI-driven tools.

2. Limited Professional Development – Teachers often aren’t trained to use AI tools effectively, causing hesitation or misuse.

3. Ethical and Policy Gaps – Concerns around student data privacy and unclear usage guidelines limit trust and implementation.

These obstacles reflect systemic inequities that require strategic leadership and long-term planning.

The Leader’s Role in Change. Guided by Rogers’ (2003) Diffusion of Innovations Theory, this study emphasizes that leaders must actively shape AI integration by navigating five key stages: awareness, persuasion, decision, implementation, and confirmation. For rural schools, successful AI adoption relies heavily on local leadership—not just institutional policy. Leaders must secure funding, cultivate teacher readiness, and ensure ethical frameworks.

Practical strategies include:

Securing Grants & Partnerships – Collaborating with tech companies and applying for federal/state funding to improve connectivity and resources.

Fostering Innovation – Encouraging experimentation through professional learning communities and peer mentoring.

Building Teacher Capacity – Offering hands-on AI workshops focused on both technical skills and pedagogical integration.

Research Findings

Through surveys and focus groups with 133 rural education leaders, the study found:

Over 50% of leaders had AI “on the radar” but lacked concrete implementation plans.

Top concerns included data privacy (27.7%), unethical use (22.3%), and lack of strategic vision (20.5%).

Most leaders agreed that professional development was the most urgent need—especially training tailored to rural realities.

Leaders highlighted AI’s potential in mixed-age classrooms and remote learning, but stressed that without support, many teachers remained unsure how to use it effectively.

Opportunities Ahead

Despite hurdles, optimism persists. Leaders envision AI tools:

Supporting personalized learning and adaptive instruction;

Reducing the administrative burden on already overstretched teachers;

Bridging educational gaps between rural and urban areas.

However, as emphasized repeatedly, these outcomes depend on more than enthusiasm—they require long-term infrastructure investment, sustained teacher training, and inclusive policies.

In conclusion, AI integration in rural STEM education is not a matter of if, but how. Leadership is the key lever. School leaders must move from passive interest to active strategy—lobbying for infrastructure upgrades, ensuring teachers are trained and confident, and shaping ethical guidelines to protect students.

This study calls for continued research and policymaking focused on equity, sustainability, and collaboration. With the right support, rural schools can become AI-ready—and ensure their students aren’t left behind in the digital age.

References

Bozkurt, A., & Sharma, R. C. (2023). Challenging the status quo and exploring the new boundaries in the age of algorithms: Reimagining the role of generative AI in distance education and online learning. Asian Journal of Distance Education, 18(1), i–viii.

Celik, I., Dindar, M., & Muukkonen, H. (2022). The promises and challenges of artificial intelligence for teachers: A systematic review of research. TechTrends, 66, 616–630.

Crawford, A., & Wu, C. (2024). Riding the AI Wave: What’s Happening in K-12 Education? Center for Security and Emerging Technology.

Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Boston, MA: Center for Curriculum Redesign.

Joseph, O. B., & Uzondu, N. C. (2024). Integrating AI and machine learning in STEM education: Challenges and opportunities. Computer Science and IT Research Journal, 5(8), 1732–1750.

Kim, J., & Wargo, E. (2025). Empowering educational leaders for AI integration in rural STEM education: Challenges and strategies. Frontiers in Education, 10, Article 1567698.

Rogers, E. M. (2003). Diffusion of Innovations (5th ed.). New York: Free Press.

Showalter, D., Hartman, S., Johnson, J., & Klein, B. (2023). Why rural matters 2023: Centering equity and opportunity. The Rural Educator, 44(1), 69–71.

Zawacki-Richter, O., Marín, V. I., Bond, M., & Gouverneur, F. (2019). Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education – where are the educators? International Journal of Educational Technology in Higher Education, 16, 39.

UO‘T 633.11 : 631.52

QATTIQ BUG‘DOYNING F_1 - F_2 DURAGAYLARIDA O‘SIMLIK BO‘YINING NASLDAN-NASLGA O‘TISHINI TAHLIL QILISH NATIJALARI

H.X.Qarshiboyev
Qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc)
Z.A.Ochilov
Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti e-mail: hasankarshiboev1984@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada qattiq bug‘doy genetikasi, seleksiyasi va urug‘chiligi laboratoriyasining lalmikor maydondagi tajriba dalasida qattiq bug‘doyning F_1-F_2 duragay avlodlarida o‘simlik bo‘yining nasldan-naslga o‘tish ko‘rsatkichlari bo‘yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalari keltirilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra qattiq bug‘doyning F_1-F_2 duragay avlodlarida o‘simlik bo‘yining nasldan-naslga o‘tish ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan duragaylari tanlab olingan.

Kalit so‘zlar. Qattiq bug‘doy, nav, duragay, avlod, o‘simlik bo‘yi, nasldan-naslga o‘tish ko‘rsatkichi, geterozis, tanlash.

Аннотация. В статье представлены результаты научных исследований, проведенных по показатели наследственности высоты растений гибридных поколений F_1-F_2 твердой пшеницы в богарных условиях лаборатории генетики, селекции и семеноводства твердой пшеницы. По результатам исследования в гибридных поколениях F_1-F_2 твердой пшеницы были отобраны гибриды с высокой наследственностью показателями высоты растений.

Ключевые слова. Твердая пшеница, сорт, гибрид, поколения, высота растений, индекс наследуемость, гетерозис, селекция.

Annotation. This article presents the results of scientific research conducted on plant height inheritance in F_1-F_2 hybrid generations of durum wheat. The study was carried out in the experimental field of the laboratory of genetics, breeding, and seed production of durum wheat under rainfed conditions. According to the research findings, hybrids with high indicators of plant height inheritance were identified and selected from the F_1-F_2 hybrid generations of durum wheat.

Keywords. Durum wheat, variety, hybrid, generations, plant height, heritability index, heterosis, selection.

Kirish. Hozirgi kunda oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlashda qattiq bug‘doy ekinining tashqi muhit noqulay omillariga chidamli, hosildorligi va don sifat ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan lalmi maydonlarda yetishtirish uchun muhim hisoblangan uzun bo‘yli navlarini hamda duragaylarini yaratish, ularni amaliy seleksiya jarayonida qo‘llash seleksioner olimlar oldidagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Lalmikor maydonlar uchun qattiq bug‘doy duragaylarini tanlashda o‘simliklarning uzun bo‘yli, ertapishar, don to‘lishish fazasi qisqa muddat davom etadigan, sifatli va yirik don hosil qiladigan duragaylarga etibor berish muhim ahamiyatga egadir.

Olib borilgan tajribalarga ko‘ra kaltapoyalikka qaratilgan seleksiya qator muammolarni keltirib chiqargan. Kaltapoyali navlar o‘suv davri natijasida kuchsiz ildiz tizimiga va kalta koleoptilga ega bo‘lgan, bu esa ularning qurg‘oqchilikka chidamligini va dala unuvchanligini pasaytirgan. Kaltapoyali navlarning baland bo‘ylilarga nisbatan sovuqqa chidamliligi pastroq ekanligi keltirilgan D.T.Abdukarimov [1].

Duragaylarning birinchi bo‘g‘ini (F_1) da o‘simliklar bir xil, geterozigota holatida bo‘lganligi uchun jinsiy ko‘payish jarayonida tanlash ikkinchi (F_2) yoki undan keyingi avlodlarda o‘tkaziladi. Duragaylashning sifatini aniqlashda al’ternativ belgilardan qaysi dominant bo‘lishi ahamiyatli ekanligi takidlangan D.T.Abdukarimov [2].

Tadqiqotlarga ko‘ra o‘simliklarni duragaylashda miqdoriy belgilarning yuqori ko‘rsatkichlari F_1 bo‘g‘inda dominant bo‘ladi, masalan, baland bo‘yli o‘simlik kalta bo‘y o‘simlik bilan chatishtirilganda baland bo‘ylilik dominant belgi bo‘ladi. Yirik donga ega bo‘lgan navlar mayda donli navlar bilan chatishtirilganda yirik donlilik belgisi dominantlik qiladi J.T.Umarov, L.V.Semenova [4].

Material va metodlar. Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti qattiq bug‘doy genetikasi, seleksiyasi va urug‘chiligi laboratoriyasining duragaylar tajriba maydonida o‘rganilgan lalmi qattiq bug‘doyning F_1-F_2 tajriba materiallari hisoblanadi. Tajriba kuzatuvlari, tahlillar Butunittifoq o‘simlikshunoslik instituti [6] hamda DDEITI G‘allaorol ITS tomonidan qabul qilingan [3] uslubiy qo‘llanmalar bo‘yicha amalga oshirildi. Lalmi qattiq bug‘doyning F_1-F_2 duragay avlodlarida o‘simlik bo‘yining irsiylanish ko‘rsatkichi ya’ni ustunlik darajasi (**hp**) ni aniqlashda F.Petr, K.Frey [5] formulasidan foydalanildi.

$$hp = \frac{F1 - MP}{P - MP}$$

Bu yerda;

hp - irsiylanish xarakterining ko‘rsatkichi;

F_1 - birinchi avlod duragayi belgilarining o‘rtacha ko‘rsatkichi;

MP - ota-ona belgilarining o‘rtacha ko‘rsatkichi;

P - eng yaxshi ota-ona belgilarining o‘rtacha ko‘rsatkichi.

Natijalar va ularning tahlili. Lalmi maydonlarda yetishtirilayotgan qattiq bug‘doy navlarida ertapisharlik, qurg‘oqchilikka chidamlilik, qimmatli xo‘jalik belgi va xususiyatlaridan tashqari o‘simlik bo‘yining uzun bo‘lishligi ham muhim ahamiyatga ega ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Tajribalarda o‘rganilgan qattiq bug‘doyning F_1 duragaylarida o‘simlik bo‘yining nasldan-naslga o‘tish ko‘rsatkichlari tahlil qilinganda 20 ta duragay birikmalaridan 2 ta (10%) duragayda o‘simlik bo‘yining ota-ona va birinchi avlod duragay belgilariga mos kelganligi kuzatildi.

Qattiq bug‘doyning 5 ta (25%) F_1 duragaylarida o‘simlik bo‘yining ota yoki ona tomonga ijobiy og‘ishi aniqlandi. 1 ta (5%) duragayda belgining ota yoki ona tomonga salbiy og‘ishi kuzatilib, 2 ta (10%) duragayda o‘simlik bo‘yining yaxshi tomonga to‘liq dominantligi, 1 ta (5%) duragayda o‘simlik bo‘yining yomon tomonga to‘liq dominantligi, 8 ta (40%) duragayda yuqori dominantlik (geterozis) hodisasi, 1 ta (5%) duragayda depressiya hodisasi aniqlandi.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra o‘simlik bo‘yining nasldan-naslga o‘tish ko‘rsatkichlari F_2 duragaylarida tahlil qilinganda 23 ta duragay birikmalaridan 6 ta (26,1%) duragaylarda ijobiy belgining ota yoki ona tomonga og‘ishi, 1 ta (4,3%) duragaylarda ota-ona va birinchi avlod duragayi belgilariga mos kelganligi, 3 ta (13,1%) duragayda o‘simlik bo‘yi bo‘yicha ijobiy belgining to‘liq dominantligi kuzatildi. 1 ta (5%) F_2 duragayida o‘simlik bo‘yi bo‘yicha salbiy belgining to‘liq dominantligi aniqlandi. 9 ta (39,2%) duragayda geterozis (yuqori dominantlik) hodisasi kuzatildi. 1 ta (5%) duragayda depressiya hodisasi kuzatildi (1-jadval).

1-jadval. Qattiq bug‘doy F_1 - F_2 duragaylarida o‘simlik bo‘yining irsiylanishi (G‘allaorol-2024 y).

Irsiylanish xarakteri ko‘rsatkichi **(hp)**	Tahlil qilingan duragay avlodi va soni, **(dona)**			
	F_1	**F_2**	**F_1** foiz hisobida	**F_2** foiz hisobida
0 dan +1 gacha bo‘lsa ijobiy belgining ota yoki ona tomonga og‘ishi	5	6	25,0	26,1
0 dan -1 gacha bo‘lsa salbiy belgining ota yoki ona tomonga og‘ishi	1	2	5,0	8,7
0 bo‘lsa ota-ona va birinchi avlod duragayi belgilariga mos keladi;	2	1	10,0	4,3
+1 bo‘lsa ijobiy belgining to‘liq dominantligi kuzatiladi	2	3	10,0	13,1
-1 bo‘lsa salbiy belgining to‘liq dominantligi kuzatiladi	1	1	5,0	4,3
+1 dan katta bo‘lsa geterozis (yuqori dominantlik) kuzatiladi	8	9	40,0	39,2
-1 dan kichik bo‘lsa depressiya kuzatiladi	1	1	5,0	4,3
Jami tahlil qilingan duragaylar soni, (dona)	**20**	**23**	**100**	**100**

Lalmi maydonlarda yetishtiriladigan ekinlar hosildorligi yillik yog‘ingarchilik miqdoriga bog‘liqligi ko‘plab tajribalarda kuzatilgan. Boshoqli don ekinlarining kalta bo‘yli navlarida yog‘ingarchilik kam bo‘lgan yillarda o‘simlikning bo‘yi past bo‘lib, ildiz tizimi yaxshi rivojlanmasligi oqibatida hosildorligi keskin pasayib ketishi tadqiqotlarda aniqlangan.

Olib borilgan tadqiqotlarda asosan qattiq bugdoyning o‘simlik bo‘yi uzun bo‘lgan navlarini va duragay tizmalarini yaratishga etibor qaratilgan bo‘lib, qattiq bug‘doyning F_2 duragaylarida ertapisharlik, uzun bo‘yli, sariq zang kasalligiga chidamlilik bo‘yicha tanlash ishlari olib borildi (1-rasm).





1-rasm. Qattiq bug‘doyning F_2 duragaylarida ertapisharlik va sariq zang kasalligiga chidamlilik bo‘yicha tanlash jarayoni.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijalariga asoslanib shuni xulosa qilish mumkinki lalmi maydonlarda qattiq bug‘doyning F_1-F_2 duragay avlodlarida lalmi maydonlar uchun muhim hisoblangan o‘simlik bo‘yining irsiylanishi ustunlik darajasini tahlil qilish, duragaylarning keyingi avlodlarida qimmatli xo‘jalik belgilariga ega bo‘lgan boshlang‘ich manbalari va yangi navlarini yaratish imkonini beradi.

Qattiq bug‘doyning uzun bo‘yli navlaridan yog‘ingarchilik kam bo‘lgan yillarda ham hosil olish imkoniyati mavjud. Uzun bo‘yli navlar o‘suv davri davomida kuchli ildiz tizimiga ega bo‘lganligi sababli hosildorligi yuqori bo‘lishligi olib borilgab tajribalarda kuzatildi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib o‘simlik bo‘yining irsiylanishi lalmikor maydonlarda yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan qattiq bug‘doy F_1-F_2 duragaylarini qattiq bug‘doy genetikasi, seleksiyasi va urug‘chiligi laboratoriyasining seleksiya jarayonida bosqichma bosqich o‘rganish natijasida qattiq bug‘doyning yuqori hosilli, uzun bo‘yli yangi navlari yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdukarimov D.T. Xususiy seleksiya. «Qishloq xo‘jalik ekinlarining urug‘chiligi va selekisyasi» yo‘nalishidagi bakalavriatida ta’lim olayotgan talabalar uchun darslik sifatida tavsiya qilingan. Toshkent-2007. 101-b.

2. Abdukarimov D.T. Donli ekinlar seleksiyasi va urug‘chiligi. 5620400 – «Qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘chiligi va seleksiyasi» bo‘yicha bakalavr yo‘nalishida ta'lim olayotgan talabalar uchun darslik. Toshkent. 2010. 15-45 b.

3. Amanov A. A. va boshqalar. Donli ekinlar seleksiyasi va boshlang‘ich urug‘chiligi bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. G‘allaorol 2004 yil.

4. Умаров Ж.Т., Семенова Л.В. Наследственность высоты растений гибридами мягкой пшеницы в условиях орошения. Тр. УзНИИ Зерна «Селекция зерновых, зернобобовых и кормовых культур» Ташкент, «Мехнат» 1986. С. 83-86.

5. Petr F., Frey K. Jenoypical cerralation, dominance and heritability of quantitative characters in dats // Crop Science, 1966, 63, P. 59-262.

6. Изучение мировой коллекции пшеницы. Методические указания. ВИР. Ленинград 1984.

“ТЎЛОВГА ҚОБИЛИЯТСИЗЛИК ТЎҒРИСИДА”ГИ ҚОНУНДА БИР ХИЛ АТАМАЛАРНИ ҚЎЛЛАШ ЗАРУРЛИГИ

Ш.Ш.Адилов
Хусусийлаштириш ва давлат активларини бошқариш муаммоларини тадқиқ этиш маркази

Аннотация. Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 12 апрелдаги “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги Қонунда нормаларнинг бир хил талқин қилинишини зарурлигини таҳлил қилади. Атама ва ибораларнинг бир хиллиги Қонуннинг аниқлиги, изчиллиги ва амалий қўлланишини таъминлашда муҳим аҳамиятга эга. Мақолада хорижий тажриба, хусусан, Германия ва АҚШ қонунчилиги мисолида атамаларни стандартлаштиришнинг афзалликлари кўриб чиқилади. Ўзбекистон қонунчилигидаги мавжуд муаммолар, жумладан, атамаларнинг ноаниқлиги ва уларнинг тафсиридаги фарқлар таҳлил қилинади. Хулоса сифатида қонунчиликни такомиллаштириш ва атамаларни бир хиллаштириш бўйича таклифлар берилади.

Калит сўзлар. тўловга қобилиятсизлик, банкротлик, қонунчилик, атамаларни бир хиллаштириш, стандартлаштириш, Ўзбекистон қонунчилиги.

Abstract**:** This article analyzes the need for the consistent use of terminology in insolvency (bankruptcy) legislation. The uniformity of terms and expressions is crucial for ensuring the clarity, consistency, and practical application of the law. The article explores the advantages of terminology standardization using international examples, particularly from German and U.S. legislation. It examines existing issues in Uzbekistan’s legislation, including the ambiguity of terms and discrepancies in their interpretation. The article concludes with proposals for improving legislation and unifying legal terminology.

Keywords: insolvency, bankruptcy, legislation, terminological unification, standardization, Uzbekistan legislation.

Аннотация. В данной статье рассматривается необходимость использования единой терминологии в законодательстве о неплатежеспособности (банкротстве). Единообразие терминов

и выражений имеет важное значение для точности, последовательности и практического применения закона. В статье рассматриваются преимущества стандартизации терминов на примере зарубежного опыта, в частности законодательства Германии и США. Анализируются существующие проблемы в законодательстве Узбекистана, в том числе неопределенность терминов и различия в их интерпретации. В качестве вывода приводятся предложения по совершенствованию законодательства и унификации терминов.

Ключевые слова: неплатежеспособность, банкротство, законодательство, унификация терминов, стандартизация, законодательство Узбекистана.

Тўловга қобилиятсизлик тўғрисидаги қонунчилик иқтисодий муносабатларнинг муҳим таркибий қисми бўлиб, у тадбиркорлик фаолиятида молиявий қийинчиликларга дуч келган субъектларнинг ҳуқуқий мақомини белгилайди. Бироқ, Ўзбекистонда ушбу соҳадаги қонунчиликда атамалар ва ибораларнинг бир хиллигига етарли даражада эътибор берилмаган. Бу эса қонуннинг тафсири ва амалий қўлланишида мураккабликларга олиб келади. Ушбу мақола атамаларни бир хиллаштиришнинг қонунчилик ва амалиёт учун аҳамиятини кўриб чиқади.

Атамаларни бир хиллаштиришнинг аҳамияти шундаки, қонунчиликда бир хил атамаларни қўллаш қонунчилик нормаларининг аниқлиги ва изчиллигини таъминлайди. Ноаниқ ёки турлича тафсирланадиган атамалар суд амалиётида низоларга сабаб бўлиши мумкин.

Масалан, «тўловга қобилиятсизлик» ва «банкротлик» атамалари кўпинча бир-бирига алмаштириб ишлатилади, лекин уларнинг қонундаги аниқ таърифи ва қўлланиш доираси фарқ қилиши мумкин. Бундай ноаниқлик Қонуннинг самарадорлигини пасайтиради.

Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 12 апрелдаги “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида” ги Қонунининг (ЎРҚ-763-сон) 220-моддасида “Жисмоний шахснинг мол-мулкини сотишнинг ўзига хос хусусиятлари”да қуйидагилар белгиланган:

Мазкур модданинг биринчи бандидада жисмоний шахснинг мол-мулки хатловдан ва баҳолашдан ўтказилган санадан эътиборан бир ой муддат ичида молиявий бошқарувчи жисмоний шахснинг мол-мулкини сотишнинг тартиби ва шартларини мол-мулкни сотишнинг бошланғич нархини кўрсатган ҳолда судга тақдим этиши шартлиги [1].

Мазкур модданинг еттинчи бандидада эса Молиявий бошқарувчи жисмоний шахснинг мол-мулкини инвентаризация қилиш, баҳолаш ва сотиш ҳақида жисмоний шахсни, кредиторларни ҳамда тегишли ваколатли органни уларнинг талабига кўра хабардор қилиши, шунингдек кредиторлар йиғилишида ҳисобот тақдим этиши шартлиги белгиланган.

Мазкур Қонун нормаларини бир хил талқин қилиниши, нормаларда аниқлиллик тамойилини амал қилиниши, турлича шарҳлаш ва талқин қилинишларга олиб келмаслиги мақсадида:

Марказ томонидан Ўзбекистон Республикасининг "Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида" ги Қонуни 220-моддасида белгиланган: “жисмоний шахснинг мол-мулкини инвентаризация қилиш” жумласи “жисмоний шахснинг мол-мулки хатловдан ўтказиш” сўзларига (жисмоний шахснинг мол-мулкини инвентаризация қилиш”жумладаги “инвентаризация” сўзи “хатловдан ўтказиш” сўзларига алмаштирилиши) ўзгартирилиши таклифи берилмоқда.

Хорижий тажриба кўрсатадики, атамаларни стандартлаштириш қонуннинг тушунарлилигини оширади. Масалан, Германиянинг «Insolvenzordnung» Қонунида тўловга қобилиятсизлик билан боғлиқ барча атамалар аниқ таърифланган бўлиб, бу суд ва кредиторлар учун ишни осонлаштиради. АҚШда эса «Bankruptcy Code»да атамаларнинг бир хиллиги қонуннинг турли бўлимларида изчилликни таъминлайди [2].

Ўзбекистон қонунчилигида ҳам ушбу масалада муаммолар мавжуд. Ўзбекистон Республикасининг “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги Қонунида бир қатор атамалар, масалан, «қарздор», «кредитор», «тўловга қобилиятсизлик аломатлари» кабилар турлича тафсирланади. Бу эса мазкур Қонунни амалга оширишда мураккабликларга олиб келади. Масалан, «тўловга қобилиятсизлик аломатлари» атамасининг аниқ таърифи йўқлиги туфайли судларда унинг тафсирида фарқли ёндошувлар қўлланилади.

Бундан ташқари, Қонунда хорижий терминологиядан фойдаланиш (масалан, англисча «банкротлик» атамаси) маҳаллий қонунчилик контекстига мослашилмаган ҳолда қўлланиши ноаниқликни янада кучайтиради. Бу эса нафақат суд амалиётида, балки тадбиркорлар ва кредиторлар учун ҳам қийинчиликлар туғдиради.

Хорижий тажрибанинг таҳлили шуни кўрсатадики, Германия қонунчилигида тўловга қобилиятсизлик билан боғлиқ атамалар қатъий равишда стандартлаштирилган. Масалан, «Insolvenz» (тўловга қобилиятсизлик) атамаси Қонунда аниқ таърифга эга бўлиб, унинг қўлланиш доираси ва шартлари батафсил баён қилинган [3]. Бу эса Қонуннинг барча иштирокчилар учун тушунарли бўлишини таъминлайди.

АҚШда эса «Bankruptcy Code»да «debtor» (қарздор), «creditor» (кредитор), «insolvency» (тўловга қобилиятсизлик) каби атамалар аниқ таърифлар билан бир хил тарзда қўлланилади. Бу суд амалиётида ва қонуннинг тафсирида муносабатларнинг барқарорлигини таъминлайди [4].

Ўзбекистон қонунчилигида атамаларни бир хиллаштириш учун қуйидаги чораларни кўриш тавсия этилади:

1. Барча асосий атамалар (масалан, «тўловга қобилиятсизлик», «қарздор», «кредитор») учун аниқ таърифларни қонунда мустаҳкамлаш.

2. Хорижий терминологиядан фойдаланишдан воз кечиб, маҳаллий контекстга мос атамаларни ишлаб чиқиш.

3. Суд амалиётида атамаларнинг бир хил тафсирини таъминлаш учун махсус қўлланмалар яратиш.

4. Хорижий тажрибани, хусусан, Германия ва АҚШ қонунчилигини ўрганиб, уларнинг атамаларни стандартлаштириш усулларини қўллаш.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, тўловга қобилиятсизлик тўғрисидаги қонунчиликда атамаларни бир хиллаштириш Қонуннинг аниқлиги, изчиллиги ва амалий қўлланишини оширади. Ўзбекистонда ушбу соҳадаги муаммоларни ҳал қилиш учун хорижий тажрибадан фойдаланиш ва қонунчиликни такомиллаштиришга қаратилган чоралар кўриш зарур. Бу нафақат суд амалиётини осонлаштиради, балки тадбиркорлик муҳитининг барқарорлигига ҳам хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1.Ўзбекистон Республикасининг “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги Қонуни. (12.04.2022 йилдаги ЎРҚ-763-сон) // https://lex.uz/docs/5957612?ONDATE=16.01.2024.

2. Insolvenzordnung (InsO). Bundesgesetzblatt, Германия, 1994 // https://dejure.org/BGBl/1994/BGBl._I_S._2866.

3. Smith, J. "Legal Terminology in Bankruptcy Law: A Comparative Analysis". Journal of International Law, 2018, Vol. 25, pp. 112–130 // https://www.google.com/search?sca_esv=4e4b5f70bf6a4414&sxsrf=AE3TifOy9

4. United States Bankruptcy Code. Title 11, United States Code, 1978 // https://giurisprudenza.uniroma3.it/wp-content/uploads/sites/3/file_locked/2019/01 /Smith.pdf.

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI EKSPORT FAOLIYATIDA XALQARO STANDARTLARNI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY NAZARIYALARI

A.R.Oqboyev
Namangan davlat texnika universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatida xalqaro standartlarni joriy etishning zamonaviy nazariyalari yoritilgan. Unda global raqobat sharoitida mahsulot sifati, xavfsizligi va ekologik barqarorligini ta’minlashda ISO, GOST, OEKO-TEX, GOTS kabi standartlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari xalqaro standartlarni samarali joriy etish orqali mahsulot eksport geografiyasini kengaytirish, qo‘shilgan qiymatni oshirish va bozorlar diversifikatsiyasiga erishish imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

Kalit so’zlar: Tadbirkorlik subyektlari, eksport faoliyati, xalqaro standartlar, zamonaviy iqtisodiy nazariyalar, institutsional yondashuv, raqobat ustunligi, eksport salohiyati, ISO standartlari, sifat menejmenti, bozor diversifikatsiyasi, innovatsion rivojlanish, global talablar, texnik tartibga solish, xalqaro sertifikatlash, tashqi bozorlarga chiqish.

Аннотация: В данной статье рассматриваются современные теории внедрения международных стандартов в экспортную деятельность хозяйствующих субъектов. Проанализирована роль таких стандартов, как ISO, ГОСТ, OEKO-TEX, GOTS, в обеспечении качества, безопасности и экологической устойчивости продукции в условиях глобальной

конкуренции. Результаты исследования показывают возможности расширения географии экспорта продукции, увеличения добавленной стоимости и достижения диверсификации рынка за счет эффективного внедрения международных стандартов.

Ключевые слова: хозяйствующие субъекты, экспортная деятельность, международные стандарты, современные экономические теории, институциональный подход, конкурентные преимущества, экспортный потенциал, стандарты ISO, управление качеством, диверсификация рынка, инновационное развитие, глобальные требования, техническое регулирование, международная сертификация, выход на внешние рынки.

Annotation: This article discusses modern theories of the implementation of international standards in the export activities of business entities. It analyzes the importance of standards such as ISO, GOST, OEKO-TEX, GOTS in ensuring product quality, safety and environmental sustainability in the context of global competition. The results of the study show the possibilities of expanding the geography of product exports, increasing added value and achieving market diversification through the effective implementation of international standards.

Key words: Business entities, export activities, international standards, modern economic theories, institutional approach, competitive advantage, export potential, ISO standards, quality management, market diversification, innovative development, global requirements, technical regulation, international certification, access to foreign markets.

Tashqi savdo har qanday mamlakat iqtisodiyining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, uning barqaror rivojlanish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi, mamlakatning iqtisodiy o‘sishini ta’minlaydi hamda tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshiradi. Ayniqsa, eksportni rivojlanishi mamlakatda yangi ish o‘rinlarini yaratish, texnologik rivojlanish va innovatsiyalarni joriy etish imkoniyatlarini yaratadi. Tashqi savdo jarayonlari mamlakat iqtisodiyotining keng tarmoqli rivojlanishini rag‘batlantiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi[1].

Mamlakatimizda eksportni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida tovar va xizmatlar eksporti yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ortib bormoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2016-yilda mamlakatimizda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar eksporti yalpi ichki mahsulotning 15 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 2019-yilda ushbu ko‘rsatkich 31 foizga etgan. 2024-yilda O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar eksporti yalpi ichki mahsulotning 23,4 foizini tashkil etgan. Yalpi ichki mahsulot 2024-yilda 6,5 foizga oshib, 115 milliard dollarga etgan, bu umumiy iqtisodiyot hajmining katta o‘sishini anglatadi. 2020-yilda mamlakatimizda jami 15,1 mlrd. AQSh dollarlik mahsulot va xizmatlar eksport qilingan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 1,6 marta ko‘payib, 24,95 mlrd. AQSH dollardan iborat bo‘ldi. Mamlakatimizda ushbu ko‘rsatkich ilk bor 27 mlrd.dollarga yetdi[2].

Ma’lumki, “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini yuksaltirish va uning tarkibida qo‘shilgan qiymati yuqori bo‘lgan mahsulotlar ulushini keskin oshirish maqsadida 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari belgilab berilgan. Samaradorlik ko‘rsatkichi sifatida 2030-yilga qadar eksport hajmini 2 barobar oshirish va 45 milliard dollarga yetkazish, eksportchi tadbirkorlik subyektilar sonini 6,5 mingtadan 15 mingtaga yetkazish belgilangan. Shuningdek, farmonda eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 barobar ko‘paytirish, Yevropa davlatlariga GSP+ va boshqa tizimlari doirasida tayyor va texnologik mahsulotlar eksportini kengaytirish[3] kabi maqsad va vazifalari ham belgilab berilgan. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda albatta mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan tadbirkorlik subyektlar faolliyatigi xalqaro standartlarni faol joriy etish zarur. Shu nuqtai nazaridan, “O‘zbekiston-2030” strategiyasida ham samaradorlik ko‘rsatkichi sifatida xalqaro standartlar joriy qilingan tadbirkorlik subyektilar sonini 10 barobarga oshirish va ularning sonini 5 mingtaga yetkazish muhim vazifa sifatida belgilab berilgan.

Shuningdek, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham tashqi bozor va xalqaro talablarga javob beradigan standartlarni joriy etish vazifasi qo‘yilgan bo‘lib, mazkur masalalarni hal etishning samarali mexanizmlari sifatida eksportbop mahsulotlar ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga xorijiy bozorlar talablaridan kelib chiqqan holda “Oeko-Tex”, “Sedex”, “BSCI”, “GOTS”, “ISO 9001” kabi xalqaro standartlarni joriy etish belgilangan. Mazkur yondashuv eksportyor tadbirkorlik subyektlarining to‘liq qamrab olinishini ta’minlashga xizmat qiladi[4].

Ayniqsa, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati uchun yuqorida nomlari keltirilgan standartlarning joriy etilishi ushbu sohada faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektilari uchun mahsulot sifati va ishonchliligini oshirish, global bozorlarda samarali raqobatlashish, shuningdek yangi eksport bozorlari

sonini kengaytirish imkonini yaratadi. Shu nuqtai nazardan, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj tarmog‘i tadbirkorlik subyektilarining eksport salohiyatini oshirishda xalqaro talab va me’yorlarga muvofiq standartlarni joriy etish va tegishli sertifikatlarga ega bo‘lishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tarmoqda joriy etilishi lozim bo‘lgan asosiy xalqaro standartlar joriy etilgan (1-jadval).

1-jadval. To‘qimachilik va tikuv-trikotaj tarmog‘idagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatida joriy qilinadigan zamonaviy xalqaro standartlar to‘g‘risida ma’lumot

№	Standart logotipi	Xalqaro standartining tavsifi	Ishlab chiqqan standartlashtirish tashkiloti
1.	**ISO 9001**	ISO 9001 - sifat menejmenti tizimi. ISO 9001 xalqaro standarti asosan sifatni boshqarish mexanizmidir. Ushbu standartning maqsadi xatolar va nuqsonlarni kamaytirish, yo‘q qilish va oldini olish.	ISO - Xalqaro standartlashtirish tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan.
2.	**OEKO-TEX STANDART 100**	Oeko-Tex Standards 100 - ba’zi kimyoviy moddalardan foydalanishni cheklaydigan to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlarini sinovdan o‘tkazish va sertifikatlash bo‘yicha xalqaro tizimdir.	Germaniya va Shveysariyaning **OEKO-TEX®** tomonidan qabul qilingan.
3.	**GOTS**	GOTS (Global Organic Textile Standard) - bu ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar ekologik toza va tabiiy ekanligining tasdiqlovchi standart.	Germaniya, Britaniya, AQSh va Yaponiya tashkilotlari tomonidan qabul qilingan.
4.	**Sedex**	Sedex ((Supplier Ethical Data Exchange) – bu SEDEX savdo-iqtisodiy hamkorligi doirasida axloqiy me’yorlarga rioya qilish tashabbusiga qo‘shilgan turli sohalardagi tadbirkorlik subyektilar uchun ijtimoiy javobgarlik auditi.	Buyuk Britaniyada tashkil etilgan notijorat a’zolik tashkiloti.
5.	*BSCI*	BSCI (Business Social Compliance Initiative) – biznesning ijtimoiy mas’uliyat tashabbusi standarti bo‘lib, jahon savdosida ijtimoiy javobgarlik monitoringini joriy etish.	Tashqi savdo uyushmasi (FTA) tomonidan ishlab chiqilgan notijorat tashkilot.
6.	**WRAP**	WRAP (World wide Responsible Accredited Production) – to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlarini AQShga eksport qilish uchun talab qilinadigan barcha standartlarga javob berishini tasdiqlaydi.	WRAP Amerikaning (AAFA) tashkiloti tashabbusi bilan tashkil etilgan mustaqil, notijorat tashkilot.
7.	**Better Cotton Initiative**	BCI – “Yaxshi paxta tashabbusi” standarti - paxta xom ashyosi ekologik jihatdan toza ekanligi xalqaro darajada tan olinganini tasdiqlaydi.	WWF – tashabbusi asosida tashkil etilgan xalqaro nodavlat tashkilot.
8.	**CE**	CE (Conformité Européenne) belgisi – Yevropa Ittifoqi (YeI) bozorida sotiladigan mahsulotlarning inson salomatligi, atrof-muhit va xavfsizlik talablariga javob berishini anglatadi.	CE belgisi Yevropa Ittifoqining “New Approach Directives” (Yangi yondashuv direktivalari) doirasida ishlab chiqilgan.

Tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatida xalqaro standartlarni joriy etish nafaqat mahsulot sifatini yaxshilash, balki tashqi bozorda raqobatbardoshlikni oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va ekologik talablarga moslashishda ham muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy iqtisodiy

nazariyalar asosida tahlil qilinganda, xalqaro standartlar tadbirkorlik subyektlari uchun strategik resurs sifatida namoyon bo‘lib, ularning eksport salohiyatini shakllantirishda hal qiluvchi omil sifatida xizmat qiladi[5]. Shuningdek, standartlarni joriy etish orqali yangi bozorlarga chiqish imkoniyatlari kengayadi, mahsulotning ishonch darajasi oshib, investitsiyaviy jozibadorlik ta’minlanadi.

Tadqiqotlar natijasida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Xalqaro standartlar (ISO, OEKO-TEX, GOTS va boshqalar)ni tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga joriy etishda davlat tomonidan subsidiya va grantlar taqdim etish amaliyotini kengaytirish lozim[6].

2. Texnik tartibga solish, sertifikatlash va standartlash sohasida malaka oshirish kurslari va maslahat xizmatlarini hududlarda tashkil etish zarur.

3. Eksportga yo‘naltirilgan korxonalar uchun «Eksportga tayyorlik indeksi»ni joriy etish va unga xalqaro standartlarga muvofiqlik darajasini baholash mezonini kiritish maqsadga muvofiq[7].

4. Tadbirkorlarni xalqaro standartlash va tashqi bozor talablari bo‘yicha doimiy ravishda xabardor qilish maqsadida axborot platformalari yaratilishi kerak.

5. Milliy eksport strategiyasida xalqaro standartlashni alohida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilash tavsiya etiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatida xalqaro standartlarni joriy etish nafaqat mahsulot sifatini va xavfsizligini ta’minlash, balki tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish, eksport geografiyasini kengaytirish va innovatsion rivojlanishni rag‘batlantirishda muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiy nazariyalar jumladan, institutsional nazariya, raqobat ustunligi nazariyasi, innovatsion yondashuv va tranzaksion xarajatlar nazariyasi xalqaro standartlashni tashqi iqtisodiy faoliyatning strategik tarkibiy qismi sifatida baholash imkonini beradi[8].

Xalqaro standartlarni joriy etish tadbirkorlik subyektlarining tashqi bozordagi ishonch reytingini oshirish, eksport mahsulotining qo‘shilgan qiymatini ko‘paytirish, hamda ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishga xizmat qiladi. Bunda davlat tomonidan standartlash, sertifikatlash va muvofiqlikni baholash sohalaridagi institutsional qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlarni texnik tartibga solish bo‘yicha xabardor qilish, hamda ta’lim va maslahat infratuzilmasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shu asosda, milliy eksport salohiyatini yuksaltirish hamda tashqi bozorlar bilan integratsiyalashuv jarayonlarida xalqaro standartlarni joriy etishning samaradorligini oshirish, O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatida strategik ustuvor yo‘nalish sifatida qaralishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Портер М. Конкурентное преимущество: Как достичь высокого результата и обеспечить его устойчивость / Пер. с англ. — М.: Альпина Бизнес Букс, 2020. - 715 с.
2. O‘zbekiston Resupublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston-2030” taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. https://lex.uz/ru/ docs/6600413
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2021-yil, 29-yanvar.
5. Dunning, J.H. Multinational Enterprises and the Global Economy. 2nd ed. - Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2014. - 920 p.
6. Nelson, R.R., Winter, S.G. An Evolutionary Theory of Economic Change. - Cambridge: Harvard University Press, 2009. - 454 p.
7. OECD (2020). "International Regulatory Co-operation and Trade: Understanding the Trade Costs of Regulatory Divergence and the Remedies", OECD Publishing, Paris.
8. Karimov, A.R., & Ruzmetova, M.M. (2023). The Impact of International Standards on Export Competitiveness: Evidence from Uzbekistan. Central Asian Economic Review, №2, — B. 45–58.

TADBIRKORLIK MUHITIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARNI BAHOLASH

D.N.Mahkamova
Namangan davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda tadbirkorlik faoliyatiga ta’sir etuvchi to‘siqlar darajasi tahlil qilinib, ularning biznes muhitiga salbiy ta’siri baholandi. Grafik tahlillar asosida soliq stavkalari, yer olish, tabiiy gaz va elektr energiyasi ta’minoti, moliyalashtirish imkoniyatlari hamda norasmiy sektor bilan bog‘liq muammolar tadbirkorlar tomonidan eng katta to‘siqlar sifatida qayd etilgan. Shuningdek, iqtisodiy beqarorlik, byurokratiya, malakali mutaxassislar yetishmasligi va korrupsiya kabi omillar ham tadbirkorlik rivojiga salmoqli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda.

Kalit so’zlar: tadbirkorlik muhiti, to‘siqlar darajasi, soliq stavkalari, yer resurslari, tabiiy gaz ta’minoti, elektr energiyasi, moliyalashtirish, norasmiy sektor, iqtisodiy beqarorlik, byurokratiya, korrupsiya, sud tizimi, ruxsatnomalar va litsenziyalar, transport infratuzilmasi, savdo va bojxona qoidalari.

Аннотация: В данном исследовании был проанализирован уровень барьеров для предпринимательства и оценено их негативное влияние на деловую среду. На основе графического анализа, проблемы, связанные с налоговыми ставками, приобретением земли, газоснабжением и электроснабжением, возможностями финансирования и неформальным сектором, были обозначены предпринимателями как наиболее существенные препятствия. Кроме того, такие факторы, как экономическая нестабильность, бюрократия, нехватка квалифицированных специалистов и коррупция, также существенно влияют на развитие предпринимательства.

Ключевые слова: предпринимательская среда, уровень барьеров, налоговые ставки, получение земли, поставка природного газа, электроснабжение, финансирование, теневой сектор, экономическая нестабильность, бюрократия, коррупция, судебная система, лицензии и разрешения, транспортная инфраструктура, торговые и таможенные правила.

Annotation: This article analyzed the level of barriers to entrepreneurship and assessed their negative impact on the business environment. Based on graphical analyses, problems related to tax rates, land acquisition, natural gas and electricity supply, financing opportunities, and the informal sector were identified by entrepreneurs as the biggest obstacles. In addition, factors such as economic instability, bureaucracy, lack of qualified specialists, and corruption also significantly affect the development of entrepreneurship.


Key words: business environment, level of barriers, tax rates, land acquisition, natural gas supply, electricity supply, financing, informal sector, economic instability, bureaucracy, corruption, judicial system, permits and licenses, transport infrastructure, trade and customs regulations.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda tadbirkorlik faoliyati muhim o‘rin egallaydi. Mamlakatdagi umumiy iqtisodiy muhit, normativ-huquqiy baza, infratuzilma rivoji, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari, energetika ta’minoti, soliq siyosati va boshqa omillar tadbirkorlik faoliyatining samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, tadbirkorlik muhitiga ta’sir etuvchi omillarni tizimli ravishda baholash, mavjud to‘siq va muammolarni aniqlash, ularni kamaytirishga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi[1]. Ushbu tadqiqot aynan tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni baholash, ularning og‘irlik darajasini aniqlash va ularni tahlil qilishga qaratilgan.

Tadbirkorlik muhitiga ta’sir etuvchi omillar bu tashqi va ichki shart-sharoitlarning yig‘indisi bo‘lib, ular tadbirkorlik faoliyatining boshlanishi, rivojlanishi va barqarorligiga bevosita yoki bilvosita ta’sir qiladi. Bular qatoriga soliq yuki, ruxsatnomalar olish tartibi, energetika ta’minoti, moliyalashtirish imkoniyatlari, korrupsiya darajasi, iqtisodiy barqarorlik, sud-huquq tizimi kabi omillar kiradi. Ularning har biri tadbirkorning qaror qabul qilishiga va biznes yuritishdagi xavf-xatarlarni baholashiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi[2].

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – tadbirkorlik muhitiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash, ularning intensivlik darajasini baholash va mavjud muammolar asosida takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda tadbirkorlik muhitidagi to‘siqlar bir nechta yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi (1-rasm).



1-rasm. Tadbirkorlik muhitiga ta’sir etuvchi omillar (so‘rovnoma natijalari)

Grafikda tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi turli omillar uchta toifada (kichik, o‘rta va katta to‘siq) baholangan. Gorizontal ustunlar orqali har bir omil bo‘yicha ishtirokchilarning foizdagi fikri ifodalangan. Grafik 20 dan ortiq to‘siq omillarini qamrab olgan bo‘lib, ular ichida ayrimlari tadbirkorlikka sezilarli darajada tahdid solmoqda.

Grafikdan ko‘rinib turibdiki, eng katta to‘siq sifatida quyidagi omillar ajralib turadi (katta to‘siq deb baholaganlar soni 50% dan yuqori):

Soliq stavkalari – bu omil bo‘yicha ishtirokchilarning yarmidan ko‘pi (60% atrofida) uni katta to‘siq sifatida baholagan. Bu tadbirkorlar uchun soliq yuki og‘irligini va soliq siyosatini soddalashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Yer olish va tabiiy gaz ta’minoti – ushbu resurslarga bo‘lgan kirishdagi byurokratik to‘siqlar va infratuzilmadagi muammolar sezilarli darajada salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Elektr energiyasi, moliyalashtirish va norasmiy sektor – ushbu omillar ham yuqori darajadagi to‘siq sifatida e’tirof etilgan.

Tadbirkorlik muhitini yaxshilash uchun birinchi navbatda yuqoridagi oltita omil bo‘yicha islohotlar amalga oshirilishi zarur.

Quyidagi omillar bo‘yicha ko‘pchilik ishtirokchilar o‘rta to‘siq mavjudligini bildirgan: soliq ma’muriyati, suv ta’minoti, iqtisodiy beqarorlik, byurokratiya, transport infratuzilmasi, malakali mutaxassislar yetishmasligi, tovar va xizmatlar bozori. Bu omillarning aksariyati tizimli muammolar, kadrlar salohiyati yoki bozor infratuzilmasi bilan bog‘liq bo‘lib, ularni hal qilish uchun o‘rta muddatli strategiyalar ishlab chiqilishi kerak.

Quyidagi omillar nisbatan kichik to‘siq sifatida baholangan: korrupsiya, normativ-huquqiy hujjatlar, litsenziya va ruxsatnomalar, mahalliy hokimiyat aralashuvi, bojxona va savdo qoidalari, sud tizimi.

Bu, bir tomondan, ushbu sohalarda islohotlarning natija bera boshlaganini ko‘rsatishi mumkin, biroq bu to‘liq muammo yo‘q degani emas. Ayniqsa, korrupsiya va sud tizimi bo‘yicha salbiy baholovchilar ulushi hali ham sezilarli.

Ilmiy tahlil asosida quyidagicha xulosa qilish mumkin:

1. Tadbirkorlar uchun resurslar (yer, gaz, elektr) va moliya bilan bog‘liq masalalar eng katta to‘siqlardan biridir.

2. Norasmiy sektorning kuchayishi esa qonuniy tadbirkorlik uchun noxolis raqobat muhitini yuzaga keltirmoqda.

3. Kadrlar masalasi, byurokratiya va bozor infratuzilmasi hali ham yechimini topmagan tizimli muammolar sirasiga kiradi.

Davlat tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish, ruxsatnomalarni soddalashtirish va sud tizimini mustahkamlash borasidagi harakatlar ijobiy samara bermoqda, biroq hali to‘liq yetarli emas.

Tadqiqot davomida tadbirkorlik muhitini yaxshilash bo‘yicha bir qator takliflar ishlab chiqildi:

1.Soliq siyosatini isloh qilish va yengillashtirish. Tahlil natijalariga ko‘ra, soliq stavkalari va soliq ma’muriyati tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga eng katta to‘siqlardan biri sifatida baholangan. Shuning uchun soliq stavkalarini sektorlar kesimida qayta ko‘rib chiqish va ularni maqbullashtirish, soliq

solish tizimini soddalashtirish orqali kichik biznes uchun soliq yuki va ma’muriy xarajatlarni kamaytirish, elektron soliq hisobotlarini joriy qilishni kengaytirish va real vaqtli monitoringni kuchaytirish tavsiya etiladi[3].

2.Resurslar bilan ta’minot tizimini modernizatsiya qilish. Tabiiy gaz, elektr energiyasi va suv ta’minoti tizimlarida yuzaga kelayotgan uzilishlar tadbirkorlar faoliyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois energiya va tabiiy resurslar bilan ta’minotning uzluksizligini kafolatlaydigan raqamli monitoring tizimlarini joriy etish, tadbirkorlar uchun alohida “energiya xavfsizligi kafolati” mexanizmini ishlab chiqish, mahalliy hokimiyatlar orqali yer ajratish jarayonini ochiq elektron platforma orqali boshqarish taklif etiladi[4].

3.Moliyaviy resurslarga kirishni kengaytirish. Moliyalashtirish masalasi tadbirkorlik muhitida dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Buning uchun kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlari uchun imtiyozli kredit liniyalarini ko‘paytirish, innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini (faktorlar, venchur kapital, kraudfanding) joriy etish, tadbirkorlar uchun kafillik fondlari va davlat tomonidan subvensiyalar tizimini kengaytirish maqsadga muvofiq[5].

4.Norasmiy sektorni legallashtirish choralarini kuchaytirish. Norasmiy sektor rasmiy tadbirkorlik subyektlariga nisbatan noxolis raqobatni kuchaytiradi. Shuning uchun norasmiy faoliyat yuritayotgan subyektlarni ro‘yxatga olish bo‘yicha soliq imtiyozlari va vaqtinchalik afv siyosatini joriy etish, raqamlashtirish asosida real sektor monitoringini kuchaytirish va hisobot berish intizomini yaxshilash, fuqarolarning mustaqil ish yuritishini qonuniylashtirish orqali bandlikni kengaytirish lozim.

5.Byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish va davlat xizmatlarini optimallashtirish. Litsenziya va ruxsatnomalar olish bo‘yicha barcha jarayonlarni “yagona darcha” tamoyili asosida to‘liq raqamlashtirish, mahalliy hokimiyatlar va sektorlararo organlar o‘rtasida vertikal va gorizontal muvofiqlashtirish mexanizmlarini kuchaytirish va davlat xizmatlari ko‘rsatishda avtomatlashtirilgan baholash va nazorat tizimlarini joriy etish[6].

6. Kadrlar va infratuzilma salohiyatini oshirish. Ishlab chiqarish klasterlarida o‘rta maxsus va oliy kasbiy ta’lim muassasalari bilan integratsiyani kuchaytirish, transport va logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish orqali ichki va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini oshirish, “Raqamli infratuzilma” konsepsiyasini hududlar kesimida joriy etish[7].

7. Sud-huquqiy tizim va korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish. Tadbirkorlar ishtirokida iqtisodiy sudlar faoliyatining ochiqligini ta’minlovchi mexanizmlarni ishlab chiqish, sud qarorlarining elektron bazasini ochiq qilish va shaffoflikni ta’minlash, korrupsiyaga qarshi kurashda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, “ishonch telefoni” va maxsus portal ishini takomillashtirish[8].

Tahlil natijalari shundan dalolat bermoqdaki, tadbirkorlik muhitiga ta’sir etuvchi omillar orasida soliq siyosati, resurslar (tabiiy gaz, elektr energiyasi, yer), moliya resurslariga yetishuvchanlik va norasmiy sektor bilan bog‘liq muammolar eng yuqori xavf manbai hisoblanadi. Shuningdek, iqtisodiy beqarorlik, malakali mutaxassislar tanqisligi, infratuzilma yetishmovchiligi va byurokratik to‘siqlar tadbirkorlik sub’ektlari faoliyati samaradorligini cheklab kelmoqda[9].

Garchi ayrim sohalarda xususan, ruxsatnomalar berish, sud-huquq tizimi, bojxona va normativ-huquqiy tartibga solish sohalarida islohotlar ta’siri sezilayotgan bo‘lsa-da, ularning samaradorligi tadbirkorlar nuqtai nazaridan hanuz yetarli darajada emasligi ko‘rinib turibdi.

Shu nuqtai nazardan, tadbirkorlik muhitini yaxshilash uchun kompleks yondashuv asosida, institutsional, iqtisodiy va ma’muriy islohotlarni uyg‘unlashtirgan holda amalga oshirish zarur. Bu esa yangi ish o‘rinlari yaratish, xususiy sektorning ulushini oshirish va investitsion muhitni yaxshilashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari mazkur sohada davlat siyosatini shakllantirish va amaliy chora-tadbirlarni belgilashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 avgustdagi PF-167-sonli Farmoni. “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”. www.lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 avgustdagi PQ–5215-sonli Qarori. “Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”. - www.lex.uz.

3. Davlat statistika qo‘mitasi. Tadbirkorlik subyektlari faoliyati bo‘yicha yillik statistik to‘plam. Toshkent: O‘zStatQo‘m, 2024. 120 b.

4. World Bank. Doing Business 2020: Comparing Business Regulation in 190 Economies. – Washington D.C.: World Bank Group, 2020.

5. Porter, M. E. *(2008)*. The Five Competitive Forces That Shape Strategy. Harvard Business Review, Vol. 86(1), pp. 78–93.
6. Acs, Z. J., & Audretsch, D. B. (2005). Entrepreneurship, Innovation and Economic Growth. – Cheltenham: Edward Elgar Publishing.
7. OECD (2023). SME and Entrepreneurship Outlook 2023. – OECD Publishing. – https://www.oecd.org.
8. Tan, W.-L., Williams, J., & Tan, T.-M. (2005). Defining the "social" in "social entrepreneurship": Altruism and entrepreneurship. International Entrepreneurship and Management Journal, 1(3), 353–365.
9. Tojibaev B.Sh. Tadbirkorlikni rivojlantirishda iqtisodiy muhit omillari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2023. – №1. – B. 45–53.

SOTSIAL INTELLEKT – PSIXOLOGIK RIVOJLANISHNING DETERMINANTI SIFATIDA (BO‘LAJAK PEDAGOGLAR MISOLIDA)

Sh.A.Ataxo‘jayeva
University of Business and Science Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti
Psixologiya fanlari falsafa doktori (PhD)
N.B.Qahhorova
University of Business and Science Psixologiya yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak pedagoglarning psixologik rivojlanishida sotsial intellektning roli determinativ omil sifatida tahlil qilinadi. Pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatli kommunikatsiya, empatiya, hissiy barqarorlik va o‘zaro munosabatlarni boshqarish qobiliyatlari aynan sotsial intellekt darajasiga bog‘liq. Tadqiqot J.P. Gilford metodikasi asosida olib borilib, talabalar orasida sotsial intellekt komponentlarining rivojlanish darajasi aniqlanadi va psixologik rivojlanishga ta’siri tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: sotsial intellekt, psixologik rivojlanish, bo‘lajak pedagog, Gilford metodikasi, empatiya, kommunikativ kompetensiya, determinanta.

Аннотация. В статье анализируется роль социального интеллекта как определяющего фактора психологического развития будущих учителей. Успешность коммуникации, эмпатия, эмоциональная устойчивость и способность управлять отношениями в педагогической деятельности зависят от уровня социального интеллекта. Исследование проведено на основе методики Дж. П. Гилфорда. Определен уровень развития компонентов социального интеллекта у студентов и проанализировано их влияние на психологическое развитие.

Ключевые слова: социальный интеллект, психологическое развитие, будущий учитель, методика Гилфорда, эмпатия, коммуникативная компетентность, детерминанта.

Abstract. This article analyzes the role of social intelligence as a determining factor in the psychological development of future teachers. Successful communication, empathy, emotional stability and the ability to manage relationships in pedagogical activity depend on the level of social intelligence. The study was conducted based on the J.P. Gilford methodology, the level of development of social intelligence components among students is determined and their impact on psychological development is analyzed.

Keywords: social intelligence, psychological development, future teacher, Gilford methodology, empathy, communicative competence, determinant.

I. Kirish. Zamonaviy ta’limda o‘qituvchi shunchaki bilim beruvchi emas, balki ijtimoiy-psixologik aloqalarni boshqaruvchi, shaxslararo muloqotda yetakchi bo‘lgan mutaxassis bo‘lishi zarur. Shu nuqtai nazardan, pedagogik kasbda **sotsial intellekt** tushunchasi alohida e’tiborni talab qiladi.

Sotsial intellekt – bu insonlarning bir-birini tushunishi, ijtimoiy muhitda to‘g‘ri yo‘l tuta olishi, hissiy holatlarni aniqlashi va ularga mos javob bera olish qobiliyatidir (E.Thorndike, J.P. Gilford). Bo‘lajak pedagoglarda bu intellekt turi rivojlanmagan bo‘lsa, ularning psixologik barqarorligi, muloqot sifati va sinf bilan ishlash samaradorligi pasayadi.

II. Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot obyektlari: Andijon, Qarshi, Navoiy va Toshkentdagi pedagogik yo‘nalishlarda tahsil olayotgan 80 nafar 3–4-bosqich talaba.

Metod: J.P. Gilfordning “Sotsial intellekt strukturasini baholash testi” asosida so‘rovnoma. Gilford bo‘yicha asosiy komponentlar:

1. Boshqalarning hissiy holatini tushunish
2. Sotsial holatlarni taxmin qilish
3. Sotsial vaziyatlarda echim topish
4. Sotsial muammolarga moslashuvchanlik

Ball mezoni (har bir komponent bo‘yicha):

- 0–5 ball – past daraja
- 6–9 ball – o‘rtacha daraja
- 10 va undan yuqori – yuqori daraja

III. Natijalar.

Jadval 1. Bo‘lajak pedagoglarning sotsial intellekt darajalari (Gilford testi asosida)

Komponent	Past daraja (%)	O‘rtacha daraja (%)	Yuqori daraja (%)
1.Hissiy holatni tushunish	18	46	36
2.Sotsial holatlarni taxmin qilish	24	52	24
3.Vaziyatga mos echim topish	20	43	37
4.Sotsial moslashuvchanlik	25	50	25

Gilford metodikasi asosida o‘tkazilgan tadqiqotda 80 nafar bo‘lajak o‘qituvchi (3–4-bosqich talabalar) 4 ta sotsial intellekt komponenti bo‘yicha baholandi:

- Hissiy holatni tushunish;
- Sotsial holatlarni taxmin qilish;
- Vaziyatga mos echim topish;
- Sotsial moslashuvchanlik.

1. Hissiy holatni tushunish: Yuqori daraja – 36%, O‘rtacha – 46%, Past – 18%. Bu komponent natijalari shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak pedagoglarning katta qismi boshqalarning hissiy holatini tanib olish va uni tushunish qobiliyatiga ega. Bu — empatiya va emotsional sezgirlikni anglatadi. Biroq, 18% past natijaga ega talabalar sinfda individual yondashuvda qiynalishlari mumkin. Bu esa emotsional karlik (hissiy befarqlik) xavfini tug‘diradi.


2. Sotsial holatlarni taxmin qilish: Yuqori – 24%, O‘rtacha – 52%, Past – 24%. Taxmin qilish qobiliyati — ijtimoiy vaziyatlar oqibatini ilg‘ash, shaxslararo munosabatni “ko‘z bilan ko‘ra olish” kompetensiyasidir. 52% talabada bu o‘rtacha darajada, ya’ni ularning vaziyatga mos prognoz berish imkoniyati mavjud, ammo 24% ishtirokchida bu qobiliyat sust. Bunday talabalar kutilmagan sinf holatlariga moslasha olmaydi yoki noto‘g‘ri xulosa chiqaradi.

3. Vaziyatga mos echim toppish: Yuqori – 37%, O‘rtacha – 43%, Past – 20%. Bu eng ijobiy komponent bo‘lib, bo‘lajak pedagoglarning deyarli 80% i (43% + 37%) muammoli sotsial vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l tanlay oladi. Bu psixologik yetuklik, ichki refleksiya, muvozanatli qaror qabul qilish belgilaridan biridir. Bu ko‘rsatkich — kelajakdagi o‘qituvchilar uchun muhim afzallik.

4. Sotsial moslashuvchanlik: Yuqori – 25%, O‘rtacha – 50%, Past – 25%. Har 4-bo‘limda ikkala chekka ko‘rsatkich — yuqori va past — bir xil (25%). Bu ijtimoiy moslashuvchanlikda polarizatsiya mavjudligini ko‘rsatadi. Ba’zi talabalar yangi guruh, yangi talabalar yoki notanish holatlarga tez moslasha olsa, ayrimlari bu jarayonda ancha qiynaladi. Moslashuvchanlik pedagog kasbining doimiy ehtiyoji hisoblanadi. Shu bois, bu indikator ustida alohida ishlash zarur.

Ko‘rsatkich	Psixologik talqin
1.O‘rtacha ustunlik	Talabalar ijtimoiy muhitda o‘zini ushlab tura oladi, biroq bu hali mukammal kompetensiya emas.
2. Qisqa vaqtli javoblar	Raqamli makonda o‘sgan avlod ko‘pincha tez, ammo yuzaki sotsial tahlilga moyil. Ehtiyoj — refleksiv o‘ylash ko‘nikmasini rivojlantirish.
3.Tafovutlar mavjudligi	Shaxslararo farqlar aniq. Ayrimlar uchun bu soha oson, boshqalar uchun u o‘z ustida ishlashni talab qiladi. Bu o‘quv jarayonida diferensial yondashuvni taqozo etadi.
4.Psixologik pishqoqlik	Ko‘rsatkichlar umuman olganda barqaror psixologik zamin borligini bildiradi. Shu asosda sotsial intellektni bosqichma-bosqich rivojlantirish mumkin.

IV. Muhokama



Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalarning sotsial intellekti o‘rtacha darajada rivojlangan bo‘lib, ularning taxmin qilish, vaziyatga moslashish va hissiy holatlarni tushunish qobiliyati individual farqlarga ega.

- O‘rtacha ball ko‘rsatkichlari pedagogik tayyorgarlik jarayonida sotsial ko‘nikmalarni shakllantirish zarurligini ko‘rsatmoqda.
- Yuqori darajadagi sotsial intellektga ega bo‘lgan talabalar darslarda faollik, o‘zaro tushunuv va liderlik fazilatlarini namoyon qilgan.
- Past ball to‘plaganlar muloqotda sustlik, sotsial muammolarni hal qilishda qiyinchilik va past adaptatsiya ko‘rsatgan.

Shu sababli sotsial intellektni rivojlantirish — bu nafaqat psixologik barqarorlik, balki kasbiy kompetensiyaning asosi hisoblanadi.

V. Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sotsial intellekt — bo‘lajak pedagoglarning psixologik rivojlanishida asosiy determinantal omil hisoblanadi. J.P. Gilfordning sotsial intellekt strukturasini o‘lchash metodikasi asosida o‘tkazilgan diagnostik tekshiruvlar quyidagi muhim xulosalarni aniqlashga imkon berdi:

Bo‘lajak pedagoglar orasida sotsial intellekt komponentlari o‘rtacha darajada shakllangan. Bu esa ijtimoiy muhitda o‘zini tutish, hissiy javob berish, va shaxslararo aloqalarni boshqarish bo‘yicha asosiy ko‘nikmalar mavjudligini bildiradi, biroq ularni yanada chuqurlashtirish talab etiladi.

Yuqori darajadagi natijalar psixologik barqarorlik, sinfdagi ijtimoiy muhitni boshqarish, va muammoli vaziyatlarda refleksiv yechimlar topishda ustunlik beradi. Bu pedagogik samaradorlikni belgilovchi asosiy psixologik resurs hisoblanadi.

Talabalarning raqamli texnologiyalar bilan ishlashga bo‘lgan qobiliyatlari ham sotsial moslashuvchanlik bilan bevosita bog‘liqdir. Raqamli muhitda samarali muloqot qilish, onlayn hamkorlik va virtual guruhdagi liderlik aynan sotsial intellektning rivojlangan darajasini talab qiladi.

Shunday ekan, pedagogik ta’lim jarayonida sotsial intellektni shakllantirish va rivojlantirish mustahkam psixologik tayyorgarlikni ta’minlashda asosiy strategik yo‘nalishlardan biri bo‘lishi lozim.

Bo‘lajak pedagoglarda sotsial intellektni shakllantirish — bu nafaqat psixologik rivojlanish mezoni, balki zamonaviy ta’limda raqobatbardosh, emotsional jihatdan yetuk, muloqotga tayyor shaxsni tayyorlashning kafolatli usulidir. Bu kompetensiya O‘zbekistonning raqamli ta’lim strategiyasida “yumshoq ko‘nikmalar” sifatida belgilangan ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Shunday ekan, sotsial intellektni rivojlantirish — pedagogik ta’lim siyosatining asosiy poydevorlaridan biriga aylanishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Anvarovna, A. S. (2023). Constructions (models) of social intelligence in future English language teachers. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, *2*(4), 169-172.

2. Umirovich, A. O., & Anvarovna, A. S. (2023). Views of thinkers on issues of family and family relations. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, *2*(5), 508-511.

3. Anvarovna, A. S. ., & Kahharova. (2024). SOCIAL-PSYCHOLOGICAL ADJUSTMENT OFFIRST YEAR UNIVERSITY STUDENTS. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, *3*(1), 230–234. Retrieved from https://jeev.innovascience.uz/index.php/jeev/article/view/439

4. Atakhujaeva, S. (2023). CONSTRUCTIONS (MODELS) OF SOCIAL INTELLIGENCE IN FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*.

5. Nortoji Jumayevich Eshnayev, & Shahlo Anvarovna Atakhujaeva (2021). SELFDESTRUCTIVE BEHAVIOR AND ITS ESSENCE. Academic research in educational sciences, 2 (CSPI conference 1), 371-375.

6. Ataxo’jayeva, S. (2023). EMPIRIAL FOUNDATIONS OF THE STUDY ENGLISH TEACHERS’SOCIAL INTELLIGENCE.

7. Mirzamurodovich, F. M. (2023). CONCEPTS OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF PSYCHOLOGICAL LITERACY IN CONTINUOUS EDUCATION. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, *2*(5), 495-497.

8. Fayzullayev, M. M. (2023). PSYCHOLOGICAL LITERACY AND ITS ASSESMENT OF IN YOUTH. *Educational Research in Universal Sciences*, *2*(6 SPECIAL), 170–172. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/3358

9. Fayzullayev , M. . (2024). INTRODUCING PSYCHOLOGICAL LITERACY. Академические исследования в современной науке, 3(22), 32–35. извлечено от https://econferences.ru/index.php/arims/article/view/16795

10. Fayzullayev, M. (2023). O‘SMIRLARDA PSIXOLOGIK SAVODXONLIK KONSTRUKSIYALARI. Академические исследования в современной науке, 2(19), 129–133. извлечено от https://www.econferences.ru/index.php/arims/article/view/7963

11. Nortoji Jumaevich Eshnev, & Mirzaodil Mirzamurodovich Fayzullayev (2021). DISCRIMINATION IN EDUCATION. Academic research in educational sciences, 2 (CSPI conference 1), 550-553.

12. Ataxo’Jayeva S. A. O ‘QITUVCHILARINING SOTSIOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI //Academic research in educational sciences. – 2023. – T. 4. – №. TMA Conference. – C. 111-115.

13. Ataxo’jayeva S. A. et al. INGLIZ TILINI O’RGATISHDA LOYIXA ISHINI TASHKIL QILISHNING AFZALLIKLARI //Science and Education. – 2020. – T. 1. – №. 1. – C. 403-406.

14. Fayzullayev M. M. DISCRIMINATION IS A VIOLATION OF HUMAN RIGHTS AND IS A PROBLEM FOR STUDENTS, ESPECIALLY IN TIMES OF PSYCHOLOGICAL CHANGE //INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 429-431.

15. Fayzullayev M. M. Psixologik savodxonlik o ‘rta maktab o ‘quvchilarini ijtimoiylashtirishning psixologik-pedagogik sharti sifatida //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 15. – C. 398-400.

РАЗРАБОТКА ИНТЕРАКТИВНОГО МЕТОДА ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ IT-НАПРАВЛЕНИЙ ПО ТЕМЕ “ОПТИМИЗАЦИЯ ВЕБ-САЙТА

Т.П.Расулова
Андижанского государственного технического института PhD докторант 3-го курса

Annotatsiya. Maqolada “Veb-sayt faoliyatini optimallashtirish” mavzusida talabalarga o‘qitishning interfaol usulini ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish ko‘rsatilgan. Usul amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvga, talabalarni faol jalb qilishga va professional audit vositalaridan foydalanishga qaratilgan. Taklif etilayotgan metodologiya real holatlardan foydalanish, raqamli simulyatorlar, o'yinlashtirish va yechimlarning mustaqil dizaynini birlashtiradi. Usulni amalga oshirish natijalari texnik kompetentsiyaning o'sishini va talabalarning veb-ishlab chiqishdagi murakkab mavzularni o'rganishga bo'lgan qiziqishini ko'rsatadi.

Аннотация. В статье представлена разработка и апробация интерактивного метода обучения студентов по теме «Оптимизация производительности веб-сайта». Метод ориентирован на практико-ориентированный подход, активное вовлечение обучающихся и применение профессиональных инструментов аудита. Предложенная методика сочетает использование реальных кейсов, цифровых симуляторов, геймификации и самостоятельного проектирования решений. Результаты внедрения метода демонстрируют рост технической компетентности и повышение мотивации студентов к изучению сложных тем в веб-разработке.

Annotation. The article presents the development and testing of an interactive method for teaching students on the topic of "Website Performance Optimization". The method is focused on a practice-oriented approach, active involvement of students and the use of professional audit tools. The proposed methodology combines the use of real cases, digital simulators, gamification and independent design of solutions. The results of the method implementation demonstrate an increase in technical competence and increased motivation of students to study complex topics in web development.

Kalit so'zlar: interaktiv usul, IT talabalarini o'qitish, veb-saytlarni optimallashtirish, PageSpeed, Web Vitals, Lighthouse, ta'lim texnologiyalari, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim.

Ключевые слова: интерактивный метод, обучение ИТ-студентов, оптимизация веб-сайта, PageSpeed, Web Vitals, Lighthouse, образовательные технологии, практика-ориентированное обучение.

Keywords: interactive method, teaching IT students, website optimization, PageSpeed, Web Vitals, Lighthouse, educational technologies, practice-oriented learning.

Введение. Современная подготовка специалистов в области веб-разработки требует не только изучения теоретических основ, но и формирования устойчивых практических навыков работы с реальными цифровыми инструментами. Особенно актуальными становятся темы, связанные с оптимизацией производительности веб-приложений, так как они напрямую влияют на пользовательский опыт, SEO-показатели и бизнес-результаты.

Тем не менее, традиционные методы обучения по этим темам часто ограничиваются пассивным восприятием информации. Это снижает вовлечённость студентов и усложняет формирование системного подхода к веб-оптимизации. В данной работе предложен интерактивный метод обучения, в котором студенты не только изучают, но и реализуют оптимизационные подходы на практике. Целью данного исследования является разработка и внедрение интерактивного метод обучения студентов по теме «Оптимизация веб-сайта», ориентированный на активную практику, групповое взаимодействие и цифровую аналитику.

Методы исследования. В последние годы веб-технологии приобрели ключевое значение в цифровом пространстве, став основой для создания многофункциональных и масштабируемых приложений, используемых в различных сферах — от бизнеса до образования [1, 2017: с. 1–6]. Постоянно растущий спрос на онлайн-сервисы привёл к тому, что веб-приложения стали вытеснять традиционные десктопные решения, что обусловило стремительное развитие архитектурных и технических аспектов их реализации. Современные веб-сайты и приложения характеризуются высокой степенью сложности: они строятся на многоуровневой и нередко распределённой архитектуре, включают обширные клиентские и серверные компоненты, активно используют сторонние API и динамический контент. Это делает вопросы производительности и надёжности критически важными — как для пользователей, так и для разработчиков. Даже незначительные задержки в загрузке страниц могут приводить к потере трафика, ухудшению пользовательского опыта и снижению рейтингов в поисковых системах. Кроме того, техническая сложность порождает высокую вероятность программных ошибок, неправильной оптимизации ресурсов и архитектурных узких мест. Всё это требует от специалистов не только владения современными инструментами, но и способности системно подходить к анализу, аудиту и улучшению производительности веб-ресурсов.

В условиях увеличения нагрузки на веб-инфраструктуру, растущих требований к скорости отклика и масштабируемости возникает острая необходимость в подготовке квалифицированных ИТ-специалистов, способных эффективно решать задачи оптимизации [2, 2019: с. 45–56]. При этом традиционные формы подачи учебного материала зачастую не обеспечивают достаточного уровня практической подготовки студентов. Это подчёркивает актуальность внедрения интерактивных методов обучения, ориентированных на проектную деятельность, цифровой аудит и применение реальных инструментов оценки производительности. Таким образом, эффективное обучение теме оптимизации веб-приложений требует выхода за рамки лекционного формата и предполагает активное включение студентов в анализ, оценку и практическое улучшение производительности сайтов. В связи с этим возникает необходимость в разработке интерактивного метода, ориентированного на формирование профессиональных компетенций в реальном цифровом контексте.

Интерактивные методы обучения отвечают требованиям современной педагогики, акцентируя внимание на активной познавательной деятельности студентов, их включённости в процесс принятия решений и самостоятельности. Особенность предложенного подхода заключается в том, что студенту предлагается не абстрактная задача, а практический кейс, смоделированный на основе реальных проблем производительности веб-приложений. Это позволяет не только развивать технические навыки, но и формировать системное мышление и умение работать с современными аналитическими средствами. Также, благодаря использованию цифровой обратной связи (метрики Web Vitals, отчёты Lighthouse), студент получает объективную визуализацию результатов своей работы, что усиливает мотивацию и понимание причинно-следственных связей в веб-разработке [3, 2011: с. 111–114].

Структура и логика реализации интерактивного метода. Интерактивный метод реализуется через модульную структуру, где каждый блок включает в себя следующие компоненты [4, 2023: с. 11–17]:

1. Актуализация знаний и ввод в тему Вводный видеоролик или мини-лекция с кейсом («Почему важна скорость загрузки?»), сопровождаемый коротким квизом.
2. Анализ и диагностика веб-сайта Использование инструментов: Google Lighthouse, GTmetrix, WebPageTest, с фиксацией исходных показателей (LCP, FID, CLS, TTI и др.).
3. Формирование гипотез и оптимизационные действия Работа в малых группах по предложению решений: оптимизация изображений, внедрение lazy loading, сжатие ресурсов, кэширование и др.
4. Реализация и верификация изменений Применение изменений в учебном проекте с повторной проверкой результатов. Рефлексия на тему: что сработало, что нет, и почему.
5. Презентация и коллективное обсуждение Каждая группа защищает свой кейс перед классом, приводит сравнение метрик «до и после», получает вопросы и рекомендации.
6. Геймифицированная обратная связь Балльная система, бейджи, интерактивное ранжирование решений с последующим обсуждением и предложением лучших практик.

Таблица-1

Структура учебного модуля для оптимизации Web-сайта

Этап модуля	Содержание этапа	Цифровые инструменты
1. Ввод в тему	Мини-лекция или видео с кейсом; постановка проблемы и тестирование входных знаний (quiz)	Kahoot!, Google Forms, Loom
2. Диагностика сайта	Работа с инструментами: Google Lighthouse, DevTools, GTmetrix; сбор базовых метрик производительности	Google Lighthouse, PageSpeed Insights, Chrome DevTools
3. Разработка решений	Групповая работа: формулировка гипотез по оптимизации, анализ узких мест, планирование действий	Miro, Discord, Figma (при необходимости)
4. Реализация изменений	Внесение изменений в код или настройки сайта; повторная диагностика и анализ результатов	VS Code, GitHub, Netlify/Vercel
5. Презентация кейса	Защита проекта; сравнение показателей 'до' и 'после'; обсуждение стратегий	Google Slides, Canva, OBS Studio
6. Обратная связь	Геймифицированная оценка; награды, бейджи, обсуждение лучших решений	Mentimeter, Padlet, Google Classroom

Результаты внедрения. В рамках настоящего исследования была разработана, внедрена и апробирована интерактивная методика преподавания темы **«Оптимизация производительности веб-сайта»** для студентов IT-направлений. Метод ориентирован на развитие прикладных навыков в сфере frontend- и full-stack-разработки и построен на основе принципов практико-ориентированного, кейсового и цифрового обучения [5, 2020: с. 74–80].

Метод был реализован в виде учебного модуля, включающего 6 последовательных этапов[6, 2024: с. 65–69]:

- ввод в проблему (на основе цифрового кейса),

• диагностика веб-страниц с использованием профессиональных инструментов (Google Lighthouse, DevTools, GTmetrix),
• формулирование и тестирование гипотез оптимизации,
• реализация предложенных решений,
• презентация и защита кейса,
• обратная связь в формате геймифицированного оценивания.

Учебный процесс включал работу в малых группах, цифровую коллаборацию (Miro, GitHub, Discord), а также автоматизированную оценку результатов по ключевым метрикам производительности (LCP, CLS, FID, TTI и др.).

Метод был внедрён и протестирован в учебной среде Андижанского государственного технического института среди студентов 2–3 курсов направления **«Информационные системы и технологии»** (ИСиТ) [7, 2023: с. 392–396]. Обучающиеся были разделены на контрольную и экспериментальную группы:

Таблица-2

Параметр	Контрольная группа	Экспериментальная группа
Количество студентов	27	30
Форма обучения	Традиционная	Интерактивная (методика)
Средний балл по итогам модуля	75,2	**90,4**
Уровень вовлечённости*	3,1 / 5	**4,6 / 5**

Уровень вовлечённости измерялся по шкале наблюдений (активность, участие в обсуждениях, самостоятельность в выполнении заданий) [8, 2023: с. 48–52].

Качественные и количественные эффекты:

• **Рост когнитивной активности**: 82% студентов экспериментальной группы отметили, что задания модуля были «практически значимыми» и «приближенными к реальной профессиональной деятельности».

• **Улучшение понимания метрик производительности**: до начала модуля только 18% студентов могли объяснить значение показателя CLS; после — 91%.

• **Формирование устойчивых навыков работы с профессиональными инструментами**: студенты научились использовать PageSpeed Insights, Lighthouse, Chrome DevTools для комплексного аудита сайтов.

• **Повышение мотивации к самообучению**: 73% студентов стали изучать дополнительные ресурсы (документация Google, курсы Web.dev, GitHub-репозитории).

Преподаватели отметили сокращение времени на объяснение теоретических основ за счёт самостоятельной исследовательской активности студентов. Методика показала высокую адаптивность: её можно масштабировать на другие темы (например, «Безопасность веб-приложений», «UX-оптимизация», «SEO-анализ») [9, 2023: с. 9–10].

Заключение. Результаты проведённого исследования подтверждают, что внедрение интерактивного метода обучения по теме **«Оптимизация производительности веб-сайта»** является эффективным инструментом формирования ключевых профессиональных компетенций у студентов ИТ-направлений. Предложенный метод обеспечивает интеграцию теоретических знаний и практических навыков, способствует формированию системного мышления, развитию самостоятельности и способности к техническому анализу и проектированию.

Отличительной особенностью разработанного метода является его ориентированность на практико-значимые задания, основанные на реальных кейсах и использовании профессиональных инструментов (Google Lighthouse, Chrome DevTools, GTmetrix, PageSpeed Insights и др.). Это позволяет студентам не только изучать принципы оптимизации веб-приложений, но и непосредственно применять полученные знания в условиях, приближённых к профессиональной среде.

Интерактивная структура модуля, построенная на принципах вовлечённого обучения, цифровой коллаборации и геймифицированной обратной связи, усиливает мотивацию студентов, стимулирует их активное участие в учебном процессе и способствует более глубокому усвоению материала. Многоступенчатость подхода — от постановки проблемы до коллективной защиты и анализа результатов — обеспечивает устойчивость полученных знаний и навыков.

Методика была апробирована в рамках дисциплин, связанных с веб-разработкой и информационными технологиями, и показала высокую эффективность как в когнитивных, так и в поведенческих аспектах обучения. Она также продемонстрировала гибкость и адаптивность: её структура может быть масштабирована на другие тематики в области информационных технологий, включая такие направления, как DevOps-инженерия, backend-разработка, пользовательский интерфейс (UI/UX), производственные веб-платформы и системы электронного обучения [10, 2022: с. 95–96].

Таким образом, интерактивный метод оптимизации веб-сайта может стать основой для построения целостных образовательных траекторий в рамках **модульной, проектной и проблемно-ориентированной модели обучения**, соответствующей требованиям цифровой трансформации образовательного процесса.

Научно-педагогическая значимость предложенного метода заключается в его способности адаптироваться под специфику технических дисциплин, обеспечивать актуальность содержания обучения, а также формировать у студентов цифровые и метапредметные компетенции, востребованные на современном рынке труда.

Список используемой литературы

1. Atajonova S.B. Modernization of training in technical universities, prospects and results in figures// Scientific and technical journal Engineering problems and innovations (EPAI). Vol. 01. | Iss. 01. | 2023
2. Osman A. M., Dafa-Allah A., Elhang, A. A. M. (2017) Proposed security model for web based applications and services. International Conference on Communication, Control, Computing and Electronics Engineering 2017 (ICCCCEE), pp. 1–6
3. Rasulova T.P. (2023). Mathematical modeling of information technologies and processes, teaching methodology, methodology for creation of training projects// SPJ “. Issue 6, volume 3, p 392-396.
4. Rasulova T.P. (2023). The role of the innovative model of educational technologies in the organization of teaching "mathematical modeling of information technologies and processes"//Pedagogs *international research journal,* Volume-47_ Issue-2, p 48-52.
5. Rasulova T.P. (2024) Project-based learning as an innovative approach to developing practical skills and professional competences in students of technical universities// International Journal of Pedagogics, https://doi.org/10.37547/ijp/Volume04Issue10-24
6. Вислобоков Н.Ю. Технологии организации интерактивного процесса обучения / Н.Ю. Вислобоков // Информатика и образование. – 2011. – N 6. – С. 111-114
7. Костина Т.Н. Практика проектного обучения в ИТ-направлениях. — М.: Наука и образование, 2022.
8. Сидорова, Л.В. Интерактивные методы обучения в высшем образовании. Казань, 2019. С. 45-56.
9. Степанова, В.П. Методы активного обучения и их роль в современном образовательном процессе. Новосибирск: Наука, 2020. С. 74-80.
10. Чаплыгин С.Ю. Интерактивные методы обучения в подготовке ИТ-специалистов // Вестник цифрового образования. 2023. №2.

ИССЛЕДОВАНИЕ СТРУКТУРЫ И СОДЕРЖАНИЯ ПРОЕКТНОГО ОБУЧЕНИЯ И РАЗРАБОТКА КРИТЕРИЕВ ОЦЕНКИ ПРОЕКТОВ

Т.П.Расулова
Андижанский государственный технический институт PhD докторант 3-го курса

Annotatsiya. Maqolada loyiha asosidagi ta’limning tuzilishi va mazmuni ko‘rib chiqiladi va talabalar loyihalarini baholash mezonlari ishlab chiqiladi. Loyiha uslubining asosiy tarkibiy qismlari, uning kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi roli va o'quv jarayonining samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida tahlilning ob'ektivligi va to'liqligini ta'minlaydigan loyihani baholashning asosiy parametrlari taklif qilindi.

Аннотация. В статье рассматриваются структура и содержание проектного обучения, а также разрабатываются критерии оценки студенческих проектов. Анализируются ключевые компоненты проектного метода, его роль в развитии профессиональных компетенций и эффективности образовательного процесса. В результате исследования предложены основные параметры оценки проектов, обеспечивающие объективность и полноту анализа.

Abstract. The article examines the structure and content of project-based learning, and develops criteria for assessing student projects. The key components of the project method, its role in developing professional competencies and the effectiveness of the educational process are analyzed. As a result of the study, the main parameters for assessing projects are proposed, ensuring the objectivity and completeness of the analysis.

Kalit so'zlar: loyihaga asoslangan ta'lim, ta'lim loyihalari, loyihani baholash, kompetentsiyaga asoslangan yondashuv, baholash mezonlari.

Ключевые слова: проектное обучение, образовательные проекты, оценка проектов, компетентностный подход, критерии оценки.

Keywords: project-based learning, educational projects, project assessment, competency-based approach, assessment criteria.

Введение. Проектное обучение является одной из эффективных методик активного обучения, способствующей развитию у студентов практических навыков, самостоятельности и креативного мышления. Этот метод широко используется в образовательных учреждениях разного уровня, особенно в технических и гуманитарных дисциплинах. Однако отсутствие единых подходов к оценке проектной деятельности создаёт сложности при определении её результативности. В данной статье проводится анализ структуры и содержания проектного обучения, а также разрабатываются критерии оценки проектов, которые позволят объективно измерять их качество и эффективность. [1, 2020:c.150-156]

Развитие отечественной модели личностно-ориентированного образования сопровождается пересмотром содержания и функций всех составляющих образовательного процесса. Определённые в нормативных документах и образовательных концепциях требования к результатам обучения требуют создания системы оценки уровня развития личностных качеств, а также сформированности метапредметных и предметных компетенций обучающихся. [3, 2023:c.3-6] В настоящее время методы оценки остаются недостаточно изученными. Однако только разработка универсального и открытого каталога критериев оценки образовательной деятельности позволит обеспечить объективность оценочных процедур, целостный контроль освоения ключевых компетенций и поможет обучающимся выстроить эффективную стратегию и тактику организации проектной работы. [5, 2023:c.3-6]

Методы исследования. Перед рассмотрением системы оценивания необходимо определить ключевые признаки проектной деятельности. В психолого-педагогической и методической литературе широко раскрываются требования к организации и реализации проектов. В современных учебниках встречаются задания, обозначаемые как проекты, однако не все из них соответствуют их сути [2, 2021:c.85-89].

С нашей точки зрения, проектной деятельностью можно считать работу, обладающую следующими характерными чертами:

1. Социальная значимость темы и исследуемой проблемы.
2. Целенаправленный научно-исследовательский и поисково-познавательный характер работы обучающихся.
3. Взаимодействие участников, коллективная работа, сочетающаяся с автономностью в планировании, постановке задач, распределении ролей и выборе форм деятельности.
4. Практическая направленность, предполагающая создание конечного продукта как результата совместной деятельности.
5. Публичная презентация интеллектуального продукта [4, 2022:c.32-35].

Исходя из этого, успешная организация проектной деятельности требует выполнения следующих условий: [8, 2014:c.48-53]

- Четкое соблюдение этапов проектной работы и поэтапная реализация задуманного.
- Внутренняя мотивация обучающихся, личностная значимость результатов.

- Социально значимая и корректно сформулированная цель, включающая решение коммуникативных задач.
- Эффективное формирование рабочих групп, распределение индивидуальных и коллективных задач, а также выбор форм представления результатов.
- Грамотная организация преподавателем учебного процесса на всех этапах выполнения проекта.
- Использование адекватных методов контроля, толерантность к возможным ошибкам.
- Соответствие типа проекта его целям и задачам.
- Рефлексия, анализ собственной деятельности и вклада по завершению проекта. [9, 2024:с.4-7]

Соблюдение этих условий способствует эффективному освоению проектной методики и повышению качества образовательного процесса.

Результаты исследования. Оценивание учебной деятельности осложняется многообразием требований, различными фокусами внимания участников и экспертов, а также двусторонним характером оценки, включающим как процессуальный, так и результативный аспекты. Кроме того, данный процесс зависит от условий его реализации, целей и образовательных задач[6, 1938:с.68-75].

Таким образом, оценка учебной деятельности направлена на определение того, насколько выполненная работа и представленные результаты способствуют развитию способностей обучающихся и позволяют судить о сформированности ключевых компетенций.

Ранее нами были сформулированы основные принципы разработки каталога критериев, сопровождающих и регулирующих процесс оценивания проектной деятельности. Среди наиболее значимых выделяются:

- **Принцип критериальной ясности** – предполагает четкое определение содержания и объекта оценки, краткость и однозначность формулировок.
- **Принцип деятельностного подхода** – учитывает многоаспектность учебной деятельности, её этапы и условия выполнения.
- **Принцип сочетания экспертной оценки и самооценки** – подразумевает использование заданных инструментов оценки, развитие навыков саморефлексии и повышение ответственности участников проекта.
- **Принцип коллегиальности** – объединяет точки зрения всех субъектов образовательного процесса, исключая субъективизм и обеспечивая независимость экспертных решений.
- **Принцип индивидуального подхода и уважения к личности** – предполагает учёт индивидуальных особенностей обучающихся, отказ от шаблонности в оценке и признание права на выбор методов и форм работы.
- **Принцип квалифицированной поддержки и сопровождения** – обеспечивает доступ к критериям оценки, консультативную помощь и необходимые ресурсы для эффективной учебной деятельности.
- **Принцип дифференциации** – учитывает уровень подготовки, возрастные особенности учащихся, а также цели и задачи проектной деятельности.
- **Принцип компетентностного подхода** – обеспечивает комплексный анализ, направленный не на отдельные умения, а на формирование и развитие компетенций в целом. [7, 2022:с.15-19]

Анализ данной проблемы и накопленный практический опыт подтверждают, что разработка универсального и открытого каталога критериев оценки проектной деятельности — это сложный, но необходимый процесс. Такой подход позволит обеспечить объективное оценивание, создать прозрачную систему контроля и повысить эффективность проектной работы.

Поскольку проектная деятельность строится по определённому алгоритму, её оценивание также может быть формализовано. В данной матрице представлены ключевые аспекты проектной деятельности, основные параметры, раскрывающие их содержание, а также качественные характеристики выполнения поставленных задач[10, 2023:с.392-396].

Заключение. Проектное обучение является важным инструментом формирования профессиональных компетенций студентов. Исследование структуры и содержания данного метода позволило выделить ключевые этапы проектной деятельности и предложить критерии её оценки. Разработанные показатели помогут преподавателям и экспертам более объективно анализировать

студенческие проекты, повышая качество образовательного процесса. Дальнейшие исследования могут быть направлены на адаптацию этих критериев к различным учебным дисциплинам и уровням образования.

Список литературы

1. Блинов В. И., Дахин А. Н. Проектное обучение в системе профессионального образования. — Москва: Просвещение, 2020.
2. Власова В. К., Смирнова Н. А. Оценка проектной деятельности студентов: методология и практика. — Санкт-Петербург: Питер, 2021.
3. Полат Е. С. Метод проектов в образовательном процессе. — Москва: Академия, 2019.
4. Atajonova S.B. Methodology of teaching general educational disciplines with a professional focus in technical universities// Scientific and technical journal machine building STJ AndMI 25.12.2022 No. 5 Issue 2
5. Atajonova S.B. Modernization of training in technical universities, prospects and results in figures// Scientific and technical journal Engineering problems and innovations (EPAI). Vol. 01. | Iss. 01. | 2023
6. Dewey J. Experience and Education. — New York: Macmillan, 1938.
7. Kasimakhunova A.M., Atajonova S.B., The development of professional training of students as a result of the improvement of new pedagogical technologies and teaching methods// Scientific Bullettin of NamSU 2022 № 7
8. Kolmos A., de Graaff E. Problem-Based and Project-Based Learning in Engineering Education. — Cambridge: Cambridge University Press, 2014.
9. Rasulova T.P. (2024) Project-based learning as an innovative approach to developing practical skills and professional competences in students of technical universities// International Journal of Pedagogics, https://doi.org/10.37547/ijp/Volume04Issue10-24
10. Rasulova T.P. (2023). Mathematical modeling of information technologies and processes, teaching methodology, methodology for creation of training projects// SPJ “ Issue 6, volume 3, p 392-396.

ZADI SMIZ “OQ TISHLAR” ROMANIDA KO’P MADANIYATLI JAMIYATDA SHAXSIYATNING INQIROZI

G.E.Boltayeva
Toshkent shahridagi Vebster Universitetining ta’lim dasturlarini amalga oshirish markazi

Ushbu ishda Zadi Smiz “Oq Tishlar” (2000) romani asosida ko’p madaniyatlilik, migratsiya hamda shaxsiyat inqirozi tahlil qilinadi. Tahlil postkolonial nazariyasi, shuningdek, madaniy shaxsiyat tushunchalariga asoslanadi. Romandagi birinchi avlod (Samad Iqbal) hamda ikkinchi avlod (Majid Iqbal hamda Millat Iqbal) immigrantlari – muhojirlari o’rtasidagi ziddiyatlar va jamiyatga tegishlilik yohud undan chetlanish masalalari o’rganiladi. Tahlil davomida “Oq Tishlar” romanidagi inklyuzivlik – hammaning birdek qabul qilinishi tanqid qilinadi.

Ko’p madaniyatlilik – multikulturalizm jamiyatda turli xil millat vakillarining mavjudligini tan oladigan va ularning jamiyatga qo’shadigan madaniy hissasini qo’llab quvvatlaydigan, ammo ularning o’zaro ijtimoiy hamda madaniy farqlarini inkor etmaydigan hodisadir. Britaniyada mustamlakachilik tugatilganidan so’ng, XX asr oxirida migratsiya kuchayadi va natijada, jamiyatda madaniy almashinuv, ko’p madaniyatlilik yuzaga keladi. Britaniyadagi ko’p madaniyatlilik Hindiston, Pokiston, Bangladesh va Karib dengizi sobiq mustamlakalaridan kelgan immigrantlar-muhojirlar bilan bevosita bog’liq hisoblanadi.

Zadi Smiz “Oq Tishlar” romani postkolonial Britaniyadagi ko’p madaniyatlilikning ijtimoiy, ruhiy, madaniy hamda adabiy ta’sirini o’rganuvchi adabiy asardir. Romanda an’anaviy, milliy qadriyatlar bilan bir qatorda assimilatsiya, ya’ni o’xshashlikka intilish, shuningdek, bir vaqtning o’zida uni inkor qilishni talab qiladigan jamiyat hamda ushbu jamiyatda o’zligini saqlab qolishga urinayotgan oilalarning murakkab, o’ziga xos tasviri berilgan. Jumladan, Bangladeshlik musulmon Iqballar oilasi bunga yorqin misoldir.

Samad Iqbal – Bangladeshlik musulmon immigrant, II jahon urushi faxriysi – birinchi avlod muhojiri hisoblanadi. U o’zida qadr-qimmatning pasayishi, kamsitilishni his qiladi hamda jamiyatdagi o’rni, qadr-qimmati uchun kurashishni, ichki ziddiyatni o’zida aks ettiradi. U o’qimishli hamda urush

faxriysi bo’lishiga qaramay xizmatchi-ofitsiant bo’lib ishlashga majbur bo’ladi va ota-onalar majlisida, o’zini tanishtirganida o’zida ichki sharmadalikni hamda muvaffaqiyatsizlikni his qiladi [Isik. 2018:B.1923]. Samadning o’zligini, o’z milliy qadriyatlarini hamda “haqiqiy” musulmon ekanligini isbotlashga urinishlari, jumladan, bir o’g’li (Majid Iqbal)ni Bangladeshga yuborishi, ikkinchisi (Millat Iqbal)ni saqlab qolib o’z nazorati ostida saqlashga urinishi – uning o’zgaruvchan voqelikdan qochayotganini ko’rsatadi. Bu esa Jon Mcleod [2000:B.211] ta’kidlaganidek, Samad ham boshqa muhojirlar singari ushbu jamiyatga – mamlakatga nafaqat jismoniy, balki ruhiy, ma’naviy hamda madaniy yuk bilan kelganini isbotlaydi. Shuningdek, Samadning diniy qadriyatlarga yopishib olishi, zamonaviy sharoitda o’z madaniyatini saqlab qolishga harakat qilishi shaxsiy-madaniy dilemma, ya’ni madaniyat hamda shaxsiyat jihatidan ikki oraliqda qolganini ko’rsatadi [Isik. 2018:B.1922].

Samadning Britaniyada o’zi bilan qoldirgan o’g’li – Millat Iqbal esa shaxsiyat inqirozi hamda irqchilik oqibatlarini o’zida aks ettiradi. Samad o’z madaniyati, an’analari, madaniy kelib chiqishiga yopishib olgan bo’lsa, Millat Britaniya yoshlar madiyati, G’arb liboslari, musiqasi hamda o’zaro munosabatini o’zlashtirishga intiladi. Ammo, Millat har qancha urinmasin jamiyat tomonidan “begona”, “boshqa” sifatida rad etilishi keyinchlik turli xil ziddiyatlar, noroziliklarga olib keladi. Ushbu holatni Isik Emrah [2018:B.1923] “ikki tomonlama ong” (“double consciousness”), ya’ni ikki avlod muhojirlari madaniyati o’rtasida qolib ketgan ong, deb ataydi. Millatning o’z shaxsiyatidagi muvozanatini yo’qotishi esa Syuart Holl [1993:B.394] ta’kidlaganidek, ummumiy tarixiy meroslar hamda o’zaro almashinuv orqali yuzaga kelgan madaniy kodlar hamda har ikkisining ta’sirida umumiy “bir” shaxsning shakllanishiga olib keladi.

Millatning KEVIN (Abadiy va G’olib Islom xalqi qo’riqchilari) diniy ekstremistik radikal guruhga qo’shilishi undagi shaxsiyatning buzilishi hamda madaniy nazoratga qarshilik ko’rsatishni ifodalaydi [Isik. 2018:B.1924]. Uning “FutureMouse” – Britaniya zamonaviyligi hamda nazoratini ifodalovchi ilmiy loyiha – tadbiridagi terrorchilik harakatiga urinishi nafaqat siyosiy, balki chuqur ramziy ma’noga ham ega. Negaki bu isyon mezbon jamiyatning o’ziga xos standartlari-normalarini obraz tomonidan rad etilayotganini ko’rsatadi. Ammo, Millatning isyonda muvaffaqiyatsizlikka uchrashi uni xuddi otasi kabi jamiyatdan yanada uzoqlashtiradi hamda begonalashtiradi.

Muallif Samad hamda uning o’g’li Millat orqali postkolonial Brititaniyadagi ijtimoiy-madaniy hamda ruhiy to’qnashuvlarni ochib beradi. Roman har ikki avlod orasidagi assimilatsiya-o’xshashlikka urinishga qaramay, shaxsiyat inqirozi, madaniy yo’qotish, madaniy to’qnashuv va chetlanish hodisalarining ro’y berishi muqarrar ekanini hamda inklyuziv – hammaning birdek qabul qilish mumkinligi to’g’risidagi g’oyani inkor etadi. Ushbu tezis Hol, Isik hamda boshqalarning ilmiy-adabiy nazariyasiga tayangan holda ushbu romanda tasvirlangan ko’p madaniyatlilikning silliq kechadigan jarayon emasligini, aksincha uning ziddiyatli, travmatik hamda o’ziga xos qarshilik xususiyatlariga ega ekanini ko’rsatadi.

Zadi Smiz “Oq Tishlar” romani orqali “jamiyatda tenglik”, “jamiyatga teng qo’shilish”, “jamiyatda hammaning birdek qabul qilinishi” g’oyalarini tanqid qiladi hamda qahramonlar “uy” deb ataydigan jamiyatda o’zlarining “boshqa” yohud “begona” sifatida chetlatilinishlarning davom etayishi muqarrar ekanini ko’rsatib beradi.

Adabiyotlar ro’yxati

Holl, Styuart. *“Cultural Identity and Diaspora”. Colonial and Postcolonial Discourse Theory: A Reader. Eds. Patrick Williams and Laura Chrisman. NY: Harvester Wheatsheaf,* 1993, 393-395.

Isik, Emrah. *Lost Charisma: the other(ed) heroes in Zadie Smith’s White Teeth and Elif Shafak's honour.* Ijtimoiy va gumanitar fanlar tadqiqot jurnali, 2018, 1920 – 1926 betlar.

Mcleod, Jon. *Beginning Postcolonialism. (Postkolonializmining boshlanishi).* Manchester, Nyu York: Manchester Universiteti Nashryoti, 2000.

Smiz, Zadi. *Oq Tishlar.* Pingvin kitoblari (Penguin books), 2000.

S.X.Mardov
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti DSc, dotdent

Annotatsiya – Xozirgi kunda qurilish sohalari jadallik bilan rivojlanmoqda. Bu esa o‘z navbatida muhandis-quruvchilarning dizayn fikrlashi, ularning grafik madaniyatini, shuningdek, shaxsning ijodiy salohiyatini shakllantirishga qaratilgan. Bu jabhada ko‘plab samarali ishlar, hususan qurilish chizmchiligi fanini o‘qitishda ham zamonaviy grafik dasturladan foydalanib ta’lim samaradorligiga erishilmoqda. Arxitektura qurilish chizmachiligi fanining mvzularini yoritishda arxitektura sohasiga mo‘ljallangan grafik dasturlardan foydalangan holda bo‘lajak muhandis-quruvchilarning ancha mukammal kadr bo‘lib yetishishida muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli dizayn fiklashning mohiyatini yoritishda grafik dasturlarning amali ahamiyati va ularning tavsiflari alohida o‘rin tutadi.

Kalit so‘zlar – dizayn fikrlash, grafik ta’lim, qurilish chizmachiligi, grafik dastular, grafika, axborot-kommunikatsiya, fazoviy tasavvur, arxitektura, chizma, didaktika, muhandislik grafikasi.

Bizga ma’lumki butun dunyoda go‘zal binolarning qad ko‘tarishi, ularning dizayn yechimida muhandis-quruvchilarning dizayn fikrlashi madaniyatining go‘zallik sohasida yangi bosqichi boshlanishiga turtki bo‘ldi. Dizayn fikrlash bora-bora muhandis-quruvchilarning maxoratini, ularning shaxsiy muloqotning barcha an’anaviy shaklini siqib chiqarib, ommaviyta’lim uchun muhim poydevor yaratdi. Dizayn fikrlash tushunchasining o‘zi dizaynni anglatadi, shuning uchun barcha sohalarda undan samarali foydalanib kelinmoqda. Ma’lumki, bugungi rivojlanayotgan davrda dizayn fikrlash juda kengroq tushuncha bo‘lib, u loyihalash, bizness yuritish yoki har qanday zamonaviy inshoatlar, shaxsiy vazifalarni bunyod etish uchun uchun bir xil darajada qo‘llaniladi. Demak dizayn fikrlashni oliy ta’lim maskanlarida o‘qitiladigan fanlarda, ayniqsa muhandis-quruvchilar uchun muhim hisoblangan grafik ta’lim jarayonida (arxitektura va texnika yo‘nalishidagi oliy ta’lik maskanlari) samarali vosita sifatida foydalanish maqsadga muofiq hisoblanadi.

Jamiyat rivojlanishining zamonaviy bosqichi mutaxassisning ilmiy darajasi va kompetentligiga qo‘yiladigan yangi talablarni taqozo etmoqda. Talabalarga taqdim etilayotgan bilimlar hajmining o‘sishi sharoitida, auditoriya mashg‘ulotlarining qisqartirilishi, o‘quv jarayonini yanada mukammallashtirishga sabab bo‘lmoqda. O‘quv jarayonining samaradorligini oshirish oliy ta’limning asosiy vazifalaridan biri bo‘lib, uni o‘quv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali hal qilish mumkin [2].

Kompyuter grafikasi vositalari o‘qitish metodikasiga yondashuvni tubdan o‘zgartirdi: magnit va elektr maydonlari, kimyoviy reaksiyalar va boshqalar kabi ko‘zga ko‘rinmaydigan jarayon va hodisalarni vizuallashtirish ularni kuzatish va tushunishni yaxshilash imkonini beradi.

Ta’limda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishsamaradorligini P.F.Anisimov, P.M.Bisirkin, A.V.Gololobov, Yu.F.Katxanova, A.M.Leybov, A.V.Sobolova, F.Liarokapislar o‘z tadqiqotlarida ilmiy isbotlashgan.

Kompyuter texnologiyalari o‘quv jarayonidagi mexanik takrorlash uchun zarur bo‘lgan vaqtni qisqartiradi. Masalan, talabalar darsning nazariy bayonlarini yozish o‘rniga, darslikni ma’lumot tashuvchilarga ko‘chirib olishlari mumkin va bu dars vaqtining ma’lum qismini tejashga yordam beradi. Grafik yoki kurs ishlarini, shuningdek, kurs va diplom loyihalarini bajarishda pedagogning yo‘llanma va maslahatlari zarur bo‘ladi. Talabalar tomonidan berilgan savollar yildan-yilga takrorlanadi.Agar ushbu savollar elektron darslikka kiritilsa, yo‘llanma va maslahat berish uchun ajratilgan vaqt qisqartiriladi. Agar test yozma nazorati an’anaviy usulda emas zamonaviy kompyuter vositalaridan foydalanib tashkillashtirilsa, bu pedagog vaqtining yana bir qismini tejash imkonini beradi.

Fikrlash dizayni g‘oyasi birinchi marta 1969-yilda “The Sciences of the Artificial” (“Sun’iylik xaqida fan”) kitobi muallifi Gerbert Simon tomonidan tomonidan shakllantirilgan. Keyinchalik bu g‘oya Stenford universiteti olimlari tomonidan rivojlantirilib, fikrlash dizayni g‘oyasini ilgari suruvchi Stenford dizayn institutiga asos solindi. “Fikrlash dizayn” atamasi turli talqinlarga ega. Interaction Design Foundation (O‘zaro hamkorlik dizayni fondi) tomonidan eng yaxshi ta’rif berilgan: fikrlash dizayni deganda, foydalanuvchining motivatsiyasi va ehtiyojlarini o‘rganish, noto‘g‘ri taxminlarni rad etish va muammoni yangicha yechim topish uchun mo‘ljallangan ko‘p bosqichli jarayon tushuniladi [1]. Fikrlash dizayni (inglizchadan. “design thinking”) - bu foydalanuvchilar manfaatlariga mos keladigan murakkab muammolar yechimlarini topishga yordam beradigan uslub. Ushbu uslub antropotsentrizm tamoyiliga

asoslanadi, unga ko‘ra har qanday tadqiqot va ishning maqsadi korxona, rahbar, loyiha menejerlari va byurokratik tuzilmalar emas, balki shaxsning manfaatlaridir. Dizayn fikrlashning vazifasi mavjud stereotiplar va muammolarni hal qilishning standart usullaridan (“thinking outside the box” – “qutidan tashqarida o‘ylash”) o‘tib ketishdir. Bunday fikrlash uslubi deyarli hamma joyda qo‘llaniladi: sayohatni rejalashtirishda, kvartirani ta’mirlashda, yangi ommaviy axborot vositalarini ochishda, biznesni ochishda, korporativ identifikatori va logotipini ishlab chiqishda. Fikrlash-dizayn — bu dunyo qarash, muammolarni hal qilish metodi. Qandaydir bir g‘oyaga uni butun amalga oshirish yo‘lida hamrohlik qiladigan uzluksiz jarayon: miyaga kelgan fikr, uni test va aprobatsiyadan o‘tkazishdan tortib, to prototiplashda mujassam etish va hayotga tatbiq qilish. Ijodiy yondashuv, bir jamoa bo‘lib ishlash, odamlarga yo‘naltirish, qiziqish va nekbinlik – dizayn-fikrlashning asosiy tarkibiy qismlaridir. Dizayn-fikrlashning asosiy xususiyati shundaki, u tahliliy fikrlashdan farqli o‘laroq tanqidiy bo‘lmagan tahlil, ijodiy jarayon bo‘lib, bunda umuman kutlmagan g‘oyalar muammoning eng yaxshi yechimiga olib keladi. An’anaviy maktab ta’limi modeli axborotni o‘qituvchidan o‘quvchiga berishni ko‘zda tutadi. Bunda o‘quvchi kelajakda juda ko‘p qimmatli bilimlarga ega bo‘ladi, biroq ular haqiqatan ham muhim ijtimoiy muammoni hal etishga yordam bermaydi. Ta’lim muassasalarida o‘quvchilar hal qilish va yaratishni talab qiluvchi amaliy ahamiyatga ega masala ko‘rinishida dars olmaydilar, ularning vazifasi – faqat o‘qituvchidan olingan axborotni qayta takrorlashdan iborat. O‘quvchilarga real hayotiy muammo haqida gapirib bering va ularga, dizaynfikrlash vositalaridan foydalangan holda, uning yechimini topishni taklif qiling. Bu ta’lim darajasini sifat jihatdan yuqoriga ko‘taradi. O‘quvchilar, ular eslab qolishi uchun o‘qituvchi zarur ma’lumotlarni berganida, foydali bilimlarga ega bo‘lmaydi. Ular oxir-oqibatda bu olamni ozgina bo‘lsa ham yaxshiroq qila oladigan oldilarida hal etilishi kerak bo‘lgan muammo paydo bo‘lganidagina o‘rganadilar. Fikrlash-dizayn asoslariga qurilgan fikrlash jarayoni o‘quvchilarni jamiyatdagi odamlarning mahalliy va global muammolarini hal etish maqsadida kreativ va shu bilan birga yashay oladigan g‘oyalarni yaratishga va ularni amalda qo‘llashga tayyor bo‘lgan ijtimoiy faol fuqarolarga aylantiradi. Fikrlash-dizayn bizning ta’lim muassasalarimizda yetishmayotgan novator-talabalarni shakllantiradi. Fikrlash-dizayn metodikasi innovatsiyalarni ijtimoiy muammolarni hal etishga joriy qilishni, g‘oyalarning yashash qobiliyatini testdan o‘tkazishni, ularning potensial maqsadli auditoriyada dolzarbligi va talabga egaligini tekshirishni o‘rgatadi. Dizayn-fikrlashning beshta asosiy tamoyili: empatiya, radikal sheriklik, ideatsiya, prototiplash va iteratsiya. Fikrlash-dizayn ham jamiyatingizdagi odamlar olamini yaxshiroq va qulayroq qilishga yoki sizning potensial foydalanuvchilaringizning muammosini hal etishga yordam beradi. Ularning “ko‘nglini topish uchun” siz o‘zingizni foydalanuvchining o‘rniga qo‘yishingiz, uning pozitsiyasidan turib o‘ylashingiz, olingan natijalarni hisobga olgan holda o‘zingizning texnologik imkoniyatlaringizni joriy etishingiz hamda bunda o‘zingizning biznesmanfaatlaringizni aniq esda tutishingiz zarur. Chunki talabga ega mahsulotni yaratish – bu qo‘lbola vositalardan foydalangan holda uning asosli ekanini bir necha marta tekshirib ko‘rish demakdir [3].

Fikrlash dizaynning beshta asosiy tamoyili mavjud:

- noan’aviy o‘ylab ko‘rish - zerikarli jadvallarga, rasmlarga matnlarga diagrammalar qo‘shish; biznes loyihalarda uchraydigan mavjud muammolarga shablon yechimlarini izlash;
- iste’molchining nafaqat hissiy tajribasiga murojaat qilish, balki mantiq va foyda uchun ham. Masalan, smartfonning birlashtirilgan grafik interfeysini batafsil tasvirlashning hech qanday ma’nosi yo‘q, garchi bu haqiqatan ham qulay bo‘lsa ham. Undan ko‘ra bunday mos va zamonaviy dizayn xaridorning do‘stlarini e’tiborini o‘ziga jalb qiladi va uni har qanday yig‘ilishning yulduziga aylantirishiga urg‘u berish lozim;
- prototiplarni qo‘llash - bu, ayniqsa, ishbilarmonlar uchun innovatsion mahsulotni yaratishda juda muhimdir, prototip o‘zining kuchli va zaif tomonlarini aniq ko‘rsatib beradi;
- aqlli minimalizmga rioya qilish – barcha keraksiz narsalarni olib tashlash va mahsulot eng yaxshisiga aylanishi uchun uni doimiy ravishda takomillashtirib borish;
- xatolarni ijobiy qabul qiling: har qanday xato – bu mahsulot yoki xizmat sifatini oshirish uchun foydali bilimlarning maksimal miqdorini to‘plash tajribasi.

Jahon bozorida mahsulot va taqdim etilayotgan xizmatlarning mavqei va samaradorligi, avvalo, uning raqobatbardoshligi bilan belgilanadi. Bunday vaziyatda mavjud ma’lumotlar tahliliga asoslangan analitik fikrlashni qo‘llash yetarli emas. Innovatsiya uchun ijodkorlik, kreativlik, sintezlash va yangi mahsulot va xizmatlarni yaratish qobiliyati talab etiladi. Ijodiy yondashuv, jamoaviy ish, odamlarga yo‘naltirilganlik, qiziquvchanlik va optimistik ruh - fikrlash dizaynning tarkibiy qismlari, shuningdek, mavjud muammolarni hal qilishda yangi yechimlarni topishda qo‘llaniladigan metodologiya ham

hisoblanadi. Dizayn fikrlashning asosiy xususiyati, analitik fikrlashdan farqli o‘laroq, tanqidiy tahlil emas, balki ba’zan eng kutilmagan g‘oyalar muammoni yaxshiroq hal qilishga olib keladigan ijodiy jarayondir. Fikrlash dizaynining tamoyillari turli sohalarda qo‘llaniladi: bolalikdagi semirishni davolashdan jinoyatchilikning oldini olishgacha, raketa sanoatidan iqlim o‘zgarishiga qadar. Fikrlash dizayni endi yangi moddiy mahsulotlarni yaratish bilan cheklanib qolmay, turli jarayonlar va xizmatlarga, shuningdek o‘zaro ta’sir, aloqa va hamkorlikka taalluqlidir. Sanoat ishlab chiqarishi sharoitida ishlab chiqaruvchilar tovar va mahsulotlar tashqi ko‘rinishining jozibadorligi, xilma-xilligi shuningdek mahsulot ishlatilishidagi sifati va qulayligi kabi jihatlariga alohida e’tibor qarata boshladilar. Natijada nafaqat iste’molchi talablariga javob beradigan jozibador tashqi ko‘rinishga ega mahsulot formasini yarata oladigan balki konstruktorlash masalalari va mashina ishlab chiqarish texnologiyasini yaxshi tushunadigan maxsus mutaxassisga ehtiyoj vujudga keldi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, faqatgina injenerlik-texnikaviy va badiiy masalalar kompleks hal etilsagina raqobatbardosh mahsulot yaratish mumkin. Dunyoning yirik kompaniyalari Healthcare, Procter & Gamble i Philips Electronics, IBM, General Electric, Toyota, Samsung, LG kabilar allaqachon boshqaruv jarayonini tashkil etish vamahsulot ishlab chiqarishda fikrlash dizaynidan samarali foydalanib kelmoqdalar. Fikrlash dizayni - foydalanuvchiga yo‘naltirilgan mahsulot, servis va xizmatlar ishlab chiqishdir. Fikrlash dizayni - doimo birinchi o‘ringa foydalanuvchi so‘rovlarini qo‘yadi va faqat shundan keyingina texnik amalga oshirish imkoniyatlari va iqtisodiy imkoniyatlarga e’tibor qaratiladi [4]. Dizayn bu – muammoni hal qilishdir. Dizayner bu – muammoni hal qiluvchi shaxs. Muammoni hal qilish, samarali yechim topish uchun dastavval tadqiqot o‘tkazish va muammoni aniq belgilab olish, so‘ngra asosiy e’tiborni muayyan “og‘riqlinuqtalar”ga qaratish, g‘oyalar ishlab chiqish va ularning orasida eng yaxshilarini tanlab olish, prototip yaratish va sinovdan o‘tkazish zarur. Fikrlash dizayni – usuli bu bosqichlar qanday o‘tishini, nimalarga e’tibor qaratish lozimligi va har bir bosqichda qaysi vositalardan foydalanishni tavsiflaydi. Fikrlash dizayni uslubi mualliflari Xasso Plattner va Devid Kelli - biznes va boshqaruv amaliyotini an’anaviy muhandislik ta’limi bilan birlashtiradigan dizayn - maktabi asoschilari hisoblanadi. Ular fikrlash – dizaynini o‘ylab topgan deb bo‘lmaydi, chunki mohiyatan fikrlash dizayni – bu sog‘lom fikrdir. Biroq Plattner va Kelli tamoyillarni tushunchaga oid konsepsiyaga joylab, brend yaratdi va amaliyot sifatida rivojlantira boshladi. Ijodiy jarayon bosqichlarini o‘rganib, foydalanuvchini markazga qo‘yib, biznesni ijodiy jarayon sifatida ifodaladi. Ijodkor shaxslar esa biznes vazifalarini yaxshiroq tushuna oladi. Shu o‘rinda mashhur pedagog, yozuvchi Deyl Kornegining bir fikrini keltirib o‘tish maqsadga muvofiq: “Qo‘lingizga limon tushsa undan limonad yasang”. Buning mazmuni aynan bugungi kunda juda dolzarb bo‘lib bormoqda. Fikrlash dizaynining an’anaviy fikrlashdan asosiy farqi tanqidiy tahlil emas, balki jarayonga ijodiy yondashuv bo‘lib, kutilmagan g‘oyalar muammoni yechishning engyaxshi yo‘lini namoyon etishi mumkin.

Qurilish sohasida dizayn fikrlash juda muhim o’rin tutadi. Ayniqsa muhandis-quruvchilarda bu xislat jyda yuqori darajada bo‘lishi lozim. Muhandis-quruvchilarning bu hislatini namoyon qilishda eng muhim vosita bu grafik dasturlardur, chunki ko‘plab dasturlar bir yo‘la ham 2d chizma ham 3d model ko‘rinishlarini chizish mumkin bo‘lgan funksiyalar mavjud. Ayniqsa bu borada BIM dasturlari ichida ba’zi bir shunday dasturlar mavjudki ular aynan qurilish sohasi uchun mo‘ljallangan dastur hisoblanadi. Bular ArchiCAD, Revit, Lira, Grasskoper va boshqalar. Bu dasturlar muhandis-quruvchilar uchun juda qulay hisoblanadi. Bunga quyidagi omillar asos bo‘lib hizmat qiladi [5]:

- grafik dasturi uncha kuchli hisoblanmagan kompyuterlarda ham ishlash imkoniyati mavjudligi;
- dasturining engil ishlashi (2d va 3d chizmalarda ham bir hil ishlaydi) ;
- dasturida bir yo‘la ham 2d o‘lchamli chizma ham 3d ko‘rinish hosil qilinishi;
- Buyruqlar panelidagi buyruqlarning qurilish sohasiga bog‘langanligi;
- Shartli belgilarning parametrlarini oson o‘zgartirish mumkinligi;
- Tayyor 3d modellarni 2d holatda ham o‘zrgartirilish funksiyasining mavjudligi;
- Oddiy va murakkab qirqimlarning avtomatik tarzda bajarilish;
- Standart kutubxonasiga boshqa joydan olingan modellarni oson bog‘lanishi va ularning parametrlarini standart kabi o‘zgartirish imkoniyatining mavjudligi;
- Tayyor bo‘lgan hujjatlarni bitta loyiha albomiga yig‘ilish imkoniyatining mavjudligi;

Qurilish chizmachiligi fani o‘qitiladigan oliy o‘quv yurtlarida fan dasturlariga kompyuter grafikasiga oid mavzularini kiritish va ko‘paytirish orqali fanni yanada amaliy ahamiyatini oshirishni ko‘rish mumkin. Hozirgi kunga kelib fan mutaxassislarini kompyuter savodxonligi hamda grafik dasturlar imkoniyatlaridan foydalanishlari talab etiladi. Ta’lim jarayonlarida kompyuter grafikasidan foydalanish yordamida:

- fazoviy tasavvur rivojlanadi;

- o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari yuqori bo‘ladi;
- xotirada saqlash davomiyligi ortadi;
- ijodiy va mantiqiy fikrlash rivojlanadi;
- yangi loyihalar va ularni yaratish uchun imkoniyatlar ochiladi;
- qurilish chizmachiligiga doir bo‘lgan grafik ishlarni bajarishda talabalarga bir muncha qulayliklar keltiradi va osonlashishiga yordam beradi.

Bizga ma’lumki grafik dasturlar va multimediali elektron darsliklardan foydalanib qurilish chizmachiligi darslarini tashkil etish an’anaviy usullarda dars o‘tishga nisbatan bir necha afzalliklari mavjud. Ular:

- dars sifati ko‘zlangan darajada bo‘ladi;
- fan bo‘yicha berilayotgan ma’lumotlar tushunarli va aniq ko‘rinishda bo‘ladi;
- fanga doir va tushuntirilishi kerak bo‘lgan chizmalar va obyektlar talabalar ko‘z o‘ngida kompyuter grafikasi imkoniyatlari yordamida bajariladi;
- yasalgan binoning 3d modelini olti ko‘rinishda ko‘rish yoki bir yo‘la to‘rtta ko‘rinishda va yaqqol modelini turli tamondan ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi;
- tayyor bo‘lgan obyektda oddiy va murakkab qirqimlar berish va shu qirqimlarni bir yo‘la ko‘rish imkoniyati mavjudligi;
- qisqa vaqt ichida mavzu uchun ajratilgan darsni tushuntirish imkoniyati mavjudligi;
- mavzu bo‘yicha ma’ruzalar, topshiriqlar to‘plamlari, turli darajadagi test savollari, fandagi atamalar uchun glossariyni mavjudligi yordamchi vosita sifatida foydalanish mumkin.

Muhandislik grafikasi fanlarini o‘rganishda grafik dasturlardan foydalanish talabalar ilmiy tadqiqotlarini rivojlantirishga, bo‘lajak muhandis-quruvchilarning nazariy va amaliy bilimlardan foydalanishini kuchaytirishga yordam beradi. Bular hozirgi kunda oliy ta’lim oldida turgan asosiy vazifalardir.

Bugungi kunda qurilush chizmachiligidagi planlarning yoki qurilishga doir bir qator buyumlarning elektron modellarini yaratishga imkon beradigan juda ko‘p turli xil grafik dasturlar mavjud. Bunday modellar yaratish imkonini beruvchi grafik dasturlarni yaratuvchi kompaniyalardan BIM va Autodesk kompaniyalari etakchilikni o‘z qo‘llariga olgan. Muhandislik grafikasi fanlarida bunday buyumlarni modellashtirish, ularni talabalar tomonidan yaxshiroq tushunishlariga yordam beradi va ko‘rgazmalilikni sezilarli darajada oshiradi. Ko‘rgazmalilik ayniqsa qurilish chizmachiligi fani uchun o‘ta muhim bo‘g‘in hisoblanadi.

Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning barchasida hozirga kelib fanlarda integrativ yondashuvni qo‘llash asosiy dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelmoqda, shu sababli o‘qitish jarayonida kompyuter grafikasining o‘rni sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda. Kompyuter grafikasi talabalar va o‘qituvchilar uchun nafaqat o‘rganish manbasi bo‘lishi bilan bir qatorda asosiy o‘quv vositasi ham hisoblanmaoqda. Chunki kopmyuter grafikasi talabalarning grafik tayyorgarligining asosiy quroliga aylanmoqda. Sababi kompyuter grafikasi orqali talabalarning fazoviy tassavuri samarali va tez rivojlanishining asosiy omili sifatida maydonga chiqmoqda. Bularning barchasi oldimizga qo‘ygan asosiy maqsadimiz o‘quv jarayonini jonlashtirish, talabalarga mavzu mohiyatini tezroq va mukammal tushunishlariga turtki bermoqda.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak muhandis-quruvchilarda dizayn fikrlarini jozibali qilib namoyish qilishda grafik ta’limning o‘rni beqiyosdur. Bu borada kompyuter grafikasi qurulish chizmachiligi fanida o‘zlashtiriladigan mavzular mohiyati elektron chizma bajarish uchun o‘rganish ob’yekti sifatida hamda chizma geometriya va chizmachilik fanlarini o‘qitishda vosita sifatida ishtirok etishi mumkin. Bu esa oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilaridan talabalarda nafaqat avtomatlashtirilgan loyihalash tizimida ishlash, balki ushbu dasturiy mahsulotlarning imkoniyatlaridan o‘zlarining kelgusidagi kasbiy faoliyatlarida samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pokrovskaya M. V. Injenernaya grafika: panoramnыy vzglyad (nauchno-pedagogicheskoe issledovanie). – M.: Issledovatelskiy sentr problem kachestva podgotovki spesialistov
2. Guznenkov V.N., Jurbenko P.A. Uchebnыy protsess s ispolzovaniem graficheskix paketov // Teoriya i praktika obщetvennogo razvitiya. 2014. –№ S. 173–175; Demidov S.G. Osobennosti ispolzovaniya informatsionnыx texnologiy pri prepodavanii graficheskix dissiplin // Informatizatsiya injenernogo obrazovaniya: sb. tr. Mejdunar. nauch.-prakt. konf. – M., 2016.
3. Telnoy V.I. Novыe podxodы k izucheniyu dissiplinы

«Injenernaya grafika» s ispolzovaniem sovremennыx informatsionnыx texnologiy //Vestnik MGSU. 2013. – № 8. – S.

4. Smirnov A.V. Teoriya i metodika primeneniya sredstv novыx informatsionnыx texnologiy v obucheniі fiziki. Avtoref diss. ... dokt. ped nauk. –M., 1996.– 36s.

5. Sanjar Khudoykulovich Mardov, & Zilolaxon Xikmat kizi Farxatova. (2022). THE PRACTICAL SIGNIFICANCE OF DESIGN AND ITS TYPES. Euro-Asia Conferences, 54–57. Retrieved from

DIZAYN FIKRLASHNING NAZARIY ASOSLARI VA UNI GRAFIK TA’LIM JARAYONIDA QO‘LLASHNING AMALIY AHAMIYATI

S.X.Mardov
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti DSc, dotsent

Annotatsiya: Hozirgi kunda oliy ta’lim maskanlarida grafik ta’limga alohida e’tibor qaratilmoqda. Grafik ta’lim sohasini ya’nada jozibali qilib ko‘rsatishda dizayn fikrlash muhim omillardan biri ekanligi o‘z isbotini topdi. Xususan arxitektura yo‘nalishi mutaxassislari hisoblanmish muhandis-quruvchilar uchun dizyn fikrlash va uning nazariy jihatlarini mukammal bilib talab etiladi. Chunki ular yaratayotgan va barpo etayotgan loyiha inshoatlari foydalanuvchilar uchun qulay va shinam bo‘lishi talab etiladi. Shuning uchun ham dizayn fikrlash va uning nazariy jihatlari, takibiy tuzilmasini o‘rganishlari talab etiladi.

Kalit so‘zlar: dizayn fikrlash, grafik ta’lim, startap, grafik dastur, standart, innovatsiya, grafika, arxitektura, muhandis, vektorli grafika, loyiha, modeling.

V nastoyaщee vremya osoboe vnimanie udelyaetsya graficheskomu obrazovaniyu v vыsshix uchebnыx zavedeniyax. Dizayn-mыshlenie okazalos odnim iz naibolee vajnыx faktorov, delayuщix graficheskoe obrazovanie bolee privlekatelnым. V chastnosti, dlya injenerov-stroiteley, yavlyayuщixsya spesialistami v oblasti arxitekturы, trebuetsya doskonalnoe ponimanie proektnogo mыshleniya i yego teoreticheskix aspektov. Potomu chto proektnыe ob’ektы, kotorыe oni sozdayut i stroyat, doljnы bыt udobnыmi i komfortnыmi dlya polzovateley. Vot pochemu neobxodimo izuchat dizayn-mыshlenie, yego teoreticheskie aspektы i posleduyuщuyu strukturu.

Klyuchevыe slova: dizayn-mыshlenie, graficheskoe obrazovanie, startap, graficheskaya programma, standart, innovatsiya, grafika, arxitektura, injener, vektornaya grafika, proekt, modelirovanie.

Currently, special attention is paid to graphic education in higher educational institutions. Design thinking has proven to be one of the most important factors in making graphic education more attractive. In particular, structural engineers who are specialists in the field of architecture require a thorough understanding of design thinking and its theoretical aspects. Because the design objects that they create and build must be convenient and comfortable for users. That is why it is necessary to study design thinking, its theoretical aspects and subsequent structure.

Key words: design thinking, graphic education, startup, graphic program, standard, innovation, graphics, architecture, engineer, vector graphics, project, modeling.

Hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan texnika asrida deyarli barcha sohalarni kompyuter va innovatsion texnologiyalar qamrab bormoqda. Bu esa o‘z navbatida sohalarning uzviy aloqada va jozibaliy ishlashga undaydi. Bu o‘zgarishlar grafik ta’lim jarayonini ayniqsa yuqori darajada qamrab olmoqda. Grafik ta’lim jarayoniga ko‘proq murojat qiladigan muhandis-quruvchilarda yaratayotgan inshoatlarni chiroyli va ko‘rkam qilib yaratish juda muhim hisoblanadi. Muhandis-quruvchilar o‘z maxsulotlarini jozibali qilib yaratish uchun albatta ulardan yuqori darajadagi dizayn fikrlash talab etiladi. Dizayn fikrlash grafik ta’lim jarayonida juda muhim bo‘g‘in hisoblanadi. Dizayn fiklashsiz buyuk asarlar va ko‘rkam inshoatlar ham yaratilmas edi.

Dizayn fikrlash tushunchasining o‘zi dizaynni anglatadi, shuning uchun barcha sohalarda undan samarali foydalanib kelinmoqda. Ma’lumki, bugungi rivojlanayotgan davrda dizayn fikrlash juda kengroq tushuncha bo‘lib, u loyihalash, bizness yuritish yoki har qanday zamonaviy inshoatlar, shaxsiy vazifalarni bunyod etish uchun uchun bir xil darajada qo‘llaniladi. Demak dizayn fikrlashni oliy ta’lim maskanlarida o‘qitiladigan fanlarda, ayniqsa muhandis-quruvchilar uchun muhim hisoblangan grafik ta’lim jarayonida (arxitektura va texnika yo‘nalishidagi oliy ta’lik maskanlari) samarali vosita sifatida foydalanish maqsadga muofiq hisoblanadi.

Dizayn fikrlash (*ingliz tilidan design-thinking*) - bu nostandart muammolarni bartaraf qilishda nozik yechimni o‘z ichiga olgan mahsulotni ishlab chiqishda foydalanuvchiga yo‘naltirilgan yondashuv. Bir so‘z bilan aytgandahar-qanday sharoitda chiroyli yechim orqali hal qilish degani.

Yuqorida keltirilgan fikrda birinchi o‘rinda foydalanuvchi so‘rovi, hal qilinish kerak bo‘lgan vazifani texnik amalga oshirish imkoniyatlari, iqtisodiy imkoniyatlar bu o‘rinda ikkinchi darajali vazifaga aylanadi. Sababi hal bo‘linayotgan vazifada aosiy urg‘u uni nafislik bilan hal qilishga qaratilgan bo‘ladi. Dizayn fikrlash buyurtmachi talabida kelib chiqqan hold ava to‘g‘ri yondashuv asosida, muammolarni aniqlashga va bartaraf etishga dizayn fikrlash orqali yondashuv, xatti-harakatlar va xatti-harakatlarning shaxsiy tuzilmalariga qatiy e'tibor berishni o‘z ichiga oladi. Muhandis-quruvchilar tamonidan yondashuv doimo erkin ijodiy, ammo ayni paytda sog‘lom fikrga asoslanib, muammoni qayta ko‘rib chiqishni o‘z ichiga oladi.

Dizayn fikrlash tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, dizayn fikrlash g‘oyasi birinchi marta Gerbert Saymon tomonidan 1969-yilda o‘zining "Suniy fan" kitobida shakllantirilgan. Keyinchalik bu g‘oya Stenford universitetida ishlab chiqilgan bo‘lib, u yerda ushbu g‘oyalar asosida “Stenford Dizayn” instituti tashkil etilgan, bu ta’lim maskani asosan dizayn fikrlash g‘oyalarini ilgari suradi.

Адаптация учебных планов	Необходимо регулярно пересматривать содержание образовательных программ с учетом современных требований.
Укрепление связей с промышленностью	Сотрудничество с предприятиями для организации стажировок и практик
Развитие междисциплинарных курсов	Создание программ, которые объединяют знания из различных областей науки и техники.

Таким образом, анализ современных образовательных стандартов показывает необходимость постоянного обновления и адаптации к требованиям времени для успешной подготовки квалифицированных инженеров

Заключение

Современные образовательные стандарты в области инженерного образования направлены на подготовку специалистов, способных успешно работать в условиях динамично меняющегося мира. Компетентностный подход, интеграция теории и практики, а также междисциплинарность становятся ключевыми аспектами подготовки инженеров. Изучение международного опыта позволяет выявить лучшие практики и адаптировать их к условиям отечественного образования.

Список литературы

10. Бондаревская, Е.В. Парадигма как методологический регулятив педагогической науки и инновационной практики / Е.В. Бондаревская // Педагогика. 2007. № 6.
11. Репьев Ю.Г. Интерактивное самообучение: Монография. - М: Логос, 2004. - 248 с.
12. Вишняков Ю.М., Родзин С.И. Проблемы интеграции интеллектуальных обучающих сред в виртуальные образовательные структуры// Новости искусственного интеллекта. - №3, 2000.
13. Репьев Ю.Г. Инвариантная дидактическая система интерактивного самообучения в инженерном образовании//Высшее образование сегодня. - 2003. - №11. - С.10-22.
14. Л.Г. Смышляева, Л.А. Сивицкая, Н.А. Качалов. Активные образовательные технологии как условие реализации компетентностного подхода в высшей школе \ Известия Томского политехнического университета. 2006. Т. 309. № 5 с.235-240.
15. Месяц Г.А., Похолков Ю.П. Российское инженерное образование: проблемы и пути трансформации // Инженерное образование. - 2003. - Вып. 1. - С. 5-10.
16. Vishnyakov Y.M. Rodzin S.I., Zur A. Design of Integrate Intelligent System for Distant Tutoring// Электронный Интернет-журнал «Перспективные информационные технологии и интеллектуальные системы», №2, 2000. - http://www.pitis.tsure.ru/.
17. Atajonova S.B. Methodology of teaching general educational disciplines with a professional focus in technical universities// Scientific and technical journal machine building STJ AndMI 25.12.2022 No. 5 Issue 2
18. Atajonova S.B. Modernization of training in technical universities, prospects and results in figures// Scientific and technical journal Engineering problems and innovations (EPAI). Vol. 01. | Iss. 01. | 2023
10. Kasimakhunova A.M., Atajonova S.B., The development of professional training of students as a result of the improvement of new pedagogical technologies and teaching methods// Scientific Bullettin of NamSU 2022 № 7

INKLYUZIV TA’LIMDA O‘QITUVCHILARNING PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Z.A.Irisqulova
Samarqand viloyati Nurobod tumani 17-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada inklyuziv ta’lim tizimida o‘qituvchilarning psixologik tayyorgarligi muammolari va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi. XXI asrda ta’limda barqaror taraqqiyot va ijtimoiy adolatga erishish uchun imkoniyati cheklangan bolalarni umumiy ta’lim muhitiga integratsiya qilish dolzarb masalaga aylangan. Tadqiqot davomida o‘qituvchilarning inklyuziv ta’limga nisbatan psixologik qarashlari, tayyorgarlik darajalari, mavjud muammolar va ilg‘or xorijiy tajribalar asosida shakllantirilgan yechimlar o‘rganildi. Maqola metodologik jihatdan tahlil, solishtirma va empirik yondashuvlarga asoslangan. Tahlil natijalari o‘qituvchilarning psixologik kompetensiyasini rivojlantirish, malaka oshirish kurslarini takomillashtirish, ijtimoiy-psixologik yordam tizimini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, psixologik tayyorgarlik, o‘qituvchi kompetensiyasi, maxsus ehtiyojli bolalar, ta’lim strategiyasi, malaka oshirish, ijtimoiy inklyuziya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются проблемы психологической готовности учителей в системе инклюзивного образования и пути их решения. В XXI веке интеграция детей с ограниченными возможностями в общую образовательную среду стала актуальной задачей для достижения устойчивого развития и социальной справедливости в сфере образования. В ходе исследования были изучены психологические установки учителей к инклюзивному обучению,

уровень их подготовки, существующие проблемы и решения, основанные на передовом международном опыте. Методологически статья опирается на аналитический, сравнительный и эмпирический подходы. Результаты анализа подчеркивают необходимость развития психологических компетенций учителей, совершенствования курсов повышения квалификации и усиления системы социально-психологической поддержки.

Ключевые слова: инклюзивное образование, психологическая готовность, компетентность учителя, дети с особыми потребностями, образовательная стратегия, повышение квалификации, социальная инклюзия

Abstract: This article analyzes the psychological readiness of teachers in the inclusive education system and explores solutions to existing challenges. In the 21st century, integrating children with disabilities into mainstream educational environments has become a pressing issue to ensure sustainable development and social equity in education. The study examines teachers’ psychological attitudes toward inclusive education, their preparedness levels, current problems, and proposed solutions based on advanced international practices. Methodologically, the paper employs analytical, comparative, and empirical approaches. The findings emphasize the necessity of enhancing teachers' psychological competencies, improving professional development programs, and strengthening social-psychological support systems.

Keywords: inclusive education, psychological readiness, teacher competence, children with special needs, education strategy, professional development, social inclusion.

XXI asrda globallashuv va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Bu jarayon barcha o‘quvchilarga, ayniqsa, imkoniyati cheklangan bolalarga sifatli va teng huquqli ta’lim olish imkonini ta’minlashni zamon talabi sifatida ilgari surilmoqda. Inklyuziv ta’lim konsepsiyasi — barcha o‘quvchilar, jumladan nogironligi bo‘lgan yoki maxsus ehtiyojlarga ega bolalar uchun umumiy ta’lim tizimida o‘qish va rivojlanish imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan demokratik va insonparvar yondashuv sifatida maydonga chiqmoqda [1].

Respublikamizda inklyuziv ta’limni joriy etish va rivojlantirish bo‘yicha huquqiy-me’yoriy baza yaratilib, tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2020-yilda qabul qilingan “Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari to‘g‘risida”gi Qonun, Prezident qarorlari hamda Xalq ta’limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan normativ hujjatlar — inklyuziv ta’limga nisbatan davlat siyosatining ustuvor yo‘nalish sifatida qaralayotganini anglatadi [2] [3].

Biroq, inklyuziv ta’lim jarayonida pedagoglarning roli beqiyos bo‘lib, ularning nafaqat kasbiy, balki psixologik tayyorgarligi ham mazkur tizimning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ilmiy manbalarda ko‘rsatilishicha, o‘qituvchilarning inklyuziv muhitga tayyor emasligi, psixologik chidamlilikning yetishmasligi, nogironligi bo‘lgan bolalarga nisbatan stereotipik qarashlar, ularni qo‘llab-quvvatlashda bilim va ko‘nikmalarning pastligi mavjud muammolar sirasiga kiradi.

Shunday ekan, ushbu maqolada inklyuziv ta’lim tizimida o‘qituvchilarning psixologik tayyorgarligi muammolari chuqur tahlil qilinadi, mavjud holat bo‘yicha tahlillar o‘tkazilib, ilg‘or xorijiy tajribalar asosida tavsiyalar ilgari suriladi. Maqolaning asosiy maqsadi — inklyuziv muhitda ta’lim beruvchi pedagoglar uchun zarur psixologik tayyorgarlik komponentlarini aniqlash hamda uni rivojlantirishga doir takliflar ishlab chiqishdan iboratdir.

Inklyuziv ta’lim nazariyasi va amaliyoti pedagogika, psixologiya hamda ijtimoiy ish sohalarining kesishgan nuqtasida joylashgan bo‘lib, bu yondashuvning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan o‘qituvchining tayyorgarligiga bog‘liqdir. Booth va Ainscow (2002) tomonidan ishlab chiqilgan Inklyuziv indeks modeli inklyuzivlikni tashkil etuvchi omillar, jumladan, ta’lim muassasasining madaniyati, siyosati va amaliyotini baholashga xizmat qiladi. Unga ko‘ra, o‘qituvchining psixologik tayyorgarligi inklyuziv ta’limdagi asosiy komponentlardan biridir.

Avstraliya, Buyuk Britaniya va Skandinaviya davlatlari tajribasi o‘qituvchilarni inklyuziv ta’limga tayyorlashda maxsus psixologik tayyorgarlik kurslarining, reflektiv amaliyot va doimiy kasbiy rivojlanish dasturlarining muhimligini ko‘rsatmoqda. Psixologik tayyorgarlik — bu faqat stressga bardoshlilikni emas, balki empatiya, moslashuvchanlik, kommunikatsion qobiliyatlar, konfliktni boshqarish va o‘z-o‘zini tahlil qilish ko‘nikmalarini ham o‘z ichiga oladi.

Bugunga kunga qadar olib borilgan tadqiqot natijalariga nazar solsak, tadqiqot quyidagi natijalarni ko‘rsatdi: (tadqiqot so‘rovnomalarga asoslanib olindi)

Bilim va xabardorlik yetishmovchiligi: So‘rovda ishtirok etgan o‘qituvchilarning katta qismi (taxminan uchdan ikki qismi) inklyuziv ta’limning mohiyati haqida umumiy tasavvurga ega bo‘lsa-da, faqatgina kichik bir qismi (to‘rt kishidan biri atrofida) o‘zini bu borada yetarli tayyor deb hisoblaydi.

Psixologik tayyorgarlik pastligi: O‘qituvchilarning yarmidan ko‘pi nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlashda o‘zini psixologik jihatdan noqulay his qilishini bildirgan. Ular orasida stress, xavotir va noaniqlik holatlari tez-tez kuzatiladi.

Professional yordam ehtiyoji: So‘rov qatnashchilarining mutlaq ko‘pchiligi (deyarli besh kishidan to‘rt nafari) inklyuziv ta’lim bo‘yicha psixologik treninglar va maslahatlar zarurligini ta’kidlagan.

Ijobiy motivatsiya: Biroq, o‘qituvchilarning anchagina qismi (uch kishidan ikkitasi atrofida) inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlashini bildirgan, bu esa ular bilan to‘g‘ri ishlash orqali yuqori samara olish mumkinligini ko‘rsatadi.

Natijalar shuni anglatadiki, inklyuziv ta’limni muvaffaqiyatli joriy etish uchun o‘qituvchilarning psixologik tayyorgarligini oshirishga qaratilgan tizimli va bosqichma-bosqich yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda malaka oshirish kurslari, amaliy seminarlar va doimiy psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimlarini joriy etish zarur.

Inklyuziv ta’limni samarali tashkil etishda o‘qituvchilarning psixologik tayyorgarligi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, mavjud bilim va tayyorgarlik darajasi bu yo‘nalishda yetarli emas. Shu sababli quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:



Rasm-1. Inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlash uchun strategiyalar

Inklyuziv ta’limni samarali tashkil etishda o‘qituvchilarning psixologik tayyorgarligi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Chunki ta’lim tizimida har bir bola – o‘ziga xos shaxs bo‘lib, uning ehtiyojlari, rivojlanish sur’atlari va psixologik xususiyatlari turlicha. Nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlash esa o‘qituvchidan nafaqat metodik bilim, balki kuchli psixologik barqarorlik, empatiya va moslashuvchan yondashuvni talab etadi. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari o‘qituvchilarning aksariyati inklyuziv ta’limning umumiy mohiyatini bilsada, bu sohada amaliy jihatdan o‘zini yetarli tayyor deb hisoblamasligini ko‘rsatmoqda. Bu esa muammoning ildizida bilimdan ko‘ra psixologik omillar ustunligini anglatadi. Shu munosabat bilan, inklyuziv ta’limda o‘qituvchilarning psixologik tayyorgarligini oshirishga qaratilgan quyidagi tizimli choralarni amalga oshirish muhimdir.

Birinchidan, pedagoglar uchun doimiy psixologik treninglar va psixologlar bilan ishlash mexanizmlarini joriy etish zarur. Bunday treninglar o‘qituvchilarning ruhiy holatini mustahkamlash, stressni yengish, o‘zini anglash va kasbiy charchashning oldini olishda muhim vositadir. Shuningdek, malakali psixolog bilan muntazam ishlash ularga qiyin pedagogik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, hissiy barqarorlikni saqlash va o‘z ustida ishlash imkonini beradi.

Ikkinchidan, o‘qituvchilarni emotsional intellekt, empatiya, va stressga qarshi kurashish bo‘yicha tayyorlov dasturlariga jalb etish lozim. Emotsional intellekt – bu o‘z his-tuyg‘ularini va boshqalar hislarini tushunish, boshqarish, to‘g‘ri yo‘naltirish qobiliyatidir. Empatiya esa – boshqalarning holatini qalban his eta olishdir. Ushbu ko‘nikmalar inklyuziv muhitda pedagogik aloqalarni samarali olib borishda asosiy omil hisoblanadi. Stressga qarshi kurashish texnikalari orqali esa o‘qituvchi o‘zining psixologik farovonligini saqlab, salbiy omillarning ta’siriga kamroq uchraydi.

Uchinchidan, ta’lim muassasalarida inklyuziv muhitni qo‘llab-quvvatlaydigan maslahat markazlarini tashkil etish tavsiya etiladi. Bunday markazlar o‘qituvchilarga tezkor maslahatlar, psixologik yordam, zarur

metodik tavsiyalar berib boruvchi platforma bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, bu markazlar ota-onalar, psixologlar va boshqa mutaxassislar bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yishda vositachi bo‘la oladi.

To‘rtinchidan, pedagogika universitetlari va malaka oshirish markazlarida psixologik tayyorgarlik komponentini mustahkamlash maqsadga muvofiqdir. Hozirgi mavjud o‘quv dasturlarida inklyuziv ta’lim psixologiyasi va maxsus pedagogika bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar va treninglar yetarli darajada o‘rin olmagan. Shuning uchun pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida bu jihatlarni chuqur va tizimli qamrab olish talab etiladi. Bu esa kelajakda ta’lim muassasalariga psixologik jihatdan tayyor, kasbiy stressga bardoshli, inklyuziv qadriyatlarni anglaydigan o‘qituvchilarni yetishtirishga xizmat qiladi.

Va nihoyat, yuqoridagi choralarning samaradorligini oshirish uchun xorijiy ilg‘or tajriba va modellar asosida O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilgan metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish dolzarb vazifadir. Jumladan, Finlyandiya, Kanada, Yaponiya va Italiya kabi mamlakatlarda inklyuziv ta’limdagi psixologik yondashuvlar, o‘qituvchini qo‘llab-quvvatlash tizimlari, multidisiplinar yondashuvlar allaqachon o‘z samarasini bergan. Ushbu tajribalarning moslashtirilgan variantlarini yaratish orqali o‘zbek maktablarida ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlashning milliy modeli shakllantirilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta’limni muvaffaqiyatli joriy etishda o‘qituvchilarning psixologik tayyorgarligi beqiyos ahamiyatga ega. Bu tayyorgarlikni mustahkamlash esa nafaqat o‘qituvchining kasbiy muvaffaqiyati, balki har bir o‘quvchining inklyuziv muhitda to‘laqonli rivojlanishining kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. UNESCO. (2020). *Inclusive education: A renewed vision for success*. Paris: UNESCO Publishing.
https://unesdoc.unesco.org

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 11 maydagi PQ–
5117-son qarori. “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning hayot sifati yaxshilanishiga qaratilgan chora- tadbirlar to‘g‘risida” https://lex.uz/docs/-5049511

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-noyabrdagi PQ–4860-son qarori. *2020–2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida*. Lex.uz

4. Salohiddinov, M. (2022). O‘qituvchilarning inklyuziv ta’limga tayyorgarligi: psixologik jihatlar. *Ta’lim va fan yangiliklari*, 4(12), 45–50.

5. Rees, J., Farrell, C., & Hughes, S. (2019). *Inclusive Education and the Role of Teachers: A European Perspective*. London: Routledge.

6. Norqulova, G. (2023). Inklyuziv ta’lim sharoitida pedagoglarning malakasini oshirish muammolari. *Pedagogika va Psixologiya Ilmi*, 1(3), 21–27.

САМАРҚАНД ВИЛОЯТИДА ТУМАНЛАР КЕСИМИДА СУРУНКАЛИ ВИРУСЛИ ГЕПАТИТ С НИНГ КЛИНИК ВА ЛАБАРАТОР ТАВСИФИ

Р.Н.Раҳмонов
Самарқанд Давлат Тиббиёт Университети Юқумли касалликлар ва эпедемиология кафедраси магистр резиденти

Абстраст Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти (ЖССТ)нинг малумотларига кўра: Европа минтақасида тахминан 12 миллион киши сурункали вирусли гепатит С вируси билан яшамоқда.Ўзбекистон Ўрта Осиё минтақасида энг юқори ҲСВ тарқалиш даражасига эга. 2022-йил май ойида э'лон қилинган президент фармонига биноан, Ўзбекистонда вирусли гепатитни вирусли гепатитларни йўқ қилиш дастури қабул қилинди ва керакли маблағлар ажратилди.Ушбу дастур доирасида 2022–2025-йиллар давомида ҳар йили 500 000 кишини вирусли гепатитларгага текшириш кўзда тутилган бўлиб, бу стратегия бепул тестлар ва арзон даволаш воситаларини тақдим этиш кўзда тутилган.Шу сабабдан Сурункали вирусли гепатит С ни клиник ва лабаратор тавсифини чуқурроқ ўрганиш ва вирусли гепатитга оид текширишларнинг олдидаги мавжуд тўсиқлар ва имкониятларни ўрганиш ушбу ташаббусларни самарали амалга ошириш учун муҳим аҳамиятга эга.

Калит сўзлар : ЖССТ, ҲСВ, ҲБВ, УҲЕП,ИФА,ПСР,Елостаметрия, жигар сиррози, гепатоселлуляр карсинома.

Кириш :Вирусли гепатитлар глобал соғлиқни сақлаш учун жиддий хавф туғдиради. Хусусан, С гепатити вируси (ҲСВ) сурункали ҳолатларга олиб келиши ва улар жигар сиррози, жигар саратони сабаб бўлади бу эса вирусли гепатит билан боғлиқ ўлимларнинг энг кенг тарқалган сабаби ҳисобланади [1,2,3,4,9,10,11,]. Бугунги кунда сурункали вирусли гепатит С дунё бўйича жуда кенг тарқалган касаллик бўлиб ,кўплаб одамларнинг ўлимига сабабчи бўлмоқда. ЖССТ малумотларига кўра: Дунё бўйлаб 50 миллион одам сурункали С гепатити билан касалланган.Ҳар йили тахминан 1 миллион янги ҳолат аниқланади.2022-йилда 242 000 ўлим С гепатити туфайли, асосан, жигар сиррози ва гепатоселлуляр карсиномадан келиб чиққади [5,6,7,12,13,14,15]. Марказий Осиёда С гепатити (ҲСВ) тарқалиши бўйича ўтказилган тизимли таҳлил ва мета-таҳлил [6] Ўзбекистонда ҲСВ тарқалиши 9,6% эканлигини тахмин қилган. 2016-йилда Ўзбекистонда тахминан 1,3 миллион одам С гепатити (ҲСВ) билан яшаётганлиги аниқланган [5]. Кейинчалик, ЖССТ сурункали вирусли гепатитларга қарши соғлиқни сақлаш секторининг жавоб стратегиясини ишлаб чиқиб, ҲСВ бўйича маълум мамлакат мақсадларини белгилади, улар 2030-йил мақсадларига эришиш учун бажарилиши лозим [8]. ЖССТнинг Европа минтақасидаги мамлакатлар, жумладан Ўзбекистон, ВГни бартараф этиш бўйича тегишли миллий стратегиялар ва ҳаракат режалари ишлаб чиқишга мажбурият олган [8].


Сурункали вирусли гепатит С ни ўрганиш нафақат бутун дунёда ва шу жумладан Самарқанд вилояти бўйича ўрганиш долзарб бўлганлиги учун биз ушбу мақолада Самарқанд вилояти Оқдарё ва Жомбой туманлари кесимида Сурункали вирусли гепатит С ни клиник ва лабаратор тавсифини ўргандик.Ушбу мақолада ушбу тадқиқот ишимиз ёритилган.

Тадқиқот мақсади: Самарқанд вилояти Оқдарё ва Жомбой туманларида сурункали вирусли гепатитлар тарқалишини клиник ва лабаратор тахлил қилиш.


Тадқиқот усуллари ва материаллари :2019–2023-йиллар давомида доимий яшаш жойи Оқдарё ва Жомбой тумани бўлган сурункали вирусли гепатит ташхиси қўйилган Самарқанд вилоят юқумли касалликлар клиник шифохонасининг гепатология бўлимига амбулатор шароитда мурожаат қилган 105 нафар бемор, кузатувга олинди. Тадқиқот қуйидаги лаборатор ва клиник усуллар асосида олиб борилди. Умумий қон таҳлили, қонни биокимёвий таҳлили, С гепатит вирусларига хос антиген ва антителаларни ИФА (иммунофермент таҳлил) усули орқали аниқлаш. Шунингдек, вируснинг мавжудлигини тасдиқлаш учун ПСР усули қўлланди Полимераза занжир реакцияси (ПСР) – вируснинг мавжудлигини тасдиқлаш ва вирус юкламасини тадқиқ қилиш учун Метавир шкаласи дан учун. Эластометрия (фиброскан) – жигар фиброзининг даражасини баҳолаш.Сўровнома – беморлар ва уларнинг яқин қариндошлари билан суҳбат ўтказилиб, касалликнинг этиологик омиллари аниқлаш ва клиник симтомларни тахлил қилиш.Статистик таҳлилда – қиёслаш ва математик моделлаштириш усуллари ёрдамида олинган натижалар таҳлил қилинади.

Таҳлил ва натижалар : Тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, 2019–2023-йиллар давомида Самарқанд вилоят юқумли касалликлар клиник шифохонасининг гепатология бўлимига мурожаат қилган ва Оқдарё ҳамда Жомбой туманларида доимий яшовчи 105 нафар беморда сурункали вирусли гепатит С аниқланган. Ушбу туманлардан мурожаат қилган беморларда сўраб суриштириш усули натижасида қуйидаги шикоятлар ва клиник симптомлар аниқланди: Шикоятлари : умумий ҳолсизлик ва тез чарчаш (90%), ўнг қовурға остида оғриқ ва оғирлик ҳисси (40%). Обйектив кўрик маълумотлари шуни кўрсатдики, беморларнинг териси ва шиллиқ пардаларида сариқлик аломатлари қайд этилмаган, бироқ (19%) ҳолатда склера сариқлиги кузатилди. Жигар палпатсия қилинганда 6% беморларда жигар катталашгани аниқланди, Сийдик ажралиши ва дефекатсия акти нормада. Лабаратор-инструментал текшириш натижалари буйича ўзгаришлар жинс ва ёш категорияси бўйича қуйидаги натижаларни кўрсатди.Умумий қон тахлилида ёш ошган сари беморларда 1 даражали анимия аниқланди.Қон биокимоёвий тахлилида жигар ферментлари ва билирубин даражаси активлик даражасига мослиги аниқланди.

Жами 105 нафар беморларни Амбулатор карталари ва касаллик тарихи ўрганилганда Паст активлик даражасидаги беморлар 40 та , ўрта активлик даражаси 57 та , юқори активлик даражаси 6 нафар бемор борлиги аниқланди. Ушбу беморларни яна 3 хил ёш категориялари бўйича яъни (18-44, 45-59, 60-74) ва жинс кесимида бўлиб ўрганилди. Ёш кесимида бўлиб ўрганилганда 18-44 ёшдаги беморлар 38 нафар (36%), 45-59 ёш оралиғидаги беморлар 33 нафар (31%), 60-74 ёшдаги беморлар эса 34 нафарни (33%) ташкил қилди.(**1 расм).**



Жинс кесимида бўлиб чиқилганда 105 нафар беморнинг аёллар 69 нафарни (66 %),еркаклар эса 36 нафарни (34 %) ташкил қилди.(**2-расм**)



Метавир шкаласи асосида Фиброссан натижалари ёш (18-44, 45-59, 60-74) ва жинс кесимида ўрганилди. Қуйида натижалар олинди. Фиброзсиз беморлар (Ф0 - <6.2 кПа). Энг кўп Ф0 даражадаги беморлар 18-44 ёш ва 45-59 ёшдаги аёлларда 30% учради. 60-74 ёш оралиғидаги аёллар эса 20% ташкил қилди.Еркаклар орасида ҳар бир ёш гуруҳида Ф0 даражаси 6% ва 7% ни кўрсатди. Минимал ўзгаришлар (Ф1 - 6.2-8.3 кПа) . 18-44 ёшдаги эркаклар орасида Ф1 кўрсаткичи ушбу кўрсаткич доирасидаги беморларнинг 20% ташкил қилди. 45-59 ёшдаги эркаклар орасида 18% беморда минимал ўзгариш кузатилди. Аёллар орасида Ф1 даражаси барча ёш гуруҳларида деярли бир хил сақланмокда (13%-20%), Ўртача ўзгаришлар (Ф2 - 8.3-10.8 кПа) **.** Ф2 даражаси аёлларда (18-44 ёш – 33,3%, 60-74 ёш – 28%) эркакларда эса (17% ва 5,5 %)ни кўрсатди. Юқори даражадаги ўзгаришлар (Ф3 - 10.8-14 кПа). Ф3 даражаси 60-74 ёшдаги аёлларда юқори 50% 18-44 ва 45-59 ёш оралиғида Ф3 даражаси деярли учрамаган. Эркакларда фақат иккита ҳолатда (18-44 ва 60-74 ёш) Ф3 кузатилган.

1-Жадвал. Метавир шкаласи бўйича ёш ва гуруҳларида беморлар тақсимоти:

Ёш Гуруҳи	Жинси	Ф0 (Фиброз йўқ)	Ф1 (6.2-8.3 кПа, Минимал)	Ф2 (8.3-10.8 кПа, Ўртача)	Ф3 (10.8-14 кПа, Юқори)
18-44	Аёл	12	6	6	0
	Еркак	2	8	1	1
45-59	Аёл	12	5	2	1
	Еркак	3	7	3	0
60-74	Аёл	8	8	5	3
	Еркак	3	5	1	1

ПСР натижалари бўйича касалларни ёш гуруҳларига ва жинсга булганимизда қуйидаги натижалар олинди.

2-жавдал.ПСР натижалари жинс ва ёш кесимида.

Ёш Гуруҳи	**Жинси**	Вирус репликатсияси йўқ **(≤ 2000 МЕ/мл)**	Вирус репликатсияси **паст (2000МЕ/мл – 20000 МЕ/мл)**	Вирус репликатсияси **юқори (> 20000МЕ/мл)**	**Жами**
18 – 44	**Аёл**	6	3	15	24
	Еркак	2	3	8	13
45 – 59	**Аёл**	7	1	12	20
	Еркак	3	0	10	13
60 – 74	**Аёл**	3	2	19	24
	Еркак	1	2	7	10
Жами		**22**	**12**	**71**	**105**

Вирус Репликатсияси Бўйича Таҳлил.

Таҳлил қилинган 105 нафар беморнинг ПСР-Б натижаларига кўра, улар вирус репликатсия даражаси бўйича қуйидагича тақсимланди: 22 нафар беморда вирус репликатсияси аниқланмади (≤2000 МЕ/мл). 12 нафар беморда вирус репликатсияси паст даражада (2000 МЕ – 20000 МЕ/мл). 71 нафар беморда вирус репликатсияси юқори даражада (>20000 МЕ/мл).

Жинс ва ёш гуруҳи бўйича таҳлилда.18– 44 ёш гуруҳи: Аёллар орасида 6 нафарида вирус репликатсияси аниқланмаган, 3 нафарида паст репликатсия, 15 нафарида юқори репликатсия кузатилган. Эркаклар орасида 2 нафарида вирус репликатсияси аниқланмаган, 3 нафарида паст репликатсия, 8 нафарида юқори репликатсия кузатилган.45 – 59 ёш гуруҳи: Аёлларнинг 7 нафарида вирус репликатсияси йўқ, 1 нафарида репликатсияс паст, 12 нафарида юқори репликатсия бор. Эркакларнинг 3 нафарида вирус репликатсияси йўқ, 0 нафарида репликатсияс паст, 10 нафарида юқори репликатсия бор. 60 – 74 ёш гуруҳи:Аёлларнинг 3 нафарида вирус репликатсияси йўқ, 2 нафарида репликатсия паст, 19 нафарида юқори репликатсия бор.Еркакларнинг 1 нафарида вирус репликатсия йўқ, 2 нафарида паст репликатсия, 7 нафарида юқори репликатсия бор эканлигини кусатди.

Хулоса:

Барча беморларни жинс гуруҳларига булганимизда аёллар 66% эркаклар 34 % эканлигини куришимиз мумкин .Ёш гуруҳларига булганимизда эса 18-44 ёш оралиғидаги беморлар сони кўп эканлиги аниқланди.

Фиброскан натижалари эса 18-44 ва 45-59 ёш оралиғидаги аёллар ҳамма беморларни 23 % ташкил қилди.Бу эса ушбу ёш категориясидаги аёллар ўртасида тиббий маданиятни ошириш керак эканлигини кўрсатади.

ПСР натижалари эса 18-44 ва 60-74 ёш оралиғидаги аёллар ўртасида юқори вирус репликатсияга эга эканлиги аниқланди , сони жами беморларнинг қарийб 32 % ташкил қилд

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати (Референсес)

1. Мокдад АА, Лопез АД, Шахраз С, эт ал. Ливер сиррҳосис морталитй ин 187 соунтриес бетween 1980 анд 2010: а сйстематис аналйсис. БМС Мед. 2014;12(1):145. хттпс://дои.орг/10.1186/с12916-014-0145-й

2. WҲО, Ҳепатитис, С ин тҳе WҲО Эуропеан Регион - фастшеет Жулй. 2022. Ворлд Ҳеалтҳ Организатион. Публишед 2023. Ассессед Жулй 24, 2023. хттпс://www.wҳо.инт/еуропе/публисатионс/м/итем/ҳепатитис-с-ин-тҳе-wҳо-эуропеан-регион-фастшеет-жулй-2022

3. WҲО, Ҳепатитис, Б ин тҳе WҲО Эуропеан Регион - фастшеет Жулй. 2022. Ворлд Ҳеалтҳ Организатион. Публишед 2023. Ассессед Жулй 24, 2023. хттпс://www.wҳо.инт/еуропе/публисатионс/м/итем/ҳепатитис-б-ин-тҳе-wҳо-эуропеан-регион-фастшеет-жулй-2022

4. Смитҳ С, Ҳарманси Ҳ, Ҳутин Й, эт ал. Глобал прогресс он тҳе элиминатион оф вирал ҳепатитис ас а мажор публис ҳеалтҳ тҳреат: ан аналйсис оф WҲО мембер стате респонсес 2017. ЖҲЕП Реп. 2019;1(2):81–9. хттпс://дои.орг/10.1016/ж.жҳепр.2019.04.002

5. Мусабаев Э, Эстес С, Садирова С, эт ал. Вирал ҳепатитис элиминатион чалленГЭС ин лоw-анд миддле-инсоме соунтриес—Узбекистан ҳепатитис элиминатион програм (УҲЕП). Ливер Инт. 2023;43(4):773–84. хттпс://дои.орг/10.1111/ЛИВ.15514

6. Ботҳежу WCП, Згҳйер Ф, Маҳмуд С, Терликбайева А, Эл-Бассел Н, Абу-Раддад ЛЖ. Тҳе эпидемиологй оф ҳепатитис С вирус ин Сентрал Асиа: сйстематис ревиеw, мета-аналйсес, анд мета-регрессион аналйсес. Сси Реп. 2019;9(1). хттпс://дои.орг/10.1038/С41598-019-38853-8
7. Рузибакиев Р, Като Ҳ, Уеда Р, эт ал. Риск фасторс анд серопреваленсе оф ҳепатитис Б вирус, ҳепатитис С вирус, анд ҳуман иммунодефисиенсй вирус инфестион ин Узбекистан. Интервирологй. 2001;44(6):327–32. хттпс://дои.орг/10.1159/000050066
8. WҲО. Астион план фор тҳе ҳеалтҳ сестор респонсе то вирал ҳепатитис ин тҳе WҲО Эуропеан Регион. Публишед онлине 2017. Ассессед Жулй 24. 2023. хттпс://аппс.wҳо.инт/ирис/ҳандле/10665/344154
9. Ракҳмонов Р. Н., Ғайбуллайев Ш. Ф., & Неъматов Ҳ. А. (2025). ҲЕПАТИТИС С: ТҲЕ СУРРЕНТ СТАТЕ ОФ ТҲЕ ПРОБЛЕМ. *Веб оф Медисине: Жоурнал оф Медисине, Прастисе анд Нурсинг*, *3*(1), 339–347. Ретриевед фром хттпс://вебофжоурналс.ком/индех.пҳп/5/артисле/виеw/3092
10. Ярмухамедова М. К. и др. Применение ППППД у больных с поражением печени ВГС этиологии //Достижения науки и образования. – 2020. – №. 8 (62). – С. 69-73.
11. Ярмухамедова М. К., Ярмухамедова Н. А. Оценка эффективности ППППД у больных с ВГС //Вопросы науки и образования. – 2020. – №. 22 (106). – С. 24-29.
12. ЯРМУХАМЕДОВА М. К., ЯКУБОВА Н. С., ВОСЕЕВА Д. Х. ОЦЕНКА ПРИМЕНЕНИЯ ГЕПАТОПРОТЕКТОРОВ У БОЛЬНЫХ С ХРОНИЧЕСКИМ ВИРУСНЫМ ГЕПАТИТОМ В //Т [a_XW [и [С УС С_С^[ùе ЙфсС^. – 2022. – С. 431.
13. Красная М., Ярмухамедова М., Мустаева Г. Анализ путей и факторов распространения оки путём опроса больных и ухаживающих //Журнал вестник врача. – 2011. – Т. 1. – №. 1. – С. 122-124.
14. ЯРМУХАМЕДОВА М. К., ЯКУБОВА Н. С., ВОСЕЕВА Д. Х. ОЦЕНКА ПРИМЕНЕНИЯ ГЕПАТОПРОТЕКТОРОВ У БОЛЬНЫХ С ХРОНИЧЕСКИМ ВИРУСНЫМ ГЕПАТИТОМ В //Т [a_XW [и [С УС С_С^[ùе ЙфсС^. – 2022. – С. 431.
15. Орзикулов А., Ярмухамедова М., Узакова Г. Клинико-лабораторное течение вирусного гепатита а //Журнал проблемы биологии и медицины. – 2014. – №. 3 (79). – С. 137-138.

КЛИНИЧЕСКИЕ И ЛАБОРАТОРНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ХРОНИЧЕСКОГО ВИРУСНОГО ГЕПАТИТА С В РАЙОНАХ

Р.Н.Рахмонов
Самаркандского государственногомедицинского университета, Самарканд, Узбекистан.
Научный руководитель: к.м.н.,доцент. Ярмухамедова Махбуба Кудратовна Самаркандской области.

Актуальность темы: Вирусные гепатиты представляют собой серьёзную угрозу для глобального здравоохранения. В частности, вирус гепатита С (HCV) может привести к хроническим формам заболевания, которые, в свою очередь, вызывают цирроз печени и рак печени. Согласно данным ВОЗ, во всём мире около 50 миллионов человек инфицированы хроническим гепатитом С. Ежегодно регистрируется примерно 1 миллион новых случаев. В 2022 году 242 000 случаев смерти были вызваны гепатитом С, в основном из-за цирроза печени и гепатоцеллюлярной карциномы . Согласно систематическому анализу и мета-анализу, проведённому по распространённости HCV в Центральной Азии , распространённость HCV в Узбекистане оценивается в 9,6%. В этой статье отражены результаты нашего исследовательского проекта.

Цель исследования: Провести клинический и лабораторный анализ распространения хронического вирусного гепатита С в районах Самаркандской области.

Методы и материалы исследования: Под наблюдением находились 105 пациентов с подтверждённым диагнозом хронического гепатита С (2019–2023 гг.), проходивших обследование в гепатологическом отделении Самаркандской областной клинической инфекционной больницы. Применялись следующие методы: клинический осмотр, общий и биохимический анализы крови, ИФА, ПЦР, эластометрия (фиброскан).

Анализ и результаты: В период с 2019 по 2023 год у 105 пациентов, обратившихся в гепатологическое отделение Самаркандской областной клинической инфекционной больницы, был диагностирован хронический вирусный гепатит С.Клинические жалобы и симптомы: 90% пациентов жаловались на общую слабость и быструю утомляемость.40% отмечали боль и ощущение тяжести в правом подреберье.При осмотре желтуха отсутствовала, но у 19% наблюдалась субиктеричность склер.У 6% выявлено увеличение печени Лабораторные исследования: Общий анализ крови выявил анемию I степени, чаще у пожилых

пациентов.Биохимия крови показала, что уровни печёночных ферментов и билирубина соответствовали степени активности заболевания.По уровню активности заболевания распределены 40 пациентов с низкой, 57 — со средней и 6 — с высокой активностью. Демографические данные:По возрасту: 18–44 лет — 36% пациентов, 45–59 лет — 31%, 60–74 лет — 33%.По полу: 66% женщин и 34% мужчин. Эластометрия (фиброскан, шкала Metavir)**:** F0 (отсутствие фиброза) преобладает у женщин 18–44 и 45–59 лет (50–60%), у женщин 60–74 лет — 33%; у мужчин показатели F0 составляют 29%, 23% и 30% для соответствующих возрастных групп.F1 (минимальные изменения): у мужчин 18–44 лет — 57%, у мужчин 45–59 лет — 54%; у женщин – примерно 25–33% во всех возрастных группах.F2 (умеренные изменения): как у женщин, так и у мужчин — от 7% до 23% в зависимости от возрастной группы.F3 (выраженные изменения): выявлены только у женщин 60–74 лет (13%) и у мужчин в возрастных группах 18–44 и 60–74 лет (7% и 10% соответственно).Результаты ПЦР (оценка вирусной репликации)**:**21% пациентов не имели вирусную репликацию (≤1,9E+03 МЕ).11% имели низкий уровень репликации (≤1,8E+04 МЕ).68% пациентов показали высокий уровень вирусной репликации (>1,8E+04 МЕ).

Выводы:

1 .При распределении пациентов по половым группам, женщины составляют 66%, а мужчины — 34%.

2. При распределении по возрастным группам наибольшее количество пациентов было в возрасте 18–44 лет.

3.Результаты фиброскана показали, что среди женщин в возрасте 18–44 и 45–59 лет с уровнем F0 составили 23% от общего числа пациентов.

4.По результатам ПЦР у 68% из 105 пациентов была выявлена высокая вирусная репликация.

BO’LAJAK BOSHLANG’ICH SINF O’QITUVCHILARINING AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA VIRTUAL TA’LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

A.A.Suvonqulova
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqola bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarida virtual ta’lim vositalari asosida axborot kompitentligini rivojlantirishning mazmuni haqida hamda bugungi axborot axborot asri, internet oqimi sharoitida virtual ta'limni tezlashtirish uchun xizmat qiladigan Top 20 virtual ta'lim vositalari haqida fikr mulohazalar yuritilgan.

Kalit so’zlar: boshlang'ich ta'lim, o'qituvchi, virtual ta'lim texnologiyasi, virtual ta'lim muhiti, interaktivlik, Pear Deck, o'rganishni boshqarish tizimlari, Flipgrid, Funbrain, Prodigy Math Game, Edmodo, Canva, Zoom, Microsoft Teams, Nearpod, Bunchee, Hapara, Bloomz, Xon Akademiyasi, Arra, Kahut, Suslik, Odatlar.

Respublikamizda so‘nggi yillarda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini tayyorlash, o‘qituvchilarni zamonaviy axborot texnologiyalardan erkin foydalanishlari uchun raqamli texnologiyalarni kiritishning me’yoriy asoslari yaratilmoqda va bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash tizimiga tatbiq etilmoqda. “Axborot texnologiyalari sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish «Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi”. Bu esa jamiyatda axborotlashtirish bilan bog‘liq o‘zgarishlar ta’lim tizimiga jiddiy darajada ta’sir qiladi, jamiyat taraqqiyotining ehtiyojlariga javob beradigan yangi ta’lim amaliyotini loyihalashtirish imkoniyatini kengaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim

tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son qarori “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775 son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli.

Ta’lim tizimini isloh qilish jarayonlari oliy ta’lim tizimida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Unda dars berish jarayonida yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalar ta’lim sifatini oshirish maqsadida doimiy ravishda joriy etib borilishi talab etiladi. Oliy ta’lim sifatini ta’minlashda ilg‘or xorijiy tajribalarni tatbiq etish ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolishi juda muhimdir. Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari hayotga kirib borishi elektron axborot ta’lim resurslar, video va audiodarslar, elektron testlar, virtual laboratoriya ishlari va kichik ta’lim resurslarning, ya’ni o‘qituvchisiz o‘qitish texnologiyasini joriy etish va ularni kun sayin rivojlantirib borish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat sohasini rivojlantirmoqda.

Mamlakatimizda ta’lim oluvchilari orasida zamonaviy kompyuter, mobil va turli xil texnologiyalar qo‘llanilish masshtabining kengayib borayotganligi o‘quvchilarga virtual texnologiyalardan foydalangan holda ta’lim berish ehtiyojning o‘sib borayotganligini anglatadi. Ushbu maqola ta’lim jarayonida virtual texnologiyalardan foydalangan holda o‘quv materiallar tayyorlash va ulardan foydalanish metodikasini ishlab chiqish va joriy qilish orqali ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, yuqoridagilar esa tadqiqot mavzusini dolzarb ekanligini anglatadi.

So'nggi bir necha yil ichida virtual ta'lim vositalari o'qituvchilarning dars berish usulini o'zgartirdi. Bu vositalar nafaqat dars rejasini tuzishni soddalashtiradi, balki o'quvchilaringiz o'rtasidagi muloqot va ijtimoiy muloqotni ham osonlashtiradi desak mubolag’a bo’lmaydi.

Masofaviy ta'lim texnologiyasi tez sur'atlar bilan o'sishda davom etmoqda va sizu biz kabi o'qituvchilarga onlayn samarali dars berishga yordam beradi. Ba'zi vositalar bizga va o'quvchilarimizga aloqada bo'lishni, interaktiv darslar yaratishni va xavfsiz kampuslarni qurishni osonlashtiradi. Biz nimani o'rgatishingizdan qat'i nazar, bizning shaxsiy ehtiyojlarimizga mos keladigan bir nechta vositalar mavjud.

Bugungi zamonaviy ta’lim olish shakllaridan biri - Masofaviy ta'lim shakli bo’ib, u har qanday narsani o'z ichiga oladi talaba shaxsan sinfda bo'lmasdan turib ta’lim oladigan ta'lim turi hisoblanadi. Darslar, onlayn ma'ruzalar yoki asenkron o'quv faoliyati bo'ladimi, masofaviy o'qitish talabalar va o'qituvchilarga raqamli vositalar va virtual o'quv platformalari orqali aloqada bo'lishga yordam beradi.

Pandemiya boshlanganidan beri onlayn ta'lim COVID-19 tarqalishini cheklashga yordam berdi. Shuningdek, bu o'quvchilarga maktabga borish vaqtini tejash bilan birga o'z uylaridan turib o'z darslariga yoki kurslariga oson kirish imkoniyatini berdi. Ushbu sharoitda o’quvchi va o’qituvchilar uchun Virtual ta’lim vositalari asosiy vosita sifatida xizmat ko’rsata boshladi.

Bizda savol tug’ilishi tabiiy virtual ta’lim vositalari nima? Ularning ta’lim jarayonidagi vazifalari qanday?

O'qituvchilar uchun Virtual ta'lim vositalari foydali dasturlar va onlayn ta'lim platformalarining kombinatsiyasini o'z ichiga oladi. Masalan Zoom yoki Google Classroom kabi o'quv platformalari va HYPERLINK kabi ilovalarhar qanday joyda o'rganishni samarali va yoqimli tajribaga aylantiradi.

"Virtual ta'lim vositalari" ham, "masofaviy ta'lim vositalari" ham bir-birining o'rnini bosadigan atamalardir.

Hamma masofadan o'qitish vositalari bir xil emas va bu yaxshi narsa! Ularning har biri o'rganishni yaxshilash uchun o'ziga xos sifatga ega. Ba'zi vositalar muloqotni boshqalarga qaraganda yaxshiroq boshqaradi, o'yinlar esa talabalarning muayyan fanlarni tushunishini oshirish uchun juda yaxshi. Har bir vosita o'rganishni oson va qiziqarli qilishga yordam beradi.

Bugungi kunda onlayn ta'lim platformalarining to'rtta asosiy turi mavjud:

Aloqa vositalari- bu yerda o'qituvchilar ixtiyorida elektron pochta, munozarali kengashlar, suhbatlar, sinf veb-saytlari va videokonferensiyalar kabi bir nechta vositalar mavjud. Ko'pgina o'quv platformalarida Zoom va Google Classroom kabi ushbu xususiyatlarning aksariyati mavjud.

Learning management systems (LMS)— LMS-bu funktsional va qiziqarli onlayn darslarni ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minot dasturlari. Yaratish, boshqarish va talabalar faoliyatini kuzatish esa kurs mazmunini yetkazib. LMS-bu sinf kattaligidan qat'i nazar, talabalarni o'qitishning tejamkor va izchil usuli hisoblanadi.

Raqamli ta'lim o'yinlari-bolalar o'yin o'ynashni yaxshi ko'radilar, shuning uchun nima uchun ularga o'rganishga bo'lgan sevgisini qo'llab-quvvatlash uchun ta'lim bermaysiz? National Geographic Kids bolalarga ko'ngil ochish va ma'lumot berish uchun qiziqarli fan, geografiya va sarguzasht viktorinalari va o'yinlarni taklif etadi. Agar siz o'quvchilaringiz onlayn kitob o'qishlarini va o'quv o'yinlarini o'ynashlarini istasangiz, **Funbrain** ular uchun zavqlanadigan son-sanoqsiz yaxshiliklarga ega platformalardan biri hisoblanadi. Agarda bizning o’quvchimiz matematika o’rganishda biroz qiynalsa yoki matematika fani unga qiziqarli bo’lmasa, u holda ularga

Prodigy Math Game yordamida matematik bilimlarini oshirishga yordam berishimiz va matematikadan zavqlanish imkoniyatlarini ocha olishimiz mumkin.

Onlayn ta'lim resurslari- pandemiya talabalarni uyda qolishga majbur qilganda, o'qituvchilar bolalarni jalb qilish va diqqatini jamlash uchun turli xil onlayn manbalardan foydalanishni boshladilar. Ushbu vositalardan ba'zilari Sesame Street va PBS Kids kabi onlayn darslar va tadbirlarni o'z ichiga soladi. Biz qaysi vositani tanlashimizdan qat'i nazar, o'quvchilar har bir virtual vositadan samarali foydalanishga qiziqishadi va bundan yuqori darajada foyda olishadi.

Virtual ta'limni tezlashtirish uchun bugungi Top 20 virtual ta'lim vositalari mavjud va ularning ko'plari boshqa ilovalar bilan muammosiz birlashadi. Ammo ta’lim samaradorligiga erishishimiz uchun qaysi vositalarni tanlashimiz o’zimizga va oldimizga qo’ygan ta’limiy maqsadimizga bog’liq. Quyidagi ro'yxatimiz orqali o'qituvchilarga turli xil onlayn mavzularga mos keladigan to'g'ri qarorlarni qabul qilishga yordam berishimiz lozim.

1. Google sinfi. O'qitish va o'rganish uchun yaratilgan Google Classroom-bu dunyoning istalgan nuqtasidan o'rganishni moslashuvchan va qulay qiladigan yaxlit vosita. O'qituvchilar dars rejalarini tuzishda, talabalar faoliyatini kuzatishda va dars materiallarini yanada qiziqarli qilish uchun bir nechta ijodiy vositalardan foydalanishda vaqtni tejashadi. Hozirda Google Classroomning bepul versiyasi mavjud. Biroq, pullik versiya qo'shimchalar va boshqa ta'lim vositalari bilan oson integratsiya bo’la oladi.

2. Prodigy matematik o'yini. Prodigy matematik o'yini-bu 1-8 sinflar uchun moslashuvchan o'quv platformasi. Amerika Qo'shma Shtatlari va butun dunyo bo'ylab o'quv dasturiga moslashtirilgan holda, biz talabalar qaerda bo'lishidan qat'i nazar, mashg'ul bo'lishlari va o'rganishlariga amin bo'lishimiz mumkin. Matematika amaliyotini osongina farqlash, uy bahosini yuborish va o'quvchilar qanday o'rganayotgani haqida real vaqtda tushuncha olish uchun bepul o'qituvchilar panelidan foydalanishimiz mumkin va bu hech qanday qiyinchiliklarsiz amalga oshiriladi.

3. Armut kemasi yoki **Pear Deck** -bu o'qituvchilarga qiziqarli slaydlar yaratishda va talabalarning o'zaro ta'sirini qo'llab-quvvatlashda yordam beradigan Google Slides qo'shimchasi. O'qituvchilar noldan taqdimotlar yaratishlari yoki mavjud taqdimotlarga interaktiv savollar qo'shishlari mumkin. Pear Deck ajoyib xususiyatlarga ega, shu jumladan telefon yoki planshetda mavjud bo'lgan uskunalar paneli, talabalarning javoblarini ko'rsatish yoki yashirish qobiliyati, individual talabalarga shaxsiy eslatmalarni yuborish imkonini beruvchi xususiyatlar va taqdimotlarga qo'shish uchun qiziqarli audio fayllar tayyorlash imkoniyatini beradi.

4. Flipgrid. Flipgrid-suhbatni boshlashning qiziqarli usuli. Shunchaki mavzuni joylashtiring va o'quv hamjamiyatingizda munozaralarni rivojlantiramiz. Bu o'quvchilarni yangi g'oyalarga qiziqtirish, o'rganishdan hayajonlanish va tengdoshlari bilan muloqot qilishning ajoyib usuli!

5. Edmodo. Edmodoning bir qator vositalari o'qituvchilarga dars mazmunini baham ko'rish, hamkorlikni ilhomlantirish va baquvvat va ijobiy sinf qurish imkonini beradi. Ota-onalar ham farzandlarining taraqqiyoti haqida yangilanishlarni olishlari mumkin. Edmodo tez va oson ro'yxatdan o'tish uchun o'qituvchilar uchun bepul hisoblarga ega.

6. Canva. Canvaning onlayn grafik va nashriyot vositasi o'qituvchilarga ajoyib, professional sifatli taqdimotlar, plakatlar, infografika, ijtimoiy media bannerlari, videolar, virtual fonlarni kattalashtirish va boshqalarni yaratishga imkon beradi. Canva bizning afzal ko'rgan ta'limni boshqarish tizimi, shu jumladan Google Classroom va Microsoft Teams bilan osongina birlashadi.

7. Zoom. Zoom pandemiya davrida taqdimot vositasi va veb-seminar platformasi sifatida ko'p qirraliligi bilan mashhurlikka erishdi, talabalar esa onlayn o'rganishdi. Uning xavfsizligi, jonli video sinfining funktsionalligi va ijtimoiy ta'sir o'tkazish uchun chat xususiyati Zoomni masofaviy o'qitishning foydali vositasiga aylantiradi.

8. Blackboard. Blackboard yuqori maktabga bolalar bog'chasi uchun mukammal mos rivojlangan LMS vositasi hisoblanadi. Ushbu platforma har qanday qurilmada ishlaydi va u barcha talabalar uchun

osondir. Blackboard Learn shuningdek o'qituvchilarga bir nechta uchinchi tomon vositalariga kirish imkoniyatini beradi.

9. ClassDojo. ClassDojo aloqa vositasi oilalarni, talabalarni va o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlovchi onlayn hamjamiyatni yaratish uchun birlashtiradi. O'qituvchilar yuklab olinadigan resurs to'plamlari va g'oyalari bilan qiziqarli o'rganish tajribasini rivojlantirishlari mumkin. Shuningdek, ular ClassDojo-ni afzal ko'rgan ta'limni boshqarish tizimi bilan birlashtirishga yordam beradigan manbalarni topishlari mumkin.

10. Microsoft Teams. Microsoft Teams bir nechta dunyoning eng yaxshisini bitta tom ostida birlashtiradi. Siz ekraningiz yoki eslatmalaringizni baham ko'rishingiz, taqdimotlar o'tkazishingiz, suhbatni targ'ib qilishingiz va videokonferensiyada aloqa orqali barchani birlashtirishimiz mumkin.

11. Nearpod. Nearpod-bu Google Slides va quvvat nuqtasi taqdimotlari uchun ajoyib qo'shimcha. O'qituvchilar o'zlarining taqdimotlaridan foydalanishlari yoki ta'sirchan shablon kutubxonasidagi darslar va videofilmlardan tanlashlari mumkin. Talabalaringizni o'rganishga qiziqtirish uchun so'rovlar, o'yinlar va hamkorlik kengashlarini yarating. Nearpod talabalar o'rtasida sog'lom ijtimoiy hamkorlikni rivojlantiradi.

12. Buncee. Buncee talabalar sevadigan interaktiv kurs tarkibini yaratishni osonlashtiradi. Buncee's Ideas Lab shablon kutubxonasidan taqdimotlar, darslar va ko'plab moslashtirilgan virtual maktab tadbirlarini yaratadi. O'qituvchilar havolalar, yuklab olinadigan fayllar va guruh loyihalarini talabalar bilan osongina baham ko'rishlari mumkin.Buncee boshqaruv paneliga Microsoft Teamsdan kirish mumkin, bu munozaralarni ochish, resurslarni almashish va bolalar va ularning ota-onalari bilan muloqot qilishni osonlashtiradi.

13. Hapara. Hapara-bu o'qituvchilarga Google ish maydonida ish oqimlarini o'rganishga imkon beradigan tashkiliy vosita. Pear Deck, HYPERLINK kabi boshqa edtech vositalaridan ham foydalanishingiz mumkin. Pear Deck, vaEDpuzzlekurs tarkibining sifatini oshirish uchun Hapara bilan EDpuzzle.O'qituvchilar haparani o'quv dasturlariga moslashtirilgan darslar, maxfiylik va xavfsizlik xususiyatlariga kirish imkoniyati uchun qabul qilishlari ajablanarli emas.

14. Hamma narsani tushuntiring doska. Hamma narsani tushuntiring doska ilovasi eng yaxshi raqamli doskalardan biridir. Bu an'anaviy va gibrid sinf muhitlari uchun mukammal bo'lgan ajoyib oflayn va onlayn vosita. Shuningdek, u o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi hamkorlikni rag'batlantiradi.

15. Bloomz. Bloomz-bu bir nechta dasturlarga bo'lgan ehtiyojni va xavfsizlik bilan bog'liq muammolarni bartaraf etadigan bir martalik platforma. Bloomz o'qituvchilarga talabalar va ota-onalar bilan bog'lanish, tashkil etish va aloqada bo'lish imkonini beradi. Ota-onalar va o'qituvchilar bir nechta ilovalarni ochishlari va yopishlari shart emas, bu siz bilan muloqot qilish va ma'lumot almashish uchun oddiy va stresssiz bo'ladi.

16. Khan Academy. Khan Academy notijorat tashkilot sifatida o'qituvchilar va talabalar uchun matematika, fan, o'qish, til va hayotiy ko'nikmalarni tanlash uchun fanlar ro'yxatiga ega. Barcha kurslar 1 dan 8 gacha va undan keyingi sinf o'quvchilari uchun javob beradi. Khan Academy talabalar va o'qituvchilar uchun bepul.

17. Arra. Arra o'qituvchilar, talabalar va ota-onalarni bog'laydigan o'quv ko'chadan yaratish uchun ajoyib alternativ beradi. Bu o'qituvchilar uchun talabalar faoliyatini kuzatishning mazmunli usulini taqdim etadi va durang + yozuv, video, ijodiy Tuval va boshqalar kabi ijodiy vositalardan foydalanishni rag'batlantiradi. O'qituvchilar va talabalar bepul ro'yxatdan o'tishlari mumkin!

18. Kahoot! Kahoot!onlayn o'yin viktorinalari pandemiya davrida talabalar va o'qituvchilar orasida mashhurlikka erishdi. Bolalar kahoot-dan son-sanoqsiz o'yinlarga kirishlari mumkin!kutubxona yoki ular hatto o'z o'yinlarini ham qilishlari mumkin.

O'qituvchilar Kahootni ham tarqatishlari mumkin! sinfdan tashqarida o'qish uchun talabalar uchun qiyinchiliklar. Kahoot! qiyinchiliklar Google Classroom bilan birlashadi va talabalar ko'proq yordamga muhtoj bo'lishi mumkinligini aniqlash uchun o'tkazib yuborilgan savollar va ballarni kuzatishni osonlashtiradi.

19. Sustlik. Slack tashkilot va muloqotni bir platformaga birlashtiradi. O'qituvchilar uchun alohida mavzular bilan bog'liq kurs mazmunini topshirish, talabalar bilan yakkama-yakka yoki guruhlarda bog'lanish va tegishli sinf materiallarini yuborish oson. Slack talabalarga onlayn ta'lim jarayonida ishtirok etishga va faol bo'lishga yordam beradi.

20. Habits. Bolalarning ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazadigan vaqtini cheklash nimani anglatishini tushunadigan ona Habits yaratdi. Ushbu platforma o'qituvchilarni ekran vaqtini nazorat qiladi, bu esa bolalarning g'ayratli va diqqatli bo'lishini ta'minlaydi. Habits o'qituvchilar va ota-onalarga qiziqarli tadbirlarni targ'ib qilishda va bolalar uchun o'rganishda ortiqcha ekran vaqtini cheklashga yordam beradi.

Masofaviy o'qitishda talabalar faoliyatini samarali kuzatish usullari.

Talabalar onlayn o'rganayotganda, talabalar taraqqiyotini nazorat qilishning mazmunli usullarini topish qiyin bo'lishi mumkin. Yaxshi xabar shundaki, aksariyat onlayn dasturiy vositalar o'qituvchilarga talabalarning javoblarini kuzatish va o'lchash imkonini beradi.

Talabalar faoliyatini baholash va nazorat qilishning uchta konstruktiv usuli mavjud bular:

- **Aloqa liniyalarini ochiq tuting**. O'quvchilar o'qituvchilar bilan shaxsan suhbatlashishlari mumkin bo'lgan an'anaviy maktab sharoitlaridan farqli o'laroq, bolalarni topshiriqlarni o'z vaqtida topshirishga va yo'lda qolishga undash uchun onlayn aloqa zarur. Shuningdek, elektron pochta, telefon va chat imkoniyatlari bilan kunlik ish soatlarini o'tkazish bolalarning o'qishlarida orqada qolishining oldini olishga yordam beradi.
- **O'quv dasturiga asoslangan test**. O'qituvchilar o'quv dasturiga asoslangan testlarni talabalar o'rgangan narsalarini qo'llashlarini ta'minlashning yaxshi usuli deb bilishlari mumkin. Tez-tez baholash o'qituvchilar talabalar darslar bilan kurash qayerda aniqlash va ko'prik hal qilish uchun rejalar qilish yordam. Formative assessmentsviktorinalar, qisqa baholashlar va talabalar bilan suhbatlar kabi shakllantiruvchi baholar ularga xatolarni tuzatishga yordam beradi.
- **O'quv maqsadlarini sozlang.** O'quv maqsadlari o'quvchilarga har bir darsda aniq maqsadlarga erishishga yordam beradi. Misol uchun, agar talaba mavzu-fe'l kelishuvi bilan kurashsa, o'qituvchilar talabaning o'z yozuvlarida to'g'ri grammatikani qo'llashini osonlashtirish uchun darslarni kichikroq maqsadlarga ajratishni o'ylashlari mumkin.

Virtual ta'lim bir o'lchovli yechim emas-ba'zi talabalar uchun texnologik cheklovlar va kirish imkoniyati tufayli muammolar mavjud. Maktab tumanlari maktablarni yopish paytida ushbu muammolarni chetlab o'tish va sinfda (va tashqarida) tenglikni davom ettirish rejalarini oldindan bilishlari va ishlab chiqishlari kerak.

Onlayn o'qitish talabalarning o'rganish tajribasiga foyda keltirsada, aksariyat bolalar boshqa talabalar bilan ijtimoiy aloqasi va o'qituvchilar bilan bevosita aloqasi uchun an'anaviy maktab muhitini afzal ko'rishadi. Ta'lim vositalarining boyligi o'qituvchilarga virtual ta'lim bilan bog'liq ko'plab muammolarni hal qilishni osonlashtiradi. Har bir vosita talabalar va o'qituvchilar duch keladigan qiyinchiliklar uchun foyda va echimlarni o'z ichiga oladi, shuning uchun biz qaerda bo'lishimizdan qat'i nazar, o'rganish samarali ekanligiga ishonch hosil qilishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni, Qonun xujjatlari to‘plami milliy bazasi, https://lex.uz/
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022– 2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-sonli Farmoni (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 11.05.2022-y., 06/22/134/0407-son)
3. Hamidov J.A. “Using multimedia technology problems in professional education”. Eastern European Scientific Journal/Auris – Verlag.de 2019, № 1. 187-190 стр.
4. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o’qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. T.: Fan. 2009. -146 b.
5. Abduqodirov A.A., Toshtemirov D.E. Ta’lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. Monografiya. Guliston: “Universitet”, 2019. - 232 b.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING O‘ZIGA XOSLIKLARI

N.Z.Shakarova
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi kasbiy faoliyatining zamonaviy talablari, ularni shakllantirishda oliy pedagogik ta’limning roli va kasbiy tayyorgarlik jarayonining asosiy yo‘nalishlari tahlil qilingan. Kasbiy kompetensiyalar, amaliyotning o‘rni va innovatsion yondashuvlar xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik kompetensiya, amaliyot, zamonaviy o‘qituvchi.

Аннотация. В данной статье проанализированы современные требования к профессиональной деятельности учителя начальных классов, роль высшего педагогического образования в их формировании и основные направления процесса профессиональной подготовки. Были рассмотрены профессиональные компетенции, роль практики и инновационные подходы.

Ключевые слова: начальное образование, профессиональная подготовка, педагогическая компетентность, практика, современный учитель.

Annotation. This article analyzes the modern requirements of the professional activity of a primary school teacher, the role of higher pedagogical education in their formation and the main directions of the professional training process. Professional competencies, the role of practice and innovative approaches were considered.

Keywords: primary education, professional training, pedagogical competence, practice, modern teacher.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi uchun kasbiy jihatdan puxta tayyorlangan boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni har tomonlama mukammal tashkil etilishi lozim. Bu jarayonda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalar, kommunikativ malakalar va innovatsion yondashuvlar muhim o‘rin tutadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ta’lim tizimining eng muhim va asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Ularning kasbiy faoliyatga tayyorligi nafaqat o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishda, balki ularning shaxs sifatida rivojlanishida ham katta ahamiyatga ega. Boshlang‘ich ta’lim maktab ta’limining poydevori bo‘lib, bu bosqichda o‘quvchilarda o‘rganishga qiziqish uyg‘otish, mustahkam bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, shuningdek, ularni jamiyatda faol va mas’uliyatli shaxs sifatida tarbiyalash muhimdir. Shu bois, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini sifatli kasbiy faoliyatga tayyorlash ta’lim sifatining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bolalarda ilk bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantiradi, ularning tafakkuri, nutqi, ijtimoiy va axloqiy rivojlanishiga ta’sir qiladi. Bu jarayonlarda o‘qituvchidan keng qamrovli bilimlar, psixologik tayyorgarlik, innovatsion texnologiyalardan xabardorlik talab etiladi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘quvchilarning birinchi ta’lim beruvchilari sifatida ularning bilim, ko‘nikma va odatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ularning kasbiy faoliyati o‘ziga xos bo‘lib, unda pedagogik jarayonning barcha tomonlari – ta’lim, tarbiya va rivojlantirish birgalikda amalga oshiriladi. Shu sababli, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tayyorligi yuqori darajada bo‘lishi talab etiladi [1. Karimova, 45 b. 2019]

Kasbiy tayyorgarlik – bu shaxsning o‘z kasbini samarali bajarishi uchun zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash jarayonidir. Bu jarayon o‘qituvchining nafaqat nazariy bilimga, balki amaliy pedagogik faoliyatga tayyor bo‘lishini ta’minlaydi. Kasbiy tayyorgarlik jarayonida o‘qituvchi pedagogik bilimlarni egallash, o‘quvchilarga bilim berish usullarini o‘rganish, shuningdek, o‘zining shaxsiy va professional sifatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Kasbiy tayyorgarlik ta’lim jarayonining sifatini belgilovchi muhim omillardan biridir. Yaxshi tayyorlangan o‘qituvchi o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, ta’lim jarayonini samarali tashkil eta oladi. Shuningdek, kasbiy tayyorgarlik o‘qituvchining pedagogik innovatsiyalarni qo‘llash, muammolarni hal qilish va o‘z ustida ishlash qobiliyatini oshiradi. [2. UNESCO, 2018]

Kasbiy tayyorgarlik bir nechta yo‘nalishni o‘z ichiga oladi:

Nazariy tayyorgarlik: pedagogika, metodika, til, matematika, informatika fanlari orqali asosiy bilimlar shakllantiriladi.

Amaliy tayyorgarlik: maktabda pedagogik amaliyot, dars kuzatuv, mustaqil dars o‘tish orqali pedagogik faoliyat tajribasi orttiriladi.

Texnologik tayyorgarlik: AKT vositalaridan foydalanish, interaktiv usullardan foydalanish bo‘yicha ko‘nikmalar.

Kasbiy tayyorgarlik o‘qituvchining shaxs sifatida rivojlanishiga ham xizmat qiladi. U o‘z ustida ishlash, yangi pedagogik yondashuvlarni o‘rganish va qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa uning professional faoliyatini yanada samarali qiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida ularning pedagogik kompetensiyalari – bilim, ko‘nikma, pedagogik va shaxsiy sifatlari shakllantiriladi. Bu kompetensiyalar o‘quvchilarga samarali ta’lim berish, ularni tarbiyalash va rivojlantirish uchun zarurdir. Bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining quyidagi kompetensiyalarga ega bo‘lishi muhim:

Pedagogik kompetensiya – ta’lim jarayonini rejalashtirish, baholash va samarali tashkil etish ko‘nikmasi.

Kommunikativ kompetensiya – o‘quvchi, ota-ona, hamkasblar bilan samarali muloqot qilish.

Axborot-kommunikatsion kompetensiya – texnologiyalar yordamida o‘qitish, elektron resurslardan foydalanish.

Transversal kompetensiya - tez moslashish va faoliyatning bir sohasidan ikkinchisiga o‘tish qobiliyati.

Nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlaydi.

Pedagogik amaliyot davomida talabalar o‘z bilimlarini sinovdan o‘tkazib, real sharoitda ishlash ko‘nikmalarini hosil qiladi. Bu esa ularning kelajakdagi ish faoliyatida muvaffaqiyat qozonishiga xizmat qiladi [2. Abdullayeva, 35 b. 2020] Amaliyot bo‘lajak o‘qituvchilarni haqiqiy pedagogik muhitga olib chiqadi. Maktab amaliyotlari jarayonida talabalar:

darslarni kuzatadi,

sinf jamoasi bilan ishlaydi,

o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini o‘rganadi,

dars rejalashtirish va o‘tish tajribasini orttiradi.

Amaliyot orqali nazariy bilimlar amaliy tajriba bilan mustahkamlanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy pedagogik metodlar, jumladan, interfaol o‘qitish, loyiha asosida o‘qitish, muammoli o‘qitish va texnologiyalarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Bu metodlar o‘qituvchilarga o‘z bilimlarini amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi va ularning pedagogik kompetensiyalarini rivojlantiradi [4.Sultonova, 79 b. 2022]

Interfaol o‘qitish – bu o‘quv jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida faol muloqot va hamkorlikni ta’minlovchi metod bo‘lib, unda talabalar faolligi va mustaqil fikrlashi rag‘batlantiriladi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda interfaol o‘qitish metodlari orqali talabalar pedagogik vaziyatlarni muhokama qilish, guruhda ishlash, o‘z fikrlarini aniq ifoda etish va boshqalar bilan samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bu esa kelajakda sinfda o‘quvchilarning faolligini oshirishga yordam beradi.

Loyiha asosida o‘qitish – bu o‘quvchilarning mustaqil tadqiqot va ijodiy faoliyatga yo‘naltirilishini ta’minlovchi metod bo‘lib, unda o‘quvchilar real hayotiy muammolarni hal qilish uchun loyihalar yaratadilar. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda loyiha metodidan foydalanish ularni muammolarni aniqlash, rejalashtirish, jamoaviy ishlash va natijalarni taqdim etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu metod o‘qituvchining ijodkorligi va tashabbuskorligini oshirishga xizmat qiladi.

Muammoli o‘qitish – bu o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, tahlil qilishga va muammolarni hal qilishga o‘rgatadigan metod bo‘lib, unda o‘quv jarayonida muammoli vaziyatlar yaratiladi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda muammoli o‘qitish metodidan foydalanish ularni pedagogik vaziyatlarda tez va samarali qaror qabul qilishga tayyorlaydi. Bu metod o‘qituvchilarning analitik fikrlashini va ijodiy yondashuvini rivojlantiradi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta’lim jarayonini interaktiv, qiziqarli va samarali qilishda muhim vosita hisoblanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda AKT dan foydalanish, masalan, elektron ta’lim platformalari, interaktiv doskalar, multimedia materiallari va onlayn resurslar yordamida o‘quv jarayonini boyitadi. Bu texnologiyalar o‘qituvchilarga o‘quv materiallarini turli usullarda taqdim etish, o‘quvchilarning faolligini oshirish va individual yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi.

Zamonaviy pedagogik metodlarni qo‘llash bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, ular o‘z faoliyatida innovatsion yondashuvlarni qo‘llashga tayyor bo‘lib, ta’lim jarayonini doimiy ravishda takomillashtirishga intiladi. Bu esa maktab ta’limining sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Xulosa. Boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish bevosita o‘qituvchi shaxsiga bog‘liq. Shu bois, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini zamon talablari asosida takomillashtirish zarur. Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish, amaliyot sifatini oshirish va innovatsion metodlarni joriy etish — ta’lim sifatining kafolatidir. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash ta’lim tizimining eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bu jarayon o‘qituvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko‘nikmalarini ham shakllantiradi, ularni samarali pedagogik faoliyatga tayyorlaydi. Yaxshi tayyorlangan o‘qituvchi ta’lim sifatini oshirishda, o‘quvchilarning shaxs

sifatida rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, pedagogik ta’lim muassasalari va ta’lim siyosati organlari bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonini doimiy ravishda takomillashtirib borishi lozim.

Amaliy tavsiyalar va takliflar Ta’lim muassasalarida pedagogik amaliyotni kuchaytirish va nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish zarur. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zamonaviy o‘qitish metodlari va texnologiyalarini keng qo‘llash tavsiya etiladi. O‘qituvchilarning doimiy malaka oshirish tizimini takomillashtirish, ularni yangi pedagogik yondashuvlar bilan tanishtirish lozim. Talabalar orasida pedagogik motivatsiyani oshirish va ularning kasbga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish uchun psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun. Toshkent, 2021.

Karimova, N. Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish. Pedagogika jurnal, 3(12), 45-53 b. Toshkent 2019.

Teacher preparation and professional development. Paris: UNESCO Publishing. UNESCO 2018.

Abdullayeva, M. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash metodikasi. 34-35 b. Toshkent 2020.

Sultonova, D. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik malakasini oshirish. Ilmiy maqolalar to‘plami, 5(2), 78-85. Toshkent 2022.

DASTURLASHNI O‘QITISHDA SUN‘IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

A.O.Badalov
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti e-mail:azamatbadalov92@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada sun‘iy intellekt (SI) vositalarining dasturlash ta‘limi jarayonida qo‘llanilish imkoniyatlari tahlil qilinadi. O‘zbekiston sharoitida amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida adaptiv mashqlar, avtomatik baholash, katta til modellari (LLM), chatbotlar va ta‘lim jarayonining individualizatsiyasi masalalari yoritiladi. Sun‘iy intellekt yordamida dasturlashni o‘qitishda samaradorlikni oshirish, o‘quvchilar motivatsiyasi va bilim sifatini yaxshilash imkoniyatlari ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: dasturlash ta‘limi, sun‘iy intellekt, adaptiv tizimlar, avtomatik baholash, ChatGPT.

Аннотация: В данной статье анализируются возможности применения инструментов искусственного интеллекта (ИИ) в процессе обучения программированию. На основе проведённых исследований в условиях Узбекистана рассматриваются вопросы адаптивных заданий, автоматической оценки, моделей большого языка (LLM), чат-ботов и индивидуализации образовательного процесса. Показаны возможности повышения эффективности обучения программированию с помощью ИИ, а также улучшения мотивации учащихся и качества знаний.

Ключевые слова: обучение программированию, искусственный интеллект, адаптивные системы, автоматическая оценка, ChatGPT.

Annotation: This article analyzes the possibilities of using artificial intelligence (AI) tools in the process of teaching programming. Based on research conducted in the context of Uzbekistan, the study explores adaptive exercises, automated assessment, large language models (LLMs), chatbots, and the individualization of the educational process. The article highlights how AI can enhance the effectiveness of programming education, improve student motivation, and increase the quality of learning outcomes.

Keywords: programming education, artificial intelligence, adaptive systems, automated assessment, ChatGPT.

KIRISH. Zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri o‘quvchilarda raqamli kompetensiyalarni, xususan dasturlash ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Dasturlash nafaqat texnik kasblar uchun, balki tanqidiy fikrlash, algoritmik tafakkur va muammoga yechim topish kabi umumiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ham muhim hisoblanadi. Biroq, an’anaviy ta’lim usullari orqali barcha o‘quvchilarning ehtiyoj va qiziqishlariga mos o‘qitish har doim ham imkoni bo‘lmaydi. Shu sababli ta’lim jarayonini individuallashtirish, avtomatlashtirish va optimallashtirish zamonaviy texnologiyalar yordamida amalga oshirilmoqda.

So‘nggi yillarda sun‘iy intellekt (SI) texnologiyalarining tez rivojlanishi ushbu muammolarga innovatsion yechim taklif qilmoqda. Katta til modellari (LLM), adaptiv o‘quv tizimlari, avtomatik baholash

platformalari va ta’limiy chatbotlar yordamida dasturlash ta’limi yanada samarali va moslashtirilgan holga kelmoqda. Dasturlashni o‘qitishda SI vositalaridan foydalanish o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash, individual mashqlar tayyorlash, real vaqtli izohlar berish, virtual yordam ko‘rsatish va o‘quv jarayonini monitoring qilish imkonini beradi.

O‘zbekiston ta’lim tizimi ham bu tendensiyadan chetda qolmagan. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida sun‘iy intellekt, raqamli texnologiyalar va dasturlashni maktabdan boshlab o‘rgatish vazifasi belgilangan. “Bir million o‘zbek dasturchisi” loyihasi orqali yuz minglab yoshlar onlayn platformalarda zamonaviy texnologiyalar bilan tanishmoqda. Shu bilan birga, maktab va kollejlar darajasida sun‘iy intellekt vositalarini ta’lim jarayoniga integratsiyalash tajribalari boshlangan.

Mazkur maqolada sun‘iy intellekt texnologiyalarining dasturlashni o‘qitishdagi afzalliklari, amaliy imkoniyatlari va muammolari ilmiy asosda tahlil qilinadi. O‘zbekiston ta’lim tizimidagi amaliy tajribalar va xalqaro tajribalar solishtirilib, ularning asosida pedagogik tavsiyalar shakllantiriladi. Asosiy e’tibor — AI vositalarining o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasiga, motivatsiyasiga va yakuniy natijalariga ta’sirini aniqlashga qaratiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. O‘zbekiston olimlari sun‘iy intellekt texnologiyalarini o‘quv jarayoniga integratsiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratmoqda. S. Normatov (2022) maktab o‘quvchilariga sun‘iy intellekt texnologiyalarini, xususan Python asosida mashinalarni o‘qitish dasturlarini o‘rgatish bo‘yicha metodik yondashuv ishlab chiqqan [1].

Abdujalilov J.A. (2023) Toshkentdagi umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida sun‘iy intellekt asoslari va robototexnika ta‘limiga doir holatni o‘rgangan. U o‘quvchilarni SIga bo‘lgan qiziqishi yuqoriligini, lekin o‘qituvchilarning yetarli tayyorgarligi yo‘qligini aniqlagan [3].

Normamatov X.M. (2025) oliy ta‘limda dasturlashni o‘qitishda duch kelinayotgan muammolar (eski o‘quv dasturlari, malakali kadrlar yetishmasligi) va ularni SI texnologiyalari orqali bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsatgan [4].

Xalqaro tadqiqotlarda ChatGPT va boshqa LLM asosida dasturlash bo‘yicha individual topshiriqlarni yaratish, avtomatik baholash va virtual yordamchilardan foydalanish samaradorligi yoritilgan [6], [7].

TAHLIL VA NATIJALAR. Sun‘iy intellekt texnologiyalari asosida yaratilgan katta til modellari (LLM), jumladan ChatGPT va Codex, dasturlashni o‘rganayotgan o‘quvchilarga individual yondashuv asosida moslashtirilgan mashqlarni yaratish imkonini beradi. Har bir o‘quvchining bilim darajasi, o‘zlashtirish tezligi, ilgari qilgan xatolari va ilgari bajargan topshiriqlari tahlil qilinib, shunga mos holda yangi mashqlar taqdim etiladi. Bu jarayon o‘quvchining faolligini oshiradi, motivatsiyasini mustahkamlaydi hamda bilimlar chuqurroq o‘zlashtirilishini ta'minlaydi. Shuningdek, o‘qituvchining vaqtini tejaydi, chunki mashqlarni tanlash va tahrirlash SI yordamida avtomatlashtirilgan bo‘ladi [6].

Dasturlash ta’limida o‘quvchilar ko‘plab kod yozadi va bu kodlarning har birini o‘qituvchi tomonidan baholash juda ko‘p vaqt talab qiladi. Sun‘iy intellekt bu muammoni hal etishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, o‘quvchi tomonidan yozilgan kodni ChatGPT kabi model avtomatik tahlil qiladi, xatoliklarni aniqlaydi, izohlar beradi va kerakli tuzatishlar bo‘yicha takliflar bildiradi. Bu real vaqt rejimida amalga oshirilgani uchun o‘quvchi o‘z xatolarini darhol ko‘rib chiqadi va tuzatishga harakat qiladi. Natijada ta’lim jarayoni iterativ, faol va tahliliy ruhda kechadi [7].

Sun‘iy intellekt asosidagi chatbotlar o‘quvchilar uchun doimiy yordamchi rolini o‘ynaydi. Bu chatbotlar oddiy savollarga javob berishdan tortib, murakkab kodlarni tushuntirish, darslik mazmunini soddalashtirish, misollar asosida tushuntirish va loyihaviy ishlar bo‘yicha yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishgacha bo‘lgan vazifalarni bajara oladi. Virtual yordamchilar esa test tuzishda, savollarni generatsiya qilishda va muammoga mos topshiriqlarni tavsiya etishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bunday yondashuv o‘quvchilarni o‘z bilimini mustaqil ravishda tekshirishga, yangiliklarni o‘zlashtirishga va tanqidiy fikrlashga undaydi [6].

O‘zbekistonda sun‘iy intellekt vositalaridan dasturlashni o‘qitishda foydalanish bo‘yicha ilk tajribalar ijobiy natijalar bermoqda. Toshkent shahri va Farg‘ona viloyatida olib borilgan tajriba loyihalarida AI asosida ishlab chiqilgan vositalar yordamida o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi va faolligi ortgani kuzatilgan. Abdujalilov J.A. (2023) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda o‘quvchilarning sun‘iy intellektga qiziqishi yuqori bo‘lib, ayniqsa dasturlash mashqlarida chatbotlardan foydalangan guruhlarda yuqori natijalar qayd etilgan [3].

Normatov S. (2022) esa Python asosida yaratilgan sun‘iy intellekt darslarining samaradorligini o‘rganib, bu darslar o‘quvchilarda analitik fikrlash, kreativlik va yechimga yo‘naltirilgan yondashuvni

shakllantirishga xizmat qilganini ta’kidlaydi [1]. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quvchilarning informatika va texnologiyaga bo‘lgan ishonchini oshirgan.

SI vositalarini darsga integratsiyalash muammolari Shunga qaramay, sun‘iy intellekt vositalarining samaradorligini to‘liq amalga oshirish uchun qator shart-sharoitlar zarur: birinchidan, o‘qituvchilarning AI texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha malakasi oshirilishi lozim. Ikkinchidan, maktab va kollejlar infratuzilmasi (kompyuterlar, internet tezligi, litsenziyalangan dasturiy ta’minot) yetarli bo‘lishi kerak. Uchinchidan, AI vositalarining o‘zbek tilidagi interfeyslari va lokal kontentga moslashtirilgan versiyalari ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq [4], [5].

Shu jihatlar hisobga olingan holda, AI texnologiyalari dasturlash ta’limining tarkibiy qismiga aylanishi mumkin.

XULOSA. Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish dasturlash ta’limi jarayonini tubdan o‘zgartirish imkonini bermoqda. ChatGPT, Codex, Gemini kabi katta til modellari orqali o‘quvchilarga moslashtirilgan mashqlar yaratish, avtomatik baholash, tezkor izohlar berish va individual yondashuvni ta’minlash mumkin bo‘lib qoldi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning faolligini oshiradi, bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi va o‘z-o‘zini baholash hamda mustaqil o‘rganishni rag‘batlantiradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, sun’iy intellekt asosidagi vositalar ta’limda nafaqat yordamchi, balki muhim pedagogik resursga aylanmoqda. Xususan, dasturlashni o‘rganishda o‘quvchilar ko‘proq amaliy tajribaga ega bo‘lishadi, chunki ularning xatolari tez tahlil qilinib, to‘g‘ri yo‘nalish beriladi. Bu esa o‘quvchilarning qobiliyatlariga mos rivojlanishiga va ularning ishonchli, faol, mustaqil fikrlaydigan mutaxassislar sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston tajribasi ham AI texnologiyalarining amaliy ahamiyatini tasdiqlamoqda. Maktab va kollejlar darajasida olib borilgan tajribalar o‘quvchilarning sun’iy intellektga bo‘lgan qiziqishi yuqori ekanini va bu vositalar yordamida o‘zlashtirish darajasi oshayotganini ko‘rsatdi. Biroq, bu imkoniyatlardan to‘liq foydalanish uchun ta’lim muassasalarining texnik infratuzilmasini yaxshilash, o‘qituvchilarning malakasini oshirish, o‘zbek tilidagi resurslarni ko‘paytirish zarur.

Shunday qilib, sun’iy intellektni dasturlash ta’limiga integratsiyalash — bu nafaqat innovatsion yo‘nalish, balki kelajakda sifatli va ommaviy dasturlash ta’limini tashkil etishning asosiy omillaridan biridir. Ushbu texnologiyalarni to‘g‘ri yo‘naltirish orqali O‘zbekiston ta’lim tizimi xalqaro raqobatga bardosh bera oladigan kuchli kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Normatov S. (2022). O‘quvchilarga sun‘iy intellekt dasturlarini yaratish texnologiyasini o‘rgatish. https://www.researchgate.net/publication/368757763_Oquvchilarga_suniy_intellekt_dasturlarni_yaratish_texnologiyasini_organish

2. Normatov S. (2024). Umumiy o‘rta ta‘limda zamonaviy texnologiyalar va sun‘iy intellektning ahamiyati. https://avloniy.uz/uz/scientific/umumiy-orta-talimda-zamonaviy-texnologiyalar-va-suniy-intellektning-ahamiyati

3. Abdujalilov J.A. (2023). Analysing the needs of learning AI in general secondary education of Uzbekistan. https://ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/904

4. Normamatov X.M. (2025). Challenges and Solutions in Teaching Programming: Uzbekistan Context. https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/view/3327

5. Kendjaeva D.K. (2025). Integration of AI into Higher Education in Uzbekistan. https://zenodo.org/records/15449459

6. Qureshi B. (2023). Exploring the Use of ChatGPT in Undergraduate CS Curriculum. https://arxiv.org/abs/2304.11214

7. Sajja et al. (2023). AIIA: Personalized adaptive assistant in higher education. https://arxiv.org/abs/2309.10892

8. CyberLeninka (n.d.). Ta‘lim jarayoniga sun‘iy intellekt texnologiyalarni joriy etish samaradorligi. https://cyberleninka.ru/article/n/ta-lim-jarayoniga-sun-iy-intellekt-texnologiyalarni-joriy-etishning-samaradorligini-oshirish

9. Owoc et al. (2021). AI Technologies in Education. https://arxiv.org/abs/2102.09365

10. Uzbekistan AI Paper Case Study. (2025). International Science Council. https://council.science/wp-content/uploads/2025/02/AI-Paper-Case-Study-Uzbekistan_V1.pdf..

PEDAGOGIKA VA TA’LIM OLISHNING ZAMONAVIY USULLARI

N.T.Sobirova
Namangan davlat pedagogika instituti 70110201- “Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(maktabgacha ta’lim)” mutaxassisligi 2-bosqich magistranti
Tel:(+99893-941-41-85) Elektron pochta(sobirova.nazokat94gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy pedagogika va ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan ilg‘or usullar, ularning samaradorligi hamda bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida raqamli ta’lim, STEAM texnologiyasi, interaktiv metodlar va loyiha asosida ta’lim olishning afzalliklari tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: Ta’lim,individual yondashuv , STEAM texnologiyasi ,raqamli ta’lim,interaktiv metodlar.

Abstract: This article discusses the advanced methods used in modern pedagogy and the educational process, their effectiveness, and their role in the comprehensive development of the personality of students. It also analyzes the advantages of digital education, STEAM technology, interactive methods, and project-based learning in preschool educational organizations.

Keywords: Education, individual approach, STEAM technology, digital education, interactive methods.

Аннотация: В статье будут рассмотрены передовые методы, используемые в современной педагогике и образовательном процессе, их эффективность и роль во всестороннем развитии личности учащихся. Также будут проанализированы преимущества цифрового обучения, STEAM-технологий, интерактивных методов и проектного обучения.

Ключевые слова: Образование, индивидуальный подход, STEAM-технологии, цифровое образование, интерактивные методы.

Ta’lim — bu insonning bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashi, intellektual va axloqiy jihatdan rivojlanishi jarayonidir.

Individual yondashuv — bu pedagogik atama bo‘lib, u ta’lim-tarbiya jarayonida har bir o‘quvchining shaxsiy xususiyatlari, ehtiyojlari, bilim darajasi, qobiliyati va rivojlanish sur’atlarini hisobga olib ishlashni anglatadi.

STEAM texnologiyasi — bu ta’lim jarayoniga fan (S), texnologiya (T), muhandislik (E), san’at (A) va matematika (M) yo‘nalishlarini integratsiyalash orqali o‘quvchilarda amaliy, tanqidiy va ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish, tajriba asosida o‘rganish va innovatsion yondashuvlarni shakllantiruvchi zamonaviy pedagogik texnologiyadir.

Raqamli ta’lim — bu ta’lim jarayonining raqamli texnologiyalar, internet tarmog‘i, elektron resurslar, mobil ilovalar va raqamli qurilmalar orqali tashkil etilishi.

Interaktiv metodlar — bu bolalarning faol ishtirokini, muloqotga kirishishini, mustaqil fikrlashini va o‘z fikrini asoslab berishini ta’minlovchi zamonaviy o‘qitish usullaridir.

XXI asr – raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar asridir. Ta’lim tizimi bu o‘zgarishlardan chetda qolmay, zamonaviy talab va ehtiyojlarga mos ravishda yangilanib bormoqda. Bugungi kunda an’anaviy o‘qitish usullari bilan bir qatorda interaktiv, integrativ va texnologik asoslangan metodlar keng qo‘llanilmoqda. Bu esa pedagogik faoliyatning sifatini oshirish va o‘quvchilarning shaxsiy salohiyatini to‘liq namoyon qilishga xizmat qilmoqda. “Maktabgacha ta’limda sifat o‘zgarishlari ro‘y bermoqda” Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2023-yil 30-oktabrda ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida maktabgacha ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni alohida e’tirof etgan.Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.09.2024-yildagi PF-152-son Farmonida Maktabgacha ta’lim tashkilotlarda zamonaviy metodikalar joriy etilayotgani, bolalar uchun qulay muhit yaratilayotgani va pedagoglarning malakasini oshirishga e’tibor qaratilayotganini ta’kidlagan.

Pedagogika va ta’lim olishning zamonaviy usullari maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash, ularning qiziqishlari va ehtiyojlariga moslashishga qaratilgan.

Quyida Maktabgacha ta’lim tashkilotida qo‘llaniladigan ba’zi zamonaviy usullar keltiriladi:

O‘yin orqali ta’lim:

- O‘yin bolalarni faol ishtirok etishga undaydi va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Masalan, rol o‘yinlari, konstruktiv o‘yinlar yoki didaktik o‘yinlar orqali bolalar matematik tushunchalar, ijtimoiy ko‘nikmalar va tilni o‘rganadi.

- Misol: “Do‘kon” o‘yini orqali bolalar hisoblashni va ijtimoiy muloqotni o‘rganadi.

➢ loyihaviy faoliyat:

- Bolalar guruhlarda bir mavzu bo‘yicha loyiha ishlab chiqadi (masalan, “Tabiatni asrash”). Bu ularning hamkorlikda ishlash, muammolarni hal qilish va tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

- Masalan, bolalar bog‘chada kichik bog‘ tashkil qilib, o‘simliklarni parvarish qilishni o‘rganadi.

➢ Raqamli texnologiyalardan foydalanish:

- Interaktiv doskalar, ta’lim dasturlari va mobil ilovalar yordamida bolalarga bilim vizual va qiziqarli tarzda yetkaziladi. Masalan, bolalar uchun mo‘ljallangan o‘quv ilovalari (ABCmouse, Lingokids) so‘z boyligini oshirishga yordam beradi.

- E’tibor: Texnologiyalardan foydalanish cheklangan vaqt ichida bo‘lishi kerak, chunki Maktabgacha ta’lim tashkilotida da asosiy e’tibor faol o‘yin va muloqotga qaratiladi.

➢ Individual yondashuv:

- Har bir bolaning qobiliyati va qiziqishlariga mos darslar tashkil qilinadi. Masalan, ba’zi bolalar uchun qo‘shimcha ijodiy mashg‘ulotlar, boshqalar uchun esa nutqni rivojlantirish darslari taklif etiladi.

- Differensial ta’lim usullari orqali bolalarning o‘ziga xos ehtiyojlari hisobga olinadi.

➢ STEAM yondashuvi:

- STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) bolalarni fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika sohalarida tajriba o‘tkazishga undaydi. Masalan, oddiy robot yasash yoki tabiat hodisalarini kuzatish orqali bolalar ijodiy va tanqidiy fikrlashni o‘rganadi.

➢ Montessori va Valdorf usullari:

- Montessori: Bolalarga o‘z-o‘zini o‘rganish va mustaqil ravishda tanlov qilish imkoniyati beriladi. Masalan, maxsus Montessori materiallari (masalan, yog‘och bloklar) orqali hisoblash va motorikani rivojlantirish.

- Valdorf: San’at, musiqa va tabiat bilan bog‘liq faoliyatlarga e’tibor qaratiladi. Masalan, ertak aytib berish va qo‘l ishlari orqali tasavvur rivojlantiriladi.

➢ Ijtimoiy-emotsional ta’lim (SEL):

- Bolalarga his-tuyg‘ularini boshqarish, empatiya va hamkorlik ko‘nikmalari o‘rgatiladi. Masalan, guruhda “Do‘stlik” mavzusida suhbatlar o‘tkazish yoki his-tuyg‘ularni ifodalashga yordam beradigan mashqlar.

➢ Integratsiyalashgan ta’lim:

- Turli fanlar birlashmasi orqali bilim beriladi. Masalan, matematika va san’atni birlashtirib, bolalar shakllarni o‘rganish uchun rangli naqshlar chizadi.

Xulosa: Maktabgacha ta’lim tashkilotlarda zamonaviy ta’lim usullari bolalarni faol, ijodiy va mustaqil bo‘lishga undaydi. Ushbu usullar bolaning shaxsiy xususiyatlariga moslashtirilgan bo‘lib, ularning o‘quv jarayoniga qiziqishini oshiradi va kelajakda muvaffaqiyatli ta’lim olish uchun poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020 yil 23- sentyabr.O‘RQ-637-son
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.09.2024-yildagi PF-152-son Farmoni.
3. Toxtaxodjaeva M.T. – “Zamonaviy pedagogik texnologiyalar”, Toshkent, 2020.
4. Qodirova N.S. – “Pedagogik mahorat”, Samarqand, 2022.
5. STEAM Education Guide – UNESCO Publications, 2023.

O‘TKIR HOSHIMOV NASRIDA MA’NAVIYAT QO‘RG‘ONI VA VIJDON MEZONI

B.N.Isakova
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Farg‘ona akademik litseyi Tillarni o‘rganish kafedrasi bosh o‘qituvchisi, Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi barchinoyisakova89@gmail.com

Annotatsiya Ushbu maqola O‘tkir Hoshimov nasrining fundamental konsepsiyalari, ya’ni “ma’naviyat qo‘rg‘oni” va “vijdon mezoni” tushunchalarining badiiy tahliliga bag‘ishlangan. Maqolada ma’naviyat qo‘rg‘oni shaxsni tashqi ma’naviy tahdidlardan himoya qiluvchi, milliy qadriyatlarga (mehr-oqibat, oila, iymon) asoslangan ichki istehkom sifatida talqin qilinadi. Vijdon mezoni esa bu qo‘rg‘on ichidagi eng oliy sudya sifatida tahlil etilib, uning hukmi – vijdon azobi – qahramonlar taqdiridagi eng og‘ir jazo ekani ko‘rsatiladi. Tahlil “Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar” va “Dunyoning ishlari” asarlari misolida olib boriladi. Maqolada adib uchun inson fojiasi tashqi mag‘lubiyatda emas, balki aynan shu ma’naviy qo‘rg‘onning qulashi va vijdonni yo‘qotishda namoyon bo‘lishi ilmiy asoslanadi.

Аннотация Данная статья посвящена художественному анализу фундаментальных концепций прозы Уткира Хошимова, а именно понятий «крепость духовности» и «критерий совести». В статье «крепость духовности» трактуется как внутренняя цитадель, основанная на национальных ценностях (таких как сострадание, семья и вера), которая защищает личность от внешних духовных угроз. «Критерий совести» анализируется как высший судья внутри этой крепости, а его приговор – муки совести – показан как самое суровое наказание в судьбах героев. Анализ проводится на примере произведений «Меж двух дверей», «Жизни, прожитые во сне» и «Дела земные». В статье научно обосновывается, что для писателя трагедия человека проявляется не во внешнем поражении, а именно в крушении этой духовной крепости и потере совести.

Abstract This article provides an artistic analysis of the fundamental concepts in Utkir Hoshimov's prose, namely the "fortress of spirituality" and the "criterion of conscience." The fortress of spirituality is interpreted as an inner bastion based on national values (such as compassion, family, and faith) that protects the individual from external spiritual threats. The criterion of conscience, in turn, is analyzed as the supreme judge within this fortress, and its verdict—the torment of conscience—is shown to be the most severe punishment in the characters' fates. The analysis is conducted using the examples of the works *Between Two Doors*, *Lives Lived in a Dream*, and *The Affairs of the World*. The article argues that for the author, human tragedy is manifested not in external defeat, but precisely in the collapse of this spiritual fortress and the loss of conscience.

Kalit so‘zlar: ma’naviyat qo‘rg‘oni, vijdon mezoni, psixologik tahlil, axloqiy tanlov, vijdon azobi, milliy qadriyatlar, mehr-oqibat.

Ключевые слова: крепость духовности, критерий совести, психологический анализ, нравственный выбор, муки совести, национальные ценности, сострадание.

Keywords: fortress of spirituality, criterion of conscience, psychological analysis, moral choice, torment of conscience, national values, compassion.

KIRISH. XX asr o‘zbek adabiyoti xaritasida O‘tkir Hoshimov o‘zining betakror uslubi, inson qalbining eng nozik va pinhoniy kechinmalarini teran his qila olishi bilan alohida mavqega ega. Uni haqli ravishda “inson qalbining bilimdoni” [6. 2007:B.112], “ma’naviyat jarrohi” deya e’tirof etishadi. Uning asarlari shunchaki voqealar bayonidan iborat emas, balki murakkab va ziddiyatli davrlar (urush va urushdan keyingi yillar, sovet tuzumining ma’naviy-axloqiy inqirozi, mustaqillik arafasidagi izlanishlar) fonida oddiy insonning o‘z “men”ini, o‘z ma’naviy qiyofasini saqlab qolish uchun olib borgan tinimsiz kurashi tasviridir. Bu kurashning markazida esa adibning ikki fundamental konsepsiyasi – ma’naviyat qo‘rg‘oni va vijdon mezoni turadi.

“Ma’naviyat qo‘rg‘oni” – bu shaxsning tashqi dunyoning ma’naviy tahdidlari, axloqiy yemirilishlari va ijtimoiy bosimlariga qarshi o‘z ichki olamida barpo etgan himoya istehkomidir. Bu qo‘rg‘onning poydevorini mehr-oqibat, iymon, halollik, oila muqaddasligi kabi milliy-axloqiy qadriyatlar tashkil etadi. “Vijdon mezoni” esa ana shu qo‘rg‘on ichidagi eng oliy sudya, har bir xatti-harakatni, fikr va hatto niyatni ham o‘lchaydigan, hukm chiqaradigan adolat tarozusidir. O‘tkir Hoshimov ijodining asosiy pafosi ana shu ma’naviyat qo‘rg‘onining mustahkamligi va vijdon mezonining o‘tkirligi bilan belgilanadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi – O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar”, “Dunyoning ishlari” kabi nasriy asarlari misolida “ma’naviyat qo‘rg‘oni” va “vijdon mezoni” konsepsiyalarining badiiy ifodasini, uning qahramonlar taqdiridagi hal qiluvchi rolini tahlil qilishdir. Maqolada ushbu ikki tushunchaning o‘zaro aloqadorligi va adib ijodining falsafiy-axloqiy asosini tashkil etishi ochib beriladi.

ASOSIY QISM

1. “Ma’naviyat qo‘rg‘oni” – Insoniylikni asrash istehkomi

O‘tkir Hoshimov nasrida inson doimo sinovlar qarshisida turadi. Bu sinovlar ochlik, muhtojlik kabi jismoniy mashaqqatlar bo‘lishi mumkin, ammo adib uchun eng dahshatlisi – ma’naviy sinovlardir. Urush, adolatsizlik, mansabparastlik, mehrsizlik kabi ijtimoiy illatlar insonning ma’naviyat qo‘rg‘oniga tinimsiz hujum qilib turadi. Bu qo‘rg‘onning mustahkamligi esa uning poydevorini tashkil etuvchi ustunlarga bog‘liq.

Mehr-oqibat – qo‘rg‘onning asosiy poydevori. Adib ijodining leytmotiviga aylangan mehr tushunchasi “Dunyoning ishlari” qissasida o‘zining yuksak badiiy ifodasini topgan. Asardagi Ona obrazi – bu mehr va fidoyilikning timsolidir. Uning farzandlari uchun qilgan oddiy, lekin samimiy harakatlari (non yopishi, bolasining yo‘liga intizor bo‘lishi) aslida ularning ma’naviyat qo‘rg‘onini mustahkamlovchi g‘ishtlardir. Ona mehri orqali Hoshimov insonni har qanday yovuzlikdan asrab qoluvchi eng qudratli kuch bu – shartsiz va beg‘araz sevgidir, degan g‘oyani ilgari suradi [2. 2010:B.45]. “Ikki eshik orasi”da ham qo‘shnilarning bir-biriga bo‘lgan mehr-oqibati urushning sovuq nafasi oldida ularni bir-biriga suyanchiq bo‘lib turishga undaydi.

Oila va mahalla – qo‘rg‘onning devorlari. Hoshimov qahramonlari hech qachon jamiyatdan uzilgan individualistlar emas. Ular oila, mahalla-ko‘y deb atalgan ijtimoiy institutning ajralmas a’zolaridir. “Ikki eshik orasi” romanidagi bir hovlida yashovchi bir necha oilaning taqdiri butun bir xalqning umumiy fojiasiga aylanadi. Bu hovli – o‘ziga xos ma’naviyat qo‘rg‘onidir. Ammo aynan shu muhit qahramonlarni tarbiyalaydi, ularning kimligini ochib beradi. Oila va mahalla oldidagi mas’uliyat hissi ko‘plab qahramonlarni axloqsizlik botqog‘iga botishdan saqlab qoladi [5. 2008:B.89].

Iymon va halollik – qo‘rg‘onning posbonlari. Adib qahramonlari ko‘pincha oddiy, sodda, ammo iymoni butun insonlardir. Ular katta mansablarga intilmaydi, boylik ketidan quvmaydi. Ular uchun eng muhimi – halol yashash. “Ikki eshik orasi”dagi Oysara yoki Robiya obrazlari bunga yaqqol misol. Ularning tashqi ko‘rinishi zaif, ammo ichki dunyosi, ma’naviyat qo‘rg‘oni mustahkam. Chunki bu qo‘rg‘onni ularning pok vijdoni va mustahkam iymoni qo‘riqlab turadi.

2. “Vijdon mezoni” – Ichki sud va eng oliy jazo

Agar ma’naviyat qo‘rg‘oni insonning himoya qal’asi bo‘lsa, vijdon ana shu qal’aning ichidagi eng adolatli va shafqatsiz sudyadir. O‘tkir Hoshimov ijodining markazida “vijdon azobi” tushunchasi turadi. Uning qahramonlari qonun oldidagi jazodan, odamlarning gap-so‘zidan qo‘rqishidan ko‘ra, o‘z vijdoni oldidagi hisobotdan ko‘proq qo‘rqadi.

Gunoh va jazo muvozanati. Hoshimov nasrida jazo ko‘pincha tashqaridan kelmaydi, u insonning ichidan, uning vijdonidan boshlanadi. Bunga eng yorqin misol – “Ikki eshik orasi” romanidagi Kimsan polvon obrazidir. Urushda bir lahzalik qo‘rquv tufayli do‘stini dushmanlarga tashlab ketadi. Uning bu gunohini hech kim bilmaydi, hech kim uni ayblamaydi. Ammo u bir umr o‘z vijdoni mahkamasida sudlanadi. Har bir shovqin, har bir sharpadan cho‘chishi, tushlarida halovat yo‘qotishi – bu uning vijdon azobidir [4. 2015:B.215]. Adib bu obraz orqali eng katta jazo – bu insonning o‘z vijdoni oldidagi abadiy qarzdorlik hissidir, degan falsafiy xulosaga keladi. Kimsan polvonning ma’naviyat qo‘rg‘oni birgina xato tufayli qulagan va uning ichi umrbod vijdon azobi bilan to‘lgan vayronaga aylangan.

Befarqlik – vijdonning o‘limi. Adib uchun eng og‘ir gunohlardan biri bu – befarqlik, loqaydlikdir. “Tushda kechgan umrlar” romanidagi ko‘plab amaldorlar, jamiyat a’zolari Afg‘on urushidan ma’nan nogiron bo‘lib qaytgan Rustamning fojiasiga befarq qaraydi. Bu befarqlik ularning vijdon mezonlari ishlamay qolganidan, ma’naviyat qo‘rg‘onlari bo‘m-bo‘sh ekanligidan dalolat beradi. O‘tkir Hoshimov loqaydlikni vijdonning o‘limi va ma’naviyatning tanazzuli deb biladi [3. 2011:B.301]. Rustamning fojiasi nafaqat urushning, balki ana shunday vijdonsiz jamiyatning ham mahsulidir.

3. Qo‘rg‘onning yemirilishi: Fojiaviy taqdirlar tahlili

O‘tkir Hoshimov asarlarida ma’naviyat qo‘rg‘oni mustahkam bo‘lmagan yoki tashqi zarbalar ostida yemirilgan qahramonlarning fojiaviy taqdirlari ham mahorat bilan tasvirlanadi. Bu orqali adib o‘z g‘oyasini yanada teranroq ochib beradi.

“Tushda kechgan umrlar” romanining bosh qahramoni Rustam ma’naviyat qo‘rg‘oni tashqi kuchlar tomonidan vayron qilingan shaxs timsolidir. U urushga pokiza, orzu-umidlarga to‘la yigit bo‘lib ketadi. Ammo urushning dahshatlari, begunoh odamlarning o‘limiga guvoh bo‘lish, o‘zining ham qotillikka majbur bo‘lishi uning ichki dunyosini ostin-ustun qiladi. Uning ma’naviyat qo‘rg‘oni Afg‘onistonning dashtlarida qolib ketadi. Urushdan qaytgan Rustam o‘z vatanida, o‘z uyida o‘zini begona his qiladi. Uning vijdoni tinimsiz azob beradi, urush xotiralari uni tinch qo‘ymaydi. Natijada, ichki qo‘rg‘oni vayron bo‘lgan bu shaxs ma’naviy halokatga uchraydi. Uning o‘z joniga qasd qilishi – bu vayron bo‘lgan qalbning so‘nggi, fojiaviy hayqirig‘idir [3. 2011:B.455].

“Ikki eshik orasi”dagi rais yoki boshqa ba’zi salbiy obrazlar esa ma’naviyat qo‘rg‘onini boylik, mansab kabi soxta qadriyatlar ustiga qurishga uringan kishilardir. Ular vijdon mezonidan emas, balki shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqib ish tutadilar. Adib ularning tashqi muvaffaqiyatlari ortida chuqur ma’naviy qashshoqlik yashiringanini ko‘rsatib beradi. Ular tirik bo‘lsalar-da, vijdonlari o‘likdir.

4. Adib uslubi: Vijdon tasviridagi badiiy mahorat

O‘tkir Hoshimov “ma’naviyat qo‘rg‘oni” va “vijdon mezoni” kabi murakkab falsafiy tushunchalarni o‘quvchiga yetkazishda o‘ziga xos badiiy vositalardan unumli foydalanadi.

Psixologik detal: Adib qahramonlarining ichki kechinmalarini, vijdon azobini bevosita tasvirlashdan ko‘ra, uni psixologik detallar orqali ifodalashga mohir. Masalan, Kimsan polvonning doimiy bezovtaligi, qo‘llarining titrashi, uyqusida alahsirashi uning qalbidagi bo‘ronni so‘zsiz ifodalab beradi. Bu usul adabiyotshunos I. G‘afurov tomonidan “so‘z ortidagi ma’no” deb ataladi [1. 2003:B.78].

Sodda va samimiy til: Adibning tili xalq tiliga juda yaqin, sodda va samimiy. U balandparvoz iboralardan, murakkab jumlalardan qochadi. Bu esa qahramonlarning kechinmalarini, ularning oddiy, ammo teran falsafasini o‘quvchiga yanada yaqinlashtiradi. Ayniqsa, “Dunyoning ishlari” qissasidagi tilning tabiiyligi o‘quvchini bevosita voqealar ishtirokchisiga aylantiradi [2. 2010:B.90].

Ichki monolog: Hoshimov qahramonlari ko‘pincha o‘z-o‘zlari bilan suhbatlashadilar. Ularning ichki monologlari – bu vijdon sudining bevosita jarayonidir. Qahramon o‘zini o‘zi ayblaydi, oqlaydi, savollarga javob izlaydi. Bu usul orqali adib o‘quvchini qahramonning qalb qa’riga olib kiradi va uning fojiasini ich-ichidan his qilishga majbur etadi.

XULOSA. O‘tkir Hoshimov ijodini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, adib uchun insonning qiymati uning boyligi, mansabi yoki jismoniy kuchi bilan emas, balki uning ma’naviyat qo‘rg‘onining butunligi va vijdon mezonining o‘tkirligi bilan o‘lchanadi. Uning ijodi – bu insoniylik uchun kurash manifestidir.

Maqolada olib borilgan tahlillar quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

- O‘. Hoshimov nasrida “ma’naviyat qo‘rg‘oni” shaxsning axloqiy o‘zagini tashkil etuvchi himoya tizimi bo‘lib, u mehr-oqibat, oila, iymon kabi milliy qadriyatlarga asoslanadi.
- “Vijdon mezoni” esa bu qo‘rg‘on ichidagi eng oliy sudya bo‘lib, insonning barcha harakatlari uning hukmi bilan baholanadi. Vijdon azobi – eng oliy jazodir.
- Adib uchun insonning fojiasi tashqi mag‘lubiyatda emas, balki uning ma’naviyat qo‘rg‘onining qulashida, vijdonini yo‘qotishida namoyon bo‘ladi.
- O‘tkir Hoshimov o‘zbek nasrida psixologik tahlilni yangi bosqichga olib chiqib, inson ruhiyatining eng chuqur qatlamlariga kirib bordi va vijdon tushunchasini o‘z ijodining bosh falsafiy-axloqiy mezoniga aylantirdi.

Bugungi globallashuv va moddiylik birinchi o‘ringa chiqayotgan bir davrda O‘tkir Hoshimovning o‘z ma’naviyat qo‘rg‘onini asrashga va vijdon ovoziga quloq tutishga bo‘lgan da’vati har qachongidan ham dolzarbroq jaranglaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. G‘afurov, I. (2003). *Mangu latofat*. Toshkent: Sharq.
2. Hoshimov, O‘. (2010). *Dunyoning ishlari*. Qissa. Toshkent: “Sharq”.
3. Hoshimov, O‘. (2011). *Tushda kechgan umrlar*. Roman. Toshkent: “Sharq”.
4. Hoshimov, O‘. (2015). *Ikki eshik orasi*. Roman. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
5. Karimov, N. (2008). *XX asr o‘zbek adabiyoti manzaralari*. Toshkent: “O‘zbekiston”.
6. Normatov, U. (2007). *Iste’dod sehri*. Toshkent: “Sharq”.
7. Quronov, D. (2018). *Adabiyotshunoslikka kirish*. Toshkent: "Akademnashr".

MAXSUS MAKTAB-INTERNATLARIDA O‘QUVCHILARNI MAQSADLI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH JARAYONI XUSUSIDA

Sh.A.Xidirov
Jizzax viloyati “Nurli maskan” maxsus maktab-internati defektologi +998933065374

Annotatsiya. Mazkur maqolada maxsus maktab internatlarida tahsil oluvchi o‘quvchilarni ma’lim kasblarga yo‘naltirish xususida so‘z yuritiladi. Shuningdek, bu jarayonda xorij tajribasi va milliy qadriyatlarga asoslangan ta’lim yondashuvi, usullar haqida ham ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Kasbga yo‘naltirish, kompetentlik, layoqat, moyillik, kasb, hunar, standartlashtirish, ko‘nikma, iqtidor.

Аннотация. В статье рассматривается проблема ориентации учащихся специальных школ-интернатов на педагогические профессии. Приводится информация о зарубежном опыте и образовательных подходах, основанных на национальных ценностях.

Ключевые слова: Профессиональная ориентация, компетентность, склонность, склонность, профессия, ремесло, стандартизация, мастерство, талант.

Annotation. This article discusses the orientation of students studying in special boarding schools to educational professions. It also provides information on foreign experience and educational approaches based on national values.

Keywords: Vocational guidance, competence, aptitude, inclination, profession, craft, standardization, skill, talent.

XXI asrda jahon miqyosida ta’lim barqaror taraqqiyotni ta’minlovchi asosiy omil sifatida e’tirof etilib, YUNESKO tomonidan 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta’lim konsepsiyasida “o‘qitish va kasbga tayyorlashda, turli xil ta’lim olish imkoniyatlarini kuchaytirish va kengaytirish”[1] dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Bu o‘quvchilarni kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorgarligini oshirish va ularning kasb tanlashga oid tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnologiyalaridan foydalangan holda yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Jamiyatda ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik yo‘nalishi – bu insonning turli sohalarida maqsadli mustaqil faoliyati asosida uning intelekt va ahloqiy rivojlanishidir. Jahonning rivojlangan davlatlari qatori mamlakatimizda ham ta’limdagi islohotlar jarayonida mustaqil ta’limni rag‘batlantirish muhim yo‘nalish sifatida kelmoqda. Pedagogning kasbiy layoqatliligini tarbiyalash fenomenini tadqiq qilishga bir qator olimlarning ishlarida o‘z ifodasini topgan. Bu mualliflar kasbiy layoqatlilik – ishonchlilik sifatlari bilan birgalikda o‘qituvchining kasbiy – individual hodisa sifatida pedagogik madaniyatini tavsiflaydi degan fikrni olg‘a surganlar. O‘z navbatida, kasbiy layoqatlilik tushunchasi, V.A.Slastenin ta’kidlaganidek, pedagogning pedagogik faoliyatini amalga oshirishga nazariy hamda amaliy tayyorligining birligini ifodalaydi va uning kasbiy shakllanganligini tavsiflaydi. Ma’lumki, har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy barqarorligi uning faqarolarining aqliy jihatdan yetukligi va axloqiy salohiyatining yuksak darajada rivojlanganligiga bog‘liq. Asrlar davomida saqlanib kelinayotgan xalqning boy intelektual merosi hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida madaniyat, ma’rifat, fan-texnologiya va iqtisodiyotning yangi yutuqlari asosida mukammal tayyorgarlikdan o‘tgan kadrlarni tayyorlashning yangi tizimini shakllantirish O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyotining muhim shartlaridan biridir.

Jamiyatda ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik yo‘nalishi – bu insonning turli sohalarida maqsadli mustaqil faoliyati asosida uning intelekt va ahloqiy rivojlanishidir. Jahonning rivojlangan davlatlari qatori mamlakatimizda ham ta’limdagi islohotlar jarayonida mustaqil ta’limni rag‘batlantirish muhim yo‘nalish sifatida kelmoqda. Pedagogning kasbiy layoqatliligini tarbiyalash fenomenini tadqiq qilish bir qator olimlarning ishlarida o‘z ifodasini topgan. Bu mualliflar kasbiy layoqatlilik – ishonchlilik sifatlari bilan birgalikda o‘qituvchining kasbiy – individual hodisa sifatida pedagogik madaniyatini tavsiflaydi degan fikrni olg‘a surganlar. O‘z navbatida, kasbiy layoqatlilik tushunchasi, V.A.Slastenin ta’kidlaganidek, pedagogning pedagogik faoliyatini amalga oshirishga nazariy hamda amaliy tayyorligining birligini ifodalaydi va uning kasbiy shakllanganligini tavsiflagan.

Kasblar bo‘yicha birlamchi bilim, ko‘nikmalarni shakllantirish uchun professional tashxislash va kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha choralar amalga oshirilmoqda. Bu borada mamlakatimizda “O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazi” tashkil etilgan[2]. Bu

markaz O‘zbekiston Republikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida ko‘zda tutilgan jamiyat ehtiyoji va mehnat bozori talablari asosida o‘quvchilarning o‘z qiziqishlari, qobiliyatlari va sog‘liqlariga mos bo‘lgan kasb-hunarlarni tanlashlariga ko‘maklashadi. Ushbu markaz o‘quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik tashxis sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va o‘rnatilgan tartibga amalga oshirish, O‘zbekiston Respublikasi *maktabgacha* va *maktab* ta’limi vazirligining kasb-hunarga yo‘naltirish respublika tizimini tashkiliy, ilmiy-metodik, axborot-ma’lumot va dasturiy ta’minlash maqsadida tashkil etilgan. Kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik tashxis ishlari holatini nazorat qilish, uni takomillashtirish choralarini ko‘rish, tegishli dasturlar, me’yoriy hujjatlar va tavsiyalar ishlab chiqish, mamlakatimizdagi va xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarini umumlashtirish, ommalashtirish va hayotga tadbiq etish, barcha bosqichdagi o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik hududiy tashxis markazlari va ta’lim muassalaridagi kasb-hunarga yo‘naltirish vazifasi yuklatilgan mutaxassislarning malakasini oshirish bo‘yicha chora tadbirlar ishlab chiqish, umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarining hayotiy va kasbiy o‘zligini anglash borasidagi ustuvor dasturlar va muammolar bilan ishlash respublika tashxis markazining eng muhim vazifalaridan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi qonunda ham o‘quvchi yoshlarning kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlarda o‘zlari tanlagan kasb va mutaxasislik asosida ta’lim olishi belgilab qo‘yilgan[3]. So‘nggi yillarda mamlakatimizda ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda o‘qituvchi va pedagog xodimlarga, ilmiy va ijodkor ziyolilarga bo‘lgan hurmat e’tiborni yanada oshirish, o‘quvchilarning kasbiy mahoratlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim, tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to‘grisida” gi farmoniga asosan 2021-2022 o‘quv yilidan boshlab umumta’lim muassasalari bitiruvchilari o‘z iqtidori va qiziqishlariga mos kasbni tanlab olishi, jamiyatda munosib o‘z o‘rnini topishi, kasbiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonishi uchun “ Kasbga yo‘naltirish tizimi” joriy etilgan[4]. Mazkur farmonda 7-8-9 sinfdan boshlab o‘quvchilar o‘rtasida interaktiv so‘rovnomalar o‘tkazish, kasb- hunarga bo‘lgan qiziqishlarini aniqlash, o‘quvchilar bilan birgalikda har oyda bir marta “kasblar olamiga sayohat” mavzusida maxsus kurslar olib borilishi to‘g‘risida aytilgan. Interaktiv so‘rovnomalar orqali o‘quvchilarning qiziqish sohalari o‘rganilib, tahlil qilinadi va shu asnoda kasbga yo‘naltirib boriladi. Kasb tanlash inson hayotidagi eng muhim qadamdir. Interaktiv so‘rovnomalar va amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilar kasb tushunchasi va kasblar haqidagi savollarga javob topadilar. Kelajakda egallamoqchi bo‘lgan kasblari haqida tasavvurga ega bo‘la boshlaydilar. O‘quvchilarning tanlagan kasblari ularning qobiliyatlari, qiziqishlari, xarakter xususiyatlariga mos bo‘lishi lozim. Chunki tanlangan kasb faqat ularning o‘zlarigagina emas, balki jamiyatga ham foyda keltirishi kerak. Ye.A. Klimov o‘z ishlarida bu borada bir necha ta'riflarni ilgari suradi. Jumladan "Kasb jamiyat uchun zarur va qadriyatli soha bo‘lib, bunda insondan jismoniy va ruhiy kuch talab etadi", - bu kuchlar unga sarflangan mehnat o‘rniga yashashi va rivojlanishi uchun muhim vositalar omili sifatida namoyon bo‘ladi.

Hozirgi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktab muassasalarida va maxsus maktab internatlarida faoliyat olib borayotgan amaliyotchi psixologlar maktab o‘quvchilari bilan kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish borasida turli xil so‘rovnomalar, masalan, “maktabdagi kasblar”, “mening kelajagim” nomli so‘rovnomalar, “kasb tiplarini aniqlash” savolnomalari, “kasblar zanjiri” kabi amaliy mashg‘ulotlar olib borilmoqda. Shular bilan bir qatorda, maktab o‘quvchilariga tanlangan kasbga shaxsning moyilligi, layoqati va zarur bo‘lgan sifatlariga oid ma’lumotlar ham berib boriladi.

Yuqori sinf o‘quvchilari bilan ham kasbga yo‘naltirishga doir bir qancha mashg‘ulotlar ularning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tanlanadi. Shuningdek maxsus maktab internatlarida ham o’quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlaridan kelib chiqib so’rovnomalar o’tkaziladi va ular o’z qiziqishlaridan kelib chiqib kasb-hunarga yo’naltiriladi. O‘quvchilarning kasblarga doir fikrlari tinglaniladi. Bundan tashqari o‘quvchilarning kasbiy moyilligi bo‘yicha o‘tkazilgan pedagogik-psixologik tashxislar natijalari asosida kelgusida aniq kasblar bo‘yicha kasb maktablarida ta’lim olishi mumkin bo‘lgan o‘quvchilar o‘rtasida kasbga yo‘naltirish ishlari olib boriladi.

O‘smirlarni o‘rganilayotgan kasbga qiziqishini shakllantirish jarayonida ularning e'tiborligini ifodalaydigan materiallarni tavsiflaydigan holatlar kuzatiladi. Shuningdek kasbiga qiziqishini shakllantirishni ta'minlaydigan intelektual komponentlarning tarkibiy qismlarini aniqlashda quyidagilarga alohida e'tibor berish lozim:

-Analiz va sintez;

-Diqqat va kuzatuvchanlik;

-Ajratish va umumlashtirish;

-Klassifikatsiyalash va isbotlash kabilarga.

Hozirgi paytda, Harrison Assessments usuli bo‘yicha kasbga yo‘naltirish O‘zbekistondagi birinchi va noyob kasbga yo‘naltirish usuli bo‘lib, u sizga farzandingiz uchun qaysi mutaxassislikni tanlashni va qaysi kuchli tomonlarini rivojlantirishni aniqlashga yordam beradi.

Kasbga yo‘naltirish maqsadi shaxsning ma’lum bir kasbiy faoliyat yo‘nalishiga moyilligini aniqlashdir. Ushbu amaliyot har bir bola iste’dodli va ma’lum bir sohada o‘z iste’dodini tatbiq eta oladi degan fikrga asoslanadi. Kasbga yo‘naltirishning turli xil usullari mavjud - kelajakdagi kasbni tanlashda duch keladigan o‘spirin bilan uning qiziqishlari va sevimli mashg‘ulotlarini muhokama qiladigan mutaxassislar bilan suhbatlar, shuningdek, standartlashtirilgan usullar mavjud, ularning natijalari kuchli va zaif tomonlarini tushunishga imkon beradi. Shuningdek maxsus-maktab internatlarida o’quvchilarning imkoniyat darajalari ham hisobga olinishi bu kabi muassasalarda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishni va ularni ma’lum kasbga doir qiziqishlarini ochib berishning muhum omili bo’lib hisoblanadi[5]. O‘spirinlar kasb tanlash to‘g‘risida yaqqol tasavvurga ega bo‘lmaganliklari boisidan ko‘proq xatoga yo‘l qo‘yadilar. Tanlagan yoki tanlanishi zarur bo‘lgan kasb undan qanday shaxs fazilatlarini talab qilishini tushunib yetmaydilar. Ular o‘z layoqatlarini oqilona baholashga qurbi yetmaganligi uchun u yoki bu kasbni egallaganda qanday tezlikda va aniqlikda harakat qilishlikni, sezish va idrok qilish xususiyatlarini, asab tizimini muvofiqlashishi mumkinligini bilmaydilar. Maxsus-maktab internatlarida esa o’quvchilar ma’lum kasbga doir muammolar ularni o’z imkoniyat darajasiga qanchalik mosligi, kelajakda kasbiy faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo’lgan qiyinchiliklar haqida tasavvurga ega bo’la olmaydilar. Biroq hozirgi davrda bunday ko‘ngilsiz holatlarning oldini olish imkoniyatlari mavjud bo‘lib, buning uchun quyidagi pedagogik-psixologik va ijtimoiy xususiyatni umumiy tomonlariga alohida e’tibor berish maqsadga muvofiq.

1. Kasblarni o‘rgatish metodlarini ishlab chiqish, ularni klassifikatsiyalash va lo‘nda qilib ifodalash;

2. O‘qituvchining kasb-hunarlar yuzasidan tashviqot ishlari olib borishi;

3. Yoshlarni kasbning asosiy guruhlari bilan yaqindan tanishtirish;

4. Mehnat ta’limi darslarida o‘quvchilarda dastlabki kasbga tayyorgarlikni yuzaga keltirish va unga nisbatan mehr-muhabbat uyg‘otish;

5. Psixo diagnostik va kasb tanlashga doir metodlarni amaliyotga tadbiq qilishga moslashtirilgan turlarini ishlab chiqish;

6. Tuman va shaharlarda zamon talabiga javob beradigan kasb tanlash markazlarini jihozlash;

7. Kasb tanlashni tashviqot qilish yuzasidan o‘spirinlarni ommaviy axborot vositasiga jalb qilish va ularni psixologik jihatdan tayyorlash [6] kabilar.

Xulosa qilib aytganda, kasbiy psixolgik-pedagogik tashxis faqat bitta-ikkita metodikani o‘tkazish bilan emas, balki kasblar to‘g‘risida ma’lumot berish va kasbiy maslahat ishlari bilan uyg‘unlashib ketgan, korreksion-rivojlantiruvchi xususiyatga ega bo‘lgan jarayon sifatida amalga oshirilsagina yuqori natijaga erishishi mumkin bo‘ladi. Bugungi kunda bu kabi amaliy ishlar barcha umumta’lim maktablarida bo‘lgani singari maxsus maktab internatlarida ham o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish jarayonlarida qo’llalinib kelinmoqda va bu kabi jarayonlar aniq yo‘naltirilgan dasturlar asosida tashkil qilinmoqda. Bu kabi tashkiliy ishlarni amalga oshirishda maxsus-maktab internatlarida o’quvchilarning imkoniyat darajasi, qiziqishlari, ularning sog‘lig‘iga tasiri kabi omillar hisobga olinsa maqsadga muvofiq bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Incheon Declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (World Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).

2. O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi. http://rppm.uz

3. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son. https://lex.uz/docs/-5013007

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 06.11.2020 yildagi O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PF-6108-son Farmoni.https://lex.uz/docs/-5085999

5. M.R. Fayziyeva “O‘quv jarayoniga moslashuvchi WEB tizimlarni yaratish” pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori dessertatsiyasi avtorefarati. Nizomiy nomidagi TDPU-2017.

6. A.Fayziyev. “O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini kompyuter imitaatsion modeli asosida shakllantirish metodikasi”. Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dessertatsiyasi. Samarqand-2008.

FINLANDIYA UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA ZICHLIK MAVZUSINI O‘QITISHNING INNOVATSION USULLARI

H.Sh.Salayeva
N.Qurbonboyeva
Urganch davlat pedagogika instituti, magistrantlari

Annotatsiya: Mazkur maqolada Finlandiya umumiy o‘rta ta’lim maktablarida zichlik mavzusini o‘qitishning innovatsion usullari yoritilgan. Mamlakatda fan ta’limi o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, tajribaviy ishlarga qiziqishi va amaliy bilimlarni hayotga tadbiq eta olishini ta’minlashga yo‘naltirilgan. Zichlik mavzusi STEAM yondashuvi, loyiha asosida o‘qitish, raqamli laboratoriyalar, AR texnologiyalari va kontekstual yondashuv orqali o‘rgatiladi. Maqolada ushbu usullar orqali o‘quvchilarning mavzuni chuqur o‘zlashtirishi va fanga bo‘lgan ijobiy munosabatining shakllanishi asoslab beriladi. Shuningdek, Finlandiya tajribasining boshqa mamlakatlar ta’lim tizimiga moslashtirish imkoniyatlari haqida xulosa chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: Zichlik, STEAM, loyiha ishi, 3D format, “PhET”, AR texnologiyalar.

Annotation: This article highlights innovative methods for teaching the topic of density in general secondary schools in Finland. Science education in the country is aimed at fostering students' independent thinking, interest in experimental activities, and the application of practical knowledge to real-life situations. The concept of density is taught through approaches such as STEAM integration, project-based learning, digital laboratories, AR technologies, and contextual learning. The article substantiates how these methods enable students to gain a deeper understanding of the topic and develop a positive attitude toward science. Furthermore, it concludes by exploring the potential for adapting Finland’s experience to the educational systems of other countries.

Keywords: Density, STEAM, project work, 3D format, “PhET”, AR technologies.

Аннотация: В данной статье рассматриваются инновационные методы преподавания темы «плотность» в общеобразовательных школах Финляндии. Естественнонаучное образование в этой стране направлено на развитие у учащихся самостоятельного мышления, интереса к экспериментальной деятельности и способности применять полученные знания на практике. Тема плотности изучается с применением STEAM-подхода, проектного обучения, цифровых лабораторий, AR-технологий и контекстного подхода. В статье обосновано, что такие методы способствуют глубокому усвоению темы учащимися и формированию положительного отношения к науке. Также сделан вывод о возможностях адаптации финского опыта к образовательным системам других стран.

Ключевые слова: Плотность, STEAM, проектная работа, 3D-формат, “PhET”, AR-технологии.

Zamonaviy ta’limda fanga bo‘lgan qiziqishni oshirish, o‘quvchilarning tahliliy fikrlashini rivojlantirish va real hayot bilan bog‘lay olish salohiyatini shakllantirish asosiy maqsadlardan biridir. Fizika fanida bu yondashuv ayniqsa muhim bo‘lib, “Zichlik” kabi fundamental tushunchalarni o‘qitishda samarali metodikalar qo‘llash o‘quv jarayonining sifati va o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi. Finlandiya umumiy o‘rta ta’lim maktablarida bu yo‘nalishda innovatsion yondashuvlar keng qo‘llaniladi.

Hajm birligiga to‘g‘ri keladigan massaga zichlik deyiladi. Zichlik ρ harfi bilan belgilanadi. Fo‘rmulasi esa quyidagicha bo‘ladi.

$$\rho = \frac{m}{v}$$


Finlandiya ta’lim tizimining umumiy xususiyatlari

Finlandiya ta’lim tizimi o‘zining yuqori natijalari, o‘quvchilarga individual yondashuvi va fanlararo integratsiyasi bilan ajralib turadi. Fanlarni o‘qitishda tajriba va amaliyotga asoslangan o‘rganish, muammoli vazifalarni hal qilish, o‘quvchilarning qiziqishlariga mos moslashtirish kabi jihatlar muhim o‘rin egallaydi. Zichlik mavzusi ham bunday yondashuv asosida o‘rgatiladi.

Zichlik mavzusini o‘qitishdagi innovatsion usullar

1.STEAM yondashuvi (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics)

Zichlik mavzusi san’at va muhandislik bilan bog‘lab o‘rgatiladi. Masalan, o‘quvchilar turli materiallardan (yog‘och, plastmassa, metall) yasalgan haykalchalar zichligini aniqlab, ularni dizayn nuqtai nazaridan baholashadi(1-rasm).



yog‘och oltin tosh po‘lat

1-rasm(Turli shakldagi jismlar zichligini aniqlash).

2.Loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning)

O‘quvchilar guruhlarda ishlash orqali real muammolarni hal qilishadi. Masalan, ular kemaning cho‘kmasligi uchun qanday materiallardan foydalanish kerakligini loyihalashtirib, zichlikni hisoblashadi. Bunda o‘quvchilar ko‘z o‘ngida suvda suzib borayotgan kema rasmi ham bo‘lishi kerak(2-rasm).




2-rasm(Suzayotgan kema).

3.Raqamli laboratoriyalar va simulyatsiyalar

“PhET” kabi onlayn platformalardan foydalangan holda, o‘quvchilar zichlikni virtual tajribalar orqali o‘rganishadi. Bu ayniqsa tajriba uskunalari cheklangan maktablar uchun foydalidir.

Interaktiv o‘yinlar va AR (Augmented Reality) texnologiyalari

O‘quvchilar AR ilovalari orqali modellarni 3D formatda ko‘rib, jismlarning massasini va hajmini interaktiv tarzda o‘lchashadi(3-rasm).



3-rasm(3D formatda tushirilgan rasmlar).

4.Atrof-muhitga asoslangan o‘qitish (Context-Based Learning)

O‘quvchilar kundalik hayotdagi buyumlar (mevalar, ichimliklar, materiallar) zichligini o‘lchab, fan va hayot o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglashadi(4-rasm). Har bir dars o‘tayotganda o‘qituvchi rasmga asoslangan metodni qo‘llasa dars yanayam qiziqarli va tushunarli bo‘ladi.



4-rasm(O‘quvchilarni jalb etish uchun mevalar).

5.Baholash va fikr-mulohaza

Finlandiya maktablarida baholash diagnostik va formatif shakllarda olib boriladi. O‘quvchining zichlik haqidagi tushunchasi ko‘proq u qanday fikr yurita olgani va tajriba orqali bilimga erishgani asosida baholanadi.

Xulosa. Finlandiya umumiy o‘rta ta’lim maktablarida zichlik mavzusi faqat nazariy bilim sifatida emas, balki amaliy va hayotiy muammolar bilan bog‘langan holda o‘rgatiladi. Innovatsion yondashuvlar yordamida o‘quvchilar mavzuni chuqurroq anglaydi va fanga qiziqishi ortadi. Ushbu tajribalarni boshqa mamlakatlar ta’lim tizimida ham joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Lavonen, J., & Meisalo, V. (2002).Design of teacher education programs in Finland. European Journal of Teacher Education, 25(2–3), 249–256.

2. Sahlberg, P. (2011).Finnish Lessons: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? Teachers College Press.

3. PhET Interactive Simulations.Density Simulation.University of Colorado Boulder. https://phet.colorado.edu/en/simulation/density

YUKSAK O’SIMLIKLAR. YO’SIN, QIRQQULOQ, QIRQBO’G’IMNING TABOBATDA ISHLATISH USULLARI

M.O.Xakimbekova
Namangan davlat pedagogika instituti Biologiya yo‘nalishi 2 kurs talabasi
Tel: +998936830681 E-mail: xakimjonovamuslima05@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yuksak o’simliklarning tuzilishi, ularning sinflari haqida umumiy tavsif, sodda va eng qadimgi bo’lgan vakillari: yo’sin, qirqqbo’g’im va qirqquloqlarning tabobatda va xalq ho’jaligida foydalanish usullari haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘z: mum, parafin, karbon kislota, fenol, saharin, spirt, torf, ksilema, floema, jinsiy va jinssiz ko‘payishi, gametofit, sporofit, kremnezim, bronxit, astma

Аннотация: В статье приведены сведения о строении высших растений, общая характеристика их классов, а также способы использования простейших и древнейших представителей: мхов, сороконожек и многоножек в медицине и сельском хозяйстве.

Ключевое слово: воск, парафин, угольная кислота, фенол, сахарин, алкоголь, торф, ксилема, флоэма, половое и бесполое размножение, гаметофит, спорофит, кремнезем, бронхит, астма

Abstract: This article provides information on the structure of higher plants, a general description of their classes, and the methods of using the simplest and oldest representatives: mosses, centipedes, and centipedes in medicine and agriculture.

Keyword: wax, paraffin, carbonic acid, phenol, saharin, alcohol, peat, Xylem, phloema, sexual and asexual reproduction, gametophyte, sporophyte, kremnezim, bronchitis, asthma

Kirish. Yuksak o‘simliklar – evolutsion taraqqiyot natijasida murakkab morfologik tuzilishga ega bo‘lgan, tanasi poya va bargga differensiyalangan o‘simliklar. Ularda ko‘p hujayrali murtak (embirion) hosil bo‘ladi. Yuksak o‘simliklarga xos belgilardan biri jinsiy (gametofit) va jinssiz (sporofit) nasllarning gallanishidir.

Yuksak o‘simliklar 3000 ga yaqin turdan iborat 9 bo‘limni o‘z ichiga oladi. Bularga: **riniotoifalar zosterofiltoifalar, yo‘sintoifalar, plauntoifalar, psilotoifalar, qirqbo‘g‘imtoifalar, qirqquloqtoifalar, qarag‘aytoifalar, magnoliyatoifalar** kiradi. Yuksak o‘simliklar tanasining murakkab tuzilganligi, yerda o‘sishga moslashganligi, jinsiy va jinssiz ko‘payishi bilan tuban o‘simliklardan farq qiladi. Yuksak o‘simliklar sporofitida ko‘p hujayrali sporangiylar hosil bo‘lib, ularda harakatsiz sporalar yetishadi. Gametofit jinsiy organlar paydo bo‘ladi. Sporofit, odatda, barg , poya va ildizga bo‘lingan. Ko‘pincha yuksak o‘simliklarda o‘tkazuvchi to‘qima — ksilema va floema rivojlangan. Epidermis, kutikula va bargida og‘izchalar bo‘lishi Yuksak o‘simliklar uchun xos. Yuksak o‘simliklar birorta dengiz suvo‘tlaridan kelib chiqqan, deb taxmin qilinadi. Yuksak o‘simliklarning qazilma qoldiqlari silur davridan ma’lum.

Yo’sinlar- bu bo’limga 5 mingga yaqin tur kiradi. Bu bo’lim soni jihatdan gulli o’simliklardan keyin ikkinchi o’rinda turadi. Yo’sinlar bo’limi vegatativ tanasi qattana shaklida, ildizi yo’q rizoidlar ildiz vazifasini bajaradi. Hozirgi klassifikatsiyalar bo’yicha yo’sintoifa o’simliklar bo’limi 3 ta ajdodga (sinfga) bo’linadi:

1. Jigarsimon yo’sinlar – Marchantiopsida
2. Antotserotsimon yo’sinlar – Anthocerotopsida
3. Poyabargli yo’sinlar – Bryopsida

Poya bargli yo’sinlarning xo’jalikdagi ahamyati xilma-xildir. Bu sinfga kiruvchi sfagnumlar ko’proq shimoliy hududlarda, ayniqsa Osiyo va Shimoliy Amerikanig shimoliy hududlarda keng tarqalgan bo’lib, torfzorlarni hosil qiladi. Bir metr qalinlikdagi torf qariyib 1000 yil mobaynida hosil bo’ladi. Torfning tarkibida uglerod ko’p bo’lib, o’simliklar tarkibida uglerod 45% bo’lsa, torfning tarkibida 60% uglerod bo’ladi. Shuning uchun u eng yaxshi yoqilg’i hisoblanadi. Torfni quruq haydash yo’li bilan **mum, parafin, karbon kislota, fenol, saharin va spirt (1 tonnadan 120 l)** olinadi.



Torf qishloq xo’jaligida, organik o’g’it sifatida, torf- chirindili tuvakchalar tayorlashda, ekinlarni mulchalashda, sabzovot va mevalarni o’rab qo’yish saqlashda ishlatiladi. Torfdan qog’oz va karton tayyorlash mumkin. Torf shifobaxsh ham hisoblanadi. .[1]

Qirqbo‘g‘im – qirqbo‘g‘imdoshlarga mansub ko‘p yillik o‘simliklar turkumi. O‘zbekistonda dala qirqbo‘g‘imi va tarnovcho‘p qirqbo‘g‘im turlari uchraydi. Poyasi qattiq, tik, bo‘g‘imli, qobirg‘ali, sershox. Bo‘yi 40-60 sm. Bo‘g‘imlaridan g‘uj shoxchalar chiqadi. Qizg‘ish-qo‘ng‘ir novdalari uchida sporali boshoq hosil bo‘ladi. Ildizpoyalari va sporalari ko‘payadi. Qirqbo‘g‘im bedazor, paxta maydonlari, sholipoyalarda, shuningdek, sug‘orish shoxobchalari bo‘ylari, zax va botqoq yerlarda o‘sadi.

Dala qirqqbo’g’imi dorivor o’simlik hisoblanadi. Uning yozgi poyasi qonni to’xtatish va siydik haydash xususiyatiga ega hisoblanadi. Xalq tabobatida bundan keng foydalaniladi. XX asrga qadar qirqqbo’g’imdan bo’yoq beruvchi o’simlik sifatida ham keng qo’llanilgan. Qirqqbo’g’imning poyasida kremnezim ko’p bo’lganligi sababli undan mebellar silliqlashda, metal buyumlarni zanglarini ketgazishda keng foydalaniladi.

TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI.

Dorivor sifatida bu o’simlikning shoxlari va barglaridan foydalinaladi. U ko’p yillik o’tsimon giyoh bo’lib, tarkibida kremniy, alkaloidlar, flavonoidlar, karotinoidlar, askarbin kislota mavjud. Qirqqbo’g’im qadimdan xalq tabobatida ishlatib kelinadi. Abu Ali ibn Sinoning takidlashicha, u yaralani bitiruvchi, ajoyib o’simlikdir. Jigar shishida, qon aralash ich surganida, gijjani davolashda qirqqbo’g’im bir qancha dorilar tarkibiga qo’shiladi.

“Maxzan- ul-adviya” asarida Muhammad Xusayin qirqqbo’g’im o’simligi haqida quydagilarni bayon qiladi: “Qirqqbo’g’im surunkali yo’talda, ayniqsa qon aralash balg’am bo’lganida, ko’krak og’rig’ida, nafas siqilishida, ichaklar jarohatida, qovuq kasalliklari va ulardagi yaralarda juda yaxshi yordam beradi”.

Xalq tabobatida qirqqbo’im asosan quydagi hastaliklarda foyda beradi. O’pka, buyrak, yurak ishi izdan chiqqanda; jigar shishlari va virusli gepatitda; nafas yo’llarining kuchli shamollashida; nafas siqishida; balg’am aralsh qon tuflaganda; me’da-ichak yaralarida; buyrakda tosh va qum to’planganda; bod, temiratki va teridagi turli xil yaralarda.

Qirqbo’g’im preparatlari buyrak xastaligida (unda tosh va qum bo’lganida, buyraklarning o’tkir va surunkali shamollashida), siydik yo’llari va buyrakning o’tkir va surunkali shamollashda), jigar va o’t yo’llari xastaligida, qon bosimi yuqori bo’lganida,nafas yo’llari va o’pka kasalliklarida (bronxit, astma), eczema va mayda yiringli kasalliklarda ishlatiladi. .[2]

Qirqquloqlar o‘sishi jihatidan qirqbo‘g‘imlarga o‘xshasa ham, lekin bargining yirikligi va spora beruvchi boshoqlarining bo‘lmasligi bilan ulardan farq qiladi. Qirqquloqlarning sporalari barglarining ostki tomonida yoki chetida joylashgan qo‘ng‘ir rangli bo‘rtmalar (**soruslar**) ichiga joylashgan sporangiylarda

yetishadi. Qirqquloqlarning ko‘payishi ham xuddi qirqbo‘g‘imlarnikiga o‘xshash jinssiz va jinsiy bo‘g‘inlarning gallanishi bilan sodir bo‘ladi.



Soruslardagi sporangiylar ichida yetilgan sporalar sporangiy po‘sti yorilgach tashqariga chiqadi va shamol yoki suv yordamida tarqaladi. **Xalq tabobatida qirqquloqlardan gijjaga qarshi preparat tayyorlab ishlatiladi. .[3]**

XULOSA: Xulosa o’rnida shuni aytish kerakki yuksak o’simliklar orasida eng tubani yo’sinlar bo’limi hisoblanadi. Yo’sinlarni yuksak o’simliklarni tubani deyishimizga sabab o’tkazuvchi sistemasi yaxshi taraqqiy etmaganligidir. Qirqqbog’im va qirqquloqlar bo’limi yo’sinlarga nisbatan yuksakroq hisoblanadi. Chunki ularning o’tkazuvchi sistemasi yaxshi taraqqiy etgan. Bu o’simliklar sodda tuzilishga ega bo’lsa ham yuqorida ta’kidlab o’tkanimiz kabi bular xalq tabobatida turli maqsadlarda keng foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdukarimov A, G’ofurov A. T, Nishonboyev K.N.va boshq. Biologiya: Akademik litsey va kasb-hunar kollej lari o’quvchilari uchun darslik // Mualliflar jamoasi: — T. «Sharq», 2014. — 275 b.

2. Pratov O’, To’xtayev A, Azimova F. O’, Saparboyev I.Z, Umaraliyeva M.T.darslik uchun qo’llanma.- “O’zbekiston”-2017.

3. Ikromov M. I., Normurodov X.N.Yo’ldashev A.S. “Botanika” “O’zbekiston”-2002. TOSHKENT.

NUTQIY MULOQOT JARAYONIDA ICHKI ISHLAR TIZIMI XODIMLARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

A.M.Alijonov
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqodchisi

Annotatsiya. Maqolada ichki ishlar tizimi xodimlarining nutqiy muloqot jarayonida kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish metodikalari batafsil tahlil qilinadi. Kasbiy nutq madaniyati va samarali muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishning ahamiyati, stressli vaziyatlarda nutqni boshqarish usullari hamda zamonaviy treninglar va axborot-kommunikatsion texnologiyalar yordamida o‘qitish metodlari ko‘rib chiqilgan.

Аннотация. В статье подробно анализируются методы развития коммуникативной компетенции сотрудников системы внутренних дел в процессе речевого общения. Рассматривается значение профессиональной культуры речи и формирования эффективных коммуникативных навыков, способы управления речью в стрессовых ситуациях, а также современные методы обучения с использованием тренингов и информационно-коммуникационных технологий.

Annotation. The article provides a detailed analysis of methods for developing communicative competence of internal affairs officers during verbal communication. It emphasizes the importance of professional speech culture and effective communication skills, techniques for managing speech in stressful situations, and modern training methods utilizing information and communication technologies to enhance officers’ abilities and improve interaction with the public.

Kalit so‘zlar: nutqiy muloqot, kommunikativ kompetensiya, ichki ishlar xodimlari, kasbiy nutq madaniyati, muloqot ko‘nikmalari, trening metodlari, psixologik tayyorgarlik, stress boshqaruvi.

Ключевые слова: речевое общение, коммуникативная компетенция, сотрудники внутренних дел, профессиональная культура речи, навыки общения, методы тренинга, психологическая подготовка, управление стрессом.

Keywords: verbal communication, communicative competence, internal affairs officers, professional speech culture, communication skills, training methods, psychological preparation, stress management.

Bugungi kunda ichki ishlar tizimi xodimlarining faoliyati nafaqat qonuniylikni ta’minlash, balki jamiyat bilan samarali muloqotga asoslangan ishonchli aloqa o‘rnatish bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Fuqarolar bilan nutqiy muloqot jarayonida xodimlarning til va muloqot madaniyati, ayniqsa kommunikativ kompetensiyasi yuqori bo‘lishi xizmat sifatini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Kommunikativ kompetensiya — bu shaxsning nutqiy jarayonlarda til vositalaridan samarali foydalanish, ijtimoiy vaziyatga mos ravishda o‘z fikrini ifoda etish va tinglovchining fikrini tushunish qobiliyatidir. Ichki ishlar xodimlari o‘z vazifalarini bajarishda, ayniqsa, fuqarolar bilan muloqotda bu kompetensiyani doimiy ravishda takomillashtirishlari zarur, chunki ularning nutqiy madaniyati va professional muloqot ko‘nikmalari fuqarolar ishonchini oshiradi hamda jinoyatlarning oldini olishda yordam beradi.

Tilshunos olimlar nutqiy kompetensiyani turli jihatlarda tahlil qilganlar. Noam Chomsky til qobiliyatini grammatik bilimlar doirasida ko‘rgan bo‘lsa, Dell Hymes nutqiy kompetensiyani ijtimoiy muloqotda til vositalarini samarali qo‘llash qobiliyati sifatida ta’riflagan [1.1965: B.23]. Kommunikativ kompetensiya nafaqat grammatik bilimlarni, balki madaniy va psixologik omillarni ham o‘z ichiga oladi. Bu, ayniqsa, ichki ishlar tizimi xodimlari uchun juda muhim, chunki ular ko‘pincha stressli vaziyatlarda ishlaydi va muloqotni to‘g‘ri tashkil etish qobiliyati bilan ajralib turishi talab etiladi [2.1972: B.45].

Ichki ishlar xodimlarining kasbiy faoliyatida muloqot ko‘nikmalari, ya’ni kommunikativ kompetensiya, ko‘plab vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur. Jumladan, qonunlarni tushuntirish, profilaktik suhbatlar o‘tkazish, nizolarni hal qilish va tinchlikni saqlashda bu ko‘nikmalar hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Fuqarolar bilan muloqotda xodimning nutqi tushunarli, hurmatga asoslangan va ijtimoiy normalarga mos bo‘lishi kerak. Aks holda, nojo‘ya nutq, keskinlik yoki tushunmovchilik jamiyatda ishonchsizlikni kuchaytiradi, bu esa ichki ishlar tizimining obro‘siga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [3.1990: B.12].

Amaliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ichki ishlar tizimi xodimlarining muloqotdagi asosiy muammolari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: nutqiy qobiliyatlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi, stressli vaziyatlarda o‘zini tutishdagi qiyinchiliklar, so‘z boyligining cheklanganligi, muloqotda agressiv ohang ishlatish holatlari va fikrni izchil ifoda eta olmaslik. Ushbu kamchiliklar xizmat sifatiga to‘siq bo‘lib, ko‘pincha xizmat jarayonining samaradorligini pasaytiradi [4.2018: B.78]. Shu nuqtai nazardan, ichki ishlar tizimi xodimlarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish muhim va dolzarb masala hisoblanadi. Bu borada metodik yondashuvlar tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib, ularda trening mashg‘ulotlari, psixologik tayyorgarlik, nutq madaniyati bo‘yicha darslar hamda zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) asosida ta’lim olish metodlari alohida o‘rin tutadi.

Trening mashg‘ulotlari kommunikativ kompetensiyani oshirishning samarali vositasi bo‘lib, unda rollar o‘ynash, real hayotiy vaziyatlarni simulyatsiya qilish va muloqot testlarini o‘tkazish orqali xodimlarning nutqiy va muloqot ko‘nikmalari mustahkamlanadi. Bunday mashg‘ulotlar orqali xodimlar real ish sharoitida yuzaga keladigan murakkab vaziyatlarga tayyorlanadi, stressli muloqotlarda o‘zini qanday tutishni o‘rganadi [5.2020: B.34]. Shuningdek, psixologik treninglar stressni boshqarish, empatiya ko‘nikmalarini rivojlantirish va faol tinglashni o‘rgatadi. Ichki ishlar tizimi xodimlari kundalik faoliyatida ko‘p hollarda keskin, ziddiyatli vaziyatlarga duch keladi, shuning uchun psixologik tayyorgarlik ularning kommunikativ kompetensiyasini sezilarli darajada oshiradi. Bunday treninglar xodimlarga o‘zini boshqarish, nizolarni hal qilish va fuqarolar bilan ijobiy aloqalar o‘rnatishga yordam beradi [6.2019: B.50]. Nutq madaniyati bo‘yicha darslarda esa so‘z boyligini oshirish, rasmiy va norasmiy muloqot uslublarini o‘rganish, nutq etikasiga amal qilish qoidalari tushuntiriladi. Bu o‘quv mashg‘ulotlari xodimlarga o‘z fikrini aniq va izchil ifoda etish, nojo‘ya ifodalardan qochish, tinglovchining madaniy xususiyatlarini hisobga olish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi [7.2021: B.15].

Zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘qitish esa interaktiv platformalar, onlayn treninglar, video darslar va dialogli simulyatsiyalar asosida olib boriladi. Bu metodlar xodimlarga mustaqil o‘rganish imkonini beradi va nutqiy ko‘nikmalarni yanada samarali mustahkamlashga yordam beradi. Axborot-kommunikatsion texnologiyalar yordamida o‘qitish jarayonlari so‘nggi yillarda ichki ishlar tizimida keng joriy etilmoqda va bu yo‘nalishda sezilarli natijalar kuzatilmoqda [8.2017: B.42]. Ichki ishlar tizimi xodimlarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish nafaqat ularning professional malakasini oshirish, balki butun jamiyatda qonun ustuvorligi va huquqiy madaniyatning mustahkamlanishiga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi. Kommunikativ kompetensiya — bu faqatgina til bilimlari emas, balki

muloqotning ijtimoiy, madaniy, psixologik va strategik jihatlarini o‘z ichiga oluvchi murakkab ko‘nikmalar majmuasidir. Ichki ishlar xodimlari kundalik faoliyatlarida turli xil vaziyatlarda, jumladan, stressli va ziddiyatli sharoitlarda ishlaydi. Shuning uchun, ularning nutqiy madaniyati va muloqot ko‘nikmalari yuqori bo‘lishi fuqarolar bilan samarali aloqalarni o‘rnatish, nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bugungi kunda ichki ishlar tizimida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun samarali metodik vositalar ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilmoqda. Trening mashg‘ulotlari, psixologik tayyorgarlik, nutq madaniyati bo‘yicha darslar va zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish bu jarayonda asosiy o‘rin tutadi. Ushbu yondashuvlarning har biri xodimlarning nutq qobiliyatlarini rivojlantirishda o‘ziga xos rol o‘ynaydi va birgalikda qo‘llanganda yuqori samaradorlikka erishishga imkon beradi. Shuni ta’kidlash lozimki, kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishi ichki ishlar tizimining obro‘-e’tiborini oshirish, fuqarolar bilan munosabatlarni mustahkamlash va ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlashda uzviy bog‘liqdir. Fuqarolar o‘z muammolari va talablarini aniq va tushunarli tarzda yetkazishi, xodimlar esa mazkur murojaatlarni samimiy va professional munosabat bilan qabul qilib, yechim topishga intilishi kerak. Bu esa o‘z navbatida ijtimoiy adolat va huquqiy madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Kommunikativ kompetensiya rivojlangan xodimlar ish jarayonida yuzaga keladigan turli ijtimoiy va psixologik qiyinchiliklarni yengib o‘tish, fuqarolarning ehtiyojlarini chuqur tushunish va ularga mos javob qaytarish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Natijada, xizmat ko‘rsatish sifati oshadi, jinoyatlarning oldini olish samaradorligi kuchayadi, shuningdek, jamiyatda ichki ishlar organlariga nisbatan ijobiy munosabat va ishonch mustahkamlanadi.

Xulosa qilib ayta olamizki, ichki ishlar tizimi xodimlarining kommunikativ kompetensiyasini tizimli va uzluksiz ravishda rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi kerak. Buning uchun maxsus ta’lim dasturlarini takomillashtirish, pedagogik va psixologik yondashuvlarni yanada chuqurlashtirish hamda zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish zarur. Faqat shunday yondashuvlar yordamida ichki ishlar tizimi xodimlari o‘z faoliyatini zamon talablariga mos ravishda olib borishi, fuqarolar bilan samarali va ijobiy muloqot o‘rnatishi mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chomsky N. MIT Press. Aspects of the theory of syntax. 1965.
2. Hymes D. Foundations in sociolinguistics: An ethnographic approach. University of Pennsylvania Press. 1972.
3. Fiske, J. Introduction to communication studies. Routledge. 1990.
4. Murodov, R. Ichki ishlar tizimi xodimlarining kasbiy nutqi [Professional speech of internal affairs officers]. Toshkent. 2018.
5. Karimov, S. Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish metodlari [Methods for developing communicative competence]. Toshkent. 2020.
6. Akbarov, D. Psixologik treninglar va muloqot [Psychological trainings and communication]. Toshkent. 2019.
7. Sobirova, L. Nutq madaniyati va uning rivojlanishi [Speech culture and its development]. Toshkent. 2021.
8. Tursunov, J. Ichki ishlar xodimlari bilan samarali kommunikatsiya. Toshkent. 2017.

TIBBIYOT VA SOG’LIQNI SAQLASH TEXNOLOGIYALARI SALOMATLIK SARI RAQAMLI QADAMLAR

M.R.Qadamova
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali Tibbiy profilaktika Sog’liqni saqlashni boshqarish va Xorijiy talabalar fakulteti 452-A guruh talabasi
Ilmiy rahbari **I.Q.Abdullayev**
Jamoat sog'lig'ini saqlash va umumiy gigiyena kafedra mudiri tibbiyot fanlari doktori professor

Anotatsiya. Maqolada zamonaviy tibbiyotda texnologiyalarning diagnostika, davolash va profilaktikadagi o‘rni yoritilgan. Elektron tibbiy karta, telemeditsina, sun’iy intellekt, biotibbiyot muhandisligi kabi yo‘nalishlarning sog‘liqni saqlash tizimiga integratsiyalashuvi tahlil qilingan. O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimida raqamlashtirish jarayonining ahamiyati va istiqbollari ko‘rib

chiqilgan. Texnologiyalarni tizimli joriy etish tibbiy xizmatlar sifatini oshirishning muhim omili sifatida baholangan.

Kalit so'zlar: Yadro tibbiyoti, sun’iy intellekt (AI), genomik tibbiyot telemeditsina, tibbiyot texnologiyalari, robot jarrohlik, nanotexnologiya, gen va hujayra terapiyasi, elektron tibbiy kartalar, raqamlashtirish, innovatsiyalar.

Аннотация. В статье освещена роль технологий в диагностике, лечении и профилактике в современной медицине. Проанализирована интеграция таких направлений, как электронные медицинские карты, телемедицина, искусственный интеллект и биомедицинская инженерия в систему здравоохранения. Рассмотрены важность и перспективы процесса цифровизации в системе здравоохранения Узбекистана. Системное внедрение технологий оценивается как важный фактор повышения качества медицинских услуг.

Ключевые слова: Ядерная медицина, искусственный интеллект (ИИ), геномная медицина, телемедицина, медицинские технологии, роботизированная хирургия, нанотехнология, генная и клеточная терапия, электронные медицинские карты, цифровизация, инновации.

Annotation. The article highlights the role of technologies in diagnostics, treatment, and prevention in modern medicine. It analyzes the integration of fields such as Electronic Medical Records, telemedicine, artificial intelligence, and biomedical engineering into the healthcare system. The importance and prospects of the digitalization process in Uzbekistan’s healthcare system are discussed. The systematic implementation of technologies is considered a key factor in improving the quality of medical services.

Keywords: Nuclear medicine, Artificial Intelligence (AI), genomic medicine, telemedicine, medical technologies, robotic surgery, nanotechnology, gene and cell therapy, electronic medical records, digitalization, innovations.

Kirish qismi. Zamonaviy tibbiyot innovatsion texnologiyalar tufayli aql bovar qilmaydigan O’zgarishlar davrini boshdan kechirmoqda. Ushbu texnologiyalar nafaqat diagnostika aniqligi va davolash samaradorligini oshiribgina qolmay, balki butun sog'liqni saqlash sohasini o’zgartiradi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti bilan birga tibbiyot ham rivojlanmoqda. Ishlab chiquvchilar va olimlar yangi tibbiy texnologiyalarni yaratmoqdalar. Ushbu Yo’nalishdagi har bir muvaffaqiyatli qadam bilan shifokorlar erta tashxis qo’yish va davolash imkoniyatiga ega bo’lmoqdalar. Bu esa ,albatta, mumkin bo’lgan asoratlarning oldini olishga va bemorlarning hayotini yaxshilashga yordam beradi. JSST ning 2020–2025 yildagi raqamli salomatlik bo‘yicha global strategiyasi “texnologiyaga asoslangan tibbiy yordam bemorlar uchun ochiq bo‘lishi kerak” ekanligini ta’kidlaydi. Ustuvor yo‘nalishlar qatoriga axborot xavfsizligi va maxfiyligini ta’minlash, ma’lumotlarni qayta ishlashning shaffofligi va elektron xizmatlarga ishonchni mustahkamlash kiradi va yana bugungi kunda tibbiyot juda tez rivojlanmoqda. Endi shunchaki kasallikni davolash emas, kasallikni erta aniqlash, uni oldini olish va bemorga individual yondashish asosiy maqsad bo‘lib qoldi. Bu imkoniyatlarni innovatsion texnologiyalar yaratmoqda. 2025-yilga kelib tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalar inson salomatligini asrashda markaziy o‘rinni egallamoqda. Endi sog‘liqni saqlash faqat kasallikni davolash emas, balki kasalliklarni oldindan aniqlash, monitoring qilish va shaxsga mos davolashga asoslanmoqda. Bu o‘zgarishlar sun’iy intellekt, genomika, telemeditsina, robototexnika, Nanotexnologiya, gen va hujayra terapiyasi.

Asosiy yo‘nalishlar quyidagilardir:

1. Yadro tibbiyoti – bu maxsus nurlanish yordamida kasalliklarni aniqlovchi usul. Masalan, saratonni erta bosqichda topish mumkin.
2. Sun’iy intellekt (AI) – bu kompyuterlar orqali bemor tasvirlari, tahlillarini avtomatik tahlil qilish. Shifokor o‘rniga ba’zi ishlarni tez va aniq bajaradi.
3. Genomik tibbiyot – bu inson DNKsi asosida tibbiy yondashuv. Ya’ni har kimning genetik xususiyatiga qarab, unga mos dori va davolash usuli tanlanadi.
4. Telemeditsina – bu telefon yoki internet orqali shifokordan maslahat olish. Uyda o‘tirgan holda kasalxonaga bormasdan maslahat olish mumkin.
5. Robot jarrohlik – operatsiyalarni robotlar orqali bajarish. Bu kam qon ketadi, og‘riq kam bo‘ladi va bemor tez sog‘ayadi.
6. Nanotexnologiya – juda kichik, mikroskopik dorilar orqali organizm ichidagi muammoga bevosita yetib boriladi. Bu sog‘lom hujayralarga zarar bermaydi.
7. Gen va hujayra terapiyasi – bu kelajakdagi davolash usuli. Bunda odamning immun tizimi o‘zgartirilib, saraton yoki boshqa kasalliklarni o‘zi yo‘q qila oladi.

Minglab kasalxonalar, qariyalar uylari, klinikalar va boshqa sog‘liqni saqlash Muassasalari. Ilg‘or teletibbiyot imkoniyatlariga ega bo‘lgan sog‘liqni saqlash Muassasalari soni (masalan, video, shuningdek telefon va faks) yaxshi hujjatlashtirilmagan. Qishloq sog‘liqni saqlash siyosati federal idorasi uchun O‘tkazilgan taxminan 2,400 qishloq kasalxonasida o‘tkazilgan so‘rov shuni ko‘rsatdiki, deyarli 20 foizi ba’zi teletibbiyot xizmatlari haqida xabar olishgan, ammo 80 foizi Telemeditsina bo‘yicha rejalari yo‘qligini xabar qilgan. Akademik tibbiyot markazlari Jamoat shifoxonalari va boshqa muassasalar ham axborot manbalari, ham marketing vositalari sifatida xizmat qiluvchi World Wide Web sahifalarini yaratdilar. Ichki Ehtiyojlar va tashqi talablarni qondirish uchun ofislar va shifoxonalar odamlar va Jihozlar uchun turli xil sozlangan joyni talab qiluvchi axborot texnologiyalarini Yaxshiroq joylashtirish uchun qayta qurilmoqda. Yuzlab boshqariladigan parvarishlash tashkilotlari turli xil qisqartmalar, jumladan HMO (sog‘liqni saqlash tashkilotlari), PPOlar (afzal provayder tashkilotlari) va PHO‘lar (shifokor shifoxona tashkilotlari). Ko‘pincha, qo‘mita ushbu tashkilotlar Teletibbiyotdan ko‘ra ko‘proq dolzarb ustuvorliklarga ega ekanligini aniqladi, Jumladan, bemorlar va ma’muriy axborot tizimlarini joriy etish. Klinik amaliyotdan Iborani o‘z ichiga oladigan bo‘lsak, “hushyor kutish” keng tarqalgan strategiya bo‘lib tuyuladi, chunki qaror qabul qiluvchilar innovatorlar va teletibbiyotni birinchi O‘zlashtirganlarning tajribasini kuzatadilar. “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari To‘g‘risida”gi qarori qabul qarorda belgilangan vazifalarni sifatli amalga oshirish uchun chora-tadbirlar belgilangan edi. Bugungi kunda ushbu qaror asosida barcha Iqtisodiy va ijtimoiy sohalarga raqamli texnologiyalari keng joriy etilmoqda. “Elektron Hukumat” dasturining kompleks rivojlanishi nafaqat aholi va davlat organlarining vaqt Va pul sarflanishini kamaytirishga yordam beradi, eng muhimi, aholi uchun davlat Xizmatlarning sifatini oshiradi va fuqarolarning turmush darajasini yaxshilaydi. Mazkur dasturning eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri sog‘liqni saqlash sohasi deb hisoblanadi. Mamlakatimizda fuqarolarimizning sog‘ligini saqlash va respublikada Sanitariya osoyishtaligini saqlash masalasi davlatimiz olib borayotgan siyosatida Mazkur yo‘nalish muhim o‘rin tutadi. O‘zbekistong'liqni saqlashning yanada rivojlanishi tibbiy muolajalarda qo'llaniladigan elektromagnit (EM) texnologiyasini boshqarish tizimlari bo'lib, tibbiy asboblarni inson tanasiga joylashtirish uchun Real vaqtda vizualizatsiya va navigatsiya qilish imkonini beradi. Masalan, ENvue tizimi ko'rsatganidek, miyaga neyro-navigatsiya qilingan kateter kiritiladi yoki oshqozon yoki ingichka ichakka oziqlantiruvchi naycha joylashtiriladi. ENvue-enteral oziqlantirish naychasini joylashtirish uchun rivojlangan elektromagnit navigatsiya tizimi. Tizim generatori va bir nechta EM sensorlaridan foydalanadi, bu displeyni bemorning tanasi konturiga to'g'ri masshtablash va oziqlantirish trubkasi uchi joylashuvi va yo'nalishini real vaqtda ko'rish imkonini beradi, bu tibbiy xodimlarga to'g'ri joylashishni ta'minlashga yordam beradi. O'pkani 3D shaklida tasvirlash orqali undagi kasalliklarni yanada tez aniqlashga erishildi. Texnologiyani yangi turlariga sun’iy intellekt va robotlar ham kiradi. Umuman olganda, tibbiyot kelajagida 3D bosib chiqarish juda muhim bo'ladi, chunki u jarrohlik rejalashtirish, sun'iy va protez asboblari, dorilar va tibbiy implantlarda ishlatilishi mumkin. Sun'iy intellekt (AI) tizimlarining ko'lami va imkoniyatlari tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda, ayniqsa katta ma'lumotlarning rivojlanishi tufayli. Sog'liqni saqlash, bu axborot oson mavjudlik ta'minlash kutilmoqda, va xarajatlarni kamaytirish esa davolash yaxshilash uchun va Sog'liqni saqlashda sun'iy intellektning integratsiyasi murakkab vazifalarning sifati va samaradorligini oshirishga intiladi.

Xulosa. Xulosa o’rnida shuni aytishim mumkinki zamonaviy tibbiyot texnologiyalari tibbiyotning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ular yordamida hozirgi kunda xavfli hisoblangan va murakkab bo’lgan operatsiyalar amalga oshirilmoqda. Raqamli salomatlik insonlarning salomatligini yanada yaxshilashga, ularga tez va samarali yordam berishga, tibbiyot oldidagi muammolarni hal qilishga imkon yaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati va internet resurslari:

1. [Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST). Raqamli salomatlik bo‘yicha global strategiya 2020–2025. WHO, Geneva. URL: https://www.who.int/publications/i/item/9789240020924].
2. [Abdurahmonov, A. Va boshqalar. Tibbiy informatika. Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2021.B.154].
3. [Qodirov, Sh. Zamonaviy tibbiyotda sun’iy intellekt imkoniyatlari // Tibbiyot va innovatsiyalar jurnali. 2023. №4. B.45–50]
4. [Karimova, Z. Nanotexnologiyalar va ularning tibbiyotdagi qo‘llanilishi // O‘zR Fanlar Akademiyasi axborotnomasi. 2022. №2. B.62–67].
5. [Raximov, U. Genomik tibbiyot: shaxsiylashtirilgan yondashuv // Ilm va hayot. 2023. №5. B.30–35].
6. [https://www.frontiersin.org – Nanorobotlar va hujayra terapiyasi bo‘yicha xalqaro maqolalar (Frontiers in Bioengineering and Biotechnology)].

O‘ZGA TILLI O‘QUVCHILARGA O‘ZBEK TILINI O‘RGATISHNING SAMARALI YONDASHUVLARI

O.T.Abdunazarova
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti doktoranti
+998934996695 abdunazarovaodina25@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zga tilli o‘quvchilarga o‘zbek tilini o‘rgatish bo‘yicha mavjud pedagogik shart-sharoitlar, didaktik vositalar, metod va usullar tahlil qilinadi. Statistika va real tajribalarga asoslangan holda, til o‘rgatish samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: davlat tili, pedagogik shart-sharoitlar, kommunikativ metod, til o‘rgatish samaradorligi, didaktik vositalar, interfaol darsliklar, zamonaviy texnologiyalar, til kompetensiyasi.

Аннотация. В данной статье проанализированы педагогические условия, дидактические средства, методы и приёмы обучения узбекскому языку учащихся с неродным языком обучения. На основе статистических данных и практического опыта даются рекомендации по повышению эффективности преподавания узбекского языка.

Ключевые слова: государственный язык, педагогические условия, коммуникативный метод, эффективность обучения языку, дидактические средства, интерактивные учебники, современные технологии, языковая компетенция.

Abstract. This article analyzes the pedagogical conditions, didactic tools, methods, and techniques for teaching the Uzbek language to students whose native language is different. Based on statistical data and real experiences, recommendations are given to increase the effectiveness of Uzbek language teaching.

Keywords: state language, pedagogical conditions, communicative method, language learning effectiveness, didactic tools, interactive textbooks, modern technologies, language competence

Kirish. Zamonaviy dunyoda tillar o‘rganishning ahamiyati ortib bormoqda. O‘zbekiston ham ko‘p millatli muhitga ega bo‘lib, bu yerda turli tillarda so‘zlashuvchi o‘quvchilar uchun o‘zbek tilini o‘rgatish muammolari mavjud. O‘zga tilli o‘quvchilarga o‘zbek tilini o‘rgatishda samarali metodlardan foydalanish, qo‘shimcha didaktik vositalarni qo‘llash va moslashuvchan sharoitlarni yaratish talab etiladi. O‘zbekiston Respublikasi aholisi 2023-yilgi statistikasiga ko‘ra, mamlakatda 130 dan ortiq millat va elatlar vakillari yashaydi. Respublikadagi 10 mingga yaqin umumta’lim maktablarining 900 dan ortig‘ida o‘quvchilarning asosiy qismi o‘zga tilli hisoblanadi. Statistika ma’lumotlariga ko‘ra, umumiy o‘quvchilar sonining 15% ga yaqini (taxminan 1,2 million nafar) o‘zga tillarda (asosan rus, tojik, qozoq va boshqa tillarda) so‘zlashuvchi o‘quvchilardir [1. 2023]. Bu ko‘rsatkich aholining til xilma-xilligini ko‘rsatib, o‘zbek tilini o‘rgatishda maxsus yondashuvlarni talab qiladi. O‘zga tilli sinflarda o‘zbek tili davlat tili sifatida o‘qitiladi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad esa, turli xil millat vakillari farzandlarining o‘zbek tilini davlat tili sifatida kundalik mehnat va ijtimoiy faoliyat uchun yetarli darajada amaliy egallashlarini ta’minlash, o‘zbek tili vositasida barcha ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda insonlar o‘rtasidagi turli muomala malakalarini shakllantirishdan iborat [2. 2021: B. 114-127].

Asosiy qism. Bugungi globallashuv davrida davlat tilining o‘zga tilli o‘quvchilar tomonidan egallanishi faqat grammatik bilimlar bilan cheklanmasligi zarur. O‘zbek tilini o‘rganayotgan har bir bola avvalo til orqali ijtimoiy-madaniy muhitga integratsiyalashadi, o‘zini jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida his etadi. Shu boisdan, bizning asosiy vazifamiz – o‘qitish metodikasini interfaol, kommunikativ, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida tashkil etishdan iborat. “O‘zbek tili – bu milliy o‘zlik timsoli, ijtimoiy birdamlik vositasi. Uni o‘zga tilli bolalarga to‘g‘ri va tizimli o‘rgatish nafaqat til siyosatining, balki butun jamiyatning dolzarb vazifasidir” [3. 2022. B. 31-36]

Hozirgi kunda til o‘qitish va o‘zlashtirish jarayonini chuqur o‘rganishda bir qator zamonaviy ilmiy yondashuvlar qo‘llaniladi. Ular o‘quvchilarning psixologiyasi, ijtimoiy muhit, kommunikatsiya va tilning tuzilishi kabi ko‘plab omillarni inobatga olgan holda shakllangan. Eng muhim nazariyalarni quyidagicha izohlash mumkin:

1. Krashen nazariyasi.

Krashenning fikricha, til o‘rganishda asosiy omil – mantiqiy tartibda va tushunarli kontekstda taqdim etilgan til materiali (input) bo‘lishi zarur. O‘quvchilar grammatik qoidalarni o‘rganishdan ko‘ra, tabiiy muloqot muhitida tushunarli nutqni eshitib, anglab, undan foydalanishni boshlasa, tezroq va sifatli til o‘zlashtiradi. Shuningdek, Krashen “affective filter” tushunchasini kiritib, o‘quvchida qo‘rquv,

uyatchanlik, stress bo‘lsa, bu filterning oshishi til o‘zlashtirishga to‘sqinlik qilishini ta’kidlaydi. Shu bois dars jarayoni ijobiy psixologik muhitda tashkil etilishi kerak [4. 1982: B. 9-57].

2. Vygotskiyning “Ijtimoiy o‘rganish” nazariyasi.

Vygotskiy ta’kidlashicha, bola tilni atrofidagilar bilan muloqot jarayonida, ya’ni ijtimoiy hamkorlik orqali egallaydi. Bu yerda “yaqin rivojlanish zonasi” (zone of proximal development) tushunchasi muhim rol o‘ynaydi: o‘quvchi mustaqil bajara olmaydigan vazifani ko‘mak bilan bajarishi mumkin, bu esa tilni o‘rganishda o‘qituvchi va guruh a’zolarining yordamchi vazifasini kuchaytiradi [5. 1978: B. 56-91].

3. J. Kamminsning BICS va CALP modeli.

Kanadalik olim Kammins ikki xil til kompetensiyasini farqlaydi:

BICS (Basic Interpersonal Communicative Skills) – kundalik, oddiy muloqot uchun zarur ko‘nikmalar.

CALP (Cognitive Academic Language Proficiency) – murakkab, akademik til ko‘nikmalari [6.2008: B. 75-123].

Masalan, o‘zga tilli o‘quvchi oddiy suhbatlashishni (BICS) qisqa muddatda o‘rganishi mumkin, lekin fanlarni o‘zbek tilida o‘qish va murakkab matnlarni tushunish uchun (CALP) ko‘p vaqt va maxsus metodika talab qilinadi. Shu bois darslarda akademik til elementlarini bosqichma-bosqich kiritish zarur.

4. Sotsiokognitiv yondashuvlar.

Bu nazariyalar tilni shunchaki grammatik tizim emas, balki ijtimoiy-tarixiy kontekstda shakllangan kommunikatsiya vositasi sifatida qaraydi. O‘quvchiga milliy madaniyat, qadriyatlar, urf-odatlarni ham tushuntirish, tilni ma’no jihatdan to‘liq anglashiga yordam beradi. Masalan, o‘zbek tilidagi izzat-hurmat, salomlashish, qadrdonlik tushunchalari alohida o‘rgatilsa, kommunikativ kompetensiya mustahkamlanadi.

5. Ko‘pkanallilik nazariyalari (multimodal learning).

Bugungi kunda o‘quvchilar turli usullar bilan ma’lumotni qabul qilishadi: eshitish, ko‘rish, teginish, amaliy faoliyat. Shu bois darslarda: audio (eshitish), video (ko‘rish), jismoniy harakat (dramatizatsiya, rolli o‘yin), yozish (mashqlar), nutqiy muloqot (dialog) kabilardan foydalanish samaradorlikni oshiradi. Ko‘plab davlatlar ko‘p millatli aholiga ega bo‘lgani uchun ikkinchi til sifatida o‘rgatish bo‘yicha boy tajriba to‘plagan. Ularni o‘rganish biz uchun juda foydali bo‘lishi mumkin.

1. Qozog‘iston tajribasi.

Qozog‘istonda rus tilida so‘zlashuvchi o‘quvchilarga qozoq tilini o‘rgatishda kommunikativ yondashuv asosida modullashtirilgan o‘quv dasturlari ishlab chiqilgan. Bu dasturlar o‘quvchilar ehtiyojini tahlil qilib, muloqot vaziyatlariga asoslangan mashqlarni ko‘paytirgan. Shuningdek, milliy qadriyatlarni o‘rgatish ham dasturga integratsiyalangan.

2. Rossiya tajribasi.

Rossiyada rus tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish bo‘yicha “etnik rus bo‘lmagan” o‘quvchilar uchun maxsus darsliklar ishlab chiqilgan. Ular fonetika, leksika va madaniyat elementlarini birlashtirgan tarzda o‘rgatiladi. Shu bilan birga, o‘qituvchilar uchun tayyorlangan metodik qo‘llanmalar tizimi juda rivojlangan bo‘lib, har bir bosqichga moslashgan.

3. Yevropa tajribasi (CEFR asosida).

Yevropada ko‘p tillilik masalasi yechimida CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) asosiy rol o‘ynaydi. Bu tizim til o‘zlashtirishni A1 dan C2 gacha bosqichlab baholaydi va har bir bosqichda qaysi so‘z boyligi, qaysi grammatika o‘zlashtirilishi kerakligi aniqlab qo‘yilgan. Shu bois baholash shaffof va aniq bo‘ladi. O‘zbek tilida ham shunday tizimni moslashtirish katta natija berishi mumkin.

4. Kanada tajribasi.

Kanadada ingliz va fransuz tillari teng asosda rasmiy til sifatida tan olingan. Shu sababli “immersion” modeli keng qo‘llaniladi — ya’ni o‘quvchi ma’lum fanlarni ikkinchi til muhitida o‘qib, to‘liq sho‘ng‘ish orqali tilni o‘zlashtiradi. Masalan, matematikani ham ingliz tilida o‘rganish. Bu usul o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini ancha tez rivojlantiradi.

5. UNESCO tavsiyalari.

UNESCO ko‘p tillilik siyosatini qo‘llab-quvvatlab, farzandlarga ,avvalo, ona tilida mustahkam asos berish, keyinchalik esa davlat tiliga o‘tkazishni maslahat beradi. Bu yondashuv bolada o‘qish va yozish ko‘nikmalari mustahkam bo‘lishini ta’minlaydi va psixologik stressni kamaytiradi.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar.

Tadqiqot mavzusi asosida bir yil davomida respublikamiz hududidagi o‘zga tilli o‘quvchilarning o‘zbek tili bo‘yicha muammolari, pedagogik shart-sharoitlari, dars jarayonlari, nutqi o‘rganildi, tajriba-sinov o‘tkazildi. Tadqiqot obyekti sifatida o‘zga tilli (asosan rus, tojik, qozoq va boshqa tillarda

so‘zlashuvchi) o‘quvchilarga o‘zbek tilini o‘rgatish jarayoni o‘rganilgan. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanilgan:

Tahliliy metod – o‘zbek tili darsliklari, dasturlar va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar tahlili;

Kuzatuv metodlari – sinf jarayonlarida o‘qituvchilar va o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlarini kuzatish;

Sotsiologik so‘rovlar – o‘quvchilar va o‘qituvchilarning o‘zbek tilini o‘rganishdagi qiyinchiliklari haqidagi fikrlari;

Eksperimental metod – turli metodlarning samaradorligini sinab ko‘rish.

Tadqiqot obyekti sifatida Toshkent, Samarqand va Namangan viloyatlari va Toshkent shahridagi 8 ta umumta’lim maktablarida o‘qiyotgan 400 nafar o‘zga tilli o‘quvchi va 15 nafar o‘qituvchining o‘zbek tilini o‘rganish jarayoni o‘rganilgan. So‘rov natijalariga ko‘ra:

65% o‘quvchilar o‘zbek tilini boshlang‘ich darajada bilishadi;

25% o‘rta darajada egallagan;

10% esa faqat oddiy so‘zlarni tushunishadi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanilgan:

Tahliliy metod – 5 ta zamonaviy o‘zbek tili darsliklari tahlili;

Kuzatuv metodlari – 20 ta dars jarayoni monitoringi;

So‘rov va intervyular – 400 nafar o‘quvchi va 15 nafar o‘qituvchi bilan suhbatlar o‘tkazilgan;

Eksperimental metod – 3 xil o‘qitish usuli (an’anaviy, kommunikativ va o‘yinli metodlar) taqqoslangan.

Tahlil va natijalar

1. Shart-sharoitlar:

O‘zga tilli o‘quvchilarga o‘zbek tilini o‘rgatishda quyidagi shart-sharoitlar muhim:

Til muhiti – o‘quvchilar uchun o‘zbek tilida doimiy muloqot qilish imkoniyatini yaratish;

Didaktik vositalar – interfaol darsliklar, audio-vizual materiallar, lingvistik o‘yinlar;

Individual yondashuv – har bir o‘quvchining til darajasi va o‘rganish tezligini hisobga olish.

3. Metod va usullar:

Kommunikativ metod – nutqiy faollikni rivojlantirishga qaratilgan usullar;

O‘yinli metodlar – til o‘yinlari, loyihalar, rolli o‘yinlar;

Taqqoslash metodlari – ona tili va o‘zbek tilidagi o‘xshashlik va farqlarni tushuntirish;

Ijodiy topshiriqlar – she’r yozish, hikoya qilish, debatlar.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kommunikativ va o‘yinli metodlardan foydalangan holda o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi nutqiy ko‘nikmalari tezroq rivojlanadi.

O‘quvchilarning 70% i o‘zbek tilini faqat darsda ishlatishadi, ular uchun qo‘shimcha til muhiti yaratish zarur. Statistikaga ko‘ra:

Faqat 30% maktablarda o‘zbek tilida muloqotni rag‘batlantiruvchi qo‘shimcha dasturlar mavjud;

45% o‘quvchilar uyda o‘zbek tilida gaplashmaydi.

Eksperiment natijalari:

An’anaviy metod – bir yil davomida o‘quvchilarning 30% i nutqiy ko‘nikmalarini oshirdi;

Kommunikativ metod – 60% o‘quvchilar faol nutq qobiliyatini yaxshiladi;

O‘yinli metodlar – 75% o‘quvchilar motivatsiyasi oshdi va darslarga qiziqishi kuchaydi.

2. Vositalar:

So‘rov natijalari shuni ko‘rsatdiki:

80% o‘quvchilar vizual materiallar (rasmlar, video darslar) yordamida yaxshiroq o‘rganishadi;

60% mobil ilovalardan foydalanishni afzal ko‘radi;

Faqat 40% maktablarda interfaol ta’lim texnologiyalari mavjud.

Dars jarayonida ushbu vositalardan samarali foydalanish mumkin:

Vizual materiallar – rasmlar, diagrammalar, jadvallar;

Audio materiallar – nutq namunalari, dialoglar, qo‘shiqlar;

Zamonaviy texnologiyalar – mobil ilovalar, onlayn platformalar, virtual sinflar.

Xulosa. O‘zga tilli o‘quvchilarga o‘zbek tilini o‘rgatishda samarali bo‘lish uchun mos metodik yondashuvlar, interfaol vositalar va qulay sharoitlar yaratish zarur. Kommunikativ metodlar, vizual va audio materiallardan foydalanish, shuningdek, individual talabni hisobga olish til o‘rganish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Kelajakda ushbu sohada zamonaviy texnologiyalarning qo‘llanilishi va o‘quv dasturlarini yanada takomillashtirish o‘zbek tili o‘qitish samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi.

Statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zga tilli o‘quvchilarga o‘zbek tilini o‘rgatishda an’anaviy metodlardan ko‘ra kommunikativ va o‘yinli usullar samaraliroqdir. Maktablarda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish (interfaol dasturlar, multimedia vositalari) o‘quvchilarning bilim darajasini 1,5 baravar oshirishi mumkin. Kelajakda o‘zbek tili darslarini tashkil etishda individual yondashuv va til muhitini yaratish katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

Qo‘shimcha takliflar:

O‘qituvchilar uchun metodik treninglar tashkil etish.

“O‘zbek tili o‘qituvchilarining kompetensiyasi” bo‘yicha reyting tizimini joriy etish.

Resurslar taqsimoti bo‘yicha aniq takliflar:

Davlat grantlari orqali maktablarga interfaol doskalar, planshetlar taqdim etish.

O‘quvchilarning 65% mobil ilovalardan foydalanishi mumkinligini hisobga olib, “O‘zbek tili” mobil dasturini ishlab chiqish.

O‘zbek milliy bayramlari, she’riyat kechalari tashkil etish. O‘quvchilarning 40% ushbu tadbirlarda qatnashishi til o‘rganish motivatsiyasini oshirishi mumkin.

Xalqaro tajribalardan foydalanish:

Finlandiya, Singapur kabi mamlakatlarda ko‘p tilli ta’lim tizimini o‘rganish.

CEFR (Common European Framework of Reference) standartlariga moslashtirilgan o‘zbek tili dasturlari ishlab chiqish.

Foydalanilga adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Milliy ta’lim statistikasi. Toshkent - 2023.

2. Мухитдинова Х. С. Ўзбек тилини иккинчи тил сифатида ўқитишда тинглаб тушуниш кўникмасини шакллантириш.//Ўзбекистонда хорижий тиллар. — 2021. — № 3 (38). — С.114-127.

3 Содиқова, Ш. 2022. Олий таълимда ўзбек тилини иккинчи тил сифатида ўқитиш муаммолари // “Тил ва адабиёт таълими”, №2, 31–36-бетлар.

4. Krashen. S. D. 1982. Principles and Practice in Second Language Acquisition. Oxford: Pergamon Press. (Input Hypothesis, Affective Filter). pp. 9-57.

5. Vygotsky. L. S. 1978. “Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes”. Cambridge: Harvard University Press. pp. 56-91.

6. Cummins. J. 2000. “Language, Power and Pedagogy: Bilingual Children in the Crossfire”. Clevedon: Multilingual Matters. pp.75-123.

KASBIY KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR HAQIDA MULOHAZALAR

O.D.Nazarov
Andijon davlat texnika instituti 3-kurs tayanch doktorant

АННОТАЦИЯ Maqolada oliy ta’limda kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishda pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarning o‘rni yoritiladi. An’anaviy va standartlashtirilgan yondashuvlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va tashabbuskorligini cheklashi tanqidiy tahlil qilinadi. Shuningdek, samarali dars mashg‘ulotlarini tashkil etish orqali talabalarning amaliy tayyorgarligini oshirishga qaratilgan fikrlar ilgari surilgan.

АННОТАЦИЯ В статье освещается роль педагогических технологий и интерактивных методов в формировании профессиональных навыков в системе высшего образования. Подвергаются критическому анализу традиционные и стандартизированные подходы, ограничивающие самостоятельное мышление и инициативность обучающихся. Также выдвигаются идеи, направленные на повышение практической подготовки студентов посредством эффективной организации учебных занятий.

ANNOTATION The article highlights the role of pedagogical technologies and interactive methods in the development of professional skills in higher education. Traditional and standardized approaches that limit students' independent thinking and initiative are critically analyzed. The article also puts forward ideas aimed at enhancing students’ practical preparedness through the effective organization of lessons.

Kalit so‘zlar: pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, ta’lim jarayoni, innovatsion yondashuv, integratsiya, didaktik vositalar, rivojlantiruvchi ta’lim

KIRISH. Zamonaviy pedagogikada asosiy e’tibor bilim berishdan ko‘ra, o‘quvchini mustaqil o‘rganishga yo‘naltirishga qaratilmoqda. Ilgari ta’lim jarayonida tayyor bilimlarni o‘quvchiga yetkazish ustuvor vazifa sanalgan bo‘lsa, bu holat o‘quvchining mustaqil tafakkur yuritish qobiliyatini sustlashtirgan. An’anaviy metodikada axborot yodda saqlanadi, biroq uning mazmunini chuqur anglash va tahliliy fikrlash shakllanmay qoladi. O‘quv faoliyati esa, faqatgina eslab qolish darajasi orqali baholanadi. Holbuki, haqiqiy bilim o‘zlashtirish jarayoni nafaqat axborotni egallash, balki uni tushunish va mustaqil fikr chiqarishga asoslanadi. Faqat yodlashga asoslangan yondashuv o‘quvchining tafakkurini rivojlantirmaydi, natijada bilimlar amaliy ahamiyatini yo‘qotadi.

Bilimning qadr-qimmati, u tahlil va xulosa chiqarishga undaganidagina namoyon bo‘ladi. O‘quvchi sabab va oqibat o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qila olmasa, yangi g‘oyalarni ilgari surish yoki kasbiy muammolarga amaliy yechim topishga qiynaladi. Afsuski, uzoq yillar davomida bir nechta avlodlar aynan bunday mexanik o‘zlashtirish usullari orqali ta’lim olgan va bu holat ularning mustaqil fikrlash salohiyatini to‘laqonli namoyon etishiga to‘sqinlik qilgan. Shu sababli, o‘quvchilarning salohiyatini ochib beruvchi, faol, muammoli, amaliy yondashuvga asoslangan pedagogik texnologiyalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi dars mashg‘ulotlari esa har bir mavzuni mantiqiy tahlil qilish, fanlararo aloqadorlikni anglash, shuningdek, tanqidiy yondashuvni rivojlantirish orqali kasbiy kompetensiyalarni mustahkamlashi zarur. Bu esa ta’lim jarayonini ijodiy va chuqur anglangan faoliyatga aylantiradi hamda har bir talabaning amaliy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLARGA SHARH. Pedagogika doimo o‘zgarishda bo‘lib, har bir davrning ijtimoiy ehtiyojlari asosida takomillashib boradi. Bugungi kunda milliy ta’lim tizimi keng ko‘lamli yangilanishlar bosqichiga kirgan. Ayniqsa, so‘nggi o‘n yilliklarda dars jarayoniga ilg‘or metodik yondashuvlar va pedagogik texnologiyalar joriy etilmoqda. 1990-yillardanoq o‘qitishda zamonaviy metodlar, jumladan, interfaol yondashuvlar amaliyotga kirib kela boshladi. “Pedagogik texnologiya” atamasi murakkab mohiyatga ega bo‘lib, u turli nazariy talqinlarda izohlanadi. Masalan, G.K. Selevko bu tushunchani o‘quvchi va pedagog faoliyatini rejalashtirilgan tarzda tashkil etish, o‘qitish muhitini oldindan puxta tayyorlashga asoslangan samarali model deb ta’riflaydi [1; 92]. V.P. Bespalko esa uni aniq belgilangan natijaga erishishni ko‘zlagan ta’lim vositalari va metodlari majmuasi sifatida ko‘radi [2; 132].

Mazkur yondashuvlar kasbiy tayyorgarlik jarayonida o‘quvchining amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, zamonaviy darslar strukturasi, mazmuni va natijadorligini belgilab beradi.

NAZARIY QISM VA TAVSIYALAR. Bugungi kunda jadal sur’atlar bilan o‘zgarayotgan ijtimoiy-iqtisodiy muhit oliy ta’lim tizimiga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etishni taqozo etmoqda. Raqobatbardosh, tashabbuskor va mustaqil qaror qabul qila oladigan mutaxassislarni tayyorlash bugungi ta’limning ustuvor vazifasidir. Bunday yondashuv esa talabalarda mustahkam nazariy bilimlar bilan birga chuqur kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishni talab etadi. Aynan shu jihatda pedagogik texnologiyalar muhim o‘rin egallaydi.

Pedagogik texnologiya - bu faqatgina dars o‘tish usuli emas, balki o‘quv jarayonini tizimli tarzda rejalashtirish, tashkil qilish, boshqarish va baholashga asoslangan, oldindan belgilangan natijaga yo‘naltirilgan metodik faoliyat majmuasidir. Mazkur tizim orqali o‘qituvchi talabani passiv bilim oluvchidan faol, mustaqil va ijodiy fikrlovchi shaxsga aylantiradi. Pedagogik texnologiyalar, eng avvalo, o‘quvchini bilimni yodlash emas, balki uni mohiyatan tushunish, tahlil qilish, qo‘llash va baholashga undaydi. [4; 246]

Kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishda zamonaviy texnologiyalar alohida ahamiyatga ega. Ular o‘quv jarayonini vizual, kommunikativ va faol ishtirokga asoslangan shaklda tashkil etishga imkon beradi. Jumladan, modulli o‘qitish, klaster usuli, case-study (keys), aqliy hujum, rolli o‘yinlar, layfxak-metod, dizayn-o‘ylash (design thinking) kabi usullar o‘quvchini real hayotga tayyorlaydi. Ushbu metodlar orqali talaba nafaqat bilimga ega bo‘ladi, balki u orqali muammoni hal qilish, tahlil qilish, qaror qabul qilish va ijodiy fikrlash malakasiga ham ega bo‘ladi.

Yana bir muhim jihat shundaki, an’anaviy va standartga asoslangan metodik yondashuvlar o‘quvchilarning tanqidiy tafakkur, tashabbuskorlik, kreativ yondashuv kabi ko‘nikmalarini rivojlantirishda yetarli darajada samarali emas. Bu usullar ko‘proq yodlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, zamonaviy jamiyat

ehtiyojlariga mos kelmaydi. Aksincha, yangi pedagogik texnologiyalar talabaning faolligini oshirish, o‘z fikrini asoslash, muammoga turli burchaklardan yondashish imkonini beradi.

Shuningdek, ta’lim jarayonida “ko‘tarish prinsipi” - ya’ni, bilimli o‘quvchini yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan usulni qo‘llash, eng ilg‘or metodik yondashuvlardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu yondashuv nafaqat kuchli talabani yuksaltiradi, balki qolgan talabalar uchun ham ijobiy raqobat muhiti yaratadi. Bunda o‘qituvchidan yuqori darajadagi tayyorgarlik, didaktik refleksiya va individual yondashuv talab etiladi. [5; 167].

Bugungi kunda **“konstruktiv ta’lim modeli”** asosida yaratilgan pedagogik texnologiyalar talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga, bilimni shunchaki eslab qolish emas, balki u orqali yangilik yaratishga, muammoni hal qilishga va hulosalashga undaydi. Bu jarayonda o‘qituvchining roli o‘zgarib, u bilim beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi, maslahat beruvchi, muhit yaratib beruvchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi.

Pedagogik texnologiyalarning o‘ziga xos afzalliklaridan biri - bu o‘quvchining individualligini inobatga olgan holda moslashtirilgan yondashuvni ta’minlashi. Bunda differensial o‘qitish konsepsiyasi asosida yuqori salohiyatli talaba chuqurroq bilim oladi, kamroq tayyorgarlikka ega bo‘lgan talabaga esa tayanch asoslar kuchaytirilgan shaklda yetkaziladi. Bu esa, o‘z navbatida, ta’limda teng imkoniyat va individual yondashuv tamoyillarini qaror toptirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, kasbiy ta’limda fanlararo integratsiyaning kuchaytirilishi, talabalarni birgina mutaxassislik emas, balki qo‘shni yo‘nalishlar bilan ham tanishtirishga xizmat qiladi. Masalan, texnik mutaxassis uchun axborot texnologiyalarini bilish, iqtisodiy tahlilni tushunish, yuridik me’yorlardan xabardor bo‘lish kabi ko‘nikmalar hozirgi bozor talablari asosida zaruriy hisoblanadi. Shu bois, pedagogik texnologiyalar orqali kasbiy bilimlarni kompleks shaklda integratsiyalash nafaqat nazariy, balki amaliy samaradorlikni ham ta’minlaydi.

Yuqorida tilga olingan yondashuvlar ta’lim jarayonining aksariyat bosqichlarida yangilanish zarurligini ko‘rsatadi. Jumladan:

- baholash mezonlari ham zamonaviy texnologiyalarga moslashtirilishi zarur. Faoliyatga yo‘naltirilgan o‘quv baholash tizimi (FAYOT/FAYOQT) orqali talabalarni ijodiy fikrlash, tanqidiy yondashish va real holatlarda yechim topish kabi ko‘nikmalarini baholash imkoni yaratiladi.

- tajriba asosida o‘rganish (learning-by-doing) yondashuvi orqali talabalarning kasbiy malakasi mustahkamlanadi. Bu usul amaliy mashg‘ulotlar, ishlab chiqarishdagi amaliyotlar, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish topshiriqlari orqali yo‘lga qo‘yiladi.

- refleksiv yondashuvlar yordamida esa talaba o‘z o‘quv faoliyatini baholaydi, tanqidiy nazar bilan fikr yuritadi, xatolarni aniqlab, o‘zini o‘zi rivojlantirishga intiladi.

Pedagogik texnologiyalarni joriy etishda yana bir muhim jihat bu — raqamli resurslar va texnologiyalar bilan integratsiya masalasidir. Interaktiv platformalar, onlayn testlar, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va ta’limiy videodarslar yordamida masofaviy yoki gibrid o‘qitish samaradorligi ham oshiriladi.

XULOSA. Kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish bugungi pedagogikaning eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib, bunda pedagogik texnologiyalar hal qiluvchi o‘rin egallaydi. An’anaviy o‘qitish shakllaridan farqli ravishda, zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarni faollikka, ijodkorlikka va mustaqil qaror qabul qilishga undaydi. Bu esa nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki kasbga oid amaliy malaka va ko‘nikmalarni chuqur o‘zlashtirish imkonini beradi. Pedagogik texnologiyalar orqali o‘quv jarayoni samarali loyihalashtiriladi, individual yondashuvga tayaniladi hamda o‘rgatuvchi va o‘rganuvchi o‘rtasida faol muloqot muhitini yaratadi. Ayniqsa, interfaol metodlar, kompetensiyaviy yondashuvlar, modulli o‘qitish tizimlari va raqamli platformalardan foydalanish kasbiy ko‘nikmalarning real sharoitda qo‘llanilishiga xizmat qiladi.

Shunday ekan, pedagogik texnologiyalardan oqilona va ilmiy asoslangan holda foydalanish - talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda, ularni bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan raqobatbardosh mutaxassis etib yetishtirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Адабиётлар рўйхати.

1. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. -М.: Педагогика, 2011, -146с.

2. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. –М.: Просвещение, 2016 -231с.

3. Khodjamkulov, U., Makhmudov, K., & Shofkorov, A. (2020). The Issue of Spiritual and Patriotic Education of Young Generation in the Scientific, Political and Literary Heritage of Central Asian

Thinkers. International Journal Of Psychosocial Rehabilitation, 24(05), 6694- 6701 https://doi.org/10.37200/IJPR/V24I5/PR2020657

4. Khodjamkulov, U., Botirova, Sh., Shofkorov, A., & Abdirimova, I. (2020). Bases of Organizing Cooperation between Educational Institutions through Clusters (on the Example of the Education System of Uzbekistan). Journal of Critical https://dx.doi.org/10.31838/jcr.07.12.47

5. Mardonov, Sh., Khodjamkulov, U., Botirova, Sh., & Shermatova, U. (2020). The Need to Educate Young People with the Spirit of Patriotism in the Context of Globalization. Journal of Critical Reviews, 7(12), 166-169. http://dx.doi.org/10.31838/jcr.07.12.29

6. Кривых С.В. Кластерный подход в прфессиональном образовании / С.В.Кривых// академия профессионального образования. -2019 -№3-4. –с.7-13.

7. Сидорин А.В. Система формирования кадрового потенциала высокотехнологичных отраслей промышленности на основе кластерного подхода / А.В.Сидорин // Интернет- журнал «Науковедение». 2012 -№4. С.1-7.

8. Фроловская М.Н. Становление профессионального образа мира педагога на основе кластерного подхода / М.Н. Фроловская // Инновационные технологии в науке и образовании: сб. статей II ПНМК, Пенза, 23 янв. 2017 г. / МЦНС «Наука и Просвещение»; под общ.ред. Г.Ю.Гуляева (и др.). – Пенза, 2017 -С.210-212.

IJTIMOIY FANLAR VA ZAMONAVIY JAMIYAT

A.Yusubjonova
Namanagan davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar fakulteti Milliy g’oya manaviy asoslari va Huquq ta’limi yo’nalishi 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: **S.M.Botirova**
Falsafiy va Tarixiy fanlar kafedrasi mudiri Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya.Bu maqolada rivojlangan zamovaviy jamiyatda ijtimoiy fanlar o’rni hamda nazariy va amaliy izlanishlar haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar.Zamon,jamiyat,fuqaro,fan,inson,xususiyat,tarix,
muommo,teoriya

Ijtimoiy tushunchasi odamlarning o’zaro ta’sir qiluvchi populatsiyalarda birgalikda yashashini anglatadi. Bu ta’sirlar-ya’ni odamlarning bir-biriga va atrofdagilarga bo’lgan tasiri shaxslar,guruxlar yoki jamoyat doirasida sodir bo’ladi. Ijtimoiy hayot turli xil o’zaro ta’sirlarga boy bo’lib,insonlarning bilim va tushunchalarini kengaytiradi,turli vaziyatlarda qanday munosabatda bo’lishlari kerakligini o’rgatadi,jamiyat bilan uyg’unlikda yashashni taminlaydi.

Ijtimoiy fanlar zamonaviy jamiyatda muhim rol o’ynaydi,chunki ular ijtimoiy hodisalarni ,inson xatti-xarakatlarini va jamiyat tuzilishini o’rganadi.Bu fanlar jamiyatning o’zgarishini,rivojlanishini va muommolarini tushunishga yordam beradi. Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy fanlarning roli quyidagilardan iborat. Ijtimoiy muommolarni tahlil qilish: Ijtimoiy fanlar masalan sotsiologiya,iqtisod,siyosatshunoslik va antropologiya kabi jamiyatdagi turli xil muommolarni jumladan qashshoqlik,tengsizlik,jinoyatchilik,atrof-muhit muommolari vaa boshqalarni tahlil qilishga yordam beradi. Ular bu muommolarning sabablarini aniqlashga va ularni hal qilish uchun strategiyalar ishlab chiqishga yordam beradi. Ijtimoiy o’zgarishlarni tushunish: Ijtimoiy fanlar jamiyatning qanday o’zgarib borayotganini bu o’zgarishlarning sabablarini va oqibatlarini tushunishga yordam beradi. Masalan texnologiyaning rivojlanishi ,globalizatsiya va urbanizatsiya jamiyatda qanday o’zgarishlarga olib kelayotganini o’rganadi.

Ijtimoiy siyosatni ishlab chiqish:

ijtimoiy fanlar davlat organlariga ijtimoiy siyosatni ishlab chiqishda yordam beradi.

Masalan;ta’lim ,sog’liqni saqlash,ijtimoiy himoya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida siyosat ishlab chiqishda ijtimoiy fanlar muhim rol o’ynaydi.

Ijtimoiy integratsiyani ta’minlash:

Ijtimoiy fanlar turli xil ijtimoiy guruhlar o’rtasida tushunish va hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Bu ayniqsa xilma xil jamiyatlarda,turli madaniyatlarga mansub odamlar birga yashaydigan jamiyatlarda muhimdur.

Axborotlashgan jamiyatda fuqorolik ongini rivojlantirish:

Ijtimoiy fanlar fuqorolarga ijtimoiy masalalar haqida xabardor bo’lishga va jamiyatdagi o’zgarishlarda faol ishtirok etishga yordam beradi.

Ijtimoiy fanlar jamiyatning turli soxalarida,jumladan,ta’lim sog’liqni saqlash,iqtisodiyot,siyosat,biznes va boshqa sohalarda qo’llaniladi. Ular bizga jamiyatni yaxshiroq tushunishga va uni yaxshiroq qilishga yordam beradi.

Ijtimoiy fanlarda nazariy va amaliy izlanishlar ,axborot texnologiyalari va komunikatsiya vositalari yordamida intensivlashtirilgan.Bu ma’lumotlar almashinuvi va bilimlarni o’zaro almashtirish orqali ijtimoiy fanlarda yangiliklar,tendentsiyalar va muommoarni tez va samarali tarzda tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek,ijtimoiy fanlarda nazariy va amaliy izlanishlar global muommolarga oid davlatlararo hamkorlikning zarur bo’lgan yo’nalishidir.Jamiyatni qayta shakllantirishga qaratilgan harakatlar milliy va hududiy cheklar bilan cheklangan bo’lishi mumkunligidan foydalanib ko’plab mamlakatlar bir-biri bilan hamkorlik qilmoqda.

Umumiy qilib aytganda,zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlarda nazariy va amaliy izlanishlar,jamiyatning rivojlanishi uchun zarur bolgan muhim jarayonlar hisoblanadi. Bu izlanishlar insonlarning o’zaro aloqalarini tushunishga yordam beradi. Va ijtimoiyya muomosini yechib olish uchun ilmiylashtirilgan usullardan foydalanadi. Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar jamiyatning o’rni va ahamiyatli qismi hisoblanadi.

Bu fanlar insonlar orasidagi aloqalar va munosabatlarni o’rganishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar nazariy va amaliy izlanishlar asosida rivojlanmoqda. Bu fanlar,insonlarning o’zaro aloqalariga,ijtimoiy muomolarga va dunyoqarashiga yaqinroq tushishga qaratilgan. Ijtimoiy fanlar insonlarning o’zaro aloqalarini o’rganish va tahlil qilishga yordam beradi. Ijtimoiy fanlar odamlarning bir biriga qarashlarini o’zaro munosabatlarni va jamiyatda o’z o’rnini o’rganishga yordam beradi. Ijtimoiy fanlar turli soxalardagi bilimlardan iborat bo’lish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Diaz, C.(2011) ijtimoiy fanlar nima uchun kerak 2019 yil 26 mayda olingan @Lavoz.com.ar
2. C (2002)Ijtimoiy fanlar;intizomiy yaqinlashuvlar 2019 yil 26 mayda redal-dan olingan @redayc.org
3. prats J.(sf) ilmiy bilimlar doirasidagi ijtimoiy fanlar 2019 yil 26 mayda UB didaktik tarixidan olingan @ub.edu.

DIACHRONIC EVOLUTION OF ROBOTICS TERMINOLOGY

G.X.Rasulova
PhD student of Namangan State Technical University
B.A.Nasirdinov
Teacher of Namangan State Technical University

Abstract. This study investigates the diachronic development of robotics terminology from its literary origins to its current status as a complex, interdisciplinary lexicon. Through a historical and linguistic analysis, the research identifies five key stages in the evolution of robotics terms, highlighting how technological progress, scientific paradigms, and sociocultural influences have shaped the vocabulary of the field. Special attention is given to the semantic shifts of core terms such as robot, cybernetics, and mechatronics, as well as the emergence of contemporary terms related to artificial intelligence and human-robot interaction.

Keywords: robotics terminology, diachronic linguistics, term evolution, semantic shift, standardization, translation, interdisciplinary language, mechatronics

Introduction. The rapid evolution of robotics as a scientific and technological field has been accompanied by the emergence and transformation of a specialized terminological system. The diachronic study of robotics terminology - examining how terms have developed, changed, and adapted over time -

provides valuable insights into both the linguistic and conceptual growth of the discipline. As robotics has transitioned from speculative fiction and theoretical constructs to practical applications in industry, medicine, and daily life, its terminology has expanded, reflecting shifts in technological capability, interdisciplinary integration, and global discourse.

Diachronic analysis allows us to trace the etymology and semantic shifts of key robotics terms, such as "robot," "automation," "cybernetics," "AI," and "mechatronics," revealing how their meanings have evolved in response to innovation and societal need. This evolution is not only linguistic but also cultural and cognitive, as terms are borrowed, redefined, or localized across different languages and regions. Understanding the diachronics of robotics terminology is essential for accurate translation, effective communication, and the development of standardized technical language within the global scientific community.

The study of terminology evolution, particularly in rapidly developing fields like robotics, has attracted increasing attention from linguists and technologists alike. Cabré (1999) emphasizes the importance of terminology not only as a linguistic phenomenon but also as a reflection of conceptual development within specialized domains. In line with this view, scholars such as Temmerman (2000) have advocated for a dynamic approach to terminology, noting that technological terms often undergo semantic shifts as innovations reshape the understanding of existing concepts or introduce entirely new ones.

The term robot itself exemplifies diachronic change. Originally coined by Karel Čapek in his 1920 play R.U.R. (Rossum’s Universal Robots), the word derived from the Czech word robota (meaning forced labor) and was initially used in a fictional context. However, as robotics emerged as a scientific discipline in the mid-20th century, the term was redefined to denote programmable mechanical devices capable of performing tasks autonomously (Asimov, 1950). Asimov's contribution to robotics terminology, including his formulation of the "Three Laws of Robotics," reflects the influence of science fiction in shaping early technical language, a phenomenon explored by Lunenfeld (2011) in his analysis of techno-discursive evolution.

Results and Discussion. The diachronic analysis of robotics terminology reveals that the evolution of terms in the field is closely tied to technological innovation, interdisciplinary integration, and sociocultural influence. The results of this study show that robotics terminology has progressed through at least five key stages: fictional origins, foundational science, industrial application, AI integration, and human-centric development. Each stage introduced new terminologies while also transforming the meanings of existing ones.

One of the most significant findings is the semantic shift of the term robot, which evolved from a literary concept symbolizing dehumanized labor to a core term in modern technology denoting programmable autonomous machines. Similarly, the term cybernetics, once widely used in early robotics discussions, has diminished in everyday usage but laid the foundation for the emergence of more specific terms like control systems and feedback loops. The results also show that hybrid terms such as mechatronics and bio-robotics emerged as the field became more interdisciplinary, blending vocabulary from mechanics, electronics, biology, and artificial intelligence.

The discussion further highlights the growing role of international standardization in stabilizing robotics terminology. For example, ISO standards have helped define and clarify technical terms such as manipulator, axis, and end-effector, which are now widely accepted across languages. However, despite this progress, challenges remain in the consistent translation and adaptation of robotics terms into non-English languages, such as Uzbek. Loanwords from English and Russian are commonly used, often without full semantic adaptation, leading to partial understanding or hybridized usage in educational and professional contexts.

Another key result is the evidence of terminology expansion in the 21st century toward more human-centric and ethical concerns. Terms like collaborative robots (cobots), assistive robotics, and ethics of AI demonstrate how societal values and concerns shape the development of specialized vocabulary. These newer terms not only define technical capabilities but also reflect a shift in the robotics discourse from industrial efficiency toward human interaction, inclusion, and safety. The diachronic study of robotics terminology shows that term evolution is not merely a linguistic process but a reflection of technological paradigms, disciplinary boundaries, and cultural influences. The study confirms that the systematic development and contextual understanding of robotics terms are essential for effective knowledge transfer, standardization, and multilingual accessibility in the global scientific community.

Conclusion. The diachronic analysis of robotics terminology demonstrates that the language of robotics has evolved in direct correlation with the field’s technological, conceptual, and societal development. From its literary roots to its current interdisciplinary applications, robotics terminology has undergone significant semantic shifts, lexical expansion, and structural transformation. Each historical stage has contributed to shaping the specialized vocabulary used today, reflecting not only advancements in technology but also changing perceptions of the role of robots in human life.

References:

1. Asimov, I. (1950). I, Robot. Gnome Press.
2. Bowker, L., & Pearson, J. (2002). Working with specialized language: A practical guide to using corpora. Routledge.
3. Cabré, M. T. (1999). Terminology: Theory, methods and applications. John Benjamins Publishing.
4. Köhler, R., & Cortés, A. (2013). Terminological dynamics in interdisciplinary fields: The case of robotics. Terminology, 19(2), 205–223. https://doi.org/10.1075/term.19.2.03koh
5. Lunenfeld, P. (2011). The secret war between downloading and uploading: Tales of the computer as culture machine. MIT Press.
6. Temmerman, R. (2000). Towards new ways of terminology description: The sociocognitive approach. John Benjamins Publishing.
7. Tursunov, B. (2020). The challenges of translating scientific and technical terminology into Uzbek. International Journal of Language and Linguistics, 8(1), 45–50.
8. Čapek, K. (1920). R.U.R. (Rossum’s Universal Robots). Prague: Aventinum.

UDK: 632.95.595.7

INTENSIV BOG‘LAR AGROBIOTSENOZIDA MUHIM SHIRA EHTOMOFAGLARINING ROLI

A.N.Jumayeva
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti izlanuvchi
Sh.I.Temirova
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktorant

Annotatsiya: Maqolada intensiv mevali bog‘larda uchraydigan asosiy tabiiy dushmanlar — entomofag hasharotlarning shira (Aphididae) populyatsiyasini nazorat qilishdagi ahamiyati tahlil qilindi. *Chrysopa carnea*, *Coccinella septempunctata*, *Aphelinus mali* va *Aphidius* sp. kabi turlarning morfologiyasi, biologiyasi va ekologik funksiyalari eksperimental ma’lumotlar hamda adabiyotlar asosida baholandi. Natijalar entomofaglardan foydalanish kimyoviy insektitsidlarga bo‘lgan ehtiyojni sezilarli darajada kamaytirishini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: shira, entomofag, *Chrysopa carnea*, *Coccinella septempunctata*, *Aphelinus mali*, *Aphidius* sp., biologik kurash.

Аннотация: В статье проанализирована роль основных энтомофагов в регуляции численности тлей в интенсивных плодовых садах. Изучены морфология, биология и экологические функции таких видов, как *Chrysopa carnea*, *Coccinella septempunctata*, *Aphelinus mali* и *Aphidius* sp. Результаты подтверждают возможность значительного сокращения применения инсектицидов за счёт использования энтомофагов.

Ключевые слова: тля, энтомофаг, *Chrysopa carnea*, *Coccinella septempunctata*, *Aphelinus mali*, *Aphidius* sp., биологическая борьба.

Annotation: The article evaluates the role of major entomophagous insects in regulating aphid populations in intensive fruit orchards. The morphology, biology, and ecological functions of *Chrysopa carnea*, *Coccinella septempunctata*, *Aphelinus mali*, and *Aphidius* sp. were assessed using experimental data and literature sources. Findings demonstrate that integrating these natural enemies can substantially reduce reliance on chemical insecticides against aphids.

Keywords: aphid, entomophage, *Chrysopa carnea*, *Coccinella septempunctata*, *Aphelinus mali*, *Aphidius* sp., biological control.

Intensiv bog‘dorchilikda Aphididae oilasiga mansub shiralarning zarari keskin ortib bormoqda. Ular vegetatsiya davomida o‘simlik sharbatini so‘rib, fotosintez jarayonini susaytiradi va bir qator virusli kasalliklarni tarqatadi. Ekologik barqaror himoya tizimida ularning populyatsiyasini tabiiy yo‘l bilan nazorat qilish muhimdir. Ushbu maqolada eng samarali entomofag turlarining biologik xususiyatlari va amaliy ahamiyati yoritildi.

***Chrysopa carnea* Steph**. (Neuroptera: Chrysopidae), xalq orasida "oltinko‘z" nomi bilan mashhur bo‘lib, qishloq xo‘jaligi zararkunandalariga qarshi samarali tabiiy entomofaglardan biridir. Uning morfologik tuzilishi, rivojlanish bosqichlari va biologik xususiyatlari bir qator tadqiqotlarda keng o‘rganilgan. Oltinko‘z urg‘ochi va erkak individlari orasida tashqi morfologik farqlar bo‘lmasa-da, umumiy ko‘rinishi juda o‘ziga xos: tanasi nozik, uzunchoq, uzunligi 10–12 mm gacha yetadi. Qanotlari shaffof, kengaygan va ko‘p nervli bo‘lib, dam olayotganda tanasiga yotqizilgan holda turadi. Ko‘zlari yirik va metall-yashil yoki oltin rangda jilolanib turadi — bu belgi unga "oltinko‘z" nomini bergan. Lichinka bosqichi entomofag faoliyatga ega bo‘lib, tanasi cho‘zilgan, tananing orqa tomonida ildizsimon tuzilmalar bo‘lishi mumkin [7. 2000. - 175 b.].

Oltinko‘z iliq iqlim sharoitida bir necha avlod beradi. Urg‘ochilari tuxumlarini asosan zararkunandalar to‘plangan joyga qo‘yadi. Har bir urg‘ochi 300–400 tagacha tuxum qo‘yishi mumkin [3]. Tuxumlar mayda, o‘ziga xos ravishda uzun oyoqchalar ustiga joylashgan bo‘ladi. Bu tuzilma boshqa hasharotlardan himoya qilishga yordam beradi.

Oltinko‘z lichinkalari ayniqsa shiralar (*Aphididae*), tripslar (*Thysanoptera*), oqkanotlar (*Aleyrodidae*) va boshqa yumshaq tana tuzilishiga ega zararkunandalarga qarshi samarali hisoblanadi [4. 2022:B.45].

Oltinko‘z ekologik jihatdan muhim bo‘lib, intensiv qishloq xo‘jaligida insektitsidlardan foydalanishni kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. U biologik kurashda keng qo‘llaniladi, xususan, mevali bog‘lar, sabzavot plantatsiyalari va issiqxonalarda shiralarni nazorat qilishda samarali bo‘lgan [8]. Lichinkalar har kuni 50–60 dona afidni yeb tugatadi. G‘umbaklik bosqichi 7–10 kun davom etadi, undan so‘ng voyaga yetgan individ paydo bo‘ladi. Voyaga yetgan oltinko‘z asosan gul changi va nektar bilan oziqlanadi, biroq ba’zan o‘lja ham tutishi mumkin [6. 2023:B.45].

Oltinko‘z O‘zbekistonda o‘rganilgan entomofaglar ichida eng istiqbolli turlar qatoriga kiradi. Toshkent agrar universiteti va Andijon qishloq xo‘jaligi instituti olimlari tomonidan bog‘ va sabzavotchilik ekinlarida qo‘llanish tajribalari olib borilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ushbu entomofag shiralar sonini 70% gacha kamaytirishga qodir [5. 2017:B.51-52].

***Coccinella septempunctata* L.** (Coleoptera: Coccinellidae) — shiralar, oqqanotlar va boshqa yumshaq tana tuzilishiga ega zararkunandalarni kemiruvchi, Coccinellidae oilasi vakillari ichida eng keng tarqalgan yirtqich qo‘ng‘iz hisoblanadi. O‘zbekistonda bu entomofag mevali bog‘larda shiralar sonini tabiiy usulda kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

Voyaga yetgan individlar yumaloq shaklda bo‘lib, tanasi qizil-jigarrang rangda, har bir old qanotida uchta qora nuqta va birlashtiruvchi orqa qismda bitta nuqta bo‘ladi — jami yetti nuqta mavjud (shuning uchun nomi “yetti nuqtali xon qizi”). Tanasi uzunligi 6–8 mm. Erkak va urg‘ochilar tashqi ko‘rinishda deyarli farqlanmaydi. Lichinka bosqichida tanasi cho‘zilgan, quyuq kulrang yoki qora rangda bo‘lib, tanasida to‘q sariq dog‘lar mavjud. Lichinkalar morfologik jihatdan shiralarni tutib yeyishga moslashgan [8. 2015:B.552].

C. septempunctata urg‘ochilari tuxumlarini guruh-guruh qilib asosan shiralar koloniyalari yaqiniga qo‘yadi. Bir urg‘ochi hayoti davomida 400–1000 tagacha tuxum qo‘yishi mumkin. Tuxumlar 3–5 kun ichida ochiladi. Lichinkalar 3–4 instar bosqichdan o‘tadi va har kuni o‘rtacha 40–70 dona shirani yeydi. G‘umbaklik bosqichi o‘rtacha 6–10 kun davom etadi. Voyaga yetganlar ham shiralar, oqqanotlar va ba’zi holatlarda tibbiy ahamiyatga ega boshqa zararkunandalar bilan oziqlanadi. Issiq iqlimda bir yilda 2–3 avlod beradi. Sovuq mavsumda barglar, po‘stloqlar yoki o‘lik biomassa orasida diapauzada o‘tadi.

Ushbu qo‘ng‘iz ayniqsa olma, shaftoli, gilos, olcha, nok va boshqa mevali daraxtlarda uchraydigan shiralarga qarshi samarali hisoblanadi. Bog‘larda bu qo‘ng‘izlar sonining yetarli bo‘lishi shiralar sonini tabiiy usulda 60–80% gacha kamaytirishga yordam beradi [4. 2022:B.45].

Aphelinus mali (Hymenoptera: Aphelinidae) — Eriosomatinae oilasiga mansub zararkunanda shiralarga qarshi kurashda qo‘llaniladigan ichki parazit entomofagdir. U birinchi marta 19-asrda tavsiflangan va keyinchalik ko‘plab mamlakatlarda biologik kurash vositasi sifatida joriy etilgan. O‘zbekistonda ham bu entomofag, ayniqsa, olma bog‘laridagi yungli shira (Eriosoma lanigerum) sonini nazorat qilishda dolzarb hisoblanadi [2. 2013:B.56].

Voyaga yetgan *Aphelinus mali* juda mayda, uzunligi 1–2 mm bo‘lib, tanasi qora rangda, qanotlari shaffof va ingichka. Antennalari 9 bo‘g‘imli, urg‘ochilarida tukli. Ko‘zlari qizg‘ish jigarrang, parazitizmga moslashgan og‘iz apparati mavjud. Tuxumlari shaffof, bir necha mikrometr o‘lchamda bo‘lib, mezogoniy yo‘li bilan shiraning ichki qismiga qo‘yiladi [1. 2023:B.19].

Urg‘ochi *Aphelinus mali* o‘z tuxumlarini yungli shira tanasiga qo‘yadi. Tuxumdan chiqqan lichinka shirani ichkaridan yemirib, uni nobud qiladi. Lichinka rivojlanishiga qarab shirani qoraytiradi — bu holat “mummifikatsiya” deb ataladi. Har bir urg‘ochi hayoti davomida o‘rtacha 80–100 ta shirani parazitlashi mumkin. G‘umbaklik bosqich ham shira tanasi ichida o‘tadi. O‘rtacha rivojlanish muddati 18–25 kun, bu haroratga bog‘liq. Voyaga yetgan Aphelinus mali parazitlangan shiradan teshik ochib chiqib ketadi. Bir yilda 3–5 avlod beradi.

Aphelinus mali – biologik kurashda juda samarali parazit bo‘lib, insektitsid qo‘llanmasdan turib *Eriosoma lanigerum* sonini 60–90% gacha kamaytirishi mumkin. Ayniqsa, olma bog‘larida u bilan *E. lanigerum* o‘rtasidagi muvozanat uzoq muddat saqlanadi [3. 2017:B.446].

Aphidius sp. (Hymenoptera: Braconidae) — shiralar (Aphididae) oilasiga mansub zararkunandalarga qarshi samarali parazitlar hisoblanadi. Ular ichki parazit (endoparazit) bo‘lib, lichinkalari shira tanasida rivojlanadi va uni nobud qiladi. Eng ko‘p uchraydigan turlari: *Aphidius colemani, Aphidius ervi* va *Aphidius matricariae*.

Voyaga yetgan *Aphidius* turlari kichik (2–4 mm), ingichka tanali, qora-jigarrang rangli pashshalarga o‘xshaydi. Antennalari uzun, 13–17 bo‘g‘imli. Orqa qanotlarida xos bo‘lgan "M-cu" nerv yo‘qligi — ularni boshqa parazitlardan ajratishda muhim belgi hisoblanadi. Urg‘ochi Aphidius shiralarni aniqlab, ularga tuxum qo‘yadi. Lichinka shira ichida rivojlanib, uning organizmini iste’mol qiladi va 5–7 kun ichida g‘umbakka aylanadi. G‘umbak bo‘lgan shira tanasi "mumifikatsiyalangan" holatga keladi — bu holat “afid mumiyasi” deyiladi. Voyaga yetgan *Aphidius* unga teshik ochib tashqariga chiqadi.

Aphidius parazitlari кimyoviy preparatlarsiz shiralarga qarshi samarali vosita bo‘lib, biologik integratsiyalashgan kurash tizimida muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa, sabzavot, gulli o‘simliklar, va mevali bog‘lar uchun foydali.

Chrysopa carnea, *Coccinella septempunctata*, *Aphelinus mali* va *Aphidius* sp. intensiv bog‘lar agrobiosenozida shiralarga qarshi biologik kurashning asosiy komponentlari hisoblanadi. Ularning ommaviy ko‘paytirilishi va qo‘llanilishi kimyoviy himoya choralarini kamaytirib, ekologik va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bariyev S. Shiralarga qarshi entomofaglarning samaradorligi // Fan va amaliyot. – 2023. - №4. –B. 19–24.

2. Hamraev A.Sh., Xasanov B.A., Sulaymonov B.A., Kojevnikova A.G. O‘simliklarni biologik ximoya qilish. – Toshkent, 2013. –B. 56-61.

3. Hamraev A.Sh., Kojevnikova A.G., Sulaymonov V.A. va boshqalar O‘simliklarni himoya qilish. – Andijon, 2017. – B. 446-447.

4. Qurbanova, N. Sh. *Coccinella septempunctata* L. biologiyasi va bog‘lardagi roli // Agrobiologiya muammolari. - 2022. - №3. B. 45–49.

5. Raximov M. Olma shirasi zararini kamaytirishda oltinko‘z entomofagining ahamiyati // Agrokimyohimoya va o‘simliklar karantini. - 2017. - №4. - B-51-52.

6. Saidova, N. M. Oltinko‘z (Chrysopa carnea) lichinkalarining shiralar bilan oziqlanish samaradorligi // Zamonaviy fan va ta’lim jurnali. – 2023. - №2. –B. 45–50.

7. Tauber, M. J., Tauber, C. A., & Daane, K. M. (2000). *Chrysoperla*: Biology and use in biological control // Annual Review of Entomology. 45, 175–201.

8. Xo‘jaev Sh.T. O‘simliklarni zararkunandalardan uyg‘unlashgan himoya qilishning zamonaviy usul va vositalari. – Toshkent, 2015. – 552 b.

KASBIY TAYYORGARLIKDA MUAMMOLI TAFAKKUR VA FANLARARO INTEGRATSIYANING O’ZARO BOG’LIQLIGI

U.I.Abduraufova
Mustaqil izlanuvchi

Anotatsiya: Ushbu tezisda pedagoglarni integrativ tayyorlashda muammoli tafakkurning ahamiyati nazariy va uslubiy jihatdan qay darajada o’rganilganligi bayon etilgan. Shu bilan birga, muammoli tafakkur, klaster, kasbiy rivojlanish tushunchalariga ta’rif berilgan.

Аннотация: В диссертации рассматривается теоретическая и методическая изученность значимости проблемного мышления в интегративной подготовке педагогов. При этом определяются понятия проблемного мышления, кластера и профессионального развития.

Abstract: This thesis describes the extent to which the importance of problem-based thinking in the integrative training of pedagogues has been studied theoretically and methodologically. At the same time, the concepts of problem-based thinking, cluster, and professional development are defined.

Kalit so’zlar: muammoli tafakkur, rivojlanish, qobiliyat, texnologiya, kasbiy rivojlanish.

Ключевые слова: решение проблем, развитие, навыки, технологии, профессиональное развитие.

Keywords: problem-solving, development, skills, technology, professional development.

Jahon tajribasida pedagogik ta’limda fanlararo integratsiya va muammoli tafakkur kompetensiyalari asosiy tamoyil sifatida qaralmoqda. STEAM texnologiyasi, keys metodi, klaster va aqliy xarita metodlari orqali bo’lajak tarbiyachilarga topshiriqlar berilib, ularni har tomonlama kasbiy tayyorlanishlariga ahamiyat berilmoqda. Xususan O’zbekistonda ham bu kabi yondashuvlar asosida o’qitish barcha uchun katta qiziqish uyg’otmoqda.

Integrativ yondashuv-bu fanlararo va tarmoqlararo uyg’unlik asosida bilim va ko’nikmalarni birlashtirishni nazarda tutadigan metod bo’lib, hozirgi rivojlangan zamondagi dolzarb mavzulardan hisoblanadi. Har qanday soha uchun integratsiyalash bilimlarni oson, samarali va uzoq muddatda xotirada qoladigan va amaliyot bilan o’zaro integratsiyalaydigan jarayondir. Integrativ jarayonlarni muammoli tafakkur asosida o’zlashtirish bu pedagoglarda mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv va muammolarga ijodiy yechim topa olish qobiliyatini shakllantirishda asosiy omillardan biridir. Bu jarayonlarni asoslashda bir qancha ilmiy izlanishlarga asoslanamiz.

Bu muammo yuzasidan John Devey, Jerome Bruner, Horward Gardner, Jean Piaget, Lev Vygotskiy va boshqa bir qancha olimlar o’z ilmiy izlanishlarini olib borganlar. Biroq muammoning konseptual asosi to’liqligicha ochib berilmagan. Muammo ustida ishlash jarayonida bizga ma’lum bo’ldiki tarmoqlararo bilimlarni o’zaro integratsiyalab, ularni muammoli tafakkur asosida o’rganishning usul va yo’llarini ishlab chiqishni va uni amaliyotga tadbiq etishni talab etadi. Bu vazifani amalga oshirish uchun pedagog olimlar qarashlarini ko’rib chiqamiz.

John Devey muammoli tafakkurni reflektiv fikrlashga tenglashtiradi va shunday ta’rif beradi. “Muammoli tafakkur- bu tafakkurning yuqori shaklidir. U shubhali vaziyatdan boshlangan holda, tahlil, taxmin, sinov va yechim orqali muammoni hal etishga intiluvchi ongli fikr jarayonidir”[1.9-b]Muammoli tafakkur insonni fikr yuritishga, mulohaza qilishga majburlaydi. Miyamizdagi hujayralar qancha ishlagan sari faollashadi. Hozirgi texnika zamonida barcha vazifalar mexanizatsiyalashtirilganligi sababli aqliy faoliyat ham susayishi kuzatilgan. Biz aqliy faollikka qaytishning maqbul yechimi bu muammoli tafakkur asosida bilimlarni o’zlashtirishimizdir.

Jerome Bruner ta’lim shunday bo’lishi kerakki, bola har bir bilimni topishda go’yoki uni o’zi kashf qilgan bo’lsin [3.21-b]degan g’oyani ilgari surgan. Ya’ni ma’lum bilim va ko’nikmani o’zlashtirayotganda faqat yodlash yoki o’qib o’rganish orqali emas balki, mohiyatini o’zi ocha olishi haqida fikr bildirilgan. Biz olgan bilimlarimiz vaqtinchalik xotiramizda saqlanadi ammo tafakkurimizda hosil bo’lgan muammoning yechimi bizga tajribadek ta’sir qilib, abadiy xotiramizda saqlanadi. Inson ma‘lum faoliyatni boshidan kechirganda, unda amaliy ko’nikma hosil bo’ladi. Bu vaziyatda takrorlanganda qanday yo’l tutish lozimligini biladi. Bizning maqsadimiz ham mana shu “Tarbiyachilarda ro’y berishi mumkin bo’lgan vaziyatlarga ularni integrativ yondashuv asosida tayyorlashdir”.

Muammoli tafakkur- bu shaxsning murakkab vaziyatlarni tahlil qilish, savol qo’yish, muqobil fikrlash va ijodiy yechim topish qobiliyatidir. Muammoli tafakkur pedagogik faoliyatda inovatsion

yondashuv, moslashuvchan qaror qabul qilish va refleksiya qilish uchun zarur kompetensiyalardan biri hisoblanadi.[5-22] Muammoni tahlil qilish va uni yechimini topishga qaratilgan tafakkur- muammoli tafakkurdir. Muammoli tafakkur atamasi bizga notanishdek, ammo bu masala ustida bir qancha olimlar allaqacon o’z izlanishlarini boshlaganlar.

Xulosa qilib aytganda, fanlarni o’zlashtirish, ko’nikma hosil qilish va egallagan bilimlarni amaliyotda tadbiq eta olish muhum masala. Ya’ni nazariyani amaliyot bilan integratsiyalash uchun pedagoglardan katta mahorat, izchil bilimni talab etadi. Mana shu jihatni inobatga olib, muammoli tafakkur orqali integratsion ta’lim berish masalasini muhim deb topdik. Biz pedagoglarga vaziyatni oqilona baholay olish va muammoni bartaraf eta olish ko’nikmasini shakllantira olsak maqsadimizga erishgan bo’lamiz

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati.

1. Dewey, J. (1910). How We Think. D.C. Heath & Co.
2. Barrows, H. S., & Tamblyn, R. M. (1980). Problem-Based Learning: An Approach to Medical Education. Springer Publishing Company.
3. Bruner, J. S. (1961). The Act of Discovery. Harvard Educational Review, 31(1), 21–32.
4. Piaget, J. (1952). The Origins of Intelligence in Children. International Universities Press.
5. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
6. Hmelo-Silver, C. E. (2004). Problem-based learning: What and how do students learn? Educational Psychology Review, 16(3), 235–266. https://doi.org/10.1023/B:EDPR.0000034022.16470.f3
7. Savery, J. R., & Duffy, T. M. (1995). Problem based learning: An instructional model and its constructivist framework. Educational Technology, 35(5), 31–38.
8.Davidov D.D Teoriya of Developmental learning.1996.1-50

MUAMMOLI INTEGRATSION TA’LIMNING TAVSIF VA XUSUSIYATLARI

U.I.Abduraufova
Mustaqil izlanuchi

Anotatsiya. Ushbu tezis muammoli integratsion ta’limning mohiyatini ochib beradi. Hozirgi rivojlangan zamonda inovatsion kasbiy tayyorlash vazifani amalga oshirishda muammoli integratsion ta’limning ahamiyati haqida so’z yuritadi. Ta’limning bu shakli real muammolarni hal etish orqali ijodiy va tanqidiy fikrlash, hamkorlikda ishlash, axborotni tahlil qilish kabi zamonaviy kompetensiyalarni rivojlantirishga harakat qiladi.

Аннотация. В диссертации раскрывается сущность проблемно-интегрированного образования. Обсуждается значение проблемно-интегрированного образования в реализации задач инновационной профессиональной подготовки в современную эпоху. Данная форма образования направлена на развитие современных компетенций, таких как творческое и критическое мышление, умение работать в команде и анализ информации посредством решения реальных задач.

Abstract. This thesis reveals the essence of problem-based integrated education. It discusses the importance of problem-based integrated education in implementing the task of innovative professional training in the modern era. This form of education seeks to develop modern competencies such as creative and critical thinking, collaborative work, and information analysis through solving real problems.

Kalit so’zlar: Axborot oqimi, fablararo bog’liqlik,inovatsion yondashuv, tanqidiy fikrlash, kompetensiya, hamkorlik.

Ключевые слова: Информационный поток, межфакультетские связи, инновационный подход, критическое мышление, компетентность, сотрудничество.

Keywords: Information flow, inter-faculty connection, innovative approach, critical thinking, competence, collaboration.

Hozirgi ta’lim tizimi tezkor axborot oqimi, fanlararo bog’liqlik va ko’nikmalarni rivojlantirish zaruratini oldinga surmoqda. Shu jihatdan muammoli integratsion ta’lim- bu pedagoglarning bilimlarini bir necha fan doirasida uyg’unlashtirib, murakkab muammolarni hal qilishga yo’naltirilgan inovatsion ta’lim yondashuvidir.

Muammoli integratsion ta'limda muammoli hikoyalar va o'quv qiyinchiliklari pedagoglarni funktsional kognitiv ishlarga jalb qilish uchun zamin hisoblanadi.Bo’lajak pedagoglarni faol harakatlanishga undaydi. Integrativ muammoli muhit pedagog tomonidan ataylab ishlab chiqilgan o'quv muhiti, unda bilim oluvchi o'zi uchun belgilangan maqsadga xizmat qilish uchun mavjud bilim va ko'nikmalarning (fanlararo) yetishmasligini tushunadi, masalan, savolga javob berish, muammoni xulosa qilish, mahoratni bajarish, kuzatilgan tashqi ko'rinishning mohiyatini sharhlash va boshqalar. Integratsion muammoli muhit esa bu kamchiliklarni bilim va tajriba orqali toldiradi.[1.54-b]

Muammoli ta’lim bugungi kunda inovatsion ta’lim turi hisoblanib, motivatsiya beruvchi yondashuv hisoblanadi. Bu yondashuv barcha pedagoglarni qamrab olib, muzokara qilishni talab etadi. Guruhda ba’zan shovqin ko’tarilishi, bir- birini eshitmasligi mumkin. Bu yondashuvning arzimas kamchiligi hisoblanadi.

Integrativ ta'limni bog'lash - darsda qilingan muammoli vaziyatni amaliy amalga oshirish konfiguratsiyasi hisoblanadi, muammoli o’qishning integratsion maqsadini belgilaydi, noma'lum narsalarni bilishga ilhomlantiradi va yangi bilimlarni yoki harakatlar usulini o'zlashtirishga olib keladi. Nazariy fanlarni tushuntirishda biz hayotiy misollar orqali ifodalaymiz. Mana shu narsaning o’zi integratsiyadir. Fanlar aslida bir butunligini mohiyatini ochib beradi. Dunyodagi barcha bilimlarning yaxlitligini ko’rsatadi. Muammoli o’qitish nazariyasini shakllantirish uchun katta ahamiyatga ega qoidani ishlab chiqqan psixolog olimlarning asarlari nafaqat aqliy rivojlanish, hajm va sifat bilan balki o'rganilgan bilimlar, shuningdek fikrlash jarayonlarining tuzilishi, tizimi mantiqiy operatsiyalar va aqliy harakatlar ila tavsiflanadi (S. L. Rubinshteyn, N. A., Menchinskaya, F. V. Kudryavtsev). Mashhur psixologiya mutaxassislari va tarbiyachilarining fikriga ko'ra L. P. Blonskiy, L. S. Vygotskiy, V. V. Davydov, L. V. Zankova, N. B. Istomina, A. N. Leontieva, I. ya. Lerner, A. M. Matyushkina, M. I. Mahmutova, V. Okon, S. L. Rubinshteyn, M. N. Skatkina, I.S. Yakimanskaya va boshqalar.o'quv ishlari o'quv uchun muammoli tartibni amalga oshirish jarayonidan ilmiy izlanishiga foydalanganlar.[2.301-b]

Dunyodagi bilimlar bir butundir va bir butunlik doimo bir birini talab etadi va to’ldirib boradi. Bu bilimlarni oson egallashda muammoli ta’lim yordamga keladi. Tizimlashlashtirilgan bilimlarni egallash, ko’nikmalarga ega bo’lish va uni amaliyptda tadbiq eta olish g’oyatda muhim masaladir. Har bir vazifa ma’lum bir natijaga sabab bo’ladi. Biz o’rganishishimiz kerak bo’lgan inovatsion yondashuv ham ijobiy natijalarga olib kelishi shubhasiz.

Muammoli tadqiqotlar asoschilaridan biri M. I. Mahmudov muammoli o'rganishni rivojlanayotgan ta'limning didaktik tizimi sifatida belgilaydi, bu o'spirinning doimiy aqliy shakllanishini belgilaydi, bu esa kuchli bilim va ma'lum bir fikrlash tarzini, e'tiqod chuqurligini va bilimlardan ijodiy foydalanishni kafolatlaydi. Muammoli o'rganish g'oyasi yangi emas. U o'zining ilmiy yoritilishini A. V. Brushlinskiy, J. V. Brushlinskiy asarlarida ko'targan. Dyui, T. A. Ilyina, T. V. Kudryavtseva, A. M. Matyushkina, M. I. Mahmutova, V. Perch va boshqalar.muammoli o'rganish motivatsiyaning o'ziga xos ko'rinishini rivojlantirishga asoslanadi, natijada u muammoli voqealarni keltirib chiqaradigan muammoli vazifalar zanjiri sifatida taqdim etilishi kerak bo'lgan materialning didaktik tarkibini etarli darajada loyihalashni talab qiladi. Biroq, muammoli tarixni yaratish, o'qitishda, muhim pedagogik qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Buning sababi shundaki, hozirgi kunga qadar muammoli o'rganishning ba'zi jihatlari, kam o'rganilgan. 9

Bo’lajak tarbiyachilar yosh bolalarni har tomonlama rivojlantirishi muhimligi sabali ham aynan ularga integratsion ta’limning o’rni juda muhimdir. Bo’lajak tarbiyachilar barcha fanlardagi bilimlarni to’liqligicha qisqa muddatda o’rgana olmaydilar. Mana shu vaziyatda integratsion ta’limning moslashgan varyanti ya’ni ularning o’z sohalariga tegishli qismini o’rganishning iloji bor. Mana shu vazifa ustida amaliy tajriba olib borish g’oyatda muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, muammoli integratsion ta’lim zamonaviy pedagoglarning kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu model bo’lajak tarbiyachilarning o’zlashtirish darajasini oshiribgina qolmay, balki ularni mustaqil, ijodkor va ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalaydi. Shu bois bu yondashuvning darslarda ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati.

1. Azimov A.M. (2021) – Oliy maktabda muammoli ta’lim — bu maqola muammoli ta’lim texnologiyalarining imkoniyatlari, integratsion metodlar va innovatsion ta’lim mazmunini yoritadi .

2. Qodirov F. va Fayzullayeva D. (2024) – Muammoli o‘qitish orqali o‘quvchilarni rivojlantirish — problem-based learning (PBL) ta’lim sharoitida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, jamoaviy ishlash va analitik ko‘nikmalarini shakllantirishni tahlil etadi .

3. CyberLeninka maqolalari (2023) – Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda muammoli ta’lim texnologiyalari — pedagogika oliygohlarda PBL orqali ijodiy fikrlash va ko‘nikmalarni rivojlantirishga bag‘ishlangan masalalarni ochib beradi .

4. Berdiqulova N.E. (2024) – Innovatsion ta’lim muhitida muammoli ta’lim texnologiyalarini takomillashtirish — muammoli vazifalar orqali tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish, hamkorlik va mustaqil izlanishning ahamiyatli o‘rinlarini yoritadi .

5. Pedagogik integratsiya bo‘yicha manbalar — L.P. Blonskiy, L.S. Vygotskiy, V.V. Davydov, S.L. Rubinshteyn, I.Ya. Lerner va boshqa rus psixologiya-pedagoglarining asarlari muammoli integratsion ta’lim va kognitiv funksiyalar shakllanishini tushuntiradi (monografiya bazasida ko‘plab tadqiqotlar) .

6. Mavlonova R.A. (2009) — Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi — fanlararo integratsiya, integratsiya kurslari va o‘quv metodikasini sharhlaydi

TIBBIYOT VA SOG‘LIQNI SAQLASH TEXNOLOGIYALARI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLAR

M.I.Ibrohimova
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti ,Pediatriya fakulteti talaba, 2-kurs
Ilmiy rahbar: **M.J.Ohunova**
Pediatriya kafedrasi asisstenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tibbiyot va sog‘liqni saqlash sohasida zamonaviy texnologiyalarni joriy etishning dolzarbligi, ulardan foydalanishning afzalliklari, mavjud muammolar hamda kelajakdagi istiqbollar tahlil qilinadi. Raqamli tibbiyot, sun'iy intellekt, biotexnologiya, telemeditsina kabi yo‘nalishlarning sog‘liqni saqlash tizimidagi roli misollar asosida ko‘rib chiqiladi.

В данной статье анализируются современные технологии в области медицины и здравоохранения, их применение, преимущества и перспективы развития. Рассматривается роль цифровой медицины, искусственного интеллекта, телемедицины и геномики в системе здравоохранения.

This article analyzes modern technologies in the field of medicine and healthcare, their applications, advantages, and future prospects. The roles of digital health, artificial intelligence, telemedicine, and genomics in the healthcare system are examined.

Kalit so‘zlar: Tibbiyot texnologiyalari, sog‘liqni saqlash, raqamli sog‘liqni saqlash (Digital health), sun'iy intellekt (Artificial intelligence), telemeditsina, genomika, biotexnologiya, IoT (Internet of Things), personalizatsiyalashgan tibbiyot, raqamli transformatsiya.

Maqola maqsadi: Ushbu maqolaning maqsadi zamonaviy tibbiyot va sog‘liqni saqlash texnologiyalarining asosiy yo‘nalishlarini tahlil qilish, ularning amaliyotdagi o‘rni va samaradorligini o‘rganish, shuningdek, ushbu texnologiyalarni joriy etishda yuzaga keladigan muammolar hamda kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini aniqlashdir. Maqola orqali raqamli sog‘liqni saqlash, sun'iy intellekt, telemeditsina, genomika va biotexnologiyalar kabi innovatsion yondashuvlarning sog‘liqni saqlash tizimiga ta’siri va ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Materiallar: So‘nggi yillarda tibbiyot sohasida yuz berayotgan innovatsion o‘zgarishlar inson salomatligini saqlash va yaxshilash borasidagi yondashuvlarni tubdan o‘zgartirmoqda. Tibbiy texnologiyalar taraqqiyoti sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligini oshirish, diagnostika va davolash jarayonlarini optimallashtirishga xizmat qilmoqda. Xususan, COVID-19 pandemiyasi raqamli sog‘liqni saqlash texnologiyalarining zaruriyatini yana bir bor tasdiqladi.

Zamonaviy tibbiyot texnologiyalari: Raqamli tibbiyot bu — axborot texnologiyalari, mobil qurilmalar, sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili yordamida sog‘liqni boshqarish tizimi. Raqamli tibbiyot quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

Elektron sog‘liqni saqlash (eHealth) — bemorlar haqidagi raqamli kartotekalar, onlayn tibbiy xizmatlar. Mobil sog‘liq (mHealth) — mobil ilovalar orqali sog‘liqni kuzatish (masalan, yurak urish ritmini o‘lchash). Telemeditsina — masofadan turib tibbiy maslahat berish va nazorat qilish.

Sun'iy intellekt (SI) va mashinaviy o‘rganish tibbiy ma'lumotlarni tahlil qilish, kasalliklarni oldindan bashorat qilish, tibbiy tasvirlarni (MRI, KT, rentgen) aniqlashda keng qo‘llanilmoqda. IBM Watson Health va Google DeepMind Health kabi loyihalar bu sohada muhim yutuqlarga erishmoqda.

Genomika va personalizatsiyalashgan tibbiyot:

Genetik ma'lumotlarga asoslangan tibbiy xizmatlar (personalized medicine) orqali individual davolash usullarini tanlash imkoni paydo bo‘lmoqda. CRISPR texnologiyasi genlarni tahrirlashda inqilob yasadi.

Tibbiyotda IoT (Internet of Things) va “aqlli” qurilmalar:

IoT texnologiyasi bilan integratsiyalashgan tibbiyot vositalari — yurak monitorlari, glyukoza nazoratchilari, aqlli soatlar orqali doimiy monitoring amalga oshiriladi. Bular real vaqt rejimida shifokorlarga ma’lumot yuborish imkonini beradi.. Telemeditsina va masofaviy xizmatlar:

Telemeditsina qishloq joylarida yashovchi bemorlar uchun shifokorga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat qilish imkonini yaratadi. Pandemiya davrida bu xizmatlar katta ahamiyat kasb etdi. Hozirgi kunda dunyoning ko‘plab davlatlarida telemeditsina maxsus platformalar orqali faol ravishda rivojlanmoqda. Masalan, Teladoc Health, Amwell.

Biotexnologiya yordamida vaksinlar, rekombinant oqsillar, regenerativ terapiyalar ishlab chiqilmoqda. Robototexnika tibbiy operatsiyalarni aniq, xavfsiz va invaziv bo‘lmagan tarzda bajarishga yordam beradi. Masalan, Da Vinci robot tizimi murakkab operatsiyalarni bajarish uchun mo‘ljallangan.

Raqamli xavfsizlik va etik masalalar:

Tibbiy ma'lumotlarning maxfiyligi va ularni saqlash muhim masalalardan biridir. HIPAA (AQSh) va GDPR (Yevropa) kabi qonunchiliklar bu boradagi normativ bazani belgilaydi. Shu bilan birga, SI qarorlarining shaffofligi, algoritmlarning diskriminatsiyaga yo‘l qo‘ymasligi ham dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash texnologiyalarining rivojlanishi:

O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirish, elektron tibbiy kartalar joriy etish, telemeditsina xizmatlarini kengaytirish borasida bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda. 2023–2025 yillarga mo‘ljallangan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturida sog‘liqni saqlash alohida yo‘nalish sifatida belgilanmoqda.

Xulosa: Zamonaviy tibbiyot texnologiyalari bugungi kunda sog‘liqni saqlash tizimining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Raqamlashtirish, sun'iy intellekt, telemeditsina, genomika va biotexnologiyalar kabi innovatsion yondashuvlar nafaqat diagnostika va davolash sifatini oshirish, balki tibbiy xizmatlarning qulayligi, tezkorligi va ommabopligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekistonda ham sog‘liqni saqlash tizimini zamonaviylashtirish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida elektron tibbiy kartalar joriy etilmoqda, masofaviy tibbiy xizmatlar (telemeditsina) rivojlantirilmoqda, tibbiy axborot tizimlari integratsiyalashuvi yo‘lga qo‘yilmoqda. Shuningdek, aholining sog‘lig‘ini muntazam monitoring qilish, profilaktika va erta aniqlash ishlarini yaxshilash borasida IoT qurilmalari va mobil ilovalardan foydalanish imkoniyatlari tobora kengaymoqda. Biroq, bu yo‘lda hali yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud: texnologik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, tibbiyot xodimlarining raqamli savodxonligi, ma’lumotlar xavfsizligi va axloqiy-etik me’yorlarga rioya qilish zaruriyati dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Shunday bo‘lsa-da, hozirgi islohotlar sur’ati, davlat tomonidan berilayotgan e’tibor va xalqaro tajribalarning joriy etilishi O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimining innovatsion rivojlanish yo‘lida ekanligini ko‘rsatadi. Kelgusida zamonaviy texnologiyalardan oqilona foydalanish, ularni mahalliy sharoitga moslashtirish va aholining keng qatlamiga yetkazish orqali tibbiy xizmatlarning sifati va ko‘lamini sezilarli darajada oshirish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Keesara S., Jonas A., Schulman K. Covid-19 and Health Care’s Digital Revolution. Boston: New England Journal of Medicine, 2020.

2. Topol E. Deep Medicine: How Artificial Intelligence Can Make Healthcare Human Again. New York: Basic Books, 2019.

3. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Raqamli texnologiyalar vazirligi. Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi hukumati nashriyoti, 2020.

4.World Health Organization (WHO). Global Strategy on Digital Health 2020–2025. Geneva: WHO Press, 2021.

5. Zubayev A. Sun'iy intellekt va raqamli sog‘liqni saqlash: yangi imkoniyatlar va muammolar. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2022.

TASVIRLARNI TASNIFLASHDA BELGILARNI BIRLASHTIRISH STRATEGIYALARI TAHLILI

Y.X.Xandamov
Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada biz tasvirlarni tasniflashda belgilarni birlashtirish usullarining nazariy asoslari va amaliy qo‘llanilishini tahlil qilamiz. Maqola bir nechta ma’lumot manbalaridan (masalan, RGB, chuqurlik, infraqizil tasvirlar) olingan ma’lumotlarni birlashtirish orqali chuqur o‘qitish modellarining aniqligini oshirishga qaratilgan. Asosiy e’tibor uchta fundamental birlashtirish strategiyasiga: Piksel darajasida birlashtirish, belgi darajasida birlashtirish va qaror darajasida birlashtirishga qaratilgan. Har bir yondashuvning afzallik va kamchiliklari, shuningdek, ularning matematik modellari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: *Tasvirlarni tasniflash, Belgilarni birlashtirish, Chuqur o‘qitish, Multimodal ma’lumotlar, Konvolyutsion neyron tarmoqlar, Piksel darajasida birlashtirish, Belgi darajasida birlashtirish, Qaror darajasida birlashtirish.*

Аннотация: В этой статье мы анализируем теоретические основы и практическое применение методов слияния признаков в классификации изображений. Статья направлена на повышение точности моделей глубокого обучения путем объединения информации из нескольких источников данных (например, RGB, изображений глубины и инфракрасных изображений). Основное внимание уделяется трем фундаментальным стратегиям слияния: слиянию на уровне пикселей, слиянию на уровне признаков и слиянию на уровне решений. Обсуждаются преимущества и недостатки каждого подхода, а также их математические модели.

Ключевые слова: *Классификация изображений, Слияние признаков, Глубокое обучение, Мультимодальные данные, Сверточные нейронные сети, Слияние на уровне пикселей, Слияние на уровне признаков, Слияние на уровне решений.*

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations and practical applications of feature fusion methods in image classification. The paper focuses on improving the accuracy of deep learning models by combining information from multiple data sources (e.g., RGB, depth, and infrared images). The main focus is on three fundamental fusion strategies: early fusion, intermediate fusion, and late fusion. The advantages and disadvantages of each approach, as well as their mathematical models, are discussed.

Keywords*: Image classification, Feature fusion, Deep learning, Multimodal data, Convolutional neural networks, early fusion, intermediate fusion, late fusion.*

1.Kirish. Tasvirlarni tasniflash (image classification) kompyuterli ko‘rish sohasining asosiy masalalaridan biri bo‘lib, u so‘nggi yillarda chuqur o‘qitish (deep learning) modellarining, xususan, konvolyutsion neyron tarmoqlarning (CNN) rivojlanishi tufayli sezilarli yutuqlarga erishdi [1]. Biroq, murakkab vazifalarda bitta ma’lumot manbasidan foydalanish (masalan, faqatgina RGB tasvirlar) cheklovlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu cheklovlar xira tasvirlar, bir-biriga yopishgan obyektlar yoki yorug‘lik sharoitlarining o‘zgarishi kabi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Bunday muammolarni hal qilish uchun multimodal (ko‘p kanalli) ma’lumotlardan foydalanish, ya’ni tasvirni har xil spektral diapazonlar yoki sensorlar orqali olingan ma’lumotlar bilan boyitish muhim ahamiyat kasb etadi. Belgilarni birlashtirish aynan shu turli manbalardan olingan belgilarni birlashtirib, modelning umumiy tushunish qobiliyatini va tasniflash aniqligini oshirishga qaratilgan [2]. Ushbu maqolada belgilarni birlashtirish (feature fusion) usullarining ilmiy-amaliy jihatdan tahlilini taqdim etadi.

2. Belgilarni birlashtirish usullari

Ma’lumotlarni birlashtirish darajasi bo‘yicha tasniflash, birlashtirish jarayonining ma’lumotlarni qayta ishlash zanjirida qaysi bosqichda sodir bo‘lishini belgilaydi. Bu yondashuvlarning har biri o‘ziga xos afzallik va kamchiliklarga ega [2]. Belgilarni birlashtirish usullari, ma’lumotlarni birlashtirish jarayonining qaysi bosqichida amalga oshirilishiga qarab, uchta asosiy toifaga bo‘linadi: piksel darajasidagi, belgi darajasidagi va qaror darajasidagi birlashtirish.

2.1. Piksel darajasida birlashtirish

Bu eng sodda yondashuv bo‘lib, sensorlardan kelgan xom ma’lumotlar (raw data) dastlabki bosqichda birlashtiriladi. Bu yondashuvda barcha mavjud ma’lumotlar maksimal darajada saqlanadi. Biroq, bunday yondashuv yuqori hisoblash murakkabligi, kichik nosozlikka chidamli emasligi va turli xil sensorlar


ma’lumotlarini moslashtirishdagi murakkablik kabi kamchiliklarga ega. 1-rasmda ushbu yondashuvning sxemasi keltirilgan.

Faraz qilaylik, bizda $S_1 \in R^{H\times W\times C_1}$ (masalan, RGB tasvir) va $S_2 \in R^{H\times W\times C_2}$ (masalan, chuqurlik yoki termal tasvir) kabi ikki xil sensor ma’lumoti mavjud. Birlashtirish operatsiyasi konkatenatsiya (biriktirish) orqali amalga oshiriladi:

$$S_{birlashtirilgan} = Concat(S_1, S_2) \in R^{H\times W\times (C_1+C_2)} \quad (1)$$

Bu yerda S_1 va S_2 – haqiqiy sonlar to‘plamiga qarashli matritsalar, H – tasvir balandligi, W – tasvir kengligi, C(yoki C_1, C_2) – tasvirning kanallar soni.

Bu yondashuvning afzalligi shundaki, u hisoblash resurslarini nisbatan kam talab qiladi, chunki faqat bitta chuqur o‘qitish modeli o‘qitiladi. Biroq, bu ma’lumot manbalari o‘rtasidagi o‘ziga xos farqlarni hisobga olmasligi, zaifroq ma’lumot manbasining foydali belgilarini “yopib” qo‘yishi mumkin [4].



1-rasm. Belgilarni piksel darajasida birlashtirish sxemasi.

2.2. Belgi darajasida birlashtirish.

Ushbu yondashuv zamonaviy chuqur o‘qitish arxitekturalarida eng samarali hisoblanadi [3, 5]. Har bir sensor ma’lumoti uchun alohida neyron tarmoq yo‘nalishi ishlatiladi, ular o‘ziga xos belgilarni mustaqil ravishda ajratib oladi. So‘ngra bu belgilar tarmoqning o‘rta qatlamlarida birlashtiriladi. Bu yondashuv ma’lumot saqlanishi va hisoblash samaradorligi o‘rtasida yaxshi muvozanatni ta’minlaydi. Ushbu yondashuvning sxemasi ifodasi 2-rasmda keltirilgan.

Ikkita turli belgi ajratuvchi funksiya f_1 va f_2 ni ko‘rib chiqaylik. Ular mos ravishda S_1 va S_2 kirish ma’lumotlaridan belgi xaritalarini ajratib oladi. Birlashish nuqtasi odatda chuqur konvolyutsion qatlamlardan keyin bo‘ladi:

$$F_1 = CNN_1(S_1)$$
$$F_2 = CNN_2(S_2)$$

Bu yerda $F_1 \in R^{h\times w\times c_1}$ va $F_2 \in R^{h\times w\times c_2}$ mos ravishda belgi xaritalaridir. Birlashtirish operatsiyasi bir nechta usullarda amalga oshirilishi mumkin:

1. Konkatenatsiya (Concatenation), ya’ni belgilar vektorini ketma-ket joylashtirib yangi belgilar vektorini hosil qilish:

$$F_{birlashtirilgan} = Concat(F_1, F_2)$$

2. Elementma-element qo‘shish (Element-wise Sum), ya’ni belgilar vektorlarining mos elementlari qo‘shilishi hisobiga yangi birlashtirilgan belgilar vektori hosil bo‘ladi:


$F_{birlashtirilgan} = F_1 \oplus F_2$

Belgi darajasida birlashtirish usulida belgi xaritalari bir xil o‘lchamda bo‘lishi kerak.

3. Vazn asosida birlashtirish(Gated Fusion) bu multimodal yoki multisensorli ma’lumotlarni birlashtirish uchun ishlatiladigan ilg‘or usul. Bu mexanizm neyron tarmoqqa turli manbalardan kelayotgan ma’lumotlarning qaysi biriga ko‘proq e’tibor qaratish kerakligini dinamik ravishda belgilash imkoniyatini beradi. Ya'ni, u ikkita manbadan olingan belgilarni shunchaki qo‘shib yubormaydi, balki har bir manbaga ma'lum bir vazn beradi. Bu vaznlar modelning o‘qitish jarayonida ma’lum bir vazifa yoki kontekst uchun qaysi ma’lumot muhimroq ekanligiga qarab belgilanadi [6].

$$g = \sigma(W_g \cdot Concat(F_1, F_2) + b_g)$$
$$F_{birlashtirilgan} = g \odot F_1 + (1 - g) \odot F_2$$

Bu yerda W_g va b_g – O’qitiladigan parametrlar(Neyron tarmoqning vazn koeffitientlari va biaslari), σ – Sigmoid aktivlashtiruvchi funksiya. U 0 dan 1 gacha qiymat chiqaradi. g – hosil qilingan vazn vektori. Agar g 1 ga yaqin bo‘lsa, F_1 belgilari ko‘proq, agar 0 ga yaqin bo‘lsa, F_2 belgilari ko‘proq hisobga olinadi.



2-rasm. Belgi darajasida birlashtirish sxemasi.

2.3. Qaror darajasida birlashtirish.

Qaror darajasida birlashtirish, multimodal ma’lumotlarni birlashtirishning eng oson va moslashuvchan strategiyalaridan biri hisoblanadi [1, 2]. Bu yondashuvning asosiy g‘oyasi, turli xil ma’lumot manbalarini (sensorlar, kanallar yoki hatto turli belgilarni ajratish usullari) mustaqil ravishda qayta ishlashga va faqatgina yakuniy qarorlarni birlashtirishga asoslanadi. Har bir model yakuniy qarorlarni (bashorat ehtimolliklarini) mustaqil ravishda chiqaradi va bu qarorlar yakuniy bashoratni hosil qilish uchun birlashtiriladi. Ammo bu usulda xom yoki belgi ma’lumotlari yo‘qoladi va bir-biriga mos kelmagan qarorlarni birlashtirish murakkab bo‘ladi. Ushbu birlashtirish yondashuvning funksional sxemasi 3-rasmda keltirilgan.

Faraz qilaylik, bizda N ta mustaqil model mavjud bo‘lib, har bir m_i model uchun yakuniy bashorat ehtimoli $P_i \in R^C$ bo‘lsin. Yakuniy birlashgan bashorat $P_{birlashtirilgan}$ quyidagi usullar orqali hisoblanishi mumkin [2]:


1. O‘rtacha hisoblash, ya’ni, barcha modellar tomonidan chiqarilgan ehtimollik vektorlarining o‘rtacha qiymati hisoblanadi:

$$P_{birlashtirilgan} = \frac{1}{N}\sum_{i=1}^{N} P_i$$

2. Ovoz berish. Ushbu usulda har bir model ehtimollik ballari orasida eng yuqori qiymatga ega bo‘lgan sinfni tanlab, o‘z “ovozini” beradi. Yakuniy natija eng ko‘p ovoz olgan sinf sifatida qabul qilinadi.

$$P_{birlashtirilgan} = Mode(\arg\max(P_1), \arg\max(P_2), \dots, \arg\max(P_N))$$

Bu usul ehtimollik ballarini emas, balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri tasniflash natijalarini birlashtiradi.



3-rasm. Qaror darajasida birlashtirish sxemasi.

3. Belgi darajasida birlashtirishning afzalliklari va muhokamasi

Yuqoridagi uchta strategiya orasida belgi darajasida birlashtirish usuli eng yuqori samaradorlikni ko‘rsatadi [5]. Bu shundan dalolat beradiki, chuqur o‘qitish modellari ma’lumot manbalarining noyob

belgilarini saqlab qolish va ularni chuqur konvolyutsion qatlamlarda birlashtirish orqali kuchli sinergiya yaratishga qodir. Bu sinergiya modelning tasvirni yanada to‘liqroq tushunishiga va shu orqali tasniflash aniqligini oshirishga yordam beradi.

Qolaversa, multisensorli ma’lumotlarni birlashtirish jarayonida bir qator muhim masalalarni ham hisobga olish lozim:

a) Ma’lumotning ishonchlilik darajasi: Ba’zi hollarda bitta sensordan olingan ma’lumot boshqasidan ko‘ra ishonchliroq bo‘lishi mumkin. Bu holatda, “Vazn asosida birlashtirish” kabi dinamik birlashtirish mexanizmlari yordamida ishonchliroq ma’lumot manbasiga ko‘proq e’tibor berish mumkin [6].

b) Sinxronizatsiya: Turli sensorlardan olingan ma’lumotlar vaqt yoki joy bo‘yicha sinxronlashtirilgan bo‘lishi kerak. Aks holda, ma’lumotlarni birlashtirish tizimning ishlashiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin [2].

c) Kontekstual ma’lumotlar: Ob’ektni aniqlashda nafaqat uning shakli, balki uning atrofidagi muhit (kontekst) ham muhimdir. Multisensorli ma’lumotlar bu kontekstual ma’lumotlarni yanada boyitishga xizmat qiladi [1].

Xulosa. Ushbu maqola tasvirlarni tasniflashda belgilarni birlashtirish usullarining nazariy va amaliy ahamiyatini ko‘rsatib berildi. Belgilarni birlashtirish bo‘yicha olib borilgan fundamental tadqiqotlarga asoslanib, biz ma’lumotlarni birlashtirishning uchta asosiy strategiyasini tahlil qildik. Xulosa qilib aytganda, uchta usul orasida belgi darajasidagi birlashtirish o‘zining yuqori ishonchliligi va samaradorligi bilan ajralib turadi. Bu yondashuv turli ma’lumot manbalarining o‘ziga xos belgilarini chuqur darajada integratsiyalashga imkon berib, chuqur o‘qitish modellarining tasniflash aniqligini sezilarli darajada oshiradi. Kelajakdagi tadqiqotlar turli birlashtirish mexanizmlari, jumladan, e’tibor (attention) mexanizmlarini qo‘llash orqali gibrid tizimlarni ishlab chiqishga qaratilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Hall, D. L., & Llinas, J. (1997). An introduction to multisensor data fusion. *Proceedings of the IEEE*, 85(1), 6–23.

[2] Atrey, P. K., et al. (2010). Multimodal fusion for multimedia analysis: a survey. *Multimedia Systems*, 16(5), 345–379.

[3] Baltrusaitis, T., et al. (2018). Multimodal machine learning: A survey and taxonomy. *IEEE Transactions on Pattern Analysis and Machine Intelligence*, 41(2), 423–443.

[4] Ngiam, J., et al. (2011). Multimodal deep learning. *Proceedings of the 28th International Conference on Machine Learning (ICML)*, 1265–1272.

[5] Wang, R., et al. (2018). Multispectral image classification via deep learning. *IEEE Geoscience and Remote Sensing Letters*, 15(4), 585–589.

[6] Chen, Z., et al. (2020). Gated fusion network for multimodal emotion recognition. *IEEE Transactions on Affective Computing*, 11(3), 522–533.

[7] LeCun, Y., et al. (2015). Deep learning. *Nature*, 521(7553), 436–444.

ROSSIYADAGI FEVRAL INQILOBI VA UNING TURKISTONGA TA’SIRI

N.A.Valiyeva
NamDPI dotsenti

Annotatsiya Ushbu maqolada Rossiyadagi Fevral inqilobi mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga o‘z ta’sirini o‘tkazib, bu holat imperiya tasarrufida bo‘lgan chekka o‘lkalarda milliy harakatlarni faollashuvi, Rossiyada podsho hokimiyatining ag‘darilganligi, Muvaqqat hukumat tuzilgani, ularda davom etayotgan urush, yer, oziq-ovqat bo‘yicha ahvol masalalari qatori, “mamlakatla demokratik o‘zgarishlar, ayniqsa bu davlat boshqaruvi” masalasiga, millatlarning kelgusidagi taqdiriga e’tibor qaratish zarurligi haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: mahalliy o‘zini-o‘zi boshqaruv organlari, Fevral inqilobi, Muvaqqat hukumat, eski boshqaruv tizimi, dumaga saylovlar, jamoat qo‘mitalari, jamoat xavfsizlik qo‘mitasi.

Аннотация В статье рассматривается влияние Февральской революции на общественно-политическую обстановку в стране, приведшее к активизации национальных движений на окраинах империи, свержению царского режима в России, созданию Временного правительства,

продолжающейся войне, ситуации с землей и продовольствием, а также необходимость уделить внимание вопросу «демократических преобразований в стране, особенно в системе государственного управления» и дальнейшей судьбе народов.

Ключевые слова: органы местного самоуправления, Февральская революция, Временное правительство, старая система управления, выборы в Думу, общественные комитеты, Комитет общественной безопасности.

Abstract The article examines the influence of the February Revolution on the socio-political situation in the country, which led to the activation of national movements on the outskirts of the empire, the overthrow of the tsarist regime in Russia, he creation of the Provisional Government, the ongoing war, the situation with land and food, as well as the need to pay attention to the issue of “democratic reforms in the country, especially in the system of public administration” and the future fate of the peoples.

Key words: local government bodies, February Revolution, Provisional Government, old system of government, elections to the Duma, public committees, Committee of Public Safety.

1917 yil 27 fevralda g‘alaba qozongan Rossiyadagi Fevral inqilobi mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga o‘z ta’sirini o‘tkazib, bu holat imperiya tasarrufida bo’lgan chekka o’lkalarda milliy harakatlarni faollashuviga olib keldi. 1917 yil mart oyi boshlaridan Rossiyada podsho hokimiyatining ag‘darilganligi, Muvaqqat hukumat tuzilgani bilan qutlab Turkistondan Petrogradga telegrammalar yuborila boshlagan. Mazkur telegrammalarda, o‘lkaning taqdiriga befarq bo’lmagan aholi vakillarida muvaqqat hukumatni qo‘llab-quvvatlashlarini bildirib, ularda davom etayotgan urush, yer, oziq-ovqat bo‘yicha ahvol masalalari qatori, “mamlakatla demokratik o‘zgarishlar, ayniqsa bu davlat boshqaruvi” masalasiga, millatlarning kelgusidagi taqdiriga e’tibor qaratish zarur deb qayd etildi. Telegrammalarda “mahalliy o‘zini-o‘zi boshqaruv organlaridagi saylovi organlari”ga e’tibor qaratildi [Усманова Д. Февраль 17-го в телеграммах от мусульманского населения//Гасырлар авазы-Эхо веков, №1/2 1997. -С. 165-167.].

Muvaqqat hukumatni qo‘llab-quvvatlash yuzasidan 1917 yil 5 aprelida Turkiston shahrida bo‘lib o‘tgan, ko‘pchilikdan iborat, majlisda vujudga kelgan shart-sharoitda yangi hukumat barcha musulmonlar ishonchini oqlaydi deyish bilan birga, “umid qilamizki, eski hukumat tomonidan Turkiston o‘lkasi, qirg’iz dashtlari va Kavkazdagi musulmonlarga nisbatan qilingan adolatsizliklar, cheklovlar” bekor qilinadi [Усманова Д. Февраль 17-го в телеграммах от мусульманского населения//Гасырлар авазы-Эхо веков, №1/2 1997. -С. 170.].

Ammo bu umidlar, aslida davom etayotgan yangi, inqilobiy harakatlar oldida, “eski boshqaruv tizimi hamon davom etgani” bilan ko‘zga tashlanadi. Xususan, Turkistonda inqilobning dastlabki kunlarida general-gubernator, viloyat harbiy gubernatorlari, uezd boshliqlari joylarda o‘z boshqaruvlarini davom ettirdi. Muvaqqat hukumatning harbiy vaziri Guchkov tomonidan 1917 yil 8 martida A. N. Kuropatkinga yuborgan telegrammasida “Sizning o’lkani chuqur bilishingiz, xizmatingizga yarasha bo‘lgan obro‘yingiz... lozim bo‘lgan hollarda sizning tajribaga asoslangan aql va zakovatingiz sizga yo‘l ko‘rsatib berar” deb, uni Turkistonni boshqarishda davom etishiga umid bildiradi. Rossiya imperatorining sadoqatli general-gubernatori A. N. Kuropatkin yangi Muvaqqat hukumatning komissari etib tayinlandi.

Endilikda A. N. Kuropatkin o‘lka boshqaruv tizimida yangi lavozimda faoliyat boshlab, 1917 yil 8 martda bergan buyrug‘ida barcha viloyat harbiy gubernatorlari, uezd boshliqlari, harbiy xalq boshqarmasining hamma xodimlari o‘z egallab turgan mansablarida qolib, faoliyatlarini davom ettiraversinlar dedi. Boshqaruv tizimida yana A. N. Kuropatkinni qolganidan Toshkent shahar dumasi o‘z xursandchiligini bildirib, duma raisi Muvaqqat hukumatning bu qarorini qo‘llab-quvvatlayman deb, egallab turgan boshqaruv tizimidagi lavozimida sadoqat bilan xizmatda bo‘lishini bildirdi [Вахобов М. Тошкент уч революция даврида. Тошкент: Ўзбекистон ССР Давлат Нашриёти, 1958. -Б. 159.].

Turkistondagi boshqaruv tizimida ziddiyatli faoliyatiga ega bo‘lgan ijroiya qo‘mita va jamoat xavfsizligi qo‘mitalarining saylovi va ularning dastlabki faoliyati bilan bog‘liq muammo va ziddiyatlar boshqa shaharlarda ham u yoki bu tomonlama ko‘zga tashlangan. O‘z-o‘zidan inqilobdan keyin o‘lka boshqaruv tizimida vujudga kelgan bunday holat siyosiy jihatdan faollashgan milliy ziyolilarni qanoatlantirmas edi. Chunki o‘lka boshqaruv tizimi va viloyat, uezd-shahar, volost, posyolkalarda “o‘z o‘rnini egallash” sa’y-harakatida bo‘lgan ijroiya qo‘mitalari, jamoat xavfsizligi qo‘mitalariga saylovlarda mahalliy millat vakillariga “nomigagina joy ajratilgani”, ularni bunday holatlardan noroziligi A. N. Kuropatkin boshqarayotgan mahkamaga, Rossiya Ministrlar Soveti raisiga, Tashqi ishlar ministriga, Rossiya Davlat dumasi tarkibidagi Musulmonlar fraktsiyasi vakillariga ham yuborildi. Masalan, ijroiya qo‘mitasiga bo‘lgan saylovlar natijasi bo‘yicha Rossiyaning Buxorodagi siyosiy rezidenti A. Ya. Miller

tomonidan A. N. Kuropatkinga yuborilgan telegrammada: “... Saylovlar juda notinch o‘tdi. Endilikda ijroiya komitet va saylovlarda toptalgan huquqlarini tiklashga harakat qilayotgan musulmonlarning keskin noroziligi sezilib qoldi. Musulmonlarni tinchlantirish uchun Muvaqqat hukumatdan tezlik bilan yangi muqobil saylovlar o‘tkazish bo‘yicha ko‘rsatmalar olish yoki hech bo‘lmaganda, aholining boshqa guruhlariga zarar keltirib bo‘lsa-da, o‘zlariga 20 o‘rinni olgan ishchilar sinfi hisobidan musulmonlarga uchta o‘rin ajratish zarur...” deb qayd etilgan [Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Биринчи китоб. 1917-1939 йиллар. Тошкент: “O‘zbekiston”, 2019. -Б.25.].

Boshqaruv tizimida boshlangan bunday boshboshdoqlikka qo‘yilgan dastlabki holatlardan xavotirga tushgan A. N. Kuropatkin tomonidan A. Ya. Millerga va o‘lkadagi gubernatorlariga yuborilgan javob telegrammasida yangi tartib joriy etilayotgan bir paytda joylarda o‘z faoliyatini olib borishga kirishgan “jamoat tashkilotlariga, Sovetlarga, saylov organlariga to‘la ishonch bildirishni, chunki busiz “yangi tuzum”ga o‘tish mumkin emasligini, shuningdek, mahalliy aholi vakillarining murojaaatlariga ehtiyotkorlik bilan yondashishni...” so‘ragan [Абдуллаев Р. Национальные политические организации Туркестана в 1917-1918 годы. Ташкент: “Adabiyot uchqunlari”, 2016. -С. 78.].

Ammo shunisi borki, “inqilob ne’matlaridan” shoshma-shosharlik bilan va mahalliy shart-sharoitni, yerli aholi ruhiyati, urf-odatini hisobga olmagan “yangi jamiyat boshqaruvchilari A. N. Kuropatkinni telegramma orqali bergan ko‘rsatmasidan bexabar bo‘ldilar yoki “xabar topganlari” ham buni bajarishga shoshilmadilar. Xususan, joylarda tashkil topgan ijroiya qo‘mitalari va jamoat xavfsizlik qo‘mitalari o‘z faoliyatlarini muvofiqlashtirgan holda olib bormadilar. Masalan, joylarda tashkil topgan jamoat xavfsizligi qo’mitasi a’zolari faoliyati tizimli tarzda boshqaruvga ega bo’lmay, o’z faoliyatlarida vakolat doirasidan chiqib ketish, o’zboshimchalik holatlari ham ko’zga tashlanadi. Xususan, jamoat xavfsizlik qo’mitasi a’zolari joylarda oziq-ovqat mahsulotlarini taftish qilib, ularni xatlash bilan birga, “musulmonlarning uylariga, musulmon ayollari yashayotgan xonalarga (ichkari hovliga) bostirib kirishayotgani” qayd etilgan. Mazkur masala yuzasidan jamoat xavfsizlik qo’mitasi joylardagi boshqaruv tizimida yuritgan faoliyatiga ko’ra “o’z foydasini o’ylab og’machilik qildi, shu tufayli vujudga kelgan tartiblar avvalgidan ham battar holatga olib keldi. Komitet a’zolari qishloqlardan o’z mahsulotlarini sotish uchun bozorlarga olib kelgan fuqarolarning g’allalarini xatlamoqdalar, keyin esa ular boshqa bozorga kelmaydilar... Ichkilikbozlik, fohishabozlik, tungi otishmalar avj olib bormoqda” deyilgan [Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Биринчи китоб. 1917-1939 йиллар. Тошкент: “O‘zbekiston”, 2019. -Б.26.].

Turkistonni Muvaqqat hukumat tomonidan berilgan komisssar lavozimida boshqarishida davom etayotgan A. N. Kuropatkin boshlangan “inqilobiy ruhiyatdan” kelib chiqib, ma’lum bir xavotirlar bilan barcha viloyat harbiy gubernatorlariga farmoyish yuborib, 1916 yildagi qo’zg’olon ishtirokchilarini sudga tortish bo’yicha yangi ish boshlamaslikni, o’z paytida boshlangan ma’muriy choralarni, mazkur qo’zg’olonda qatnashganlikda ayblanib sudlanganlarning aybini yengillashtirish bo’yicha iltimoslarni ko’rib chiqishni shart qilib qo’ydi. Aynan yana shu mart oyining boshida hamma shaharlarda mahalliy boshqarma organlari sifatida dumaga saylovlar o’tkazish, jamoat qo’mitalarini tuzish, politsiyani militsiyaga almashtirish, qo’riqlash bo’limidagi qidiruv punktlarini tugatish bo’yicha buyruqlar berdi [Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Биринчи китоб. 1917-1939 йиллар. Тошкент: “O‘zbekiston”, 2019. -Б.24.].

A. N. Kuropatkin Turkiston komissari lavozimida faoliyat olib borar ekan, u o’z sa’y-harakati bilan muvaqqat hukumat “talablariga ham” ... ayni paytda o’lkada kundan-kunga o’z haq-huquqi uchun faollik bilan intilgan jamoat tashkilotlari, milliy ziyolilar sa’y-harakatiga ham “munosib javob” berishi, boshqaruvda “tarozining ikki pallasi” bilan hisoblashishi kerak edi. U Turkistondagi barcha viloyat harbiy gubernatorlariga o’z lavozimlarida qolishlarini bildirgan holda, vujudga kelgan “yangi tuzum tartiblarini g’ayrat bilan hayotga tadbiq etish” zarur deyishi bilan birga, boshqaruv tizimida egallab turgan lavozimidan kelib chiqib quyidagilarni amalga oshirish zarur deb topgan:

-boshqaruv tizimida u yoki bu lavozimda faoliyat olib borishi jarayonida aholining g’azabiga sabab bo’lib kelayotgan mansabdorlarni boshqalar bilan almashtirish kerak;

-joylardagi boshqaruv tizimiga tayinlanadigan amaldorlar aholining ishonchini qozongan va ayni paytda qat’iy tarzda ichki tartib-qoidani qo’llab-quvvatlay oladigan bo’lishi zarur [Пуговкина О. “Бывшие” и их судьбы в Узбекистане: исторический аспект (20-30-ые годы XX века). Ташкент: “Zamin nashr”, 2022. -С. 8.].

Turkiston boshqaruv Muvaqqat qo’mitasi raisi N. N. Shchepkinga ko’ra, o’lkada uzoq yillar general-gubernatorlik boshqaruv apparati hukmronligi tugab, “harbiy-xalq boshqaruvidagi lavozimdagilar chetlatilgandan so’ng amalda viloyatlarni boshqarish o’z-o’zidan tuzilgan ijroiya qo’mitalariga,

keyinchalik oqibatda ishchi-soldat deputatlariga o’tdi” [Россия и Центральная Азия. Конец XIX-начало XX века. Сборник документов и материалов. Москва: НОВЫЙ ХРОНОГРАФ, 2017. -С. 176.].

Turkistondagi boshqaruv tizimi 1917 yil Fevral` inqilobidan keyin o’z ahamiyatini yo’qotdi. O’z-o’zidan o’lkadagi general-gubernatorlik boshqaruv apparati, viloyat va uezdlardagi, tegishli tarzda harbiy gubernator, boshliqlar dastlab “lavozimlarda qolgan” bo’lsalar-da, N. N. Shchepkin boshchiligida o’lka boshqaruv qo’mitasi o’z faoliyatini boshlashi bilan eski boshqaruv o’z o’rnini ijroiya qo’mitalariga, ishchi-soldat deputatlariga bo’shatib bera boshladilar. Yangi boshqaruv tizimini joriy etishda, dastlab Turkiston boshqaruv Muvaqqat qo’mitasi o’z faoliyatini ikkilanish va qat’iyatsizlik bilan boshlagan bo’lsa-da, tezda bunday tartibda ish yuritish amaldagi o’zgarishlarga nomunosib ekanligini tushunib yetdi. Shunday “inqilobiy vaziyat”da Turkiston boshqaruv Muvaqqat qo’mitasi o’z faoliyatini “inqilobiy huquqlar doirasida, faqat davlat tartib-qoidalariga rioya qilgan holda olib borishiga to’g’ri keldi” [Россия и Центральная Азия. Конец XIX-начало XX века. Сборник документов и материалов. Москва: НОВЫЙ ХРОНОГРАФ, 2017. -С. 176.].

Turkiston boshqaruv tizimida o’ziga xos ziddiyatli faoliyat olib borgan jamoat xavfsizligi qo’mitasi tarkibida ham yerli aholi vakillari ozchilikni tashkil qilib, o’z ta’sir doirasiga ega bo’lmagan. Masalan, 1917 yili tashkil topgan jamoat xavfsizlik qo’mitasining Toshkent va Samarqanddagi tarkibida ham, atigi ikki nafardan yerli aholi vakillaridan a’zo bo’lgan xolos [Холид Адиб. Создание Узбекистана. Нация, империя и революция в раннесоветский период. Санкт-Петербург/Бостон: Библиороссика, 2022. -С. 117-118.].

Mazkur holat, boshqaruvdagi boshboshdoqlik deyish bilan birga, ikkita jamoat xavfsizligi qo’mitasini bir-biridan alohida holda faoliyat olib borishi, inqilibdon keyin vujudga kelgan “boshqaruv tizimi”ga aholining ishonchsizligiga sabab bo’lishi mumkin deb uqtirilgan [Farg‘ona Davlat Arxivi-FVDA), 121-fond, 1-ro‘yhat, 12-ish, 132-varaq.].

Jamoat xavfsizligi qo’mitasi o’z faoliyatini muvofiqlashtirgan holda olib bormagan. Chunki jamoat xavfsizlik qo’mitalari tuzilishining o’zi tizimli ravishda amalga oshirilmagan. Xususan, joylarda boshqaruv tizimi vakolatini o’z ichiga olgan bu organ, ya’ni dastlabki paytlarda o’z-o’zidan boshqaruvning yuqori organlari tashabbusi va nazoratidan tashqarida vujudga kelgan [Холид Адиб. Создание Узбекистана. Нация, империя и революция в раннесоветский период. Санкт-Петербург/Бостон: Библиороссика, 2022. -С. 117-118.].

Jamoat xavfsizligi qo’mitasi tarkibi va uning vazifalari ham normativ-huquqiy asosida belgilanmagan. Boshqaruvning bu turidagi boshboshdoqlik shu darajaga yetganki, ayrim joylarda jamoat xavfsizlik qo’mitasi bitta emas, balki bir-biriga bo’ysinmaydigan tarzda ikkita tuzilgan. Masalan, 1917 yil 26 mayda Farg’ona viloyat komissari tomonidan Andijondagi jamoat xavfsizlik qo’mitasiga yuborilgan xatda Jalolobodda o’zboshimchalik bilan bir vaqtning o’zida ikkita jamoat xavfsizlik qo’mitasi faoliyat olib borganidan norozilik bildirib, boz ustiga ular o’z faoliyatlarini muvofiqlashtirmay, aksincha, bir-biriga zid ish yuritayotganiga e’tibor bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев Р. Национальные политические организации Туркестана в 1917-1918 годы. Ташкент: “Adabiyot uchqunlari”, 2016.
2. Вахобов М. Тошкент уч революция даврида. Тошкент: Ўзбекистон ССР Давлат Нашриёти, 1958.
3. Пуговкина О. “Бывшие” и их судьбы в Узбекистане: исторический аспект (20-30-ые годы XX века). Ташкент: “Zamin nashr”, 2022.
4. Россия и Центральная Азия. Конец XIX-начало XX века. Сборник документов и материалов. Москва: НОВЫЙ ХРОНОГРАФ, 2017.
5. Усманова Д. Февраль 17-го в телеграммах от мусульманского населения//Гасырлар авазы-Эхо веков, №1/2 1997.
6. Холид Адиб. Создание Узбекистана. Нация, империя и революция в раннесоветский период. Санкт-Петербург/Бостон: Библиороссика, 2022.
7. Farg‘ona Davlat Arxivi-FVDA), 121-fond, 1-ro‘yhat, 12-ish, 132-varaq.
8. O’zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). Birinchi kitob. 1917-1939 yillar. Toshkent: “O’zbekiston”, 2019.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH STRATEGIYALARI

H.I.Raxmatova
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi) 2-bosqich magistranti E-pochta: hamidaraxmatova2002@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik jarayonida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish strategiyalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqotda o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish, dars jarayoniga interaktiv vositalarni joriy etish, shuningdek, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasiga ijobiy ta’siri borligi isbotlangan hamda o‘qituvchilarni zamonaviy raqamli muhitga moslashtirish uchun ta’limiy resurslar, metodik yondashuvlar va innovatsion pedagogik modellarni ishlab chiqish zarurligini asoslaydi va uning natijalari boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish va raqamli pedagogikani rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, kasbiy tayyorgarlik, raqamli texnologiyalar, pedagogik strategiyalar, raqamli kompetensiya, interaktiv dars, zamonaviy ta’lim, ta’limda innovatsiya

XXI asr ta’limi-bu raqamlashtirilgan, moslashuvchan va innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilayotgan tizimdir. So‘ngi yillarda raqamli texnologiyalarni ta’limga integratsiyalash butun dunyoda ustuvor yo‘nalishga aylangan. Boshlang‘ich ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning faolligini oshiribgina qolmay, o‘qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirish uchun imkoniyat yaratmoqda. [1.2022: B.3]O‘zbekiston ta’lim tizimida ham raqamli transformatsiya jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalarni to‘g‘ri va samarali qo‘llash- bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida markaziy o‘rin tutadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ham boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi jarayonida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishning strategik yondashuvlarini ilmiy asoslash, ularning raqamli kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik modelni taklif etishdir.

Bo‘lajak pedagoglar uchun raqamli texnologiyalarni o‘rgatish faqat vosita sifatida emas, balki ularning didaktik va interaktiv imkoniyatlaridan unumli foydalanish malakasini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayon o‘qituvchi kompetentligini rivojlantiradi. [2.2020: B.9] Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ta’lim jarayonining asosiy tashabbuskorlaridan biri sifatida raqamli texnologiyalarni bilishi, ulardan samarali foydalanish strategiyalarini egallashi kerak. Chunki bu yosh bosqichidagi o‘quvchilarda axborot madaniyati, tanqidiy fikrlash va mustaqil organish ko‘nikmalari aynan raqamli muhitda rivojlanadi. Ko‘plab o‘qituvchilar raqamli vositalarni faqat auditoriya tashqarisida yoki nazorat uchun ishlatmoqda. Ularni samarali dars jarayoniga integratsiya qilish salohiyati esa past darajada. Bu bo‘lajak o‘qituvchilarning tayyorgarlik darajasi bilan bog‘liq.[3.2022: B.10] Bu holat bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini raqamli ta’lim muhitiga mos ravishda tayyorlash metodikasini yanada takomillashtirishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotning dolzarbligi — zamonaviy raqamli ta’lim muhiti sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishga doir ilmiy-nazariy asoslar, samarali pedagogik yondashuvlar va amaliy metodlarni aniqlashdan iboratdir.

Bugungi global raqamlashtirish jarayonlari ta’lim tizimiga ham chuqur kirib bormoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida raqamli texnologiyalarni joriy etish o‘quvchilarda dastlabki savodxonlik, mantiqiy tafakkur va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. [4.2013: B.23] UNESCO ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli savodxonlik bolalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning asosiy vositalaridan biri sifatida qaralmoqda. Shuningdek, Koehler va Mishra tomonidan ishlab chiqilgan TPACK modeli (Texnologik-Pedagogik-Mazmuniy Bilimlar) raqamli texnologiyalarning o‘qitish jarayonida qanday uyg‘unlashtirilishini aniq ko‘rsatib beradi. Bu modelga ko‘ra, o‘qituvchi texnologiyalarni nafaqat bilishi, balki uni pedagogik maqsadlarga muvofiq moslasha olishi kerak. [5.2006: B.28] Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi ularning raqamli vositalardan foydalanish malakalarisiz to‘liq bo‘lishi mumkin emas. Ertmer va Ottenbreit-Leftwich o‘z tadqiqotlarida ta’kidlaganlaridek, o‘qituvchining texnologiyaga bo‘lgan ishonchi va ijobiy munosabati uning uni dars jarayoniga integratsiyalash imkoniyatini belgilaydi. [6.2010: B.15] Shuningdek, AKT vositalari orqali darsni individuallashtirish, differensial yondashuvni ta’minlash, virtual resurslardan foydalanish va onlayn baholash kabi metodik yondashuvlar o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligini

kengaytiradi [7.2020: B.10]. Bu strategiyalar ayniqsa ko‘p sonli yoki ehtiyojlari turlicha bo‘lgan sinflarda samarali ishlaydi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘qituvchilar turli didaktik vaziyatlarga tez va moslashuvchan tarzda javob bera olishadi. Tizimli video darslar, onlayn testlar, vizual interaktiv taqdimotlar orqali o‘quv materiallarini oson tushuntirish, individual yondashuv va ijodiy muhit yaratish imkoniyati oshadi. Bu esa boshlang‘ich bosqichdagi o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasiga ijobiy ta’sir qiladi. O‘zbekistonning o‘zida ham Ta’lim inspeksiyasi [8.2023: B.6] tomonidan o‘tkazilgan monitoring natijalarida qishloq va shahardagi o‘qituvchilar o‘rtasida AKTdan foydalanish darajasi keskin farqlanishi aniqlangan. Bu esa pedagoglar tayyorgarligining standartlashtirilmaganligini ko‘rsatadi va hududlar kesimida strategik yondashuv zarurligini isbotlaydi.

Shu sababli maktablarda kichik tadqiqot o‘tkazildi. Ushbu tadqiqotda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining raqamli texnologiyalarni dars jarayoniga qanday qo‘shayotganini o‘rganish maqsadida aralash (mixed) metodlar qo‘llanildi:

1. So‘rovnoma (anketali tahlil) 25 nafar boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi (shahar va qishloq maktablaridan) ishtirok etdi. Ularning raqamli vositalardan foydalanish tezligi, turli platformalar bilan ishlash malakasi va qiyinchiliklari o‘rganildi.

2. Kuzatuv (empirik metod) 2 ta boshlang‘ich maktabda dars jarayoni kuzatildi. Raqamli texnologiyalar (interfaol doska, online testlar, vizual slaydlar, Wordwall va h.k.) qo‘llanilishidagi metodik yondashuvlar tahlil qilindi.

3. Intervyu (sifatli tahlil metodi) 5 nafar faol o‘qituvchi bilan suhbat o‘tkazildi. Ular o‘zlarining strategiyalari, duch kelayotgan to‘siqlari va takliflari haqida fikr bildirishdi.

Raqamli vositalardan foydalanish darajasi:

O‘qituvchilarning 60% qismi o‘z darslarida haftasiga kamida 2 marta raqamli texnologiyalardan foydalanishini bildirdi. 30% o‘qituvchi darslarda doimiy interaktiv platformalardan foydalanishini (Google Forms, Quizizz, Wordwall) qayd etdi. Faqat 10% o‘qituvchi raqamli vositalardan foydalanmayotganini tan oldi (asosiy sabab — texnik sharoitning yo‘qligi).

Eng ko‘p qo‘llanilgan raqamli vositalar:

Wordwall, LearningApps, PowerPoint, Quizizz va Telegram (o‘quvchilar bilan aloqa uchun).

Shuningdek, o‘qituvchilar Zoom orqali masofaviy darslar o‘tkazishni o‘rgangan.

To‘siqlar:

So‘rovda qatnashganlarning 45% texnika (noutbuk, proyektor) yetishmasligini asosiy muammo sifatida ko‘rsatdi. 28% internet tezligi va uzluksizligini tanqid qildi. 20% metodik yordam yo‘qligidan shikoyat qildi.

Bugungi raqamlashtirilgan ta’lim muhiti boshlang‘ich sinf o‘qituvchisidan nafaqat an’anaviy bilim va ko‘nikmalarni, balki raqamli kompetensiyalarni egallashni ham talab qilmoqda. O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilar tomonidan raqamli texnologiyalarning o‘quv jarayoniga integratsiyasi darslarning interaktivligini oshiradi, o‘quvchilarning faolligi va mustaqil fikrlashini rag‘batlantiradi. Ammo bu jarayonda raqamli vositalardan faqat foydalanish emas, balki ularni pedagogik maqsadga muvofiq holda tanlab, metodik jihatdan asoslab qo‘llash zarurligi muhim o‘rinda turadi. Tadqiqotcha aniqlanishicha, boshlang‘ich ta’limda foydalanilayotgan raqamli resurslarning ko‘pchiligi xorijiy til yoki madaniyatga moslashgan bo‘lib, ularning to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashtirilishi har doim ham samarali emas. Shu sababli, o‘qituvchilarga mahalliy kontekstga mos, o‘zbek tilidagi, yosh xususiyatiga moslashtirilgan raqamli materiallar, platformalar va o‘yinli o‘quv dasturlarini yaratish bo‘yicha ehtiyoj mavjudligi ko‘zga tashlandi. Bundan tashqari, o‘qituvchilarning raqamli texnologiyalarni qanday darajada bilishi va undan qanday foydalanishini aniqlash uchun o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, ularning aksariyati (taxminan 70%) zamonaviy vositalardan foydalanishga tayyorligini bildirgan, biroq 40% dan ortig‘i ushbu texnologiyalardan foydalanishda metodik yondashuv yetishmasligini tan olgan. Bu esa kasbiy tayyorgarlik jarayonida raqamli pedagogik kompetensiyani rivojlantirishga alohida e’tibor qaratishni zarurlashtiradi. Shuningdek, o‘quvchilarning raqamli o‘quv muhitida o‘zlashtirish darajasi, an’anaviy darslarga nisbatan, sezilarli darajada yuqori bo‘lganligi kuzatildi. Ayniqsa, interaktiv doskalar, taqdimotlar, elektron darsliklar, viktorinalar va QR-kodli topshiriqlarning qo‘llanishi darslarni qiziqarli, samarali va yodda qoladigan qilgan. Tadqiqotda asosiy e’tibor shunga qaratildiki, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining raqamli texnologiyalarga asoslangan kasbiy tayyorgarligi izchil, tizimli va amaliy ko‘nikmalarga boy bo‘lishi zarur. Faqatgina nazariy bilim emas, balki o‘qituvchining o‘zi yaratgan raqamli resurslardan foydalanish malakasi ham o‘quvchilarning raqamli savodxonligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash strategiyalari faqatgina texnik vositalar bilan ishlash emas, balki ta’lim

mazmunini zamonaviy talablar asosida tashkil qilishga xizmat qiluvchi kompleks yondashuv bo‘lishi lozim. Bu esa o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi yangi model va metodikalar ishlab chiqishni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta’lim sohasining ajralmas tarkibiy qismiga aylangan. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning e’tiborini jalb qilish, ularni interaktiv o‘quv muhitiga jalb etish va ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘ta muhimdir. Ushbu tadqiqotda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida raqamli vositalarni maqsadga muvofiq, samarali va metodik jihatdan asosli tarzda qo‘llash strategiyalari o‘rganildi. Bu borada TPACK modeli (Technological Pedagogical Content Knowledge) asosida o‘qituvchining texnologik, pedagogik va fanga oid bilimlari o‘zaro uyg‘unlashtirilgan holda rivojlantirilishi taklif etildi. Shuningdek, tadqiqotda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun raqamli texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan samarali foydalanish strategiyasi ishlab chiqildi, bu strategiya quyidagilarga asoslanadi:

1. Dars mazmuniga mos raqamli vositalarni tanlash;
2. Ularni dars maqsadlariga xizmat qiladigan uslubda integratsiya qilish;
3. O‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos vizual, interaktiv resurslardan foydalanish;
4. O‘qituvchilar uchun amaliy seminar-treninglar asosida tayyorgarlikni kuchaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. UNESCO (2022). Digital learning and transformation of education systems: Global Education Monitoring Report. https://unesdoc.unesco.org
2. Goh, P.S. & Sigala, M. (2020). Integrating ICT in pre-service teacher education: a systematic review.
3. World Bank (2022). Teachers and Digital Technologies: Global Review.
4. Falloon, G. (2013). Young students using iPads: App design and content influences on their learning pathways. Computers & Education, 68, 505–521.
5. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. Teachers College Record, 108(6), 1017–1054.
6. Ertmer, P. A., & Ottenbreit-Leftwich, A. T. (2010). Teacher Technology Change: How Knowledge, Confidence, Beliefs, and Culture Intersect. Journal of Research on Technology in Education.
7. Heick, T. (2020). Personalized Learning vs. Differentiation vs. Individualization. TeachThought.
8. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim inspeksiyasi hisobotlari (2023).

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGIGA TA’SIRI

B.B.Ibrohimov
Namangan davlat texnika universiteti “08.00.04-Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” ixtisosligi bo’yicha 3-kurs yayach doktoranti

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda tadbirkorlik sub’yektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilinadi. Raqamli transformatsiya jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, xarajatlarni optimallashtirish va mahsulot sifati hamda innovatsion faoliyat natijadorligini oshirish imkonini beradi. Tadqiqotda innovatsion jarayonlarga raqamli platformalar, sun’iy intellekt, “Big Data” va raqamli marketing vositalarining integratsiyasi orqali erishiladigan ijobiy natijalarni ilmiy asosda asoslangan. Tadqiqotda ushbu texnologiyalar tadbirkorlik sub’yektlarining raqobatbardoshligini oshirishdagi o‘rni hamda amaliy qo‘llash mexanizmlari yoritiladi. Natijada, raqamli texnologiyalar innovatsion rivojlanishning ajralmas omili sifatida baholanadi.

Kalit so’zlar. Tadbirkorlik sub’yektlari, raqamli texnologiyalar, innovatsion faoliyat, samaradorlik, raqamli transformatsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, avtomatlashtirish, xarajatlarni optimallashtirish, sun’iy intellekt, Big Data, raqamli marketing, raqobatbardoshlik

Аннотация. В исследовании анализируются вопросы повышения эффективности инновационной деятельности за счёт использования цифровых технологий в хозяйствующих субъектах. Внедрение информационно-коммуникационных технологий в процессе цифровой

трансформации позволяет автоматизировать производственные процессы, оптимизировать затраты, повысить качество продукции и эффективность инновационной деятельности. В исследовании научно обоснованы положительные результаты, достигаемые за счёт интеграции цифровых платформ, искусственного интеллекта, «больших данных» и инструментов цифрового маркетинга в инновационные процессы. Рассматривается роль этих технологий в повышении конкурентоспособности хозяйствующих субъектов и механизмы их практического применения. В результате цифровые технологии рассматриваются как неотъемлемый фактор инновационного развития.

Ключевые слова. Хозяйствующие субъекты, цифровые технологии, инновационная деятельность, эффективность, цифровая трансформация, информационно-коммуникационные технологии, автоматизация, оптимизация затрат, искусственный интеллект, большие данные, цифровой маркетинг, конкурентоспособность

Abstract. This study analyzes the issues of increasing the efficiency of innovative activities through the use of digital technologies in business entities. The introduction of information and communication technologies in the process of digital transformation allows for the automation of production processes, optimization of costs, and improvement of product quality and the effectiveness of innovative activities. The study scientifically substantiates the positive results achieved through the integration of digital platforms, artificial intelligence, "Big Data" and digital marketing tools into innovative processes. The study highlights the role of these technologies in increasing the competitiveness of business entities and the mechanisms for their practical application. As a result, digital technologies are considered an integral factor of innovative development.

Keywords. Business entities, digital technologies, innovative activities, efficiency, digital transformation, information and communication technologies, automation, cost optimization, artificial intelligence, Big Data, digital marketing, competitiveness.

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va ularning turli sohalarga integratsiyalashuvi zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas xususiyatiga aylanib bormoqda. Xususan, tadbirkorlik sub’yektlari uchun raqamli texnologiyalarni joriy etish innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–6079-sonli Farmoni mazkur yo‘nalishdagi islohotlarning asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi. Unga ko‘ra, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish, xususan tadbirkorlik sub’yektlarida raqamli yechimlardan keng foydalanish ustuvor vazifa etib belgilandi. Bu farmon bilan bir qatorda Prezidentning 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali innovatsion o‘sishga erishish asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qayd etilgan.

Bugungi kunda innovatsion faoliyat samaradorligini ta’minlash uchun raqamli texnologiyalar – sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data), bulutli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, raqamli marketing platformalari va boshqalar – biznesning deyarli barcha bosqichlarida qo‘llanilmoqda. Masalan, ishlab chiqarishda avtomatlashtirish texnologiyalari yordamida mehnat unumdorligi oshmoqda, vaqt va resurslar tejalmoqda, inson xatolari kamaymoqda. Marketingda esa raqamli platformalar – ijtimoiy tarmoqlar, targ‘ibot botlari, onlayn tahlil vositalari orqali iste’molchilarning ehtiyojlari tez va aniq aniqlanib, moslashtirilgan mahsulot va xizmatlar taklif etilmoqda.[1. Toxirov:2024.29]

Taniqli iqtisodchi olimlardan biri, Jozef Shumpeter innovatsiyani iqtisodiy o‘sishning “ichki dvigateli” sifatida baholagan bo‘lsa, zamonaviy olimlar — masalan, M. Porter raqamli texnologiyalarni raqobat ustunligini ta’minlaydigan vosita deb hisoblaydi. Shuningdek, o‘zbekistonlik iqtisodchilar — A. Xusanov va D. Jo‘rayevlarning fikricha, tadbirkorlik sub’yektlarining raqamli transformatsiyaga moslashuv darajasi ularning bozor talablariga moslashuvi, innovatsion salohiyati va uzoq muddatli barqarorligi uchun asosiy mezon hisoblanadi. Ular o‘z tadqiqotlarida raqamli texnologiyalarni joriy etgan korxonalar innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishda 1,5–2 baravar yuqori natijaga erishayotganini e’tirof etadilar.

O‘zbekiston iqtisodiyotida so‘nggi yillarda amalga oshirilgan raqamlashtirish ishlari samarasi sifatida raqamli xizmatlar ulushi o‘sib bormoqda. 2024-yil yakunlariga ko‘ra, Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga asoslanib aytish mumkinki, xizmatlar sohasida raqamli xizmatlar ulushi umumiy xizmatlar hajmining 16,3 foiziga yetgan. Shu bilan birga, 2023-yil davomida elektron tijorat hajmi 11,2 trillion so‘mni

tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2020-yilga nisbatan 2,7 baravar o‘sgan. Bu raqamlar raqamli texnologiyalar biznesda qanday katta iqtisodiy effekt berishini ochiq namoyon etadi. [2. Solijonov: 2023.367]

Tadbirkorlik sub’yektlari uchun innovatsion faoliyatda muvaffaqiyatga erishish ko‘p jihatdan texnologik yangilanishga, ya’ni raqamli vositalardan foydalanishga bog‘liqdir. Masalan, logistika va yetkazib berish jarayonlarida sun’iy intellekt asosida ishlovchi algoritmlar yetkazib berish vaqtini qisqartirish, transport xarajatlarini kamaytirish hamda mijozlar ehtiyojiga tezkor javob qaytarishni ta’minlamoqda. Bu esa bevosita xarajatlarning optimallashtirilishiga olib keladi. Shu o‘rinda, xorijiy tajribalarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Germaniya va Yaponiya tajribasida ham raqamli texnologiyalarni ishlab chiqarishga integratsiyalashgan holda “Raqamli zavod” (Digital Factory) konsepsiyasini hayotga tadbiq etilishi korxonalar samaradorligini bir necha barobar oshirishiga olib kelgan. [3.Ibrohimov:2024.215]

O‘zbekistonda ayni paytda “Elektron hukumat”, “Raqamli iqtisodiyot” kabi yirik platformalarning rivojlanishi ham tadbirkorlik sub’yektlari uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ayniqsa, soliq hisobotlari, biznes ro‘yxatga olish, litsenziyalash, bojxona amaliyotlari kabi sohalarda raqamli texnologiyalarning joriy etilishi tadbirkorlar uchun shaffoflikni ta’minlabgina qolmay, byurokratik to‘siqlarni bartaraf etishga xizmat qilmoqda. Natijada, tadbirkorlar o‘z e’tiborini yangilik yaratuvchi innovatsion faoliyatga yo‘naltirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar.

Biroq, raqamli transformatsiya jarayonida mavjud muammolar ham mavjud. Jumladan, kichik va o‘rta tadbirkorlik sub’yektlarida axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha malakali kadrlar yetishmovchiligi, dasturiy ta’minotlarning qimmatligi, raqamli infratuzilmaning ba’zi hududlarda pastligi kabi holatlar innovatsion faoliyat samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa o‘z navbatida davlat tomonidan mazkur sohalarda qo‘llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi. [4.Bobobekov:2024.1]

Shu boisdan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-martdagi “Axborot texnologiyalarini tadbirkorlik faoliyatiga keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan kichik biznesni raqamli transformatsiyalashga yo‘naltirilgan maxsus dasturlar ishlab chiqilib, ularga moliyaviy va metodik yordamlar ko‘rsatish mexanizmlari yo‘lga qo‘yildi. Bu esa innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish orqali iqtisodiy o‘sishga xizmat qiladi. [5. Sayfutdinov,Egamberdiyev:2024.1]

Umumiy qilib aytganda, tadbirkorlik sub’yektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishda strategik ahamiyat kasb etadi. Raqamli texnologiyalar yordamida ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlari yanada tejamkor, tezkor va raqobatbardosh shaklga kelmoqda. O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, davlat tomonidan raqamli iqtisodiyot rivojiga alohida e’tibor qaratilmoqda, bu esa kelgusida innovatsion faoliyatni yanada kuchaytirishga, iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yaxshilashga va barqaror iqtisodiy o‘sishga erishishga xizmat qiladi. Shu jihatdan olganda, raqamli texnologiyalarni tadbirkorlikning har bir bo‘g‘iniga chuqur singdirish zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Xulosa. Umuman olganda, tadbirkorlik sub’yektlarida raqamli texnologiyalarning innovatsion faoliyat samaradorligiga ta’siri dolzarb va strategik ahamiyatga ega masaladir. Raqamli transformatsiya jarayonlari tadbirkorlikni zamonaviylashtirish, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish, ma’lumotlar tahlili asosida qarorlar qabul qilish va innovatsion mahsulotlar yaratish imkoniyatlarini keskin oshirmoqda. O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasi hamda boshqa me’yoriy hujjatlar ushbu yo‘nalishni milliy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishiga aylantirgan. Akademik nuqtayi nazardan, raqamli texnologiyalar innovatsion faoliyatning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish, raqobat ustunligini shakllantirish hamda bozor talablariga tez moslashish imkonini beradi. Shuningdek, olimlarning qarashlari va xalqaro amaliyot raqamli texnologiyalarning innovatsion o‘sishdagi beqiyos o‘rnini ilmiy asosda tasdiqlaydi. Mazkur yo‘nalishda infratuzilma, kadrlar salohiyati va moliyaviy resurslar bilan ta’minlash muhim omil bo‘lib, davlat va xususiy sektor hamkorligida kompleks yondashuv zarur. Shu bois, raqamli texnologiyalarni innovatsion rivojlanish strategiyasiga integratsiyalash – barqaror iqtisodiy taraqqiyotning muhim kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Toxirov, R. S. (2024). TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA HISOBLASH USULLARI: INNOVATSION YECHIMLAR VA STRATEGIK YONDASHUVLAR. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, *12*, 28-31

2. Solijonov. R. T. (2023). TADBIRKORLIK SUB’EKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI RIVOJLANTIRISH. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 366-370.

3. Ibrohimov. B. B. (2024). O’ZBEKISTIONDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARALARI. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, *4*(11), 213-219.

4. Bobobekov, E. (2024). O ‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarida amalga oshirilayotgan innovatsion siyosatning hozirgi holati tahlili. *Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot*, *1*(1).

5. Sayfutdinov, S., & Egamberdiyev, S. (2024). Using Innovative Technologies in Hotels as a Factor of Sustainable Development of Tourism Industry. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, *1*(1).

INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHDA KICHIK VA O‘RTA BIZNESNING IMKONIYATLARI VA CHEKLOVLARI.

A.A.Yunusov
Namangan davlat texnika universiteti Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar) yo’nalishi bo’yicha 2-kurs magistratura talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsion faoliyatni rivojlantirish jarayonida kichik va o‘rta biznes (KOB) subyektlarining o‘rni, ularning imkoniyatlari hamda duch kelayotgan asosiy cheklovlari tahlil qilingan. Maqolada KOBlarning texnologik yangiliklarni joriy etishdagi moslashuvchanligi, bandlikni oshirishdagi roli va iqtisodiy o‘sishga qo‘shayotgan hissasi yoritilgan. Shu bilan birga, moliyaviy resurslar tanqisligi, innovatsion infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmagani va malakali kadrlar yetishmasligi kabi muammolar ko‘rsatib o‘tilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari asosida davlat tomonidan KOBlarni innovatsion faoliyatga keng jalb etish choralari ham ko‘rib chiqilgan. Xulosa qismida esa, ularning innovatsion salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish bo‘yicha taklif va tavsiyalar bildirilgan.

Kalit so’zlar. Kichik va o‘rta biznes, innovatsion faoliyat, texnologik yangiliklar, iqtisodiy o‘sish, moliyaviy resurslar, infratuzilma, malakali kadrlar, davlat siyosati, innovatsion salohiyat, bandlik, cheklovlar, imkoniyatlar.

Аннотация. В данной статье анализируется роль малого и среднего бизнеса (МСП) в развитии инновационной деятельности, его возможности и основные ограничения, с которыми они сталкиваются. В статье подчеркивается гибкость МСП во внедрении технологических инноваций, их роль в повышении занятости и их вклад в экономический рост. При этом освещаются такие проблемы, как нехватка финансовых ресурсов, недостаточное развитие инновационной инфраструктуры и нехватка квалифицированных кадров. Также рассматриваются меры по широкому вовлечению МСП в инновационную деятельность со стороны государства на основе постановлений и указов Президента Республики Узбекистан. В заключении даются предложения и рекомендации по полной реализации их инновационного потенциала.

Ключевые слова: малый и средний бизнес, инновационная деятельность, технологические инновации, экономический рост, финансовые ресурсы, инфраструктура, квалифицированные кадры, государственная политика, инновационный потенциал, занятость, ограничения, возможности.

Abstract. This article analyzes the role of small and medium-sized businesses (SMEs) in the development of innovative activities, their capabilities and the main constraints they face. The article highlights the flexibility of SMEs in introducing technological innovations, their role in increasing employment and their contribution to economic growth. At the same time, problems such as a shortage of financial resources, insufficient development of innovative infrastructure and a shortage of qualified personnel are highlighted. Measures to widely involve SMEs in innovative activities by the state based on the resolutions and decrees of the President of the Republic of Uzbekistan are also considered. In the conclusion, proposals and recommendations are made on the full realization of their innovative potential.

Keywords: small and medium-sized businesses, innovative activities, technological innovations, economic growth, financial resources, infrastructure, qualified personnel, state policy, innovative potential, employment, constraints, opportunities.

O‘zbekiston iqtisodiyotida innovatsion faoliyatni rivojlantirishda kichik va o‘rta biznes (KOB) subyektlarining roli tobora ortib bormoqda. Bu jarayon mamlakatning iqtisodiy modernizatsiyasi, texnologik yangilanishi va barqaror rivojlanishining ajralmas qismiga aylanmoqda. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, rivojlangan davlatlarning aksariyatida innovatsiyalarning asosiy tashuvchisi aynan kichik va o‘rta biznes hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda ham KOB subyektlarini innovatsion faoliyatga jalb etish va ularning salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. [1.Ashurova:2024.508]

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan islohotlar jarayonida bu yo‘nalishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2018-yil 21-sentyabrdagi PF-165-sonli “Innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmon, 2022-yil 24-fevraldagi PF–50-sonli “ Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida ”gi farmon kichik biznesning innovatsion rivojlanishda tutgan o‘rnini kuchaytirishga qaratilgan huquqiy asoslar sifatida xizmat qilmoqda. Ushbu hujjatlarda kichik biznes subyektlari uchun soliq yengilliklari, moliyaviy grantlar, inkubatsiya markazlari tashkil etish va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish ko‘zda tutilgan. [2.Axmetova:2025.387]

Kichik va o‘rta biznes subyektlari o‘zining moslashuvchan tuzilmasi, tezkor qaror qabul qilish qobiliyati, innovatsion g‘oyalarni amalga oshirishga tayyorligi bilan ajralib turadi. Bu omillar ularni iqtisodiyotda innovatsiyalarni amaliyotga joriy etishda muhim kuchga aylantiradi. Shu bilan birga, ularning bandlikni ta’minlashdagi roli ham muhim. Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda respublikada faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari mamlakatdagi ish bilan band aholining 78 foizini ish bilan ta’minlagan. Bu esa, ushbu sektor nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikning ham asosi ekanligini ko‘rsatadi.

Biroq, amaliyotda kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyatga keng jalb etilishida qator to‘siqlar mavjud. Eng avvalo, bu — moliyaviy resurslarning cheklangani. Bank kreditlarining yillik foiz stavkalari yuqoriligi, garov ta'minotining yetishmasligi, davlat grantlariga bo‘lgan raqobatning keskinligi kabi omillar ko‘plab kichik korxonalarni yangi texnologiyalarni joriy etishdan cheklab qo‘ymoqda. Shuningdek, ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi uzviy aloqalarning sustligi, ilmiy tadqiqotlarning tijoratlashtirilish darajasining pastligi ham muammoli masalalardandir. [3. To‘xtaboyev:2025.346]

Bundan tashqari, innovatsion infratuzilmaning yetarli darajada shakllanmagani, xususan, texnoparklar, biznes-inkubatorlar, transfer markazlarining yetishmasligi ham kichik biznes uchun yangi g‘oyalarni hayotga tatbiq etishda muayyan cheklovlar yaratmoqda. Aytish joizki, so‘nggi yillarda «Yashnobod», «InnoTexnoPark», «Jizzax» kabi texnoparklar faoliyat boshladi, ammo bu tizim hali butun mamlakat miqyosida keng qamrovga ega emas. Shu munosabat bilan, Prezidentning yuqoridagi farmon va qarorlarida har bir hududda innovatsion infratuzilma elementlarini yaratish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan. [4. Kaxorova:2025.4]

Akademik O. K. Xudoyberdiyevning ta’kidlashicha, “kichik biznes innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etishda ixtisoslashgan ilmiy muassasalar bilan uzviy aloqada bo‘lishi kerak. Aks holda, bu subyektlarning innovatsion faolligi qisqa muddatli bo‘ladi yoki umuman shakllanmaydi.” Shu fikrga hamohang tarzda, O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzurida faoliyat yuritayotgan Ilmiy-texnologik axborot markazlari va startap loyihalarini qo‘llab-quvvatlovchi platformalar sonini ko‘paytirish zarur.

Yana bir muhim omil — malakali kadrlar taqchilligidir. Kichik biznes vakillarining aksariyatida ilmiy-innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha bilim va tajriba yetarli emas. Bu esa, ular tomonidan ilg‘or texnologiyalarni joriy etishda tizimli muammolarga olib keladi. Ushbu muammoni hal qilish maqsadida, Prezident tomonidan qabul qilingan “Ilmiy-texnikaviy faoliyatni rag‘batlantirish va innovatsion kadrlar tayyorlash strategiyasi”da oliy ta’lim va biznes sektori o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, talabalarning startap loyihalarda qatnashishini rag‘batlantirish bo‘yicha mexanizmlar ishlab chiqildi. [5.Ibrohimov:2024.216]

Iqtisodiy ko‘rsatkichlar ham kichik biznesning innovatsion faolligini belgilab beruvchi mezonlardan biridir. 2023-yil yakuniga ko‘ra, O‘zbekistonda kichik biznes subyektlari tomonidan yaratilgan yalpi ichki mahsulot hajmi 58,5 foizni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich, 2016-yilda 52 foiz atrofida bo‘lganini hisobga olsak, o‘sish sur’ati aniq ko‘zga tashlanadi. Biroq, ushbu o‘sish asosan xizmatlar sohasi va savdoga to‘g‘ri kelmoqda. Sanoat va yuqori texnologiyalar sohasida kichik biznesning hissasi esa hali pastligicha

qolmoqda. Shu bois, innovatsion faoliyatni real ishlab chiqarish bilan integratsiyalash zarurati dolzarb bo‘lib bormoqda. [6. Solijonov: 2023.368]

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish bo‘yicha bir qator takliflar ilgari surilishi mumkin. Avvalo, kichik biznes subyektlari uchun alohida “Innovatsion kredit liniyalari” tashkil etilishi, bu kreditlarning yillik stavkasi past bo‘lishi va garovsiz moliyalashtirish imkoniyati berilishi maqsadga muvofiqdir. Ikkinchidan, viloyatlardagi oliy o‘quv yurtlari huzurida kichik biznes inkubatsiyasi markazlari tashkil etilishi, bu markazlarda texnik yordam, konsalting va trening xizmatlari ko‘rsatilishi lozim. Uchinchi taklif — ilmiy tadqiqotlarni tijoratlashtirishga oid normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, kichik korxonalarga patent, litsenziya olish jarayonlarini yengillashtirishdir.

Bundan tashqari, xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda, kichik biznes uchun innovatsion grantlar ajratishning ochiq va raqobatbardosh tizimini joriy etish lozim. Masalan, Janubiy Koreyada «Tizimli innovatsion fondlar» yordamida kichik korxonalar uchun dastlabki sinov loyihalari moliyalashtiriladi, AQShda esa SBIR (Small Business Innovation Research) dasturi orqali kichik tadbirkorlik subyektlari texnologik ishlanmalarga bevosita jalb qilinadi. O‘zbekistonda ham shunga o‘xshash dasturlarni amalga oshirish orqali KOB sektorining innovatsion faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

Umumiy qilib aytganda, kichik va o‘rta biznes subyektlarining innovatsion faoliyatdagi ishtiroki mamlakatning raqobatbardoshligini ta’minlashda, yangi ish o‘rinlari yaratishda va iqtisodiy o‘sishni jadallashtirishda muhim omildir. Prezident qaror va farmonlari bu yo‘nalishda muhim huquqiy va tashkiliy asos yaratmoqda. Biroq, mavjud imkoniyatlardan to‘laqonli foydalanish uchun moliyalashtirish, kadrlar tayyorlash, infratuzilma va huquqiy baza masalalarida kompleks yondashuv zarur. Innovatsiyalar orqali KOB sektorining samaradorligini oshirish — O‘zbekistonning kelajakdagi iqtisodiy barqarorligini belgilovchi strategik ustuvor yo‘nalishlardan biridir.

Xulosa. Innovatsion faoliyatni rivojlantirish zamonaviy iqtisodiyotning barqaror va raqobatbardosh rivojlanishini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Kichik va o‘rta biznes subyektlari esa bu jarayonning asosiy tashuvchisi bo‘lib, texnologik yangiliklarni joriy etish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va hududiy iqtisodiy faollikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekistonda Prezident qaror va farmonlari asosida KOB sektorini innovatsiyalarga keng jalb qilish uchun muhim tashkiliy-huquqiy baza yaratildi. Shu bilan birga, moliyaviy resurslar taqchilligi, malakali kadrlar yetishmasligi, ilm-fan bilan ishlab chiqarish o‘rtasidagi aloqalarning sustligi, innovatsion infratuzilmaning rivojlanmaganligi hali ham asosiy to‘siqlar bo‘lib qolmoqda. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv, davlat-xususiy sheriklik asosida mexanizmlarni joriy etish va xalqaro tajribani tatbiq etish muhimdir. Shunda kichik va o‘rta biznes subyektlari O‘zbekistonning innovatsion taraqqiyotida strategik drayverga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Sotvoldievich, A. M. (2024). O’ZBEKISTONDA KICHIK INNOVATSION TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH VA UNGA TA’SIR QILUVCHI MUAMMOLAR TAHLILI. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, *4*(04), 506-512.

2. Axmetovna, A. N. (2025). O ‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA KICHIK VA O ‘RTA BIZNESNING O ‘RNI VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI. *TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G ‘OYALAR*, *1*(9), 386-388.

3. To‘xtaboyev, J. (2025). KICHIK BIZNESNING INNOVATSION RIVOJLANISHINI BOSHQARISH TIZIMINI SHAKLLANTIRISH. *Лучшие интеллектуальные исследования*, *44*(5), 343-351.

4. Kaxorova, Z. (2025). Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish usullari. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, *3*(4).

5. Ibrohimov. B. B. (2024). O’ZBEKISTIONDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARALARI. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, *4*(11), 213-219.

6. Solijonov. R. T. (2023). TADBIRKORLIK SUB’EKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI RIVOJLANTIRISH. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 366-370.

ЁШЛАР ИЖТИМОИЙ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ИННОВАЦИОН ОМИЛЛАРИ.

О.Ж. Шукуров
Мустақил изланувчи

Аннотация: Мақолада ёшлар ижтимоий фаоллигини оширишнинг инновацион омиллари, инновацион ёндашувлар, дунёда кечаётган глобаллашув жараёнлари, миллий ва умуммиллий қадриятларга ҳурмат ва эҳтиром туйғулари юзасидан маълумотлар берилади.

Аннотация: В статье представлена информация об инновационных факторах повышения социальной активности молодежи, инновационных подходах, процессах глобализации в мире, уважении и чувстве уважения к национальным и национальным ценностям.

Abstract: The article provides information on innovative factors of increasing social activity of young people, innovative approaches, processes of globalization in the world, respect and feelings of respect for national and national values.

Калит сўзлар: Ёшлар ижтимоий фаоллиги, миллий ва умуммиллий қадриятларга ҳурмат, глобаллашув, инновацион ёндашувлар.

Ключевые слова: Социальная активность молодежи, уважение к национальным и общенациональным ценностям, глобализация, инновационные подходы.

Key words: Youth social activity, respect for national and national values, globalization, innovative approaches.

Ҳозирги кунда мамлакатимизда амалга оширилаётган кенг кўламли ислоҳотлар замирида албатта ёшларни келажаги йўлида барча имкониятлар ишга солинаётганлиги барчамизга маълум.

Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқида “Ҳар қандай давлатнинг тарихий тараққиёт йўлидан маълумки, юртнинг жадал ривожланиши, муайян ютуқларга эришиши, халқнинг фаровон бўлиши ўша давлатда ёшлар таълим-тарбияси ва келажагига бериладиган эътибор даражасига чамбарчас боғлиқ эканлиги, Ўзбекистонда ёшлар масаласи давлат сиёсатининг энг устувор йўналишларидан бири эканлигини таъкидлаб ўтганликлари ҳам бунинг яққол мисолидир.

Ҳозирги кунда Ўзбекистон аҳолисининг 60 фоизидан ортиғини ёшлар ташкил қилади. Шундай экан ёшларга эътибор,уларнинг фаоллиги, ташаббускорлиги ва ватанпарварлигига ҳам алоҳида ёндашув талаб этилади.

Кузатилаётган таҳликали замонда интернет тармоғи орқали тарқатилаётган ғаразли маълумотлар, турли бузғунчи ғоялар, одоб-ахлоқни емирувчи манфур иллатлар ҳар бир онгли кишини ташвишга солиши турган гап. Кейинги пайтларда интернет билан боғлик бузғунчиликлар, глобал тармоқдан қабиҳ мақсадда фойдаланаётганлар кўпайиб бормоқда. Оқибатда, залолатга бошловчи электрон нашрлар ва видеолавҳалар тобора кўпайиб бораётганлигига ҳам гувоҳ бўлмоқдамиз.

Дунёда кечаётган глобаллашув жараёнининг ўзига хос жиҳати шундан иборатки, ҳозирги шароитда у мафкуравий таъсир ўтказишнинг ниҳоятда ўткир қуролига айланиб бораётгани, ҳар хил сиёсий кучлар манфаатларига ҳам хизмат қилаётганини инкор этиб бўлмайди.

Миллат, мустақиллик, эркинлик, анъана ва урф-одатларига таҳдид солувчи кучлардан бири бу бугунги кунда ижтимоий тармоқлардаги бузғунчи ғоялар экани барчамизга аён. Ёшларимизнинг маънавий оламида бўшлик юзага келмаслиги учун уларнинг қалби ва онгида соғлом ҳаёт тарзи, миллий ва умуммиллий қадриятларга ҳурмат ва эҳтиром туйғусини болалик пайтидан бошлаб шакллантириб боришимиз лозим. Бундай таҳликали замонда келажак авлодни ижтимоий тармоқлардаги ёт ва бузғунчи ғоялар таъсиридан асраб авайлаш доим долзарб ва энг устувор вазифа бўлиб қолаверади.

Шундай экан, улғайиб бораётган ҳар бир фарзандларимизни маънавий баркамол, иродаси бақувват, иймони бутун, бир сўз билан айтганда, кучли мафкуравий иммунитетга эга комил шахс сифатида тарбиялаш муҳим ҳисобланади.

Энг аввало, бу соҳадаги ишларни ташкил этишнинг ҳуқуқий асослари доимий такомиллаштириб борилмоқда. Жумладан, Ўзбекистон Республикасининг “Ёшларга оид давлат сиёсатининг асослари тўғрисида”ги қонунда ёшларни ҳуқуқий ва ижтимоий муҳофаза қилиш, истеъдодини қўллаб-қувватлаш масалалари қамраб олинган. “Бола ҳуқуқларининг кафолатлари

тўғрисида”ги қонунда эса ҳокимият ва бошқарув органларининг бу борадаги ваколатлари ҳамда соҳага доир бошқа ижтимоий муносабатлар ҳуқуқий тартибга солинган.

Мамлакатда ёшларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш, уларга зарур шарт-шароитлар ва имкониятларни яратиб бериш борасида мустаҳкам ҳуқуқий база яратилган ва бу тизим замон талабларига ҳамоҳанг равишда такомиллаштириб борилмоқда. Уларнинг ижтимоий фаоллигига ҳам алоҳида эътибор берилмоқда.

Ёшларнинг ижтимоий фаоллигини оширишнинг инновацион омилларига тўхталиб ўтар эканмиз, аввало ижтимоий фаоллик каби бир нечта тушунчаларга эътибор қаратиб ўтамиз.

Ижтимоий фаоллик –бу ёшларнинг жамият ҳаётида фаол иштирок этиши,фикр билдириши, ташаббускорлиги ва масъулиятни зиммасига олиши ҳисобланади.Инновацион омиллар тушунчаси бу-янги дунёқараш, янги ёндашув,технология ёки услубни жорий қилишни назарда тутади.Ижтимоий фаолликни оширишда инновация-ёшлар манфаатларига мос келадиган,замонавий ва рақамлаштирилган усулларни айтиб ўтишимиз мумкин. Ёшларнинг ижтимоий фаоллигини оширишнинг инновацион омилларига;

-Рақамли платформалар ижтимоий тармоқлар,онлайн форумлар,электрон овоз бериш тизимлари;

-Гамификация (ўйинлаштириш),фаолликка жалб этишда қизиқарли ёндашувлар; (фаолларни рейтингини тузиш, мукофотлаш)

-Ёшлар технопарклари ва инновацион марказлар,ёшларни стартап,ижтимоий лойиҳалар орқали жамият муаммоларига ечим топишга жалб этиш;

-Онлайн таълим ва тренинглар, фаолликка доир мавзуларда вебинарлар,онлайн курслар,медиа саводхонлик,фуқаролик жамияти йўналишлари;

-Мобил иловалар ёрдамида фаолликни қўллаб-қувватлаш, маҳаллий муаммоларни хабар бериш иловалари,(Менинг фикрим) фикр алмашиш ва овоз бериш имкониятлар орқали;

-Краудсорсинг платформалари, ёшлар ўз ижтимоий ғояларини молиялаштириш орқали амалга оширишлари ҳам мумкин бўлади.

Ёшларнинг ижтимоий фаоллигининг энг муҳим хусусиятларидан бири шуки, у ҳар қандай шароитда ёки ҳар қандай белгиланган маконда жамиятнинг миллий манфаатларига хизмат қилади. Мазкур фаоллик даражаларини сусайтириш ёки умуман йўқ қилишга қаратилган турли туман салбий омиллар ва таҳдидлар барибир мавжуд бўлади. Глобаллашув шароитида ёшларнинг маънавий бегоналашув кайфиятларига қарши курашиб бориш ҳам уларнинг миллий манфаатлар учун курашидаги фаоллигини кучайтириб бориш лозим бўлади.

Хулоса ўрнида шуни айтиб ўтишимиз мумкинки, инновацион ёндашувлар ёшларнинг манфаатларига мос тарзда олиб борилса ижтимоий фаоллик ҳам ошиб боради. Давлат ва нодавлат нотижорат ташкилотлар ва таълим муассасалари ўртасида ҳамкорликни кучайтириш,ахборот алмашишни қўллаб-қувватлаш ҳам муҳим омиллардан бири ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. **–Т.; - «Ўзбекистон», 2017. –Б 194.**

Мирзиёев Ш. БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи;

Қуронов М. Миллий тарбия ва ёшлар.2016;

Яхшиликов Ж. Фалсафа.2021 йил. ISBN 978-9943-5943-0-2

XIVADAGI JUMA MASJID ME’MORIY YODGORLIGIDA O’TKAZILGAN MONITORING NATIJALARI

G.S.Durdieva arx.f.d.
A.K.Zargarov k.i.x.
Xorazm Ma’mun akademiyasi

Аннотатsia: Ушбу мақолада Хива шаҳрининг “Ичан Қалъа” музей қўриқхонасида жойлашган “Жума Масжид” меъморий ёдгорлигининг техник ҳолатини аниқлаш бўйича олиб борилган тадқиқот натижалари ёритилган.

Калит сўзлар: меъморий ёдгорлик, структура, масжид, томёпма, ёғоч устун, мониторинг, тадқиқотлар, термит, таъсирлар, зилзилабардошлик.

Аннотатsiя: Для выявления технического состояния конструкций памятников архитектуры Джума Мечета, расположенного в Ичан-Кале г. Хивы, производилось инженерное обследование его несущих конструкций.

Ключевые слова: памятников архитектры, мечеть, стены, деревянные колонны, структура, исследование, мониторинг, воздействия землетрясения.

Annotation: To identify the technical state of constructions of the Juma Mosque, located in Ichan-Kala of Khiva, engineering survey was carried out on its load-bearing structures.

Key words: adobe walls, archeology, structure, historical monuments, research, samples, effects of earthquakes.

Bugungi kunda Ichan-Qal’a muzey qo‘riqxonasi hududida joylashgan - X-asrga oid 213 ta yogoch ustun ko‘tarib turgan “Juma Masjid” me’moriy yodgorligining turli salbiy ta’sirlardan saqlash va umrini uzaytirishga kafolat beradigan amaliy ishlar bajarish juda ham zarur. Juma masjid tom qismining umumiy maydoni 2530 m^2, devorining balandligi 5,0 metrni, ba’zi joylarda 4,1 metrni tashkil etadi. Masjidda 213 ta yog‘och ustunlar mavjud [1. 2010: 55 b].

Juma Masjidi yuk ko‘taruvchi yog‘och konstruksiyalari -tom yopma to‘sin, ustun va detallarining injener-texnik holatini kuzatish natijalari asoslangan holda yog‘och konstruksiyalardagi shikastlanish sabablari aniqlandi (1-rasm).



1-rasm. Juma Masjidi yog‘och qurilmalaridagi shikastlanishlar

Bu sabablar [2. 2017: 43b]:

- oxirgi vaqtlarda er suvlarning o‘zgarib turishi;
- issiq iqlim va tuzlar ta’siri;
- biologik ta’sir va noto‘g‘ri ta’mirlanish;
- me’moriy yodgorliklardan noto‘g‘ri foydalanish orqali shamollatish etarli emasligi va h.k.lar natijasida tarixiy obidaning ba’zi qurilmalari shikastlangan (1-rasm).

Yuqoridagi kamchiliklarni o‘rganish va oldini olish maqsadida O‘zbekiston-Germaniya qo‘shma loyihasi doirasida Xorazm Ma’mun akademiyasining yosh tadqiqotchilari ishtirokida Germaniyadagi “Heritage City in Quedlinburg” ta’mirlash markazi bilan hamkorlikda bir qator amaliy ishlar bajarildi (2-rasm).




2-rasm. Juma Masjidda Germaniyaliklar bilan hamkorlikda bir qator amaliy ishlar bajarildi

Tadqiqot ishlarini eng avvalo Juma Masjidini o‘lchamlariga oid ma’lumotlarni to‘plash bilan boshladik. Chunki, shu paytgacha masjidning ustunlari orasidagi aniq o‘lchamlarni biz xech bir adabiyotda uchratmadik va mukammal tadqiqot ishlarini bajardik.

Olingan aniq o‘lchamlar yordamida masjidning plani va qirqimi ishlandi. Juma Masjidining tom qismini yopishda ketma-ketlikni aniqlash uchun tomning ikkita qismiga A va B shurflar solindi. A shurfning o‘lchami 50x50sm ni tashkil etadi, B shurfning o‘lchami esa -100x100 sm ni tashkil etadi.

Olingan natijalar asosida ikkita shurfning ketma-ketligi bo‘yicha qirqimlar shakllantirildi (3-rasm).



3-rasm.

Tom qismidan olingan namunalardan shuni ko‘rish mumkinki, tomdagi ruberoid qatlamlari birlashgan joydagi bog‘lanish orasida tirqish hosil bo‘lgan va bu tirqish orqali yog‘in suvlari o‘tishi natijasida yog‘ochni sturukturasi buzilgan hamda bu bevosita yog‘ochning yuk ko‘tarish qobilyatiga ta’sir ko‘rsatgan.

Bundan tashqari, ustunlarda yog‘och namligi namunaviy ravishda o‘lchandi. Buning uchun Gann kompaniyasining **Hydromette RTU 600** qurilmasi ishlatildi (4-rasm). Ushbu o‘lchash asbobi elektr qarshiligi va o‘tkazuvchanligini o‘lchash prinsipi asosida ishlaydi. Juma Masjidida S7 ustuni tagida tuzlar, ehtimol yog‘ochni himoya qiluvchi moddalar qoldiqlari, ustun tagidagi tolalarning emirilishiga sabab bo‘lgan.



4-rasm. Yog‘och namligi Hydromette RTU 600 qurilmasi bilan o’lchash

Juma Masjidida shift va tashqi devorlar termografik tahlil qilindi. Avval aniqlangan namlik shikastlanishlari tashqi haroratga bog‘liq ravishda komponentlarning turli sirt haroratlari orqali tasdiqlandi.

Juma Masjidining ichki qismidagi demontaj qilingan ustunlar shuni ko'rsatadiki, ko'pincha ustunlar, ustunlar o'zagi ichida hasharotlar va chiriyotganlar ta'sirida shikastlangan. Shuning uchun, ustunlardagi ichki zararni aniqlash uchun burg'ulash qarshiligini o'lchash ishlatilgan.


Rinntech kompaniyasidan **Resistograph R 650-PR (6-seriya)** foydalanishga topshirildi. Drellash qarshiligini o‘lchash yog‘ochning ichki tuzilishini minimal shikastlanishni minimal darajaga tushurgan holda tahlil qilish imkonini beradi. Buning uchun yog‘och 3 mm kenglikdagi burg‘u uchi bilan teshiladi. 50 sm gacha uzunlikka ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan burg‘u vali, burg‘u uchidan keyin taxminan 1,5 mm diametrgacha ingichkalashadi. (5-rasm).




5-rasm. Resistograph R 650-PR aparati yordamida drellash qarshiligini o‘lchash yog‘ochning ichki tuzilishini tahlil qilish imkonini beradi

Bu komponentga shikast etish darajasini minimal darajaga tushurish usuli hisoblanadi. Shu sababli, ushbu o‘lchash usuli ko‘pincha yodgorliklarda qo‘llaniladi. O‘lchovdan so‘ng atigi 3 mm o‘lchamdagi teshik qoladi, bu hajm jihatidan hasharotlarning chiqish teshigiga o‘xshaydi.Masalan, J6 ustuni uchta balandlikda teshildi. Drellash profili o‘lchovni shift balkalari ostidan 61 sm pastda ko‘rsatadi. Drellash qarshiligining pasayishi tufayli ustunning taxminan 23,4 sm diametrli yadro qismida ichki shikastlanish aniqlanadi.

Termitlar ta’sirida pastki qismi puturdan ketgan quyidagi ustunni talab darajasida ta’mirlandi, ya’ni bunda eng avvalo ushbu ustunning zararlangan qismi mutaxassislar tomonidan yaxshilab o‘rganildi va shikastlangan qismi olib tashlashga kelishildi. So‘ngra maxsus yog‘ochdan tayyorlangan namunalar yordamida ushbu qismi bo‘yicha ta’mirlash ishlari boshlab yuborildi (6-rasm).





6-rasm. Ustunni sxematik chizmasi va ta’mirlangan holatini ko’rinishi

Binodagi asosiy nosozligidan yana biri bu binodagi shamolatish tizimining ishlamayotganligi bu esa binodagi nisbiy namlikni oshib ketishi va bilogik ta’sirni yanada kuchaytiradi. Termitlar ta’siri binoning yuk ko‘taruvchi konsturuksiyalari - to‘sin va ustunlarga jiddiy zarar ko‘rsatganligini guvohi bo‘ldik. Masjidni qayta ta’mirlash jarayonida yog‘och qurilmalarni ishlov berishda qadimiy Xorazm yog‘och o‘ymakorligi an’anaviy uslubda qo‘llanlmagani sababli (ishlar mexanik bolgarkalar va tekislovchi qurilmalar va lok bo‘yoq mahsulotlari bilan to‘g‘ri foydalanlimaganligi) ba’zi noyob ustunlarning naqshlari yo‘qolish darajasiga etgan.

Olib borilgan tadqiqotlarning eng ahamiyatlisi hisoblangan - masjid er osti poydevor qismlarini o‘rganish maqsadida shurflar solindi. Shuningdek, masjidning er ostki qismiga shurf solish jarayonida poydevor ham o‘rganildi va unga ishlatilgan qurilish materiallaridan (g‘isht, qorishmaga ishlatilgan xadjja loyidan namuna, poydevor ostki qismiga ishlatilgan toshdan namunalar) olindi.

Germaniyalik yog‘och markazi mutaxassislari 20 yil davomida turli mamlakatlarda aynan me’moriy obidalarning yog‘och qurilmalarini ta’mirlash bo‘yicha bir qator amaliy ishlarni bajarishgan.

Loyiha bo‘yicha yuqorida keltirilgan ma’lumotlar va olingan tadqiqot natijalari mutlaqo yangi ekanligi bois natijalar Madaniy meros departamentining Xorazm viloyati bo‘limida qadimiy masjidlarni saqlash va ta’mirlashda foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Eng asosiysi, mamlakatimizning noyob “Yog‘och muzeyi” xisoblangan Juma Masjid me’moriy obidasi jiddiy talofatlardan saqlanadi va uning umrboqiyligi ta’minlanadi.

Xulosa qilib aytganda, Xiva shahridagi ming yillik tarixga ega Juma Masjidi me’moriy yodgorligini umrboqiyligini ta’minlash uchun uning yog‘och konstruksiyalarini texnik holatini to‘g‘ri baholash hamda olingan ilmiy natijalar asosida to‘g‘ri ta’mirlash ishlarini yo‘lga qo‘yishda ushbu loyiha dasturil amal bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bobojonov D., M.Abdullaev. Xorazm amaliy san’ati. Xiva, Xorazm Mahmun akademiyasi nashriyoti, 2010, 88-b.

2. «Xiva shahridagi Ichan-Qal’a me’moriy obidalarining monitoringini olib borish va ular bo‘yicha ma’lumotlar bazasini yaratish» mavzusidagi ilmiy-texnik hisobot. O‘zbekiston Respublikasining ilmiy-texnik Davlat dasturi, grant, ID-4-3, innovatsiya loyihasi. Xiva-2017.120b.

XIVADAGI “SAID MOXI RO’YIJAXON” MAJMUASINING TEXNIK HOLATINI O‘RGANISH VA SAQLASH NATIJALARI

G. S.Durdieva arx.f.d.
A.K.Zargarov prof. k.i.x.
Xorazm Ma’mun akademiyasi

Аннотация: Ушбу мақолада Хива шаҳрининг “Deshon Қалъа” hududida жойлашган “Sayid Mohi Ro‘yijahonning” меъморий ёдгорлигининг техник ҳолатини аниқлаш бўйича олиб борилган тадқиқот натижалари ёритилган.

Калит сўзлар: меъморий ёдгорлик, структура, масжид, томёпма, ёғоч устун, мониторинг, тадқиқотлар, термит, таъсирлар, зилзилабардошлик.

Аннотация: Для выявления технического состояния конструкций памятников архитектуры Сайид Моҳи Ройижахон, расположенного в Дешан Кале г. Хивы, производилось инженерное обследование его несущих конструкций.

Ключевые слова: памятников архитектры, мечеть, стены, деревянные колонны, структура, исследование, мониторинг, воздействия землетрясения.

Annotation: To identify the technical state of constructions of the Sayid Mohi Ro‘yijahon, located in Deshon-Kala of Khiva, engineering survey was carried out on its load-bearing structures.

Key words: adobe walls, archeology, structure, historical monuments, research, samples, effects of earthquakes.

Said Moxi Ro’yijaxon me’moriy obidasi **- 1884 yil**da tiklangan yil**.** U Deshon - Qal’adagi Amir Temur ko‘chasida joylashgan. Bu majmua atrofida bir vaqtlar «Chodirli eshon» istiqomat qilgan va uning vafotidan so‘ng u shayx shu erga dafn qilingan va xalq orasida "Chodillo eshon" qabristoni deb atalgan [3. 2010: 45 b]. XIX asrning ikkinchi yarmida Xiva xoni Said Muhammadxon bu qabr ustiga maqbara qudirgan va natijada bu maqbara atrofi Xiva xonlari xilxonasiga aylangan.




1-rasm. Said Moxi Ro’yijaxon m*e’moriy obidasining ko’rinishi*

Sayid Mohi Ro‘yijahonning qabri Amudaryoning shimolidagi To‘rtko‘l tumani hududida, daryo bo‘yida bo‘lgani uchun 1887 yilning bahoridagi Amudaryoning toshqini sababli daryoga oqib ketish xavfi paydo bo‘lgan **[2. 2010: 56 b].**. Sayidlar avlodidan bo‘lgan Xiva xoni Muhammad Rahimxon bu voqeadan tushida voqif bo‘lgan ekan va uning xokini Xivaga keltirishni buyurgan. Madrasalar Sayid Muhammadxon va Muhammad Rahimxon Feruz tomonidan qurilgan. Majmuaga kirish oldidan o‘ng tomonda Sayid Islom xo‘janing va **uning otasi Ibrohim Xo‘jalarning ham** maqbaralari joylashgan [2**. 2010: 45 b]..**

Sayid Mohi Ro‘yijahonning qabri madrasa ichkarisidagi kichik gumbazli maqbarada joylashgan, uning oldidagi ziyoratxonadan katta gumbazli xonaqohga kiriladi. Bu erda Sayid Muhammadxon (1821-1864 yillar), Muhammad Rahimxon Feruz va uning Isfandiyorxon o‘g‘lidan bo‘lgan (qasddan zaharlab o‘ldirilgan) nevarasi Temurg‘ozi to‘ra qabrlari joylashgan [3**. 2010: 45 b].**


Sayid Mohi Ro‘yijahon majmuasida hozirda ikkita madrasa, masjid, qorixona va maqbaralar saqlanib qolgan. Majmuaning ko‘pgina qismlari 2009-2010 yillarda qaytadan ta’mirlandi va peshtoq va gumbaz qismlariga koshinlar o‘rnatildi.

Me’moriy obidaning o‘lchamlari va qurilish materiallari to‘g‘risida qiskacha ma’lumot:
Yodgorlikning umumiy o‘lchami - 40,0 x 53,0 m;
O‘rta hovlining o‘lchami 5,0x15,0m;
Katta gumbazli xona o‘lchami – 14,19,0m;
Tomi g‘ishtdan, gumbaz uslubida yopilgan;
Katta gumbazining balandligi - 16m,
Me’moriy obida pishgan g‘ishtdan tiklangan, o‘lchamlari -25,0x25,0x6sm;
Fisht terishda ganch qorishmasidan tekislash uchun foydalanilgan
Binolarning eng kattasidan uch gumbazli vestibyul orqali yo‘l o‘tgan (2-rasm).
Bu madrasada an’anaviy darsxona va masjid o‘rniga oddiy hujralar qurilgan.




2-rasm. Majmuaning plani

3-rasmda ko’rsatilganidek, Said Mohi Ro‘yijahon majmuasining perspektivadagi ko’rinishi berilgan bo’lib, ushbu majmuyda na faqat madrasa balki kata gumbazli xonaqo (balandligi 16,98 metr), xilxonalar va turli xil o’lchamdagi gumbazlar bilan yopilgan qabrxonalar ham mavjud.




3-rasm. Said Mohi Ro‘yijahon majmuasining sxematik ko‘rinishi




4-rasm. Majmuaning qirqimlari ro’rsatilgan
5-rasm. Majmuaning poydevorlari bo’lab “xataba” usuli qo’llanildi

Me’moriy yodgorliklarga atmosfera suvlarining ta’sirini kamaytiruvchi “Xataba” uslubi - er osti suvlari bilan bino devorlari va yopmasiga zax holida sizib chiqib, uni emiradigan tuzlarini maxsus havo o‘tish kanallari vositasida shamollatish qurilmasi sifatida ishlatiladi. Ushbu innovatsion uslub - Xiva me’moriy yodgorliklarini ta’mirlashda, aynan, Said Mohi Ro‘yijahon majmuasining zamin va poydevor qismiga devor oralig‘i bo‘ylab (30sm), binoning butun perimetri bo‘yicha qo‘llanildi.

Me’moriy yodgorliklarning poydevorlari atrofiga butun perimetr bo‘ylab ishlashga mo‘ljallangan va amalda qo‘llanilgan yangi ishlanma “Xataba” - nafaqat pardoz qatlamini, balki butun imoratning konstruksiya va elementlarini shamollatish - muhandislik tadbiri tufayli zax emirishidan asraydi va obidalarni mustahkamligini 30-40%ga oshiradi.



6-rasm. Majmuaning poydevorlari bo’lab qo’llanilgan “xataba” usulini sxematik ko’rinishi



7-rasm. Majmuaning poydevorlari bo’lab qo’llanilgan “xataba” usulini sxematik ko’rinishi

Majmua hovlisi shimolida markaziy o‘qdan g‘arbga surilgan holda, shayx Said Mohi Ro‘yijahonning maqbarasi joylashgan. Maqbaraning peshtoqi va gumbazi katta hajmda bo‘lib, me’morchilik uslubi har xil bo‘lgan ikkita xonadan iborat. Agar maqbarani alohida olib qaraydigan bo‘lsak, u ko‘ndalang qismdagi uch qismli kompozitsiyani tashkil qiladi.



9-rasm. Said Mohi Ro‘yijahon majmuasining poydevorini ko’rinishi

Ushbu majmuaning ichki xonalariga va gumbazostiga juda ko‘plab arab yozuvida hadislar va ma’noli so‘zlar zangori koshin taxtachalariga bitib yozilgan.

Me’moriy obidaning koshinlari turli xil islimiy naqshlar bilan oq va zangori rangda jilo berib ishlangan, ular hozirgacha juda yaxshi saqlanib kelganligidan milliy koshinpazlikning namunasi sifatida hozir ham ulardan kulollar o‘zlariga ulgi-naqshlari tayyorlashda foydalanadilar. **Me’moriy obidaning texnik holati:**

Majmuaning bugungi kundagi texnik holati yaxshi, obidaning hujralaridan ziyoratgoh sifatida foydalanilmoqda:

- Tom yopmasi - yaxshi;
- Devorlari - qoniqarli;
- Hujralarning devor qorishmalarining tarkibi - yaxshi;
- Sokol qismlari va devorlarining - 2-3 metrgacha bo‘lgan pastki qismlari namlangan va g‘ishtlari sho‘rlanishdan zararlangan;
- Yog‘och eshiklarining ustki proyomlari va ichkarisidagi hujralarning yog‘och konstruksiyalari termitdan zararlanmagan;

Majmua texnik holati - yaxshi toifaga kiradi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bobojonov D., M.Abdullaev. Xorazm amaliy san’ati. Xiva, Xorazm Mahmun akademiyasi nashriyoti, 2010, 88-b.

2. “Хива – минг гумбаз шаҳри” рангли альбом. “Шарқ” нашриёт –матбаа концернининг Бош таҳририяти, Тошкент, 1997. 120 b.

3. Xudayberganov K. Yozuvlarga yashiringan tarix. — Xiva., 1996. 10 b/t.

XX ASRNING 20-YILLARIDA MAKTABLARDA DINGA QARSHI TARBIYA MASALALARI

I.B.Mamatkarimov
Namangan davlat pedagogika instituti stajyor-tadqiqotchisi

Markaziy Yoshlar Qo‘mitasi qoshida Kommunist bolalar buyrosining tashkila shtirilishi. “Kolxozchi bolalar” va “Xudosizlar” jurnallarida maktablarda dinga qarshi kurash masalalariga bag‘ishlangan maqolalarning e’lon qilinishi; Islom dinining kelib chiqish tarixini ham sinfiy manfatlar va sinfiy kurashlar bilan bog‘lanishi. Islom dining mohiyati, hukm va qoidalarini sinfiylik bilan bog‘langanligi. Islomni savdo burjuaziyasini dini, shuningdek, uning hukm, rukn va amallari ushbu burjuaziyaning manfaatlariga qarab tuzilganligini isbotlashga urinishlar. Quron, hadis kabi islomga oid asarlarni sinfiy nuqtai-nazardan talqin qilinishi; Xristian dinini ham asosan sinfiylik qoidalari asosida tashkil topganligini isbotlashga urinilishi; Kapital bilan mehnat o‘rtasida qattiq va keskin kurash mavjudligini va bunda din va din ahllarini dindan qurol sifatida foydalanayotganligiga ahamiyat berayotganligini da’vo qilinishi.

Bolsheviklar tomonidan musulmon ruhoniylarining din nomidan Kolchak, Denikin va boshqa generallarga yordam ko‘rsatganliklari to‘g‘risida tuhmat qilishlari. “Din mulkdor va kapitalistlar sinfining mafkurasidir”, tushunchasining o‘rtaga tashlanishi.

Dinga ishonishni, uning buyruqlariga bo‘ysunishni mehnatkashlar uchun g‘oyat katta zarardir, e’tirof etish. Sinfiy kurashda proletar mehnatkashlari dindorlar bilan birga bo‘la olmasligi, dinga ishongan odam sinfiy ishonchsiz odam, deb targ‘ib qilinishi. Kapitalizm bilan keskin suratda kurashish va bu kurashni oxirg‘i davriga qadar olib borish uchun din bilan ham kurashish lozimligi, din bilan kurashish esa, sinfiy kurashning bir qismi bo‘ladi, degan targ‘ibotning kuchaytirilishi. Kapitalizm jamiyatida dinning ildizlari kapitalistik munosabatlarga, din bilan kurash masalasi ham shu maqsadga borib taqalishini tushuntirilishi;

Diniy ta’lim va tarbiya berilgan maktablardagi o‘smirlar burjuaziyaga itoatli odam bo’lib tarbiyalanishlarining da’vo qilinishi. SSSRda din rasman hukumatdan ajratilganligi, inqilobdan keyin makatablarda din masalasida ikki xil munosabatning qaror topishi: 1) Dinsiz tarbiya; 2) Dinga qarashi kurash. Maktabning din ishiga aralashmasligi, maktabda dinga qarshi kurashilmayotganligining tanqid qilinishi;

Ko‘plab bolalar maktablarda kuniga 4-5 soat dars o‘qishlari, qolgan 19-20 soatlarini esa, ota-onalarining oldida o’tkazishlari, oila davrasida yashashlari, oilalarning ko’pchiligi esa, burjuaziya, mayda burjuaziya muhitida yashayotganligi, jamiyatda qattiq sinfiy kurash borayotgan bir paytda ota-onalarning ko’pchiligi eskicha, diniy xurofatlarni qattiq saqlayotganligi, diniy tarbiyani ular bolalariga ham berayotganligi, ruhoniylar, boylar turli udumlar bilan oilalarini o‘z ta’sirlarida saqlashga urinayotganligi, oqibatida bunga qarshi maktabning 4 soat ichida bergan ta’lim va tarbiyasi hech qanday natija bermasligini tanqid qilinishi;

Diniy tarbiyaga betaraf qarab turish, yoshlarni din ahllarining ta’siriga berib qo‘yish, sinfiy kurashda dushmanlarga yon berish, deya ta’riflanganligi. Shu bois, makatablarda dinga qarshi kurash yo‘lini yagona to‘g‘ri yo‘l, deb tanlanishi, sho’rolar sharoitida maktablarda shundan boshqa yo’lning bo’lishi mumkin emasligi, dinga qarshi tarbiyaning maktablarga qanday olib borish masalasi muhim ekanligining ta’kidlanishi. Asosiy fanlarning darsliklar programmalarida dinga qarshi tarbiya unsurlarining kiritish lozimligining uqtirilishi;

14-15 yoshdagi bolalar uchun maktablarda maxsus dinga qarshi kurash to‘garaklari tuzish kerakligi, shu to‘garaklarda ularni dinga qarshi tarbiya berish-dinga qarshi kurash masalalari bilan tanishtirish kerakligi;

Dinga qarshi kurashda “Qizil burchak” va boshqalardan foydalanish mumkinligi, dinga qarshi tarbiya masalasida kitob va qo‘llanmalarning katta ahamiyati borligi, bolalar qo’liga beriladigan kitob va darsliklarda diniy ruh qat’iyan bo‘lmasligi kerakligi, aksincha, ular dinga qarshi tarbiya ruhi bilan sug’orilgan bo‘lishlari kerakligi. Bu masalarga “Makatablarga dinga qarshi tarbiya”, degan mavzulardagi risolalar chop etish lozimligi. Din va diniy tarbiya masalalari aralashgan kitoblarni maktablardan mutlaqo chiqarib tashlanishi kerakligi masalasining ko’tarilishi;

Maktab darsliklaridan o’zbek tilidagi “Adabiyot parchalari” nomli kitobning diniy ruh bor, deya tanqid qilinishi;

Sho‘ri muallimlarining, sho‘ro ziyolilarining din bilan faol kurashishi lozimligi, buning uchun ular dinga qarshi kurash yo‘larini, maktablarning dinga qarshi tarbiya usullarini yaxshilab bilishlari lozimligi, bu yo‘lda ular maxsus to‘garaklar tuzib, “Xudosizlar” soyuziga yozilishlari kerakligi.

Maktablarda dinga qarshi tarbiya “Madaniy inqilob” jabhasida turgon muhim ishlarning bittasi, o’qituvchilar buni yodlaridan chiqarmasliklari lozimligi masalasiga urg‘u berilganligandir.

QORAXONIYLAR DAVRI MANBALARIDA QO‘QON VA QO‘QONLIK OLIMLAR HAQIDA

T.Q.Qozoqov
Namangan Impuls tibbiyot instituti Tarix fanlari nomzodi, dotsent.
Telefon (Telegram): +998933451969 E-mail: tqozoqov@mail.ru https://orcid.org/0009-0008-7833-1551

- Qo‘qon shahrining o‘zbek davlatchiligi tarixida muhim o‘rin tutganligi. O‘rta asarlarda, Qo‘qon xonlik poyta’ti sifatida, Chorizm mustamlakachiligi davrida ham Qo‘qon Markaziy Osiyo ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rol o‘ynaganligi;
- Mustaqillik yillarida Qo‘qonda o‘tkazilgan tarixiy festivallar va ularning ahamiyati.Shahar toponimi xususida bildirilgan turlicha yondoshuvlar va ularning talqini;
- Bu davr manbalarining Sh.Kamoliddin va R. Xudayberganovlar tomonidan tadqiq etilishi;
- Sayyoh va geograf olim Abu Ishoq Ibrohim ibn Muhammad al-Forisiy al-Istaxriyning “Kitab al-masalik val-mamalik” (“Yo‘llar va o‘lkalar kitobi”) asarida Xavakand - خواكند, حواكند, حوافيد خواقند shakllarida, shuningdek, uning nomi as-Sam’oniy va Yoqut al Xamaviylarda esa, Xoqand خواقند tarzida berilishi. Xitoy manbalarida uning nomi Xoxan shaklida keltirilganligi;
- Akademik V. Bartold xalq rivoyatiga asoslanib, uning nomini xuk “to‘ng‘iz” va kand “shahar” so‘zlaridan yasalganligi g‘oyasini olg‘a surganligi. Akademik A. Muhammadjonov esa, shaharning nomi xu(r) – “quyosh” yoki xu(sh) – “yaxshi”, “yoqimli” va kand/qand – “shahar” so‘zlaridan yasalgan bo‘lishi mumkinligi fikrini berganligi;
- Istaxriy asarida Xo‘qandning Farg‘ona vodiysidagi nohiya va shahar sifatida tavsiflanishi. Masafalari masalasida esa, Xo‘jandadan 2 katta marhala, Axsikatdan esa, 1 katta marhala bo‘lib, daryo (Sirdaryo)dan esa 5 farsax masofada joylashganligi qayd etilganligi. Xo‘qand bilan So‘x orasidagi masofa esa, 1 kunni tashkil etganligi;
- Arab geografi Ibn Havqal Farg‘ona o‘lkasi viloyatlarini quyidagicha – Koson, Yuqori Nasyo, Quyi Nasyo, Asbara, Naqod, Miyon Rudon, Jilg‘il, Urast, Basfar va Asht nomlari bilan bayon etganligi;
- Ibn Havqalning “Kitob surat al-ard” (“YErning surati kitobi”) asarida Xo‘qand Farg‘ona viloyatlaridan biri bo‘lgan Yuqori Nasyoda joylashganligi, Xo‘jand tomonidan kirganda Vonkat, So‘x, Xavokand, keyin esa Rishton joylashganligini yozganligi;
- Ibn Havqal Xavokand yonida Arsubonikat, Boryob, So‘x kabi shahar bo‘lganligi ma’lumotni berganligi;
- Ibn Havqal matnlarida Xo‘janddan yo‘lga chiqqan kishi albatta Xavokand orqali o‘tishini, Xavokanddan cho‘l va qumlar orqali Bob (Pop) va Axsikatga borishi, so‘ngra, Shosh (Sirdaryo) daryosidan o‘tib, Axsikatga kirishi, Xavokanddan Bobgacha besh farsax, Bobdan Axsikatgacha esa, to‘rt farsax ekanligini ma’lum qilganligi;
- Keyingi davr manbalarida, xususan, XV- XVI asrlarning noyob tarixiy asari “Boburnoma”da ham “Xo‘qon o‘rchin navosi” - tumani sifatida tavsiflanganligi;
- XII asrda Qo‘qondan Abu Tolib Tohir ibn Muhammad ibn Ja’far ibn Nasr ibn Nusra al-Xo‘qandiy al-Maxzumiy (vafoti hijriy 510, milodiy 1116-yil) ismli olim yetishib chiqqanligi, u o‘z davrining yetuk adib va qorisi bo‘lganligi. Olim, Samarqandda umr kechirib, ulamolardan va turli soha kishilaridan hadis rivoyat qilganligi. Ulamolar ham undan hadis rivoyat qilganliklari. U zod 510-yilning safar oyida vafot etib, Samarqanddagi “Mashhadu-s-sodot” qarshisidagi Chokardiza qabristoniga dafn qilinganligi.

“SADOI TURKISTON” GAZETASIDA TATAR, BOSHQIRD VA OZARBAYJONLIK MA’RIFATPARVARLARINING FAOLIYATI

A.M.Abdurasulov
Namangan davlat Pedagogika institutining tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Toshkentda nashr qilingan “Sadoi Turkiston” gazetasida tatar, boshqird va ozarbayjonlik ma’rifatparvarlarning faoliyati, ularning gazeta rivojiga qo’shgan hissasi, gazetada ular tomonidan yozilgan maqolalarda ko’tarilgan dolzarb muammolar va ular bilan hamkorlik aloqalari yoritildi.

Kalit so’zlar: Ubaydullaxo’ja Asadullaxo’jayev, No’shiravon Yovushev, Xolid Said, Rauf Muzaffarov, Sora Muzaffariya, Podshoxonim Jalilova, Muhammad Said, “Usuli jadid, Ahlillo Xaybullin, Mirmuxsin Shermuhammedov

Аннотация: В данной статье освещена деятельность татарских, башкирских и азербайджанских просветителей, работавших в ташкентской газете «Садои Туркистон», их вклад в развитие издания, актуальные проблемы, затронутые в их статьях, а также сотрудничество с ними.

Ключевые слова: Убайдуллаходжа Асадуллаходжаев, Нушираван Явушев, Халид Саид, Рауф Музаффаров, Сора Музаффария, Подшоханим Джалилова, Мухаммад Саид, «Усули джадид», Ахлило Хайбуллин, Мирмухсин Шермухаммедов.

Annotation:
This article highlights the activities of Tatar, Bashkir, and Azerbaijani enlighteners who worked for the Tashkent-based newspaper ***Sadoi Turkiston***, their contribution to the development of the publication, the pressing issues raised in their articles, as well as their cooperation with the editorial team.

Keywords: Ubaydullakhoja Asadullakhojayev, Nushiravan Yavushev, Khalid Said, Rauf Muzaffarov, Sora Muzaffariya, Podshokhonim Jalilova, Muhammad Said, “Usuli Jadid”, Ahlillo Khaybullin, Mirmukhsin Shermukhammedov

O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi milliy madaniyatimiz, uning ajralmas bo‘lagi — milliy matbuotimiz tarixini xolis o‘rganish va bu borada ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Yaqin-yaqingacha biz XX asrning birinchi choragida nashr qilingan milliy gazeta va jurnallar, ularda faoliyat ko’rsatgan ziyolilarning el-yurt oldidagi sharafli xizmatlari to‘g‘risida oshkora fikr ayta olmasdik. Vatanimizning mustaqillikni qo’lga kiritishi tariximizni xolislik va ilmiylik asosida qayta o’rganishimizga imkoniyat paydo qildi. Chunki, sobiq Sovet Ittifoqi mustamlakachiligi davrida tarixiy voqealar marksistik-leninistik mafkura doirasida yoritilgan edi.

1870-1917-yillar O’zbekiston tarixida Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davri sifatida o’rin olgan. Ushbu davrda Turkistonning ijtimoiy-siyosiy, diniy-ma’rifiy hayotida islohotchilik faoliyati butun mintaqa bo’ylab keng yoyildi. Bu islohotchilik harakatining rivojlanishida vaqtli matbuot va matbaachilik katta rolni o’ynadi. Chunki, vaqtli matbuot va matbaa Turkiston aholisining siyosiy va ijtimoiy ongini o‘sishida, mustamlakachilikka qarshi g‘oyaviy tomondan birlashuvida salmoqli ishni bajardi. Vaqtli matbuot va matbaachilik qisqa vaqt ichida Turkiston siyosiy va ijtimoiy hayotida ibqilob yasadi. Turkistonda nashr qilingan “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Shuhrat”, “Osiyo”, “Oyna”, “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg’ona”, “El bayrog’i”, “Birlik tug’i”, “Ulug’ Turkiston” va boshqa ko’plab gazeta va jurnallar millatni ma’rifatli qilishda jonbozlik ko’rsatdi.

XX asrning birinchi choragida Turkistonda vaqtli matbuot va matbaachilikni shakllanishida tatar, boshqird, qrim tatar, ozarbayjon, rus millatiga mansub ziyolilar bilan hamkorlik aloqalari katta rol o’ynadi. Bu millat ziyolilari ayrim gazeta va jurnallarga asos soldilar va o’zbek tilida nashr qildilar. Mahalliy Turkistonliklar tomonidan asos solingan gazeta va jurnallarning rivojida faol ishtirok etdilar. Bugungi maqolamizda “Sadoi Turkiston” gazetasida faoliyat ko’rsatgan ana shunday ma’rifatparvarlar haqida so’z yuritamiz.

Milliy matbuotimizning rivojiga salmoqli hissa qo’shgan “Sadoyi Turkiston” gazetasiga Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev tomonidan asos solindi. Bu ma’rifatparvar inson mutaxasisligi bo’yicha advokat bo’lib, U 1914–1915 yillarda Toshkentda o‘zbek tilida nashr qilingan, Turkiston o‘lkasida keng tarqalgan "Sadoi Turkiston" gazetasining tashkilotchisi, bosh muharriri va noshiri sifatida faoliyat ko‘rsatdi.

Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev 1913-yil tahsilini tugatib Turkistonga qaytgach o’zbek tilida chiqadigan milliy gazetaga asos solishga qaror qiladi. Shu maqsadda Sirdaryo viloyati harbiy gubernatoriga rasmiy ariza bilan murojaat qiladi. 1913-yil 21-dekabrda Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori tomonidan gazeta chiqarish uchun ruxsatnoma beriladi. Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev gazetani Turkiston general-gubernatori ish yuritish bo’limiga qarashli bosmaxonada nashr qilishga erishish uchun ko’p harakat qiladi. Ammo, unga rad javobi beriladi [3: -B. 64].

Gazetaning ilk soni 1899-yilda Toshkentda V. M. Ilin tomonidan asos solingan xususiy bosmaxonada 1914-yil 4-aprelda nashr qilingan. [4: -B. 74].

Gazetaning birinchi sonida muallif bunyod etilgan gazeta millatni chorasizlik va zaiflikdan muhofaza qilish maqsadiga xizmat qilishini asoslab, quyidasgi satrlarni yozgan edi: “…Biz, turkistonliklar hozirda na zamonga qarab harakat qilurmiz, na din va shariatimizga suyanib ibrat olurmiz… Bizning shunchalik g‘aflat va johilligimizni ko‘rib turib ham, yana sabr va qanoat ila sukut saqlash – muqaddas vatanimiz va mehribon onamiz bo‘lgan Turkistonga juda og‘ir keldi. Shu sababli u (ya’ni Turkiston) dilidan chiqqan sado – “Sadolar”i bilan o‘z farzandlariga nasihat qilmoqqa qaror berdi. Mana bu gazetamiz shu muqaddas Vatanimiz bo‘lgan Turkistonning o‘z farzandlariga aytgan so‘zi, chiqargan sadolarining tarjimoni bo‘ladi… . Oliy va muqaddas onamiz bo‘lgan Vatanga, shoyad ojizona bir xizmat bo‘lsa deb, biz ham zimmamizga “Vatan tarjimoni” kabi og‘ir bir yukni yuklamoqqa jasorat etdik”[3: - 1-son]

Tavallo, Saidnosir Mirjalilov, Hamza Hakimzoda, Abdulhamid Sulaymon (Cho‘lpon), Mirmuhsin Shermuhammedov, Abdulla Qodiriy, Mo’minjonon Muhammadjonov, Siddiqiy, Lutfulla Olimiy, Mulla Vasliy, Xojimuin, Ibrohim Davron, Shokirjon Rahimiy, Nozimaxonim[2: -B.74] va davrning boshqa o‘nlab Turkistonlik ma’rifatparvarlar qatorida tatar, boshqird va ozarbayjonlik ma’rifatparvarlar ham bu gazetaning faoliyatida katta rol o’ynadilar. Ular o’z maqolalari bilan “Sadoi Turkiston” gazetasining rivojiga salmoqli hissa qo’shdilar.

Masalan Rauf Muzaffarov (Muzaffarzoda) bu jaridaning faoliyatida muhim o’rin egallaydi. Turkistonga safar qilgan Toshkent shahridagi Sadoi Turkiston gazetasining idorasiga tashrif buyurgan tatar sayyohi Ibrohim Tohiriy “Ko’rgan bilgandan” maqolasi 1914-yilda “Sho’ro” nomli tatar jurnalida bosildi. Muallif unda gazetada ishtirok etuvchi Rauf Afandi Muzaffarov haqida bo’lim muharriri, gazetaning manaviy ustunlaridan biri deb ma’lumot beradi. [1: -B. 81]

Abdurauf Muzaffarov 1889 yilda Rossiyaning sobiq Simbirsk gubernasidagi Sinchilevsk uezdi, Staro-Timoshkino qishlog‘ida tug‘ilgan. Millati – tatar. Ayrim sabablar tufayli, u 1914 yilning boshlarida Turkistonga kelib qolgan [5: -B. 20]

Sadoi Turkiston gazetasida Rauf Muzaffarzodaning 27 ta maqolasi nashr qilingan. Bu maqolalarda muallif ta’lim, tarbiya, yer masalalari, iqtisod, til va imlo mavzularida o’z qarashlarini bayon qilgan. “Maorif manba’larimiz” sarlavhali maqolasida madrasalardagi ta’lim berish holati va usuli tadqiq etiladi. Mahalliy madrasalarning o’qitish tajribasi Qozon, Orenburg va Ufadagi madrasalar tajribasi bilan solishtiriladi va mahalliy madrasalarda o’qitish metodi ancha orqada qolganligi va yuqoridagi madrasalarning o’qitish tajribalarini o‘zlashtirishi zarurligi haqida xulosa chiqariladi [7: -56,59,62-sonlar].

Muzaffarzodaning “Til ham din” maqolasida jamiyatdagi eng katta va eng muhim muammolardan biri ko’tarilgan. Muallif fikricha, din ahkomlari, diniy kitoblar har bir qavmning o‘z tilida bo‘lsa, ularning insonlar qalbiga singishlari o‘ng‘aydir. Agar bular ajnabiy tilda bo‘lsa, ularni o‘z ona tillariga tarjima etmoq lozim [7: -24-son].

Rauf Muzaffarzodaning “Tarbiyaga ahamiyat bermaymiz” sarlavhali maqolasi insonlarning ruhiyatini va ruhini tarbiya qilish mavzuiga bag‘ishlangan. Muallif insonning vujudi ikki narsadan – modda va ruhdan iborat, deydi. Har ikkisini ham tarbiyalash, ularga oziq berib turish kerak. Afsuski, fikrini davom ettiradi u, turkistonliklar ko‘proq badan tarbiyasi, vujud ozig‘iga e’tibor qaratadi. Holbuki, ruh tarbiyasi ustun bo‘lmog‘i lozim. “Hozirg‘acha, – deb yozadi muallif, – biz Turkistonimizda hech narsa sezmasdan va bilmasdan tinchg‘ina yotdik. O‘qumadik, bilmadik, shundog‘ bo‘lsa ham, rohat va tinch yashadik. Endi hollar boshqardi, avvalgi boyliklar bitdi. Hozirgi kunda qandayg‘ina kasbg‘a kirishmakchi bo‘lsang ham, ilm va ma’rifatga ehtiyoj tushadi. Shuning uchun biz turkistonlilarg‘a ham boshqa millatlar ketkon madaniyat yo‘lig‘a qadam qo‘ymak lozim edi…[7: - 43-son].

Boshqird millatiga mansub bo’lgan ufalik sayohatchi No‘shiravon Yovushevning xabar va maqolalari gazeta sahifalarida muntazam bosilib turdi. Gazetaning o‘n to‘qqiz sonida uning “Sayohat parchalari” sarlavhali yo‘l ocherki chop etildi. “Sadoi Turkiston”da Nushiravon Yovushev “Maktab va muallimlarimiz” sarlavhali maqolani e’lon qilgan. Bu maqolada muallif Turkistonda muallimlar tayyorlaydigan dorilmualliminlar yo’qligi, buning salbiy oqibatlarini bayon qilib, muallimlarga o’qitish

metodikasi yuzasidan ma’lum darajada yengillik berish maqsadida “ Usuli talim va tarbiya” qo’llanmasini tayyorlab nashr qilishni taklif qiladi [7: -18-son].

No’shiravon Yovushev “Usuli jadida madrasasi” sarlavhali maqolasida Tataristondagi usuli jadida maktablarining tarkibi yuzasidan ma’lumotlar bergach, Rossiya ichida musulmonlar yashaydigan hududlarda usuli jadida madrasalari ham mavjudligi haqida fikr bildiradi. Muallif turkistonliklarni ana shu o‘quv maskanlari bilan tanishishga davat qiladi va bu madrasalarda mavjud bo’lgan kitoblardan foydalanishni tavsiya qiladi [7: - 19-son].

No’shiravon Yovushev “Hozirgi madrasalarda o‘quv” sarlavhali maqolasida Turkiston madrasalarida fanlarning o’qitilishi, fanlar jadvali, ularning mundarijasi, fanlar taqsimoti, ularning zamon talablariga qay darajada javob bera olishlari, mazkur ilm dargohlarida o‘qitish tizimini isloh etish zarurati, madrasalarni isloh etish masalasiga Turkistondagi yirik madrasa mudarrislari qanday fikrdaligi haqida tahliliy fikr yuritadi. “O‘tgan yil Buxoroda madrasai Tursunjonda olim va fozil atalgon mudarris Abdurazzoq janoblari birlan maslahat etub, madrasalarda tafsir, hadis, ulumi tabiiyya va riyoziyya o‘qulmaslikning sababini so‘radim, – deb yozadi muallif. – Mudarris hazratlari: “Tolib yo‘q – o‘quvchi yo‘q” deb javob berdilar. Madrasai Govkushonda mo‘ysafid a’lam mudarris manim so‘zlarimga taassub ila javob berur va darslarning islohga muhtojligini inkor qilur edi [7: - 20-son].

Tatar ma’rifatparvari Ahlillo Xaybullin “Qalam ahlidan iltimos” sarlavhali maqolasida turkiy tilning rivoji muhim ekanligi, qalam ahllari esa o’z maqolalarini iloji boricha halq tiliga yaqinroq tilda yozishi zarurligi, halqqa tushunarsiz so’zlarni iloji boricha ishlatmaslikni tavsiya qiladi [7: - 43-son].

Tatar ma’rifatparvar ayoli Sora Muzaffariya “Ayb o’zimizda” nomli maqolani chop qildiradi. Bu maqolada muallif eng dolzarb muammo ayollar ta’limi masalasiga e’tibor qaratib, bu muammoni hal qilmasdan millatni ma’rifatli qilish mumkin emas deb hisoblaydi. Sora Muzaffariya millatga shunday hitob qilgan edi: “Ey turk xotuni! Halqimiz bizga salomat aql va fikriy bo’lg’on istedod va qobiliyat bergonku! Oni dunyog’a chiqorishni ma’n qilmoqqa kimning haqqi bor? Ma’n qiluvchilar bo’lsa qiyomatda jazolarin ko’rurlar. Dinimiz va payg’ambarimiz bizga ham ilmni farz qildi”[7: - 36-son] deya mahalliy ayollarni ma’rifatli bo’lishga chaqiradi. Muallif o’z maqolasida taraqqiyparvarlardan xotin-qizlar uchun ham usuli jadid maktablarini ochish zarurligini, ana shundagina ular orasidan ham ilg’or fikrli yuksak ma’naviyatli olimalar yetishib chiqishi haqidagi fikrini bildirgan.

Turkistonda shu davrda musulmon ayollari ta’limining haqiqiy ahvolini yana bir tatar ma’rifatparvar ayoli Poshshaxonim Jalilovaning “Sadoyi Turkiston” gazetasidagi maqolasi misolida ko’rish mumkin: “Bizim bu ilm va maorifdan bebahra ahvol golimdan habarsizligimizning birinchi sababi, biz xotun-qizlar uchun birgina bo’lsa ham muntazam maktabning yo’qligi. Bizim bu qizg’onch holimizg’a qayg’urg’uchi, vosiyga oluvchi bir kishi bizlarda yo’qdir. Bizlarning hozirgi holimiz Hindiston sahrosidagi hindilardan, Shimoliy Amriqoda yoshiydurg’on vahshiylardan farqsizdir” [7: -45-son]. Bu fikrlari orqali muallif jamiyatni johillikdan qutqarish uchun ayollarni o’qitish, qizlar uchun usuli jadid maktablarini kengaytirish zarurligini uqtirmoqchi bo’ladi.

Sadoyi Turkiston gazetasida bolalar tarbiyasiga ham katta ahamiyat beriladi. Bu mavzudagi maqolalarning muallifi o’zbek-ozarbayjon tilshunos olimi, ozarbayjon tilini lotin yozuviga o’tkazishda muhim rol o’ynagan ma’rifatparvar Xolid Said edi [6: -4-son] Uning “Jim o‘tur juvonmarg, gapurma haromi!” sarlavhali maqolasi gazetaning 1914 yilgi 6-may sonida bosilgan. Unda bola endi tilga kirgach, atrofida bo‘layotgan voqealarga munosabat bildira boshlab, kattalar davrasidagi gapga qo‘shilsa, uni darhol “Jim o‘tur…!” deya jerkib beriladi. Bu hodisa bir necha bor takrorlangach, bolada jur’atsizlik paydo qiladi: “…Bir so‘z so‘ylaguncha qizarib-bo‘zarib ming bor tupugini yutub, so‘zining tarovatini ketkarur. So‘ngra na muddaosini durustroq suratda ado qila bilur, na so‘zida bir ta’siri qolur. Bizlar shunday odamg‘a odoblik, hayolik odam dermiz! O‘lum munday odobg‘a. O‘lum munday hayog‘a. Qahr o‘lsun munday tarbiyag‘a”. Muallif bolalar tarbiyasiga alohida e’tibor qaratish lozim, deydi. Muallimlarning o‘zlariga bolalar tarbiyasi fani o‘qitilsin, deya taklif kiritadi [7: -8-son]. Umuman olganda muallif bolalar tarbiyasini boshlang’ichning asosi deb hisoblagan. Chunki, bolalar tarbiyasini to’g’ri yo’lga qo’ymasdan erkin va hur fikrlaydigan millatni tarbiyalab bo’lmasdi.

Bokuda chiqadigan “Iqbol” gazetasining ijodiy hodimi Muhammad Said Turkistonga kelgan payti “Sadoyi Turkiston”da maqolalari bilan ishtirok etadi [1:-B.83.]. Bu maqolalarda ozarbayjonlik ziyoli musulmon jamiyatining dolzarb muammosi maktab-madrasa ta’limini isloh qilish zaruriyatini yana bir bor takidlagan.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki tatar, boshqird va ozarbayjon ma’rifatparvarlari “Sadoi Turkiston” gazetasi faoliyatida nafaqat ishtirok etdilar balki, gazetaning ijtimoiy, siyosiy, ilmiy va badiiy

jihatdan saviyasining yuksalishida ham katta rol o’ynadilar. Ular tomonidan gazeta sahifalarida ilgari surilgan ilg’or g’oyalar Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida chuqur iz qoldirdi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Do‘stqorayev B. O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi: darslik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2009.
2. Ziyo Said. O‘zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar (1870-1927). – ToshkentSamarqand: O‘zbekiston davlat nashriyoti, 1927. – 193 b.
3. O‘zbekiston milliy arxivi. T. 461-fond, 1-ro’yxat, 1910 ish.
4. O‘zbekiston Milliy arxivi. T. 17-fond, 1-ro’yxat, 4963-ish.
5. O‘zbekiston Milliy arxivi. T. 132-fond, 3-ro’yxat, 1-ish.
6. Qo‘chqorova M. Xolid Said hayoti va faoliyati: “O‘tgan kunlar” o‘zbek tilida // Sharq yulduzi, 2014, №4.
7. “Sadoi Turkiston” gazetasi, 66 son.

ОСОБЕННОСТИ ОЦЕНКИ ТРАНСПОРТНЫХ СРЕДСТВ

М.Ю.Караев
Центр исследования проблем приватизации и управления государственными активами

Аннотация: рассматриваются теоретические и практические аспекты оценки транспортных средств. Определены ключевые методы, используемые при оценке, включая сравнительный, затратный и доходный подходы. Раскрыта роль оценки в страховании, кредитовании, судебной практике и коммерческих сделках. Особое внимание уделено нормативно-правовой базе и требованиям к отчетам. Представлены современные тенденции в цифровизации и автоматизации процессов оценки. Сделан акцент на необходимости квалифицированного подхода к экспертной оценке для обеспечения достоверности и объективности.

Ключевые слова: оценка, транспортное средство, рыночная стоимость, эксперт, страхование, судебная практика, методика.

Аннотация: транспорт воситаларини баҳолашнинг назарий ва амалий жиҳатлари кўриб чиқилади. Баҳолашда қўлланиладиган асосий усуллар, жумладан, қиёсий, харажат ва даромад ёндашувлари аниқланди. Баҳолашнинг суғурта, кредитлаш, суд амалиёти ва тижорат битимларидаги ўрни очиб берилган. Норматив-ҳуқуқий база ва ҳисоботларга қўйиладиган талабларга алоҳида эътибор қаратилди. Баҳолаш жараёнларини рақамлаштириш ва автоматлаштиришнинг замонавий тенденциялари тақдим этилган. Ишончлилик ва холисликни таъминлаш учун эксперт баҳолашда малакали ёндашув зарурлигига урғу берилган.

Таянч иборалар: баҳолаш, транспорт воситаси, бозор қиймати, эксперт, суғурта, суд амалиёти, методика.

Abstract: theoretical and practical aspects of vehicle valuation are considered. Key methods used in the assessment, including comparative, cost, and income approaches, have been identified. The role of valuation in insurance, lending, judicial practice, and commercial transactions is explained. Special attention was paid to the regulatory framework and reporting requirements. Modern trends in digitalization and automation of assessment processes are presented. Emphasis is placed on the need for a qualified approach to expert evaluation to ensure reliability and objectivity.

Keywords: assessment, vehicle, market value, expert, insurance, judicial practice, methodology.

Оценка транспортных средств основывается на ряде нормативно-правовых актов, регулирующих стандарты и подходы к определению стоимости. Оценкой транспортных средств обычно занимаются профессиональные оценщики, работающие в специализированных оценочных компаниях. Они обязаны действовать в рамках закона, руководствуясь принципами объективности, достоверности и профессиональной этики.

При оценке транспортного средства учитываются многочисленные факторы. В первую очередь — это марка, модель, год выпуска и техническое состояние автомобиля [6]. Также имеет значение пробег, история эксплуатации, наличие или отсутствие аварий, качество проведённого

ремонта, количество владельцев, условия хранения, а также рынок аналогичных автомобилей. Важно понимать, что оценка не является субъективным мнением владельца или покупателя — это экспертное заключение, основанное на анализе рыночных данных, технического осмотра и соответствующих методик. В частности, оценщик может использовать сравнительный подход, при котором стоимость транспортного средства определяется на основании анализа цен на аналогичные автомобили на открытом рынке. Другим методом является затратный подход, где оценивается стоимость транспортного средства с учётом затрат на его приобретение, амортизацию, ремонт и восстановление. Также используется доходный подход, актуальный при оценке специализированного транспорта, например, такси или коммерческого грузового автопарка [3].

Значительную роль в процедуре оценки играют цифровые технологии. Сегодня многие оценочные компании используют автоматизированные платформы, базы данных объявлений, программы расчёта износа и анализа рыночной стоимости. Современные алгоритмы позволяют оценщикам обрабатывать большой объём информации за короткое время, сравнивая десятки и сотни предложений, что повышает точность и скорость оценки. Однако автоматизированная оценка не исключает необходимости выезда специалиста на место, особенно если транспортное средство имеет повреждения, уникальные особенности или используется в нестандартных условиях.

Особое внимание заслуживает оценка автомобилей после ДТП. Это сложный и часто конфликтный процесс, поскольку стороны — страховая компания, владелец и, возможно, виновник аварии — заинтересованы в разных результатах. В подобных случаях крайне важна объективность эксперта. При оценке послеаварийного состояния учитываются характер и степень повреждений, возможность восстановления, стоимость запчастей и ремонта, а также снижение рыночной стоимости вследствие повреждений. В ряде случаев, когда автомобиль не подлежит восстановлению, производится оценка стоимости утилизации или остатков транспортного средства [5]. При этом важно не только техническое заключение, но и знание правовой базы, регулирующей выплату компенсаций и возмещение ущерба.

Ещё одной сферой, где актуальна оценка транспортных средств, является лизинг и кредитование. Банки и финансовые учреждения требуют точной информации о стоимости транспортного средства при выдаче кредита или заключении договора лизинга. Это необходимо для расчёта суммы займа, определения ликвидности залога и возможных рисков. В таком случае оценка помогает защитить как интересы заёмщика, так и кредитора, обеспечивая справедливость сделки и финансовую устойчивость операций.

Не менее важна оценка транспорта в рамках судебных споров, раздела имущества, наследства или банкротства. В этих ситуациях оценка приобретает юридическую силу, так как экспертное заключение может быть использовано в суде в качестве доказательства. В таких случаях от профессионализма и беспристрастности оценщика зависит исход судебного процесса, а также соблюдение прав сторон [4].

Следует отметить, что существуют различия в оценке легковых автомобилей, грузового и специализированного транспорта. Легковые автомобили обычно имеют более доступную рыночную информацию, что упрощает оценку. В случае с грузовиками, строительной техникой или сельскохозяйственными машинами ситуация сложнее: требуется учитывать технические параметры, срок эксплуатации, наличие дополнительного оборудования, специфические условия использования и износ. Кроме того, такие транспортные средства могут иметь ограниченное количество аналогов на рынке, что затрудняет использование сравнительного подхода и требует применения более сложных методик расчёта.

С точки зрения законодательства, отчет об оценке должен соответствовать определённым требованиям: содержать информацию о заказчике и объекте оценки, описание использованных методов, обоснование рыночной стоимости, а также приложения с расчётами, фотографиями и техническими характеристиками. Документ должен быть подписан оценщиком и заверен печатью организации. Нарушение этих требований может привести к признанию отчета недействительным, что особенно критично в случае судебных разбирательств.

Нельзя не отметить роль оценочной деятельности в страховании транспортных средств. Оценка необходима при заключении договоров страхования (особенно по системе КАСКО), а также при наступлении страхового случая. Именно на основе экспертной оценки определяется размер страхового возмещения. Также оценка позволяет предотвратить случаи мошенничества, когда недобросовестные владельцы пытаются завысить стоимость транспортного средства для получения

большей компенсации. Поэтому страховые компании активно сотрудничают с оценочными организациями и тщательно проверяют предоставляемые отчёты.

В последние годы наблюдается тенденция к повышению прозрачности и цифровизации процесса оценки. Разрабатываются единые платформы, где заказчики могут отслеживать этапы работы оценщика, получать уведомления, хранить и скачивать отчёты. Это повышает доверие к оценочному институту и снижает вероятность злоупотреблений. Вместе с тем остаются вызовы: нехватка квалифицированных кадров, необходимость повышения стандартов, развитие методических баз и взаимодействие с государственными структурами. Таким образом, оценка транспортных средств является неотъемлемым элементом экономической и правовой системы. Она обеспечивает объективность при заключении сделок, справедливость при распределении имущественных прав и надёжность при кредитовании и страховании. В условиях рыночной экономики и роста автопарка, значимость этой сферы только возрастает. Важно продолжать развивать институт оценки, совершенствовать методы, повышать квалификацию специалистов и внедрять современные технологии, чтобы обеспечить высокое качество и достоверность экспертных заключений.

Оценка транспортных средств представляет собой важный и многофакторный процесс, который требует высокой квалификации, глубоких знаний в области технической экспертизы, законодательства и рыночных механизмов. От правильности и объективности проведённой оценки зависит справедливость имущественных сделок, корректность страховых выплат, юридическая обоснованность судебных решений и финансовая безопасность кредитных операций [2]. Используемые методы — сравнительный, затратный и доходный подходы — позволяют учесть как объективные технические характеристики автомобиля, так и рыночные тенденции. Современные технологии, автоматизированные системы анализа и цифровые базы данных способствуют повышению точности, скорости и прозрачности оценочных процедур. Вместе с тем, несмотря на цифровизацию и развитие программного обеспечения, человеческий фактор по-прежнему остаётся решающим: квалификация эксперта, его опыт и соблюдение профессиональной этики играют ключевую роль в достоверности отчета. С учётом увеличения количества транспортных средств, ужесточения требований к безопасности и страхованию, а также роста числа судебных споров, связанных с автотранспортом, значение оценки будет только возрастать. В перспективе важно обеспечить системную подготовку специалистов, развитие нормативно-методической базы и внедрение инноваций, чтобы сохранить высокий уровень профессионализма и доверия к оценочной деятельности.

Список литературы

1. Буров В.А. Теория и практика оценки стоимости автотранспорта. — М.: Финансы и статистика, 2020. — 256 с.
2. Савчук М.В. Оценка машин и оборудования: учебник. — 5-е изд. — М.: Юрайт, 2021. — 432 с.
3. Агапов А.А. Методические подходы к определению рыночной стоимости автомобилей // Вопросы оценки. — 2021. — №3. — С. 45–52.
4. Щербаков П.Н. Экспертная оценка транспортных средств в судебной практике // Юридическая наука и практика. — 2020. — №4. — С. 89–94.
5. Федоров С.И. Современные технологии в оценке автотранспорта // Оценка и управление собственностью. — 2022. — №1. — С. 28–34.
6. Федеральные стандарты оценки (ФСО). Утверждены Приказами Минэкономразвития РФ. — [Электронный ресурс]. — Режим доступа: https://www.economy.gov.ru/material/file/fso/ ..

BOSHLANG‘ICH TA’LIM YO‘NALISHIDA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALARNI KOMMUNIKATIV YONDASHUV ASOSIDA O‘QITISH METODIKASI

M.M.Xoliqova
Samarqand davlat pedagogika instituti assistenti
Telefon raqam: +99899773-36-01 xoliqovamatluba5@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarni kommunikativ yondashuv asosida o‘qitish metodikasi yoritilgan. Unda kommunikativ yondashuvning mazmuni, maqsadi, asosiy tamoyillari hamda bosqichlari ochib beriladi. Shuningdek, talabalarni kasbiy-pedagogik tayyorlash jarayonida muloqotga asoslangan darslarni loyihalash, olib borish va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga doir usullar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, kommunikativ yondashuv, interfaol metodlar, talaba kompetensiyasi, muloqot madaniyati, kasbiy tayyorgarlik.

Аннотация. В статье рассматривается методика обучения студентов начальной школы на основе коммуникативного подхода. Раскрываются содержание, цель, основные принципы и этапы коммуникативного подхода. Также рассматриваются методы формирования умений проектирования, проведения и анализа уроков коммуникативного характера в процессе профессионально-педагогической подготовки студентов.

Ключевые слова: начальное образование, коммуникативный подход, интерактивные методы, компетентность учащихся, культура общения, профессиональная подготовка.

Annotation. This article discusses the methodology of teaching students studying in primary education based on a communicative approach. It reveals the content, purpose, basic principles and stages of the communicative approach. It also considers methods for developing skills in designing, conducting and analyzing communication-based lessons in the process of professional and pedagogical training of students.

Key words: primary education, communicative approach, interactive methods, student competence, communication culture, professional training.

KIRISH. Globallashuv va axborot texnologiyalari tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ta’lim sohasida yangicha yondashuvlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’limda kelajak pedagoglarini tayyorlash jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan kommunikativ yondashuv asosida o‘qitish metodikasini joriy etish dolzarb masalalardan biri sanaladi. Hozirgi davrda ta’lim jarayonida insonparvarlik, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, muloqotga asoslangan o‘qitish tamoyillari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun bu yondashuvlar kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorgarlik bosqichida muhim o‘rin tutadi. Zero, kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchining faolligi, erkin fikrlashi, o‘z fikrini ravon ifoda etishi va mustaqil qaror qabul qilishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda qonunlar ustuvorligiga amal qilinadigan demokratik jamiyatni barpo etishga kirishilgan bugungi kunda jamiyatimizning barcha a’zolarini, birinchi navbatda o‘sib kelayotgan yosh avlodni ijtimoiy ruhda tarbiyalash g‘oyat dolzarb masalalardan hisoblanadi. Zero, har bir shaxs birinchidan, jamiyatimizning a’zosi sifatida ijtimoiy hayotimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, yangilanishlarning yaratuvchisi, jamiyat subyekti bo‘lsa, ikkinchidan esa, u mazkur jarayonning qatnashchisidir. Bu jihatdan olganda inson jamiyatning obyektidir. [1].

ASOSIY QISM. Kommunikativ yondashuv bu muloqotga psixologik va lingvistik tayyorgarlikni shakllantirishga, u bilan material va harakat usullarini ongli ravishda tushunishga, shuningdek bayonot samaradorligi talablarini tushunishga qaratilgan muloqotni simulyatsiya qiluvchi strategiya. O‘qitishning ba’zi an’anaviy elementlari bilan birlashtirilgan kommunikativ usul talabalarning til jarayoniga maksimal darajada singib ketishini nazarda tutadi. Ushbu texnikaning asosiy maqsadi talabalarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishdir. Mexanik ko‘paytirish mashqlari minimallashtirilgan. Mashg‘ulotlar nafaqat xotirani, balki mantiqni, analitik va obrazli fikrlash qobiliyatini, ma’lumotni baholash qobiliyatini rivojlantiradigan mashqlar ustunlik qiladi, ya’ni o‘rganish mavzusining kognitiv aqliy funksiyalarini o‘rgatadi. Kommunikativ vazifalar talabaning barcha bilim va ko‘nikmalaridan foydalanishga qaratilgan. [2].

Kommunikativ yondashuv — bu o‘quvchilarda yoki talabada muloqotga kirishish, o‘z fikrini erkin ifodalash, suhbatdoshni tushunish va unga mos munosabat bildirish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metodik yondashuvdir. Ushbu yondashuv 20-asrning ikkinchi yarmida xorijiy tillarni o‘qitishda joriy etilgan bo‘lib, bugungi kunda barcha ta’lim bosqichlarida keng qo‘llanilmoqda.

Zamonaviy ta’lim muhitida aloqa jarayoni, ayniqsa uning kommunikativ tomoni bilan bog‘liq ijtimoiy-psixologik muammolar alohida ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda kommunikativlikning asosiy tamoyillari ko‘plab mamlakatlarning ta’lim tizimiga qat’iy kiritilgan. [3].

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun kommunikativ yondashuv ularning pedagogik faoliyatida kelajakda o‘quvchilar bilan samarali muloqot olib borish, bilimlarni tushunarli yetkazish, bolalarning fikriga quloq tutish va individual yondashuvni amalga oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda fan va texnika rivoji ta’lim va uning natijalariga qo‘yiladigan talablarni tubdan o‘zgartirishni talab etmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, degan fikrlari ham yangi O‘zbekistonimiz yoshlarini erkin fikrlashni tarkib toptirishga qaratilayotgani ham e’tibordan holi emas. [4].

Ta’lim jarayonida kommunikativ yondashuvni qo‘llash zamonaviy pedagogik texnologiyalarning muhim jihatlaridan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarni o‘qitishda bu yondashuvni samarali qo‘llash ularning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda ta’lim tizimini zamonaviy va ijodiy yondashuvlar asosida rivojlantirish ustuvor vazifa hisoblanadi. [5].

Kommunikativ yondashuv asosida olib borilgan mashg‘ulotlarda talabalar o‘z fikrlarini aniq, izchil va erkin ifodalashga, dars mavzularini tahlil qilish va muhokama qilishga, o‘rganganlarini amaliy hayotda qo‘llashga intiladi. Bu esa ularning mustaqil fikrlash, kreativ yondashuv va muloqot madaniyatini shakllantirishga yordam beradi.

XULOSA. XXI asrda ta’lim jarayonida kommunikativ yondashuvning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim tizimida tahsil olayotgan talabalarni kelajakda samarali pedagogik faoliyatga tayyorlashda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish muhim o‘rin tutadi. Ushbu maqolada ko‘rib chiqilganidek, kommunikativ yondashuv – bu o‘qitishning faqatgina bilim berishga emas, balki shaxslararo muloqotni rivojlantirishga, erkin fikrlash va ifoda qilishga, faol tinglash va tushunishga yo‘naltirilgan zamonaviy metodik yondashuvdir. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun bu yondashuv nafaqat o‘zlarining shaxsiy nutqiy faoliyatini rivojlantiradi, balki kelajakda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashda ularni individual va guruhiy muloqotlarga jalb etish, darslarni qiziqarli va mazmunli tashkil etish imkonini beradi. Shu bois, kommunikativ yondashuv asosida o‘qitilayotgan talabalar nafaqat bilim egallaydilar, balki pedagogik nutq madaniyati, psixologik sezgirlik, didaktik yondashuvlarni to‘g‘ri qo‘llash kabi ko‘nikmalarga ham ega bo‘ladilar. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarni dars jarayonida faol bo‘lishga, o‘z fikrini asoslab ifoda etishga, o‘rtoqlari bilan konstruktiv muloqotga kirishishga, muammoli vaziyatlarda mustaqil fikrlashga undaydi. Bu esa ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshiradi va bo‘lajak faoliyatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, ushbu yondashuv asosida yaratilgan dars jarayonlari talabalarda pedagogik refleksiya, darsni tahlil qilish, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, metodik vositalardan to‘g‘ri foydalanish kabi amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Turg‘unboyev K., Tolipov M., Oxunov I “Ijtimoiy pedagogika asoslari” O‘quv qo‘llanma. Toshkent “Fan va texnologiya” 2008. B.4.
2. “Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish tamoyillari”. Kommunikativ tilshunoslik va til kompetensiyalari o‘quv uslubiy majmua. Toshkent 2022. B.50.
3. Axmedov A.Y “Kommunikativ kompetensiya-pedagogikaning asosiy tamoyili sifatida” Qo‘qon DPI. Ilmiy-xabarlar 2025-yil 2-son. B. 16-19.
4. Nomozova R.O., Rizaqulova S.I “Bo‘lajak pedagoglarda kasbiy kompetetentligini shakllantirishning psixologik jihatlari”. Uslubiy qo‘llanma, Samarqand 2025. B.3.
5. Umarova X.I. “Ijodiy pedagogika: ta’lim jarayoniga zamonaviy yondashuv”. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. 2025. B.9.

MUSTAQILLIK DAVRI O‘ZBEK QISSALARIDA AYOL OBRAZI ORQALI GENDER TENGLIGI MASALASINING BADIIY TALQINI

Y.N.Maqsudaliyeva
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti magistranti E-pchta: yodgorxonmaqsudaliyeva@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada mustaqillik yillarida yaratilgan o‘zbek qissalarida ayol obrazining badiiy talqini va bu obraz orqali gender tengligi masalasining qanday yoritilganligi tahlil etiladi. Asosiy e’tibor o‘zbek nasrida ayolning ijtimoiy, madaniy va ruhiy dunyosini ochib beruvchi obrazlar, ularning o‘zgarishi hamda erkak va ayol o‘rtasidagi ijtimoiy rollar dinamikasiga qaratilgan. Mustaqillik davrida yozilgan adabiy asarlar orqali gender tengligi, ayollarning faolligi, shaxsiy tanlov huquqi va jamiyatdagi o‘rnining badiiy aks ettirilishiga alohida urg‘u beriladi. Tahlil qilingan asarlar asosida gender yondashuvning o‘zbek adabiyotidagi o‘ziga xos jihatlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: mustaqillik davri, o‘zbek qissalari, gender tengligi, ayol obrazi, badiiy talqin, ijtimoiy rol, adabiy tahlil, zamonaviy nasr, ayollarning faolligi, adabiyot va jamiyat

Ming yillar davomida gender munosabatlar doimo badiiy qissa va asarlarda bosh mavzu sifatida qo‘llanib kelingan. Barchamizga ma’lumki, gender munosabatlar juda keng qamrovli hisoblanib, u ikki tomon kelishuvi yoki ikki tomon bardavomligi bilan o‘z javobini olgan. Insonlar yashaydiki, ular bir-birlari bilan munosabat o‘rnatib kelmoqdalar. Munosabat nafaqat ikki kishida, balki butun bir dunyo miqyosida amalga oshuvchi jarayon hisoblanadi. Ammo, ba’zilar buni faqatgina sevgi muhabbatga qiyoslaydilar yoki romantik holatlarda, bu umumman notog‘ri fikrlardan biri ekanligini barcha-barchaga isbotlash zarur. Bizning vazifamiz gender munosabatlarni har tomonlama, keng miqyosda, qadam va qadam xalq ongiga yetkazib berishdir.

Mustaqillik davrlari deb biz XX asrning so‘ngi jarayonlarni nazarda tutmaysiz, mustaqillik davri o‘shanda ham, hozirham va albatta keyin ham davom etadi. Bizning millatimiz qachon mustaqillikga erishgan bo‘lsa, ana o‘sha yillardan buyon xalq ijodi erkinlikga o‘tgan, shuni unutmasligimiz lozimki, badiiy adabiyotlarimizning eng ko‘p va eng yetuk namoyondalari mustaqillik davrlaridan oldin bor edilar, hozirgacha ularning yozgan asarlari , qissalari va g‘azallaridan ilhomlanamiz. [1.2010: B.6] Bizga ma’lum va mashhur g‘azallar ham aslida ayollarni madh etish uchun bitilgan. Islom dinida, uning ma’rifatida ayol shunchalar muqaddas zotki, uning muqaddas ekanligini tushunib yetish barchaga ham nasib etmaydi. O‘zbek xalqining buyuk shoiri va mutaffakiri - Alisher Navoiy o‘z g‘azallarida ayollarni madh etish bo‘yicha eng oliy o‘rindalar. [2.1983: B.45] Uning “Kecha kelgumdur debon” g‘azali ham xalq orasida ma’lum va mashhur.

Kecha kelgumdur debon, ul sarvi gulro‘ kelmadi,
Ko‘zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi.
Lahza–lahza chiqtim-u chektim yo‘lida intizor,
Keldi jon o‘g‘zimg‘a-yu ul sho‘xi badxo‘ kelmadi.
Orazidek oydin erkonda gar etti ehtiyot,
Ro‘zg‘orimdek ham o‘lg‘onda qorong‘u kelmadi.
Ul parvarash hajridinkim yig‘ladim devonavor,
Kimsa bormukim, anga ko‘rganda kulgu kelmadi.
Ko‘zlaringdin necha suv kelgay, deb o‘lturmang meni,
Kim bori qon erdi kelgan, bu kecha suv kelmadi.
Tolibi sodiq topilmas, yo‘qsa kim qo‘yida qadam,
Yo‘lgakim, avval qadam ma’shuqa o‘tru qilmadi.
Ey Navoiy, boda birla xurram et ko‘nglung uyin,
Ne uchunkim, boda kelgan uyga qayg‘u kelmadi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalarda tub o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bu jarayonlar adabiyotda ham o‘z ifodasini topdi, ayniqsa, gender masalalari, ayolning jamiyatdagi o‘rni, uning shaxs sifatida qaror topishi va erkaklar bilan teng huquqli munosabatlarda bo‘lishi kabi mavzular qissachilikda faol yoritila boshlandi. [3.2006: B.25] Mustaqillik davrida yozilgan qissalarda ayol obrazi ko‘proq faollashgan, o‘z haq-huquqlarini anglay oladigan, mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida gavdalantiriladi. Misol tariqasida O‘zbekistonda tanilgan adiblar — Xurshid Dostmuhammad, Sayyora Tojiboyeva, Tohir Malik, Ortiq Hojimatov kabi yozuvchilarning ayrim qissalarini tahlil qilish orqali bu

fikrlar asoslanadi. Masalan, Sayyora Tojiboyevaning qissalarida ayollar ko‘proq ichki olami, tuyg‘ulari, qaror qabul qilishdagi qat’iyati bilan ajralib turadi. Ayol endilikda faqat mehribon ona yoki sadoqatli xotin emas, balki o‘z orzu-maqsadlari, ichki erkinligi bor inson sifatida tasvirlanadi. [5.2020: B.10] Bu esa gender tengligi masalasining badiiy ifodasi sifatida ko‘rish mumkin. Shuningdek, mustaqillik davri adabiyotida erkak va ayol o‘rtasidagi munosabatlarda tenglikka intilish, patriarchal qadriyatlarning tanqidiy ko‘rinishi ham mavjud. Tohir Malikning ayrim asarlarida erkaklar o‘z pozitsiyalarini yangicha qarashlar bilan baholashga majbur bo‘lishadi, chunki ayolning o‘zini anglash darajasi ortgan. Gender tengligi masalasi faqat ayollarni yuksaltirish emas, balki jamiyatdagi ikki jins o‘rtasidagi muvozanatni ta'minlash orqali ijtimoiy barqarorlikka erishishni ham nazarda tutadi. Mustaqillik davri qissalarida bu holat badiiy obrazlar, ichki dialoglar, konfliktlar orqali ifodalanadi. Erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tenglik g‘oyasi ko‘pincha hayotiy voqealar fonida namoyon bo‘ladi — bu esa asarlarning realizmga yaqinligini ko‘rsatadi. Gender yondashuv nuqtayi nazaridan qaraganda, bunday adabiy asarlar orqali o‘zbek jamiyatidagi qadriyatlar tizimi, ijtimoiy stereotiplar va ular bilan bog‘liq muammolar badiiy talqinda tahlil qilinadi. Shu jihatdan, mustaqillik davri qissalari faqat adabiy ahamiyatga emas, balki ijtimoiy-huquqiy ahamiyatga ham ega bo‘lib boradi. Ayniqsa, qissalarda ayollarning ma’rifatga, ta’limga, iqtisodiy mustaqillikka intilishi orqali gender tengligining amaliy jihatlari ko‘rsatiladi. [6.2020: B.8] Bunday obrazlar yosh avlod uchun nafaqat estetik, balki tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, Shoyim Bo‘tayev qissalari orasida qahramon xarakterini yaratishda milliy ruhga, muallif obrazining sokin hamda ulug‘vor ovoziga ega bo‘lgan asarlari ham mavjud. Ana shunday qissalari qatoriga yozuvchining “Kunbotardagi bog‘” nomli qissasini kiritish mumkin. Sababi mazkur qissada shunday xarakter va obrazlar borki, ular go‘yo xalq bilan birga yashagan, ularning o‘y-hayollari, orzu-umidlari, ezgu maqsadlari bizga tanish, shu jihati bilan bizga yaqin. “Kunbotardagi bog‘” qissasida yozuvchi Qaynarbuloq bag‘ridagi Yakkatepa qishlog‘i odamlari hayotini qalamga olgan. Soddalik, samimiyat, urf-odatlar va an’analarga sodiqlik, insonparvarlik, g‘amxo‘rlik kabi xususiyatlar ularga xos. Ulg‘ay ena bilan Ruqiya bibining hayot tarzi, xatti-harakatlari, o‘y-kechinmalari ana shu muqaddas ezguliklar ruhiga evrilgan. Ruqiya kelinbibi sal narsaga duv-duv yosh to‘kaveradigan ko‘ngli bo‘sh ayol bo‘lsa, Ulg‘ay ena ne-ne hayot sinovlariga dosh berib, so‘ng qoyaga aylangan, bardoshli, mehrli inson. Ruqiya kelinbibiga Ulg‘ay ena uch-to‘rt hovli naridagi qo‘shni. Ammo ularni, Ruqiya bibining o‘g‘illari Elyor bilan Ilyosni mehr-muhabbat, oqibat rishtalari bog‘lab turadi. Ruqiyaning goh o‘zi, goh o‘g‘illari kampirning issiq-sovug‘idan xabar olib turishadi. Kampir esa yolg‘izgina o‘g‘li - shaharda rassomlikka o‘qiyotgan To‘xtasinini kutib yashaydi, eshikka termulib, uning qishloqqa, ona bag‘riga qaytishini intizorlik bilan kutadi. Ota-bobolaridan qolgan yolg‘iz yodgorlik - ana shu bog‘ni qo‘shqo‘llab yolg‘iziga tutqazsa, o‘g‘lining bolalari bog‘da yayrab o‘ssa, uni obod qilishsa... kampirning yagona orzusi shu. Asarda Ruqiya bibining toshbag‘ir eri Safarov, Ulg‘ay enaning tezroq o‘lib, bog‘ini o‘ziniki qilib olish xayolidagi Nu’mon qirtish, to‘g‘riso‘z, imonli Gulmurod bilan Akrom , Ahmad brigadir, manfaat yo‘lida har qanday ezgulik va halollikni bosib-yanchib o‘tadigan rais, Nosir cho‘tir, Hayit malla singari xilma-xil qiyofadagi insonlar obrazlari yaratilgan. Ular bir butun qishloq hayotini, shu zaminning dard-u quvonchlarini aks ettirishga xizmat qilganlar. “Nu’monjon, uzumlardan olib ketaver, o‘riklarni qoqib-terib ol. Manga indama. Bu bog‘da ko‘p yaxshi odamlarni ko‘rganman. Sharofat acha, Karim bobo, Xotam bobo, Kumush momo... Har biri bir olam edi, dunyoday keng edi. Endi ular tuproqni tabarruk qilib yotishibdi. Boqqa kelganimda esa ular tirilishadi, ko‘z oldimda paydo bo‘lishadi, men bilan suhbatlashib, dilimga madad berishadi...” - deya Ulg‘ay ena necha marta aytdi. Nu’mon qirtish esa yuragini parmalayotgan narsadan qutulmadi, xayolida shu o‘y:

“O‘zimga bo‘lsin, o‘zimga! Bog‘da o‘zimning uyim bo‘lsa, devor ursam. Kimning bog‘i deb so‘rashganda, Nu’monniki, deyishsa…”

Asarda ko‘zga tashlanadigan yana bir jihat, o‘zbek xotin-qizlarining timsoli o‘ta tabiiy yaratilgan. Jumladan, Ruqiya kelibibi haqida muallif shunday tasvirlaydi: “katta-katta, mayin ko‘z”li, “sal narsaga duv-duv yosh to‘kaveradigan ko‘ngli bo‘sh ayol, qarindoshmi, yettiyot begonami - odam nasli azasida ko‘ziga tupuk surtib o‘tirmas, kuyunganicha aytib-aytib yig‘layverar edi”.

Yuqoridagi asardan keltirilgan parchada yana ayollar duch keluvadigan muammo haqida gap ketgan, aslida o‘zbek ayollari har neki bo‘lsa hammasiga chidaydi deya uning boshiga tinmay kulfat yog‘dirib turuvchi erkakalar ham topiladi. Mana shu asarda esa ayol kishi qanchalik chidamli ekanligi aks etilgan. Unig eri uning mulkida bo‘lgan bog‘ning o‘ziniki qilish niyatida bo‘sa, niyati yomon, u bog‘ uniki bo‘ldi ham deylik, bu qora qalbi bilan bir ayolni baxtli eta olmagan erkak butun boshli bog‘ni ko‘kalamzorlashtirarmidi?... yo‘q. [4.1997: B.48]

Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, qissalarda ayol obrazi orqali gender tengligi masalasining yoritilishi, bir tomondan, ayollarning jamiyatdagi real holatini ifodalasa, boshqa tomondan, ularning imkoniyatlarini kengaytirish, erkaklar bilan teng asosda ijtimoiy faoliyat yuritish zaruratini ilgari suradi. Adiblar asarlarida nafaqat ayol, balki erkak obrazlari ham yangicha talqinda, gender tengligi kontekstida qayta ochiladi. Shunday qilib, mustaqillik davrida yaratilgan qissalar o‘zbek adabiyotida gender tengligining badiiy ifodasini shakllantirish, ijtimoiy ongda bu masalaga nisbatan yangicha qarashlarni targ‘ib etish va ijtimoiy muvozanatga erishishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa adabiyotning nafaqat estetik, balki ijtimoiy-ma’naviy tarbiya vositasi sifatidagi o‘rnini yanada mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. Darslik. -T., “Yangi nashr”, 2010.
2. Umurov H. Badiiy psixologizm va hozirgi o‘zbek romanchiligi. - T.: Fan, 1983.
3. Rustamova M. Istiqlol davri o‘zbek qissalarining taraqqiyot tendensiyalari. - Toshkent: Fan, 2006.
4. Bo‘tayev Sh. Kunbotardagi bog‘. T:, G‘.G‘ulom nomidagi san’at va adabiyot nashriyoti, 1997.
5. Qaxxarova, M., & Absattorov, B. M. (2020). Evolution of views on ethics, ethical criteria and ethical standards. The Light of Islam, 2020(1), 110-115.
6. Qaxxarova, M., & Raximshikova, M. (2020). MORAL CONTINUITY IS A SOCIAL-PHILOSOPHICAL, HISTORICAL PHENOMENON. The Light of Islam, 2020(3), 103-112.
7. Nurmatova, I. (2019). A Student-Centered Approach is a Key Area of Teacher Training in the Context of Globalization and Integration of Education. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 15(1), 09-13.
8. Nurmatova, I., Amirqulova, O., & Qayumov, E. (2021). INNOVATION IN EDUCATION
9. Nurmatova, I., Nabieva, H., & Sirojiddionova, M. (2020). Challenges of child personality in a defective family. In Наука сегодня: теоретические и практические аспекты (pp. 39-40).

TILSHUNOSLIKDA AFORIZMLARNING SINTAKTIK TASNIFI

N.B.Samiyeva
A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada aforizmlarning mohiyati, sintaktik-struktur hamda semantik tasnifi o‘zbek va jahon tilshunoslari nuqta’i nazaridan kelib chiqib, tilshunos olimlarning aforizmlar haqidagi qarashlari atroflicha tahlil qilingan.

Annotation: This article provides a comprehensive analysis of the essence of aphorisms, their syntactic-structural and semantic classification from the perspective of Uzbek and world linguists, as well as the views of linguistic scholars on aphorisms.

Аннотация: В данной статье подробно анализируется суть афоризмов, их синтаксико-структурная и семантическая классификация с точки зрения узбекских и мировых лингвистов, а также взгляды лингвистов на афоризмы.

Kalit so‘zlar: sintaktik-semantik tasnif, kognitiv bog‘lanish, defenitsion, atributiv, imperative va futuritiv modellar, falsafiy, diniy, axloqiy, maishiy, siyosiy va estetik aforizmlar.

Keywords: syntactic-semantic classification, cognitive connection, definitional, attributive, imperative and futuritive models, philosophical, religious, ethical, everyday, political and aesthetic aphorisms.

Ключевые слова: синтактическо-семантическая классификация, когнитивная связь, дефиниционный, атрибутивный, императивный и футуритивный модели, философские, религиозные, моральные, бытовые, политические и эстетические афоризмы.

Aforizmlar dunyo haqidagi ma’lum bir fikrlash tizimini o‘zida mujassamlashtiradi. Z.K.Taralanovning fikricha “Aforizmlarni janr xususiyatlarini aniqlashda mazmun rejasi mezonlaridan tashqari og‘zaki nutq madaniyating o‘tkir shakli sifatida aforizmlarning formal lingvistik, kompazitsion, sintaktik va funksional jihatlariga murojat qilish kerak” [З.Тарланов.1993:222-с] degan qarash mutlaqo to‘g‘ridir. Axir har bir “dono fikr” aforizm emas, boshqacha qilib aytganda “dono fikr” mazmuni va shakli uyg‘un birlikni tashkil qilsa aforizmga aylanish imkoniyati ko‘p bo‘ladi [Н.Дьячков.2001: 225-с].

Aforizmlar tuzilishining ichki va tashqi qonuniyatlar rus tilshunosi M.N.Elenevskayaning “Aforizmning tuzilishi va funksiyalari” nomzodlik dissertatsiyasida to‘liqroq ochib berilgan.Tadqiqot ishida aforizmda sodir bo‘ladigan semantik jarayonlar, xususan, aforizmlarning informatsion qobilyatini ifodalovchi “kombinator-semantik mexanizmlar” o‘rganilgan. Aforizmlarning informatsion qobilyati muallifning fikriga ko‘ra har turdagi ma’lumotlarni murakkabligi va o‘zaro ta’siri (semantik, sintaktik, pragmatik, affektiv)natijasida hosil bo‘ladi. M.Elenevskaya shunday ta’kidlaydi: “Aforizmdagi obrazlilik va axborot mazmuning manbai presuppozitsiyaning turli xil buzilishlaridir. (presuppozitsiyaning buzilishi so‘zni boshqa leksik-semantik kategoriyaga o‘tkazib, qo‘shimcha ma’lumotni paydo bo‘lishiga olib keladi) Aforistik gapning tarkibiy qismlari orasidagi paydo bo‘ladigan bog‘lanishlar hajmni oshirmasdan uning ma’lumotliligini oshiradi” [М.Еленевска. 1983: 3-с].

M.N.Elenevskaya aforizm komponentlarini qarama-qarshi qo‘yish usuli bilan izohlaydi. “Aforistik gaplarda qiyoslangan va qarama-qarshi qo‘yilgan tushunchalar qarama-qarshilik a’zosi vazifasini bajaradi, ularni bildiruvchi so‘zlar ma’lum bir semantika va sintaktik o‘rni bilan tavsiflanadi. Shunday qilib, so‘z belgilari (leksik-semantik variantlar) alohida holda emas, balki yuqori darajadagi belgilar (bayonnomalar) doirasida ko‘rib chiqiladi. Aforizm tarkibiga kiradigan so‘zlarni solishtirish asosi, tarkibiy qism tarkibiga kiruvchi so‘zdir. aforistik bayon va bir xil sintaktik maqomga ega [М.Еленевска. 1983: 10-с].

Ikkilik tipdagi aforizmlar odatda ikki qismdan iborat: aniq fikr va yakuniy xulosa. Bu xulosa N.T.Fedorenko va L.I.Sokolskayaning rus aforizmlarining kompozitsion xususiyatlari haqidagi fikrlari bilan mos keladi. Bu mushohadalar maqollar fonida aforizmlarning sintaktik xususiyatlarining tavsifini ifodalashiga qaramay, tadqiqot natijalariga ma’lum cheklovlarni keltirib chiqarishi bilan juda qimmatlidir. Masalan, tilshunos olim Z.Tarlanov “aforizmlar o‘z tarkibiy qismlarining dispozitsiyasida (tartiblanishida) mutlaqo erkindir, ular sintaksisning ritmik tashkil etilishini, eyfoniyasini, she’riy tartibini bilmaydi”, deb ta’kidlaydi. Boshqa tomondan, u aforizmning ushbu komponentlarini joylashtirishning “aforistik tarkibni aktuallashtirishdagi roli bilan bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xos naqshlarga ega” ekanligini tan olishga majbur bo‘ldi [З.Тарланов.1999: 369-с]. Masalan, kesim yasalishi bilan ifodalangan gap a’zolari gapni o‘zgarmas holda tugallab tursa, ergash gaplar bilan ifodalangan gap a’zolari uni boshlaydi. I.Martyanov esa boshqacha yondashgan bo‘lib, Shaklning aniqligi (tartibli ritm, qofiya, alliteratsiya) birinchi navbatda aforizmga, keyin maqolga [Мартьянов И. 1983: 18-с] xos deb hisoblagan.

Aforizmlarni tadqiq qilishda, aforizmlar turlari orasidagi kognitiv bog‘lanishlarni o‘rganib chiqish jarayonida, aforizm yaratuvchilari bilim natijalaridan foydalangan holda shuni aniqladikki, o‘z nutqlarini obrazli, ifodali, qisqa, aniq va ishontiruvchi qilish uchun struktur-semantik modellarni qo‘llaganligi ma’lum bo‘ldi.

Aforizmlarni struktur tashkil etish borasidagi dastlabki tadqiqot asari S.F.Gavrining “Hozirgi zamon rus tilining fraziologiyasi – aks ettirish nazaryasi jihatidan” nomli asari hisoblanadi. Bu asarda paremeologik birlik hisoblangan maqollar defenitsion, atributiv, imperative va futuritiv modellar yordamida tahlil qilingan. Bu modellarni chuqurroq anglash uchun asil mohiyati bilan tanishish zarur. ***Definitsion model*** - ikki semantik komponentning o‘zaro tengligidan hosil bo‘ladi. *Aqilsiz bilimgina - musibat.* ***Atributiv model*** - ikki semantik komponentlar o‘rtasidagi belgilangan munosabatlarga asoslanadi. *Qarz qarz bilan so‘zlanur.* ***Imperativ model*** - maslahat beruvchi ifodalardan iborat. *O‘quvdan o‘lguncha yashang.* ***Futurativ model*** - bashoratli ifodalardir. *Til Kiyev olib boradi* [Гаврин, С. 1974: 220-с].

Olimning frazeologiya va aforizmlarga chuqur qarashi bizning davrimizda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Biz uning aforizm sintaksisini har tomonlama tavsiflash kerakligi haqidagi fikriga qo‘shamiz. S.G.Gavrin tomonidan taklif qilingan aforizmlarning tasnifi ularning kompozitsion va sintaktik tashkil etilishini sharhlash vazifamizni hal qilish uchun maqbuldir.

Aforizmlar – qisqa, londa mazmunan chuqur va umumlashma fikr bildiruvchi birikmadir. Ular odatda o‘quvchiga pand-nasihat berish, ichki kechinmalariga ta’sir etish maqsadida yaratiladi. Aforizmlar sintaktik jihatdan turli tuzilishda bo‘lishi mumkin – oddiy, murakkab. Har bir shakldagi aforizmlar o‘ziga xos uslubiy va ta’sirchanlik kuchiga ega bo‘lib, bu ularning didaktik, estetik va adabiy ahamiyati oshiradi. Aforizmlarning sintaktik tasnifi quyidagicha:

- Oddiy gap shaklidagi aforizmlar;
- Murakkab gap shaklidagi aforizmlar;
- Buyruq gap shaklidagi aforizmlar;
- So‘roq gap shaklidagi aforizmlar;
- Ellipsli (tushirib qoldirilgan) gap shaklidagi aforizmlar;

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Дьячков Н. А. Полипропозитивны структур в сфер простого предложения. - Екатеринбург, 2001. - 225 с.

2. Еленевска М. Н. Структур и функци афоризм (н материале английског языка): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Л., 1983. - 3 с.

3. Гаврин, С.Г. Фразеология современного русского языка : в аспекте теории отражения [Текст] / С.Г. Гаврин. - Пермь, 1974. — 220-240 с.

4. Мартьянов И. А. Функционировани местоименно-соотносительных отождествительны предложений: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Л., 1983.-18 с.

5. Тарланов З. К. Язык. Этнос. Время. - Петрозаводск: Изд-в Петрозаводск, ун-та, 1993.-222 с

6. Тарлано З.К. Русски пословицы. Синтакси и поэтика. - Петрозаводск: Изд-в Петрозаводск, ун-та, 1999. -369 с.

O‘ZBEK SHE’RIYATIDA TAXMISCHILIK AN’ANASI

S.S.Fayzullayeva
Shahrisabz davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi 1-kurs tayanch doktoranti
email: fayzullayevasevara91@gmail.com tel: +998971151404

Annotatsiya. Ushbu maqola o‘zbek she’riyatida taxmischilik an’anasi mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, o‘zbek mumtoz adabiyotida taxmis janrining paydo bo‘lishi, rivojlanish bosqichlari hamda uning badiiy-estetik xususiyatlari to‘g‘risida atroflicha fikrlar tahlil qilinadi. Maqolada taxmis janriningning nazariy asoslari, uning badiiy-ijod jarayondagi o‘rni, taxmis janrining o‘zbek mumtoz adabiyotidagi genezisi, tarixiy shakllanishi va badiiy takomili, zamonaviy she’riyatda shoirlar ijodida taxmis janrining an’ana sifatida davom etib kelayotganligi xususida so‘z yuritiladi. Shuningdek, bugungi kunga qadar she’riyatda g‘azallariga eng ko‘p taxmis bog‘lanayotgan shoir sifatida hazrat Navoiy ijodi va bugungi kun shoirlari ijod namunlari mushtarakligi adabiy vorislik haqida fikrlar bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: muxammas, musammat, taxmis, g‘azal , arab adabiyoti, fors adabiyoti

Аннотация. Статья посвящена теме традиции тахмисов в узбекской поэзии, всесторонне анализируется возникновение жанры тахмисов узбекской классической литературе, этапы его развития, художественно-эстетические особенности. В статье рассматриваются теоретические основы жанра тахмизма, его роль в художественно-творческом процессе, генезис, историческое становление и художественное развитие жанра тахмизма в узбекской классической литературе, продолжение жанры тахмисов как традиции в творчестве поэтов современной поэзии. Также излагаются идеи о литературной преемственности творчества Хазрата Навои, газели которого чаще всего связываются с тахмизмом в поэзии, и общности творческих образцов современных поэтов.

Ключевые слова: мухаммас, мусаммат, тахмис, газель, арабская литература, персидская литература

Abstract. This article is devoted to the topic of the tradition of takhmis in Uzbek poetry, and comprehensively analyzes the emergence of the takhmis genre in Uzbek classical literature, its stages of development, and its artistic and aesthetic characteristics. The article discusses the theoretical foundations of the takhmis genre, its role in the artistic and creative process, the genesis, historical formation, and artistic development of the takhis genre in Uzbek classical literature, and the continuation of the takhmis genre as a tradition in the work of poets in modern poetry. It also presents ideas about the literary succession of the work of Hazrat Navoi, who is the poet whose ghazals are most often associated with takhmis in poetry, and the commonality of the creative samples of today's poets.

Keywords: muhammas, musammat, takhmis, ghazal, Arabic literature, Persian literature.

KIRISH O‘zbek mumtoz adabiyoti rang-barang janrlarga boyligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bu janrlar asrlar davomida shakllanib, sayqallanib bugungi kunga qadar ijodiy an’ana sifatida davom etib kelmoqda. O‘zbek she’riyatida muxammas janri tarkibiga kiruvchi taxmischilik an’anasi alohida e’tiborga loyiq bo‘lib, bu an’ana nafaqat badiiy ijod mahsuli, balki ikki shoirning adabiy tafakkuri bir nuqtada birlashib bir-birini to‘ldirib, bir butun holda yuzaga kelgan muloqot mahsuli sifatida qaraladi.

Mustaqil muxammaslardan farqli ravishda taxmis g‘azalni beshlantirish asosida yaratiladi. Taxmisda shoir o‘zga shoirning g‘azal baytlariga yoki o‘z g‘azaliga poetik javob sifatida uch satr bog‘laydi. O‘zbek she’riyatida taxmis janrining yuzaga kelishi, rivojlanishi, janr sifatida asrlar osha o‘z badiiy qimmatini yo’qotmay kelishiga sabab bo‘lgan omillar haqida atroflicha to‘xtalinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Jahon adabiyotshunosligi ilmida taxmis janri ilk bor arab adabiyotida paydo bo'lgan degan qarashlar mavjud bo‘lib, musulmon xalqlari islom dinini qabul qilganlaridan so'ng, arab adabiyoti, arab tili, arab sintaksisi va leksikasidan juda ko'p foydalanganlar. Ayniqsa, fors va turk tillari uchun arab adabiyoti va tilining ta'siri juda katta bo'lgan deb aytish mumkin. Chunki bu xalqlarning klassik adabiyotiga nazar tashlasak, islom dinining ta'siri va arab tilining yaqqol ta'siri aniq ko'rinadi. Ko'plab arab janrlari qatorida taxmis janri ham arab yozuvchilari ijodi bilan boshlangan degan qarashlar mavjud. Mumtoz arab adabiyotshunosligida birinchi taxmis yozuvchilardan birinchisi ash-Shukratisiy (vaf. 466/1073) bo‘lib, ikkinchisi Usama b. Munkiz (vaf. 584/1188)dir.
Taxmis yozgan ba’zi arab shoirlari quyidagilardir: Baha Zuheyr (vaf. 656/1258), Ahmad b. Abdulloh al-Barriy (vaf. 1069/1656), Muhammad b. Ahmad al-Masmudiy, al-Busiriy (vaf. 695/1296?), Ibn Abi’l-Hisal (vaf. 540/1146), Amin al-Jundiy (vaf. 1257/1841) va Abdulloh b. Umar al-Ansoriy (vaf. 677/1276).

Fors adabiyotida taxmis janri garchi g‘azal, qasida va masnaviylar kabi rivojlanmagan bo‘lsa-da, o‘zining muhim o‘rniga ega janrdir. Fors klassik adabiyotidagi manbalarga ko‘ra, birinchi taxmislar mashhur fors shoiri Sa’diy Sheroziyning she’rlariga asoslangan holda yaratilgan. Uning g‘azallari asosan taxmis qilingan bo‘lib, bu taxmislar ichida eng mashhurlari Xalilulloh Xaliliyga tegishlidir. Xaliliydan tashqari, Shayiq Jamol ham afg‘on shoirlaridan bo‘lib, u ham zamondoshi Xaliliy kabi Sheroziy g‘azallariga taxmis yozgan. Sa’diy Sheroziydan tashqari tashqari, Hofiz Sheroziyning ham g‘azallariga taxmislar bog‘langan bo‘lib, fors shoirlaridan Shoh Ismoil va Shayx Bahoiy Hofizning g‘azallarini taxmis bog‘laganlar.

O‘zbek mumtoz adabiyotshunosligida muxammas janri haqidagi ilk ma’lumot Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a”(1436-1437)asarida uchraydi. Muallif muxammasni musammatning beshta turidan biri sifatida sanab o‘tadi va unga quyidagicha ta’rif beradi. “Musammati muxammas besh misra bo‘lur to‘rt misraning oxirinda sa’b qilib beshinchi misrada asl qofiyag‘a ruju qilurlar”.
Muxammas yaratilish xususiyatiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi:

1) Ta’bi xud- mustaqil muxammas.
2) Taxmis - g‘azalni beshlantirish asosida yaratilgan muxammas.

O‘zbek mumtoz adabiyotida taxmis janri ham boshqa mumtoz she’r janrlari kabi uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichini bosib o‘tdi. Bu janr muxammas janri tarkibidan ajralib chiqqanligi uchun mustaqil muxammaslardan farqli ravishda g‘azalni beshlantirish orqali yuzaga keladi. Taxmis istilohining tub mazmun mohiyati haqida adabiyotshunos olima Dilnavoz Yusupova quyidagi fikrlarni bayon etadi: taxmis g‘azalni beshlantirish orqali yuzaga kelgan muxammas turidir. “Taxmisda muallif o‘zga shoir yoki ba’zida (juda kam hollarda) o‘z g‘azalini zamin qilib olib, shu mavzuni davom ettirgan holda vazn, qofiya va radifni saqlab qolib beshlik yaratadi. Bunda asos qilib olingan g‘azaldagi har baytning yuqori qismiga uch misra qo‘shiladi. Maqta bandda taxmis bog‘layotgan shoirning taxallusi ham keltiriladi”.

Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” tazkirasida “Mavlono Muhammad Tabodgoniy (804(1401-1402)-891/1482-83) arab shoiri Ka’ba Ibni Zuhayrning(VIIasr)asari “Qasaidayi Burda”ni muxammas qilibdur deb yozsa yana boshqa bir o‘rinda, Shayx Kamoli Turbatiy — ko‘p diqqatlik, ta’blik kishi erdi. Xoja Hofiz g‘azallaridin ko‘p muxammas qilibdur. Xurosonning muttaayyin, rangin zurafosidin erdi, Xoja Xofiz g‘azallaridan ko‘p muxammas qilibdur deb yozadi”.

Fors-tojik, arab she’riyatidan farqli ravishda o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida hazrat Alisher Navoiy o‘zga shoir g‘azallariga muxammas bog‘lash an’anasini boshlab bergan bo‘lsa, o‘z g‘azallariga muxammas bog‘lash yangi an’anasiga asos soldi. Hamid Sulaymonov tomonidan ilk bora kiril alifbosida nashrga tayyorlangan “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotida jami 10ta muxammas mavjud bo‘lib ularning barchasi taxmis ya’ni g‘azalni beshlantirish asosida yaratilgan. Kulliyotdagi 3ta muxammas Lutfiy g‘azallari asosida taxmis bog‘langan bo‘lsa, qolgan 7tasi o‘z g‘azallari asosida yaratilgan degan ma’lumot keltirilgan. Keyinchalik navoiyshunoslikda olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra professor Hamid Sulaymonov “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi devonlar tarkibiga kirmay qolgan bir necha janr namunalari to‘g‘risida to‘xtalib, xususan Husayn Boyqaro - Husayniy qalamiga mansub deb nashr etilgan yetti bandli taxmisning Navoiy qalamiga mansub ekanligini aniqlab fanga ma’lum etadi (“O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati”,9-fevral, 1990-yil). Bundan so‘ng adabiyotshunos, navoiyshunos olim Abdurasul Abdug‘afurov navoiyshunoslikda Navoiyning “O‘n birinchi taxmis” nomli maqolasini e’lon qildi. Bu taxmis aslida

“Husayniyning Navoiy g‘azaliga muxammasi” sarlavhasida Husayniy devonidan o‘rin olgan bo‘lsada, taxmis Navoiy qalamiga mansub bo‘lib, taxmis Husayniy g‘azaliga bog‘langan edi. Olim o‘zining “Buyuk beshlik saboqlari” sarlavhali kitobining “O‘n birinchi taxmis” nomli maqolasida taxmis tarixi, devonlar ko‘chirilayotganda kotiblar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xato kamchiliklarni atroflicha izohlab o‘z fikrlarini bayon etadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Alisher Navoiy she’riyatiga muhabbat va cheksiz hurmat va e’tibor uning g‘azallariga ko‘plab taxmislar bog‘lanishiga sabab bo‘ldi. Natijada shoir hayotlik davridan boshlab uning g‘azallariga taxmislar bog‘landi. Husayn Boyqaro va uning o‘g‘li Shohg‘arib Mirzolar tomonidan yozilgan taxmislar ham shular jumlasidandir. Husayniy devonidagi “Javru zulming, vah, yana jonimg‘a gardun qildilo”, va “La’li jonbaxshindin ayru obi hayvonni netay” deb boshlanuvchi ikkita taxmis Navoiy g‘azaliga bog‘langan.

XVIII asrda yashab ijod etgan shoirlar ijodida ham Navoiy g‘azallariga taxmis bog‘lagan shoirlarni uchratishimiz mumkin. Ulardan biri Qo‘qon adabiy muhiti vakili Xojanazar Huvaydodir. Huvaydo she’riyatda Navoiyni o‘ziga ustoz deb bildi. Uning an’analarida izchil davom ettirib g‘azallariga muxammaslar bog‘ladi. Tadqiqotchi Munavvar Olimova Buxoro qo‘lyozma fondidagi toshbosma nusxadan Huvaydoning e’lon qilinmagan muxammasini fanga ma’lum qildi. “Xojanazar Huvaydo uning an’analarini izchil davom ettiradi. Qolaversa, uning g‘azallariga muxammaslar ham bog‘laydi. Misol sifatida Navoiyning “G‘aroyib us-sig‘ar” devonida 575-raqam ostida keltirilgan “Zihi har lahni bulbul savtining zotingg‘a isboti” deb boshlanuvchi g‘azaliga yaratgan taxmis muxammasini aytish mumkin. Muxammas bandlarining soni taxmis bog‘langan g‘azal baytlari soni bilan bir xil, ya’ni 7 bayt. Biroq bandlar ketma-ketligi g‘azal baytlari tartibi bilan mos emas, baytlar o‘rni almashgan”

Qo‘qon adabiy muhiti asoschisi va yetakchisi bo‘lmish Amir Umarxon o‘zi ham she’riyatda Amiriy taxallusida ijod qilib, bu adabiy muhitdagi ijodkorlarning rahnamosi va homiysi bo‘lgan. Abdurauf Fitrat ta’kidlagandek, bu davrda “Alisher Navoiy o‘zbek adabiyoti tarixida alohida hodisa bo‘lgan Qo‘qon adabiy muhitining g‘oyaviy rahnamosi edi, desak, sira mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Chunki shoh-shoir Amiriy boshchiligidagi bu muhitning yuzga yaqin namoyondalaridan birortasining ijodini o‘zbek adabiyoti asoschisi boy va serqirra merosining samarali ta’siridan ayri holda tasavvur ham qilib bo‘lmaydi. Qo‘qon xoni Umarxon tegrasida yig‘ilgan shoirlarning hammalari Navoiyning sodiq shogirdlari bo‘lib qoldilar”. XIX asr Qo‘qon adabiy muhitining yetuk namoyondalaridan Amiriy, Nodira,Jahonotin Uvaysiy,Dilshodi Barno,Anbar Otin kabi ko‘plab ijodkorlar Navoiy g‘azallariga muxammas bog‘lashgan. Birgina Amiriyning Navoiyning 24 g‘azaliga taxmis bog‘lagan. Bu ma’lumot Amiriy ijodi va Qo‘qon adabiy muhitida taxmis janrining qanchalik katta o‘rin tutgani o‘z-o‘zidan ayon bo‘ladi.

XVIII-XIX asr Xorazm adabiy muhitida Navoiy g‘azallariga muxammas bog‘lash an’anasi eng taraqqiy topgan, yuksalgan adabiy muhit sanaladi. Bu adabiy muhit ijodkorlarining barchasida hazrat Navoiyni o‘zlariga salaf deb bilib uning ijodiga izdoshlik qilganliklari bilan alohida ahamiyatlidir. Xorazm adabiy muhitining buyuk namoyandalaridan biri Muhammad Rizo Ogahiy adabiy merosi tadqiq qilinganda, uning devonida jami 90ga yaqin muxammas mavjud ekanligi va bu muxammaslarning 60tasi taxmis ko‘rinishida bo‘lib ularning 30tasi Navoiy g‘azallariga bog‘langan muxammaslar ekanligi aytib o‘tiladi. Ogahiy o‘z ijod namunalarida Navoiyni o‘ziga ustoz deb bilib, shoir ijodi u uchun ilhom manbai bo‘lib xizmat qilganligini bir g‘azalida eslatib o‘tadi:

Ogahiy kom topgay erdi sozi nazmingdin navo,
Bahra gar yo‘qtur Navoiyning navosidin sanga…

XULOSA. O‘zbek mumtoz adabiyotida taxmisnavislik an’anasi boy tarixi an’analariga ega bo‘lib, bizning adabiyotmizga bu an’ana arab va fors-tojik adabiyotidan kirib kelgan. Hazrat Alisher Navoiy taxmisnavislik an’anasini o‘zbek adabiyotida taraqqiy ettirgan shoir bo‘lib, Navoiy hayotlik davrida va undan keyingi yillarda ham ko‘pgina shoirlarimiz ijodida bu an’ana rivojlanib keldi. XVIII-XIX asrlar Qo‘qon va Xiva adabiy muhitida taxmischilik o‘zining yuqori cho‘qqisiga chiqib, bu davr ijodkorlarining katta qismi mumtoz an’analarimizni davom ettirgan holda Navoiy g‘azallariga muxammaslar bog‘lashgan.

Foydalanilga adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdug‘afurov A. Buyuk beshlik saboqlari. Maqolalar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1995.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 6-жилд: Хазойин ул-маоний: Фавойид ул-кибар. Илмий танқидий матн асосида нашрга тайёрловчи: Ҳамид Сулаймон. – Тошкент: Фан,1990.

3. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. To‘qqizinchi jild. Majolis un-nafois. – Toshkent: G‘afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. 310 bet.
4. Alisher Navoiy.To‘la asarlar to‘plami.O‘n jildlik.To‘qqizinchi jild.Majolis un-nafois.- Toshkent: G‘afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. 314.
5.Алишер Навоий. Бадоеъ ул-бидоя. МАТ. 20 жилдлик. 1-жилд. –Тошкент: Фан, 1987. – Б. 22.
6.Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойи ус-санойиъ. –Тошкент: Ғафур Ғулом, 1981. – Б. 73.
7. Фитрат А. Танланган асарлар. 5 жилдлик. 2-жилд. –Тошкент: Маънавият, 2006. – Б. 175
8. Фитрат А. Адабиёт қоидалари. –Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 53.
9. Эркинов А. Навоийнинг мухлислари томонидан тузилган яна бир девони // Ўзбек тили ва адабиёти, 2012 йил, № 1.
10. Шайх Маҳмуд Тарозий. Фунуну-л-балоға. Китобда: Шарқ мумтоз поэтикаси Ҳамидулла Болтабоев талқинида. –Тошкент: ЎМЭ, 2006. – Б. 129.

PEDAGOGIKADA SUN’IY INTELLEKT: AQLLI TIZIMLAR VA INDIVIDUAL YONDASHUV

O.B.Choriyev
Andijon davlat universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti olmosbekchoriyev05@gmail.com

Annotatsiya Ushbu maqolada sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining zamonaviy ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi hamda u orqali ta’limni shaxsiylashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Aqlli tizimlar o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashgan holda bilim berish, natijalarni monitoring qilish va ta’lim sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Maqolada sun’iy intellekt asosida ishlovchi ta’limiy platformalar, adaptiv o‘qitish tizimlari va ulardan pedagogik jarayonda foydalanishning afzalliklari yoritilgan. Shuningdek, SI texnologiyalarini ta’limga joriy etish jarayonida duch kelinadigan muammolar va ularni hal etish yo‘llari muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari pedagogik amaliyotda sun’iy intellektni samarali qo‘llash bo‘yicha taklif va tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.Shuningdek, bugungi kunda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari ta’lim jarayonida muhim o‘rin egallab kelmoqda. Maqola shuningdek, pedagoglarning sun’iy intellekt bilan ishlash malakalarini oshirish, o‘quv jarayonini raqamlashtirish hamda yangi texnologiyalarni o‘quv dasturlariga muvaffaqiyatli integratsiyalash uchun strategiyalarni ham ko‘rib chiqadi. Bu esa ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish va raqamli davr talablari bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: sun’iy intellekt, pedagogika, aqlli tizimlar, individual yondashuv, adaptiv o‘qitish, ta’lim texnologiyalari, raqamli ta’lim, o‘quv jarayoni, ta’limda innovatsiyalar, shaxsiylashtirilgan ta’lim

Annotation This article analyzes the integration of artificial intelligence (SI) technologies into the modern educational process and the possibilities of personalizing education through it. Intelligent systems play an important role in providing knowledge, monitoring results and improving the quality of education while adapting to the individual needs of students. The article covers educational platforms working on the basis of artificial intelligence, adaptive teaching systems and the benefits of using them in the pedagogical process. Also, the problems faced in the process of introducing SI technologies into education and ways to solve them are discussed. The results of the study include suggestions and recommendations for the effective application of artificial intelligence in pedagogical practice.Also, artificial intelligence (SI) technologies today occupy an important place in the educational process. The article also considers strategies for educators to improve their skills in working with artificial intelligence, digitize the educational process, and successfully integrate new technologies into educational programs. This serves to improve the effectiveness of the educational process and harmonize with the requirements of the digital age.

Keywords: artificial intelligence, pedagogy, intelligent systems, individual approach, adaptive teaching, educational technology, digital education, educational process, innovation in education, personalized education

Аннотация в этой статье анализируется интеграция технологий искусственного интеллекта (ИИ) в современный образовательный процесс, а также возможности персонализации образования с его помощью. Интеллектуальные системы играют важную роль в передаче знаний, мониторинге результатов и повышении качества обучения, адаптируясь к индивидуальным потребностям учащихся. В статье рассматриваются образовательные платформы на базе искусственного

интеллекта, адаптивные системы обучения и преимущества их использования в педагогическом процессе. Также обсуждаются проблемы, с которыми сталкиваются в процессе внедрения технологий си в образование, и пути их решения. Результаты исследования содержат предложения и рекомендации по эффективному применению искусственного интеллекта в педагогической практике.Также сегодня технологии искусственного интеллекта (ИИ) занимают важное место в образовательном процессе. В статье также рассматриваются стратегии повышения квалификации педагогов по работе с искусственным интеллектом, оцифровки учебного процесса и успешной интеграции новых технологий в учебные программы. Это будет способствовать повышению эффективности образовательного процесса и гармонизации с требованиями цифровой эпохи.

Ключевые слова: искусственный интеллект, педагогика, интеллектуальные системы, индивидуальный подход, адаптивное обучение, образовательные технологии, цифровое обучение, образовательный процесс, инновации в образовании, персонализированное обучение

Bugungi kunda axborot texnologiyalari jadal sur’atlar bilan rivojlanib borar ekan, bu jarayon ta’lim tizimida ham chuqur o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Xususan, sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari ta’lim jarayonining turli bosqichlariga faol joriy etilmoqda. An’anaviy yondashuvlardan farqli o‘laroq, sun’iy intellekt asosidagi aqlli tizimlar har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish imkonini bermoqda.

Individual yondashuv ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib, o‘quvchilarning bilim darajasi, o‘rganish uslubi va qiziqishlariga moslashtirilgan kontentni taqdim etish orqali ularning faolligini kuchaytiradi. Sun’iy intellekt esa bu jarayonda o‘qituvchi yordamchisi sifatida harakat qilib, samarali va moslashuvchan ta’lim muhitini yaratadi[1.2011:B.67]. Ushbu maqolada sun’iy intellektning pedagogikadagi o‘rni, aqlli tizimlar orqali individual yondashuvni ta’minlash imkoniyatlari va ularning afzalliklari haqida so‘z yuritiladi. Bugungi kunda axborot texnologiyalari jadal sur’atlar bilan rivojlanib borar ekan, bu jarayon ta’lim tizimida ham chuqur o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Xususan, sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari ta’lim jarayonining turli bosqichlariga faol joriy etilmoqda. An’anaviy yondashuvlardan farqli o‘laroq, sun’iy intellekt asosidagi aqlli tizimlar har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish imkonini bermoqda. Individual yondashuv ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib, o‘quvchilarning bilim darajasi, o‘rganish uslubi va qiziqishlariga moslashtirilgan kontentni taqdim etish orqali ularning faolligini kuchaytiradi. Sun’iy intellekt esa bu jarayonda o‘qituvchi yordamchisi sifatida harakat qilib, samarali va moslashuvchan ta’lim muhitini yaratadi. Ushbu maqolada sun’iy intellektning pedagogikadagi o‘rni, aqlli tizimlar orqali individual yondashuvni ta’minlash imkoniyatlari va ularning afzalliklari haqida so‘z yuritiladi.

Sun’iy intellekt – bu inson aqliga xos funksiyalarni (o‘rganish, tahlil qilish, qaror qabul qilish) texnik vositalar orqali bajarishga qodir bo‘lgan tizimdir. Ta’lim tizimida SI asosan quyidagi yo‘nalishlarda qo‘llanilmoqda: adaptiv o‘quv platformalari o‘quvchining bilim darajasini aniqlab, unga moslashtirilgan materiallar bilan ta’minlaydi; avtomatik baholash tizimlari test va yozma ishlarni tahlil qilib, tezkor natijalar beradi; chatbotlar va virtual o‘qituvchilar esa o‘quvchilarning savollariga javob beruvchi va ular bilan muloqot qiluvchi sun’iy aql vositalaridir[4.2020:B.115]. Shuningdek, ma’lumot tahlili orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini aniqlash va monitoring qilish imkoniyati ham mavjud. Har bir o‘quvchi – o‘ziga xos shaxs. Ularning bilim olish sur’ati, tushunish darajasi, qiziqish sohasi bir-biridan farqlanadi. Shuning uchun ta’limda individual yondashuv muhim ahamiyatga ega. SI yordamida bu yondashuvni amalga oshirish shaxsiylashtirilgan kontent, o‘quv jarayonini moslashtirish va davriy tahlil kabi usullar orqali ro‘yobga chiqadi. Misol uchun, Khan Academy va Duolingo kabi platformalarda aynan shunday yondashuvlar joriy etilgan bo‘lib, ular o‘quvchining bilim darajasini aniqlab, unga mos mashqlar va bilim manbalarini taklif qiladi.

Sun’iy intellektdan foydalanishning afzalliklari ko‘p. U ta’lim jarayonini soddalashtiradi, o‘qituvchilarning yukini kamaytiradi, masofaviy ta’limni samarali tashkil qilishga yordam beradi va o‘quvchilarning rag‘batini oshiradi. Ayniqsa, pandemiya davrida masofaviy ta’limning keng joriy etilishi SIning ahamiyatini yanada oshirdi. Biroq SIni ta’limga joriy etishda ayrim muammolar va ehtiyot choralarini ham unutmaslik kerak. Avvalo, o‘quvchilarga oid shaxsiy ma’lumotlarning maxfiyligi va xavfsizligini ta’minlash lozim. Shuningdek, texnologik infratuzilma yetishmasligi – ba’zi hududlarda internet yoki texnika bilan bog‘liq muammolar mavjudligi ham to‘siq bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, SI o‘qituvchini to‘liq almashtira olmaydi, aksincha u faqat yordamchi sifatida ko‘rilishi kerak. O‘qituvchining insonga xos yondashuvi, tarbiyaviy va hissiy ko‘mak berish qobiliyati hali sun’iy tizimlar

tomonidan to‘liq takrorlana olmaydi[6.2020:B.17]. Hozirgi kunda dunyodagi ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda SI texnologiyalari orqali o‘quv jarayoni tubdan o‘zgarmoqda. Masalan, AQShda ishlab chiqilgan "ALEKS" platformasi matematika va boshqa fanlar bo‘yicha talabaga individual o‘quv rejasi tuzadi. Xitoyda esa yuzni aniqlash tizimi orqali darsdagi faollik va e’tiborni nazorat qiluvchi SI vositalari mavjud. O‘zbekiston ta’lim tizimida ham raqamli ta’lim konsepsiyasi doirasida SI elementlarini bosqichma-bosqich joriy etish ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, SI texnologiyalari o‘qituvchilar uchun ham katta yordamchidir. Masalan, dars rejasini avtomatik shakllantirish, fanlararo integratsiyani tashkil etish, talabalarni bilimiga qarab guruhlarga ajratish kabi jarayonlarda sun’iy intellekt asosidagi dasturlar katta samaradorlik ko‘rsatmoqda. Bu esa o‘qituvchining vaqtini tejab, sifatliroq pedagogik yondashuvni shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, sun’iy intellektdan foydalanganda ba’zi xavf-xatarlar va ehtiyot choralarini unutmaslik kerak. Avvalo, bu tizimlar axborotga asoslangan holda qaror qabul qilgani bois, noto‘g‘ri yoki bir tomonlama ma’lumotlarga asoslangan holatlar yuz berishi mumkin. Sun’iy intellektning o‘quvchining ruhiy holatini to‘liq anglab yetmasligi, uning hissiy ehtiyojlarini to‘g‘ri baholay olmasligi, ta’limda insoniy yondashuvni cheklashi mumkin. Bundan tashqari, texnologik jihatdan orqada qolgan hududlarda bu tizimlardan samarali foydalanish imkoniyatlari cheklangan. Boshqa bir muhim jihat – bu axloqiy masalalardir. Sun’iy intellektga asoslangan baholash tizimlari doim ham adolatli bo‘lishi kafolatlanmaydi. O‘quvchilarning xatti-harakatlarini sun’iy yo‘l bilan kuzatish, ularning erkin fikrlashini cheklashi mumkin[7.2023:B.3]. Shu sababli, SI texnologiyalarini joriy etishda inson huquqlari, shaxsiy hayot daxlsizligi va axloqiy tamoyillarga rioya qilinishi shart. Zamonaviy ta’lim tizimi o‘z oldiga nafaqat bilim berish, balki o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlarini to‘liq ochish va uni jamiyatga moslashtirish vazifasini ham qo‘yadi. Ana shu maqsad sari harakat qilayotgan sun’iy intellekt texnologiyalari bugungi kunda ta’limni individualizatsiyalash va personallashtirish orqali butunlay yangi bosqichga olib chiqmoqda. Lekin bu jarayon faqat texnologiyani joriy etish bilan emas, balki uni didaktik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish orqali amalga oshirilmoqda.

Masalan, zamonaviy pedagogikada “learning analytics” - ya’ni o‘quv jarayonini raqamli tahlil qilish konsepsiyasi paydo bo‘ldi. Bu konsepsiyaga ko‘ra, sun’iy intellekt platformalari o‘quvchining har bir bosgan tugmasi, javob tezligi, noto‘g‘ri javoblari va hatto tanaffuslar sonini tahlil qilib, uning kognitiv faolligi haqida xulosa chiqaradi. Bu xulosa asosida tizim mustaqil ravishda o‘qituvchiga tavsiyalar beradi yoki o‘quvchiga mos kontent tanlaydi. Shu tarzda, o‘qituvchi - sun’iy intellekt - o‘quvchi o‘rtasida o‘ziga xos yangi o‘quv muhiti shakllanmoqda. Bundan tashqari, pedagogik amaliyotda SI tizimlari o‘quvchilarning emotsional-intellektual holatini aniqlovchi vosita sifatida ham sinovdan o‘tmoqda. Masalan, yuzni tanish, ovoz tembrini o‘rganish yoki tana harakatlariga qarab stress holatini aniqlash kabi texnologiyalar asosida o‘quvchining ruhiy ahvoli nazorat qilinadi. Bu esa o‘z navbatida, o‘quvchiga individual psixologik yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi. Bunday imkoniyatlar ilgari faqat tajribali psixolog va pedagoglar orqali aniqlanishi mumkin edi, hozir esa sun’iy intellekt bu jarayonni avtomatlashtirmoqda. Shuningdek, sun’iy intellekt yordamida amalga oshirilayotgan “real-time feedback”, ya’ni “real vaqtda fikr-mulohaza” tizimlari ham ta’limda sezilarli natija bermoqda. Bu tizimlar o‘quvchi topshiriqni bajarayotgan vaqtning o‘zida xatolarni aniqlab, bevosita izoh beradi. Bu esa o‘quvchining darhol o‘rganishiga va o‘z xatolarini takrorlamasligiga sabab bo‘ladi. Psixologik jihatdan bunday yondashuv o‘quvchida motivatsiya, o‘z-o‘zini boshqarish va mas’uliyat hissini shakllantiradi. Ko‘pchilik fikricha, SI texnologiyalari faqat STEM (fan, texnologiya, muhandislik, matematika) sohalariga mos keladi[9.2022:B.5]. Ammo hozirgi vaqtda sun’iy intellekt gumanitar fanlarda ham muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Masalan, tahliliy yozuv ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi GPT-modellar, tarjima vositalari, tarixiy matnlarni avtomatik sharhlovchi dasturlar aynan gumanitar fanlarda ham individual yondashuvni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Alohida ta’kidlash lozimki, sun’iy intellekt asosidagi yondashuvlar pedagogikadagi inklyuziv ta’lim (ya’ni imkoniyati cheklangan bolalarga moslashtirilgan ta’lim) yo‘nalishida ham keng qo‘llanilmoqda. Masalan, eshitishida muammo bo‘lgan o‘quvchilar uchun matnni ovozga aylantiruvchi (TTS – Text to Speech) yoki aksincha ovozni matnga aylantiruvchi (STT – Speech to Text) tizimlar mavjud. Autizm spektrida bo‘lgan bolalar bilan ishlashda esa SI asosida ijtimoiy aloqa simulyatsiyalari (masalan, mimika tanish yoki ssenariyga asoslangan muloqot mashqlari) yordamida samarali natijalar olinmoqda.

Xulosa qilib aytganda, pedagogikada sun’iy intellektdan foydalanish – bu nafaqat zamonaviylik talabi, balki ta’lim sifatini oshirish yo‘lidagi muhim qadamdir. Aqlli tizimlar orqali har bir o‘quvchiga individual yondashuvni ta’minlash, ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, SI o‘qituvchini emas, balki uning ishini yengillashtiradigan kuchli yordamchiga aylanishi zarur. Kelajakda

sun’iy intellektdan to‘laqonli foydalanish uchun o‘qituvchilar va o‘quvchilarni raqamli savodxonlikka o‘rgatish, texnologik imkoniyatlarni kengaytirish, pedagogik va metodik asoslarni chuqurlashtirish, va eng asosiysi, SI va inson omili o‘rtasidagi muvozanatni saqlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Xoliqov A.-Pedagogik mahorat.Toshkent-2011.
2. Musayeva G.A.-Oliy ta’lim tizimini kompyuterlashtirishning zamonaviy tendensiyalari.Namangan State University, 2023 - P. 318-320.
3. UNESCO. (2019). Raqamli kutubxona, ta’limda sun’iy intellekt:barqaror rivojlanish uchun muammolar va imkoniyatlar.
4.Xo’jaqulov T.A,Malikova N.T-Sun’iy intellekt.Toshkent-2020.
5.Komolov S,Raxmatov Sh.-Sun’iy intellekt asoslari.Toshkent-2021
6. Nazarov Q.H *Pedagogik texnologiyalar asoslari.* — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
7. Abdullayeva M.T. *Raqamli pedagogika va sun’iy intellekt asoslari*. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2023.
8. Ergashev B.R. *Ta’limda sun’iy intellekt: imkoniyatlar va istiqbollar*. // “Ma’rifat” gazetasi, 2023-yil, 12-son.
9. To’rayev Sh. *Zamonaviy ta’lim jarayonida sun’iy intellektdan foydalanish*. — Toshkent: Iqtisodiyot va ta’lim, 2022.
10. Abdurahmonov Q. *Axborot texnologiyalari va ularning ta’limdagi o‘rni*. — Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti, 2021.

TARIX FANINI O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TO‘GARAK MASHG‘ULOTLARINING O‘RNI

S.B.Qorayev
Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori, DSc
Sh.X.Azamov
Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Tarix fanini o‘qitish samaradorligini oshirishda darsdan tashqari o‘tiladigan mashg‘ulotlar katta rol o‘ynaydi. Bunday mashg‘ulotlardan biri to‘garak mashg‘ulotlaridir. Ushbu maqolada tarix fanini o‘qitish samaradorligini oshirishda to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil etish va ularni darsdan tashqari olib borish metodikasi keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Tarix, to‘garak mashg‘uloti, ta’lim, tarbiya, tadqiqotchilik, loyihalash, tarixiy manba, moddiy manba, interfaol metodlar, pedagogik texnologiya.

Annotation: Extra curricular activities play a big role in boosting the efficiency of teaching history. One of these activities is extra courses. This article tells us about the ways and methods of organizing extra curricular activities to increase the productivity of teaching and learning history as well as the measures which should be taken outside the school.

Keywords: History, extra curricular activity, education, behaviourism, researching, project, historical source, materialistic source, interactive methods, pedagogical techniques.

Аннотация: Внеклассные мероприятия играют важную роль в повышении эффективности преподавания истории. Одним из таких занятий являются кружковые занятия. В статье представлена методика организации и проведения групповых внеклассных мероприятий для повышения эффективности преподавания истории.

Ключевые слова: История, образовательная деятельность, образование, воспитание, исследование, проектирование, исторический источник, материальный источник, интерактивные методы, педагогическая технология.

Kirish: Yurtimizdagi “Zamonaviy innovatsion maktab”larda rivojlantiruvchi ta’lim muhitini tashkil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, raqamli texnologiyalar vositasida ta’lim tizimini tashkil etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirib borish uchun pedagogik shart-sharoitlar yaratish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish masalalari asosiy o‘rin

tutadi. O‘quvchilaning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim vazifalaridan biri innovatsion maktablarda rivojlantiruvchi ta’lim muhitini tashkil etish texnologiyalaridan foydalanishdir. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda innovatsion maktablarning rivojlantiruvchi ta’lim muhitini shunday tashkil etish, yaratish lozimki, unda ta’limning mazmuni, maqsadi, vazifasi va barcha komponentlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni ta’minlash ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan 2019-yil 26-noyabrda qabul qilingan “Zamonaviy maktablarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4537-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida yurtimizdagi ko‘pgina umumiy o‘rta ta’lim maktablariga “Zamonaviy maktab” maqomi berilmoqda [1]. Ushbu qarorda zamonaviy maktablarga qo‘yilgan talablar, zamonaviy maktablarning darajalari hamda kelgusi yillarda umumiy o‘rta ta’lim maktablarining necha foiziga ushbu maqomni berish masalalari keltirib o‘tilgan. Bizning maqsadimiz ana shunday “Zamonaviy innovatsion maktab”larda tarix fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish hamda ta’lim samaradorligini oshirishdan iborat.

Metodlar: Tarix fanini o‘qitish samaradorligini oshirishda, o‘quvchilarni tarix faniga bo‘lgan qiziqishlarini uyg‘otishda, vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda va kelajakni ko‘ra olish qobiliyatlarini shakllantirishda to‘garak mashg‘ulotlarining o‘rni beqiyosdir. To‘garak mashg‘ulotlarida “Tadqiqotchilik” “Loyihalash” metodlaridan foydalanildi va ularning afzalligi quyidagilardan iborat:

1. O‘quvchilarni mavzularni chuqur o‘zlashtirilishi;
2. O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarni nazorat qilishning qulayligi;
3. O‘quvchilarni qisqa vaqt ichida ko‘proq ma’lumot olishi;
4. O‘quvchilarni ko‘nikma va malakalarini maksimal rivojlanishi.

Asosiy didaktik maqsadlariga ko‘ra ta’lim metodlari tasnifi quyidagilardan iborat:

- Yangi bilimlarni egallash metodlari;
- Ko‘nikma va malakalarni shakllantirish metodlari;
- Bilimlarni amaliyotda qo‘llash metodlari.

Yaxlit yondashuv bo‘yicha ta’lim metodlari tasnifi (Y.K.Babanskiy) :

- Bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash va nazorat qilish metodlari;
- O‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari;
- O‘quv-bilish faoliyatini motivatsiyalash va rag‘batlantirish metodlari;
- O‘quv-bilish faoliyatini nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish metodlari;
- Interfaol metodlar va grafik organayzerlar.

Pedagogik adabiyotlarda “ta’lim metodi” tushunchasiga xilma - xil ta’riflar beriladi. Y.K.Babanskiy “…ta’lim metodi ta’limiy vazifalarni bajarishga yo‘naltirilgan o‘qituvchi va o‘quvchilarning tartibga solingan, o‘zaro bog‘liq faoliyat yuritish usulidir” degan ta’rifni bergan bo‘lsa, T.Allina ta’lim metodi deganda, “…o‘quvchilar bilish faoliyatini tashkil etish usuli”ni tushunadi [2].

Didaktika tarixida ta’lim metodlarining xilma-xil tasniflari ishlab chiqilgan. Eng keng tarqalgan tasnifga ko‘ra, ta’lim metodlari og‘zaki, amaliy, ko‘rgazmali metodlarga ajratiladi, ularni tanlashda o‘qituvchi, birinchidan, o‘quv materiali mazmuniga, ikkinchidan, ta’lim oluvchilarning psixik rivojlanishi darajasiga e’tibor berishi kerak.

Tarix fanida qo‘llaniladigan “Tadqiqotchilik metodi”. Masalani (muammoni) qo‘ygach, muammoni qisqa og‘zaki yoki yozma yo‘riqnomani tahlil qilish orqali o‘quvchilar adabiyotlarni, manbalarni o‘rganadi hamda loyihalashtirish topshiriqlarini bajaradilar. Ta’lim jarayonida tadqiqotchilik metodining mohiyati quyidagiga olib keladi: pedagog o‘quvchilar bilan birgalikda muammoni ta’riflaydi, uni yechishga dars vaqtining bir qismi bag‘ishlanadi; o‘quvchilar ushbu bilimlarni o‘zlari muammoni yechish, olinajak javoblarning turli variantlarini taqqoslash jarayonida mustaqil egallaydi; natijaga erishish uchun vositalarni belgilaydi; pedagogning faoliyati muammoli masalalarni yechish jarayonini tezkor boshqarishga olib keladi. Natijaviy blok maqsadli, texnologik-jarayonli va tashxislash bloklar bilan yaqin o‘zaro aloqaga ega va o‘quvchilarni ijtimoiy tayanch kompetensiyasini rivojlanganlik darajasini belgilaydi.

Loyihalash (project) metodi. Bu o‘quvchilar bir necha kun yoki hafta davomida amaliy muammoni mustaqil ta’limda hal qiladigan ta’lim metodidir. Bu loyihalash va boshqa rejaga asoslangan amaliy ishlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Loyihalar o‘qituvchi tomonidan taklif qilinishi mumkin, ammo ular iloji boricha o‘quvchilarning o‘zlari tomonidan individual bajariladi. Loyihalash metodi (ijtimoiy tayanch kompetensiyaning faoliyatli komponenti) mustaqil fikrlash, o‘ziga ishonch va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirish uchun aniq bilim yoki ko‘nikmalarni qo‘llash, o‘quvchilarning faolligi va motivatsiyasini yaxshilashga qaratilgan.

Quyida 5-sinf “Tarixdan hikoyalar” fanidan “Tarix fani nimani o‘rganadi” mavzusidagi to‘garak mashg‘uloti ishlanmasini keltirib o‘tamiz.

Mavzu: Tarix fani nimani o‘rganadi?

Mashg‘ulotning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarda mavzuga oid bilim va tushunchalar hosil qilish, to‘garakka bo‘lgan qiziqishini oshirish, tarixiy an’analar va boy ma’naviyatga asoslangan, mamlakatimizning bugungi va kelajakdagi rivojlanishi, gullab yashnashiga o‘z hissasini qo‘shish tushunchalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarni mustaqil ishlashga o‘rgatish, o‘quvchilarni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish, o‘quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali shaxsiy rivojlanish hosil qilish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Milliy va umummadaniy kompetensiya: umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarini (urf-odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an’analar va h.k) hurmat qilish.

O‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi: shaxs sifatida doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirib borish, ma’naviy va intellektual kamolotga intilish.

Mashg‘ulot turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Mashg‘ulot uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol-javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, guruhlarda ishlash, ko‘rgazma va boshqalar.

Mashg‘ulot metodi: guruhlarda ishlash, kim epchilu- kim chaqqon, ko‘rsam tezroq eslab qolaman.

Mashg‘ulot jixozi: Tarix 5-sinf darsligi, “Qadimgi dunyo tarixi” asari, mavzuga oid ko‘rgazmali qurollar, plakatlar, tarqatma materiallar, o‘quv qurollari va elektron doska.

Mashg‘ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism: a) salomlashish b) davomatni aniqlash

II. Uy vazifasini so‘rash: a) savol-javob o‘tqazish b)topshiriqlarni tekshirish

III. Yangi mavzu bayoni:

Tarix odamlarning eng qadimgi zamonalardan to hozirgacha bosib o‘tgan hayot yo‘lini aks ettiradi. Bugungi hayotni qanday qurganligi, odamlarning uzoq va yaqin o‘tmishda nima bilan mashg‘ul bo‘lganliklari haqida ma’lumot beradi. Ularning qanday yashaganliklari hamda qanday tarixiy voqealar yuz berganligini o‘rganadi. Tarix fani tarixiy manbalar asosida yaratiladi. Xo‘sh tarixiy manba o‘zi nima? ***Tarixiy manba***-tarixdan ma’lumot beruvchi barcha tarixiy narsalar va yozib qoldirilgan turli xil hujjatlar hamda kitoblardir. Manbashunos olimlar ularni sinchiklab o‘rganadilar va tarix fani uchun zarur ma’lumotlar to‘playdilar. Tarixiy manbalar, o‘z navbatida, ***moddiy*** (ashyoviy) va ***yozma*** manbalarga bo‘linadi.



Toshdan yasalgan mehnat quroli.



Devorga chizilgan rasm.



Toshga aylangan iz.

Rasm. Tarixiy manbalar

Moddiy manbalar – qadimgi odamlarning suyak qoldiqlari, ular yashagan makon, turar-joylarning shuningdek, qal’a va shaharlarning, uy-ro‘zg‘or hamda zeb-ziynat buyumlarining qoldiqlaridir. Shuningdek, qazish natijasida topilgan tangalar, gerblar, muhrlar hamda mehnat qurollaridir. Moddiy manbalarni arxeologlar to‘plashadi. Ular o‘tmishda odamlar yashagan deb taxmin qilingan manzilgohlarda qazish ishlarini olib boradilar.

Yozma manbalar – yozma manbalar tarixiy manbalarning muhim va asosiy turidir. Bundan qariyb besh ming yil avval ayrim xalqlar yozish uchun alohida belgilar yaratdilar. Qoyatosh va qattiq buyumlarga o‘yib tushirilgan bitiklar, hayvon terisi, daraxt po‘stlog‘i, keyinchalik qog‘ozga yozilgan yozuvlar, turli

davrlarda yozilgan qo‘lyozmalar, kitoblar, shuningdek, arxivlarda saqlanayotgan tarixiy hujjatlar yozma manbalardir. O‘zbekiston tarixiga oid eng qadimgi yozma manba «Avesto» kitobidir [5].

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

1. Tarix fani haqida nimalarni bilib oldingiz?

2. Tarixiy manbalar nima va ular tarix fani uchun qanday ahamiyatga ega?

V. Mashg‘ulotni yakunlash: to‘garak a’zolarining yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e’lon qilish: moddiy ashyoviy va yozma manbalarni taqqoslang. O‘xshash va farq qiluvchi jihatlarini aniqlang.

Tarix fanini o‘qitishda quyidagi didaktik o‘yinlarni qo‘llash mumkin:

“Kim biladi” o‘yin metodi: “Kim biladi?” o‘yinida o‘quvchilar ikki guruhga bo‘linadi. Birinchi guruh a’zolari “Tarixdan hikoyalar” 5-sinf darsligidan biror hukmdor, tarixiy shaxs yoki tarixiy hudud haqida ma’lumot o‘qishadi. Ikkinchi guruh a’zolari esa hukmdor, tarixiy shaxsni kim ekanligini yoki tarixiy hudud qayer ekanligini aniqlashadi. Keyingi navbatda ikkinchi guruh a’zolari biror hukmdor, tarixiy shaxsyoki tarixiy hudud haqida ma’lumot o‘qishadi. Birinchi guruhdagilar esa hukmdor, tarixiy shaxsni kim ekanligini yoki tarixiy hudud qayer ekanligini aniqlashadi. Har bir to‘g‘ri javob uchun yutuqli kartochkalar berishadi. Bu o‘yinni xohlagan mavzu yoki fanni o‘rganishda dars jarayonida o‘quvchilarni zeriktirishga yo‘l qo‘ymaslik, qiziqtirish maqsadida ham o‘tkazish mumkin. Masalan, 5-sinfda “Tarixdan hikoyalar” fanida foydalanish mumkin:

1- guruh: O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligiga sababchi bo‘lgan shaxs, “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”, “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asarlari muallifi, O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti.

2- Guruh: Islom Karimov

2-guruh: Qadimgi Rim davlati hukmdori. Mil.av. 46-yilda yangi kalendar joriy etdi va yil boshini 1-yanvarga ko‘chirdi. Yangi kalendar uning nomi bilan ataldi.

1-guruh: Yuliy Sezar

1-guruh: Miloddan avvalgi III asrda qadimgi yunon olimi birinchi bo‘lib Yer meridiani yoyi uzunligini hisoblab chiqqan va yer yuzining xaritasini tuzgan. Bu xaritada Janubiy Yevropa, Shimoliy Afrika va G‘arbiy Osiyo tasvirlangan.

2-guruh: Eratosfen

2-guruh: O‘zbekistonda neandertal qiyofali odam suyaklari qoldiqlari Surxondaryo viloyati hududidagi g‘ordan topildi. U qaysi g‘or edi?

1-guruh: Teshiktosh

1-guruh: Hozirgi kunda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi qoshidagi arxeologiya instituti katta ishlarni amalga oshirmoqda. Bu institut kimning nomi bilan ataladi?

2-guruh: Yahyo G‘ulomov

2-guruh: Dunyoda birinchi alifboni, ya’ni harfli yozuvni miloddan avvalgi 2-ming yillik o‘rtalarida kimlar yaratishdi?

1-guruh: Qadimgi Finikiyaliklar

1-guruh: “Avesto” o‘zbek tilida “qat’iy o‘rnatilgan qonun-qoidalar” degan ma’noni anglatadi. “Avesto” 2700 yil avval qayerda yaratilgan.

2-guruh: Xorazmda

O‘yin shu tarzda davom etadi. Ushbu o‘yin ta’lim oluvchilarda fanga yoki o‘rganilayotgan mavzuga nisbatan qiziqish uyg‘otadi. Tarixga bo‘lgan ijodiy yondashuvni o‘stiradi, mantiqiy fikrlash malakalarini oshiradi.

“Baliq ovi” o‘yin metodi: Bu o‘yin asosan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilariga mo‘ljallangan bo‘lib bunda o‘qituvchi ma’lum bir mavzu yoki alohida bir davrni tugatganidan so‘ng uni mustahkamlash uchun o‘tkazishi mumkin. Unda o‘qituvchi o‘quvchilar sonidan kelib chiqib har bir savolni kichik varaqchalarga yozadi. Uni buklab skrepka bilan mahkamlaydi va o‘quvchilarning ko‘z o‘ngida uni maxsus qutiga yig‘ib oladi hamda savollarni aralashtirib yuboradi. O‘quvchilar magnit-qarmoq bilan bittadan savolni tortib, unga javob beradilar. Qarmoq-ipga bog‘langan magnit bo‘lib, qog‘ozga qistirilgan skrepka magnitga yopishib chiqadi agar bir nechta savol yopishib chiqsa undan birini tanlaydi. Shu tariqa guruhning barcha a’zolaridan galma - gal o‘zlari “ovlagan baliq” savollariga javob berish talab etiladi. Savol - javobning bu usuli o‘quvchilardagi qiziqishni oshiradi, tezkorlikka o‘rgatadi.

Natijalar: Tarix fanidan to‘garak mashg‘ulotlari o‘quvchilarning tadqiqot ishlarining muhim shakli hisoblanadi. Uning qatorida o‘quv materialining o‘quv rejasidagi ijtimoiy fanlar orqali umumlashtirilgan bo‘lib, u loyihalash asoslarini qo‘yadi.

To‘garak mashg‘ulotida tarix fanidan o‘rganilayotgan kurs loyihasi barcha fanlarni birlashtirgan hamda izchil hal etilgan vazifalardan iborat yakka tartibdagi vazifadir [4].

To‘garak mashg‘uloti o‘quvchilar tomonidan tarix fanini o‘rganish bosqichida olingan nazariy asoslarni chuqurlashtirish va mustahkamlash, shuningdek loyihalash hamda tahlil qilish usullarini o‘zlashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

Individual loyihani bajarish quyidagi to‘qqiz bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda topshiriqda tahlil qilish, meyoriy hujjatlarni o‘rganish, samarali qarorlar qabul qilish kabi izlanishlar olib boradi.

Ikkinchi bosqichda o‘quvchilarning ijtimoiy tayanch kompetensiyasini rivojlantirishning tarkibiy tuzilmasi, zamonaviy shaxsiga qo‘yiladigan talablar, o‘zaro munosabatlarning shaxsiy, xuquqiy jihatlari to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladilar.

Uchinchi bosqichda o‘quvchilarning ijtimoiy tayanch kompetensiyasini kompetentlik yondashuv asosida modernizatsiyalash amalga oshiriladi.

To‘rtinchi bosqichda o‘quvchilarning tarix fanidan tayanch kompetensiyalarini rivijlantirish metodlarini tanlash, ijtimoiy tayanch kompetensiyani rivojlanganlik darajalarini baholash mezonlari, ijtimoiy tayanch kompetensiya kartasini shakllantirish, kompetensiya pasportini aniqlash hamda tayanch kasbiy mutaxassis sifatida o‘zini o‘zi tahlil qilish, o‘zini o‘zi baholash, o‘z-o‘zini rivojlantirishi bo‘yicha ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladilar.

Beshinchi bosqichda tarix fanidan bilim, ko‘nima va malakalarga ega bo‘lish. O‘quvchilar mavzuga oid darslik, o‘quv qo‘llanmalar, tegishli meyoriy hujjatlar, xorijiy tajribalar va adabiyotlar, ilmiy tadqiqot ishlarini atroflicha tahlil qilishi talab etiladi. Tarix fanini o‘rganadi, tahlil qiladi hamda izlanishlar natijasida olgan bilimlarini guruhning boshqa a’zolariga taqdimot qilib beradi.

O‘quvchilar loyihalashni quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiradi:

1. Asosiy meyoriy hujjatlarni o‘rganish;
2. Loyihalashning bosqichlarini anglab yetish;
3. Loyihalashning umumiy qoidalarini o‘rganish;
4. Tahlil qilish, nazorat va o‘lchov ishlarini olib borish;
5. Natijalarni umumlashtirish.

Oltinchi bosqichda ma’naviy va ma’rifiy sohani o‘zlashtirishlari lozim. Ma’naviyat va ma’rifatning mantiqiy tuzilmasini ishlab chiqadilar.

Yettinchi bosqichda dunyoqarash tushunchasini mazmun mohiyatini tushunib yetadilar, dunyoqarashni falsafiy kategoriyada idrok etadilar.

Sakkizinchi bosqichda ma’naviy dunyoqarash va uning kasbiy faoliyat turlariga va kasbiy kompetentlikka aloqadorligini o‘rganadilar.

To‘qqizinchi bosqichda ma’naviy dunyoqarash bo‘yicha muammoli vaziyatlarni hal qiladilar yechimlarni umumlashtiradilar va yakuniy xulosaga keladidar. Amalga oshirilgan individual loyiha doirasida o‘zlarining refleksiv imkoniyatlarini sinovdan o‘tkazadilar.

Muhokama: Tarix fanidan to‘garak mashg‘ulotlari jarayonida qo‘llaniladigan metod va vositalar xilma - xil bo‘lib, ma’lumotlarning mazmuni, murakkabligiga qarab qo‘llaniladi. Barcha tarix kurslarini o‘rganish o‘quvchilardagi tarixiy tushunchalarning chuqur va mustahkam bo‘lishi, asosan o‘qituvchining o‘quvchilarni fikrlash qobiliyatini, qanchalik uyg‘ota olishi va unga qay darajada rahbarlik qila olishiga bog‘liq.

Tarixiy tushunchalar hosil qilishda o‘quvchilarning voqea va hodisalarni, analiz, sintez qila olish qobiliyatini o‘z ichiga olgan fikrlash faoliyatini shakllanishida ta’limning faol metodlari, interfaol ta’lim metodlaridan foydalanish alohida ahamiyatga ega. To‘garak mashg‘ulotlarida turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish-ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi talab etiladi. Bunda, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda “Aqliy hujum”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Bahs-munozara”, “Muammoli vaziyat”, “Uchta to‘g‘ri bitta noto‘g‘ri”, “Baliq skeleti”, “Rolli o‘yinlar” kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash ijobiy natijalarga olib keladi. Bunday metodlar interfaol yoki

interaktiv metodlar deb ham ataladi. To‘garak mashg‘ulotlari - ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan dars shaklidir. Bunday o‘qitish qo‘llanilganda ta’lim beruvchi o‘quvchini dars jarayonida faol ishtirok etishga undaydi. Jarayon o‘quvchidan dars mobaynida faollikni talab etadi.

Xulosalar: Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad, jahon ta’limi standartlariga javob bera oladigan ilg‘or tajribalarni ommalashtirish orqali ta’lim-tarbiya jarayonida samaradorlikka erishishdir.

Tarix darslari samaradorligining muhim shartlaridan biri bu o‘qituvchi va o‘quvchilarning haqiqatni birgalikda izlashi va ularning butun dars jarayonida faol ishtirok etishlari ya’ni ta’lim metodlari, interfaol metodlardan, grafik organayzerlardan foydalanishlaridir. Albatta, bunday vaziyatda o‘qituvchiga yangi pedagogik texnologiyalar qo‘l kelishini amaliyot ko‘rsatib turibdi. Bugungi informatsion axborot texnologiyalari zamoni har bir fan o‘qituvchisi zimmasiga inson, uning jamiyatdagi o‘rni va roliga har tomonlama jiddiy qarash vazifasini yuklamoqda. Buning uchun o‘qituvchi ta’lim-tarbiyaning yangi shakllari, vositalari va usullarini puxta egallashi va shu bilan birga o‘zi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratishga, shaxsni tarbiyalashning yangi an’anaviy, samarali usullarini tanlashga harakat qilishi lozim. Shunday ekan, ta’lim jarayonini o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligida ongli, ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat deb qarash asoslidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. (2019-yil 26-noyabr) Zamonaviy maktablarni tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-4537 sonli qarori.

2. Xasanboyev J, To‘raqulov X, Alqarov I. Pedagogika. –T.:Noshir, 2021

3. Tubelskiy A.N. Noto‘g‘ri ishlaydigan o‘qituvchi (talabalar va o‘qituvchilarning individualligini rivojlantirish tajribasi). - M., 1996 yil.

4. Alimova D.A, Ilhamov Z.A Tarix fani metodologiyasi. –T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018

5. U. Jo‘rayev, Q. Usmonov, A. Nurqulov, G. Jo‘rayeva Tarixdan hikoyalar 5-sinf uchun darslik Toshkent – 2015

6. Sagdullayev A.S, Kostetskiy V.A Qadimgi dunyo tarixi 6-sinf uchun darslik Toshkent-2022

7. Toshpo‘latov T, G‘afforov Y. Tarix o‘qitish metodikasi. –T.: Turon-iqbol. 2010

O‘TLOQ-BOTQOQ TUPROQLARI SHAROITIDA MOSHNING SELEKSIYA KO‘CHATZORI BIOMETRIK KO‘RSATKICHLARI

X.A.Idrisov
Farg‘ona davlat unversiteti q.x.f.f.d (PhD), dosent**;** Email idrisovh256@gmail.com
R.R.Habibaxon
O‘simliklar himoyasi va karantini yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya: Moshning seleksiya ko‘chatzoridagi nav namunalarining biometrik ko‘rsatkichlar natijalari ushbu maqolada taxlil etilgan. O‘simlik o‘sishi dinamikasi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Mahalliy-3, Namuna-2 va 412630 Fillipin namunalarida kuzatilib, bu ko‘rsatkich 13,4-22,7 sm ga yuqori bo‘lganligi aniqlandi. Bir o‘simlikdagi dukkak soni, don vazni va 1000 ta vazni bo‘yicha Bo‘ka, Namuna-2 (O‘zbekiston) va 412630 Filippin namunalarda ham yaxshi ko‘rsatkichlarga erishildi.

Kalit so‘zlar; Mosh, oqsil, uglevod, moy, lizin, xujayra, seleksiya, o‘tloqi-botqoq, tuproq.

Аннотация: В статье анализируются результаты биометрических показателей сортообразцов из селекционного питомника маша. Наиболее высокие показатели по динамике роста растений отмечены у образцов Local-3, Sample-2 и 412630 Philippines, которые были выше на 13,4-22,7 см. Хорошие показатели по количеству бобов на растении, массе зерна и массе 1000 зерен также достигнуты у образцов Boka, Sample-2 (Узбекистан) и 412630 Philippines.

Ключевые слова: Маш, белок, углевод, масло, лизин, клетка, селекция, лугово-болотная угодье, почва.

Annotation; The results of biometric indicators of varietal samples from the mung bean selection nursery are analyzed in this article. The highest indicators in terms of plant growth dynamics were observed in the Local-3, Sample-2 and 412630 Philippines samples, which were 13.4-22.7 cm higher. Good

indicators were also achieved in terms of the number of pods per plant, grain weight and 1000-grain weight in the Boka, Sample-2 (Uzbekistan) and 412630 Philippines samples.

Keywords: Mung, protein, carbohydrate, oil, lysine, cell, selection, meadow-swamp, soil.

Mosh ekinining kelib chiqishi Hindistonga borib taqaladi. Bu mamlakatda mosh eramizgacha ekila boshlagan, keyin Xitoy, Birma, Laos va Vetnam mamlakatlariga tarqalgan. Hozirgi vaqtda moshning ekilish doirasi kengayib ketdi. U Hindiston va Pokistonda , Xitoy va Birmada, Vetnam va Birmada, Iroq va Afg‘onistonda, Misr, Suriya va Efiopiyada, Shri Lankada o‘stirilmoqda. Bizning mamlatimizda mosh O‘zbekistonning Toshkent, Samarqand va Buxoro viloyatlarida, Tojikiston va Turkmanistonda qadimdan ekib kelinadi. U Ozarbayjon, Gruziya, Qirg‘iziston, Armanistonda ham ekiladi. Rossiyaning bir qator rayonlarida juda oz o‘stiriladi.

Bu ekinning keng tarqalishi bejiz emas, u turli xil tuproq-iqlim sharoitlariga moslashishi, ovqatbopligi, mazaligi jihatidangina emas, balki undan yilda ikki marta hosil olish mumkinligi jihatidan ham qadrlanadi. Moshni bahorda va yozda boshoqli don,sabzavot hamda boshqa ertagi ekinlardan bo‘shagan yerlarga ekish mumkin. Ang‘izga ekilganda o‘suv davri bahorda ekilgandagiga qaraganda 15-20 kun qisqaradi [1. 2019:B.10].

Mosh doni tarkibidagi oqsil 24 dan 28 protsentgacha boradi. Mosh ang‘izda o‘stirilganda uning miqdori yana ham ko‘payadi. Mosh doni tarkibida organizmning bir me’yordagi faoliyati uchun zarur bo‘ladigan hamma kislotalar mavjuddir (lizin, 8 protsentgacha, arginin 7 protsentgacha bo‘ladi). Unda V1, RR vitaminlari ko‘pdir. Lizin yosh xujayralarning bo‘linib ko‘payishiga yordam beradi. Shuning uchun ham u odamning yosh organizmi uchun koni foyda. Bunday oqsil ayniqsa bolalar uchun zarur. Mosh seleksiyasining asosiy yo‘nalishi-yuqori simbiotik faolli va mahsuldorli hamda vegetatsiya davri qisqa (70-90 kun), sovuqqa chidamli, mexanizatsiyaga mos, kasalliklarga chidamli, yuqori kulinarli yaxshi ta’mli va oziqali xususiyatlarga ega navlarni yaratish [2. 2018:B.23].

Mosh seleksiyasining muxim yo‘nalishi-tezpishar navlarni yaratish. Tezpisharlikni baxolashda unib chiqishdan-gullashgacha bo‘lgan davr asos qilib olinadi. Tezpisharlik past xaroratga chidamli xususiyati bilan chambarchas bog‘lik. Xaroratni qisqa muddatda 5 gradusdan 0°S gacha pasayishi aksariyat navlar o‘simliklarning fiziologik faolliyatida chuqur o‘zgarishlarga olib keladi. Natijada vegetatsiya davri uzayadi, mahsuldorlik pasayadi. Shuning uchun past xaroratga chidamli navlar yaratish seleksiyaning muxim vazifasiga kiradi.

Mosh seleksiyasining asosiy yo‘nalishlari-yuksak simbiotik faolli va yuqori mahsuldor, vegetatsiya davri qisqa (70-90 kun), past xaroratga chidamli, neytral fotoperiodik xususiyatli, mexanizatsiya usulida xosilni yig‘ishtirishga mos, zamburug‘ va bakterial kasalliklarga immunitetli, yuqori kulinar, yaxshi ta’mli va ozikali xususiyatli navlarni yaratish. Mosh seleksiyasining muxim yo‘nalishi-ertapishar navlarni yaratish. Tez pisharlikning quyidagi ko‘rsatkichi bo‘lib unib chikishdan-gullashgacha davr hisoblanadi. Tez pishar navlarda u 35-45 kunni, gullashdan pishishgacha 35-40 kun. Navlarning texnologik xususiyatlariga birinchidan pastdagi dukkaklarining balandrok joylanishi, bu esa mexanizatsiya usulida (kombayn bilan) hosilni yig‘ib olishga qulaylik tug‘diradi. Mosh seleksiyasining yo‘nalishlariga bundan tashqari dukkaklarini yorilmasligiga, kasalliklarga chidamligiga va hosilning sifatiga oqsilning miqdori va uning aminokislotalar tarkibiga qaratilgan [4. 2019:B.25].

Seleksion ashyo har yili asosiy belgi va xususiyatlar majmui bo‘yicha baholanadi. Kasallik va zararkunandalarga chidamliligi bo‘yicha baholashda seleksiyaning hamma bosqichlarida, qaytariqli qilib provokatsion fonidan foydalaniladi.

Mosh seleksiyasida tabiiy duragaylash, tur chida va uzoq shakllarni duragaylash, kimyoviy va radiatsion mutagenez natijasida xosil bo‘lgan populyatsiyalarda yakka va ommaviy tanlash katta axamiyatga ega.

Loviyaning (moshning) aksariyat navlari maxalliy yoki chetdan introduksiya qilingan nav va populyatsiyalarda bir martali yakka tanlash yo‘li bilan yaratilgan.

Tajribani o‘tkazish joyi va tuproq-iqlim sharoiti sharoiti. Ilmiy izlanishlar Sholichilik ilmiy tadqiqot institutining tajriba maydonining maydonida olib borildi.Tajriba maydonidagi tuproq qatlami o‘tloqi botqoq, loysimon qumoq tuproqdir. Ma’lumki bo‘z tuproqlar qatlamlarga kam tabaqalangan bo‘lib, gumusning kamligi bilan xarakterli, bu o‘tloqi botqoq tuproqlarda bo‘ladigan o‘ziga xos rangidan ham ko‘rinib turadi.Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti tajriba xo‘jaligining haydov qatlami 0-30 va 0-40 sm, haydov qatlamidan pastda 30-40 sm qalinlikda gel qatlami, 60-70 sm chuqurlikda qumli va mayda toshlardan iborat qatlam joylashgan. Soya va mosh seleksiyasi qishloq xo‘jalik ekinlarining yangi navlarini

yaratish bo‘yicha umum ishlab chiqilgan uslublar va ShITI tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyanomalar, dala tajriba metodikasi asosida olib borildi. Seleksiya ko‘chatzorida har bir nav namunasi uchun ekin maydon 3,6 m^2 (takroriysiz). Tahlilga 5 tadan o‘simlik olindi.

Tadqiqot natijalari Seleksiya ko‘chatzorining asosiy vazifasi kolleksiya va duragay ko‘chatzoridan tanlab olingan eng yaxshi belgilarga ega bo‘lgan o‘simliklar avlod (bo‘g‘in) larini mahsuldorligi va texnologik ko‘rsatkichlari bo‘yicha dastlabki baholash hamda eng yaxshi avlod (bo‘g‘in)larni keyingi yillarda o‘rganish va ko‘paytirish uchun ajratib olishdir.

Joriy yilda seleksiya ko‘chatzorida kolleksiya va duragay ko‘chatzoridan tanlab o‘tkazilgan moshning 34 ta nav namunasi ekib o‘rganildi. Har 10 ta namunadan so‘ng nazorat sifatida moshning “Radost” navlari ekildi. Har bir nav namunalar uchun paykal maydoni 3,6 m^2 qaytariqsiz. O‘suv davrida fenologik kuzatuvlar nav sinav komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyanomalar asosida olib borildi. Bunda o‘simliklarning o‘suv davridagi unib chiqishi, g‘unchalash, gullash, dukkak hosil qilish va pishish fazalari kuzatildi va amal davrining davomiyligi aniqlandi. Kuzatuvlar natijasiga ko‘ra eng yaxshi qimmatli-xo‘jalik belgilariga ega bo‘lgan moshning 4 ta nav namunalari tanlab olindi. Olingan namunalarda biometrik tahlil uchun 5 ta dan o‘simlik olinib ularda o‘simlik bo‘yi, pastki dukkak joylashishi, shoxlar soni, bir o‘simlikdagi dukkak soni, bir o‘simlikdagi don vazni va 1000 dona don vazni aniqlandi. Mosh o‘simligi bo‘yicha seleksiya ko‘chatzoridan tanlab olingan nav namunalarda jadvaldan ko‘rinib turibdiki, barcha namunalar nazoratga nisbatan tezpishar bo‘lib, 10-14 oldin pishib yetildi. O‘simlik o‘sish dinamikasi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Mahalliy-3, Namuna -2 va 412630 Fillipin namunalarida kuzatilib, bu ko‘rsatkich 13,4-22,7 sm ga yuqori bo‘lganligi aniqlandi. Bir o‘simlikdagi dukkak soni, don vazni va 1000 ta vazni bo‘yicha Bo‘ka, Namuna-2 (O‘zbekiston) va 412630 Filippin namunalarda ham yaxshi ko‘rsatkichlarga erishildi. Keyingi yilgi tadqiqotda nav namunalari qayta sinab o‘rganiladi va seleksiya jarayoni davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Atabayeva X.N, Sattarov M.A, Idrisov X.A Sug‘oriladigan maydonlarda mosh yetishtirishning intensiv texnologiyasi bo‘yicha tavsiyanoma.Toshkent.2019

2.Atabayeva X.N, Xudoyqulov J.B O‘simlikshunoslik. T “Fan va texnologiya”. 2018

3.Dospexov B,A, “Metodika polevogo opita”, Izd-vo «Kolos» Moskva 1985g

4.O‘zbekistonda ekishga tavsiya etilgan kuzgi bug‘doy, dukkakli don ekinlarining mahalliy va xorijiy navlari hamda ularni parvarishlash” bo‘yicha tavsiyanoma. Andijon 2019 yil

5.Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari.Toshkent. 2007 y.

SOYANING JAHON KOLLEKSIYA KO‘CHATZORIDAGI NAV NAMUNALARINI MORFOBIOLOGIK BELGILARINI TADQIQ ETISH

X.A.Idrisov
Farg‘ona davlat unversiteti q.x.f.f.d (PhD), dosent Email*; idrisovh256@gmail.com*
F.M.Yoqubova
O‘simliklar himoyasi va karantini yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya; Ushbu maqolada soyaning kolleksiya ko‘chatzoridagi nav namunalarining qimmatli xo‘jalik belgilari bayon etilgan. O‘rganishlar natijasida kolleksiya ko‘chatzoridan ajratib olingan nav namunalari morfologik va biologik ko‘rsatkichlari bilan nazorat naviga nisbatan yaxshi bo‘lib, poyasi tik o‘suvchan, bir o‘simlikda dukkaklar soni yuqori va pastki dukkakni joylanishi yuqori bo‘lganligi bilan ajralib turganligi qayd etilgan.

Kalit so‘zlar; Soya, oqsil, moy, karbon suvlari,diploid, botqoq, tuproq, kolleksiya,”O‘zbek-2”, O‘zbek-6”, gul, dukkak,xromosoma,

Аннотатция: В данной статье описаны ценные экономические характеристики сортовых образцов соя в коллекционном питомнике оттенка. Исследования показали, что образцы сорта, выделенные из коллекционных проростков, лучше морфологически и биологически, чем контрольные навигаторы, так как стебель прямостоячий, с большим количеством стручков на растение и большим количеством нижних стручков.

Ключевые слова: соя, белок, масло, карбонат, диплоид, хромосома, болото, почва, коллекция, «Узбек-2», «Узбек-6», цветок, бобовые.

Annotation : This article describes the valuable economic characteristics of varietal samples of soybean in a collection nursery shade. Studies have shown that cultivar samples isolated from collection seedlings are better morphologically and biologically than control navigators, since the stem is erect, with a large number of pods per plant and a large number of lower pods.

Key words: soybean, protein, oil, carbonate, diploid, chromosome, swamp, soil, collection, “Uzbek-2”, “Uzbek-6”, flower, legumes.

KIRISH Aholini to‘yimli oziq-ovqat maxsuloti bilan ta’minlash, oqsil defitsitini hal qilish, o‘simlik moyini ishlab chiqarishni ko‘paytirish, urug‘lik sifatini va tuproq unumdorligini oshirish lozim. Bu muammolarni yechish uchun soya ekinini yetishtirish texnologiyasini yaratish va takomillashtirish zarurdir.

Shu masaladan kelib chiqib, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni keskin o‘zgartirish talab qilinadi. Oziq-ovqat maxsulotlari bilan ta’minlash xozirgi davrda bu iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy muammoga aylangan, chunki aholining o‘sishi bilan baravar oziq-ovqat mahsulotiga talab tobora oshmoqda. Bu muammoni hal qilish bo‘yicha o‘tkazilgan tadbirlar evaziga sug‘oriladigan maydonlarda kuzgi don ekinlaridan don yetishtirish 1372,7 ming gektarni tashkil qildi. Shu borada muhim e’tibor o‘simlik oqsili bilan ta’minlanishiga axamiyat berilmoqda. O‘simlik oqsili bilan ta’minlash esa har xil usullarda xal qilinmoqda. Shu usullardan bir-seroqsilli ekinlarni ko‘prok ekish, bu ekinlarning orasida oqsilining miqdori va sifati bilan soya ekini alohida ajralib turadi [1. 2004:B.95].

Soya donining tarkibida 30-52 % oqsil, 17-27 % moy va 20% karbon suvlari mavjud. Soya ekinining yer yuzida ko‘p tarqalishi donining va oqsilining sifatliligi bilan bog‘liqdir. Doni tarkibidagi oqsil, moy va вощqa muxim organik va ma’dan moddalarning miqdori va nisbati uni xar xil tarmoqlarda qo‘llashga imkon beradi. Soya donidan moy, margarin, pishlok, sut, un, qandolat maxsulotlari, konservalar ishlab chiqariladi. Yer yuzida ishlab chiqarilayotgan o‘simlik moyining 40% ini soya moyi tashkil qiladi [2. 2005:B.18].

Genetikasi. Sp.Glycine soya kenja turlarining hamma shakllari diplod (2n-40). Ammo Glycine turkumining asosiy xromosom to‘plami=10 hisoblash I to‘g‘rirok; bo‘ladi, chunki G. javanica (yavan soyasi) subgen. Glycine ning diploid xromosomalari 2p=20 ga teng.

Dominant belgilarga odatda turning filogenezida ertarok vujudga kelgan belgilar kiradi. Bunday xolat monogen nazorat kilinadigan xam murakkabrok xarakterli (to poligenligacha) belgilarga tegishli. Masalan, o‘rtapisharlilik filogenetik jixatidan erta va kechpisharlilikdan ertarok; shakllangan. Shuning uchun ertapishar bilan o‘rtapishar shakllarni chatishtirganda kechrok pishadigan, o‘rtapisharlar bilan kechpisharlarda esa ertarok pishadigan shakllar dominant bo‘ladi. Yovvoyi soya bilan madaniy soyani chatishtirganda naslida dukkaklari yoriladigan xususiyat dominant bo‘ladi, ikki madaniy navlarni chatishtirganda esa yorilishga chidamlilik dominant bo‘lishi mumkin [4. 2008:B.62].

Soya seleksiyaning vazifalari. Soya ekini seleksiyasining asosiy vazifalari: yuqori hosilli, tezpishar, yotib kolishga, kasalliklarga va zararkunandalarga chidamli, urug‘ining tarkibida moy va oqsil moddasi ko‘p saqlaydigan navlarni yaratishdir.

Tajriba o‘tkazish joyi, sharoiti va uslubi Tajribalar Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti tajriba maydoni dalalarida olib borildi.

Tuproq qatlamlari voha uchun harakterli bo‘lib botqoq tipidagi tuproqlardir. Har xil chuqurlik qatlamlarida esa katta va kichik toshlar va qum aralashmalari ham mavjud. Tuproq-o‘tloqi. Tajriba dalasining tuprog‘i sho‘rlanmagan, xaydov qatlami 30-40 sm. Tuproqdagi eritmalarning rN miqdori 6,8-7,3 birliklarida bo‘lib, mexanik tarkibi bo‘yicha og‘ir loylidir. Tajribalar 13 kartaning 1 chekida olib borildi.

Tajriba uslubi. Soya seleksiyasi qishloq xo‘jalik ekinlarining Davlat Nav Sinov komissiyasi va O‘zShITI tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyanomalar, dala tajriba metodikasi asosida olib borildi [3].

Kolleksiya ko‘chatzorida har bir nav namuna uchun ekin maydoni 1,8 $m^{2.}$ (takroriysiz). Tahlilga 5 tadan o‘simlik olindi. Soya kolleksiya ko‘chatzorlarida fenologik ko‘zatuvlar o‘tkazildi. Bunda soyaning o‘suv davridagi asosiy: unib chiqishi, birinchi uchtalik barg paydo bo‘lishi, g‘unchalash, gullash, dukkak hosil qilish va pishish fazalari kuzatildi va amal davrining davomiyligi aniqlandi.

Tajriba natijalari va muxokamasi. Jahon kolleksiyasi nav namunalaridan tashkil topgan kolleksiya ko‘chatzorida soyaning 238 ta nav namunasi tadqiqot qilindi .Har biri 1,8 m^2 maydonlarda qaytariqsiz , gektariga 60 kg me’yorda, qator oralig‘i 60x10-2 sxemasida aprel-may oylarida ekildi. Nazorat sifatida taqqoslash uchun Respublikamizda rayonlashtirilgan «O‘zbek-2»va «O‘zbek-6»navlari har 10 ta namunadan keyin ekildi.

Kuzatuvlar natijasida kolleksiya ko‘chatzoridagi nav namunalari o‘suv davriga qarab 3-ta guruxga ajratildi. Ertapishar nav namunalar (o‘suv davri 120 kungacha bo‘lgan)-75ta, o‘rtapishar nav namunalar (o‘suv davri -130 kungacha bo‘lgan)-71 ta va kechpishar nav namunalar (o‘suv davri -140 va undan yuqori bo‘lgan)- 65 tani tashkil etdi. Kuzatuvlar o‘simlikning o‘suv davridagi barcha fazalarida (unib chiqish, shoxlanish, gullash, dukkaklash, pishish) olib borildi va pishish davrida kolleksiya ko‘chatzorining har bir nav namunasidan 5-tadan o‘simlik olinib biometrik taxlillar (o‘simlik o‘suv davri, bo‘yi, pastki dukkak joylanishi, shoxlar soni, bir o‘simlikda dukkak soni, don vazni, 1000 ta don og‘irligi) qilindi va asosiy xo‘jalik ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan 9-12 ta nav namunalari tanlab olindi. Tanlab olingan navlarni vegetatsiya davri bo‘yicha ertapishar, o‘rtapishar va kechpishar nav namunalar quyidagicha bo‘ldi:

Ertapishar navlar: **5280, 0128847, 521857, 487833, 514505, 537071**

O‘rtapishar navlar**: 9259, 2878, K-7, Ya-3111**

Kechpishar navlar: **A-1, 4896, K-26, Belosnejka**:

Xulosa.Ushbu kolleksiya ko‘chatzoridan ajratib olingan nav namunalari morfologik va biologik ko‘rsatkichlari bilan nazorat naviga nisbatan yaxshi bo‘lib, poyasi tik o‘suvchan, bir o‘simlikda dukkaklar soni yuqori va pastki dukkakni joylanishi yuqori bo‘lganligi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1.Atabayeva X.N.- Soya- T.Mil.ens., 2004, 95 b
2. Enken V.B., Soya. Selxozizdat 2005; 18 s.
3. Dospexov B.A. Metodika polevogo opita. M., Kolos, 1979.
4.Kochegura A.V.-Seleksiya sortov soi raznix napravleniy, ispolzovaniya-Byull.NTI masl.kultur, 2008.

EKSPERIMENT VA KUZATUV METODLARINING TABIIY FAN DARSLARIDA O‘RNI

Z.T.Yunusova
Sergeli ixtisoslashtirilgan maktab geografiya o‘qituvchisi
e-mail: yunusovazuhra11@gmail.com Tel: +99890 044-01-64

Annotatsiya: Mazkur maqolada eksperiment va kuzatuv metodlarining tabiiy fan darslarida egallagan o‘rni, ularning o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishdagi, mustaqil fikrlash va kuzatish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi roli tahlil qilinadi. Tabiiy fanlar – biologiya, kimyo, fizika va geografiya darslarida eksperimental va kuzatuv asosida bilim berish, nazariy ma’lumotlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish orqali dars samaradorligini oshirishning dolzarbligi ilmiy asosda ochib beriladi. Xorijiy olimlarining tadqiqotlari asosida bu metodlarning o‘quvchilarning faoliyatiga ta’siri tahlil qilinadi, hamda zamonaviy yondashuvlar nuqtayi nazaridan ularning afzalliklari yoritiladi.

Аннотация: В данной статье анализируется роль методов эксперимента и наблюдения в уроках естественных наук, их влияние на формирование научного мировоззрения учащихся, развитие навыков независимого мышления и наблюдения. Актуальность повышения эффективности уроков через объединение теоретических знаний с практическими, на основе экспериментов и наблюдений в таких дисциплинах, как биология, химия, физика и география, раскрывается с научной точки зрения. На основе исследований зарубежных ученых анализируется влияние этих методов на деятельность учащихся, а также рассматриваются их преимущества с точки зрения современных подходов.

Abstract: This article analyzes the role of experimental and observational methods in natural science lessons, their impact on shaping students' scientific worldview, and the development of independent thinking and observation skills. The relevance of enhancing lesson effectiveness by integrating theoretical knowledge with practice through experiments and observations in subjects such as biology, chemistry, physics, and geography is explored from a scientific perspective. Based on research by foreign scholars, the influence of these methods on students’ activities is analyzed, and their advantages are discussed from the standpoint of modern approaches.

Zamonaviy ta’lim tizimining asosiy maqsadi – mustaqil fikrlovchi, hayotiy muammolarni yecha oladigan, tahliliy yondasha oladigan shaxsni tarbiyalashdan iborat. Ushbu maqsadga erishishda ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan metodlar muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, tabiiy fanlar – biologiya, fizika, kimyo

va geografiya kabi fanlarda bilimlar nafaqat nazariy, balki amaliy asosda o‘rganilishi zarur. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, eksperiment va kuzatuv metodlari tabiiy fanlarni o‘rgatishda eng muhim, samarali va ilmiy asoslangan usullardan hisoblanadi.

Tabiiy fanlar o‘zining predmeti, metodologiyasi va maqsadiga ko‘ra voqelikni empirik kuzatish, tajriba o‘tkazish, ma’lumotlarni tahlil qilish, ilmiy gipotezalarni tekshirish va xulosa chiqarishga tayanuvchi sohalardir. Bu fanlarning o‘zlashtirilishi faqatgina nazariy ma’lumotlarni eslab qolish bilan cheklanmasligi, balki o‘quvchilarda real obyektlar va hodisalar bilan ishlash, ularni kuzatish, ularning o‘zgarishini ko‘rish va izohlash orqali sodir bo‘lishi lozim. Shu jihatdan olganda, eksperiment va kuzatuv metodlari tabiiy fanlarni o‘rganishda o‘quvchining bevosita bilish faoliyatini faollashtiradigan vosita sifatida qaraladi.

Eksperiment metodi orqali o‘quvchilar ilmiy hodisalarni sun’iy ravishda yaratilgan sharoitlarda o‘rganadilar, sabab-oqibat bog‘liqliklarini ko‘radilar, muayyan gipotezalarni amaliy yo‘l bilan tekshiradilar. Bunday yondashuv, nafaqat bilimlarni chuqurlashtiradi, balki o‘quvchilarda ilmiy tafakkur, tadqiqotchilik ruhini shakllantiradi. Nemis olimi G. Kershenshteyner ta’kidlaganidek, “Eksperimentlar orqali o‘rgatilgan bilimlar – bu hayotiy va bardavom bilimlardir” [1. 1926:B.27].

Kuzatuv metodi esa tabiatda yoki laboratoriyada hodisalarni tabiiy holicha kuzatish orqali o‘rganishni nazarda tutadi. Kuzatuv – bu har qanday ilmiy tadqiqotning boshlang‘ich bosqichidir. U o‘quvchini voqealarni tahlil qilishga, mantiqiy bog‘liqliklarni topishga va ilmiy xulosalar chiqarishga o‘rgatadi. Ogust Kontning fikricha, “Faqat kuzatuv asosida to‘g‘ri nazariya yaratiladi” [2. 1853:B.28]. Aynan shu nuqtayi nazardan, kuzatuv usuli o‘quvchilarda bilimga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytiradi, fikrlash faoliyatini faollashtiradi.

Zamonaviy pedagogika fanida bilimlar faqat tayyor shaklda emas, balki o‘quvchining o‘z tajribasi orqali shakllanishi kerakligi ta’kidlanmoqda. Bu borada AQShlik ta’limshunos Jon Dyui tomonidan ilgari surilgan “tajriba asosidagi ta’lim” g‘oyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Dyui ta’kidlaydi: “O‘quvchi o‘rganayotgan bilimni o‘z tajribasi orqali his qilmasa, u bilim chinakam o‘zlashtirilmaydi” [3 1916:B.143.].

Eksperiment va kuzatuv metodlarining o‘zaro uyg‘unligi, ularni dars jarayoniga integratsiya qilish imkoniyatlari, metodik yondashuvlar va texnologik vositalar bilan boyitilgan holda qo‘llash – bugungi pedagogikaning dolzarb muammolaridan biridir. Ayniqsa, STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) konsepsiyasi doirasida eksperiment va kuzatuvga asoslangan interaktiv, ijodiy yondashuvlar ta’lim mazmunini yangilaydi, o‘quvchini passiv bilim oluvchidan faol ishtirokchiga aylantiradi.

Shunday qilib, eksperiment va kuzatuv metodlari orqali tabiiy fanlarni o‘rgatish nafaqat o‘quvchining bilimini boyitadi, balki uning fikrlash tarzi, tahlil qilish malakasi va ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu maqolada mazkur metodlarning nazariy asoslari, amaliy imkoniyatlari, xorijiy va mahalliy tajribalardagi qo‘llanilishi, shuningdek, ularni tabiiy fan darslarida samarali tatbiq etish yo‘llari atroflicha tahlil qilinadi.

Eksperiment – bu muayyan ilmiy gipotezani sinovdan o‘tkazish yoki hodisaning xususiyatlarini aniqlash maqsadida nazorat ostida tashkil etilgan tajriba jarayonidir. Ta’lim jarayonida eksperiment metodi o‘quvchining bilishga bo‘lgan ehtiyojini faollashtiradi, uni o‘z mustaqil fikrlari va kuzatuvlari asosida xulosa chiqarishga undaydi. Tabiiy fanlarni (fizika, kimyo, biologiya, geografiya) o‘qitishda eksperiment metodining ahamiyati nihoyatda katta, chunki bu fanlar bilvosita kuzatish va tajriba asosida shakllangan ilmiy qonuniyatlarga tayanadi.

Eksperiment metodi orqali o‘quvchi bevosita ilmiy faoliyatga jalb qilinadi. U ob’yektlar va hodisalarni o‘zi tekshiradi, natijalarni tahlil qiladi, sabab-oqibat bog‘liqliklarini o‘rganadi. Bu esa bilimlarning ongli ravishda o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. Nemis pedagogi G. Kershenshteynerning fikricha, “O‘quvchi faqat eshitish va ko‘rish orqali emas, balki qilish orqali ham o‘rganishi lozim. Eksperiment – bu bilim olishdagi faol harakatdir” [4. 1926:B.26].

Didaktik nuqtayi nazardan olganda, eksperiment metodi quyidagi vazifalarni bajaradi:

- bilimni ongli va barqaror o‘zlashtirishga yordam beradi;
- bilim olish jarayonida o‘quvchining shaxsiy ishtirokini kuchaytiradi;
- ilmiy-tadqiqot ko‘nikmalarini shakllantiradi;
- mustaqil fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish malakalarini rivojlantiradi.

Rossiyalik olim I. Ya. Lerner eksperiment metodini “bilimlarni rekonstruksiya qilish vositasi” sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, “Eksperiment orqali bilimlarni faqat o‘rganilmaydi, balki u qayta

kashf etiladi” [5. 1981:B.65]. Bu holat o‘quvchining ilmiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va uni passiv bilim oluvchidan faol bilim yaratuvchiga aylantiradi.

Eksperiment metodi, shuningdek, konstruktivistik yondashuv bilan hamohang hisoblanadi. Konstruktivizmga ko‘ra, bilim insonning shaxsiy tajribasi asosida quriladi. Bunda o‘qituvchi yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, o‘quvchi esa bilimni shakllantiruvchi subyektga aylanadi. Shu sababli, zamonaviy darslar dizaynida eksperimentlar alohida o‘rin egallaydi.

Bugungi kunda eksperiment metodining yangi shakllari – virtual laboratoriyalar, onlayn simulyatsiyalar, interaktiv tajribalar keng qo‘llanilmoqda. Masalan, kimyo darslarida o‘quvchilar xavfli moddalarsiz elektron muhitda reaksiyalar o‘tkazadi, biologiya darslarida hujayra bo‘linishini 3D modellarda eksperiment tarzida o‘rganishadi. Bunday shakllar, xavfsizlikni ta’minlagan holda, ko‘proq o‘quvchini qamrab olish imkonini beradi.

Eksperiment metodining ijtimoiy-psixologik foydasi ham bor: u o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlikni, jamoaviy fikrlashni, o‘z fikrini dalillay olishni, o‘zaro hurmat asosida munosabat o‘rnatishni rivojlantiradi. Shuningdek, eksperimentlar ko‘pincha muammoli vaziyatlar asosida quriladi, bu esa o‘quvchining muammoni hal etish qobiliyatini faollashtiradi.

Kuzatuv – hodisa, jarayon yoki obyektni maqsadga yo‘naltirilgan ravishda uzluksiz ko‘zdan kechirish va tafakkur orqali tahlil qilish jarayonidir. Bu metod ayniqsa, boshlang‘ich va o‘rta ta’lim bosqichida tabiiy fanlarni o‘rgatishda keng qo‘llaniladi.

Fransuz faylasufi Ogust Kont kuzatuvning ilmiy bilishdagi o‘rnini quyidagicha ta’riflaydi: “Kuzatuv – bu bilimga eltuvchi birinchi eshikdir. U orqali inson voqealar zanjirini idrok etadi va sababni aniqlaydi” [6. 1853:B.28].

O‘quvchilarda kuzatuv asosida quyidagi ko‘nikmalar shakllanadi:

- tafakkur va diqqatni jamlash;
- ma’lumotlarni solishtirish va tahlil qilish;
- xulosa chiqarish;
- real voqelikni idrok etish va unga mos munosabat bildirish.

Zamonaviy metodik yondashuvlar

Bugungi global axborotlashgan jamiyatda ta’limning ustuvor yo‘nalishi – o‘quvchining ijodiy fikrlash, amaliy ko‘nikma va hayotiy muammolarni hal qilishga tayyor bo‘lishidir. Ayniqsa, tabiiy fanlar sohasida bu maqsadlarga erishish eksperiment va kuzatuv metodlarining zamonaviy yondashuvlar bilan uyg‘unlashuvi orqali ro‘yobga chiqmoqda. An’anaviy ta’lim metodlarining cheklovlarini bartaraf etish va fanlararo integratsiyani kuchaytirish uchun turli innovatsion yondashuvlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ularda eksperiment va kuzatuv asosiy tayanch vosita sifatida xizmat qiladi.

Zamonaviy ta’limda eng ommalashgan yondashuvlardan biri bu – STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) konsepsiyasidir. Bu model o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy bilimlarni texnologik va muhandislik tafakkuri bilan bog‘liq holda qo‘llashini nazarda tutadi. STEAM yondashuvida eksperiment va kuzatuvlar nafaqat bilim manbai, balki ijodiy loyiha yaratish, muammoni tahlil qilish va echim ishlab chiqishda vosita sifatida qo‘llaniladi.

Masalan, fizikadan elektr toki mavzusida o‘quvchilar mustaqil tarzda oddiy elektr zanjirini quradilar (eksperiment), undan foydalanish holatlarini kuzatadilar, muammolarni aniqlab, muhandislik yechimlarini ishlab chiqadilar. Bu esa ular orasida tanqidiy va tizimli fikrlashni kuchaytiradi. Finlandiyalik ta’lim mutaxassisi Pasi Sahlberg ta’kidlaganidek, “Haqiqiy o‘rganish o‘quvchining hayratidan boshlanadi, eksperiment va kuzatuv esa aynan shunday hayratni uyg‘otadigan vositalardir” [7. 2011:B.82].

Yana bir dolzarb yondashuv – bu CLIL (Content and Language Integrated Learning), ya’ni fan va tilning integratsiyalashgan holda o‘rgatilishidir. Bu yondashuvda tabiiy fanlar xorijiy tilda o‘qitiladi, eksperiment va kuzatuvlar til o‘rganish vositasiga aylanadi. Masalan, biologiya darsida “Photosynthesis” mavzusida ingliz tilida tajriba o‘tkaziladi. O‘quvchilar nafaqat ilmiy bilimga ega bo‘ladilar, balki chet tilidagi ilmiy terminologiyani ham egallaydilar.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’limga kirib kelishi eksperiment va kuzatuv metodlarining raqamli ko‘rinishlarini yuzaga keltirdi**.** Virtual laboratoriyalar**,** onlayn simulyatorlar**,** interaktiv dars platformalari orqali endi o‘quvchilar real hayotda qimmat yoki xavfli bo‘lgan tajribalarni xavfsiz muhitda bajarishlari mumkin.

Masalan, kimyoviy portlash yoki radioaktiv moddalarning xossalarini o‘rganish uchun laboratoriya sharoitini yaratish qiyin bo‘lsa, virtual muhitda bu jarayonlar simulyatsiya qilinadi. Bu yondashuv:

- xavfsizlikni ta’minlaydi;

- eksperiment xarajatlarini kamaytiradi;
- har bir o‘quvchi uchun individual tajriba maydonini yaratadi;
- masofaviy o‘qitishda qulaylik tug‘diradi.

Shuningdek, mobil ilovalar (Kahoot, Quizlet, Science Journal) va QR-kodli amaliy topshiriqlar eksperiment va kuzatuv jarayonlarini real vaqt rejimida o‘quvchilarning faol ishtirokiga asoslangan shaklga keltiradi.

Tabiiy fanlarni o‘qitishda eksperiment va kuzatuv metodlarining ahamiyati beqiyos bo‘lib, ular o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirish, balki ularni amalda qo‘llay olish, tahlil qilish, kuzatish, sinab ko‘rish, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash, xulosa chiqarish kabi muhim ko‘nikmalarni shakllantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, bu metodlar o‘quvchilarni faollikka undaydi, ularda ilmiy qiziqish uyg‘otadi, tajriba asosida o‘z fikrini asoslashga yordam beradi.

Eksperiment metodi orqali o‘quvchilar bevosita bilim manbai – tabiat hodisalarining o‘zini o‘rganadilar, bu esa ularning darsga bo‘lgan ishtiyoqini oshiradi, mustaqil ishlash malakasini shakllantiradi. Masalan, kimyo yoki biologiya darslarida tajriba o‘tkazish orqali moddalar xossasi, ularning o‘zaro ta’siri, hayotiy jarayonlar to‘g‘risidagi bilimlar ko‘proq tushunarli va unutilmas bo‘ladi. Kuzatuv esa, ayniqsa, ekologiya, geografiya yoki astronomiya fanlarida muhim bo‘lib, murakkab tabiiy jarayonlarni uzoq muddatli o‘rganishga imkon beradi.

Bugungi kunda zamonaviy ta’lim talablari asosida tajriba va kuzatuv metodlari yangi metodik yondashuvlar – STEAM, CLIL, muammoli o‘qitish, tadqiqotga yo‘naltirilgan yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirilmoqda. Bu esa o‘quv jarayonini interaktiv, kompetensiyaga yo‘naltirilgan, hayotga yaqin, natijadorlikka asoslangan qilish imkonini beradi. O‘quvchilarning mustaqil izlanish, eksperiment tashkil qilish, faktlarni solishtirish, ilmiy fikrlash va axborotni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalari aynan shunday faol metodlar asosida rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kershenshteyner, G. (1926). *The Development of the Scientific Mind*. Munich: Beck, p. 42.
2. Comte, A. (1853). The Positive Philosophy of Auguste Comte. London: Chapman. p. 28.
3. Dewey, J. (1916). *Democracy and Education*. New York: Macmillan, p. 175.
4. Lerner, I. Ya. (1981). *Didactic Foundations of Teaching Methods*. Moscow: Pedagogika. c. 89.
5. Sahlberg, P. (2011). *Finnish Lessons: What Can the World Learn from Educational Change in Finland?* New York: Teachers College Press, p. 112.

AZOTOBACTER CHROOCOCCUM BAKTERIYASI BIOLOGIYASI VA EKOLOGIK RO‘LINI O‘RGANISH

N.O.Odilov
Farg‘ona davlat unversiteti, Biotexnologiya mutaxasisligi magistranti nosirjon522@gmail.com
M.V.Obidov
Farg‘ona davlat unversiteti, Zoologiya va umumiy biologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi, b.f.f.d., PhD
muzaffar_bio@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada *Azotobacter chroococcum* bakteriyasining o‘sishni rag‘batlantiruvchi gormonlar ishlab chiqarishi, atmosfera azotini fiksatsiyalashi va tuproq unumdorligini oshirishdagi biologik mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, uning bioremediatsiya jarayonlarida ifloslangan tuproqlarni tiklashdagi roli hamda boshqa bioo‘g‘itlar bilan birgalikda qo‘llanganda hosildorlikka ta’siri yoritilgan.

Аннотация. В данной статье проанализированы биологические механизмы синтеза фитогормонов роста, фиксации атмосферного азота и повышения плодородия почвы бактерией *Azotobacter chroococcum*. Также рассмотрена её роль в биоремедиации загрязнённых почв и влияние на урожайность при совместном применении с другими биоудобрениями.

Annotation. This article analyzes the biological mechanisms by which *Azotobacter chroococcum* produces growth-promoting hormones, fixes atmospheric nitrogen, and enhances soil fertility. Its role in the bioremediation of contaminated soils and its effect on crop productivity when used in combination with other biofertilizers are also discussed.

Kalit so‘zlar: *Azotobacter chroococcum*, rizobakteriya, gibberellin, auksin, sitokinin, bioremediatsiya, konsortsium.

Ключевые слова: *Azotobacter chroococcum,* ризобактерия, гиббереллин, ауксин, цитокинин, биоремедиация, консорциум.
Keywords: *Azotobacter chroococcum,* rhizobacteria, gibberellin, auxin, cytokinin, bioremediation, consortium

Hozirgi kunda qishloq xo‘jaligida o‘simliklarning o‘sishini rag‘batlantiruvchi rizobakteriyalar (PGPR)dan foydalanish istiqbollari kengayib bormoqda. Ular kimyoviy o‘g‘itlar, pestitsidlar va boshqa zararli qo‘shimchalardan foydalanishni almashtirishga xizmat qiluvchi, ekologik xavfsiz va samarali biotexnologik yechim sifatida e’tirof etilmoqda. [Ansari va boshq., 2017., 455-472-b]. Rizosfera mikroorganizmlari ta’sirida ekinlarning umumiy morfologiyasi va fiziologiyasiga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadigan o‘sishni rag‘batlantiruvchi moddalar juda ko‘p miqdorda ishlab chiqariladi. Shular qatorida tuproqda yashovchi, gramm manfiy, erkin yashovchi va azotni biriktiruvchi aerob bakteriyalar guruhi - *Azotobacter* ham alohida ahamiyatga ega. Ushbu bakteriyalar oval yoki sharsimon shaklga ega bo‘lib, noqulay muhit sharoitida qalin devorli sporalar hosil qiladi. *Azotobacter* jinsi 1901-yilda gollandiyalik mikrobiolog, botanik va atrof-muhit mikrobiologiyasining asoschisi - Beijerinck va uning hamkasblari tomonidan birinchi aerobik erkin yashovchi azot fiksatori sifatida tan olingan. Ushbu bakteriyalar atmosfera azotini fiksatsiyalab, uni tuproqda minerallashgan shaklga o‘tkazib, hujayra oqsillari sintezi uchun foydalanadi. Natijada, ushbu bakteriyalar o‘simliklar uchun tuproqdagi biologik jihatdan o‘zlashtiriladigan azotning asosiy manbalaridan birini shakllantiradi. O‘simliklar ustida *Azotobacter chroococcum* bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar uni o‘simliklarning oziqlanishini yaxshilash va tuproq unumdorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi [Kurrey va boshq., 2018., 108-113-b]. Ushbu rizobakteriyalar tomonidan ishlab chiqarilgan moddalar bir nechta jarayonlarda ishtirok etadi, shuning uchun o‘simliklarning ijobiy rivojlanishiga olib keladi [Jnawali va boshq., 2015., 1-5-b]. *A. chroococcum* bakteriyasi o‘simliklarning o‘sishini rag‘batlantiruvchi gormonlar ishlab chiqaradi. 1968-yilda Brown va uning izdoshlari bilan olib borilgan tadqiqotlarida A. *chroococcum* ning bir shtammida uch xil gibberellin kabi moddalarning mavjudligini aniqlagan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, *Azotobacter* bakteriyasi auksinlar, sitokininlar va gibberellinlarga o‘xshash moddalarning sintezi orqali o‘simliklarning o‘sishini kuchaytiradi. [Wani va boshq., 2013., 35-38-b]. Bunday gormonlar rizosferadan ajralib chiqib, yaqin atrofdagi o‘simliklarning o‘sishiga yordam beradi. Barakat va Gabr (1998**),** Puertas va Gonsales (1999**),** Baral va Adhikari (2013) hamda Akram va boshq. (2016**)** olib borgan tajribalarida pomidor, makkajo‘xori va no‘xat kabi ekinlariga *A.chroococcum* qo‘llanganda quruq biomassasi ortganligini aniqlashgan. *A. chroococcum* dan o‘sish garmonlarini olish va ularning o‘simlikka ta’siri orqali mikrobial emlash vositasi sifatida tajribalarida foydalanish ko‘lami qishloq xo‘jaligida hosildorlikni sezilarli darajada yaxshilagan [Gothandapani va boshq., 2017., 35-42-b]. *Azotobacter* atmosfera azotini ammiakga aylantira oladi, bu esa o‘z navbatida o‘simliklar tomonidan o‘zlashtiriladi va undan foydalaniladi [Prajapati va boshq., 2008., 85-90-b]. Garchi *A. chroococcum* qishloq xo‘jaligida muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, uning ikkilamchi metabolitlari hali to‘liq o‘rganilmagan.

Bioremediatsiya atrof-muhitning antropogen ifloslanishini kamaytirishning samarali usuli hisoblanadi. Bioremediatsiya uchun odatda qo‘llaniladigan usullar, birinchi navbatda, ifloslantiruvchi moddalarni bartaraf qilishga qodir bo‘lgan mahalliy tuproq mikroflorasini faollashtirish yoki ifloslangan tuproqqa mikroorganizmlarning samarali izolatlarini kiritishni o‘z ichiga oladi. *Azotobacter* jinsiga mansub erkin azotni biriktiruvchi bakteriyalar tuproq biotasining asosiy qismini tashkil qiladi [Gradova va boshq., 2003., 279-281-b]. *Azotobacter* simbiotik bo‘lmagan mikroorganizmdir. Shuning uchun uni o‘simlik hosildorligini oshirishdagi eng yaxshi samarasi bir martalik qo‘llashdan ko‘ra boshqa bioo‘g‘itlar bilan birgalikda qo‘llaganda namoyon bo‘ladi. *Azotobacter* nafaqat mineral moddalarni o‘zlashtirishni kuchaytirib o‘simliklarga bevosita foyda beradi**,** balki konsortsium (mikroblar aralashmasi) shaklida ishlatilganda boshqa bioo‘g‘itlarning ham samaradorligini oshiradi**.** Shuningdek, *Azotobacter* ning o‘simlik o‘sishini rag‘batlantiruvchi boshqa mikroorganizmlar bilan birga qo‘llanishi bo‘yicha ham bir qator ijobiy natijalar qayd etilgan. Hozirgi paytda *Azotobacter* ni boshqa mikroblar bilan qo‘shib qo‘llash bo‘yicha tadqiqotchilar va fermerlar o‘rtasida yuqori qiziqish mavjud. *Azotobacter* auksinlar va gibberellinlar kabi o‘sish gormonlarini ishlab chiqarishga qodir bo‘lib, bu ildiz o‘sishini kuchaytiradi. Azot fiksatsiyasi, o‘sish gormoni ishlab chiqarish, fosfat eruvchanligi, o‘simlik kasalliklarini boshqarish va tuproq unumdorligi yaxshilash orqali o‘simliklarni kasalliklardan himoya qilish hususiyati tufayli *Azotobakter* ekologik toza va barqaror ekinlarni yetishtirish uchun bioo‘g‘it sifatida ishlatiladigan eng yaxshi variantlardan biridir.

Xulosa. *Azotobacter chroococcum* o‘sishni rag‘batlantiruvchi gormonlar ishlab chiqarishi, atmosfera azotini fiksatsiyalashi va tuproq unumdorligini oshirish orqali qishloq xo‘jaligida muhim ahamiyat kasb etadi. Uning bioremediatsiya va bioo‘g‘itlar bilan konsortsiumda qo‘llanishi ekin hosildorligini oshirish hamda ekologik barqaror dehqonchilikni rivojlantirishda istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yhati

1. Ansari R.A., Rizvi R., Sumbul A., Mahmood I. Probiotics and Plant Health. Springer; Singapore: 2017. PGPR: current vogue in sustainable crop production; pp. 455–472.
2. Kurrey D.K., Sharma R., Lahre M.K., Kurrey R.L. Effect of Azotobacter on physio-chemical characteristics of soil in onion field. Pharma Inn. J. 2018;7(2):108–113.
3. Jnawali A.D., Ojha R.B., Marahatta S. Role of Azotobacter in soil fertility and sustainability–A review. Adv. Plants Agric. Res. 2015;2(6):1–5.
4. Wani S.A., Chand S., Ali T. Potential use of Azotobacter chroococcum in crop production: an overview. Curr. Agric. Res. J. 2013;1(1):35–38.
5. Gothandapani S., Sekar S., Padaria J.C. Azotobacter chroococcum: Utilization and potential use for agricultural crop production: An overview. Int. J. Adv. Res. Biol. Sci. 2017;4(3):35–42.
6. Prajapati K., Yami K.D., Singh A. Plant growth promotional effect of Azotobacter chroococcum, Piriformospora indica and vermicompost on rice plant. NAST. 2008;9:85–90.
7. Gradova N.B., Gornova I.B., Eddaudi R., Salina R.N. Use of bacteria of the genus Azotobacter for bioremediation of oil-contaminated soils. Appl. Biochem. Micro. 2003;39(3):279–281.

O’QUVCHILARNING INGLIZ TILIDA OG’ZAKI NUTQ KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA STEAM TEXNOLOGIYASINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

D.A.Eshonova
Abdulla Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodlarga o’rgatish milliy-tadqiqot instituti doktaranti
eshonova_dilnoza@mail.ru +998937288862

Annotatsiya Bugungi kunda ta’lim jarayonida innovatsion metod va yondashuvlarning qo‘llanilishi, ayniqsa, xorijiy til o‘qitishning mazmuni va shaklini tubdan o‘zgartirib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, STEAM texnologiyasi nafaqat tabiiy va aniq fanlarni integratsiyalash, balki til o‘rgatishda ham yangi yondashuvlar yaratishga xizmat qilmoqda. Tilni amaliy kontekstda, ya’ni ilmiy, texnologik, san’at va muhandislik asosli muhitda o‘rganish o‘quvchilarda og‘zaki nutq kompetensiyasining samarali shakllanishiga zamin yaratadi. STEAM yondashuvi orqali o‘quvchilar muayyan masalalarni hal qilishda ingliz tilidan vosita sifatida foydalanadi, bu esa ularning muloqotga tayyorligi, fikr ifoda qilish salohiyati va tilga nisbatan ichki motivatsiyasini oshiradi. Bunday metodika o‘quvchining og‘zaki nutqini rivojlantirishni nazariy bilimlar bilan emas, balki real hayotiy kontekstlar va jamoaviy faoliyatlar orqali amalga oshiradi. Ayniqsa, loyiha asosidagi o‘qitish, rolli o‘yinlar, interaktiv prezentatsiyalar va raqamli vositalardan foydalanish til kompetensiyasining tabiiy va ongli shakllanishiga xizmat qiladi. Ushbu tezisda STEAM texnologiyasining ingliz tili o‘qitishdagi didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi, shuningdek, og‘zaki nutq ko‘nikmalarini shakllantirishda qanday strategiyalar samarali ekani ilmiy va amaliy misollar orqali yoritiladi.

Kalit so‘zlar: STEAM yondashuvi, didaktik imkoniyat, og‘zaki nutq, loyiha asosidagi o‘qitish (PBL), multimodal resurslar, til o‘rgatish metodikasi, fanlararo integratsiya, 21-asr ko‘nikmalari, kommunikativ kompetensiya, boshlang‘ich ta’lim.

Аннотация На сегодняшний день внедрение инновационных методов и подходов в образовательный процесс кардинально меняет содержание и формы преподавания иностранных языков. С этой точки зрения, технология STEAM служит не только интеграции естественных и точных наук, но и созданию новых подходов в обучении языкам. Изучение языка в практическом контексте — в среде, основанной на науке, технологиях, искусстве и инженерии — создает основу для эффективного формирования устной речевой компетенции учащихся. Благодаря STEAM-подходу учащиеся используют английский язык как средство для решения конкретных задач, что повышает их готовность к коммуникации, способность выражать мысли и внутреннюю мотивацию к изучению языка. Такая методика развивает устную речь не за счёт теоретических знаний, а через

реальные жизненные ситуации и совместную деятельность. Особенно эффективными являются проектное обучение, ролевые игры, интерактивные презентации и использование цифровых инструментов, способствующие естественному и осознанному формированию языковой компетенции. В данном тезисе анализируются дидактические возможности технологии STEAM в преподавании английского языка, а также рассматриваются эффективные стратегии формирования устной речи на основе научных и практических примеров.

Ключевые слова: STEAM-подход, дидактический потенциал, устная речь, обучение на основе проектов (PBL), мультимодальные ресурсы, методика преподавания языка, межпредметная интеграция, навыки XXI века, коммуникативная компетенция, начальное образование

Annotation Nowadays, the application of innovative methods and approaches in the educational process is fundamentally transforming the content and format of foreign language teaching. From this perspective, the STEAM approach serves not only to integrate natural and exact sciences, but also to develop new strategies in language instruction. Learning a language in a practical context — within a scientific, technological, artistic, and engineering-based environment — creates a solid foundation for the effective development of students’ speaking competencies. Through the STEAM approach, students use English as a tool to solve specific problems, which increases their communication readiness, ability to express ideas, and intrinsic motivation toward language learning. This methodology promotes speaking skills not through theoretical knowledge, but through real-life contexts and collaborative activities. In particular, project-based learning, role-playing, interactive presentations, and the use of digital tools contribute to the natural and conscious formation of language competencies. This thesis analyzes the didactic potential of STEAM technology in English language teaching and explores effective strategies for developing speaking skills through scientific and practical examples.

Keywords: STEAM approach, didactic potential, oral speech, project-based learning (PBL), multimodal resources, language teaching methodology, interdisciplinary integration, 21st-century skills, communicative competence, primary education

Didaktik imkoniyat-bu **muayyan metod, vosita yoki texnologiyaning ta'lim jarayonida o‘qitish, o‘rganish va tarbiyaviy maqsadlarga erishishdagi pedagogik foydaliligi** demakdir. Oddiy qilib aytganda: “Didaktik imkoniyat” — bu o‘quvchini yaxshiroq o‘qitish, tushuntirish, qiziqtirish yoki uni faolroq jalb qilishga xizmat qiladigan usul yoki texnologiyaning kuchli tomonlari.

Misol 1: STEAM texnologiyasining didaktik imkoniyatlari

STEAM komponenti	Didaktik imkoniyatlari
Science (Fan)	Analitik fikrlashni, sabab-oqibat bog‘liqligini tushunishni o‘rgatadi.
Technology	Interaktiv darslar orqali o‘quvchini jalb qiladi, vizual fikrlashni rivojlantiradi.
Engineering	Muammo yechishga yo‘naltirilgan til mashqlarini yaratish imkonini beradi.
Art	Tilni estetik va hissiy kontekstda qo‘llashga yordam beradi (masalan, tasvirlab berish).
Mathematics	Ingliz tilida hisob-kitob, so‘rash, ifodalash, solishtirish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Zamonamizdagi ta’lim paradigmasi nafaqat til va fan bilimlarini berishga, balki o‘quvchilarning kommunikativ, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va hamkorlik kabi 21-asr ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvi aynan shu maqsadni amalga oshirishda kuchli vosita bo‘lib xizmat qiladi.

STEAM metodikasining asosiy didaktik imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

1. **Interdisciplinar o‘quv muhitini yaratish**, bu esa tilni kontekstga joylashtirib, og‘zaki nutqni haqiqiy muloqot vaziyatlariga mos shaklda rivojlantiradi.
2. **Loyihaviy va interaktiv o‘qitish**, o‘quvchilarda mavzuni tushunishga emas, balki ifodalashga bo‘lgan ehtiyojni uyg‘otadi.
3. **Multimodal resurslar (audio-video, AR, raqamli storytelling)** yordamida og‘zaki kompetensiyani turlilikda rivojlantirish imkonini beradi.

4. **Hamkorlik va guruhli faoliyatlar** orqali kommunikativ nutq va ijtimoiy kompetensiyalar mustahkamlanadi.

Masalan, STEAM-PBL (Project-Based Learning) yondashuvi bolalarda nafaqat kommunikativ, balki ijtimoiy-interfaol va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, interaktiv robotika to‘plamlari o‘quvchilarda mavzuni anglab yetish va uni muloqot vositasida ifodalashga yordam beradi.

Quyidagi jadvalda STEAM texnologiyasining og‘zaki nutqni rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlari ko‘rsatib o‘tilgan:

Didaktik imkoniyat	Ta’lim jarayonida qo‘llanishi	Og‘zaki nutqga ta’siri
Loyihaviy yondashuv (PBL)	STEAM-tema asosida guruh loyihalari.	Mavzuni ifodalash, izoh berish (speaking fluency)
Multimodal vositalar	Digital storytelling, AR ilovalari.	Nutq boyligini kengaytirish, motivatsiya oshadi
Hamkorlikda o‘qish	Robotika, guruhlarda konstruktsiya.	Ijtimoiy nutq, interaktiv dialoglar
Multidisiplinar kontekst	Matematika+fan+ingliz tili integratsiyasi.	Muloqotda mavzuni chuqur tushunish
O‘yinli metodlar (RO-CLT)	Role-play, o‘yin asosida dars.	Spontan nutq, kommunikativ erkinlik

Mavzu: School
Sinfi: 1-sinf
Maqsad: O‘quvchilar “school” mavzusiga oid so‘zlarni bilish, talaffuz qilish, va og‘zaki gaplarda qo‘llay olishsin.
STEAM komponentlari asosida til va ko‘nikmalarni integratsiyalash
So‘zlar to‘plami (Vocabulary)

1. School – maktab
2. Teacher – o‘qituvchi
3. Student – o‘quvchi
4. Pencil – qalam
5. Desk – parta
6. Book – kitob
7. Board – doska
8. Bag – sumka
9. Chair – stul
10. Notebook – dafter

S – Science (Fan)
Mashq 1: “What do we see?”
Vazifa: Rasmlar orqali ob’ektlarni aniqlash va gap tuzish
Topshiriq: Rasmga qarab ayting:
“I see a pencil.”
“The board is white.”
“The desk is brown.” (O‘qituvchi har bir ob’ektning moddasini, rangini so‘raydi – *What color is the board?*)
Mashq 2: “Hard or soft?”
Vazifa: Predmetlarning xossasini aytish
Topshiriq:
“The pencil is hard.”
“The bag is soft.” (Talab: o‘quvchi ob’ektlarni teginib ko‘rib ta’riflaydi)
T – Technology **Mashq 1: “What is it for?”**
Vazifa: Ob’ektlar funksiyasini og‘zaki aytish **Topshiriq:**
“This is a board. We write on it.”
“This is a computer. We watch videos.”
Mashq 2: “Digital match”
Vazifa: Interaktiv taqdimot yoki ilova orqali rasm va so‘zlarni bog‘lash
Rasmni ko‘rsatib: *“Click on the pencil!”*
O‘quvchi so‘zlab aytadi: “This is a pencil.”

E – Engineering
Mashq 1: “Build your school”
Vazifa: Qurilish materiallari bilan mini maktab modeli qurish
O‘quvchi jarayonni izohlaydi:
“First, I put the desk. Then, the board.”
Mashq 2: “Fix the class”
Vazifa: Darsxona qismlarini joyiga qo‘yish (tasvirlar bilan)
“Where is the board?” — “Put it on the wall.”
“Where is the chair?” — “Put it near the desk.”
A – Art
Mashq 1: “Draw your classroom”
Vazifa: Maktab darsxonasini chizish va og‘zaki ta’riflash
“This is my classroom. There is a teacher and a board.”
Mashq 2: “My pencil is a hero”
Vazifa: Oddiy ob’ektni jonlantirish va ifodalash
“My pencil is yellow. It can draw a star!”
M – Mathematics
Mashq 1: “How many?”
Vazifa: Sanash va gap tuzish
“I see 3 books.”
“There are 2 chairs.”
Mashq 2: “Shapes in class”
Vazifa: Darsxona ichidan shakllarni topish
“The board is a rectangle.”
“My desk is square.”
Yakuniy faoliyat (Speaking integration)
O‘quvchilarga mini-dialog:
“What do you have in your bag?”“I have a book, a pencil and a notebook.”

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, STEAM texnologiyasi xorijiy til o‘qitish jarayoniga yangi didaktik imkoniyatlarni olib kiradi. Bu yondashuv orqali o‘quvchilar nafaqat til o‘rganadilar, balki uni real kontekstda qo‘llashga, fikr bildirishga va muammolarni hal qilishda vosita sifatida ishlatishga o‘rganadilar. Loyiha asosidagi yondashuv, multimodal vositalar, interaktiv metodlar va fanlararo integratsiya orqali o‘quvchilarning og‘zaki nutq ko‘nikmalari samarali rivojlanadi. Ayniqsa, 1-sinfda mavzuni STEAM komponentlari bilan uyg‘unlashtirish o‘quvchilarni darsga qiziqtiradi, ularni faol va ijodkor shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Abadiyotlar ro‘yxati:

1.Bequette, J. W., & Bequette, M. B. (2012). A Place for Art and Design Education in the STEM Conversation. *Art Education*, 65(2), 40-47. https://doi.org/10.1080/00043125.2012.11519167

2.Graham, C. R., Burgoyne, N., Cantrell, S., Smith, L., Stowe, K., & Khan, S. (2013). Integrating Technology in the Classroom: The STEAM Approach to Learning. *Journal of Educational Technology*, 12(2), 45-56.

3,Hadi, S., & Zahra, F. (2019). Project-Based Learning and Its Effect on Developing Speaking Skills in English Language Learners. *International Journal of Language Teaching and Education*, 3(1), 25-35.

4.Liao, C. C., & Chen, H. C. (2017). Using Multimodal Resources to Enhance Speaking Competence in EFL Contexts. *Computers & Education*, 111, 43-57. https://doi.org/10.1016/j.compedu.2017.04.006

5.Morrison, J., Ross, S., & Kemp, J. (2021). *Designing Effective Instruction: Integrating STEAM in Language Learning*. Routledge.

D.T.Isroilova
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sanatoriya, sihatgohlarning zamonaviy boshqaruv tuzilishi taqdim etilgan bo‘lib kelgusida rekreatsion turizm korxonalarini rivojlantirish uchun foydali takliflar berilgan.
Kalit so‘zlar: turizm, rekreatsiya, mahnat ta’tili, sanatoriya, sihatgoh, chiziqli-pog‘onali boshqaruv, matritsali boshqaruv, strategiya, rentabellik, asosiy faoliyat, qo’shimcha faoliyat
Annotatsion: This article presents the modern management structure of sanatoriums and health resorts and provides useful suggestions for the future development of recreational tourism.
Key words: tourizm, recreation, work vacation, sanatorium, health resort, linear-step management, matrix management, strategy, profitability, main activity, additional activity
Аннотация: В статье представлена современная структура управления санаториями и курортами, а также даны полезные предложения по дальнейшему развитию предприятий рекреационного туризма.
Ключевые слова: туризм, отдых, отпуск, санаторий, курорт, линейно-шаговое управление, матричное управление, стратегия, рентабельность, основная деятельность, дополнительная деятельность

Turizm sohasi insoniyatni doimo diqqat markazida bo‘lgan faoliyat turlaridan biridir. Imkon topildi deguncha zamon va makonni o‘zgartirish insoniyatga xosdir. Turizmga ingliz tadqiqotchisi A.Y.Fliyer “Turizm insonni va uning tana qiyofasini tuzatuvchi intelektual dam olish usulidir” deb ta’rif bergan [1].

Tarixdan ma’lumki buyuk ipak yo‘li orqali ham savdo-madaniy aloqalar olib borilgan ham dastlabki turistik xo‘jaliklar tashkil topgan. Ushbu xo ‘jaliklar turli yurtlarda xar hil nomlar bilan nomlanib bizda ko‘proq karvonsaroy nomi keng tarqalgan. Karvonsaroylarda ham turizm xizmatlari tashkil etilgan bo‘lib tunash, ovqatlanish kabi dastlabki servis tizimlari mavjud bo‘lgan. Manbalarda davolash-rekreatsion xizmatlar haqida malumotlar keltirilmagan bo‘lsada lekin tibbiy xizmat ko‘rsatishning dastlabki ko‘rinishlari bo‘lgan deb taxmin qilish mumkin. Turizm dastlab boy va ziyoli qatlamgagina xos bo‘lgan keyinchalik 19-asrning 2-yarmiga kelib dengiz bo‘yidagi dam olish maskanlari va mineral suvli kurortlar mashxur bo‘ldi. 20-asrga kelib mehnat ta’tili (otpuska) qonun bilan belgilanishi sog‘lomlashtirish turizmini rivojlanishiga olib keldi.

Sog‘lomlashtirish turizmining eng keng tarqalgan ko‘rinishlaridan biri bu rekreatsion turizmdir. «Rekreatsiya» (polyak tilida rekreacja – dam olish, rekreation – qayta tiklash ma’nolarini anglatadi) deganda insonning mehnat faoliyati davomida yo‘qotgan kuchlarini qayta tiklashi tushuniladi[2].

Rekreatsion xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar odatda sanatoriya, sihatgoh, kurort nomi bilan yuritilgan. Sanatoriya-kurort muassasalari – eng avvalo tabiiy davolash omillari(iqlim,mineral suvlar, shifobaxsh loylar va boshqalar) qo ‘llanishiga asoslangan va sog ‘likni tiklovchi davolashlar uchun mo ‘ljallangan ixtisoslashtirilgan statsionarlar tibbiyot muassasalari .Ularga sanatoriyalar, sanatoriya profilaktoriyalar, davolovchi pansionatlar, kurort poliklinikalari, balneologik shifoxonalar, loy bilan davolash shifoxonalari, doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi ixtisoslashtirilgan bolalar sanatoriya lagerlari kiradi.Ular odatda kurort va davolash sog‘lomlashtirish hududlarida, yani tabiiy davolash manbalari va aholining tabiat qo‘ynida dam olish va davolanishi uchun tashkillashtirish imkoniyati bo‘lgan hududlarda joylashadi [3].

Mamlakatimizda xususan Farg‘ona viloyatida rekreatsion turizmni rivojlanish tarixi. (1920-1991-yillar) Farg‘ona viloyatida turistik rekreatsion faoliyat sobiq sovet ittifoqi davrida rivojlana boshladi lekin bu davrgacha ham mahalliy ko’rinishda mavjud bo‘lgan. Chortoq, Chimyon, Xonobod, So‘x, Yordon, Qizil suv kabi tog‘li hududlarda sanatoriyalar, dam olish uylari, bolalar oromgohlari tashkil etilgan. Bu davrda moliyalashtirish asosan davlat hisobidan amalga oshirilgan bo‘lib, sanatoriyalar davlat mulki hisoblangan. Mijozlar asosan kasaba uyushmalari orqali maxsus yo‘llanma asosida yuboriladigan ishchilar bo‘lgan. Davolash asosan mineral suvlar, tog‘ havosiga asoslangan.


1991-2020-yillarga kelib mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritdi va albatta barcha sohada bo‘lgani kabi turizm sohasida ham o‘zgarishlar boshlandi. Sanatoriya, davolash maskanlarining davlat tasarrufidan chiqarilib xususiylashtirildi, ijaraga berildi. Bu davrga kelib sobiq sovet ittifoqi davrida qurilgan sanatoriyalar tamirga muxtoj bo‘lib qolgan edi.

2020-yil va hozirgi kunga kelib hukumat tomonidan turizmni hususan rekreatsion turizmni rivojlantirish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqilgan va bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Xususan, “Yangi O‘zbekiston” turizm strategiyasi doirasida Chimyon, Chortoq va boshqa tog‘li hududlarda infratuzilma rivojlantirilmoqda. “Sanatoriyalarni modernizatsiya qilish dasturi-2025-2030” asosida mavjud sanatoriyalarni rekonstruksiya qilish rejalashtirilmoqda. Shuningdek hokimlik qarorlari ishlab chiqilgan bo‘lib, Farg‘ona viloyati hokimligining 2022-2026-yillarga mo ‘ljallangan turizmni rivojlantirish dasturining qabul qilinganligi sohada yangi imkoniyatlarni ochib beradi.

Xodimlar va yoshlarni qo ‘llab-quvvatlash maqsadida eng faol o‘qituvchi va o‘quvchilarga bepul sanatoriya yo‘llanmalari berish yo‘lga qo‘yilmoqda.

Mamlakat miqyosida xususan korxonalarda ishchi xodimlarni dam olish sharoitlarini yaxshilash, ularni ta’til vaqtini mazmunli tashkil etish bo ‘yicha islohotlar olib borilmoqda. Kelgusi dolzarb masala bu sanatoriya, sihatgohlar moddiy-texnik bazasini yangilash, xizmat turlarini ko‘paytirish, modernizatsiyalash, rekonstruksiyalash bilan bir qatorda boshqaruv tizimini takomillashtirishdan iboratdir.


1-jadval **Korxona boshqaruv tizimining chiziqli usulli**



Bu chiziqlli-pog‘onali boshqaruv uzilishi rejali iqtisodiyot davriga ko‘proq mos hisoblanadi, lekin hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruv tizimini qayta ko‘rib chiqish talab etiladi. Chunki raqobat, marketing, bozor konyukturasi, talab va taklif hajmi juda o‘zgaruvchan. Korxona rentabelligiga ta’sir ko‘rsatayotgan har bir omilni hisobga olish uchun shu omilni kuzatuvchi, boshqaruvchi, nazorat qiluvchi tizim faol harakatda bo‘lishi lozim.

2-jadval

Zamonaviy sanatoriya, sihatgoh boshqaruvining matritsali tuzilishi



Yuqoridagi jadvalda boshqaruvning matritsali usuli taqdim etilgan bo‘lib tavakkalchilikka asoslangan bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarni boshqarishda samarali hisoblanadi.Chizmada bosh menejerning asosiy vazifasi umumiy faoliyatni taminlash hisoblansa, bosh vrach rekreantlarga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish bo’yicha javobgar hisoblanadi. Risklarni boshqarish bo‘limi xizmat ko‘rsatish vaqtida yuzaga keladigan transport, yetkazib berish, bank-moliya-soliq, ishchi-xizmatchilarning sog‘liklari tufayli sodir bo‘ladigan favqulotda holatlarda holatni ijobiy hal etishga xizmat ko‘rsatuvchi bo‘lim hisoblanadi.

Boshqaruvning matritsali usuli barcha omillarni qamrab olishi bilan boshqa usullardan farqlanadi va samaraliroq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.A.Y.Fliyer. Massovaya kultura i eyo sotsialnie funksii//ONS.1988.№6.S.144-146
2. Kuskov. A.S, Golubeva. V.L, Odinsova. T.N. Rekreatsionnaya geografiya. Uchebno-metodicheskiy kompleks.-M.: MPSI, Flinta. 2005
3.O‘zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi “O’zbekistonda turizm” 2020-2023-malumotlar to‘plami, Toshkent-2024, 17-bet
4.www.uz.stat malumotlari

LINGUISTIC AND TRANSLATIONAL ASPECTS OF ENGLISH AND UZBEK MICROTEXTS

A.A.Xamidova
Independent researcher of Namangan State University

Abstract. This article explores the linguistic and translational features of microtexts in English and Uzbek, focusing on tongue twisters, riddles, and proverbs. It examines the structural, phonetic, and cultural elements of these short texts and the challenges they present in translation. Through comparative analysis, the study highlights how phonology, metaphor, and cultural context influence meaning and translatability. The findings emphasize the importance of functional equivalence and creative strategies in effectively translating microtexts across languages.

Keywords: microtexts, tongue twisters, riddles, proverbs, translation, English, Uzbek, linguistics, cultural equivalence, functional translation.

Introduction. Microtexts such as tongue twisters, riddles, and proverbs hold a significant place in both English and Uzbek languages. These short, often rhythmical expressions are rich in linguistic structure and cultural meaning, serving various functions such as entertainment, education, moral instruction, and memory training. Despite their brevity, microtexts encapsulate complex syntactic, phonetic, and semantic features, making them valuable resources for linguistic and translational analysis. Their widespread use in daily speech, folklore, and literature reflects their cultural importance and the way they shape language identity.

In translation, microtexts present unique challenges due to their reliance on sound patterns, wordplay, metaphor, and cultural references. Translating tongue twisters, for example, requires maintaining phonetic complexity, while riddles demand a careful balance of semantic ambiguity and logical coherence. Proverbs, often deeply rooted in cultural traditions, must be interpreted in ways that preserve their meaning and moral message in the target language. This study aims to explore the linguistic and translational characteristics of English and Uzbek microtexts, highlighting both their similarities and differences and the strategies required for accurate and culturally sensitive translation.

Literature Review

The study of microtexts—such as tongue twisters, riddles, and proverbs—has garnered considerable attention in the fields of linguistics, folklore, and translation studies. Scholars like Mieder (2004) emphasize the importance of proverbs in reflecting a society's worldview, values, and wisdom. Similarly, Nilsen & Nilsen (1978) highlight tongue twisters as tools for phonological development and speech training, showcasing their linguistic complexity. In Uzbek linguistics, researchers have explored the didactic role of riddles and proverbs in oral traditions, emphasizing their function in preserving cultural knowledge and moral education. These studies affirm that microtexts are not merely linguistic phenomena but are also embedded in social and cultural practices.

From a translational perspective, researchers such as Newmark (1988) and Baker (1992) have explored the challenges of translating culturally loaded and stylistically marked texts, including microtexts. Translating tongue twisters, for instance, requires the recreation of sound patterns rather than literal meaning, while riddles often depend on logic or wordplay that may not directly translate across languages. Proverbs present yet another challenge, as their meanings are frequently tied to cultural experiences and historical contexts. Scholars agree that achieving functional equivalence is essential in the translation of microtexts, which often calls for creative and adaptive strategies rather than word-for-word rendering. This

literature provides a solid foundation for analyzing the linguistic and translational features of English and Uzbek microtexts.

Results and Discussion

The comparative analysis of English and Uzbek microtexts revealed distinct linguistic features in each category—tongue twisters, riddles, and proverbs—highlighting differences in sound systems, syntactic structures, and cultural references. English tongue twisters tend to focus on alliteration and consonant clusters (e.g., “She sells seashells by the seashore”), which challenge pronunciation through repetition and rhythm. Uzbek tongue twisters, on the other hand, often use vowel harmony and syllabic repetition (e.g., “Oq otli otinchi otini o‘tirgan joyidan otdi”), which reflects the agglutinative nature of the language. These structural differences influence how tongue twisters function and how they must be adapted in translation to retain their phonological playfulness.

When comparing riddles, it became clear that English riddles are frequently based on logical puzzles, metaphors, or wordplay, such as double meanings or homophones (e.g., “What has hands but cannot clap?” – a clock). In contrast, Uzbek riddles often include vivid imagery, rural life references, and metaphorical clues grounded in local culture and nature (e.g., “Oyog‘i yo‘q yuguradi, qo‘li yo‘q uradi” – shamol, meaning wind). These cultural underpinnings make direct translation difficult; preserving the metaphorical sense and the element of surprise often requires a shift in wording or cultural context in the target language. As a result, translators must sometimes replace source riddles with culturally equivalent target-language riddles to maintain communicative effectiveness.

Proverbs, the most culturally bound among microtexts, demonstrated the greatest variation and translational complexity. While both English and Uzbek proverbs often convey universal themes such as wisdom, patience, and morality, their expressions differ widely. For instance, the English proverb “Don’t count your chickens before they hatch” has a close Uzbek equivalent: “Tovuqni ko‘rib, go‘shtini so‘rashma” (Don’t ask for the meat before seeing the chicken). However, not all proverbs have direct equivalents, necessitating creative adaptation to maintain both the meaning and the cultural resonance. In some cases, a functional or dynamic equivalence approach proves more effective than literal translation. These findings confirm that microtexts are deeply rooted in language and culture, requiring nuanced linguistic and cultural competence in translation.

Conclusion. This study demonstrates that English and Uzbek microtexts—specifically tongue twisters, riddles, and proverbs—exhibit distinctive linguistic and cultural characteristics that pose intriguing challenges for translation. Tongue twisters demand phonetic creativity to preserve rhythm and alliteration; riddles require a balance between semantic ambiguity and cultural imagery; and proverbs call for careful handling of culturally rooted meaning. Translating such texts effectively often means moving beyond literal rendering toward adaptive strategies that ensure phonological impact, metaphorical clarity, and cultural resonance. Ultimately, successful transfer of these microtexts between English and Uzbek hinges on a translator’s ability to maintain functional equivalence, linguistic form, and cultural intent, thereby enabling these compact yet rich forms to retain their value and vibrancy across languages.

References:

1. Baker, M. (1992). In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge.
2. Mieder, W. (2004). Proverbs: A Handbook. Greenwood Press.
3. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. Prentice Hall.
4. Nilsen, D. L. F., & Nilsen, A. P. (1978). Language Play: An Introduction to Linguistics. Newbury House Publishers.
5. Karimov, A. (2012). O‘zbek xalq topishmoqlari va ularning tarjima masalalari. Toshkent: Fan.
6. Sayfullayeva, D. (2020). “O‘zbek matallarining ingliz tiliga tarjimasida ekvivalentlik muammolari.” Filologiya masalalari, 1(3), 75–80.
7. Crystal, D. (2003). The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge University Press.
8. Hatim, B., & Mason, I. (1997). The Translator as Communicator. Routledge.

B.A.Qarshiyev
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi qarshiyev.b@bk.ru

Annonatsiya: Mazkur maqolada gallyutsinatsiya adabiy hodisa sifatida talqin etilib, badiiy asar strukturasida tutgan o‘rni Qo‘chqor Norqobil qissalari misolida ochib berilgan.
Kalit so‘zlar: gallyutsinatsiya, ong oqimi, assotsiativ sujet, ichki nutq, badiiy xarakter, ramziylik
Аннотация: В данной статье на примере рассказов Кочкора Норкобиля трактуется галлюцинация как литературное явление и раскрывается ее место в структуре художественного произведения.
Ключевые слова: галлюцинация, поток сознания, ассоциативный сюжет, внутренняя речь, художественный персонаж, символика
Abstract: This article interprets hallucination as a literary phenomenon and reveals its place in the structure of a work of art using the example of the stories of Kochqor Norqobil.
Keywords: hallucination, stream of consciousness, associative plot, inner speech, artistic character, symbolism

Adabiy qahramonning ruhiy-psixologik holatini ochib beruvchi vositalardan biri gallyutsinatsiya bo‘lib, u badiiy tasvir jarayonini originallashtirish, qahramonning holatini to‘liq ko‘rsatib berish va kitobxon tasavvurida voqelik haqida chuqur taassurit qoldirishda muhim badiiy vosita hisoblanadi. “Ruscha-o‘zbekcha psixologiya terminlarining izohli lug‘ati”da esa ““Gallyutsinatsiya (*lot.hallucinatio – alahlash, bosinqirash, valdirash*) – gallyutsinatsiya, real voqelikdagi narsa va hodisalarning analizatorlarga bevosita ta’sirisiz ongimizda turli obrazlarning xayoliy ravishda paydo bo‘lishidan iborat psixopatologik hodisa. Gallyutsinatsiya sezgi a’zolarimizning nomlariga qarab ko‘ruv, eshituv, hid va boshqa turlarga bo‘linadi. Gallyutsinatsiya psixik kasallikning belgisi bo‘lib, bosh miya qobig‘idagi qovzg‘olish protsesslarining patologik sustligi natijasida, ba’zam merv sistemasining zaharlanishi yoki haddan tashqari toliqishi natijasida ro‘y beradi” – deya ta’rif beriladi [5.1975:B.40]. Demak, ushbu psixologik jarayon “ongimizda turli obrazlarning xayoliy ravishda paydo bo‘lishi” natijasi o‘laroq adabiy qahramonni harakatga keltirish, uning ichki holatini ongli va ongsiz rakurslarda tasvirlash imkoniyatini yaratib beradi. Ushbu adabiy hodisa o‘zbek adabiyotining zabardast yozuvchilaridan biri Qo‘chqor Norqobil asarlarida yorqinroq ko‘rinish berishini ham alohida e’tirof etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Qo‘chqor Norqobil urush mavzusida qalam tebratgan ustozlari va qalamdoshlari uslubidan to‘g‘ridan to‘g‘ri foydalanmadi, ularga ko‘r-ko‘rona ergashmadi. Yozuvchi afg‘on urushi manzaralrini modernistik uslublardan foydalangan holda o‘ziga xos uslub yaratdi: “Azbaroyi, asabim shu qadar toliqqan ediki, nimalar yuz berganini, endi nimalar bo‘layotganini anglay olmasdim. Ko‘z oldimda turli xil sharpalar suzardi, xolos. Mashinalarning guldirab qolishlari, yana allambalo shovqin-suronlar ichida qolganday, o‘zimni qo‘yarga joy topolmasdim. O‘z tanamni ko‘tarishga bemajol ko‘yi, mashina tagida cho‘zilarkanman, ust-boshimdagi qotgan qon hididan ko‘nglim behuzurlanardi. Bo‘g‘ila boshladim. Zo‘rg‘a ko‘zlarimni ochaman. Tepamdagi boshpanam – BMPning tumshug‘i tobora kattarib borayotganday. Mashina ichi go‘yo qonga liq to‘lgan-u, und amening xayolimdan elas-elas o‘tayotgan ota-onam, ukalarim suzib yurganday. Men esa qopqa tepasida turib ularni kuzatayapman. Ana otam, keyin ukam sho‘ng‘iyotir. Qonli girdob uzra onamning chehrasini ko‘rib qolaman. Ana u ham… ko‘rinmay ketdi… Tag‘in girdob yuziga chiqdi. Sochlari qip-qizil…

– Ona-joon!!! O-o-o!!!” [3. 2021: B.40].

Yuqoridagi gallyutsinatsion parchadan anglashiladiki, adib urush mazaralarini shunchaki tasvirlab qolmasdan, uning bor dahshati, oqibatlari haqida kitobxon qalbida taassurot uyg‘otishga, shu orqali yoshlarning dunyoqarashini shakllantirish, fikrlashlaridagi qutblanishni ijobiy o‘zanga solishni badiiy maqsad qilgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Qahramon ko‘z o‘ngida qonli zardob uzra onasining chehrasi namoyon bo‘lar ekan, “Sochlari qip-qizil…” deya ifodalaydi. Odatda “soch” timsoliga nisbatan qora, yoshi ulug‘roq onaxonlar sochiga nisbatan oq ranglari muqoyasa etilsa, yozuvcha bu o‘xshatishda qon rangini o‘xshatish asosi qilib olib, qip-qizil deydi. Ya’ni urushning butun vayronkor dahshati-yu uning qonli oqibatlari onaning siymosida badiiy akslantirilgandek go‘yo. Bu yerda shuni alohida ta’kidlash lozimki, soch rangini qizil, ya’ni qon rangida tasvirlashida ham ijodkorning zamonaviy prozada an’anaviy tasvir uslubiga ergashmasdan, yangi, kreativ tasvir bayonini ifodalashga karakat qilganini ko‘rish mumkin. Zero, yozuvchi bir o‘rinda shunday deydi: “Urush insoniyat aql-u idrokiga bo‘ysunmay qolishi, unda ham o‘ziga

yarasha shakkoklik mavjudligini angladim. Bu shakkoklik yer yuzidagi jami fojialarning eng ulkani hamda musibatlisi. Eng musibatli deganimning sababi shuki, urushda bir yoki o‘nlab emas, yuzlab, minglab, o‘n minglab odamlarning hayoti bir lahzadayoq intiho topadi. Urush uchun inson umrining tugashi; tiriklik bulog‘ining qurishi hech qachon fojia sanalmaydi. Urush – o‘lmak demakdir” [3. 2021: B.40]. Qo‘chqor Norqobil Afg‘on sarhadlarida jang qilgan, urush ko‘rgan adib sifatida urushning butun mahobatini ro‘y-rost butun borligicha “Urush – o‘lmak demakdir” – deya tariflab qo‘ya qoladi. Darhaqiqat, urushga ketayotgan odam qayerga yo‘l olganini yaxshi biladi, jonajon uyiga, yaqinlari bag‘riga omon qaytish imkoniyati deyarli yo‘qlini ham biladi. Ya’ni bunday odam o‘limni bo‘yniga olgan shaxs hisoblanadi.

“Shu zahoti snaryad otilgan tomonni mashidandan o‘qqa tutdim. To‘g‘ri kelgan hovliga o‘q yog‘diraverdim. Hovlilarda qiy-chuv boshlanib, xotin-xalaj, bolalar yugurgilar, ba’zilari siltanib qular, men esa xushim ko‘tarilib, quturib borardim. Ichkarida leytenant yelka qisib qaltirab o‘tirar, menga nursiz ko‘zlarini tikar, yuzida qon yo‘q, xuddi mayorning yuziday oqarib ketgan, dag‘-dag‘ titrardi. U ko‘zimga judayam jirkanch ahvolda ko‘rinib ketdi. Shu mahal qopqani ochib, boshimga urib, allanimalar deb baqirayotgan Nina Grigorevnaga qaradim. U bashnya ustida engashib, tepadan ichkariga, menga otishni to‘xtat deb qichqirar edi. Men bashnyadan yarim belim bilan ko‘tarildim. Tutqanoq tutganday o‘zimni boshqarolmasdim.

– Kobulga yaqinlashdik. Otishni bas qil, – baqirdi ayol” [4. 2004: B.51]. Anglashiladiki, urush askarlar ruhuiy holatiga qattiq ta’sir o‘tkazgan, ular g‘alaba qozonish uchun emas, avvalo, tirik qolish uchun kurashga bel bog‘lagan. Dastlab ularning o‘z ichki g‘alabalari, ertangi kunga bo‘lgan umid so‘nib qolmasligi uchun ham, o‘zlarida yashashga bo‘lgan ishtiyoq alangasini so‘ndirmaslik uchun ham harakat qilishadi. Eng dahshatlisi urushning qonli kayfiyati ularning ruhiyatiga singib ulgurgan edi. Endi ular o‘qqa tutish, dushmanga qiron keltirishdan huzurlanadigan bo‘lib qolishdi. Muhorabaga shu darajada berilib ketadiki, o‘sha gallyutsinatsiya jarayonida yashaydi. aholi yashash manziliga o‘q yog‘dirish, ko‘z o‘ngida ayollar, bolalarning o‘qqa tutilib, nobud bo‘lishidan insonning “xushi ko‘tarilishi” normal jarayon emas, albatta. Qahramondagi gallyutsinatsiya gradatsiyasi kuchayib, bu holdan “quturib borardim” deydi. U butun atrofni unutgan, real hayotdan uzilib allqanday urush xaosidan uzilib keta olmay qoladi. Yozuvchining poetik mahorati shundaki, kitobxon asarni o‘qish mobaynida o‘zini “kuzatuvchi” emas, balki “ishtirokchi” sifatida ko‘ra oladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Тошкент, 2004
2. Жўраев Т. Онг оқими Модерн. Фарғона, 2009
3. Қўчқор Норқобил Дарё ортидаги йиғи. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги ншриёт-матбаа ижодий уйи, 2021.
4. Қўчқор Норқобил. Кулиб тур, азизим. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2004
5. Турғунов Қ. Русча-ўзбекча психология терминларининг изоҳли луғати, Тошкент: “Ўқитувчи”, 1975.

RETROSPEKTIV SUJET VA UNING IFODALANISHI (M.M.Do‘stning “Galatepaga qaytish” qissasi misolida)

B.A.Qarshiyev
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi qarshiyev.b@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada keyingi davr o‘zbek nasridagi o‘zgarishlar, qahramon ruhiyati, sujet hamda ong oqimi munosabati, qahramon idroki asosiga yaratilgan asarlarda obrazlar ruhiyatining tutgan o‘rni qissa janri misolida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: retrospektiv sujet, ong oqimi, qahramon ruhiyati, badiiy xarakter, assotsiatsiya, ichki nutq.

Аннотация: В этой статье на примере жанра рассказа раскрываются изменения в узбекской прозе последующего периода, психика героя, отношение к характеру и потоку сознания, роль психики персонажей в произведениях, созданных на основе восприятия героя.

Ключевые слова: ретроспективная сюжет, поток сознания, психика героя, художественный характер, ассоциация, внутренняя речь.

Abstract: This article reveals the changes in Uzbek prose of the later period, the hero's mentality, the relationship between character and stream of consciousness, and the role of the character's mentality in the works created on the basis of the hero's perception, using the example of the short story genre.

Key words: retrospective sujet, stream of consciousness, hero psyche, artistic character, association, inner speech.

Ma’lumki, XX asr so‘ngi choragida barcha sohalarda bo‘lgani kabi adabiyotshunoslik ilmida ham tom ma’nodagi o‘zgarishlar, yangilanishlar silsilasi ro‘y bera boshladi.Ijodkorlar inson ruhiyatining eng inja qirralarigacha kirib bordiki, endi ular qahramonning ko‘ngil qatlaridan turib o‘z “so‘z”larini ayta boshladi. Darhaqiqat, badiiy asardagi kishilar hayotimizning tiniq vakili bo‘lib, muayyan sharoit mahsuli sifatida harakat etadi. Chunki tiniq xarakterdagi harakat asar sujetida o‘z ifodasini topadi. M.M.Do‘stning “Galatepaga qaytish” qissasi ham mana shunday asarlardan biri hisoblanadi. Qissada badiiy tasvirlar shu darajada o‘z aksini topadiki, qahramon ruhiyati muhit tasviri bilan bog‘lanib ketadi. “Yozuvchi asarning sujetini o‘zi xohlagan tartibda yasay olmaydi, balki tasvir etmoqchi bo‘lgan xarakterlarning xususiyatlarini nazarda tutib ish ko‘radi”[2. 1980: B.189]. Xuddi, mana shu xususiyat romanda haqqoniy ifodasini topgan, chunki yozuvchi asar sujeti tarkibidagi voqealar tizimi orqali qahramon ruhiyatini yoritib boradi.

“Inson ichki dunyosining tahlili, uning ruhiy holatini tasvirlashda bevosita kuzatish va birga qayg‘urish, uning kechinmalari bilan birga yashash, inson ongining anglangan va anglanmagan harakati yoki yoki oqimi yangi badiiy uslubning o‘ziga xos xususiyatlari, aks ettirish, tasvirlash, ifodalash prinsiplariga aylandi”.[4. 1985: B.369] Shu jihatdan Murod Muhammad Do‘stning “Galatepaga qaytish” qissasi bosh qahramoni G‘aybarov bugun va kechagi voqealarni o‘zaro muqoyasa qilar ekan, o‘zi atrofida asarning mohiyatini to‘ldirib turgan epizodik qahamonlar hikoyasi bilan nelarnidir xotirlaydi, anglaydi va xulosalarini yangilaydi. Asarni o‘qish barobarida inson umri – yashash, o‘lish, boqiylikka rixlat qilish tushunchasi turli rivoyatlar, afsonalar bilan qayta yodga olinadi.

“Galatepaga qaytish” qissasi retrospektiv sujet asosiga qurilgan qissalardan biri hisoblanadi. Sujetning bu turi haqida adabiyotshunos T.Boboyev shunday deydi: Yana shunday badiiy sujetlar ham mavjudki, ularda asosiy voqea kulminatsiyadan boshlanadi, so‘ng muallif chekinish usuli(retrospeksiya)ni qo‘llab kulminatsiyagacha bo‘lgan voqea-hodisalarni qahramonlar faoliyati misolida ko‘rsatadi… Bu xil sujet ilmda “rerospektiv sujet” deb yuritiladi” [1. 2004: B.123].

Asarning dastlabki bobi, ya’ni “Aza”ni olib qaraylik. Toshpo‘lat G‘aybarov otasi tuproqqa qo‘yilar ekan, hali ustiga tuproq tashalmagan lahadga qaraydi, assotsiatsiya to‘lqini otasi tomon rivojlana boshlaydi, otasini hali tetikligi, uni hali ko‘p yashaydi deb o‘ylashi, otasining baroq yolli cho‘bir ot minib yurishi, qo‘lida uning raislik zamonidan qolgan kumush qoplamali zarangdasta qamchisini eslab, mansabsiz paytlari ham mansabdorlardan ham gerdayibroq, o‘z soyasini o‘zi ergarshtirib yurganini eslab, avvalgi paytlardan qo‘li kaltaroq ekanini bilgani, katta shaharda o‘qiydigan o‘g‘li Toshpo‘latga har oy uch yuz so‘m pul jo‘natganini shaharga yumush bilan borganda o‘g‘lini bitta sochi qirqilgan qiz bilan ko‘rganda achchiqlanganidan bir marta pul yuborishni kanda qilganini, o‘zini puli tugagani uchun uyiga, Galatepaga kelgani, otasining Mulla Chori bilan gaplashib o‘tirganini ko‘rgani, otasining avval o‘g‘lini ko‘rganidan suyungani, keyin o‘g‘li aslida pul dardida kelganini o‘ylab, xafsalasi pir bo‘lganini ko‘rgani – ishtirokchi;

biroz qabr bilan bog‘liq voqealar o‘sib borgach, Turdiqulning zolimona “Bekiting, qaytib chiqmaydigan bo‘lsin” – deya aytgan gapini eshitishi, Turdiqulning Raim oqsoqolni yomon ko‘rishi, uni qarg‘ashini bilgani, Turdiqulning noto‘g‘ri fikrini bilgani, Ochil kuch, Panji, Raim oqsoqolning Ochil kuchni charxlagani, U panjini otganini eshitgani, aslida Panjini qanday otilganini eshitgani, Kattaqo‘rg‘ondan maxsus odam kelib tekshirgani, Ochil kuch bilan Raim oqsoqol uning og‘zini yopishganini eshitgani, Panjini sotgan kishi shu amma ekani, keyinchalik Ochil kuch Panjining ammasi Oyparchaga uylanaman deb harakat qilganini eshitgani, Raim oqsoqolning iqrorini bilgani, Turdiqulda ham ayb yo‘q, unga o‘rgatishgan, u hech narsani tushunmaganligi – faraz sifatida gavlanadi.

Ikki bosqichli assotsiatsiyalar, ya’ni bir fikr yoki sezgi boshqa bir fikrni, u esa o‘z navbatida yana boshqa fikrlar, xotiralar yoki hissiyotlarni keltirib chiqarishi, insonning hozirgi taassurotlari va kechinmalari o‘tmishdagi xotiralar bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bu bog‘liqlik bevosita bo‘lishi mumkin, masalan, o‘tmishdagi voqea aynan shu tarzda yodga tushishi yoki bilvosita, ya’ni o‘tmishdagi tajribalar hissiyotlar, munosabatlar orqali hozirgi kechinmalarga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, bolalikda biror qo‘shiqni eshitgan bo‘lsangiz va u sizda yaxshi xotiralar uyg'otgan bo‘lsa, kattaroq bo‘lganingizda shu qo‘shiqni eshitish sizda nostalgiya tuyg‘usini paydo qilishi mumkin (bevosita bog‘liqlik). Yoki agar siz o‘tmishda biror kishidan xafa bo‘lgan bo‘lsangiz, shunga o‘xshash xususiyatlarga

ega bo‘lgan boshqa odamni uchratganingizda, o‘zingizni noqulay his qilishingiz mumkin (bilvosita bog‘liqlik).

Xullas, retrospektiv sujet orqali adabiy qahramon butun hayoti davomidagi xatti-harakatlarini qayta ko‘z oldidan o‘tkazish mobaynida qilgan yaxshi amallaridan quvonadi, qilgan xatolaridan esa xulosa chiqarish uchun imkoniyat paydo bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари, – Тошкент, 2004
2. Иззат Султон. Адабиёт назарияси, -Тошкент, “Ўқитувчи”, 1980
3. Murod Muhammad Do‘st “Galatepaga qaytish”, –Toshkent, 2021
4. Назаров Б. Ҳаётийлик безавол мезон. – Тошкент: Фан, 1985
5. Холбеков М. XX аср модерн адабиёти манзаралари. Тошкент, 2014

MILLIYLIKNI IFODA ETUVCHI REALIYA TUSHUNCHASINING TASNIFI VA ULARNING TARJIMA QILISH TAMOYILLARI

S.A.Toshmatova
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti Email: toshmatovasaida28@gmail.com

Annotatsiya Ushbu maqolada realiya tushunchasining lingvistik va madaniy jihatlari tadqiq etiladi. Realiyalar – bu ma’lum xalqning madaniyati, urf-odatlari, turmush tarzi va tarixiy tajribasiga bog’liq bo‘lgan til birliklari bo‘lib, ular milliylikni ifoda etuvchi vositalar hisoblanadi. Mazkur ifoda vositalari ko‘p hollarda boshqa tillarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalentga ega emasligi sababli, ularni tarjima qilishda murakkabliklar yuzaga keladi. Tadqiqotda realiya tushunchasining tasnifi, ularning tarjima qilish tamoyillari – transkripsiya, izohli tarjima, ekvivalent topish va boshqalar, shuningdek, ularning lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Realiyalarni chuqur tadqiq qilish va ularni eng maqbul usul bilan tarjima qilish xalqaro muloqotda madaniy axborot anglashuvini ta’minlashda muhim o‘rin tutishi ta’kidlanadi.

Аннотация В данной статье исследуются лингвистические и культурные аспекты понятия реалии. Реалии представляют собой языковые единицы, связанные с культурой, обычаями, образом жизни и историческим опытом определённого народа, и считаются средствами выражения национальной специфики. Эти языковые элементы часто не имеют прямых эквивалентов в других языках, что создаёт определённые трудности при их переводе. В исследовании рассматривается классификация реалий, принципы их перевода — такие как транскрипция, пояснительный перевод, подбор эквивалента и другие методы, а также анализируются их лингвокультурные особенности. Подчёркивается, что глубокое изучение реалий и их перевод наиболее адекватным способом играет важную роль в обеспечении культурной информации и взаимопонимания в международной коммуникации.

Annotation This article explores the linguistic and cultural aspects of the concept of realia. Realia are linguistic units associated with the culture, customs, lifestyle, and historical experience of a particular people, and are considered means of expressing national identity. These language elements often lack direct equivalents in other languages, which creates certain difficulties in translation. The study examines the classification of realia, principles of their translation — such as transcription, explanatory translation, selection of equivalents, and other methods — and analyzes their linguocultural features. It is emphasized that a deep study of realia and their most appropriate translation plays an important role in conveying cultural information and ensuring mutual understanding in international communication.

Kalit so’zlar: realiya, milliylik, ekvivalenti, adaptatsiya, transkripsiya, izohli tarjima, adekvat tarjima, lingvokulturologik.

Ключевые слова: реалия, национальная специфика, эквивалент, адаптация, транскрипция, пояснительный перевод, адекватный перевод, лингвокультурологический.

Keywords: realia, national identity, equivalent, adaptation, transcription, explanatory translation, adequate translation, linguocultural.

KIRISH. Har bir til o’ziga xos tuzilishga ega bo’lib,u o’sha xalqning madaniyatini namoyon qilishga xizmat qiladi. Til vositasida muayyan xalqning qadryatlari, urf-odatlari, ruhiyati, turmush-tarzi,

shuningdek, tarixiy tajribasi ifodalangan. Zero, xalqlarning tarixiy taraqqiyoti, milliy dunyoqarashi hamda madaniy hayoti aynan shu til bilan chambarchas bog’liqdir. Ushbu xususiyatlar turli xalqlarning tilida o’ziga xos, boshqa tillarda to’liq ekvivalenti mavjud bo’lmagan lingvomadaniy birliklar — realiyalarning vujudga kelishiga sabab bo’ldi. Realiyalar – bu ma’lum xalqning madaniyati, urf-odatlari, turmush tarzi va tarixiy tajribasiga bog’liq bo‘lgan til birliklari bo‘lib, ular milliylikni ifoda etuvchi vositalar hisoblanadi. Milliylikni ifodalovchi mazkur vositalar ko‘p hollarda boshqa tillarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalentga ega emasligi sababli, ularni tarjima qilishda murakkabliklar yuzaga keladi. Asrlar davomida turli xalqlar o’rtasidagi tillararo muloqot jarayoni ,adabiyot va madaniyatning rivojlanishi tarjima vositasida amalga oshirilgan. Hozirgi globallashuv davrida tillararo muloqot kuchayib borar ekan, realiyalarni chuqur o‘rganish va ularning tarjimadagi ifodasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish dolzarb masalaga aylanmoqda. Chunki bu birliklar orqali xalqlarning madaniy tafakkuri, milliy qadriyatlari va tarixiy merosi haqida tasavvur shakllanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI. Realiya so’zi lotinchadan olingan bo’lib, “realis” – “haqiqiy”, “real” degan ma’nolarni anglatadi. Realiyalar muayyan xalqning, millatning yoki elatning madaniyatiga xos bo‘lgan predmetlar, tushunchalar, hodisalar yoki nomlar bo‘lib, uni boshqa tillarga adekvat tarjima qilish murakkab jarayon hisoblanadi. Ular o‘zida madaniy, milliy, tarixiy, etnografik ma'lumotlarni ifodalaydi. Realiyalar muayyan xalq hayot tarziga, madaniyatiga, tarixiga, ijtimoiy tuzumiga va mentalitetiga xos bo‘lgan leksik birliklar sifatida qaraladi. Ular o‘zida milliy koloritni mujassam etgan bo‘lib, boshqa tilda to’liq muqobiliga ega bo‘lmasligi bilan ajralib turadi.Ushbu sohada samarali tadqiqot olib borgan A.V. Fedorov realiyalar xususida "Realiyalar – bu madaniyatga xos bo‘lgan aniq elementlardir, ularni tarjima qilish tarjimondan manba madaniyatini va tarjima tilini chuqur bilishni talab qiladi" [1] deb takidlaydi. V.N. Komissarov realiyalarni "biror xalq hayoti va madaniyatining o‘ziga xosligini ifodalovchi leksik birliklar" deb tariflaydi[2].Tarjimashunos A. Xojiyev esa quyidagicha fikr bayon etadi: ““Realiya so‘zlari har bir xalqning yashash tarzi, mentaliteti, qadriyatlarini ifodalovchi til birliklari bo‘lib, ular milliylikning lingvistik aksidir”[3]. "Matnga mahalliy va tarixiy tus beruvchi unsurlar" sifatida realiyalar, odatda, adabiy tarjimalar doirasida qo‘llaniladi, texnik tarjimalarda esa kam uchraydi (Shuttleworth & Cowie, 2014: 139).Shuning uchun, bugungi kunda tilshunoslik va adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik sohalarida realiyalar tahlili va ularning tarjimasi til, badiiy asar hamda madaniyatlararo muloqot masalalaridan biri bo’lib kelmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Ko’plab olimlar realiyalarni turli jihatdan tasniflashgan. Xususan, eng mashhur tasniflardan biri – realiyalarni tadqiq etgan olimlar S. Vlakhov va S. Florinning klassifikatsiyasi hisoblanadi. S. Vlaxov va S. Florinning ta’rificha, “realiya – bu boshqa tillarda muqobili yo‘q yoki muqobil topish mushkul bo‘lgan, lekin muayyan millat madaniyati, tarixi va hayoti bilan bog‘liq so‘z yoki iboradir”[5]. Ularning tasnifiga ko‘ra, ularni madaniy, ijtimoiy, tarixiy, etno-geografik va boshqa turlarga ajratish mumkin.

1. Madaniy realiyalar
a)Taomlar: palov, somsa, lag‘mon,osh,mastava
b)Milliy kiyimlar: do’ppi, atlas,bo’z,nimcha,shoyi
c)San’at shakllari: maqom, baxshichilik
2. Etno-geografik realiyalar
a)Joy nomlari:Turkiston, Buxoro, Farg’ona,Qo’qon,
b)Tabiatga oid nomlar: qir, adir, daryo
3. Ijtimoiy realiyalar
a)Ijtimoiy institutlar: mahalla, imom
b)Urf-odatlar: to‘y, nikoh, kelin salom
4. Tarixiy realiyalar
a)Tarixiy shaxslar yoki hodisalar:Navoiy, jadidchilik

Realiyalarni tarjima qilish – bu lingvokulturologik muammo sifatida qaraladi, chunki tarjimondan mazmunni saqlab qolish , madaniy konnotatsiyani yo‘qotmaslik va uning o‘quvchiga tushunarli bo‘lish talab etiladi. D. Rahmonov “Reallik va realiya tushunchalari til va tarjima jarayonida nafaqat semantik, balki lingvomadaniy yondashuvni talab qiladi” deb ta’kidlaydi. (Til va tarjima masalalari, “Til va adabiyot” jurnali, 2021, №4). Realiyalarni tarjima qilishda eng muhim masala – ularning semantik yoki milliylik koloritini saqlab qolishdir. Tarjima jarayonida bu borada turli yondashuvlardan foydalanadilar: transkripsiya, izohli tarjima, ekvivalent qidirish yoki adaptatsiya. Masalan, o‘zbek tilidagi “palov”, “chopon”, “sufa” kabi so‘zlar boshqa tillarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’no jihatidan to‘liq aks ettirilmaydi. Ular

tarjimada transliteratsiya, izoh, transkripsiya yoki madaniy moslashtirish orqali qayta tiklash mumkin.Albatta, har bir usulning o’z o’rnida afzallik va kamchiliklari mavjud bo‘lib, tanlov matnning janri, maqsadi va auditoriyasiga bog‘liq bo’ladi. Realiyalarni quyidagi usullar orqali tarjima qilish mumkin:

1. Transkripsiya va transliteratsiya – masalan, chapan, lagman, Bukhara
2. Izohli tarjima – masalan, “kelin salom (a traditional Uzbek bride’s greeting)”
3. Analog topish – ayrim hollarda o‘xshash milliy hodisa bilan almashtirish

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, realiyalar tilshunoslikda milliylikni ifoda etuvchi muhim lingvomadaniy birlik sifatida qaraladi. Realiya – milliylikni ifodalovchi muhim semantik birlik. Ular orqali xalqning: mentaliteti,turmush tarzi,madaniy qadriyatlari,milliy identiteti ochiladi.Shu sababli, realiyalar lingvokulturologiya, tarjimashunoslik, madaniyatshunoslik fanlari uchun muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi.Ularni tadqiq etish va to‘g‘ri tarjima qilish usullarini aniqlash orqali madaniyatlararo muloqotda o‘zaro tushunishga va milliy merosni jahon miqyosida yetkazishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Федоров А.В., Основы общей теории перевода, 1953)
2.Xojiev A., Tarjimashunoslikka kirish, 2004)
3. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. — М.: Международные отношения, 1980.
4. Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). — М.: Высшая школа, 1990.
5. Хожиев А. Tarjimashunoslikka kirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
6. Баранов А.И. Культурные реалии и проблемы перевода. // Вопросы языкознания, 2005.
7. Rahmonov D., Til va tarjima masalalari, “Til va adabiyot” jurnali, 2021, №4

TIL – MADANIYATNI NAMOYON ETUVCHI VOSITA SIFATIDA

S.A.Toshmatova
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti Email: toshmatovasaida28@gmail.com

Annotatsiya Mazkur maqolada til va madaniyatning o‘zaro aloqador ekani, til orqali milliy madaniyat, mentalitet va dunyoqarash namoyon etilishi tahlil etiladi. Lingvokulturologiya — bu tilni xalqning madaniy merosi, an’analari va ijtimoiy hayoti bilan bog‘lab o‘rganadigan fan sohasi sifatida ko‘riladi. Tadqiqotda til birliklari orqali milliylik qanday namoyon bo‘lishi va ma’no o‘zgarishlari lingvistik va madaniy nuqtai nazardan yoritiladi. Lingvokulturologik yondashuv xalq tafakkurini, qadriyatlarini, madaniyatini til orqali ochib berish vositasi sifatida baholanadi.

Аннотация В данной статье анализируется взаимосвязь языка и культуры, а также то, как посредством языка проявляются национальная культура, менталитет и мировоззрение. Лингвокультурология рассматривается как научная область, изучающая язык в связи с культурным наследием, традициями и социальным укладом народа. В исследовании освещается, каким образом национальная идентичность проявляется через языковые единицы и как меняется их значение с лингвистической и культурной точек зрения. Лингвокультурологический подход рассматривается как средство раскрытия народного мышления, ценностей и культуры через язык.

Abstract This article analyzes the interrelation between language and culture, as well as how national culture, mentality, and worldview are expressed through language. Linguoculturology is regarded as a field of study that examines language in connection with a nation’s cultural heritage, traditions, and social life. The research highlights how national identity is manifested through language units and how their meanings may shift from linguistic and cultural perspectives. The linguoculturological approach is evaluated as a means of revealing a people’s way of thinking, values, and culture through language.

Kalit so‘zlar: lingvokulturologiya, milliy tafakkur, lisoniy, realiya,lakunalar, metafora,mubolag‘a,stereotiplar,etnografik birliklar

Ключевые слова: лингвокультурология, национальное мышление, языковой, реалии, лакуны, метафора, гипербола, стереотипы, этнографические единицы

Keywords: linguoculturology, national mentality, linguistic, realia, lacunae, metaphor, hyperbole, stereotypes, ethnographic units

KIRISH. Til muloqot quroli bo’lish bilan bir qatorda, ma’ lum xalqning milliy tafakkuri, madaniy urf-odatlari va qadryatlarining ramziy timsoli sifatida ham xizmat qiladi.Tilning xalq bilan, uning madaniyati bilan bog’liqligi isbot talab etmaydigan aksioma hisoblanadi. Til va undagi mavjud leksik birliklar orqali har bir xalqning ma’lum davrdagi madaniyatini, milliyligini, uning o’ziga xos jihatlarini ,shuningdek , tarixiy xotirasini ifodalab berish va uni nafaqat kelajak avlodga balkim jahonga namoyon etish mumkin. Zero, til o’z egasining milliy-madaniy hayotini ko’rsatib beruvchi muhim vosita sifatida qaraladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI. Tilshunoslikda esa til va madaniyatning o’zaro bog’liqligini o’rganuvchi soha “lingvokulturologiya” yoki “lingvomadaniyatshunoslik” deb atalib, ushbu soha XX asrning so`nggi choragida shakllandi. "Lingvokulturologiya" termini esa V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida yuzaga kelgan. Lingvokulturologiyaning asoschisi V.fon Gumboldt hisoblanadi.U lingvokulturologiya tarixida til, madaniyat va tafakkur xususida asosiy fikrlarni ilgari suradi va uning ta’kidlashicha : “ Til- bu xalq ruhining ifodasidir”. Ushbu fikr orqali V.fon Gumbold til vositasida har bir millatning ichki dunyosi, ruhiyat, qadryatlari madaniyati ifodalanishini ta’kidlaydi.[1] Shuningdek, mazkur sohaning rivojlanishida V.G. Kostomarov, A.A.Potebnya, E. M. Vereshchagen, L.Vaysgerber, N.D. Arutyunova, X.Glints, X.Xolg`ts, U.D.Uitni, D.U.Pauell, F.Boas, E.Benvenist, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Brutyan, A.Vejbitskaya, D.Xaymz, Yu.D.Apresyan, V. A. Maslova kabi tilshunoslarning yondoshuvlari ham muhim hisoblanadi.

Professor O’. Yusupov til va madaniyat sohasini tadqiq qilar ekan ikki soha o’rtasidagi bog’liqlikni shunday izohlaydi “…lingvokulturologiya uchun xalq madaniyatini lisoniy ko‘rinishda namoyon etish asosiy vazifa hisoblanadi.Uning fikricha, xalq madaniyati til orqali verballashadi, aynan til madaniyatining tayanch, asosiy tushunchalarini harakatga keltiradi va ularni belgilar ko‘rinishida, ya’ni so‘zlar vositasida ifoda etadi.[2]

Lingvokulturologiya sohasida samarali tadqiqot olib borgan Yu.D. Apresyan fikriga ko’ra “ Til- bu dunyo modelini yaratadigan tizim.Til birliklarida milliy dunyoqarash yashiringan”[3]. Olimlarning ushbu fikrlari ham til va uning milliylikni namoyon etishdagi roli naqadar muhim ekanligini anglashimizga yordam beradi. Lingvokulturologiya sohasi rivojlanishiga ulkan hissa qo’shgan V.A.Maslova ushbu sohaning rivojini 3 bosqichga ajratadi:

1) fan shakllanishiga turtki bo`lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi (V.fon Gumbold, E.Benvenist, L.Vaysgerber, A.A.Potebnya, E.Sepir kabi tilshunoslarning ishlari);
2) lingvokulturologayaning alohida soha sifatida ajratilishi;
3) lingvokulturologiyaning rivojlanish bosqichi. Madaniyat, xalq tafakkuri, uning olamni idrok etishidagi o`ziga xos jihatlarning tilda aks etishini o`rganish lingvokulturologiyaning asosiy maqsadidir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Lingvokulturologiyaning obyekti til va madaniyat, predmeti esa o ‘zida madaniyat-milliylikni ifoda etuvchi til birliklari hisoblanadi. Lingvokulturologiyani “lingvistika va madaniyatshunoslikning tutashgan joyida vujudga kelgan tilshunoslikning sohasi” deb ta’rif bergan V.A. Maslova madaniy ma’lumotning tarjimoni sifatida chiqadigan tilning o’zaro aloqasini va madaniyatini — xalqning tarixiy xotirasini lingvomadaniyatshunoslikning obyekti deb ta’kidlaydi[4]. Shunday qilib, lingvokulturologiya sohasida madaniy semantikani namoyon etuvchi til birliklari tadqiq etiladi. Bunday til birliklarini lingvomadaniy birliklar yoki madaniyat-milliylikni ifodalovchi vositalar deb nomlashimiz mumkin. Bunday vositalarga ramziy birliklar, realiyalar, lakunalar, milliy rangdorlikka ega bo’lgan metafora, mubolag’a, kinoya va boshqa badiiy tasvir vositalar, stereotiplar , etnografik birliklar, frazeologizmlar va maqollar, antroponimlar va toponimlar,diniy-madaniy birliklar kiradi.

Bugungi kunda tilning ushbu unsurlaridan unumli foydalanish orqali milliylikni ifoda etib berish tilshunoslikda tadqiq etilishi bilan bir qatorda adabiyotshunosligimizda ham asosiy masalalardan biri bo’lib kelmoqda. Yozuvchi yaratgan badiiy asarlarda o’z xalqining ruhiyati, dunyoqarashi, urf-odatlari, qadryatlarini aks ettirishda milliylikni ifodalovchi vositalarning o’rni va roli beqiyosdir.

Eng avvalo, milliylik termini adabiyotshunoslikda badiiy asarlarda yaratilgan xalqona obrazlar, o’ziga xos bo’lgan milliy muhit, etnografik tafsilotlar, xalq og’zaki ijodi namunalari, realiyalar hamda madaniy kodlar orqali aks etadi. Milliylikni ifodalovchi tasvirlar faqatgina ma’lum bir xalqqa xos bo’lgan tushunchalarni bildiruvchi leksik birliklar hisoblanadi.Milliylik faqatgina bayon etiladigan element bo’lib qolmay, balkim madaniy tafakkur, ong, til, mentalitet va ramzlar timsolida asarlarda namoyon bo’ladi. Badiiy asarlarda milliylikni ifodalovchi tasvirlarni leksik jihatdan tadqiq etish va ularning qanday so’zlar

orqali ifodalanganini tahlil qilish muhimdir.Bugungi kunda badiiy asarlar orqali milliylikni ifodalash bo’yicha ko’plab olimlar tomonidan turli yondashuvlar qayd etilgan.
Milliylik tilning leksik, frazeologik va stilistik qatlamlarida namoyon bo’ladi:

1. Tilning leksik qatlamida realiyalar, milliy atamalar orqali namoyon bo’ladi.Bunga misol tariqasida biz tahlil qilayotgan Abulla Qodiriyning “Mehrobdan Chayon” romanidan o’zbek xalqiga xos bo’lgan “atlas”, “o’choq”, “sufa” leksemalarini keltirishimiz mumkin.
2. Frazeologik qatlam- bunda xalq donishmandligiga asoslangan milliylikni ifodalovchi iboralar orqali namoyon bo’lishi. Masalan: “Oyni etak bilan yashirib bo’lmaydir”.(Mehrobdan Chayon.2019;17-bet).
3. Fonetik va morfologik qatlam.Tilga sheva va lahjalardan foydalanish orqali milliy xususiyatlarni olib kiriladi.
4. Poetik tasvirlar qatlami.Metafora, metonimiya, mubolag’a va epitet orqali milliy obraz yaratiladi. Misol uchun qazo munshiysi, murassa xaltacha.

XULOSA. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, til faqat aloqa vositasi bo‘lib qolmasdan, xalqning madaniy tafakkuri, dunyoqarashi va milliy qadriyatlarini ifodalovchi muhim vositadir. Lingvokulturologiya fani tilni madaniyat bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganib, har bir til birligining orqasida turgan mentalitet, tarixiy-madaniy kontekstni ochib berishga xizmat qiladi. Til birliklari – realiyalar, frazeologik birliklar, metaforalar, ramziy obrazlar orqali xalq tafakkuri va madaniyati namoyon bo‘ladi. Shuning uchun tilni chuqur o‘rganish va tarjima jarayonida madaniy komponentlarni e’tibordan chetda qoldirmaslik lingvokulturologik yondashuvning eng muhim tamoyillaridan biridir. Mazkur fan sohasi turli xalqlar o‘rtasida madaniy ko‘prik vazifasini bajaradi va milliylikni global miqyosda yetkazishda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Humboldt, W. von. On Language: The Diversity of Human Language-Structure and Its Influence on the Mental Development of Mankind. – Cambridge: Cambridge University Press, 1988.
2.Маслова В. А. Лингвокультурология. – Москва: Академия, 2001. – 208 с.
3. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. – Москва: Международные отношения, 1986. – 256 с.
4. Baker, M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London: Routledge, 1992. – 320 p.
5. Tursunov B. O‘zbek adabiyotida milliylik ifodasi. – Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2020. – 164 b.
6. G‘ulomov N. Tarjimashunoslik asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001. – 192 b.
7. Jalolov J. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 240 b.

FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF ORAL SPEECH OF PRESCHOOL CHILDREN IN ENGLISH LANGUAGE CLASSES

Sh.Isroilova
Uchkunzhon kyzy, doctoral student at Namangan State pedagogical institute

Abstract. This article examines the issues of the development of oral speech of preschool children in English classes.

Key words: speech, oral speech, speech communication, preschool age, speech development features, communication, classes, English language

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы особенности развития устной речи детей дошкольного возраста на занятиях английского языка.

Ключеые слова: речь, устная речь, речевое общение, дошкольный возраст, особенности развития речи, коммуникация, занятия, английский язык

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tili mashg‘ulotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning og‘zaki nutqini rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: nutq, og‘zaki nutq, nutq aloqasi, maktabgacha yosh, nutqni rivojlantirish xususiyatlari, muloqot, mashg‘ulotlar, ingliz tili

Speech should be considered as a component of active, purposeful communicative behavior, a product and element of communication, since through speech a person is able to enter into numerous contacts, during which he expands and broadens his horizons and establishes relationships with the natural, objective and social world around him. In the process of speech communications, a person self-knowledge of his own “I” occurs and a real opportunity for self-expression and self-realization appears. The speech of a child has long attracted the attention of researchers (L.S. Vygotsky, E.I. Tikheeva, F.A. Sokhin, O.S. Ushakova, R.O. Jacobson, D.B. Elkonin, A.N. Gvozdev, R.E. Levin, K.I. Chukovsky and others): the first words are a fact of awakening consciousness. The entire path of a child's speech development is a complete mystery.

Speech develops and manifests itself in communication between people. The interests of the child's language development require a gradual expansion of his social connections. They affect both the content and structure of speech. In his social development, the child, starting with the primary social unit (mother and child), of which he becomes a member at the moment of birth, constantly communicates with people, and this, of course, affects the qualitative growth and manifestation of his speech. In kindergarten, preschoolers, learning their native language, master the most important form of speech communication - oral speech. Speech communication in its full form - understanding of speech and active speech - develops gradually. The child's interlocutors should be both children and adults, but it is especially important and necessary for the child to move around in the environment of his peers, so that he is given a wide opportunity to communicate with children, play, exchange thoughts and feelings and in this way develop his speech.

The most significant of the communication systems created by man is human speech, which plays an important role in various spheres of social life. The outstanding Russian psychologist S. L. Rubinstein in his book “Fundamentals of General Psychology” points out that speech has one main function, its purpose is to serve as a means of communication.” [1] Scientists emphasize that the process of spiritual, conscious communication between people is carried out through speech.

Oral speech of preschool children has features associated with the development of vocabulary, mastering the grammatical structure, developing coherent speech and learning the means of intonation expressiveness. These features manifest themselves at different age stages and are associated with the complication of children's activities and forms of communication with others.

The problem of early learning of a foreign language is the need to find reserves in the organization of training so as not to miss and take advantage of the sensitive period of learning a foreign language in preschool age. Experimental studies show that after 9 years, a child loses to a certain extent the flexibility of the speech mechanism.

The prospects of early foreign language teaching in terms of comprehensive improvement of the child's personality, his humanitarian development and introduction to common cultural values are beyond doubt. As noted by F.A. Sokhin [2], one of the main among many important tasks of upbringing and education of preschool children is the task of developing speech and verbal communication. The optimal age for starting to learn a foreign language is 5 years. E.N. Protasova notes that by the age of 5 the system of the native language is already quite well mastered, and the child already treats the new language consciously. This age is the most favorable for mastering a foreign language due to a number of psychological characteristics characteristic of a preschool child (intensive formation of cognitive abilities, quick and easy memorization of language information - imprinting, special sensitivity to language phenomena, the ability to imitate).

Some problems of developing oral speech of preschoolers in English classes:

- ✓ Difficulty in teaching spoken English. In oral speech, listening and speaking are interconnected.
- ✓ Insufficient attention to grammar. Preschoolers do not dissect grammatical structures, but memorize them as a whole. Therefore, their grammar skills are formed at an intuitive level.
- ✓ Difficulty in maintaining the attention of preschoolers. It is difficult for children to maintain interest for a long time, so the lesson should not last longer than 30 minutes.
- ✓ The need to create motivational situations. Most of the situations created during the educational process should be based on the imagination of children, and the motivation for verbal communication - on the play effect.
- ✓ Understanding the vocabulary being studied. Words in English should mean concepts that are familiar to children in their native language, and freely combine with each other.

To solve these problems, you can use, for example, role-playing games that relate speech functions to specific social roles, encourage self-expression and interaction of children. Visual aids and artistic techniques, such as illustrated dictionaries and lessons with music, are also effective.

The following aspects should be introduced into the content of teaching foreign language communication at an early stage: developmental (priority), educational, cognitive and educational.

The goal of training in all aspects can be formulated as follows:

The educational goal is to develop skills for independently solving elementary communicative problems in English within the framework of the topic and to acquire knowledge of regional studies, to expand the general outlook of students in the subjects - mathematics, logic, acquaintance with the world around them.

The educational goal involves developing children's interest in learning a foreign language, developing their learning skills, and the ability to collectively solve assigned tasks. Children learn that there are other languages besides Russian, which they are used to speaking; that there are other countries, such as England, America, Australia, where English is spoken. Developmental goal. During the learning process, children's thinking, emotions, attention, imagination, will, memory are developed, and interpersonal communication skills are formed.

Thus, it is necessary to:

- ✓ develop children's readiness to communicate in a foreign language and a positive attitude towards its further study;
- ✓ develop basic communication skills in four types of speech activity (speaking, listening, reading, writing) taking into account the speech capabilities and needs of preschool children;
- ✓ introduce children of middle and senior preschool age to the world of foreign peers, to English songs, poems and fairy tales and to accessible examples of children's fiction in the foreign language being studied;
- ✓ introduce children to new social experience using a foreign language by expanding the range of social roles played in game situations typical of family, everyday, educational communication; develop ideas about the most general features of speech interaction in the native and foreign languages that meet the interests of preschoolers;
- ✓ to form some universal linguistic concepts observed in the native and foreign languages, thereby developing the intellectual, speech and cognitive abilities of students;
- ✓ to teach the basics of mathematics and logic through a new language environment.

The process of teaching preschoolers has a number of specific features:

In the process of teaching foreign languages to preschool children, play is of great importance. Games make the lesson meaningful, interesting, emotionally significant for the child. In play, the child develops the ability to operate with images of reality, which, in turn, creates the basis for the further transition to complex forms of creative activity. In addition, the development of imagination is important in itself, because without it, no human activity, even the simplest, is possible.

Counting rhymes, quatrains, songs are aimed at developing and improving pronunciation skills, creating a favorable emotional mood.

Physical minutes not only relieve fatigue and stress in children, but also develop their attention and memory. In addition, children practice pronunciation.

The use of dramatization elements has significant potential. Dramatization creatively exercises and develops a wide variety of abilities and functions. These are: speech, intonation, imagination, memory, observation, attention, associations, technical and artistic abilities, motor rhythm, plasticity, etc.

When listing the means that contribute to the development of interest in foreign languages, we cannot help but dwell on one more - singing. Turning to singing in class, we solve several problems: singing helps improve foreign language pronunciation, develops memory; has great aesthetic and educational potential: there is an introduction to the musical culture of the country of the language being studied. In addition, singing brings variety to the lesson, relieves fatigue. Songs often "get stuck" in the child's head, while playing an important role - the child repeats what has been covered over and over again, humming a song and thereby consolidating the material.

In conclusion, it should be noted that it is necessary to take into account the peculiarities of the development of oral speech of preschool children, the use of effective methods in English classes, as well as the development of oral speech through children's favorite game methods leads to positive results.

References:

1. С.Л.Рубинштейн. Основы общей психологии: В 2- х т. Т. 1.- М.: Педагогика, 1989. - с. 488.
2. Ф.А.Сохин. Развитие речи детей дошкольного возраста. М.: Просвещение, 1984. - с. 200
3. Argondizzo C. Children in action. London: Prentice Hall International, 1992.-224 p.

ABDULLA QODIRIY HAJVIYOTIDA ALLYUZIYAVIY QATLAMLAR: KONTEKSTUAL VA PRAGMATIK YONDASHUV

S.I.Mehmonova
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi mehmonovasarvinoz0@mail.com +998883731518
Ilmiy rahbar: **N.A.Qozoqova**
Namangan davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning hajviy asarlarida allyuziyaning badiiy vosita sifatida qanday qo‘llanilgani tahlil qilinadi. Tilimizdagi juda ko‘plab uchraydigan badiiy vositalar o‘z ma’nosidan tashqari ko‘chma ma’noga ham ega. So‘zlarning ko‘chma ma’noda qo‘llanilishi tilning estetik vazifasini yuzaga chiqarishda va badiiy matnda yozuvchining maqsadini aniq namoyish qilishida o‘rni beqiyosdir. Allyuziya hodisasi mana shunday hodisalardan biri hisoblanadi. Allyuziya nutqni ta’sirchan qilish bilan birga, uni qo‘pol so‘zlardan asraydi.Shunday ekan, maqolada muallifning hajviy hikoyalaridagi satirik obrazlar hamda publisistik maqolalari orqali uning allyuziyadan foydalangan holdagi ijtimoiy-tarbiyaviy yondashuvlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: allyuziya, satira, yumor, piching, hajv, tanqidiy realizm, o‘zbek adabiyoti, sarkazm,intertekstuallik.

KIRISH. O‘zbek hajv taraqqiyotida Abdulla Qodiriy asarlari alohida ahamiyatga ega. Uning hajviy asarlari o‘zbek mumtoz adabiyotida yangi bir bosqichni boshlab berdi. U hayotda uchraydigan salbiy hodisalarni fosh etishda, jamiyatdagi illatlarni ochib berishda, ayniqsa, kinoya va tagma’no vositalaridan mohirlik bilan foydalandi. Ayniqsa, uning “Toshpo‘lat tajang”, Kalvak Mahzumning xotira daftaridan”, “Yigitchilikda” singari asarlarida hajvning lingvopragmatik imkoniyatlari keng ochib berilgan. Qodiriy hajvining muhim xususiyatlaridan biri – bu uning matnlaridagi allyuziyaviy qatlamlardir. Bu qatlamlar orqali muallif nafaqat tarixiy yoki diniy kontekstga murojaat qiladi, balki o‘quvchi bilan umumiy bilim maydonida aloqaga kirishadi. Ushbu maqolada aynan allyuziya va uning kontekstual-pragmatik xususiyatlari tahlil etiladi.

1. Allyuziya- intertekstual vosita sifatida.

Adabiy matnlarda allyuziya – bu boshqa bir mashhur matn, voqea, shaxs yoki tafakkur tizimiga ishora qilishdir. Qodiriy asarlaridagi allyuziyalar ko‘pincha tarixiy shaxlar, Qur’oni karim oyatlari, hadislari, xalq og‘zaki ijodi va o‘zbek mumtoz adabiyotidan iqtiboslar shaklida namoyon bo‘ladi. Ular ko‘pincha hajviy ohangda, kinoya yoki istehzo vositasi sifatida ishlatiladi. Masalan: “***Toshpo‘lat Xoja, odamni ko‘rsa, go‘yoki Xizrni ko‘rgandek ta’zim qiladi, biroq ortiga o‘tgach, bu Xizrning xatmini ham o‘qimaydi.”***

Bu yerda Xizr obraziga murojaat orqali ikkiyuzlamachilik tanqid qilinadi. Bu diniy allyuziya bo‘lib, Xizr-ilm, haqiqat va ma’rofat ramzi. Qodiriy esa bu timsol orqali Toshpo‘latning soxta hurmatini fosh qiladi.

1. Kontekstual yondashuv.

Abdulla Qodiriyda allyuziyalar har doim ma’lum ijtimoiy va madaniy kontekstga tayanadi. Masalan, “Kalvak Mahzumning xotira daftaridan” hikoyasidagi turli iqtiboslar

(masalan, “Sho‘ro yo Qur’on desak…) sovet mafkurasi va diniy qadriyatlar o‘rtasidagi to‘qnashuvni aks ettiradi. Ushbu allyuziyalar o‘sha davrdagi o‘quvchi uchun tanish kontekstda tanqidiy fikrni anglatgan. Kontekstual yondashuvda muallifning o‘zi tanlagan ishoralari, ularning qanday so‘zlar bilan yoritgani, o‘sha paytdagi real voqelik bilan bog‘lanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

2. **Pragmatik funksiyalar**

Qodiriy “Kalvak Mahzumning xotira daftaridan” hikoyasini juda kinoyaviy uslubda yozadi. U Kalvak Mahzumni go‘yoki hurmatga sazovor qahramon sifatida ko‘rsatadi, biroq haqiqiy niyat – uning

nodonligi, riyo va aqlsizligini fosh etishdir. Masalan, ***“U kishining tafakkuri Sa’diy Sheroziy kabi edi”***- bu joyda kinoya orqali Kalvakning mutlaqo tuban darajadagi fikrlash doirasi tanqid qilinmoqda.

Hammamizga ma’lumki, tilshunoslik sohasida hali o‘rganilmagan, o‘rganilishi talab etilayotgan ishlar talaygina. Ushbu sohada faoliyat olib borayotgan juda ko‘plab olimlar bu boradagi muammolar ustida ish olib bormoqda va aytarli natijalarga erishildi. Biz o‘rganmoqchi bo‘lgan Abdulla Qodiriy hajviyotida allyuziya hodisasi ham yetarli darajada o‘rganilmagan masalalardan biridir. O‘zbek tilshunosligida badiiy matnlarda allyuziya hodisasining qo‘llanilishiga doir mukammal tadqiqot ishi bo‘lmasada, lekin keyingi ko‘p yillik amalga oshirilgan bir qancha nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarida bu masalaga atroflicha to‘xtalgan. Hajv haqida gapirganda yurtimiz hikoyanavis, qissanavis yozuvchilarimizdan eng buyuklari Abdulla Qahhor, Oybek, G‘.G‘ulom, Abdulla Qodiriydek buyuk shaxslar ko‘z oldimizda gavdalanadi. Chunki ular so‘zning sehrini va bu sehr orqali insonlar qalbini larzaga keltiruvchi, titratuvchi jumlalarning kulollaridir. To‘g‘ri bundaylar ko‘p ammo, hajvchilar qo‘l bilan sanoqli. Abdulla Qodiriy ijodida juda ko‘plab kichik hajvlarga boy hikoyalarni uchratamiz. Ulardan hammamizga uchun ma’lum va mashhurlari: “Toshpo‘lat tajang nima deydi”,“Kalvak Maxzumning xotira daftaridan”,“Birinchi may”,”Nima qayoqqa ketadir”,“Po‘skallasi”,“Tavakkaltu Alolloh” ni degan er: na talqon-u, na qalqonning g‘amin yer”,“Xususiy maktublardan”,“Dardi yo‘q– kessak, ishqi yo‘q– eshshak”, “Dumbasi tushib qolgan emish”, “Anov-Manov”,”Yig‘indi gaplar” va h. Uning bunday merosi orqali ko‘plab savollarga javob topa olamiz.

“Men o‘zining asarlariga o‘xshamagan yozuvchini ko‘rmaganman”– degan edi ajoyib shoirlarimizdan Usmon Azim. Darhaqiqat, Abdulla Qodiriy o‘zining hajv borasidagi yuksak mahorati uni naqadar mazmundor asarlarini yaralishiga sababchi bo‘ldi. Muallif o‘zining yuqoridagi kichik feleto‘n, hikoya va qissalarida allyuziya hodisasidan mahorat bilan foydalangan. Xususan, “Kalvak mahzumning Xotira daftaridan” hajviy asarida allyuziyaning achchiq ko‘rinishlari aks etgan.

XULOSA. Xulosa o‘rnida shularni ayta olishimiz mumkinki, Abdulla Qodiriy hajviy asarlarida allyuziyani qo‘llar ekan, asarlarining badiiy estetik kuchini oshirishda turli til birliklari vositasida undan o‘ziga xos tarzda unumli foydalanadi. Bunday paytda yozuvchi o‘zining ma’lum bir voqealar oqimida ishtirok etayotgan qahramonining qaysidir yashirin, individual xususiyatini ifodalash uchun mohirlik bilan allyuziyani asarga olib kiradi. Bu esa uning qahramonining nutqini jonli nutqqa yaqinlashtiradi, yashirin ijodiy qirrasini namoyon qilishga xizmat qiladi. Abdulla Qodiriy hajviyotida allyuziyaviy qatlamlar pragmatik jihatdan chuqur tahlil etishga loyiq. Ularning kontekstual shakllanishi muallifning keng madaniy bilimga ega ekanligini ko‘rsatadi. Qodiriy allyuziyani oddiy bezak sifatida emas, balki chuqur tanqidiy vosita ideologik yuklangan ifoda sifatida qo‘llaydi. Uning bu yondashuvi bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Bu jihatlar Qodiriyning hajviy merosini zamonaviy pragmatik va kontekstual tahlil usullari asosida o‘rganishga zamin yaratadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdulla Qodiriy. (“Jadid adabiyoti namoyondalari”).“Zabarjad media”, 2022
2. Hakimov.M, Gaziyeva Maftuna. Pragmalingvistika asoslari.Toshkent. 2022
3. Mamajonov.A. Tekst lingvistikasi.Toshkent, 1989
4. Quronov.D, Mamajonov.Z, Sheraliyeva.M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent, 2003
5. Rahimov.U. O‘zbek tilida yuklamalar pressuppozitsiyasi. Filol.fan.nom.diss.avtorefarat. Samarqand,1994
6. Internet saytlari.

LALMIKOR SHAROITDA BOSHOQLI DON EKINLARINING O‘SUV DAVRLARIGA MINERAL O‘G‘ITLAR ME’YORINING TA’SIRI

I.Sh.Mamatkulov
U.Z.Usmanov
Lalmikor dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti. e-mail:uzniizerno@yahoo.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada lalmikor tipik bo‘z tuproqlar sharoitida yumshoq bug‘doyning “No‘shkent” navining o‘suv davrlari davomiyligiga mineral o‘g‘itlar me’yorining ta’siri o‘rganildi. Tajribada yumshoq bug‘doy “No‘shkent” naviga ma’danli o‘g‘itlar me’yorda qo‘llanilishi o‘suv fazalarining kechikishi, ammo yakuniy hosil sifati va pishish davrining yaxshilanishiga olib kelgan. Eng

maqbul agrotexnik tadbirlar bilan birgalikda o‘g‘itlash tuproq unumdorligini saqlash va yuqori hosildorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Аннотация. В данной статье изучено влияние доз минеральных удобрений на продолжительность вегетационного периода мягкой пшеницы сорта «Ношкент» в условиях типичных сероземных почв. В опыте внесение минеральных удобрений под мягкую пшеницу сорта «Ношкент» в к задержке фаз роста, но улучшению качества конечного урожая и сокращению сроков созревания.

Abstract. This article studies the effect of mineral fertilizer doses on the duration of the vegetation period of soft wheat of the Noshkent variety on typical cerose soils. In the experiment, the application of mineral fertilizers to soft wheat of the Noshkent variety leads to a delay in the growth phases, but to an improvement in the quality of the final crop and a reduction in the ripening period.

Kirish. So‘ngi yillarda global iqlim o‘zgarishi boshoqli don ekinlari hosildorligiga, donning to‘liq shakillanishi va sifatiga kuchli salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli ham bug‘doy yetishtiruvchi davlatlarda bu ekinning serhosil, don sifati yuqori, kasallik va zararkunandalarga, yotib qolishga, tashqi muhitning noqulay omillariga chidamli navlrini yaratish bo‘yicha seleksiya ishlarini rejali ravishda olib borishga katta etibor qaratilmoqda.

Ko‘plab mualliflarning ta’kidlashicha, hosildorlik, don sifati, qurg‘oqchilikka chidamlilik va boshqa ko‘plab xususiyatlar uchun vegetatsiya davrining ahamiyati katta [1], [2].

Boshoqli don ekinlarining o‘suv davrlari davomiyligi agroekologik sharoitlar, navning biologiyasi, agrotexnik tadbirlar, ayniqsa, mineral o‘g‘itlar qo‘llanilishining me’yori va muddatiga bevosita bog‘liqdir. Lalmikor sharoitda bu omillar yanada muhim ahamiyat kasb etadi, chunki resurslar cheklangan, yog‘in kam, suv zaxiralari esa o‘zgaruvchan bo‘ladi.

Material va metodlar. O‘suv davrining davomiyligi “Butunittifoq O‘simlikshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti uslubi” nomli uslubiy qo‘llanma asaosida dala sharoitida aniqlandi.

Natijalar va ularning tahlili. Lalmikor maydonlarda kuzgi boshoqli don ekinlarini unib chiqishi, rivojlanish fazalarining davomiyligi juda ko‘p omillarga, har bir mintaqaning iqlim sharoiti, shu mintaqada kuz oylarida bo‘ladigan yog‘in sochin miqdori, tuproq namligi, unumdorligi, havo harorati, yorug‘lik, navning biologiyasi va qo‘llaniladigan agrotexnologik tadbirlarga bog‘liq.

Bug‘doy unib chiqishi uchun maqbul temperatura 18-25 $^{\circ}$S ni va tuproq namligi 25 mm bo‘lishi kerak. Dastlab murtak ildizlari paydo bo‘ladi, so‘ngra ketma-ketlikda ildizning birinchi va ikkinchi juftliklari, keyin koleoptil bo‘g‘imiga tegishli ildizlari paydo bo‘ladi. Undan so‘ng murtak ildizlarining keyingi juftlari paydo bo‘ladi.

O‘simlikka namlik yetarli bo‘lganda jadallik bilan tuplanish davri boshlanadi. Tuplash davrida boshoqli ekinlar oziq elementlar va namga o‘ta talabchan bo‘ladi, chunki bu davr o‘simlikda faol o‘sish va generativ organlarning shakllanish bosqichi hisoblanadi.

Jizzax viloyatining lalmikor tipik bo‘z tuproqlari sharoitida kuzgi boshoqli don ekinlarning ekish muddatlari, urug‘ va ma’danli o‘g‘itlar me’yoriga bog‘liq holda o‘suv davrlariaro rivojlanishiga sezilarli ta’sirini ko‘rsatdi. 2025 yilda olingan natijalariga ko‘ra tajribaning kuzgi boshoqli don ekinlarning unib chiqishiga ekish muddati, urug‘ va ma’danli o‘g‘itlar bilan oziqlantirilgan variantlarda unchalik katta farq kuzatilmadi. Ammo o‘g‘it qo‘llangan variantlarda unib chiqish-tuplash, unib chiqish-naychalash va unib chiqish-boshoqlash davrlarida nazorat (o‘g‘itsiz) variantga nisbatan 2-6 kun kechroq bo‘lgani kuzatildi.

Mineral o‘g‘itlarning tuproqdagi umumiy va fiziologik namlik dinamikasiga ta’siri kuzgi bug‘doyni ekish oldidan (oktabr) tuplash (mart), bosqichlarida tuproqning 0-100 sm qatlamida o‘rganildi. Ma’lumki, lalmikor maydonlarda kuzgi bug‘doyning tuplash bosqichidagi tuproq namligi, havo harorati muhim ahamiyatga ega. 2024-2025 qishloq xo‘jalik yilida kuz va qish oylaridagi yog‘ingarchilikning ko‘p yillik me’yordan kamligi sababli yumshoq bug‘doyning “No‘shkent” navida ekish me’yori 3 mln, unuvchan urug‘ hisobida 18 oktyabrda ekildi. Nazorat varianti va o‘g‘itlash me’yori $P_{30}K_{30}$ (fon), (fon) $N_{30,}$ (fon) $N_{40,}$ (fon) N_{50} ga berilgan variantlarda yumshoq bug‘doyning “No‘shkent” navi fevral oyining uchunchi o‘n kunligida unib chiqdi.


Bunga ko‘ra yumshoq bug‘doyning “No‘shkent” navining unib chiqish muddati 18 fevral (10%) to‘liq unib chiqishi 24 fevral, tuplash 18 mart ekanligi, naychalash davri o‘g‘itsiz, P_{30} K_{30} (Fon-1), (Fon-1)+N_{30} variantlarda 7 aprel, boshoqlash davri 10 may, pishish davri 10 iyun. (Fon-1)+$N_{40,}$ (Fon-1)+N_{50} variantlarda 10 aprel, boshoqlash davri 13 may, pishish muddati 12 iyun etib belgilandi. P_{40} K_{40} (Fon-2), (Fon-2)+N_{30} variantlarda naychalash 8 aprel, boshoqlash muddati 11 may, pishish muddati 12 iyun. (Fon-

2)+$N_{40,}$ (Fon-2)+N_{50} variantlarda naychalash muddati 10 aprel, boshoqlash muddati 13 may, pishish muddati 13 iyun., etib belgilandi.

Bug‘doynung pishish davriga kelib havo harorati donning to‘liq pishib yetilishi uchun qulay kelganligi hisobiga barcha variantlarda pishish davri turlicha kuzatildi.

Yumshoq bug‘doy “No‘shkent” navining unib chiqish-tuplash davri 114-118 kun, unib chiqish-naychalash 143-145 kun, unib chiqish- boshoqlash 106-113 kun va to‘liq pishish davri 204-214 kun bo‘lgani aniqlandi.

1-diogramma. **Yumshoq bug‘doy “No‘shkent” navining rivojlanishiga ma’danli o‘g‘itlar me’yorining ta’siri”** ***kun (Lalmikor dehqonchilik ITI 2025 yil)***



Xulosa. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, yumshoq bug‘doyning “No‘shkent” navi o‘suv davrlariga ma’danli o‘g‘itlarning me’yorli qo‘llanilishi sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. O‘g‘itlash orqali o‘suv fazalari kechikadi, biroq hosil sifati, pishish bir tekisligi va o‘simlikning abiotic va biotik omillarga chidamliligi oshadi. Ayniqsa, Fon-2 + N40 va N50 variantlari yuqori samaradorlikni ko‘rsatdi. Lalmikor sharoitda o‘g‘itlardan foydalanish rejasi iqlim va tuproq sharoitlari bilan uyg‘unlashtirilsa, barqaror hosildorlikka erishish mumkin.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Borlaug N.E. Preface // Wheat breeding at CIMMYT: Commemorating 50 years of research in Mexico for global wheat improvement. Wheat special report– Mexico, CIMMYT, 1995. – № 29. – P. 5-10.
2. Иваненко Н.А. Посевные качества семян озимой пшеницы и ржи в тюменской области // Электронный научный журнал. Современные проблемы науки и образование. 2015 выпуск 2.– С. 74-79.
3. Borlaug N.E. Preface // Wheat breeding at CIMMYT: Commemorating 50 years of research in Mexico for global wheat improvement. Wheat special report– Mexico, CIMMYT, 1995. – № 29. – P. 5-10.

РОЛЬ ФРАГМЕНТОВ ОКАЗАКИ В РЕПЛИКАЦИИ ОТСТАЮЩЕЙ ЦЕПИ

М.Ф.Шайназаров
Ж.Ш.Азимов
Ташкентский государственный медицинский университет, Ташкент, Узбекистан

Аннотация: В процессе репликации ДНК ведущая цепь синтезируется непрерывно, а отстающая цепь формируется в виде коротких фрагментов ДНК — фрагментов Оказаки. Эти фрагменты впоследствии соединяются в единую цепь, что является важным этапом репликации. В данном исследовании изучались механизмы формирования фрагментов Оказаки, их созревание, а также роль ключевых ферментов — FEN1 и ДНК-лигазы I — в этом процессе. В ходе экспериментов, проведённых в лабораторных условиях на фибробластных клетках человека, был проанализирован эффект дисфункции этих ферментов на геномную стабильность.

Ключевые слова: Фрагменты Оказаки, отстающая цепь, репликация, ДНК-полимераза, фермент лигаза

Annotatsiya: DNK replikatsiyasi jarayonida yetakchi zanjir uzluksiz sintezlanadi, orqada qoluvchi zanjir esa qisqa DNK bo‘laklari — Okazaki fragmentlari ko‘rinishida hosil bo‘ladi. Ushbu fragmentlar keyinchalik yagona zanjirga birlashadi va bu bosqich replikatsiyaning muhim qismidir. Ushbu tadqiqotda Okazaki fragmentlarining shakllanish mexanizmi, ularning yetilishi hamda bu jarayonda ishtirok etuvchi asosiy fermentlar — FEN1 va DNK ligaza I ning roli o‘rganildi. Tadqiqot davomida laboratoriya sharoitida fibroblast hujayralarida olib borilgan eksperimentlar asosida, fermentlarning disfunktsiyasi genom barqarorligiga qanday ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilindi.

Kalit so`zlar: Okazaki fragmentlari, orqada qoluvchi zanjir, replikatsiya, DNK polimeraza, ligaza fermenti

Abstract: During DNA replication, the leading strand is synthesized continuously, whereas the lagging strand is formed as short DNA segments known as Okazaki fragments. These fragments are later joined into a single strand, which is a critical step in the replication process. This study investigated the mechanism of Okazaki fragment formation, their maturation, and the roles of key enzymes — FEN1 and DNA ligase I — involved in this process. Laboratory experiments conducted on human fibroblast cells analyzed how the dysfunction of these enzymes affects genome stability.

Keywords: Okazaki fragments, lagging strand, replication, DNA polymerase, ligase enzyme

Введение. Репликация ДНК — это фундаментальный биологический процесс, обеспечивающий точное и полное копирование генетической информации при каждом делении клетки. Этот процесс происходит одновременно по двум цепям: ведущая цепь синтезируется непрерывно, тогда как отстающая цепь формируется в виде коротких фрагментов ДНК, известных как фрагменты Оказаки. Эти фрагменты впоследствии соединяются между собой, формируя целостную цепь ДНК. В созревании фрагментов Оказаки и заполнении промежутков между ними важную роль играют ферменты, такие как флап-эндонуклеаза 1 (FEN1) и ДНК-лигаза I.

Если функция этих ферментов нарушается, процесс сшивания цепи ДНК не завершается, что может привести к разрывам ДНК, мутациям, нарушению клеточного цикла и даже к развитию онкологических заболеваний. Кроме того, данные процессы напрямую влияют на генетическую стабильность клетки. В связи с этим детальное изучение созревания фрагментов Оказаки и активности участвующих в этом процессе ферментов имеет важное значение для понимания генетических заболеваний и разработки стратегий их лечения.

Цель исследования. Целью настоящей работы является определение роли фрагментов Оказаки в синтезе отстающей цепи, исследование механизмов их формирования и оценка их влияния на генетическую устойчивость. Для этого были поставлены следующие задачи: изучение механизма формирования фрагментов Оказаки; определение роли ферментов, участвующих в процессе репликации; Оценка генетических ошибок, возникающих в результате нарушения синтеза фрагментов Оказаки.

Материалы и методы. Для проведения данного исследования в лаборатории сначала были отобраны клетки фибробластов из линий клеток человека. Клетки культивировали в питательной среде при 37°C и 5% CO2. Динамика роста клеток регулярно контролировалась с помощью инверсного микроскопа. Для изолированной из клеток ДНК использовали фенол-хлорофомный

метод и наборы для выделения ДНК, который является широко распространенным и надежным в лабораториях Узбекистана. С целью синтеза фрагментов Оказаки и определения их длины к выделенным образцам ДНК применяли метод 1% агарозного гелевого электрофореза. Приготовлен гель, образцы загружались вместе со шкалой маркерной ДНК и разделялись электрофорезом. Результаты рассматривали с помощью УФ-трансилюминатора и определяли среднюю длину фрагментов. Для оценки экспрессии ферментов использовали метод РТ-ПЦР, доступный в нашей лаборатории. Изоляцию РНК из клеток проводили методом трикозана, затем синтезировали комплементарную ДНК с помощью обратной транскриптазы. Были измерены уровни мРНК ферментов FEN1 и ДНК-лигазы I с помощью RT-ПЦР. Для определения экспрессии белка использовали гелевое разделение SDS-PAGE и перенос на нитроцеллюлозную мембрану с последующим определением специфическими антителами. Для оценки повреждения ДНК были использованы методы ТУНЕЛЬ-асса. Все экспериментальные результаты были проанализированы с помощью статистической программы Excel. В целом, наше исследование, основанное на существующих, надежных лабораторных методах в условиях Узбекистана, направлено на определение роли нуклеаз (особенно FEN1 и ДНК-лигазы I) в созревании фрагментов Оказаки. Данный подход позволил определить основные этапы процесса репликации в клетках и функциональное значение нуклеаз, а также посредством результатов был проведен подробный анализ ошибок, возникающих при репликации ДНК, и проблем нарушения стабильности генома.

Результаты. Результаты экспериментальных исследований показали, что средняя длина фрагментов Оказаки в фибробластах из линий клеток человека в контрольной группе находилась в пределах 100-200 нуклеотидов, в среднем около 150 нуклеотидов. Было обнаружено, что при подавлении экспрессии фермента FEN1 малыми интерферентными РНК средняя длина фрагментов Оказаки увеличивалась в 1,5 раза. Также в результате модификации CRISPR-Cas9, ограничивающей функцию фермента ДНК-лигазы I, эффективность репликации снизилась на 30%, что было доказано гель-электрофорезом и экспрессией белка. Результаты ТУНЕЛ-асса, использованного для оценки повреждения ДНК, показали, что в клетках с дисфункцией FEN1 или ДНК-лигазы I разрывы ДНК и апоптотические процессы увеличиваются на 40%. С помощью статистического анализа было установлено, что эти различия значимы на уровне $P<0,05$. Кроме того, иммунофлуоресцентные анализы показали неравномерное распределение ферментов FEN1 и ДНК-лигазы I по клеточному ядру, что связано с нарушениями в вилке репликации.

Вывод. Фрагменты Оказаки играют ключевую роль в синтезе отстающей цепи репликации ДНК. Процесс их образования и связывания регулируется ферментативными механизмами. Нарушение этого процесса может привести к генетическим мутациям, нарушениям клеточного цикла и развитию таких заболеваний, как рак. Результаты исследования подтвердили решающую роль ферментов FEN1 и ДНК-лигазы I в созревании фрагментов Оказаки. При снижении экспрессии фермента FEN1 наблюдалось значительное увеличение длины фрагментов Оказаки и возникновение ошибок в репликации ДНК. Кроме того, дисфункция ДНК-лигазы I снижает эффективность репликации, что приводит к генетической нестабильности в клеточном цикле. Установлено, что разрывы ДНК и увеличение апоптотических процессов могут способствовать нарушению стабильности генома и развитию таких заболеваний, как рак. Эти результаты показали, что их можно получить с высокой точностью и с помощью лабораторных методов в условиях Узбекистана. Будущие исследования должны быть направлены на разработку методов профилактики и лечения генетических заболеваний путем модификации активности этих ферментов.

Список литературы

1. Hershey, A. and Chase, M. (1952) Независимые функции вирусного белка и нуклеиновой кислоты в росте бактериофагов. J. Ген. Физиол. 36, 39-56.
2. Okazaki, R., Okazaki, T. and Kuriki, Y. (1960) Isolation of thymidine diphosphate ramnose and a novel thymidine diphosphate sugar compound from Escherichia coli strain B. Biochim. Biophys. Acta 38, 384-386.
3. Okazaki, T., Strominger, J.L. and Okazaki, R. (1963) Метаболизм тимидиндифосфата L-рамнозы у гладких и шероховатых штаммов Escherichia coli и Salmonella weslaco. J. Bacteriol. - C. 86, 118-124.

4. Okazaki, R., Okazaki, T., Sakabe, K., Sugimoto, K. and Sugino, A. (1968) Mechanism of DNA chain growth. I. Возможная прерывистость и необычная вторичная структура вновь синтезированных цепей. Проц. Натл. Акад. Sci. U.S.A. 59, 598-605.
5. Sakabe, K. and Okazaki, R. (1966) Уникальное свойство реплицирующейся области хромосомной ДНК. Биохимия. Biophys. Acta 129, 651-654.

MOBIL PLATFORMA ASOSIDA YURAK FAOLIYATINI NAZORAT QILISH: CARDIOCARE AI TAJRIBASI

M.F.Shaynazarov
J.Sh.Azimov
Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya: Maqolada yurak-qon tomir kasalliklarining zamonaviy profilaktikasi va diagnostikasida sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish bo‘yicha rejalashtirilgan “CardioCare AI” loyihasi haqida so‘z boradi. Loyihaning asosiy maqsadi — yurak faoliyatini mobil platforma orqali monitoring qilish, xavfli holatlarni erta aniqlash va shifokor bilan tezkor aloqa o‘rnatish imkoniyatlarini yaratishdir. Maqolada tizim konsepsiyasi, ishlash prinsipi, kutilayotgan natijalar va amaliy qo‘llanilish istiqbollari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, yurak kasalliklari, tibbiy texnologiyalar, mobil platforma, monitoring, CardioCare AI

Аннотация: В статье рассматривается планируемый проект «CardioCare AI», направленный на использование возможностей искусственного интеллекта в современной профилактике и диагностике сердечно-сосудистых заболеваний. Основная цель проекта — осуществление мониторинга сердечной деятельности через мобильную платформу, раннее выявление опасных состояний и обеспечение оперативной связи с врачом. В статье освещены концепция системы, принцип её работы, ожидаемые результаты и перспективы практического применения.

Ключевые слова: искусственный интеллект, заболевания сердца, медицинские технологии, мобильная платформа, мониторинг, CardioCare AI

Abstract: The article discusses the planned “CardioCare AI” project, which aims to utilize artificial intelligence capabilities in the modern prevention and diagnosis of cardiovascular diseases. The main objective of the project is to monitor heart activity through a mobile platform, enable early detection of critical conditions, and establish rapid communication with healthcare providers. The article outlines the system’s concept, operating principle, expected outcomes, and practical application prospects.

Keywords: artificial intelligence, heart diseases, medical technologies, mobile platform, monitoring, CardioCare AI

Kirish. So‘nggi yillarda yurak-qon tomir kasalliklari dunyo bo‘yicha o‘lim holatlarining yetakchi sababi bo‘lib qolmoqda [4. 2023:B.21]. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, bu kasalliklar har yili 17 milliondan ortiq inson hayotiga zomin bo‘lmoqda. Yurak kasalliklarini erta aniqlash, monitoring qilish va individual profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish — zamonaviy tibbiyotning ustuvor vazifalaridandir.

Shu nuqtai nazardan, sun’iy intellektga asoslangan tibbiy texnologiyalar alohida e’tibor talab qiladi. Ushbu maqolada biz ishlab chiqmoqchi bo‘lgan CardioCare AI loyihasi — yurak salomatligini mobil qurilma orqali kuzatib borish, xavfli belgilarni avtomatik aniqlash va sog‘liqni boshqarishda foydalanuvchiga yordam berishga qaratilgan innovatsion tizimdir.

Asosiy qism

Loyiha konsepsiyasi va vazifalari. CardioCare AI — bu mobil platformada ishlovchi, foydalanuvchining yurak faoliyatini real vaqt rejimida kuzatishga mo‘ljallangan sun’iy intellektga asoslangan tizimdir [2. 2022:B.15]. Loyiha quyidagi vazifalarni bajarishga yo‘naltirilgan: Yurak urish ritmi, qon bosimi va EKG ko‘rsatkichlarini uzluksiz kuzatish; Anomaliyalarni aniqlab, xavfli holatlarda foydalanuvchini ogohlantirish; Tibbiy ma’lumotlarni statistik tarzda to‘plab, sog‘liq dinamikasini tahlil qilish; Foydalanuvchining shifokori bilan integratsiyalashgan tarmoq orqali axborot almashinuvi; Ilova shaklidagi ushbu platforma Android va iOS tizimlari uchun ishlab chiqilishi mo‘ljallangan.

Afzalliklar va innovatsion jihatlar. CardioCare AI tizimi bir nechta muhim afzalliklar va texnologik innovatsiyalarni o‘zida mujassam etgan. Tizim sun’iy intellekt algoritmlari yordamida yurak signallarini avtomatik tahlil qiladi va foydalanuvchi uchun oddiy interfeysda natijalarni taqdim etadi [3. 2019:B.112]. Birinchidan, tizim real vaqt rejimida ishlaydi, ya’ni yurak faoliyati uzluksiz nazorat qilinadi va har qanday o‘zgarishlar darhol qayd etiladi. Bu foydalanuvchi salomatligi xavf ostida bo‘lsa, o‘z vaqtida choralar ko‘rishga imkon yaratadi. Ikkinchidan, tizim xavfli holat yuzaga kelganda avtomatik ogohlantirish funksiyasiga ega bo‘lib, nafaqat foydalanuvchining o‘ziga, balki kerak bo‘lsa, ro‘yxatga olingan yaqinlariga yoki shifokoriga ham signal yuboradi. Uchinchidan, platforma foydalanuvchi uchun oson tushunarli interfeys bilan ta’minlangan bo‘lib, tibbiy bilimga ega bo‘lmagan oddiy fuqarolar ham undan bemalol foydalanish imkoniyatiga ega. To‘rtinchidan, sun’iy intellekt algoritmlari orqali yig‘ilgan ma’lumotlar tahlil qilinadi va foydalanuvchi holati bo‘yicha aniq, statistik asoslangan xulosalar shakllantiriladi. Nihoyat, tizim shifokor integratsiyasi imkoniyatini ham beradi, ya’ni foydalanuvchi o‘z sog‘lig‘i haqidagi real vaqt ma’lumotlarini shifokorga uzatib, individual maslahat va davolash bo‘yicha tavsiyalar olishi mumkin.

Ishlash prinsipi va texnik asos. Tizimda turli tibbiy qurilmalardan (aqlli bilaguzuklar, EKG moslamalar) olingan ma’lumotlar mobil ilovaga uzatiladi. Ushbu ma’lumotlar sun’iy intellekt algoritmlari orqali tahlil qilinib, yurak faoliyatidagi o‘zgarishlar aniqlanadi. AI-modullar yurak urishidagi buzilishlarni — masalan, bradikardiya, taxikardiya, aritmiyalarni — sog‘lom shablonlar bilan solishtiradi. Agar og‘ishlar aniqlansa, ilova foydalanuvchini ogohlantiradi va agar kerak bo‘lsa, tibbiy xodimga xabar yuboradi. Ma’lumotlar xavfsizligi zamonaviy kriptografik protokollar orqali ta’minlanadi. Ushbu loyiha O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimida raqamli texnologiyalarni tatbiq etishga qaratilgan strategiyalar doirasida rejalashtirilgan [5. 2024:B.7].

Kutilayotgan natijalar. CardioCare AI loyihasining amalga oshirilishi natijasida bir nechta muhim ko‘rsatkichlar va ijtimoiy-axborot yutuqlariga erishish kutilmoqda. Eng avvalo, yurak-qon tomir kasalliklarini erta bosqichda aniqlash samaradorligi sezilarli darajada ortadi. Bu esa, ayniqsa xavf guruhiga kiruvchi bemorlar orasida yurak xuruji, insult yoki yurak yetishmovchiligi kabi og‘ir asoratlarning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi [1. 2020:B.38]. Shuningdek, aholining yurak salomatligiga oid raqamli xabardorlik darajasi oshib, yurak faoliyatini kundalik kuzatish odati shakllanadi. Ushbu tizim yordamida mobil qurilmalar orqali shifokor va bemor o‘rtasidagi muloqot tezlashadi, bu esa tibbiy yordamning individual yondashuv asosida ko‘rsatilishini ta’minlaydi. Platforma yurak faoliyatidagi har qanday og‘ish yoki favqulodda holatlarni erta aniqlab, ogohlantirish funksiyasi orqali yurak xurujlari va o‘lim holatlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, CardioCare AI tizimi orqali profilaktikaga asoslangan yondashuv kuchayib, tibbiyot muassasalari ortiqcha yuklamadan xalos bo‘ladi. Loyihaning dastlabki bosqichi kichik eksperimental guruhda testdan o‘tkaziladi va muvaffaqiyatli natijalar asosida keng jamoatchilik uchun joriy etilishi rejalashtirilgan.

Xulosa. CardioCare AI — zamonaviy tibbiyotda sog‘liqni saqlashni raqamlashtirish yo‘nalishidagi istiqbolli loyiha bo‘lib, yurak-qon tomir kasalliklarini monitoring qilish va boshqarishda yangi bosqichni boshlab beradi. Ushbu loyiha sun’iy intellekt imkoniyatlarini samarali tarzda amaliyotga tatbiq etib, yurak faoliyatidagi anomaliyalarni erta aniqlash, xavflarni kamaytirish va shifokor-bemor o‘rtasidagi axborot almashinuvi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. CardioCare AI tizimi orqali yurak salomatligining monitoringi faqat shifokor nazorati bilan cheklanib qolmasdan, foydalanuvchining o‘zi ham o‘z holatini tushunib, sog‘lig‘iga nisbatan mas’uliyatliroq yondashadi. Bu esa nafaqat bemorlar hayot sifati, balki sog‘liqni saqlash tizimi yuklamasining kamayishiga ham olib keladi. Tizim kelgusida texnik va klinik jihatdan takomillashtirilgan holda keng miqyosda joriy qilinishi va O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimining raqamli islohotlariga o‘z hissasini qo‘shishi kutilmoqda. Shuningdek, loyiha mintaqaviy va xalqaro miqyosda ham qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan universal yechimga aylanish salohiyatiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Attia Z. Screening for cardiac arrhythmias using AI: A review. JAMA Cardiology. Boston: American Medical Association, 2020.
2. Rajpurkar P. AI in Cardiology: Progress and Prospects. Nature Reviews Cardiology. London: Springer Nature, 2022.
3. Topol E. Deep Medicine: How Artificial Intelligence Can Make Healthcare Human Again. New York: Basic Books, 2019.
4. World Health Organization. Global Health Estimates. Geneva: WHO Press, 2023.
5. Ўzbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. Raqamli sog‘liqni saqlash strategiyasi. Toshkent: SSV nashriyoti, 2024.

ANDIJON VILOYATIDA SUV RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI

M.M.Tursunov
Andijon davlat universiteti qoshidagi akademik litseyi geografiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Andijon viloyatining suv resurslari holati, ulardan foydalanishdagi mavjud muammolar hamda ularni samarali boshqarish va takomillashtirish yo‘nalishlari tahlil qilingan. Hududda suv tanqisligi, sug‘orish tizimlarining eskirganligi, ichimlik suvi bilan ta’minlashdagi kamchiliklar kabi muammolar mavjudligi ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqotda statistik ma’lumotlar, amaliy tahlillar va ilg‘or xorijiy tajribalar asosida Andijon viloyatida suv resurslaridan foydalanishni takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari asoslab berilgan. Ushbu maqola suv resurslarini boshqarish sohasida izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar, mutaxassislar va mahalliy hokimiyat vakillari uchun foydali ilmiy-amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: Andijon, suv resurlari, AQSH, Isroil, fan yutuqlari, bozor munosabatlari, FIK, dehqonchilik, suv omborlari.

Аннотация. В данной статье проанализировано состояние водных ресурсов Андижанской области, существующие проблемы их использования, а также направления их эффективного управления и совершенствования. Было показано, что в этом районе есть такие проблемы, как нехватка воды, устаревшие ирригационные системы, дефекты питьевого водоснабжения. В исследовании на основе статистических данных, практического анализа и передового зарубежного опыта обоснованы приоритеты совершенствования использования водных ресурсов в Андижанской области. Эта статья служит полезным научно-практическим ресурсом для исследователей, экспертов и местных властей, занимающихся исследованиями в области управления водными ресурсами.

Ключевые слова: Андижан, водные ресурсы, США, Израиль, достижения науки, рыночные отношения, FIC, сельское хозяйство, водохранилища.

Annotation. This article analyzes the state of Water Resources of the Andijan region, the existing problems in their use and the directions of their effective management and improvement. The area has been shown to have problems such as water shortages, outdated irrigation systems, and deficiencies in drinking water supply. On the basis of Statistics, practical analyzes and advanced foreign experiments, the study was based on the priorities of improving the use of Water Resources in the Andijan region. This article serves as a useful scientific and practical resource for researchers, specialists and representatives of local authorities who are researching in the field of Water Resource Management.

Keywords: Andijan, Water Resources, USA, Israel, science achievements, market relations, FIK, farming, reservoirs.

KIRISH. Suv resurslaridan samarali foydalanish qishloq va suv xo‘jaligi tizimida asosiy o‘rin tutadi. Mintaqada qishloq xo‘jaligi ekinlarini yer va suv resurslarining imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda joylashtirish maqsadga muvofiq. Yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligi ko‘p jihatdan suvdan foydalanuvchilarning manfaatlarini oshirishga qaratilgan amaliy tadbirlar bilan bog‘liqdir. Shuningdek, suvdan foydalanish samaradorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, melioratsiya va irrigatsiya tadbirlarini har bir hudud iqtisodiy-geografik xususiyatlari (tuproq turlarining tarqalishi, suv resurslari bilan ta’minlanganlik darajasi, melioratsiya va irrigatsiya tizimlari, yer osti suvlarining ko‘tarilish darajasi, sho‘rlanish, suv va deflyatsiya (shamol) eroziyasining rivojlanganligi va boshqa omillar) ni hisobga olish muhim iqtisodiy-ekologik ahamiyat kasb etadi. Yer va suvdan foydalanish samaradorligini oshirish ko‘p jihatdan ilg‘or texnologiyani ishlab chiqarishga joriy etish bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, suvdan foydalanish samaradorligi tomchilatib yoki yomg‘ir usulida sug‘orishda oddiy bostirib sug‘orishdagiga nisbatan bir muncha yuqoriligi jahonning ilg‘or mamlakatlari tajribalaridan ma’lum (AQSh, Isroil va boshq). Suv resurslari cheklangan hududlarda bu texnologiyalarning ahamiyati yanada oshadi.

Fan yutuqlarining ishlab chiqarishga joriy etish, yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Ishlab chiqarishga paxta va bug‘doyning tez pishar, kamsuvlik sharoitlariga chidamli navlarini joriy etish, ekologik muhit talablarini hisobga olgan holda kimyoviy vositalardan foydalanish ham yer va suv resurslarining samaradorligini oshirishga ijobiy ta’sir

etadigan omillardir. Mintaqada suv resurslari cheklanganligi sabablari suvdan sug‘orishda foydalanish texnologiyasini qayta ko‘rib chiqish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu yo‘lda muhim bosqich-samarasi yuqori bo‘lgan sug‘orish usullariga o‘tishdir. Mamlakatimizda sug‘orish texnologiyasi samaradorligini oshirish bilan bog‘liq ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Eng asosiy yo‘nalish-suvni nazorat qilish, dalaga beriladigan suvni tejash, ko‘proq maydonni kam suv bilan sug‘orish va hosildorlikni oshirish, sho‘rlangan, faqat g‘o‘za bilan band bo‘lgan yerlarga boshqa raqobatbardosh, paxtaning o‘rnini bosa oladigan va dunyo bozorida foyda keltiradigan mahsulot beruvchi ekinlar ekishdir.

NATIJA VA MUHOKAMA. Andijon viloyati hududidan oqib o‘tadigan daryo va kanallarga asosan Norin, Qoradaryo, Maylisoy, Tentaksoy (Andijon viloyatining shimoliy sharqiy qismidagi soy. Farg‘ona tizmasidagi buloqlardan boshlanadi. Paxtaobod shahridan o‘tib Moylisuvga qo‘shiladi. Uzunligi 126 km. Havzasi maydoni 4130 kvadrat kilometr. Ko‘p yillik suv sarfi sekundiga 35,8 metr kubni tashkil etadi. Tentaksoyga Chortoqsoy va boshqa tashlama suvlar kelib qo‘shiladi. Suvi Paxtaobod tumani ekin maydonlarini sug‘orishga sarflanadi), Aravonsoy, Andijonsoy daryolari, Katta Farg‘ona magistral, Katta Andijon magistral, Janubiy Farg‘ona, Mazgilsoy, Sariqjo‘ga, Sariqsuv kanallari hamda Shahrixonsoy va yuzlab anhorlar hamda ariqlar kiradi. Bu suv havzalari viloyatning qon tomirlariga o‘xshab hamma hududlarni suv bilan ta’minlaydi [Мамажонов М., Алиев Ҳ. 2024. 45].

Ilg‘or mamlakatlar tajribalari (AQSh, Isroil, Germaniya va boshqa) shuni ko‘rsatadiki o‘rtacha yomon va sho‘rlangan yerlarda tomchilatib sug‘orishga o‘tish, yomg‘irlatib sug‘orishni, ayniqsa, bug‘doyzorlarga joriy etish katta samara bermoqda. Bu borada Isroil tajribasi muhim ahamiyat kasb etadi. Isroilda qishloq xo‘jaligining foyda beradigan asosiy yo‘nalishi polizchilik, gulchilik va sitrus mahsulotlari yetishtirishdir. Bu mamlakatda na suv, na yer yetarli, lekin mahsulotning teng yarmi Yevropaga eksport qilinadi.

Sug‘oriladigan dehqonchilik mintaqalarida mavjud yer resurslaridan foydalanish samaradorligi, suv ta’minoti, suv resurslaridan foydalanish ko‘rsatkichlari bilan chambarchas bog‘liq. Chunki, sug‘orma dehqonchilik sharoitida suv yerga qarashli bo‘ladi. Bu ikki muammoni bir-biridan ajratib o‘rganish, ularning samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar kiritish O‘zbekiston sharoitida mumkin emas. Mamlakatimizda va qo‘shni davlatlarda suv resurslaridan tejab-tergab foydalanishning samarali xo‘jalik mexanizmi yaratilmaganligi sug‘orish tizimlarining samaradorligining past bo‘lishi va suv isrofgarchiligining yuqori bo‘lishiga olib kelmoqdi. Chunki, suv xo‘jaligi majmuasini barpo qilish, ta’mirlash va kapital qurilish bilan bog‘liq barcha xarajatlar davlat xazinasidan to‘lanib, xo‘jalik yuritish sub’yektlari amalda hech qanday javobgarliksiz suvdan foydalangan va bu masalaga e’tibor sust bo‘lgan.

Bugungi kunda ham amalda gidrotexnik qurilmalarga texnik xizmat ko‘rsatish, ta’mirlash, shu sohadagi ishchilar va xodimlar ish xaqi, sug‘orish inshootlarini ishlatishni o‘z ichiga olgan gidrotexnik qurilmalar, suv chiqarish tizimlarini barpo etish ham davlat byudjeti hisobidan amalga oshirilmoqda. Amalga oshiriladigan tadbirlarni byudjet mablag‘lari hisobiga moliyalash hamda suvdan foydalanishning bepulligi suv xo‘jaligi tashkilotlari va suvdan foydalanuvchilarning suvdan tejab-tergab va unumli foydalanishga olib kelmadi.

Suv ham yer kabi tabiat ne’mati bo‘lishiga qaramay, u tabiiy monopoliya hisoblanadi va raqobat muhitini shakllantirib bo‘lmaydi. Ayni paytda suvning tabiiy manbalarda turli suniy inshootlarni barpo etish (suv omborlari), kanal va nasos qurilmalari qurish jamiyat doirasida juda katta kapital mablag‘larni taqozo qiladi. Farg‘ona vodiysi kabi hududda suv resurslarini ko‘paytirish imkoniyatlari mutlaqo chegaralangan. Bu ikki omil esa bozor munosabatlari sharoitida suv resurslaridan samarali foydalanish bilan bog‘liq iqtisodiy muammolarini kun tartibiga qo‘ydi. Muammoning ijobiy hal qilish yo‘nalishlaridan biri suvdan foydalanganlik uchun haq to‘lash tizimini joriy qilish bo‘lib, ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonidan unga maqsadga muvofiq omil sifatida qaralmoqda.

Bozor munosabatlari sharoitida yana bir psixologik holatni hisobga olish ham maqsadga muvofiq. Mamlakatimiz hududida suvdan asrlar mobaynida tabiat mahsuli sifatida bepul foydalanib kelingan. Suvdan foydalanganlik uchun bevosita haq to‘lash to‘g‘risida tasavvur ham bo‘lmagan. Melioratsiya tadbirlari uchun byudjetdan beriladigan mablag‘lar bir tomondan melioratsiyaning rivojlanishiga ijobiy ta’sir etgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan katta miqdorda suv resurslarining asoslanmagan ravishda keragidan ortiqcha ishlatilishi esa o‘z navbatida Orol va Orol bo‘yida murakkab ekologik vaziyatni yuzaga kelishi va keskinlashib borishiga olib keldi.

Respublikamizda melioratsiya tadbirlarini o‘tkazishni qishloq xo‘jalik korxonalarining ixtiyoriga tashlab qo‘yilishi muammoni yanada keskinlashtirishi mumkinligi mustaqillikning dastlabki yillarida yaqqol ko‘zga tashlandi. Yirik qishloq xo‘jaligi korxonalari asosida dehqon va fermer xo‘jaliklarining

tashkil etilishi va ularning iqtisodiy - texnik salohiyati zaifligi sug‘orma dehqonchilikka asoslangan mintaqalarda suv xo‘jaligi majmuidan foydalanish, uning faoliyatini mablag‘ bilan taminlashda jiddiy muammolarni keltirib chiqardi. [Madumarov T.A. Mamajonov M. ва б. 2015. 87] Shuning uchun davlat yirik qishloq xo‘jaligi mintaqalarida melioratsiya va irrigatsiya tadbirlari uchun sarflanadigan kapital mablag‘larning asosiy qismini o‘z zimmasiga olishi, suv omborlari, yirik irrigatsiya kanallari va gidrouzellar faoliyati yuzasidan doimiy monitoringni yo‘lga qo‘yishidan tashqari istiqbolli rejalarni amalga oshirishi (yangi suv omborlari, kanallar, yirik suv tortish nasoslari, mashinalashgan kanallar qurilishi va boshq) maqsadga muvofiqdir. Fermer va dehqon xo‘jaliklaridan esa, ular joylashgan hududda umumiy ahamiyatga ega bo‘lgan irrigatsiya va melioratsiya tadbirlari uchun mablag‘lar olinishini ta’minlaydigan iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish zarur.

Bozor munosabatlari sharoitida suv ta’minotini yo‘lga qo‘yish uchun mablag‘lar turli to‘lovlar va soliqlar mexanizm orqali shakllantirilishi mumkin. Mazkur mexanizm yerdan va suvdan tejab-tergab, samarali foydalanishni ham rag‘batlantirilishi, shu bilan birga esa, hududda joylashgan qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyatidagi tuproq, iqlim sharoitlarini, moddiy-texnika ba’zasini, moliyaviy-iqtisodiy ahvolini e’tiborga olishi maqsadga muvofiqdir. Bu o‘z navbatida, suvdan foydalanishdagi to‘lovlar va soliqlarning tabaqalashtirilgan holda qo‘llanishi zaruriyatini bildiradi. Demak, suv uchun to‘lovlarni tabaqalashtirish kompleks gektarga hisoblanishi va xarajatlarni shu suv yordamida yetishtirilgan mahsulot tannarxiga nisbatan amalga oshirilishi ham muhim o‘rin tutishi mumkin. Ayni vaqtda, fermer va dehqon xo‘jaliklari suvdan foydalanganlik uchun tabaqalashgan tarzda ya’ni-magistral kanallar va ariqlardan xo‘jalik maydonlari uzoq-yaqin joylashganligini hisobga olgan holda haq to‘lash tizimini joriy qilish ham maqsadga muvofiq. Shuningdek, sug‘orish uchun mavsum davomida qancha suv kerakligini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni hisoblanishi suv resurslarni tejash uchun zamin yaratadi. Hozirgi kunda ushbu ko‘rsatkichlar amaliyotda qo‘llanilmasligi suv resurslarni iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlarni bir muncha murakkablashtiradi. Suvdan oqilona foydalanish sug‘orish tizimlarining foydali ish koeffitsiyentini oshiradi. Bevosita sug‘orish uchun foydalanilgan daladagi suv miqdorining sug‘orish tizimiga (kanal boshidan) berilgan suv miqdoriga nisbatai tizimning foydali ish koeffitsiyenti (FIK) deyiladi. Suvning yerga singib ketishi kollektor va zovurlarga bekorga oqib tushishi va bug‘lanish hollariga yo‘l qo‘yish esa foydali ish koeffitsiyentining kamayib ketishiga olib keladi. [Yu.I.Ahmadaliyev. 2014. 59]

Suvdan foydalanish uchun oldindan bir necha yil uchun qat’iy baho belgilash ham maqsadga muvofiq emas. Chunki, suv xo‘jaligi majmuasining suvni iste’molchilariga yetkazib berish bilan bog‘liq xarajatlari yilning sersuv yoki kamsuv kelishiga qarab jiddiy ravishda farqlanishi mumkin. Sersuv yillar uchun maqbul bo‘lgan to‘lovlar stavkalari qurg‘oqchilik yillarda o‘zini oqlamaydi va suv isrofgarchiligiga yo‘l ochib beradi. Aksincha, qurg‘oqchil yillaani mo‘ljallab o‘rnatilgan yuqori stavkalar sersuv yillarda ekinlar hosildorligini ta’minlashga, yoki suv talab ekinlar ekishiga ortiqcha to‘sqinlik qilishi mumkin. Shuning uchun suv ta’minoti organlarining faoliyatini yetarli darajada rag‘batlantirish maqsadida suvning bahosi har bir qishloq xo‘jalik-moliya yili uchun alohida belgilab, tabiiy, iqtisodiy shart-sharoitlar o‘zgargan taqdirda esa suv bahosiga ham o‘zgartirish kiritilishi maqsadga muvofiq. Qishloq xo‘jaligining suvga bo‘lgan ehtiyojlari mavsumiy tarzda o‘zgarib turadi. Qish, erta bahor va kech kuzda kamayib, qishloq xo‘jaligi ekinlari vegetatsiyasi davrida esa talab ortadi. Suv bahosi ham shu ehtiyojni hisobga olgan holda, ya’ni uni sarf - xarajatlarini kamaytirib, tejab-tergab foydalanishni rag‘batlantirish maqsadida tabaqalashtirilgan bo‘lishi, suvga talab ko‘p vaqtida yuqori yoki aksincha, talab kam vaqtida ozaytirilishi ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin.

Yer-suv resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yer-suv munosabatlarini doimiy takomillashtirib borishni taqozo qiladi. Buning uchun yer va suvning baholarini va ulardan foydalanganlik uchun to‘lanadigan to‘lovlar, soliqlar miqdorini aniqlash lozim. Bunda bozor iqtisodiyoti qonuniyatlaridan kelib chiqish shuningdek, yer va suv resurslarining cheklanganligini, yangidan yaratilmasligini, holati, sifati, iste’molchilarga uzoq-yaqinligini, ishlab chiqarish vositalari hamda infratuzilmalar bilan taminlanganligini, olinayotgan mahsulot, foyda summasi kabi ko‘rsatakichlarni ham e’tiborga olish lozim.

Suv xo‘jaligi majmuasida suv resurslari zahiralarining ko‘paytirishning hozirda real amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan asosiy yo‘li yangi suv omborlarini barpo etishdir. Ammo, O‘zbekistonning Farg‘ona vodiysida suv omborlarini barpo qilish bir qator muammolarga, ya’ni vodiyning yuqori seysmik mintaqa ekanligi va ekologik hajmining chegaralanganligi bilan bog‘liq jiddiy iqtisodiy-ekologik oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shunga qaramay bugungi kunda yuzaga kelgan suv muammosini hal qilish maqsadida Shimoliy Farg‘ona hududida suv omborlar qurishni nafaqat iqtisodiy-ijtimoiy, balki geosiyosiy

vaziyat ham taqozo etmoqda. Chunki, mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va iqtisodiy va ekologik xavfsizligini xatto yaqin do‘st va hamkor davlatlarning hukumatlari olib boradigan siyosat ixtiyoriga tashlab qo‘yilishi mumkin emas.

Ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda turli maqsadlarda yiliga o‘rtacha 67 km^3 yer usti va yer osti suvlaridan foydalaniladi. O‘zbekiston aholisi to‘g‘risidagi 2012 yilgacha bo‘lgan statistik ma’lumotlarga e’tibor beradigan bo‘lsak, jon boshiga sutkasiga necha litr ichimlik suvi ishlatilganligini hisoblab chiqishimiz mumkin.

Demak, 2012 yilda O‘zbekistonda, qishloq va shahar aholisi birgalikda olinganda, jon boshiga sutkasiga 415 l ichimlik suvi to‘g‘ri kelgan. O‘zbekiston suv resurslarining jon boshiga to‘g‘ri keladigan yillik miqdorini aniqlash uchun esa hududda hosil bo‘ladigan daryo oqimini hisobga olish kerak. O‘zbekiston hududida yiliga o‘rtacha 9,701 km^3 hajmda suv hosil bo‘lib, 1 kishiga 362 m^3 suv to‘g‘ri keladi. Bu ko‘rsatkich boshqa davlatlarda, masalan, Islandiyada 609319 m^3, Gvianada 316689 m^3, Surinamda 292566 m^3, Rossiyada 30522 m^3, Birlashgan Arab Amirliklarida 58 m^3, Quvaytda 10 m^3 ga teng kelishi aniqlangan. Suvning inson hayotida qay darajada ahamiyatli ekanligini quyidagi oddiygina misollar orqali ko‘rishimiz mumkin. Masalan, rivojlanayotgan davlatlarda chuchuk suv zahirasining 70-90 % i qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orishda foydalaniladi. Sholining har 1 kg ni yetishtirish uchun 3000 l suv talab qilinadi. Qayd etish lozimki, yiliga bir kishi o‘rta miqdorda 58 kg guruch iste’mol qiladi. 400 grammli non mahsuloti ishlab chiqarishga ketadigan bug‘doyni yetishtirish uchun 550 l, rivojlanayotgan davlatlarda 100 gramm go‘sht mahsulotini tayyorlash uchun 1500 l, rivojlangan davlatlarda esa 7000 l suv kerak bo‘ladi[Nig‘matov A. 2010. 114].

XULOSA. Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki. Andijon viloyatida suv resurslaridan oqilona foydalanish masalasi hududning agrar rivojlanishi va aholi farovonligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Suv resurslaridan samarali foydalanishni amaliyotda qancha keng qo‘llasak, kelajakda kutilishi mumkin bo‘lgan global muammolar xavfini shuncha kamaytirgan bo‘lamiz. Zero suv – bu yashash va ishlab chiqarish, sog‘lom va go‘zal hayot, shuningdek, insoniyat taraqqiyotining fundamental asosidir. Mavjud holat tahlili shuni ko‘rsatadiki, suv resurslaridan foydalanishda hali-hanuz an’anaviy yondashuvlar ustun bo‘lib, sug‘orish tizimlarining eskirganligi, suv isrofi va qayta foydalanish imkoniyatlarining yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagani asosiy muammolar sirasiga kiradi. Mazkur maqolada taklif etilgan chora-tadbirlar — xususan, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, suv xo‘jaligini raqamlashtirish, aholining ekologik madaniyatini oshirish va davlat-hususiy sheriklik asosida loyihalarni amalga oshirish — viloyatda suv resurslarini boshqarishda samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu asosda, Andijon viloyatida barqaror suv siyosatini shakllantirish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash uchun kompleks yondashuvlar zarurdir.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Madumarov T.A., Mamajonov M., Mamatyusupov A.R., Isayev A.A., Andijon viloyati o’lkashunoslik atlasi. – Toshkent, 2015. – 100 б.
2. Nig‘matov A. Tabiiy geografik fanlarning nazariy muammolari. – T.: Fan va texnologiya, 2010. – 320 б.
3. Yu.I.Ahmadaliyev. Yer resurslaridan foydalanish geoekologiyasi. Toshkent, Fan va texnologiya, 2014. – 340 b.
4. Мамажонов М., Алиев Ҳ. Андижон географияси (Андижон вилояти табиий ва иқтисодий-ижтимоий географияси). Тошкент: “Elnur-print” нашриёти, 2024. – 284 б.

ОТ АЛГОРИТМА К ИНТУИЦИИ: ГРАНИЦЫ И ПОТЕНЦИАЛ ЭМПАТИЧЕСКОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ В ИСКУССТВЕННОМ ИНТЕЛЛЕКТЕ

Д.О.Орифжонова
Turan International University Студентка 2-го курса Email: dona.okilovna@gmail.com

Аннотация: Будучи одним из важных качеств человеческого взаимодействия, эмпатия является весьма вовлекающим аспектом для развития искусственного интеллекта и его моделирования. Если взять за основу компонентов человеческие эмоции и мышление, эмпатическое моделирование будет возможно через реализацию алгоритмов машинного обучения, способных делать глубокий анализ, тем самым предсказывать поведение и реакции опираясь на

эмоциональный интеллект. Научно доказано, что высокий уровень эмоционального интеллекта это ключ к успеху в профессиональной деятельности [1]. Необходимость интеграции эмоционального контекста в алгоритмы искусственного интеллекта, является одной из задач настоящего времени [5].

Ключевые слова: эмпатия, искусственный интеллект, эмоциональный интеллект, распознавание эмоций, чат-боты, машинное обучение, этические вопросы.

Границы эмпатического моделирования

Современные ИИ-системы умеют подрожать эмпатию и частично моделировать интуицию, но их способности ограничены алгоритмической природой и отсутствием подлинного человеческого опыта [4].

Имитация, а не подлинная эмпатия: Искусственный интеллект способен симулировать эпматические реакции, которые несут положительные отзывы от пользователей, что приносит удовлетворение сервисам, в особенности в сферах обслуживания и поддержки. Но не смотря на это, все эти реакции, остаются всего лишь анализом данных, а не настоящими сопереживаниями.

Органичение алгоритмов: Даже самые продвинутые нейросети оперируют по заданным алгоритмам, что является их главным отличием от человеческой интуиции, которая формулируется опираясь на опыт и мышление индивидуальности. Искусственный интеллект не имеет возможности выходить за рамки своей модели и никак не способен полностью заменить человеческую интуицию из-за нехватки данных.

Проблема объяснимости: Попытка угадать эмоции пользователя со стороны искусственного интеллекта может быть и удачной, но не всегда он сможет объяснить, как сделал тот или иной вывод, что ограничивает доверие к таким системам.

Этические вопросы: Как бы сильно не старался искусственный интеллект имитацией человеческой эмпатии тем подозрительнее становятся вопросы о манипуляции, приватности и ответственности.

Возможности имитации эмпатии алгоритмами. Современные технологии искусственного интеллекта быстро развиваются не только со стороны интеллектуального анализа данных, но и распознанием и реагированием на человеческие эмоции. Такое направление эмпатического моделирования создает попытку приблизить искусственный интеллект к человеческой эмпатии, для дальнейшего взаимодействия и создания более чуткого эмоционально-адекватного интерфейса. Однако для воплощения такого мощного перехода необходимо сопряжение с теоретическими, техническими и этическими вызовами. Самые широко распространённые языковые модели искусственного интеллекта, такие как ChatGPT уже показывают умение распознавать тон и эмоциональное состояние пользователя, при этом адаптируют свои ответы для создания иллюзии и эмоционального отклика.

Технологии распознавание эмоций и имитации эмпатии. Для распознавания человеческих эмоций процесс включает несколько видов анализа данных:

Обработка изображений, то есть компьютерное зрение: Использует камеру и анализирует ними мимику, жесты, позы, для того чтобы определить эмоции. Например алгоритмы на базе нейросетей CNN способны с высокой точностью распознанию базовых эмоции, такие как радость, гнев, страх, удивление и другие.

Анализ речи: Одним из источников информации служат паравербальные признаки такие как тембр, интонация и скорость речи. Нейронные сети RNN с внимательностью и точностью ловят звуковые сигналы для выявления эмоционального состояния пользователя.

Текстовый анализ (NLP): обработка естественного языка способствует определению эмоциональной окраски сообщений с помощью которого идёт моделирование тематического анализа и распознавание тональности [7].

Мультимодальный анализ: комбинация всех вышеперечисленных методов значительно повышает точность и надёжность определения эмоционального состояния.

Примеры попыток моделирования эмпатии

Чат боты и виртуальные ассистенты:

Такие чат боты, как Woebot и Wysa используют когнитивно-поведенческую терапию и распознавание эмоционального состояния для оказания психологической поддержки [6].

Адаптирует свои ответы в зависимости от настроения пользователя, таким образом помогая справляться с тревогой и депрессией пациента.

Эмпатические агенты в клиентском сервисе [2]:

Такие системы способны распознавать недовольствие или страх клиента и менять тон общения при этом предлагая более вежливые и поддерживающие ответы, которые помогают клиентам, а также повышают их удовлетворённость к сервису.

Медицина:

Виртуальные помощники для пациентов: Исходя из разности пациентов и их состояние они выполняют следующие задачи. Например помогает напомнить о приеме лекарств, могут ответить на вопросы и поддержать эмоциональное состояние пациентов в периоды стресса или изоляции. А также виртуальные ассистенты используются в терапии хронических заболеваний и психиатрии.

Диагностика и поддержка врачей: Так как искусственные интеллект наделяется способностью не переутомляться от анализа и обработки данных, он помогает быстро справляться с медицинскими данными врачей, таким способом освобождая их время для того, чтобы уделять больше внимания эмпатическому общению с пациентами.

Образование:

Интеллектуальные обучающие системы (ITS): Такие системы, которые отслеживают эмоциональное состояние учащихся например через анализ лицевой мимики или ответы на вопросы, адаптируют учебный материал в зависимости от уровня вовлеченности при этом повышая качество обучения.

Персонализация обучения: Существуют платформы такие как Smart Sparrow, которые прокладывают индивидуальные маршруты обучения с учётом эмоционального восприятия и мотивации учащихся, которую также можно рассмотреть, как форму эмпатической поддержки [1].

Этические риски и вызовы

Манипуляция и эмоциональная зависимость: При постоянном использовании искусственного интеллекта в роли собеседника пользователи могут воспринять его как настоящего друга или терапевта, что в дальнейшем может привести к психологической зависимости и искажение восприятия реальных человеческих отношений.

Доверие и прозрачность: Очень важно, чтобы было ясно, что пользователь общается с машиной а не человеком. Отсутствие прозрачности порождает риск обмана и утраты доверие человека.

Конфиденциальность и безопасность: Персонализации искусственный интеллект собирает и анализирует чувствительные данные что требует строгой защиты и соблюдения законодательств, так как такие данные являются личными и нуждаются в приватности.

Ответственность: Порой сложно определить, кто по-настоящему несёт ответственность за некорректные ответы или неблагоприятные последствия от взаимодействия симпатическим искусственным интеллектом.

Снижая человеческие эмпатии: Если перекладывать всю эмоциональную поддержку на нейросети это может привести к снижению навыков сопереживание у людей и ослаблению социальных связей [6].

Заключение. В сегодняшнее время искусственный интеллект способен эффективно распознавать эмоции и имитировать эмпатически реакции, что открывает большие возможности в сфере медицины образования психологии, а также обслуживание клиентов. Однако разницу между распознаванием эмоций и подлинным сопереживанием трудно не заметить. Искусственный интеллект лишен сознание и субъективного опыта, не умеет испытывать эмоции и по-настоящему переживать чувства другого. Это является ограниченной ролью эмпатической взаимодействия искусственного интеллекта с человеком и требуют внимательного подхода к его применению.

Список литературы:

1. *Trends* (RBC). (n.d.). *[Education trends article]*. RBC. Retrieved August 6, 2025, from https://trends.rbc.ru/trends/education/61a0da689a794713e66cf49c

2. *SciUp*. (n.d.). *Искусственный интеллект, эмпатия и подотчётность*. Retrieved August 6, 2025, from https://sciup.org/iskusstvennyj-intellektjempatija-i-podotchetnost-140296447

3. *Terra Humana*. (n.d.). *[Archive article]* (22_03_14). Retrieved August 6, 2025, from https://www.terrahumana.ru/arhiv/22_03/22_03_14.pdf

4. Shomova, S. A. (2024). *Ty, ya i «Alisa»: kak my uzhivaemsya s iskusstvennym intellektom* [You, me and “Alice”: how we get along with artificial intelligence]. *Vestnik Moskovskogo Universiteta. Seriya 10. Zhurnalistika*, (3), 186–207. https://doi.org/10.30547/vestnik.journ.3.2024.186207 msupsyj.ru+1

5. *CyberLeninka*. (n.d.). *Искусственный интеллект, эмпатия и подотчётность*. Retrieved August 6, 2025, from https://cyberleninka.ru/article/n/iskusstvennyy-intellekt-empatiya-i-podotchetnost

6. *CyberLeninka*. (n.d.). *Цифровая эмпатия и психологическое благополучие: особенности взаимодействия молодёжи с ИИпомощниками*. Retrieved August 6, 2025, from https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovaya-empatiya-i-psihologicheskoe-blagopoluchie-osobennosti-vzaimodeystviya-molodyozhi-s-ii-pomoschnikami КиберЛенинка+1

7. *SAS UTMN*. (n.d.). *[Material]*. Retrieved August 6, 2025, from https://sas.utmn.ru/ru/media/materials/1212518/

AVTOMATLASHTIRISH VA MIKROIQLIM BOSHQARUVIDA QO‘LLANILADIGAN SUN’IY INTELLEKT VA DASTURLASH TEXNOLOGIYALARI

F.N.Norqulova
Qarshi davlat universiteti Amaliy matimatika yo’nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada avtomatlashtirish va mikroiqlim boshqaruvi sohalarida sun’iy intellekt (SI) hamda dasturlash texnologiyalarining qo‘llanilishi o‘rganiladi. Zamonaviy raqamli tizimlarda optimal mikroiqlimni ta’minlash va avtomatik boshqaruvni amalga oshirish jarayonlarida SI algoritmlari, sensorli qurilmalar va moslashtirilgan dasturiy ta’minotlarning ahamiyati yoritib beriladi. Tadqiqot doirasida aqlli monitoring, ma’lumotlar tahlili, bashoratlash va real vaqt rejimida boshqaruv imkonini beruvchi texnologiyalar tahlil qilinadi. Shuningdek, avtomatlashtirilgan tizimlarda dasturlash vositalarining roli va ular orqali mikroiqlim parametrlarini samarali boshqarishning amaliy mexanizmlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so’zlar: Sun’iy intellekt, avtomatlashtirish, mikroiqlim boshqaruvi, dasturlash texnologiyalari, real vaqt tizimlari, raqamli yechimlar, muhit nazorati, innovatsion texnologiyalar.

Аннотация: В данной статье рассматривается применение искусственного интеллекта (ИИ) и технологий программирования в сферах автоматизации и управления микроклиматом. Особое внимание уделяется значению алгоритмов ИИ, сенсорных устройств и специализированного программного обеспечения в обеспечении оптимального микроклимата и реализации автоматического управления в современных цифровых системах. В рамках исследования проводится анализ технологий, обеспечивающих интеллектуальный мониторинг, обработку данных, прогнозирование и управление в режиме реального времени. Также рассматриваются роль программных средств в автоматизированных системах и практические механизмы эффективного управления параметрами микроклимата с их помощью.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, автоматизация, управление микроклиматом, технологии программирования, системы реального времени, цифровые решения, контроль окружающей среды, инновационные технологии.

Abstract: This article explores the application of artificial intelligence (AI) and programming technologies in the fields of automation and microclimate control. It highlights the significance of AI algorithms, sensor devices, and customized software in ensuring optimal microclimate conditions and implementing automatic control within modern digital systems. The study analyzes technologies that enable intelligent monitoring, data analysis, forecasting, and real-time management. In addition, the role of programming tools in automated systems and practical mechanisms for efficiently managing microclimate parameters are examined.

Keywords: Artificial Intelligence, Automation, Microclimate Control, Programming Technologies, Real-time Systems, Digital Solutions, Environmental Regulation, Innovative Technologies.

Kirish. Raqamli texnologiyalar jadal sur’atlarda rivojlanib borayotgan hozirgi davrda turli sohalarda avtomatlashtirish va sun’iy intellekt (SI) vositalarining qo‘llanilishi inson mehnatini yengillashtirish, tizimlar samaradorligini oshirish hamda resurslardan oqilona foydalanish imkonini bermoqda. Xususan, mikroiqlim boshqaruvi — ya’ni yopiq muhitdagi harorat, namlik, havo aylanishi va

boshqa muhim parametrlarni nazorat qilish — sanoat, qishloq xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash, ta’lim hamda uy-joy infratuzilmasida muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.
An’anaviy usullarda mikroiqlimni boshqarish ko‘p hollarda inson omiliga bog‘liq bo‘lib, xatolik ehtimoli yuqori va resurs sarfi katta bo‘lgan. Shu nuqtayi nazardan, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va sun’iy intellekt algoritmlarini integratsiyalash orqali mikroiqlim parametrlarini doimiy monitoring qilish, real vaqt rejimida boshqarish hamda bashoratlash imkoniyatlari yaratildi. Ayniqsa, zamonaviy dasturlash tillari, IoT (Internet of Things) texnologiyalari va mashinaviy o‘rganish (machine learning) asosidagi yondashuvlar ushbu jarayonlarni yanada optimallashtirishda muhim rol o‘ynaydi.
Ushbu tadqiqot avtomatlashtirish va mikroiqlim boshqaruvi sohasidagi ilg‘or texnologiyalarni, xususan, sun’iy intellekt hamda dasturlash vositalari orqali yaratilgan tizimlarni tahlil qilishga qaratilgan. Maqolada mavjud ilmiy-nazariy asoslar, amaliy tajribalar va ilg‘or xorijiy tajribalar asosida ushbu texnologiyalarning samaradorligi, qo‘llanilish sohasi va istiqbollari chuqur tahlil qilinadi.

Avtomatlashtirish texnologiyalarining rivojlanishi: So‘nggi yillarda sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarida avtomatlashtirish texnologiyalari keng joriy etilmoqda. Ushbu texnologiyalar yordamida inson ishtirokisiz, aniq algoritmlar asosida ma’lum bir funksiyalarni bajaruvchi tizimlar ishlab chiqildi. Mikroiqlim boshqaruvi sohasida ham ushbu texnologiyalar asosida harorat, namlik, havo aylanishi, yorug‘lik va boshqa parametrlarni avtomatik ravishda nazorat qilish imkoniyati yaratildi. Avtomatlashtirilgan mikroiqlim tizimlari sensorlar (datchiklar), aktuatorlar, kontrollerlar (masalan, PLC — Programmable Logic Controller), va boshqaruv algoritmlaridan iborat bo‘lib, ular o‘zaro uzviy ishlaydi. Masalan, issiqxona tizimida sensorlar orqali harorat pastlagani aniqlansa, tizim avtomatik ravishda isitgichlarni ishga tushiradi. Bunday tizimlar mehnat unumdorligini oshirish, energiya tejamkorligini ta’minlash va barqaror ekotizim yaratishda muhim ahamiyatga ega.
Sun’iy intellektning qo‘llanilishi: Sun’iy intellekt (SI) avtomatlashtirilgan tizimlarning keyingi evolyutsiyasi sifatida qaralmoqda. An’anaviy algoritmik yondashuvlardan farqli o‘laroq, SI algoritmlari katta hajmdagi ma’lumotlar asosida mustaqil qaror qabul qila oladi va o‘zini o‘zi takomillashtirish xususiyatiga ega. Mikroiqlim boshqaruvida SI quyidagi yo‘nalishlarda keng qo‘llaniladi:


- **Mashinali o‘rganish (Machine Learning)** orqali optimal mikroiqlim sharoitlarini aniqlash va moslashtirish.
- **Neyron tarmoqlar** yordamida harorat va namlikning bashoratini amalga oshirish.
- **Adaptiv boshqaruv tizimlari** orqali real vaqtda o‘zgaruvchan muhit sharoitlariga mos ravishda avtomatik javob berish.

Masalan, aqlli binolar (smart buildings) konsepsiyasida SI yordamida binoning foydalanish rejimlari, tashqi ob-havo va ichki mikroiqlim holati tahlil qilinadi hamda avtomatik tarzda optimal muhit yaratiladi.

Amaliy qo’llanish va istiqbollar: Mikroiqlimni avtomatik boshqarish tizimlari sanoat korxonalari, issiqxonalar, muzlatkichlar, omborxonalar, laboratoriyalar va ta’lim muassasalarida muvaffaqiyatli tatbiq etilmoqda. Jumladan:

- **Qishloq xo‘jaligida**: issiqxonalarda optimal mikroiqlimni ta’minlash orqali hosildorlikni oshirish.
- **Sanoatda**: mahsulot sifatini saqlab qolish uchun doimiy harorat va namlik nazorati.
- **Ta’lim muassasalarida**: darsxonalarda qulay muhit yaratish orqali o‘quvchilar faoliyatini yaxshilash.


Bundan tashqari, bulutli texnologiyalar, 5G va Edge Computing kabi texnologiyalar SI va avtomatlashtirish tizimlarining imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda. Ushbu modellar turli fizikaviy va tashqi omillar asosida issiqxona yoki ombor ichki muhitini oldindan bashorat qilish imkonini beradi. Bu esa avtomatik moslashuvga asoslangan boshqaruv tizimlarini yaratish imkonini ochadi. Tizim faqat monitoring emas, balki chiqish qurilmalari — purkagichlar, konditsionerlar, shamollatgichlar, isitkichlarni avtomatik boshqarish orqali to‘liq muhitni nazorat qiladi. Mikrokontrollerlar, IoT qurilmalar va sensorlar orqali ma’lumotlar to‘planadi va sun’iy intellekt algoritmlari yordamida optimal qarorlar qabul qilinadi. Bu esa ombor yoki issiqxona ichidagi harorat, namlik, gaz miqdori kabi omillarni aniqlik bilan boshqarishga yordam beradi.



Iqlimni boshqarish tizimlarida sun’iy intellekt modellari asosidagi ishlov berish jarayoni.

Sun’iy intellekt (SI) avtomatlashtirilgan tizimlarning keyingi evolyutsiyasi sifatida qaralmoqda. An’anaviy algoritmik yondashuvlardan farqli o‘laroq, SI algoritmlari katta hajmdagi ma’lumotlar asosida mustaqil qaror qabul qila oladi va o‘zini o‘zi takomillashtirish xususiyatiga ega. Mikroiqlim boshqaruvida SI quyidagi yo‘nalishlarda keng qo‘llaniladi:Masalan, aqlli binolar (smart buildings) konsepsiyasida SI yordamida binoning foydalanish rejimlari, tashqi ob-havo va ichki mikroiqlim holati tahlil qilinadi hamda avtomatik tarzda optimal muhit yaratiladi. Ushbu texnologik integratsiyalar nafaqat amaliy samaradorlikni oshiradi, balki raqamli ta’lim vositalari yordamida texnik mutaxassislar tayyorlash va ularni real muammolarni hal qilishga jalb etish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Shu bois, avtomatlashtirish va sun’iy intellektga asoslangan boshqaruv tizimlari kichik obyektlar uchun barqaror, iqtisodiy va ekologik afzalliklarga ega innovatsion yechim sifatida e’tirof etilishi mumkin.

Bunday yondashuv nafaqat resurs sarfini optimallashtiradi, balki ekologik barqarorlikni ta’minlashda ham muhim rol o’ynaydi. Bundan tashqari, mashina o‘rganish modellarida giperparametrlarni optimallashtirish orqali tizimning aniqligi va samaradorligini yanada oshirish mumkin.



Issiqxona mikroiqlimini boshqarish uchun aqlli purkash tizimi arxitekturasi

Mikroiqlim boshqaruvi va avtomatlashtirish texnologiyalarining kichik omborxonalar yoki issiqxonalarda qo‘llanilishi bugungi kunda global iqlim o‘zgarishlari, energiya va suv resurslarining tanqisligi, shuningdek, qishloq xo‘jaligida mahsuldorlikni oshirish zarurati fonida nihoyatda dolzarb masalaga aylangan. An’anaviy boshqaruv usullari ko‘pincha inson omiliga bog‘liq bo‘lib, noto‘g‘ri qarorlar yoki kechikkan harakatlar orqali resurslarning samarasiz sarflanishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, sun’iy intellekt, dasturlash va IoT texnologiyalariga asoslangan avtomatlashtirilgan tizimlar real vaqt rejimida monitoring va boshqaruv imkonini yaratadi. Xususan, sensorlar yordamida to‘plangan ma’lumotlar asosida sun’iy neyron tarmoqlari (ANN, LSTM, GRU) orqali ichki muhitning harorat, namlik va boshqa parametrlarini oldindan bashorat qilish hamda ularga mos ravishda purkagichlar, ventilyatorlar va isitkichlarni avtomatik boshqarish mumkin.

Kichik hajmdagi omborxona va issiqxonalarda samarali mikroiqlim boshqaruvini ta’minlash uchun zamonaviy texnologik yondashuvlar joriy etilmoqda. Eng asosiy echimlardan biri — IoT texnologiyalariga asoslangan monitoring tizimlarini tashkil etishdir. Sensorlar orqali harorat, namlik, CO_2 miqdori, yorug‘lik darajasi va tuproq namligi kabi parametrlar doimiy nazorat qilinadi. Ushbu ma’lumotlar sun’iy intellekt va mashina o‘rganish algoritmlariga uzatiladi, bu esa real vaqt rejimida tahlil qilish, prognozlash va avtomatik boshqaruvni amalga oshirish imkonini beradi. Ayniqsa, sun’iy neyron tarmoqlari, LSTM va GRU modellarining qo‘llanilishi iqlim parametrlarining o‘zgarishini aniqlik bilan bashorat qilishga xizmat qiladi.

Shuningdek, moslashtirilgan dasturiy vositalar yordamida sensorlar va chiqish qurilmalari (purkagichlar, ventilyatorlar, isitkichlar) integratsiyalashadi. Bu esa inson aralashuvisiz avtomatik boshqaruvni yo‘lga qo‘yadi. Parametrlarni optimallashtiruvchi algoritmlar (masalan, Harris Hawks Optimization) yordamida tizimlar aniqligi va ishonchliligi oshiriladi. Bundan tashqari, ochiq ob-havo ma’lumotlariga asoslangan simulyatsion modellar orqali ombor yoki issiqxona muhiti oldindan modellashtiriladi va turli boshqaruv senariylari sinovdan o‘tkaziladi.

Ushbu yechimlar amalda energiya va suv sarfini kamaytiradi, operatsion xarajatlarni qisqartiradi hamda mahsulot sifatini yaxshilaydi. Shu bilan birga, ekologik barqarorlikni qo‘llab-quvvatlab, yashil texnologiyalar tamoyillariga mos keladi. Uzoq muddatli istiqbolda bunday tizimlar qishloq xo‘jaligi, logistika va ta’lim sohalarida keng qo‘llanilishi mumkin.

Xulosa: Kichik omborxonalar va issiqxonalarda avtomatlashtirish hamda mikroiqlim boshqaruviga sun’iy intellekt va dasturlash texnologiyalarini joriy etish yuqori aniqlik, resurs tejamkorligi va real vaqt monitoringini ta’minlaydi. Sensorli tizimlar va mashina o‘rganish modellarining integratsiyasi orqali iqlim parametrlarini nazorat qilish va optimallashtirish imkoniyati yaratiladi. Bunday yondashuv nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki ekologik va iqtisodiy barqarorlikka ham xizmat qiladi. Shu sababli, raqamli yechimlarga asoslangan avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari kichik hajmli ob’yektlar uchun dolzarb va istiqbolli texnologik yo‘nalish hisoblanadi.

Adabiyot

1. Russell, S., & Norvig, P. (2021). *Artificial Intelligence: A Modern Approach* (4th ed.). Pearson Education.
2. Goodfellow, I., Bengio, Y., & Courville, A. (2016). *Deep Learning*. MIT Press.
3. Котлярова, Т. И., & Белоусов, С. В. (2020). Автоматизация климат-контроля в тепличных хозяйствах на основе IoT и ИИ. *Вестник аграрной науки*, 7(4), 45–52.
4. Mulla, D. J. (2013). Twenty-five years of remote sensing in precision agriculture: Key advances and remaining knowledge gaps. *Biosystems Engineering*, 114(4), 358–371.
5. Zhang, Y., Wang, G., & Wang, J. (2019). Intelligent control system for greenhouse environment based on AI and wireless sensor networks. *Computers and Electronics in Agriculture*, 163, 104852.
6. Ali, M. A., et al. (2021). An IoT-based smart environment monitoring system using AI for agriculture. *Sensors*, 21(13), 4359.
7. Абдурасулов, А. М. (2022). Raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirilgan mikroiqlim boshqaruvi tizimlari. *Innovatsion texnologiyalar* (maxsus son), 3(2), 27–33.
8. Бутаев, Н. К. (2023). Интеллектуальные системы автоматического управления микроклиматом в агропромышленности. *Технологии и инновации*, 9(1), 61–67.
9. Gubbi, J., Buyya, R., Marusic, S., & Palaniswami, M. (2013). Internet of Things (IoT): A vision, architectural elements, and future directions. *Future Generation Computer Systems*, 29(7), 1645–1660.
10. OpenAI. (2024). *Using AI for environmental control in smart agriculture*. Retrieved from https://openai.com/research/environment-ai

BOLALARDA LINGVORANGLI OLAM MANZARASINING SHAKLLANISHIDA RANG IFODALOVCHI SIFATLAR TALQINI

R.U.Abdulazizova
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqodchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalar nutqida rang ifodalovchi sifatlarning lingvistik xususiyatlari va ularning lingvorangli olam manzarasini shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi. Rang sifatlari orqali bola tafakkurida dunyo manzarasi qanday aks etishi, ranglar orqali anglanayotgan obraz va tushunchalar ifodasi yoritiladi.

Аннотация. В данной статье анализируются лингвистические особенности прилагательных, обозначающих цвет, в детской речи и их роль в формировании языковой картины мира. Раскрывается, как посредством цветовых прилагательных отражается картина мира в детском мышлении, а также каким образом через цвета передаются образы и понятия.

Annotation. This article analyzes the linguistic features of color-descriptive adjectives in children's speech and their role in shaping the linguistic picture of the world. It explores how the worldview is reflected in children’s thinking through color adjectives and how images and concepts are expressed via colors.

Kalit so‘zlar: rang ifodalovchi sifatlar, bolalar nutqi, lingvorangli olam manzarasi, semantika, psixolingvistika, til rivojlanishi, kognitiv tilshunoslik, rangni idrok etish, tavsiflovchi til vositalari, tushuncha shakllanishi.

Ключевые слова: прилагательные, обозначающие цвет, детская речь, языковая картина мира, семантика, психолингвистика, развитие речи, когнитивная лингвистика, восприятие цвета, описательные языковые средства, формирование понятий.

Keywords: color adjectives, children's speech, linguistic worldview, semantics, psycholinguistics, language development, cognitive linguistics, color perception, descriptive language tools, concept formation.

Bizga ma’lumki, lingvorangli olam manzarasi shakllanishida ranglarni tasvirlash va ularga bog‘liq tub sifatlarning talqini aytib o‘tilmay qolishi mumkin emas. Har bir rangning o‘ziga xos ma’nolari, holatlari va hissiyotlari mavjud bo‘lib, ular lingvistika va psixologiya o‘rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi. Ranglar orqali bola o‘z his-tuyg‘ularini tushunib, ularga izoh berishni o‘rganadi. Bu, o‘z navbatida, ularning kreativlik va o‘qish qobiliyatini kuchaytiradi. Bolalardagi rang ifodalovchi sifatlar talqini, shuningdek, ta’lim jarayonida kreativlikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ranglar bilan ishlash, bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Maxsus ranglarni tanlash va loyihalarda qo‘llash orqali bolalar o‘z tasviriy fikrlarini ifoda etishlari mumkin. Ranglarning yuqori darajada ifodalovchi potensiali bolalarni mustaqil fikrlashga undaydi, bu esa ularda o‘zi tanlagan ranglar orqali o‘z majburiyatlarini, hissiyotlarini va maqsadlarini anglashga yordam beradi[1.2024: B.614]. Bundan tashqari, rang ifodalovchi tub sifatlar talqini bolalarning madaniyat va estetika bilan bog‘liq bilimlarini rivojlantirishga ham yordam beradi. Har bir rangning o‘ziga xos tarixi va madaniy konteksti bor. O‘quvchilarga ranglar orqali turli millatlarning an’analari va madaniy meroslari haqida bilim berish, ularga ko‘proq va kengaytirilgan dunyoqarashni shakllantiradi. Ranglar va madaniyat o‘rtasidagi bu bog‘lanish, bolalarning rangli olamga qanday munosabatda bo‘lishlarini shakllantiradi.

Bolalarda rang ifodalovchi tub sifatlarning samarasini ko‘rish uchun ta’lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish kerak. Bu metodlardan biri – rangli materiallar asosida o‘qitishdir. O‘quvchilar ranglar va ularning xususiyatlari haqida bilimlarni o‘zlashtirishi uchun kuzatish, rasmlar tayyorlash yoki ranglar yordamida hikoyalar yaratish imkoniyatlarini qo‘llash mumkin. Bunday qatnashuvchi o‘qitish usullarini qo‘llash bolalarda rang va tushuncha bog‘lanishini yaxshilaydi. Turli xil san’at faoliyatlari orqali bolalar ranglar bilan tajriba o‘tkazishlari mumkin. Rasm chizish, rang berish, kolajlar tayyorlash orqali bolalar o‘z hissiyotlarini ifodalash imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bu jarayon bolalarning izlanish qobiliyatini rivojlantiradi. O‘quvchilar ranglar yordamida o‘z hayoliy dunyolarini yaratish va o‘z qiziqishlarini anglashga yordam beruvchi yangi imkoniyatlarga ega bo‘lishadi.

Dunyo manzarasi har doim etnik, milliy jihatdan belgilangan, shuning uchun tilni o‘rgatish orqali biz jamiyatning bo‘lajak a’zosi - rus kishisining etnik mentalitetini parallel ravishda shakllantiramiz, nafaqat ona tiliga hurmatni, balki o‘z etnik va milliy mansubligiga hurmatni ham tarbiyalaymiz, etnik,

milliy mentalitetni shakllantiramiz”. Biroq shu narsa aniqki, olamning har qanday manzarasi tilda o‘z aksini topadi, shuning uchun tilni o‘rgatish orqali biz maktab o‘quvchisi, ayniqsa, kichik maktab o‘quvchisi ongida olamning lisoniy manzarasini shakllantiramiz. Albatta, olamning yaxlit manzarasini tavsiflovchi jihatlardan biri rangdir. Inson o‘zini qurshagan olamni bir xil rangda emas, balki rangli ko‘radi. Rang olamning umumiy manzarasining bir qismi bo‘lib, uni o‘rganish olam manzarasini tasvirlashga yordam beradi. Inson va insoniyat ongida olamning rangli manzarasi - insonning olam haqidagi tasavvurlari yig‘indisi tug‘iladi va shakllanadi, u nutq vositasida moddiylashadigan rang sezgilari prizmasida aks etadi.

V.Gak olamning lingvorangli manzarasi tushunchasini kiritadi. U alohida leksemalar, so‘z birikmalari, idiomatik iboralar va boshqa og‘zaki vositalarda rang ko‘rsatkichlari shaklida voqealanadi hamda olamning lisoniy manzarasining leksik tizimiga uzviy ravishda kiradi [2.2024:B.125]. Zamonaviy ilm-fanda rang belgilarini o‘rganishda rang lingvistikasi deb nomlangan yo‘nalish ajralib chiqdi. Rang lingvistikasining nazariy jihatlari L.Bayramova ishlarida taqdim etilgan bo‘lib, u tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlarini ham belgilab bergan: “ranglar leksikasini tarixiy o‘rganish (evolyutsion yo‘nalish), rang nomlarining psixolingvistik tarkibiy qismi, kognitiv jihatlari, ranglar leksikasini o‘rganishning lingvomadaniy va nominativ-termin yasovchi jihatlari”.

Rang belgilari katta madaniy ahamiyatga ega. Madaniyatning tarkibiy qismi sifatida rang murakkab va xilma-xil ma’nolar, talqinlar tizimiga ega bo‘lib, madaniy qadriyatlarning timsoliga aylanadi. Rang muhiti, dunyoning rangli ko‘rinishi har bir davrda “rang madaniyati” ko‘rsatmalariga muvofiq tushuniladi. N.B.Baxilina o‘z tadqiqotlarida barcha rang belgilarining kelib chiqishi tarixiy o‘tmishga borib taqalishini va etnomadaniy xususiyatga ega ekanligini ishonchli tarzda isbotlaydi. Rang taassurotlari asrlar davomida odamlarning ongi va ong ostiga singdirilgan va butun ijtimoiy guruhlarning rang idrokini belgilagan. Rangning turli darajadagi qiymatlarining shakllanishi millionlab yillar davom etgan. Odamlar ranglarni idrok qilar ekanlar, ularni o‘zlari uchun eng qimmatli bo‘lgan moddalar va hayotiy muhim elementlar bilan bog‘laganlar. Shunday qilib, inson va tabiatning o‘zgarmas xususiyatlariga asoslangan assotsiatsiyalar paydo bo‘ldi: qon qizil edi va shunday bo‘lib qoladi, osmon - ko‘k, o‘tlar va daraxtlar - yashil. Ranglarning asosiy uchligini qora, oq va qizil ranglar tashkil etdi, chunki insonning omon qolishi uchun yorug‘lik, zulmat, sut, tuproq, qon, olov kabi hodisalar va moddalar eng muhim edi. Rang bilan bog‘liq assotsiatsiyalar insonda uning ixtiyoridan tashqari - ongsiz darajada ishlab chiqilgan [3.2024:B.240]. O‘z navbatida, A.N.Vejbitskaya rang tushunchalari ko‘rish idroki universaliyalari, yorug‘lik ravshanligining turli darajalari haqidagi tasavvurlar bilan shakllanishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, tildagi rang-tus bildiruvchi sifatlarning denotativ va signifikativ asosini yorug‘lik, olov, quyosh, yer, o‘simliklar haqidagi tasavvurlar tashkil etadi [4.2021: B.15].

Ko‘rinib turibdiki, olamning umuminsoniy manzarasi bilan bog‘liq qator universal hodisalar mavjud. Biroq, odamlarning faqat ushbu madaniy umumiyligiga xos bo‘lgan milliy xususiyatlar ham mavjud. Va “rangli til qanday psixofiziologik asosga ega bo‘lmasin, unga muqarrar ravishda xalqning an’analari va urf-odatlari qo‘shiladi”. Rang ifodasi “antropotsentrik va etnotsentrik - u tilda kommunikativ ahamiyatga ega bo‘lgan o‘ziga xos o‘lchovga ega” (Yanshin), chunki u ma’lum bir milliy xarakterdagi ijtimoiy-tarixiy, intellektual va hissiy ma’lumotlarni to‘playdi. Umuman olganda, rang ifodalovchi sifatlar bolalar tilining semantik tizimini boyituvchi va lingvorangli olam manzarasini shakllantirishda markaziy o‘rin tutuvchi lingvistik birliklar sifatida qaraladi. Ularning o‘rganilishi nafaqat tilshunoslik, balki pedagogika, psixologiya va kognitiv fanlar uchun ham katta foyda keltiradi. Kelgusida bolalar nutqida rang sifatlarining rivojlanishi, ularning madaniyat va muloqotdagi o‘rni bo‘yicha chuqurroq tadqiqotlar o‘tkazish zarur, bu esa bolalar tilining o‘ziga xos xususiyatlarini yanada aniqroq ochib beradi va ta’lim metodikasini takomillashtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akbarova, Z., & Xoshimova, O. (2024). LINGVORANGLI OLAM MANZARASI TURLARINING LISONIY TAHLILI. University Research Base, 614-617.

2. Сальникова, В. В. (2024). Структурация языковой картины мира ребенка в автобиографических повестях СТ Аксакова" Детские годы Багрова-внука" и АН Толстого" Детство Никиты"(на материале цветообозначений). Вестник ВЭГУ, (5), 125-131.

3. Любимова, Н. И. (2024). Место лингвоцветовой картины мира в культурном наследии языка. In Наука. Культура. Искусство: актуальные проблемы теории и практики (pp. 240-247).

4. Потураева, Е. А. (2021). Метафорическая интерпретация концептуальной сферы «дом» в русской языковой картине мира. Автореф. дисс. канд. фил. н.

FORMAL GRAMMATIKANING METODOLOGIK ASOSLARI

M.S.Jo‘raqulova
O‘zbekiston Milliy universiteti Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrasi o‘qituvchisi, E-mail: madinasubhonovna0993@gmail.com Tel: (90) 332 03 90

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tili formal grammatikasini yaratishning nazariy asoslarini shakllantirish haqida fikr yuritiladi. Tabiiy til grammatik qoidalarining matematik modelini yaratishda metodologik asos vazifasini bajaruvchi N.Xomskiy tavsiya etgan erkin kontekstli grammatika hamda regulyar grammatika turlari tahlil qilinadi. Erkin kontekstli grammatika har qanday tilning tuzilishini tavsiflash uchun ishlatiladigan eng umumiy grammatikalardan biri. Regulyar grammatika esa cheklangan va sodda bo‘lib, u avtomatik tahlil qilish va tilni tasvirlashda qo‘llanadi.

Kalit so‘zlar: formal grammatika, erkin kontekstli grammatika, regulyar grammatika, kontekstga bog‘liq grammatika, generativ grammatika, til tuzilishi, avtomatik tahlil, grammatik qoidalar.

Аннотация. В данной статье рассматривается формирование теоретических основ создания формальной грамматики узбекского языка. При создании математической модели грамматических правил естественного языка анализируются виды свободной контекстной грамматики и регулярной грамматики, рекомендованные Н. Хомским, выступающим в качестве методологической основы. Свободная контекстуальная грамматика - одна из самых распространённых грамматик, используемых для описания структуры любого языка. Регулярная грамматика, однако, ограничена и проста, и она используется для автоматического анализа и описания языка.

Ключевые слова: формальная грамматика, грамматика со свободным контекстом, регулярная грамматика, контекстная грамматика, генеративная грамматика, структура языка, автоматический анализ, грамматические правила.

Abstract. This article discusses the formation of the theoretical foundations for creating the formal grammar of the Uzbek language. When creating a mathematical model of the grammatical rules of natural language, the types of free contextual grammar and regular grammar, recommended by N. Chomsky, acting as a methodological basis, are analyzed. Free contextual grammar is one of the most common grammars used to describe the structure of any language. Regular grammar, however, is limited and simple, and it is used for automatic analysis and description of language.

Key words: formal grammar, free context grammar, regular grammar, context-dependent grammar, generative grammar, language structure, automatic analysis, grammatical rules.

Ma’lumki, tilshunoslik fani alohida mustaqil fan sifatida XIX asrda shakllandi. Shu davrdan boshlab u turli yo‘nalishlarda rivojlanib kelmoqda. Jumladan, ana shunday fanlar qatoriga bir necha fanlar hamkorligi, integratsiyasi natijasida vujudga kelgan matematik lingvistika va kompyuter lingvistikasi kabilarni kiritish mumkin. Ma’lumki, XX asrning o‘rtalaridan boshlab tilshunoslikda “mashina tarjimasi”, “mashina tilshunosligi” terminlari qo‘llanila boshlandi. Shunday qilib, butun dunyoda nazariy va amaliy tilshunoslikning rivojlanishida mashina tarjimasi g‘oyalari katta ahamiyat kasb etdi. Bu yo‘nalish bilan bir paytda formal grammatika nazariyasi vujudga kelib, til va uning alohida birliklari modelini yaratishga alohida ahamiyat berila boshlandi. Til bilan bog‘liq masalalar matematik lingvistika fani doirasida o‘rganila boshlandi, bu, o‘z navbatida, kompyuter lingvistikasi fanining yuzaga kelishi uchun zamin yaratdi. Shu tariqa tilshunoslikning yangi yo‘nalishi - kompyuter lingvistikasi va tilshunoslikning bir qator nazariy va amaliy yo‘nalishlari vujudga keldi. Matematik lingvistikaning alohida yo‘nalish sifatida yuzaga kelishida esa amerikalik tilshunos Noam Chomskiyning formal grammatika, transformatsion grammatika haqidagi qarashlari bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Matematik lingvistika – til tizimlarini va ularning tarkibiy qismlarini matematik modellar yordamida tavsiflash, tahlil qilish va tadqiq qilish bilan shug‘ullanadigan fan sohasi bo‘lib, u tilni matematik usullar orqali tadqiq qiladi. Matematik lingvistika quyidagi masalalarni hal qilish bilan shug‘ullanadi:

– tilning aksiomatik nazariyasini ishlab chiqish;
– formal grammatika yaratish;
– tillarning matematik modellarini ishlab chiqish.

Matematik lingvistika fani o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

– tabiiy va sun’iy tillarning formal modellarini ishlab chiqish;
– lisoniy hodisalarni matematik parametrlarda baholash;

– til hodisalarini matematik metodlar yordamida tahlil qilish.

Kompyuter lingvistikasi matematik lingvistikaning mantiqiy davomi bo‘lib, u amaliy tilshunoslikning eng muhim qismini tashkil etadi. Kompyuter lingvistikasi esa amaliy xarakterga ega bo‘lib, til bilan bog‘liq muammolarning amaliy jihatiga e’tibor qaratadi. Kompyuter lingvistikasida tabiiy tilga ishlov berilib, sun’iy tillar (programmalashtirish tillari, algoritmik tillar)ga tayangan holda kompyuterga moslashtiriladi.

Buning uchun model termini muhim ahamiyat kasb etadi. Model til sistemasini o‘rganish, tushunish, izohlash, mukammalashtirish sohalarida zarur hisoblanadi.

Tilshunoslik va mantiq bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, mantiqiy fikrlarni ifodalashda til asosiy vosita hisoblanadi. Mantiq qoidalari fikrlarni aniq ifodalashni va mantiqiy tahlil qilishni osonlashtiradi. Mantiq bir necha asosiy atributlardan iborat:

– Aksioma — bu mantiqan aniqlangan, o‘z-o‘zidan aniq deb qabul qilingan, isbot talab qilmaydigan mulohaza yoki qoidadir;

– Postulat – odatda muayyan fan sohasiga tegishli bo‘lgan, tajriba yoki kuzatuvga asoslangan asosiy qabul qilingan qoida;

– Fikr – voqea yoki hodisalar haqida bildirilgan qarash yoki mulohaza;

– Argument – muayyan fikrni dalillovchi asoslar.

Mantiqning ikki asosiy turi farqlanadi: fikrlarning tuzilishi va mantiqiy qoidalarni o‘rganuvchi – formal grammatika hamda oddiy muloqotdagi mantiqiy tuzilmalar va argumentlarni o‘rganuvchi informal grammatika.

Ma’lumki, matematik mantiq, matematik lingvistikaning rivojlanishi natijasida Formal grammatika nazariyasi vujudga keldi. Grammatikani formallashtirish (lotincha “forma” – “shakl”, “tashqi ko‘rinish”) konsepsiyasining asoschisi amerikalik tilshunos Noam Chomskiydir. Formal grammatika abstrakt belgilar orqali yaratiladigan grammatika bo‘lib, unda til qoidalari, so‘z yasalishi, birikma va gap qurilishi turli xil lingvistik modellar, struktur sxemalar yordamida ifodalanadi [1. 2021: B.47]. Formallashtirish – bu bilimlar majmuasini, mazmunini muayyan ifodalar yordamida sun’iy til belgilari orqali ifodalashdir. Grammatikani formallashtirish XX asrning o‘rtalarida rivojlandi. Bu bevosita tilning strukturasini yanada aniq parametrlarda ifodalab, lingvistik imkoniyatlarni kompyuterga moslashtirish masalalari bilan shug‘ullanadi.

Har bir tabiiy til matematik jihatdan tuzilmagan va formallashtirilmagan unsurlardan iborat murakkab sistemadir. Ammo tabiiy til bo‘yicha olib borilgan bir qancha tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tabiiy tilni chiziqli usul orqali tuzilgan va formallashgan shaklda ifodalash mumkin. Bu so‘z, so‘z birikmasi va gaplarning bir qancha turlari bo‘yicha mantiqiy-lingvistik modellarni ishlab chiqish, so‘ngra ular orqali matematik modellarni yaratish orqali amalga oshiriladi. Bunda grammatika lingvistik generator vazifasini bajaradi, ba’zan “rekognayzer” – berilgan chiziqli qoidalarning tilga tegishli (to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri) ekanligini aniqlash me‘yori vazifasini bajaradi. Parsing – tabiiy tildagi chiziqli munosabatlarni qismlarga ajratish va simvollarga biriktirish, har birini til grammatik qoidalariga solishtirib ko‘rish jarayonidir. Tilni formallashtirish darajasi ushbu metodologiya orqali aniqlanishi mumkin. Tabiiy til semantikasining qoidalarga solinganlik darajasi va algoritmning aniqligini tilning formallashtirilganlik darajasi belgilab beradi. Formal grammatikada ikki asosiy tushunchasi farqlanadi: a) generatsiya – yaratish, hosil qilish, ya’ni generativ grammatikada tildagi mavjud satrlarni yaratish algoritmi formallashtiriladi b) tanish, bunda qoidalar to‘plami kiritilgan satrni tildagi mavjud satrlarni ifodalovchi faqat ikkita qiymatga ega natijaga kamaytiradi. Shunga ko‘ra, formal grammatika ikkiga bo‘linadi: 1) yaratuvchi grammatika (generative grammar) – to‘g‘ri gaplarni qabul qilish; 2) tushunuvchi, tanuvchi grammatika (recognizing grammar) – to‘g‘ri gaplarni tushunish jarayoni [1. 2021: B.46]. Umuman olganda, tilni qanday yozish masalalari generativ grammatikada, tilni qanday o‘qish, ya’ni tushunish masalasi analitik grammatikada o‘rganiladi.

N.Chomskiy yaratgan formal grammatikada qoidalar ifodalanish xususiyatiga ko‘ra 4 turga ajratiladi va bu Chomskiy iyerarxiyasi deb nomlanadi [5. 1957: P.13]:

1.0 Murakkab generativ grammatika (unrestricted phrase – structure grammar) – bunda G=(N,∑, P, S) belgilaridan foydalaniladi. N – alifbo (N – noterminal belgilar, u grammatikadagi belgilarni anglatadi; ∑ - metatilning terminal belgilari, u tildagi tayyor birliklarni o‘z ichiga oladi); S – noterminal to‘plamning boshlang‘ich belgisi, P – qoidalar to‘plamini anglatadi. Bunda terminal va noterminal belgilarni bir-biri bilan bog‘lovchi V belgisi qabul qilingan, u inglizcha Vocabulary (lug‘at) so‘zidan olingan (V=TWN). Mazkur muakkab generative grammatika – murakkab matematik model bo‘lib, u informatikaning nazariy asoslarini o‘rganishda va amaliy masalalarni yechishda qo‘llaniladi;

2.1 Kontekstga bog‘liq grammatika (context-sensitive grammar) – bunda belgilar zanjiri kontekst bilan aniqlanishi mumkin. Bunday grammatika tabiiy tillarning tarkibiy qismlarini hosil qilish jarayonida keng qo‘llaniladi.

3.2 Kontekstdan xoli grammatika (context-free grammar) – dasturlash tillari unsurlarining generatsiyasida (ifodalar, buyruqlar tizimida) faol qo‘llaniladi.

4.3 Regulyar grammatika (regular grammar) – juda sodda va cheklangan grammatika bo‘lib, tilning soda birliklari (miqdor, konstantalar, o‘zgaruvchilar) uchun ishlatiladi.

Xomskiy taklif etgan iyerarxiyani quyidagicha tushuntirish mumkin:

Sinf	Grammatika	Til	Avtomat
0-tur	cheklanmagan	rekursiv (Tyuring)	Tyuring mashinasi
1-tur	kontekstga bog‘liq	kontekstga bog‘liq	chiziqli-chekli
2-tur	kontekstdan xoli	kontekstdan xoli	pushdown (itaruvchi)
3-tur	regulyar (o‘zgarmas)	Regulyar	Chekli

Noam Chomskiyning ilmiy qarashlari tilni formal tarzda tavsiflashda asosiy o‘rin tutadi. U lingvistik modellarni ikki turga ajratadi: birinchi model — Markov jarayoni asosida tilni minimal lingvistik nazariyaga moslashtirgan nazariy model, ikkinchisi esa frazali strukturaviy analizga asoslangan tarkibiy model. Kontekstdan xoli grammatika (CFG) struktur grammatika deb ham yuritiladi.

Erkin kontekstli grammatika turli strukturalarni va ularning o‘zaro aloqalarini ochib berishga mo‘ljallanganligi uchun ham murakkab va keng qamrovli tizimlarni tasvirlash uchun ishlatiladi. Aksincha, regulyar grammatika avtomatik tahlil qilish va tilni soddalashtirilgan tarzda modellashtirishda qo‘llanilgani uchun sodda va cheklangan til tizimlarini tavsiflash uchun mo‘ljallangan. Erkin kontekstli grammatika va regulyar grammatikalar qo‘llanilish sohalari, tilni tasvirlashdagi o‘rni hamda amaliy ahamiyati jihatidan farqlanadi.

Erkin kontekstli grammatika Noam Xomsky tomonidan ishlab chiqilgan va u to‘rtinchi darajali grammatikalardan biridir [7. 1956: P.113-124]. Erkin kontekstli grammatika tilni ishlab chiqishda, har bir qoidani quyidagicha tavsiflaydi:

Qoidalar: A → B, bu yerda A — til kategoriyasi, B esa uni tashkil etadigan til unsurlaridan iborat.

• Murakkablik:

Erkin kontekstli grammatika tilni tavsiflashda murakkab va noaniq tuzilmalarni qamrab oladi. Masalan, sinonimlar, antonimlar va boshqa murakkab iboralar, shuningdek, uzun va qisqa gaplarni tasvirlash uchun ham erkin kontekstli grammatikadan foydalanish mumkin. Uning asosiy xususiyati shundan iboratki, u orqali tilning har qanday sintaktik tuzilishini tasvirlash mumkin. U ko‘plab tillarni modellashtirishda, shu jumladan, tabiiy tillarni (masalan, ingliz yoki rus tillari) tahlil qilishda ishlatiladi. Erkin kontekstli grammatika bir qancha kompyuter ilovalarida, jumladan, tabiiy tilni qayta ishlash va tarjima amaliyotlarida qo‘llaniladi.

Regulyar grammatika esa Xomskiy iyerarxiyasida uchinchi darajali grammatika bo‘lib tilni soddalashtirilgan qoidalar yordamida tasvirlaydi. Uning asosiy xususiyati – tilning minimal tuzilishlarini modellashtirish. Unda quyidagi strukturalar mavjud:

• Qoidalar: A → aB yoki A → a, bu yerda “A” — til kategoriyasi, “a” — terminal belgi, “B” esa boshqa til kategoriyasi.

• Kamchiliklari: Regulyar grammatika faqatgina modelga to‘g‘ri keluvchi gaplar va frazalar bilan ishlaydi. U juda sodda bo‘lganligi uchun murakkab sintaktik tuzilmalarni tasvirlay olmaydi. Regulyar grammatika ko‘proq kompyuter tarmoqlaridagi protokollarni ishlab chiqishda, shuningdek, kodlashda va matnni tahlil qilish jarayonlarida qo‘llanilishi mumkin.

Erkin kontekstli grammatikadan foydalanish natijasida quyidagi sohalarda amaliy natijalarga erishish mumkin:

Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)da: bu grammatika tabiiy tillarning sintaktik strukturasini tasvirlashda asosiy vosita hisoblanadi. Undan ingliz, rus, fransuz kabi tillarning murakkab sintaktik tizimlarini modellashtirishda foydalaniladi. Erkin kontekstli grammatikadan matnni tahlil qilish, tarjima qilish hamda avtomatik grammatika tekshiruvchilarida foydalanish mumkin;

Avtomatik tarjimada: bir tilning grammatik strukturasini boshqasiga o‘zgartirish uchun muhim bo‘lgan murakkablikni qo‘llab-quvvatlay olgani uchun ham avtomatik tarjimada erkin kontekstli grammatika (ko‘plab grammatik qoidalar ishlab chiqiladi) algoritmlaridan foydalaniladi;

Kompyuter tilini yaratish: erkin kontekstli grammatika kompyuter tillarida, shuningdek, dasturlash tillarining sintaksisini belgilashda ishlatiladi.

Regulyar grammatikadan foydalanish natijasida quyidagi sohalarda amaliy natijalarga erishish mumkin:

Matn qidiruvida: RG so‘zlarni qidirish va ularning tartiblarini tekshirishda, shuningdek, avtomatik matn tahlili uchun juda samarali va tez bo‘lganligi uchun ham matnni qidirish tizimlarida ko‘p qo‘llaniladi;

Sintaktik tahlilda: faqat belgilangan so‘zlar yoki ularning aniq tartibi qidirilayotganda, ya’ni oddoy sintaktik tahlilda RG juda qulay bo‘lib, bu vazifani tez va samarali bajaradi;

Kompyuter tarmog‘i protokollari: HTTP yoki TCP/IP protokollarining qoidalarini qurishda regular grammatikadan foydalaniladi, chunki ular nisbatan sodda va qat’iy tartibda o‘rnatiladi.

Erkin kontekstli grammatikaning imkoniyatlari keng bo‘lishiga qaramasdan, mazkur grammatika asosida qurilgan tizimlar katta resurslarni talab qilganligi uchun hisoblash samaradorligini kamaytirishi mumkin.

Regulyar grammatika aniq qoidalarga asoslanganligi uchun ham sodda til strukturalarini tasvirlashda samarali, ammo murakkab sintaktik strukturalar va tilning mantiqqa asoslangan qoidalarini tahlil qila olmaydi.

Xulosa. Erkin kontekstli grammatika til tizimlarining sintaktik tuzilishini chuqur tahlil qila olgani uchun ham tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), avtomatik tarjima tizimlarida, dasturlash tillarini ishlab chiqishda va ko‘plab murakkab tizimlarni modellashtirishda muhim hisoblanadi. Biroq erkin kontekstli grammatikaning ham kamchiliklari bor, u yuqori hisoblash resurslarini talab qiladi va bu samaradorlikni pasaytirishi mumkin. Mazkur grammatikalarning amaliy qo‘llanilishi qo‘yilgan vazifaga va tizimning talablariga qarab tanlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduraxmonova N. Kompyuter lingvistikasi (darslik), Toshkent: Nodirabegim, 2021. - B. 400
2. Abdurakhmonova N. Dependency parsing based on Uzbek Corpus. InProceedings of the International Conference on Language Technologies for All (LT4All) 2019.
3. Abdurakhmonova, N. Z., Ismailov, A. S., & Mengliev, D. (2022, November). Developing NLP Tool for Linguistic Analysis of Turkic Languages. In *2022 IEEE International Multi-Conference on Engineering, Computer and Information Sciences (SIBIRCON)* (pp. 1790-1793). IEEE.
4. Abdurakhmonova, N. (2021). Formal-Functional Models of The Uzbek Electron Corpus. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, *10*(8), 59-66.
5. Abdurakhmonova, N., Tuliyev, U., Ismailov, A., & Abduvahobo, G. (2022). UZBEK ELECTRONIC CORPUS AS A TOOL FOR LINGUISTIC ANALYSIS. In *Компьютерная обработка тюркских языков. TURKLANG 2022* (pp. 231-240).
6. Noam Chomskiy. Syntactic structures.−Paris: Mouton, 1957.− P.13
7. Chomsky N. Three models for the description of language //IRE Transactions on information theory. – 1956. – Т. 2. – №. 3. – С. 113-124.

TA’LIM FALSAFASI VA UNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

Z.A.Karimov
Urganch davlat pedagogika instituti “Milliy g‘oya va falsafa” lafedrasi dotsenti., falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); zafar.karimov.1988@bk.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim falsafasining nazariy va metodologik asoslari, uning tarixiy ildizlari hamda yondashuvlari va amaliyotdagi ahamiyati muhokama qilinadi. Shuningdek, turli falsafiy maktablar va ularning ta’limga munosabati falsafiy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: ta’lim falsafasi, nazariy va metodologik asoslar, antik falsafa (Suqrot, Platon, Arastu), mayyevtika (Suqrot usuli), ideal jamiyat modeli (Platon), aqliy salohiyat, axloqiy tarbiya, sharq falsafasi (Muso Al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino), bayt ul-hikma, markaziy osiyo uyg‘onish davri, o‘rta asr ta’limi, Al-g‘azzoliy, Ibn Sino, XX-XXI asr falsafiy yondashuvlari (pragmatizm, ekzistentsializm, postmodern), kasbiy tayyorgarlik, global muammolar va ta’lim.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и методологические основы философии образования, её исторические корни, подходы и значение в практике. Также проводится философский анализ различных философских школ и их отношения к образованию.

Ключевые слова: философия образования, теоретические и методологические основы, античная философия (Сократ, Платон, Аристотель), майевтика (метод Сократа), модель идеального общества (Платон), умственные способности, нравственное воспитание, восточная философия (Мухаммад аль-Хорезми, Аль-Фараби, Бируни, Ибн Сина), Байт аль-Хикма, эпоха Возрождения Центральной Азии, средневековое образование, Аль-Газали, Ибн Сина, философские направления XX-XXI веков (прагматизм, экзистенциализм, постмодерн), профессиональная подготовка, глобальные проблемы и образование.

Abstract: This article discusses the theoretical and methodological foundations of the philosophy of education, its historical roots and approaches, and its importance in practice. It also analyzes philosophically different philosophical schools and their approaches to education.

Keywords: philosophy of education, theoretical and methodological foundations, ancient philosophy (Socrates, Plato, Aristotle), maieutics (Socratic method), model of ideal society (Plato), intellectual abilities, moral education, Eastern philosophy (Muhammad al-Khwarizmi, Al-Farabi, Central Asia, Biruni, Biruni), Renaissance, medieval education, Al-Ghazali, Ibn Sina, philosophical approaches of the 20th-21st centuries (pragmatism, existentialism, postmodernism), professional training, global problems, education.

Kirish(Introduction). Har qanday rivojlanayotgan davlat o‘zining buyuk kelajagini avvalo ta’lim tizimi orqali belgilaydi. Ta’lim – bu faqat bilim berish jarayoni emas, balki barkamol avlodni shakllantirish, unda ma’no, qadriyat, javobgarlik va maqsadli hayot falsafasini yuzaga keltirish vositasi sifatida hizmat qiladi. Bugungi murakkab va tez o‘zgaruvchan dunyoda ta’lim-tarbiya masalalari nafaqat nazariy, balki amaliy zaruratga aylandi. Ta’lim falsafasi – bu ta’lim jarayonining mohiyati, maqsadi, usullari va natijalari haqidagi falsafiy fikr yuritish tizimidir. U ta’limning nazariy-amaliy jihatlarini, uning jamiyat va shaxs taraqqiyotidagi o‘rnini chuqur tahlil qiladi. Zamonaviy davrda ta’lim falsafasi nafaqat ta’lim tizimidagi muammolarni hal etishda, balki yangi ta’lim strategiyalarini ishlab chiqishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda falsafiy tafakkurning yangilanishi bir jamiyat a’zosining ijtimoiy qiyofasi, ruhiy dunyosi, maqsad va ehtiyojlarining o‘zgarishi barobarida jamiyat tafakkurining o‘zgarishida namoyon bo‘lmoqda.[1-89-92-b]

Ta’lim falsafasining tarixiy ildizlari qadimgi falsafiy maktablarga borib taqaladi:

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili(Literature review). Ta’lim falsafasi va uning nazariy va metodologik asoslari mavzusidagi adabiyotlarni tahlil qilish, bu tushunchalarning tarixiy, madaniy va ijtimoiy kontekstda qanday rivojlanganini va hozirgi zamon jamiyatiga qanday ta’sir ko‘rsatishini tushunishga yordam beradi. Antik falsafada (Suqrot, Platon, Arastu): ta’lim – insoniylik va aqliy kamolot vositasi sifatida qaralgan. Platon “Davlat” asarida ideal ta’lim tizimi modelini taklif qilgan. Antik falsafa davrida ta’lim inson tabiati va jamiyat rivoji uchun juda muhim vosita sifatida qaralgan. Bu davr mutafakkirlari ta’lim orqali insonning ruhiy va aqliy salohiyatini yuksaltirish, uni haqiqatni anglashga yetaklash mumkin, deb hisoblashgan.

Suqrot ta’limni inson ongini uyg‘otish jarayoni, deb tushungan. Uning “mayyevtika” deb atalgan usuli – suhbat va savol-javob orqali talabani o‘z bilimini kashf etishga undashdan iborat edi. Unga ko‘ra, haqiqiy bilim inson ichida mavjud, ta’lim esa bu bilimni "tug‘dirish" vositasidir. Shuning uchun Suqrot fikrlash, tanqidiy savol berish va axloqiy ma’naviyatni shakllantirishga alohida ahamiyat bergan.[2- 416-b] Ta’lim falsafasi buyicha birinchi bo‘lib Pifagorlar Ittifoqi, Sokrat maktablari doirasida paydo bo‘lgan. Antik davrda ta’lim falsafasining rivojlanishida ikki ziddiyat kuzatiladi. Ulardan biri ta’limning inkor etgan og‘zaki ta’lim va o‘z-o‘zini tarbiyalashga qaratilgan sofistlar faoliyati bo‘lsa, ikkinchisi esa doimiy maktablarni tashkil etishda murakkabliklar bilan belgilanadi. Suqrot Afinadagi uch yillik falsafadan dars beruvchi doimiy maktabni yaratdi. Suqrotning qarashlari dialogga asoslanib, ma’no dialektikasi turli fikrlarda o‘z ifodasini topadi. Va haqiqatga erishishda turli fikrlarni eshitish zarurligini ko‘rsatib, suhbat Suqrot ta’limining asosi sifatida ko‘riladi. Suqrotcha suhbatlar mohiyati shundan iboratki, u rad qilish orqali suhbatning mohiyatiga yetib boradi. Suhbatdan maqsad mohiyatni birgalikda topish. Suqrot o‘quvchiga o‘zini bilimliligi uchun tepadan qarab emas, balki xech narsani bilmaydigan odam singari munosabatda bo‘ladi. Suqrot o‘zining uslubini “ta’sir qilish san’ati” deb atagan. Bu usulning o‘ziga xosligi - u insondagi eng yaxshi jihatlarini namoyon qilish, ularni rivojlantirish, qayta dunyoga keltirishga yo‘naltirilgan[3-4002-4006-b].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ta’lim falsafasi va uning nazariy va metodologik asoslari mavzusida olib boriladigan tadqiqotning metodologiyasi, asosan, ijtimoiy fanlar doirasida qo‘llaniladigan turli metodlarni o‘z ichiga oladi.

Platon o‘zining mashhur “Davlat” (Res Publica) asarida ideal jamiyat modelini taqdim etadi. Unda ta’lim markaziy o‘rinda turibdi. Platonga ko‘ra, har bir insonda aqliy salohiyat mavjud, ammo uni rivojlantirish uchun to‘g‘ri va bosqichma-bosqich ta’lim zarur. U ta’limni bolalikdan boshlab falsafagacha olib boradigan yo‘l sifatida ko‘radi. Platon ta’lim orqali insonlarni tabiatlariga mos ravishda jamiyatdagi o‘rniga tayyorlashni maqsad qilgan - ya’ni hokimlar, qo‘riqchilar va ishlab chiqaruvchilar tabaqalari uchun alohida ta’lim tizimi. Arastu ta’limga amaliy yondashuv bilan qaragan. U inson tabiatiga va maqsadiga mos ta’lim berish zarur, deb ta’kidlagan. Unga ko‘ra, ta’lim nafaqat nazariy bilim berish, balki axloqiy tarbiya, fikrlash qobiliyatini shakllantirish va hayotda to‘g‘ri qarorlar qabul qilishni o‘rgatishi lozim. Arastu ta’limni ikkiga ajratadi: nazariy (falsafa, matematika, tabiat ilmlari) va amaliy (etika, siyosat, iqtisod). U ta’lim orqali inson “aql fazilati”ni - ya’ni hayotni ma’rifiy yo‘l bilan boshqarish qobiliyatini qo‘lga kiritadi, deb hisoblaydi[4- 416-b].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tadqiqotning birinchi bosqichi Ta’lim falsafasi va uning nazariy va metodologik asoslarini tahlil qilishdir. Ushbu bosqichda, ayniqsa, tarixiy va zamonaviy falsafiy qarashlar, estetika va axloqiyotga oid adabiyotlar o‘rganildi. Platon, Arestotel, Kant, Shiller kabi faylasuflarning Ta’lim falsafasi va uning nazariy asoslari haqidagi qarashlari asosida nazariy tahlil o‘tkazildi. Bu yondashuv yordamida Ta’lim falsafasi va uning nazariy va metodologik asoslari va ularning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati aniqlandi.

O‘rta asrlarda ta’lim tizimi asosan diniy falsafa ta’sirida shakllangan bo‘lib, bu holat ham Islom, ham Xristian dunyoqarashlarida umumiy tendentsiya bo‘lgan. Ta’lim insonni Allohga yaqinlashtirish, uni ruhiy tarbiyalash va aqlni Ilohiy haqiqatni anglashga yetaklash vositasi sifatida qabul qilingan. Bu davrda falsafa, ilm va diniy ilmlar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Islom falsafasida ta’lim - insonni ma’rifatga, haqiqatga va Allohga olib boruvchi yo‘l sifatida qaralgan. Qur’on va hadislarda ilmning fazilati haqida ko‘plab dalillar keltirilgan. Qur’onning ilk oyatlaridan biri: *“*O‘qi! Sening Robbing esa eng karim Zotdir - U qalam bilan o‘rgatdi. Insonga bilmagan narsasini o‘rgatdi.”[5-96:3-5] Qur’onda ilmga chaqiriq: Qur’onning ilk oyatlarida ham izohlab beriladi. Bunda, “O‘qi! Sening Robbing esa eng karim Zotdir - U qalam bilan o‘rgatdi. Insonga bilmagan narsasinio‘rgatdi*”* [6-Сунан, илм бобида].

Falsafiy ta’limning rivojlanishi Sharqda, xususan, Markaziy Osiyoda ilk o‘rta asrlar davrida keng tarqalgan tasavvuf ta’limotidagi komil inson maqomi, nafsni tiyish, bag‘rikenglik, diniy donishmandlik, Muso al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqa buyuk allomalarning ilmiy va falsafiy qarashlarida o‘z aksini topgan. Ularning fandagi yangi yo‘nalishlari birinchi galda musulmon Sharqi, qolaversa, butun jahon tabiiy-ilmiy va falsafiy tafakkurining ravnaqiga ta’sir o‘tkazib kelgan. Ma’lumki, VIII-IX asrlarda Markaziy Osiyo xalqlari arab xalifaligi tarkibiga kirgan. Bu davrda xalifalik markazlari – Bag‘dod va Damashqda madaniyat, ilm-fan ravnaq topdi. IX asr boshida Bag‘dodda “Bayt ul hikma” – “Bilimlar uyi”, Xorazmda esa “Ma’mun akademiyasi” tashkil etildi. Bu dargohda turli shaharlardan taklif qilingan olimlar falsafa va boshqa fanlarni sinchiklab o‘rgandilar. Bu davrda al-Xorazmiy, Forobiy, Abu

Rayhon Beruniy, Ibn Sino va boshqa buyuk allomalar o‘zlarining falsafa maktablarini yaratganlar. Arab xalifaligining poytaxti Bag‘dodda barpo qilingan “Bayt ul-hikma”ga Muhammad Al-Xorazmiy rahbarlik qilgan. Professor N.A. Shermuxammedova o‘zining “Falsafa” nomli darsligida ular yaratgan asarlar ahamiyatiga ko‘ra o‘sha davrni Markaziy Osiyo uyg‘onish davri deb nomlab, Uyg‘onish davri fani va madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlarini quyidagilardan iborat deb ko‘rsatib o‘tadi:

1. Barcha odamlarni ma’rifatli qilishga intilish, bu yo‘lda o‘tmish merosidan va qo‘shni mamlakatlarning fan, madaniyat yutuqlaridan foydalanish, tabiiy-falsafiy va ijtimoiy fanlarni rivojlantirishi.

2. Tabiatni o‘rganish, tabiiy-ilmiy bilimlarni oqilonalikka tayanib rivojlantirish, aqlning kuchiga ishonish, asosiy e’tiborni haqiqatni bilishga qaratish, haqiqatni inson bilimining negizi deb bilishi.

3. Insonga xos tabiiy, badiiy, ma’naviy fazilatlarni yuksaltirish, insonparvarlikni ulug‘lash, barkamol avlodni tarbiyalashda oliy ma’naviy qonunlarga rioya qilishi.

4. Universalizm – borliq va ijtimoiy hayotning barcha muammolariga qiziqish, bu davr madaniyatining muhim jihatlaridir.[7-574-b].

Al-G‘azzoliy “ta’limni nafaqat bilim olish, balki nafsni tarbiyalash, axloqni poklash, qalbni nurlantirish yo‘li deb hisoblagan”. Uning “Ihyo uluum ad-din” asarida ta’lim va ma’naviyat aloqasi keng yoritilgan.[3] Ibn Sino ilmni Allohning qonuniyatlarini anglash vositasi deb ta’riflaydi. U falsafa va tabiiy ilmlarni, tib va mantiqni ham Ilohiy bilimga yetaklovchi vositalar sifatida ko‘rgan. (Al-G‘azzoliy, *Ihyo uluum ad-din* (Islomda ta’limning ma’naviy asoslari haqida).

Yangi davr falsafasi (Kant, Gegel): insonning mustaqil ongi, erkinlik va axloqiy tarbiya masalalari ta’lim falsafasining markaziy mavzusiga aylangan.

XX-XXI asrlarda pragmatizm (Dj. Dyui), ekzistentsializm (K. Yaspers), strukturalizm va postmodern kabi yo‘nalishlar ta’lim falsafasiga yangi mazmun baxsh etdi.

Falsafa oliy ta’limning turli soha va yo‘nalishlarida kasbiy tayyorgarlikda alohida o‘rin egalaydi. Keyin falsafaning vazifasi nafaqat shaxsiy fazilatlarning shakllanishi, balki muayyan sharoitlarda harakat qiladigan “professional – kasbiy tayyorgarlik – kutilmagan kelajak” shartlarini bilishni ham talab etadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ushbu tanlovga tayyor bo‘lish yosh kadrlarning qobiliyat darajasi bilan bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, ta’lim falsafasi – bu ilmiy va pedagogik kadrlar tayyorlash tizimidir. Xulosa shuki, ta’lim falsafasi insonni rivojlantirish, uni ma’naviy-axloqiy jihatdan yuksaltirish, jamiyatda munosib o‘rin egallashi uchun zarur bo‘lgan ilmiy va nazariy asoslarni yaratadi. U ta’limning mohiyati, maqsadi, shakli va mazmunini chuqur tahlil etishga yordam beradi. Har qanday ta’lim tizimi muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun uning falsafiy asoslari mustahkam bo‘lishi shart. Zamonaviy dunyoda ta’lim falsafasi global muammolarga javob izlaydi, axborot asrida insonning kamolotini ta’minlashni maqsad qiladi. Shu bois, ta’lim falsafasini puxta o‘rganish har bir pedagog va mutaxassis uchun muhim vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1]. Mukhtarov U. Family education instead of personnel immunity of the youth and public health // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. - 2019. - T. 9. - №. 3. - C. 89-92.

[2]. Майоров Г.Г. Философия как искание абсолюта: опыты теорет. и ист. – М.: Едиториал УРСС, 2004. – С. 416.

[3]. Mukhtarov U. The historical forms and conceptual peculiarities of philosophical education. // International Journal of Scientific & Technology Research. – 2020. – Т. 9. – №. 3. – С. 4002–4006.

[4]. Майоров Г.Г. Философия как искание абсолюта: опыты теорет. и ист. – М.: Едиториал УРСС, 2004. – С. 416.

[5]. Қаранг: Қуръон Карим, Алақ сураси, 96:3–5.

[6]. Ибн Можа, Сунан, илм бобида.

[7]. Шермухамедова Н.А. Фалсафа. – Тошкент, 2010. – Б. 574.

ZAMONAVIY TIBBIYOTNING TELEMEDITSINA BILAN YUKSALISHI

R.Y.Ro'zmetova
TTATF 4 kurs talabasi rozmetovaroziyajon7@gmail.com
D.M.Mavlonberganova
TTA 4 kurs talabasi mavlonberganovadilshoda@mail.com

Annotatsiya : Maqolada zamonaviy sog`liqni saqlash tizimida telemeditsinaning tutgan o`rni, uning amaliy qo`llanilishi va tibbiy xizmat ko`rsatishdagi ahamiyati tahlil qilinadi . Masofaviy maslahatlar , onlayn konsiliumlar , instrumental va laborator tekshiruv tahlillari , xavf guruh bemorlarni monitoring qilish kabi xizmatlar yoritilgan . Bundan tashqari , telemeditsina xizmatlaridan bemor va shifokor qanday foydalana olishini maqola orqali bilib olishingiz mumkin . Teletibbiyot afzalliklari , xususan chekka hududlarda malakali tibbiy xizmatga erishish imkoniyati , vaqt va mablag` tejalishi , tibbiy xizmat sifati oshishi singari jihatlar asoslab berilgan . O`zbekiston tajribasi misolida telemeditsina markazlar faoliyati , xalqaro hamkorlik va statistik natijalar ko`rib chiqilgan . Shu bilan birga tizim joriy etishda duch kelinayotgan texnik , huquqiy va psixologik muammolar ham tahlil qilingan . Xulosa o`laroq , telemeditsina sog`liqni saqlash tizimining istiqbolli va innovatsion yo`nalishi sifatida baholanadi .

**Kalit so`zlar:** telemeditsina ,masofaviy maslahat , sog`liqni saqlash tizimi , masofaviy monitoring , konsilium – tibbiy maslahat yig`ilishi , AIJ – avtomatlashtirilgan ish joyi , telemeditsina roboti.

Kirish. Hozirgi davr tibbiyoti texnologiyalar bilan chambarchas bog‘lanib borayotgan davr bo‘lib, bu jarayonda telemeditsina o‘zining dolzarbligi va samaradorligi bilan ajralib turadi. Masofaviy tibbiy xizmatlar ko‘rsatish tizimi sog‘liqni saqlash sohasida yangicha yondashuvlarni taqdim etib, bemor va shifokor o‘rtasidagi masofani qisqartirmoqda. Ayniqsa, yirik shaharlar va chekka hududlar o‘rtasidagi tibbiy xizmatlar tengsizligiga barham berishda telemeditsina muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Bemorlarning vaqt va mablag‘ tejalishi, tezkor maslahat olish imkoniyati, davolash sifati oshishi kabi jihatlar tufayli bu soha tobora kengayib bormoqda. Shu sababli, bugungi kunda telemeditsina nafaqat qulaylik balki, zamonaviy tibbiyotning ajralmas yo‘nalishiga aylangan.

Asosiy qism. 1.Telemeditsina nima ? Telemeditsinani "sog'liqni saqlash xizmatlarini masofadan yetkazib berish" deb tushunish mumkin. Bu dunyodagi eng tez rivojlanayotgan sog`liqni saqlash segmentlaridan biri hisoblanadi . Telemeditsinadan yiliga taminan 20% aholi foydalanib keladi . Fanda teletibbiyot “ Masofaviy tibbiyot” atamasi bilan ham qo`llanilib keladi . Teletibbiyot (telemeditsina) - shifokor va bemorlar o‘rtasidagi , hamda shifokor va shifokorlar o‘rtasidagi uzoq masofani qisqartirish, vaqtdan sifatli foydalanish va boshqa kerakli tajribalarni almashish maqsadida yuzaga kelgan. Ya’ni tibbiy ma’lumotlarni bemor va shifokorlar bilan almashish hisoblanadi. Hozirgi kunda biz o‘z fikrimizda telemeditsina deb faqat zamonaviy texnologiyalarni nazarda tutadigan bo‘lsak, noto‘g‘ri xulosaga kelgan bo‘lamiz. Telemeditsinaning texnologiyalari ko‘p yillardan buyon insoniyat sog‘ligi uchun xizmat qilib keladi. Telemeditsina amalda keng qo‘llanilib bizga qadar yetib kelgan.

Telemeditsina qanday imkoniyatlarni ochadi ? Teletibbiyot barcha tibbiy tashkilotlar uchun mavjud bo`lib , video va audiokonferensiyalar , matnli telemeditsina maslahatlaridan aktiv foydalanish imkoniyatlarini ochadi . Demak , Telemeditsina – masofaviy maslahatlar markazi bo`lib , malakali tibbiy yordam olish uchun tibbiy muassasaning geografik uzoq joylashganlik ham to`siq bo`lolmaydi. Masalan telemeditsina sabab har qanday nuqtadan turib hududiy tibbiyot markazi bilan bog`lanish mumkin .

Qanday xizmatlarni o`z ichiga oladi : Onlayn “ shifokor – shifokor” “shifokor – bemor” konsultatsiylar , masofaviy MRT , EKG va boshqa instrumental , laborator tekshiruvlar tahlili , masofaviy monitoring orqali xavf guruh vakillarini nazorat qilish kabi imkoniyatlarni yaratadi. “Shifokor – shifokor” konsultatsiyasida audio , video , tekst aloqalari dialog yoki konferensiya tizimi orqali muloqot ikki yoki undan ortiq qatnashuvchilar ishtirokida ; ovoz yozib olinishi , keyin qayta foydalanish zarurati tugilsa . “ Shifokor – bemor” sistemasida onlayn –chat va telefon qong`iroqlar rejimi mavjud bo`lib , shifokor quyidagi imkoniyatlarga ega bo`ladi : diagnostika natijalarini ikkinchi bor ko`rib chiqish ; tashxisni aniqlashtirish maqsadida tajribali hamkasblaridan onlayn konsultatsiya, boshqa yo`nalishdagi mutaxassislar bilan maslahatlashish , og`ir klinik holatlarda onlayn formatdagi konsilium , holati yaxshi bo`lmagan bemorga telemeditsina kasalxonaga bormasdan turib , vaqtni tejagan holda , maxsus tibbiy yordam olish yo`lini ochadi.

Qabulga qanday yoziladi : Shifokor hamkasblariga AIJ orqali ma`lum bir vaqtga yoziladi , ya`ni u xizmat ko`rsataoladigan shifokorlar ro`yxati va ularning jadvali bilan tanishadi . Shuningdek ,yozma javob olish maqsadida rasm va audio fayl ko`rinishida so`rov yuborishi mumkin .Bemorlar telemeditsina xizmatlarini olish uchun telefonidagi maxsus ilovalar orqali mutaxassis bilan uchrashuvga yozilishi kifoya. Sug'urtaning afzalliklari: malakali tibbiy yordamga tezkor kirish; Istalgan vaqtda va kechayu-kunduz shifokor bilan maslahatlashish imkoniyati; Sog'liqni saqlash muammolarini masofadan turib hal qilish mumkin bo'lgan hollarda, masalan, qon testlari taxlili uchun klinikaga murojaat qilishning hojati yo'q; Mutaxassislar nafaqat kattalarga maslahat berishadi, balki bolalar va ularning ota-onalariga tibbiy yordam ko'rsatishadi. Onlayn telemeditsina boshqa mutaxassislarning professional fikriga muhtoj bo'lgan bemorlar uchun ham foydali bo'ladi .

Statistika bo`yicha, 2021-yilning o`tgan 9 oy davomida telemeditsina orqali 11 ming 46 marotaba onlayn maslahatlar o`tkazlib , 46 ming 153 nafar bemor konsultatsiya qilingan . Bundan tashqari , 3412 ta onlayn konsiliumlar ; 493 ta seminarlar , 689 ta onlayn master klass darslari ; 234 ta onlayn namoyishli jarrohlik amaliyotlari tashkil etilgan . 2023-yilda 900 nafarga yaqin bemorlarni yashash joyida davolash imkoniyati yaratilgan . Shuningdek , telemeditsina orqali bemor va shifokor ortasidagi masofa va harajatlar kamayadi .

Shu bilan bir qatorda :

- malakali shifokorlar kam bo`lgan chekka hududlarda bemorni yuqori sifatli davolash orqali kadr yetishmovchiligi muammolarini hal etadi ;
- chet elga chiqish zaruriyatisiz masofaviy ta`lim olish va shifokorlar malakasini oshirish imkonini beradi ;
- yuqumli kasalliklarni davolashda tibbiyot xodimlarining kasallik yuqish xavfini miniallashtiradi ;
-dunyoning istalgan joyidagi mutaxassislar ishtirokida murakkab operatsiyalarni amalga oshirishga imkon beradi .

O`zbekistonda ilk innovatsion telemeditsina klinikasi 2020 yilning 17 iyul kuni Innovatsion rivojlanish vazirligi va Sog`liqni Saqlash vazirligi Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi bilan hamkorlikda Mo`ynoq tumanida tashkil etilgan bo`lib, keyinchalik boshqa kopchilik viloyat tumalarida tashkil etildi . Shunungdek , markazalar faoliyatiga xorijiy davlatlardan ekspertlar jalb qilingan holda davolash va diagnostika usullarini joriy etishni jadallashtirish , ilmiy amaliy hamkorlikni keng yo`lga qo`yish ishlari tashkil etilmoqda . Misol uchun , jigar transplantologiya yo`nalishi bo`yicha Hindiston va Turkiya markazlar bilan , neyroxirurgiya yo`nalishida Yaponiya , xirurgiya bo`yicha Ozarboyjon markazlari bilan amaliy ishlar yo`lga qo`yilgan . Hozirda Toshkent va Berlin o`rtasida to`g`ridan – to`g`ri ma` lumotlar almashinuvi bo`lib turadi va Germaniya Delegatsiyasi tomonidan O`zbekistonga taqdim etilgan telemeditsina roboti Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazida foydalanilmoqda .

Telemeditsina orqali tibbiy xizmatlarni ko‘rsatish bir qator afzalliklarga ega bo‘lsa-da, uni to‘liq joriy etishda bir qancha muammolarga duch kelishi mumkin :

1. Texnik infratuzilma muammolari – Ko‘plab chekka va qishloq hududlarda yuqori tezlikdagi internet yoki zarur texnik vositalarning yetishmasligi telemeditsina xizmatlarining sifatli ko‘rsatilishiga to‘sqinlik qiladi.
2. Huquqiy va me’yoriy hujjatlarning yetarli emasligi – Telemeditsina orqali amalga oshiriladigan diagnostika va maslahatlar uchun aniq qonunchilik asoslarining mavjud emasligi ayrim holatlarda javobgarlikni belgilashda noaniqlik tug‘diradi.
3. Shifokor va bemor o‘rtasidagi ishonch masalasi – An’anaviy vizitlar bilan solishtirganda, masofaviy maslahatlar bemorlar uchun unchalik ishonchli tuyulmasligi mumkin.
4. Maxfiylik va ma’lumotlarni himoya qilish – Bemorlarning shaxsiy ma’lumotlarini uzatish va saqlashda xavfsizlik choralariga rioya qilinmasligi turli muammolarga olib kelishi mumkin.
5. Kadrlar tayyorlash va moslashuv – Shifokorlar va tibbiyot xodimlari orasida telemeditsina texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmasi yetarli darajada emas. Bu esa xizmat ko‘rsatish sifatiga ta’sir qiladi .

Xulosa. Telemeditsina bugungi zamonaviy tibbiyotda muhim o‘rin egallab, masofaviy tibbiy xizmatlar orqali bemor va shifokor o‘rtasidagi muloqotni osonlashtirmoqda. Bu tizim yirik shaharlar va chekka hududlar o‘rtasidagi tibbiy tengsizlikni bartaraf etishga yordam beradi. Onlayn maslahatlar, masofaviy tekshiruvlar, konsiliumlar, va malaka oshirish imkoniyatlari orqali nafaqat bemorlarga, balki

shifokorlarga ham keng imkoniyatlar yaratmoqda. O‘zbekistonda telemeditsina bo‘yicha muhim qadamlar tashlangan: telemeditsina markazlari ochilgan, xorijiy tajriba joriy qilinmoqda.

Shunga qaramay, telemeditsinani keng miqyosda joriy etish jarayonida bir qator muammolar ham mavjud. Jumladan, ayrim hududlarda texnik infratuzilmaning zaifligi, yuridik-me’yoriy asoslarning yetarli darajada ishlab chiqilmagani, shifokor va bemor o‘rtasida ishonch muammosi, shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlashdagi kamchiliklar va tibbiyot xodimlarining texnologiyalarga moslashishidagi qiyinchiliklar bu sohaning rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu muammolar bosqichma-bosqich hal etilsa, telemeditsina O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimini yanada ilg‘or va barcha uchun qulay bo‘lgan formatga olib chiqishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. K.Kamkamidze, M.Tevdoradze Texnicheskiy Universitet Tbilisi. Kompyuterniy seti telemeditsini - 2009y.
2. Kun.uz
3. Doklad o rezultatax vtorogo globalnogo obsledovaniya v oblasti elektronnogo zdravooxraneniya Telemedicine:opportunities and developments in Member States: report on the second global survey on e-Health 2009 https://www.who.int/ Mul`timedia v meditsinskom vuze I.I.Gornovskaya, N.Yu.Konevalova Vitebskiy davlat tibbiyot universiteti Vitebsk-2011y https://teletype.in https://ru.wikipedia.org/wiki/Wireless_ MAN, http://scientificprogress.uz/ storage/app/media/3-.%20081.%20487- 494.pdfhttp://window.edu.ru/
4. Doklad o rezultatax vtorogo globalnogo obsledovaniya v oblasti elektronnogo zdravooxraneniya Telemedicine:opportunities and developments in Member States: report on the second global survey on e- Health 2009 https://www.who.int/
5. Nikitin O.R., Pasechnik A.S. Modelirovanie usloviy raboti algoritmov okonturivaniya dlya medetsinskix izobrajeniy i otsenka ix vliyaniya na kachestvo okonturivaniya. Metodi i ustroystva peredachi i obrabotki informatsii vip. Mejv.sb.nauchn.tr./podred. V.V.Romashova. - M.:«Radiotexnika», 2007
6. https://telemedicine-and.ru/ http://scientificprogress.uz/storage/app/media/3-1.%20081.%20487- 494.pdfhttp://window.edu.ru/
7. xabar.uz
8. daryo.uz

QON KASALLIKLARIDA GEMATOLOGIK TAHLIL NATIJALARINING DIAGNOSTIK ROLI

S.B.Rajabaliyeva
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi 302-A gurux rajabaliyevasugdiyona3@gmail.com
R.B.Izzatova
TTATF 1 kurs talabasi risolatizzatova4@gmail.com

Annotatsiya Maqolada qon kasalliklarining diagnostikasida gematologik tahlillarning roli yoritiladi. Gematologik ko‘rsatkichlar asosida turli qon kasalliklarini aniqlash imkoniyati, ularning diagnostik ahamiyati va amaliyotdagi qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Xususan, anemiya, leykoz, trombotsitopeniya kabi kasalliklar misolida qon tahlilining diagnostik vosita sifatidagi o‘rni ochib beriladi.Ayniqsa, qonning morfologik ko‘rinishi, hujayra soni, shakli, o‘lchami va boshqa parametrlar har bir kasallik uchun o‘ziga xos bo‘lib, ularga qarab shifokor dastlabki yoki to‘liq tashxis qo‘yishi mumkin.Maqolada eritrotsitlar sonining kamayishi yoki ortishi, gemoglobin miqdorining pasayishi, leykotsitar formulasidagi o‘zgarishlar, trombotsit darajasining tahlil natijalariga ta’siri batafsil ko‘rib chiqiladi. Bunday laborator ko‘rsatkichlar nafaqat kasallikni aniqlash, balki kasallikning kechish darajasini baholash, davolash samaradorligini kuzatishda ham muhim rol o‘ynaydi.Shuningdek, bu ishda zamonaviy laborator analizatorlar yordamida bajariladigan avtomatlashtirilgan gematologik tahlillar, ularning aniqligi va sezuvchanligi, shuningdek, shifokorlarning amaliy faoliyatida bu natijalardan qanday foydalanilishi haqida ham to‘xtalib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: Gematologik tahlil, qon kasalliklari, diagnostika, anemiya, leykoz, trombotsitopeniya, umumiy qon tahlili, klinik laboratoriya, eritrotsit, leykotsit, trombotsit, tashxis, gematopoez, blast hujayralar, ESR.

Kirish. Qon organizmning hayot faoliyati uchun muhim biologik suyuqlik bo‘lib, uning tarkibi va xossalaridagi o‘zgarishlar ko‘plab kasalliklarning belgisi bo‘lishi mumkin. Qon kasalliklari (gematologik kasalliklar) o‘zining ko‘p tarmoqliligi va klinik xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Shu sababli, bunday kasalliklarni aniqlashda to‘liq va tizimli diagnostika muhim ahamiyatga ega. Gematologik tahlillar – ayniqsa umumiy qon tahlili (UQT) – shifokorlarga dastlabki bosqichdanoq muhim diagnostik ma'lumotlarni taqdim etadi.

Gematologik tahlil tushunchasi Gematologik tahlillar – bu qonning tarkibi, tuzilmasi va xossalarini o‘rganishga qaratilgan laboratoriya usullaridir. Asosiy tahlillar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Eritrotsitlar (qizil qon tanachalari) soni
Gemoglobin miqdori
Gematokrit ko‘rsatkichi
Leykotsitlar (oq qon hujayralari) soni va shakllari
Trombositlar miqdori
ESR (eritrotsitlarning cho‘kish tezligi)

Bu ko‘rsatkichlar yordamida ko‘plab kasalliklarning mavjudligi, rivojlanish bosqichi yoki og‘irligi aniqlanadi.

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi davrda qon kasalliklari nafaqat alohida mustaqil patologiyalar sifatida, balki ko‘plab yallig‘lanishli, o‘sma va immun tizim bilan bog‘liq kasalliklarning ham asosiy diagnostik mezonlaridan biri sifatida muhim o‘ringa ega. Anemiya, leykoz, trombotsitopeniya kabi kasalliklarning erta aniqlanishi ko‘pincha gematologik tahlillarning natijalariga bog‘liq bo‘ladi. Ayniqsa, keyingi yillarda ekologik omillar, oziqlanishdagi o‘zgarishlar, radioaktiv va toksik ta’sirlar, hamda autoimmun jarayonlarning ko‘payishi tufayli qon tizimi bilan bog‘liq muammolar ko‘proq uchramoqda.

Tadqiqotning maqsadi. Qon kasalliklarini aniqlash va farqlash jarayonida gematologik tahlil natijalarining diagnostik ahamiyatini ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat. Xususan, quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha maqsadlar ko‘zda tutilgan:

✓ Gematologik tahlil ko‘rsatkichlarining qon kasalliklari bilan bog‘liqligini o‘rganish.

8. Anemiya, leykoz, trombotsitopeniya kabi keng tarqalgan qon kasalliklari uchun xos bo‘lgan tahlil o‘zgarishlarini aniqlash.

9. Tahlil natijalarining erta diagnostikada tutgan o‘rni va ahamiyatini tibbiy amaliyot nuqtai nazaridan yoritish.

10. Klinik holatlarda gematologik ko‘rsatkichlardan foydalanish samaradorligini baholash.

Ushbu maqsadlarga erishish orqali gematologik tahlillarning nafaqat tashxis qo‘yish, balki davolashni rejalashtirish va kasallik kechishini monitoring qilishdagi rolini chuqurroq anglash mumkin bo‘ladi.

Natijalar. Umuman olganda, UQTning oddiy, tezkor va iqtisodiy jihatdan qulay tahlil usuli bo‘lishiga qaramay, u yuqori darajadagi diagnostik sezuvchanlikka ega. Tadqiqotda qayd etilishicha, bemorlarning 70–80 foizida aynan umumiy qon tahlili asosida dastlabki tashxis taxmin qilingan va keyinchalik bu tashxis maxsus tekshiruvlar orqali tasdiqlangan. Shu boisdan, gematologik tahlillar nafaqat kasallikni aniqlash, balki uning og‘irlik darajasini baholash, farqlash va davo samaradorligini monitoring qilishda ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi

Xulosa. Gematologik tahlillar – zamonaviy klinik diagnostika tizimining asosiy komponentlaridan biri sifatida, ayniqsa qon kasalliklarini aniqlash, ularni farqlash va ularning og‘irlik darajasini baholashda beqiyos rol o‘ynaydi. Ushbu tadqiqot doirasida o‘rganilgan klinik holatlar va tahliliy ma’lumotlar asosida shuni ishonch bilan aytish mumkinki, qon ko‘rsatkichlari orqali bemor organizmidagi patofiziologik jarayonlar to‘g‘risida aniq va chuqur xulosa chiqarish mumkin bo‘ladi. Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, qon tahlillari nafaqat anemiya, leykoz, trombotsitopeniya kabi keng tarqalgan gematologik kasalliklarni aniqlashda, balki ularning turini va klinik-og‘irlik darajasini aniqlashda ham muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, umumiy qon tahlili (UQT) kabi nisbatan oddiy laborator usul yordamida turli patogenetik mexanizmlar – masalan, gematopoezning buzilishi, immun tizimning o‘zgarishi, yallig‘lanish, toksik yoki o‘sma jarayonlar – haqida dastlabki va ko‘pincha yetarlicha asoslangan tashxisiy ma’lumotlar olish mumkin. Bundan tashqari, gematologik tahlillar kasallik dinamikasini monitoring qilish, davo samaradorligini baholash va relaps yoki remissiya holatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, leykozning surunkali shakllarida leykotsitlar soni va blast hujayralarning nisbatini doimiy kuzatish, davolashga individual yondashuvni shakllantirishda zaruriy

shartlardan biridir.Tadqiqot davomida aniqlangan asosiy jihatlar quyidagilardan iborat:Gematologik tahlillar kasallikning klinik belgilari hali namoyon bo‘lmagan bosqichida diagnostik signal berishi mumkin.Qon ko‘rsatkichlari turli kasalliklar uchun differensial tashxis qo‘yish imkoniyatini oshiradi, ayniqsa klinik simptomlari o‘xshash bo‘lgan holatlarda.Tahlil natijalari asosida shifokor kasallikning kechish xususiyatlarini aniqlab, davolash taktikasini moslashtirishi mumkin. Qon analizlarining statistik va dinamik talqini orqali kasallik prognozini aniqlashtirish mumkin bo‘ladi, bu esa bemorga uzoq muddatli yondashuv ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Zamonaviy tibbiyotda turli texnologik yutuqlar mavjud bo‘lishiga qaramay, aynan oddiy laborator ko‘rsatkichlar (eritrotsitlar soni, gemoglobin darajasi, leykotsitlar formulasidagi o‘zgarishlar, trombotsitlar soni va ESR) doimiy ahamiyatini saqlab qolmoqda. Bularning barchasi, birinchi navbatda, ushbu ko‘rsatkichlarning yuqori sezuvchanligi, tezkorligi, iqtisodiy jihatdan qulayligi va shifokor uchun tezkor axborot manbai bo‘lishi bilan bog‘liq. Shu boisdan, qon kasalliklarida gematologik tahlil natijalarining diagnostik roli faqat tashxis qo‘yish bilan cheklanib qolmay, balki kasallikni kompleks baholash, individual terapevtik yondashuvni shakllantirish, shuningdek, sog‘lomlashtirish jarayonining har bir bosqichini ilmiy asosda boshqarishga xizmat qiladi. Tahlil natijalarining to‘g‘ri va tizimli talqini esa bemor hayotini saqlab qolish, asoratlarning oldini olish va tibbiy xizmat sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.Shunday qilib, gematologik tahlillarni chuqur tahlil qilish va ularni klinik qaror qabul qilish jarayoniga integratsiya qilish bugungi kundagi sog‘liqni saqlash tizimi oldida turgan ustuvor yo‘nalishlardan biridir

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saydaliyev, S. (2018). *Gematologiya asoslari*. Toshkent: O‘zbekiston Tibbiyot Nashriyoti.
2. Karimov, B. va Xudoyberganova, G. (2021). *Klinik laboratoriya diagnostikasi*. Toshkent: Tibbiyot Akademiyasi nashriyoti.
3. Robbins, S. L., Kumar, V., & Aster, J. C. (2017). *Robbins Basic Pathology* (10th ed.). Elsevier.
4. World Health Organization (WHO). (2022). *Haematological diseases: Global health estimates*. Geneva: WHO Press.
5. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligi. (2020). *Kasalliklar diagnostikasi bo‘yicha klinik protokollar: Gematologik kasalliklar*. Toshkent: SSV.
6. Hoffbrand, A. V., & Moss, P. A. H. (2016). *Essential Haematology* (7th ed.). Wiley-Blackwell.
7. Bain, B. J. (2021). *Dacie and Lewis Practical Haematology* (12th ed.). Elsevier.
8. Lijffijt, J., & Koene, H. R. (2020). Diagnostic Value of Complete Blood Count Parameters in Hematologic Disorders. *Hematology Reviews*, 12(3), 145–157.
9. Bain, B. J. (2015). Blood Cells: A Practical Guide. *Wiley-Blackwell*.

YURAK-QON TOMIR KASALLIKLARINING YOSHLAR ORASIDA KO‘PAYISHI: ERTA DIAGNOSTIKA VA TEXNOLOGIK YECHIMLAR

I.B.Karimov
Davolash 2 404- A guruh talabasi ik0791989@gmail.com
M.V.Rustamova
Davolash 1 404-A guruh talabasi mahzunarustamova294@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada yurak-qon tomir kasalliklarining yoshlar orasida ortib borayotgan holatlari, ularning asosiy xavf omillari, erta tashxislashning ahamiyati hamda texnologik yondashuvlar tahlil qilingan. Shuningdek, sun’iy intellekt va mobil texnologiyalar yordamida yurak kasalliklarini oldindan aniqlash imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: yurak-qon tomir kasalliklari, yoshlar, erta diagnostika, texnologik innovatsiyalar, sun’iy intellekt

Kirish. So‘nggi yillarda yurak-qon tomir kasalliklari (YQTK) faqat keksa avlod orasidagina emas, balki 18–35 yoshli yoshlar orasida ham keng tarqalmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO) ma’lumotlariga ko‘ra, yurak ishemik kasalligi va gipertoniya kabi holatlar yoshlar orasida ham jiddiy muammo sifatida qayd etilmoqda. Bunga turmush tarzining o‘zgarishi, stress, noto‘g‘ri ovqatlanish va texnologik qurilmalarga ortiqcha qaramlik sabab bo‘lmoqda. Mazkur maqolada ushbu kasalliklarning oldini olish, erta tashxislash va zamonaviy texnologik echimlar orqali nazorat qilish usullari tahlil qilinadi.

Asosiy qism. So‘nggi yillarda yurak-qon tomir kasalliklarining (YQTK) yoshlar orasida keskin ko‘payishi tibbiyot sohasidagi jiddiy xavotirli holatlardan biri sifatida qaralmoqda. Ilgari faqat o‘rta va katta yoshlarga xos deb hisoblangan koronar arteriya kasalligi, gipertoniya, miokard infarkti va aritmiyalar hozirgi kunda 18–35 yoshli guruh orasida ham uchrayotgani kuzatilmoqda.

Bu holatga olib kelayotgan asosiy omillar quyidagilardan iborat:

Noto‘g‘ri ovqatlanish: Fastfud, ko‘p yog‘li va shakarli mahsulotlarni iste’mol qilish yurak salomatligiga zarar yetkazmoqda.

Kamharakatlilik: Zamonaviy yoshlar orasida jismoniy faollik darajasining pasaygani metabolik sindrom, semizlik va gipertoniya rivojlanishiga sabab bo‘lmoqda.

Psixologik stress: Doimiy psixo-emotsional bosim, o‘quv va ishdagi zo‘riqish, uyquning buzilishi kardiovaskulyar tizimga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yomon odatlar: Chekish, spirtli ichimliklar iste’moli va hatto elektron sigaretalarning keng tarqalishi yurak faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Irsiy omillar: Oilaviy anamnezda YQTK mavjudligi ham muhim rol o‘ynaydi.

Bundan tashqari, erta yoshdagi diabet, metabolik sindrom va dislipidemiya kabi holatlar ham yurak-qon tomir tizimi uchun tahdid hisoblanadi.

Zamonaviy diagnostika usullari

Yoshlar orasida YQTK ni erta aniqlash uchun bir qancha innovatsion yondashuvlar qo‘llanilmoqda:

Kardiomarkyerlar (troponin, NT-proBNP, CRP) orqali qon tahlillari bilan yurakdagi yallig‘lanish yoki zararni aniqlash.

EKG va Holter monitoring: yurak ritmidagi uzluksiz kuzatuv orqali aritmiyalarni erta aniqlash imkonini beradi.Ekokardiyografiya: yurak mushaklarining harakati, qopqoq funksiyasi va chiqish fraksiyasini baholashda samarali.

Kardiomagnit-rezonans tomografiya (CMRT) va CT angiografiya: yurak tuzilmasi va koronar arteriyalarni aniq vizualizatsiya qilishda zamonaviy usul hisoblanadi.

Genetik testlar: irsiy yurak kasalliklari xavfini oldindan aniqlash imkonini beradi.

Texnologik yechimlar va profilaktika

Bugungi kunda YQTKning oldini olish va nazorat qilishda bir qancha raqamli texnologiyalar va intellektual tizimlar keng qo‘llanilmoqda:

Smart soatlar va fitnes trekerlar: yurak urishini, bosimni, stress darajasini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi.

Mobil sog‘liq ilovalari: yurak salomatligini kuzatish, ovqatlanish va jismoniy faollikni nazorat qilish imkonini beradi.Sun’iy intellekt asosidagi dasturlar (AI): yurak kasalliklarini erta prognoz qilish va individual rejalashtirish imkonini beradi.

Teletibbiyot: uzoq hududlardagi bemorlarga kardiologik maslahatlar olish imkonini yaratmoqda.

Virtual reabilitatsiya dasturlari: infarktdan keyingi davrda bemorning sog‘lig‘ini tiklashda innovatsion yondashuv bo‘lib xizmat qilmoqda.

1. YQTKning yoshlar orasida kengayish sabablari:

Noaktiv hayot tarzi (kam harakat) – jismoniy faollik darajasining pasayishi.

Noto‘g‘ri ovqatlanish – fast food, tuz, shakar, yog‘li mahsulotlar.

Yomon odatlar – chekish, spirtli ichimliklar, energetik ichimliklar.

Irsi omillar – genetik moyillik.

Ekologik muhit va stress – shahar hayoti, havo ifloslanishi.

Statistikaga ko‘ra, O‘zbekistonda yurak-qon tomir kasalliklarining yoshlarda ko‘payishi erta nogironlik va o‘lim holatlariga olib kelmoqda.

2. Erta diagnostikaning roli

Yurak xastaliklarini erta aniqlash quyidagi vositalar orqali amalga oshiriladi:

Elektrokardiografiya (EKG) – yurakning elektr faolligini baholaydi.

Stress-test – jismoniy faollik paytida yurakning reaktsiyasi.

Qon tahlillari – xolesterin, troponin, C-reaktiv oqsil, glyukoza darajalari.

Echokardiografiya (ECHO) – yurakning ultratovush tekshiruvi.

Bu usullar kasalliklarni erta bosqichda aniqlashga yordam beradi, bu esa davolanishni ancha samarali qiladi.

3. Texnologik yondashuvlar

a) Sun’iy intellekt (AI)
Yurak xuruji ehtimolini tahlil qiladi.
Tibbiy ko‘rsatkichlar asosida xavf koeffitsiyentini hisoblaydi.
Misol: **Harvard Medical AI** algoritmlari.
b) Mobil sog‘liq ilovalari
Yurak urishini, bosimni nazorat qilish (masalan: *Qardio*, *Heartify*).
Stress, uyqu, jismoniy faollik monitoringi.
c) Telekardiologiya
Masofaviy yurak monitoringi.
Onlayn maslahat va EKG yuborish texnologiyalari.
d) Kiyiladigan qurilmalar
Smart-soatlar, fitnes bilaguzuklar yordamida yurak faoliyati 24/7 kuzatiladi.

Xulosa. Yurak-qon tomir kasalliklarining yoshlar orasida keng tarqalishi jamiyat salomatligiga tahdid solmoqda. Bu holatga olib kelayotgan asosiy sabablar – noto‘g‘ri turmush tarzi, stress, irsiy omillar va zamonaviy hayot tarzi bilan bog‘liq salbiy odatlarning ko‘payishidir. Shu boisdan ushbu muammoni erta aniqlash va texnologik yechimlar orqali oldini olish dolzarb ahamiyatga ega.
Zamonaviy diagnostika vositalari, sun’iy intellekt va mobil ilovalar orqali yurak faoliyatini nazorat qilish imkoniyati kengaymoqda. Bu esa YQTKni erta bosqichda aniqlash va kasallikning og‘ir asoratlarini oldini olishga xizmat qilmoqda.Shuningdek, yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, muntazam profilaktik tekshiruvlar o‘tkazish va raqamli sog‘liq texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish orqali yurak-qon tomir kasalliklarining kamayishiga erishish mumkin.Yoshlar orasida yurak-qon tomir kasalliklarining ortishi – sog‘liqni saqlash tizimi uchun dolzarb muammo. Uni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv: sog‘lom turmush tarzi, erta tashxis, zamonaviy texnologiyalar va profilaktika ishlari zarur. Yoshlikda salomatlikni saqlash – jamiyat salomatligi va barqaror taraqqiyotning garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ismailov Z.A. (2022). *Yoshlar salomatligi va yurak-qon tomir tizimi.* Toshkent: Sog‘liq nashriyoti.
2. World Health Organization (2023). *Cardiovascular diseases – Key facts.* www.who.int
3. Xudoyberdiyev A.T., Rasulova M.N. (2021). *Zamonaviy yurak diagnostikasi usullari.* “Tibbiy fanlar” jurnali, №2.
4. AI in Cardiology. (2024). Harvard Medical AI Research Center. https://aimedical.org
5. Mahmudov B.B. (2023). *Sun’iy intellekt tibbiyotda: yurak kasalliklari diagnostikasida yangi bosqich.* “Innovatsion tibbiyot” jurnali, №1.
6. Global Burden of Disease Report (2022). *Institute for Health Metrics and Evaluation.* www.healthdata.org
7. Tursunova M.X. (2021). *Yoshlar orasida gipertoniya va yurak ishemiyasi.* “Yosh olim” ilmiy to‘plami.
8. Kolesnikova E.A. (2023). *Mobil sog‘liqni saqlash texnologiyalari va kardiologiya.* Moskva: MedInfoPress.
9. Shomurodov O.T. (2022). *Kiyiladigan texnologiyalar orqali yurak monitoringi.* “Tibbiyotda raqamli yondashuvlar”, №3.
10. Karimova L.Sh. (2021). *Yurak xastaligi profilaktikasi yoshlar orasida.* “Sog‘liqni saqlash yangiliklari”.

ODAM ORGANIZMI ENG MUKAMMAL LABARATORIYA, BIOLOGIYANING MO’JIZALARI

N.A.Boyqobilova
Termiz davlat unversiti Tabiy fanlar fakulteti biologiya turlari 3 kurs talabasi
G.G’.Choriyeva
Surxondaryo viloyati Bandixon tumani 23-maktab 11-sinf o'quvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada odam organizmining biologik tuzilishi,fiziologik jarayonlaro va o‘z o‘zini boshqarish tiz imlari tahlil qilinadi.Inson tanasi - murakkab va o‘zaro bog‘liq tizimlardan iborat bo‘lib,u zmaonaviy fan uchun hami to‘liq anglab yetilmagan mo‘jizalarninh manbayidir.Tadqiqot

organizmning labaratoriya kabii ishlashini,tashqi muhit bilan alaqadorligini va biologiyaning bu boradagi yutuqlarini yoritib beradi. Inson organizmi - bu murakkab va o‘z o‘zini boshqaruvchi biologik laboratoriya bo‘lib ,unda hujayradan organ tizimigacha bo‘lgan ko‘zni quvontradigan jarayonlar amalga oshadi.

Kalit so‘zlar: odam organizmi,biologik mo‘jizalar, labaratoriya,fizologiya,biologik tizimlar,fan yutuqlari.

Kirish: Odam organizmi -bu o‘ziga xos tabiy labaratoriya bo‘lib,har soniyada millionlab kimyoviy va biologik reaksalar sodir bo‘lib turadi. Tanamizdagi har bir hujayra,toqima va a'zo o‘z vazifasinii aniq va mukammal bajargan holda yagona butunlikni tashkil etadi.Biologiya fani bu murakkab tizimni o‘rganish ,anglash va tushuntirish orqali inson salomatligini saqlashda va zamonaviy tibbiyotda muhim o‘rin tutadi.Bu maqolada odam organizmining ’’tirik laboratoriya’’sifatida qanday ishlashi,qanday ajoyib mexanizmlarga ega ekani haqida batafsil yoritiladi.

Metodologiya: Tadqiqot davomida ilmiy maqolalar,darsliklar,nevrobilogik tahlilar,fizologik tajribalar va zamonaviy texnologiyalar yordamida olingan ma’lumotlar tahlil qilinadi.Asosiy manbalar sifatida xalqoro biologiya jurnalidagi maqolalar,inson fizalogiyasi bo‘yicha klassik adabiyotlar va zamonaviy tadqiqotlar asos qilib olindi.Analitik va taqqoslovchi metodlar asosida odam organizmning laboratoriyaga o‘xshash ishlash printsiplari ochib berildi. Ushbu maqolani yozishda ilmiy - tahlliliy,taqqoslovchi va umumlashtiriuvchi usulardan foydalaniladi.Asosiy e’tibor odam organizmini biologik laboratoriya sifatida o‘rganishga,uning ichki tizimlari va funksional murakkabligini chuqur tahlil qilishga qaratiladi.

Natijalar va tahlil.

1 Hujayra darajasidagi mo‘jizalar: Har bir insonda o‘rtacha 37 trillionda ortiq hujayra mavjud bo‘lib har biri o‘z funksiyasini mustaqil va bir vaqtning o‘zida muvofiqlikda bajaradi.Masalan mitoxondriyalar energiya ishlab chiqaradi,DNK esa barcha axborotni saqlaydi.1 Immin tizimi va regeneratsiya: organizm har kuni minglab virus va bakteriyalarga qarshi kurashadi.Yaradorlik yoki kasallikdan so‘ng o‘z o‘zini tiklash qobilyati ham bilogik mo‘jizaning bir ko‘rinishidir.

2 Tananing qon tomirlar bilan taminlamangan qismi ko‘z shox pardasidir shox parda to‘g‘ridan to‘g‘ri hovodan oladi.3 Inson boshida turli xil nomsiz 24 ta suyaklar bor.4 Mana shu jumlani tugatguniyzga qadar organizmdagi 50mingdan ortiq hujayra nobud bo‘lib taxminan shuncha hujayra paydo bo‘ladi.5 Homila 3 oyligidayoq o‘z barmoq izlariga ega bo‘ladi.6 Inson o‘z tushini 98% ini esdan chiqaradi.7 Odam organizmda umumiy qon tomirlar uzunligi 100ming kilometr chiqadi.8.Tanadagi issiqlik koprog‘i bosh orqali chiqib ketadi.Hayot dovomida Inson terisi 100 marta almashiladi.9 Tish emali inson organizmida eng qatiq to‘qimadir 10 Insoni eng kuchli mushagi bu tilidir.

Xullosa. Odam organizmi bu eng zo‘r va eng mukammal tabiy labaratoryadir.Undagi har bir tizim,hujayra va molekula bir biriga bog‘langan holda o‘z vazifasini bajaradi.Biologiya esa bu murakkabligini tahlil qilishda,anglashda va undan amaliy foyda olishda bizga imkon yaratadi Kelajakdagi imiy izlanishlar bu laboratoriyaning sirlarini yanada chuqurroq ochib beradi. Biologiya fani aynan shu murrakablikni,chuqurlikds va hayratomuz uyg‘unlikni organadi.Har bir biologik har bir ilimga chanqoq koshi lnson organizmni o‘rganar ekan bu tirik labortoriyanning ichki sirlariga yanada yaqinlashadi Shunday ekan biz inson tanasini chuqqurroq o‘rganib uni anglash orqali salomatlikni saqlash,kasaliklarni davolash va fan taraqiyotiga ulkan hissa qo‘sha olamiz. Annotatsiya

Biz inson tanasining homeostaz nazorati ,immun tizimining himoya mexanizmlari regeneratsiya salohiyati va neyroplastik xususiyatlari kabi mo‘jizaviy biologik tizimlarni xalqaro biologiya va fiziologiya manbalariga tayangan holda o‘rganamiz .Bu maqola fan mohiyatini chuqur anglashga yo‘naltirgan.

Inson organizmi - bu tabiatdagi eng murakkab ,aqlli va o‘zini o‘zi mustaqil boshqara oladigan hayotiy tizimlardan biridir.Bruce Albertsning ’’Molekulyar biologiya asarida ta’kidlanishicha, har bir inson hujayrasi shunchalik aniq va uyg‘un ishlaydiki, bu jihatdan zamonaviy laboratoriyalardan ham ustun turadi.Tana ichida har soniyada millionlab kimyoviy reaksiya sodir bo‘ladi.DNK ko‘payishi ,oqsilar sintezi,energiya ishlab chiqarish asab signallaru uzatish va boshqalar.

Sun’iy laboratoriyalar tashqi boshqaruv va energiyaga muhtoj bo‘lsa,odam tanasi o‘zini o‘zi boshqaradi,doim ravishda tashqi muhitga moslashadi,o‘zini tiklaydi va ichki muozanatni - ya’ni homeostazni - mukammal tarzda saqlab turadi. Guyton va Hallning ’’Tibbiy fiziologiya’’daraligida aytishicha,bu o‘z o‘zini boshqaruvchi mexanizmlar organizmni boshqa har qanday su’niy tizimdan farqlab turadi.Inson miyasi esa - bu mavjud olamdagi eng murakkab tuzilma hisoblanadi.Fikr xotira,harakat va his tuyg‘ularni boshqaruvchi bu a’zo millyonlab neyronlar orqali bir zumda axborot uzatadi.Bear,Connors va

Paradiso muallifligidagi ’’Nevrologiya kitobida aytilishicha ,miya plastik xususiyatga ega - ya’ni o‘rganadi,o‘zgaradi,moslashadi va o‘zini qayta tashkil etadi.Bu uni har qanday sun’iy intellekt tizimidan ustunlik qiladi.Zamonaviy biologiya fani organizmning har bir hujayrasi,toqimasi va tizimidagi mo‘jizalarni ochishda davom etmoqda.Molekulyar darajasidagi oddiy reaksiyalardan tortib butun tana tizimlarining uyg‘un boshqaruvigacha bo‘lgan jarayonlar bizni hayratda qoldiradi.Mazkur maqola inson organizmni oddiy biologik tuzilma sifatida emas,balki murakkab,ongli va tirik laboratoriya sifatida o‘rganishni maqsad qiladi.U xalqaro darajadagi fiziologiya, hujayra biologiyasi, nevrologiya va immunologiya bo‘yicha ishonchli ingliz tilidagi manbalar asosida tayyorlandi.Tahlillar orqali biologiyaning ajoyib sirlarini chuqurroq anglashga harakat qilindi. Natija va tahlil

Tadqiqotlar va tahlilar asosida quyidagi muhim biologik mo‘jizalar va xulosalarga kelindi.

1. Har bir hujayra - mustaqil laboratoriy

Inson organizmini tashkil etuvchi har bir hujayra o‘z ichida murakkab kimyoviy reaksiya,energiya ishlab chiqarish,axborotni saqlash,tashqi sharoitga jovob qaytarish kabi jarayonlarni bajaradi

2. Miya – tabiysupirkompyuter

Inson miyasi bir vaqtning o‘zida millionlab axborotni qayta ishlaydi.Nevronlar o‘rtasidagi signallar chaqmoq tezligida harakatlanadi.Miyadagi plastiklik - ya’ni o‘rganish ca moslashish qobilyati - eng zamonaviy sun’iy intelik tizimlaridan ham ustun.

3. Yurak - doimiy va aniq ishlaydigan nasos

Yurak butun hayot davomida o‘zini to‘xtatmasdan ishlaydi.U har bir urishda kislarod va ozuqa moddalarini tananing har bir hujayrasiga yetqazadi.Uning avtomatik ritmi va o‘z o‘zini boshqarish tizimi biologiyaning eng ajoyib namunalaridan biridir.

4. Regeneratsiya va moslashuv

Tana o‘zini tiklay oladi: yaralar bitadi,suyaklar bitadi,hujayrakar yangilanadi.Bu xususiyat biologiyaning eng katta sirlaridan biridir.Shuningdek inson organizmi muhit o‘zgarishiga moslasha oladi-bu ham hayotning moslashuchanligiga dalolat

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedova, M.A. Umumiy biologiya. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2021.
2. To‘xtasinov, B. Inson fiziologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2018.
3. Raxmonov, S., Karimov, A. Tibbiy biologiya va genetika. – Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2019.
4. Nuritdinov, M.T. Umumiy nevrologiya asoslari. – Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2020.
5. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. Biologiya. (11-sinf darsligi). – Toshkent: O‘qituvchi, 2022.
6. Mavlonova, Z.R., Islomov, S.S. Hujayra biologiyasi asoslari. – Toshkent: Ipak yo‘li nashriyoti, 2017.
7. Alberts, B. et al. *Molecular Biology of the Cell.* 6th ed. – New York: Garland Science, 2015.
8. Guyton, A.C., Hall, J.E. *Textbook of Medical Physiology.* 13th ed. – Philadelphia: Elsevier, 2016.
9. Bear, M.F., Connors, B.W., Paradiso, M.A. *Neuroscience: Exploring the Brain.* 4th ed. – Philadelphia: Wolters Kluwer, 2020.
10. Tortora, G.J., Derrickson, B. *Principles of Anatomy and Physiology.* 15th ed. – Wiley, 2018.

GENDER YONDASHUVNING PEDAGOGIK BILIMLAR TIZIMIDAGI O’RNI VA AHAMIYATI

X.T.Yunusova
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahurat milliy instituti tayanch doktoranti
e-mail: Xolidayunusova124@gmail.com Tel: +99890 826-94-97

Annotatsiya mazkur tezisda gender yondashuvining pedagogik tizimda o‘rni va ahamiyati tahlil etilgan. Gender tengligini ta'minlash, ta'lim tizimida jinsga asoslangan farqlarni kamaytirish va

o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga yordam berish uchun pedagogik strategiyalar ishlab chiqish zarurati haqida so‘z yuritiladi. Gender yondashuvining ta'lim tizimiga integratsiyasi, faqat ayollar huquqlarini himoya qilishdan iborat bo‘lmay, balki erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tenglikni ta'minlash, jamiyatda ijtimoiy adolatni kuchaytirish va ta'limning sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Аннотации В данной статье анализируется роль и значимость гендерного подхода в педагогической системе. Рассматривается необходимость разработки педагогических стратегий для обеспечения гендерного равенства, сокращения различий на основе пола в образовательной системе и содействия личностному развитию учащихся. Интеграция гендерного подхода в систему образования не ограничивается только защитой прав женщин, но также направлена на обеспечение равенства между мужчинами и женщинами, укрепление социальной справедливости в обществе и повышение качества образования.

Abstract this article analyzes the role and importance of the gender approach in the educational system. It discusses the necessity of developing pedagogical strategies to ensure gender equality, reduce gender-based differences in the education system, and support students' personal development. The integration of the gender approach into the educational system is not limited to the protection of women’s rights but also aims to ensure equality between men and women, strengthen social justice in society, and improve the quality of education.

XX asrda yaqqol namoyon bo‘lgan muhim omillardan biri – bu jins omilidir. Buning sababi shundaki, butun o‘tgan tarix asosan erkaklar qarashlari, hayotni anglash va uni tashkil etish usullari asosida rivojlangan. Ayollar – ustidan erkaklar hukmronligi qadim zamonlarda vujudga kelgan va asrlar davomida saqlanib qolgan. Hayotning barcha sohalarida erkaklar va ayollar majburiyatlarining taqsimlanish shakllari tarixiy jarayonlarga ta’sir ko‘rsatgan. Shuning uchun inson hayotini tashkil etishning ijtimoiy qonunini nazariy jihatdan anglash ko‘pincha erkaklik tamoyilining barcha ijtimoiy mavjudot sohalaridagi ustunligi e’tirofi asosida amalga oshirilgan.

Natijada, ijtimoiy fanlarda jinsiy farqlanish tarixiy jarayonga ta’sir etuvchi omil sifatida ko‘rib chiqilmagan, chunki ayollik tamoyili iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotga sezilarli ta’sir ko‘rsatmagan deb hisoblangan. Aslida esa ayol omili ham “erkaklar tarixi”ning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan, chunki erkaklar o‘zlari ham bilmagan holda ayollar ehtiyoj va manfaatlarini inobatga olib harakat qilganlar.

Biroq pedagogika fanida insoniyat tarixini umumiy va jinsiy xususiyatlar nuqtayi nazaridan o‘rganishga jiddiy urinishlar qilinmagan. Tarixan tarbiya berish vazifasi qadimdan to hozirgi kungacha asosan ayollarga yuklatilgan. Pedagog erkaklar va ayollar fikrlari hamda baholaridagi farqlarni aniqlashga harakat qilganida, ularni izohlashda muammolar yuzaga keladi, chunki mavjud umumiy nazariya erkak va ayol ongining va xatti-harakatining subyektiv tafovutlarini to‘liq tushuntirib bera olmaydi.

Natijada, tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish jarayonida pedagog jins omilining boshqaruv qarorini qabul qilish texnologiyasiga ta’sir ko‘rsatishini faqatgina fakt sifatida qayd etishga majbur bo‘ladi, chunki aniqlangan farqlarni izohlab beradigan chuqurlashtirilgan nazariya mavjud emas.

Bundan tashqari, yana bir ziddiyat ham mavjud: umumiy nazariya bo‘lmagan holda, jinsning boshqaruv qarorini qabul qilish jarayoniga ta’sirini tushuntirib berishga qodir bo‘lmagan pedagog, amaliy harakatlarga oid tavsiyalar berishga urinadi – bu tavsiyalar jinslar o‘rtasidagi tadqiqot davomida aniqlangan farqlarni chuqurroq inobatga olish va ularni amalga oshirishga qaratilgan bo‘ladi. Mavjud boshqaruv nazariyalari esa bu vazifani to‘liq hal qilish imkonini bermaydi.

Ba’zi tadqiqotchilar erkaklar va ayollar o‘rtasidagi barcha tafovutlarni faqat psixologik xususiyatlar bilan izohlashga harakat qilishadi. Ular psixologik tadqiqotlar asosida nafaqat muayyan faktlarni tushuntirishga, balki turli jins vakillarining xatti-harakatlariga qanday ta’sir ko‘rsatish mumkinligini ko‘rsatishga intilishadi. Biroq jinsiy farqlarni faqat hissiyotlar va emotsiyalarning ifodasi bilan cheklab bo‘lmaydi. Ayol aqliy mehnatga yaroqsiz, dunyoni ratsional qabul qilish darajasi past degan qarashlar isbotlanmagan va bu boradagi urinishlar mutlaqo muvaffaqiyatsizlikka uchradi [1. 1991:B.143].

Shu sababli pedagogika doirasida jins omilini inson hayotiga ta’sir qiluvchi muhim determinant sifatida o‘rganishga qaratilgan gender konsepsiyasini ishlab chiqish zarurati yetilib keldi. Bu konsepsiyaning mohiyatini quyidagicha qisqacha ifodalash mumkin: jamiyat erkaklar va ayollar teng huquqliligiga asoslanadi, shu bois ta’lim va tarbiya tizimi jinsga qarab ajratishni nazarda tutmaydi. Biroq tarbiya jarayonida o‘g‘il bolalar va qiz bolalarga nisbatan xulq-atvor xususiyatlarida farqlar mavjud. O‘qitish metodikasi esa jinsiy xususiyatlarni hisobga olmaydi va asosan miya chap yarim shari faolroq bo‘lgan bolalarga yo‘naltirilgan [2.1998:B.117].

Tarixda erkaklik tamoyilining hukmronligi davrida jinsiy farqlarning ta’siri unchalik sezilmagan bo‘lsa-da, XX asrda ayollarning huquq va imkoniyatlari tenglashib borishi bilan jinsiy farqlarning davlatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotiga ta’siri tobora ortib bordi. Boshqaruv tizimining hududiy darajaga siljishi bilan bu ta’sir ta’lim boshqaruvi tizimida ham o‘z aksini topa boshladi. Shu sababli boshqaruv masalalarini yanada to‘liq va chuqur o‘rganish uchun boshqaruv qarorini qabul qilish texnologiyasiga kompleks yondashuvni ishlab chiqish zarurati tug‘ildi, bu yondashuvda jinsiy farqlar mohiyatan hal qiluvchi xususiyat sifatida e’tiborga olinishi kerak.

Bunday yondashuvga ehtiyoj gender tadqiqotlarining paydo bo‘lishi bilan anglab yetila boshlandi. Bizning mamlakatimizda gender tadqiqotlari faqatgina 1990-yillarning boshidan boshlab jadal rivojlana boshladi. “Gender”, “gender tadqiqotlari”, “gender munosabatlari” kabi atamalar bizga ingliz-amerika feministik harakatidan kirib kelgan. Gnoseologik (bilish nazariyasiga oid) jihatdan “gender” tushunchasi qadimgi yunoncha “genos” – ya’ni “kelib chiqish” so‘zidan olingan. Shu bilan birga, bu tushunchaning tarjimasi, kelib chiqishi va mazmuni bilan bog‘liq muammolar ham mavjud.

Gender tushunchasining paydo bo‘lish tarixi, uni izohlashdagi yondashuvlar feministik harakatlarning XIX asr o‘rtalaridan boshlab rivojlanishi bilan bog‘liq. Bu harakatlar ayollarning huquq va imkoniyatlariga erishish yo‘lidagi kurashlari natijasida kengayib bordi. An’anaviy, feministik bo‘lmagan konsepsiyalar esa insoniyat tarixini erkaklik tamoyilining ro‘yobga chiqishi sifatida talqin qiladi. Chunki tarixiy sharoitlarda ayollar o‘z ehtiyoj va qarashlarini mustaqil anglash, ifodalash, hayotda amalga oshirish imkoniyatiga ega emas edilar.

Bu holat faqat ayollarning siyosiy yoki tashkiliy imkoniyatlarga ega bo‘lmaganligida emas, balki ularning fikr va qarashlari erkaklar ideologiyasi asosida shakllanganida, ya’ni ular dunyoni, mehnatni, siyosiy va ma’naviy hayotni erkaklar madaniyati ko‘zi bilan ko‘rganliklarida edi. Ayollar o‘zlarining ijtimoiy o‘rinlarini, hayotdagi yo‘nalishlarini ustunlik qilgan erkaklar belgilagan yo‘nalishlar asosida anglaganlar. Ularning shaxsiy va ijtimoiy o‘zini ro‘yobga chiqarishi ham aynan erkaklar tomonidan ko‘rsatib berilgan mezonlarga asoslangan holda yuz bergan.

Shundan kelib chiqadiki, femistik nuqtai nazarning haqligini tan olish lozim: ya’ni, tarixga oid ilgari shakllangan tushunchalarni qayta ko‘rib chiqish zarur, chunki “erkaklik” va “ayollik” tamoyillarining o‘ziga xosligi jamiyat hayotida muayyan iz qoldirgan. Zamonaviy ijtimoiy hayotni esa faqat gender yondashuvi asosida to‘liq anglash mumkin.

Pedagogik tizimda gender yondashuvi rivojlana boshlagandan so‘ng, ta’limda tenglik va adolatni ta'minlashga bo‘lgan ehtiyoj kuchaygan. Aslida, genderni hisobga olish ta’limda shaxsiy ehtiyojlarga mos yondashuvni amalga oshirishga yordam beradi, bu esa o‘quvchilarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Birinchi bosqichda, genderni pedagogik jarayonda hisobga olish faqat ayollar huquqlariga asoslangan bo‘lsa, keyinchalik erkaklarning ham ijtimoiy holatini, rollarini va tenglikni ta’minlash masalalari ham muhokama qilindi.

XX asrning oxiridan boshlab gender yondashuvi ta’limda gender asosida kamsitish va stereotiplarga qarshi kurashishga yo‘naltirilgan. Pedagoglar o‘quvchilarning jinsiga qarab farq qilmasdan, ularga teng imkoniyatlar yaratish uchun turli pedagogik strategiyalar ishlab chiqdilar. Shu bilan birga, gender stereotiplarining o‘quvchilarning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan va bunday stereotiplarga qarshi kurashish uchun innovatsion metodlar va yondashuvlar ishlab chiqildi.

Gender yondashuvining ilmiy asoslarini shakllantirishda ko‘plab olimlar muhim hissa qo‘shdilar. Ulardan biri – Judith Butler, o‘zining *Gender Trouble: : Feminism and the Subversion of Identity* asarida genderni biologik emas, balki ijtimoiy va madaniy konstruksiyalarga asoslangan fenomen sifatida ta’riflab berdi. Butler genderni shunchaki ikkita jinsning (erkak va ayol) ijtimoiy va madaniy tarzda shakllangan roli sifatida ko‘rsatdi. U, shuningdek, genderning qat’iy va o‘zgarmas emasligini, balki o‘zgaruvchan va jamiyat tomonidan qurilganligini ta’kidladi [3. 1990:B. 94].

Shu bilan birga, feminist pedagogikasi va gender yondashuvi sohasida bir qator muhim ilmiy ishlar mavjud. Misol uchun, Bell Hooks, o‘zining *Teaching to Transgress* (1994) asarida, ta’limda gender tengligini ta’minlashni va o‘qituvchilarning ijtimoiy adolatni targ‘ib qilishini muhim vazifa sifatida belgilab o‘tdi. U o‘qitish jarayonida barcha jinslar uchun teng imkoniyatlar yaratish, gender stereotiplarini yo‘qotish va talabalarning o‘zaro hurmatini oshirish zarurligini ta’kidlagan [4. 1994:B.62].

Pedagogik yondashuvda genderni hisobga olish, birinchi navbatda, ta’lim jarayonida tenglikni ta’minlashga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqardi. Bunday strategiyalar o‘quvchilarning jinsiga qarab farqlanishlarni kamaytirishga, barcha o‘quvchilar uchun teng imkoniyatlarni yaratishga xizmat qiladi. Gender yondashuvining pedagogik strategiyalariga quyidagilar kiradi:

1. **Pedagogik metodlar va usullarni genderga moslashtirish:** Bu yondashuvda o‘qituvchilar o‘quvchilarning jinsiga qarab turli metodlar va usullardan foydalanadilar. Masalan, o‘g‘il bolalar va qizlar uchun o‘xshash faoliyatlar va mashqlar tashkil etilishi mumkin.
2. **O‘quvchilarga gender stereotiplari va kamsitishlarni tushuntirish:** Gender stereotiplari va kamsitishlarga qarshi kurashish uchun o‘quvchilarga ularning zararli ta’siri haqida tushuncha berish zarur.
3. **O‘quvchilarning jinsiga qarab rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish:** Bu yondashuv o‘quvchilarga jinsiga qarab qattiq cheklovlar qo‘yilmasdan, o‘zgacha qiziqishlar va qobiliyatlar rivojlanishiga imkoniyat yaratadi.

Gender yondashuvi ta’lim tizimida nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, uning pedagogik bilimlar tizimidagi o‘rni va ahamiyati tobora oshib bormoqda. Pedagogik jarayonda gender yondashuvining to‘liq tatbiqi ta'limning sifatini oshirish, o‘quvchilarga teng imkoniyatlar yaratish, va ularning shaxsiy rivojlanishlarini qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi. Jamiyatdagi gender tengligini ta’minlash, stereotiplarga qarshi kurashish va ijtimoiy adolatni ta'minlashga bo‘lgan ehtiyoj ta’lim tizimida jiddiy yondashuvni talab qiladi.

Pedagogik tizimda genderni hisobga olish, faqatgina ayollar huquqlarini himoya qilishni emas, balki erkaklar va ayollar o‘rtasida teng imkoniyatlarni yaratishni ham anglatadi. Bunday yondashuv, o‘quvchilarning jinsiga qarab farqlanishlarni kamaytirish, ularning shaxsiy qobiliyatlarini kengaytirish va umuman jamiyatda adolat va tenglikni ta’minlashga xizmat qiladi. O‘quvchilarga teng imkoniyatlar taqdim etish orqali ta’lim jarayonining samaradorligi oshadi, chunki har bir shaxsning salohiyati to‘liq namoyon bo‘lishi uchun sharoit yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Вейингер О. Пол и характер/ Пер. с нем. М.: Форум XIX- XX-XXI, 1991. 192 с.
2. Хризман Т.П., Еремеева В.Д. Мальчики и девочки - два разных мира. СПб.: Тускарора, 1998. 184 с.
3. Butler, J. (1990). *Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity.* Routledge, p. 142.
4. Hooks, B. (1994). *Teaching to Transgress: Education as the Practice of Freedom.* Routledge, p. 189.

“MEHROBDAN CHAYON” ROMANIDA RANGTASVIR VOSITALARINING SEMANTIK FUNKSIYALARI

M.T.Xabibullayeva
Namangan Davlat Texnika Universiteti tayanch doktorantura talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanida qo‘llangan rang ifodalarining badiiy, semantik va estetik funksiyalari tahlil qilinadi. Asarda ranglar orqali qahramonlarning ichki kechinmalari, ularning axloqiy-psixologik holati, muhit va davr ruhi, ijtimoiy muvozanatlar badiiy ifoda topgani ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: rangtasvir, semantika, badiiy obraz, oq rang, qora rang, psixologik tasvir, stilistika.

Kirish. Rang nomlari adabiy tilning badiiy-estetik vositalaridan biri bo‘lib, obrazlar tizimini boyitishda, muhitni jonlantirishda, ruhiy holatlarni ko‘rsatishda muhim rol o‘ynaydi. Rang ifodalari orqali yozuvchi real voqelikni yanada ta’sirchan ifodalaydi. Ayniqsa, realistik romanlarda rang tasvirlarining badiiy yuklamasi chuqur semantik qatlamlarga ega bo‘ladi. Abdulla Qodiriy o‘zining “Mehrobdan chayon” romanida zamon og‘irliklari, insoniy fojialar, ruhiy kechinmalar, ijtimoiy notenglikni badiiy tasvirlashda ranglar imkoniyatidan ustalik bilan foydalangan. Mazkur maqola aynan shu ranglar tizimi, ularning semantik yuklamasi, psixologik konnotatsiyasi va badiiy obraz yaratishdagi o‘rni nuqtai nazaridan o‘rganiladi.

Metodologiya. Tadqiqotda deskriptiv-lingvistik tahlil, semantik-pragmatik yondashuv, kontekstual tahlil va stilistik komponent tahlili usullari qo‘llanildi. Asarning matni tanlab o‘rganilib, undagi rang ifodalari kontekstda tahlil qilindi. Ranglar har bir sahna, obraz yoki muhitga nisbatan qanday semantik ma’no anglatishi aniqlab chiqildi. Misollar asosan matndan olingan, lingvopoetik yondashuv asosida tahlil etildi.

Natijalar. Adabiy matnda rangtasviri ko‘pincha badiiy ifodaning tarkibiy qismi sifatida qo‘llanadi. Badiiy ifoda — bu so‘zlarning odatiy, lug‘aviy ma’nosidan og‘ish orqali maxsus badiiy ta’sir yaratishga qaratilgan ifoda vositalari majmui bo‘lib, Yeibo uni “oddiy nutqdan sezilarli darajada chekinish” sifatida ta’riflaydi va bunday og‘ishning maqsadi o‘quvchini yangi estetik idrokka jalb qilish ekanini ta’kidlaydi. Rang ifodalari esa ushbu og‘ishning eng yorqin namunasidir. Masalan, oq rang poklik va ezgulikni, qora rang zulmat va fojeani, qizil rang ehtiros yoki xavfni ifodalash orqali matnning hissiy kuchini oshiradi.

Asarda rang nomlari 60 dan ortiq kontekstda uchraydi. Ularning ko‘pchiligi bevosita badiiy obrazlarga, ruhiy holatga yoki ijtimoiy muhitga taalluqli bo‘lib, semantik va estetik yuklama kasb etadi. Quyidagi asosiy tendensiyalar aniqlangan:

Oq rang – poklik, begunohlik, soflik belgisi:

“Sadoqat oq libosda, mo‘minalardek ro‘y-rost yurardi.”

Bu jumlada oq rang sadoqat, iffat va axloqiy yuksaklik ramzi sifatida ishlatilgan. Oq rangda tasvirlangan obrazlar odatda ijobiy baholanadi. Romandagi ayol obrazlari, ayniqsa Halima, ko‘pincha oq tasvirlar bilan bog‘langan.

Qora rang – fojia, zulmat va salbiy kuchlar ramzi

“Qora ro‘molini yuziga tortib, jimgina chiqib ketdi…”

Qora rang fojiali holatlar, salbiy qahramonlar va diniy qat’iylik bilan bog‘liq obrazlarda tez-tez qo‘llanadi. Romanda diniy muhit, mudarrislar va mutaassiblar qiyofasida qora tasvirlar salbiy konnotatsiyada ishlatiladi. Yashil rang – tabiat, umid, yangilanish belgisi

“Bog‘lar yana yashil yaproqlarga burkandi, go‘yo umr qaytmoqda edi.”

Yashil rang asosan bahor, yangilanish va umid ramzi sifatida qo‘llanadi. Bu rang muhitni tasvirlashda ijobiy konnotatsiyani ifodalaydi. Qizil rang – ehtiros, xavf va ichki to‘qnashuv belgisi

“Qizil yelpig‘ich bilan yuzini bekitgan ayol uning xotirasida bir umrga muhrlanib qolgan edi.” Bu yerda qizil rang nafaqat tashqi ko‘rinish, balki ichki ehtiros va xavf timsoli sifatida ishlatiladi. Qizil rang bu asarda kam uchrasa-da, chuqur semantik ma’no kasb etgan.

Sariq rang – zaiflik, tushkunlik, kuchsiz holat belgisi

“Sariq yuzida charchoq, yuragida g‘am…”

Sariq rang bu yerda hayotiy kuchning so‘nishi, charchoq va ma’yuslik holatini anglatadi. Ruhiy tushkunlik sahnalarida ushbu rang dominant tusda qo‘llaniladi.

Munozara. Qodiriyning ranglarga yondashuvi bevosita xalq tafakkuri, diniy dunyoqarash va individual estetik qarashlar bilan bog‘liq. Uning yozuvida ranglar realistik ko‘rinish kasb etadi, lekin ularning badiiy yuklamasi har doim chuqur semantik ma’no bilan boyitilgan.

Ranglar – obraz ifodasining vositasi. Qodiriy badiiy obrazlar yaratishda ranglardan faol foydalanadi. Oq rangda ko‘rinuvchi ayollar obrazlari iffatli, mehrli va halol bo‘lsa, qora rangli obrazlar ko‘pincha salbiy xarakterda ko‘rsatiladi.

Ranglar – ruhiy holat timsoli. Ko‘pchilik sahnalarda ranglar inson ruhiyatidagi keskinlik, iztirob yoki ichki qarama-qarshilikni ifodalovchi vositaga aylanadi. Ayniqsa, Halimaning hayoti dramatik sahnalarda oq va sariq ranglar ustuvorlik qiladi, bu esa uning ruhiy halovatsizligidan darak beradi.

Ranglar – davr muhitining ko‘zgusi. Ranglar orqali yozuvchi davr muhitini, jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanishni ham ko‘rsatadi. Kambag‘allik va kamsitilganlik sariq-yashil tuslar bilan berilsa, ma’naviy zulmat qora rang orqali ifodalanadi.

Xulosa. “Mehrobdan chayon” romanida rangtasvir vositalari muhim badiiy-estetik va semantik funksiyalarga ega. Ular nafaqat tashqi tasvir vazifasini bajaradi, balki obrazlarning ichki kechinmalari, jamiyatdagi ijtimoiy notenglik, ruhiy dramatizmni chuqur ochib beradi. Qodiriyning ranglarga yondashuvi xalq estetikasi va diniy ramziylik bilan uyg‘unlashgan holda, badiiy matnning semantik qatlamini boyitadi.

Bunday yondashuv o‘zbek adabiyotida badiiy uslubning taraqqiyotiga xizmat qilgan bo‘lib, zamonaviy lingvopoetik tahlil uchun ham boy ilmiy manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. – Toshkent: G‘afur G‘ulom NMIU, 2019.
2. G‘ofurova M. Adabiy matnda rang nomlarining stilistik xususiyatlari. – Toshkent, 2017.
3. Omonov Sh. Badiiy asarda rang vositalari. – Toshkent: Fan, 2005.
4. Karimov M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
5. Lotman Yu.M. Iskusstvo kak model mira. – Moskva: Iskusstvo, 1992.
6. Stylistics and Semantics in Literary Language. – Oxford University Press, 2015.

ALISHER NAVOIY IJODI VA TILIMIZNING RIVOJI

M.U.Nabijonova
Namdpi,2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada turkiy tilimiz va adabiyotimizning tengsiz yalovbardori bo‘lgan Alisher Navoiyning xalqimiz ma’naviyati rivojidagi ulkan xizmati, xususan, turkiy tilimizni va uning cheksiz imkoniyatlarini jahon miqyosiga olib chiqqanligi yoritiladi, o‘rganiladi.

Аннотация: В этой статье Алишер Навои, являющийся несравненным сторонником нашего турецкого языка и литературы, внес большой вклад в развитие духовности нашего народа, в частности, то, что он принес наш турецкий язык и его неограниченную возможности на мировом уровне.

Annotation: In this article, Alisher Navoi, who is an incomparable supporter of our Turkish language and literature, has made a great contribution to the development of the spirituality of our people, in particular, the fact that he brought our Turkish language and its unlimited possibilities to the world level.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, so‘z san’ati, beqiyos ijod.
Ключевые слова: Алишер Навои, искусство слова, несравненное творчество.
Keywords: Alisher Navoi, word art, incomparable creativity.

Har bir xalq va millat tarixida shunday buyuk shaxslar bo‘ladiki, ular o‘zining favqulodda ulkan salohiyati, yurtparvarligi, ona-vataniga fidoyiligi va sadoqati bilan, el-yurtiga qilgan yuksak xizmati bilan katta shuhrat qozonadi va xalqining faxr-u g‘ururiga aylanadi. Hech shubhasiz, Alisher Navoiy ana shunday ulug‘ siymolarimizdan biri edi. “Uning nomi bilan o‘zbek degan nom tarixga birga bitilgan” (Abdulla Oripov). Darhaqiqat, Alisher Navoiy ijodi shunday bir ummonki, unda inson hayoti va ma’naviyatining deyarli barcha qirralari va muammolari yuksak poetik mahorat bilan aks ettirilgan desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Turkiy tilimizda ilk bor yaratilib, jahon adabiyotining yuksak cho‘qqilarini zabt etgan besh mustaqil dostonni o‘z ichiga olgan “Xamsa” va “Xazoyin ul-maoniy”dek shoh asarlar chuqur bir tarixiy haqiqatni ifodalashi bilan ham qimmatlidir. Navoiy yashagan davrda turkiy tilimiz nohaq kamsitilib, “Bu – nafosatdan yiroq, qashshoq til, unda go‘zal va ma’nodor she’r bitib bo‘lmaydi” kabi g‘arazli, tahqiromuz qarashlar ancha keng yoyilgan edi. Navoiyning Mavlono Lutfiy, Said Ardasher va Jomiydek ustozlarining yuksak e’tirof-u tahsiniga sazovor bo‘lgan va ijod ahlini hayratga solgan ash’or va dostonlari bu iddaolar asossizligi va tilimizning naqadar boy, serjilo-ohangdorligini isbotlab berganligi uning chinakam vatanparvar va millatparvar ijodkor sifatidagi buyuk bir xizmati edi. Mumtoz adabiyotimizni dunyo miqyosiga olib chiqishda va o‘zbek tilimizning sehr-u jozibasi va cheksiz imkoniyatlarini namoyon etishda Alisher Navoiyning xizmatlari beqiyos va eng yuksak e’tiroflarga loyiqdir.

Jahon adabiyoti tarixidan ma’lumki, ulug‘ adib va mutafakkirlar hamisha o‘z milliy tilining ravnaqi va istiqboli uchun faol kurashganlar. Bu jihatdan Alisher Navoiy ijodi va faoliyati barcha avlodlarga yuksak namuna. “Muhokamat ul lug‘atayn” asarida bu muhim muammo xususida shunday yozadi: “Xalq orasidan chiqqan iste’dod ahli salohiyat va qobiliyatlarini o‘z tillari turganda o‘zga til bilan zohir qilmasalar va ishga solmasalar edi. Agar ikkala tilda ijod etish qobiliyatlari bo‘lsa, o‘z tillarida ko‘proq yozsalar edi”. Navoiy haqiqiy millatparvar mutafakkir-shoir sifatida o‘zbek tili va adabiyotimizning nechog‘lik boy, rang barangligi va cheksiz imkoniyatlarini butun ijodi va serqirra faoliyati bilan isbotlab, uning nufuzini jahon miqyosi darajasiga ko‘tardi. Har bir xalqning o‘zligini namoyon etuvchi milliy va umuminsoniy qadriyatlari bo‘ladi. Tiriklik uchun toza havo bilan quyosh nuri va non-u suv qanchalik hayotiy zarurat bo‘lsa, millatning yashashi va ravnaq topishini ham ona tilisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Tog‘ cho‘qqilarining yuksakligi olisdan qaralganda, yaqqolroq ko‘rinadi. Bu tashbehni 30 yil muqaddam o‘zbek tilimizga Davlat tili maqomi berish to‘g‘risidagi tarixiy Qonunga nisbatan ham qo‘llash mumkin. Mustaqilligimiz sharofati bilan yaratilgan keng huquq va imkoniyatlar natijasida o‘zbek tilining milliy o‘ziga xosligi va uning tarixiy ildizlari chuqur va manbalari boy ekanligi yanada yaqqolroq namoyon bo‘lmoqda. Lekin ba’zan tilimizni sof turkiycha qilamiz deb hammaga tushunarli bo‘lgan baynalmilal-internatsional so‘zlarni ham o‘zbekchalashtirishga urinish hollari ham bo‘lyapti. Masalan, samolyot so‘zi o‘rniga “tayyora”, aeroport o‘rniga “tayyoragoh”, institut o‘rniga “oliygoh”, transport so‘zi o‘rniga “naqliyot”, tuman yo rayon o‘rniga “nohiya” kabi ishlatilishi ham, talaffuzi ham og‘ir so‘zlarni qo‘llash holatlari uchraydi. Buning o‘rniga tilimizning asl boyliklarini ko‘proq o‘rganish muhim. Ayniqsa, Navoiy, Bobur, Mashrab kabi mutafakkir-shoirlarimiz va Qodiriy, Cho‘lpon, G‘.G‘ulom, Oybek, H.Olimjon,

A.Qahhor va Mirtemir singari ulug‘ adiblarimizning rang 362 barang tili, xalqchil va serjilo uslubini chuqur o‘rganish ma’naviyatimizni ham, nutq va tafakkurimizni ham behad boyitadi.

Abdulla Qodiriy va Abdulla Qahhor kabi ulug‘ adiblar xalq tilini o‘rganishni hamisha yozuvchining asosiy vazifasi deb qaragan. Binobarin, bu jihatdan ham ular hozirgi ijodkor yoshlar oldida e’zozli bir ustoz bo‘lib gavdalanadi. Negaki u umrining oxiriga qadar ijod qilishdan to‘xtamagandek, tilni o‘rganishni ham hamisha yozuvchilik mehnatining ajralmas bir qismi deb bilganlar. Chunonchi, Abdulla Qahhor 1967-yili «Вопросы литературы» jurnali savollariga javob berar ekan, jumladan, quyidagilarni aytgan edi: “Agar yozuvchi toza vijdonli bo‘lsa, uning uchun asar yozish yil sayin qiyinlashib boradi. Yozuvchi hech qachon “Men yozishni yaxshi o‘rganib oldim” deb, o‘zini xotirjam qilmasligi kerak”. Bu so‘zlar yosh ijodkorlarni o‘zlariga talabchanlikni oshirishga va badiiy til sirlarini egallash yo‘lida doimiy izlanishga undovchi ezgu bir da’vatdir. Qalbida istiqlol yolqini so‘nmagan Abdulla Qahhor ona tilimizning matonatli jonkuyarlaridan edi. Ibratli bir holat: Abdulla Qahhorning adabiyot va tanqidchilik yohud yoshlar ma’naviyati va madaniyatiga bag‘ishlangan bironta nutq yo maqolasi yo‘qki, unda adabiy tilimizning beqiyos boyligi va imkoniyatlaridan faxrlanib yozmagan yohud uning jiddiy muammolaridan tashvishlanib, keskin fikrlar aytmagan bo‘lsin. Mana, Abdulla Qahhorning 60 yillar muqaddam hozirgi Jahon tillari universiteti talabalari bilan uchrashuvdagi nutqidan bir parcha: “Sizlar institutni bitirgandan keyin joylarga borib o‘quvchilarga ingliz, nemis, fransuz, ispan tillarini o‘rgatasizlar. Mening sizlarga aytadigan eng zarur gapim shuki, sizlar boradigan joylaringga chet tillar bilan birga birinchi navbatda o‘z ona tilimiz – o‘zbek tiliga cheksiz muhabbat tuyg‘usini olib boringlar! O‘zbek tili – g‘oyat boy, nihoyat chiroyli, har qanday fikr va tuyg‘uni ifodalashga qodir ekanini amalda ko‘rsatinglar; qayerda va qanday sharoitda ishlamanglar, til madaniyatimizning mash’ali bo‘linglar!” Bu so‘zlar zamiridagi hayotiy ma’no, ezgu maqsad va tilak mustaqil O‘zbekistonimizning kelajagi bo‘lmish bugungi yoshlarimiz uchun hayotiy bir dasturilamal bo‘lishi bilan birga, ayni vaqtda, ular buyuk Navoiyning shoirlarimiz o‘z ona tili – “turkiyda ko‘prak yozsalar edi” degan asriy orzusi ham, eng avvalo, millatimizning ma’naviy ehtiyoji va kamoloti bilan bog‘liq ekanligini anglashga yordam beradi. Adabiyotimiz va tilimizning “sergak va jasur posboni” bo‘lgan Abdulla Qahhor ham jonajon yurtimiz va xalqimizning farovon hayoti va yorqin kelajagini, betakror milliy madaniyatimiz va adabiyotimiz taraqqiyotini boy va go‘zal ona tilimizdan ayro tasavvur etolmas edi. A.Qahhorning umri so‘nggida yozgan fikrlari ham bu muammoning nechog‘lik muhim ekanligidan guvohlik berib turadi: “Adabiyot – bu til! Men shu vaqtga qadar biror yozuvchining tilsiz, imo-ishoralar bilan badiiy asar yaratganini eshitganim yo‘q. Agar mendan “Siz uchun til badiiy ijodning boshqa muammolari orasida qanday o‘rin tutadi?” – deb so‘rashsa, men javob berishga qiynalaman. “Asosiy o‘rinni”, – deyishdan boshqa so‘zim yo‘q”. Bu so‘zlarda yozuvchi hamisha qat’iy amal qilgan muqaddas e’tiqod va ishonch mujassam. Endilikda ularni Abdulla Qahhordek buyuk adibning barcha ilm va ijod ahliga qoldirgan ezgu bir vasiyati sifatida ham xotirlash va qadrlash adolatdan bo‘ladi. Darhaqiqat, mashhur adib va mutafakkirlar yakdillik bilan badiiy adabiyotni “so‘z san’ati” deb ta’riflashadi. Barcha ulug‘ adiblar badiiy asar tiliga va undagi har bir so‘z va iboraga alohida e’tibor bilan qarashgan. Asrlar davomida rivojlanib davom etib kelgan bu an’ana badiiy ijodning muqaddas bir qonuniyatiga aylangan desak, yanglishmagan bo‘lamiz. O‘zbek tilimiz ravnaqi yo‘lida ulug‘ adiblarimizning jonbozligi ham ibratlidir. Ayniqsa, Alisher Navoiyning turkiy tilimiz haqida ham ilmiy, ham ijodiy faoliyati bilan izchil kurashganligi va XV asrdayoq o‘zbek tilimizning boyligi va cheksiz imkoniyatlarini tengsiz asarlari bilan namoyon eta olganligi tarixiy haqiqatdir. Navoiyning hajman kichik she’rlaridan “Xamsa”sigacha, turli anjuman, bahs-munozaralardagi fikrlaridan tortib, tanqid-adabiyotshunoslik sohasidagi yirik asarlarigacha – barchasida so‘z ta’rifi asosiy o‘rin tutadi. Adabiyotshunoslar ta’kidlaganlaridek, Navoiy so‘zda ilohiy bir qudrat, mo‘jizakor sehr ko‘radi. Ya’ni so‘zda muqaddas hadislar kabi beqiyos ulug‘vorlik, hayotiy hikmat mujassamlashgan:

So‘z guhariga erur oncha sharaf,
Kim bo‘la olmas anga gavhar sadaf.

Navoiyning so‘z haqidagi bunday g‘ayrioddiy qarashlarini badiiy adabiyotga, she’riyatga nisbatan bergan ta’riflari deb ham tushunsak, xato bo‘lmaydi. Buyuk shoirning **“Insonni so‘z ayladi judo hayvondin”** degan misralarida ifodalangan ulkan haqiqat Navoiyning til borasidagi butun faoliyatiga tayanch nuqta bo‘lib xizmat qiladi. Yuksak umuminsoniy va islomiy ma’rifat bilan yo‘g‘rilgan bu shior Navoiy zamonasida ham va bugun ham barcha shoir va yozuvchilar uchun o‘ziga xos bir dasturulamal bo‘la oladi. Alisher Navoiyning

“Ul kishi so‘z bahrida g‘avvos erur,

Kim guhari ma’ni anga xos erur” degan birgina bayti ham badiiy so‘zning qanchalar muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Bugungi kunda Navoiy merosini o‘rganishga bo‘lgan intilish va qiziqish nafaqat yurtimizda, balki ko‘plab xorijiy mamlakatlarda, ayniqsa, turkiy xalqlar o‘rtasida behad ortganligi har bir vatandoshimizga faxr-iftixor bag‘ishlaydi. Alisher Navoiyning yuksak dunyoqarashi aks etgan durdona hikmatlaridan biri shunday: “Har ishniki qilmish odamizod, Tafakkur birla bilmish odamizod”. Ushbu misralarda mutafakkir til va tafakkurning bir-biriga qanchalar uzviy bog‘liqligini juda chiroyli tarzda ifodalab bergan. Bu jihatdan O‘zbekiston Qahramoni shoir Erkin Vohidovning quyidagi teran mushohadalarida Navoiy 364 qarashlari bilan hamohanglik va mushtaraklik yaqqol ko‘zga tashlanadi: “Xoliqi olam odamzodga idrok va so‘z aytish ne’matini berib, uni barcha xilqatlaridan ustun yaratdi. Olamni idrok qilgan inson So‘zni idrok qiladi. So‘zni idrok qilib, olamni yanada teranroq idrok qiladi. So‘zning ildiziga yetgan kishi dunyoning tagiga yetgandek bahra topadi. Insoniyat tarixi so‘zlar qismatida yashirinib yotar ekan”, – deydi “So‘z latofati” nomli kitobida. Haqiqatan ham, til, millat, insoniyat tushunchalari jamiyat ma’naviy hayotining va har bir kishining bu olamdagi mavqeyini belgilovchi asosiy mezonlar bo‘lib sanaladi. Keyingi paytlarda tilimiz barcha sohada, ya’ni ijtimoiy-siyosiy va huquqiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy jabhalarda juda faol qo‘llanilyapti. Xalqaro minbarlarda baralla yangrayapti. Xorijiy davlatlarda tilimizga bo‘lgan qiziqish kundan kunga oshib bormoqda. Milliy til va uning ravnaqi yo‘lida g‘amxo‘rlik qilish – bu bir guruh mutaxassislargagina tegishli bo‘lgan ilmiy-amaliy soha yoki mavsumiy bir tadbir emas. Aksincha, bu necha avlodlardan avlodlarga o‘tib, boyib va sayqallanib kelayotgan xalq tilining sofligi va istiqboli haqida qayg‘urish o‘sha tilning to‘laqonli yashash huquqi uchun kurash bo‘lishi bilan birga butun bir millat ma’naviyati uchun, uning ma’rifati va madaniyati uchun ham kurashdir. O‘zbek tilimizni rivojlantirish, o‘rganish va targ‘ib qilish borasida yangi bosqich boshlandi. Ayniqsa, 2019-yil 21-oktyabrda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni e’lon qilinishi jamiyat va xalqimiz ma’naviy hayotida ulkan voqea bo‘ldi, deyish mumkin. Yillar o‘tgan sayin bu tarixiy qarorning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy va tarbiyaviy-estetik ahamiyati yanada ko‘proq va yaqqolroq namoyon bo‘laveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алишер Навоий. Хамса. – Тошкент. 1960. 35-б.
2. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. – Т. 14-30-б.
3. Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. 6-т. – Тошкент.1971. 364-б.
4.https://uzinterbiz.com – “O‘simlik xosiyatlari: Tabiat o‘simliklarinining foyda va zararlari”; Umidjon, O.(2022)

O‘ZBEK VA QORAQALPOQ SHE’RIYATIDA VATAN MAVZUSINING BADIIY TALQINI (Sirojiddin Sayyid va Baxtiyor Genjemurod she’riyati misolida)

Ch.I.Karimboyeva
Qoraqalpoq davlat universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada atoqli o‘zbek shoiri Sirojiddin Sayyid hamda qoraqalpoq xalqining ardoqli shoiri Baxtiyor Genjemurod ijodida vatan mavzusining badiiy talqini haqida so‘z yuritilgan. Ikki shoir qalamiga mansub she’rlarda vatan mavzusi talqinidagi mushtaraklik va o‘ziga xoslik tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. O‘zbek she’riyati, qoraqalpoq adabiyoti, Vatan, ijod, ruhiyat, tarix, xotira, badiiyat, lirik qahramon.

Аннотация. В данной статье рассматривается художественная интерпретация темы Родины в творчестве известного узбекского поэта Сирожиддина Сайида и заслуженного поэта каракалпакского народа Бахтиёра Генджемурода. Анализируются общность и своеобразие трактовки темы Родины в стихотворениях двух поэтов.

Ключевые слова: узбекская поэзия, каракалпакская литература, Родина, творчество, духовность, история, память, искусство, лирический герой.

Annotation. This article discusses the artistic interpretation of the theme of the homeland in the works of the famous Uzbek poet Sirojiddin Sayyid and the honored poet of the Karakalpak people Bakhtiyor Genjemurod. The commonality and uniqueness in the interpretation of the theme of the homeland in the poems written by the two poets are analyzed.

Key words. Uzbek poetry, Karakalpak literature, Homeland, creativity, spirituality, history, memory, art, lyrical hero..

Inson yuragi ham bir olam. Uning ham bahor va kuzlari, tong va tunlari, orom va zilzilalari bor. She’riyat yurak sadosi bo‘lganidan ana shu murakkab tuyg‘ular olamini ifoda qiladi. Shuning uchun ham bir she’rni o‘qib quvonsak, ko‘ksimiz surur va iftixor tuyg‘ulariga to‘lsa, ikkinchi bir she’rni o‘qib xayolga tushamiz, inson dardlariga oshno bo‘lamiz. Shoirlik o‘sha tuyg‘ularning tabiiyligi va haqqoniyligiga she’rxonni ishontira olishdir. Ishontira olish qobiliyati iste’dodning ibtidosidir deya ta’kidlaydi istedodli shoir Erkin Vohidov. Haqiqatdan ham she’riyat o’qib his qilinishi lozim bo’lgan, serjilo so’zlar majmui, uni tushunish uchun insonga qalb lozim nazarimda. She’riyat muxlislari avvalo o’z kayfiyatiga ko’ra turli mavzularda she’rlar o’qiydi. Butun she’rxonlar uchun birdek his qilinadigan va uni shirin xotiralar qariga tortadigan birgina mavzu bor bu ham Vatan mavzusi. Ushbu mavzuda yozilgan lirik satrlarni o’qib zavqlanmaydigan insonni uchratish qiyin. Xuddi shuningdek har bir ijodkor qismati Vatan taqdiri bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Qaysi mavzuda yozmasin, asarlarining qon tomirida Vatan va Millatga muhabbat tuyg‘usi jo‘sh urib turishini kuzatamiz. Ona yurtining yuksalishini ko‘rish – uning uchun quvonch manbai vazifasini o‘taydi. Tuqqan elining kamoli – umr mazmuni sifatida anglaydi. Bu havaslardan farqli o‘laroq chin shoir bu tuyg‘uni suviste’mol qilmaydi. So‘z gavharini toshga urmaydi. Uni qalb qo‘rida asraydi. Vatan – uning uchun jon va tan. Millat – or-nomus va sha’n. Tabiat go‘zalligini kuylasa, bu tuyg‘u yo‘ldosh. Orzu-armonini nazm etsa, shu tuyg‘u – sirdosh. Ona zamin uning uchun yurakdagi oh. Ko‘ngli mudom el dardiga dilxoh. O‘zbekiston Xalq shoiri Sirojiddin Sayyid ana shunday ijodkorlardan. Shoirning Vatan haqidagi she’rlarini mutoala qilar ekanmiz, unda faqat Vatan sarhadlarini kuylash emas, balki shu ulug‘ maskan uchun jonlarini fido qilgan buyuk ajdodlarimiz, hatto asarlari bilan vatanimizni dunyoga tanitgan allomalar madhi yoki Vatan tinchligi uchun har bir jon birday mas’ulligi go‘zal tashbehlar orqali she’riyat muxlisini o‘ziga sehrlaydi.

Shayx ul-Kubrolarga aylabon ta’zim,
Amudaryolari abadiy azim.
Mangu matonatning o‘lmas timsoli,
Manguberdilari mangu Xorazm.
Vatan deb qo‘zg‘algan, ey pok iymonim,
Qadim qo‘rgonimsan, buyuk Turonim. [3.2021:B.14]

Misralari o‘quvchi qalbida vatanparvarlik tuyg‘usiga kuch bera oladi. Sirojiddin Sayyidning “Turonzamin” she’ri lirik qahramoni ruhiy dunyosi suratlari bilan tanishgan har qanday inson yuragida tug‘ilgan yurti va yurtdoshlariga nisbatan mehr tuyg‘ularining uyg‘onmasligi mumkin emas. Chunki unda millat qonidagi tarixan qarindoshlikning nozik qirralari badiiy kashf etiladiki, bu xalq tarixining yorqin afsonalaridagi qahramonlar va ularning kurashlari tarixi bilan bog‘lab tasvirlanadi. Mana shu tarix kaftida zamonni qo‘yib, ularni bir-biriga mantiqan qiyoslagan shoir buguni uchun nihoyatda zarur xulosalarni ilgari suradi. Vatanning, xalqning bugun va tarixda o‘tgan qahramonlardek elsevar, erksevar farzandlari bo‘lishini istaydi. Ularning esa Vatan taqdiri, xalq qismati uchun kurashda Kubro, Manguberdi, Alpomishday bo‘lishni, hech bo‘lmasa, Navoiyday o‘z so‘zini dunyoga dadil aytishni orzu qiladi va shunga chorlaydi. Bu lirik qahramonning umidlari, isyonkor tuyg‘ulari tasvirda ochiq namoyon bo‘ladi.

Seni men xaslaringdan, saslaringdan o‘rganib o‘sdim,
Chinorlarday sabog‘ing, darslaringdan o‘rganib o‘sdim,
Beshikdan men sening hikmatlaringga burkanib o‘sdim,
Dilimda Yassaviylar, Termiziylar yoqdilar shamlar.[3.2005:B.41]

“Vatanni sevish kerak! Vatanni sevgan odam xato qilishi mumkin, lekin hech qachon xiyonat qilmaydi!..”[2.2021:B.123] shoir ushbu jumlalarni yozganda naqadar haqli edi. Haqiqatdan ham shunday. Shoirning “Bag‘ishlov” she’ri lirik qahramoni tug‘ilgan zaminga bo‘lgan mehrini uning go‘zalligini, qudrati, sahovati ta’rifi zamirida ifoda etadi. She’r lirik qahramon qalbida muqaddas ona tuproqqa mehr tuyg‘usi nihoyatda baland. Uning bog‘lari, tog‘lari, o‘t-olanlari, dala-yu qirlari shaydosi. U odamlar bilan muloqatda, ularning ko‘nglini, so‘zlarini tinglaydi, ruhiyatiga, tafakkuriga boylik oladi; allalarga, ertaklarga quloq tutadi. So‘nggi misrada o‘zbekning butun ma’naviy boyligi, tarixlar bag‘rini nurlantirgan buyuk siymolarini shoir qalbini va bosayotgan yo‘lini yoritgan shamga megzaydi.

Qoraqalpoq xalqining ardoqli shoiri Baxtiyor Genjemurodning “Bul – biziń Taxtakòpir, ol – biziń taxta!” she’rida ham Vatan madhi o‘ziga xos uslubda tarannum etilganligining guvohi bo‘lamiz. Shoir Qoraqalpoq adabiyoti bilan birga qoralpoq xalqini, uning turmush-tarzini, madaniyatni dunyoga tanitgan

Berdaq shoir bilan faxrlanish, Vatan jamolini tasvirlashda unga teng kelmaydigan Abbaz shoir bilan maqtanish hissi, yurt ozodligi uchun Xiva xonligiga qarshi qo‘rqmasdan bosh ko‘targan qoraqalpoqning bahodiri Aydos biyning jasurligini shoir uslubiga xos lo‘ndalik orqali, o‘tmishning og‘riqli sahnalarini tasvirlaydi.

Bunda nàpesi bar Berdaq babamnıń,
Bunda qamshı basqan Aydos biy atqa.
Jırlaĝan Abbaz shayır Watan jamalın,
Bul- biziń Taxtakòpir, ol – biziń taxta! [1.2025:B.34]

Har bir inson uchun tug‘ilgan yurti aziz va muqaddasdir. U xoh bog‘-u rog‘li go‘zal maskanda tug‘iladimi, xoh poyoni yo‘q sahroda yashaydimi o‘z kindik qoni tomgan zamin uning uchun aziz va suyukdir. Vatanparvarlik tuyg‘usining insonlarga ma’naviy ta’siri shunchalar qudratli bo‘ladiki, har bir inson, tirik jon ona va Vatan tuyg‘usini bir-biriga uyg‘unlashtirib, muqaddaslashtirib, har nafasda ularga singib yashaydi. Lirik qahramon uchun ham shunday. Quyidagi lirik satrlariga e’tibor qaratsak, birinchi satrda iztirob ohanggi sezilsa, keyingi satrlarda shoir ruhiyatida quvonch, faxr hissi, g‘urur, fidoyilik ramziga aylangan. Misralardagi “bul shól” obrazi misradan-misraga o‘sib, jonlanib, hayotga to‘lib boradi, nihoyat, u she’rning oxirgi satrida lirik qahramon, ya’ni shoirning ruhiy olamini, dunyoqarashini, uning shaxs sifatida yuksak ma’naviy-ma’rifiy qiyofasini ham belgilaydi.

Meniń tàĝdirime jazılĝan - bul shól.
Gúl bolıp qàlbimde ashılĝan - bul shól.
Bul shòl - anam meniń, altın besigim,
Maĝan altın làhàt, qazılĝan - bul shól[1.2025:B.86]

Umuman olganda, Sirojiddin Sayyid va Baxtiyar Genjemurod she’riyati orqali Vatan obrazining shoir ruhiyatidagi talqini chuqur mazmunga ega ekani ayon bo‘ladi. Shoirlar ijodida Vatanga muhabbat, milliy g‘urur, tarixiy xotira va ruhiy iztiroblar bir-birini to‘ldirib, mukammal poetik manzara yaratadi.

Har ikkala shoir ruhiyatida Vatan obrazi real manzara va ichki kechinmalarning uyg‘unligida gavdalanadi. S.Sayyid ijodida go‘zal maskanlardan faxrlanish, Vatan uchun jon bergan ajdodlarimizdan g‘ururlanish, o‘tmish og‘riqlari va go‘zalliklari badiiy ifoda topgan bo‘lsa, B.Genjemurod she’riyatida buyuklar yodi, Qoraqalpoq sahrolari, tarixiy xotira xalq taqdirining ramziga aylanadi. Ikkala shoirda ham Vatan obrazlari orqali insonning ichki olami, ruhiy ziddiyatlari va umumbashariy his-tuyg‘ular poetik shaklda ochiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Genjemuratov B. “Abirji”. Nukus 2025
2. Sayyid S. Eldoshlarim, dildoshlarim. 2021
3. Sayyid S. Qaldirg‘ochlarga ber ayvonlaringni. Toshkent: Sharq nashryoti 2005.

XALQARO TILLAR VA O‘ZBEK TILINING KOMMUNIKATIV KESISHUVI: SO‘Z O‘ZLASHUVI VA MADANIY TAFOVUTLAR TAHLILI

A.A.Anvarjonov
Toshket iqtisodiyot va pedagogika universiteti O‘zbek tili va adabiyot ta’lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi
anvarjonovadaxamjon@gmail.com

Annotatsiya. Bugungi globallashuv davrida xalqaro tillarning o‘zbek tiliga ta’siri kundan kunga kuchayib bormoqda. Internet, ommaviy axborot vositalari, ta’lim va ish muhitida bu tillar bilan yaqin muloqotga kirishish natijasida o‘zbek tilida so‘z o‘zlashuvi, kod almashinuvi va madaniy tafovutlar kabi jarayonlar yuzaga kelmoqda. Ushbu o‘zgarishlar tilning kommunikativ vazifasigagina emas, balki madaniy o‘zlik, milliy qadriyatlar va jamiyat ongiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Mazkur maqolada xalqaro tillar va o‘zbek tili o‘rtasidagi kommunikativ aloqalar tahlil qilinadi. Jumladan, so‘z o‘zlashuvi, kod almashinuvi, madaniy tafovutlar va til orqali shakllanadigan shaxsiy hamda milliy identitet masalalari yoritiladi.

Annotation: In today's era of globalization, the influence of international languages on the Uzbek language is growing day by day. As a result of close interaction with these languages in the fields of the internet, mass media, education, and the workplace, processes such as lexical borrowing, code-switching,

and cultural differences are emerging in the Uzbek language. These changes affect not only the communicative function of the language but also directly influence cultural identity, national values, and social consciousness. This article analyzes the communicative relationships between international languages and the Uzbek language. In particular, it highlights issues such as lexical borrowing, code-switching, cultural differences, and the formation of personal and national identity through language.

Аннотация. В современную эпоху глобализации влияние международных языков на узбекский язык с каждым днём усиливается. В результате активного взаимодействия с этими языками в интернете, средствах массовой информации, сфере образования и рабочей среде происходят процессы заимствования слов, переключения кодов и проявления культурных различий в узбекском языке. Эти изменения затрагивают не только коммуникативную функцию языка, но и напрямую влияют на культурную самобытность, национальные ценности и общественное сознание. В данной статье рассматриваются коммуникативные связи между международными языками и узбекским языком. В частности, освещаются вопросы заимствования слов, переключения кодов, культурных различий, а также формирования личной и национальной идентичности через язык.

Kalit so‘zlar. tilshunoslik, tarjima, madaniyat, madaniyatlararo kommunikatsiya, kontekst, madaniy tafovut.

Keywords. Linguistics, translation, culture, intercultural communication, context, cultural differences.

Ключевые слова. Лингвистика, перевод, культура, межкультурная коммуникация, контекст, культурные различия.

Kirish. Til - insoniyatning eng muhim aloqa vositasi. XXI asrda insoniyat taraqqiyoti yangi bosqichga ko‘tarildi — raqamli kommunikatsiya, transmilliy muloqot va globallashuv jarayonlari tillararo munosabatlar doirasini kengaytirib, turli tillar o‘rtasidagi kesishuvni tabiiy va zaruriy holatga aylantirmoqda. Bugungi globallashuv davrida dunyo tillari o‘rtasidagi aloqa misli ko‘rilmagan darajada faollashmoqda. Xususan, ingliz, rus, turk kabi xalqaro tillar internet, ijtimoiy tarmoqlar, ta’lim, biznes va ommaviy axborot vositalari orqali millionlab foydalanuvchilar ongiga, kundalik nutqiga va hatto tafakkuriga sezilarli darajada kirib bormoqda. Bu holat har bir xalqning, xususan, o‘zbek xalqining tiliga va madaniyatiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘zbek tili bugun xalqaro tillar bilan ko‘plab sohalarda to‘qnash kelmoqda — bu to‘qnashuv esa oddiy so‘z almashinuvi yoki tarjima bilan emas, balki chuqur madaniy, ijtimoiy va lingvistik jarayonlar orqali ro‘y bermoqda. Xalqaro tillar bilan aloqadorlik natijasida o‘zbek tiliga minglab yangi so‘zlar kirib keldi: “bloger”, “kontent”, “onlayn”, “brend”, “target” kabi atamalar hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Biroq bu so‘zlarning kirib kelishi bilan birga, ularning orqasida turli madaniy kontekstlar, qadriyatlar va dunyoqarashlar ham tilga singmoqda.

Shuningdek, so‘z o‘zlashuvi bilan bir qatorda, **kod almashinuvi** (ya’ni nutqda ikki yoki undan ortiq tilning aralashib ketishi), **interferensiya** (ikki tilli shaxsning nutqda bir

nechta tillarni bilishi natijasida yuzaga keladigan har qanday til normalaridan chetga

chiqish holatlari interferensiyadir” - deya ta’riflaydi V. Vaynreich), **madaniy tafovutlar** va **identitet** (shaxs yoki millatning o‘zini anglashi) kabi murakkab hodisalar ham o‘zini namoyon qilmoqda. Ayrim hollarda bu jarayon ijobiy — kommunikatsion imkoniyatlar kengaymoqda, xalqaro tajriba singmoqda. Biroq boshqa hollarda esa, ona tilining qadr-qimmati, boy ifoda imkoniyatlari va madaniy o‘zligi so‘roq ostida qolmoqda.

Xalqaro tillarning kommunikativ ustunligi va o‘zbek tili: Ingliz, rus va turk tillari bugungi kunda nafaqat aloqa vositasi, balki global madaniyat, ilm-fan, texnologiya va siyosiy jarayonlar uchun asosiy ko‘prik sifatida xizmat qilmoqda. Ayniqsa ingliz tili xalqaro miqyosda “lingua franca” — ya’ni barcha uchun umumiy aloqa tili maqomiga ega bo‘lib, ta’lim, internet, ilmiy maqolalar, reklama va texnologik interfeyslar orqali o‘z ta’sirini kuchaytirib bormoqda.Bu jarayon o‘zbek tiliga ham bevosita ta’sir qilmoqda: turli sohalarda xorijiy atamalar keng qo‘llanmoqda, xalqaro va mahalliy kontekstdagi muomala shakllari o‘zgarib

bormoqda.Xususan,“meeting”(uchrashmoq,yig‘ilishmoq),“target”(maqsad),“content”(mazmuni),“trend”(yo‘nalish) kabi atamalar ishlatilish jihatidan ularning o‘zbekcha muqobillarini siqib chiqarmoqda.

Hukumat tomonidan ham so‘ngi yillarda tilga e’tibor kuchayib, amalda sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasi majlisining 2025-yil 30-iyuldagi 62-son bayoniga binoan o‘zbek tili qoida va me’yorlari asosida shakllantirilgan hamda rasmiy muomalaga kiritiladigan quyidagi yangi so‘z va atamalar ro‘yxati tasdiqlanishi ham buning yaqqol

na’munasidir:Аванс-bo‘nak, автопилот-avtoboshqaruv, айсберг-muztog‘, бодикамера-yonkamera, брызговик-loyto‘skich, внедорожник-yo‘ltanlamas, дискуссия- bahs,munozara, доставка-yetkazish, зона-hudud, карвинг-o‘ymabezak, конфиденциал-maxfiy, кластер-klaster, коворкинг-ish markazi, коловорот-qo‘lparma, коридор-yo‘lak, котлован-xandaq, лебёдка-chig‘ir, лидер-yo‘lboshchi, yetakchi, линк-havola, маркировка-tamg‘alash, Маршрут-yo‘nalish, мастер класс-mahorat darsi, мотивация-ruhlantirish, rag‘bat, навигатор-yo‘llagich, наждак-qumqog‘oz, оправа-gardish, отвёртка-buragich, парол-o‘ron, переплёт-muqovalash, полик-to‘shama, портфолио-yig‘majild, прогрессив-ilg‘or, растушевка-qoshpardoz, светофор-yo‘lchiroq, силлабус-ishchi dastur, смарт-aqlli, челленж-chorlov, шуруп-buramamix, it парк-at parki (axborot texnologiyalari parki), it технологиялари-axborot texnologiyalari (at) shu kabi so‘zlarni rasmiy muomalaga kiritilishi til va madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiladi, lekin ushbu so‘zlarni bugungi yosh avlod ishlatmasak, aksincha xorijdan kirib kelgan so‘zlardan foydalanishda davom etsak, bu faqat qog‘ozdagina qolib ketadi. Bugun milliy o‘zligimizni saqlab qolish uchun ham butun bir jamiyat bir bo‘lib, tilimizni asrashimiz va uni kamsitilishiga yo‘l qo‘ymasligimiz zarur. O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “Mamlakatimizda o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi o‘rni va ahamiyatini oshirish, uni zamon talablari asosida rivojlantirish masalasini biz milliy o‘zligimizni anglash, millat ruhini saqlab qolish, yorug‘ kelajagimizni ta’minlashning eng muhim omili, deb bilamiz. Shu ezgu maqsad yo‘lidagi amaliy harakatlarimiz tufayli jamiyatimiz hayotida davlat tilining qo‘llanish doirasi tobora kengayib, u xalq dilining chinakam ko‘zgusiga aylanmoqda”, — deya qayd etgani ham tilga bo‘lgan e’tiborning yuksak na’munasidir.

So‘z o‘zlashuvi va til o‘zgarishi: So‘z o‘zlashuvi tabiiy til jarayonining ajralmas qismi sanaladi. O‘zlashma so‘zlar tilning leksik qatlamini kengaytirishi, yangi sohalarda terminologik bazani shakllantirishi, tarixiy, madaniy aloqalarni aks ettirishi hamda tilni rivojlantirishda muhim manba vazifasini bajarishi sababli ahamiyatlidir .Tarixiy jihatdan o‘zbek tiliga fors-tojik, arab, rus tillaridan o‘zlashgan so‘zlar mavjud. O‘zlashgan qatlam – o‘zbek tili leksikasining boshqa tillardan o‘zlashtirilgan leksemalardan iborsat qismi. Masalan: maktab, oila(ar.), daraxt, gul (f-t), axta, bahodir (mog‘.), afandi(turk.), Ravshan (sug‘d.), traktor, avtobus (r-b.) va b-lar. Hozir esa bu jarayon global tillar bilan jadallashmoqda. Bu yerda asosiy masala — **funksional so‘zlar** va **asosiy tushunchaviy birliklar**ning o‘zlashuvi orqali tilning ichki tuzilmasiga ta’siri bo‘lib qolmoqda.Zamonaviy tilshunoslik bu jarayonni **“neologizatsiya”, “internatsionalizatsiya”** va **“lingvomadaniy migratsiya’** tushunchalari orqali tavsiflaydi. Lekin bu o‘zlashuvlar doimo ijobiy emas. Ayrim hollarda ularning haddan ziyod ishlatilishi ona tilining o‘ziga xosliklarini yo‘qota boshlaydi, ayniqsa soha terminologiyasi va rasmiy yozishmalarda aniqlik, ravonlik va milliylik zarar ko‘radi.

Kod almashinuvi va interferensiya: Bugungi o‘zbek jamiyatida, ayniqsa yoshlarda, tilning bir xil muloqotda aralashib ishlatilishi — ya’ni **kod almashinuvi** (code-switching) keng tarqalgan. Misol uchun: “Ertaga online meeting bor, shunga tayyor bo‘l.”, “Zavtrak qildingmi?”, “Instagram istoryamga content olishim kerak.” - bu kabi misollar nafaqat til grammatikasini, balki muloqotning madaniy kontekstini ham o‘zgartiradi. Kod almashinuvi shunchaki stilistik tanlov emas, balki **ijtimoiy maqom** hamda **ta’sirchanlik** elementlariga ham bog‘liq. Bundan tashqari, **interferensiya** — ya’ni boshqa tilning tovush, so‘z tartibi, urg‘u yoki ibora tuzilmasining ona tilga ko‘chishi — ham muloqotda ko‘p uchraydi. Bu lingvistik holat, ko‘p hollarda, notekis tarjimalar yoki sun’iy tuzilgan gaplar orqali namoyon bo‘ladi: “Men siz bilan bog‘lanishga harakat qilaman.”Bu gapda ingliz tilidagi “I will try to contact you” strukturasining so‘zma-so‘z tarjimasi seziladi. Bu bilan xorijiy tillarni o‘rganmaslik kerak demoqchi emasman. Xalqimizda bir naql bor: “Til bilgan - el biladi”, lekin biz zamon talablariga ko‘ra boshqa tilni o‘rganar ekanmiz, avvalo ona tilimizni qadrlashimiz va boshqa tillarni bilishimizni ko‘z-ko‘z qilish orqali o‘z tilimizni kamsitilishiga yo‘l qo‘ymasligimiz lozim. Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) yo‘nalishi 2-bosqich talabasi Xayitova Dildora “LINGVISTIK INTERFEYSIYA HODISASI VA UNING MOHIYATI” nomli maqolasida quy-idagi fikrlarni ilgari suradi: “Til jamiyatda rivojlanar ekan, ijtimoiy omillar tilga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Zero, til “aloqa quroli” sifatida o‘zi xizmat qilayotgan jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, va madaniy hayoti bilan bog‘liq ravishda rivojlanadi. Insonlar tabiatan, qiziquvchan, intiluvchan, doimo yangi bilimlarni egallash, ko‘proq o‘rganish ehtiyojida bo‘ladi va bunga xorijiy tillarni o‘rganish va maqsadlarni amalga oshirishda asosiy omildir. Albatta, xorijiy tillarni o‘rganish jamiyat uchun zaruriy ehtiyojdir. Bu ehtiyojlar asosida ikki tillik va ko‘p tillik vujudga keladi. Buning natijasida so‘zlovchi ongida tillar o‘zaro aloqaga kirishadi va nutqda tillar kontakti kuzatiladi. “Odatda, boshqa tilni yoshlikdan mukammal o‘rganmagan shaxs, ona tili sistemasi asosida fikrlagan holda nutq yaratadi. Boshqa tilning lisoniy sistemasi o‘zgacha bo‘lsa, o‘ziga xos lisnoiy to‘siq – lingvistik

interferensiya hodisasiga duch keladi. Tilshunoslikda interferensiya sotsiolingvistika tushuncha sifatida qaraladi. Bir tilga xos xususiytaning boshqa til qurulishi yoki uning biro til ichki tizimiga lisoniy jihatidan ta’siri interferensiya deyiladi. Agar ikkita tilni solishtirganda, ona tili va chet tili strukturalari bir-biriga o‘xshash bo‘lsa interferensiya ijobiy kuchayadi. Tillar qanchalik bir-biriga yaqin bo‘lsa, ijobiy interferensiya tillar bir-biriga o‘xshamagan bo‘lsa salbiy interferensiya hisoblanadi.”

Kommunikativ kompetensiyalar va madaniyatlararo tafovut*:* Madaniyatlararo muloqotda faqat til bilish yetarli emas — shuningdek, **kommunikativ kompetensiya,** ya’ni tilni kontekstda to‘g‘ri qo‘llash, nomaqbul iboralardan qochish, soddalashtirilgan til shakllaridan foydalanish, madaniy noziklikni saqlash ham muhimdir. Bu kompetensiyalar ko‘pincha xalqaro suhbatlar, tarjima jarayoni yoki xorijliklar bilan muloqotda sinovdan o‘tadi. Masalan, ingliz tilida “How are you?” oddiy salomlashuv bo‘lsa, o‘zbek tilida “Qandaysiz?” so‘rovi ko‘proq chin yurakdan hol-ahvol so‘rashni anglatadi. Shu sababli tarjimada yoki real muloqotda mazmuni noto‘g‘ri tushunilishi mumkin. Bu holat **madaniyatlararo tafovut** natijasida vujudga keladigan muloqotdagi “xatoliklar”ni ko‘rsatadi. Har bir tilda ma’lum bir madaniyat yashiringan. Madaniyatlararo muloqotda bu tushunchalar o‘zaro zid yoki chalkash bo‘lishi mumkin. Masalan, mehmonxonada ishlayotgan o‘zbek xodimi mijozga ko‘proq yordam ko‘rsatmoqchi bo‘ladi — bu milliy odob-axloq talabi. Biroq xorijlik mehmon buni “shaxsiy hayotga aralashish” deb tushunishi mumkin.

Identitet va lingvomadaniy xavf: Til — shaxsiy va milliy identitetni shakllantiruvchi asosiy vositadir. Til orqali inson o‘zini kim deb bilishini, qaysi guruhga mansub ekanligini anglaydi. Ammo bugungi global muloqotda til identiteti ko‘p hollarda zaiflashmoqda. Xususan, o‘z tilidan uyalish, xorijiy tilni obro‘ belgisi sifatida ko‘rish, ona tilida erkin fikrini ifodalamaslik — bu kabi psixolingvistik holatlar **lingvomadaniy xavf** signalidir. Ayniqsa, yosh avlod orasida o‘zbek tilining imijini, milliy madaniyat orqali shakllantirish lozim. Bu esa ona tilini “eskilik qoldig‘i” sifatida emas, balki **rivojlangan, zamon bilan hamnafas, ijtimoiy faol til** sifatida taqdim etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Madaniyat va til o‘zaro bog‘liq tizimdir. Zero yurtboshimiz aytganlaridek: “Madaniyat yoshlikdan, insonni bolalar bog‘chasida, maktabda kitob o‘qishga o‘rgatishdan boshlanadi.” Agar madaniyat o‘zining til orqali ifodalanishini yo‘qotsa, jamiyatda **identitet inqirozi** yuzaga keladi. Shu bois, quyidagi strategiyalar muhim:

Maktab va oliy ta’limda **ona tiliga bo‘lgan muhabbat**ni oshirish;

Xalqaro tillarni o‘rgatish jarayonida o‘zbek tilining o‘rni va mavqeini pasaytirmaslik;

Madaniyatlararo muloqotda o‘zbek madaniyatini himoya qiluvchi **lingvomadaniy kompetensiyalar**ni rivojlantirish;

Milliy identitetni ifodalovchi zamonaviy kontent yaratish (kitoblar, podkastlar, seriallar, bloglar).

Xulosa va takliflar

Xalqaro tillar va o‘zbek tilining kommunikativ kesishuvi bugungi global axborot jamiyatida dolzarb ilmiy va ijtimoiy masalalardan biri sanaladi. Ushbu maqolada olib borilgan nazariy va amaliy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tillararo ta’sir jarayoni soddalik bilan ifodalanadigan so‘z o‘zlashuvi yoki kod almashinuvi bilan cheklanib qolmaydi. U chuqur madaniy, ijtimoiy va psixolingvistik qatlamlarga kirib boradi. Xususan:

- xalqaro tillarning keng qo‘llanilishi natijasida o‘zbek tilida so‘z boyligi oshayotgani bilan birga, leksik-madaniy buzilishlar va kontekstual noto‘g‘riliklar yuzaga kelmoqda;
- kod almashinuvi va interferensiya hodisalari yoshlar nutqida ona tiliga bo‘lgan befarqlikni kuchaytirmoqda;
- madaniy tafovutlar esa muloqot jarayonlarida noto‘g‘ri talqinlar, kommunikativ noaniqliklar va madaniy identitetning erishishiga olib kelmoqda;
- identitet masalasi esa til va madaniyatning ichki uyg‘unligini saqlab qolish zaruratini o‘rtaga chiqarmoqda.

Shu bois, xalqaro tillarni o‘rganish va foydalanish global integratsiya uchun muhim bo‘lsa-da, o‘z ona tiliga tayanmagan, o‘z madaniyatidan uzilgan til siyosati mustahkam poydevorga ega bo‘la olmaydi. Har bir xalq uchun til – bu nafaqat aloqa vositasi, balki milliy ong, tarixiy xotira va madaniy o‘zlikning yashovchan shaklidir.

Quyidagi takliflar maqolada ilgari surilgan masalalarni hal etishda amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin:

1. **Lingvomadaniy muvozanatga asoslangan til siyosatini shakllantirish** – xalqaro tillarni o‘rgatishda ularning ijobiy jihatlarini targ‘ib qilish bilan birga, o‘zbek tilining kommunikativ imkoniyatlari va madaniy boyligini saqlashga alohida e’tibor qaratish zarur.

2. **Til o‘zlashuvi va interferensiyani monitoring qilish** – tilshunoslar va tarjimashunoslar o‘rtasida o‘zlashgan so‘zlar, ularning semantik moslashuvi va madaniy konnotatsiyalarini muntazam ilmiy kuzatish va tahlil qilish amaliyotini yo‘lga qo‘yish lozim.
3. **Multimadaniyatli kompetensiyani rivojlantirish** – xorijiy tillarda muloqot qilayotgan shaxslar madaniyatlararo tafovutlarni his qila oladigan, turli kodlar oralig‘ida to‘g‘ri strategiyalar tanlay oladigan darajada yetuk bo‘lishi kerak.
4. **O‘zbek tilining raqamli kommunikatsiyadagi rolini kuchaytirish** – zamonaviy texnologiyalar, kontent platformalari va sun’iy intellekt orqali o‘zbek tilida raqobatbardosh va madaniy jozibador materiallar ishlab chiqilishi shart.
5. **Yosh avlodda lingvistik g‘urur va identitet hissini shakllantirish** – maktabgacha ta’limdan boshlab, o‘z tiliga nisbatan ijobiy emotsional va madaniy munosabatni shakllantirish, milliy o‘zlikni anglashga yo‘naltirilgan kommunikativ yondashuv zarur.

Xalqaro tillarning o‘zbek tili bilan o‘zaro ta’siri yakka bir til hodisasi emas, balki keng qamrovli lingvomadaniy jarayondir. O‘zbek tili taraqqiyoti, avvalo, uni qanday holatda, qanday muhitda, qanday kontekstda qo‘llayotganimizga bog‘liq. Demak, xalqaro tillarni o‘rganishda madaniyatlararo kommunikatsiya jihatlarini to‘g‘ri anglash va til siyosatining barqaror yo‘nalishda yuritilishi bugungi va ertangi til tafakkuri uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyot va internet havolalar.

ÓzIA Qaraqalpaqstan bólimi Qaraqalpaq gumanitar ilimler ilim izertlew institutı tayanısh doktorantı

Annotatsiya: Ushbu maqola naql-maqollarni paremiologik birlik sifatida o’rganishning ahamiyatini tahlil qiladi. Naql-maqollarni paremiologik birlik sifatida o’rganish tilshunoslikda yangi yondashuvlarni shakllantirishga yordam beradi. Ular nafaqat madaniyatni aks ettirish, balki xalqning dunyoqarashi, etika va qadriyatlarining ifodasi sifatida ham katta ahamiyatga ega. Shuningdek, maqolada naql-maqollarni fanda o’rganishning ahamiyati, “naql” va “maqol” tushunchasi o’rtasidagi farqlar va ularni tilshunoslikda qo’llanilish usullari tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: naql, maqol, paremiologiya, tilshunoslik, matn

Аннотация: Данная статья анализирует важность изучения пословиц и поговорок как паремиологических единиц. Изучение пословиц и поговорок как паремиологических единиц способствует формированию новых подходов в лингвистике. Они имеют большое значение не только как отражение культуры, но и как выражение мировоззрения, этики и ценностей народа. В статье также рассматривается важность научного исследования пословиц и поговорок, различия между понятиями “пословица” и “поговорка”, а также методы их применения в лингвистике.

Ключевые слова: пословица, поговорка, паремиология, лингвистика, текст.

Abstract: This article analyzes the importance of studying proverbs and sayings as paremial units. Examining proverbs and sayings as paremial units helps in the development of new approaches in linguistics. They are of significant value not only as a reflection of culture, but also as an expression of the worldview, ethics, and values of the people. The article also discusses the importance of studying proverbs and sayings in science, the differences between the concepts of “proverb” and “saying”, and their methods of application in linguistics.

Keywords: proverb, saying, paremiology, linguistics, text.

Dúnyadaǵı barlıq tillerde paremiologiyalıq birlikler áhmiyetli orın iyeleydi. Tildiń paremiologiyalıq qorınıń basım bólegi bolsa naqıl-maqallardan ibarat. Bul qor eski zamanlardan berli alım hám izertlewshilerdiń qızıǵıwshılıǵın oyatqan. Olardı jaqınnan úyrengen ilimpazlar bul birliklerdi hárbir xalıqtıń enciklopediyası dep ataydı. Óytkeni, paremiyalar arqalı milliy-mádeniy miyras áwladtan áwladqa jetkeriledi.

Paremiologiya – til biliminiń ayrıqsha tarawı. Grekshe paroimia (naqıl-maqal, danalıq) hám logos (ilim) degen sózlerden alınǵan, hárqanday tildiń paremiologiyalıq sistemasın izertleydi [Юсупова: 2024. – Б.12].

Al “paremiya” sózi bolsa, grek tilinen alınǵan, bizińshe tereń mánili gáp, hikmetli sóz, maqal mánisin beredi. Bul terminge ózbek tiliniń túsindirme sózliginde tómendegishe tárıyp beriledi: “Belgili bir tildegi áwladtan áwladqa awızeki túrde ótip júriwshi, ıqsham hám ápiwayı, qısqa hám mazmunlı, logikalıq ulıwmalastırıwshı sıpatında payda bolǵan turaqlı birlik; maqal” [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, Т. IV: 2007. –Б.222].

Paremiologiyanı birqatar filologiyalıq ilimler (folklor, frazeologiya, tekst lingvistikası) kesilispesinde payda bolǵan, kompleksli qatnas jasawdı talap etetuǵın, zamanagóy ilim tarawlarınıń birlespesi dep alıp qarasaq boladı. Qısqa hám ıqsham túrde aytqanda, paremiyalardı (naqıl-maqallardı) úyretetuǵın ilim desek boladı. Tereńirek názer awdaratuǵın bolsaq, paremiyalogiyanıń izertlew obiektine naqıl-maqallar menen bir qatarda jumbaqlar, jańıltpashlar, ırımlar, ǵarǵıslar, qullası, xalıqtıń mádeniy

turmısı menen baylanıslı bolǵan barlıq birlikler qamtıp alınadı. Biraq izertlewlerde “paremiya” degende basım kópshilik jaǵdayda naqıl-maqallar názerde tutıladı.

Paremiologiya óz aldına ilim sıpatında XX ásirdiń aqırınan baslap tán alınadı. Bunda rus paremiolog alımı G.L.Permyakovtıń strukturalıq paremiologiya tarawındaǵı ilimiy izlenisleri sebep boladı. G.L.Permyakovtıń pikirinshe, til sistemasında naqıl-maqallar, jumbaqlar, basqa da xalıqlıq birliklerden ibarat bolǵan paremiologiyalıq dáreje “eń joqarǵı” qatlam bolıp esaplanadı [Пермяков: 1988. –ст.7].

Naqıl-maqallar oǵada ıqsham folklorlıq janr bolıp, óz ishine tereń máni hám aqıl-násiyattı qamtıydı. Olar folklorlıq dóretpeler sıpatında folklortanıw iliminde, al naqıl-maqallardıń tillik ózgeshelikleri, til sistemasındaǵı naqıllardıń tutqan ornı lingvofolklortanıw iliminde úyreniledi. Naqıllardı bul eki kózqarastan izertlew ázelden qáliplesken. Sońǵı jılları dúnya tillerindegi paremiologiyalıq birliklerdi túrli aspektlerde úyreniw nátiyjesinde naqıllardı folklorlıq janr sıpatında yamasa tek ǵana tillik ózgesheliklerin izertlew menen sheklenip qalmastan, naqıllardıń kórkem tekstte atqaratuǵın funkciyası, dóretiwshilerdiń xalıq naqılların tekstte qollanıw usılları, naqıllardıń túrleniwi, xalıq mádeniyatınıń, milliy kolorittiń naqıllar arqalı jetkerilip beriliwi de izertlew obiektine aylanıp, keń túrde analizlenbekte.

Ilimpazlar naqıl-maqallardıń dóretiwshiler tárepinen kórkem shıǵarmalarda qollanılıw tariyxı erte dáwirlerge barıp taqaladı, – dep boljaydı. Atap aytqanda, “ “antik dáwir” de Gesiod, Gomer, Menandr, Aristofannıń (b.e.sh VIII ásirler) poeziyalıq dóretpelerinde paremiyalar keń túrde qollanılǵan. Al, ingliz ádebiyatında naqıl-maqallardıń qollanılıwı XVI-XVII ásirlerde W.Shekspir dóretiwshiliginde ushırasadı” [Алексеева: 2020. –ст.80.].

Naqıl-maqallar folklorlıq, tillik kózqarastan da júdá kópshilik tárepinen úyrenilgen bolsa da, bul másele sheńberinde talas-tartıslı pikirler oǵada kóp. Sonlıqtan da, paremiologiyada óz sheshimin kútip turǵan máseleler barshılıq. Bunda eń dáslep “naqıl-maqal” hám “paremiya” termini, olardıń ortasındaǵı shegara hám ayırmashılıq máselesi kózge taslanadı.

Til biliminde qanday da bir másele sheńberinde izertlewler alıp barǵanda eń dáslep sol terminge ayrıqsha anıqlama berip ótiw maqsetke muwapıq. Qaraqalpaq tilindegi izertlewlerde uzaq jıllar dawamında “naqıl-maqal” termini qollanılıp kelingen. Naqıl-maqallardıń termini hám anıqlaması boyınsha, bir-birine uqsas, tolıp atırǵan túsinikler bar. Geybir xalıqlar “Naqıl hám maqal” dep bólmey, usı terminlerdiń qálegen birewin qabıllaǵan. Ańız-áńgimeler, ertek, dástanlardıń heshbirinde “maqal” termini aytılmaydı. Barlıq orınlarda “naqıl” termini qollanıladı.

N.Dáwqaraev “Qaraqalpaq ádebiyatı tariyxınıń ocherkleri” miynetiniń “Awızeki xalıq tvorchestvosı” degen bóliminde naqıl-maqallarǵa ayrıqsha toqtap, mınaday anıqlamalardı beredi: “Naqıllar dara adamnıń emes, jámáátlik pikirdi bildirip, túrli sıpatlardı, sociallıq baylanıstı, jámiyetlik moral normaların hám shártlerdi jıynaqlap toplaydı. Naqıllar tolıq pikirdi mısal retinde bildirip, aqıl aytıw menen pitedi”, dep kórsetedi [Дәўқараев: 1977. –Б. 156]. Ilimpaz maqallardı naqıllardan bólip alıp qaraydı. Onıń pikirinshe, maqallar shıǵısı, atqaratuǵın xızmeti jaǵınan naqıllar menen birdey. Biraq onıń qurılısı, mazmunı, mánisi jaǵınan qaraǵanda ózine tán ózgeshelikleri bar. Maqallar hesh kimge qaratılıp aytılmaydı. Ol tek tıńlawshıǵa ǵana emes hámmege ortaq aytıladı.

Biybisanem Yusupovanıń “Paremiologiya” atamasındaǵı keń kólemli monografiyasında ilimpaz “paremiya” termini arqalı tek ǵana naqıl-maqallardı názerde tutadı hám qaraqalpaq xalıq naqıl-maqalları tiliniń leksika-semantikalıq hám leksika-tematikalıq ózgesheliklerin analizleydi. Miynette naqıl-maqal hám “paremiya” terminine ayrıqsha toqtalıp ótiledi. Avtordıń kórsetiwinshe, qaraqalpaq tilinde naqıl-maqal ataması jup sóz túrinde, birgelikte qollanılıp kelingen termin bolıp, kópshilik jaǵdayda bólek túsinik sıpatında qaralmaydı. Eger olardı ajıratıp qaraw zárúrligi bolsa da, naqıl – tuwra mánistegi danıshpanlıq sózler, al maqal kóbinese astarlı mánidegi aqıl-násiyat sózler boladı. Ilimpaz óz pikirin: “Solay bolsa da, naqılda tek tuwra mánidegi sózler beriledi dep qaramaw kerek, óytkeni, onıń komponentlik quramı júdá ıqsham túrindegi poetikalıq qatarlardan turıp, az sóz benen júdá keń mazmun, máni, túsinik ańlatadı. Sonlıqtan da, naqıl da, maqal da obrazlı, astarlı mánili bolıp keledi”,– dep tolıqtıradı [Юсупова: 2024, –Б. 15].

Haqıyqatında da, kúndelikli turmısta xalıq bul naqıl, bul maqal dep ajıratıp otırǵanlıǵın kórmeymiz. Eger sóylew procesinde bul danalıq sózlerden paydalansa, onı ulıwmalıq ortaq termin “naqıl-maqal” dep qollanıw keń túrde eń jayǵan. Dúnya til bilimindegi bul máselege itibar bersek, túrli xalıqta túrlishe qollanılǵanlıǵın kóriwimizge boladı. Olardıń bazıları naqıl-maqal túrinde ulıwmalıq atamadan qollansa, bazılarında naqıl bólek túsinik, maqal óz aldına bólek birlik. Máselen, “Inglis naqıl-maqalları toplamı” nıń avtorı S.F.Kuskovskaya bul eki termin ortasında úlken ayırmashılıq joq dep esaplaydı [Кусковская: 1987, –ст.3]. Inglis tilinde naqıl-maqallar “proverbs and sayings” túrinde qollanıladı. Basım kópshilik

miynetlerde “proverbs”, yaǵnıy “naqıl” termini jumsalǵanın kóremiz. Shet tillerindegi dereklerde “paremiya” termini derlik qollanılmaydı. Olarda aqıl-násiyat mánisindegi, ıqsham túrdegi folklorlıq dóretpelerdi “proverbs” yaǵnıy naqıl dep ataw qáliplesken. Rus tilinde “пословицы и поговорки” termini bar, biraq sońǵı jıllardaǵı lingvistikalıq izertlewlerde “paremiya” termini keń túrde qollanıla baslanǵanlıǵınıń gúwası bolamız. “Paremiya” terminin “naqıl-maqal” termininiń sinonimi sıpatında alıp qaraw dástúrge aylandı. Ilimpaz O.S.Axmanova “paremiya”nı “naqıl” hám “maqal” sózlerin ulıwmalastırıwshı atama sıpatında alıp qaraydı [Ахманова: 1957, –ст. 421]. Túrkiy xalıqlar arasında “maqal” sóziniń ornına “masal” termini de qollanıladı. Izertlewlerde de maqallar – bul naqıllardıń kelip shıǵıw deregi ekenligi aytıladı. Rus alımı A.A.Potebnya da bul temadaǵı úyreniwleri nátiyjesine kóre, naqıllar maqallardıń negizinde payda boladı, – degen juwmaqqa keledi.

Biner Ismettiń keltiriwinshe, “maqal” termini arabsha sóz bolıwına qaramastan, arab tilinde maqal sózi emes, “durubi emsal” termini qollanıladı. Bul termin tájik tilinde de sol formada jumsaladı. Túrk tilinde awıspalı mánide berilgen danalıq sózlerge qarata “durbulmasal”, al tuwrıdan-tuwrı mánige iye bolsa “makol” termini paydalanıladı. Eski dáwirlerde “máshhur” termini qollanılǵan bolıp, soǵın ala “saw”, “másál”, “tabir” terminleri de qollanıla baslaǵan. Osmanlılar dáwirinde másál, darbı atamaları ónimli qollanılǵan bolsa, jazba tildiń rawajlanıwı menen “ata sózler” termini ilimiy ortalıqta keń eń jayǵan [Бинер Исмет: 2004, –Б.9].

Qırǵız xalıq awızeki dóretpelerinde “naqıl” paremiyalıq janrınıń ataması “maqal” túrinde qollanıladı. Al “maqal” bolsa, “laqap” kórinisinde jumsaladı. Naqıl hám maqallar birlestirilip, ulıwmalıq “maqal-ılaqaplar” túrinde de paydalanıladı [Темирова: 2018. –Б. 21].

Ózbek tilinde bolsa, “maqol va matallar” termini bar bolıp, xalıq tilinde “maqol” ataması ónimli paydalanıladı. Ózbek-qaraqalpaq tillerindegi naqıllardı úyrene otırıp, ilimpaz S.Bekchanova “Maqallar kóp tárepten naqıllarǵa uqsasa da, olardıń hárbiri ózine tán ózgesheliklerge iye”, – dep naqıl hám maqaldı dara, óz aldına bólek birlikler dep esaplaydı [Бекчанова: 2019. –Б. 18]. Onıń pikirinshe, naqıl menen maqaldıń ortasındaǵı parıqtı úyreniw ushın bul eki janrdı salıstırmalı túrde, birgelikte izertlew kerek. Sonda ǵana másele aydınlasadı. Usı orında aytıp ótiwimiz zárúr, ózbek-qaraqalpaq paremiologiyasındaǵı eń dáslepki kózge taslanatuǵın parqı – bul terminlerdiń hártúrliligi. Ózbek paremiologiyasındaǵı “maqol” termini menen qaraqalpaq paremiologiyasındaǵı “maqal” ataması mazmunlıq jaqtan bir-birine tuwrı kelmeydi. Ózbek tilindegi maqal – bizińshe naqıl, al qaraqalpaq tilindegi maqal – ózbek paremiologiyasında “matal” sıpatında alıp qaraladı.

Ózbek tilinde hikmetli sózlerdi ulıwmalıq “maqal” termini menen ataydı, biraq bul túsinikti táriyplew ushın tilde onnan artıq atama qollanıladı: maqal, matal, masal, naqıl, hikmet, tanbex, zarbulmasal, hikmetli maqal, xalıq ibarası, xalıq sózi, danıshpanlar sózi, danalar sózi, jaqsılar sózi, burınǵılar sózi, ulıstıń sózi, avomunnos masali, hikmetli sóz hám basqa [Бекчанова: 2019. –Б. 19]. Ilimpaz K.Imamov “naqıl” atamasın “matal” kórinisinde ataydı. Naqıl termini keń mánini bildiredi. Eski túrkiy yadnamalar, xalıq kitapları, qoljazbalarda, mif, ertek, ápsana, ráwiyat, dástán, maqal, hátteki, jumbaqlar da naqıl ataması menen atalǵan. Sonıń ushın bolsa kerek, házirgi kúnde Ázerbayjanda ertekti “naqıl” dep atasa, qırǵızlarda ibratlı gúrrińler “naqıl” dep alınadı. Parsı tilinde bolsa naqıl awızeki gúrrińlerdi ańlatadı [Имомов: –Б. 46.].

Kórinip turǵanınday, paremiologiyada bir ǵana “naqıl-maqal” hám “paremiya” termini sheńberinde oǵada kóp pikirler bar. Bunnan basqa da bul ilimde oǵada qızıqlı, ilimpazlardıń qızıǵıwshılıǵın oyatatuǵın máseleler barshılıq. Sonlıqtan da, bul tarawda ele de kóbirek izertlewler alıp barılıwı zárúr.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Алексеева О.П., Давыдочева М.А., Паремии: к вопросу терминологии в лингвистическом знании/ Гуманитарный научный вестник. 2020. №4.
2. Ахманова О.С. Очерки по общей и русской лексикологии. –М.: Учпедгиз, 1957.
3. Бекчанова С., Ўзбек ва қорақалпоқ фольклорида нақл жанри (генезиси, типологияси ва поэтикаси). Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Нукус, 2019.
4. Бинер Исмет. Особенности языка и стиля пословиц и поговорок в башкирском и турецком языках. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Уфа, 2004.
5. Дәўқараев Н. Шығармаларының толық жыйнағы, 2-том. –Нөкис, 1977.
6. Имомов К. Ўзбек фольклори очерклари. II китоб. Нақл.

7. Кусковская С.Ф. Сборник английских пословиц и поговорок. –Минск: Изд. Вышэйшая школа. 1987.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Ташкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2007. –Т. IV.
9. Пермяков Г.Л. Основы структурной паремиологии. Главная редакция восточной литературы издательства «Наука». –Москва, 1988.
10. Темирова М., Ўзбек ва қирғиз халқ мақоллари типологияси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент, 2018.
11. Юсупова Б. Паремиология. Қарақалпақ халық нақыл-мақаллары тилиниң лексика-семантикалық ҳәм лексика-тематикалық өзгешеликлери (Монография) –Нөкис: “Qaraqalpaqstan”, 2024.

РАЗВИТИЕ МАЛОГО БИЗНЕСА И ФАКТОРЫ ОПРЕДЕЛЯЮЩИЕ ЕГО СРЕДЫ

Д.М.Шахидова
старший преподаватель,Наманганского государственного технического университета

Аннотация: В данной статье рассматриваются факторы развития малого предпринимательства и формирования его среды, развития инновационной деятельности субъектов малого предпринимательства, а такжеэкономические причины обращения внимания на малый бизнес

Ключевые слова: предпринимательство, малый бизнес, социально-экономическая среда, частное предпринимательство, экспорт, промышленность, инновационные технологии, модернизация, рыночные условия.

Abstract: This article discusses the factors of small business development and the formation of its environment, the development of innovative activities of small business entities, and the economic reasons for paying attention to small business.

Key words: entrepreneurship, small business, socio-economic environment, private entrepreneurship, export, industry, innovative technologies, modernization, market conditions

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik biznesni rivojlantirish va uning muhitini shakllantirish omillari,kichik biznes sub`ektlarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish va kichik biznesga bo‘lgan e’tiborning iqtisodiy sabablari to‘g’risida fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar: tadbirkorlik, kichik biznes, ijtimoiy-iqtisodiy muhit, xususiy tadbirkorlik, eksport, sanoat, innovatsiya texnologiyalari, modernizatsiyalash,bozor kon`yunkturasi

Введение В настоящее время сфера малого бизнеса и частного предпринимательства играет ведущую роль не только в ускорении темпов роста национальной экономики, но и в решении актуальных задач сегодняшнего дня — обеспечения занятости населения и повышения уровня жизни.

В нашей стране с каждым годом усиливается внимание к углублению интеграции науки, образования и производства, а также к разработке путей инновационного развития субъектов малого бизнеса и частного предпринимательства. Это позволяет укреплять взаимовыгодные связи между наукой и производством. Ведутся целенаправленные проекты по модернизации и техническому обновлению ключевых отраслей экономики, внедрению современных инновационных технологий, которые дают мощный импульс развитию страны и обеспечивают её конкурентоспособность на мировом рынке.

В «Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы» отмечены ключевые задачи по ускоренному развитию национальной экономики и обеспечению высоких темпов роста. В частности, предусмотрены меры по либерализации внешней торговли, налоговой и финансовой политики, поддержке предпринимательства, гарантии неприкосновенности частной собственности, снижению налоговой нагрузки на бизнес с 27,5% до 25% ВВП к 2026 году, созданию условий для запуска бизнеса и формирования стабильных источников дохода, а также увеличению доли частного сектора в ВВП до 80% и его участия в экспорте до 60% [1].

Одной из ключевых особенностей малого бизнеса является его способность в короткие сроки обеспечить экономику необходимыми показателями. Малый бизнес играет важную роль в повышении экономического потенциала страны и является показателем успешного развития и процветания государства. В Узбекистане развитию малого бизнеса уделяется особое внимание, и это сегодня считается одной из важнейших приоритетных задач.

Экономические причины активной поддержки малого бизнеса заключаются в следующем:

- насыщение внутреннего рынка отечественными товарами и услугами;
- повышение покупательской способности населения;
- увеличение экспортного потенциала страны;
- модернизация производства;
- развитие сферы сервисных услуг;
- обеспечение крупных предприятий комплектующими деталями и частями;
- создание конкурентной среды;
- обеспечение оборота капитала внутри страны.

Одним из экономически значимых аспектов развития малого бизнеса является увеличение доли и объема валового внутреннего продукта. Несмотря на то что сегодня более 52,5% ВВП страны формируется за счёт субъектов малого бизнеса, их доля в высокотехнологичных отраслях промышленности (19,6%) и в экспорте (13,4%) остаётся недостаточной по сравнению с их потенциалом.

Для устойчивого развития экономики и продвижения ведущих отраслей необходимо активизировать инновационные процессы, особенно — стимулировать инновационную деятельность субъектов малого бизнеса. Внедрение новых технологий и инновационного оборудования в малом бизнесе происходит быстрее и с меньшими рисками, чем в крупных предприятиях. Это позволяет эффективно запускать новые производственные мощности и быстро использовать их потенциал.

В Государственной программе, принимаемой по инициативе Президента Республики Узбекистан в рамках года "Малого бизнеса и частного предпринимательства", одним из приоритетных направлений особо отмечена необходимость создания широких возможностей для развития малого бизнеса и частного предпринимательства, основанного на инновационных технологиях, особенно в высокотехнологичных отраслях экономики.

В настоящее время в нашей стране малый бизнес и частное предпринимательство в большей степени развиваются в сфере торговли, услуг, связи, а также переработки сельскохозяйственной продукции. Однако в условиях глобализации мировой экономики, усиления конкурентной среды, резкого сокращения жизненного цикла продукции, быстрого изменения рыночной конъюнктуры и потребительских предпочтений, для каждого хозяйствующего субъекта становится жизненно необходимым разрабатывать организационно-экономические механизмы производства конкурентоспособной продукции. Это требует активного развития инновационной деятельности и эффективного управления.

С этой точки зрения, развитие малого бизнеса и частного предпринимательства, основанного на достижениях передовой науки, особенно в таких отраслях, как высокотехнологичное производство, инновационные и нанотехнологии, фармакология и фармацевтика, информационно-коммуникационные технологии, биотехнологии и альтернативная энергетика, приносит высокие положительные результаты.

Инновационная деятельность субъектов малого бизнеса, прежде всего, включает в себя:

— внедрение в практику новых и усовершенствованных производств;

— сокращение всех видов затрат на производство продукции;

— снижение себестоимости при одновременном повышении потребительских и качественных характеристик производимой продукции.

Целью развития инновационной активности субъектов малого бизнеса является повышение эффективности производства за счёт обновления всей производственной системы, а также усиление конкурентоспособности отрасли на основе эффективного использования научно-технического, интеллектуального и экономического потенциала.

В Узбекистане развитие малого бизнеса и частного предпринимательства, основанного на достижениях науки и инновационных технологиях, становится важной необходимостью по следующим причинам:

1. Во-первых, высокая адаптивность малого бизнеса к изменениям рыночной конъюнктуры и потребительским требованиям, а также более низкие риски по сравнению с крупными предприятиями при внедрении инновационных технологий, обеспечивают хорошие результаты.
2. Во-вторых, внедрение инновационных технологий в деятельность субъектов малого бизнеса снижает их высокие транзакционные издержки и увеличивает показатели рентабельности.
3. В-третьих, способность малого бизнеса быстро осваивать новшества позволяет ему получать высокую прибыль от коммерциализации инноваций.
4. В-четвёртых, внедрение инновационных управленческих технологий позволяет снизить себестоимость продукции, расширить номенклатуру товаров и услуг, увеличить объёмы продаж новых товаров, а также освоить перспективные рынки сбыта, что, в свою очередь, повышает экспортный потенциал и конкурентоспособность субъектов малого бизнеса.

Вывод продукции субъектов малого бизнеса на мировые рынки и соответствие международным стандартам

Вывод продукции субъектов малого бизнеса на мировые рынки и адаптация к международным стандартам, а также их широкое вовлечение в процессы внешнеэкономической деятельности требуют системной методической поддержки. Это включает в себя повышение качества информационного обеспечения малого бизнеса с использованием современных достижений информационных технологий и проведение инновационных маркетинговых исследований.

Для эффективного содействия инновационной деятельности малого бизнеса необходимо коренным образом реформировать инфраструктуры, поддерживающие эту сферу. Инфраструктурные службы должны превратиться в ключевую силу, способную удовлетворить растущие потребности субъектов малого бизнеса и тем самым стимулировать их инновационную активность.

Повышение роли малого и частного предпринимательства в условиях перехода к инновационной модели экономического развития целесообразно осуществлять по следующим направлениям:

- внедрение инноваций и нанотехнологий в производство;
- использование альтернативных источников энергии, особенно солнечной;
- активное использование потенциала фармакологии и фармацевтики;
- применение биотехнологий в производстве;
- разработка и внедрение маловодных технологий;
- создание новых высокоурожайных сортов сельскохозяйственных культур и продуктивных пород животных;
- переработка промышленных и бытовых отходов и др.

Заключение. Малый бизнес благодаря своей компактности и мобильности, а также способности быстро адаптироваться к изменениям рыночной конъюнктуры и потребностям потребителей, становится самым удобным и эффективным механизмом для преодоления последствий мирового финансово-экономического кризиса. В условиях посткризисного восстановления он играет важную роль в создании новых рабочих мест и повышении доходов населения.

Поступательное развитие малого бизнеса и частного предпринимательства обеспечивает формирование и укрепление среднего класса, который является социальной и политической опорой общества.

Следовательно, теперь необходимо не только количественное расширение малого бизнеса, но и качественное развитие — акцент должен быть сделан на переход от простого производства к более сложным, ориентированным на внутренний и внешний рынок, высокотехнологичным видам деятельности.

Использованные источники:

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № PF-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы» – www.lex.uz
2. http://www.stat.uz – данные Государственного комитета по статистике Республики Узбекистан
3. Учебное пособие «Малый бизнес и предпринимательство» / М. Болтабаев
4. Халилов Навруз Мансурович, JOURNAL OF MARKETING, BUSINESS AND MANAGEMENT (JMBM) / SJIF FACTOR: 5.57
5. Kotler, P. (1998). *Marketing Management: Analysis, Planning, Implementation, and Control*. 9th Edition, Prentice Hall, Upper Saddle River.

XX-ASR 20-YILLARIDA MUSIQA SAN’ATINING SIYOSIY VA MADANIY JARAYONLARGA TA’SIRI

U.U.Tojiboyev
Farg‘ona davlat universiteti, O‘zbekiston tarixi ixtisosligi tayanch doktoranti
utojiboyev1991@gmail.com, tel: +99891-123-03-70

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkistonda sovet hokimiyati o‘rnatilganligining dastlabki yillarida madaniy-ma’rifiy ishlar xususan, musiqa san’ati faoliyati yagona tizimga ega bo‘lmadi. O‘zbek milliy musiqa san’ati ma’muriy-buyruqbozlik ustiga qurildi. Markaz tomonidan o‘lka xalqlari madaniy hayotini siyosiy kuch bilan ko‘r-ko‘rona boshqarish, mafkuralashtirish kuchayganligi taxlil qilingan.

Kalit so‘z va iboralar: “Oktyabr inqilobi”, “xalq konservatoriyasi”, “sotsialistik madaniyat”, milliy qadriyat, klub, xalq kuylari.

Аннотация: В статье анализируется тот факт, что в первые годы установления Советской власти в Туркестане культурно-просветительная работа, в частности музыкальное искусство, не имела единой системы. Узбекское национальное музыкальное искусство строилось на административно-командной основе. Центр анализирует усиление слепого контроля и идеологизации культурной жизни народов края со стороны политической силы.

Ключевые слова: “Октябрьская революция”, “народная консерватория”, “социалистическая культура”, национальные ценности, клуб, народные песни.

Abstract: This article analyzes the fact that in the early years of the establishment of Soviet power in Turkestan, cultural and educational work, in particular, musical art, did not have a unified system. Uzbek national musical art was built on administrative-commandism. The center analyzed the intensification of blind control and ideologizing of the cultural life of the peoples of the region by political force.

Keywords: “October Revolution”, “people's conservatory”, “socialist culture”, national values, club, folk songs.

Turkistonda “Oktyabr inqilobi”dan so‘ng nafaqat siyosiy balki ijtimoiy-madaniy hayotda ham tub o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Mahalliy aholi vakillarining milliy san’atga, ayniqsa, musiqaga bo‘lgan qiziqishi yuqori edi. Shu sababli ular o‘rtasida “sotsialistik madaniyatni” targ‘ib etish ishlarini musiqa orqali amalga oshirish hukumat uchun ancha muvaffaqiyatli chiqishi turgan gap edi. Ma’lumki, san’at insonga ta’sir ko‘rsatuvchi katta kuchga ega. Sovetlar eng avvalo musiqa san’atiga mehnatkashlarni “sosialistik ruhda” tarbiyalash yillaridan biri sifatida qaradi. Umuminsoniy qadriyatlar asosida boshlangan mazkur siyosat, keyinchalik Markaz manfaatlariga to‘liq bo‘ysundirildi. Milliy qadriyat va an’analarni targ‘ib qilgan har qanday ziyoli qatlam vakillari yo‘q qilindi.

XX-asrning 20-yillarida yaratilgan ko‘pgina qo‘shiqlarda milliy-ozodlik uchun kurashgan, mustamlaka tuzumi va mafkurasiga qarshi chiqib jang qilgan kishilarni “bosmachi” deb qoralash va tanqid qilishga yo‘naltirilgan siyosat ta’sirida buyurtma qo‘shiqlar paydo bo‘ldi. Lekin xalq o‘z erki uchun jonini tikkan qahramonlarini ham yaxshi tanir edi. Shu sababli ular tomonidan ijro etilgan qo‘shiqlar hukumat manfaatlariga zid edi. Xalq san’ati vakillari tomonidan milliy o‘zlikni anglash, o‘lka aholisining ijtimoiy-ma’naviy hayotini aks ettirganligi sababli ularning harakatiga to‘siqlar qo‘yildi. Musiqa san’atida ijtimoiy(siyosiy) buyurtma kuchayib bordi. Bu o‘z navbatida san’atkorlarni siyosiy bosim ostiga oldi. Nomoyish etilayotgan san’at na’munalari kommunistik mafkura talablariga to‘liq mos kelishi qat’iy nazorat ostiga olindi.

1917 yil oxirlarida Hamza boshchiligida Skobelevdagi maktab qoshida yosh o‘qituvchilar va o‘quvchilardan “Muzika drama to‘garagi” tashkil etildi. Muzika to‘garagida Muhiddin Qori Yoqubov, Siddiqxoji Islomov, Salohiddin Isomiddinov, Ismoil Muhammadjonov, O‘lmas Qurbonov, Hasan Sodiqov, Qobil Sohibov, Qori Niyoziy bor edi. Musiqa rahbari Grigor degan rus drijyori bo‘lgan[3. B.5.]. Ushbu truppa asosan inqilobiy qo‘shiqlar yozib repertuarini boyitib bordi. Shu sababli ushbu musiqa truppasi faoliyatini hukumat tomonidan qo‘llab-quvvatlandi[8.1989:B.19.].

Jumladan, 1917 yildan keyin tashkil etila boshlangan mahalliy aholi vakillari uchun qo‘shiqchilik san’ati xodimlarini tayyorlaydigan qator ta’lim muassasalari tashkil etildi. 1918 yil 14 may kuni Turkiston xalq universiteti qoshida Xalq konservatoriyasini tashkil etish bo‘yicha birinchi yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. Umumiy yig‘ilishda Karelin, Kox, Mironov, Chernyavskiy va Sokovichdan iborat 5 kishilik “Tashkiliy komissiya” saylandi. Ushbu komissiya Xalq konservatoriyasini tashkil etish maqsadida zudlik bilan Karl Marks nomidagi ishchilar klubi qoshida musiqa kurslari tashkil etishga, shuningdek, quyi maktablarda musiqaning boshlang‘ich nazariyasini o‘qitishga kirishdi[1. B.12.].

Toshkentda Xalq konservatoriyasini tuzish bo‘yicha tashkilotchilar fizika, matematika o‘qituvchilari, havaskor violonchelchi A.M.Popov va skripkachi E.A.Chemyavskiylar mazkur o‘quv dargohini ochish niyatlarini matbuotda e’lon qildilar. E’londa ko‘rsatilgan muddatda Toshkentda istiqomat qilayotgan san’atkorlardan 32 kishi musiqadan yoshlarga dars berishga o‘z xohishlarini bildirdilar. Xalq konservatoriyasi ish faoliyatini reja asosida boshqarish maqsadida 9 kishidan iborat “Kengash” tuzildi. Kengash raisi lavozimiga shifokor, kompozitor, dirijyor I.Gizler-Arskiy, bir yildan so‘ng xonanda V.A.Karelin, kengash kotibi lavozimiga E.A.Chemyavskiy va a’zolariga kompozitor, dirijyor N.N.Mironov, kompozitor V.A.Uspenskiy, xormeyster V.F.Sakovich, violonchel cholg‘usi ijrochisi general V.M.Kox, A.M.Popov va konservatoriyaning xo‘jalik ishlarini olib borishga D.A.Lukonin saylandilar[7.2018:B.25.].

Konservatoriya navbatdagi filiallari Toshkent temiryo‘lining ishchi va xizmatchi xodimlari uchun 1919 yili “Privokzalnaya” nomli bo‘lim (filial) ochilib, bu bo‘limni xormeyster V.F.Sakovich boshqardi. O‘sha yili Toshkentning baland masjid rohat bog‘ida joylashgan “Eski shahar” bo‘limini kompozitor V.A.Uspenskiy boshqardi. Bunday muassasalar Namangan, Qo‘qon, Andijon shaharlarida ham tashkil topdi. 1918 yil Toshkentdagi “Namuna” maktabida musiqa to‘garagi tashkil etildi[2. B.8.]. Toshkentda mashhur hofiz Shorahim Shoumarov boshchiligida bir guruh sozandalar ansambli asosida 1918 yil “Sanoyi nafisa” nomli birinchi kasaba uyushma tuzilib, shahardagi jamiki san’atkorlarning huquqlari himoyasi va musiqiy san’atni xalq orasida targ‘ibot qilishda tashabbuskorlik qildi[7.2018:B.29.].

Konsert va tomoshalar ko‘p odamlar qatnashishi uchun odatda ochiq joylarda qo‘yildi. Bu davrda siyosiy agitatsiya ommani badiiy tarbiyalash bilan bir qatorda konsert-miting shaklida olib borildi. Yana shuni aytib o‘tish joizki, “inqilob”dan avval Farg‘ona vodiysi, Toshkent, Samarqandda istiqomat va ijod qilgan, mashhur, el-yurt hurmatiga sazovor bo‘lgan san’atkorlar, sho‘ro hokimiyati davrida ham, shogirdlari bilan, o‘z faoliyatlarini davom ettirib xalqqa xizmat qildilar. Ular yangi zamonda, shaharning xalq bilan gavjum bo‘lgan katta choyxonalarida o‘z san’atlarini namoyish qildilar. Fikrimizcha bu san’atkorlar qizil choyxonalarda tashkil etiladigan konsert dasturlarida hokimiyat vakillarini oldindan ogohlantirishgan va repertuar bilan tanishtirishgan. Katta extimollik bilan rus ma’murlari talabi asosida qo‘shiqlar kuylangan. Masalan, mahalliy san’atkorlardan Hamzaninig Yunus Rajabiy tomonidan kuyga solingan “Ishchilar uyg‘on”[4. B.1.], “Shundoq qolurmu”[5. B.1.], Orif garmon o‘zbek xalq kuylaridan “Abdurahmonbegi”, “Nasrulloi”, “Ajam”, “Tanavvor”, “Ufor” kabi klassik musiqalardan tashqari “Dunayskiye volnы”, “Amurskiye volnы”, “Krakovyak”, “Polka”, “Varshavyanka”, “Smelo mы poydyom” kabi ruscha qo‘shiqlar bor edi[7.2018:B.31.].

Bu qo‘shiqlarning mazmuni bevosita sovet hukumati siyosatiga mos kelar edi. 1919 yil Tashviqot aravasida ansanbl repertuari kun sayin ko‘paydi. Tashviqot aravasiga “ Yashasin Lenin” “Yashasin oktyabr inqilobi” “Yashasin sho‘rolar hokimiyati” kabi jangovor shiorlar yozilgan edi. O‘zbek uyg‘ur, xalq muzika ashulalaridan tashqari rus ozarbayjon arman halq kuylari bilan kengaydi. Dastlab karvonga Orif –garmon keyinchalik To‘xtasin raxbarlik qildi. “Tashviqot aravasi” keyinchalik Andijon qishloqlaridagina emas Qo‘qon Namangan, Marg‘ilon shahar va qishloqlarida g‘am ish olib bordilar. Beriladigan konsertlar asosan halq kuylari va qo‘shiqlaridan tuzilgan edi [6.1978:B.20.]. 1919 yil 15 iyulda Toshkentda Turkiston Halq maorifi kamissarligi huzurida muzыka-etnografiya bo‘limini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Turkiston halqlari milliy musiqasini, shu jumladan o‘zbek xalq milliy musiqasini tartibga keltirish sohasida V.A.Uspenskiy, Ye.Mel’ngaypis, N.N.Mironovlar ish olib bordilar[6.1978:B.20.].

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Milliy Arxivi. R –414 - fond, 1-ro‘yxat, 25-ish.
2. O‘zbekiston Milliy Arxivi. R –2660 - fond, 1-ro‘yxat, 118-ish.
3. Farg‘ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi arxivi fondi. KP-9014/G-489.
4. Yunus Rajabiy uy-muzeyi arxivi. 5038-sonli qo‘lyozma.
5. Yunus Rajabiy uy-muzeyi arxivi. 53-5-sonli qo‘lyozma.
6. Akbarov I. To‘xtasin Jalilov. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1978.
7. Jabborov A., S.Begmatov., M.Azamova. O‘zbek musiqasi tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
8. Usmonov J. Hamza Xakimzoda Niyoziy qadamjolari. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989.

YER SOLIG‘INI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Sh.Jumayev
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot mavzusi tabiiy resurs hisoblangan yerlarni soliqqa tortishdagi muammolar va ularni bartaraf etishga bag‘ishlanib bo‘lib, maqolada yerlarni soliqqa tortishdagi mavjud muammolar tahlil qilingan va shu bilan birgalikda erlarni soliqqa tortishning iqtisodiy asoslari, ularni hisoblash metodologiyasi va ularning turli manfaatdor tomonlarga va umuman iqtisodiyotga ta’sirini baholashning tahliliy asoslari ko‘rib chiqilgan va xulosalar shakllantirilgan.
Kalit so‘zlar: soliq, yer solig‘i, soliqqa tortish, tabiiy resurslar, soliq stavkasi, soliq imtiyozi.
Аннотация: Тема данного исследования посвящена проблемам налогообложения земель, рассматриваемых как природный ресурс, и их устранению. В статье анализируются существующие проблемы налогообложения земли, а вместе с этим рассматриваются экономические основы налогообложения земли, методология их расчета и аналитическая основа оценки их воздействия на различные заинтересованные стороны и экономику в целом и делаются выводы.
Ключевые слова: налог, земельный налог, налогообложение, природные ресурсы, налоговая ставка, налоговый кредит.
Abstract: The topic of this study is devoted to the problems of land taxation, considered as a natural resource, and their elimination. The article analyzes the existing problems of land taxation, and at the same time examines the economic foundations of land taxation, the methodology for their calculation and the analytical basis for assessing their impact on various stakeholders and the economy as a whole, and draws conclusions.
Keywords: tax, land tax, taxation, natural resources, tax rate, tax credit.

Respublikamizda keyingi yillarda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar davomida davlat soliq siyosatining cheklangan tabiiy resurslar jumlasiga kiruvchi muhim boylik hisoblangan yer resurslaridan iqtisodiy taraqqiyot maqsadlarida samarali foydalanish va uning tabiiy unumdorligini saqlab qolgan holda kelajak avlodlarga yetkazib berish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Shu sababli, bugungi kunda yerlardan unumli foydalanish va uni talon-taroj qilishning oldini olish masalasiga prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Har qarich yer – davlatning, demakki, xalqimizning bebaho boyligi hisoblanadi. Undan noqonuniy, o‘zboshimchalik bilan foydalanishga hech kimning haqqi yo‘q” deya ta’kidlagan fikri yerlardan samarali foydalanishga va oqilona munosabatda bo‘lishga undaydi.

Unumdor yerlarni sotish, noqonuniy tarzda uy-joy qurib olish, shartnomada ko‘zda tutilgan ekinlarni ekishdan bo‘yin tovlash kabi holatlari xalqning milliy boyligi hisoblangan yerdan unumli foydalanish bo‘yicha mas’uliyatini kuchaytirish choralari yer solig‘i va uning ma’muriyatchiligini oqilona tashkil etishga e’tibor bilan yondashishni talab qiladi.

1-jadval. Yuridik shaxslar tomonidan to‘langan yer solig‘ining ulushi tahlili, mlrd so‘mda

Ko‘rsatkichlar	Yillar				
	2018	2019	2020	2021	2022

Byudjet jami tushumi	54 202,8	83 323,	103 566,4	127 970,4	148 388,3
Yer solig‘i tushumi	1 182,6	2 288,0	2 389,7	4 060,0	5 328,8
Shundan, yuridik shaxslar yer solig‘i tushumi	765,1	1 382,6	1 292,1	2 618,3	3 422,0
Yuridik shaxslar yer solig‘i tushumining umumiy yer solig‘idagi ulushi, %	64,7	60,4	54,1	64,5	64,2

Jadvalda keltirilgan ko‘rsatkichlar 2018-yildan 2022-yilga qadar yuridik shaxslar tomonidan to‘langan yer solig‘ining tushumlar tahlilini o‘zida ifoda etgan bo‘lib, bu miqdorlar 2018-yilda 765,1 mlrd so‘mdan 2019-yilda 1 382,6 mlrd so‘mgacha oshgan bo‘lsa, 2020-yil pandemiya oqibatlari sabab biroz pastladi va 1 292,1 mlrd so‘mni tashkil etdi. Biroq, yer solig‘i islohotlari samarasi o‘laroq bu summa 2022-yilda qaryib, 3 barobarga oshib, 3 422,0 mlrd so‘mgacha yetib bordi va umumiy yer solig‘i tushumlarida o‘rtacha 64 % atrofidagi ulushni egalladi. Chuqur tahlilar shuni ko‘rsatadiki, 2020-yilda pandemiya oqibatlarini yumshatish uchun berilgan yer solig‘idan aynan yuridik shaxslar uchun imtiyozlar sabab tushumlar kamayishi yuz bergani tushumlarning umumiy yer solig‘idagi ulushi 54,1 %ni tashkil etganidan anglash mumkin.

Umuman olganda, yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i tarkibidan kelib chiqqan holda mulohaza yuritsak, yuqoridagi ko‘rsatkichlar tarkibida qishloq xo‘jaligi yerlardan undirilgan soliqning salmog‘i qancha ekanini ochchiqlashni talab etadi va bu tahlil jadvalda batafsil keltirilgan.

2-jadval. Yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalari to‘g‘risida ma’lumot

Ko‘rsatkichlar / Yillar	soliq to‘lovchilar soni, dona	Eer maydoni (ga)	normativ qiymati	hisoblangan soliq summasi	Tushum miqdori	byudjet jami tushumi	jami tushumga nisbatan yer solig‘i ulushi
2018	164 802	12 779,3	27 657,4	231,7	216,3	54 202,8	0,4
2019	163 888	11 971,7	39 074,9	318,5	276,0	83 323,9	0,3
2020	95 769	12 710,7	50 480,6	379,5	284,1	103 566,4	0,3
2021	103 816	13 134,2	65 033,8	518,1	426,8	112 699,4	0,4
2022	113 361	14 446,0	71 037,5	555,9	422,5	148 388,3	0,3

Jadvalda berilgan ma’lumotlar bevosita yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalari to‘g‘risida bo‘lib, bunda soliq to‘lovchi yuridik shaxslar soni, umumiy qishloq xo‘jaligi yer maydoni, hisoblangan soliq summasi va jami yer solig‘i tushumiga nisbatan aynan qishloq xo‘jaligi yerlaridan soliqning ulushi ko‘rsatkichlari berilgan.

Jumladan, soliq to‘lovchilar soni 2018-yilga nisbatan (164 802 dona) keyingi yillarda sezilarli tushib ketganing guvohi bo‘lish mumkin. Masalan, 2020-yilda (95 769 dona) bu ko‘rsatkich eng past miqdorni egallagani pandemiya bilan bog‘lagan holda izohlansa, boshqa yillardagi ko‘rsatkichlarni esa qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida klaster tizimiga o‘tishi va’ji sabab deyish mumkin. Qolaversa, yer maydoni, uning normativ qiymati va hisoblangan soliq summasi yildan yilga ortib borganini ko‘rsatsada, jami yer solig‘i tushumiga nisbatan aynan qishloq xo‘jaligi yerlaridan soliqning ulushi ko‘rsatkichlari 2018-yilga (0,4 %) nisbatan pastlagani (0,3 %) ushbu tarmoq tizimiga ta’sir etuvchi yer solig‘ini undirish mexanizmini, berilayotgan imtiyozlar hajmini yana bir bor ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Ma’lumki, yuridik shaxslar o‘z faoliyati davomida ko‘chmas mulklarining juda past baholangani sabab juda kichik miqdorda soliq to‘lashlari foydalanmay turilgan obe’ktlarga nisbatan mas’uliyatsizlik bilan munosabatda bo‘lishiga, ularning joylashgan joyidagi yer resurslariga nohaqlik qilayotgani soliqli tushumlardagi ko‘rsatkichlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Bunda, soliq to‘lash bazasi sifatida qaraladigan miqdor yetarlicha asoslanmagan deb hisoblaymiz.

Respublika bo‘yicha jami 4,6 mingta yuridik shaxslar balansida bo‘lgan (8 million metr kvadrat) mulkning qiymati nol bo‘lganligi sababli mulk solig‘i to‘lamagan;

Yuqorida keltirilgan muammolar yuridik va jismoniy shaxslarning yerlardan besamar foydalanishini cheklash va bu yerlarda joylashgan mol mulk obe’ktidan undiriladigan soliqni undirish mexanizmi samaradorligini ta’minlash va jaxon tajribasiga moslashtirishda kerakli choralar qo‘llashni va maqbul yechimlarni talab qilmoqda.

Barqaror rivojlanish uchun yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘libgina qolmay, dunyo aholisining o‘sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish va ekotizimlarning uzoq muddatli hayotiyligini ta’minlash uchun, shuningdek, ish o‘rinlari yaratish, hosildorlikni oshirish va uy-joy, suv, sanitariya kabi asosiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash orqali iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy farovonlikka xizmat etadi.

Shu bois, yerdan foydalanish unumdorligini oshirish barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo‘lida qashshoqlikni kamaytirish, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish va atrof-muhitni muhofaza qilish uchun kerakli dastak sifatida yerdan barqaror foydalanish usullarini ilgari surish, yer degradatsiyasini kamaytirish, biologik xilma-xillikni saqlash va yer resurslaridan adolatli foydalanishni ta’minlash kabi chora-tadbirlarni o‘z ichiga olishi kerak deb hisoblaymiz.

Respublikamiz soliq tizimida yer resurslaridan samarali foydalanishning soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha olib borgan izlanishlar natijasiga ko‘rab quyidagi muxim xulosalar shakllantirildi:

yer resurslarini soliqqa tortishdagi muammolar jamiyat, iqtisodiyot va atrof-muhitga keng miqyosli ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi bilan ahamiyatlidir. Zero, yer solig‘i davlat maxalliy byudjeti uchun muhim daromad manbai bo‘lib, bir tomondan davlat xizmatlari va infratuzilmasini moliyalashtirishga yordam bersa, boshqa tomondan cheklangan resurslardan oqilona va unumli foydalanishni rag‘batlantirada hamda tabiat uchun kelib chiqishi mumkin bo‘lgan turli zararlaning ta’sirini kamaytirishga xizmat etadi;

yer solig‘i siyosatning salbiy ta’sirlarni minimallashtirish orqali ko‘zlangan maqsadlarga erishishini ta’minlash uchun mavjud muammolarni kompleks va mutanosib ravishda hal etish soliq tizimi oldida turgan muhim vazifa ekanini hisobga olsak, bu amaliy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy muammolar kabi jihatlarga asoslangan xolda turkumlanadi;

Respublikamiz soliq tizimida yer solig‘i ma’muriyatchiligini samarali tashkil etishda qishloq xo‘jaligi maqsadida ajratilgan yer uchastkalaridan foydalanayotgan yuridik va jismoniy shaxslar uchun soliq yukidagi katta tafovutning borligi, yuridik shaxslar o‘z faoliyati davomida ko‘chmas mulklarining soliq bazasi sifatida qaraladigan miqdor juda pastligi, hududlarda yer qonunchiligiga rioya qilmaslik, egaligida bir nechta mol mulk ob’ektlari mavjud jismoniy shaxslar bu obe’ktlardan turli maqsadlarda foydalansada soliqlarni bir xilda to‘lashi kabi muammolar aniqlandi;

bugungi kundagi yer solig‘i bilan bog‘liq mavjud muammolarni bartaraf etish, yer solig‘i yig‘iluvchanlik darajasini oshirish, soliq bazasini kengaytirish va buning zamirida bizga azaliy meros hisoblangan yerlardan samarali foydalanish metodlarini ishlab chiqishda ilg‘or chet mamlakatlari soliq tizimining tajribasiga tayanamiz;

Barqaror rivojlanish uchun yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘libgina qolmay, dunyo aholisining o‘sib borayotgan yehtiyojlarini qondirish va ekotizimlarning uzoq muddatli hayotiyligini ta’minlash uchun, shuningdek, ish o‘rinlari yaratish, hosildorlikni oshirish va uy-joy, suv, sanitariya kabi asosiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash orqali iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy farovonlikka xizmat etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Грузин П. П. // Налогообложение материальной выгоды от экономии на процентах за пользование заемными (кредитными) средствами [Текст] /Бухгалтерский учет. - 2008. - N 10. - С. С. 26-32 УДК ^a336.0/.5 ББК 65.261 Рубрики: Экономика—Россия Финансовая система

2. Jumaev S. (2024) On improving the methodology of tax administration of large taxpayers in the republic of Uzbekistan //Gospodarka i Innowacje. – 2024. – Т. 48. – С. 330-336.

3. Sh.Jumaev. (2024)"O‘zbekiston Respublikasi byudjet daromadlarida yirik soliq to‘lovchilarning roli va ahamiyati." Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting 4.11: 32-38.

4. Sh.Jumaev. (2023) "O‘zbekiston soliq tizimida yirik soliq to‘lovchilarni soliqqa tortish ma’murchiligining shakllanishi." World scientific research journal 15.1: 14-23.

5. Жумаев, Ш. . (2022). Йирик солиқ тўловчиларнинг солиқ тушумлари прогнозларини такомиллаштириш масалалари. Economics and Innovative Technologies, 10(6), 335–341. https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss6/a36

XITOY MUTAFAKKIRI VAN YANMIN TA’LIMOTIDA MA’NAVIY-AXLOQIY VA GNOSEOLOGIK QARASHLAR TAHLILI

S.S.Xoshimov
Farg’ona davlat universiteti tayanch doktoranti, Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti katta o’qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada XV-XVI asrda Xitoyda yashab ijod qilgan mutafakkir Van Yanmin falsafiy ta’limotining ma’naviy-axloqiy va gnoseologik qarashlari ochib berilgan. Unda insonning komillikka erishish maqsadida nafsni tarbiyalashi, inson o‘zligini anglashi uchun olamdagi mavjud narsalar mohiyatini anglashi lozimligi ko‘rsatib o‘tilgan.
Kalit so‘zlar: konfusiylik, daosizm, buddizm, nafs, bilim, inson, ong.
Аннотация: В статье раскрываются духовно-нравственные и гносеологические взгляды философского учения китайского мыслителя Ван Янмина, жившего и творившего в XV–XVI веках. Показано, что для достижения совершенства человек должен воспитывать свои желания и постичь суть существующих в мире вещей, чтобы осознать собственную сущность.
Ключевые слова: конфуцианство, даосизм, буддизм, страсти, знание, человек, сознание
Abstract: The article explores the moral-spiritual and gnoseological views of the philosophical teachings of Wang Yangming, a Chinese thinker who lived and worked in the 15th–16th centuries. It emphasizes that in order to attain perfection, a person must discipline their desires and comprehend the essence of things in the world to truly understand their own self.
Keywords: confucianism, daoism, buddhism, desires, knowledge, human, mind

“Buyuk qadimiy sivilizatsiyalar har doim bir-biriga o‘xshash, bir-birini tushunadi va ruhan yaqindir. O‘zbek va xitoy xalqlarining madaniyati va ideallari o‘xshash. Bizning tarixiy aloqalarimiz Buyuk Ipak yo‘lining boshlanishiga borib taqaladi”.[1]

Xitoy insoniyat sivilizatsiyasi poydevoriga tamal toshlaridan birini qo‘ygan, dastlabki falsafiy fikrlar vujudga kelgan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Bu o’lkaning falsafasi turli xil yo‘nalish va oqimlarga boydir. Ularda falsafiy tafakkur qadriyatlarini ishlab chiqishga jazm qilgan mashhur kishilar, o‘z davrining ko‘zga ko‘ringan donishmand-faylasuflari tabiat, jamiyat va inson hayotiga taaluqli bo‘lgan ko‘pgina muammolarning yechimini topish yo‘llarini izladilar hamda o‘z davri shart-sharoitlari g‘oyalaridan kelib chiqqan holda o’z ta’limotlarini yaratdilar. Shunday insonlardan biri bo‘lgan neokonfusiychilik maktabining vakili, mutafakkir Van Yanmindir. Van Yanmin Xitoyda Konfusiydan so‘ng jamiyatda chuqur iz qoldirgan eng yirik faylasuflardan biri hisoblanadi. U o‘zining butun hayoti davomida konfusiychilik aqidalari hukmron bo‘lgan Xitoy madaniyati va siyosatida neokonfusiychilikning fundamental asoslari va g‘oyalarini qayta rivojlantirish yo‘llarini qidirdi. Uning vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga ishonch, sodiqlik kabi qarashlari bugungi kunda nafaqat Xitoy hududida, balki Sharqiy Osiyo davlatlarida ham yetakchi g‘oyalardan biri sifatida qaraladi. Shu tariqa, hozirgi paytda ham Van Yanminning falsafiy qarashlari juda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘rta asrlarda Xitoydagi uch ilm sintezi - konfusiylik, daosizm va buddizm Xitoy mafkurasining muhim belgilaridan hisoblanadi. Bu uch ilm olimlari o‘zlari yashagan o‘rta asrlarda ham, undan keyingi tarixiy bosqichlarda ham davlatning axloqiy – ijtimoiy prinsiplarining qo‘riqchilari va muallimlari, huquqiy normalar va ta’lim tizimining yaratuvchilari sifatida e’tirof etilmoqda. Ma’lumki, Xitoyda o‘rta asr huquq va axloqiy qarashlarining asosida konfusiylik ta’limoti yotadi. XV-XVI asrda konfusiychilik ta’limoti negizida mutafakkir va davlat arbobi Van Yanminning ham huquqiy va ma’naviy-axloqiy qarashlari shakllandi. Uning g‘oyalari davlat boshqaruvida hamda o‘sha davr axloqiy tamoyillaring rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Shu bilan birga, Van Yanmin falsafiy g‘oyalarining shakllanishiga buddaviylik va daosizm ham kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Inson tabiati, uning ichki dunyosi muammolarining ustivorligi yanminizmning antropologizatsiyasiga olib keldi hamda ushbu ta’limotni keng tarqalishiga sabab bo’ldi.[2] O‘zidan oldingi faylasuflardan farqli o‘laroq (ular ko‘proq e’tiborini jamiyatga qaratishgan) neokonfusiychilik g‘oyalarining ta’siri natijasida individual shaxs mutafakkir falsafasining eng asosiy ob’yektiga aylana bordi. Shu sababli, yanminizmda mavhum insoniyat emas, balki individual shaxs, aniq insonga e’tibor birinchi darajali maqomga ega bo‘ldi. Ob’yekt emas, balki sub’yektga bo‘lgan munosabat Van Yanminning boshqa faylasuflardan farqlab turuvchi muhim xususiyatlardan biridir.

Van Yanmin inson o‘zida osmonning oliy tamoyilini saqlash (xitoyda “osmon” buyuk yaratuvchi sifatida talqin qilinadi) va insoniy xirs hamda havoyi istaklarni jilovlash va ezgu maqsadlar sari yo‘naltirishda “nafsni” tarbiyalash kerakligi haqida fikr yuritadi. “Nafs jilovlanganda osmonning oliy tamoyili doimo tiniq bo‘ladi, insoniy istaklar bo‘g‘iladi va o‘z-o‘zini yo‘q qiladi” deb ta’kidlaydi. Ya’ni inson o‘z nafsining quliga aylanib qolishdan saqlana olsagina ezgu maqsadlarga intilish kuchayadi va yomonlik hamda gunoh ishlarga undovchi o‘y-fikrlardan halos bo‘ladi.

Nafsni tarbiyalash “inson ongida be’mani fikrlar bo‘lmasligini, tashqi olamda esa bema’ni harakatlar sodir etilmasligini” talab qiladi. “Qachonki yurakda johillikka undovchi istak qolmasa, mana shu tarbiyalangan nafs bo‘ladi”.[3]

Van Yanmin axloqiy normalarni inkor qiluvchi diniy qarashlarga qarshi chiqadi. Uning insonda nafsni tarbiyalash haqidagi fikrlari musulmon Sharq madaniyatida maydonga kelgan tasavvuf ta’limotiga o‘xshash va hamohangdir.

Van Yanmin barcha narsalarda ijobiy sifatlarga ega “li” (xitoy falsafasiga ko‘ra, ruhiy olam, ruhiy substansiya, ezgulik) [4] mavjud bo‘lsa, u ezgu bo‘ladi deb ta’kidlaydi. Faylasuf davlatda ham davlatchilik yoki boshqaruv “li”si bo‘lishi kerak, deb hisoblaydi. Agar davlat shu “li”ga asosan tashkil etilgan va boshqarilayotgan bo‘lsa, u barqaror bo‘ladi va ravnaq topadi, agar buning aksi bo’lsa u xaosga yo‘liqadi. Mutafakkir bunday “li” qadimgi donishmand hukmdorlar amal qilgan va ular o‘rgatgan boshqaruv tamoyili ekanligini, u o‘tmishda ham kelajakda ham bir xil ko‘rinishda bo‘ladi deb ta’kidlaydi. Unga rioya qiladiganlar muvaffaqiyat qozonadilar, unga rioya qilmaydiganlar muvaffaqiyatsizlikka uchraydilar. Nafaqat qadimdagi donishmandlar unga amal qilganlar, hattoki bugungi kunning buyuk shaxslari ham bu tamoyilga amal qilmasalar, muvaffaqiyatga erisha olmaydilar. Biroq bu yerda tafovut bor. Qadimdagi donishmandlar asosiy narsalarni a’lo darajada bajarib, “oltin muvozanat”ni tutib tura olar edilar, shu bois ular bajarayotgan barcha narsalar boshidan oxirigacha yaxshilikka to’la edi. Mutafakkir ta’kidlashicha, o‘zi yashagan davrdagi o‘zini buyuk deb atagan odamlar hech qachon “li”ga rioya qilmadilar va faqatgina o‘z nafsoniy tilaklariga binoan faoliyat yuritganlar. Ular qaysi sohada muvaffaqiyatga erishish oson bo‘lsa, o‘sha sohada muvaffaqiyatga erishib, “li”tamoyiliga amal qilmoqdamiz deb o‘ylaydilar. Lekin, amallarni a’lo darajada bajarmaydilar, shuning uchun ular “oltin muvozanat”ni tutib tura olmaydi. Ular har sohada bir-birlariga o‘xshaydi. Ular bajarayotgan narsalar “li”ga batamom muvofiq kelishi mumkin emas, shuning uchun ularning barkamolligi komillik emas”.[5]

Aksar Xitoy mutafakkirlari Aflotunning “faylasuf hukmron, yoki hukmron faylasuf bo‘lmagunicha mukammal davlat hosil bo‘lmaydi”, degan fikrini qo‘llab-quvvatlaydilar. Qadimgi Xitoy hukmdorlari faylasuf bo‘lishga intilganliklari haqida ham Van Yanmin o‘z mulohazalarini bildirib o‘tgan.

Mutafakkir bilimdan mahrum insonning ongi yo‘q deb biladi. Olamda “li”ga ega bo‘lmagan narsalar yo‘q. Ammo “li”ni to‘liq anglay olmaganligi tufayli bu bilim to‘liq bo‘lolmaydi. U o‘zining “Buyuk ustozga savollar” (Da syuye ven) kitobining birinchi nasihatida “o‘quvchi mavjud narsalar haqidagi bilimni nihoyasiga yetkazishi va shu bilan o‘z bilimlarini maksimal darajaga oshib borishi uchun anglagan “li”lari yordamida yo‘lda davom etishi kerak” deb qayd etadi. Bu yo‘lda barcha kuchlarini sarf qilgan inson bir kuni albatta barchasini anglaydi. O‘shanda barcha narsalarning ichki va tashqi, nafis va qo‘pol xususiyatlari namoyon bo‘ladi, ong esa haqiqat ravshanligiga to‘ladi deya ta’kidlaydi.

Faylasuf o‘zining pand-nasihatlarida komil inson darajasiga yetishish uchun bular yetarli emas deb hisoblaydi. Agar insonda ong bo‘lmasa, narsalar mohiyatini anglash oddiy ma’naviy mashq bo‘lib qolaveradi va bu biz hohlagan maqsadga, fikrning oydinlashuviga olib kelmaydi. Narsalarning mohiyatini anglagan holda biz o‘z burchimiz, ya’ni o‘z insoniy tabiatimizni namoyon qilishimiz va “marvaridni” yaltirashi uchun tozalashni yodda tutishimiz lozim. Fikrning oydinlashuvi uchun doimo ravshanlik haqida o‘ylash kerak. Ongning vazifasi mana shunda ko’rinadi.

Tadqiqotchilar fikricha yanminizmdagi “bilim va harakat birligi” g‘oyasi insoniy fazilatlar muammosini hal qilishga yordam beradi. Bu xislatlar insonga tug‘ilganida beriladi va insonning shaxsiy hayotidagi muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklari ularga bog‘liqdir. Ularning birligi insonning haqiqiy o‘zligini topishga, o‘zligini yaratishga va muvaffaqiyatga erishishga imkon beradi. Boshqacha aytganda, har qanday muammo bo‘yicha birinchi navbatda to‘g‘ri bilimga erishish, keyin esa bu bilimlarni amaliyotda qo‘llashga harakat qilish zarurdir. Bu esa ularning fikricha, bilim va harakatning birligidir.

Van Yanminning axloqiy va ma’naviy yuksalishga qaratilgan ta’limoti yunon faylasufi Aflotun ta’limotiga, inson tabiatidagi barcha jihatlarda “li”ning mavjudligi haqidagi qarashlari esa, Aflotunning eslash sifatidagi bilim konsepsiyasiga o‘xshdir. Aflotun “biz bilimni barcha mohiyatlar tug‘ilishidan avval olamiz”, degan edi. [6]

Adabiyotlar ro‘yhati

1. Sh.M.Mirziyoyev. “O‘zbekiston – Xitoy: ming yilliklarni qamrab olgan do‘stlik va hamkorlik”. “Jenmin jibao” (人民日报). Pekin – 22.01.2024.

2. Санжарбек Султонбекович Хошимов Ван Ян Мин фалсафий таълимотининг маънавий-ахлоқий ва гносеологик қирралари // Academic research in educational sciences. 2020. №3.

3. Бичурин Н.Я. (1972) “Статистическому описанию Китайской империи” (1842-г). стр-68. М.

4. Кобзев А.И. (1983) Проблема природы человека в конфусианстве (от Конфусия до Ван Янмина) // Проблема человека в традисионных китайских учениях. Стр-128. М.

5. *Sultanbekovich, H. S. (2023). The Philosophy of Human in the Doctrine of Wang Yang Ming. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 4(6), 194-197.*

6. D.Po‘latova, M.Qodirov, M.Ahmedova, A.Abduhalimov, Sh.Shozamonov. (2011) Sharq falsafasi. O‘quv qo‘lanma. T., 494-b.

QON YETISHMOVCHILIGI UNING SABABLARI, OQIBATLARI VA PROFILAKTIKASI BO’YICHA ADABIYOTLARDAN QISQA SHARH

S.O‘.Dadajonova
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti o‘qituvchisi E-mail:dadajonovasevara10@gmail.com Tel:+998902318994
Z.M.Qayumova
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Davolash ishi yo‘nalishi 2-kurs 24.23-guruh talabasi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunda xalqimiz orasida keng tarqalayotgan kasalliklardan biri bo’lgan anemiya ya’ni kamqonlik haqida va uning turlari, kelib chiqish sabablari va ushbu kasallikning xalq tabobati hamda farmasevtika usullarida davolash va oldini olish profilaktika ishlari to’g’risidagi ma’lumotlardan foydalanib qisqacha adabiyotlar sharhi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: eritrotsit, gemoglobin, gemolitik anemiya, aplastik anemiya, postgemorragik anemiya, sideroblastik anemiya, o‘roqsimon anemiya.

Аннотация: В данной статье представлен краткий литературный обзор по анемии — одному из широко распространённых заболеваний среди населения в наше время. Рассмотрены виды анемии, причины её возникновения, а также методы лечения и профилактики данного заболевания как в народной медицине, так и в фармацевтической практике.

Ключевые слова: эритроцит, гемоглобин, гемолитическая анемия, апластическая анемия, постгеморрагическая анемия, сидеробластная анемия, серповидноклеточная анемия.

Annotation: This article presents a brief literature review on anemia — one of the most widespread diseases among the population today. The types of anemia, its causes, as well as treatment and prevention methods in both traditional medicine and pharmaceutical practice are discussed.

Keywords: erythrocyte, hemoglobin, hemolytic anemia, aplastic anemia, posthemorrhagic anemia, sideroblastic anemia, sickle cell anemia.

Kirish. Anemiya yoki kamqonlik-qonning birlik hajmida gemoglobinning past kontsentratsiyasi bilan xarakterlanadi va shu bilan birga, inson tanasida, qizil qon hujayralari (eritrotsit) sonining kamayishi bilan bog’liqdir. Anemiya holati ikkinchi darajali bo’lib, turli kasalliklar jumladan yuqumli, saraton oldi holatlari va saraton kasalliklarining belgisi hisoblanadi. Biroq, anemiya birlamchi holat sifatida organizmning gaz almashinuvi buzilishini keltirib chiqaradi va oqibatda surunkali charchoq, uyquchanlik, bosh aylanishi, holsizlik, asabiylashish rivojlanadi. Og’ir hollarda anemiya shok holatlariga, gipotoniyaga (qon bosimining pasayishi), yurak toj tomirlari va o’pka yetishmovchiligiga, gemorragik shok holatiga olib kelishi mumkin [1,2,4].

Qon yetishmovchiligi dunyo aholisi orasida eng keng tarqalgan patologik holatlardan biri hisoblanadi. Anemiya turlari orasida, kamqonlik rivojlanishi sabablari bo’yicha ularni tasniflashda uning temir tanqisligi, gemolitik, aplastik, sideroblastik, B12-tanqislik, o’roqsimon va postgemorragik anemiya turlariga ajratiladi. Mutaxassislarning fikriga, ko’ra sayyoramizdagi har to’rtinchi odam temir tanqisligi anemiyasidan aziyat chekadi. Bu holatning xavfliligi-temir tanqisligi anemiyasi sezilmas klinik

ko’rinishida bo’ladi. Uning belgilari sifatida umumiy holsizlik, bosh aylanishi, tirnoqlarning mo’rt sinuvchan bo’lishi, terining umumiy quruqlashishi kuzatiladi. Bu kasallik asosan vegetarian, muntazam ravishda qon yo’qotadiganlar, masalan fiziologik sabablarga ko’ra (hayz va farzand ko’rish natijasida ayollarda qon yo’qotish), kasalliklar tufayli (ichki qon ketish, gemorroyning oxirgi bosqichlari va hokazo) va donorlarning doimiy ravishda qon va plazma berishi, turli kasalliklarning surunkali yoki o’tkir shakllari bo’lgan bemorlarda, homilador va emizikli ayollarda uchrash ehtimolligi yuqori hisoblanadi. Temir tanqisligi anemiyasi o’z navbatida oziq-ovqat mahsulotlarida va temirga bo’lgan ehtiyoj yuqori bo’lgan (quvvatsizlik, turli kasalliklarning rivojlanishi, homiladorlik, laktatsiya) holatlarda temir yetishmasligi tufayli yuzaga keladi.[1,2,3,4]

Temir anemiyaning yengil shakllarini odatda ovqat ratsionini to’grilash, vitamin-mineral komplekslar, temir saqlovchi preparatlarni qabul qilish orqali davolasa mumkin. O’rta va og’ir darajadagi anemiya mutaxassis maslahati va tegishli davolash kursini talab qiladi. Sog’lom erkaklarda gemoglobin 130-160 g/l, ayollarda 120-140 g/l, homiladorlik davrida 110 g/l bo’ladi Anemiyaning darajalari jiddiyligi qon tahlili, yoshga va jinsga hamda fiziologik davrga bog’liq. Kasallikning yengil darajalarida har ikki jinsda ham gemoglobin miqdori 90 g/l dan past bo’lsa tashxislanadi, 70-90 g/l gacha bo’lgan holatlar o’rtacha darajadagi kamqonlik va 70 g/l ko’rsatkichidan past bo’lgan gemoglobin miqdori og’ir anemiya bilan ifodalanadi.
[1,2,5].

Ushbu kasallikni davolashda farmasevtikada Gemofer, Ferromaks, Ferrumlek, Ferkoven, Ferropleks, Sorbifer, Maltofer, Aktiferrin, Fersinol, Biofer kabi sirop va tabletkalardan foydalaniladi. Anemiyani tabiiy yo‘llar bilan ham davolab qon miqdorini oshirish mumkin. Buning uchun tarkibida Fe (temir) elementi ko‘p bo‘lgan mahsulotlardan iste’mol qilish lozim. Ismaloq past kaloriyali o‘simlikdir. Bu mahsulotning atigi 100 gr tarkibida 2,7 mg temir mavjud, bu kunlik tavsiya etilgan temirning 15 foizini tashkil qiladi. Ismaloq tarkibidagi C vitamini organizmda temir yaxshiroq so‘rilishiga yordam beradi. Ko‘pgina baliq turlari temirga boy bo’lib, 85 gramm konservalangan baliq go’shti taxminan 1,4 mg temirni o'z ichiga oladi, bu tavsiya etilgan kunlik temirning 8 foizini tashkil qiladi. Baliq tarkibida omega-3 yog‘ kislotalari ham mavjud. Ular immunitet tizimini mustahkamlaydi, miya, yurak va qon tomirlarining normal ishlashini ta’minlaydi. Qovoq urug’ining 30 grammida 2,5 mg temir (14 foiz) bo’lib, bundan tashqari rux, magniy, marganets va kaliyning tabiiy manbaidir. Kurka go‘shti tarkibida 1,4 mg temir (kunlik qiymatning 8 foizi), 28 gr tabiiy qora shokoladning tarkibida 3,4 mg 200 gr pishirilgan yasmiq tarkibida 6,6 mg temir mavjud, bu tavsiya etilgan kunlik qiymatning rekord darajadagi 37 foizini tashkil qiladi. Ushbu mahsulotlar tarkibidagi temirning yaxshi so’rilishi uchun C vitamini bilan birga iste’mol qilish tavsiya qilinadi. Qizil go‘sht anemiyadan aziyat chekadigan odamlar uchun ikki valentli temirning eng boy manbai bo’lib, 100 gr qizil go‘shtda 2,7 mg temir mavjud. Mahsulot tarkibida rux va B guruhi vitaminlariga ham ega. [1,2,6,7]

Xulosa: Anemiya ya’ni kamqonlik juda ko‘pchilikda uchraydigan kasallik bo‘lib, bir qancha simptomatik belgilarni namoyon qilishi mumkin. Kamqonlikni tabiiy yo‘llar bilan davolash mumkin. Zarur bo‘lgan paytda farmasevtik preparatlardan foydalaniladi. Bu kasallikni oldini olish uchun balansli va ratsional ovqatlanish, temirga va B guruh vitaminlariga boy bo‘lgan mahsulotlarni iste’mol qilish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Petrov, V. N., Baxramov, S. M., & Farmankulov, X. K. (1995). *Jelezodefitsitnie anemii*. Toshkent.
2. R.A Sobirova O. A. Abrorov, F. X. Inoyatova A. N. Aripov BIOLOGIK KIMYO Toshkent ’’Yangi asr avlodi’’ 2006-268-bet
3. Мурдахаев Ю.М. ―Ўзбекистонда ватан топган доривор ўсимликлар‖ Тошкент, 1990.
4. Dadajonova , S. (2025). O’SIMLIKLARNI BIOTEXNOLOGIK USULLARDA KO’PAYTIRISHNING QISHLOQ XO’JALIGIDAGI AHAMIYATI: https://doi.org/10.5281/zenodo.15300343. *International Scientific and Practical Conference*, *1*(1), 305-307.
5. Akbarova, Muhayyo Xusanovna, & Dadajonova, Sevara O’Ktamjon Qizi (2022). KO‘KAMARON SCUTELLARIA L. (LAMIACEAE) TURKUMINING AYRIM DORIVOR VAKILLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (10-2), 622-629.
6. Dadajonova , S. O. qizi. (2025). SCUTELLARIA COMOSA O‘SIMLIGINI KIMYOVIY TARKIBI VA KO‘PAYTIRISHDA URUG‘ SAMARADORLIGI. *Qo‘qon DPI. Ilmiy Xabarlar Jurnali*, *5*(1), 48–53. https://doi.org/10.70728/kspi.v5i1.137

7. Dadajonova , S. O. qizi. (2025). SCUTELLARIA COMOSA O‘SIMLIGINI MIKROKLONAL (IN VITRO) USULIDA KO’PAYTIRISH. *Qo‘qon DPI. Ilmiy Xabarlar Jurnali*, 5(1), 48–53. https://doi.org/10.70728/kspi.v5i1.137
8. https://ghealth121.com/treatments/anemia/?lang=uz
9. https://daryo.uz/2023/03/14/anemiya-bilan-kurashuvchilarga-yordam-beradigan-9-ta-oziq-ovqat-mahsuloti

ALISHER IBODINOVNING “KO‘L BO‘YIDA” HIKOYASIDA XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARINING AKS ETISHI

I.X.Xoliqulova
Shahrisabz davlat pedagogika instituti 1-kurs Tayanch doktaranti *Tel:+998999447107*

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyoti vakillaridan biri Alisher Ibodinovning hikoyalarida xalq og‘zaki ijodi namunalari, jumladan, afsona, rivoyat, qo‘shiq, xalq maqollarining badiiy ifodasi talqin qilindi. Tadqiqot ishida hikoya qahramonlarining ruhiy olami, ichki kechinmalarini tasvirlashda xalq og‘zaki ijodi namunalarining o‘rni, adabiy-estetik ahamiyati borasida atroflicha fikr yuritildi.

Kalit so‘zlar. Rivoyat, afsona, qo‘shiq, xalq og‘zaki ijodi, obraz, milliy ruh.

Annotation. This article interpretrs the artistic expression of folk oral works, including legends, tales, songs, and proverbs, in the stories of Alisher Ibodinov, one of the representatives of modern Uzbek literature. The research paper examines in detail the role and literary and aesthetic significance of folk oral works in depisting the charakters in the story.

Key words. Narrative, legend, song, folk, art, image, national, spirit.

Adabiyot yaralibdiki xalq og‘zaki ijodi badiiy nasrning o‘zagi bo‘lib kelmoqda. Ilk yozma adabiyot namunasi bo‘lgan Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu Lug‘atu turk” asarida xalq qo‘shiqlari, marsiyalar keltirilgan bo‘lsa, Gulhaniyning “Zarbulmasal” asarida 400 dan ortiq maqollar jamlangandir. Har bir yozuvchining asarida xalq og‘zaki ijodining u yoki bu janri namoyon bo‘ladi. Badiiy asarda folklor namunalaridan foydalanish asarning milliyligini oshiradi, o‘sha xalqning milliy ruhini aks ettirib, qadriyatlarini namoyon qiladi. Shuningdek afsona, qo‘shiq, maqol, matal kabilarning avlodlarga yetib borishida muhim estetik vazifa bajaradi. Adabiyotshunos olim H.Umurov aytganidek: “Yozma adabiyotning hamma janrlari ibtidosini, negizini xalq og‘zaki ijodida ko‘rish mumkin. Folklor asarlarida xalq ruhiyati, ko‘p asrlik ijtimoiy-siyosiy kurash tarixi ifodasini topgan. Xalq hayotining ko‘zgusi, ensiklopedoyasi, solnomasi sifatida rang-barang boyligi bilan o‘ta ta’sirchan va donolikka o‘rangan oddiyligi bilan hamon kishilarni maftun etadi”. [1. 2004, 6.]

Yozuvchi Alisher Ibodinov hikoyalarida folklordan foydalanish orqali xalq hayotini, orzu-istak, tuyg‘u-ehtiros, shodlik-alam, mehr va qahrini, go‘zal ma’naviy olamini olamini ochib bera olgan. Uning hikoyalari mazmuniga folklor janrlarining uyg‘unlashib ketganligini ko‘rishimiz mumkin. “Ko‘l bo‘yida” hikoyasida qahramonlar tilidan qo‘shiq, yalla, yor-yor, afsona va g‘azallar kuylanadi, bu janrlar esa obrazlarning xarakteri, ichki kechinma, ruhiy olamini ochish uchun xizmat qilgan. Hikoya qahramonlaridan biri Amir adabiyotga oshno, o‘zbek adabiyoti namunalarini o‘rganib, yod olgan , ularning mazmunini chuqur anglab yetgan obraz sifatida tasvirlanadi. Hikoya voqealari qishloqdan ancha olis bo‘lgan tog‘etaklarida kechadi. Milliy tabiat manzarasi bilan xalq og‘zaki ijodi namunalari bir-biriga yanada uyg‘unlashgan: “…kampirning ichkaridan xiyol xirqiroq, zaif va ana shu zaif-hazinligi bilan yurakka allanechuk hasrat soladigan ovozi eshitila boshladi:

Ket desang Qashqar ketay,
Yo‘llarda yolg‘izlik yomon.
Yolg‘izlikdan kim o‘libdi,
Hammadan xo ‘rlik yomon.
Anov turgan olmamikan, normikan, normikan,
Soyasida yotgan bizning yormikan-ey, yormikan?
Soyasinda yotgan bizning yor bo‘lsa, yor bo‘lsa
Ikkimizni qo‘shar kunlar bormikan-ey, bormikan?

U xonaga qaytib kirganida, kampir ro‘moli yelkasiga sirg‘alib tushganini ham sezmasdan, ko‘zlari yumilib-yumilib kuylardi”. [2. 2024, 493.] Ushbu parcha orqali momoning ichki kechinmalari, yoshlik davridagi armonlari aks ettirilgan. Amirning momosi va bobosi uzoq yillar davomida qishloqdan uzoqda yashagan, momosi sevgan insonidan ayrilib, boshqa insonga turmushga chiqqan edi. Momoning dardu-hasratlari qo‘shiq, yor-yor, yallalarga singib ketgan edi: “Ko‘z yoshing boshingni yesin, nega qon qilasan odamni! Shiru shavkatning ichida bo‘lasan, yog‘ yeb, yog‘lama tashlaysan! Hu juvon o‘lgur! …Xullas uzatishdi. Qo‘qon aravada liqirlatib olib ketishyapti, deng! Oy huddi mana shunaqa charaqlab turibdi. Xotinlarning yor-yori yuragimni tirnaydi, hiq-hiq yig‘layman…

Oq miltiq, qora miltiq,
Otgan otam, yor-yor.
O ‘z qizini yot qilib,
Sotgan otam yor-yor.
O ‘z qizining yo ‘liga,
Bodom eksin, yor-yor
Bodom shoxi qayrilsa,
Bolam desin, yor-yor.

Bir vaqt uzoqdan birov yalla qildi. Shahobiddin. Yuraklarim o‘rtanib ketdi-ey!” [3. 2024, 501]. Sodda qishloq ayolining sevgisini yozuvchi yor-yor orqali aks ettirgan.

Folklor institutining xalq og‘zaki ijodi namunalarini yig‘ish uchun kelgan talabalarga momo ko‘plab qo‘shiqlar bilan lol qoldiradi.

“ Marg‘ilonlikning yo‘lida
Yakka terak o‘sibdi.
Yorim kelar yo‘llarni,
Tikan o‘tlar to‘sibdi.

Kampir shunchaki xirgoyi qilayotgandek past ovoz bilan boshlar, so‘ng avjiga chiqar, shu paytda zaif titroq tovush benihoya hazinlashar, qo‘shiq ohangiga teran bir mung to‘kilar edi.”

Hikoya badiiyligini oshirishga “Hur qizlar” afsonasi ham muhim adabiy-estetik vazifa bajargan. Afsona-xalq og‘zaki ijodining qadimiy janrlaridan biri bo‘lib, unda hayotiy voqealar, tarixiy shaxslar, tabiat, hayvonlar, tog‘lar, daryolar, qadamjolar va boshqa narsalar haqida xalq tasavvurlari, ishonchlari va fantaziyasi aks etadi. Hikoyada qahramonlar afsonani eshitish orqali o‘tmish bilan bog‘lanadilar. Bu esa o‘quvchini xalq xotirasiga qaytaradi, milliylik va xalqonalik tuyg‘usini yuzaga keltirish uchun xizmat qiladi.

“Ko‘l bo‘yida” hikoyasida keltirilgan afsona hikoyaga faqatgina fakt emas, balki ramziy va ruhiy vosita sifatida xizmat qilgandir: “U anqayib turgan Gulnoraga tushuntirdi: qadim zamonlarda darada hur qizlar yashaganlar. Huddi amazonkalardek. Bir kuni yov bosgan. Hur qizlar yov bilan olisha-olisha huv baland cho‘qqiga chekinadilar. Yov har tarafdan o‘rab kela boshlabdi .Qizlar malikasi tiz cho‘kib, tog‘u toshlarga yolvoribdi. Ulkan qoya birdan yorilibdida, ularni o‘z bag‘riga olibdi. Iffatni jondan yuksak bilgan hur qizlar hamon tog‘ bag‘rida emish.” [3. 2024,499] Ushbu afsona ramziy ma’no ifodalamoqda. Hikoyada afsonaning keltirilishi ham bejiz emas: rus muhitda ulg‘aygan, o‘ziga bino qo‘ygan talaba qiz Gulnoraga hur qizlarning iffatini saqlash uchun jonidan ham ustun ekanligi o‘rnak bo‘ladi, albatta. Tog‘lar orasida joylashgan Oydinko‘lning hur qizlarning ko‘z yoshidan paydo bo‘lganligi haqidagi afsona ham Gulnora uchun juda hayratlanarli edi. “Hur qizlar” afsonasi nafaqat qahramon qizlar uchun, balki barcha kitobxon qizlar, ayollar uchun o‘rnak bo‘la oladigan afsonadir. Zero, folklorshunos olim Oxunjon Safarov ta’kidlaganidek: “Afsona sof axborot beruvchilik vazifasini bajaradi. O‘zbek xalq afsonalarining sujet tarkibida turky va boshqa xalqlar mifologiyasi bilan bog‘liq ko‘plab qadimiy motivlar saqlanib qolgan. Afsona sujetini turli mifologik, diniy hodisalar, geografik joylar nomi, tabiat hodisalari, ayrim tarixiy shaxs va voqealarga aloqador g‘aroyib talqinlar tashkil etadi. Shunga ko‘ra afsonalarning mazmun-mundarijasi rang-baranglik kasb etadi.”[4. 2010, 179.]

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashimiz mumkinki, yozuvchi Alisher Ibodinovning faqatgina hikoyalari emas, balki qissa va romanlari ham xalqchilligi, milliy ruh bilan sug‘orilganligi bilan ajralib turadi. Hikoyalarida xalq og ‘zaki ijodi namunalarining keltirilishi asarlarining badiiyligini oshiradi. Kitobxon esa o‘zbek xalqining milliy qadriyatlari, urf-odatlari, an’analari bialn yanada yaqinroq tanishadi. Yoshlarimizning ma’naviyatini oshirish uchun xizmat qiladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Yuksak ma’naviyatli, zamoanaviy bilim va kasb-hunarlarga, o‘z mustaqil fikriga ega

bo‘lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyat ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir.”[5.2017, 1]

Adabiyotlar.

1. Umurov.H. Adabiyotshunoslik asoslari. –T: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004-yil, 6-bet.

2. Ibodinov.A. Tanlangan asarlar. –T: Adabiyot. 2024, 501-bet.

3. Safarov. O. Xalq og ‘zaki ijodi. –T: Musiqa nashriyoti.2010, 179-bet.

4.Mirziyoyev. Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –T: O‘zbekiston. 2017-yil, 1-tom.

ELECTRONIC INFORMATION RESOURCES IN ACADEMIC WRITING

F.N.Yozilova
O’zbekiston Milliy universiteti, Xorijiy Filologiya fakulteti doktoranti

Abstract: Education and research, today, has accelerated significantly, owing much to digital technologies incorporated into university systems, including university libraries. They, in turn, offer literature in both print and digital formats, which has made education and research effective and fast. Digital resources or so-called electronic information resources in various diversities can serve as a useful source of knowledge in developing academic writing skills, although many post-graduate students tend to be unaware of such opportunities. The research investigates different types of EIRs and strategies of information retrieval, aiming to assist novice researchers to use ways of modern resources to boost their academic writing.

Keywords: EIRs, digital technologies, library, scopus, web of science, DOAJ

Annotatsiya: Bugungi kunda ta'lim va ilmiy tadqiqotlar, raqamli texnologiyalarni oliy ta'lim tizimlariga, jumladan universitet kutubxonalariga joriy etilishi tufayli sezilarli darajada tezlashdi. Universitet kutubxonalari bosma va raqamli shakldagi adabiyotlarni taklif qilmoqda, bu esa ta'lim va ilmiy faoliyatni samarali va tez amalga oshirish imkonini bermoqda. Turli xil elektron axborot resurslari (EAR) akademik yozuv ko‘nikmalarini rivojlantirishda foydali bilim manbai bo‘lishi mumkin, biroq ko‘plab magistrantlar bunday imkoniyatlardan bexabardirlar. Ushbu tadqiqot turli EAR turlari va axborotni izlash strategiyalarini o‘rganadi hamda yangi tadqiqotchilarga zamonaviy resurslardan foydalanib, akademik yozishni rivojlantirishda yordam berishni maqsad qilgan.

Kalit so‘zlar: EAR, raqamli texnologiyalar, kutubxona, Scopus, Web of Science, DOAJ

Аннотация: Современное образование и научные исследования значительно ускорились благодаря цифровым технологиям, внедрённым в университетские системы, включая библиотеки. Университетские библиотеки предоставляют литературу как в печатном, так и в электронном формате, что сделало процесс обучения и научных исследований более эффективным и быстрым. Электронные информационные ресурсы (ЭИР) в своем разнообразии могут служить полезным источником знаний для развития навыков академического письма, хотя многие магистранты не осведомлены о таких возможностях. Исследование рассматривает различные типы ЭИР и стратегии поиска информации, направленные на помощь начинающим исследователям в использовании современных ресурсов для улучшения академического письма.

Ключевые слова: ЭИР, цифровые технологии, библиотека, Scopus, Web of Science, DOAJ

With universities incorporating digital technologies, research and education have dramatically changed their pace of progress [1, 2024, p.111]. Modern libraries have started serving as a huge source for academic resources for learning [2, 2024, p.352], teaching and scientific studies [3, 2024. p.136]. Along with traditional literature in print, libraries started to offer literature in digital format, which are called *electronic information resources (EIRs)* [4, 2023, p.103], which make the access to information fast, facilitating learning from distance [5, 2021, p.72]. Such resources, also, allow researchers to share and store information. E-books, e-journals, mobile websites, library websites, online public access catalogs (OPAC), e-research reports are among widely-used EIRs [6, 2025, p.4]. Through computers, tablets or other digital gadgets, researchers can access EIRs, even, to collaborate [7, 2022, p.190]. They are important in higher education, since their use enhances the quality of knowledge acquisition through information which may

not always be available in print format [8, 2016, p.31], [9, 2023, p.12]. However, when a study at Nigerian universities explored the use of library resources, they identified that postgraduates mainly use resources for online reading, seminar presentation, multimedia and online magazines while e-journals and reference materials are used the least. Most users were reported to prefer online data sources and audiovisual content than library e-databases. The main aims were to complete assignments, prepare for seminars and exams. The research suggests increasing awareness and training among postgraduates about library facilities for research and enhanced digital services available for more effective scientific activity [10, 2021, pp.169-170]. Another research confirms that most students are unaware of university library resources such as offline e-book platforms and open access databases, which are left unnoticed. The causes for low usage of such resources are considered to be students’ lack of awareness of offline e-book platforms, poor internet connections and insufficient technical support, unstable electricity supply, a preference to use more familiar ways of accessing information such as subscription-based and open access databases [11, 2024, pp.359-360]. In research, databases and other digital academic resources should be systematically researched, too, prior to compiling the literature review. The types of resources may vary from research studies, theories, models, conceptual papers to other related literature. Databases such as *NLIST, DOAJ, Springer nature, Science Direct, JGATE, EBSCO* [12, 2021, pp. 48-53], *Google Scholar, Web of Science, PubMed, PsycINFO, JSTOR, SCOPUS, ERIC,* and *subject-specific repositories* can serve as useful sources of scientifically sound literature. However, once entered the database, a novice researcher might find it confusing to navigate and find related resources. Thus, applying effective searching strategies such as inserting in *keyword combinations*, using *Boolean operators*, formulating *targeted questions* to find specific data and using *reference lists* from other related research articles can dramatically refine search outcomes [13, 2024, p.115]. Among all, huge databases, *Web of Science* (WoS) and *Scopus* serve as the most reliable sources, allowing researchers: a) to access to multitude of high-quality academic articles and journals and serve as the main source for quality scientific literature; b) to evaluate research by analyzing and measuring the impact of scientific work through citation and other metrics; c) to properly assess how good or important a piece of research is, although with some limitations such as not covering every type of publication equally [14, 2021, pp.45-47]. Open access journals pursuing writing-related scope can, also, be a useful source of academic writing resource. For instance, Assessing Writing, Journal of Second Language Writing, Journal of Writing Research, Journal of English for Academic Purposes and many others may provide huge amounts of beneficial data on how to develop writing skills, enriching the reader with both theoretical and practical insights.

In conclusion, there are many opportunities for researchers to take to make the journey of their investigation meaningful, relevant and of high quality; which only, requires knowing and applying information retrieval skills, using ICTs or digital technologies.

References:

1. Kareem, A. O., Ahmed, A. O., & Oserada, W. (2024). Influence of information searching skills and use of online databases on research output of postgraduate students in universities in South West, Nigeria. *Lafia Journal of Library & Information Science, 5*(1), 110-122, p.111. https://lalibjournals.org/index.php/LJLIS
2. Chukwusa, J., & Oshiokpu, E. I. (2024). Availability, awareness and utilisation of offline e-book platforms and other online databases in university libraries. *Journal of Social Sciences & Humanities*, 9(2), 352-362, p.352.
3. Mommoh, R. L., & Emmanuel, V. O. (2024). Electronic information resources management in academic libraries. Journal of Library Services and Technologies, 6(2), 136-154, p.136. https://doi.org/10.47524/jlst.v6i2.137
4. Abubakar, B. M., Abubakar, H. M., & Gwarzo, S. M. (2023). The management of electronic information resources in tertiary institutions libraries in Kano metropolis. Journal of Library Services and Technologies, 5(1), 103-111, p.103. https://doi.org/10.47524/jlst.v5i1.104
5. Mukhtar, A. M., & Maidabino, A. A. (2021). Management of electronic information resources in Nigerian university libraries: A critical review of literature. *Journal of Library Services and Technologies*, *3*(1), 72-83, p.72. https://doi.org/10.47524/jlst.v3i1.8
6. Masenya, J., & Mashabela, G. (2025). Going mobile for smart public libraries: Factors influencing the adoption of smartphones in accessing EIRs. South African Journal of Libraries and Information Science, 92(2), 1-12, p.4. https://doi.org/10.7553/91-2-2379

7. Mang, K. C., & Musa, E. A. (2022). Purpose of utilization of electronic information resources (EIRs) by microbiology students at University of Jos. International Journal of Advanced Academic Research, 8(11), 188-198, p.190. https://www.ijaar.org
8. Joseph, E. I., & Hamzat, S. A. (2016). Electronic information resources (EIR) adoption in private university libraries: The moderating effect of productivity and relative advantage on perceived usefulness. Journal of Information Science Theory and Practice, 4(1), 30-48, p.31. http://www.jistap.org
9. Eneh, A. C., Ukachi, N. B., Ibikunle, G. O., & Sambe, M. T. (2023). Strategies for sustaining digital libraries and electronic information resources: A survey of Nigerian universities. *Niger Delta Journal of Library and Information Science*, *4*(1), 11-22, p,12. https://doi.org/10.5281/zenodo.8332357
10. Okunlola, A. A. (2021). Utilisation of library based electronic resources and services by postgraduates in Nigerian private universities. *International Journal of Multidisciplinary and Current Educational Research, 3*(4), 164–171, pp.169-170. https://www.ijmcer.com
11. Chukwusa, J., & Oshiokpu, E. I. (2024). Availability, awareness, and utilisation of offline e-book platforms and other online databases in university libraries. *Enugu State University of Science & Technology. Journal of Social Sciences & Humanities, 9*(2), 352–362, pp.359-360.
12. Jadhav, S. L., & Ghatole, G. S. (2021). Directory of open access journals (DOAJ): An overview. *Scholarly Research Journal for Interdisciplinary Studies, 10*(56), 48-53.
13. Heston, T. F. (2024). Foundations of scholarly writing. *An overview on business, management and economics research* . Vol. 8, 113-154, B P International, p.115. https://doi.org/10.9734/bpi/aobmer/v8/2822G
14. Pranckute, R. (2021). Web of Science (WoS) and Scopus: The titans of bibliographic information in today’s academic world. *Publications*, *9*(1), 12, 1-59, pp. 45-47. https://doi.org/10.3390/publications9010012

ZAMONAVIY RAQAMLI TARIX FANI: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA RAQAMLI TADQIQOTCHILARNING DOLZARB IZLANISHLARI

G.M.Qobulova
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti 07.00.01 ixtisosligi
bo‘yicha tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqola zamonaviy raqamli tarix fanining rivojlanish tendensiyalarini, innovatsion yondashuvlarini hamda yosh tadqiqotchilarning ushbu sohadagi dolzarb izlanishlarini tahlil qiladi. Maqolada raqamli asboblar va metodologiyalarning tarixiy tadqiqotlardagi ahamiyati, ularni qo‘llashning afzalliklari va mavjud muammolar atroflicha ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, yosh olimlarning raqamli resurslarni yaratish, ma’lumotlarni vizuallashtirish va keng jamoatchilikka taqdim etish borasidagi faoliyati alohida ta’kidlanadi.

Аннотация: В статье анализируются тенденции развития современной цифровой истории, инновационные подходы и актуальные исследования молодых исследователей в этой области. В статье подробно рассматривается значение цифровых инструментов и методологий в исторических исследованиях, преимущества их использования и существующие проблемы. Также освещается работа молодых учёных по созданию цифровых ресурсов, визуализации данных и их представлению широкой публике.

Abstract: This article analyzes the development trends of modern digital history, innovative approaches, and current research by young researchers in this field. The article examines in detail the importance of digital tools and methodologies in historical research, the advantages of their use, and existing problems. It also highlights the work of young scientists in creating digital resources, visualizing data, and presenting them to the general public.

Kalit so‘zlar: Raqamli tarix, innovatsion yondashuvlar, yosh tadqiqotchilar, ma’lumotlar vizuallashtirish, sun’iy intellekt, Big Data, manbashunoslik, arxivlar, tarixshunoslik.

Ключевые слова: Цифровая история, инновационные подходы, молодые исследователи, визуализация данных, искусственный интеллект, большие данные, источниковедение, архивы, историография.

Keywords: Digital history, innovative approaches, young researchers, data visualization, artificial intelligence, Big Data, source studies, archives, historiography.

Tarix fani insoniyat jamiyatining kechmishini o‘rganuvchi, undan saboq chiqaruvchi va kelajakni belgilovchi asosiy fanlardan biridir. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi an’anaviy tarixshunoslikka yangicha yondashuvlarni olib kirdi va raqamli tarix (Digital History) nomli yangi yo‘nalishning shakllanishiga zamin yaratdi. Raqamli tarix – bu tarixiy tadqiqotlarda kompyuter texnologiyalari, dasturiy ta’minotlar, ma’lumotlar bazalari, Big Data tahlili, sun’iy intellekt (SI) va boshqa raqamli vositalardan foydalanishni nazarda tutuvchi fanlararo sohadir. Uning asosiy maqsadi tarixiy ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash, tahlil qilish va taqdim etish jarayonlarini samaradorligini oshirishdan iborat. Zamonaviy ilmiy muhitda tarix fanining yangi texnologiyalar bilan uyg‘unlashuvi raqamli tarix (digital history) yo‘nalishini shakllantirdi. Mazkur yo‘nalish tarixiy manbalarni raqamli formatga o‘tkazish, ularni tahlil qilishda axborot texnologiyalaridan foydalanish, katta hajmdagi ma’lumotlar bazasini yaratish va u orqali tarixiy xotirani saqlash hamda qayta tiklash imkoniyatlarini kengaytirdi. Raqamli tarixning shakllanishida ayniqsa, yosh tadqiqotchilarning ilg‘or g‘oyalari, texnologiyalarni puxta bilishi va ilmiy izlanishlarga yangicha qarashlari muhim rol o‘ynamoqda.

Raqamli tarix — tarixiy ma’lumotlarning elektron shaklda saqlanishi, tahlil qilinishi va ommalashtirilishini ta’minlaydigan ilmiy yo‘nalishdir. Uning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Raqamlashtirish: arxiv hujjatlari, qo‘lyozmalar, xaritalar, suratlar va boshqa manbalarni raqamli formatga o‘tkazish;
- Ma’lumotlar bazasi yaratish: tarixiy faktlarni tartiblangan va qidiruv imkoni mavjud bo‘lgan elektron tizimda saqlash;
- Axborot texnologiyalaridan foydalanish: GIS (geoinformatsion tizimlar), OCR (optical character recognition), sun’iy intellekt texnologiyalari;
- Virtual rekonstruksiya: tarixiy joylar va obidalarni 3D modellashtirish orqali vizual namoyish etish.

Raqamli tarix fani tarixiy tadqiqotlarga bir qator innovatsion metod, yondashuvlarni joriy etmoqda:

1. Katta hajmli ma’lumotlar (Big Data) tahlili: An’anaviy usullar bilan tahlil qilish mushkul bo‘lgan ulkan arxiv hujjatlari, gazeta materiallari, og‘zaki tarix yozuvlari kabi manbalar endilikda raqamli vositalar yordamida tezkorlik bilan o‘rganilishi mumkin. Matnli ma’lumotlarni avtomatik qayta ishlash, statistik tahlil va tematik modellashtirish kabi texnologiyalar yordamida tarixiy jarayonlar va tendensiyalar haqida yangi bilimlarga ega bo‘linmoqda.
2. Ma’lumotlarni vizuallashtirish: Murakkab tarixiy ma’lumotlarni grafiklar, xaritalar, vaqt jadvallari, tarmoq diagrammalari va boshqa interaktiv shakllarda vizuallashtirish ma’lumotlarni tushunishni osonlashtiradi va yangi aloqalarni aniqlashga yordam beradi. Bu esa tadqiqotchilarga o‘rganilayotgan davr yoki hodisa haqida yanada chuqurroq tasavvurga ega bo‘lish imkonini beradi.
3. Geografik axborot tizimlari (GAT) va tarixiy geografiya: GAT texnologiyalari yordamida tarixiy xaritalar, joy nomlari va geografik ma’lumotlar raqamlashtiriladi. Bu esa tarixiy hodisalarning fazoviy dinamikasini o‘rganish, aholi migratsiyasi, savdo yo‘llari va boshqa geografik omillarning tarixga ta’sirini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.
4. Sun’iy intellekt (SI) va mashinani o‘rganish (Machine Learning): SI texnologiyalari, xususan, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) va kompyuter ko‘rish (Computer Vision) usullari arxiv hujjatlarini avtomatik transkripsiya qilish, qo‘lyozmalarni tanib olish va katta matnli korpuslardan ma’lumotlarni ajratib olish imkonini beradi. Bu esa tadqiqot jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi va inson omilining xatosini kamaytiradi.
5. Raqamli nashriyot va ochiq kirish (Open Access): Raqamli platformalar, onlayn arxivlar va ma’lumotlar bazalari tarixiy tadqiqot natijalarini keng jamoatchilikka oson va tezkor yetkazish imkonini bermoqda. Bu esa ilmiy bilimlarning demokratlashuviga va fanlararo hamkorlikning rivojlanishiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston tarixiy merosini raqamlashtirish bo‘yicha bir qancha loyihalar amalga oshirilmoqda:

- O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, O‘zbekiston FA Sharqshunoslik instituti va TATU hamkorligida loyihalar;
- “O‘zbekistonda raqamli tarix asoslarini shakllantirish” loyihasi;
- “Digital Heritage of Khorezm” loyihasi.

Yosh tadqiqotchilar raqamli tarix fanining rivojlanishida muhim rol o‘ynamoqda. Ularning innovatsion fikrlashi va yangi texnologiyalarni tez o‘zlashtira olish qobiliyati ushbu sohada yangi yo‘nalishlarning ochilishiga zamin yaratmoqda. Yosh raqamli tarix olimlarining dolzarb izlanishlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Raqamli manbalarni yaratish va boyitish: Ko‘plab yosh tadqiqotchilar milliy arxivlar, muzeylar va kutubxonalardagi noyob tarixiy hujjatlarni raqamlashtirish, ularni metama’lumotlar bilan boyitish va onlayn platformalarga joylashtirish bo‘yicha loyihalarda faol ishtirok etmoqda. Bu esa tadqiqotchilar uchun qimmatli ma’lumotlar bazalarini yaratishga xizmat qiladi.
2. Multidisiplinar yondashuvlar: Yosh olimlar tarix fanini boshqa sohalar, xususan, informatika, lingvistika, sotsiologiya va geografiya bilan integratsiyalashga intilmoqdalar. Ular ushbu sohalardagi metodologiya va vositalarni tarixiy muammolarni hal qilishda qo‘llash orqali yangi ilmiy natijalarga erishmoqdalar.
3. Jamoaviy raqamli tarix loyihalari: Yosh tadqiqotchilar tez-tez jamoaviy loyihalarda ishtirok etishadi, bu yerda ular turli ixtisoslikdagi olimlar bilan hamkorlikda murakkab raqamli tarix resurslarini yaratadilar. Bunday loyihalar, masalan, onlayn ko‘rgazmalar, interaktiv xaritalar yoki virtual muzeylar shaklida bo‘lishi mumkin.
4. Raqamli gumanitar fanlar (Digital Humanities) doirasida izlanishlar: Raqamli tarix raqamli gumanitar fanlarning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, yosh tadqiqotchilar bu sohadagi nazariy va amaliy masalalarni o‘rganishga katta qiziqish bildirmoqdalar. Ular raqamli texnologiyalarning gumanitar bilimlarni shakllantirish va tarqatishdagi rolini chuqur tahlil qilmoqdalar.
5. O‘qitish va ta’lim jarayonida raqamli vositalarni qo‘llash: Yosh avlod vakillari sifatida, ular raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiyalashishda faol ishtirok etmoqdalar. Ular talabalarga raqamli manbalar bilan ishlash, ma’lumotlarni vizuallashtirish va raqamli loyihalar yaratish ko‘nikmalarini o‘rgatish orqali kelajak avlod raqamli tarixchilarini tayyorlashga hissa qo‘shmoqdalar.

Raqamli tarix fanining jadal rivojlanishiga qaramay, u bir qator muammolarga duch kelmoqda:

- Texnik ko‘nikmalarning yetishmasligi: An’anaviy tarixchi mutaxassislar orasida raqamli vositalar bilan ishlash ko‘nikmalarining yetarli emasligi.
- Raqamlashtirilgan manbalar sifatining bir xil emasligi: Ba’zi raqamlashtirilgan arxiv hujjatlarining sifati past bo‘lishi yoki metama’lumotlarning yetishmasligi.
- Axborot xavfsizligi va saqlash muammolari: Raqamli ma’lumotlarning uzoq muddatli saqlanishini ta’minlash va ularni turli xavflardan himoya qilish.
- Moliya va resurslarning cheklanganligi: Raqamli loyihalar uchun zarur bo‘lgan moliyaviy va texnik resurslarning yetishmasligi.

Shunga qaramay, raqamli tarixning istiqbollari juda keng. Kelajakda sun’iy intellekt va mashinani o‘rganish usullari tarixiy tahlillarda yanada kengroq qo‘llaniladi. Virtual haqiqat (VR) va to‘ldirilgan haqiqat (AR) texnologiyalari tarixiy muhitlarni qayta tiklash va o‘tmishni jonli ravishda his qilish imkonini beradi. Ochiq fan (Open Science) tamoyillari asosida tarixiy ma’lumotlarning ochiq kirishini ta’minlash ilmiy hamjamiyat uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Raqamli tarix fani tarixshunoslikning kelajagi hisoblanadi. U an’anaviy tarixiy tadqiqotlarni yangi texnologiyalar bilan boyitib, o‘tmishni o‘rganish va tushunish uchun cheksiz imkoniyatlar yaratmoqda. Yosh raqamli tarix tadqiqotchilari ushbu sohaning yetakchi kuchlari bo‘lib, ularning innovatsion izlanishlari va multidisiplinar yondashuvlari fanning yanada rivojlanishiga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalarning tarixiy bilimlarni yig‘ish, qayta ishlash, tahlil qilish va keng jamoatchilikka yetkazishdagi o‘rni tobora ortib bormoqda. Shuning uchun, yosh olimlarni raqamli tarix sohasida faol izlanishlar olib borishga undash va ularni zarur resurslar bilan ta’minlash zamonaviy ilm-fanning dolzarb vazifalaridan biridir. Raqamli tarix — tarixiy fan rivojining yangi bosqichidir. U an’anaviy tarixiy yondashuvlarni inkor etmay, balki ularni to‘ldiradi va chuqurlashtiradi. Ayniqsa, yosh tadqiqotchilar ushbu jarayonda yetakchi rol o‘ynab, innovatsion vositalar yordamida tarixiy bilimlarni zamonaviy talablarga moslashtirishmoqda.

Kelgusida O‘zbekistonda raqamli tarix fanini mustahkamlash uchun ilmiy markazlar, universitetlar va axborot texnologiyalari sohasi o‘rtasida samarali hamkorlik zarur.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Gulomov, Yo. “Raqamli tarix va axborot texnologiyalari”, Toshkent, 2021.
2. UNESCO. “Digital Heritage Guidelines”, Paris, 2020.

3. Conway, P. “Preserving Digital History: Archiving and Accessing Born-Digital Cultural Heritage”, Yale University Press, 2018.
4. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti hisobotlari, 2022.
5. Digital Humanities Quarterly Journal, 2023, Issue 2.
6. http://e-maktab.uz/tarix/raqamli-loyihalar
7. Schreibman, S., Siemens, R., & Unsworth, J. (Eds.). (2016). A New Companion to Digital Humanities. Wiley-Blackwell.
8. Ayers, E. L. (1999). The Pasts and Futures of Digital History. University of Virginia.
9. Kőszegi, I. (2017). The Role of Digital History in Modern Historiography. Hungarian Historical Review, 6(2), 312–330.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-oktabrdagi PQ–4884-son qarori “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida.
11. Alimova, D. A., & Sagdullaev, A. S. (2000). Manbashunoslik va tarixiy tadqiqotlar metodologiyasi. Toshkent: Fan nashriyoti.
12. Turakulov, A. (2021). Raqamli tarix: imkoniyatlar va muammolar. O‘zbek tarixshunosligi masalalari, 2(4), 45–52.

ENHANCING FOREIGN LANGUAGE LEARNING THROUGH A NEUROPEDAGOGICAL APPROACH

Z.A.Khaknazarova
Uzbekistan State World Languages University Faculty of English 2 Teacher at the Department of Methodology of Teaching English Tashkent, Uzbekistan

Abstract. Neuropedagogics is an emerging interdisciplinary field that combines findings from neuroscience, psychology, and education to enhance teaching methods. In the context of foreign language learning, it offers unique insights into how the brain processes and acquires language. This study explores how principles such as neuroplasticity, memory function, sensory integration, and emotional involvement can be used to improve language instruction. Drawing from recent studies and practical applications, we examine the benefits and challenges of adopting brain-based teaching strategies in language classrooms.
Keywords: neuropedagogics, foreign language learning, brain-based teaching, memory, emotion, multisensory instruction

Neuropedagogics connects brain science with classroom practice, providing educators with tools grounded in how the brain naturally learns. As our understanding of cognitive and neural mechanisms expands, more teachers are applying these insights to help non-native speakers master new languages. One of the foundational ideas is neuroplasticity - the brain’s capacity to change by creating new connections throughout life. Language learning has been shown to trigger these changes, especially in areas tied to sound processing, memory, and problem-solving (Battro, Fischer, & Léna, 2008). According to Ullman (2001), vocabulary is typically stored in declarative memory, while grammar relies more on procedural memory. This model suggests effective language teaching should activate both memory systems, offering a blend of memorization and real-world communicative practice.

The literature in the field of educational neuroscience has increasingly underscored the importance of emotional engagement, motivation, and multisensory integration in effective teaching practices. Immordino-Yang and Damasio (2007) argue that emotion is not separate from cognition but integral to learning processes. Mayer (2008) emphasizes that meaningful learning occurs when learners actively engage with content through experience and integration. Germain and Netten (2005) introduced the Neurolinguistic Approach (NLA), which promotes spontaneous spoken communication as a foundation for literacy skills. Students taught using this method demonstrated notable improvements in both implicit and explicit grammatical knowledge (Netten & Germain, 2008).

One practical implication of neuroplasticity is that age may not be as limiting a factor in language learning as previously thought. While young learners may acquire pronunciation and intonation more naturally, adult learners can still achieve high levels of proficiency when learning is designed to capitalize on brain adaptability (Casey, Tottenham, Liston, & Durston, 2005). Activities that challenge working

memory, expose learners to real communication, and stimulate critical thinking can all support this plasticity. Incorporating storytelling, drama, and spontaneous dialogue are effective strategies aligned with the implicit learning model. These methods encourage learners to pick up patterns, syntax, and vocabulary in a more natural, subconscious way. Over time, repeated exposure to meaningful contexts can help internalize the structure of a new language without the need for overt explanation.

To support memory systems, teachers can design activities that shift between explicit learning and experiential tasks. For instance, flashcards or spaced repetition apps may support vocabulary retention, while role-playing scenarios and real-time conversations enhance procedural fluency. Multisensory approaches, which involve the use of visuals, gestures, and movement, also support deeper learning. Studies show that combining words with gestures or images helps learners remember better. For example, associating new vocabulary with physical gestures has been found to lead to better recall, with brain scans confirming activation in both language and motor areas (Howard-Jones, 2010).

Integrating technology into multisensory learning offers even more potential. Digital tools such as interactive whiteboards, virtual reality, and voice recognition software can create immersive environments where learners engage multiple senses simultaneously. These technologies not only provide variety but also adapt to different learning preferences, enhancing both motivation and retention (Tokuhama-Espinosa, 2010). Emotional engagement helps learners absorb and retain information more effectively. In language classrooms, creating an encouraging, culturally rich, and supportive environment can enhance motivation and reduce anxiety. Personal stories and relevant content can create emotional bonds that strengthen learning.

Building on Sousa’s work (2016), several essential strategies can further support brain-compatible language learning. These include chunking and pattern recognition, cognitive rest and downtime, priming and retrieval practice, and ensuring a safe learning environment. Presenting language in patterns helps learners make sense of complex input. Breaks between intensive tasks allow the brain to consolidate information. Revisiting key language elements at spaced intervals strengthens memory traces. A relaxed, positive classroom climate encourages risk-taking in language use. Additionally, cross-lateral exercises - engaging both hemispheres of the brain - can improve concentration and readiness.

There is a growing call for formalizing the integration of neuropedagogical strategies in teacher training programs. Workshops, online modules, and university courses can help educators move from theory to practice, ensuring consistent and informed application of brain-based methods across diverse educational settings (Caine, Caine, McClintic, & Klimek, 2015). However, there are hurdles. One is the persistence of “neuromyths” - popular but incorrect beliefs about the brain, like the idea that we only use 10% of it or that each person has one “learning style” (Dekker, Lee, Howard-Jones, & Jolles, 2012). Such myths can lead educators astray. Moreover, lack of access to training and resources, especially in low-income settings, can limit the application of these strategies.

To overcome these challenges, collaboration between researchers and educators is essential. Neuroscientists can help clarify misconceptions, while experienced teachers can provide feedback on how theory translates into practice. Looking ahead, researchers and educators should collaborate to develop clear training materials on brain-based teaching, conduct long-term studies on its effectiveness, and explore how digital tools like virtual reality and brain-feedback technologies might support language learning.

In summary, neuropedagogics offers a promising framework for making foreign language instruction more effective and engaging. By aligning lessons with the brain’s natural learning processes, teachers can design activities that not only teach the language but also support memory, emotion, and motivation. Although more research and training are needed, the potential benefits make this an exciting direction for future language education.

References

1. Battro, A. M., Fischer, K. W., & Léna, P. J. (2008). *The educated brain: Essays in neuroeducation.* Cambridge University Press.
2. Caine, R. N., Caine, G., McClintic, C., & Klimek, K. (2015). *12 brain/mind learning principles in action: The fieldbook for making connections, teaching, and the human brain* (2nd ed.). Corwin Press.
3. Casey, B. J., Tottenham, N., Liston, C., & Durston, S. (2005). Imaging the developing brain: What have we learned about cognitive development? *Trends in Cognitive Sciences, 9*(3), 104–110.
4. Dekker, S., Lee, N. C., Howard-Jones, P., & Jolles, J. (2012). Neuromyths in education: Prevalence and predictors of misconceptions among teachers. *Frontiers in Psychology, 3*, 429.

5. Germain, C., & Netten, J. (2005). Developing fluency through the neurolinguistic approach. *Canadian Modern Language Review, 61*(4), 545–568.
6. Howard-Jones, P. (2010). *Introducing neuroeducational research: Neuroscience, education and the brain from contexts to practice*. Routledge.
7. Howard-Jones, P., Etchegaray, A., & Morales, M. (2020). Teacher perceptions of neuroscience-based instruction in Ecuadorian higher education. *Mind, Brain, and Education, 14*(4), 232–240.
8. Immordino-Yang, M. H., & Damasio, A. (2007). We feel, therefore we learn: The relevance of affective and social neuroscience to education. *Mind, Brain, and Education, 1*(1), 3–10.
9. Mayer, R. E. (2008). *Learning and instruction* (2nd ed.). Pearson.
10. Netten, J., & Germain, C. (2008). The future of intensive French in Canada. *Canadian Journal of Applied Linguistics, 11*(1), 151–166.
11. Paz Illescas, M. J., Marín-Mateos, G., & Naranjo-Gómez, M. (2019). Neuropedagogical strategies for vocabulary retention in EFL classrooms. *Journal of Educational Research and Practice, 9*(2), 45–59.
12. Sousa, D. A. (2016). *How the brain learns* (5th ed.). Corwin Press.
13. Tokuhama-Espinosa, T. (2010). *The new science of teaching and learning: Using the best of mind, brain, and education science in the classroom*. Teachers College Press.
14. Ullman, M. T. (2001). A neurocognitive perspective on language: The declarative/procedural model. *Nature Reviews Neuroscience, 2*(10), 717–726.

PRINCIPLES FOR TEACHING READING IN ENGLISH LANGUAGE

G.Q.Usmonova
PhD student in Namangan state university email:gulhumorusmonova822@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz tilini o‘rgatishda o‘qish ko‘nikmalarini samarali rivojlantirish bo‘yicha asosiy pedagogik va psixolingvistik prinsiplarga e’tibor qaratiladi. Interaktiv o‘qish modellari, sxemalar nazariyasi, strategik o‘qish yondashuvlari va keng qamrovli o‘qish faoliyatining o‘quvchilarni anglash, lug‘at boyligini oshirish va o‘z-o‘zini boshqarishdagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Ushbu maqola o‘qituvchilar va o‘quv reja tuzuvchilari uchun nazariy asos va amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: o‘qish, ingliz tili, o‘rgatish prinsiplari, strategiyalar, interaktiv model, motivatsiya

Аннотация: В статье рассматриваются ключевые принципы преподавания чтения на уроках английского языка. Основное внимание уделяется когнитивным, психолингвистическим и педагогическим подходам, включая интерактивные модели, использование схем, стратегии чтения и обширное чтение. Работа направлена на предоставление эффективных рекомендаций для учителей и составителей программ.

Ключевые слова: чтение, английский язык, принципы обучения, стратегии, интерактивная модель, мотивация

Abstract: This article explores key principles for teaching reading in the English language. It emphasizes cognitive, psycholinguistic, and pedagogical foundations including interactive models, schema theory, strategic reading, and extensive reading. The article aims to offer practical guidance for language teachers and curriculum developers to enhance learners' reading comprehension and autonomy.

Keywords: reading, English language, teaching principles, strategies, interactive model, motivation

Introduction. Reading is a fundamental component of language learning, required not only for academic performance but also for accessing information, recognizing cultural nuances, and building lifelong reading skills. Reading teaching in English language education is frequently restricted to text comprehension tests or vocabulary exercises, limiting students' ability to engage with texts in meaningful ways. There is an increasing demand for principled, theory-based instructional techniques that address the cognitive, linguistic, and motivational aspects of reading. This article presents the fundamental concepts for effective reading instruction in English language classrooms. It presents a multifaceted strategy to increasing reading ability in second language learners by combining fundamental ideas and classroom-based findings.

Theoretical Foundations for Reading Instruction The Complexity of L2 Reading Reading in a second language poses particular challenges. Unlike first-language reading, it frequently requires students to decipher novel vocabulary, manage grammatical complexity, and generate meaning from limited background information. Reading, according to research on second language acquisition (SLA), requires numerous simultaneous processes such as word recognition, grammatical parsing, and inference. Instruction must consequently scaffold both lower-level decoding and higher-order comprehension skills. Reading Strategies :Various reading models provide insight into how comprehension develops and what areas of instruction should be targeted.

• Bottom-up. Processing focuses on the sequential decoding of letters, sounds, and words in order to construct meaning. While this strategy can help learners improve their word recognition accuracy, it may disregard the value of context and past knowledge.

• Top-Down Processing focuses on background knowledge, expectations, and context. Readers create meaning by forming and validating hypotheses about the text. However, overreliance on this strategy may disadvantage learners with inadequate L2 competency.

• Interactive Processing mixes bottom-up and top-down features, recognizing that good reading requires the integration of textual information and prior knowledge. This paradigm is widely recognized in second-language reading education because it provides a balanced and dynamic picture of the reading process.

Research Methodology. A qualitative study was conducted to investigate how these ideas materialize in real classrooms. The data were acquired using the following instruments: Observed ten reading lessons in various English programs to analyze reading tactics, text introduction, and discussion. Semi-structured interviews were conducted with five English language instructors to get insight into their teaching methods, strategies, and beliefs on reading instruction. Student reflections: Forty-five university students of the B1-B2 CEFR level were asked to report on their reading experiences, including motivation, strategy use, and reading habits. The obtained data was thematically evaluated and associated with five main instructional principles: interactive reading, schema activation, reading techniques, extensive reading, and learner motivation.

Findings. Integration of Interactive Reading Models. While all observed teachers used vocabulary and comprehension activities, few explicitly demonstrated interactive reading processes. As a result, kids frequently saw reading as a fragmented process, isolating word meaning from overall comprehension. There was an apparent need for more explicit instruction on how bottom-up decoding and top-down prediction can be employed simultaneously.Schema activation via pre-reading activities Pre-reading activities such as brainstorming, visual stimuli, and prediction conversations were used successfully in seven out of ten classrooms. However, in other situations, materials lacked cultural or contextual significance, limiting students' capacity to access significant background knowledge.

Teaching of Reading Strategies: Only two teachers gave explicit instructions on tactics such as skimming, scanning, and context-based guessing. Students' comprehension and confidence improved in lessons that included strategy training. The lack of consistent strategy education across the board indicates a professional development gap. Promotion of Extensive Reading: Few classrooms encouraged reading beyond the specified material. Only one teacher used a reading log with graded readers, and students valued the liberty and participation it gave. Overall, however, intensive reading was not frequently practiced, owing to curricular and time constraints.

Enhancing Learner Motivation : Motivational design differed greatly between classrooms. Lessons that included student choice, team work, and visual supports resulted in better engagement. Sessions that focused just on comprehension questions, on the other hand, resulted in decreased interest and passivity. This emphasizes the necessity of creating exercises that not only test comprehension but also promote curiosity and participation.

Discussion. The study identifies a significant gap between theoretically informed principles and classroom realities. While teachers generally encourage reading development, many are unfamiliar with psycholinguistic frameworks or evidence-based practices. Key components like schema activation, detailed approach training, and lengthy reading are underutilized. Furthermore, curriculum design and institutional policies frequently favor test preparation over long-term literacy growth. To close this gap, teacher training programs should stress the actual implementation of reading theories. Teachers should be able to create scaffolded assignments, incorporate learner interests, and offer structured

chances for guided and independent reading. Equally crucial is developing an instructional culture that considers reading as a process of meaning-making and human interaction.

Effective reading education in English language classrooms must be based on both theory and practice. The following ideas emerged as the cornerstone for successful reading development: Reading instruction should integrate decoding and comprehension processes to promote greater engagement with texts.

Schema Activation: Connecting new content to existing experiences and knowledge helps learners make sense of it and predict outcomes. Teachers should educate students how to employ multiple tactics, such as skimming, scanning, summarizing, and inferencing. Extensive reading outside of class improves fluency, vocabulary learning, and intrinsic drive. Motivational Design: Including relevant themes, visual materials, and collaborative tasks can maintain learner attention and foster a positive attitude towards reading. By incorporating these ideas into classroom activities, educators can greatly improve students' reading comprehension, autonomy, and overall English proficiency. This rigorous method not only satisfies curriculum objectives, but also develops lifelong readers who can confidently and curiously navigate varied texts.

References

1. Grabe, W., & Stoller, F. L. (2011). *Teaching and researching reading* (2nd ed.). Routledge. [1. 2011:B.6]
2. Gough, P. B. (1972). One second of reading. In J. Kavanagh & I. Mattingly (Eds.), *Language by ear and by eye* (pp. 331–358). MIT Press. [2. 1972:B.331]
3. Goodman, K. S. (1967). Reading: A psycholinguistic guessing game. *Journal of the Reading Specialist*, 6(4), 126–135. [3. 1967:B.126]
4. Rumelhart, D. E. (1985). Toward an interactive model of reading. In H. Singer & R. Ruddell (Eds.), *Theoretical models and processes of reading* (pp. 722–750). IRA. [4. 1985:B.722]
5. Anderson, R. C. (1984). Role of the reader’s schema in comprehension. In R. Anderson et al. (Eds.), *Learning to read in American schools* (pp. 243–257). Erlbaum. [5. 1984:B.243]
6. Krashen, S. (1982). *Principles and practice in second language acquisition*. Pergamon. [6. 1982:B.21]
7. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society*. Harvard University Press. [7. 1978:B.86]
8. Wood, D., Bruner, J. S., & Ross, G. (1976). The role of tutoring in problem solving. *J. of Child Psychology and Psychiatry*, 17(2), 89–100. [8. 1976:B.89]

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY MENTAL XUSUSIYATI

G.F.Qorabekova
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Jizzax viloyati hududiy bo‘linma uslubchisi magistr

Annotatsiya: Ushbu maqolada frazeologik birliklarning lingvomadaniy va mental xususiyatlari tahlil qilingan bo‘lib, frazeologizmlar xalq hayotidagi voqea-hodisalar, urf-odatlar va madaniy qadriyatlarni aks ettiruvchi obrazli ifodalar sifatida ko‘rib chiqilgan. Shunindek, maqolada o‘zbek tilidagi milliy frazeologizmlar,ularning kiyim-kechak nomlari va ijtimoiy madaniyat bilan bog‘liqligi,frazeologik birliklarning milliy madaniyat va umuminsoniy madaniyat kontekstidagi o‘rni ko‘rsatilib, frazeologizmlarning leksik va semantik murakkabligi hamda ularning shakllanishi va rivojlanishi haqida fikrlar bildiriladi.

Аннотация: В данной статье анализируются лингвокультурные и ментальные особенности фразеологических единиц. Фразеологизмы рассматриваются как образные выражения, отражающие события, обычаи и культурные ценности народа. В статье показана связь узбекских национальных фразеологизмов с названиями предметов одежды и социальной культурой, а также их место в контексте национальной и общечеловеческой культуры. Кроме того, высказываются мнения о лексической и семантической сложности фразеологических единиц, об их формировании и развитии.

Annotation: This article analyzes the linguocultural and mental characteristics of phraseological units. Phraseologisms are considered as figurative expressions that reflect the events, customs, and cultural values of the people. The article explores the connection between Uzbek national phraseologisms, clothing-related terms, and social culture, as well as their role within the context of national and universal culture. Additionally, it discusses the lexical and semantic complexity of phraseological units, along with their formation and development.

Kalit so‘zlar: frazeologizm, lingvomadaniyat, mentalitet, milliy madaniyat, kiyim-kechak frazeologizmlari, obrazli ifoda, leksik-semantik xususiyatlar.

Ключевые слова: фразеологизм, лингвокультура, менталитет, национальная культура, фразеологизмы одежды, образные выражения, лексико-семантические особенности.

Keywords:phraseologism,linguoculture,mentality,national culture, clothing-related phraseologisms, figurative expression, lexical-semantic features.

Iboralar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi maqbul va nomaqbul harakat-holatlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o‘ziga xos obrazli ifodalaridir. Frazeologik ma’noning hajmi leksik ma’noning hajmiga nisbatan keng va murakkabligi bilan ajralib turadi.So‘z ma’nosida bo‘lmagan, uchramagan komponentlar frazeologizmlar ma’nosida mavjud bo‘ladi. Frazeologizmlar tilni, uning mazmunini yanada boyituvchi ma’naviy xazina bo‘lib, ular lingvomadaniy obyekt sifatida millat madaniyatini o‘zida jamlovchi til birligi hisoblanadi. Frazeologizmlar tuzilishiga ko‘ra so‘z birikmasi yoki gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma’no anglatadigan, nutq jarayonida yaratilmay, nutqqa tayyor holda kiritiladigan lug‘aviy birlik bo‘lib, voqelikni obrazli tasvirlash, uni kitobxon ko‘z o‘ngida aniq va to‘la gavdalantirishda o‘rni beqiyos. O‘zbek tilshunosligida frazeologizmlarni ilmiy-amaliy tadqiq qilish bo‘yicha izlanish olib borgan olimlardan biri A.Mamatovning fikricha, iboralar tilning alohida birligi bo‘lib, tuzilishiga ko‘ra erkin bog‘lanma yoki gapga teng, to‘liq yoki qisman semantik qayta shakllangan obrazli, turg‘un so‘z birikmalarni o‘z ichiga oladi. Ma’lumki,insoniyat turmush tarzi taraqqiyoti kiyim-kechak bilan chambarchas bog‘liq holda yuzaga kelgan. Aynan kiyim insonni hayvondan ajratuvchi muhim tashqi alomatlardan biri hisoblanadi. An’anaviy milliy kiyimlarning shakllanishiga nazar tashlar ekanmiz, asrlar mobaynida uning qator muhim funksiyalari tarkib topganini ko‘rishimiz mumkin. Xalq madaniyati ma’lum bir millatga yoki ma’lum bir hududda yashovchi barcha elatlarga xos voqelikdir. O‘zbek xalqi kiyinish madaniyati nuqtayi nazaridan ham dunyodagi xalqlarning oldingi saflarida turadi. Bir necha ming yillar ilgari ota-bobolarimiz egniga yaktak, oyoqqa kovush-maxsi, etik, do‘ppi, telpak, ustiga chopon kiyib, belga belbog‘, qars bog‘lashgan. Shuning uchun ham xalqimizda erkak kishilikning ramziy ifodalash ma’nosida “Belingda belbog‘ing bormi?”degan ibora qolgan.“Umuminsoniy madaniyat,– deb yozadi S.A.Arutyunov, – inson zoti uchun, umuman, yerning tabiiy planetar sharoitiga hamda ushbu planetar muhitni o‘zlashtirishning kengayishidan kelib chiqadigan ijtimoiy oqibatlarga moslashish vositasi sifatida keladi”. Umuminsoniy madaniyat yoki madaniyatdagi umuminsoniylik yerda, tabiiy planetar sharoitda inson uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, uning ushbu muhitga moslashishini ta’minlash vositasidir. Bu fikr Inson va Yer munosabatlarini ifoda etadi, inson tomonidan yaratilgan boylik, orttirilgan tajriba, tarixiy an’analar umumplanetar xarakterdagi voqeliklardir. Bu xarakter bilan umuminsoniy madaniyat milliy madaniyatdan farq qiladi. Milliy madaniyat ayrim millatga, etnosga taaluqli ijtimoiy-tarixiy voqelik hisoblanadi. Ular o‘rtasidagi farqlar nisbiydir. Dialektik bog‘liqlik va hamkorlik ular mavjudligining rivojlanib borishi sharti hisoblanadi.

Har bir xalqning o‘ziga xos kiyim-kechak nomlari va realiyalari ham milliy frazeologizmlarni hosil qilishda asos vazifasini o‘taydi. Masalan, “to‘nini teskari kiyib olmoq”– o‘chakishgan holda qaysarlik qilmoq, “do‘ppini osmonga otmoq” – juda xursand bo‘lmoq, “do‘ppi tor keldi”– iloj-imkonsiz og‘ir ahvolga tushmoq, “bir-ikki yaktakni ortiqroq yirtgan” – yoshi kattaroq, turmush tajribasi ko‘proq, “chorig‘ini sudramoq –zo‘rg‘a-zo‘rg‘a, amal-taqal qilib yashamoq, “paytavasiga qurt tushdi”–xotirjamligi buzilib, bir yerda tinch tura olmaslik . O‘zbek frazeologizmlarida do‘ppi kulteremasi tez-tez uchrab turadi. “Do‘ppi” avra-astarli, ko‘pincha qavima, pilta urilgan, tepa, kizak va jiyakdan tarkib topadigan guldor yoki gulsiz, to‘garak yoki to‘rtburchak shakldagi bosh kiyimi. Buni birovning do‘ppisini birovga kiygizish deydi [Shukrullo. O‘TIL.I. 676-b]

A.Mamatov “do‘ppi” komponentli frazeologizmlarning ko‘pchiligini o‘zbek xalqining milliy urf-odatlari bilan bo‘liq holda shakllanganini ta’kidlab, ulardan ayrimlarining qay tarzda paydo bo‘lish hodisalarini tushuntirib o‘tadi: “do‘ppisini osmonga otmoq” frazeologizmi – kishi quvonganidan, ijobiy voqea-hodisadan, xabardan xursand bo‘lganda beixtiyor do‘ppisini osmonga otish hollari uchraydi.

Shunday xursandchilik va quvonch belgisini obrazli ifodalash ehtiyoji asosida ushbu ibora paydo bo‘lgan. “Do‘ppining tagida odam bor” frazeologizmi ko‘p ma’noliligi bilan ajralib turadi. Undan “birovning gapini birovga u yoki bu tarzda yetkazadigan”, “chaqma-chaqar”, “gap tashuvchi kishi” ma’nosi uqilishini payqash mumkin. Shuning uchun ham bu frazeologizm “bir gapni aslidan boshqacha talqin qilish” tarzidagi salbiy hodisani ifoda etadi. Bu kabi frazeologizmlarning milliyligi shundaki, ular milliy tushunchalar va predmetlar bilan bog‘lanadi. Jumladan, mo‘ljali pishiq bo‘lmay, bir katta ishni boshlab qo‘yib, oxirigacha yetkazish qo‘lidan kelmagan kishilarga nisbatan “do‘ppisi tor kelib qoldi” iborasi ishlatiladi. “To‘n” so‘zi turkiy tillarda nihoyatda keng tarqalgan kiyim nomi bo‘lib, L.Budagov tatar tilida to‘n, turk tilida don – to‘n, etik, oyoq kiyimi, qirg‘iz tilida esa “ayollarning yozgi ust kiyimi” ma’nosini anglatishini qayd etadi. Bu so‘zning turli xil kiyim nomlarini anglatgani uning xomashyoga ko‘ra nomlanganini taxmin qilishga asos bo‘ladi. So‘zning boshqa turkiy tillardagi shakli va ma’nolariga diqqat qilinsa, fikr yanada aniqlashadi. Xususan, xakas tilida ton – “po‘stin” , tuva tilida ton – “po‘stin”, “xalat” , no‘g‘oy tilida ton – “teri”,”tulup”, shu asosda tonlav – “o‘lgan yoki ovlangan hayvonning terisini shilmoq”, tonlik “kiyimga mo‘ljallangan teri”, tatar tilida tun –“to‘n”, “po‘stin”, tunalu “terisini shilmoq” ma’nolarida ishlatiladi. V.V.Radlov mazkur so‘z semantik jihatdan tuva tilida diin, boshqird tilida tejen//tiin shaklida ishlatiluvchi tin (“olmaxon”) so‘ziga bog‘liq, deb hisoblaydi. Shu tarzda qadimgi turkiy tildagi tin so‘zining “teri” ma’nosi asosida uning pul birligi (o‘zbek tilidagi tiyin, tojik tilidagi tin), rus tilidagi (denьga – tanga) denьgi, koreyscha ton, udmurcha tuj so‘zlari hosil bo‘lgan . Tin so‘zining bu ma’nosi qozoq, uyg’ur, turkman tillarida ham mavjud. Ma’lumki, ilgari mehnatkash xalqning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli benihoya og‘ir edi. Xalq o‘zining shu og‘ir ahvolini, kambag‘allik, yo‘qsillik, qashshoqlik va buning oqibatida ro‘y beradigan och-yalang‘ochlikni turli misollar vositasida yorqin ifoda etgan: Bo‘zdan tikilgan ko‘ylak arzon va ko‘rimsiz bo‘ladi. “Sho‘rlik kambag‘al amallab biror yangi bo‘z ko‘ylak kiyishga yetishgudek bo’lsa, bir necha kungacha o‘zida yo‘q xursand bo‘lib yuradi”, demoqchi bo‘lganlar va “ishtonsizning tushiga uch qarich bo‘z kiribdi” iborasini ishlatgan. “Kavush” leksemasi ham milliy komponent sifatida ayrim iboralarda ishlatilib kelingan. Kavush – charmdan tikilgan va odatda mahsi bilan kiyiladigan oyoq kiyimi. “Kavushini to‘g‘rilab qo‘ymoq” iborasi haydab yubormoq ma’nosini beradi. Kavushini to‘g‘rilab qo‘yaman men uning shu bugunoq! Sabotajchi! (A.Muxtor. Opa-singillar) [O‘TIL.II.146]. Har qanaqa joyga boravermaslikni, uncha-muncha joyni nazar-pisand qilmaslikni ifodalash uchun “Kavushim ko‘chada qolgani yo‘q” iborasini milliy romanchiligimizni dunyoga tanitgan A.Qodiriy ham “O‘tgan kunlar” asarida O‘zbek oyim ta’rifini o‘quvchiga to‘liqroq tanitish maqsadida qo‘llaydi: “O‘zbek oyim uncha-muncha to‘y-u azalarga “kavushim ko‘chada qolgan emas”, deb bormas edi [O‘TIL.II.476].O‘tmishda xalq ommasining ilg‘or dunyoqarashdagi vakillari e’tiqodiy tushunchalarga ishonishning, turli irim-sirim va rasm-rusumlarning foydasiz ekanligini tushunib yetganlar. Be’mani xatti-harakatlar qilib, tekinxo‘rlik va aldam-qaldamlik bilan kun kechiruvchi folbinlar, ta’birchilar, azayimxonlar, kinnachilar ustidan kulganlar, bu haqda latifalar, satirik qo‘shiqlar, maqol va iboralar to‘qiganlar. “Kinnachining kavushi o‘zidan ilgari yo‘rg‘alar” iborasi ana shulardan biri bo‘lib, bu bilan “Agar birov “kinna solib qo‘ying” – deb chaqirsa, kinna solib, pul (yo boshqa narsa) olib, mazaxo‘rakka o‘rganib qolgan kinnachi bir nima umidida “oyog‘ini qo‘liga olib yuguradi”, deyilmoqchi. Majozan, bir narsa undirishdan umidvor bo‘lib, elburutdan yuguruvchilarga nisbatan qo‘llaniladi. Odatda, tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni tanlab qo‘llash bilan kifoyalanib qolinmaydi, balki qahramonlar xarakteri, ruhiy holati, hayot tarziga moslab o‘zgartiriladi. Xalq iboralari shu tarzda sayqallanadi, yangi ma’no nozikliklari bilan to‘yinib boradi. Xalq iboralarini qayta ishlash usullari, ularga yangicha ma’nolar berish yo‘llari xilma-xil. Bunga “umumtil iborasi zamiridagi ma’noning yangicha talqinini ochish, iboraning leksik tarkibini o‘zgartirish va uning semantik, stilistik funktsiyalarini kengaytirish, iboraga yangicha majoziy va obrazli ma’nolar kiritish kabi usullarni kiritish mumkin”.

Frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyati haqida fikr bildirar ekanmiz, quyidagilarga ahamiyat qaratishimiz zarur:

- tildagi har qanday birlik u yoki bu darajada milliy-madaniy o’ziga xosliklarni namoyon etadi;
- shunday til birliklari borki, ular milliy-madaniy kulьteremalarning benihoya betakror timsolidir;
- shu ma’noda frazeologizmlar millat mentaliteti, madaniyati, turmush tarzi hamda uzoq yillik kuzatuvlarning qabariq ifodasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

✓ Alefirenko N.F. Lingvokulьturologiya. Sennostno-smыslovoe prostranstvo yazыka. Uchebnoe posobie. –Moskva: Flinta.Nauka, 2010. –S.216.
✓ Alimjanova. G.M.Sopostavitelьnaya frazeologiya. –Alma-Ata: Mir yazыka, 1999. 348-b.
✓ Almamatova Sh.T. O‘zbek tili frazemalarining komponent taxlili.10.02.02–o‘zbek tili. Filol. fanlari nomzodi...diss. –Toshkent, 2008. –B. 162.
✓ Arutyunov S.A. Osnovnыe rііcevыe modeli i ix lokalьnыe variantы u narodov Rossii //Traditsionnaya rііca kak vыrajenie etnicheskogo samosoznaniya. –Moskva: Nauka, 2001. –S. 342
✓ Arutyunov.S.A. Narodы i kulьturы: razvitie vzaimodeystvie. – Moskva: Nauka, 1989. –S. 336
✓ Axmetov.Z.A. O yazыke kazaxskoy poezii. –Alma-ata: Mektep, 1970. –S.248.
✓ B.A.Bazыma.Psixologiya sveta. Teoriya i praktika. –Moskva: Rechь, 2007. –S.208.
✓ Babushkin A.P. Tіры kontseptov v leksiko-frazeologicheskoy semantike yazыka. –Voronej: VGU, 1996. –S.408.
✓ Bayburin A.K. Semioticheskie aspektы funktsionirovaniya veщey// Etnograficheskoe izuchenie znakov sredstv kulьturы. –Leningrad: Nauka, 1989. –S.572.
✓ Shomaqsudov A., va boshq. O‘zbek tili stilistikasi. –Toshkent, 1974.–B.370

HISTORICAL PERSPECTIVE ON INTERCULTURAL COMMUNICATION

S.U.Abduxalimova
a 2nd-year doctoral student at Kokand State University. +998909634515 xaydaraliyeva95@mail.ru

Annotation This article analyzes the concept of intercultural communication, its historical roots, and key features. It traces the origin of the term to the work of G. Trager and E. Hall in 1954 and discusses the historical dilemma of either embracing or rejecting other cultures. The text defines intercultural communication as a form of symbolic interaction between individuals and groups from different cultures, highlighting that success depends on the participants' tolerance and personal experience. It also notes the distinction between macroculture and microculture within this field.

Keywords: intercultural communication, cross-cultural communication, intercultural interaction, macroculture, microculture, cultural differences, communication, symbolic interaction.

Аннотация Данная статья посвящена анализу понятия «межкультурная коммуникация», его историческим корням и ключевым особенностям. В ней рассматривается происхождение термина, впервые сформулированного в 1954 году Г. Трейгером и Э. Холлом, а также историческая дилемма между принятием и отрицанием других культур. Текст определяет межкультурную коммуникацию как форму символического взаимодействия между индивидами и группами из разных культур, подчеркивая, что успех в ней зависит от толерантности и личного опыта участников. Также отмечается различие между макрокультурой и микрокультурой в рамках данной области.

Ключевые слова: Межкультурная коммуникация, кросс-культурная коммуникация, межкультурная интеракция, макрокультура, микрокультура, культурные различия, коммуникация, символическое взаимодействие.

Annotatsiya Ushbu maqola madaniyatlararo muloqot tushunchasi, uning tarixiy ildizlari va asosiy xususiyatlarini tahlil qiladi. Unda atamaning 1954-yilda G. Treger va E. Xollning ishlarida paydo bo‘lganligi hamda boshqa madaniyatlarni qabul qilish yoki rad etish o‘rtasidagi tarixiy dilemma muhokama qilinadi. Matnda madaniyatlararo muloqot turli madaniyatlarga mansub shaxslar va guruhlar o‘rtasidagi ramziy o‘zaro ta’sir shakli sifatida ta’riflanadi va uning muvaffaqiyati ishtirokchilarning bag‘rikengligi va shaxsiy tajribasiga bog‘liqligi ta’kidlanadi. Shuningdek, bu sohadagi makro-madaniyat va mikro-madaniyat o‘rtasidagi farqlar ham qayd etilgan.

Kalit so‘zlar: Madaniyatlararo muloqot, kross-madaniy muloqot, madaniyatlararo interaksiya, makro-madaniyat, mikro-madaniyat, madaniy farqlar, muloqot, ramziy o‘zaro ta’sir.

The desire to understand other cultures or their representatives, and to comprehend cultural differences and similarities, has existed for as long as humanity's cultural and ethnic diversity. Just as ancient as the wish to understand other cultures is the tendency to disregard them or view them as unworthy,

while evaluating the people of those cultures as second-rate, barbaric individuals who lack culture, personal qualities, or any human dignity. This kind of polarized attitude toward other cultures has existed throughout human history. This dilemma persists in a transformed state today and is reflected in the fact that the very concept of intercultural communication causes many disputes and discussions in scientific literature and among practicing specialists.[5.1989]This concept was born out of a compromise. Its synonyms are cross-cultural and interethnic communication, as well as the concept of intercultural interaction.

Most experts believe that one can only talk about intercultural communication (interaction) when people represent different cultures and perceive everything that does not belong to their own culture as foreign.[4.1993] Relationships are considered intercultural if their participants do not resort to their own traditions, customs, ideas, and behaviors, but instead familiarize themselves with foreign rules and norms of everyday communication. [2.1987] In doing so, both familiar and unfamiliar traits, as well as commonalities and differences, and what is habitual and new in the relationships, perceptions, and feelings that arise among people, are constantly revealed.

As we have already noted, the concept of "intercultural communication" was first formulated in 1954 in the work "Culture and Communication: A Model of Analysis" by G. Trager and E. Hall. In this work, intercultural communication was understood as an ideal goal that a person should strive for in their desire to adapt to the surrounding world as well and as effectively as possible.[8.2000] Since then, researchers have advanced quite far in the theoretical development of this phenomenon. [6.1999] As a result of numerous studies, the most characteristic features of intercultural communication have been identified. It was noted that intercultural communication requires the sender and receiver of a message to belong to different cultures. [7.1996] It also requires the participants to be aware of each other's cultural differences. In essence, intercultural communication is always interpersonal communication within a specific context, where one participant discovers the cultural difference of another.

It's true that communication is considered intercultural when it occurs between people from different cultures, and the differences between those cultures lead to some form of communication difficulty.

These difficulties stem from the differences in expectations and preconceived notions that everyone has, which naturally vary across cultures.[3.1995] People from different cultural backgrounds also decode messages differently. All of this becomes significant during the act of communication and can lead to misunderstanding, tension, and a breakdown in communication.

Finally, intercultural communication is based on the process of symbolic interaction between individuals and groups whose cultural differences can be recognized.[9.1998] The perception of and attitude toward these differences affect the nature, form, and outcome of the interaction. Each person involved in a cultural exchange has their own system of rules, which functions to encode and decode sent and received messages.[2.1987]

The signs of cultural differences can be interpreted as variations in verbal and nonverbal codes within a specific communication context. The interpretation process is influenced not only by cultural differences but also by the communicators' age, gender, profession, and social status. Therefore, the degree of intercultural success in any given interaction depends on the tolerance, initiative, and personal experience of its participants.

Based on what was stated, intercultural communication should be viewed as a collection of various forms of relationships and communication between individuals and groups who belong to different cultures.

Just as in cultural anthropology, the fields of macroculture and microculture are distinguished within intercultural communication.[1.1989]

This is a concise and accurate translation. The term "macroculture" refers to the large, dominant, and overarching cultural values and practices of a society (e.g., a national culture), while "microculture" refers to smaller, more specific groups within that larger culture that have their own unique beliefs and behaviors (e.g., a specific age group, a professional community, or a religious subgroup).

The list of used literature:

1. Арутюнов С.А. Народы и культуры: Развитие и взаимодействие. 1989.
2. Взаимодействие культур Запада и Востока. — М., 1987.
3. Иконникова Н.К. Механизмы межкультурного восприятия // Социологические исследования. — 1995. — № 8.
4. Ситарам К., Когделл Г. Основы межкультурной коммуникации// Человек.- 1993. - № 2-4.
5. Dodd C. Dynamics of Intel-cultural Communication. — Boston, 1989.

6. Guirdham M. Communicating across Cultures. — West Lafayette, 1999.
7. Maletzke G. Interkulturelle Kommunikation. - Opiaden, 1996.
8. Martin J., Nakayama Th. Intercultural Communication in Contexts. — Mountains View, 2000.
9. Samovar L, Porter R., Stefani L. Communication between Cultures. — Belmont, 1998.

KORPUS MATNLARINI LINGVISTIK VA EKSTRALINGVISTIK TEGLASH

S.B.Toshtemirova
Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada korpus matnlarining internetdagi oddiy matnlardan farqi, lingvistik va ekstralingvistik teglar, morfologik, semantik, sintaktik teglash haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: korpus matnlari, lingvistik teglar, eskstralingvistik teglar, morfologik teglash, sintaktik teglash, semantik teglash.

Kirish Hozirgi internet jadal ravishda rivojlanayotgan zamonda deyarli barcha manbalarning elektron variantlari internet tarmog‘ida mavjud. Bu manbalarni birlashtirgan bir qancha elektron kutubxonalar ham yaratilgan. Istalgan foydalanuvchi o‘ziga kerakli bo‘lgan ma’lumotlarni ushbu kutubxonalardan topishlari mumkin. Ammo ushbu manbalar tilshunoslik nuqtayi nazaridan leksik, morfologik, grammatik, semantik belgilar asosida ishlov berilmaganligi sababli lingvistik tadqiqotlarda foydalanish uchun noqulaylik tug‘diradi. Chunki elektron kutubxona ilmiy tadqiqot materiali bazasini tayyorlash uchun tuzilmaydi, balki ma’lum bir millat yoki butun insoniyatga tegishli milliy-ma’naviy merosni to‘plash, markazlashtirishni maqsad qilgan bo‘ladi. Til korpusi esa elektron kutubxonadan farqli ravishda muayyan tilni tadqiq qilish, o‘rganish va o‘rgatish uchun zaruriy, foydali va qiziqarli matnlar to‘planishini nazarda tutadi. Internetdagi oddiy elektron fayldan korpusning farqi shundaki, korpusdagi matnlar maxsus teglar bilan ishlov berilgan bo‘ladi. Bu yozma manba yoki uning parchalariga lingvistik, ekstralingvistik sharh qo‘shish bilan amalga oshiriladi.

Asosiy qism.

Lingvistik teglash – korpusdagi har bir til birligining lingvistik tavsifini aniqlashga qaratilgan faoliyatdir. Lingvistik teglar avtomatlashgan qidiruv tizimida tabiiy tilni qayta ishlash jarayonida so‘zning morfologik, sintakstik va semantik xususiyatini ifodalaydigan vosita hisoblanadi. Shunga ko‘ra lingvistik teglar quyidagi turlarga bo‘linadi:

Morfologik teglar;
Sintaktik teglar;
Semantik teglar.

Morfologik teglash. Morfologik tahlilning asosiy maqsadi matndagi so‘zlarni aniqlash, uni matn qurshovidan ajratib olish, morfemik tuzilishini tahlil qilish, asl ma’nosi va matndagi sintaktik rolini aniqlashdir *[10. 2024:B.]*. Dunyo tilshunosligida korpus matnlarini morfologik teglash bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. O‘zbek tilshunosligida morfologik teglash bo‘yicha tadqiqot ishlarini Sh.Xamroyevanin ishlarida ko‘rishimiz mumkin*[9. 2021]*.

Morfologik teg tizimiga *so‘zshakl, lemma* va *teg* kiradi. So‘zshakl – tanlangan matndagi morfologik birlik. So‘zshaklni razmetkalashning birinchi bosqichi uni lemmalash, ya’ni so‘zshaklning leksema shaklini keltirishdan iborat. So‘zshaklning grammatik shaklsiz qismi – o‘zak yoki negiz lemmaga teng. Razmetkada lemma <*> belgisi ichida beriladi [Sh.Xamroyeva, 2020]. O‘zbek tili agglyunativ tillarga kirganligi bois teglash jarayoni flektiv tillarga nisbatan ancha oson.

Morfologik tahlilda so‘z turkumlariga qarab o‘ntadan o‘n beshtagacha teg qo‘shilishi mumkin. Buni biz fe’l so‘z turkumi misolida ko‘rib chiqamiz. Birinchi teg so‘z turkumi hisoblanadi ─ [fe’l]. Keyinchalik leksik-grammatik xususiyatlariga ko‘ra quyidagi turlari ajratiladi:

1. Lug‘aviy ma’noga ega yoki ega emasligiga ko‘ra:
a) mustaqil fe’l [mus.f];
b) nomustaqil fe’l [nomus.f].
2. Harakatning obyektga munosabatiga ko‘ra turlari:
a) o‘timli fe’l [o‘-li.f];

b) o‘timsiz fe’l [o‘-siz.f].
3. Harakatning bo‘lishli yoki bo‘lishsizligiga ko‘ra:
a) bo‘lishli fe’l [b-li.f]
b) bo‘lishsiz fe’l [b-siz.f]
4. Harakatning nisbatiga ko‘ra:
a) aniq nisbat [an. n];
b) o‘zlik nisbat [o‘zl. n];
c) majhul nisbat [maj. n];
d) orttirma nisbat [ort. n];
e) birgalik nisbat [bir. n].
5. Fe’lning tuzilishiga ko‘ra turlari :
a) sodda fe’l [sod. f];
b) qo‘shma fe’l [qo‘sh. f];
v) juft fe’l [j. f];
g) takror fe’l [tak. f].
6.Yasalish xususiyatiga ko‘ra;
a) tub [t.f];
b) yasama [y.f]
7. Mayl kategoriyasi:
a) xabar mayli = [x.m.]
b) shart mayli = [sh.m.]
s) buyruq-istak mayli = [b.i.m.]
d) maqsad mayli = [m.m.]
8. Zamon kategoriyasi:
a) o‘tgan zamon = [o‘.z.]
b) hozirgi zamon = [hoz.z]
s) kelasi zamon = [k.z.]
9. Shaxs-son kategoriyasi:
I shaxs, birlik [I sh.b.]
II shaxs, birlik [II sh.b.]
III shaxs, birlik [III sh.b.]
I shaxs, ko‘plik [I sh.k.]
II shaxs, ko‘plik [II sh.k.]
III shaxs, ko‘plik [III sh.k.]

Yuqoridagilarni Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida qo‘llanilgan “to‘rutti”(yaratmoq) fe’li misolida ko‘ramiz: **to‘rutti** <to‘rut> [fe’l], [mus.f], [o‘-li f], [b-li f], [a.n], [sod.f], [t.f], [x,m], [o‘.z], [III sh.b.].

Sintaktik teglash. Tillarda sintaktik annotatsiyalash yoki sintaktik tahlil qilish gap va uning eng kichik birligi so‘z birikmalari yuzasidan amalga oshiriladi. Mavjud til korpuslarida sintaktik annotatsiyalash gaplarda so‘zshakllarning morfem-morfologik tahlili amalga oshirilgandan keyingi jarayon sifatida ko‘riladi. Sintaktik izohlash bu sintaktik ma’lumotni korpusga qo‘shish, sintaktik strukturaning ko‘rsatkichlarini matnga kiritish jarayoni. Bu korpus lingvistikasida parsing yoki grammatik tahlil qilish deyiladi. Sintaktik parserlar manba matnini grammatik ma’lumotlar bilan belgilash vazifasini bajaradi. Sintaktik annotatsiyalash gapning tuzilishini, ya’ni so‘zlarning sintaktik bog‘liqliklarini aniqlash jarayonini ifodalaydi.

Sintaktik teglashda so‘zlarning gapdagi sintaktik vazifasi, gap bo‘laklari, so‘z birikmalari, gap turlari tahlili kabilar amalga oshiriladi.

Semantik teglash. Semantik teglash — matn birliklariga ularning ma’no jihatidan teglar qo‘yish jarayonidir. Semantik teglash tabiiy tilni qayta ishlash sohasida muhim rol o‘ynaydi, ayniqsa semantik rol belgilash, so‘z ma’nosini aniqlash va mashinaviy tarjima kabi vazifalarda bu juda muhimdir. Semantik tavsifning asosiy maqsadi – leksik va grammatik omonimiyani olib tashlash yoki sintaktik tahlil natijasida olingan variantlar sonini kamaytirishdan iborat. Semantik teglash korpusdagi so‘z ma’nosining ixtisoslashuvi, omonimlik va sinonimlik, ma’noviy guruhga ajratish kabi muammolarni hal qiladi[*1. 2021:B.70*]. Semantik tegda boshqa teglarda bo‘lgani kabi yagona standart shakl mavjud emas. Har bir so‘z

turkumi uchun semantik maydon guruhlari turlicha bo‘ladi. Semantik tegda so‘z mansub bo‘lgan to‘da, LSG, maydonga tegishli bo‘lgan izohlar keltiriladi.

Semantik teglash murakkab jarayonlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda avtomatik semantik tahlil jarayoni dolzarb mavzulardan biriga aylangan. Bu bilan bog‘liq ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda va semantik tahlilni amalga oshiruvchi turli dasturlar ham yaratilmoqda. Bu dasturlar bir biridan qidirish tizimi, tuzilishi bilan farq qiladi. O‘zbekistonda ham korpusdagi matnlarni semantik teglash bilan bog‘liq tadqotlar qilinmoqda. Biz bularni Sh.Gulyamova*[7. 2022]*, D.Ahmedova*[3. 2020]*, N.Gulyamova*[6. 2022]*, Sh.Xamroyevalar*[8. 2020]*ning tadqiqot ishlarida ko‘rishimiz mumkin.

Barcha so‘zshakllari uchun morfologik razmetkada unga yozilgan teg semantik teg asos vazifasini bajaradi. Fe’l so‘z turkumi uchun semantik razmetkaning ilk bosqichi morfologik razmetkadagi so‘zning qaysi so‘z turkumiga oid ekanligidan boshlanadi. Fe’llar anglatgan qator ma’nolariga ko‘ra turli mazmuniy guruhlarga bo‘linadi. Bunda harakatga xos yaratish, buzish, o‘zgartirish, so‘zlash, sezish, yo‘naltirish, holatga xos ruhiy-psixologik, tafakkur bilan bog‘liq fe’llar farqlanadi. Shunga ko‘ra fe’llar quyidagi ma’noviy guruhlarga bo‘lingan va semantik teglar ham shu ma’noviy guruhlarga ko‘ra olindi:

1.Harakat fe’llari = [harakat];
2.Holat fe’llari = [holat];
3.Nutq fe’llari = [nutq];
4.Natijali faoliyat fe’llari = [natijali faoliyat];
5.Tafakkur fe’llari = [tafakkur];
6.Munosabat fe’llari =[munosabat].

Fe’l so‘z turkumidagi so‘zlarning semantik teglanishing ko‘rinishini “Qutadg‘u bilig” asarida qo‘llanilgan ba’zi so‘zlar misolida ko‘rib chiqishimiz mumkin: ***qatila*** **<qatil>** [fe’l], [mustaqil f.], [harakat]; ***evar*** **<ev>** [fe’l], [mustaqil f], [holat]; ***aymish*** **<ay>** [fe’l], mustaqil f], [nutq]; ***bitigan*** **<bit>** [fe’l], [mustaqil f], [natijali faoliyat]; ***uqmas*** **<uq>** [fe’l], [mustaqil f], [tafakkur]; ***ag‘irlamish*** **<ag‘irla>** [fe’l], [mustaqil f], [munosabat]

Linvistik va ekstralingvistik teglar korpus uchun birdek muhim, bir birini to‘ldirib turuvchi vositalar hisoblanadi. Ekstralingvistik teglar korpusidagi matnlarni annotatsiyalash va ularning xususiyatlarini tavsiflash uchun ishlatiladi. Korpus foydalanuvchisi o‘z tadqiqotida amaliy ishlarni bajarish, matnlarni tahlil qilish uchun ekstralingvistik teglardan foydalanishi mumkin. Bu teglar ekstralingvistik omillarning tilga ta’sirini hisobga olgan holda turli xil lingvistik tadqiqotlar olib borish imkonini beradi. Korpus matnlariga talabga maqsad va vazifalariga qarab quyidagi ekstralingvistik ma’lumotlar qo‘shilishi mumkin: matn muallifi, matn olingan asar nomi, asl nusxa yoki tarjima nusxasi ekanligi, yaratilgan sanasi, nashr sanasi, tilning qaysi davriga oid ekanligi, janri (janriy xususiyatlari to‘liq matnga nisbatan olinadi), uslubi.

Xulosa. Lingvistik va ekstralingvistik teglash korpus lingvistikasi doirasidagi asosiy amaliy bosqichlardan biri hisoblanadi. Ushbu teglash turlari til birliklarini nafaqat grammatik yoki semantik nuqtayi nazardan, balki ularning ijtimoiy, madaniy va kontekstual xususiyatlari asosida ham tahlil qilish imkonini beradi. Korpusni mukammal teglash nafaqat statistik tahlillar, balki mashinali tarjima, avtomatik to‘ldirish, matnni indekslash va izlash kabi ko‘plab texnologik jarayonlarning sifatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Abdurahmonova N.. O‘zbek tili elektron korpusining komyuter modellari. Monografiya. – Toshkent, 2021. – 202 b.

2.Abjalova M.. Korpus lingvistikasi. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: BOOKMANY PRINT, 2022. −102 b.

3.Ahmedova D.. Atov birliklarini o‘zbek tili korpuslari uchun leksik-semantik teglashning lingvistik asos va modellari. Filol.fan.bo‘yicha falsafa doktori ... disser. avtoreferat –Buxoro,2020.–55 b.

4.Ahmedova D.. Semantik razmetka tizimida teg guruhlari. Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (3) III/2020. 440-444-b.

5.Elov B., Xusainova Z.. Til korpuslarini lingvistik teglash bosqichlari. “KOMPYUTER LINGVISTIKASI: MUAMMOLAR, YECHIM, ISTIQBOLLAR” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Vol. 1 №. 01 (2024). –122-128-b.

6.Gulyamova N.. Alisher Navoiy mualliflik korpusi va uning semantik teglari korpusini yaratish(“Badoye ul-vasat” devoni asosida) Filol.fan.bo‘yicha falsafa doktori (PhD)... disser. –Toshkent, 2022. –160 b.

7.Gulyamova Sh.. O‘zbek tili semantik analizatorining lingvistik asoslari. Filol.fan.doktori (Dsc)... disser. –Farg‘ona,2022. –236 b.

8.Xamroyeva Sh.. O‘zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari. Monografiya. – Germaniya: GlobeEdit, 2020. – 250 b.

9.Xamroyeva Sh.. O‘zbek tili morfologik analizatorining lingvistik ta’minoti. Filol.fan.doktori (Dsc)... disser.avtoreferat. –Farg‘ona, 2021. –76 b.

10.Xudoyberganov N.. O‘zbek til korpusiga morfologik ishlov berish. “KOMPYUTER LINGVISTIKASI: MUAMMOLAR, YECHIM, ISTIQBOLLAR” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Vol. 1 №. 01 (2024). 72-78-b.

NOMINATSIYA NAZARIYASIGA OID ASOSIY TUSHUNCHALAR

M.R.Mamarasulova
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU 2-bosqich doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada nominatsiya nazariyasiga yuzaga kelishi va rivojlanish bosqichlari, shuningdek, nominatsiya nazariyasiga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlar, nomlash jarayoni bosqichlari, nominatsiya turlari kabi masalalar yoritildi. Turli olimlarning xilma-xil qarashlari asosida tahlilar berildi.

Kalit so‘zlar: nominatsiya jarayoni, olam manzarasi, birlamchi va ikkilamchi nominatsiya, onomasiologiya

Аннотация: В статье рассматриваются этапы становления и развития теории номенклатуры, а также основные черты, присущие ей, этапы процесса именования и типы номенклатуры. Анализ представлен на основе различных взглядов различных учёных.

Ключевые слова: процесс номенклатуры, мировоззрение, первичная и вторичная номенклатура, ономасиология

Abstract: This article discusses the emergence and development stages of the theory of nomenclature, as well as the main features inherent in the theory of nomenclature, the stages of the naming process, and the types of nomenclature. Analyses are provided based on the diverse views of various scholars.

Keywords: nomination process, worldview, primary and secondary nomination, onomasiology

Inson tili benihoya murakkab, benihoya ko‘p tomonlama, benihoya o‘ziga xos muhtasham va muntazam hodisadir. [4. Н.Маҳмудов.2012:B.1] Darhaqiqat, til orqali fikr bildirilar ekan, bu jarayonda til boyligining asosiy birligi hisoblangan so‘zning o‘rni beqiyos bo‘lib, u fikr uchun asos va poydevor vazifasini o‘taydi. Shu bois so‘zning yuzaga kelishi – (muayyan tovushlar yoki harflar vositasi shakllanish jarayoni) masalasi tilshunoslik fani falsafa tarkibida bo‘lgan qadimgi zamonlardan beri faylasuf va olimlarning e’tibor markazida bo‘lib kelmoqda. Ushbu jarayon tilshunoslikda nominatsiya nazariyasi hamda onomasilogiya sohalarining o‘rganish obyekti sifatida tadqiq etilmoqda. Nominatsiya nazariyasi — tilshunoslik fanining ma’lum bir tildagi ma’nodan (mazmun tekisligidan) uni ifoda etuvchi shaklga (ifoda tekisligi) yo‘nalishida aniq nomlarni tavsiflash tamoyillari va vositalarini o‘zida mujassam etgan sohadir. Nominatsiya, ya’ni obyektiv olamdagi narsa va hodisalarni atash jarayoni aynan ularni anglay olish, bilish jarayoni bilan bevosita aloqadorlikda yuzaga keladi. Inson bilish jarayonida narsa va predmetlarga xos bo‘lgan belgi va xususiyatlarni aniqlab boradi, predmetlarni nomlash jarayonida esa mazkur belgilardan yetakchi mavqega ega bo‘lganini tanlaydi. Shu tariqa har qanday narsa va hodisa inson tomonidan o‘zining munosib atamasini, nomini oladi. [8.Л.Худайбердиева. 2003:Б.10] Nomlash jarayonini quyidagi ketma-ketlikda belgilash mumkin:

Olam manzarasi - olamning (ongdagi) konseptual manzarasi - olamning lisoniy manzarasi. [1.M.Xakimova. 2023:B.20]

Olam manzarasi ya’ni tashqi olam insonning anglash, bilish va tafakkur qilish qobilyati orqali olamning konseptual manzarasiga aylanadi va nihoyasida ana shu ongimizda paydo bo‘lgan tushunchaning ma’lum bir nomga birikishi olamning lisoniy manzarasini hosil qiladi. Masalan, biz notanish holatga, predmetga duch kelamiz va shu holat yoki predmetning belgi xususiyatlari bilan yaqindan tanishganimizdan so‘nggina unga nom bera olamiz.

Nominatsiyaga doir nazariy qarashlar XX asrga kelib paydo bo‘la boshlagan bo‘lsa-da, obyektiv olamdagi narsa va hodisalarni atash jarayoni dastlab antik davr faylasuflari tominidan muhokamaga tortilgan. Ular so‘zning nomlayotgan narsa bilan munosabati tabiiy hodisami yoki shartli hodisami degan muammo atrofida bahs-munozara yuritgan. Qadimgi Yunon faylasufi Aristotel so‘z(nom)ni taqlid vositalaridan biri sifatida tasniflaydi, biroq u so‘zni ko‘r-ko‘rona taqlid emas, fikrning faoliyati, mehnati deb biladi. Aristotel bunday taqlid(nominatsiya jarayoni)ni nafaqat insonning tabiiy qobilyati, balki uning g‘ayrishuuriy-instinktiv, hatto intelektual ehtiyoji sifatida baholaydi. Ufimseva, antik davr yillarida faylasuflarning nominatsiya masalasidagi barcha qarashlarini quyidagi uchta asosiy guruhga ajratdi:
1) inson tili va bilim o‘rtasidagi munosabat; 2) nom va belgilangan obyekt o‘rtasidagi bog‘lanish xarakteri; 3) til hamjamiyati a’zolari orasida ismli narsaning o‘zgarmas g‘oyasining mavjudligi [7.А.Уфимцева 1977:С. 5−85]

Borliqqa tegishli voqelikning nomlanishi bilan bog‘liq masala XX asr o‘rtalaridan buyon onomasiologiyaning tadqiq obyektiga aylangan. Onomasiologiyaning fan sifatida shakllanishida leksik maydon nazariyasi vakillari hisoblangan L.Veysgerber, K.Baldingerlar o‘z hissasini qo‘shgan bo‘lsa, onomasiologiyaning 1950-yillarda mustaqil sohaga aylanishida V.Krauze, F.Dornzeyn, B.Kvodi, V. fon Kartburglarning tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Nominatsiya nazariyasi borasida turli olimlarning farqli qarashlari qayd etiladi. Xususan, G.V.Kolshanskiyning fikricha, nominatsiya tom ma’noda atash jarayoni bo‘lib, asosiy fuksiyasi komunikatsiyaga xoslangandir.

O.S.Axmanova nominatsiya tushunchasi quyidagi uch ma’noni anglatishini qayd etadi:

1)so‘zning atovchi funksiyasi, so‘zning tegishli nutqiy vaziyat yoki kontekstda hosil bo‘luvchi semantik aspekti;

2)atash jarayonida sifatida so‘zning referent bilan qiyoslanishi;

3)nominativ funksiya

Shunindek, tadqiqotchilar “sun’iy nominatsiya” va “tabiiy nominatsiya”ni farqlaydilar. Shunga ko‘ra, nominatsiya to‘rt turga ajratiladi:

1) Hosil bo‘lishiga ko‘ra normal yoxud tabiiy nominatsiyalar (birlamchi nominatsiyalar);
2) Mutatsiyalar – metafora, metonimiya ta’sirida yuzaga kelgan nominatsiyalar;
3) Ongli ravishda (lug‘at tarkibiga kiritish maqsadiga yo‘naltirilgan nutq) vujudga kelgan sun’iy nominatsiyalar;
4) “patologik” nominatsiya, lisoniy mezonlardan og‘ishish, ekstralingvistik faktorlar evaziga hosil bo‘lgan nominatsiyalar [5.Н.Ю.Шведовой. 1980: С.28.]

Birinchi va ikkinchi tur tabiiy nominatsiya bo‘lib, mavjud leksemalar qamrab oladi. Uchinch va to‘rtinchi tur esa sun’iy nominatsiya hisoblanib, ma’lum shart-sharoit natijasida inson tomonidan yaratiladi.

XX asrning ikkinchi yarimida nominatsiyaning ikkilamchi, hodisaviy, jumlaga oid, anaforik, bilvosita turlariga alohida e’tibor qaratildi. Bunda nominativ birliklar qatoriga nafaqat ot so‘z turkumidagi, balki boshqa barcha mustaqil so‘z turkumiga oid so‘zlar, shuningdek, gapga teng jumlalar, turli okkozional vositalar kiritildi. (N.D.Artyunova, V.G.Gak, E.S.Kubryakova, G.V.Kolshanskiy, B.A.Serebrennikov, Yu.S.Stepanov, V.N.Telya, A.A.Ufimsevalar)

Birlamchi nominatsiya bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha tilshunoslarning fikrlari juda o‘xshash bo‘lsa, ikkilamchi nominatsiya va ularning xususiyatlarini aniqlash muammosi hali ham ilmiy dunyoda muhokamalarga sabab bo‘ladi.V.V.Vinogradovning qayd etishicha, so‘zning asosiy(birlamchi) nominativ ma’nosi to‘g‘risida belgilangan obyektning tegishli sharoitda birlamchi vazifada qo‘llanilgan shaklini birlamchi yoki to‘g‘ri nominatsiya deb ataydi. Fanda asosan birlamchi(asosiy) nominatsiyaga e’tibor qaratiladi.

Birlamchi nominatsiya - bizni o‘rab turgan atrof olamning, voqelikning bo‘laklarini bildiradi. Shu ma’noda birlamchi nominatsiya zamonaviy tillarda juda kam uchraydigan hodisadir, chunki barcha tillarning birlamchi leksik tarkibi ko‘p asrlar davomida allaqachon shakllangan. Masalan, turkiylar dunyoqarashining ibtidoiy qarashlarini aks ettiruvchi so‘zlar asosan bir bo‘g‘inli so‘zlar bo‘lib, ular qadimgi turkiy lug‘atning eng qadimiy qatlami hisoblanadi. Birlamchi nominatsiya so‘zning fonetik tarkibi bilan chambarchas bog‘liq, shuning uchun fonosemantik tahlil natijalari uni o‘rganish uchun asos sifatida ishlatilishi mumkin. Fonosemantika – tillardagi nominatsiyaning fonetik asosi va ma’nosiga qarab fonetik shakllanish qonuniyatlarini o‘rganuvchi soha hisoblanadi.

Shuningdek, nominatsiya nazariyasi XX asrdan tilshunoslikning yondosh sohalari doirasida ham tadqiqot obyektiga aylana boshlandi. Xususan, biologik tilshunoslikning nominatsiyaga munosabatida bosh miya,

nutq va sezgi organlarining o‘zaro aloqadorligi inobatga olingan holda nominatsiya jarayoniga – voqelikni mental-hissiy qabul qilishi sifatida yondashildi. Naturalistik (biologik) tilshunoslik vakillari A.Shleyxer, M.K.Rapp, A.A.Ovelok tomonidan nominatsiya o‘z-o‘zidan paydo bo‘luvchi, inson irodasiga bog‘liq bo‘lmagan evalutsion jarayon sifatida tushunildi.A.R.Luriya, N.I.Jinkin, S.D.Kasnelsonlar nominatsiyani neyrolingvistikaning murakkab psixik jarayon bilan bog‘liq bo‘lgan tadqiq obyekti sifatida o‘rganganlar. Ushbu psixologiya, lingvistika, nevrologiyaning kesishuvini aks ettiruvchi aspektda psixolingvistlar nominativ jarayonni bosh miyaning me’yordagi faoliyati va uning lokal jarohatlanishlari sharoitida o‘rganishni maqsad qiladilar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, nominatsiya tilning muhim funksiyalaridan biri bo‘lib barcha tilshunoslik sohalari doirasida keng qamrovda o‘rganiladi. Nominatsiya har bir til va madaniyatning o‘ziga xosligi ifodasi bo‘lib, u jamiyatning dunyoqarashi, qadriyatlari va hayot tarzi bilan uzviy bog‘liq. Tilshunoslikda nominatsiya nazariyasining chuqur o‘rganilishi inson tafakkuri va til o‘rtasidagi murakkab aloqalarni yoritishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xakimova M.K. Semasialogiya. – Tosheknt. “Nodirabegim nashriyoti, 2023
2. Геляева А. И. Человек в языковой картине мира / А. И. Геляева. – Нальчик: Каб.-Балк.ун-т, 2002. – 177 с. Аппоев А. К. Этнографическая лексика карачаево-балкарского языка: Дисс. … канд. филол. наук / А. К. Аппоев. – Нальчик, 2013. – С. 75.
3. Иванова Н. Н. Поэтические номинации в русской лирике / Н. Н. Иванова. – М.: Наука, 1992. – 135 с.; Исаев Ю. Н. Фитонимическая картина мира в разноструктурных языках: Дисс. ... д-ра филол. наук / Ю. Н. Исаев. – Чебоксары, 2015. – 413 с.
4. Маҳмудов Н. ТИЛНИНГ МУКАММАЛ ТАДҚИҚИ ЙЎЛЛАРИНИ ИЗЛАБ... Ўзбек тили ва адабиёти, 5-сон 2012: B.1]
5. Н.Ю.Шведовой. Русская граматика / Под ред. Т.2. – М., 1980. – С.28.
6. Сапиева С.К. Языковая номинация и проблема ее ономасиологического исследования ВЕСТНИК САФУ. Лингвистика № 1; Т. 23, 2023.
7. Уфимцева А.А. Лексическая номинация (первичная нейтральная) // Языковая номинация (виды наимено ваний) / сост. А.А. Уфимцева, Э.С. Азнаурова, В.Н. Телия и др.; отв. ред. Б.А. Серебренников, А.А. Уфимцева. М.: Наука, 1977. С. 5−85
8. Худайбердиева Л. Ўзбек тилида номинатив бирликларнинг даражаланиши. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация афтореферати. Тошкент. 2003
9. Хусаинов К. Ш. Звукоизобразительность в казахском языке / К. Ш. Хусаинов. – Алма-Ата: Наука, 1988. – 232 с.
10. Ягафарова Г.Н. Ономасиологический анализ лексики современного башкирского языка: Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора филологических наук. – Казан, 2018. – 50 с.

CHALLENGES AND STRATEGIES IN TRANSLATING NON-EQUIVALENT UZBEK LEXICAL UNITS

H.K.Kodirjonov
PhD-student of Namangan state institute of foreign languages
Email: hasanboy100193@gmail.com Phone number: +998 99 394 97 96

Introduction. The transfer of culturally bound or non-equivalent lexical items (NELIs) remains one of the most persistent challenges in translation studies. Uzbek—rich in culture-specific kinship terms, ritual vocabulary and pragmatic formulas—offers especially revealing cases. Russian scholar G. V. Chernov proposed a tripartite typology of NELIs (material, lexical-semantic, stylistic) that highlights their multilayered nature.[1] A. O. Ivanov accepts Chernov’s framework yet argues that, in practice, semantic and pragmatic adequacy in context overrides neat formal distinctions.[2] Latishev, in turn, explains the emergence of NELIs primarily through cultural-referential lacunae between language communities.[3] Finally, L. S. Barxudarov groups NELIs into proper names, culture-specific realia and “accidental” lexical gaps, underscoring the breadth of the phenomenon.[4]

Although these taxonomies illuminate the problem from different angles, translators still need operational strategies that safeguard the communicative-pragmatic load of such items. This study therefore asks: How can Uzbek NELIs be rendered into English so that their semantic content and pragmatic force are both maintained?

Methods. A qualitative, descriptive-analytical design was adopted. First, the four major classifications of NELIs (Chernov, Ivanov, Latishev, Barxudarov) were synthesised into a single analytical grid. Second, four Uzbek NELIs — *epli-sepli*, *quda-anda*, *sovchi* and *oqsoqol*—were extracted from contemporary Uzbek feature films (*Issiq non and To‘ylar muborak*) and confirmed through the Explanatory Dictionary of the Uzbek Language.[5] The source dialogues and their published English subtitles were aligned and compared. Each case was then subjected to three well-known translation procedures:

1. Descriptive (glossing) translation
2. Pragmatic compensation
3. Cultural substitution (adaptation)

The effectiveness of each procedure was evaluated against two criteria: (a) retention of denotative meaning; (b) retention of pragmatic effect on the target audience.

RESULTS

Source NELI	Literal Meaning & Cultural Function	Published Subtitle	Observed Losses	Most Effective Procedure
epli-sepli	“A bride who is both handy (epli) and well-provided with domestic goods (sepli)”	“You should be skillful and possess a dowry.”	Conflates skill with wealth; omits communal approval nuance.	Descriptive gloss: “...become a capable bride, bringing her own household linen and utensils.”
quda-anda	In-law families bound by reciprocal visits and gifts before a wedding	“in-laws”	Eliminates ceremonial reciprocity, warmth	Descriptive + compensation: “...welcome our ceremonial in-law guests—an essential pre-wedding tradition.”
sovchi	Delegated matchmakers who formally request a bride’s hand	“matchmakers”	Misses ritual hierarchy & gift-exchange expectation	Descriptive gloss in first mention; simple “matchmakers” thereafter
oqsoqol	Respected elder with informal moral authority in a neighbourhood	“elder”	Deletes implicit power to arbitrate disputes	Cultural substitution: “community elder vested with moral authority”

Across all four samples, descriptive translation preserved semantic content most fully but lengthened the text and risked stylistic dilution. Pragmatic compensation successfully restored emotive tone where lost (e.g., duplicating the warmth of *quda-anda*), yet demanded careful placement to avoid over-explication. Cultural substitution proved economical for institutional roles (*oqsoqol*) but could blur the foreignness that characterises Uzbek culture.

DISCUSSION

The findings confirm Ivanov’s claim that the function of an item in discourse—not its formal category—must guide equivalence decisions.[6] Chernov’s material / lexical-semantic / stylistic layers remain useful diagnostics, but a context-oriented, semiotic lens (referential, denotative, pragmatic) better predicts where losses will occur. An integrated workflow is therefore proposed:

1. Classify the NELI via the Chernov–Ivanov–Latishev–Barxudarov grid.
2. Diagnose which semiotic layer is most at risk in the target context.
3. Select a primary procedure (descriptive, compensation, substitution) plus a secondary fail-safe (e.g., footnote or glossary entry).
4. Validate with back-translation or native focus-group feedback to ensure pragmatic resonance.

Applied to Uzbek–English translation, this workflow enables translators to retain both the semantic substance and the cultural-pragmatic aura of NELIs without overburdening the reader. It also aligns with recent functionalist theories that prioritise communicative purpose over one-to-one lexical matching.

CONCLUSION. Non-equivalent Uzbek lexical items embody dense layers of cultural meaning that cannot be preserved by lexicon-level solutions alone. By merging classical taxonomies with a semiotic-functional approach and flexible procedural toolkit, translators can craft target texts that remain intelligible while still conveying the social texture of Uzbek life. Future research could quantify reader reception of each procedure and test the model across other Turkish languages.

References

1. G. V. Chernov, *Introduction to Translation Theory*, Moscow: Vysshaya Shkola, 1981.
2. A. O. Ivanov, “Semantic Equivalence Revisited,” *Translation Studies Quarterly* 12, no. 3 (2012): 45–59.
3. A. A. Latishev, *Culture and Translation Gaps*, Moscow: URSS, 2007.
4. L. S. Barxudarov, *Language and Translation*, Moscow: International Relations, 1975.
5. *O‘zbek tilining izohli lug‘ati* [Explanatory Dictionary of the Uzbek Language], vol. 2, Tashkent: Uzbekistan Milliy Ensiklopediyasi, 2008.
6. *Oxford English Dictionary Online*, s.v. “dowry,” accessed July 22 2025.
7. Issiq non [Hot Bread], directed by Umid Khamdamov, Uzbekfilm Studio, 2019.
8. *To‘ylar muborak* [Happy Weddings], directed by Elyor Ishmukhamedov, Uzbekfilm Studio, 1980.
9. Uzbek Academy of Sciences, Folk Customs and Kinship Terms, Tashkent: Fan, 2015.
10. *Merriam-Webster Dictionary Online*, s.v. “cheers,” accessed July 22 2025.

KOGNITIV TILSHUNOSLIKNING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI

N.D.Maxammadjonov
Andijon davlat universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti +998945657999; +998995107999

Annotatsiya: Maqolada kognitiv tilshunoslikning psixologiya, nevrologiya va antropologiya fanlari bilan bog‘liqligi yoritiladi. Til va tafakkur o‘zaro munosabatda, madaniyat va neyrojarayonlar ta’sirida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: kognitiv tilshunoslik, psixologiya, nevrologiya, antropologiya, tafakkur, madaniyat

Аннотация: В статье рассматривается связь когнитивной лингвистики с психологией, неврологией и антропологией. Анализируются влияние культуры и нейропроцессов на язык и мышление.

Ключевые слова: когнитивная лингвистика, психология, неврология, антропология, мышление, культура

Abstract: The article examines the relationship between cognitive linguistics and psychology, neuroscience, and anthropology, focusing on how culture and brain processes affect language and thought.

Keywords: cognitive linguistics, psychology, neuroscience, anthropology, thinking, culture

Bugun zamonaviy ilm-fanda fanlar integratsiyasini kuzatishimiz mumkin. Hozirda hech bir fan boshqa sohalar ko‘magisiz ishonarli ilmiy natijalarga ega bo‘la olmaydi. Kognitiv tilshunoslik sohasi ham bundan mustasno emas, ya’ni bu yo‘nalish bir qancha fanlar chorrahasida o‘zaro kesishadi. Psixologiya,

nevrologiya, antropologiya, sun’iy intellekt kabi fan tarmoqlari shular jumlasidandir. Ushbu fan (soha) lar bilan kognitiv tilshunoslikning aloqasini quyida ko‘rib o‘tamiz.

Psixologiya (kognitiv psixologiya) fani kognitiv tilshunoslikning shakllanishida nazariy asos bo‘lib xizmat qilgan. Bu yondashuv tilning ongda qay tartibda shakllanishi, saqlanishi va insonning undan qanday foydalanishini o‘rganadi. Til birliklarining konseptualizatsiyasini psixologik yondashuvlar asosida tahlil qilish tadqiqotchilarga ishonchli natijalarni qo‘lga kiritishlari uchun yordam beradi. Psixologiya fanidagi bir qancha tushunchalar: xotira, e’tibor, tushunish qobiliyati asosida bolalarda til o‘rganish jarayoni shakllanadi. Bundan tashqari psixik mexanizmlar (semantik tarmoq, assotsiatsiya, intuitiv bilish) orqali so‘z birikmalarini tanlash va moslashtirish amalga oshiriladi. Amerikalik tilshunos Maykl Tomasello “Til qurilishi: Til o‘zlashtirishning foydalanishga asoslangan nazariyasi” nomli maqolasida kognitiv tilshunoslik, psixologiya va bolalarda til o‘zlashtirish jarayonini batafsil tahlil qiladi [5. 2003:B.15].

Tadqiqotchining fikricha, til o‘rganish ijtimoiy kognitiv faoliyat bo‘lganligi sababli bola tilni ijtimoiy muloqot va umumiy kognitiv qobiliyatlar yordamida o‘zlashtiradi. Bolalar tilni biologik jihatdan maxsus til modullari asosida o‘rganishi haqidagi farazlarni rad etadi. Foydalanishga asoslangan nazariyaga ko‘ra, bolaning nutqida tayyor sintaktik yoki morfologik konstruksiyalar mavjud bo‘lmaydi. Balki, real muloqot jarayonida qo‘llanilgan iboralar (so‘z, gap, matn) ni, ularning takrorlanishini grammatik tuzilmalar shaklida o‘zlashtiradi. M. Tomasello nazariyasining kognitiv tilshunoslik bilan uzviy bog’liqligi shundaki, ushbu yondashuvda tilga faqatgina grammatik qoidalar yig‘indisi emas, balki individning tushuncha va tajribalari yig‘indisi sifatida qaraladi. Shuningdek, til o‘rganish jarayoni quyidan yuqoriga prinsipi asosida shakllanadi, ya’ni insonning avvalgi tajribalari asosida grammatik, strukturaviy qoliplar shakllanadi. Buni quyidagi jadvalda batafsil ko‘rib o‘tishimiz mumkin:


Jarayon	**Kognitiv nuqtayi nazardan izohi**
Takroriy eshitish	Input asosida perseptiv tahlil
“Choy ichaman”ni aytish	Imitatsiya va maqsadli ifoda
“Suv ichaman” kabi iboralar	Abstraktsiyalash, o‘xshashlik asosida umumlashtirish
Grammatik konstruktsiyani hosil qilish	Mental model asosida nutq tuzish

Yuqorida ta’kidlaganimzidek, kognitiv tilshunoslik bir necha fan tarmoqlari kesishgan chorrahada vujudga kelgan. Shu sababli psixologiya fani kognitiv tilshunoslik uchun g’oyaviy va metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Til bu – shunchaki aloqa vositasi emas, balki inson tafakkurining tashqi ifodachisi – moddiy shakli hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, psixologiya fanidagi nazariy yondashuvlar kognitiv mexanizmlarni tadqiq etishda muhim rol o‘ynamoqda.

Til tafakkur jarayonining eng murakkab hodisalaridan biri bo‘lganligi sababli uni to‘liq tushunish va tadqiq qilishda faqatgina tilshunoslikka oid tadqiqotlarning o‘zi kamlik qiladi. Bu jarayonda tadqiqotchiga boshqa biologic fanlarning, jumladan: psixologiya va nevrologiya fanlari yordamga keladi. Kognitiv tilshunoslikning tadqiqot doirasi mana shu fanlar ko‘magida kengayadi va bu fanlar o‘z navbatida bir-birining o‘rnini to‘ldiradi. Quyida kognitiv tilshunoslikning nevrologiya fani bilan aloqasini ko‘rib o‘tamiz.

Til va tafakkur jarayonlarini batafsil tushuntirish va tadqiq etishda kognitiv tilshunoslik va nevrologiya fanlari o‘zaro chambarchas bog‘langan. Kognitiv tilshunoslik tilga tafakkur mexanizmining bir qismi sifatida yondashadi. Nevrologiya ushbu jarayonning inson miyasida qanday borishini o‘rganadi [2. 2011:B.1357]. Demak, bu ikki soha til va tafakkur munosabatini kompleks tadqiq qiladi.

Muloqotning asosiy omillari – so‘zlarni eslab qolish, gap tuzish, axborotlarni qabul qilish va tushunish – miya faoliyatining turli nuqtalarida amalga oshiriladi. Miyadagi broka va verneke maydonlarini misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Broka maydoni – tilni shakllantirish, grammatik konstruksiyalarni ishlab chiqish, nutqni rejalashtirish va tovush artikulyatsiyasiga mas’ul hisoblanadi. Verneke maydoni esa – eshitilgan nutqni, so‘zlar va ularning semantik ma’nolarini tushunish va farqlash uchun xizmat qiladi [4. 200:B.393]. Buni quyidagi rasm va jadval orqali tushunishimiz mumkin:



Muloqot jarayonlariga mas’ul miya sohalari

Miya sohasi	Funksiyasi	Buzilishi oqibati
Broka maydoni	Gap tuzish, sintaktik konstruksiyalar	Ekspressiv afaziya (gapira olmaslik)
Vernike maydoni	Eshitilgan nutqni tushunish	Retseptiv afaziya (tushunmaslik)

Nevrologik kasalliklar (afaziya, disleksiya, autizm) tilshunoslik va nevrologiya sohalarining o‘zaro aloqasini yaqqol namoyon qiladi. Buni afaziyaning ikki turida ko‘rib o‘tamiz: ekspressiv afaziyaga chalingan bemorlar sezgi a’zolari orqali qabul qilingan axborotlarni tushunishlariga qaramasdan, grammatik me’yorlarga to‘g‘ri keladigan gap tuza olishmaydi. Broka markazi faol bo‘lganida bola gapni to‘g‘ri tuza oladi: *Men bugun maktabga bordim*. Agar ekspressiv (broka) afaziyasi kuzatilgan hollarda mana shu argument buziladi. Masalan, “maktab… men… bugun…” kabi so‘zlar grammatik me’yorlar orqali bog‘lanmaydi. Retseptiv (vernike) afaziyasida esa, bemorlar grammatik me’yorlar muvofiq gap tuza oladi (*Bugun mashina osmonga uchdi*), lekin bu jumlalar semantik me’yorlarga mos tushmaydi.

Demak, bugungi zamonaviy ilm-fan kognitiv tilshunoslik va nevrologiya fanlarining o‘zaro hamkorligidan katta amaliy natijalar va ilmiy yutuqlar ega bo‘ladi. Tilshunoslik doirasidagi tadqiqotlarga nevrologiya fanidagi nazariya va yondashuvlarni tatbiq etish fanning tadqiqot doirasini kengaytiradi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, tilni faqat ijtimoiy yoki madaniy fenomen emas, balki tafakkur mexanizmining ajralmas qismi sifatida tadqiq etish dolzarb muammo hisoblanadi. Shu sababli kognitiv tilshunoslik va nevrologiyaning ilmiy hamkorligi tadqiqot ishlarida tilning yangi qirralari va ilmiy-amaliy ahamiyatini ochib beradi.

Til grammatik metodlar orqali tahlil qilinadigan, faqatgina kommunikativ funksiya bajaradigan aloqa vositasi emasligini yuqoridagi misollar orqali ko‘rib o‘tdik. Tilni nafaqat grammatik va biologik fanlarning yutuqlaridan foydalanib tahlil qilish, balki uning ijtimoiy-madaniy muhit va xalq tafakkuri bilan uzviy bog‘liq ekanligi asosidagi nazariyalar orqali o‘rganish bizga kompleks tadqiqotlar uchun yo‘l ochadi. Hech birimizga sir emaski, zamonaviy ilm-fanning eng muhim yo‘nalishlaridan bir bu – antropologiya. Atama etimologiyasidan ham ma’lumki, insoniyatni kompleks tahlil qiladigan va biologik, madaniy, ijtimoiy hamda til asoslari haqida umumiy xulosa va ma’lumotlar beradigan fan antropologiyadir. Shu jihatdan olib qaralganda, kognitiv tilshunoslikning ham antropologiya bilan uzviy aloqasi mavjud. Bu fan tarmoqlari kesishgan nuqtada **kognitiv antropologiya** yo‘nalishi vujudga kelgan.

Zamonaviy tadqiqotlarning markazida inson turar ekan, uning tafakkuri va madaniy tajribasi aloqalarini o‘rganish har qachongidan ham dolzarblik kasb etmoqda. Tilshunoslik, psixologiya va nevrologiya fanlarining kesishgan nuqtasida shakllangan kognitiv antropologiya fani madaniyatning tafakkurga qanday ta’sir etishi va qay darajada aks etishini tadqiq qilish bilan shug‘ullanadi. Bu yo‘nalishda madaniyatning mental model, kategoriya nazariyasi, mental xarita va konseptual sxemalar asosida tilga ta’siri tahlil qilinadi [1. 1995:B.3]. Insoniyatning turmush tarzi uning til va tafakkuriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etishi hech kimga sir emas. Amerikalik antropolog Tomas Gladvinning tadqiqotlari ushbu fikrimizga yaqqol dalil bo‘la oladi. U o‘zining “**Sharq – katta qush: Puluvat orolidagi navigatsiya va mantiq**” (*East is a Big Bird: Navigation and Logic on Puluwat Atoll) nomli asarida madaniyat va tafakkurning o‘zaro bog‘liqligini kognitiv nuqtayi nazardan tahlil qiladi. Ushbu orolda yashovchi xalq dengiz sayohatlarida zamonaviy navigatsiya asboblari yoki kompasdan foydalanmaydi. Ular o‘z yo‘nalishlarini yulduzlar, to‘lqinlar va qushlar parvoziga qarab belgilaydi. Orol aholisining tilida dengizchilikka oid yuzdan ortiq atamalar bor, ya’ni ularning madaniy muhiti tilga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Ularning dengizga, umuman atrof-muhitga munosabatini kognitiv xarita (mental xarita) yordamida tadqiq etish mumkin.*

Kognitiv tilshunoslik, avvalo, inson tafakkur mexanizmini o‘rganar ekan, uning ko‘plab ijtimoiy-gumanitar yoki tadqiqot markazida inson turuvchi boshqa fanlar bilan aloqasi va bu aloqa natijasida yuzaga keladigan yo‘nalishlarni o‘rganish har qachongidan ham dolzarblik kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. D’Andrade R. *The Development of Cognitive Anthropology*. Cambridge: Cambridge University Press, 1995.
2. Friederici A. D. *The Brain Basis of Language Processing: From Structure to Function*. In: *Physiological Reviews*, 2011, vol. 91, no. 4, pp. 1357–1392.
3. Gladwin T. *East is a Big Bird: Navigation and Logic on Puluwat Atoll*. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1970.
4. Hickok G., Poeppel D. *The Cortical Organization of Speech Processing*. In: *Nature Reviews Neuroscience*, 2007, vol. 8, no. 5, pp. 393–402.
5. Tomasello M. *Constructing a Language: A Usage-Based Theory of Language Acquisition*. Cambridge, MA: Harvard University Press, 2003.

O‘ZBEK XALQ ERTAKLARIDA GIPERBOLA: MAZMUN VA MAQSADLARIGA KO‘RA TURLARI, BADIIY-ESTETIK VAZIFALARI

H.X.Bozorov
Termiz davlat universiteti PhD, dotsent v. b., hamidbozorov65@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek xalq ertaklarida uchraydigan giperbolaning badiiy vosita sifatida qanday vazifa bajarishi tahlil qilinadi. Giperbola, asosan, shaxslarning jasorati, kuchi, go‘zalligi yoki tabiat hodisalari, hayvonlar va mifologik mavjudotlarning ulug‘vorligini bo‘rttirishga xizmat qilganligi misollar asosida dalillanadi. Ushbu usul, ertak matnidagi dramatik va estetik ta’sirni kuchaytirib, obrazlarning o‘ziga xos ramziy va axloqiy mazmunlarini ochib berishi misollar orqali ko‘rsatib beriladi. Maqolada giperbolaning turli turlari shaxsga, predmetga, mifonimlarga oid bo‘lishi va ular orqali xalqning ijtimoiy, madaniy qadriyatlari aks etishi, natijada, giperbola ertaklarning estetik va ma’naviy boyligini yanada oshirishga xizmat qilishi haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: ertak, giperbola, mazmun-mohiyatiga ko‘ra giperbola turi, salbiy va ijobiy obraz, badiiy ta’sir, estetik kuch.

Аннотация. В данной статье анализируется роль гиперболы как художественного средства в узбекских народных сказках. Гипербола, в основном, служит для преувеличения мужества, силы, красоты персонажей, а также величия природных явлений, животных и мифологических существ. Это средство помогает усилить драматическое и эстетическое воздействие сказочного текста, а также раскрывает символическое и моральное содержание образов через примеры. В статье рассматриваются различные виды гиперболы, связанные с персонажами, предметами, мифологическими элементами, а также как эти гиперболы отражают социальные и культурные ценности народа, в результате чего гипербола способствует увеличению эстетической и духовной ценности сказок.

Ключевые слова: сказка, гипербола, виды гиперболы по содержанию, положительный и отрицательный образ, художественное воздействие, эстетическая сила.

Abstract. This article analyzes the role of hyperbole as an artistic tool in Uzbek folk tales. Hyperbole primarily serves to exaggerate the courage, strength, beauty of characters, as well as the grandeur of natural phenomena, animals, and mythological beings. This technique enhances the dramatic and aesthetic impact of the fairy tale text and helps to reveal the symbolic and moral meanings of the characters through examples. The article discusses various types of hyperbole related to characters, objects, and mythological elements, as well as how these hyperboles reflect the social and cultural values of the people. As a result, hyperbole contributes to increasing the aesthetic and spiritual value of the tales.


Keywords: fairy tale, hyperbole, types of hyperbole by content, positive and negative characters, artistic impact, aesthetic power.

Ertak xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy va boy shakllaridan biri bo‘lib, uning badiiy vositalari til va madaniyatning o‘ziga xos jihatlarini ochib beradi. Prof. K.Imomov ta’kidlaganidek, “Fantastika ertak

mezoni, uning joni va qonidir”. [2. 1990.B:188] Ertakdagi fantastik tasvirlarning aksariyati giperbola orqali badiiylashtiriladi. Xususan, giperbola oshirib ko‘rsatish san’ati, ertak matnlarida obrazlarni yanada jonli, ta’sirchan va ifodali qilishda muhim lingvopoetik vosita hisoblanadi. Giperbolaning lingvopoetik imkoniyatlari orqali qahramonlarning jasorati, tabiat hodisalari va holatlarning dramatikligi kuchaytiriladi, tinglovchi yoki o‘quvchida chuqur estetik taassurot qoldiriladi. Giperbola real voqelikni emas, balki tasavvurni ifodalaydi, tasviriylik va ifodalilikni kuchaytirish – adabiy matnda hissiy ta’sir uyg‘otish uchun ishlatiladi. [9. 2024.B:30]

Dastlab mubolag‘a faqat shaxslarga sifatlarini bo‘rttirish uchun xizmat qilgan, ayni zamonda tasvir obyekti bo‘lgan turli voqea-hodisa hamda boshqa mavjudotlarning xususiyatlarini xoh ijobiy, xoh salbiy tarzda oshirib ko‘rsatish uchun ham ishlatiladi. [6. 2007.B:28] Bu holat xalq ertaklarida ham ko‘p uchraydi. *Rustam borib qarasa, sher kiradigan g‘orning og‘zida* ***ho‘kizdan katta chayon*** *turgan emish.* [10. 2007.B:131] Parchada voqeaning dramatik keskinligi va tahlikalilik darajasini oshirish uchun giperbola vositasi qo‘llanilgan. Kontekstda *“Ho‘kizdan katta chayon”* aslida chayonning haqiqiy kattaligidan sezilarli darajada katta ekanligi ta’kidlanadi. Ho‘kiz kichik hasharot bo‘lsa, chayonning uning kattaligidan ancha yirikligi haqiqiy emas, bu aniq oshirilgan ifoda. Bu oshirib ko‘rsatish o‘quvchida tahlikaning jiddiyligini va voqeaning xavfli tabiatini jonliroq his qilishiga yordam beradi. Chayon o‘zining zaharliligi va xavfliligi bilan ona sherning himoyasidagi bolalarga bo‘lgan tahdidni ifodalaydi. Uning hajmining oshirilishi esa tahdid darajasini oshiradi va qahramon oldidagi sinovni yanada murakkablashtiradi. *“Ho‘kizdan katta chayon”* ifodasi tasvirga ekspressivlik va emotsional rang beradi. Bu orqali o‘quvchi voqeaga yanada chuqurroq kirib boradi.

Qayd etish joizki, giperbola sifatida jarayonning tanlanishi o‘quvchini voqeaga jalb qilish, uning diqqatini tortish va qahramonning oldidagi xavfni ta’kidlash uchun xizmat qiladi. Ilmiy nuqtayi nazardan, xalq ertaklaridagi giperbolalar mazmun va maqsadlariga ko‘ra turli toifalarga ajratilishi maqsadga muvofiqdir. Jumladan, ularni quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:



1-rasm. Ertak matnlaridagi giperbolaning mazmun-mohiyatiga ko‘ra asosiy turi

1. Shaxsga qaratilgan giperbola. Bu turdagi giperbolalar ertak qahramonining jasorati, kuchi, dono yoki mardligini bo‘rttirib ko‘rsatishga xizmat qiladi. Masalan, qahramonning juda ulkan kuchga ega ekanligi yoki mantiqdan tashqari darajada jasoratli bo‘lishi ta’kidlanadi. Bu orqali qahramon ideallashtiriladi va uni o‘quvchi yoki tinglovchi ongida yodda qolarli qiladi. *“Uning jamoli qop-****qorong‘i tunni yoritib yuboribdi****”* yoki *“****Yetti qavat harir parda tutgan qizni*** *ko‘rgach, ne-ne yigitlar* ***behush yiqilarkan****”* [4. 1985.B:50] kabi. Birinchi matnda *“jamol”* (go‘zallik) *“qop-qorong‘i tunni yoritadi”* degan giperbolik ifoda orqali qahramonning go‘zalligi me’yordan ortiq, hatto yorug‘lik beruvchi darajada deb baholanib, semantik giperbolani vujudga keltirmoqda. Ushbu tasvir arxitipik motivlarga, ya’ni *yorituvchi, najot beruvchi* obrazlarga murojaat qiladi. Ikkinchi misolda ham ayolning go‘zalligi ta’rifida giperbola mavjud bo‘lib, *“yettti qavat harir parda”* orqali ayol obrazining *ilohiy go‘zalligi, nafosatini* zabt etuvchi kuch sifatida ifodalanadi. Yigitlarning *“behush yiqilishi”* esa giperbolik tasvir orqali ularning ichki holati: *hayrat, sevgining kuchi* va *zaiflik* darajasini kuchaytirib ko‘rsatadi. Ushbu misol ekspressiv giperbola asosida yuzaga chiqqan va vizuallik kuchayadi, afektiv (emotsional) tuyg‘ular ustunligi ta’riflanadi. Ikki misol ham bir ayol obrazining tavsifi bo‘lib, obrazning odatdagi inson emas, balki afsonaviy, g‘ayritabiiy

fazilatlarga ega bo‘lgan shaxs sifatida tasvirlanadi. Bu usul orqali u o‘quvchi ongida semantik markazga aylanadi. Bunday misollar ertak qahramonlarining ertak syujetida muhim o‘rin turishi bilan bog‘liq o‘rinlarda badiiy-estetik vazifa bajaradi. *Rustam cholni yelkasiga mindiribdi. Chol* ***o‘zining gavdasiga qaraganda ming marta og‘ir*** *ekan*. [4. 1985.B:9]; *Nihoyat kampir o‘g‘il tug‘ibdi. Bu* ***bolaning og‘irligi bir botmon, bo‘yi ikki gaz*** *emish.* [4. 1985.B:13] kabi misollarda ham shaxs tasvirida giperbolaning o‘rni katta ekanligini ko‘rsatadi.


2. Narsa-predmet va tabiat hodisalariga oid giperbola. Ertaklarda turli buyumlar, ashyolar yoki tabiat hodisalarining o‘lchami, kuchi yoki sifati ko‘pincha giperbolik tarzda beriladi. Masalan, juda katta daraxt, nihoyatda og‘ir tosh yoki cheksiz uzoqlikka cho‘zilgan yo‘l kabi bo‘rttirilgan tasvirlar yordamida voqea-muhit yanada ta’sirchanroq ifodalanadi. Shuni ham aytish lozimki, bunday tasvirlar ertakka badiiy-estetik ruh bag‘ishlash bilan birga, ertak syujetini rivojlantiruvchi, asosiy qahramonlarni sinovdan o‘tkazuvchi, kuch hamda imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishda muhim badiiy vosita ham hisoblanadi. *Bu yerda* ***bulutlar bilan o‘pishgan ikki tog‘*** *bo‘lib, ular kecha-kunduz bir-birlari bilan jang qilib yotganmish. Shovqin-suron va zilzilaning sababi ham shu ekan.* [4. 1985.B:50] Parchada *“Bulutlar bilan o‘pishgan ikki tog‘”* ifoda orqali tog‘larning nihoyatda ulug‘, baland ekani, hatto osmonga yaqin bo‘lib, bulutlarga tegib turgani giperbolik yo‘sinda tasvirlangan. Reallikda bu holat imkonsiz bo‘lsa-da, u tasviriy-estetik vosita sifatida xizmat qilgan. Bu giperbolik ifoda orqali tog‘lar shunchaki tabiiy obyekt emas, balki insoniy sifatga ega faol kuchlar sifatida tasvirlanadi. Bu antropomorfizatsiyaning giperbola orqali badiiy ifodalanishidir. Tog‘larning janglari “shovqin-suron” va “zilzila” kabi tabiiy hodisalarga sabab bo‘lishi tasviri giperbolaning semantik yukini oshiradi. Bunda giperbola tabiatdagi real voqealar (zilzila, shovqin) uchun ertagona sabab sifatida xizmat qiladi. Bu orqali ertak syujetiga estetik izoh beriladi. Sehrli ertaklarda qahramonlarga yordamchi narsa va predmetlar, aksariyat hollarda, giperbola vositasida badiiylashtiriladi. Z.Rasulova sehrli buyumlarning ertakdagi vazifasi haqidagi tadqiqotida ertaklarda “g‘aroyib buyumlar” inson taqdiri yoki tabiat olami bilan bog‘lik biror-bir sirni ochish, yomonlikni mahv etish, mashaqqatli mehnat azoblarini yengillatish, tinch va osuda, farovon hayot kechirish singari orzu-istaklarni o‘zida namoyon etishini ta’kidlab o‘tadi. [5. 2012.B:9] Sehrli (g‘aroyib) buyumlar giperbola orqali tavsiflangan o‘rinlar ertakning estetik kuchini oshirishga xizmat qiladi. “Stilistika darajasida sehrli ertak aytuvchining nutqida muhim janr belgilari shakllanadi, ular o‘z navbatida ertakni badiiy xayoldan farqlaydigan mifga qarshi qo‘yadi. Shu bilan birga, ertaklardagi to‘g‘ridan to‘g‘ri nutq rituallarga oid sehrli elementlarni sxematik tarzda saqlab qoladi”. [3. 2000.B:268] Sehrli elementlarning xususiyatlari, aksariyat hollarda giperbola vositasida namoyon qilinadi. *Endi yetay-yetay deganda yigit* ***qayroqni*** *tashlab yuboribdi. Ko‘z ochib yumguncha* ***bulutdan baland sip-silliq bir tog‘ paydo bo‘libdi.*** [4. 1985.B:246] Tabiat hodisalarining bo‘rttirilishi, aksariyat hollarda, ertak kompozitsiyasi bilan bog‘liq holda tasvirlanadi. *Bir necha kun yo‘l yurib, yo‘lning yarmiga kelganda, yomg‘ir yog‘a boshlabdi.* ***Yomg‘irdan keyin qor yog‘a boshlabdi, qordan keyin tosh yog‘a boshlabdi.*** [10. 1985.B:219]

3. Zoonim va ornitonimlarga qaratilgan giperbola. Bu turdagi giperbolalar hayvon va qushlarning qobiliyatlari, kuchi, jasorati va boshqa sifatlarini me’yordan ortiq darajada kuchaytirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Natijada, ertak voqeasi yanada jonli, estetik jihatdan boy va tinglovchi e’tiborini tortadigan darajada taqdim etiladi. Masalan, sehrli kuchga ega bo‘lgan tulki, juda tez yuguradigan yoki nihoyatda katta bo‘lgan hayvon kabi giperbolik ta’riflar yordamida ertak voqeasi yanada jonli bo‘ladi. *Qushning* ***tumshug‘i yoqutdan, oyoqlari zabarjaddan, qanotlari durri marjondan*** *ekan. U chunon* ***sayrabdiki, zamini-zamon larzaga kelibdi*** [4. 1985.B:32]; *Qamchi* ***ot****ning jon-jonidan o‘tdi, bir kishnab,* ***qanot bog‘lab osmonga uchdi.*** [8. 1985.B:77] Birinchi misolda qushning anatomik a’zolari qimmatbaho toshlarga taqqoslangan*: tumshug‘i yoqut, oyoqlari zabarjad, qanotlari durri marjon.* Bu klassik giperbola bo‘lib, hayvonning go‘zalligi va noyobligini haddan tashqari oshirib ko‘rsatadi. Giperbola orqali qushning estetik va majoziy obrazlari kuchaytiriladi, bu esa o‘quvchida hayrat va taassurot uyg‘otadi. Qushning “sayrashi” esa zamon va makonni larzaga keltirishi bilan yanada dramatik tasvirlangan. Bu yerda giperbola uning ovozining kuchi va ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Ikkinchi misoldagi *“qamchi otning jon-jonidan o‘tdi”* degan ifoda otga qamchining juda kuchli va og‘riqli zarbasi berilganini giperbolik uslubda ifodalaydi. Amalda qamchi hech qachon jon-jonidan o‘ta olmaydi, ammo bu bo‘rttirish orqali zarbaning zo‘ri, hayvonning chidamliligi va kuchi ta’kidlanadi. *“Qanot bog‘lab osmonga uchdi”* tasviri esa otning erkinligi va tezligini fantastik darajada oshiradi, unga inson parvoz qilish qobiliyatini yuklab, xayoliy kuchaytirish yo‘li bilan giperbola tashkil qiladi. Shuningdek, misollardagi qushning qimmatbaho toshlarga o‘xshatilgan a’zolari, yoki otning “qanot bog‘lab uchishi” kabi tasvirlar hayvonlarga ma’lum ijtimoiy-madaniy, mifologik yoki etnik ramzlarni yuklaydi. Masalan, qush go‘zallik, poklik va erkinlik timsoli sifatida, ot esa jasorat, tezlik

va kuch belgisi sifatida namoyon bo‘ladi. Aytish mumkinki, giperbolik ta’riflar orqali hayvonlar realistik chegaralardan chiqarilib, afsonaviy, sehrli va kuchli qahramonlar sifatida tasvirlanadi. Bu orqali ertak yoki folklor matnining badiiy-estetik qimmati oshadi. Qush ta’rifidagi giperbolik tasvirni quyidagi ertak matnidagi kiyik ta’rifida ham ko‘rish mumkin: ***Kiyikning shohi*** *ham,* ***tukining har bir tolasi*** *ham* ***oltindan emish****, ko‘zni qamashtirarli darajada* ***lovullab yonib*** *turgan emish. Shu’lasiga tog‘ning qorong‘i daralari ham yorug‘ bo‘lib turgan emish*. [4. 1985.B:180] Misoldagi bir nechta mubolag‘aviy o‘rinlar mavjud. Xususan, kiyikning shohi va uning tuklari oltindan emas, balki “oltindan emish” deb ta’riflangan. Bu o‘ta chiroyli va qimmatbaho, qaynoq, porlaydigan tasvirni berish uchun ishlatilgan giperboladir. Bu yerda kiyikning shohi va tuklarining narxi, qimmati ortiqcha ta’kidlanadi. *“Ko‘zni qamashtirarli darajada lovullab yonib turgan emish”* ham giperbola sifatida qaraladi. Bu yerda kiyikning go‘zalligi yoki uning tasvirlanishi juda kuchli darajada ta’kidlanib, o‘zining asl holati ortiqcha ravishda ta’riflanmoqda. *“Shu’lasiga tog‘ning qorong‘i daralari ham yorug‘ bo‘lib turgan emish”* ifodasida ham giperbola bo‘lib, bunday tasvirni keltirishda tog‘ning qorong‘i va qorong‘ilik hissi tug‘dirmasdan, uni yorqinlashtirish orqali bu yerdagi go‘zallik va nur tasviri kengaytirilgan. “Ertaklarda asosiy personajning xarakter-xususiyatlarini ochib berishda sinov motivlaridan keng foydalaniladi”. [7. 2024.B:30] Ushbu sinovlar qahramonning ichki kuchini, irodasini va axloqiy fazilatlarini sinovdan o‘tkazish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, bu jarayonda hayvonlar va qushlar ko‘pincha qahramonlarga yordamchi kuch sifatida faol ishtirok etadi. Ertak matnida hayvonlar va qushlarning xususiyatlari giperbolik tarzda tasvirlanadi, ya’ni ular o‘z haqiqiy xususiyatlaridan ancha oshirib ko‘rsatiladi, bu esa ertakka jo‘shqinlik va dramatizm kiritadi.

4. Mifonimlarga qaratilgan giperbola. Prof. M.Jo‘rayev ta’kidlaganidek: O‘zbek xalq ertaklarida qahramonning turli epik yurtlarga borib dev, ajdar, yalmog‘iz kabi mifik jonzotlarga qarshi kurashishi shunchaki o‘g‘irlangan ot, qush yoki oltin olmani qaytarib olish uchun qilingan xatti-harakat emas, balki kosmosni saqlab qolish, tabiatdagi geografik mavjudlikni asrash maqsadidagi janrdir”. [1. 2014.B:69] Bunday xatti-harakatlar, albatta, giperbolik tasvirlar orqali estetik ta’sir kuchaytiriladi. Xususan, giperbolalar ertakdagi afsonaviy, sehrli yoki mistik mavjudotlarning xususiyatlarini oshirib ko‘rsatadi. Masalan, ajdaho, jinlar, parilar kabi mavjudotlarning kuchi yoki ulug‘vorligi bo‘rttiriladi, bu esa ularning o‘quvchilar ongida mavhum va ajoyib obrazini yaratadi. Masalan: “Bulbuligo‘yo” ertagida jodugar mifonimi quyidagicha ta’riflanadi: *Og‘zidan* ***o‘t sochib,*** *otxonaga kiribdi. Shahzoda ko‘rsa,* ***bo‘yi minordek, har kifti chinordek, og‘zi g‘ordek, burni misli tandirdek, badani filning badaniga o‘xshagan*** *bir bahaybat narsa emish*. [4. 1985.B:36]

5. Holatning sifatini bo‘rttirishga qaratilgan giperbola. Hodisalarning o‘ziga xosligi, yuzaga kelgan vaziyat yoki jarayonlarning keskinligi, kutilmaganligi yoki ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, juda qattiq yomg‘ir yog‘ishi, juda uzoq davom etgan urush yoki nihoyatda tez sodir bo‘lgan voqea kabi holatlar giperbolik usulda tasvirlanadi. *Ot quloqlarini chimirib,* ***qanotlarini yoyday ochibdi****-da,* ***o‘qdek yer ostiga uchib tusha boshlabdi.*** *Bir necha daqiqadan so‘ng yerning ostiga etishibdi*. [4. 1985.B:51] *Lekin podshoning* ***ko‘ngli tun zulmatidan ham qorong‘i*** *bo‘lib qolibdi.* [4. 1985.B:53] Matnda “tun zulmatidan ham qorong‘i” ifodasi giperboladir. Chunki insonning ko‘ngli real hayotda qorong‘ilik darajasi bilan o‘lchanmaydi, bu faqat majoziy ma’noda ishlatilgan, ya’ni podshoning ko‘ngli nihoyatda g‘amgin, tushkun ahvolda ekani ta’kidlanmoqda. *Shu payt Ahmad kamalakdor tog‘ning bir qoyasini kamalakka joylab ajdar makoniga qarab otibdi. Ajdar yashayotgan* ***tog‘ tag-tugi bilan yo‘q bo‘lib ketibdi.*** [4. 1985.B:84]; *Qilich botir bo‘zchini ko‘tarib chunon uribdiki, haligi bo‘zchi* ***qo‘ltig‘igacha yerga kirib ketibdi.*** [4. 1985.B:72] kabi misollarda esa epik qahramonlarning kuch-qudrati amalga oshirgan ishlaridan keyingi holatlaridagi mubolag‘aviy tasvirlar orqali badiiylashtirilgan. Shundan kelib chiqib, holatning sifatini bo‘rttirishga qaratilgan giperbola ertakda quyidagi vazifalarni bajaradi:



2-rasm. Holatning bo‘rttirishga qaratilgan giperbolaning ertak matnidagi asosiy vazifalari

Kutilmagan voqea yoki hodisaning yuzaga kelishi holatning ahamiyatini yanada oshiradi. Bu giperbolaning turli shakllaridan biri bo‘lib, ko‘pincha qahramonlarning duch kelgan xavfli vaziyatlari va ular bilan bog‘liq darhol sodir bo‘ladigan harakatlar ifodalanadi.

Yuqoridagi tahlillar ko‘rsatadiki, xalq ertaklaridagi giperbola turli jihatlarda badiiy vosita sifatida xizmat qiladi va ularni kategoriyalarga ajratish ushbu badiiy fenomenni chuqurroq o‘rganishga, uning funksional imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Bu turlar orqali giperbola ertak matnining mazmuniy va estetik qatlamlarini boyitadi, o‘quvchi yoki tinglovchining diqqatini tortadi hamda xotirada uzoq vaqt saqlanadigan ta’sir yaratadi. Shuni inobatga olgan holda aytish mumkinki, xalq og‘zaki ijodining turli janrlarida mavjud giperbolalarni alohida-alohida o‘rganish va janrlarda giperbolaning uslubiy va semantik farqlarini aniqlash, giperbolalarni faqat badiiy bo‘rttirish emas, balki komik, dramatik, tahdidli, estetik, mifologik kabi vazifalari tadqiq etish o‘zbek tilshunosligi oldida muhim vazifalarni qo‘ymoqda. Bundan tashqari, turkiy yoki boshqa xalqlarning ertaklaridagi giperbola bilan o‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi giperbolalarni qiyosiy o‘rganish, umumiy va milliy xususiyatlarni ajratib ko‘rsatish orqali ham xalqning qadimiy badiiy tafakkurini aniqlash imkonini beradi. Bu esa xalq ertaklaridagi mubolag‘aviy tasvirlarni qiyosiy o‘rganish lozimligini ham ko‘rsatmoqda.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalq ertaklarida giperbola vositasi obrazlarning estetik va ma’naviy mazmunini ochishda muhim rol o‘ynaydi. Maqolada giperbolaning ertak matnlaridagi funksiyasi, semantik yuklamasi va turli toifalarga ajratilishi tahlil qilindi. Shaxs, narsa, hayvon, mifonim hamda holatlarga oid giperbolalar orqali xalqning axloqiy-estetik qarashlari, tasavvurlari badiiy ifodasini topgan. Bu turli giperbolik vositalar orqali obrazlarning ta’sirchanligi kuchayadi, o‘quvchi xayolotiga etetik ta’sir ko‘rssatadi. Umuman, ertaklardagi giperbola xalq tafakkurining badiiy, poetik va lingvistik ifodasi sifatida e’tiborga molik ilmiy obyekt sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жўраев М., Расулова З. Миф, маросим ва эртак. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2014. – 308 б.
2. Имомов. К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – 304 б.
3. Мелетинский Б.М. Поэтика мифа. 3-е изд., репринтное. – Москва: Издательская фирма “Восточная литература” РАН, 2000.– 407 с.
4. Олтин бешик. Ўзбек халқ эртаклари. – Тошкент: Ғ.Ғулом, 1985. – 256 б.
5. Расулова З.Ж. Ўзбек халқ сеҳрли эртакларида “Ғаройиб буюм”лар (спецификаси, генезиси ва бадиияти). Филол.фан. номз... дисс.автореф. – Тошкент, 2012. – 27 б.
6. Рўзимбоев С., Рўзметов Ҳ, Фольклор атамалари қисқача луғати. – Урганч, – 2007. – 56 б.
7. Bozorov H.X. O‘zbek xalq ertaklarining lingvomadaniy tadqiqi. – Toshkent: Grand kondor print, 2024. – 198 b.
8. Bo‘ri bilan mergan. O‘zbek xalq ertaklari. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2018. – 144 b.
9. Kurbanazarova N., Bozorov H. Matn tilshunosligi terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent: “ILM-ZIYO-ZAKOVAT”, 2025. – 128 b.
10. Uch og‘ayni botirlar. O‘zbek xalq ertaklari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 304 b.

SPECIES DIVERSITY AND TAXONOMIC COMPOSITION OF GNAPHOSIDAE SPIDERS (ARANEAE) IN UZBEKISTAN

F.A.Shodmonov
Samarkand State University named after Sharof Rashidov
University of Economics and Pedagogy, Samarkand Campus
E-mail: feruzshodmonov902501@gmail.com

Abstract: The ground spiders belonging to the family Gnaphosidae (Araneae: Gnaphosidae) are widely distributed worldwide, primarily inhabiting soil, plant litter, and beneath stones. They are characterized by rounded or pear-shaped carapaces and long, robust legs. Sexual dimorphism is weakly expressed. In the fauna of Uzbekistan, 43 species belonging to 21 genera have been identified, and they play important ecological roles in various ecosystems.

Keywords: Araneae, Gnaphosidae, Asiabadus, Berlandina, Drassodes, Drassyllus

Introduction: Spiders of the family Gnaphosidae (Araneae: Gnaphosidae) are globally widespread predatory arthropods of ecological importance. They usually live among plant roots and at the soil surface, interacting with insects and contributing to stable population structures. Members of this family possess distinct morphological features, including the structure of spinnerets, eye arrangements, and mouthparts [1.2011: 263 p].

Unlike other spider families, the morphological diversity of Gnaphosidae indicates a high level of ecological adaptability [4. 2020: 49-50 p, 5. 2004: 124 p].

Differences in sexual dimorphism and between juvenile and adult morphology are essential for understanding their life cycles and reproductive strategies [2. 1992: 34 p].

This family is distinguished by strong, chitinized anterior cylindrical spinnerets, irregular posterior median eyes, and deep grooves on the maxillae [6. 2012: 197 p]. However, the genus *Micaria* does not share these features [4. 2020: 49-50 p]. Body length ranges from 3 to 20 mm. Coloration is usually uniform and patternless, occasionally covered with setae or comb-like structures [2004: 120-122 p].

They have eight small eyes arranged in two rows; the anterior ones are dark, while the others are lighter [1.2011: 263 p, 6. 2012: 190-198 p]. The shape of the carapace and sternum, mouthpart structure, and the morphology of chelicerae and pedipalps are primary diagnostic features [5. 2004: 120-122 p].

In males, the pedipalps are modified into copulatory organs with components such as cymbium, tegulum, embolus, conductor, and subtegulum. The leg formula is 4:1:2:3 and covered with dense spines, with scopulae present on some segments [1.2011: 263 p].

The abdomen is cylindrical or flattened, with an epigyne present in females, which serves for mating and sperm storage [2. 1992: 34 p]. Respiratory organs – book lungs and tracheae – are located near the genital groove. Spinnerets are usually six in number, with the anterior pair widely spaced [3. 1990: 153 p, 6. 2012: 190-198 p].

Based on the analysis of published scientific literature, monographs, articles, and faunistic checklists, a generalized overview of the composition, taxonomic diversity, and geographic distribution of Gnaphosidae spiders in Uzbekistan has been compiled.

According to the analysis, 43 species belonging to 21 genera have been recorded in the country. These species differ in morphology, ecological adaptability, habitat preferences, and geographic distribution within Uzbekistan.

Among the scientific sources, particular importance is attributed to data on biological characteristics, diagnostic features, identification keys, and the extent of species distribution (areal range). Based on these data, the taxonomic status of the family Gnaphosidae in Uzbekistan has been elucidated in greater detail, and their ecological and geographical distribution has been analyzed. This not only highlights the richness of the country’s araneofauna but also provides a solid scientific foundation for future systematic and ecological studies.

Table 1 presents a summarized list of species belonging to the family Gnaphosidae recorded in Uzbekistan. This list was compiled based on morphological analyses, faunistic observations, and recent scientific publications. The table serves to illustrate the biological diversity, distributional features, and systematic status of this family within the territory of the republic.

Table 1

№	Genus	Number of species
1.	*Asiabadus* Roewer, 1961	1
2.	*Berlandina* Dalmas, 1922	3
3.	*Drassodes* Westring, 1851	7
4.	*Drassyllus Chamberlin, 1922*	1
5.	*Fedotovia* Charitonov, 1946	1
6.	*Gnaphosa* Latreille, 1804	3
7.	*Haplodrassus* Chamberlin, 1922	1
8.	*Trichothyse Tucker, 1923 (Leptodrassus* Simon, 1878)	1
9.	*Micaria* Westring, 1851	2
10.	*Minosiella* Dalmas, 1921	2
11.	*Nomisia* Dalmas, 1921	2
12.	*Phaeocedus* Simon, 1893	1
13.	*Poecilochroa* Westring, 1874	2
14.	*Pterotricha* Kulczynski, 1903	1
15.	*Scotophaeus* Simon, 1893	1
16.	*Poecilochroa* Westring, 1874	1
17.	*Sosticus* Chamberlin, 1922	1
18.	*Synaphosus* Platnick et Shadab, 1980	2
19.	*Talanites* Simon, 1893	1
20.	*Zelotes* Gistel, 1848	6
21.	***Marinarozelotes* Ponomarev, 2020**	2

This list summarizes the species composition of spiders belonging to the family Gnaphosidae Banks, 1892 (Araneae) recorded in the territory of Uzbekistan. The table shows that 43 species are distributed across 21 genera. The species identifications are based on authoritative literature, morphological analyses, and faunistic observations.

The genus *Drassodes* contains the highest number of recorded species, with 9 species accounting for 20.93% of the total. It is followed by *Zelotes* with 6 species (13.95%) and *Micaria* with 5 species (11.63%). Genera such as *Synaphosus*, *Poecilochroa*, *Gnaphosa*, *Nomisia*, and *Marinarozelotes* are represented by several species as well. Genera like *Fedotovia*, *Phaeocedus*, and *Talanites*, which include only a small number of species, may have rare or locally significant importance within the fauna.

This table serves as a valuable source of information for analyzing the species diversity, systematic structure, and ecological status of Gnaphosidae representatives in Uzbekistan. Furthermore, it provides a necessary scientific basis for future taxonomic and ecological research on this group within the country.

Conclusion: In Uzbekistan, 43 species from 21 genera of the family Gnaphosidae have been identified, confirming their species richness and ecological diversity. Genera with the highest number of species (*Drassodes*, *Zelotes*, *Micaria*) exhibit ecological adaptability and stable populations, while less diverse genera (*Fedotovia*, *Phaeocedus*, *Talanites*) represent locally significant or sensitive groups.

The analysis highlights the importance of Gnaphosidae in the araneofauna of Uzbekistan and provides a basis for future systematic and ecological research.

References

1.Marusik Y.M. & Kovblyuk, M.M. (2011). Spiders (Arachnida, Aranei) of the Crimean Peninsula. KMK Scientific Press Ltd., Moscow, 305 pp.

2.Ovtsharenko V.I., Platnick, N.I. & Song, D.X. (1992). A review of the ground spiders of the genus *Drassodes* (Araneae, Gnaphosidae) from Central Asia. American Museum Novitates, 3046: 1–50.

3.Platnick N.I. (1990). A revision of the ground spider family Gnaphosidae (Araneae) of the United States. Bulletin of the American Museum of Natural History, 190: 1–230.

4.Ponomarev A.V. & Alieva, E.A. (2020). On the taxonomy and new data on ground spiders (Aranei: Gnaphosidae) of southern Russia. Caucasian Entomological Bulletin, 16(1): 47–53.

5.Tuneva T.K. (2004). A review of the genus *Berlandina* Dalmas, 1922 (Aranei: Gnaphosidae) in the fauna of Russia and adjacent countries. Arthropoda Selecta, 13(2): 113–126.

6.Zonstein S.L. & Marusik, Y.M. (2012). Spiders (Arachnida: Araneae) of Tajikistan. KMK Scientific Press Ltd., Moscow, 216 pp.

TARJIMA JARAYONIDA SEMANTIK EKVIVALENTLIKNI SAQLASHDAGI QIYINCHILIKLAR

U.Matmurotova
JDPU tayanch doktoranti e-mail: umidamatmurotova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarjima jarayonida semantik ekvivalentlikka erishishda ko‘p ma’noli so‘zlar (polisemiya), sinonimiya va omonimiya hodisalarining o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada ma’no o‘zgarish turlari (umumlashuv, torayish, yuksalish, pasayish) va ularning tarjimada adekvat aks ettirilishining ahamiyati yoritilgan. Natijada, semantik ekvivalentlikka erishish tarjimonning leksik kompetensiyasi, kontekstual sezgirligi bilan bevosita bog‘liqligi isbotlanadi.

Kalit so‘zlar: semantik ekvivalentlik, polisemiya, sinonimiya, omonimiya, ma’no o‘zgarishi

Annotation: This paper examines the role of polysemy, synonymy, and homonymy in achieving semantic equivalence in translation. The paper also addresses types of semantic change (generalization, narrowing, amelioration, pejoration) and their importance in accurate translation rendering. The findings highlight that achieving semantic equivalence directly depends on the translator’s lexical competence, contextual sensitivity.

Keywords: semantic equivalence, polysemy, synonymy, homonymy, semantic change

Аннотация: В данной статье рассматривается роль полисемии, синонимии и омонимии в достижении семантической эквивалентности при переводе. Также анализируются виды семантических изменений (обобщение, сужение, улучшение, ухудшение) и их значимость для адекватного перевода. В итоге показано, что достижение семантической эквивалентности напрямую зависит от лексической компетенции, контекстуальной чувствительности.

Ключевые слова: семантическая эквивалентность, полисемия, синонимия, омонимия, семантические изменения

Tarjima jarayonida semantik ekvivalentlikka erishishda ko‘p ma’noli (polisemantik), sinonim va omonim so‘zlarning to‘g‘ri tanlanishi va qo‘llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Polisemiya bir so‘z yoki belgining bir necha ma’noga ega bo‘lishi, ko‘p ma’nolilik. Polisemiya tilshunoslikning eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi [6.2007:B.292]. So‘zning bunday ko‘p ma’nolilik (polisemantik) xususiyatini kasb etishi ko‘pincha metaforik yoki abstrakt kontekstlarda qo‘llanishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Bunday hollarda so‘z o‘zining asosiy (so‘zma-so‘z) denotativ ma’nosiga qo‘shimcha ravishda ko‘chma yoki mavhum konnotativ ma’no ham orttiradi. Tarjima jarayonida semantik ekvivalentlikka erishish uchun sinonim so‘zlarni kontekstga mos va stilistik jihatdan to‘g‘ri tanlash alohida ahamiyatga ega. Sinonimiya bir tildagi ikki yoki undan ortiq so‘zlar o‘rtasida to‘liq yoki qisman ma’no yaqinligi mavjud bo‘lishidir.

Sinonimlarning to‘g‘ri tanlanishi nafaqat ma’noni, balki matnning uslubiy ohangini, ekspressivligini va emotsional ta’sirini ham asliyatga muvofiq saqlashga xizmat qiladi. Ular tarjimon talabalarga ham, tarjimonlarga ham lug‘atda berilgan so‘z yoki iboraning mukammal ma’nosini tanlashda va turli variantlar orasidan to‘g‘ri tanlov qilishda yordam beradi. Tilshunoslikda sinonimlar odatda mukammal va yaqin ma’nodosh turlarga ajratiladi. Ammo amaliy til tizimida to‘liq yoki mukammal sinonimiya holatlari nihoyatda kam uchraydi, chunki ikki so‘zning mutlaqo bir xil denotativ va konnotativ ma’noga ega bo‘lishi hamda barcha kontekstlarda to‘liq o‘zaro almashtirilishi deyarli imkonsizdir. Odatda sinonimlar ma’no nozikliklari, stilistik rang, emotsional ohang yoki qo‘llanish sohasida farq qiladi, bu esa ularni kontekstga mos tanlashni talab etadi. M. Aloshning ta’kidlashicha, sinonimlar bir til doirasida boshqa bir yoki bir nechta so‘zlar bilan ayni yoki deyarli ayni ma’noga ega bo‘lishi mumkin, biroq ular hech qachon to‘liq almashtiriladigan darajada bir xil bo‘lmaydi [1.2005: B.128].

Jek Londonning “Bir parcha go‘sht” (A Piece of Steak) hikoyasida uchraydigan *“…they with their swollen veins and battered knuckles and weary in the bones of them from the long battles they had already fought”* [5. 2003: B.319]jumlasi sinonimiya hodisasini o‘rganishda diqqatga sazovor misol bo‘la oladi. Bu yerda weary so‘zi ingliz tilidagi tired so‘ziga yaqin ma’nodosh, ammo denotativ va konnotativ qatlamda muayyan farqlarga ega. *“Tired”* odatda vaqtinchalik yoki oddiy fiziologik charchoqni bildiradi, *“weary”* esa uzoq davom etgan mashaqqat, takroriy zo‘riqish va chidamlilikni sinovdan o‘tkazuvchi sharoitlar natijasida yuzaga kelgan, suyak-suyagigacha singib ketgan charchoqni anglatadi.

O‘zbekcha tarjimada bu jumla *“…tomirlari qavarib chiqqan, bo‘g‘inlari mayib, son-sanoqsiz janglardan ularning tanasiga charchoqlik mahkam o‘rnashib olgan”* [4.2024:B.10]tarzida berilgan bo‘lib,

umumiy ma’no saqlangan, ammo “bones”ning bevosita tilga olinishi yo‘qolganligi sababli asliyatdagi obrazlilik va intensivlik darajasi bir oz pasaygan. *“weary”* ning chuqur ma’nodagi ta’sir kuchi “charchoqlik mahkam o‘rnashib olgan” shaklida yumshoqroq ifodalangan. Lingvistik nuqtayi nazardan, bu holat yaqin ma’nodosh sinonimlar toifasiga kiradi biroq denotativ jihatdan umumiy semantik asos bir xil, lekin konnotativ ma’no va uslubiy qamrov farqli. Tarjimada *“weary”* so‘zini *“holdan toygan”* kabi variantlar bilan berish, asliyatdagi semantik yuk va obrazlilikni to‘liqroq aks ettirgan bo‘lardi. Shu tarzda, sinonim tanlovi tarjima jarayonida nafaqat semantik ekvivalentlik balki stilistik jihatdan ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Omonimiya leksik-semantik hodisa bo‘lib, shakl jihatdan (tovush yoki yozuv ko‘rinishida) bir xil bo‘lgan, ammo ma’no jihatidan bir-biridan farq qiluvchi til birliklarini ifodalash uchun xizmat qiladi [2.1191: B. 427–428] Omonimlar tarjimashunoslikda, xorijiy tillarni mukammal egallashda o‘ziga xos “to‘siq” bo‘ladi, ma’lum qiyinchilik va murakkabliklarni tug‘diradi [5.2022: B.338-341]. G. Ismailovga ko‘ra, omonimlar kontekstsiz tarjima qilinadigan bo‘lsa, ular mutlaqo boshqa, hatto qarama-qarshi ma’no kasb etishi mumkin. Tarjimon ularning semantik va stilistik funksiyasini to‘g‘ri aniqlashi lozim [3.2021:B.48]. Shu bois tarjimon omonimlarning semantik yukini, stilistik funksiyasini, kontekstdagi rolini aniq anglay olishi lozim. Bu esa tarjimonning leksik kompetensiyasi**,** kontekstual sezgirligi va madaniy anglash doirasini talab etadi.

Tarjima jarayonida leksik birlikning ikki asosiy jihatini e’tiborga olish muhim, ya’ni birlamchi ma’no va ikkilamchi (konnotativ) ma’no. E. Naydaning ta’rifida birlamchi ma’no so‘zning to‘g‘ridan-to‘g‘ri, aniq va kontekstsiz holatda tushuniladigan ma’nosi sifatida izohlanadi [4.1964:B.111]. Bunga zid bo‘lgan ikkinchi darajali ma’no so‘zning faqat kontekst va aniq nutqiy vaziyat asosida yuzaga chiqadigan, bevosita lug‘aviy ma’nosidan farq qiluvchi ma’nodir. Masalan, muallif ayrim so‘zlarni go‘yoki aniq bir predmet yoki hodisaga nisbatan ishlatgandek tuyuladi, biroq kontekstda bu so‘z mutlaqo boshqa tushunchani anglatadi. Bunday holatlar ko‘pincha metafora, kinoya yoki ramziy ifodalar vositasida yuzaga keladi. Semantik o‘zgarishlar mexanizmini chuqur bilmaslik va kontekstual ma’noni aniqlash ko‘nikmasining yetishmasligi ko‘plab tarjimonlar uchun jiddiy muammo bo‘lib qolmoqda, chunki bu nafaqat denotativ mazmunning, balki asliyat matnidagi konnotativ va stilistik qatlamlarning yo‘qolishiga olib keladi.

“Semantik o‘zgarish” atamasi odamlarning fikrlash tarzi va xatti-harakatlari vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi natijasida so‘z ma’nolarida yuz beradigan tarixiy o‘zgarishlarni anglatadi.

Umumlashuv so‘z ma’nosining dastlab tor doiradagi obyekt yoki hodisalarga nisbatan qo‘llanishidan chiqib, yanada kengroq sinf yoki tushunchalarni qamrab olish jarayoni. ***Torayish*** esa buning aksi bo‘lib, keng qamrovli ma’noga ega so‘zning aniqroq, chegaralangan obyekt yoki hodisalarga nisbatan qo‘llanishidir. ***Ma’no yuksalishi*** so‘zning dastlabki ma’nosiga nisbatan ijobiyroq, ijtimoiy maqomi yuqoriroq yoki estetik jihatdan yoqimliroq semantik rang olish jarayoni. ***Ma’no pasayishi*** esa aksincha, so‘zning salbiy, kamsituvchi yoki haqoratli konnotatsiya kasb etishi bilan tavsiflanadi. Ushbu semantik o‘zgarishlar tilning tabiiy rivojlanish jarayonida ham, tarjima amaliyotida ham yuz berishi mumkin va tarjimon uchun ma’noni to‘g‘ri aniqlash hamda ekvivalent ifodani tanlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Aynan tarjima jarayonida semantik ekvivalentlikka erishish uchun asliyat matnda yuz bergan semantik o‘zgarishlarni tahlilini olib borish lozim.

Xulosa qilib aytganda, leksik birliklarning noto‘g‘ri tushunilishi ko‘pincha tarjimon yoki o‘quvchining so‘zning birlamchi (asosiy) ma’nosiga haddan tashqari bog‘lanib qolishi natijasida yuzaga keladi. Tarjima semantikasining sifatiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan yana bir jihat shundaki, asliyat tilining ba’zi leksik birliklari boshqa tildagi ikki yoki undan ortiq turli sinonimlarga mos kelishi mumkin. Shunday qilib, ekvivalentlikni qo‘llashda kontekstning pragmatik xususiyatlarini inobatga olish orqali ushbu muammoni bartaraf etish mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alosh M. A. Using Arabic. A Guide to Contemporary Usage Alosh Mahdi. First yed. Printed in the United Kingdom at the University Press, Cambridge: Cambridge University Press. 2005. – P. 128.

2. Головня А.И. Концептуальное поле омонимии // Лингвистика: взаимодействие концепций и парадигм. – Харьков-Сочи, 1991. – С. 427–428. 3. Исмаилов Г.М. *Омонимия трансторминов (на материале узбекского языка)*. – Ташкент: Институт языка и литературы АН РУз, 2012. – С. 48

4. London, J. Bir kunlik qo‘nolg‘a: hikoyalar / Jek London; [tarj. M. Hamidov, E. Mirobidov, O. Qurbonov, F. Abdullayev, X. Ahrorova]. – Toshkent: Zabarjad Media, 2024. – B. 208. – (Yosh kitobxon kutubxonasi).

5. London J. To Build a Fire and Other Stories / J. London. – DjVu Editions. – [S.l.]: Global Language Resources, Inc., 2003. – 490 p.
6. Nida Ye.A. Toward a Science of Translating: With SpecialReference to Principles and Procedures Involved in BibleTranslating. Leiden: Brill. 1964. – P. 111.
7. Xudjaeva R. Ingliz–o‘zbek badiiy tarjimalarda omonimlar qo‘llanilishining qiyosiy tahlili // O‘zMU xabarlari. – 2022. – №1(8). – B. 338–341.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж. 3. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007. – Б. 292.

ANG‘IZGA EKILGAN MAKKAJO‘XORINING O‘SISHI, RIVOJLANISHI VA HOSILDORLIGIGA MINERAL O‘G‘IT ME’YORLARINING TA’SIRI

I.R.Quryozov
Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Maqolada Xorazm viloyatining sug‘oriladigan allyuvial o‘tloqi tuproqlari sharoitida o‘tkazilgan dala tajribasida takroriy ekin sifatida yetishtirilgan makkajo‘xorida qo‘llanilgan mineral o‘g‘it me’yorlarini o‘simliklarning o‘sishi, rivojlanishi, fotositntetik potensiali, quruq biomassa to‘plashi va don hosili bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.
Kalit so‘zlar: Makkajo‘xori, mineral o‘g‘itlar, me’yor, poya balandligi, barglar soni, fotosintetik potensial, quruq biomassa, don hosili.
Аннотация. В статье приведены данные полевого опыта о влиянии различных норм минеральных удобрений на рост, развитие, фотосинтетический потенциал, накопление сухой биомассы и урожайность зерна кукурузы, выращенной в качестве повторной культуры в условиях орошаемых аллювиальных луговых почв Хорезмской области.
Ключевые слова: Кукуруза, минеральные удобрения, норма, высота стебля, количество листьев, фотосинтетический потенциал, сухая биомасса, урожай зерна.
Abstract. The article reports the findings of a field experiment examining the impact of varying mineral fertilizer application rates on plant growth, development, photosynthetic capacity, dry biomass accumulation and grain yield of maize cultivated as a summer crop on irrigated alluvial meadow soils of the Khorezm region.
Keywords: Maize, mineral fertilizers, rate, plant height, number of leaves, photosynthetic potential, dry biomass, grain yield.

Kirish. Makkajo‘xori (*Zea mays* L.) o‘zining yem-xashak va oziq-ovqat mahsulotlari borasida hamda yetishtirish maydonlari va hosildorligi bo‘yicha dunyodagi asosiy ekinlaridan biri hisoblanadi. Makkajo‘xori yetishtirish bo‘yicha asosiy mamlakatlar AQSh, Xitoy, Braziliya, Argentina va boshqalar bo‘lib, dunyo bo‘yicha o‘rtacha don hosili 5,96 t/ga ni tashkil qildi [2. 2025]. Global miqyosda yetishtirilgan makkajo‘xorining 61 foizi chorvachilikda va 13 foizi oziq-ovqat sifatida ishlatiladi [4. 2021:B.129]. Issiqxona gazlari emissiyasining keskin ortishi natijasida yuzaga kelgan iqlim o‘zgarishi – temperatura oshishi va yog‘ingarchilikni yil davomida odatdagi taqsimlanishining o‘zgarishi - ekinlar hosildorligi va oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid solmoqda (6. 2021:B.1). Dunyo mamlakatlarining turli agroekologik sharoitlariga moslashgan makkajo‘xori ham iqlim o‘zgarishiga zaif o‘simlik hisoblanadi. Ushbu muhitlarda parvarishlanayotgan makkajo‘xori xozirda qurg‘oqchilik, issiqliq va ularning kombinatsiyasiga duch kelmoqda [6. 2021:B.2]. Shu bois, makkajo‘xori hosildorligini oshirishning asosiy omillarini aniqlash nafaqat oziq-ovqat xavfsizligi, balki resurslardan foydalanish samaradorligi va ekologik barqarorlikni ta’minlash uchun ham muhimdir [3. 2023: 106656].

Materiallar va metodlar. Takroriy ekin sifatida yetishtirilgan makkajo‘xorining o‘sishi, rivojlanishi, fotositntetik potensiali, quruq biomassa to‘plashi va don hosili ko‘rsatkichlariga mineral o‘g‘it me’yorlarini ta’sirini tadqiq qilish bo‘yicha dala tajribasi 2020 y. Xorazm viloyatining sug‘oriladigan allyuvial o‘tloqi tuproqlari sharoitida o‘tkazildi. Bunda makkajo‘xorining Moldavskiy 257 SV duragayida mineral o‘g‘itlarning $N_0P_0K_0$ dan $N_{210}P_{105}K_{70}$ gacha oshib borgan me’yorlari ishlatildi.

Tajriba o‘tkazishdan oldin tuproqning haydov qatlamida gumus miqdori 1% dan past, xarakatchan P_2O_5 va almashinuvchi K_2O bilan kam darajada ta’minlangan. Tajribada o‘g‘itlardan karbamid (46% N), superfosfat (19% P_2O_5) va kaliy xloridi (60% K_2O) ishlatildi.

Dala tajribasini o‘tkazish qabul qilingan uslublarga [1. 2007: B.147] binoan amalga oshirilib, makkajo‘xorinig rivojlanish davrlari S.W.Ritchie [5. 1986:B.3] bo‘yicha kodlandi. Tajriba ma’lumotlariga SAS 9.2 muhitida statistik ishlov berildi.

Izlanish natijalari. Fenologik kuzatuvlar o‘simlik hayotidagi mavsumiy jarayonlarni o‘rganishga, o‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishini boshqarish va o‘sish sharoitlarini maqbulashtirishga qaratilgan. Tajribada bajarilgan o‘lchovlar ko‘rsatishicha, makkajo‘xori rivojining V6 va V10 fazalarida o‘simlik bo‘yi mutanosib ravishda 22,9-36,2 sm va 53,4-85,3 sm oralig‘ida bo‘ldi (1-jadval).

1-jadval

Takroriy ekin sifatida yetishtirilgan makkajo‘xori poyasi balandligiga mineral o‘g‘it me’yorlarining ta’siri

Variant t/r	Mineral o‘g‘it me’yorlari, kg/ga	Makkajo‘xorining poyasi balandligi, sm			
		V6	V10	VT	R2
1	$N_0P_0K_0$	22,9[d§]	53,4[e]	90,6[e]	126,0[e]
2	$N_{120}P_{60}K_{40}$	29,6[c]	62,5[d]	122,8[d]	155,3[d]
3	$N_{150}P_{75}K_{50}$	31,4[b]	72,4[c]	136,6[c]	171,5[c]
4	$N_{180}P_{90}K_{60}$	35,4[a]	77,7[b]	160,3[b]	184,1[b]
5	$N_{210}P_{105}K_{70}$	36,2[a]	85,3[a]	167,5[a]	188,7[a]
HCP_{05}		*1,5*	*2,3*	*4,8*	*4,1*
Vaqt = <0,0001; Vaqt*Variant = <0,0001					

§Bir xil xarfga ega sonlar orasidagi farq statistik jihatdan tasdiqlanmagan.

Bunda V6 fazaga nisbatan, makkajo‘xorining V10 fazasida o‘simlik poyasining balandligi 2,3-2,4 barobarga oshgan. Makkajo‘xorining olti barg (V6) fazasida o‘simliklarni durkun o‘sishi tajribaning 4 va 5 variantlarida kuzatildi. Makkajo‘xori rivojining V10 fazasida, qo‘llanilgan mineral o‘g‘it me’yorlari oshishi bilan o‘simliklarni bo‘yi ortib bordi. Shu kabi xolat makkajo‘xorining VT va R2 fazalarida ham qayd etildi. Natijada, tajriba variantlariga bog‘liq xolda, R2 fazada o‘simlikning bo‘yi 126,0-188,7 sm oralig‘ida tebranib turdi. Makkajo‘xori rivojining V6, V10, VT va R2 davrlarida o‘simlik balandligi bo‘yicha *vaqt* va *vaqt*variant* ta’sirlari statistik jihatdan tasdiqlandi.

Barcha tajriba ko‘rinishlarida o‘simlikda barg shakllanishi makkajo‘xorining V6 fazasidan VT fazasigacha ortib bordi (2-jadval). Bunda o‘simlikda barg soni bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlar tajribaning 3-5 variantlarida qayd etildi.

2-jadval

Takroriy ekin sifatida yetishtirilgan makkajo‘xori barglari shakllanishiga mineral o‘g‘it me’yorlarining ta’siri

Variant t/r	Mineral o‘g‘it me’yorlari, kg/ga	Makkajo‘xorining barglari soni, dona			
		V6	V10	VT	R2
1	$N_0P_0K_0$	5,8[c]	8,9[e]	9,5[d]	9,3[d]
2	$N_{120}P_{60}K_{40}$	6,6[b]	9,4[d]	10,6[c]	10,2[c]
3	$N_{150}P_{75}K_{50}$	6,9[ab]	10,0[c]	11,0[bc]	11,2[b]
4	$N_{180}P_{90}K_{60}$	7,1[a]	10,4[b]	11,6[ab]	11,7[ab]
5	$N_{210}P_{105}K_{70}$	7,2[a]	10,8[a]	11,8[a]	11,9[a]
HCP_{05}		*1,5*	*2,3*	*4,8*	*4,1*
Vaqt = <0,0001; Vaqt*Variant = <0,0001					

O‘simlik rivojining VT fazasiga nisbatan, R2 fazada o‘g‘itsiz nazoratda va mineral o‘g‘it $N_{120}P_{60}K_{40}$ ishlatilgan ko‘rinishda bir o‘simlikdagi barglar soni 0,2-0,4 donaga kamaygan. Bu o‘z navbatida, o‘simlik poyasining pastki yarusidagi bargni qarishi va sinib tushishi bilan izohlash mumkin. O‘g‘it $N_{150}P_{75}K_{50}$, $N_{180}P_{90}K_{60}$ va $N_{210}P_{105}K_{70}$ me’yorlarda qo‘llanilgan ko‘rinishlarda R2 fazada 0,1-0,2 dona barg qo‘shilgan.

Tajriba variantlariga bog‘liq xolda, o‘simliklarni V4 va V10 fazalari oralig‘ida makkajo‘xorining fotosintetik potensiali kuniga 0,074-0,217 mln.m^2/ga oralig‘ida bo‘ldi (3-jadval). Yuqoridagi davrlarga nisbatan, V10-VT davrda makkajo‘xori dalasining fotosintetik potensiali 3,0-3,2 barobarga oshdi va tajriba variantlariga bog‘liq xolda 0,239-0,645 mln.m^2/ga•kun oralig‘ida bo‘ldi. Fotosintetik potensial ko‘rsatkichining cho‘qqisi (0,355-0.949 mln.m^2/ga•kun) VT-R2 davrda bo‘lishi qayd etildi. Ko‘rsatib

o‘tish joizki, makkajo‘xori dalasining fotosintetik potensiali hisob-kitob qilingan barcha davrlarda tajriba ko‘rinishlari bo‘ylab mineral o‘g‘it me’yori ortishi bilan ushbu ko‘rsatkich ham oshib bordi. Bunda ham vaqt va vaqt*variant ta’sirlari statistik jihatdan tasdiqlandi.

3-jadval

Takroriy ekinda yetishtirilgan makkajo‘xorining fotosintetik potensialiga mineral o‘g‘it me’yorlarining ta’siri (2020)

Variant t/r	Mineral o‘g‘it me’yorlari, kg/ga	Makkajo‘xorining fotosintetik potensiali, mln.m^2/ga•kun		
		V4-V10	V10-VT	VT-R2
1	$N_0P_0K_0$	0,074e	0,239e	0,355e
2	$N_{120}P_{60}K_{40}$	0,135d	0,413d	0,669d
3	$N_{150}P_{75}K_{50}$	0,162c	0,489c	0,761c
4	$N_{180}P_{90}K_{60}$	0,195b	0,596b	0,912b
5	$N_{210}P_{105}K_{70}$	0,217a	0,645a	0,949a
HCP_{05}		0,006	0,013	0,014
Ta’sirlar:Vaqt = <0,0001; Vaqt*Variant = <0,0001				


Makkajo‘xori o‘sishi va rivojlanishining dastlabki davrida o‘simlik quruq biomassa to‘plashi pastroq (V6: 3,58-15,58 g/o‘simlik; V10: 10,45-44,36 g/o‘simlik) bo‘ldi (4-jadval). Bunda, tajribaning boshqa variantlariga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlar tajribaning 4 va 5 variantlariga mansub edi.

4-jadval. Takroriy ekinda yetishtirilgan makkajo‘xori quruq biomassa to‘plashiga mineral o‘g‘it me’yorlarining ta’siri (2020)

Variant t/r	Mineral o‘g‘it me’yorlari, kg/ga	Makkajo‘xorining quruq biomassa to‘plashi, g/o‘simlik				
		V6	V10	VT	R2	R6
1	$N_0P_0K_0$	3,58^e	10,45^e	20,53^e	31,37^e	71,00^e
2	$N_{120}P_{60}K_{40}$	8,34^d	21,08^d	38,38^d	73,64^d	125,65^d
3	$N_{150}P_{75}K_{50}$	9,95^c	27,47^c	46,25^c	97,50^c	147,48^c
4	$N_{180}P_{90}K_{60}$	12,38^b	35,15^b	58,94^b	124,12^b	169,11^b
5	$N_{210}P_{105}K_{70}$	15,58^a	44,36^a	73,76^a	130,01^a	175,29^a
NSR_{05}		0,57	1,68	1,09	3,01	4,84

Makkajo‘xori jadal ravishda quruq biomassa to‘plashi o‘simlikning reproduktiv fazasida qayd etildi. O‘simlik rivojining R2 fazasida quruq biomassa miqdori 31,37-130,01 g/o‘simlik, R6 fazada – 71,00-175,29 g/o‘simlik oralig‘ida bo‘ldi. Ushbu ko‘rsatkich aniqlangan barcha fazalarda, ekinda qo‘llanilgan mineral o‘g‘it me’yori ortishi bilan o‘simlik to‘plagan quruq biomassa miqdori oshib bordi.

Makkajo‘xori don hosili o‘g‘itsiz nazoratda eng past (2,06 t/ga) bo‘ldi.



Rasm. Mineral o‘g‘it me’yorlarini makkajo‘xori don hosiliga ta’siri

Makkajo‘xoriga mineral o‘g‘it $N_{120}P_{60}K_{40}$ va $N_{150}P_{75}K_{50}$ me’yorlarda berilganda don hosili absolyuit nazoratga nisbatan tegishli ravishda 87,4 va 128,6 foizga oshdi. Ekinda o‘g‘it me’yori $N_{180}P_{90}K_{60}$ va $N_{210}P_{105}K_{70}$ tashkil etgan makkajo‘xori don hosili o‘g‘itsiz nazoratga nisbatan mutanosib ravishda 160,7 va 161,7 foizga ortdi. Shu bilan birgalikda, ushbu ikki variantning don hosillari orasidagi farq statistik jihatdan tasdiqlanmadi.

Xulosa. Xorazm viloyatining sug‘oriladigan allyuvial o‘tloqi tuproqlari sharoitida bajarilgan tajribada qo‘llanilgan mineral o‘g‘itlarni turli me’yorlari ang‘izga ekilgan makkajo‘xorining o‘sishi va rivojlanishi, fotosintetik potensiali va quruq biomassa to‘plashiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Tajribada eng yuqori (5,37 t/ga) makkajo‘xori don hosili $N_{180}P_{90}K_{60}$ me’yorda mineral o‘g‘it qo‘llanilganda erishildi. Bunga nisbatan, ekinga $N_{210}P_{105}K_{70}$ me’yorda mineral o‘g‘it berilganda makkajo‘xori don hosili yanada oshmadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Дала тажрибаларини ўтказиш услублари - Тошкент:* ЎзПИТИ, 2007. -147 б.
2. FAOSTAT 2025. https://www.fao.org/faostat/en/#data/QCL.
3. IPCC 2021. “Climate change 2021: The physical science basis,” in Contribution of working group I to the sixth assessment report of the intergovernmental panel on climate change, eds V. Masson-Delmotte, P.Zhai, A.Pirani, S. L. Connors, C.Péan, S. Berger, et al. (Cambridge: Cambridge University Press).
4. Lui G., Yang Y., Guo X, Liu W., Xie R., Ming B., Xue J., Wang K., Li Sh., Hou P. A global analysis of dry matter accumulation and allocation for maize yield breakthrough from 1.0 to 25.0 Mg ha^{-1} // Resources, Conservation and Recycling, 2023, V.188, 106656.
5. OECD/FAO 2021. OECD-FAO Agricultural Outlook 2021-2030. Paris: FAO/OECD Publishing.
6. Ritchie, S.W., Hanway, J.J. & Benson, G.O. How a corn plant develops / Special Report No. 48. – Ames: Iowa State University of Science and Technology Cooperative Extension Service, 1986. -24 p.

Serna L. Maize stomatal responses against the climate change // Frontiers in Plant Science, 2022, V.13, 952146.

ZAMONAVIY SHE’RIYATDA FOLKLORIZMLAR: BADIIY IFODA VA MILLIY RUH UYG‘UNLIGI

B.Akmuratova
Qoraqalpoq davlat universiteti O’zbek tili va adabiyoti kafedrasi o’qituvchisi +998 91 390 91 93

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalq og‘zaki ijodining zamonaviy she’riyatga ta’siri, xususan, folklorizmlarning poetik matndagi g‘oyaviy-badiiy vazifasi tahlil qilinadi. Muallif folklorga xos obraz va ifoda vositalarining zamonaviy she’riy asarlardagi roli, ularning milliylik va xalqchillikni shakllantirishdagi ahamiyatini ochib beradi. X.Davletnazarovning “Batír Gúlayím” she’ri misolida folklor elementlarining uyg‘un poetik qo‘llanilishi, epik timsollar, milliy frazeologizmlar va ramziy obrazlar asosida o‘z ifodasini topgani tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar. Folklor, zamonaviy she’riyat, folklorizm, xalq og‘zaki ijodi, milliy ruh, barmoq vazni, epik obraz, poetik ifoda, Gulayim, xalqchillik.

Annotation. This article examines the influence of folk oral tradition on contemporary poetry, with particular attention to the ideological and artistic function of folklorisms in poetic texts. The author explores the role of folklore-based imagery and expressions in shaping national identity and populism in modern poetic works. Using X. Davletnazarov’s poem “Batír Gúlayím” as an example, the study analyzes the harmonious integration of folklore elements, epic symbols, national phraseology, and figurative imagery in the poetic structure.

Keywords. Folklore, contemporary poetry, folklorism, oral tradition, national spirit, syllabic meter, epic image, poetic expression, Gulayím, populism.

Аннотация. В данной статье рассматривается влияние народного устного творчества на современную поэзию, в частности, идейно-художественная функция фольклоризмов в поэтическом тексте. Автор раскрывает роль образных и выразительных средств, заимствованных из фольклора,

в формировании национального духа и народности в современной поэзии. На примере стихотворения Х. Давлетназарова «Батыр Гулаим»*анализируется органичное использование фольклорных элементов, эпических символов, национальной фразеологии и образной системы.

Ключевые слова. Фольклор, современная поэзия, фольклоризм, устное народное творчество, национальный дух, силлабическая система, эпический образ, поэтическое выражение, Гулаим, народность.

Xalq og‘zaki ijodi har bir xalqning milliy tafakkuri, tarixiy xotirasi va estetik dunyoqarashining yuksak ifodasidir. Folklor – asrlar davomida shakllangan ijodiy xazinadirki, u adabiyotning barcha bosqichlarida, xususan, zamonaviy she’riyatda o‘zining barqaror ta’sirini saqlab kelmoqda. Bu ta’sir nafaqat mavzu va syujet darajasida, balki obrazlar, til vositalari, uslub va poetik shakllarda ham yaqqol seziladi.

O‘zbek adabiyotining mumtoz davridan boshlab, ma’rifatparvarlik adabiyotigacha bo‘lgan jarayonda shoirlar xalq og‘zaki ijodining boy tajribasidan samarali foydalanganlar. Ayniqsa, satira janri, xalq afsonalari, maqol va matallar, askiya va qo‘shiq shakllarining zamonaviy she’riyatga singib ketishi bu ta’sirning dalilidir. Muqimiy, Furqat, Zavqiy kabi ma’rifatparvar shoirlar xalqning hajviy, lirik va didaktik an’analarini ijodiy tarzda o‘zlashtirganlar.

Zamonaviy she’riyatda ham folklorizmlar – ya’ni xalqona ibora, timsol, maqol, afsona va obrazlar - she’rga milliylik, xalqchillik, ta’sirchanlik baxsh etadi. Ular poetik matnning semantik chuqurligini oshirib, o‘quvchiga yaqin va tushunarli muhit yaratadi. Shuning uchun ham zamonaviy shoirlar xalq ijodiga tayanib, bugungi kunning dolzarb masalalarini milliy ruhda yoritishga harakat qiladilar. Shu bois, folklor - faqat o‘tmish emas, balki hozirgi badiiy tafakkur uchun ham kuchli ilhom manbai, estetik mezon va xalq bilan bog‘lovchi badiiy ko‘prik bo‘lib xizmat qilmoqda.

Zamonaviy adabiyot, xususan she’riyat, o‘z taraqqiyotida hech qachon xalq og‘zaki ijodi - folklordan ajralgan emas. Bu hodisa shunchaki tarixiy merosga ehtirom emas, balki badiiy tafakkurning uzluksizligi, milliy ruhning davomiyligi sifatida qaralishi lozim. Shoirlar folklordan mavzu, syujet, obrazlar yoki shakl emas, balki xalq ruhining badiiy ifoda shakli sifatida ilhom oladilar.

Folklorizm - bu xalq og‘zaki ijodiga xos bo‘lgan tasviriy vositalar, obrazlar, timsollar, ifoda uslublari, maqol va matallar, poetik andozalar va badiiy ko‘rinishlarning yozma adabiyotga, xususan she’riyatga kirib kelishidir. Folklorizm faqat tashqi bezak emas, balki she’riy matnning mazmunini chuqurlashtiruvchi, g‘oyasini kuchaytiruvchi, xalq ruhiga yaqinlashtiruvchi asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Mumtoz san’atkorlar singari zamonaviy shoir ham faqat iste’dod bilan emas, balki xalq xotirasi, madaniy meros, tarix, din, falsafa va estetik tafakkur bilan uyg‘un ijod qilishi kerak. Adabiyot olamida yangilik yaratish – bu butkul yangicha shakl emas, balki eski, xalqona ruhga zamonaviy ma’no baxsh etishdir. Abdulla Oripov aytganidek: *“Xalq og‘zaki ijodiga bepisandlik – adabiyotdan yiroqlikdir.”* Bu fikr ayniqsa bugungi she’riyatda o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q.

Biz ushbu maqolada X.Dasvletnazarovning “Batír gúlayím” she’rini tahlilga tortmoqchimiz. She’r an’anaviy barmoq vaznida yozilgan bo’lib, bilamizku xaql og’zaki ijodidagi ona vazn barmoq hisoblanadi. Eng qadimgi manbalardan tortib bugungi kungcha yaratilgan asrlarni barchasi barmoqda yozilgan.

Qos burımlı qara shashım,
Túyeyin dep túygenim joq.
Jeti qabat aq sawıttı,
Kiyeyin dep kiygenim joq!
Erler turıp nashar basım,
Taǵınǵanım qılısh-qalqan,
Jurtım shapqan jaw ordasın,
Qaytadurman etip talqan!
Júrek-bawrım barar kúyip,
Kózlerimdi jaslaǵan dárt.
Shıqpas pa el-xalqım diyip,
Qırq jigitin baslaǵan márt?
Arzı-halım kim uǵadı?..
Jekkelikten zar jılayman,
Men shıqpasam kim shıǵadı,

Batırlarsız qalsa maydan?!
El basına kún tuwǵanda,
Qol jaydırǵızbaǵay jatqa!
Xalqı ushın bel buwǵanday, –
Batır qızlar! Miniń atqa!?

Ushbu she’rda xalq og‘zaki ijodining bir necha tipik belgilarini ko‘rish mumkin. Bu folklorizmlar she’rga epik ruh, xalqona ifoda, obrazlilik kiritgan.

1. “Qos burımlı qara shashım”. Ayolning go‘zallik timsoli sifatida ishlatilgan. Bu – xalq dostonlari, qo‘shiqlarda ayol go‘zalligini tasvirlashda ishlatiladigan doimiy epitet hisoblanadi.

2. “Jeti qabat aq sawıt”. “Jeti qabat” iborasi – muqaddas raqam bo‘lib, folklorda kuch, himoya, pahlavonlik belgisi sifatida ko‘p uchraydi. “Aq sawıt” – jasorat va niyat pokligining timsoli bo’lib xalq og’zaki ijodidagi asarlar keng qo’llanilgan iboralardan biri.

3. “Qırq jigitin baslaǵan márt?”. Bu ibora “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Qırq qiz” dostonlaridagi an’anaviy epik obraz – jasur sardorni eslatadi. Bilzmizki, qirq raqami folklorda ham eng ko’p qo’’anilgan raqamlardan biridir.

4. “El basına kún tuwǵanda”. Xalq og‘zaki ijodida “kun tug‘ish” ifodasi – fojea, og‘ir sinov, dushman bosqini kabilarni bildiradi. Bu ibora epik muhitning muhim belgisi hisoblanishi bilan birga, “kun tug’ishi” iborasi xalqona ifoda hisoblanadi.

5. “Qol jaydırǵızbaǵay jatqa!”. – “Qol jaymoq” – ilojsizlik, taslim bo‘lish ma’nosida. Bu xalq orasida keng tarqalgan frazeologik birlik bo‘lib, bu yerda xalqning dushmanga bo‘yin egmasligi kerakligi haqida fikr berilgan.

6. She’rdagi Gúlayım obrazi va epik an’ana. Folklor ildizlariga borib taqalgan epik ayol obrazlari “Qırq qiz”, “Tomiris” kabi obrazlar bilna birga Gulayim obrazi ham keng tarqalgan obrazlardan biridir. U shunchaki romantik yoki hissiyotga berilgan lirik qahramon emas, balki xalq ruhi, tarixiy xotira va ijtimoiy faollikning ramzi sifatida gavdalanadi.

Demak, zamonaviy she’riyatda folklorizmlarning ahamiyati faqat madaniy merosni saqlashda emas, balki badiiy ifodaning milliy-estetik mezonlarini saqlab qolishda, shoirning xalq bilan bog‘liqligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Shoir folklorni o‘rganibgina qolmay, undan ijodiy foydalanishi**,** tuyg‘u va g‘oyalarni xalqona shaklda ifoda etishi orqali she’riyatni milliy va zamonaviy darajaga olib chiqadi**.**

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev, R. "Folklorizmning adabiyotda yangicha talqini." Toshkent: Adabiyot va san’at, 2020
2. Bakiyeva, G. "Zamonaviy O‘zbek adabiyoti va folklor." Toshkent: Sharq, 2020
3. Jalolov, J. "O‘zbek xalq og‘zaki ijodiyoti." Toshkent: Fan nashriyoti
4. Jalolov, M. "O‘zbek adabiyoti tarixi." Toshkent: Ma'naviyat, 2016
5. Mahkamov, T. "Zamonaviy adabiyotda folklor va adabiy an'analar." Toshkent: Ilm-fan, 2019
6. Rahmonov, I. "Xalq og‘zaki ijodi va zamonaviy o‘zbek adabiyoti." Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017
7. Saidaliyev, S. "Folklorizm va milliy madaniyat." O‘zbekiston adabiyoti, 2019
8. Yuldashev, A. "Folklorizmning zamonaviy adabiyotga ta'siri." O‘zbek tili va adabiyoti, 2021

DARYO TIMSOLI RUHIY VA MA’NAVIY TANAZZUL IFODASI

Z.Kabulova
Qoraqalpoq davlat universiteti f.f.f.d., dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekologik muammolarning adabiyotdagi badiiy ifodasi daryo timsoli orqali tahlil qilinadi. She’rda tabiat va inson o‘rtasidagi rishtaning uzilishi, ruhiy va ma’naviy tanazzul holatlari poetik-falsafiy jihatdan yoritiladi. Daryo obrazi orqali ekologik inqirozning inson qalbiga ta’siri, orzular va qadriyatlarning yemirilishi poetik talqin etiladi.

Kalit so‘zlar. Adabiyot, ekologik muammo, daryo obrazi, badiiy tafakkur, poetik talqin, estetik tafakkur, tabiat va inson munosabati.

Annotation. This article analyzes the artistic representation of ecological problems in literature through the symbolic image of the river. The poem reflects the rupture between nature and humanity, as well as the spiritual and moral decline, from a poetic and philosophical perspective. Through the river motif,

the poem poetically conveys the emotional impact of ecological crisis on the human soul, and the collapse of dreams and values.

Keywords. Literature, ecological issue, river imagery, artistic thinking, poetic interpretation, aesthetic perception, nature and human relationship.

Аннотация. В данной статье рассматривается художественное отражение экологических проблем в литературе через символический образ реки. В стихотворении с поэтическо-философской точки зрения освещаются разрыв связи между природой и человеком, а также духовный и моральный упадок. Образ реки служит поэтическим средством выражения влияния экологического кризиса на человеческую душу, разрушения мечт и ценностей.

Ключевые слова. Литература, экологическая проблема, образ реки, художественное мышление, поэтическая интерпретация, эстетическое восприятие, взаимоотношение природы и человека.

Bugungi globallashuv davrida ekologik muammolar nafaqat siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda, balki badiiy adabiyotda ham jiddiy aks sado bermoqda. Insoniyat tabiat bilan munosabatida asrlar davomida o‘zini markazga qo‘yar ekan, oqibatda bu o‘ziga xos bir global fojeaga olib keldi. Endilikda esa inson nafaqat tabiatni, balki tabiat bilan bog’liq ruhiy-estetik dunyosini ham yo‘qotish yoqasida turibdi. Shu jihatdan olib qaraganda, adabiyot – ayniqsa she’riyat – bu jarayonlarning badiiy aksidir.

Inson va tabiat orasidagi bog‘liqlik tarixan adabiyotda doimo yetakchi mavzulardan biri bo‘lib kelgan. Har bir davrda adiblar tabiat go‘zalligini, u orqali inson ruhiyatini ifoda etishga intilishgan. Ammo XX asr ikkinchi yarmidan boshlab, tabiatga nisbatan zararli munosabat natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolar adabiy jarayonga ham chuqur ta’sir qildi. Bu davrga kelib adabiyot tabiatni faqat maqtov emas, balki fojea, xavf, ogohlik vositasi sifatida ko‘ra boshladi. Adabiyotni tabiatga munosabat nuqtayi nazardan tasniflaydigan bo’lsak quyidagicha tasnif yuzaga kelishini ko’rishimiz mumkin:

1. Mumtoz adabiyotda – tabiat estetik timsol sifatida. O‘zbek mumtoz adabiyotida Alisher Navoiy, Babur, Mashrab kabi mutafakkirlar tabiatni hayot, ilhom, go‘zallik manbai sifatida ko‘rsatganlar. Bu bosqichda tabiat bilan uyg‘unlik g‘oyasi ustuvor bo‘lgan.

2. XX asr adabiyoti va ekologik muammolar uyg’unligi.

XX asrda, ayniqsa, Orol dengizi, Amudaryo, Sirdaryo kabi suv resurslari paxta yakkahokimligi uchun haddan ortiq isrof qilindi. 1960-yillardan boshlab Orolbo‘yi fojeasi yuzaga keldi. Shu bilan birga, bu fojea o‘z aksini adabiyotda, publitsistikada, she’riyatda topa boshladi. Taniqli shoirlar – Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, O‘tkir Hoshimov, keyinchalik Muhammad Yusuf, Iqbol Mirzo va boshqalar Orol qurishi, Amudaryo suvining maqsadsiz sarf qilinishi haqida yozganlar.

3. Mustaqillikdan so‘ng – ekologik ongning uyg‘onishi. XXI asr boshlaridan boshlab o‘zbek adabiyotida ekologik mavzular mustaqil janr sifatida shakllanmoqda. Shoirlar va yozuvchilar ekologik fojialarni ma’naviy tanazzul bilan bog‘lab, inson – tabiat – jamiyat bog‘liqligini o‘rtaga qo‘ymoqda.

O’z navbatida qoraqalpoq adabiyotida ham Orol va suv muammosi, ekologik inqirzoga bag’ishlangan asarlar XX asrdayoq maydonga kela boshladi. Ajiniyaz va Berdaq asarlarida Orol timsoli umid, jo’shqinlik, baxtli hayotning ramzi sifatida tasvirlangan bo’lsa, I.Yusupov, T.Qayipbergenov kabi fenomenlar ijodida tabiat va inson munosabatlari og’riqli turda aks eta boshlagan.

Zamonaviy qoraqalpoq adabiyotining yetuk vakili X.Davletnazarozning “Dárya haqqında sońí ada bolmas táshwishli qosíq” she’rida daryo timsolida ana shunday ekologik fojea, ma’naviy tanazzul va tarixiy ogohlik g‘oyalari badiiy-falsafiy obrazlar orqali ifodalangan. Bu she’rni ekologik ongning shakllanishi, ijtimoiy-ruhiy iztiroblarning badiiy in’ikosi sifatida tahlil qilish zarur.

Gá qumbızday qızıp, birese muzlap,
Oǵan kim ashınbas júregi sızlap,
Poezdlar, kemeler atlasa bir gáp,
Búgin piyadalar atlar dáryadan.
Onnan aylar, jıllar, kúnler atladı,
Quyash, Ay, Juldızlar, túnler atladı,
Hátte, torańǵıllar, gúller atladı,
Qamıslar keship júr endi dáryadan.

She’rda markaziy badiiy timsol – daryo. Ammo bu daryo oddiy suv manbai emas. U – hayot, orzu, vaqt, harakat, qadriyatlar, ba’zan esa jazoni, hatto taqdirni ham anglatadi. Daryoning “qizib, muzlashi” – uning o‘zgaruvchanligini emas, balki insoniyatning unga nisbatan o‘zgargan munosabatini anglatadi. Bir

paytlar bahaybat kemalar kechgan daryoni endi piyodalar kesib o‘tmoqda. Bu – tabiatning tubdan yemirilganidan darak beradi.

Qara shashtı qıraw shala ma, máyli,
Ǵam láshkeri jawlap ala ma, máyli,
Kewilde olsız da az bedi qayǵı,
Árman qayıqları qalqır dáryada.

Máyli, ushıp ótsin tırnalar-ǵazlar,
Atlasın qálem qas jilwalar, nazlar,
Kókiregimde táshwish sıranı aznar,
Bes jasar ballar da atlar dáryadan.

Dawıllar atlaǵan, otlar atlaǵan,
Kemeler qayaqta qurday qatnaǵan,
Eń úlken dárt teńiz bolıp tur maǵan,
Múddáhámiz tek te, Ámiwdáryadan!

She’rning poetik tuzilmasida ekologik muamm quruq va yalang’och so’zlar orqali emas, balki metaforik obrazlar orqali ochiladi. Qamishlar, gullar, to‘rg‘aylar, bolalar – bular daryoni tark etgan timsollar. Tabiat endilikda bu daryodan qochmoqda. Oqibatda inson tabiatdan, tabiat esa insondan ajralmoqda.

Sadıq degen doslar satsa da máyli,
Opasızlıq biraz batsa da máyli,
Ájel mańlayımnan atsa da máyli,
Táǵdir oq atpaǵay biraq, dáryaǵa.

Onnan jıraqlarǵa kóller atladı,
Qumı suwsıldaǵan shóller atladı,
Jerler, kók giyalar, baǵlar datladı,
Názerler baylanǵan búgin dáryaǵa.

Kelte qádemli qıs, keń qádemli jaz,
Ushıp óte aladı bir paraq qaǵaz,
Jollar toqıramas, tıqq etken hawaz,
Dus kelgen jerinen atlar dáryadan.

She’r markazida turuvchi daryo timsoli faqat tabiiy manba emas, balki hayot, orzu-umid, o’tmish va kelajak o’rtasidagi ko’prik, inson taqdiri va ekologik muvozanatning belgisidir.

“Dárya meni nege daǵlı etpesin,
Neler ıǵıp, kimler ótsin, ótpesin,
Biraq, ıǵbal-baxıt atlap ketpesin,
Ómir shıraqları jansın dáryada.”

Bu misralarda daryo qurib borayotgan hayot timsoli sifatida ko‘rsatilgan. Uni yo‘qotish – baxt, omad, hayot mazmunining yo‘qolishidir. She’rda “taqdir o‘qi” daryo tomon emas, inson qalbi tomon emasmi, degan savol ko‘ndalang qo‘yiladi. Bu orqali shoir insoniyatga mungli savol bilan murojaat qilmoqda. Daryoning yo’qolishi, insonlarning o’zligini yo’qotishi emasmi!?

She’rning oxirgi bandlarida esa shoir umidga murojaat qiladi: "Siz, Úmit-Ármanlar bezbeń, dáryadan!?" – bu hayqiriq aslida daryoga emas, balki orzu va umid timsollariga yuzlanishdir. Chunki muallif yaxshi biladiki, daryo suvi faqatgina triklik manbai emas. Unda xalq orzulari, umidlari va kelajagi mujassam. Daryo aslida xalqning o’zligining timsoli sifatida gavdalanadi

Xulosa qilib aytganda, bunday she’rlar bugungi adabiyotimizda ekologik madaniyat, estetik tafakkur va ruhiy uyg‘onishning shakllanishida muhim rol o‘ynamoqda. Ekologik muammoning badiiy ifodasi insoniyatga oddiy chaqiriq emas, balki og‘riqli haqiqat sifatida singib boradi. Shu bois bunday asarlar adabiyotda nafaqat go‘zallikni emas, balki ekologik madaniyatni uyg‘otuvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Мамажонов С. Лирик олам ва эпик кўлам. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979. – 334 б.

2. Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: Шарқ, 2007. – 352 б.
3.Dabılov P. Qaraqalpaq ádebiyatında lirikalıq qaharman koncepsiyası (lirikalıq subyekt hám obyekt máselesi).Filol.ilim. filosofiya dokt...diss. -Nókis, 2025.
4.Фармонова М. 80 йиллар ўзбек лирикасида табиат ва инсон консепсияси. Фил.фан.номз...дисс. -Тошкент, 1992.
5.Худайбергенов К. Ҳәзирги заман қарақалпақ поэзиясында лирикалық герой проблемасы. Филол.илим.докт...дисс. -Тошкент,1967.

NURBOY JABBOROV NAZARIY QARASHLARI - MILLIY ADABIY TAFAKKUR KO‘ZGUSIDA

M.O‘tamuradova
Qoraqalpog‘iston, Amudaryo tumani

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek adabiyotshunosligining yetuk vakillaridan biri, professor Nurboy Jabborovning adabiy-nazariy qarashlari ilmiy tahlil qilinadi. Olimning asarlarida milliy ruh, obrazli tafakkur, mumtoz va zamonaviy adabiyot o‘rtasidagi uzviylik g‘oyasi qanday aks etgani o‘rganiladi. N.Jabborov nazariyasidagi badiiy tafakkur evolyutsiyasi, obrazlilik, poetik mushohada, adabiy merosga yondashuv singari jihatlar zamonaviy adabiyotshunoslik kontekstida yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Nurboy Jabborov, milliy ruh, poetik tafakkur, obrazlilik, adabiy tafsir, shakl va mazmun, badiiy tafakkur, zamonaviy she’riyat, mumtoz meros.

Abstract. The article scientifically analyzes the literary and theoretical views of one of the prominent representatives of Uzbek literary criticism, Professor Nurboy Jabborov. The scientist's works study how the idea of the national spirit, figurative thinking, and the continuity between classical and modern literature are reflected. The evolution of artistic thinking in N. Jabborov's theory, such aspects as imagery, poetic observation, and approach to literary heritage are covered in the context of modern literary criticism.

Keywords. Nurboy Jabborov, national spirit, poetic thinking, imagery, literary interpretation, form and content, artistic thinking, modern poetry, classical heritage.

Adabiyotshunos Nurboy Jabborov nafaqat zamonaviy o‘zbek adabiy tanqidining yetakchi namoyandasi, balki o‘zbek poeziyasi, xususan, uning milliy, falsafiy va estetik ildizlarini chuqur tahlil qilgan sinchkov va talabchan tadqiqotchidir. Nurboy Jabborov badiiy asarni yuzaki talqin qilishdan yiroq turadi, balki uning ichki qatlamlariga – semantik, ritmik, ruhiy va falsafiy strukturalariga kirib boradi. U poetik matndagi eng nozik detallarni ham e’tibordan chetda qoldirmaydi, obrazlar tizimi, ramziy qatlam, badiiy tilda namoyon bo‘lgan ruhiy holat va xalqona idrok shakllarini tahlil orqali ochib beradi.

Nurboy Jabborovning estetik qarashlari ilmiy asoslanganligi, tahlil va talqinning chuqur tafakkur bilan uyg‘unlashuvi, har bir poetik jihatga e’tibordan chetda qaramasligi bilan ajralib turadi. U o‘z tadqiqotlarida badiiy matnni ko‘p qatlamli tuzilma sifatida tahlil qiladi: bunda metafora va timsollar tizimi, milliy poetik an’ana, xalqona nutq elementlari va estetik-falsafiy kontekstlar bir butun holda baholanadi. Uning nazariy qarashlari, xususan, she’riyatda milliylik, badiiy tafakkur, ruhiy-estetik anglash, tarixiy obrazlar bilan ishlash kabi masalalarga doir fikrlari zamonaviy adabiyotshunoslik uchun mustahkam metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, N.Jabborov tanqidni inkor etish yoki subyektiv hukm chiqarish vositasi sifatida emas, balki asarni chuqurroq anglash, badiiy tafakkurning taraqqiyot yo‘lini ko‘rsatish, poetik tafsirga ilmiy aniqlik kiritish vositasi sifatida qo‘llaydi. U tanqidchilikda badiiylik va ob’ektivlik muvozanatini saqlagan holda, har qanday asarga mas’uliyat bilan, badiiy mezonlar asosida baho beradi. Jumladan, u mumtoz va zamonaviy o‘zbek she’riyatidagi milliy ruhni, poetik tafakkur va obrazlilikni yangi yondashuvlar asosida tahlil qilib, o‘zining estetik mezonlari va tahliliy maktabini shakllantirgan.

Nurboy Jabborovning ilmiy merosi, avvalo, o‘zbek adabiyotining milliy o‘zligiga, estetik asoslariga va badiiy tafakkur taraqqiyotiga bo‘lgan yuksak e’tibor, halollik va fidoyilik mahsulidir. Jumladan, adabiyotshunos olim shunday yozadi “Mohiyatan umuminsoniyatga daxldor bo‘lsada, adabiyot milliy shaklda namoyon bo‘ladi. O‘zida millatning ruhini ifodalaydi. Bu xususiyatlar she’riyatda ayniqsa, yaqqolroq bo‘y ko‘rsatadi ”

Milliy ruh va ma’naviyat tushunchasi N.Jabborov tadqiqotlarida markaziy o‘rin tutadi. Unga ko‘ra, har bir ijodkor o‘z xalqining milliy qiyofasini aks ettiradi. “Zamonlar o‘rin almashaveradi, tafakkur, taxayyul evrilaveradi… Bundan qat’i nazar, har qanday holda adabiyotning, she’riyatning darajasi ikki mezon – milliy ruh va mahoratga ko‘ra belgilanadi” deya ta’kidlaydi olim “Milliy ruhning jilvari” maqolasida. Haqiqatan ham har bir ijodkor avvalo qaysidir millatning vakili ekan uning har bir so‘zi va tasvirida istasa istamasa milliy ruh qalqib turadi. Hayotga boqishi, tasvirlashi, obraz yaratishida ham milliylik tamoyili seziladi. Hatto eng modernistik she’rlar ham eng kuchli milliylik aks etgan she’rlardir. Daraxtni ildizidan sug‘urib olsak qurib qolganidek, badiiy ijod namunalaridan ham milliylik libosini yechsak badiiyligi yo‘qoladi.

Masalan, A.Oripov she’rlarida milliy ifoda shoirning onaga, Vatanga, do‘stlariga bo‘lgan muhabbatida, nainki muhabbat hatto dushmanlariga nafratida ham aks etganini ko‘rishimiz mumkin. “Shunga ko‘ra, milliylik – she’riyatning asosiy tamoyilidir. Ta’bir joiz bo‘lsa, jahon adabiyoti ko‘rigida o‘zbek she’riyatini ajratib ko‘rsatuvchi yetakchi xususiyat, o‘zgalardan farqini namoyon etadigan bosh belgi bu – milliy ruhdir” deya ta’kidlaydi N.Jabborov.

Olim qaysiki she’r tahliliga kirishmasin badiiyatning eng birinchi asosi sifatida milliylikni qo‘yadi. Agar she’riyatda milliylik aks etmas ekan bunday she’riyatdan na adabiyotga na millatga nafi yo‘q deb hisoblaydi. Milliy ruh va ma’naviy barkamollik aks etgan ijod namunalarinigina badiiyatga daxldor sanaydi. Jumladan, olimning “Muayyan xalq she’riyatining bo‘y-bastini, o‘ziga xosligini belgilovchi bosh mezon aynan milliy ruhdir” degan fikrlari so‘zimizning isbotidir.

Shuningdek, olim obrazli tafakkur haqida fikr yuritar ekan, uni she’riyatning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko‘radi. “She’riyat – olamni obrazli mushohada etmoqdir. Hayrat va ehtiros ifodasidir. Boshqalar uchun oddiy sanalgan hodisa shoirni hayajonga solishi, o‘zgalarga e’tiborsiz ko‘ringan ashyo ijodkor qalbida ajib hissiyotlar uyg‘otishi sababi shunda bo‘lsa kerak” She’riy ijod faqat qog‘ozga qoralash emas, balki betakror mazmun, go‘zal tashbeh va sirli ruhdan yaralmog‘i kerak deb hisoblagan olim o‘z tadqiqotlarida ham shu uch tamoyilga tayangan.

Shu o‘rinda haqli savol tug‘iladi: muayyan ijodkor asarlari mazmun-mohiyatida milliy ruh qanday tamoyillar asosida namoyon bo‘ladi? Professor Nurboy Jabborov fikricha: “...ularni quyidagicha tasnif etish mumkin: 1) millat ruhini mujassam etgan o‘ziga xos urf-udumlar, an’analar, qadriyatlar, millatning orzulari, armonlari talqini; 2) millatning o‘z-o‘ziga tanqidiy ruhda qaray olish salohiyati ifodasi; 3) milliy shaxsiyatlarga xos sobit e’tiqodning poetik suvratlanishi. Birinchisi – millatning axloqi, ikkinchisi – irodasi, uchinchisi – e’tiqodini tajassum etadi va bu uchlik yaxlit holda milliy ruhni tashkil qiladi”. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani tahlili munosabati bilan belgilangan ushbu tamoyillarni olim har bitta badiiy asar tahlilida asosiy mezon sifatida ko‘radi.

Nurboy Jabborov zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligining yetuk vakillaridan biri sifatida nafaqat individual shoirlar ijodini tahlil qilgan, balki ularning poetik dunyoqarashi orqali o‘zbek she’riyatining umumiy taraqqiyot yo‘nalishlarini, estetik mezonlarini aniqlab bergan olim sifatida ajralib turadi. Ayniqsa, u Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Sirojiddin Sayyid kabi zamonaviy o‘zbek she’riyatining asosiy poydevorini yaratgan shoirlarning ijodini nazariy va badiiy nuqtai nazardan chuqur tahlil qilgan. Bu shoirlar ijodida milliy ong, tarixiy xotira, ma’naviy uyg‘onish, ichki ziddiyatlar, lirizm va vatanparvarlik g‘oyalari qanday poetik ifoda topganini o‘ziga xos ilmiy tafakkur bilan yoritib bergan.

Xususan, N.Jabborov Sirojiddin Sayyid she’riyatini tahlil qilar ekan, undagi xalqona tafakkur, maqollashgan uslub, lirik kompozitsiyaning ritmik tuzilishi, she’r satrlaridagi nutqiy ohangdorlik va falsafiy qatlamlarni ilmiy asosda tahlil qiladi. Shoirning har bir satridagi xalq ruhi, tarixiy-estetik tafakkur, milliy idealning badiiy aksini ochib beradi. Jumladan, olimning “Sirojiddin Sayyid so‘z ifodasida parhez qiladi. So‘zni tejab ishlatadi, so‘zga zalvorli mazmun yuklay biladi. “450 000 lola” she’rida ikkinchi jahon urushining butun fojiasi lo‘nda, ta’sirchan, betakror ifodalangani ham fikrimizni tasdiqlaydi” degan fiklari so‘zimizning isbotidir.

Olimning ilmiy qarashlari hozirgi adabiyotshunoslik uchun nafaqat metodologik tayanch, balki kelajakda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan izlanishlar uchun ham yo‘nalish ko‘rsatuvchi manba hisoblanadi. Jumladan, olim milliy poetika, obrazli tafakkur, adabiy merosni zamonaviy ilmiy mezonlar asosida o‘rganish, adabiy jarayonni tahlil qilishda badiiy idrok va poetik-falsafiy qamrovni nazariy asos sifatida ilgari suradi.

Shunday qilib, Nurboy Jabborov adabiyotshunoslik sohasida nafaqat individual asarlarni, balki butun bir davr she’riyatining nazariy asoslarini shakllantirishga, zamonaviy o‘zbek adabiyotining milliy-estetik yo‘nalishini belgilab berishga katta hissa qo‘shgan yirik olimdir. Uning ijodiy-estetik qarashlari

bugungi adabiy tafakkurga yangicha ruh, chuqur nazariy tafsilot va badiiy baho mezonlarini olib kirganini alohida ta’kidlash joizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jabborov N. Adabiyot va milliy ma’naviyat. – Toshkent: Ma’naviyat, 2015. – 132 b.
2. Jabborov N. Zamon. Mezon. She’riyat. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2015. – 304 b.
3. Jabborov N. Ma’rifat nadir. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010. – 112 b.
4. Jabborov N. Cho‘lpon she’riyatida milliy istiqlol orzusining badiiy talqini / Cho‘lpon ijodi va zamonaviy adabiy jarayon. – Toshkent: Mashhur-press, 2018. – B. 45-52.
5. Jabborov N.Maoniy ahlining sohibqironi.Toshkent: Adabiyot, 2021

HALIMA XUDAYBERDIYEVA SHE’RIYATINING O‘ZIGA XOSLIGI

L.F.Tajibayeva
Qoraqalpoq davlat universiteti filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek she’riyatining zabardast vakili Halima Xudayberdiyeva she’riyatining o‘ziga xosligi, badiiyligi va obrazlar olami tahlil qilingan.
Kalit so‘zlar. Halima Xudayberdiyeva, ayol, samimiyat, mahorat, ramz, tashbeh, badiiylik.
Абстрактный. В данной статье анализируется своеобразие, художественность и мировоззренчество образов поэзии Халимы Худайбердиевой, ведущей представительницы узбекской поэзии.
Ключевые слова. Халима Худайбердыева, женщина, искренность, мастерство, символ, аллегория, артистизм.
Abstract. This article analyzes the uniqueness, artistry, and world of images of the poetry of Halima Khudaiberdiyeva, a prominent representative of Uzbek poetry.
Keywords. Halima Khudaiberdiyeva, woman, sincerity, skill, symbol, allegory, artistry.

She’riyatda badiiylik - bu faqat go‘zal so‘zlar, chiroyli tashbehlar yoki ohangdor satrlar emas, balki butun asarning qalbdan chiqib, yana bir qalbga yetib borish qobiliyatidir. Badiiylik she’rda hayotning nafasini, inson ruhiyatining eng nozik qatlamlarini, tuyg‘u va kechinmalarning ichki uyg‘unligini his etish, sezish, ko‘rsatish bilan namoyon bo‘ladi. Uning yuksak bo‘lishi uchun esa, eng avvalo, ruhiyatning samimiy, sof va teran ifodasi zarur. Zero, qalbda titramagan tuyg‘u so‘zda ham, o‘quvchi qalbida ham aks etmaydi. She’rga badiiy kuch baxsh etuvchi asosiy omil – bu fikrning hayotiy haqiqatdan tug‘ilishi, tuyg‘uning esa chin qalbdan ifoda topishidir. Ana shundagina she’r badiiy bo‘ladi, o‘quvchini larzaga soladi, hayotga va insoniyatga munosabatini o‘zgartiradi. Boshqacha aytganda, badiiylik – bu ruhning ohangi, so‘zda yashovchi haqiqatdir. O‘zbek adabiyotiga o‘zining samimiy satrlari, ohangrabo misralari bilan kirib kelgan ijodkorlardan biri Halima Xudayberdiyevadir. Uning she’rlaridan qalbimizga qondosh, tuyg’ularimizga yondosh va ruhimizga yelkadosh she’rlar talaygina.

“Halima o‘zbek ayoli she’riyatida kutilmagan hodisa, ungacha bu san’at koshonasida qandaydir sukunat, osudalik hukm surib, kishini mudroq bosardi. Halima bu dargohga bo‘ron bo‘lib kirib keldida, to‘lib-toshib, oshiqib-toshiqib baland pardalarda qo‘shiq boshladi. Shoiraning ovoz pardalari ko‘kni larzaga keltirib kuylashga qodir. Bu “mushtipar” ayolning mungli ovozi emas, bu -mardona ovoz, bu she’r na’rasi, Hammadan quvonchlisi Halima she’rlaridagi lirik qahramon hamisha ayol siymosida namoyon bo‘ladi. Lekin bu ayol upa-elik, kiyim-kechak ovorasi tannozxonlardan emas, balki o‘z izzat-nafsi, qadr-qimmatini, sharm-hayosini hammadan yuqori qo‘ygan zahmatkash ona siymosidir” Haqiqatan ham Halima Xudoyberdiyeva o‘z ijodi bilan XX asr o‘zbek she’riyatida ayol lirikasiga butunlay yangi ohang, yangi kayfiyat olib kirdi. Ungacha ayol obrazi she’riyatda ko‘proq go‘zallik timsoli, hushfe'l, latofatli, ammo sokin va jur’atsiz tarzda ifodalanardi. H.Xudoyberdiyeva bu an’anaviy qobiqni yorib chiqdi - u ayol obrazini ijtimoiy ong, tarixiy xotira, ruhiy bardosh va axloqiy mas’uliyat darajasiga ko‘tardi.

Shoiraning she’rlaridagi ayol siymosi - bu real hayotning har bir og‘irligini yelkasida ko‘tarib yurgan, shu bilan birga o‘z or-nomusini hech kimga tap tortmaydigan matonatli, vijdonli va yuksak ruhli ayoldir. Bu obraz hayotiy realizm va poetik yuksaklik uyg‘unligining mahsulidir. Shoira ayol she’riyatini

shunchaki tuyg‘ular maydonidan chiqardi, uni kurash, iztirob, haqiqat izlash va o‘zligini anglash sahnasiga aylantirdi.

Halima Xudoyberdiyeva she’riyatida lirik qahramon ko‘p hollarda nafaqat ijtimoiy-tarixiy voqelikka munosabat bildiradi, balki u o‘zini anglash, tafakkur qilish va ruhiy tiklanish jarayonida ham ishtirok etadi. Xususan, “Batamom uyg‘onsam...” she’rida lirik qahramon o‘z-o‘zini kashf qilishga urinadi:

Turayotgan qushga o‘xshayman juda,
Qushlarga o‘xshayman uyg‘onayotgan.
Ba’zi tomirlarim hali uyquda,
Ba’zi tomirlarda qonlarim qotgan.

Bu misralarda insonning ruhiy uyg‘onish holati hayratomuz bir poetik talqinda namoyon bo‘ladi. Bu uyg‘onish faqat jismoniy emas, balki ma’naviy uyg‘onish, ongda sodir bo‘layotgan g‘alayonlar, ichki beqarorlikdan hushyorlikka o‘tish, insonning “haqiqiy men”i bilan yuzlashuv jarayoni sifatida tasvirlanadi. Shoira bu orqali har qanday inson hayotidagi ruhiy inqiroz yoki kamolot bosqichlarini ko‘rsatib, o‘quvchini ham shunday bir uyg‘onishga chorlaydi. Bu uyg‘onish faqat ijtimoiy vazifani anglash emas, balki ongli yashash, insoniylik tamoyillarini anglash deganidir.

Halima Xudoyberdiyevaning turkum she’rlari shunday xususiyatga egaki, ular o‘quvchini faqat badiiy zavq bilan emas, balki fikriy va ma’naviy mulohazaga chorlaydi. She’rlardagi har bir satr qalbni oynadek aks ettiradi. Binobarin, bunday she’rlar ma’naviy ko‘zgu vazifasini o‘taydi. Ularda inson o‘z qalbining asl qiyofasini, orzu-umidlari va qayg‘u-iztiroblarini ko‘radi, bu orqali o‘zini anglashga harakat qiladi.

Shoiraning she’rlari bizga shunchaki his-tuyg‘ularni bayon qilmasdan, balki insonning hayotda qanday yashashi, qanday yashashi kerakligi haqida fikr yuritishga imkon beradi. Bu jihatda ular nafaqat adabiy, balki tarbiyaviy va falsafiy ahamiyat kasb etadi. H.Xudoyberdiyevaning “Bir sadolar kelur jim-jim kurtakdan” turkumidagi she’rlar lirik tafakkur, ruhiy uyg‘onish va ma’naviy izlanishlar bilan sug‘orilgan. U inson tabiatini faqat estetik obrazlarda emas, balki falsafiy va ma’naviy jarayonlar orqali ochib beradi. Bu she’rlar adabiy an’analar va zamonaviy tafakkur uyg‘unligining yorqin namunasi sifatida o‘quvchi qalbida chuqur iz qoldiradi.

Shoir Sirojiddin Sayyid ta’kidlaganidek, “Halima Xudayberdiyevaning kitoblari she’rlardan emas, aslida sabolardan tuzilgan. Muqovani ochdingiz tamom, sahifalar hilpiray boshlaydi; satrlar epkini yuzga uriladi; undan ko‘ngilga o‘tadi va yurak bir yaproq singari titroqqa tushadi”. Halima Xudoyberdiyeva she’riyati - bu o‘zbek adabiyotida ruhiy uyg‘onish, ma’naviy izlanish va ayol qalbining chuqur ichki olamini badiiy yuksaklikda ifoda etgan noyob hodisadir. Uning she’rlari o‘quvchini nafaqat go‘zallikka, balki tafakkurga, o‘zini anglash va qadrlashga undaydi. Shoira ijodi hayot va inson, jamiyat va vijdon, or-nomus va ma’rifat kabi abadiy qadriyatlarni yoritishda ma’naviy ko‘zgu vazifasini o‘taydi.

Shoiraning o‘zbek she’riyatiga olib kirgan yangiligi ayniqsa ayol obrazida namoyon bo‘ladi. Halima Xudoyberdiyeva ayolni faqat mehr-muhabbat, hushyorlik yoki mehribonlik ramzi sifatida emas, balki kuchli iroda, qat’iyat va haqiqatga sodiqlik timsoli sifatida yaratdi. Bu esa o‘zbek adabiyotida ayol obrazining yangi, zamonaviy va chuqur psixologik qirralarini ochib berdi, uning badiiy salohiyatini yanada boyitdi.

Xulosa qilganda, Halima Xudoyberdiyevaning she’riy merosi - bu ayol ruhiyatining poetik tarjimasi, milliy tafakkur va adabiy an’analar uyg‘unligini aks ettiruvchi badiiyat namunalaridir. Uning ijodi nafaqat o‘zbek adabiyotida yangi sahifani ochdi, balki milliy madaniyat va estetik qadriyatlarning rivojlanishida chuqur iz qoldirdi. Shu sababdan uning she’riyati o‘zbek adabiyoti tarixida o‘chmas o‘rin egallaydi va har bir o‘quvchining qalbini zabt etgan badiiyat namunasi bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мамажонов С. Меҳнат ва турмуш журнали.-1973.№8
2. Жалолов Т. Ўзбек шоирлари. – Тошкент, 1980
3. Xudayberdiyeva H.Saylanma. She’rlar.-Toshkent, 2000
4. Xudayberdiyeva H.To‘marisning aytgani. She’rlar.-Toshkent, 1996

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ҲАЁТНИНГ МАФКУРАВИЙЛАШУВИ (1960-1980 ЙИЛЛАР)

Х. Э.Ходжамбердиев
Андижон давлат университети т.ф.ф.д.(PhD) доцент

Аннотация: Ушбу мақолада Совет Иттифоқи Коммунистик партияси томонидан 1960-йиллар ўрталарида эълон қилинган “ривожланган социализм” концепциясининг Ўзбекистон ССРдаги ижтимоий-сиёсий жараёнларга таъсири таҳлил қилинади. Мақола архив материаллари ва замонавий тадқиқотлар асосида ёзилган бўлиб, тоталитар бошқарув тизимининг Ўзбекистон жамиятига таъсири, жумладан, унинг иқтисодий, сиёсий ва маънавий оқибатлари таҳлил қилинади.

Калит сўзлар: ривожланган социализм, Ўзбекистон ССР, КПСС, тоталитар тузум, сиёсийлашув, мафкура, партия номенклатураси, комсомол, касаба уюшмалари, турғунлик даври, сиёсий жараёнлар, архив манбалари

Аннотация: В данной статье анализируется влияние концепции «развитого социализма», провозглашённой Коммунистической партией Советского Союза в середине 1960-х годов, на социально-политические процессы в Узбекской ССР. Исследование основано на архивных материалах и современных научных работах. Особое внимание уделяется влиянию тоталитарной системы управления на узбекское общество, включая её экономические, политические и духовные последствия.

Ключевые слова: развитой социализм, Узбекская ССР, КПСС, тоталитарный режим, политизация, идеология, партийная номенклатура, комсомол, профсоюзы, период застоя, политические процессы, архивные источники

Abstract: This article analyzes the impact of the "developed socialism" concept, proclaimed by the Communist Party of the Soviet Union in the mid-1960s, on the socio-political processes in the Uzbek SSR. The study is based on archival materials and modern academic research. Special attention is given to the influence of the totalitarian system of governance on Uzbek society, including its economic, political, and ideological consequences.

Keywords: developed socialism, Uzbek SSR, CPSU, totalitarian regime, politicization, ideology, party nomenclature, Komsomol, trade unions, stagnation period, political processes, archival sources

1960-йиллар ўрталарига келиб, Совет Иттифоқи Коммунистик партияси (КПСС) иттифоқ миқёсида коммунистик жамият қуриш концепциясининг навбатдаги босқичи сифатида “ривожланган социализм” қурилганини эълон қилди. Шу орқали партия, Совет Иттифоқида, жумладан, Ўзбекистон ССРда ҳам социализм тўлиқ шаклланган ҳақида янги ғоявий асослар орқали хулосалар чиқарди ҳамда партия дастурида белгиланган коммунизм қурилиши вазифасини изчил давом эттиришни мақсад қилди.

Мазкур даврда марказдаги мафкуравий доиралар томонидан ишлаб чиқилган илмий асосга эга бўлмаган ва ҳаётий ҳақиқатдан йироқ ақидалар таъсирида, мамлакатнинг барча ҳудудларида бўлгани каби, Ўзбекистонда ҳам жамият ҳаётининг барча соҳалари кескин сиёсийлаштирилди ҳамда шу сиёсий йўналиш доирасида ривожланишга мажбур этилди.

Бу йилларда ижтимоий ҳаётнинг мафкуралашиб, мафкуравий курашларнинг кескинлашиб бориш тезиси эълон қилинди. Марксизм-ленинизм классиклари асарлари ва партия ҳужжатларини ўрганишга фуқароларнинг мажбур эканлигига доир кўрсатмалар берилди, кўчалар ва ташкилотларда кўргазмали мафкуравий ташвиқотлар авж олди. Мисол тариқасида биргина Фарғона вилоятини олсак, 1975 йилда вилоятда 17 минг ташвиқотчи, 580 ташвиқот пунктлари, 102 та мафкуравий ташвиқот гуруҳлари фаолият олиб бориб, партия сиёсатини халқ онгига сингдириб боришган. [1:B.2]

Мамлакатнинг сиёсий йўли билан ҳақиқий ижтимоий аҳвол ўртасидаги фарқланишларнинг кучайиши “ривожланган социализм” концепциясида ифодаланган ютуқларга мос келмас эди. Озиқ-овқат маҳсулотлари, саноат товарлари, уй-жой кабиларнинг етишмаслиги, жиноятчиликнинг ўсиши, партия номенклатурасининг маънавий жиҳатдан айниши, фуқароларда сиёсий ҳафсаласизликнинг ўсиши каби муаммоларнинг вужудга келганлиги бунинг яққол кўриниши эди [2].

Шу билан бирга, XX асрнинг 70-йилларига келиб сиёсий жараёнлар ўзгара бошлади. Жумладан, давлат ҳокимиятининг бошқарув органлари марказлаша бошлади, сталинизмни қайта тиклашга доир уринишлар кўзга ташлана бошлади. Бу даврда давлат бошқарувини коммунистик партия томонидан

амалга ошириш анъаналари давом этди. Бу даврда партия СССР Конституциясининг 6-моддасидаги “партиянинг совет жамиятига раҳбарлик қилувчи ва ҳаракатлантирувчи кучи ва ядроси” деган принципи асосида бошқарув тизимини янада мустаҳкамроқ эгаллаб олди. Ёшлар ўртасида комсомол ташкилотларининг ўрнини кучайтиришга муҳим аҳамият берилди. Деярли барча меҳнат жамоаларида партия ва комсомол ташкилотлари фаолият олиб бориб, улар бошқарув раҳбарларини қаттиқ назорат қилар ва улар ҳисоботларини доимий равишда муҳокама этиб борар эди.

Бу даврда “коммунизм мактаби” деб атала бошланган касаба уюшмаларининг роли ҳам кескин равишда оширилди. Масалан, 1977 йил 1 январь ҳолатида Ўзбекистон ССР касаба уюшмаси 12 вилоят уюшмаси, 115 вилоят ва 802 та шаҳар ва туман тармоқ комитетларидан таркиб топган бўлса, [3:B.48] 1987 йилга келиб 13 вилоят кенгашлари, 18 республика тармоқ комитетлари, 133 вилоят, 1 йўл ва 1 ҳудудий комитетлар фаолият кўрсатган. 1977 йили Республика касаба уюшмаларни аъзоси 3 млн. 500 минг кишини ташкил қилиб, ушбу кўрсаткич 1987 йилда 6 млн. 723 минг кишига ўсган [4:B.5]. Касаба уюшмаларини асосий вазифаси коммунизм қуриш дастурини амалга ошириш учун курашиш эди. Ушбу ташкилот иктисодиётни бошқаришда, коммунистик меҳнат учун рақобатни ташкил қилишда, жамоатчилик ишларини бошқаришда ва халқнинг сиёсий онгини оширишда коммунистик партияга кўмакдош бўлиш вазифаси юклатилган эди.

Бу даврда “партия номенклатураси” [5] асосида мансабларга тайинлаш авж олди. Барча масъул лавозимларга номзодларни партия ташкилотлари кўрсатар эди. Ҳаттоки, сайланадиган қишлоқ, туман, шаҳар, вилоят, республика, иттифоқ советларига депутатлар номзоди ҳам партия ташкилотлари томонидан обдон ўрганилиб, сўнгра уларнинг рўйхати сайловга тавсия этилар эди. Бу рўйхатдан ташқарида бўлган бирон-бир одамнинг депутатликка номзодини қўйиш мумкин эмас эди.

Иттифоқ тарихида 1964 йилда ҳокимият тепасига Л.И.Брежневнинг келишидан то М.С.Горбачевнинг партия марказий кенгаши бош котиби этиб сайланишигача бўлган давр тарихшунослар томонидан “турғунлик даври” деб аталади.

XX асрнинг 70-йилларида, яъни турғунлик даврида иттифоқда партиянинг бошланғич ташкилотлари ҳар бир саноат, қурилиш, колхоз, совхоз, муассаса, корхона, мактаб, техникум, билим юрти, институт ва университетларда фаолият юрита бошлади. 1971 йилдан 1981 йилгача бу бошланғич ташкилотлар 369695 тадан 414048 тага ўсиб, 44353 тага кўпайди [6.1981:B.21].

Турғунлик даврида Ўзбекистон Коммунистик партияси (ЎзКП) аъзоларининг ўсиши кузатилди. ЎзКПнинг сафида 1970-йилда 412321 та аъзо бўлган бўлса, 1976-йилнинг февраль ойига келиб 489050 та коммунистни ташкил этди. Уларнинг 73 фоизи моддий ишлаб чиқариш соҳасида ишлаётган аъзолар эди. 61,9 фоизи эса ишчилар ва колхозчилардан иборат эди. Шу даврда 12 вилоят, 26 та шаҳар, 9 та шаҳар ичидаги район, 134 та қишлоқ районлари партия қўмиталари, яна 7 та район партия қўмитаси ҳуқуқини олган партия қўмиталари, 15.800 та бошланғич партия ташкилотлари фаолият юритди. Партия ўз сафида 90 та миллат ва халқларга мансуб аъзоларни бирлаштирган эди [7.1976:B.26]. 1984-йилга келиб ЎзКП бошланғич ташкилотларининг сони 20,3 мингтани ташкил этиб, коммунистларнинг сони 625 мингтага яқинлашди. Партия аъзоларининг 40 фоиздан ортиқроғи ишчилар синфига мансуб эди [8.1984:B.5]. Партия аъзолари сонининг ўсишига сабаб бўлган омиллардан бири, бу марксизм ва ленинизм назариясига асосланган ғояларни мутъасил равишда аҳоли ўртасида тарғиботчилар томонидан сингдирилиб бориши эди. Шу мақсадда Ўзбекистоннинг Тошкент, Чирчик, Олмалиқ ва Янгийўл шаҳарларида тарғиботчилар тайёрлайдиган кечки университетлар очилган [9:B.3].

Ўзбекистонда кечган ижтимоий-сиёсий жараёнлар тепасида Ш.Р.Рашидов турган бўлса-да, асосий жилов марказнинг қўлида эди. КПСС Марказий Қўмитаси ва раҳбариятининг қарорини озгина бўлсада таҳрир этган мансабдор ўша куниёқ ўз амалидан айрилар эди. Шароф Рашидов ўз даврининг фарзанди эди. Унинг фаолияти ва ҳаётини баҳолашда ана шу давр талаблари, тоталитар давлат хусусиятлари, республикани мустабидлик зулми остида эканлигини эсдан чиқармаслик лозим.

Хулоса қилиб айтганда, собиқ тоталитар тузум аграр сиёсати мамлакатимизда нохуш оқибатларга олиб келди. Тоталитар тузум даврида яккаҳоким партиянинг бошқарув тизимидан тортиб то алоҳида-алоҳида шахсларнинг кундалик турмушига ва истиқболига дахлдор бўлган ҳар қандай катта-кичик масалаларни ҳал этишни ўз зиммасига олгани учун меҳнаткаш халқ моддий ва фикрий боқимандалик кайфиятига дучор бўлган эди. Унинг фақат ишлаш ҳуқуқи мавжуд эди, холос. Деҳқон меҳнат деб аталган жонсиз ва ҳиссиз машинанинг мурувватига айланиб қолган эди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси архиви Фарғона вилоят бўлими, 1-фонд, 288-рўйхат, 317-иш, 2-варақ.
2. СССР от застоя к распаду //http://ukrmap.su/ru-wh11/1308.html.
3. ЎзР МДА, 737-фонд, 5-рўйхат, 1263-иш, 48-варақ.
4. ЎзР МДА, 737-фонд, 5-рўйхат, 2449-иш, 5-варақ.
5. Номенклатура [лот. nomenclature номларни нақшлаш, номлар рўйхати] – қандайдир юқори орган компетенциясига биноан тайинланадиган ёки тасдиқланадиган мансабдор шахслар доираси.
6. Партийная жизнь, 1981, №14. - С. 21.
7. Турсунов Х.Т. Дальнейшее идейно-организационное укрепление Компартии Узбекистана. – Ташкент: 1976. - С. 26.
8. Юсупов Э. Компартия Узбекистана – славный боевой отряд КПСС //Общественные науки Узбекистана. 1984, №3. - С. 5.
9. Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси архиви, 58-фонд, 278-рўйхат, 640-иш, 3-варақ.

O‘ZBEK TILI TA’LIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Sh.Qurbonova
ToshDO‘TAU stajor tadqiqotchichi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tili ta’limida raqamli texnologiyalardan foydalanish holati, ularning samaradorligi va mavjud muammolari tahlil qilinadi. Tadqiqot Toshkent, Samarqand va Sirdaryo viloyatlaridagi umumta’lim maktablarida faoliyat yuritayotgan 60 nafar o‘qituvchi ishtirok etgan so‘rovnoma natijalari asosida tahlil olib borilgan. Maqolada shuningdek, xalqaro tajriba va nazariy yondashuvlar bilan solishtirma tahlil ham keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Raqamli texnologiyalar, o‘zbek tili ta’limi, interaktiv platformalar, raqamli resurslar, mustaqil ta’lim.

Kirish. Raqamli texnologiyalar zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, o‘zbek tilini o‘qitishda raqamli resurslar, interaktiv platformalar va multimediaviy vositalardan foydalanish o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynamoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli Farmonida ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanmoqda [1]. Shunday ekan, O‘zbek tili ta’limi sohasida ham raqamli yondashuvlarga ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda.

O‘zbek tili ta’limida an’anaviy usullar bilan bir qatorda raqamli texnologiyalarni qo‘llash tilni o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi. Jumladan, elektron darsliklar, interfaol dasturlar, lug‘atlar, mobil ilovalar va onlayn platformalar o‘quvchilarga mustaqil ravishda til o‘rganish, bilimlarini mustahkamlash va amaliy ko‘nikmalarini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Biroq, bu sohada hali ham bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ularni tizimli tahlil qilish va yechim topish zarur.

Mazkur tadqiqot ishida ham o‘zbek tili ta’limida raqamli texnologiyalardan foydalanish holati, ilg‘or tajribalar, amaliy natijalar va istiqbolli yondashuvlar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Olib borilgan tadqiqot ishida quyidagi metodologik yondashuvlar qo‘llanildi: deskriptiv tahlil (o‘zbek tili darslarida qo‘llanilayotgan raqamli vositalar holatini o‘rganish), sotsiometrik kuzatuv (so‘rovnoma va intervyular), kontent tahlil (Davlat ta’lim standarti, qarorlar, metodik qo‘llanmalar, platformalardagi darslar tahlil qilindi) va komparativ tahlil (O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimida raqamli vositalar qo‘llanilishi o‘rganildi).

So‘rovnomada O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tasarrufidagi Toshkent, Samarqand va Sirdaryo viloyatidagi ixtisoslashtirilgan umumta’lim maktablarining 60 nafar o‘qituvchisi qatnashdi. So‘rovlar Google Form platformasi orqali tashkil etildi.

Tahlil va natijalar

O‘zbek tilini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularning samaradorligini baholashga bag‘ishlangan so‘rovnoma natijalari bir qator qiziqarli jihatlarni aniqladi. O‘qituvchilar ta’lim jarayonida qaysi elektron ta’lim platformalaridan foydalanishlari haqidagi savolga javob berishda, eng ko‘p Google Classroom (82%), Zoom (76%) va Kundalik.com (70%) ni qayd etishdi. O‘z ishlarida qanday interfaol vositalarni qo‘llashlari haqidagi savolga turli xil javoblar berildi: Wordwall, Kahoot, Quizizz va boshqalar. O‘qituvchilar o‘zbek tilini o‘qitishda foydalanadigan raqamli ta’lim resurslari haqida so‘z borganda, ularning aksariyati audio matnlar, interaktiv grammatik mashqlar va testlarni tilga olishdi. O‘qituvchilarning 58 foizi raqamli vositalar o‘quvchilarda mustaqil ta’lim olish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidladi. Biroq, o‘qituvchilarning 37 foizi internet tezligining pastligi, kompyuterlarning yetishmasligi yoki raqamli texnologiyalardan foydalanishda yetarli malakaga ega emasligi kabi muayyan qiyinchiliklarga duch kelgan.

Munozara

Olingan natijalar xalqaro tadqiqotlar bilan hamohangdir. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) hisobotiga ko‘ra, raqamli texnologiyalardan to‘g‘ri foydalangan maktablarda o‘quvchilarning o‘quv natijalari sezilarli yaxshilangan [6].

L.Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchining o‘zlashtirish darajasi tashqi vositalar – ya’ni raqamli resurslar orqali oshiriladi [3].

I.Nikifirova fikricha, chet tili o‘qituvchilari zamonaviy raqamli texnologiyalar "moslashuvchan vosita" bo‘lib, kunning har qanday talablariga va ta’lim tizimining barcha bosqichlarida yuz berayotgan o‘zgarishlarga moslashish imkoniyatiga ega [5].

S.Mirpayozova esa raqamli texnologiyalar eng katta afzalligi sifatida ta’lim oluvchilarning ehtiyojlariga qarab individual ravishda sozlash qobiliyati va dunyoning istalgan nuqtasidan o‘qitishning mavjudligidir”- deb ta’kidlaydi [4].

R.Atamuratov ta’limda raqamli texnologiyalar haqida so‘z yuritar ekan, ularning samarali qo‘llanilishi ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning ijodkorlik, mustaqil fikrlash va raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ta’kidlaydi [2]. Shu boisdan o‘zbek tili darslarida multimediaviy materiallar, testlar, onlayn suhbatlar, interaktiv topshiriqlar orqali o‘quvchining til ko‘nikmalari bosqichma-bosqich rivojlantiriladi.

Xulosa

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko’ra o‘zbek tili ta’limida raqamli texnologiyalardan foydalanish afzalligi bo‘yicha quyidagi xulosaga kelindi:

1. O‘zbek tilini o‘rgatish metodikasini interaktiv va shaxsga yo‘naltirilgan qiladi;
2. O‘quvchilarda axborot savodxonligi, mustaqil fikrlash va til ko‘nikmalarini rivojlantiradi;
3. Ta’lim sifatini oshirish va zamon talablari bilan uyg‘unlashish uchun muhim vosita hisoblanadi.

Umuman olganda mazkur imkoniyatlar o‘zbek tili ta’limini yanada zamonaviy, samarali va jozibador qilishga xizmat qiladi, natijada yoshlarning ona tiliga bo‘lgan qiziqishi va bilim darajasi oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/5030957`

2. Atamuratov R., Xushvaqtov A. PREPARING FUTURE COMPUTER SCIENCE TEACHERS THROUGH USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES //Бюллетень науки и практики. – 2024. – Т. 10. – №. 5. – С. 647-652.

3. Выготский Л.С. Психология развития человека. — М.: Изд-во Смысл; Эксмо, 2005. — 1136 с.

4. Мирпаязова , С. 2024. Важность использования цифровых технологий в преподавании английского языка. *Зарубежная лингвистика и лингводидактика*. 2, 2/S (авг. 2024), 121–126.

5. Никифорова Ирина Николаевна ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ: ПЛЮСЫ И МИНУСЫ // Вестник Санкт-Петербургского научно-исследовательского института педагогики и психологии высшего образования. 2023. №1 (5).

6. https://www.oecd.org/en/publications/reports.html..

AUTIZMLI BOLALARDA DISLEKSIYA VA DISGRAFIYA: DEFEKTOLOGIK TASHXIS VA KORREKSION YONDASHUVLAR

Z.R.Norboyeva
Alfraganus universiteti, Pedagogika fakulteti, Defektologiya yo‘nalishi, 4-kurs talabasi
+998933190294 zamiranorboyeva82@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada autizm spektr buzilishiga ega bolalarda uchraydigan yozma nutq buzilishlari – disleksiya va disgrafiyaning psixologik-pedagogik va defektologik xususiyatlari, ularni erta aniqlash va tuzatish yo‘llari haqida fikr yuritiladi. Logopedik va defektologik yondashuvlar asosida individual korreksion dasturlarni ishlab chiqish, multisensor yondashuvlar, maxsus o‘yin texnologiyalari orqali bolalarning yozma nutq faoliyatini shakllantirish imkoniyatlari yoritilgan.

Аннотация: В статье рассматриваются особенности нарушений письменной речи (дислексия и дисграфия) у детей с расстройствами аутистического спектра. Освещаются современные методы диагностики, коррекции и индивидуального подхода. Описаны результаты практического применения логопедических и дефектологических методик.

Abstract: This article discusses writing disorders (dyslexia and dysgraphia) in children with autism spectrum disorders. It highlights modern approaches to diagnosis and correction, and emphasizes the role of individualized and multisensory correctional programs in speech and writing development.

Kalit so‘zlar: autizm, disleksiya, disgrafiya, yozma nutq, defektologik tashxis, logopediya, korreksiya

Ключевые слова: аутизм, дислексия, дисграфия, письменная речь, дефектологический диагноз, логопедия, коррекция

Keywords: Autism spectrum disorder, vocational guidance, employability, individualized approach, special education, inclusive approach, professional rehabilitation.

KIRISH. Yozma nutq bolaning aqliy va lingvistik rivojlanishining ajralmas qismidir. Disleksiya va disgrafiya — yozma nutqning o‘ziga xos buzilishlari bo‘lib, ular ko‘pincha autizm spektr buzilishiga ega bolalarda uchraydi. Bu buzilishlar bolaning o‘qish va yozish ko‘nikmasini egallashiga jiddiy to‘siq bo‘lib, o‘quv faoliyatida katta qiyinchilik tug‘diradi.

Yozma nutq buzilishlarini aniqlash va tuzatishda logopedik tashxis, defektologik tahlil, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, autizmli bolalarda bu muammolarni erta aniqlash, ularga individual dastur asosida yondashish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, autizm spektr buzilishli bolalarda yozma nutqning rivojlanish xususiyatlarini aniqlash va ularni tuzatish yo‘llari hali ham dolzarb ilmiy va amaliy muammo bo‘lib qolmoqda.

METODOLOGIYA. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Ilmiy adabiyotlar tahlili – disleksiya, disgrafiya, autizm va yozma nutq rivoji bo‘yicha ilg‘or manbalar tahlil qilindi.
2. Amaliy kuzatuv va suhbat – Toshkent shahri va viloyatidagi 3 ta maxsus maktabda 7–10 yoshdagi 12 nafar autizmli bolalar bilan ishlov olib borildi.
3. Diagnostik metodlar – Luriya usuli, fonematik eshituvni aniqlash testi, grafomotor harakatlar testlari qo‘llanildi.
4. Eksperimental metod – 2 oy davomida haftasiga 3 marotaba korreksion mashg‘ulotlar tashkil etildi.

Tadqiqotda qatnashgan bolalar orasida disleksiya belgilari 8 nafarida, disgrafiya belgisi esa 10 nafarida aniqlandi. Bu buzilishlar motor koordinatsiya, fonematik eshitish va vizual differensiasiya bilan bog‘liq muammolar bilan kechdi.

NATIJALAR. Tadqiqot davomida quyidagi muhim kuzatuvlar va natijalarga erishildi:

83% hollarda harflarni chalkashtirish, harfni tashlab yozish va qiyosiy harflarni almashtirish holatlari kuzatildi;

Bolalarning aksariyati harflarni yozishda motor koordinatsiyada muammo sezdi;

Disleksiya bilan bog‘liq holatlar, ayniqsa, fonematik eshituv pastligi bilan bog‘liq bo‘ldi;

Korrektsion mashg‘ulotlar davomida multisensor metodlar (ko‘rish, eshitish, harakat) sezilarli ijobiy natijalar berdi.

Misol: Bir bola harflarni plastilindan yasash orqali xotirada saqlashni o‘zlashtira boshladi. Har bir tovushga mos ish-harakat, rangli karta yoki rasm bilan bog‘langan mashg‘ulotlar orqali u yozuvda ancha yaxshi natija ko‘rsatdi.

MUNOZARA

Yozma nutq buzilishlarini bartaraf etishda quyidagi jihatlar alohida ahamiyatga ega:

1. Disleksiya — bu faqat o‘qishdagi xatolik emas, balki analiz-sintez, xotira, diqqat, fonematik eshituv faoliyatining buzilishi bilan bog‘liq murakkab buzilishdir.
2. Disgrafiya — bu yozuvdagi psixomotor ko‘nikmalar, grafomotorik, vizual-motor koordinatsiyasi, hamda oriyentatsion faoliyatning buzilishi natijasidir.
3. Autizmli bolalarda bu buzilishlar yana ham murakkab shaklda namoyon bo‘ladi, chunki ularning sezgi integratsiyasi, muloqot va emotsional idrok jarayonlari zaif rivojlangan bo‘ladi.

Eng samarali yondashuv bu – multisensor yondashuv. Bu orqali bolaga tovushni nafaqat eshitish, balki ko‘rish, sezish va xarakat orqali qabul qilish imkoni yaratiladi. Shuningdek, logoped ва defektolog tomonidan o`zaro xamkorlikda ish olib borilishi natijani oshiradi.

XULOSA

Autizmli bolalarda disleksiya va disgrafiya kabi yozma nutq buzilishlarini erta aniqlash, individual yondashuv asosida tuzatish — bolaning o‘quv faoliyatidagi muvaffaqiyatini belgilaydi. Bunday bolalar uchun standart metodlardan ko‘ra, shaxsga yo‘naltirilgan, moslashtirilgan va sensorga asoslangan mashg‘ulotlar samaraliroq bo‘ladi.

Takliflar:

1. Maxsus maktab va bog‘chalarda logopedik skrining dasturini yo‘lga qo‘yish;
2. Har bir autizmli bola uchun individual yozuv mashg‘ulot dasturini tuzish;
3. Ota-onalarga metodik tavsiyalar ва korreksion ishlar bo‘yicha treninglar o‘tkazish;
4. Logoped, psixolog ва дефектологларнинг мултидисциплинар ҳамкорлигини ташкил этиш;
5. Maxsus adabiyotlar, rasmli qo‘llanmalar, sensor vositalarni keng joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vygotskiy L.S. “Psixologiya va defektologiya asoslari”, Moskva, 2002.
2. Glozman Zh.M. “Neyropsixologik korrektsiya asoslari”, Moskva, 2017.
3. Sattorova M.M. “Maxsus pedagogika”, Toshkent, 2021.
4. Karimova M.B. “Logopedik diagnostika va korrektsiya”, Toshkent, 2022.
5. DSM-5. Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders. APA, 2013.
6. WHO. ICD-11, Geneva, 2021.
7. Rizaeva N.X. “Autizm va nutqiy rivojlanish buzilishlari”, Toshkent, 2020.

DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA NUTQIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARDA MULOQOT QO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Z.N.Latibjonova
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarda muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda differensial yondashuvning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqotda bolalarning individual nutq rivojlanish xususiyatlariga mos holda yondashuvning afzalliklari asoslab berilgan. Amaliy tavsiyalar orqali pedagoglar va logopedlar uchun samarali uslublar taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha yosh, nutq, muloqot, asab-ruhiy, somatik, nuqson, sensor, fonetik-fonematik, leksik-grammatik, sintaktik, og’ir nutq nuqsoni

Oxirgi yillarda bolalarning nutqini rivojlantirish muammosining dolzarbligi sezilarli tarzda ortib bormoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalar orasida asab-ruhiy va somatik kasalliklarining ko'payishi bilan bolalarda barcha aqliy funksiyalarning shakllanishi ortda qoladi (N. S. Jukova, M. Kritchli, R. E. Levin, A. T. Luriya, V. V. Lebedinskiy) va buning natijasida nutqida og’ir nuqsoni bo'lgan bolalar soni ortib bormoqda, hozirgi vaqtda katta maktabgacha yoshdagi bolalar nutqiga bo'lgan talablar sezilarli darajada oshdi. Katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq buzilishining oldini olish alohida

ahamiyatga ega, chunki bolaning maktabga tayyorligi yoki tayyor emasligi nutqni rivojlantirish darajasiga bevosita bog'liq. (T. A. Vlasova, K. S. Lebedinskiy, M. S. Pevzner)[1].

Muloqot – odamlar o‘rtasida hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan va axborot almashinuvi, o‘zaro ta’sirning yagona yo‘lini ishlab chiqish, boshqa odamni idrok qilish va tushunishdan iborat bo‘lgan aloqalarni o‘rnatish va rivojlatirishning murakkab, keng qamrovli jarayoni [4].

Bolaning ruhiy taraqqiyotida ontogenezning dastlabki bosqichi davridagi uning kattalar bilan muloqoti, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega. Muloqotda, avvalo, to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqlid qilish, keyinchalik vikar o‘rganish, so‘ngra esa, verbal o‘rganish – iborali qoidalar orqali bolaning hayotiy tajribasi orttirilib boriladi. U bilan muloqotda bo‘ladigan odamlar bola uchun bu tajribani tashuvchi bo‘lib xizmat qiladi va muloqotdan tashqari, boshqa hech qanday vosita yordamida bunga erishib bo‘lmaydi.

O‘z tadqiqotlarida R.S.Nemov inson muloqoti taraqqiyoti ontogenezi va uning asosiy bosqichlarini ko‘rib chiqadi. Uning ta’kidlashiga ko‘ra, inson bolasi o‘zida odamlar bilan emotsional muloqotga kirishishga bo‘lgan layoqatni uch oyligida sezadi (jonlanish kompleksi), bir yoshga etganda esa uning ekspressiyasi shunchalik boyib ketadiki, muloqotning verbal tilini tezda o‘zlashtirib olish, tovushli nutqdan foydalanish imkonini beradi[5].

Muloqot barcha tirik jonzotlarga xosdir, lekin odam darajasida u eng takomillashgan shakllarga ega bo‘ladi, nutq vositasida anglanadi. Muloqotda quyidagi nuqtai nazarlar ajratiladi: mazmun, maqsad va vositalar.

Insonning nutq faoliyati inson ongining barcha qirralari bilan chambarchas bog‘langan. Nutq – inson psixik kamolotining, shaxs sifatida shakllanishining qudratli omilidir. Nutq ta’siri ostida qarashlar, e’tiqodlar, intellektual, ma’naviy va estetik hissiyotlar tarkib topadi, iroda va fe’l-atvor shakllanadi. Nutq yordamida barcha bilishga oid psixik jarayonlar erkin va boshqariladigan tus oladi. SHunday ekan, nutq – bilishga oid psixik jarayon bo‘lib, inson tomonidan talaffuz qilinayotgan va eshitib turilgan tovushlar uyg‘unligidan iborat, ayni vaqtda shu tovushlarga mos yozuv belgilari tizimi orqali ifodalangan ma’no va mazmunga ega.

Odamda muloqot maqsadlari soni ko‘payadi. Ularga yuqorida sanab o‘tilganlardan tashqari, dunyo haqidagi bilimlarga ega bo‘lish va etkazish, ta’lim va tarbiya, odamlarning hamkorlik faoliyatlaridagi turli harakatlarning muvofiqlashuvi, shaxsiy va ish bo‘yicha o‘zaro munosabatlarning oydinlashtirilishi, o‘rnatilishi va boshqalar ham kiradi. Agar hayvonlarda muloqot maqsadlari ular uchun dolzarb bo‘lgan biologik ehtiyojlarni qondirishdan iborat bo‘lsa, odamlarda ular ko‘plab turli: ijtimoiy, madaniy, bilish, ijodiy, estetik, aqliy o‘sish, ahloqiy rivojlanish kabi ehtiyojlarni qondirish vositasi bo‘lib hisoblanadi.

Nutqidagi og’ir nuqsonlar sababli muloqotga kirishishda qiyinchiliklarga duch keladigan bolalar bilan ishlashda yagona yondashuv samara bermaydi, aksincha, har bir bolaning nutqiy rivojlanish darajasiga mos ravishda differensial yondashuvni qo‘llash muhim hisoblanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — differensial yondashuv asosida nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarda muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali pedagogik usullarini aniqlashdir.

Differensial yondashuv — nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarda muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Bunday yondashuv bolalarning individual rivojlanish sur’atlari, psixologik holati va nutqiy imkoniyatlariga mos holda ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

-Logopedik mashg‘ulotlarda individual differensial rejalashtirishni yo‘lga qo‘yish;

- O‘yinli va interaktiv metodlardan foydalanish;

-Pedagog va ota-onalar hamkorligini kuchaytirish;

-Har bir bolaning rivojlanish dinamikasini muntazam monitoring qilish;

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Соботович, Е.Ф. Речевое недоразвитие у детей и пути его коррекции: (дети с нарушением интеллекта и моторной алалией) / Е.Ф. Соботович. -М.: Классик-с Стиль, 2003. - 160 с.

2. Мациевская, Г.В. Алалия / Г.В. Мациевская И Расстройства речи и голоса в детском возрасте / Под. ред. С.С. Ляпидевского и С.Н. Шаховской. -М., 1973.-С. 26-29.

3. Ayupova M.Yu. Logopediya. - T.: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2007.

4. G‘oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.

5. Югай А.Х., Мираширова Н.А. “Общая психология” – Ташкент 2014.

“ERKIN FIKRLAR DAFTARI” ASOSIDA ONA TILI DARSLARINI TASHKIL ETISHNING SAMARALI USULLARI

M.K.Jabborova
Qarshi davlat universiteti doktoranti E-mail: maftuna97jabborova@gmail.com. Tel:998971026663

Annotatsiya: ushbu maqolada dars jarayonida foydalaniladigan “Erkin fikrlar daftari” haqida ma’lumot berilgan. Shuning bilan birga **“**Erkin fikrlar daftari” dan qanday foydalanish, uning afzalliklari hamda o‘quvchilarning lingvistik kreativ intelektini shakllantirishidagi o‘rni haqida fikr yuritilgan.

Аннотация: в данной статье представлена информация о «Тетради свободной мысли», используемой в ходе урока. Одновременно были высказаны мысли о том, как использовать «Тетрадь свободной мысли», ее преимущества и роль в формировании языкового творческого интеллекта студентов.

Abstract: this article provides information about the "Free Thought Notebook" used in the course of the lesson. At the same time, thoughts were given on how to use the "Free Thought Notebook", its advantages, and its role in the formation of students' linguistic creative intellect.

Kalit so‘zlar: **“**Erkin fikrlar daftari”, kreativlik, intelekt, zamonaviy, fikrlar, so‘zlar.

Ключевые слова: «Книга свободных мыслей», творчество, интеллект, современность, мысли, слова.

Key words: "Book of free thoughts", creativity, intellect, modern, thoughts, words.

Zamonaviy ta’limda zamonaviy yondashuvlar, zamonaviy usullar hamda zamonaviy metodikalardan foydalanish, ta’lim jarayoni qatnashchilarining o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishlarida samarali xizmat qiladi. Buning uchun ta’lim beruvchi ham, ta’lim oluvchi ham kreativ yondashuvlarga asoslangan pedagogik jarayondan foydalanishlari lozim. Shunday ekan o‘quvchilardagi lingvistik kreativ intelektni shakllantirishda, ona tili darslarida bolalar uchun qiziqarli hamda samarali usullarni ishlab chiqish har bir pedagog oldida turgan muhum vazifalardan biri hisoblanadi.

Kreativ fikrlashning nazariy asosi turli fanlar kesishmasida paydo bo‘lgan fikrlar sintezi sifatida tushuntiriladi. Jumladan, G‘arb pedagogikasida Grifford va Torrens tomonidan olib borilgan izlanishlarda ijodkorlikni baholash, o‘lchash va rivojlantirish masalalari keng yoritilgan bo‘lsa, Sharq falsafasida ijodiy potensialning inson ma’naviy kamoloti bilan aloqasi asosiy o‘rinda turadi. Zamonamiz tadqiqotchilari kreativlikni faqat individual xususiyat emas, balki muhit, tajriba va amaliy jarayonlar ta’sirida shakllanuvchi ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida ko‘rib chiqmoqdalar. Integrativ metodologiya esa kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun bir nechta fanlar, metodlar va instrumentlarni bir yo‘nalishga yo‘naltirish orqali yanada kompleks yondashuvni ta’minlaydi. Masalan, P. Akkerman va R. Horning singari olimlar kross-fanlararo bog‘liqlikni kuchaytirish talabalarda mas’uliyat hissi, mustaqil qaror qabul qilish va zamonaviy muammolarni turli nuqta’i nazardan ko‘rib chiqish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishini ta’kidlashadi. Turli olimlar kreativ fikrlashni shakllantirishda o‘z usullari va tadqiqot ishlarini olib borishgan [4, 1974: B.120].

Biz yuqoridagi olimlar fikrlarini o‘rganib, dars jarayonida foydalanish mumkin bo‘lgan “Erkin fikrlar daftari” ni mazmuni bilan tanishib chiqamiz.

Erkin fikrlar daftari – ushbu daftar o‘quvchining o‘z fikrlarini, his-tuyg‘ularini, ichki kechinmalarini,nazariy va amaliy kuzatishlarini, g‘oyalarini erkin va ixtiyoriy tarzda yozib boradigan maxsus daftardir. O‘quvchilar o‘zlariga yoqadigan, qalin muqovadagi daftardan foydalanishadi. Ushbu daftarning asosiy maqsadi – o‘quvchilarda ***mustaqil fikrlash qobiliytini oshirish***, ***ijodiy yondashuvni shakllantirish***, va asosiysi ***lingvistik kreativ intelekt***ni rivojlantirishdir. Ona tili darslarida ushbu daftardan foydalanish o‘quvchilardagi shaxsiy his-tuyg‘ularni hamda qobiliyatlarini ochib beradi.

“Erkin fikrlash daftari” quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lib, ular quyidagilar:

- ***Fikr erkinligi***- bunda o‘quvchilar belgilangan mavzudan chetga chiqishi, o‘z xohish va istaklariga ko‘ra daftarga yozishi mumkin. Fikrlarni qandaydir qolipda yozishlari kerak emas, aksincha o‘zlari xoxlagandek tanqid, tavsiya, maslahat, savolnoma kabi tarzda bayon etishlari mumkin bo‘ladi.
- ***Baholash mezonining mavju emasligi***- o‘quvchilar yozgan fikrlariga baho ya’ni ball olishmasligi. Ko‘pchilik bolalar kim o‘zarga dars tayyorlashadi, sinfdagi o‘quvchilardan eng zo‘ri bo‘lishim kerak deya harakat qilishadi. Ammo, bunday yondashuv bolani kelajakda o‘zligini barcha narsadan ustun qo‘yuvchi shaxs sifatida shakllanishiga sababchi bo‘ladi. ushbu daftardagi baholanmagan

fikrlar o‘quvchining faqatgina shaxsiy yuksalishi uchun xizmat qiladi. Vaholanki, bu daftarda yozilgan narsalar o‘quvchini baholash uchun emas, aksincha uning ijodiy rivojlanishi uchun yozilgan.

❖ ***Shaxsiy fikrlar ustunligi-*** o‘quvchilar bunda o‘z dunyoqarashidan kelib chiqqan holda, voqea hodisalarga bo‘lgan ichki kechinmalarini, hissiyotlarini, to‘plagan hayotiy tajribalarini, javob topa olmagan savollarini yozishadi.

❖ ***Ijodiy rivojlanishning kichik sohasi ekanligi-*** bu jarayonda o‘quvchilar o‘z fikrlarini rasmlar, she’rlar, hikoyalar, ertaklar, chizmalar, sxemalar, jadvallar orqali tyrli xilda bayon etishlari mumkin. Bu esa bolalardagi ijodiylikni yanada oshirib, ularni kreativ fikrlashga, kreativ qarashga undaydi.

“Erkin fikrlar daftari”ni dars jarayonida o‘qituvchilar bolalarga haftada bir yoki ikki marotaba foydalanishni aytishadi. O‘qituvchi ushbu daftarni bolalar olganlaridan so‘ng, ularga savol tarzida murojat qiladi. **-“Nega aynan senga bu mavzu qiziq?”**, **“Bugun nimalarni o‘ylading?”**, **“Agar men journalist bo‘lganimda…..”** kabi savollarni bolalarga beradi. O‘quvchilar esa ushbu savollarga o‘z fikrlarini bildirishadi. O‘qituvchi bolalarning fikrlarini eshitib ko‘radi, ularning fikrlariga izoh beradi. ko‘pincha ijobiy berilgan izohlar boladagi o‘z fikrlariga ishonish istagini paydo qiladi. Ushbu daftardan nafaqat ona tili darslarida, balki boshqa fanlarda ham foydalansa bo‘ladi. Bundan tashqari “Erkin fikrlar daftari uchun quyidagi mavzularni tanlasa ham bo‘ladi. ushbu mavzular bola uchun motivatsion topshiriq vazifasini bajaradi.

1. Bugun men tongni qanday qarshi oldim?
2. Agar men ertak qahramoni bo‘lganimda.
3. So‘zsiz film. (Shunday tasavvur qilingki, siz bir kino ko‘ryapsiz. Ammo ushbu kinoda so‘zlar yo‘q. siz ko‘rgan kinoyingizdan nimalarni his qildingiz? Ichki kechinmalaringizni yozing!)
4. Ta’lim olishni yengillashtirish uchun qanday ixtiro qilgan bo‘lar edim?
5. Men yoqtirgan so‘zlar ro‘yxati va men nima uchun bu so‘zlarni yoqtiraman?
6. O‘tmishimga maktub. (Kichikligingizda yoki bir nech yil avval, bolaligingizga qaytgan holatda ichki kechinmalaringizni yozing!)
7. Agarda ranglar so‘zlasha olganida……(davom ettiring)
8. Bir daqiqa hikoyasi. (5 ta gapdan iborat bo‘lgan kichik hikoya yozing!)
9. Men yangi so‘z o‘ylab topdim. (to‘qima bir so‘z yozing va unga izoh bering)
10. Bir so‘zda ming ma’no. (ma’nodosh so‘zlardan birini tanlang va uni ma’nolarini izohlang)

Yuqoridagi topshiriqlardan so‘ng o‘quvchilar, fikr mulohazalarni ham yozishlari mumkin. Masalan, bu topshiriq qanday foydali bo‘lganligini, topshiriqlarni bajarayotgandagi ichki kechinmalarini, hissiyotlarini va hakozo. Erkin fikrlar daftaridan foydalanish o‘quvchilarning soz boyligini oshirishga yordam beradi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin bayon eta olishga o‘rganishadi, fikrlarini yozma tazrda yozib, tartiblash ko‘nikmalari ishadi. Shuning bilan birga ichki dunyosi boyiydi va o‘z fikrlariga ishonchi ortadi.

O‘quvchilardagi yozish yoki rasm chizish odati ulardagi kreativ fikrlashni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Barchamizga ma’lumki, o‘z davrining mashhur yozuvchisi hisoblangan Ernest Heminguey ham har kuni 500 ta so‘z yozishni odat tusiga aylantirgan.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, yozish jarayonida bolaning barmoqlari va bosh miya yarimsharlari o‘rtasida assotsiatsiya paydo bo‘ladi. lingvistik kreativ intelektni shakllantirishimiz uchun esa bizga kompleks tarzda yondashilgan harakatlar kombinatsiyasi zarur hisoblanadi. “Erkin fikrlar daftari” ham aynan bizga shu kombinatsion harakatni beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Котова Е. В. Развитие творческих способностей дошкольников / Е. В. Котова, С. В Кузнецова, Т. А. Романова. – Москва: ТЦ Сфера, 2010. – 128 с.

2.Нижегородцева Н. В. Психолого-педагогическая готовность ребенка к школе: пособие для практических психологов, педагогов и родителей / Н. В. Нижегородцева, В. Д. Шадриков. – Москва: Владос, 2002. 256 с.

3. Никитенко З. Н. Начинаем изучать английский язык / З. Н. Никитенко. – Москва, 1989. – 217 с.

4.Torrens, E. P. Torrance Tests of Creative Thinking. – Bensenville (IL): Scholastic Testing Service, 1974. – 120 p.

BADIIY TARJIMADA GRAMMATIK ME’YORLARDAN FOYDALANISH MASALASI

N.A.Xalimova
Mustaqil tadqiqotchi, “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti
nilufar.khalimova.1992@gmail.com

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baratov J. Sh. Formation of the concept of the structure of substance in general secondary school students on the basis of non-standard tasks // British View, - Great Britain, 2021. –№ 1. – P. 68–74. (Universal impact factor 8.528).

2. Baratov J. Sh. Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarida “Temperatura” tushunchasini nostandart topshiriqlar asosida shakllantirish // Fizika, matematika va informatika – Toshkent, 2022. –№ 2. –B. 74–82. (13.00.00, № 2).

3. Baratov J. Sh. Bug‘lanish va kondensatsiya, atmosferadagi hodisalar // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi – Namangan, 2022. –№ 10. – B. 437–442. (13.00.00, № 30).

4. Baratov J. Sh. Fizikadan masalalarni nostandart usulda yechish metodikasi // Fizika, matematika va informatika – Toshkent, 2021. –№ 4. – B. 70–79. (13.00.00, № 2).

5. G‘aniyev A.G. Fizikadan masalalar yechish. – T.: O‘zFMJN, 2012. – 400 b.

6. Митенева С.Ф. Развитие и формирование творческих способностей учащихся путем нестандартных заданий по математике: Дисс. …докт. пед. наук (PhD). – Волга, 2005. – 153 с.

7. **Mirzayev. J.O, Abdiraxmatov N.A., Asadov. X.I. texnika oliy o‘quv yurtlari talabalariga geodezik o‘lchashlarni matematik qayta ishlash fanini o‘qitish texnologiyalari. RESEARCH AND EDUCATION. 2023. –P 393-396.**

8. Столяр А.А. Педагогика математики // А. А. Столяр. – 3-е издание. – М.: Высшая школа, 1986. – 158 с.
9. Carlise Wynne, Albina Hartner, Sayyora Israilova, Ksenya Churkina, Anna Kuznetsova, Shaxriyor Muxamadjanov-Ta'lim texnologiyalari: O‘zbekiston Respublikasi o‘rta umumta'lim maktabo‘qituvchilari uchun o‘quv qo‘llanmaToshkent sh.: Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi.Innovatsiya, texnologiya va strategiya markazi, 2023. - 88 bet.
10. Ниматулаев М.М. Подготовка учителей к использованию web-технологий для самостоятельного повышения квалификации. Автореферат дисс ... докт. пед. наук. – Москва: 2012. - 48 с.
11. http://pms.ru
12. Djorayev, Maxamatrasul. Fizika o‘qitish metodikasi: o‘quv qo‘llanma/M.Djorayev. - Toshkent: ABU MATBUOT-KONSALT, 2015. - 280 b.
13. TRNSYS – The Transient System Simulation Program. [Электронный ресурс]. – 2014. – Режим доступа: http://sel.me.wisc.edu/trnsys/.
14. Hamed G., Aljanazrah A. The effectiveness of using virtual experiments on students learning in the general physics lab // Journal of Information Technology Education Research. – ISBN 19. 976-995. – 2020. https://doi.org/10.28945/4668..

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILAR NUTQINI MA’NODOSH SO‘ZLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

D.T.Rustamova
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Anotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqida ma’nodosh so‘zlarni faollashtirishning metodik tizimini takomillashtirish modeli yaxlit, ochiq tashkil etilgan bo‘lib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqida ma’nodosh so‘zlarni faolllashtirish metodikasini takomillashtirishni maqsadli rivojlantirish va belgilangan maqsadni natijaga mosligi haqida ilmiy qarashlar va xulosalar berilgan.

Аннотаци. В данной статье комплексна и открыта модель совершенствования методической системы активизации смысловых слов в речи младших школьников, а также приведены научные взгляды и выводы о целенаправленной разработке методики активизации смысловых слов в речи младших школьников и соответствие поставленной цели результату.

Annotation. This article the model for improving the methodical system of activating meaningful words in the speech of elementary school students is integrated and open, and scientific views and conclusions are given about the purposeful development of improving the methodology of activating meaningful words in the speech of elementary school students and the compatibility of the set goal with the result.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, sinonimlar, lug‘at zahirasi, so‘z ma’nolari, zamonaviy texnologiyalar, tahlil, pog‘onaviylik xususiyati, modellashtrish, sintez, yaxlit tasavvur, tasniflash, loyihalash, taqqosslash, guruhlarga ajratish.

Ключевые слова: начальное образование, синонимы, лексика, значения слов, современные технологии, анализ, поэтапный признак, моделирование, синтез, комплексное видение, классификация, проектирование, сравнение, группировка.

Key words: primary education, synonyms, vocabulary, word meanings, modern technologies, analysis, stepwise feature, modeling, synthesis, integrated vision, classification, design, comparison, grouping.

Ma’lumki, bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarini modernizasiya qilish sharoitida kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarni ona tilini o‘rganishga jalb qilish hamda og‘zaki va yozma nutq madaniyatini shakllantirish muammolari dolzarb bo‘lib qolmoqda. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning aksariyati ona tilida gap tuzish, fikr va tuyg‘ularni ifodalash uchun ma’nodosh so‘zlar qatoridan mos so‘z tanlashga qiynaladilar. Buning asosiy sababi esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tildan foydalanish kompetensiyasining shakllanmaganligi, so‘zlarning lug‘aviy ma’nosini bilmaslik va

ma’nodosh so‘zlar qatori haqida tushunchalarning yo‘qligidir. O‘quvchilarda lug‘at zahirasining kamligi, ona tilidagi so‘zlaning lug‘aviy ma’nosini bilmaslik, ma’nodosh so‘zlar qatori haqida tushunchalarning yo‘qligi yuqoridagi kabi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Aynan boshlang‘ich ta’lim yoshidan boshlab o‘quvchilarda lisoniy shaxsni shakllantirish va boshqalar bilan muloqotga kirishishni o‘rgatish uchun bu davr asosiy bosqich ekanligini hisobga olinsa, shu davrdan boshlab boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining so‘z boyligini oshirishga, so‘z ma’nolarini farqlashni o‘rgatishga e’tibor qaratish lozim. Ma’nodosh so‘zlar ma’nosini tushunishni chuqurlashtirish, so‘zlar o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlashtirish o‘quvchilarga obyektlar, harakatlar va belgilar haqidagi tushunchalarni ularning turlicha nomlanishi turlicha ma’no ifodalashini anglab etish imkonini beradi.

Har bir tilning leksik boyligi asosan ma’nodosh so‘zlar bilan belgilanganligi sababli o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqda ma’nodosh so‘zlardan erkin foydalana olishi ona tilini yuqori darajada egallaganlik ko‘rsatkichi hisoblanadi. Biroq, bunday ko‘nikma va malakaga erishish boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun oson bo‘lmaydi. Ona tilini o‘rgatishni takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan ko‘plab tadqiqotlar va qator adabiyotlarda ma’nodosh so‘zlar nafaqat boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining, balki barcha til egalarining lug‘at boyligini to‘ldirish vositasi sifatida ko‘rsatiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqida ma’nodosh so‘zlarni faollashtirishga texnologik yondashuv boshlang‘ich sinf o‘qituvchisidan ona tili va nutqiy muloqotga oid alohida bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishni emas, balki ularni ularni yaxlit tarzda egallashni talab qiladi. Ushbu talab bilan bog‘liqlikda ona tiliga xos xususiyatlarni o‘rgatish uchun o‘ziga xos yangi metodlarni tanlash tizimi ham o‘zgartirilishi zarurligini taqozo qiladi. Ona tili ta’limiga xos bo‘lgan o‘qitishning amaliy metodlarini tanlash va ularni ta’lim jarayonida qo‘llashga qo‘yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiyalarning takomillashuvini talab etadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda ona tilini o‘qitishga texnologik yondashuv va ta’limni texnologiyalashtirish hamda uning o‘ziga xos bo‘lgan natijasini baholash bu jarayon uchun muhim ahamiyatga ega.

Ma’nodosh so‘zlar bilan ishlash lug‘at ishining eng muhim yo‘nalishi bo‘lib, bu jarayon boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining faol so‘z boyligini oshiradi. Boshlang‘ich sinflar uchun ona tili o‘qitish bo‘yicha ishlab chiqilgan dastur kichik yoshdagi o‘quvchilarning lisoniy bilimlarning barcha sohalari bo‘yicha asosiy ma’lumotlarini o‘zlashtirishga, shuningdek, maktab o‘quvchilarining nutqini rivojlantirishga qaratilgan. Ularda nutqning rivojlanishi leksik birliklarni o‘zlashtirishdan boshlanadi. A.V. Tekuchevning ta’kidlashicha, agar o‘quvchilar nutqi boy frazeologik birliklar, turli sintaktik tuzilmalardan foydalanish ko‘nikmalariga, so‘zlarning uslubiy xususiyatlari va ma’no nozikliklarini ajrata olish qobilyatiga asoslanmagan bo‘lsa, izchil, mazmunli yoki ifodali bo‘lishi mumkin emas. [1; 432-b].

Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitish dasturida belgilanganidek, 1-sinfdan boshlab o‘quvchilarni ma’nosi o‘xshash so‘zlar bilan bosqichma-bosqich tanishtirib boriladi. Ammo shuni alohida ta’kidlash kerakki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini ona tili leksiksikasini o‘rganish darajasini rivojlantirishning o‘zi bilan to‘liq hal etib bo‘lmaydi. Maktab dasturlarida nazarda tutilgan so‘zlar va ularning ma’nolari, ma’lum bir so‘zlarning leksik guruhlari jumladan, ma’nodosh so‘zlar, ya’ni ma’nodosh so‘zlar bilan grammatik jihatdan to‘liq tanishish vazifasi qo‘yilmagan. Binobarin, dastur va darsliklarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga dastlabki bilimlarni berish nazarda tutilgan. O‘quvchilarga berib boriladigan so‘zlar ona tilining ajralmas qismi sifatida ko‘rib chiqilmaydi, ya’ni leksikografik tahlillar olib borilmasligi, til ko‘nikmalarini shakllantirish amaliy xarakterga ega emasligi o‘quvchilarning bilim darajasiga salbiy ta’sir qiladi.

Umumta’lim maktablarida ona tili darsliklari bo‘yicha muvafaqqiyatli til o‘rgatish uchun asos, bir tarafdan tasviriy o‘quv materiallarining (jumladan, o‘qish savodxonligi darsligida berilgan leksik-grammatik jihatdan mukammal shakllantirilgan matnlar) va ularni darsliklarga kiritishning psixologik asoslanganligi bo‘lsa, boshqa tomondan ushbu materiallarning o‘quvchilar bilimi va hissiy rivojlanishiniga ta’sir qilishini nazarda tutuvchi badiiy ifoda vositalari hamda ya’ni turli ma’nolarni ifodalovchi ma’nodosh so‘zlarning qo‘llanilishi muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Biroq, bu ikkala tamoyil ham dialektik qarama-qarshilikdadir: matnlar qanchalik qiziqarli bo‘lsa, ular leksik va grammatik jihatdan qanchalik murakkab bo‘lsa mazmuni esa aksincha.

Ma’nodosh so‘zlar ustida ishlashda darsliklarda berilgan bu kabi so‘zlarni illyustrativ elektron-o‘quv lug‘atlar va leksik-grammatik ma’lumotlar minimumini muvozanatlash orqali yaxlit tizimda o‘qitish o‘quvchilarda til ko‘nikmalarini oshishiga xizmat qiladi. “Ona tili ta’limi maqsadi talimning umumiy maqsadiga uyg’un bo‘ib, uning ikki talabini o‘zida juz’iylashtiradi: ijodiy va mustaqil fikrlash malakasini qaror toptirish hamda buning natijasida ta’lim oluvchining har tomonlama yetuk shaxs sifatida kamol topishi”. [2; 6-b].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqida ma’nodosh so‘zlarni faollashtirish yo‘li bilan ularda ona tili ta’limi ko‘nikmalari, o‘quv-tarbiya muhitida o‘quvchilar ongliligi, nutqining izchilligi va kognitiv rivojlanishda o‘ziga xos faollik ta’minlanadi. Ma’nodosh so‘zlarni nutqda faol qo‘llash uchun qo‘llanilgan nutqdan tilga qarab borish texnologiyasi pedagogik jarayonda o‘quvchilarda kreativ kompetentlikni oshiradi. Bunda o‘quvchilar oldin o‘rganilgan mavzularga oid ma’nodosh so‘zlar lug‘ati ustida ish olib boradilar. Ma’nodosh so‘zlar qatoridan joy olgan so‘zlar ma’nosini tahlil qilish va ular ishtirokidagi topshiriqlarni bajarish orqali dastlabki xulosalar paydo bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilar tafakkuri va nutqini o‘ziga xos tarzda rivojlantirish imkonini beradi.

Bundan tashqari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tafakkurini rivojlantirish maqsadida ham ona tilida mavjud ma’nodosh so‘zlar qatori va ular ifodalagan ma’nolar o‘rgatiladi. Ma’nodosh so‘zlarni matn tarkibida o‘rgatish talabi ona tili ta’limini ijodiy tashkil etish imkoniyatini oshiradi. Ona tili fanining leksika bo‘limi umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinflaridan boshlab o‘rgatilishi natijasida o‘quvchilarda so‘z ma’nolari, ma’nodosh so‘zlar va leksik hodisalar to‘g‘risida dastlabki tasavvur va bilimlar paydo bo‘ladi. [5.769-772]

Bugungi kunga kelib boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ona tilining leksik tizimini o‘rgatish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotchi va olmilar qator izlanishlar olib bormoqdalar. Tilshunos olim B. Mengliev o‘zining «Ona tili darslarida so‘z ma’nolari tahlili» nomli maqolasida maktab o‘quvchilarning so‘z ma’nolarini o‘zlashtirishi ularda tafakkur va nutq rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi deya ta’kidlaydi. Maqolada olim so‘z ma’nolari, ko‘chma ma’nolar haqida ham fikr yuritib, o‘z qarashlarini misollar bilan asoslaydi. Ma’lumki, mustaqil so‘zlar borliq xodisalarning ongdagi aksi bo‘lgan tushunchalarni ifodalovchi ma’nolarga ega. Borliqdagi bir-biri bilan qaysidir jihatdan bog‘langan so‘z yoki bir necha o‘xshash narsa-xodisalarni ifodalovchi so‘zlar ko‘p ma’noni va tushunchani aks ettiruvchilari esa ma’nodosh so‘zlar sifatida baholanadi. [3; 5-b].

Ma’nodosh so‘zlarni va ularning lug‘aviy ma’nolari o‘rtasidagi farqlanishlarni o‘rgatish to‘g‘risida Yu.D.Apresyannning quyidagi fikrlarini ham keltirish mumkin: “to‘liq ma’lumot berish qoidasini saqlash asosida bosqichma-bosqich, ortiqchalikdan saqlangan holda barcha ma’nolarning o‘zaro ta’sir qoidalari va semantik komponentlari bilan birga” keltirish o‘rinli deb hisoblaydi. [4; 10]. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ona tili darsliklarida tanlanadigan matnlar qanchalik tarbiyaviy ahamiyatga ega va mavzu jihatdan rang-barang bo‘lishi hamda o‘quvchilar lug‘at boyligini o‘stirishga xizmat qilishi uchun ma’nodosh so‘zlardan foydalanish yuqoridagi maqsadlarni amalga oshirish imkoniyatlarini shuncha kengaytiradi. O‘qituvchi tomonidan tanlanadigan matnlar nafaqat o‘rgatilayotgan turli til xodisalariga muvofiq kelishi, balki kuchli tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lishi lozim. Ma’nodosh so‘zlar ishtirokida tanlanadigan matnlar mavzu jihatidan rang-barang bo‘lsa, o‘quvchilarning til materiallariga qiziqishi yanada kuchayadi [4; 72-92 -b].

Ona tilini o‘rgatishga doir nazariy masalalar til hodisalarini mustaqil kuzatish, taqqoslash, umumlashtirish, o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlash orqali yangi bilimlar olishga qaratilgan bo‘lishi o‘quvchilarda til shaxsini tarbiyalashga yordam beradi. Bu kabi masalalar, asosan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ijodiy faoliyat tajribasiga tayangan holda ona tilning nazariy asoslarini ochishga xizmat qiladi. Ayniqsa, o‘zbek tilining nazariy asoslarini va uning leksik boyligini o‘rganishda lingvistik masalalar muhim rol o‘ynaydi. [4. B-272-279].

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib shuni alohida ta’kidlash lozimki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqida ma’nodosh so‘zlarni faollashtirishning metodik tizimini takomillashtirish modeli yaxlit, ochiq tashkil etilgan bo‘lib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqida ma’nodosh so‘zlarni faolllashtirish metodikasini takomillashtirishni maqsadli rivojlantirish va belgilangan maqsadni natijaga mosligini aniqlash imkonini beradi. Jarayonning amaliyotga tatbiqi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqida ma’nodosh so‘zlarni faollashtirish metodikasini takomillashtirishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Текучев А.В. Методика русского языка в средней школе: Учебник для студентов пед. ин-тов. (2-е изд. перераб.). - М.: Просвещение, 1970. —432 с.
2. Yuldasheva D.N. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi (kognitiv-pragmatik yondashuv asosida). - Buxoro: OOO "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti. 2021.- 6 b.
3. Менглиев Б. Она тили дарсларида сўз маънолари таҳлили. Халқ таълими. 6-сон. 2000.с 5
4. Апресян Ю.Д. В какой мере можно формализовать понятие синонимии? // Облик слова: Сборник статей. М.: Русские словари, 1997. С. 10.
5. Ғуломов А. Она тили ўқитиш принциплари ва методлари. Т.,Ўқитувчи. 1992. 6-72-92 б.

BADIIY ASARDA METAFIZIK O‘LIMNING IFODALANISHI

Sh.K.Tursunboyeva
Toshkent Amaliy fanlar universiteti, tadqiqotchi
E-mail: tursunboyevashahzoda98@mail.com Tel: 94 153 44 39

Annotatsiya Adabiyotda o‘lim mavzusi qadimdan mavjud bo‘lib, u faqat biologik yakun emas, balki falsafiy, diniy va metafizik mazmunda ham talqin etiladi. Ayniqsa, o‘zbek zamonaviy adabiyotida bu mavzu yangicha badiiy-estetik yondashuvlar bilan boyitilgan. Nazar Eshonqul ijodida o‘lim tushunchasi nafaqat voqelikning yakuni, balki ma’naviy uyg‘onish, insonning o‘zligini anglash jarayoni sifatida gavdalanadi. Ushbu maqolada yozuvchi asarlaridagi metafizik o‘lim ifodasi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: metafizik o‘lim, ijtimoiy o‘lim, ruhiy o‘lim, tug‘ilmaslik falsafasi, nigilizm, pessimizm

Annotation: The theme of death has existed in literature since ancient times, and it is interpreted not only as a biological end but also from philosophical, religious, and metaphysical perspectives. Especially in modern Uzbek literature, this theme has been enriched with new artistic and aesthetic approaches. In the works of Nazar Eshonqul, the concept of death is presented not merely as the end of existence but as a process of spiritual awakening and self-realization. This article analyzes the representation of metaphysical death in the author's literary works.

Keywords: metaphysical death, social death, spiritual death, philosophy of non-birth, nihilism, pessimism

Аннотация: Тема смерти в литературе существует с древнейших времён и трактуется не только как биологический конец, но и в философском, религиозном и метафизическом аспектах. Особенно в современной узбекской литературе эта тема обогащается новыми художественно-эстетическими подходами. В творчестве Назара Эшонкула смерть предстает не только как конец бытия, но и как процесс духовного пробуждения и осознания человеком своей сущности. В данной статье анализируется отражение метафизической смерти в произведениях писателя.

Ключевые слова: метафизическая смерть, социальная смерть, духовная смерть, философия нерождения, нигилизм, пессимизм

Badiiy asarda ko‘pincha jismonan tananing emas, balki inson ruhiyati, shuuri, axloqiy qadriyatlari, ma’naviyati yoki mavjudlik ma’nosining nobud bo‘lishi yoki yo‘qolishi tasvirlanishi mumkin. O‘limning bu turi metafizik o‘lim deb ataladi, ayrim manbalarda esa bu hodisa ijtimoiy o‘lim bilan tenglashtiriladi [1, 158-b]. “Metafizik o‘lim bu subyektiv qadriyatlar, no‘tog‘ri mezonlar, boshqa so‘z bilan aytganda insonni oxir oqibat parokandalikka olib boruvchi metafizik konstruktrlarni tanlashi… hayotiy faollikning bo‘lmasligi, yaxlitlikning yo‘qligi va nobudlikdir” [2]. Bu turni ma’naviy yoki ruhiy jihatdan o‘lish deb hisoblash mumkin. Zero, badiiy adabiyotda o‘lim nafaqat jismoniy yo‘qotish sifatida, balki insonning ichki olami yohud axloqiy qadriyatlari bilan bog‘liq murakkab jarayon sifatida ham tasvirlanadi Ruhiy o‘lim insonning shaxsiyati, ichki olami va his-tuyg‘ularini yo‘qotishi yoki ularga befarq bo‘lib qolish holati bilan namoyon bo‘ladi. Bunday holat kuchli stress, og‘ir hayotiy zarbalar natijasida yuzaga keladi. Ma’naviy o‘lim esa, insonning axloqiy qadriyatlaridan e’tiqodi yoki ma’naviy hayotidan ajralishi hisoblanadi. Bu tushunchalar adabiyotda o‘lim nafaqat jismiy voqea sifatida, balki inson ruhiyati, axloqiy qarorlari va ichki olami bilan bog‘liq murakkab jarayon sifatida tasvirlanishining isboti.

Metafizik o‘limni bildiruvchi tanatalogik motivlar personaj yashayotgan ijtimoiy muhitda buzilish, xaos va zavolga yuz tutish alomatlari mavjudligidan darak beradi. Bunday o‘limga duchor bo‘lgan personajlar yangilikka yopiq bo‘lishi, atrofdagi dunyoni o‘rganish va uni o‘z ichiga kiritishga bo‘lgan istaksizlikda namoyon bo‘ladi, metafizik o‘lgan inson shaxs sifatidagi xossalarini yo‘qotadi, ammo biologik mavjudot sifatida o‘lmaydi. Metafizik jihatdan o‘lgan personajda bu holat uning har bir detalida – portretida, kiyim-kechak, kundalik buyumlarida, atrof-muhitda, atmosferada, kayfiyatning eng nozik nuqtalarida aks etishi mumkin. Masalan, Nazar Eshonqulning personajlari tabiatiga tartibsizlik, atrofga befarqlik, tarkidunyo qilish, ozodalikka e’tibor bermaslik, o‘likdek cho‘zilib yotish, o‘likning ko‘zlaridek ichiga botib qoraygan ko‘zlar, o‘liknikidek ovoz, o‘likdek sassiz yurish, o‘likdek ustixon gavda kabi sayyor xususiyatlar xoski, ular asardan asarga yuqumli kasallikdek qahramonlar ichki va tashqi portretiga ko‘chib yuradi. Jumladan, “Bevaqt chalingan bong” hikoyasida chegaraviy holatda metafizik o‘limni boshidan kechirgan “personajning qo‘llari o‘rnida qon istab jaranglagan qilichlar o‘sib chiqqandek, ko‘zlari bitib,

o‘rnida achimsiq go‘r hidi kelayotgan lahm ichida yoqib qo‘yilgan bir juft ko‘rtaqir sham paydo bo‘lgandek...” tasviri metafizik o‘limni bildiruvchi muhim tanatalogik elementlarga boy ifoda.

Yozuvchi asarlarida ramziy ifodalar, falsafiy syujetlar va ichki ruhiy kechinmalar orqali metafizik o‘limni ifodalaydi. Personajlar o‘z-o‘zini yo‘qotishi, yangi hayotga o‘tishi, shaxsiy inqirozi yoki mutlaq o‘zgarish jarayoni kabi metofizik o‘limning turli ko‘rinishlarini boshdan kechirishadi.

Nazar Eshonqulning “Avtoportret” nomli absurd hikoyasida ham qahramon botinida o‘zi bilan tinimsiz kurashib, erkini bo‘g‘ib kelayotgan “o‘zi” ni o‘ldirishi va jasadini ochiq lahadga ko‘mishi tasvirlashi metafizik o‘limning badiiy ifodasidir. Jasad ko‘milgan qabristonning kun botishgacha cho‘zilib ketgan son-sanoqsiz ochiq qabrlari va go‘rkovning o‘zini o‘ldirib jasadini olib kelgan qahramonga “Sen birinchi ham, oxirgi ham emassan” [3, 468-b.] deyishidan ma’lum bo‘ladiki, o‘zining botinidagi ichki ziddiyatlardan charchab ichida o‘zini o‘ldirish inson peshonasiga yozilgan achchiq qismatdir.

Qahramon asta-sekinlik bilan metafizik o‘limga duchor bo‘lib borishi, ayniqsa “Go‘rog‘li yohud hayot suvi” romani va “Qora kitob” qissalarida bosqichma-bosqich, yaqqol ifodalangan.

“Qora kitob”da professor personaji umr kitobining sahifalari yirtilaverib, qabr turgan betga yaqinlashib qolganda o‘z hayoti haqida mushohada qila boshlagan va ichiga ulkan qutqu va ufunat cho‘kkan qahramon. Shayton izmida kechgan, yovuzlikni yaratish uchun o‘zi sezmagan holda xizmat qilgan umri haqiqatini anglab yetgan inson miyyasiga absurd falsafasida shakkokona fikrlar quyilib keladi: “O‘lim bema’nilik emas, taqsirim, – o‘lim ma’no, inson umrining ma’nosi, faqat tiriklik be’mani bo‘lishi mumkin. O‘layotgan odam o‘z umrining necha pulga arzishini bilib o‘ladi” [4, 525-b.] Tiriklik, yashamoq tushunchalari bu qahramon nazarida “…qurib bo‘lgach ag‘darilishi aniq bo‘lgan haykalni tiklamoq”qa qiyoslanadi. Ayniqsa, inson hayoti mutlaq “hech narsa yasab bo‘lmaydigan” bo‘shliq hamda qahramon agar qayta tanlash imkoni berilganda, aslo inson bo‘lib tug‘ilishni tanlamasligini bot-bot takrorlaydi. Sayyod o‘qiga duchor bo‘lib o‘ladigan kiyik bo‘lib tug‘ilish afzal edi uning nazdida.

“Qora kitob” qahramonining qarashlari Artur Shopengauerning pessimizmiga oid fikrlarini, jumladan “Hayot, inson, iztirob” [5] asaridagi fikrlarni takrorlayotgandek taassurot uyg‘otdi. Olmon faylasufining nigilistik va ekzistensial qarashlarida ham hayot tinimsiz kurashlar va aldovdan iborat, baxt degan narsa illyuziya va inson unga doim bekor intilib yashashi, iztirob esa reallik ekanligi, dunyoda yashayotgan tirik mavjudotlar ichida eng baxtsiz va iztiroblar iskanjasidagi jonzot inson ekanligi, “tug‘ilmaslik” baxti haqida fikrlar mavjud. Shopengauer inson hayotini ko‘plab diniy tafakkur shakllarida mavjud bo‘lgan arxietipik figura – taqiq mevasiga qiyoslaydi hamda umr ana shu meva kabi gumrohlikdan iborat deb hisoblaydi. Inson bir mavjudot sifatida hayot unga berilgan tuhfa yoki mukofot degan optimistik fikrlardan ko‘ra, hayot – jazo, gunohni yuvishga berilgan imkoniyat degan qarashlarga e’tibor qaratadi.

Nazar Eshonqul ijodida ham “gunoh” motivi tanatalogik figuralarni harakatga keltiruvchi asosiy unsurlardan biri (“Bu qanday jonzotki, gunoh shu darajada yarashadi, shu darajada uni sharaflaydi. Odamdan boshqa gunoh sharaflovchi zot bormi?”) “Qora kitob” qissasida tilga olingan “ilk gunoh” tushunchasi “Taqiq mevasi” romanida asosiy leytmotivga aylangan. Bu motiv ildizi nasroniy, yahudiy va islom dinlarida mavjud bo‘lgan qissaga borib taqaladi. O‘sha rivoyatdagi ilk gunohni sodir etganidan so‘ng insoniyat qoniga singgan gunoh tavqi la’nati avlodlar almashgani sari yanada chuqur va murakkablashib bordi. “Biz bolalarimizga komil hayot emas, jaholat va fahsh qaynagan o‘choq qurib berdik…”, “… tavqi la’nat bo‘yunturug‘ini bo‘yindan olib tashlashga odamzotning kuchi yetmaydi. Qancha ko‘p yashasak, naslimiz yer yuzida qancha ko‘payaversa, gunohlarimiz shuncha oshib boraveradi”[4, 520-b.], – deydi “Qora kitob” qahramoni.

“Go‘rog‘li yohud hayot suvi” romanida ham chirigan, tavqi la’natga uchragan inson zotini tugatish, insonlarni ajalga tayyorlash, aksil odam yaratish, shu vaqtgacha insonlar ishonib kelgan narsalarni yo‘q qilish, ularni soxtaligini isbotlash uchun qahramonlari o‘limni quchib, uni munosib kutib olib, uylarida sassiz sadosiz o‘lib qoladigan mavzuda asar yozadigan shoir obrazi mavjud.

“Taqiq mevasi” romanida shaytondan bo‘lgan so‘nggi inson naslini bu dunyoga tug‘ilmasligi uchun oshiq mashuqasini o‘ldirishi, ayni shu sababdan “Qora kitob”da ota o‘z qizini hayotiga nuqta qo‘yishi tasvirlangan. Bu mavzularning ildizi qayerda? Adib nega “iblis zurriyodi”, inson zotining tavqi la’nati, farzand dunyoga keltirmaslik haqida asarlarida bot-bot yozishdan charchamaydi?

Gap shundaki, falsafa va ayrim san’at turlarida “Tug‘ilmaslik g‘oyasi” tushunchasi mavjud. Shopengaur ilgari surgan pessimizm falsafasida hayotning mohiyati “istak” bo‘lib, istaklar esa hech qachon qondirilmaydi, natijada inson norozilik, azob va umidsizlik ichida yashaydi, bundan qutulish yo‘li esa istaklardan voz kechish orqali hayot azobidan xalos bo‘lish. Shopengauer tug‘ilishni salbiy hodisa deb ko‘radi va odamlarni farzand ko‘rishdan tiyilish haqida o‘ylab ko‘rishga chaqiradi. Hayot azob va

qiyinchiliklardan iborat hamda inson tug‘ilmasa ulardan qutulgan bo‘ladi, binobarin, tug‘ilish baxt keltirishi mumkin, lekin yo‘qlikda hech qanday yo‘qotish bo‘lmaydi. Bu g‘oya aslida, ko‘plab xalqlar an’analaridan ko‘chgan bo‘lib, xususan, frakiyaliklar chaqaloq dunyoga kelganda u kelajakda chekadigan iztiroblari va qilishi mumkin bo‘lgan gunohlarini o‘ylab ko‘z yosh to‘kib yig‘lashgan, inson o‘limi yuz bersa esa, aksincha, bu dunyo azob-uqubatlaridan qutulgan inson uchun xursand bo‘lib kuy-qo‘shiqlar aytib xursandchilik qilishgan.

Shuningdek, rus adabiyotining yetuk namoyandasi Tolstoyning adabiy-falsafiy qarashlarida ham shunga o‘xshash fikrlarni uchratish mumkin, “Har safar Tolstoyni o‘lim dahshati qamrab olsa, u o‘zidan so‘rardi: Oila muhabbati uning ruhini tinchlantira oladimi? Bu ishonch aslida samarasizdir. Bolalarni tarbiyalashning nima keragi bor? Axir ular ham hozir biz boshdan kechirayotgan og‘ir holatga tushadilar”, – deya Tolstoy fikrlaridan iqtibos keltirgan olim I.I.Mechnikov [6, 384-b.]

“Qora kitob” qahramoni ham ayni shunday fikrlar iskanjasida qoladi. Bu dunyoga kelib o‘zidan zurriyod qoldirmay ketganlarga havas qilishini aytadi. Uning fikricha, biz avlodlar uchun poydevori illatlar bilan qurilgan imorat – dunyodan boshqa narsa qoldirmaymiz. Shuningdek, professor razolatga botgan dunyoni o‘liklar makoniga qiyoslaydi: “Yer yuzi – marhumlar diyori, o‘liklar saltanati. Bu shaharlar shahar emas, ulkan qabriston; farqi shuki bunda har kim o‘z qabrini o‘zi qaziydi ” [5, 522- b.]. Qahramon nazarda tutgan “o‘z-o‘ziga qabr qazish” tushunchasi – farzand dunyoga keltirish va kelajakdan baxt kutish, bu umidvorlik ortidan keladgan cheksiz afsus va pushaymonlikka nisbatan ishlatilgan ramzdir.

Tug‘ilmaslik g‘oyasiga ergashgan, nigilistik qarashlarga berilib bugungi kunda hayot ma’nosini yo‘qotib, demografik inqirozga uchrayotgan jamiyatlar esa bizni har qanday holatda ham insoniy jamiyatning tamal toshi bo‘lgan axloqiy qadriyatlarga sodiq bo‘lishga undaydi.

Umuman olganda, Nazar Eshonqulning deyarli har bir asarida metafizik o‘limga duchor bo‘lgan qahramonlar mavjud bo‘lib, ularni tahlil qilish alohida tadqiqot uchun munosib obyekt bo‘la oladi. O‘lim muallif badiiyatida nafaqat biologik voqelik, balki falsafiy tushuncha, ruhiy inqiroz, ijtimoiy begonalashuv va metafizik yo‘qlik sifatida talqin etilgan. Ayniqsa, ruhiy va ijtimoiy o‘lim, metafizik tanazzul holatlari yozuvchining obrazlarida chuqur ko‘rsatilgan. Bu orqali muallif insoniyat hayotining eng muhim va og‘riqli jihatlarini badiiy ifoda doirasida keng yoritishga muvaffaq bo‘ladi. Asarlarda hayotdan norozilik, hayotga bo‘lgan isyon, umidsizlik, yolg‘izlik, dahshat, ruhiy va jismoniy og‘riq kabi holatlar badiiy syujet va obrazlar vositasida chuqur mushohada qilinadi. N.Eshonqul ijodidagi qahramonlar, ko‘pincha, quyidagi bosqichlarni boshdan kechirishadi: hayotdan ma’no izlash, o‘z mavjudligini anglash, uni ongli ravishda tanqid qilish va ko‘pincha uni rad etish. Bu esa muallifning asarlari absurd va ekzistensializm falsafasiga yaqinligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xudoyberganov R. O‘lim va barhayotlik to‘g ‘risida ilmiy va diniy g‘oyalarning falsafiy tahlili. Fals.fan. nom…diss. – T.: 2010. 158-b.

2. М.Ю. Трофимов Метафизическое рождение и метафизическая смерть в пограничной ситуации. редакцией «Философия, социология, политология» 29 апреля 2011 г. https://cyberleninka.ru/

3. Nazar Eshonqul. Saylanma I: hikoyalar. – Toshkent. “Akademnashr”, 2022.

4. Nazar Eshonqul. Saylanma II: roman va qissalar. – Toshkent. “Akademnashr”, 2022.

5. Shopengauer A. Hayot, inson, iztirob. “Sharq yulduzi”jurnali, 2010/3

6. Мэй Р. Смысл тревоги: Пер. с англ. / Р. Мэй - Москва: Независимая фирма "Класс", 2001. — 384 с

BADIIY ASARLAR USTIDA ISHLASH JARAYONIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING EMOTSIONAL INTELLEKTINI SHAKLLANTIRISH MEZONLARI

K.Sh.Jamalova
NamDU tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy asarlar ustida ishlash jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining emotsional intellektini shakllantirishning mezonlari, xususan, o‘z hissiyotlarini anglash mezoni va o‘z hissiyotlarini anglashni aniqlash usullar haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: emotsional intellect, o‘z hissiyotlarini anglash mezoni, suhbat va intervyular, o‘yin va rolli o‘yinlar, yozma va vizual topshiriqlar, “Sariq devni minib” asari, “Chumoli va bug‘doy donasi” ertagi, “Zardo‘z” ertagi

Аннотация: В данной статье рассматриваются критерии формирования эмоционального интеллекта учащихся начальной школы в процессе работы над художественными произведениями, в частности, критерий понимания собственных эмоций и методы определения понимания собственных эмоций.

Ключевые слова: эмоциональный интеллект, критерий понимания собственных эмоций, беседы и интервью, игры и ролевые игры, письменные и изобразительные задания, произведение «Верхом на жёлтом великане», сказка «Муравей и пшеничное зёрнышко», сказка «Щегол».

Abstract: This article discusses the criteria for the formation of emotional intelligence of primary school students in the process of working on works of art, in particular, the criterion of understanding one's own emotions and methods for determining the understanding of one's own emotions.

Keywords: emotional intelligence, criterion of understanding one's own emotions, Conversation and interviews, Games and role-playing games, Written and visual tasks, The work "Riding the Yellow Giant", The tale "The Ant and the Grain of Wheat", The tale "The Goldfinch"

KIRISH. Emotsional intellekt – bu shaxsning o‘z va boshqalarning hissiyotlarini anglash, ifoda etish va boshqarish qobiliyatidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bu qobiliyat ularning ijtimoiy muloqot, o‘rganish jarayoni va psixologik barqarorligida muhim rol o‘ynaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

X.Rahimovning “Boshlang‘ich ta’limda emotsional intellektning rivojlanish xususiyatlari” kitobida o‘quv materiallarining emotsional intellekt rivojlanishidagi ahamiyatini muhokama qilinadi. Uning fikricha, emotsional intellekti rivojlantirish uchun, o‘quv materiallari va mashg‘ulotlar bolalarning emotsional va ijtimoiy holatlarini e’tiborga olishi kerak. Ushbu maqolada, yosh bolalarning emotsiyalarni anglash va ularni boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirishda interaktiv metodlarning ahamiyati ta’riflangan.

M.Normatovning “Boshlang‘ich sinflarda emotsional ko‘nikmalarni shakllantirish” nomli tadqiqot ishida esa, mashg‘ulotlarning emotsional intellektning rivojlanishidagi ta’siriga e’tibor qaratilgan. M.Normatovning tadqiqotlariga ko‘ra, o‘quv materiallari va mashg‘ulotlarda emotsional va ijtimoiy elementlarning integratsiyasi bolalarning his-tuyg‘ularini va muloqot ko‘nikmalarini yaxshilashga yordam beradi. Shuningdek, u o‘quv jarayonida emotsional ko‘maklashuvning zarurligini ta’kidlaydi va zamonaviy ta’lim usullari orqali bolalarning emotsional intellektini rivojlantirish mumkinligini ko‘rsatadi.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda kuzatish, qiyosiy tahlil, diagnostik (anketa, suhbat, so’rov), loyihalash, modellashtirish va umumlashtirish metodlaridan tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil foydalanildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining emotsional intellektini rivojlantirish mezonlari, bu baholash, solishtirish yoki qaror qabul qilishda asos sifatida qabul qilinadigan standart yoki talablardir. U nimani nazorat qilish, baholash yoki o‘lchash kerakligini belgilaydi. Masalan, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholashda foydalaniladigan mezonlar ularning qaysi darajada rivojlanganligini aniqlashga yordam beradi.

Shundan kelib chiqib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida emotsional intellektni rivojlantirishni baholash va kuzatishda qo‘llaniladigan **mezonlar** quyidagi asosiy jihatlarga qarab belgilanadi (1-rasmga qarang):



1-rasm. Emotsional intellektning rivojlanganlik darajalarini aniqlash mezonlari

I. O‘z hissiyotlarini anglash. Bolalar o‘z hissiyotlarini aniqlash va nomlash qobiliyatiga ega ekanligi kuzatiladi. Ular qanday holatda qanday his-tuyg‘ularni boshdan kechirayotganini tushunishi muhim hisoblanadi. O‘z hissiyotlarini anglashni aniqlash quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:

***1.1. Suhbat va intervyular**:* Badiiy asarlarni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarning emotsional javoblari, qahramonlarga nisbatan munosabati, empatiyasi, axloqiy tahlil qobiliyati va his-tuyg‘ularini ifodalash darajasini aniqlash.

- Suhbat va intervyu usullarining pedagogik vazifalari:
-

‘quvchining ichki dunyosi, hissiy tajribasi va tafakkurini aniqlash;

-

ahramonlarga nisbatan subyektiv munosabatini o‘rganish;

-

‘quvchining emotsional lug‘at boyligini baholash;

-

mpatiya darajasi va ijtimoiy axloqiy baholash ko‘nikmasini aniqlash;

-

haxsiy hayot tajribasi bilan asar mazmunini bog‘lay olish qobiliyatini aniqlash.

Namuna: Xudoyberdi To‘xtaboyev – “Sariq devni minib” asari doirasida suhbat va intervyu metodlarini qo‘llash.

Maqsad: O‘quvchilarda badiiy obrazlarga nisbatan emotsional sezuvchanlik, empatiya, axloqiy tahlil qilish, voqealarga emotsional baho bera olish, his-tuyg‘ularni anglash va boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirish.

Suhbat va intervyu metodlarining tavsifi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Mezoni	Suhbat	Intervyu
Ko‘lami	Guruhli yoki butun sinf bilan	Individual yoki kichik guruh
Savol turi	Ochiq, erkin savollar, erkin muhokama	Yakkama-yakka, aniq savollar, izchil javob
Pedagogik maqsad	O‘quvchilarning umumiy emotsional javoblarini aniqlash	Har bir o‘quvchining shaxsiy emotsional darajasini aniqlash

O‘qituvchi bajaradigan ishlar:

- asarning asosiy g‘oyasi, syujeti va qahramonlari bo‘yicha qisqa eslatma tayyorlaydi;
- emotsional intellekt komponentlariga oid savollar ishlab chiqadi (quyida namuna keltirilgan);
- suhbat/intervyu uchun baholovchi jadval va yozuv kartochkalarini tayyorlaydi.

Asar bo‘yicha suhbat va intervyu metodlarining savollari:

1) Emotsiyalarni anglash:

Hoshimjon bu holatda qanday his qilgan deb o‘ylaysan?

Bu sahna seni qanday hislarga soladi?

Sariq dev paydo bo‘lganida o‘zingni qanday tasavvur qilding?

2) Empatiya:

Hoshimjonning o‘rnida bo‘lganingda nima qilgan bo‘larding?

Hoshimjonga yordam kerakmi edi? Qanday yordam?

3) Axloqiy-emotsional tahlil:

Senga Hoshimjonning qaysi ishi yoqdi/yoqmadi? Nima uchun?

Bu asardan qanday saboq olding?

4) O‘z emotsiyalarini ifodalash:

Bu asarni o‘qigach qanday holatda eding? Nimani boshqacha qilishni xohlarding?

Agar Hoshimjon bilan suhbatlashsang, unga nima derding?

Suhbat va intervyu metodlari asosida berilgan savollarga o‘quvchilarning javoblariga ko‘ra ularning emotsional intellektini shakllanganlik darajalarini baholash mezonlari (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Ko‘rsatkich	Past	O‘rta	Yuqori
Emotsiyalarni aniqlash	Asos yo‘q	Yuza tushuncha	Sabab-oqibat asosli
Empatiya	Yo‘q	Qisman	Chuqur hamdardlik

Axloqiy tahlil	Bahosiz	Stereotip fikr	Ijtimoiy-axloqiy asoslangan
Ifoda boyligi	Kam lug‘at	Oddiy iboralar	Emotsional, tasviriy tilda bayon

Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining emotsional-intellektual shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu asar asosida olib borilgan suhbat va intervyu metodlari orqali o‘quvchilarning his-tuyg‘ularini anglash, empatiya qilish, axloqiy qarorlarni emotsional asoslash, obrazlarga nisbatan munosabat bildirish kabi qobiliyatlari shakllanadi va chuqurlashadi.

Suhbat va intervyu metodlari o‘quvchilarning emotsional-intellektual darajasini aniqlashda ishonchli diagnostik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, Hoshimjon obrazi orqali bolalarda halollik, vijdon, mas’uliyat, orzu va xatolar ustida mulohaza yuritish ko‘nikmalari shakllanadi. Bu esa emotsional-intellekt komponentlari – emotsiyalarni anglash, boshqarish, o‘zini tahlil qilish va boshqalarning hissiyotlarini tushunish singari jihatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, badiiy asarlarni o‘qitish jarayonida suhbat va intervyu metodlaridan maqsadli foydalanish nafaqat o‘quvchilarning matnni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi, balki ularning ichki dunyosi, his-tuyg‘ulari va shaxsiy tajribalarini anglashga yo‘naltirilgan chuqur tarbiyaviy vositaga aylanadi.

1.2. O‘yin va rolli o‘yinlar: Badiiy asar qahramonlari hayotiga emotsional kirishish, empatiya qilish, his-tuyg‘ularni anglash va boshqarish, ijtimoiy-axloqiy munosabatlarni tushunish qobiliyatlarini rivojlantirish.

“Chumoli va bug‘doy donasi” ertagi asosida rolli o‘yin va emotsional intellektni rivojlantirish metodikasi.

Ertak mazmuni (qisqacha): Bir chumoli yozda mehnat qilib, qish uchun bug‘doy donalarini yig‘adi. Qishda sovuq tushgach, u yig‘gan donni yeydi. Ertak axmoqlik va dangasalik, mehnat va mas’uliyat, oldini ko‘ra olish, sabr kabi fazilatlarni yoritadi.

Pedagogik maqsad: o‘quvchilarda mehnatga hurmat, sabr, mas’uliyat kabi ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni emotsional asosda tushunish; rrtak obrazlariga empatiya qilish, his-tuyg‘ularni anglash va ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish; o‘zini boshqalar o‘rniga qo‘yish orqali shaxsiy hissiy tajriba orttirish.

Rollar:

a) Chumoli – mehnatkash, oldini ko‘ra oladigan obraz;
b) Bug‘doy donasi – simvolik obraz, hayotiy resurs;
c) Sovuq (abstrakt obraz) – qish fasli sifatida;
d) Yoz (yordamchi obraz) – imkoniyat vaqtini ifodalaydi;
e) Ovozli bayonchi – voqealarni hikoya qilib boradi.

Rolli o‘yin ssenariysi. “Qishda don kerak bo‘ladi”. Ssenariy tarkibi:

Yoz fasli – chumoli mehnat qilmoqda.

Qish keladi – sovuq, ochlik.

Chumoli donni olib chiqadi – bug‘doy donasi bilan muloqot.

O‘quvchilar bug‘doy donasining ahamiyati haqida munozara yuritadi.

O‘yin va rolli o‘yin metodlari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining emotsional intellektini shakllantirish ko‘rsatkichlari:

Mezon	**Ko‘rsatkich**
Emotsiyalarni tushunish	“Chumoli qishda o‘zini qanday his qilgan?”, “Yozda charchoq qanday kechdi?”
Empatiya	“Agar sen chumoli bo‘lganingda...”, “Bug‘doyning o‘rnida bo‘lsang, nima derding?”
Axloqiy tahlil	“Nima uchun mehnat qilish kerak?”, “Nega oldindan tayyorgarlik muhim?”
O‘zini boshqarish	“Sen o‘sha holatda qanday yo‘l tutarding?”

“Chumoli va bug‘doy donasi” ertagi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun yaqin va tushunarli obrazlar orqali emotsional-intellektual ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu ertak asosida tashkil etilgan rolli o‘yinlar orqali o‘quvchilar mehnatga hurmat, sabr, mas’uliyat kabi fazilatlarni emotsional va axloqiy jihatdan anglaydi. Bu jarayonda ular nafaqat ertakni o‘rganadilar, balki obrazlar

orqali o‘z shaxsiy hayotiy tajribalari bilan bog‘lanib, o‘z his-tuyg‘ularini anglay boshlaydilar. Shuning uchun ertaklar asosida tashkil etilgan o‘yin va rolli o‘yinlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari emotsional intellektini shakllantirishning samarali pedagogik vositasi hisoblanadi.

***1.3. Yozma va vizual topshiriqlar**:* Masalan, his-tuyg‘ularni aks ettiruvchi rasm chizish yoki emotsiyalarni ifodalovchi kartochkalarni tanlash orqali bola o‘z holatini qanday tushunishini aniqlash mumkin.

Quyida 4-sinf o‘qish savodxonligi darsidan “Zardo‘z” ertagi asosida yozma va vizual topshiriqlar asosida o‘quvchilarning emotsional intellektini shakllantirish metodikasini keltiramiz.

Ertakning qisqacha mazmuni (eslatma): Bir zardo‘z yigit halol mehnati, hunariga sadoqati, sabr-bardoshi va adolatga bo‘lgan ishonchi bilan qiyinchiliklarni yengib o‘tadi va o‘z kasbi orqali baxt va hurmatga erishadi. Ertakda hunar qadri, mehnatning samimiyligi, odamiylik va qadrdonlik yuksak qo‘yiladi.

Ertak asosida quyidagi yozma topshiriqlar ishlab chiqildi:

1. “Men zardo‘z bo‘lganimda...”

Vazifa: O‘quvchi o‘zini zardo‘z o‘rniga qo‘yib, bir kunlik hayotini tasvirlaydi.

Maqsad: Empatiya va refleksiya orqali obraz bilan emotsional aloqa hosil qilish.

Ko‘rsatma: “Bugun yana naqqoshlik qilaman. Yulduz naqshini tugatishim kerak. Qiyin, lekin yuragim to‘la sabr bilan...”

2. “Zardo‘zga maktub”.

Vazifa: O‘quvchi ertak qahramoniga xat yozadi – uni maqtaydi, savol beradi yoki dardini aytadi.

***Maqsad*:** Qahramonga nisbatan hissiy munosabatni mustahkamlash.

***Yo‘nalish**:* “Zardo‘z aka, sizning matoningizga qarab hayratda qoldim. Men ham sizdek sabrli bo‘lishni xohlayman…”

3. “Hunar egasining yuragi qanday bo‘ladi?”

Vazifa: O‘quvchilar hunarli odamlar qanday bo‘lishi kerakligi haqida yozma mulohaza yozadilar.

Ko‘nikma: Axloqiy-emotsional tahlil.

4. “Ertakdan saboq” (insert chizmali yozuv)

Vazifa: Men bilgan edim…

– Men yangidan o‘rgandim…?

Men tushunmadim…!

Bu menga ta’sir qildi… . shaklida yozma fikr bildiradilar.

Ertak asosida quyidagi vizual topshiriqlar ishlab chiqildi:

1. “Zardo‘z naqshi” (obrazli tasavvur)

Vazifa: O‘quvchi o‘ziga xos naqsh chizadi va uni “yurak naqshi”, “orzu naqshi” deb nomlaydi.

Maqsad: Ichki emotsiyalarni ramziy ifodalash.

2. “Zardo‘z yuragi” (simvolik ifoda)

Vazifa: Yurak shaklidagi shablon beriladi. Bolalar yurak ichiga zardo‘z obraziga xos his-tuyg‘ularni yozadilar (masalan: sabr, faxr, tinchlik, ishonch, halollik).

3. “Kiyimga hikoya tik”

Vazifa: Oddiy kiyim yoki mato rasmi beriladi. O‘quvchi uni bezaydi va “bu kiyim qanday odamga tegishli?” degan savolga javob beradi.

***Ko‘rsatma**:* Ranglar orqali ruhiy holatni ifodalash (masalan: moviy – osoyishtalik, qizil – g‘ayrat, yashil – poklik).

4. “Zardo‘zga portret” (emotsional portret)

***Vazifa**:* Zardo‘zning chehrasini tasvirlash (his-tuyg‘u, ko‘z ifodasi, tabassum bilan).

Qo‘shimcha: Surat ostiga uning bir gapi yoki hayotiy sabog‘ini yozish (“Sabr – hunarning yuragidir”).

Yozma va vizual topshiriqlarning o‘quvchilar emotsional intellektini shakllantirishdagi didaktik imkoniyatlari:

Emotsional komponent	**Yozma topshiriqlar**	**Vizual topshiriqlar**
Emotsiyani anglash	“Men zardo‘z bo‘lganimda…” kundaligi	Portret chizish, rang tanlash
Empatiya	Maktub yozish	Naqsh yaratish orqali obraz bilan bog‘lanish

Emotsional ifoda	Insert jadvali, reflektiv savollar	Simvolik elementlar (yurak, kiyim, naqsh)
Axloqiy tahlil	“Hunar egasi qanday bo‘ladi?”	“Bu kimga mos kiyim?” savol-javobi

“Zardo‘z” ertagi orqali tashkil etilgan yozma va vizual topshiriqlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun chuqur tarbiyaviy va emotsional ahamiyatga ega. Ular orqali bolalar badiiy obrazlar bilan emotsional aloqa o‘rnatadi, shaxsiy tajriba bilan bog‘laydi va o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ayniqsa hunar, sabr, mehnat, halollik singari ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar bolalarning ichki ongiga chuqur singdiriladi.

Xulosalar

Ushbu metodlar orqali pedagoglar va psixologlar bolaning o‘z hissiyotlarini anglash darajasini aniqlab, uning emotsional intellektini shakllantirishga qaratilgan qo‘shimcha yondashuvlarni belgilashlari mumkin.

Bu mezonlar yoshga mos psixologik metodikalar, intervyular, sinf ichidagi kuzatishlar va interaktiv dars faoliyatlari orqali aniqlanadi. Ushbu yondashuv orqali pedagoglar o‘quvchilarning emotsional intellekt darajasini tizimli ravishda baholashlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Goleman. *Emotional Intelligence*, New York: 1995, Bantam Books, pp. 56-78
2. Joseph Durlak ва Roger Weissbergнинг “The Impact of Social and Emotional Learning: A Meta-Analysis”, Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning, 2015, Chicago
3. Nabiyeva A. “Ўзбекистонда эмоционал интеллектни ривожлантириш усуллари”. – Т.: “Ўзбекистон таълими" нашриёти, 2021, 45-62-бетлар
4. Tursunov M. “Бошланғич синфда эмоционал интеллектни ривожлантириш: миллий ва жаҳон тажрибалари”. – Т.: “Таълим ва ижтимоий тадқиқотлар” нашриёти, 2022,78-93 бетлар
5. Рахмонов А. Ўқув материаллари ва ўқитиш усулларининг эмоционал ривожланишга таъсири, –Т.: 2019, 56-61-бетлар
6. Ҳасанов А. Болаларда эмоционал интеллектни шакллантиришда ота-оналарнинг иштироки. – Т.: 2022, Олий таълим нашриёти, 45-58-бетлар.
7. Абдуллаев М. “Таълимда инновацион технологиялар”. - Т.: "Ижтимоий фикр" нашриёти, 2021, 78-83-бетлар.
8. Абдураззаков, М. (2022). Психологияда эмоционал интеллектнинг ривожланиши. Тошкент: Психология нашриёти, 22-40-бетлар
9. Адамович И.В. “Характеристика уровней эмоционального интеллекта студентов-медиков” Материалы конференции студентов и молодых ученых, посвященной памяти профессора МВ Кораблева. 2013.
10. Анисимович А.А. Эмоциональный интеллект как подход к поддержке осознанного выбора личностью своей будущей профессии. – 2021.

ОБРАЗ ТАНЦОРА В КОНТЕКСТЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО И СОЦИАЛЬНОГО НАСЛЕДИЯ УЗБЕКИСТАНА

Ю.Р.Таирова
Базовый докторант Государственной академии хореографии Узбекистана

Аннотация. Феномен танцевального искусства в социальном пространстве древних городов Узбекистана является индикатором многогранного взаимодействия культурных влияний, художественных практик и социокультурных функций. Изучение роли танцоров в исторических центрах Узбекистана способствует осознанию их значения и эволюции в контексте узбекской истории. В статье рассмотрено происхождение и развитие образа танцора как важного элемента культурной и социальной жизни. Образ танцора представлен не только как носитель художественного начала, но и как социальная фигура, отражающая ценности и эстетические ориентиры эпохи.

Ключевые слова. Танец, танцор, искусство, культура, образ, наследие.

Annotatsiya. O‘zbekistonning qadimiy shaharlari ijtimoiy makonidagi raqs san’ati hodisasi madaniy ta’sirlar, badiiy amaliyot va ijtimoiy-madaniy funksiyalarning ko‘p qirrali o‘zaro ta’sirining ko‘rsatkichidir. O‘zbekistonning tarixiy markazlarida raqqosalarning rolini o‘rganish o‘zbek tarixi kontekstida ularning ahamiyati va evolyutsiyasini tushunishga xizmat qiladi. Maqolada raqqosa tasvirining kelib chiqishi va rivojlanishi madaniy va ijtimoiy hayotning muhim elementi sifatida ko'rib chiqiladi. Raqqosa tasviri nafaqat badiiy tamoyillar tashuvchisi, balki o‘sha davr qadriyatlari va estetik ko‘rsatmalarini aks ettiruvchi ijtimoiy shaxs sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Kalit so'zlar. Raqs, raqqosa, san'at, madaniyat, tasvir, meros.

Abstract. The phenomenon of dance art in the social space of ancient cities of Uzbekistan is an indicator of the multifaceted interaction of cultural influences, artistic practices and socio-cultural functions. The study of the role of dancers in the historical centers of Uzbekistan contributes to the understanding of their significance and evolution in the context of Uzbek history. The article examines the origin and development of the image of a dancer as an important element of cultural and social life. The image of a dancer is presented not only as a bearer of artistic principles, but also as a social figure reflecting the values and aesthetic guidelines of the era.

Keywords. Dance, dancer, art, culture, image, heritage.

Танец - это не просто вид искусства, а неотъемлемая часть культурного наследия каждой страны, включая ее историю, традиции и уникальное художественное самовыражение. Танец существует повсюду на планете, но особенно ярко он проявляется в культурной сфере Центральной Азии, где танец имеет глубокие исторические корни и неповторимую красоту. Распространенный по всему миру, танец находит особенно яркое проявление в культурном пространстве Центральной Азии, где он обладает богатым историческим прошлым и неподражаемой эстетикой. Танцевальные традиции народов данного региона, уходящие корнями в древность, отличаются изысканным размахом и колоритностью, что объясняет их современную востребованность как внутри страны, так и за ее пределами. В качестве примера можно привести народные танцы Узбекистана. Эти танцы привлекают внимание публики во всем мире не только благодаря своим эстетическим достоинствам, но и благодаря ярким национальным костюмам и высокому уровню исполнительского мастерства.

Издавна танцевальное искусство этносов данного края известно своей утонченной грандиозностью и выразительностью, что, безусловно, объясняет его сегодняшнюю востребованность как в стране происхождения, так и за ее пределами. [4,2011:C.74] Зрители во всем мире проявляют интерес к этим танцам не только из-за их эстетической составл можно найти яющей, но и благодаря ярким нарядам и высокому уровню подготовки танцоров. Танец является не просто способом художественного самовыражения, но и важной частью культурного наследия каждого народа, в котором отражается его историческая эволюция, традиции и уникальная художественная самобытность. Помимо зрелищной функции, танцевальное искусство способствует установлению позитивных связей и обмену позитивными эмоциями между людьми.

С незапамятных времен, начиная с эпохи древнего Мавераннахра, этот регион служит колыбелью для традиционных танцевальных искусств, бережно хранимых и передаваемых из поколения в поколение, обогащаясь новыми формами и стилистическими приемами. Зрители, которым посчастливилось наблюдать эти представления, неизменно поражены не только отточенной техникой и виртуозностью исполнения, но и глубоким эмоциональным содержанием, с помощью которого танцоры выражают дух и культуру своего народа.

Одним из наиболее ярких и узнаваемых примеров является узбекский танец Катта Уин, чье происхождение восходит к IV-VIII векам нашей эры. Этот танец, исполняемый под аккомпанемент традиционных инструментов, воплощает в себе грацию, элегантность и богатую историю узбекского народа, являясь неотъемлемой частью его культурного наследия. [3,2001:C.101]

Древние узбекские танцоры поражали воображение своими зрелищными выступлениями, которые были известны далеко за пределами Китая. Путешественники, следовавшие по Шелковому пути, с теплотой вспоминали, как на празднествах в таких городах, как Бухара, девушки в ослепительных костюмах демонстрировали удивительную грацию и великолепие в своих танцах. [2,2024:C.52] Эти старинные танцевальные обычаи не утратили своей силы и сегодня, продолжая пленять публику своим великолепием. Одной из отличительных черт современного узбекского танца является, например, чарующая красота нарядов танцовщиц. Девушки с длинными черными

волосами, заплетенными в косы, облачаются в яркие платья, которые словно излучают цвет и свет. Сочетание синего, красного, голубого, зеленого и золотого создает поистине ослепительную картину. В танце их движения, почти синхронные и исполненные невероятной легкости, следуют ритму музыки. Они кружатся, взлетают, опускаются на колени, вычерчивая в воздухе замысловатые узоры. Зрители, завороженные этими яркими представлениями, не могут отвести глаз от сцены, полностью погружаясь в атмосферу всеобщей радости и красоты.

Таким образом, нет возможности переоценить ту эмоциональную силу, которую несли в себе эти танцы. Они являлись неотъемлемой частью культурного полотна, объединяющего людей и дающего им возможность транслировать свою уникальную идентичность всему миру. Поэтому можно с уверенностью сказать, что танец продолжал оставаться важной частью культурной мозаики, которая объединяет людей и позволяет им делиться своим уникальным опытом с окружающим миром.

На протяжении столетий земли современного Узбекистана служили местом встречи различных культур и оживленных торговых маршрутов. Под властью Персидской империи местные племена и народы были вовлечены в более масштабные политические и экономические процессы. Это время ознаменовалось расцветом торговли, что способствовало развитию таких городов, как Самарканд и Бухара, впоследствии ставших выдающимися центрами науки и культуры.

Настенные росписи и другие изображения танцоров древнего Узбекистана раскрывают перед нами многогранную культурную палитру этого края, который на протяжении тысячелетий был колыбелью для множества цивилизаций. Пересечение великого Шелкового пути стало катализатором для слияния различных культурных течений, что привело к рождению уникального сплава традиций. Танец в этом регионе был не просто зрелищем, но и живой нитью, связывающей людей в ритуалах, праздниках и повседневных событиях. Его традиционные формы, впитавшие в себя дух персидской, греческой и исламской культур, сплелись в неповторимый танцевальный язык, который бережно передавался из уст в уста, из рук в руки.

Изучая изображения древних танцоров, мы видим целый калейдоскоп стилей и костюмов, в которых переплетаются самобытные местные традиции и заимствованные мотивы. Яркие ткани, обильные украшения и экспрессивные жесты свидетельствуют о виртуозности исполнителей. Таким образом, танец в древних узбекских городах превратился в нечто большее, чем просто способ самовыражения – он стал ключевым элементом культурной связи, подчеркивающим многообразие и богатство регионального наследия.

После упадка Персидской державы и установления Греко-Бактрийского царства, территория сохранила свою ключевую роль. Греко-бактрийцы, объединяя эллинскую и автохтонную культуры, сформировали своеобразное наследие, проявившееся в зодчестве и художественном творчестве. Данное взаимопроникновение культур послужило фундаментом для дальнейшего прогресса городов, превратившихся не только в центры торговли, но и в пристанище для мыслителей и ученых. С уверенностью можно констатировать, что современная узбекистанская идентичность зародилась на пересечении этих могущественных империй, что обусловило многогранность её культурного достояния и насыщенную историю.

Влияние Греко-Бактрийского царства заметно и в танцевальном искусстве региона. Интеграция эллинских и автохтонных обычаев способствовала формированию самобытных танцевальных стилей. В них эллинские компоненты, в частности, акцент на жестикуляции и экспрессии, сочетались с восточными ритмическими рисунками и музыкальными мотивами. Данное культурное взаимообогащение послужило фундаментом для последующей эволюции хореографического искусства в данной местности.

Влияние этих древних империй на современный узбекский танец можно увидеть в богатом разнообразии стилей и техник, которые продолжают развиваться и адаптироваться. Местные танцы часто включают элементы, вдохновленные персидскими и греческими традициями, что создает яркое и динамичное представление культурного наследия.

В античности, особенно в эпоху империи Ахеменидов и последующий эллинистический период, танец играл значительную и многофункциональную роль как в религиозном, так и в социальном контексте, обогащая культурную жизнь общества. Танец не был лишь средством самовыражения; он служил важной связующей нитью, как в духовной сфере, так и в общественных отношениях. [5,2023:С.50]

Танцоры в древности часто рассматривались как:

- *Духовные посредники*: В рамках храмовых ритуалов древности танец играл роль неотъемлемого элемента религиозной коммуникации. Через синкретическое сочетание движения, костюма, ритма и символизма исполнители обращались к божественному, стремясь вызвать благосклонность высших сил. Танцоры, облачённые в ритуальные одежды и выполняющие тщательно закодированные хореографические формы, становились живыми иконами мифологического нарратива. Такие действия не только структурировали сакральное пространство, но и создавали эмоциональные мосты между индивидуальным и коллективным религиозным переживанием.

- *Культурные послы:* С расширением торгово-культурных маршрутов, таких как Великий Шёлковый путь, фигура танцора обрела новое значение — уже не только как носителя ритуальной функции, но и как культурного посла. Переходя из одного региона в другой, танцоры адаптировали и переосмысляли стилистику соседних традиций — будь то вавилонские пластические формы, эллинская ритмика или индийская символика. Таким образом, они становились живыми "переводчиками" смыслов, осуществляя культурный синтез на телесном уровне.

Этот процесс привёл к формированию межрегионального художественного языка, в котором танец стал универсальным кодом межкультурного взаимопонимания. Археологические находки — в том числе фрески, мозаики и статуэтки — подтверждают высокую степень социальной и эстетической значимости танцоров. Их изображают в ярко декорированных костюмах, часто с использованием золота, перьев и драгоценных тканей — как воплощение идеи праздника. [6,2018:C.14]

Эти образы показывают, как танец являлся неотъемлемой частью общественной жизни, демонстрируя не только артистические способности, но и статус танцоров, которые были неотступными участниками праздников, торжеств и важных обрядов. Костюмы танцоров, зачастую украшенные драгоценными камнями и сложной вышивкой, служили символами их таланта и преданности искусству, а также подчеркивали значимость танца как важнейшего элемента культурного наследия этого времени.

В эпоху Средневековья, когда Шахрисабз и Китаб превратились в значимые центры ремесленничества и торговли, танцевальное искусство обогатилось новыми формами, проникая в культуру двора и ремесленных гильдий. На страницах в записях арабских и персидских путешественников IX–XII столетий, в частности, у Аль-Мукаддаси и Насира Хосрова можно найти интересные писания о культурном пространстве того времени. Они оставили описания выступлений танцоров, облаченных в сверкающие наряды, которые сопровождались звучанием национальных музыкальных инструментов. Эти свидетельства указывают на то, что танец стал инструментом демонстрации социального положения, эстетических предпочтений и уровня культурного развития местной знати.

Существенное влияние на формирование облика танцора оказывали костюм и пластическая выразительность. Женский образ на сцене в Кашкадарье выделяется использованием массивных ярких украшений, многослойных тканей, а также выразительных жестов и поз, призванных подчеркнуть символическое значение танца. В свою очередь, мужские танцы отличаются большей динамичностью и состязательным духом, отображая черты воина и охотника, что особенно свойственно для племенных сообществ, проживавших в горных регионах.

В заключение, следует отметить, что танец в древних цивилизациях на территории современного Узбекистана был не просто развлечением или способом выразить свои чувства. Его роль была гораздо значительнее и включала в себя множество аспектов: от священного ритуала, устанавливающего связь с высшими силами, до средства общения между культурами и демонстрации социального статуса. Танцоры были не только носителями древних знаний, но и посредниками между разными культурами во времена активного обмена идеями, а также символами единства общества.

Их участие в обрядах, праздниках и церемониях показывало, насколько искусство было интегрировано в повседневную и религиозную жизнь, и подчеркивало их важность в формировании и передаче культурных ценностей. Роскошные наряды служили не только украшением, но и знаком признания, мастерства и культурной значимости. Таким образом, танец был важной частью социальной структуры, отражая не только художественные, но и духовные, идеологические и личностные аспекты времени.

Образ танцора в контексте художественного и социального наследия Узбекистана представляет собой синтез эстетики, духовности и национальной идентичности. Танец испокон веков был не только формой искусства, но и способом передачи культурных ценностей, исторической памяти и коллективного самосознания. Через богатство костюмов, жестов и ритуальных движений танцоры выражали идеалы красоты, гармонии и уважения к традициям. Сегодня этот образ сохраняет свою значимость, оставаясь живым символом культурного кода узбекского народа.

Литература:

1. Murodova D., Nortojiyeva Z. Qashqadaryo viloyati aholisi migratsion harakatining hududiy jihatlari // Ученый XXI века. №2 (83), 2022.
2. Panjiyev, Q. O ‘zbek xalq qo ‘shiqchilik ijodi tasnifi (O‘zbek milliy raqs san’ati)// Nordic Academic Materials Proceedings.Том 2 № 0002. 2024.
3. Авдеева Л. «Из истории узбекского национального танца» — Ташкент, 2001.
4. Арифханова З.Х., Абашин С.Н., Алимова Д.А. Узбеки- (Народы и культуры). // Ин-т этнологии и антропологии им. Н.Н. Миклухо-Маклая РАН; Ин-т истории АН Республики Узбекистан. - М.: Наука, 2011.
5. Кокорина Е.Г., Пасекова А.А. Теоретические аспекты изучения танцевальных традиций как нематериального культурного наследия // Медиа Вектор. 2023.
6. Хакимов А. Искусство Узбекистана на рубеже столетий: стратегия выбора и особенности поэтики// Editor New. Issue #2, 2018.

UDK 004.1:004.8:658.7

IQTISODIYOT TARMOQLARIDAGI KECHIKISHLARNI ANIQLASH VA PROGNOZLASHDA KVANT SUN’IY INTELLEKT MODELLARIDAN FOYDALANISH

A.X. Sayidqulov
(saidqulov98@bk.ru, +998937286867)
O.N. Avazov
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Kalit so‘zlar: Quantum Machine Learning, zaxira tanqisligi, QSVM, QNN, ta’minot zanjiri, regressiya, prognozlash modellari.

Annotatsiya. Mahsulotlar ta’minotida yuzaga keladigan tanqisliklar (stockout) nafaqat savdo samaradorligini pasaytiradi, balki mijozlar ehtiyojini qondirishga ham jiddiy to‘siq bo‘ladi. Ushbu holatlarni erta aniqlash ta’minot tizimining uzluksizligi va resurslardan samarali foydalanish uchun muhim hisoblanadi. So‘nggi yillarda an’anaviy bashoratlash algoritmlariga qaraganda, **kvant sun’iy intellekt (QAI)** modellarining – xususan, **Quantum Support Vector Machine (QSVM)** va **Quantum Neural Network (QNN)** algoritmlarining – hisoblash samaradorligi va bashorat aniqligi jihatidan ustunligi kuzatilmoqda. Mazkur tadqiqot doirasida **Quantum Machine Learning** yondashuvlari asosida regressiya modellaridan foydalanilib, mahsulot kechikish ehtimoli oldindan prognoz qilindi. Real savdo tizimidan olingan amaliy ma’lumotlar asosida o‘tkazilgan eksperimentlarda, **QNN modelining** RMSE va R^2 ko‘rsatkichlari bo‘yicha klassik modellarga nisbatan ustun natijalar qayd etgani aniqlangan. Ushbu holat QML modellarining ta’minot zanjiridagi murakkab, ko‘p o‘lchamli ma’lumotlar ustida yuqori aniqlikda ishlash imkoniyatini tasdiqlaydi.

Kirish. Raqamli transformatsiya sharoitida iqtisodiyot va sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi zamonaviy korxonalarni o‘z faoliyatini ma’lumotlarga asoslangan strategik boshqaruvga o‘tkazishga undamoqda. Ayniqsa, ta’minot zanjirini samarali boshqarish, ombor zaxiralarini optimallashtirish hamda bozor talabini aniq prognoz qilish zamonaviy kompaniyalar uchun raqobatbardosh ustunlikni ta’minlovchi asosiy omillardan biriga aylanmoqda. Biroq, talabning noto‘g‘ri baholanishi korxonalarni mahsulot tanqisligi (stockout) holatlari bilan yuzlashtirib, bu holat o‘z navbatida moliyaviy yo‘qotishlar, mijozlar ishonchining susayishi va bozor ulushining kamayishiga olib keladi.

2023-yilda **McKinsey & Company** tomonidan e’lon qilingan global tahlil natijalariga ko‘ra, kompaniyalarda talabni noto‘g‘ri bashorat qilish 10–30 foizgacha daromad yo‘qotilishiga sabab bo‘lmoqda

[1]. Bu muammo ayniqsa logistika tizimining murakkab strukturasida, talab yuqori darajada o‘zgaruvchan bo‘lgan bozorlarda, hamda real vaqtli ma’lumotlar oqimi cheklangan sharoitlarda yanada kuchayadi. Global pandemiyalar, iqtisodiy beqarorlik, geosiyosiy tahdidlar va xomashyo ta’minotidagi uzilishlar mahsulot yetishmovchiligi xavfini yanada oshirayotgan asosiy tashqi omillardandir.

An’anaviy bashorat modellari, jumladan **ARIMA**, klassik regressiyalar yoki **LSTM** kabi chuqur o‘rganuvchi neyron tarmoqlar, vaqt qatorlaridagi aniq tendensiyalarni aniqlashda ma’lum darajada foyda bersa-da, real savdo muhitining murakkab, tartibsiz va noaniq xatti-harakatlarini to‘liq modellashtira olmaydi. Ushbu usullar ko‘pincha katta hisoblash resurslarini talab qiladi, takroriy o‘rgatish (retraining) jarayoni sekin kechadi hamda **overfitting** yoki **underfitting** muammolariga duch keladi. Shuningdek, ular yuqori o‘lchovli fazoda (high-dimensional space) joylashgan ma’lumotlar ustida samarali ishlashga qodir emas [2].

Shu sababli, so‘nggi yillarda **Quantum Machine Learning (QML)** modellariga bo‘lgan qiziqish sezilarli darajada oshdi. Kvant hisoblashning eksponensial ustunligi tufayli, ushbu modellar katta hajmli, murakkab bog‘liqliklarga ega bo‘lgan iqtisodiy ma’lumotlar to‘plami ustida tahlil va bashoratlarni yuqori aniqlikda amalga oshirish imkonini beradi [3]. Ayniqsa, **Quantum Support Vector Machine (QSVM)** va **Quantum Neural Network (QNN)** kabi algoritmlar klassik muqobillariga nisbatan hisoblash samaradorligi va prognoz aniqligi jihatidan sezilarli ustunlikka ega ekani ilmiy manbalar orqali isbotlangan [4].

Ushbu tadqiqot doirasida real savdo ko‘rsatkichlari asosida qurilgan modellar orqali **QSVM** va **QNN** algoritmlarining MAE, RMSE va R^2 kabi standart baholash mezonlari bo‘yicha ishlash samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot faqat model aniqligini aniqlash bilan chegaralanmay, balki kvant algoritmlarining iqtisodiy amaliyotda qo‘llanilish imkoniyatlarini ham ko‘rsatadi. Ushbu yondashuv Quantum Machine Learning texnologiyalarining real biznes muammolarini hal qilishdagi ustunliklarini amaliy misolda namoyish etuvchi ishonchli dalil sifatida xizmat qiladi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda tahlil qilingan ma’lumotlar to‘plami quyidagi ustunlardan iborat: day, month, year, product_id, agent_id, unit_price va quantity_sold. Har bir yozuv real savdo faoliyatini kunlik kesimda aks ettiradi va mahsulot-agent juftligi doirasida amalga oshirilgan tranzaksiyani ifodalaydi.

Bashorat qilinadigan asosiy **nishon o‘zgaruvchi** — bu quantity_sold, ya’ni mahsulotga bo‘lgan kundalik talab hajmi. Modelning asosiy vazifasi — ushbu miqdorni kelajak uchun prognozlash va uni mavjud zaxira bilan taqqoslab, ehtimoliy **stockout** (yetishmovchilik) holatini aniqlashdan iborat.

Ma’lumotlar dastlab **normalizatsiya** qilingan bo‘lib, barcha xususiyatlar bir xil miqyosga keltirildi. So‘ngra Quantum Machine Learning modeliga moslash uchun, ular **amplituda kodlash (amplitude encoding)** texnikasi orqali kvant holatlarga o‘tkazildi. Ushbu kodlash turi yordamida klassik vektor ma’lumotlar kvant sistemadagi amplitudalarni ifodalovchi ketma-ketlikka o‘tkaziladi.

Agar modelga kiritilayotgan **xususiyatlar soni** d bo‘lsa, bu xususiyatlar kvant holatga to‘liq o‘tkazilishi uchun zarur bo‘lgan **qubitlar soni** quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$n = \lceil \log_2 d \rceil \qquad (1)$$

Ushbu tadqiqotda model sifatida ikkita ilg‘or **Quantum Machine Learning (QML)** algoritmi sinovdan o‘tkazildi:

- **Quantum Support Vector Machine (QSVM)** — bu model kvant kernel yondashuviga asoslanadi. Unda klassik xususiyatlar kvant holatlarda ifodalanadi va **FidelityQuantumKernel** yordamida ular o‘rtasidagi o‘xshashlik darajasi **feydelik (fidelity)** orqali aniqlanadi. Bu orqali **kernel matritsasi** shakllantirilib, kvant fazodagi ma’lumotlar orasidagi strukturaviy bog‘liqliklar aniqlanadi:

$$K(x, x') = \left| \langle \psi(x) | \psi(x') \rangle \right|^2$$

Quantum Neural Network (QNN) — bu model **variatsion kvant qatlamlar** asosida tashkil etilgan bo‘lib, u parametrik darajadagi transformatsiyalarni o‘z ichiga oladi. Tarmoqning chiqishi **Pauli-Z operatori** yordamida o‘lchanadi:

$$\hat{y} = \langle \psi(\theta) | Z | \psi(\theta) \rangle$$

Modelni o‘qitish bosqichida **MSE (Mean Squared Error)** yo‘qotish funksiyasi va **SPSA (Simultaneous Perturbation Stochastic Approximation)** optimallashtirish algoritmidan foydalanildi [4].


Modelning ishlash samaradorligi **MAE** (o‘rtacha absolut xatolik), **RMSE** (kvadrat ildizdagi o‘rtacha kvadrat xatolik) va **R^2** (determinatsiya koeffitsienti) kabi statistik baholash mezonlari asosida tahlil

qilindi. Ushbu ko‘rsatkichlar model prognozlarining aniqligi, xatolik darajasi va haqiqiy ma’lumotlarga qanchalik mos tushishini baholash imkonini beradi:

1-jadval. Model baholash natijalari


Model	MAE	RMSE	R² Score
QNN	0.0283	0.0031	0.9272
QSVM	0.7362	1.069	-0.1438

Jadvalda keltirilgan natijalar shuni ko‘rsatadiki, **Quantum Neural Network (QNN)** modeli barcha asosiy baholash mezonlari bo‘yicha **barqarorlik** va **yuqori aniqlik** ko‘rsatgan. Xususan, **MAE** va **RMSE** qiymatlarining past bo‘lishi model prognozlarining haqiqiy natijalarga juda yaqin ekanini, ya’ni **xatolik darajasining minimal** ekanini bildiradi. Bundan tashqari, **R² ko‘rsatkichi 0.92 dan yuqori** bo‘lgani — model tomonidan tushuntirilgan dispersiya ulushi juda katta ekanligini anglatadi. Bu esa, o‘z navbatida, **QNN modelining real ma’lumotlarga yuqori darajada mos tushganini** va uni amaliy bashorat vazifalarida ishonchli vosita sifatida ishlatish mumkinligini ko‘rsatadi.



1-rasm. Random Forest modeli asosida test to‘plamida olingan prognoz natijalari grafigi

Bundan tashqari, yaratilgan modellar asosida **har bir mahsulot–agent–oylik kombinatsiyasi bo‘yicha ehtimoliy kechikish holatlari soni oldindan prognoz qilindi**. Ushbu prognoz natijalari mavjud real kuzatuvlar bilan **empirik tarzda solishtirildi** va aniqlik darajasi baholandi. Tahlil natijalari **ta’minot tizimi uchun erta ogohlantirish (early warning) mexanizmini shakllantirish**ga imkon berdi, bu esa operativ boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish va zaxiralar yetishmovchiligining oldini olishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.



2-rasm. Gradient Boosting modeli yordamida test to‘plamining natija grafigi

Xulosa. Mazkur tadqiqotda mahsulot yetishmovchiligi (stockout) holatlarini oldindan aniqlash vazifasida **Quantum Machine Learning (QML)** algoritmlarining amaliy qo‘llanilishi o‘rganildi. An’anaviy regressiya modellaridan farqli o‘laroq, QML modellar — xususan, **Quantum Neural Network (QNN)** va **Quantum Support Vector Machine (QSVM)** — yuqori o‘lchamli ma’lumotlar fazosida murakkab nolinear munosabatlarni ifodalash, eksponensial hisoblash quvvatidan foydalanish kabi afzalliklari bilan ajralib turadi.

Tadqiqot davomida real savdo ma’lumotlari asosida qurilgan QNN va QSVM modellarining samaradorligi baholandi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ayniqsa QNN modeli **RMSE** va **MAE** mezonlari bo‘yicha an’anaviy modellarga raqobatchi bo‘la oladigan, ba’zan esa ustun ishlash ko‘rsatkichlarini namoyon etdi. Bu esa kvant yondashuvlarining amaliy iqtisodiy modellashtirishda istiqbolli yo‘nalish ekanini tasdiqlaydi.

QNN modelining **variatsion parametrli arxitekturasi**, kvant fazodagi **interferensiya** va **chigal holatlar (entanglement)** kabi xususiyatlari murakkab regressiya vazifalarini aniqlik bilan bajarish imkonini berdi. Shuningdek, ayrim hollarda **R^2 ko‘rsatkichi** klassik modellarnikiga teng yoki past bo‘lgan bo‘lsa-da, bu holat asosan **resurs cheklangan simulyator** sharoitida o‘qitilgan model bilan bog‘liq. Kutilishicha, haqiqiy kvant qurilmalarida ushbu modellarni ishga tushirish orqali ularning samaradorligi yanada ortadi va yanada keng ko‘lamli iqtisodiy tizimlarda qo‘llanilishi mumkin bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. McKinsey & Company (2023). The State of AI in 2023. www.mckinsey.com
2. Schuld, M., Sinayskiy, I., & Petruccione, F. (2015). An Introduction to Quantum Machine Learning. *Contemporary Physics*, 56(2), 172–185.
3. Biamonte, J., et al. (2017). Quantum machine learning. *Nature*, 549(7671), 195–202.
4. Mitarai, K., et al. (2018). Quantum circuit learning. *Physical Review A*, 98(3), 032309.
5. Havlíček, V., et al. (2019). Supervised learning with quantum-enhanced feature spaces. *Nature*, 567(7747), 209–212.
6. Zhang, G., Eddy Patuwo, B., & Hu, M. Y. (1998). Forecasting with artificial neural networks: The state of the art. *International Journal of Forecasting*, 14(1), 35–62.

UDK: 004.8:658.7

TA’MINOT ZANJIRIDA MAHSULOT YETKAZIB BERISHDAGI UZILISHLARNI OLDINDAN ANIQLASH VA PROGNOZ QILISHDA ANSAMBL SUN’IY INTELLEKT YONDASHUVLARIDAN FOYDALANISH

A.X. Sayidqulov
(saidqulov98@bk.ru, +998937286867),
O.N. Avazov
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Kalit so‘zlar: ta’minot tizimi, kechikish prognozi, sun’iy intellekt, ansambl algoritm, regressiya modeli, Random Forest, Gradient Boosting

Annotatsiya. Zamonaviy ta’minot tizimlarida mahsulotlarning o‘z vaqtida yetkazilmasligi, ya’ni uzilish holatlari mijozlar noroziligi, daromadning kamayishi va raqobat kuchining pasayishiga sabab bo‘lmoqda. Mazkur tadqiqotda sun’iy intellekt asosidagi ansambl regressiya modellaridan — xususan, Random Forest va Gradient Boosting algoritmlaridan foydalangan holda mahsulot yetkazib berishdagi kechikish ehtimolini aniqlash metodikasi ishlab chiqildi. Modellar real savdo ko‘rsatkichlariga asoslangan holda o‘qitildi va ular MAE, RMSE hamda R^2 ko‘rsatkichlari orqali baholandi. Tahlil natijalari shuni anglatadiki, ansambl yondashuvlar kechikish xavfini aniqlashda yuqori aniqlik hamda barqarorlikni ta’minlab, qaror qabul qiluvchi subyektlarga ombor zaxiralarini samarali boshqarishda yordam beradi.

Kirish. Mahsulotlarni o‘z vaqtida taqdim etish bugungi logistika va ta’minot tizimlarining eng muhim talablaridan biridir. Statistika shuni ko‘rsatadiki, global miqyosda har yili milliardlab dollarlik mahsulotlar zaxiralarning mavjud emasligi yoki yetkazib berishdagi kechikishlar sababli yo‘qotilmoqda [1]. Bu muammo "stockout" deb ataladi va u asosan noto‘g‘ri rejalashtirish, talabni noto‘g‘ri baholash hamda yetkazishdagi uzilishlar natijasida yuzaga keladi [2].

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt texnologiyalarining, ayniqsa, ansambl modellarining qo‘llanilishi murakkab tizimlarni aniqlik bilan modellashtirish imkonini bermoqda [3]. Random Forest va Gradient Boosting algoritmlari esa ko‘plab iqtisodiy tarmoqlarda, jumladan, ta’minot zanjirlaridagi xatarlarni tahlil qilishda keng tatbiq etilmoqda [4].

Mazkur maqolada real savdo ma’lumotlari asosida mahsulot yetkazib berishdagi kechikish ehtimolini baholovchi sun’iy intellekt modellarini ishlab chiqish va ularni qarorlarni qo‘llab-quvvatlash vositasi sifatida qo‘llash taklif qilinadi.

Metodologiya. Tadqiqot uchun asos bo‘lgan ma’lumotlar to‘plami bir necha oylik real savdo va buyurtma yozuvlarini qamrab olgan. Har bir yozuv quyidagi atributlardan iborat: sana (kun, oy, yil), mahsulot ID, agent ID, mahsulot toifasi, haftaning kuni, bayram indikatori, mahsulot narxi va sotilgan miqdor (quantity_sold).

Model sifatida ikkita kuchli ansambl regressiya yondashuvi tanlandi:

Random Forest Regressor – bu tasodifiy tarzda yaratilgan qaror daraxtlari ansamblidan iborat bo‘lib, ortiqcha o‘rganishni cheklab, yuqori umumlashtirish (generalizatsiya) salohiyatini ta’minlaydi [5];

Gradient Boosting Regressor – bu bosqichma-bosqich quriladigan model bo‘lib, har bir yangi model avvalgi model xatolarini kamaytirishga qaratilgan [6].

Modelni o‘qitish jarayonida asosiy maqsad — quantity_sold ustunidagi qiymatlarni aniq prognozlash bo‘ldi. Ushbu prognoz natijalari mavjud resurslar — ya’ni ombordagi ta’minot hajmi bilan solishtirildi. Agar bashorat qilingan talab real mavjud zaxiradan yuqori bo‘lsa, bu ehtimoliy kechikish holati sifatida belgilanadi. Shunday qilib, kechikishlar avtomatik tarzda aniqlanadi.

Modellarning ishlash samaradorligi quyidagi uchta asosiy mezon bilan baholandi:

MAE (Mean Absolute Error) – prognoz bilan real qiymat o‘rtasidagi o‘rtacha mutlaq farqni o‘lchaydi;

RMSE (Root Mean Squared Error) – kvadrat xatoliklarning ildiz ostidagi o‘rtacha qiymati orqali aniqlikni baholaydi, ayniqsa katta og‘ishlarga sezgir;

R^2 Score – modelning umumiy dispersiyani qanday darajada izohlab bera olishini ifodalaydi. R^2 qiymati 1 ga yaqin bo‘lsa, model mukammal ishlaydi, aks holda – past natijalar modelni qayta ko‘rib chiqish zarurligini bildiradi.

Natijalar. Baholash natijalariga ko‘ra, tanlangan ansambl modellari mahsulot kechikishlarini aniqlashda yuqori aniqlik va barqarorlik ko‘rsatdi. Quyidagi 1-jadvalda ushbu modellar bo‘yicha MAE, RMSE va R^2 qiymatlari keltirilgan.


1-**jadval. Ansambl regressiya modellarining mahsulot yetkazib berishdagi kechikishlarni aniqlash bo‘yicha natijalari**

Model	MAE	RMSE	R^2 Score
Random Forest Regressor	0.0012	0.0050	0.9522
Gradient Boosting	0.0009	0.0037	0.9746

Ushbu eksperimental natijalar Random Forest va Gradient Boosting modellarining mahsulot yetkazib berishdagi kechikishlarni aniqlashda yuqori aniqlik va barqaror ishlash salohiyatiga ega ekanligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, **Gradient Boosting regressori** 0.0037 qiymatdagi **RMSE** ko‘rsatkichi bilan minimal xatolik darajasini namoyon etdi, bu esa model prognozlari bilan real o‘lchovlar orasidagi tafovut deyarli yo‘qligini bildiradi. Shuningdek, **MAE** qiymatining 0.0009 bo‘lishi bu model kechikish miqdorini aniq identifikatsiya qilganini ko‘rsatadi.


Random Forest regressori esa RMSE 0.0050 va MAE 0.0012 ko‘rsatkichlari bilan nisbatan pastroq aniqlikda ishlagan bo‘lsa-da, u ham izchil va barqaror natijalarni taqdim etdi. Har ikki modelda **R^2 (determinatsiya koeffitsienti)** tegishli ravishda 0.9522 va 0.9746 ni tashkil etdi, bu esa modellar ma’lumotlardagi umumiy o‘zgaruvchanlikning 95–97 foizini muvaffaqiyatli tushuntirganini anglatadi. Bu kabi ko‘rsatkichlar, ayniqsa dinamik savdo sharoitida mahsulotga bo‘lgan talabni baholash hamda ehtimoliy tanqislik holatlarini oldindan prognoz qilishda modellar ishonchli vosita bo‘lib xizmat qilishini bildiradi.

Xulosa qilib aytganda, Gradient Boosting algoritmining ansambl arxitekturasi — ya’ni har bir yangi model avvalgi modeldagi xatolarni bartaraf etishga qaratilgani — uni murakkab, noaniqliklar bilan to‘la iqtisodiy ma’lumotlar ustida yuqori aniqlikda ishlash imkoniyatiga ega qiladi. Shu sababli, aynan ushbu model real biznes muhitida, xususan zaxiralarning yetishmovchiligini oldindan aniqlashda samarali vosita sifatida tavsiya etilishi mumkin.



1-rasm. Random Forest modeli asosida test to‘plamiga nisbatan olingan prognoz natijalari grafigi

Shuningdek, ishlab chiqilgan modellar yordamida **har bir mahsulot-agent-oy kombinatsiyasi bo‘yicha ehtimoliy kechikish holatlari prognoz qilindi** va ular amaldagi real vaziyatlar bilan taqqoslandi. Ushbu yondashuv asosida **boshqaruv tizimi uchun erta ogohlantirish (early warning) mexanizmini shakllantirish imkoniyati yaratildi**, bu esa zaxiralarni yanada samarali boshqarish va risklarni oldindan aniqlashga xizmat qiladi.



2-rasm. Gradient Boosting modeli asosida test ma’lumotlari to‘plamida olingan prognoz natijalari grafigi.

Xulosa. Savdo zanjirida mahsulot yetkazib berishdagi kechikishlarni aniqlash hamda ularni oldindan prognozlash masalasi iqtisodiy tizimning barqarorligini saqlab qolish va iste’molchi talabini to‘liq qondirish nuqtayi nazaridan strategik ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot doirasida ansambl sun’iy intellekt algoritmlari asosida kechikish holatlarini aniqlash va baholash bo‘yicha yangi yondashuvlar ishlab chiqildi.

Random Forest va Gradient Boosting modellarining eksperimental natijalari ularning yuqori darajadagi prognoz aniqligi va barqaror ishlash qobiliyatini ko‘rsatdi, bu esa ularni real biznes amaliyotida muvaffaqiyatli joriy etish imkonini tasdiqlaydi. Ayniqsa, bu modellar asosida mahsulotga bo‘lgan talabni aniqlab, ombordagi zaxira yetishmovchiligi xavfini oldindan baholash imkoniyati yaratiladi.

Modellar baholash ko‘rsatkichlari orqali o‘tkazilgan taqqoslamali tahlil ularning ishonchliligini hamda turli savdo sharoitlarida qo‘llashga yaroqliligini tasdiqladi. Taklif etilayotgan tizim omborlarni samarali boshqarish, ta’minot zanjirini rejalashtirish va mijozlarga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq operatsion qarorlarni optimallashtirishda muhim funksiyani bajaradi.

Kelgusida ushbu tizimni avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish modullari bilan integratsiya qilish, foydalanuvchi uchun qulay grafik ogohlantirish interfeysi bilan to‘ldirish rejalashtirilmoqda. Bundan tashqari, modellarni real vaqt rejimida kelayotgan ma’lumotlar asosida doimiy o‘rgatish va o‘zini-o‘zi moslashtira oladigan (self-adaptive) intellektual tizimga aylantirish istiqbolli yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Chopra, S., & Meindl, P. (2016). *Supply Chain Management: Strategy, Planning, and Operation*. Pearson Education.

2. Simchi-Levi, D., Kaminsky, P., & Simchi-Levi, E. (2007). *Designing and Managing the Supply Chain*. McGraw-Hill.
3. Breiman, L. (2001). Random forests. *Machine Learning*, 45(1), 5–32.
4. Friedman, J. H. (2001). Greedy function approximation: A gradient boosting machine. *Annals of Statistics*, 29(5), 1189–1232.
5. Biau, G., & Scornet, E. (2016). A random forest guided tour. *Test*, 25(2), 197–227.
6. Chen, T., & Guestrin, C. (2016). XGBoost: A scalable tree boosting system. *Proceedings of the 22nd ACM SIGKDD*, 785–794.
7. Zhang, Y., & Zheng, Y. (2019). Data-driven stockout detection and prediction using machine learning. *Journal of Retailing and Consumer Services*, 51, 223–231.
8. Achar, A., et al. (2022). Demand Forecasting using Ensemble Learning. *Procedia Computer Science*, 199, 1267–1274.
9. Tan, X., et al. (2020). AI-enabled inventory prediction and replenishment system. *IEEE Access*, 8, 45144–45156.
10. Li, C., et al. (2021). Time Series Forecasting for Inventory Planning: A Machine Learning Approach. *Computers & Industrial Engineering*, 154, 107099.

NOSIRXON TO‘RA KAMOLXON TO‘RA O‘G‘LI: JADIDCHILIK HARAKATI, TURKISTON MUXTORIYATI VA MUSTAMLAKACHILIKKA QARSHI KURASH

D.I.Xomidov
Andijon davlat universiteti tuzilmasidagi Qatag’on qurbonlari xotirasi muzeyi ekskursovodi

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadidchilik harakati yetakchilaridan biri bo‘lgan Nosirxon To‘ra Kamolxon To‘ra o‘g‘lining hayoti, siyosiy faoliyati va Turkiston Muxtoriyati davridagi o‘rni, 1929–30-yillarda mustaqillik uchun qo‘zg‘olon ko‘tarishi yoritilgan. Maqolada uning ilm-fan rivojiga qo‘shgan hissasi, jadid matbaachiligidagi faoliyati, 1917-yil Fevral inqilobi va Turkiston Muxtoriyatining tashkil topishida tutgan o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, 1920–1930-yillardagi sovet qatag‘onlari davrida milliy ozodlik harakatidagi ishtiroki va qo‘zg‘olonlarga rahbarlik qilishi ham o‘rganilgan. Nosirxon To‘raning ijtimoiy-siyosiy faoliyati Turkiston xalqlarining milliy o‘zligini tiklash va mustamlakachilikka qarshi kurash tarixida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar. Nosirxon To‘ra, jadidchilik harakati, Turkiston Muxtoriyati, milliy ozodlik harakati, “bosmachilik”, sovet qatag‘onlari, tarix.

Аннотация. В данной статье рассматривается жизнь и политическая деятельность одного из лидеров джадидского движения — Насирхана Туры Камалханюряева. Освещается его вклад в развитие науки, деятельность в сфере джадидской печати, роль в событиях Февральской революции 1917 года и создании Туркестанской автономии. Анализируется его участие в национально-освободительном движении в 1920–1930-е годы, руководство вооружёнными восстаниями и борьба с колониальной политикой советской власти. Политическая и просветительская деятельность Носирхона Туры занимает значительное место в истории возрождения национальной идентичности народов Туркестана.

Ключевые слова. Насирхан Тура, джадидское движение, Туркестанская автономия, национально-освободительное движение, басмаческое движение, советские репрессии, история.

Annotation. This article explores the life and political career of Nosirkhon To‘ra Kamolkhon To‘ra og‘li, one of the prominent leaders of the Jadid movement. It highlights his contributions to education and publishing, his role during the February Revolution of 1917, and his participation in the establishment of the Turkestan Autonomy. The study also examines his involvement in the national liberation movement during the 1920s–1930s, his leadership of armed uprisings, and his resistance to Soviet colonial policies. Nosirkhon To‘ra’s political and intellectual activities hold a significant place in the history of Turkestan’s struggle for national identity and independence.

Keywords. Nasirkhan Tora, Jadid movement, Turkestan Autonomy, national liberation movement, Basmachi movement, Soviet repressions, history.

Namangan jadidlarining sarvari, milliy istiqlol kurashi tashkilotchilaridan bir Nosirxon to‘ra

Kamolxon to‘ra o‘g‘li 1871-yilda (ba’zi manbalarda 1873-yil deb ko‘rsatiladi) Namangan viloyatining Kosonsoy qishlog‘ida tavallud topgan. Nosirxon to‘raning tug‘ilgan sanasini aniqlashda, ayniqsa, 1930-yilgi tergov jarayonida uning yoshi 56 deb ko‘rsatilganini ham hisobga olish muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Bu esa mavjud manbalarni solishtirish va tarixiy-biografik ma’lumotlarni aniqlashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Nosirxon to‘ra o‘z zamonasining yetuk olimi Said Kamolxon to‘ra oilasida tug‘ilgan. Dastlab otasi qo‘lida ta’lim olgan, keyin Buxoro madrasasida tahsil ko‘rgan va 1913-yilda diniy ta’limni tugatib, haj ibodatini ado etgan. Vatanga qaytgach, Namangandagi Mavlaviy va Mulla Qirg‘iz (hozirgi “Hidoya”) madrasalarida mudarrislik qilgan, Namangan shahar qozisi lavozimida faoliyat yuritgan. 1913-yildan boshlab Farg‘ona vodiysida jadidchilik harakatining yozma merosini targ‘ib qilgan va otasining bosmaxonasi orqali jadid asarlarini nashr etishda faol ishtirok etgan.

Chet mamlakatlarda yashagan davrida u Vatan taraqqiyotiga oid masalalarga ilmiy asos bilan yondashgan. Ayniqsa, uning dunyoqarashining shakllanishida Turkiyada yuzaga kelgan “Yosh turklar” harakatining g‘oyalari, Qohira va Tehron shaharlaridagi ijtimoiy-siyosiy muhit hamda Hijoz mintaqasidagi islohotparvar oqimlarning g‘oyaviy ta’siri muhim ahamiyat kasb etgan[Эркτурк. 1992: B.20-22].

Ta’kidlash lozimki, XX asr boshlarida o‘lkamizda jadid matbaachiligi rivojlanishi murakkab sharoitlarda kechgan. Jumladan, Buxoroda 1905-yilgacha jadid matbaasining ta’siri va ahamiyati ancha cheklangan edi. Samarqandda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Qo‘qonda Obidjon Mahmud (1901–1902-yillarda isloh maktablari tashkil etgan), Toshkentda Munavvar qori, Namangan va Farg‘onada Nosirxon to‘ra kabi jadid ziyolilarining sa’y-harakatlariga qaramasdan, matematika, til, tarix, tabiiy fanlar hamda gigiyena yo‘nalishidagi zamonaviy darsliklar yetarli emas edi.

Nosirxon to‘ra faoliyatini yaqindan bilgan zamondoshlari tomonidan maxfiy xizmat organlariga taqdim etilgan ma’lumotlarda qayd etilishicha, u Rossiya imperiyasi davridayoq islom ulamolari, mulkdorlar va keng jamoatchilik orasida katta obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan. Shu bois, Farg‘ona vodiysida mustaqillik uchun harakat yetakchiligini o‘z oldiga maqsad qilgan shaxs sifatida ajralib turgan[Xomidov. 2025: B.17].

1917-yil Fevral inqilobidan so‘ng Rossiyada davlat tuzilishi masalasini hal etish maqsadida Butunrossiya Ta’sis majlisini (BTM) chaqirishga qaror qilingan edi. BTMga delegatlar saylov yo‘li bilan aniqlangan bo‘lib, Farg‘ona viloyatida o‘tkazilgan saylov natijasida birinchi ro‘yxatda “Muinul islom” jamiyati a’zolari ko‘rsatilgan. Ushbu ro‘yxatga Namangan shahridan to‘rt nomzod – Nosirxon to‘ra Kamolxon to‘ra o‘g‘li, Qodirxo‘ja Abdurazzoqxo‘jayev, Qalandarxo‘ja Valixo‘jayev va Abduqodir Abdullaboyev kiritilgan[2. B.17]. “Nomzodlarning Umumfarg‘ona ro‘yxati” deb nomlangan ikkinchi ro‘yxatda esa 13 nafar nomzod qayd etilgan bo‘lib, ulardan ayrimlari Rossiyaning Boku va Yelizavetpol hududlaridan ham taklif etilgan.

Turkiston o‘lkasi uchun jami 25 delegatlik o‘rin ajratilgan bo‘lsa-da, Sirdaryo oblasti va Amudaryo bo‘limlaridan delegatlar saylanmagan. Samarqand oblastidan esa 5 nafar delegat saylanib, umumiy hisobda 15 delegat, jumladan, Nosirxon to‘ra ham Ta’sis majlisi a’zoligiga saylangan[Xomidov. 2025: B.18].

Fevral inqilobi natijasida Rossiyada ikki hokimiyatchilik vujudga kelgan bo‘lsa, Turkiston o‘lkasida esa 3 hokimiyatchilik vujudga kelgan edi. Mavjud kuchlarning o‘zaro teng bo‘lmaganligi natijasida, 1917-yil Qo‘qon shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiston o‘lka musulmonlari kengashining IV qurultoyida Turkiston muxtoriyati e’lon qilindi. Farg‘onadagi jadidchilik harakati yetakchilaridan Ashur Ali Zohiriy fikricha, agar Nosirxon to‘ra Turkiston musulmonlarining IV favqulodda qurultoyini chaqirish tashabbusini o‘z zimmasiga olmaganida, ehtimol, mazkur qurultoy umuman chaqirilmasligi ham mumkin edi[Эркτурк. 1992: B.20-22].

Boymirza Hayitning ta’kidlashicha, bolsheviklar hokimiyat tepasiga kelgach, Turkiston Milliy Markazi Sho‘rosi o‘zining hududiy bo‘limlariga “Muxtoriyat e’lon qilinishi lozimmi yoki Turkistonning Rossiyadan ajralib chiqishi to‘g‘risida qaror qabul qilish kerakmi?” mazmunida telegraf so‘rovini yuborgan. Farg‘ona bo‘limi raisi Nosirxon To‘ra ushbu so‘rovga javoban: “Turkistonning Rossiyadan ajralib chiqishini tez orada e’lon qilish lozim”, deya qat’iy pozitsiyasini bildirgan. Garchi uning istiqlolchilik yo‘nalishidagi bu fikri qurultoy ishtirokchilari tomonidan qo‘llab-quvvatlanmagan bo‘lsa-da, masalaning yakuniy hal etilishi Turkiston qonun chiqaruvchi majlisi vakolatiga topshirilgan edi[Эркτурк. 1992: B.20-22].

Nosirxon To‘ra Kamolxon To‘ra o‘g‘li 1917-yil 15-dekabrda Turkiston Muxtoriyatining Xalq maorifi vaziri lavozimiga tayinlangan. Uning rahbarligida Turkiston Muxtoriyati Xalq maorifi vazirligi tomonidan boshlang‘ich maktablar tashkil etish va vaqf mulklaridan foydalanish bo‘yicha qonun loyihasi ishlab chiqilgan. Nosirxon to‘ra boshchiligida ruhoniylar fraksiyasi Turkistonda yangi usul — jadid

maktablarini joriy etishni ma’qullashga ko‘ndirilgan. Bundan tashqari, uning tashabbusi bilan Munavvarqori Abdurashidxonovning “Adibi avval” kitobini 500 000 nusxada nashr etib, keng miqyosda tarqatish to‘g‘risida qaror qabul qilingan[Bergne. 2003. B.39].

Nosirxon to‘ra Turkiston muxtoriyati majlislaridan birida quyidagi mazmundagi fikrlarni ilgari surgan: “Inson o‘zining johilligi sababli baxtsiz bo‘ladi, bilim esa insonni tinchlikparvar va baxtli qiladi. Haqiqiy bilimlarning yetishmasligi, savodsizlik va johillik Rossiyada bugungi kunda kuzatilayotgan vayronagarchilik, birodarkushlik va fuqarolik urushi sababi bo‘ldi. Shu bois barcha insonlar taraqqiyotga intilishi lozim. Xalqlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilash jarayonining boshlanishi va barcha ma’rifatli xalqlarning birlashuvi musulmonlarga shariat asosida taraqqiyotni amalga oshirish, o‘z qobiliyat va salohiyatini to‘liq namoyon qilish imkonini beradi. Mazkur yo‘l Turkiston uchun janubiy-sharqiy ittifoq hududidagi birodar musulmon xalqlari bilan yanada yaqinlashishga zamin yaratadigan ishonchli va tinch yo‘ldir. Natijada, Turkiston xalqlari tinch yo‘l bilan o‘z milliy-madaniy o‘zligini tiklab, yuksak ma’naviy barkamollik va farovonlikka erishishlari mumkin[Xomidov. 2025: B.19].

Turkiston muxtoriyati tashkil etilgan davrda Nosirxon to‘ra bir necha marotaba Namangan shahriga tashrif buyurib, ommaviy mitinglar uyushtirgan hamda yashil bayroqlar ko‘targan muxtoriyat tarafdorlarining namoyishlarini tashkil etgan. Ushbu namoyishlarda u tomonidan so‘zlangan ma’ruzalar vatanparvarlik kayfiyatlari bilan yo‘g‘rilgan. Farg‘ona vodiysida sovet hokimiyati o‘rnatilish jarayonida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy beqarorlikning bevosita guvohi bo‘lgan Nuritdin Alixo‘jayevning xotiralariga ko‘ra, 1918-yil oxirlarida Namangan shahri markazidagi Jome masjidida yangi hokimiyatga qarshi g‘azovot e’lon qilish maqsadida yig‘ilish tashkil etilgan bo‘lib, ushbu tadbirda Nosirxon To‘ra muhim rol o‘ynagan[Xomidov. 2025: B.20].

1924-yil avgust oyida Nosirxon To‘ra Kamolxon To‘ra o‘g‘lining barcha mulklari davlat foydasiga musodara qilindi. 1925-yil 10-iyulda esa Nosirxon To‘ra va Mirkatta Said Orif o‘g‘li uch yil muddatga O‘zbekiston hududidan surgun qilindi. Sayyid Nosirxon to‘ra Sayyid Kamolxon to‘ra o‘g‘li dastlab Samara shahriga, so‘ngra Orenburg shahriga yuborilib, surgun muddatini ushbu shaharlarda o‘tagan. 1928-yil avgust oyida surgundan qaytgan Nosirxon to‘ra Qo‘qon, Samarqand, Namangan, Chust, Avliyo Ota, Frunze, Marki va boshqa shaharlarda bo‘lib, aholining og‘ir ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini shaxsan kuzatgan. U Qozog‘istonda dehqonchilik bilan shug‘ullangan, so‘ngra sovet hokimiyatining repressiv siyosati va yer-suv masalasidagi islohotlar natijasida yuzaga kelgan muammolar haqida xabar topib, Kosonsoyga qaytib qo‘zg‘olon ko‘targan[Xomidov. 2025: B.20].

1928-yilda birinchi besh yillik rejasining qabul qilinishi va amalga oshirilishi Markaziy Osiyoda an’anaviy turmush tarzi hamda madaniyatiga jiddiy zarba bo‘ldi. 1929-yil bahoriga kelib esa, partiya tomonidan masjidlarning yopilishi bilan bog‘liq norozilik va ijtimoiy ziddiyatlar kuchaydi. O‘zbekiston Kommunistik partiyasi rahbarlaridan Akmal Ikromov o‘z murojaatlaridan birida mazkur holatlarni tahlil qilar ekan, “Hozirda ayrim hududlarda aholi sovet hokimiyatiga ishonmay qo‘ydi... Masjidlarning yopilishi kabi faktlar istalmagan kayfiyatlarni kuchaytirmoqda. Agar kimdir O‘zbekistonda isyon ko‘tarilishini istasa, shunday salbiy holatlarning yana bir nechtasi yetarli bo‘ladi”, deya vaziyatning keskinlashganini qayd etgan.

Nosirxon to‘ra sobiq qo‘rboshilar Islombek va Muhammadumarni sovet davlatiga qarshi qurolli qo‘zg‘olon ko‘tarishdan boshqa yo‘l qolmaganini tushuntiradi. Dastlabki kelishuvlardan so‘ng, 1929-yil iyul oyida Nosirxon To‘ra Shohkaptar (Sumsar) hududida qo‘rboshilar ishtirokida tashkiliy masalalar muhokama qilingan yig‘ilish chaqiradi. Mazkur yig‘ilishda harbiy harakatlarning taktikasi va dasturi ishlab chiqiladi. Shundan so‘ng, sovet hokimiyatiga qarshi kurashga da’vat qiluvchi xitobnomalar bir qator shaharlardagi aholiga tarqatiladi.

E’tiborga molik jihatlardan biri shundaki, Nosirxon To‘ra bosmachilik harakati rahbarlari — Dadaboy, Muhammadumar va Islombeklarga “boshqa din vakillarini” o‘ldirmaslikni qat’iyan buyurgan. Agar bosmachilik harakatining dastlabki bosqichlarida barcha g‘ayridin va kelgindilar nishonga olingan bo‘lsa, Nosirxon to‘ra rahbarligida faqat kommunistlar va sovet hokimiyati manfaatiga xizmat qiluvchilarga nisbatan kuch ishlatishga ruxsat berilgan. Buni OGPU vakillari ham tasdiqlagan, ular bosmachilar hujum qilgan hududlarda tinch aholi vakillariga nisbatan zo‘ravonliklar sodir etilmaganini qayd etganlar.

Nosirxon to‘ra Kodiyon qishlog‘ida Madumar bilan uchrashib, uni Kosonsoyga hujumga ko‘ndirgan. Shuningdek, Xo‘jaqo‘rg‘on qishlog‘ida Mo‘min qipchoqning uyida, Buloqboshi qishlog‘ilik imom Domullajon vositasida Isroil Xo‘jani chaqirtirgan va Dadaboy nomiga xat yozib, uni yigitlari bilan Kosonsoyga hujumga da’vat etgan. Saydulla Maqsudovni esa Qoratoqqa, Islombek huzuriga yuborgan.

Kosonsoyga hujumdan bir kun avval esa Muqim ismli shaxsning uyida yig‘ilish o‘tkazib, kosonsoylik yigitlarga militsiyani qurolsizlantirish vazifasini topshirgan.

Nosirxon to‘raning rejasiga ko‘ra, Kosonsoyga hujum uning rahbarligi ostida Istambek, Dadaboy va Madumar guruhlarini birlashtirish, shuningdek, kosonsoylik yigitlar — ya’ni Nosirxon To‘raning shogirdlari bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim edi. Hujum arafasida Nosirxon To‘ra shaxsan kosonsoylik yigitlarga zarur ko‘rsatmalar bergan va choparlar orqali Istambek hamda Dadaboyni birgalikda harakat qilishga chaqirgan. Biroq, Istambek va Dadaboy belgilangan vaqtda yetib kelmaganliklari sababli, 1929-yil 4-oktabr kuni hujum Madumar hamda kosonsoylik yigitlarning birlashgan kuchlari tomonidan amalga oshirilgan. Hujum davomida Kosonsoydagi kooperativ talon-taroj qilingan, militsiya hamda ovchilar ittifoqining ayrim a’zolari qurolsizlantirilgan. Biroq harakat ishtirokchilari ushbu hududda mustahkam o‘rnasha olmaganliklari sababli Kosonsoydan chekinishga majbur bo‘lganlar[Xomidov. 2025: B.23].

Nosirxon to‘ra boshchiligidagi qo‘zg‘olonchilarga qarshi asosiy janglarga A.G. Seyer rahbarlik qilgan. Jumladan, 1929-yil 7-oktabrda Nayza darasida bosmachilarning 80 kishilik guruhiga zarba beriladi. 1929-yil 19-oktabrda Qashqasuv daryosidagi Shaar darasida Islombek qo‘mondonligidagi 100 kishilik otryad bilan jang bo‘lib o‘tgan. 1929-yil 24-oktabrda Ranjit qishlog‘ida Nosirxon to‘ra, Islombek va Madumarlarning kamida 200 kishilik qo‘shma guruhiga zarba berilgan. 1929-yil 21-noyabrda Sariqamish darasida Nosirxon to‘ra, Islombek va Madumarlarning guruhining so‘nggi askarlariga zarba berilgan. Bu holat Chotqol vodiysidagi bosmachilikni to‘liq yakunlanishiga sabab bo‘lgan.

Nosirxon to‘ra bilan qo‘zg‘olon ko‘targan ko‘plab istiqlol tarafdorlari janglarda o‘ldirilgan bo‘lsa, ayrimlari asirga olingan va ular aholini qo‘rqitish maqsadida tashkil etilgan sayyor sudlar jarayonida javobgarlikka tortilganlar. Masalan, 1929-yilning 23-noyabr kuni Andijon okrugi Namangan uyezdi To‘raqo‘rg‘on qishlog‘ida O‘zbekiston SSR Oliy sudi Jinoiy-sudlov kollegiyasining sayyor sessiyasi majlisi bo‘lib o‘tadi. Sud majlisiga Xaspulatov raislik qiladi, Abdurahmonov va Turg‘un Egamberdiyevlar xalq maslahatchilari sifatida ishtirok etadilar. Sudda Kosonsoyga hujum qilish va istiqlol tarafdorlariga ma’naviy yordam berganlikda, ularni istiqlol uchun kurashni kengaytirishga targ‘ib qilishda ayblangan 13 nafar shaxs otuvga hukm qilinadi[Xomidov. 2021: B.67].

Nosirxon to‘ra va u bilan birga qo‘zg‘olon ko‘targan shaxslar, qo‘zg‘olonchilarga turli ko‘rinishda yordam berganlar OGPUning O‘rta Osiyodagi muxtor vakili huzuridagi uchlikning 1930-yil 27-oktyabrdagi yig‘ilishi qarori bilan jazoga tortilganlar. Kengash yig‘ilishi uchlik raisi L.G.Mironov, a’zolari B.D.Berman, Babkeyevich, O‘zSSR davlat prokurori, OGPU organlari ustidan nazorat olib boruvchi G.M.Sarichev va kotib Kovachlar ishtirokida o‘tgan. Ayblov xulosasiga asosan, uchlik qarori bilan 92 nafar mahbusning bir qismi otuvga, bir qismi qamoq jazosiga hukm etilgan, ayrimlarigina qamoqdan ozod qilingan. Nosirxon to‘ra va uning sheriklari O‘zbekiston SSR Jinoyat Kodeksining 58, 67, 78, 14/78 bandlari bilan, RSFSR Jinoyat Kodeksining 58/2, 58/1, 59/3, 17-59/3, bandlari bilan ayblanganlar[Шамсутдинов Р., Холмирзаев Э. 2014. B.65-70].

Ayblanuvchilardan Nosirxon to‘ra Kamolxon to‘ra o‘g‘li, Hotamtoy (hujjatlarda Atantay yoki Otantoy) Sotilganov, Samiulla Safiullayev, Dadaxon Nosirxonov (Nosirxon to‘raning o‘g‘li), H.Qanoatov, F.Bobomuhammedov, I.Sarimsoqhojiyev, S.Maqsudov, A.Matkarimov va X.Umrzoqovlar OGPUning O‘rta Osiyodagi doimiy vakolatxonasi huzuridagi siyosiy mahbuslar uyi qamoqxonasida, ayblanuvchi Ignatiy Gumbin Toshkent shahridagi siyosiy mahbuslar uyi qamoqxonasida, qolgan 80 nafari Namangan mahbuslar uyida saqlangan.

Nosirxon to‘ra bilan qatag‘on qilinib o‘lim jazosiga hukm qilingan odamlarning asosiy qismiga nisbatan jazo hukmi Toshkent shahrida amalga oshirilgan. Jumladan, Nosirxon to‘raga nisbatan hukm 1931-yil 13-aprelda kechasi qamoqxonada amalga oshirilgan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Nosirxon to‘raning Turkiston ijtimoiy hayotidagi faol ishtiroki va siyosiy qarashlari zamonaviy o‘zgarishlar, milliy mustaqillik va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan edi. Uning faoliyati Turkiston xalqining o‘zligini anglash, siyosiy ongini yuksaltirish va mustamlakachilikka qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etdi. Shu bois, Nosirxon to‘ra mintaqaning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti tarixida alohida o‘rin egallaydi.

Adabiyotlar

1. Bergne P. The Kokand Autonomy, 1917–18: political background, aims and reasons for failure // CENTRAL ASIA Aspects of transition. (Edited by Tom Everett-Heath). –London: Routledge Curzon, 2003. – P. 39.

2. Farg‘ona viloyati davlat arxivi, 378-fond, 1-ro‘yxat, 1-jild, 300 varaq.

3. Xomidov D. Turkiston muxtoriyati xalq maorifi vaziri Nosirxonto‘ra Kamolxonto‘rayevning hayoti va taqdiri. Tarix fan. falsafa dokt... (PhD) dis. avtoref. – Toshkent, 2025. – 60 b.
4. Хомидов Д. Реабилитация қилиниши лозим бўлган юртдошлар. // Водийнома. – Андижон, 2021. – №4 (22). – Б. 65–70
5. Шамсутдинов Р., Холмирзаев Э. «Қулоқ»ка тортиш ва қатағон қилиш фожиаларига доир (Наманган вилояти мисолида) // Илмий хабарнома. – Андижон, 2014. – №4. –Б.57.
6. Эрктурк М.Х. Сайид Носирхон тўра // Турон тарихи. – Тошкент, 1994. – №4. –Б. 20-22.

MUSTAQIL TA'LIM JARAYONIDA TALABA VA O'QITUVCHINING IJODIY HAMKORLIGI

G‘.O.Toshamtov
Namangan davlat pedagoka instituti ART pedagogika kafedrasi v.b dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada mustaqil ta’lim tizimi doirasida talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi ijodiy hamkorlikning ahamiyati, bu hamkorlikning talaba faoliyatiga qanday ta’sir qilishi hamda o‘qituvchi faoliyatini qanday takomillashtirishi yoritilgan. Shuningdek, mustaqil ta’limda innovatsion yondashuvlar asosida ijodiy hamkorlikning shakllanishi, zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Mavzu doirasida ilg‘or tajribalar va tadqiqot natijalari asosida tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: mustaqil ta’lim, ijodiy hamkorlik, o‘qituvchi, talaba, innovatsion yondashuv, ta’lim jarayoni, mas’uliyat, refleksiya.

Kirish. Hozirgi kunda oliy ta’lim tizimida mustaqil ta’limning roli tobora ortib bormoqda. Mustaqil ta’lim — bu talabaning o‘qituvchidan mustaqil holda bilim egallashi emas, balki murabbiy rahbarligida o‘z-o‘zini o‘qitish, o‘zini rivojlantirish, shaxsiy yondashuv asosida ijodiy fikrlash orqali bilimga ega bo‘lishidir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi **ijodiy hamkorlik** — bu jarayonning asosiy kalitidir. U nafaqat bilimni egallashga, balki talabaning shaxsiy va kasbiy kamolotiga ham xizmat qiladi.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi raqamli texnologiyalar asrida ta’lim jarayoni tez sur’atlar bilan o‘zgarib bormoqda. Talabalarning mustaqil fikrlashi, o‘z-o‘zini nazorat qilish va baholash qobiliyatlari tobora muhim o‘ringa chiqmoqda. Bu esa o‘qituvchidan faqat bilim beruvchi emas, balki talabaning ilmiy va ijodiy hamrohi bo‘lishni talab etadi. Mustaqil ta’limda o‘qituvchining mas’uliyati talabalarni endi nazorat qilishdan ko‘ra, ularni mustaqil ta’lim olishga yo‘naltirish, motivatsiya berish va ijodiy hamkorlikka turtki berishga qaratilgan bo’lishi lozim.

Shu bois ushbu mavzu hozirgi oliy ta’lim tizimi uchun dolzarbdir. U nafaqat yangi o‘quv dasturlarini yaratishda, balki oliy ta’lim tizimida o‘qituvchilar tayyorlashda ham ustuvor yo‘nalishlardan biridir. Ushbu mavzu bo‘yicha qator olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarini sizga misol keltirib o’tamiz. Jumladan, pedagogika fanida mustaqil ta’lim va hamkorlik haqida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Xususan:

Yevropada yashab ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan mashhur olim DJ. Dewey o’zining ilmiy tadqiqotlarida mustaqil o‘rganish va tajriba orqali ta’lim olishning foydalari haqida ilmiy ishlarida yozgan bo’lib, o‘qituvchining yo‘naltiruvchi sifatida ahamiyatini ta’kidlagan.

MDH olimi V.V. Davydov esa ta’limda ijodiy tafakkurni rivojlantirishda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqotni o‘rganishga katta e’tibor qaratgan.

MDH olimi A.A. Verbitskiy mustaqil ta’lim faoliyatiga asoslangan ta’limda o‘qituvchi va talabaning hamkorligini markazga qo‘ygan.

O‘zbekiston Respublikasining olimlaridan Yo.To‘xtasinov, M.Qurbonov, M.Usmonxo‘jayev kabilar olimlar talabalarda mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini shakllantirishda zamonaviy metodlarning ahamiyatini ko‘rsatib berishgan.

Ushbu tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi ijodiy hamkorlik ta’limning samaradorligini oshiradi, shaxsiy rivojlanishni jadallashtiradi.

Ijodiy hamkorlikning asosiy shakllari. Mustaqil ta’limda ijodiy hamkorlik quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

1. Mentorlik (murabbiylik) — o‘qituvchi talabaning mustaqil faoliyatini kuzatadi, yo‘naltiradi, maslahatlar beradi.

2. Loyihaviy ishlar — talaba o‘qituvchi bilan hamkorlikda mavzuga oid ijodiy loyiha tayyorlaydi.

3. Reflektiv muloqot — har bir mustaqil topshiriqdan so‘ng talaba o‘z fikr-mulohazalarini bildiradi, o‘qituvchi esa unga tahliliy mulohazalar bildiradi.

4. Portfolio yuritish — talaba o‘z ishlarini tizimli ravishda jamlaydi, o‘qituvchi esa ularni baholaydi va rivojlanish bo‘yicha takliflar beradi.

5. Masofaviy hamkorlik — onlayn platformalar orqali doimiy aloqa va nazorat asosida ijodiy fikr almashish.

Natija va muhokamalar**.** Olib borilgan kuzatuv va tajribalar shuni ko‘rsatadiki, mustaqil ta'lim jarayonida talaba va o'qituvchining ijodiy hamkorligi talaba va o'qituvchining ijodiy hamkorligi quyidagi natijalarni beradi:

- Talaba mustaqil ta'lim jarayonida o‘zini mustaqil o‘rganishga rag‘batlantiradi;
- Talabada mustaqil ta'lim olish orqali tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi;
- O‘qituvchi esa ijodiy hamkorlik orqali o‘zining metodik salohiyatini rivojlantiradi;
- Ta’lim jarayonida o‘zaro ishonch kuchayadi;
- Mustaqil ta’lim olish sifati oshadi.

Ijodiy hamkorlik natijasida darslar rasmiy emas, balki erkin muloqotga asoslangan interfaol jarayonga aylanadi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quv motivatsiyasini oshiradi.

Tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarining shakllanishida — bu talabaning faqat tayyor bilimni qabul qilmasdan, uni tahlil qilish, savollar berish, alternativ echimlarni taklif qilish va yangilik yaratishga intilish jarayonidir. Bu jarayon mustaqil ta’limda o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi ijodiy hamkorlik orqali shakllanadi.

Quyida bu jarayonning bosqichlari bilan tanishing:

1. Muammo qo‘yilishi va mustaqil izlanish

O‘qituvchi talaba oldiga tayyor javobi yo‘q bo‘lgan savollarni yoki muammoli vaziyatlarni qo‘yadi. Masalan:

“Mazkur kompozitor asarida qanday emotsional holat ifodalangan?”

“Siz bo‘lsangiz bu musiqiy obrazni qanday talqin qilardingiz?”

Natija: Talaba o‘ylaydi, izlaydi, shubhalanadi — bu tanqidiy fikrlashni rag‘batlantiradi.

2. Tahlil va taqqoslash

Talabaga ikki yoki undan ortiq turli fikr yoki yondashuv beriladi. U esa bu yondashuvlarni solishtirib, farqli va umumiy jihatlarni ajratib chiqadi.

Misol: Turli kompozitorlar asarlarining bir mavzudagi yondashuvlarini taqqoslash.

Natija: Fikrlar orasida tahliliy tafovutni ko‘ra olish ko‘nikmasi shakllanadi — bu ham tanqidiy fikrlashning asosi.

3. Muqobil yechimlar ishlab chiqish

O‘qituvchi topshiriqlarni ochiq shaklda beradi va talabadan o‘z fikricha alternativ echim yoki yangicha qarash taklif qilishni so‘raydi.

Misol: Biror musiqiy asarni yangicha uslubda talqin qilish, uning zamonaviy versiyasini yaratish.

Natija: Bu bosqichda ijodiy fikrlash faollashadi.

4. Refleksiya (fikr yuritish)

O‘qituvchi har bir topshiriqdan so‘ng talabani o‘z fikrini yozma yoki og‘zaki tarzda tahlil qilishga undaydi:

Nima o‘rganildi?

Qanday yondashuv ishlamadi?

Yangi savollar qanday tug‘ildi?

Natija: Talaba o‘z fikrlash jarayonini tahlil qiladi — bu esa chuqurroq tanqidiy fikrlashni kuchaytiradi.

5. Ijodiy loyihalar orqali erkin fikr ifodasi

Talabaga ochiq mavzuda musiqa loyihasi, taqdimot, video dars yoki esse yozish taklif etiladi. O‘qituvchi faqat yo‘naltiruvchi bo‘ladi, tayyor qoliplar bermaydi.

Natija: Talaba o‘z g‘oyasini mustaqil shakllantirishga o‘rganadi — bu esa ijodiy fikrlashni shakllantiradi.

Tanqidiy va ijodiy fikrlash — bu mustaqil ta’limda o‘z-o‘zini anglash, savollar berish, mavjud bilimlarni qayta ishlash, ulardan yangi g‘oyalar yaratish orqali shakllanadigan ijodiy intellektual jarayondir.

Bu jarayon faqat topshiriq berish bilan emas, balki o‘qituvchi va talaba o‘rtasida doimiy muloqot, savol-javob, fikr almashuv va tahliliy munosabat orqali rivojlanadi.

Xulosa va tavsiyalar. Shunday qilib, mustaqil ta’limda ijodiy hamkorlik — bu zamonaviy ta’lim talablariga mos, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonining ajralmas qismidir. O‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi sog‘lom va ijodiy hamkorlik ta’limning sifat ko‘rsatkichlarini oshiradi, natijada kuchli motivatsiyaga ega bo‘lgan, o‘z ustida ishlashga qodir, zamonaviy muammolarni mustaqil hal eta oladigan mutaxassislar yetishib chiqadi. Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqib Mustaqil ta’lim jarayonida o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi sog‘lom va ijodiy hamkorlikni rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalarni keltirib o’tamiz:

1. Oqituvchilar uchun maxsus **mentorlik kurslari** tashkil etish.
2. Har bir fan bo‘yicha mustaqil ta’limga oid loyiha va portfoliolarni ishlab chiqish.
3. Onlayn platformalar orqali talaba va o’qituvchining doimiy muloqotini yo‘lga qo‘yish.
4. Talabalarni o‘z fikrini ochiq ayta oladigan, savollar berishga undovchi muhit yaratish.
5. Fanning o‘quv dasturlari va sillabuslariga mustaqil ta’lim jarayonida talab ava o’qituvchining ijodiy hamkorligini rivojlantiruvchi metodik tavsiyalarni kiritish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dewey, J. (1938). *Experience and Education.* New York: Macmillan.
2. Davydov, V.V. (1996). *Teoriya razvitiya uchebnoy deyatelnosti*. Moskva.
3. Verbitskiy, A.A. (2004). *Aktualnyye problemy obrazovaniya*. Moskva.
4. Qurbonov, M. (2020). *Ta’limda innovatsion yondashuvlar*. Toshkent.
5. Usmonxo‘jayev, M. (2021). *Talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish metodikasi*. Samarqand.
6. To‘xtasinov, Yo. (2018). *Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar*. Toshkent.

YAPONIYA TA’LIM TIZIMINING STATISTIKASI VA TAHLILI

I.T.Muradov
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti mustaqil izlanuvchisiTel:
+99895002-50-90, E-mail: muradov_ikrom@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yaponiya ta’lim tizimi ilmiy va statistik jixatdan tahlil qilingan. Yaponiya ta’lim tizimining boshqa rivojlangan davlatlardan farqli va o‘rnak bo‘luvchi jihatlari yoritilgan hamda qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Yaponiya, ta’lim, o‘quvchilar, maktab, bog‘cha, statistik ko‘rsatkichlar, tahlil.

Аннотация: В данной статье анализируется японская система образования с научной и статистической точки зрения. Выделяются и даются сравнительные характеристики японской системы образования, отличающие её от систем других развитых стран и являющиеся образцовыми.

Ключевые слова: Япония, образование, учащиеся, школа, детский сад, статистические показатели, анализ.

Annotation: This article analyzes the Japanese education system from a scientific and statistical perspective. It highlights and provides a comparative analysis of the aspects of the Japanese education system that are different and exemplary from those of other developed countries.

Keywords: Japan, education, students, school, kindergarten, statistical indicators, analysis.

Ma’lumki, bugungi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida bir qancha yoshlarimiz ta’lim olishmoqda. Yaponiyada tahsil olishning ahamiyati nimada? Xususan, Yaponiyadagi ta’lim tizimi sifati nimasi bilan e’tiborimizni tortmoqda? Yaponiya ta’lim tizimi butun dunyo tomonidan tan olingan. Bu yerda qog‘ozbozlikdan butunlay voz kechilgan. Yaponiyada asosan aloqa va muloqot orqali o‘rganish muhim deb hisoblanadi.

Mamlakatda olib borilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda, avvalambor, ta’lim tizimi va turlarini yanada takomillashtirish eng muhim va dolzarb masalalardan hisoblanadi. Inson faoliyati va bilimining har qanday sohasida taraqqiyotning asosiy omillaridan biri jahonda to‘plangan tajribaning sintezidir. Mamlakatimizda ta’lim tizimini isloh qilish nuqtai nazaridan chet elda ta’limni rivojlantirish tendensiyalarini o‘rganish va tahlil qilish juda muhim ahamiyatga ega. Ma’lumki, hozirda

dunyoning yetakchi mamlakatlarining ta’lim tizimi tezkorlik bilan demokratlashtirilmoqda. Uning asosiy xususiyatlaridan biri barcha bosqichlarining ochiqligi, davomiyligidir. Bugungi kunda jahon hamjamiyati tomonidan yangi ta’lim mazmuni aniqlandi, ta’limning eng yangi texnologiyalari ishlab chiqilmoqda va joriy etilmoqda. Bular o‘quv jarayonining yanada yaxshilanishini ta’minlamoqda.

O‘quvchilarga AQSh yoki Yevropadan farqli ravishda ta’lim beradigan Yaponiya ta’lim tizimi Sharq va dunyo maktablariga o‘rnak bo‘luvchi ko‘plab jihatlarga ega.

Yaponiyada bolalarning bog‘chaga borishi majburiy. Bolalar bog‘chadaligidayoq arifmetikaning boshlang‘ich elementlari va bo‘g‘in tizimlarini o‘rganib olishadi.

Yaponiya maktab ta’limi tizimi 12 yildan iborat bo‘lib, shundan Yaponiyada boshlang‘ich maktab (6 yil) hamda quyi o‘rta maktab (3 yil) ya’ni ta’limning dastlabki 9 yili majburiy hisoblanadi. Majburiy ta’limdan keyin 3 yil yuqori o‘rta maktab hisoblanadi.Yaponiyada majburiy ta’lim 6 yoshdan boshlanadi va quyi o‘rta maktabning oxiri 15 yoshda tugaydi. Yaponiya o‘z ta’lim standartlari bo‘yicha juda yaxshi natijalarga erishadi va umuman olganda, Yaponiya maktab ta’lim tizimi 5 ta bo‘limga bo‘lingan. Bular quyidagilar:

1) Kichik bolalar bog‘chasi (hoikuen yoki línín) – majburiy emas;
2) Katta bolalar bog‘chasi (youchien yoki línjín) – ixtiyoriy;
3) Boshlang‘ich maktab (sh ō gakk ō yoki chànhàn) – majburiy;
4) Quyi o‘rta maktab (Chūgakkō yoki chūgakkō) – majburiy;
5) Yuqori o‘rta maktab (kōkō yoki Kōkō) – ixtiyoriy.

O‘quvchilar o‘rta maktabni tugatgandan so‘ng, oliy ma’lumot olish uchun universitet (daigaku yoki díní) yoki kasb-hunar maktabini (senmongakk ō yoki língíngíní) tanlashlari mumkin.

Yaponiyadagi boshlang‘ich, quyi o‘rta maktab va yuqori o‘rta maktab o‘quvchilarining odatdagi yosh guruhlari quyidagilardan iborat:

- 6 yillik boshlang‘ich maktab (6 yosh – 12 yosh);
- 3 yillik quyi o‘rta maktab (12 – 15 yosh);
- 3 yillik yuqori o‘rta maktab (15 – 18 yosh).

Jumladan, o‘rta maktab majburiy bo‘lmasa-da, butun mamlakat bo‘ylab o‘quvchilarning 99 foizi o‘rta maktabni tugatgandan so‘ng to‘liq o‘rta ta’limga kirishadi.Yaponiya bo‘ylab davlat va xususiy maktablar mavjud. Davlatga qarashli boshlang‘ich va o‘rta maktablar bepul, xususiy maktablar esa ancha yuqori o‘qish to‘lovlarini talab qiladi.Barcha davlat maktablari teng ravishda moliyalashtiriladi. Bundan tashqari, ular bir xil o‘quv dasturiga ega va barcha maktablar butun mamlakat bo‘ylab bir xil ta’limga ega. Ikkinchi jahon urushidan keyin ta’lim kam ta’minlangan oilalar uchun qulayroq bo‘lishi uchun ta’lim yanada demokratlashtirildi. Yaponiyadagi o‘quvchilar butun dunyo bo‘ylab o‘quvchilar o‘qiganiga o‘xshash barcha asosiy fanlarni o‘qiydilar. Bu asosiy fanlar matematika, fan, yapon tili, jismoniy tarbiya, uy iqtisodiyoti va ingliz tilidir. Odamlar odob-axloq qoidalariga e’tibor qaratadigan yapon va g‘arb maktablari o‘rtasidagi farqni sezishi mumkin.Maktabning dastlabki 3 yilida o‘quvchilar imtihon topshirishmaydi. Shuning uchun ta’limning asosiy e’tibori yaxshi xulq-atvorni shakllantirish va xarakterni rivojlantirishga qaratilgan. O‘quvchilar bir-birini hurmat qilishga, sahovatli bo‘lishga, tabiatga mehr-oqibatli bo‘lishga o‘rgatiladi. 4-sinfga kirgandan so‘ng, o‘quv dasturi ko‘proq akademik yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Yapon ta’limi tenglikni hamma narsadan ustun qo‘yadi. G‘arbdagi ko‘plab maktablar o‘z o‘quvchilariga ustunlik berish uchun eng so‘nggi texnologiyalarni tezda o‘zlashtirsada, Yaponiyadagi aksariyat milliy va davlat maktablari juda past texnologiyalarga ega hisoblanishadi.Yaponiyadagi milliy va davlat maktablarida asosiy axborot texnologiyalari kurslari taklif etiladi, biroq o‘quvchilarga odatda sinfda elektron qurilmalardan foydalanishga ruxsat berilmaydi. Bu daromad darajasidan qat’i nazar, barcha o‘quvchilar o‘rtasida tenglikni ta’minlashdir. Ba’zi mamlakatlarda, agar o‘quvchilar yetarli darajada o‘zlashtira olmasalar, ular o‘z malakalarini yanada oshirishdan to‘xtab qolishlari mumkin. Biroq, Yaponiyada o‘quvchilar imtihon natijalaridan qat’i nazar, har doim keyingi sinfga o‘tishadi.

Yaponiyada o‘quvchilar imtihonlardan o‘ta olmagan yoki darslarni o‘tkazib yuborgan taqdirda ham yil oxiridagi bitiruv marosimida qatnashishi mumkin.

Shu o‘rinda o‘qituvchilarga ham bir nazar solsak. 2022-yil may holatiga ko‘ra, Yaponiya maktablarida **999 940 nafar**ga yaqin o‘qituvchilar o‘z mehnat faoliyatlarini olib borishgan. Jumladan Yaponiyada **35 200** dan ortiq maktablar mavjud bo‘lib, har bir maktab hisobiga o‘rtacha **29 nafar**ga yaqin o‘qituvchi to‘g‘ri keladi. Yapon maktabi o‘quvchilari 4-sinfgacha hech qanaqa imtihon topshirishmaydi. Zarurat tug‘ilganida, kichik test sinovlari topshirishlari mumkin.

O‘qishning dastlabki 3 yilida bilim asosiy maqsad hisoblanmaydi. Bu vaqt davomida bolani tarbiyalashga asosiy urg‘u berilib, ularga boshqa odamlarga va hayvonlarga hurmat ko‘rsatish, saxiy bo‘lish, haqiqat uchun kurashish, o‘zini tuta bilish, birovning haqini o‘g‘irlamaslik va tabiatni hurmat qilish o‘rgatiladi.

Aksariyat mamlakatlarda o‘qish sentabrda boshlansa, Yaponiyada o‘qish
1 apreldan (Sakura daraxtining gullash hodisasi) boshlanadi. O‘qish
3 trimestrga (1-trimestr – 1-apreldan 20-iyulgacha; 2-trimestr – 1-sentyabrdan
26- dekabrgacha; 3-trimestr – 7-yanvardan 25-martgacha) bo‘linadi. Shunday qilib, yapon o‘quvchilari yozgi ta’tilda 6 hafta, qishki va bahorgi ta’tilda esa ikki haftadan dam olishadi.

Maktablarda farroshlar ishlamaydi. Har bir sinf navbati bilan sinflarni, yo‘laklarni va hatto hojatxonalarni ham tozalaydi. Shu tarzda, bolalar yoshligidan jamoada ishlashni va bir-birlariga yordam berishni o‘rganadilar. Bundan tashqari, har qaysi o‘quvchi o‘zi tozalagan joyni iflos qilmaydi, albatta. Bu esa ularda mehnatga muhabbat, atrof-muhitga hurmat bilan munosabatda bo‘lish hissini uyg‘otadi.

Maktablarda standartlashtirilgan ovqatlanish tizimi ishlaydi. Har bir o‘quvchiga kun davomida bir xil ovqat beriladi. O‘qituvchilar o‘quvchilar bilan bir stolda ovqatlanadi. Tabiiyki, bunday norasmiy sharoitda bolalar bir-birlari bilan ko‘proq va samimiy muloqotda bo‘ladilar. Kunchiqar yurt bolalariga maktabga taom olib kelish ta’qiqlangan. Shuningdek, bolalarga dori-darmon va turli shirinliklar olib kelishga ham ruhsat berilmaydi. Bolalar uchun tayyorlanadigan maxsus tushlik menyusi oshpazlar va tibbiyot xodimlari tomonidan ishlab chiqiladi. Mamlakatning kelajagi sifatida qaraladigan bolalarning sog‘ligi mamlakat uchun muhim hisoblanadi.

Yapon bolalari boshlang‘ich maktabdayoq oliy o‘quv yurtlariga kirish uchun xususiy tayyorlov maktablarida o‘qishni boshlaydilar. Maqsad namunali o‘rta va keyinchalik yuqori sinflarda ta’lim olishdir. Odatda, bunday joylarda mashg‘ulotlar kechqurun boshlanadi, shu sababli ham kechqurun soat to‘qqizda jamoat transportlari uylariga qaytayotgan maktab o‘quvchilari bilan to‘la bo‘lishiga Yaponiyada oddiy hol sifatida qaraladi. Bolalar yakshanba kunlari, hattoki ta’til paytlari ham qo‘shimcha mashg‘ulotlarga boradilar. Umuman olganda, o‘rtacha maktab vaqti kuniga 6-8 soatni tashkil etadi. Balki shu sabablidir, Yaponiyada o‘zlashtirmaganligi tufayli sinfda qoladigan o‘quvchilar uchramaydi hisob.

Yaponiya maktablarining asosiy fanlari matematika, yapon tili, ijtimoiy fanlar, hunarmandchilik, musiqa va jismoniy tarbiya hisoblanadi. Shuningdek, maktab o‘quvchilari sog‘lom turmush tarzi, kompyuter ilmi, musiqa, san’at, jismoniy tarbiya, uy xo‘jaligi, xattotlik bilan ham shug‘ullanadilar. Yapon maktablarida musiqa asosiy fan hisoblanadi. Har bir bola qaysidir musiqa asbobini chala oladi.

Boshlang‘ich sinflardan keyin har bir o‘quvchi maktab formasiga o‘tishi shart. Ko‘plab maktablarning alohida formalari bor. Bu qoida o‘quvchilarda intizomni kuchaytirishga hamda ularni birlashtirishga qaratilgan.

Yaponiyada davomat har doim deyarli 100 foiz bo‘ladi. Buni tasavvur qilish qiyindir, ammo chindan ham yapon maktablarida bolalar umuman dars qoldirishmaydi (uyida to‘y-ma’raka bo‘lsa ham). Shuningdek, darsga kechikib kelish ham deyarli uchramaydi. Dars jarayonida o‘quvchilarning 91 foizi o‘qituvchini diqqat bilan eshitadi... Ha, havas qilsa arziydi, shunday emasmi?

Yapon maktablarida o‘quvchilarga mobil telefonlardan foydalanish ta’qiqlangan. O‘quvchilar faqatgina maktabga kirishdan oldin yoki undan keyin telefondan foydalanishlari mumkin. Yaponiyada maktab avtobusi degan tushuncha yo‘q. O‘quvchilar maktabga piyoda yoki velosipedda borishadi yoki bo‘lmasa jamoat transportidan foydalanishadi.

O‘quvchilar o‘rta maktabni tugatgandan so‘ng kollejga o‘qishga kirishni yoki kirmaslikni hal qiladigan hayot-mamot imtihonini topshirishadi. Bitiruvchi faqatgina bitta muassasani tanlashi mumkin va kelajakdagi hayot darajasi aynan shu tanlov asosida belgilanadi. Raqobat ham juda yuqori ya’ni 76% bitiruvchilar maktabdan keyin o‘qishni davom ettirishga qaror qilishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1) http://www.adolatgzt.uz/society/5264
2) https://idum.uz/uz/archives/9838
3) https://kknews.uz/uz/112127.html

POSTMODERNIZM KONSEPSIYASINING RIVOJLANISH TARIXI VA ASOSIY YO'NALISHLARI

M.F.Ashiraliyeva
Samarqand davlat pedagogika instituti Xorijiy tillar kafedrasi assistent - o‘qituvchisi

Annotatsiya Ushbu maqola postmodernizm konsepsiyasining kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari va asosiy yo'nalishlarini tarixiy-nazariy jihatdan tahlil qiladi. Tadqiqotda postmodernizmning XX asr ikkinchi yarmida shakllangan intellektual harakat sifatida modernizm g'oyalariga qarshi reaksiya ekanligi ko'rsatilgan. Maqolada Michel Foucault, Jacques Derrida, Jean Baudrillard va Jean-François Lyotard kabi asosiy nazariyotchilarning hissasi tahlil etilgan. Post-strukturalizm, dekonstruksiya, simulyatsiya nazariyasi va katta rivoyatlarning inqirozi kabi muhim konsepsiyalar batafsil ko'rib chiqilgan. Postmodernizmning san'at, adabiyot, falsafa, ijtimoiy fanlar sohasidagi ta'siri va zamonaviy madaniyatdagi o'rni baholanган. Shuningdek, postmodernizmga qarshi tanqidlar va uning hozirgi zamon kontekstidagi dolzarbligi muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: postmodernizm, post-strukturalizm, dekonstruksiya, simulyatsiya, katta rivoyatlar, diskurs, bilim va hokimiyat, différance, hiperrealligi, performativlik, intertekstuallik, metafantastika, gender tadqiqotlari, postkolonial nazariya, epistemologiya, modernizm tanqidi, madaniy pluralizm, nisbiychilik

Postmodernizm XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan va zamonaviy madaniyat, san'at, falsafa va ijtimoiy fanlar sohasida keng ta'sir ko'rsatgan murakkab va ko'p qirrali intellektual harakatdir. Bu konsepsiya modernizm g'oyalariga qarshi reaksiya sifatida shakllangan bo'lib, an'anaviy bilim tuzilmalari, hakikat tushunchasi va obyektiv reallik haqidagi tasavvurlarni shubha ostiga oladi.

Postmodernizmning ildizlari XIX asr oxiri va XX asr boshlariga borib taqaladi, biroq uning asosiy nazariy asoslari 1960-1970-yillarda Fransuz faylasuflari tomonidan yaratilgan. Friedrich Nietzschening "Xudoning o'limi" haqidagi g'oyasi, Martin Heideggerning mavjudchilik falsafasi va Ferdinand de Saussurening strukturalistik tilshunoslik nazariyasi postmodern fikrlashning muhim poydevorlarini tashkil etdi. Bu dastlabki ta'sirlar postmodernistlar uchun mutlaq hakikat, markazlashgan sub'ekt va barqaror ma'no tushunchalarini rad etishda nazariy asos yaratdi.

1960-yillarda Frantsiyada paydo bo'lgan post-strukturalizm postmodernizm rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynadi. Michel Foucault o'z tadqiqotlarida bilim va hokimiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib berdi, hakikat diskursning mahsuli ekanligini va tarixan o'zgaruvchan ekanligini ko'rsatdi. Foucault nazariyasida bilim neytral emas, balki ijtimoiy nazorat va hokimiyatni amalga oshirish vositasi sifatida qaraladi. Uning genealogiya usuli an'anaviy tarix yozuviga qarshi bo'lib, uzluksiz rivojlanish g'oyasi o'rniga uzilishlar va epistemiologik o'zgarishlarni ta'kidlaydi.

Jacques Derrida tomonidan ishlab chiqilgan dekonstruksiya nazariyasi postmodernizm metodologiyasining asosini tashkil etdi. Dekonstruksiya matnlardagi ichki qarama-qarshiliklarni va nomutanosibliklarni ochib berish orqali barqaror ma'no va markaziy g'oyalarning mavjud emasligini ko'rsatadi. Derridaning différance kontseptsiyasi ma'noning doimo kechiktirilishi va farqlanishi haqidagi g'oyani ifodalaydi, bu esa mutlaq hakikat yoki yakuniy ma'noga erishish imkonsizligini anglatadi. Bu yondashuv an'anaviy metafizik tafakkurga qarshi to'liq inqilob bo'lib, matnning o'quvchi tomonidan yaratilishi va ma'noning ko'p qatlamli ekanligi g'oyasini ilgari surdi.

Jean Baudrillard simulyatsiya va simulakr nazariyasi orqali postmodern jamiyatning xususiyatlarini tahlil qildi. Uning fikricha, zamonaviy dunyo simulyatsiyalar dunyosiga aylangan, bu yerda tasvirlar va belgilar o'zlari tasvirlagan reallikdan mustaqil ravishda mavjud bo'ladi. Baudrillardning hiperrealligi kontseptsiyasi mass-media va texnologiya ta'sirida haqiqiy va sun'iy o'rtasidagi farqning yo'qolishi jarayonini ifodalaydi. Bu nazariya postmodern madaniyatda autentiklik va originallikning yo'qolishi masalasini ko'taradi.

Jean-François Lyotard "Postmodern vaziyat" asarida bilim holatining o'zgarishini tahlil qildi va katta rivoyatlarning (métarécits) inqirozini e'lon qildi. Uning fikricha, ilm-fan, taraqqiyot va ozodlik haqidagi zamonaviy katta rivoyatlar o'z ishonchliligini yo'qotdi va ularning o'rnini kichik, mahalliy rivoyatlar egalladi. Lyotard performativlik printsipini ilgari surib, bilimning qiymati uning samaradorligi va foydaliligiga qarab aniqlanishini ta'kidladi.Postmodernizm san'at sohasida ham katta o'zgarishlar olib keldi. Modernist san'atning elitarizmi va avtonomiyasi g'oyalari o'rnini ommabop madaniyat elementlarini

qamrab olgan va turli uslublarni aralashtirgan eklektik yondashuvlar egalladi. Postmodern san'atda pastish va parodiya keng qo'llanila boshlandi, bu esa an'anaviy originallik va mualliflik tushunchalarini muammoli qildi. Arxitekturada Robert Venturi va boshqalarning ishlari orqali modernist funktsionalizm tanqid qilindi va tarixiy uslublar bilan o'yinni o'z ichiga olgan murakkab dizayn yondashuvlari paydo bo'ldi.

Adabiyotda postmodernizm metafantastika, intertekstuallik va o'z-o'ziga ishora qilish kabi usullar orqali namoyon bo'ldi. Italo Calvino, Jorge Luis Borges, Donald Barthelme kabi yozuvchilarning asarlarida an'anaviy hikoya qilish usullari buziladi va o'quvchi matn yaratish jarayoniga faol jalb qilinadi. Bu adiblarda reallik va fantaziya o'rtasidagi chegara shubha ostiga olinadi, matn o'zining sun'iyligini ochiq tan oladi.Falsafa sohasida Richard Rorty pragmatizm an'anasini qayta tiklash orqali epistemiologiyaning an'anaviy masalalariga yangicha yondashdi. U bilimni tabiatning ko'zgusi sifatida tasavvur qilish g'oyasini rad etib, bilimni ijtimoiy amaliyot va til o'yinlari doirasida ko'rib chiqdi. Bu yondashuv hakikatni topish o'rniga muloqot va kelishuvga erishishni muhim deb hisobladi.

Postmodernizm gender tadqiqotlari va feminizm rivojlanishida ham muhim rol o'ynadi. Judith Butler performativlik nazariyasi orqali gender tushunchasining ijtimoiy konstruksiya ekanligini ko'rsatdi va biologik determinizmga qarshi kurashdi. Julia Kristeva, Hélène Cixous kabi feminst nazariyotchilari patriarxal diskursni tanqid qilib, ayollarning o'ziga xos til va ifoda usullarini izlashga undadilar.

Ijtimoiy fanlarda postmodernizm antropologiya, sotsiologiya va tarix fanlari metodologiyasini tubdan o'zgartirdi. Etnografik tadqiqotlarda "boshqaning" tasvirlanishi masalalari ko'tarildi va tadqiqotchining pozitsiyasi tanqidiy ko'rib chiqildi. James Clifford va George Marcus kabi antropologlar etnografik matnlarning adabiy xususiyatlarini tahlil qilib, ilmiy ob'ektivlik da'volarini shubha ostiga oldilar.Postmodernizmning tanqidchilari uning nisbiychilik va skeptitsizmga olib kelishi, ijtimoiy va siyosiy harakatlarni zaiflashtirishi haqida tashvishlarin bildiradilar. Jürgen Habermas postmodernizmni zamonaviylikning tugallanmagan loyihasidan qochish urinishi deb baholaydi va kommunikativ aql asosida ijtimoiy kelishuvga erishish imkoniyatini himoya qiladi. Marksistik tanqidchilat Fredric Jameson postmodernizmni kech kapitalizm madaniy mantigi sifatida tahlil qilib, uning siyosiy jihatlarini ko'rsatadi.

Postkolonial tadqiqotlar postmodern metodologiyadan foydalanib, G'arbiy imperializm va koloniallizm ta'sirlarini tahlil qiladi. Edward Said, Gayatri Spivak, Homi Bhabha kabi nazariyotchilar G'arbiy bilim tizimlarining hokimiyat munosabatlari bilan bog'liqligini ko'rsatib, marjinallashtirililgan ovozlarni eshittirish zarurligini ta'kidlaydilar.Zamonaviy davrda postmodernizm yangi texnologiyalar, globallashuv va raqamli madaniyat sharoitida o'z rivojlanishini davom ettirmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar postmodern g'oyalar uchun yangi maydon yaratib, ma'no yaratish va tarqatishning demokratlashuviga olib kelmoqda. Virtual reallik va sun'iy intellekt rivojlanishi Baudrillardning hiperrealligi haqidagi nazariyalarini yangi darajada dolzarb qilmoqda.Postmodernizm konsepsiyasi zamonaviy dunyoni tushunish uchun muhim analitik vosita bo'lib qolaveradi. Uning ko'p qirrali va ba'zan qarama-qarshi yo'nalishlari bizning bilim, hakikat, madaniyat va identifikatsiya haqidagi tasavvurlarimizni boyitadi va murakkablashtiradi. Postmodernizmning ta'siri nafaqat akademik sohalarda, balki kundalik madaniy amaliyotlarda ham kuzatilishi uning chuqur ta'sirini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бодрийяр, Ж. Симулякры и симуляция / Ж. Бодрийяр. – Энн-Арбор: Издательство Мичиганского университета, 1981. – 164 с.
2. Письменная культура: поэтика и политика этнографии / под ред. Дж. Клиффорда, Дж. Э. Маркуса. – Беркли: Издательство Калифорнийского университета, 1986. – 305 с.
3. Деррида, Ж. О грамматологии / Ж. Деррида. – Балтимор: Издательство Университета Джонса Хопкинса, 1967. – 354 с.
4. Фуко, М. Археология знания / М. Фуко. – Нью-Йорк: Pantheon Books, 1969. – 239 с.
5. Хабермас, Ю. Философский дискурс о модерне / Ю. Хабермас. – Кембридж: MIT Press, 1985. – 430 с.

O‘ZBEKISTON HARBIY TA’LIM TIZIMIDA MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYANING KONSEPTUAL ASOSLARI

A.A.Abdulhayev
Namanagan davlat universiteti mustaqil tatqiqotchi

Anotatsiya: Tezisda O‘zbekiston harbiy ta’lim tizimida ma’naviy-axloqiy tarbiyaning konseptual asoslari keng tahlil qilinadi. Tezis mamlakatimiz Qurolli Kuchlarida ma’naviy-axloqiy tarbiyaning ahamiyati, uning pedagogik, falsafiy va ijtimoiy asoslari hamda zamonaviy xavfsizlik sharoitida uning yangicha yondashuvlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ma’naviy-axloqiy tarbiyaning harbiy xizmatchilar shaxsiyatini shakllantirishdagi roli, milliy g‘oya va qadriyatlar tizimiga singdirilishi, pedagogik metod va vositalarning samaradorligi tahlil qilinadi. Tezis ma’naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy va amaliy jihatlarini uyg‘unlashtirish orqali harbiy ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan kompleks yondashuvni taklif etadi.

Kalit so‘zlar: harbiy ta’lim, ma’naviy-axloqiy tarbiya, konseptual asoslar, pedagogik yondashuv, milliy g‘oya, harbiy xizmatchilar, axloqiy ong, ijtimoiy-falsafiy tahlil, Qurolli Kuchlar, xavfsizlik madaniyati.

Kirish: Zamonaviy globallashuv jarayonida milliy xavfsizlik, davlat mustahkamligi va jamiyat barqarorligini ta’minlash masalalari har bir davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Ayniqsa, geosiyosiy qarama-qarshiliklar kuchayib borayotgan bir sharoitda, harbiy sohani rivojlantirish, harbiy xizmatning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, shu jumladan, harbiy xizmatchilar shaxsini ma’naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqish zaruriyati yuzaga kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi tomonidan so‘nggi yillarda harbiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar aynan harbiy kadrlarning har tomonlama yetuk shaxslar sifatida shakllanishiga, ularning bilim, kasbiy mahorat bilan bir qatorda yuksak ma’naviy saviyaga ega bo‘lishini ta’minlashga qaratilganligi bilan e’tiborlidir. Zero, harbiy sohaga xos bo‘lgan fidoyilik, vatanparvarlik, intizom, mas’uliyat, yuksak axloqiy madaniyat kabi fazilatlar harbiy xizmatchilar faoliyatining asosiy mezonlari hisoblanadi. Ma’lumki, harbiy xizmat o‘z tabiatiga ko‘ra nafaqat jismoniy va kasbiy tayyorgarlikni, balki yuqori darajadagi ma’naviy-ruhiy barqarorlikni, qat’iy irodani, axloqiy qadriyatlarni ichki ehtiyoj darajasida singdirishni taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan, harbiy ta’lim tizimida nafaqat harbiy-texnik fanlarni o‘rgatish, balki shaxsni harbiy kasbga yo‘naltirish, uni Vatanga sadoqat, davlatga xizmat qilish, o‘z burchini sidqidildan bajarish ruhida tarbiyalash harbiy pedagogika va harbiy psixologiya fanlarining markaziy vazifasiga aylanadi. O‘zbekiston harbiy ta’lim tizimida bu boradagi yondashuvlar izchil takomillashib bormoqda. Xususan, harbiy bilim yurtlarida “Vatanparvarlik asoslari”, “Ma’naviyat asoslari”, “Yoshlar bilan ishlash metodikasi” kabi o‘quv fanlarining kiritilishi bu yo‘nalishda maqsadli ishlar olib borilayotganligidan dalolat beradi. Ma’naviy-axloqiy tarbiya harbiy shaxsning dunyoqarashi, kasbiy o‘zlikni anglash darajasi, mas’uliyat hissi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy faolligini shakllantiruvchi ko‘p qirrali psixologik-pedagogik jarayon bo‘lib, u harbiy xizmatchining ruhiy mustahkamligini, o‘z kasbiga sadoqatini, ijtimoiy vazifalarga mas’uliyat bilan yondashishini ta’minlaydi. Bu esa bevosita davlat himoyasiga safarbar qilingan shaxsning psixologik tayyorgarligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Harbiy kadrlar safini yuksak axloqiy fazilatlarga ega, ijtimoiy ongli, tafakkuriy jihatdan faol shaxslar bilan boyitish jamiyatimiz taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov harbiy xizmatchilar shaxsini tarbiyalashda ma’naviyatning hal qiluvchi o‘ringa egaligini ta’kidlab: “Yangi avlodni tarbiyalashda, ayniqsa, harbiylar safini shakllantirishda bizga eng kerakli narsa – bu avvalo, ma’naviyatdir, axloqiy barkamollikdir, Vatanga sadoqatdir”, – deb bejiz aytmagan edi[1]. Ushbu nuqtayi nazar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan, aksincha, zamonaviy sharoitda yanada chuqurroq tadqiq etishni taqozo qilmoqda. Shu bilan birga, harbiy xizmatchilar ma’naviyatini shakllantirishda milliy g‘oya, tarixiy xotira, xalq an’analari va urf-odatlarining roli beqiyosdir. Ma’naviyat – bu insonni jamiyat bilan bog‘lovchi ichki kuch bo‘lib, u orqali shaxs o‘z harakatlarini umumiy qadriyatlarga muvofiq tarzda boshqaradi. O‘zbek xalqining boy madaniy merosi, tarixiy qahramonlari, davlatparvarlik an’analari harbiy xizmatchilarning ma’naviy olamini boyitish, ularning kasbga bo‘lgan daxldorlik hissini kuchaytirish uchun eng kuchli psixologik vositalardandir. Bu borada Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Temuriylar sulolasi davridagi harbiy burchga sadoqat, Vatan himoyasi uchun jonini fido qilishga tayyorlik an’analari bugungi yosh avlod ongiga chuqur singdirilishi lozim. Bugungi kunda harbiy ta’lim muassasalarida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida shaxsga yo‘naltirilgan, interaktiv, gumanistik va kontekstual yondashuvlar asosida

harbiylarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini samarali tashkil etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-dekabrdagi “Harbiy sohada ta’lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3423-sonli qarorida harbiy xizmatchilar shaxsini ma’naviy jihatdan yetuk qilib tarbiyalash, ularning kasbiy malakasini oshirish bilan birga, axloqiy immunitetini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangani muhim omildir[2]. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi, Harbiy texnika instituti, Harbiy tibbiyot akademiyasi va boshqa sohaviy harbiy ta’lim muassasalarida yaratilgan metodik va konseptual asoslar orqali harbiy xizmatchilarning shaxsiy-ma’naviy salohiyatini yuksaltirish bo‘yicha innovatsion yondashuvlar joriy etilmoqda. Psixologik tayyorgarlik, ijtimoiy-psixologik monitoring, shaxsga individual yondashuv, interfaol metodlardan foydalanish orqali o‘quvchi-harbiylarning axloqiy fazilatlari va kasbiy motivatsiyasini kuchaytirishga qaratilgan faoliyatlar yo‘lga qo‘yilmoqda. Ayni paytda, ushbu jarayonlarda yuzaga kelayotgan muammolarni tahlil qilish, mavjud konseptual yondashuvlarning samaradorligini ilmiy asosda o‘rganish, xalqaro tajribani solishtirish asosida takomillashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Xususan, G‘arb va Sharq davlatlarining harbiy tarbiyaga oid ilg‘or yondashuvlarini o‘rganish, milliy qadriyatlarga mos shaklda integratsiya qilish orqali O‘zbekiston harbiy ta’lim tizimini yangi bosqichga ko‘tarish imkoniyatlari mavjud. Shu jihatdan, mazkur tezis O‘zbekiston harbiy ta’lim tizimida ma’naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish, mavjud konseptual yondashuvlarni ilmiy jihatdan asoslash va ularni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishga qaratilgan[3]. Tezisda, shuningdek, milliy g‘oya va tarixiy qadriyatlarning harbiy shaxs tarbiyasidagi o‘rni, zamonaviy psixologik-pedagogik metodlar samaradorligi, harbiy muassasalarda ijtimoiy-psixologik muhitning shakllanishi hamda xalqaro amaliyotda qo‘llanilayotgan ilg‘or tajribalarga e’tibor qaratiladi. Shu maqsadda tezisning dolzarbligi shundaki, unda harbiy xizmatchilar shaxsini shakllantirishda bevosita ma’naviy-axloqiy tarbiyaning ustuvorlik darajasi aniqlanadi, uning harbiy xizmat samaradorligiga ta’siri asoslab beriladi, shuningdek, ushbu tarbiyaning zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan uyg‘unlashuvi tahlil etiladi. Bunda, ayniqsa, insonparvarlik, milliy g‘urur, tarixiy xotira, Vatanga muhabbat, fidoyilik, ijtimoiy mas’uliyat kabi qadriyatlar markaziy o‘rin egallaydi[4]. Tezis harbiy sohaga oid pedagogik va psixologik ilmiy tadqiqotlarga tayanadi hamda mavjud konsepsiyalarni milliy kontekstda yangicha talqin qilishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston harbiy ta’lim tizimida ma’naviy-axloqiy tarbiyaning konseptual asoslarini chuqur o‘rganish hozirgi globallashuv, geosiyosiy beqarorlik, informatsion tahdidlar kuchaygan davrda dolzarb masalalardan biriga aylandi. Chunki zamonaviy xavf-xatarlarga qarshi kurashda faqat harbiy-texnik salohiyat emas, balki shaxsiy va jamoaviy ma’naviy tayyorgarlik, axloqiy immunitet, vatanparvarlik tuyg‘usi, fuqarolik burchiga sadoqat, ijtimoiy mas’uliyat hissi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Harbiy xizmatchilar safida milliy qadriyatlarga asoslangan ma’naviy-axloqiy tarbiyaning shakllanishi, bu boradagi davlat siyosatining konseptual asoslarda olib borilishi, ayniqsa yosh avlodni harbiy xizmatga tayyorlashda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Shu ma’noda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston – bu eng avvalo ma’naviyatli jamiyat” tamoyili doirasida harbiy ta’lim tizimining gumanitar, tarbiyaviy va mafkuraviy jihatlarini rivojlantirish, harbiy xizmatchilarning axloqiy barkamolligini oshirish, ularning mustahkam hayotiy pozitsiyasini shakllantirish maqsadida olib borilayotgan islohotlar ilmiy-nazariy yondashuvni, tizimli tahlilni va konseptual yondashuvni taqozo etadi[5]. O‘zbekistonning milliy xavfsizlik strategiyasi va harbiy doktrinasida ko‘zda tutilgan ustuvor yo‘nalishlardan biri bu harbiy xizmatchilarni faqat jangovar tayyorgarlikka emas, balki axloqiy, mafkuraviy va ruhiy barqarorlikka yo‘naltirishga alohida e’tibor berilishidir. Harbiy ta’lim muassasalarida olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar, ijtimoiy-psixologik xizmatlar, “Vatanparvarlik darslari”ning mazmuni va sifati, bu yo‘nalishda tajriba asosida shakllanayotgan metodik yondashuvlar – bularning barchasi zamonaviy O‘zbekiston harbiy ta’lim tizimining ma’naviy-axloqiy tarbiyani ta’minlashdagi konseptual asosi sifatida qaralmoqda[6]. Ayniqsa, harbiy kadrlarni tayyorlovchi oliy o‘quv yurtlarida jismoniy tayyorgarlik bilan bir qatorda, psixologik barqarorlik, axloqiy immunitet, vatanparvarlik va ijtimoiy faollik darajasini oshirishga qaratilgan dars mashg‘ulotlari, treninglar va harbiy-siyosiy mashg‘ulotlar ko‘lami kengaytirilmoqda. Bu jarayonda tarixiy an’analar, xalqona tarbiya tamoyillari, ajdodlarimizning jasorat maktabi, shuningdek, zamonaviy pedagogika va psixologiya yutuqlari uyg‘unlashib borayotgani dolzarb metodologik yondashuvni yuzaga keltirgan. Bundan tashqari, xorijiy mamlakatlar, xususan, Rossiya, Xitoy, Turkiya, AQSh, Isroil kabi harbiy sohaga alohida e’tibor qaratayotgan davlatlarning harbiy ta’lim tizimidagi axloqiy tarbiya strategiyalari, mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan dasturlari tahlil qilinayotgani O‘zbekistonning bu boradagi tajribasini boyitish,

ilg‘or tamoyillarni mahalliy sharoitga moslashtirish imkonini bermoqda[7]. Harbiy ta’lim tizimidagi ma’naviy-axloqiy tarbiya bugun faqat muayyan darslar doirasida emas, balki butun o‘quv jarayoni, harbiy muhit va xizmatning barcha bosqichlarida uzviy ravishda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-pedagogik tizimga aylanmoqda. Shu bois, ushbu masala ilmiy jihatdan o‘rganilishi, konseptual asoslari ishlab chiqilishi, nazariy va amaliy jihatdan asoslangan takliflar shakllantirilishi muhimdir. O‘zbekiston harbiy ta’lim tizimida ma’naviy-axloqiy tarbiyaning konseptual asoslarini yaratish va uni ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berish bugungi kun talabi bo‘lib, bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar Vatan mudofaasining mafkuraviy va ma’naviy asoslarini mustahkamlash, harbiy kadrlar sifati va sadoqatini ta’minlash, jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va milliy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Mazkur tezisda aynan shu yo‘nalishdagi dolzarb masalalar ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi.

Rossiya pedagogik va harbiy-pedagogik-an’anasi doirasida harbiy tarbiyaning axloqiy-ruҳiy ildizlarini tahlil qilgan olimlar, xususan V. G. Bezrogov va M. R. Muhayyarov o‘rtasidagi nazariy polemika harbiy ta’lim tizimida ma’naviy-axloqiy tarbiya konseptini chuqurlashtirishda muhim manba hisoblanadi. V. G. Bezrogov, sobiq sovet va post-sovet pedagogik olimi sifatida, harbiy-patriotik tarbiyaning kontseptual ildizlarini tanqidiy tahlil etadi[8]. U o‘z asarlarida “urush pedagogikasi” va “harbiy vatanparvarlik” diskursi metodik ravishda takrorlanib, maktab darsliklariga simulyatsiya sifatida aylantirilayotganini ta’kidlaydi. Bezrogov fikricha, bu yondashuv harbiy xizmatchilarning ruhiy dunyosini deformatsiya qilishi, bolaning qiyoslama fikrlash, empatiya va insoniy qadriyatlarini cheklashi mumkin. U darsliklardagi urushga bag‘ishlangan sahifalarda “nafrat” va “g‘urur” g‘oyalarini absolyutlashtirib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida “muvaffaqiyatli ko‘rinadigan kurash” tushunchasini yaratish xavfini ta’kidlaydi. Boshqa tomondan, tarixiy-pedagogik tahlilchi M. R. Muhayyarov XVIII asrning ikkinchi yarmidan XX asr boshlarigacha bo‘lgan rus armiyasi tarbiya tizimini yoritib, harbiy xizmatchilarda moral qadriyatlarni shakllantirish tajribasini o‘z nazariy konsepsiyalarida himoya qiladi. Muhayyarov sudyalashtirilgan tarixiy misollar orqali — Рётр I, Suvorov, Rumyantsev va Kutuzovning usullari, patriotiк ta’limiy nazariyasi orqali militsiya yoki ofitserlarning axloqiy-ijtimoiy mas’uliyatini kuchaytirishdagi harakatlarini tahlil qiladi[9]. U harbiy tarbiyaning individual hamda kollektiv axloqiy mukammallikka yo‘naltirilgan strukturasini zamonaviy pedagogik paradigmalar bilan izchil bog‘laydi. Bu ikki rus olimi o‘rtasidagi ilmiy bahs, harbiy ma’naviyat tarbiyasining metodologiyasiga oid fundamental qarashlar farqini ochib beradi: Bezrogovning tanqidiy yondashuvi pedagogik materialning kontentdagi “ideologik konstruksiyasi”ni noto‘g‘ri yo‘naltirilgan deb baholasa-da, u harbiy xizmatchilarning chuqur ma’naviy ongini shakllantirish uchun universal qiymatlar, insoniylik, hamdardlik va empatiya muhimligini ta’kidlaydi; Muhayyarov esa milliy tarix va ramzlar asosida shakllangan vatanparvarlik modeli orqali harbiy axloqiy ongni ijtimoiy-oila-madaniyat orqali tizimli shakllantirish tarafdori bo‘lib, bu metodni milliy kontekst bilan bog‘langan holda amalga oshirilishi kerakligini urg‘ulaydi. Shu munosabat bilan mazkur tezisda Buzrogov va Muhayyarovning qarashlari sintez qilinib, O‘zbekiston harbiy ta’lim tizimida legitim pedagogik materiallar — darsliklar, treninglar, ritullar orqali ma’naviy-axloqiy tarbiyaning mazmun-mohiyati shakllantiriladi[10]. Bu ikki yondashuv uyg‘unligicha, nafaqat identitet va milliy g‘urur manbalariga tayanilishini, balki modern pedagogik psixologiya tamoyillari — empatiya, dialog, kritik fikrlash, individual-ijtimoiy axloqiy ongni qo‘llashni ham o‘z ichiga oladi, bu esa O‘zbekiston kontekstida zamonaviy konseptual yondashuvni yaratish imkonini beradi.

Xulosa: O‘zbekiston harbiy ta’lim tizimida ma’naviy-axloqiy tarbiyaning konseptual asoslarini shakllantirish zamonaviy pedagogika, psixologiya, falsafa, sotsiologiya va harbiy fanlar kesishmasida joylashgan kompleks ilmiy-nazariy muammo hisoblanadi. Milliy armiyaning zamonaviy sharoitdagi rivojlanish istiqbollari, harbiy xizmatchilarning har tomonlama yetuk, intellektual, ma’naviy barkamol va vatanparvar shaxs bo‘lib shakllanishi aynan ularning ichki axloqiy pozitsiyasi, fuqarolik burchiga sadoqat, mafkuraviy immunitet va ruhiy tayyorgarlik darajasiga bevosita bog‘liqdir. Bu esa, o‘z navbatida, harbiy ta’lim jarayonida shakllanayotgan ma’naviy-axloqiy qadriyatlar tizimini konseptual asosda chuqur o‘rganish va takomillashtirishni taqozo etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan harbiy islohotlar, xususan, harbiy ta’limning zamonaviy talablar asosida tubdan yangilanishi, harbiy kadrlar tayyorlash tizimiga ma’naviy-ma’rifiy yondashuvlarni chuqur integratsiyalashni talab qilmoqda. Zero, zamonaviy tahdidlar va xavf-xatarlar sharoitida harbiy xizmatchining harakatlari va qarorlarida nafaqat professional bilim va ko‘nikmalar, balki ichki ma’naviy tayanch, axloqiy me’yorlar va shaxsiy mas’uliyat muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, harbiy ta’limda axloqiy qadriyatlar tizimini takomillashtirish, ularni xalqimizning boy madaniy-ma’naviy merosi bilan uyg‘unlashtirish, yosh avlodda vatanparvarlik, fidoyilik, vijdonlilik va

Annotatsiya Ushbu maqolada verbalizatorlarning tildagi vazifasi, yasalish shakllari, turlari va semantik-uslubiy roli haqida so‘z yuritiladi. Verbalizatsiya orqali yangi fe‘llar hosil bo‘lishi tilning boyishiga xizmat qiladi.

Аннотация В статье рассматриваются функции вербализаторов в языке, их формы, типы и семантико-стилистическая роль. Процесс вербализации способствует образованию новых глаголов и обогащает языковую систему.

Abstract This article explores the functions, types, and word-formation role of verbalizers in language. Through verbalization, new verbs are derived, enriching the grammatical and lexical potential of the language.

Kalit so‘zlar: verbalizatorlar, fe‘l yasalishi, affikslar, verbalizatsiya jarayoni, sodda verbalizatorlar,murakkab verbalizatorlar, til tizimi, so‘z yasash

Ключевые слова: вербализаторы, словообразование глаголов, аффиксы, процесс вербализации, простые вербализаторы, сложные вербализаторы, языковая система, словообразование

Keywords: verbalizers, verb formation, affixes, verbalization process, simple verbalizers, complex verbalizers, language system, word formation

Tilshunoslikda verbalizator (lotincha verbum – “fe‘l” + -izator – “yaratuvchi, yasovchi vosita”) deb boshqa so‘z turkumlaridan (masalan, ot, sifat, ravishlardan) yangi fe‘l hosil qiluvchi vositalarga aytiladi. Ushbu vositalar, odatda, affiks (qo‘shimcha) shaklida bo‘ladi va ularning asosiy vazifasi — so‘zga harakat yoki jarayon ma‘nosini qo‘shishdan iborat. Verbalizatorlar orqali tilda yangi fe’llar yasaladi, bu esa tilning grammatik va leksik imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Verbalizatorlar tilda bir nechta muhim vazifa bajaradi. Ular yangi fe‘llar hosil qilishda muhim rol o‘ynaydi. Ular boshqa so‘z turkumlariga mansub so‘zlar — masalan, otlar yoki sifatlar — asosida harakat yoki holat bildiruvchi yangi fe‘l yaratadi. Bunday jarayon tilshunoslikda verbalizatsiya deb ataladi. Misol uchun, o‘zbek tilida: kuy (ot) + -la → kuyla (fe‘l) – ya‘ni kuy ijro etmoq kabi ma‘noda qo‘llaniladi. Ingliz tilida esa modern (sifat) + -ize (fe‘l yasovchi qo‘shimcha) modernize (fe’l) – ya‘ni zamonaviylashtirmoq kabi bo‘lishi mumkin. Verbalizatorlar yordamida so‘zlar miqdori kengayadi, til boyiydi va yangi ifodalar paydo bo‘ladi.

Bunga qo‘shimcha ravishda, verbalizatorlar so‘z turkumini ham o‘zgartiradi. Masalan, ot yoki sifat bo‘lgan so‘z fe’lga aylangach, u gapda kesim yoki boshqa grammatik vazifalarni bajarishga qodir bo‘ladi. Bu o‘zgarish tilda shakl jihatdan moslashuvchanlik yaratadi. Shuningdek, verbalizatorlar nafaqat so‘zning shaklini, balki mazmunini ham o‘zgartiradi. Ular asosiy so‘zga harakat, jarayon yoki ta‘sir ma‘nosini qo‘shadi. Shu orqali hosil bo‘lgan fe‘l yangi, harakat ifodalovchi manoga ega bo‘ladi.

Misol uchun, go‘zallik so‘zidan go‘zallashmoq, ya‘ni go‘zal bo‘lib borish yoki go‘zallikka erishish kabi fe‘l so‘z turkumini yasash mumkin. Yasalgan yangi so‘z mazmun jihatidan kuchaygan bo‘ladi va voqelikni yanada aniqroq ifodalashga xizmat qiladi. Shuningdek, verbalizatorlar tildan emotsional, badiiy yoki publitsistik maqsadlarda foydalanishda ham ahamiyatga ega. Ular orqali nozik ma‘nodagi harakatlar yoki holatlar aniqroq ifodalanadi. Bu esa tilda uslubiy xilma-xillikni ta‘minlaydi.

Masalan, “go‘zallashmoq” so‘zi “go‘zal bo‘lish”dan ko‘ra obrazliroq, jonliroq eshitiladi. Verbalizatorlar turli tillarda har xil shakllarda ishlatilishi mumkin.

Ingliz tilida, odatda, -ize, -ify, -ate kabi qo‘shimchalar orqali yangi fe‘llar yasaladi. Ba‘zi hollarda esa hech qanday qo‘shimcha qo‘shilmaydi, ya‘ni so‘z bevosita fe‘lga aylanadi (to email, to hammer). O‘zbek tilida esa -la, -lash, -n, -in kabi qo‘shimchalar keng ishlatiladi va ular asos so‘zga birikib, yangi fe‘l hosil qiladi. Bu farqlar har bir tilning o‘ziga xos qurilishi va so‘z yasash uslublarini ko‘rsatadi. Verbalizatorlar tilda yangi fe‘llarni yasashga xizmat qiluvchi asosiy vositalardan biridir. Ular yordamida til yanada boyiydi, grammatik va semantik imkoniyatlari kengayadi. Shu bilan birga, verbalizatorlar harakat va holatlarni aniq va obrazli ifodalashda ham yordam beradi.

O‘zbek tilida verbalizatorlar turli so‘z turkumlari — ot, sifat, son va ravishlar negizida yangi fe‘llar yasashda faol ishtirok etadi. Bunday fe‘llar ko‘pincha harakat, holat yoki jarayon ma‘nosini ifodalaydi. Masalan, ot so‘z turkumidagi fe‘llar hosil qilinganda, odatda, biror narsa bilan bog‘liq harakat anglatiladi: kuy - kuyla, suv - suvlan, to‘lov - to‘la, o‘y - o‘yla, g‘ash - g‘ashlanmoq.

Sifatdan yasalgan fe‘llar esa odatda o‘zgarish yoki rivojlanish holatini bildiradi: toza - tozalamoq, go‘zal - go‘zallashmoq, yosh - yosharmoq, jiddiy - jiddiylashmoq. Son so‘z turkumidan yasalgan fe‘llar son bilan bog‘liq harakat yoki holatni ifodalaydi: bir- birikmoq, ikki - ikkilanmoq, juft - juftlashmoq.

Ravish asosidan fe‘l hosil bo‘lganda, harakatning usuli yoki tezligi aks ettiriladi: tez - tezlashmoq, sekin - sekinlashmoq, baland - balandlashmoq. Verbalizatorlar shu tarzda so‘z yasash jarayonida turli turkumdagi so‘zlarni fe‘lga aylantirib, tilning semantik va grammatik imkoniyatlarini sezilarli darajada boyitadi.

Xulosa. Verbalizatorlar til tizimining muhim unsurlaridan biri bo‘lib, boshqa so‘z turkumlaridan yangi fe‘llar hosil qilishga xizmat qiladi. Ular tilning grammatik va leksik boyligini oshirish, harakat va holatlarni aniq ifodalash, hamda uslubiy xilma-xillikni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Verbalizatorlar tilni dinamik va ifodali qilishda beqiyos vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Abdullaeva, Z. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2012.
2.Bobojonov, Sh. O‘zbek tilining hozirgi holati va taraqqiyot yo‘nalishlari. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2020.
3.Ismoilova, D. Fe ‘l yasovchi affikslarning semantik-struktur xususiyatlari. – Toshkent: Ilm ziyo, 2018.
4.Qodirov, M. So‘z yasalishi va uning usullari. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2015.
5.Rahmonov, A. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.

RAQAMLI TA’LIMDA IQTISODIY MATNLARNI TARJIMA QILISH METODIKASINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI

N.O.Xujanazarova
Namangan davlat chet tillari instituti Mustaqil tadqiqotchusi
Tel: 998-93-265-21-58; E-mail:nozimakhojanazarova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola raqamli ta’lim sharoitida iqtisodiy matnlarni tarjima qilish metodikasining psixologik-pedagogik jihatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Unda raqamli resurslar, interaktiv platformalar va virtual muhitdan foydalangan holda tarjimonlik kompetensiyalarini shakllantirish, kognitiv jarayonlarni optimallashtirish va samarali o‘quv faoliyatini tashkil etish masalalari ko‘rib chiqiladi. Maqolada talabalar va tarjimonlarning iqtisodiy matnlarni tarjima qilishdagi qiyinchiliklarini bartaraf etishda psixologik (motivatsiya, diqqat, xotira) va pedagogik (didaktik tamoyillar, o‘qitish metodlari) omillarning o‘zaro aloqasi asoslab beriladi. Shuningdek, raqamli ta’lim vositalarining o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga ta'siri hamda kelajakda yuqori malakali iqtisodiy tarjimonlarni tayyorlashdagi ahamiyati muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: Raqamli ta’lim, iqtisodiy matnlar tarjimasi, psixologik asoslar, pedagogik asoslar, tarjima metodikasi, tarjimonlik kompetensiyasi, onlayn o‘qitish.

Аннотация: Данная статья посвящена всестороннему анализу лингвистических и экстралингвистических трудностей, возникающих в процессе перевода экономических текстов. В ней рассматриваются такие проблемы, как терминологические расхождения, культурно-контекстуальные различия и специфика предметной области. Исследование подчеркивает особенности перевода экономических текстов, включая необходимость для переводчика не только

лингвистических, но и глубоких экономических знаний, а также культурно-контекстной осведомленности. В статье анализируются теоретические подходы, направленные на преодоление этих трудностей, в том числе когнитивный, функционально-прагматический и терминологический подходы. Предлагаемые решения направлены на повышение качества переводческого процесса, минимизацию ошибок и обеспечение эффективности международной экономической коммуникации.

Ключевые слова:Экономический перевод, лингвистические трудности, экстралингвистические трудности, терминология, теория перевода, когнитивный подход, функционально-прагматический подход, культурный контекст.

Abstract: This article is dedicated to a comprehensive analysis of linguistic and extralinguistic difficulties encountered in the process of translating economic texts. It examines issues such as terminological discrepancies, cultural and contextual differences, and the specificity of the subject area. The research emphasizes the unique characteristics of economic text translation, including the necessity for the translator to possess not only linguistic competence but also profound economic knowledge and cultural-contextual awareness. The article analyzes theoretical approaches aimed at overcoming these difficulties, including cognitive, functional-pragmatic, and terminological approaches. The proposed solutions are designed to enhance the quality of the translation process, minimize errors, and ensure the effectiveness of international economic communication.

Keywords: Economic translation, linguistic difficulties, extralinguistic difficulties, terminology, translation theory, cognitive approach, functional-pragmatic approach, cultural context.

Kirish: Bugungi globallashuv sharoitida xalqaro iqtisodiy aloqalar va integratsiya jarayonlarining jadallashuvi har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonlarda turli tillardagi iqtisodiy axborot almashinuvi hal qiluvchi rol o‘ynab, o‘z navbatida, yuqori malakali iqtisodiy tarjimonlarga bo‘lgan talabni oshirmoqda. Iqtisodiy matnlar tarjimasi lingvistik nuqtai nazardan ham, mazmuniy jihatdan ham o‘ziga xos murakkabliklarga ega bo‘lib, bu tarjima jarayonida bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.Iqtisodiy matnlar faqatgina so‘zlarning ma’nolarini aniq yetkazish bilan cheklanib qolmay, balki aniq terminologiya, maxsus leksika, qisqartmalar, formulalar, jadvallar va diagrammalar kabi xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Ularning tarjimasi nafaqat til bilimini, balki chuqur iqtisodiy bilimlarni, turli mamlakatlarning iqtisodiy tizimlari, huquqiy normalari va madaniy kontekstlari haqida xabardorlikni talab qiladi. Shu bilan birga, zamonaviy iqtisodiy atamalar va tushunchalarning doimiy ravishda yangilanib borishi, ba’zan ekvivalentlarning mavjud emasligi tarjimonlar oldiga jiddiy muammolarni qo‘ymoqda. Bu lingvistik qiyinchiliklar bilan bir qatorda, iqtisodiy muhitning o‘ziga xos xususiyatlari, ya’ni ekstralingvistik omillar (masalan, mamlakatning iqtisodiy siyosati, moliyaviy barqarorligi, bozor konvergentsiyasi va diversifikatsiyasi) tarjima jarayonini yanada murakkablashtiradi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, hozirgi kunga qadar iqtisodiy matnlarni tarjima qilishda uchraydigan lingvistik va ekstralingvistik qiyinchiliklarni tizimli ravishda o‘rganish, ularni bartaraf etishning nazariy asoslarini shakllantirish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar yetarli emas. An'anaviy tarjima nazariyasidagi yondashuvlar har doim ham iqtisodiy matnlarning o‘ziga xos xususiyatlarini to‘liq hisobga ololmaydi. Shu sababli, bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar xalqaro iqtisodiy hamkorlikning samaradorligini oshirish, biznes aloqalarida tushunmovchiliklarni kamaytirish va iqtisodiy axborotning aniq, to‘liq yetkazilishini ta'minlash nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili: Iqtisodiy matnlar tarjimasidagi lingvistik va ekstralingvistik qiyinchiliklarni o‘rganish tarjimashunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borilgan.

Lingvistik qiyinchiliklar, asosan, iqtisodiy terminologiya, frazeologiya va uslubiy xususiyatlar bilan bog‘liq. J.C.Sager o‘zining “A Practical Course in Terminology Processing” asarida terminologik banklarning yaratilishi va ulardan tarjima jarayonida foydalanish muhimligini ta’kidlagan. Uning fikricha, aniq va doimiy yangilanib turuvchi terminologik ma'lumotlar bazalari iqtisodiy tarjimadagi leksik nomuvofiqliklarni kamaytirishda asosiy omil hisoblanadi. Shuningdek, M. Shuttleworth va M. Cowie “Dictionary of Translation Studies” asarida iqtisodiy atamalarning polisemiyasi (ko‘p ma'noliligi) va ekvivalentsiyasidagi muammolarga e'tibor qaratganlar. Ular bir tildagi iqtisodiy terminning boshqa tilda bir nechta potentsial ekvivalentga ega bo‘lishi tarjimon uchun jiddiy qiyinchilik tug‘dirishini qayd etishadi. Rossiyalik olimlardan L. K. Latyshev "Texnologiya perevoda" asarida iqtisodiy matnlarning diskursiv xususiyatlari, ya'ni ularning rasmiy-ishbop uslubi, aniqligi va qat'iyligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bu

uslubiy xususiyatlarni saqlash tarjima sifatini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. O‘zbekistonlik tadqiqotchilar ham iqtisodiy terminologiyaning milliy xususiyatlari va ularni tarjima qilishdagi muammolarni o‘rganishgan. Masalan, N. Karimova o‘z tadqiqotlarida bank-moliya sohasidagi atamalarning tarjimasi va ularning o‘zbek tiliga singish jarayonini tahlil qilgan. Bu tadqiqotlar iqtisodiy matnlarning lingvistik qiyinchiliklarini bartaraf etishda terminologik yondashuvning muhimligini tasdiqlaydi.

Ekstralingvistik qiyinchiliklar iqtisodiy tizimlar, madaniy an'analar, huquqiy normalar va kontekstual bilimlarning farqlanishidan kelib chiqadi. P. Newmark "A Textbook of Translation" asarida pragmatik va madaniy adaptatsiya tarjima jarayonida muhim rol o‘ynashini ko‘rsatgan. U iqtisodiy matnlarni tarjima qilishda faqatgina lingvistik ekvivalent topish emas, balki manba va maqsad auditoriyaning iqtisodiy tushunchalari va madaniy fonini hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. Xususan, "inflatsiya", "davlat byudjeti", "soliq tizimi" kabi tushunchalar turli mamlakatlarda o‘ziga xos mexanizmlarga va ta'riflarga ega bo‘lishi mumkin.

Amerikalik olim E. Gentzler "Contemporary Translation Theories" asarida tarjimaning ijtimoiy va madaniy funksiyalariga e'tibor qaratib, tarjimonning nafaqat til vositachisi, balki madaniyatlararo aloqada ko‘prik vazifasini bajaruvchi shaxs ekanligini ta'kidlaydi. Bu ayniqsa iqtisodiy hujjatlar, shartnomalar yoki hisobotlarni tarjima qilishda muhim ahamiyatga ega, chunki ular ortida mamlakatning iqtisodiy falsafasi va siyosati yotadi. O‘zbekiston ilmiy maktabida ham ekstralingvistik omillar o‘rganilgan. M. Xudoyberdiyeva o‘z dissertatsiyasida iqtisodiy diskursning milliy-madaniy xususiyatlari va ularning tarjima jarayoniga ta'sirini tahlil qilgan. Bu tadqiqotlar ekstralingvistik bilimlarning iqtisodiy tarjima sifatini oshirishdagi rolini yorqin ko‘rsatadi.

Mavjud tadqiqotlar iqtisodiy matnlar tarjimasining turli jihatlarini o‘rgangan bo‘lsa-da, ularni bartaraf etish bo‘yicha yondashuvlarni kompleks va integratsiyalashgan tarzda tahlil qiluvchi, ayniqsa, turli nazariy yondashuvlarning o‘zaro aloqasi va sinergiyasini ko‘rsatuvchi ishlar yetarli emas. Shuningdek, ma'lumotlar bazalaridan foydalanish, intellektual salohiyatni oshirish va madaniyatlararo muvofiqlikni ta'minlash kabi omillarni bir tizimga solgan, iqtisodiy tarjima ta’limi va amaliyotiga bevosita tatbiq etish mumkin bo‘lgan yechimlar hali to‘liq ishlab chiqilmagan. Ushbu tadqiqot aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga va iqtisodiy tarjimada uchraydigan qiyinchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha yanada samarali nazariy asoslarni taklif qilishga qaratilgan.

Muhokama: Ushbu tadqiqotda iqtisodiy matnlarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan lingvistik va ekstralingvistik qiyinchiliklarni atroflicha tahlil qilish hamda ularni bartaraf etishning samarali nazariy yondashuvlarini ilmiy jihatdan asoslash maqsad qilingan edi. Olingan natijalar, xususan, bu qiyinchiliklarning tabiatini aniqlash va ularga qarshi kurashishda turli nazariy doiralar (kognitiv, funksional-pragmatik, terminologik) sinergiyasini ko‘rsatish mavjud ilmiy adabiyotlar kontekstida muhim ahamiyat kasb etadi.Shuni ta'kidlash joizki, ushbu nazariy yondashuvlarning har biri alohida-alohida o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning integratsiyalashgan qo‘llanilishi iqtisodiy matnlar tarjimasidagi qiyinchiliklarni bartaraf etishda eng samarali yechimni taqdim etadi. Ya'ni, tarjimon avvalo kognitiv ko‘nikmalardan foydalanib matnni chuqur tushunishi, so‘ngra terminologik bazalardan foydalanib terminlarni aniq va to‘g‘ri tarjima qilishi, nihoyat, funksional-pragmatik yondashuv asosida tarjimani maqsadli auditoriya va uning funksiyasiga moslashtirishi lozim. Ushbu integratsiyalashgan yondashuv hozirgi kunga qadar amaliy tarjima ta’limida yetarlicha e'tibor qaratilmagan bo‘shliqni to‘ldiradi.

Iqtisodiy matnlarni tarjima qilishda uchraydigan lingvistik va ekstralingvistik qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun faqatgina til bilimiga emas, balki chuqur iqtisodiy bilim, madaniy sezgirlik va uchta asosiy nazariy yondashuvni (kognitiv, funksional-pragmatik, terminologik) integratsiyalashgan holda qo‘llash qobiliyatiga ega bo‘lgan tarjimonlarni tayyorlash zarur. Ushbu tadqiqot, aynan shu yo‘nalishda nazariy asoslarni yaratishga xizmat qiladi va kelgusida iqtisodiy tarjima ta’limi hamda amaliyotida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan metodologik tavsiyalar uchun zamin yaratadi.

Natijalar: Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy terminologiyaning polisemik va kontekstual tabiati, bir tilda mavjud bo‘lgan iqtisodiy tushunchalarga boshqa tilda aniq ekvivalentning yo‘qligi, shuningdek, iqtisodiy matnlarga xos bo‘lgan qat'iy uslubiy va sintaktik me'yorlar tarjimada jiddiy lingvistik qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Bu muammolar, asosan, leksik-semantik darajada yuzaga keladi va aniq ma'lumotni noto‘g‘ri yetkazish xavfini oshiradi.

Ekstralingvistik omillarning iqtisodiy tarjima jarayoniga ta'siri tizimlashtirildi. O‘rganilgan adabiyotlar shundan dalolat beradiki, iqtisodiy matnlar tarjimasidagi ekstralingvistik qiyinchiliklar turli mamlakatlarning iqtisodiy tizimlari, huquqiy normalari, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy-siyosiy

kontekstlaridagi fundamental farqlardan kelib chiqadi. Tarjimonning bu omillardan xabardor bo‘lmasligi mazmunning buzilishiga, noto‘g‘ri talqin qilinishiga va hatto madaniyatlararo tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkinligi ta'kidlangan.

Lingvistik va ekstralingvistik qiyinchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan uchta asosiy nazariy yondashuvning ahamiyati va o‘zaro aloqasi umumlashtirildi. Ilmiy adabiyotlarda kognitiv, funksional-pragmatik va terminologik yondashuvlarning har biri alohida o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning iqtisodiy matnlar tarjimasidagi qiyinchiliklarni bartaraf etishdagi o‘zaro to‘ldiruvchanligi va sinergik ahamiyati ta'kidlandi. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rstdiki faqatgina bitta yondashuvga tayanish iqtisodiy matnlarning murakkabligini to‘liq qamrab ololmaydi. Aksincha, bu yondashuvlarni yagona, kompleks strategiya doirasida birlashtirish iqtisodiy matnlarning aniqligi, to‘liqligi va kontekstual mosligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu sintez, iqtisodiy tarjimonlarni tayyorlash va ularning kasbiy mahoratini oshirish uchun nazariy asos yaratadi.

Xulosa: Maqolaning asosiy xulosasi shundan iboratki, bu murakkabliklarni samarali bartaraf etish uchun kognitiv, funksional-pragmatik va terminologik yondashuvlarning integratsiyalashgan modeli eng maqbul yechim hisoblanadi. Kognitiv yondashuv tarjimonning tahliliy va muammo hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirsa, funksional-pragmatik yondashuv tarjimaning maqsadi va maqsadli auditoriyani hisobga olishni ta'minlaydi. Terminologik yondashuv esa iqtisodiy matnlarning aniqligi va izchilligini ta'minlashda fundamental ahamiyatga ega.

Ushbu yondashuvlarni yagona strategiya doirasida birlashtirish iqtisodiy tarjima jarayonining sifatini sezilarli darajada oshiradi, xatolarni minimallashtiradi va xalqaro iqtisodiy muloqotning samaradorligini ta'minlaydi. Olingan nazariy natijalar iqtisodiy tarjimonlarni tayyorlash dasturlarini takomillashtirish, ta’lim metodikasini modernizatsiya qilish va professional tarjimonlarning kasbiy malakasini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar uchun mustahkam zamin yaratadi. Kelgusida ushbu integratsiyalashgan modelning amaliy samaradorligini eksperimental ravishda tekshirish va uni ta’lim jarayoniga joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimova, N. Bank-moliya sohasidagi terminlarning lingvistik xususiyatlari va ularning tarjima muammolari. Filologiya fanlari nomzodi diss. avtoreferati. Toshkent.2019.

2.Kiraly, D. C. Pathways to Translation: Pedagogy and Process. Kent, OH: Kent State University Press.1995.

3.Komissarov, V. N. Teoriya perevoda (lingvisticheskie aspekty). Moskva: Vysshaya shkola.1990

4.Latyshev, L. K. Tekhnologiya perevoda. Moskva: Akademiya.2001

5.Soliyev, O. S. Tarjimonlik faoliyatida kognitiv yondashuvning ahamiyati. Zamonaviy tilshunoslik va tarjimashunoslik, (2), 70-75.2022

6.Xudoyberdiyeva, M. Iqtisodiy diskursning lingvostilistik xususiyatlari va ularning tarjimada aks etishi. Filologiya fanlari doktori (DSc) diss. avtoreferati. Toshkent.2020

7.Zimnyaya, I. A. Pedagogicheskaya psixologiya. Moskva: Logos.2001

ZAMONAVIY MAUGLI SINDROMI VA PSIXOLOGIK REABILITATSIYA USULLARINING SAMARADORLIGI

R.B.Polvanov
Toshkent tibbiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Anotatsiya: Tesizda zamonaviy axborot texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan davrda yoshlar ongida shakllanayotgan “Zamonaviy Maugli sindromi” fenomeni tahlil qilinadi. Ushbu sindromning asosiy sabablari sifatida internetga qaramlik, ijtimoiy izolyatsiya, shaxslararo munosabatlarning susayishi va oilaviy nazoratning yetishmasligi ko‘rsatib o‘tiladi. Tadqiqot doirasida zamonaviy Maugli sindromining klinik-psixologik xususiyatlari chuqur o‘rganilib, uning yoshlar psixik salomatligiga ta’siri yoritiladi. Tezisda, shuningdek, psixologik reabilitatsiya usullarining samaradorligi – kognitiv xulqiy terapiya, psixodrama, guruhiy psixoterapiya va interaktiv muhit orqali ijtimoiy integratsiyalashuv yo‘llari asosida tahlil etiladi. Ilmiy tezis, mavjud muammoning dolzarbligini asoslab, ushbu sindromga chalingan yoshlar bilan ishlashda samarali psixokorreksion strategiyalarni ishlab chiqish zarurligini ta’kidlaydi. Tezis natijalari reabilitatsiya markazlari, psixologik xizmat ko‘rsatuvchi

muassasalar hamda oliy ta’lim tizimida psixoprofilaktika dasturlarini ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy Maugli sindromi, internet qaramligi, psixologik izolyatsiya, reabilitatsiya, kognitiv xulqiy terapiya, psixokorreksiya, yoshlar psixologiyasi, shaxs identiteti, klinik psixologiya, ijtimoiy moslashuv.

Kirish: XXI asrning ikkinchi choragiga kelib, inson psixikasi va shaxsiyatining shakllanishi, ijtimoiylashuvi va jamiyatga integratsiyalashuvi jarayonlari axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining favqulodda tez sur’atlarda rivojlanishi bilan sezilarli darajada murakkablashdi. Axborot oqimining haddan ziyod ortishi, raqamli vositalarga yuqori darajada qaramlik, sun’iy ijtimoiy aloqalar va real hayotdan uzilish holatlari yosh avlod ongida o‘ziga xos nevrotik sindromlarning shakllanishiga sabab bo‘lmoqda. Ana shunday murakkab psixologik holatlardan biri – bu “Zamonaviy Maugli sindromi” (Modern Mowgli Syndrome) bo‘lib, u ko‘p hollarda ijtimoiy-psixologik izolyatsiya, virtual hayotga to‘liq kirib ketish va shaxsiy identitetning buzilishi bilan kechadi. Mazkur sindrom atamasi o‘z mohiyatiga ko‘ra Rudyard Kiplingning “Jangal kitobi” asarida tasvirlangan Maugli obrazidan ilhomlanib shakllangan bo‘lsa-da, bugungi kunda u psixologik izolyatsiyaga uchragan, real ijtimoiy muhitdan uzilgan, o‘z shaxsiyligini mustahkamlay olmagan yoshlar ongida yuzaga kelayotgan kompleks hodisani ifodalaydi. Farqli jihati shundaki, bugungi “zamonaviy Maugli”lar jamiyatdan jismonan emas, balki ruhiy va psixologik jihatdan chekinib, sun’iy raqamli muhitda o‘zini “xavfsiz” deb his qiladi va shu muhitda yashashni afzal ko‘radi. Bu holat esa o‘z navbatida, shaxsiy identifikatsiya, emotsional yetilish, kommunikativ qobiliyat va real muammolar bilan kurasha olish ko‘nikmalarining buzilishiga olib keladi.So‘nggi yillarda olib borilgan klinik-psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, “Zamonaviy Maugli sindromi” o‘zbek jamiyatida ham tobora kuchayib borayotgan psixososial muammolardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, 14–25 yosh oralig‘idagi o‘smirlar va yoshlar orasida bu sindromning turli darajadagi ko‘rinishlariga duch kelinmoqda. Ushbu sindromga chalingan shaxslar odatda chuqur ijtimoiy befarqlik, passivlik, kommunikatsiyaviy chekinish, o‘zini past baholash, xavotir, depressiv epizodlar, shaxslararo mojarolardan qochish va o‘z-o‘zini izolyatsiya qilish holatlari bilan ajralib turadi. Bu esa shaxsning sog‘lom psixik rivojlanishiga, ijtimoiy moslashuviga va kasbiy yo‘nalishdagi o‘sishiga jiddiy to‘sqinlik qiladi. Mazkur sindromning asosiy sabablari murakkab va ko‘p omilli bo‘lib, ularni sotsial-psixologik, oilaviy, individual va texnologik omillar kontekstida tahlil etish lozim. Birinchidan, oilaviy munosabatlarning zaifligi, ota-onalarning hissiy sovuqligi, oilada ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlovning yetishmasligi bolada ijtimoiy aloqalardan chekinish holatini keltirib chiqaradi. Ikkinchidan, ta’lim muassasalaridagi psixologik muhit, o‘qituvchilar va tengdoshlar bilan bo‘ladigan murakkab aloqalar, mobbing va psixologik bosim kabi holatlar ijtimoiy qochishni rag‘batlantiradi. Uchinchidan, internet va raqamli platformalarning haddan ziyod jozibadorligi, ijtimoiy tarmoqlar orqali sun’iy ijobiy tasvirlar yaratish imkoniyati, “ideallikka” intiluvchi virtual obrazlar bilan solishtirish jarayonida yoshlar o‘z-o‘zini yetarlicha baholay olmay, real hayotdan chekinishga moyil bo‘lib qoladilar. Yuqoridagi muammolar zamirida psixologik identitetning izdan chiqishi yotadi. Erving Goffmanning ijtimoiy identitet nazariyasiga ko‘ra, shaxs o‘zini boshqalar ko‘zi bilan idrok etish orqali identitetini shakllantiradi[1]. Biroq zamonaviy yoshlar ko‘proq virtual olamdagi tasdiqni qidirganlari sababli, ularning real hayotdagi “men” obrazi parchalanadi. Bu esa zamonaviy Maugli sindromining asosiy psixologik ildizlaridan birini tashkil qiladi. Shu nuqtai nazardan, psixologik reabilitatsiya masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki zamonaviy Maugli sindromi faqatgina diagnostika orqali emas, balki chuqur psixoterapevtik yondashuvlar orqali korreksiya qilinishi mumkin bo‘lgan murakkab holatdir[2]. Xususan, kognitiv xulqiy terapiya, eksistensial psixoterapiya va guruhiy psixoterapiya kabi yondashuvlar bugungi kunda psixologik reabilitatsiya tizimida keng qo‘llanilmoqda[3]. O‘zbekistonda ham psixologik xizmat ko‘rsatish tizimi so‘nggi yillarda jadal rivojlanmoqda. Maktablar, oliy ta’lim muassasalari, reabilitatsiya markazlari va mustaqil psixologik konsalting agentliklari orqali yoshlar orasida psixologik muammolar aniqlanib, individual va guruhiy reabilitatsiya dasturlari joriy etilmoqda. Shu bilan birga, bu sohadagi ilmiy tadqiqotlar, ayniqsa, klinik psixologiya yo‘nalishidagi empirik kuzatuvlar hali yetarli darajada shakllanmagan. Ayni tezis shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, zamonaviy Maugli sindromining klinik-psixologik jihatlarini aniqlash, uning psixologik reabilitatsiyadagi yondashuvlarini empirik tahlil qilish va ularning samaradorligini baholashga qaratilgan. Tadqiqotning metodologik asosini psixodinamik tahlil, strukturaviy-interaktiv yondashuv, eksperiment hamda testologik metodlar tashkil etadi. Ayniqsa, Beck depressiya shkalasi, Rosenberg o‘z-o‘zini baholash testi, Hamilton xavotir darajasi testi va virtual izolyatsiyani aniqlovchi mualliflik metodikasi asosida zamonaviy Maugli sindromining klinik ko‘rinishlari

empirik asosda o‘rganiladi[4]. Reabilitatsiya samaradorligini aniqlashda esa old-test va so‘nggi testlar o‘rtasidagi statistik farqlar (t-test) asosida tahlil olib boriladi. Tezisning ilmiy yangiligi shundaki, unda zamonaviy Maugli sindromi fenomeni nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy psixokorreksion yondashuvlar kontekstida chuqur yoritilgan. Shu bilan birga, ushbu sindromga chalingan yoshlar bilan ishlashda diagnostik, psixoprofilaktik va reabilitatsion yondashuvlar o‘zaro uyg‘unlashtirilgan holda taklif etiladi. Bu esa, nafaqat klinik psixologlar, balki ta’lim tizimida faoliyat yurituvchi amaliy psixologlar, ijtimoiy ishchilar va ota-onalar uchun ham muhim qo‘llanma vazifasini bajaradi. Shuni ham ta’kidlash lozimki, mazkur tadqiqot inson salomatligining psixologik komponenti – shaxs ongining barkamol shakllanishi, ijtimoiy moslashuv darajasi va kommunikativ kompetensiyalarining rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, Prezident qarorlari va davlat dasturlarida yoshlar ongini sog‘lom, intellektual rivojlangan va ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalash borasida qator strategik vazifalar belgilangan. Ushbu tezis ana shu vazifalarni amaliy jihatdan asoslashga hissa qo‘shadi[5]. Zamonaviy Maugli sindromi zamirida yotgan ijtimoiy-psixologik muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari, ayniqsa, psixologik reabilitatsiya usullarining ilmiy asoslangan yondashuvlar orqali tahlili nafaqat psixologiya fanining rivoji, balki jamiyatning ruhiy salomatligi uchun ham muhimdir. Mazkur tezis orqali ushbu murakkab hodisaning mohiyati chuqur yoritilib, uni korreksiya qilishga qaratilgan zamonaviy psixoterapevtik vositalar tizimli tarzda tahlil qilinadi.

Zamonaviy jamiyatda psixologik muvozanat, ruhiy salomatlik va shaxsning ijtimoiy moslashuv darajasi nafaqat individual farovonlikning, balki umumiy ijtimoiy barqarorlikning ham muhim ko‘rsatkichlaridan biri sifatida qaralmoqda. Axborot texnologiyalari olamining keskin sur’atlar bilan rivojlanishi, global tarmoq orqali inson tafakkuriga ta’sir etuvchi ko‘lamli virtual muhitning shakllanishi, ayniqsa yoshlar ongiga kuchli psixologik bosimni yuzaga keltirmoqda. Bugungi avlod ko‘proq raqamli interfeyslar bilan muloqot qiladigan, ijtimoiylashuvda sun’iy algoritmlarga tayanadigan, haqiqatdan yiroqlashgan virtual obrazlar bilan o‘z shaxsini solishtiradigan muhitda kamol topmoqda. Bu esa ularning ruhiy iqlimiga sezilarli darajada ta’sir etib, shaxsiy identitetning izdan chiqishi, ijtimoiy izolyatsiya, hissiy sovuqlik, empatiya yetishmasligi kabi holatlarni kuchaytirmoqda. Shu nuqtai nazardan olganda, “Zamonaviy Maugli sindromi” nafaqat psixologik, balki ijtimoiy-huquqiy, madaniy-ma’naviy va hatto iqtisodiy jihatdan ham jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan zamonaviy kasallik sifatida qaralmoqda[6]. Ushbu sindromni o‘z vaqtida aniqlash, chuqur ilmiy asosda tahlil qilish va unga qarshi samarali psixokorreksion hamda reabilitatsion yondashuvlarni ishlab chiqish bugungi kunda nafaqat psixologlarning, balki pedagog, sotsiolog, mutasaddi tashkilotlar va siyosat yurituvchilar diqqat markazida bo‘lishi shart. Dunyo tajribasida bu boradagi xavotirlar tobora ortib bormoqda. Yaponiyada “hikikomori” fenomeni, Janubiy Koreyada “game addiction disorder”, AQSh va Yevropa davlatlarida esa “digital dissociation” (raqamli ajralish) holatlari tobora kengayib borayotgan muhim psixologik muammolar sirasiga kiradi. BMT va Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO) tomonidan 2018-yilda “internet addiction disorder” rasmiy ravishda psixologik sindrom sifatida tan olinishi bu muammo global darajada tan olinganini ko‘rsatadi. Demak, zamonaviy Maugli sindromi – bu nafaqat o‘zbek jamiyatiga xos hodisa, balki global raqamli psixozning lokal ko‘rinishi sifatida qaralishi lozim. O‘zbekistonda esa bu jarayon o‘ziga xos tarixiy-madaniy fon bilan kechmoqda. Milliy qadriyatlar, an’anaviy ijtimoiy aloqalar, mahalla tizimi va oila qadriyatlariga asoslangan jamiyatda raqamli izolyatsiyaning ortib borishi, yoshlarning real ijtimoiy maydondan voz kechib, virtual olamda yashashni afzal bilishi – bu katta xavf-xatarni yuzaga chiqaradi[7]. Bunday sharoitda yosh avlodning ruhiy immuniteti pasayadi, ijtimoiy rol va mas’uliyat hislari so‘nadi, mustaqil qaror qabul qilish va hayotiy muammolarni yengish ko‘nikmalari zaiflashadi. Natijada esa jamiyatda passiv, befarq, ijtimoiy o‘zgarishlarga ta’sir o‘tkaza olmaydigan “xayoliy ong egalari” shakllanishi mumkin. Aynan shu nuqtada psixologik reabilitatsiya sohasining dolzarbligi namoyon bo‘ladi. Chunki Maugli sindromining ildizlari individual psixikada yotgani bois, uning yechimi ham avvalo shaxsning ichki holatini tahlil qilish, ruhiy zarbalarni aniqlash, ijtimoiy aloqa mexanizmlarini qayta tiklash, shaxsiy identitetni mustahkamlashdan boshlanishi kerak. Bu esa zamonaviy psixologiya ilmining asosiy vazifalaridan biridir[8]. Kognitiv xulqiy terapiya, eksistensial yondashuvlar, humanistik terapiya, guruhiy va oilaviy terapiya kabi zamonaviy reabilitatsiya usullarining ahamiyati aynan mana shunday sindromlarda to‘liq namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, bu sohaning dolzarbligi amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda maktab va oliy ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning e’tibor kamayishi, o‘zlashtirish darajasining pasayishi, emotsional labillik, psixosomatik shikoyatlar ko‘payishi kuzatilmoqda. Bu esa zamonaviy Maugli sindromi bilan bog‘liq bo‘lgan umumiy ruhiy izdan chiqishning alomatlaridan biridir. Shu bois, psixologik xizmat tizimlarida ushbu sindromni aniqlashga doir maxsus metodikalar, erta

diagnostika vositalari, psixoprofilaktik treninglar va interaktiv koreksion modellarni ishlab chiqish hozirda zaruratga aylangan[9]. Mavzuning dolzarbligi, shuningdek, ijtimoiy barqarorlik va ma’naviy xavfsizlik masalalarida ham bevosita o‘z aksini topadi. Chunki ruhiy jihatdan beqaror, jamiyatdan begona, virtual haqiqatga ishonuvchi yoshlar jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy barqarorligiga real tahdid solishi mumkin. Milliy g‘oya, vatanparvarlik, fuqarolik mas’uliyati, o‘zlikni anglash, milliy qadriyatlarga sodiqlik kabi tushunchalar aynan psixik barqarorlik asosida shakllanadi. Zamonaviy Maugli sindromi esa bu barqarorlikni yemiruvchi ichki omil sifatida ta’sir o‘tkazadi. Shunday qilib, bugungi kunda “Zamonaviy Maugli sindromi va psixologik reabilitatsiya” sohasi nafaqat psixologik, balki pedagogik, sotsiologik, huquqiy va siyosiy jihatdan ham g‘oyat dolzarb hisoblanadi. Bu boradagi ilmiy izlanishlar nafaqat nazariy ahamiyatga, balki amaliy ijtimoiy jarayonlarga bevosita ta’sir ko‘rsata oladigan salohiyatga egadir[10]. Yaqin yillarda raqamli transformatsiya jarayoni yanada chuqurlashishi kutilayotgan bir davrda, bu sindromning oldini olish va uni korreksiya qilish bo‘yicha milliy strategiyalar ishlab chiqish zarurati kundan-kunga ortib bormoqda. Shu sababli, bu mavzuni chuqur o‘rganish, zamonaviy reabilitatsiya usullarining samaradorligini tahlil qilish, psixoprofilaktika choralarini kengaytirish – bugungi davrning ijtimoiy buyurtmasidir.

Xulosa: Zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalar, internet va virtual muloqot vositalarining tobora keng ko‘lamda hayotimizga kirib kelishi inson psixikasida ilgari kuzatilmagan yangi sindromlarning shakllanishiga olib kelmoqda. Jumladan, “Zamonaviy Maugli sindromi” deb atalayotgan hodisa – bu, asosan, o‘smirlar va yoshlar orasida kuzatilayotgan, insonning ijtimoiylashuvi, shaxsiy identiteti, emotsional-intellektual yetukligi kabi muhim psixologik jarayonlarning virtual izolyatsiya ta’sirida buzilishi bilan tavsiflanadigan holatdir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, ushbu sindromning kelib chiqishida biologik predispozitsiyadan tashqari, ijtimoiy-madaniy omillar, oilaviy muhit, axborotga bo‘lgan nofiltrlangan kirish imkoniyati ham asosiy rol o‘ynaydi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, zamonaviy psixologiyada ushbu sindromni korreksiya qilish va uni profilaktika qilishga qaratilgan kompleks yondashuv zarurati yuzaga keladi. Psixologik reabilitatsiya usullarining samaradorligi aynan ushbu yondashuvlar kompleksligiga bog‘liq bo‘lib, ular ichida kognitiv-hulqiy terapiya, art-terapiya, psixodrama, guruhiy psixoterapiya, shuningdek, meditatsion-amaliy uslublarning ahamiyati alohida ta’kidlanadi. Ayniqsa, zamonaviy reabilitatsiya jarayonlarida raqamli vositalarning o‘zini konstruktiv tarzda qo‘llash orqali virtual muhitda ijobiy ijtimoiy o‘zgarishlarni rag‘batlantirish mumkinligi isbotlangan. Shu bilan birga, internetga nisbatan ongli va nazoratli yondashuvni shakllantirish, raqamli detoks strategiyalarini joriy qilish ham muvaffaqiyatli psixokorreksiyaning muhim tarkibiy qismidir. Xususan, oilaviy terapiya va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tarmog‘ining mavjudligi ushbu sindromdan aziyat chekayotgan yoshlarning psixik barqarorligini tiklashda asosiy psixoprotektiv omil hisoblanadi. Mazkur tezisda keltirilgan ilmiy asoslar, nazariy qarashlar va amaliy tavsiyalar zamonaviy Maugli sindromining murakkab etiologik va patopsixologik mohiyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Shuningdek, reabilitatsiya mexanizmlarini samarali tashkil qilishda yangi yondashuvlarga yo‘l ochadi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, shaxsiy identitet buzilishining oldini olish, insonni real va virtual olam o‘rtasida muvozanatli hayot tarziga qaytarish, shuningdek, zamonaviy ruhiy salomatlik modelini shakllantirish yo‘lida davlat, ta’lim, sog‘liqni saqlash va oilaviy institutlar o‘rtasidagi uzviy hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, psixologik reabilitatsiya yo‘nalishidagi tadqiqotlarni chuqurlashtirish, milliy va global kontekstda innovatsion usullarni sinovdan o‘tkazish, shuningdek, jamiyatni ma’rifiy yondashuvlar orqali xabardor qilish zamonaviy Maugli sindromining salbiy oqibatlarini kamaytirishning samarali usuli sifatida qaralmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Nasriddinova G. INTERNET TARMOG'LARINI O'SMIRLAR TARBIYASIGA TA'SIRI //Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2024. – T. 1. – №. 5. – C. 103-105.
2. Abdusattarovna O. X., Shohbozbek E. IJTIMOIY FALSAFADA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH //Global Science Review. – 2025. – T. 4. – №. 5. – C. 175-182.
3. Сосновцева М. С. The impact of socialization on the psyche and development of children //СибАДИ. – 2020. – С. 364.
4. Petrova E., Gnatik E. The Transformation of the Environment in the Digital Age //5th International Conference on Contemporary Education, Social Sciences and Humanities-Philosophy of Being Human as the Core of Interdisciplinary Research (ICCESSH 2020). – Atlantis Press, 2020. – С. 131-134.

5. Таубаев Ж. Т., Мажитова А. Б. TENDENCY IN USE OF EPONYMS BASED ON MODERN LITERARY NAMES //«Абылай хан атындағы ҚазХҚжәнеӘТУ Хабаршысы Филология ғылымдары сериясы. – 2022. – Т. 65. – №. 2.
6. Atxamjonovna B. D., Shohbozbek E. RESPUBLIKAMIZDA MAKTABGACHA TA'LIMDA YOSHLARNING MA'NAVIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH //Global Science Review. – 2025. – Т. 4. – №. 5. – С. 221-228.
7. Steyn L., Barnard A. The coaching experience as identity work: Reflective metaphors //SA Journal of Industrial Psychology. – 2024. – Т. 50. – С. 2132.
8. Aminovna X. D. INTERNETGA QARAM SHAXSNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK PORTRETI: NAZARIY ASOSLAR //Modern education and development. – 2025. – Т. 26. – №. 1. – С. 261-265.
9. Ulug’bekovna T. S., Kabilovich P. O. YOSHLAR O ‘RTASIDA IJTIMOIY TARMOQQA QARAMLIK MUAMMO SIFATIDA HAMDA INTERNETGA TOBELIK DARAJASI //FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES. – 2025. – Т. 4. – №. 41. – С. 49-55.
10. Diloram M., Shohbozbek E. O’ZBEKISTONDA YOSHLARNING MA’NAVIY DUNYO QARASHINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI //Global Science Review. – 2025. – Т. 4. – №. 5. – С. 207-215.

SUN’IY INTELLEKT VOSITALARI ASOSIDA TALABALARNING KASBIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

M.V.Abdujabborov
Andijon davlat universiteti “Axborot texnologiyalar” kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida talabalarning kasbiy tafakkurini rivojlantirishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlari tahlil qilingan. Unda raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim mazmuni, shakli va metodikasining o‘zgarishi, shuningdek, sun’iy intellekt vositalarining ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rni ilmiy asosda yoritilgan. ChatGPT va Khanmigo kabi ilg‘or til modellari orqali talabalarning tahliliy, tanqidiy va reflektiv tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirish, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va mustaqil o‘rganish jarayonini qo‘llab-quvvatlashning samarali yo‘llari ko‘rsatib berilgan. Maqolada shuningdek, sun’iy intellektdan ta’limda foydalanishning afzalliklari, mavjud infratuzilma va metodik yondashuvlar doirasidagi muhim jihatlar yoritiladi.

Kalit so’zlar: Sun’iy intellekt, kasbiy tafakkur, raqamli pedagogika, ta’lim texnologiyalari, ChatGPT, reflektiv tafakkur, innovatsion o‘qitish.

Zamonaviy ta’lim jarayonida talabalarning kasbiy tafakkurini rivojlantirishda sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish nafaqat dolzarb ehtiyoj, balki ta’lim sohasini tubdan isloh qilishga xizmat qiluvchi strategik yo‘nalish sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ta’lim tizimidagi keskin o‘zgarishlar, raqamlashtirish jarayonining jadal rivojlanishi va mehnat bozori talablarining o‘zgarib borishi ta’lim sohasida innovatsion texnologiyalarni joriy etishni talab qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish talabalarning kasbiy va tanqidiy tafakkurini shakllantirishda, ularning shaxsiy rivojlanish jarayonini qo‘llab-quvvatlashda, hamda o‘qitishning sifat va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda pedagog kadrlar tayyorlashning strategik maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, pedagogik ta’lim sohasini rivojlantirish, o‘qituvchilik kasbining nufuzi, obro‘si va jozibadorligini oshirish, yangicha fikrlovchi, mustaqil faoliyat yurita oladigan pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasida “Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash ... huquqiga ega”, deb belgilab qo‘yildi[1]. Jumladan, ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish va samarali qo‘llashga qaratilgan innovatsion yondashuvlar shakllantirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Uzluksiz ta’lim tizimini

yanada takomillashtirish yo‘lini davom ettirish, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish; ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar tayyorlash hamda oliy ta’lim tizimi faoliyatining sifati va samaradorligini oshirish”[3] kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu vazifalar ijrosi bo‘lajak o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatida metodik tayyorgarlik darajasini, kasbiy tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnologiyalarni kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirishni nazarda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni [3], 2020 yil 5 oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli farmoni [4], 2021 yil 17 fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4996-sonli qarori [5], 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarorlari [6] sun’iy intellekt tizimidan samarali foydlaanish va ta’lim tizimiga joriy qilishda dasturi amal bo’lib xizmat qilmoqda.

Bugungi global ta’lim tizimi shiddat bilan o‘zgarib bormoqda. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, ta’lim resurslarining ko‘payishi, onlayn va masofaviy o‘qitish shakllarining kengayishi o‘quv jarayonida yangi yondashuvlarni joriy etishni taqozo etmoqda. Shu boisdan, sun’iy intellektning o‘qitish jarayoniga integratsiyalashuvi o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi an’anaviy munosabatlar modelini o‘zgartirishga, o‘quv jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan, moslashuvchan va samarali ko‘rinishga keltirishga xizmat qilmoqda.

Ta’limda sun’iy intellektdan foydalanishning afzalliklari orasida quyidagilarni alohida ta’kidlash lozim:

- Shaxsiylashtirilgan ta’lim**:** Har bir talabaning bilim darajasi, qiziqishlari va ehtiyojlariga moslashtirilgan o‘quv materiallarini yaratish imkoniyati;
- Tanqidiy va tahliliy fikrlashni rivojlantirish: Sun’iy intellekt orqali murakkab masalalar va muammoli vaziyatlarni yechish orqali talabalarning tafakkur darajasini oshirish;
- Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish: Sun’iy intellekt asosida kasbiy ko‘nikmalarni amaliyotda mustahkamlash uchun interaktiv simulyatorlar, virtual muhitlar va modellar yaratish;
- Avtomatlashtirilgan baholash va teskari aloqa: Ta’lim jarayonini tezlashtirish, baholashning aniqligini oshirish va doimiy teskari aloqa berish imkoniyatlari.

Bundan tashqari, sun’iy intellekt vositalari yordamida talabalarning o‘z-o‘zini o‘rganish, mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish, qaror qabul qilish, ijodiy yondashuv kabi ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Zero, bu ko‘nikmalar kelajakda muvaffaqiyatli professional faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan muhim kasbiy sifatlar hisoblanadi.

Ta’lim jarayonining innovatsion texnologiyalar bilan boyitilishi — bu faqatgina yangi texnik vositalarni joriy etish emas, balki o‘qitishning mazmuni, shakli va usullarini yangilash, talabalarning aqliy salohiyatini, mustaqil bilim olishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishdir. Bu jarayonda sun’iy intellekt vositalarining o‘rni ayniqsa muhim, chunki ular o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi aloqalarni yangi bosqichga olib chiqadi, shaxsiy yondashuvni kuchaytiradi, ta’lim samaradorligini oshiradi.

So‘nggi yillarda zamonaviy texnologiyalar oliy ta’lim tizimi arxitekturasini tubdan o‘zgartirdi. Ayniqsa, sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi va oliy ta’lim muassasalariga kirib kelishi bu jarayonlarni yanada tezlashtirdi. Dunyoning rivojlangan yetakchi oliy ta’lim muassasalari allaqachon sun’iy intellekt texnologiyasini o‘z faoliyatining turli yo‘nalishlariga integrasiya qilib ham ulgurdi. Sun’iy intellekt texnologiyasi professor-o‘qituvchi va talabalarning chinakam ko‘makchisiga aylandi. Ular dars mashg‘ulotlari davomida bevosita sun’iy intellekt texnologiyasidan foydalanishni boshlashdi[19].

Sun’iy intellekt — inson hayotini osonlashtiruvchi va ijtimoiy munosabatlarning turli jihatlarini o‘zgartirishga qodir texnologiya sifatida qaralmoqda. Bu rivojlanayotgan texnologiya ta’limda ham o‘z o‘rnini topib, yangi yechimlarni joriy etish imkonini bermoqda. Biroq, sun’iy intellektning samarali ishlashi rivojlangan infratuzilmalar va innovatsion muhitni talab qiladi. Shu bois, biz o‘qitish va o‘rganish jarayonida yangi davr ostonasida turibmiz.

Zamonaviy davrda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari turli sohalarda, jumladan, ta’lim tizimida keng qo‘llanilmoqda. Raqamli transformatsiya sharoitida ta’limda sun’iy intellektdan foydalanish nafaqat yangi texnik vositalarning joriy etilishi, balki o‘qitishning shakli, mazmuni va metodikasini tubdan o‘zgartirishga olib kelmoqda. Sun’iy intellekt vositalarining ta’limda qo‘llanishi inson faoliyatining

ko‘plab jihatlarini takomillashtirishda, talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni mustahkamlashda, shaxsiylashtirilgan ta’limni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, ayniqsa sun’iy intellekt vositalarining ta’lim jarayoniga jadal kirib kelishi, kasbiy tafakkurni rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu nuqtai nazardan, OpenAI kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan ChatGPT kabi til modellari talabalar kasbiy tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishda muhim vosita sifatida qaralmoqda.

ChatGPT ning kasbiy tafakkurni rivojlantirishga qo‘shadigan hissasi

- Tahliliy fikrlashni rivojlantirish – ChatGPT orqali talabalarning tahliliy tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Model foydalanuvchidan kelgan savollarga asoslangan holda ko‘p qirrali, tizimli va asosli javoblar ishlab chiqadi. Bu jarayon talabalarni fikrni chuqurlashtirish, mavjud ma’lumotlarni tahlil qilish va turli nuqtai nazarlarni ko‘rib chiqishga undaydi.
- Tanqidiy fikrlashni shakllantirish – ChatGPT bilan ishlash talabalarni berilgan javoblarni shubha ostiga olish, ularni baholash va dalillar bilan tasdiqlashga o‘rgatadi. Talaba faqat tayyor bilimlarni emas, balki ularni **tanqidiy fikrlash orqali qayta ishlash** ko‘nikmasini rivojlantiradi.
- Muammoli vaziyatlar tahlili va yechim topish – ChatGPT yordamida turli kasbiy kontekstdagi muammoli holatlar (case studies) yaratish va ularni tahlil qilish mumkin. Talabalar ushbu muammolar yechimlarini ishlab chiqishda qatnashib, ijodiy tafakkur va muammoli vaziyatlarni boshqarish qobiliyatini rivojlantiradilar.
- Reflektiv tafakkurni rivojlantirish – ChatGPT yordamida talabalar o‘z fikrlari va qarorlarini tahlil qilishga, o‘rganish jarayonida yuzaga kelgan qiyinchiliklar va xatolardan saboq olishga o‘rganadilar. Bu reflektiv yondashuv ularning mustaqil o‘qish va kasbiy rivojlanish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.
- Bilimlarni chuqurlashtirish – ChatGPT talabalarni faktlar, kontseptlar va nazariyalarni chuqur o‘rganishga yo‘naltiradi. Murakkab tushunchalarni sodda va tushunarli tilda izohlab, talabaning kognitiv qobiliyatlarini kengaytiradi.
- Amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlash – Talabalar ChatGPT bilan ishlash orqali turli kasbiy vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish, muloqot qilish, strategik fikrlash kabi amaliy kompetensiyalarni rivojlantirishlari mumkin.
- Mustaqil o‘rganishga yordam – ChatGPT 24/7 mavjud bo‘lib, talabalarni mustaqil bilim olish, savollar berish, tahlil qilish, dalillar izlash va xulosa chiqarishga o‘rgatadi. Bu esa ularning doimiy kasbiy o‘sish uchun asos yaratadi.
- Innovatsion fikrlash va kreativlikni rivojlantirish – Sun’iy intellekt yordamida talabalar ijodiy tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirib, noan’anaviy yechimlar ishlab chiqish, innovatsion yondashuvlarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Khanmigo — Khan Academy tomonidan ishlab chiqilgan sun’iy intellekt yordamchisi — talabalarning kasbiy tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishda keng imkoniyatlarga ega zamonaviy vosita hisoblanadi.

Khanmigo‘ning asosiy afzalligi — uning sun’iy intellekt yordamida individual yondashuvni ta’minlash qobiliyatidir. Bu vosita o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida interaktiv muloqot muhiti yaratish orqali bilimlarni chuqurlashtirish, tahliliy va refleksiv fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.

- Muammoli savollarni tahlil qilish;
- Fikrlarini mantiqiy asoslash;
- Turli nuqtai nazarlarni qiyoslash va baholash imkoniyatlariga ega bo‘ladilar.

Misol uchun, talabaga muayyan kasbiy vaziyatda qaror qabul qilish topshirig‘i berilganda, Khanmigo unga yo‘nalish ko‘rsatish, afzallik va kamchiliklarni tahlil qilish, izchil fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: Uzbekistan, 2009. - 40 s.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 17 fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4996-sonli qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori.
6. M.Xurramov, K.Xalmuratova. “Oliy ta’lim muassasalari faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyasini joriy etish”. “Metodik qo‘llanma”. “Yetakchi nashriyoti” Toshkent 2024 y.
7. Sadullaeva Sh., Yusupov D., Yusupov F. “Sun’iy intellekt va neyronto‘rli texnologiyalar”. “Innavatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” Toshkent 2020 y. – 8 s.
8. T.A.Xo‘jaqulov, N.T.Malikova. Sun’iy intellket (o‘quv qo‘llanma). – T.: “Innavatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2020. 216 s..

INSON VA SUN’IY INTELLEKT O‘RTASIDAGI KOMMUNIKATIV MUVOZANAT MASALASI VA UNING JAMIYAT IJTIMOIY RUHIYATIGA TA’SIRI

B.T.Davronov
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

Anotatsiya: Tezisda inson va sun’iy intellekt (SI) o‘rtasidagi kommunikativ muvozanatning shakllanish jarayoni, u bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy-psixologik muammolar va ularning jamiyat ijtimoiy ruhiyatiga ko‘rsatgan ta’siri tahlil qilinadi. Zamonaviy texnologiyalar tez sur’atlarda rivojlanar ekan, inson ongining jamiyatdagi axloqiy, ruhiy va kommunikativ holati SI bilan o‘zaro aloqalar orqali muayyan darajada transformatsiyaga uchramoqda.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, kommunikativ muvozanat, inson psixologiyasi, ijtimoiy ruhiyat, ong transformatsiyasi, axborot etikasi, sotsial izolyatsiya, texnologik kommunikatsiya, shaxsiyat buzilishi, ijtimoiy refleksiya.

Kirish: XXI asrning ikkinchi choragida sun’iy intellekt texnologiyalarining hayotimizga tobora chuqur kirib borishi insoniyat tarixidagi navbatdagi tsivilizatsion burilish nuqtasi sifatida e’tirof etilmoqda. Texnologik taraqqiyotning eng ilg‘or shakllaridan biri bo‘lgan sun’iy intellekt (SI) nafaqat ishlab chiqarish, iqtisodiyot va axborot almashinuvi sohalarida inqilobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda, balki insonning jamiyatdagi ontologik mavqei, shaxsiy identiteti, emotsional va ruhiy holati, ijtimoiy ong strukturalariga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Aynan shu nuqtada inson va sun’iy intellekt o‘rtasidagi kommunikativ muvozanat masalasi zamonaviy falsafiy-antropologik, sotsiologik, psixologik va axloqiy tadqiqotlar markaziga aylangan holatda. Shu o‘rinda e’tirof etish kerakki, inson va SI o‘rtasidagi kommunikatsiya har qanday boshqa texnologik vositalardan farqli ravishda, nafaqat axborot almashinuvi darajasida, balki ong, intellekt, refleksiya, empatiya va qaror qabul qilish mexanizmlarini qamrab oluvchi murakkab psixososial muvozanatni talab etadi. Sun’iy intellekt insonning ongli faoliyati bilan bevosita o‘zaro aloqador bo‘lgan zamonaviy konstrukt sifatida jamiyat a’zolarining ijtimoiy ongida va ruhiy kayfiyatida yangi tendensiyalarni yuzaga keltirmoqda. Avvalo, bu jarayonlarda inson subyekti o‘zining kognitiv, emotsional va ijtimoiy identifikatsiya chegaralarini qayta ko‘rib chiqishga majbur bo‘lmoqda. Kommunikativ muvozanat – bu nafaqat texnik yoki funksional aloqa darajasi, balki ijtimoiy subyekt sifatida insonning o‘zini va boshqani anglash, idrok etish, o‘zaro empatik rezonansga kirishish qobiliyatining saqlanishidir. Inson tabiatiga xos bo‘lgan ong va ruhiy-psixologik faollik texnogen muhitda – xususan, SI bilan aloqa kontekstida – yangi sinovlar va transformatsiyalarga duch kelmoqda. Bu transformatsiyalar ba’zida ijobiy ko‘rinish kasb etgani bilan, ko‘p hollarda salbiy ko‘rinishlarda namoyon bo‘lib, insonning ijtimoiy izolyatsiyasi, axloqiy relativizm, emotsional begonalashuv va shaxsiy identitet krizisiga olib kelmoqda. Bunday ijtimoiy-psixologik muammolar aynan kommunikativ muvozanat buzilishi kontekstida yuzaga chiqadi. Zamonaviy jamiyatda kommunikatsiya vositalari tobora ko‘proq sun’iy intellekt algoritmlariga bog‘lanib bormoqda. Har bir mobil ilova, virtual yordamchi, algoritmik qaror qabul qilish tizimi, generativ model (masalan, ChatGPT, Gemini va boshqalar) insonning kundalik turmushidagi kommunikativ

tajribasini shakllantiruvchi kuchga aylanmoqda. Shunday sharoitda inson SI bilan o‘zaro muloqotda qanday psixologik, axloqiy va ijtimoiy mezonlarga asoslanishi lozim? U qanday tarzda o‘z shaxsiy chegaralarini belgilashi va saqlashi mumkin? Bu savollar zamonaviy ilmiy fikr doirasida alohida dolzarb mavzu bo‘lib qolmoqda. Masalan, D. Chalmers sun’iy intellektga asoslangan kommunikatsiyani inson ongining kognitiv imitatsiyasi deb ta’riflaydi va bu orqali ongli idrok va refleksiya o‘rtasidagi farqni aniqlash muhimligini ta’kidlaydi[1]. Boshqa bir tomondan, N. Carr o‘zining “The Shallows” asarida sun’iy texnologiyalar inson tafakkurini sathiylashtirib yuborayotganini, ya’ni chuqur tafakkur, tahliliy fikrlash, empatiya kabi insoniy xususiyatlar susayib borayotganini e’tirof etadi[2]. Shuningdek, psixologik yondashuvda kommunikativ muvozanat insonning emotsional intellekti, stressga chidamliligi, sotsial moslashuvi bilan bog‘liq murakkab ko‘rsatkichlar majmuasini tashkil etadi. Daniel Goleman bu borada insonning SI bilan o‘zaro aloqasi davomida emotsional barqarorlikni saqlab qolish qobiliyatini yetakchi kompetensiya sifatida belgilaydi[3]. Bundan tashqari, bugungi global informatizatsiyalashuv sharoitida SI algoritmlarining manipulyativ xususiyatlari (algoritmik ijtimoiy tarmoqlar, “deepfake”, rekomendatsiya tizimlari) inson ongiga nisbatan nozik va murakkab xavflarni yuzaga keltirmoqda. Zamonaviy SI texnologiyalari inson faoliyatining barcha sohalarida – tibbiyotdan tortib, ta’lim, adliya, madaniyat va boshqalargacha – chuqur integratsiyalashmoqda. Shu bilan birga, bu integratsiya faqat operativ yoki texnik darajada emas, balki falsafiy-ontologik va ijtimoiy-ruhiy qatlamlarda ham yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Inson – subyekt, SI – obyekt degan an’anaviy dualizm endilikda murakkab simbiotik tizimlarga o‘rin bermoqda. Kompyuterlar inson nutqini tushunadi, unga javob beradi, xatti-harakatni prognozlaydi, ba’zan esa unga ta’sir o‘tkazadi. Bu holat ijtimoiy ongda sun’iy subyektlar bilan aloqa vositalari orqali yangi muloqot madaniyatining shakllanishini bildiradi. Ushbu holatning jamiyat ijtimoiy ruhiyatiga ta’siri ko‘p qirrali va murakkabdir. Bir tomondan, SI kommunikatsiya imkoniyatlarini kengaytirib, global axborot almashuvni tezlashtirmoqda. Boshqa tomondan esa, insonlar orasidagi real ijtimoiy aloqalarni zaiflashtirish, yolg‘izlik, sotsial fobiya, “digital autizm” kabi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu holatlarning psixologik ildizlarini o‘rganish, SI bilan bog‘liq kommunikativ risklarni aniqlash va ijtimoiy muvozanatni tiklash yo‘llarini izlash bugungi kunda dolzarb ilmiy masalalardandir. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ko‘rsatilishicha, 2024-yilda insonlarning 38 foizi o‘zlarini jamiyatdan ajralgan, yolg‘iz va ruhiy zo‘riqish ostida his qilishgan. Bu ko‘rsatkichlar texnologik vositalar bilan haddan tashqari bandlik darajasi yuqori bo‘lgan jamiyatlarda (masalan, Yaponiya, Janubiy Koreya, AQSh) yanada yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan. Bunday statistikalar sun’iy intellekt vositalari bilan haddan tashqari aloqa qiluvchi shaxslar orasida kommunikativ muvozanat buzilishi bilan bog‘liq ruhiy salomatlik muammolari dolzarb ekanligini ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlarida ham SI texnologiyalarining kirib kelishi bilan bog‘liq ijtimoiy ruhiyatda o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Ayniqsa, yoshlarda virtual kommunikatsiyaning real insoniy aloqalarni siqib chiqarishi, axloqiy-psixologik me’yorlarning o‘zgarishi, empatik yetishmovchilik, shaxsiy identitetning zaiflashuvi kabi tendensiyalar tobora namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli ham, bugungi ilmiy izlanishlar doirasida inson va SI o‘rtasidagi kommunikativ muvozanatni saqlash, uni ijtimoiy-psixologik va axloqiy jihatdan barqarorlashtirish asosiy tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rilmoqda. Yuqoridagi mulohazalar asosida ushbu tezisning asosiy maqsadi – inson va sun’iy intellekt o‘rtasidagi kommunikativ muvozanat masalasini nazariy, metodologik va empirik jihatdan chuqur tahlil qilish, bu muvozanatning buzilishi oqibatida yuzaga keladigan ijtimoiy-ruhiy muammolarni ochib berish va SI sharoitida inson psixologik barqarorligini ta’minlash strategiyalarini taklif qilishdan iborat. Bu yo‘nalishda tezis quyidagi vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan: birinchidan, SI va inson o‘rtasidagi kommunikatsiyaning psixososial xususiyatlarini aniqlash; ikkinchidan, kommunikativ muvozanatning buzilishiga olib keluvchi omillarni aniqlash; uchinchidan, ushbu jarayonning jamiyat ijtimoiy ruhiyatiga ta’sirini baholash; va nihoyat, SI sharoitida sog‘lom kommunikatsion muvozanatni ta’minlovchi tamoyillarni ishlab chiqish.

Bugungi global texnotsivilizatsiya sharoitida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi nafaqat iqtisodiy yoki texnologik sohalarni, balki insoniyat tafakkuri, ruhiyati va ijtimoiy ongini qamrab olayotgan chuqur strukturaviy o‘zgarishlarni yuzaga chiqarmoqda. Insoniyat tarixida ilk bor muomala obyekti sifatida insoniy bo‘lmagan, ammo intellektual xatti-harakatlarni imitatsiya qiluvchi tizimlar – sun’iy intellektlar keng kommunikativ makonlarda faoliyat yurita boshladi. Bu esa inson va SI o‘rtasidagi kommunikativ muvozanatni ta’minlash, uning psixologik, axloqiy va ijtimoiy oqibatlarini chuqur tahlil qilish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Ushbu masala jahon miqyosida ilg‘or ilmiy maktablar, xalqaro institutlar, texnologik gigantlar hamda falsafiy-psixologik muhit tomonidan dolzarb tahlil etilayotgan ustuvor ilmiy va ijtimoiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, AQSh, Yaponiya, Janubiy

Koreya, Xitoy va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida inson va SI o‘rtasidagi muloqotga oid yondashuvlar yangi etik paradigmalarning shakllanishiga sabab bo‘lmoqda. MIT, Stanford, Oxford, Tsinghua kabi universitetlar huzurida SI-etikasi, kognitiv kommunikatsiya, inson-kompyuter o‘zaro ta’siri kabi yo‘nalishlar bo‘yicha ixtisoslashgan laboratoriyalar faoliyat olib bormoqda. Ushbu izlanishlarda asosiy e’tibor SI bilan muloqotga kirishgan inson shaxsiyatining emotsional xavfsizligi, ongli tanlov huquqi, axborot ustuvorligi va raqamli etik me’yorlarning ishlab chiqilishiga qaratilgan. Masalan, Yevropa Ittifoqi tomonidan 2023-yilda qabul qilingan "AI Act" hujjatida SI vositalarining inson shaxsiyatiga yetkazishi mumkin bo‘lgan zararlar, emotsional manipulyatsiyalar va kommunikativ xavf darajalariga oid aniq huquqiy mezonlar belgilandi. Bu hujjatlar zamirida aynan inson-SI o‘rtasidagi kommunikativ muvozanat masalasi yotibdi[4]. Shuningdek, JSST va BMT huzuridagi Raqamli taraqqiyot bo‘yicha global guruhlar SI vositalarining jamiyat ruhiyatiga, yoshlar ongiga va sog‘lom ijtimoiy aloqalarga ta’sirini monitoring qilish bo‘yicha maxsus ilmiy strategiyalar ishlab chiqmoqda. Global tadqiqotlarda, ayniqsa pandemiya davridan so‘ng, insonlarning SI asosidagi platformalar bilan haddan tashqari o‘zaro aloqaga kirishgani sababli sotsial izolyatsiya, yolg‘izlik hissi, ruhiy tushkunlik, virtual shaxsiylashuv (digital identity) sindromlari keng tarqalganligi aniqlangan. Demakki, inson va SI o‘rtasidagi kommunikativ muvozanat global ijtimoiy sog‘lomlik mezoni sifatida ko‘rilmoqda va u shunchaki texnologik masala emas, balki falsafiy, antropologik, psixologik va axloqiy masalalarning chorrahasida joylashgan kompleks muammo sifatida qaralayapti. O‘zbekiston kontekstida ham ushbu masala tobora dolzarb tus olmoqda[5]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yildan buyon raqamli iqtisodiyot, sun’iy intellektni rivojlantirish va texnologik innovatsiyalarni hayotga tatbiq etish borasida bir qator qarorlar, farmonlar va davlat dasturlari qabul qilindi. 2021-yilda "Sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish konsepsiyasi" tasdiqlandi. Shu bilan birga, 2023-yilda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzurida sun’iy intellekt va axborot xavfsizligi bo‘yicha ixtisoslashgan ilmiy markazlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Bularning barchasi SI texnologiyalarining O‘zbekiston jamiyatida keng joriy etilayotganidan dalolat beradi. Biroq, texnologik ilg‘orlik ortidan inson ruhiyatining, ayniqsa yoshlar ongining bu texnologiyalar bilan qanday kommunikatsiyaga kirishayotgani, bu jarayonda qanday psixososial o‘zgarishlar yuz berayotgani masalasi ko‘pincha e’tibordan chetda qolmoqda. Masalan, yoshlar orasida SI vositalariga haddan tashqari ishonch, insoniy aloqalardan voz kechish, virtual do‘stlik va raqamli shaxsiy identitetlar yaratish kabi holatlar ko‘paymoqda. Bu esa jamiyat ijtimoiy ruhiyatida individualizm kuchayishi, ijtimoiy empatiya zaiflashuvi, kollektiv refleksiya institutlarining zaiflashuvi kabi xavfli tendensiyalarni yuzaga keltirmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekistonda SI vositalari bilan bog‘liq yondashuvlar ko‘proq texnologik-texnik va iqtisodiy-innovatsion ko‘rinishda yoritilayotgan bo‘lsa-da, uning shaxs, jamiyat va ruhiyatga ta’siri hali yetarlicha chuqur ilmiy izlanishlar mavzusi bo‘lmagan. Inson va SI o‘rtasidagi kommunikativ muvozanatni saqlash masalasi esa nafaqat axborot etikasi, balki milliy mentalitet, ma’naviyat, axloq va psixologik barqarorlik kabi o‘zbek jamiyatining asosiy tayanchlarida ham o‘z aksini topmoqda[6]. Shu bois, ushbu mavzu O‘zbekistonda ham nafaqat ilmiy jamoatchilik, balki pedagoglar, psixologlar, IT-mutaxassislar, sotsiologlar va siyosatshunoslar ishtirokida keng qamrovli yondashuvni talab qilmoqda. Shu o‘rinda, milliy axloqiy qadriyatlar, ma’naviy barqarorlik, mahalla institutlari, an’anaviy oilaviy rishtalar ham inson va SI o‘rtasidagi muloqotga qanday javob berishi, qanday himoya tamoyillari orqali bu jarayonni ijtimoiy salbiy oqibatlardan saqlashi lozimligi bugungi dolzarb savollar qatoriga kiradi. Zero, jamiyat faqat texnologik jihatdan emas, balki ijtimoiy-ruhiy jihatdan ham mustahkam bo‘lishi uchun sun’iy intellekt bilan kommunikativ o‘zaro ta’sir masalasi nazariy va amaliy yechimlarga ehtiyoj sezmoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, O‘zbekiston Respublikasi sun’iy intellekt sohasida nafaqat texnologik, balki ijtimoiy, huquqiy va ilmiy-falsafiy jihatlarni ham qamrab olgan islohotlar tizimini bosqichma-bosqich amalga oshirib kelmoqda. Jumladan, inson va SI o‘rtasidagi kommunikativ muvozanatning jamiyat ijtimoiy ruhiyatiga ta’siri masalasini kompleks tarzda anglash uchun mamlakatda olib borilayotgan islohotlar bilan yaqin tanishish muhimdir. Bu islohotlar bugungi kunda global texnologik raqobatga tayyor, lekin milliy mentalitet va axloqiy qadriyatlarni saqlagan barqaror jamiyat barpo etishga qaratilgan bo‘lib, inson shaxsini sun’iy tizimlar bilan muvofiqlashtirishda o‘ziga xos milliy modelni shakllantirish imkonini bermoqda. Avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 6-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash haqidagi qarori bilan raqamli transformatsiyaning yangi bosqichi boshlandi[7]. Ushbu strategiyada sun’iy intellekt texnologiyalarini iqtisodiyot, davlat boshqaruvi, sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalariga keng joriy etish ko‘zda tutilgan bo‘lib, bu jarayonlarda inson omilini, axborot xavfsizligini va kommunikativ muvozanatni saqlash asosiy ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Aynan shu strategiya doirasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali ta’lim-tarbiya, jamiyat bilan

davlat o‘rtasidagi muloqot, hamda fuqarolik jamiyatini mustahkamlash mexanizmlari shakllantirildi. 2021-yilda esa “Sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish konsepsiyasi” tasdiqlandi. Ushbu hujjat O‘zbekistonda SI bilan bog‘liq texnologik taraqqiyotni tizimli asosda yo‘lga qo‘yish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, malakali mutaxassislar tayyorlash va eng muhimi – texnologik taraqqiyotning inson salohiyatiga moslashuvchanligini ta’minlashga qaratilgan. Shu nuqtada inson va sun’iy intellekt o‘rtasidagi kommunikativ muvozanat masalasi milliy siyosat darajasida muhokama qilinayotganiga guvoh bo‘lamiz. Konsepsiyada SI texnologiyalaridan foydalanishda axloqiy mas’uliyat, shaxsiy ma’lumotlar daxlsizligi, raqamli madaniyat va axborot etikasi kabi mezonlarning alohida yoritilishi, aslida, ushbu sohaning jamiyat ruhiyatiga ko‘rsatadigan ta’sirini chuqur anglashga urinishdir[8]. Shuningdek, 2022-yildan buyon Prezident huzurida faoliyat yuritayotgan “Ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish masalalari bo‘yicha Kengash” SI sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlarni ilgari surish orqali jamiyatning texnogen muhitda barqarorligini ta’minlashni ustuvor maqsad deb bilmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt bilan bog‘liq yangi ilmiy yo‘nalishlarning milliy ijtimoiy-falsafiy tafakkur asosida ishlab chiqilishi, global modellarni tanqidiy tahlil qilish, ularni lokal shart-sharoitlarga moslashtirish bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda. Masalan, 2023-yilda O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan qo‘llab-quvvatlangan "Sun’iy intellekt va jamiyat: ijtimoiy integratsiya va kommunikativ xavfsizlik masalalari" mavzusidagi grant loyihasida SI vositalarining yoshlar ongiga ta’siri, shaxsiyat shakllanishi va emotsional intellekt darajasiga nisbatan tahdidlar empirik jihatdan o‘rganilmoqda[9]. Oliy ta’lim tizimi darajasida ham sun’iy intellektga oid islohotlar keng qamrovli tarzda olib borilmoqda. Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, O‘zbekiston milliy universiteti, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi texnika universiteti qoshida SI yo‘nalishida maxsus kafedralar, ilmiy markazlar tashkil etildi. Bu muassasalarda nafaqat texnik jihatlar, balki SI vositalari bilan inson o‘rtasidagi muloqotning sotsiogumanitar, psixologik, pedagogik va etik jihatlari ham o‘rganilmoqda. Oliy ta’lim muassasalarining o‘quv dasturlariga “sun’iy intellekt etikasi”, “texnologik kommunikatsiya madaniyati”, “axborot xavfsizligi asoslari” kabi yangi fanlar kiritilishi bevosita mavzuning dolzarbligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, yoshlar bilan ishlashda sun’iy intellekt vositalarining ahamiyatli yoki salbiy tomonlarini tushuntirish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda[10]. O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda Xalq ta’limi vazirligi bilan hamkorlikda maktab va kollej o‘quvchilari uchun “Raqamli dunyoda mas’uliyatli fuqaro bo‘lish”, “Sun’iy intellekt bilan sog‘lom muloqot” mavzularida davra suhbatlari, vebinarlar, mahorat darslari tashkil etilmoqda.

Xulosa: Inson va sun’iy intellekt o‘rtasidagi kommunikativ muvozanat masalasi zamonaviy jamiyat taraqqiyotining eng dolzarb va murakkab yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Texnologik rivojlanish inson hayotini yengillashtirish bilan birga, psixologik, axloqiy va ijtimoiy jihatdan jiddiy chaqiriqlarni yuzaga keltirmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar — ta’lim, huquq, axborot xavfsizligi, madaniyat va ilm-fan sohalarini qamrab olgan kompleks yondashuvlar — SI integratsiyasining salbiy oqibatlarini oldini olish, inson shaxsiyatining barqarorligini ta’minlash va raqamli muhitda sog‘lom ijtimoiy ruhiyatni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Endilikda dolzarb vazifa – SI bilan uyg‘un kommunikativ hamkorlikni ta’minlovchi nazariy va amaliy modellarni ishlab chiqish, milliy qadriyatlar asosida raqamli etikani rivojlantirish va insonning ongiy-emotsional salomatligini saqlovchi ijtimoiy mexanizmlarni takomillashtirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

Chalmers D., The Conscious Mind: In Search of a Fundamental Theory, Oxford University Press, New York, 1996, p. 256

Carr N., The Shallows: What the Internet Is Doing to Our Brains, W. W. Norton & Company, New York, 2010, p. 189

Goleman D., Emotional Intelligence, Bantam Books, New York, 1995, p. 230

Jalolov T. S. SUN'IY INTELLEKTNING IJTIMOIY TARMOQLARDAGI TASIRINI O ‘RGANISH: FOYDALANUVCHI XATTI-HARAKATLARINI TAHLIL QILISH //Ensuring the integration of science and education on the basis of innovative technologies. – 2024. – T. 1. – №. 3. – C. 31-37.

Damidullayevna I. D. SUN’IY INTELLEKTNING FALSAFIY-AXLOQIY, MA’NAVIY-ESTETIK MUAMMOLARI //FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES. – 2025. – T. 4. – №. 40. – C. 85-87.

Munisa M., Shohbozbek E. UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONLARINI TASHKIL QILISHDA SU'NIY INTELLEKT VOSITALARINING QO'LLANISHI //Global Science Review. – 2025. – T. 3. – №. 3. – C. 224-230.

Nozima A., Shohbozbek E. TA’LIM MUASSASALARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING BOSHQARUV STRATEGIYALARI //Global Science Review. – 2025. – T. 4. – №. 2. – C. 23-32.

Ruxshona Q. SUN’IY INTELLEKT VA UNING JAMIYATGA TA’SIRI //Journal of new century innovations. – 2025. – T. 75. – №. 1. – C. 84-86.

Suyarbek N. SUN’IY INTELLEKT VA INSONIY IJODIY IMKONIYATLAR //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2025. – T. 5. – №. 48. – C. 244-248.

Abdusattarovna O. X., Shohbozbek E. IJTIMOIY FALSAFADA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH //Global Science Review. – 2025. – T. 4. – №. 5. – C. 175-182.

IELTS YOZMA INSHOLARIDA (WRITING TASK 2) MATNNING YAXLITLIGINI TA’MINLOVCHI VOSITALAR: TIL EGALARI VA INGLIZ TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O‘RGANUVCHILARNING YOZUVLARINI SOLISHTIRMA TAHLILI

S.Rislikboyev
Andijon shahridagi Prezident maktabi ijrochi direktori

Annotatsiya. Ushbu ishda IELTS yozma topshirig‘i (Writing Task 2) insholarida qo‘llanilgan matn bog‘liqligi vositalari (bog‘lovchi vositalar) tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor tili egasi bo‘lgan (native) va ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘rganuvchi (non-native) yozuvchilar orasidagi farqlarga qaratilgan. Halliday va Hasan (1976) tasnifiga tayangan holda, ishora vositalari, almashinish, tushirib qoldirish, bog‘lovchilar va leksik bog‘liqlik kabi vositalarning ishlatilish xususiyatlari solishtirilgan. Ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlar tahlili orqali ikki guruh orasidagi asosiy farqlar yoritilgan. Natijalar IELTS yozuv malakasini yaxshilash uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: IELTS, matn bog‘liqligi, bog‘lovchi vositalar, native, no-native, yozma nutq.

Abstract. This thesis analyzes the use of cohesive devices in IELTS Writing Task 2 essays. It focuses on the differences between native and non-native English writers. Based on Halliday and Hasan’s (1976) framework, it examines reference, substitution, ellipsis, conjunctions, and lexical cohesion. The study reviews existing research to highlight key differences between the two groups. The findings may help improve IELTS writing performance.

Keywords: IELTS, cohesion, cohesive devices, native, non-native, writing.

KIRISH VA ADABIYOTLAR SHARHI

So‘nggi yillarda ingliz tili bo‘yicha xalqaro testlar, xususan IELTS (International English Language Testing System), til bilim darajasini baholashda keng qo‘llanilmoqda. IELTS yozma topshirig‘i (Writing Task 2) nafaqat grammatik to‘g‘rilik, balki matnning yaxlitligi (coherence) va bog‘liqligi (cohesion) asosida baholanadi. Ushbu mezonlar orasida *cohesive devices* — ya’ni matn ichidagi bog‘lovchi vositalarning o‘rni alohida e’tiborga loyiq.

Cohesive devices — bu matndagi jumla va fikrlar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishni ta’minlovchi til vositalaridir. Halliday va Hasan (1976) tomonidan ishlab chiqilgan klassik modelga ko‘ra, bu vositalar besh toifaga bo‘linadi: *reference* (matnda ilgari yoki keyin tilga olingan elementlarga ishora qilish (masalan, “u”, “bu”, “shular”)), *substitution* (almashinish - ma’lumotni takrorlamaslik uchun bir birlikning o‘rniga boshqa bir til birliklaridan foydalanish, masalan, “one”, “do so”), *ellipsis* (matnda kerakli bo‘lgan, ammo kontekst orqali anglash mumkin bo‘lgan til birliklarining aytilmay yoki yozilmay qolishi), *conjunction* (bog‘lovchilar) va *lexical cohesion* (leksik bog‘liqlik - matnda so‘z boyligi va so‘zlar o‘rtasidagi semantik aloqadorlik orqali yuzaga keladigan bog‘liqlik.). Bu vositalarning to‘g‘ri va o‘rinli ishlatilishi yozma nutqni yaxlit va aniq ifodalashga xizmat qiladi. Ayniqsa akademik insholarda bu vositalarning ta’siri sezilarli bo‘ladi.

Ilgari olib borilgan tadqiqotlar IELTS yozma ishlarida Matndagi bog‘lovchi vositalarning roli va qo‘llanilish tendensiyalarini o‘rganishga qaratilgan. Masalan, Ashadi et al. (2020) tili egalari va ingliz tilini

ikkinchi yoki xorijiy til sifatida o‘rganuvchilar yozuvchilar orasidagi farqlarni tahlil qilib, birinchi guruh vakillari leksik bog‘liqlik va *reference* kabi vositalarni tabiiyroq qo‘llashini aniqlaganlar. Rahman (2015) esa Bangladeshlik talabalar yozgan insholarni o‘rganib, ularda bog’lovchilarga haddan ziyod tayanish holatlarini qayd etgan.

Alshahrani (2019) o‘z tadqiqotida IELTS yozma insholarida ishlatilgan bog‘lovchi vositalarning soni va sifati o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik yo‘qligini aniqlagan. Bu holat faqat ko‘p sonli matndagi bog‘lovchi vositalar ishlatilishi yaxshi yozuv degani emasligini ko‘rsatadi. Yunita va Sofyan (2021) esa IELTS bo‘yicha yuqori va past ball olgan insholarni taqqoslab, samarali va no-samarali bog‘lovchi uslublarini aniqlaganlar.

Shu asosda, ushbu tadqiqotda biz tili egalari va ingliz tilini ikkinchi yoki xorijiy til sifatida o‘rganuvchilar yozilgan IELTS insholarida bog‘lovchi vositalarning qanday qo‘llanilishini tahlil qilamiz. Maqsad – ikki guruh o‘rtasidagi asosiy farqlarni aniqlash, ularning yozuv sifati va matnning yaxlitligi darajasiga qanday ta’sir qilishini ko‘rsatishdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot tavsifiy-tahliliy yondashuv asosida olib boriladi. Tadqiqotda ingliz tilidagi IELTS yozma topshirig‘i (Writing Task 2) da qo‘llaniladigan matn bog‘liqligini ta’minlovchi vositalar — bog‘lovchi vositalarning (cohesive devices) o‘rni va ularning samaradorligi tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor tili egalari va ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘rganuvchilar (no-native) yozgan insholardagi farqlarni nazariy hamda ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlar asosida tahlil qilishga qaratiladi.

Tadqiqotning asosiy metodologik bazasi Halliday va Hasan (1976) tomonidan ishlab chiqilgan matn bog‘liqligi modeli hisoblanadi. Ushbu modelga ko‘ra, bog‘lovchi vositalar besh turga ajratiladi: ishora vositalari (reference), almashinish (substitution), tushirib qoldirish (ellipsis), bog‘lovchilar (conjunction) va leksik bog‘liqlik (lexical cohesion). Ushbu tasnif tadqiqotning nazariy asosini tashkil etadi.

Tahlil doirasida ilgari o‘tkazilgan korpus tadqiqotlari va IELTS yozma insholariga oid maqolalardan foydalaniladi. Ularda kuzatilgan namunalarga tayangan holda, tili egalari va no-native yozuvchilarning matn bog‘liqligini qanday tashkil qilgani, ayniqsa bog‘lovchi vositalarning qaysi turlariga ko‘proq tayanilgani va bu tayanish yozuv sifatiga qanday ta’sir qilgani xulosalanadi.

Shuningdek, ushbu tadqiqot amaliy tajriba emas, balki ilgari o‘tkazilgan ilmiy ishlarga tayanib, ularni tahlil qilish, qiyoslash va umumlashtirish asosida muayyan nazariy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratiladi. Natijada, IELTS yozma topshiriqlarini baholash va unga tayyorlov jarayonida bog‘lovchi vositalarning samarali qo‘llanilishi bo‘yicha takliflar ilgari suriladi.

IELTS INSHOLARIDA BOG‘LOVCHI VOSITALARNING NOTO‘G‘RI ISHLATILISHI: ASOSIY MUAMMOLAR

Cohesive devices – matn bog‘liqligini ta’minlovchi muhim til birliklari bo‘lib, IELTS kabi xalqaro testlarda yozma topshiriqning baholanadigan asosiy jihatlaridan biridir. Biroq ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘rganuvchi (no-native) test topshiruvchilar bu vositalarni ishlatishda ko‘plab muammolarga duch keladilar.

Birinchidan, **bog‘lovchilarga haddan tashqari tayanish** holati ko‘p kuzatiladi. Rahman (2015) o‘z tadqiqotida Bangladeshlik talabalar yozgan IELTS insholarida “however”, “moreover”, “on the other hand” kabi bog‘lovchilar haddan ortiq, ba’zan esa kontekstsiz ishlatilganini ta’kidlaydi. Bu holat matnning mantiqiy oqimini buzadi va fikrlar sun’iy bog‘langan ko‘rinishga olib keladi .

Ikkinchidan, **ishora vositalari (reference)** bilan bog‘liq chalkashliklar tez-tez uchraydi. Ashadi et al. (2020) tomonidan olib borilgan taqqoslov tadqiqotda tili egalari “this”, “that”, “these”, “it” kabi ishora birliklarini aniq va mantiqiy tarzda qo‘llagan bo‘lsa, ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘rganuvchilar ko‘pincha noto‘g‘ri joyda yoki mavhum subyektlarga nisbatan ishlatganlari aniqlangan .

Uchinchidan, **leksik bog‘liqlik (lexical cohesion)** yetishmasligi ham muhim muammolardan biri sifatida qayd etiladi. Talabalarning so‘z boyligi cheklangani va sinonimik ifodalardan yetarli darajada foydalana olmasligi matnda so‘zlar takrorlanishiga, mazmuniy yassilikka sabab bo‘ladi (Yunita & Sofyan, 2021) .

Shuningdek, ba’zi yozuvchilarda **substitution** va **ellipsis** kabi ancha nozik vositalardan umuman foydalanilmasligi ham kuzatilgan. Bu esa matnni haddan tashqari ochiq va tafsilotlarga to‘la qilib, ba’zan ortiqcha so‘z ishlatishga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘rganuvchilarning IELTS yozma insholarida bog‘lovchi vositalarni ishlatishdagi asosiy muammolari – bu kontekstsiz bog‘lovchilar, noto‘g‘ri

referensiya, cheklangan leksik bog‘liqlik hamda **substitution** va **ellipsis**’ning yetishmasligidir. Ushbu kamchiliklar nafaqat matnning bog‘liqligini, balki umumiy bahoga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Tavsiyalar va Xulosa

Mazkur tahliliy ish natijalariga tayangan holda, IELTS yozma insholarida bog‘lovchi vositalardan foydalanish borasida bir nechta muhim xulosalar chiqarish mumkin.

Birinchidan, ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘rganayotganlarning insholarida matndagi bog‘lovchi vositalardan foydalanish darajasi va sifati hali ham tili egalari bilan solishtirganda sezilarli farq qiladi. Ayniqsa, bog‘lovchilar ko‘pincha ortiqcha yoki kontekstsiz ishlatiladi, referensiya esa mavhum subyektlarga nisbatan noto‘g‘ri qo‘llanadi.

Ikkinchidan, leksik bog‘liqlik vositalarining yetarli darajada qo‘llanilmasligi, takroriylik va so‘z boyligining cheklanganligi bilan izohlanadi. Bu holat insholarning mazmuniy chuqurligiga salbiy ta’sir qiladi. Shuningdek, ***substitution*** va ***ellipsis*** kabi nozik birliklarning deyarli ishlatilmasligi ham matnlarni sun’iy va keraksiz uzun ko‘rinishga olib keladi.

Shu asosda quyidagi tavsiyalar berilishi mumkin:

- IELTS yozma tayyorgarligi jarayonida abituriyentlarga bog‘lovchi vositalarning tur va vazifalari chuqur tushuntirilishi lozim.
- Maxsus mashqlar orqali ***reference***, ***lexical cohesion*** va ***ellipsis*** kabi murakkabroq vositalarni kontekst asosida qo‘llashga o‘rgatish kerak.
- Ingliz tili o‘rganuvchilar o‘z matnlarini tahlil qilib, ulardagi bog‘liqlik vositalarining miqdoriy va sifat jihatlarini baholashni o‘rganishlari kerak.
- O‘qituvchilar IELTS insho baholashida faqat grammatik to‘g‘rilik emas, balki matn bog‘liqligi va yaxlitligi kabi mezonlarga ham alohida e’tibor qaratishlari zarur.

Xulosa qilib aytganda, IELTS insho yozish kompetensiyasi nafaqat grammatika va lug‘at boyligiga, balki matn ichidagi g‘oyalarni bir butun va izchil tarzda bayon etish qobiliyatiga ham bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, matn bog‘liqligini ta’minlovchi vositalarni o‘rganish va ulardan ongli foydalanish IELTS tayyorlov jarayonining muhim bir qismiga aylanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ashadi A., Lubis A. H., Fitrawati F. The use of cohesive devices in argumentative essays written by native and non-native speakers of English // *Journal of English Language Teaching*. – 2020. – Vol. 9(1). – P. 236–247. – DOI: https://doi.org/10.24036/jelt.v9i1.108597
2. Rahman G. A study of cohesive devices in EFL learners’ written compositions: A systemic functional perspective // *Asian Journal of Educational Research*. – 2015. – Vol. 3(3). – P. 28–35.
3. Alshahrani M. A. The relationship between the use of cohesive devices and the quality of writing in IELTS essays // *Arab World English Journal (AWEJ)*. – 2019. – Vol. 10(3). – P. 478–488. – DOI: https://dx.doi.org/10.24093/awej/vol10no3.32
4. Yunita W., Sofyan D. Cohesive devices in high- and low-rated IELTS essays // *Journal of English Language Teaching and Applied Linguistics*. – 2021. – Vol. 3(9). – P. 11–20.

GENERATIV SUNIY INTELLEKT ZAMONAVIY TEXNOLOGIYANING EVOLYUTSIYASI VA ISTIQBOLLARI SIFATIDA

D.I.Kulmuradov
Jizzax politehnika instituti dotsenti,PhD

Annotatsiya Ushbu maqolada generativ suniy intellekt (GAI) texnologiyasining tarixiy rivojlanishi, asosiy bosqichlari va zamonaviy holatiga batafsil tahlil berilgan. Tadqiqot 1950-yillardan hozirgi kungacha bo'lgan davrni qamrab, GAI sohasidagi muhim yutuqlar, texnologik inqiloblar va istiqbollarni sistemali ravishda ko'rib chiqadi. Maqolada GAI ning dastlabki nazariy asoslaridan tortib, zamonaviy GPT, DALL-E va ChatGPT kabi ilg'or tizimlargacha bo'lgan evolyutsiya jarayoni tahlil etiladi. Asosiy e'tibor Transformer arxitekturasi, GAN modellari, chuqur o'rganish usullari va ularning amaliy tatbiqlariga qaratilgan. Tadqiqot natijasida GAI texnologiyalarining nafaqat texnik, balki ijtimoiy va madaniy ta'sirini ham aks ettiradi. Maqola GAI sohasida ishlayotgan tadqiqotchilar, IT mutaxassislari va texnologiya tarixiga qiziquvchi keng auditoriya uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: generativ suniy intellekt, mashinali o'rganish, chuqur o'rganish, Transformer arxitekturasi, Generative Adversarial Networks (GAN), tabiiy tilni qayta ishlash, GPT modellari, neyron tarmoqlari

Generativ suniy intellekt (GAI) zamonaviy texnologiya olamida eng muhim va ta'sirli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu texnologiya yangi matn, tasvir, musiqa va boshqa turdagi kontentlarni yaratish qobiliyatiga ega bo'lib, insoniy ijodkorlik va mashinali o'rganish o'rtasidagi chegaralarni yo'qotmoqda. Generativ suniy intellekt tarixi bir necha o'nlik yillik rivojlanish natijasida shakllangan bo'lib, uning ildizlari kibernetika va hisoblash nazariyasining dastlabki bosqichlarigacha borib taqaladi.Generativ suniy intellektning tarixi 1950-yillarda Alan Turing va uning hamkasblari tomonidan yaratilgan nazariy asoslar bilan boshlanadi. Turingning mashina testi konsepsiyasi keyinchalik mashinalarning insoniy intellektni taqlid qilish qobiliyatini baholash uchun muhim mezon bo'lib qoldi. 1960-yillarda ELIZA dasturi, garchi primitiv bo'lsa ham, tabiiy til bilan muloqot qiluvchi birinchi tizimlarga misol bo'ldi. Bu dastur oddiy qoidalar asosida ishlagan bo'lsa-da, insonlar bilan muloqot qilishda hayratlanarli natijalarga erishdi.

1970-80-yillarda neyron tarmoqlari nazariyasi rivojlana boshladi, ammo hisoblash quvvatining cheklanishi tufayli amaliy tatbiq etish qiyin edi. Shu davrda ekspert tizimlari mashhur bo'lib, ular ma'lum sohalardagi bilimlarni kodlash va qaror qabul qilishda yordam berish uchun ishlatildi. Garchi bu tizimlar generativ emas edi, lekin ular keyinchalik GAI rivojlanishi uchun muhim poydevor yaratdi.1990-yillarning oxirida va 2000-yillarning boshida mashinali o'rganish sohasida muhim yutuqlarga erishildi. Statistik tilshunoslik usullari, ayniqsa Hidden Markov modellari va n-gram modellari tabiiy tilni qayta ishlashda keng qo'llanila boshlandi. Bu davrda birinchi marta katta hajmdagi matnli ma'lumotlar bazasida o'qitilgan modellar paydo bo'ldi.

2006-yilda Geoffrey Hinton tomonidan chuqur o'rganish (deep learning) kontsepsiyasi qayta jonlantirildi. Bu voqea GAI tarixida burilish nuqtasi bo'ldi, chunki chuqur neyron tarmoqlari murakkab naqshlarni o'rganish va ularni qayta ishlab chiqarishda oldingi usullardan ancha samarali ekanligini ko'rsatdi. Restricted Boltzmann Machines va autoencoder'lar kabi arxitekturalar ma'lumotlarning yashirin tuzilishini o'rganish va yangisini yaratishda ishlatila boshlandi.2010-yillarning o'rtalarida generativ modellar sohasida inqilobiy o'zgarishlar yuz berdi. 2014-yilda Ian Goodfellow tomonidan taklif etilgan Generative Adversarial Networks (GAN) texnologiyasi butunlay yangi imkoniyatlarni ochdi. GAN modeli ikki neyron tarmoq o'rtasidagi raqobat tamoyiliga asoslangan: generator tarmoq yangi ma'lumotlarni yaratadi, diskriminator tarmoq esa haqiqiy va soxta ma'lumotlarni farqlashga harakat qiladi. Bu usul ayniqsa tasvirlar yaratishda ajoyib natijalarga olib keldi.

Shu bilan birga, Variational Autoencoders (VAE) ham muhim o'rin egalladi. Diederik Kingma va Max Welling tomonidan ishlab chiqilgan bu usul ehtimollik nazariyasiga asoslangan holda yangi ma'lumotlarni yaratish imkonini berdi. VAE modellari ma'lumotlarning latent fazosini o'rganib, shu orqali yangi namunalar yaratishga imkon beradi.2017-yilda Google tadqiqotchilari tomonidan taklif etilgan Transformer arxitekturasi tabiiy tilni qayta ishlash sohasida haqiqiy inqilob yaratdi. "Attention is All You Need" maqolasida taqdim etilgan bu usul ketma-ket ma'lumotlarni parallel ravishda qayta ishlash imkonini berdi va oldingi RNN va LSTM modellaridan ancha tez va samarali ishladi.

Transformer arxitekturasiga asoslangan BERT (2018) va GPT (2018) modellari tabiiy tilni tushunish va yaratishda yangi standartlarni o'rnatdi. Ayniqsa GPT (Generative Pre-trained Transformer) seriyasi generativ matn yaratishda ajoyib natijalarga erishdi. GPT-1 dan boshlab GPT-4 gacha bo'lgan rivojlanish jarayoni GAI tarixidagi eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi.2020-yildan keyin GAI sohasida tez sur'atlar bilan rivojlanish kuzatilmoqda. GPT-3 ning chiqarilishi bilan birga generativ AI ommaviy foydalanish uchun tayyor texnologiyaga aylandi. 175 milliard parametrga ega bo'lgan bu model turli xil vazifalarni bajarish va yuqori sifatli matn yaratishda insoniy darajaga yaqin natijalar ko'rsatdi.

DALL-E, Midjourney va Stable Diffusion kabi tasvir yaratish tizimlar ham katta muvaffaqiyatga erishdi. Bu tizimlar matnli tasvirlarga asoslangan holda yuqori sifatli tasvirlar yaratish qobiliyatiga ega. Diffusion modellari ayniqsa tasvir yaratishda yangi standartlarni o'rnatdi va ularning sifati professional rassomlar ishiga tenglashdi.ChatGPT ning 2022-yil oxirida ommaga taqdim etilishi GAI tarixidagi eng muhim voqealardan biri bo'ldi. Bu tizim bir necha oy ichida 100 million foydalanuvchiga erishdi va AI texnologiyalarini kundalik hayotga olib kirdi. Uning muvaffaqiyati boshqa kompaniyalarni ham shu yo'nalishda intensiv ishlar olib borishga undadi.

Bugungi kunda generativ AI deyarli barcha sohalarda qo'llanilmoqda. Ta'limdan tortib, san'at, media, dasturiy ta'minot ishlab chiqish va tibbiyot sohasigacha GAI texnologiyalari insoniy faoliyatni qo'llab-quvvatlash va avtomatlashtirish uchun ishlatilmoqda. Multimodal modellar matn, tasvir, audio va video ma'lumotlarini birgalikda qayta ishlash imkonini bermoqda.

Keyingi yillarda GAI texnologiyalarining yanada rivojlanishi kutilmoqda. Agent-based AI tizimlar, real-time generatsiya, personallashtirilgan AI yordamchilar va professional dasturiy ta'minot bilan integratsiya kabi yo'nalishlar istiqbollidir. Shu bilan birga, AI xavfsizligi, axloqiy masalalar va intelektual mulk huquqlari kabi muhim muammolar ham hal qilinishi zarur.

Generativ suniy intellekt tarixi zamonaviy texnologiyaning eng dinamik rivojlanayotgan sohalaridan birining evolyutsiyasini aks ettiradi. Dastlabki nazariy asoslardan boshlab, bugungi kuchli va ko'p qirrali tizimlargacha bo'lgan yo'l uzoq va murakkab bo'lgan. GAI texnologiyalari nafaqat texnik yutuq, balki insoniy ijodkorlik va mashina qobiliyatlari o'rtasidagi chegaralarni qayta belgilayotgan madaniy hodisa hisoblanadi. Kelajakda bu texnologiyalarning yanada rivojlanishi va jamiyatga ta'sirini o'rganish ilmiy tadqiqotlar uchun muhim vazifa bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Goodfellow, I. Generative Adversarial Nets / I. Goodfellow, J. Pouget-Abadie, M. Mirza // Advances in Neural Information Processing Systems. – 2014. – Vol. 27. – P. 2672-2680.
2. Vaswani, A. Attention Is All You Need / A. Vaswani, N. Shazeer, N. Parmar // Advances in Neural Information Processing Systems. – 2017. – Vol. 30. – P. 5998-6008.
3. Radford, A. Language Models are Unsupervised Multitask Learners / A. Radford, J. Wu, R. Child // OpenAI Blog. – San Francisco: OpenAI, 2019. – 24 p.
4. Brown, T. Language Models are Few-Shot Learners / T. Brown, B. Mann, N. Ryder // Advances in Neural Information Processing Systems. – 2020. – Vol. 33. – P. 1877-1901.
5. Kingma, D.P. Auto-Encoding Variational Bayes / D.P. Kingma, M. Welling // International Conference on Learning Representations. – 2014. – P. 1-14.

TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING O’RNI

M.B.Islamova
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya Ushbu maqolada talabalarda tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ahamiyati va samaradorligi ko'rib chiqilgan. Tadqiqot zamonaviy ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashning o'rni, uning shakllanish bosqichlari va pedagogik sharoitlarni tahlil qiladi. Maqolada raqamli ta'lim vositalari, interaktiv usullar, muammoli ta'lim, loyiha faoliyati va blended learning kabi innovatsion yondashuvlarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot natijalarida zamonaviy ta'lim texnologiyalarining an'anaviy usullarga nisbatan afzalliklari va ularning talabalarda tahliliy tafakkur, mustaqil qaror qabul qilish, muammolarni kreativ yechish kabi ko'nikmalarni shakllantirishdagi samaradorligi isbotlangan. Maqolada shuningdek, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda o'qituvchining roli, ta'lim muhitini tashkil etish prinsiplari va baholash metodlari ham yoritilgan. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalari, o'qituvchilar va ta'lim texnologiyalari bo'yicha mutaxassislar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, raqamli ta'lim, interaktiv ta'lim usullari, ta'lim innovatsiyalari, pedagogik texnologiyalar, muammoli ta'lim, loyiha faoliyati

Jahondagi ta’lim jarayonlarida talabalarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish orqali murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar sharoitiga moslashuvchan, mantiqiy va kreativ fikrlaydigan, to‘g‘ri va muqobil qarorlar qabul qilaoladigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. YUNESKOning barqaror taraqqiyot maqsadlari doirasida qabul qilingan “Ta’lim 2030” Deklaratsiyasida belgilangan “har bir ta’lim oluvchida mustahkam bilim asoslarini shakllantirish, hamkorlik asosida ijodiy va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish” bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, talabalarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, ularni intellektual jihatdan yetuk va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllantirish, ijtimoiy ma’suliyatini oshirish hamda

o‘qitishning innovatsion usullari va yondashuvlarini amaliyotga izchil tadbiq etishga alohida e’tibor berilmoqda.

Dunyoning yetakchi oliy ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida talabalarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish orqali ularni mustaqil qarorlar qabul qilishga o‘rgatish, axborotlardan to‘g‘ri foydalanish madaniyatini shakllantirish, muammolarga nochiziqli yondashuvlar asosida eng maqbul yechimlarni topish, o‘z-o‘zini doimiy nazorat qilish va kasbiy faoliyatga samarali tayyorlash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, pedagogika fanlarini o‘qitishda talabalarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillarni inobatga olgan holda, ta’lim jarayonlariga interfaol usullar va texnologiyalar, strategiya va mexanizmlarni tadbiq etishning zamonaviy texnologiyalarini takomillashtirishga urg‘u berilmoqda. Albatta, bunday yondashuvlarning samarasi globallashuv jarayonlari shiddat bilan ro‘y berayotgan va bilimlar tranformatsiyalashayotgan bugungi beqaror dunyoda tanqidiy tafakkur tarzining shakllanayotganligida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ta’limning integratsiyalashuvi jarayonlarini hisobga olgan holda, tanqidiy tafakkurga ega mutaxassislarni tayyorlash muammosi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida o‘z aksini topmoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan “…talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko‘nikmalari shakllantirish” ga alohida e’tibor qaratganligi ham tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda[1]. Bu borada oliy ta’lim muassasalarida pedagogika fanlarini o‘qitish mazmunini tanqidiy tafakkurga yo‘naltirilgan tamoyillar asosida modernizatsiyalash, talabalarda axborotlarni tanqidiy tahlil qilish va nazariy bilimlarini amaliyotda samarali qo‘llay olish kompetensiyalarini rivojlantirish, shuningdek, bu jarayonga innovatsion ta’lim texnologiyalarini tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

XXI asr oliy ta’lim tizimining o‘ziga xosligi talabalarda faqatgina fanlarga tegishli bilimlarni shakllantirishnigina emas, balki ularda mustaqil va ijodiy fikrlash, muammolarni turli nuqtai nazardan tahlil qila olish, har tamonlama asoslangan xulosalar chiqarish kabi kompetensiyalarning asosi bo‘lgan tanqidiy tafakkurini rivojlantirish muammosi bilan xarakterlanmoqda. Ayniqsa bugungi axborotlashuv va tezkor ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida har bir talabaning axborotni baholay olish, mantiqiy fikrlash, muammolarga ijodiy yondashuv va dalillarga asoslangan holda qaror qabul qilish kabi bir qator ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zamonaviy ta’limning dolzarb vazifasiga aylanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim siyosatida ham bu muammo o‘z aksini topmoqda. Jumladan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida kreativ va tanqidiy fikrlaydigan yosh avlodni tarbiyalash, kompetensiyaviy yondashuv asosida fikrlash madaniyatini rivojlantirish masalalari ustuvor vazifalar qatoriga qo‘yilgan[2]. Shu bilan birga, amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, talabalarda tanqidiy tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv mashg‘ulotlarining metodik jihatdan mukammal ishlanmaganligi, pedagoglarning bu boradagi tayyorgarlik darajasining turlicha ekani, baholash tizimining nomukammalligi kabi qator muammolar mavjud.

Tanqidiy tafakkurni rivojlantirish oddiy yodlash, eslab qolish, qayta aytishdan farqli ravishda, insonni fikrlashga, savol berishga, muhokama qilishga undaydi. Buyuk mutafakkirlarimiz Xorazmiy, Farobiy, Beruniy, ibn Sinolar ta’kidlaganidek, “bolaning mustaqil tanqidiy fikrlashi jarayonida o‘zlashtirilgan bilimlari biror-bir manbadan tayyor holda olingan bilimlar bilan qiyoslanganda katta afzallikka ega. To‘liqroq va tezroq rivojlangan bu bilimlar o‘quvchilar e’tiqodiga, ular tafakkuri hamda faol amaliy-tanqidiy fikrlashi quroliga aylanadi”[3]. Tanqidiy tafakkur nafaqat individual fikrlash madaniyatini, balki jamiyatning demokratik, ochiq va rivojlangan bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan madaniy poydevor hisoblanadi. “U fikrlar xilma-xilligiga, dalil va mantiqqa asoslangan muhokamaga, erkin fikr aytishga yo‘l ochadi”[4]. Shunday ekan, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish har bir pedagog oldidagi nafaqat kasbiy vazifa, balki ijtimoiy mas’uliyat hamdir.

Mashhur rus olimi I.Resnik tanqidiy fikrlashning asosiy belgilari sifatida quyidagilarni nazarda tutadi:

- ta’lim oluvchilar o‘z bilimlarini muayyan masalalarni yechishda tatbiq eta olsalargina, ularda bilim va ijodiy fikrlash rivojlanadi;

- tanqidiy fikrlash ta’lim jarayoniga jo‘shqinlik baxsh etib, mashg‘ulotlarni ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchi uchun o‘zaro hamkorlikdagi sinergetik faoliyatiga aylantiradi [5].

Shu nuqtai nazardan olganda, talabalarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish ularni fanga bo‘lgan ichki qiziqishini, ishtiyoqini kuchaytiradi hamda ta’lim jarayonida pedagog, talabalar va o‘quv materiali o‘rtasidagi o‘zaro didaktik ta’sirni yuzaga keltiradi.

T.Xauchman - tanqidiy tafakkur bu - fikrlash faoliyatining asosiy ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, har qanday masalalarni yechishdagi to‘g‘ri yo‘lni topish strategiyasidir, u gipotezalar, tahlillar, (axborotlarni ishlash, analitik, tekshirib ko‘rish, nazorat qilish, baholashga asoslangan) refleksiv ta’sirlarni o‘z ichiga oladi, turli xil fikrlarning barchasini qamragan holda o‘z xususiy pozitsiyasini nomoyon qilish, o‘zining va boshqalarning faoliyatidagi natijalarga obyektiv baho bera olish ko‘nikmasi” - deb ta’riflaydi[6].

F.O.Xodjiyevaning ta’riflashicha “tanqidiy fikrlash - bilim o‘zlashtirishning eng yuqori darajasi bo‘lib, ushbu aqliy faoliyatda g‘oya va imkoniyatlarni ijodkorlik bilan uyg‘unlashtirish, konsentratsiya qilish hamda axborotlarni qayta tahlil etishga zamin yaratiladi”[7].

G.R.Akramova tanqidiy fikrlashni “tahlil”, “izoh”, “tushuntirish”, “o‘zini o‘zi tartibga solish”, “muammoni hal qilish”, “ijodkorlik”, “refleksiya”, “baholash”, “xulosa” kabi komponentlardan iborat bir butun tafakkurlash jarayoni sifatida talqin etadi[8].

Tanqidiy tafakkurga oid ko‘plab ta’riflar va tahlillardan kelib chiqqan holda uni quyidagicha ta’riflash mumkin: *Tanqidiy tafakkur* – bu shaxsning integrativ sifati bo‘lib, u motivatsion-qadriyatli, kognitiv va faoliyatga oid mezonlar asosida rivojlanadi hamda shaxsga berilgan munosabatlar va shakllangan bog‘lanishlar doirasidan chiqib ketish imkonini beradi. Mazkur shaxsiy sifatning integrativ yadrosi — bu talabaning subyektiv pozitsiyasidir, ya’ni mantiqiy fikrlash, shubha qilish, mushohada yuritish, mulohazalarni solishtirish va maksimal obyektiv xulosaga kelish qobiliyatini belgilovchi bilim va ko‘nikmalar hamda ushbu pozitsiya orqali ifodalanadigan erkinlik darajasi, mas’uliyat, insonparvarlik va hayotni ijodiy tashkil qilish qobiliyati. Shunday qilib, tanqidiy tafakkur — bu talabani fikriy mustaqillik, axloqiy ong va ijodiy faoliyat sari yetaklovchi ko‘p qirrali intellektual sifatdir. Talaba esa faqat **ta’lim oluvchi emas, balki faol subyekt,** uning madaniy va intellektual yuksalishi **tanqidiy tafakkuri rivojlanishning muhim sharti** hisoblanadi.

Talabalarni tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga undovchi professor-o‘qituvchi tomonidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan bir qator strategiyalar mavjud (1-jadval).

1-jadval

Strategiyaning tavsifi	**Asosiy yo‘nalish**
Talabalarga nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llab, natijalar bo‘yicha fikr-mulohaza olish imkoniyatini yaratish	Amaliyot
Xato fikrlashdan qo‘rqmaslikka va ulardan to‘g‘ri xulosa chiqarishga o‘rgatish	Xatolardan o‘rganish
Talabalarga o‘z darajasidan yuqori bo‘lgan kishilar bilan muloqat qilishga imkon berish	Ijtimoiy muloqat
Murakkab g‘oya va nazariyalarni qayta-qayta fikrlashga undash	Chuqur fikrlash
Ma’lumotlarni turli manbaalardan olishni ta’minlash	Axborot manbalari
O‘qish jarayonini mustaqil boshqarish uchun yordam berish	Mustaqillik
Talabalarni yangilik yaratishga undash	Ijodkorlik
Harakat va yutuqlarining qadrli ekanini anglatish	Qadrlash
Fikrlarini hurmat qilish va rag‘batlantirish	Fikrni hurmat qilish
Boshqalarning fikrlarini hurmat qilishga o‘rgatish	Boshqalarga hurmat
Bilimning shaxsiy ahamiyatini tushunishga imkon berish	Shaxsiy anglash
O‘z savollarini berishga va yaxshi savollar tuzishga undash	Savol tuzish
Xatolarini va fikrlash uslublarini qayta ko‘rib chiqishga rag‘batlantirish	Refleksiya
Muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqmaslikka va o‘ziga ishonishga o‘rgatish	Ishonch
Rivojlanishni kuzatish imkoniyatini yaratish	Kuzatuv
Nuqsonlar ustida ishlashni o‘rgatish	Tahlil
G‘oya yoki mavzuning ahamiyatini tushuntirish imkoniyatini berish	Ahamiyatni anglash
“Nimani bilmayman?” savoliga asoslangan o‘rganishga o‘rgatish	Tan olish

1-rasm. Talabalarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga undovchi takomillashtirilgan o‘qituvchi strategiyalari

Professor-o‘qituvchilar ta’lim jarayonlarida ushbu strategiyalarga rioya qilishsa tanqidiy tafakkur tarziga ega talabalarni tayyorlashning pedagogik tizimini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatlari yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 08.10.2019 yildagi PF-5847- sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-158-sonli Farmoni, 11.09.2023
3. Hashimov Q.K., Nishonova S. Pedagogika tarixi: Darslik. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2005. – B.25.
4. Столбунова С.В. Элементы мысли.-М: Альянс, 2006.-79 с.
5. Ресник И. А. Проблема синергетического подхода в ориентации образования. М.://Новые педагогические технологии, 2006, №3.-С.15.
6. Хачумян Т. И. Понятие “Критическое мышление” и его сущность в психолого-педагогической науке // Теоретические вопросы культуры, образования и воспитания: сб. наук. пр. Вып. 24, часть 2. – Киев: Издательский центр КНЛУ, 2003. –С.171-177.
7. Xodjiyeva F.O. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning didaktik asoslari (boshlang‘ich sinf o‘quvchilari misolida). p.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent-2008. –B. 23.
8. Akramova G.R. O‘quvchilarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish asosida ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash tizimini takomillashtirish. Ped.fan.dok(DSc).diss.avtoreferati. –T, 2023, -B.16.

SEMANTIK VALENTLIK TURLARI: ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA NAZARIY VA AMALIY ASPEKTLAR

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot semantik valentlik turlarining zamonaviy tilshunoslikdagi nazariy asoslarini va amaliy tatbiqlarini o'rganishga bag'ishlangan. Semantik valentlik predikatlar va ularning argumentlari o'rtasidagi munosabatlarni belgilovchi fundamental tilshunoslik tushunchasi sifatida tahlil qilingan. Tadqiqot davomida valentlik turlarining klassifikatsiyasi, ularning sintaktik va semantik xususiyatlari, hamda turli tillardagi namoyon bo'lish shakllari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: semantik valentlik, predikat, argument, valentlik turlari, sintaktik semantika, tilshunoslik nazariyasi

Semantik valentlik masalasi zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu konsepsiya so'zlarning boshqa so'zlar bilan birikish qobiliyati va semantik bog'lanish imkoniyatlarini o'rganadi. Valentlik nazariyasi XX asrning ikkinchi yarmida L. Tesnière tomonidan yaratilgan bo'lib, keyinchalik bir qancha tilshunos olimlar tomonidan rivojlantirildi. Semantik valentlik masalasi sintaktik valentlik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, tilning funktsional-semantik tizimini chuqur tushunishda muhim o'rin tutadi.

Semantik valentlik so'zning ma'no strukturasidan kelib chiqqan holda uning boshqa so'zlar bilan bog'lanish zaruriyati va imkoniyatlarini belgilaydi. Bu hodisa barcha tillar uchun universal xususiyat bo'lib, tillarning ichki qonuniyatlarini va semantik tizimini ochib berishda muhim vosita vazifasini bajaradi. Zamonaviy tilshunoslikda semantik valentlik masalasi korpus lingvistikasi, kompyuter lingvistikasi va mashinali tarjima sohasida ham keng qo'llanilmoqda.

Semantik valentlik kontsepsiyasining ildizlari struktural tilshunoslik davriga borib taqaladi. L. Tesnière o'zining "Strukturaviy sintaksis asoslari" asarida birinchi marta valentlik tushunchasini kiritgan bo'lib, bunda u so'zlarning boshqa so'zlarni o'ziga bog'lash qobiliyatini kimyoviy elementlarning valentligi bilan solishtirgan. Bu g'oya keyinchalik G. Xelbig, V. Shenkeli, Yu. D. Apresyan va boshqa olimlar tomonidan rivojlantirildi.

Rus tilshunosligida semantik valentlik masalasi A. A. Xolodovich, Yu. D. Apresyan, I. A. Melchuk kabi olimlar ishlarida o'z aksini topdi. Ular semantik valentlikni so'zning leksik ma'nosidan kelib chiqadigan va uning sintaktik xususiyatlarini belgilovchi xususiyat sifatida qarashdi. Zamonaviy davr tilshunoslaridan Ch. Fillmore, R. Jakendoff, B. Levin kabi olimlar semantik valentlik nazariyasini yanada rivojlantirdilar va uni zamonaviy lingvistik nazariyalar bilan bog'ladilar.O'zbek tilshunosligida semantik valentlik masalasi H. Dadaboyev, A. Hojiyev, Sh. Rahmatullayev, N. Mahmudov kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. Ularning tadqiqotlarida o'zbek tilining o'ziga xos semantik valentlik xususiyatlari aniqlangan va tahlil qilingan.

Zamonaviy tilshunoslikda semantik valentlik turli mezonlar asosida tasniflanadi. Eng keng tarqalgan tasnif usullaridan biri semantik rollar nazariyasiga asoslangan. Bu nazariyaga ko'ra, predikat so'zi o'zi bilan bog'lanadigan argumentlarning semantik rollarini belgilaydi.Obligatorlik darajasiga ko'ra semantik valentlik majburiy va ixtiyoriy turlarga bo'linadi. Majburiy valentlik predikatning ma'no to'liqligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan argumentlarni talab qiladi. Masalan, "bermoq" fe'li kamida ikki argumentni talab qiladi: beruvchi va beriladigan narsa. Ixtiyoriy valentlik esa predikatning ma'no to'liqligini buzmasdan qo'shilishi yoki tushirib qoldirilishi mumkin bo'lgan argumentlarni bildiradi.

Semantik mazmuniga ko'ra valentlik agentiv, patientiv, instrumental, lokatif, temporal va boshqa turlariga ajratiladi. Agentiv valentlik harakat bajaruvchini, patientiv valentlik ta'sir ko'ruvchini, instrumental valentlik vosita yoki qurolni, lokativ valentlik joyni, temporal valentlik vaqtni ifodalovchi argumentlarni talab qiladi. Bu tasnif predikativ so'zlarning semantik strukturasini batafsil tahlil qilish imkonini beradi.

Realizatsiya shakliga ko'ra semantik valentlik to'liq realizatsiya qilingan, qisman realizatsiya qilingan va realizatsiya qilinmagan turlariga bo'linadi. To'liq realizatsiya qilingan valentlik barcha zarur argumentlar bilan ifodalanadi, qisman realizatsiya qilinganida ba'zi argumentlar tushirib qoldiriladi, realizatsiya qilinmaganda esa argumentlar matnda aniq ifodalanmaydi, lekin kontekstdan tushuniladi.Semantik valentlik va sintaktik valentlik o'rtasidagi munosabat tilshunoslikning eng murakkab masalalaridan biridir. Semantik valentlik so'zning ma'no strukturasidan kelib chiqadi va uning boshqa so'zlar bilan semantik bog'lanish zaruriyatini belgilaydi. Sintaktik valentlik esa grammatik qoidalar asosida so'zlarning sintaktik bog'lanish imkoniyatlarini aniqlaydi.Ko'pincha semantik va sintaktik valentlik bir-biriga mos keladi, ya'ni semantik jihatdan zarur bo'lgan argumentlar sintaktik jihatdan ham majburiy bo'ladi. Biroq, ba'zi hollarda bu moslik buzilishi mumkin. Masalan, ba'zi tillarda semantik jihatdan zarur bo'lgan argument sintaktik jihatdan ixtiyoriy bo'lishi yoki aksincha holat kuzatilishi mumkin.Bu nomutanosiblik tilning tarihiy rivojlanishi, grammatikalizatsiya jarayonlari va tillararo ta'sir natijasida yuzaga keladi. Zamonaviy tilshunoslikda bunday nomoslik holatlari alohida e'tiborga sazovordir, chunki ular tilning ichki qonuniyatlarini tushunishda muhim ma'lumot beradi.

Zamonaviy korpus lingvistikasi semantik valentlik tadqiqida yangi imkoniyatlar yaratdi. Katta hajmdagi matnli korpuslar asosida so'zlarning haqiqiy qo'llanilish naqshlarini aniqlash va ularning semantik valentlik xususiyatlarini statistik usullar bilan tahlil qilish mumkin bo'ldi. Bu usul an'anaviy introspektiv usullardan farqli ravishda, empirik ma'lumotlarga asoslangan natijalar beradi.Korpus tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, ko'plab so'zlarning nazariy jihatdan mumkin bo'lgan semantik valentligi amalda to'liq realizatsiya qilinmaydi. Ba'zi argumentlar juda kam uchraydi yoki ma'lum uslubiy-janr sharoitlarda gina qo'llaniladi. Bu holatlar leksikografiya va til o'qitish uchun muhim ahamiyatga ega.Korpus lingvistikasi shuningdek, semantik valentlikning diachronik o'zgarishlarini kuzatish imkonini beradi. Tarixiy korpuslar asosida so'zlarning semantik valentlik xususiyatlari qanday o'zgarganini va yangi valentlik naqshlari qanday paydo bo'lganini aniqlash mumkin.Mashinali tarjima tizimlarida semantik valentlik masalasi juda muhim ahamiyatga ega. Tillarning semantik valentlik tizimlaridagi farqlar tarjima jarayonida ko'plab qiyinchiliklar yaratadi. Masalan, bir tilda ikki argumentli predikat boshqa tilda uch argumentli bo'lishi yoki argumentlarning semantik rollari farq qilishi mumkin.

Zamonaviy neyron tarjima tizimlarida semantik valentlik bilimi implicit ravishda o'rganiladi, ya'ni tizim katta hajmdagi parallel korpuslar asosida tillarning semantik valentlik naqshlarini avtomatik ravishda egallaydi. Biroq, bu jarayon har doim ham to'liq muvaffaqiyatli bo'lmaydi va ba'zi hollarda aniq semantik valentlik ma'lumotlarini tizimga kiritish zarur bo'ladi.Semantik valentlik masalasi shuningdek, mashinali tarjimaning sifatini baholashda ham muhim mezon hisoblanadi. To'g'ri tarjima nafaqat leksik va grammatik jihatdan, balki semantik valentlik jihatdan ham mosligi kerak.Chet tilini o'rganishda semantik valentlik masalasi juda muhim o'rin tutadi. Tilni o'rganuvchilar nafaqat so'zlarning ma'nosini, balki ularning boshqa so'zlar bilan qanday bog'lanishini ham o'rganishlari kerak. Bu ayniqsa predikatlarning semantik valentlik xususiyatlarini egallashda zarur.

Zamonaviy til o'qitish metodikasida semantik valentlik bilimi argumentli tuzilmalar, kolligatsiya va kollokatsiya masalalari orqali beriladi. Talabalar so'zlarning semantik valentlik naqshlarini o'rganish orqali tabiiyraq va to'g'ri nutq qurishlari mumkin.Semantik valentlik masalasi til o'qitishda xatolarni tahlil qilish va to'g'irlashda ham qo'llaniladi. Ko'plab til o'rganish xatolari semantik valentlik qoidalarining noto'g'ri qo'llanilishi natijasida yuzaga keladi.Psixolingvistik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, semantik valentlik bilimi inson ongida mustahkam ravishda shakllanadi va nutq jarayonida avtomatik ravishda faollashadi. Bu bilim leksik xotirada so'zning semantik tarkibiy qismi sifatida saqlanadi.Nutq idrokida

semantik valentlik ma'lumotlari jumla tushunish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Eshituvchi yoki o'quvchi predikat so'zini idrok etgandan so'ng, uning semantik valentlik naqshiga asoslanib keyingi argumentlarni kutadi va izlaydi.Til egallash jarayonida bolalar semantik valentlik qoidalarini bosqichma-bosqich o'rganadilar. Dastlab sodda valentlik naqshlarini, keyin esa murakkab argumentli tuzilmalarni egallaydilar. Bu jarayon tilning universalligi va o'ziga xosligi o'rtasidagi o'zaro ta'sirni aks ettiradi.

Tipologik tilshunoslikda semantik valentlik masalasi tillarning tasnifi va taqqoslashda muhim mezon hisoblanadi. Tillar semantik valentlik tizimlariga ko'ra bir-biridan sezilarli farq qiladi. Ba'zi tillarda predikatlar ko'proq argumentni talab qiladi, boshqalarida esa kamroq.Ergativ tillarda semantik valentlik agentlik va patientlik rollari bilan chambarchas bog'liq. Accusativ tillarda esa sub'ekt va ob'ekt rollarining o'ziga xos semantik valentlik naqshlari mavjud. Serial verb konstruksiyalariga ega tillarda semantik valentlik murakkab tuzilmalarni namoyon etadi.O'zbek tili semantik valentlik jihatidan Turkiy tillar oilasining umumiy xususiyatlarini namoyon etadi, shu bilan birga o'ziga xos jihatlarga ham ega. O'zbek tilidagi ko'makchi fe'llar va qo'shma fe'llar semantik valentlik jihatidan alohida tadqiqotni talab qiladi.Hozirgi vaqtda semantik valentlik tadqiqida bir qancha istiqbolli yo'nalishlar rivojlanmoqda. Frame semantikasi nazariyasida semantik valentlik kontseptual ramkalar kontekstida o'rganiladi. Construction Grammar nazariyasida esa semantik valentlik konstruksiyalarning ajralmas qismi sifatida qaraladi.

Kognitiv tilshunoslikda semantik valentlik konseptual metaforalar va obrazli fikrlash bilan bog'lab o'rganiladi. Bu yondashuv semantik valentlik nazariyasini yangi jihatdan yoritadi va tilning kognitiv asoslarini ochib beradi.Kompyuter lingvistikasida semantik valentlik avtomatik tahlil va generatsiya tizimlarida qo'llaniladi. Semantik parsing, ma'no taqdiri va tabiiy til tushunish tizimlarida semantik valentlik bilimi muhim komponent hisoblanadi.

Xulosa. Semantik valentlik turlari zamonaviy tilshunoslikning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Bu sohadagi tadqiqotlar tilning semantik tizimini chuqur tushunishga, tillarni taqqoslash va tasniflashga, amaliy lingvistik vazifalarni echishga katta hissa qo'shmoqda. Kelajakda semantik valentlik tadqiqining yanada rivojlanishi, ayniqsa korpus lingvistikasi, mashinali o'rganish va kognitiv fanlar bilan integratsiyasi orqali yangi yutuqlarga erishish mumkin. O'zbek tilshunosligida ham semantik valentlik masalasini chuqurroq o'rganish zarurati mavjud bo'lib, bu sohadagi tadqiqotlar o'zbek tilining semantik tizimini mukammal ochib berishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tesnière, L. (1959). *Éléments de syntaxe structurale*. Paris: Klincksieck.
2. Allerton, D. J. (1982). *Valency and the English Verb*. London: Academic Press.
3. Tesnière, L. (1959). *Éléments de syntaxe structurale*. Paris: Klincksieck, pp. 102-125.
4. Chomsky, N. (1981). *Lectures on Government and Binding*. Dordrecht: Foris Publications.
5. Jackendoff, R. (1990). *Semantic Structures*. Cambridge, MA: MIT Press.
6. Palmer, M., Gildea, D., & Kingsbury, P. (2005). The Proposition Bank. *Computational Linguistics*, 31(1), 71-106.
7. Herbst, T., Heath, D., Roe, I. F., & Götz, D. (2004). *A Valency Dictionary of English*. Berlin: Mouton de Gruyter.
8. Dowty, D. (1991). Thematic proto-roles and argument selection. *Language*, 67(3), 547-619.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ НАПРАВЛЕНИЯ ЛЕЧЕБНОЕ ДЕЛО В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

Г.И.Рахматуллаева
Докторант Наманганского государственного института иностранных языков
e-mail: gulbahorraxmatullayeva98@gmail.com

Аннотация: В статье рассматриваются дидактические условия формирования профессиональной компетентности студентов направления “Лечебное дело” в процессе обучения английскому языку. Проанализированы современные педагогические технологии, включая интеграцию предметного и языкового обучения, использование ИКТ, симуляционных методов и активных форм обучения.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, студенты-медики, дидактические условия, английский язык, медицинское образование.

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Davolash ishi” yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarni ingliz tili orqali kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning didaktik shart-sharoitlari ko‘rib chiqiladi. CLIL, AKT, simulyatsion metodlar va faol o‘qitish texnologiyalarining qo‘llanishi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: kasbiy kompetensiya, tibbiyot yo‘nalishi talabalari, didaktik shartlar, ingliz tili, tibbiy ta’lim.

Abstract: The article examines the didactic conditions for developing professional competence among medical students in the field of General Medicine through English language education. It analyzes modern pedagogical technologies including CLIL integration, the use of ICT, simulation methods, and active learning strategies.

Keywords: professional competence, medical students, didactic conditions, English language, medical education.

В последние годы в мире произошли значительные изменения в области медицины, которые потребовали соответствующего совершенствования медицинского образования. Цель медицинского образования - подготовить студентов к решению задач, стоящих перед сектором здравоохранения, и снабдить их знаниями и навыками, необходимыми для предоставления качественных медицинских услуг пациентам. Таким образом, развитие профессиональной компетентности является важным компонентом медицинского образования. В условиях интеграции профессионального и языкового образования особую актуальность приобретает проблема формирования профессиональной компетентности студентов направления 'Лечебное дело' в процессе обучения английскому языку. Дидактические условия, способствующие данному процессу, включают в себя совокупность методов, приёмов и форм организации учебной деятельности, направленных на развитие функциональной, коммуникативной и межкультурной компетентности [1. 2008:B.56].

Формирование профессиональной компетентности требует интеграции содержания медицинского образования с обучением английскому языку, что достигается через методологию предметно-языкового интегрированного обучения (CLIL). В рамках данного подхода студент осваивает медицинскую лексику, развивает навыки анализа профессиональной информации и готовится к межкультурному взаимодействию в международной медицинской практике [2. 2012:B.73].

Важную роль играют также информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), позволяющие моделировать профессиональные ситуации, например, с помощью симуляторов общения с пациентами, специализированных платформ и кейсов на английском языке. Применение данных технологий стимулирует самостоятельность, критическое мышление и активное участие студентов в учебном процессе [3. 2016:B.88].

Для достижения высоких результатов необходимо обеспечить следующие дидактические условия: (1) включение аутентичных материалов, отражающих специфику медицинской практики; (2) поэтапное усложнение заданий; (3) внедрение модульного принципа обучения с элементами междисциплинарности; (4) создание англоязычной профессиональной среды [4. 2019:B.102].

Важность профессиональной компетентности в медицинском образовании относится к знаниям, навыкам, установкам и ценностям, необходимым для эффективного выполнения конкретной работы. В медицинском образовании профессиональная компетентность включает в себя клинические навыки, навыки общения, этические и правовые принципы, а также заботу, ориентированную на пациента. Развитие профессиональной компетентности имеет важное значение в медицинском образовании, поскольку оно подготавливает студентов к предоставлению качественных медицинских услуг и отвечает растущим потребностям сектора здравоохранения. Компетентные медицинские работники могут принимать важные решения, которые влияют на жизнь их пациентов и могут способствовать повышению общего качества медицинских услуг[1]. Проанализирован комплексный подход к обучению иностранным языкам и медицинскому образованию, а также изложены основные компоненты этого подхода. В статье акцентируется внимание на важности развития навыков владения английским языком наряду с приобретением медицинских знаний и умений. Описаны принципы преподавания медицинского английского языка, а также обсуждаются преимущества и проблемы интеграции языкового и медицинского

образования. Для разработки методики были использованы данные о существующих педагогических подходах в преподавании английского языка, научные исследования в области лингводидактики и педагогики, а также результаты анализа учебных программ медицинских вузов. Основное внимание уделено методам, которые позволяют развивать как общие навыки владения языком, так и специфические компетенции, связанные с медицинской терминологией и профессиональной коммуникацией. Обучение студентов-медиков в контексте EFL представляет собой уникальную проблему, которую необходимо решить, чтобы обеспечить приобретение студентами необходимых компетенций. Основная проблема заключается в том, что медицинская терминология сложна и специфична, что затрудняет ее точное понимание и использование студентами. Кроме того, студенты могут иметь разный уровень владения английским языком, что может повлиять на их способность эффективно понимать медицинскую информацию и передавать ее. Чтобы преодолеть эти трудности, при развитии профессиональной компетентности студентов-медиков в контексте EFL следует учитывать следующие принципы: 1. Разработка учебной программы: Учебная программа должна быть разработана с учетом потребностей студентов-медиков EFL. Этого можно достичь, включив в учебную программу изучение английского языка и обеспечив четкое и сжатое преподавание медицинской терминологии. Учебная программа также должна включать практические занятия и клиническую ротацию, чтобы предоставить студентам практический опыт. 2. Активное обучение: Методы активного обучения, такие как проблемно-ориентированное обучение и тематические исследования, могут быть использованы для повышения вовлеченности студентов и содействия приобретению профессиональных компетенций. Эти методы предоставляют студентам возможность применять свои знания и навыки в реальных ситуациях, развивая критическое мышление и навыки решения проблем. 3. Обратная связь и оценка: Обратная связь и оценка являются важными компонентами развития профессиональной компетентности. Студенты должны регулярно получать отзывы о своей работе, чтобы определить области для улучшения и укрепить свои сильные стороны. Оценка должна быть разработана таким образом, чтобы проверить понимание студентами медицинских концепций и их способность применять их в клинических условиях. 4. Языковая поддержка: Студентам должна быть оказана языковая поддержка, чтобы помочь им улучшить уровень владения английским языком. Этого можно достичь, предлагая языковые курсы и предоставляя доступ к ресурсам на английском языке. Языковую поддержку также можно обеспечить, назначив наставников или тьюторов по изучению языка для индивидуальной работы со студентами или в небольших группах. Развитие профессиональной компетентности является важным компонентом медицинского образования, и обучение студентов-медиков в контексте EFL представляет собой уникальные задачи, которые необходимо решить, чтобы обеспечить приобретение студентами необходимых компетенций[2]. Разработка учебной программы, активное обучение, обратная связь и оценка, а также языковая поддержка - вот принципы, которые следует учитывать при развитии профессиональной компетентности студентов-медиков в контексте EFL. Придерживаясь этих принципов, медицинские учебные заведения могут подготовить компетентных специалистов в области здравоохранения, которые смогут предоставлять качественные медицинские услуги пациентам.

Формирование профессиональной компетентности требует интеграции содержания медицинского образования с обучением английскому языку, что достигается через методологию предметно-языкового интегрированного обучения (CLIL). В рамках данного подхода студент осваивает медицинскую лексику, развивает навыки анализа профессиональной информации и готовится к межкультурному взаимодействию в международной медицинской практике [2. 2012:B.73].

Важную роль играют также информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), позволяющие моделировать профессиональные ситуации, например, с помощью симуляторов общения с пациентами, специализированных платформ и кейсов на английском языке. Применение данных технологий стимулирует самостоятельность, критическое мышление и активное участие студентов в учебном процессе [3. 2016:B.88].

Для достижения высоких результатов необходимо обеспечить следующие дидактические условия: (1) включение аутентичных материалов, отражающих специфику медицинской практики; (2) поэтапное усложнение заданий; (3) внедрение модульного принципа обучения с элементами междисциплинарности; (4) создание англоязычной профессиональной среды [4. 2019:B.102].

Эффективность формирования компетентности возрастает при использовании методов активного обучения: проблемно-ориентированного обучения (PBL), проектной деятельности и симуляционных технологий. Эти подходы способствуют не только овладению профессиональной лексикой, но и развитию критического мышления и командного взаимодействия [5. 2021:B.67].

Кроме того, преподаватель должен выполнять роль тьютора, фасилитатора и научного руководителя, создавая условия для самостоятельного поиска и анализа информации. Такая педагогическая позиция способствует формированию у студентов ответственности за собственное обучение и профессиональное развитие [6. 2015:B.93].

Таким образом, формирование профессиональной компетентности студентов медицинского направления в процессе обучения английскому языку возможно при соблюдении целого комплекса дидактических условий. Ключевыми из них являются интеграция языкового и профессионального компонентов, применение активных методов обучения, цифровых ресурсов, а также переосмысление роли преподавателя в образовательном процессе [7. 2023:B.45].

Список литературы

1. Александрова О.Н. Роль преподавателя в формировании профессиональной автономии студентов. — Новосибирск: НГТУ, 2015.
2. Иванова И.В. Методика профессионально ориентированного обучения иностранным языкам. — Москва: Академия, 2008.
3. Кузнецова Т.С. Интеграция профессионального и языкового образования: теория и практика. — Москва: Просвещение, 2023.
4. Михайлова Е.Ю. Современные педагогические технологии в медицинском образовании. — Воронеж: Наука, 2021.
5. Петрова Л.Г. Использование ИКТ в обучении профессиональному английскому языку. — Казань: Университетская книга, 2016.
6. Смирнова Н.А. Предметно-языковое интегрированное обучение в вузе. — Санкт-Петербург: Лань, 2012.
7. Хайруллина Р.Р. Дидактика высшей школы: инновационные технологии. — Уфа: БашГУ, 2019.

O‘ZBEK VA INGLIZ TEZ AYTISHLARINING STROFIK TUZILMASI VA XUSUSIYATLARI

O.K.Yuldashev
Namangan davlat pedagogika instituti Xorijiy tillar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tez aytishlarining strofik tuzilmasi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy nazariy va amaliy jihatdan solishtirma-tahlil etilgan. Tez aytishlarning shakliy barqarorligi, ritmik va qofiyaviy tizimi, shuningdek, ular orqali xalq og‘zaki ijodining poetik namunasi namoyon bo‘lishi yoritiladi. Ingliz va o‘zbek tez aytishlarida tovush takrorlanishi, alliteratsiya va strofik birliklar asosiy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: tez aytish, strofa, strofika, qofiya, ritm, alliteratsiya, og‘zaki ijod, solishtirma tahlil, xalq she’riyati

Abstract This article presents a comparative analysis of the strophic structure and distinctive features of Uzbek and English tongue twisters. It highlights the formal stability, rhythmic and rhyming systems of tongue twisters, and their role as poetic expressions within oral folk creativity. Sound repetition, alliteration, and strophic units are emphasized as key elements in both Uzbek and English tongue twisters.

Keywords: tongue twister, stanza, strophics, rhyme, rhythm, alliteration, oral creativity, comparative analysis, folk poetry

Аннотация В статье проведён сравнительный анализ строфической структуры и особенностей узбекских и английских скороговорок. Рассматриваются формальная устойчивость, ритмические и рифмовочные системы скороговорок, а также их роль как поэтических образцов устного народного творчества. Особое внимание уделено повторению звуков, аллитерации и строфическим единицам.

Ключевые слова: скороговорка, строфа, строфика, рифма, ритм, аллитерация, устное творчество, сравнительный анализ, народная поэзия

Xalq og‘zaki ijodi inson tafakkuri, nutqiy madaniyati va estetik dunyoqarashini o‘zida mujassam etgan badiiy-xalqona ifoda vositalarining boy majmuasidir. Ushbu badiiy yodgorliklar orasida tez aytishlar xalq nutqining sinovi, tilning imkoniyatlarini namoyon etuvchi o‘ziga xos janr sifatida ajralib turadi. Ba’zan bolalar o‘yini, ba’zan nutqiy mashq sifatida namoyon bo‘ladigan bu janr o‘zining fonetik, leksik, stilistik va ayniqsa strofik xususiyatlari bilan alohida e’tiborga qaratadigan mavzular qatoriga kiradi.

Tez aytishlar, ayniqsa, she’riy tez aytishlar o’ziga xos she’riy kompozitsiyaga ega. “Tez aytishlar... so‘zning tanlangan, uyg‘unlashtirilgan, moslashtirilgan, birlashtirish xususiyatlariga bo‘ysungan, mukammal qofiya va ritm sifatlarini talab qiluvchi she’riyatning yuksak darajadagi yutug‘i”, – deydi T.Tanaev. Bu ta’rifda janr va uning kompozitsion tuzilishiga berilgan baho, ularning badiiy-ilmiy ahamiyatini chuqur anglash asosida shakllanganini ko‘rish mumkin.

O‘zbek tez aytishlari, xususan ikkilik va to‘rtlik bandlar shaklida tuzilishi bilan ajralib turadi. Ular xalq ichida avloddan avlodga o‘tib kelayotgan an’anaviy poetik tizimni namoyon etadi. Bunday she’riy qurilish nafaqat forma, balki mazmun jihatdan ham tizimlilikni taqozo etadi. O. Safarov ta’kidlaganidek, “tez aytishlar bolalar ongida til me’yorlarini mustahkamlash bilan birga, ularni sheva, lahja, nutq urf-odatlariga ham tanishtiradi”. Bu jihatlar tez aytishlarning nafaqat o‘yin yoki nutq mashqi sifatida, balki xalq og‘zaki ijodining poetik namunasi sifatidagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Ayniqsa, ularning shakliy barqarorligi va mazmuniy qat’iyligi o‘zbek xalqining estetik tafakkuri va tilda tizimli fikrlash qobiliyatini yaqqol namoyon etadi. Shu bois tez aytishlar orqali bolalar nafaqat fonetik jihatdan mashq qiladilar, balki ular tildagi madaniy va dialektal boylikni ham bevosita o‘zlashtiradilar. Ingliz xalq og‘zaki ijodiga mansub tez aytishlar ham ko‘pincha to‘rtlik bandlar asosida yaratiladi. Ular, asosan, alliteratsiya va qofiya prinsiplari asosida tuziladi.

“I saw Susie sitting in a shoeshine shop,
Where she sits she shines,
And where she shines she sits,
In that shoeshine shop.”

Ushbu to‘rt misradan iborat, ya’ni **strofa shaklida** tuzilgan “s” tovushining takrorlanishi orqali kuchli **alliteratsiya** yuzaga keladi **“sits–shines–shop–shoeshine”** kabi tovush o‘xshashliklari mavjud. Har bir satr mazmunan **bir-biriga bog‘langan** bu esa **kompozitsion yaxlitlik**ni ta’minlaydi

Bu kabi tez aytishlar ingliz xalq og‘zaki ijodida nafaqat **nutq aniqligi va tezligini oshiruvchi vosita**, balki **she’riy shaklda qurilgan madaniy namuna** sifatida ham qadrlanadi.

Har ikki tildagi tez aytishlar strofikasi xalq she’riyatining umumiy qonuniyatlari bilan uyg‘unlikda shakllanadi. Ulardagi ritmik-misraviy qurilish, qofiya tizimi, ovoz uyg‘unligi va bandlilik umumbashariy she’riy ongning ifodasidir. Shu sababli, mazkur faslda o‘zbek va ingliz tez aytishlari strofikasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan solishtirma-tahliliy asosda o‘rganildi.

Strofika she’riy matnning ritmik va kompozitsion birliklarini, ularning misralar tizimidagi ichki aloqasini mazmuniy va fonetik uyg‘unligini o‘rganadi. Strofa esa she’rning ma’lum satrlardan tashkil topgan, qofiyadosh va mazmunan yaxlit bo‘lgan qismidir. Adabiyotshunoslarning fikricha, strofa she’riy nutqning musiqiyligiga, ohangdorligiga xizmat qiluvchi tuzilma sifatida e’tirof etiladi . Tez aytishlar garchi ko‘pincha og‘zaki ijro shaklida bo‘lsada, o‘zining ichki qurilishi, satrlar orasidagi ohangdorlik, bo‘g‘inlar muvozanati va takroriy birliklari bilan strofik birlik sifatida o‘rganishga loyiq janr hisoblanadi. Folklorshunos O. Safarov tez aytishlarni “so‘zning tanlangan, uyg‘unlashtirilgan, moslashtirilgan, birlashtirish xususiyatlariga bo‘ysungan, mukammal qofiya va ritm sifatlarini talab qiluvchi she’riyatning yuksak darajadagi yutug‘i” sifatida baholaydi. Demak, tez aytishlarda ritm, qofiya, takrorlar va alliteratsiya orqali hosil bo‘ladigan ohangdorlik strofik birlikni vujudga keltiradi. O‘zbek tez aytishlarining strofik tuzilishi O‘zbek tez aytishlari ko‘plab holatlarda barmoq vazniga asoslangan bo‘lib, ularda 7,8,9,11va 12 bo‘g‘inli misralar uchraydi. Quyidagi misolda ikki misrali yetti bo‘g‘inli strofa mavjud:

Ayiq asal yaladi,
Asalari taladi.

Bu yerda bo‘g‘inlar soni 4+3 shaklida tashkil topgan bo‘lib, “yaladi” va “taladi” so‘zlari qofiyadoshlik hosil qiladi. O‘zbek xalq tez aytishlari ichida barmoq vaznida yaratilgan 4+3 turoqlanishga ega bo‘lgan yetti bo‘g‘inlilari ko‘pchilikni tashkil etadi:

O‘lmas, O‘ktam o‘rtoqlar,
O‘t o‘rishdi o‘tloqda .

Bunday tez aytishda tizim strofik jihatdan barqaror bo‘lib, tez aytishlar orasida eng ko‘p uchraydigan shakllardan biridir. To‘rt misrali tuzilmalar esa asosan murakkab ritmik struktura va ko‘p tovushli birliklarga ega bo‘ladi:

Qishda kishmish pishmasmish,
Pishsa kishmish qishmasmish.
Kishmish yegan kishining,
Tishlari qamashmasmish.

Bu misralarda “kishmish”, “qishmasmish”, “qamashmasmish” kabi so‘zlar orqali ichki qofiya va ritm hosil qilingan. Misralar o‘zaro fonetik bog‘liqlikka asoslangan bo‘lib, strofik barqarorlikka erishiladi.

While we were walking,
we were watching window
washers wash Washington's
windows with warm washing water.

Ushbu ingliz tilidagi tez aytish to‘rt misrali aliteratsion va ritmik struktura asosida qurilgan bo‘lib, har bir misrada **“w”** tovushining takroriyligi aliteratsiyani kuchaytiradi. Har bir misra sintaktik jihatdan barqaror bo‘lib, strofik birlikda fonetik uyg‘unlik va esda saqlash osonligi ta’minlangan.

Ingliz tez aytishlarida strofik tuzilma Ingliz tez aytishlarining strofik tuzilmasi o‘zbek tilidagilardan farqli o‘laroq, qat’iy metrik tizimga emas, balki urg‘ular, aliteratsiya va fonetik uyg‘unlik asosiga quriladi. Inglizcha tongue twisterlar odatda ikki yoki to‘rt misradan iborat bo‘ladi va tovushlar takrori orqali bir butun struktura vujudga keladi.

Masalan:

Peter Piper picked a peck of pickled peppers.
If Peter Piper picked a peck of pickled peppers,
Where’s the peck of pickled peppers Peter Piper picked?[4]

Bu uch misrali strofa “p” tovushining takrori (alliteratsiyasi) bilan strofik barqarorlik hosil qiladi. Unda qofiya ikkinchi darajali ahamiyatga ega.

Yana bir misol:

She sells seashells by the seashore.
The shells she sells are surely seashells.

Bu ikki misrali strofa kuchli alliteratsiya (sh–s tovushlari) asosida tashkil topgan bo‘lib, fonetik uyg‘unlik va intonatsion birligiga asoslanadi. Ingliz tez aytishlari strofa shaklida bo‘lsada, ularning asosiy struktura vositasi – takroriy tovushlar, urg‘u va ritm.

Xulosa qilib aytganda o‘zbek va ingliz tez aytishlarining strofik tuzilmasi o‘ziga xosligi va umumiy she’riy qonuniyatlarga mosligi chuqur tadqiq etildi. Natijalarga ko‘ra, har ikki tilning tez aytishlari xalq og‘zaki ijodining muhim poetik shakli sifatida shakllangan va rivojlanganligi aniqlandi. O‘zbek tez aytishlari strofik tuzilmasi ko‘proq metr va bo‘g‘inlar soni, shuningdek, barmoq vaznlariga asoslangan bo‘lib, ular an’anaviy xalq she’riyatining shakliy tizimlarini davom ettiradi. Bu tizim ichida ikki va to‘rt misrali bandlar keng tarqalgan bo‘lib qofiya, ritm va bo‘g‘inlarning muvozanati bilan ajralib turadi. O‘zbek tez aytishlarida mazmuniy qat’iylik va shakliy barqarorlik til madaniyati va estetik tafakkurining rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

Ingliz tez aytishlarida esa strofik tuzilma qat’iy metrik tizimga emas balki fonetik vositalarga, xususan, alliteratsiya, urg‘ular va tovushlarning takrorlanishiga asoslanadi. Inglizcha tongue twisterlar ko‘pincha ikki yoki to‘rt misrali bo‘lib, ularning asosiy vazifasi nutq aniqligi va tezligini oshirishdan tashqari, she’riy ohangdorlik va fonetik uyg‘unlikni ta’minlashdir. Bu esa ularning xalq og‘zaki ijodidagi estetik va madaniy ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Har ikkala tilning tez aytishlari nafaqat nutqni mashq qilish vositasi sifatida, balki she’riy kompozitsiyaga ega bo‘lib, tilning poetik imkoniyatlarini, madaniy merosni va xalqning estetik qadriyatlarini ifoda etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ular bolalar ongida til me’yorlarini mustahkamlash, lahja va dialektlarni o‘rganish uchun samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, o‘zbek va ingliz tez aytishlarining strofik tuzilmasi hamda fonetik xususiyatlarini solishtirma-tahlil qilish nafaqat she’riyatshunoslik, balki tilshunoslik va folklorshunoslik uchun ham muhim ilmiy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tanaev, T. *Tez aytishlar va she’riy kompozitsiya*. Toshkent: Adabiyot nashriyoti.
2. Safarov, O. *O‘zbek xalq og‘zaki ijodi*. Toshkent: Fan nashriyoti.
3. Akbarov, Sh. *Fonetik va strofik xususiyatlar*. Toshkent: Universitet nashriyoti.

4. Crystal, D. (1997). *The Cambridge Encyclopedia of Language*. Cambridge: Cambridge University Press.
5. O’Grady, W., Archibald, J., Aronoff, M., & Rees-Miller, J. (2010). *Contemporary Linguistics: An Introduction*. Boston: Bedford/St. Martin’s.
6. Trask, R.L. *Key Concepts in Language and Linguistics*. London: Routledge.
7. Crystal, D. *A Dictionary of Linguistics and Phonetics* (5th ed.). Oxford: Blackwell.
8. Latham, R. *English Tongue Twisters: Their Use and Function*. Journal of Linguistic Studies, 23(2), 45-59.
9. Jones, D. *An Outline of English Phonetics*. Cambridge: Heffer & Sons Ltd.
10. Kurnaz, E. *Comparative Study of Tongue Twisters in English and Turkish*. International Journal of Linguistics, 102-114.

ADABIY TA’LIMDA VIZUAL YONDASHUVDAN FOYDALANISH METODIKASI

M.Sh.Sobitova
ToshDO‘TAU 1-kurs tayanch doktoranti sobitovamahmuda@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda adabiy ta’lim jarayonida vizual yondashuvdan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Tadqiqotda adabiy ta’limda mavzu o‘qitish jarayonida tasviriy san’at (rasm, haykaltaroshlik), multimedia vositalari (film, animatsiyalar, ijodiy videosyujetlar), vizual materiallar (xarita, diagramma), shuningdek, qator shu kabi vizual vositalarning qo‘llanishi borasidagi mulohazalar ilmiy jihatdan tadqiq etiladi. Dars jarayonida vizual ta’limdan foydalanish dars sifatiga ta’sir etibgina qolmasdan, balki o‘quvchilarning tafakkurlarini o‘stirish, tasavvurlarini yanada kengaytirish, uzatilayotgan ma’lumotlarning xotiralarida tez saqlanishiga yordam beradi. Vizual vositalarning adabiyot faniga tatbiq etilishi ushbu sohaning keng doirada o‘rganilishiga zamin yaratadi.

Kalit so‘zlar: adabiy ta’lim, vizual yondashuv, vizual savodxonlik, metodika, multimedia dasturlari, adabiyotni o‘qitish metodikasi.

Аннотация. В данной диссертации рассматриваются особенности применения наглядного подхода в процессе литературного образования. В исследовании научно изучается использование изобразительного искусства (живопись, скульптура), мультимедиа (кино, анимация, творческое видео), наглядных материалов (карты, схемы), а также ряда аналогичных наглядных пособий в процессе преподавания предмета в литературном образовании. Использование наглядного подхода на уроке не только влияет на качество урока, но и способствует развитию мышления учащихся, расширению их воображения и быстрому сохранению в памяти передаваемой информации. Применение наглядного подхода к преподаванию литературы создаёт основу для изучения этой области в широком спектре.

Ключевые слова: литературное образование, наглядность, визуальная грамотность, методика, мультимедийные программы, методика преподавания литературы.

Abstract. This thesis discusses the specific features of using a visual approach in the process of literary education. The study scientifically studies the use of visual arts (painting, sculpture), multimedia (film, animation, creative video), visual materials (maps, diagrams), as well as a number of similar visual aids in the process of teaching a subject in literary education. The use of visual education in the lesson not only affects the quality of the lesson, but also helps to develop students' thinking, further expand their imagination, and quickly store the transmitted information in their memory. The application of visual aids to the discipline of literature creates a basis for the study of this area in a wide range.

Keywords: literary education, visual approach, visual literacy, methodology, multimedia programs, literature teaching methodology.

Adabiyot fanini o‘qitish o‘ziga xos uslubiyatga asoslanib, uning alohida fan sifatida tadqiq etilishi bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Q. Husanova adabiyot metodikasi xususida quyidagi fikrlarni ilgari suradi: “Adabiyot o‘qitish metodikasi badiiy adabiyot o‘qitilish jarayoniga bog‘liq qonuniyatlarni o‘rganadi. Unda adabiyotshunoslik bilan pedagogikaning ayrim xususiyatlari uyg‘unlashadi. ...adabiyot o‘qitish metodikasi alohida fan sifatida filologik ta’lim uchun zarur hisoblanib, uning o‘z obyekti va predmeti, maqsad va vazifalari, mazmuni va metodlari mavjud” [2. 2018: B.8].

Demak, ushbu fanning o‘rganilishi hamda fan doirasidagi mavjud predmetlarning alohida tadqiq etilishi o‘ziga xos yondashuvlarni talab qiluvchi jihat sanaladi. Bizning ushbu tezisimiz ham bevosita adabiyot o‘qitish fani bilan aloqador sanalib, ushbu jarayonga vizual yondashuv metodikasini tatbiq qilish borasidagi mulohazalarni qamrab oladi.

Adabiy asarlarni tushunish faqatgina asardan o‘rin olgan so‘zlar orqaligina bo‘lib qolmay, balki obrazlar hissiyoti, peyzaj, qahramonlar tasvirining tasavvurdagi holatida ham namoyon bo‘ladi. Asarlarga vizual yondashuv esa bevosita ana shu jarayonni kuchaytirishga qaratilgan metod bo‘lib, asosan, adabiy o‘qitishda ko‘rgazmalilik va tasviriy vositalardan foydalanishni nazarda tutadi.

Adabiy ta’limida vizual yondashuvlardan foydalanish zamonaviy metodikaning muhim qismi sanaladi. Bu yondashuv turli vizual tasviriy vositalarni, xususan, tasviriy san’at (rasm, haykaltaroshlik), multimedia vositalari (film, animatsiyalar, ijodiy videosyujetlar), vizual materiallar (xarita, diagramma), zamonaviy VR texnologiyalarni adabiy asarlarning o‘qitilish jarayoniga tatbiqini amalga oshiradi. Ta’limning vizual vositalar yordamida o‘qitilishi quyidagilarning rivojida o‘ziga xos ahamiyatga ega:

- *dars sifatining oshishi;*
- *kontekstdagi mavjud syujetning vizual tasvirlar yordamida yorqin gavdalanishi;*
- *vizual savodxonlik va adabiy ta’lim jarayonlarining uyg‘unligini anglash*

Adabiy ta’limda vizual vositalardan foydalanish ko‘plab tadqiqotlarda ilgari surilgan g‘oyalardan hisoblanadi. Xususan, T. Nogeuraning “Vizual savodxonlik va vizual adabiyot: adabiy san’atlarning o‘rganilishi” nomli tadqiqotida o‘quvchilarning kommunikativ xulqini rivojlantirishda vizualizatsiyadan foydalanish borasidagi mulohazalarini keltirib o‘tadi. Shuningdek, badiiy asarlarni o‘qitishda o‘ziga xos vizual metodologiya “Hikoyaviy rasm chizish dasturi”ning nazariy asoslarini ilmiy faktlar asosida dalillaydi. Ushbu metodga ko‘ra, o‘quvchilarning his-tuyg‘ulari hikoyalar yordamida (har bir o‘quvchining shaxsiy yondashuvi asosida rasmlar asosida ishlanib) tahlil qilinib, ularda anglashilgan ma’no hamda kontekst va vizualizatsiya o‘rtasidagi o‘zaro uyg‘unlik aniqlanadi [5:2].

Adabiy ta’limda vizual yondashuv metodologiyasini qo‘llash matndagi syujet voqelarini vizualizatsiya qilingan shakllar yordamida “efirga uzatish” hisoblanadi, ushbu metod tahlil va baholash qobiliyatini rivojlantiradi. Bundan tashqari, adabiy asarlarni vizual materiallar yordamida o‘qitishning kognitiv xususiyatlari ham mavjud bo‘lib, bu adabiy g‘oyalar va matnlarning tushunilishida yaqqol namoyon bo‘ladi [2. 2018:B.65]. Ta’riflangan jarayonni bevosita quyidagi chizma yordamida aks ettirish mumkin:

Adabiy asar → vizualizatsiya → anglash qobiliyati → yuqori samaradorlik.

Vizual vositalar adabiy ta’limda turlicha ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi, xususan, asardan o‘rin olgan peyzaj, portret, asar qahramonining ichki olamini aks ettiruvchi holatlarning maxsus vositalar yordamida – tasviriy san’at (rasm, haykaltaroshlik), multimedia vositalari (film, animatsiyalar, ijodiy videosyujetlar), vizual materiallar (xarita, diagramma) ifodalanishi asar va vizualizatsiya o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlaydi. Masalan, multimedia vositalari (film, animatsiyalar, videosyujetlar)ning adabiy asar asosida ekranlashtirilishi ham adabiy asarlarda o‘ziga xos yondashuv sifatida xizmat qilishi mumkin, buni quyidagi metod asosida tadqiq etamiz.

1. ***“Adabiyot va vizualizatsiya” metodi.***

Ushbu metodda biror badiiy asar, masalan, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asaridagi ma’lum bir syujet tanlanadi.

Tanlangan syujet	**Vizualizatsiya**
Otabekning pinjiga yaqin keldi va esankiragan, hayajonlang‘an bir tovush bilan so‘radi: — Siz o‘shami? — Men o‘sha, — dedi bek. Ikkisi ham bir-birisiga beixtiyor termulishib qoldilar. Kumushbibi og‘ir tin olib: — Ko‘zlarimga ishonmayman, — dedi. Otabek ko‘zlarini to‘ldirib qarab: — Men ham, — dedi [6]	

Hikoya janriga xos badiiy asarlarni o‘qitishda ushbu janrga xos nazariy ma’lumotlarni faqat o‘qish bilan cheklanib qolmasdan, o‘quvchilarga ushbu janr haqidagi ma’lumotlarni oson va tez yodda qolishini ta’minlash maqsadida soddalashtirilgan metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq, masalan, maxsus diagrammalar bu borada, ayniqsa, qo‘l keladi:

1-diagramma. Hikoya janriga xos nazariy ma’lumotlarning diagrammalar yordamida o‘qitilishi



Hikoya o‘qitishdagi keyingi bosqich esa yuqorida keltirilgan diagrammadagi ma’lumotlar va darslikda berilgan asar tahlilining o‘zaro umumlashmasini hosil qilish hisoblanadi. Masalan:

T/r	Hikoya janriga xos nazariy ma’lumot	Asar asosidagi tahlili (“Bemor” hikoyasi asosida)
1	Bir voqelikka ega syujet	Sotiboldining xotinining xastaligi va asar mazmunining zimdan jamiyatdagi voqeliklarga ishora qilishi xususida
2	Obrazlar miqdori kam	Sotiboldi, xotini, qizchasi va boshqa kichik obrazlar
3	Hajman kichik asar	Asar syujetining faqat bir voqeani qamrab olishi hikoya janriga xos nazariya hisoblanadi.

Hikoya janridagi asarlarni adabiyot ta’limida o‘qitishda o‘quvchilarning psixologik-kognitiv tafakkur qobiliyatlarini ham alohida hisobga olish zarur. Sababi, bu janr asar mazmunini tushunishga qaratilgan epik tur sifatida o‘quvchilarning ham ijodiy tafakkur, tanqidiy tahlil hamda kreativlik qobiliyatlarini ham rivojlantirishni maqsad qiladi.

Zamonaviy adabiyot o‘qitish metodikasi hikoyalarning nazariy xususiyatlarini hamda ushbu janrdagi asar tahlilini amalga oshirish uchun qator metodik yondashuvlarni taklif qiladi, masalan, a) *muammolarga asoslangan o‘qitish (problem-based learning)* – ushbu metodda hikoyadagi o‘rtaga tashlangan muammoli vaziyatni aniqlash maqsad qilinadi va o‘quvchilarga ushbu muammoni hal qilish uchun o‘ziga xos yechimlar berish vazifa sifatida beriladi; b) *loyihaviy o‘qitish (project-based learning)* – hikoya asosida ijodiy loyihalar yaratish (masalan, hikoyaning davomini yozish, hikoyadagi mavjud peyzaj va portretlarning badiiy talqini asosida kichik she’riy misralar yozish); d) *raqamli hikoya tahlili* – hikoya tahlilini amalga oshirishda AKT va SI vositalariga asoslanish, online jadvallar, raqamli ma’lumotlar yaratish. Raqamli hikoya tahlili metodini “Bemor” asariga tatbiqini quyidagi jadvaldagi savollar va javob tariqasida keltiriladigan sonlar asosida ko‘rib chiqish mumkin:

T/r	**Ma’lumotni aniqlashga qaratilgan savollar**	**Raqamli javoblar**
1	“Bemor” asari nechanchi yilda yozilgan?	O‘quvchilar tomonidan asar asosida javob beriladi
2	Asarda nechta obraz ishtirok etgan?	
3	Sotiboldining qizi necha yoshda?	

Xulosa sifatida aytish mumkinki, hikoya janriga oid asarlarni o‘qitishning nazariy asoslari ushbu janrning o‘ziga xos xususiyatlarini hamda unga nisbatan metodologik yondashuvni qamrab oladi. Hikoya o‘zining qisqa hajmi va asar voqeliklarining yagona syujetni aks ettirishi bilan badiiy adabiyotda o‘ziga xos o‘ringa egadir. O‘qituvchilar hikoya janrini o‘qitish mobaynida zamonaviy metodikalarni dars jarayoniga tatbiq etishlari hamda o‘quvchilarning individual qiziqish va kognitiv tafakkur ko‘lamlarini-da hisobga olishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dolimov S., Ubaydullaev Q., Ahmedov Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi. T., “O‘qituvchi”, 1967.
2. Eshchonova G. “ADABIYOT O‘QITISH METODIKASI” FANIDAN AMALIY MASHG‘ULOTLAR (uslubiy qo‘llanma). – Urganch, 2012.
3. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2018. – 353 b.

4. Matjonov S. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. – T.: O‘qituvchi, 1996. 208 b.
5. To‘xliev B., Adabiyot o‘qitish metodikasi. T., “Yangi asr avlodi”, 2007-2010.
6. Yo‘ldoshev Q., Madaev O., Abdurazzoqov A. Adabiyot o‘qitish metodikasi. T., “Universitet”, 1994.
7. Zunnunov A. O‘zbek adabiyoti metodikasi tarixidan ocherklar. T., “O‘qituvchi”, 1973
8. Zunnunov A., Xotamov N., Ibrohimov A., Esonov J. Adabiyot o‘qitish metodikasi. T., “ O‘qituvchi”, 1992.
9. Богданова О. Ю и др. Методика преподавания литературы. Москва: 2008.

THE CONCEPT AND ITS RELATION TO THE CONCEPTUAL ASSOCIATIVE FIELD

H.Kholdorova
Namangan State University basic doctoral student
xoldorovah@gmail.com

Annotation. The article explores the concept of "Concept" and its relationship with the Conceptual Associative Field. The concept is defined as a distinctive mental representation formed through language, influencing the cultural, social, and psychological states of speakers. The article discusses the theoretical foundations of concepts, their position in culture, and their use in language teaching. It examines the Conceptual Field in linguistics and cognitive linguistics as a system of interconnected ideas based on semantic aspects of language units. The article also analyzes the role of conceptual fields in defining the semantic structure of language and their representation in thought. The work emphasizes the importance of conceptual associative fields in language learning, suggesting they reflect not only linguistic relationships but also cultural, psychological, and social factors.

Keywords: Concept, Conceptual Field, Conceptual Associative Field, Language, Culture, Cognitive Linguistics, Semantics, Linguistic Units, Cultural Differences, Language Learning.

Annotatsiya Ushbu maqolada “Kontsept” tushunchasi va uning konseptual assotsiativ maydon bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi. Kontsept til orqali shakllanadigan o‘ziga xos aqliy tasavvurlardan iborat bo‘lib, til, madaniyat va ijtimoiy-psixologik holatga ta’sir qiladi. Maqola kontseptlarning nazariy asoslarini, ularning madaniy kontekstdagi o‘rnini va til o‘rgatishda qo‘llanilishini muhokama qiladi. Konseptual maydon va konseptual assotsiativ maydon til va tafakkur jarayonlaridagi o‘zaro bog‘liqlikni aks ettiruvchi tizim sifatida tahlil etiladi. Shuningdek, maqola konseptual maydonlarning tilning semantik strukturasini aniqlashdagi roli va ularning tafakkurdagi aks etishini ta’kidlaydi. Konseptual assotsiativ maydonlar tilni o‘rganishda madaniy, psixologik va ijtimoiy omillar bilan bog‘liq yondashuvlarni o‘rganish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: Kontsept, Konseptual maydon, Konseptual assotsiativ maydon, Til, Madaniyat, Kognitiv tilshunoslik, Semantika, Lingvistik birliklar, Madaniy farqlar, Til o‘rganish.

Аннотация: В статье рассматривается понятие “Концепт” и его связь с концептуальным ассоциативным полем. Концепт определяется как специфическое мысленное представление, формирующееся через язык и влияющее на культурное, социальное и психологическое состояние носителей языка. В статье обсуждаются теоретические основы концептов, их роль в культуре и их использование в обучении языку. Рассматривается концептуальное поле как система взаимосвязанных идей, основанных на семантических аспектах языковых единиц. Также анализируется роль концептуальных полей в определении семантической структуры языка и их отражении в мышлении. Работа подчеркивает важность концептуальных ассоциативных полей в изучении языка, предлагая рассматривать их как отражение не только лексических связей, но и культурных, психологических и социальных факторов.

Ключевые слова: Концепт, Концептуальное поле, Концептуальное ассоциативное поле, Язык, Культура, Когнитивная лингвистика, Семантика, Лингвистические единицы, Культурные различия, Изучение языка.

Concepts are distinctive mental representations formed through language. According to Sodikov, concepts play an important role in the semantic fields of language and influence the cultural, social, and psychological states of speakers. Studying the role of concepts and their position in culture, as well as their use in language teaching, is crucial. Concepts form the foundation of various categories that appear in human consciousness and act as the central points of reference. Typically, it is noted that the general characteristics of concepts are that their internal structure is not clearly visible, but this statement is not entirely accurate. The basic images that constitute a concept are sufficiently clear, and while some of its secondary components may be abstract, they interact and merge around a single core.[1.2019:B.78]

We believe that a concept is a broad understanding present in the mind and imagination of every individual, reflecting ideas or events related to a certain thing, event, or experience. A concept is a mental image formed about a specific object or event, and it exists in the individual’s cognition, reflecting through language. Concepts are formed in the minds of individuals, and their representations are often interconnected. For example, the “Education” concept includes words like “book,” “teacher,” “student,” and “class,” which represent certain ideas or events. Concepts arise when individuals see or understand information about objects and their characteristics. This process includes the information about the state of the surrounding world and the probable state of the world as perceived by the individual. The information reflects what the person knows, assumes, thinks, and imagines about the objects in their surrounding environment. [2.1976:B.10] The conceptual meaning of a word represents its core meaning and manifests ideas that are common across all language users on Earth. The conceptual meaning of a word also helps distinguish its true meaning from other words in a sentence. The Conceptual Field in linguistics and cognitive linguistics is an essential concept representing a system of related ideas based on the semantic aspects of language units. The conceptual field refers to the connection between words and concepts. Here, words are semantically linked and together form a system of meanings. Conceptual fields are also associated with psychological, cultural, and social factors. Conceptual fields and concepts are interconnected in the processes of language and thought, and each language has its own specific conceptual fields. This concept is widely studied in linguistics, psycholinguistics, cultural studies, and cognitive linguistics. Safarov perceives conceptual fields as systems that reflect the interrelations of language units and their meanings in a systematic manner. He also explores the role of conceptual fields in linguistics and their connections to social and cultural aspects of language. According to Safarov, conceptual fields play an important role in identifying the semantic structure of language and its representation in thought. [3.2020.B:89] Komilov defines the conceptual field as a set of concepts belonging to the primary structure of language. These fields primarily help study the relationships between words and phrases and their contextual meanings during language learning. Conceptual Associative Field is a system of related ideas, words, and concepts that helps in understanding a specific subject or object in the processes of language and thought. These fields reflect the connections between language and thought, and analyzing the relationships between words and concepts is possible through such fields. Conceptual associative fields allow for the exploration of language learning and comprehension in numerous new approaches.

The structure of conceptual associative fields is linked to the semantic and pragmatic foundations of language, and they reflect the interconnections between various levels of concepts and their relationships. These fields often require multifaceted approaches in language learning since they not only consider the relationships between words but also the cultural, psychological, and social factors related to these words

Karimov suggests that conceptual fields are systems reflecting the interconnections between linguistic units and their representations in human cognition. He also emphasizes the cultural-based differences of concepts. “Conceptual associative fields are systems that show how words and concepts are interconnected in linguistics, expressed through cognitive maps.” Linguist Komilov states, “Conceptual associative fields help in the study of the relationships between words and phrases and their contextual meanings during the language learning process.”[1.2019.B:102]

Associative fields reflect the interconnections between language units. They primarily explain the observable connections between words, describing how words are related. Associative fields are often based on social and cultural factors, meaning they form within a specific linguistic context. Conceptual fields, on the other hand, establish higher-level systemic connections between concepts. They are more structural, organizing the concepts related to a specific topic or object. Conceptual fields reflect the precise

interrelations within language and thought. G. Miller is one of the scholars who views associative fields as a significant tool for explaining the connections between language and thought. According to him, associative fields primarily reflect the interrelationships of language units, which, through these connections, reflect human cognition. [2.1976.B:26]

References:

1. Komilov, K. *Conceptual Fields in Language Learning*. Tashkent: National Press. 2019
2. Miller, G. A. *The Psychology of Language*. New York: Wiley.1976
3. Popova, Z. D., & Stepanov, Y. S. *Cognitive Linguistics*. Moscow: AST: Vostok-Zapad. 2007
4. Safarov, K. *Linguoculturology and Language Philosophy*. Tashkent: Mirzo Ulughbek Publishing House. 2020
5. Sodikov, Z. *Language and Thought: Linguoculturology and Cognitive Models*. Tashkent: Fan nashriyoti. 2018
6. Wierzbicka, A. *Understanding Cultures through Their Key Words*. Oxford: Oxford University Press.1997

ALISHER NAVOI: LITERARY LEGACY, TRANSLATION HISTORY, AND WESTERN SCHOLARSHIP

N.H.Eshonqulova
Doctoral student (PhD), Bukhara State University

Annotation: This article examines the literary legacy of Alisher Navoi, the most prominent figure of the Timurid era and a central figure in Uzbek and Turkic literature. It explores his thematic and stylistic contributions, including the moral, philosophical, and cultural dimensions of his works. Special attention is given to the history of studying and translating Navoi’s oeuvre in Western Europe, with a focus on English, French, and German scholarship from the 19th to the 21st centuries. The article analyzes the challenges of translating Navoi’s works, the role of Orientalists such as Charles Rieu, E. D. Gibb, E. G. Browne, and F. A. Belin, and the impact of historical and cultural contexts on reception. It also highlights the modern stage of Navoi studies in Uzbekistan, emphasizing interdisciplinary approaches and the integration of digital technologies. The study concludes that Navoi’s works remain relevant for global literature and intercultural dialogue.

Keywords: Alisher Navoi, Timurid era literature, Turkic literary tradition, Translation studies, Orientalism, Literary heritage

Annotatsiya: Mazkur maqola Temuriylar davrining eng yirik adabiy arbobi va o‘zbek hamda turkiy adabiyotning markaziy siymosi bo‘lgan Alisher Navoiy ijodiy merosini tahlil qiladi. Unda shoir asarlarining ma’naviy, falsafiy va madaniy jihatlari, shuningdek, mavzu va uslub xususiyatlari yoritiladi. G‘arbiy Yevropada, xususan, ingliz, fransuz va nemis olimlari tomonidan XIX–XXI asrlarda Navoiyning asarlarini o‘rganish va tarjima qilish tarixiga alohida e’tibor qaratiladi. Maqolada Sharl Riyo, E. D. Gibb, E. G. Braun va F. A. Belin kabi sharqshunoslarning roli, tarjimalar jarayonida uchraydigan muammolar hamda tarixiy-madaniy kontekstning qabulga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, mustaqillik davrida O‘zbekistonda Navoiy tadqiqotlarining zamonaviy bosqichi, fanlararo yondashuvlar va raqamli texnologiyalar integratsiyasi yoritiladi. Tadqiqot Navoiy ijodining jahon adabiyoti va madaniyatlararo muloqotdagi dolzarbligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, Temuriylar davri adabiyoti, turkiy adabiy an’analar, tarjima tadqiqotlari, sharqshunoslik, adabiy meros

Аннотация: В данной статье рассматривается литературное наследие Алишера Навои — крупнейшего представителя эпохи Тимуридов и центральной фигуры узбекской и тюркской литературы. Анализируются тематические и стилевые особенности его творчества, включая моральные, философские и культурные аспекты. Особое внимание уделено истории изучения и перевода произведений Навои в Западной Европе, в частности в Англии, Франции и Германии с XIX по XXI века. В статье рассматриваются трудности перевода, роль востоковедов, таких как Шарль Рьё, Э. Д. Гибб, Э. Г. Браун и Ф. А. Белин, а также влияние историко-культурного контекста на восприятие. Освещается современный этап навоиеведения в Узбекистане, подчеркивается

значимость междисциплинарных подходов и интеграции цифровых технологий. Делается вывод о том, что творчество Навои сохраняет актуальность для мировой литературы и межкультурного диалога.

Ключевые слова: Алишер Навои, литература эпохи Тимуридов, тюркская литературная традиция, переводоведение, востоковедение, литературное наследие

Alisher Navoi, a towering figure of the Timurid era, occupies a central place in the history of Uzbek and Turkic literature. His creative genius not only elevated the literary status of the Turkic language but also reflected the socio-cultural, philosophical, and political dynamics of his time. Through his poetic and prose works, Navoi sought to preserve the historical heritage of his people while enriching the literary canon with innovative thematic and stylistic contributions.

Navoi’s oeuvre stands at the intersection of art and moral philosophy. In his works, intricate metaphors, vivid similes, and emotionally charged imagery are combined with profound reflections on justice, human dignity, spiritual elevation, and enlightenment. The thematic diversity of his works—ranging from depictions of love and nature to meditations on morality and knowledge—ensures their continued relevance in the modern world.

The significance of Navoi’s legacy extends beyond Uzbekistan’s borders. From the 13th to the 20th centuries, waves of cultural contact between East and West fostered the gradual introduction of Central Asian literature to Europe. The translation and study of Navoi’s works in Western Europe, particularly in England, France, and Germany, have played an essential role in preserving and interpreting his legacy for global audiences. Yet, the process of reception, translation, and scholarly engagement has been complex, influenced by historical circumstances, cultural contexts, and methodological approaches.

This study examines Navoi’s literary achievements, their reception in Western scholarship, and the challenges and developments in translating his works into European languages, with particular attention to the English tradition.

Navoi’s Literary Significance in the Turkic World

Navoi’s contribution to literature is monumental. His *Khamsa* (“Quintet”)—a collection of five epic poems—remains unparalleled in Turkic literature for its thematic richness, linguistic mastery, and moral depth. Works such as *Farhod and Shirin* and *Layli and Majnun* combine the romantic epic tradition with philosophical inquiry, using allegory to convey ethical and spiritual lessons. The *Majolis un-nafois* (“Assemblies of Distinguished Men”) provides a unique account of the cultural and literary life of his time, offering valuable biographical details about poets, scholars, and statesmen*[5.1998:B.56]*.

His artistic style is distinguished by its refined use of Turkic vocabulary, often elevated through the integration of Persian literary aesthetics without losing its linguistic identity. Navoi consciously worked to prove that Turkic could serve as a language of high literary expression, rivaling Persian, which dominated the courtly literary scene of the Timurid period. This effort was not only a literary endeavor but also a cultural statement about linguistic pride and national identity.

Thematic and Stylistic Features

Navoi’s works exhibit recurring thematic pillars:

- *Love and Devotion* – not only romantic love but also divine love (*ishq ilohiy*), serving as a metaphor for the soul’s journey toward truth.
- *Nature and Symbolism* – natural imagery often functions as a vehicle for philosophical meaning, in keeping with Sufi literary traditions.
- *Justice and Moral Order* – Navoi frames justice as both a political and a spiritual virtue, essential for social harmony.
- *Knowledge and Enlightenment* – education and the pursuit of wisdom are celebrated as pathways to human perfection *[5.1998:B.76]*.

Stylistically, Navoi employs rich metaphorical language, complex wordplay, and a balance between ornate imagery and moral clarity. His ability to weave moral instruction into aesthetically sophisticated verse has made his works enduringly popular and adaptable across cultures.

Early Western Encounters with Central Asian Culture

The introduction of Central Asian literary heritage to the West predates direct engagement with Navoi’s works. In the 13th and 14th centuries, European travelers—often emissaries, merchants, or missionaries—journeyed eastward and documented their observations. Notable examples include:

- *Giovanni da Plano Carpini* (1245–1247), sent by Pope Innocent IV to the Mongol court, whose reports offered early ethnographic detail.
- *André de Longjumeau* (1245–1247), leading the mission of King Louis IX of France, who provided accounts of political and cultural life in the East.
- *Guillaume de Rubruck* (1253–1256), whose travel narrative remains a critical historical source on Central Asian societies.
- *Odoric of Pordenone* (c. 1320s), whose writings contain descriptions of cities, trade, and religious practices across Central Asia and Iran *[5.1998:B.28]*.

Although these travelers did not directly study Navoi, their works familiarized European readers with the cultural and intellectual vibrancy of the region, paving the way for later Orientalist scholarship.

The Rise of Western European Oriental Studies

By the 16th century, intensified trade, diplomacy, and missionary activity expanded Western access to Eastern manuscripts. This laid the groundwork for systematic Orientalist research in the 18th and 19th centuries. Navoi entered Western scholarly discourse primarily in the late 19th century, when European interest in Turkic and Persianate literatures was at its peak.

Prominent Orientalists played key roles in this process:

- *Charles Rieu,* whose cataloguing of Oriental manuscripts at the British Museum provided researchers with unprecedented access to Central Asian texts *[4,1883:B.118]*.
- *E. D. Gibb,* whose monumental *A History of Ottoman Poetry* (1900) discussed Turkic literary traditions, including Navoi, within a broader Ottoman and Persianate framework *[3.1900:B.127]*.
- *E. G. Browne,* whose *A Literary History of Persia* (1928) recognized Navoi’s exceptional literary and cultural significance *[2.1928;B.75]*.

In France, *F. A. Belin* contributed significantly by studying *Khamsat al-mutahayyirin,* analyzing Navoi’s style and cultural influence. His translations and commentaries helped contextualize Navoi within both Persian and Turkic literary traditions*[1.1866:B.544]*.

Translation Efforts and Challenges

Translation has been the principal means of introducing Navoi’s works to Western audiences. French, English, and German translations began appearing primarily in the late 19th and early 20th centuries. These translations varied in purpose and quality—some aimed at philological precision, others at literary adaptation.

Challenges in translation include:

1. **Preserving Poetic Form** – Navoi’s complex rhyme schemes, meters, and allegorical structures are often untranslatable without significant loss.
2. **Cultural Context** – Many of Navoi’s metaphors draw on Islamic mysticism, Central Asian folklore, and Persian courtly imagery, which may be unfamiliar to Western readers.
3. **Linguistic Nuances** – The Chagatai language contains idioms, wordplay, and phonetic artistry that resist direct equivalence in European languages.

Some translations were criticized for flattening Navoi’s style, thereby weakening the reader’s engagement with the moral and emotional dimensions of the text. In many cases, the translator’s cultural background and depth of knowledge determined the success of the rendition.

Understanding the historical context of translations is vital. Many early translations were products of colonial-era Orientalism, shaped by European perceptions of the “exotic East.” While these works often preserved valuable textual material, their interpretive framing sometimes reflected Eurocentric biases. Modern scholarship aims to revisit these translations with greater cultural sensitivity and methodological rigor.

Contemporary Scholarship and Interdisciplinary Approaches

Since Uzbekistan’s independence in 1991, the study of Navoi has expanded both domestically and internationally. Uzbek scholars now employ modern research methodologies, integrating literary criticism with history, linguistics, and cultural studies. Interdisciplinary approaches—combining insights from multiple fields—have proven especially fruitful.

The use of digital humanities tools has facilitated access to manuscripts, allowed for comparative linguistic analysis, and enabled the creation of annotated digital editions. This has opened new opportunities for collaborative research between Uzbek institutions and international universities.

Continuing the Tradition of Translation

English translations of Navoi’s works remain a crucial link between Central Asian heritage and global readership. Contemporary translators face the challenge of balancing fidelity to the original with accessibility for modern readers. Many aim to retain the moral and aesthetic qualities of the original while providing sufficient explanatory notes to bridge cultural gaps.

Scholars stress that successful translation of Navoi requires not only linguistic competence but also familiarity with Islamic literature, Sufi philosophy, and Turkic cultural history.

Ultimately, Navoi’s contributions to literature transcend historical boundaries and continue to resonate with contemporary audiences. Alisher Navoi’s literary legacy is an enduring testament to the cultural, philosophical, and artistic achievements of the Timurid era. His works transcend temporal and geographic boundaries, engaging with universal themes of love, justice, moral responsibility, and spiritual enlightenment.

The reception and study of Navoi in Western Europe reflect broader patterns in the history of intercultural exchange. From the first travelers’ reports to the in-depth analyses of Orientalist scholars, and from early translations to modern interdisciplinary studies, the engagement with Navoi has been a multifaceted process shaped by historical contexts, scholarly priorities, and cultural sensibilities.

As translation and scholarship continue, the challenge remains to represent Navoi’s works in ways that honor their linguistic beauty, cultural depth, and moral resonance. In doing so, both Uzbek and international scholars contribute to preserving a literary heritage that not only enriches Uzbek national identity but also forms an integral part of world literature.

References:

1. Belin, F. A. (1866). Moralistes orientaux. Caractères, maximes et pensées de Mir Ali Chir Névâii. *Journal Asiatique, 7*, 523–552.
2. Browne, E. G. (1928). *A literary history of Persia*. London: Cambridge University Press.
3. Gibb, E. J. W. (1900). *A history of Ottoman poetry* (Vol. 1). London: Luzac & Co.
4. Rieu, C. (1883). *Catalogue of the Persian manuscripts*. London: British Museum.
5. Sotimov, U. (1998). *Issledovaniya zhizni i tvorchestva Alishera Navoi v zapadnoevropeyskom vostokovedenii* [Studies of the life and works of Alisher Navoi in Western European Oriental studies] (Doctoral dissertation). Moscow State University, Moscow.

PEDAGOGIK MAHORATNING UCH JIHATI

I.J.Toshmanov
Sharisabz davlat pedagogika instituti “Tabiiy fanlar”kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada ko'nikmalarini aniqlashning uchta jihati ko'rib chiqiladi o'qituvchi - o'qituvchining shaxsiy xususiyatlari, uning malakasi va yaxshiligi o'qitiladigan fan bo'yicha bilim darajasi. Mavzu tomonidan yoritilgan barcha ma’lumotlar Shahrisabz davlat pedagogika institutida olib borilgan tajriba va tadqiqotlar natijalariga asoslangan

Kalit so’zlar: pedagog, mahorat, malaka, bilim, tarbiya, aqliy mehnat, miya yarim sharlari, stress, aqliy mehnat, asab hujayralari, charchoq, charchoq,
bilim, ma'rifat.

Kishilik jamiyati paydo bo’libdiki, ta‘lim va tarbiya muhokamalarga sabab bo’lib kelayotgan bosh masalalardan biridir. She‘riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy maktab va maktabdorlar (o’qituvchilar) haqida ―Mahbub ul-qulub‖ning birinchi qismi o’n sakkizinchi faslida (dabiriston ahli zikrida) quyidagilarni yozadilar:

―Maktabdor begunoh ma‘sumlarg’a jafokor. Atfol azobig’a rog’ib va alar ta‘dibig’a murtakib. Zoti bemadoro, dimog’i po’lod va ko’ngli xoro. G’azabdin qoshida chin, gunahsizlar bila oyini xashmu kin. Ko’pragida tab‘ g’ilzati va tama‘ illati padidor va aql qillatig’a giriftor. Ammo tavsani atfol ta‘bini jafo bila rom qilg’uvchi, nohamvor sig’or tavrig’a siyosat bila andom berguvchi. Agarchi xo’ylari durushluqda namoyondur, ammo atfol nohamvorlig’i islohig’a irik suhondur‖ [Navoiy, 1998: 22]. Demak, Navoiyga ko’ra, pedagog (maktabdor) yosh ma‘sumlarga jafo qiluvchi, ozor etkazuvchidir. U go’daklarga azob berishga moyil o’laroq ularga odob berish ishiga kirishgan. U (pedagog) murosasiz, beandesha, jahldor va ko’ngli qattiq zotdir. G’azabidan peshonasi tirishgan, gunohsizlar (yosh bolalar) bilan uning odati zarda va

adovatdir. Aksarining tabiati tund, tama‘ kasalligiga yo’liqqan va aqli noqislikka giriftor bo’lgan. Ammo sho’x va sarkash go’daklar ta‘bini ozor berish orqali rom qiluvchi, tartibsiz bolalar (sig’or) qiliqlariga siyosat bilan tartib beruvchi (yo’lga soluvchi)dir. Garchi ularning (o’qituvchilarning) fe‘li qo’pollik va dag’allik bilan namoyon bo’lsa-da, go’daklarning tartibsizliklarini isloh (bartaraf) etuvchi yirik (qo’pol) egovdirlar.Shunday ekan pedagog (o’qituvchi) – turli yo’nalishdagi o’rta umumiy ta‘lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida o’quvchilar bilan ta‘limtarbiya ishlarini amalga oshiradigan mutaxassis. O’qituvchi jamiyat a‘zolarining shakllanishiga ta‘sir ko’rsatgani uchun ham uning shaxslik sifatlari kasbiy fazilatlaridan muhimroq hisoblanadi. Chunki u jamiyatning buguni va ertangi kuni qiyofasini shakllantiradi. Shuning uchun ham o’qituvchining professional jihatdangina yetuk bo’lishi kifoya qilmaydi. Uning ma‘naviy olami o’quvchilarga singdirilishi ko’zda tutilgan ezgu insoniy sifatlarga to’yingan bo’lishi kerak.

Hozirgi pedagogika fani o’qituvchining amaliyotchilik, tadqiqotchilik,tashkilotchilik, vositachilik, ijrochilik singari vazifalari borligini qayd etadi. Ana shu vazifalarni to’la uddalaydigan o’qituvchigina bugungi yosh avlodning barkamol shaxslar sifatida shakllanishiga ta‘sir ko’rsata oladi. Istiqlol davri o’qituvchilarida ana shunday xususiyatlarni qaror toptirish mamlakat taraqqiyotini ta‘minlash omilidir. Navoiyning pedagoglar to’g’risidagi ta‘rifida davom etamiz: ―Aning ishi odamdin kelmas, qaysi odamki, dev qila olmas, har qattig’ kishini bir tifl muhofazati ojiz etar, ul bir surukka ilm va adab o’rgatgay, anga ne etar. Oncha borkim, ul qavmning idroku fahmi oz tushar, andoq kishiga yuz muncha mashaqqat ne bushar. Har taqdir bila atfolg’a haqqi ko’pdur, agar podshohliqqa etsa va anga qulluq qilsa xo’bdur. Shogird agar shayx ul-islom, agar qozidur, agar ustod andin rozidur – Tengri rozidur‖ [Navoiy, 1998: 22].

Anglaganingizdek, Navoiy o’qituvchilik kasbining naqadar mashaqqatli ekaniga ishora etmoqdalar. Navoiy hali hech narsaning farqiga borib-bormagan go’dakka oq-u qorani tanitadigan o’qituvchining mashaqqatiga nafaqat mustahkam va baquvvat odam, balki dev ham chidolmasligini aytish bilan bu kasbga munosib ta‘rif baradilar. Shunday ekan o’qituvchining ―har taqdir bila atfolg’a haqqi ko’pdur, agar podshohliqqa etsa va anga qulluq qilsa xo’bdur‖. Navoiyga ko’ra, shogird qanday martabaga etmasin ustoz roziligiga muhtojdir. Ustozning roziligi – Tangrining roziligidir. Navoiyning bu mavzudagi xulosalari quyidagi baytda mujassam: Haq yo’lida kim senga bir harf o’qutmish ranj ila, Aylamak bo’lmas ado oning haqin yuz ganj ila [Navoiy, 1998: 22]. Garchi Navoiyning mazkur ta‘riflari deyarli boshlang’ich ta‘limga xos bo’lsada, barcha bosqichdagi pedagoglar uchun umumiydir. Xullas, o’qituvchilar pedagogik fanlardan dars beradigan va boshqa fan o’qituvchilari toifalariga bo’linadi. Bunday toifalarga bo’linishi shartli bo’lib, darslarni tashkil etishda ikki xil yondoshuv kelib chiqadi. Pedagogikadan dars beradigan o’qituvchi biror metod yoki texnologiyani o’rganishda fan mavzularini misol tariqasida ishlatadi, maqsad o’rganilayotgan metod yoki texnologiyani ochib berishdir. Fan o’qituvchilari fanning biror bir mavzusini tushuntirishda pedagogik metod yoki texnologiyalardan foydalanadi, maqsad fanning shu mavzusidagi ma‘lumotlarni ochib berish.

Bugungi kunda maktab o’qituvchisi bilishi va qo’llay olishi kerak bo’ladigan bilimlar, ko’nikmalar ko’lami borgan sari oshib bormoqda, chunki axborotlar kun sayin emas, balki soat sayin yangilanib bormoqda. Har qanday holatda ham o’qituvchi uchta yo’nalishdagi salohiyatini pasaytirmasligi kerak. Bular: o’rgatayotgan fanini bilishi, pedagogik mahorat va ta‘lim-tarbiya gigiyenik standartlari. Bu uchta ko’rsatkich teng qiymatga ega bo’lib, birortasining ko’rsatkichi kamaysa, u tashkil qilgan dars sifati yuqori bo’lmaydi. Pedagog o’z fanini bilish darajasi deganda mutaxassis fani doirasidagi bilimi, bu bilimlarni hayotda qo’llay bilishi va fan doirasidagi yangiliklardan xabardorligi nazarda tutiladi. Bu uning bilimi yoki bilish darajasi hisobida baholanadi. Bilim juda keng tushuncha bo’lib har xil talqinga ega.

Bilim – kishilarning tabiat va jamiyat hodisalari haqida hosil qilgan ma‘lumotlari; voqelikning inson tafakkurida aks etishi. Kundalik tasavvurimizda nimaning nima ekanligiga ishonsak va bu ishonchimiz biz odatlangan voqea vahodisalarga (qoidalarga) zid kelmasa bunday ishonch bilim hisoblanadi. Voqelik haqidagi bilgan ma‘lumotlarimiz bilim darajasiga ko’tarilishi uchun quyidagi shartlarni qanoatlantirishi lozim: birinchidan, bu ma‘lumotlarning voqelikka mutanosibligi; ikkinchidan, etarli darajada ishonarli bo’lishi; uchinchidan, bu ma‘lumotlar dalillar bilan asoslangan bo’lishi lozim. Uchala shart birgalikda mavjud ma‘lumotlarni bilim darajasiga olib chiqadi. Inson ijtimoiy taraqqiyot jarayonida bilmasliqdan bilishga, mavhum bilimlardan mukammal va aniq bilimlar hosil qilish tomon boradi. Kishining moddiy dunyo to’g’risidagi bilimi nisbiydir, u doimo rivojlanib boradi. Bilim kundalik tajriba, kuzatish orqali to’planadi [Milliyensiklopediya, 2000: 523].

Bilim – mantiqiy va daliliy asoslanish mumkin bo’lgan va empirik yoki amaliy sinovdan o’tgan anglash natijasidir. Bilim – zamonaviy epistemologiyaga ko’ra faoliyatning dalilga asoslangan inson

tafakkuri mahsuli. Bilim haqida gapirar ekanmiz ushbu jarayonda – inson ongida voqelikni aks etirish nazarda tutiladi. Obyektlarning tuzilishi va hodisalar, ularning o’zaro bog’liqligi haqida bilimlarni olish fan va uning ilmiy usullari muhim o’rin tutadi [Википедия].

Pedagogning ikkinchi yo’nalishdagi salohiyati bu pedagogik mahoratdir. O’qituvchi o’z fanini chuqur bilishi bilan bir qatorda pedagogik mahorati bo’lmasa, o’qituvchilarning o’zlashtirish darajasi yuqori bo’lmaydi. O’qituvchi pedagogic mahoratining yuqori bo’lishi sifatli dars tashkil etishga asos bo’ladi. Pedagogik mahorat – bu o’qituvchi-tarbiyachining shunday shaxsiy (bolajonligi, xayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k,) va kasbiy, (bilimdonligi, zukkoligi, fidoiyligi, ijodkorligi, eruditsiyasi va h.k.) fazilatlarini belgilaydigan xususiyatki, u o’z fanini chuqur va atroflicha bilishida, pedagogikpsixologik va metodik tayyorgarligida, o’quvchi-yoshlarni o’qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo’llarini izlab-topib, amaliy faoliyatida qo’llashida namoyon bo’ladi. Shunday qilib, pedagogik mahorat egasi bo’lish uchun o’qituvchi o’z o’quv predmetini davr talablari asosida bilishi, pedagogika, psixologiya, metodika fanlarini o’zlashtirishi hamda insoniylik va fidoiylikni o’zida tarkib toptirishga intilishi lozim [Ochilov, 1996: 57].

Har qanday majburiy faoliyat organizmga salbiy ta‘sir ko’rsatadi. Bu ta‘sir nerv tizimi orqali vujudga keladi. Jumladan dars jarayonining o’zi ham majburiy faoliyatga kiradi. Dars jarayonida o’quvchilar salomatligini saqlab qolish va shu bilan birga o’zlashtirishni oshirish uchun o’qituvchi ta‘lim tarbiya gigiyenasini, sinfga va sinf jihozlariga qo’yiladigan talablarni bilishi kerak. Shu bilan birga o’qitishning fiziologik asoslari, o’quvchilarning ishchanlik qobiliyati, o’quvchining nerv sistemasining gigiyenasi kabi tushunchalarni o’zlashtirgan bo’lishi kerak. O’quvchi organizmining funksional faoliyati buzilishiga yo’l qo’ymaslik uchun ish kuni, haftasi va o’quv yili choraklarida aqliy va jismoniy faoliyatningalmashinib turishini to’g’ri yo’lga qo’yishlari kerak. Bir turli faoliyat boshqa faoliyat bilan almashtirib turilganda, ishlayotgan hujayralar dam oladi. O’qituvchining o’quvchiga beradigan nagruzka normasi uning yoshiga, sog’lig’i holatiga, idrok qilish qobiliyatiga, nerv tipiga va o’qitish sharoitiga qarab aniqlanadi. O’quvchiga ortiqcha nagruzka berilsa, uning miyasi charchab qoladi, bola qancha yosh bo’lsa, shuncha tez charchaydi. Dars vaqtida muskul harakatlarining uzoq to’xtalib turishi bolaning aqliy mehnat qobiliyatini susaytiradi. Binobarin, bolaning diqqati chalg’iydi, muskullari bo’shasha boshlaydi. Bog’cha yoshidagi bolalar charchaganda mudroq bosadi. Hadeb bir xil turdagi aqliy faoliyat bilan shug’ullanganda bolaning qiziqishi kamayadi va uxlab qoladi. Haddan ortiq charchash yoki toliqish ishtahaning pasayishiga, bosh og’rig’iga, loqaydlikka, xotira va diqqatning susayishiga olib keladi. Odam qattiq charchaganda nerv sistemasining funksional holati o’zgaradi va tormozlanish vujudga keladi. Dars jarayonida o’quvchilarga juda ko’p tashqi va ichki omillar ta‘sir etib turadi. Bu omillarning birortasining normadan chetlanishi patogen omilga aylanadi va o’quvchi salomatligiga zarar keltiradi. Masalan, parta balandligining o’quvchi bo’yiga mos kelmasligi, sinfxonaning yoritilishi normadan past yoki yuqori bo’lishi (norma 175-350 lyuks), haroratning past yoki baland bo’lishi, sinfda havoning aylanishi va tarkibining buzilishi, o’qituvchining o’qituvchi bilan munosabatda gigiyenik normalardan chetlanishi va hokazo. Barcha psixik jarayonlar bosh miya katta yarimsharlaridagi nerv jara yonlari bilan chambarchas bog’liq holda kechadi, zero har bir psixik jarayon asosida nerv jara yonlari: qo’zg‘alish, tormozlanish, tarqalish, jamlanish, domi nanta va boshqalar yotadi. Bundan tashqari, psixik jarayonlar nutq asosida ham hosil bo’ladi [Sodiqov, 1992: 106].

Bolalar va o’smirlarga ta ‘lim-tarbiya berishda ichki tormozlanishning barcha turlarini hosil kilish va mashq qildirish pedagoglar uchun zarur. Shuni unutmaslik kerakki, solishtirish va qarama-qarshi qo’yish usullari qo’llanilgandagina o’quv jara yo ni samarali bo’ladi. O’qitish jarayo nida rangli, yalt iroq ko’rgazmali qurollarni ko’rsatish, bolalarni hayajonlantiradigan, quvontiradigan darajada ta ‘sir e tish bilan mi ya po’stlog’ida dominanta o’ch og _ini vujudga keltirish, diqqatni yaxshilash, o’quv materialining qiziqarliligini oshirish mumkin. Aksincha, bir xil ta‘sir, bir xil sharoit, bir xil ohangda so’zlash bolalar mudrashiga, qiziqishining kama yishiga sabab bo’ladi.

Aqliy mehnat bosh miya yari msharl ari po’stlog’i ho’ja yralarining faoliyati natijasidir. Shuning uchun zo’riqib aqliy me hnat qilganda bosh miyaning nerv hujayralari holdan toyadi, odam qattiq charchab qoladi. Charchash miya hujayralarining tormozlanishidir. Charchash diqqatning chalg’ishi, bo’shashish, uyquchanlik bilan namo yon bo’ladi. Charchashning oldi olinmasa , toliqishga o’tadi, ***bunda*** bolaning boshi og’riydi, aylanadi, ishtaha pasayadi yoki odam juda ta‘sirchan bo’lib qoladi, uyqusida gapirib chiqadi, uyg’onib ketadi va hokazo. Dars miyaga yaxshi kirmaydi, materiallar uncha esda qolmaydi. Toliqish ko’pincha o’quv nagruzkasi ortib ketganda, kun tartibi buzilganda, bola sof havoda kam bo’lganda, to’g’ri ovqatlanmaganda paydo bo’ladi. Ishchanlik qobiliyati deganda, biror ishni uzoq muddat davomida sifatini

buzmasdan bajarish tushuniladi. Ishchanlik qobiliyati har bir odamda turlicha bo’ladi va yoshga, sog’liqqa, quvvatga, ruh-kayfiyatga, ish tajribasiga, mashq qilishga, jamoa va oiladagi o’zaro munosabatlarga, ishga mas‘uliyat bilan qarashga, boshqa ko’pgina omillarga bog’liq bo’ladi. Ishchanlik qobiliyati kun, hafta, yillar davomida o’zgarib turadi. O’quvchi uyqudan uyg’onganda ishchanlik qobiliyatn uncha yuqori bo’lmaydi, organizmi asta-sekin ish holatiga o’ta boshlaydi. Ish bajarish jarayonida asta ortib, ma‘lum cho’qqiga etadida, so’ng shu holatda saqlanib turadi, keyin susaya boradi.

Odam o’z vaqtida yetarlicha dam olmay ishlayversa, qattiq charchab qoladi. Bu organizm funksiyalariga, ayniqsa markaziy nerv sistemasiga salbiy ta‘sir etadi, natijada odamning kayfiyati yomonlashadi, ta‘sirchanlik ortadi, uyqusizlik vujudga keladi, ishga qiziqish kamayadi, ***ishchanlik*** qobiliyati pasayadi.

O’quvchining dars jarayonidagi aqliy ishchanlik qobiliyati 5 davrga bo’linadi:

ishga kirishish davri – darsda bir necha minut davom etib, o’quvchi ish sharoitiga moslasha boradi;

optimal ishchanlik davri – aqliy mehnatni bajarishning stabillashgan davridir;

to’liq kompensatsiya davri – toliqishning dastlabki belgilari paydo bo’la boshlaydi, ammo ularni odamning iroda kuchi kompensatsiyalashtirib, yuzaga chiqarmay turadi;

beqaror kompensatsiya davri – toliqishning ortib borishi ish faoliyatining pasayishi bilan xarakterlanadi.

mehnat faoliyatining progressiv pasayish davri – bu davr toliqishning tez ortib borishi, mehnat samaradorligini keskin kamayishi bilan xarakterlanadi;

Darsda aqliy mehnatning yuqori maxsuldorligini ta‘minlash, charchashni oldini olish uchun quyidagi faoliyatlarni amalga oshirish kerak:

ishga kirishish davrida yo’qlama va jurnal to’ldirish;

yangi materialni o’quvchining optimal ish qobiliyatiga ega bo’lgan vaqtida tushuntirish;

darsning birinchi yarmida, dars berishning aktiv usullarini qo’llab, o’quvchi, diqqatini uzoq vaqt bitta predmetda ushlab turmasdan tushuntirish;

dars berish usulini o’zgartirib turish;

dars materialini tushuntirishda ko’rgazma qurollar, didaktiv va texnika o’quv vositalarini keng qo’llash;

dars oralig’ida fizkulminutlar o’tkazish;

o’qituvchining yangi materialni tushuntirish paytidagi ko’tarinki kayfiyati, o’qituvchining har xil ohangda so’zlashi [2].

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, pedagogning bilimi deganda, uning faqatgina o’z fani yuzasidan o’zlashtirgan bilimlari emas balki, shu bilimlarni o’quvchi (talaba)ga etkazib bera olish qobiliyati ya‘ni, uning pedagoglik mahorati bo’yicha bilimlari va dars tashkil etishda gigiyenik qoidalarga rioya qilgan holda o’quvchi (talaba)larni salomatligini asrab qolishdagi bilimlari majmuasi tushuniladi.

Shuning uchun pedagog kadrlar tayyorlaydigan Oliy ta‘lim muassasalarilarida pedagogika va ta‘lim tarbiya gigiyenik normativlari haqidagi fanlar o’qitiladi. Biz maqolani tayyorlash jarayonida Sharisabz davlat pedagogika instituti o’qituvchilarining bilimini aniqlash maqsadida tajriba o’tkazdik. Tajribamizda 350 nafar talabalar ishtirok etishdi.

Talabalar o’zlariga dars berib kelayotgan 35 nafar ustozlari haqida munosabat bildirdilar. Tajriba (talabalarning munosabati) anketa so’rovi asosida amalga oshirildi. O’qituvchi faoliyatini baholash uchun tuzgan anketamizda, asosan, pedagogning quyidagi to’rt hislatiga alohida urg’u berildi:

1. Pedagogning shaxsiy xususiyatlari.
2. Pedagogning kompitensiyasi va tarbiyasi.
3. Pedagogning o’zi dars berayotgan fanini bilish darajasi.
4. Ta‘lim tarbiya gigiyenasi bo’yicha bilimdonligi.

Dastlabki xislat – pedagogning shaxsiy xususiyatlaridir. Bu o’qituvchining tovush tembri, temperamenti, salobati vahokazolar...

Ikkinchi xislat – pedagogning kompitensiyasi va tarbiyasidir. Bu xislatlarni o’rganish uchun quyidagilar asos qilib olindi:

1. Pedagogning darslarni qay darajada tashkil eta olishi.
2. O’qituvchining pedagoglik mahorati.
3. Auditoriyani boshqarish darajasi.
4. Nutqning ravonligi (parazit so’zlardan xoli nutq).
5. Nazorat davomidagi adolat.

6. AKTni bilish darajasi.
7. Nutqning tadrijiyligi.
8. Darslarni tashkil etish darajasi...

Uchinchi xislat – pedagogning o’zi dars berayotgan fanini bilish darajasidir. O’qituvchining bu xislati quyidagi parametrlar asosida aniqlandi:

1. O’qituvchining o’z fanini bilishi darajasi.
2. Bilimini amaliyotga qo’llay olishi darajasi. Va nihoyat so’nggisi – o’qituvchining ta‘lim tarbiya gigiyenasi bo’yicha bilimdonligidir. Bu xislat esa quyidagilar orqali aniqlandi:

1. Dars o’tilayotgan auditoriyaning sanitar holati.
2. Jihozlarning talaba bo’yiga mosligi.
3. Darsni yuqori kayfiyatda olib borishi.
4. Dars davomida talabalarni charchatmaslik qobiliyati.
5. Charchash belgilari paydo bo’lganda chalg’itish mahorati kabi xususiyatlar anketada o’z aksini topgan.

FIZIKADAN LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARINI INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

M.M.Soliyeva
IIV Namangan akademik litsey fizika fani yetakchi o‘qituvchisi
NamDPI mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada fizikadan laboratoriya mashg‘ulotlarining zamonaviy ta'lim talablariga muvofiq tashkil etilishi va innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirilishi masalalari yoritilgan. An’anaviy laboratoriya mashg‘ulotlarining cheklovlari tahlil qilinib, virtual laboratoriyalar, raqamli simulyatsiyalar, mikrokontroller qurilmalari va boshqa interaktiv texnologiyalar asosida olib borilayotgan ilg‘or tajribalar o‘rganiladi. Shuningdek, innovatsion metodik yondashuvlarning o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlashdagi o‘rni tahlil qilinadi. Maqola natijalarida innovatsion yondashuvlarning samaradorligi ilmiy asosda asoslab beriladi va amaliy tavsiyalar taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: fizika, laboratoriya mashg‘ulotlari, innovatsion yondashuv, virtual laboratoriya, raqamli texnologiyalar, ta’lim samaradorligi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы организации лабораторных занятий по физике в соответствии с современными требованиями образования и их совершенствования на основе инновационных подходов. Проведен анализ ограничений традиционных лабораторных работ, изучены передовые практики, реализуемые с использованием виртуальных лабораторий, цифровых симуляций, микроконтроллерных устройств и других интерактивных технологий. Также рассматривается роль инновационных методических подходов в развитии критического мышления учащихся, формировании научного мировоззрения и укреплении практических навыков. В результате статьи научно обоснована эффективность инновационных подходов и представлены практические рекомендации.

Ключевые слова: физика, лабораторные занятия, инновационный подход, виртуальная лаборатория, цифровые технологии, эффективность образования.

Abstract. This article explores the organization of physics laboratory sessions in accordance with modern educational requirements and their improvement through innovative approaches. It analyzes the limitations of traditional laboratory practices and examines advanced experiences implemented through virtual laboratories, digital simulations, microcontroller-based devices, and other interactive technologies. The article also discusses the role of innovative methodological approaches in developing students’ critical thinking, shaping scientific worldview, and reinforcing practical skills. The results scientifically justify the effectiveness of innovative approaches and offer practical recommendations.

Keywords: physics, laboratory sessions, innovative approach, virtual laboratory, digital technologies, educational effectiveness

KIRISH. Bugungi kunda ta’lim jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, ayniqsa, tabiiy fanlar – jumladan, fizika fani bo‘yicha laboratoriya mashg‘ulotlarini innovatsion yondashuvlar asosida amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlar natijasida ta’lim tizimining barcha bosqichlarida interaktiv va ilg‘or texnologiyalarni joriy etish orqali dars samaradorligini oshirish masalasi dolzarb sanalmoqda. Fizika – eksperimental asosga tayanadigan fan bo‘lganligi sababli, amaliy mashg‘ulotlar nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki talabalarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim vositadir.

XXI asrda ta’lim sohasida yuz berayotgan jadallashgan o‘zgarishlar, ayniqsa tabiiy fanlarni o‘qitish jarayoniga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Fizika fani, o‘zining eksperimental xarakteri bilan boshqa fanlardan ajralib turadi. Shu boisdan, uni chuqur va samarali o‘qitishda laboratoriya mashg‘ulotlarining o‘rni beqiyosdir. Ammo an’anaviy yondashuvlarda bu mashg‘ulotlar ko‘pincha formal xususiyat kasb etadi va o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rag‘batlantirmaydi. Shuning uchun, bugungi zamonaviy ta’limning asosiy vazifalaridan biri bu – fizika fanida amaliy mashg‘ulotlarni innovatsion yondashuv asosida takomillashtirishdir [7. 2017: B.15-19].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

So‘nggi yillarda fizika fanini o‘qitishda laboratoriya ishlarini takomillashtirish borasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, an’anaviy usullardan zamonaviy innovatsion texnologiyalar va mediatexnologiyalar asosidagi yondashuvlarga o‘tish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar laboratoriya ishlarining nafaqat fizik qonuniyatlarni chuqurroq anglashdagi, balki mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv va tajriba asosida xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyatini ochib beradi.

Xususan, A.N. Asqarov [1. 2019: B.45-50] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda fizik laboratoriya mashg‘ulotlarida raqamli texnologiyalardan, xususan, Arduino platformasi va raqamli datchiklardan foydalanish orqali talabalar eksperimentlarini aniq, interaktiv va vizual tarzda amalga oshirishlari mumkinligi ta’kidlangan. Muallif laboratoriya ishlarini avtomatlashtirish va real vaqt rejimida natijalarni kuzatish imkoniyatlarini ilgari surgan.

Boshqa bir izlanishda, G.S. Karimova [2. 2020: B.34-39] fizika fanini o‘qitishda virtual laboratoriyalar va simulyatsion dasturlardan foydalanishning metodik asoslarini ishlab chiqqan. Uning fikriga ko‘ra, simulyatsion muhitlar o‘quvchilar uchun murakkab tajribalarni xavfsiz, tejamkor va takroriy tarzda o‘rganish imkonini yaratadi. Bu esa real jihozlar va laboratoriya sharoitlari cheklangan taqdirda ayniqsa dolzarbdir.

Shuningdek, X.X. Jo‘rayev [3. 2021: B.27-31] tomonidan olib borilgan tadqiqotlar fizik laboratoriya mashg‘ulotlarida multimedia vositalari, ya’ni videodarslar, animatsiyalar, 3D-modellar va interaktiv platformalarni integratsiyalash orqali talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishi, mavzuni tushunish darajasi va mustaqil faoliyati sezilarli darajada oshganligini ko‘rsatgan. Muallif o‘z tadqiqotida “Flipped classroom” va “Blended learning” kabi zamonaviy pedagogik yondashuvlarni laboratoriya mashg‘ulotlariga tadbiq etish tajribasini ham keltirib o‘tgan.

Xorijiy tadqiqotlar ham bu boradagi yondashuvlarni boyitmoqda. Jumladan, J. Wieman va K. Perkins (University of Colorado, USA) tomonidan yaratilgan PhET Interactive Simulations platformasi orqali talabalarga fizik hodisalarni interaktiv tarzda o‘rganish imkoniyati yaratilgani ilmiy jamoatchilik tomonidan ijobiy baholanmoqda. Ularning tadqiqot natijalari laboratoriya ishlari orqali o‘rganilayotgan mavzularni raqamli simulyatsiyalar yordamida mustahkamlash samaradorligini tasdiqlaydi [4. 2005: B.36-41].

Yuqoridagi adabiyotlar tahlilidan ko‘rinadiki, fizik laboratoriya ishlarini innovatsion va mediatexnologiyalar yordamida takomillashtirish hozirgi zamon ta’limi uchun zarurat bo‘lib qolmoqda. Bu boradagi ilmiy izlanishlar laboratoriya mashg‘ulotlarini interaktiv, qiziqarli va samarali qilish orqali o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasi va fanlarga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, bu yondashuvlar zamonaviy texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish orqali raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda ham muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Ko‘plab ta’lim muassasalarida fizikadan o‘tkazilayotgan laboratoriya mashg‘ulotlari hanuzgacha an’anaviy metodlarga asoslanmoqda. Bunday yondashuvda:

- o‘quvchi yoki talaba tayyor sxemalardan foydalanadi;
- tajriba natijasi oldindan ma’lum bo‘ladi;
- muammo tahlili va ijodiy fikrlashga kam e’tibor beriladi.

Natijada, mashg‘ulotlar ijodiy yondashuvdan yiroq, takroriy va quruq mexanik harakatlar doirasida amalga oshiriladi [6. 2018: B.25].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ta’limda innovatsion yondashuv deganda – yangi pedagogik texnologiyalar, AKT vositalari, virtual laboratoriyalar, modellashtirish usullari va STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Math) yondashuvlariga asoslangan o‘quv faoliyatini tashkil etish tushuniladi [9. 2022: B.20-24].

Bunday yondashuvlar orqali:

- laboratoriya mashg‘ulotlari real vaqtda modellashtiriladi;
- o‘quvchi o‘zi kashf etadigan muhitga tushadi;
- tajribaning maqsadi va natijasi ochiq holda beriladi;
- interaktivlik va muammoli vaziyatlar orqali tanqidiy fikrlash rivojlanadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy laboratoriya mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning faol ishtiroki 35–40% atrofida bo‘lsa, innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda bu ko‘rsatkich 75–85% gacha oshgan. Virtual laboratoriyalar va modellashtirish usullari o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini 2 barobar faollashtirgan, mikrokontrollerlar asosidagi tajribalar orqali o‘quvchilar 3D konstruksiya, dasturlash va fizik qonunlarni amaliy qo‘llash ko‘nikmalariga ega bo‘lgan [5]. Laboratoriya mashg‘ulotlariga o‘quvchilarning qiziqishi va ishtirok motivatsiyasi sezilarli darajada oshgan. STEAM yondashuvi asosida o‘tilgan laboratoriya darslarida o‘quvchilar o‘z loyihalarini yaratgan va natijalarni mustaqil tahlil qilishga o‘rgangan.

Fizikani o‘qitishda tajriba asosli yondashuv o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan mustahkamlashda asosiy vositadir. Ammo bugungi o‘quvchi va talaba avlodi raqamli muhitda ulg‘ayayotgani sababli, ta’lim uslublari ham o‘zgarishni talab qiladi. Innovatsion yondashuvlar orqali o‘quvchi dars ishtirokchisiga emas, balki faol sub’ektiga aylanadi.

Virtual laboratoriyalar, ayniqsa, texnik jihozlar cheklangan sharoitlarda dars samaradorligini oshirishning muhim vositasidir. Ular xavfsizlikni ta’minlaydi, ko‘p sonli tajribalarni istalgan vaqtda va istalgan joyda bajarish imkonini beradi [8. 2016: B.12-17].

XULOSA. Fizika fanini samarali o‘qitish va chuqur o‘zlashtirishda laboratoriya mashg‘ulotlarining o‘rni beqiyosdir. Biroq, an’anaviy yondashuvlar bilan cheklanish bugungi zamonaviy ta’lim talablariga javob bermaydi. Shu boisdan, innovatsion texnologiyalar, raqamli vositalar, virtual tajribalar, modellashtirish, muammoli yondashuvlar orqali laboratoriya mashg‘ulotlarini takomillashtirish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Fizika fanida laboratoriya mashg‘ulotlarini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish zamonaviy ta’limning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Mazkur maqolada innovatsion texnologiyalar asosida olib boriladigan laboratoriya mashg‘ulotlarining afzalliklari ilmiy tahlil qilindi. O‘rganilgan natijalarga ko‘ra, innovatsion yondashuvlar – o‘quvchilarni chuqurroq o‘rganishga undaydi, amaliy bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlaydi, ilg‘or tafakkurli yoshlarni tarbiyalaydi. Kelajakda bu yondashuvlarni pedagogik faoliyatda tizimli qo‘llash, o‘qituvchilarni metodik jihatdan tayyorlash va texnik infratuzilmani rivojlantirish zarur.

Bu esa, o‘z navbatida, nafaqat fizika faniga qiziqishni kuchaytiradi, balki ilmiy dunyoqarashga ega, texnologik tafakkurli avlodni tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Asqarov A.N. Fizika laboratoriya mashg‘ulotlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik asoslari. O‘zMU Ilmiy axborotnomasi, №3, 2019. – B. 45–50.
2. Karimova G.S. Fizika fanini o‘qitishda virtual laboratoriyalarni qo‘llashning innovatsion yo‘nalishlari. Ta’lim va fan yangiliklari, №2(45), 2020. – B. 34–39.
3. Jo‘rayev X.X. Fizika laboratoriya mashg‘ulotlarida multimediali ta’lim texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi. Pedagogik mahorat ilmiy-amaliy jurnali, №4, 2021. – B.27–31.
4. Wieman, C. E, Perkins, K. K. Transforming physics education. Physics Today, 58(11), 2005. – B. 36–41.
5. PhET Interactive Simulations. University of Colorado Boulder. https://phet.colorado.edu
6. Xolmatov, B.T, Nurmatova, Z.R. Fizikada masofaviy va interaktiv laboratoriya ishlari: metodik asoslar. Toshkent: TDPU nashriyoti. 2018. – B. 25
7. Abdurahmonov, A.A. Oliy ta’limda fizika darslarida AKT va mediatexnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari. Innovatsion ta’lim, №1(10), 2017. – B.15–19.
8. Зайцев, A.B, va Смирнова, H.H. Цифровые технологии в учебных физических лабораториях. Физика и образование, №5, 2016. - C. 12–17.

9. Yuldasheva, N.M. Mediatexnologiyalarning fizika ta’limidagi o‘rni va samaradorligi. Innovatsiyalar va ilg‘or texnologiyalar, №1(2), 2022. – B.20–24.

BADIIY ONOMASTIK BIRLIKLARNING PEDAGOGIK-LINGVISTIK TADQIQOTLARDA O‘RGANILISHI

Z.I.Sanakulov
f.f.f.dok. (PhD), dots., ChDPU z.sanakulov@cspu.uz

Annotatsiya: Mazkur tezis badiiy onomastik birliklarning pedagogik-lingvistik tadqiqotlarda o‘rganilishiga bag’ishlangan bo’lib, unda respublikamiz va xorijiy tadqiqotlardagi ilmiy xulosalarga asoslaniladi.

Kalit so‘zlar: badiiy onomastika, badiiy onomastik birliklar, badiiy nomlar, tilshunoslik, didaktika, fanlararo integratsiya.

Abstract: This thesis is devoted to the study of literary onomastic units within the framework of pedagogical-linguistic research. It draws upon scientific conclusions derived from both domestic and international studies.

Keywords: literary onomastics, literary onomastic units, literary names, linguistics, didactics, interdisciplinary integration.

Аннотация. Настоящая тезисная работа посвящена изучению художественных ономастических единиц в рамках педагогико-лингвистических исследований. В ней опираются на научные выводы, полученные в отечественных и зарубежных исследованиях.

Ключевые слова: художественная ономастика, художественные ономастические единицы, художественные имена, лингвистика, дидактика, междисциплинарная интеграция.

Adabiyot fani bugungi kunda shaxs tarbiyasida, axloqiy, estetik va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishda asosiy o‘quv fanlaridan biri hisoblanadi. Pedagogika, psixologiya, tarix va tabiiy fanlar bilan uyg‘unlashgan holda adabiyot darslari o‘quvchilarga insoniyatning boy madaniy merosini aks ettiruvchi, hayotiy tajribalarni o‘rganishga imkon beruvchi asosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jumladan, badiiy onomastik birliklar – asarda ishlatiladigan onomastik belgilar va terminologik birliklar orqali asarning badiiy va ma’nodorligini yanada mustahkamlashi, qahramonlar va obrazlar o‘rtasidagi munosabatni aks ettirishi ham muhim ahamiyatga ega.

Milliy va jahon adabiyoti namunalarini o‘rganish ta’lim oluvchilarning estetik didini o‘stiradi, dunyoqarashini kengaytiradi. Pedagogik tadqiqotlar ta’kidlashicha, adabiyot fani o‘quvchining **ma’naviy-axloqiy dunyosini** boyitish va **adabiy-estetik didini** shakllantirishga xizmat qiladi. Badiiy asarlar orqali yoshlar turli millat va madaniyatlarni anglaydi, go‘zallikni qadrlashni, xunuklikni esa tanqidiy baholashni o‘rganadi. Xususan, adabiyot darslari o‘quvchilarni boshqa insonlar hayotiy tajribasi bilan tanishtirib, ularning hayotga va insoniyatga munosabatini yuksak yesthetic did asosida shakllantiradi.

O‘zbek va jahon adabiyotidan namunalar asosida o‘quvchilarning dunyoqarashi kengayib, ularning estetik didi shakllanadi. Badiiy asarlar nafaqat o‘qish, balki til va obrazlarning badiiy onomastik birliklari orqali yaratilgan ma’nolarni chuqurroq anglashga yordam beradi. Bunday birliklar orqali adabiyot o‘quvchilarga nafaqat shakl va mazmun, balki til o‘ziga xosligi hamda ifoda uslublarini o‘rgatadi, shuningdek, madaniy va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda asosiy omil sifatida xizmat qiladi.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish dolzarb masala sanaladi. Adabiyot darslari orqali o‘quvchilar mustaqil fikrlash, axborotlarni tahlil qilish va ularning badiiy onomastik birliklar yordamida yaratilgan obrazlar orqali til boyligini o‘zlashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Shu yo‘l bilan, o‘quvchilar nafaqat mazkur asarlardan hayotiy saboq oladilar, balki ularning til va nutq madaniyati ham shakllanadi.

XXI asrda adabiyot o‘qitish metodikasi an’anaviy yondashuvlardan innovatsion usullarga o‘tib bormoqda. O‘quvchi faoliyatini markazga qo‘yuvchi interfaol metodlar, klaster, loyihaviy ta’lim, muammoli ta’lim kabi usullar keng tadbiq etilmoqda. Xususan, ta’lim oluvchilarning tanqidiy va kreativ fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar muhim o‘rin tutmoqda. Jahon tajribasida qo‘llanilayotgan PISA kabi xalqaro baholash mezonlari adabiy o‘qishga yangicha yondashuvni talab etadi. PISA dasturi matnni tushunish, tahlil qilish, xulosa chiqarish va baholash kabi ko‘nikmalarni tekshiradi. Shu bois adabiyot darslarida o‘quvchilarning real hayotiy vaziyatlarda matnni tushunib, tahlil qilish va munosabat

bildirish malakalarini shakllantirish ustida ishlanmoqda. Bugungi metodik tadqiqotlar adabiyot fanini 4K tamoyillari – tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, kommunikativlik va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi fan sifatida takomillashtirish yo‘llarini izlamoqda.

Zamonaviy adabiyot ta’limi boshqa fanlar bilan integratsiyalashuv jarayonida rivojlanmoqda. Adabiyot darslari musiqa, tasviriy san’at kabi san’at turlari bilan bog‘lab o‘tilsa, o‘quvchilarda go‘zallikka muhabbat, estetik did va san’at asarlarini tushunish ko‘nikmalari oshadi. Xuddi shunday, adabiy asarlar mazmuni tabiiy fanlar (masalan, ekologiya) bilan hamohang o‘rgatilsa, bolalarda tabiatga mehr va ongli munosabat shakllanadi. Tarixiy asarlar esa tarix fanining maqsadlari bilan bog‘liq holda o‘rgatilganda, o‘quvchilar tarixiy tafakkur va milliy ongni chuqurroq anglaydilar. Bu integrativ yondashuvlar pedagogik innovatsiyalar bilan boyitilib, masofaviy ta’lim, elektron resurslar va raqamli texnologiyalar orqali adabiyot o‘qitish samaradorligi oshirilmoqda. STEAM konsepsiyasiga hamohang ravishda, adabiyot fanini boshqa fanlar bilan bog‘lab o‘qitish o‘quvchilarda ko‘p qirrali kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qilishi ilmiy izlanishlarda isbotlanmoqda.

Pedagogik tadqiqotlar ko‘rsatadiki, adabiyot o‘qitish metodikasini takomillashtirish jarayonida badiiy onomastik birliklarni o‘quv jarayoniga kiritish o‘quvchilarning til boyligini, estetik didini va madaniy ma’lumotlar asosida tanqidiy fikrlashini yanada chuqurlashtiradi. Bu esa, o‘z navbatida, yosh avlodni bilimdon, ijodkor va ma’naviy jihatdan boyitishga xizmat qiladi.

Badiiy onomastik birliklar — ya’ni, badiiy asarlarda qo‘llaniladigan shaxs, joy, hayvon, buyum va boshqa nomlar — lingvistik tadqiqotlarda muhim o‘rin tutadi. Ularning shakllanishi va rivojlanishi tilshunoslikning onomastika sohasi doirasida o‘rganilishi sohaviy manbalar tahlilidan ayon bo‘ladi. Onomastika tilshunoslikning har qanday atoqli otlarni, ularning paydo bo‘lish va o‘zgarish tarixini o‘rganuvchi bo‘limi bo‘lib, tildagi barcha atoqli otlar yig‘indisini o‘zida ifodalaydi.

Badiiy matnlarda onomastik birliklar, xususan, muvaqqat onomastik birliklar (ijodkor tomonidan maxsus o‘ylab topilgan nomlar) lingvopoetik xususiyatlarga ega bo‘lib, matnni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular matnga ekspressivlik, hissiy yuk va estetik qiymat qo'shadi. Masalan, Anvar Obidjon asarlarida uchraydigan Qahratoniya, Tantiboyvachcha kabi muvaqqat nomlar badiiy matn ta‘sirchanligini oshirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

20-asrning ikkinchi yarmida tilshunoslik va adabiyotshunoslikni birlashtirgan badiiy onomastika kontekstida badiiy nomlar alohida dolzarb tadqiqot mavzuga aylandi. O‘zining fanlararo yo‘nalishi bo‘yicha uni 1960-yillarning oxiridan boshlab an’anaviy stilistika bilan bir qatorda gullab-yashnayotgan matn lingvistikasi, shuningdek, tilshunoslikdagi kommunikativ-pragmatik burilish bilan solishtirish mumkin. O‘z navbatida, badiiy onomastikaning taniqli namoyondalari mazkur fan sohasi taraqqiyotida o‘chmas iz qoldirishgan. Jumladan, 1840-yilda chop etilgan kitobida E.Boas o‘rta asrlar badiiy nemis tili davri (1050-1350 yy.)dan beri “poetik nomlar” haqida qisqacha ma’lumot beradi va uning perspektivasini shakllantiradi: “Poetik nomlarning yaxshi yozilgan tarixi [...] nemis she’riyatining batafsil tarixi bo‘lar edi va muallif buning uchun rahmatlar eshitishi aniq edi”. F.Debusning qayd etishicha, bu kabi tarixiy asar hozirgi kungacha yozilmagan, u E.Baos tasavvuridagidek o‘zgacha formatda yaratilishi zarur. Olimning fikricha, keyingi yillarda onda-sonda chop etilayotgan alohida asarlarga yoki biror yozuvchining asariga bag‘ishlangan, asosan “so‘zlovchi” nomlar doirasida amalga oshirilgan izlanishlarda aynan tadqiq etilgan asar ichida badiiy-ekspressiv qiymati tahlilga tortilmayapti va ular tavsifiy tadqiqot ishi bo‘lib qolmoqda.

Manbalardan bilishimiz mumkinki, bu kabi asarlar 19-asrdayoq, ayniqsa, Rossiyada, keyin esa 20-asrning 20-30-yillarida Rossiyadagi “rasmiy maktab”larda yaratila boshlagan. Bu orada E.M.Rajekning F.Kafka asaridagi ismlarni talqin qilishga harakat qilgani va mavzuga doir yaratilgan asarlarni bibliografiyaga jamlaganini ko‘rishimiz mumkin. 1978 yilni nemis badiiy onomastikasi sohasi uchun muhim bosqich sifatida tilga olish mumkin; yaratilgan uch monografiya mazkur yangi tadqiqot yo‘nalishini ham nazariy, ham empirik jihatdan sezilarli darajada rivojlantirdi: H.Bimsning G.E.Lessing asari bo‘lmish “Dono Natan”dagi ismlar haqidagi tadqiqoti, H.Tiesning ingliz, amerika va nemis dramalari kontekstida shaxs nomlar bo‘yicha tadqiqotlari hamda H.Kalverkemper nomlarni tadqiq qilishda birinchi marta matn lingvistikasi usullarini kiritgan va ko‘plab bolalar adabiyotlaridan tadqiqot obyekti (matniy asos) sifatida foydalangan izlanishi. So‘ngra qator muhim tadqiqotlar nashr etilganligidan tarixiy manbalar dalolat beradi: D.Lamping qissadagi shaxs nomlari, ularning funksiyalarini ko‘rsatuvchi katalok haqida, V.Vitstruk so‘ngi o‘rta asr (1300-1500 yy.) lirikasida ismlar qo‘llanishi bo‘yicha, M.Shvanke ilk bora kompyuter (axborot texnologiyalari) yordamida Yo.V.Gyotening epik asarlaridagi ismlar va ism qo‘yish haqida, G.Shildberg-Shrotning badiiy tabiat muammosi va AOlar to‘g‘risida va I.Sobanski Chestertonning detektiv hikoyalaridagi nomlar haqida va boshqa qator ilmiy ishlarni qayd etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Boas, E. (1840). *Namen-Symbolik in der deutschen Poesie* (p. 6). Landsberg a.d. Warthe.
2. De Beaugrande, R., & Dressler, W. (1981). *Einführung in die Textlinguistik* (*Konzepte der Sprach- und Literaturwissenschaft*, 28). Tübingen.
3. Debus, F. (2002). *Namen in literarischen Werken: (Er-)Findung – Form – Funktion* (pp. 11–12). Akademie der Wissenschaften und der Literatur.
4. Dolny, Ch. (1996). Literarische Funktionen der Personeneigennamen in den Novellen und Erzählungen von I. S. Turgenev. *Slavica Helvetica*, 51. Bern.
5. Gutschmidt, K. (1984). Eigennamen in der Literatur. In *Namenkundliche Studien* (pp. 7–38). Berlin.
6. Heinemann, W., & Viehweger, D. (1991). *Textlinguistik: Eine Einführung* (*Reihe Germanistische Linguistik*, 115). Tübingen.
7. Helbig, G. (1990). *Entwicklung der Sprachwissenschaft seit 1970* (2nd ed., p. 13 ff.). WV Studium.
8. Ko‘chkarova, M. (2021). Boshlang‘ich ta’limda shakllanadigan kompetensiyalar mazmuni. *Jamiyat va innovatsiyalar*, (9), 229–238.
9. Sanakulov, Z. (2025). Chet tilini o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuv. *Ta’lim, tarbiya va innovatsiyalar jurnali*, *1*(3), 16–18.
10. Sanakulov, Z. I. (2019). Using fiction in teaching foreign languages as a factor for the formation of reproductive competence. *Foreign Languages in Uzbekistan, (2)*, 77–83.
11. Stempel, W.-D. (1971). *Beiträge zur Textlinguistik* (*Internationale Bibliothek für allgemeine Linguistik*, 1, p. 13 ff.). München.
12. Superanskaja, A. V. (1995). Sprachliches Zeichen und Eigenname. In *Sowjetische Namenforschung* (pp. 33–41). Berlin.

NOFILOLOGIK TA’LIM YO’NALISHLARDA YOZMA NUTQ MALAKASINI RIVOJLANTIRISHNING LINGVODIDAKTIK MUAMMO SIFATIDA

G.A.Musayeva
Namangan davlat universiteti, PhD doktorant
Googosha11@mail.ru, 99897 688-96-06

Annotatsiya: Ushbu maqolada asosan chet tilida talabalarning yozma nutqini rivojlantirishdagi yuzaga keladigan yozuv bilan yozma nutqning lingvodidaktik masalalari tahlil qilingan. Tahlil qilish jarayonida rus tilshunos olimlari Bimm, Arakin, Solovyova va Permishovaning nazariyalari va o’zbek metodisti J.Jalolovning qarashlari inobatga olingan holda qiyosiy tarzda tahlil qilindi. Lingvodidaktika yozuv va yozma nutqni farqlash uchun muhim soha hisoblanadi. Chunki yozuv bu grafik va orfografik belgilar yig’indisidan tashkil topgan, yozma nutq esa fikrlar yig’indisidan.

Kalit so’zlar: Lingvodidaktika, yozuv, yozma nutq, grafik va orfografik kompetensiya, psixolingvistika

Annotation: In this article a reader can find information about the development writing skills and some challenges in teaching this skill. There is also analsys between russian and uzbek scientists and their concerns about writing competence according to lingvodidactics. Lingvodidactics plays a main role in differentiating writing with writing competence.

Key words: Lingvodidactics, writing, writing competence, graphic and orphographic writing competence, psycolinguistics.

Nofilologik ta’lim yo’nalishlarda yozuv malakasini rivojlantirish, asosan, lingvistik va didaktik jihatlardan o’rganilishi zarur bo’lgan muammo sifatida qaraladi. Bu masala ilmiy tahlil qilishni talab qiladi, chunki yozuv malakasini rivojlantirish nafaqat til o’rganishga, balki talabalar va o’quvchilarning fikrlash va mantiqiy tajriba asosida yondashuvini ham oshirishga qaratilgan.

Chet til o’qitishni tashkil qilishda til hodisalarini lingvodidaktik tahlil qilish maqsadga muvofiq. Bu genetik jihatdan butunlay boshqa tillarni qiyoslash va ularning tipologik xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Shu bilan birga kommunikativ metod asosida dars jarayonini tashkil qilishda uning an’anaviy metoddan farq qiluvchi o’ziga xos tomonlarini ham qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Mamlakatimizda chet tillarni o’qitishda keng qo’llanilayotgan an’anaviy metod grammatik qoidalarni tushunib yodlash, shunga ko’ra gaplar tuzish, ularni tarjima qilish va nutqda qo’llashga asosiy e’tiborni qaratadi. Ammo statistik ma’lumotlarga ko’ra, nofilologik yo’nalishida taxsil olayotgan talabalarning ingliz tilidagi yozma nutq kompetensiyasining zamon talabiga javob bera oladi, deb aytish qiyin, chunki ular bilan o’tkazilgan yozma ishlar tahlili shuni ko’rsatdiki, talabalar o’z fikrini yozma ravishda ifoda etganlarida bir qator xatolarga yo’l qo’yganliklari aniqlandi. Ushbu xatolarni tipologik nuqtai nazardan tahlil qilish va tasniflash, kelib chiqish sabablarini aniqlash, yozma nutq ko’nikmalarini shakllantirish va o’stirishni o’qitish metodlarni ishlab chiqish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu masalani kompyuter texnologiyasi ya’ni wiki texnologiyasi asosida bajarishni maqsad qilib qo’yilganligi va amalga oshirilishining sabablaridan biri wiki texnologiyasi ingliz tilni nafaqat muloqot nuqtai nazaridan o’rganishni va o’rgatishni, balki shaxsning har taraflama kamol topishida va nutqiy ko’nikmalarni shakllantirishni nutqiy vaziyatlar asosida olib borishga qaratilganligida hamdir. F.Alimov ta’kidlaganidek, o’quv-nutqiy vaziyatlar tabiiy nutqiy vaziyatlarga qanchalik yaqinlashtirilsa, nutqiy ko’nikmalar hosil qilish shunchalik tezlashadi va puxta bo’ladi [1; - 24 b.]. Dars jarayonida nutqiy vaziyatlardan foydalanish talabalarda nutqiy faoliyatga nisbatan motivatsiya hosil bo’lishiga sabab bo’lgani holda ularda o’rganilayotgan til birliklari yoki hodisalarini nutqiy faoliyatda qo’llash istagini oshiradi. Nutqiy vaziyat haqida so’z yuritganda sof nutqiy vaziyat bilan o’quv maqsadidagi nutqiy vaziyatni farqlamoq lozim. Sof nutqiy vaziyat deganda tabiiy muloqot tushuniladi. Chet tilni ikkinchi til sifatida o’qitish jarayonida bunday tabiiy muloqotning yo’qligi o’quv nutqiy vaziyatlardan foydalanish zaruriyatini keltirib chiqaradi[2,-89 b.].

Azimova E.G., A.A. Shukinlarning fikrlariga ko’ra talabalardagi nutqiy ishtiyoq, qobiliyat va bilim darajalarini aniqlash uchun ma’lum o’quv vositalari, testlar, anketa, mashqlar hamda maxsus tuzilgan savollardan foydalanish mumkin. Shuni ta’kidlash lozimki, talabalar nutqiy muloqotdan ko’zlangan maqsadni tushunib yetishlari juda muhim, chunki ular nutqiy muloqotni shunchaki o’qituvchi nazoratidan o’tish va baho olish uchun emas, balki nutqiy vaziyat talabiga mos ravishda nutqiy faoliyatga kirishishlari zaruriyatini bilishlari o’quv nutqiy vaziyatni tabiiy nutqiy vaziyatga yaqinlashtiradi va nutqiy ko’nikmalar hosil qilishni osonlashtiradi. Ingliz tilda yozma nutqni o’qitishdagi individual yondashuv har bir talabaning ingliz tilda orttirgan nutqiy muloqot tajribasi, istak-xohishi, muloqot jarayonida ingliz tili vositalari orqali hissiyotlarini qay darajada ifodalay olishi kabi omillarni ham o’z ichiga oladi. So’nggi yillarda o’quv rejalarida auditoriyadan tashqarida mustaqil o’qib o’rganishga ajratilgan soatlar hajmining oshishi talabalarda mustaqil ish ko’nikmalarini o’stirishga qaratilgan metod va usullarni izlab topishni, shu bilan bog’liq ish turlaridan kengroq foydalanishni taqozo etadi.

Bugungi kunda respublikamizda har bir sohani shiddat bilan rivojlantirish uchun, har taraflama yetuk, bilimli, raqobatbardosh kadrlar kerak[14,-104 b]. Ushbu masala mamlakatimizdagi ta’lim muassasalarida chet tillarni o’qitishga oid davlat hujjatlarida ham o’z aksini topgan. O’z kasbiy faoliyati bilan bog’liq nutqiy muloqot jarayonida chet tildan erkin foydalana olish zamonaviy mutaxassislarga qo’yilayotgan standart talablardan biri hisoblanadi [3].

Axborot vositalaridan kerakli ma’lumotlarni olishda yozma nutqning rolini alohida ta’kidlash joiz. Bo’lg’usi oziq-ovqat texnologlarni yozma nutq kompetentsiyasini rivojlantirish, ularning kasblariga oid xorijiy adabiyotlar bilan ishlashda yozma fikr bildirishga oid yozma nutq kompetentligini shakllantirish bugungi kun talabidir. Oziq-ovqat texnologiyasi yo’nalishi talabalariga ingliz tilni o’qitishda darslarni shu nuqtai nazardan kelib chiqib, metodik tashkillashtirish til o’rganish samaradorligini oshiradi va oldinga qo’yilgan maqsadga erishishni kafolatlaydi.

Yozuv malakasi – bu o’z fikrlarini yozma tarzda aniq, lo’nda va tushunarli ifodalash qobiliyatidir [4, - 49 b]. Yozuv malakasi, til o’rganishda, ayniqsa nofilologik yo’nalishlarda ta’lim olayotgan talabalarga juda muhimdir, chunki ular ko’pincha ilmiy, texnik, yoki ijtimoiy sohalarda faoliyat yuritadi va yozma hujjatlar, ma’ruzalar, texnik tavsiflar va boshqalarni tayyorlashda muhim rol o’ynaydi. Lingvodidaktika esa– til o’rgatishning nazariyasi va amaliyoti bo’lib, tilni o’rgatish va o’rgangan bilimlarni samarali tarzda qo’llash usullarini o’rganadi. Ingliz tilida yozma nutqni o’qitishda yozuv va yozma nutq tushunchalarini lingvodidaktiktikaning asosiy muammolaridan biridir. B.V.Belyaev esa o’z ilmiy tadqiqot ishida “yozuv”va “yozma nutq”ni farqlamaslikni, balki ularni sinonim holda ma’lum bir kontekstlarda ishlatishni taklif qiladi. Uning fikricha, “yozma nutq” nutq turi emas, balki nutq shaklidir, chunki u og’zaki nutq asosidagina mavjud bo’lib, u tafakkur bilan og’zaki nutq orqali bog’langan. Yozma nutqqa ko’rish va qo’l harakatlari xos bo’lgani holda u og’zaki nutqning yozuvdagi ifodasi deb talqin qilinadi. Shuning uchun ham unga og’zaki nutqdagi barcha sifatlar xosdir. Bakanova M.B. va Safonova O.Y esa bir tomondan yozma nutqni og’zaki nutqning yozuvdagi ifodalanishi, ikkinchi tomondan esa nutqning ijodiy mahsuli deb

qaraydi va shu bilan birga yozma nutqni kitobiy nutq bilan qo’shib talqin qilishni noto’g’ri deb hisoblaydilar. U til o’qitish haqida fikr yuritar ekan yozma nutqni og’zaki nutq orqali o’rganish kerak, degan xulosaga keladi. Ko’rinib turibdiki, yozuvga axborot berish va saqlash bilan bog’liq faoliyat turi va ushbu faoliyat mahsuli sifatida qaralmoqda. Ushbu ta’rifda yozuv bilan yozma nutq o’rtasidagi farq ko’rsatilmagan holda u og’zaki nutqqa yordamchi muloqot vositasi sifatida talqin etilgan.

Tarixga nazar tashlaydigan bo’lsak ham, yozma nutq masalasi ham qadimiy masalalardan biri hisoblangan. Mashhur rim pedagogi Kvintilian “Notiqlik tarbiyasi” asarida yozma nutqqa o’rgatishda kesma harflarni bilib olish, ularni bir-birlariga bog’lashni o’rganish va shoshilmasdan uzoq yozishni mashq qilish kerakligini tavsiya qiladi. Bundan ko’rinib turibdiki, u yozuvni o’rganish orqali yozma nutqqa o’tishni ko’rsatgan. Yozma nutqning o’ziga xos xususiyatlarini aniqlash va uning chet til o’qitishdagi bo’lajak kasb egasining kasbiy faoliyatida tutgan o’rni va roli haqida so’z ketganda, uning og’zaki nutq bilan bog’liqligini alohida ta’kidlash lozim. Yozma nutq o’z tabiatiga ko’ra monologik xarakterga ega [5; – B.33-37.]. Yozayotgan shaxs o’z fikrini ifodalaydi. To’g’ri, ba’zan u o’zgalar fikrini ham yozma ravishda ifodalashi mumkin, lekin u buni umumlashtirib ifodalaydi va yozma nutq mahsulini ifodalayotgan manba bir shaxsga tegishli. Bu esa yozma nutqning monologik xarakterga ega ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Demak, yozma nutqqa o’rgatishda individual yondashuv yaxshi natija berishi mumkin. Yozma nutq situativlik nuqtai nazaridan og’zaki nutqqa nisbatan pastroq darajada, ammo fikrni ifodalashda leksik-grammatik vositalarning ishlatilish ko’lamiga ko’ra undan yuqorida turadi .

Og’zaki nutqda fikrni ifodalash vositalari sifatida paralingvistik omillardan keng foydalaniladi, shu sababli ham og’zaki nutq yozma nutqqa nisbatan ekspressiv xarakterga egaligi bilan farqlanadi. Yozma nutqda esa bunday kamchilikni to’ldirish maqsadida turli leksik-grammatik ifoda vositalarini keng qo’llash talab etiladi.

Shuningdek, yozuv o’qish bilan uzviy bog’langan, chunki ularning har ikkisi asosida tilning grafik sistemasi yotadi. Yozuvda ham o’qitishdagi kabi tovush-harf munosabatini bilish talab etiladi. Ular faqat yo’naltirilganlik nuqtai nazaridan ham farqlanadi. Boshqacha aytganda, yozuvda fikrni kodlashtirish, o’qishda esa dekodlashtirish kuzatiladi [6; – B.179-185.].

Yozma nutq og’zaki nutqqa nisbatan ancha murakkab faoliyat hisoblanadi. Og’zaki nutqda ayrim so’z va iboralar tushirib qoldiriladi, ular ifodalagan ma’noni esa og’zaki nutqqagina xos bo’lgan imo-ishora va intonatsiya kabi omillar orqali berish mumkin. Bunday ifoda vositalari yozma nutqda bo’lmaganligi sababli ham yozma nutq iloji boricha aniq, ma’noli bo’lishi, ishlatilayotgan gaplar esa tuzilishi jihatdan og’zaki nutqdagiga nisbatan kengroq va turli grammatik qurilmalarni o’z ichiga olgan bo’lishini taqozo etadi. Bundan tashqari og’zaki nutqda suhbatdosh tomonidan berilish ehtimoli bo’lgan savolga javob berish uchun diqqatni jamlangan holda doim shay turish talab etiladi.

Shunday qilib, ingliz tilidagi yozuv bilan bog’liq ko’nikmalarni shakllantirish yozma nutqqa o’rgatishdagi birlamchi vazifa bo’lmog’i kerak. Shuni ta’kidlash lozimki, avval xorijiy til o’qitishda yozma nutq ko’nikmalarini shakllantirishga yetarli e’tibor berilmas edi. Hozirda xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarning kengayishi, bozor iqtisodiyoti va yozma axborot almashinuviga berilayotgan jiddiy e’tibor yozma nutqiy muloqotni ham muhim masalalar qatoriga chiqarib qo’ydi. Yozma nutqning e’tibor berilishi kerak bo’lgan yana bir jihati shuki, hozirgi vaqtdagi boshqaruv va ishbilarmonlik faoliyatida o’z fikrini yozma ifodalay bilish emas, balki uni isbot-dalillar yordamida, faktlar asosida ifodalay olish juda muhim. Bu o’z navbatida talabalarda tanqidiy fikrlash ko’nikmalarini shakllantirishni taqazo qiladi. Talabalar bilan o’tkazilgan suhbatlardan yana shu ma’lum bo’ldiki, ular uchun og’zaki fikr bildirishga nisbatan yozma fikr bildirish murakkabroq ekan.

Har bir yozma ishning o’z maqsadi bo’ladi. Masalan, ilmiy ishlar, texnik hisobotlar yoki biznes xatlari turli xil uslub va strukturalarga ega. Shuning uchun nofilologik sohalarda yozuv malakasini rivojlantirishda talabalar turli yozish uslublari va metodlarni o’rganishlari lozim.

Yozish nafaqat ma'lumotni aniq ifodalash, balki uni mantiqiy ravishda tuzish hamdir. Yozuv malakasini rivojlantirishda, talabalarning fikrlash faoliyatini kuchaytirish, yozma ishlarda izchillik va mantiqiy bog’liqlikni ta’minlash zarur.

Yozuv malakasi nafaqat grammatik to’g’rilikni, balki tilning estetik jihatlarini ham o’z ichiga oladi. Nofilologik yo’nalishlarda, talabalar o’z ishlarini aniq va tushunarli, lekin bir vaqtning o’zida yaxshi stilistik tarzda ifodalashni o’rganishlari kerak.

Jalolov J.J. nazariyasiga ko‘ra, psixologiya, lingvistika va didaktika metodikaning asosiy komponentlaridan hisoblanadi. Shu sababli metodika yuqorida sanab o’tilgan sohalar bo’yicha erishilgan yutuqlar asosida o’zining o’qitish tizimini ishlab chiqadi. Lingvodidaktik tahlil esa aynan shu maqsadni

amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Lingvodikaktika turli tillilikka xos bo’lgan milliy auditoriyada muhim o’rin egallaydi. Ushbu tahlil diagnostik xususiyatga ega bo’lib, yozuv malakalarini o’qitish bilan bog’liq muammolarni oldindan aniqlash, uning kelib chiqish sababalarini asoslab berish, yozuv kompetensiyasi uchun til materiallarini tanlash, ularning o’rganish ketma-ketligini, samarali usullarini aniqlash, darslik, o’quv qo’llanmalari, hamda dasturlar ishlab chiqishga katta yordam beradi. Yozuv kompetensiyasining o’ziga hos belgilari haqida so’z yuritganda shuni ta’kidlash joizki, u har qanday shaxsning ijobiy yoki salbiy tomonlari haqida aniq tasavvur bera olishi, voqea-hodisalarni, tarixiy o’zgarishlarni qayd etib borishi, so’ngra esa ularni qaytadan tiklash imkoniyatiga egaligi bilan ajralib turadi[65, -11 b.]. Oldingi jamiyatga tegishli bo’lgan ilg’or fikrlovchi a’zolar jamiyatni boshqarishda hamda inson tarbiyasida, uni barkamol shaxs qilib voyaga yetkazishda yozuvning qudratli ahamiyatini yaxshi tushunib yetganlar. Yuksak g’oyalar va ahloqiy normalarni inson ongiga singdirishda, uni tarbiyalashda yozuv asosiy o’rin egallagan. Shu sababli, jamiyat rivojining dastlabki pog’onalaridan boshlab, og’zaki va yozma nutq farqlangan. Bundan tashqari, biz ko’zimiz bilan ko’rib, shohidi bo’layotgan voqea-hodisalarni yozuv orqali yozib borish, madaniy boyliklarni saqlab qolish va ularni kelgusi avlodga yetkazish imkoni faqatgina yozuvda mavjuddir[72, -78-84 b.].

Barcha metodik manbalarda yozuv nutq faoliyati turlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Shu sababli nutqiy faoliyat turi sifatida qaralganda metodika, lingvistika va psixologiyaga oid adabiyotlarda yozuv va yozma nutq tushunchalari ko’p hollarda “yozuv“ atamasi orqali bir xil talqin qilingan. Ammo ikki termin o’rtasida katta farq mavjud bo’lib, ko’plab tilshunoslar ularni yaxshi farqlamasligi sabab chet tilini o’qitishda bir qator muammolarga duch kelmoqdalar[64, -337b.]. Uslubiy adabiyotlarda yozuvga xos bo’lgan quyidagi xususiyatlar bilan farqlanadi:

- Orfografik belgilar;
- Chiroyli yozuv;
- Grafik belgilar [126; – B.179-185.].

Yozma nutq esa kommunikativ vazifani o’z ichiga oluvchi qisqa va katta hajmli matnlardan tashkil topadi. Shunday qilib, yozuv va yozma nutq ni o’rgatishda ikki xil sifatga ega kompetensiyalar farqlanadi [66, -11b.]:

- so’z va gaplarni yozishda grafik va orfografik kompetensiyalar;
- so’z yordamida yozma ravishda fikr bildirish kompetensiyasi.

Tilshunos olimlar yozuv va yozma nutqqa doir turlicha fikrlar mavjud. Jumladan, J.Jalolov yozuvni chet tilni o’qitishda vosita va maqsad ekanligi, hamda til o’rganuvchilarda yozuv malakasini shakllantirish zarurligini talqin qiladi. [66; – Б.11.]. A.T.Xarlamenko yozuvni til yordamidagi muloqot usuli, yozma nutqni esa maxsus ifoda vositalari yordamida amalga oshiriladigan muloqot jarayoni sifatida ta’kidlaydi [98; - 189b.].

Bugungi kunda xorijiy tillarda yozma nutqni o‘qitishni takomillashtirishni zamon talabiga mos holda tashkil etish metodik izlanishlarni taqozo etayotgani sir emas. Bu esa chet tillarini xususan ingliz tilini o’qitishning zamonaviy hamda nutqiy muloqotga yo’naltirilgan usullarni yuzaga kelishiga asos bo‘lmoqda. Uning mohiyatini aniq anglash uchun bu usullarni ingliz tilini o’qitishda va jamiyatning ijtimoiy faoliyatida tutgan o’rni, roli, zamon talabiga javob berish darajasi va chet til o’qitilayotgan o’quv muassasalarining oldiga qo’yilgan maqsadni amalga oshirishga qay darajada yordam bera olishi nuqtai nazaridan tahlil qilish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Елканова, Т.М. Современные информационные технологии в образовании: учеб. пособие / Т.М. Елканова. – Владикавказ, 2016. – 92
2. Жинкин, Н.И. О кодовых переходах во внутренней речи // Язык и мышление: Тезисы докладов и сообщений. – М.: Наука, 1965.
3. Jalolov I.M., Письменная фиксация и ее роль в процессе обучения аудированию. Oliy o’quv yurtlarida til va adabiyot fanlarini o’qitishning nazariy va amaliy asoslari (XVII son) –T.: TDYI. 2009. –B. 111.
4. Maxkamova G.T., Alimov Sh.S. English language teaching methodology. –T.: Fan va texnologiya, 2009. – 334 b.
5. Jalolov J.J. English language teaching methodology. – T.: Fan va ta'lim nashriyoti. 2015.-B.-11
6. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi.- T. O'qituvchi,2012.-B.294.

BOLALAR NUTQIDA PRAGMATIK KOMPETENSIYANING SHAKLLANISHI: NAZARIYA VA AMALIYOT

N.A.Payziyeva
Namangan viloyati Chortoq tumani MMTBga qarashli 54-maktab ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi
tel: 93-676-16-96

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda pragmatik kompetensiyaning shakllanish bosqichlari nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Bolaning kommunikativ faoliyatida pragmatik birliklardan foydalanish ko‘nikmalari qanday bosqichma-bosqich rivojlanishi, bu jarayonda tarbiyachining roli, shuningdek, kontekstga mos muloqot qurish malakalari yoritilgan. Tadqiqot davomida bolaning til rivojida pragmatik kompetensiyaning ahamiyati, uni shakllantirishda oila va ijtimoiy muhitning o‘rni ham alohida ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: pragmatik kompetensiya, bolalar nutqi, maktabgacha ta’lim, muloqot, kontekst, tarbiyachi, til rivoji.

Аннотация: В статье рассматриваются этапы формирования прагматической компетенции у детей дошкольного возраста с теоретической и практической точек зрения. Анализируются особенности использования прагматических единиц в детской речи, роль воспитателя в развитии коммуникативных навыков, а также формирование умения строить речевое поведение с учетом контекста. В исследовании подчеркивается значение прагматической компетенции в речевом развитии ребёнка и влияние на этот процесс семьи и социальной среды.

Ключевые слова: прагматическая компетенция, детская речь, дошкольное образование, коммуникация, контекст, воспитатель, развитие речи.

Abstract: This article examines the stages of development of pragmatic competence in preschool children from both theoretical and practical perspectives. It analyzes how children acquire and apply pragmatic units in communication, the role of educators in shaping these skills, and how context-appropriate speech behavior is formed. The study highlights the importance of pragmatic competence in children's language development and emphasizes the role of family and social environment in this process.

Keywords: pragmatic competence, child speech, preschool education, communication, context, educator, language development.

Insonning ijtimoiy hayotga moslashuvi, shaxs sifatida shakllanishi va muloqot madaniyatini o‘zlashtirishi avvalo til vositasida amalga oshadi. Bola hayotining ilk bosqichlaridanoq o‘z atrofidagi insonlar bilan muloqotga kirishish orqali nafaqat til birliklarini, balki bu birliklarning qanday kontekstda, qanday vaziyatda, qanday niyat bilan ishlatilishini ham o‘rganadi. Bu jarayonning tub mohiyatida esa pragmatik kompetensiya yotadi.

Zamonaviy tilshunoslikda pragmatika til birliklarining komunikativ kontekstdagi ishlatilishini, gapiruvchi va tinglovchi o‘rtasidagi intensionallik va interaktivlikni o‘rganadi. Shu asosda shakllanadigan pragmatik kompetensiya — bu shaxsning turli nutqiy vaziyatlarda til vositalarini maqsadga muvofiq, muloqot talablariga mos ravishda qo‘llay olish qobiliyatidir. Bu kompetensiya ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalarda faol shakllanadi va uning rivoji bola shaxsi, psixikasi va sotsialligini chuqur ifoda etadi.

S. C. Levinson (1983) ta’kidlaganidek, “Pragmatika bu – gapirilayotgan so‘zlarning ustida yotgan ma’noni, ya’ni gapiruvchining asl niyatini anglash jarayonidir” [cc.]. Demak, bolalar nutqini o‘rganishda faqat grammatik jihatlar emas, balki bolaning muloqotdagi intensionalligi, til aktlaridan qanday maqsadda foydalangani, javobni qanday kutgani ham muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha yosh davrida bolaning nutqiy rivoji faqat leksik yoki fonetik ko‘nikmalar bilan emas, balki kommunikativ vazifalarni bajarishga yo‘naltirilgan pragmatik ko‘nikmalar orqali ham baholanadi. Shu bois, pragmatik kompetensiyaning shakllanish bosqichlarini o‘rganish, ularning nazariy asoslarini aniqlash va amaliyotda qo‘llanishini tahlil qilish – bolalar tilini chuqur o‘rganishdagi muhim yo‘nalishlardan biridir.

Pragmatik kompetensiyani quyidagi tarkibiy qismlarga ajratish mumkin:

Komponent	Ta’rifi	Bola tilidagi ifodasi
Nutqiy niyat	Gapiruvchining maqsadi	“Men o‘ynayman”, “Xohlamayman”
Kontekstga moslik	Muloqot sharoitiga mos so‘zlash	Mehmonda muloyim so‘zlash
Suhbatni boshqarish	Savol berish, replikaga javob qaytarish	“Nega?” – “Chunki...”
Rollarni tushunish	Katta-kichikka qarab muomala qilish	“Rahmat”, “Iltimos”

Bolalarda pragmatik kompetensiya shakllanishi ontogenez jarayoniga bog‘liq bo‘lib, til va nutq rivoji bilan uzviy aloqadadir. Bu rivojlanish ketma-ket bosqichlarda sodir bo‘ladi va har bir bosqichda bola yangi nutqiy va kommunikativ ko‘nikmalarni egallaydi. Aynan shu bosqichlarda bolalar ma’noli muloqot qilish, suhbatda ishtirok etish, konkret niyat bilan so‘zlashish, javob kutish, savol berish kabi amaliy malakalarni o‘zlashtira boshlaydi.

- “Erta bolalik bosqichi (1–2 yosh)
- Ilk nutqiy bosqich (2–3 yosh)
- Muloqotli nutq bosqichi (3–5 yosh)
- Rivojlangan pragmatik bosqich (5–7 yosh)”(Usmonova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy rivojlanish bosqichlari. // Til va adabiyot ta’limi, 2022, №3. – B. 65–68.)

Bolalar nutqidagi pragmatik birliklar — bu muloqot jarayonida amalga oshadigan iltimos, buyruq, rad etish, taklif, savol, chaqiriq, ogohlantirish kabi nutqiy aktlarning amaliy ifodasidir. Ushbu birliklar bolaning ijtimoiy muhitga, suhbatdoshga va vaziyatga mos muloqot qila olish salohiyatini namoyon etadi. Ular bolaning pragmatik kompetensiyasi shakllanayotganining asosiy ko‘rsatkichlaridir.

Quyidagi real kuzatuv misollaridan ko‘rinib turibdiki, bolalar turli vaziyatlarda har xil pragmatik birliklardan foydalangan:

Vaziyat	Bola nutqi	Nutqiy akt	Izoh
O‘yinchoq ulashish	“O‘yinchoqni menga bersang, men rasm chizaman.”	Taklif	Bola ayirboshlash orqali muloqot qilmoqda
Guruhdagi tortishuv	“Yo‘q, bu meniki, seniki emas.”	Rad etish	Bola o‘z mulkini himoya qilmoqda
Yangi narsani ko‘rish	“Bu nima?”	Savol	Bilishga qaratilgan pragmatik harakat
O‘qituvchiga murojaat	“Iltimos, yana bitta berasizmi?”	Iltimos	Hurmatga asoslangan kommunikativ yondashuv

Bolalarda nutqning pragmatik jihatdan rivojlanishi — bu nafaqat tabiiy til o‘zlashuvi, balki ijtimoiy va pedagogik ta’sirlar natijasi hamdir. Bu jarayonda tarbiyachi, o‘qituvchi va ota-onalarning faol, ongli ishtiroki hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun pragmatik kompetensiyani rivojlantirish kundalik muloqot muhitining sifati va kommunikativ faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv orqali shakllanadi.

Pragmatik kompetensiya faqat til qoidalarini bilish emas, balki nutqiy vazifalarni to‘g‘ri bajarishdir. Bu esa tarbiyachi tomonidan yaratilgan muhitga bog‘liq:

- Ochiq savollarga asoslangan suhbatlar;
- Ijtimoiy mavzular atrofida munozaralar (masalan: do‘stlik, navbat kutish);
- Bolalar o‘rtasida erkin muloqotni rag‘batlantiruvchi uslublar.

Vigotskiy ta’limotiga ko‘ra, bola yaqin rivojlanish zonasida ko‘proq o‘rgansa, nutq va tafakkur o‘zaro uyg‘unlashib boradi [Vigotskiy, L.S. (1983). Muloqot va tafakkur. Moskva: Pedagogika.]. Tarbiyachi aynan shu zona bo‘yicha bolaning nutqiy faoliyatini oshiradi.

Pragmatik kompetensiya bolaning nafaqat grammatik jihatdan to‘g‘ri so‘zlashi, balki o‘z fikrini kontekstga, suhbatdoshga va vaziyatga mos holda ifoda eta olish, muloqotning maqsadini anglab, tegishli nutqiy vositalarni tanlay olish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Bola muloqot jarayonida suhbatni boshlash, uni davom ettirish va tugatish, savol berish, rad etish, taklif qilish, suhbatdosh fikrini inobatga olish kabi amaliy ko‘nikmalarni egallaydi. Bu jarayon esa uzluksiz ravishda oila, tarbiyachi va ijtimoiy muhit bilan aloqador tarzda shakllanadi.

Tadqiqotda bolalar nutqining pragmatik rivojlanish bosqichlari tahlil qilinar ekan, 1–2 yoshda preverbal vositalar va nonverbal ishoralarning ustunligi, 3–5 yoshda oddiy pragmatik birliklar (savol, iltimos, rad etish)ning paydo bo‘lishi, 5–7 yoshda esa ijtimoiy rol, kontekstga mos so‘z tanlash, nutqiy stilga e’tibor kabi murakkabroq pragmatik jihatlar namoyon bo‘layotgani kuzatildi. Bu esa bolalarning nutqiy faoliyatida pragmatik kompetensiya bosqichma-bosqich rivojlanishini tasdiqlaydi.

Shu asosda aytish mumkinki, bolalarda pragmatik kompetensiyani shakllantirish ularning ijtimoiy integratsiyasi, muloqot madaniyati va mustaqil fikrlash salohiyatini oshiradi. Ushbu kompetensiyani rivojlantirishda tarbiyachining faol ishtiroki, muvofiqlashtirilgan pedagogik muhit va kontekstga yo‘naltirilgan o‘quv faoliyati hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Levinson, S. C. (1983). *Pragmatics*. Cambridge University Press
2. Usmonova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy rivojlanish bosqichlari. // Til va adabiyot ta’limi, 2022, №3. – B. 65–68.)
3. Vigotskiy, L.S. (1983). Muloqot va tafakkur. Moskva: Pedagogika.

GINEKOLOGIK O‘SMALARNI DAVOLASHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

S.Sh.Rustamova
Kimyo Xalqaro Universiteti Toshkent , Davolash fakulteti, 3-kurs talabasi Med-01U guruh
rustamovasevinch698@gmail.com
I.Sh.Jo‘rayeva
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Termiz Filiali Davolash fakulteti 308-a guruh talabasi
jorayevai243@gmail.com

Annotatsiya Ushbu maqolada ginekologik o‘smalarning zamonaviy tibbiyotdagi o‘rni, ularning erta aniqlanishi va davolanishida texnologik yondashuvlarning ahamiyati yoritilgan. Jumladan, tasviriy diagnostika, minimal invaziv jarrohlik, genetik skrining, maqsadli terapiya va immunoterapiya kabi texnologiyalar tahlil qilingan. Maqola ilg‘or ilmiy manbalarga asoslangan bo‘lib, u ayollar salomatligini yaxshilashda texnologik innovatsiyalarning rolini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: ginekologik o‘sma, texnologiya, laparoskopiya, immunoterapiya, genetik skrining, robotjarrohlik.

Kirish. Ginekologik o‘smalar ayollar reproduktiv salomatligiga tahdid soluvchi muhim patologik holatlardan hisoblanadi. Ular yaxshi sifatliva yomon sifatli shakllarda uchraydi. Ushbu o‘smalar hayz siklining buzilishi, bepushtlik, og‘riqli simptomlar va hayot sifatining pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, har yili 1 milliondan ortiq ayolda turli turdagi ginekologik o‘smalar aniqlanadi. Bu esa ularni erta aniqlash va samarali davolashga imkon beradigan zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etishni talab etadi.Zamonaviy diagnostik va davolash texnologiyalari ginekologik onkologiyada inqilobiy yondashuvlarni taqdim etdi. Bu uslublar nafaqat bemor hayotini saqlab qolish, balki uning sifati va reproduktiv salohiyatini ham yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Asosiy qism. Ginekologik o‘smalar turlari .Ginekologik o‘smalar orasida eng ko‘p uchraydiganlari quyidagilardir:Tuxumdon o‘smalari (kistalar va saratonlar);Bachadon miomasi;Endometrioz va endometrioma;Bachadon bo‘yni saratoni ;Bachadon tanasi saratoni;Ushbu kasalliklarning aniqlanishi va davolanishida texnologiyalar markaziy o‘rin tutmoqda.Tasviriy diagnostika texnologiyalariUltrasonografiya (USG) – eng ommaviy usul bo‘lib, o‘smalarning tuzilishi, kattaligi va lokalizatsiyasini aniqlaydi.Doppler-sonografiya – o‘smalarning qon bilan ta’minlanishini baholaydi, malign o‘smalarni benignlardan ajratishda yordam beradi.Magnit-rezonans tomografiya (MRT) va Kompyuter tomografiyasi (KT) – o‘smalarning chuqur lokalizatsiyasi, infiltratsiyasi va atrof to‘qimalarga tarqalishini baholashda ishlatiladi. Minimal invaziv va an’anaviy jarrohlik texnologiyalari.Laparoskopiya – videokamera va maxsus uskunalar yordamida qorin bo‘shlig‘iga kichik kesiklardan kirib bajariladigan operatsiya. Kam og‘riq, qisqa reabilitatsiya va kosmetik afzalliklarga ega.Bachadon ichki devorini ko‘rish va patologik to‘qimalarni olib tashlash imkonini beradi.Robotlashtirilgan jarrohlik – inson harakatlariga

nisbatan ancha aniqlikda, titrashsiz ishlaydi. Bu texnologiya murakkab holatlarda bachadon yoki tuxumdonni asrab qolish imkonini yaratadi.An’anaviy laparotomiya – hozirda faqat yirik, malign o‘smalarda yoki shoshilinch hollarda qo‘llaniladi. Zamonaviy anesteziologiya, monitorlar va koagulyatsiya vositalari tufayli xavfsizligi oshgan.Genetik va molekulyar diagnostikaBRCA1, BRCA2, TP53 va boshqa gen mutatsiyalarini aniqlash saraton xavfini baholashga imkon beradi.Molekulyar profiling – o‘smadagi genetik o‘zgarishlarga qarab shaxsiylashtirilgan davolash strategiyasini belgilash imkonini beradi.MdPap-smear va HPV testi – serviks saratoni uchun skrining standartlaridan biri bo‘lib, texnologik asoslangan erta aniqlash tizimi. Innovatsion terapevtik yondashuvlarMaqsadli terapiya – faqat saraton hujayralarini nishonga oladi va sog‘lom to‘qimalarga minimal zarar yetkazadi.Immunoterapiya – bemorning immun tizimini faollashtirib, saraton hujayralariga qarshi kurashadi.Gormonoterapiya – estrogenga bog‘liq o‘smalarda (masalan, endometriy saratoni) yuqori samara beradi.Radioterapiya – tashqi yoki braxiterapiya (ichki) shaklida bo‘lib, ayniqsa serviks saratonida keng qo‘llaniladi.5. Reproduktiv salomatlik va texnologik yechimlarKo‘plab ginekologik o‘smalar bepushtlikka olib keladi. Quyidagi texnologiyalar ayolning reproduktiv funksiyasini saqlab qolishga xizmat qiladi:IVF (in vitro fertilizatsiya) va ICSI – sun’iy urug‘lantirish texnologiyalari.Ovarial to‘qimalarni muzlatish (kriyokonservatsiya) – davolashdan oldin tuxumdon salohiyatini saqlash imkonini beradi.Reproduktiv reabilitatsiya protokollari – operatsiyadan so‘ng bepushtlikni bartaraf etishga yo‘naltirilgan yondashuvlar.Ginekologik o‘smalarni davolashda operatsion texnologiyalar: zamonaviy yondashuvlar. Laparoskopik jarrohlik (minimal invaziv usul) Tavsifi:Laparoskopiya bu – qorin devorida kichik (0.5–1 sm) kesiklar orqali kiritiladigan videokamera va mikroasboblar yordamida bajariladigan operatsiyadir. Ginekologik amaliyotlarda qo‘llanishi:Bachadon miomasini olib tashlash (miomektomiya).Tuxumdon o‘smalari ,Endometrioz o‘choqlarini yo‘qotish Bachadonni to‘liq olib tashlash .Afzalliklari:Og‘riq kamligi,Tiklanish tezligi (3–5 kun),Qon yo‘qotishning minimal darajasi,Reproduktiv a’zolarni saqlab qolish imkoniyati,Estetik natija (kattaroq chandiqlarsiz), Intraoperatsion vizualizatsiya va navigatsiya texnologiyalari 3Dlaparoskopiya:Oddiy laparoskopiyadan farqli ravishda uch o‘lchamli tasvirlar yordamida organlar va o‘smalarni yanada aniq ko‘rish imkonini beradi. Fluoresan texnologiyalar:O‘smaga yaqin limfa tugunlarini aniqlash uchun ishlatiladi.Ayniqsa, bachadon bo‘yni saratoni operatsiyalarida sentinel limfa tugunlarini aniqlashda foydalidir.Energiya asosidagi texnologiyalar. Ultrasonik skalpel .Qon tomir va to‘qimalarni bir vaqtning o‘zida kesib va koagulyatsiya qiluvchi asbob.Qon ketishini kamaytiradi, operatsiya vaqtini qisqartiradi. Elektrokoagulyatsiya va lazerlar.O‘smalarni bug‘lantirish yoki kesishda ishlatiladi.Lazer ablyatsiyasi — ba’zi o‘smalarda (poliplar, papillomalar) qo‘llaniladi.Anesteziya va monitoringdagi texnologik yutuqlar.Intellektual narkoz monitoringi .Bemor hushyorligi darajasini real vaqt rejimida kuzatadi.Optimal og‘riqsizlantirish va xavfsizlikni ta’minlaydi. Intraoperatsion hayotiy ko‘rsatkichlarni avtomatik monitoring qilish tizimlari.Yurak urish tezligi, qon bosimi, kislorod darajasi kabi parametrlar doimiy nazoratda bo‘ladi.Operatsiyadan keyingi reabilitatsiyada texnologiyalar.Mobil ilovalar yordamida reabilitatsiya monitoringi: Bemor uyda bo‘lganida sog‘ligi, og‘riq darajasi va tiklanish tezligi haqidagi ma’lumotlar shifokorga yetkaziladi. Operatsion amaliyotlarda texnologiyalar ginekologiyada quyidagilarga erishish imkonini berdi:Kasallikni kam invaziv yo‘l bilan bartaraf etish;Murakkab joylashgan o‘smalarni aniqlik bilan olib tashlash;Reproduktiv salomatlikni saqlab qolish;Bemor xavfsizligini oshirish;Qisqa muddatli reabilitatsiya va hayot sifatini yaxshilash;

Xulosa. Zamonaviy tibbiy texnologiyalar ginekologik o‘smalarni aniqlash, baholash va samarali davolashda beqiyos ahamiyatga ega. Diagnostika vositalarining aniqligi, operatsion texnikalarning kam travmatikligi va terapevtik yondashuvlarning shaxsiylashtirilganligi kasallikning erta bosqichlarida aniqlanishi va to‘liq davolanishiga imkon yaratmoqda.Operatsion amaliyotlarda robotlashtirilgan tizimlar, laparoskopiya va intraoperatsion vizualizatsiya vositalari yordamida murakkab holatlar ham kam invaziv usullar bilan yechim topmoqda. Shu bilan birga, genetik skrining va immunoterapiya kabi innovatsion yondashuvlar bemor hayotini saqlab qolish, uning sifatini tiklash va reproduktiv salomatligini ta’minlashda katta rol o‘ynamoqda.Kelgusida sun’iy intellekt, nano-texnologiyalar, individual gen terapiyasi va 3D-navigatsiya tizimlari yordamida ginekologik onkologiyada texnologik davr yangi bosqichga ko‘tarilishi kutilmoqda. O‘zbekistonda ham bu yo‘nalishdagi rivojlanishlar izchil davom etmoqda va global tajribalarni joriy qilish orqali tibbiy xizmat sifati oshib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Agababyan L.R. “Ginekologiya”, Samarqand, 2023.
2.Ayupova F.M., Jabborova Yu.K. “Ginekologiya”, Toshkent, Mehridaryo, 2008.
3.Kulakov V.I., Serov V.N., Gasparov A.S. (tahr.) “Ginekologiya”, Rossiya, 2006.

4.Radzinskiy V.E. va boshqalar (tahr.) “Ginekologiya”, Moskva, GƏOTAR Media, 2022.
5.Karimov Sh.I. “Xirurgik kasalliklar”, Toshkent, 2005.
6.Shukurov F.I., Nigmatova G.M. – “Akusherlik va ginekologiya”, T., Tibbiyot Nashriyoti Matbaa Uyi, 2022
7.Kattaxodjaeva M.X. – “Akusherlik va ginekologiya”, Toshkent, Asian Books House, 2021

NORMUROD NORQOBILOV HIKOYALARIDA MONOLOG VA ICHKI NUTQ MASALASI

G.H.Oxunova
Farg`ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada monolog va ichki nutqning badiiy asar poetikasida tutgan o`rni, ichki nutq va monologning alohida-alohida nutq hodisasi sifatida baholash mezonlari haqida fikr yuritilib, Normurod Norqobilov hikoyalari misolida tahlil etilgan.
Kalit so`zlar: badiiy til, badiiy nutq tiplari, ichki nutq, monolog.
Аннотация. В статье рассматривается роль монолога и внутренней речи в поэтике художественного произведения, критерии оценки внутренней речи и монолога как отдельных речевых явлений, а также проводится их анализ на примере рассказов Нормурода Норкобилова.
Ключевые слова: художественный язык, виды художественной речи, внутренняя речь, монолог.
Abstract. This article discusses the role of monologue and inner speech in the poetics of a work of art, the criteria for evaluating inner speech and monologue as separate speech phenomena, and analyzes them using the example of Normurod Norqobilov's stories.
Keywords: artistic language, types of artistic speech, inner speech, monologue.

Badiiy adabiyotda sifat o`zgarishining yuz berishi, eng avvalo, tilda namoyon bo`lib, u asarda ixchamlik, mayinlik, ravonlik va soddalikka erishish bilan belgilanadi. Asarining badiiy jihatdan puxta, o`qimishli, jonli bo`lishini xohlagan san’atkor tili ustida qattiq mehnat qiladi. Yozuvchining o`ziga xos uslubi faqatgina muallif nutqining pishiq ishlanganligida emas, balki personajlar nutqining ham mahorat bilan o`z o`rnida qo`llanilishida ham namoyon bo`ladi. Chunki asardagi har bir personajning nutqi uning xarakter xususiyatlariga, dunyoqarashi, muhiti, ma’naviy qiyofasi, madaniy-ma’rifiy darajasi kabi jihatlarga muvofiq bo‘lishi lozim. Sababki, epik va dramatik asarlarda qahramon xarakterini yaratishning asosiy vositalaridan biri personaj nutqi sanaladi. O‘z navbatida personaj nutqini badiiy asarda obraz yaratilishidagi muhim unsur sifatida o‘rganish lozim. Chunki personajning nutqi orqali yozuvchi o‘zi xohlagan obraziga badiiy jon kiritadi, uning xarakteri, kimligi nutqi vositasida oydinlashadi. Bu o`rinda monologik va ichki nutq alohida ahamiyatga ega nutq shakllariga kiradi.

Ayrim holatlarda monologni ichki nutq bilan adashtirish yoki ikkalasi bir tushuncha deb atash holatlari uchrab turadi. Lekin monologik nutq va personajning ichki nutqi orasida katta farq bor. Badiiy nutq tiplari bo`yicha tadqiqot olib borgan M.Baxtin ham, V.Kojinov ham, A.Fedorov ham monologik nutqni alohida nutq sifatida ajratishmagan. Faqat adabiyotshunos olim Yo`ldosh Solijonov monologni asar strukturasida muhim o`rin tutishini ta’kidlab, uni alohida nutq tipi sifatida baholaydi va o`zining dissertatsion ishida aniq misollar bilan batafsil isbotlab beradi[1.2002:B.65].

Dastavval ikki nutq hodisasi o`rtasidagi tafovutlarni aniqlab olamiz:

Farqi	Ichki nutq	Monologik nutq
Mundarijasi	Insonning ichki his-tuyg`ulari, kuchli hayajonlarini ifodalaydi.	Ko`p hollarda hayotning juda muhim masalalarini aks ettiradi.
Strukturasi	Qisqa, ixcham, lo`nda tarzda namoyon bo`ladi. Nutqda ko`proq munosabat yo`nalishi ustun turadi.	Katta hajmga ega, uzun jumlalardan iborat bo`lib, o`z zimmasiga muhokama, munozara, mulohaza, tahlil qilish, tasdiqlash va tazarru vazifalarini oladi.
Paydo bo`lish o`rni	So`zlashuv jarayonidagi oniy lahzalarda qisqa-qisqa	Ko`p hollarda suhbatdan so`ng yoki oldin tartib bilan yaxlit

	ko`rinishda, betartib tarzda paydo bo`ladi.	tuziladi, ma’lum maqsadga yo`naltiriladi, biron-bir muammoni yechishga qaratiladi.
Vaziyati	Vaqt ham, joy ham tanlamay, ro`yobga chiqadi.	Zamon va makon kategoriyasi muhim o`rin tutadi.

Nutq avvaldan rejalashtirilgan va tayyorlangan bo‘lishi, ayni paytda u rejalashtirilmagan va, tabiiyki, tayyorlanmagan nutq bo‘lishi ham mumkin.

Normurod Norqobilov asarlarida ichki va monologik nutq o‘ziga xos shakllarda namoyon bo`ladi. Adibning hikoyalari insonning ichki dunyosini ochib beruvchi go`zal tasvirlar bilan boyitilganki, bu borada ichki va monologik nutqning roli muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’kidlanganidek, ichki nutq – bu xarakterlarning o‘z-o‘ziga yoki boshqalarga aytmagan fikr va hissiyotlari majmuidir. Normurod Norqobilovning hikoyalarida ichki nutq, ko‘pincha, personajlarning ichki konfliktlari, fikr-mulohazalari va ruhiy holatini ochib berish uchun xizmat qiladi. Masalan, adibning “Enatosh” nomli hikoyasida ham ichki nutq, ham monologik nutq hodisasini kuzatish mumkin: “Vaqtida yolchitib o`qimaganmiz-da, agar o`z vaqtida manovu pishmagan xomkallani toshlarga urib-urib o`qiganimizda bormi, bu qadar omi, bu qadar fikri sust tanbal bo`lmasdik… Qarang-ga-a, axir buning bari shunchaki tosh emas, mohir usta qo`li bilan yasalgan toshhaykallarga o`xshaydi-ku…”[2. 2022:B.111]. Asar qahramoni Tog`ay onasi vafotidan so`ng do`nglik tepasida qad rostlagan ulkan qoyatosh – “Enatosh”ni tuyqus volidasiga o`xshab ketishini payqab qoladi. “Boshida lachak, so`l qo`li ko`ksiga yopishgan, o`ng kafti tizzasida, tepalik sari xayolchan termulib o`tirgan” ona timsoli uning ayriliq tilib o`tgan ko`ksiga malham bo`lganidan, sog`inchlarini qondirganidan yuqoridagi so`zlar xayoliga quyilib keladi. Mazkur nutq bejiz ko`plikda keltirilmagan. Chunki qaysidir bir yili ovuliga mehmon bo`lib kelgan sayyohlardan biri Enatoshni ona timsoliga qiyoslab, suratini olgan va unga sakkiz qator she’r bag’ishlab gazetaga bosib chiqargandi. Ushbu voqea sabab qoyatosh Enatoshga aylangan esa-da, baribir ovul kishilarining ayricha e’zoziga sazovor bo’lmagan, qaytamga o`sha “shoir” sayyoh ustidan “Bechora g`irt yetim ekan-da, a, toshni enamlab qopti!” deb anchagacha kulib yurishgan edi. Shuning uchun Tog`ay barcha ovuldoshlari tilidan so`zlagan holda o`sha vaqtda fahmi yetmagan “mo`jizaga” endi aqli yetib turibdi. Bu tan olish, bu iqror esa uning ichki nutqida namoyon bo`lgan. Mazkur nutq shakli orqali uning ichki azoblari, ongi-yu qalbida bosh ko`targan o`z-o`ziga isyoni, e’tirozi tasvirlangan. Natijada o‘quvchi personajning ruhiy holatini chuqurroq anglashiga erishilgan.

Xuddi shu hikoyada monologik nutq shakli ham mohirlik bilan qo`llangan: “Tog'ayning yuragi tuyqusdan olovlanib, xuylanib, kishini his etish va anglashdan ko'ra, uning ustidan kulishni xush ko'radigan xeshlariga nisbatan adovatga o'xshash otashli bir tuyg'uni his etib, achchiq-tizziq gaplar bilan barini boplab qamchilashni ko'ngliga tugdi: “Kuydirgan kalladay tirjayishni bas qilib, avval manovu gapni eshitinglar! Bugun men buni ilkisdan bildim, barimiz ko'r, Enatoshni aynan enamga o'xshashini bilmaydigan darajada basir ekanmiz! Qaranglar! Ha-a, tuzuklab qaranglar, kimga o'xshaydi bu?! Enamga o'xshaydi! Endi gap shu, bundan so'g'in har kuni Enatoshni tavof qilamiz! Bugun kech, ertan poyiga bir jonliq so'yamiz, qon chiqaramiz! Nimaga deganda, bu tosh nafaqat enamga o'xshaydi, unga, ha, unga, enajonimning ruh-ruxsori singgan! Bugun menga boshqacha qaradi! Ha, xuddi enamday qaradi!” Bu gap-so'zlari jigarlariga nechog'li jiddiy ta'sir etishini o'zicha tasavvur etib, yuziga tund tabassum indi”[3. 2022:B.111].

Asar qahramoni Tog`ayning nutqini monologik nutq shakli qoidalariga muvofiq ko`rib chiqamiz:

10. Nisbatan katta hajmga ega, uzun jumlalardan iborat.

11. Nutqda personaj Enatoshni onasiga o`xshashini anglatishi (mulohaza), jonliq so`yib, uni tavof qilishga chaqirishi (muhokama), enasining unga ruxsori singganini ta’kidlashi (tasdiqlash) va enasiga o`xshashini bilmaydigan darajada basir ekanini tan olishi (tazarru) monologik nutq yo`nalishlari vositasida bo`rtib ko`rinadi.

12. Oldindan o`ylangan, xayolda pishitilgan, aniq makon va zamonda ro`y berishi rejalashtirilgan.

13. Maqsadga yo`naltirilgan: qoyatoshga hurmat bilan qarash, ona mehrini, uning issiq taftini Enatosh bag`ridan topishga intilishga da’vat ifoda etilgan.

Normurod Norqobilov hikoyalarida ichki va monologik nutq shaklining ko`p uchrashiga asosiy sabab shundaki, yozuvchi qahramonlari turg`un emas, hamisha harakatda, ular o`z-o`zini izlaydi, hayotini, bosib o`tgan umr yo`lini tahlil qiladi, odamzod qalbidagi illatlar-u xislatlarga munosabat bildiradi.

Shuningdek, yozuvchi hikoyalarida ichki nutq orqali personajning hissiyot va fikrlarini ifodalash imkoniyati yaratiladi, monologik nutq vositasida esa bu hissiyotlarning tashqi dunyo bilan o‘zaro

munosabati ochib beriladi. Hikoyalarda bu ikki element bir-birini to‘ldirib, personajning ruhiy holatini yanada chuqurroq aks ettirishga xizmat qiladi.

“Chetdagi odam” hikoyasida bola obrazi misolida ichki nutqning o`ziga xos xususiyatlari ifoda etiladi: “Qarasa-ki, ammasi uni g'irt nodonga chiqarayapti. Axir u nodon bola emas, g'animdan o'ch olmoqqa qodir yigit-ku! Qachongacha bu ayol uni bola o'rnida ko'radi? Eya, qo'li qiyshiq mergan deyaptimi? Axir qishloqda mendan o'tadigan mergan yo'q-ku. Kerak bo'lsa, chumchuqning ko'zidan uraman! Iya, ishtoni so'kilgan shumtakasi nimasi?! Tag'in, shu qizni senga oberaman, deganiga o'lasanmi! Tavba, xiyonatkorning qiziga uylanib, esimni yebmanmi men! Uf-f, tag'in qo'li qiyshiq mergan deydi-ya!” [4. 2022:B.125].

Parchani ichki nutq shakli qoidalariga ko`ra tahlilga tortamiz:

a) Yozuvchi ichki nutq orqali bolaning his-tuyg`ulari, hayajonlarini ifodalagan holda o`smir ong-u shuuridagi g`alayonlarni xoh darak, xoh so`roq, xoh undov gaplar misolida beradiki, bu jihat uning murg`ak qalbi, toza ruhi hamda bolalarga xos o`jar fe’lini namoyon etadi.

b) Nutq qisqa, ixcham, lo`nda tarzda bo`lib, unda munosabat yo`nalishi, ya’ni norozilik kayfiyati ustunlik qiladi.

c) Bolaning ichki nutqi ammasining unga tanbeh berish jarayonidagi oniy lahzalarda qisqa-qisqa ko`rinishda, betartib tarzda paydo bo`ladi.

d) Vaqt ham, joy ham tanlamay bola ichida akslanadi.

Normurod Norqobilov bolalar dunyosini kashf qilishda ichki nutqdan mohirlik bilan foydalanadi. Tabiatiga ko`ra eng ko`p savol berishga moyil bo`lgan bola obrazining turli-tuman qirralarini, uning beg`ubor olamini ochishda ichki nutq “oltin kalit” vazifasini bajaradi: “Qiziq, elakda un elanadi, bug`doy elanadi… qanaqasiga uni kishi og`ziga tutib yurish mumkin? Ammam meni kalaka qilayapti-yov!” [5. 2022:B.125]. Bola ammasining “El og`ziga elak tutib bo`larmidi?” degan ritorik so`roq gapiga o`zicha javob izlaydi va bu gapga bolalarga xos yo`sinda o`z munosabatini bildiradi.

“Mening ham shunaqa ro`molcham, bo`lganidami, bolalarga ko`rsatib, rosa havaslarini keltirardim! Keyin to`rdagi oyna tepasiga yoyib qo`yardim! Uyimiz biram chiroyli bo`lib ketardi keyin!..” [6.2022:B.303]. “Ro`molcha” hikoyasi bolaning ichki monologi bilan boshlanib, uning qiziquvchanligi, qalbida qandaydir notanish “yangi” hislarning bo`rtib chiqishiga zamin hozirlanayotganini anglatadi. U ro`molcha topib olgandan so`ng o`zining ham shunday ro`molchasi bo`lishini orzu qiladi va shu xayollari ichki monolog shaklida o`quvchiga anglashiladi. Atrofidagi kimsalarning unga nisbatan bildirgan fikrlari esa qalbida norozilik kayfiyatini uyg`otib, bu e’tiroz ichki nutq shaklida ham namoyon bo`ladi: “Nega unaqa deydi? Qachon katta yigit bo`laman-u… Eh-hi!” Bolaning ichki tuyg`yonlari so`roq shaklida qalbida aks-sado beradi.

Tahlillardan ko`rinib turibdiki, ichki va monologik nutq asar personajlarini yanada real va qiziqarli tasvirlashda muhim rol o‘ynaydi. Ularning ichki dunyosi va hissiyotlarini chuqurroq anglash imkonini beradi, shu bilan birga monologik nutq orqali tashqi dunyo bilan o‘zaro munosabatlarni ko‘rsatadi. Bu elementlar adibning asarlarini o‘ziga xos va ta’sirchan ifodalanishida yetakchilik qiladi.

Normurod Norqobilovning "Olim o‘g‘il" hikoyasida ham badiiy nutq o‘ziga xos uslub va tasvirlar bilan ifoda etiladiki, hikoyadagi qahramonlar harakati, o‘ylari, boshqalar bilan muloqoti va bahslari natijasida bizning tasavvurimizda hayotdagi kabi jonlanadi. Shayman cholning og‘ir ruhiy holatini birovga aytib bo‘lmaydigan yashirin, iztirobli dardlarini ovoz chiqarmasdan tahlil qilib, kitobxonga yetkazgan nutqi ichki nutq ko‘rinishida ifodalanadi.

“Aytdim-ku, bunda pul ko‘p deb, emasam, buytiblar yozilib, emin-erkin o‘tirmasdi. Ammo qanday qilib bundan pul so‘rayman? Farzanddan pul so‘rash... e-e, o‘zim uchun emas, jigari uchun so‘rayman-da. Axir shunday paytda qayishmasa, qachon qayishadi. Xay, kishi bilmas qitiqlab ko‘ray-chi. Tushunsa tushunar, tushunmasa, otasining jiligiga, dangalini aytaveramiz-da”[7. 2022:B.272].

Shayman cholning qisqagina nutqi orqali yozuvchi uning xarakteriga xos muayyan xususiyatlarni ham o‘quvchiga tasvirlab beradi. Muallif Shayman cholning ichki kechinmalari tasvirini mohirlik bilan aynan qahramon nutqi orqali beradi-ki, emotsionallashgan nutq natijasida o‘quvchi cholning ruhiyati bilan yaqindan tanishadi. “Ilm pul bilan o‘lchanmaydi”, degan haqiqatga ishonuvchi o‘g‘il alaloqibat cholning “umid”ini puchga chiqaradi.

O`g`lining javobidan so`ng Shayman cholning qalbida qo`zg`olgan g`alayon ichki nutqni yuzaga keltiradi. “Shayman chol alam va g‘azabdan chayonday gajak tortib, tashqariga yo‘naldi. Negadir, Haydar ko‘sani topib, qolgan alamini undan olmoqqa qasd qildi. Shu tobda cholga ikki dunyo bir, yakkash

baqirardi: “Osmoningdan ne foyda menga! Javdiragan tussiz yulduzlaringni boshimga uramanmi! E, seni o‘qitganning padariga ming la’nat!”

Ushbu parchadagi oxirgi jumlalar, cholning g‘azab va alam bilan aytgan so‘zlari, aslida uning o`ziga qaratilgan, uning ichidagina kechuvchi nutqi, o`z haqiqati edi. Uning bu baqirig‘ini o‘g‘li eshitdimi yoki yo‘q, ma’lum emas. Mazkur parchada garchi ichki nutq moddiylashgan, ya’ni baqirib aytilgan bo`lsa-da, lekin personaj nutqining o`ziga qaratilgani shartlilik asosida bu gaplarni haqiqatda voqe bo`lmagan, balki uning ongida kechgan jarayon imitatsiyasi deb qabul qilishni taqozo etadi. Shunga o`xshash personajning boshqa personajlar bilan muloqot chog`ida “chetga” gapirishi ham haqiqatda gapirilmagan deb qabul qilinadi[8.2013:B.126]. Hikoyada Shayman cholga tegishli bo`lgan ichki va monologik nutq orqali yozuvchining xarakter yaratish mahorati namoyon bo`ladi.

Normurod Norqobilovning hikoyalarida monologik nutq o‘ziga xos holda, ya’ni katta hajmli yoki yaxlit holda kuzatilmaydi. Balki qisqaroq bayon etiladi va ko`proq suhbatlarda “tug`iladi”. Natijada dialogik nutqning monologga aylanib ketish hodisasi ro`y beradi. Adibning “Tungi mehmon” hikoyasida xuddi shu jarayon aks ettirilgan. Qahramonlarning kuchli kechinmalarini hayajon bilan ifodalash uchun dialogik nutq monologik nutqqa aylanib ketgan. Bunday holatni biz hikoyadagi Qilichbekning nutqida uchratamiz. Uning sodda, turmushning achchig‘ini totgan inson sifatidagi qiyofasini, mehrga zorligini, Chamanoyning ota-onasi haqidagi xotiralarini muallif shunday ifoda etadi.

“- Otang qadrdonim, onang mehribonim edi, - qorong`idagi kimsaning ovozi to`lqinlanib, nimanidir eslaganday, bir muddat jim qoldi-da, so`ng mahzun ohangda yana gapda davom etdi: - Qo`lingda necha martalab choy ichganman, ota-onang hayotligida. Kimliging va nimaga qodirligingni yaxshi bilaman, Chamanoy! Bugun negadir oyog`im shu tomonga tortdi. Negaligini o`zim ham bilmayman. Sovuq to`qayzordan ko`ra inson mehrini istadim shekilli. Senga nisbatan xayolimda yomon o`y yo`q. Tuzingni totganman axir, Chamanoy! Yomon xayolga borib o`libmanmi!” [9.2022:B.209].

Hikoyadan olingan quyidagi monolog orqali o‘quvchi personajning ruhiy holati, uning ichki dunyosi, ma’naviy qiyofasini ko‘z o‘ngida gavdalantirish bilan birga hayot, odamlar haqidagi chuqur mulohaza va o‘ylaridan ham xabardor bo‘ladi:

“ – Bilsang, ular menga xuddi zaharli ilonga qaraganday boqishadi! – Qilichbek nigohini boshqa nuqtaga oldi. – Bu turishlarida, erta-indin nodon tog'alariga qo'shilib menga qo'l ko'tarishdan ham toyishmaydi. Ularni o'zimcha tarbiyalashga xo'p urinib ko'rdim. Biroq har ikki gapning birida ota degan jonivor loyga qorilib tursa, bergan tarbiyang qumga sepilgan suvday bir gap ekan. Rahmatli qaynotam, sen bizga to'g'ri kelmaysan, deganda, men ahmoq, u kishidan xafa bo'lganman, yetimligimni nazarda tutayapti deb. Endi bilsam, men nodonni ayagan ekan. Muhabbatdan ko'zim shapaqlanib, johil to'daga intilgan ekanman. Mana endi, yaxshining yomon, yomonning yaxshi bo'lmog'iga gumonlangan holda o'zim pishirgan zaharli oshni aylanib ham, o'rgilib ham ichib kelayapman…”[10.2022:B.211]. Personajning dialogik nutqi monologik nutqqa aylanib ketgan mazkur parcha “mehmon”ning oilaviy muhiti, uning xotini va farzandlari bilan munosabati, oiladagi o`rni haqida o`quvchiga kerakli tasavvur bera olgan. Ushbu monologning yana bir xususiyati unda o`zganing nutqi ham aks etganidadir. O`zganing nutqi bu asardagi birorta voqea-hodisada qatnashmagan esa-da, uning so`zi, boshqa personaj nutqi orqali kirib kelishidir. “Rahmatli qaynotam, sen bizga to'g'ri kelmaysan, deganda, men ahmoq, u kishidan xafa bo'lganman, yetimligimni nazarda tutayapti deb”. “Tungi mehmon” hikoyasida qaynota obrazi uchramaydi, lekin Qilichbek o`z nutqi orqali uning so`zlarini hikoyaga olib kirgan.

Ta’kidlanganidek, adib hikoyalarida dialogning monologik nutqqa aylanib ketish holatlari ko`p uchraydi. Lekin adib o`z asarlarida qahramonlarning monologlariga ko`p o`rin beravermaydi. U asar qahramonlarining ijtimoiy hayotga, atrofda bo`layotgan voqea-hodisalarga qarashini muallif nutqi tarkibiga singdirib yuborilgan personaj so`zi – subyektivlashtirilgan nutq zimmasiga yuklaydi. Fikrimizni “Aka-ukalar” hikoyasi misolida dalillaymiz: “Zarif jo'rasi nechog'lik darajada “hissiz” va “to'nka” bo'lmasin, oqibatu sadoqat borasida mana-man degan yigitlarni changgu chungda qoldirib ketadi. Ular ikki yillik harbiy xizmatda avval jiqillashib, so'ng do'stlashgan va oradan yillar siypalanib o'tayotgan esa-da, lekin ikkisi orasidan halicha qil sirg'almagan, bu turishda hech qachon sirg'almasa ham kerak. Zarif jo'rasi shaharga tushar bo'lsa, tug'ishganlari qolib, hamisha birinchi o'rinda do'stini yo'qlaydi. Javlonga uncha xush kelmaydigan bir fe'li, o'lardek o'r – tutgan joyini kesmay qo'ymaydi. Bu qilig'i bilan “er degan jonivorning burch va vazifasi qog'oz bo'yash emas, pul topish”, deya sakkillavyerib, oxir-oqibatda turmushini chilparchin qilgan qaynonasiga o'xshabroq ketadi” [11.2022:B.372].

Ko`rinadiki, rassom Javlonning Zarif jo`rasi haqidagi o`ylari, ikki do`stni bog`lab turgan mustahkam munosabatlari muallif tomonidan unga xos so`zlar orqali ifodalab berilyapti. Parchada qahramon “men”i

sirtdan ko`rinmasa-da, muallif xolis turib, uchinchi shaxs to`g`risida so`z yuritayotgandek tuyulsa-da, aslida bu Javlonning fikrlari, mulohazalaridir, ichki monologdir. Ayni paytda unga o`zganing so`zi ham qo`shilgan, ya’ni o`zi bu jarayonda ishtirok etmayotgan qaynonasining gaplarini Javlon o`ylari orqali muallif nutqidan anglab olamiz. Demak, adib bilvosita avtor nutqi tizimida bir yo`la bir necha kishining nuqtai nazari qorishib, sintezlashib ketgan ko`pqatlamli monologik nutq shaklini yaratadi.

Odatda, hikoya janrining tabiatidan kelib chiqib personajlar nutqi monologik nutq shaklida keng uchramaydi, aksincha monologik nutq hikoyada qisqa, siqiq holatda keladi.

Yozuvchi ma’lum xarakterni yaratar ekan, uni individuallashtirish ustida ko‘p ishlashi talab qilinadi. Xarakterni individuallashtirish faqatgina muallif nutqi yoki dialog bilan cheklanib qolmaydi, bu borada ichki nutq va monologning ham o`rni juda katta. Yozuvchi qahramonlar xarakterini ochishda, uning dunyoqarashi, ruhiyatini ifodalashda, vaziyatni aks ettirishda mazkur nutq shakllaridan mahorat bilan foydalanadi, uning asardagi o‘rnini yaxshi anglaydi. Ichki va monologik nutq asar ritmini belgilashda ham muhim rol o‘ynaydi.

Yozuvchi “Olim o‘g‘il”, “Quduq”, “Enatepa”, “Quyosh tutilgan kun”, “Tepalik”, “Shim yoxud xotinlar janjali” va “Qiz o‘g‘irlash” hikoyalarida mazkur nutq shakllaridan foydalanishi natijasida personajlarning xarakterini individuallashtirish, takomillashtirish kabi keng imkoniyatlarga ega bo‘ladi. Masalan, “Olim o‘g‘il” hikoyasida Shayman chol va o‘g‘li, “Quyosh tutilgan kun” hikoyasida esa Sobir polvon, Boborayim govlarning nutqini misol qilishimiz mumkin. Bu hikoyalarda personajlarning xarakterini shakllantirishdan tortib, ular o‘rtasidagi ziddiyat sabab syujetni rivojlanishigacha nutqning o‘rni muhim ekanligini ko‘ramiz.

O`rganilgan tahlillarga asosan, Normurod Norqobilov hikoyalaridagi badiiy nutq vazifalarini quyidagicha baholash mumkin:

1. Ichki nutq va monologik nutq:

Ichki nutq: adib hikoyalarining markazida personajlarning ichki dunyosi, ularning ruhiy holati va o‘z-o‘zini tahlil qilish jarayoni turadi. Ichki nutq orqali ular ichki kurashlari, o‘zini anglashi va hissiyotlarini yanada chuqurroq ifodalaydi. O‘quvchi asar qahramonlarining his-tuyg‘ulari, iztiroblari va konfliktlarini batafsilroq tushunadi.

Monologik nutq: hikoyalarda monologik nutqning qo‘llanilishi personajlarning shaxsiy qarashlari va qalbida kechayotgan jarayonlarni yaqqol ifodalanishida muhim rol o‘ynaydi. Bu uslub orqali qahramonlar o‘z-o‘zini tanqid qiladi, tahlil qiladi, voqea-hodisalarga baho beradi, mulohaza yuritadi, vaziyatlarni muhokama qiladi, yoqlaydi yoki qoralaydi, o‘z hayoti va qarorlariga nisbatan munosabatlarini bildiradi.

2. Til va ifoda:

Tasviriy va poetik til: adib hikoyalari tili tasviriy va poetik bo‘lib, personajlarning ruhiy holatini va atrof-muhitni jonli tasvirlanishiga yordam beradi. Yozuvchining boy va rang-barang til uslubi hikoyaning estetik va badiiy qiymatini oshiradi.

Metaforalar va tasviriy ifodalar: Hikoyalarda ko‘plab metaforalar, timsollar va tasviriy ifodalar mavjud bo‘lib, ular asarning badiiy kuchini oshiradi. Mazkur jihatlar personajlarning ichki dunyosini va hissiyotlarini o‘quvchiga aniqroq yetkazishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Normurod Norqobilov qahramonlar xarakterini ochish, uning dunyoqarashi va ruhiyatini ifodalashda ichki nutqdan mahorat bilan foydalansa ham, adib hikoyalarida monologik nutq katta hajmli yoki yaxlit holda kuzatilmaydi. Balki qisqaroq bayon etiladi va ko`proq suhbatlarda “tug`iladi”. Natijada dialogik nutqning monologga aylanib ketish hodisasi ro`y beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

- ✓ Norqobilov N. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Firdavs-Shoh, 2022.
- ✓ Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
- ✓ Solijonov Y. XX asrning 80-90- yillari o`zbek nasrida badiiy nutq poetikasi:Filologiya fanlari doktori dis… Toshkent, 2002.
- ✓ Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Тошкент: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2004.

KO‘P TARMOQLI MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA O‘QUV-TARBIYAVIY JARAYONNI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY KORREKTSION TEXNOLOGIYALARI

N.B.Alchurazova

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ko‘p tarmoqli maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarkibida turli hududiy filiallar, ixtisoslashgan guruhlar va qo‘shimcha xizmatlar majmuasi faoliyat yuritadi. Bunday tizimda ta’lim-tarbiya jarayoni bir vaqtning o‘zida ham standartlashuv, ham mahalliy ehtiyojlarga moslashuvni talab qiladi, ayniqsa maxsus pedagogik yordamga muhtoj bolalar bilan ishlashda. Yondashuv markazida o‘yin va ijtimoiy o‘zaro ta’sirga tayanadigan rivojlantiruvchi muhit, formatif baholashga asoslangan individual rivojlanish dasturlari, multimodal kommunikatsiyani qo‘llab-quvvatlovchi vositalar, sensor integratsiya, xulq-atvorni tahlil qilish tamoyillari hamda TEACCH va DIR/Floortime kabi tuzilmaviy yondashuvlarning kontekstual talqini turadi. Tezisda korrektsion xizmatlar uzluksizligi, filiallararo kalibrlash va superviziya, telekorrektsiya imkoniyatlari, ota-ona bilan hamkorlik hamda resurslar tengligi sifat ko‘rsatkichlari sifatida talqin qilinadi. Natijalar bo‘limi taklif etilayotgan modelning amaliy mexanizmlarini yoritib, ko‘p tarmoqli tizimda korrektsion pedagogika samaradorligini oshirish uchun dalillarga asoslangan operatsion yechimlarni bayon etadi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim; korrektsion pedagogika; ko‘p tarmoqli tashkilot; TEACCH; ABA; sensor integratsiya; formatif baholash; multimodal kommunikatsiya; telekorrektsiya.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda rivojlanishning individual sur’atlari va profillari sezilarli farqlanadi. Til va nutqdagi kechikishlar, sensor qayta ishlashdagi o‘ziga xosliklar, ijtimoiy muloqot va xulq-atvor moslashuviga doir qiyinchiliklar hamda nevropsixologik omillar pedagogik aralashuvlarning aniqligini talab qiladi. Ko‘p tarmoqli tashkilotlar miqyosida bu talablar boshqaruv va metodik qo‘llab-quvvatlash tizimlari bilan uzviy bog‘lanadi, chunki turli filiallar resurslari, mutaxassislar tarkibi va til-madaniy kontekst bo‘yicha farq qiladi. Shu sababdan zamonaviy korrektsion texnologiyalarni yagona pedagogik yadro va umumiy baholash me’yorlari asosida, ammo mahalliy talqin va moslashuv imkoniyati bilan joriy etish dolzarbdir. Ushbu tezis ana shunday integratsion modelni taqdim etadi, unda bolani faol sub’ekt sifatida ko‘ruvchi sotsiokonstruktiv tamoyillar Vygotskiy maktabining proksimal rivojlanish zonasi haqidagi g‘oyalari va ekologik tizimlar konsepsiyasi bilan bog‘lanadi.

Tadqiqot dizayni nazariy-sintez va dizayn-asosli yondashuvni birlashtiradi. Birinchidan, korrektsion pedagogika, xulq-atvorni amaliy tahlil qilish, sensor integratsiya, strukturaviy ta’lim va o‘yin-terapiya bo‘yicha klassik va zamonaviy manbalar tahlil qilindi. Ikkinchidan, ko‘p tarmoqli muhit uchun operatsion protokollar ishlab chiqishda formatif baholash, ko‘rsatkichlarga tayangan boshqaruv va filiallararo superviziya amaliyotlari konseptual asos sifatida tanlandi. Uchinchidan, telekorrektsiya, videoanalitika va raqamli portfel kabi vositalarning qo‘llanishi bo‘yicha amaliy ssenariylar modellashtirildi. Tezis empirik eksperiment natijalarini emas, balki dalillarga tayanuvchi konseptual modelning tuzilishi, tarkibiy elementlari va joriy etish shartlarini izohlaydi.

Taklif etilayotgan modelning mohiyati korrektsion texnologiyalarni o‘yin markazli muhit bilan uyg‘unlashtirishdan iborat bo‘lib, bunda har bir bolaga Individual Rivojlanish Dasturi tayyorlanadi va u formatif baholash sikllari orqali doimiy yangilanadi. Nutq va kommunikatsiya sohasida rasmli almashuv tizimlari, imo-ishora, piktogramma va ovoz sintezi kabi multimodal vositalar tabiiy muloqot vaziyatlariga singdiriladi, shunda bola ijtimoiy o‘yin ssenariylarida kommunikativ niyatni muvaffaqiyatli ifodalay oladi. Ijtimoiy-emotsional rivojlanish yo‘nalishida DIR/Floortime tamoyillari bolaga ergashish, qiziqish manbalarini aniqlash va ularni bosqichma-bosqich murakkablashtirish orqali qo‘llaniladi, natijada diqqat barqarorligi va qo‘shma e’tibor shakllanadi. Xulq-atvor moslashuvi masalalarida funktsional xulq tahlili yordamida vazifaviy sabablar aniqlanadi va o‘qitish dasturlari ijobiy mustahkamlash, vizual jadval, tanlov berish va o‘rganilgan ko‘nikmalarni tabiiy muhitga umumlashtirish strategiyalari bilan tuziladi.

Sensor integratsiya komponenti muhit dizayni bilan bevosita bog‘lanadi. Tana hislari, vestibulyar va proprioseptiv stimulatsiyani tartibga soluvchi faoliyatlar kun tartibiga qo‘shiladi, shu orqali o‘rganish uchun fiziologik tayyorgarlik mustahkamlanadi. Muhit “uchinchi tarbiyachi” sifatida oldindan bashorat qilinadigan, ammo moslashuvchan bo‘lishi, o‘yin zonalarining vizual konturi va materiallarning maqsadga muvofiq joylashuvi orqali tashabbus ko‘rsatish va o‘zini boshqarishni rag‘batlantirishi zarur. Strukturaviy ta’lim elementlari, xususan TEACCH yondashuvi, vaqt va makonning aniq tuzilishi, vizual jadval va ish stansiyalari yordamida mustaqillik va topshiriqni yakunlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu komponentlar o‘yin, kichik guruhli tadqiqot va dramatik ssenariylar bilan uyg‘unlashganda, korrektsion ta’sir didaktik yaxlitlikdan uzilmaydi.

Ko‘p tarmoqli sharoitda sifatni ushlab turish filiallararo kalibrlash va superviziya mexanizmlariga tayanadi. Bir xil rubrikalar bo‘yicha kuzatuvlar o‘tkazilib, videoyozuvlar asosida qo‘shma tahlillar amalga oshiriladi; mezonlar bo‘yicha kelishuv darajasi oshgani sari intervensiya tanlovi va dozalash aniqroq bo‘ladi. Raqamli portfel platformalari bolalarning ish namunalari, foto-videohujjatlar va o‘qituvchi qaydlarini jamlab, pedagogik qarorlarni dalillar bilan bog‘laydi. Telekorrektsiya imkoniyatlari ayniqsa resurs cheklangan filiallarda logoped va defektolog konsultatsiyalarini tezkor tashkil etish, ota-onalarni uy sharoitida qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yo‘riqnomalar berish hamda intervensiya ssenariylarini masofadan ko‘rsatish uchun xizmat qiladi.

Ota-ona bilan hamkorlik modelning barqaror qatlamidir. Oilaning kundalik hayotidagi tabiiy odatlar va madaniy amaliyotlar korrektsion maqsadlar bilan moslashtiriladi, uy muhitida takrorlanadigan mikrofaoliyatlar yordamida umumlashtirish mexanizmlari kuchayadi. Resurslar tengligi ham didaktik shart sifatida ko‘riladi: o‘yin-materiallar, sensor jihozlar, grafik yordamchi vositalar va mutaxassislar vaqtining adolatli taqsimoti markaziy boshqaruvning rejalashtirish mexanizmlari bilan uyg‘unlashtiriladi. Kadrlar salohiyatini oshirish uchun dars tadqiqoti, hamkasb kuzatuvi va kechiktirilgan tahlil formatlari qo‘llanilib, korrektsion protokollar bo‘yicha muntazam treninglar tashkil etiladi. Shu tariqa, texnologiyalar majmui alohida usullar to‘plamidan pedagogik madaniyatga aylanishi, ya’ni barcha filiallarda umumiy til, umumiy me’yor va umumiy maqsad shakllanishi ta’minlanadi.

Zamonaviy korrektsion texnologiyalarni ko‘p tarmoqli maktabgacha ta’lim tizimiga integratsiya qilish bolalarning individual ehtiyojlariga javob beruvchi, shu bilan birga didaktik yaxlitlikni saqlovchi modelni talab qiladi. Taklif etilgan yondashuv o‘yin markazli muhit, formatif baholash va individual dasturlar, strukturaviy qo‘llab-quvvatlash, multimodal kommunikatsiya va sensor integratsiyani yagona siklga birlashtiradi. Filiallararo kalibrlash, raqamli portfel va telekorrektsiya kabi vositalar sifatni barqaror ushlab turish imkonini beradi, resurslar tengligi va ota-ona bilan hamkorlik esa ta’sirning uzluksizligini ta’minlaydi. Bunday model ko‘p tarmoqli tuzilmada korrektsion pedagogika samaradorligini oshiradi, bolalarning funksional ishtirokini kengaytiradi va maktabga tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini izchil yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Выготский Л. С. Мышление и речь. — М.: Лабиринт, 1999. — 352 с.
2. Лурия А. Р. Высшие корковые функции человека. — М.: Изд-во МГУ, 1969. — 504 с.
3. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979. — 330 p.
4. Mesibov G. B., Shea V., Schopler E. The TEACCH Approach to Autism Spectrum Disorders. — New York: Springer, 2005. — 314 p.
5. Cooper J. O., Heron T. E., Heward W. L. Applied Behavior Analysis. 2nd ed. — Upper Saddle River, NJ: Pearson, 2007. — 760 p.
6. Ayres A. J. Sensory Integration and the Child. — Los Angeles: WPS, 2005. — 207 p.
7. Greenspan S. I., Wieder S. The Child with Special Needs: Encouraging Intellectual and Emotional Growth. — Cambridge, MA: Da Capo Press, 2006. — 512 p.
8. Bondy A., Frost L. The Picture Exchange Communication System. — Newark, DE: Pyramid Educational Consultants, 2001. — 208 p.
9. NAEYC. Developmentally Appropriate Practice in Early Childhood Programs Serving Children Birth Through Age 8. 4th ed. — Washington, DC: NAEYC, 2020. — 192 p.
10. UNESCO. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action. — Paris: UNESCO, 2015. — 86 p.

ISTE’MOLCHILAR XULQ-ATVORI VA QAROR QABUL QILISH JARAYONIDA PSIXOLOGIK OMILLARNING ROLI: BRENDLASH VA MARKETING STRATEGIYALARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

X.B.Axunova
Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti talabasi
hemil.axunova@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqola zamonaviy marketing sohasida muvaffaqiyatga erishish uchun iste’molchilar xulq-atvorini va qaror qabul qilish jarayonini chuqur tushunish zarurligi haqida bo‘lib, iste’molchilar biror mahsulot yoki xizmatni tanlayotganda ko‘plab omillarni hisobga olishadi, ularning aksariyati psixologik jihatlarga asoslanadi. Iste’molchilar qaysi brendlarni afzal ko‘rishlarini, ularni qanday his-tuyg‘ular, fikrlar va tajribalar orqali boshqarishini bilish marketing mutaxassislari uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada iste’molchilar xulq-atvorining psixologik omillari, brendlash jarayoni va marketing strategiyalarining samaradorligini oshirish yo‘llari batafsil o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: iste’molchilar, brendlash, marketing strategiyalari, emotsiyalar, psixologik omillar, ijtimoiy ta’sir, reklama, raqobatbardoshlik, emotsional bog‘lanish.

Kirish. Iste’molchilar xulq-atvori bir qator omillarga asoslanadi, ular orasida iste’molchilar ko‘pincha o‘z his-tuyg‘ulariga asoslangan qarorlar qabul qilishadi. Masalan, biror mahsulot reklamasida keltirilgan dramatik voqealar yoki quvnoq tasvirlar iste’molchining o‘zini mahsulot bilan bog‘lashiga va uning qiziqishini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, xursandchilik, ishonch va tasavvur emotsiyalari iste’molchilarni brendga yanada yaqinlashtiradi. O‘tgan tajribalar iste’molchilarning kelgusidagi qarorlariga katta ta’sir ko‘rsatadi. Agar iste’molchi biror mahsulotni ilgari sinab ko‘rgan bo‘lsa va unda yaxshi tajribaga ega bo’lgan bo‘lsa, u kelajakda ham shu mahsulotni tanlashi ehtimoli yuqori. Boshqa tomondan, salbiy tajribalar esa iste’molchini ma’lum brend yoki mahsulotdan yiroqlashtirishi mumkin.

Asosiy qism. Iste’molchilarning qaror qabul qilish jarayoni bir necha bosqichlardan iborat bo‘lib, har bir bosqichda psixologik omillar muhim rol o‘ynaydi. Iste’molchi o‘z ehtiyojlarini his qilib, muammoni aniqlaydi. Bu bosqichda psixologik jihatlar, masalan, qoniqish va qoniqmaslik hissi, muammoni tushunishga yordam beradi. Iste’molchi muammoni hal qilish uchun turli variantlarni izlaydi. Psixologik holat, masalan, ishonch yoki xavotir, ma’lumot to’plash jarayoniga ta’sir qiladi. Iste’molchilar olingan ma’lumotlarni baholab, eng maqbul variantni tanlaydilar. Bu bosqichda brendning imiji, tavsiyalari va reytinglari iste’molchilarning qarorlariga ta’sir ko‘rsatadi. [l] Olingan ma’lumotlar asosida iste’molchi oxirgi qarorini qabul qiladi. Emotsiyalar va hissiyotlar bu bosqichda katta rol o‘ynaydi, chunki iste’molchilar ko‘pincha o‘z his-tuyg'ularini hisobga olib qaror qabul qiladilar.

Brendlash iste’molchilarni o‘ziga jalb qilish va ularga brend bilan bog‘lanish imkonini berish jarayonidir. Psixologik omillar brendlash jarayonida quyidagi yo‘llar orqali namoyon bo‘ladi:

1. Emotsional bog‘lanish: Brend iste’molchilarda kuchli emotsional bog‘lanishni yaratishi muhimdir. Brendning hikoyasi, reklamalarida ishlatiladigan tasvirlar va tonallik iste’molchilarning his-tuyg‘ularini uyg‘otish va ular bilan bog‘lanishga yordam beradi.

2. Sifat va ishonch: Iste’molchilar sifatli mahsulotlar va ishonchli brendlarni afzal ko‘radilar. Brendning yuqori sifatli mahsulotlar taklif qilishi iste’molchilarni jalb qiladi va ularning brendga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

3. Identifikatsiya: Iste’molchilar brendga o‘zlarini bog‘lashni xohlashadi. Brendning maqsadlari va qadriyatlari iste’molchilarning shaxsiy qadr-qimmatlari bilan mos kelganda, bu iste’molchilarni brendga yanada yaqinlashtiradi [2].

Brendlash va marketing strategiyalarini samarali amalga oshirish uchun psixologik omillarni hisobga olish juda muhimdir. Buni amalga oshirish uchun reklama kampaniyalarida emotsional hikoyalarni va vizual elementlarni qo‘llash iste’molchilarning e’tiborini jalb qilishda samarali bo‘ladi. Brendning shaxsiy hikoyasi yoki muvaffaqiyatli iste’molchilar tajribasi yordamida qiziqarli reklama yaratish mumkin. Iste’molchilar bilan o‘zaro munosabatlarni o‘rnatish va ularga shaxsiy yondashuvni taklif qilish, ularning brendga bo‘lgan sodiqligini oshiradi. Bu jarayonda mijozlar bilan aloqa qilish va ularning fikrlarini tinglash, shuningdek, ularning ehtiyojlariga mos mahsulotlar yoki xizmatlar taklif etish muhimdir.

Iste’molchilar xulq-atvori va qaror qabul qilish jarayonida psixologik omillarning roli juda muhimdir. Brendlash va marketing strategiyalarini ishlab chiqishda psixologik jihatlarni hisobga olish, iste’molchilar bilan yanada kuchli aloqalarni o‘rnatishga va marketing kampaniyalarining samaradorligini oshirishga yordam beradi.3 Bu jarayonni yanada chuqurroq tushunish va tahlil qilish marketing sohasida muvaffaqiyat qozonish uchun kalit hisoblanadi. Marketing mutaxassislari iste’molchilarning psixologik jihatlarini yaxshi tushungan holda, ularning ehtiyojlariga mos brend va mahsulotlar yaratishlari mumkin, bu esa ularning muvaffaqiyatini oshirishga yordam beradi [3].

Iste’molchilarning qaror qabul qilish jarayoni bir necha bosqichdan iborat bo‘lib, har bir bosqichda psixologik omillar muhim rol o‘ynaydi.

- Iste’molchilar o‘zlariga tanish va ishonchli manbalardan ma’lumot olishga intilishadi, masalan, do‘stlarining tavsiyalari, onlayn sharhlar yoki brendning rasmiy sayti.
- iste’molchilar to‘plangan ma’lumotlarni baholaydi va eng maqbul variantni tanlashga harakat qiladi. Bu jarayonda iste’molchilar o‘z ehtiyojlariga mos keladigan mahsulotlarni taqqoslaydilar.
- iste’molchilarning qarorlariga brendning imiji, uning pozitsiyasi va marketing strategiyalari ta'sir qiladi. Misol uchun, yuqori sifatli brendlar ko‘pincha iste’molchilarni o‘ziga jalb qiladi.
- iste’molchilar o‘z tanlovlariga ta’sir qiluvchi boshqa iste’molchilarning fikrlarini, tavsiyalarini va reytinglarini hisobga olishadi.
- agar tajriba qoniqarli bo‘lsa, iste’molchi kelajakda ham ushbu brend yoki mahsulotni tanlashi ehtimoli yuqori. Boshqa tomondan, salbiy tajribalar iste’molchini boshqa variantlarga o‘tishga majbur qilishi mumkin [4].

Ijtimoiy tarmoqlar va boshqa platformalarda iste’molchilar bilan faol muloqot qilish, ularning fikrlarini eshitish va muammolarini hal qilish marketing strategiyalarini yanada samarali qiladi. Mijozlarni rag‘batlantirish va ularga mukofotlar taqdim etish orqali ularning brendga bo‘lgan sodiqligini oshirish mumkin. Bu esa uzoq muddatli mijozlar bazasini yaratadi. Iste’molchilardan fikr olish va ularning tajribalarini baholash orqali marketing strategiyalarini takomillashtirish mumkin. Fikrlar va tavsiyalar iste’molchilarning ehtiyojlarini va xohishlarini tushunishga yordam beradi. Iste’molchilarning mahsulot yoki xizmatga bo‘lgan munosabatini baholash va kelgusidagi marketing strategiyalarini rivojlantirishda ularning tajribalarini inobatga olish zarur. Iste’molchilarning qoniqishi va muammolarini tushunish, brendning reputatsiyasini oshiradi va yangi iste’molchilarni jalb qiladi [5].

Xulosa: Psixologik omillarni hisobga olish marketing strategiyalarini samarali takomillashtirish uchun muhimdir. Ushbu maqola orqali ko’rib chiqilgan asosiy psixologik jihatlar va ularning marketingda qanday qo‘llanilishini marketing strategiyalarini ishlab chiqishda iste’molchilarning psixologik ehtiyojlarini, motivlarini va hissiyotlarini hisobga olish zarur. Mijozlar bilan doimiy aloqalar o‘rnatish va ularning fikrlarini inobatga olish, brendga nisbatan sodiqlikni oshiradi. Iste’molchilardan olingan fikrlar va tajribalar marketing strategiyalarini takomillashtirish uchun muhim manba hisoblanadi. Ularning fikrlarini eshitish va har qanday muammolarini hal qilish, istemolchilarni qoniqtirish va brendga bo‘lgan ishonchni oshirishda yordam beradi. Iste’molchilar bilan mustahkam aloqalar o‘rnatish va ularning ehtiyojlarini qondirish, brendning muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardandir. Mijozlar bilan muloqot qilishda ochiqlik va shaffoflik muhimdir. Mijozlarga maxsus takliflar, aksiyalar va rag‘batlar taqdim etish orqali ularning brendga nisbatan sodiqligini oshirish mumkin. Bu esa iste'molchilarni qaytib kelishga undaydi. Mahsulot yoki xizmat sifatini doimiy ravishda oshirish va yangilab turish, iste’molchilarning brendga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Bu, brend obro‘sini kuchaytirishga yordam beradi va iste’molchilarni jalb qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kotler, P., & Keller, K. L. (2016). Marketing Management
2. Solomon, M. R. (2017). Consumer Behavior: Buying, Having, and Being (12th ed.). Pearson Education.
3. Cialdini, R. B. (2009). Influence: Science and Practice (5th ed.). Pearson Education.
4. Kahneman, D. (2011). Thinking, Fast and Slow. Farrar, Straus and Giroux.
5. Schmitt, B. H. (2012). The Consumer Experience: What It Is and How to Create It. Journal of Consumer Psychology, 22(1), 1-10.

OCHIQLIK, SHAFFOFLIK VA TARAQQIYOT — KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Sh.G.Xomidov
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Korrupsiya davlat boshqaruvi samaradorligiga, iqtisodiy barqarorlikka va ijtimoiy adolat tamoyillariga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi global muammo hisoblanadi. Mazkur maqolada korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy, institutsional va ijtimoiy mexanizmlari tahlil qilinadi. Xususan, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish, davlat organlari faoliyatining shaffofligini oshirish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalarining monitoringdagi

roli yoritiladi. Shuningdek, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va ularni milliy amaliyotga integratsiya qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Korrupsiya, antikorrupsiya, transmilliy jinoyat, xalqaro indeks, me'yoriy hujjatlar

Abstract: Corruption is a global problem that negatively impacts the efficiency of public administration, economic stability, and the principles of social justice. This article analyzes the legal, institutional, and social mechanisms for combating corruption. In particular, it examines the alignment of national legislation with international standards, enhancing the transparency of public authorities, and the role of civil society institutions and mass media in monitoring processes. Furthermore, it explores best foreign practices and develops recommendations for their integration into national practice.

Key words: corruption, anti-corruption, transnational crime, international index, regulatory documents

Аннотация: В статье рассматривается коррупция как глобальная проблема, негативно влияющая на эффективность государственного управления, экономическую стабильность и принципы социальной справедливости. Анализируются правовые, институциональные и социальные механизмы противодействия коррупции. В частности, подчеркивается необходимость приведения национального законодательства в соответствие с международными стандартами, повышения прозрачности деятельности государственных органов, роли институтов гражданского общества и средств массовой информации в осуществлении контроля. Также разрабатываются предложения по изучению передового зарубежного опыта и его интеграции в национальную практику.

Ключевые слова: Коррупция, противодействие коррупции, транснациональная преступность, международный индекс, нормативные документы

Bugun yurtimizda, balki butun dunyoda global muammoga aylanib ulgurgan korrupsiya mamlakat iqtisodiyotining eng katta xavfidan biridir. Uni bemalol xalqaro miqyosda transmilliy jinoyat sifatida ham talqin qilish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 5-mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig‘ilishida "Korrupsiya shunday yovuz illatki, u xalqning davlatga, Konstitutsiya va qonunlarga ishonchiga putur yetkazadi, barqaror rivojlanish va xavfsizlik uchun jiddiy tahdidga aylanadi” deya ta’kidlab o‘tdi. Shu sababdan so‘nggi yillarda korrupsiyaning oldini olish, uning xavfini kamaytirish ayniqsa, tashkilot, muassasalarni korrupsiyadan holi hududga aylantirish maqsadida ko‘pgina manzilli ishlar olib borilmoqda. Xususan, Maktabgacha va maktab ta’limi tizimida 10 dan ortiq xizmat turlari to‘liq elektron shaklga o‘tkazildi. Bu sohada murojaatlar soni 2,5 karraga kamaydi.

Oliy ta’lim tizimi ham raqamlashtirildi. Avval test topshirib, to‘plagan balliga qarab, keyin oliygohni tanlash joriy qilindi. 35 turdagi hujjatlarni inson omilisiz olishga o‘tilgani uchun sohadagi murojaatlar 2,2 baravar kamaydi. Aholi va tadbirkorlarga “xalq xizmatidagi davlat” tamoyili asosida xizmat ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi. Xususan, 120 turdagi hujjatlarni talab qilish, 160 dan ortiq litsenziya va ruxsatnomalar bekor qilindi. Natijada 200 mingga yaqin yangi tadbirkorlar bozorga kirib keldi. Chet el ishtirokidagi korxonalar qariyb 5 karra oshib, 23 mingga yaqinlashdi. Elektron davlat xizmatlari soni 15 karra ortib, 721 taga yetdi, ulardan foydalanuvchilar esa, 11 milliondan oshdi.

Eng muhimi, bular orqali aholi, tadbirkorlar, xorijiy hamkorlarimiz, xalqaro tashkilotlar va investorlarning islohotlarga ishonchi mustahkamlandi. So‘nggi yetti yilda 120 milliard dollardan ortiq investitsiya kirgani, iqtisodiyotimiz 2 karra o‘sib, o‘tgan yili 115 milliard dollarga yetgani buning isbotidir. Korrupsiyaga qarshi kurashishda dunyo tajribasidan foydalanish maqbul tanlovdir. Misol uchun, Estoniya — “E-Estonia” modeli orqali davlat xizmatlarining 99% onlayn ko‘rinishga o‘tkazildi. Natijada davlat xarajatlari sezilarli kamayib, korrupsiya darajasi Yevropada eng past ko‘rsatkichlardan biriga tushdi.
Singapur — davlat xizmatchilarining maoshlarini raqobatbardosh darajada belgilash va qat’iy javobgarlik tizimi orqali dunyodagi eng past korrupsiya darajasiga erishgan. Gruziya — 2004-yildan boshlab politsiya va davlat xizmatlarini to‘liq isloh qilib, barcha hujjat olish jarayonlarini shaffoflashtirdi. Natijada “Transparency International” indeksida 124-o‘rindan 45-o‘ringa ko‘tarildi.

Janubiy Koreya — “Online Complaint System” orqali davlat idoralari faoliyatini ochiq kuzatish imkoniyati berilib, fuqarolar bevosita nazorat mexanizmlariga ega bo‘ldi. Aynan mazkur mexanizmlarni takomillashtirish va joriy etish orqali

O‘zbekistonda so‘nggi yetti yilda 120 mlrd dollardan ortiq investitsiya jalb qilindi, iqtisodiyot 2 baravar o‘sdi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, korrupsiyaga qarshi kurashda raqamlashtirish, shaffoflik va fuqarolar ishtiroki asosiy omillardir.

Yana shuni alohida ta’kidlash lozimki, 2022-2024 yillarda davlat tashkilotlari hamda muassasalarda "Kompleans-nazorat" tizimini joriy etilishi sohaga bir muncha qulayliklarni olib keldi. Buning natijasi o‘laroq, korrupsiya bilan bog‘liq murojaatlar o‘rtacha 30–40% ga kamaydi. Ko‘plab jarayonlar inson omilisiz raqamlashtirilib, hujjat aylanish va ruxsat berish bosqichlari qisqardi.

Xodimlarning etik me’yorlar bo‘yicha bilim va malakasi oshdi, bu esa xalqaro hamkorlar ishonchini mustahkamladi. Korrupsiya xavfini baholash bo‘yicha muntazam ichki audit amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki ushbu tizimdan foydalangan davlatlar OECD mamlakatlarida komplaens tizimi majburiy talablardan biri sifatida joriy qilingan bo‘lib, yirik biznes va davlat idoralari bu orqali korrupsiyaga qarshi xalqaro reytinglarda yuqori natijalarga erishgan.

AQSh va Yaponiyada komplaens-nazorat orqali ichki whistleblowing (ichki xabar berish) tizimlari yo‘lga qo‘yilgan va bu korrupsiya holatlarini 50% gacha kamaytirgan.

Yana bir ma’lumot:

Transparency International xalqaro nodavlat tashkiloti tomonidan Korrupsiyani qabul qilish indeksining 2024-yil natijalari e'lon qilindi. Ushbu statistik ma’lumotga qaraganda O‘zbekiston o‘rni o‘zgarishsiz qoldi. Ya'ni, indeksdagi 180 ta davlat orasida O‘zbekiston 32 ball bilan 121-o‘rinni egalladi. Mamlakat 2023-yilgi indeksda ham shunday o‘rinni qo‘lga kiritgandi.Undan avvalgi yil esa 126-o‘rinni qayd etgan.

Korrupsiya — rivojlanib borayotgan global tahdid bo‘lib, u nafaqat taraqqiyotga to‘sqinlik qiladi, balki demokratiyaning inqirozi, beqarorlik va inson huquqlari buzilishining asosiy sababchisidir. Xalqaro hamjamiyat va har bir mamlakat korrupsiyaga qarshi kurashni o‘zining eng ustuvor va uzoq muddatli vazifasi sifatida belgilashi lozim.

Bu avtoritarizmga qarshi turish hamda tinch, ozod va barqaror dunyoni ta’minlash uchun g‘oyat muhimdir. Bu yilgi Korrupsiyani qabul qilish etish indeksida aniqlangan xavfli tendensiyalar global korrupsiyaga qarshi kurashish uchun hoziroq aniq choralar ko‘rish zarurligini ko‘rsatmoqda”, deydi Transparency International raisi Fransua Valerian.

O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar tub mohiyatga ega bo‘lib, tizimli va institutsional yondashuvga asoslanmoqda. Ushbu jarayonning asosiy xususiyatlari — davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash, xalqaro standart va konvensiyalarga mos mexanizmlarni joriy etish, jamoatchilik ishtirokini kengaytirish hamda raqamli texnologiyalar yordamida korrupsiya xavfini minimallashtirishdan iborat.

Bu islohotlar natijasida davlat boshqaruvi samaradorligi oshib, huquqiy madaniyat va fuqarolarning faolligi mustahkamlanmoqda. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashning tizimli yo‘lga qo‘yilishi adolatli jamiyatni barpo etish, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchini yanada kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

ЎЎТ:633.31/37; 631.84

ОЧ ТУСЛИ БЎЗ ТУПРОҚЛАРНИНГ ГЕОГАФИК ЖОЙЛАШУВ ЎРНИ ВА АГРОКИМЁВИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

Д.А. Отақулова

Жанубий дехқончилик илмий тадқиқот институти
Тупроқшунослик ва агрокимё лаборатория мудири К/Х.Ф.Ф.Д.,

Таянч докторант: **Д.Н.Бекназаров**

Аннотация: Мазкур мақолада Қашқадарё вилоятида оч тусли бўз тупроқларнинг тарқалиш ҳудудлари ва Қарши тумани оч тусли бўз тупроқларнинг агрокимёвий хусусиятлари таҳлил қилинган. Таҳлил натижаларига кўра Қарши тумани оч тусли бўз тупроқлари агрокимёвий хусусиятларига кўра гумус, N, P озуқа элементларинг умумий шакллари билан кам даражада,

ҳаракатчан шаклларидан NO_3, P_2O_5, билан кам, K_2O билан ўрта даражада таъминланганлиги аниқланди.

Калит сўзлар: тупроқ, озуқа элементлари, агрокимёвий, оч тусли, умумий шаклллари, ҳаракатчан шакллари, азот, фосфор, калий, гумус, кам, ўртача.

Аннотация: В статье анализируются ареалы распространения светлых сероземов в Кашкадарьинской области и агрохимическая характеристика светлых сероземов Каршинского района. По результатам анализа установлено, что светлые сероземы Каршинского района по агрохимическим показателям слабо обеспечены гумусом, N, P, общими формами элементов питания, слабо обеспечены NO_3, P_2O_5 и средне обеспечены K_2O.

Ключевые слова: почва, элементы питания, агрохимия, светлая окраска, общие формы, подвижные формы, азот, фосфор, калий, гумус, низкий, средний.

Abstract: The article analyzes the distribution areas of light gray soils in the Kashkadarya region and the agrochemical characteristics of light gray soils in the Karshi district. According to the analysis results, it was found that light gray soils in the Karshi district are poorly supplied with humus, N, P, common forms of nutrients, poorly supplied with NO_3, P_2O_5 and moderately supplied with K_2O according to agrochemical indicators.

Key words: почва, элементы питания, агрохимия, светлая окраска, общие формы, подвижные формы, азот, фосфор, калий, гумус, низкий, средний.

Кириш. Қашқадарё вилояти жами ер майдонининг 19,2% ери оч тусли бўз тупроқлардан иборат бўлиб, унинг 24,6% ни суғориладиган ерлар ташкил этади, ёки вилоятнинг жами оч тусли бўз тупроқли ерларининг тўртдан бир қисмини суғориладиган деҳқончилик ерлар ташкил этади. Оч тусли бўз тупроқлар денгиз сатҳидан 400 метрдан пастроқда, дарё терассаларининг қуйи тоғолди текисликларида тарқалган. Асосий ғўза-ғалла етиштириладиган бундай тупроқли майдонлар Сирдарё, Тошкент вилоятларида, Фарғона водийсида, Зарафшон дарёси ҳавзасининг ўрта қисмида ва Қашқадарё, Сурхандарё, Кафирниҳон дарёлари ҳавзаларининг қуйи қисмларида, Ваҳш ва Панж водийсида, Мурғоб ва Тежан дарёлари водийларининг юқори қисмларида жойлашганг. Вилоятнинг ўтлоқ ва бўз ўтлоқ тупроқларининг асосий қисми ана шу оч тусли бўз тупроқлар зонаси қисмида жойлашганлиги сабабли тажриба олиб борилган тупроқлар минтақаси вилоятнинг суғориладиган ерларининг деярли ярмисини ташкил этади. Қайд этилганидек, бундай ерлар табиий иқлим шароити билан нафақат Қашқадарё вилоятининг балки республикамизнинг барча ерларидан кескин фарқ қилади.

Оч тусли бўз тупроқлар текисликларда жойлашган бўлиб, тупроқ таркибидаги гумус миқдори (0,8-1,8) гача, юқори карбонатли, ўрта ва енгил суглинлардан иборат бўлиб, ҳаракатчан фосфор ва алмашинувчан калий билан етарлича таъминланмаган.[1].Бошқа бир манбаларда келтирилишича оч тусли бўз тупроқлар ўзлаштирилиб ва суғорилганда ҳайдов катламида гумус миқдори 1 % ва ундан ҳам кўп бўлади. Шу билан бирга узоқ муддат суғориш ҳамда ўсимлик илдизлари тупроқ қатламларини ҳар томонлама қамраб олиши натижасида гумус қавати қалинлашади. Гумуснинг умумий заҳираси ҳайдов қатламида гектарига 50-60 тоннадан, қадимдан суғориладиган тупроқларда эса 120-200 тоннагача етиши таъкидланган.[2].

Оч тусли бўз тупроқларнинг пастки қисми саҳро тупроқлари билан чегарадош бўлиб, катта майдонлари Мирзачўл , Жиззах чўлида, Зарафшон, Қашқадарё ва Сурхандарё атрофларида жойлашган бўлиб, асосий экин пахта ва ғаллани ташкил этиб, ундаги гумус миқдори 0-10 см лик қатламда 1,0-1,5 % , азот миқдори 0,1 %, фосфор эса 0,15 % ни ташкил этади. Бу тупроқларда каллоидлар кам (4-6 %) бўлиб, улар Са ва Мд билан тўйинган бўлиб, кам даражада турли чуқурликда сувда ерувчан тузлар билан шўрланган. [3].

Тадқиқот материаллари ва услублари.

Тупроқнинг агокимёвий таркибини аниқлаш мақсадида, амал даври бошида ва охирида тупроқнинг ҳайдов (0–30 см.) ва ҳайдов остки (30–50 см.) қатламларидан тупроқ намуналари олиниб, тупроқдаги чиринди миқдорини И.В.Тюрин усулида, тупроқдаги азот ва фосфорнинг умумий миқдорлари Л.П.Гриценко, И.М.Мальцева усулида, нитратли азотнинг ҳаракатчан шаклини калориметр усулида, фосфорни Б.П.Мачигин усулида, алмашинувчи калийни П.В.Протасов усулида аниқланиб тажриба маълумотлари олинди.

Тадқиқот натижалари. Дала тажрибалари ўтказилган оч тусли бўз тупроқлар зонасида, бир йилда икки марта ҳосил олинишида суғориш учун яроқли ерлар ва сув манбалари ҳал қилувчи рол ўйнайди. Бундай ерлар Қашқадарё вилоятининг жами суғориладиган ерларининг фақат тўртдан бир қисмини ташкил этади.

Илмий тадқиқот ишлари 2021-2023 йиллари Қашқадарё вилоятининг Қарши туманида жойлашган Жанубий деҳқончилик илмий тадқиқот институтининг тажриба даласида олиб борилди. Тажриба дала тупроғи қадимдан суғориладиган оч тусли бўз тупроқ бўлиб, механик таркибига кўра ўрта қумоқли, гумус миқдори 0,8–1,2 фоизни, азот миқдори 0,05–0,10 оралиғида ўзгариб туради. Ялпи фосфор 0,25–0,30%, калий эса 1,30–1,50% ни ташкил этади.

Далага тажриба вариантларини жойлаштиришдан олдин ҳар йили танланган даланинг озиқа унсурлари билан таъминланганлик даражасини аниқлаш мақсадида конверт усулида беш нуқтадан тупроқнинг 0-30 ва 30-50 см қатламларидан тупроқ намуналари олиниб, лаборатория шароитида таҳлил қилиб чиқилди.

1-жадвал

Тажриба олиб борилган далалар тупроғининг агокимёвий хусусиятлари

Йиллар	Тупроқ қатлами, см	Умумий шакллари, %			Ҳаракатчан шакллари, мг/кг		
		Гумус	N	P	$N–NO_3$	P_2O_5	K_2O
2021	0–30	0,917	0,091	0,150	15,83	27,22	275
	30–50	0,752	0,077	0,122	13,44	22,16	245
2022	0–30	0,935	0,093	0,156	16,05	27,88	280
	30–50	0,762	0,082	0,131	13,62	23,14	250
2023	0–30	0,912	0,088	0,148	15,55	26,87	275
	30–50	0,748	0,070	0,119	13,28	22,05	250

Олинган таҳлил натижалари йиллар кесимида ўрганиб чиқилганида, тупроқнинг 0-30 см қатламида озиқа унсурларининг умумий шаклларидан гумус миқдори мос равишда 0,917-0,935-0,912 фоизни, азот миқдори 0,091-0,093-0,088 фоизни, фосфор миқдори 0,150-0,156-0,148 фоизни, озиқа унсурларининг ҳаракатчан шаклларидан нитрат 15,83-16,05-15,55 мг/кг, фосфор 27,22-27,88-26,87 мг/кг, алмашинувчи калий 275-280-275 мг/кг ни ташкил этганлиги қайд этилган бўлса, тупроқнинг 30-50 см қатламида гумус миқдори 0,752-0,762-0,748 фоизни, умумий шаклларидан азот 0,077-0,082-0,070 фоизни, фосфор 0,122-0,131-0,119 фоизни, ҳаракатчан шаклларидан нитрат 13,44-13,62-13,28 мг/кг, фосфор 22,16-23,14-22,05 мг/кг, алмашинувчи калий 245-250-250 мг/кг ни ташкил этганлиги аниқланди. Тупроқ ҳайдалма қатлами йиллар кесими таҳлили бўйича 2022 йил, 2021 йилга нисбатан 0,02% га, 2023 йилга нисбатан 0,03% юқори бўлганлиги кўзатилди. Умумий азот миқдори ҳам 2022 йил, 2021 ва 2023 йилга нисбатан 0,01% га юқори бўлганлиги аниқланди. Умумий фосфор миқдори ҳам 2022 йил бошқа йилларга нисбатан юқори яъни 0,156% ни ташкил этиб, 2021 ва 2023 йилга нисбатан 0,006 ва 0,008% га юқори бўлганлиги кузатилди. Ҳаракатчан шаклларидан $N–NO_3$, P_2O_5, K_2O, миқдори ҳам ҳайдов қатламида 2022 йил бошқа йилларга нисбатан юқори бўлиб, $N–NO_3$ 0,22 ва 0,5 мг/кг, P_2O_5 0,66 дан 1,01 мг/кг гача, K_2O эса 2021 ва 2023 йилларда ҳам бир хил 5 мг/кг гача фарқ қилганлиги аниқланди. Бизга маълумки, ҳайдов қатлам ҳайдов ости қатламига нисбатан унумдорлиги юқори бўлиб, бунга сабаб, тупроқ устки қатламида анчагина ўсимлик қолдиқлари ҳамда органик моддалар мавжудлигидир. Органик модда эса чиринди ҳосил қилишда катта аҳамиятга ега. Чиринди атрофида тупроқнинг майда заррачалари бирикиб, донадор тупроққа айланади ва уларда сув, аерация ва моддалар алмашинуви осон кечади. Ҳайдов ости тупроқ қатламида бу кўрсаткичлар паст бўлиб, зичлашган ҳолатда бўлади. Таҳлил маълумотлардан кўриниб турибдики, ҳайдов қатлам ҳайдов ости қатламига

нисбатан юқори агрокимёвий кўрсаткичларга эга бўлиб, йиллар кесимда эса даланинг ўтмишдош экин турларига қараб унумдорлигини баҳолаш мумкин бўлади.

Хулоса. Олинган натижалардан кўриниб турибдики, йиллар кесимида тажриба олиб бориш учун танланган дала тупроқларининг озиқа унсурлари билан таъминлаганлик даражаси бир-бирига деярли типик эканлиги кузатилиб, озиқа элементлари билан таъминланиш даражаси аниқланганида нитрат ва фосфор билан кам даражада, калий билан ўрта даражада таъминланганлиги маълум бўлди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ҳасанов.Б.Р., Ёдгоров Н.Ғ. “Қашқадарё вилоятининг оч тусли бўз тупроқлари шароитида жавдар етиштириш агротехнологияси” бўйича тавсиялар. // Қарши, 2023// 5-б.
2. Аманов.О.А., Жўраев Д.Т., Нурматов И.А., Мамадиёров Ф.Д ва бошқ. “Экин майдонларидан тупроқ намуналарини олиш ва лаборатория таҳлилларини ўтказиш” бўйича услубий қўлланма. // Қарши, 2016// 5-б.
3. Зокиров.Т.С., Рахматов И.М. “Деҳқончилик асослари”.// Қарши, 1999// 7-б.
4. Бобохўжаев И., Узоқов П. Тупроқшунослик. Тошкент, 1995 ♦
5. Мираҳмедов Ҳ., Мирюнусов М. Тупроқшуносликдан амалий машғулотлар., Тошкент 1976. ♦
6. Бобохўжаев И., Узоқов П. Тупроқ таркиби, ҳоссалари ва анализи. Тошкент 1990.

ONLAYN VA OFLAYN TA’LIMNI INTEGRATSIYALASHNING SAMARALI METODLARI

I.T.Qo‘chqorov
Andijon davlat texnika instituti “Avtomobilsozlik va transport” kafedrasi assistenti
Email: isroilkuchkorov11@gmail.com Tel: +998 94 160 99 44

Annotatsiya. Ushbu tezisda onlayn va oflayn ta’lim shakllarini integratsiyalash orqali o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan. Ta’lim jarayonida raqamli platformalar, interaktiv metodlar va an’anaviy o‘qitish usullarini uyg‘unlashtirishning afzalliklari, qo‘llash mexanizmlari hamda amaliy tavsiyalar keltirilgan. Integratsiyalashgan yondashuvning o‘quvchilar bilimini mustahkamlash, motivatsiyani oshirish va o‘zlashtirish sifatini yaxshilashdagi o‘rni ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: onlayn ta’lim, oflayn ta’lim, integratsiya, blended learning, raqamli platforma, ta’lim metodlari.

Abstract. This thesis highlights the issues of increasing the effectiveness of the educational process through the integration of online and offline forms of education. The advantages of combining digital platforms, interactive methods, and traditional teaching methods in the educational process, application mechanisms, and practical recommendations are presented. The role of the integrated approach in strengthening students' knowledge, increasing motivation, and improving the quality of assimilation is scientifically analyzed.

Keywords: online education, offline education, integration, blended learning, digital platform, educational methods.

Аннотация. В данном тезисе освещены вопросы повышения эффективности образовательного процесса за счет интеграции онлайн и офлайн форм обучения. Представлены преимущества сочетания цифровых платформ, интерактивных методов и традиционных методов обучения в образовательном процессе, механизмы их применения и практические рекомендации. Научно проанализирована роль интегрированного подхода в укреплении знаний учащихся, повышении мотивации и улучшении качества усвоения.

Ключевые слова: онлайн-образование, офлайн-образование, интеграция, смешанное обучение, цифровая платформа, методы обучения.

Asosiy qism. So‘nggi yillarda ta’lim tizimi jadal raqamlashtirilishi natijasida onlayn va oflayn ta’lim shakllari bir-birini to‘ldiruvchi yondashuv sifatida rivojlanmoqda. An’anaviy (oflayn) darslarda o‘qituvchi va talaba yuzma-yuz muloqot qilishi, amaliy topshiriqlar bajarilishi hamda bevosita baholash imkoniyati mavjud. Onlayn ta’lim esa geografik cheklovlarni bartaraf etib, o‘quvchilarga mustaqil o‘qish va moslashuvchan grafikda ta’lim olish imkonini yaratadi [1].

Onlayn va oflayn ta’limni integratsiyalash — ya’ni blended learning konsepsiyasi — dars samaradorligini oshirishning zamonaviy yo‘llaridan biridir. Ushbu metod talabalarga o‘quv materialini turli formatlarda o‘zlashtirish, amaliy va nazariy bilimlarni uyg‘unlashtirish hamda mustaqil o‘qishga ko‘proq vaqt ajratish imkonini beradi [2-4]. Masalan, darsdan oldin talabalarga onlayn platforma orqali video ma’ruza va elektron o‘quv materiallari taqdim etiladi, keyingi oflayn darsda esa ularning tahlili, muhokamasi va amaliy qo‘llanilishi amalga oshiriladi.

Integratsiyani samarali tashkil etish uchun quyidagi metodlar keng qo‘llanilishi mumkin [5]:

1. Flipped Classroom – ma’ruza materiallari onlayn berilib, dars vaqti amaliy mashg‘ulot va muhokamaga ajratiladi.
2. Modulli o‘qitish – o‘quv jarayoni mavzular bo‘yicha bloklarga bo‘linib, har bir blok onlayn va oflayn mashg‘ulotlar kombinatsiyasida o‘tiladi.
3. Gamifikatsiya elementlari – raqamli platformalarda ball to‘plash, reyting tizimi va interaktiv testlar yordamida o‘quvchilarni rag‘batlantirish.
4. LMS (Learning Management System) integratsiyasi – Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams kabi tizimlar orqali vazifalar, materiallar va baholash jarayonini yagona platformada boshqarish.

Integratsiyalashgan yondashuvning afzalliklari orasida bilimlarning uzoq muddatli eslab qolinishini ta’minlash, o‘quvchilarning mustaqil izlanish ko‘nikmalarini shakllantirish, ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan qilish va vaqtni samarali boshqarish imkoniyatlari mavjud. Biroq, bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun texnik infratuzilmani rivojlantirish, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish va o‘quv dasturini moslashtirish talab etiladi.

Xulosa

Onlayn va oflayn ta’limni integratsiyalash bugungi kunda ta’lim sifatini oshirishning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Blended learning yondashuvi o‘quvchilarni faollashtirish, ta’limni moslashuvchan qilish va turli o‘quv uslublarini uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, integratsiyalashgan metodlar orqali o‘quvchilar bilimlarini 25–40% ga samaraliroq o‘zlashtiradi, chunki ular bir vaqtning o‘zida vizual, eshitish va amaliy tajriba orqali o‘rganadilar.

Kelgusida ta’lim muassasalarida ushbu yondashuvni keng joriy etish uchun:

raqamli ta’lim platformalarini rivojlantirish;

o‘qituvchilar uchun malaka oshirish dasturlarini tashkil etish;

o‘quv dasturlarini onlayn va oflayn formatlarga moslashtirish;

texnik jihozlar va internet infratuzilmasini yaxshilash;

zarur bo‘ladi. Shunda integratsiyalashgan ta’lim tizimi nafaqat o‘quvchilar bilimini oshiradi, balki ularning zamonaviy kompetensiyalarini ham shakllantiradi.

Adabiyotlar

1. Bonk, C. J., & Graham, C. R. (2012). The Handbook of Blended Learning. San Francisco: Pfeiffer Publishing.
2. Garrison, D. R., & Vaughan, N. D. (2008). Blended Learning in Higher Education. Jossey-Bass.
3. Hrastinski, S. (2019). What Do We Mean by Blended Learning?. TechTrends, 63(5), 564–569.
4. Means, B., Toyama, Y., Murphy, R., & Baki, M. (2013). The Effectiveness of Online and Blended Learning. Teachers College Record, 115(3), 1–47.
5. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. (2023). Ta’limda raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha metodik tavsiyalar. Toshkent.

SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH ORQALI TA’LIM SIFATINI OSHIRISH

I.T.Qo‘chqorov
Andijon davlat texnika instituti “Avtomobilsozlik va transport” kafedrasi assistenti
Email: isroilkuchkorov11@gmail.com Tel: +998 94 160 99 44

Annotatsiya. Zamonaviy ta’lim jarayoni texnologik rivojlanish natijasida tubdan o‘zgarib bormoqda. Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari o‘quv jarayonini optimallashtirish, individual yondashuvni ta’minlash va ta’lim sifatini oshirishda keng qo‘llanilmoqda. Ushbu maqolada sun’iy intellektning ta’lim tizimiga integratsiya qilish imkoniyatlari, amaliy qo‘llanilish yo‘nalishlari va samaradorlikka ta’siri tahlil

qilinadi. Shuningdek, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqot sifatini yaxshilash, bilimlarni shaxsiylashtirilgan shaklda yetkazish hamda o‘quv jarayonini avtomatlashtirishda SI ning afzalliklari va muammolari ko‘rib chiqiladi. Natijada, sun’iy intellektdan foydalanish ta’lim sifatini oshirishning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri ekanligi isbotlanadi.

Kalit so‘zlar. Sun’iy intellekt, ta’lim sifati, raqamli texnologiyalar, individual yondashuv, avtomatlashtirish, o‘quv jarayoni, adaptiv ta’lim.

Аннотация. Современный образовательный процесс коренным образом меняется в результате технологического развития. Технологии искусственного интеллекта (ИИ) широко используются для оптимизации учебного процесса, обеспечения индивидуального подхода и повышения качества образования. В данной статье анализируются возможности интеграции искусственного интеллекта в систему образования, направления его практического применения и влияние на эффективность. Также будут рассмотрены преимущества и проблемы ИИ в улучшении качества общения между учителем и учеником, передаче знаний в персонализированной форме и автоматизации учебного процесса. В результате доказано, что использование искусственного интеллекта является одним из наиболее перспективных направлений повышения качества образования.

Ключевые слова. Искусственный интеллект, качество образования, цифровые технологии, индивидуальный подход, автоматизация, учебный процесс, адаптивное обучение.

Abstract. The modern educational process is fundamentally changing as a result of technological development. Artificial intelligence (AI) technologies are widely used to optimize the educational process, ensure an individual approach, and improve the quality of education. This article analyzes the possibilities of integrating artificial intelligence into the education system, directions of practical application, and its impact on effectiveness. The advantages and problems of AI in improving the quality of communication between teacher and student, conveying knowledge in a personalized form, and automating the educational process are also considered. As a result, it is proven that the use of artificial intelligence is one of the most promising areas for improving the quality of education.

Keywords. Artificial intelligence, quality of education, digital technologies, individual approach, automation, educational process, adaptive education.

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanishi ta’lim tizimiga ham katta o‘zgarishlar olib kirdi. Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari ta’lim jarayonida qo‘llanilishi orqali o‘qitish metodlarini yanada samarali qilish, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini individual ravishda baholash hamda o‘qituvchi ishini optimallashtirish imkoniyati paydo bo‘ldi [1].

SI ning ta’limdagi asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. Shaxsiylashtirilgan o‘qitish – har bir o‘quvchining bilim darajasi, qiziqishlari va o‘zlashtirish tezligiga mos o‘quv rejasi tuziladi. Bu esa o‘quvchini qiziqtirish va uning bilimini mustahkamlashga yordam beradi.

2. Avtomatik baholash va tahlil – test, insho, loyihalarni baholash jarayoni SI orqali tezkor va xolis amalga oshadi, bu esa inson xatosini kamaytiradi.

3. O‘quv jarayonini monitoring qilish – o‘quvchi faoliyatini real vaqt rejimida kuzatish, bilimdagi bo‘shliqlarni aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini beradi.

4. Til va muloqot imkoniyatlarini kengaytirish – SI asosidagi tarjima vositalari va virtual suhbatdoshlar xorijiy tillarni o‘rganishni osonlashtiradi.

5. Interaktiv va immersiv ta’lim muhiti – virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari bilan uyg‘unlashgan SI o‘quv jarayonini yanada jonli va esda qolarli qiladi [2,3].

Amaliy misol sifatida, dunyoda Duolingo, Coursera, Khan Academy kabi platformalar SI yondashuvlarini qo‘llab, o‘quvchilar faoliyatini tahlil qilish va shaxsiy ta’lim yo‘l xaritasini yaratishda muvaffaqiyatli foydalanmoqda. Mahalliy ta’lim muassasalarida ham elektron kundalik, onlayn test tizimlari, sun’iy intellekt asosidagi konsultatsiya botlari tatbiq qilinmoqda.

Biroq, SI texnologiyalarini ta’lim tizimiga to‘liq joriy etishda qiyinchiliklar mavjud [4,5]:

Texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi;

O‘qituvchilarning raqamli ko‘nikmalarini oshirish zarurati;

Ma’lumotlar xavfsizligi va maxfiyligini ta’minlash masalalari;

Sun’iy intellektdan foydalanishda etik me’yorlarni belgilash ehtiyoji.

Shu sababli, ta’lim sohasida SI dan samarali foydalanish uchun davlat siyosatini takomillashtirish, pedagoglar malakasini oshirish, texnologik bazani modernizatsiya qilish va jamiyatda raqamli madaniyatni rivojlantirish zarur.

Xulosa

Sun’iy intellekt ta’lim jarayonini zamonaviylashtirish, o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi muloqotni takomillashtirish hamda ta’lim sifatini oshirishda muhim vosita bo‘lib bormoqda. Uning yordamida o‘quvchilarga moslashtirilgan individual o‘quv dasturlari tuziladi, baholash jarayonlari avtomatlashtiriladi va ta’limning har bir bosqichida samaradorlik monitoringi amalga oshiriladi.

Kelajakda SI texnologiyalari ta’lim tizimining barcha bosqichlariga chuqur integratsiya qilinishi kutilmoqda. Bu esa:

o‘qituvchilar uchun ijodiy va metodik ishga ko‘proq vaqt ajratish imkonini yaratadi;

talabalar uchun bilimlarni tezkor, tushunarli va interaktiv shaklda olish imkonini beradi;

ta’lim jarayonida xolis va aniq natijalarni ta’minlaydi.

Shunday ekan, sun’iy intellektdan foydalanish — bu faqat texnologik yangilik emas, balki ta’lim sifatini oshirishning strategik yo‘nalishidir. Unga investitsiya kiritish va keng qo‘llash kelajak avlodning bilim darajasini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. (2016). Intelligence Unleashed: An argument for AI in Education. Pearson Education.

2. Baker, R. S., & Inventado, P. S. (2014). Educational Data Mining and Learning Analytics. In Learning Analytics (pp. 61–75). Springer.

3. OECD (2021). AI in Education: Challenges and Opportunities. Paris: OECD Publishing.

4. Hwang, G. J., & Chang, H. F. (2020). A review of opportunities and challenges of AI-based learning. Educational Technology & Society, 23(1), 1–11.

5. UNESCO (2023). Guidance for Generative AI in Education and Research. UNESCO Publishing.

IOT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA ELEKTR MOTORLARNI MONITORING QILISH

T.O.Almatayev
Andijon davlat texnika instituti Avtomobilsozlik va transport kafedrasi t.f.n., professor
N.Eraliyev
Turin politexnika universiteti tadqiqotchisi, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya. Mazkur maqolada Internet narsalar (IoT) texnologiyalari yordamida elektr motorlarning holatini masofadan monitoring qilish usullari tahlil qilinadi. Datchiklar va ma'lumot uzatish modullari orqali real vaqtli nazorat, nosozliklarni erta aniqlash va samaradorlikni oshirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. IoT asosidagi monitoring tizimlari ishlab chiqarish jarayonlarida avtomatlashtirish darajasini oshirib, energiya tejashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: IoT texnologiyalari, monitoring, real vaqtli nazorat, datchiklar, tizim.

Abstract. This article analyzes methods for remote monitoring of the state of electric motors using Internet of Things (IoT) technologies. The possibilities of real-time monitoring, early detection of malfunctions, and increased efficiency through sensors and data transmission modules are considered. Monitoring systems based on IoT serve to increase the level of automation of production processes and save energy.

Keywords: IoT technologies, monitoring, real-time monitoring, sensors, system.

Аннотация. В данной статье анализируются методы дистанционного мониторинга состояния электродвигателей с помощью технологий Интернета вещей (IoT). Рассматриваются возможности контроля в реальном времени, раннего выявления неисправностей и повышения эффективности с помощью датчиков и модулей передачи данных. Системы мониторинга на базе IoT повышают уровень автоматизации производственных процессов и служат для экономии энергии.

Ключевые слова: технологии IoT, мониторинг, контроль в реальном времени, датчики, система.

Zamonaviy sanoat ishlab chiqarishida elektr motorlar muhim o‘rin tutadi, chunki ular ko‘plab mexanik tizimlarning asosiy quvvat manbai hisoblanadi. Biroq, motorlarning ishlash holatini samarali nazorat qilishda mavjud bo‘lgan an'anaviy usullar ko‘pincha cheklangan va noaniq bo‘lishi mumkin. Shu sababli, Internet narsalar (IoT) texnologiyalarining qo‘llanilishi elektr motorlarni masofadan monitoring qilishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda [1].

IoT texnologiyalarining asosiy komponentlari

IoT asosidagi monitoring tizimlari bir nechta asosiy komponentlardan iborat [2,3]:

- Sensorlar: Temperatura, vibratsiya, oqim, kuchlanish va tezlik kabi parametrlarni o‘lchaydigan sensorlar motor holatini real vaqtda kuzatish imkonini beradi.
- Ma'lumot yig‘uvchi qurilmalar: Sensorlardan olingan ma'lumotlarni to‘playdigan va uzatadigan qurilmalar, masalan, mikrokontrollerlar.
- Ma'lumot uzatish tarmoqlari: Wi-Fi, Bluetooth, LoRaWAN kabi tarmoqlar orqali ma'lumotlarni uzatish.
- Ma'lumotlarni saqlash va tahlil qilish platformalari: Ma'lumotlarni bulutda saqlash va tahlil qilish uchun platformalar, masalan, Blynk yoki WEG IoT Platform.

IoT asosidagi monitoring tizimlarining afzalliklari [4].

- Real vaqtda monitoring: Motorlarning ishlash holatini doimiy ravishda kuzatish imkoniyati.
- Nosozliklarni erta aniqlash: Sensorlar yordamida motorlardagi potentsial muammolarni erta bosqichda aniqlash va ogohlantirishlar yuborish.
- Energiya samaradorligini oshirish: Motorlarning ishlash holatini optimallashtirish orqali energiya sarfini kamaytirish.
- Uzoqdan boshqarish imkoniyatlari: Mobil ilovalar yoki veb-portal orqali motorlarni masofadan boshqarish.

IoT asosidagi monitoring tizimlarining qo‘llanilishi [5].

Dunyo bo‘ylab bir qator kompaniyalar IoT asosidagi monitoring tizimlarini muvaffaqiyatli qo‘llamoqda. Masalan, WEG kompaniyasining Motor Scan tizimi motorlarning vibratsiya va temperatura parametrlarini real vaqtda kuzatib, nosozliklarni erta aniqlash imkonini beradi. SIMOTICS elektr motorlari esa IoT yordamida ishlash parametrlarini masofadan monitoring qilish va tahlil qilish imkonini beradi. Muhammad Yousuf va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotda, AC induksiya motorlari uchun IoT asosidagi salomatlik monitoring tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib, bu tizim motorning ishlash holatini real vaqtda kuzatish va nosozliklarni erta aniqlashga yordam beradi.

1-Jadval

IoT asosidagi monitoring tizimlarining asosiy parametrlarini taqqoslash

Tizim nomi	O‘lchov parametrlar	Ma'lumot uzatish tarmog‘i	Platforma
WEG Motor Scan	Vibratsiya, temperatura	Bluetooth	WEG IoT Platform
SIMOTICS	Temperatura, RPM, vibratsiya	Ethernet/Wi-Fi	SIMOTICS IoT
Yousuf	Temperatura, vibratsiya, oqim, kuchlanish, tezlik	GSM/Bluetooth	Blynk

IoT asosidagi monitoring tizimlarining cheklovlari

- Internetga bog‘liqlik: Tizimlarning samarali ishlashi uchun doimiy internet aloqasi talab etiladi.
- Ma'lumot xavfsizligi: Bulutda saqlanayotgan ma'lumotlarning xavfsizligi va maxfiyligi masalalari.
- Texnik xizmat ko‘rsatish: Sensorlar va boshqa qurilmalarning texnik xizmat ko‘rsatish va kalibrlash ehtiyoji.
- Integratsiya: Mavjud sanoat tizimlari bilan IoT tizimlarining integratsiyasi qiyinchiliklari.

2-Jadval

IoT asosidagi monitoring tizimlarining afzalliklari va cheklovlarini taqqoslash

Afzalliklar	Cheklovlar
Real vaqtda monitoring	Internetga bog‘liqlik
Nosozliklarni erta aniqlash	Ma'lumot xavfsizligi
Energiya samaradorligini oshirish	Texnik xizmat ko‘rsatish

Uzoqdan boshqarish imkoniyatlari	Integratsiya qiyinchiliklari

Xulosa. IoT texnologiyalarining elektr motorlarni monitoring qilishdagi qo‘llanilishi sanoat ishlab chiqarishining samaradorligini oshirishga katta hissa qo‘shadi. Real vaqtda monitoring, nosozliklarni erta aniqlash, energiya samaradorligini oshirish va uzoqdan boshqarish imkoniyatlari bu tizimlarning asosiy afzalliklaridir. Biroq, internetga bog‘liqlik, ma'lumot xavfsizligi, texnik xizmat ko‘rsatish va integratsiya kabi cheklovlar ham mavjud. Kelajakda IoT texnologiyalarining rivojlanishi bilan bu cheklovlar kamayib, elektr motorlarni monitoring qilish yanada samarali bo‘lishi kutilmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati

[1] M. Sen va B. Kul, “IoT asosidagi simsiz induksiya motorlarini monitoring qilish,” XXVI Xalqaro Ilmiy Elektronika Konferensiyasi (ET 2017), Sozopol, Bolgariya, 2017, pp. 123–145.

[2] M. Yousuf, T. Alsuwian, A. A. Amin, S. Fareed, va M. Hamza, “Sanoat AC induksiya motorlarini IoT asosida salomatlik monitoringi va nosozliklarni aniqlash,” Measurement and Control, 2024.

[3] M. R. Radonjić, Ž. Zečević, va B. Krstajić, “EKG-15 ekskavatorida DC motorning ortiqcha yuklanishini real vaqtda monitoring qilish uchun IoT tizimi,” Electronics, vol. 11, no. 10

[4] B. Zaripov, H. Khujamatov, N. Akhmedov, N. Xasanov, M. Maxammadiyev, va S. Mirzaliev, “IOMT asosida bemorlarni masofaviy monitoring qilish tizimi modeli,” International Conference on Future Networks and Distributed Systems (ICFNDS '23), Dubay, Birlashgan Arab Amirliklari, 2023.

[5] B. Azizovich Umarov va M. Z. Muhammadvaliyeva, “IoT texnologiyasida real vaqt monitoring tizimlari,” Obrazovanie Nauka i Innovatsionnye Idei v Mire, vol. 59, no. 12, 2024.

CHET TILINI O’RGANISHDA YOSH XUSUSIYATLARINING AHAMIYATI

Z.Xiloldinova
Andijon davlat chet tillari instituti, tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada chet tilini o‘rganish jarayonida yoshga doir xususiyatlarning tutgan o‘rni hamda ularning o‘quvchilarning tilni egallash samaradorligiga ta’siri tahlil etilgan. Maqolada kichik yoshdagi bolalarning eslab qolish, taqlid qilish, talaffuzni tez o‘zlashtirish qobiliyatlari yuqori bo‘lishini asoslab beriladi. Shuningdek, o‘smirlar va kattalar til o‘rganishda abstrakt fikrlash va grammatikani tushunishdagi afzalliklari qayd etiladi. Maqolada yoshga oid yondashuvlar asosida til o‘rgatish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so’zlar: yosh xususiyatlari, kichik yoshli o’rganuvchilar, o’smirlar, til ko’nikmalari, lingvistik qobiliyatlari.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль возрастных особенностей в процессе изучения иностранного языка и их влияние на эффективность усвоения языка учащимися. Обосновывается, что дети младшего возраста обладают более высокими способностями к запоминанию, подражанию и быстрому освоению произношения. Кроме того, отмечаются преимущества подростков и взрослых в абстрактном мышлении и понимании грамматических структур при изучении языка. В статье также приведены рекомендации по совершенствованию методики преподавания языка с учётом возрастного подхода.

Ключевые слова: возрастные особенности, младшие учащиеся, подростки, языковые навыки, лингвистические способности.

Abstract. This article examines the role of age-related characteristics in the process of foreign language acquisition and their impact on learners’ efficiency in mastering the language. It substantiates that younger children demonstrate higher capacities for memorization, imitation, and rapid acquisition of pronunciation. Furthermore, it highlights the advantages of adolescents and adults in abstract thinking and understanding grammatical structures during language learning. The article also provides recommendations for improving language teaching methodology based on age-specific approaches.

Keywords: age-related characteristics, young learners, adolescents, language skills, linguistic abilities.

O‘quvchilarning chet tilini o‘rganishda yoshga doir xususiyatlari va ularni o’zlashtirish borasidagi imkoniyatlari ko'plab xalqaro tadqiqot loyihalari, ilmiy izlanishlar va maqolalarda muhokamalarga sabab bo‘lgan. Jumladan, Zang va Munoz ta’kidlashicha, yosh o‘rganuvchilar kattalar bilan farqlaganda

talaffuzda yaxshiroq ishlashadi, xususan, ular urg'uga erishish uchun ko'proq imkoniyatlarga ega [1]. Petkovich ham yosh o‘quvchilar fonetik qoidalarni o‘zlashtirish darajasida yaxshi natijalarga erishishlarini, katta yoshdagi o‘quvchilar esa sintaktik va semantik til qoidalarini osonroq o‘zlashtirishlarini takidlagan [2]. Bundan tashqari, o'rganish tezligi haqida gap ketganda, ma'lumki, katta yoshdagi o‘quvchilar ikkinchi til rivojlanishining dastlabki bosqichlarida tezroq bo‘lishadi. Shuningdek, ular lug'at va ma'noni osonroq o'zlashtiradilar, chunki ularning dunyo va hayotiy bilimlari yosh o‘quvchilarnikiga qaraganda ancha kengroq va yaxshi rivojlangan bo’ladi [3]. Ammo yosh o'quvchilar uzoq muddatda yaxshiroq o'rganishlari isbotlangan. Agar ularning kunlik hayoti o’rganayotgan chet tili muhiti bilan ta’minlangan ular osonlik bilan o’zlashtirishadi va ularning miyalari tez moslashadi. Ammo keng tarqalgan holatlardan biri shundaki, o'quvchilarining ko'pchiligi maktabda haftada 2 yoki 3ta darsda til o'rganishadi, bu odatda, o'qituvchi bilan muloqot qilish uchun juda qisqa vaqtdir va bu ularning biologik yoshining afzalliklarini kamaytirishi mumkin [4,5].

Bekirovik va Hurik-Bekirovik Bosniya va Gertsegovinada turli yoshdagi ingliz tilini o'rganayotgan talabalarning motivatsiyasi va yutuqlarini o'rganib chiqdi. 210 nafar talaba uch yosh guruhiga bo‘lingan holda ishtirok etdi: o‘n, o‘n to‘rt va o‘n sakkiz yosh. Ma'lumotlar so'rovnoma orqali to'plangan va natijalar o'quvchilarning yoshi va motivatsiyasi o'rtasida sezilarli bog'liqlik borligini ko'rsatdi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, eng yosh o‘quvchilar eng yuqori motivatsiyaga ega, eng yoshi katta o’quvchilar esa ingliz tilini o'rganish uchun eng past motivatsiyaga ega. Shunga mos ravishda, eng kichigi eng yuqori, eng kattasi esa eng past natijaga erishdi. Ba'zi oldingi tadqiqot loyihalari yosh o'quvchilar so'z boyligini egallashda va to’gri talaffuzga moslashishda yaxshiroq (Bekirovik&Polz) [7], o'smirlar yoki kattalar esa sintaksisda yaxshiroq ekanligini ko’rsatgan. Boshqa bir tadqiqot natijalariga ko’ra, kichik sinfdagi bolalar nazorat testlarini so'z boyligi qismi bo’yicha yaxshi topshirishgan, kattaroq o'quvchilar esa grammatik mashqlarda o’zib ketishgan. Chunki katta yoshdagi bolalar ko’p hollarda aniq grammatika qoidalarini o'rganishni afzal ko‘rishadi (Andryu). Shubhasiz, ushbu tadqiqot natijalari avvalgi tadqiqotlarni ham tasdiqlaydi. Ingliz tilini erta (4-5) yoshda o‘rgana boshlagan o‘quvchilarda chet tili ko‘rsatkichlari yaxshi bo‘lganligi tufayli ularning ko‘nikmalari erta o‘spirinlarga (10-12) qaraganda sifatliroq rivojlang anligi haqidagi xulosalar kelingan. Ikki yosh guruhidagi o‘quvchilarning tilni o‘zlashtirish yo‘llari har xilligini hisobga olsak, o‘qituvchi bu ikki guruhga nisbatan boshqacha va alohida yondashuv, o‘qitish uslublariga ega bo‘lishi kerakligini ham unutmaslik kerak. Boshlang’ich sinfdagi bolalar darslarda rang-baranglikni va ko'proq chiroyli taqdimotni talab qiladilar, kattaroq o'quvchilar esa kognitiv jihatdan etuk bo'lganligi sababli biroz jiddiy yondashuv va ko'proq muhokamalarni talab qilishi mumkin. Garchi yosh o'quvchilar o'smirlar yoki kattalardan ma'lum ustunlikka ega bo'lsalar ham, rasmiy ta'lim muhitida ularning yutuqlari zaiflashishi mumkin. Bolalar haqiqiy til muhiti, sezgilarga asoslangan faoliyat va rang-barang o'quv materiallari tufayli katta muvaffaqiyatlarga erishadilar. Bu davrdagi muhim nuqta so'z boyligini oshirishdir (Andryu).

O'qituvchilarning joriy ta'lim metodlari va ularning asosiy tamoyillari, shuningdek samarali sinf texnikasi, materiallar va baholash strategiyalari bilan tanishishi o'quvchilarning yosh guruhiga qarab ma'lum bir bosqichga ajratishda muhim ahamiyatga ega. "Yosh" ni o'quvchi faktori sifatida olinsa bu omil oquvchi “kim” ekanligini aniq bilish bilan bir qatorda, "qayerda" va "nima uchun" ingliz tilini o'rganayotganligi aniqlanishi mumkin. O'quvchilarning turli yoshlari uchun, albatta, maxsus o’qitish tanlovlari mavjud va bu o'qituvchilarni o’quvchilarning quyidagi yosh xususiyatlariga mos bo’lgan maqsadli tanlangan ta’lim metodlari va usullaridan foydalanishga undaydi([1] J.Jalolov, G.Mahkamova):

- Yosh o'quvchilar: Ma'lumki, bolalarning 5-12 o'z ongida juda ko'p yo'naltirilgan "bu erda va hozir" tushunchasi va to'g'ridan-to'g'ri ko'rinadigan/seziladigan muhitga ega yoshdir. Grammatik qoidalar tushuntirishlar odatda ularga tog’ri kelmaydi. Ularga ko'plab misollar va namunalar berilganda yaxshi o’zlashtirishadi. Ular qisqa-muddatgina darsga e’tibor qaratib turishlari mumkin shuning uchun ularning bevosita qiziqishini uyg'otadigan mashg’ulotlar zarur. Ularga dars davomida barcha beshta his-tuyg'ularini qo'zg'atadigan faoliyat turini tashkillashtirish lozim. Umuman olganda, kattalarga qaraganda yangi tilni sinab ko’rishda kamroq tortinchoq bo’lganligi tufayli tilni tez o’zlashtirish imkoniyati katta. Boshlang'ich darajada ingliz tilida grafikani ya'ni harflarni (alfavit) yozishni o'rgatiladi, bu esa o'qishni o'rgatish bilan grafik-fonemik moslikni o'zaro bog'laydi. Shu bilan birga, yozma shaklda kom munikativ-kognitiv maqsadlarni amalga oshirish uchun boshlang'ich yozish ko'nikmalarini shakllantiriladi. O'quvchilar jumlalar va murakkab bo'lmagan matnlar asosida yozishlari kerak: a) kartochkalarda bayram va tug'ilgan kun tabriklari; b) shaxsiy ma'lumotlar: ism va familiya, sanalar, manzil; c) qisqa xabarlar va shaxsiy xatlar; d) reja, qisqa matnlarga savollar; e) rasmlarni tasvirlash.

- O'smirlar: 12-18 yosh ham aqliy, ham jismoniy jihatdan tez o'tish va o'zgarish vaqtiga to'g'ri keladi. O'smirlar ko'proq kognitiv qobiliyatini rivojlantira boshlaganda, ular ko'proq mantiqiylik va mavhumlikni talab qiladigan texnikalar orqali til o'rganishga moyil bo’lishadi. Diqqat jamlash muddati uzaya boshlaydi, lekin hissiy tabiati ko'proq chalg'itishi mumkin. Shaxsiy qarashlari va o'z-o'zini hurmat qilish bilan bog'liq masalalar ular uchun muhim ahamiyatga ega bo’lib qoladi, ularning jismoniy, aqliy va hissiy rivojlanishlariga nisbatan boshqalarning qarashlariga juda ta’sirchan bo’lib qolishadi. Bunda o'qituvchilar o'smirlarni e’tiborini darsga qaratish va kognitiv, analitik va mantiqiy ko'nikmalarni rivojlantirish yo'llarini topa olishlari kerak. Bu bosqichda maktabda turli muloqot vaziyatlarida yozish ko'nikmalarini yanada intensiv rivojlantirishni ta'minlashi kerak. Yozma xabarlarni mavzusi va hajmi kengaytiriladi; yozma shakldagi tayyorlangan matnning sifati yaxshilanadi. Ushbu bosqichdagi yozish ta'limining mazmuni ma'lumot ko’lami jihatidan farqlanadi va haqiqiy materialga asoslanadi. O'smirlarning yozish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun xat, gazeta va jurnallardan maqolalar kabi namunalardan foydalaniladi: a) o'zini, oilasini, maktabini, shahrini/qishlog'ini, qiziqishlari va hobbilari haqida ma'lumot berish; b) mahalliy nutq egalarining me'yorlari va an'analari bilan gazeta yoki jurnalga qisqa sharh/xat yozish; c) so'rovnoma va ro'yxatga olish hujjatida shaxsiy ma'lumotlarni yozish.

Xulosa qilib aytganda, yosh omili tilni o'rganishda eng katta ahamiyatga ega. Tanqidiy davrda yosh o'quvchilar tilni muvaffaqiyatliroq o'zlashtirishga moyil. Biroq, ba'zi tadqiqotlarga ko’ra yuqori sinf o'quvchilarning tilni o'rganishida yaxshiroq ekanligini ko'rsatdi. Hozirgi kunda maktablarda kichik yoshdagi o'quvchilar tilni o'rganayotgan bo'lsa ham, bu yosh o'quvchilar yaxshiroq o'rganuvchilar bo'lishini kafolatlay olmaydi. Bundan tashqari, kichik sinf o’quvchilari ikkinchi/chet tilni o'rganishda muammolarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan ba'zi xususiyatlar mavjud. Ularning tilni o'zlashtirish qobiliyati katta yoshdagi o'quvchilarga o'xshamaydi. Bolalar aniq lug'atni o'rganishi mumkin, lekin abstrakt lug'atni o'rganishi qiyin va ular grammatikaga o'xshash formulalar tuzishda qiyinchilikka duch kelishadi

Adabiyotlar ro’yhati

1. Andrews, K. (2017). Culture, curriculum, and identity in education [Book Review]. Journal of Ethnic and Cultural Studies, 4(2), 99-101.
2. Petković, A. (2012). Motivation as one of the influential factors of quality in foreign language learning at the tertiary level. Zbornik radova. Niš:Univerzitet u Nišu.
3. Bećirović S & Hurić-Bećirović. The role of age in students’ motivation and achievement in learning English as a second language, The Journal of Linguistic and Intercultural Education 10 (1), 2017 p-56
4. J.Jalolov, G.Mahkamova & Sh.Ashurov “English language teaching methodology” Tashkent – 2015 58-59
5. Munoz, C. (2010). On how age affects foreign language learning. Advances in Research on Language Acquisition and Teaching: Selected Papers, Gala, University of Barcelona, 40-45
6. Zhang, C. (2009). A study of age influence in L2 acquisition. Asian Social Science, 5(5), 133-137.
Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar deganda, o‘qitishning samaradorligini oshirish, talabalarda yuqori darajadagi bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy metod, uslub, vosita va yondashuvlar tizimi tushuniladi. Ushbu texnologiyalar o‘z ichiga raqamli axborot-kommunikatsiya vositalari, interaktiv platformalar, masofaviy va aralash o‘qitish tizimlari, virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR), sun’iy intellekt asosidagi moslashuvchan dasturlarni qamrab oladi [1,2].

Innovatsion texnologiyalarning ta’lim tizimidagi rivojlanish jarayoni quyidagi bosqichlarda ko‘zga tashlanadi:

- **Boshlang‘ich bosqich (1980–1990 yillar):** elektron vositalar va kompyuter yordamida o‘qitish texnologiyalari shakllandi.
- **Rivojlanish bosqichi (1990–2010 yillar):** internet texnologiyalari, elektron darsliklar, test tizimlari keng joriy etildi.
- **Innovatsion bosqich (2010 yildan hozirgacha):** sun’iy intellekt, o‘yinlashtirish, raqamli pedagogik analitika, adaptiv o‘qitish va VR/AR kabi ilg‘or yondashuvlar ta’limda faol qo‘llanilmoqda.

Zamonaviy pedagogik amaliyotda innovatsion texnologiyalar quyidagicha tasniflanadi [3]:

- **Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT):** ta’lim kontenti, aloqa va monitoring vositalarini raqamlashtirishni ta’minlaydi.
- **Masofaviy va aralash ta’lim texnologiyalari:** darslarni joydan qat’i nazar olib borish imkonini yaratadi.
- **Mobil ta’lim (M-learning):** smartfon va planshetlar yordamida moslashuvchan o‘qitishni ta’minlaydi.
- **O‘yinlashtirish texnologiyalari (Gamification):** o‘quvchilarning faolligini oshiruvchi elementlar asosida bilim berishni tashkil etadi.
- **Vizual va immersiv texnologiyalar (VR/AR):** o‘quv jarayonini real hayotga yaqinlashtiradi, tasavvur va tafakkurni rivojlantiradi.
- **Sun’iy intellekt asosidagi o‘qitish tizimlari:** individual o‘quv yo‘nalishini shakllantirishda qo‘llaniladi.

Bu texnologiyalar oliy ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, kasb-hunar maktablari, korporativ treninglar, mustaqil ta’lim va onlayn kurslar kabi sohalarda keng qo‘llaniladi.

Innovatsion texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiyalash quyidagi zaruriyatlar bilan bog‘liq [4,5]:

- Ta’limning shaxsga yo‘naltirilganligini kuchaytirish;
- Mustaqil o‘rganish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- O‘qituvchi–talaba o‘rtasidagi aloqalarni interaktiv shaklda rivojlantirish;
- Ta’limning moslashuvchanligi va pandemiya sharoitida barqarorligini ta’minlash;
- Ta’lim jarayonini raqamli monitoring qilish va baholash tizimini takomillashtirish.

Yaqin istiqbolda ta’limning raqamlashtirilgan, moslashuvchan va shaxsiylashtirilgan formatlari yanada ommalashib boradi. Bu esa o‘qituvchilardan doimiy yangilikka intilish, innovatsion yondashuvlarni amaliyotda qo‘llash malakasini talab qiladi.

Bugungi ta’lim muassasalarida quyidagi innovatsion vositalar keng qo‘llanilmoqda:

- **Platformalar:** Moodle, Google Classroom, Edmodo, Canvas kabi LMS tizimlari o‘qitishning raqamli infratuzilmasini tashkil qiladi;
- **Texnik vositalar:** interaktiv doskalar, simulyatorlar, planshetlar o‘quv faoliyatining vizuallashuvi va dinamizmini ta’minlaydi;
- **AI asosidagi tizimlar:** talabalarni baholash, diagnostika va moslashtirilgan ta’limni yo‘lga qo‘yishda keng imkoniyat yaratadi;
- **STEAM yondashuvi:** fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani uyg‘unlashtirgan loyihaviy ta’lim tizimi shakllanmoqda.

Mazkur yondashuvlar ta’lim sifati bilan bir qatorda o‘quvchilarda ijodiy, tanqidiy va tizimli fikrlashni shakllantiradi [6].

Innovatsion texnologiyalarni samarali qo‘llash o‘qituvchilarning quyidagi kompetensiyalarini talab etadi:

- **Texnologik savodxonlik:** AKT vositalarini bilish va ulardan o‘rinli foydalanish;
- **Raqamli pedagogik dizayn:** ta’lim mazmunini raqamli formatda ishlab chiqish va moslashtirish;
- **Interaktiv metodlardan foydalanish:** muammoli vaziyatlar, rolli o‘yinlar, diskussiya va simulyatsiyalardan foydalana olish;
- **Tahlil va baholash kompetensiyasi:** ta’lim jarayonini raqamli vositalar yordamida tahlil qilish va sifatli baholash imkoniyatlarini o‘zlashtirish.

Shunday qilib, innovatsion texnologiyalar o‘quv jarayonining uzviy qismiga aylanib, o‘qituvchi va talabalar faoliyatining sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Ziyodov T. "Pedagogik innovatsiyalar". Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
2. Jo‘rayev A. "Raqamli ta’lim asoslari". Samarqand: SamDU, 2022.
3. UNESCO Report on Digital Learning, 2023.
4. Alimova D. va boshqalar. "Zamonaviy pedagogik texnologiyalar". Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
5. European Journal of Education Technology, 2023 yil 2-soni.
6. World Economic Forum – Future of Jobs Report, 2023.

VALLARNING KONSTRUKSIYAVIY XUSUSIYATLARI VA TEXNOLOGIK YECHIMLARI

I.S.Kosimov
Andijon Davlat Texnika Instituti “Avtomobilsozlik va transport” kafedrasi dotsenti, t.f.f.d.

Annotatsiya. Ushbu maqolada dvigatel vallarining vazifasi, turlari va ahamiyati bayon etilgan. Avtomobil dvigatel vallarining konstruksiyaviy xususiyatlarini va texnologik yechimlarini ko’rib chiqilgan va tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *yo‘l harakati, harakat xavfsizligi, xavf omili, ob’yektiv va sub’yektiv sabablar, baxtsiz hodisalar.*

Аннотация. В данной статье описаны назначение, типы и значение валов двигателя. Рассмотрены и проанализированы конструктивные особенности и технологические решения валов двигателей автомобилей**.**

Ключевые слова: дорожное движение, безопасность дорожного движения, фактор риска, объективные и субъективные причины, несчастные случаи.

Abstract. This article describes the function, types, and importance of engine shafts. The design features and technological solutions of car engine shafts were considered and analyzed.

Keywords: road traffic, traffic safety, risk factor, objective and subjective causes, accidents.

Val - aylana kesmaga ega bo'lgan va quvvatni bir qismdan ikkinchisiga yoki energiya ishlab chiqaruvchi mashinadan quvvat sarflaydigan mashinaga uzatish uchun ishlatiladigan har qanday mashinaning aylanadigan qismi. Quvvatni uzatish uchun valning bir uchi quvvat manbaiga, ikkinchi uchi esa mashinaga ulanadi. Vallar mashinalarda ishlatiladigan eng muhim qismlardan biridir. Ular qattiq mashina korpuslarida joylashgan shkivlar tomonidan quvvatlanadigan podshipniklar va tishli g'ildiraklar kabi aylanadigan qismlar uchun ishlatiladi va val ustida joylashgan tishli va podshipniklar harakatni uzatishga yordam beradi [1].

Porshenli dvigatelning tirsakli vali shatundan keladigan kuchlarni qabul qilib, ularni burilish momentiga aylantiradi. Bundan tashqari, tirsakli vall porshenlarni yordamchi taktlarda va dvigatelni ishga tushirishda harakatlantiradi, hamda dvigatelning yordamchi mexanizmlari va tizimlariga harakat uzatadi.

Gazlarning va inertsiya kuchlarining ta’siri, ayniqsa tirsakli vall uzun bo‘lsa, uzunasiga va burchakli deformatsiyalarni keltirib chiqaradi. Bunday deformatsiyalarning sababi — bu dinamik (ya’ni o‘zgaruvchan) yuklamalar bo‘lib, ular uzoq muddat davomida ta’sir qilganda materialning charchashi tufayli buzilishlarga olib kelishi mumkin [2].

Tirsakli vallning bo‘yinchalari yuqori aylanish tezligida ishlaydi va yuqori issiqlik hamda mexanik kuchlanishlarga duch keladi. Ayniqsa shatun bo‘yinlari murakkab harakatlar qiladi, bu esa murakkab inertsiya yuklamalarini keltirib chiqaradi.


Tirsakli vall ishlaydigan yuqoridagi sharoitlar asosida uning konstruktsiyasiga quyidagi talablar qo‘yiladi [3]:

- Tirsakli vall shakli dvigatelning muvozanatli ishlashini ta’minlashi kerak;
- Deformatsiyalarning oldini oladigan yuqori qattiqlik;
- Yuqori charchashga bardoshlilik va dinamik yuklamalarga qarshilik;
- Ishqalanadigan yuzalarning yuqori aşinishga chidamliligi;

Aylanish vaqtida inertsiya kuchlari va momentlarini kamaytirish uchun minimal massa.

Tirsakli vallning konstruktsion xususiyatlari

Tirsakli vallning asosiy qismlari (2-rasm) quyidagilar: o ‘zak bo‘yinchalari (5), shatun bo‘yinchalari (2), ularni bog‘lovchi yonoqchalari (3), burun qismi (5) va dum qismi (1). Ikki shatun bo‘yinchasi yoki bitta shatun bo‘yinchasi va ularni birlashtiruvchi shakllar krivoshipni (egri tutqich) tashkil qiladi.



Rasm-1.Tirsakli val: a-po‘latli; b-cho‘yanli; 1- dum qismi; 2- shatun bo‘yinchalari 3- bog‘lovchi yonoqchalari 4- o‘zak bo‘yinchalari 5- burun qismi

Birinchi turdagi qismlar bitta metall qoliplarda tayyorlanadi, barcha qismlar ma'lum ishlov berish operatsiyalari paytida val hosil bo'ladi. Vallarning qismlardan bir nechta tayyorlanadi, agar kerak bo'lsa, ularni olib tashlash va almashtirish mumkin.

Har qanday val, turi, maqsadi va xususiyatlaridan qat'i nazar, printsipial jihatdan bir xil tuzilishga ega. Umuman olganda, val bir necha qismlarga bo'linadi:

O‘zak bo‘yinchalar- valning qismlari, o'qini tashkil etuvchi qismlari, o‘zak bo‘yinchalari dvigatel blokigiga mahkamlanadi [4-6]. Vallarning o‘zak bo‘yinchalarda joylashgan ustquyma (silliq podshipniklar) orqali blokga o'rnatiladi;

• Shatun bo‘yinchalar- birlashtiruvchi shatunlarni o'rnatish uchun tayanch vazifasini bajaradigan qismlardir. Shatun bo‘yinchalarda joylashgan ustquyma (silliq podshipniklar) orqali valga joylashtirilib ornatiladi.

Bog‘lovchi yonoqlar - asosiy bo‘yinchalarni birlashtiruvchi yuza bo‘yinchalari bilan bog'laydigan ko'ndalang qismlar. Bog‘lovchi yonoqlarning uzunligi silindrdagi porshen zarbasini va shunga mos ravishda dvigatel aylanishlar momentni rivojlantiradi.

• Pasangi og'irliklar (barcha val bo‘yinchalarga emas) - ularning teskari tomonidagi davomchi bog‘lovchi yonoqlari. Bu tirsaklar va bog'lovchi bo‘yinchalar harakatlanayotganda paydo bo'ladigan


inersial kuchlarni muvozanatlashtiradigan og'irliklardir. Qarama-qarshi og'irliklar valning nomutanosibligini kamaytiradi, KShM qismlarini urilishi va bienasini yo'q qiladi;

• Burun qismi (valning oldingi chiqish qismi) - birinchi silindrning yon tomonidagi dvigatel blokidan tashqariga chiqarilgan, montajga mo ‘ljallangan moslamasini yoki tishli g'ildirakni, shuningdek dvigatel qo'shimchalarini aylantirish uchun tishli yoki shkivni o'rnatish uchun mo'ljallangan qism;

Dum qismi (valning orqa chiqish qismi) oxirgi silindr tomonidan quvvat agregati blokidan tashqariga cho'zilgan qismdir (aniqrog'i, aylantirish momentni uzatuvchi tomondan transmissiya agregatigacha), odatda u maxovikni o'rnatish uchun gardish (flanes) shaklida tayyorlanadi va tishli gildirak moslamasi ham shu erda joylashgan bo'lishi mumkin.

Valni asosini o‘zak bo‘yinchalar va bog‘lovchi yonoqlar birlashtiruvchi shatun bo‘yinchalar bilan birgalikda tirsak deb ataladigan narsalarni hosil qiladi - ularning soni dvigatelda ishlatiladigan porshonlar / silindrlar soniga mos keladi. Bog‘lovchi yonoqlarga o'tish radius bilan amalga oshiriladi, bu esa ish paytida eng katta yuklarga duchor bo'lgan bu qismlarning yuqori mustahkamligini ta'minlaydi. Bog‘lovchi yonoqlarda moylash materiallarini etkazib berish uchun qiyshiq yoki to'g'ri kanallar tayyorlanadi, kanal chiqishlari asosiy va birlashtiruvchi o‘zak bo‘yinchalar markaziy qismlarida joylashgan. Bog‘lovchi yonoqlarda yog 'chiqishi ularda joylashgan ustquyma (silliq podshipniklar) moylashni ta'minlaydi.

Teshiklar tiqinlar bilan yopilishi mumkin, hosil bo'lgan bo'shliqlar moyni qo'shimcha tozalashni ta'minlaydi - mexanik kirlanishlar valning aylanishi paytida paydo bo'ladigan markazdan qochma kuchlar ta'sirida teshiklar va tiqinlarning ichki devorlariga joylashadi. Shuningdek, valda tishli g'ildiraklar va yoki shkivlarni o'rnatish uchun shponka o'rindiqlar mavjud - odatda oyiqchchalar uchun kalitlar tanlanadi, ba'zan esa shpilkalar tayyorlanadi. Valning dumidagi burun va gardishning uchlarida murvatlarni burama rezba uchun teshiklar qilingan. Nihoyat, ba'zi vallarda, birliklarni haydash uchun olinmaydigan tishlar kesiladi.



Rasm-2. Tirsakli valni tarkibi (yig‘ma-ajratilgan):
1-ustquyma (silliq podshipniklar); 2-shatun; 3-shatun bo‘yinchasi; 5-o‘zak bo‘yinchasi; 6- Pasangi og'irliklar

Tirsakli valni konstruksiyasini tuzilishi:

Tirsakli valni tuzilishi biroz murakkabroq konstruksiyaga ega. Ular qarama-qarshi og'irliklar bilan birlashtirilgan yonoqlarga asoslangan (ko'pincha bu faqat dumaloq po'lat qismlar), ularning markaziy qismiga asosiy o‘zaklar bosiladi va periferik qismlarga - birlashtiruvchi shatunlar. Yig'ilgan val odatda tebranma podshipniklar dvigatel karteriga o'rnatiladi. Yig'iladigan va demontaj qilinadigan vallar ko'pincha kichik silindrli (ikkitadan ko'p bo'lmagan) va mototexnika vositalarining kichik hajmli silindrlarda qo'llaniladi.

Tirsakli vallar har xil turdagi uglerodli va qotishma po'latlardan, shuningdek, yuqori quvvatli quyma cho’ndan tayyorlanadi. Qattiq qismlar maxsus presslarda qoliplar yordamida quyma qoliplardan zarb qilish (hajm bo'yicha shtamplash) yo'li bilan tayyorlanadi, bitta qolip bir nechta shtamplash operatsiyalaridan o'tadi, so'ngra tokarlik, frezalash va boshqa metall kesish dastgohlarida tugatiladi.

Birlashtiruvchi o‘zak va asosiy shatunlarning yuzasi ularning mustahkamligi va yeilishgabardosh qarshiligini oshirish uchun qattiqlashtirilgan yoki chiniqtirilgan bo'lishi mumkin. Tirsakli valni tuzilishga yig'ilgan burlik yoki shtamplangan qoliplardan tayyorlanadi.

Tirsakli val quvvat bloki agregatiga o'rnatish yuzalarida yoki olinadigan o’rindiqda asosiy podshipniklar orqali o'rnatiladi, u tepaga o'rnatilgan asosiy podshipnik qopqoqlari bilan o'rnatiladi. Valning burni va dumi vosita blokidan salnik qistirmalari orqali chiqadi. Vaqtni o'lchash moslamasi kalit yordamida burunga o'rnatiladi va birliklarning harakatlantiruvchi bolt yordamida o'rnatiladi. Dum qismiga bolt yordamida maxovik o'rnatiladi.

XULOSA. Dvigatel vallarining avtomobil dvigatelidagi roli, ahamiyati. ularning xususiyatlari haqida qisqacha ma'lumotlar, dvigatel vallarining shakli, geometriyasi, valning asosiy elementlari, Valni ishlab chiqarish texnologiyalari konstruksiyaviy xususiyatlarini va va texnologik yechimlarining umumiy bahosi yoritilgan.

Bu maqola texnikaviy maqsadga ega bo'lib, avtomobilsozlikka qiziquvchi yoki shu sohada ishlaydigan auditoriyaga mo'ljallangan.

Adabiyotlar.

1.Karimov U.: Traktor va avtomobil dvigatellari nazariyasi-T.Mexnat 1989.-232 b.
2.Kodirov S.M : Ichki yonuv dvigatellari.Toshkent.“Zarqalam”.2006. -456 b.
3.Kodirov S.M., Salimov O.U., Proskurin A.I. Dvigatellar va avtomobil nazariyasi.Toshkent: “Noshir” нашриёти. 2008.-388b.
4. Xudoyberdiev T.S. Traktor va avtomobillar ichki yonuv dvigatellarining tuzilishi va ishlashi.-T. “Barkamol fayz media” ,2018.-352 b.
5. Fayziyev M.M.,Miryunusov M.M., Orifjonov M.M., Bozorov B.I. Ichki yonuv dvigatellari. Toshkent. Turon-iqbol, 2007. – 608 b.
6. Karimxodjayev Nazirjon Ichki yonuv dvigatellari nazariyasi asoslari (o‘quv qo‘llanma) Andijon 2021 -226 b

ОЦЕНКА ВОЗДЕЙСТВИЯ ШУМА НА ЧЕЛОВЕКА И ОКРУЖАЮЩУЮ СРЕДУ

Н.Каримходжаев
канд. техн. наук, доцент, Андижанский машиностроительный институт

Аннотация. Известно, что шум – это совокупность звуков, которые мешают человеку работать или отдыхать, вызывают акустический дискомфорт, оказывают пагубное влияние на здоровье человека и окружающую среду.Рассматриваются результаты экспериментальных исследований по оценке загрязненности атмосферного воздуха автомобильным шумовым источником.

Ключевые слова. Транспортный шум, транспортный поток, ДВС, дорожное покрытие, гипертонический шум.Транспортный поток, автомобильный двигатель, дорожное покрытие, гипертонический шум.

Annotation. It is known that noise is a set of sounds that interfere with a person's work or rest, cause acoustic discomfort, and have a detrimental effect on human health and the environment.

Key words. Traffic noise, traffic flow, engine, road surface, hypertonic

Annotatsiya. Ma’lumki, shovqin - bu insonning ishlashi yoki dam olishiga xalaqit beradigan, akustik noqulaylik tug‘diradigan, inson salomatligi va atrof-muhitga zararli ta’sir ko‘rsatadigan tovushlar majmuidir. Atmosfera havosining avtotransport shovqin manbai bilan ifloslanishini baholash bo‘yicha o‘tkazilgan tajribaviy tadqiqotlar natijalari ko‘rib chiqilmoqda.

Kalit so‘zlar: Transport shovqini, transport oqimi, ichki yonuv dvigateli, yo‘l qoplamasi, gipertonik shovqin. Transport oqimi, avtomobil dvigateli, yo‘l qoplamasi, gipertonik shovqin.

По данным Всемирной организации здравоохранения (ВОЗ), шумовое загрязнение является одной из самых опасных экологических угроз для здоровья человека [1].

По данным Европейского агентства по окружающей среде, только шумовое загрязнение в Европе является одной из основных причин смерти людей и ежегодно уносит жизни 16,6 тыс. человек. В связи с этим во многих странах мира проводятся научно-исследовательские работы по снижению уровня автотранспортных шумовых загрязнений. На рис.1 представлены основные источники шумовых загрязнений атмосферы, откуда видно, что главным источником является транспортная система.




Рис. 1. Основные источники шума

По данным ВОЗ, уровень шума выше 75 децибел (дБ) вреден для здоровья человека, а выше 120 дБ может вызвать боль.

В республике Узбекистан. также проводятся работы по изучению и разработке путей снижения уровня шумовых загрязнений автомобильного транспорта.

Информация о шумовых процессах на оживленных улицах Андижанской области (по регионам)




Рисунок 2. Город Андижан, район «Янги Базар».

Уровень шума составляет 68-75 дБ на центральных улицах района в Андижанской области, 73-80 дБ на основных радиальных магистралях, новостройках, в помещениях и на улицах.



Рисунок 3 Центральная улица города Андижан

Автомобили	**Уровень звукового давления (дБ) в октавном диапазоне средней геометрической частоты, Гс**								
Звуковое давление в октавном диапазоне автомобилей	**31,5**	**63**	**125**	**250**	**500**	**1000**	**2000**	**4000**	**8000**
Легковые автомобили	102	96	90	83	77	70	62	57	51
Грузовые автомобили	108	99	92	86	83	80	78	76	74

ЗАКЛЮЧЕНИЕ В результате нашей работы мы стали свидетелями неуклонного увеличения количества автотранспорта, а также повышения уровня шума на городских улицах. Не будет преувеличением сказать, что здоровье человека находится под угрозой. Поэтому подготовка высококвалифицированных специалистов в соответствии с современными требованиями является сегодня актуальной проблемой.

Литература

1. Новиков А. Н. Экологический мониторинг воздействия автотранспорта на акустическую среду города // Ремонт, восстановление, модернизация. - 2006 .- N 6. - С. 33-34.
2. Полякова М. Шум и здоровье // Техника-молодежи.-Б.м.-2009.-№10. - С.16-17.

3. ГОСТ 12.1.003-83* ССБТ. Шум. Общие требования безопасности - М.: Изд-во стандартов, 1983.
4. Мирзахамдамов Ж.К. Меры по снижению воздействия дорожного шума на организм человека // Universum: технические науки: электрон. научн. журн. 2021. 6(87).

ОСОБЕННОСТИ ЭКСПЛУАТАЦИИ АВТОМОБИЛЬНЫХ ДВИГАТЕЛЕЙ В ЖАРКО КЛИМАТИЧЕСКИХ УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА

Н.Каримходжаев
К.т.н., доцент, Андижанский государственный технический институт,

Аннотация: В статье рассматриваются особенности эксплуатации автомобильных двигателей в жарких климатических условиях Узбекистана. Анализируются факторы, влияющие на техническое состояние двигателей при высоких температурах, такие как перегрев, повышение нагрузки на системы охлаждения и смазки, а также влияние качества топлива. Приводятся рекомендации по обеспечению надежной работы двигателей в условиях высоких температур.

Ключевые слова: жаркий климат, Узбекистан, автомобильные двигатели, перегрев, система охлаждения, эксплуатация, качество топлива.

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonning issiq iqlim sharoitida avtomobil dvigatellaridan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Yuqori haroratda dvigatellarning texnik holatiga ta’sir qiluvchi omillar, masalan, qizib ketish, sovitish va moylash tizimlariga yuklamaning oshishi, shuningdek, yonilg‘i sifatining ta’siri tahlil qilinadi. Yuqori harorat sharoitida dvigatellarning ishonchli ishlashini ta’minlash bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Tayanch iboralar: issiq iqlim, O‘zbekiston, avtomobil dvigatellari, qizib ketish, sovutish tizimi, ekspluatatsiya, yoqilg‘i sifati.


Abstract: This article examines the specifics of operating automobile engines in the hot climatic conditions of Uzbekistan. Factors influencing the technical condition of engines at high temperatures, such as overheating, increased load on cooling and lubrication systems, and the impact of fuel quality, are analyzed. Recommendations are given for ensuring the reliable operation of engines in high temperatures.

Keywords: hot climate, Uzbekistan, automobile engines, overheating, cooling system, operation, fuel quality.

Автомобили и их двигатели при проектировании, как правило рассчитываются на работу в условиях умеренного климата, хотя и природно-климатические условия, особенно экстремальные случаи оказывают существенное, влияние на надежность и износостойкость двигателей [1,2,3, 4]. Ниже представлены результаты работ, проведенных в Андижанском машиностроительном институте по изучению влияния природно климатических условий эксплуатации на изменение технического состояния автомобилей в жарко климатических условиях республики Узбекистан. Условие эксплуатации автомобилей в республике считается экстремальным, с высоким содержанием пыли в воздухе [1,2].

В процессе эксплуатации двигатель соприкасается с окружающей средой, а его элементы взаимодействуют между собой, вследствие чего вызывается нагружение деталей, их взаимные перемещения, трение, нагрев, химические преобразования и изменения во время работы физических значений и конструктивных параметров: размеров, взаимного расположения деталей, зазоров и других величин. Техническое состояние двигателя или его агрегатов оценивается совокупностью изменяющихся свойств, характеризуемых текущими значениями конструктивных параметров: x_1, x_2, x_3, $x_п$. Например, размеры деталей цилиндро-поршневой группы, кривошипно-шатунного и газораспределительных механизмов и т. п.

Известно, что на изменение технического состояния двигателя основное влияние оказывают его конструкция, качество материалов, из которых изготавливаются детали, технология производства, качество топливо-смазочных материалов, условия работы двигателя и его деталей в эксплуатации, а также качество ТО и ремонта. В данной работе рассматривается влияние условий эксплуатации на изменение параметров технического состояния двигателей в республике Узбекистан.



Исследования последних 10—15 лет показали, что одним из основных эксплуатационных факторов, влияющих на техническое состояние автотракторных двигателей, является атмосферная пыль, поступающая в двигатель вместе с потребляемым воздухом, топливом и маслом, а также через неплотности в местах соединения деталей. Пыль, попадая в двигатель, вызывает интенсивный абразивный износ его деталей. Недооценка этого фактора при проектировании, испытании и эксплуатации двигателя может привести к неоправданно высоким затратам вследствие быстрого ухудшения технического состояния и сокращения долговечности. Основное количество пыли попадает в двигатель через воздухоочиститель и чем больше количество пыли попадает в двигатель, тем быстрее изнашиваются детали. С увеличением коэффициента пропуска пыли воздухоочистителем резко повышается интенсивность изнашивания цилиндров (рис. 1).

Рис. 1. Влияние коэффициента пропуска пыли (φ) воздухоочистителем на скорость изнашивания (*i*) цилиндров двигателя

Получено, что при работе двигателя на загрязнённом топливе существенно снижается его надёжность. Механические частицы, попадая с топливом в инжекционную систему питания и в карбюратор, вызывают отказ и изнашивание их деталей и агрегатов. Так, элементами, имевшими наибольшее число отказов являлись инжектор и электрический бензонасос, средняя величина которых соответственно – 2,28 и 2,77 отказ/авт., а в карбюраторном двигателе до 47% отказов элементов топливной аппаратуры, происходило из-за загрязненности топлива. Это показывает, что техническое состояние двигателей тесно взаимосвязано с качеством топливо-смазочных материалов, дорожными, а также климатическими условиями эксплуатации. При высокой температуре и повышенной запыленности воздуха износ деталей двигателя, главным образом детали цилиндропоршневой группы интенсивно изнашиваются и в этих условиях превалирующее значение имеет абразивное изнашивание деталей [1,2].

Какой бы совершенной не была конструкция двигателя, с увеличением продолжительности работы и истечением времени его техническое состояние претерпевает изменения и это приобретает особую значимость для климатических условий республики Узбекистан.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ.

Условие эксплуатации автомобилей в республике считается экстремальным, с высоким содержанием пыли в воздухе.

2. Сильное влияние на интенсивность изменения технического состояния двигателей оказывает ззапылённость воздуха, загрязненность топлива и масла. Пыль, попадая в двигатель, вызывает интенсивный абразивный износ его деталей. Недооценка этого фактора при проектировании, испытании и эксплуатации двигателя может привести к неоправданно высоким затратам вследствие быстрого ухудшения технического состояния и сокращения долговечности.

3. На интенсивность изнашивания двигателей решающее влияние оказывают природно – климатические и дорожные условия. При высокой температуре и повышенной запыленности воздуха износ деталей двигателя, главным образом детали цилиндропоршневой группы интенсивно изнашиваются и в этих условиях превалирующее значение имеет абразивное изнашивание деталей.

4. Какой бы совершенной не была конструкция двигателя, с увеличением продолжительности работы и истечением времени его техническое состояние претерпевает изменения. и это приобретает особую значимость для климатических условий эксплуатации автомобилей в республике Узбекистан.

Литература.

1. Каримходжаев Н., Алматаев Т.О., Одилов Х.Р. Основные причины, вызывающие износ деталей автотранспортных средств, эксплуатирующихся в различных природно-климатических условиях // Universum: Технические науки : электрон. научн. журн. 2020. № 5(74). URL: http://7universum.com/ru/ tech/archive/item/9435.

2. Каюмов Б.А. Обеспечение надежности системы питания современных бензиновых двигателей в условиях жаркого климата.-Андижан, Андижонашриёт –манбаа.2019.-104с.

3. Шеховцев А.Ф. и др. Конструктивные отличия и особенности Эксплуатация двигателей в экстремальных условиях. Kovsh.com/ library/ice/climatic conditions/ekspluadvigatelekstremuslov. 2019.

4. Recommendations for Cleaning and Pretreatment of Heavy Fuel Oil Alfa Laval. London. 2012. - 124 p

5.Эксплуатация двигателей в экстремальных условиях. Kovsh.com/ library/ice/climatic conditions/*eksplua dvigatel* ekstrem uslov. 2019_.

6.Эфендиев А.М. Повышение надежности автотракторных двигателей в условиях пустынь с высокой концентрацией солесодержащей пыли в воздухе. Ташкент 1994. 180 с.

ICHKI YONUV DVIGATELLARINING YOG‘LASH TIZIMI QURILISHI VA UNI EKSPLUATATSIYA QILISHDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR

N.Karimxodjayev
Andijon davlat texnika instituti, dotsent, t.f.n.

Annotatsiya: Ushbu maqolada benzinli avtomobillarning moylash tizimi tuzilishi, uning asosiy qismlari va vazifalari tahlil qilinadi. Moylash tizimining samarali ishlashi dvigatelning ishonchli va uzoq muddatli ishlashi uchun muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, maqolada moylash tizimidagi keng tarqalgan nosozliklar, ularning sabablari va oldini olish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: benzinli avtomobil, moylash tizimi, dvigatel, moy nasosi, moy filtri, nosozliklar, texnik xizmat.

Аннотация: В данной статье анализируется структура системы смазки бензиновых автомобилей, ее основные компоненты и функции. Эффективная работа системы смазки является важным фактором надежной и долговечной работы двигателя. Также в статье представлены распространенные неисправности в системе смазки, их причины и рекомендации по их предотвращению.

Ключевые слова: бензиновый автомобиль, система смазки, двигатель, масляный насос, масляный фильтр, неисправности, техническое обслуживание.

Abstract: This article analyzes the structure of the fuel system for gasoline-powered vehicles, its main components, and functions. Effective operation of the lubrication system is an important factor for reliable and long-term engine operation. The article also presents common malfunctions in the lubrication system, their causes, and recommendations for prevention.

Keywords: gasoline car, lubrication system, engine, oil pump, oil filter, malfunctions, maintenance.

Moylash tizimi-moy nasosi, radiator va moy tozalash filtrlaridan iborat bo‘lib, dvigateldagi ishqalanuvchi detallarni moylash va ularni qisman sovitishni ta’minlaydi. Tirsakli valning o‘zak va shatun podshipniklari juda og‘ir sharoitlarda ishlaydi. Shuning uchun moyni shunday miqdorda berish kerakki, u nafaqat podshipniklarni moylashi, baiki ishqalanish natijasida ajralgan barcha issiqlikni ham olib ketishi kerak. Masalan, tirsakli val bo‘yinlariga moyning yetarli miqdorda bormasligi - podshipnikning ishqalanishi natijasida hatto chidamli qotishmalarining erib ketishiga olib keladi.Ortiqcha moylash ham yaxshi emas, masalan, yonish kamerasiga moyning tushishi qurum hosil bo‘lishiga va dvigatelning qizib ketishiga sabab bo‘ladi.

Dvigatel moyi - uglevodlar va turli xil qo‘shilmalardan (8 - 14%) ihorat bo‘lgan murakkab aralashma. Qo‘shilmalar ishqalanuvchi detallaming yeyilishini kamaytiradi (yeyilishga qarshi), metallarning korroziyasini ozaytiradi (korroziyaga qarshi) hamda ko‘pik hosil bo‘lishiga (ko‘pikka qarshi) va yuqori solishtirma yuklanishda ishlaydigan ishqalanuvchi yuzalarning tirnalishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Benzinli dvigatellarda moy poddondan moy nasosining moy qabul qiluvchi qismi orqali nasos seksiyalariga so‘riladi. Moy seksiyadan silindrlar btokining o‘ng devoridagi kanal orqali filtrga va u yerdan asosiy moy magistraliga yuboriladi. Asosiy magistraldan moy bosim ostida silindrlar btoki va kallagidagi kanallar orqali tirsakli valning o‘zak podshipniklariga, taqsimlash valining podshipniklariga, koromislo vtulkalariga, turtkich shtangalarining yuqori uchiga, yuqori bosimli yonilg‘i nasosiga va kompressorga kirib keladi.

Moy nasosining tuzilishi. Moy nasosi bosim hosil qiladi va moylash tizimida moyning aylanishini ta’minlaydi. Avtomobil dvigatellari uchun, odatda, shesternali moy nasoslari qo‘llaruladi. Nasosning asosiy elementlari o‘zaro ilashishda bo‘lgan shesternalardir. Shesterna tirsakli valdan harakat oladigan valga shponka qo‘yib o‘tkazilgan. Yetaklanuvchi shesterna nasos korpusiga zichlab o‘tkazilgan o‘qda erkin aylana oladi. Ikkala shesterna korpusda juda kichkina (korpus bilan tishlarning cho‘qqilari va yon sirtlari orasidagi) tirqish bilan aylanadi. Shesternalar aylanganda o‘z tishlari orasidagi botiqliklarda moyni so‘rish bo‘shlig‘idan haydash bo‘shlig‘iga olib o‘tadi, u yerda moy tishlar ilashganda, botiqlikdan siqib chiqariladi'moy kanal orqali moylash tizimiga kelib tushadi. Moyning tizimdagi yuqori (maksimal) bosimi (0,3 - 0,9 MPa) reduksion klapan yordamida cheklanadi. Tarmoqdagi bosim belgilangan chegaraga yetganda klapan zoldiri prujinani siqadi va moyning bir qismi so‘rish bo‘shlig‘iga yoki dvigatel karteriga oqib o‘ta boshlaydi. Shu taxlitda tizimdagi moy bosimining ortib ketishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Benzinli dvigatellarda shesternali ikki seksiyali moy nasosi silindrlar blokining pastki tekisligiga mahkamlanadi. Baland shesternali seksiya moyni dvigatelning asosiy magistraliga jo‘natadi va u haydash seksiyasi deyiladi.

Moylash tizimida uchraydigan nosozliklar, ularning alomatlari va kelib chiqish sabablari. Ish jarayonida dvigatel karteridagi moy satxi kamayib, sifati o‘zgaradi. Bular dvigatelning buzilishiga va boshqa nosozliklarni keltirib chiqarishga olib keladi. Dvigatelning ishlash jarayonida moy sifati yomonlashishiga sabab, uni metall zarrachalari, oksidlanishi va yonilg‘i qo‘shilib ifloslanishidandir. Shuningdek, moyga yaxshi moylanish sifatini beruvchi qo‘shimchalarning moy tarkibida miqdorini kamayib borishi, moy sifatini pasaytiradi. Mexanik aralashma, qo‘shimchalar metall zarrachalaridan iborat bo‘lib, bular ikki ishqalanuvchi sirt sirpanishidan hosil bo‘ladi. Mineral aralashma (qum, chang) lar, havo bilan (dvigatel) moyiga qo‘shilib, moyning moylash xossasini kamaytiradi. Moy tarkibida, mexanik aralashmaning miqdori 0,2% dan oshmasligi kerak. Havodagi kislorodning ta’siri bilan moy oksidlanib qoladi va karterga tushib, qizigan va kirlangan moy bilan aralashib ketadi. Kislotalar oksidlovchi modda hisoblanib, silindrlar devorini, porshen halqasining yemirilishida va zanglashga uchrashida asosiy omil hisoblanadi. Shuningdek, bu modda podshipniklarda ishqalanishga qarshilik ko‘rsatuvchi muhit yaratadi. Smolalar esa porshenda va porshen halqasida laksimon cho‘kma hosil qiladi hamda ularni qo‘zg‘aluvchanligini keskin kamaytiradi. Mayda kolloid holda va erigan yoki quyqa ko‘rinishida karterga tushuvchi (qattiq aralashmalar, ya’ni: karbon, karboid va kokslar) moy kanallari va naychalaridan o‘tib (moy aylanib o‘tishini sustlashtirib) ishqalanuvchi sirtga ta’sir etib, qirilgan, chizilgan yuzali (obraziv) yeyilish hosil qiladi.

Moylash tizimining nosozliklarini aniqlashda, uni quyidagi tashqi belgilariga e'tibor beriladi. Masalan: karterdagi moy satxi moy ko‘rsatuvchi shupdagi "MIN" belgicidan kam bo‘lsa, hamda tirsakli valni o‘rtacha aylanishida, moy bosimi 0,1-0,15 MPa dan kam bo‘lsa, yoki dvigatel (500 ob/min) salt ishlaganda, moy bosimi 0,05 MPa dan kam bo‘lsa, moylash tizimi nosoz hisoblanadi. Bundan tashqari, moy tarkibiga yonilg‘ining qo‘shilib borishi moy qovushqoqligini va moyning bosimi kamayib ketishiga sabab bo‘ladi (bu manometr orqali aniqlanadi). Moyning sifati, qorayib ketganligi, bosma qog‘ozga tomizib aniqlanadi. Bundan tashqari (jips mahkamlangan joyni bo‘shab qolishidan), moy sizib oqsa hamda mayin va dag‘al filtrlar tez-tez kirlanib qolsa, bu ham moylash tizimi nosozligidan darak beradi. TXK da karterdagi moy satxi va sifati tekshiriladi, zarur bo‘lsa, me'yoriga yetkazib, moy quyiladi. Moylash tizimi, dvigatel salt ishlaganda yuviladi. Bu qurilmada mayin tozalash filtri mavjuddir. Moylash tizimi 6-10 ming km masofani yurgandan so‘ng (navbatdagi 2-TXK paytida), hamda mavsum almashish paytida, albatta yuviladi. 1-TXK paytida, mayin moy filtridan (almashuvchi filtrlovchi elementidan) quyqa to‘kib yuboriladi. Karburatorli dvigatellarda, moy almashtirilganda, filtrlovchi elementlar ham almashtiriladi.

Xulosa. Benzinli avtomobillarning moylash tizimi dvigatelning uzluksiz va samarali ishlashida muhim rol o‘ynaydi. Tizimning asosiy vazifasi ishqalanayotgan qismlarni moy bilan ta’minlab, ularning qizib ketishini va yeyilishini oldini olishdir. Moy nasosi, moy filtri, moy yo‘llari va moy karteri kabi asosiy qismlar o‘zaro uzviy ishlashi kerak. Moylash tizimidagi nosozliklar – masalan, moy sathining pasayishi, filtrlashning buzilishi yoki nasosning ishlamay qolishi – dvigatelga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Shuning uchun avtomobil egalariga tizimli texnik xizmat ko‘rsatish, sifatli moy va ehtiyot qismlardan foydalanish tavsiya etiladi. To‘g‘ri ishlatilgan moylash tizimi avtomobilning umrini uzaytiradi va ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytiradi.

Foydalanilgan adaboyotlar

1. Karimhodzhaev, N., Almataev, T.O., & Odilov,H.R. (2020). Osnovnye prichiny, vyzyvaushhie iznos detalej avtotransportnyh sredstv, ekspluatiruushhihsja v razlichnyh prirodno

klimaticheskih uslovijah. Universum: tehnicheskie nauki : jelektron. nauchn. zhurn. №5 (74). URL: Retrieved from https://7universum.com/ru/tech/archive/item/94.35 , pp.68-73.

2. Каримходжаев Н. Влияние различных эксплуатационных факторов на износостойкость деталей автомобильных двигателей. Бюллетень науки и практики.https://www.bulletennauki.ru.T. 8. №10. 2022. С.212-215

3. M.M.Orifjonov. Ichki yonuv divigatellarini loyiihalash. Toshkent “O‘qituvchi” 1993 y.69 b

4. Qodirov S.M.Ichki yonuv divigatellari. Toshkent “O‘qituvchi” 1988y.292 b

YO‘L TRANSPORT HODISALARINI OLDINI OLISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI

M.Xaydarov
Andijon davlat texnika instituti Transport logistikasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Yo‘l transport hodisalarini oldini olish bo‘yich xorijiy tajribalar,dunyoning bir qator rivojlangan mamlakatlarida amalga oshirilayotgan samarali dasturlar va texnologiyalarini o‘z ichigan oladi.Yo‘l infratuzilmasini yahshilash,haydovchilarni o‘qitish va targ‘ibot ishlarini olib borish,statistika va tahlil qilish,jazo va rag‘bat tizimlarini qo‘llash shular jumlasidandir.

Kalit so‘zlar: Yo‘l harakati xavfsizligi tizmlari, intellektual transport tizmlari, samarali yo‘l belgilarini o‘rnatish, jamoat transporti havfzizligi, yo‘l transport hodisalarini statistik tahlili.

Abstract: includes foreign experience in preventing road traffic accidents, effective programs and technologies implemented in a number of developed countries of the world. These include improving road infrastructure, conducting driver training and awareness campaigns, statistics and analysis, and the application of penalties and incentive systems.

Keywords: Traffic safety systems, intelligent transport systems, effective installation of road signs, public transport safety, statistical analysis of road accidents.

Аннотация:Включает в себя зарубежный опыт предотвращения дорожно-транспортных происшествий, эффективные программы и технологии, реализуемые в ряде развитых стран мира.К ним относятся улучшение дорожной инфраструктуры, обучение водителей и проведение пропагандистской работы, статистика и анализ, применение систем наказания и поощрения.

Ключевые слова: Системы безопасности дорожного движения, интеллектуальные транспортные системы, эффективное установление дорожных знаков, безопасность общественного транспорта, статистический анализ дорожно-транспортных происшествий.

O‘zbekistonda sodir bo‘layotgan yo‘l transport hodisalarining o‘ziga xos jihati unda piyodalar ishtirokining ko‘pligi. Ichki ishlar vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, respublika hududida yiliga o‘rtacha 9-10 ming yo‘l-transport hodisalari sodir bo‘ladi.

Ulardan ikki mingdan ortig‘ida insonlar halok bo‘lmoqda.2022 yilning o‘zida O‘zbekistonda 2 ming 262 nafar kishi YTH qurboni bo‘lgan.2023 yilda O‘zbekistonda sodir bo‘lgan yo‘l transport hodisalarining qariyb yarmi 3565 piyodalar ishtirokida sodir bo‘lgan.

Jami halok bo‘lganlarning ham qariyb yarmi 801 nafari piyodalarga to‘g‘ri keladi. Kuzatuvchilar piyodalar o‘limining ko‘pligiga ular yo‘llarda himoyalanmagani, yo‘llarning piyodalardan ko‘ra ko‘proq mashinalar uchun qulay qilib qurilgani bilan izohlashadi.

Lekin ma’lum bir mamlakatlar bu sohada ko‘pgina islohotlar o‘tkazib, avtohalokatdagi piyodalar o‘limi holatlarini sezilarli kamaytirishga erishishgan.

Masalan Angliyada yo‘llar O‘zbekistondagi kabi keng emas.Shunday bo‘lsa-da, bu yerdagi shaharlarda yo‘l o‘rtasiga o‘rnatilgan maxsus orolchani ko‘p uchratish mumkin. Bu mashinalar bir-birini oshib o‘tmasligi va piyodalar yo‘l o‘rtasida o‘zini xavfsiz sezishi uchun qilinadi.

Bunday orolchani piyodalar o‘tish yo‘lagida ham ko‘rishingiz mumkin. Britaniyada piyodalar o‘tish yo‘lagi O‘zbekistondagidan farq qiladi.Piyodalar o‘tish yo‘lagi o‘rtasidagi orolcha va ko‘p hollarda o‘tish yo‘lagining bo‘rtiq qurilgani mashinalar piyodalarga yo‘l berishini ta’minlaydi.Shahar ichida eng yuqori tezlik soatiga 48 kilometrni tashkil qiladi.

Koreya Respublikasida bolalarning avtohalokatdagi o‘lim holatlarini 1988–2012 yillar mobaynida 95 foizga tushirishga muvaffaq bo‘lgan.

Bolalar ishtirokidagi yo‘l-transport hodisalarini kamaytirish uchun Koreyada turli choralar ko‘rib borilgan.Maktablar yaqinidagi yo‘llar holatini yaxshilash, bolalar uchun maktab avtobuslarining xavfsiz qatnovini ta’minlash, bolalarga yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha sifatli ta’lim berish, yo‘l harakati xavfsizligiga ixtisoslashgan fuqarolik guruhlarini qo‘llab-quvvatlash, tegishli qonunchilik bazasini mustahkamlash dasturlari shular jumlasidan.

Qonunchilikdagi islohotlar natijasida bolalarning nafaqat piyoda sifatidagi huquqlari, balki ularning harakatlanish huquqlari ham kengroq ishlab chiqilgan.

Oddiy piyoda yurish konsepsiyasidan ko‘ra ko‘proq masalalarni o‘z ichiga qamrab oluvchi normativ hujjatlar qabul qilingan.

Misol sifatida «Yo‘l harakati to‘g‘risidagi qonun» (Road Trac Act), «Yo‘l-transport hodisalarini bartaraf etishga oid maxsus ishlar to‘g‘risidagi qonun» (Act on Special Cases Concerning the Settlement of Trac Accidents), «Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risidagi qonun» (Trac Safety Act), «Avtotransport vositalarini boshqarish to‘g‘risidagi qonun» (Motor Vehicle Management Act) kabilarni sanab o‘tish mumkin.

Bu qonunlarda ishlab chiqarilayotgan avtomobillarda bolalar o‘rindiqlari o‘rnatilishi lozimligi, tezyurar avtomagistrallarda harakatlanish tartibi, maktab va bog‘cha avtobuslari va ularning haydovchilariga bo‘lgan talablar, bolalar va piyodalarga yo‘l-harakati xavfsizligi bo‘yicha bilim berish mexanizmlari, yo‘l infratuzilmalarining talablari va shunga o‘xshash tartiblar belgilab qo‘yilgan.

Avtohalokatlarni kamaytirish va oldini olish maqsadida hukumat 1995 yilda maktab zonasi dasturini joriy qilingan. 1997 yilda esa Koreyada ro‘yxatdan o‘tgan transport vositalari 10 milliondan oshganda huquqni muhofaza qilish organlari tezlikni oshirish yoki chorrahalarni noqonuniy kesib o‘tish natijasida kelib chiqqan to‘qnashuvlarning oldini olish uchun avtomatik yo‘l harakati xavfsizligi kameralaridan foydalanishni boshlagan.

Bu dasturga asosan, «maktab zonasi» deganda bolalarni ta’lim muassasalariga borishda va undan qaytishda yo‘l harakati xavfsizligi vositalari o‘rnatiladigan va boshqariladigan joy tushuniladi.

Koreyaning ushbu tizimi bolalar bog‘chalari, boshlang‘ich maktablar, maxsus maktablar va xususiy maktablar yoki 100 va undan ortiq bolalar foydalanadigan bolalar muassasalariga xavfsiz yo‘nalishlarni ta’minlash orqali bolalar ishtirokidagi yo‘ltransport hodisalarining oldini olishga qaratilgan.

Maktab zonalarida avtomobil va boshqa turdagi transport vositalarning harakat tezligi maksimum 30 km/s etib belgilangan.(1-rasm)



1-rasm. Maktabgacha talim va maktab muasasalarida tezlikni cheklash bilan bog’liq yo’l belgisidan namuna.

Shu maqsadda yo‘l harakati xavfsizligi vositalari va belgilari ushbu ob’ektlarning asosiy darvozasidan 300 m radiusda yo‘lning ma’lum qismlariga o‘rnatiladi. Hozirgi kunda Koreyaning ko‘pgina katta va yangi qurilayotgan shaharlarida koreyalik olimlar va davlat xizmatchilari maktab zonalari tizimini yanada takomillashtirish va «Aqlli shahar» (Smart City) talablariga mos keladigan ravishda ishlar olib borilmoqda.(2-rasm)



2-rasm. «Aqlli shahar»(Smart City) texnologialarini amalga oshirish talablari.

Koreyada bolalar orasida yo‘l-transport xodisalari qurbonlarining kamayishi bo‘yicha erishilgan yutuqlar haqida gapirganda, fuqarolik jamiyati institutlarining roli va samarali faoliyatini ham yodga olish juda muhim. Koreyadagi yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashni o‘z oldiga maqsad qilgan fuqarolik guruhlarini (shu jumladan, ko‘ngillilar tashkilotlari) faoliyat yuritadi.

Ushbu fuqarolik guruhlari transport bilan bog‘liq amalga oshirilishi kerak bo‘lgan islohotlar bo‘yicha Koreya hukumatiga o‘z takliarini bildirib borishadi. Bolalarning yo‘l harakati xavfsizligi masalalarini olib chiqish va yo‘l-transport hodisalarini bartaraf etish bo‘yicha ko‘ngilli xizmat ko‘rsatish dasturlarida ishtirok etadilar.

Bolalarni olib yurish uskunalaridan foydalanish esa o‘lim ehtimolini 60 foizga kamaytirishi mumkin.

Shuning uchun yo‘l harakati ishtirokchilarining, jumladan, YHQni buzish oqibatlari to‘g‘risida keng xabardor qilish orqali shaxsiy mas’uliyatni oshirish muhim.

Yaponiyada politsiya tomonidan amalga oshiriladigan yo‘l-transport hodisalari tahlilidan farqli o‘laroq, professional darajada tahlil qiladigan Yo‘l transport hodisalarini o‘rganish va ma’lumotlarni tahlil qilish instituti faoliyat yuritadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib yo‘l transport hodisalarini va bu natijasida o‘lim xolatlari oldin olish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvoq bo‘lgan bo‘lar edi:

1.Shahar markazlarida yuqori tezlik soatiga 50 kilometrgacha va maktab zonalarida soatiga 30 kilometrgacha kamaytirish choralarini ko‘rish;

2.Respublika bo‘yicha xar kuni sodir bo‘lgan yo‘l transport hodisalarini televidenia orqali keng ommaga namoyish qilib, ushbu hodisani sabablarini tahlil qilib yoritib borish orqali fuqarolarning ma’suliyatini oshirish;

3.Yo‘l-transport hodisalarini professional darajada tahlil qiladigan Yo‘l-transport hodisalarini o‘rganish va ma’lumotlarni tahlil qilish instituti tashkil etish.

Mavjud ma’lumotga asoslangan tahlil doirasida yo‘l-transport hodisasi bilan bog‘liq inson, transport va yo‘l, atrof muhitga oid ma’lumotlar tegishli idoralardan olinib, chuqur tahlil qilish.

Ushbu ma’lumotlar asosida mamlakat bo‘ylab sodir etilgan yo‘l-transport hodisalarining asosiy sabablarini ko‘rsatib, hisobotlarni yuritish va yo‘l-transport hodisalarini oldini olishga doir chuqur ilmiy asoslangan chora tadbirlarni ishlab chiqish.

Yo‘l-transport hodisalari sababli ko‘pchilik oilalarga musibat olib kelayotgan baxtsiz hodisalarni oldini olish bo‘yicha yuqoridagi ishlar amalga oshirilganda katta muammolarga yechim topilgan bo‘lar edi.

Yo‘l-transport hodisalarining oldini olishda xorijiy davlatlarning tajribasi turli strategiyalar, innovatsion texnologiyalar va qat’iy qonuniy choralarni o‘z ichiga oladi.

Quyida ba’zi yetakchi davlatlarning muvaffaqiyatli tajribalari keltirilgan:

1.Shvetsiya "Vision Zero" strategiyasi

Shvetsiya 1997-yilda "Vision Zero" deb nomlangan milliy dasturini qabul qilgan. Ushbu strategiya yo‘l-transport hodisalaridan kelib chiqadigan o‘lim va jarohatlarni nol darajaga tushirishni maqsad qilgan.

2.Germaniyada qattiq qonunlar va nazorat.

Germaniyada yo‘l harakati qoidalariga rioya qilish juda qat’iy nazorat qilinadi.

3.Niderlandiya velosiped infratuzilmasini rivojlantirish.

Niderlandiya yo‘l harakati xavfsizligini oshirish uchun velosiped yo‘laklari va piyodalar uchun xavfsiz hududlar yaratishga e’tibor qaratiladi.

4.AQSh ta’lim va raqamli texnologiyalar.

AQShda yo‘l harakati xavfsizligini oshirish uchun haydovchilar va piyodalarga yo‘naltirilgan ta’lim dasturlari joriy etilgan.

Xulosa. Har bir davlat o‘ziga xos strategiyalarni qo‘llagan holda yo‘l-transport hodisalarini kamaytirishga intiladi. O‘zbekiston ham bu tajribalardan foydalanib, avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari, yo‘l infratuzilmasini yaxshilash va haydovchilarga ta’lim berish kabi choralarni kuchaytirishi mumkin.

O‘zbekiston ham yo‘l harakati xavfsizligini oshirish bo‘yicha ushbu ilg‘or tajribalardan foydalanishi mumkin.

Bu kabi chora-tadbirlar mamlakatimiz yo‘llarida avariyalar sonini kamaytirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Азизов Қ.Ҳ. Ҳаракат хавфсизлигини ташкил этиш асослари. Дарслик. Тошкент: 2009.267 бет.

2.Xolmatov U, Xolmatov S. YO‘L TRANSPORT HODISALARINI VUJUDGA KELISHIDA PIYODA VA PIYODA BOLALARNING O ‘RNI //Science and innovation in the education system. 2022.T.1№.6.C.8-15.

3.Kodirov. S.M, K.M.Nazarov.Yo‘l-transport xodisalari tahlili, T, TAYI, 2002-84 b. (Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanmasi).

4.Isamuhamedova, D.U, M.K. Mirzayev "Zamonaviy shaharsozlik nazariyasi" O'quv qo'llanma. Toshkent-2015 y (12-13 b.).

5.K.X.Azizov Xarakat xavfsizligini tashkil etish asoslari. Toshkent - 2009 yil.

URBANIZATSIYA SHAROITIDA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH VAZIFALARI

M.Xaydarov
Andijon davlat texnika instituti Transport logistikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi

Abstract. This article examines the scientific foundations of intelligent management systems (ITS) and information management systems (IMS) in motor transport. ITS architecture, subsystems interaction, and integration with external environment are analyzed. Mechanisms for effective urban transport management, safety improvement, congestion reduction, and rapid decision-making in emergencies are discussed. The study highlights telematic solutions, artificial intelligence, IoT, cybersecurity applications, and approaches to enhance environmental efficiency.

Key words: Motor transport, ITS, IMS, telematics, security, transport network

Аннотация. В статье анализируются научные основы интеллектуальных систем управления (ИТС) и информационных систем управления (ИСУ) на автомобильном транспорте. Рассматривается архитектура ИТС, взаимодействие подсистем и интеграция с внешней средой. Обсуждаются механизмы эффективного управления городским транспортом, повышения безопасности, уменьшения пробок и оперативного принятия решений в чрезвычайных ситуациях. Освещаются телематические решения, применение искусственного интеллекта, IoT, кибербезопасность и пути повышения экологической эффективности.

Ключевые слова: Автотранспорт, ИТС, ИСУ, телематика, безопасность, транспортная сеть

Avtotransportda axborot boshqaruv tizimi (ABT) intellektual transport tizimlari (ITS)ning markaziy elementlaridan biri hisoblanadi. ITS arxitekturasi transport tizimlarini samarali boshqarish, quyi tizimlar o‘rtasida axborot almashinuvi va tashqi muhit bilan o‘zaro aloqani ta’minlash imkonini beradi [1]. Bu arxitektura transport oqimini rejalashtirish, tirbandliklarni oldini olish, favqulodda vaziyatlarda tezkor javob berish hamda energiya samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

ITS arxitekturasi foydalanuvchi ehtiyojlari, transport oqimining hajmi va shahar infratuzilmasi sharoitini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Hozirda ikkita asosiy yo‘nalish mavjud: avtomobilning moslashuvchan kruiz nazorati (ACC) va transport tarmoqlarini telematika asosida boshqarish [2]. Moslashuvchan kruiz nazorati haydovchi harakatini optimallashtirish, xavfsizlik masofasini saqlash va yoqilg‘i sarfini kamaytirish imkonini beradi. Telematika asosida boshqarish esa shahar transport tarmog‘ining real vaqt rejimidagi monitoringini, tirbandliklarni kamaytirishni va transport resurslarini samarali taqsimlashni ta’minlaydi.Shahar transportida ITS asosan ikki yo‘nalishda qo‘llaniladi: transport tarmog‘ining o‘tkazuvchanligini oshirish va foydalanuvchilar xavfsizligini ta’minlash. Aqlli svetofor tizimlari, tirbandlikni kamaytiruvchi avtomatik boshqaruv bloklari, real vaqt rejimida vaziyatga javob beruvchi telematik yechimlar keng qo‘llanilmoqda [3].

ITS quyi tizimlari haydovchilarga baxtsiz hodisalar, ko‘r joylar, tezlik chegarasi, ob-havo sharoitlari, muzli yo‘l va tuman haqida ogohlantirish, favqulodda xizmatlarga imtiyozli harakat imkoniyatini yaratadi [4]. Sun’iy intellekt va neyron tarmoqlar haydovchining xatti-harakatlarini prognoz qilish, IoT texnologiyalari transport vositasini tashqi infratuzilma bilan bog‘lash, kiberxavfsizlik esa axborotning ishonchli himoyasini ta’minlash imkonini beradi [5].

Shuningdek, ekologik samaradorlikni oshirish maqsadida “aqlli” boshqaruv tizimlari yoqilg‘i sarfini kamaytirish va chiqindi gazlarni nazorat qilish imkonini beradi. Bu tizimlar nafaqat transport xavfsizligini oshiradi, balki shaharning ekologik barqarorligini ta’minlaydi [6].

Zamonaviy arxitektura turli telematik yechimlarni birlashtirgan holda, quyi tizimlarning funksional va axborot aloqalarini aniq belgilashni talab qiladi. Shu orqali transport oqimlarini barqaror, xavfsiz va tezkor boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish mumkin [7].

Xulosa. Avtotransportda axborot boshqaruv tizimlarini rivojlantirish transport jarayonlarini samarali tashkil etish, xavfsizlikni oshirish, tirbandliklarni kamaytirish va ekologik samaradorlikni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. ITS arxitekturasi telematika, sun’iy intellekt va IoT asosida ishlab chiqilib, foydalanuvchi ehtiyojlarini qondiradigan, favqulodda vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish imkoniyatini beruvchi kompleks tizimdir. Kelajakda ushbu tizimlarni takomillashtirish transport infratuzilmasining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Akhmedov, I. (2021). Intellektual transport tizimlari: nazariya va amaliyot. Toshkent: “Fan va texnologiya”.
2. European Commission. (2019). Intelligent Transport Systems in Action. Brussels: EU Transport Policy.
3. Mirzaev, B. (2020). Transport telematikasi va boshqaruv tizimlari. Toshkent: TSTU nashriyoti.
4. Federal Highway Administration (FHWA). (2018). Connected Vehicle and Intelligent Transportation Systems. Washington D.C.
5. GPS World. (2022). Global Trends in Navigation and Transport Telematics. Available at: www.gpsworld.com
6. Yuldashev, M. (2022). O‘zbekistonda transport xavfsizligi va ITS texnologiyalari. “Texnika va innovatsiyalar” jurnali, №4, 45-52.
7. Karimov, A. (2023). Telematik tizimlarning avtomobil transportida qo‘llanishi. Toshkent: Innovatsion ilmiy nashr.

“YAGONA OYNA” VA AQLLI REJALASHTIRISH: MASHINA O‘RGANISH ASOSIDA KON LOGISTIKASINI OPTIMALLASHTIRISH

X.N.Shermatova
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti doktorant

Annotatsiya Mazkur maqolada “Yagona oyna” monitoring axborot tizimining keyingi bosqichi sifatida taklif qilinayotgan sun’iy intellektga asoslangan aqlli rejalashtirish moduli tahlil qilinadi. Xususan, Gantt diagrammalari, yuk oqimi, smena rejalari, texnik xizmat oralig‘i kabi omillarni inobatga olgan holda mashina o‘rganishi (ML) yondashuvi asosida avtomatik strategik rejalashtirish imkoniyatlari bayon qilinadi. Ushbu tizim kon logistikasida harakat oqimini muvozanatlashtirish, yuklash/tushirish punktlarida tirbandlikni kamaytirish va ekologik xavfsizlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Аннотация. В данной статье анализируется предлагаемый модуль интеллектуального планирования на основе искусственного интеллекта как следующий этап развития информационной системы мониторинга «Единое окно». В частности, рассматриваются возможности автоматического стратегического планирования на основе методов машинного обучения (ML) с учётом таких факторов, как диаграммы Ганта, потоки грузов, сменные планы и интервалы технического обслуживания. Данная система имеет важное значение для балансировки потоков движения в карьерной логистике, снижения заторов на пунктах погрузки/разгрузки и обеспечения экологической безопасности.

Abstract. This article analyzes the proposed artificial intelligence-based intelligent planning module as the next stage in the development of the "Single Window" monitoring information system. In particular, it outlines the possibilities of automatic strategic planning based on machine learning (ML) approaches, taking into account factors such as Gantt charts, cargo flows, shift schedules, and maintenance intervals. This system plays an important role in balancing traffic flows in mining logistics, reducing congestion at loading/unloading points, and ensuring environmental safety.

Kalit so‘z: Yagona oyna, SI-dispeycher, Gantt diagramma, KMeans Clustering, Machine Learning, Reinforcement Learning, real vaqt ,GPS.

Ключевые слова: Единое окно, AI-диспетчер, диаграмма Ганта, кластеризация KMeans, машинное обучение, обучение с подкреплением, реальное время, GPS.

Keywords: Single Window, AI dispatcher, Gantt chart, KMeans clustering, Machine Learning, Reinforcement Learning, real-time, GPS.

Kirish Tog‘-kon sanoatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, transport zanjiridagi uzilishlarni bartaraf etish va resurslardan oqilona foydalanish raqamli texnologiyalar orqali amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, Navoiy kon-metallurgiya kombinati (NKMK) tomonidan joriy etilgan “Yagona oyna” axborot tizimi real vaqtli monitoring, ma’lumotlarni jamlash va grafik tahlil imkoniyatlari bilan samarali vositaga aylangan. Biroq mavjud tizim asosan monitoringga qaratilgan bo‘lib, faol strategik rejalashtirish va avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish funksiyalariga ega emas.

Ushbu maqolada sun’iy intellekt, mashina o‘rganishi va aqlli algoritmlar yordamida tizimni funksional kengaytirish, kon logistikasida reyslar, yuklash/tushirish jarayonlari, smena boshqaruvi va texnik xizmatlarni strategik rejalashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Strategik rejalashtirishning zamonaviy kon logistikasidagi o‘rni tobora ortib bormoqda. An’anaviy yondashuvlar, ya’ni inson qarorlariga asoslangan va qat’iy jadval bo‘yicha boshqariladigan tizimlar, ko‘plab samaradorlik muammolarini yuzaga keltiradi. Bu kabi tizimlarda yuk tashish jarayonining uzluksizligi va samaradorligini ta’minlash mushkul bo‘lib qolmoqda.

Birinchidan, yuk oqimining kon maydonlarida smensiz yoki noto‘g‘ri rejalashtirilgan holda taqsimlanishi natijasida ba’zi yo‘nalishlarda haddan tashqari yuk to‘planib qoladi, boshqalarida esa quvvatlardan to‘liq foydalanilmaydi. Bu esa kon logistikasining umumiy ish faoliyatini izdan chiqaradi.

Ikkinchidan, yuk ortish va tushirish punktlarida navbatlar paydo bo‘ladi. Texnika bir necha daqiqa emas, balki soatlab kutish holatlarida qolishi mumkin. Bu esa tizimda tirbandliklarni keltirib chiqaradi va mehnat unumdorligini keskin kamaytiradi.

Shuningdek, avtosamosvallarning bekor ishlashi (ya’ni, bo‘sh holatda yurishi yoki kutishi) texnik va iqtisodiy nuqtai nazardan sezilarli yo‘qotishlarga olib keladi. Har bir daqiqa davomida foydasiz ishlayotgan texnika yoqilg‘i sarfini oshiradi, vaqtni isrof qiladi va ekspluatatsion resurslarni bekor ishlatadi.


Yana bir muhim muammo – marshrutlar bo‘yicha yuk balansining buzilishi. Kon hududida ayrim yo‘nalishlar haddan tashqari band bo‘lib, boshqalari esa bo‘sh bo‘lib qoladi. Bu holat logistik tizimda nomutanosiblikni keltirib chiqaradi va operatsion samaradorlikni pasaytiradi.

Bundan tashqari, texnik xizmat ko‘rsatish ishlari ko‘pincha rejalashtirilmagan tarzda amalga oshiriladi yoki kechiktiriladi. Bu esa favqulodda nosozliklarga sabab bo‘ladi va butun transport zanjirining to‘xtashiga olib kelishi mumkin.

Shunday qilib, mazkur muammolarni tizimli va oldindan bashorat qiluvchi yondashuv orqali hal etish lozim. Strategik rejalashtirishda sun’iy intellekt, mashina o‘rganishi, real vaqtli monitoring va tahlil mexanizmlarini joriy etish orqali, yuk tashish va transport harakatini avtomatlashtirilgan va muvozanatlashtirilgan tarzda boshqarish imkoniyati yaratiladi. Bu nafaqat kon logistikasining barqarorligini ta’minlaydi, balki umumiy iqtisodiy samaradorlikni ham oshiradi.


Taklif qilinayotgan SI-dispeycher 2.0 moduli kon transporti logistikasida strategik darajadagi qarorlarni avtomatik ravishda qabul qilish imkonini beradi. Ushbu modul sun’iy intellekt va mashina o‘rganishi texnologiyalariga asoslangan bo‘lib, tizimda samaradorlikni maksimal darajada oshirishga xizmat qiladi. Modul transport vositalarining texnik parametrlari, ularning ish holati va yuk ko‘tarish qobiliyatini hisobga olgan holda, smena davomida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan optimal reyslar sonini avtomatik aniqlaydi. Rejalashtirish jarayonida avtosamosvallarning texnik xizmat oralig‘i va o‘rtacha ishlash muddati, yuk ortish va tushirish punktlarining mavjud sig‘imi va unumdorligi, shuningdek, transport vositalarining yuk tashish quvvati, yurgan masofasi va hozirgi holati inobatga olinadi. Bunday yondashuv reyslar sonini maksimal darajada belgilab, transport vositalarining ortiqcha bekor turish holatlarini kamaytirishga imkon yaratadi.

SI-dispeycher tizimi Gantt diagrammasi asosida mashinalar va ekskavatorlar o‘rtasidagi yuklamani samarali tarzda vaqt bo‘yicha taqsimlaydi. Ushbu model har bir texnika uchun aniq vaqt oralig‘ida bajariladigan ishlar jadvalini shakllantiradi, mashina va ekskavatorlar o‘rtasida yuklash, tashish va tushirish operatsiyalarini uyg‘unlashtiradi, transport vositalari uchun reyslar ketma-ketligini eng maqbul tarzda rejalashtiradi hamda tizimda mavjud bo‘lgan “idle time” holatlarini aniqlab, ularni optimallashtiradi. Natijada butun smena davomida transport tizimining umumiy yuklama balansi saqlanadi.



1-rasm. SI- dispeycher Gantt Diagrammasi (Smena rejalashtirish)

SI-dispeycher 2.0 moduli ilg‘or mashina o‘rganishi algoritmlarini amaliyotga joriy etadi. Regression Trees algoritmi yordamida yuklash va tushirish operatsiyalari hamda reyslar davomiyligi aniq prognoz qilinadi. Tizim vaqt, masofa va yuk og‘irligi kabi parametrlar asosida taxminiy ish muddatini hisoblab chiqadi. K-o‘rtacha klasterlash usuli yuk punktlariga yaqin joylashgan avtosamosvallarni avtomatik guruhlash imkonini beradi, bu esa yuklarni eng yaqin va tez yetib boradigan texnikalar orqali tashish imkoniyatini yaratib, yo‘llardagi tirbandliklarning oldini oladi.



2-rasm .Yuk mashinalarini K-o‘rtacha asosida klasterlash.

Kuchaytiruvchi o‘rganish algoritmlari esa SI-dispeycherga real vaqt rejimida qarorlarini sinab ko‘rish va doimiy tarzda o‘z strategiyasini takomillashtirish imkonini beradi. Natijada tizim moslashuvchan va o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi boshqaruv mexanizmiga aylanadi.


SI-dispeycher moduli zamonaviy IoT texnologiyalari va GPS datchiklari bilan integratsiyalashgan holda kon logistikasida yuk oqimining real vaqtli tahlilini amalga oshiradi. Transport vositalarining harakati, yuk punktlarining holati va umumiy tizimning ishlashi uzluksiz monitoring qilinadi. Tizim real vaqt rejimida harakat zichligini aniqlab, kon maydonida harakatlanayotgan avtosamosvallarning soni,

joylashuvi va tezligi bo‘yicha ma’lumotlarni qayd etadi, yo‘nalishlar bo‘yicha transport zichligini aniqlaydi, tirbandlikka olib keluvchi holatlarni oldindan aniqlab, ularni bartaraf etadi hamda avtosamosvallar oqimini optimal tarzda yo‘naltiradi. Shuningdek, yuk ortish va tushirish punktlarida mavjud bo‘lgan yuk miqdori doimiy nazorat ostida bo‘lib, yuk ortish tezligi, punktlarning sig‘imi, haddan tashqari yuk to‘planishi yoki bekor turib qolish holatlari tahlil qilinadi va muvozanatni saqlash uchun transport oqimi qayta taqsimlanadi. GPS orqali olingan koordinatalar asosida yo‘nalishlar bo‘yicha transport oqimining tezligi, to‘xtab qolishlar va muqobil aylanma yo‘llar aniqlanib, har bir mashina uchun eng kam tirbandlikka ega bo‘lgan marshrut tanlanadi. Bu yondashuv yuk punktlariga yetib borish vaqtini optimallashtiradi, avtosamosvallarning bekor yurishini kamaytiradi, energiya sarfi va ekspluatatsion xarajatlarni qisqartiradi hamda umumiy transport tizimining barqaror va samarali ishlashini ta’minlaydi.

SI-dispeycher 2.0 ekologik xavfsizlikni inobatga olgan holda rejalashtirishni amalga oshiradi. Tizim avtomatik tarzda karbonat angidrid chiqindilari miqdori, yonilg‘i sarfi va emissiya darajasi, qattiq chang tarqalishini kamaytirish bo‘yicha parametrlarni nazorat qiladi. Mashinalarning yuklanmagan holatda harakat qilishiga yo‘l qo‘ymaydi, harorat, namlik va yuk o‘zgarishi kabi fizik parametrlar asosida qarorlarni avtomatik ravishda qabul qiladi.

Modulning arxitekturasi ma’lumotlarni IoT sensorlar, GPS/GLONASS va SCADA tizimlaridan olish imkonini beruvchi ma’lumotlar manbalari, Python asosidagi ilg‘or mashina o‘rganishi algoritmlari (scikit-learn, XGBoost, TensorFlow) bilan ishlovchi SI yadrosi, HMI interfeyslari va Gantt-diagrammalarini o‘z ichiga olgan vizual boshqaruv panellari hamda REST API orqali tizimlararo integratsiyani ta’minlovchi axborot almashinuvi komponentlaridan tashkil topgan.

Mazkur modulning ilmiy yangiligi mashina o‘rganishi algoritmlari yordamida real vaqtli qaror qabul qilish, Gantt diagrammalarini avtomatik qurish orqali ish yuklamasini taqsimlash, texnik xizmatni bashoratlash va avtomatlashtirish hamda ekologik va iqtisodiy ko‘rsatkichlarni parallel optimallashtirish imkoniyatlaridan iboratdir. Amaliy natijalar esa qo‘shimcha reyslar sonining 15–25 %ga oshishi, bekor turish vaqtining 30–40 %ga qisqarishi, emissiya darajasining 10–15 %ga kamayishi va operator aralashuvining 50 % gacha qisqarishini o‘z ichiga oladi.



3-rasm SI dispeycher amaliy natijalari

Xulosa. Sun’iy intellektga asoslangan aqlli rejalashtirish modeli “Yagona oyna” platformasining funksional imkoniyatlarini kengaytirib, monitoringdan strategik boshqaruvga o‘tishni ta’minlaydi. Ushbu yondashuv tog‘-kon logistikasida samaradorlikni oshirish, xavfsizlikni ta’minlash va ekologik barqarorlikni saqlashda muhim ilmiy-amaliy yechim bo‘lib xizmat qiladi. Modelning universalligi esa uni boshqa sohalarda ham tatbiq etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Russell, S., & Norvig, P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. 4-nashr. — Pearson, 2021. — 1137 b. [1. 2021: B.56]
2. Géron, A. Hands-On Machine Learning with Scikit-Learn, Keras, and TensorFlow. 2-nashr. — O’Reilly Media, 2019. — 856 b. [2. 2019: B.78]
3. Chollet, F. Deep Learning with Python. — Manning Publications, 2017. — 384 b. [3. 2017: B.145]
4. Zhang, Y., & Liu, Y. “Smart mining: A review and conceptual framework.” *International Journal of Mining Science and Technology*, 30(1), 1–9. 2020. [4. 2020: B.3]
5. Li, X., et al. “IoT-based real-time production logistics optimization in open-pit mining.” *IEEE Access*, 9, 110452–110463. 2021. [5. 2021: B.110455]
6. Schmidhuber, J. “Deep learning in neural networks: An overview.” *Neural Networks*, 61, 85–117. 2015. [6. 2015: B.90]

7. Sutton, R. S., & Barto, A. G. Reinforcement Learning: An Introduction. 2-nashr. — MIT Press, 2018. — 552 b. [7. 2018: B.203]
8. Abdiyev, O. R., & Yusupov, F. F. “Raqamli konchilik: sun’iy intellekt texnologiyalari asosida samaradorlikni oshirish.” *O‘zbekiston konchilik jurnali*, (2), 25–31. 2022. [8. 2022: B.28]
9. “Open-pit Mining Logistics Optimization Based on Gantt Chart Visualization.” *Journal of Mining Science*, 59(3). 2023. [9. 2023: B.102]
10. Kadirov, Y. B. “Tog‘-kon sanoatida aqlli axborot tizimlari va ularning strategik roli.” *Navoiy DKTU ilmiy axborotnomasi*, (1), 10–17. 2023. [10. 2023: B.14].

O‘ZBEK TILI TEZAURUSI UCHUN SO‘Z TURKUMLARINING SEMANTIK-STRUKTUR TADQIQI

G.G‘.Xoliyorova
O‘zbekiston Milliy universiteti Kompyuter lingvistika amaliy tilshunoslik kafedrasi o‘qituvchisi guliholiyorova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tili tezaurisini shakllantirishning semantik maydonlari va strukturasi haqidagi ilmiy mulohazalar keltirilgan. Unga ko‘ra leksikografik va modellashtirish tadqiqotlari doirasida so‘z turkumlariga oid leksemalar hamda O‘zbek tezaurus lug‘atining yaratilish bosqichlari va uning ilmiy metodologik tamoyillari WordNet Prinston lug‘ati tadqiqotlari doirasida o‘rganilib, leksikografik yondashuv asosida tahlilga tortilgan. So‘z turkumiga oid leksemalarning semantik maydonlarini nafaqat subyektiv, balki iyerarxik munosabatlari va so‘zning semantik struktur tadqiqini qo‘shish, inson omili xususiyatini yoritishda zamonaviy o‘zbek tilshunosligi rivoji uchun samarali bo‘lgan ilmiy yondashuvlarning yuzaga kelishidagi ahamiyati aniqlangan.

Kalit so‘zlar: tezaurus, lug‘at, semantik bog‘lanish, WordNet**.**

Leksikografik tadqiqotlarda tezaurus va WordNet yaratishga doir ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. WordNet boshqa lug‘atlardan farqli ravishda besh kategoriyaga ko‘ra bo‘linadi. Odatda an’anaiy lug‘atlarda ot, fe’l, sifat, ravish va funksional so‘zlar (yordamchi so‘zlar) mavjud bo‘lsa WordNetda faqat shulardan to‘rttasi, ya’ni ot, fe’l, sifat va ravish so‘z turkumiga tegishli birliklar kiritiladi. WordNetga kiritiladigan so‘zlar maxsus sinsetlarga biriktirilib, yordamchi so‘z turkumga tegishli birliklar tilning sintaktik komponenti sifatida qaralgan.

Avtomatik usulda hosil qilinuvchi tezauruslar korpusga asoslanib, matnda uchragan leksik birliklar statistik voqelanishiga ko‘ra tizim sifatida shakllantiriladi.

Y.Jing olib brogan tadqiqotida tezaurus yaratishning modeli frazaga asoslangan va uni “phrase finder” dasturi deb nomlagan. Unga ko‘ra ushbu dasturiy ta’minot quyidagi funksiyalarga ega :

- terminlar – yordamchi so‘z turkumidan tashqari har qanday birlik bu termin sanaladi;
- so‘z turkumlari – har bir so‘z tegger orqali so‘z turkumlarga ajratialdi;
- paragraflar – gaplar yig‘indisi sifatida paragraflarga ajratiladi;
- gaplar – muayyan punktuatsion belgilan bilan tugagan so‘zlar ketma-ketligidan tuzilgan yig‘indini tegger alohida gaplar sifatida ajratdi;
- frazalar – muyyan birikmalar ma’lumotlar bazasi bilan solishtirgan holda ularni frazalarga ajratadi: {NNN, NN, N}. Agar ot bir tarkibli, ikki tarkibli yoki bir nechta tarkibli bo‘lsa shu tarzda frazalar sifatida teglab chiqiladi.

WordNetda ot so‘z turkumiga kiruvchi birliklar leksik xotirada mavzuiy iyeraxiya sifatida asos sanaladi. Fe’l so‘z turkumidagi birliklar otga ergashuvchi sifatida, sifat va ravish esa har ikkisining belgini ifodalovchi parametr sanaladi. Har bir leksik struktura turli tasnifiy hodisani ifodalanishi, barcha sintaktik kategoriyalar uchun har bir alohida tashkil qilingan tamoyil leksik bilimlarni psixologik murakkablashtishda noto‘g‘ri ifodalanishi Miller va boshqalar tomonidan olib borilgan kuzatishlarda qayd etiladi . WordNetning o‘ziga xos jihati shundaki, so‘zlarning so‘z shakliga ko‘ra emas, balki ma’nosiga qarab leksik ma’lumotlarni loyihalashtirishga harakat qilinadi. Shu jihatdan WordNet an’anviy lug‘atlardan ham ko‘ra tezaurusga o‘xshaydi.

Shuni alohida ta’kidlash o‘rinliki, WordNetni yaratishda “The Synonym Finder” hamda “Roget’s International Thesaurus” kabi manbalardan unumli foydalanilganligi qayd etiladi. Biroq o‘sha davrda

ularning hech qaysi biri talabga to‘liq javob bermagan. Muammo shundan iborat bo‘lganki, tezaurusga kiritilgan birliklar alifbo tartibda bo‘lgan: agar Wx bilan Wy so‘z bir-biri bilan sinonim bo‘lsa, ularning juftliklarini ikki marta alohida kiritish lozim bo‘lgan, shunda Wx uchun alohida alifbo tartib,Wy uchun alohida alifbo tartibi tizimlashtirilgan. Mavzulashtirilgan tezaurusda ikki marta birliklarni qarab chiqsh ehtiyoji bo‘lgan. Dastlab alifbo tartibdagi so‘zlar ro‘yxatini, keyin tezaurusdagi mos variant tanlangan. Bu esa inson mehnatini ko‘proq talab qiladi.

O‘zbek tili tezaurusiga doir sirasiga UzWordNet yaratishga muvaffaq bo‘lgan olimlarning tadqiqotlariga murojaat etmoqchimiz . Ushbu lug‘at Prinston lug‘ati asosida yaratilib, 20683 so‘zning 64389 ma’nosi hamda ularning 28140 sinsetdan iborat bazasi kiritilgan. Ushbu lug‘at ingliz tili asosida qilingan bo‘lib, so‘zlarning aniqlik darajasi 75.98%ni tashkil qiladi. Olimlar olib borgan tadqiqot uch bosqichni qamrab olgan:

1. Leksik resursni qayta ishlash;
2. O‘zbek adabiy tili uchun Prinston WordNeti asosida tezaurus strukturasi avtomatik yaratish;
3. Avtomatik qurilgan lug‘atni inson yordamida tekshirish va baholash

Ushbu tadqiqotning 1-bosqichida tarjima lug‘at asosida so‘zlarning tarjima bazasi yaratilgan. Ingliz-o‘zbek qismi uchun 40000 so‘z, o‘zbek-ingliz qismda 30000 lemma mavjud. Ushbu tarjima lug‘at kitob shaklida bo‘lgani bois uning elktron shaklga o‘tkazishda quyidagilar bajarilgan:

- Lug‘at mashina formatiga o‘tkazilgan;
- Jadval ko‘rinishdagi lug‘at uch ustundan iborat bo‘ldi:

a) ingliz tilidagi lemma;
b) lemmaning so‘z turkumi;
c) o‘zbek tilidagi tarjimasi


Ingliz tili Prinston WordNeti asosida o‘zbek tilining tezaurusini yaratish algoritmi quyidagi amalga oshirilgan:

Algorithm 1: Connectivity Restoration.

Input : S, a data.pos file from Princeton WordNet (PWN, v3.0)
Input : D, English-Uzbek dictionary in tabular form for a specific PoS
Output: W, the UZWORDNET (UZW, v1.0)

```
W ← ∅
for each synset ∈ S do
    for each lemma ∈ synset do
        if lemma ∈ D then
            W ← W ∪ translate(synset, D[lemma])
for each w_synset ∈ W do
    if parent(w_synset) ∉ W then
        s_synset ← parent(w_synset)
        while s_synset ∉ W and s_synset ≠ top_level_synset(S) do
            s_synset ← S[parent(s_synset)]
            parent(w_synset) ← synset
return W
```

Ushbu algoritmda tabular formatdagi tarjima lug‘at asosidagi baza orqali ingliz tilidagi WordNetdagi so‘zlarga ilova qilingan. Shuni ta’kidlash o‘rinliki, garchi ushbu yondashuv bir nechta tillar uchun joriy etilgan bo‘lsa-da (masalan turk tili KeNet), tilning o‘ziga xos jihatlari inson faktori orqali amalga oshiriladi. Masalan ushbu bazadan olingan namunada bola lemmasini tahlil qilganimizda quyidagicha natija olindi:



Shuningdek, so‘zlarning polisemiyasi ham giperonim va giponim darajada o‘zakka bog‘liq bo‘ladi, shu bois konseptlarga bog‘lanish darajasi ham qaysidir ma’noda yaqin bo‘ladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, o‘zbek tili tezaurusini yaratishda WordNet va RuTez tezauruslaridan andoza sifatida uning struktur shaklini loyihalashtirish maqsadga muvofiq, biroq konsept va semantik munosabatlar tezaurusni modellashtirishning eng muhim omillari sifatida tilning milliy madaniyatini hisobga olish va lisoniy modellarini tahlil qilish orqali erishish maqsadga mufiq sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Agostini, A., Usmanov, T., Khamdamov, U., Abdurakhmonova, N., & Mamasaidov, M. (2021, January). Uzwordnet: A lexical-semantic database for the uzbek language. In Proceedings of the 11th Global Wordnet conference (pp. 8-19).

2. Matlatipov San’atbek, Aripov Mirsaid, Abdurakhmonova Nilufar. (2018). Modeling WordNet Type Thesaurus for Uzbek Language Semantic Dictionary. International Journal of Systems Engineering, 2(1), 26-28. https://doi.org/10.11648/j.ijse.20180201.16

3. Mirsaid, A., Bibigul, R., Altinbay, S., & Nilufar, A. (2018). Ontology of grammar rules as example of Noun the Uzbek language and Kazakh languages VI international scientific conference" Modern problems of the applied mathematics and information technology. Al Khorezmiy-2018.

4. Nilufar, A., & Gulruhsor, X. (2024). O‘zbek tili tezaurusini yaratishda standart me’yorlar. «Contemporary technologies of computational linguistics», 2(22.04), 464-469.

5. Abduraxmonova N. Kompyuter lingvistikasi (darslik).- Toshkent, 2021. – B. 176.

6. Алексеев А.А., Добров Б. Лукашевич Н. Лингвистическая онтология -– тезаурус РуТез. OSTIS-2013. – С. 153-154.

7. Natalia Loukachevitch, German Lashevich and Boris Dobrov (2018) Comparing Two Thesaurus Representations for Russian, Proceedings of the 9th Global WordNet Conference (GWC 2018), pp 35–44, Singapore, ISBN 978-981-11-7087-.

UDK: 378.046.4:005.336.2:374.7

RAHBAR-KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH JARAYONIDA SOFT-KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING ANDRAGOGIK VA KORPORATIV DETERMINANTLARI

Axrorova Umida Xamidullayevna
University of Business and Science dotsenti
Email: umiaxrorhamid@gmail.com
Tel: (94) 309 08 08
ORCID: 0009-0008-9086-4879

Annotatsiya: *Maqolada rahbar-kadrlar malakasini oshirish jarayonida soft-kompetensiyalarni rivojlantirish samaradorligini belgilovchi andragogik va korporativ determinantlar nazariy jihatdan tahlil qilinadi. “Determinant” tushunchasining pedagogik talqini aniqlashtirilib, determinantlar rahbarning o‘qishga tayyorligini ifodalovchi andragogik hamda tashkilot muhitini ifodalovchi korporativ guruhlarga ajratildi. Andragogik determinantlar sifatida o‘qish ehtiyojini anglash, kasbiy tajriba, o‘z kuchiga ishonch, ichki motivatsiya va refleksiv tayyorlik, korporativ determinantlar sifatida esa strategik muvofiqlik, o‘qitish iqlimi va korporativ madaniyat, bevosita rahbar ko‘magi, o‘rganilganni qo‘llash imkoniyati hamda rag‘batlantirish tizimi asoslandi. Ikki guruh determinantlarining o‘zaro ta’siri to‘rt holatli matritsa ko‘rinishida ifodalanib, soft-kompetensiyalarning barqaror rivojlanishi faqat ular uyg‘un bo‘lgandagina ta’minlanishi ko‘rsatildi.*

Kalit so‘zlar: *malaka oshirish, rahbar-kadrlar, soft-kompetensiyalar, determinantlar, andragogika, o‘qishga tayyorlik, o‘z kuchiga ishonch, o‘qitish iqlimi, korporativ madaniyat, transfer.*

АНДРАГОГИЧЕСКИЕ И КОРПОРАТИВНЫЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ РАЗВИТИЯ SOFT-КОМПЕТЕНЦИЙ В ПРОЦЕССЕ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ

Аннотация: *В статье теоретически анализируются андрагогические и корпоративные детерминанты, определяющие эффективность развития soft-компетенций в процессе повышения квалификации руководящих кадров. Уточнено педагогическое толкование понятия «детерминант»; детерминанты разделены на андрагогические, отражающие готовность руководителя к обучению, и корпоративные, отражающие среду организации. В качестве андрагогических детерминант обоснованы осознание потребности в обучении, профессиональный опыт, самоэффективность, внутренняя мотивация и рефлексивная готовность, в качестве корпоративных — стратегическое соответствие, климат обучения и корпоративная культура, поддержка непосредственного руководителя, возможность применения изученного и система стимулирования. Взаимодействие двух групп детерминант представлено в виде четырёхпольной матрицы; показано, что устойчивое развитие soft-компетенций обеспечивается лишь при их согласованности.*

Ключевые слова: *повышение квалификации, руководящие кадры, soft-компетенции, детерминанты, андрагогика, готовность к обучению, самоэффективность, климат обучения, корпоративная культура, перенос обучения.*

ANDRAGOGICAL AND CORPORATE DETERMINANTS OF SOFT COMPETENCY DEVELOPMENT IN THE PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF MANAGERIAL STAFF

Abstract: *The article provides a theoretical analysis of the andragogical and corporate determinants that shape the effectiveness of soft competency development in the professional development of managerial staff. The pedagogical meaning of “determinant” is clarified, and determinants are divided into andragogical ones, reflecting the manager’s readiness to learn, and corporate ones, reflecting the organizational environment. Awareness of the need to learn, professional experience, self-efficacy, intrinsic motivation and reflective readiness are substantiated as andragogical determinants; strategic alignment, learning climate and corporate culture, line manager support, opportunity to apply learning and the reward*

system as corporate determinants. The interaction of the two groups is presented as a four-quadrant matrix, showing that sustainable soft competency development occurs only when they are aligned.

Keywords: *professional development, managerial staff, soft competencies, determinants, andragogy, readiness to learn, self-efficacy, learning climate, corporate culture, transfer of training.*

KIRISH

Rahbar-kadrlarning kasbiy rivojlanishi davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uzluksiz ta’limning mustaqil turi sifatida belgilangan [1], “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida esa boshqaruv kadrlarining salohiyatini oshirish ustuvor vazifalar qatoriga kiritilgan [2]. Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish nazarda tutilgan [3].

Amaliyotda bir xil malaka oshirish kursini o‘tagan rahbarlarning natijalari bir-biridan keskin farq qiladi. Ayrim rahbarlar kursdan keyin jamoa bilan muloqot uslubini, qaror qabul qilish va nizolarni hal etish yondashuvini sezilarli o‘zgartiradi, boshqalarida esa hech qanday o‘zgarish kuzatilmaydi. T.Baldwin va J.Ford bu farqni tinglovchi xususiyatlari, o‘qitish dizayni va ish muhiti omillarining birgalikdagi ta’siri bilan izohlagan [4]. Demak, soft-kompetensiyalarni rivojlantirish natijasi faqat o‘quv dasturining sifatiga emas, balki rahbarning shaxsiy tayyorligi va u ishlayotgan tashkilot muhitiga ham bog‘liq.

Bu omillarni tizimli aniqlash malaka oshirish jarayonini boshqarishning zaruriy sharti hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi rahbar-kadrlar malakasini oshirish jarayonida soft-kompetensiyalarni rivojlantirish samaradorligini belgilovchi andragogik va korporativ determinantlarni aniqlash, ularning mazmunini va o‘zaro ta’sirini nazariy jihatdan asoslashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Kattalar ta’limida o‘qish natijasini belgilovchi omillar andragogika nazariyasida chuqur o‘rganilgan. M.Knowles kattalarning o‘qishga oid olti asosiy farazini ilgari surgan: o‘qish zaruratini anglash, o‘zini mustaqil shaxs sifatida idrok etish, tajribaning ta’lim manbai bo‘lishi, o‘qishga tayyorlikning hayotiy vazifalar bilan bog‘liqligi, muammoga yo‘naltirilganlik va ichki motivatsiyaning ustuvorligi [5]. Rus andragogikasida Yu.N.Kulyutkin kattalar o‘qishining psixologik xususiyatlarini [6], S.I.Zmeyev esa kattalarni o‘qitish texnologiyasining tamoyillarini [7] asoslagan. O‘zbekiston pedagogika fanida N.A.Muslimov kasbiy kompetentlikni shaxsning kasbiy faoliyat jarayonida bosqichma-bosqich shakllanadigan sifati sifatida tadqiq etgan [8].

Shaxsiy omillar orasida o‘z kuchiga ishonch alohida o‘rin tutadi. A.Bandura o‘z kuchiga ishonchni shaxsning muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli bajara olishiga bo‘lgan e’tiqodi sifatida ta’riflab, uning xulq-atvor o‘zgarishiga ta’sirini asoslagan [9]. R.Noe tinglovchining o‘qishga motivatsiyasi va munosabatlari o‘qitish samaradorligining e’tibordan chetda qolgan omillari ekanligini ko‘rsatgan [10]. J.Colquitt, J.LePine va R.Noe yigirma yillik tadqiqotlarning meta-tahlili asosida o‘qishga motivatsiya shaxsiy va vaziyatli omillar ta’sirida shakllanib, o‘qitish natijalarini sezilarli darajada bashorat qilishini aniqlagan [11]. D.Kolbning tajribaviy o‘qitish nazariyasi [12] va J.Mezirowning transformativ ta’lim nazariyasi [13] esa tajriba va tanqidiy refleksiyaning kattalar rivojlanishidagi o‘rnini ko‘rsatadi.

Korporativ omillar ham keng tadqiq etilgan. J.Rouiller va I.Goldstein tashkilotdagi transfer iqlimi — rahbar va hamkasblarning o‘rganilganni qo‘llashga munosabati — o‘qitish natijalarining ishga ko‘chishini bashorat qilishini aniqlagan [14]. J.Tracey, S.Tannenbaum va M.Kavanagh ham ish muhiti, ayniqsa, uzluksiz o‘qishni qo‘llab-quvvatlovchi korporativ madaniyat transferga ta’sir etishini ko‘rsatgan [15]. E.Holton va hammualliflar tashkilotdagi transfer tizimini baholash uchun maxsus vosita ishlab chiqqan [16], B.Blume va hammualliflarning meta-tahlili esa ish muhitidagi qo‘llab-quvvatlashning transfer bilan barqaror bog‘liqligini tasdiqlagan [17]. Tashkiliy darajada E.Schein korporativ madaniyatni xodimlar xulq-atvorini belgilovchi umumiy asosiy farazlar tizimi sifatida tavsiflagan [18], P.Senge esa o‘qiydigan tashkilot konsepsiyasini ishlab chiqqan [19]. T.Garavan kadrlarni rivojlantirishni tashkilot strategiyasi bilan bog‘lash zarurligini asoslagan [20].

Adabiyotlar tahlili shaxsiy va tashkiliy omillarning har biri alohida yaxshi o‘rganilganini ko‘rsatadi. Biroq ular rahbar-kadrlar malakasini oshirish jarayonida soft-kompetensiyalarni rivojlantirishga nisbatan yagona tizim sifatida, o‘zaro ta’sirda kam tadqiq etilgan. Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, tasniflash, umumlashtirish va pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Determinant tushunchasining pedagogik mohiyati.

“Determinant” (lot. determinare — belgilamoq, chegaralamoq) atamasi hodisaning yuzaga kelishi va natijasini belgilovchi omilni ifodalaydi. Pedagogik nuqtai nazardan determinantni oddiy omildan farqlash lozim: omil jarayonga ta’sir ko‘rsatadigan har qanday holat bo‘lishi mumkin, determinant esa natijaning darajasini muntazam ravishda belgilaydigan, uning yo‘qligi natijani keskin pasaytiradigan omildir.

Shu asosda mualliflik ta’rifi taklif etiladi: malaka oshirish jarayonida rahbar-kadrlarning soft-kompetensiyalarini rivojlantirish determinantlari – bu rahbar shaxsining o‘qishga tayyorligi va tashkilot muhitining xususiyatlarini ifodalovchi, soft-kompetensiyalarning o‘quv jarayonida shakllanishi va boshqaruv amaliyotiga ko‘chishi darajasini muntazam belgilaydigan omillar majmuidir. Determinantlar ikki guruhga ajratildi: rahbarning shaxsiy tayyorligini ifodalovchi andragogik determinantlar va tashkilot muhitini ifodalovchi korporativ determinantlar.

Andragogik determinantlar.

Andragogik determinantlar M.Knowles faraziyalari [5], A.Bandura nazariyasi [9] va o‘qishga motivatsiya tadqiqotlari [11] asosida aniqlandi. Ular rahbarning o‘qish jarayoniga qanday kirib kelishi va undan qanday foyda olishini belgilaydi (1-jadval).

1-jadval

Soft-kompetensiyalarni rivojlantirishning andragogik determinantlari

Determinant	Mazmuni	Pedagogik shart
O‘qish ehtiyojini anglash	Rahbar o‘zida qaysi soft-kompetensiya yetishmasligini va uning faoliyatiga ta’sirini tushunadi [5]	Kirish diagnostikasi, 360 darajali qayta aloqa natijalarini muhokama qilish
Kasbiy tajriba	Boshqaruv tajribasi o‘qishning manbai va yangi bilimni tushunish asosi bo‘ladi [5; 12]	Rahbarlarning real holatlari asosidagi keyslar, tajriba almashish
O‘z kuchiga ishonch	Rahbar yangi xulq-atvorni muvaffaqiyatli qo‘llay olishiga ishonadi [9]	Bosqichma-bosqich murakkablashuvchi mashqlar, muvaffaqiyat tajribasini yaratish
Ichki motivatsiya	O‘qish rahbarning shaxsiy va kasbiy maqsadlari bilan bog‘lanadi [10; 11]	Individual rivojlanish maqsadlarini birgalikda belgilash
Refleksiv tayyorlik	Rahbar o‘z faoliyati va qarashlarini tanqidiy tahlil qilishga tayyor [13]	Refleksiv kundalik, kouching suhbatlari

Andragogik determinantlar orasida o‘qish ehtiyojini anglash boshlang‘ich o‘rin tutadi. Rahbar o‘z kommunikativ yoki liderlik sifatlarini yetarli deb hisoblasa, soft-kompetensiyalarga oid mashg‘ulotlar unga ortiqcha ko‘rinadi. Shu sababli kirish diagnostikasi va qayta aloqa nafaqat baholash, balki o‘qish ehtiyojini shakllantirish vositasi hamdir. O‘z kuchiga ishonch esa o‘rganilgan xulq-atvorni real vaziyatda qo‘llashga jur’at qilishni belgilaydi: rahbar yangi muloqot usulini mashg‘ulotda o‘zlashtirgan bo‘lsa-da, uni jamoa oldida qo‘llashdan qochishi mumkin.

Korporativ determinantlar.

Korporativ determinantlar transfer iqlimi va ish muhiti bo‘yicha tadqiqotlar [14; 15; 17] hamda strategik kadrlar rivojlantirish g‘oyasi [20] asosida aniqlandi. Ular rahbarning o‘rganganlarini qo‘llashi uchun tashkilot qanday sharoit yaratishini belgilaydi (2-jadval).

2-jadval

Soft-kompetensiyalarni rivojlantirishning korporativ determinantlari

Determinant	Mazmuni	Pedagogik-tashkiliy shart
Strategik muvofiqlik	O‘qitish maqsadlari tashkilot strategiyasi va lavozim talablaridan kelib chiqadi [20]	Lavozimlar bo‘yicha soft-kompetensiyalar profili

Determinant	Mazmuni	Pedagogik-tashkiliy shart
O‘qitish iqlimi va korporativ madaniyat	Tashkilotda o‘qish, xatolardan saboq olish va ochiq muloqot qadrlanadi [15; 18; 19]	Tajriba almashish maydonlari, ochiq qayta aloqa amaliyoti
Bevosita rahbar ko‘magi	Rahbarning boshlig‘i o‘qitish maqsadlarini muhokama qiladi va qo‘llashni rag‘batlantiradi [14; 17]	O‘qitishdan oldingi va keyingi suhbatlar, transfer kelishuvi
Qo‘llash imkoniyati	Rahbarga yangi ko‘nikmani qo‘llash uchun vazifa va vakolat beriladi [15; 16]	Ish joyidagi loyihalar, vakolatlarni kengaytirish
Rag‘batlantirish tizimi	Soft-kompetensiyalar rivojlanishi faoliyatni baholash va martaba bilan bog‘lanadi	Natijalarni attestatsiya va kadrlar zaxirasi tizimiga kiritish

Korporativ determinantlar ichida bevosita rahbar ko‘magi va qo‘llash imkoniyati alohida ahamiyatga ega. Rahbar kursdan qaytgach, uning boshlig‘i o‘rganilgan yondashuvlarga qiziqmasa yoki ularni qo‘llash uchun vazifa bermasa, yangi xulq-atvor tezda so‘nadi. J.Rouiller va I.Goldstein tadqiqotida aynan shunday holatlar ijobiy transfer iqlimi mavjud bo‘lmagan bo‘linmalarda ko‘proq kuzatilgan [14].

Andragogik va korporativ determinantlarning o‘zaro ta’siri.

Tahlil ikki guruh determinantlari bir-birini almashtira olmasligini ko‘rsatdi. Ularning o‘zaro ta’sirini to‘rt holatli matritsa ko‘rinishida ifodalash mumkin (1-rasm).



1-rasm. ***Andragogik va korporativ determinantlar o‘zaro ta’sirining matritsasi***

Matritsaning birinchi holati — “rivojlanish to‘xtaydi” — ikki guruh determinantlari ham past bo‘lganda yuzaga keladi: rahbar o‘qishga ehtiyoj sezmaydi, tashkilot esa o‘rganilganni qo‘llashni talab qilmaydi. Ikkinchi holat — “formal o‘qitish” — tashkilot qo‘llab-quvvatlasa-da, rahbarda ichki ehtiyoj va o‘z kuchiga ishonch yo‘q bo‘lganda kuzatiladi. Bunda malaka oshirish sertifikat olish uchun bajariladigan rasmiy talabga aylanadi.

Uchinchi holat — “ishlatilmagan salohiyat” — rahbar rivojlanishga tayyor bo‘lsa-da, tashkilot muhiti yangi xulq-atvorni qo‘llashga imkon bermaganda yuzaga keladi. Bu holat ayniqsa xavfli, chunki rahbarning motivatsiyasi pasayib, keyingi o‘qishlarga munosabati yomonlashadi. To‘rtinchi holat —

“barqaror rivojlanish” — andragogik tayyorlik va korporativ qo‘llab-quvvatlash uyg‘un bo‘lganda ta’minlanadi va soft-kompetensiyalarning ishga ko‘chishi uchun eng qulay sharoit hisoblanadi.

Matritsadan malaka oshirish jarayonini boshqarish uchun muhim xulosa kelib chiqadi: malaka oshirish muassasasi faqat o‘quv jarayoniga emas, balki ikkala o‘q bo‘yicha ham ta’sir ko‘rsatishi lozim. Andragogik determinantlarni kirish diagnostikasi, individual maqsad qo‘yish va bosqichli mashqlar orqali, korporativ determinantlarni esa tashkilot rahbariyati bilan hamkorlik, transfer kelishuvi va kursdan keyingi qo‘llab-quvvatlash orqali kuchaytirish mumkin.

Shuni ta’kidlash lozimki, taklif etilgan determinantlar tizimi va matritsa nazariy umumlashma natijasidir. Har bir determinantning soft-kompetensiyalar rivojlanishiga ta’sir kuchini aniqlash keyingi bosqichda so‘rovnoma va tajriba-sinov ishlari orqali empirik tekshirishni talab etadi.

XULOSA

Olib borilgan nazariy tahlil natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, malaka oshirish jarayonida rahbar-kadrlarning soft-kompetensiyalarini rivojlantirish natijasi faqat o‘quv dasturining sifati bilan emas, balki rahbar shaxsining tayyorligi va tashkilot muhitini ifodalovchi determinantlar bilan belgilanadi.

Ikkinchidan, andragogik determinantlar sifatida o‘qish ehtiyojini anglash, kasbiy tajriba, o‘z kuchiga ishonch, ichki motivatsiya va refleksiv tayyorlik asoslandi. Ular rahbarning o‘qish jarayoniga faol subyekt sifatida kirib kelishini ta’minlaydi.

Uchinchidan, korporativ determinantlar sifatida strategik muvofiqlik, o‘qitish iqlimi va korporativ madaniyat, bevosita rahbar ko‘magi, o‘rganilganni qo‘llash imkoniyati hamda rag‘batlantirish tizimi aniqlandi. Ular o‘rganilgan soft-kompetensiyalarning boshqaruv amaliyotiga ko‘chishini belgilaydi.

To‘rtinchidan, ikki guruh determinantlari o‘zaro bir-birini almashtirmaydi: soft-kompetensiyalarning barqaror rivojlanishi faqat andragogik tayyorlik va korporativ qo‘llab-quvvatlash uyg‘un bo‘lgan holatda ta’minlanadi. Keyingi tadqiqotlarda determinantlarning ta’sir kuchini empirik aniqlash va ularni boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 23.09.2020-yil, O‘RQ-637-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “«O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. 11.09.2023-yil, PF-158-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. 08.10.2019-yil, PF-5847-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
4. Baldwin T.T., Ford J.K. Transfer of training: A review and directions for future research // Personnel Psychology. – 1988. – Vol. 41(1). – P. 63–105.
5. Knowles M.S., Holton E.F., Swanson R.A. The Adult Learner: The Definitive Classic in Adult Education and Human Resource Development. 8th ed. – London–New York: Routledge, 2015.
6. Кулюткин Ю.Н. Психология обучения взрослых. – М.: Просвещение, 1985.
7. Змеёв С.И. Технология обучения взрослых. – М.: Академия, 2002.
8. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: ped. fan. dok. … diss. – Toshkent, 2007.
9. Bandura A. Self-Efficacy: The Exercise of Control. – New York: W.H. Freeman, 1997.
10. Noe R.A. Trainees’ attributes and attitudes: Neglected influences on training effectiveness // Academy of Management Review. – 1986. – Vol. 11(4). – P. 736–749.
11. Colquitt J.A., LePine J.A., Noe R.A. Toward an integrative theory of training motivation: A meta-analytic path analysis of 20 years of research // Journal of Applied Psychology. – 2000. – Vol. 85(5). – P. 678–707.
12. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1984.
13. Mezirow J. Transformative Dimensions of Adult Learning. – San Francisco: Jossey-Bass, 1991.
14. Rouiller J.Z., Goldstein I.L. The relationship between organizational transfer climate and positive transfer of training // Human Resource Development Quarterly. – 1993. – Vol. 4(4). – P. 377–390.
15. Tracey J.B., Tannenbaum S.I., Kavanagh M.J. Applying trained skills on the job: The importance of the work environment // Journal of Applied Psychology. – 1995. – Vol. 80(2). – P. 239–252.

16. Holton E.F., Bates R.A., Ruona W.E.A. Development of a generalized learning transfer system inventory // Human Resource Development Quarterly. – 2000. – Vol. 11(4). – P. 333–360.
17. Blume B.D., Ford J.K., Baldwin T.T., Huang J.L. Transfer of training: A meta-analytic review // Journal of Management. – 2010. – Vol. 36(4). – P. 1065–1105.
18. Schein E.H. Organizational Culture and Leadership. 4th ed. – San Francisco: Jossey-Bass, 2010.
19. Senge P.M. The Fifth Discipline: The Art and Practice of the Learning Organization. – New York: Doubleday, 1990.
20. Garavan T.N. Strategic human resource development // Journal of European Industrial Training. – 1991. – Vol. 15(1). – P. 17–30.

UDK: 37.014

TA’LIM MODERNIZATSIYASINI BAHOLASHNING IJTIMOIY-SIFAT MEZONLARI: MIQDORIY KO‘RSATKICHLARDAN SIFAT KO‘RSATKICHLARIGA

Jurayev Alisher Tulqinboyevich
University of Business and Science katta o‘qituvchisi, falsafa fanlari doktori (PhD)
Email: alisherumida1987@gmail.com
Tel: +998 99 270 00 20

